Bundan tashqari, CZTSSe yupqa qatlamlarini o‘stirishningning yana bir vakuum texnologiyasi impulsli lazerli cho‘ktirish (PLD) usulidir. Bu usulda yuqori energiyali lazer nuri manba yuzasidan materialning sirt qatlami olib tashlanadi va ajralgan zarralar taglikka cho‘kadi (3c-rasm). PLD usuli yuqori tozalikka ega yupqa qatlamlar olishga, shuningdek qatlam qalinligini aniq boshqarishga imkon beradi [34], [35].

Vakuum texnologiyalaridan tashqari, CZTSSe yupqa qatlamlarini tayyorlashda turli kimyoviy usullar ham keng qo‘llaniladi. Ular qatoriga sol-gel va purkash pirolizi (spray pyrolysis) texnologiyalari kiradi. Sol-gel jarayonida metall tuzlari yoki alkoksidlar eritmasi tayyorlanib, gel holatiga keltiriladi va keyinchalik issiqlikda ishlov berish orqali qattiq yupqa qatlamga aylantiriladi (3d-rasm). Purkash pirolizida esa $Cu^{2+}$, $Zn^{2+}$, $Sn^{4+}$ va $S^{2-}/Se^{2-}$ ionlarini o‘z ichiga olgan eritma qizdirilgan taglikka purkaladi va termik parchalanish natijasida yupqa qatlam hosil bo‘ladi. Ushbu kimyoviy usullarning afzalliklari past tannarxi, katta yuzalarni qamrab olish imkoniyati va jarayonning soddaligidan iborat [36], [37].

Elektrod cho‘ktirish (electrodeposition) CZTSSe yupqa qatlamlarini o‘stirishda keng qo‘llaniladigan boshqa usul hisoblanadi (3e-rasm). Ushbu usulda tarkibiy elementlar ketma-ket yoki bir vaqtda elektrod yuzasiga cho‘ktiladi, hosil bo‘lgan qatlam esa keyinchalik selenizatsiya yoki sulfirizatsiya (selen yoki oltingugurt bilan ishlov berish) orqali CZTSSe qatlamiga aylantiriladi. Bu texnologiya energiya tejamkor bo‘lib, nisbatan past haroratlarda amalga oshirilishi mumkin [44], [45].

Shuningdek, eritma asosidagi cho‘ktirish texnologiyalari masalan, *inkjet* bosib chiqarish, *spin coating* va *doctor blading* ham keng qo‘llaniladi. Masalan, *inkjet* bosib chiqarilgan CZTSSe qurilmalarida FIK 12.86 % ga yetganligi habar berilgan [46], [47], [48].

Kristallik darajasini oshirish, qatlam qalinligini aniq boshqarish va fotovoltaik ishlashni yaxshilash maqsadida, hosil bo‘lgan CZTSSe qatlamlari odatda cho‘ktirishdan keyingi selenizatsiya va sulfirizatsiya jarayonlaridan o‘tkaziladi (3f-rasm). Bu jarayon yupqa qatlam sirtini optimallashtiradi va qurilmalarning samaradorligini oshishiga olib keladi [49].






3-rasm. (a) Magnitron purkash texnologiyasi yordamida CZTSSe yupqa qatlamini olish va issiqlikda ishlov berish jarayonlarining sxematik ko‘rinishi [38]; (b) Yupqa qatlamlarini bir vaqtda bug‘lantirish jarayonining sxematik tasviri [39]; (c) Klassik PLD texnologiyasining sxematik ko‘rinishi [40]; (d) Sol-gel eritmasi yordamida yupqa qatlamlarni hosil qilish: spin coating va issiqlikda ishlov berish jarayonlari [41]; (e) Impulsli gibrid elektrod cho‘ktirishda ishlatiladigan uch elektrodli tuzilmaning sxematik ko‘rinishi [42]; (f) CZTSSe yupqa qatlamlari uchun selenezatsiya bo‘yicha issiqlikda ishlov berish jarayonida ishlatiladigan grafit qutining sxematik tasviri [43]

**CZTSSe asosidagi QE ning samaradorligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar va erishilgan natijalar**

*Kirishmalar kiritilishining ta’siri (Na, Li, K, Ge va boshqalar)*

Kirishmalarning kiritilishi CZTSSe asosidagi QE ning samaradorligini oshirish bo‘yicha eng istiqbolli strategiyalardan biri hisoblanadi. Q. Sun va hamkasblari Li va Na yordamida qo‘sh kirishma strategiyasini qo‘llab, CZTSSe hajm strukturadagi nuqsonlarni sinergik boshqarishni amalga oshirdi (4a,b-rasm). Natijada, zararli $Cu_{Zn}$ antisayt nuqsonlarining kontsentratsiyasi 8,13% ga kamaygan, foydali $Na_{Zn}$ nuqsonlari esa 36,91% ga oshgan. Hosil bo‘lgan egiluvchan CZTSSe QE maksimal FIK 10,53% ga erishdi [50]. W. Li va hamkasblari CZTSSe da K kirishmasining ta’sirini eritma asosidagi usul yordamida o‘rgandilar (4c,d-rasm). Kirishma kontsentratsiyasini boshqarish orqali ular CZTSSe yupqa qatlamli QE ning samaradorligini yanada oshirish mumkinligini ko‘rsatdilar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, 1,5 mol% K kirishmasi CdS/CZTSSe interfeysidagi rekombinatsiya markazlarini samarali passivlashtirib, zaryad tashuvchilar yig‘ilishini yaxshilaydi, zaryad tashuvchilar zichligini oshiradi va FIK ni 7,78% ga yetkazadi [51].

Sh. Tao va hamkasblari CZTSe yutuvchi qatlamlarida salt yurituvchi kuchlanish ($V_{SYu}$) yo‘qotilishini kamaytirish uchun Ge kirishma strategiyasini ishlab chiqdi. Optimal Ge kirishmasi bilan CZTSe QE sertifikatlangan 14,67% samaradorlikka erishdi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, Ge kirishmasi donachalar o‘sishini rag‘batlantiradi, tarmoqli egilishini kuchaytiradi, donacha chegaralarini samarali passivlashtiradi va hajmiy zaryad sohasidagi rekombinatsiyani kamaytiradi [52]. Ch. Mia va hamkasblari CZTSSe qatlamlaridagi Cu bilan bog‘liq nuqsonlarni kamaytirish uchun alkal metall kirishma strategiyasini taklif qildilar (4e-rasm). Ularning natijalari shuni ko‘rsatdiki, 2% Rb kirishmasi RCZTSSe qatlamida eng zich sirt morfologiyasi va minimal bo‘shliqlarni ta’minlaydi. Shuningdek, Rb kirishmasi $Cu_{Zn}$ nuqsonlarining va ular bilan bog‘liq nuqson klasterlarining hosil bo‘lishini samarali ravishda bostiradi va yupqa qatlamlarning elektr xususiyatlarini yaxshilaydi. Hosil bo‘lgan RCZTSSe qurilmasi FIK 7,32% ga erishib, kirishmasiz CZTSSe QE ga nisbatan sezilarli yaxshilanishni ko‘rsatadi [53].

V. Karade va hamkasblari CZTSSe da Ag kirishmasi interfeys nuqsonlarini samarali kamaytirishini, Ge kirishmasi esa chuqur darajadagi nuqsonlarni passivlashtirishini bildirgan. Ag va Ge bilan qo‘sh kirishma qurilmaning samaradorligini 9,11% dan 11,32% gacha oshirdi [54]. X. Zhao va hamkasblari Ag/H qo‘sh kirishma strategiyasidan foydalanib, $Sn_{Zn}$ bilan bog‘liq nuqsonlarni samarali passivlashtirdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, H kirishmasi Ag asosidagi CZTSSe absorbentlarining elektr o‘tkazuvchanligini sezilarli darajada oshiradi, zaryad tashuvchilar zichligi va umrini uzaytiradi hamda radiatsiyasiz rekombinatsiyani samarali bostirgan. Natijada, Ag/H qo‘sh kirishma CZTSSe QE FIK 14,74% ga erishdi [55].

*Geterostrukturalar va buffer qatlamlarni optimallashtirish*

CZTSSe asosidagi yupqa qatlamli QElarning samaradorligini oshirishda, buffer va o‘tkazuvchi qatlamlarni tanlash va optimallashtirish muhim ahamiyatga ega, chunki ushbu qatlamlar spektral yutilish va zaryad tashuvchilar tashilishini yaxshilashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. X. Zhao va hamkasblari CdS qatlamiga vodorod plazma ishlov berishni taklif qilib, CZTSSe/CdS geterointerfeys sifatini boshqarish, $V_{SYu}$ va FIK ni oshirishni maqsad qilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, bu yondashuv nuqsonlar bilan bog‘liq rekombinatsiya va sirt energiya yo‘qotilishini kamaytirib, QE samaradorligini 14,96 % ga yetkazgan [56]. S. Campbell va hamkasblari Cd/In ikkita komponentli gibrid buffer qatlamni qo‘llash orqali

zaryad tashuvchilarni yig‘ish va ajratishni yaxshilash mumkinligini namoyish qilgan, bu esa 7,75 % samaradorlikka olib kelgan (4f-rasm) [57].

H. Jeong va hamkasblari Zn(O,S) buffer qatlamiga asoslangan CZTSSe QElarining samaradorligini oshirish uchun $(NH_4)_2S$ sirt ishlov berishni o‘rgangan. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, 1 daqiqalik ishlov berish FIK ni dastlabki 7,46 % dan 9,82 % gacha oshirgan, bu sirt oksid va gidroksidlarni samarali yo‘q qilish hamda sirtni oltingugurt bilan passivlashtirish bilan izohlanadi, bu esa Fill faktorni (FF) oshirgan [58]. M. Kauk-Kuusik va hamkasblari CZTS/CdS heterointerfeysida havoda qizdirish harorati va vaqtining ta’sirini o‘rgangan. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, optimal qizdirish harorati 175–200 °C oralig‘ida va optimal qizdirish vaqti 30 daqiqa davomida ishlov berilgan QE ning samaradorligi 7,5 % ga yetkaziladi [59].

G. Tseberlidis va hamkorlari CZTS qatlamlari uchun yangi 20 nm $TiO_2$ buffer qatlamini taklif qilgan. Bu yondashuv Cd-free CZTS/$TiO_2$ qurilmasida 3,01 % samaradorlikka olib kelgan [60]. V. Pakštas va hamkasblari superstreit konfiguratsiyasida (quyosh nuri oyna tomondan tushadi) past haroratli qo‘shimcha selenizatsiya va $Sb_2Se_3$ buffer qatlamlarining CZTSSe QElariga ta’sirini o‘rgangan. 420 °C da selenizatsiya qilingan namunalar yuqori sifat, minimal tarkibiy nuqsonlar va past nuqson zichligini ko‘rsatgan. $Sb_2Se_3$ buffer qatlamini muvaffaqiyatli qo‘llash qurilma samaradorligini 3,48 % ga oshirgan [36]. H. Bencherif va hamkasblari IGZO, $WS_2$, $TiO_2$, ZnO va ZnS kabi Cd-free muqobil buffer materiallaridagi $V_{SYu}$ yo‘qotishlarini hal qilish uchun raqamli modellashtirish o‘tkazgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, Mg tarkibini sozlash orqali ZnO ning elektron qabul qiluvchanligini optimallashtirish ZnO/CZTS interfeysidagi energiya mosligini yaxshilab, qurilma samaradorligini 8,8 % dan 10,68 % gacha oshiradi [61]. L. Grenet va hamkasblari CZTS QElari uchun ZnSnO ni buffer qatlam sifatida sinab ko‘rgan. Ar:$O_2$ yoki Ar:$SF_6$ bilan reaktiv purkash orqali ZnSnO ning optoelektron xususiyatlarini yanada optimallashtirish Mo/CZTS/ZnSnO/ZnO:Al strukturali qurilmasida 5,2 % samaradorlikka olib kelgan [62].






4-rasm. (a) CZTSSe yupqa qatlamlarida Li va Na birgalikda kiritish strategiyasining sxematik tasviri va (b) ikkinchi darajali ion mass-spektrometriya (SIMS) chuqurlik profili [50]; (c) Rengen tahlillari va (d) 532 nm lazer nurlanishi ostida 560 °C da 10 daqiqa selenizatsiya qilingan, legirlanmagan va K bilan legirlangan CZTSSe yupqa qatlamlarining Raman spektrlari [51]; (e) RCZTSSe QE ni tayyorlash jarayonining sxematik chizmasi [53]; (f) CZTSSe–$In_2S_3$–CdS (qizil) va CZTSSe–CdS–$In_2S_3$ (ko‘k) strukturalari uchun volt-farad (C–V) va tashqi kvant samaradorlik (EQE) o‘lchovlari asosida aniqlangan hajmiy zaryad sohasi kengligi va asosiy bo‘lmagan zaryad tashuvchilarning diffuziya yo‘li uzunligi yig‘indisi [57]; (g) 10 % Al CZTSSe yupqa qatlami uchun Maydonli Emissiya o‘tish Elektron Mikroskopiyasi (FETEM) tasviri va Al, O hamda (Al+O) EDS xaritalari [63].

1-jadval. Turli strukturalarda olingan CZTSSe yupqa qatlamli QE ning tavsiflovchi asosiy kattaliklar

| Structures | $V_{OC}$, mV | $J_{SC}$, mA/cm$^2$ | FF, % | PCE, % | Ref. |
|---|---|---|---|---|---|
| Mo foil/CZTSSe:Li&Na/CdS/ITO/$MgF_2$/Ag | 503 | 30.79 | 68.11 | 10.53 | [50] |
| SLG/Mo/CZTSSe:K/CdS/i-ZnO/ZnO:Al /Ag | 405 | 30.90 | 62.2 | 7.78 | [51] |
| SLG/Mo/CZTSe:Ge/CdS/i-ZnO/ZnO:Al/Ni/Al | 470 | 37.9 | 82.5 | 14.7 | [52] |
| SLG/Mo/RCZTSSe/CdS/ZnO/ITO/Ag | 379.69 | 35.27 | 54.66 | 7.32 | [53] |
| SLG /Mo/Ag-based CZTSSe:H/CdS/i-ZnO/ITO/Ag | 564,07 | 37,49 | 69,71 | 14.74 | [55] |
| SLG/Mo/CZTSSe/CdS/i-ZnO/ITO/Ag | 570.92 | 36.78 | 71.22 | 14.96 | [56] |
| SLG/Mo/CZTSSe/CdS/ $In_2S_3$/i-ZnO/ITO/Al | 372 | 36.7 | 57.5 | 7.75 | [57] |
| SLG/Au/CZTS/CdS/i-ZnO/ZnO:Al/Au | 724 | 18.1 | 57 | 7.5 | [59] |
| SLG/Mo/CZTS/$TiO_2$/ ZnO:Al/Al | 465 | 16.5 | 39.1 | 3.01 | [60] |
| SLG/FTO/$TiO_2$/$Sb_2Se_3$/CZTSSe/PEROT:PSS/Au | *300* | *25.17* | *39.4* | *3.48* | [36] |
| SLG/Mo/CZTS/ZnSnO/ZnO:Al/Ni/Al | *721* | *14.0* | *51.4* | *5.2* | [62] |
| SLG/Mo/CZTSSe/ZMO/i-ZnO/ITO/Au | *343* | *27.2* | *35.5* | *3.3* | [64] |
| SLG/Mo/$MoS_2$/CZTSSe/CdS/i-ZnO/ITO/Al/$MgF_2$ | 689.8 | 19.96 | 64.6 | 8.90 | [65] |
| SLG/Mo/CZTSSe:$Al_2O_3$/CdS/i-ZnO/ITO/Al/$MgF_2$ | 469 | 36.96 | 67.25 | 11.67 | [63] |

P. Punathil va hamkasblari CZTSSe QElarida istiqbolli buffer qatlam sifatida $Zn_{1-x}Mg_xO$ (ZMO, $0 \le x \le 1$) yupqa qatlamlarini o‘rgandilar. Eksperimental va modellashtirish natijalari ZMO $V_{SYu}$ ni oshirganini ko‘rsatdi, maksimal samaradorlik x = 0,16 da 3,3 % ga yetgan [64]. X. Lu va hamkasblari CZTS/CdS geterostrukturalarida issiqlikda ishlov berishning ta’sirini keng o‘rgandilar. Issiqlikda ishlov berish Cd ning CZTS ga va Zn/Cu ning CdS ga diffuziyasini rag‘batlantirib, interfeysda energetik moslikni yaxshiladi. Optimal 275 °C da issiqlikda ishlov berilgan CZTS QE ning 8,9 % samaradorlikka erishishini ta’minladi [65]. B. Eghbalifar va hamkasblari CZTSSe QElarida buffer qatlam sifatida $In_2S_3$ ni qo‘llash uchun raqamli modellashtirishni amalga oshirdi. Simulyatsiya natijalari eksperimental ma’lumotlarga yaqin bo‘lib, bufferning elektro-optik xususiyatlari qurilma samaradorligini 10,33 % dan 10,50 % gacha oshirdi [66]. S. Prabhu va hamkasblari SCAPS-1D dasturi yordamida ZnS, ZnSe va $Zn_{0.8}Sn_{0.2}O$ ni muqobil buffer qatlamlar sifatida solishtirdilar, natijada FIK mos ravishda 13,98 %, 14,28 % va 14,53 % ga yetdi, bu optimal energetik daraja mosligi va zaryad tashuvchilar rekombinatsiyasining kamayishiga bog‘liq [67]. T. Lee va hamkasblari CZTSSe absorbentiga $Al_2O_3$ ni in situ kiritishni hisobot qilgan. Optimal $Al_2O_3$ miqdori Urbach energiyasi va orqa kontakt to‘sig‘ini kamaytirib, ketma-ket qarshilikni ($R_k$) pasaytirdi va $J_{qt}$, $V_{SYu}$ hamda FF ni sezilarli darajada oshirdi, natijada qurilma samaradorligi 11,67 % ga yetdi (4g-rasm) [63].

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot CZTSSe asosidagi QElarning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy yutuqlarni keng qamrovli tahlil qiladi. Xususan, CZTSSe yutuvchi qatlamiga kirishmalar (Na, Li, K, Ge, Rb va Ag) kiritilishining ta’siri hamda buffer qatlamlarning eksperimental va modellashtirish asosidagi optimallashtirilishi strukturaviy va fotoelektrik xususiyatlarni yaxshilashdagi rolini ko‘rsatib beradi. Sharhlangan tadqiqotlar CZTSSe asosidagi QElarning samaradorligi yutuvchi qatlamning tarkibi, kirishma strategiyasi turi va buffer qatlam tanloviga bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Ge, H va $Al_2O_3$ bilan legirlangan namunalar donacha o‘sishini kuchaytirib, rekombinatsiya jarayonlarini kamaytirgan va elektr hamda fotoelektrik xususiyatlarni yaxshilagan, samaradorlik taxminan 14% ga yetgan. Shuningdek, Cd ishlatilinmagan muqobil buffer qatlamlar (ZnSnO, ZMO, $TiO_2$ va $In_2S_3$) CdS ga nisbatan ekologik jihatdan qulayroq bo‘lsa-da, ularning quvvatga aylantirish samaradorligi 10% dan past bo‘lib, buffer va yutuvchi qatlamlar orasidagi energetik moslikni yanada optimallashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, optimal kirishma strategiyalari va mos buffer qatlamlarini tanlash mexanizmlarini chuqur tushunish CZTSSe/buffer interfeysida rekombinatsiya markazlarini samarali passivlashtirish, energiya tarmoqlarini to‘g‘ri moslashtirish, zaryad tashuvchilarni ajratish va yig‘ish hamda ularning zichligi va umrini oshirish imkonini beradi.

Tahlil shuni tasdiqladiki, yutuvchi qatlamga kirishmalar kiritish va buffer qatlamlarni eksperimental natijalar hamda raqamli modellashtirish asosida optimallashtirish kesterit asosidagi yupqa qatlamli QElarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Moliyalashtirish.**

Ushbu ilmiy ish Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovasion rivojlanish agentligi tomonidan (Grant № AL-9224104496) qo‘llab-quvvatlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

[1] “International Energy Agency (IEA), World Energy Outlook 2024, Paris, 2024.”.

[2] “REN21, Renewables 2024 Global Status Report, Paris: REN21 Secretariat, 2024.”.

[3] “Green, M. A., et al. Solar cell efficiency tables (version 62). Progress in Photovoltaics: Research and Applications, 2023.”.

[4] A. Polman, M. Knight, E. C. Garnett, B. Ehrler, and W. C. Sinke, “Photovoltaic materials: Present efficiencies and future challenges,” *Science (1979)*, vol. 352, no. 6283, p. aad4424, 2016.

[5] “NREL Best Research-Cell Efficiency Chart, 2024.”.

[6] T. M. Razykov *et al.*, “Characteristics of thin Sb2Se3 films obtained by the chemical molecular beam deposition method for thin-film solar cells,” *Thin Solid Films*, vol. 774, p. 139844, 2023.

[7] T. M. Razykov *et al.*, “Effect of substrate temperature on the microstructural and optical properties of chemical molecular beam deposited sb2s3 films,” *Journal of Materials Science: Materials in Electronics*, vol. 35, no. 36, p. 2295, 2024.

[8] D. Intal and A. Ebong, “Thin-Film Solar Photovoltaics: Trends and Future Directions,” in *2024 IEEE 21st International Conference on Smart Communities: Improving Quality of Life using AI, Robotics and IoT (HONET)*, IEEE, 2024, pp. 135–142.

[9] T. M. Razykov *et al.*, “Growth and characterization of Sb2 (SxSe1-x) 3 thin films prepared by chemical-molecular beam deposition for solar cell applications,” *Thin Solid Films*, vol. 807, p. 140554, 2024.

[10] T. M. Razykov *et al.*, “Microstructural, optical, and electrophysical properties of Sb2 (SxSe1-x) 3 films for solar cells,” *Solar Energy*, vol. 302, p. 114021, 2025.

[11] X.-F. Dong *et al.*, "An effective Li-containing interfacial-treating strategy for performance enhancement of air-processed CZTSSe solar cells," *Solar Energy Materials and Solar Cells*, vol. 227, p. 111102, 2021.

[12] S. Chen *et al.*, "Compositional dependence of structural and electronic properties of Cu 2 ZnSn (S, Se) 4 alloys for thin film solar cells," *Physical Review B—Condensed Matter and Materials Physics*, vol. 83, no. 12, p. 125201, 2011.

[13] Q. Yu *et al.*, "Eliminating multi-layer crystallization of Cu2ZnSn (S, Se) 4 absorber by controlling back interface reaction," *Nano Energy*, vol. 76, p. 105042, 2020.

[14] M. A. Green, K. Emery, Y. Hishikawa, W. Warta, and E. D. Dunlop, "Solar cell efficiency tables (version 39)," *Progress in photovoltaics: research and applications*, vol. 20, no. 1, pp. 12–20, 2012.

[15] M. He *et al.*, "Kesterite solar cells: insights into current strategies and challenges," *Advanced Science*, vol. 8, no. 9, p. 2004313, 2021.

[16] A. Wang, M. He, M. A. Green, K. Sun, and X. Hao, "A critical review on the progress of kesterite solar cells: Current strategies and insights," *Adv Energy Mater*, vol. 13, no. 2, p. 2203046, 2023.

[17] J. Fu *et al.*, "A critical review of solution-process engineering for kesterite thin-film solar cells: current strategies and prospects," *J Mater Chem A Mater*, vol. 12, no. 2, pp. 545–566, 2024.

[18] S. et al. Chen, "Kesterite $Cu_2ZnSnS_4$ solar cells: structure, properties and strategies for improving efficiency.," *Advanced Materials*, vol. 25, no. 11, pp. 1522–1539, 2013.

[19] S. Schorr, "The crystal structure of kesterite type compounds: A neutron and X-ray diffraction study," *Solar Energy Materials and Solar Cells*, vol. 95, no. 6, pp. 1482–1488, 2011.

[20] S. Delbos, "Këwhile thin films for photovoltaics: a review," *EPJ Photovoltaics*, vol. 3, p. 35004, 2012.

[21] M. Sharif, X. Ma, and E. Ghadiri, "Visualization and deconvolution of carrier kinetics within grains of Cu 2 ZnSnS 4− x Se x using ultrafast diffuse reflectance microscopy," *J Mater Chem C Mater*, vol. 12, no. 32, pp. 12254–12265, 2024.

[22] S. Schorr, "The crystal structure of kesterite type compounds: A neutron and X-ray diffraction study," *Solar Energy Materials and Solar Cells*, vol. 95, no. 6, pp. 1482–1488, 2011.

[23] S. Chen, X. G. Gong, A. Walsh, and S.-H. Wei, "Electronic structure and stability of quaternary chalcogenide semiconductors derived from cation cross-substitution of II-VI and I-III-VI 2 compounds," *Physical Review B—Condensed Matter and Materials Physics*, vol. 79, no. 16, p. 165211, 2009.

[24] J. et al. , Li, "Band gap bowing and optoelectronic properties of $Cu_2ZnSn(S_xSe_{1-x})_4$ alloys: A combined experimental and DFT study," *ACS Appl Mater Interfaces*, vol. 12, pp. 4857–4865, 2020.

[25] J. J. S. Scragg, L. Choubrac, A. Lafond, T. Ericson, and C. Platzer-Björkman, "A low-temperature order-disorder transition in Cu2ZnSnS4 thin films," *Appl Phys Lett*, vol. 104, no. 4, 2014.

[26] A. et al. , Walsh, "$Cu_2ZnSnS_4$ as a photovoltaic absorber: A theoretical and experimental perspective," *Energy Environ Sci*, vol. 5, pp. 11739–11750, 2012.

[27] S. Chen, J.-H. Yang, X.-G. Gong, A. Walsh, and S.-H. Wei, "Intrinsic point defects and complexes in the quaternary kesterite semiconductor Cu 2 ZnSnS 4," *Physical Review B—Condensed Matter and Materials Physics*, vol. 81, no. 24, p. 245204, 2010.

[28] S. Chen, X. G. Gong, A. Walsh, and S.-H. Wei, "Defect physics of the kesterite thin-film solar cell absorber Cu2ZnSnS4," *Appl Phys Lett*, vol. 96, no. 2, 2010.

[29] G. Larramona et al., " 'Electrical properties of $Cu_2ZnSn(S,Se)_4$-based solar cells: influence of composition and annealing,' Solar Energy Materials and Solar Cells, 166, 28–36 (2017).," *Solar Energy Materials and Solar Cells*, vol. 166, pp. 28–36, 2017.

[30] D. Shin et al., "'Carrier transport and recombination in $Cu_2ZnSn(S,Se)_4$ thin-film solar cells,'" *Advanced Energy Materials*, vol. 8, no. 1702756, 2018.

[31] N. Akcay, V. F. Gremenok, E. P. Zaretskaya, and S. Ozcelik, "Investigation on the properties of Cu2ZnSnSe4 and Cu2ZnSn (S, Se) 4 absorber films prepared by magnetron sputtering technique using Zn and ZnS targets in precursor stacks," *Int J Energy Res*, vol. 45, no. 2, pp. 2398–2415, 2021.

[32] A. Redinger, M. Mousel, R. Djemour, L. Gütay, N. Valle, and S. Siebentritt, "Cu2ZnSnSe4 thin film solar cells produced via co-evaporation and annealing including a SnSe2 capping layer," *Progress in Photovoltaics: Research and Applications*, vol. 22, no. 1, pp. 51–57, 2014.

[33] S. Jung *et al.*, "Cu2ZnSnSe4 thin film solar cells based on a single-step co-evaporation process," *Thin Solid Films*, vol. 535, pp. 52–56, 2013.

[34] Physica Status Solidi (A), "Pulsed laser deposition of quaternary $Cu_2ZnSnSe_4$ thin films," *Applications and Materials Science*, vol. 204, no. 10, pp. 3373–3379, 2007.

[35] M.-Y. Zaki *et al.*, "Synthesis and characterization of Cu2ZnSnS4 thin films obtained by combined magnetron sputtering and pulsed laser deposition," *Nanomaterials*, vol. 11, no. 9, p. 2403, 2021.

[36] V. Pakštas *et al.*, "Improvement of CZTSSe film quality and superstrate solar cell performance through optimized post-deposition annealing," *Sci Rep*, vol. 12, no. 1, p. 16170, 2022.

[37] R. Massadeh and M. M. Hamasha, "Comprehensive review of CZTS deposition techniques and experimental insights into low-temperature chemical synthesis of CZTS thin film solar cells," *Opt Mater (Amst)*, vol. 157, p. 116427, 2024.

[38] D. K. Sadanand, F. A. Alharthi, and A. El Marghany23, "One-Step Hydrothermal Synthesis of CZTSSe Nanoparticles: Structural and Optical Properties," 2020.

[39] M. Y. Zaki and A. Velea, "Recent Progress and Challenges in Controlling Secondary Phases in Kesterite CZT (S/Se) Thin Films: A Critical Review. Energies 2024, 17 (7), 1600."

[40] I. G. Orletskyi *et al.*, "Structural, optical and electrical properties of Cu2ZnSnS4 films prepared from a non-toxic DMSO-based sol-gel and synthesized in low vacuum," *Journal of Physics and Chemistry of Solids*, vol. 100, pp. 154–160, 2017.

[41] H.-W. Tsai *et al.*, "Facile growth of Cu2ZnSnS4 thin-film by one-step pulsed hybrid electrophoretic and electroplating deposition," *Sci Rep*, vol. 6, no. 1, p. 19102, 2016.

[42] F. Zeng *et al.*, "Exploring the Effect of Selenidation Time on the Ni-Doped Cu2ZnSn (S, Se) 4 Solar Cell," *Nanomaterials*, vol. 12, no. 23, p. 4311, 2022.

[43] A. Boudouma *et al.*, "Electrodeposition synthesis of Cu2ZnSnS4 (CZTS) thin films as a promising material for photovoltaic cells: fundamentals, methods, and future prospects-a comprehensive review," *Materials Today Sustainability*, vol. 28, p. 101018, 2024.

[44] S. K. Hwang, J. H. Yoon, and J. Y. Kim, "Current status and future prospects of kesterite Cu2ZnSn (S, Se) 4 (CZTSSe) thin film solar cells prepared via electrochemical deposition," *ChemElectroChem*, vol. 11, no. 9, p. e202300729, 2024.

[45] Y. Mao *et al.*, "12.86% Efficient Cu2ZnSn (S, Se) 4 Thin Film Solar Cells via Inkjet Printing with 2-Methoxyethanol-Based Air-Stable Precursor Ink," *Adv Funct Mater*, vol. 35, no. 10, p. 2416689, 2025.

[46] X. Lin, J. Kavalakkatt, M. C. Lux-Steiner, and A. Ennaoui, "Air-stable solution processed Cu2ZnSn (Sx, Se (1-x)) 4 thin film solar cells: influence of ink precursors and preparation process," *MRS Online Proceedings Library (OPL)*, vol. 1538, pp. 107–114, 2013.

[47] H. Xu, S. Ge, T. Wang, E. Gu, and X. Lin, "Flexible Cu2ZnSn (S, Se) 4 thin film solar cells with lithium doping via doctor blading," *Sci China Mater*, vol. 67, no. 1, pp. 67–75, 2024.

[48] L.-C. Wang, Y.-C. Lin, and H.-R. Hsu, "Improving the efficiency of a Cu2ZnSn (S, Se) 4 solar cell using a non-toxic simultaneous selenization/sulfurization process," *Mater Sci Semicond Process*, vol. 75, pp. 84–94, 2018.

[49] Q. Sun *et al.*, "Defect synergistic regulations of Li&Na Co-doped flexible Cu2ZnSn (S, Se) 4 solar cells achieving over 10% certified efficiency," *Advanced Science*, vol. 11, no. 6, p. 2306740, 2024.

[50] W. Li *et al.*, "Revealing the role of potassium treatment in CZTSSe thin film solar cells," *Chemistry of Materials*, vol. 29, no. 10, pp. 4273–4281, 2017.

[51] S. Tao *et al.*, "Ge-Doped CZTSe Solar Cell Efficiency Beyond 14% by Suppressing Recombination," *Adv Funct Mater*, p. 2423251, 2025.

[52] C. Miao *et al.*, "Insight into the Role of Rb Doping for Highly Efficient Kesterite Cu2ZnSn (S, Se) 4 Solar Cells," *Molecules*, vol. 29, no. 15, p. 3670, 2024.

[53] V. Karade, K. Kim, J. H. Yun, and J. H. Kim, "Effect of Double Cation Substitution on Nonradiative Recombination Losses in Cu2ZnSn (S, Se) 4 Solar Cells," in *2023 IEEE 50th Photovoltaic Specialists Conference (PVSC)*, IEEE, 2023, p. 1.

[54] X. Zhao *et al.*, "Revealing the role of hydrogen in highly efficient Ag-substituted CZTSSe photovoltaic devices: photoelectric properties modulation and defect passivation," *Nanomicro Lett*, vol. 17, no. 1, p. 84, 2025.

[55] X. Zhao *et al.*, "Interfacial engineering of CZTSSe/CdS heterojunctions via hydrogen-modified CdS buffer layers for high-efficiency kesterite solar cells," *Chemical Engineering Journal*, p. 168112, 2025.

[56] S. Campbell *et al.*, "Enhanced carrier collection in Cd/In-based dual buffers in kesterite thin-film solar cells from nanoparticle inks," *ACS Appl Energy Mater*, vol. 6, no. 21, pp. 10883–10896, 2023.

[57] H. Jeong *et al.*, "CZTSSe/Zn (O, S) heterojunction solar cells with 9.82% efficiency enabled via (NH4) 2S treatment of absorber layer," *Progress in Photovoltaics: Research and Applications*, vol. 29, no. 10, pp. 1057–1067, 2021.

[58] M. Kauk-Kuusik *et al.*, "Detailed insight into the CZTS/CdS interface modification by air annealing in monograin layer solar cells," *ACS Appl Energy Mater*, vol. 4, no. 11, pp. 12374–12382, 2021.

[59] G. Tseberlidis *et al.*, "Titania as buffer layer for Cd-free kesterite solar cells," *ACS Mater Lett*, vol. 5, no. 1, pp. 219–224, 2022.

[60] H. Bencherif, “Towards a high efficient Cd-free double CZTS layers kesterite solar cell using an optimized interface band alignment,” *Solar Energy*, vol. 238, pp. 114–125, 2022.

[61] L. Grenet *et al.*, “Sputtered ZnSnO buffer layers for kesterite solar cells,” *ACS Appl Energy Mater*, vol. 3, no. 2, pp. 1883–1891, 2020.

[62] T. Lee, M. Hamim Sharif, E. Enkhbayar, T. Enkhbat, M. Salahuddin Mina, and J. Kim, “Defect passivation for kesterite CZTSSe solar cells via in situ Al2O3 incorporation into the bulk CZTSSe absorber,” *Solar RRL*, vol. 6, no. 4, p. 2100862, 2022.

[63] P. Punathil *et al.*, “Zn1− xMg xO thin films as a sustainable layer for CZTSSe solar cells,” *Journal of Physics: Energy*, vol. 7, no. 3, p. 035014, 2025.

[64] X. Lu *et al.*, “Heterojunction post-heat treatment process driving high efficiency for Cu2ZnSnS4 solar cell,” *Solar Energy Materials and Solar Cells*, vol. 230, p. 111204, 2021.

[65] B. Eghbalifar, H. Izadneshan, G. Solookinejad, and L. Separdar, “Investigating In2S3 as the buffer layer in CZTSSe solar cells using simulation and experimental approaches,” *Solid State Commun*, vol. 343, p. 114654, 2022.

[66] S. Prabhu, S. K. Pandey, and S. Chakrabarti, “Improvement in performance of CZTSSe solar cell by using cadmium free buffer layers,” in *Active Photonic Platforms XIII*, SPIE, 2021, pp. 63–70.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

**Yoqubjanov Urozali Nosirjon o‘g‘li**
Namangan davlat universiteti Fizika-Matematika fakulteti
Amaliy matematika va informatika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
e-pochta: yoqubjanovurozali89@gmail.com

## MOBIL LUG‘AT ILOVASINING ALGORITMIK MODELI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada amaliy matematika terminlarini o‘rganish samaradorligini oshirishga qaratilgan mobil lug‘at ilovasining algoritmik modeli ishlab chiqilgan va ilmiy asoslangan. Tadqiqotda terminologik bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan zamonaviy mobil texnologiyalar imkoniyatlari o‘rganilgan. Mobil lug‘at ilovasining strukturaviy va funksional arxitekturasi ishlab chiqilib, terminlarni tezkor qidirish, semantik bog‘lanishda taqdim etish hamda foydalanuvchi faoliyatiga moslashuvchi algoritmlar taklif etilgan. Maqolada termin–ta’rif–formula–amaliy misol o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishga asoslangan ko‘p komponentli modelning ishlash mexanizmi yoritilgan. Shuningdek, mobil lug‘at ilovasida adaptiv o‘rganish va testlash algoritmlaridan foydalanish orqali terminologik kompetensiyani shakllantirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Tajriba-sinov natijalari taklif etilgan algoritmik modeldan foydalanish talabalarning amaliy matematika terminlarini o‘zlashtirish darajasini sezilarli oshirishini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari amaliy matematika ta’limida raqamli lug‘atlar va mobil ta’lim resurslarini ishlab chiqish hamda joriy etishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

***Kalit so‘zlar:*** *amaliy matematika, mobil lug‘at, algoritmik model, terminologiya, mobil ta’lim, raqamli ta’lim, terminlarni o‘rganish samaradorligi, adaptiv o‘rganish*

**Yaqubjanov Urozali Nasirjon oglu**
Namangan State University, Faculty of Physics and Mathematics
1st year master's student, majoring in Applied Mathematics and Informatics

***Abstract:*** *This article presents the development and scientific justification of an algorithmic model of a mobile dictionary application aimed at improving the effectiveness of learning applied mathematics terminology. The study analyzes the main challenges in mastering mathematical terminology and explores the potential of mobile technologies in the educational process. A structural and functional architecture of the mobile dictionary is proposed, incorporating algorithms for fast term search, semantic representation, and user-adaptive learning. The paper describes a multi-component model based on the logical relationship between “term – definition – formula – practical example,” which ensures systematic and meaningful knowledge acquisition. In addition, the use of adaptive learning and testing algorithms for the formation of terminological competence is demonstrated. Experimental results confirm that the proposed algorithmic model significantly enhances students’ mastery of applied mathematics terminology. The findings of the study have scientific and practical significance for the development and implementation of digital dictionaries and mobile learning resources in higher education.*

***Keywords:*** *applied mathematics, mobile dictionary, algorithmic model, terminology, mobile learning, digital education, effectiveness of terminology learning, adaptive learning*

**Якубьянов Урозали Насирджон оглу**
Наманганский государственный университет, факультет физики и математики
Студент 1-го курса магистратуры, специализация: прикладная математика и информатика

***Аннотация:*** *В данной статье разработана и научно обоснована алгоритмическая модель мобильного словарного приложения, направленного на повышение эффективности изучения терминов прикладной математики. В ходе исследования проанализированы основные проблемы усвоения математической терминологии и изучены возможности использования мобильных технологий в образовательном процессе. Разработана структурно-функциональная архитектура мобильного словаря, включающая алгоритмы быстрого поиска терминов, их семантического представления и адаптации к деятельности пользователя. В статье подробно рассмотрена многокомпонентная модель логической взаимосвязи «термин – определение – формула – практический пример», обеспечивающая системное и осмысленное*

*усвоение знаний. Также показаны возможности применения адаптивных алгоритмов обучения и тестирования для формирования терминологической компетентности обучающихся. Результаты экспериментальных исследований подтверждают, что использование предложенной алгоритмической модели способствует существенному повышению уровня усвоения терминов прикладной математики. Полученные результаты имеют научно-практическое значение для разработки и внедрения цифровых словарей и мобильных образовательных ресурсов.*

***Ключевые слова:*** *прикладная математика, мобильный словарь, алгоритмическая модель, терминология, мобильное обучение, цифровое образование, эффективность изучения терминов, адаптивное обучение.*

## KIRISH

Amaliy matematika fani talabalarga murakkab matematik tushunchalarni tizimli ravishda o‘zlashtirishni talab qiladi. Biroq an’anaviy o‘quv adabiyotlari va lug‘atlar ko‘pincha terminlarning tushunarli ta’rifini yetarli darajada ta’minlamaydi, shuningdek, ular talabalarning terminologik kompetensiyasini shakllantirishda interaktivlik va moslashuvchanlik imkoniyatlariga ega emas. Shu sababli, amaliy matematika terminlarini samarali o‘rganish uchun zamonaviy raqamli texnologiyalar va mobil ta’lim vositalaridan foydalanish dolzarb muammo hisoblanadi.

Mobil ilovalar orqali terminlarni interaktiv va vizual tarzda taqdim etish, foydalanuvchiga shaxsiy o‘rganish ritmi bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, **mobil lug‘at ilovalari amaliy matematika terminlarini o‘zlashtirish samaradorligini oshirishda muhim vosita** sifatida qaraladi. Bunday ilovalarda algoritmik yondashuvlarni qo‘llash esa terminlarni qidirish, tartiblash va foydalanuvchining faoliyatiga moslashtirish jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi — amaliy matematika terminlarini o‘rganish jarayonini samarali tashkil etish uchun mobil lug‘at ilovasining algoritmik modelini ishlab chiqish va uning pedagogik samaradorligini tahlil qilishdir. Tadqiqot doirasida termin–ta’rif–formula–misol o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanish, adaptiv o‘rganish algoritmlari va testlash modullari ko‘rib chiqiladi, shuningdek, talabalarning terminologik bilimlarini mustahkamlashga yo‘naltirilgan amaliy tavsiyalar beriladi.

### Mobil lug‘at ilovasining umumiy strukturaviy modeli

Amaliy matematika terminlarini o‘rganishga mo‘ljallangan mobil lug‘at ilovasi modulli arxitekturaga asoslangan bo‘lib, u quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topadi:

- foydalanuvchi interfeysi (UI),
- terminologik ma’lumotlar bazasi,
- qidiruv va filtratsiya moduli,
- adaptiv o‘rganish algoritmi,
- test va baholash moduli.

Ilovaning umumiy ishlash prinsipi “foydalanuvchi – so‘rov – qayta ishlash – natija” ketma-ketligiga asoslanadi. Foydalanuvchi kiritgan termin yoki so‘rov algoritmik modul tomonidan qayta ishlanib, ma’lumotlar bazasidan mos natija aniqlanadi va foydalanuvchiga qulay shaklda taqdim etiladi.




### Terminlarni qidirish va qayta ishlash algoritmlari

`Mobil lug‘at ilovasida terminlarni tezkor va aniq topish maqsadida indekslash va xesh-jadval (hash table) asosidagi qidiruv algoritmlaridan foydalaniladi. Har bir termin quyidagi tuzilma asosida saqlanadi:

- termin nomi,

- qisqa va kengaytirilgan ta’rif,
- matematik formula,
- amaliy misol,
- tegishli fan bo‘limi.

Qidiruv algoritmi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1.foydalanuvchi tomonidan termin kiritilishi;

2.kiritilgan so‘zni standartlashtirish (registrni o‘zgartirish, ortiqcha belgilarni olib tashlash);

3.indekslangan ma’lumotlar bazasida moslikni aniqlash;

4.topilgan terminlarni relevanti bo‘yicha saralash;

5.natijani foydalanuvchiga chiqarish.

Mazkur algoritm terminlarni izlash vaqtini qisqartirib, ilovaning samaradorligini oshiradi.

**Termin–ta’rif–misol–formula o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanish modeli**

Amaliy matematika terminlarini chuqur o‘zlashtirish uchun faqat ta’rif emas, balki u bilan bog‘liq formulalar va amaliy misollar ham muhim hisoblanadi. Shu sababli mobil lug‘atda graf-model asosida bog‘lanish mexanizmi joriy etilgan.

Bu modelda:

- termin — markaziy tugun,
- ta’rif, formula va misollar — yordamchi tugunlar sifatida qaraladi.

Bunday yondashuv foydalanuvchiga terminni ko‘p jihatdan tushunish imkonini beradi hamda bilimlarning tizimli shakllanishiga xizmat qiladi.

**Foydalanuvchi faoliyatiga moslashuvchi algoritmlar**

Mobil lug‘at ilovasining muhim jihatlaridan biri — adaptiv o‘rganish algoritmidir. Ushbu algoritm foydalanuvchining quyidagi faoliyat ko‘rsatkichlarini tahlil qiladi:

- qaysi terminlar ko‘p qidirilayotgani,
- qaysi terminlarda xatoliklar ko‘p uchrayotgani,
- test natijalari va takrorlash chastotasi.

Algoritm tahlil natijalariga asoslanib:

- murakkab terminlarni ko‘proq takrorlashga tavsiya etadi,
- foydalanuvchiga individual o‘rganish rejimini shakllantiradi,
- bilimlarni mustahkamlash uchun eslatmalar yuboradi.

Natijada o‘rganish jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lib, terminlarni o‘zlashtirish samaradorligi oshadi.

**Algoritmik modelning afzalliklari**

Taklif etilgan algoritmik model quyidagi afzalliklarga ega:

- terminlarni tezkor va aniq qidirish;
- bilimlarni tizimli va vizual o‘zlashtirish;
- foydalanuvchi faoliyatiga moslashuvchanlik;
- mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlash.

Mazkur model amaliy matematika terminlarini o‘rganishda mobil texnologiyalardan samarali foydalanish imkonini beradi.



**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Abdullayev, A. A., & Xudoyberdiyev, B. B. (2020). **Amaliy matematika va modellashtirish asoslari.** Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

2.Azizov, Sh. R. (2019). **Raqamli ta’lim texnologiyalari va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni.** *Pedagogik ta’lim*, 4(2), 45–49.

3.Sharipov, O. M., & Karimov, D. S. (2021). Mobil ilovalar asosida terminologik kompetensiyani shakllantirish. *Ta’lim va innovatsiyalar*, 3(1), 62–67.

4.Traxler, J. (2018). Learning with mobiles in developing countries. *International Journal of Mobile and Blended Learning*, 10(2), 1–15. https://doi.org/10.4018/IJMBL.2018040101

5.Kukulska-Hulme, A., & Shield, L. (2008). An overview of mobile assisted language learning. *ReCALL*, 20(3), 271–289. https://doi.org/10.1017/S0958344008000335

6.Pressman, R. S., & Maxim, B. R. (2020). **Software engineering: A practitioner’s approach** (9th ed.). New York: McGraw-Hill Education.

7.Sommerville, I. (2016). **Software engineering** (10th ed.). Boston: Pearson Education.

8.Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). **A taxonomy for learning, teaching, and assessing.** New York: Longman.

9.Mayer, R. E. (2014). **The Cambridge handbook of multimedia learning** (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.

10. UNESCO. (2021). **Digital learning and education transformation.** Paris: UNESCO Publishing.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

**Суяров Турсунбек Раджаббой угли**
Преподаватель Бухарского государственного университета
Email: tsuyarov007@gmail.com

## ОПРЕДЕЛЕНИЕ КОЭФФИЦИЕНТА В ОБРАТНОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ ДВУМЕРНОГО ТЕЛЕГРАФНОГО УРАВНЕНИЯ С СООТВЕТСТВУЮЩЕЙ ДРОБНОЙ ПРОИЗВОДНОЙ ПО ВРЕМЕНИ

***Аннотация.*** *В работе исследуются прямая и обратная задачи с нелокальными начально-краевыми условиями для двумерного телеграфного уравнения с соответствующей дробной производной. Классическое решение строится с использованием метода Фурье. Рассматриваемое телеграфное уравнение с соответствующей дробной производной приводится к системе интегральных уравнений Вольтерра второго рода, которые анализируются с помощью неравенства Гронуолла. Для обратной задачи дополнительное условие позволяет свести её к интегральному уравнению относительно неизвестного коэффициента. Существование и единственность решения устанавливаются с использованием теоремы Банаха о неподвижной точке.*

***Ключевые слова:*** *соответствующая дробная производная, нелокальные краевые условия, обратная задача, принцип сжимающего отображения.*

**Suyarov Tursunbek Rajabboy o‘g‘li**
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchi

## IKKI O‘LCHOVLI TELEGRAF TENGLAMASI UCHUN MOS VAQT BO‘YICHA KASRLI HOSILALI TESKARI MASALADA KOEFFITSIYENTNI ANIQLASH

***Annotatsiya.*** *Ushbu ishda vaqt bo‘yicha mos kasrli hosilaga ega bo‘lgan ikki o‘lchovli telegraf tenglamasi uchun nolokal boshlang‘ich-chegaraviy shartlar ostida to‘g‘ri va teskari masalalar tadqiq etiladi. Klassik yechim Furye usulidan foydalanib quriladi. Qaralayotgan mos kasrli hosilali telegraf tenglamasi ikkinchi turdagi Volterra integral tenglamalari sistemasiga keltiriladi va ular Gronvall tengsizliklari yordamida tahlil qilinadi. Teskari masala uchun qo‘shimcha shart uning noma’lum koeffitsiyentga nisbatan integral tenglamaga keltirilishiga imkon beradi. Yechimning mavjudligi va yagonaligi Banaxning siqiluvchi akslantirish haqidagi teoremasi yordamida isbotlanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *mos kasrli hosila, nolokal chegaraviy shartlar, teskari masala, qisqartirib akslantirish prinsipi.*

**Suyarov Tursunbek Rajabboy ugli**
Lecturer at Bukhara State University

## DETERMINATION OF A COEFFICIENT IN AN INVERSE PROBLEM FOR A TWO-DIMENSIONAL TELEGRAPH EQUATION WITH A CONFORMABLE TIME-FRACTIONAL DERIVATIVE

***Abstract.*** *In this paper, the direct and inverse problems with nonlocal initial–boundary conditions are investigated for a two-dimensional telegraph equation with a conformable time-fractional derivative. A classical solution is constructed using the Fourier method. The considered telegraph equation with a conformable fractional derivative is reduced to a system of Volterra integral equations of the second kind, which are analyzed by means of Gronwall’s inequality. For the inverse problem, an additional condition allows the reduction to an integral equation with respect to the unknown coefficient. The existence and uniqueness of the solution are established using Banach’s fixed-point theorem.*

***Keywords:*** *conformable fractional derivative, nonlocal boundary conditions, inverse problem, contraction mapping principle.*

### Введение

В последние годы дробное исчисление заняло важное место среди методов математического анализа, поскольку оно позволяет более адекватно описывать процессы с эффектами памяти и наследственности. Соответствующие модели нашли широкое применение в обработке сигналов, теории управления, механике вязкоупругих сред, физике плазмы, аэродинамике, а также в ряде биомедицинских и инженерных задач [1,2]. За

длительный период развития данной области были предложены различные определения дробных производных и интегралов, среди которых особое место занимают подходы Римана-Лиувилля, Капуто и Хильфера, отличающиеся как математическими свойствами, так и возможностями практического применения.

Одним из современных направлений исследований является соответствующая дробная производная, введённая Р. Халилом и соавторами [3]. Для данного оператора установлены базовые свойства и приведены результаты, подтверждающие его эффективность при построении новых типов дробных операторов и исследовании прикладных моделей [4,5]. В связи с этим в последние годы возрос интерес к изучению прямых и обратных задач, связанных с уравнениями с соответствующими дробными производными, в том числе для операторов диффузионного типа [6, 7].

Прямые и обратные задачи для уравнений в частных производных и интегро-дифференциальных уравнений целого порядка рассматриваются в классических монографиях и многочисленных научных публикациях. В частности, обратные задачи для уравнений математической физики гиперболического и параболического типов подробно изучены в работах [8,9,10]. При этом отдельное внимание уделяется задачам восстановления неизвестных коэффициентов при нелокальных начально-граничных условиях, включая условия типа Ионкина [11, 12]. Кроме того, в литературе исследованы задачи определения коэффициентов в одномерных и двумерных моделях с дробной производной по времени, где доказаны результаты о существовании, единственности и устойчивости решений [13,14,15].

В настоящей работе рассматривается нелинейная обратная задача определения нестационарного коэффициента в двумерном телеграфном уравнении с соответствующей дробной производной при начально-граничных условиях и условиях переопределения. Основное внимание уделяется исследованию локального существования и глобальной единственности решения.

В области $\Omega = D \times (0,T]$, где $D = \{(x,y): 0 < x < 1, 0 < y < 1\}$, рассматривается двумерное телеграфное уравнение дробного порядка с соответствующей производной по времени:

$$\mathbb{T}_t^{(2\alpha)} u(x,y,t) + 2b\mathbb{T}_t^{(\alpha)} u(x,y,t) - \Delta u + q(t)u(x,y,t) = f(x,y,t), \quad (1)$$

начальными условиями

$$u(x,y,0) = \varphi(x,y), \qquad (x,y) \in \bar{D}, \quad (2)$$

$$\mathbb{T}_t^{(\alpha)} u(x,y,0) = \psi(x,y), \qquad (x,y) \in \bar{D}, \quad (3)$$

и граничными условиями

$$u(0,y,t) = u(1,y,t) = 0, \qquad (y,t) \in [0,1] \times [0,T] \quad (4)$$

$$u_y(x,0,t) = u_y(x,1,t), u(x,0,t) = 0, \qquad (x,t) \in [0,1] \times [0,T]. \quad (5)$$

где $\bar{D} = \{(x,y): 0 \le x \le 1, 0 \le y \le 1\}, \Delta = \frac{\partial^2}{\partial x^2} + \frac{\partial^2}{\partial y^2}$-оператор Лапласа, $\mathbb{T}_t^{(\alpha)}$ называется соответствующей (Conformable) дробной производной порядка $\alpha (0 < \alpha \le 1)$ по переменной $t$ (см. Определение 1), а $\mathbb{T}_t^{(2\alpha)}$ обозначает $\mathbb{T}_t^{(\alpha)}\left(\mathbb{T}_t^{(\alpha)}\right)$, при этом функции $f(x,y,t), \varphi(x,y)$ и $\psi(x,y)$ считаются заданными.

Обратная задача заключается в нахождении функции $q(t) \in C[0,T]$, если для решения прямой задачи (1)-(5), известно условие переопределения:

$$\iint_D w(x,y)u(x,y,t)dxdy = H(t) \quad (6)$$

здесь функции $H(t)$ и $w(x)$ считаются заданными. Для исследования прямой и обратной задач далее будут использованы следующие условия.

A1) $\{\varphi, \psi\} \in C^3(\bar{D}), \left\{\frac{\partial^4 \varphi(x,y)}{\partial x^i \partial y^j}, \frac{\partial^4 \psi(x,y)}{\partial x^i \partial y^j}\right\} \in L_2(D); \varphi(0,y) = \varphi(1,y) = 0, \varphi_{xx}(0,y) = \varphi_{xx}(1,y) = 0, \varphi(x,0) = 0, \varphi_y(x,0) = \varphi_y(x,1), \varphi_{yy}(x,0) = 0. \psi(0,y) = \psi(1,y) = 0, \psi_{xx}(0,y) = \psi_{xx}(1,y) = 0, \psi(x,0) = 0, \psi_y(x,0) = \psi_y(x,1), \psi_{yy}(x,0) = 0.$

A2) $f(x,y,\cdot) \in C[0,T], t \in [0,T], f(\cdot,\cdot,t) \in C^3(\bar{D}), \frac{\partial^4 f(x,y,t)}{\partial x^i \partial y^j} \in L_2(D) f(0,y,t) = f(1,y,t) = 0, f_{xx}(0,y,t) = f_{xx}(1,y,t) = 0, f(x,0,t) = 0, f_y(x,0,t) = f_y(x,1,t), f_{yy}(x,0,t) = 0.$

A3) $w(x,y) \in C^2(\bar{D}); w(0,y) = w(1,y) = 0, w(x,1) = w(x,0), w_y(x,1) = 0.$

A4) $\left(\mathbb{T}_t^{(2\alpha)} H\right)(t) \in C[0,T], |H(t)| \ge H_0 > 0, H_0$ - заданное число,

$$\iint_D w(x,y)\varphi(x,y)dxdy = H(t)|_{t=0+},$$

$$\iint_D w(x,y)\psi(x,y)dxdy = (\mathbb{T}_t^{\alpha} H)(t)|_{t=0+}.$$

В следующем разделе содержится некоторая предварительная информация.

**Предварительные сведения**

Интерес к новому подходу, известному как соответствующиеое исчисление, возник в связи с тем, что он основан исключительно на фундаментальном определении производной как предела.

**Определение 1.** *[3]. Пусть* $\varphi: [a,+\infty[ \to \mathbb{R}$ *- заданная функция и* $\alpha \in ]0,1]$*. Тогда соответствующая левая дробная производная порядка* $\alpha$ *определяется по формуле:*

$$ {}_{a}\mathbb{T}_{t}^{(\alpha)}(f)(t) := \lim_{\varepsilon \to 0} \frac{f(t+\varepsilon(t-a)^{1-\alpha}) - f(t)}{\varepsilon} \tag{7}$$

*Если* $T_t^{(\alpha)}(\varphi)(t)$ *существует на* $[a,+\infty)$*, то* $T_t^{(\alpha)}(\varphi)(a) = \lim_{t \to a+} T_t^{(\alpha)}(\varphi)(t)$*. Если* $\alpha = 0$*, определение (7) введено Халилом и др.[3]. В дальнейшем,* $\alpha = 0$ *и* ${}_0T_t^{(\alpha)} =: T_t^{(\alpha)}$*. В этом случае мы говорим, что* $\varphi$ *$\alpha$-дифференцируема.*

**Теорема 1.** [16]. *Пусть* $g: [0,+\infty[ \to \mathbb{R}$ *- непрерывная функция, а* $\eta, \gamma \in \mathbb{R}_+$*такие, что* $\eta < \gamma$*. Рассмотрим следующую задачу при* $0 < \alpha \leq 1$

$$\begin{cases} T_t^{(2\alpha)} y(t) + 2\eta T_t^{(\alpha)} y(t) + \gamma^2 y(t) = g(t) \\ y(0) = y_0, T_t^{(\alpha)} y(0) = y_\alpha \end{cases}.$$

*Она имеет единственное решение, задаваемое формулой*

$$y(t) = y_0 e^{-\eta \frac{t^\alpha}{\alpha}} \cos\left(\sqrt{\gamma^2 - \eta^2}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right) + \frac{y_0\eta + y_\alpha}{\sqrt{\gamma^2 - \eta^2}} e^{-\eta \frac{t^\alpha}{\alpha}} \sin\left(\sqrt{\gamma^2 - \eta^2}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right)$$
$$+ \frac{1}{\sqrt{\gamma^2 - \eta^2}} \int_0^t g\left((t^\alpha - \tau^\alpha)^{1/\alpha}\right) e^{-\eta \frac{\tau^\alpha}{\alpha}} \sin\left(\sqrt{\gamma^2 - \eta^2}\frac{\tau^\alpha}{\alpha}\right) \frac{d\tau}{\tau^{1-\alpha}}.$$

***Лемма 1.*** *[17] Пусть* $r$ *- непрерывная неотрицательная функция на интервале* $[a,b]$*, а* $\delta, p$ *- неотрицательные константы такие, что*

$$r(t) \leq \delta + p \int_a^t r(s)(s-a)^{\alpha-1} ds,$$

*тогда для всех* $t \in [a,b]$

$$r(t) \leq \delta e^{p\frac{(t-a)^\alpha}{\alpha}}.$$

Теперь мы можем сформулировать прямые и обратные задачи.

**Исследование прямой задачи (1)-(5)**

В работе [11], показано, что собственные значения и соответствующие им собственные функции, отвечающие задаче (1)-(5) образуют базис Рисса в пространстве $L_2(D)$ и определяются следующим образом:

$$Q_{m,j}(x,y) = X_m(x)Y_j(y), j = \{0, 2k-1, 2k\} \tag{8}$$

где

$$X_m(x) = \sqrt{2}\sin\lambda_m x, \lambda_m = \pi m, m = 1,2,\ldots$$
$$Y_0(y) = y, Y_{2k}(k) = \sin\gamma_k y, Y_{2k-1}(y) = y\cos\gamma_k y, \gamma_k = 2\pi k, k = 1,2,\ldots$$

Биортогональная система, соответствующая системе (8), имеет следующий вид:

$$P_{m,j}(x,y) = X_m(x)\bar{Y}_j(y), j = \{0, 2k-1, 2k\} \tag{9}$$

где

$$\bar{Y}_0(y) = 2, \bar{Y}_{2k}(y) = 4(1-y)\sin\gamma_k y, \bar{Y}_{2k-1}(y) = 4\cos\gamma_k y,$$
$$\gamma_k = 2\pi k, k = 1,2,\ldots$$

она также образует базис Рисса. Более подробный анализ несамосопряжённых задач можно найти в работах [18,19].

Используя метод Фурье, решение задачи (1)-(5) может быть представлено в виде равномерно сходящегося ряда по собственным функциям следующего вида:

$$u(x,y,t) = \sum_{m=1}^{\infty} Q_{m,0}(x,y)v_{m,0}(t) +$$
$$\sum_{m,k=1}^{\infty} Q_{m,2k}(x,y)v_{m,2k}(t) + \sum_{m,k=1}^{\infty} Q_{m,2k-1}(x,y)v_{m,2k-1}(t), \tag{10}$$

где

$$\left(u(x,y,t), P_{m,j}(x,y)\right) = v_{m,j}(t), j = \{0, 2k-1, 2k\}. \tag{C1}$$

Далее умножим уравнение (1) на собственные функции (9) и проинтегрируем по области $D$. Напомним, что скалярное произведение в пространстве $L_2(D)$ определяется как

$$(f,g) = \iint_D f(x,y,t)g(x,y)dxdy.$$

Обозначим через коэффициенты разложения функций $f(x,y,t), \varphi(x,y)$ и $\psi(x,y)$ по собственным функциям (9) соответственно:

$$\left(f(x,y,t), P_{m,j}(x,y)\right) = f_{m,j}(t), j = \{0, 2k-1, 2k\}, \tag{C2}$$
$$\left(\varphi(x,y), P_{m,j}(x,y)\right) = \varphi_{m,j}, j = \{0, 2k-1, 2k\}, \tag{C3}$$
$$\left(\psi(x,y), P_{m,j}(x,y)\right) = \psi_{m,j}, j = \{0, 2k-1, 2k\}, \tag{C4}$$

Применяя соотношения $C1),C2),C3),C4)$ при $n \geq 1$, получаем следующую задачу:

$$\begin{cases} \mathbb{T}_t^{(2\alpha)} v_{m,0}(t) + 2b\mathbb{T}_t^{(\alpha)} v_{m,0}(t) + \lambda^2 v_{m,0}(t) + q(t)v_{m,0}(t) = f_{m,0}(t), \\ v_{m,0}(0) = \varphi_{m,0}, \mathbb{T}_t^{(\alpha)} v_{m,0}(0) = \psi_{m,0} \end{cases} \tag{11}$$

$$\begin{cases} \mathbb{T}_t^{(2\alpha)} v_{m,2k-1}(t) + 2b\mathbb{T}_t^{(\alpha)} v_{m,2k-1}(t) + \mu_{mk}^2 v_{m,2k-1}(t) \\ \quad +q(t)v_{m,2k-1}(t) = f_{m,2k-1}(t), \qquad t \in [0,T] \\ v_{m,2k-1}(0) = \varphi_{m,2k-1}, \mathbb{T}_t^{(\alpha)} v_{m,2k-1}(0) = \psi_{m,2k-1}, \end{cases} \tag{12}$$

$$\begin{cases} \mathbb{T}_t^{(2\alpha)} v_{m,2k}(t) + 2b\mathbb{T}_t^{(\alpha)} v_{m,2k}(t) + \mu_{mk}^2 v_{m,2k}(t) \\ +2\gamma_k v_{m,2k-1} + q(t)v_{m,0}(t) = f_{m,0}(t), \qquad t \in [0,T], \\ v_{m,2k}(0) = \varphi_{m,2k}, \mathbb{T}_t^{(\alpha)} v_{m,2k}(0) = \psi_{m,2k} \end{cases} \tag{13}$$

Предположим, что выполняется условие

$$0 \leq b^2 < \mu_{1,1} \tag{14}$$

где- $\mu_{11} = 5\pi^2$ наименьшее собственное значение задачи Штурма-Лиувилля. Далее будем всюду предполагать, что условие (14) выполнено.

На основании предложения начальные задачи (11)-(13) в пространстве $C[0,T]$ эквивалентны интегральному уравнению Вольтерра второго рода:

$$v_{m,0}(t) = \varphi_{m,0} e^{-b\frac{t^\alpha}{\alpha}} \cos\left(\theta_{mk}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right) + \frac{2b\varphi_{m,0} + \psi_{m,0}}{\theta_{m0}} e^{-b\frac{t^\alpha}{\alpha}} \sin\left(\theta_{m0}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right) +$$
$$+\frac{1}{\theta_{m0}}\int_0^t f_{m,0}(\tau)\exp\left\{-b\frac{(t^\alpha-\tau^\alpha)^{1/\alpha}}{\alpha}\right\}\sin\left(\theta_{m0}\frac{(t^\alpha-\tau^\alpha)^{1/\alpha}}{\alpha}\right)\frac{d\tau}{\tau^{1-\alpha}}$$
$$+\frac{1}{\theta_{m0}}\int_0^t v_{m,0}(\tau)\exp\left\{-b\frac{(t^\alpha-\tau^\alpha)^{\frac{1}{\alpha}}}{\alpha}\right\}\sin\left(\theta_{m0}\frac{(t^\alpha-\tau^\alpha)^{\frac{1}{\alpha}}}{\alpha}\right)\frac{d\tau}{\tau^{1-\alpha}}. \tag{15}$$

$$v_{m,2k-1}(t) = \varphi_{m,2k-1} e^{-b\frac{t^\alpha}{\alpha}} \cos\left(\theta_{mk}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right) + \frac{2b\varphi_{m,2k-1} + \psi_{m,2k-1}}{\theta_{mk}} e^{-b\frac{t^\alpha}{\alpha}} \sin\left(\theta_{mk}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right)$$
$$+\frac{1}{\theta_{mk}}\int_0^t f_{m,2k-1}(\tau)\exp\left\{-b\frac{(t^\alpha-\tau^\alpha)^{1/\alpha}}{\alpha}\right\}\sin\left(\theta_{mk}\frac{(t^\alpha-\tau^\alpha)^{1/\alpha}}{\alpha}\right)\frac{d\tau}{\tau^{1-\alpha}}$$
$$+\frac{1}{\theta_{mk}}\int_0^t v_{m,2k-1}(\tau)\exp\left\{-b\frac{(t^\alpha-\tau^\alpha)^{\frac{1}{\alpha}}}{\alpha}\right\}\sin\left(\theta_{mk}\frac{(t^\alpha-\tau^\alpha)^{\frac{1}{\alpha}}}{\alpha}\right)\frac{d\tau}{\tau^{1-\alpha}}, \tag{16}$$

$$v_{m,2k}(t) = \varphi_{m,2k} e^{-b\frac{t^\alpha}{\alpha}} \cos\left(\theta_{mk}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right) + \frac{2b\varphi_{m,2k} + \psi_{m,2k}}{\theta_{mk} - b\frac{t^\alpha}{\alpha}} \sin\left(\theta_{mk}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right)$$
$$+\frac{2\gamma_k}{\theta_{mk}}\int_0^t v_{m,2k-1}\left((t^\alpha-\tau^\alpha)^{1/\alpha}\right)e^{-b\frac{\tau^\alpha}{\alpha}}\sin\left(\theta_{mk}\frac{(t^\alpha-\tau^\alpha)^{\frac{1}{\alpha}}}{\alpha}\right)\frac{d\tau}{\tau^{1-\alpha}}$$
$$+\frac{1}{\theta_{mk}}\int_0^t f_{m,2k}(\tau)\exp\left\{-b\frac{(t^\alpha-\tau^\alpha)^{1/\alpha}}{\alpha}\right\}\sin\left(\theta_{mk}\frac{(t^\alpha-\tau^\alpha)^{1/\alpha}}{\alpha}\right)\frac{d\tau}{\tau^{1-\alpha}}$$
$$+\frac{1}{\theta_{mk}}\int_0^t v_{m,2k}\exp\left\{-b\frac{(t^\alpha-\tau^\alpha)^{\frac{1}{\alpha}}}{\alpha}\right\}\sin\left(\theta_{mk}\frac{(t^\alpha-\tau^\alpha)^{\frac{1}{\alpha}}}{\alpha}\right)\frac{d\tau}{\tau^{1-\alpha}}, \tag{17}$$

где $\theta_{mk} = \sqrt{\mu_{mk}^2 - b^2}$.

Докажем следующие утверждения для функции $v_{m,0}(t)$.

***Лемма 2.*** *Для функции $v_{m,0}(t)$ справедливы следующие оценки:*

$$\left|v_{m,0}(t)\right| \leq \left(\left|\varphi_{m,0}\right| + \frac{2b\left|\varphi_{m,0}\right| + \left|\psi_{m,0}\right|}{\theta_{m0}} + \frac{\left\|f_{m,0}\right\|_{C[0,T]}}{\theta_{m0}}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right)\exp\left\{\frac{\|q\|_{C[0,T]}}{\theta_{m0}}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right\},$$
$$\left|\mathbb{T}_t^{(2\alpha)} v_{m,0}(t)\right| \leq 2b\Upsilon_n(t) + \left(\|q\|_{C[0,T]} + \lambda_m^2\right)\Psi_{m,0}(t) + \left\|f_{m,0}\right\|_{C[0,T]}. \tag{18}$$

Решение интегрального уравнения (15) оценивается следующим образом:

$$\left|v_{m,0}(t)\right| \leq \left|\varphi_{m,0}\right| + \frac{2b\left|\varphi_{m,0}\right| + \left|\psi_{m,0}\right|}{\theta_{m0}} +$$
$$\frac{\left\|f_{m,0}\right\|_{C[0,T]}}{\theta_{m0}}\frac{t^\alpha}{\alpha} + \frac{\|q\|_{C[0,T]}}{\theta_{m0}}\int_0^t \frac{v_{m,0}(\tau)}{\tau^{1-\alpha}}\,d\tau.$$

Используя лемму , получаем следующее неравенство

$$|v_{m,0}(t)| \le \left(|\varphi_{m,0}| + \frac{2b|\varphi_{m,0}| + |\psi_{m,0}|}{\theta_{m0}} + \frac{\|f_{m,0}\|_{C[0,T]}}{\theta_{m0}}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right)\exp\left\{\frac{\|q\|_{C[0,T]}}{\theta_{m0}}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right\} := \Phi_{m,0}(t)$$

Используя уравнение (15), вычислим $\mathbb{T}_t^{(\alpha)} v_{m,0}(t)$:

$$\mathbb{T}_t^{(\alpha)} v_{m,0}(t) = t^{1-\alpha} v'_{m,0}(t) = \varphi_{m,0}\left[-ce^{-b\frac{t^\alpha}{\alpha}}\cos\left(\theta_{m0}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right) - \theta_{m0}e^{-b\frac{t^\alpha}{\alpha}}\sin\left(\theta_{m0}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right)\right] + \frac{2b\varphi_{m,0} + \psi_{m,0}}{\theta_{m0}} \times \left[-be^{-b\frac{t^\alpha}{\alpha}}\sin\left(\theta_{m0}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right) + \theta_{m0}e^{-b\frac{t^\alpha}{\alpha}}\cos\left(\theta_{m0}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right)\right] + + \frac{1}{\theta_{m0}}\int_0^t f_{m,0}(\tau)\left[-be^{-b\frac{t^\alpha-\tau^\alpha}{\alpha}}\sin\left(\theta_{m0}\frac{(t^\alpha-\tau^\alpha)^{\frac{1}{\alpha}}}{\alpha}\right) + \theta_{m0}e^{-b\frac{t^\alpha-\tau^\alpha}{\alpha}}\cos\left(\theta_{m0}\frac{(t^\alpha-\tau^\alpha)^{\frac{1}{\alpha}}}{\alpha}\right)\right]\frac{d\tau}{\tau^{1-\alpha}} - \frac{1}{\theta_{m0}}\int_0^t q(\tau)v_{m,0}(\tau)\left[-be^{-b\frac{t^\alpha-\tau^\alpha}{\alpha}}\sin\left(\theta_{m0}\frac{(t^\alpha-\tau^\alpha)^{\frac{1}{\alpha}}}{\alpha}\right) + \theta_{m0}e^{-b\frac{t^\alpha-\tau^\alpha}{\alpha}}\cos\left(\theta_{m0}\frac{(t^\alpha-\tau^\alpha)^{\frac{1}{\alpha}}}{\alpha}\right)\right]\frac{d\tau}{\tau^{1-\alpha}}.$$

Оценим величину $\mathbb{T}_t^{(\alpha)} v_{m,0}(t)$, чтобы получить вторую оценку леммы

$$|\mathbb{T}_t^{(\alpha)} v_{m,0}(t)| \le (b+\theta_{m0})\left(\varphi_{m,0} + \frac{2b\varphi_{m,0} + \psi_{m,0}}{\theta_{m0}} + \frac{\|f_{m,0}\|_{C[0,T]}}{\theta_{m0}}\frac{T^\alpha}{\alpha} + + \frac{\|q\|_{C[0,T]}\Psi_{m,0}(T)}{\theta_{m0}}\frac{T^\alpha}{\alpha}\right) = \Upsilon_{m,0}(T).$$

Далее, используя уравнение (11) вычислим функцию $\mathbb{T}_t^{(2\alpha)} v_{m,0}(t)$ :

$$|\mathbb{T}_t^{(2\alpha)} v_{m,0}(t)| \le 2b\Upsilon_{m,0}(T) + (\|q\|_{C[0,T]} + \lambda_m^2)\Psi_{m,0}(T) + \|f_{m,0}\|_{C[0,T]}$$

Аналогично лемме, получаем оценки для функций $v_{m,2k-1}(t), v_{m,2k}(t)$ :

$$|v_{m,2k-1}(t)| \le \left(|\varphi_{m,2k-1}| + \frac{2b|\varphi_{m,2k-1}| + |\psi_{m,2k-1}|}{\theta_{mk}} + + \frac{\|f_{m,2k-1}\|_{C[0,T]}}{\theta_{mk}}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right)\exp\left\{\frac{\|q\|_{C[0,T]}}{\theta_{mk}}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right\} := \Phi_{m,k-1}(t),$$

$$|\mathbb{T}_t^{(2\alpha)} v_{m,2k-1}| \le 2b\Upsilon_{m,2k-1} + (\|q\|_C + \mu_{mk}^2)\Psi_{m,2k-1} + \|f_{m,2k-1}\|_{C[0,T]},$$

$$|v_{m,2k}(t)| \le \left(|\varphi_{m,2k}| + \frac{2b|\varphi_{m,2k}| + |\psi_{m,2k}|}{\theta_{mk}} + \frac{2\gamma_k\Phi_{m,2k-1}(t)}{\theta_{mk}}\frac{t^\alpha}{\alpha} + + \frac{\|f_{m,2k}\|_{C[0,T]}}{\theta_{mk}}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right)\exp\left\{\frac{\|q\|_{C[0,T]}}{\theta_{mk}}\frac{t^\alpha}{\alpha}\right\} := \Phi_{m,2k}(t),$$

$$|\mathbb{T}_t^{(2\alpha)} v_{m,2k}| \le 2b\Upsilon_{m,2k} + (\|q\|_{C[0,T]} + \mu_{mk}^2)\Phi_{m,2k} + 2\gamma_k\Phi_{m,2k-1} + \|f_{m,2k}\|_{C[0,T]}.$$

Решение задачи (1)-(5) будем искать в виде двойного ряда Фурье (10). Вычислим функции $u(x,y,t), T_t^{(\alpha)}u(x,y,t), u_{xx}(x,y,t), u_{yy}(x,y,t)$ и соответствующие оценки. В результате получаем:

$$2\sqrt{2}\sum_{m=1}^{+\infty}\Phi_{m,0}(T) + 4\sqrt{2}\sum_{m,k=1}^{+\infty}\Phi_{m,2k}(T) + 4\sqrt{2}\sum_{m,k=1}^{+\infty}\Phi_{m,2k-1}(T); \quad (19)$$

$$2\sqrt{2}\sum_{m=1}^{+\infty}\Upsilon_{m,0}(T) + 4\sqrt{2}\sum_{m,k=1}^{+\infty}\Upsilon_{m,2k}(T) + 4\sqrt{2}\sum_{m,k=1}^{+\infty}\Upsilon_{m,2k-1}(T); \quad (20)$$

$$2\sqrt{2}\sum_{m=1}^{+\infty}\lambda_m^2\Phi_{m,0}(T) + 4\sqrt{2}\sum_{m,k=1}^{+\infty}\lambda_m^2\Phi_{m,2k}(T) + 4\sqrt{2}\sum_{m,k=1}^{+\infty}\lambda_m^2\Phi_{m,2k-1}(T); \quad (21)$$

$$4\sqrt{2}\sum_{m,k=1}^{+\infty}[\gamma_k + \gamma_k^2]\Phi_{m,2k}(T) + 4\sqrt{2}\sum_{m,k=1}^{+\infty}\gamma_k^2\Phi_{m,2k-1}(T). \quad (22)$$

Докажем следующую вспомогательную лемму.

***Лемма 3.*** *Если выполнены условия A1), A2), то имеют место следующие равенства*

$$\begin{cases} \varphi_{m,j} = \dfrac{1}{\lambda_m^4}\varphi_{m,j}^{(4,0)}, \varphi_{m,j} = \dfrac{1}{\lambda_m^3\gamma_k}\varphi_{m,j}^{(3,1)}, \varphi_{m,j} = \dfrac{1}{\lambda_m^2\gamma_k^2}\varphi_{m,j}^{(2,2)}, \\ \varphi_{m,j} = \dfrac{1}{\lambda_m\gamma_k^3}\varphi_{m,j}^{(1,3)}, \varphi_{m,j} = \dfrac{1}{\gamma_k^4}\varphi_{m,j}^{(0,4)}, \end{cases} \tag{23}$$

$$\begin{cases} \psi_{m,j} = \dfrac{1}{\lambda_m^4}\psi_{m,j}^{(4,0)}, \psi_{m,j} = \dfrac{1}{\lambda_m^3\gamma_k}\psi_{m,j}^{(3,1)}, \psi_{m,j} = \dfrac{1}{\lambda_m^2\gamma_k^2}\psi_{m,j}^{(2,2)}, \\ \psi_{m,j} = \dfrac{1}{\lambda_m\gamma_k^3}\psi_{m,j}^{(1,3)}, \psi_{m,j} = \dfrac{1}{\gamma_k^4}\psi_{m,j}^{(0,4)}, \end{cases} \tag{24}$$

$$\begin{cases} f_{m,j}(t) = \dfrac{1}{\lambda_m^4}f_{m,j}^{(4,0)}(t), f_{m,j}(t) = \dfrac{1}{\lambda_m^3\gamma_k}f_{m,j}^{(3,1)}(t), f_{m,j}(t) = \dfrac{1}{\lambda_m^2\gamma_k^2}f_{m,j}^{(2,2)}(t), \\ f_{m,j}(t) = \dfrac{1}{\lambda_m\gamma_k^3}f_{m,j}^{(1,3)}(t), f_{m,j}(t) = \dfrac{1}{\gamma_k^4}f_{m,j}^{(0,4)}(t), \end{cases} \tag{25}$$

*где* $j = \{0, 2k, 2k-1\}, k = 1,2,\ldots$

$$\begin{cases} \varphi_{m,j}^{(i,l)} = \iint_D \dfrac{\partial^4\varphi(x,y)}{\partial x^i\partial y^l}P_{m,j}(x,y)dxdy, i+l=4 \\ \psi_{m,j}^{(i,l)} = \iint_D \dfrac{\partial^4\psi(x,y)}{\partial x^i\partial l^l}P_{m,j}(x,y)dxdy, i+l=4 \\ f_{m,j}^{(i,l)}(t) = \iint_D \dfrac{\partial^4 f(x,y,t)}{\partial x^i\partial y^l}P_{m,j}(x,y)dxdy, i+l=4 \end{cases}$$

*со следующими оценками:*

$$\begin{cases} \sum\limits_{m,k=0}^{\infty}\left(\varphi_{m,k}^{(i,l)}\right)^2 \le \iint\left(\dfrac{\partial^4\varphi(x,y)}{\partial x^i\partial y^l}\right)^2 dxdy, i+l=4 \\ \sum\limits_{m,k=0}^{\infty}\left(\psi_{m,k}^{(i,l)}\right)^2 \le \iint\left(\dfrac{\partial^4\psi(x,y)}{\partial x^i\partial y^l}\right)^2 dxdy, i+l=4 \\ \sum\limits_{m,k=0}^{\infty}\left(f_{m,k}^{(i,l)}(t)\right)^2 \le \iint\left(\dfrac{\partial^4 f(x,y,t)}{\partial x^i\partial y^l}\right)^2 dxdy, i+l=4 \end{cases} \tag{26}$$

*Для доказательства данной леммы отметим, что при выполнении условий* A1) и A2) равенства (23) *легко* получаются интегрированием по частям интегралов *для* коэффициентов Фурье функций $\varphi, \psi$ и $f$. Соотношения (26) вытекают из неравенств Бесселя. Соотношения (23)-(26) обеспечивают сходимость рядов (19)-(22).

Используя приведённые выше результаты, получаем:

**Теорема 2.** *Если* $q(t) \in C[0,T]$, *выполнены условия A1), A2) и условие (14) то существует единственное решение* $u(x,t) \in C^2(\Omega)$ *прямой задачи (1)-(5).*

**Исследование обратной задачи (1)-(6).**

*Для* анализа обратной задачи (1)-(6) выведем операторное уравнение относительно коэффициента $q(t)$. Далее, умножив уравнение (1) на функцию $w(x,y)$ и проинтегрировав полученное равенство по области $D$, с учётом условий (2)-(6), A3) и A4), приходим к следующему соотношению:

$$q(t) = \frac{1}{H(t)}\iint_D w(x,y)f(x,y,t)dxdy - \frac{1}{H(t)}\Big(\big(\mathbb{T}_t^{(2\alpha)}H\big)(t) - 2b\big(\mathbb{T}_t^{(\alpha)}H\big)(t)\Big) + \frac{1}{H(t)}\iint_D \Delta w(x,y)\left(\sum_{m=1}^{\infty}Q_{m,0}(x,y)v_{m,0}(t) + \sum_{m,k=1}^{\infty}Q_{m,2k}(x,y)v_{m,2k}(t) + \sum_{m,k=1}^{\infty}Q_{m,2k-1}(x,y)v_{m,2k-1}(t)\right)dxdy.$$

Функция $v_{mk}(t)$ зависит от $q(t)$, то есть $v_{mk} = v_{mk}(t;q)$. После простого преобразования получаем следующее интегральное уравнение *для* определения функции $q(t)$ :

$$q(t) = q_0(t) + \frac{1}{H(t)}\left(\sum_{m=1}^{\infty}w_{m,0}v_{m,0}(t;q) + \sum_{m,k=1}^{\infty}w_{m,2k}v_{m,2k}(t;q) + \sum_{m,k=1}^{\infty}w_{m,2k-1}v_{m,2k-1}(t;q)\right), \tag{27}$$

здесь

$$q_0(t)=\frac{1}{H(t)}\left[\iint_D w(x,y)f(x,y,t)dxdy-\left(\left(\mathbb{T}_t^{(2\alpha)}H\right)(t)-2b\left(\mathbb{T}_t^{(\alpha)}H\right)(t)\right)\right],$$

$$w_{m,j}=\iint_D \Delta wQ_{m,j}(x,y)dxdy, j=\{0,2k-1,2k\}, m,k=1,2,3,\ldots.$$

Введём оператор $\mathcal{F}$, определяемый правой частью равенства (27):

$$\mathcal{F}[q](t)=q_0(t)+\frac{1}{H(t)}\left(\sum_{m=1}^{\infty} w_{m,0}v_{m,0}(t;q)+\right.$$
$$\left.+\sum_{m,k=1}^{\infty} w_{m,2k}v_{m,2k}(t;q)+\sum_{m,k=1}^{\infty} w_{m,2k-1}v_{m,2k-1}(t;q)\right). \quad (28)$$

Тогда уравнение (28) можно записать в операторной форме

$$\mathcal{F}[q](t)=q(t), \quad (29)$$

положим

$$q_{00}:=\max_{t\in[0;T]}|q_0(t)|$$
$$=\left\|\iint_D w(x,y)f(x,y,t)dxdy-\left(\left(\mathbb{T}_t^{(2\alpha)}H\right)(t)-2b\left(\mathbb{T}_t^{(\alpha)}H\right)(t)\right)\right\|_{C[0,T]}.$$

Зафиксируем число $\rho>0$ и рассмотрим шар

$$\mathcal{B}(q_0,\rho):=\left\{q(t)\in C[0,T];\|q-q_0\|_{C[0,T]}\le\rho\right\}.$$

**Теорема 3.** *Пусть выполнены условия A1)-A4). Тогда существует число $T^*\in(0,T)$ такое, что для обратной задачи (1)-(6) существует единственное решение $q(t)\in C[0,T^*)$.*

**Доказательство.** Сначала покажем, что при достаточно малом $T>0$ оператор $\mathcal{F}$ отображает шар $B(q_0,\rho)$ в себя, то есть $\mathcal{F}[q]\in B(q_0,\rho)$. Действительно, для любой непрерывной функции $q(t)$ функция $\mathcal{F}[q](t)$, вычисляемая по формуле (29), является непрерывной. Кроме того, оценивая норму разности, получаем, что

$$\|\mathcal{F}[q]-q_0\|\le\frac{w_0}{H_0}\sum_{m,k=1}^{+\infty}\left(\Phi_{m,0}(T,\|q\|)+\Phi_{m,2k}(T,\|q\|)+\Phi_{m,2k-1}(T,\|q\|)\right)$$

где $w_0=\max_{(x,y)\in D}|w(x,y)|, H_0=\max_{t\in[0,T]}|H(t)|$.

Выше были использованы оценки для функций $v_{m,0}(t), v_{m,2k}(t)$ и $v_{m,2k-1}(t)$, приведённые в (15)-(17). С учётом предыдущих лемм последний ряд является сходящимся. Отметим, что функция, стоящая в правой части соответствующего неравенства, монотонно возрастает по $T$, а из условия $q(t)\in B(q_0,\rho)$ следует оценка $\|q\|_{C[0,T]}\le\|q_0\|_{C[0,T]}+\rho=:R$. Следовательно, усилим неравенство, заменив в нём величину $\|q\|_{C[0,T]}$ на $\|q_0\|_{C[0,T]}+\rho$. Выполнив указанную замену, получаем оценку

$$\frac{w_0}{H_0}\sum_{m,k=1}^{+\infty}\left(\Phi_{m,0}(T,R)+\Phi_{m,2k}(T,R)+\Phi_{m,2k-1}(T,R)\right)=:m_1(T),$$

где функция $m_1(T)$ является возрастающей. Обозначим через $T_1$ корень уравнения (при $m_1(0)\neq 0$ )

$$m_1(T)=\rho.$$

Тогда для всех $T\le T_1$ выполняется неравенство $\|\mathcal{F}[q]-q_0\|_{C[0,T]}\le\rho$, то есть $\mathcal{F}[q](t)\in B(q_0,\rho)$. Для любых функций $q(t),\tilde{q}(t)\in B(q_0,\rho)$ оценим расстояние между их образами $\mathcal{F}[q](t)$ и $\mathcal{F}[\tilde{q}](t)$ в пространстве $C[0,T]$. Функции $\tilde{v}_{m,0}(t),\tilde{v}_{m,2k}(t)$ и $\tilde{v}_{m,2k-1}(t)$, соответствующие $\tilde{q}(t)$, удовлетворяют интегральным уравнениям (15)-(17) при $\varphi_{m,j}=\tilde{\varphi}_{m,j}, \psi_{m,j}=\tilde{\psi}_{m,j}$ и $f_{m,j}(t)=\tilde{f}_{m,j}(t)$. Составляя разность $\mathcal{F}[q]-\mathcal{F}[\tilde{q}]$ с использованием уравнений (15)-(17) и оценивая её норму, получаем

$$\|\mathcal{F}[q]-\mathcal{F}[\tilde{q}]\|\le\frac{w_0}{H_0}\sum_{m=1}^{\infty}\frac{T^\alpha\Phi_{m,0}(T)}{\theta_{m0}\alpha}\exp\left\{\frac{T^\alpha\|\tilde{q}\|_{C[0,T]}}{\theta_{m0}\alpha}\right\}\|\hat{q}\|_{C[0,T]}$$
$$+\frac{w_0}{H_0}\sum_{m,k=1}^{\infty}\frac{T^\alpha\Phi_{m,2k-1}(T)}{\theta_{mk}\alpha}\exp\left\{\frac{T^\alpha\|\tilde{q}\|_{C[0,T]}}{\theta_{mk}\alpha}\right\}\|\hat{q}\|_{C[0,T]}$$
$$+\frac{w_0}{H_0}\sum_{m,k=1}^{\infty}\frac{\gamma_k T^{2\alpha}\Phi_{m,2k-1}(T)}{\theta_{mk}\alpha}\exp\left\{\frac{T^\alpha\|\tilde{q}\|_{C[0,T]}}{\theta_{mk}\alpha}\right\}\|\hat{q}\|_{C[0,T]}$$
$$+\frac{w_0}{H_0}\sum_{m,k=1}^{\infty}\frac{T^\alpha\Phi_{m,2k}(T)}{\theta_{mk}\alpha}\exp\left\{\frac{T^\alpha\|\tilde{q}\|_{C[0,T]}}{\theta_{mk}\alpha}\right\}\|\hat{q}\|_{C[0,T]}. \quad (30)$$

Функции $q(t)$ и $\tilde{q}(t)$ принадлежат шару $B(q_0,\rho)$, и поэтому для каждой из них выполняется неравенство $\|q\|_{C[0,T]}\le\|q_0\|_{C[0,T]}+\rho=:R$. Отметим, что функция, стоящая в правой части неравенства (30), при множителе

$\|q\|_{C[0,T]} - \|\tilde{q}\|_{C[0,T]}$ монотонно возрастает по переменным $\|q\|_{C[0,T]}$, $\|\tilde{q}\|_{C[0,T]}$ и $T$. Следовательно, замена величин $\|q\|_{C[0,T]}$ и $\|\tilde{q}\|_{C[0,T]}$ в неравенстве (30) на $R$ лишь усиливает данное неравенство. Тем самым получаем

$$\frac{w_0}{H_0}\sum_{m=1}^{\infty}\frac{T^\alpha\Phi_{m,0}(T)}{\theta_{m0}\alpha}\exp\left\{\frac{T^\alpha R}{\theta_{m0}\alpha}\right\}\|\hat{q}\|_{C[0,T]} +$$
$$+\frac{w_0}{H_0}\sum_{m,k=1}^{\infty}\frac{T^\alpha\Phi_{m,2k-1}(T)}{\theta_{mk}\alpha}\exp\left\{\frac{T^\alpha R}{\theta_{mk}\alpha}\right\}\|\hat{q}\|_{C[0,T]} +$$
$$+\frac{w_0}{H_0}\sum_{m,k=1}^{\infty}\frac{\gamma_k T^{2\alpha}\Phi_{m,2k-1}(T)}{\theta_{mk}\alpha}\exp\left\{\frac{T^\alpha R}{\theta_{mk}\alpha}\right\}\|\hat{q}\|_{C[0,T]}$$
$$+\frac{w_0}{H_0}\sum_{m,k=1}^{\infty}\frac{T^\alpha\Phi_{m,2k}(T)}{\theta_{mk}\alpha}\exp\left\{\frac{T^\alpha R}{\theta_{mk}\alpha}\right\}\|\hat{q}\|_{C[0,T]} =: m_2(T)\|\hat{q}\|_{C[0,T]}$$

Здесь $\hat{q}(t) = q(t) - \tilde{q}(t)$, а функция $m_2(T)$ является возрастающей. Обозначим через $T_2$ корень уравнения $m_2(T) = 1$ (при $m_2(0) = 0$ ). Тогда для всех $T \in (0, T_2)$ оператор $\mathcal{F}$ сжимает расстояние между элементами $q(t)$ и $\tilde{q}(t)$ из шара $B(q_0, \rho)$. Следовательно, если выбрать $T^* < \min\{T_1, T_2\}$, то оператор $\mathcal{F}$ является сжимающим в шаре $B(q_0, \rho)$. В соответствии с теоремой Банаха о неподвижной точке [20, pp. 87-97] оператор $\mathcal{F}$ имеет единственную неподвижную точку в шаре $B(q_0, \rho)$, то есть существует единственное решение уравнения (29). Тем самым теорема доказана.

**Список литературы**

[1] R. L. Magin, Fractional calculus models of complex dynamics in biological tissues, Comput. Math. Appl. 59(5), 1586-1593 (2010)

[2] F. C. Meral, T. J. Royston and R. Magin. Fractional calculus in viscoelasticity: An experimental study// Commun.Nonlinear Sci. Numer. Simul. 15(4), pp. 939-945 (2010)

[3] R. Khalil, M. Horani, A. Yousef and M. Sababheh, A New Definition of Fractional Derivative// Computational and Applied Mathematics, 246, pp. 65-70, (2014)

[4] Wang Y., Zhou J., Li Y. Fractional Sobolev's Spaces on Time Scales via Conformable Fractional Calculusand Their Application to a Fractional Differential Equation on Time Scales// Adv. Math. Phys. 2016, 1-21, article 963649121 (2016).

[5] F. Jarad, E. Ugurlu, T. Abdeljawad and D. Baleanu. On a new class of fractional operators// Adv. Diff. Equat. 2017 (1), article 247 (2017)

[6] Y Cakmak. Inverse nodal problem for a conformable fractional diffusion operator// Inverse Probl. Sci. Engineering 29 (9), 1308-1322 (2021)

[7] *Д. К. Дурдиев, Т. Р. Суяров, Х. Х. Турдиев.* Обратная коэффициентная задача для дробного телеграфного уравнения с соответствующей дробной производной по времени // *Изв. вузов. Матем.*, 2025, № 2, 39–52

[8] A. H. Hasanov and V. G. Romanov. Introduction to Inverse Problems for Differential Equations// (Springer International Publishing, Switzerland, 2017).

[9] V. Isakov, Inverse Problems for Partial Differential Equations// (Springer-Verlag, New York, 1998).

[10] S. I. Kabanikhin, Inverse and Ill-Posed Problems: Theory and Applications// (Walter de Gruyter. Berlin, 2011).

[11] *Д. К. Дурдиев, Т. Р. Суяров.* Обратная коэффициентная задача для двумерного волнового уравнения с начальными и нелокальными граничными условиями// Владикавк. матем. журн., **26**:2 (2024), 5–25

[12] M. I. Ismailova, and S. Erkovan. Inverse Problem of Finding the Coefficient of the Lowest Term in Two-Dimensional Heat Equation with Ionkin-Type Boundary Condition// Computational Mathematics and Mathematical Physics, Vol. 59, No. 5, pp. 791-808, (2019)

[13] D. K. Durdiev., T. R. Suyarov. Inverse coefficient problem for the fractional wave equation with non-local initial-boundary and integral type overdetermination conditions// Rendiconti del Circolo Matematico di Palermo Series 2. 74:144, (2025) https://doi.org/10.1007/s12215-025-01246-0

[14] D. K. Durdiev, J. J. Jumayev. Solvability of a coefficient recovery problem for a time-fractional diffusion equation with periodic boundary and overdetermination conditions// J. Samara State Tech. Univ., Ser. Phys. Math. Sci. 29:1, pp. 21-36, (2025)

[15] D. K. Durdiev, A. A. Rahmonov, Z. R. Bozorov. A two-dimensional diffusion coefficient determination problem for the time-fractional equation// Math. Methods Appl. Sci. vol. 44, no. 13, pp, (2021)

[16] Saad A., Brahim N. Analytical solution for the conformal fractional telegraph equation by Fourier method. Proc. Int. Math. Sci. 2 (1), 1-6 (2020)

[17] А. Н. Филатов, *Л.* В. Шарова, *Интегральные неравенства и теория нелинейных колебаний*// Наука, Москва, 1976.

[18] V. Il'in, How to express basis conditions and conditions for the equiconvergence with trigonometric series of expansions related to non-self-adjoint differential operators, Computers and Mathematics with Applications, 34(5), pp. 641-647, (1997)

[19] Н. И. Ионкин, В. А. Морозова. *Д*вумерное уравнение теплопроводности с нелокальными краевыми условиями// *Д*ифференц. уравнения, **36**:7 (2000), 884–888

[20] Колмогоров А. Н., Фомин С. В. Элементы теории функций и функционального анализа// (М.: ФИЗМАТ*Л*ИТ, 2004).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

**Zokirjonov Akramjon Akmal o‘g‘li**
NamDU Fizika-matematika fakulteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari yo‘nalishi talabasi
akramjon1510005@gmail.com
Ilmiy rahbar: **Mahmudov Abror Zokirovich**
Raqamli ta’lim va texnologiyalar kafedrasi kata o‘qituvchisi

## RAQAMLI TA’LIM VA KIBERXAVFSIZLIK MUAMMOLARI

***Annotatsiya****: Ushbu maqolada raqamli ta’lim jarayonining rivojlanishi, uning imkoniyatlari va yuzaga kelayotgan muammolari tahlil qilinadi. Onlayn ta’lim tizimida kiberxavfsizlik masalalari, ma’lumotlarni himoyalash hamda ta’lim muassasalarida axborot xavfsizligini ta’minlash yo‘llari ilmiy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Raqamli ta’lim, onlayn o‘qitish, masofaviy ta’lim, kiberxavfsizlik, sun’iy intellekt, raqamli transformatsiya, ma’lumotlar bazasi, kompyuter tarmoqlari, texnologik innovatsiyalar, ta’lim platformalari, elektron resurslar, axborot texnologiyalari, tarmoq xavfsizligi, foydalanuvchi identifikatsiyasi, kiberxavf, raqamli madaniyat, ma’lumotlar maxfiyligi, bulutli texnologiyalar, axborot tizimlari.*

**Зокиржонов Акрамжон Акмал огли**
Физико-математический факультет, НамГУ
Студент кафедры информационных систем и технологий
**Научный руководитель: Махмудов Аброр Зокирович**
Старший преподаватель кафедры цифрового образования и технологий

## ЦИФРОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ВОПРОСЫ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ

***Аннотация:*** *В статье анализируется развитие процесса цифрового образования, его возможности и возникающие проблемы. С научной точки зрения рассматриваются вопросы кибербезопасности в системе онлайн-образования, защиты данных и способы обеспечения информационной безопасности в образовательных организациях.*

***Ключевые слова:*** *Цифровое образование, онлайн-обучение, дистанционное обучение, кибербезопасность, искусственный интеллект, цифровая трансформация, база данных, компьютерные сети, технологические инновации, образовательные платформы, электронные ресурсы, информационные технологии, сетевая безопасность, идентификация пользователей, киберриск, цифровая культура, конфиденциальность данных, облачные технологии, информационные системы.*

**Zokirjonov Akramjon Akmal ogli**
Faculty of Physics and Mathematics, NamSU
Student of the Information Systems and Technologies Department
**Scientific Supervisor: Mahmudov Abror Zokirovich**
Senior Lecturer, Department of Digital Education and Technologies

## DIGITAL EDUCATION AND CYBERSECURITY ISSUES

***Annotation:*** *This article analyzes the development of the digital education process, its opportunities and emerging problems. Cybersecurity issues in the online education system, data protection, and ways to ensure information security in educational institutions are considered from a scientific point of view.*

***Keywords:*** *Digital education, online learning, distance learning, cybersecurity, artificial intelligence, digital transformation, database, computer networks, technological innovations, educational platforms, electronic resources, information technologies, network security, user identification, cyber risk, digital culture, data privacy, cloud technologies, information systems.*

XXI asrda raqamli texnologiyalar inson faoliyatining deyarli barcha sohalarini qamrab oldi. Shu jarayonda ta’lim tizimi ham tubdan o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. An’anaviy o‘qitish shakllaridan raqamli va masofaviy ta’lim tizimlariga o‘tish, bir tomondan, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, ta’lim resurslariga kengroq kirish imkonini yaratish, hamda individual yondashuvni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Boshqa tomondan esa, raqamli ta’lim muhitining kengayishi bilan bir qatorda axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik bilan bog‘liq muammolar ham dolzarb masalaga aylandi. Raqamli ta’lim platformalari (masalan, Moodle, Hemis, EdX va boshqalar) o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro aloqani soddalashtiradi, o‘quv jarayonini avtomatlashtiradi hamda o‘quv materiallarini elektron shaklda saqlash va ulashish imkonini beradi. Ammo bunday tizimlarda foydalanuvchi ma’lumotlari, baholash natijalari, login va parollar, hamda shaxsiy axborotlar tarmoqqa ulanib saqlanadi. Bu esa kiberhujumlar, zararli dasturlar, ma’lumotlar o‘g‘irlanishi yoki tizimga noqonuniy kirish holatlari uchun muayyan xavf tug‘diradi. Bugungi raqamli asrda ta’limning transformatsiyasi global miqyosda kechmoqda. Masofaviy ta’lim, sun’iy intellekt, elektron platformalar, virtual laboratoriyalar — bularning barchasi bilim olish jarayonini o‘zgartirib yubordi. O‘zbekiston ham raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonida ta’lim tizimini tubdan yangilamoqda.

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek:

**“Raqamli ta’lim — kelajak avlodni raqobatbardosh qilishning asosiy omilidir.”** So‘nggi yillarda O‘zbekistonda “Elektron ta’lim”, “Masofaviy ta’lim”, “OneID”, elektron kundalik, onlayn imtihon tizimlari keng joriy etildi. IT Park, IT akademiyalar, Sun’iy intellekt bo‘yicha ilmiy markaz — raqamli avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Biroq raqamli ta’limning imkoniyatlari bilan birga, kiberxavfsizlik muammolari ham ortib bormoqda.

Raqamli ta’limning asosiy muammolari quyidagilardan iborat:

| Yo‘nalish | Muammo | Sababi |
|---|---|---|
| Texnik infratuzilma | Teng imkoniyatlarning yetishmasligi | Qishloq hududlarida internet sifati past |
| Pedagogik salohiyat | Raqamli ko‘nikmalar sust | O‘qituvchilarning IT-kompetensiyalari turlicha |
| Akademik halollik | Plagiat, noshaffof baholash | Onlayn nazoratning murakkabligi |
| Psixologik muammolar | Virtual muhitga moslashuv | Ekranga qaramlik, muloqotning kamayishi |
| Axborot xavfsizligi | Shaxsiy ma’lumotlarning talafoti | Tahdidlar soni keskin oshmoqda |

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasalari kiberxavfsizlik nuqtayi nazaridan korporativ yoki moliyaviy tashkilotlarga qaraganda ko‘proq zaif hisoblanadi. Buning sabablari qatorida foydalanuvchilarning texnik savodxonligining yetarli emasligi, xavfsizlik siyosatlarining sustligi, yangilanmagan dasturiy ta’minotlardan foydalanish va autentifikatsiya mexanizmlarining oddiyligi keltiriladi. Shu bois, raqamli ta’lim infratuzilmasini himoyalash uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Kiberxavfsizlik masalalari nafaqat texnik, balki ijtimoiy va tashkiliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Chunki foydalanuvchining raqamli madaniyati va xavfsizlik bo‘yicha xabardorligi — tizimning eng zaif bo‘g‘ini hisoblanadi. Shuning uchun, ta’lim jarayonida kiberxavfsizlikni ta’minlashda texnik choralar (shifrlash, xavfsiz autentifikatsiya, tarmoq monitoringi) bilan bir qatorda, foydalanuvchilarni muntazam o‘qitish va axborot madaniyatini shakllantirish zarur.

Mazkur maqola raqamli ta’lim tizimlarida uchraydigan asosiy kiberxavfsizlik muammolarini aniqlash, ularning sabablari va oqibatlarini tahlil qilish, shuningdek, ta’lim muassasalarida axborot xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan. Shuningdek, maqolada raqamli ta’lim infratuzilmasining barqarorligini oshirish, foydalanuvchi ma’lumotlarini himoya qilish va kiberhujumlarning oldini olish bo‘yicha zamonaviy yechimlar tahlil qilinadi.

COVID-19 pandemiyasi davrida O‘zbekiston ta’lim muassasalari onlayn va masofaviy ta’limga tez moslashdi: milliy telekanallar, elektron platformalar va masofaviy ta’lim dasturlari orqali o‘quv jarayonlari davom ettirildi. Tadqiqotlar va xalqaro hisobotlar ta’kidicha, mamlakatda ta’lim davomiyligini ta’minlash bo‘yicha muvaffaqiyatlar kuzatilgan va ba’zi baholarda o‘quv natijalari saqlangani yoki yaxshilangani haqida dalillar bor. Ushbu tez raqamlashtirish ta’lim infratuzilmasi va ma’lumotlarni raqamlashtirishni tezlashtirdi, biroq shu bilan birga yangi xavf-manbalarni ham paydo qildi.So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kiberhujumlar soni sezilarli darajada oshgani rasmiy manbalarda qayd etilgan — masalan, 2023 yilda 11 million atrofida, 2024 yilda esa 12 milliondan ortiq hujum urinishlari

qayd qilingan. Bu raqamlar milliy raqamli infratuzilma uchun keng ko‘lamli xavf mavjudligini ko‘rsatadi va ta’lim muassasalarini ham ushbu tahdidlar doirasiga kiritadi. Raqamli ta’lim tizimlaridagi uzilishlar, ma’lumotlarning oshkor bo‘lishi va foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlari xavfi — bularning barchasi ta’lim jarayoniga bevosita ta’sir qiladi. Pandemiya davrida masofaviy ta’limga o‘tishda o‘qituvchi va ota-onalar yangi texnologiyalar bilan ishlashga majbur bo‘ldi. O‘zbekiston 2022 yilda “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida” qonunni qabul qilib, sohada huquqiy bazani mustahkamladi; keyinchalik milliy strategiyalar va farmonlar bilan qo‘shimcha choralar joriy etilmoqda. Ko‘plab ta’lim tashkilotlari eski yoki yangilanmagan dasturiy ta’minot, yetarli tarmoq himoyasi va markazlashtirilgan ma’lumotlar zaxiralari yo‘qligidan aziyat chekadi. Milliy tahlillar va ekspertlar buni raqamli transformatsiya jarayonining muammoli jihatlaridan biri deb ataydi.

**Xulosa:** Raqamli ta’lim tizimi bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim sohasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Onlayn platformalar, elektron darsliklar va masofaviy o‘qitish imkoniyatlari ta’lim jarayonini yanada qulay, moslashuvchan va samarali qilmoqda. Biroq, raqamli imkoniyatlar bilan bir qatorda, kiberxavfsizlik bilan bog‘liq yangi muammolar ham yuzaga chiqmoqda. Shaxsiy ma’lumotlarning tarqalib ketishi, tizimlarga noqonuniy kirish holatlari, zararli dasturlar va foydalanuvchilarning kiberxavfsizlik haqidagi yetarli bilimga ega emasligi – bularning barchasi ta’lim tizimining barqarorligiga jiddiy tahdid soladi.

Shu sababli, ta’lim tizimida axborot xavfsizligini mustahkamlash — strategik vazifa bo‘lib qolmoqda. Bunda nafaqat davlat idoralari, balki har bir ta’lim muassasasi, o‘qituvchi va talaba ham mas’uldir. Ma’lumotlarni himoyalash bo‘yicha xalqaro standartlar, zamonaviy kriptografik texnologiyalar, xavfsiz internet protokollarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mening fikrimcha, biz — yoshlar, nafaqat raqamli texnologiyalardan foydalanishimiz, balki ularni xavfsiz boshqarish, himoya qilish, kiberxavfsizlik bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lishimiz zarur. Chunki yurtimiz taraqqiyotining kelajagi ilmli, raqobatbardosh va axborot xurujlariga qarshi tura oladigan kadrlar qo‘lidadir.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek:

**“Yangi O‘zbekiston kelajagi — bilimli, mas’uliyatli va texnologiyalarni chuqur egallagan yoshlar qo‘lidadir.”**

Demak, bizning vazifamiz — raqamli ta’lim imkoniyatlaridan to‘liq foydalanib, axborot xavfsizligi talablariga qat’iy amal qilgan holda, Vatanimiz ravnaqi uchun xizmat qilishdir. Kuchli ta’lim — xavfsiz va barqaror kelajakning kafolatidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. **Karimov S. va Mamatqulova D**. (2023). ***Raqamli ta'lim tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash omillari*.** Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Ilmiy Axborotnomasi, 4(2), 45–52.

2. United Nations Children’s Fund (UNICEF). (2022). ***Education and digital transformation in Uzbekistan: Progress and challenges*.**

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022). ***Kiberxavfsizlik to‘g‘risida*** O‘zbekiston Respublikasi Qonuni № ZRU–789, **15 dekabr 2022 yil**. Toshkent.

4. Prezident **Sh.M. Mirziyoyev**ning Ta’lim forumidagi nutqi, **2022-yil**.

5. **Xoliqov A., Karimov B.** Raqamli ta’lim texnologiyalari. — Toshkent: **2023.**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

**Sotimboyeva Zarifaxon Erkinjonovna**
Namangan davlat universiteti

## G/M/1 NAVBAT TIZIMIDA STATSIONAR TAQSIMOT VA KUTISH VAQTINING TAHLILI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola navbat nazariyasining $G/M/1$ modelida statsionar rejim xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan. Tizimga kelishlararo vaqt ixtiyoriy taqsimotga ( $A(t)$ ) ega bo'lib, xizmat ko'rsatish vaqti $\mu$ parametrli eksponensial taqsimotga bo'ysunadi. Tahlil uchun talablar kelish momentlariga asoslangan yashirin Markov zanjiri (Embedded Markov Chain) metodologiyasi qo'llanilgan[1]. Tizimning statsionar holat sharti $\rho<1$ bajarilganda, statsionar ehtimollar taqsimoti Teorema 1 orqali xarakteristik tenglamaning yagona ildizi $\sigma\in(0,1)$ orqali geometrik progressiya shaklida aniqlangan. Shuningdek, Teorema 2 da talabning navbatda kutish vaqti $W_q$ ning taqsimot funksiyasi yopiq shaklda, ya'ni $F_{W_q}(t)=1-\rho e^{-\mu(1-\sigma)t}$ ko'rinishida keltirilgan. Olingan natijalar kelish oqimi Puasson bo'lmagan murakkab tizimlarning samaradorligini baholash uchun fundamental nazariy asos bo'lib xizmat qiladi[2].*

***Kalit so'zlar.*** *Navbat nazariyasi, $G/M/1$ modeli, Yashirin Markov zanjiri, Statsionar taqsimot, Xarakteristik tenglama, Kutish vaqti, Laplas-Stiltes almashtirish.*

**Сотимбоева Зарифахон Эркинжоновна**
Наманганский государственный университет

## АНАЛИЗ СТАЦИОНАРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ И ВРЕМЕНИ ОЖИДАНИЯ В СИСТЕМЕ МАССОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ $G/M/1$

***Аннотация.*** *Настоящая исследовательская работа посвящена углубленному анализу характеристик стационарного режима в модели теории массового обслуживания $G/M/1$. В системе время между поступлениями требований имеет произвольное распределение ( $A(t)$ ), а время обслуживания подчиняется экспоненциальному распределению с параметром $\mu$. Для анализа используется методология вложенной цепи Маркова (Embedded Markov Chain), основанная на моментах поступления требований [1]. При выполнении условия стационарного режима $\rho<1$, стационарное распределение вероятностей Теорема 1 определено в виде геометрической прогрессии через единственный корень $\sigma\in(0,1)$ характеристического уравнения. Кроме того, в Теореме 2 представлена функция распределения времени ожидания в очереди $W_q$ в замкнутой форме: $F_{W_q}(t)=1-\rho e^{-\mu(1-\sigma)t}$. Полученные результаты служат фундаментальной теоретической основой для оценки эффективности сложных систем, где входящий поток не является пуассоновским [2, 4].*

***Ключевые слова.*** *Теория массового обслуживания, модель $G/M/1$, Вложенная цепь Маркова, Стационарное распределение, Характеристическое уравнение, Время ожидания, Преобразование Лапласа-Стилтьеса.*

**Sotimboyeva Zarifaxon Erkinjonovna**
Namangan State University

## ANALYSIS OF STATIONARY DISTRIBUTION AND WAITING TIME IN THE $G/M/1$ QUEUEING SYSTEM

***Abstract.*** *This research paper is dedicated to an in-depth analysis of the stationary regime characteristics in the $G/M/1$ queueing theory model. In this system, the inter-arrival time of requests has an arbitrary distribution ( $A(t)$ ), while the service time follows an exponential distribution with parameter $\mu$. The analysis employs the Embedded Markov Chain methodology, focusing on the moments of request arrivals [1]. Provided that the stationary condition $\rho<1$ is met, the stationary probability distribution is determined by Theorem 1 in the form of a geometric progression, expressed through the unique root $\sigma\in(0,1)$ of the characteristic*

*equation. Furthermore, Theorem 2 presents the distribution function of the waiting time in the queue, $W_q$, in a closed form: $F_{W_q}(t)=1-\rho e^{-\mu(1-\sigma)t}$. The results obtained serve as a fundamental theoretical basis for evaluating the efficiency of complex systems where the arrival process is non-Poisson [2, 4].*

***Keywords.*** *Queueing Theory, $G/M/1$ Model, Embedded Markov Chain, Stationary Distribution, Characteristic Equation, Waiting Time, Laplace-Stieltjes Transform.*

**Kirish.** Navbat nazariyasi zamonaviy telekommunikatsiya, logistika, ishlab chiqarish va kompyuter tizimlarining ishlash samaradorligini matematik modellashtirish va optimallashtirish uchun asosiy vositadir[1]. Klassik $M/M/1$ modeli soddaligi bilan ajralib tursa-da, ko'plab real tizimlarda talablarning kelish oqimi Puasson taqsimotiga bo'ysunmaydi. Bu holatda, kelishlararo vaqt ixtiyoriy taqsimotga ega bo'lgan $G/M/1$ modeli dolzarb hisoblanadi[3].

$G/M/1$ modelining tahlili $M/G/1$ modelidan farqli o'laroq, tizim holatini ixtiyoriy vaqt momentida emas, balki faqat talablar kelish momentlarida ko'rib chiqishni talab qiladi. Bu yondashuv yashirin Markov zanjiri deb ataladi. Ushbu usul tizimning statsionar taqsimotini aniqlashda muhim rol o'ynaydi[2,4].

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi $G/M/1$ navbat tizimining statsionar rejimda mavjud bo'lish shartlarini aniqlash, tizimdagi talablar sonining statsionar taqsimotini topish va eng muhimi, talabning navbatda kutish vaqti $W_q$ ning taqsimot funksiyasi uchun yopiq shakldagi ifodalarni keltirib chiqarishdan iborat.

Tizimning Modeli va Asosiy Parametrlari.

$G/M/1$ navbat tizimi quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Kelish Oqimi ($G$): Talablar orasidagi vaqt $A(t)$ taqsimot funksiyasiga ega. O'rtacha kelish tezligi $\lambda = 1/E[A]$ ga teng. $A^*(s)$ — $A(t)$ ning Laplas-Stiltes almashtirish funksiyasi.
2. Xizmat Ko'rsatish ($M$): Xizmat ko'rsatish vaqti $\mu$ parametrli eksponensial taqsimotga ega.
3. Kanallar Soni (1): Bitta xizmat ko'rsatish kanali mavjud.

Tizimning yuklanish koeffitsiyenti $\rho$ quyidagi formula bilan belgilanadi:

$$\rho = \frac{\lambda}{\mu}$$

Tizimning statsionar rejimda ishlashi uchun zaruriy va yetarli shart $\rho < 1$ dir.

**Asosiy qism:** Yashirin Markov Zanjiri va Statsionar Taqsimot

1. Yashirin Markov Zanjirining O'tish Ehtimollari

$X_n$ — $n$-chi talab kelgan paytdagi tizimdagi talablar soni. $\{X_n, n \geq 0\}$ ketma-ketligi Markov zanjirini tashkil etadi. $a_k$ — ikki ketma-ket kelish orasidagi vaqt oralig'ida $k$ ta xizmat ko'rsatish tugashi ehtimoli:

$$a_k = P(K=k) = \int_0^\infty \frac{(\mu t)^k}{k!} e^{-\mu t} dA(t), \quad k \geq 0$$

Bu yerda $K$ — kelishlararo vaqt oralig'ida xizmat ko'rsatilgan talablar soni.

2. Xarakteristik Tenglama

Statsionar taqsimot $\pi_j$ ni topish uchun quyidagi xarakteristik tenglamaning yechimi $\sigma$ ni topish talab qilinadi[3]:

$$\sigma = \sum_{k=0}^{\infty} a_k \sigma^{k+1}$$

$a_k$ ning ta'rifini Laplas-Stiltes almashtirish funksiyasi $A^*(s)$ orqali ifodalash orqali, xarakteristik tenglama quyidagi ixcham ko'rinishni oladi:

$\sigma = A^*(\mu(1-\sigma))$

Agar $\rho < 1$ bo'lsa, bu tenglama $0 < \sigma < 1$ oralig'ida yagona yechimga ega bo'ladi.

**Teorema 1.** Agar $G/M/1$ navbat tizimi uchun $\rho < 1$ sharti bajarilsa, u holda $n$-chi talab kelgan paytdagi tizimdagi talablar sonining statsionar taqsimoti $\pi_j = \lim_{n\to\infty} P(X_n = j)$ quyidagi geometrik progressiya shaklida bo'ladi:

$$\pi_j = (1-\sigma)\sigma^j, \quad j \geq 0$$

Bu yerda $\sigma$ — xarakteristik tenglamaning $(0,1)$ oraliqdagi yechimidir.

**Teorema 2.** Agar $G/M/1$ navbat tizimi statsionar rejimda ishlasa ( $\rho<1$), u holda talabning navbatda kutish vaqti $W_q$ ning taqsimot funksiyasi $F_{W_q}(t)$ quyidagicha beriladi:

$$F_{W_q}(t)=P(W_q\le t)=1-\rho e^{-\mu(1-\sigma)t},\quad t\ge 0$$

Bu yerda $\rho=\lambda/\mu$ va $\sigma$ — xarakteristik ildiz.

Teorema 2 dan foydalanib, o'rtacha navbatda kutish vaqti $E[W_q]$ ni hisoblaymiz:

$$E[W_q]=\int_0^\infty P(W_q>t)dt=\int_0^\infty \rho e^{-\mu(1-\sigma)t}dt$$

Integralni hisoblash natijasida quyidagi formula kelib chiqadi:

$$E[W_q]=\frac{\rho}{\mu(1-\sigma)}$$

Limit qonuni $E[L]=\lambda E[W]$ va $E[W]=E[W_q]+1/\mu$ munosabatidan foydalanib, o'rtacha tizimda bo'lish vaqti *E[W]* ni topamiz:

$$E[W]=\frac{1}{\mu}\left(1+\frac{\rho}{1-\sigma}\right)$$

$G/M/1$ navbat tizimining statsionar tahlili yashirin Markov zanjiri usuli orqali muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Tizimning statsionar taqsimoti va navbatda kutish vaqti taqsimoti eksponensial xizmat ko'rsatish tufayli geometrik va eksponensial shakllarda saqlanib qolishi isbotlandi. Barcha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari tizimning yuklanish koeffitsiyenti $\rho$ va xarakteristik tenglamaning yechimi $\sigma$ orqali aniq va yopiq shaklda ifodalandi. Bu natijalar kelish oqimi Puasson bo'lmagan murakkab navbat tizimlarini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi[4].

**Foydalanilgan Adabiyotlar**

1.Adan, I., & Resing, J. (2021). *Queueing Theory*. Springer, Cham.

2.Alimov, S. A., & Xudoyberganov, M. O. (2022). *Navbat Tizimlarining Matematik Modellarini Tahlil Qilish*. Toshkent: Fan nashriyoti. Baccelli, F., & Bremaud, P. (2020). *Elements of Queueing Theory: Palm-Martingale Calculus and Stochastic Recurrences*. Springer, New York.

3.Gafarov, A. A., & Raximov, A. A. (2023). *G/M/1 Tizimida Chegaraviy Masalalarning Yechimi*. O'zbekiston Matematika Jurnali, 2023(1), 45-58.

4.Harchol-Balter, M. (2021). *Performance Modeling and Design of Computer Systems: Queueing Theory in Action*. Cambridge University Press.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

**Madaminov Xurshidjon Muxamedovich,**
Andijon davlat universiteti dotsenti, f.-m.f.n.
**Parpiyev Elmurod Xalimjonovich**
Andijon davlat texnika instituti Akademik litseyi o'qituvchisi
e-mail: khurmad@mail.ri

**UDK. 621.1383.51**

## DINAMIKANING ASOSIY MASALALARINI EKSTREMAL MASALA SIFATIDA O'RGANISH

***Annotatsiya:*** *Maqolada dinamikaning to'g'ri va teskari masalasini ekstremal masala sifatida yechish algoritmi bayon etilgan. Odatda, bunday masalalar talabadan nafaqat fizik ifoda yoki tenglamani qo'llashni, balki, tadqiq etilayotgan jarayonning mohiyatini va uni tavsiflovchi kattaliklarning sabab-oqibat bog'lanishlarini ham chuqur ilmiy tahlilini talab etadi. Bu esa oqibatda, talabada novatorlik, mantiqiy tahlil va mustaqil izlanish kompetensiyalarini shakllanishiga sabab bo'lar ekan.*

***Kalit so'zlar:*** *harakat qonunlari, dinamikaning to'g'ri va teskari masalasi, ekstremal masala, hosila usuli, trigonometrik usul, eng katta qiymat.*

**Мадаминов Хуршиджон Мухамедович**
Андижанский государственный университет, к.-ф.м.н., доцент
**Парпиев Элмурод Халимджанович**
Академический лицей Андижанского государственного технического института, учитель физики

## ИЗУЧЕНИЕ ОСНОВНЫХ ЗАДАЧ ДИНАМИКИ В РАМКАХ ЭКСТРЕМАЛЬНОЙ ЗАДАЧИ

***Аннотация:*** *В статье описан алгоритм решения прямой и обратной задачи динамики как задачи о экстремальных значениях. Как правило, такие задачи требуют от студента не только использования физического выражения или уравнения, но и проведения глубокого научного анализа сущности изучаемого процесса и причинно-следственных связей характеризующих его величин. Это, в свою очередь, способствует формированию у студента новаторских, логических и самостоятельных исследовательских компетенций.*

***Ключевые слова****: законы движения, прямая и обратная задача динамики, экстремальная задача, метод производных, тригонометрический метод, максимальное значение.*

**Madaminov Khurshidjon Mukhamedovich**
Andijan State University, PhD., associate professor
**Parpiyev Elmurod Khalimjonovich**
Academic Lyceum of Andijan State Technical Institute, teacher

## INVESTIGATION OF THE FUNDAMENTAL PROBLEMS OF DYNAMICS IN THE FRAMEWORK OF AN EXTREMAL PROBLEM

***Abstract:*** *The article describes an algorithm for solving the direct and inverse problem of dynamics as an extreme problem. Typically, such problems require the student not only to use a physical expression or equation, but also to conduct a deep scientific analysis of the essence of the process under study and the cause-and-effect relationships of the quantities characterizing it. This, in turn, leads to the formation of innovative, logical analysis and independent research competencies in the student.*

***Keywords:*** *laws of motion, direct and inverse problem of dynamics, extreme problem, derivative method, trigonometrical method, maximum value.*

### Kirish

XXI asrda fizika fanining eng muhim yo'nalishlaridan biri mexanik jarayonlarni chuqur matematik va hisoblash usullari yordamida tahlil qilishdir. Mexanika fani, o'z navbatida, tabiatdagi barcha harakat va o'zaro ta'sir jarayonlarini o'rganishda asosiy tayanchlardan biri hisoblanadi. Shu sababli mexanikaning nazariy asoslarini yanada chuqurroq

o‘rganish, uni variatsion va ekstremal yondashuvlar yordamida takomillashtirish hozirgi ilm-fan taraqqiyotining muhim masalalaridan biridir.

**Adabiyotlar tahlili**

Mexanikaning to‘g‘ri masalasi deganda, berilgan kuchlar tizimi ta’sirida jismning holati yoki harakat qonuniyatlarini aniqlash tushuniladi [1]. Bunda jismga ta’sir etuvchi kuchlar, boshlang‘ich shartlar va geometrik parametrlar ma’lum bo‘lib, natijada jismning harakati yoki deformatsiyasi topiladi. Aksincha, teskari masalada esa jismning holati yoki natijaviy harakati ma’lum bo‘ladi, ammo uni yuzaga keltiruvchi kuchlar yoki parametrlar aniqlanadi. Bu tur masalalar muhandislik, texnika va amaliy fizika sohasida keng qo‘llaniladi, chunki real tizimlarda ko‘pincha oqibat ma’lum bo‘lib, unga sabab bo‘luvchi omilni aniqlash talab etiladi [2-3].

So‘nggi yillarda mexanikaning to‘g‘ri va teskari masalalarini ekstremal masalalar nuqtayi nazaridan o‘rganish yangi bosqichga ko‘tarildi [4-5]. Ekstremal masalalar - bu tizim holatini shunday aniqlashga intiluvchi masalalarki, unda ma’lum fizik kattalik (masalan, energiya, ish, potensial yoki harakat funksiyasi) minimal yoki maksimal qiymatga ega bo‘ladi [6-7]. Mazkur yondashuv mexanik tizimlarning barqarorligi, harakat trayektoriyasining optimal shakli yoki energiyaning tejamli taqsimlanishini tahlil qilishda katta ahamiyatga ega [8].

**Tadqiqot metodologiyasi**

Moddiy nuqtaning harakati Nyutoning ikkinchi qonunidan kelib chiquvchi harakat tenglamasiga bo‘ysunadi. Bu tenglamadan ko‘ramizki, moddiy nuqta dinamikasida ikki xil masala: to‘g‘ri yoki asosiy masala; teskari masala qo‘yilishi mumkin [1].

Agar moddiy nuqtaning harakat qonuni ma’lum bo‘lsa, dinamikaning to‘g‘ri (asosiy) masalasini ekstremal masala sifatida quyidagi tartibda yechiladi [2]:

1. Masala shartida sanoq sistemasi berilmagan bo‘lsa, u tanlab olinadi;
2. Moddiy nuqtaga ta’sir qiluvchi barcha kuchlar chizmada ko‘rsatiladi, bunda tashqari moddiy nuqta bog‘lanishga ega bo‘lsa, u bog‘lanishdan ozod qiliadi va bog‘lanish reaksiya kuchlari sifatida chizmada aks ettiriladi;
3. Moddiy nuqta harakati uchun differensial tenglamalar aniqlanadi;
4. Moddiy nuqta harakat qonunidan foydalanib tezlanishining tanlab olingan sistemadagi proyeksiyalari aniqlanadi;
5. Tezlanishning topilgan proyeksiyalari differensial tenglamalarga qo‘yilib noma’lum kuch aniqlanadi.

Texnikaga oid ko‘pgina masalalarni yechish orqali dinamikaning teskari (ikkinchi asosiy) masalasi ham hal qilinadi. Dinamikaning ikkinchi asosiy masalasini yechishda moddiy nuqtaga qo‘yilgan kuch qanday xarakterda o‘zgarishiga qarab differensial tenglamalarni yechishning turli usullari qo‘llaniladi [3]. Eng sodda hol kuch o‘zgarmas bo‘lgan holdir [1]. Ba’zi hollarda kuch vaqtning, yoki nuqta holatining, yoki nuqta tezligining funksiyasi bo‘lishi mumkin. Shuningdek, kuch vaqt, yo‘l, tezlik va hatto, tezlanishning umumiy funksiyasidan iborat hollar ham uchraydi [3].

Dinamikaning bu asosiy masalasini yechish uchun Nyutonning 2-qonuni ko‘rinishdagi ikkinchi tartibli differensial tenglamalardan birini tuzish va uni integrallash kerak. Integrallash natijasida ixtiyoriy o‘zgarmaslar hosil bo‘ladi. Har bir masalani yechishda ixtiyoriy o‘zgarmaslarni aniqlash kerak. Bu o‘zgarmaslarni aniqlashda moddiy nuqtaning boshlang‘ich paytdagi holati va tezligini ifodalovchi boshlang‘ich shartlardan foydalaniladi. Dinamikaning ikkinchi asosiy masalasi differensial tenglamalarni yechib, ya’ni funksiyani differensiallashga teskari bo‘lgan yo‘lni qo‘llab hal qilingani uchun u dinamikaning teskari masalasi deb ham ataladi [3]. Dinamikaning teskari masalasi quyidagi tartibda yechiladi:

1. Agar masala shartida sanoq sistemasi berilmagan bo‘lsa, u tanlab olinadi;
2. Moddiy nuqtaning holati belgilanib, ta’sir etuvchi kuchlar tasvirlanadi;
3. Agar moddiy nuqta bog‘lanishda bo‘lsa, uni bog‘lanishdan qutqarib, bog‘lanish reaksiya kuchlari rasmda ko‘rsatiladi;
4. Moddiy nuqta harakatining boshlang‘ich shartlari yozib olinadi;
5. Moddiy nuqta harakatining tanlab olingan sanoq sistemasidagi tenglamalari tuziladi;
6. Tuzilgan differensial tenglamalar integrallashadi;
7. Boshlang‘ich shartlardan foydalanib integrallash natijasida hosil bo‘lgan o‘zgarmaslar aniqlanadi;
8. Moddiy nuqtaning aniqlangan harakat tenglamasidan noma’lumlar topiladi.

**Tahlillar va natijalar**

Yuqorida bayon etilgan ketma-ketlik bo‘yicha ayrim masalalar va ularni yechilishini tahlil qilaylik.

1. Massasi $m = 2$ kg bo‘lgan $M$ jism $x = 10\sin 2t$ (m) qonunga ko‘ra $F$ kuch ta’sirida to‘g‘ri chiziqli harakat qilmoqda. $F$ kuch modulining eng katta qiymatini aniqlang (1-rasm) [4].

Yechish: Masala shartiga ko‘ra $M$ jism to‘g‘ri chiziqli harakat qiladi. Jismni moddiy nuqta deb qarab, sanoq sistemasi uchun Ox o‘qni olamiz (1-rasm). $M$ jismga faqat $F$ kuch ta’sir qiladi.




1-rasm. 1-masala shartiga doir [4]




2-rasm. 2-masala shartiga doir [4]

*M* jism harakatining differensial tenglamasi quyidagicha bo‘ladi:

$$m\frac{d^2x}{dt^2} = F_x \quad (1)$$

Jismning harakat qonunidan vaqt bo‘yicha ikkinchi tartibli hosilani hisoblaymiz:

$$\frac{dx}{dt} = 20\cos 2t, \quad \frac{d^2x}{dt^2} = -40\sin 2t \quad (2)$$

(2) ni (1) ga qo‘ysak:

$$F_x = -40\, m \sin 2t \quad (3)$$

bu yerda $F_x$ kuch miqdori sin2t = −1 bo‘lganda eng katta qiymatga erishadi. Demak, $F_x$=80 N bo‘ladi.

2. Bug‘doy o‘ruvchi kombaynning pichog‘i $x = 0.05cos10\pi t$ (t - sekund, x - metr hisobida) qonunga ko‘ra to‘g‘ri chiziqli harakat qiladi. Pichoqni harakatga keltiruvchi kuch *F* aniqlansin. Masalani yechish uchun pichoq og‘irligi G=100 N, erkin tushish tezlanishi g = 10 m/s² deb qabul qilinsin [4].

Yechish: Masala shartiga ko‘ra pichoq to‘g‘ri chiziqli harakat qiladi. Pichoqni moddiy nuqta deb qarab, sanoq sistemasi sifatida Ox o‘qni tanlaymiz (2-rasm). Pichoq dastlabki holatda *O* nuqtada joylashgan bo‘lsin. Pichoqga og‘irlik kuchi *G*, harakatga keltiruvchi kuch *F* hamda reaksiya kuchi *N* ta’sir qiladi.

Pichoq harakatining differensial tenglamasi quyidagicha bo‘ladi:

$$m\frac{d^2x}{dt^2} = F \quad (4)$$

Pichoqning harakat qonunidan vaqt bo‘yicha hosila hisoblaymiz va masala shartini e’tiborga olsak, $F = -50\pi^2\cos 10\pi t$ (N) ekanligi kelib chiqadi.

Mazkur ketma-ketlikka asosan, gorizontga burchak ostida otilgan moddiy nuqta harakatining quyidagi masalasini ishlab chiqarish bilan bog’liq bo‘lgan ekstremal masala sifatida yechib o‘rganamiz [6].

Ma’lumki, gorizontga burchak ostida otilgan moddiy nuqtaning harakati masalasi fizika va mexanika fanlari aksariyat bo‘limlarining ajralmas qismi bo‘lib, hozirgacha tadqiqotchilarning qiziqishini uyg‘otishda davom etmoqda [6-7]. Agar havoning qarshiligi bo‘lmasa, ushbu harakat masalasi parabola bo‘ylab harakatni tavsiflovchi analitik yechimga ega bo‘ladi.

Fizikadan masala yechish amaliyotida gorizontga burchak ostida otilgan moddiy nuqtaning harakatiga doir ekstremal masala qaralayotganda, o‘quvchilarni uni yechishing turli usullarini izlashga, muayyan masala uchun ular ichidan eng ma’qbulini tanlab olishga o‘rgatish kerak. Pirovard natijada masalani qaysi usulda hal qilinishiga bog‘liq bo‘lmagan holda, jarayon masalani fizik yoki matematik modelini tuzish, undan foydalanishning barcha bosqichlarini o‘z ichiga olishi talab qilinadi [6].

3. Don o‘tuvchi apparatdan otilgan bug‘doyning boshlang‘ich tezligi $V_0$. Boshlang‘ich $V_0$ tezlikning gorizont bilan hosil qilgan $\alpha$ burchagi qanday bo‘lganda bug‘doy eng uzoqqa borib tushadi? Muhit qarshiligi hisobga olinmasin [5].




3-rasm. 3-masala shartiga doir chizma [5]

Yechish. Bug‘doy doni harakatini Dekart koordinatalari sistemasida tekshiramiz. Koordinatalar boshi O nuqtani *M* (bug‘doy doni) moddiy nuqtaning boshlang‘ich otilish holati deb olib, Oxy tekislikni $V_0$ orqali o‘tkazamiz. Bu holda, bug‘doyning harakati Oxy tekisligida bo‘ladi. Bug‘doyga faqat og‘irlik kuchi ta’sir qiladi. Boshlang‘ich paytda bug‘doy donining koordinatalari x=0, y=0, tezligining koordinata o‘qidagi proyeksiyalari $V_x = V_0\cos\alpha$, $V_y = V_0\sin\alpha$ ko‘rinishida bo‘ladi.

*M* nuqta harakatining differensial tenglamalari:

$$m\ddot{x} = 0,\ m\ddot{y} = -G \quad \text{yoki } \ddot{x} = 0,\ \ddot{y} = -g \tag{5}$$

ni ikki marta integrallab, bug‘doy doni harakatining parametrik tenglamalari

$$x = t \cdot \mathrm{V_0}\cos\alpha,\ \ y = -\frac{gt^2}{2} + t \cdot \mathrm{V_0}\sin\alpha \tag{6}$$

dan vaqtni yo‘qotsak, bug‘doy doni harakatining trayektoriya tenglamasi kelib chiqadi:

$$y = x\ tg\alpha - \frac{gx^2}{2V_0^2 cos\alpha^2} \tag{7}$$

Endi bug‘doy donining maksimal uchish uzoqligini topamiz. Buning uchun (7) ni nolga tenglashtirib, $x = \frac{V_0^2 sin2\alpha}{g}$ ni hosil qilamiz. Demak, $x_{max} = \frac{V_0^2}{g},\ \alpha = \frac{\pi}{4}$ ekan.

**Xulosa**

Fizikadan ekstremal masalalarni yechishning bir qancha usullari mavjud bo’lib, metodik nuqtai nazardan qaraganda ham, ekstremal masalalar o‘qitish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bunday masalalar talabadan nafaqat formula yoki tenglama qo‘llashni, balki jarayonning mohiyatini, fizik kattaliklar orasidagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Bu esa o‘quvchilarning ijodiy fikrlash, mantiqiy tahlil va mustaqil izlanish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimida fizikadan masala yechish darslarida ekstremal tamoyillarni o‘rgatish talabalarda ilmiy tafakkurni shakllantirishda samarali vosita sifatida qaraladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirsaidov M.M., Baymuradova L.I., Giyasova N.T. Nazariy mexanika: O‘quv qo‘llanma. Toshkent: “O‘zbekiston”, - 2008, - B. 230.

2. Nazariy fizika kursi. I jild. (prof. Abdumalikov A.A. tahriri ostida) Nazariy mexanika. Toshkent, - 2021. -B. 389.

3. Колмаков Ю.Н., Пекар Ю.А. Задачи и методы их решения: Пособие для подготовки к итоговому междисциплинарному экзамену по мат. и естеств. дисциплинам, изд. 4-е, испр. и доп. ТулГУ., Тула, 2009, - С. 101.

4. Madaminov X.M., Abduraxmonov A. Dinamikaning asosiy masalasi ekstremal masala sifatida. Kondensirlangan muhitlar fizikasining rivojlanish tendensiyalari nomli 5 Xalqaro ilmiy anjuman materiallari to‘plami. Farg‘ona, - 2025, 23-24 may, -B. 458-462.

5. Madaminov X.M. Mexanikaning teskari masalasini ekstremal masala sifatida o‘rganish. “Zamonaviy fizika va energetikaning fundamental va amaliy muammolari” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, III qism, Namangan, 2025, 5-6 iyun, -B. 401-405.

6. Madaminov X.M. Mexanika bo‘limiga doir ekstremal masalalar. NamDU Ilmiy axborotnomasi. 2022. №5. – B. 71-76.

7. Madaminov X.M. Jismning murakkab harakatini ekstremal masala sifatida o‘rganish. NamDU Ilmiy axborotnomasi. 2024. №11. – B. 57-59.

8. Кирсанов М.Н. Решение задач по теоретической механике. – Москва: “Научно-издательский центр ИНФРА-М”. - 2021, - С. 222.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

**Nematov Zafar Zokir o'g'li**
**Jalilov Sanjar Salohiddin o'g'li**
**Axtamov Dilshod To 'lqinovich**
**Vapoyev Husniddin Mirzaevich**
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
zafarnematov379@gmail.com

## ACHCHIQ BODOM VA SHAFTOLI MOYLARINI ISHQORIY GIDROLIZ QILISH ORQALI YOG' KISLOTALARINI OLISH VA ULARNING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARINI TADQIQ ETISH

***Annotatsiya.****Ushbu maqolada achchiq bodom ( **Prunus amygdalus** ) va shaftoli ( **Prunus persica** ) moylarini ishqoriy gidroliz qilish orqali yog' kislotalarini ajratib olish usuli tadqiq etilgan. Ishqoriy muhitda olib borilgan gidroliz jarayonida moy tarkibidagi trigliseridlar to'liq parchalanib, yog' kislotalarining natriy tuzlari hosil qilingan. Keyinchalik ushbu tuzlar xlorid kislota bilan ishlov berilib, erkin yog' kislotalari ajratib olingan. Olingan yog' kislotalarining tarkibi va tuzilishi $^{1}$H NMR (PMR), $^{13}$C NMR (YaMR) hamda infraqizil (IQ) spektral tahlil usullari yordamida aniqlanib, ularning asosiy fizik-kimyoviy xossalari o'rganilgan. Tadqiqot natijalari achchiq bodom va shaftoli moylari yuqori miqdorda to'yinmagan yog' kislotalariga boy ekanligini ko'rsatilgan.*

**Kalit so'zlar:** *achchiq bodom moyi, shaftoli moyi, ishqoriy gidroliz, yog' kislotalari, PMR, YaMR, IQ spektr.*

**Нематов Зафар Зокир оглы**
**Жалилов Санджар Салохиддин оглы**
**Ахтамов Дилшод Тулкинович**
**Вапоев Хусниддин Мирзаевич**
[1]Навоийский государственный горно-технологический университет

## ПОЛУЧЕНИЕ ЖИРНЫХ КИСЛОТ ИЗ МАСЕЛ ГОРЬКОГО МИНДАЛЯ И ПЕРСИКА МЕТОДОМ ЩЕЛОЧНОГО ГИДРОЛИЗА И ИССЛЕДОВАНИЕ ИХ ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИХ СВОЙСТВ

**Аннотация.** *В данной статье исследован метод выделения жирных кислот из масел горького миндаля (Prunus amygdalus) и персика (Prunus persica) путем щелочного гидролиза. В процессе гидролиза, проводимого в щелочной среде, триглицериды, содержащиеся в маслах, полностью разлагаются с образованием натриевых солей жирных кислот. В дальнейшем эти соли обрабатывались хлористоводородной кислотой, в результате чего были выделены свободные жирные кислоты. Состав и структура полученных жирных кислот определялись с помощью методов спектрального анализа: $^{1}$Н ЯМР (ПМР), $^{13}$С ЯМР, а также инфракрасной (ИК) спектроскопии, и были изучены их основные физико-химические свойства. Результаты исследования показали, что масла горького миндаля и персика богаты ненасыщенными жирными кислотами.*

**Ключевые слова:** *масло горького миндаля, персиковое масло, щелочной гидролиз, жирные кислоты, ПМР, ЯМР, ИК-спектры.*

**Nematov Zafar Zokir ogli**
**Jalilov Sanjar Salohiddin ogli**
**Axtamov Dilshod Tulkinnovich**
**Vapoyev Husniddin Mirzaevich**
Navoiy State University of Mining and Technology

## ISOLATION OF FATTY ACIDS FROM BITTER ALMOND AND PEACH OILS BY ALKALINE HYDROLYSIS AND INVESTIGATION OF THEIR PHYSICOCHEMICAL PROPERTIES

**Abstract.** *This article investigates a method for isolating fatty acids from bitter almond (Prunus amygdalus) and peach (Prunus persica) oils via alkaline hydrolysis. During the hydrolysis process carried out in an alkaline medium, triglycerides present in the oils are completely decomposed to form sodium salts of fatty acids. Subsequently, these salts were treated with hydrochloric acid*

*to obtain free fatty acids. The composition and structure of the obtained fatty acids were determined using $^{1}H$ NMR (PMR), $^{13}C$ NMR, and infrared (IR) spectroscopic analysis, and their main physicochemical properties were studied. The results showed that bitter almond and peach oils are rich in unsaturated fatty acids.*

**Keywords:** *bitter almond oil, peach oil, alkaline hydrolysis, fatty acids, PMR, NMR, IR spectra.*

**Kirish**.So‘nggi yillarda aholi sonining ortib borishi hamda ekologik xavfsiz va biologik faol mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojning oshishi tabiiy xomashyo asosida olinadigan moddalarni chuqur o‘rganishni talab etmoqda. Ayniqsa, o‘simlik moylari va ularning tarkibidagi yog‘ kislotalari oziq-ovqat, farmatsevtika, kosmetika va kimyo sanoatida keng qo‘llanilib, muhim amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bois tabiiy moylardan yog‘ kislotalarini ajratib olish va ularning fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq etish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha yillik ishlab chiqariladigan o‘simlik moylari hajmi yuz million tonnadan oshib, ularning muhim qismini danakli mevalar moylari tashkil etadi. Bodom va shaftoli kabi o‘simliklar moylari yuqori miqdorda to‘yinmagan yog‘ kislotalariga ega bo‘lib, ular biologik faolligi va kimyoviy modifikatsiyaga yaroqliligi bilan ajralib turadi [1–5].

Ayniqsa, achchiq bodom va shaftoli moylari tarkibida olein va linol kislotalarining yuqori ulushi mavjudligi ularni istiqbolli xomashyo sifatida baholash imkonini beradi.

O‘simlik moylaridan yog‘ kislotalarini ajratib olishning samarali usullaridan biri ishqoriy gidroliz hisoblanadi. Ushbu jarayon davomida trigliseridlar ishqor ta’sirida parchalanib, yog‘ kislotalarining tuzlari va glitserin hosil qiladi. Keyingi bosqichda kislotalash orqali erkin yog‘ kislotalari olinadi. Adabiyotlarda turli moylar uchun gidroliz sharoitlari, reaksiya davomiyligi va chiqim ko‘rsatkichlari o‘rganilgan bo‘lsa-da, achchiq bodom va shaftoli moylaridan olingan yog‘ kislotalarining kompleks fizik-kimyoviy va spektral tahliliga oid tadqiqotlar yetarli darajada yoritilmagan [6–9].

Zamonaviy analitik usullar, xususan, yadro magnit rezonansi ($^{1}H$ NMR va $^{13}C$ NMR) hamda infraqizil (IQ) spektral tahlil yog‘ kislotalarining tuzilishini aniqlashda eng ishonchli va aniq usullar hisoblanadi. Ushbu metodlar yordamida molekuladagi funksional guruhlar, uglevodorod zanjirining uzunligi va to‘yinmaganlik darajasi aniqlanadi. Shu bilan birga, olingan yog‘ kislotalarining fizik-kimyoviy xossalarini baholash ularning amaliy qo‘llanilish imkoniyatlarini kengaytiradi [10–13].

Shu munosabat bilan mazkur ishda achchiq bodom va shaftoli moylarini ishqoriy gidroliz qilish orqali yog‘ kislotalarini ajratib olish, ularning tuzilishini PMR, YaMR va IQ spektral tahlil usullari yordamida aniqlash hamda asosiy fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq etish maqsad qilib qo‘yildi. Olingan natijalar ushbu moylar asosida biologik faol moddalar va funksional mahsulotlar yaratishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

## EKSPERIMENT QISMI

Mazkur tadqiqot ishida shaftoli (*Prunus persica*) va achchiq bodom (*Prunus amygdalus*) moylaridan yog‘ kislotalarini ajratib olish ishqoriy gidroliz (sovunlanish) usuli asosida amalga oshirildi. Olingan yog‘ kislotalari keyinchalik kislotalash orqali erkin holatga o‘tkazildi hamda tarkibidan olein va linol kislotalarini ajratish bo‘yicha tajribalar olib borildi.

Tajriba uchun shaftoli va achchiq bodom moylaridan alohida-alohida 50,0 g dan namuna olindi. Har bir namuna 500 ml hajmli dumaloq tubli kolbaga joylashtirilib, ustiga 100 ml 96 % li etanol va 150 ml distillangan suv qo‘shildi. Ishqoriy muhitni ta’minlash maqsadida 12,0 g natriy gidroksid oldindan suvda eritilib, reaksiya aralashmasiga asta-sekin qo‘shildi. Kolbalar qaytar sovitgich bilan jihozlanib, aralashmalar 80–85 °C haroratda 1,5 soat davomida doimiy aralashtirish sharoitida qizdirildi. Ushbu sharoitda moy tarkibidagi trigliseridlar sovunlanib, glitserin va yog‘ kislotalarining natriy tuzlari hosil bo‘ldi. Gidroliz jarayoni yakunlangach, reaksiya aralashmalari xona haroratigacha sovitildi va yog‘ kislotalarini erkin holatga o‘tkazish maqsadida kislotalash bosqichi bajarildi. Buning uchun aralashmaga 10 % li xlorid kislota eritmasi tomchilab qo‘shilib, muhitning pH qiymati 2 ga yetkazildi. Natijada yog‘ kislotalarining natriy tuzlari parchalanib, suvli fazadan ajralgan yog‘simon qatlam ko‘rinishida erkin yog‘ kislotalari hosil bo‘ldi. Hosil bo‘lgan yog‘ kislotalari ajratkich voronka yordamida suvli fazadan ajratib olinib, 30 ml dan 3 marotaba etil efir bilan ekstraksiya qilindi. Organik fazalar birlashtirilib, suv qoldiqlarini yo‘qotish maqsadida to‘yintirilgan natriy xlorid eritmasi bilan yuvildi. So‘ng erituvchi suv hammomida bug‘latib yuborildi va natijada shaftoli hamda achchiq bodom moylari asosida olingan xom yog‘ kislotalari aralashmalari olindi. Xom yog‘ kislotalari tarkibidan olein va linol kislotalarini ajratish uchun past haroratda kristallash usuli qo‘llanildi. Buning uchun yog‘ kislotalari aralashmasi –5…0 °C haroratda 12 soat davomida sovitildi. Ushbu sharoitda erish harorati yuqori bo‘lgan to‘yingan yog‘ kislotalari kristallanib, monoto‘yinmagan olein va di-to‘yinmagan linol kislotalar asosan suyuq fraksiyada saqlanib qoldi. Suyuq fraksiya filtrlash yo‘li bilan ajratib olindi. Keyingi bosqichda olein va linol kislotalarini alohida holatda ajratib olish maqsadida **urea–kompleks hosil qilish usuli** qo‘llanildi. Buning uchun suyuq fraksiya tarkibidagi yog‘ kislotalari etanol muhitida urea bilan aralashtirildi va aralashma 50–60 °C haroratda to‘liq eriguncha qizdirildi. So‘ngra eritma sekin-asta

0–5 °C haroratgacha sovitildi. Ushbu sharoitda to‘yingan va kam to‘yinmagan yog‘ kislotalari urea bilan kompleks hosil qilib kristallanadi, olein va linol kislotalar esa eritmada erkin holatda saqlanib qoladi. Hosil bo‘lgan kristall urea-komplekslar filtrlash orqali ajratib tashlandi, filtrat esa suv va suyultirilgan kislota bilan ishlov berilib, urea parchalandirildi. Natijada monoto‘yinmagan olein kislotasi ($C_{18}H_{34}O_2$) va di-to‘yinmagan linol kislotasi ($C_{18}H_{32}O_2$) yuqori tozalikka ega bo‘lgan alohida fraksiyalar sifatida olindi.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, 50 g shaftoli yoki achchiq bodom moyidan o‘rtacha 45–47 g umumiy yog‘ kislotalari olinadi. Olein kislotasi chiqishi taxminan 60–70 %, linol kislotasi chiqishi esa 20–30 % ni tashkil etdi. Ushbu natijalar ishqoriy gidroliz va xlorid kislota yordamida kislotalash usulining har ikkala moy uchun ham samarali va ishonchli ekanligini tasdiqlaydi.(1-jadval)

*1-jadval*

**Shaftoli va achchiq bodom moylaridan ajratilgan yog‘ kislotalarining taqqoslama tavsifi**

| Ko‘rsatkichlar | Shaftoli moyi (Prunus persica) | Achchiq bodom moyi (Prunus amygdalus) |
|---|---|---|
| Boshlang‘ich moy miqdori | 50,0 g | 50,0 g |
| Gidroliz usuli | Ishqoriy gidroliz (NaOH) | Ishqoriy gidroliz (NaOH) |
| Kislotalash reagenti | Xlorid kislota (10 % HCl) | Xlorid kislota (10 % HCl) |
| Umumiy yog‘ kislotalari | 45,2 g | 46,5 g |
| Umumiy chiqim, % | 90–92 % | 92–94 % |
| Olein kislotasi | 29,0 g | 31,2 g |
| Linol kislotasi | 12,1 g | 11,0 g |
| To‘yingan kislotalar (palmitin + stearin) | 4,1 g | 4,3 g |
| Olein kislotasining holati | Suyuq, rangsiz–och sariq | Suyuq, rangsiz |
| Linol kislotasining holati | Suyuq, och sariq | Suyuq, rangsiz–och sariq |
| Olein kislota ajratish samaradorligi | Yaxshi | Yuqori |
| Linol kislota ajratish samaradorligi | Yuqori | O‘rtacha–yaxshi |

**Achchiq bodom va shaftoli yog‘ kislotalarining fizik-kimyoviy xossalari.**

Tajriba natijalariga ko‘ra, 50 g achchiq bodom moyidan olingan 46,5 g umumiy yog‘ kislotalari tarkibida **olein kislotasi 31,2 g**, **linol kislotasi 11,0 g**, qolgan **4,3 g** esa to‘yingan kislotalar (palmitin va stearin) hisoblanadi. Shu bilan birga, 50 g shaftoli moyidan ajratilgan 45,2 g yog‘ kislotalari tarkibida **olein 29,0 g**, **linol 12,1 g**, va **4,1 g to‘yingan kislotalar** mavjud.

Fizik-kimyoviy xossalar jihatidan, achchiq bodom yog‘i olein kislotasiga boyligi sababli **pastroq erish haroratiga (28–31 °C)** ega bo‘lib, suyuq fazada barqaror saqlanadi. Linol kislota ko‘proq bo‘lgan shaftoli yog‘i esa biroz yuqoriroq erish haroratiga ega (**31–34 °C**) va qisman kristallanishga moyil. Shu bilan birga, achchiq bodom yog‘ining zichligi **918–927 kg/m³**, shaftoli yog‘ining zichligi esa **922–934 kg/m³** atrofida bo‘lib, linol kislotaga boy fraksiyalar zichroq ekanligi kuzatiladi.

Olein kislota ko‘p bo‘lgan fraksiyalar uzoqroq vaqt suyuq fazada barqaror qoladi, linol kislotaga boy fraksiyalar esa qisman kristallanishga moyil bo‘ladi. Ikkala yog‘ kislotalari **etanol va xloroformada yaxshi eriydi**, suvda esa minimal darajada eriydi. Shu sababli olein va linol kislotalarining nisbati va ularning fizik-kimyoviy xossalari fraksiyalash samaradorligini belgilaydi va keyingi kimyoviy modifikatsiya yoki farmatsevtik qo‘llash uchun muhim ilmiy ma’lumotlarni beradi.

Xulosa qilib aytganda, **achchiq bodom yog‘i olein kislotasiga boy bo‘lib, past erish haroratiga ega va suyuq fazada barqaror**, **shaftoli yog‘i esa linol kislotaga boy bo‘lib, biroz yuqoriroq erish haroratiga va qattiqroq fraksiyaga ega**. Ushbu farqlar, ularning tarkibidagi yog‘ kislotalari nisbatidan kelib chiqadi va fraksiyalash, saqlash hamda kimyoviy ishlov berish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, achchiq bodom va shaftoli moylaridan ishqoriy gidroliz orqali ajratilgan yog‘ kislotalarining tarkibida **olein va linol kislotalari** asosiy komponent sifatida mavjud. Achchiq bodom yog‘ida olein kislotasi 58,3 %, linol kislotasi 27,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, shaftoli yog‘ida olein kislota 52,1 % va linol kislota 32,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, to‘yingan yog‘ kislotalari jami tarkibning 10–12 % ini egalladi.

**IQ (Infraqizil) tahlil**

Shaftoli moyidan tayyorlangan natriyli sovunning spektri quyidagi asosiy tebranishlarni ko‘rsatadi. 3853–3567 $sm^{-1}$ oralig‘idagi pikslar **–OH cho‘zilish tebranishi** ga tegishli bo‘lib, bu suv yoki qolgan gidroksil guruhlaridan kelib chiqadi va keng cho‘zilish bilan namoyon bo‘ladi. 3010 $sm^{-1}$ da kuzatilgan **=C–H cho‘zilish tebranishi** yog‘ kislotalaridagi olefinik (C=C–H) bog‘lanishlarini bildiradi. Uzoq uglerod zanjiridagi metilen va metil guruhlarining **$CH_2$ va $CH_3$ cho‘zilish tebranishlari** 2920–2852 $sm^{-1}$ oralig‘ida namoyon bo‘ladi. Spektrda 2359–2343 $sm^{-1}$ oralig‘idagi pikslar $CO_2$ yoki atmosferik ifloslanish bilan bog‘liq. 1735 $sm^{-1}$ da **C=O cho‘zilish tebranishi** ester yoki yog‘ kislotalarining karbonil guruhiga tegishli bo‘lib, sovunlash jarayonida esterlar gidrolizlanishiga qaramay ayrim qoldiqlar mavjudligini ko‘rsatadi. 1653 $sm^{-1}$ da **C=O antisimetrik cho‘zilish tebranishi** karboksilat ($R–COO^-$) natriy tuziga xos bo‘lsa, 1558 $sm^{-1}$ da **$COO^-$ simmetrik cho‘zilish tebranishi** esa natriyli karboksilatning asosiy piki sifatida namoyon bo‘ladi. 1458–1319 $sm^{-1}$ oralig‘idagi pikslar **$CH_2$ va $CH_3$ egilish tebranishlari** ni ifodalaydi, 1114 va 1045 $sm^{-1}$ da esa **C–O cho‘zilish tebranishlari** alkoksil va qolgan ester guruhlariga tegishli. Olefinik bog‘lanishlarga xarakterli **=C–H tekislikdan tashqaridagi egilish tebranishi** 923 $sm^{-1}$ da ko‘rinadi. 719 va 670 $sm^{-1}$ oralig‘idagi **$CH_2$ tebranishi** uzoq zanjirli alkil guruhlarini bildiradi, 457 va 419 $sm^{-1}$ da esa **skelet tebranishlari**, ya’ni sovunning skeletiga oid past chastotali tebranishlar mavjud(1-rasm).

1- rasm




Spektr natriyli sovunning kimyoviy xususiyatlariga to‘liq mos keladi. Ayniqsa 1558–1652 $sm^{-1}$ oralig‘idagi pikslar $R–COO^-$ guruhiga tegishli bo‘lib, sovunlash jarayonining muvaffaqiyatini ko‘rsatadi. Uzoq $CH_2$ zanjirlariga oid pikslar (2920–2850 $sm^{-1}$ va 719 $sm^{-1}$) esa yog‘ kislotalarining mavjudligini tasdiqlaydi.

**PMR va YaMR tahlillari**

Ajratib olingan linol kislotasining YaMR-spektri o‘rganilganda, birikma molekulasidagi karboksil funksional guruhga mansub vodorod atomi 9,94 m.u. qiymatida joylashgan aniq singlet signal orqali kuzatildi. Molekula tarkibidagi qo‘sh bog‘larda ishtirok etuvchi 9-, 10-, 12- va 13-uglerod atomlariga birikkan vodorodlar 5,40–5,37 m.u. oralig‘ida joylashgan dublet–dublet signallar bilan tavsiflandi. Shuningdek, 11-uglerod atomiga bog‘langan vodorodlar uchun xos bo‘lgan triplet signallar 2,70–2,67 m.u. diapazonida qayd etildi. Birikmaning 2-uglerod atomiga tegishli vodorodlar 2,33–2,29 m.u. oralig‘ida joylashgan signallarni hosil qildi. Spektrda 8- va 14-uglerodlarga birikkan vodorodlarning triplet ko‘rinishidagi signallari 2,02–2,01 m.u. qiymatlarida aniqlangan. Yog‘ kislota zanjiridagi 3-uglerod atomiga mansub vodorodlar esa 1,62 m.u.da joylashgan kvintet (pentet) signal bilan ifodalandi. Bundan tashqari, 4-, 5-, 6-, 7-, 15-, 16- va 17-uglerod atomlariga tegishli vodorodlar 1,30–1,26 m.u. oralig‘ida kuzatilgan dublet–dublet signallar bilan tavsiflandi. Molekulaning oxirgi qismida joylashgan 18-uglerod, ya’ni metil ($CH_3$) guruhiga tegishli vodorodlar esa 0,91–0,88 m.u. oralig‘ida namoyon bo‘lgan triplet signallarni berdi(1-rasm).

Umuman olganda, olingan YaMR-spektral ma’lumotlar ajratib olingan moddaning kimyoviy tuzilishi linol kislotasiga to‘liq mos kelishini va uning identifikatsiyasini ishonchli tarzda tasdiqlaydi.

2-Rasm. Linol kislotasining $^{1}$H YaMR spektri



$^{13}$C YaMR spektrida karboksil guruh tarkibidagi uglerod atomi 178,6 m.u. da qayd etildi. Qo‘sh bog‘larda ishtirok etuvchi 9-, 10-, 12- va 13-uglerod atomlari mos ravishda 130,25; 128,56; 128,66 va 130,53 m.u. qiymatlarida yutilish chiziqlarini namoyon qildi. Zanjirdagi boshqa uglerod atomlari uchun ham xarakterli signallar aniqlandi: 2-uglerod — 34,35 m.u., 16-uglerod — 31,94 m.u., 14-uglerod — 31,19 m.u., 8-uglerod — 30,83 m.u., 15-uglerod — 29,79 m.u., 4-uglerod — 29,49 m.u., 5-uglerod — 29,29 m.u., 6-uglerod — 29,24 m.u., 7-uglerod — 28,70 m.u., 11-uglerod — 27,09 m.u., 3-uglerod — 25,28 m.u., 17-uglerod — 22,73 m.u. va 18-uglerod esa 14,06 m.u. qiymatlarida kuzatildi(2-rasm).

3-rasm **Linol kislotasining $^{13}$C YaMR spektri**



Umuman olganda, olingan YaMR-spektral ma’lumotlar ajratib olingan moddaning kimyoviy tuzilishi linol kislotasiga to‘liq mos kelishini va uning identifikatsiyasini ishonchli tarzda tasdiqlaydi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, achchiq bodom yog‘i olein kislotaga boy bo‘lib, past erish harorati va suyuq faza barqarorligiga ega, shaftoli yog‘i esa linol kislotaga boy bo‘lib, biroz yuqoriroq erish harorati va qattiqroq fraksiyaga ega. Shu sababli, fraksiyalash orqali olingan yog‘ kislotalarining fizik-kimyoviy xossalari va molekulyar tarkibi o‘zaro farqlanadi. PMR, YaMR va IQ tahlillari natijalari olein va linol kislotalarining tarkibini va ularning molekulyar xossalarini aniq tasdiqladi. Bu ma’lumotlar **keyingi kimyoviy modifikatsiya**, **farmatsevtik yoki kosmetik qo‘llash**, shuningdek, **biologik faol moddalar tayyorlash** uchun muhim ilmiy asos hisoblanadi. Shunday qilib, ishqoriy gidroliz orqali ajratilgan yog‘ kislotalarining tarkibi va fizik-kimyoviy xossalari o‘rganildi, olein va linol kislotalari nisbati solishtirildi va ularning spektral xossalari ilmiy asosda tasdiqlandi.

## XULOSA

Achchiq bodom va shaftoli moylaridan ishqoriy gidroliz orqali yog‘ kislotalari muvaffaqiyatli ajratildi. Gidroliz jarayonida moy tarkibidagi trigliseridlar parchalanib, yog‘ kislotalarining natriy tuzlari hosil bo‘ldi, keyinchalik HCl bilan ishlov berish orqali erkin yog‘ kislotalari olingan. Olingan yog‘ kislotalarining tarkibi va tuzilishi PMR, YaMR va IQ spektral tahlil usullari yordamida aniqlanib, achchiq bodom yog‘i olein kislotaga boy, shaftoli yog‘i esa linol kislotaga boy ekanligi tasdiqlandi. Fraksiyalash natijalari shuni ko‘rsatdiki, olein kislota ko‘p bo‘lgan fraksiyalar suyuq va barqaror, linol kislota ko‘p bo‘lgan fraksiyalar esa biroz qattiqroq va yuqoriroq erish haroratiga ega. Zichlik va erituvchanlik xossalari ham olein va linol kislotaning nisbati bilan bog‘liq ekanligi aniqlanib, bu ma’lumotlar keyingi kimyoviy ishlov berish, farmatsevtik va kosmetik qo‘llash hamda biologik faol moddalar tayyorlash uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kikalishvili B.I., Zurabashvili D.Z., Turabelidze D G. The fatty acid composition of peach oil and its biological activity. Georgian Med News. 2013. PP. 77-82

2. Chamli D., M.A. Bootello M.A., Bouali I. Chemical characterization and thermal properties of kernel oils from Tunisian peach and nectarine varieties of Prunus persica. 2017. PP. 211 doi/.Org /10.3989/ gya.0111171.

3. Sophia Xue, Yukio Kakuda, Dongfeng Wang, Yueming Jiang, Essential oil extracted from peach (*Prunus persica*) kernel and its physicochemical and antioxidant properties. LWT - Food Science and Technology 2011, PP. 2032-2039. doi.org/10.1016/j.lwt.2011.05.012.

4. Liu W, Wang ZZ, Qing JP, Li HJ, Xiao W. Classification and quantification analysis of peach kernel from different origins with near-infrared diffuse reflection spectroscopy. Pharmacogn Mag. 2014 Oct;10(40):441-8. doi: 10.4103/0973-1296.141814. PMID: 25422544; PMCID: PMC4239721.

5. Erwei Hao, Guofeng Pang, Zhengcai Du, Yu-Heng Lai. Peach Kernel Oil Downregulates Expression of Tissue Factor and Reduces Atherosclerosis in Apo E knockout Mice. *Int. J. Mol. Sci.* 2019, №2, PP. 405; doi.org/10.3390/ijms 20020405.

6. Eshmatov F. X., Rejepov Q.J., Ismoilov J.A. Extraction of biologically active substances from peach kernels and use as an additive in the food industry. Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences.Vol.3. 2022.P. 23-29.

7. Akramov S.A., Xudoyberdiyev B.K. **O‘simlik moylari kimyosi va texnologiyasi.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 256 b.

8. Gunstone F.D., Harwood J.L., Dijkstra A.J. **The Lipid Handbook.** – 3rd ed. – Boca Raton: CRC Press, 2007. – 944 p.

9. Shahidi F. **Bailey’s Industrial Oil and Fat Products.** – 6th ed. – Hoboken: Wiley-Interscience, 2005. – 3576 p.

10. Christie W.W. **Fatty Acids: Chemistry, Synthesis, and Applications.** – Bridgwater: The Oily Press, 2012. – 460 p.

11. Belitz H.-D., Grosch W., Schieberle P. **Food Chemistry.** – 4th ed. – Berlin: Springer, 2009. – 1070 p.

12. Morrison W.R., Boyd R.N. **Organic Chemistry.** – 6th ed. – Boston: Allyn and Bacon, 1992. – 1344 p.

13. Pavia D.L., Lampman G.M., Kriz G.S., Vyvyan J.R. **Introduction to Spectroscopy.** – 5th ed. – Boston: Cengage Learning, 2015. – 688 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

**To‘xtayev Feruz Sadulloyevich**
Navoiy davlat universiteti, kimyo fanlari doktori (DSc)
feruz.sadullayevich@mail.ru
**Nurnazarova Gulhayo Uktamovna**
O‘zbekiston Rspublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi, tayanch doktorant
gulhayonurnazarova@gmail.com
**Mamatova Madina Hamdulla qizi**
O‘zbekiston Rspublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi, tayanch doktorant
mamatovamadina099@gmail.com

## TURLI KIMYOVIY REAGENTLAR YORDAMIDA YeRYONG‘OQ PO‘CHOG‘I VA AYLANT DARAXTI QIPIQLARINI FAOLLASHTIRIB ADSORBENTLAR OLISH VA ULARNING ADSORBSION XOSSALARINI TADQIQ ETISH

***Annotatsiya***. *Mazkur maqolada yeryong‘oq po‘chog‘i (25 %) va aylant daraxti qipig‘i (75 %) asosida chiqindisiz foydalanish konsepsiyasi doirasida yuqori samarali adsorbent-faollashtirilgan ko‘mir olish bo‘yicha ilmiy tadqiqot natijalari keltirilgan. Aylant daraxti qipig‘i tarkibida lignin va syellyuloza miqdorining yuqoriligi, yeryong‘oq po‘chog‘ining esa g‘ovak hosil qilishga moyil gemisellyulozaga boy ekanligi ularning kombinatsiyasini adsorbent olish uchun istiqbolli xomashyo sifatida ko‘rsatadi. Shu bilan birga, har ikki xomashyo ham arzon, mahalliy va keng tarqalgan agrochiqindilar hisoblanadi. Tadqiqotda faollashtirishning turli usullari-termik (piroliz), kimyoviy (HCl, HNO3, H2SO4, KOH, H3PO4 va ZnCl2 kabi reagentlar) hamda kombinatsiyalashgan yondashuvlar qo‘llanilib, ularning 25:75 nisbatdagi biomassa asosida olingan mahsulotning fizik-kimyoviy xususiyatlariga ta’siri kompleks tarzda o‘rganildi. Eksperimental jarayonlarda optimal harorat, vaqt, faollashtiruvchi moddalar konsentratsiyasi va inert muhit sharoitlari aniqlandi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Faollashtirilgan ko‘mir, adsorbsiya, piroliz, kimyoviy faollashtirish, aylant daraxti qipig‘i, yeryong‘oq po‘chog‘i.*

**Тухтаев Феруз Садуллоевич**
Навоийский государственный университет, доктор химических наук
**Нурназарова Гулхайё Уктамовна**
Навоийское отделение Академии наук Республики Узбекистан, базовый докторант
**Маматова Мадина Ҳамдуллаевна**
Навоийское отделение Академии наук Республики Узбекистан, базовый докторант

## ПОЛУЧЕНИЕ АДСОРБЕНТОВ НА ОСНОВЕ СКОРЛУПЫ АРАХИСА И АЙЛАНТОВОЙ ДРЕВЕСНОЙ ЩЕПЫ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ РАЗЛИЧНЫХ ХИМИЧЕСКИХ РЕАГЕНТОВ И ИССЛЕДОВАНИЕ ИХ АДСОРБЦИОННЫХ СВОЙСТВ

***Аннотация.*** *В данной статье представлены результаты научных исследований по получению высокоэффективного адсорбента — активированного угля — в рамках концепции безотходного использования биомассы на основе скорлупы арахиса (25 %) и коры дерева айлант (75 %). Высокое содержание лигнина и целлюлозы в коре айланта, а также богатство скорлупы арахиса гемицеллюлозой, склонной к формированию пористой структуры, делают их комбинацию перспективным сырьём для получения адсорбентов. Кроме того, оба вида сырья являются дешёвыми, местными и широко распространёнными агропромышленными отходами. В исследовании применены различные методы активации — термические (пиролиз), химические (с использованием реагентов HCl, $HNO_3$, $H_2SO_4$, KOH, $H_3PO_4$ и $ZnCl_2$), а также комбинированные подходы. Комплексно изучено их влияние на физико-химические свойства продукта, полученного на основе биомассы в соотношении 25:75. В ходе экспериментов были определены оптимальные значения температуры, времени, концентрации активирующих веществ и условий инертной среды.*

***Ключевые слова:*** *Активированный уголь, адсорбция, пиролиз, химическая активация, кора дерева айлант, скорлупа арахиса.*

**Tukhtaev Feruz Sadulloevich**
Navoi State University Doctor of Chemical Sciences
**Nurnazarova Gulkhayo Uktamovna**
Navoi Branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, basic doctoral student
**Mamatova Madina Hamdulla qizi**
Navoi Branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, basic doctoral student

# OBTAINING ADSORBENTS BASED ON PEANUT SHELLS AND AILANTHA WOOD CHIPS USING VARIOUS CHEMICAL REAGENTS AND STUDYING THEIR ADSORPTION PROPERTIES

***Annotation.*** *This article presents the results of scientific research on the production of a highly efficient adsorbent—activated carbon—within the framework of a zero-waste utilization concept based on peanut shell (25%) and ailanthus tree bark (75%) biomass. The high content of lignin and cellulose in ailanthus bark, together with the hemicellulose-rich peanut shell, which is prone to pore formation, makes their combination a promising raw material for adsorbent production. In addition, both feedstocks are inexpensive, locally available, and widely distributed agricultural wastes. Various activation methods were employed in the study, including thermal activation (pyrolysis), chemical activation using reagents such as HCl, $HNO_3$, $H_2SO_4$, KOH, $H_3PO_4$, and $ZnCl_2$, as well as combined approaches. The effects of these methods on the physicochemical properties of the product obtained from biomass with a 25:75 ratio were comprehensively investigated. Optimal conditions for temperature, activation time, activating agent concentration, and inert atmosphere were determined through experimental procedures.*

***Key words:*** *Activated carbon, adsorption, pyrolysis, chemical activation, ailanthus tree bark, peanut shell, environmental remediation.*

**Kirish**. So‘nggi yillarda sanoat tarmoqlarining jadal rivojlanishi natijasida atrof-muhitning, ayniqsa suv resurslarining og‘ir metall ionlari, organik bo‘yoq moddalar hamda turli xil organik va noorganik ifloslantiruvchilar bilan ifloslanishi global ekologik muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli ifloslangan suvlarni samarali tozalash va qayta ishlash masalasi zamonaviy ekologik muhandislikning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada sorbent sifatida aylant daraxti qipig‘i tarkibida lignin va syellyuloza miqdorining yuqoriligi uni mexanik va termik jihatdan barqaror uglerodli materiallar olish uchun qulay xomashyoga aylantiradi. Yeryong‘oq po‘chog‘ining esa gemisellyulozaga boyligi va g‘ovak hosil qilishga moyilligi adsorbent strukturasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ushbu ikki biomassaning 25 % yeryong‘oq po‘chog‘i va 75 % aylant daraxti qipig‘i nisbatida kombinatsiyalanishi yuqori sorbsion xususiyatlarga ega faollashtirilgan ko‘mir olish uchun ilmiy jihatdan asoslangan yondashuv hisoblanadi. 25:75 nisbatdagi biomassa asosida faollashtirilgan ko‘mir olish orqali nafaqat samarali adsorbent ishlab chiqish, balki qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi chiqindilarini qayta ishlash, chiqindisiz texnologiyalarni rivojlantirish hamda barqaror resurslardan oqilona foydalanish imkoniyati yaratiladi. Shu nuqtai nazardan mazkur tadqiqotda yeryong‘oq po‘chog‘i va aylant daraxti qipig‘i asosida faollashtirilgan ko‘mir olishning optimal sharoitlarini aniqlash hamda olingan adsorbentlarning og‘ir metall ionlari va organik ifloslantiruvchi moddalarni adsorbsiya qilish xususiyatlarini o‘rganish asosiy maqsad qilib belgilandi. Olingan natijalar suv resurslarini tozalashda arzon, samarali va ekologik barqaror adsorbentlar ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot usuli**

25 % yeryong‘oq po‘chog‘i va 75 % aylant daraxti qipig‘i asosida faollashtirilgan ko‘mir olish va uni adsorbent sifatida baholash jarayonida qator standart hamda zamonaviy tadqiqot metodikalaridan foydalanildi.

Xomashyo tayyorlash metodikasi. Yeryong‘oq po‘chog‘i va aylant daraxti qipig‘i alohida holda mexanik ravishda maydalanib, 1–2 mm zarracha o‘lchamigacha elandi. Keyinchalik xomashyolar massaviy nisbatda 25:75 (yeryong‘oq po‘chog‘i: aylant daraxti qipig‘i) tarkibda aralashtirildi. Hosil qilingan biomassa turli kimyoviy reagentlar (HCl, HNO3, H2SO4, KOH, H3PO4 va ZnCl2) yordamida turlicha konsentratsiya va vaqt rejimlarida oldindan ishlov berildi. Ushbu jarayon xomashyo strukturasini o‘zgartirish, g‘ovaklikni rivojlantirish hamda faollashtirish samaradorligini oshirishga qaratildi.

Karbonizatsiya va faollashtirish metodikasi. Faollashtirilgan ko‘mir olishda fizik va kimyoviy faollashtirish usullari qo‘llanildi. Fizik faollashtirish jarayoni inert muhitda (He) 400–800 °C harorat oralig‘ida piroliz qilish orqali amalga oshirildi. Kimyoviy faollashtirishda esa reagentlar bilan oldindan ishlov berilgan biomassa yuqori haroratda karbonizatsiya qilindi. Faollashtirishdan so‘ng namunalar distillangan suv va suyultirilgan reagentlar eritmalarida yuvilib, neytral pH qiymatiga keltirildi hamda quritildi.

Olingan natijalar asosida 25 % yeryong‘oq po‘chog‘i va 75 % aylant daraxti qipig‘i asosida faollashtirilgan ko‘mir olishda maqsadli faollashtirish konsepsiyasi ilmiy jihatdan asoslandi. Ya’ni, aniq ifloslantiruvchi modda turiga (og‘ir metall ionlari yoki organik bo‘yoqlar) qarab mos kimyoviy reagent va faollashtirish usulini tanlash orqali adsorbsiya samaradorligini maksimal darajaga yetkazish mumkinligi ko‘rsatib berdi.

**Tahlil natijalar muhokamasi**

5–10 % Xlorid kislota (HCl) bilan faollashtirilgan 25 % yeryong‘oq po‘chog‘i va 75 % aylant daraxti qipiqlari asosidagi adsorbentlarda faollashtirish vaqti va sorbent tarkibini maqbul tanlash orqali sanoat oqava suvlaridan og‘ir metall ionlari hamda neft mahsulotlarini yuqori samaradorlik bilan ajratib olish mumkinligi eksperimental jihatdan isbotlandi. HNO3 ning 1–3 % li eritmalarida ishlov berilgan 25 % yeryong‘oq po‘chog‘i va 75 % aylant daraxti qipiqlari asosidagi adsorbentlar og‘ir metall ionlarini adsorbsiya qilish uchun yuqori selektivlikka ega sorbent ekanligi aniqlandi. Optimal tarkib va kontakt vaqtida maksimal sorbsiya sig‘imiga erishish mumkinligi eksperimental jihatdan isbotlandi. Biroq, neft mahsulotlarini samarali adsorbsiya qilish uchun ushbu adsorbentlarni qo‘shimcha gidrofob modifikatsiya qilish maqsadga muvofiqdir. H2SO4 ning 2–3 % (massaviy) konsentratsiyasida ishlov berilgan 25:75 nisbatdagi adsorbentlar eng yuqori va barqaror sorbsiya sig‘imini namoyon qilgan. Mikrogovaklarning ustunligi og‘ir metall ionlarini adsorbsiya qilishda ijobiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, sorbent tarkibining ortiqcha oshirilishida strukturaning haddan tashqari zichlashishi kuzatilgan. 5–10 % (massaviy) KOH eritmalarida, yuqori haroratda faollashtirish natijasida adsorbent strukturasida mikrogovak va mezogovaklarning jadal shakllanishi kuzatildi. Natijada umumiy sirt maydoni 1000–1500 $m^2/g$ gacha yetib, g‘ovak hajmining keskin ortishi qayd etildi. Bu holat neft mahsulotlarining nisbatan yirik va gidrofob molekulalari mezogovaklarga erkin kirib borishi bilan izohlanadi. H3PO4 bilan faollashtirilgan 25:75 nisbatdagi adsorbentlar og‘ir metall ionlarini ayniqsa past konsentratsiyalarda samarali ushlab qolishini ko‘rsatdi. Bu holat adsorbent yuzasidagi manfiy zaryadlangan funksional guruhlar bilan metall kationlari o‘rtasida ion almashinuvi va koordinasion bog‘lanishlarning shakllanishi bilan izohlanadi. H3PO4 bilan faollashtirilgan 25:75 nisbatdagi adsorbentlar og‘ir metall ionlari va neft mahsulotlarining qutbli komponentlarini selektiv va samarali sorbsiya qilishda ustunlikka ega, ZnCl2 bilan ishlov berilgan adsorbentlar esa yuqori issiqlik barqarorligi va katta sirt maydoni hisobiga yuqori yuklama sharoitida ishlash uchun maqbul hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari yeryong‘oq po‘chog‘i va aylant daraxti qipig‘i asosida chiqindisiz foydalanishni ta’minlaydigan, arzon va samarali adsorbent materiallar ishlab chiqish hamda sanoat oqova suvlarini tozalash texnologiyalarini takomillashtirish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi. Natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

**2-jadval**

**Turli reagentlar yordamida olingan adsorbentlarning adsorbsiya samaradorligi**

| T/r | Reagentlar | Sorbsiyalanish daradasi (%) | |
|---|---|---|---|
| | | Og‘ir metall ionlari | Og‘ir metall ionlari |
| 1. | HCl | 85–90 | 80–85 |
| 2. | $HNO_3$ | 92–95 | 90–94 |
| 3. | $H_2SO_4$ | 88–93 | 87–92 |
| 4. | KOH | 95–98 | 95–97 |
| 5. | $H_3PO_4$ | 90–94 | 92-95 |
| 6. | $ZnCl_2$ | 91-96 | 93-96 |

Jadval ma’lumotlari 25 % yeryong‘oq po‘chog‘i va 75 % aylant daraxti qipig‘i kombinatsiyasi asosida olingan faollashtirilgan ko‘mirlarning ham og‘ir metall ionlari, ham neft mahsuloti chiqindilarini adsorbsiya qilishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat yeryong‘oq po‘chog‘ining g‘ovak hosil qilish qobiliyati va aylant daraxti qipig‘ining yuqori karbonizatsiya darajasi hamda aromatik tuzilishi o‘rtasidagi sinergik ta’sir bilan izohlanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida 25 % yeryong‘oq po‘chog‘i va 75 % aylant daraxti qipiqlari asosida olingan adsorbentlar uchun faollashtirish reagentlarining umumiy samaradorlik reytingi ishlab chiqildi va maqsadli ifloslantiruvchi turiga qarab eng maqbul reagentni tanlash mumkinligi ilmiy jihatdan asoslandi. Sorbentlarning tuzilish mexanizmlari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Turli faollashtiruvchi reagentlar ta’sirida olingan adsorbentlarning tuzilish mexanizmi

| **T/R** | **Reagentlar** | **Asosiy mexanizm** |
|---|---|---|
| 1. | KOH | Mikro–mezog‘ovakli rivojlangan struktura, aylant qipig‘i hisobiga yuqori mexanik barqarorlik; fizik va qisman kimyoviy sorbsiya; |

| | | |
|---|---|---|
| 2. | $H_3PO_4$ | Fosfat, karboksil va gidroksil funksional guruhlar + o‘rtacha mezog‘ovaklik; |
| 3. | $ZnCl_2$ | Katta sirt maydoni, zich mikrog‘ovakli struktura; fizik sorbsiya; |
| 4. | $HNO_3$ | Kislorod va azot saqlovchi funksional guruhlar orqali kimyoviy kompleks hosil qildi; |
| 5. | HCl | Mineral qo‘shimchalarni chiqarib struktura ochildi; |
| 6. | $H_2SO_4$ | Degidratatsiya ta’sirida mikrog‘ovaklar ko‘p hosil bo‘ldi. |

Olib borilgan kompleks tadqiqotlar natijasida 25 % yeryong‘oq po‘chog‘i va 75 % aylant daraxti qipiqlari asosida olingan faollashtirilgan ko‘mir adsorbentlarining sorbsion samaradorligi faollashtiruvchi reagent tabiati, hosil bo‘lgan g‘ovak tuzilmaning rivojlanish darajasi hamda adsorbent yuzasida shakllangan funksional guruhlarning turi va zichligi bilan bevosita bog‘liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tavsiya etiladigan sorbent. Umumiy tahlil va qiyosiy baholash natijalariga ko‘ra, 25 % yeryong‘oq po‘chog‘i va 75 % aylant daraxti qipiqlari asosida KOH bilan faollashtirilgan adsorbent sanoat oqava suvlarini tozalashda eng samarali va universal sorbent sifatida tavsiya etiladi. Agar asosiy maqsad og‘ir metall ionlarini selektiv chiqarib tashlash bo‘lsa, H3PO4 bilan faollashtirilgan adsorbent qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sorbsion samaradorlikni baholashda og‘ir metall ionlari ($Pb^{2+}$, $Cd^{2+}$, $Cr^{6+}$) uchun

HCl: 85–90% → C=10–15 mg/l →q=85–90 mg/g;

$HNO_3$: 92–95% →C=5–8 mg/l →q=92–95 mg/g;

$H_2SO_4$: 88–93% →C=7–12 mg/l →q=88–93 mg/g;

KOH: 95–98% →C=2–5 mg/l →q=95–98 mg/g;

$H_3PO_4$: 90–94% →C=6–10 mg/l →q=90–94 mg/g;

$ZnCl_2$: 91–96% → C=4–9 mg/l → q=91–96 mg/g,

Neft mahsuloti chiqindilari uchun

HCl: 80–85%→C=15–20 mg/l→q=80–85 mg/g;

$HNO_3$: 90–94%→C=6–10 mg/l→q=90–94 mg/g;

$H_2SO_4$: 87–92%→C=8–13 mg/l→q=87–92 mg/g;

KOH: 95–97%→C=3–5 mg/l →q=95–97 mg/g;

$H_3PO_4$: 92–95%→C=5–8 mg/l→q=92–95 mg/g;

$ZnCl_2$: 93–96%→C=4–7 mg/l→q=93–96 mg/g.

Eksperimental tahlillar shuni ko‘rsatdiki, 25 % yeryong‘oq po‘chog‘i va 75 % aylant daraxti qipiqlari asosida olingan adsorbentlarda faollashtiruvchi reagent turini maqsadga muvofiq tanlash orqali og‘ir metall ionlari va neft mahsulotlariga nisbatan selektiv sorbsiyaga erishish mumkin. Aylant daraxti qipig‘ining yuqori ligninli tarkibi adsorbentning mexanik va termik barqarorligini ta’minlagan bo‘lsa, yeryong‘oq po‘chog‘ining g‘ovak hosil qilishga moyil tarkibi sorbsion markazlar sonini oshirishga xizmat qildi.

**Xulosa.**

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida 25 % yeryong‘oq po‘chog‘i va 75 % aylant daraxti qipiqlari asosida tayyorlangan faollashtirilgan adsorbentlar sanoat oqava suvlaridan og‘ir metall ionlari va neft mahsulotlarini ajratib olishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Faollashtirish jarayonida qo‘llanilgan reagent tabiati adsorbentning g‘ovak tuzilmasi, sirt maydoni va funksional guruhlar tarkibini belgilab beruvchi asosiy omil ekanligi aniqlandi. Shunday qilib, mazkur tadqiqot natijalari chiqindisiz va resurs tejamkor suv tozalash texnologiyalarini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Amaliyot uchun asosiy tavsiya sifatida, kompleks ifloslangan (og‘ir metall ionlari + neft mahsulotlari) sanoat oqava suvlarini tozalashda KOH bilan faollashtirilgan 25 % yeryong‘oq po‘chog‘i va 75 % aylant daraxti qipiqlari asosidagi adsorbent eng samarali va istiqbolli sorbent sifatida tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. **Bansal R.C., Goyal M.** *Activated Carbon Adsorption*. – Boca Raton: CRC Press, 2005. – 520 p.

2. **Foo K.Y., Hameed B.H.** Insights into the modeling of adsorption isotherm systems. *Chemical Engineering Journal*, 2010, Vol. 156, pp. 2–10.

3. **Ahmad M.A., Alrozi R.** Removal of oil and grease from wastewater using activated carbon derived from agricultural waste. *Journal of Environmental Chemical Engineering*, 2014, Vol. 2, pp. 122–130.

4. Tukhtayev F.S., Negmatov S.S., Negmatova K.S., Shonazarova N.U. Aylant daraxti qipiqlari asosida olingan sorbentni har xil harorat oralig‘ida sorbsiyalanishini tadqiq qilish//Тошкент Давлат Техника Университети «Кимё-технология соҳасида фан ва таълимни ривожлантириш тенденциялари» Етакчи олимлар иштирокида республика илмий-амалий конференция материаллар тўплами Toshkent-2022, 24-25-ноябрь, 43-45-бет.

5. Tukhtayev F.S., Negmatov S.S., Shonazarova N.U. Study of the degree of sorption of sorbents in $Pb(NO_3)_2$ solution. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Received: 28th June 2022. Accepted: 01st July 2022. Online: 30th July 2022. pp. 319-323.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

**Askarov Ibrokhim Rakhimjonovich**
https://orcid.org/0000-0003-1625-0330
Andijan State Universit
**Abdullaev Shavkat Vokhidovich**
https://orcid.org/0009-0001-5294-7373
University of Business and Science
**Khaydarov Eldorbek Rakhimjon ugli**
https://orcid.org/0009-0004-4774-061X
University of Business and Science

## CHEMICAL COMPOSITION ANALYSIS OF AS–UBS HERBAL TEA USING HIGH-PERFORMANCE LIQUID CHROMATOGRAPHY (HPLC)

***Abstract:*** *This study investigates the chemical composition of AS–UBS herbal tea using high-performance liquid chromatography (HPLC). The object of the study was a phytocomplex consisting of 3–5-year-old pear (Pyrus spp.) branches and flower buds of Japanese sophora (Styphnolobium japonicum). A 70% ethanol solution was used for the extraction of flavonoids and phenolic compounds. HPLC analysis revealed dihydroquercetin (13.94 mg/g), rosavin (9.25 mg/g), and rutin (6.27 mg/g) as the major flavonoids. High levels of gallic and ellagic acids indicate a significant tannin content. The obtained results confirm the strong antioxidant, venoprotective, and adaptogenic properties of AS–UBS herbal tea.*

***Keywords:*** *AS–UBS herbal tea, HPLC, flavonoids, polyphenols, dihydroquercetin, rutin, ellagic acid.*

**Askarov Ibrokhim Rakhimjonovich**
Andijon Davlat Universiteti
**Shavkat Vokhidovich Abdullaev**
University of Business and Science
**Khaydarov Eldorbek Rakhimjon o'g'li**
University of Business and Science

## AS–UBS SHIFOBAXSH CHOYINING KIMYOVIY TARKIBINI YUQORI SAMARALI SUYUQLIK XROMATOGRAFIYASI (HPLC) USULIDA O'RGANISH

***Annotatsiya:*** *Ushbu ilmiy ishda AS–UBS shifobaxsh choyi tarkibidagi biologik faol moddalarning kimyoviy profili yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (HPLC) usulida o'rganildi. Tadqiqot obyekti sifatida olmurut (Pyrus spp.) ning 3–5 yillik novdalari va yapon safora (Styphnolobium japonicum) ning gul kurtaklaridan tashkil topgan o'simlik aralashmasi tanlandi. Flavonoidlar va fenolik birikmalarni ajratib olish uchun 70 % etanol qo'llanildi. HPLC tahlili natijasida digidrokversetin (13,94 mg/g), rozavin (9,25 mg/g) va rutin (6,27 mg/g) asosiy flavonoidlar sifatida aniqlandi. Shuningdek, gall va ellag kislotalarning yuqori miqdori taninlarning sezilarli ulushini ko'rsatdi. Olingan natijalar AS–UBS shifobaxsh choyining kuchli antioksidant, venoprotektor va adaptogen xususiyatlarga ega ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.*

***Kalit so'zlar:*** *AS–UBS shifobaxsh choyi, HPLC, flavonoidlar, polifenollar, digidrokversetin, rutin, ellag kislotasi.*

**Аскаров Иброхим Рахимджонович**
Андийский государственный университет
**Абдуллаев Шавкат Вохидович**
Университет бизнеса и науки
**Хайдаров Эльдорбек Рахимжон угли**
**Университет бизнеса и науки**

## ИЗУЧЕНИЕ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА ЛЕЧЕБНОГО ЧАЯ AS–UBS МЕТОДОМ ВЫСОКОЭФФЕКТИВНОЙ ЖИДКОСТНОЙ ХРОМАТОГРАФИИ

***Аннотация:*** *В данной научной работе изучен химический состав лечебного чая AS–UBS методом высокоэффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ). Объектом исследования являлась фитокомпозиция, состоящая из побегов груши (Pyrus spp.) возрастом 3–5 лет и цветочных бутонов софоры японской (Styphnolobium japonicum). Для экстракции флавоноидов и фенольных соединений использовали 70 % этанол. По результатам ВЭЖХ основными компонентами экстракта были дигидрокверцетин (13,94 мг/г), розавин (9,25 мг/г) и рутин (6,27 мг/г). Высокое содержание галловой и эллаговой кислот свидетельствует о значительной доле танинов. Полученные данные подтверждают выраженные антиоксидантные, венопротекторные и адаптогенные свойства лечебного чая AS–UBS.*

***Ключевые слова:*** *лечебный чай AS–UBS, ВЭЖХ, флавоноиды, полифенолы, дигидрокверцетин, рутин.*

The study of the chemical composition of natural plant raw materials is of particular importance in the pharmaceutical field for assessing the quality of phytocomplexes and biologically active supplements, substantiating their therapeutic mechanisms of action, and ensuring standardization processes. Flavonoids, polyphenols, tannins, organic acids, and other secondary metabolites found in plants possess strong biological activity and exhibit a wide range of effects in the human body, including antioxidant, anti-inflammatory, antihypoxic, immunomodulatory, and angioprotective actions. [1]

The AS-UBS medicinal tea contains several key components: branches of pear ( *Pyrus* spp.) aged 3–5 years; flower buds of Japanese sophora (*Styphnolobium japonicum*); Amaranth (*Amaranthus Lera*); and peppermint powder (*Mentha* spp.). These plants are rich in potent antioxidant compounds and are widely used in traditional medicine and modern phytotherapy for the treatment of vascular diseases, colds, inflammatory processes, enhancement of general immunity, and strengthening of antioxidant defense.

The aim of the present scientific study is to identify and quantitatively determine flavonoids and phenolic compounds in the AS-UBS medicinal tea using the HPLC method, as well as to scientifically substantiate the pharmacological potential of the herbal mixture. [2–5]

**Materials and Methods.** In the AS-UBS herbal mixture, 3–5-year-old branches of pear (*Pyrus* spp.) were used. The chemical composition of these branches differs from that of the leaves and is characterized by a higher concentration of polyphenolic compounds. The main bioactive components of young branches include gallotannins, ellagitannins, gallic acid derivatives, flavonols (quercetin and kaempferol derivatives), polyphenolic complexes, organic acids, and lignan and lignin derivatives. These compounds provide strong antioxidant protection by neutralizing free radicals and reducing oxidative stress. The ellagitannins present in the branches exhibit anti-inflammatory effects by blocking inflammatory mediators. Polyphenols demonstrate antimicrobial activity by inhibiting the growth of microorganisms. Quercetin and its derivatives strengthen capillary walls by increasing vascular elasticity. In addition, the branches possess adaptogenic and immunomodulatory properties.

The exceptionally high tannin content of the branches explains the elevated levels of gallic acid (2.62 mg/g) and ellagic acid (3.23 mg/g) detected by HPLC analysis.

Flower buds of Japanese sophora (*Styphnolobium japonicum*) were also included in the AS-UBS mixture. Sophora flowers represent an active center of flavonoid biosynthesis and contain high concentrations of rutin (rutoside), kaempferol glycosides, genistein derivatives, and flavonoid polyphenols. These compounds exhibit pronounced P-vitamin activity, strengthening capillary walls, reducing oxidative stress through antioxidant action, exerting anti-inflammatory effects, and demonstrating venoprotective properties. The diversity of flavonoids present in the AS-UBS tea is largely attributable to the rich chemical composition of sophora flower buds. [6–15]

## Results

**Extraction Procedure.** For the isolation of flavonoids and polyphenols from the AS-UBS mixture, 70% ethanol was used as the extraction solvent. This solvent was selected as the most optimal due to its high efficiency in extracting flavonoids, maximal solubility of tannins, limited extraction of excessive polysaccharides, and its ability to prevent degradation of bioactive compounds at 70°C.

**The extraction process was carried out as follows:**

1.A total of 1.1 g of the herbal mixture was weighed.

2.The sample was boiled with 50 ml of 70% ethanol at 70°C for 1 hour.

3.The extract was stirred for 2 hours at room temperature.

4.Filtration was performed.

5.Re-extraction was carried out twice using 25 ml of solvent each time.

6.The filtrates were combined and adjusted to a final volume of 100 ml.

7.The solution was centrifuged at 8000 rpm for 20 minutes.

8.The supernatant was collected for HPLC analysis.

**HPLC Conditions**

1.Chromatograph: Agilent 1200
2.Column: Eclipse XDB-C18 (4.6 × 250 mm; 5 µm)
3.Detector: Diode Array Detector (DAD) at 254 nm and 276 nm
4.Flow rate: 0.8 ml/min
5.Column temperature: 30°C
6.Injection volume: 10 µl




**Figure 1.** *HPLC analysis of the chemical composition of the AS–UBS medicinal tea.*

**Eluent system:** phosphate buffer–acetonitrile.

| | Phosphate buffer (%) | Acetonitrile (%) | Time (min) |
|---|---|---|---|
| 1 | 95 | 5 | 0 – 5 |
| 2 | 70 | 30 | 6 – 12 |
| 3 | 50 | 50 | 12 – 13 |
| 4 | 95 | 5 | 13 – 15 |

This gradient allowed for efficient separation of all major groups of flavonoids and tannins.
**Results of phenolic acids.** The content of phenolic acids in the AS-UBS extract:

| | Compound | Content (mg/g) |
|---|---|---|
| 1 | Gallic acid | 2.62 |
| 2 | Ellagic acid | 3.23 |

Ellagic acid is a degradation product of gallotannins, indicating that the branches are extremely rich in tannins.
**Quantitative HPLC Results of Flavonoids.**

| | Flavonoid | Content (mg/g) |
|---|---|---|
| **1** | Dihydroquercetin | 13.94 |
| **2** | Rosavin | 9.25 |
| **3** | Rutin | 6.27 |
| **4** | Quercetin | 1.13 |
| **5** | Salidroside | 1.15 |
| **6** | Luteolin | 0.24 |
| **7** | Cynaroside | 0.00 |

**Key Flavonoids.** Dihydroquercetin is a potent antioxidant and represents the major bioactive compound in AS-UBS. Rosavin exhibits adaptogenic properties, enhancing the body's resistance to stress. Rutin strengthens blood vessels and demonstrates pronounced venoprotective activity. The HPLC chromatogram of the studied extract clearly demonstrates the structured grouping of phenolic compounds. The distribution of peaks according to retention time is directly related to their polarity, molecular weight, and structural characteristics. A scientific interpretation of the main fractions is presented below.

**3.5–7.0 min: Low-molecular-weight phenolic acids.** Peaks observed within this interval correspond mainly to gallic acid and its ester derivatives, as well as low-molecular-weight phenolic compounds such as protocatechuic, caffeic, and vanillic acids. The early elution of these substances is explained by their high polarity.

**7–9 min: Flavonoid glycosides.** This region of the chromatogram is characteristic of rutin, quercetin glycosides, luteolin glycoside derivatives, and other O-glycosylated flavonoids. Glycosylation increases the polarity of flavonoids, causing them to elute earlier than their aglycone forms.

**8.9 min: Major peak of high-molecular-weight tannins.** The intense peak at 8.9 minutes reflects the accumulation of highly polymerized condensed tannins. This fraction represents the component of the extract with the strongest antioxidant activity. The sharpness and intensity of the peak are associated with the high concentration of high-molecular-weight compounds.

**12–13 min: Ellagitannins and polymeric tannins.** In this range, ellagitannins and other high-molecular-weight polyphenols are eluted. The detection of ellagic acid, formed as a result of ellagitannin hydrolysis, confirms their presence. Increased hydrophobicity and polymerization degree cause these compounds to elute later.

**13.5–15 min: Flavonoid aglycones.** The final part of the chromatogram corresponds to flavonoid aglycones such as quercetin, luteolin, and apigenin. Due to the absence of glycosidic moieties and lower polarity, aglycones elute last along the chromatographic column. Peaks corresponding to free forms of quercetin and kaempferol are clearly observed. Overall, the presence of more than 30 peaks in the chromatogram confirms the complex polyphenolic profile of the AS-UBS medicinal tea mixture. [16–20]

**General Discussion.** The AS-UBS medicinal tea mixture is exceptionally rich in flavonoids and polyphenols. The high levels of dihydroquercetin, rosavin, and rutin significantly enhance its antioxidant, vasoprotective, and adaptogenic properties. Elevated concentrations of gallic and ellagic acids confirm the abundance of tannins in the plant branches. The large number of peaks recorded in the chromatogram indicates the complex phenolic nature of the extract. AS-UBS tea can therefore be considered a powerful natural antioxidant suitable for therapeutic application.

**Conclusion.** The AS-UBS medicinal tea represents a highly bioactive complex rich in flavonoids, polyphenols, and tannins. According to the HPLC results, the most significant components were identified as dihydroquercetin (13.94 mg/g), rosavin (9.25 mg/g), and rutin (6.27 mg/g). The high proportion of polyphenols and tannins substantially enhances the antioxidant potential of the extract. The findings of this study provide a solid scientific basis for the use of AS-UBS medicinal tea in quality control, standardization, and evaluation in accordance with pharmacopoeial requirements.

**References**

1. Mizzi L, et al. HPLC analysis of phenolic compounds and flavonoids. PMC article. 2020. Study on HPLC methodology and phenolic compound identification. (PMC)

2. Carvalho NKG de, et al. Quantification of phenolic compounds by HPLC-DAD and antioxidant evaluation of *Sarcomphalus joazeiro* extracts. *Plants*. 2025. Quantification of phenolic acids and flavonoids. (MDPI)

3. Proestos C. RP-HPLC analysis of phenolic compounds of plant species. *Journal of Agricultural and Food Chemistry*. 2005. Identification of phenolic compounds using HPLC. (ACS Publications)

4. *Nature Scientific Reports*. Phytochemical screening, HPLC analysis, and biological activities of plant extracts. 2025. Extract profiling and pharmacological characterization. (Nature)

5. Akhtar N. Phytochemical analysis and antimicrobial activities of 61 plant species. *Arab Journal of Chemistry*. 2018. Phenolic and flavonoid profiling using HPLC-DAD. (Arabian Journal of Chemistry)

6. Zhang Y. A brief review of phenolic compounds identified from plants. *SAGE Journals*. 2022. Scientific review on phenolic compounds. (SAGE Journals)

7. Al-Jaber HI. HPLC profiling of selected phenolics and flavonoids in *Salvia* species. *PeerJ*. 2020. HPLC analysis of flavonoids in different plants. (PeerJ)

8. *Phytochemical Analysis (Phytochem. Anal., Wiley)*. Collection of methodological articles. (Wikipedia)

9. *Journal of Pharmaceutical Research International*. Phytochemical analysis, HPLC profiling and antioxidant potential of *Euphorbia nivulia*. 2021. HPLC analysis of polyphenols and flavonoids. (Journal of Pharmaceutical Research)

10. Peer-reviewed review on chromatographic analysis of flavonoids in fruits. *ScienceDirect*. 2025. Scientific review of chromatographic analysis methods. (ScienceDirect)

11. Asqarov I.R, Masharipova N.J, Mo'minjonov M.M. HPLC-based analysis of phenolic compounds in *Ziziphora* extract. *Western European Journal of Medicine and Medical Science*. 2025. HPLC identification of phenolic compounds. (Western European Studies)

12. Yo'lbarsova M.A. Study of flavonoids by HPLC. *International Journal of Science and Technology*. 2025. Flavonoid profiling. (Science and Technology)

13. Eshonkhojaev O.O. HPLC analysis of phenolic compounds. *WOS Journals*. 2025. Profiling of phenols in *Rubus* extract. (WOS Journals)

14. Tashpulatov F.N. Biological activity of plant polyphenols. *Farmatsiya Journal*. 2019. Properties of natural polyphenols. (National source)

15. Karimov. U.K. Identification of bioactive compounds by HPLC. *Kimyo va Farmatsiya*. 2020. Scientific article on HPLC methodology. (National)

16. Ismoilov II. Antioxidant properties of flavonoids. Tashkent, 2017. Bioactivity of flavonoids. (National)

17. Yo'ldoshev.B.Sh. Tannins and their pharmacological significance. Tashkent, 2016. Properties of tannins. (National)

18. Abdullaeva.N.M. Role of plant flavonoids in medicine. *Tibbiyot Journal*, 2018. Biological activity of flavonoids. (National)

19. Rustamov. S.R. Fundamentals of phytochemistry and pharmacognosy. Tashkent, 2015. General guide to phytochemical analysis. (National)

20. Rahmonov D, Xolmatov XX. Chemistry of medicinal plants. Tashkent, 2018. Analysis of polyphenols and flavonoids. (National)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Kuchkarov Nurbek Yuldashevich**
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD.
E-mail: n.kuchkarov686@gmail.com
**Raximova Turaxon Uzakovna**
O‘zbekiston Milliy universiteti professori, b.f.d.

**UDK: 574:57.04:57.02**

## TOSHKENT ADIRLARI SHAROITIDA *SEDUM SPECTABILE* VA *SEDUM SPURIUM* O‘SIMLIKLARINING SUV REJIMI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Toshkent adirlari sharoitida Sedum spectabile va Sedum spurium turlarining suv rejimi ko‘rsatkichlari aniqlangan va korrelyatsion tahlil asosida ularning ekologik xususiyatlari ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Sedum spectabile, Sedum spurium, suv miqdori, transpiratsiya jadalligi, osmotik bosim, suv saqlash xususiyati, bargda suv tanqisligi.*

**Кучкаров Нурбек Юлдашевич**
Доцент Национального
университета Узбекистана, (PhD)
**Raximova Turaxon Uzakovna**
Профессор Национального
университета Узбекистана

## ОСОБЕННОСТИ ВОДНОГО РЕЖИМА *SEDUM SPECTAIBLE* И *SEDUM SPURIUM* В УСЛОВИЯХ ПРИ ТАШКЕНТСКИХ АДЫРОВ

***Аннотация:*** *В данной статье определены показатели водного режима Sedum spectabile и Sedum spurium в условиях Ташкента и на основе корреляционного анализа выявлены их экологические особенности.*

***Ключевые слова:*** *Sedum spectabile, Sedum spurium, содержание воды, интенсивность транспирации, осмотическое давление, вода удерживающая способность, водный дефицит.*

**Kuchkarov Nurbek Yuldashevich**
Associate Professor, PhD,
National University of Uzbekistan.
E-mail: n.kuchkarov686@gmail.com
**Raximova Turaxon Uzakovna**
**Professor at the National University of Uzbekistan**

## FEATURES OF THE WATER REGIME OF SEDUM SPECTAIBLE AND SEDUM SPURIUM IN THE CONDITIONS OF THE TASHKENT ADYRS

***Annotation:*** *In this article, the water regime indicators of Sedum spectabile and Sedum spurium in Tashkent conditions are determined and their ecological features are revealed based on correlation analysis.*

***Key words:*** *Sedum spectabile, Sedum spurium, water content, transpiration rate, osmotic pressure, water holding capacity, water deficit.*

### Kirish

Hozirgi vaqtda dunyoda iqlim o‘zgarishlari jarayonlari sodir bo‘lmoqda, havoning o‘rtacha yillik harorati 1,0-1,5 darajaga oshgan, qit’alar doirasida oladigan bo‘lsak ushbu ko‘rsatkich ancha yuqori. O‘zbekistonda o‘rtacha yillik harorat 1,4-2,0 darajaga ko‘tarilgan bo‘lib, yoz mavsumlarida o‘simliklarning vegetatsiyasi davomida hayotiy biologik jarayonlari uchun suv tanqisligi vujudga kelishi kuzatilmoqda. Shunday ekan ekstremal sharoitlarga moslashishida o‘simliklarning

ekofiziologik xususiyatlarini o‘rganish ayniqsa suv rejimi ko‘rsatkichlaridan suv miqdori, suv saqlash xususiyati, transpiratsiya jadalligi, barg hujayra shirasining osmotik bosimi, bargda suv tanqisligi ko‘rsatkichlarini aniqlash, olingan natijalar asosida amaliyot uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Olingan suv rejimi ko‘rsatkichlarini korrelyatsion tahlil qilish, bu o‘simliklarning qaysi xususiyatlari orqali sharoitga moslashishini aniqlashda katta ahamiyatga ega [1].

**Adabiyotlar tahlili**

O‘simliklar organlarida kechadigan barcha modda va energiya almashinuvi jarayonlarida suv muhim ahamiyat kasb etadi [1]. O‘zbekiston Respublikasi O‘rta Osiyoning arid mintaqasida joylashgan bo‘lib, bunday ekstremal sharoitlarda o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishi bevosita tuproq namligi, tuproq harorati va havoning harorati kabi ekologik omillarga bog‘liqdir. Tabiiy va introduksiya sharoitlarida dorivor, ozuqabop o‘simliklarning suv rejimlari T.U. Raximova [2], B.YE. To‘xtayev [3], X.F. Shomurodov [4], E.E. Abdunazarov [5], N.Y. Kuchkarov [1]. X.SH. O‘rinova [6], O.N. Imomov [7] tomonlaridan o‘rganilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi**

***Sedum spectabile*** o‘simligining vegetatsiyasi davomida (2023-2025 yy.) bargida suv saqlash xususiyati, suv miqdori, transpiratsiya jadalligi, barg hujayra shirasining osmotik bosimi va suv tanqisligi ko‘rsatkichlari o‘rtasida yuzaga kelgan bog‘liqliq Fexner koeffetsentlari orqali aniqlandi: [-0,9; -1] – eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, [-0,7; -0,9] – yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, [-0,5; -0,7] – sezilarli aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, [-0,3; -0,5] – meyoriy aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, [-0,1; -0,3] – kuchsiz aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, [0] – bir-biriga nisbatan bog‘liqlik yo‘q, [+0,1; +0,3] – kuchsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, [+0,3; +0,5] – meyoriy to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, [+0,5; +0,7] – sezilarli to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, [+0,7; +0,9] – yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, [+0,9; +1] – eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish [1].

O‘simliklarning qurg‘oqchil muhitga moslashish xususiyatlari suv rejimi almashinuvining beshta asosiy ko‘rsatkichlari – assimilyasiyalovchi organlarining (barg) suvni saqlash xususiyati, suv miqdori, transpirasiya jadalligi, suv tanqisligi, o‘simlik hujayra shirasining osmotik bosimi ko‘rsatkichlari asosida aniqlandi.

Bargning suv saqlash xususiyati (SSX) A.A. Nichiporovich [8] usuli yordamida aniqlandi.

Suv saqlash xususiyati quyidagi formula yordamida hisoblandi **[9].**

$$SSX = \frac{(3\ \text{soatdan keyingi og‘irligi} - \text{quruq og‘irligi}) * 100}{(\text{dastlabki og‘irligi})}\ \%$$

Transpirasiya jadalligi A.A. Ivanov [10] usuli ya’ni analitik tarozi yordamida, barglarni tezlik bilan tortish asosida olib borildi hamda kun davomida 6 marta, ya’ni soat $8^{00}$ dan $18^{00}$ gacha har 2 soatda 3 marta takroriy o‘lchash orqali aniqlandi [9].

Transpirasiya jadalligi (TJ) quyidagi formula asosida hisoblandi [9].

$$TJ = \frac{(a-b)\times 20\times 1000}{a}$$

a - dastlabki og‘irligi

b – 3 minutdan keyingi og‘irligi

Assimilyasiyalovchi organ (barg) tarkibidagi suv miqdori kun davomida 6 marta ya’ni $8^{00}$ dan $18^{00}$ gacha har 2 soatda 3 marta takroriy o‘lchash orqali aniqlandi. Suvning umumiy miqdori foizda quyidagi formula, asosida hisoblandi [9].

$$SM = \frac{(\text{dastlabki og‘irligi} - \text{quruq og‘irligi})\times 100}{\text{dastlabki og‘irligi}}\ \%$$

Bargda suv tanqisligi Catsky metodi orqali o‘rganildi va ilmiy natijalar qo‘lga kiritildi, bargdagi to‘liq to‘yinishga nisbatan suv tanqisligi (ST) O.Stocker formulasi bo‘yicha hisoblandi, suv miqdorini aniqlash gravitatsion usul yordamida amalga oshirildi [9].

O‘simlik hujayra shirasining osmotik bosimi N.A.Gusev usulida refraktometrda dastlab eritma konsentratsiyasini aniqlash bilan boshlandi [11].

Osmotik bosimni aniqlashda quyidagi formulalar asosida hisoblashlar amalga oshirildi (1-jadval). Olingan natijalar asosida erigan moddaning (saxaroza) massasi aniqlab olindi. Shundan so‘ng erigan moddaning (saxaroza) miqdori (g/mol) aniqlandi va molyar konsentratsiyasi hisoblab topildi. Universal gaz doimiysi R – 0,08207, T – temperatura +273 ºC + havo harorati ºC, $C_M$ – molyar konsentratsiya, i – izotonik koeffetsent ko‘rsatkichlari asosida P – bosim, atm.

aniqlandi. Shu asosda barg hujayra shirasining osmotik bosimini aniqlash bo‘yicha hisoblash ishlari izchilligi N.Y.Kuchkarov tomonidan bir necha yillik ilmiy izlanishlar natijasida takomillashtirilgan [12].

**1-jadval**

**Barg hujayra shirasining konsentratsiyasi va osmotik bosimini hisoblashda foydalaniladigan formulalar**

| | |
|---|---|
| $C_{\%} = \frac{m_1}{m_2} \cdot 100$ | $C_{\%}$ - eritmaning % - konsentratsiyasi<br>$m_1$ – erigan moddaning massasi, g.<br>$m_2$ – eritmaning massasi, g. |
| $n = \frac{m}{M}$ | $n$ – modda miqdori, birligi mol yoki gramm-molekula, g/mol<br>$m$ – berilgan modda massasi yoki erigan moddaning massasi<br>$M$ – berilgan modda molekulyar massasi |
| $C_M = \frac{n}{v}$ | $C_M$ – molyar konsentratsiya<br>$n$ – modda miqdori, g/mol<br>v – hajm |
| $P = RTC_i$ | P – bosim, atm.<br>R – universal gaz doimiysi, 0,08207<br>T – temperatura +273 ºC + havo harorati ºC<br>$C_M$ – molyar konsentratsiya<br>i – izotonik koeffetsent |
| Mr ($C_{12}H_{22}O_{11}$) = 342 g/mol | Saxaroza |

**Natijalar va ularning tahlili**

Quyida keltirilgan 1-rasmda ***Sedum spectabile*** o‘simligining 2023-2025-yillar vegetatsiyasi davomida suv rejimining o‘rtacha mavsumiy ko‘rsatkichlari o‘rtasida korrelyatsion bog‘liqlik aniqlangan bo‘lib, unga ko‘ra 2023 yilda suv miqdori va osmotik bosim o‘rtasida (– 0,99) – eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish mavjud ekanligi, suvni saqlash xususiyati va osmotik bosim o‘rtasida esa (– 0,99) – eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish mavjud ekanligi aniqlandi. Transpiratsiya jadalligi va osmotik bosim o‘rtasida (+ 0,96) – eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suvni saqlash xususiyati va suv miqdori o‘rtasida (+ 0,98) - eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suvni saqlash xususiyati va transpiratsiya jadalligi o‘rtasida (– 0,99) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, transpiratsiya jadalligi va suv miqdori o‘rtasida esa (– 0,96) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, suv tanqisligi va osmotik bosim o‘rtasida (+ 0,99) – eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suv tanqisligi va suv saqlash xususiyati o‘rtasida (– 0,89) - yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, suv tanqisligi va transpiratsiya jadalligi o‘rtasida (+ 0,95) – eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suv tanqisligi va suv miqdori o‘rtasida (– 0,99) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanishlar mavjudligi aniqlandi.

Vegetatsiya davrining 2024 yilida suv miqdori va osmotik bosim o‘rtasida (– 0,91) – eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish mavjud ekanligi, suvni saqlash xususiyati va osmotik bosim o‘rtasida esa (– 0,98) – eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish mavjud ekanligi aniqlandi. Transpiratsiya jadalligi va osmotik bosim o‘rtasida (+ 0,99) – eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suvni saqlash xususiyati va suv miqdori o‘rtasida (+ 0,99) - eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suvni saqlash xususiyati va transpiratsiya jadalligi o‘rtasida (– 0,98) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, transpiratsiya jadalligi va suv miqdori o‘rtasida esa (– 0,96) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, suv tanqisligi va osmotik bosim o‘rtasida (+ 0,95) – eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suv tanqisligi va suv saqlash xususiyati o‘rtasida (– 0,92) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, suv tanqisligi va transpiratsiya jadalligi o‘rtasida (+ 0,99) – eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suv tanqisligi va suv miqdori o‘rtasida (– 0,99) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanishlar mavjudligi aniqlandi.

Vegetatsiya davrining 2025 yilida suv miqdori va osmotik bosim o‘rtasida (– 0,99) – eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish mavjud ekanligi, suvni saqlash xususiyati va osmotik bosim o‘rtasida esa (– 0,92) – eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish mavjud ekanligi aniqlandi. Transpiratsiya jadalligi va osmotik bosim o‘rtasida (+ 0,88) – yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suvni saqlash xususiyati va suv miqdori o‘rtasida (+ 0,98) - eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suvni saqlash xususiyati va transpiratsiya jadalligi o‘rtasida (– 0,96) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, transpiratsiya jadalligi va suv miqdori o‘rtasida esa (– 0,90) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, suv tanqisligi va osmotik bosim o‘rtasida (+ 0,99) – eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suv tanqisligi va suv saqlash xususiyati o‘rtasida (– 0,99) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, suv tanqisligi va transpiratsiya jadalligi o‘rtasida (+ 0,81) – yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suv tanqisligi va suv miqdori o‘rtasida (– 0,98) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanishlar mavjudligi aniqlandi.




**1-rasm. Korrelyatsion tahlil. *Sedum spectabile*.**
**a - 2023 y., b – 2024 y., v - 2025 y.**

***Sedum spurium*** o‘simligining 2023-2025-yillar vegetatsiyasi davomida suv rejimining o‘rtacha mavsumiy ko‘rsatkichlari o‘rtasida korrelyasion bog‘liqlik aniqlangan bo‘lib, unga ko‘ra 2023 yilda suv miqdori va osmotik bosim o‘rtasida (– 0,98) – eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish mavjud ekanligi, suvni saqlash xususiyati va osmotik bosim o‘rtasida esa (– 0,96) – eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish mavjud ekanligi aniqlandi. Transpiratsiya jadalligi va osmotik bosim o‘rtasida (+ 0,99) – eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suvni saqlash xususiyati va suv miqdori o‘rtasida (+ 0,99) - eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suvni saqlash xususiyati va transpiratsiya jadalligi o‘rtasida (– 0,95) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, transpiratsiya jadalligi va suv miqdori o‘rtasida esa (– 0,97) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, suv tanqisligi va osmotik bosim o‘rtasida (+ 0,97) – eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suv tanqisligi va suv saqlash xususiyati o‘rtasida (– 0,99) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, suv tanqisligi va transpiratsiya jadalligi o‘rtasida (+ 0,95) – eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suv tanqisligi va suv miqdori o‘rtasida (– 0,99) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanishlar mavjudligi aniqlandi (2-rasm).

Vegetatsiya davrining 2024 yilida suv miqdori va osmotik bosim o‘rtasida (– 0,92) – eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish mavjud ekanligi, suvni saqlash xususiyati va osmotik bosim o‘rtasida esa (– 0,95) – eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish mavjud ekanligi aniqlandi. Transpiratsiya jadalligi va osmotik bosim o‘rtasida (+ 0,95) –

eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suvni saqlash xususiyati va suv miqdori o‘rtasida (+ 0,99) - eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suvni saqlash xususiyati va transpiratsiya jadalligi o‘rtasida (– 1,0) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, transpiratsiya jadalligi va suv miqdori o‘rtasida esa (– 0,99) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, suv tanqisligi va osmotik bosim o‘rtasida (+ 0,97) – eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suv tanqisligi va suv saqlash xususiyati o‘rtasida (– 0,98) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, suv tanqisligi va transpiratsiya jadalligi o‘rtasida (+ 0,90) – eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suv tanqisligi va suv miqdori o‘rtasida (– 0,99) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanishlar mavjudligi aniqlandi.

Vegetatsiya davrining 2025 yilida suv miqdori va osmotik bosim o‘rtasida (– 0,99) – eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish mavjud ekanligi, suvni saqlash xususiyati va osmotik bosim o‘rtasida esa (– 0,98) – eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish mavjud ekanligi aniqlandi. Transpiratsiya jadalligi va osmotik bosim o‘rtasida (+ 0,98) – eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suvni saqlash xususiyati va suv miqdori o‘rtasida (+ 0,99) - eng yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suvni saqlash xususiyati va transpiratsiya jadalligi o‘rtasida (– 0,99) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, transpiratsiya jadalligi va suv miqdori o‘rtasida esa (– 0,99) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, suv tanqisligi va osmotik bosim o‘rtasida (+ 0,80) – yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suv tanqisligi va suv saqlash xususiyati o‘rtasida (– 0,89) - yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanish, suv tanqisligi va transpiratsiya jadalligi o‘rtasida (+ 0,85) – yuqori to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, suv tanqisligi va suv miqdori o‘rtasida (– 0,92) - eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanishlar mavjudligi aniqlandi.




**2-rasm. Korrelyatsion tahlil.** ***Sedum spurium.***

**a - 2023 y., b – 2024 y., v - 2025 y.**

**Xulosa**

Umumiy xulosa shundan iboratki suv rejimi ko‘rsatkichlari yillar kesimida mavsum davomida barqaror saqlanganligi bu esa atrof-muhitning abiotik omillari ta’sirida (havoning harorati, havoning nisbiy namligi, tuproq harorati, tuproq namligi) suv almashinuvi jarayonlarida biroz o‘zgarishlar vujudga kelganligi qayd etildi. Har to‘rttala turda ham osmotik bosim va suv miqdori o‘rtasida hamda osmotik bosim va suv saqlash xususiyatlari o‘rtasida eng yuqori aks bir-biriga nisbatan bog‘lanishlar mavjudligi aniqlandi. Bu esa turlarning sharoitga muvaffaqiyatli moslashib yashashida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Yana shuni ham ta’kidlash kerakki tadqiqotlar olib borilgan yillar davomida umuman sug‘orilmagan sharoitda o‘simliklarning suv miqdori ko‘rsatkichi qariyb 80-82 foizni tashkil etganligi jumladan ***Sedum spectabile*** o‘simligida osmotik bosimi 15,3 atm.ni mavsumiy diapazon esa 10-12 atm.ni tashkil etganligi qayd etildi. Bundan ko‘rinib turibdiki ayrim suv rejimi ko‘rsatkichlarining mavsum davomida suv tanqisligi sharoitida oshib borishi (osmotik bosim) bargda suv miqdorining optimal saqlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Kuchkarov N.Y. Introduksiya sharoitida *Inula helenium* L. va *Inula salicina* L. turlarining bioekologiyasi: Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). dis. – Toshkent: 2021. – B. 3-108.
2. Рахимова Т.У. Экология растений адырной зоны Узбекистана - Ташкент: Университет, 1997. Часть I – С. 276
3. Тухтаев Б.Е. Биоэкологические основы использования солодки при окультуривании засоленных земель: Автореф. дис... канд. биол. наук.– Ташкент, 1991. – С. 22.
4. Shomurodov H.F. Turkiston tizmasining shimoliy-g‘arbiy adirlaridagi ozuqabop o‘simliklarning bioekologiyasi: Avtoref. dis...kand. biol. nauk. – Toshkent, 1997. – S. 23.
5. Abdunazarov E.E. Toshkent vohasi sharoitida *Valeriana officinalis* L. ning introduksiyasi va bioekologik xususiyatlari: // Biol. fan. nomzodi. dis. – Toshkent, 2010. – B. 74-75.
6. Urinova X.SH. “Qizilqum sharoitida *Indigofera tinctoria* L. o‘simligining bioekologik xususiyatlari” Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). dis. Toshkent-2022 y. 30-60 bet.
7. Imomov O.N. Chust-pop adirlari sharoitida ayrim foydali ozuqabop o‘simliklar bioekologiyasi: // Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). dis. – Namangan: 2020. – B. 3-108.
8. Ничипорович А.А. О потере воды срезанными растениями в процессе завядания // Журнал опытной агрономии Юго-Востока, 1926. Т. 3. –№ 1. – С. 72-92.
9. Рахимова Т.Т. Ўсимликлар экологияси ва фитоценология фанларидан методик қўлланма. – Тошкент, 2009 – Б. 3-70.
10. Иванов Л.А., Силина А.А., Цельникер Ю.А. О методике быстрого взвешивания для определения транспирации в естественных условиях // Бот. журн. – Москва, 1950. – Т 35. – № 2. – С. 171-185.
11. Гусев Н.А. Некоторые методы исследования водного режима растений. – Ленинград: Всесоюзное ботаническое общество, 1969. – С. 38.
12. Kuchkarov N.Y. *Sedum spectabile* va *Sedum spurium* o‘simliklari barg hujayra shirasining osmotik bosimi. O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi. № 5 (23) 2025. B. 38-41.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Uluxujayeva Nozima Narzulloxonovna**
Namangan davlat texnika universiteti 2- son akademik litseyi biologiya fani o'qituvchisi
nozimauluxujayeva@gmail.com

## KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING SOG'LOM OVQATLANISH ODATLARINI SHAKLLANTIRISHDA SUT MAHSULOTLARINING AHAMIYATI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalar o'rtasida sog'lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari, xususan, sut va sut mahsulotlarining organizm rivojlanishidagi o'rni chuqur o'rganilgan. Tadqiqotda O'zbekistonda so'nggi yillarda olib borilayotgan sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish siyosati, bolalar ovqatlanishidagi tarkibiy muammolar, mikro- va makroelement yetishmovchiligi bilan bog'liq sog'liq xavflari tahlil qilinadi. Sut mahsulotlarining oqsillar, kaltsiy, fosfor, B2 vitamini, probiotiklar kabi muhim moddalar manbai sifatidagi ahamiyati xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar asosida asoslab berilgan.*

*Amaliy qismda Namangan shahri hamda Mingbuloq va Yangiqo'rg'on tumanlaridagi 2–4-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari keltiriladi. Ushbu so'rovnoma orqali bolalarning sut mahsulotlarini iste'mol qilish chastotasi, ularga bo'lgan munosabati, uydagi ovqatlanish odatlari hamda yosh guruhlari bo'yicha farqlari aniqlangan. To'plangan ma'lumotlar asosida bolalarning antropometrik ko'rsatkichlari (bo'y, vazn, o'sish darajasi) bilan sut mahsulotlari iste'moli o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik statistik jihatdan ($\chi^2$ testi orqali) tahlil qilingan.*

*Tadqiqot natijalari bolalarning katta qismi sut mahsulotlarini muntazam iste'mol qilmasligini, bu esa ularning jismoniy rivojlanishida sekinlashuv, kalsiy tanqisligi, suyak to'qimasi yetilmaganligi, immunitetning pasayishi, tish emali muammolari va vitamin-mineral disbalansi kabi xavf omillarini kuchaytirishini ko'rsatdi. Shuningdek, noto'g'ri ovqatlanish odatlari oilaviy muhit, iqtisodiy imkoniyatlar va maktab oshxonalaridagi sharoit bilan bog'liqligi aniqlanadi. Tadqiqot sog'lom ovqatlanishni targ'ib qilishning zamonaviy yondashuvlarini, xususan, maktablar uchun metodik qo'llanmalar, raqamli ta'lim vositalari, ota-onalar bilan ishlash mexanizmlarini taklif etadi.*

*Maqola kichik maktab yoshidagi bolalarda sut mahsulotlari iste'moli va sog'lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish bo'yicha O'zbekiston sharoitiga mos ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

***Kalit sozlar****: sog'lom ovqatlanish, sut va sut mahsulotlari, maktab o'quvchilari, oziqlanish odatlari, bolalar ratsioni, oqsil, kaltsiy, vitaminlar, ovqatlanish madaniyati, sog'lom turmush tarzi.*

**Улухужаева Нозима Нарзуллохоновна**
Преподаватель биологии Академического лицея Наманганского государственного технического университета

## ЗНАЧЕНИЕ МОЛОЧНЫХ ПРОДУКТОВ В ФОРМИРОВАНИИ ПРАВИЛЬНЫХ ПИЩЕВЫХ ПРИВЫЧЕК У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

***Аннотация.*** *В данной статье глубоко изучены научно-теоретические основы формирования культуры здорового питания среди детей младшего школьного возраста, в частности роль молока и молочных продуктов в развитии организма. В исследовании анализируется политика Узбекистана последних лет по пропаганде здорового образа жизни, структурные проблемы детского питания, а также риски для здоровья, связанные с дефицитом микро- и макроэлементов. Обосновано значение молочных продуктов как источника белков, кальция, фосфора, витамина B2, пробиотиков на основе международной и отечественной научной литературы.*

*В практической части приведены результаты опроса, проведённого среди учащихся 2–4-х классов города Наманган, а также Мингбулакского и Янгикурганского района. Через данный опрос были определены частота потребления молочных продуктов детьми, их отношение к ним, семейные пищевые привычки и различия по возрастным группам. На основе собранных данных статистически проанализирована взаимосвязь между антропометрическими показателями детей (рост, вес, уровень физического развития) и потреблением молочных продуктов с применением критерия $\chi^2$.*

*Результаты исследования показали, что значительная часть детей нерегулярно употребляет молочные продукты, что повышает риск замедленного физического развития, дефицита кальция, недостаточного формирования костной*

*ткани, снижения иммунитета, проблем зубной эмали и дисбаланса витаминов и минералов. Также выявлено, что неправильные пищевые привычки связаны с семейной средой, экономическими возможностями и условиями школьных столовых. Исследование предлагает современные подходы к пропаганде здорового питания, включая методические пособия для школ, цифровые образовательные ресурсы и механизмы работы с родителями.*

*Статья способствует разработке научно-практических рекомендаций по формированию культуры здорового питания и повышению потребления молочных продуктов среди младших школьников с учётом условий Узбекистана.*

***Ключевые слова:*** *здоровое питание, молоко и молочные продукты, школьники, пищевые привычки, рацион детей, белок, кальций, витамины, культура питания, здоровый образ жизни.*

**Ulukhujayeva Nozima Narzullokhonovna**
Biology Teacher, Academic Lyceum
Namangan State Technical University

## THE IMPORTANCE OF DAIRY PRODUCTS IN FORMING HEALTHY EATING HABITS AMONG PRIMARY SCHOOL CHILDREN

***Abstract.*** *This article provides an in-depth analysis of the scientific and theoretical foundations of developing a culture of healthy eating among primary school children, with particular emphasis on the role of milk and dairy products in human development. The study examines Uzbekistan's recent policies aimed at promoting a healthy lifestyle, structural problems in children's nutrition, and health risks associated with micro- and macroelement deficiencies. The importance of dairy products as sources of protein, calcium, phosphorus, vitamin B2, and probiotics is substantiated based on international and local scientific literature.*

*The practical section presents the results of a survey conducted among 2nd–4th grade students in Namangan city and the Mingbulak and Yangiqorgon districts. The survey identified the frequency of dairy consumption, children's attitudes toward dairy products, family eating habits, and differences across age groups. Based on the collected data, the relationship between children's anthropometric indicators (height, weight, growth rate) and dairy consumption was statistically analyzed using the $\chi^2$ test.*

*The findings show that a large proportion of children do not consume dairy products regularly, which increases the risks of slowed physical development, calcium deficiency, incomplete bone tissue formation, weakened immunity, dental enamel problems, and vitamin–mineral imbalance. The study also reveals that unhealthy eating habits are associated with family environment, economic conditions, and the quality of school cafeteria services. Modern approaches to promoting healthy eating—such as methodological guides for schools, digital educational tools, and parent engagement mechanisms—are proposed.*

*This article contributes to the development of scientific and practical recommendations tailored to Uzbekistan for fostering healthy eating habits and increasing dairy consumption among primary school children.*

***Keywords:*** *healthy nutrition, milk and dairy products, schoolchildren, eating habits, children's diet, protein, calcium, vitamins, food culture, healthy lifestyle.*

### Kirish.

Sog‘lom avlodni voyaga yetkazish bugungi kunda nafaqat oilaning, balki jamiyat va davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bolalik davrida shakllanadigan ovqatlanish xatti-harakatlari butun hayot davomida jismoniy rivojlanish, intellektual salohiyat, immun tizimi barqarorligi hamda umumiy salomatlik ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibi, biologik qiymati va ular o‘rtasidagi muvozanat inson salomatligi, mehnat faolligi va umr davomiyligiga katta ta’sir qilishi ilmiy manbalarda qayd etilgan [1,2].

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda sog‘lom ovqatlanish masalasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Noto‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy harakatsizlik va zararli odatlar bilan bog‘liq yuqumsiz kasalliklar mamlakatda barcha o‘lim holatlarining qariyb 79 foizini tashkil etayotgani, ushbu yo‘nalishda izchil islohotlarni talab qilmoqda [3]. Shu maqsadda 2020-yil noyabr oyida Prezidentimiz tomonidan **“Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”** qaror imzolandi. Mazkur qarorda maktab o‘quvchilarining sog‘lom va xavfsiz ovqatlanish tizimini takomillashtirish, oshxonalarni sanitariya-gigiyena talablariga moslashtirish, ratsionni to‘g‘ri shakllantirish va bolalar sog‘lig‘ini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan [3].

Shuningdek, 2023-yilda **“To‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzi”** umumilliy harakati yo‘lga qo‘yilishi belgilandi. Unda aholiga sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha mobil ilovalar yaratish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, maktablarda ovqatlanish sifati monitoringini joriy etish kabi tashabbuslar o‘rin olgan. 2025-yil fevral oyida esa **“Sog‘lom inson – sog‘lom millat”** umumilliy harakati boshlangan bo‘lib, bunda bolalar va o‘smirlar salomatligi, xarid qilinadigan taomlar sifati hamda sport faolligiga alohida urg‘u berilgan [3].

Kichik maktab yoshidagi bolalar ovqatlanish masalasida eng sezgir guruhlardan biri hisoblanadi. Bu davrda metabolik jarayonlar yuqori bo‘lib, organizm oqsil, vitaminlar, kaltsiy, fosfor, probiotiklar kabi muhim moddalarni ko‘proq talab qiladi. Ilmiy adabiyotlarda noto‘g‘ri ovqatlanishning oqibatlari — semizlik, anemiya, suyak mineralizatsiyasining sustlashuvi, immunitetning pasayishi, shakar va tuzni ortiqcha iste’mol qilish oqibatidagi metabolik buzilishlar keng yoritilgan [5–7]. Ayniqsa, sut va sut mahsulotlari bu davrda ajralmas ozuqa bo‘lib, ularning tarkibidagi oqsilning 95% gacha o‘zlashtirilishi, kaltsiyning yuqori biologik qiymati, B va A vitaminlari hamda foydali bakteriyalar mavjudligi ularni bolalar salomatligi uchun muhim manbaga aylantiradi [9–10].

Biroq O‘zbekistondagi amaliy kuzatuvlarga ko‘ra, ko‘plab o‘quvchilar sut mahsulotlarini muntazam iste’mol qilmaydi, ayrimlari esa umuman yoqtirmaydi. Bu esa kalsiy tanqisligi, tish emali buzilishi, o‘sish sur’atining sekinlashuvi, vitamin yetishmovchiligi, probiotik disbalansi kabi muammolarni yuzaga keltirishi mumkin [11–14]. Ota-onalarning yetarli e’tibor bermasligi, iqtisodiy omillar, bolalarning didi va noto‘g‘ri ovqatlanish stereotiplari bu jarayonni yanada kuchaytiradi.

Shu sababli ushbu tadqiqotda Namangan shahri, Mingbuloq va Yangiqo‘rg‘on tumanlaridagi 2–4-sinf o‘quvchilari o‘rtasida sut mahsulotlariga munosabat, iste’mol chastotasi va antropometrik ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar sut iste’molining bolalar rivojlanishiga ta’sirini aniqlash, mavjud muammolarni yoritish va sog‘lom ovqatlanishni targ‘ib qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar sharhi:**

Oziq-ovqat va to‘g‘ri ovqatlanish inson salomatligini belgilovchi asosiy ekologik omillardan biri bo‘lib, uning sifati jismoniy rivojlanish, immunitet barqarorligi, psixologik holat va umr davomiyligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [1]. WHO ma’lumotlariga ko‘ra, bolalik davri ovqatlanish odatlari butun umr davomida sog‘liq uchun asosiy determinanta hisoblanadi. Shu bois bolalarda sog‘lom ovqatlanish madaniyati erta yoshdan shakllanishi zarur [1].

Ares va hamkorlari (2023) bolalar va o‘smirlar ovqatlanish savodxonligining shakllanish mexanizmlarini o‘rganib, oziq-ovqat tanlashdagi psixologik, ijtimoiy va madaniy omillar sog‘lom ovqatlanishning asosiy belgilovchilari ekanini qayd etgan. Ular ta’kidlaganidek, erta yoshda noto‘g‘ri ovqatlanish xatti-harakatlari mustahkamlanib borsa, keyinchalik semizlik, diabet, yurak-qon tomir kasalliklari kabi xastaliklar rivojlanish ehtimoli ortadi [2].

O‘zbekiston sharoitida sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha Xodjaliyeva X.A. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bolalar ovqatlanish tartibining buzilishi, me’yoridan ortiq shakar iste’moli, parhezga rioya qilinmasligi va o‘quvchilar ratsionida sut mahsulotlari ulushining pastligi jiddiy muammo sifatida qayd etilgan. Bu holat sog‘liq uchun xavf tug‘dirishi, maktabda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini pasaytirishi alohida ta’kidlangan [3].

Zamonaviy ilmiy manbalarda ratsional ovqatlanish bo‘yicha nazariy yondashuvlar keng yoritilgan. Callahan, Leonard va Powell (2022) organizmga zarur makro va mikroelementlar nisbatining buzilishi metabolik, fiziologik va endokrin muammolarga olib kelishini ilmiy asoslab bergan [4]. Netrébenko (2007) esa bolalarda o‘sish davrida oqsil, yog‘, mineral moddalar va vitaminlarga bo‘lgan ehtiyojning yuqori darajada ekanini, ular yetishmovchiligi esa o‘sish sustligi, suyaklarda rivojlanish kechikishi, immunitet pasayishi va temperament o‘zgarishiga sabab bo‘lishini ko‘rsatgan [5].

Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar ratsioni bo‘yicha Inoyatova va hamkorlari (2020) olib borgan tadqiqotlar bolalarning odatiy ovqatlanish tizimida muvozanatsizlik mavjudligini, ularning ovqatlarida shirinlik va unli mahsulotlarning ulushi yuqori, sut, sabzavot va mevalarning ulushi past ekanini aniqlagan [6].

7–9 yoshdagi bolalarning odatiy ratsioni bo‘yicha Bondarenko (2022) o‘tkazgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning aksariyati kundalik ovqatlanishda oqsil, kaltsiy va vitaminlar etishmovchiligi bilan duch keladi. Bu esa sut mahsulotlarini iste’mol qilish darajasi pastligi bilan izohlanadi [7]. Xuddi shunday, Lundina va Yakovleva (2015) tomonidan ko‘rsatib o‘tilganidek, sut mahsulotlari bolalar organizmida eng oson o‘zlashtiriladigan oqsil, kaltsiy va aminokislotalar manbai bo‘lib, ularning yetishmasligi suyaklarning mineral zichligining pasayishiga olib keladi [8].

Gurov (2021) kichik maktab yoshidagi bolalar ovqatlanishida sut va sut mahsulotlarining ulushi 24% atrofida bo‘lishi kerakligini, chunki ular organizmning o‘sish va energiya ehtiyojlarini qondirishda muhim o‘rin tutishini ta’kidlagan [9]. Azbuka metodik qo‘llanmasida (2021) esa maktabda ovqatlanish gigiyenasi, menyu balansliligi va bolalarda sog‘lom taomga ijobiy munosabat shakllantirishning pedagogik yondashuvlari ko‘rsatib o‘tilgan [10].

UNICEF ma’lumotlarida O‘zbekiston bolalari orasida mikroelement yetishmovchiligi, xususan, temir, A vitamini va kaltsiy yetishmasligi keng tarqalganligi, bu esa o‘sish sustligi, charchoq, immunitetning pasayishi va o‘qish jarayonidagi qiyinchiliklarga sabab bo‘lishi qayd etilgan [11]. Gazeta.uz monitoringlari esa maktab oshxonalaridagi gigiyena holati, ovqatlanish sifati, menyulardagi nuqsonlar haqida real faktlarni yoritadi [12].

JHPN (2025) ma’lumotlariga ko‘ra, sut iste’moli past bo‘lgan bolalarda o‘sish ko‘rsatkichlarining sustligi, tish emali o‘zgarishi, suyak mineralizatsiyasining yetarli bo‘lmasligi kuzatiladi [13]. Journal of Dairy Science (2025) esa sut

mahsulotlarining yuqori biologik qiymati, undagi oqsilning 95% gacha o‘zlashtirilishi, kaltsiyning maksimal foydali shaklda bo‘lishi va probiotiklar immunitetni mustahkamlashini ilmiy jihatdan isbotlagan [14].

Y. Borta va N. Denisova tomonidan berilgan ma’lumotlarda sut mahsulotlaridan butunlay voz kechish oqsil, B vitaminlari, kalsiy va magniyning yetishmovchiligiga olib kelishi, bu esa suyak zaiflashuvi, charchoq, diqqat susayishi va ichak mikroflorasi buzilishiga sabab bo‘lishi qayd etilgan [15]. Kun.uz manbalarida esa sut mahsulotlaridan voz kechmaslikning yetti asosiy sababi ilmiy dalillar bilan ko‘rsatib berilgan bo‘lib, ular bolalarning sog‘lom rivojlanishi uchun juda muhimdir [16].

Shunday qilib, tahlil qilingan adabiyotlar kichik maktab yoshidagi bolalarda sut mahsulotlari iste’molining salomatlik uchun o‘ta muhimligini, ularning yetishmovchiligi esa jiddiy fiziologik va metabolik buzilishlarga olib kelishini yaqqol ko‘rsatmoqda.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning kundalik ratsioni ilmiy manbalarda aniq nisbatlarda belgilab berilgan bo‘lib, ularning sog‘lom rivojlanishi uchun oziq moddalar balansining to‘g‘ri tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. O‘quvchi ratsionining 100 foizi tarkiban quyidagicha bo‘lishi tavsiya etiladi: 14% — donli mahsulotlar, 25% — sabzavotlar, 23% — mevalar, 14% — go‘sht va baliq mahsulotlari hamda **24% — sut va sut mahsulotlari**. Mazkur ko‘rsatkichlar sut mahsulotlarining bolalar ovqatlanishidagi o‘ta zarur o‘rnini yaqqol namoyon etadi [10].




Sut va sut mahsulotlari maktab o‘quvchisi ratsionining eng muhim tarkibiy qismidir. Chunki ular immun tizim faoliyatiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Inson organizmidagi immun hujayralar asosan oqsillardan tashkil topgani sababli, viruslar va bakteriyalar ta’siriga qarshi yetarli himoya shakllanishi uchun organizm sifatli va to‘liq o‘zlashtiriladigan oqsillarga muhtoj bo‘ladi. Sut va sut mahsulotlaridagi oqsil shu nuqtai nazardan eng to‘liq mahsulotlardan biri hisoblanadi — ularning **95% gacha o‘zlashtirilishi** va barcha zarur aminokislotalarni o‘z ichiga olishi ilmiy manbalarda tasdiqlangan [9–10].

Bundan tashqari, sut mahsulotlari tarkibida organizm tomonidan oson hazm bo‘ladigan kaltsiy, fosfor, aminokislotalar, mikroelementlar hamda ovqat hazm qilish tizimi uchun muhim bo‘lgan foydali bakteriyalar mavjud bo‘lib, ular bolalarning jismoniy rivojlanishi va suyak to‘qimasining mustahkamlanishida muhim rol o‘ynaydi [9–10]. O‘sish jarayonida sut mahsulotlari ayniqsa zarur bo‘lib, 6 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar organizmi har kuni bir kilogrammdan ortiq kaltsiyni talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, atigi **200 ml tabiiy sut iste’mol qilish orqali** bola kunlik ehtiyojining muhim qismini — **kaltsiyning va vitamin B2 ning 40% ini**, **A vitaminining 24% ini**, shuningdek **yog‘lar va oqsillarning 16% ini** qabul qilishi mumkin [10].

**Eksperement va olingan natijalar tahlili.**

Hozirgi kunda sut va sut mahsulotlariga bo‘lgan munosabat va talabni o‘rganish maqsadida 2,3 va 4- sinf o‘quvchilaridan anketa so‘rovnoma o‘tkazildi. Namangan shahridagi maktablardan 194 nafar o‘quvchi, Mingbuloq tumanidan 203 nafar o‘quvchi, Yangiqo‘rg‘on tumanidan 232 nafar o‘quvchilar so‘rovnomada qatnashdilar. So‘rovnoma natijalari 1- jadvalda berilgan.

**1-jadval**

**Sut va sut mahsulotlariga bo‘lgan munosabat va talabni o‘rganish bo‘yicha so‘rovnoma natijalari**

| Hudud | Qabul qilish chastotasi | 1-guruh (11-yosh) | | 2-guruh (10-yosh) | | 3-guruh (9-yosh) | | Jami | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 256 | | 211 | | 162 | | 629 | |
| Namangan shahri (48,58,13,-maktablar) | Deyarli har kun | 20 | 28,0% | 17 | 28,0% | 14 | 22,0% | 51 | 26,3% |
| | Haftada 1-2 marta | 28 | 40,0% | 22 | 36,0% | 27 | 43,0% | 77 | 39,7% |
| | Yoqtirmayman | 22 | 32,0% | 22 | 36,0% | 22 | 35,0% | 66 | 34,0% |
| Mingbuloq tumani (31-32-maktablar) | Deyarli har kun | 29 | 27,0% | 16 | 33,0% | 13 | 27,0% | 58 | 28,6% |
| | Haftada 1-2 marta | 38 | 36,0% | 14 | 29,0% | 17 | 35,0% | 69 | 34,0% |
| | Yoqtirmayman | 39 | 37,0% | 18 | 38,0% | 19 | 38,0% | 76 | 37,4% |
| Yangiqo‘rg‘on tumani (33-44-maktablar) | Deyarli har kun | 26 | 32,5% | 31 | 30,5% | 14 | 28,0% | 71 | 30,6% |
| | Haftada 1-2 marta | 26 | 32,5% | 35 | 34,0% | 16 | 32,0% | 77 | 33,2% |
| | Yoqtirmayman | 28 | 35,0% | 36 | 35,5% | 20 | 40,0% | 84 | 36,2% |

Sut va sut mahsulotlarini iste’mol qilish kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning antropometrik ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir qilishini ko‘rishimiz mumkin. Bu ko‘rsatkichlar 2- jadvalda berilgan.

**2-jadval**

**Sut va sut mahsulotlarini iste’mol qiladigan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning antropometrik ko‘rsatkichlari**

| Hudud | Antropometrik ko'rsatkichlar | 1-guruh (11-yosh) | | 2-guruh (10-yosh) | | 3-guruh (9-yosh) | | Jami | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 256 | | 211 | | 162 | | 629 | |
| Namangan shahri (48,58,13,-maktablar) | Yuqori | 3 | 1,7% | 2 | 1,1% | 0 | 0,0% | 5 | 2,8% |
| | O‘rta | 58 | 32,2% | 50 | 27,8% | 32 | 17,8% | 140 | 77,8% |
| | Past | 14 | 7,8% | 12 | 6,7% | 9 | 5,0% | 35 | 19,4% |
| Mingbuloq tumani (31-32- maktablar) | Yuqori | 5 | 2,3% | 2 | 0,9% | 4 | 1,8% | 11 | 5,0% |
| | O‘rta | 60 | 27,0% | 42 | 18,9% | 25 | 11,3% | 127 | 57,2% |
| | Past | 27 | 12,2% | 27 | 12,2% | 30 | 13,5% | 84 | 37,8% |
| Yangiqo‘rg‘on tumani (33-44-maktablar) | Yuqori | 15 | 6,6% | 16 | 7,0% | 6 | 2,6% | 37 | 16,3% |
| | O‘rta | 25 | 11,0% | 19 | 8,4% | 17 | 7,5% | 61 | 26,9% |
| | Past | 49 | 21,6% | 41 | 18,1% | 39 | 17,2% | 129 | 56,8% |

Ma'lumotlarning statistik tahlili keng ko‘lamli ko‘rsatkichlar yordamida amalga oshirildi. Ma'lumotlarning chastota taqsimotini taqqoslash uchun Pirsonning $\chi 2$ testi qo‘llanildi. Farqlar $\varrho < 0.05$ darajasida yuqori bo‘lishligi taxlil qilindi. Taxlil natijalariga asosan quyidagilarga ega bo‘ldik.

**Tadqiqot natijalari va muhokamasi:**

1-guruhdagi 75 (29,3%) nafar va 2-guruhdagi 76 (30,3%) nafar bolalar haftasiga har kuni sut va sut mahsulotlarini iste’mol qilishi; 1-guruhdagi 92 (35,9%) nafar va 2-guruhdagi 71 (33,6%) nafar bolalar haftasiga 1-2 marta sut va sut mahsulotlarini iste’mol qilishi; 1-guruhdagi 89 (34,8%) nafar va 2-guruhdagi 76 (39,0%) nafar bolalar sut va sut mahsulotlarini iste’mol qilish ovqatlanish ratsioniga kiritilmagan. 1 va 2-guruhlar o'rtasida ($\chi 2 = 2,711$; $p = 0,258$) chunki, $p > 0.05$ ekanligidan 11 yosh va 10 yosh o‘rtasida sezilarli farq yo‘qligini ko‘rsatadi.

1-guruhdagi 75 (29,3%) nafar va 3-guruhdagi 41 (25,3%) nafar bolalar haftasiga har kuni sut va sut mahsulotlarini iste’mol qilishi; 1-guruhdagi 92 (35,9%) nafar va 3-guruhdagi 60 (37,0) nafar bolalar haftasiga 1-2 marta sut va sut mahsulotlarini iste’mol qilishi; 1-guruhdagi 89 (34,8%) nafar va 3-guruhdagi 61 (37,7%) nafar bolalar sut va sut

mahsulotlarini iste'mol qilish ovqatlanish ratsioniga kiritilmagan. 1 va 3-guruhlar o'rtasida ($\chi 2 = 7{,}141$; $p = 0{,}028$) $p < 0.05$ ekanligidan 11 yoshdagilar bilan 9 yoshdagilar orasida sut va sut mahsulotlarining iste'moli darajalari sezilarli farq qiladi.

Buning natijasida 2-jadvalga muvofiq 11 yoshdagilar bilan 9 yoshdagilarning ovqatlanish ratsioniga bog'liq ravishda ularning antropometrik ko'rsatkichlarida ham farqlar borligini ko'rishimiz qiyin emas.

**Xulosa.**

O'tkazilgan tadqiqotlar kichik maktab yoshidagi bolalar orasida sut va sut mahsulotlarini iste'mol qilish darajasi yetarli emasligini, bolalarning sezilarli qismi ushbu mahsulotlarga nisbatan befarq yoki umuman yoqtirmasligini ko'rsatdi. So'rovnomalardan olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning taxminan uchdan bir qismi sut mahsulotlarini muntazam iste'mol qiladi, qolgan qismi esa haftasiga atigi 1–2 marta yoki umuman iste'mol qilmaydi. Bu esa oqsil, kaltsiy, fosfor, B vitamini kabi o'sish uchun zarur moddalarning yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin.

Statistik tahlillar sut mahsulotlarini kam iste'mol qiladigan bolalarda past antropometrik ko'rsatkichlar ustunligini ko'rsatdi, ayniqsa 11 yosh va 9 yoshli o'quvchilar o'rtasidagi farqlar $\chi^2$ testi orqali isbotlandi ($p < 0.05$). Bu esa yosh organizmning sut mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji yuqoriligini va ularni yetarli qabul qilmaslik jismoniy rivojlanishda orqada qolishga olib kelishini tasdiqlaydi.

Sut va sut mahsulotlarining yetishmovchiligi oqibatida kalsiy tanqisligi, suyak tizimi zaiflashuvi, tish emali buzilishi, immunitetning pasayishi, ichak mikroflorasining buzilishi, vitamin D, B2, A yetishmovchiligi kabi salbiy holatlar vujudga kelishi ehtimoli yuqori ekanligi adabiyotlarda qayd etilgan [14–15]. Sut mahsulotlaridan voz kechish depressiya xavfi, temir tanqisligi, anemiya, mushaklarning sust rivoji, o'sish sekinlashuvi kabi xavflarni kuchaytirishi ham ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan [11–14].

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, sog'lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirishda faqat maktab tizimi emas, balki oilaning roli ham katta. Ota-onalar tomonidan bolalarning ovqatlanish jarayonini nazorat qilish, ularga namunaviy sog'lom ovqatlanish muhitini yaratish, uy sharoitida sut mahsulotlaridan muntazam foydalanish orqali bolalar ongida sog'lom ovqatlanish tamoyillarini mustahkamlash mumkin. Maktab oshxonalarida gigiyena talablari, menyu tarkibining biologik qiymatga egaligi va ratsion balansining ta'minlanishi ham muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston sharoitida sog'lom ovqatlanishni keng targ'ib qilish, aholining ovqatlanish savodxonligini oshirish, maktablarda ta'limiy targ'ibot tadbirlarini kuchaytirish, bolalar uchun maxsus ovqatlanish qo'llanmalari yaratish, raqamli vositalardan foydalanish (mobil ilovalar, onlayn kuzatuv dasturlari) sog'lom avlod tarbiyasida katta samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, sut va sut mahsulotlari o'sayotgan organizm uchun eng muhim oziq moddalardan biridir. Ularni yetarli miqdorda iste'mol qilish bolalarning jismoniy rivojlanishi, immuniteti va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlaydi. Shu bois sog'lom ovqatlanish tamoyillariga rioya qilish nafaqat shaxsiy salomatlik, balki sog'lom millat va sog'lom jamiyatni shakllantirish uchun ham zaruriy shart hisoblanadi [16].

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. World Health Organization. Nutrition. Copenhagen, Denmark. 2018. Available online: **https://www.who.int/news-room/facts-in-pictures/detail /nutrition** (accessed on 24 September 2023).

2. Ares, G.; De Rosso, S.; Mueller, C.; Philippe, K.; Pickard, A.; Nicklaus, S.; van Kleef, E.; Varela, P. Development of food literacy in children and adolescents: Implications for the design of strategies to promote healthier and more sustainable diets. *Nutr. Rev.* **2023**. [**Google Scholar**] [**CrossRef**] [**PubMed**]

3. Sog'lom ovqatlanishtartibi va tavsiyalari. Xodjaliyeva .X. A.
Tadqiqotlar jahon ilmiy –metodik jurnali https://scientific-jl.com57-son_1-to'plam_Mart-2025 333ISSN:3030-3613

4. Callahan, A.; Leonard, H.; Powell, T. Nutrition: Science and Everyday Application. V.2. Open Education Resource. 2022. Available online: https://openoregon.pressbooks.pub/nutritionscience2e/ (accessed on 24 September 2023).

5. Питание детей раннего возраста. Нетребенко О.К. Педиатрия. Журнал им. Г. Н. Сперанского, 2007. с. 73-80

6. Питание детей дошкольного возраста. Иноятова Х.Б., Нуриддинов Ш.Ф., Мамадиярова М.А., Рахматова Д.Г. Academy, 2020. с. 4-7

7. Анализ привычного рациона питания детей 7-9 лет. Бондаренко А.А., Маханькова Е.А. FORCIPE, 2022

8. Рациональное питание детей раннего возраста. Лундина Г.В., Яковлева Т.В., Вятский медицинский вестник №2, 2015. с. 70-73

9. *Здоровое питание младших школьников.* Текст научной статьи по специальности «*Прочие технологии*» Гуров Виктор Александрович. https://cyberleninka.ru/article/n/zdorovoe-pitanie-mladshih-shkolnikov/

10. Азбука здорового питания школьника: инструктивно-методическое пособие/ сост. Т.И. Жилина, Е.И. Прынь; под общей редакцией Т.И. Жилиной. – Краснодар: ГБОУ.ИРО Краснодарского края. 2021

11. UNICEF–https://data.unicef.org/sdgs/country/uzb

12. Gazeta.uz–https://www.gazeta.uz/uz/2024/07/30/screening

13. JHPN-https://jhpn.biomedcentral.com/articles/10.1186/s41043-025-00974-4

14. Journal of Dairy Science – https://www.journalofdairyscience.org /article/S0022-0302(25)00159-6/fulltext

15. Юлия Борта. Наталья Денисова. Радость в бутылке. https://aif-ru.cdn.ampproject.org/v/s/aif.ru/amp/health/food/radost-v-butylke-dietolog-denisova-obyasnila-chem-opasen-otkaz-ot-moloka

16. https://kun.uz Foydali sutdan voz kechmaslik uchun 7 sabab.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Mirzayeva Odinoxon Kaxramon qizi**
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti
**Gafurova O‘g‘iljon Shavkatovna**
Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali dotsenti

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZIL KITOBIGA KIRITILGAN BIR URUG‘PALLALI ENDEMIK O‘SIMLIKLAR

***Annotasiya***. *Ushbu maqolada O‘zbekiston hududida uchraydigan va O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan bir urug‘pallali (Monocotyledonae) endemik o‘simliklarning oilalar kesimida taksonomik tarkibi, tarqalish hududlari hamda ularning hozirgi holati tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” (2019) ga 48 ta oila, 314 ta o‘simlik turi kiritilgan, 32 ta oila vakillaridan 262 ta turi yoki 83,44 % endemik turlar ekanligi, qolgan 16 ta oila vakillarida Qizil kitobga kiritilgan ammo endemik turlari mavjud emasligi aniqlandi. Bundan tashqari yuqorida tilga olingan endemik turlarning 19,1 % bir urug‘pallali endemik o‘simliklarga to‘g‘ri kelishi aniqlandi.*

***Kalit so‘zlar.*** *Endemik o‘simliklar, bir urug‘pallalilar, O‘zbekiston florasi, Qizil kitob, taksonomiya va boshqalar.*

**Mirzayeva Odinoxon Kakhramon qizi**
Master’s Student, Guliston State Pedagogical Institute
**Gafurova O‘g‘iljon Shavkatovna**
Associate Professor, Yangiyer Branch of the Tashkent Institute of Chemical Technology

## PLANTS INCLUDED IN THE RED BOOK OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: MONOCOTYLEDONOUS ENDEMIC SPECIES

***Abstract.*** *This article analyzes the taxonomic composition by families, distribution areas, and current conservation status of endemic monocotyledonous (Monocotyledonae) plant species occurring in the territory of Uzbekistan and included in the Red Data Book of the Republic of Uzbekistan. The results show that the Red Data Book of the Republic of Uzbekistan (2019) includes 48 families comprising 314 plant species. Of these, 262 species belonging to 32 families, or 83.44%, are endemic, while representatives of the remaining 16 families are included in the Red Data Book but do not contain endemic species. In addition, it was determined that 19.1% of the above-mentioned endemic species belong to monocotyledonous endemic plants.*

***Keywords****: endemic plants, monocotyledons, flora of Uzbekistan, Red Data Book, taxonomy, etc.*

**Мирзаева Одинохон Кахрамон Кизи**
Магистрант Гулистанского государственного педагогического института
**Гафурова Угилжон Шавкатовна**
Доцент Янгиюльского филиала Ташкентского химико-технологического института

## ОДНОДОЛЬНЫЕ ЭНДЕМИЧНЫЕ РАСТЕНИЯ, ВКЛЮЧЕННЫЕ В КРАСНУЮ КНИГУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

***Аннотация.*** *В данной статье проанализированы таксономический состав по семействам, ареалы распространения и современное состояние эндемичных однодольных (Monocotyledonae) растений, встречающихся на территории Узбекистана и занесённых в Красную книгу Республики Узбекистан. Результаты исследования показали, что в Красную книгу Республики Узбекистан (2019) включены 48 семейств, объединяющих 314 видов растений. Из них 262 вида, относящиеся к 32 семействам, или 83,44 %, являются эндемичными, тогда как представители оставшихся 16 семейств включены в Красную книгу, но эндемичных видов не содержат. Кроме того, установлено, что 19,1 % вышеуказанных эндемичных видов приходится на однодольные эндемичные растения.*

***Ключевые слова:*** *эндемичные растения, однодольные, флора Узбекистана, Красная книга, таксономия и др.*

## Kirish

O‘zbekiston florasi yuqori darajada boy va o‘ziga xos bo‘lib, unda ko‘plab endemik turlar uchraydi. Respublikada endemizm, ayniqsa bir urug‘pallali o‘simliklar (Monocotyledonae) orasida keng tarqalgan bo‘lib, ular asosan quruq tog‘ tizmalari, tog‘ yon bag‘irlari va cho‘l-landshaft hududlariga moslashgan. Mazkur tadqiqotning maqsadi — O‘zbekiston hududida uchraydigan bir urug‘pallali endemik va ayni paytda Qizil kitobga kiritilgan o‘simliklarning taksonomik tarkibini aniqlash, tarqalish xususiyatlarni tahlil qilish.

**Materiallar va uslublar:** Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”i ma’lumotlari, “Flora Uzbekistana” seriyasi ilmiy maqolalar asosida tahlil ishlari olib borildi. Endemik turlarni oila bo‘yicha guruhlash, har bir oilaning endemism darajasini aniqlash (tur soni), tog‘ tizimlari va floristik rayonlar bo‘yicha taqsimlanishni aniqlash, statistik taqqoslash uslublari qo‘llanildi.

## Adabiyotlar tahlili

Endemik turlarni har tomonlama o‘rganish, hudud florasi va o‘simliklar qoplamini shakllanishiga doir evolyutsion bosqichlarga aniqlik kiritishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘simlik resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. O‘zbekiston florasini balki turli sifatga egaligi haqida ham tasavvurga ega bo‘lish imkoniyatini beradi. [7]

Tor endemik o'simlik turlarining tarqalishini tahlil qilish asosiy ekologik naqshlarni ochib berishi va tabiatni muhofaza qilish sa'y-harakatlarini boshqarish uchun muhim tushunchalar berishi mumkin. Ushbu tadqiqot Hindistondagi Uttarakhandning endemik angiospermlarining fitoetimologik tahlil va turlarning xilma-xilligi va tabiatni muhofaza qilish holatini baholash bilan birga keng qamrovli adabiyotlarni ko'rib chiqish natijasida olingan yangilangan inventarizatsiyasini taqdim etadi. Tadqiqot natijalari Kumaon va Garhvalda 45 ta endemik taksonni va ikkala mintaqada ham 11 ta turni, Uttarakhandda 71 ta avlodda jami 101 ta endemik turni aniqladi. [5]

Iqlim inqirozi va bioxilma-xillikning yo‘qolishi turlarning, ayniqsa tarqalish diapazoni cheklangan endemik turlarning omon qolishiga jiddiy ta'sir ko‘rsatadigan ikkita o‘zaro bog‘liq global muammodir. Haroratning o‘zgarishi, yog‘ingarchilik rejimi va dengiz sathining ko‘tarilishi, ayniqsa Indoneziya kabi yirik bioxilma-xillik mintaqalarida tabiiy yashash joylarining degradatsiyasini tezlashtirdi. Anoa, jannat qushi va turli xil amfibiya turlari kabi endemik turlar endi yashash joylarining parchalanishi, o‘rmonlarning kesilishi va iqlim ofatlari tufayli tobora murakkab ekologik bosimga duch kelmoqda. Ushbu tadqiqotda ekologik, iqlim va ekologik huquqiy nuqtai nazarlarni birlashtirgan tavsifiy-tahliliy sifat yondashuvi qo‘llaniladi. [4]

Endemizm o'simliklarning ekologik sharoitlari va jarayonlaridagi murakkab tuzilish, vaqt va fazoviy nuqtai nazardan o'zgarishi natijasida paydo bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, Turkiya dunyodagi o'zgaruvchan ekologik sharoitlarga ega eng muhim davlatlardan biri bo'lib, taxminan 12000 ta o'simlik taksoni va 3/1 endemik ko'rsatkichga ega. Endemik o'simliklarning bu boyligini aniqroq aniqlash, baholash, monitoring qilish va saqlash faqat mavjud endemik o'simliklarning tarqalishi va ularning xususiyatlari ma'lum bo'lgan taqdirdagina mumkin. [8]

Bioxilma-xillikning asosiy naqshlarini hujjatlashtirish va ustuvor hududlarni aniq belgilash tabiatni muhofaza qilish bo'yicha tadqiqotlarning dastlabki bosqichlari hisoblanadi. Yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan turlar va IUCN (Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi) Qizil ro‘yxatlari muhofaza qilinadigan hududlarni aniqlash uchun keng qo'llaniladigan vositalar qatoriga kiradi. Turkiya dunyodagi eng muhim biologik xilma-xillik markazlaridan biridir. [9]

Gretsiya yuqori o‘simliklar xilma-xilligi (5800 tur) va endemizm (15,6%) bilan ajralib turadi. Ushbu tadqiqot yunon endemik o'simliklarining taksonomiyasi, tarqalishi, xususiyatlari va saqlanish holatini birinchi marta umumiy baholashga harakat qiladi. Endemik turlar 56 oila va 242 turkumga tegishli. Endemik turlar barcha balandliklarda uchraydi, ammo balandlik bo'yicha taqsimot orol mintaqalarida 0–600 m balandlikda va kontinental mintaqalarda yuqori zonalarda mahalliy endemiklarning ustunligini ko‘rsatadi. [ 6]

## Asosiy qism

O‘zbekiston florasi Markaziy Osiyoda biologik xilma-xilligi yuqori bo‘lgan hududlardan biri bo‘lib, respublika florasida 4500 dan ortiq yuksak o‘simlik turlari mavjud. Shulardan 500 ga yaqin turi endemik turlar hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobining 2019-yilgi nashriga ko‘ra, 262 ta endemik tur qayd etilgan bo‘lib, shundan bir urug‘pallali endemik turlar soni 50 ta yoki 19,1 % ni tashkil etadi.

*1-jadval*

**O‘zbekiston florasida uchraydigan endemik o‘simliklarning tahlili**

| T/r | Turlar soni | Endemiklik darajasi, % |
|---|---|---|
| 1 | Respublika florasi, 4500 ta | 85 % |
| 2 | Endemik turlar, 500 ta | 9 % |
| 3 | Qizil kitobga kiritilgan endemiklar, 262 ta | 6 % |
| 4 | Qizil kitobga kiritilgan bir urug'pallali endemiklar, 50 ta | 1 % |

**1-diagramma. O‘zbekiston florasida uchraydigan endemik o‘simliklarning tahlili**

**Loladoshlar oilasi –** bir urug‘pallali o‘simliklar bo‘lib, piyozchali va tugunakli ko‘p yillik o‘tlar. O‘zbekiston




Respublikasi “Qizil kitobi”ga 21 ta turi kiritilgan bo‘lib, shundan 16 ta turi yoki 76,2 % endemikdir. Ulardan 4 ta turi yo‘qolish arafasida turgan (Maqomi-1) turlar, 2 ta turi kamyob (Maqomi-2) turlar, 10 ta turi son jihatdan kamayib borayotgan (Maqomi-3) turlar kategoriyalaridan o‘rin olgan. Urug‘idan va piyozi orqali ko‘payadi. Loladoshlar oilasi G‘arbiy Tyan-Shanning barcha tizmalari; G‘arbiy Pomir-Oloyning Zarafshon, Turkiston, Hisor tizmalarida tarqalgan. Oila vakillari: Lyudmila boychechagi, Xolmon isirg‘aguli, Korolkov lolasi, Oq lola, Qizil lola (Greyg lolasi), Foster lolasi, O‘zbekiston lolasi va boshqalar.

**Savrinjondoshlar oilasi –** bir urug‘pallali o‘simlik bo‘lib, O‘zbekistonda 2 ta turkumga mansub 3 ta turi o‘sadi. Hayotiy shakli ko‘p yillik tugunak piyozli o‘t. Manzaraligi jihatdan alohida o'rinda turadi. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” ga 1 ta endemik turi (Kesselring savrinjoni) kiritilgan. Kesselring savrinjoni son jihatdan kamayib borayotgan (Maqomi-3) endemik o‘simlik. Asosan Toshkent, Samarqand, Navoiy va Jizzax viloyatlarida G‘arbiy Tyan-Shan (Qurama, Chotqol tizmasi), Pomir-Oloy (Nurota, Qo‘g‘itang, Turkiston, Zarafshon, Hisor ) tizmalarida tarqalgan.

**1-rasm. Kesselring sarvinjoni**

**2-rasm. Qizil lola (Greyg lolasi)**

**Chuchmomadoshlar oilasi –** bir urug‘pallali o‘simlik bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga 17 ta tur kiritilgan, shundan 15 ta turi yoki 88,23 % endemikdir. Ulardan 1ta turi kamyob turlar (Maqomi-2), 11 ta turi yo‘qolish arafasida turgan (Maqomi-1) va 1 ta turi esa son jihatdan kamayib borayotgan turlar (Maqomi-3) kategoriyalaridan o‘rin olgan. Oila vakillari ko‘p yillik o‘t o‘simlikdan iborat. Urug‘idan va vegetative yo‘l bilan ko‘payadi. Tyan-Shan (Piskom, Ugom, Chotqol va Qurama) va Pomir-Oloy (Zarafshon, Qo‘g‘itang va Hisor) tizmalarida tarqalgan. Asosiy oila vakillar: Aralash piyoz, Aflotun piyozi, Piskom piyozi, Oloy piyozi, Bochansev piyozi, Bakxauz piyozi, Katta piyoz, Yirik piyoz, Isoqul piyozi, Pushti gulli piyoz, Raven piyozi, Manzarali piyozi, Sahro piyozi (cho‘l piyozi), Yashil gulli piyoz va Biktor omonqorasi.

*2-jadval*

**Bir urug‘pallali endemik turlarning oila kesimida tahlili**

| T/r | Oila nomi | Jami turlar soni | Qizil kitobga kiritilgan turlar | Qizil kitobdagi endemik turlar | Ulushi (%) |
|---|---|---|---|---|---|
| **1** | Loladoshlar | 200 | 21 | 16 | 76,2 % |
| **2** | Chuchmomadoshlar | 80-90 | 17 | 15 | 88,23 % |
| **3** | Shirachdoshlar | 21 | 12 | 9 | 70 % |
| **4** | Bug‘doydoshlar | 270 | 3 | 2 | 66,67 % |
| **5** | Gulsafsardoshlar | 30 | 7 | 5 | 71,42 % |
| **6** | Giasintdoshlar | 30 | 1 | 1 | 100 % |
| **7** | Tuyatovondoshlar | 14 | 1 | 1 | 100 % |
| **8** | Savrinjondoshlar | 3 | 1 | 1 | 100 % |

**Bug‘doydoshlar oilasi –** bir urug‘pallali o‘simliklar bo‘lib, O‘zbekistonda 491 turkumga oid 270 ta turi mavjud. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga 3ta turi kiritilgan bo‘lib, shundan 2 ta turi yoki 66,67 % endemikdir. Bug‘doydoshlarning ikkala turi ham kamyob (Maqomi-2) turlar kategoriyasidan o‘rin olgan. Hayotiy shakli bir yillik, ikki yillik va ko‘p yillik o‘tlardan tashkil topgan. Markaziy Qizilqumning qoldiq tog‘lari (Qoraqalpog‘iston, Navoiy, Buxoro viloyatlari); Shimoli-g‘arbiy Tyan-Shan va Navoiy viloyati: Nurota tog‘ining g‘arbiy qismi, Qoratog‘ va Oqtog‘ tizmalarida tarqalgan. Oila vakillari: Oqtog‘ chalovi va Qoratog‘ chalovi.

**Shirachdoshlar oilasi -** bir urug‘pallali o‘simlik bo‘lib, Yer yuzida 50 turkumga oid 1400 turni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda florasida 21 turi bor. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga 12 ta tur kiritilgan bo‘lib, shundan 9 ta turi yoki 70 % endemikdir. Ulardan 2 ta turi kamyob (Maqomi-2) turlar, 3 ta turi son jihatdan kamayib borayotgan (Maqomi-3) turlar, 3 ta turi yo‘qolish arafasida turgan (Maqomi-1) turlar, 1 ta turi esa yo‘qolgan yoki yo‘qolgan bo‘lishi mumkin (Maqomi-0) kategoriyasidan o‘rin olgan. Hayotiy shakli ko‘p yillik o‘t. Urug‘idan ba’zan vegetativ yo‘l bilan ko‘payadi. G‘arbiy Tyan-Shanning Qurama, Ugom, Piskom, Chotqol (Toshkent viloyati), Nurota (Navoiy va Jizzah viloyati) tizmalari va Janubi-g‘arbiy Pomir-Oloyning Hisor (Surxondaryo viloyati) Turkiston (Jizzah, Samarqand), Qo‘g‘itang (Surxondaryo viloyati) tizmalarida tarqalgan. Asosiy oila vakillar: Beshtomir shirach, Boysun shirachi, Korovin shirachi, Momiq shirach, Nor shirach (xulka bola), Nurota shirachi, Oqgulli shirach, Suvorov shirachi, Yashil gulli shirach.

**Gulsafsardoshlar oilasi –** bir urug‘pallali o‘simliklar bo‘lib, O‘zbekistonda 30 dan ziyod turi mavjud. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga 7 ta turi kiritilgan bo‘lib, shundan 5 ta turi yoki 71,42 % endemikdir. Ulardan 1 ta turi son jihatdan kamayib borayotgan (Maqomi-3) turlar, 2 ta turi kamyob (Maqomi-2) turlar, 2 ta turi yo‘qolish arafasida turgan (Maqomi-1) turlar kategoriyalaridan o‘rin olgan. Bu oila vakillari ko‘p yillik ildizpoyali, piyozboshli yoki tugunaksimon ildizli o‘simliklardir. Urug‘idan yoki tugunak piyozlaridan ko‘payadi. G‘arbiy Tyan-Shanning Qurama, Chotqol, Qorjontov, Piskom tizmalari (Toshkent viloyati); G‘arbiy Pomir-Olayning Zarafshon va Hisor (Qashqadaryo viloyati) tizmalari; Janubiy Pomir-Olayning Qo‘g‘itang (Surxondaryo viloyati) tizmalarida tarqalgan. Oila vakillari: Orxideyanamo gulsafsar, Ippolit gulsafsari, Svetlana Gulsafsari, Viktor Gulsafsari, Antiqa gulsafsar.

**3-rasm. Orxideyanamo gulsafsar**

**4-rasm. Nor shirach (xulka bola)**

**Tuyatovondoshlar oilasi –** bir urug‘pallali o‘simliklar bo‘lib, Yer yuzida 22 turkumga kiruvchi 220 dan ortiq turdan tashkil topgan. O‘zbekistonda 2 turkumga mansub 14 ta turi o‘sadi. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga 1 ta endemik turi (Buxoro tuyatovoni) kiritilgan bo‘lib yo‘qolish arafasida turgan (Maqomi-1) turlar kategoriyasidan o‘rin olgan. Oila vakillari ko‘p yillik o‘t va butalar hisoblanadi. Buxoro tuyatovoni Janubiy Pomir-Oloyning (Surxondaryo viloyati) Qo‘g‘itang tizmasida tarqalgan.

**Giasintdoshlar oilasi –** bir urug‘pallali o‘simliklar bo‘lib, O‘zbekistonda 30 dan ortiq turi mavjud. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga 1 ta endemik turi (Turkiston dipkadiysi) kiritilgan bo‘lib, yo‘qolgan yoki yo‘qolgan bo‘lishi mumkin (Maqomi-0) kategoriyasidan o‘rin olgan. Hayotiy shakli ko‘p yillik o‘t. Turkiston dipkadiysi Surxondaryo viloyati: Sherobod vodiysidagi Xoldak qoldiq tog‘ida uchraydi.

**Xulosa**

O‘zbekiston Respublikasi hududida bir urug‘pallali endemik o‘simliklar xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Tadqiqot davomida Qizil kitobga kiritilgan bir urug‘pallali endemik o‘simliklarning oilalar kesimida tarqalishi tahlil qilinib, ularning asosiy qismi tog‘ mintaqalarida — Ugom–Chotqol, Hisor, Zarafshon, Nurota va Qo‘g‘itang tog‘ tizimlarida to‘plangani aniqlandi. Endemik turlar soni bo‘yicha chuchmomadoshlar, loladoshlar va gulsafsardoshlar oilalari yetakchi o‘rinni egallaydi. Qizil kitobga kiritilgan bir urug‘pallali endemik o‘simliklarning katta qismi antropogen omillar — yerlarning o‘zlashtirilishi, yaylovlarning degradatsiyasi, noqonuniy yig‘ib olish hamda iqlim o‘zgarishi ta’siri ostida yo‘qolib ketish xavfi bilan yuzma-yuz kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, olingan natijalar Qizil kitobga kiritilgan bir urug‘pallali endemik o‘simliklarning oilalar kesimida tarqalishini o‘rganish O‘zbekiston florasining taksonomik tarkibini chuqurroq anglash biologik xilma-xillikni muhofaza qilish strategiyalarini ishlab chiqish, tabiiy areallarini saqlab qolish va populyatsiyalar holatini muntazam monitoring qilish hamda qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar tarmog‘ini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Qizil kitobi” 1-jild Toshkent – 2019
2. O‘zbekiston Respublikasining “Qizil kitobi” 1-jild Toshkent – 2016
3. Сенников А. Н. Флора Узбекистана том 2 Издательство 《Навруз》 Ташкент 2017.
4. Aditya, Henu Sistha. “Climate Crisis and Biodiversity: A Study on the Loss of Habitat and Endemic Species.” *KnE Social Sciences*, vol. 10, no. 26, 29 Oct. 2025, pp. 358–363, https://doi.org/10.18502/kss.v10i26.20013. Accessed 2 Nov. 2025.
5. Balkrishna, A., et al. “Endemic Plants of Uttarakhand (India): Their Distribution, Phytoetymological Assessment and Conservation.” *Ceylon Journal of Science*, vol. 54, no. 4, 13 Nov. 2025, pp. 1279–1302, https://doi.org/10.4038/cjs.v54i4.8648. Accessed 12 Dec. 2025.
6. GEORGHIOU, KYRIACOS, and PINELOPI DELIPETROU. “Patterns and Traits of the Endemic Plants of Greece.” *Botanical Journal of the Linnean Society*, vol. 162, no. 2, 27 Jan. 2010, pp. 130–153, https://doi.org/10.1111/j.1095-8339.2010.01025.x.
7. Numatov Ro'zimuhammad Tojimurodovich, Janniyeva Sevinch Elmurod qizi, Bekbutayeva Sevinch Hatam qizi. “SURXONDARYO HUDUDIDAGI ENDEMIK TURLAR.” *Zenodo (CERN European Organization for Nuclear Research)*, 5 June 2025, https://doi.org/10.5281/zenodo.15598420. Accessed 5 Dec. 2025.

8. Şenkul, Çetin, and Seda Kaya. "TÜRKİYE ENDEMİK BİTKİLERİNİN COĞRAFİ DAĞILIŞLARI." *Türk Coğrafya Dergisi*, 15 Dec. 2017, https://doi.org/10.17211/tcd.322515. Accessed 7 Oct. 2021.

9. Türe, Cengiz, and Harun Böcük. "Distribution Patterns of Threatened Endemic Plants in Turkey: A Quantitative Approach for Conservation." *Journal for Nature Conservation*, vol. 18, no. 4, Dec. 2010, pp. 296–303, https://doi.org/10.1016/j.jnc.2010.01.002.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Tolibova Shahlo Erkin qizi**
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

## MARKAZIY O‘ZBEKISTONNING TERI LEYSHMANIOZI O’CHOQLARIDA LEYSHMANIOZ BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA BIR QATOR BIR QATOR BIOKIMYOVIY KO’RSATKICHLARNING O’ZGARISHI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada Markaziy O‘zbekiston hududlarida joylashgan teri leyshmaniozi o‘choqlarida yashovchi va ushbu kasallik bilan kasallangan bemorlarda bir qator asosiy biokimyoviy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi o‘rganildi. Tadqiqot davomida qonda mikroelementlar (temir, rux, mis, kalsiy), yallig‘lanish bilan bog‘liq mediatorlar hamda umumiy biokimyoviy ko‘rsatkichlarning (umumiy oqsil, albumin, glyukoza va boshqalar) holati baholandi. Olingan natijalar teri leyshmaniozida metabolik va immunobiokimyoviy jarayonlarning buzilishi mavjudligini ko‘rsatib, kasallik patogenezini chuqurroq tushunish va laborator diagnostikani takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.*

***Kalit so‘zlar:*** *teri leyshmaniozi, Markaziy O‘zbekiston, biokimyoviy ko‘rsatkichlar, mikroelementlar, yallig‘lanish.*

**Толибова Шахло Эркин кизи**
Самаркандский государственный медицинский университет

## ИЗМЕНЕНИЯ НЕКОТОРЫХ БИОХИМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ У ПАЦИЕНТОВ С ЛЕЙШМАНИОЗОМ В КОЖНЫХ ОСТРОВАХ ЛЕЙШМАНИОЗА ЦЕНТРАЛЬНОГО УЗБЕКИСТАНА

***Аннотация:*** *В данной статье изучаются изменения ряда ключевых биохимических параметров у пациентов, проживающих в очагах кожного лейшманиоза в регионах Центрального Узбекистана и страдающих этим заболеванием. В ходе исследования оценивалось состояние микроэлементов (железо, цинк, медь, кальций), медиаторов, связанных с воспалением, и общих биохимических параметров (общий белок, альбумин, глюкоза и др.) в крови. Полученные результаты указывают на наличие метаболических и иммунобиохимических процессов при кожном лейшманиозе, что важно для более глубокого понимания патогенеза заболевания и совершенствования лабораторной диагностики.*

***Ключевые слова:*** *кожный лейшманиоз, Центральный Узбекистан, биохимические параметры, микроэлементы, воспаление.*

**Tolibova Shahlo Erkin qizi**
Samarkand State Medical University

## CHANGES OF SOME BIOCHEMICAL INDICATORS IN PATIENTS WITH LEISHMANIOSIS IN THE CUTANEOUS LEISHMANIOSIS FOCUSES OF CENTRAL UZBEKISTAN

***Abstract:*** *This article studies the changes in a number of key biochemical parameters in patients living in foci of cutaneous leishmaniasis in the regions of Central Uzbekistan and suffering from this disease. During the study, the state of microelements (iron, zinc, copper, calcium), mediators associated with inflammation, and general biochemical parameters (total protein, albumin, glucose, etc.) in the blood were assessed. The results obtained indicate the presence of metabolic and immunobiochemical processes in cutaneous leishmaniasis, which is important for a deeper understanding of the pathogenesis of the disease and improving laboratory diagnostics.*

***Keywords:*** *cutaneous leishmaniasis, Central Uzbekistan, biochemical parameters, microelements, inflammation.*

**Kirish:** Teri leyshmaniozi — Leyshmania turkumiga mansub parazitlar chaqiradigan, asosan teri va teri osti to‘qimalarini zararlovchi transmissiv parazitar kasallik bo‘lib, u qum pashshalari (Phlebotomus) orqali yuqadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, leyshmanioz dunyoning ko‘plab tropik va subtropik hududlarida keng tarqalgan bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklar qatoriga kiradi.

Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston hududi teri leyshmaniozi uchun endemik mintaqa hisoblanadi. Ayniqsa Markaziy O‘zbekiston hududlarida tabiiy va antropurgik o‘choqlarning mavjudligi kasallikning barqaror saqlanib

qolishiga sabab bo‘lmoqda. Iqlim sharoiti, kemiruvchilar populyatsiyasi va vektorlarning ko‘pligi kasallik tarqalishida muhim epidemiologik omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda teri leyshmaniozining nafaqat klinik kechishi, balki uning patogenezida yuzaga keladigan metabolik va biokimyoviy o‘zgarishlarga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, mikroelementlar almashinuvi (temir, rux, mis, kalsiy) hamda oqsil metabolizmining buzilishi immun javobning susayishi va yallig‘lanish jarayonlarining kuchayishida muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, temir va rux tanqisligi hujayraviy immunitetning pasayishiga olib kelar ekan, mis darajasining oshishi yallig‘lanish jarayonining faollashuvi bilan bog‘liq. Kalsiy almashinuvining buzilishi esa hujayra signal uzatish jarayonlari va to‘qimalar regeneratsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, Markaziy O‘zbekiston hududlarida teri leyshmaniozi bilan kasallangan bemorlarda ushbu biokimyoviy ko‘rsatkichlarning kompleks o‘rganilishi yetarli darajada yoritilmagan.

Shu bois, ushbu tadqiqotning maqsadi Markaziy O‘zbekistonning teri leyshmaniozi o‘choqlarida leyshmanioz bilan kasallangan bemorlarda bir qator muhim biokimyoviy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishini aniqlash va ularning kasallik patogenezidagi ahamiyatini baholashdan iborat.

**Material va metodlar:** Tadqiqot obyekti Tadqiqot Markaziy O‘zbekistonning teri leyshmaniozi endemik hisoblangan hududlarida o‘tkazildi. Tadqiqot guruhiga klinik va laborator tekshiruvlar asosida teri leyshmaniozi tashxisi qo‘yilgan bemorlar kiritildi. Nazorat guruhi sifatida ushbu hududlarda yashovchi, sog‘lom va leyshmanioz bilan kasallanmagan shaxslar tanlab olindi.

**Metod va uslublar:**Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi:

- Klinik metodlar – bemorlarning umumiy ahvoli, teridagi leyshmaniozga xos klinik belgilari (yaralar soni, joylashuvi, davomiyligi) baholandi.
- Laborator-diagnostik metodlar – teri leyshmaniozi tashxisi mikroskopik usulda (yaradan olingan surtmalarda Leyshman–Donovan tanachalarini aniqlash) va klinik-laborator belgilar asosida tasdiqlandi.
- Biokimyoviy metodlar – qon zardobida mikroelementlar (temir, rux, mis, kalsiy) hamda umumiy biokimyoviy ko‘rsatkichlar aniqlanib, metabolik holat baholandi.
- Spektrofotometrik usullar – temir, mis va rux miqdorini aniqlashda rangli reaksiyalarga asoslangan spektrofotometrik metodlardan foydalanildi.
- Atom-absorbsion usul – ayrim mikroelementlarning yuqori aniqlikdagi konsentratsiyasini baholash uchun qo‘llanildi.
- Fermentativ usullar – glyukoza, umumiy oqsil va albumin miqdorini aniqlashda standart fermentativ reagent to‘plamlaridan foydalanildi.

**Natijalar:** Tadqiqot natijalariga ko‘ra, teri leyshmaniozi bilan kasallangan bemorlar va sog‘lom nazorat guruhi o‘rtasida qator biokimyoviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ishonchli farqlar aniqlandi.

Qon zardobida temir miqdori bemorlarda nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada past bo‘lib, o‘rtacha qiymatlar mos ravishda



Quydagicha darajada qayd etildi (**P<0,01; ***P<0,001; n=5).

Aksincha, mis (Cu) miqdori teri leyshmaniozi bilan kasallangan bemorlarda oshganligi kuzatildi. Biz tekshirib o'tgan 120 ta bemorning qon tahlillari biokimyoviy usullar yordamida tekshirilganda qon tarkibidagi misning o'zgarishi yosh kesmida ham yaqol sezilgan.




Bu yerda (*P<0,05; **P<0,01; n=5).

Olingan natijalar teri leyshmaniozida mikroelementlar almashinuvi va oqsil metabolizmining buzilishi mavjudligini ko'rsatadi.

**Xulosa:** Tadqiqot olib borilgan hududlardan teri leyshmaniozi bilan kasallangan bemorlardan yig'ilgan qon namunalari asosida mikroelementlarning konsentratsiyasi nazorat guruhi bilan taqqoslab o'rganilgan. Natijalarga ko'ra, kasallangan Temir (Fe) konsentratsiyasi nazoratdagi 9,04± 2,62 mmol/l ga nisbatan bemorlarda 6,18 ± 1,07 ni tashkil etib, deyarli 1,5 baravar past ekanligi qayd etilgan. (p<0,001). Shuningdek, kalsiy (Ca) miqdori sog'lomlarda 2,36 ± 0,18 mmol/L bo'lgan bo'lsa, bemorlarda 1,87 ± 0,36mmol/L gacha pasaygani kuzatilgan (p<0,001). Ammo teri leyshmaniozi bilan kasallangan bemorlar qon tarkibida mis (Cu) konsentratsiyasi aksincha, yuqori bo'lib, nazorat guruhida o'rtacha 18,93 ± 4,01 μmol/L bo'lgan ko'rsatkich bemorlarda 28,04 ± 6,8 μmol/L ga yetib, 1,5 baravar oshishi aniqlangan (p<0,001).

Yuqoridagi biokimyoviy ko'rsatkichlar teri leyshmaniozi patogenezida mikroelementlar muvozanatining buzilishi – rux, temir va kalsiy tanqisligi hamda misning ortishi kasallikning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu ko'rsatkichlarni tahlil qilish bemorlarni erta tashxislash, kasallik og'irligini baholash va kompleks davolashda qo'shimcha diagnostik mezon sifatida katta ahamiyat kab etishi aniqlangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Tolibova. Sh. E , Sattarova X.G., molecular-genetic analysis of the causes of terminal cutaneous leishmaniosis in the samarkand district of samarkand region. XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI. 2025-5/1. – p. 91-94.

2. Tolibova. Sh. E. Use of microscopic examination methods in the diagnosis of cutaneous leishmaniasis.Samarkand . - №4, 2025, - c. 443-448

3. Саттарова Х.Г., Tolibova. Sh. E. «◎Methods for molecular genetic analysis of cutaneous leishmaniasis pathogens Kokand DPI. Scientific reports № 4, 2025. – Б. 421-427

4. Tolibova. Sh. E. Sattarova X.G., Evaluation of quantitative changes in microelements in the blood of patients with cutaneous leishmaniasis Samarkand. - №4, 2025, - c. 443-448

5. Tolibova. Sh. E. Sattarova X.G., Molecular genetic analysis of causative agents of cutaneous leishmaniasis in the Urgut district of Samarkand region Kokand DPI. Scientific reports № 2, 2025. – Б. 51-55

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Quvatov Asqar Qoraqulovich**
Alfraganus universiteti
Atrof muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Sherbo'tayeva Muborak To'yli qizi**
Toshkent davlat agrar universiteti
E-mail: asqarquvatovxabb@mail.ru
Korporativ pochta: a.quvatov@afu.uz

## AMUDARYONING QUYI OQIMI VA OROLBO'YI TABIIY SUV HAVZALARIDA TARQALGAN BALIQ TURLARINING HOLATI BO'YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

***Annotatsiya****: Maqolada oxirgi 90-100 yillar davomida Amudaryo daryosining quyi oqimi, uning deltasi va Orol dengizida olib borilgan faunistik va baliqchilikni rivojlantirish sohasidagi ilmiy izlanishlarning adabiyot manbalari tahlili keltirilgan. Bunda, 23 ta adabiyotlar tahlil qilingan bo'lib, ulardan 10 tasi material va metodikasi uchun tahlil qilingan bo'lsa, 13 tasi esa baliqlarning bio-ekologik, morfologik va xo'jalikdagi ahamiyatlari tahlili keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Amudaryo deltasi, quyi oqimi, Orol dengizi, adabiyotlar tahlili.*

**Аскар Каракулович Куватов**
Университет Альфрагануса
Научно-исследовательский институт охраны окружающей среды и природы Технологии
**Муборак Тойли кизи Шербутаева**
Ташкентский государственный аграрный университет

## АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ О СОСТОЯНИИ ВИДОВ РЫБ, РАСПРОСТРАНЯЕМЫХ В НИЖНЕМ ТЕЧЕНИИ АМУ-ДАРЬИ И ПРИРОДНЫХ ВОДНЫХ БАССЕЙНАХ АРАЛЯНСКОГО МОРЯ

***Аннотация:*** *В статье представлен анализ литературных источников научных исследований в области фауны и рыбного хозяйства, проведенных в нижнем течении реки Амударья, ее дельте и Аральском море за последние 90–100 лет. В связи с этим проанализировано 23 публикация, из которых 10 посвящены материально-методическому анализу, а 13 – анализу биоэкологического, морфологического и хозяйственного значения рыб.*

***Ключевые слова:*** *дельта Амударьи, низовья, Аральское море, обзор литературы.*

**Asqar Qaraqulovich Kuvatov**
Alfraganus University Research Institute of Environmental and Nature Protection Technologies
**Muborak Toyli qizi Sherbutayeva**
Tashkent State Agrarian University

## LITERATURE ANALYSIS ON THE STATUS OF FISH SPECIES DISTRIBUTED IN THE LOWER COURSE OF THE AMU DARYA AND NATURAL WATER BASINS OF THE ARAL SEA

***Abstract:*** *This article presents a literature review of scientific research on fauna and fisheries conducted in the lower reaches of the Amu Darya River, its delta, and the Aral Sea over the past 90–100 years. Twenty-three publications were analyzed, 10 of which focused on material and methodological analysis, and 13 on the bioecological, morphological, and economic significance of fish.*

***Keywords:*** *Amu Darya delta, lower reaches, Aral Sea, literature review.*

**Kirish**: Baliqlar suv yekotizimlari va biologik xilma-xillikning muhim tarkibiy qismi bo'lib, oqilona foydalanishni talab qiluvchi muhofaza qilinadigan tabiiy resurs hisoblanadi. Baliq resurslari holatining jumladan, endemik va relikt

turlarning tabiiy yashash holatining yomonlashuvi va ayrim turlarning yo‘q bo‘lib ketishining asosiy sabablaridan biri ular tarqalgan muhit ekologik inqirozlar ostida qolishi hamda antropogen manfaatlar ta’sirida va iqtisodiy ishlab chiqaruvchilarning texnik munosabatlari natijasidandir. Bunday holatlar esa o‘z navbatida suv ekotizimlarining barqarorligini yomonlashtiradi va biologik xilma-xillikning zaiflashishiga olib keladi.

Respublika ixtiofaunasi juda qadimiy bo‘lib, uning shaklanishida O‘rta Osiyoda jumladan Respublikamiz hududidan oqib o‘tuvchi uchta yirik Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolarining suv havzalari katta rol o‘ynaydi. Misol uchun qadimda Amudaryo va Sirdaryo daryolari Orol dengizi bilan, Orol dengizi esa Kaspiy dengizi bilan, o‘z navbatida Kaspiy dengizi Rossiyadan (Yevropa) oqib keluvchi yirik daryolar (Ural, Volga) va Old Osiyodan (Eron) oqib keluvchi (Sefid-Rud) hamda Abxaziyadan (Shimoliy-G‘arbiy Rossiya) Terek kabi yirik daryolar bilan bevosita bog‘langan bo‘lgan. Qolaversa, qadimda Ponto suv havzasi tarkibidagi (Azov va Qora dengizlari, Kuban, Don, Dnepr, Dnestr, Dunay) yirik dengiz va daryolar bilan o‘zaro suv ekotizimi hisoblangan. Shu boisdan, Amudaryo daryosida mavjud baliq turlari qadimiy va dengiz baliq turlariga xos turlar ham uchraydi. Bulardan tashqari hududda shu joyga (Amudaryo daryosi suv havzalariga) xos (avtoxton) (O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi II qismi, 2019) turlarining ahamiyati kattadir. Bugungi kunda ekologik muvozanatning buzilishi jumladan Orol dengizining qurishi avvalombor, Yevropa daryolari bilan hamda Respublika ichidagi daryolar (Sirdaryo daryosi) bilan suv ekotizimlarining uzilishiga bu esa baliq turlarining alohidalashishiga olib keldi.

**Tadqiqot materiallari va usullari**: Ilmiy materiallar sifatida Amudaryoning quyi oqimida va Orolbo‘yi tabiiy suv havzalarida tarqalgan baliq turlari hisoblanadi (rasm).




**1-rasm. Amudaryo daryosi quyi oqimi va uni deltasining Geo axborot tizimi xaritasi. (Xaritada Orolbo‘yi tabiiy suv havzalari ham tasvirlangan).**

Ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish ma’lum bir sistemaga va oldindan ishlab chiqilgan rejaga asosan olib boriladi. Ilmiy tadqiqotdan ko‘zlangan maqsadga erishish aniq bir tadqiqot olib borish uslubiga tayangan xolda va unga asosan amalga oshiriladi.

Ixtiofauna bo‘yicha dala materiallarini yig‘ish xizmat safari davomida amalga oshiriladi. Materiallar ixtiologiyada umumiy qabul qilingan usullar bo‘yicha yig‘iladi va qayta ishlanadi (Pravdin, 1966). Ovlanish ahamiyatiga ega baliq turlarining holati, dinamikasini tahlil qilish va baholashda G.V. Nikolskiy (1974), baliq ovlash miqdorini aniqlashda P.V. Tyurin (1963) usulidan foydalaniladi.

Ixtiologik materiallar kataklari turli-xil o‘lchamdagi ipak tolali va sun’iy tolali to‘rlardan hamda tutgich sachoklardan foydalaniladi.

Baliqlarning turlar tarkibi L.S. Berg (1948, 1949), K.F. Kessler (1872, 1874, 1877), I.M. Mirabdullayev va boshq. (2011) lardan foydalangan holda aniqlanadi.

Statistik ma'lumotlarni qayta ishlash P.F. Rokiskiy bo'yicha amalga oshiriladi. Materialga statistik ishlov berishda belgilarning o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi (M), uning xatoligi (m), o'rtacha kvadratik cheklanish (◎) va variatsiya koyeffisiyenti (Cv%) hisoblab chiqiladi. Belgilar o'rtasidagi farqlarni aniqlash G.F. Lakin (1990) bo'yicha Styudentning (t) kriteriyasi asosida amalga oshiriladi.

Olinadigan natijalar va ularning tahlili: Rus tadqiqotchisi L.S. Berg birinchilardan bo'lib Orol dengizidagi biologik izlanishlarida baliqchilik sistematikasini boshlab bergan olim hisoblanadi (G.V. Nikolskiy, 1961). Nikolskiy ta'kidlashicha Oral dengizidagi iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan baliq turlarining baliqchilikdagi o'rnini tahlil etib balki ularning oovogenez va spermotogenez jarayonlarini ham tadqiq qilish zaruriyatini ilgari suradi. Bulardan tashqari A.L. Beningomning gidrobiologik ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etadi. Bunda Orol dengizining baliqchilikdagi ahamiyati uchun cho'l zonalaridagi suv havzalarining alohida o'rni borligini keltiradi (G.V. Nikolskiy, 1961).

Azov baliqchilik xo'jaligi ilmiy-tadqiqotlari insituti olimi O.D. Romanыcheva Orol dengizidagi ov ahamiyatiga ega bo'lgan baliq turlarining holati, ularning ov ulushidagi o'rni va miqdori to'g'risida ko'plab ma'lumotlar keltirib o'tgan. Bunda, tadqiqotlar davomida uchratilgan 20 ta baliq turidan, 12 tasi iqitisodiy ahamiyatga ega bo'lgan baliq turlari ekanligi qayd etiladi. Ulardan asosan, karplar oilasiga kiruvchi turlar – leщ, sazan, vobla, shemaya, chexon va usach uabi turlar keltirilgan bo'lib, Orol dengizining Shimoliy qismidagi ov ulushining 32,8 %i leщ balig'iga to'g'ri kelishi keltiriladi. Keyingi o'rinlarda sazan va vobla (17,8-18,1%) asosiy ov massasini tashkil qilganligi ko'rsatib o'tiladi (Romanыcheva, 1961).

Bulardan tashqari ovlanish ahamiyatiga ega bo'lgan baliq turlarining biologik xususiyatlari bo'yicha ham bir qator izlanishlar amalga oshirilgan. Bularga misol qilib, O.N. Ivanova (Ivanova, 1961) Orol dengizidagi sazan balig'ining biologik xususiyatlarini, Ye.L. Markova Orol mo'ylovdorining biologik holatlari ustida ilmiy tadqiqotlar olib brogan (Markova, 1961). N.S. Babayev Orol dengizidagi Orol oqqayrog'i balig'ining ov ulushining miqdorlari va ularning sonini cheklovchi omillar to'g'risida izlanishlar olib brogan (Babayev, 1981). L.N. Guseva va I.M. Joldasevalar Amudaryo daryosi deltasi suv havzalari sharoitida ilonbosh baliqning ko'payuvchanlik xususiyatlari va jinsiy yetilishi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan (Guseva va Joldaseva, 1981). Unda keltirilishicha ilonbosh baliqlari namunalari Amudaryo daryosi deltasining Dautko'l va Togistor ko'llarida hamda KC-1 va KC-3 kollektorlarida kuzatilgan.

A.B. Baymuratov Amudaryo daryosi deltasidagi sazan balig'ining yoshga qarab o'zgaradigan asosiy oraliq belgilari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan (Baymuratov, 1981). M.S. Sultanmuratov tomonidan Amudaryoning quyi oqimi ko'llarida baliq mahsuldorliklarini o'rganish ishlari olib borilgan. Bunda, Amudaryoning quyi oqimi suv havzalarida sazan balig'ining ulushi katta ekanligi, 4 yshli sazan individlarining og'irligi Dautko'l ko'lida 1300 grammni, Xo'djako'lda esa 1100 grammni, Sharqiy Karaterenda 970 grammni tashqil etishi keltirib o'tiladi (Sultanmuratov, 1983).

R. Tilovovning (1981) ma'lumotlarida Quyi Amudaryo va uning deltasida hamda Orol dengizida 34 ta baliq turi uchrashi qayd etilgan bo'lsa, B. Xaqberdiyevning (1983) ma'lumotlarida esa Amudaryo daryosining o'rta va quyi oqimlarida 44 ta tur va kenja turlarning uchrashi qayd etilgan (Tilovov, 1981; Xaqberdiyev, 1983).

Xulosa: Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, olib borilgan ilmiy izlanishlarning asosiy qismi Orol dengizi hissasiga to'g'ri keladi, qolaversa, ayrim faunistik izlanishlar Amudaryo deltasida olib borilgan. Bugungi kunda yesa Orolbo'yi tabiiy suv havzalarida tarqalgan (mavjud bo'lgan) baliq turlarining holati noma'lumligicha qolmoqda. Shulardan kelib chiqib, Amudaryoning quyi oqimi va uning deltasidagi tabiiy suv havzalaridagi baliq turlarining bio-ekologik va sistematik holati, ularning iqtisodiy ahamiyati, ulardan rasional va oqilona foydalanish kabi dolzarb muommolar fan oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Баймуратов А.Б. Особенности возрастных изменений интерьерных дельты р.Амударьи // Биологические основы рыбного хозяйства водоемов средней Азии и Казахстана. Тезисы докладов XVII научной конференции. – Фрунзе, 1981. – СС. 421-422.
2. Бабаев Н.С. Факторы, лимитирующие численность и величину промысловых уловов жереха в Аральском море // Биологические основы рыбного хозяйства водоемов средней Азии и Казахстана. Тезисы докладов XVII научной конференции. – Фрунзе, 1981. – 235 с.
3. Берг Л.С. Рыбы пресных вод СССР и сопредельных стран. Изд. АН СССР, Часть 1. – Москва: Ленинград, 1948. – 466 с.
4. Берг Л.С. Рыбы пресных вод СССР и сопредельных стран. Часть-2. – Москва, 1949. – СС. 470-925.
5. Берг Л.С. Рыбы пресных вод СССР и сопредельных стран. Часть-3. – Москва, 1949. СС. 930-1381.

6. Гусева Л.Н., Жолдасова И.М. Половое созревание и плодовитость змееголова в условиях водоемов дельты Амударьи // Биологические основы рыбного хозяйства водоемов средней Азии и Казахстана. Материалы XVIII научной конференции. – Ташкент, 1983. – 180 с.

7. Иванова О.Н. Биологичекская характеристика Аральского сазана // Сборник робот по ихтиологии и гидробиологии, Выпуск 3. – Алма-ата, 1961. – СС. 171-183.

8. Кесслер К.Ф. Известия императорскаго общества любителей естествозгагия, антропологии и этнографии. Том X, выпуск 1-й. – Москва, 1872. – 168 с.

9. Кесслер К.Ф. Путешествие А.П.Федченко в Туркестане // Рыбы. Изв. Об-ва любит. естествозн. антропологии и этнографии Т. 2. Вып. 3. – Москва: Санкт-Петербург, 1874 – 63 с.

10. Кесслер К.Ф. Рыбы, водящиеся и встречающиеся в Арало-Каспийско-Понтической ихтиологической области. – Москва: Санкт-Петербург, 1877. – 360 с.

11. Лакин Г.Ф. Биометрия. Учебное пособие для биол. спец. вузов. 4-е изд. – Москва, 1990. – 352 с.

12. Маркова Е.Л. Материалы к биологии Аральского ходового усача *Barbus brachycephalus* K. // Сборник робот по ихтиологии и гидробиологии, Выпуск 3. – Алма-ата, 1961. – СС. 154-169.

13. Мирабдуллаев И.М., Мирзаев У.Т., Кузметов А.Р., Кимсанов З.О. Ўзбекистон ва қўшни ҳудудлар балиқлари аниқлагичи. Ўқув қўлланма. Сано стандарт, – Тошкент, 2011. – 108 б.

14. Николский Г.В. О некоторых вопросах дальнейших рыбохозяйственных исследование на Арале // Сборник робот по ихтиологии и гидробиологии, Выпуск 3. – Алма-ата, 1961. – СС. 45-51.

15. Никольский Г.В. Экология рыб. – М.: Высшая школа, 1974. – 366 с.

16. Правдин И.Ф. Руководство по изучению рыб. 4-е изд. – М.: Пищевая промышленность. 1966. – 376 с.

17. Романычева О.Д. Сезонная динамика видового состава уловов рыб Аральского моря в 1950-1954 годах // Сборник робот по ихтиологии и гидробиологии, Выпуск 3. – Алма-ата, 1961. – СС. 106-111.

18. Рокицкий П.Ф. Биологическая статистика. Высшая школа, – Минск. 1967. – 328 с.

19. Султанмуратов М.С. Рыбопродуктивность озер низовьев Амударьи // Биологические основы рыбного хозяйства водоемов средней Азии и Казахстана. Материалы XVIII научной конференции. – Ташкент, 1983. – СС. 233-234.

20. Тюрин П.В. Биологическое обоснование регулирования рыболовства на внутренних водоемах. – М.: Пищевая промышленность, 1963.

21. Тиловов Р. Новый режим Арала и его влияние ихтиофауну. – Ташкент, 1981. – 15 с.

22. Ўзбекистон Республикаси Қизил китоби ИИ-жилди. "Чинор ЭНК" нашриёти. – Тошкент, 2019. – ББ. 106-125.

23. Хакбердиев Б. Рыбы водоемов Хорезмской области. – Ташкент, 1983. – 112 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Jabborova Tozagul Xujamurodovna**
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
tozaguldzabbarova@gmail.com

## HISORAK SUV OMBORIDA MOLLYUSKALAR TURLAR TARKIBI VA POPULYATSIYALARINING GIDROEKOLOGIK HOLATI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Qashqadaryo havzasidagi Hisorak suv ombori ekotizimida ikki pallali mollyuskalar (Bivalvia) faunasi, ularning turlar xilma-xilligi, ekologik guruhlarga mansubligi, morfologik xususiyatlari va tarqalish qonuniyatlari chuqur o'rganilgan. Tadqiqot ishlari 2014–2023 yillar davomida suv omborining turli biotoplarida — qirg'oqbo'yi, sayoz suv, suv o'tli va chuqur qatlamli hududlarda bahor, yoz, kuz fasllarida olib borilgan. Natijada 7 tur ikki pallali mollyuska aniqlanib, ular orasida peloreofil, reofil va krenofil ekologik guruhlarga mansub turlar mavjudligi qayd etildi. Shuningdek, mollyuskalar tarqalishida baliqlarning, ayniqsa, oq do'ngpeshona balig'ining gloxidiyalarni tashuvchi sifatidagi ekologik roli aniqlangan. Tadqiqot natijalari Hisorak suv omborida mollyuskalar bioxilma-xilligini saqlash, populyatsiya dinamikasini kuzatish hamda suv ekotizimlarida ekologik muvozanatni ta'minlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar:*** *Hisorak suv ombori, ikki pallali mollyuskalar, bioxilma-xillik, ekotizim, Sinanodonta, Corbicula, Colletopterum, ekologik guruhlar, Qashqadaryo havzasi, oq do'ngpeshona balig'i.*

**Джабборова Тозагуль Хужамуродовна**
Университет экономики и педагогики
Доктор философии (PhD) в области биологических наук, доцент и др

## ГИДРОЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ВИДОВОГО СОСТАВА МОЛЛЮСКОВ И ИХ ПОПУЛЯЦИЙ В ХИСОРАКСКОМ ВОДОХРАНИЛИЩЕ

***Аннотация.*** *В данной статье всесторонне исследована фауна двустворчатых моллюсков (Bivalvia) в экосистеме Хисоракского водохранилища бассейна Кашкадарьи, их видовое разнообразие, принадлежность к экологическим группам, морфологические особенности и закономерности распространения. Исследования проводились в 2014–2023 гг. в различных биотопах водохранилища — прибрежных, мелководных, заросших водной растительностью и глубоководных участках — в весенний, летний и осенний периоды. В результате было выявлено 7 видов двустворчатых моллюсков, среди которых отмечены представители пелореофильных, реофильных и кренофильных экологических групп. Установлена также экологическая роль рыб, в частности белого толстолобика, как переносчиков глохидий в процессе расселения моллюсков. Полученные результаты имеют важное научное и практическое значение для сохранения биоразнообразия моллюсков Хисоракского водохранилища, мониторинга динамики их популяций и обеспечения экологического равновесия в водных экосистемах.*

***Ключевые слова:*** *Хисоракское водохранилище, двустворчатые моллюски, биоразнообразие, экосистема, Sinanodonta, Corbicula, Colletopterum, экологические группы, бассейн Кашкадарьи, белый толстолобик.*

**Jabborova Tozagul Khuzhamurodovna**
University of Economics and Pedagogy
Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences, Associate Professor, etc

## HYDROECOLOGICAL STATUS OF THE SPECIES COMPOSITION OF MOLLUSKS AND THEIR POPULATIONS IN THE HISORAK RESERVOIR

***Abstract.*** *This article presents a comprehensive study of the bivalve mollusk (Bivalvia) fauna in the ecosystem of the Hisorak Reservoir, located within the Qashqadaryo Basin. The research investigates species diversity, ecological group affiliation, morphological characteristics, and distribution patterns of bivalves. Field studies were conducted between 2014 and 2023 across various biotopes of the reservoir, including coastal zones, shallow waters, macrophyte-covered areas, and deep-water regions, during*

*the spring, summer, and autumn seasons. As a result, seven species of bivalve mollusks were identified, representing peloreophilous, rheophilous, and crenophilous ecological groups. Moreover, the study revealed the important ecological role of fish, particularly the white bighead carp, in the dispersion of glochidia larvae. The findings are of significant scientific and practical importance for conserving mollusk biodiversity, monitoring population dynamics, and maintaining ecological balance within aquatic ecosystems of the Hisorak Reservoir.*

***Keywords:*** *Hisorak Reservoir, bivalve mollusks, biodiversity, ecosystem,* Sinanodonta, Corbicula, Colletopterum, *ecological groups, Qashqadaryo Basin, white amur (*Ctenopharyngodon idella*).*

**Kirish.** Keyingi yillarda respublikamizda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilash, chuchuk suv zahiralaridan samarali foydalanish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda ekotizimni barqaror saqlash, suv resurslaridan oqilona foydalanish, oqova suvlarni tozalash va sanoat chiqindilarini zararsizlantirish, shuningdek, ichimlik suvini ekologik jihatdan toza bo‘lishiga erishilmoqda. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlashda va qishloq xo‘jaligi suv ta’minotini yaxshilashda sun’iy suv tiplari, suv omborlarining ahamiyati katta. Suv omborlari qishloq xo‘jaligini suv bilan ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Hisorak suv omborida o‘ziga xos gidrobiontlar faunasi shakllangan. Bugungi kunda suv omborlari ekotizimlarida mollyuskalar bioxilmaxilligi va populyatsiyalarini o‘rganish dolzarb muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Mollyuskalar bo‘yicha tadqiqotlarni James H.Thorp., Alanp Covich; Aldridge; Bouchet; Huber Markus; Bogan; Annabelle Cuttelod et al, Bogatov, Starobogatov; Bogatov; Andreev va boshq., Alyoxina, Panov et. al.; Son; Yanovich, Rijinashvili A.L.; Sintyurina A.V., Bigaliev A.B.; Kuzmenkin D.V. ishlarida ko‘rish mumkin. I.Z.Izzatullaev va X.T.Boymurodovlar suv havzalarida uchraydigan ikki pallali mollyuskalarni inventarizatsiya qilish, ularning suv havzalariga bog‘liq tarqalish xususiyatlarini aniqlash, kamyob va endem turlari populyatsiyalarining zamonaviy holatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan (Z.Izzatullayev (2016), X.Boymurodov (2011)).

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mollyuskalar suv ombori xududidan 2014-2023 yillar yoz, kuz va bahor mavsumlarida mollyuskalar terildi. Hisorak suv ombori suv ekotizimlaridan 210 ta namunalar o‘rganilib, mollyuskalar 296 donani tashkil etdi (T. Jabborova, 2024). Mazkur mollyuska namunalari yirik sistematik ishlar, aniqlagichlarda Ploxinskiy, 1970; Rijinashvili, 2005; Starobogatov, Izzatullaev, 1984, Izzatullaev, Boymurodov, 2009 keltirilgan uslublar bilan o‘rganildi.

**Tahlil va natijalar. Hisorak suv ombori** - Qashqadaryo viloyatidagi Qashqadaryoning irmog‘i bo‘lgan Oqsuv daryosi o‘zanida barpo etilgan yirik gidrotexnika inshoot hisoblanadi. Suv ombor Shahrisabz tumani Miroqi shaharchasidan 1,5 km. uzoqlikda joylashgan bo‘lib, 1983 - 1988 yillarda qurilgan. Umumiy hajmi 170 mln.$m^3$, foydali hajmi 161,6 mln.$m^3$. Toshtuproqli to‘g‘on uzunligi 666 m, balandligi 138 m, suv yuzasi 4,2 $km^2$, suv chiqarish inshootining suv o‘tkazish imkoniyati 200 $m^3$/s, suv tashlama inshootniki 130 $m^3$/s. Hisorak suv ombori to‘g‘on, suv chiqarishi, suv tashlama inshootlari, suv keltiruvchi va suv chiqaruvchi kanallar, drenaj tarmoqlari bilan jihozlangan (1– rasm).

Suv ombori ikki pallali mollyuskalari alohida atroflicha o‘rganilmaganligi sababli, biz 2014-2023 yillar davomida ushbu suv omborida ikki pallali mollyuskalarnining hozirgi holati, tarqalishi va ekologiyasini atroflicha o‘rgandik. Suv ombori xalq xo‘jaligidagi bir qancha tarmoqlarni suv bilan ta’minlaydi. Suv ombori Oqsuv daryosi o‘zanida yil davomida daryo oqimlarini tartibga solib turadi. Suv ombori barpo etilishi bilan suvda ikki pallali mollyuskalar va boshqa gidrobiontlarning yashash sharoiti yaxshilangan. Qashqadaryo sohilida yaqinda qurilganligi va boshqa suv tiplari bilan bog‘lanmaganligi sababli mollyuskalar turlari kamdir [1; P.86-87; 6; B.38-41.].

Bizdan avvalgi tadqiqotlar va o‘rganishlarimiz suv omborida 7 turining mavjudligini ko‘rsatdi. Hisorak suv omboriga iqlimlashtirilgan do‘ngpeshona, oq amur va boshqa baliqlar bilan xitoy tishsizlari - *Sinanodonta orbicularis, S. puerorum* lar tarqalgan. Suv omborida *Sinanodonta gibba*, *Colletopterum ponderosum volgense* va boshqa turlar uchramadi. Suv omborining o‘ng va chap sohili biotoplarida *Sinanodonta orbicularis, S.puerorum* lar tarqalgan bo‘lib, Qashqadaryo boshqa suv tiplariga qaraganda suv ombori biotoplarida ularning zichligi katta. Masalan, *Sinanodonta orbicularis* 1 $m^2$ joyda 0,8 donadan uchrasa *S. puerorum 1* $m^2$ joyda 0,9 tadan tarqalgan.

Suv omborining qo‘ltiqlari, o‘ng sohili, suv omboridagi suv chiqarish kanalida mollyuskalardan *Corbicula fluminalis, C. purpurea* va *Corbiculina tibetensis* tarqalgan va o‘ziga xos populyatsiyalari shakllangan. Mollyuskalar populyatsiyalari aniq ifodalangan chegaraga ega bo‘lgan holatda uni ushbu ko‘rsatgich bilan baholash biologik ahamiyatga ega.

**1- rasm. Hisorak suv omboridan materiallar yig‘ilgan joylar**

Mollyuskalar populyatsiyalari zichligi deganda ma’lum maydon birligiga to‘g‘ri keluvchi turlar soni tushuniladi. Bu yerda Corbiculidae oilasiga mansub turlar son jihatidan kam bo‘lib suv omborining loy bosgan qamishlar o‘sgan joylarida loy ostiga ko‘milgan holda yashaydi [2; B.41-44; 4; B.219-221.].

*Corbicula fluminalis, C.purpurea* va *Corbiculina tibetensis* turlari ikki pallali mollyuskalari populyatsiyalardagi miqdori va zichligi bir-biri bilan chambarchas bog‘langan, shuning uchun u yoki bu populyatsiya haqida gap borganda uning soni va zichligi barobar e’tiborga olinadi.[7; C.16-19; 8; C.86-87.]

Hisorak suv omborida *Corbicula fluminalis* 1 m² joyda 1,6 donadan uchrasa *C. purpurea* 1 m² joyda 1,7 tadan va *Corbiculina tibetensis* 1 m² da o‘rtacha 2,1 donadan tarqalgan. Hisorak suv omboriga Oqsuv daryosi qo‘yilgan qismidagi suvlaridan *Euglesa turkestanika, Odhneripisidium sogdianum* lar va o‘rganildi. Birinchi va oxirgi ko‘rsatib o‘tilgan turlar soni ko‘p. Yuqorida ko‘rsatilgan turlar Oqsuv daryosi yuqori qismidagi buloqlarda tarqalgan bo‘lib, suv bilan suv omboriga ham kelib tarqalgan. Suv omborining suvlari olib kelgan qoldiqlarda *Odhneripisidium sogdianum* turlarining bo‘sh chig‘anoqlarini ham uchratdik. Suv omborlari suvlarining issiqlik sig‘imi nihoyatda katta bo‘lganligi suvning harorati sutka va fasllar ichida yer va atmosfera haroratiga nisbatan ancha kam va sekin o‘zgaradi. Bu omil ikki pallali mollyuskalar hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Suv ombori suvidagi kislorod *Euglesa, Odhneripisidium* avlodlari turlari ikki pallali mollyuskalar organizmga qon orqali o‘tib modda almashinuvini ta’minlash bilan birga o‘sish, urchish, qishlash, migratsiya qilish, ovqat hazm qilish, nafas olish kabi barcha jarayonlarda katta rol o‘ynaydi. Suv omborida *Euglesa turkestanika* turlarining zichligi buloq va chashmalardagi zichligidan kam. Masalan, *Euglesa turkestanika* ni 1 m² joyda 1,2-1,3 donadan uchraydi. *Odhneripisidium sogdianum* 1 m² joyda 1,3 tadan tarqalgan.

Hisorak suv omborida ikki pallali mollyuskalar 3 xil ekologik guruhlarni hosil bo‘lgan: suv osti balchiqlarida - pelolimlofil 1 turi (*Euglesa turkestanika* ), buloq va chashma suvlari ariqlarda – krenofil 1 tur (*Odhneripisidium sogdianum*), oqar suvlar loylarida peloreofillarning 5 turi (*Sinanodonta orbicularis, S. puerorum, Corbicula fluminalis, C. purpurea* va *Corbiculina tibetensis*) yashaydi. Suv omborida pelolimnofillar 14 % ni , krenofillar 14 % ni va peloreofillar 72 % tashkil etadi.

Suv omborida *Corbicula fluminalis, C. purpurea* va *Corbiculina tibetensis* zichligi 1 m² joyda 1,5 tadan ko‘p uchraydi shuning uchun ularni keng tarqalgan evribiont turlarga kirishi va qolgan *Euglesa turkestanika*, *Odhneripisidium sogdianum, Sinanodonta orbicularis, S. puerorum* turlar kichik hududda tarqalgan zichligi kam stenobiont turlarga kirishi aniqlandi.

Hisorak suv ombori barpo etilishi bilan ikki pallali mollyuskalarning suv omborida tarqalishiga va mollyuskalar faunasining shakllanishiga qo‘yidagi omillar ta’sir etadi:

1) Hisorak suv omborining barpo etilishi bilan Oqsuv daryosi sohilida buloq, chashmalarda tarqalgan *Euglesa turkestanika*, *Odhneripisidium sogdianum* turlari suv bilan suv omborlarida tarqalishiga olib kelgan;

2) Suv omborida baliqlarni iqlimlashtirish bilan *Sinanodonta orbicularis, S. puerorum* tarqalgan.

**Xulosa**

Suv omborlari ekotizimlarida mollyuskalar bioxilma-xilligi va populyatsiyalariga suv muxitidagi abiotik omillar ta’siri kattaligi o‘rganildi. Tadqiqotlar natijasida Hisorak suv omborida 7 tur uchradi, bu tahlil qilingan turlar 4 oila va 5 avlodga taalluqli va ular peloreofil, reofil va krenofil ekologik guruhlarga mansubligi aniqlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Anderson I. Epidemiology reveals thecost of mining uranium // New Sci. – June, 1991.– P. 43.

2. Boymurodov X.T. Ikki pallali mollyuskalarning inson tomonidan barpo etilgan suv havzalarida tarqalishi va biologik xilma-xilligi // O‘zbekiston biologiya jurnali. – Toshkent, 2011. – №3. – B. 41-44.

3. Boymurodov Kh.T. The degree of content of natural radionuclides in mollusks // Uzbek Biological journal. – Ташкент, 2011. –№5. –P. 41-42.

4. Boymurodov X.T. Suv omborlarda ikki pallali mollyuskalarning tarqalishi va biologik xilma-xilligi // O‘zMU xabarlari. – Toshkent, 2013. – №4. – B. 219-221.

5. Jabborova T.X. (2024). Qashqadaryo havzasi sun’iy suv tiplari ikki pallali molyuskalar faunasi va ekologik guruhlari. Biolog. fan. dokt. (PhD) dis... avtoref. – G.18.

6. Izzatullayev Z.I., Boymurodov X.T., Karimqulov A.T. Qashqadaryo havzasida ikki pallali mollyuskalarning tarqalishi, ekologik guruhlari va xo‘jalikdagi ahamiyati. // Guliston Davlat universiteti Axborotnomasi. – Guliston, 2013. – № 4 (51), – B. 38-41.

7. Иззатуллаев З.И., Боймуродов Х.Т. Результаты выращивания жемчуга двустворчатых пресноводных моллюсков (Bivalvia: Unionidae, Anadontinae) Узбекистана // Журнал Московское Общество Испытателей Природы. – Москва, 2016. т. 121. вып. 5 с. 16-19.

8. Izzatullayev Z.I., Boymurodov X.T. Orololdi mollyuskalarining biologik xilma-xilligi, ekologik xususiyatlari va tarqalishi // Материалы III Международной научно-практической конференции «Проблемы рационалного исползования и охрана биологических ресурсов Южного Приараля». – Нукус, 2010. 86 – 87.

9. Рижинашвили А.Л. Определение наиболшей продолжителности жизни двустворчатых моллюсков на примере перловиц (Bivalvia, Unionidae) // Доклады Академии наук. – Санкт-Петербург,2009, – №1. – С. 138-141.

10. Роман Г. Возрастная структура популяций пресноводного двустворчатого моллюска unio pictorum (linnaeus, 1758) (bivalvia: unionidae) из гидротопов бассейна верхнего днестра // Материалы Международной конференции – Днестра, 2004. 107-109 с.

11. Старобогатов Я.И., Иззатуллаев З.И. Двустворчатые моллюски сем. Unionidae Средней Азии // Бюл. МОИП, 1984. 5. – С.74-81.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Ibragimov Akram Javliyevich**
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti O‘rmonchilik, dorivor o‘simliklar va manzarali bog‘dorchilik kafedrasi dotsenti.
**Atoyev Kayhon O‘ktamovich**
Termiz davlat universiteti magistranti
**Xurramova Shoxsanam Normo‘min qizi**
Termiz davlat universiteti magistranti
ibragimovakram1406@gmai.com

## JANUBI-G’ARBIY HISOR FLORASI (SURXONDARYO QISMI) TURLARINING BALANDLIK MINTAQALARI BO’YICHA TAQSIMLANISHI

***Abstrakt.*** *Ushbu maqolada Janubi-g‘arbiy Hisor (Surxondaryo qismi) florasining balandlik mintaqalari bo‘yicha tarqalishi, turlar xilma-xilligi va ularning ekologik-geografik omillar bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda Q.Z. Zokirov (1955) tomonidan ishlab chiqilgan balandlik mintaqalari tasnifi asos qilib olinib, floristik tarkibning cho‘l, adir, tog‘ va yaylov zonalari bo‘yicha taqsimlanishi aniqlandi. Natijalarga ko‘ra, floraning eng boy qismi tog‘ mintaqasiga to‘g‘ri kelib, 1821 turdan 1478 tur 81,16% aynan shu zonada qayd etilgan. Shuningdek, turlarning 56,17 foizi bir nechta tik mintaqalar bo‘ylab tarqalgan bo‘lib, bu hududning ekologik o‘zgaruvchanligi va vertikal zonallashuvning murakkabligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari har bir mintaqaning o‘ziga xos fitosenozlari - cho‘l o‘simliklari, adir florasi, archazorlar va yaylov o‘simliklarining shakllanish omillarini aniqlashga imkon berdi. Olingan ma’lumotlar floristik monitoring, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va tog‘ ekotizimlarining bioxilma-xilligini baholashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.*

***Kalit so‘zlar:*** *Janubi-g‘arbiy Hisor florasi, Surxondaryo, balandlik mintaqalari, tik zonallik, cho‘l mintaqasi, adir mintaqasi, tog‘ mintaqasi, yaylov, floristik tarkib, ekologik omillar, xilma-xillik, archazor, bioxilma-xillik, fitosenoz.*

**Ибрагимов Акрам Джавлиевич**
Доцент кафедры лесоводства, лекарственных растений и декоративного садоводства Термезского государственного инженерно-технологического и агротехнологического университета
**Атоев Кайхон Уктамович**
Магистрант Термезского государственного университета
**Хуррамова Шохсанам Нормумин кизи**
Магистрант Термезского государственного *университета*

## РАСПРЕДЕЛЕНИЕ ВИДОВ ФЛОРЫ ЮГО-ЗАПАДНОГО ГИССАРА (СУРХАНДАРЬИНСКАЯ ЧАСТЬ) ПО ВЫСОТНЫМ ПОЯСАМ

***Абстракт.*** *В данной статье с научной точки зрения проанализировано распределение флоры Юго-Западного Гиссара (Сурхандарьинская часть) по высотным поясам, видовое разнообразие и их связь с эколого-географическими факторами. В исследовании за основу была взята классификация высотных поясов, разработанная К.З. Закировым (1955), и определено распределение флористического состава по пустынным, адырным, горным и яйлажным зонам. Согласно результатам, наиболее богатая часть флоры приходится на горный пояс, где было зарегистрировано 1478 видов из 1821, что составляет 81,16%. Также 56,17% видов распространены по нескольким вертикальным поясам, что свидетельствует об экологической изменчивости региона и сложности вертикальной зональности. Результаты исследования позволили определить факторы формирования специфических для каждого пояса фитоценозов - пустынной растительности, адырной флоры, арчовников и яйлажной растительности. Полученные данные могут быть использованы для флористического мониторинга и охраны природных ресурсов.*

***Ключевые слова:*** *Юго-Западная Гиссарская флора, Сурхандарья, высотные пояса, вертикальная зональность, пустынный пояс, адырный пояс, горный пояс, пастбище, флористический состав, экологические факторы, разнообразие, можжевеловые леса, биоразнообразие, фитоценоз.*

**Ibragimov Akram Javlievich**
Associate Professor of the Department of Forestry, Medicinal Plants and Ornamental Horticulture, Termez State University of Engineering and Agrotechnologies.
**Atoyev Kaykhon Uktamovich**
Master's student of Termez State University
**Khurramova Shokhsanam Normumin qizi**
Master's student of Termez State University

## ALTITUDINAL DISTRIBUTION OF SPECIES IN THE FLORA OF THE SOUTHWESTERN HISSAR (SURKHANDARYA REGION)

***Abstract.*** *This article presents a scientific analysis of the distribution of the flora of the Southwestern Hissar (Surkhandarya region) across altitudinal zones, the diversity of species, and their relationship with ecological and geographical factors. The study is based on the classification of altitudinal belts proposed by Q. Z. Zakirov (1955), which enabled the assessment of the floristic composition across desert, foothill, mountain, and alpine meadow zones. According to the results, the richest part of the flora belongs to the mountain zone: 1,478 of the 1,821 recorded species (81.16%) occur within this belt. Additionally, 56.17% of the species were found to be distributed across multiple altitudinal zones, indicating the ecological variability of the region and the complexity of its vertical zonation. The findings made it possible to identify the formation factors of the characteristic phytocenoses of each zone — desert vegetation, foothill flora, juniper woodlands, and alpine meadow plants. The obtained data hold significant scientific and practical importance for floristic monitoring, conservation of natural resources, and the assessment of biodiversity within mountain ecosystems.*

***Keywords:*** *Southwestern Hissar flora, Surkhandarya, altitudinal zones, vertical zonation, desert zone, foothill zone, mountain zone, alpine meadow, floristic composition, ecological factors, diversity, juniper woodlands, biodiversity, phytocoenosis.*

### Krish

Tog‘li hududlarda floraning xilma-xilligi faqatgina maydonning kattaligiga emas, balki uning vertikal (tik) tuzilishiga, tik mintaqalarning soni va hududning geomorfologik tuzilishiga ham bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun, floralarning tahlili olib borilganda albatta turlarning tik mintaqalar bo‘ylab taqsimlanishini o‘rganishni ham talab etadi.

Janubi G‘arbiy Hisor (Surxondaryo qismi) florasining quyi chegarasi dengiz sathidan 302 m balandlikdan, ya’ni cho‘l mintaqasidan boshlangan va bu geomorfologik bosqich hududda Quyi Surxon tabiiy geografik rayonini (Kattaqum cho‘li, Surxon-Sherobod pasttekisliklarini) kamrab oladi [8].

Adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarga asosan (hududlar bo‘yicha) bir qancha olimlar - P.P. Semyonov (1856–1857), N.A. Seversov (1864), A.N. Krasnov (1888), V.I. Linchevskiy (1884), V.S. Titov (1915), R.I. Abolin (1930), M.G. Popov (1925), M.V. Kultiasov (1927), S.A.Nevskiy (1937), S.N. Kudryashev (1941) kabi tadqiqotchilar hududning geografik joylashuvi, o‘simlik qoplami va iqlim omillar asosida **balandlikka xos flora tasniflarini** ishlab chiqishgan. Biroq, **Q. Z. Zokirov (1955)** tomonidan ishlab chiqilgan tizim butun **O‘rta Osiyo** uchun eng qulay tasnif sifatida qabul qilingan. Unga ko‘ra, balandlik mintaqalari quyidagicha belgilanadi: tekislik (cho‘l) (100-500 metr), adir (500-1600), tog‘ (1600- 2800) yaylov (2800-4000) mintaqalari asoslab ochib berilgan (Q. Zokirov, 1955). Janubi G‘arbiy Hisor (Surxondaryo qismi) florasida turlarning balandlik mintaqalarida tarqalishi Q. Zokirov (1955) tasnifi bo‘yicha amalga oshirildi (3.2 – jadval) [10].

3.2 – jadval

Janubi G‘arbiy Hisor (Surxondaryo qismi) florasida turlarning tik mintaqalar bo‘ylab taqsimlanishi

| № | Balandlik mintaqasi | Turlar soni | Foiz hisobida |
|---|---|---|---|
| **1** | Cho‘l | 114 | 6,26 |
| **2** | Adir | 104 | 5,71 |
| **3** | Tog‘ | 455 | 24,99 |
| **4** | Yaylov | 17 | 0,93 |
| **5** | Cho‘l va adir | 108 | 5,93 |
| **6** | Cho‘l, adir va tog‘ | 410 | 22,52 |
| **7** | Cho‘l, adir, tog‘ va yaylov | 9 | 0,49 |
| **8** | Adir va tog‘ | 468 | 25,70 |
| **9** | Adir, tog‘ va yaylov | 37 | 2,03 |
| **10** | Tog‘ va yaylov | 99 | 5,44 |
| **Jami:** | | **1821** | 100 |

Tog‘ mintaqasi dengiz sathidan 1600-2800 metrgacha bo‘lgan balandliklarni o‘z ichiga oladi. Archazorlar va shiblyak florosenotiplar dominatlik qiladi, ayrim holatlarda petrofit florosenotipi. Jadvaldagi ma’lumotlarga asosan, Janubi G‘arbiy Hisor (Surxondaryo qismi) florasidagi turlarning tik mintaqalar bo‘ylab taqsimlanishi bir xil emas. Floradagi turlar tarqalishining aksariyat qismi tog‘ mintaqasiga (1478 tur/81,16%) to‘g‘ri keladi. Tog‘ mintaqasiga mansub o‘simliklarning – 455 turi (24,98%) faqat tog‘ hududi chegaralarida tarqalgan. Ularning tipik vakillari sifatida *Acantholimon butkovii* Lincz., *A. erythraeum* Bunge, *Acanthophyllum gypsophiloides* Regel, *Astragalus juniperetorum* Gontsch., *Allium decoratum* Turginov & Tojibaev, *Codonopsis clematidea* (Schrenk) C.B.Clarke, *Delphinium bucharicum* Popov, *Scutellaria guttata* Nevski ex Juz., *Gagea kamelinii* Levichev, *Seseli nevskii* (Korovin) Pimenov et Sdobnina, *Silene nataliae* F. O. Khass. et I.I. Malzev, *Rindera kuhitangica* Raenko *Oxytropis pseudoleptophysa* Boriss., *Cousinia leptocladoides* Tscherneva, *Jurinea tscherneviae* Tojibaev & Turginov, *Cicer grande* (Popov) Korotkova, *Ferula tuberifera* Korovin, *Sergia regelii* (Trautv.) Fed., *Salvia liliacinocaerulea* Nevski va shu kabi turlarni keltirish mumkin. Qolgan 1023 ta turlar (56,17%) tog‘ mintaqasini cho‘l, adir va yaylov mintaqalari bilan turlicha darajada bog‘lab turadi.

Tog‘ mintaqasida eng ko‘p tarqalgan turlar *Fabaceae* oilasiga tegishli bo‘lib, ular florada 81 turni (umumiy floraning 4,45%) tashkil etadi. Oila tarkibiga turkumlardan *Astragalus* (49 tur), *Oxytropis* (10 tur), *Cicer* (5 tur), *Vicia* (5 tur), *Hedysarum* (4 tur) va *Trigonella adscendens* (Nevski) Afan. & Gontsch., *T. verae* Širj., *Calispepla aegacanthoides* Vved., *Calophaca reticulata* Sumnev., *Caragana turkestanica* Kom., *Chesneya hissarica* Boriss., *Onobrychis grandis* Lipsky, *Trifolium scabrum* L. kabi turlar kiradi.

Oilalar ichida keyingi o‘rinda *Asteraceae* oilasi (62 tur) etakchilik qilsa, *Poaceae* oilasi (31 tur) uchinchi o‘rinni egallaydi.

Tog‘ mintaqasida tarqalgan turlardan 265 tur gemikriptofit, 85 tur terofitlar, 53 tur kriptofit, 27 tur fanerofit, 25 tur xamefitlarga to‘g‘ri keldi.

Tog‘ mintaqasida tarqalgan turlarni areal sinflari bo‘yicha tahlili natijasida Pomiroloy areal sinfi 146 tur, Qadimiyo‘rtaerdengizi 97 tur, Tog‘li o‘rtaosiyo 82 tur, O‘rtaosiyo 62 tur, Palearktik 40 tur, Golarktik 20 tur va Plyuriregional 8 turdan tashkil topishi aniqlandi. Pomiroloy areal sinfi vakillarining tog‘ mintaqasida ko‘pligi, tadqiqot hududining ushbu tipga xosligi hamda endem turlarning ko‘pligi bilan izohlanadi.

Cho‘l (tekislik) mintaqasi dengiz sathidan 450-500 metrgacha bo‘lgan balandliklarni (quyi Surxon tabiiy geografik rayoni hududi) o‘z ichiga oladi. Cho‘l mintaqasiga xos bo‘lgan turlar florada 641 turni (35,2%) tashkil etadi. Shundan faqat cho‘l mintaqasida o‘suvchi turlar 114 turdan (6,26%) iborat. Bu mintaqada *Astragalus ammodendron* Bunge, *Cousinia pusilla* C.Winkl., *Dipcadi turkestanicum* Vved., *Setaria pumila* (Poir.) Roem. & Schult., *Euphorbia glomerulans* (Prokh.) Prokh., *Malva ludwigii* (L.) Soldano, Banfi & Galasso, *Calligonum microcarpum* I.G.Borshch., *Salsola paulsenii* Litv., *Suaeda paradoxa* (Bunge) Bunge va *Artemisia tenuisecta* Nevski, *A. turanica* Krasch. kabi turkum turlari keng tarqalgan.

Cho‘l mintaqasida *Amaranthaceae* oilasi vakillari 16 tur bilan boshqa oilalardan ustunlik qiladi. Oila tarkibidagi 1 tur fanerofit, 1 tur xamefit, 14 tur terofitlarga to‘g‘ri keldi. Ma’lumki, *Amaranthaceae* oilasi turlari ozuqa moddalari kam va qurg‘oqchil bo‘lgan noqulay ekologik sharoitlarga yuqori chidamlilikka ega. Shuningdek, Esanov (2023) ma’lumotlari bo‘yicha hududining asosiy qismi tekislik va cho‘l hisoblanadigan Janubiy G‘arbiy Qizilqum florasida *Amaranthaceae* oilasi turlar soni bo‘yicha dominantlik qilgan. Shundan kelib chiqib, *Amaranthaceae* oilasining cho‘l mintaqasida etakchi oilalar qatorida bo‘lishini, O‘zbekistoning janubi-g‘arbiy qismidagi eng katta cho‘l hisoblanagan Haudak cho‘lining SShBGR da joylashgani bilan izohlash mumkin. Amaranthaceae oilasining aksariyat turlari Haudak cho‘li florasini hosil qilishda ishtirok etgan. Umuman olganda, ushbu oila vakillaridan 10 turi O‘rtaosiyo va 6 turi Qadimiyo‘rtaerdengizi areal sinfiga tegishli ekanligi bilan xarakterlanadi.

Oilalar ichida keyingi o‘rinda *Asteraceae* (16 tur), *Poaceae* (15 tur) va *Fabaceae* (13 tur) oilalari etakchilik qiladi. Qolgan 28 ta oilalar 1-8 tagacha turlarni o‘z ichiga birlashtiradi.

Cho‘l mintaqasida tarqalgan turlar hayotiy shakllari bo‘yicha tahlil qilinganda, ular 60 ta terofitlar, 26 ta gemikriptofit, 11 ta kriptofit, 9 ta fanerofit va 8 ta xamefitlarga to‘g‘ri keldi.

Cho‘l mintaqasida tarqalgan turlarni areal sinflari bo‘yicha tahlili natijasida Qadimiyo‘rtaerdengizi areal sinfi 40 tur, O‘rtaosiyo 32 tur, Palearktik 17 tur, Plyuriregional 13 tur, Pomiroloy 6 tur, Golarktik 4 tur va Tog‘li o‘rtaosiyo 2 turdan tashkil topishi aniqlandi. Qadimiyo‘rtaerdengizi va O‘rtaosiyo areal sinflari vakillarining cho‘l mintaqasida ko‘pligi, tadqiqot hududida Turon (16 tur) va Eron – o‘rtaosiyo (15 tur) areal tipiga xos turlarning ko‘pligi bilan izohlanadi.

Adir mintaqasi (quyi va yuqori adir) dengiz sathidan 500–1600 m gacha davom etadi. Bu mintaqada jami 1136 tur (62,38%) tarqalgan bo‘lib, shundan faqat adirning o‘zida 104 tur (5,71%) o‘simliklar uchraydi. Bu mintaqada *Agrostis vinealis* Schreb., *Carex polyphylla* Kar. & Kir., *Cyperus difformis* L., *Iris rudolphii* F.O.Khass., Esankulov & Achilova, *Linum humile* Mill., *Plocama alshehbazii* F.O.Khass. et al. *Cousinia platystegia* Tscherneva, *Phlomoides baburii* (Adylov) Adylov, *Lythrum salicaria* L. kabi o‘simliklar keng tarqalgan [1,2,4,5].

Adir mintaqasida *Asteraceae* (15 tur), *Cyperaceae* (10 tur), *Brassicaceae* (9 tur), *Fabaceae* (8 tur) *va Poaceae* (6 tur) oilalari kuchli beshlikdan oʻrin olgan. *Asteraceae* oilasi *Cousinia* (7 tur) turkum turlariga boyligi bilan ajralib tursa, *Cyperaceae* oilasining asosiy qismini *Cyperus* turkumi (4 tur) tashkil etadi. Shuningdek, ushbu mintaqada 16 ta oila 1 turga ega boʻlsa, 7 ta oilada 2 tur, 4 ta oilada 3 tur, 1 oilada 4 tur va 2 oila 5 tur bilan ishtirok etadi.

Adir mintaqasidagi turlar ichida terofit hayotiy shakliga ega oʻsimliklar (49 tur) ustunlik qiladi. Bu esa tadqiqot hududining noyob tabiiy-geografik xususiyatlari floraning taksonomik tarkibiga ham ta'sir koʻrsatganligini koʻrsatdi. Bundan tashqari, adir mintaqasida gemikriptofitlar 41 ta turni, kriptofitlar 10 ta, fanerofitlar esa 1 ta turni tashkil etadi.

Adir mintaqasida tarqalgan turlarni areal sinflari boʻyicha tahlili natijasida Qadimiyoʻrtaerdengizi areal sinfi 33 tur, Pomiroloy 22 tur, Oʻrtaosiyo 15 tur, Palearktik 15 tur, Golarktik 12 tur, Togʻlioʻrtaosiyo 5 tur, Plyuriregional 2 turdan tashkil topishi aniqlandi.

Adir-togʻ mintaqasida tarqalgan turlar adirga xos boshqa mintaqalardan farq qilib biroz koʻproqni, ya'ni 468 turni (umumiy floraning 25,7%) tashkil etadi. Shuningdek, choʻl-adir-togʻ mintaqasida tarqalgan turlar 410 turni (22,51%), choʻl – adirda 108 tur (5,93%), adir-togʻ-yaylovda 37 tur (2,03%) hamda choʻl-adir-togʻ-yaylov mintaqasida 9 turni (0,49%) qamrab oladi. Bundan koʻrinadiki, adir-togʻ mintaqasi turlar xilma-xilligi uchun qulay muhitni yaratadi.

Yaylov mintaqasi dengiz sathidan 2800 – 4600 oraligʻidagi balandlik (yuqori togʻ, alp oldi va alp zonalarga boʻlinadi). Janubi Gʻarbiy Hisor (Surxondaryo qismi) florasida yaylov mintaqasiga xos boʻlgan turlar 162 turni (8,89%) tashkil etadi. Faqat yaylov mintaqasining oʻzida 17 tur (0,93%) oʻsimliklar tarqalgan. Faqat yaylovga xos boʻlgan oʻsimliklarga *Allium tytthanthum* Vved., *Agropyron badamense* Drobow, *Deschampsia cespitosa* (L.) P.Beauv., *Poa nemoralis* L., *Koeleria pyramidata* (Lam.) P.Beauv., *Delphinium oreophillum* Hult., *Ranunculus rubrocalyx* Regel ex Kom., *Astragalus zaprjagaevii* Gontsch., *Oxytropis savellanica* Bunge ex Boiss., *Euphorbia kanaorica* Boiss., *Chorispora sabulosa* Cambess., *Scapiarabis saxicola* (Edgew.) M.Koch, R.Karl, D.A.German & Al-Shehbaz, *Cynoglossum seravschanicum* (B.Fedtsch.) Popov, *Mertensia dschagastanica* Regel, *Lagochilus nevskii* Knorring, *Nepeta pamirensis* Franch., *Scutellaria physocalyx* Regel & Schmalh. kabilar kiradi [2,4].

Yaylov mintaqasida turlarga boyligi jihatidan Poaceae oilasi (4 tur) etakchilik qilsa, keyingi oʻrinlarni *Lamiaceae* (3 tur), *Boraginaceae*, *Brassicaceae*, *Fabaceae*, *Ranunculaceae* oilalari (2 turdan) hamda *Amaryllidaceae* va *Euphorbiaceae* oilalari (1 turdan) egallaydi.

Mazkur balandlikda tarqalgan turlardan 12 tur gemikriptofitlarga, 2 tur kriptofitlar, 2 tur xamefitlar hamda 1 tur terofitlarga toʻgʻri keldi.

Choʻl-adir-togʻ-yaylov mintaqasida (barcha mintaqada) tarqalgan turlar nisbatan kam boʻlib, umumiy florada 9 turni (0,49%) tashkil etadi. Ushbu turlarga *Gagea gageoides* (Zucc.) Vved., *Clematis orientalis* L., *Astragalus stalinskyi* Širj., *Astragalus turkestanus* Bunge ex Boiss., *Lappula patula* (Lehm.) Menyh., *Arctium tomentosum* Mill., *Artemisia ferganensis* Krasch. ex Poljakov, *Artemisia scoparia* Waldst. & Kit., *Artemisia vulgaris* L. kabilar kiradi.

Adir-togʻ-yaylov mintaqasida 37 tur tarqalgan boʻlsa, togʻ-yaylov mintaqasidan bundan ancha koʻp ya'ni, 99 tur tarqalgan. Bu esa mintaqaning tabiiy geografik oʻrni, ekologiyasi va iqlim koʻrsatkichlari bilan xarakterlanadi.

Janubi-Gʻarbiy Hisor (Surxondaryo qismi) florasining tik mintaqalar boʻyicha tahlili natijalari shuni koʻrsatadiki, ushbu hududdagi oʻsimlik turlarining tabiiy-iqlimiy sharoitlarga ancha moslashganligini yaqqol ifodalaydi. Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, turlarning katta qismi togʻ (1478 tur 81,16%) va adir (1136 tur (62,38%) da keng tarqalgan boʻlib, ushbu mintaqalar floradagi bioxilma-xillikning asosiy qismini tashkil qiladi. Turlarning adir va togʻ mintaqalarida keng tarqalganligi, vertikal areal boʻyicha mahalliy endemik va ekologik ixtisoslashuv holatlarini ham ta'kidlaydi. Himoyaga muhtoj yoki mahalliy fitosenozlarda muhim oʻrin tutuvchi ushbu turlar bioxilma-xillikni saqlash va xos ekotizimlarni muhofaza qilishda alohida ahamiyatga ega.




**1-rasm.** Janubi-g'arbiy hisor florasi (Surxondaryo qismi) da turlarning tik mintaqalar boʻylab taqsimlanishi

Umuman olganda, tadqiq qilingan hudud florasi turlarining tik mintaqalar bo‘yicha taqsimoti ularning eko-geografik o‘zgaruvchanligi va moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Bu esa kelgusida floristik, ekologiya-geografik va muhofaza tadbirlari uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Xulosa.** Janubi-g‘arbiy Hisor (Surxondaryo qismi) florasining balandlik mintaqalari bo‘yicha o‘rganilishi hududning murakkab tabiiy sharoitlari o‘simlik turlarining tarqalishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, eng katta turlar xilma-xilligi tog‘ mintaqasiga to‘g‘ri keladi, bu yerda ekologik omillarning barqarorligi va mikroiqlimlarning boyligi floristika jihatidan yuqori ko‘rsatkichlarni ta’minlaydi. Bir nechta mintaqalarda uchraydigan turlar hududning vertikal zonalligi kuchli ekanini ko‘rsatib, o‘simliklarning keng ekologik moslashuvchanligidan dalolat beradi. Aksincha, faqat bitta zonada uchraydigan turlar tor ixtisoslashgan bo‘lib, ular uchun alohida muhofaza choralarini ko‘rish zarur. Umuman olganda, olingan natijalar Janubi-g‘arbiy Hisor florasining yuqori bioxilma-xilligini ilmiy asoslab beradi va bu hududda floristik monitoring, tabiiy resurslarni boshqarish hamda ekologik muhofaza strategiyalarini samarali tashkil etish uchun muhim ma’lumotlarni taqdim etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Хасанов Ф.О. Краткий очерк растительности Кугитанга // Тез. докл. юбил. науч. конф. молодых ученых и спец-тов посев 60-летию ЛКСМ Узб-на, 1985. (35-55 с).

2. Ибрагимов Акрам Жавлиевич. Сурхон давлат қўриқхонасининг флораси (Кўҳитанг тизмаси), Дис… канд.. биол. наук., Тошкент-2010, (25-80 с).

3. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Попов В.А. Ботанико-географическое районирование Узбекистана // Ботанический журнал, т. 101, вып. 10, 2016.

4. Тургинов О.Т. Бойсун ботаник-географик районининг флораси: Автореф. Дис канд. биол. наук. – Ташкент, 2016. (25 с)

5. Ачилова Наргиза Тухтаназаровна. Сурхон-Шеробод ботаник-географик раиони флораси. Дис канд. биол. Наук. 03.00.05-Ботаника, Карши-2021. (45 с)

6. Tajetdinova, D. M., Ibragimov, A. J., & Ortikov, E. A. (2024). Mapping of distribution of the species of *Iris* in Kuhitang botanical-geographical region (Uzbekistan). Iranian Journal of Botany, 30(2), 145–154.

7. Verkhozina, A. V., Agafonov, V. A., Ageeva, A. M., Beshko, N. Yu., Ibragimov, A. J., et all (2024). Findings to the flora of Russia and adjacent countries: New national and regional vascular plant records, 5.

8. Juramurodov, I., Uralov, R., Makhmudjanov, D., et all. (2025). Assessment of plant diversity in the Surkhan-Sherabad Region, Uzbekistan by grid mapping. Journal of Arid Land, 17(3), 394–410.

9. Tojibayev K.Sh. Yusupov Z., Sennikov A., Ibragimov A., Ortikov E., Asatulloyev T. // Iris anvarbekii (Iridaceae), a new species of I.subg. Scorpiris from the southern Pamir-Alay in Uzbekistan// Nordic Journal of Botany 2025:e04860 doi: 10.1002/njb.04860

10. Janubi-g‘arbiy Hisor, Hisor-Darvoz va Panj oldi okruglari florasining to‘r tizimli xaritalash: Surxondaryo viloyati qismi. Hisobot – 2024-yil. Botanika instituti.

**11.** https://powo.science.kew.org/

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**I.I.Muhammedov**
Kokand Universiteti Andijon filiali
muxammedov1989@gmail.com
**M.A.Abduvaxopova**
Kokand Universiteti Andijon filiali
abduvaxopovamahliyo@gmail.com
**A.J.Mazalova**
Kokand Universiteti Andijon filiali
azizamazalova@gmail.com
**M.M.Mo'minova**
Andijon davlat universiteti
muqaddasxonmominova5@gmail.com

## DORIVOR VA XO'JALIK AHAMIYATIGA EGA O'SIMLIKLAR (QALAMPIR, ALOE, GERAN) ENDOFIT ZAMBURUG'LARINING IKKILAMCHI METABOLITLARI AJRATIB OLIB, TURLI BAKTERIYALARDA ANTIBAKTERIAL TEST OTKAZISH

***Annotatsiya:*** *Endofit zamburug'lar qishloq xo'jaligi va tibbiyotda qo'llanishi mumkin bo'lgan biologik faol ikkilamchi metabolitlarning istiqbolli manbai hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda qalampir (Capsicum annuum), aloe (Aloe vera) va geran (Pelargonium spp.) o'simliklarining ildiz, poya va barg to'qimalaridan endofit zamburug'lar ajratib olindi. Izolyatlar suyuq Chapek-Dox muhitida yetishtirildi va biomassasi yig'ib olindi. Ikkilamchi metabolitlar etil asetat yordamida ekstraksiya qilinib, turli patogen bakteriyalarga (Escherichia coli, Staphylococcus aureus, Bacillus subtilis, Pseudomonas aeruginosa) qarshi disk-diffuziya usulida antibakterial faolligi baholandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ayrim izolyatlardan ajratilgan metabolitlar kuchli antibakterial faollikka ega bo'lib, S. aureus va B. subtilisga qarshi 18–25 mm gacha inhibisiya zonasi hosil qildi. Bu esa dorivor va xo'jalik ahamiyatiga ega o'simliklardan olingan endofit zamburug'larning ikkilamchi metabolitlari antibiotiklar uchun muqobil bioaktiv manba bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:*** *endofit zamburug'lar; ikkilamchi metabolitlar; antibakterial faollik; Capsicum annuum; Aloe vera; Pelargonium spp.*

**И.И. Мухаммедов**
Андижанский филиал Кокандского университета
muhammedov1989@gmail.com
**М.А. Абдувахопова**
Андижанский филиал Кокандского университета
abduvaxopovamahliyo@gmail.com
**А.Дж. Мазалова**
Андижанский филиал Кокандского университета
azizamazalova@gmail.com
**М.М. Моминова**
Андижанский государственный университет
muqaddasxonmominova5@gmail.com

## ИЗОЛЯЦИЯ ВТОРИЧНЫХ МЕТАБОЛИТОВ ЭНДОФИТНЫХ ГРИБОВ ЛЕЧЕБНО-ЭКОНОМИЧЕСКИ ВАЖНЫХ РАСТЕНИЙ (ПЕРЦ, АЛОЭ, ГЕРАНИ) И ПРОВЕДЕНИЕ АНТИБАКТЕРИАЛЬНЫХ ТЕСТОВ НА РАЗЛИЧНЫХ БАКТЕРИЯХ

***Аннотация:*** *Эндофитные грибы являются перспективным источником биологически активных вторичных метаболитов, которые могут быть использованы в сельском хозяйстве и медицине. В данном исследовании эндофитные грибы были выделены из корней, стеблей и листьев перца (Capsicum annuum), алоэ (Aloe vera) и герани (Pelargonium spp.). Изоляты выращивали на жидкой среде Чапека-Докса, после чего собирали их биомассу. Вторичные метаболиты*

*экстрагировали этилацетатом, а их антибактериальную активность в отношении различных патогенных бактерий (Escherichia coli, Staphylococcus aureus, Bacillus subtilis, Pseudomonas aeruginosa) оценивали диско-диффузионным методом. Результаты показали, что метаболиты, выделенные из некоторых изолятов, обладают выраженной антибактериальной активностью, образуя зоны подавления роста S. aureus и B. subtilis размером 18–25 мм. Это позволяет предположить, что вторичные метаболиты эндофитных грибов лекарственных и коммерческих растений могут служить альтернативным источником биоактивных антибиотиков.*

***Ключевые слова:*** *эндофитные грибы; вторичные метаболиты; антибактериальная активность; Capsicum annuum; Aloe vera; Pelargonium spp.*

**I.I.Muhammedov**
Kokand University Andijan Branch
muhammedov1989@gmail.com
**M.A.Abduvaxopova**
Kokand University Andijan Branch
abduvaxopovamahliyo@gmail.com
**A.J.Mazalova**
Kokand University Andijan Branch
azizamazalova@gmail.com
**M.M.Mo'minova**
Andijan State University
muqaddasxonmominova5@gmail.com

## ISOLATION OF SECONDARY METABOLITES OF ENDOPHYTIC FUNGI OF MEDICINAL AND ECONOMIC IMPORTANCE PLANTS (PEPPERS, ALOE, GERANIUM) AND CONDUCTING ANTIBACTERIAL TESTS ON VARIOUS BACTERIA

***Abstract:****Endophytic fungi are a promising source of biologically active secondary metabolites that can be used in agriculture and medicine. In this study, endophytic fungi were isolated from root, stem and leaf tissues of pepper (Capsicum annuum), aloe (Aloe vera) and geranium (Pelargonium spp.). The isolates were grown in liquid Chapek-Dox medium and their biomass was harvested. Secondary metabolites were extracted using ethyl acetate and their antibacterial activity was evaluated against various pathogenic bacteria (Escherichia coli, Staphylococcus aureus, Bacillus subtilis, Pseudomonas aeruginosa) by the disk diffusion method. The results showed that metabolites isolated from some isolates had strong antibacterial activity, producing inhibition zones of 18–25 mm against S. aureus and B. subtilis. This suggests that secondary metabolites of endophytic fungi from medicinal and commercial plants may be an alternative bioactive source for antibiotics.*

***Keywords:*** *endophytic fungi; secondary metabolites; antibacterial activity; Capsicum annuum; Aloe vera; Pelargonium spp.*

**Kirish.** Antimikrob rezistentligi (AMR) bugungi kunda global sog'liqni saqlash muammolaridan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, antibiotiklarga chidamli bakteriyalar tufayli yuzaga keladigan kasalliklar yildan-yilga ortib bormoqda va yangi bioaktiv birikmalar manbalarini qidirish zarurati kuchaymoqda (WHO, 2021). Shu nuqtayi nazardan, endofit zamburug'lar oxirgi yillarda tibbiyot va farmatsevtika sanoatida katta ilmiy qiziqish uyg'otmoqda.

Endofit zamburug'lar o'simliklarning ichki to'qimalarida yashab, ularning o'sishi va himoya mexanizmlarida muhim rol o'ynaydi (Petrini, 1991). Ular tomonidan sintez qilinadigan alkaloidlar, terpenoidlar, fenolik birikmalar, peptidlar va boshqa ikkilamchi metabolitlar ko'plab biologik faolliklarga ega – jumladan, antibakterial, antifungal, nematisidal va antioksidant ta'sir ko'rsatadi (Poveda, 2020; Yan va boshq., 2021).

Avvalgi tadqiqotlarda Trichoderma, Fusarium, Chaetomium, Penicillium va Acremonium kabi avlodlarga mansub endofitlar turli fitopatogenlarga va inson patogenlariga qarshi sezilarli bioaktivlik ko'rsatgan (Hallmann va boshq., 1997; Sikandar va boshq., 2020). Shunga qaramay, dorivor va xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan qalampir, aloe va geran o'simliklarida uchraydigan endofitlarning antibakterial salohiyati yetarlicha o'rganilmagan.

Shu boisdan ushbu tadqiqotning maqsadi – qalampir, aloe va geran o'simliklaridan ajratilgan endofit zamburug'larning ikkilamchi metabolitlarini ajratib olish va ularning turli bakteriyalarga qarshi antibakterial faolligini baholashdir.

**Materiallar va metodika**

**1. O'simlik materiallarini tanlash va tayyorlash**

Ushbu tadqiqotda dorivor, efir moyli va xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan uch turdagi o'simliklardan foydalanildi:

- ✓ Qalampir — *Capsicum annuum*
- ✓ Aloe — *Aloe vera*
- ✓ Geran — *Pelargonium spp.*

Har bir o‘simlikdan tashqi infeksiya belgilari kuzatilmagan, sog‘lom ko‘rinishdagi ildiz, poya va barg to‘qimalari tanlab olindi. Tanlangan o‘simlik qismlari steril qaychi va penset yordamida ajratildi va har biri alohida steril paketlarga joylanib, 4–8 °C haroratda laboratoriyaga yetkazildi. Namuna to‘plash jarayoni Hallmann va hamkorlari (1997) tomonidan tavsiya etilgan umumiy protokollarga asoslangan holda amalga oshirildi.

**2. Sirtni sterilizatsiya qilish va endofit zamburug‘larni ajratib olish**

O‘simlik yuzasida uchrashi mumkin bo‘lgan saprofit mikroorganizmlarni bartaraf etish maqsadida sterilizatsiya jarayoni bir necha bosqichda amalga oshirildi:

1. Namuna avval oqava suv ostida mexanik kir-changlardan tozalandi.
2. 70% etanolda 1 daqiqa davomida saqlandi (yuzaki mikroblarni inaktivatsiya qilish uchun).
3. So‘ng 2% vodorod peroksid ($H_2O_2$) eritmasida 3–4 daqiqa davomida ishlov berildi.
4. Oxirida namuna steril distillangan suvda 3 marotaba chayildi.

O‘simlik to‘qimalari 2–3 mm o‘lchamdagi bo‘lakchalarga bo‘linib, laminar boksda Chapek-Dox qattiq muhitiga ekildi. Namuna idishlari 27 ± 1 °C haroratda 7 kun davomida inkubatsiya qilindi.

O‘sib chiqqan koloniyalar morfologik belgilari (rang, tuzilma, o‘sish sur’ati) bo‘yicha ajratib olindi va sof madaniyat holida qayta ekib, yangi Petri kosalarida saqlandi. Ushbu yondashuv Petrini (1991) va Yan et al. (2011) tomonidan tavsiya etilgan klassik metodlarga asoslanadi.

**3. Endofit zamburug‘lari biomassasini yetishtirish**

Izolyat qilingan endofitlar suyuq Chapek-Dox muhitiga ko‘chirilib, 7 kun davomida o‘stirildi. Kultivatsiya jarayoni 110–130 ayl/min tezlikda ishlaydigan orbital shakerda amalga oshirildi, bu esa ozuqaviy moddalar bilan muhitning doimiy almashinishini va qo‘ziqorin biomassasining tez o‘sishini ta’minladi.

Inkubatsiyadan so‘ng qo‘ziqorin massasi shisha filtr va vakuum yordamida ajratib olinib, to‘liq quriguncha saqlab turildi. Quruq biomassa keyingi ekstraksiya jarayonida foydalanildi.

**4. Ikkilamchi metabolitlarni ajratib olish (ekstraksiya)**

Quritilgan qo‘ziqorin biomassa etil asetat yordamida ikki bosqichda ekstraksiya qilindi. Bu yondashuv polifenollar, terpenoidlar, alkaloidlar kabi yarim qutbli metabolitlarni ajratib olishda keng qo‘llaniladi (Poveda, 2020).

Ekstraksiya jarayonining bosqichlari:

- Quritilgan biomassa etil asetatga solinib, 24 soat davomida aralashtirildi.
- Filtrat ajratib olinib, erituvchi vakuum ostida bug‘latib yuborildi.
- Quruq ekstraktlar kimyoviy barqarorlikni saqlash maqsadida qorong‘i sharoitda +4 °C da saqlandi.

Hosil bo‘lgan metabolit ekstraktlari antibakterial testlar uchun tayyor holga keltirildi.

**5. Antibakterial faollikni baholash (Kirby–Bauer usuli)**

Ekstraktlarning antibakterial ta’siri Kirby–Bauer disk-diffuziya usuli bo‘yicha aniqlandi. Bu usul klinik mikrobiologiyada bakteriyalarga qarshi moddalar samaradorligini baholashning standart metodi hisoblanadi.

Sinov uchun tanlangan bakteriyalar:

- *Escherichia coli* (ATCC 25922) — gram-manfiy
- *Staphylococcus aureus* (ATCC 25923) — gram-musbat
- *Bacillus subtilis* (ATCC 6633) — gram-musbat
- *Pseudomonas aeruginosa* (ATCC 27853) — gram-manfiy

Jarayon bosqichlari:

1. Mueller–Hinton agarga bakterial suspenziyalar bir tekisda yoyib chiqildi.
2. Steril qog‘oz disklarga 20 μL ekstrakt (50 mg/mL) tomizildi.
3. Disklar agar yuzasiga ehtiyotkorlik bilan joylashtirildi.
4. Inkubatsiya 37 °C da 24 soat davomida olib borildi.
5. Antibakterial faollik inhibisiya zonasi diametri (mm) bo‘yicha baholandi.

Natijalar har bir izolyatning bakteriyalar o‘sishini qay darajada to‘xtata olishini ko‘rsatdi. Inhibisiya zonasi qanchalik katta bo‘lsa, ekstraktning antibakterial kuchi shunchalik yuqori ekanligi qayd etildi.

**Natijalar .**Tadqiqot davomida qalampir (Capsicum annuum), aloe (Aloe vera) va geran (Pelargonium spp.) o‘simliklarining ildiz, poya va barg to‘qimalaridan ajratilgan endofit zamburug‘lar Chapek-Dox ozuqa muhitida o‘stirilib, biomassalari va ikkilamchi metabolit hosildorligi aniqlanib chiqildi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

**Izoh va tahlil**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ikkilamchi metabolitlar hosildorligi o‘simlik turi, organi va endofit izolyatining fiziologik xususiyatlariga qarab sezilarli farq qilgan. Bu farqlanish endofit–xo‘jayin o‘simlik o‘zaro munosabatlarining murakkab tabiati, shuningdek, har bir organning biokimyoviy muhiti bilan bog‘liq.

**Aloe** namunalarida eng yuqori metabolit miqdori **barg-2 izolyatida (600 mg)** qayd etildi. Aloe barg to‘qimalari o‘zining yuqori miqdordagi polisaxaridlari, antraxinonlari va fenolik birikmalari bilan ajralib turadi. Bu esa endofitlar uchun boy substrat manbai bo‘lib xizmat qilishi, ular tomonidan bioaktiv moddalarning sintezini kuchaytirishi mumkin. Fotosintetik faol barg to‘qimalarida ko‘p energiya va uglevodlar mavjudligi endofitlarning metabolik faolligini oshiradi (Yan et al., 2021).

**Geran (Pelargonium spp.)** izolyatlarida esa eng yuqori metabolitlar **barg (526 mg)** va **poya-2 (408 mg)** namunalarida qayd etildi. Geran o‘simligi efir moylariga boy bo‘lgani uchun uning to‘qimalarida terpenoidlar, fenoliklar va flavonoidlar yuqori konsentratsiyada uchraydi. Bunday boy kimyoviy muhit endofitlarning o‘sishi va metabolit sintezini qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Tadqiqotlar geran endofitlarining antibakterial, antifungal va insektitsid xususiyatlarga ega bioaktiv moddalar ishlab chiqishini tasdiqlagan (Gakuubi et al., 2021).

**Qalampir (Capsicum annuum L.)** izolyatlarida ayniqsa **barg-2 (640 mg)** va **poya-2 (614 mg)** namunalarida yuqori metabolit hosildorligi kuzatildi. Qalampir bargi kapsaitsin va turli fenolik moddalarga boy bo‘lganligi sababli endofitik qo‘ziqorinlar ularni oson parchalab, ikkilamchi metabolitlar sintezida substrat sifatida ishlatishi mumkin. Bu holat qalampir endofitlarining biokimyoviy moslashuvchanligi hamda metabolik diversifikatsiya qobiliyati yuqori ekanini ko‘rsatadi (Sikandar et al., 2020; Yan et al., 2011).

1-jadval.

**Endofit zamburug‘larning biomassa (g) va ikkilamchi metabolit (mg) hosildorligi**

| № | Izolyant nomi | Biomassa (1 L) | Natija |
|---|---|---|---|
| **1** | Aloe ildiz | 4.6 g | 53.8 mg |
| **2** | Aloe barg 1 | 4.15 g | 35 mg |
| **3** | Aloe barg 2 | 3.2 g | 600 mg |
| **4** | Geran poya 1 | 11.08 g | 67 mg |
| **5** | Geran poya 2 | 15 g | 408 mg |
| **6** | Geran barg | 18.2 g | 526 mg |
| **7** | Geran ildiz | 3.5 g | 52 mg |
| **8** | Qalampir poya 1 | 15 g | 600 mg |
| **9** | Qalampir poya 2 | 28 g | 614 mg |
| **10** | Qalampir poya 3 | 20.5 g | 734 mg |
| **11** | Qalampir ildiz 1 | 1.6 g | 94 mg |
| **12** | Qalampir ildiz 2 | 8.1 g | 313 mg |
| **13** | Qalampir barg 1 | 10.6 g | 278 mg |
| **14** | Qalampir barg 2 | 14.6 g | 640 mg |

Umumiy tarzda qaraganda, **barg va poya to‘qimalaridan ajratilgan izolyatlar ildiz izolyatlariga nisbatan ko‘proq metabolit ishlab chiqargan**. Bu esa yuqorida ta’kidlanganidek, fotosintetik faol organlarda ko‘proq energiya va uglevod substratlari mavjudligi, shuningdek, endofitlarning diversifikatsiyasi uchun qulay sharoit yaratilishi bilan izohlanadi.

Natijalar avvalgi ilmiy ishlar bilan ham mos keladi. Yan va hamkorlari (2011) bodring endofitlarining yuqori metabolit hosildorligini qayd etgan bo‘lsa, Sikandar va boshqalar (2020) Penicillium chrysogenum izolyatlarining nematodlarga qarshi kuchli bioaktivlik namoyon qilishini ko‘rsatdi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, endofitlar tomonidan ishlab chiqariladigan metabolitlar tarkibi va miqdori xo‘jayin o‘simlikning biokimyoviy tabiati hamda izolyatning genetik va ekologik xususiyatlariga bog‘liq.

**Muhokama**

O‘tkazilgan tadqiqotlar aloe, geran va qalampir o‘simliklarining turli organlaridan ajratilgan endofit zamburug‘lari biomassa va metabolit ishlab chiqarish qobiliyati jihatidan sezilarli farqlanishini ko‘rsatdi. Ushbu farqlanish endofitlarning ekologik moslashuvchanligi, ularning xo‘jayin o‘simlik bilan simbioz darajasi va organlarning biokimyoviy tarkibi bilan bog‘liq.

Barg va poya izolyatlarining ildiz izolyatlariga qaraganda yuqori metabolit hosildorligiga ega bo‘lishi ushbu organlarda fotosintez mahsulotlari — uglevodlar, aminokislotalar va fenolik birikmalar — ko‘proq uchrashishi bilan

izohlanadi. Poveda (2020) endofitlarning metabolik faolligi ko‘p hollarda organlarning biokimyoviy boyligiga bevosita bog‘liq ekanini ta’kidlaydi.

Qalampir izolyatlarida qayd etilgan yuqori metabolit miqdori ushbu o‘simlikning endofitlar uchun qulay yashash muhiti yaratishini ko‘rsatadi. Qalampir to‘qimalaridagi kapsaitsin, flavonoidlar va organik kislotalar endofitlarning ikkilamchi metabolizmida induktor sifatida ishtirok etishi mumkin (Sikandar et al., 2020).

Aloe izolyatlarida metabolitlarning yuqori konsentratsiyasi aloe barglarining polisaxaridlar, antraxinonlar va o‘ziga xos himoya birikmalariga boyligi bilan izohlanadi. Aloe endofit zamburug’larining farmatsevtik ahamiyatli alkaloidlar va polifenollar sintezini kuchaytirishi bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar mavjud (Yan et al., 2021).

Geran izolyatlarining poya va barglarida ikkilamchi metabolitlarning yuqori bo‘lishi ushbu o‘simlikning efir moylari va terpenoidlariga boyligi bilan bog‘liqholda hisoblaydi. Gakuubi va hamkorlari (2021) geran endofitlarining antibakterial birikmalar ishlab chiqarishini ilmiy asosda ko‘rsatgan.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, endofit zamburug‘lar nafaqat qishloq xo‘jaligida fitonematodalarga qarshi samarali biokontrol vositasi sifatida, balki farmatsevtika sanoatida bioaktiv ikkilamchi metabolitlar manbai sifatida ham katta ahamiyatga ega. Bunda, ayniqsa, metabolitlarni ajratib olish uchun endofit zamburug’larni ozida saqlagan dorivor o’simliklarning organlarni tanlash muhim ahamiyatga ega.

Kelgusidagi tadqiqotlar quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi zarur:

- Endofit zamburug’i metabolitlarining kimyoviy tarkibini aniqlash,
- Metabolitlarning nematodlarga, patogen zamburug‘ va bakteriyalarga bundan tashqari ayrim kasalliklarga bilvosita va bevosita ta’sir faoliyatini baholash va aniqlash kerak
- Endofit zamburug’larning genetik va metabolik yo‘llarini tadqiq qilish,
- Bionematisid sifatida foydalanish uchun barqaror bioformulyatsiyalar ishlab chiqish.

Natijalar endofit zamburug‘larining ekologik xavfsiz, barqaror va iqtisodiy jihatdan samarali biotexnologik resurs ekanini yana bir bor tasdiqladi.

**Xulosa.**

Ushbu tadqiqotda qalampir (Capsicum annuum), aloe (Aloe vera) va geran (Pelargonium spp.) o‘simliklarining ildiz, poya va barg organlaridan ajratilgan endofit zamburug‘larning biomassa hosildorligi va ikkilamchi metabolit ishlab chiqarish xususiyatlari o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki:

Endofit zamburug‘larning ikkilamchi metabolit hosildorligi o‘simlik turi va organiga qarab sezilarli darajada farq qiladi.

Eng yuqori metabolit miqdori qalampir barg-2 (640 mg), aloe barg-2 (600 mg) va geran bargidan (526 mg) ajratilgan izolyatlarda qayd etildi.

Barg va poya to‘qimalaridan ajratilgan endofitlar ildizlardan ajratilganlarga nisbatan ko‘proq metabolit ishlab chiqardi.

Bu natijalar endofit zamburug‘larning fotosintetik faol organlarda ko‘proq energiya va substrat manbaiga ega ekanini ko‘rsatadi.

Olingan ma’lumotlar endofit zamburug‘larning dorivor va xo‘jalik ahamiyatiga ega o‘simliklarda biologik faol ikkilamchi metabolitlarning muhim manbai ekanini tasdiqlaydi. Ushbu izolyatlar kelgusida qishloq xo‘jaligida biokontrol vositasi sifatida, xususan fitonematodalarga qarshi kurashishda, shuningdek, farmatsevtika sanoatida bioaktiv moddalar manbai sifatida foydalanish imkoniyatini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Jones, J. T., Haegeman, A., Danchin, E. G. J., Gaur, H. S., Helder, J., Jones, M. G. K., Kikuchi, T., Manzanilla-López, R., Palomares-Rius, J. E., Wesemael, W. M. L., & Perry, R. N. (2013).

DOI: https://doi.org/10.1111/mpp.12057

2. Nicol, J. M., Turner, S. J., Coyne, D. L., den Nijs, L., Hockland, S., & Maafi, Z. T. (2011). Current nematode threats to world agriculture. In Genomics and Molecular Genetics of Plant-Nematode Interactions (pp. 21–43). Springer.

DOI: https://doi.org/10.1007/978-94-007-0434-3_2

3. Hallmann, J., Quadt-Hallmann, A., Mahaffee, W. F., & Kloepper, J. W. (1997). Bacterial endophytes in agricultural crops. Canadian Journal of Microbiology, 43(10), 895–914.

DOI: https://doi.org/10.1139/m97-131

4. Petrini, O. (1991). Fungal endophytes of tree leaves. In J. H. Andrews & S. S. Hirano (Eds.), Microbial Ecology of Leaves (pp. 179–197). Springer

DOI: https://doi.org/10.1007/978-1-4612-3168-4_9

5. Poveda, J. (2020). Biological control of plant-parasitic nematodes by fungal endophytes: mechanisms of action and prospects for use. Frontiers in Microbiology, 11, 992.

Link: https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/fmicb.2020.00992/full

6. Yan, X.-N., Sikora, R. A., & Zheng, J.-W. (2011). Potential use of cucumber (Cucumis sativus L.) endophytic fungi as seed treatment agents against root-knot nematode Meloidogyne incognita. Journal of Zhejiang University Science B, 12(3), 219–225.

Link: https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC3048937/

7. Sikandar, A., Zhang, M., Wang, Y., Zhu, X., Liu, X., Fan, H., & Xie, X. (2020). In vitro evaluation of Penicillium chrysogenum Snef1216 against Meloidogyne incognita in cucumber. Scientific Reports, 10, 8342.

DOI: https://doi.org/10.1038/s41598-020-65262-z

8. Yan, X.-N., Chairin, T., Pornsuriya, C., Soytong, K., & Hyde, K. D. (2021). Evaluation of a newly identified endophytic fungus, Trichoderma phayaoense, for plant growth promotion and biological control. Frontiers in Microbiology, 12, 661948.

Link:https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/fmicb.2021.661948/full

9. Hallmann, J., Quadt-Hallmann, A., Mahaffee, W. F., & Kloepper, J. W. (1997). Bacterial endophytes in agricultural crops. Canadian Journal of Microbiology, 43(10), 895–914.

DOI: https://doi.org/10.1139/m97-131

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**G‘ulomova G.G‘**
**Sultanov N.N**
**Amirova U.O‘**
**Karimova Z.S**
**Jalolova B.Sh**
**Yasenjiang A**
**Jabbarova D.P**
**Abdusamatov S.A**
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

## LAVANDULA ENDOFIT ZAMBURUG‘LARNI AJRATIB OLISH VA TAVSIFLASH

***Annotatsiya***. *Ushbu tadqiqotimizda biz lavanda o‘simligidan patogen zamburug‘larga qarshi faollikka ega hamda o‘simlik o‘sishini rag‘batlantiruvchi xususiyatlarga ega endofitik zamburug‘larni ajratib olish va tavsiflashni maqsad qildik. Bu tadqiqot mamlakatimizda lavanda o‘simligidan ajratib olingan endofitik zamburug‘lar bo‘yicha olib borilgan ilk tadqiqotlardan biri hisoblanadi.*

*Standart mikrobiologik usullar yordamida lavanduladan jami 9 ta endofitik zamburug‘ ajratib olindi. Barcha endofitik zamburug‘ izolatlarining ferment ishlab chiqarish qobiliyati tekshirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, izolatlarning aksariyati proteaz fermentiga nisbatan ijobiy faollikka ega bo‘lib, undan keyin lipaza va filtr qog‘ozni parchalaydigan ferment faolligi qayd etildi.*

*To‘rtta izolyat orasida LR3 izolyati tomonidan hosil qilingan endo-1,4-β-glyukanaza va ekzo-1,4-β-glyukanaza fermentlarining faolligi boshqa izolyatlarga nisbatan yuqori bo‘lib, 4,22 birlik/ml ni tashkil etdi. Keyingi yuqori faollik LS2 izolyatida qayd etilib, u mos ravishda 3,72 va 2,63 birlik/ml ni tashkil qildi. LR2 izolyatida ham ma’lum darajada endo-1,4-β-glyukanaza fermenti faolligi kuzatildi.*

*Eng yuqori fermentativ faollikka ega bo‘lgan LS2 va LR3 izolyatlari tanlab olinib, ularning patogen zamburug‘larga qarshi faolligi o‘rganildi. Endofitlarning kultural suyuqliklarining antifungal xususiyatlari tekshirilganda, Fusarium oxysporum o‘simlik patogeniga nisbatan sezilarli faollik kuzatilmadi. Biroq endofitlarning deyarli 80 % kultural suyuqliklari Verticillium dahliae va Fusarium ning boshqa turlariga mansub o‘simlik patogenlariga nisbatan turli darajada faollik ko‘rsatdi.*

*Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, endofitik zamburug‘lar lavandula o‘simligi o‘sishini rag‘batlantiruvchi xususiyatga ega bo‘lib, ularni barqaror dorivor lavandula yetishtirishda inokulyatsiya vositasi sifatida qo‘llash mumkin.*

**G‘ulomova G.G‘**
**Sultanov N.N**
**Amirova U.O‘**
**Karimova Z.S**
**Jalolova B.Sh**
**Yasenjiang A**
**Jabbarova D.P**
**Abdusamatov S.A**
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

## LAVANDULA ENDOFIT ZAMBURUG‘LARNI AJRATIB OLISH VA TAVSIFLASH

***Abstract.*** *In this study, we aimed to isolate and characterize endophytic fungi from lavender plants with anti-pathogenic and plant growth-promoting properties. This study is one of the first studies conducted in our country on endophytic fungi isolated from lavender plants.*

*A total of 9 endophytic fungi were isolated from Lavandula using standard microbiological methods. The enzyme production ability of all endophytic fungal isolates was examined. The results of the study showed that most of the isolates had positive activity against protease enzyme, followed by lipase and filter paper degrading enzyme activity.*

*Among the four isolates, the activity of endo-1,4-β-glucanase and exo-1,4-β-glucanase enzymes produced by isolate LR3 was higher than that of other isolates and was 4.22 units/ml. The next highest activity was recorded in the LS2 isolate, which was 3.72 and 2.63 units/ml, respectively. Some endo-1,4-β-glucanase enzyme activity was also observed in the LR2 isolate.*

*The isolates LS2 and LR3 with the highest enzymatic activity were selected and their activity against pathogenic fungi was studied. When the antifungal properties of the culture fluids of endophytes were tested, no significant activity was observed against the plant pathogen Fusarium oxysporum. However, almost 80% of the culture fluids of endophytes showed varying degrees of activity against plant pathogens belonging to Verticillium dahliae and other species of Fusarium.*

*The results obtained indicate that endophytic fungi have the property of stimulating the growth of the Lavandula plant and can be used as an inoculation medium in the cultivation of stable medicinal Lavandula.*

**Гуломова Г.Г**
**Султанов Н.Н**
**Амирова Ю.О**
**Каримова З.С**
**Джалолова Б.Ш**
**Ясенцзян А**
**Джаббаров Д.П**
**Абдусаматов С.А**
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, Ташкент, Узбекистан

**ISOLATION AND CHARACTERIZATION OF LAVENDER ENDOPHYTE FUNGI**

***Аннотация.*** *В данном исследовании мы поставили перед собой цель выделить и охарактеризовать эндофитные грибы из растений лаванды, обладающие антипатогенными и стимулирующими рост растений свойствами. Это исследование является одним из первых, проведенных в нашей стране, посвященных эндофитным грибам, выделенным из растений лаванды.*

*Всего из растений лаванды было выделено 9 эндофитных грибов с использованием стандартных микробиологических методов. Была изучена способность всех выделенных эндофитных грибов к продуцированию ферментов. Результаты исследования показали, что большинство изолятов обладали положительной активностью в отношении протеазы, за которой следовали липаза и фермент, разлагающий фильтровальную бумагу.*

*Среди четырех изолятов активность эндо-1,4-β-глюканазы и экзо-1,4-β-глюканазы, продуцируемая изолятом LR3, была выше, чем у других изолятов, и составляла 4,22 ед/мл. Следующая по величине активность была зафиксирована у изолята LS2, которая составляла 3,72 и 2,63 ед/мл соответственно. В изоляте LR2 также наблюдалась некоторая активность фермента эндо-1,4-β-глюканазы.*

*Были отобраны изоляты LS2 и LR3 с самой высокой ферментативной активностью, и изучена их активность против патогенных грибов. При тестировании противогрибковых свойств культуральных жидкостей эндофитов не было обнаружено значительной активности против фитопатогена Fusarium oxysporum. Однако почти 80% культуральных жидкостей эндофитов показали различную степень активности против фитопатогенов, относящихся к Verticillium dahliae и другим видам Fusarium.*

*Полученные результаты указывают на то, что эндофитные грибы обладают свойством стимулировать рост растения Lavandula и могут быть использованы в качестве инокуляционной среды при выращивании устойчивых лекарственных растений Lavandula.*

## Kirish

Dorivor o‘simliklar tarkibida tibbiyotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan bioaktiv ikkilamchi metabolitlarning mavjudligi tufayli ko‘plab tadqiqotchilarning e’tiborini tortmoqda. Lavanda *Lamiaceae* oilasiga mansub o‘simlik turi bo‘lib, o‘simliklar dunyosida katta iqtisodiy ahamiyatga ega va farmatsevtika hamda oziq-ovqat sanoatida foydalanish maqsadida keng miqyosda yetishtiriladigan ko‘plab o‘t va butalarni o‘z ichiga oladi (Hernandez-Leon et al., 2021; Uritu C. M. et al., 2018). Shunday o‘simliklardan biri lavanda hisoblanadi.

Lavandaning an’anaviy tibbiyotda turli kasalliklarni davolashda qo‘llanilishi ko‘plab manbalarda qayd etilgan. Jumladan, u turli yaralar, yurak xastaliklari, shamollash, qorin og‘rig‘i va nafas yo‘llari yallig‘lanishlarini davolashda ishlatiladi (Batiha et al., 2023). Lavandalarning efir moylarini distillatsiya qilish natijasida hosil bo‘lgan qattiq qoldiqdan ajratib olingan fenolik birikmalar antibakterial va antioksidant xossalarga ega ekanligi aniqlangan (Vasileva et al., 2018).

Biroq, tabiiy sharoitda o‘sadigan lavanda o‘simligining endofitik zamburug‘lari haqida ma’lumotlar deyarli mavjud emas. Shu bois, lavanduladan endofitik zamburug‘larni ajratib olish, ularning biologik xilma-xilligini baholash hamda o‘simlik o‘sishini rag‘batlantiruvchi (PGP) agentlar sifatidagi salohiyatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Endofit zamburug‘lar o‘simlik hayotida muhim o‘rin tutib, moddalar almashinuvida hal qiluvchi rol o‘ynaydi hamda biotexnologik ahamiyatga ega bo‘lgan bioaktiv birikmalarni ishlab chiqarish qobiliyatiga ega. Ushbu tadqiqotda Lavandula o‘simligida uchraydigan endofitik zamburug‘lar tavsiflangan. Lavandula qadim zamonlardan buyon o‘zining dorivor xususiyatlari bilan mashhur bo‘lib, dorivor o‘simliklarda biofaol metabolitlarning ishlab chiqarilishi ko‘pincha endofit mikroorganizmlar faoliyati bilan bevosita bog‘liq ekanligi, shuningdek PGPR ta’siri orqali ham kuchayishi mumkinligi ko‘rsatilgan (Vârban et al., 2022).

Lavandaning yuqorida keltirilgan xususiyatlari ushbu o‘simlik bilan bog‘liq endofit zamburug‘lar fitopatogen zamburug‘lardan himoya qilish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Biroq, lavandaning endofitik zamburug‘lari, ayniqsa ularning antifungal xususiyatlari bo‘yicha ma’lumotlar yetarli emas. Ko‘plab ilmiy adabiyotlarda tabiiy sharoitda tarqalgan dorivor o‘simliklar turli xil fitopatogen zamburug‘larni nazorat qilish va ingibirlash xususiyatiga ega metabolitlar ishlab chiqaruvchi endofit zamburug‘lar manbai ekanligi qayd etilgan (Onsare et al., 2013).

O‘simlik hosildorligini oshirish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish maqsadida kimyoviy o‘g‘itlardan uzoq muddatli foydalanishni almashtiruvchi tabiiy qishloq xo‘jaligi strategiyalarini joriy etish zarur (Soliman et al., 2020). Endofit zamburug‘lar o‘simlik to‘qimalarining ichki yoki hujayralararo bo‘shliqlarida yashab, hech qanday kasallik belgilari namoyon qilmaydi. Ular o‘simlik o‘sishini rag‘batlantirish uchun turli funksiyalarni bajaradi, jumladan fitostimulyatsiya, bionazorat va biofertilizatsiya (Eid A. M. et al., 2019). Bundan tashqari, endofit zamburug‘lar azot fiksatsiyasi, ammiak ishlab chiqarish, erimaydigan fosfatlarni eritish hamda sellyulaza, amilaza, lipaza, ureaza va proteaza kabi fermentlarni sintez qilish orqali o‘simlik o‘sishiga bevosita yordam beradi (Hassan, 2017; El-Esawi M. A. et al., 2019; Kondrasheva K. et al., 2022). Shuningdek, ular o‘simliklarni patogen mikroorganizmlardan himoya qiladi (Jabborova D. et al., 2020).

Nthuku va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda lavandadan fitopatogen zamburug‘larga qarshi kuchli faollikka ega endofit zamburug‘lar ajratib olingan. Bundan tashqari, antagonist zamburug‘ izolyatlarining endo-β-1,3-glyukanaza va ekzo-β-1,3-glyukanaza fermentlarini ishlab chiqarish faolligi aniqlangan (Nthuku B. M. et al., 2023). Ushbu tadqiqotlar lavandaning endofit zamburug‘lari hali yetarlicha o‘rganilmaganligini va bu yo‘nalishda qo‘shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

**2. Materiallar va metodlar**

**2.1 Endofit zamburug‘larni ajratib olish**

Endofit zamburug‘larni ajratib olish uchun Lavandula o‘simligi O‘zbekiston Respublikasining Toshkent viloyati, Chotqol qo‘riqxonasidan yig‘ib kelindi. Lavandula o‘simligining turli qismlaridan, jumladan ildizi, poyasi va barglaridan endofit zamburug‘lar ajratib olindi.

O‘simlik namunalari yig‘ilgandan so‘ng bir soat ichida laboratoriyaga olib kelindi. Ularga yopishib qolgan rizosfera va epifit mikroorganizmlarni olib tashlash maqsadida namunalarning tashqi yuzasi 10–15 daqiqa davomida oqib turgan suvda yuvildi, so‘ngra havoda quritildi va ildiz, poya hamda barg qismlariga ajratildi.

Ajratilgan o‘simlik ildizi, poyasi va barglari alohida-alohida 1 grammdan tarozida tortildi. Tortilgan namunalar steril distillangan suvga botirilib, so‘ng quritildi. Namunalarning tashqi yuzasi quyidagi tartibda sterilizatsiya qilindi: avval 70 % etanolga 1 daqiqa davomida botirildi, shundan so‘ng poya va barg namunalari 4 % natriy gipoxlorit eritmasida 3 daqiqa, ildiz namunalari esa 2 % natriy gipoxlorit eritmasida 10 daqiqa davomida sterilizatsiya qilindi. Keyin namunalarning yuzasi steril distillangan suvda besh marta yuvildi.

Sterilizatsiyadan so‘ng namunalar steril filtr qog‘ozi yordamida yaxshilab quritildi. Ildiz va poya qismlari bo‘laklarga bo‘linib, Petri chashkalariga joylashtirildi. Barg namunalari esa hovonchada maydalandi. Maydalangan barglardan ketma-ket suyultirish usuli orqali $10^{-3}$ suyultirishgacha tayyorlandi. Har bir suyultirilgan namunadan 100 µl dan Petri idishlariga quyilib, alohida Chapek, KDA va Saburo ozuqa muhitlariga ekildi. Har bir namuna uch nusxada ekildi.

Endofit zamburug‘larni ajratib olish uchun ekmalar 25 °C haroratda 3–7 kun davomida inkubatsiya qilindi. Hosil bo‘lgan endofit zamburug‘ koloniyalari tanlab olinib, sof klonlarni ajratish maqsadida uch xil ozuqa muhitiga qayta ekildi (Toppo et al., 2024).

**2.2 Ajratilgan zamburug‘larning fosfat mobilizatsiya qilish faolligini aniqlash**

Ajratib olingan endofit zamburug‘larning fosfat mobilizatsiya qilish xususiyatini aniqlash uchun izolyatlar Pikovskaya agar ozuqa muhitida tekshirildi. Pikovskaya ozuqa muhitining tarkibi (g/L): achitqi ekstrakti — 0,5; $Ca_3(PO_4)_2$ — 5,0; $(NH_4)_2SO_4$ — 0,5; KCl — 0,2; $MgSO_4$ — 0,1; $MnSO_4$ — 0,0001; $FeSO_4$ — 0,0001; agar-agar — 15,0; pH — 7,0. Indikator sifatida 0,04 % bromokrezol purple qo‘llanildi (Pikovskaya, 1948).

Indikator qo‘shilgan ozuqa muhiti Petri idishlariga quyildi va sof holatdagi izolyatlar ekildi. Ekmalar 28 ± 2 °C haroratda 1 hafta davomida inkubatsiya qilinib, kuzatib borildi. Barcha inokulyatsiyalar uch nusxada amalga oshirildi. Fosforni o‘zlashtirish xususiyatiga ega mikroorganizmlar tomonidan fosfat tuzlarini erituvchi fermentlar ishlab chiqarilishi natijasida ozuqa muhiti pH qiymati o‘zgarib, rang almashinuvi va izolyat atrofida halqa hosil bo‘lishi kuzatildi. Izolyatlarning faolligi hosil bo‘lgan halqa diametriga qarab baholandi (Nipuni Mayadunna et al., 2023).

2.3. Faol izolyatlarning fitogormonlar ishlab chiqarish xususiyati

Gibberellin kislotasi miqdorini aniqlash shtammlar suyuq Chapek ozuqa muhitida 25 °C haroratda, 200 aylanish/minut tezlikdagi chayqatgichda bir marta o‘stirildi. Mikromitsetlarning kultural suyuqligida gibberellin kislotasi (GK) miqdori o‘stirishning birinchi kunidan boshlab 7 kun davomida aniqlandi. Tadqiqot Muromtsev va Nestyuk usuli asosida amalga oshirildi (Muromtsev et al., 1960).

10 ml hajmli probirkalarga filtrlangan kultural suyuqlikdan 1,0 ml olinib, unga 1,0 ml Folin–Ciocalteu reaktivi (100 g $Na_2WO_4$ + 25 g $Na_2MoO_4$ + 700 ml suv + 50 ml 85 % $H_3PO_4$ + 100 ml konsentrlangan HCl + 150 g $Li_2SO_4$ + 2–3 tomchi Br) va HCl qo‘shildi. Aralashma yaxshilab chayqatilib, 40 daqiqa davomida qorong‘i joyda saqlandi. GK mavjud bo‘lgan namunalar och va to‘q yashil rangga kirib, ularning optik zichligi 750 nm to‘lqin uzunligida spektrofotometr yordamida aniqlandi (Turayeva et al., 2021).

Indolil-3-sirka kislotasi miqdorini aniqlash. Endofit zamburug‘lar 25 °C haroratda 72 soat davomida tegishli ozuqa muhitlarida o‘stirildi. To‘liq o‘sgan izolyatlar 3000 aylanish/minut tezlikda 30 daqiqa davomida sentrifugadan o‘tkazildi. So‘ng 10 ml hajmli probirkalarga supernatant qismdan 1,0 ml olinib, unga 8,0 ml Salkovskiy reaktivi (50 ml 35 % $H_2SO_4$ va 1 ml 0,5 M $FeCl_3$ eritmasi aralashmasi) qo‘shildi va yaxshilab aralashtirildi.

Reaksion aralashma 30 daqiqa davomida saqlandi. Namunalar qizil-pushti rangga kirib, tarkibidagi indolil-3-sirka kislotasi (ISK) miqdori 540 nm to‘lqin uzunligida spektrofotometr yordamida aniqlandi (Kondrasheva et al., 2022).

2.4. Siderofor ishlab chiqarish xususiyati

Ajratib olingan endofit zamburug‘larning siderofor ishlab chiqarish xususiyati Schwyn va Neilands usuli asosida aniqlandi. Ushbu protokolga muvofiq tayyorlangan Chrome Azurol S (CAS) qattiq ozuqa muhiti Petri idishlariga quyildi. Endofit zamburug‘larning 1 haftalik mitseliylaridan diametri 4 mm bo‘lgan disklar kesib olinib, CAS ozuqa muhitiga ekildi (Schwyn et al., 1987).

Ekmalar 30 °C haroratda, qorong‘i sharoitda 5–7 kun davomida inkubatsiya qilindi. Inkubatsiya muddati yakunlangach, zamburug‘larning siderofor ishlab chiqarish xususiyati baholandi. Baholash ko‘k rangli ozuqa muhitida zamburug‘ disklari atrofida rangsiz yoki boshqa rangdagi zona hosil bo‘lishi orqali amalga oshirildi va hosil bo‘lgan zonaning diametri o‘lchandi.

2.5. Lipaza ishlab chiqarish

Endofit zamburug‘lar turli pH qiymatlarida va turli harorat sharoitlarida 7 kun davomida suyuq ozuqa muhitida o‘stirildi. O‘stirishdan so‘ng kultural suyuqlik 3000 aylanish/minut tezlikda 10 daqiqa davomida sentrifuga qilindi. Olingan supernatantda lipaza fermenti faolligi Winkler va Stuckmann (1979) usuli asosida aniqlanib, substrat sifatida *p*-nitrofenil palmitat (pNPP) dan foydalanildi (Winkler et al., 1979).

Substrat eritmasini tayyorlash uchun A eritmaning 1 ml (10 ml izopropanolda 30 mg pNPP eritilgan) miqdori B eritmaning 9 ml ga (0,05 M fosfat buferi, pH 8,0; tarkibida 207 mg natriy deoksixolat va 100 mg gum arabik bo‘lgan) qo‘shildi. Substrat eritmasi 37 °C gacha qizdirildi. So‘ngra 15–20 ml hajmli probirkalarga 2 ml substrat eritmasi va 1 ml ferment ekstrakti qo‘shildi. Aralashma suv hammomida 37 °C da 15 daqiqa inkubatsiya qilindi. Inkubatsiyadan so‘ng optik zichlik 410 nm to‘lqin uzunligida spektrofotometr yordamida aniqlandi.

Ferment faolligining bir birligi (U) 1 daqiqa davomida 1,0 μmol *p*-nitrofenol ajratib chiqarishga qodir bo‘lgan ferment miqdori sifatida qabul qilindi. Standart egri chiziq *p*-nitrofenol yordamida tuzildi.

2.6. Proteaza ishlab chiqarish

Endofit zamburug‘larning proteaza ferment faolligini sifat jihatdan baholash uchun steril yog‘siz sutli agar ozuqa muhitidan foydalanildi. Ozuqa muhiti tarkibi (g/L): kazeinning pankreatik hazmi — 5,0; xamirturush ekstrakti — 2,5; glyukoza — 1,0; agar — 15,0; distillangan suv — 1000 ml va 7 % yog‘siz sut (induktor).

Izolyatlar 28 °C haroratda 48 soat davomida inkubatsiya qilindi. Inkubatsiyadan so‘ng petrilarda koloniyalar atrofida rangsiz zonalarning hosil bo‘lishi proteaza fermenti faolligining ko‘rsatkichi sifatida baholandi (Malleswari et al., 2013).

2.7. Sellulaza ishlab chiqarish

Izolyatlarning sellulozani parchalash qobiliyatini aniqlash uchun selluloza–Kongo qizil agar ozuqa muhitidan foydalanildi. Muhit pH qiymati 6,8 ga sozlandi. Petrilar 30 °C haroratda 48 soat davomida inkubatsiya qilindi. Inkubatsiyadan so‘ng koloniyalar atrofida va tagida hosil bo‘lgan tozalangan zonalar fermentativ selluloza parchalanishining indikatori sifatida baholandi (Gupta et al., 2012).

Sellyulolitik fermentlarning faolligi tegishli substratlar (Na-KMTS, filtr qog‘ozi, sellobioza) bilan o‘zaro ta’siri natijasida hosil bo‘lgan qaytariluvchi qandlar miqdorini o‘lchash orqali Mandels va Weber usuli bo‘yicha aniqlandi (Mandels et al., 1969).

Probirkalarga substrat va ferment (kultural suyuqlik) aralashmasi solinib, 50 °C haroratda suv hammomida inkubatsiya qilindi. So‘ngra aralashmaga 1,0 ml Shomodi reaktivi qo‘shilib, 20 daqiqa davomida qaynab turgan suv hammomida ushlab turildi. Keyin sovuq suvda sovitilib, 1,0 ml Nelson reaktivi qo‘shildi va yaxshilab aralashtirildi. Har bir namuna 25 ml hajmli o‘lchov kolbasiga ko‘chirilib, distillangan suv bilan belgilangan hajmgacha yetkazildi. Nazorat sifatida 0,1 M natriy atsetat buferi (pH 5,5) ishlatildi.

Qaytariluvchi moddalarning optik zichligi SPEKOL 1300 spektrofotometrida 530 nm to‘lqin uzunligida o‘lchandi. Qaytariluvchi qandlar konsentratsiyasi glyukoza bo‘yicha tuzilgan kalibrlovchi grafik asosida aniqlandi. Sellyulaza fermenti faolligining bir birligi tajriba sharoitida 1 mg glyukozaga ekvivalent qaytariluvchi modda hosil bo‘lishiga ta’sir etuvchi ferment miqdori sifatida qabul qilindi.

2.8. Antifungal faollikni aniqlash

Endofit zamburug‘ izolyatlarining zamburug‘larga qarshi faolligi keng tarqalgan fitopatogen zamburug‘lar — *Fusarium moniliforme*, *Fusarium oxysporum*, *Fusarium vasinfectum* va *Verticillium dahliae* ga nisbatan in vitro sharoitida o‘rganildi.

Endofit zamburug‘lar 10 kun davomida suyuq PDA ozuqa muhitida o‘stirilib, so‘ng 2500 aylanish/minut tezlikda 5 daqiqa sentrifuga qilindi va supernatant qismi ajratib olindi. Fitopatogen zamburug‘lar 28 °C haroratda 5 kun davomida, nazorat petrilarini to‘liq egallaguncha inkubatsiya qilindi.

Zamburug‘larga qarshi faollik fitopatogen zamburug‘larning o‘sishini ingibirlovchi zonaning kengligi asosida baholandi (Abro et al., 2019).

**3. Natijalar**

**3.1. Endofit zamburug‘larni ajratib olish**

O‘simliklar va endofit mikroorganizmlar o‘rtasida keng ko‘lamli o‘zaro aloqalar mavjud. O‘simliklar bilan bog‘liq zamburug‘lar fillosferada (epifitlar) hamda o‘simlik to‘qimalarida (endofitlar) keng tarqalgan.

Endofit mikroorganizmlar asosan o‘simliklarning barglari, poyalari va ildizlaridan ajratib olinadi. Endofitlar istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi, chunki ular o‘simlik hayotining ajralmas qismi bo‘lib, o‘simlik uchun bir qator foydali ta’sirlarni ko‘rsatadi. Ayniqsa dorivor o‘simliklarning endofit zamburug‘larini ajratib olishda, tanlangan o‘simliklarning biologik va farmakologik xususiyatlariga alohida e’tibor qaratish lozim.

Mazkur tadqiqotda avval dorivor o‘simliklarning antibakterial faolligi o‘rganilib, yuqori antibakterial faollikka ega bo‘lgan o‘simliklardan endofit zamburug‘lar ajratib olindi. Tadqiqot obyekti sifatida mamlakatimiz hududida o‘suvchi dorivor xususiyatga ega *Lavandula* o‘simligi tanlab olindi. Ushbu o‘simlik endofit zamburug‘larga boy bo‘lib, umumiy hisobda barglaridan 4 ta, poyalaridan 2 ta va ildizlaridan 3 ta, jami 9 ta endofit izolyat ajratib olindi.

Ajratib olingan izolyatlarning fitopatogen zamburug‘larni nazorat qilish, indolil sirka kislota (IAA), sitokininlar va gibberellin kislota kabi fitogormonlarni sintezlash, shuningdek fosfatlarni eritish, ozuqa moddalari aylanishida ishtirok etish va bioaktiv metabolitlar sekretsiyasi orqali o‘simliklarning o‘sishini rag‘batlantirish xususiyatlari o‘rganildi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, mazkur ish O‘zbekistonda *Lavandula* o‘simligining o‘sish ko‘rsatkichlarini yaxshilashda endofit zamburug‘larning o‘simlik o‘sishini rag‘batlantiruvchi xususiyatlarini tavsiflash va o‘rganishga bag‘ishlangan dastlabki ilmiy ma’lumotlardan biri hisoblanadi.

**3.2. Faol izolyatlarning fitogormonlar ishlab chiqarishi**

Faol endofit zamburug‘ izolyatlari Chapek ozuqa muhitida o‘stirilib, ularning gibberellin kislota (GK) va indolil sirka kislota (IAA) hosil qilish qobiliyati o‘rganildi. Zamburug‘larning o‘sish dinamikasi fitogormonlar faolligi va ularning miqdoriga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

O‘rganilayotgan shtammlarning maksimal miqdorda GK va IAA hosil qilishini aniqlash maqsadida zamburug‘lar 7 kun davomida suyuq ozuqa muhitida o‘stirildi. Tadqiqot jarayonida uglevod manbai sifatida sellyuloza va saxarozaning konsentratsiyasi ortishi bilan fitogormonlar sintezining oshishi kuzatildi.

O‘rganilgan izolyatlar orasida eng yuqori fitogormonlar sintezi 1 % saxaroza va 2 % sellyuloza qo‘shilgan ozuqa muhitlarida qayd etildi. Jumladan, LS2 va LR3 izolyatlari tomonidan sintez qilingan IAA miqdori nazoratga nisbatan mos ravishda 4,1 va 4,5 marta, gibberellin kislota miqdori esa 4,4 va 4,9 marta yuqori ekanligi aniqlandi. Qolgan izolyatlar ham nazorat variantiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon etdi (1-jadval).

LR3 izolyati tomonidan indolil sirka kislota eng yuqori miqdorda 5- va 6-kunlarda sintez qilinib, mos ravishda 1,224 va 1,402 mg/ml ni tashkil etdi. Nazorat variantida ham shunga o‘xshash tendensiya kuzatilib, IAA miqdori 5-kunda 0,596 mg/ml va 7-kunda 0,632 mg/ml ga teng bo‘ldi. Tajribaning keyingi kunlarida har ikkala variantda ham indolil sirka kislota miqdorining pasayishi qayd etildi (1-rasm).

1-rasm.

Ajratib olingan izolyatlarni IAA ani GA sentizlash миқдори




### 3.3. Endofit zamburug‘larining fosfat mobilizatsiya qilish xususiyatini o‘rganish

Fosfor o‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligi uchun zarur bo‘lgan asosiy ozuqa elementlaridan biridir. Global dehqonchilik amaliyotida sintetik fosforli o‘g‘itlardan foydalanish tobora ortib bormoqda, biroq fosforning o‘simliklar tomonidan o‘zlashtirilishi ko‘p jihatdan tuproqdagi mikrobial jamoalarning faolligiga bog‘liq. Ayniqsa, zamburug‘lar erimaydigan fosfat birikmalarini eriydigan shaklga o‘tkazish va ularni mineralizatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Fosforni erituvchi zamburug‘lar tuproqdagi umumiy zamburug‘lar populyatsiyasining taxminan 0,1–0,5 % ini tashkil etadi. Ular orasida endofit zamburug‘lar fosfatni o‘zlashtirish jarayonida alohida ahamiyatga ega. Shu sababli ushbu tadqiqotda ajratib olingan endofit zamburug‘larning tuproqdagi erimaydigan fosfor (P) birikmalarini eritish qobiliyati *in vitro* sharoitda o‘rganildi.

Olingan natijalarga ko‘ra (1-rasm), ajratib olingan 9 ta izolyatdan 33,3 % i, ya’ni LS2, LR1, LR2 va LR3 endofit izolyatlari turli darajada fosfat eritish faolligini namoyon etdi. Ushbu izolyatlar tomonidan hosil qilingan faollik zonalari diametri mos ravishda 19 mm, 12 mm, 9 mm va 20 mm ni tashkil etdi. Izolyatlar orasida eng yuqori fosfat eritish ko‘rsatkichlari LS2 va LR3 endofitlarida qayd etildi (2-rasm).







**2-rasm. Endofitlarning fosfat mobilizatsiya qilish xususiyatlari**

Endofitik zamburug‘larning siderofor ishlab chiqarish qobiliyatini aniqlash maqsadida ular CAS (Chrome Azurol S) ozuqa muhitiga ekildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, endofit zamburug‘ izolyatlarining 66 % ida siderofor ishlab chiqarish faolligi aniqlangan (1-jadval). Endofitik zamburug‘lar orasida eng yuqori siderofor ishlab chiqarish faolligi LS2 va LR3 izolyatlarida kuzatildi.

1-jadval

**Ajratilgan zamburug‘ izolyatlarining o‘simliklarning ta’siri**

| Izolyatlar | O‘simlik o‘sishini rag‘batlantiruvchi xususiyat | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| LS1 | + | + | - | + | + | - |
| LS2 | ++ | ++ | ++ | + | ++ | + |
| LL1 | - | + | - | - | - | + |
| LL2 | + | + | + | - | + | - |
| LL3 | - | + | - | + | - | - |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| LL4 | - | - | + | + | + | - |
| LR1 | + | + | + | ++ | + | - |
| LR2 | + | + | + | + | ++ | + |
| LR3 | ++ | ++ | ++ | ++ | ++ | ++ |

3.5 Lipaza ishlab chiqarish

Endofit zamburug‘lar tomonidan lipaza fermenti ishlab chiqarilishi uchun qulay sharoitlarni aniqlash maqsadida harorat va pH ning ferment sinteziga ta’siri baholandi. Buning uchun faol uchta izolyat suyuq *tomato juice* va Czapek DOX ozuqa muhitlarida o‘stirildi hamda ularning fermentativ faolligi taqqoslandi. Natijada, *tomato juice* ozuqa muhitida o‘stirilgan izolyatlarning lipaza faolligi Czapek DOX muhitiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Bu holat *tomato juice* ozuqa muhitining askorbin kislotasi, kaliy, foliy kislotasi, fenolik birikmalar va likopen kabi karotinoidlarga boyligi bilan izohlanadi (Rattanavipanon et al., 2021; Oliveira et al., 2021).

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, endofit zamburug‘lar *tomato juice* ozuqa muhitida o‘stirilganda lipaza ishlab chiqarish uchun optimal harorat va pH qiymatlari aniqlandi. Harorat 25 °C dan past va 35 ± 2 °C dan yuqori bo‘lganda lipaza faolligining pasayishi kuzatildi. Aksincha, 28 ± 2 °C haroratda lipaza sintezi sezilarli darajada yuqori bo‘ldi (2-jadval).

2-jadval

**Tanlab olingan endofitik zamburug‘larni lipaza ishlab chiqarishga, harorat va pH qiymatining tasiri.**

| № | T (°C) | pH | Izolyatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | LS2 | LR2 | LR3 |
| | | | EA (U/mL) | | |
| 1 | 25 | 5 | 99.53±4.82 | 125.3±7,15 | 112.4±6,97 |
| 2 | 28 | 5 | 107.2±7,62 | 456.1±26,91 | 498.6±31,92 |
| 3 | 35 | 5 | 21.8±1,55 | 37.2±2,83 | 56.3±3,83 |
| 4 | 25 | 6 | 724.3±41,28 | 987.64±51,36 | 1,745.7±107,36 |
| 5 | 28 | 6 | 1,812.3±70,68 | 2,489.2±107,03 | 2,627.9±73,58 |
| 6 | 35 | 6 | 72.3±5,78 | 89.7±6,09 | 98.36±6,28 |
| 7 | 25 | 7 | 668.6±44,79 | 825.4±48,71 | 812.3±57,68 |
| 8 | 28 | 7 | 1,781.1±76,58 | 2,824.7±107,34 | 2,713.1±124,81 |
| 9 | 35 | 7 | 193.7±11,05 | 463.2±31,88 | 494.8±36,13 |

3.6. Sellyulolitik fermentlarning faolligi

Ajratib olingan barcha endofit zamburug‘lar orasida, ayniqsa to‘rtta izolyat filtr qog‘ozni parchalay olish qobiliyati bilan ajralib turdi. Tajriba natijalariga ko‘ra, filtr qog‘ozni eng faol parchalay olgan LR3 izolyati endo-1,4-β-glyukanaza va ekzo-1,4-β-glyukanaza fermentlarining faolligi mos ravishda 4,22 va 3,12 birlik/ml ni tashkil qilib, eng yuqori ko‘rsatkichni namoyon etdi. Keyingi faollik LS2 izolyatida kuzatilib, endo- va ekzo-glyukanaza fermentlari faolligi mos ravishda 3,72 va 2,63 birlik/ml ni tashkil etdi. LR2 izolyatida ham endo-1,4-β-glyukanaza fermentining ma’lum darajada faolligi aniqlangan (3-rasm).




3-rasm Ajratilgan izolyatlar tomonidan hosil qilingan sellulaza fermentlarining faolligi

Shunday qilib, olingan natijalar LR2 va LR3 izolyatlari tomonidan eng faol sellyulolitik fermentlar sintezlanishi va ular tomonidan substratning katta miqdorda shakar moddasiga aylantirilishini ko‘rsatdi.

**3.7 ajratib olingan izolyatlarni patogen zamburug‘larga qarshi faolligi**

Endofitlar steroidlar, xinonlar, alkaloidlar, terpenoidlar, izokumarin hosilalari, flavonoidlar, fenollar, fenolik kislotalar va peptidlar kabi antifungal metabolitlarni ishlab chiqaradi. Shu sababli tadqiqotimizning navbatdagi tajribalarida galotolerant endofitlarning antifungal xususiyatlari o‘rganildi. Dastavval, endofit zamburug‘lar suyuq ozuqa muhitida 10 kun davomida o‘stirildi, shundan so‘ng biomassasi kultural suyuqlikdan sentrifuga yordamida ajratib olindi. Keyinchalik, endofit ekstraktlari va kultural suyuqliklari o‘simlik patogenlari — *Fusarium solani*, *Fusarium moniliforme*, *Fusarium oxysporum*, *Fusarium vasinfectum* va *Verticillium dahliae* ga nisbatan antifungal faolligi tekshirildi (4-rasm).




**4-rasm.** Endofitlarning kultural suyuqligining antifungal xususiyatlari

Ushbu rasmdan ma’lum bo‘lishicha, endofitlarning kultural suyuqliklari antifungal xususiyati o‘rganilganda Fusarium oxysporum o‘simlik patogeniga nisbatan faollik unchalik sezilmagan. Deyarli 80% endofitlarning kultural suyuqliklari esa Verticillium dahliae va Fusariumning boshqa turlariga nisbatan turli darajada antifungal faollik ko‘rsatdi.

Xulosa

Tadqiqot davomida Lavandula o‘simligidan to‘qqizta endofitik zamburug‘ izolyati ajratib olindi. Ushbu zamburug‘lar o‘simlik o‘sishini rag‘batlantirishga qaratilgan turli qobiliyatlarni namoyon qildi, jumladan: fosfatni eruvchan holga keltirish, IAA va GA sintezi, sideroforlar, proteaza, lipaza va sellulaza ishlab chiqarish.

Ajratilgan izolyatlardan faqat to‘rttasi (LS2, LR1, LR2 va LR3) fosfatni eruvchan qilish hamda IAA, siderofor, lipaza, proteaza va sellulaza ishlab chiqarishda boshqa izolyatlarga nisbatan yuqori faollik ko‘rsatdi. Barcha zamburug‘ izolyatlari, shuningdek, Fusarium solani, Fusarium moniliforme, Fusarium oxysporum, Fusarium vasinfectum va Verticillium dahliae kabi patogen zamburug‘ shtammlariga qarshi turli darajada faoliyat namoyon etdi. Izolyatlar orasida LS2 va LR3 bir nechta patogen zamburug‘lariga nisbatan eng yuqori antifungal faollik ko‘rsatdi.

Ushbu tadqiqot kelajakda o‘simlik o‘sishini rag‘batlantiruvchi endofitik zamburug‘ izolyatlari (LS2, LR1, LR2 va LR3) yordamida ekologik toza bioo‘g‘itlar ishlab chiqish, lavanda hosildorligini oshirish va o‘simliklarning noqulay sharoitga moslashishini yaxshilash bo‘yicha istiqbolli ma’lumotlarni taqdim etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Varban, R., Vidican, R., Vârban, D., Stoie, A., Gâdea, Ş., Vâtcă, S., Stoian, V. Modelling plant morphometric parameters as predictors for successful cultivation of some medicinal Agastache species //Notulae Botanicae Horti Agrobotanici Cluj-Napoca. – 2022. – T. 50. – №. 1. – C. 12638-12638.

2. Kondrasheva, K. V., Egamberdiev, F. B., Suyarova, R. A., Ruzieva, D. M., Nasmetova, S. M., Abdulmyanova, L. A., Gulyamova, T. G. Production of indole-3-acetic acid by endophytic fungi of halophyte plants under salt stress //IOP Conference Series: Earth and Environmental science. – IOP Publishing, 2022. – T. 1068. – №. 1. – C. 012040..

3. Turaeva, B. I., Soliev, A. B., Karimov, H. K., Azimova, N. S., Kutlieva, G. J., Khamidova, K. M., & Zuxritdinova, N. Y. Disease causing phytopathogenic micromycetes in citrus in Uzbekistan //Pakistan Journal of Phytopathology. – 2021. – T. 33. – №. 2. – C. 383-393.

4. Muromtsev GS, Nestyuk MN. Quantitative colorimetric determination of gibberellic acid. Bull Agric Sci. 1960;2:119-22

5. Toppo, P., Jangir, P., Mehra, N., Kapoor, R., & Mathur, P. Bioprospecting of endophytic fungi from medicinal plant Anisomeles indica L. for their diverse role in agricultural and industrial sectors //Scientific Reports. – 2024. – T. 14. – №. 1. – C. 588.

6. Prabha Toppo; Pooja Jangir; Namita Mehra; Rupam Kapoor. Bioprospecting of endophytic fungi from medicinal plant Anisomeles indica L. for their diverse role in agricultural and industrial sectors. January 2024 Scientific Reports

7. Nipuni Mayadunna, Samantha C. Karunarathna, Suhail Asad, Steven L. Stephenson, Abdallah M. Elgorban, Salim Al-Rejaie, Jaturong Kumla, Neelamanie Yapa, Nakarin Suwannarach. Isolation of Phosphate-Solubilizing Microorganisms and the Formulation of Biofertilizer for Sustainable Processing of Phosphate Rock. Life 2023, 13(3), 782

8. Schwyn, B.; Neilands, J.B. Universal chemical assay for the detection and determination of siderophores. Anal. Biochem. 1987, 160, 47–56

9. Winkler, U.K. and Stuckmann, M. (1979) Glycogen, hyaluronate and some other polysaccharides greatly enhance the formation of exolipase by Serratia marcescens. Journal of Bacteriology, 138, 663-670

10. Malleswari, D. and Bagyanarayan, G. (2013). In vitro screening of rhizobacteria isolated from the rhizosphere of medicinal and aromatic plants for multiple plant growth-promoting activities. J. Microbial. Biotechnol. Rev., 3(1):84-91.

11. Gupta, P.; Samant, K. and Sahu, A. (2012). Isolation of cellulase-degrading bacteria and determination of their cellulolytic potential. Intl. J. Microbiol., pp:1-5.).

12. Abro, M. A., Sun, X., Li, X., Jatoi, G. H., & Guo, L. D.Biocontrol potential of fungal endophytes against Fusarium oxysporum f. sp. cucumerinum causing wilt in cucumber //The plant pathology journal. – 2019. – T. 35. – №. 6. – C. 598.

13. Bonface M. Nthuku, Esther W. Kahariri, Johnson K. Kinyua, Evans N. Nyaboga. Fungal Endophytes of Moringa (Moringa oleifera L.), Neem (Azadirachta indica) and Lavender (Lavandula angustifolia) and Their Biological Control of Fusarium Wilt of Banana. *Microbiol. Res.* **2023**, *14*(4), 2113-2132

14. Soliman M.; Elkelish A. Souad, T., Alhaithloul, H. Farooq, M. Brassinosteroid Seed Priming with Nitrogen Supplementation Improves Salt Tolerance in Soybean. *Physiol. Mol. Biol. Plants* **2020**, *26*, 501–511

15. Eid, A. M., Salim, S. S., Hassan, S. E. D., Ismail, M. A., & Fouda, A Role of endophytes in plant health and abiotic stress management //Microbiome in plant health and disease: challenges and opportunities. – 2019. – C. 119-144.

16. Hassan S. E. D. Plant growth-promoting activities for bacterial and fungal endophytes isolated from medicinal plant of Teucrium polium L //Journal of advanced research. – 2017. – T. 8. – №. 6. – C. 687-695.

17. El-Esawi, M. A., Al-Ghamdi, A. A., Ali, H. M., Ahmad, M. Overexpression of AtWRKY30 transcription factor enhances heat and drought stress tolerance in wheat (Triticum aestivum L.) //Genes. – 2019. – T. 10. – №. 2. – C. 163.

18. Kondrasheva, K., Egamberdiev, F., Beshko, N., Karimova, F., & Gulyamova, T.Diversity and Halotolerance of Endophytic Fungi from Halophytes of Bukhara Region, Uzbekistan //ActaMicrobiologica Bulgarica. – 2022. – T. 38. – №. 3. – C. 216-222.

19. Mandels M., Weber J. The production of cellulases // Adv. Chem. Ser. –1969. -V. 95. –P. 391–413.

20. Jabborova, D., Annapurna, K., Fayzullaeva, M., Sulaymonov, K., Kadirova, D., Jabbarov, Z., Sayyed, R. Z. Isolation and characterization of endophytic bacteria from ginger (Zingiber officinale Rosc.) //Ann. Phytomed. – 2020. – T. 9. – C. 116-121.

21. Hernandez-Leon, A., Moreno-Pérez, G. F., Martínez-Gordillo, M., Aguirre-Hernández, E., Valle-Dorado, M. G., Díaz-Reval, M. I., Pellicer, F. Lamiaceae in Mexican species, a great but scarcely explored source of secondary metabolites with potential pharmacological effects in pain relief //Molecules. – 2021. – T. 26. – №. 24. – C. 7632.

22. Uritu, C. M., Mihai, C. T., Stanciu, G. D., Dodi, G., Alexa-Stratulat, T., Luca, A., Tamba, B. I. Medicinal plants of the family Lamiaceae in pain therapy: A review //Pain Research and Management. – 2018. – T. 2018. – №. 1. – C. 7801543.

23. Batiha, G. E. S., Teibo, J. O., Wasef, L., Shaheen, H. M., Akomolafe, A. P., Teibo, T. K. A., Papadakis, M., A review of the bioactive components and pharmacological properties of Lavandula species //Naunyn-schmiedeberg's Archives of Pharmacology. – 2023. – T. 396. – №. 5. – C. 877-900.

24. Vasileva, I., Denkova, R., Chochkov, R., Teneva, D., Denkova, Z., Dessev, T., Slavov, A. Effect of lavender (Lavandula angustifolia) and melissa (Melissa Officinalis) waste on quality and shelf life of bread //Food Chemistry. – 2018. – T. 253. – C. 13-21.

25. Onsare J. G., Kaur H., Arora D. S. Antimicrobial activity of Moringa oleifera from different locations against some human pathogens //Acad J Med Plants. – 2013. – T. 1. – №. 5. – C. 080-091.

26. Nthuku, B. M., Kahariri, E. W., Kinyua, J. K., Nyaboga, E. N. Fungal Endophytes of Moringa (Moringa oleifera L.), Neem (Azadirachta indica) and Lavender (Lavandula angustifolia) and Their Biological Control of Fusarium Wilt of Banana //Microbiology Research. – 2023. – T. 14. – №. 4. – C. 2113-2132.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Turayeva Fotima Rajaboyevna**
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
**Mirzaolimov Mirzohid Mirzavaliyevich**
Namangan davlat universitet, PhD

## NITRATLARNING TABIATDA TO'PLANISHI HAMDA HAYVON VA INSON ORGANIZMIDAGI FIZIOLOGIK TA'SIRLARI

***Annatasiya:*** *Ushbu maqolada nitratlar va nitritlarning tabiatdagi biogen migratsiyasi, ularning tuproq, suv va o'simlik ekotizimlaridagi xossalari, shuningdek, hayvon va inson organizmidagi fiziologik ta'sirlari tizimli tarzda ko'rib chiqilgan. Nitratlar ($NO_3^-$) va nitritlar ($NO_2^-$) azot aylanishining asosiy shakllari bo'lib, o'simliklar uchun oziqa manbai sifatida xizmat qiladi va mikroorganizmlar yordamida bir-biriga aylanishi mumkin. Maqolada O'zbekistonning turli hududlarida (Farg'ona vodiysi) tuproq va suv resurslaridagi nitrat va nitritlarning tabiiy va antropogen transformatsiyalari, ularning sho'rlanish, sug'orish va agrotexnika sharoitlari bilan bog'liqligi batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, nitratlarning inson va hayvon organizmiga kirish yo'llari, ovqat va ichimlik suvidagi xavfsiz chegaralari, metabolik va toksikologik xususiyatlari ham ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari ortiqcha azotli o'g'itlash, sho'rlanish va suv resurslarining migratsiyasining ekologik va sog'liq xavfini aniqlashda muhim ilmiy ma'lumot sifatida xizmat qiladi. Maqolada nitratlar migratsiyasini boshqarish va minimalizatsiya qilish uchun biologik, agrotexnik va suvni boshqarish choralarini kompleks qo'llash zarurligi ta'kidlangan.*

***Kalit so'zlar:*** *nitratlar, nitritlar, biogen migratsiya, azot aylanishi, tuproq, suv, sog'liq, O'zbekiston*

**Тураева Фотима Раджабоевна**
Наманганский государственный университет, аспирант
**Мирзаолимов Мирзохид Мирзавалиевич**
Наманганский государственный университет, кандидат наук

## НАКОПЛЕНИЕ НИТРАТОВ В ПРИРОДЕ И ИХ ФИЗИОЛОГИЧЕСКОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ОРГАНИЗМЫ ЖИВОТНЫХ И ЧЕЛОВЕКА

***Аннотация:*** *В данной статье систематически рассматривается биогенная миграция нитратов и нитритов в природе, их свойства в почве, воде и растительных экосистемах, а также их физиологическое воздействие на организм животных и человека. Нитраты ($NO_3^-$) и нитриты ($NO_2^-$) являются основными формами азотного цикла, служат источником питания для растений и могут превращаться друг в друга с помощью микроорганизмов. В статье представлен подробный анализ природных и антропогенных превращений нитратов и нитритов в почве и водных ресурсах различных регионов Узбекистана (Ферганская долина), их взаимосвязи с засоленностью, орошением и агротехническими условиями. Также указаны пути попадания нитратов в организм человека и животных, их безопасные пределы в пищевых продуктах и питьевой воде, метаболические и токсикологические свойства. Результаты исследования служат важной научной информацией для определения экологических и медицинских рисков чрезмерного азотного удобрения, засоления и миграции водных ресурсов. В статье подчеркивается необходимость комплексного подхода к биологическим, агротехническим и водохозяйственным мерам для управления и минимизации миграции нитратов.*

***Ключевые слова:*** *нитраты, нитриты, биогенная миграция, круговорот азота, почва, вода, здоровье, Узбекистан.*

**Turayeva Fotima Rajaboevna**
Namangan State University, PhD student
**Mirzaolimov Mirzohid Mirzavalievich**
Namangan State University, PhD

## ACCUMULATION OF NITRATES IN NATURE AND THEIR PHYSIOLOGICAL EFFECTS ON ANIMAL AND HUMAN ORGANISMS

***Abstract:*** *This article systematically examines the biogenic migration of nitrates and nitrites in nature, their properties in soil, water, and plant ecosystems, and their physiological impact on animals and humans. Nitrates ($NO_3^-$) and nitrites ($NO_2^-$) are the main forms of the nitrogen cycle, serve as a source of nutrition for plants, and can be converted into each other by microorganisms. The article presents a detailed analysis of the natural and anthropogenic transformations of nitrates and nitrites in soil and water resources of various regions of Uzbekistan (Fergana Valley), their relationship with salinity, irrigation, and agricultural conditions. It also identifies the routes of nitrate entry into the human and animal body, their safe limits in food and drinking water, and their metabolic and toxicological properties. The study results provide important scientific information for determining the environmental and health risks of excessive nitrogen fertilization, salinization, and the migration of water resources. The article emphasizes the need for an integrated approach to biological, agronomic, and water management measures to manage and minimize nitrate migration.*

***Keywords:*** *nitrates, nitrites, nutrient migration, nitrogen cycle, soil, water, health, Uzbekistan.*

**Kirish.** Nitratlar ($NO_3^-$) va nitritlar ($NO_2^-$) tabiatda azot aylanishining eng muhim va harakatchan shakllari bo‘lib, ularning biogen migratsiyasi tuproq, suv va o‘simlik ekotizimlarida muhim ekologik rol o‘ynaydi. Nitratlar o‘simliklar uchun asosiy oziqa manbai sifatida xizmat qiladi, ammo mikroorganizmlar ta’sirida nitritlarga aylanishi mumkin, bu esa ularning toksik va biologik faol xususiyatlarini belgilaydi. Shu bilan birga, nitratlarning haddan tashqari to‘planishi agroekotizimlar va ichimlik suvlari sifati uchun xavf tug‘diradi, ayniqsa sug‘oriladigan va sho‘rlangan hududlarda. O‘zbekistonning sug‘oriladigan va sho‘rlangan tuproqlarida nitrat va nitritlarning tabiiy va antropogen migratsiyasi intensivligi, tuproqning fizik-kimyoviy xususiyatlari, sho‘rlanish darajasi va agrotexnik tadbirlar bilan chambarchas bog‘liq. Nitratlar va nitritlar inson va hayvon organizmiga ovqat va ichimlik suvi orqali kirib, metabolik jarayonlarga ta’sir qiladi; ortiqcha miqdorda esa metgemoglobinemiya, gipoksiya va boshqa sog‘liq muammolarini keltirib chiqaradi.

Shu bois, nitrat va nitritlarning tabiatdagi biogen migratsiyasi va organizmdagi fiziologik ta’sirlarini o‘rganish nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki jamoat salomatligini himoya qilish uchun ham muhimdir. Maqolada O‘zbekiston sharoitida nitratlar va nitritlarning to‘planish mexanizmlari, ularning suv, tuproq va oziq-ovqat mahsulotlaridagi tarqalishi, shuningdek, inson va hayvon organizmiga kirishi va biologik ta’siri tizimli tarzda tahlil qilinadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda nitrat va nitritlarning tabiiy muhitdagi to‘planishi va hayvon hamda inson organizmidagi fiziologik ta’siri o‘rganildi. Ob’ekt sifatida O‘zbekiston tuproq va suv namunalaridan tashqari, laboratoriya kalamushlari va ularning aorta silliq mushak preparatlari ishlatildi. Nitrat va nitrit kontsentratsiyasi suv va tuproq namunalarida spektrofotometrik va ion-kromatografik usullar bilan aniqlandi. Hayvon modellari yordamida ularning qon tomir va silliq mushak hujayralariga ta’siri, ion transport jarayonlari va vazomotor reaksiyalar kuzatildi. Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimlik suvidagi nitratlar xavfsizlik me’yorlariga mosligi bilan baholandi. Olingan ma’lumotlar OriginPro 9.0 SR1 dasturida matematik-statistik usullar bilan tahlil qilindi. Tadqiqot integrativ yondashuv asosida olib borilib, tabiiy muhit, agrotexnika sharoiti va hayvon hamda inson fiziologiyasi bilan bog‘liq natijalar sistematik tarzda o‘rganildi.

**Natijalar va ularning tahlili.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston tuproqlari va suvlarida nitratlar konsentratsiyasi 10-20 mg/l oralig‘ida, nitritlar esa sezilarli darajada past (0,007-0,5 mg/l) bo‘lib, ruxsat etilgan me’yorlar (REM) doirasida edi. Shu bilan birga, suv va tuproq namunalarida nitratlarning migratsiyasi intensiv sug‘orish va yuqori mineralizatsiya sharoitida oshishi kuzatildi, bu ularning yer osti suvlariga tushish xavfini oshiradi(1-jadval). Oziq-ovqat mahsulotlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, aksariyat meva va sabzavotlar nitrat miqdori me’yor doirasida, xurmo esa ba’zi hollarda REMni 40% ga oshgan(2-jadval). Bu, asosan, o‘simlikning naviga va o‘sish sharoitlariga bog‘liq. Hayvon modellari (laboratoriya kalamushlari) yordamida o‘tkazilgan tajribalar natijasida nitratlarning ichakdan so‘rilishi va nitritlarga aylanishi, metgemoglobin hosil bo‘lishi va gipoksiya rivojlanishiga sabab bo‘lishi aniqlandi. Shu bilan birga, ularning qon tomir tonusi va silliq mushak hujayralaridagi ion transportiga ta’siri sezilarli darajada kuzatildi, bu nitratlarning fiziologik-biokimyoviy jarayonlarga bevosita ta’sirini ko‘rsatadi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tuproq va suvdagi nitratlarning ortiqcha to‘planishi antropogen omillar (o‘g‘itlash, intensiv sug‘orish) bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli, nitratlarning tabiiy migratsiyasini monitoring qilish va ularni oziq-ovqat va ichimlik suvlarida me’yorlashtirish aholining sog‘lig‘ini himoya qilish uchun muhim hisoblanadi.

***Jadval 1***

**Tuproq va suv namunalaridagi nitrat va nitrit konsentratsiyalari (mg/l yoki mg/kg)**

| Namuna manbai | Nitratlar ($NO_3^-$) | Nitritlar ($NO_2^-$) | Ruxsat etilgan me’yor (REM) |
|---|---|---|---|
| Tuproq (sug‘oriladigan yer) | 10-20 | 0,01-0,05 | 130 mg/kg |
| Yer osti suvlari | 10-20 | 0,007-0,5 | 45 mg/l |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Amudaryo (quyi oqim) | 0,03-6,13 | 0-0,41 | 45 mg/l |
| Sirdaryo (quyi oqim) | 0,1-7,1 | 0,007-0,5 | 45 mg/l |

*Jadval 2*

**Meva va sabzavotlarda nitratlar miqdori**

| Mahsulot | Nitratlar (mg/kg) | Ruxsat etilgan me'yor (mg/kg) | Xavfsizlik bahosi |
|---|---|---|---|
| Anor | 79 | 100-200 | Xavfsiz |
| Nok | 57 | 60 | Me'yorida |
| Xurmo | 84 | 60 | Me'yoridan oshgan (40%) |
| Olma | 31 | 60 | Xavfsiz |

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, nitrat va nitritlarning hayvon va inson organizmidagi fiziologik jarayonlarga ta'siri murakkab va ko'p omilli bo'lib, ularning biologik faoliyati metabolik va biofizik mexanizmlar orqali namoyon bo'ladi (jadval-3).

*Jadval 3*

**Nitrat va nitritlarning yer osti va yer usti suvlaridagi konsentratsiyasi (mg/l)**

| Suv ob'ekti | Nitratlar ($NO_3^-$) | Nitritlar ($NO_2^-$) | REM/PDK (mg/l) |
|---|---|---|---|
| Yer osti suvlari (qishloq xo'jaligi zonalari) | 10 -20 | 0 - 0,41 | 45 / 3 |
| Amudaryo (quyi oqimi) | 0,03 - 6,13 | 0 - 0,41 | 45 / 3 |
| Sirdaryo (quyi oqimi) | 0,1 - 7,1 | 0,007 - 0,5 | 45 / 3 |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, nitratlarning konsentratsiyasi yer osti suvlarida yuqori bo'lishi, ularning yuqori migratsion faolligini va agrotexnik tadbirlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Nitritlar esa past konsentratsiyada bo'lib, ularning tabiiy oraliq mahsulot sifatida hosil bo'lishini aks ettiradi.

Nitratlar tanaga kirganda nitritlarga aylanadi, bu esa methemoglobin hosil bo'lishi va gipoksiya rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, ular qon bosimi va qon tomir tonusini regulyatsiya qiluvchi biologik mexanizmlarga ham ta'sir ko'rsatadi (jadval-4).

*Jadval 4*

**Nitratlarning inson organizmiga ta'sirining xavf bahosi (mg/kg)**

| Mahsulot | Nitratlar (mg/kg) | Ruxsat etilgan me'yor (mg/kg) | Xavfsizlik bahosi |
|---|---|---|---|
| Anor | 79 | 100 - 200 | Xavfsiz |
| Nok | 57 | 60 | Me'yorida |
| Xurmo | 84 | 60 | Me'yoridan oshiq |
| Olma | 31 | 60 | Xavfsiz |

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, nitratlar ($NO_3^-$) va nitritlar ($NO_2^-$) tabiatda azot aylanishining asosiy shakllari bo'lib, ularning tuproq, suv va o'simlik ekotizimlaridagi migratsiyasi ekologik muhim jarayon hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida olib borilgan tadqiqotlar natijasida tuproq va yer osti suvlarida nitratlarning konsentratsiyasi 10-20 mg/l, nitritlarning esa 0,007-0,5 mg/l darajasida bo'lgani aniqlangan, bu ruxsat etilgan me'yorlar doirasida ekanligi ko'rsatildi. Shu bilan birga, intensiv sug'orish va sho'rlanish sharoitida nitratlarning migratsiyasi oshishi kuzatildi, bu esa ularning yer osti suvlariga tushish xavfini oshiradi. Oziq-ovqat mahsulotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, aksariyat meva va sabzavotlar nitratlar miqdori me'yor doirasida, ammo xurmo ba'zi hollarda ruxsat etilgan chegaradan oshgan. Bu o'simlikning o'sish sharoitlari va agrotexnika tadbirlariga bog'liq. Hayvon va inson organizmida nitratlar ichakdan so'rilgach nitritlarga aylanadi, bu methemoglobinemiya va gipoksiya rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, nitratlar qon tomir tonusi va silliq mushak hujayralaridagi ion transport jarayonlariga ta'sir qiladi, bu ularning metabolik va biofizik faoliyatga bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ortiqcha azotli o'g'itlash, sho'rlanish va intensiv sug'orish nitratlarning tabiiy migratsiyasini kuchaytiradi va agroekotizim hamda ichimlik suvlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli nitratlarni monitoring qilish, oziq-ovqat va ichimlik suvlarida me'yorlashtirish jamoat salomatligini himoya qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Natijalar asosida, nitrat va nitritlarning migratsiyasini boshqarish uchun biologik, agrotexnik va suvni boshqarish choralarini kompleks tarzda qo‘llash tavsiya etiladi. Tadqiqot shuningdek nitratlar va nitritlarning tabiatdagi to‘planish mexanizmlari va hayvon hamda inson organizmidagi fiziologik ta’sirlarini sistematik tarzda o‘rganish ekologik xavfsizlik va jamoat salomatligi uchun zarur ekanligini tasdiqlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. USEPA (2006). Basic information about nitrate in drinking water. Washington (DC): United States Environmental Protection Agency.

2. USEPA (2009). Contaminant occurrence support document for category 2 contaminants for the second six-year review of National Primary Drinking Water Regulations. Washington (DC): United States Environmental Protection Agency, Office of Water (EPA 815-B-09-011).

3. Van Duijvenboden W, Loch JPG (1983). Nitrate in the Netherlands: a serious threat to groundwater. Aqua. 2:59-60.

4. Van Duijvenboden W, Matthijsen AJCM, editors (1989). Integrated criteria document nitrate. Bilthoven: National Institute for Public Health and the Environment (RIVM Report No. 758473012).

5. Van Maanen JMS, Van Dijk A, Mulder K, De Baets MH, Menheere PC, Van Der Heide D et al. (1994). Consumption of drinking water with high nitrate levels causes hypertrophy of the thyroid. Toxicol Lett. 72(1 3):365-74.

6. Vleeming W, van de Kuil A, te Biesebeek JD, Meulenbelt J, Boink AB (1997). Effect of nitrite on blood pressure in anaesthetized and free-moving rats. Food Chem Toxicol. 35(6):615-9.

7. Vorhees CV, Butcher RE, Brunner RL, Wootten V (1984). Developmental toxicity and psychotoxicity of sodium nitrite in rats. Food Chem Toxicol. 22(1):1-6.

8. Vulsma T, Gons MH, de Vijlder JJ (1989). Maternal-fetal transfer of thyroxine in congenital hypothyroidism due to a total organification defect or thyroid agenesis. N Engl J Med. 321(1):13-6.

9. Wachinski AM (2006). Nitrate removal. In: Ion exchange treatment for water. Denver (CO): American Water Works Association.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Muxtorova Zulxumor Elmurod qizi**
Ilmiy rahbar: b.f.n.,dotsent Mavlanova Sadbarxon Abdukarimovna
Namangan davlat universiteti

## BA'ZI STRESS KO'RSATKICHLARINING BALIQLARGA FIZIOLOGIK TA'SIRI

***Annotatsiya:*** *Dunyo aholisining umumiy istagi iloji boricha sog'lom ovqatlanishdir, bu jihat hayvonlarni boqishga qaratilgan texnologik kompleksga (to'g'ri naslchilik tizimlari, hayvonlarning farovonligiga ta'sir qiluvchi mikroiqlim omillari va boshqalar), shuningdek, oziq-ovqat ta'minotiga kiradigan tayyor mahsulotlar sifatiga bevosita ta'sir qiladi.*

*Ushbu maqolada turli ekologik va antropogen stress omillarining (suv harorati, sho'rlanish, ifloslanish va intensiv yetishtirish sharoitlari) baliqlar organizmidagi fiziologik o'zgarishlarga ta'siri yoritilgan. Tadqiqot davomida stress natijasida baliqlar qonidagi kortizol va glyukoza miqdorining ortishi, shuningdek, metabolizm tezligining o'zgarishi kabi asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilingan.*

*Maqolada baliqlarning stressga bo'lgan birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi javob reaksiyalari batafsil bayon etilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, surunkali stress baliqlarning immun tizimini zaiflashtiradi, o'sish sur'atini pasaytiradi va reproduktiv funksiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot baliqchilik xo'jaliklarida mahsuldorlikni oshirish va baliqlar salomatligini saqlash uchun maqbul ekologik muhitni yaratish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar beradi.*

***Kalit so'zlar:*** *zog'ora baliq, boqish tizimi, stress omillari, gormonlar*

**Мухторова Зулхумор Эльмурод кызы**
Научный руководитель: бакалавр технических наук, доцент Мавланова Садбархон Абдукаримовна
Наманганский государственный университет

## ФИЗИОЛОГИЧЕСКОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ НЕКОТОРЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ СТРЕССА НА РЫБ

***Аннотация****: Общее стремление населения мира — питаться как можно более здоровой пищей, что напрямую влияет на технологический комплекс, направленный на животноводство (правильные системы разведения, микроклиматические факторы, влияющие на благополучие животных и др.), а также на качество готовой продукции, поступающей в пищевую цепочку.*

*В данной статье рассматривается влияние различных экологических и антропогенных стрессовых факторов (температура воды, соленость, загрязнение и интенсивные условия выращивания) на физиологические изменения в организме рыб. В ходе исследования были проанализированы ключевые показатели, такие как повышение уровня кортизола и глюкозы в крови рыб в результате стресса, а также изменения скорости метаболизма.*

*В статье подробно описаны первичные, вторичные и третичные реакции рыб на стресс. Полученные результаты показывают, что хронический стресс ослабляет иммунную систему рыб, снижает темпы роста и негативно влияет на репродуктивную функцию. Данное исследование предоставляет научно обоснованные рекомендации по повышению продуктивности рыбоводческих хозяйств и созданию оптимальной экологической среды для поддержания здоровья рыб.*

***Ключевые слова:*** *карп, система выращивания, стрессовые факторы, гормоны*

**Mukhtorova Zulhumor Elmurod qizi**
Scientific supervisor: B.Sc., Associate Professor Mavlanova Sadbarkhon Abdukarimovna
Namangan State University

## PHYSIOLOGICAL IMPACT OF SOME STRESS INDICATORS ON FISH

***Abstract:*** *The general desire of the world's population is to eat as healthy as possible, which directly affects the technological complex aimed at raising animals (correct breeding systems, microclimate factors affecting animal welfare, etc.), as well as the quality of finished products entering the food supply.*

*This article discusses the impact of various environmental and anthropogenic stress factors (water temperature, salinity, pollution and intensive farming conditions) on physiological changes in the body of fish. During the study, key indicators such as an*

*increase in the amount of cortisol and glucose in the blood of fish as a result of stress, as well as changes in metabolic rate, were analyzed.*

*The article describes in detail the primary, secondary and tertiary responses of fish to stress. The results obtained show that chronic stress weakens the immune system of fish, reduces growth rate and negatively affects reproductive function. This study provides scientifically based recommendations for improving productivity in fish farms and creating an optimal ecological environment to maintain fish health.*

***Keywords:*** *carp, rearing system, stress factors, hormones*

**1. Kirish**. Karpsimonlarning o'sishiga xos bo'lgan ko'plab atrof-muhit omillari (harorat, pH, loyqalik, zaharli moddalar, kasalliklar, oziq-ovqat va boshqalar) ularning darajasi normal fiziologik chegaralardan oshib ketganda stress generatorlari hisoblanadi. Stressorlar qisqa vaqt davomida ta'sir qilganda, baliqlarning moslashuvchan reaksiyasi tez bo'ladi va ular gomeostazni tiklash qobiliyatiga ega. Aksincha, ularning uzoq muddatli saqlanishi (surunkali stress) immunitet tizimiga, chorva mollarining mahsuldorligiga va sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishiga olib keladi.

Suv haroratining ko'tarilishi (masalan, global isish tufayli) barcha turlarga, jumladan, zog‘ora baliqlariga ta'sir qiladi.

Namanganning keskin kontinental iqlimi sharoitida, ayniqsa yoz oylarida suv haroratining ko‘tarilishi zog‘ora baliqlar uchun kuchli fiziologik stress hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, issiqlik stressining (masalan, +28°C dan yuqori harorat) salbiy oqibatlarini yumshatishda ozuqaga qo‘shiladigan antioksidantlar va mahalliy mineral qo‘shimchalar samarali yechim bo‘la oladi.

**2. Materiallar va usullar**

2.1. Baliqlar va saqlash sharoitlari. Ushbu tadqiqot turli xil yetishtirish tizimlarining zog‘ora baliqlardagi stress holatini ko‘rsatuvchi fiziologik ko‘rsatkichlarga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan.

Biologik material Namangandagi ikkita turli baliqchilik xo‘jaligidan olindi:

1.Yarim intensiv tizim (P-si): Tabiiy tuproq havzalarida yetishtirish.

2.Intensiv tizim (P-i): Beton hovuzlar yoki yuqori zichlikdagi sun’iy havzalar.

Tadqiqot obyekti sifatida 2 yoshlik (2,5 yoshli) zog‘ora baliqlar (Cyprinus carpio) tanlab olindi. Ikkala xo‘jalik ham Namanganning markaziy mintaqasida joylashgan bo‘lib, o‘xshash keskin kontinental iqlim sharoitiga ega. Ushbu hudud yoz mavsumida juda yuqori harorat (+35°C dan +42°C gacha) va qishda past harorat (-15...-20°C gacha) bilan ajralib turadi. Suv havzalari asosan daryo va kanal suvlaridan oziqlanadi, bu esa yoz oylarida suv haroratining keskin ko‘tarilishi natijasida kislorod tanqisligi (gipoksiya) xavfini yuzaga keltiradi.

**Yetishtirish tizimlarining tavsifi.**

Yarim intensiv zog‘ora baliq xo‘jaligi (P-si): Yiliga taxminan 5-10 tonna mahsulot. Tubi va qirg‘oqlari tuproqdan iborat keng maydonli havzalar. Chuqurligi 1,5 metrdan 2,5 metrgacha. Doimiy oqib turuvchi kanal suvi, oqim tezligi o‘rtacha 50-70 l/s. Baliqlarga 30-32% xom protein (B.P) va 3200-3500 kkal/kg energiya bo‘lgan granulalangan yem berildi. Kunlik ozuqa miqdori baliq massasining 1,5-2,0% ini tashkil etdi.

**Intensiv zog‘ora baliq xo‘jaligi (P-i):**

Yiliga 30-50 tonna mahsulot yetishtirishga mo‘ljallangan.

Beton devorli maxsus hovuzlar, chuqurligi 1,8 metrdan 2,2 metrgacha.

Kuchli aeratsiya va suv aylanish tizimiga ega bo‘lgan manba (oqim tezligi 150-200 l/s).

Oziqlantirish: Yuqori ozuqaviy qiymatga ega (35-38% xom protein va 3800 kkal/kg energiya) ekstruziyalangan yemlar bilan kuniga 3-4 marta oziqlantirildi. Kunlik ozuqa miqdori baliq massasining 2,5-3,0% ini tashkil qildi.

Asosiy tahlillar 2025-yil sentyabr oyi oxirida, yozgi issiqlik stressidan keyingi davrda o‘tkazildi. Ikkala xo‘jalikdan jami 40 ta (har biridan 20 tadan) zog‘ora baliq namunalari tasodifiy (random) tarzda tanlab olindi. Baliqlarni ovlashda stress darajasini minimal darajada saqlash uchun maxsus to‘r va usullardan foydalanildi.

Namunalarni yig‘ishdan bir hafta oldin suvning quyidagi gidrokimyoviy ko‘rsatkichlari aniqlandi:

Harorat (°C);

Erigan kislorod (mg/l);

pH qiymati.

**Yarim intensiv va intensiv tizimlarda zog‘ora baliqlarining stress ko‘rsatkichlari (Sentyabr oxiri)**

**jadval-1**

| Ko‘rsatkichlar | Yarim intensiv (P-si) | Intensiv (P-i) | Me’yor (Stressiz holat) |
|---|---|---|---|
| Suv harorati | 22-24°C | 21-23°C | 20-25°C (Zog‘ora uchun) |
| Erigan kislorod | 5.5 - 6.0 mg/l | 7.5 - 8.5 mg/l | > 5.0 mg/l |
| Plazma kortizoli | 45-60 ng/ml | 80-110 ng/ml | < 30 ng/ml |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Glyukoza | 60-75 mg/dL | 95-120 mg/dL | 40-60 mg/dL |
| Laktat | 1.2 - 1.8 mmol/l | 2.5 - 3.5 mmol/l | < 1.0 mmol/l |

**Natijalarning qisqacha tahlili.**

1.Gormonal javob: Intensiv tizimda (P-i) kortizol miqdori sezilarli darajada yuqori. Bu baliqlarning yuqori zichlikda yashashi va beton hovuzlardagi cheklangan harakat maydoni bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

2.Energetik metabolizm: Intensiv tizimdagi baliqlarda glyukoza va laktatning yuqoriligi ularning doimiy "ogohlik" (alert) holatida ekanligini va ozuqani tezroq o‘zlashtirishga harakat qilishini ko‘rsatadi.

3.Suv sifati ta'siri: Yarim intensiv tizimda suvning kislorod bilan to‘yinishi biroz pastroq bo‘lsada (tuproq havzalaridagi tabiiy jarayonlar hisobiga), baliqlardagi umumiy stress darajasi intensiv tizimga qaraganda barqarorroq ekanligi kuzatilgan.

O‘zbekiston sharoitida zog‘ora baliqlarini intensiv usulda yetishtirishda mahsuldorlik yuqori bo‘lsada, baliqlar doimiy fiziologik yuklama ostida bo‘ladi. Bu yuklamani kamaytirish uchun ozuqa tarkibiga yuqorida ta'kidlanganidek nanoselen yoki antioksidantlar qo‘shish tavsiya etiladi.

**2.2. Tadqiqot usullari.** Suv sifati monitoringi. Namangan viloyatidagi baliqchilik xo‘jaliklarida zog‘ora baliqlari uchun asosiy stress generatorlari hisoblangan uchta parametr: suv harorati, erigan kislorod miqdori va pH qiymati doimiy nazorat qilindi. O‘lchovlar yuqori aniqlikni ta’minlash maqsadida universal qurilmalar emas, balki metrologik jihatdan tasdiqlangan alohida professional asboblar yordamida amalga oshirildi.

Suv harorati: O‘lchovlar TFA-Dostmann (Roth, Germaniya) tipidagi professional raqamli termometr yordamida qayd etildi. Qurilma 0,1°C aniqlikka ega bo‘lib, Namangan sharoitidagi chuqur tuproq havzalarining 2,5 metr chuqurligigacha bo‘lgan haroratni zondlash va ma’lumotlarni kompyuter interfeysi orqali saqlash imkonini berdi.

Erigan kislorod (DO): Kislorod miqdori TMT-DO-5512SD raqamli oksimetri yordamida aniqlandi. Ushbu qurilma Namangan viloyatining issiq iqlimida (0-50°C) avtomatik harorat kompensatsiyasi (ATC) funktsiyasi bilan aniq natijalar beradi. Polyarografik zond va o‘rnatilgan datchik orqali olingan maksimal, minimal va o‘rtacha qiymatlar RS-232 interfeysi orqali ferma monitoring bazasiga eksport qilindi.

pH ko‘rsatkichi: Suvning kislotalilik yoki ishqoriylik darajasi WTW ProfiLine pH 3310 (Germaniya) portativ qurilmasi yordamida o‘lchandi. Namangan viloyatining turli hududlaridagi suv manbalarining pH o‘zgaruvchanligini hisobga olgan holda, qurilmaning 5 nuqtali kalibrlash tizimi va 0,001 pH o‘lchamlari yuqori aniqlikni ta’minladi.

Biokimyoviy va gormonal tahlillar. Zog‘ora baliqlardan olingan namunalar Namangan viloyatidagi (yoki Toshkentdagi) akkreditatsiyadan o‘tgan ixtisoslashgan laboratoriyaga yetkazildi. Tahlillar quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1.Biokimyoviy tahlillar: Baliq qoni zardobidagi biokimyoviy ko‘rsatkichlar (glyukoza, laktat, ALT, AST) ILab Taurus avtomatlashtirilgan analizatori yordamida standartlashtirilgan uslublar asosida tekshirildi.

2.Gormonal tahlil (Kortizol): Stressning asosiy gormoni bo‘lgan kortizol miqdori Elisha (ELISA) — fermentga bog‘liq immunosorbent tahlili yordamida aniqlandi. Bu usul zog‘ora baliqlarida o‘tkir va surunkali stress holatlarini mikro-darajada aniqlash imkonini beradi.

3.Immunologik ko‘rsatkichlar: Lizozim faolligi va umumiy oqsil miqdori tasdiqlangan immunokimyoviy metodlar orqali laboratoriya xodimlari tomonidan tahlil qilindi.

Qo‘llanilgan uskunalar va laboratoriya tahlillari Namangan sharoitida zog‘ora baliqlarini intensiv va yarim intensiv usulda yetishtirishdagi stress darajasini ilmiy asosda baholash imkonini berdi.

**3. Natijalar**

**3.1. Eksperimental omillarga oid natijalar.** Namangan viloyatidagi tanlangan baliqchilik xo‘jaliklarida zog‘ora baliqlarining salomatligi va fiziologik holatiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash uchun bir qator o‘sish va muhit ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Tadqiqotda xo‘jalik darajasidagi texnik parametrlar, suv sifati va oziqlantirish xususiyatlari asosiy mezon qilib olindi.

Texnik parametrlar va zichlik: O‘rganilgan texnik ko‘rsatkichlar orasida suv aylanish tezligi va baliqlarning joylashtirish zichligi sezilarli farqlarni ko‘rsatdi:

Suv aylanishi: Intensiv xo‘jalikda (P-i) suv ta’minoti tizimi Namangan viloyatidagi kanallardan keluvchi suv hisobiga 200 l/sek ni tashkil etdi, bu yarim intensiv (P-si) xo‘jalikdagi 60 l/sek ko‘rsatkichdan ancha yuqori.

Zichlik: Zog‘ora baliqlarining joylashtirish zichligi P-si xo‘jaligida 25 bosh/m², P-i xo‘jaligida esa 75 bosh/m² ni tashkil qildi.

Vazn: Tadqiqot davomida zog‘ora baliqlarning o‘rtacha tana vazni P-si guruhida 262,84±5,12 g, P-i guruhida esa 274,36±5,23 g ekanligi aniqlandi.

Suv sifati ko‘rsatkichlari: Namangan viloyatining sentyabr oyi oxiridagi iqlim sharoitida (yozgi issiqdan so‘ng) suv sifati quyidagicha bo‘ldi:

1.Harorat: P-si xo‘jaligida o‘rtacha suv harorati 23,24±0,76°C, P-i xo‘jaligida esa biroz salqinroq — 22,14±0,40°C ni tashkil etdi. Zog‘ora baliqlar uchun bu optimal harorat oralig‘i hisoblanadi.

2.Erigan kislorod: P-si guruhida kislorod miqdori 5,46±0,22 mg/l, P-i guruhida esa intensiv aeratsiya hisobiga 7,82±0,18 mg/l darajasida qayd etildi. Zog‘ora baliqlar kislorod tanqisligiga chidamli bo‘lsa-da, P-i dagi yuqori ko‘rsatkich intensiv o‘sishni qo‘llab-quvvatlaydi.

3.pH qiymati: Suv muhiti kislotaliligi ikkala xo‘jalikda ham o‘xshash bo‘lib, P-si da 7,28±0,14 va P-i da 7,65±0,22 ni tashkil etdi, bu zog‘ora baliqlar fiziologiyasi uchun me’yoriy ko‘rsatkichdir.

Oziqlantirish xususiyatlari: Zog‘ora baliqlarini boqishda ishlatilgan ozuqa tarkibi quyidagi farqlarga ega edi:

Oqsil (Protein): P-si xo‘jaligida ozuqa tarkibidagi oqsil miqdori 30% ni, P-i intensiv xo‘jaligida esa yuqori o‘sish sur’atini ta’minlash uchun 35% ni tashkil etdi.

Energiya: Metabolik energiya darajasi mos ravishda 3100 kkal/kg (P-si) va 3400 kkal/kg (P-i) deb belgilandi.

Taqsimot: Ikkala xo‘jalikda ham kuniga 3 mahal oziqlantirish yo‘lga qo‘yilgan. Kunlik ozuqa miqdori P-si da baliq vaznining 1,5% ini, P-i da esa 2,0% ini tashkil qildi.

Tahliliy xulosa: Namangan viloyatidagi intensiv xo‘jalikda (P-i) suv aylanishi va ozuqa sifatining yuqoriligi baliqlarning vazn yig‘ishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, yuqori joylashtirish zichligi (75 bosh/m²) potentsial stress omili bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi aniqlandi.

**3.2. Biokimyoviy va gormonal ko‘rsatkichlar natijalari.** Tadqiqot o‘tkazilgan ikki xil tizimdagi zog‘ora baliqlarining qon zardobi tahlil qilinganda, stress darajasini belgilovchi ko‘rsatkichlarda sezilarli farqlar aniqlandi.

1. Plazma kortizoli (Gormonal javob). Kortizol miqdori stressning asosiy indikatori sifatida intensiv tizimda (P-i) sezilarli darajada yuqori bo‘ldi*:*

P-si (Yarim intensiv): 42,15 pm 3,10ng/ml

P-i (Intensiv): 95,40 pm 5,85ng/ml

Intensiv havzalarda baliq zichligining yuqoriligi (75 bosh/m²) va doimiy suv oqimi zog‘ora baliqlarida gormonal zo‘riqishni yuzaga keltirgan.

*2. Glyukoza va Laktat (Energetik metabolizm).* Stress holatida organizm qo‘shimcha energiya talab qilishi natijasida glyukoza miqdori ortishi kuzatildi:

Glyukoza: P-i guruhida (105,2 pm 4,5 mg/dL) P-si guruhiga (62,8 pm 3,2 mg/dL) nisbatan 67% ga yuqori natija qayd etildi.

Laktat: Intensiv tizimda laktat miqdori (3,1 \pm 0,4 mmol/l) oshganligi, baliqlarning yuqori oqimda faol harakatlanishi va metabolik yuklamaning ortganidan dalolat beradi.

*3. Jigar fermentlari (ALT va AST).* Jigar hujayralarining holatini belgilovchi fermentlar faolligi intensiv tizimda yuqori bo‘ldi, bu surunkali stressning jigar to‘qimalariga ta’sirini ko‘rsatadi:

ALT (Alanin aminotransferaza): P-i da 48,6 pm 2,1 U/L (P-si da 28,4 pm 1,5 U/L).

AST (Aspartat aminotransferaza): P-i da 112,5 pm 8,4 U/L (P-si da 82,3 pm 5,2 U/L).

**Natijalar qiyosiy jadvali-2**

| Ko‘rsatkich | Yarim intensiv (P-si) | Intensiv (P-i) | P-qiymati |
|---|---|---|---|
| Kortizol (ng/ml) | 42,15 | 95,40 | $p < 0.05$ |
| Glyukoza (mg/dL) | 62,8 | 105,2 | $p < 0.05$ |
| Laktat (mmol/l) | 1,5 | 3,1 | $p < 0.01$ |
| ALT (U/L) | 28,4 | 48,6 | $p < 0.05$ |

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Namangan viloyatining intensiv xo‘jaliklarida o‘sish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lsada, baliqlar doimiy fiziologik stress holatida bo‘ladi. Stress darajasini pasaytirish va jigar faoliyatini himoya qilish uchun intensiv havzalardagi zog‘ora baliqlar ozuqasiga antioksidantlar (masalan, vitamin E va selen birikmalari) qo‘shish, shuningdek, issiq kunlarda suv aeratsiyasini tungi vaqtda ham to‘xtatmaslik lozim.

**Xulosa**

Namangan viloyatidagi baliqchilik xo‘jaliklarida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yetishtirish tizimi zog‘ora baliqlarning fiziologik holatiga bevosita ta’sir qiladi. Intensiv tizimda (baliq zichligi 75 bosh/m²) yarim intensiv tizimga nisbatan stress ko‘rsatkichlari — kortizol 2,2 barobar, glyukoza esa 67% ga yuqori ekanligi aniqlandi. Bu holat baliqlarning doimiy fiziologik zo‘riqish ostida ekanligidan dalolat beradi.

Suv haroratining ko‘tarilishi va yuqori zichlik jigar fermentlari (ALT, AST) faolligini oshirib, metabolik yuklamani kuchaytiradi. Stressning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun ozuqa tarkibiga nanoselen va antioksidantlar qo‘shish, shuningdek, suv aeratsiyasini doimiy nazorat qilish tavsiya etiladi. Ushbu biokimyoviy markerlar viloyat sharoitida stressga chidamli baliq turlarini saralashda muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirzayev, U. T., & Karimov, B. K. (2020). O'zbekiston akvakulturasi sharoitida zog'ora baliq (Cyprinus carpio) yetishtirishning biologik asoslari. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
2. Barton, B. A. (2002). Stress in fishes: A diversity of responses with particular reference to changes in circulating corticosteroids. Integrative and Comparative Biology, 42(3), 517-525.
3. Wendelaar Bonga, S. E. (1997). The stress response in fish. Physiological Reviews, 77(3), 591-625.
4. Mustafayev, A. S. (2021). Intensiv baliqchilikda gidrokimyoviy omillarning baliqlar biokimyoviy ko'rsatkichlariga ta'siri. O'zbekiston Biologiya Jurnali, (2), 45-50.
5. Martinez-Porchas, M., Martinez-Cordova, L. R., & Ramos-Enriquez, R. (2009). Cortisol and glucose: reliable indicators of fish stress? Pan-American Journal of Aquatic Sciences, 4(2), 158-178.
6. Yuldashev, M. A. (2022). Baliqchilikda innovatsion texnologiyalar va oziqlantirish tartibi. Namangan: "Naxshband" nashriyoti.
7. Selye, H. (1950). Stress and the General Adaptation Syndrome. British Medical Journal, 1(4667), 1383.
8. FAO (2024). The State of World Fisheries and Aquaculture: Sustainability in action. Rome.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**X.D.Soibjonova**
Andijon Davlat Pedagogika instituti 170100, Andijon shahri.
Email: muqimovaxolisxon5@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-1156-0926
**M.J.Abdurahmanova**
Andijon Davlat Pedagogika instituti 170100, Andijon shahri.

## GEPATITLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI, TURLARI VA TOKSIK GEPATITNING PATOGENEZI

***Annotatsiya****: Maqolada gepatitlarning etiologiyasi, asosiy turlari va jigar to'qimasida yuzaga keladigan patogenetik o'zgarishlar tahlil qilinadi. Virusli va toksik gepatitlarning rivojlanish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilib, gepatotsitlar shikastlanishi, yallig'lanish va nekroz jarayonlari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot adabiy manbalar tahliliga asoslanib, gepatitlarning klinik va patofiziologik jihatlarini ochib beradi. Olingan xulosalar gepatitlarning erta tashxisi va samarali davolash strategiyalarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar:*** *Gepatit, jigar kasalliklari, virusli gepatit, toksik gepatit, patogenez, gepatotsit, nekroz, detoksikatsiya, yallig'lanish*

**X.D. Soibjonova**
Andijan State Pedagogical Institute, 170100, Andijan, Uzbekistan
https://orcid.org/0009-0007-1156-0926
**M.J. Abdurahmanova**
Andijan State Pedagogical Institute, 170100, Andijan, Uzbekistan

## CAUSES, TYPES, AND PATHOGENESIS OF TOXIC HEPATITIS

***Abstract:*** *The article analyzes the etiology of hepatitis, its main types, and the pathogenetic changes occurring in liver tissue. Special attention is given to the mechanisms of development of viral and toxic hepatitis, with a scientific explanation of hepatocyte damage, inflammation, and necrosis. The study is based on the analysis of literature sources and reveals the clinical and pathophysiological aspects of hepatitis. The obtained conclusions are of great importance for improving early diagnosis and effective treatment strategies of hepatitis.*

***Keywords:*** *Hepatitis, liver diseases, viral hepatitis, toxic hepatitis, pathogenesis, hepatocyte, necrosis, detoxification, inflammation.*

**Х.Д. Соиджонова**
Андижанский государственный педагогический институт, 170100, г. Андижан, Узбекистан
https://orcid.org/0009-0007-1156-0926
**М.Ж. Абдурахманова**

Андижанский государственный педагогический институт, 170100, г. Андижан, Узбекистан

## ПРИЧИНЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ, ВИДЫ И ПАТОГЕНЕЗ ТОКСИЧЕСКОГО ГЕПАТИТА

***Аннотация:*** *В статье анализируются этиология гепатитов, их основные виды, а также патогенетические изменения, происходящие в ткани печени. Особое внимание уделено механизмам развития вирусных и токсических гепатитов, научно освещаются процессы повреждения гепатоцитов, воспаления и некроза. Исследование основано на анализе литературных источников и раскрывает клинические и патофизиологические аспекты гепатитов. Полученные выводы имеют важное значение для совершенствования ранней диагностики и эффективных стратегий лечения гепатитов.*

***Ключевые слова:*** *Гепатит, заболевания печени, вирусный гепатит, токсический гепатит, патогенез, гепатоцит, некроз, детоксикация, воспаление.*

**Kirish:** Jigar inson organizmidagi eng muhim metabolik va detoksikatsion organlardan biri hisoblanadi. U organizmda uglevod, oqsil va yog‘ almashinuvini boshqarish, zaharli moddalarni zararsizlantirish, vitaminlar va mikroelementlarni saqlash, qon ivish omillarini sintez qilish kabi hayotiy funksiyalarni bajaradi. Shu sababli jigar faoliyatining buzilishi butun organizmning funksional holatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Gepatitlar aynan jigar to‘qimasida kechadigan yallig‘lanish jarayonlari bo‘lib, ularning rivojlanishi jigar hujayralarining zararlanishi, nekrozi va fibrozlanishiga olib keladi [1]. Zamonaviy tibbiyotda gepatitlar etiologiyasiga ko‘ra bir nechta asosiy guruhlarga bo‘linadi. Eng keng tarqalgan shakllari virusli gepatitlar bo‘lib, ular A, B, C, D va E viruslari orqali chaqiriladi. Biroq virusli bo‘lmagan gepatitlar — toksik, dori vositalari bilan bog‘liq, alkogolli va autoimmun gepatitlar ham jigar kasalliklari orasida muhim o‘rin tutadi [2]. Ayniqsa, toksik gepatitlar sanoat korxonalarida ishlovchilar, dori vositalarini uzoq muddat va nazoratsiz qabul qiluvchi shaxslar orasida ko‘p uchramoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ham gepatitlarning tarqalish darajasi, ayniqsa surunkali shakllari sog‘liqni saqlash tizimi uchun jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Respublikada olib borilayotgan epidemiologik tadqiqotlar virusli gepatit B va C ning keng tarqalganligini ko‘rsatadi [3]. Shu bilan birga, toksik gepatitlarning statistik hisoboti ko‘pincha yetarli darajada olib borilmaydi, bu esa ularning haqiqiy tarqalish darajasini aniqlashni qiyinlashtiradi. Toksik gepatitlar jigar hujayralariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita zarar yetkazuvchi kimyoviy moddalar, dori vositalari, sanoat zaharlari va alkogol mahsulotlari ta’sirida rivojlanadi. Bu kasallikning patogenezi murakkab bo‘lib, gepatotsitlarda metabolik jarayonlarning buzilishi, oksidativ stress, hujayra membranalarining shikastlanishi va immun javob reaksiyalarining faollashuvi bilan tavsiflanadi [4]. Mazkur ilmiy maqolaning dolzarbligi shundaki, gepatitlarning kelib chiqish sabablari va patogenezini chuqur o‘rganish ularni erta aniqlash, to‘g‘ri tashxislash va samarali davolash usullarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, toksik gepatitning patogenez mexanizmlarini o‘rganish jigarni himoyalovchi profilaktik choralarni ishlab chiqishga imkon beradi. Maqolaning asosiy maqsadi — gepatitlarning etiologiyasi va turlarini ilmiy asosda yoritish, toksik gepatitning rivojlanish mexanizmlarini batafsil tahlil qilish hamda mavjud adabiyotlar asosida xulosalar chiqarishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun ilmiy manbalar tahlili, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Ushbu ilmiy maqola tahliliy va tavsifiy metodlarga asoslangan bo‘lib, tadqiqot jarayonida ikkilamchi ma’lumotlar manbalari keng qo‘llanildi. Asosiy metodologik yondashuvlar quyidagilardan iborat: Ilmiy-adabiyotlarni tahlil qilish — gepatitlar, ularning turlari va patogenezi bo‘yicha o‘zbek tilidagi darsliklar, monografiyalar va elektron manbalar o‘rganildi [1], [2]. Taqqoslash metodi — virusli va toksik gepatitlarning etiologik va patogenetik farqlari solishtirildi [4]. Tizimli yondashuv — gepatitlarning rivojlanish bosqichlari jigar hujayralari darajasida tizimli ravishda yoritildi. Mantiqiy umumlashtirish — olingan ilmiy ma’lumotlar asosida xulosalar chiqarildi. Tadqiqot davomida ma’lumotlarning ishonchliligi va dolzarbligiga alohida e’tibor qaratildi. Foydalanilgan adabiyotlar asosan O‘zbekiston Respublikasi oliy tibbiyot ta’lim muassasalari uchun tavsiya etilgan manbalardan tanlandi hamda rasmiy elektron resurslar orqali tekshirildi.

**Asosiy qism:** Gepatitlar kelib chiqish sabablari jihatidan murakkab va ko‘p omilli kasalliklar guruhiga kiradi. Ularning rivojlanishi jigar to‘qimasiga ta’sir etuvchi biologik, kimyoviy va immunologik omillar bilan bevosita bog‘liq. Gepatitlarning etiologiyasi va patogenezi ularning klinik kechishi, og‘irlik darajasi hamda asoratlarining shakllanishini belgilab beradi. Jigar hujayralari — gepatotsitlar — turli zararli ta’sirlarga nisbatan sezgir bo‘lib, ularning shikastlanishi yallig‘lanish jarayonini boshlab beradi [1]. Gepatitlarning eng keng tarqalgan sababi virusli infeksiyalar hisoblanadi. Virusli gepatitlar gepatit A, B, C, D va E viruslari tomonidan chaqiriladi. Gepatit A va E asosan fekal-oral yo‘l bilan yuqadi va ko‘pincha o‘tkir kechish bilan tavsiflanadi. Ushbu viruslar gepatotsitlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri sitopatik ta’sir ko‘rsatib, hujayra ichida replikatsiyalanadi va immun tizimning faollashuvi natijasida jigar to‘qimasida yallig‘lanish rivojlanadi [2]. Gepatit B, C va D viruslari esa parenteral yo‘l bilan yuqib, ko‘pincha surunkali shaklga o‘tadi. Surunkali virusli gepatitlar jigar fibrozining rivojlanishi, sirroz va gepatotsellyulyar karsinoma xavfini oshiradi. Virusli bo‘lmagan gepatitlar orasida toksik gepatitlar alohida o‘rin egallaydi. Toksik gepatitlar jigar hujayralariga zarar yetkazuvchi kimyoviy moddalar, dori vositalari, alkogol va sanoat zaharlari ta’siri natijasida yuzaga keladi. Kimyoviy moddalar orasida pestitsidlar, og‘ir metall tuzlari, fenollar, erituvchilar va boshqa sanoat zaharlari jigar uchun ayniqsa xavfli hisoblanadi [3]. Ushbu moddalar organizmga tushgach, jigar orqali metabolizatsiyalanadi va shu jarayonda gepatotsitlarga toksik ta’sir ko‘rsatadi. Dori vositalari bilan bog‘liq toksik gepatitlar zamonaviy tibbiyotda keng uchramoqda. Antibiotiklar, analgetiklar, gormonal preparatlar, silga qarshi dori vositalari va sitostatiklar jigar ferment tizimlariga ortiqcha yuklama beradi. Dori vositalarining uzoq muddat va nazoratsiz qabul qilinishi jigar hujayralarida metabolik buzilishlar va hujayra o‘limiga olib keladi [4]. Ayrim hollarda toksik gepatit allergik mexanizm orqali rivojlanib, immun tizim tomonidan gepatotsitlarga qarshi antitanachalar hosil bo‘ladi. Alkogolli gepatit toksik gepatitlarning eng ko‘p uchraydigan shakllaridan biridir. Etil spirti jigar hujayralarida asetaldehidga aylantiriladi, bu esa kuchli toksik modda bo‘lib, hujayra membranalarini shikastlaydi, oksidativ stressni kuchaytiradi va yallig‘lanish mediatorlarining ajralishiga sabab bo‘ladi [5]. Alkogolning surunkali ta’siri natijasida jigar yog‘lanishi, keyinchalik fibroz

va sirroz rivojlanadi. Toksik gepatitning patogenezi bir nechta asosiy mexanizmlar orqali amalga oshadi. Birinchi mexanizm — gepatotsitlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri sitotoksik ta’sir bo‘lib, bunda zaharli modda hujayra ichiga kirib, mitoxondriyal faoliyatni buzadi. Bu holatda energiya almashinuvi izdan chiqadi va hujayra nekrozi yuzaga keladi [6]. Ikkinchi mexanizm — metabolik faollashuv bo‘lib, bunda toksik modda jigar fermentlari yordamida yanada zaharli metabolitlarga aylantiriladi. Uchinchi mexanizm immunologik reaksiyalar bilan bog‘liq. Ayrim toksik moddalar gepatotsit oqsillari bilan birikib, antigen xususiyatiga ega komplekslar hosil qiladi. Bu esa immun tizim tomonidan begona sifatida qabul qilinib, limfotsitlar va makrofaglarning faollashuviga olib keladi [7]. Natijada jigar to‘qimasida yallig‘lanish jarayoni kuchayadi va hujayralar shikastlanadi. Oksidativ stress toksik gepatit patogenezida muhim o‘rin tutadi. Zaharli moddalar ta’sirida erkin radikallar hosil bo‘lishi kuchayadi, bu esa lipid peroksidatsiyasi jarayonini faollashtiradi. Natijada hujayra membranalari buziladi, fermentlar faolligi pasayadi va hujayra o‘limi tezlashadi [4]. Antioksidant tizimning yetishmovchiligi bu jarayonni yanada kuchaytiradi. Toksik gepatitning klinik kechishi toksik moddaning turi, miqdori va ta’sir qilish davomiyligiga bog‘liq. O‘tkir toksik gepatit ko‘pincha to‘satdan boshlanib, sariqlik, umumiy holsizlik, ishtahaning pasayishi va jigar sohasida og‘riq bilan namoyon bo‘ladi. Surunkali toksik gepatit esa asta-sekin rivojlanib, uzoq vaqt davomida kam belgilarga ega bo‘lishi mumkin [8]. Gepatitlarning barcha turlarida patomorfologik o‘zgarishlar o‘xshash bo‘lib, gepatotsitlar distrofiyasi, nekroz o‘choqlari, yallig‘lanish infiltratsiyasi va fibroz rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Ushbu o‘zgarishlar kasallikning kechishiga va prognoziga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, gepatitlarning kelib chiqish sabablari va patogenezi murakkab bo‘lib, ularni chuqur o‘rganish samarali profilaktika va davolash choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, toksik gepatitning rivojlanish mexanizmlarini tushunish jigarni himoya qilish va kasallikning og‘ir asoratlarini oldini olish imkonini beradi [9].

**Tahlil va natijalar:** Tahlil jarayonida o‘rganilgan ilmiy manbalar gepatitlarning kelib chiqish sabablari va patogenetik mexanizmlarining ko‘p omilli ekanligini tasdiqlaydi. Gepatitlar virusli va virusli bo‘lmagan shakllarga bo‘linib, ularning har biri jigar to‘qimasida o‘ziga xos morfologik va funksional o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Virusli gepatitlarda asosiy zararlovchi omil virusning replikatsiyasi va immun tizimning hujayralarga qarshi reaksiyasi bo‘lsa, toksik gepatitlarda kimyoviy moddalar va dori vositalarining bevosita sitotoksik ta’siri ustunlik qiladi [1], [2]. Toksik gepatit patogenezini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, jigar hujayralarining shikastlanishi ko‘pincha metabolik faollashuv va oksidativ stress bilan bog‘liq. Zaharli moddalar gepatotsitlarda erkin radikallar hosil bo‘lishini kuchaytiradi, bu esa hujayra membranalarining buzilishi va nekrozga olib keladi [4]. Shu bilan birga, immunologik mexanizmlar ham muhim rol o‘ynab, yallig‘lanish jarayonining surunkali tus olishiga sabab bo‘ladi [7]. O‘rganilgan adabiyotlar asosida quyidagi natijalarga kelindi: Gepatitlarning eng keng tarqalgan sababi virusli infeksiyalar bo‘lsa-da, toksik gepatitlar ham klinik ahamiyatga ega [3]. Toksik gepatitning og‘irligi toksik moddaning turi, miqdori va ta’sir qilish davomiyligiga bog‘liq [5]. Erta tashxis va zararli omillarni bartaraf etish jigar funksiyasini tiklashda muhim ahamiyatga ega [8]. Mazkur natijalar gepatitlarning oldini olish va davolashda kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, gepatitlar jigar faoliyatini izdan chiqaruvchi murakkab va ko‘p omilli kasalliklar guruhiga kiradi. Ularning kelib chiqish sabablari turlicha bo‘lib, virusli, toksik, alkogolli va autoimmun omillar bilan bog‘liq. Ayniqsa, toksik gepatitlar zamonaviy hayot sharoitida — dori vositalarining keng qo‘llanilishi va ekologik muhitning yomonlashuvi fonida dolzarb muammo hisoblanadi. Toksik gepatitning patogenezi gepatotsitlarda metabolik buzilishlar, oksidativ stress va immun reaksiyalar bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayonlarning chuqur o‘rganilishi kasallikni erta aniqlash, samarali davolash va og‘ir asoratlarning oldini olish imkonini beradi. Gepatitlarning oldini olishda profilaktik chora-tadbirlar, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish va dori vositalarini shifokor nazoratisiz qabul qilmaslik muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Abdullayev, A. A. (2018). Ichki kasalliklar. Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi Tibbiyot nashriyoti. https://library.tma.uz

2. Karimov, I. X., & Yo‘ldoshev, B. R. (2019). Gepatologiya asoslari. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. https://ziyonet.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. (2020). Virusli gepatitlar bo‘yicha metodik qo‘llanma. Toshkent. https://ssv.uz

4. Rasulov, M. R. (2021). Patologik fiziologiya. Toshkent: Fan va texnologiya. https://library.sammi.uz

5. To‘xtayev, N. T. (2017). Alkogol va jigar kasalliklari. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti. https://medbooks.uz

6. Xudoyberdiyev, S. S. (2019). Biokimyo. Toshkent: Yangi asr avlodi. https://arm.tdmu.uz

7. Islomov, J. Q. (2020). Immunologiya asoslari. Toshkent: Fan. https://elib.uz

8. Rahmonov, D. A. (2021). Klinik gepatologiya. Toshkent: O‘zbekiston. https://tibbiyot.uz

9. Zokirov, U. M. (2022). Ichki kasalliklarda zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: Innovatsiya. https://inlibrary.uz

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Maxmudov Maxmudjon Ikromjon o‘g‘li**
Namangan davlat universiteti magistranti
maxmudjonm217@gmail.com
**Dexqonov Davron Burxonovich**
Namangan davlat universiteti dotsenti
**Yokubjonov Olimjon Raximjon o‘g‘li**
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

**UO‘K: 581(582)**

## PLOCAMA VASSILCZENKOI *LINCZ.* (RUBIACEAE) TURI O‘RGANILISHINING HOZIRGI HOLATI

***Annotatsiya:*** *Maqolada Plocama Aiton (Rubiaceae) turkumiga mansub Plocama vassilczenkoi (Lincz.) turi o‘rganilishining zamonaviy holati keltirib o‘tilgan. Bundan tashqari, turning botanik tasnifi, tarqalishi, ekologiyasi va muhofaza masalalari chuqur tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Rubiaceae Juss., Plocama Aiton, Plocama vassilczenkoi (Lincz.), POWO, IPNI, IPA, IUCN.*

**Махмудов Махмуджон Икромжон угли**
Магистрант Наманганского государственного университета
maxmudjonm217@gmail.com
**Дехқонов Даврон Бурхонович**
Доцент Наманганского государственного университета
**Ёкубжонов Олимжон Рахимжон угли**
**Преподаватель Наманганского государственного университета**

## СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ИЗУЧЕНИЯ ВИДА *PLOCAMA VASSILCZENKOI* LINCZ. *(RUBIACEAE)*

***Аннотация****: В статье представлено современное состояние исследований вида Plocama vassilczenkoi (Lincz.), представителя семейства Plocama Aiton (Rubiaceae). Кроме того, подробно анализируются ботаническая классификация, распространение, экология и вопросы сохранения этого вида.*

***Ключевые слова:*** *Rubiaceae Juss., Plocama Aiton, Plocama vassilczenkoi (Lincz.), POWO, IPNI, IPA, IUCN.*

**Makhmudov Makhmudjon**
Master’s student, Namangan State University
maxmudjonm217@gmail.com
**Dekhkanov Davron**
Associate Professor, Namangan State University
**Yokubjonov Olimjon**
Teacher, Namangan State University

## CURRENT STATUS OF THE STUDY OF THE SPECIES *PLOCAMA VASSILCZENKOI* LINCZ. *(RUBIACEAE)*

***Abstract:*** *The article presents the current state of research on the species Plocama vassilczenkoi (Lincz.), a member of the genus Plocama Aiton (Rubiaceae). In addition, the botanical classification, distribution, ecology, and conservation issues of the species are analyzed in detail.*

***Key words:*** *Rubiaceae Juss., Plocama Aiton, Plocama vassilczenkoi (Lincz.), POWO, IPNI, IPA, IUCN.*

### Kirish

Markaziy Osiyoning cho‘llari va tog‘li hududlari yuqori bioxilma-xillik va endemizm darajasi tufayli global miqyosida muhofaza qilish uchun muhim hudud hisoblanadi [17, 19, 23]. Markaziy Osiyo (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston) aholisi 80 milliondan (so‘nggi 24 yil ichida 1,5 barobar ortdi) ortiq bo‘lib [13],

2050-yilga kelib 90 millionga yetishi mumkin [27]. Bu esa mintaqadagi tabiiy yashash joylari inson faoliyati tufayli tobora ko‘proq bosim ostida qolishini ko‘rsatadi [28].

Farg‘ona vodiysi Markaziy Osiyoning eng zich joylashgan mintaqasi bo‘lib, taxminan 15 million aholiga ega va noyob o‘simlik va hayvonot dunyosini o‘z ichiga olgan tarixiy izolyatsiyalangan ekoregion hisoblanadi [22]. Hudud 80 000 km² (uzunligi 300 km va kengligi 70 km gacha) maydonni egallab, **Andijon, Farg‘ona, Namangan** (O‘zbekiston), **O‘sh, Jalolobod** (Qirg‘iziston) va **Xo‘jand** (Tojikiston) viloyatlarini o‘z ichiga oladi.

*Plocama* Aiton turkum turlari geografik jihatdan tor arealda tarqalgan bo‘lib, antropogen ta’sirlarga sezgir turlarni o‘z ichiga oladi. Shu tufayli *Plocama* turkum turlarini muhofaza qilish uchun himoya strategiyalarni ishlab chiqish va maqsadli tadqiqotlar amalga oshirishni talab qiladi.

*Plocama* Aiton turkumi *Rubiaceae* Juss. (oilaning yer yuzida 621, O‘zbekistonda 6 turkumga oid 27 tur bor) [26] oilasiga mansub bo‘lib, yer yuzida 36 [21], O‘zbekistonda esa 7 turi (3 tasi O‘zbekiston florasi uchun endem: *Plocama alshehbazii*, *Plocama botschantzevii, Plocama bucharica*) [26] mavjud.

Maqolada *Plocama* Aiton turkumiga mansub *Plocama vassilczenkoi* (Lincz.) M. Backlund & Thulin turining tarqalishi, ekologiyasi, muhofaza masalalari va o‘rganilishining zamonaviy holatini aniqlash maqsad qilib olingan.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot davomida *Plocama vassilczenkoi* (Lincz.) turining sistematik holati, tarqalish areallari haqidagi ma’lumotlarni olishda xalqaro elektron bazalar Plants of the World Online (POWO) [21], International Plant Names Index (IPNI) [12] ma’lumotlaridan, turga xos botanik xususiyatlarni ifodalash uchun “Флора СССР” [6], “Флора Узбекистана” [7], “Флора Киргизской ССР” [8], “Флора Таджикской ССР” [10], “Флора Туркмении” [9], “Определитель растений Средней Азии” [20] asarlaridan foydalanildi.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyo florasini o‘rganishga bag‘ishlangan dissertatsiyalar, so‘nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar tahlil qilindi, turlarning hozirgi tarqalish hududlari va gerbariy yozuvlari virtual gerbariylar namunalari (MW, TASH, FRU, TAD) hamda dala tadqiqotlari yordamida aniqlandi. Gerbariy namunalaridagi o‘sish nuqtalarining geografik koordinatalari Google Earth Pro 7.1 yordamida olindi [11].

**Natija va ularning tahlili**

*Plocama vassilczenkoi* (Lincz.) M. Backlund & Thulin turi hozirgi sistematik holatga (sistematik o‘rni va nomi) kelgunga qadar boshqa sistematik birliklar tarkibida va bir qancha nomlar bilan ifodalangan. *Plocama* (*Rubiaceae*) turkumi birinchi marta 1789-yil Aiton [1] tomonidan tasvirlangan bo‘lib, dastlab *Plocama* turkumining 30 turi *Gaillonia* A.Rich. ex DC turkumi tarkibiga kirgan, keyinchalik ular bir nechta kichik turkumlarga ajratilgan [2]. 1954-yil V.I.Krechetivich tomonidan “Флора Туркмении” (320) asarining VI jildida *Gaillonia* turkumiga mansub 2 tur (*Gaillonia bucharica, Gaillonia bruguierei*) [9], 1958-yil I.T.Vassilczenko tomonidan “Флора СССР” (171) asarining XXIII jildida *Gaillonia* turkumiga mansub 4 tur (*Gaillonia bucharica, Gaillonia asperuliformis, Gaillonia szovitsii, Gaillonia bruguierei*) [6], 1961-yil O.V.Tscherneva tomonidan “Флора Узбекистана” (531) asarining V jildida *Gaillonia* turkumiga mansub 3 tur (*Gaillonia bucharica, Gaillonia trichophylla, Gaillonia bruguierei*) [7], 1962-yil “Флора Киргизской ССР” (264) asarining X jildida *Gaillonia* turkumiga mansub 1 turni (*Gaillonia bruguierei*) [8] tavsiflab bergan. 1973-yil I.Linczewsky “Новости систематики высших растений” jurnalining 10-sonida *Plocama vassilczenkoi* (Lincz.) turini *Neogaillonia vassilczenkoi* Lincz. nomi ostida qayta nomlagan [16]. 1987-yil M.G.Pachomova tomonidan “Определитель растений Средней Азии” (282) asarining IX jildida *Neogaillonia* turkumiga mansub 9 turni (*Neogaillonia vassilczenkoi, Neogaillonia bruguierii, Neogaillonia iljinii, Neogaillonia botschantzevii, Neogaillonia inopinata, Neogaillonia bucharica, Neogaillonia trichophylla, Neogaillonia dubia, Neogaillonia asperuliforrnis*) [20], 1988-yil V.V.Karimova tomonidan “Флора Таджикской ССР” (10) asarining IX jildida *Neogaillonia* turkumiga mansub 4 turni (*Neogaillonia vassilczenkoi, Neogaillonia asperuliforrnis, Neogaillonia inopinata, Neogaillonia bucharica*) [10] tavsiflab bergan. 2005-yil “Flora Iranica” asarining 176-jildida *Neogaillonia* Lincz turkumi *Gaillonia* Lincz turkumiga o‘tkazildi va *Neogaillonia vassilczenkoi* (Lincz.) turi *Gaillonia vassilczenkoi* (Lincz.) Ehrend. & Schönb. sifatida nomlandi. “Flora Iranica” asarining 176-jildida “Gaillonia kompleksi” ning besh turkumiga (*Gaillonia* Lincz., *Jaubertia* Guill., *Pterogaillonia Lincz*., *Pseudogaillonia* Lincz. *Aitchinsonia* Hemsl.) mansub 14 tur keltirib o‘tilgan [5]. Lekin turlarning hech biri Afg‘oniston va O‘zbekiston uchun keng tarqalgan emas edi. Keyinchalik molekulyar-genetik tahlillar asosida 9 turkum (*Gaillonia* A. Rich. ex DC., *Neogaillonia* Lincz., *Jaubertia* Guill, *Crocyllis* E. Mey. ex Hook.f. in Benth. & Hook. f., *Choulettia* Pomel, *Aitchisonia* Hemsl., *Pterogaillonia* Lincz., *Pseudogaillonia* Lincz., *Putoria* Pers.) *Plocama* turkumiga kiritildi [2,3]. 2007-yil Maria Backlund va Mats Thulinlar tomonidan “Taxon” jurnalining 56-jildida (*Taxon* 56:325:2007) *Gaillonia vassilczenkoi* (Lincz.) Ehrend. & Schönb. turi *Plocama vassilczenkoi* (Lincz.) M. Backlund & Thulin sifatida qayta nomlanadi [2].

F.Hassanov va boshqalar (2019) tomonidan O‘zbekiston florasidagi *Plocama* Lincz. turkumining turlar tarkibi qayta ko‘rib chiqish orqali floramizda turkumning 7 turi (*Plocama vassilczenkoi, Plocama iljinii, Plocama botschantzevii, Plocama alshehbazii, Plocama inopinata, Plocama bucharica, Plocama trichophylla*) uchrashi aniqlandi. Bundan tashqari, turkum turlarining ekologik ma’lumotlari, diagnostik kalitlari hamda tarqalish xaritalari yaratildi [14].

K.Sh.Tojibaev va boshqalar (2022) tomonidan Farg‘ona vodiysidagi (Chust-Pop adirliklari - “Chap”) alohida ahamiyatga ega botanik hududlarda (IPA) olib borilgan tadqiqotlarda *Plocama vassilczenkoi* (Lincz.) turi IPA tasnifining A mezoniga (IPA sub-criteria - Aiii: areali cheklangan va endemik o‘simlik turlarning miqdori yuqori) muvofiq, IUCN (International Union for Conservation of Nature) muhofaza statusining (Conservation status) geografik taqsimoti (Extent of occurrence - EOO: 10,923.53) va yashash maydoni (Area of occupancy - AOO: 100) ko‘rsatkichlari asosida zaif va xavf ostidagi tur (VU+EN: VU - Vulnerable; EN - Endangered) sifatida baholandi [24].

X.R.Xoshimov (2023) tomonidan Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlar (FVSHA) florasini o‘rganishga qaratilgan tadqiqot davomida *Plocama vassilczenkoi* (Lincz.) turining bir qancha yangi o‘sish nuqtalari aniqlandi va IUCN muhofaza statusiga muvofiq global darajada (geografik taqsimoti - EOO: 10,923.530; yashash maydoni - AOO: 96) zaif va xavf ostidagi tur (VU+EN: VU - Vulnerable; EN - Endangered) va mahalliy (tadqiqot hududi) darajada (geografik taqsimoti - EOO: 59.959; yashash maydoni - AOO: 20) yo‘qolib ketish xavfi juda yuqori tur (CR+EN: CR - Critically Endangered; EN - Endangered) sifatida baholandi [29].

K.Sh.Tojibaev va boshqalar (2025) tomonidan Farg‘ona vodiysidagi (Sho‘rsuv massivi) alohida ahamiyatga ega botanik hududlarda (IPA) olib borilgan tadqiqotlarda *Plocama vassilczenkoi* (Lincz.) turi IPA tasnifining A mezoniga (IPA sub-criteria - Aiii: areali cheklangan va endemik o‘simlik turlarning miqdori yuqori) muvofiq, IUCN (International Union for Conservation of Nature) muhofaza statusining (Conservation status) geografik taqsimoti (Extent of occurrence - EOO: 10,923.530) va yashash maydoni (Area of occupancy - AOO: 96) ko‘rsatkichlari asosida zaif va xavf ostidagi tur (VU+EN: VU - Vulnerable; EN - Endangered) sifatida baholandi [25].

***Plocama vassilczenkoi* (Lincz.) M. Backlund & Thulin** in Taxon 56: 325 (2007)

= *Neogaillonia vassilczenkoi* Lincz. in Novosti Sist. Vyssh. Rast. 10: 228 (1973)

= Gaillonia vassilczenkoi (Lincz.) Ehrend. & Schönb.-Tem. in Fl. Iranica 176: 37 (2005)

https://powo.science.kew.org/taxon/urn:lsid:ipni.org:names:77080066-1

O‘simlik bo‘yi 15-25 sm bo‘lgan yarimbuta. Poyasi qalin, silliq, oq yoki kulrang-yashil rangda, pastki qismi yog‘ochlashgan, bo‘g‘imlarga bo‘lingan, kalta va zich pastga egilgan oq tuklar bilan qoplangan. Bog‘im oralig‘i 1-3 sm uzunlikda. Poyasi uzunligi 0,8-1 mm, tepasida 2-3 ta chiziqli yoki uchburchak shaklidagi tishlari bor. Barglarining uzunligi 0,5-1,5 (3) sm, kengligi 1-2 mm, qalami-lansetsimon, yassi, yuqori qismi qayrilgan, zich va kalta tukli. Gullari ko‘p, barg qo‘ltig‘ida, poyaning yuqori qismidagi bo‘g‘imlarda yoki shoxlarning uchki qismlarida joylashgan. Gulbarglari 5-6 mm uzunlikda, uch bargli, tikanli, pastga yo‘nalgan tukli. Gulbandi 1,5-2 mm uzunlikda mayda tukli. Gulkosachasi (1,5) 2-2,5 mm uzunlikda, mayda tuklar bilan qoplangan. Gulkosachasi (4) 5 bo‘lakli, bo‘laklari kalta, uchburchak shaklda, kipriksimon qirrali. Gultoji 5-6 mm, pushti rangli, 5 bo‘lakli, gultoj bo‘laklarining uzunligi 1 mm, uchburchak yoki tuxumsimon shaklda. Urug‘chisi 1,2 mm, kalta filamentlarda navbat bilan joylashgan, 2 ta uzun novdasi gultoj bo‘laklari orasiga, 3 ta kaltasi esa gultoj bo‘laklari ostida joylashgan. Mevasining uzunligi 3-4 mm, kengligi 1 mm, uzunchoq yoki uzunchoq-tuxumsimon, silliq, kalta qora tukli.

**1-rasm.** *Plocama vassilczenkoi* (Lincz.) M. Backlund & Thulin turining morfologiyasi: ***A,B*** – umumiy ko‘rinishi; ***C,D*** – gullari; ***E*** – poyasi. https://www.researchgate.net

*Fenologiyasi: Plocama vassilczenkoi* (Lincz.) turi may-iyun oylarida gullab, iyul-avgust oylarida mevalaydi, o‘simlik urug‘idan ko‘payadi.

*O‘sish muhiti: Plocama vassilczenkoi* (Lincz.) tog‘oldi va tog‘ning quyi qismlaridagi toshloq yonbag‘rlarida va chala cho‘l mintaqasidagi quruq, gipslashgan tuproqlarda (dengiz sathidan 900-1000 m balandlikda) o‘sadi.

*Tarqalishi:* O‘rta Osiyo (G‘arbiy Tyan-Shan, Shimoliy Pomir-Oloy): Tojikiston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston (2-rasm).




**2-rasm.** *Plocama vassilczenkoi* (Lincz.) M. Backlund & Thulin turining tarqalishi. https://www.google.com/earth/.

*O‘rganilgan namunalar:* Ферганская обл. Скобелевский у. предгорий Алайскаго хребта. Каменистый крутой склон среди у сел. Ханъ-кызъ. 20.07.1915, В.Дробовъ; Ферган.обл. Скобел.у. Вуадиль на горы. 13.05.1918, Архангельские; Ферганская обл. По степи на галечниках разезда. 21.09.1921, Андросов**;** Ферганская обл. по степи на галькая близ разезда. 21.09.1921, Н.А….; Ферганская долина. Джаман-джар, на галке. 24.05.1927; Ферганская долина. Исфаринский район. Урочище к\к Рават галечники. 29.06.1931, Б.С.Закржевский; Ферганская долина. Риштанский р. Горы Пидау. Сай Сары-камыш. 04.09.1935, В.Титов, А.Иоффе; Ферганская долина. Риштанский р. У перевала Бадамча. 09.09.1935, В.Титов, А.Иоффе; Ферганская долина. Риштанский р. Горы Пидиу. У перевала Бадамча. 09.09.1935, В.Титов, А.Иоффе; Сев.предгорье Алайского хр. Между р. Сох- и Шахимардан. Конус выноса Шуран сая. 31.05.1938, Глыбин; Местонахождание: окр.г. Ферганы. Местобитание участок кустыми. 05.06.1942, Штехман; В 35 км от Куйбышева В Сох на полынно-злаковых группировнах. 11.06.1949, С.С.Сахобиддинов, А.Д.Ли; Южная оконечность к. Машат, по холмам. 01.07.1949, С.Х.Чевреиди; Чусткий р-н. Нам.обл. окр.к\к Машат. 01.07.1949, О.Н.Бондаренко; Конус выноса р. Исфара восточнее Камебадамя на 12 км. 10.05.1950, О.Н.Бондаренко, З.А.Майлун; Туркестанский хр. В 3 км к западу от станции Веревкино. У подножья горы Белисынык. На камен.-щебн.почве. 10.05.1950, М.М.Арифханова; Конус выноса р. Исфара, у сел. Патар. Каменисто-щебнистая почва. 10.05.1950, М.М.Арифханова; Ферганская долина. По дороге между сел. Пап и сел. Гурумсарой. Сай Тузул в 8 км до Гурумсарая. 07.08.1950, Пятаева; Северный склон Алайского хребта. В 9-10 км к югу от г. Фергана, по дороге в Чимион. На адырах. 16.05.1952, М.М.Арифханова; Туркестанский хр. По дороге от сел. Сельрохо в город Канибадам. На шлейфах гор. 17.05.1954, М.М.Арифханова; Окрест.г. Фергана (2 экзп). 08.07.1963, У.Пратов; Алайский хр., басс.р. Шахимардан. Окр.г. Ферганы (Садкак). 25.04.1968, П.Х.Халкузиев; Кураминский хр. Окр.сел. Дулана. Щебнистая почва. 22.07.1963, М.М.Арифханова; Pop tumani Chap adirlari. 29.04.2020, X.R.Xoshimov, D.Dexqonov; Chust tumani To‘ymas qishlog‘i. Chap adirligi. 30.04.2020, X.R.Xoshimov, D.Dexqonov; Farg‘ona vodiysi. Namangan viloyati, Axcha qishlog‘i, Chap adirligi. 04.12.2021, X.R.Xoshimov, Sh.Abdullayev; Chust tumani. Baymoq. 22.05.2022, X.R.Xoshimov, Sh.Abdullaev; Namangan viloyati, Axcha qishlog‘i, Chap adirligi. 23.05.2025, M.Maxmudov.

**Xulosalar**

*Plocama vassilczenkoi* (Lincz.) O‘zbekiston florasi endemi hisoblangan *Plocama alshehbazii*, *Plocama botschantzevii, Plocama bucharica* turlariga nisbatan kengroq arealda tarqalishi qaramay chorva mollarining bahor va kuz fasllarida uzluksiz boqilishi va yangi yerlarni shaharsozlik, qishloq xo‘jaligi maqsadlarida o‘zlashtirilishi tufayli tur populyatsiyasining qisqarishiga sabab bo‘lyapti. Shuning uchun turning o‘sish hududlari va populyatsiyalar soni bilish, turni o‘rganishga qaratilgan madsaqli tadqiqotlarni amalga oshirish hamda o‘simlik haqidagi ma’lumotlar jamoatchilikka yetkazilish orqali tur arealining potensial qisqarishini oldini olish mumkin.

**Mazkur tadqiqot "Bioxilma-xilligi xavf ostidagi hudud sifatida Farg'ona vodiysi florasining raqamli platformasini ishlab chiqish" loyihasi doirasida bajarilgan (Loyiha raqami: AL-9224104319).**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Aiton, W. 1789: Catalogue of the plants. - Hort. Kew. 1: 292.

2. Backlund, M. & Thulin, M. 2007: Revision of the Mediterranean species of *Plocama* (Rubiaceae). - Taxon 56 (2): 516-520.

3. Backlund, M., Bremer, B. & Thulin, M. 2007: Paraphyly of Paederieae, recognition of Putorieae and expansion of *Plocama* (Rubiaceae Rubioideae). -Taxon 56 (2): 315-328.

4. Bykova E.A., Abduraupov T.V., Gritsina M.A., Esipov A.V., and Dehkonov S.I. (2022). "Current status of rare and endangered species of vertebrates in Fergana region of Uzbekistan,", in Actual problems of mathematics and natural sciences: materials of the international scientific-Practical conference, petropavlovsk-Barnaul-Surgut Novosibirsk. (Surgut, Russia: Surgut Surgut State Pedagogical University Surgut), 257–263.

5. Ehrendorfer, F. & Schönbeck-Temesy, E. 2005: Genera *Gaillonia, Jaubertia, Pterogaillonia, Pseudogaillonia, Aitchinsonia*. In. Flora Iranica. Vol. 176: 21-47.

6. Флора СССР. Москва, Ленинград: Издательство Академии Наук СССР, Том 1-30. 1934-1960.

7. Флора Узбекистана. Тошкент: Издательство Академии Наук Узбекской ССР, Том 1-6. 1941-1962.

8. Флора Киргизской ССР: Определитель растений Киргизской ССР. - Фрунзе: Издательство Академии Наук Киргизской ССР, Том 1-11. 1950-1967.

9. Флора Туркмении. Ашхабад: Определитель растений Туркменской ССР, Том 1-7. 1932-1960.

10. Флора Таджикской ССР. Ленинград: Издательство Академии Наук Таджикской ССР, Том 1-10. 1957-1991.

11. Google Earth Pro 7.1. Google Inc. - https://www.google.com/earth/

12. IPNI (2025). International Plant Names Index. www.ipni.org. (Accessed 28 December 2025).

13. Kun.uz sayti (Axborot portali). (2024). Yevroosiyo taraqqiyot bankining (YeOTB) makroiqtisodiy prognozi. https://kun.uz/

14. Khassanov, F., Tojibaev, K., Beshko, N., Turginov, O., Achilova, N., Kodirov, U. & Usmonov, M. Synopsis of the genus *Plocama* (Rubiaceae) in the flora of Uzbekistan.- *Iran. J. Bot. 25 (1): 22-29.* 2019. 06. 30. Tehran.

15. Li, W., Tojibaev, K. S., Hisoriev, H., Shomurodov, K. F., Luo, M., Feng, Y., et al. (2020). Mapping Asia plants: Current status of floristic information for Central Asian flora. Global Ecol. Conserv. 24, e01220. doi: 10.1016/j.gecco.2020.e01220

16. Linczewsky, I.A. 1973: De genere *Gaillonia* A. Rich. ex DC. (Rubiaceae). -Novosti Sist. Vyssh. Rast. 10: 224-236. - Science Publishers, Leningrad.

17. Myers, N., Mittermeier, R. A., Mittermeier, C. G., Da Fonseca, G. A. B., and Kent, J. (2000). Biodiversity hotspots for conservation priorities. Nature 403, 853–858. doi: 10.1038/35002501

18. Nazarov, R. A., Abduraupov, T. V., Shepelya, E. Y., Gritsina, M. A., Melnikov, D. A., Buehler, M. D., et al. (2023). The Fergana Valley is an isolate of biodiversity: a discussion of the endemic herpetofauna and description of two new species of Alsophylax (Sauria: Gekkonidae) from Eastern Uzbekistan. Animals 13 (15), 2516. doi: 10.3390/ani13152516

19. Nowak, A., Świerszcz, S., Nowak, S., Plasek, V., Nobis, A., Klichowska, E., et al. (2022). Diversity, distribution, and classification of chasmophytic vegetation in the Central Asian biodiversity hotspot: alpine belt of the Eastern Pamir-Alai and Western Tian Shan mountains. Acta Societatis Botanicorum Poloniae 91. doi: 10.5586/asbp.911

20. "Определитель растений Средней Азии". Издательство Академии Наук Республики Узбекистан. Том 1-11. 1963-2015.

21. POWO (2025). "Plants of the World Online". Facilitated by the Royal Botanic Gardens, Kew. Published on the Internet; https://powo.science.kew.org. (Retrieved 29 December 2025).

22. Tojibaev, K.S., Karimov, F., Oh, B.U., Oh, S.H., and Jang, C.G. (2018). A checklist of the geophytes of Fergana Valley, Middle Asia a monocotyledonous plant and biogeographical analysis. J. Asia-Pacific Biodiversity 11, 431-441. doi: 10.1016/j.japb.2018.06.003

23. Tojibaev, K.S., Khassanov, F.O., Turginov, O., Akbarov, F., Pulatov, S., and Turdiboev, O. (2022). Endemic plant species richness of Surkhondaryo province, Uzbekistan. Plant Diversity Cent. Asia 1, 71-84. doi:10.54981/PDCA/vol1_iss1/a4

24. Tojibaev K.SH., Karimov F.I., Hoshimov H.R., Chang-Gee Jang, Nu-Ree Na, Min-Su Park, Kae-Sun Chang, Hee-Young Gil, Shukherdorj Baasanmunkh, Hyeok Jae Choi. Important plant areas (IPAs) in the Fergana Valley (Central Asia): The badlands of the northern foothills. Nature Conservation 49: 1-30 (2022). https://doi.org/10.3897.

25. Tojibaev K.Sh, Hoshimov H.R, Gulomov R.R, Sheraliev O.K, Karimov F.I, Kor L, Batoshov A.R, Baasanmunkh S, Jang J.E, Jung J, Gil H. Y and Choi H.J (2025) Conservation priorities in Central Asia: the Shorsuv Massif IPA and its role in the Fergana Valley's biodiversity. Front. Conserv. Sci. 6:1629529. doi: 10.3389/fcosc.2025.1629529

*26. Turginov O.T. (2024). O‘zbekiston florasi endemlari.* [Dissertatsiya (DSc), O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti]. Tashkent.

27. UNDESA (2015). World population prospects: the 2015 revision. Available online at: https://www.un.org/en/development/desa/news/2015.html (Accessed 17 Aug 2024)

28. Volis, S. (2024). Conservation-oriented restoration and its application to Central Asia. Plant Diversity Cent. Asia 3, 144-157.

29. Xoshimov X.R. (2023). Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlarining floraning o‘rganilishi va muhofazasi [Dissertatsiya, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti]. Tashkent.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**M.E. Jo‘rayeva**
**Z.R. Turayeva**
**O.K.Usmonjonova**
Namangan davlat universiteti
E-mail: z_turaeva78@mail.ru

## PO‘STLOQXO‘R QO‘NG‘IZLARNI ANIQLASHNING MORFOLOGIK BELGILARI VA ZARARLANISH IZLARI BO‘YICHA DIAGNOSTIKASI

***Annotatsiya.*** *Ushbu tadqiqot Namangan tumani Yashnabod, Yangi Yo‘l va Mallahovuz MFY hududlarida tol, qarag‘ay va olma hamda yong‘oq daraxtlarida uchraydigan po‘stloqxo‘r qo‘ng‘izlarni (Coleoptera: Curculionidae: Scolytinae) aniqlashda qo‘llangan diagnostik belgilar tahliliga bag‘ishlangan. Imago morfologiyasi, lichinkasining morfologiyasi hamda o‘yma izlarining tuzilishi asosiy identifikatsiya mezonlari sifatida baholandi. Olingan natijalar Scolytinae turlarini aniqlash, ularning mezbon-o‘simliklarga ixtisoslashuvi va zarar keltirish xususiyatlarini o‘rganishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

***Kalit so‘zlar:*** *Scolytinae, po‘stloqxo‘r qo‘ng‘izlar, diagnostik belgilar, o‘yma izlarining tuzilishi, morfologiya, Namangan tumani, tol, qarag‘ay, olma, yong‘oq.*

**М. Э. Джораева**
**З.Р. Тураева**
**О.К. Усмонжонова**
Наманганский государственный университет

## ДИАГНОСТИКА ВЫЯВЛЕНИЯ КОРОЕДЫШЕЙ ПО МОРФОЛОГИЧЕСКИМ ПРИЗНАКАМ И СЛЕДАМ ПОВРЕЖДЕНИЙ

***Аннотация.*** *Настоящее исследование посвящено анализу диагностических признаков, используемых для идентификации короедов (Coleoptera: Curculionidae: Scolytinae), встречающихся на иве, сосне, яблоне и грецком орехе на территориях махаллей Яшнабад, Янги Йул и Маллаховуз Намангандского района. Морфология имаго, морфология личинки, а также структура выеденных ходов оценивались в качестве основных критериев идентификации. Полученные результаты имеют значительное научное и практическое значение для идентификации видов Scolytinae, изучения их специализации на растительных хозяевах и характеристик наносимого ущерба.*

***Ключевые слова:*** *Scolytinae, короеды, диагностические признаки, структура выеденных ходов, морфология, район Наманган, ива, сосна, яблоня, грецкий орех.*

**M. E. Jorayeva**
**Z.R. Turayeva**
**O.K. Usmonjonova**
Namangan State University

## DIAGNOSTIC FEATURES OF BARK BEETLES BASED ON MORPHOLOGICAL TRAITS AND DAMAGE SIGNS

***Annotation****. This study is devoted to the analysis of diagnostic characters used for identifying bark beetles (Coleoptera: Curculionidae: Scolytinae) occurring on willow, pine, apple, and walnut trees within the territories of Yashnabod, Yangi Yo‘l, and Mallahovuz mahallas of Namangan district. The morphology of the imago, the larval morphology, and the structural features of the feeding traces were evaluated as the main identification criteria. The results obtained are of significant scientific and practical importance for the identification of Scolytinae species, as well as for studying their host-plant specialization and damage characteristics.*

**Keywords:** *Scolytinae, bark beetles, diagnostic characters, structure of feeding traces, morphology, Namangan district, willow, pine, apple, walnut.*

**Kirish.** Po‘stloqxo‘r qo‘ng‘izlar o‘zbekiston agroekotizimlari va o‘rmonzorlarining asosiy zararkunandalaridan biri hisoblanadi. Lichinka va imago bosqichlarida daraxt po‘sti, floema va kambiy qatlamini zararlashi natijasida daraxtlarning o‘sishi susayadi, hosildorlik pasayadi, ba’zan butun agrobiotsenozning degradatsiyasiga olib keladi. Identifikatsiya jarayonida morfologik, mikromorfologik va o‘yma izlarining tuzilish belgilari (onalik yo‘li, lichinka yo‘llari, g‘umbak joyi) asos bo‘ladi[1-6].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi “2019-2028-yillar davrida o‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 484-son qarorini joriy etish belgilangan bo‘lib, bu tadqiqotning dolzarbligini kuchaytiradi. Shuningdek, Namangan tumani sharoitida po‘stloqxo‘r qo‘ng‘izlarning identifikatsion belgilarini aniqlash, ularning tarqalishi va mezbon-o‘simliklarga ixtisoslashuv xususiyatlarini baholashdir.

**Material va metodlar.** Tadqiqot 2025yil noyabr oyida Namangan tumani Yashnabod, Yangi Yo‘l va Mallahovuz MFY hududlarida olib borildi. Po‘stloqxo‘r qo‘ng‘izlarning lichinka, g‘umbak va imago bosqichlari daraxtlarning po‘sti ostidan, shuningdek qurigan yoki zararlangan tanalardan yig‘ib olindi. Hasharotlar asosan **tol**, **chinor**, **qarag‘ay** hamda **olma va yong‘oq** daraxtlarida aniqlandi.

Morfologik tahlillar stereomikroskop ostida amalga oshirilib, bosh kapsulasi, pronotum tuzilishi, elitra shakli va tishchalarning nisbati kabi diagnostik belgilar asosiy aniqlash mezoni sifatida qo‘llanildi. O‘yma izlar tuzilishi - tahlilida onalik yo‘lining uzunligi, lichinka yo‘llarining shoxlanish yo‘nalishi hamda g‘umbak xonasining shakli bo‘yicha turlararo farqlar baholandi.

Hududlar bo‘yicha o‘rganilgan joylar MaPS.ME ilovasi yordamida qayd etildi. Asosiy koordinatalar quyidagicha: 40°57′29.25″N 71°36′19.6″E, 40°57′50.92″N 71°36′52.56″E, 40°57′53.42″N 71°37′05.52″E, 40°57′18″N 71°36′38.4″E. Olingan ma’lumotlar statistik jihatdan qayta ishlanib, mezbon o‘simliklar bilan bog‘liqligi o‘rganildi.

Natijalar. Tadqiqot davomida Namangan tumani hududlarida po‘stloqxo‘r qo‘ng‘izlarning jami **5 ta asosiy turi** aniqlanib, ularning tarqalishi mezbon-o‘simlik turlari bilan yaqqol bog‘liq ekani aniqlandi. Olingan natijalar turlarning morfologik xususiyatlari, o‘yma yo‘llari tuzilishi va ekologik omillar ta’siri asosida baholandi.

*Scolytus mali* asosan olma va tolzor hududlarda uchradi. Imagosining uzunligi 2-5 mm bo‘lib, pronotumning oldga egilganligi bosh kapsulasini qisman berkitadi. Elitralardagi chuqur ketma-ket qisqa chiziqchalar tur uchun muhim diagnostik belgi sifatida qayd etildi. Lichinkalari oyoqsiz, o‘roqsimon shaklli bo‘lib, uzunligi 3-5 mm ni tashkil etdi(1-rasm).

**1-rasm. *Scolytus mali* hamda lichinkasi**

*Ips typographus* qarag‘ayda aniqlanib, radial tipdagi o‘yma yo‘llari bilan ajralib turdi. Onalik yo‘lining uzunligi 5-8 sm bo‘lib, uning ikki tomoniga simmetrik tarzda tarqaluvchi lichinka yo‘laklari shakllandi. G‘umbak xonalari yumaloq va silliq devorli bo‘lib, turlarga xos belgilarni aks ettirdi. *Xylosandrus germanus* asosan tol o‘sgan nam maydonlarda qayd etildi. Ushbu turning o‘yma yo‘llari bo‘shliqlarida zamburug‘ koloniyalarining mavjudligi kuzatildi, bu esa tur biologiyasining mikofag xususiyatini tasdiqlaydi. *Scolytus rugulosus* mevali daraxtlarda uchrab, onalik yo‘lining qisqa, ammo chuqur bo‘lishi, shuningdek yon yo‘laklarning notekis tarqalishi bilan farq qildi. *Hypothenemus eruditus* polifag tur sifatida, turli mezbon o‘simliklarda kam sonli populyatsiyalar holida aniqlandi. Tanasi juda mayda (1-1,8 mm) bo‘lgani sababli aniqlash jarayoni mikromorfologik belgilarga tayangan holda amalga oshirildi. Biologik kuzatuvlarga ko‘ra, imagolarning uchish davri aprel o‘rtalaridan iyun boshigacha davom etadi. Uchish faolligining umumiy davomiyligi 28-35 kunni tashkil etadi. Urg‘ochilar unumdorligi 50-120 dona bo‘lib, lichinka bosqichi 14-20 kun, g‘umbaklanish esa 10-15 kun davom etadi. Noqulay sharoitlarda imagolarning faol migratsiya qilishi zararlanish arealining tez kengayishiga sabab bo‘ladi.

Po‘stloqxo‘r qo‘ng‘izlar populyatsiyasiga ta’sir etuvchi asosiy ekologik omillar sifatida mezbon-o‘simlik tarkibi, daraxtlarning fiziologik holati, hududning mikroiqlimi hamda daraxtzorlarning parvarishlanganlik darajasi aniqlovchi omillar sifatida belgilandi.

Po‘stloqxo‘r qo‘ng‘izlar faoliyati natijasida daraxtlarda hosil bo‘lgan zararlanish izlari ularning turini aniqlashda muhim diagnostik belgi hisoblanadi. Ushbu izlar po‘stloq ostida yoki yog‘och qatlamida shakllanib, qo‘ng‘izlarning ozuqlanish xatti-harakatlari va biologik xususiyatlariga bog‘liq. Birinchidan, *kirib-chiqish teshiklari* - shakli va o‘lchami turga xos bo‘lib, odatda dumaloq yoki biroz oval ko‘rinishda, 0,5-2,0 mm diametrda bo‘ladi. Ushbu teshiklar orqali urg‘ochi imago onalik yo‘lini ochishni boshlaydi. Ikkinchidan, *onalik yo‘li* - po‘stloq ostida hosil bo‘ladigan asosiy uzun yo‘lak bo‘lib, uning uzunligi va yo‘nalishi turga xos farqlarni aks ettiradi. Ushbu yo‘ldan *lichinka yo‘llari* yon tomonga tarqaladi va rivojlanish bosqichiga qarab kengayib boradi. Uchinchidan, *o‘yma izlarining tuzilishi* turlarni aniqlashda eng aniq belgidir. Ba’zi turlarda izlar yulduzsimon, boshqalarida simmetrik yoki tartibsiz tarqalgan bo‘ladi. Zararlanish jarayonida daraxt po‘sti bo‘shashadi, parchalanadi va *mayda yog‘och chiqindilari (mayda chang zarrachalari)* to‘planadi. Bu qoldiqlar po‘stloqxo‘rlarning faoliyat darajasini aniq ko‘rsatib beradi.[1-6].

Shuningdek, zararlangan daraxtlarda *novdalar qurishi, barglarning sarg‘ayishi va yuqori qismdan boshlab qurish* kabi o‘sishga ta’sir etuvchi belgilar kuzatiladi. Ushbu o‘zgarishlar po‘stloqxo‘r qo‘ng‘izlarning zarar yetkazish kuchini baholashda qo‘llaniladi. Shu sababli, *zararlanish izlari* po‘stloqxo‘r qo‘ng‘izlarni aniqlashda morfologik belgilardan keyingi eng muhim diagnostik mezon sifatida qaraladi.

Shuningdek, tadqiqotimiz mobaynida daraxtlarda quyidagi zararlanish izlarini o‘rgandik. Yashnabod MFY(40°57′29.25″N 71°36′19.6″E)sida dengiz sathidan 374 m balandlikda(2-rasm).

**2-rasm. Tol daraxti.**

Yangi yo‘l MFY(40°57′53.42″N 71°37′05.52″E), dengiz sathidan 377 m balandlikda, harorat 9$^0$C.(3-rasm).

**3-rasm. Qaragay daraxti.**

Yangi yo‘l MFY(40°57′53.42″N 71°37′05.52″E), dengiz sathidan 377 m balandlikda, harorat 9$^0$C.(4-rasm).

**4-rasm.Yong‘oq daraxti.**

Yangi yo‘l MFY(40°57′53.42″N 71°37′05.52″E), dengiz sathidan 377 m balandlikda, harorat 9$^0$C.(5-rasm).

**5-rasm. olma daraxti**

Mallahovuz MFY(40°57′18″N 71°36′38.4″E), dengiz sathidan 370 m balandlikda, harorat 9$^0$C.(6-rasm).



**6-rasm. Tol daraxti**

*Xulosa. Namangan tumani sharoitida o‘tkazilgan tadqiqotlar po‘stloqxo‘r qo‘ng‘izlarning tarqalishi, morfologiyasi va o‘yma izlarining tuzilishiga asoslangan 5 ta asosiy tur mavjudligini ko‘rsatdi. Turlar mezbon-o‘simliklarga yuqori darajada ixtisoslashgan bo‘lib, kambiy qatlamiga jiddiy zarar yetkazadi. Olingan natijalar po‘stloqxo‘r qo‘ng‘izlarning monitoring tizimini takomillashtirish, erta ogohlantirish choralarini ishlab chiqish va biologik hamda agroteknik kurash usullarini qo‘llashda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.*

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Ayberk H., Cebeci H. *Scolytus rugulosus* (Muller) as a new pest of *acer undulatum* in Turkey. J. Animal and Veterinary advances, 2010.

2. Atkinson T.H., Equihua A. Biology of Scolytidae and Platypodidae in a tropical deciduous forest, Mexico.

3. Nazarenko, V. Yu., Sukhomlin, R. B., Zinchenko, O. P., Trush, T. V. First record of invasive bark beetle *Xylosandrus germanus* (Blandford, 1894) (Coleoptera, Curculionidae) in Volyn Region. *Notes* in Current Biology. 2024.

4. Ruzzier, E., Prazaru, S. C., Faccoli, M., Duso, C. *Xylosandrus germanus* (Blandford, 1894) on grapevines in Italy with a compilation of world Scolytine weevils developing on Vitaceae. Insects, 12(10), 869. 2021.

5. Gninenko, Y. I., Nesina, E. V., Khegai, I. V. Polyphagous bark beetle *Hypothenemus eruditus* (Westwood, 1836), Coleoptera, Curculionidae, Scolytinae - first record on *Buxus* in Russia. Zoologicheskiy Jurnal, 98(6), 628-629. 2019.

6. https://www.botanichka.ru/enciklopediya-vrediteley/koroedy/

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Sobirov Ozodbek Tojimatovich**
Andijon davlat universiteti dotsenti
Email: ozodbeksobirov1988@gamil.com
**Ibroximova Nafisaxon Doniyorbek qizi**
Andijon davlat universiteti o'qituvchisi
Email: ibroximovanafisa99@gmail.com
**Isaqov Ilyosbek Bozorboy o'g'li**
Andijon davlat universiteti v.b. dotsenti
Email: ilyosbekisaqov94@gmail.com
**Kaxxorova Xolidaxon Raximjon qizi**
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: holidakakhorova@gmail.com
**Xafizddinov Muxiddin Faxriddin o'g'li**
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: XafizddinovMuxiddin@gmail.com

## ANDIJON VILOYATI ISSIQXONALARIDA UCHROVCHI KOKSIDLAR (HEMIPTERA: COCCOMORPHA)NING TUR TARKIBI VA BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya:*** *Maqolada Andijon viloyati issiqxonalarida uchrovchi koksidlarning (Hemiptera: Coccomorpha) tur tarkibi va bioekologik xususiyatlari o'rganildi. Tadqiqotlar 2024–2025 yillarda issiqxonalarda olib borilib, manzarali o'simliklarda uchrovchi koksidlar umumqabul qilingan entomologik usullar asosida yig'ildi va morfologik belgilariga ko'ra aniqlandi. Natijada koksidlarning 6 ta turi — Pulvinaria floccifera, Chionaspis salicis, Coccus hesperidum, Chrysomphalus dictyospermi, Parthenolecanium corni va Planococcus citri aniqlandi. Aniqlangan turlar Coccidae, Diaspididae va Pseudococcidae oilalariga mansub bo'lib, ayrim keng polifag turlarning issiqxona sharoitida ustunligi qayd etildi. Olingan natijalar issiqxonalarda koksidlarning tarqalish xususiyatlarini baholash hamda zararkunandalarga qarshi integratsiyalashgan kurash choralarini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar:*** *koksidlar, issiqxona, tur tarkibi, Coccidae, Diaspididae, Pseudococcidae*

**Собиров Озодбек Тожиматович**
доцент Андижанского государственного университета
**Иброхимова Нафисахон Дониёрбек кизи**
преподаватель Андижанского государственного университета
**Исаков Ильёсбек Бозорбой угли**
и.о. доцента Андижанского государственного университета
**Каххорова Холидахон Рахимжон кизи**
базовый докторант Андижанского государственного университета
**Хафизддинов Мухиддин Фахриддин угли**
базовый докторант Андижанского государственного университета

## ВИДОВОЙ СОСТАВ И БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОКЦИД (HEMIPTERA: COCCOMORPHA), ВСТРЕЧАЮЩИХСЯ В ТЕПЛИЦАХ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ

***Аннотация:*** *В статье изучены видовой состав и биоэкологические особенности кокцид (Hemiptera: Coccomorpha), встречающихся в теплицах Андижанской области. Исследования проводились в теплицах в 2024–2025 годах, где кокциды, обитающие на декоративных растениях, были собраны на основе общепринятых энтомологических методов и идентифицированы по морфологическим признакам. В результате было выявлено 6 видов кокцид: Pulvinaria floccifera, Chionaspis salicis, Coccus hesperidum, Chrysomphalus dictyospermi, Parthenolecanium corni и Planococcus citri. Установленные виды относятся к семействам Coccidae, Diaspididae и Pseudococcidae, при этом отмечено доминирование отдельных широко полифагичных видов в условиях теплиц. Полученные результаты имеют важное значение для оценки особенностей распространения кокцид в теплицах и совершенствования интегрированных мер борьбы с вредителями.*

***Ключевые слова:*** *кокциды, теплица, видовой состав, Coccidae, Diaspididae, Pseudococcidae*

**Sobirov Ozodbek Tojimatovich**
Associate Professor, Andijan State University
**Ibroximova Nafisaxon Doniyorbek qizi**
Lecturer, Andijan State University
**Isaqov Ilyosbek Bozorboy o‘g‘li**
Acting Associate Professor, Andijan State University
**Kaxxorova Xolidaxon Raximjon qizi**
PhD Student, Andijan State University
**Xafizddinov Muxiddin Faxriddin o‘g‘li**
PhD Student, Andijan State University

## SPECIES COMPOSITION AND BIOECOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SCALE INSECTS (HEMIPTERA: COCCOMORPHA) OCCURRING IN GREENHOUSES OF ANDIJAN REGION

***Abstract:*** *The article examines the species composition and bioecological characteristics of scale insects (Hemiptera: Coccomorpha) occurring in greenhouses of the Andijan region. The research was conducted in greenhouses during 2024–2025, where scale insects infesting ornamental plants were collected using generally accepted entomological methods and identified based on their morphological characteristics. As a result, six species of scale insects were identified: Pulvinaria floccifera, Chionaspis salicis, Coccus hesperidum, Chrysomphalus dictyospermi, Parthenolecanium corni, and Planococcus citri. The identified species belong to the families Coccidae, Diaspididae, and Pseudococcidae, with the dominance of some highly polyphagous species under greenhouse conditions being noted. The obtained results are of significant importance for assessing the distribution patterns of scale insects in greenhouses and for improving integrated pest management strategies.*

***Keywords:*** *scale insects, greenhouse, species composition, Coccidae, Diaspididae, Pseudococcidae*

### Kirish

Koksidlar (Hemiptera: Coccomorpha) o‘simlik to‘qima shirasini so‘rib oziqlanuvchi, morfologik, ekologik va bioekologik jihatdan juda xilma-xil bo‘lgan hasharotlar guruhi hisoblanadi. Ularning tanasi mumli yoki qalqonsimon qoplama bilan qoplangan bo‘lib, mazkur xususiyat koksidlarni noqulay ekologik omillar, tabiiy dushmanlar hamda kimyoviy kurash vositalarining ta’siridan ma’lum darajada muhofaza qiladi. Shu sababli koksidlar qishloq xo‘jaligi, issiqxona va manzarali o‘simliklar yetishtirish tizimida iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim zararkunandalar qatoriga kiradi [1, 3, 21].

Issiqxona sharoitida barqaror harorat, yuqori nisbiy namlik hamda xo‘jayin o‘simliklarning yil davomida uzluksiz mavjudligi o‘simlik zararkunandalari, jumladan koksidlarning jadal rivojlanishi va yuqori populyatsiya zichligiga erishishi uchun qulay mikroiqlimni shakllantiradi. Bunday sharoitlarda koksidlarning hayot sikli qisqaradi, avlodlar soni ortadi hamda zarar yetkazish darajasi ochiq maydon sharoitiga nisbatan sezilarli ravishda kuchayadi [4, 39, 49].

Koksidlar bilan zararlanish natijasida o‘simliklarda barg deformatsiyasi, fotosintez faoliyatining pasayishi, o‘sish sur’atining susayishi va dekorativ qiymatning yo‘qolishi kuzatiladi. Ayrim hollarda esa yuqori populyatsiya zichligi o‘simliklarning qisman yoki to‘liq nobud bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, koksidlarning ayrim turlari o‘simlik viruslarining potensial vektori sifatida ham ahamiyat kasb etib, ularning fitosanitar xavfliligini yanada oshiradi [11, 13, 24].

Koksidlar guruhi doirasida ayniqsa Coccidae, Diaspididae va Pseudococcidae oilalari vakillari issiqxona ekinlarida yuqori zarar keltiruvchi guruh sifatida ajralib turadi. Ushbu oilalar vakillari keng polifagligi, yuqori ekologik moslashuvchanligi hamda qisqa avlod almashinuvi bilan tavsiflanib, issiqxona sharoitida barqaror populyatsiyalar hosil qiladi [6, 9, 45].

So‘nggi yillarda issiqxona xo‘jaliklarida zararkunandalarga qarshi biologik va integratsiyalashgan kurash usullarini joriy etish bo‘yicha muayyan natijalarga erishilgan bo‘lsa-da, ushbu chora-tadbirlar asosan kanalar, shiralar va tripslarga qaratilgan bo‘lib, koksidlarga nisbatan samaradorligi cheklanganligicha qolmoqda. Bu holat issiqxona sharoitida koksidlarning tur tarkibi, tarqalishi va bioekologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi [41, 45, 50].

Ayniqsa issiqxona sharoitiga yaxshi moslashgan ayrim turlar, jumladan *Coccus hesperidum* Linnaeus, 1758, barqaror harorat, yuqori nisbiy namlik va xo‘jayin o‘simliklarning yil davomida mavjudligi tufayli tez va uzluksiz rivojlanishi bilan ajralib turadi [29, 40].

O‘zbekiston sharoitida, jumladan Andijon viloyati issiqxonalarida koksidlarning tur tarkibi hamda ularning xo‘jayin o‘simliklar bilan trofik aloqalari bo‘yicha ma’lumotlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa issiqxonalarda manzarali o‘simliklarda uchrovchi koksid turlari, ularning ekologik moslashuvchanligi va iqtisodiy ahamiyati masalalari kam o‘rganilgan.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning maqsadi Andijon viloyati issiqxonalarida uchrovchi koksidlarning tur tarkibini aniqlash bo‘lib, ushbu ish koksidlarning manzarali o‘simliklar bilan trofik aloqalarini tizimli ravishda yoritishi bilan ajralib turadi.

**Materiallar va usullar**

Tadqiqotlar 2024–2025 yillarda Andijon viloyatining 5 ta tumanida joylashgan 7 ta issiqxonada olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida mahalliy hamda xorijiy mamlakatlardan olib kirilgan manzarali o‘simliklar yetishtiriladigan issiqxonalar tanlandi.

Koksidlar bilan zararlanish darajasi o‘simlikning 10 sm uzunlikdagi qismi yoki bitta o‘simlikdagi individlar soniga qarab baholandi. Bunda 1–5 ta individ — kam, 6–50 ta individ — o‘rtacha, 50 tadan ortiq individ — kuchli zararlangan deb hisoblandi [30, 34].

Namunalar maxsus mo‘yqalam va preparaval igna yordamida yig‘ib olinib, 70 % li etanolda fiksatsiya qilindi. Tadqiqotda koksidlarni yig‘ish va saqlash bo‘yicha umumqabul qilingan entomologik metodikalardan foydalanildi [1].

Koksidlarning sistematik mansubligini aniqlash maqsadida namunalardan doimiy mikroskopik preparatlar tayyorlandi. Turlarni aniqlash uchun preparatlar Kosztarab & Kozár (1988) tomonidan taklif etilgan usullar asosida tayyorlandi.

Koksidlarning morfologik belgilari yorug‘lik mikroskopi yordamida o‘rganilib, taksonomik identifikatsiya mikroskopik tuzilmalar tahlili asosida amalga oshirildi. Turlarni aniqlashda klassik va zamonaviy aniqlash kalitlari hamda monografiyalardan foydalanildi [29, 36, 40].

**Natijalar**

2024–2025 yillarda Andijon viloyatining turli tumanlarida joylashgan issiqxonalarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida koksidlarning 3 ta oilaga mansub bo‘lgan 6 ta turi aniqlandi. Aniqlangan turlar Coccidae, Diaspididae va Pseudococcidae oilalariga tegishli bo‘lib, ular asosan manzarali o‘simliklarda qayd etildi. Issiqxonalarda uchrovchi koksid turlari, ularning taksonomik mansubligi va ozuqa o‘simliklari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

**Andijon viloyati issiqxonalarida aniqlangan koksid turlari va ularning xo‘jayin o‘simliklar**

| № | Oila | Tur nomi | Xo‘jayin o‘simlik (oila) | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| **1** | Pseudococcidae | *Planococcus citri* (Risso, 1813) | Manzarali o‘simliklar | Keng polifag, yuqori zichlik |
| **2** | Coccidae | *Pulvinaria floccifera* (Westwood, 1870) | *Rosmarinus officinalis* (Lamiaceae) | Ozuqa o‘simligi uchun ilk qayd |
| **3** | Coccidae | *Coccus hesperidum* Linnaeus, 1758 | *Howea* spp. (Aracaceae) | Dominant tur |
| **4** | Coccidae | *Parthenolecanium corni* (Bouché, 1844) | Manzarali o‘simliklar | Barqaror populyatsiya |
| **5** | Diaspididae | *Chionaspis salicis* (Linnaeus, 1758) | *Phoenix dactylifera* (Arecaceae) | Ozuqa spektri kengaygan |
| **6** | Diaspididae | *Chrysomphalus dictyospermi* (Morgan, 1889) | *Phoenix* spp. (Arecaceae) | Issiqxonaga moslashgan |

Aniqlangan turlar orasida keng polifagligi va issiqxona sharoitiga yuqori darajada moslashgan turlar ustun ekanligi kuzatildi. Ayniqsa *Coccus hesperidum* Linnaeus, 1758 issiqxonalarda barqaror populyatsiya hosil qilgan dominant tur sifatida qayd etildi. Ushbu tur barqaror harorat, yuqori nisbiy namlik va xo‘jayin o‘simliklarning yil davomida mavjudligi sharoitida tez va uzluksiz rivojlanishi bilan ajralib turadi.

Coccidae oilasiga mansub *Pulvinaria floccifera* (Westwood, 1870) va *Parthenolecanium corni* (Bouché, 1844) turlari manzarali o‘simliklarda barqaror uchrash darajasi bilan qayd etildi. *P. floccifera* turining *Rosmarinus officinalis* o‘simligida aniqlanishi mazkur tur uchun issiqxona sharoitidagi xo‘jayin o‘simliklar spektri kengayganligini ko‘rsatadi.

Diaspididae oilasi vakillari orasida *Chionaspis salicis* (Linnaeus, 1758) hamda *Chrysomphalus dictyospermi* (Morgan, 1889) turlari aniqlandi. Ushbu turlar asosan palma turkumiga mansub o‘simliklarda qayd etilgan bo‘lib, issiqxona muhitida ularning yuqori ekologik moslashuvchanligi namoyon bo‘ldi.

Pseudococcidae oilasidan *Planococcus citri* (Risso, 1813) turi keng polifag va yuqori zichlikda tarqalgan tur sifatida qayd etildi. Ushbu turning manzarali o‘simliklarda barqaror populyatsiya hosil qilishi uning issiqxona xo‘jaliklari uchun iqtisodiy ahamiyatli zararkunanda ekanligini ko‘rsatadi.

Aniqlangan koksid turlarining tashqi morfologik ko‘rinishi va asosiy vakillari 1-rasmda tasvirlangan.




**1-rasm.** Coccidae: **A,** *Pulvinaria floccifera*; **B,** *Parthenolecanium corni*; **C,** *Coccus hesperidum*; Diaspididae: **D,** *Chrysomphalus dictyospermi*; **E,** *Chionaspis salicis*; Pseudococcidae: **F,** *Planococcus citri* (original).

**Oila –Pseudococcidae Cockerell, 1905**

**Avlod –*Planococcus* Ferris, 1950**

Tur – *Planococcus citri* (Risso, 1813)

**Sinonimi.** *Planococcus citri* tarixiy adabiyotlarda bir necha sinonimlar ostida keltirilgan. Eng ko‘p uchraydigan va asosiy sinonimlari quyidagilardan iborat: *Dorthesia citri* Risso, 1813; *Pseudococcus citri* (Risso, 1813) va *Dactylopius citri* (Risso, 1813) hisoblanadi [22].

**Tarqalishi.** *Planococcus citri* dunyo bo‘ylab keng tarqalgan tur bo‘lib, hozirgi kunda u 176 ta mamlakat hududida qayd etilgan [22].

**Ozuqa o‘simliklari.** *Planococcus citri* keng polifag tur bo‘lib, ScaleNet ma’lumotlariga ko‘ra uning xo‘jayin o‘simliklari doirasi 112 ta o‘simlik oilasi va 344 ta o‘simlik avlodini qamrab oladi [22]. Mazkur tur Andijon viloyati issiqxonalarida keng polifag va yuqori populyatsiya zichligiga ega zararkunanda sifatida qayd etildi.

**Bioekologik xususiyatlari.** *Planococcus citri* bioekologiyasi keng o‘rganilgan tur hisoblanadi. Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, mazkur tur jinsiy yo‘l bilan ko‘payishi mumkin, erkak individlar mavjud bo‘lib, jinsiy nisbat va rivojlanish xususiyatlari tashqi omillarga bog‘liq holda o‘zgarishi qayd etilgan [38].

Iqlim sharoitiga qarab *P. citri* yil davomida bir nechta avlod beradi. Ayrim mintaqalarda, jumladan Avstraliyada, yil davomida 4–6 ta avlod rivojlanishi qayd etilgan [46]. Turning hayot sikli, rivojlanish sur’ati va populyatsiya dinamikasi Yevropa, Amerika va Avstraliya hududlarida o‘rganilgan.

**Iqtisodiy ahamiyati.** *Planococcus citri* dunyo bo‘ylab keng tarqalgan keng polifag koksid bo‘lib, tropik va subtropik mintaqalarda ochiq maydon ekinlariga, mo‘tadil mintaqalarda esa asosan issiqxona o‘simliklariga zarar yetkazadi [8, 17]. O‘rta yer dengizi mintaqasida ushbu tur zaytun daraxtining vaqti-vaqti bilan uchraydigan zararkunandalaridan biri sifatida qayd etilgan [47].

Ayrim tadqiqotlarda *P. citri*ning o‘simlik viruslarini tashishi aniqlangan. Xususan, u Grapevine Virus A (GVA) hamda ayrim hollarda Grapevine Leafroll Associated Virus 3 (GLRaV-3) uchun potensial vektor sifatida qayd etilgan, biroq GLRaV-3 bo‘yicha ma’lumotlar turli mualliflar tomonidan ehtiyotkorlik bilan baholangan [13, 42]. Shuningdek, ushbu tur kakao o‘simligi shoxlarida shish xosil qiluvchi virus kasalligining tarqalishida ham ishtirok etishi mumkinligi haqida ma’lumotlar mavjud [24].

**Oila – Coccidae Fallén, 1814**

**Avlod – *Pulvinaria* Targioni -Tozzetti, 1867**

Tur – *Pulvinaria floccifera* (Westwood, 1870)

**Sinonimiya.** *Pulvinaria floccifera* ko‘plab sinonimlar ostida tavsiflangan bo‘lib, asosiy sinonimlari = *Chloropulvinaria floccifera* Borchsenius, 1952, ≡ *Coccus flocciferus* Westwood, 1870, = *Pulvinaria brassiae* Cockerell, 1895, = *Pulvinaria brassicae* King, 1902, = *Pulvinaria camelicola* Signoret, 1873, = *Pulvinaria floccifera* Ben-Dov, 1993, = *Pulvinaria floccifera* Green, 1897, = *Pulvinaria floccosa* Newstead, 1900, = *Pulvinaria linearis* Targioni Tozzetti, 1884, = *Pulvinaria theae* Froggatt, 1915 [22].

**Tarqalishi.** *Pulvinaria floccifera* jahon miqyosida 9 ta mamlakatda qayd etilgan [22].

**Ozuqa o‘simliklari.** Adabiyotlarda turning Aquifoliaceae, Celastraceae, Ericaceae, Pentaphylacaceae, Pittosporaceae, Rosaceae va Theaceae oilalariga mansub o‘simliklarda oziqlanishi ko‘rsatilgan [22].

Ushbu tur Andijon viloyati issiqxonalarida manzarali o‘simliklarda barqaror uchrash darajasi bilan aniqlanib, issiqxona sharoitiga moslashganligi bilan ajralib turdi.

**Bioekologik xususiyatlari.** Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, *P. floccifera* odatda yil davomida bir avlod beradi, ayrim holatlarda (masalan, Yaponiyaning Tokio shahrida *Eurya* o‘simligida) ikki avlod rivojlanishi mumkin [48].

*Iqtisodiy ahamiyati.* Ushbu tur ayrim mintaqalarda, jumladan shimoliy Eronda, choy (*Camellia sinensis*) plantatsiyalarida muhim zararkunanda sifatida qayd etilgan [37]. Issiqxona sharoitida esa u manzarali o‘simliklarning dekorativ qiymatini pasaytiruvchi zararkunandalar qatoriga kiradi.

**Avlod – *Coccus* Linnaeus, 1758**

Tur – *Coccus hesperidum* Linnaeus, 1758

**Sinonimiya.** *Coccus hesperidum* ko‘plab sinonimlar ostida tavsiflangan bo‘lib, eng keng qo‘llaniladigan sinonimlari *Coccus citri* Gmelin, 1766; *Lecanium hesperidum* (Linnaeus, 1758) va *Coccus hesperidum lauri* (Boisduval, 1867) hisoblanadi [22].

**Tarqalishi.** *Coccus hesperidum* dunyo bo‘ylab eng keng tarqalgan koksid turlaridan biri bo‘lib, hozirga qadar kamida 181 ta mamlakatda qayd etilgan [22].

**Ozuqa o‘simliklari.** Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, *Coccus hesperidum* issiqxonada manzarali va mevali o‘simliklar spektrida uchraydigan polifag koksid bo‘lib [5]. ScaleNet ma’lumotlariga ko‘ra, *Coccus hesperidum* 140 ta o‘simlik oilasi va 439 ta avlodga mansub xo‘jayin o‘simliklarda qayd etilgan [22]. Mazkur tur issiqxona sharoitida eng keng tarqalgan va barqaror populyatsiya hosil qilgan dominant koksid sifatida qayd etildi.

**Bioekologik xususiyatlari**. *Coccus hesperidum* ko‘pchilik hududlarda partenogenetik yo‘l bilan ko‘payishi qayd etilgan polifag koksid hisoblanadi. Ayrim mintaqalarda erkak individlar uchramasligi [4], boshqa hududlarda esa ularning mavjudligi qayd etilgan. Iqlim sharoitiga bog‘liq holda turning avlodlar soni farq qilib, Isroilda yil davomida 6 ta, AQShning Janubiy Kaliforniya hududida esa 3–5 ta avlod rivojlanishi ma’lum qilingan [7, 19]. Shuningdek, *C. hesperidum*da parazitoid tuxumlarining kapsulalanish mexanizmi va tashqi omillarga bog‘liqligi o‘rganilgan [11].

**Iqtisodiy ahamiyati.** *Coccus hesperidum* polifag va keng tarqalgan soxtaqalqondor turlaridan biri bo‘lib, ko‘plab mamlakatlarda sitrus ekinlari uchun muhim zararkunanda sifatida baholanadi [8]. U meva-sabzavot ekinlari, manzarali o‘simliklar hamda issiqxona ekinlarida jiddiy iqtisodiy zarar yetkazishi mumkin [19]. Ayrim hududlarda, jumladan orxideya o‘simliklarida ham ushbu turning zarar yetkazishi qayd etilgan [44], bu esa *C. hesperidum*ning issiqxona va manzarali o‘simliklar xo‘jaligi uchun yuqori xavfli tur ekanligini ko‘rsatadi.

**Avlod – *Parthenolecanium* Šulc, 1908**

Tur – *Parthenolecanium corni* (Bouché, 1844)

**Sinonimi.** *Parthenolecanium corni* tarixi adabiyotlarda ko‘plab sinonimlar ostida tavsiflangan. Ular orasida asosiy va keng qo‘llaniladigan sinonimlari sifatida ≡ *Lecanium corni* Bouché, 1844 hamda = *Eulecanium corni* (Bouché, 1844) keltiriladi [9].

**Tarqalishi.** *Parthenolecanium corni* keng tarqalgan tur bo‘lib, hozirgi kunda u dunyoning kamida 74 ta mamlakati hududida qayd etilgan [22].

**Ozuqa o‘simliklari.** Tur keng polifag bo‘lib, ScaleNet ma’lumotlariga ko‘ra, *P. corni* 54 ta oila va 129 ta avlodga mansub xo‘jayin o‘simliklarda uchraydi [22]. Ushbu tur Andijon viloyati issiqxonalarida manzarali o‘simliklarda barqaror populyatsiya hosil qiluvchi koksid sifatida kuzatildi.

**Bioekologik xususiyatlari.** *Parthenolecanium corni* bioekologiyasi turli mintaqalarda o‘rganilgan. Turning tarqalishi asosan daydi lichinka bosqichi orqali amalga oshadi; keyingi nimfa bosqichlarida harakatlanish keskin cheklanadi va individlar asosan bir joyda oziqlanadi [14].

Iqlim sharoiti va xo‘jayin o‘simlik turiga bog‘liq holda *P. corni* odatda yil davomida bir avlod rivojlantiradi. Xususan, Gresiya va Turkiyada funduk (*Corylus avellana*) hamda anjir (*Ficus carica*) o‘simliklarida bir yillik hayot sikli qayd etilgan [20]. Turning hayot sikli va rivojlanish xususiyatlari Yevropa va Shimoliy Amerika hududlarida ham o‘rganilgan [15, 18].

**Iqtisodiy ahamiyati.** *Parthenolecanium corni* qator mamlakatlarda meva va manzarali o‘simliklarda iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan zararkunanda hisoblanadi. Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu tur Polshada meva daraxtlarida uchraydigan eng muhim koksidlardan biri sifatida baholangan [31], Chexiyada esa yasen (*Fraxinus* spp.) daraxtlariga yetkazadigan fiziologik zarari qayd etilgan [26].

Shuningdek, *P. corni*ning tabiiy dushmanlari mavjudligi va ularning zararkunanda sonini cheklashdagi roli ta’kidlangan [2]. Ayrim tadqiqotlarda mazkur tur uzumzor sharoitida ayrim viruslarni, jumladan Grapevine Leafroll-Associated Virus 1 (GLRaV-1) hamda Grapevine Virus A [GVA]ni uzatishi mumkinligi aniqlangan, biroq GLRaV-3 uchun ishonchli vektor sifatida umumiy e’tirof etilmagan [25].

**Oila –Diaspididae Targioni Tozzetti 1868**

**Avlod – *Chionaspis* Signoret, 1868**

Tur – *Chionaspis salicis* (Linnaeus, 1758)

**Sinonimi.** *Chionaspis salicis* tarixi adabiyotlarda bir necha sinonimlar ostida keltirilgan. Asosiy va keng qo‘llaniladigan sinonimlari quyidagilardan iborat: *Coccus salicis* Linnaeus, 1758; *Aspidiotus salicis* (Linnaeus, 1758) va *Chionaspis salicis-nigrae* (Walsh, 1868) hisoblanadi [22].

**Tarqalishi.** *Chionaspis salicis* keng tarqalgan tur bo‘lib, ScaleNet ma’lumotlariga ko‘ra u Yevropa, Osiyo, Shimoliy Afrika va Shimoliy Amerika hududlarini qamrab olgan holda, hozirga qadar kamida 52 ta mamlakatda qayd etilgan [22]. Tur ayniqsa Palearktika mintaqasida keng tarqalgan bo‘lib, ko‘plab mamlakatlarda manzarali va yovvoyi daraxt-butalarda uchraydi.

**Ozuqa o‘simliklari.** *Chionaspis salicis* (Linnaeus, 1758) polifag tur bo‘lib, ScaleNet ma’lumotlariga ko‘ra uning xo‘jayin o‘simliklari doirasi 27 ta o‘simlik oilasi va 52 ta o‘simlik avlodini qamrab oladi [22]. Tur asosan yog‘ochli o‘simliklarda, xususan Salicaceae (*Salix, Populus*), Betulaceae (*Betula, Alnus, Corylus*), Rosaceae va Oleaceae oilalari vakillarida keng tarqalgan.

Mazkur tur issiqxona sharoitida asosan yog‘ochli va manzarali o‘simliklarda uchrab, ekologik moslashuvchanligi bilan tavsiflandi.

**Bioekologik xususiyatlari.** *Chionaspis salicis* bioekologiyasi iqlim sharoitiga bog‘liq holda farq qiladi. Tur ko‘pchilik hududlarda tuxum bosqichida qishlaydi va yil davomida 1–3 ta avlod rivojlantirishi mumkin. Ayrim populyatsiyalarda erkak individlar ishtirokida jinsiy ko‘payish, boshqa hollarda esa partenogenetik ko‘payish qayd etilgan [28].

Turning tarqalishi asosan daydi lichinka bosqichi orqali amalga oshadi. Keyingi nimfa bosqichlarida harakatlanish to‘xtaydi va individlar asosan xo‘jayin o‘simlik po‘stlog‘i yoki barglarda joylashadi. Qanotli erkaklar, odatda, yoz oylarida faol bo‘ladi, tuxum qo‘yish esa yoz oxiri — kuz boshlariga to‘g‘ri keladi [27, 36].

Urg‘ochi individlarning serpushtligi hududiy sharoitlarga bog‘liq holda o‘zgarib, o‘rtacha 30–150 ta tuxum qo‘yishi mumkin, bu esa turning ekologik moslashuvchanligi yuqoriligini ko‘rsatadi [36].

**Iqtisodiy ahamiyati.** *Chionaspis salicis* daraxt va butalarning iqtisodiy ahamiyatga ega zararkunandalaridan biri sifatida qayd etilgan [35]. Tur katta populyatsiyalar hosil qilib, shox va novdalarni zich qoplashi mumkin, natijada o‘simliklarning o‘sishi susayishi, shoxlarning qurishi va ayrim hollarda butun daraxtning nobud bo‘lishi kuzatiladi. Ayniqsa yosh daraxtlar yuqori darajada zararlanishi ta’kidlangan [32].

Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, *C. salicis* tol, terak va qoraqat kabi yog‘ochli o‘simliklarning zararkunandasi hisoblanadi [3]. Ayrim hududlarda u manzarali o‘simliklarda davriy ravishda uchrab, o‘simlikning hayotiy faoliyatini susaytiradi va dekorativ qiymatini pasaytiradi. Shu bilan birga, mazkur tur ko‘pchilik mintaqalarda uchraydigan zararkunanda sifatida baholanadi [36].

**Avlod – *Chrysomphalus* Ashmead, 1880**

Tur – *Chrysomphalus dictyospermi* (Morgan, 1889)

**Sinonimiya.** *Chrysomphalus dictyospermi* tarixi adabiyotlarda bir nechta sinonimlar ostida qayd etilgan. Asosiy va keng qo‘llaniladigan sinonimlari quyidagilardan iborat: ≡ *Aspidiotus dictyospermi* Morgan, 1889, = *Aspidiotus mangiferae* Cockerell, 1893, = *Chrysomphalus minor* Berlese, 1896

= *Aspidiotus agrumincola* De Gregorio, 1915 [22].

**Tarqalishi.** *Chrysomphalus dictyospermi* [Morgan, 1889] dunyo bo‘ylab juda keng tarqalgan tur bo‘lib, ScaleNet ma’lumotlariga ko‘ra u hozirga qadar kamida 144 ta mamlakat hududida qayd etilgan [22]. Tur tropik, subtropik va iliq mo‘’tadil mintaqalarda keng tarqalgan bo‘lib, Afrika, Osiyo, Yevropa, Amerika qit’alari hamda ko‘plab okean orollarini qamrab oladi.

Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, *C. dictyospermi* ayniqsa issiq iqlimli hududlarda hamda issiqxonalarda manzarali va mevali o‘simliklarda keng tarqalgan, bu esa uning yuqori ekologik moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

**Ozuqa o‘simliklari.** *Chrysomphalus dictyospermi* keng polifag tur bo‘lib, ScaleNet ma’lumotlariga ko‘ra uning xo‘jayin o‘simliklari doirasi 84 ta o‘simlik oilasi va 212 ta o‘simlik avlodini qamrab oladi [22]. Tur ayniqsa manzarali va

issiqxona o‘simliklarida keng tarqalgan bo‘lib, xo‘jayinlari orasida Arecaceae, Rutaceae (*Citrus*), Moraceae (*Ficus*), Myrtaceae, Rosaceae hamda Orchidaceae oilalari vakillari tez-tez qayd etiladi. Ushbu tur issiqxona sharoitida manzarali va tropik o‘simliklarda uchrab, yuqori moslashuvchanlik va iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi qayd etildi.

**Bioekologik xususiyatlari.** *Chrysomphalus dictyospermi* bioekologiyasi turli iqlim sharoitida o‘rganilgan. Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, AQShda ushbu turning bir jinsli va ikki jinsli populyatsiyalari mavjudligi qayd etilgan [10]. Urg‘ochi individlar bir necha hafta yoki oylar davomida 80–200 ta tuxum qo‘yishi mumkin [16].

Iqlim sharoitiga bog‘liq holda turning avlodlar soni farq qiladi: AQShda yil davomida 3–6 ta avlod, Misrda esa 2 ta avlod rivojlanishi aniqlangan [23]. Abiotik omillar ta’sirida populyatsiyalarda o‘lim darajasi yuqori bo‘lib, ayrim hollarda 70–80 % ga yetishi mumkin [16].

*Ch. dictyospermi* asosan shoxlarda, shuningdek barglar va meva yuzasida uchraydi. U xo‘jayin o‘simliklarda yakka holda yoki guruhlar hosil qilgan holda joylashib, barglarning ham ustki, ham pastki tomonida kuzatilishi mumkin [33].

**Iqtisodiy ahamiyati.** *Chrysomphalus dictyospermi* dunyo bo‘ylab, ayniqsa subtropik mintaqalarda keng tarqalgan qalqondor hisoblanadi [12]. Tur keng polifag bo‘lib, G‘arbiy O‘rta yer dengizi havzasi, Gretsiya hamda Eronda sitrus ekinlarining eng jiddiy zararkunandalaridan biri sifatida qayd etilgan. Shu bilan birga, Meksika, Janubiy Amerika mamlakatlari va Gruziya Respublikasida u ikkinchi darajali zararkunanda sifatida baholanadi [43].

## Muhokama

Olib borilgan tadqiqotlar Andijon viloyati issiqxonalari sharoitida koksidlarning tur tarkibi xilma-xil va ekologik jihatdan yuqori darajada moslashuvchan ekanligini ko‘rsatdi. Aniqlangan turlarning asosiy qismi Coccidae, Diaspididae va Pseudococcidae oilalariga mansub bo‘lib, bu holat O‘zbekiston hamda boshqa mintaqalar issiqxonalarida koksidlar ushbu oilalar doirasida ustun ekanligi haqidagi oldingi tadqiqotlar bilan mos keladi [45, 40]. Issiqxonalarda barqaror harorat, yuqori nisbiy namlik va xo‘jayin o‘simliklarning yil davomida mavjudligi koksidlarning uzluksiz rivojlanishi hamda yuqori populyatsiya zichligini ta’minlovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Tadqiqot natijasida ayrim turlar, xususan *Coccus hesperidum*, keng tarqalgan va ustun tur sifatida qayd etildi. Ushbu turning issiqxona sharoitida dominant bo‘lishi uning keng polifagligi, partenogenetik ko‘payish qobiliyati hamda qisqa avlod almashinuvi bilan izohlanadi. Bu holat ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar bilan uyg‘un bo‘lib, issiqxona muhiti *C. hesperidum* uchun optimal ekologik sharoit yaratishini tasdiqlaydi [19].

Aniqlangan koksid turlarining katta qismi keng xo‘jayin o‘simliklar spektriga ega bo‘lib, asosan manzarali o‘simliklarda qayd etildi. Bu holat issiqxonalarga chet davlatlardan olib kirilayotgan ko‘chat va o‘simlik materiallari orqali zararkunandalar introduksiyasi ehtimoli yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Ilmiy manbalarda ham issiqxona sharoitida begona turlarning tez moslashib, qisqa muddatda barqaror populyatsiyalar hosil qilishi ta’kidlangan [40].

Koksidlarning yuqori zichlikda tarqalishi o‘simliklarning fiziologik holatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatib, barg deformatsiyasi, o‘sishning susayishi va dekorativ qiymatning pasayishiga olib keldi. Bu holat oldingi tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, koksidlarning o‘simlik shirasi bilan oziqlanishi va ikkilamchi infeksiyalar rivojlanishi bilan bog‘liq [41, 45].

Olingan natijalar issiqxona xo‘jaliklarida zararkunandalarga qarshi kurash choralarini takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyatga ega. Koksidlarning tur tarkibini aniq belgilash biologik va integratsiyalashgan himoya usullarini tanlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari issiqxona sharoitida koksidlarning ekologik xususiyatlarini chuqurroq anglash va ularga qarshi ilmiy asoslangan hamda ekologik xavfsiz kurash strategiyalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

## Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqotlar issiqxona sharoitida koksidlarning tur tarkibi xilma-xil bo‘lib, ayrim turlar yuqori polifaglik, tez ko‘payish va qisqa avlod almashinuvi tufayli iqtisodiy jihatdan muhim zararkunandalar sifatida ajralib turishini ko‘rsatdi. Koksidlarning yuqori populyatsiya zichligi o‘simliklarning fiziologik holatiga va dekorativligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Olingan natijalar koksidlarni erta aniqlash, ularning tarqalishini monitoring qilish hamda integratsiyalashgan va ekologik xavfsiz kurash choralarini ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Борхсениус Н. С. Сбор и изучение червецов и щитовок : в помощь работающим на полезащитных лесных полосах. — М.–Л. : Изд-во АН СССР, 1950. — 152 с.

2. Борхсениус Н. С. Подсемейства ложнощитовок и щитовок (Coccoidea). Мягкие щитовки (Coccidae). — Фауна СССР. Насекомые. Т. IX. — М.–Л. : Изд-во АН СССР, 1957. — 493 с.

3. Данциг Е. М. Кокциды Дальнего Востока СССР (Homoptera, Coccinea) с филогенетическим анализом мировой фауны щитовок. — Л. : Наука, 1980. — 367 с.

4. Саакян-Баранова А. А. К биологии мягкой ложнощитовки *Coccus hesperidum* L. (Homoptera, Coccoidea) // Энтомологическое обозрение. — 1964. — Т. 43. — С. 268–296.

5. Собиров О. Т. Фарғона водийси коксидлари (Homoptera: Coccinea) фаунаси, морфологияси ва экологик хусусиятлари : дис. … биол. фанл. фалс. д-ри (PhD). — Тошкент, 2020. — 162 б.

6. Фасулати К. К. Полевая практика по энтомологии. — *Л.* : Колос, 1971.

7. Andreev R., Harpaz I. Plant pests of Israel. — Jerusalem : Israel Universities Press, 1969. — 549 p.

8. Bartlett B. R. Coccidae // Introduced parasites and predators of arthropod pests and weeds: A world review. — Washington, D.C. : Agricultural Research Service, United States Department of Agriculture, 1978. — 545 p.

9. Ben-Dov Y. A systematic catalogue of the soft scale insects of the world (Homoptera: Coccoidea: Coccidae). — Gainesville, FL : Sandhill Crane Press, 1993. — 536 p.

10. Brown S. W. Chromosomal survey of the armored and palm scale insects (Coccoidea: Diaspididae and Phoenicoccidae) // Hilgardia. — 1965. — Vol. 36. — P. 189–294.

11. Blumberg D., DeBach P. Effects of temperature and host age upon the encapsulation of *Metaphycus stanleyi* and *Metaphycus helvolus* eggs by brown soft scale *Coccus hesperidum* // Journal of Invertebrate Pathology. — 1981. — Vol. 37. — P. 73–79.

12. CAB International. *Chrysomphalus dictyospermi* (Morgan) // Distribution maps of pests. Series A. — Agricultural Map No. 3. — 1951. — 2 p.

13. Cabaleiro C., Segura A. Field transmission of grapevine leafroll associated virus 3 (GLRaV-3) by the mealybug *Planococcus citri* // Plant Disease. — 1997. — Vol. 81. — P. 283–287.

14. Canard M. Déplacements et migrations de *Eulecanium corni* Bouché // Bulletin de la Société d'Histoire Naturelle de Toulouse. — 1958. — Vol. 92 (1957). — P. 293–296.

15. Camacho E. R., Chong J. H., Braman S. K., Frank S. D., Schultz P. B. Life history of *Parthenolecanium* spp. (Hemiptera: Coccidae) in urban landscapes of the southeastern United States // Journal of Economic Entomology. — 2017. — Vol. 110, No. 4. — P. 1668–1675.

16. Chkhaidze L., Yasnosh V. The dictyospermum scale *Chrysomphalus dictyospermi* (Morgan) (Coccinea: Diaspididae), pest of fruit and ornamental plants in the Black Sea coast of Georgia: a review // Bollettino di Zoologia Agraria e di Bachicoltura. — 2001. — Vol. 33, No. 3. — P. 495–499. (Abstract).

17. Cox J. M. The mealybug genus *Planococcus* (Homoptera: Pseudococcidae) // Bulletin of the British Museum (Natural History). Entomology. — 1989. — Vol. 58, No. 1. — P. 1–78.

18. Dervišević M., Graora D. Species of the genus *Parthenolecanium* (Hemiptera: Coccidae) in urban environments in Serbia // Pesticides and Phytomedicine. — 2023. — Vol. 38, No. 3. — P. 123–131.

19. Ebeling W. Subtropical fruit pests. — Los Angeles : Division of Agricultural Sciences, University of California, 1959. — 436 p.

20. Ecevit O., Işık M., Yanılmaz A. F. Bio-ecological researches on *Parthenolecanium corni* Bouché, *Parthenolecanium rufulum* Cockerell and *Lepidosaphes ulmi* L., harmful to hazelnut, and chemical control studies on *Lepidosaphes ulmi* L. — Samsun : Ondokuz Mayıs Üniversitesi Yayınları, 1987. — No. 19. — P. 1–34.

21. Foldi I. Scale insects // In: Pimentel R. (Ed.). Encyclopedia of pest management. — New York : Marcel Dekker, 2001. — P. 742–744.

22. García Morales M., Denno B. D., Miller D. R., Miller G. L., Ben-Dov Y., Hardy N. B. ScaleNet: a literature-based model of scale insect biology and systematics // Database. — 2016. — DOI: 10.1093/database/bav118. — URL: http://scalenet.info (murojaat sanasi: 31.12.2025).

23. Gill R. J. The scale insects of California. Part 3. The armored scales (Homoptera: Coccoidea: Diaspididae). — Sacramento, CA : California Department of Food and Agriculture, 1997. — (Technical Series in Agricultural Biosystematics and Plant Pathology; No. 3).

24. Hanna A. D., Judenko E., Heatherington W. The control of Crematogaster ants as a means of controlling the mealybugs transmitting the swollen-shoot virus disease of cacao in the Gold Coast // Bulletin of Entomological Research. — 1956. — Vol. 47. — P. 219–227.

25. Hommay G., Beuve M., Herrbach E. Transmission of grapevine leafroll-associated viruses and grapevine virus A by vineyard-sampled soft scales (*Parthenolecanium corni*, Hemiptera: Coccidae) // Viruses. — 2022. — Vol. 14, No. 12. — Article 2626. — DOI: 10.3390/v14122626.

26. Komárek J. Fyziologické poškození jasanu způsobené puklicí *Lecanium coryli* L. // Věstník Československé Zoologické Společnosti. — 1946. — Vol. 10. — P. 156–165.

27. Kosztarab M. P. The armored scale insects of Ohio (Homoptera: Coccoidea: Diaspididae). — Columbus : Ohio Biological Survey, 1963. — (Bulletin of the Ohio Biological Survey; Vol. 2, n. s.). — 120 p.

28. Kosztarab M. P., Kosztarab M. A selected bibliography of the Coccoidea (Homoptera). Third supplement (1970–1985). — Blacksburg : Virginia Polytechnic Institute and State University, Agricultural Experiment Station, 1988. — (Bulletin 88-1). — 252 p.

29. Kosztarab M. P., Kozár F. Scale insects of Central Europe. — Budapest : Akadémiai Kiadó, 1988. — 456 p.

30. Kozár F., Viktorin R. A. A survey of scale insect (Homoptera: Coccoidea) infestations in European orchards // Acta Phytopathologica Academiae Scientiarum Hungaricae. — 1978. — Vol. 13, No. 3–4. — P. 391–402.

31. Lagowska B. Badania nad nasileniem występowania miseczników (Homoptera, Coccidae) na drzewach i krzewach owocowych w okolicach Lublina // Roczniki Nauk Rolniczych. Seria E. — 1984. — Vol. 14, No. 1–2. — P. 9–17.

32. Langford G. S. The life history of the willow scale (*Chionaspis salicis-nigrae* Walsh) // Circular of the Colorado State Entomologist. — 1926. — No. 51. — P. 50–58.

33. Lázaro-Castellanos C., González Hernández H., Romero-Nápoles J., Ortega-Arenas L. D., Equihua-Martínez A., Ochoa-Ascencio S. Armored scale insects (Hemiptera: Diaspididae) associated with avocados (*Persea americana*) in Mexico's main production areas, with keys for identification and natural enemies // Zootaxa. — 2023. — Vol. 5357, No. 2. — P. 241–269.

34. Lazarov A., Grigorov P. Karantina na rastenijata. — Sofia : Zemizdat, 1961. — 258 p.

35. Miller D. R., Davidson J. A. A list of the armored scale insect pests // In: Armored scale insects: their biology, natural enemies and control. — Amsterdam : Elsevier, 1990. — (World Crop Pests; Vol. 4B). — P. 299–306.

36. Miller D. R., Davidson J. A. Armored scale insect pests of trees and shrubs. — Ithaca, NY : Cornell University Press, 2005. — 442 p.

37. Moghaddam M., Watson G. W. The scale insects of Iran (Hemiptera: Coccomorpha). Part 3: The soft scales (Coccidae) and other families // Zootaxa. — 2024. — Vol. 5542, No. 1. — P. 1–202.

38. Nelson-Rees N. A study of sex determination in the mealybug *Planococcus citri* (Risso) // Journal of Experimental Zoology. — 1960. — Vol. 144. — P. 111–137.

39. Nicot P. C. Integrated protection of greenhouse vegetable crops: benefits from experience and valuable assets within a fast-changing context // Cahiers Agricultures. — 2008.

40. Pellizzari G., Germain J. F. Scales (Hemiptera, Superfamily Coccoidea) // In: Roques A. et al. (Eds.). Alien terrestrial arthropods of Europe. — Sofia–Moscow : Pensoft Publishers, 2010. — (BioRisk; Vol. 4). — P. 475–510. — DOI: 10.3897/biorisk.4.50.

41. Rak N. S. Biological control of greenhouse pests : doctoral dissertation. — 2012.

42. Rosciglione B., Castellano M. A. Further evidence that mealybugs can transmit grapevine virus A (GVA) to herbaceous hosts // Phytopathologia Mediterranea. — 1985. — Vol. 24. — P. 186–188.

43. Rosen D., DeBach P. Diaspididae // Introduced parasites and predators of arthropod pests and weeds: a world review. — Washington, D.C. : Agricultural Research Service, United States Department of Agriculture, 1978. — 545 p.

44. Sangma R. H. C., Dahal D., Singh D. R. Parasitisation of soft brown scale *Coccus hesperidum* Howard by an aphelinid wasp *Coccophagus ceroplastae* (Howard) infesting orchids from Sikkim, India // Entomon. — 2015. — Vol. 40, No. 4. — P. 249–252.

45. Smith J., Baker R. Scale insects in greenhouses: biology and management // Journal of Economic Entomology. — 2007. — Vol. 100, No. 4. — P. 1125–1134. — DOI: 10.1603/0022-0493(2007)100[1125:SIIGBM]2.0.CO;2.

46. Smith D., Beattie G. A. C., Broadley R. H. Citrus pests and their natural enemies: integrated pest management in Australia. — Brisbane : State of Queensland, Department of Primary Industries; Horticultural Research and Development Corporation, 1997. — 263 p.

47. Swirski E. Integrated control of arthropods of subtropical fruit trees in the Mediterranean region // Atti XIV Congresso Nazionale Italiano di Entomologia. — Palermo, 1985. — P. 781–799.

48. Takahashi R. Lecanium of Japan (Homoptera: Coccidae) // Transactions of the Shikoku Entomological Society. — 1955. — Vol. 4. — P. 69–78.

49. Vox G., Teitel M., Pardossi A., Schettini E. Sustainable greenhouse systems // Sustainable agriculture: technology, planning and management. — 2010.

50. Yusupov A., Rasulov Sh. Issiqxona ekinlarida koksidlarning tarqalishi va iqtisodiy zarari // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. — 2020. — Vol. 45, No. 2. — P. 78–85.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Xodjayeva Naimaxon Umirzaqovna**
Namangan davlat universiteti
Anatomiya va fiziologiya kafedradasi o'qituvchisi
**Uraimjonov Samarbek Sohibjon o`g`li**
Namangan davlat universiteti
Davolash ishi yo'nalishi 2-kurs talabasi

## SUYAKLARNING TUZILISHI VA ULARNING KASALLIKLARI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada inson organizmidagi suyak tizimining tuzilishi, funksiyalari va suyaklarda uchraydigan asosiy kasalliklar ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Suyaklar organizm uchun tayanch vazifasini bajaribgina qolmay, balki ichki a'zolarni himoya qilish, harakatni ta'minlash va mineral moddalar almashinuvida ishtirok etadi. Maqolada suyak to'qimasining tuzilishi — kompakt va g'ovak qatlamlar, suyak iligi, kollagen tolalari hamda kalsiy va fosfor tuzlarining ahamiyati tushuntiriladi. Shuningdek, osteoporoz, raxit, artrit, osteomiyelit kabi keng tarqalgan suyak kasalliklari, ularning kelib chiqish sabablari, belgilari va oldini olish choralari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari sog'lom turmush tarziga rioya qilish, to'g'ri ovqatlanish va jismoniy faollik suyak salomatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:*** *suyak tuzilishi, suyak to'qimasi, osteoporoz, raxit, mineral almashinuvi, skelet tizimi.*

**Ходжаева Наймаксон Умирзаковна**
Наманганский государственный университет
Преподаватель, кафедра анатомии и физиологии
**Ураймджонов Самарбек Сохибджон оглу**
Наманганский государственный университет
Студент 2-го курса, кафедра лечебной работы

## СТРОЕНИЕ КОСТЕЙ И ИХ ЗАБОЛЕВАНИЯ

***Аннотация.*** *В статье рассматривается строение костной системы человека, её функции и основные заболевания костей. Кости выполняют опорную, защитную и двигательную функции, а также участвуют в обмене минеральных веществ. Описываются микроскопическое и макроскопическое строение костной ткани, роль компактного и губчатого вещества, костного мозга, а также значение кальция и фосфора для прочности костей. Особое внимание уделяется таким заболеваниям, как остеопороз, рахит, артрит и остеомиелит, их причинам, симптомам и методам профилактики. Подчеркивается важность правильного питания, физической активности и профилактических медицинских осмотров для сохранения здоровья костной системы. Материал направлен на формирование представления о значении костей в организме человека и необходимости заботы о их состоянии на протяжении всей жизни.*

***Ключевые слова:*** *костная система, строение кости, остеопороз, рахит, минеральный обмен, заболевания костей.*

**Khodjaeva Naimaxon Umirzakovna**
Namangan State University
Lecturer, Department of Anatomy and Physiology
**Uraimjonov Samarbek Sohibjon oglu**
Namangan State University
2nd year student, Department of Therapeutic Work

## BONES STRUCTURE AND THEIR DISEASES

***Abstract.*** *This article explores the structure of the human skeletal system and the most common bone diseases. Bones provide mechanical support, protect internal organs, enable movement, and play an essential role in mineral metabolism. The paper describes the microstructure of bone tissue, including compact and spongy bone, bone marrow, collagen fibers, and the importance of calcium and phosphorus for bone strength. It also examines major bone disorders such as osteoporosis, rickets, arthritis, and osteomyelitis,*

*focusing on their causes, symptoms, and prevention. The article emphasizes that a balanced diet, regular physical activity, and a healthy lifestyle are crucial for maintaining strong bones. The findings highlight the importance of early prevention and awareness in reducing the risk of bone-related diseases and improving overall quality of life.*

***Keywords:*** *bone structure, skeletal system, osteoporosis, rickets, mineral metabolism, bone diseases.*

**Kirish.** Inson organizmi murakkab va o‘zaro bog‘liq tizimlardan tashkil topgan bo‘lib, ulardan eng muhimlaridan biri — skelet tizimidir. Skelet tizimi tanaga shakl berish, uni tashqi ta’sirlardan himoya qilish, harakatni ta’minlash hamda organizmda mineral moddalarning muvozanatini saqlash kabi hayotiy muhim funksiyalarni bajaradi.

So‘nggi yillarda global miqyosda suyak kasalliklari, xususan osteoporoz, artrit, raxit va degenerativ o‘zgarishlar bilan bog‘liq muammolar keng tarqalmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, keksayib borayotgan aholi sonining ortishi bilan birga suyak tizimi bilan bog‘liq kasalliklar ham ko‘payib bormoqda.. Chunki suyak kasalliklari insonning harakatchanligini cheklaydi, mehnat qobiliyatini pasaytiradi va hayot sifatini yomonlashtiradi.

Suyaklar oddiy mexanik tayanch emas, balki murakkab biologik faol to‘qima hisoblanadi. Ular kollagen tolalari va mineral tuzlardan tashkil topgan bo‘lib, doimiy ravishda qayta qurilib turadi. Ushbu jarayon “suyak remodellasiyasi” deb ataladi va u organizm ehtiyojlariga moslashish imkonini beradi. Yosh davrida suyak massasi ortib boradi, balog‘atga yetgach esa barqarorlashadi, keksalikda esa asta-sekin kamayadi. Shu sababli turli yosh davrlarida suyak kasalliklari rivojlanish xavfi turlicha bo‘ladi.

Osteoporoz, keksalarda esa suyak sinishlari xavfining oshishi jiddiy muammolardan biridir. Shu boisdan suyak tizimini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar hamda profilaktik choralar alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — suyaklarning anatomik va fiziologik tuzilishini ilmiy asosda yoritish, ularning asosiy kasalliklarini tasniflash va ushbu kasalliklarning kelib chiqish sabablari, rivojlanish mexanizmlari hamda oldini olish yo‘llarini tahlil qilishdan iboratdir. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, suyak kasalliklari ko‘pincha uzoq vaqt davomida yashirin kechadi va faqat asoratlar paydo bo‘lgandagina aniqlanadi. Natijada davolash murakkablashadi va qimmatlashadi. Agar aholi o‘rtasida suyak salomatligi bo‘yicha bilim va xabardorlik oshirilsa, ko‘plab kasalliklarning oldini olish mumkin bo‘ladi. Suyaklarning tuzilishi va ularning kasalliklarini o‘rganish inson salomatligini ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Skelet tizimining sog‘lomligi — butun organizm barqaror faoliyatining asosi hisoblanadi..

Anatomik tadqiqotlar suyak to‘qimasining ikki asosiy qismdan — kompakt va g‘ovak moddalardan tashkil topishini ko‘rsatadi. Klassik anatomiya maktabi vakillari suyaklarning tashqi qattiqligi va ichki elastikligini ularning tuzilishi bilan bog‘laydi. Mikroskopik darajadagi tadqiqotlar osteoblastlar, osteotsitlar va osteoklastlarning o‘zaro muvozanatda ishlashi suyakning doimiy yangilanib turishini ta’minlashini ko‘rsatadi. Bu jarayon remodellasiyalash deb yuritilib, suyak zichligi va mustahkamligining saqlanishida asosiy mexanizm hisoblanadi.

Suyak kasalliklari bo‘yicha olib borilgan klinik tadqiqotlar ularni kelib chiqishiga ko‘ra metabolik, yallig‘lanish, degenerativ va infeksion guruhlarga ajratadi.

Raxit bolalarda uchraydigan metabolik kasallik sifatida izohlanadi. U D vitamini yetishmovchiligi bilan bog‘liq bo‘lib, suyaklarning to‘g‘ri rivojlanmasligiga olib keladi..

Degenerativ kasalliklar guruhiga artrit va artroz kiritiladi. Ular bo‘g‘imlarda og‘riq, harakat cheklanishi va yallig‘lanish bilan kechadi. Revmatologiya sohasidagi ilmiy ishlar artritning autoimmun mexanizmlari mavjudligini isbotlagan.

Suyak tizimi biologiya va tibbiyot fanlarida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan murakkab biologik tizim hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda suyak faqat mexanik tayanch emas, balki metabolik faol to‘qima sifatida talqin qilinadi (Guyton & Hall, 2021). Suyaklar organizmda mineral moddalarning ombori bo‘lib xizmat qiladi hamda qon hosil bo‘lish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.[1; 145]

Anatomik tadqiqotlar suyak to‘qimasining ikki asosiy qismdan — kompakt va g‘ovak moddalardan tashkil topishini ko‘rsatadi (Moore et al., 2018). Mikroskopik darajada esa suyak osteoblastlar, osteotsitlar va osteoklastlardan iborat bo‘lib, ularning o‘zaro muvozanati suyak remodellasiyasini ta’minlaydi (Raisz, 2005)..

Ross va Pawlina (2020) suyak matritsasining asosiy tarkibiy qismi kollagen tolalari va kalsiy-fosfor tuzlaridan iborat ekanini ta’kidlaydi. Kollagen elastiklikni, mineral tuzlar esa qattiqlikni ta’minlaydi.

Suyak metabolizmi murakkab gormonal mexanizmlar orqali boshqariladi. Paratgormon kalsiyni suyakdan qonga chiqarishni rag‘batlantirsa, kalsitonin aksincha uni suyakda saqlaydi (Guyton & Hall, 2021). D vitamini esa ichakda kalsiy so‘rilishini kuchaytirib, suyak mineralizatsiyasiga yordam beradi (Holick, 2007).

Ushbu mexanizmlarning buzilishi metabolik kasalliklarga olib keladi. Masalan, D vitamini yetishmovchiligi bolalarda raxit, kattalarda esa osteomalatsiyaga sabab bo‘ladi (Holick, 2007).

Osteoporoz eng keng tarqalgan suyak kasalligi bo‘lib, suyak zichligining pasayishi va sinish xavfining oshishi bilan tavsiflanadi (NIH, 2018). Riggs va Melton (2002) osteoporozni postmenopauzal va keksalikka oid shakllarga ajratadi. Ayollarda estrogen gormoni kamayishi osteoklast faolligini oshirib, suyak yo‘qotilishini tezlashtiradi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti osteoporozni global sog‘liq muammosi sifatida e’tirof etadi (WHO, 2019).

Raxit bolalarda uchraydigan metabolik kasallik bo‘lib, suyaklarning to‘g‘ri shakllanmasligi bilan kechadi. Ushbu kasallikning asosiy sababi D vitamini yetishmovchiligi ekanligi ko‘plab tadqiqotlarda tasdiqlangan (Holick, 2007). Osteomalatsiya esa kattalarda raxitga o‘xshash jarayon bo‘lib, suyak yumshashi bilan kechadi.

Artrit bo‘g‘imlarning yallig‘lanishi bilan kechadigan kasallik bo‘lib, uning revmatoid shakli autoimmun tabiatga ega (Firestein et al., 2017). Artroz esa bo‘g‘im tog‘aylarining yemirilishi natijasida yuzaga keladi va ko‘pincha keksalarda uchraydi.

Osteomiyelit suyak to‘qimasining bakterial infeksiyasi bo‘lib, og‘ir yallig‘lanish jarayoni bilan kechadi (Lew & Waldvogel, 2004). Ushbu kasallik ko‘pincha jarohatlar yoki operatsiyalardan so‘ng rivojlanadi.

Ilmiy tadqiqotlar muntazam jismoniy mashqlar, kalsiy va D vitaminiga boy ovqatlanish, zararli odatlardan voz kechish suyak salomatligini saqlashda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi (NIH, 2018; WHO, 2019).[3; 22]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot suyak tizimining tuzilishi, funksional xususiyatlari va eng keng tarqalgan suyak kasalliklarini ilmiy asosda o‘rganishga qaratilgan..

Tadqiqot dizayni. Tadqiqotda bibliografik tahlil, tizimli ko‘rib chiqish (systematic review) va taqqoshlash metodlari asosiy metod sifatida qo‘llanildi. Ilmiy maqolalar, monografiyalar, darsliklar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari asosiy ma’lumot manbasi bo‘lib xizmat qildi. Ma’lumotlarni yig‘ish jarayoni. Ma’lumotlar elektron bazalar (PubMed, Scopus, Google Scholar) orqali qidirildi. “Bone structure”, “bone metabolism”, “osteoporosis”, “rickets”, “arthritis” kabi kalit so‘zlar ishlatildi. Qidiruv natijalari saralanib, to‘liq matnlari tahlil qilindi.

Tahlil usullari. Toplangan ma’lumotlar kontent-tahlil, tematik guruhlash va taqqoslash orqali o‘rganildi. Har bir manbadagi asosiy tushunchalar ajratilib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanib, umumlashtirildi.

Ishonchlilikni ta’minlash. Manbalararo solishtirish va turli mualliflarning qarashlarini bir-biriga taqqoslash orqali natijalarning ishonchliligi ta’minlandi.

**Tahlil va muhokama.** Mazkur bo‘limda suyaklarning tuzilishi, ularning funksional xususiyatlari hamda turli kasalliklar bilan bog‘liq jarayonlar chuqur tahlil qilinadi va ilmiy adabiyotlar bilan solishtirilgan holda muhokama etiladi.

1. Suyak — biologik faol tizim sifatida. Osteoblast va osteoklastlar faoliyati o‘rtasidagi muvozanat suyak zichligini saqlab turadi. Agar bu muvozanat buzilsa, suyak massasi kamayadi yoki ortadi, bu esa patologik holatlarga olib keladi. Bu holat osteoporozda yaqqol namoyon bo‘ladi.

2. Yoshga bog‘liq o‘zgarishlar. suyak zichligi inson hayoti davomida turlicha bo‘ladi. Bolalik va o‘smirlik davrida suyak massasi tez ortadi. Bu davrda yetarli kalsiy, D vitamini va jismoniy faollik bo‘lmasa, suyak maksimal zichlikka erisha olmaydi. Bu esa keyinchalik osteoporoz rivojlanish xavfini oshiradi.

Keksalik davrida esa suyak massasi tabiiy ravishda kamayadi. Agar bunga kamharakatlik va noto‘g‘ri ovqatlanish qo‘shilsa, suyak sinishlari xavfi keskin ortadi..

3. Metabolik kasalliklar tahlili. Osteoporoz tahlili shuni ko‘rsatadiki, u ko‘p omilli kasallik bo‘lib, genetik moyillik, gormonal o‘zgarishlar va turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy faollik suyak zichligini oshiradi, ayniqsa yuklama bilan bajariladigan mashqlar (yurish, yugurish, sakrash) samaralidir.

4. Yallig‘lanish va degenerativ kasalliklar. Artrit va artroz tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular nafaqat bo‘g‘imlarni, balki butun organizmni qamrab oladigan jarayonlardir. Revmatoid artrit autoimmun tabiatga ega bo‘lib, organizm o‘z to‘qimalariga qarshi antitanalar ishlab chiqaradi. Shu bois uni faqat mahalliy davolash yetarli emas, balki tizimli terapiya talab etiladi.[4; 350]

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, suyak kasalliklarini faqat klinik yondashuv bilan hal qilib bo‘lmaydi. Fanlararo yondashuv — biologiya, tibbiyot, ijtimoiy fanlar va ta’limni uyg‘unlashtirish orqali samarali natijaga erishish mumkin. Shu bois kelajak tadqiqotlar kompleks yondashuvga asoslanishi lozim.

.Birinchidan, suyak to‘qimasining doimiy yangilanib turishi aniqlandi. Osteoblastlar va osteoklastlar faoliyati muvozanatda bo‘lganda suyak zichligi barqaror saqlanadi. Ammo gormonal disbalans, mineral yetishmovchiligi yoki kamharakatlik bu muvozanatni buzib, suyak massasining kamayishiga olib keladi..

Ikkinchidan, yoshga bog‘liq farqlar yaqqol namoyon bo‘ldi. Bolalik va o‘smirlik davrida suyak massasi tez ortadi, ammo ushbu davrda to‘g‘ri ovqatlanish bo‘lmasa, maksimal suyak zichligiga erishilmaydi. Keksalikda esa tabiiy yo‘qotishlar kuchayadi, bu esa sinish xavfini oshiradi.

Uchinchidan, metabolik kasalliklar tahlili osteoporozning eng keng tarqalgan patologiya ekanini koʻrsatdi. Osteoporoz koʻproq ayollarda, ayniqsa menopauzadan keyin uchrashi aniqlandi. Raxit esa asosan bolalarda uchraydi va uning asosiy sababi D vitamini yetishmovchiligi ekanligi tasdiqlandi.

Toʻrtinchidan, yallig'lanish va degenerativ kasalliklar — artrit va artroz — suyak va boʻgʻim faoliyatiga jiddiy ta'sir koʻrsatadi. Artroz esa mexanik yuklama bilan bogʻliq boʻlib, ortiqcha vazn asosiy xavf omili hisoblanadi.

Beshinchidan, suyak kasalliklarining ijtimoiy jihatlari ham muhim ekanligi aniqlandi. Ushbu kasalliklar mehnat qobiliyatini pasaytiradi, nogironlikka olib keladi va sogʻliqni saqlash tizimiga iqtisodiy yuk boʻladi.

Oltinchidan, profilaktik choralar samaradorligi isbotlandi. Muntazam jismoniy mashqlar, muvozanatli ovqatlanish va tibbiy nazorat suyak kasalliklarini sezilarli kamaytiradi. Ayniqsa, yuklama beruvchi mashqlar suyak zichligini oshiradi.

Yettinchidan, ekologik va ijtimoiy omillar ham muhim rol oʻynaydi. Quyosh nuri kam tushadigan hududlarda raxit koʻproq uchrashi aniqlandi.[5; 918]

**Xulosa.** Xulosa suyaklarning organizmda tutgan oʻrni haqidagi an'anaviy qarashlarni kengaytiradi va ularni sogʻliqni saqlashning strategik ob'ekti sifatida koʻrib chiqish zarurligini koʻrsatadi.

Suyak toʻqimasi doimiy ravishda qayta qurilib turadi va bu jarayon osteoblastlar, osteoklastlar va osteotsitlar oʻrtasidagi muvozanat orqali ta'minlanadi. Ushbu muvozanatning buzilishi esa turli patologik holatlarga olib keladi. Ayniqsa osteoporoz, raxit, osteomalatsiya, artrit va osteomiyelit kabi kasalliklar suyak tizimining biologik barqarorligiga jiddiy xavf tugʻdiradi. Tadqiqot natijalari bu kasalliklarning kelib chiqishida nafaqat biologik, balki ijtimoiy, ekologik va hayot tarziga oid omillar ham muhim rol oʻynashini koʻrsatdi.

Bolalik davrida raxit va suyak rivojlanishidagi nuqsonlar, oʻsmirlik davrida mineral yetishmovchiliklar, kattalarda esa osteoporoz va degenerativ oʻzgarishlar ustuvor muammolar sifatida namoyon boʻladi. Bu holat profilaktika choralarini hayot davomida uzluksiz olib borish zarurligini koʻrsatadi. Ayniqsa, bolalik va oʻsmirlik davrida suyak maksimal zichlikka erishishini ta'minlash kelajakda osteoporoz xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.[8; 239]

Tadqiqotda suyak metabolizmining gormonal boshqaruvi ham muhim omil sifatida qayd etildi. Estrogen, paratgormon, kalsitonin va D vitamini darajasidagi oʻzgarishlar suyak toʻqimasida bevosita aks etadi. Shu bois endokrin tizimdagi buzilishlar koʻpincha suyak kasalliklari bilan birga kechadi. Bu holat suyak patologiyalarini tashxislash va davolashda tizimli yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

Profilaktik choralar samaradorligi tahlili shuni koʻrsatdiki, zararli odatlardan voz kechish va muntazam tibbiy koʻriklar suyak kasalliklarining oldini olishda muhim rol oʻynaydi. Bu choralar nafaqat individual, balki jamiyat darajasida ham targʻib qilinishi zarur.[7; 68]

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, suyak kasalliklari faqat tibbiy muammo emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy muammo hamdir. Ular mehnat qobiliyatining pasayishiga, nogironlik darajasining oshishiga va sogʻliqni saqlash xarajatlarining koʻpayishiga olib keladi. Shu bois davlat darajasida profilaktik dasturlar ishlab chiqish va joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy muhokamalar shuni koʻrsatadiki, kelajakda suyak kasalliklarini oʻrganish va davolashda fanlararo yondashuv ustuvor boʻladi. Gen terapiyasi, biologik preparatlar va shaxsga yoʻnaltirilgan tibbiyot kabi yoʻnalishlar istiqbolli boʻlsa-da, ularning uzoq muddatli ta'siri chuqur oʻrganilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, suyaklarning tuzilishi va ularning kasalliklarini oʻrganish inson salomatligini ta'minlashda muhim strategik ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot natijalari suyak salomatligini saqlashga qaratilgan ilmiy, amaliy va profilaktik faoliyatni kuchaytirish zarurligini koʻrsatadi. Sogʻlom suyak — sogʻlom hayot garovi ekanligini anglash va uni jamiyat ongiga singdirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Xudoyberdiyev, A. Inson anatomiyasi. Toshkent: Oʻqituvchi. 2023. B: 112–145.
2. Abdurahmonov, S. Odam fiziologiyasi. Toshkent: Fan. 2018. B: 210–245.
3. Ismoilov, M. Suyak toʻqimasining biologik xususiyatlari.Oʻzbekiston tibbiyot jurnali, 4,2023 22–27.
4. Ivanov, I. P. Физиология человека. Москва: ГЭОТАР-Медиа.2022. C: 312–350.
5. Petrov, A. S. Патология костной ткани. Санкт-Петербург: СпецЛит. 2019. C: 45–89.
6. Guyton, A. C., & Hall, J. E. Textbook of Medical Physiology (14th ed.). Elsevier.2020. B: 981–1005.
7. Moore, K. L., Dalley, A. F., & Agur, A. M. R. Clinically Oriented Anatomy (7th ed.). Wolters Kluwer. 2023. B: 25–68.
8. Ross, M. H., & Pawlina, W. Histology: A Text and Atlas (8th ed.). Lippincott Williams & Wilkins.2022. B: 239–278.
9. Raisz, L. G. Pathogenesis of osteoporosis. Journal of Clinical Investigation, 115(12), 2021. 3318–3325.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**O‘ktamova Shohsanam Hakim qizi**
Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti
E-mail: oktamovashoxsanam45@gmail.com

## QOVOQ VA QOVOQ URUG‘I MOYINING TARKIBI VA XOSSALARI

***Annotatsiya.*** *Maqolada qovoq urug‘ining tarkibi, muhim mikroelementlar ko‘rsatkichlari, shuningdek, qovoq urug‘i moyida yog‘ kislotalari va aminokislotalar konsentratsiyasi tadqiq qilingan. Hozirgi kunda respublikamizning fermer xo‘jaliklarida yetishtiriladigan sabzavotlar, jumladan qovoq yetishtirish va uning urug‘idan moy ishlab chiqarishni rivojlantirish tendensiyalari haqida tahliliy ma’lumotlar yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *qovoq, qovoq urug‘i, qovoq urug‘i moyi, mikroelementlar, yog‘ kislotalari, aminokislotalar, jarayon, texnologiya.*

**Ўктамова Шоҳсанам Ҳаким қизи**
Бухарский государственный университет докторант

## СОСТАВ И СВОЙСТВА ТЫКВЫ И МАСЛА ИЗ ТЫКВЕННЫХ СЕМЯН

***Аннотация.*** *В статье исследуется состав тыквенных семян, показатели важных микроэлементов, а также концентрация жирных кислот и аминокислот в масле из тыквенных семян. Приведены аналитические данные по овощам, выращиваемым в настоящее время на фермах нашей республики, включая тенденции развития тыквоводства и производства масла из ее семян.*

***Ключевые слова:*** *тыква, тыквенные семена, масло из тыквенных семян, микроэлементы, жирные кислоты, аминокислоты, процесс, технология.*

**O‘ktamova Shohsanam Hakim qizi**
*Bukhara State University Researcher*

## COMPOSITION AND PROPERTIES OF PUMPKIN AND PUMPKIN SEED OIL

***Annotation.*** *The article studies the composition of pumpkin seeds, indicators of important microelements, as well as the concentration of fatty acids and amino acids in pumpkin seed oil. Analytical data on vegetables currently grown on farms in our republic, including trends in the development of pumpkin cultivation and oil production from its seeds, are provided.*

***Keywords:*** *pumpkin, pumpkin seeds, pumpkin seed oil, microelements, fatty acids, amino acids, process, technology.*

### Kirish

Dunyoda energo-resurs tejamkor texnologik qurilmalarni qo‘llash asosida yuqori sifatli, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqish hozirgi kunning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Oziq-ovqat sanoatida o‘simlik urug‘laridan yog‘ olish jarayonida turli xil konstruksiyaga ega bo‘lgan texnologik qurilmalar keng qo‘llaniladi. Yog‘-moy sanoatining innovatsion rivojlanishidagi hozirgi tendensiyalardan biri raqobatbardosh mahsulotlar, ayniqsa iste’mol qilish xavfsiz bo‘lgan biologik qiymati yuqori bo‘lgan yog‘lar va oqsilli taomlarni ishlab chiqarishdir. Shu sababli, yuqori sifatli yog‘lar va oqsilli taomlarni olish imkonini beradigan o‘simlik moylarini ishlab chiqarish va qayta ishlashning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

### Adabiyotlar tahlili

Qovoq urug‘idan yog‘ olishga mo‘ljallangan hamda zamonaviy texnika va texnologiyalarni yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari jumladan, Sankt-Peterburg Davlat texnologiya instituti, Kimyo va kimyo texnologiya instituti (Krasnoyarsk, Rossiya), Astraxan davlat universiteti (Rossiya), Almata texnologiya instituti (Qozog‘iston) va Buxoro davlat texnika universiteti tomonidan olib borilmoqda. Qovoq urug‘idan yog‘ olish jarayoni davomida hosil bo‘ladigan yog‘ tarkibi inson sog‘ligi uchun muhim hisoblanib, yog‘ ishlab chiqarish qurilmalarni yaratish va takomillashtirishga oid olib borilgan tadqiqotlar asosida qator

ilmiy natijalar olingan. Biroq har bir hududda yetishtiriladigan qovoq navlari turlicha bo‘lib, urug‘larning tashqi qobiq qismi, o‘lchamlari va zichligi jihatidan farq qiladi. Aynan shu tufayli ham yog‘ olish texnologiyasi turlicha. Jumladan, Ivan Vladimirovich Rossiyaning Rostov viloyatidagi quyuq kashtan tuproqlarida yetishtiriladigan qovoq urug‘larining yog‘dorlik jarayonini presslash texnologik jarayoni misolida tadqiq qilgan. Biroq bu tadqiqot ishi aynan quyuq kashtan tuproqlarida yetishtiriladigan qovoq navlari uchun amalga oshirilgan[1]. Atoev I.X., Gafurova G.A. lar qovoq urug‘idan yog‘ olishda CK-$CO_2$ yordamida ekstraksiyalash orqali yog‘ olish bo‘yicha tadqiqot ishini olib borgan. Qovoq urug‘i moylari turli usullar bilan olinadi: presslash, geksan bilan ektraksiyalash (Soxlet apparatida), matseratsiya va CK-$CO_2$ orqali 350℃ va 10 MPa bosimda ektraksiyalash. Qovoq yog‘ini deoksidlash shartlari tanlanib, 12 kPa va 550 ℃ da CK-$CO_2$ bilan ezilgan urug‘larni qayta ishlash orqali amalga oshirilishi kerak. Urug‘larda qolgan yog‘ Soxlet apparatida geksan bilan olingan va xom moylar bilan taqqoslangan [2]. Rossiyalik olimlar Pikul I.G., Juravlev A.A. lar urug‘lardan yog‘ olishning usullarini o‘rganish jarayonida boshqa urug‘lar qatorida qovoq urug‘laridan yog‘ olish bo‘yicha o‘z tadqiqot natijalari yuzasidan patent olishgan[3]. Kovalev V.B., Velikorodov A.V., Tirkov A.G., Nosachev S.B., Shepetova Ye.V., Abduraxmanova N.M. lar Astraxan hududida yetishtiriladigan qovoq navlarining urug‘laridan ekstraksiyalash usuli orqali yog‘ olish bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borishgan [4].

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qovoq urug‘lari istiqbolli moy olish mahsuloti hisoblanib, tarkibida 28 % dan 38 % moy va 35-36 % gacha oqsil moddalari mavjud. Moy ishlab chiqarish xomashyosi sifatida qovoq urug‘larining texnologik xususiyatlari uning kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizik-mexanik holatlariga bog‘liq [5] ligi o‘simlik moyi ishlab chiqarishning samarali texnologiyasini aniqlash, shuningdek, texnologik uskunalar tanlash va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlashda asos bo‘ladi.

Qovoq urug‘ini qayta ishlashning mavjud texnologiyalari biologik faol moddalarning tabiiy kompleksini iloji boricha saqlab qolish uchun xomashyoga ta’sir qilishning “yumshoq rejimlari”ga asoslangan [6]. Biroq, bu texnologiyalarni ilg‘or deb e’tirof etib bo‘lmaydi. Shu munosabat bilan qovoq urug‘ini qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish va ulardan olinadigan yog‘ning xususiyatlarini o‘rganish dolzarb bo‘lib, ilmiy va xalq xo‘jaligida katta ahamiyatga ega.

Quyida qovoqnig tarkibiy tuzilishini bir necha jadvallarda ko‘rib chiqamiz [7].

**1-jadval**

**Qovoqning turli qismlarining tarkibi**

| № | Omillar | Qovoq qismlari | Miqdori mg/100g |
|---|---|---|---|
| **1** | Namlik | Qobig‘i | 89,527±0,72 |
| | | Mag‘zi | 92,453±0,71 |
| | | Urug‘i | 56,740±0,70 |
| **2** | Yog‘ | Qobig‘i | 1,650±0,39 |
| | | Mag‘zi | 1,403±0,49 |
| | | Urug‘i | 23,447±0,72 |
| **3** | Oqsil | Qobig‘i | 14,670±0,61 |
| | | Mag‘zi | 10,447±0,39 |
| | | Urug‘i | 21,313±0,50 |
| **4** | Uglevodlar | Qobig‘i | *12,407±0,45* |
| | | Mag‘zi | *8,507±0,68* |
| | | Urug‘i | *5,183±0,67* |
| **5** | Kletchatka | Qobig‘i | *13,383±0,64* |
| | | Mag‘zi | *1,553±0,84* |
| | | Urug‘i | *46,647±0,84* |
| **6** | Energiya berish qiymati, kkal/100 g | Qobig‘i | *124,47±0,59* |
| | | Mag‘zi | *79,563±0,70* |
| | | Urug‘i | *311,54±0,56* |

**2-jadval**

**Qovoqning turli qismlarida muhim mikroelementlar ko‘rsatkichlari**

| № | Omillar | Qovoq qismlari | Miqdori mg/100g |
|---|---|---|---|
| **1** | **Na** | Qobig‘i | *9,652±0,55* |
| | | Mag‘zi | *20,759±0,51* |
| | | Urug‘i | *1,350±0,31* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **2** | **K** | Qobig‘i | *687,467±0,62* |
| | | Mag‘zi | *1616,394±0,57* |
| | | Urug‘i | *434,714±0,57* |
| **3** | **Fe** | Qobig‘i | *4,004±0,58* |
| | | Mag‘zi | *42,070±0,59* |
| | | Urug‘i | *6,017±0,58* |
| **4** | **Ca** | Qobig‘i | *1,360±0,35* |
| | | Mag‘zi | *0,820±0,01* |
| | | Urug‘i | *4,000±0,58* |
| **5** | **Zn** | Qobig‘i | *0,150±0,01* |
| | | Mag‘zi | *0,230±0,01* |
| | | Urug‘i | *18,777±0,50* |
| **6** | **P** | Qobig‘i | *1,419±0,35* |
| | | Mag‘zi | *1,363±0,32* |
| | | Urug‘i | *0,740±0,01* |
| **7** | **Cu** | Qobig‘i | *0,025±0,00* |
| | | Mag‘zi | *0,060±0,01* |
| | | Urug‘i | *0,310±0,01* |
| **8** | **Mn** | Qobig‘i | *0,360±0,01* |
| | | Mag‘zi | *0,450±0,01* |
| | | Urug‘i | *1,350±0,33* |
| **9** | **Mg** | Qobig‘i | *3,353±0,33* |
| | | Mag‘zi | *5,643±0,58* |
| | | Urug‘i | *4,340±0,51* |

Yog‘ kislotasining miqdorini ko‘pligiga qarab yog‘li xomashyolarni shartli guruhlarga bo‘lish mumkin. Jumladan, qovoq urug‘idan olinadigan yog‘ linol kislotali yog‘li xomashyo hisoblanadi. Linol kislotali guruh tarkibida ko‘p miqdorda linol kislotasi bo‘ladi. Bu yog‘da to‘yinmagan yog‘ kislotalar miqdorining ko‘pligi va ularning xolesteringa ijobiy ta’siri tufayli, hamda tarkibida antioksidantlar (tokoferollar) mavjudligi sababli parhez mahsuloti sifatida bolalar ovqatlarida ishlatish mumkin. Qovoq urug‘i yog‘i kungaboqar yog‘i kabi va ushbu guruhga kiruvchi boshqa yog‘lar tarkibida ko‘p miqdorda tokoferollar (vitamin E) mavjudligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ular oksidlanishga barqaror yog‘lar hisoblanadi.

**3-jadval**

**Qovoq urug‘i yog‘ida yog‘ kislotalarining konsentrasiyasi**

| **№** | **Yog‘ kislotasi** | **Miqdori, mg/100 g** |
|---|---|---|
| 1 | Linol kislota (S18:2) | 49,416±0,0,68 |
| 2 | Kaprik kislota (C10:0) | 0,453±0,01 |
| 3 | Laurin kislota (C12:0) | 1,336±0,33 |
| 4 | Miristin kislota (C14:0) | 0,009±0,00 |
| 5 | Palmitin kislota (C16:0) | 20,784±0,50 |
| 6 | Stearin kislota (C18:0) | 4,519±0,50 |
| 7 | Olein kislota (C18:1) | 25,417±0,51 |
| 8 | Linolen kislota (S18:3) | 2,248±0,49 |

**4-jadval**

**Qovoq urug‘lari navlarida aminokislota konsentrasiyasi**

| **№** | **Aminokislotalar** | **Miqdori, g/100 g** |
|---|---|---|
| 1 | Aspargin kislota | 2,050±0,58 |
| 2 | Treonin | 0,830±0,01 |
| 3 | Serin | 0,640±0,01 |
| 4 | Glyutamin kislota | 3,733±0,63 |
| 5 | Glitsin | 1,636±0,50 |
| 6 | Alanin | 0,740±0,01 |
| 7 | Valin | 1,363±0,33 |
| 8 | Metionin | 0,670±0,01 |

| | | |
|---|---|---|
| 9 | Izolyusin | 0,810±0,01 |
| 10 | Leysin | 2,297±0,51 |
| 11 | Tirozin | 0,830±0,01 |
| 12 | Gistidin | 1,399±0,32 |
| 13 | Lizin | 3,493±0,56 |
| 14 | Arginin | 1,698±0,43 |

**Natijalar va ularning tahlili**

Olib borilgan tadqiqotlar asosida qovoq urug‘ining kimyoviy xususiyatlari, tarkibiy tuzilishi, mikroelementlar tarkibi, shuningdek, qovoq urug‘i yog‘ining yog‘ kislota va aminokislotalar konsentratsiyasi tahlil qilingan. Jumladan, qovoq urug‘idan olinadigan yog‘ linol kislotali yog‘li xomashyo hisoblanishi va tarkibida antioksidantlar (tokoferollar) mavjudligi sababli parhez mahsuloti sifatida bolalar ovqatlari ishlab chiqarishda muhim ekanligi tadqiqotimizda o‘z aksini topgan. 10 ga yaqin qovoq urug‘larining fizik kimyoviy va mexanik xususiyatlar eksperimental tadqiq qilingan [8,9].

**Xulosa**

Qovoq urug‘lari qimmatli ozuqa moddalarining miqdori bo‘yicha ko‘plab don, moyli va dukkakli ekinlardan ustun turadi. Qovoq urug‘larida hujayralarni energiya bilan ta’minlaydigan ko‘plab biologik faol fosfatlar, tana hujayralarini yoshartiruvchi va tiklaydigan, ularning o‘sishini tartibga soluvchi va qarishni oldini oluvchi nuklein kislotalar mavjud. Qovoq urug‘ini tanamiz uchun sinkning eng yaxshi manbalaridan biri sifatida ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda o‘stiriladigan qovoqlar orasida qovoq turlarining ahamiyati ortib bormoqda. Qishloq xo‘jaligi uchun yuqori sifatli ozuqa sifatida qovoqdan an’anaviy foydalanishdan tashqari vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsuloti, konserva sanoati uchun xomashyo, uning kosmetika vositalar va farmatsevtik preparatlar ishlab chiqarishdagi roli ayniqsa ortib bormoqda. Ayniqsa, ozuqaviy va yem-xashak qiymati yuqori bo‘lgan qovoq urug‘i tarkibida 48-50% yog‘ mavjudligini tadqiqotlarimizda ko‘rishimiz mumkin. Ulardan olingan moy vitaminlarga, oqsil moddalariga, shuningdek, katta shifobaxsh xususiyatiga ega ekanligini alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Ерин Иван Владимирович.-Разработка элементов технологии выращивания тыквы для получения маслосемян диссертация. Персиановский – 2012.

2. Атоев И.Х., Гафурова Г.А.- Рафинирование и экстракция семян тыквы сверхкритической углекислотой – Universum: Технические науки. № 5(74) май, 2020

3. Пикул И.Г. Журавлев А.А.- Способ получения растительного масла из семян различных растений- Патент

4. Ковалев В.Б., Великородов А.В., Тырков А.Г., Носачев С.Б., Щепетова Е.В., Абдурахманова Н.М. - Химический состав масел семян некоторых бахчевых культур астраханской области, выделенных методом сверхкритической флюидной экстракции. 2015, 54-57 б

5. Musayeva S. A., Usmonova D. I., Usmanov F. S. Problems with Marketing Research in the Furniture Market //Eurasian Journal of Academic Research – 2021.

6. Azimovna M. S., Shokhrukhovich U. F., Sodirovich U. B. Problems in the Implementation of Quality Management Systems in Small Business Enterprises //Eurasian Research Bulletin. – 2022. С. 54-57

7. Понасенко Андрей Святославович- Совершенствование конвективной установки и процесса сушки тыквы. (диссертация) Ташкент – 2024

8. Djuraev X.F., O‘ktamova Sh.H - Qovoq urug'idan yog‘ olish jarayonining istiqbollari - Journal of new century innovations. Volume-39, Issue 1, October-2023. 113-119 b. http://www.newjournal.org/

9. Djuraev X.F., O‘ktamova Sh.H -O‘simlik xomashyolari danagidan yog‘ olish jarayonining istiqbollari - Образование наука и инновационные идеи в мире №-32, Noyabr 2023. 66-69 b. http://www.newjournal.org/

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Abdurazokova Iqbolxon**
**Zaynabiddinov Anvar**
**Jo'raqulov Sherzod**
**Xolmirzayeva Madina**
**Mutalipov Azizbek**
**Karimjonov Hayotbek**
Fargona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
Andijon davlat universiteti
O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi instituti
E-mail:abdurazakovaiqbolxon@gmail.com

## F-43 VA F-45 IZOXINOLIN ALKALOIDLARINING ADRENALIN BILAN CHAQIRILGAN GIPERTONIK MODELDA ANTIGIPERTENZIV FAOLLIGINI TAVSIFLASH

***Annotasiya.*** *Ushbu tadqiqotda F-43 va F-45 nomli moddalarining adrenalin yordamida chaqirilgan gipertoniya modelida qon bosimiga bo'lgan ta'siri tahlil qilindi. Tajriba dizayni bo'yicha dastlab moddalarning optimal ishlaydigan dozasi aniqlab olindi va har ikkala modda uchun 50 mg/kg dozasi tanlab olindi. Shundan so'ng eksperiment kalamushlar ustida olib borildi.*

***Kalit so'zlar:*** *vena qon tomiri, diastolic bosim, sistolik bosim, izoxinolin alkaloidi,i, aorta qon tomiri, dozaga bogliq ta'siri, dozaga bogliq, ion kanali, yurak-qon tomir tizimi.*

**Abdurazokova Iqbolxon**
**Zaynabiddinov Anvar**
**Jo'raqulov Sherzod**
**Kholmirzayeva Madina**
**Mutalipov Azizbek**
**Karimjonov Hayotbek**
Fargona Public Health Medical Institute
Andijan State University
Institute of Chemistry of Plant Substances of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
E-mail:abdurazakovaiqbolxon@gmail.com

## DESCRIPTION OF THE ANTIGYPERTENSIVE ACTIVITY OF F-43 AND F-45 ISOQUINOLINE ALKALOIDS IN ADRENALINE-INDUCED HYPERTENSION MODEL

***Аннотация****. В данном исследовании анализировалось влияние веществ под названиями F-43 и F-45 на артериальное давление в модели гипертензии, вызванной адреналином. Согласно дизайну эксперимента, первоначально была определена оптимальная рабочая дозировка веществ, и для обоих соединений была выбрана доза 50 мг/кг. После этого эксперимент был проведен на крысах.*

***Ключевые слова:*** *венозный кровеносный сосуд, диастолическое давление, систолическое давление, изохинолиновый алкалоид, аорта, дозозависимый эффект, дозозависимый, ионный канал, сердечно-сосудистая система*

**Abdurazokova Iqbolxon**
**Zaynabiddinov Anvar**
**Jo'raqulov Sherzod,**
**Kholmirzayeva Madina**
**Mutalipov Azizbek**
**Karimjonov Hayotbek**
Fargona Public Health Medical Institute

Andijan State University
Institute of Chemistry of Plant Substances of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
E-mail:abdurazakovaiqbolxon@gmail.com

# DESCRIPTION OF THE ANTIGYPERTENSIVE ACTIVITY OF F-43 AND F-45 ISOQUINOLINE ALKALOIDS IN ADRENALINE-INDUCED HYPERTENSION MODEL

***Abstract .*** *In this study, the effects of substances named F-43 and F-45 on blood pressure were analyzed in an adrenaline-induced hypertension model. According to the experimental design, the optimal working dose of the substances was initially determined, and a dose of 50 mg/kg was selected for both compounds. Subsequently, the experiment was conducted on rats.*

***Keywords:*** *venous blood vessel, diastolic pressure, systolic pressure, isoquinoline alkaloid, aortic blood vessel, dose-dependent effect, dose-dependent, ion channel, cardiovascular system.*

**Kirish.** O‘simliklardan ajratib olingan biologik faol moddalar organizmga turli fiziologik ta’sir ko‘rsatib, metabolik jarayonlarni tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu moddalarga polifenollar, flavonoidlar va alkaloidlar kiradi. Ularning farmakologik xususiyatlari qon bosimini tartibga solish, antioksidant himoya, yallig‘lanishga qarshi va ion kanallari faoliyatini modulyatsiya qilish bilan bog‘liq. Polifenollar o‘simliklarda keng tarqalgan ikkilamchi metabolitlar bo‘lib, ular kuchli antioksidant xususiyatlarga ega. Ular qon tomirlarining tonusini tartibga solishda ham muhim rol o‘ynaydi: *Antioksidant ta’sir* – Polifenollar reaktiv kislorod turlarini (ROS) neytrallaydi, bu esa oksidlovchi stressni kamaytiradi va gipertoniya rivojlanishining oldini oladi [1]. *Endotelial funksiyani yaxshilash* – Polifenollar azot oksidi (NO) sintezini rag‘batlantirib, qon tomirlarining kengayishiga yordam beradi. *Ion kanallariga ta’siri* – Ayrim polifenollar $Ca^{2+}$ kanallarini bloklaydi va $K^+$ kanallarini faollashtirib, tomirlarning bo‘shashishiga (vazodilatatsiya) yordam beradi. Polifenollarga kvertsitin, epikatexin, resveratrol va katexinlar kiradi. Ular yashil choy, uzum, olma, va boshqa o‘simlik ekstraktlarida uchraydi.

Flavonoidlar polifenol guruhiga kiruvchi biologik faol birikmalar bo‘lib, ularning asosiy funktsiyalari quyidagilardan iborat: *Vazodilatator ta’sir* – Flavonoidlar qon tomirlarining kengayishiga yordam beradi, bu esa qon bosimini tushirishga xizmat qiladi. *Kalsiy ion kanallarini bloklash* – Masalan, ba’zi flavonoidlar L-turdagi $Ca^{2+}$ kanallarining faolligini pasaytirib, arterial bosimni kamaytiradi [2]. *Gipoksiya sharoitida himoya* – Flavonoidlar gipoksiyaga nisbatan bardoshlilikni oshirib, mitoxondrial funksiyani yaxshilaydi. Flavonoidlarning muhim vakillari qatoriga rutozid, apigenin, luteolin va hesperidin kiradi. Ular sitrus mevalar, grechixa, choy va turli dorivor o‘simliklarda mavjud [3]. O‘simliklardan ajratilgan bioaktiv moddalar yurak-qon tomir tizimiga muhim ta’sir ko‘rsatib, qon bosimi, yurak qisqarish tezligi va tomirlarning elastikligini boshqarishda ishtirok etadi. Ularning ta’siri, asosan, ion kanallarining faolligini modulyatsiya qilish, antioksidant himoya, yallig‘lanishga qarshi va endoteliy funksiyasini yaxshilash kabi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Ba’zi bioaktiv moddalar yurak mushaklarining ion kanallari faoliyatiga ta’sir qilib, yurak qisqarish kuchini boshqaradi [4].

Flavonoidlar va polifenollar β-adrenoreseptorlar va $Ca^{2+}$ kanallariga ta’sir qilib, yurak qisqarish kuchini kamaytirishi yoki oshirishi mumkin. Masalan, kvertsitin va katexinlar yurakning ortiqcha yuklanishini oldini olib, uni haddan tashqari tez yoki kuchli urishidan saqlaydi. Shuningdek, bioaktiv moddalar $Na^+/K^+$-ATFaza faoliyatini normallashtirib, hujayra ichki va tashqi ion muvozanatini barqaror saqlashda ishtirok etadi. Bu yurakning elektr faolligini me’yoriy darajada ushlab turishga yordam beradi. Polifenollar va alkaloidlar mitoxondrial membrana potentsialini saqlab, yurak muskullarining energiya ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilaydi [5]. Qon bosimi yurakning ish hajmi, qon tomir rezistentligi va ion kanallari faolligi bilan bog‘liq bo‘lib, bioaktiv moddalar ushbu jarayonlarning har bir bosqichida muhim rol o‘ynaydi. Ayrim flavonoidlar azot oksidi ishlab chiqarishni oshirib, qon tomirlarini kengaytiradi, natijada qon bosimi pasayadi.

**Material va metodlar.** Kalamushlarda sistolik qon bosimini o‘lchash uchun noinvaziv tail-cuff pletizmografiya usuli qo‘llanildi. O‘lchovlar kompyuterlashtirilgan tail-cuff tizimi (Model Acqknowledge Sistola Russia) yordamida 22–24°C haroratda nazorat ostida amalga oshirildi. Eksperiment boshlanishidan oldin, kalamushlar stress ta’sirini minimallashtirish maqsadida 3 kun davomida moslashuv (akklimatizatsiya) jarayonidan o‘tkazildi [6].

**A** **B**

**1-rasm.** (A) *Nurobotics* kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan Sistola AcqKnowledge apparati. (B) Kalamushlarning dum venasiga moddalarning yuborilishi – intravenoz in'eksiya usuli orqali amalga oshirildi.

Kalamushlar to‘rtta eksperimental guruhga bo‘lindi:

1-guruh (Nazorat): Faol modda qabul qilmagan (faqat erituvchi).

2-guruh (A-41, A-42, A-53 – 10 mg/kg): 10 mg/kg miqdorda muayyan birikma bilan davolangan.

3-guruh (A-41, A-42, A-53 – 20 mg/kg): 20 mg/kg miqdorda muayyan birikma bilan davolangan.

4-guruh (A-41, A-42, A-53 – 30 mg/kg): 30 mg/kg miqdorda muayyan birikma bilan davolangan.

Har bir kalamush maxsus ushlagich (restrainer) ichiga joylashtirildi va dumi o‘lchov uchun ochiq qoldirildi. Dumga bosim sezgichli maxsus manjet o‘rnatildi va bosim asta-sekin oshirilib, qon oqimi to‘xtatilgunga qadar bosildi. Keyinchalik, bosim sekin tushirildi va qon oqimi tiklangan paytda sistolik qon bosimi avtomatik ravishda qayd etildi [7]. O‘lchovlar har bir soatda bajarildi, har bir kalamush uchun ketma-ket uchta o‘lchov amalga oshirildi va o‘rtacha qiymat statistik tahlil uchun qabul qilindi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Eksperiment boshlanishidan avval kalamushlar uchta guruhga ajratildi: nazorat guruhi, F-43 moddasini qabul qilgan guruh va F-45 moddasini qabul qilgan guruh. Har bir guruhda to‘rt nafardan kalamush bo‘lib, tajribalar sharoiti standart biologik protokollarga asoslangan holda olib borildi [8].

**1-jadval.**

**F-43 va F – 45 moddalarining in vivo antigipertenziv faolligi (M±m=n4)**

| Arterial qon bosimi (mm s.u.) | | Nazorat | F-43, 50- mg/kg | F-45, 50- mg/kg |
|---|---|---|---|---|
| Boshlang‘ich | SAQB (mm s.u.) | 106,3 ± 10,5 | 98,8± 9,6 | 92,5± 7,4 |
| | DAQB (mm s.u.) | 76,8± 7,4 | 74,5± 6,8 | 71,8± 6,2 |
| Adrenalin 30-minut | SAQB (mm s.u.) | 160,5± 16,3 | 144,8±14,3 | 140,8± 14,2 |
| | DAQB (mm s.u.) | 119,5± 11,8 | 119,0±11,7 | 104,3± 10,3 |
| 1- soat | SAQB (mm s.u.) | 117,8± 11,6 | 133,5± 13,5 | 101,8± 10,0 |
| | DAQB (mm s.u.) | 98,8 ± 9,8 | 94,0± 9,3 | 77,8± 7,6 |
| 2- soat | SAQB (mm s.u.) | 125,5± 12,5 | 123,5± 12,3 | 90,0± 8,7 |
| | DAQB (mm s.u.) | 100,0± 10,1 | 84,3± 8,2 | 61,5± 6,0 |
| 3- soat | SAQB (mm s.u.) | 119,3±11,8 | 96,3± 8,9 | 112,0± 11,0 |
| | DAQB (mm s.u.) | 94,0± 9,2 | 65,0± 6,3 | 79,5± 7,8 |

Tajribaning birinchi bosqichida F-43 moddasining ta’siri baholandi. Eksperiment boshlanishidan avval kalamushlarning boshlang‘ich sistolik va diastolik qon bosimi (SQB va DQB) aniqlandi. F-43 guruhi kalamushlarida o‘rtacha SQB 98,8 ± 9,6 mm Hg va DQB 74,5 ± 6,8 mm Hg ni tashkil etdi. Shundan so‘ng adrenalin gidroxlorid intravenoz yo‘l bilan dum venasi orqali yuborildi. 30 daqiqadan keyin qon bosimi sezilarli darajada oshdi: SQB 144,8 ± 14,3 mmHg va DQB 119,0 ± 11,7 mmHg gacha ko‘tarildi (1-jadval). Ushbu ko‘rsatkichlar adrenalinning $\alpha$- va $\beta$-adrenergik retseptorlar orqali ta’sir ko‘rsatishi natijasida yuzaga kelgan gipertonik reaksiyani ifodalaydi.

Keyingi bosqichda F-43 moddasining 50 mg/kg dozasi intravenoz yo‘l bilan yuborildi. Qon bosimi dinamikasi uch soat davomida muntazam kuzatib borildi. Birinchi soatda qon bosimining biroz pasayishi kuzatildi: SQB 133,5 ± 13,5 mmHg, DQB esa 94,0 ± 9,3 mmHg. Ikkinchi soatda qon bosimi yana pasaydi: SQB 123,5 ± 12,3 mmHg, DQB 84,3 ± 8,2 mm Hg ni tashkil etdi. Uchinch soatga kelib esa qon bosimi deyarli boshlang‘ich holatga yaqinlashdi – SQB 96,3 ± 8,9 mm Hg va DQB 65,0 ± 6,3 mmHg bo‘ldi (2-rasm). Ushbu natijalar F-43 moddasining adrenalin bilan chaqirilgan gipertoniya modelida barqaror va asta-sekin tusuvchi antigipertenziv ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Qon bosimi ko‘rsatkichlarining asta-sekin va fiziologik chegaralarga yaqin tarzda pasayishi F-43 moddasining samarali modulyator sifatida ishlash imkoniyatini ko‘rsatadi.




**2-rasm.** F-43 moddasining adrenalin bilan chaqirilgan gipertoniya modelida 50 mg/kg dozada qon bosimiga ta'sirini baholash. SQB – sistolik qon bosimi; DQB – diastolik qon bosimi. Ma'lumotlar o'rtacha ± standart og'ish shaklida keltirilgan (n = 4); $p > 0.05$.

Tajribaning navbatdagi bosqichida F-45 moddasining faoliyati baholandi. Tajriba oldidan kalamushlarning boshlang'ich qon bosimi o'lchandi: SQB 92,5 ± 7,4 mmHg va DQB 71,8 ± 6,2 mmHg edi. Adrenalin yuborilgach, gipertonik holat kuzatildi – SQB 140,8 ± 14,2 mmHg, DQB esa 104,3 ± 10,3 mmHg gacha ko'tarildi (3-rasm). Shundan keyin F-45 moddasining 50 mg/kg dozasi dum venasi orqali yuborildi va qon bosimi 3 soat davomida kuzatib borildi [9].

Birinchi soatda F-45 moddasining sezilarli ta'siri qayd etildi: SQB 101,8 ± 10,0 mmHg, DQB 77,8 ± 7,6 mmHg ni tashkil etdi. Ikkinchi soatda qon bosimi yanada pasaydi – SQB 90,0 ± 8,7 mmHg, DQB 61,5 ± 6,0 mm Hg. Uchinch soatda esa SQB 112,0 ± 11,0 mmHg gacha ko'tarilib, DQB 79,5 ± 7,8 mmHg bo'ldi. Ushbu ko'rsatkichlar F-45 moddasining gipertonik holatda qon bosimni tez pasaytirish va vaqt o'tishi bilan bosimni nisbatan barqarorlashtirish xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.




**3-rasm.** F-45 moddasining adrenalin bilan chaqirilgan gipertoniya modelida 50 mg/kg dozada qon bosimiga ta'sirini baholash. SQB – sistolik qon bosimi; DQB – diastolik qon bosimi. Ma'lumotlar o'rtacha ± standart og'ish shaklida keltirilgan (n = 4); $p > 0.05$.

F-45 moddasining ta'siri nisbatan tez va kuchli namoyon bo'ldi, ammo uchinchi soatda qon bosimining qisman qayta oshishi moddaning qisqa muddatli ta'sir muddatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq, umumiy bahoda F-45 moddasining ham antigipertenziv faolligi aniq qayd etildi.

**Xulosalar.** Yuqoridagi natijalar asosida xulosa qilish mumkinki, F-43 va F-45 moddalarining har ikkisi ham adrenalin bilan chaqirilgan gipertoniya modelida qon bosimini pasaytiruvchi samarali vosita sifatida baholanishi mumkin. Ayniqsa, F-43 moddasining asta-sekin, lekin uzoq muddatli va barqaror ta'siri uni uzoq muddatli davolashda afzal vosita sifatida ko'rsatadi. F-45 moddasining esa tez ta'sir etuvchi, qisqa muddatli bosim pasaytiruvchi xususiyatlari uni o'tkir gipertonik holatlarda qo'llashga mos keladi.

Bu moddalar kelgusida yangi farmatsevtik preparat sifatida ishlab chiqilishi uchun istiqbolli nomzodlar hisoblanadi. Ularning farmakologik faoliyatini chuqurroq o'rganish, xavfsizlik darajasini aniqlash va molekulyar ta'sir mexanizmlarini tahlil qilish, shuningdek klinik sinovlarga tayyorlash lozim bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ulugbek & Gayibova, Sabina et al. (2024). Antioxidant and cardioprotective properties of polyphenolic plant extract of Rhus glabra L. Plant Science Today. 10.14719/pst.3442

2. Gayibov UG, Komilov EJ, Rakhimov RN, et al. Influence of new polyphenol compound from Euphorbia plant on mitochondrial function[J]. J Microbiol Biotechnol Food Sci, 2019, 8(4): 1021–1025.

3. Maaliki D, Shaito AA, Pintus G, El-Yazbi A, Eid AH. Flavonoids in hypertension: a brief review of the underlying mechanisms. Curr Opin Pharmacol. 2019 Apr;45:57-65. doi: 10.1016/j.coph.2019.04.014.

4. Khushmatov, S. S., Makhmudov, R. R., & Mavlyanov, S. M. (2015). Comparison of inotropic and antiarrhythmic activity of flavonoids — quercetin, rutin, and (+)-catechin. *Russian Journal of Cardiology, 127*(11), 35–41.

5. Clark JL, Zahradka P, Taylor CG. Efficacy of flavonoids in the management of high blood pressure. Nutr Rev. 2015 Dec;73(12):799-822. doi: 10.1093/nutrit/nuv048. Epub 2015 Oct 21. PMID: 26491142.

6. M Fritz and G Rinaldi. Blood pressure measurement with the tail-cuff method in Wistar and spontaneously hypertensive rats: Influence of adrenergic- and nitric oxide-mediated vasomotion. Journal of Pharmacological and Toxicological Methods 2008; 58(3), 215-221.

7. J Duarte, R Pérez-Palencia, F Vargas, MA Ocete, F Pérez-Vizcaino, A Zarzuelo and J Tamargo. Antihypertensive effects of the flavonoid quercetin in spontaneously hypertensive rats. British Journal of Pharmacology 2001; 133(1), 117-124.

8. Tabuchi, Masaki & Umegaki, Keizo & Ito, Tomohiro & Suzuki, Motohisa & Ikeda, Masahiko & Tomita, Takako. (2001). Disturbance of Circadian Rhythm in Heart Rate, Blood Pressure and Locomotive Activity at the Stroke-Onset in Malignant Stroke-Prone Spontaneously Hypertensive Rats. Japanese journal of pharmacology. 85. 197-202. 10.1254/jjp.85.197.

9. Wang, Yu & Thatcher, Sean & Cassis, Lisa. (2017). Measuring Blood Pressure Using a Noninvasive Tail Cuff Method in Mice. 10.1007/978-1-4939-7030-8_6.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**I.A. Boyxonov**
**Z.R. Turayeva**
**O.K. Usmonjonova**
Namangan davlat universiteti

## FARG‘ONA VODIYSINING MALHAMCHI QO‘NG‘IZLARINING KAMYOB, MUHOFAZAGA MUHTOJ TURLARI.

***Annotatsiya.*** *Maqolada Farg‘ona vodiysi hududida tarqalgan malhamchi qo‘ng‘izlarning (Coleoptera: Meloidae) kamyob va muhofazaga muhtoj turlari o‘rganilgan. Tadqiqotlar 2023-2025 yillarda Namangan, Farg‘ona va Andijon viloyatlarining turli landshaft va biotoplarida olib borildi. Dala va laboratoriya tadqiqotlari natijasida hududda lokal tarqalgan va ekologik jihatdan sezgir bo‘lgan 6 ta Meloidae turi aniqlanib, ularning biotopga bog‘liqligi va kamyoblik sabablari tahlil qilindi. Aniqlangan turlar umumiy faunaning 11,5 % ini tashkil etishi qayd etildi. Olingan natijalar kamyob malhamchi qo‘ng‘iz turlarini muhofaza qilish, tabiiy biotsenozlarni saqlash va uzluksiz monitoring tizimini tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Meloidae, malhamchi qo‘ng‘izlar, kamyob turlar, Farg‘ona vodiysi, biologik xilma-xillik, muhofaza, ekologik monitoring.*

**Я. Бойхонов**
**З.Р. Тураева**
**О.К. Усмонжонова**
Наманганский государственный университет

## РЕДКИЕ И НУЖДАЮЩИЕСЯ В ОХРАНЕ ВИДЫ ЖУКОВ-НАРЫВНИКОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

***Аннотация.*** *В статье изучены редкие и нуждающиеся в охране виды жуков-нарывников (Coleoptera: Meloidae), распространённые на территории Ферганской долины. Исследования проводились в 2023-2025 гг. в различных ландшафтах и биотопах Наманганской, Ферганской и Андижанской областей. По результатам полевых и лабораторных исследований в регионе выявлено 6 видов семейства Meloidae, характеризующихся локальным распространением и высокой экологической чувствительностью; проанализированы их биотопическая приуроченность и причины редкости. Установлено, что выявленные виды составляют 11,5 % от общего видового состава фауны. Полученные результаты свидетельствуют о необходимости охраны редких видов жуков-нарывников, сохранения природных биоценозов и организации системы непрерывного мониторинга.*

***Ключевые слова: Meloidae, жуки-нарывники, редкие виды, Ферганская долина, биологическое разнообразие, охрана, экологический мониторинг.***

**I.A. Boykhonov**
**Z.R. Turayeva**
**O.K. Usmonjonova**
Namangan State University

## RARE AND THREATENED BLISTER BEETLE SPECIES OF THE FERGANA VALLEY

***Abstract.*** *The study investigates rare and conservation-dependent blister beetle species (Coleoptera: Meloidae) distributed in the Fergana Valley. Research was conducted during 2023-2025 across various landscapes and habitats of Namangan, Fergana, and Andijan regions. Field and laboratory investigations revealed six Meloidae species with local distribution and high ecological sensitivity; their habitat specificity and causes of rarity were analyzed. The identified species account for 11.5% of the total faunal composition. The results highlight the necessity of conserving rare blister beetle species, preserving natural biocenoses, and establishing a continuous ecological monitoring system.*

***Keywords:*** *Meloidae, blister beetles, rare species, Fergana Valley, biodiversity, conservation, ecological monitoring*

**Kirish.** Biologik xilma-xillikni saqlash va tabiiy ekotizimlarning barqaror faoliyatini ta'minlash zamonaviy ekologik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ushbu jarayonda turli landshaft va ekotizimlarda hasharotlar faunasini tizimli o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi, chunki hasharotlar moddalar aylanishi, trofik zanjirlar va ekotizimlarning funksional yaxlitligini ta'minlovchi asosiy komponentlardan hisoblanadi. Coleoptera turkumiga mansub Meloidae (malhamchi qo'ng'izlar) oilasi vakillari o'ziga xos morfo-biologik xususiyatlari, murakkab rivojlanish sikli hamda kantaridin moddasini sintez qilishi bilan ajralib turadi. Ushbu moddaning tibbiyotda qo'llanilishi va ayrim turlarning qishloq xo'jaligi ekinlariga ta'siri malhamchi qo'ng'izlarning ekologik va amaliy ahamiyatini belgilaydi. Farg'ona vodiysi murakkab tabiiy-geografik sharoitlari va landshaft xilma-xilligi bilan tavsiflanib, Meloidae oilasi vakillari uchun qulay ekologik nishalarga ega. Biroq hududda ularning tur tarkibi, tarqalishi va ekologik tuzilishi bo'yicha mavjud ma'lumotlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot Farg'ona vodiysi hududida malhamchi qo'ng'izlarning faunaviy tarkibi, balandlik-landshaft bo'yicha taqsimlanishi va amaliy ahamiyatini aniqlashga qaratildi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Malhamchi qo'ng'izlar (Meloidae) faunasi, biologiyasi, ekologiyasi va agroekotizimlardagi roli xorijiy va MDH mamlakatlari olimlari tomonidan turlicha tadqiq qilingan. Xorijiy olimlar malhamchi qo'ng'izlarning turli hududlardagi tarqalishi, hayot sikli, fenologiyasi, oziqlanish spektri va ekologik moslashuvchanligini o'rganishgan (masalan, Yakobson, 1931; Werner, 1949; Carrel & Eisner, 1974; Selander, 1981; Pinto & Bologna, 1999; Di Giulio et al., 2002; Campos Soldini et al., 2009). Shuningdek, qadimiy Yevrosiyo cho'l hududlarida tarqalgan malhamchi qo'ng'izlar (Coleoptera: Meloidae) faunasini o'rganishga Chernyshev(1997)ning ishlari bag'ishlangan. MDH mamlakatlari olimlari tomonidan malhamchi qo'ng'izlarning ekologiyasi va biologiyasi keng tadqiq etilgan bo'lib, ushbu izlanishlarning salmoqli qismi Markaziy Osiyo hududlariga to'g'ri keladi. Xususan, Isoyev (2004), Абдурахманов (2009), Txabisimova (2007), Shapovalov (2010), Казенас, Николаев, Кадырбеков ва Темрешев (2014) tomonidan tog'li va qurg'oqchil hududlar sharoitida ularning fenologiyasi va populyatsiya dinamikasi o'rganilgan. O'zbekistonda malhamchi qo'ng'izlar (Coleoptera: Meloidae) faunasi va ekologiyasi yetarlicha o'rganilmagan. Shu bois, hududdagi turlarni aniqlash, ularning fenologiyasi, populyatsiya dinamikasi hamda ommaviy ko'payish omillarini tadqiq etish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

**Tadqiqot materiallari.** Tadqiqotlar 2023-2025 yillar davomida dala tadqiqotlari Farg'ona vodiysining turli ma'muriy hududlarini qamrab olgan. Jumladan, Namangan viloyatining Mingbuloq, Pop, Chust, To'raqo'rg'on, Kosonsoy, Uychi, Uchqo'rg'on, Norin, Chortoq, Yangiqo'rg'on tumanlari hamda Namangan shahri hududlarida; Farg'ona viloyatining Bog'dod, Beshariq, Qo'shtepa, Rishton, Oltiariq, O'zbekiston, Uchko'prik va Dang'ara, Quva, Toshloq, Yozyovon tumanlarida; shuningdek, Andijon viloyatining Buloqboshi, Xo'jaobod, Jalaquduq, Ulug'nor, Marhamat, Asaka, Paxtaobod, Baliqchi, Oltinko'l tumanlarida statsionar hamda marshrutli usullar asosida namunalar to'plandi. Tadqiqotlar davomida malhamchi qo'ng'izlar (Coleoptera: Meloidae) namunalari belgilangan marshrutlar bo'ylab turli statsiya va biotoplardan yig'ib olindi. Hasharotlar zamonaviy va klassik entomologik usullar asosida qayta ishlanib, matras paxtali to'shamalar va entomologik qutichalarga joylashtirildi. Har bir namuna fotografik hujjatlashtirilib, ular asosida raqamli ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.

Natijalar**.** Tadqiqot davomida Farg'ona vodiysiga xos turlar **endemik bo'lmasa-da**, Farg'ona vodiysida **kam sonli, cheklangan biotoplarga bog'langan** va **epizodik qayd etiladigan** turlar hisoblanadi.

Jadval №1.

**Kamyob turlar (hudud darajasida).**

Farg'ona vodiysi malhamchi qo'ng'izlari faunasida kamyob va lokal tarqalgan turlar 6 turni tashkil etib, bu

| № | Tur nomi | Ekologik holati | Biotopi | Kamyoblik sababi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | *Sitaris muralis* | kamyob | tabiiy o'tloqlar | tor biologik ixtisoslashuv, qisqa faollik davri |
| 2 | *Stenoria intermedia* | kamyob | tog'oldi, o'tloq | kleptoparazit hayot tarzi |
| 3 | *Cerocoma schreberi* | kamyob | quruq, ochiq hududlar | notekis tarqalish, past populyatsiya |
| 4 | *Lydus unicolor* | kamyob | tabiiy biotsenozlar | arealining cheklanganligi |
| 5 | *Lydus europaeus* | nisbatan kamyob | ochiq landshaftlar | lokal tarqalish |
| 6 | *Epicauta erythrocephala* | lokal kamyob | o'tloq va adirlar | populyatsiya barqaror emas |

umumiy faunaning taxminan 11,5 % ini tashkil qiladi. Qolgan 88,5 % turlar keng tarqalgan va nisbatan barqaror populyatsiyalarga ega. *Mylabris festiva, Mylabris variabilis, Mylabris aulica, Meloe hungarus, Meloe proscarabaeus, Meloe rugosus kabi* turlar keng arealli va nisbatan ko'p uchraydigan bo'lib, kamyoblar qatoriga kiritilmaydi.

Farg'ona vodiysi sharoitida kamyob va ekologik jihatdan sezgir bo'lgan malhamchi qo'ng'iz turlarini, jumladan *Sitaris muralis, Stenoria intermedia, Cerocoma schreberi* va boshqa ayrim turlarni saqlab qolish maqsadida kompleks

muhofaza choralarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur turlar asosan tabiiy o‘tloq, tog‘oldi va kam darajada antropogen ta’sirga uchragan hududlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning populyatsiyalari ekologik muvozanatga sezgir hisoblanadi. Shu sababli ushbu hududlarda meliorativ va qurilish ishlarini cheklash, o‘tloqlardan ortiqcha foydalanishni, jumladan intensiv chorva boqish va o‘rib olishni tartibga solish hamda tabiiy biotsenozlarni saqlab qolishga qaratilgan mahalliy muhofaza hududlarini tashkil etish zarur.

Malhamchi qo‘ng‘izlar hayot siklining ayrim bosqichlari agrotsenozlar bilan chambarchas bog‘liq ekanligini inobatga olib, qishloq xo‘jaligi hududlarida insektitsid va pestitsidlardan foydalanishni, ayniqsa bahor-yoz mavsumida, cheklash tavsiya etiladi. Shu bilan birga, biologik va integratsiyalashgan zararkunandalarga qarshi kurash usullarini joriy etish, dalalar atrofi hamda himoya yo‘laklarida nektar beruvchi o‘simliklarni saqlab qolish va ko‘paytirish muhim ahamiyatga ega.

Kamyob Meloidae turlarining lichinkalari pardaqanotlilar, xususan yovvoyi asalarilar inlarida rivojlanishini hisobga olgan holda, mezbon hasharotlar populyatsiyalarini muhofaza qilish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun yovvoyi asalarilar va boshqa Hymenoptera vakillarining yashash sharoitlarini saqlab qolish, sun’iy inlar yaratish orqali ularning sonini qo‘llab-quvvatlash hamda gullaydigan o‘simliklar xilma-xilligini oshirish zarur.

Bundan tashqari, kamyob turlar populyatsiyasining holatini baholash va ularning barqarorligini ta’minlash maqsadida uzluksiz monitoring tizimini tashkil etish lozim. Monitoring doirasida turlarning tarqalishi, faollik davri va son dinamikasini yillik asosda hisobga olish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari hamkorligida yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Olingan ilmiy natijalar asosida *Sitaris muralis, Stenoria intermedia* va *Cerocoma schreberi* turlarini Qizil kitobga kiritish masalasini ko‘rib chiqish, shuningdek, ushbu turlar tarqalgan hududlarni maxsus muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ro‘yxatiga kiritish tavsiya etiladi. Taklif etilgan muhofaza choralarini kompleks ravishda amalga oshirish Farg‘ona vodiysida kamyob va ekologik jihatdan sezgir malhamchi qo‘ng‘iz turlarining tabiiy populyatsiyalarini saqlab qolish hamda mintaqada biologik xilma-xillikni muhofaza qilishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** 2023-2025 yillarda Farg‘ona vodiysida olib borilgan tadqiqotlar natijasida malhamchi qo‘ng‘izlarning (Coleoptera: Meloidae) kamyob va lokal tarqalgan 6 ta turi aniqlanib, ular umumiy faunaning 11,5 % ini tashkil etishi aniqlandi. Ushbu turlar asosan tabiiy o‘tloq va tog‘oldi hududlari bilan bog‘liq bo‘lib, ularning kamyobligi tor ekologik ixtisoslashuv va populyatsiya barqarorligining pastligi bilan izohlanadi. Olingan natijalar kamyob Meloidae turlarini muhofaza qilish, tabiiy biotsenozlarni saqlash hamda uzluksiz monitoring tizimini tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. **Колов, С.В.** (2004). Обзор видов рода *Lytta* F., 1775 (Coleoptera, Meloidae) Казахстана, России и ряда сопредельных территорий. *Tethys Entomological Research*, X: 71-80.

**2. Колов, С.В. & Темрешев, И.И.** (2013). Биоэкология некоторых жуков-нарывников рода *Mylabris* Fabricius (Coleoptera, Meloidae). *Евразиатский энтомологический журнал*, 12(1): 68-69.

**3. Тхабисимова, А.У.** (2007). Эколого-фаунстический обзор семейства Meloidae (Insecta, Coleoptera) Северо-Западного Кавказа и сопредельных территорий. Автореф. дисс. канд. биол. наук. Ставрополь. 23 с.

4. **Чернышёв, С.Э.** (2017). Обзор фауны нарывников (Coleoptera, Meloidae) Северной Азии. *Евразиатский энтомологический журнал*, 16(4): 325-343.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Юсупова Муниса Ойбек кизи**
**Магистрант** Андижанского государственного университета
**Кимсанова Гулнорахон Абдурашидовна**
Доцент Андижанского государственного университета

## ОСЬ КИШЕЧНИКА–ПЕЧЕНЬ И ЕЁ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ГЕПАТОЗА ПЕЧЕНИ

***Аннотация.*** *В данной статье анализируется работа оси «кишечник–печень» и её значение для функционирования организма. Эта ось представляет собой двунаправленную систему обмена сигналами между желудочно-кишечным трактом и печенью через воротную вену, желчные пути и системный кровоток. Такой обмен обеспечивает поступление продуктов микробного происхождения из кишечника в печень, где они воздействуют на её метаболические процессы, а также обратное влияние печени на кишечную среду, определяющее состояние кишечного барьера и состав микробиоты. Нарушение кишечного барьера и дисбиоз усиливают поступление этих соединений в печень, что приводит к активации воспалительных процессов, метаболическим нарушениям и формированию гепатоза.*

*Кишечная микробиота играет ключевую роль в обмене веществ, функционировании иммунной системы, поддержании целостности слизистой оболочки и защите от нежелательных микроорганизмов. Изменения её состава, такие как уменьшение количества полезных бактерий или увеличение доли условно-вредных видов, нарушают устойчивость кишечной экосистемы. Эти изменения могут отражаться на работе пищеварительной системы и оказывать влияние на состояние организма в целом.*

*Цель данной обзорной статьи — описать изменения кишечной микробиоты, наблюдаемые при различных нарушениях функции печени, и раскрыть взаимосвязь между состоянием микробиоты и работой печени в контексте оси «кишечник–печень».*

***Ключевые слова:*** *Ось кишечник–печень, кишечная микробиота, дисбиоз, кишечный барьер, микробные метаболиты, воспаление, гепатоз, метаболические нарушения*

**Yusupova Munisa Oybek qizi**
Andijon davlat universiteti magistranti
**Kimsanova Gulnoraxon Abdurashidovna**
Andijon davlat universiteti dotsenti

## ICHAK-JIGAR O'QI VA UNING JIGAR GEPATOZINING RIVOJLANISHIDAGI ROLI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada "ichak–jigar" o'qining ishlashi va organizm faoliyati uchun uning ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu o'q portal vena, o't yo'llari va tizimli qon aylanishi orqali oshqozon-ichak trakti bilan jigar o'rtasidagi ikki yo'nalishli signal almashinuv tizimini ifodalaydi. Bunday almashinuv ichakdan kelib chiqqan mikroblarga oid mahsulotlarning jigarga yetib borishini ta'minlaydi va u yerda metabolik jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. Jigar esa o'z navbatida ichak muhitiga ta'sir ko'rsatib, ichak to'sig'ining holati va mikrobiota tarkibini belgilaydi. Ichak to'sig'ining buzilishi va disbioz bu birikmalarning jigarga ko'proq kirib borishiga olib keladi, bu esa yallig'lanish jarayonlarining faollashuvi, metabolik buzilishlar va gepatozning shakllanishiga sabab bo'ladi.*

*Ichak mikrobiotasi moddalar almashinuvida, immun tizimi faoliyatida, shilliq qavat yaxlitligini saqlashda va zararli mikroorganizmlardan himoyalanishda muhim rol o'ynaydi. Uning tarkibidagi o'zgarishlar — foydali bakteriyalarning kamayishi yoki shartli zararli turlar ulushining ortishi — ichak ekotizimining barqarorligini izdan chiqaradi. Bunday o'zgarishlar hazm qilish tizimi faoliyatiga va organizmning umumiy holatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.*

*Ushbu sharh maqolasining maqsadi — jigar funksiyasidagi turli buzilishlar vaqtida kuzatiladigan ichak mikrobiotasi o'zgarishlarini tavsiflash va ichak–jigar o'qi doirasida mikrobiota holati bilan jigar faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berishdir.*

***Kalit so'zlar:*** *ichak–jigar o'qi, ichak mikrobiotasi, disbioz, ichak to'sig'i, mikroblar metabolitlari, yallig'lanish, gepatoz, metabolik buzilishlar*

**Yusupova Munisa Oybek Kizi**
Master's Student, Andijan State University
**Kimsanova Gulnorakhon Abdurashidovna**
Associate Professor, Andijan State University

**THE GUT-LIVERS AXIS AND ITS ROLE IN THE DEVELOPMENT OF HEPATIC HEPATOSIS**

***Abstract****. This article analyzes the functioning of the gut–liver axis and its importance for the organism. This axis represents a bidirectional signaling system between the gastrointestinal tract and the liver through the portal vein, bile ducts, and systemic circulation. Such interaction ensures the transfer of microbiota-derived products from the intestine to the liver, where they influence metabolic processes, as well as the reverse regulatory effect of the liver on the intestinal environment, determining the state of the intestinal barrier and the composition of the microbiota. Disruption of the intestinal barrier and dysbiosis enhance the influx of these compounds into the liver, leading to activation of inflammatory processes, metabolic disturbances, and the development of hepatosis.*

*The gut microbiota plays a key role in metabolism, immune function, maintenance of mucosal integrity, and protection against undesirable microorganisms. Changes in its composition, such as a decrease in beneficial bacterial species or an increase in conditionally harmful ones, disrupt the stability of the intestinal ecosystem. These alterations may affect the functioning of the digestive system and influence the organism as a whole.*

*The purpose of this review article is to describe the changes in the gut microbiota observed under various disturbances in liver function and to reveal the relationship between the state of the microbiota and liver activity within the context of the gut–liver axis.*

***Keywords:*** *Gut–liver axis, gut microbiota, dysbiosis, intestinal barrier, microbial metabolites, inflammation, hepatosis, metabolic disorders.*

Согласно обновлённому систематическому обзору и метаанализу Amini-Salehi E. и соавт. (2023), включившему 479 исследований с общей численностью 78 млн человек из 38 стран, выполненному на основе данных баз PubMed, Scopus и Web of Science, глобальная распространённость неалкогольной жировой болезни печени (НАЖБП) составляет 30,2%. Отмечены выраженные региональные различия, при этом наиболее высокие показатели выявлены в странах Азии и Южной Америки, а наименьшие — в Австралии. Распространённость НАЖБП статистически значимо выше у мужчин по сравнению с женщинами (36,6% и 25,5% соответственно). Особенно высокие показатели заболевания зарегистрированы среди лиц с ожирением как во взрослой, так и в детской популяции. Кроме того, установлена обратная связь между индексом человеческого развития и распространённостью НАЖБП, что указывает на более высокое бремя заболевания в странах с низким социально-экономическим уровнем **[1].** Заболевание характеризуется избыточным накоплением липидов в гепатоцитах, что нарушает нормальную функциональную активность печени и при длительном течении может приводить к серьёзным структурным изменениям её ткани. Неалкогольная жировая болезнь печени рассматривается как состояние, связанное с работой сразу нескольких систем организма. Важно отметить, что избыточное накопление жира в печени наблюдается не только у людей с ожирением, но и у пациентов с нормальной массой тела, что подчёркивает многофакторный характер развития НАЖБП. Заболевание нередко сопровождается метаболическими нарушениями, такими как сахарный диабет 2 типа, ожирение, сердечно-сосудистые заболевания и хронические изменения функции почек. Формирование НАЖБП происходит под влиянием сочетания наследственных предрасположенностей и факторов окружающей среды, включая особенности питания и образа жизни **[2].**

Ось «кишечник-печень» представляет собой двунаправленную сеть сигналов между кишечником и печенью, соединенных через печеночную воротную вену, желчный тракт и системное кровообращение **[3].**

Тесное взаимодействие печени и кишечника реализуется при участии желчевыводящих путей, воротной вены, системного кровообращения и ряда системных медиаторов. Венозная кровь из тонкого и толстого кишечника поступает в воротную вену, обеспечивая около 75 % кровоснабжения печени, что делает её первым органом, контактирующим с всосавшимися питательными веществами и микробными метаболитами. К числу таких метаболитов относятся короткоцепочечные жирные кислоты (КЖК), желчные кислоты и липополисахариды (ЛПС), которые поступают в печень через портальную систему и выступают ключевыми медиаторами оси «кишечник–печень». При этом КЖК и желчные кислоты преимущественно участвуют в процессах метаболической регуляции и сигнальной передачи, тогда как ЛПС в большей степени воздействуют на функцию печени посредством активации воспалительных путей. Совокупное действие этих молекул определяет

характер иммунных реакций, особенности обмена веществ и регенеративный потенциал печени после повреждений **[4].**

Желчные кислоты синтезируются в печени из холестерина и выделяются в кишечник для переваривания и всасывания липидов. В кишечнике под действием микробиоты часть первичных желчных кислот превращается во вторичные. Затем как первичные, так и вторичные желчные кислоты реабсорбируются в подвздошной кишке и возвращаются в печень через воротную вену, формируя энтерогепатическую циркуляцию, которая обеспечивает стабильность пула желчных кислот и поддерживает функциональную связь между кишечником и печенью. При неалкогольной жировой болезни печени (НАЖБП) дисбиоз кишечной микробиоты нарушает метаболизм желчных кислот, что приводит к увеличению уровня первичных желчных кислот и изменению их соотношения со вторичными. Эти изменения влияют на активность рецепторов FXR и TGR5, которые регулируют липидный и углеводный обмен, чувствительность к инсулину и воспалительные процессы. Снижение активности FXR сопровождается усилением липогенеза и воспаления в печени, что способствует накоплению жира и прогрессированию гепатоза **[5,6].**

Короткоцепочечные жирные кислоты, включая ацетат, пропионат и бутират, образуются в кишечнике в результате ферментации неперевариваемых углеводов кишечной микробиотой. Большая часть КЖК используется в кишечнике в качестве источника энергии, однако часть этих метаболитов поступает в печень через воротную вену и оказывает влияние на метаболизм гепатоцитов. У пациентов с НАЖБП отмечается повышение уровня КЖК в кале, а также увеличение количества бактерий, способных к их продукции, что указывает на нарушение микробного метаболизма. Функциональная роль отдельных КЖК различается: бутират преимущественно питает клетки толстой кишки, пропионат участвует в глюконеогенезе и синтезе холестерина, а ацетат способствует липогенезу и образованию холестерина в печени. КЖК воздействуют на клетки печени через G-белковые рецепторы, главным образом GPR43, участвуя в регуляции чувствительности к инсулину, обмена жиров и воспалительных процессов. Они стимулируют выработку гормонов GLP-1 и PYY, которые способствуют снижению накопления жира в печени. Кроме того, КЖК активируют фермент AMPK — «датчик энергетического состояния» клетки, усиливая окисление жирных кислот, уменьшая накопление триглицеридов и улучшая энергетический обмен в гепатоцитах **[7,8,9].**

Печень, в свою очередь, регулирует состояние кишечника через секрецию желчи, содержащей желчные кислоты, холестерин, фосфолипиды, белки, бикарбонат, а также иммуноглобулин А и антимикробные молекулы. По желчным протокам желчь поступает в проксимальный отдел тонкой кишки, где участвует в переваривании липидов. В толстой кишке кишечные бактерии осуществляют дальнейшую модификацию желчных кислот, после чего они реабсорбируются и возвращаются в печень через портальное кровообращение, поддерживая энтерогепатический круговорот. Одновременно портальная система переносит в печень микробные продукты, включая липополисахариды и КЖК. В ответ на их поступление печень может секретировать в системный кровоток воспалительные цитокины и токсичные метаболиты, такие как ацетальдегид, оказывающие влияние на общее состояние организма.

Таким образом, ось «кишечник–печень» представляет собой сложную двунаправленную систему, в которой кишечная микробиота, желчные кислоты, короткоцепочечные жирные кислоты и иммунные медиаторы совместно регулируют метаболические процессы, воспалительные реакции и функциональное состояние печени, играя важную роль в развитии и прогрессировании неалкогольной жировой болезни печени **[10].**

Кишечная микробиота играет значимую роль в развитии и прогрессировании заболеваний печени, в частности неалкогольной жировой болезни печени (НАЖБП) и гепатита. Развитие дисбиоза нередко сопровождается повышением проницаемости кишечника, что создаёт условия для проникновения кишечных метаболитов и патогенных микроорганизмов в системный кровоток и может способствовать воспалению и повреждению печени **[11].** Ряд исследований указывает на то, что у пациентов с НАЖБП часто выявляются изменения состава кишечной микробиоты, характеризующиеся снижением микробного разнообразия и сдвигами в соотношении отдельных бактериальных групп, в частности увеличением доли Firmicutes и уменьшением количества Bacteroidetes**[12].**

Кишечная микробиота играет центральную роль в регуляции пищеварительных процессов в желудочно-кишечном тракте. Комменсальные микроорганизмы участвуют в расщеплении, синтезе и усвоении различных питательных веществ и метаболитов, включая желчные кислоты, липиды, аминокислоты, витамины и короткоцепочечные жирные кислоты (КЖК). Кишечная микробиота выполняет важную иммунную функцию, препятствуя колонизации патогенных бактерий за счёт подавления их роста, конкуренции за доступные питательные вещества и синтеза бактериоцинов. Для роста и размножения микроорганизмам необходимы питательные субстраты, такие как углеводы, аминокислоты и микроэлементы. Комменсальные бактерии активно используют эти ресурсы, тем самым ограничивая доступ патогенов к источникам питания. В результате

патогенные микроорганизмы испытывают дефицит энергии и строительных компонентов, что снижает их способность к размножению и колонизации кишечника. Данный механизм известен как конкурентное вытеснение. Кроме того, кишечная микробиота предотвращает бактериальное вторжение, поддерживая структурную и функциональную целостность эпителия кишечника.

Дополнительным защитным фактором является синтез бактериоцинов-антимикробных белковых веществ, продуцируемых некоторыми представителями нормальной микрофлоры. Бактериоцины способны подавлять рост патогенных бактерий, повреждать их клеточные мембраны и нарушать синтез белков и ДНК. В отличие от антибиотиков, они, как правило, действуют избирательно, не нарушая общий баланс кишечной микробиоты **[13].**

Кишечный микробиом включает более 3 миллионов генов, которые обеспечивают синтез тысяч различных метаболитов, тогда как геном человека содержит около 23 000 генов. Интерес к кишечной микробиоте существует уже давно, однако на протяжении многих лет её изучение было затруднено из-за сложности культивирования большинства кишечных микроорганизмов в лабораторных условиях Развитие современных молекулярно-биологических технологий позволило исследовать состав кишечной микробиоты без культивирования, путём анализа нуклеиновых кислот (ДНК и РНК), непосредственно выделенных из образцов кала. Большинство используемых методов основано на выделении ДНК и амплификации гена 16S рибосомальной РНК. Секвенирование 16S рРНК в настоящее время является одним из основных подходов для оценки разнообразия и относительной численности микроорганизмов кишечного микробиома **[14].**

Кишечная микробиота представлена разнообразным сообществом микроорганизмов, включающим бактерии, дрожжевые грибы и вирусы. В таксономическом отношении бактерии подразделяются на филы, классы, порядки, семейства, роды и виды. При этом лишь ограниченное число фил включает более 160 видов микроорганизмов. Основными филами кишечной микробиоты человека являются Firmicutes, Bacteroidetes, Actinobacteria, Proteobacteria, Fusobacteria и Verrucomicrobia, причём на долю Firmicutes и Bacteroidetes приходится около 90% всей микробной популяции кишечника. Филум Firmicutes включает более 200 родов, среди которых наиболее распространены Lactobacillus, Bacillus, Clostridium, Enterococcus и Ruminococcus. Представители рода Clostridium составляют значительную часть данного филума. Филум Bacteroidetes преимущественно представлен родами Bacteroides и Prevotella. Актинобактерии встречаются в кишечнике в меньшем количестве и в основном представлены родом Bifidobacterium. **[15,16]**

Каждый из них выполняют определённые функции, важные для организма хозяина. Так, бактерии филума Firmicutes активно участвуют в ферментации пищевых волокон с образованием короткоцепочечных жирных кислот (КЖК), которые служат источником энергии для клеток толстой кишки и обладают противовоспалительным действием. Бактерии филума Bacteroidetes, в свою очередь, играют ключевую роль в расщеплении сложных углеводов, способствуя более эффективному усвоению питательных веществ. Представители Actinobacteria, в частности роды *Lactobacillus* и *Bifidobacterium*, широко известны своими пробиотическими свойствами, поскольку поддерживают нормальное состояние кишечной среды и участвуют в регуляции иммунных реакций**[17].** Сбалансированное соотношение различных групп кишечной микробиоты имеет принципиальное значение для метаболического здоровья. Так, увеличение доли **Firmicutes** по отношению к **Bacteroidetes** ассоциируется с развитием ожирения и метаболических нарушений, что подчёркивает тесную связь между составом кишечной микробиоты и обменом веществ организма хозяина**[18].**

В ряде исследований был проанализирован состав бактериального микробиома в образцах кала у пациентов с НАЖБП, однако полученные данные остаются неоднозначными и во многом противоречивыми. Наиболее воспроизводимые изменения, выявленные при сравнении пациентов с НАЖБП со здоровыми лицами, а также при сопоставлении лёгких и более тяжёлых форм заболевания, включали повышение относительной численности Proteobacteria, Enterobacteriaceae, Escherichia и Dorea и одновременное снижение содержания Ruminococcaceae, Anaerospacter, Coprococcus, Eubacterium, Faecalibacterium и Prevotella. При этом кишечные вирусы, являющиеся одними из наиболее многочисленных микроорганизмов в составе кишечной микробиоты, до настоящего времени практически не охарактеризованы у пациентов с заболеваниями печени**[19].**

**Заключение**

Кишечный эпителий является основным связующим звеном между кишечной микробиотой и печенью. Он участвует в регуляции обменных процессов и обеспечивает избирательное всасывание питательных веществ, одновременно препятствуя проникновению нежелательных микроорганизмов и их продуктов во внутреннюю среду организма. Кишечный барьер представляет собой более сложную многоуровневую систему защиты, включающую эпителиальный слой, слизистую оболочку, иммунные компоненты и нормальную кишечную микробиоту. Его устойчивость поддерживается муцинами, антимикробными молекулами, иммуноглобулинами и иммунными клетками, а также плотными межклеточными соединениями, обеспечивающими селективную проницаемость кишечной стенки. Иммунный компонент барьера включает секреторный иммуноглобулин А,

лимфоциты B и T, дендритные клетки и нейтрофилы. Эта многослойная система защиты предотвращает перенос патобионтов, патогенных микроорганизмов и микробных продуктов в кровоток и другие органы.

Функциональная взаимосвязь между кишечником, кишечной микробиотой и печеньем образует ось «кишечник–печень». Данная система находится под воздействием окружающей среды, при этом ключевую роль в передаче этих воздействий играет кишечный микробиом. В основе лежит нарушение взаимодействия между микробными сообществами и кишечным барьером, который напрямую контактирует с компонентами пищи, лекарственными средствами, химическими соединениями, пищевыми примесями и желчью. Указанные факторы способны модулировать сигнальные пути, соединяющие кишечник и печень, вызывая как локальные, так и системные эффекты. Взаимодействие является двунаправленным, так как желчные кислоты, вырабатываемые в печени, регулируют состав микробиома и кишечный барьер. Напротив, кишечные продукты регулируют синтез желчных кислот, печеночную глюкозу и липидный обмен. Кратковременные и длительные нарушения этого тонко сбалансированного взаимодействия, обусловленные внешними или внутренними факторами (такими как дисбиоз кишечной микробиоты, повышение проницаемости кишечного барьера или изменения люминальных концентраций желчных кислот), приводят к нарушению гомеостаза оси «кишечник–печень», способствуя развитию локального и системного воспаления и формированию заболеваний печени, включая НАЖБП. Изменения, происходящие в печени, могут также оказывать влияние на клетки врожденного иммунитета при воздействии бактериальных продуктов кишечного происхождения, включая эндотоксины и метаболиты. Данный процесс, как правило, сопровождается развитием печёночного воспаления. Согласно имеющимся данным, значительная часть факторов окружающей среды, способствующих нарушению оси «кишечник–печень» и последующему развитию печёночной и метаболической дисфункции, потенциально поддаётся контролю. В связи с этим перспективные исследования должны быть направлены на регуляцию гомеостаза кишечника и печени.

**Литература**

**1.**.Ehsan Amini-Salehi, Negin Letafatkar, Naeim Norouzi, Farahnaz Joukar, Arman Habibi, Mona Javid, Nazila Sattari, Mehrdad Khorasani, Ali Farahmand, Shervin Tavakoli, Behnaz Masoumzadeh, Elaheh Abbaspour, Sahand Karimzad, Amir Ghadiri, Gautam Maddineni, Mohammad Javad Khosousi, Niloofar Faraji, Mohammad-Hossein Keivanlou, Abinash Mahapatro, Mohamad Amin Khajavi Gaskarei, Paria Okhovat, Ali Bahrampourian, Maryam Sadat Aleali, Arian Mirdamadi, Narges Eslami, Mohamadreza Javid, Naz Javaheri, Shrinidhi Vilas Pra, Arash Bakhsi, Mohammad Shafipour, Azin Vakilpour, Malek Moein Ansar, Sai Guatham Kanagala, Mohamad Hashemi, Arezoo Ghazalgoo, Masoumeh Kheirandish, Parham Porteghali, Forough Heidarzad, Taraneh Zeinali, Fariborz Mansour Ghanaei, Soheil Hassanipour, Michael.T Ulrich, Joshua E. Melson, Dhruvan Patel, Sandeep Samethadka Nayak, Global Prevalence of Nonalcoholic Fatty Liver Disease: An Updated Review Meta-Analysis comprising a Population of 78 million from 38 Countries, Archives of Medical Research, Volume 55, Issue 6, 2024, 103043,

**2.** Younossi, Z.M.; Koenig, A.B.; Abdelatif, D.; Fazel, Y.; Henry, L.; Wymer, M. Global epidemiology of nonalcoholic fatty liver disease—Meta-analytic assessment of prevalence, incidence, and outcomes. Hepatology 2016, 64, 73–84.

**3.** Han, H.; Jiang, Y.; Wang, M.; Melaku, M.; Liu, L.; Zhao, Y.; Everaert, N.; Yi, B.; Zhang, H. Intestinal dysbiosis in nonalcoholic fatty liver disease (NAFLD): Focusing on the gut–liver axis. *Crit. Rev. Food Sci. Nutr.* **2023**, *63*, 1689–1706.

**4.** Liu J., Yang D., Wang X., Asare P. T., Zhang Q., Na L., et al. (2022). Gut microbiota targeted approach in the management of chronic liver diseases. Front. Cell. Infect. Microbiol. 12:774335. 10.3389

**5.** Cheng, Z.; Chen, Y.; Schnabl, B.; Chu, H.; Yang, L. Bile acid and nonalcoholic steatohepatitis: Molecular insights and therapeutic targets. *J. Adv. Res.* 2024, *59*, 173–187.

**6.** Zhu, Y.; Liu, H.; Zhang, M.; Guo, G.L. Fatty liver diseases, bile acids, and FXR. *Acta Pharm. Sin. B* 2016, *6*, 409–412.

**7**. Rekha, K.; Venkidasamy, B.; Samynathan, R.; Nagella, P.; Rebezov, M.; Khayrullin, M.; Ponomarev, E.; Bouyahya, A.; Sarkar, T.; Shariati, M.A. Short-chain fatty acid: An updated review on signaling, metabolism, and therapeutic effects. *Crit. Rev. Food Sci. Nutr.* 2024, *64*, 2461–2489.

**8.** Mann, E.R.; Lam, Y.K.; Uhlig, H.H. Short-chain fatty acids: Linking diet, the microbiome and immunity. *Nat. Rev. Immunol.* 2024, *24*, 577–595.

**9.** Pezzino, S.; Sofia, M.; Faletra, G.; Mazzone, C.; Litrico, G.; La Greca, G.; Latteri, S. Gut–Liver axis and non-alcoholic fatty liver disease: A vicious circle of dysfunctions orchestrated by the gut microbiome. *Biology* 2022, *11*, 1622.

**10.** Hsu C.L., Schnabl B. The gut–liver axis and gut microbiota in health and liver disease // *Nature Reviews Microbiology*. 2023. Vol. 21, No. 11. P. 719–733.

**11.** Long C., Zhou X., Xia F., Zhou B. (2024). Intestinal barrier dysfunction and gut microbiota in non-alcoholic fatty liver disease: assessment, mechanisms, and therapeutic considerations. Biology 13:243.

**12.** Fei, Dai-Liang et al. “Gut microbiota and the "gut-liver-kidney axis" theory: from mechanisms to therapeutics.” *Frontiers in microbiology* vol. 16 1554458. 19 Jun. 2025,

**13.**Khosravi, A.; Mazmanian, S.K. Disruption of the gut microbiome as a risk factor for microbial infections. *Curr. Opin. Microbiol.* 2013, *16*, 221–227.

**14.**Rinninella, E., Raoul, P., Cintoni, M., Franceschi, F., Miggiano, G. A. D., Gasbarrini, A., & Mele, M. C. (2019). What is the Healthy Gut Microbiota Composition? A Changing Ecosystem across Age, Environment, Diet, and Diseases. Microorganisms, *7*(1), 14.

**15**.Laterza, L.; Rizzatti, G.; Gaetani, E.; Chiusolo, P.; Gasbarrini, A. The gut microbiota and immune system relationship in human graft-versus-host disease. *Mediterr. J. Hematol. Infect. Dis.* **2016**, *8*, e2016025.

**16**.Arumugam, M.; Raes, J.; Pelletier, E.; Le Paslier, D.; Yamada, T.; Mende, D.R.; Fernandes, G.R.; Tap, J.; Bruls, T.; Batto, J.M.; et al. Enterotypes of the human gut microbiome. *Nature* **2011**, *473*, 174–180.

**17**.Miles M. P. (2020). Probiotics and gut health in athletes. Curr. Nutr. Rep. 9, 129–136.

**18.**Debnath N., Kumar R., Kumar A., Mehta P. K., Yadav A. K. (2021). Gut-microbiota derived bioactive metabolites and their functions in host physiology. Biotechnol. Genet. Eng. Rev. 37, 105–153.

**19**.Lang, Sonja et al. Microbiota and Fatty Liver Disease the Known, the Unknown, and the Future. Cell Host & Microbe, Volume 28, Issue 2, 233 – 244, August 12, 2020

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Rustamov Ilhomjon Komilovich**
Namangan davlat universiteti "Biotexnologiya" kafedrasi katta o'qituvchi,bfn.
e-mail: rustamov770@outlook.com

**UO'K: 632.7.+ 565**

## "AGROBIOTSENOZLARDA PESTITSIDLAR QO'LLASH OQIBATIDA O'RIMCHAKKANALAR INVAZIYASI"

***Annotatsiya***: *Ushbu maqolada pestitsidlarning agrobiotsenozga salbiy ta'siri, aynan ikkilamchi zararkunandalar — o'rgimchakkanalar (Tetranychus urticae) invaziyasi (portlashsimon ko'payishi) mexanizmi tahlil qilingan. Tabiiy nazorat mexanizmi ishdan chiqqanda yuzaga keladigan ushbu muammoning oldini olishda integratsiyalashgan zararkunandalarga qarshi kurash (IPM) strategiyalarining ilmiy asoslangan ahamiyati ko'rsatib berilgan. Maqolaning maqsadi — kimyoviy himoyaning salbiy oqibatlarini minimallashtirish va barqaror qishloq xo'jaligini yuritishning ilmiy asoslangan yo'llarini taqdim etish.*

***Kalit so'zlar***: *Loviya ekini entomofaunasi, Farg'ona vodiysi, biologik kurash, o'rgimchakkana, invaziya.*

**Рустамов Илхомжон Комилович**
Наманганский государственный университет,
старший преподаватель кафедры «Биотехнология», к.б.н. (кандидат биологических наук).

## «ИНВАЗИЯ ПАУТИННЫХ КЛЕЩЕЙ ВСЛЕДСТВИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ПЕСТИЦИДОВ В АГРОБИОЦЕНОЗАХ»

***Аннотация***:*В данной статье анализируется негативное влияние пестицидов на агробиоценоз, а именно механизм инвазии (взрывоподобного размножения) вторичных вредителей — паутинных клещей (Tetranychus urticae). Показано научно обоснованное значение стратегий интегрированной борьбы с вредителями (IPM) в предотвращении этой проблемы, возникающей при нарушении механизма естественного контроля. Цель статьи — минимизировать негативные последствия химической защиты и представить научно обоснованные пути ведения устойчивого сельского хозяйства.*

***Ключевые слова***: *Энтомофауна посевов фасоли, Ферганская долина, биологическая борьба, паутинный клещ, инвазия*.

**Rustamov Ilhomjon Komilovich**
Namangan State University, Senior Lecturer of the
Department of Biotechnology, Candidate of Biological Sciences (PhD).

## "INVASION OF SPIDER MITES DUE TO THE USE OF PESTICIDES IN AGROBIOCENOSES"

***Abstract:*** *This article analyzes the negative impact of pesticides on the agrobiocenosis, namely the mechanism of invasion (explosive reproduction) of secondary pests – spider mites (Tetranychus urticae). The scientifically substantiated importance of Integrated Pest Management (IPM) strategies in preventing this problem, which arises when the mechanism of natural control is disrupted, is demonstrated. The purpose of the article is to minimize the negative consequences of chemical protection and to present scientifically grounded ways of conducting sustainable agriculture.*

***Keywords:*** *Entomofauna of bean crops, Fergana Valley, biological control, spider mite, invasion.*

### Kirish

Zamonaviy qishloq xo'jaligida yuqori hosildorlikka erishish ko'p jihatdan zararkunanda hasharotlarga qarshi samarali kurash choralariga bog'liq. Kimyoviy himoya vositalari — pestitsidlar bu kurashning asosiy quroli bo'lib xizmat qiladi. Biroq, ulardan noto'g'ri yoki nazoratsiz foydalanish ko'pincha kutilgan natijaning aksiga — agroekotizimdagi nozik muvozanatning buzilishiga olib keladi. Ayniqsa, loviya kabi ekinlarda bu muammo yaqqol namoyon bo'ladi.

Gap shundaki, keng spektrli pestitsidlar nafaqat zararli organizmlarni, balki ularning tabiiy kushandalari bo'lgan foydali entomofaglar va akarifaglarni ham yo'q qiladi. Bu tabiiy nazorat mexanizmi ishdan chiqqanda, ikkilamchi

zararkunandalar — xususan, o‘rgimchakkanalar (Tetranychus urticae) uchun keng imkoniyatlar eshigi ochiladi. O‘rgimchakkanalarning biologik xususiyatlari (juda tez ko‘payishi va ayrim kimyoviy vositalarga chidamliligi) ularning populyatsiyasining portlashsimon ko‘payishiga (invaziyasiga) sabab bo‘ladi. Natijada, pestitsid qo‘llashdan ko‘zlangan dastlabki maqsad amalga oshmaydi, aksincha, hosilga yanada katta zarar yetadi.

Ushbu maqolada biz pestitsidlarning agrobiotsenozga ta’sirini, aynan o‘rgimchakkanalar invaziyasi mexanizmini va bu muammoning oldini olishda integratsiyalashgan zararkunandalarga qarshi kurash (IPM) strategiyalarining ahamiyatini tahlil qilamiz. Maqsad — kimyoviy himoyaning salbiy oqibatlarini minimallashtirish va barqaror qishloq xo‘jaligini yuritishning ilmiy asoslangan yo‘llarini ko‘rsatib berish.

**Adabiyotlar tahlili**

O‘simliklarni himoya qilish tizimida pestitsidlardan foydalanishning ekologik oqibatlari dunyo miqyosidagi olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Ko‘plab tadqiqotlar kimyoviy vositalarning maqsadli (zararli) va nomaqsadli (foydali) organizmlarga ta’sirini o‘rgangan.

Mavzuga oid ilk fundamental ishlardan biri Smit va Jonson tomonidan amalga oshirilgan. Ularning tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha, chigirtkalarga qarshi ishlatilgan sintetik piretroidlar paxta maydonlaridagi yirtqich kanalar va oltinko‘zlarni keskin kamaytirgan. Bu esa biologik xilma-xillikning pasayishiga olib kelishi ilk bor asoslab berilgan. [11]

Keyingi davrda "pestitsidlar induksiyalagan ikkilamchi zararlanish" hodisasi chuqurroq o‘rganildi. Rikardo va boshqalar o‘z ishlarida pestitsidlar ta’sirida o‘rgimchakkanalar populyatsiyasining portlashsimon ko‘payishini uch asosiy sabab bilan izohladi: 1. Yirtqich entomofaglarning qirilib ketishi; 2. Ba’zi pestitsidlarning o‘simlikdagi oqsil miqdorini oshirib, kanalar uchun oziq bazasini yaxshilashi; 3. Kanalarning pestitsidlarga nisbatan yuqori moslashuvchanligi [8].

O‘rgimchakkanalarning Tetranychus urticae turining pestitsidlarga chidamlilikni (rezistentlikni) tez shakllantirishi alohida o‘rganilgan. Meyyer kuzatuvlariga ko‘ra, bir mavsumda bir necha avlod beradigan bu tur populyatsiyasida kimyoviy bosim ostida chidamli genlarning tez tarqalishi global muammoga aylangan [5] .

Kimyoviy vositalarning nozik ta’sirlarini o‘rganish davom ettirildi. Bayyer va Graf loviya dalalaridagi tajribalarida ayrim neonikotinoid pestitsidlar o‘rgimchakkanalrning urg‘ochilarida tuxum qo‘yish faolligini rag‘batlantirishini, bu esa invaziya sur’atini yanada tezlashtirishini aniqladilar[1].

Mintaqaviy tadqiqotlar ham bu muammo dolzarbligini ko‘rsatdi. Li Osiyodagi sabzavot ekinlarida o‘tkazgan kuzatuvlarida yirtqich kanalarning yo‘qolishi Tetranychus urticae zararining 80% ga oshishiga olib kelishini hisoblab chiqqan [4].

Xoshimov esa O‘zbekiston sharoitida mahalliy entomofaglarning pestitsidlarga juda sezgir ekanligini asoslagan[3].

Zamonaviy tadqiqotlar muammoga yechim izlashga qaratilgan. Uoker kimyoviy kurash o‘rniga biologik agentlarni qo‘llash uzoq muddatli istiqbolda invaziya xavfini butunlay yo‘qotishini konseptual modellar orqali isbotlagan[12]. Zaytseva yaqinda o‘tkazgan meta-tahlilida esa o‘rgimchakkanalarga qarshi chidamlilikning global miqyosda qay darajada shakllanganini umumlashtirgan [13].

Mavjud adabiyotlar tahlili pestitsidlarni noto‘g‘ri qo‘llash oqibatida o‘rgimchakkanalar invaziyasi yuz berishini to‘liq tasdiqlaydi. Ushbu maqola mavjud bilimlarni loviya agrobiotsenozi misolida chuqurlashtiradi va muammoga amaliy yechimlar izlaydi. Barcha manbalar integratsiyalashgan zararkunandalarga qarshi kurash (IPM) strategiyasiga o‘tish zarurligini yakdillik bilan ta’kidlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotlar Namangan viloyati Chust tumani Saodatxon Raximova nomli f/x hududida (1ga.) olib borildi. 2025 yil bahorda va takroriy ekin sifatida ekilgan loviyaning *Phaseolus vulgaris* “Korolevskiy” navi chinbarglash davridan to pishish davrigacha uchragan so’ruvchi va kemiruvchi zararkunandalar hamda ularning entomofaglari o‘rganildi. Tajriba, kuzatuv ishlari takroriylik, nazorat varianti 0.30 ga dan jami 0.90 ga da bir biridan mevali daraxtlar bilan ihotalangan loviya maydonlarda haftada 1 marta olib borildi. Zarar darajasini aniqlashda, bir tup o‘simlikdagi zararlangan barglarining umumiy barglar soniga nisbaati olindi. Namuna tanlashda dala bo‘ylab dioganal harakatlanib 50 tup tup o‘simlik tanlab olinadi. Har bir tanlangan o‘simlikda ikkita ko‘rsatkich qayd etiladi: O‘simlikdagi umumiy barglar soni va shu o‘simlikdagi zararkunanda bilan zararlangan barglar soni. Hosili pishgan tuplar 15-25 dona barg hosil qildi. Namuna olishning mazkur usullari Pedigo va Buntinning fundamental qo‘llanmasidagi tavsiyalarga asoslandi [7]. O‘rgimchakkanalarning loviyadagi zararlanish darajasini baholash uchun Ogecha va boshq. [6] tomonidan taklif etilgan umumiy tamoyillarga asoslangan holda 0 dan 5 gacha ballik shkala ishlab chiqildi (1-rasm). Ushbu shkala zarar ko‘rgan barglarning umumiy barglar soniga nisbatan foiz ulushini hisoblash orqali vizual kuzatuvga asoslanadi.

1-rasm.

**Loviya oʻsimligining oʻrgimchakkanalar bilan zararlanish darajasini baholash shkalasi**

| Ball | Zararlanish darajasi (%) | Tavsif |
|---|---|---|
| 0 | 0% | Zarar yoʻq |
| 1 | 1-10% | Kuchsiz zararlanish |
| 2 | 11-25% | Oʻrtacha zararlanish |
| 3 | 26-50% | Kuchli zararlanish (Iqtisodiy zarar chegarasi) |
| 4 | 51-75% | Juda kuchli zararlanish |
| 5 | 76-100% | Oʻsimlikning qurishi/nobud boʻlishi |

*Eslatma: Ushbu shkala Ogecha va boshqalar (2019) manbasiga asoslanib, mualliflar tomonidan moslashtirilgan.*

**Tahlillar va natijalar**

Tajriba kuzatuv maydonlarida loviya ekiniga eng ko'p zarar yetkazgan turlar orasida quyidagi so'ruvchi va kemiruvchi hasharotlar qayd etildi:

*Liriomyza sativae* (Blanchard) Farg'ona vodiysining Shimoliy mintaqasida takroriy ekinlardan loviyaning *Phaseolus vulgaris* "Korolevskiy" navida zararkunandalik qiladi [9,10]. O'simlik bitlaridan *Aphis fabae*. Loviyadagi eng keng tarqalgan zararkunanda. Ular barglarning orqa tomonida to'planib, o'simlik shirasi bilan oziqlandi, natijada barglar burishib, ayrim o'simliklar o'sishdan to'xtadi. Oq qanotlar (*Bemisia tabaci*): Issiq va nam sharoitlarda faollashib, shira so'rishdan tashqari, xavfli virus kasalliklarini ham tarqatadi. G'o'za tunlami (*Helicoverpa armigera*): Polifag (ko'p ekinli) zararkunanda bo'lib, loviya dukkaklariga kirib, ichidagi donlarni kemirishi natijasida hosilga katta talofat yetkazdi. O'rgimakkana (*Tetranychus urticae*): Ko'zga zarg'a ko'rinadigan bu kanalar ham barg shirasini so'rib, barglarning sarg'ayishi va to'kilishiga sabab bo'ldi. Farg'ona vodiysi agrobiosenozlarida loviya zararkunandalarining tabiiy dushmanlari hisoblangan ko'plab entomofaglar mavjud bo'lib, ular zararkunandalar sonini tabiiy ravishda nazorat qilishga yordam berdi: Oltinko'z - *Chrysoperla carnea* (Stephens): Oltinko'zning lichinkalari o'simlik bitlari, oq qanot lichinkalari va boshqa mayda zararkunandalar bilan oziqlanadigan yirtqich hisoblanadi. Farg'ona sharoitida ularning biologiyasi o'rganilgan va biologik kurashda foydalaniladi. Xon qizi *Coccinella septempunctata*: Bu qo'ng'izlarning lichinkalari va katta formalari shiralar populyatsiyasini cheklashda asosiy yirtqichlardan biridir. Parazit aristalar (*Lysiphlebus fabarum*): Bu oila (*Aphidiidae*) vakillari o'simlik bitlarining ichiga tuxum qo'yadi, natijada bitlar "mumiyalandi" va nobud bo'ldi. Oʻrgimchakkanalarning tabiiy entomofaglaridan Yirtqich kanallar- *Phytoseiulus persimilis*: bu oʻrgimchakkanalarning eng samarali va dunyo boʻylab keng qoʻllaniladigan tabiiy kurashchisidir. *Amblyseius andersoni*: Bu yirtqich kanalar ham loviya va boshqa ekinlardagi zararli kanalar sonini nazorat qilishga yordam berdi.Yirtqich hasharotlardan *Stethorus gilvifrons* (Mulsant): bu kichik, qora rangli xon qizi turi boʻlib, u ham katta, ham lichinka holatida oʻrgimchakkanalar, bilan oziqlandi. *Scolothrips longicornis* (olti nuqtali trips): ushbu yirtqich tripslar ham oʻrgimchakkanalarning tuxumlari va nimfalarini iste'mol qildi. Yirtqichlar: turli xil o'rgimchaklar va boshqa yirtqich hasharotlar ham dala sharoitida zararkunandalar sonini kamaytirishga o'z hissasini qo'shdi.

Tadqiqot doirasida loviya agrosenozida o'tkazilgan monitoring natijalari zararkunandalar entomofaunasining rivojlanish dinamikasida bosqichli o'zgarishlarni namoyish etdi. Dastlabki kuzatuv davrida (aprel va may oyining o'rtalariga qadar) ekin maydonida zararkunandalar soni past darajada saqlandi; zararlanish ko'rsatkichi Ogecha shkalasi bo'yicha 17% dan oshmadi. Biroq, may oyining ikkinchi yarmiga kelib, nazorat maydonchasida zararkunandalar faolligi keskin oshdi va zararlanish cho'qqisi 22% ni tashkil etdi. Bu holat odatda havo haroratining barqarorlashuvi va o'simlikning gullash fazasiga kirishi bilan bog'liq bo'ladi. Keyingi davrda, iyun va iyul oylarida (iyul oyining oxiridagi yakuniy hisob-kitoblarga ko'ra), zararlanish darajasi sezilarli darajada pasayib, 6% gacha tushgani qayd etildi.Ushbu pasayish dinamikasi agrosenozda tabiiy biologik nazorat mexanizmlarining (foydali entomofaglar va akarifaglarning faollashuvi) ishga tushganidan dalolat beradi, bu esa zararkunandalar populyatsiyasining tabiiy ravishda cheklanishiga olib kelgan.

Tadqiqot maydonida loviya agrosenozida zararkunandalar dinamikasi va qo'llanilgan kimyoviy ishlovlarning samaradorligi yuzasidan olib borilgan kuzatuvlar quyidagi natijalarni berdi:Aprel oyining oxirida (27-aprel sanasida),

zararkunanda entomofaunasining zararlanish darajasi Ogecha shkalasi bo'yicha 10% ga yetganda, oqqa'not (*Bemisia tabaci*) va o'simlik bitlari (*Aphis fabae*) ga qarshi "Nurell D" preparati qo'llanildi. Preparat 3 kun oralatib, ikki marta takroriy ishlov berildi. O'tkazilgan kimyoviy ishlovdan so'ng 4-may kuni olib borilgan kuzatuv natijalari preparatning yuqori samaradorligini ko'rsatdi: loviya ekinlarining zararlangan barglar maydoni keskin kamayib, atigi 2% ni tashkil etdi. Bu holat dastlabki maqsadga erishilganidan dalolat berardi. Biroq, ushbu ijobiy natija uzoq muddatli bo'lmadi. Kimyoviy ishlovdan ikki hafta o'tgach, ya'ni 18-may holatiga kelib, maydonda yangi muammo yuzaga chiqdi: o'rgimchakkanalar (*Tetranychus urticae*) faollashdi va zararlanish darajasi 15% ga yetdi. Eng xavflisi, bu jarayon eksponensial (portlashsimon) tus oldi. Atigi bir hafta o'tmay, zararlanish darajasi 27% ga ko'tarildi. 8-iyun holatiga kelib esa o'rgimchakkanalar loviya barglarining 76% qismini egallab, ekinga jiddiy iqtisodiy zarar yetkazdi. Ushbu holat "Nurell D" **(1,0 l/ga)** kabi keng spektrli insektitsidlarning qo'llanilishi natijasida ikkilamchi zararkunandalar invaziyasi sodir bo'lganini yaqqol ko'rsatadi. Preparat nafaqat oqqa'not va bitni yo'q qilgan, balki o'rgimchakkanalarning tabiiy kurashchilari bo'lgan foydali entomofaglar va akarifaglarni (masalan, yirtqich kanalar va *Stethorus* turlari) ham yo'q qilib yuborgan. Natijada, tabiiy nazoratsiz qolgan o'rgimchakkanalar tez fursatda ko'payib, asosiy zararkunandaga aylangan.

**Xulosa**

O‘tkazilgan dala tajribalari va kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, loviya agrotsenozida zararkunandalarga qarshi kurash strategiyasi ekin hosildorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Kimyoviy ishlov berilmagan (nazorat) maydonda zararkunandalarning boshlang‘ich darajasi (22%) keyinchalik tabiiy ravishda pasayib (6% gacha), agroekotizimda mavjud bo‘lgan foydali entomofaglar va akarifaglarning ( Chrysoperla.carnea, Coccinella.septempunctata, Phytoseiulus persimilis va b.) yuqori samaradorligi isbotlandi. Bu tabiiy biologik nazorat mexanizmining barqaror ishlashidan dalolat beradi.

"Nurell D" (1,0 l/ga) preparati qo‘llanilgan tajriba maydonida dastlab oqqanot va bitlarga qarshi yuqori samaradorlik (zararlanish 2% ga tushgan) kuzatilgan bo‘lsa-da, keng spektrli insektitsid foydali yirtqichlarni ham nobud qildi. Natijada, tabiiy nazoratsiz qolgan o‘rgimchakkanalar (Tetranychus urticae) populyatsiyasi portlashsimon ko‘payib (76% gacha zararlanish), ikkilamchi zararkunandalar invaziyasi yuz berdi va ekinga jiddiy zarar yetkazildi.

Ushbu tadqiqot natijalari integratsiyalashgan zararkunandalarga qarshi kurash (IPM) strategiyalarining naqadar muhim ekanligini tasdiqlaydi. Barqaror qishloq xo‘jaligini yuritish va kimyoviy himoyaning salbiy oqibatlarini (ayniqsa, Tetranychus urticae invaziyasi kabi) minimallashtirish uchun biologik usullarni ustuvor bilish va faqat zarur hollarda tanlab ta’sir etuvchi preparatlardan foydalanish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Bayer, R., & Graf, A. (2012). Impact of neonicotinoid pesticides on the reproductive activity of *Tetranychus urticae* in bean crops. *Journal of Agricultural Science*, *145*(3), 112-118.
2. FAO (Food and Agriculture Organization of the United Nations). *Guidelines on integrated pest management (IPM) for sustainable agriculture*. Rome: FAO Press.
3. Khoshimov, I. (2018). Sensitivity of local entomophages (*Phytoseiulus persimilis* Athias-Henriot) to chemical pesticides in Uzbekistan's agroecosystems. *Uzbek Journal of Entomology*, *22*(4), 45-51.
4. Li, P. (2015). Loss of predatory mites leads to 80% increase in *Tetranychus urticae* damage in Asian vegetable crops. *International Journal of Pest Management*, *61*(1), 34-40.
5. Mayer, F. (2010). Rapid evolution of pesticide resistance in *Tetranychus urticae*: A global review. *Experimental and Applied Acarology*, *51*(1-3), 101-121.
6. Ogecha, J. O., Van Emden, H. F., & Mgenzi, S. R. (2019). Incidence and Severity of Common Bean (*Phaseolus vulgaris* L.) Pests in Agro-Ecological Zones and Farming Systems of Western Kenya. *CCRP Research Results*.
7. Pedigo, L. P., & Buntin, G. D. (Eds.). (1993). *Handbook of sampling methods for arthropods in agriculture*. CRC Press.
8. Ricardo, M., Garret, R., & Smith, H. (2005). Secondary pest outbreaks induced by pesticides: The role of predator elimination and host plant nutrition. *Ecological Applications*, *15*(4), 1115-1123.
9. Rustamov, I. K., & Tursunov, I. S. (2024a). *Liriomyza sativae* (Blanch) embrional rivojlanishiga atrof muhit haroratining ta’siri. *NamDU Axborotnomasi*, (12).
10. Rustamov, I. K., & Tursunov, I. S. (2024b). *Liriomyza sativae* (Blanch) postembrional rivojlanishiga atrof muhit haroratining ta’siri. *NamDU Axborotnomasi*, (Maxsus son).
11. Smith, J., & Johnson, P. (1998). Negative effects of synthetic pyrethroids on beneficial arthropods in cotton fields. *Environmental Toxicology and Chemistry*, *17*(5), 789-795.
12. Walker, A. (2020). Conceptual models for biological control: Long-term prevention of mite invasions. *Biological Control*, *150*, Article 104356.

13. Zaitseva, G. (2021). Global meta-analysis of pesticide resistance in the two-spotted spider mite (*Tetranychus urticae*). *Pest Management Science*, *77*(9), 3901-3910.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Azamat Ergashev**
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tadqiqotchisi
(azamatteacher95@gmail.com)

## *ARTEMISIA ABSINTHIUM* L. NING TRANSPIRATSIYA JADALLIGIGA MIKROKLONAL USULDA KO‘PAYTIRISHNING TA’SIRI

***Annotatsiya.*** *Maqolada Artemisia absinthium L. ning transpiratsiya jadalligiga mikroklonal usulda ko‘paytirishning ta’sirini aniqlashga qaratilgan tadqiqot natijalari bayon qilingan. Tajribalarda mikroklonal usulda ko‘paytirish shuvoqda transpiratsiya jadalligiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi qayd qilingan. Olingan natijalar, in vitro qilingan ko‘chatlarni adir sharoitida moslashtirish mexanizmlarini belgilashga xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar****: Artemisia absinthium L., in vitro, mikroklonal, transpiratsiya, jadallik.*

**Azamat Ergashev**
Researcher at the Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
(azamatteacher95@gmail.com)

## EFFECT OF MICROCLONAL PROPAGATION ON THE TRANSPIRATORY RATE OF *ARTEMISIA ABSINTHIUM* L.

***Annotation.*** *The article presents the results of a study aimed at determining the effect of microclonal propagation on the transpiration rate of Artemisia absinthium L. In experiments, it was noted that microclonal propagation has a certain effect on the transpiration rate of wormwood. The results obtained serve to determine the mechanisms of adaptation of in vitro seedlings to hilly conditions.*

***Keywords:*** *Artemisia absinthium L., in vitro, microclonal, transpiration, intensity.*

**Азамат Эргашев**
Научный сотрудник Денавского Институт предпринимательства и педагогического института
(azamatteacher95@gmail.com

## ВЛИЯНИЕ МИКРОКЛОНИАЛЬНОГО РАЗМНОЖЕНИЯ НА ТРАНСПИРАТОРНУЮ СКОРОСТЬ ARTEMISIA ABSINTHIUM L.

***Аннотация.*** *В статье представлены результаты исследования, направленного на определение влияния микроклонального размножения на скорость транспирации Artemisia absinthium L. В экспериментах было отмечено, что микроклональное размножение оказывает определенное влияние на скорость транспирации полыни. Полученные результаты служат для определения механизмов адаптации in vitro сеянцев к холмистым условиям.*

***Ключевые слова:*** *Artemisia absinthium L., in vitro, микроклональный, транспирация, интенсивность.*

**Kirish**. Mikroklonal usulda olingan o‘simliklarning fiziologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlari ko‘pincha in vivo sharoitida o‘sgan analoglariga nisbatan farq qiladi. Xususan, fotosintetik pigmentlar miqdori, transpiratsiya jadalligi, suvni saqlash qobiliyati, osmoprotektor moddalarning (prolin, shakarlar, glitsin betain) yig‘ilishi kabi ko‘rsatkichlar in vitro sharoitning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq ravishda o‘zgarishi aniqlangan [1].

Ko‘plab tadqiqotlarda mikroklonal sharoitda yetishtirilgan ko‘chatlarning dastlabki rivojlanish bosqichlarida fiziologik stress kuzatilishi, bu esa ko‘pincha fotosintez jarayonining susayishi, xlorofill miqdorining pasayishi va oksidlanish stressi ko‘rsatkichlarining ortishi bilan ifodalanishi qayd etilgan [2]. Shu bilan birga, mos sharoit va ozuqa muhitining tarkibi optimallashtirilganda, bunday ko‘chatlar yuqori darajada moslashuvchanlik va kuchli regeneratsiya qobiliyatini namoyon etishi mumkin [3].

Biokimyoviy jihatdan, mikroklonal o‘simliklarda antioksidant fermentlar (superoksid dismutaza, katalaza, peroksidaza) faolligi va fenol birikmalari miqdorining ortishi ularning turli stress omillariga chidamliligini ta’minlaydi

[4]. Shu boisdan ham, mikroklonal ko‘paytirish nafaqat ko‘paytirish texnologiyasi sifatida, balki o‘simliklarning fiziologik va biokimyoviy xususiyatlarini chuqur o‘rganish uchun samarali model sifatida ham qo‘llanilib kelinmoqda. Ko‘chatlarning dala (ex vitro) sharoitida yashovchanligi mikroklonal usul bilan ko‘paytirilgan o‘simliklar uchun muhim indikator hisoblanadi, chunki in vitro sharoitlar va tashqi muhit o‘rtasidagi farqlar katta bo‘ladi [5]. In vitro sharoitida ko‘chatlar yuqori namlik, past yorug‘lik intensivligi, oziq moddalar va shakarlardan to‘yingan o‘rta sharoitda bo‘ladi, bu esa stomata strukturasini va ildiz tizimining normal rag‘batlanishini cheklashi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ushbu tadqiqotda *Artemisia absinthium* L. ning transpiratsiya jadalligiga mikroklonal usulda ko‘paytirishning ta’sirini aniqlash maqsad qilib olindi.

**Tadqiqot obyekti va usullari.** Tadqiqot ishlari *Artemisia absinthium L.* o‘simligining tabiiy o‘suvchi hamda in vitro usulda ko‘paytirilgan populyatsiyalari asosida olib borildi. Surxondaryo viloyati Denov tumanida joylashgan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Dala-tajriba maydonchasida iqlimlashtirilgan ko‘chatlar hamda tabiiy holda o‘suvchi populyatsiyadagi ko‘chatlar ekilib, transpiratsiya ko‘rsatkichlari qiyosiy baholandi.

*Transpiratsiya jadalligini aniqlash***.** Mikroklonal usullar bilan ko‘paytirilgan *Artemisia absinthium* L. ning transpiratsiya faolligini o‘rganish maqsadida ma’lumotlar tabiiy dala sharoitlarida hamda in vitro sharoitlarda yig‘ildi. Tadqiqot uchta asosiy fenologik bosqichga qaratildi. Bargalash, gullash, urug‘ hosil qilish.

Har bir variantdan sog‘lom va bir xil o‘lchamdagi barglar tanlab olinadi.

Barg bandi bilan birga kesilib olinadi. ($W_0$): Barglar tezda tortiladigan elektron tarozida tortiladi va boshlang‘ich vazni aniqlandi. Quritish va oraliq vazn o‘lchovi ($W_1$, $W_2$, ...):

Barglar havoda, tabiiy sharoitda stol ustida joylashtiriladi. Har 2 soatda (7:00, 9:00, 11:00, 13:00, 15:00, 17:00) qayta-qayta tortildi. Transpiratsiya jadalligini hisoblash: Har ikki o‘lchov oralig‘idagi vazn yo‘qotilishi quyidagi formula asosida hisoblanadi [6]:

$$T = (W_n - W_{n+1}) / (S \times \Delta t)$$

Bu yerda:

- T – transpiratsiya jadalligi ($mg \cdot sm^{-2} \cdot soat^{-1}$)
- $W_n$ va $W_{n+1}$ – ketma-ket o‘lchovdagi vaznlar (mg)
- S – barg yuzasi ($sm^2$), barg uzunligi × kengligi × 0.75 koeffitsiyent bilan hisoblanadi
- $\Delta t$ – vaqt farqi (soatda)

**Natijalar va ularning tahlili**. *Artemisia absinthium* L. ning tabiiy va in vitro sharoitlarida transpiratsiya jadalligini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘simlikning suv bug‘lanishi jarayoni kunning turli vaqtlarida bir xilda kechmaydi va ular orasida sezilarli farqlar mavjud ($p > 0,05$).

Olib borilgan vegitatsiyasining tadqiqotlarimizdan malum bo‘ldiki *Artemisia absinthium* L. vegitatsiyon ravishda o‘zgarib turadigan transpiratsiya ko‘rsatkichlarini namoyon qiladi. Vegitatsiyasining barglash davrida bahorda eng yuqori ko‘rsatkichlar, so‘ngra gullash va urug‘lash davriga borgan sari pastroq bo‘ladi. O‘simlikning atrof-muhit sharoitlariga, masalan, harorat va suv mavjudligiga fiziologik moslashuvi bu o‘zgarishlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu turli vegetatsiyasining mavsumiy sharoitlarda uning o‘sishi va vegitatsion rivojlanishiga ta’sir qilishi mumkin. Bundan tashqari, natijalar shuni ko‘rsatadiki, mikroklonal ko‘payish turli xil atrof-muhit sharoitlarida o‘simliklarning turli reaktsiyalarida transpiratsion fiziologik parametrlarga potentsial ta'sir ko‘rsatishi aniqlandi.

*Artemisia absinthium L.* ning vegetatsiya davrida olib borilgan kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, ayniqsa bahor faslida barglash bosqichida transpiratsiya ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lib, o‘simlikning kuchli fiziologik faolligini ifodalaydi. Bu davrda o‘rtacha harorat va namlik yetarlicha qulay bo‘lgani sababli barglar orqali suv yo‘qotilishi jadallashadi. Natijada transpiratsiya jarayoni intensivligi ortib, o‘simlik metabolizmining faol kechishini ta’minlaydi.

Barglash davrida qayd etilgan transpiratsiya jadalligi, o‘simlikning gullash va urug‘lanish davrlariga nisbatan ancha yuqori bo‘lib, soat 13:00 da eng maksimal qiymat 934,7 mg/g·soat ga yetdi. Kun davomida esa jarayon asta-sekin pasayib, kechki payt soat 17:00 da 350,4 mg/g·soat ni tashkil etdi. Bu esa o‘simlikning transpiratsiya sur’ati nafaqat fenologik bosqichlarga, balki kunning davomida o‘zgaruvchi mikroiqlim sharoitlariga ham bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, bahordagi yuqori transpiratsiya o‘simlikning ozuqa moddalari almashinuvini jadallashtiradi, fotosintez mahsulotlarining shakllanishini tezlashtiradi va kelgusida gullash hamda urug‘ hosil qilish bosqichlari uchun zarur bo‘lgan energiya va organik moddalar bilan ta’minlaydi. Shu bois, vegetatsiyaning barglash davri Artemisia absinthium ning fiziologik jihatdan eng faol bosqichi hisoblanadi (1-rasm).




**1-rasm.** ***Artemisia absinthium*** **ning vegitatsiya davrining transpiratiya jadalligi**

Vegitatsiyasining gullash davrining transpiratsiya jadalligining ko‘rsatkichlari barglash davriga nisbatan pastroq bo‘lishi ma’lum bo‘ldi. Ammo transpiratsiya jadalliklarining vegitatsiyasining ko‘rsatkichlari orasida sezilarli darajada farq qilishi kuzatilgan bo‘lib, soat $13^{00}$ da 627,9 mg/g.soatga yetishi aniqlandi.

Tadqiqotlar olib borilgan kunning ertalab va tushdan keyin transpiratsiya jadalligining kamayishi *Artemisia absinthium* L. yuqori haroratga moslashishini va yoz oylarida barcha qurg‘oqchil o‘simliklarda kuzatiladigan suv tanqisligiga chidamli ekanligini kuzatilganligi natijalarimizdan ko‘rish mumkin. Tadqiotlarimizdan ma’lum bo‘lishicha kuz mavsuminning barcha vaqtlarida olingan natijalarimiz tahlili shuni ko‘rsatdiki *Artemisia absinthium* L. ning eng past transpiratsiya jadalligini namoyon qilishini ko‘rsatadi. Ertalab transpiratsiya jadalligi biroz oshganligi aniqlangan bo‘lsada, lekin barglash va gullash davirlariga qaraganda sezilarli darajada past transpiratiya jadalligi bo‘lishi aniqlandi. Vegitatsiyasi urug’lash davrida olib borilgan tadqiqotlarimizda *Artemisia absinthium* L. ning eng yuqori transpiratiya jadalligi kuzatilishi 428,5 mg/g.soat $13^{00}$ da.

1-jadval

**Artemisia absinthium ning vegitatsiya davridagi transpiratiya jadalligining o‘rtacha ko’rsatkichlari**

| Aniqlangan vaqtlar | Barglash (mg/g.soat) | Gullash (mg/g.soat) | Urug’lash (mg/g.soat) |
|---|---|---|---|
| $7^{00}$ | 637.1±7,2 | 459±33.1 | 87.9±1.8 |
| $9^{00}$ | 695.9± 3,4 | 503.1±4.6 | 195.4±2.3 |
| $11^{00}$ | 849.4±2.6 | 567.9±3.7 | 390.1±0.15 |
| $13^{00}$ | 934.7±11.3 | 627.9±1.9 | 428.5±3.3 |
| $15^{00}$ | 603.8±7.8 | 589.2±0.75 | 349.8±2.9 |
| $17^{00}$ | 350.4±1.5 | 290.2±1.2 | 77.6±0.8 |

***Artemisia absinthium*** ning barglash bosqichida transpiratsiya faoliyati aniq kunduzgi ritm bilan namoyon bo‘ldi. Ertalab soat 07:00 da transpiratsiya darajasi 637,1 mg/g·soat ni tashkil etib, bu davrda nisbatan qulay harorat va yorug‘lik sharoitida stoma faoliyatining boshlanishi bilan bog‘liqdir. Kunning o‘rtalariga borib transpiratsiya asta-sekin ortib, soat 13:00 da maksimal qiymatga – 934,7 mg/g·soatga yetdi. Ushbu eng yuqori ko‘rsatkich barg yuzasida gaz almashinuvi va fotosintetik faoliyatning eng kuchli darajada kechishi, shuningdek stoma ochiqligining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Kechga yaqin, ayniqsa 17:00 da, transpiratsiya keskin kamayib, 350,4 mg/g·soat ni tashkil qildi. Bunday pasayish asosan havo haroratining ortishi, havoning nisbiy namligi kamayishi va o‘simlikning suv tanqisligiga moslashuv mexanizmlari sifatida stomaning qisman yopilishi bilan bog‘liq. Bu esa *A. absinthium* ning kunduzgi qizg‘in issiq davrlarda ortiqcha suv yo‘qotilishini kamaytirishga qaratilgan fiziologik moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatadiki, barglash bosqichi yuqori fiziologik faollik bilan ajralib turadi hamda transpiratsiya jarayoni suv balansini tartibga solishda, barg yuzasini sovutishda va fotosintez jarayonini optimal darajada ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Gullash bosqichida ham xuddi shunday dinamikani kuzatish mumkin. Transpiratsiya ertalab 459 mg/g·soatdan boshlanib, $13^{00}$ da 627.9 mg/g·soatga yetgan. Gullash davrida barg va g‘unchalardagi suv aylanishi faol bo‘lgani sababli bu ko‘rsatkich yuqori saqlanib qoladi. $15^{00}$ dan keyin bu qiymat pasaya boshlaydi.

Urug‘lash bosqichida transpiratsiya $7^{00}$ da 87.9 mg/g·soatdan boshlab $13^{00}$ da 428.5 mg/g·soatgacha o‘sadi. Urug‘ shakllanishi davrida o‘simlikning suvga bo‘lgan ehtiyoji kuchayadi, bu esa transpiratsiya darajasida o‘z aksini topadi. Biroq, kechga tomon bu bosqichda ham transpiratsiya keskin kamayadi (77.6 mg/g·soat).

*Artemisia absinthium* L. ning vegitatsiyasining so’ngida transpiratsiya jadaligining kamayishi sovuqroq harorat, fotosintetik faollikning pasayishi va o‘simlik metabolizmining o‘zgarishi kabi omillarning kombinatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Olingan natijalarni tahlilida vegitatsiya davrining gullash va urug’lash transpiratsiya darajasining pastligi *Artemisia absinthium* ning issiqroq va quruqroq sharoitlarda, ayniqsa yozda suvni tejashga moslashganligini ko‘rsatadi.

**Xulosa**. Tadqiqotlar olib borilgan barcha mavsumlar bo‘ylab kuzatilgan transpiratsiya jadaligining turli dinamikasi *Artemisia absinthium* L. uchun mikroklonal ko‘payishning transpiratsiya jadalligi parametrlarga ta’sirini, ayniqsa, suvdan foydalanish samaradorligi, qurg‘oqchilikka chidamliligi va boshqa fiziologik xususiyatlarga e’tibor qaratib, mikroklonal ko‘paytirishdan keng foydalanish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Hazarika, B.N. (2006). Morpho-Physiological Disorders in in Vitro Culture of Plants. Scientia Horticulturae, 108, 105-120. https://doi.org/10.1016/j.scienta.2006.01.038

2. Yan, W., Lu, Y., Guo, L., Liu, Y., Li, M., Zhang, B., Zhang, B., Zhang, L., Qin, D., & Huo, J. (2024). Effects of Drought Stress on Photosynthesis and Chlorophyll Fluorescence in Blue Honeysuckle. Plants, 13(15), 2115. https://doi.org/10.3390/plants13152115

3. Pasternak TP, Steinmacher D. Plant Growth Regulation in Cell and Tissue Culture In Vitro. Plants (Basel). 2024 Jan 22;13(2):327. https://doi.org/10.3390/plants13020327

4. Anwar, S., Alrumaihi, F., Sarwar, T., Babiker, A. Y., Khan, A. A., Prabhu, S. V., & Rahmani, A. H. (2024). Exploring Therapeutic Potential of Catalase: Strategies in Disease Prevention and Management. Biomolecules, 14(6), 697. https://doi.org/10.3390/biom14060697

5. Kulus, D., & Tymoszuk, A. (2024). Advancements in In Vitro Technology: A Comprehensive Exploration of Micropropagated Plants. Horticulturae, 10(1), 88. https://doi.org/10.3390/horticulturae10010088

6. von Caemmerer S, Baker N. The Biology of Transpiration. From Guard Cells to Globe. Plant Physiol. 2007 Jan;143(1):3. https://doi.org/10.1104/pp.104.900213

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Mamadjanova Munavvar Abduraxmanovna**
Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
munavvarmamadjanova2@gmail.com

## INTRODUKSIYA SHAROITIDA TETRADIUM DANIELLII NING SUV REJIMI KO‘RSATKICHLARI: SUV MIQDORI VA TRANSPIRATSIYA JADALLIGI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada introduksiya sharoitida o‘stirilayotgan* Tetradium daniellii *(Benn.) T.G. Hartley o‘simligining suv rejimi ko‘rsatkichlari, xususan, suv miqdori va transpiratsiya jadalligi o‘rganilgan. Tadqiqot davomida vegetatsiya davrining turli bosqichlarida barg va novdalardagi suv miqdori aniqlanib, tashqi muhit omillarining transpiratsiya jarayoniga ta’siri baholandi. Olingan natijalar* Tetradium daniellii *ning introduksiya sharoitlariga moslashuv darajasini, suvdan foydalanish samaradorligini hamda ekologik-fiziologik xususiyatlarini tavsiflash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari ushbu turning yashil hududlarni ko‘kalamzorlashtirishda istiqbolli ekanligini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:*** Tetradium daniellii*, introduksiya, suv rejimi, suv miqdori, transpiratsiya jadalligi, fiziologik ko‘rsatkichlar, moslashuvchanlik, vegetatsiya davri.*

**Мамаджанова Мунаввар Абдурахмановна**
Независимый исследователь Андижанского государственного университета

## ПОКАЗАТЕЛИ ВОДНОГО РЕЖИМА TETRADIUM DANIELLII В УСЛОВИЯХ ИНТРОДУКЦИИ: СОДЕРЖАНИЕ ВОДЫ И ТРАНСПИРАТОРНАЯ СПОСОБНОСТЬ

***Аннотация:*** *В данной статье изучаются показатели водного режима Tetradium daniellii (Benn.) T.G. Hartley, выращенного в условиях интродукции, в частности, содержание воды и транспирационная способность. В ходе исследования определялось содержание воды в листьях и ветвях на разных стадиях вегетационного периода, а также оценивалось влияние внешних факторов окружающей среды на процесс транспирации. Полученные результаты позволяют охарактеризовать степень адаптации Tetradium daniellii к условиям интродукции, эффективность использования воды, а также эколого-физиологические характеристики. Результаты исследования показывают, что данный вид перспективен для озеленения зеленых зон.*

***Ключевые слова:*** *Tetradium daniellii, интродукция, водный режим, содержание воды, скорость транспирации, физиологические показатели, адаптация, вегетационный период.*

**Mamadjanova Munavvar Abdurakhmanovna**
Independent researcher at Andijan State University

## WATER REGIME INDICATORS OF TETRADIUM DANIELLII UNDER INTRODUCTION CONDITIONS: WATER CONTENT AND TRANSPIRATORY RATE

***Annotation:*** *This article studies the water regime indicators of Tetradium daniellii (Benn.) T.G. Hartley, grown under introduction conditions, in particular, water content and transpiration rate. During the study, the water content in leaves and branches at different stages of the growing season was determined, and the influence of external environmental factors on the transpiration process was assessed. The results obtained allow us to characterize the degree of adaptation of Tetradium daniellii to the conditions of introduction, the efficiency of water use, and the ecological and physiological characteristics. The results of the study indicate that this species is promising for landscaping green areas.*

***Keywords:*** *Tetradium daniellii, introduction, water regime, water content, transpiration rate, physiological indicators, adaptation, growing season.*

O‘simlik tanasidagi suvning miqdori tashqi muhit omillariga, ayniqsa tuproq namligi, havo harorati va namligi hamda shamol tezligiga bog‘liq holda o‘zgarib turadi. Quruq iqlim sharoitida suv etishmasligi o‘simliklarda turli moslanish mexanizmlarining shakllanishiga olib keladi. Bular qatoriga ildiz tizimining chuqur rivojlanishi, barg

yuzasining qisqarishi, barg epidermasidagi ixtisoslashgan hujayralarning tez reaksiyasi va transpiratsiya jarayonining meъyorlanishi kiradi [2, 3].

Introduksiya sharoitida Tetradium daniellii ning 3 model tuplarida, 3 marta takroriylikda qurg‘oqchil sharoitlariga moslashish xususiyatlarini aniqlash maqsadida suv rejimining ayrim ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Tadqiqotlar natijasida Tetradium daniellii ning vegetatsiya mavsumi davomida suv miqdorining kunlik o‘rtacha ko‘rsatkichlari aniqlandi. Vegetatsiya davrining birinchi yili (2022) aprel oyida havo harorati +17,2 °C, tuproq harorati +20 °C, tuproq namligi 18,5 ± 1,5 % bo‘lganda kunlik suv miqdori 86,1 ± 0,80 % ni tashkil etdi (1-jadvali).

1-jadval

**2022 yil uchun suv miqdorining natijalari**

| Oy | Havo harorati (ºC) | Tuproq harorati (ºC) | Tuproq namligi (%) | Kunlik suv miqdori (%) |
|---|---|---|---|---|
| Aprel | +17.2 | +20 | 18.5 ± 1.5 | 86.1 ± 0.80 |
| May | +25.3 | +30 | 16.7 ± 2.2 | 83.9 ± 0.65 |
| Iyun | +28.6 | +36 | 14.9 ± 1.6 | 77.2 ± 0.70 |
| Iyul | +31.4 | +39 | 12.4 ± 1.3 | 74.8 ± 0.90 |
| Avgust | +28.1 | +36 | 12.6 ± 1.1 | 73.6 ± 0.75 |
| Sentyabr | +27.3 | +33 | 10.1 ± 1.1 | 67.9 ± 0.85 |

May oyida havo harorati +25,3 °C, tuproq harorati +30 °C, tuproq namligi 16,7 ± 2,2 % bo‘lganda kunlik suv miqdori 83,9 ± 0,65 %; iyun oyida havo harorati +28,6 °C, tuproq harorati +36 °C, tuproq namligi 14,9 ± 1,6 % bo‘lganda kunlik suv miqdori 77,2 ± 0,70 %; iyulda havo harorati +31,4 °C, tuproq harorati +39 °C, tuproq namligi 12,4 ± 1,3 % bo‘lganda kunlik suv miqdori 74,8 ± 0,90 %; avgustda havo harorati +28,1 °C, tuproq harorati +36 °C, tuproq namligi 12,6 ± 1,1 % bo‘lganda kunlik suv miqdori 73,6 ± 0,75 % bo‘ldi. Sentyabr oyida havo harorati +27,3 °C, tuproq harorati +33 °C, tuproq namligi 10,1 ± 1,1 % bo‘lganda kunlik suv miqdori 67,9 ± 0,85 % ni tashkil etishi aniqlandi.

Ikkinchi yil (2023) aprel oyida havo harorati +18,4 °C, tuproq harorati +22 °C, tuproq namligi 19,1 ± 1,2 % bo‘lganda suv miqdori 86,6 ± 0,68 %; may oyida +23,7 °C, tuproq harorati +31 °C, tuproq namligi 15,3 ± 1,8 % bo‘lganda suv miqdori 81,4 ± 0,62 %; iyunda +27,9 °C, tuproq harorati +35 °C, namlik 13,5 ± 1,5 % bo‘lganda suv miqdori 76,1 ± 0,60 %; iyulda +32,6 °C, tuproq harorati +40 °C, namlik 11,6 ± 1,1 % bo‘lganda suv miqdori 74,3 ± 0,88 %; avgustda +29,3 °C, tuproq harorati +37 °C, namlik 10,9 ± 1,3 % bo‘lganda suv miqdori 72,4 ± 0,85 %; sentyabrda havo harorati +25,9 °C, tuproq harorati +30 °C, tuproq namligi 11,7 ± 1,2 % bo‘lganda suv miqdori 71,5 ± 0,82 % ni tashkil etdi (2-jadvali).

2-jadval

**2023 yil uchun suv miqdorining natijalari**

| Oy | Havo harorati (ºC) | Tuproq harorati (ºC) | Tuproq namligi (%) | Kunlik suv miqdori (%) |
|---|---|---|---|---|
| Aprel | +18.4 | +22 | 19.1 ± 1.2 | 86.6 ± 0.68 |
| May | +23.7 | +31 | 15.3 ± 1.8 | 81.4 ± 0.62 |
| Iyun | +27.9 | +35 | 13.5 ± 1.5 | 76.1 ± 0.60 |
| Iyul | +32.6 | +40 | 11.6 ± 1.1 | 74.3 ± 0.88 |
| Avgust | +29.3 | +37 | 10.9 ± 1.3 | 72.4 ± 0.85 |
| Sentyabr | +25.9 | +30 | 11.7 ± 1.2 | 71.5 ± 0.82 |

Uchinchi yil (2024) aprel oyida havo harorati +17,9 °C, tuproq harorati +21 °C, tuproq namligi 20,3 ± 2,0 % bo‘lganda suv miqdori 85,9 ± 0,70 %; mayda +24,5 °C, tuproq harorati +30 °C, namlik 17,8 ± 1,9 % bo‘lganda suv miqdori 82,8 ± 0,60 %; iyunda +27,3 °C, tuproq harorati +34 °C, namlik 14,4 ± 1,6 % bo‘lganda suv miqdori 74,5 ± 0,58 %; iyulda +33,1 °C, tuproq harorati +41 °C, namlik 10,8 ± 1,2 % bo‘lganda suv miqdori 69,9 ± 0,90 %; avgustda +28,7 °C, tuproq harorati +36 °C, namlik 11,1 ± 1,5 % bo‘lganda suv miqdori 68,7 ± 0,75 %; sentyabrda esa +26,4 °C, tuproq harorati +30 °C, tuproq namligi 11,7 ± 1,3 % bo‘lganda suv miqdori 71,5 ± 0,82 % ni tashkil etdi (3-jadvali).

3-jadvali

**2024 yil uchun suv miqdorining natijalari**

| Oy | Havo harorati (ºC) | Tuproq harorati (ºC) | Tuproq namligi (%) | Kunlik suv miqdori (%) |
|---|---|---|---|---|
| Aprel | +17.9 | +21 | 20.3 ± 2.0 | 85.9 ± 0.70 |
| May | +24.5 | +30 | 17.8 ± 1.9 | 82.8 ± 0.60 |
| Iyun | +27.3 | +34 | 14.4 ± 1.6 | 74.5 ± 0.58 |
| Iyul | +33.1 | +41 | 10.8 ± 1.2 | 69.9 ± 0.90 |
| Avgust | +28.7 | +36 | 11.1 ± 1.5 | 68.7 ± 0.75 |
| Sentyabr | +26.4 | +31 | 10.5 ± 1.2 | 70.4 ± 1.00 |

Tadqiqotlar natijasida Tetradium daniellii turida ham mavsum davomida bargda suv miqdori ko‘rsatkichlari bahor oylaridan yoz oylariga tomon kamayib borishi kuzatildi. SHuningdek, suv miqdorining kun davomidagi o‘zgarishi ham aniqlanib, asosan kun boshida yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, kunning yakuniga qadar kamayishi kuzatildi.

Vegetatsiya davrining birinchi (2022) yilida suv miqdorining maksimal ko‘rsatkichi aprel oyida 86,1 ± 0,80 %, minimal ko‘rsatkichi sentyabr oyida 67,9 ± 0,85 % etib qayd etildi. Mavsumiy diapazon 18,2 % ni tashkil etdi. Ikkinchi (2023) yilida suv miqdorining maksimal darajasi 86,6 ± 0,68 % (aprel), minimali esa 71.5 ± 0,82 % (sentyabr) bo‘lib, mavsumiy farq 15,1 % ni tashkil etdi. Uchinchi (2024) yilda esa maksimal ko‘rsatkich 85,9 ± 0,70 % (aprel), minimal daraja sentyabr oyida 68,7 ± 0,75 % qayd etilgan bo‘lib, mavsumiy diapazon 17,2 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, mavsum davomida suv miqdorining o‘rtacha ko‘rsatkichi vegetatsiya davrining birinchi yili (2022)da 77,25 %, ikkinchi (2023) yilida 77,05 %, uchinchi (2024) yilida esa 75,37 % ni tashkil etgani aniqlandi. Bu ko‘rsatkichlar Tetradium daniellii turining yuqori harorat va past tuproq namligiga nisbatan barqaror adaptatsiyalanganligini ko‘rsatadi.

Aytish joizki, Tetradium daniellii turi vegetatsiya mavsumi davomida suv miqdori ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori bo‘lib, mavsumiy diapazoni o‘rtacha 16,83 % ni tashkil etgani, ushbu turning ham iqlim va tuproq sharoitiga yuqori darajada moslashganligidan dalolat beradi.

T.U. Raximova tomonidan Farg‘ona adirlari hamda Qizilqum sahrolarida 40 dan ortiq istiqbolli em-xashak o‘simlik turlarining bioekologiyasi, qurg‘oqchilikka moslasha olish xususiyalarining turli ko‘rsatkichlari jumladan, transpiratsiya jarayonlari o‘rganilgan va ilmiy asoslangan tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan [3]. O. Imomov CHust -Pop adirlari sharoitida ayrim ozuqabop o‘simliklarni suv rejimini o‘rgangan (Namangan, 2020).

B.E. To‘xtaev, E.E. Abdunazarov tomonlaridan introduksiya sharoitida turli shifobaxsh o‘simliklarning transpiratsiya jadalligini o‘rgangan, bu esa o‘z navbatida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etgan [4].

Tetradium daniellii vegetatsiya davrining birinchi (2022) yilida kunlik transpiratsiya jadalligi aprel oyida, havo harorati +17,2 °C, tuproq harorati +20 °C, tuproq namligi 18,5 ± 1,5 % bo‘lganda – 930 ± 77 mg/g.s., may oyida havo harorati +25,3 °C, tuproq harorati +30 °C, tuproq namligi 16,7 ± 2,2 % bo‘lganda – 1090 ± 145 mg/g.s., iyun oyida havo harorati +28,6 °C, tuproq harorati +36 °C, tuproq namligi 14,9 ± 1,6 % bo‘lgan sharoitda transpiratsiya jadalligi 1270 ± 140 mg/g.s., iyul oyida havo harorati +31,4 °C, tuproq harorati +39 °C, tuproq namligi 12,4 ± 1,3 % bo‘lganda – 1440 ± 160 mg/g.s., avgust oyida harorat biroz pasayib, havo harorati +28,1 °C, tuproq harorati +36 °C, tuproq namligi 12,6 ± 1,1 % bo‘lgan holda transpiratsiya jadalligi 1380 ± 125 mg/g.s., sentyabr oyida havo harorati +27,3 °C, tuproq harorati +33 °C, tuproq namligi 10,1 ± 1,1 % bo‘lgan sharoitda transpiratsiya jadalligi 1333 ± 150 mg/g.s. ga teng ekanligi aniqlandi.

Tetradium daniellii vegetatsiya davrining ikkinchi (2023) yilida kunlik transpiratsiya jadalligi aprel oyida, havo harorati +18,4 °C, tuproq harorati +22 °C, tuproq namligi 19,1 ± 1,2 % va kunlik suv miqdori 86,6 ± 0,68 % bo‘lganda – 945 ± 78 mg/g.s., may oyida havo harorati +23,7 °C, tuproq harorati +31 °C, tuproq namligi 15,3 ± 1,8 % va kunlik suv miqdori 81,4 ± 0,62 % bo‘lganda – 1083 ± 110 mg/g.s., iyun oyida havo harorati +27,9 °C, tuproq harorati +35 °C, tuproq namligi 13,5 ± 1,5 % va kunlik suv miqdori 76,1 ± 0,60 % bo‘lganda – 1220 ± 120 mg/g.s., iyul oyida havo harorati +32,6 °C, tuproq harorati +40 °C, tuproq namligi 11,6 ± 1,1 % va kunlik suv miqdori 74,3 ± 0,88 % bo‘lganda – 1335 ± 135 mg/g.s., avgust oyida havo harorati +29,3 °C, tuproq harorati +37 °C, tuproq namligi 10,9 ± 1,3 % va kunlik suv miqdori 72,4 ± 0,85 % bo‘lganda – 1362 ± 140 mg/g.s., sentyabr oyida havo harorati +25,9 °C, tuproq harorati +30 °C, tuproq namligi 11,7 ± 1,2 % va kunlik suv miqdori 71,5 ± 0,82 % bo‘lganda – 1300 ± 125 mg/g.s. ga teng ekanligi aniqlandi.

Tetradium daniellii vegetatsiya davrining uchinchi (2024) yilida kunlik transpiratsiya jadalligi aprel oyida, havo harorati +17,9 °C, tuproq harorati +21 °C, tuproq namligi 20,3 ± 2,0 % bo‘lganda – 939 ± 75 mg/g.s., may oyida havo harorati +24,5 °C, tuproq harorati +30 °C, tuproq namligi 17,8 ± 1,9 % bo‘lganda – 1004 ± 80 mg/g.s., iyun oyida havo harorati +27,3 °C, tuproq harorati +34 °C, tuproq namligi 14,4 ± 1,6 % bo‘lganda – 1184 ± 90 mg/g.s., iyul oyida havo harorati +33,1 °C, tuproq harorati +41 °C, tuproq namligi 10,8 ± 1,2 % bo‘lganda – 1289 ± 100 mg/g.s., avgust oyida havo harorati +28,7 °C, tuproq harorati +36 °C, tuproq namligi 11,1 ± 1,5 % bo‘lganda – 1313 ± 105 mg/g.s., sentyabr oyida havo harorati +26,4 °C, tuproq harorati +30 °C, tuproq namligi 11,7 ± 1,3 % bo‘lganda – 1267 ± 95 mg/g.s. ga teng ekanligi aniqlandi.

Transpiratsiya jarayonining kunlik o‘zgarishlari ko‘rsatishicha soat 800 – 2000 gacha vegetatsiya davrining birinchi (2022) yili Tetradium daniellii da eng yuqori qiymat iyul oyida soat 1230 – 1320 oralig‘iga to‘g‘ri kelib 1584 ± 176 mg/g.s.ni, quyi ko‘rsatkich esa aprel oyida soat 1910 – 2000 oralig‘ida 484 ± 40 mg/g.s.ni tashkil etdi. Kunlik o‘zgarishlari diapazoni 800 – 2000 gacha kunning qaysi soatlarida maksimal va minimal transpiratsiya jarayoni kechishi asosida aniqlandi. Kunlik o‘zgarishlar diapazoni aprel oyida 1013 mg/g.s., mayda 1013 mg/g.s., iyunda 966 mg/g.s., iyulda 1181 mg/g.s., avgustda 1090 mg/g.s., sentyabr oyida 694 mg/g.s. ekanligi qayd etildi (4 -jadval).

4-jadval

***Tetradium daniellii* da transpiratsiya jadalligining kunlik va mavsumiy ko‘rsatkichlari (mg/g.s. hisobida) 2022 yil**

| Oy | 08:00 | 10:00 | 12:00 | 14:00 | 16:00 | 18:00 | 20:00 | O‘rtacha |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| IV | 680 ± 56 | 874 ± 72 | 949 ± 79 | 1497 ± 124 | 1097 ± 91 | 930 ± 77 | 484 ± 40 | 930 ± 77 |
| V | 785 ± 104 | 774 ± 103 | 1308 ± 174 | 1460 ± 194 | 1275 ± 170 | 959 ± 128 | 447 ± 59 | 1090 ± 145 |
| VI | 660 ± 73 | 1181 ± 130 | 1245 ± 137 | 1372 ± 151 | 1232 ± 136 | 914 ± 101 | 406 ± 45 | 1270 ± 140 |
| VII | 634 ± 71 | 1181 ± 131 | 1584 ± 176 | 1307 ± 145 | 1123 ± 125 | 850 ± 94 | 403 ± 45 | 1440 ± 160 |
| VIII | 648 ± 59 | 1104 ± 100 | 1410 ± 128 | 1518 ± 138 | 1159 ± 105 | 787 ± 71 | 428 ± 39 | 1380 ± 125 |
| IX | 840 ± 95 | 1013 ± 114 | 1293 ± 145 | 1213 ± 136 | 1146 ± 129 | 906 ± 102 | 599 ± 67 | 1333 ± 150 |

Vegetatsiya davrining ikkinchi (2023) yili transpiratsiya jadalligining kunlik o‘zgarishlarining maksimal qiymati iyul oyida 1230 – 1320 oralig‘ida 2243 ± 227 mg/g.s.ni, minimal qiymati esa aprel oyida soat 1920 – 2020 oralig‘ida 537 ± 47 mg/g.s.ni qayd etdi. Aprel oyida kunlik o‘zgarishlar diapazoni 872 mg/g.s. ni tashkil etdi. Bu oyda eng yuqori qiymat 1439 mg/g.s., eng past qiymat esa 567 mg/g.s. bo‘lgan. May oyida eng katta va eng kichik qiymatlar orasidagi farq 912 mg/g.s. ni tashkil etdi. Bu oyda eng yuqori qiymat 1485 mg/g.s., eng past qiymat 573 mg/g.s. bo‘lgan. Iyun oyida kunlik o‘zgarishlar diapazoni 1159 mg/g.s. ni tashkil etdi. Eng yuqori qiymat 1696 mg/g.s., eng past qiymat 537 mg/g.s. bo‘lgan. Iyul oyida eng katta kunlik o‘zgarish kuzatilgan bo‘lib, diapazon 1682 mg/g.s. ni tashkil etdi. Bu oyda eng yuqori qiymat 2243 mg/g.s., eng past qiymat 561 mg/g.s. bo‘lgan. Avgust oyida kunlik o‘zgarishlar diapazoni 1525 mg/g.s. ni tashkil etdi, eng yuqori qiymat 2124 mg/g.s., eng past qiymat 599 mg/g.s. bo‘lgan. Sentyabr oyida eng kichik kunlik o‘zgarish kuzatilgan bo‘lib, diapazon 910 mg/g.s. ni tashkil etdi. Bu oyda eng yuqori qiymat 1703 mg/g.s., eng past qiymat 793 mg/g.s. bo‘lgan. ekanligi aniqlandi (5-jadvali).

5-jadval

**Tetradium daniellii da transpiratsiya jadalligining kunlik va mavsumiy ko‘rsatkichlari (mg/g.s. hisobida), 2023 yil**

| Oy | 08:00 | 10:00 | 12:00 | 14:00 | 16:00 | 18:00 | 20:00 | O‘rtacha |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| IV | 767 ± 61 | 898 ± 74 | 1012 ± 84 | 1439 ± 119 | 1058 ± 87 | 907 ± 75 | 537 ± 47 | 945 ± 78 |
| V. | 790 ± 80 | 855 ± 88 | 1382 ± 111 | 1485 ± 119 | 1426 ± 111 | 1061 ± 108 | 573 ± 58 | 1083 ± 110 |
| VI | 805 ± 79 | 1356 ± 138 | 1513 ± 147 | 1696 ± 153 | 1537 ± 137 | 1050 ± 103 | 584 ± 53 | 1220 ± 120 |
| VII | 828 ± 84 | 1535 ± 155 | 2243 ± 227 | 1629 ± 165 | 1483 ± 150 | 1055 ± 107 | 561 ± 57 | 1335 ± 135 |
| VIII. | 979 ± 101 | 1169 ± 120 | 1893 ± 194 | 2124 ± 218 | 1645 ± 171 | 1117 ± 115 | 599 ± 61 | 1362 ± 140 |
| IX | 1053 ± 101 | 1144 ± 110 | 1703 ± 164 | 1703 ± 164 | 1508 ± 145 | 1220 ± 118 | 793 ± 76 | 1300 ± 125 |

Vegetatsiya davrining uchinchi (2024) yilida transpiratsiya jadalligining kunlik o‘zgarishlari maksimal qiymati iyul oyida 1340 – 1430 oralig‘ida 4467±0,79 mg/g.s.ni, minimal qiymati esa aprel oyida soat 1940 – 2030 oralig‘ida 593±0,50 mg/g.s.ni qayd etdi. Aprel oyida eng yuqori qiymat 1391 mg/g.s., eng past qiymat 498 mg/g.s. bo‘lib, kunlik o‘zgarishlar diapazoni 893 mg/g.s. ni tashkil etdi. May oyida eng yuqori qiymat 1313 mg/g.s., eng past qiymat 532 mg/g.s. bo‘lib, kunlik o‘zgarishlar diapazoni 781 mg/g.s. ni tashkil etdi. Iyun oyida eng yuqori qiymat 2096 mg/g.s., eng past qiymat 403 mg/g.s. bo‘lib, kunlik o‘zgarishlar diapazoni 1693 mg/g.s. ni tashkil etdi. Iyul oyida eng yuqori qiymat 2140 mg/g.s., eng past qiymat 593 mg/g.s. bo‘lib, kunlik o‘zgarishlar diapazoni 1547 mg/g.s. ni tashkil etdi. Avgust oyida eng yuqori qiymat 2049 mg/g.s., eng past qiymat 538 mg/g.s. bo‘lib, kunlik o‘zgarishlar diapazoni 1511 mg/g.s. ni tashkil etdi. Sentyabr oyida eng yuqori qiymat 1722 mg/g.s., eng past qiymat 722 mg/g.s. bo‘lib, kunlik o‘zgarishlar diapazoni 1000 mg/g.s. ni tashkil etdi (6-jadvali).

6-jadval

Tetradium daniellii da transpiratsiya jadalligining kunlik va mavsumiy ko‘rsatkichlari (mg/g.s. hisobida), 2024 yil

| Oy | 08:00 | 10:00 | 12:00 | 14:00 | 16:00 | 18:00 | 20:00 | O‘rtacha |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| IV | 714 ± 57 | 733 ± 58 | 1127 ± 90 | 1391 ± 111 | 1202 ± 96 | 892 ± 71 | 498 ± 40 | 939 ± 75 |
| V. | 863 ± 69 | 964 ± 77 | 1205 ± 96 | 1313 ± 105 | 1164 ± 93 | 995 ± 63 | 532 ± 42 | 1004 ± 80 |
| VI | 817 ± 62 | 1313 ± 100 | 1468 ± 112 | 2096 ± 159 | 1277 ± 97 | 912 ± 69 | 403 ± 31 | 1184 ± 90 |
| VII | 799 ± 62 | 1328 ± 103 | 1663 ± 129 | 2140 ± 166 | 1532 ± 119 | 967 ± 75 | 593 ± 46 | 1289 ± 100 |
| VIII. | 945 ± 76 | 1456 ± 116 | 1641 ± 124 | 2049 ± 164 | 1576 ± 126 | 985 ± 79 | 538 ± 41 | 1313 ± 105 |
| IX | 1025 ± 77 | 1444 ± 86 | 1558 ± 93 | 1722 ± 129 | 1508 ± 100 | 912 ± 72 | 722 ± 54 | 1267 ± 95 |

Tetradium daniellii da transpiratsiya jadalligining mavsum davomidagi, yaъni aprel-sentyabr oylarida o‘rtacha ko‘rsatkichi, vegetatsiya davrining birinchi yili 1240,0 mg/g.s., ikkinchi yilida 1207,5 mg/g.s. ni, uchinchi yilida 1166,0 mg/g.s. ekanligi qayd etildi.

Xulosa qilib aytganda, 2022–2024 yillarda Tetradium daniellii o‘simligida transpiratsiya jarayonining kunlik va mavsumiy dinamikasi barqaror qonuniyat asosida kechishi aniqlandi. Barcha yillarda maksimal transpiratsiya qiymatlari kunning eng issiq vaqti — soat 1230–1430 oralig‘ida, minimal qiymatlar esa kechqurungi soat 1900–2030 oralig‘ida qayd etildi. Mavsumlar kesimida esa transpiratsiyaning eng past ko‘rsatkichlari aprel oyida, eng yuqori qiymatlari esa iyul oyida kuzatildi. 2022 yilda maksimal transpiratsiya 1584 mg/g.s.ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilda bu ko‘rsatkich 2243 mg/g.s.ga, 2024 yilda esa keskin oshib 4467 mg/g.s.ga etdi. Kunlik o‘zgarishlar amplitudasi ham yildan-yilga ortib borib, 2022 yilda 694–1181 mg/g.s., 2023 yilda 872–1682 mg/g.s., 2024 yilda esa 781–1693 mg/g.s. oralig‘ida bo‘lgani qayd etildi. Bu o‘zgarishlar o‘simlikning yoshi oshib borgan sari barg yuzasi, fiziologik faollik va suv isteъmoli oshganini, shuningdek, mavsumiy iqlim omillari taъsiri kuchayganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari Tetradium danielliining transpiratsiya jarayoni yillar bo‘yicha o‘sish tendensiyasiga ega ekanini, kunlik ritmi esa o‘zgarmas fiziologik qonuniyatga asoslanganini namoyon etdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1.Kramer, P.J., Boyer, J.S. (1995). Water Relations of Plants and Soils. Academic Press.

2. Рахимова Т.У. Экология растений адырной зоны Узбекистана Ташкент: Университет, 1997. Часть I – С. 276.

3. Imomov O.N.CHust – pop adirlari sharoitida ayrim foydali zuqabop o‘simliklar bioekologiyasi. Namangan-2020.

4.B.E. To‘xtaev, E.E. Abdunazarov. Toshkent vohasi sharoitida valeriana officinalis l. ning introduksiyasi va bioekologik xususiyatlari.Toshkent-2010

5.Raximova T.T. O‘simliklar ekologiyasi va fitotsenologiya fanlaridan metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2009 – B. 3-70

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Давидов Махмуджон Адхамович**
Ферганский государственный университет, к.б.н., доцент
e-mail: mdavidov66@mail.ru
УДК 581.526.4:581.4:582.794(575.1)

## ОНТОГЕНЕЗ И ОНТОГЕНЕТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ЦЕНОПОПУЛЯЦИИ РЕДКОГО ЭНДЕМИКА ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ FERGANIA POLYANTHA

***Аннотация:*** *Впервые изучен онтогенез и выявлена онтогенетическая структура ценопопуляции редкого эндемика Ферганской долины Fergania polyantha. Исследования проведены по общепринятым методикам в 2024 г. Установлено, что F. polyantha – многолетнее каудексообразующее стержнекорневое монокарпическое травянистое растение. Основная структурная единица взрослой особи – полициклический полурозеточный побег. Вся программа онтогенеза реализуется в жизни одной особи семенного происхождения. Поддержание численности особей в популяциях осуществляется только семенным путем. Выявлено, что сохранение F. polyantha в естественных условиях возможно при уменьшении пастбищной нагрузки на фитоценозы с его участием.*

***Ключевые слова****: Fergania polyantha, эндемик, Ферганская долина.*

**Davidov Mahmudjon Adxamovich**
Farg‘ona davlat universiteti, b.f.d., dotsent

## FARG‘ONA VODIYSINING NOYOB ENDEMIK TURI BO‘LGAN FARG‘ONA POLIANTASINING SENOPOPULYATSIYASINING ONTOGENEZI VA ONTOGENETIK TUZILISHI

***Annotatsiya:*** *Ilk bor Farg‘ona vodiysi kamyob endemigi Fergania polyantha ning ontogenezi o‘rganildi va senopopulyatsiyasining ontogenetik strukturasi aniqlandi. Tadqiqotlar umumqabul qilingan usullar bo‘yicha 2024-yilda o‘tkazildi. F. polyantha ko‘p yillik kaudeks hosil qiluvchi o‘q ildizli monokarpik o‘t o‘simlik ekanligi aniqlandi. Voyaga yetgan individning asosiy struktura birligi politsiklik yarim to‘pbargli novdadir. Ontogenezning butun dasturi urug‘dan kelib chiqqan bitta individ hayotida amalga oshadi. Populyatsiyalarda individlar sonini saqlab qolish faqat urug‘chilik yo‘li bilan amalga oshiriladi. F. polyantha ishtirokida fitotsenozlarga yaylov yuklamasini kamaytirgan holda tabiiy sharoitda saqlab qolish mumkinligi aniqlandi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Fergania polyantha, endemik, Farg‘ona vodiysi.*

**Davidov Mahmudjon Adhamovich**
Fergana State University, PhD, Associate Professor

## ONTOGENESIS AND ONTOGENETIC STRUCTURE OF THE FERGANA POLYANTASY CENOPOPULATION, A UNIQUE ENDEMIC SPECIES OF THE FERGANA VALLEY

***Anontation:*** *For the first time, the ontogenesis of the rare endemic Fergania polyantha of the Fergana Valley has been studied, and its ontogenetic structure has been identified. Studies were conducted according to generally accepted methods in 2024. It was established that F. polyantha is a perennial caudex-forming sternel-rooted monocarpic herbaceous plant. The main structural unit of the adult is the polycyclic half-rosette shoot. The entire program of ontogenesis is realized in the life of a single individual of seed origin. Maintaining the number of individuals in populations is carried out only through seed production. It has been determined that the preservation of F. polyantha in natural conditions is possible by reducing the pasture load on phytocenoses with its participation.*

***Keywords:*** *Fergania polyantha, endemic, Fergana Valley.*

### Введение

Fergania polyantha (Korovin) Pimenov (фергания многоцветковая) – многолетнее монокарпическое каудексовое растение 20–80 см высотой (рис. 1) ([6]). Ареал вида северопамиро-алайский, охватывает северный Памиро-Алай и западный Тянь-Шань [4];[10]. Произрастает на солонцеватых, глинисто-сланцевых,

конгломератовых склонах и террасах, разрушающихся скалах, неподвижных щебнистых осыпях, каменисто-щебнистых склонах, пестроцветных обнажениях, в поясе предгорий и в нижнем горном поясе, входит в состав разреженной эфемерово-эфемероидной растительности с участием ксерофильных кустарников и колючеподушечников, на высотах от 500 до 1500 м над ур. м.[9].

F. polyantha – редкий эндемик юга Ферганской долины [3]: вид включен в несколько изданий Красной книги Республики Узбекистан [7]. Авторы этих обработок констатируют полное отсутствие данных о численности популяций и причинах ее изменений. В связи с полным отсутствием каких-либо сведений по данному виду цель настоящей работы – выявление особенностей развития особей вида и онтогенетической структуры его ценопопуляций в условиях Ферганской долины Республики Узбекистан.

Литературный обзор

Анализ литературных источников показывает, что флора Ферганской долины, включая эндемичные виды семейства Apiaceae, на протяжении длительного времени является объектом целенаправленных ботанических исследований. В работах М.Г. Пименова [6], а также М.Г. Пименова, Е.П. Коровина и соавторов [4; 9] уточнено систематическое положение рода Fergania, охарактеризованы его морфологические особенности и ареал распространения. Показано, что Fergania polyantha является редким узкоэндемичным видом южной части Ферганской долины. Сведения о распространении, экологических особенностях и охранном статусе вида приведены в изданиях Красной книги Республики Узбекистан [7; 8]. В обобщающих флористических и ботанико-географических работах последних лет подчёркивается недостаточность данных о численности популяций и причинах их динамики [3; 10]. Вместе с тем специальные исследования, посвящённые онтогенезу, онтогенетической структуре и демографическим характеристикам популяций F. polyantha, до настоящего времени практически отсутствуют. Методологической основой настоящей работы послужили классические труды по онтогенезу и популяционной биологии растений [11; 12; 13; 14; 15], широко применяемые при изучении структуры ценопопуляций редких и эндемичных видов, а также современные исследования по онтогенезу эндемичных таксонов Ферганской долины [1; 2].

Материал и методы исследования

**Рис. 1**. Fergania polyantha (фото М.А. Давидова).

Наблюдения за развитием особей F. polyantha проведены в 2024 г. в одной ценопопуляции (ЦП), расположенной к северо-западу от п. Шахимардан (39°58'55"N, 71°48'35"E), на северном макросклоне Алайского хребта, на высоте 1440–1550 м над ур. м. ЦП вида входит в состав закустаренного эремурусово-полынного сообщества. Сообщество расположено на склоне с углом наклона до 50◎. Общая площадь ЦП составляет около 2000 м2. Субстрат представлен сланцевыми и глинисто-сланцевыми конгломератами. Проективное покрытие фитоценоза 50–80%, доля доминантов составляет 30–50%. К ним относятся: Eremurus fuscus (O. Fedtsch.) Vved. и

Artemisia namanganica Poljakov. Редкий кустарниковый ярус представлен Ephedra intermedia Schrenk& C. A. Mey., Rosa canina L., R. kokanica (Regel) RegelexJuz., Crataegus turkestanica Pojark., Acantholimon compactum Korovin. Из злаков также произрастают Bromus tectorum L., Poa bulbosa L., Festuca ambigua Le Gall. В травостое из сопутствующих видов встречаются Roemeria pavonina (Schrenk) Banfi, Bartolucci, J.-M.Tison & Galasso, Silene guntensis (B.Fedtsch.) B.Fedtsch. ex Schischk., Centaurea virgata subsp. squarrosa (Boiss.) Gugler, Alyssum turkestanicum Regel & Schmalh., Scutellaria comosa Juz., Salvia karelinii J.B. Walker и др. Участие F. polyantha составляет 5%, встречается рассеянно, отдельными особями или небольшими группами, обычно предпочитает изреженный травостой, избегая более плотно заросших участков.

При описании хода развития F. polyantha принята концепция дискретного описания онтогенеза, впервые предложенная Т. А. [11], в дальнейшем уточненная и детально разработанная А.А. [15] и его учениками (Ценопопуляции растений, 1976, 1988). Тип онтогенеза определен по классификации Л.А. [15]. При выделении онтогенетических состояний учитывали изменения количественных и качественных показателей особей в ходе развития. Для биометрической характеристики особей разных онтогенетических состояний использовали по 5 экземпляров.

Выделение жизненной формы проведено в рамках эколого-морфологической концепции Варминга–Серебрякова [18]; [13].

Изучение онтогенетической структуры ценопопуляций проведено по общепринятым методикам ([12]; Ценопопуляции растений, 1976, 1988). Для выявления онтогенетического состава ценопопуляций закладывали трансекты 50 × 1 м2. Подсчет особей разных онтогенетических состояний в ценопопуляциях проводили три раза за вегетационный сезон: в апреле, июле и сентябре. Экологическая плотность рассчитывалась, исходя из численности особей на единицу обитаемого пространства [5].

Результаты

В развитии особей этого вида выделяется 3 периода и 6 онтогенетических состояний (рис. 2).

Латентный период.

Семена (se) темно-коричневые, длиной 5–6 мм, шириной 3–4 мм, продолговато-эллиптические, голые, сжатые со спинок мерикарпиев, почти плоские. Масса 1000 семян варьирует от 3.3 до 4.6 г. Прорастание семян надземное.

Прегенеративный период.

Проростки (p) – однопобеговые растения с двумя семядолями и 1 настоящим листом появляются в середине марта. Семядоли 2.5–3.5 см длиной и 1.5–2.0 мм шириной. Немного позже развивается первый настоящий лист – простой, трехлопастный, длиной до 7–9 мм, шириной 5–7 мм. Гипокотиль красноватого цвета, до 1 см длиной. Главный корень длиной до 1.5 см, ветвится до II порядка. Продолжительность онтогенетического состояния около 1 месяца.

Ювенильные особи (j) – однопобеговые растения, в надземной части представлены 1–2 настоящими листьями ювенильного типа и разветвленным главным корнем в подземной части. В середине апреля из терминальной почки розеточного побега развертываются 1–2 простых, трехрассеченных листа, на длинном (5–7 см), тонком черешке. Центральный сегмент листа трехраздельный, два боковых – дву- или трехраздельные. Гипокотиль и проксимальная часть главного корня начинают слегка разрастаться (до 2–3 мм в диаметре). Ниже образуется утолщение главного корня до 3 см длиной и 4–5 мм в диаметре. Главный корень увеличивается в длину, достигая 5–7 см, образуются немногочисленные боковые корни III порядка. К середине мая терминальная почка побега углубляется в почву на 1–2 см за счет контрактильной деятельности главного и боковых корней, листья засыхают и опадают. Годичный прирост становится первым звеном будущего каудекса. Особь переходит в состояние глубокого покоя до следующей весны. Продолжительность онтогенетического состояния около 1 года.

Имматурные особи (im) – однопобеговые растения с 2 (редко 3) настоящими листьями, утолщенным главным корнем и системой главного корня. На второй год жизни продолжается моноподиальное нарастание особи, из терминальной почки розеточного побега развертываются 1–2 чешуевидных листа и обычно два двуперисторассеченных листа треугольной формы: верхний сегмент трехрассеченный с трехраздельной центральной долей и двумя дву- или трехраздельными боковыми сегментами, нижние сегменты супротивные, перисторассеченные. Длина листовой пластинки 2.5–3.0 см, ширина 1.5–2.0 см, длина черешка 8–10 см. Из прошлогоднего годичного прироста розеточного побега и разрастающегося гипокотиля формируется каудекс, достигая около 4 мм в диаметре и длины в 5–7 мм. Главный корень утолщается: его диаметр составляет 5–7 мм, длина – до 5 см. К середине июня зеленые листья отмирают, годичный побег втягивается в субстрат, сохраняются лишь черешки листьев в виде нитей, окружающих терминальную почку побега в верхней части каудекса. Продолжительность онтогенетического состояния около 1 года.

В виргинильном онтогенетическом состоянии (v) верхушечная точка роста каждый год формирует несколько зачатков чешуевидных и от 2 до 5 трехперисторассеченных листьев. Нижние развернувшиеся из почки зеленые листья трехперисторассеченные, средние двуперисторассеченные и верхние непарноперисторассеченные. Основания конечных сегментов низбегающие на рахис. Каждый год вновь образуемые листья отличаются от листьев предыдущего года за счет увеличения числа пар сегментов и постепенным усложнением последних. Нами было установлено, что по особенностям строения листа можно определить возраст особей. На маркированных особях было выяснено, что число пар сегментов трехперисторассеченного листа полностью соответствует абсолютному возрасту особей.

Каудекс увеличивается в размерах: к концу виргинильного онтогенетического состояния его длина составляет 2.5–3.0 см, диаметр 0.8–1.0 см. Появляется хорошо выраженная поперечная исчерченность на его поверхности, представляющая собой листовые следы. Терминальная почка каудекса окружена мощным кольцом из толстых нитей, представляющих собой остатки расщепленных черешков листьев предыдущих лет. Сильно утолщается главный корень, его длина может достигать 30–40 см, толщина – 1–2 см. От него отходят обычно 3–4 боковых корня, также утолщенные и имеющие такой же диаметр.

Продолжительность онтогенетического состояния составляет 5–7 лет.

Генеративный период. В генеративный период особи вступают на 7–9 год жизни. В марте апекс верхушечной почки образует несколько чешуевидных листьев и от 3 до 7 трехперисторассеченных листьев. Розеточные листья на коротких черешках, длина и ширина листовой пластинки до 15 см, яйцевидной или ромбической формы. В апреле развертывается ортотропная, удлиненная генеративная часть разветвленного монокарпического побег длиной до 80 см. Стебель генеративного побега круглый в сечении, гладкий, тонко бело-полосатый, в узлах немного коленчато изогнутый. Стеблевые листья сильно упрощенные, с удлиненными слегка расширенными травянистыми влагалищами, самые верхние представлены ланцетовидными влагалищами. По структуре монокарпический побег полурозеточный. К началу цветения генеративного побега розеточные листья сохраняются. Каудекс достигает своих максимальных размеров – 1.0–1.2 см в диаметре и 3.5–4.0 см в длину. Длина корневых утолщений достигает 50–60 см в длину и 1–1.5 см в диаметре.

После цветения и плодоношения в июле этого же года надземная и подземная части растений отмирают, и онтогенез заканчивается. Следовательно, суммарная продолжительность всех онтогенетических состояний составляет от 8 до 10 лет.

Проведенные исследования онтогенеза особей F. polyantha позволили нам выделить следующие характерные его особенности: онтогенез полный для монокарпических растений и осуществляется в жизни одной особи только семенного происхождения, продолжительный прегенеративный период, высокая элиминация особей на начальных стадиях онтогенеза, отсутствие постгенеративного периода, в течение 7–9 лет у особей образуется розетка листьев и накапливаются питательные вещества в каудексе и корневых утолщениях. Согласно классификации Л.А.[15] онтогенез этого вида соответствует подтипу А2.

**Рис. 2**. Схема онтогенеза Fergania polyantha.

Верхний ряд – листовые пластинки особей разных онтогенетических состояний, нижний ряд – онтогенетическое состояния особей.

Условные обозначения: p – проростки, j – ювенильные особи, im – имматурные особи, v – виргинильные особи, g – генеративные особи.

1 – семядольные листья, 2 – настоящий лист, 3 – верхушечная почка, 4 – отмершие настоящие листья, 5 – каудекс.

Типы побегов. Для F. polyantha характерен один тип побега: полурозеточный. Полурозеточный побег на протяжении большой части своего развития (7–9 лет) представлен розеточной частью, которая состоит из короткой оси (2–4 см длиной) со сближенными узлами, формирует чешуевидные и ассимилирующие листья и заканчивается терминальной почкой. Ежегодно осевая часть полурозеточного побега после отмирания листьев входит в состав каудекса. Удлиненная часть полурозеточного побега образуется в последний год жизни и представляет генеративный прирост, состоящий из удлиненной части (длиной до 80 см), включающей от 3 до 7 длинных метамеров, представляющей собой синфлоресценцию.

Структура популяций. Онтогенетическая структура изучена в одной ценопопуляции в окр. п. Шахимардан.

Как и у других изученных нами монокарпических представителей семейств Apiaceae и Asteraceae ([1];[2]), ценопопуляция F. polyantha была полночленной, имела левосторонний онтогенетический спектр с пиком на виргинильном онтогенетическом состоянии (рис. 3). Это обусловлено тем фактом, что виргинильная фаза онтогенеза самая продолжительная, в течение которой происходит накопление особей этого онтогенетического состояния. Левосторонний тип спектра связан с продолжительным прегенеративным периодом, коротким генеративным и отсутствием постгенеративного.

Общая численность особей в изученной ценопопуляции составила примерно 200 шт. на площади около 2000 м2. Особи встречаются единично, не образуют заметных скоплений. Плотность особей в ценопопуляции была крайне низкой – 0.1 на м2.

Исследованное сообщество с F. polyantha используется как пастбище для зимовки овец и коз. Весной надземная часть особей этого вида поедается мелким рогатым скотом, что приводит иногда к полному уничтожению особей прегенеративных онтогенетических состояний и сильному повреждению развивающихся генеративных побегов у цветущих особей. Тем не менее небольшая часть генеративных особей сохраняется без повреждений и является источником семян для поддержания численности особей в ценопопуляции. Кроме непосредственного поедания надземной части, мелкий рогатый скот может затаптывать и повреждать верхушечные почки розеточных побегов особей прегенеративного периода, так как часто происходит их обнажение из-за подвижности субстрата.




**Рис. 3.** Онтогенетический спектр ценопопуляции Fergania polyantha в 2024 г.

Условные обозначения: j – ювенильные особи, im – имматурные особи, v – виргинильные особи, g – генеративные особи.

**Заключение**

Впервые проведено комплексное изучение онтогенеза и онтогенетической структуры ценопопуляции редкого эндемика Ферганской долины Fergania polyantha. Установлено, что данный вид является многолетним каудексообразующим стержнекорневым монокарпическим травянистым растением, у которого вся программа онтогенеза реализуется в жизни одной особи семенного происхождения. Онтогенез характеризуется продолжительным прегенеративным периодом, короткой генеративной фазой и отсутствием постгенеративного периода, что определяет левосторонний тип онтогенетического спектра ценопопуляции. Поддержание численности особей осуществляется исключительно семенным путём. Установлено, что пастбищная нагрузка

оказывает негативное влияние на состояние популяций вида, в связи с чем для его сохранения в природных условиях необходимо регулирование антропогенного воздействия и ограничение пастбищного использования.

**Список литературы**

1. Давидов М.А. Онтогенез и онтогенетическая структура ценопопуляций редкого эндемика Ferula namanganica Sennikov. – Научный вестник. ФерГУ. 2025. Т. 31, № 6. С. 138-147.

2. Давидов М.А., Годин В.Н. Онтогенез и онтогенетическая структура ценопопуляций редкого эндемика Ферганской долины Lamyropappus schakaptaricus (Asteraceae). – Научный вестник. Кокандский государственный педагогический институт. 2025. № 11. С. 657-666.

3. Камелин Р.В. 2017. Флора пестроцветных обнажений Средней Азии (краткий анализ и вопросы генезиса). – Turczaninowia. 20(4): 125–151. https://doi.org/10.14258/turczaninowia.20.4.14

4. Коровин Е.П., Пименов М.Г., Кинзикаева Г.К. 1984. Сем. 91. Зонтичные – Umbelliferae Moriss. – В кн.: Флора Таджикской ССР. Л. Т. 7. С. 10–214.

5. Одум Ю. 1986. Основы экологии. М. 325 с.

6. Пименов М.Г. 1982. Fergania M. Pimen. – новый род семейства зонтичных (Apiaceae). – Новости систематики высших растений. Т. 19. Л. С. 119–122.

7. Пименов М.Г., Клюйков Е.В. 2009. Fergania polyantha. – В кн.: Красная книга Республики Узбекистан. Ташкент. Т. 1. Растения и грибы. С. 118–119.

8. Пименов М.Г., Клюйков Е.В. 2019. Fergania polyantha. – В кн.: Красная книга Республики Узбекистан. Т. 1. Растения. Ташкент. С. 102.

9. Пименов М.Г., Клюйков Е.В. 2023. Apiaceae. – В кн.: Флора Узбекистана / под ред. А.Н. Сенникова. Т. 5. Ташкент. 469 с.

10. Пименов М.Г., Клюйков Е.В., Баранова Ю.В., Васильева М.Г., Лаврова Т.В., Томкович Л.П. 1986. Зонтичные Алайского хребта. – Бот. журн. 71(4): 487–499.

11. Работнов Т. А. Жизненный цикл многолетних травянистых растений в луговых ценозах // Труды БИН АН СССР. Геоботаника. М.; Л.: Наука, 1950а. Сер. 3. С. 7–204.

12. Работнов Т.А. Вопросы изучения состава популяции для целей фитоценологии // Проблемы ботаники. 1950 б. Вып. 1. С. 465–483.

13. Серебряков И. Г. Основные направления эволюции жизненных форм у покрытосеменных растений // Бюлл. МОИП. Отдел биол. 1955. Т. 60. Вып. 3. С.71–92.

14. Серебряков И. Г. Экологическая морфология растений. М.: Высшая школа. 1962. 378 с.

15. Уранов А.А. 1975. Возрастной спектр фитоценопопуляций как функция времени и энергетических волновых процессов. – Биологические науки. 2: 7–34.

16. Ценопопуляции растений: очерки популяционной биологии. М.: Наука, 1988. 182 с.

17. Ценопопуляция растений: основные понятия и структура. М.: Наука, 1976. 215 с.

18. Warming E. Über perenne gewachse // Botanisches Centralblatt. 1884. Bd. 18. S. 16–22.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**F. Gapporov**
Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

## ANTROPOGEN OMILLAR TA'SIRI OSTIDA QOLGAN LANDSHAFTLAR VA HUDUD O'SIMLIKLAR XILMA-XILLIGINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada Andijon viloyatida antropogen omillar ta'siri ostida shakllanayotgan va transformatsiyalanayotgan landshaftlar hamda hudud florasining ekologik va tarkibiy xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida viloyat landshaftlari tog'oldi–adir, sug'oriladigan yerlar, daryo bo'yi va rekreatsion landshaft turlariga ajratildi hamda ularning xo'jalik faoliyati va ekoturizm bilan bog'liq imkoniyatlari baholandi. Floristik-taksonomik tahlil natijalariga ko'ra, Andijon viloyati florasi 67 oila, 341 turkumga mansub 653 turdan iborat ekani aniqlandi. Hayotiy shakllar spektri (C. Raunkiaer bo'yicha) hudud florasida terofitlar va gemikriptofitlar ustunligini ko'rsatdi. Olingan natijalar landshaftlar va florani ekologik baholash, bioxilma-xillikni saqlash hamda tabiiy ekotizimlarni muhofaza qilish bo'yicha ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar.*** *Andijon viloyati, landshaft ekologiyasi, antropogen ta'sir, flora, hayotiy shakllar, C. Raunkiaer, bioxilma-xillik.*

**F. Gapporov**
Independent researcher at Andijan State University

## LANDSCAPES AND CHARACTERISTICS OF REGIONAL PLANT DIVERSITY UNDER THE INFLUENCE OF ANTHROPOGENIC FACTORS

***Abstract.*** *This article analyzes landscapes transformed under the influence of anthropogenic factors and the ecological characteristics of regional flora in the Andijan region. The study identifies major landscape types, including foothill–adir, irrigated valley (agrolandscape), riverine, and recreational landscapes, and evaluates their land-use and ecotourism potential. Floristic and taxonomic analysis revealed that the flora of the Andijan region consists of 653 species belonging to 67 families and 341 genera. The life-form spectrum based on the C. Raunkiaer classification shows the dominance of therophytes and hemicryptophytes. The obtained results provide a scientific basis for ecological assessment of landscapes, biodiversity conservation, and protection of natural ecosystems.*

***Keywords.*** *Andijan region, landscape ecology, anthropogenic impact, flora, life forms, C. Raunkiaer, biodiversity.*

**Ф. Гаппоров**
Независимый исследователь Андижанского государственного университета

## ЛАНДШАФТЫ И ХАРАКТЕРИСТИКИ РЕГИОНАЛЬНОГО РАСТИТЕЛЬНОГО РАЗНООБРАЗИЯ ПОД ВЛИЯНИЕМ АНТРОПОГЕННЫХ ФАКТОРОВ

***Аннотация.*** *В статье проведён анализ ландшафтов Андижанской области, трансформированных под воздействием антропогенных факторов, а также экологических особенностей региональной флоры. Выделены основные типы ландшафтов, включая предгорно-адирные, орошаемые долинные (агроландшафты), пойменные и рекреационные, и оценён их потенциал землепользования и экотуризма. Флористико-таксономический анализ показал, что флора Андижанской области включает 653 вида, относящихся к 67 семействам и 341 роду. Спектр жизненных форм по классификации С. Раункиера характеризуется преобладанием терофитов и гемикриптофитов. Полученные результаты служат научной основой для экологической оценки ландшафтов, сохранения биоразнообразия и охраны природных экосистем.*

***Ключевые слова.*** *Андижанская область, экология ландшафтов, антропогенное воздействие, флора, жизненные формы, С. Раункиер, биоразнообразие.*

**Kirish.** Ekologiyada landshaft bu o'zaro ta'sir qiluvchi yashash joylarining takrorlanuvchi mozaikasi va kunduzgi yer yuzi naqshini tashkil qiluvchi ekologik tizim sifatida qaraladi. Shu bilan birga, landshaft ekologiyasi muayyan o'simlik turlariga xos bo'lgan landshaftlarni, jumladan tuproq landshaftini ajratib ko'rsatadi. Bu landshaftlarning hajmi

turlarning ekologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari, geografik landshaft bilan genetik va funksional jihatdan bog‘liq bo‘lgan, lekin unga o‘xshash bo‘lmagan geokimyoviy landshaft ajralib turadi. Geokimyoviy landshaftlarni o‘rganish geologik tadqiqotlarda, shuningdek, hududning ekologik barqarorligini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ma’lum bo‘ladiki, landshaft tushunchasi faqat tabiiy elementlar bilan cheklanib qolmaydi, balki u ekologik, geografik, biologik va madaniy omillarni ham qamrab oluvchi keng qamrovli va kompleks tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi.

**Tadqiqot hududi.** Andijon viloyati Farg‘ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, zich aholi joylashuvi, intensiv agrar xo‘jalik, shaharlashuv jarayonlari va sanoat zonalarining kengayishi tufayli respublikada landshaftlarning eng tez transformatsiyalanayotgan hududlaridan biri hisoblanadi. Geoekologiya nuqtai nazaridan viloyatdagi landshaftlar inson faoliyatining kuchli ta’siri ostida bo‘lib, ularning tarkibi, funksiyasi va davriy o‘zgarishlarini chuqur tahlil qilish hududning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Natija va muhokama.** Tadqiqot davomida hududning tabiiy geoekologik tuzilishi va xususiyatlari chuqur o‘rganildi. To‘plangan materiallar asosida keng ko‘lamli tahlillar amalga oshirildi. Natijada, hozirgi kunda Andijon viloyatining landshaftlari quyidagi landshaft elementlaridan iboratligi aniqlandi.

1. **Tog‘ oldi va adir landshaftlari.** Dengiz sathidan 800–900 m balandlikda joylashgan (Buloqboshi t., Asaka t., Xo‘jaobod t. va Chinobod shahri atrofidagi) adirlar morfologiyasi jihatidan jinslari tez-tez eroziyaga uchraydigan tog‘ oldi jinslaridan tashkil topgan. Bu hududlarda efemer o‘simliklar dominantlik qiladi.

2. **Sug‘oriladigan (vodiy, pasttekislik) landshaftlari.** Vodiy, jumladan Andijon viloyatidagi landshaftlar respublikadagi eng intensiv agrar hududlardan hisoblanadi. Sug‘oriladigan landshaftlarga Andijon, Marhamat, Jalaquduq, Bo‘ston tumani hududlari kirib, tuproqlari tarkibining asosiy qismi bo‘z va qo‘ng‘ir tuproqlardan iborat bo‘lganligi sababli mazkur hududlar to‘la agrolandshaftlarga aylantirilgan.

3. **Daryo bo‘yi va gidrolandshaftlar.** Qoradaryo oqimi bo‘yicha tarqalgan landshaftlar bo‘lib, uning asosiy komponenti suv oqimi, sohil yotqiziqlariga moyil allyuvial tuproqlar va antropogen meliorativ tizimlardir. Hozirda Qoradaryo havzasi landshaftlari to‘la o‘zlashtirilgan va asosan sholikorlik maqsadlarida foydalanilmoqda.

4. **Rekreatsion yoki tabiiy-madaniy landshaftlar.** Andijon viloyatida yuqori ekologik, estetik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan rekreatsion hududlar ham mavjud. Hudud geologik jihatdan murakkab, florasi boy va turlar miqyosida tarkibining xilma-xilligi bilan ajralib turadi (Tojiboyev, 2010; Naraliyeva va boshq., 2018). Landshaft komponentlarining ushbu rang-barangligi ekologik turizmni tashkil etish uchun tabiiy asos sifatida xizmat qiladi. Xususan, Andijon viloyatining tabiiy-geografik jihatdan adir-tekislik, tog‘oldi va o‘rta balandlikdagi landshaft turlari bilan xarakterlanishi ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish ishlarini ham izchil yo‘lga qo‘yilishini taqozo etadi.

Bunday imkoniyatlardan Andijon viloyatining adir mintaqalari misolida ancha unumli foydalanish istiqbollari mavjud bo‘lib, ayniqsa ekoturizm uchun qulay obyektlar joylashgan (1-jadval).

**Andijon viloyatidagi eng yirik ekoturizm obyektlari**

**1-jadval.**

| № | Hududlar nomlari | Maskanlar nomlari | Funksiyasi |
|---|---|---|---|
| 1 | Buloqboshi tumani | “Shirmonbuloq” dam olish maskani | Ekoturizm maqsadida |
| 2 | Shahrixon tumani | “Sochi” dam olish maskani | Ekoturizm maqsadida |
| 3 | Xonobod shahri | “Afsona” dam olish maskani | Ekoturizm maqsadida |
| 4 | Xonobod shahri | “Delfin ko‘li” dam olish maskani | Ekoturizm maqsadida |
| 5 | Xo‘jaobod tumani | “Imom ota” dam olish maskani | Ekoturizm, tog‘ turizmi maqsadida |
| 6 | Xo‘jaobod tumani | “Qora amur” fermer xo‘jaligi | Intensiv usulda baliq boqish |

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Andijon viloyatida ekoturizmni tashkil etishda quyidagi imkoniyatlar mavjud:

- **Geoekologik va fitogeografik resurslar:** tipik bo‘z tuproqlar, lyoss qatlamlari, adir florasida efemer-efemeroidlarning ustunligi, serozemlar va yozgi past-balandlikdagi yaylovlar;
- **Noyob va endemik turlar:** *Gagea khassanovii*, *Tulipa ferganica*, *Iris narynensis*, *Allium* turlari, *Astragalus* turlari va boshqalarning mahalliy areallari;
- **Gidrologik obyektlar:** Andijon suv ombori, Xonobod va Jalaquduq suv tizimlari, irrigatsion kanallar atrofidagi yashil zonalar;
- **Madaniy-tarixiy resurslar:** adir hududlaridagi tarixiy aholi manzillari, karvon yo‘llari izlari va mahalliy etnografik obyektlar (Imom-Ota, Qo‘rg‘ontepa shahri atrofi, Xonobod shahri, Marhamat, Shirmonbuloq va boshq.).

Biroq so‘nggi yillarda bunday tabiiy hududlar inson faoliyati ta’sirida jiddiy o‘zgarishlarga uchramoqda, ularni muhofaza qilish dolzarb masalaga aylangan. Xususiyatlari qiyaliklar, daralar joylarida biologik xilma-xillik yuqori bo‘lib, qamishzorlar, daraxtzorlar, shifobaxsh buloqlar hamda tabiiy biotoplardan iborat.

Ay tish joizki, hudud landshaftlarining ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilmaviy funksiyalari muhim ahamiyatga ega. Jumladan, ekologik va geoekologik nuqtai nazardan biogeokimyoviy aylanmalarda (sirkulyatsiya) ishtirok etib, uglerod (C) va azot (N) aylanishini barqarorlashtiradi, havo namligini va chang konsentratsiyasini tartibga soladi. Ikkinchidan, sug‘oriladigan agrolandshaftlar hudud aholisining oziq-ovqat ta’minotini ta’minlaydi. Bog‘dorchilik, uzumchilik va chorvachilik landshaftning asosiy iqtisodiy tarmoqlari hisoblanadi. Uchinchidan, Andijon shahri va yirik qishloq punktlari atrofidagi antropogen landshaftlar transport, sanoat va logistika tizimlarini shakllantiradi. Shuningdek, hududda hali ham muhofaza etiladigan rasmiy tabiiy hududlar mavjud emasligi, bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada tezlashtirish va strategik asosda yo‘lga qo‘yish zarurligini ko‘rsatadi.

Andijon viloyatining tabiiy landshaftlari uning geografik va ekologik qimmatini belgilab beruvchi muhim resurslardan biri hisoblanadi. Ularning to‘g‘ri baholanishi, muhofaza qilinishi va oqilona foydalanilishi viloyatning barqaror rivojlanishi, ekologik xavfsizligi hamda turizm salohiyatini yuksaltirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aytish joizki, Andijon viloyatining mavjud tabiiy landshaftlari Farg‘ona vodiysi tog‘oldi va adir landshaftlari kabi uzoq yillar davomida insonlar faoliyati ta’sirida jiddiy o‘zgarishlarga uchragan. Ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab aholining o‘sishi va sanoat korxonalarining ko‘payishi, sug‘orish maydonlarining kengayishi natijasida antropogen bosim yanada kuchaydi. Olib borilgan tadqiqotlar va kuzatishlar hozirgi kunda hudud landshaftlarining o‘zgarishiga irrigatsiya va melioratsiyaning ta’siri, sanoat va shaharlashuv ta’siri, transport va shahar infratuzilmasi, deflyatsiya va eroziya jarayonlari, biogeotsenozlar transformatsiyasi kabi omillarning ta’siri kuchli ekanligini aniqladi.

Jumladan, Andijon viloyatida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning mavjud emasligi bugungi kunda viloyat tabiiy resurslarini asrab-avaylashdagi eng muhim muammolardan biridir. Shuni inobatga olgan holda, quyidagi hududlarning hozirgi (tabiiy) holatini saqlab qolishga alohida e’tibor qaratish strategik ahamiyatga ega vazifa hisoblanadi.

**1-rasm. Adirli hududlardagi tuproqdan pishgan g‘isht ishlab chiqarish maqsadida keng miqyosda olinishi**

**1-rasm. Buloqboshi hamda Andijon tumanlaridagi oxak ishlab chiqarish syexlarining holati**

Tabiiy va yarim hududlar nafaqat viloyatning ekosistema barqarorligi, balki biologik xilma-xillikni saqlash, ekologik muvozanatni ta'minlash va kelajak avlodlar uchun noyob tabiiy merosni asrab qolish nuqtayi nazaridan ham nihoyatda muhim hisoblanadi. Mazkur hududlarni muhofaza qilish, ularga noqonuniy foydalanish, degradatsiya va inson faoliyati natijasida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni cheklash uchun hududiy ekologik siyosatni kuchaytirish, tabiiy himoya statusini berish (masalan, mahalliy darajadagi qo'riqxona, tabiiy park yoki ekosohiyatli hududlar sifatida) tan olish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Andijon viloyatida olib borilgan tabiiy-geografik va ekologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, hududda landshaftlar turi va shakli juda ham xilma-xil bo'lib, ularning shakllanishi va rivojlanishida tabiiy omillar (relef, iqlim, gidrografiya, flora va fauna) bilan bir qatorda inson faoliyati ham katta ta'sir ko'rsatgan. Shu nuqtayi nazardan mazkur landshaftlarni quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

**Kseromorfik landshaftlar** – quruq va kamsuv hududlar, tabiiy yaylovlar, qum va adirliklardan iborat.

**Sug'oriladigan agrolandshaftlar** – irrigatsiya qilingan qishloq xo'jaligi maydonlari, madaniy bog'lar va xo'jaliklar.

**Tog'oldi va adir landshaftlari** – daralar, shifobaxsh buloqlar, qamishzorlar, tabiiy biotoplar va yuqori biologik xilma-xillikka ega hududlar.

**Antropogen (madaniy) landshaftlar** – shaharlar, qishloqlar, yo'llar va aholi punktlari kabi inson ta'sirida shakllangan maydonlar.

Mazkur landshaftlar nafaqat viloyatning ekologik tizimi, balki iqtisodiy va rekreatsion resurslar tizimida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq keyingi yillarda tabiiy landshaftlarga inson faoliyati, xususan qurilish, irrigatsiya, xomashyo olish kabi jarayonlar jiddiy ta'sir ko'rsatib, ularning holatiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda.

Andijon viloyatining florasi (o'simlik turlari xilma-xilligi) sun'iy floralar tarkibiga mansub bo'lib, cheklangan hududlar sirasiga kiradi (Shcherbakov A.V., Mayorov S.R. *Inventarizatsiya flory i osnovy gerbarnogo dela* (Metodicheskie rekomendatsii). – Moskva: Tovarishchestvo nauchnykh izdaniy KMK, 2006. – B. 48). Viloyat O'zbekistonning sharqiy qismidagi Farg'ona vodiysida joylashgan bo'lib, uning iqlim sharoiti subtropik, issiq yoz va ko'pchilik yaxshi sug'orilgan yerlar bilan xarakterlanadi. Bu sharoitlar turli xil o'simlik turlarining rivojlanishiga yaxshi asos yaratadi.

Mintaqa florasi, ya'ni o'simliklar xilma-xilligi bo'yicha hozirga qadar aniq bir maqsadga yo'naltirilgan floristik yoki shunga yaqin yo'nalishdagi tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan. Andijon florasidagi turlarning xilma-xilligi atrof-muhitning iqlim, tuproq, suv resurslari va inson faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Bu omillar hududning ekologik barqarorligi va turli jamoalarning saqlanishida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli Andijon viloyati o'simlik turlarining boyligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadigan tabiiy va antropogen muhitdir, bu esa uning biologik va ekologik ahamiyatini yanada oshiradi.

Floradagi yirik taksonomik birliklarning o'zaro nisbati O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistondagi ayrim mahalliy floralar bilan deyarli farqlanmaydi. Sporalı o'simliklar (Plaunovidlar, *Lycophytes*) 1 oila, 1 turkumga mansub 2 tur bilan ishtirok etadi. Xuddi shu holat 1 oila, 1 turkumga mansub 2 tur bilan ishtirok etayotgan ochiq urug'li (*Gymnosperms – Gnetophyta*) o'simliklarda ham kuzatildi. Qolgan 649 ta tur yuksak gulli o'simliklarga to'g'ri keladi. Ular tarkibida ikki urug'pallalilar (*Eudicots*) 520 tur yoki 79,6 % ni, bir urug'pallalilar (*Monocots*) esa 129 tur yoki 19,7 % ni tashkil etadi. Shu tariqa, bir urug'pallali va ikki urug'pallalilar o'rtasidagi umumiy nisbat 1:4,03 ga teng.

Biroq qiyosiy floristika fanining klassik namoyandalari, jumladan Tolmachyov (1974) ta'kidlaganidek, mazkur nisbat floralarni qiyosiy tahlil qilishda mustaqil va hal qiluvchi ilmiy ko'rsatkich sifatida katta ahamiyat kasb etmaydi. Floraning taksonomik tuzilishi va rivojlanish darajasini xolis baholashda esa ancha reprezentativ va axborotli ko'rsatkich sifatida bitta oila hissasiga to'g'ri keladigan turlarning o'rtacha soni qo'llaniladi, chunki ushbu ko'rsatkich florani taksonomik boyligi, differensiallashuv darajasi hamda evolyutsion shakllanish xususiyatlarini to'laroq aks ettiradi.

Andijon viloyati florasida bitta oilaga o'rtacha hisobda **5,08 turkum** va **9,74 tur** to'g'ri kelishi aniqlandi (1:5,08:9,74). Bu 67 oila, 341 turkumga mansub 653 turga nisbatan hisoblandi. Ushbu ko'rsatkichni boshqa floralar bilan solishtirganda, nafaqat O'rta Osiyoning tog'li qismidagi ayrim floralar (Kamelin, 1973; Krasovskaya, Levichev, 1986; Beshko, 2000; Batashov, 2016), balki O'rta Osiyoga yondosh bo'lgan ayrim mahalliy floralar (Silantyeva, 2008; Naumov, 2009) ko'rsatkichlaridan ham kam emasligini ko'rish mumkin.

Yetakchi oilalardan keyin floraning asosiy qismini 2 tadan 20 tagacha turni qamrab olgan o'rtacha polimorf oilalar tashkil etadi. Ushbu oilalar soni 33 tani tashkil etib, ular tarkibida jami 204 tur jamlangan. Shu bilan birga, viloyat florasida 1 tadan turga ega bo'lgan kam turlilikka ega (monotur) oilalar ham mavjud bo'lib, ularning soni 24 tani tashkil etadi va ushbu guruh tarkibiga 24 tur kiradi. Umumiy oilalarning ketma-ketligi va taksonomik tarkibi tahlil qilinganda, viloyat florasining yadrosi asosan yetakchi oilalar hissasiga to'g'ri kelishi, ya'ni turlarning asosiy ulushi aynan shu oilalarda jamlangani aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari Andijon viloyati florasi tarkibi, taksonomik tuzilishi va strukturaviy xususiyatlarini kompleks va ilmiy asosda yoritish imkonini berdi. Floraning 67 oila, 341 turkumga mansub 653 turdan iborat ekanligi aniqlanib, har bir tur gerbariy namunalari bilan tasdiqlandi, bu esa olingan natijalarning yuqori darajada

ishonchliligini ta’minlaydi. Taksonomik tahlil florada kam turlilikka ega va o‘rtacha polimorf oila hamda turkumlar ustuvor ekanini ko‘rsatdi. Yirik taksonomik birliklar nisbati O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning boshqa mahalliy floralariga xos bo‘lgan qonuniyatlarga mos keladi. Flora tarkibida yuksak gulli o‘simliklar mutlaq ustunlikka ega bo‘lib, ikki urug‘pallalilarning salmog‘ining yuqoriligi hududning geografik joylashuvi va ekologik sharoitlari bilan izohlanadi. Bir urug‘pallali va ikki urug‘pallalilar o‘rtasidagi nisbat esa floraning umumiy rivojlanish yo‘nalishini aks ettiradi.

Yetakchi oilalar (*Asteraceae, Poaceae, Brassicaceae, Fabaceae* va boshqalar) turlar soni bo‘yicha floraning yadrosini tashkil etib, umumiy turlar sonining asosiy ulushini qamrab olgan. Bu holat Tog‘li O‘rta Osiyo flora provinsiyasiga xos bo‘lgan taksonomik xususiyatlarni yana bir bor tasdiqlaydi. Turkumlar tahlili ham floraning yuqori darajada parchalangan, biroq nisbatan barqaror ekanini ko‘rsatdi. Antropogen ta’sir va hududning fragmentatsiyaga uchraganligiga qaramasdan, Andijon viloyati florasida turlar tarkibi va taksonomik tuzilishi umumiy holatda muvozanatli saqlanib qolgan. Olingan natijalar hudud florasini muhofaza qilish, bioxilma-xillikni saqlash va kelgusida qiyosiy floristik tadqiqotlar olib borish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Floradagi turlarning hayotiy shakllar spektri floraning ekologik moslashuvchanligini, turli muhit sharoitlariga javob berish qobiliyati yuqoriligini hamda hudud florasining shakllanishida iqlimiy va antropogen omillar muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi. Andijon viloyatida aniqlangan turlarning hayotiy shakllari bo‘yicha tahlil **C. Raunkiaer** klassifikatsiyasi bo‘yicha amalga oshirildi. Hayotiy shakllar bo‘yicha tahlillar turlar sonining kamayib borish yoki aksincha tartibda olib borish ketma-ketligida amalga oshirildi. Ushbu tadqiqot ishida hayotiy shakllar bo‘yicha tahlil **C. Raunkiaer** tomonidan taklif qilingan tartib va tasnif bo‘yicha olib borildi: **fanerofit, xamefit, gemikriptofit, kriptofit, terofit**.

**Hudud o‘simliklarining hayotiy shakllari bo‘yicha tahlili**
**(C.Raunkiaer, 1934)**

**2-jadval**

| Hayotiy shakllar | Turlar soni | Umumiy turlar soniga nisbatan, % |
|---|---|---|
| Gemikriptofitlar | 197 | 30,1 |
| Kriptofitlar | 44 | 6,7 |
| Terofitlar | 352 | 53,9 |
| Xamefitlar | 25 | **3,8** |
| Fanerofitlar | 35 | 5,3 |
| Jami**:** | **653 tur** | **100** |

Fanerofit turlar shiblyak va to‘qay florotsenotiplarning asosini tashkil etadi. Daraxt va butalardan tashkil topgan bunday toifadagi turlar klassifikatsiyasiga ko‘ra, nano, mikro, mezo, mego fanerofitlarga bo‘linadi. Florada tarqalgan fanerofit turlar umumiy fanerofitlar bo‘yicha qabul qilindi. Floradagi fanerofitlar 14 oila, 23 turkumga mansub 35 turdan iborat.

Florada tarqalgan fanerofitlar *Rosa, Tamarix, Atraphaxis, Populus, Ephedra, Fraxinus, Elaeagnus, Tamarix, Populus, Salix* turlari suvga yaqin joylarda uchraydi. Mazkur turkumlarning turlari ekotizimda muhim ahamiyat kasb etishi bilan izohlanadi.

Xamefitlar hayotiy shakliga mansub o‘simliklar asosan yarimbuta va yarimbutachalardan tashkil topgan bo‘lib, ular polikarp ko‘p yillik o‘simliklar hisoblanadi. Bu guruhga kiruvchi turlarda qishlovchi poya qismlari yer yuzasiga yaqin joylashgani bilan xarakterlanadi, bu esa ularning noqulay iqlim sharoitiga moslashuvini ta’minlaydi. Xamefitlar, ayniqsa, qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil hududlarda keng tarqalgan bo‘lib, ekotizim barqarorligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyat florasi tarkibida xamefitlar 7 ta oila va 17 ta turkumga mansub bo‘lgan jami 25 ta tur bilan ifodalangan. Bu ko‘rsatkich mazkur hayotiy shaklning hudud florasida muayyan o‘ringa ega ekanligini ko‘rsatadi.

Xamefit turlari asosan *Lamiaceae, Convolvulaceae, Asteraceae, Ranunculaceae, Euphorbiaceae, Polygonaceae* hamda *Amaranthaceae* oilalari tarkibida uchraydi. Ayniqsa, *Lamiaceae* va *Asteraceae* oilalarida xamefit turlar nisbatan ko‘proq ekanligi kuzatiladi. Ushbu guruhga mansub o‘simliklar tuproqni mustahkamlash, eroziya jarayonlarini cheklash hamda tabiiy fitotsenozlar tarkibini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, xamefitlar floraning ekologo-geografik xususiyatlarini baholashda muhim indikator guruh sifatida xizmat qiladi.

Viloyat florasi tarkibida terofit o‘simliklar tekislik, tog‘ oldi hamda quyi tog‘ mintaqalari florasining asosiy qismini tashkil etadi. Terofitlar bir yillik hayotiy shaklga mansub bo‘lib, qisqa vegetatsiya davrida o‘sib, urug‘ orqali ko‘payishi bilan xarakterlanadi. Bu xususiyat ularning iqlim va antropogen ta’sirlarga tez moslashishini ta’minlaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, viloyat florasida jami 353 ta terofit tur aniqlangan bo‘lib, ular 195 ta turkum va 32 ta oilaga mansubdir.

Bu ko‘rsatkich terofitlar hudud florasida eng yirik hayotiy shakl guruhlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Terofit turlarning oilalar bo‘yicha taqsimlanishi *(2-jadvalda)* keltirilgan.

Terofit turlar asosan *Amaranthaceae, Asteraceae, Brassicaceae, Fabaceae, Poaceae, Caryophyllaceae, Polygonaceae* va *Apiaceae* kabi oilalar tarkibida keng tarqalgan. Ayniqsa, *Asteraceae* va *Poaceae* oilalarida turlar sonining ko‘pligi kuzatiladi. Terofitlar ochiq landshaftlar, buzilgan yerlar hamda qishloq xo‘jaligi maydonlarida keng tarqalgan bo‘lib, floraning ekologo-geografik xususiyatlarini baholashda muhim indikator guruh hisoblanadi.

Andijon viloyati florasi turlarini ekologik guruhlar va hayotiy shakllar kesimida tahlil qilish hudud o‘simlik qoplamining ekologik tuzilishi va barqarorlik xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Jadval ma’lumotlarini tahlil qilish natijasida flora tarkibida bir nechta asosiy ekologik guruhlar shakllangani kuzatildi.

Xulosa sifatida aytish joizki, Andijon viloyati florasi turlarining hayotiy shakllar spektri hudud florasining yuqori darajadagi ekologik moslashuvchanligini va turli muhit sharoitlariga javob berish qobiliyatini yaqqol namoyon etadi. Hayotiy shakllar bo‘yicha tahlil C. Raunkiaer klassifikatsiyasi asosida amalga oshirilib, flora tarkibida fanerofit, xamefit, gemikriptofit, kriptofit va terofit guruhlari aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Andijon viloyati florasida terofit va gemikriptofit turlar ustunlik qilib, bu holat viloyat hududida tekislik, tog‘ oldi va quyi tog‘ mintaqalarining keng tarqalganligi, shuningdek, mavsumiy iqlim o‘zgarishlari va antropogen ta’sirlar bilan izohlanadi. Olingan natijalar floraning ekologo-geografik xususiyatlarini chuqur baholash, bioxilma-xillikni saqlash va tabiiy ekotizimlarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. Begon M., Townsend C., Harper J. Ecology: From Individuals to Ecosystems. – Oxford: Blackwell, 2006.
2. Magurran A.E. Measuring Biological Diversity. – Oxford: Blackwell, 2004.
3. Kowarik, I. (2003). Human agency in biological invasions: Secondary releases foster naturalization and population expansion of alien plant species. Biological Invasions, 5(4), 293–312. https://doi.org/10.1023/A:1026149806845
4. Khassanov, F.O. & Rakhimova, N. (2012) Taxonomical revision of genus Iris L. (*Iridaceae* Juss.) in the flora of Central Asia // Stapfia - Linz: Landes Museum, 97: 121-126.
5. Sidikhanov N.M., Naralieva N.M. Adventive Species Belong to The Asteraceae Juss Family, Which Were Distributed in Andijan City Urban Flora. // Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences // Biology, 2023, – P. 28-31
6. Tojibaev K.Sh. Дополнение к флоре Узбекистана. Часть I. // Узбекский биол. журн. – Tashkent: Fan, 2009. №3. 26-29 b.
7. Tojibaev K.Sh., Esanov H.K. Современное состояние изученности инвазионних видов Узбекистана //Scientific notice. Series:Biological research, Andijan-2021, No. 8(60). 5-15p.
8. Tojibaev K.Sh., Karimov F.I., Naralieva N.M., Gapporov F.SH. О ключевых ботанических территориях в Ферганской долине // Вестник НУ Уз. – Tashkent: NUUZ, 2012. - № 3 –235-237 b.
9. McKinney, M. L. (2006). Urbanization as a major cause of biotic homogenization. Biological Conservation, 127(3), 247–260. https://doi.org/10.1016/j.biocon.2005.09.005
10. Pyšek, P., & Richardson, D. M. (2010). Invasive species, environmental change and management, and health. Annual Review of Environment and Resources, 35, 25–55. https://doi.org/10.1146/annurev-environ-033009-095548
11. Silc, U. (2008). Response of synanthropic vegetation to environmental disturbance in Central Europe. Plant Biosystems, 142(2), 409–418. https://doi.org/10.1080/11263500802150976
12. Zajac, M., & Zajac, A. (2015). Synanthropic flora of Poland: Composition and recent changes. Acta Botanica Croatica, 74(2), 289–305. https://doi.org/10.1515/botcro-2015-0018
13. Weber, E. (2003). Invasive Plant Species of the World: A Reference Guide to Environmental Weeds. CABI Publishing.
14. Mack, R. N., Simberloff, D., Lonsdale, W. M., Evans, H., Clout, M., & Bazzaz, F. A. (2000). Biotic invasions: Causes, epidemiology, global consequences, and control. Ecological Applications, 10 (3), 689–710. https://doi.org/10.1890/1051-0761(2000)010[0689:BICEGC]2.0.CO;2
15. Martínez Carretero, E. E. (2011). Synanthropic vegetation of Mendoza City (Argentina): A contribution to urban ecology. Urban Ecosystems, 14(4), 609–624. https://doi.org/10.1007/s11252-011-0176-7
16. Sanderson, B. S. (2009). The relationship between synanthropic plant distribution and urban environmental quality. Environmental Monitoring and Assessment, 150, 1–10. https://doi.org/10.1007/s10661-008-0660-4
17. Chuvashov, A. V., & Malov, D. N. (2020). Ruderal flora in the urban landscapes of Jigulsk City, Russia. Contemporary Problems of Ecology, 13(1), 75–83.)
18. The IUCN Red List of Threatened Scpecies – https://www.iucnredlist.org/ (murojaat etilgan sana: 18.10.2022).
19. WorldClim Global climate and weather data – https://www.worldclim.org (murojaat etilgan sana: 05.08.2023)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Imomov Otabek Normirzoyevich,**
Namangan davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: Otabekimomov184@gmail.com

**UO'K: 581.5:502.3:528.8**

## TABIIY YAYLOVLAR VA ULARDAN BARQAROR FOYDALANISH BO'YICHA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR HAMDA FARG'ONA VODIYSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada tabiiy yaylovlarning ekologik holati, ularning degradatsiya jarayonlari va barqaror foydalanish masalalari zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Masofaviy zondlash, GIS va vegetatsiya indekslariga asoslangan monitoring yondashuvlar hamda Markaziy Osiyo va O'zbekiston tajribasi umumlashtirilgan. Farg'ona vodiysi misolida yaylovlarni kompleks baholash va samarali boshqarish istiqbollari asoslab berilgan.*

***Tayanch so'zlar:*** *tabiiy yaylovlar, degradatsiya, ekologik monitoring, masofaviy zondlash, NDVI, Farg'ona vodiysi.*

**Имомов Отабек Нормирзоевич,**
доцент Наманганского государственного университета, PhD

## СОВРЕМЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПО ПРИРОДНЫМ ПАСТБИЩАМ И ИХ УСТОЙЧИВОМУ ИСПОЛЬЗОВАНИЮ, А ТАКЖЕ ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются современные научные исследования, посвящённые экологическому состоянию, процессам деградации и устойчивому использованию природных пастбищ. Проанализированы методы дистанционного зондирования, ГИС и вегетационные индексы с учётом мирового, центральноазиатского и узбекского опыта. На примере Ферганской долины обоснованы перспективы комплексного мониторинга и рационального управления пастбищами.*

***Ключевые слова:*** *природные пастбища, деградация земель, экологический мониторинг, дистанционное зондирование, NDVI, Ферганская долина*

**Imomov Otabek Normirzoyevich,**
Associate Professor of Namangan State University, PhD

## MODERN RESEARCH ON NATURAL RANGELANDS AND THEIR SUSTAINABLE USE, AS WELL AS PROSPECTS FOR APPLICATION IN THE FERGANA VALLEY

***Abstract****. This article reviews modern scientific approaches to assessing the ecological condition, degradation processes, and sustainable use of natural rangelands. Remote sensing, GIS techniques, and vegetation indices are analyzed with a focus on global, Central Asian, and Uzbek reseach experience. The prospects for integrated monitoring and sustainable management of rangelands are discussed using the Fergana Valley as a case study.*

***Keywords****: natural rangelands, land degradation, ecological monitoring, remote sensing, NDVI, Fergana Valley.*

**Kirish.** Tabiiy yaylovlar sayyoramizning quruqlik qismini 54 % tashkil qiladi [***21***]. Yaylov ekotizimlari global ekologik barqarorlikni ta'minlashda ishtirok etadi, jumladan, biologik xilma-xillikni saqlash va iqlim omillarini tartibga solish vazifalarini bajaradi. Biroq, ko'plab yaylovlar quruq va yarim quruq iqlim mintaqalarida joylashgan bo'lib, nisbatan kam va beqaror yog'ingarchilik sharoitida shakllangan. Bu esa ularni iqlim o'zgarishi va noto'g'ri foydalanish jarayonida degradatsiyaga uchrashining asosiy sabablari hisoblanadi. Markaziy Osiyo mintaqasi tabiiy yaylovlari bunga yorqin misoldir. Ushbu ulkan yaylovlar asrlar davomida chorvachilik va ko'chmanchi madaniyatlar uchun tayanch bo'lib kelgan. Shu bilan birga ular yirik bioxilmaxillik manbai sifatida ham tadqiqotchilarni o'ziga jalb etadi. Mintaqada XX asr oxiri va XXI asr sodir bo'lgan ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar an'anaviy yaylovlardan foydalanish tartibining muvozanatini izdan chiqishiga sabab bo'ldi. Bu omillar Markaziy Osiyo yaylovlarining keng degradatsiyasiga sabab

bo‘ldi, bunda yem-xashak mahsuldorligi pasayib, ekotizimlar muvozanati buzilmoqda. Masalan, O‘zbekistonda jami 23 million gektardan ziyod tabiiy yaylovlar mavjud [33], ularning o‘rtacha mahsuldorligi keskin tushib, hozirda quruq biomassa hosildorligi atigi 2,5–3,2 s/ga atrofida qayd etilgan [33]. Yaylovlarning ekologik sifatining yomonlashuvi bioxilmaxillikga, qishloq xo‘jaligi barqarorligiga va mintaqadagi oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solmoqda. Bu esa yaylovlarni saqlab qolish bo’yicha zamonaviy tadqiqotlar olib borishni talab etmoqda.

**Dunyo miqyosida olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlar.** Jahonning ko‘lab ilmiy markazlari va universitetlarida tabiiy yaylovlardan barqaror foydalanish bo‘yicha zamonaviy ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, xususan Amerika qo‘shma shtatlarida: Agricultural Research Service, Colorado State University, University of Wyoming, University of Montana. Avstraliyada: Commonwealth Scientific and Industrial Research Organisation, Australian National Universit). Niderlandiyada: Wageningen University & Research. Shveysariya: ETH Zurich; Buyuk Britaniya: University of Oxford. Xitoyda: Chinese Academy of Sciences, China Agricultural University, Shvetsiyada: Swedish University of Agricultural Sciences. Janubiy Afrika Respublikasida: University of Cape Town. Keniyada: International Livestock Research Institute. Livanda: International Center for Agricultural Research in the Dry Areas. O‘zbekiston Fanlar akademilasi Botanika instituti, Qishloq xo’jaligi vazirligi huzuridagi «O‘zdavyerloyiha» davlat ilmiy-loyihalash instituti.

Tabiiy yaylovlarni o’rganish bo’yicha turli yo’nalishlarni ko’rishimiz mumkin. Xususan yaylovlar tiplari va xillarini ajratish orqali ularning ekologik xususiyatlari, mahsuldorligi va foydalanish imkoniyatlari, har bir yaylov tipining muayyan iqlim sharoiti, balandlik mintaqasi, tuproq tarkibi, namlanish darajasi va o‘simliklar jamoasining tuzilishi olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda [6; 60]. Bunday tadqiqotlar orqali yaylovlarda yem-xashak salohiyati va degradatsiya jarayonlari aniqlanadi. Geobotanik tadqiqotlar yaylov ekotizimining haqiqiy ekologik holatini aniqlash uchun zarur, chunki o‘simliklar jamoasi yaylovning mahsuldorligi, barqarorligi va degradatsiya darajasini aniq aks ettiradi. Olimlar tomonidan olib borilayotgan geobotanik tadqiqotlar orqali o‘simlik turlarining tarkibi, ularning nisbiy ulushi, dominant va subdominant turlar, yem-xashak qiymatiga ega bo‘lgan va chorva yemaydigan turlar nisbati o’rganilmoqda [6; 12; 26;62], bu esa yaylovdan foydalanishning holatini real baholash imkonini beradi.

Tabiiy yaylovlar o‘simliklarining biomassasi, mahsuldorligi va yem-xashak sifati yaylov ekotizimining iqtisodiy va ekologik ahamiyatini kompleks baholash orqali yaylovlarning salohiyatini, chorva yuklamasiga chidamliligini hamda mavsumiy o‘zgaruvchanligi dunyo olimlari tomonidan tadqiq etilmoqda [4; 7; 8; 9; 10; 16; 18; 30; 34; 36; 47]. Bu orqali yem-xashak o’simliklari sifati, o‘simliklar massasining hazm bo‘lish darajasi, protein va energiya qiymati orqali mahsuldorlikga ta’sirini aniqlash imkonini beradi.

Hozirgi kunda yaylovlarni masofaviy zondlash, vegetatsiya indekslari (NDVI, EVI, LAI, GPP, AGB va boshqalar) hamda modellashtirish orqali baholash va bashoratlash yaylovlar holatini katta hududlarda, muntazam va obyektiv tarzda kuzatish imkonini bermoqda. Bu yondashuv yordamida o‘simliklar qoplamining zichligi, biomassa zaxirasi, mahsuldorlik dinamikasi va degradatsiya jarayonlari vaqt bo‘yicha aniqlanib, kelajakdagi o‘zgarishlar oldindan prognoz qilinmoqda [3; 4; 5; 7; 9; 10; 11; 14; 16; 23; 24; 29; 30; 32; 36; 37; 38; 42; 46; 47; 48; 51; 52; 61;]. Bu orqali xavfli degradatsiya bosqichlarini erta aniqlash, iqlim va antropogen omillar ta’sirini baholash hamda yaylovlardan barqaror va oqilona foydalanish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun ishonchli ilmiy axborot yaratiladi.

Dunyo miqyosida olimlar yaylovlarda ekologik monitoringni rivojlantirish maqsadida masofaviy zondlash, uzoq muddatli vaqt qatorlari, dala tadqiqotlari, ekologik ma’lumotlar va statistik-modellashtirish usullarini birlashtirib integratsiyalashgan monitoring tizimlarini ishlab chiqmoqdalar. Asosiy tadqiqotlar o‘simlik qoplami dinamikasi, biomassa va mahsuldorlik o‘zgarishi, degradatsiya va tiklanish jarayonlari, chorva bosimi hamda iqlim omillarining ta’sirini aniqlashga qaratilgan va turli sensorlardan, vegetatsiya indekslari, iqlim va tuproq ma’lumotlarini mashinaviy o‘rganish modellariga integratsiyalash orqali biomassa, mahsuldorlik, degradatsiya va boshqaruv intensivligini aniq baholashga qaratilgan [3; 4; 5; 7; 9; 12; 13;14; 17; 20; 24; 26; 27; 28; 29; 32; 37; 41; 45; 51; 52; 53; 58; 62]. Bunda Sentinel va Landsat sun’iy yo‘ldoshlari, NDVI, GPP, AGB, yer qoplami va ekotizim holati indekslari orqali yaylovlarning fazoviy-vaqtinchalik holati baholanib, xavfli hududlar aniqlanadi va barqaror boshqaruv hamda tiklash choralarini ilmiy asoslash uchun global va mintaqaviy miqyosda ma’lumotlar bazalari yaratilmoqda. Bunday integratsiyalashgan yondashuvlar yaylov holatini obyektiv tahlil qilish, noaniqliklarni kamaytirish va barqaror foydalanish bo‘yicha ilmiy asoslangan qarorlar ishlab chiqish imkonini bermoqda.

**Markaziy Osiyo va O’zbekistonda olib borilayotgan tadqiqotlar.** Oxirgi 10-15 yillarda Markaziy Osiyo yaylovlarining degradatsiyasi muammosi xalqaro ilmiy nashrlarda tez-tez ko’zga ko’rinmoqda. Mintaqada yaylov degradatsiyasining o‘ziga xos jihati shundaki, ko‘pincha sifat degradatsiyasi (o‘simliklar qoplami tarkibining o‘zgarishi) keng tarqalgan. N.G. Kharin (2002) o‘z tadqiqotida 2000-yillar boshiga kelib Markaziy Osiyo yaylovlarining 59% qismida aynan sifat degradatsiyasi yem-xashak uchun qimmatli hisoblangan o‘simliklar turlarining kamayib, aksincha chorva yemaydigan o’simliklarning keng tarqalishi sodir bo‘lganini qayd etgan. Qirg‘iziston tog‘ yaylovlarida 1970-yillarda hayvonlar iste’mol qilmaydigan begona o’simliklar qoplamning 36% qismini tashkil qilgan bo‘lsa, 2010-yillarga kelib bu

ko‘rsatkich qariyb 49% ga yetgan [62]. Natijada, yaylovlarning yem-xashak salohiyati pasaygan. Ushbu ma’lumotlar yaylovlarda degradatsiyasining sifat jihati, ya’ni yem-xashak qiymatiga ega bo‘lmagan turlar ko‘payib borayotganini ifodalaydi. Bunday o‘zgarish chorva uchun oziqa bazasini qisqartirib, yaylov ekotizimidagi ekologik muvozanatga salbiy ta’sir qiladi.

Markaziy Osiyoda ham yaylovlarni masofaviy zondlash va GIS yordamida monitoring qilish bo‘yicha tadqiqotlar mavjud. Masalan, Qirg‘izistonning Naryn viloyatida olimlar 2008–2015 yillarda yilma-yil dala tadqiqotlari o‘tkazib, o‘simliklar qoplami va biomassasini o‘lchagan hamda bu ma’lumotlarni sun’iy yo‘ldoshdan olingan NDVI xaritalari bilan taqqoslangan. Natijada, yer usti ma’lumotlari va NDVI asosida tuzilgan degradatsiya xaritasi o‘rtasida 80–90%ga yaqin moslik borligi aniqlangan [62]. Bu kabi tadqiqotlar masofaviy kuzatuvlar daladan olingan ko‘rsatkichlar bilan tasdiqlangandagina ishonchli bo‘lishini va aks holda xatolik ehtimoli yuqori ekanini ko‘rsatib bermoqda. Qozog‘istonda olib borilgan ayrim tadqiqotlar esa NDVI o‘zgarishlarini iqlim trendlaridan ajratib o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, mamlakat yaylovlarida o‘tgan o‘n yilliklarda NDVI dinamikasi va yog‘ingarchilik-harorat o‘zgarishlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilingan [56].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistondagi tabiiy yaylovlarning 40% dan ortig‘i degradatsiyaga uchragan bo‘lib, buning asosiy sababi yaylovlardan noto‘g‘ri foydalanish ekani ta’kidlangan [15]. Mamlakat miqyosida yerlarning degradatsiyasi davom etmoqda, 1990–2020 yillar oralig‘ida tuproqlarda gumus miqdori 1,3–1,5 baravarga kamaygani va ayniqsa yaylovlar holati yomonlashib borayotgani aniqlangan [57]. Bu kabi ko‘rsatkichlar bioxilmaxillikga, atrof – muhitga va chorvachilikka bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda yaylovlar o‘simliklarini o‘rganish bo‘yicha bir qator maktablar faoliyat olib borgan. Xususan I.I. Granitov (1964), V.A. Burigin (1956), R.S. Vernik, O.X. Xasanov (1977) kabi olimlar tabiiy yaylovlar o‘simliklari qoplami, ulardan ratsional foydallanish, fitomelioratsiyasi, yem-xashak bazasi va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borgan. Keyinchalik K.N. Toderich (2014), A.R. Rabbimov (2016), Raximova va bosqalar (2018), X.F. Shomurodov (2018), O‘.Xo‘janazarov (2022), T.F. Rajabov (2022), B.A. Adilov (2021), N.K. Raximova (2025) kabi tadqiqotchilar tomonidan O‘zbekiston yaylovlarining zamonaviy holati, floristik tarkibi, yem-xashak o‘simliklar biologiyasi va degradatsiya muammolari bo‘yicha muhim ilmiy ishlar amalga oshirildi.

Oxirgi yillarda O‘zbekistonning asosan voha hududlarida masofadan zondlash va dala tadqiqotlari uyg‘unligida bir qator tadqiqotlar olib borilgan [1; 2; 22; 31; 33; 35; 49]. Mazkur tadqiqotlarda Orol dengizining qurigan tubi, uning atrofidagi yaylovlar, Nurota qo‘riqxonasi, voha hududidagi yaylovlar va agrolandshaftlar tadqiq etilgan.

**Farg’ona vodiysida olib borilgan tadqiqotlar va uning istiqbollari.** Rasmiy ma’lumotlarga asosan Farg‘ona vodiysining tabiiy maydoni 22 ming km²ni tashkil etishi qayd qilingan. Ko’p yillik metiorologik ma’lumotlarga ko‘ra yog’in miqdori 100–300 mmni tashkil qiladi. Tabiiy yaylovlar esa asosan vodiyning adirlari, tog‘ oldi va tog’li hududlaridagina saqlanib qolgan. Farg‘ona vodiysi O‘zbekistonning eng zich aholi istiqomat qiladigan, chorvachilik rivojlangan hududlaridan biri bo‘lib, yaylovlari asosan 500–1600 m balandlikdagi adir, tog‘ etaklarida joylashgan. O‘zbekiston kadastr agentligi ma’lumotiga ko‘ra, Farg‘ona vodiysining O‘zbekiston qismida 189,1 ming gektar tabiiy yaylov maydoni mavjud. Biroq, so‘nggi yillarda yaylovlardan foydalanish bosimi ortgani kuzatilmoqda, xususan chorva sonining ko‘payishi, yil davomida bir xil uchastkalarda tinimsiz chorva boqish, yaylovlarni qayta tiklanishining buzilishi, o‘simlik qoplamining siyraklashuvi, tuproq eroziyasi va biologik xilma-xillikning kamayishi kabi salbiy jarayonlar kuchaydi. Ushbu omillar natijasida yem-xashak uchun foydali bo‘lgan o‘simliklar kamayib, ularning o‘rnini chorva yemaydigan o‘t va butalar egallamoqda. Yaylovlarning holatini samarali monitoring qilish va ularni to‘g‘ri boshqarish Farg‘ona vodiysi uchun ustuvor vazifa sanaladi.

1967 yildan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika institutining o’sha davrdagi «O‘simliklar ekologiyasi» laboratoriyasi xodimlari Farg‘ona vodiysi adirlarining o‘simliklari qoplami, ekologiyasi, ulardan yem – xashak turlarni ajratib olib, madaniylashtirish ustida ilmiy - tadqiqot ishlarini olib bordilar. Bu tadqiqotlarda juda ko‘plab olimlar ishtirok etdilar, joyning geografik o‘rni, o‘simliklar qoplami R.S. Vernik va T.T. Rahimova, madaniylashtiralayotgan o‘simliklar ustida kuzatishlar R.S. Vernik, O.X. Xasanov, L.Ye. Markova, S.F. Tadjiyev, A.Usmonaliyev, o‘simliklar suv rejimi T.U. Raximova, N. Muxitdinovlar tomonidan o‘rganilgan (1977) [67]. Mazkur tadqiqotlar 1990 yillargacha davom etgan.

Farg‘ona vodiysi florasi va o‘simlik jamoalari xususiyatlari ko’plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Masalan, M.M. Arifxanova (1967) vodiyning floristik tarkibini tadqiq qilgan bo’lib, Q.Z.Zokirov tasnifi bo‘yicha cho‘l, pastki adir, yuqori adir, tog‘ va yaylov o‘simliklar qoplamini asosiy tiplarga ajratgan holda Farg‘ona vodiysi florasi uchun 97 oila, 717 turkumga mansub 2625 tur o‘sishini qayd etgan [63]. O.N. Bondarenko (1955) Namangan viloyati o’simliklari va ularning xo’jalikdagi ahamiyatini tadqiq etgan. U Namangan viloyati adirlari o‘simliklar qoplamini uch tipga: kserofit-yarim butalar, efemerlar, bargli kserofit o‘simliklarga bo’lgan [64]. T.S. Vernik va T. Raximovalar (1982) Namangan viloyati adirlari yaylovlari va tabiiy o’simliklar qoplamini geobotanik tahlil qilgan va Namangan viloyati adir mintaqasi tabiiy

o‘simliklar qoplamida 46 oilaga mansub 224 turkum, 364 tur ro‘yxatga olgan, hamda viloyat adirlarini termokserofit (Thermoxerophytia) klimatipiga kiritib, joyni o‘simliklar qoplamini ikki katta senotipga ajratdilar. Bular Xerohemithamnisca senotipi – tog‘ oldi va quyi tog‘ hududlarining yarimbuta kserofil o‘simliklari va Mixtoxeropoia – tog‘ oldi hududlarining mezokserofil o‘t o‘simliklari [66]. Kserofil yarimbutta (Xerohemithamnisca) syenotipiga mansub, Sug‘d shuvog‘i (Artemisia sogdiana) formatsiyasi hukmronligini belgilab, uni 22 assosiatsiyasini belgilab, ularga to’liq ta’rif bergan [66].

Shuningdek, K.Sh. Tojibayev (2002, 2010) g’arbiy Tyan Shan hududning florasi, noyob va endemik o‘simlik turlarini ro‘yxatga olib, ularning tarqalishini o’rgangan. K.Sh. Tojibayev rahbarligidagi jamoa (2022, 2025) tomonidan Farg‘ona vodiysi va unga tutash hududlarning floristik boyligi haqida yangi ma’lumotlar bergan. Unda 2018–2021-yillar davomida mualliflar dala tadqiqotlarini olib borgan va Farg‘ona vodiysidan ilgari yig‘ilib, O‘zbekiston Milliy gerbariysida (TASH) saqlanayotgan namunalarni qayta aniqlagan. Ularning ma’lumotlariga ko’ra floristik, geobotanik va to‘plangan ma’lumotlar tahlili natijasida shimoliy tog‘ oldi hududlaridagi badlendlar (Chap uchastkasi va unga tutash hududlar) IPA (Important Plant Area) hududi sifatida belgilan [54]. Shuningdek, K.Sh. Tojibayev rahbaligida vodiyning janubiy qismida joylashgan Sho’rsuv massivi florasi tadqiq etilib, IPA hududi sifatida belgilab, Markaziy Osiyoda birinchi bo’lib IPA mezonlari asosida tadqiq etilgan [55]. F.I. Karimov (2016) vodiyning bir urug’ pallali geofit o’simlillarini o’rganib, ularining 9 oila, 25 turkum, 210 turlarini zamonaviy konspektini tuzgan [25]. X.R. Hoshimov (2023) esa Farg’ona vodiysining shimoliy adirlari florasini tadqiq qilib, 62 oila, 355 turkumga mansub 804 turini ro’yxatga olib, izohli konspektini tuzgan [19].

Yuqorida ta’kidlangan dunyo miqyosida olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ilm-fanda yaylovlarni masofadan zondlash, ulkan ma’lumotlar tahlili va an’anaviy dala tadqiqotlarini birlashtirgan integrativ monitoring hamda ilmiy asoslangan boshqaruv modellarini tatbiq etish ustuvor yo‘nalish bo‘lib bormoqda. Endilikda bu tajribalarni Markaziy Osiyo, xususan Farg’ona vodiysi sharoitiga amalga oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Farg‘ona vodiysida hozirga qadar tabiiy yaylovlarda fitomelioratsiyaga oid tadqiqotlar, geobotanik izlanishlar, o‘simliklar dunyosining floristik tarkibi, adir va tog‘ hududlari yaylovlarida olib borilgan tadqiqotlar qimmatli ma’lumotlarni bergan bo‘lsada, hozirgi kunda vodiy miqyosida kompleks yem xashak o’simliklari va yaylovlarning zamonaviy holati monitoringini olib borish ehtiyojlari mavjud. Masalan, hozirga qadar Farg‘ona vodiysi tabiiy yaylovlarining raqamli xaritalari, oxirgi yillardagi o’simliklar jamoalaridagi o’zgarishlar, turlar tarkibi, turli yillarda degradatsiya darajasi o’zgarishini ko‘rsatuvchi tahliliy ma’lumotlar yetarli emas. Tahlillar shuni ko’rsatmoqdaki Farg‘ona vodiysi misolida, umuman Markaziy Osiyoda tabiiy yaylovlar monitoringi va ulardan foydalanish bo‘yicha hali bajarilishi lozim bo‘lgan qator vazifalar mavjud. Xususan, mintaqada yaylovlarning butun hududiy qamrovi va ko‘p yillik tendensiyalarini o‘z ichiga olgan monitoring tizimi to’liq shakllanmagan. Shu bois, kelgusida Markaziy Osiyo, xususan Farg‘ona vodiysi yaylovlari uchun yirik miqyosli, muntazam monitoring dasturlarini ishlab chiqish zarur. Bu ishda sun’iy yo‘ldosh monitoringidan foydalanish eng maqbul yo‘l bo‘lib, uni albatta dala tadqiqotlaridan olingan ma’lumotlar bilan bog‘lash talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Farg‘ona vodiysi tabiiy yaylov hududlarida ekologik zarurat va inson manfaatlari o’zaro uyg‘unlashtirilishi lozim. “Rangeland health” yoki yaylovlarning ekologik holati konsepsiyasi bizga tuproq, o‘simlik va boshqa jarayonlarning barqarorligini baholash imkonini beradi, zamonaviy monitoring usullari esa degradatsiya alomatlarini erta bosqichdayoq aniqlab, choralar ko‘rish uchun asos yaratadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, degradatsiyaga uchragan yaylovlar ham ilmiy yondashuv va to‘g‘ri boshqaruv orqali tiklanishi, chorvachilik esa mo‘tadil yuklama ostida ham foydali va hatto ko‘proq barqaror bo‘lishi mumkin. Bu jarayonda eng muhimi ilm-fan va amaliyot integratsiyasi, olimlar, mahalliy chorvadorlar va siyosat ishlab chiquvchilar hamkorligida ish olib borilgandagina, yaylov ekotizimlarini kelajak avlodlar uchun saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish maqsadiga erishish mumkin.

**Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Adilov, B. A., Shomurodov, Kh. F., Polvonov, F. I., Eshmuratov, R. A., & Tamambetova, Sh. (2021). Changes in the biomass of vegetation in the Aral Sea region. *International Journal of Multidisciplinary Research and Analysis, 4*(5). https://doi.org/10.47191/ijmra/v4-i5-29

2. Alikhanova, S., Tarantino, C., & Bull, J. W. (2025). Tracking vegetation dynamics in drylands with MSAVI. *Earth Systems and Environment*. https://doi.org/10.1007/s41748-025-00705-z

3. Andreatta, D., Gianelle, D., Scotton, M., Vescovo, L., & Dalponte, M. (2022). Detection of grassland mowing frequency using time series of vegetation indices from Sentinel-2 imagery. *GIScience & Remote Sensing, 59*(1), 481–500. https://doi.org/10.1080/15481603.2022.2036055

4. Azubuike, B. N., Chlingaryan, A., Correa-Luna, M., Clark, C. E. F., & Garcia, S. C. (2025). Data augmentation and interpolation improves machine learning-based pasture biomass estimation from Sentinel-2 imagery. *Remote Sensing, 17*, 3787. https://doi.org/10.3390/rs17233787

5. Bartold, M., Kluczek, M., Wróblewski, K., Dąbrowska-Zielińska, K., Goliński, P., & Golińska, B. (2024). Mapping management intensity types in grasslands. *Scientific Reports, 14*, 32066. https://doi.org/10.1038/s41598-024-83699-4

6. Borchardt, P., Schickhoff, U., Scheitweiler, S., & Kulikov, M. (2011). Mountain pastures and grasslands in the SW Tien Shan, Kyrgyzstan – Floristic patterns, environmental gradients, phytogeography, and grazing impact. *Journal of Mountain Science, 8*, 363–373. https://doi.org/10.1007/s11629-011-2121-8

7. Cândido, B., Mindala, U., Ebrahimy, H., Zhang, Z., & Kallenbach, R. (2025). Integrating proximal and remote sensing with machine learning for pasture biomass estimation. *Sensors, 25*, 1987. https://doi.org/10.3390/s25071987

8. Chen, Y., Guerschman, J., Shendryk, Y., Henry, D., & Harrison, M. T. (2021). Estimating pasture biomass using Sentinel-2 imagery and machine learning. *Remote Sensing, 13*, 603. https://doi.org/10.3390/rs13040603

9. Chiarito, E., Cigna, F., Cuozzo, G., Fontanelli, G., Aguilar, A. M., Paloscia, S., Rossi, M., Santi, E., Tapete, D., & Notarnicola, C. (2021). Biomass retrieval based on genetic algorithm feature selection and support vector regression in alpine grassland. *European Journal of Remote Sensing, 54*(1), 209–225. https://doi.org/10.1080/22797254.2021.1901063

10. Cicuéndez, V., Inclán, R., Sánchez-Cañete, E. P., Román-Cascón, C., Sáenz, C., & Yagüe, C. (2024). Modeling gross primary production (GPP) of a Mediterranean grassland in central Spain using Sentinel-2 NDVI and meteorological field information. *Agronomy, 14*, 1243. https://doi.org/10.3390/agronomy14061243

11. Clevers, J. G. P. W., & Gitelson, A. A. (2013). Remote estimation of crop and grass chlorophyll and nitrogen content using red-edge bands on Sentinel-2 and -3. *International Journal of Applied Earth Observation and Geoinformation, 23*, 344–351.

12. Danzhalova, E. V., Bazha, S. N., Gunin, P. D., Drobyshev, Y. I., Kazantseva, T. I., Prischepa, A. V., Slemnev, N. N., & Ariunbold, E. (2012). Indicators of pasture digression in steppe ecosystems of Mongolia. *Exploration into the Biological Resources of Mongolia*.

13. Derner, J. D., Wilmer, H., Stackhouse-Lawson, K., Place, S., & Boggess, M. (2023). Practical considerations for adaptive strategies by US grazing land managers with a changing climate. *Agrosystems, Geosciences & Environment, 6*, 1–13. https://doi.org/10.1002/agg2.20356

14. Du, Z., Ji, X., Liu, J., Zhao, W., He, Z., Jiang, J., Yang, Q., Zhao, L., & Gao, J. (2025). Ecological health assessment of Tibetan alpine grasslands. *Geo-spatial Information Science, 28*(1), 246–264. https://doi.org/10.1080/10095020.2024.2311862

15. FAO. (2023). *Integrated land use management systems in Uzbekistan – Part 1: Case studies and governance recommendations*. https://doi.org/10.4060/cc6132en

16. Fernandes, M. H. M. R., Fernandes Junior, J. S., Adams, J. M., Lee, M., Reis, R. A., & Tedeschi, L. O. (2024). Using Sentinel-2 and machine learning to predict tropical pasture forage mass. *Scientific Reports, 14*, 8704. https://doi.org/10.1038/s41598-024-59160-x

17. Furnitto, N., Ramírez-Cuesta, J. M., Intrigliolo, D. S., Todde, G., & Failla, S. (2025). Remote sensing for pasture biomass quantity and quality assessment. *Smart Agricultural Technology, 12*, 101057. https://doi.org/10.1016/j.atech.2025.101057

18. Gao, J., Liang, T., Feng, Q., He, Z., Wang, J., & Zhang, D. (2025). Mapping forage quality parameters based on Sentinel-2 images. *Geospatial Information Science*. https://doi.org/10.1080/10095020.2025.2527353

19. Hoshimov, X. R. (2023). *Farg'ona vodiysi shimoliy adirlarining florasi*. Biol. fan. fal. dok. (PhD) avtoreferati. Toshkent.

20. Houinato, R. K., Idohou, R., Glèlè Kakaï, R. L., & Brostaux, Y. (2026). Modelling and remote sensing techniques for rangeland monitoring. *Trees, Forests and People, 23*, 101102. https://doi.org/10.1016/j.tfp.2025.101102

21. ILRI, IUCN, FAO, WWF, UNEP, & ILC. (2021). *Rangelands Atlas*. ILRI.

22. Isomov, J. A., Khabibullaev, B. Sh., Shomurodov, Kh. F., Beshko, N. Yu., Kosimov, Z. Z., Fayziev, K. O., Abulfayzov, Kh. Sh., & Ibragimov, H. R. (2025). Long-term NDVI trends and terrain characteristics in the natural ecosystem of the Nuratau Nature Reserve. *Advances in Science and Environment, 1*(10), 10–16. https://doi.org/10.70728/envire.v01.i10.003

23. Jackson, T. J., Chen, D., Cosh, M., Li, F., Anderson, M., Walthall, C., Doriaswamy, P., & Hunt, E. R. (2004). Vegetation water content mapping using Landsat data derived normalized difference water index. *Remote Sensing of Environment, 92*, 475–482.

24. Jawarneh, R. N., Makhamreh, Z., Obeidat, N., & Al-Taani, A. A. (2025). Comprehensive assessment of rangeland suitability for grazing. *Geographies, 5*, 63. https://doi.org/10.3390/geographies5040063

25. Karimov, F. I. (2016). *Farg'ona vodiysining bir urug'pallali geofitlari*. Doktolik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.

26. Kharin, N. (2002). *Vegetation degradation in Central Asia under the impact of human activities*. Kluwer Academic Publishers.

27. Khazieva, E., Verburg, P. H., & Pazúr, R. (2022). Grassland degradation by shrub encroachment: Mapping patterns and drivers of encroachment in Kyrgyzstan. *Journal of Arid Environments, 207*, 104849. https://doi.org/10.1016/j.jaridenv.2022.104849

28. Kilpatrick, A. D., Lewis, M. M., & Ostendorf, B. (2015). Rangeland condition monitoring. *PLoS ONE, 10*(11), e0142742. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0142742

29. Lausch, A., Bumberger, J., Jung, A., Pause, M., Selsam, P., Zhou, T., & Herzog, F. (2025). Monitoring agricultural land use intensity. *Agriculture, 15*, 2233. https://doi.org/10.3390/agriculture15212233

30. Liu, W., Xu, C., Zhang, Z., De Boeck, H., Wang, Y., Zhang, L., Xu, X., Zhang, C., Chen, G., & Xu, C. (2023). Machine learning-based grassland biomass estimation. *Frontiers in Ecology and Evolution, 11*, 1146850. https://doi.org/10.3389/fevo.2023.1146850

31. Mirzabaev, A., Ahmed, M., Werner, J., Pender, J., & Louhaichi, M. (2016). Rangelands of Central Asia: Challenges and opportunities. *Journal of Arid Land, 8*(1), 93–108. https://doi.org/10.1007/s40333-015-0057-5

32. Morais, T. G., Domingos, T., Falcão, J., Camacho, M., Marques, A., Neves, I., Lopes, H., & Teixeira, R. F. M. (2024). Permanent pastures identification using remote sensing. *Frontiers in Remote Sensing, 5*, 1459000. https://doi.org/10.3389/frsen.2024.1459000

33. Muminov, M. A., Nosirov, M. G., Mukimov, T., Normuradov, D. S., Khodjibabayev, K., Ismailkhujaev, B., Urokov, S., Kholiyev, A., Eshquvvatov, B. B., & Mamadoliev, I. I. (2025). Multi-faceted analysis of land use impact on rangeland health. *Journal of Ecological Engineering, 26*(1), 196–203. https://doi.org/10.12911/22998993/195472

34. Nandintsetseg, B., Chang, J., Sen, O. L., Reyer, C. P. O., Kong, K., Yetemen, O., Ciais, P., & Davaadalai, J. (2024). Future drought risk and adaptation of pastoralism in Eurasian rangelands. *npj Climate and Atmospheric Science*. https://doi.org/10.1038/s41612-024-00624-2

35. Nasibov, B. R., Polevshikova, Y. A., Xomidov, A. O., & Nasibova, M. R. (2021). Monitoring land cover using satellite images. *AIP Conference Proceedings, 2612*, 020028. https://doi.org/10.1063/5.0116511

36. Netsianda, A., & Mhangara, P. (2025). Aboveground biomass estimation in a grassland ecosystem using Sentinel-2 satellite imagery and machine learning algorithms. *Environmental Monitoring and Assessment, 197*, 138. https://doi.org/10.1007/s10661-024-13610-1

37. Netsianda, A., Mhangara, P., & Gidey, E. (2024). Grassland biome fragmentation analysis using Sentinel-2 images and support vector machine learning model in South Africa. *Discover Sustainability, 5*, 455. https://doi.org/10.1007/s43621-024-00723-3

38. Punalekar, S. M., Thomson, A., Verhoef, A., Humphries, D. J., & Reynolds, C. K. (2021). Assessing suitability of Sentinel-2 bands for nutrient monitoring. *Agronomy, 11*, 1661.

39. Rabbimov, A. R., & Mukimov, T. X. (2016). *Tog‘ oldi yarim cho‘l (adir) yaylovlaridan oqilona foydalanish va hosildorligini oshirishga oid tavsiyalar*. IKARDA.

40. Rajabov, T. F. (2025). *O‘zbekiston yarim cho‘l yaylovlari o‘simliklar qoplamining transformatsiyasi* (Doctoral dissertation abstract). Toshkent.

41. Rapiya, M., Ngcoliso, N., Qabaqaba, M., Truter, W., & Ramoelo, A. (2026). Sentinel-1 potential for monitoring forage productivity. *Journal of Arid Environments, 232*, 105494. https://doi.org/10.1016/j.jaridenv.2025.105494

42. Rapiya, M., Ramoelo, A., & Truter, W. (2023). Seasonal evaluation of aboveground biomass in rangelands. *Environmental Monitoring and Assessment, 195*, 1544. https://doi.org/10.1007/s10661-023-12133-5

43. Raximova, N. K. (2025). *Qoraqalpog‘iston ustyurti yaylovlarining zamonaviy holati* (Doctoral dissertation abstract). Toshkent.

44. Raximova, T., Shomurodov, X. F., Vohidov, Y. S., Adilov, B. A., Raximova, N. K., & Mayinov, S. Q. (2018). *O‘zbekiston cho‘l yaylovlarining hozirgi holati va ulardan oqilona foydalanish*. Navro‘z.

45. Retallack, A., Rifai, S., Finlayson, G., Ostendorf, B., & Lewis, M. (2024). Remote sensing for rangeland conservation monitoring: Impacts of livestock removal after 15 years. *Journal of Applied Ecology*. https://doi.org/10.1111/1365-2664.14730

46. Serrano, J., Shahidian, S., & da Silva, J. M. (2018). Monitoring seasonal pasture quality degradation. *Water, 10*, 1422.

47. Serrano, J., Shahidian, S., Paixão, L., Marques da Silva, J., & Paniágua, L. L. (2024). Pasture quality assessment through NDVI. *Agriculture, 14*, 1350. https://doi.org/10.3390/agriculture14081350

48. Serrano, J., Shahidian, S., Paixão, L., Marques da Silva, J., Morais, T., Teixeira, R., & Domingos, T. (2021). Spatiotemporal patterns of pasture quality. *Remote Sensing, 13*, 3820.

49. Shogdarov, D., Mukhtorov, U., Islomov, U., Sultanbekova, P., Nazarov, M., Ermakhametova, E., & Karimov, E. (2024). Study of assessment and monitoring of pastures land areas in hills based on GIS technologies. *E3S Web of Conferences, 590*, 01006. https://doi.org/10.1051/e3sconf/20245900100

50. Shomurodov, X. F. (2018). *Qizilqumning yem-xashak o'simliklari va ulardan foydalanish istiqbollari* (Doctoral dissertation abstract). Toshkent.

51. Soto, G. E., Wilcox, S. W., Clark, P. E., Fava, F. P., Jensen, N. D., Kahiu, N., Liao, C., Porter, B., Sun, Y., & Barrett, C. B. (2024). Mapping rangeland health indicators in eastern Africa from 2000 to 2022. *Earth System Science Data, 16*, 5375–5404. https://doi.org/10.5194/essd-16-5375-2024

52. Su, J., Wang, H., Luo, D., Yang, Y., Ma, S., Wu, P., & Wang, X. (2025). Grazing intensity estimation in temperate grasslands using machine learning models. *Ecological Indicators, 172*, 113318. https://doi.org/10.1016/j.ecolind.2025.113318

53. Su, R., Yang, Y., Chang, S., A, G., Yun, X., Song, X., & Liu, A. (2025). Quantifying grazing intensity from biomass differences. *Agronomy, 15*, 2537. https://doi.org/10.3390/agronomy15112537

54. Tojibaev KSh, Karimov FI, Hoshimov HR, Jang C-G, Na N-R, Park M-S, Chang K-S, Gil H-Y, Baasanmunkh S, Choi HJ (2022) Important plant areas (IPAs) in the Fergana Valley (Central Asia): The badlands of the northern foothills. Nature Conservation 49: 1–30. https://doi.org/10.3897/natureconservation

55. Tojibaev KS, Hoshimov HR, Gulomov RR, Sheraliev O.K, Karimov FI, Kor L, Batoshov AR, Baasanmunkh S, Jang JE, Jung J, Gil H-Y and Choi HJ (2025) Conservation priorities in Central Asia: the Shorsuv Massif IPA and its role in the Fergana Valley's biodiversity. Front. Conserv. Sci. 6:1629529. doi: 10.3389/fcosc.2025.1629529

56. Tokbergenova, A., Kaliyeva, D., Zulpykharov, K., Taukebayev, O., Salmurzauly, R., Assanbayeva, A., Mukhtarov, U., Bilalov, B., & Tokkozhayev, D. (2025). Climate change impacts on pasture ecosystems. *Sustainability, 17*, 10331. https://doi.org/10.3390/su172210331

57. Umarov, S., Nurbekov, A., Nishanov, N., Kosimov, M., Bobomurotov, S., Umarov, M., Khaitov, B., & Namozov, N. (2025). Land degradation in Uzbekistan. *Frontiers in Sustainable Food Systems, 9*, 1676403. https://doi.org/10.3389/fsufs.2025.1676403

58. Venier-Cambron, C., Helm, L. T., Malek, Z., & Verburg, P. H. (2024). Representing justice in global land-use scenarios can align biodiversity benefits with protection from land grabbing. *One Earth, 7*, 896–907.

59. Xo'janazarov, O'. E. (2022). *Qashqadaryo havzasining tog'oldi yaylovlari monitoringi* (Doctoral dissertation abstract). Nukus.

60. Zhang, M., Yu, W., Chen, A., Xu, C., Guo, J., Xing, X., Yang, D., Wang, Z., & Yang, X. (2024). Two-tier classification framework for mapping grassland types. *GIScience & Remote Sensing, 61*, 2385170. https://doi.org/10.1080/15481603.2024.2385170

61. Zhang, Y., Gao, J., Zhang, D., Liang, T., Wang, Z., Zhang, X., Ma, Z., & Yang, J. (2025). Improved estimation of forage nitrogen. *Plant Methods, 21*, 69. https://doi.org/10.1186/s13007-025-01389-2

62. Zhumanova, M., Mönnig, C., Hergarten, C., Darr, D., & Wrage-Mönnig, N. (2018). Assessment of vegetation degradation in mountainous pastures. *Ecological Indicators, 95*(1), 527–543. https://doi.org/10.1016/j.ecolind.2018.07.060

63. Арифханова М.М. Растительность Ферганской долины. – Ташкент: Фан, 1967. – С. 11-131.

64. Бондаренко О.Н. Растительность Наманганской области и ее хозяйственное значение: Автореф. дис. ... канд. биол. наук. – Ташкент, 1955. –С. 13-15.

65. Бурыгин В.А., Закиров К.З. Ботаническое основы реконструкции пастбищ Южного Кызылкума. – Ташкент: Фан, 1956. – 341 с.

66. Верник Р.С., Рахимова Т.Т. Естественная растительность и пастбища адыров Наманганской области. – Ташкент: Фан, 1982. – С. 4-85.

67. Верник Р.С., Хасанов О.Х. и др. Эколого – биологические основы создания искусственных пастбищ и сенокосов на адырах Ферганской долины. – Ташкент: Фан, 1977. – С. 23-159.

68. Гранитов И.И. Растительный покров Юго – Западного Кызылкума.– Ташкент: Наука, 1964. – С. 3-335.

69. Тодерич К.Н., Бобоқулов Н.А., Раббимов А.Р., Шуйская Е.В., Мукимов Т.Х., Попова В.В., Хакимов У.Н. Kochia prostrata (L.) Schrad. ценное кормовое растение для улучшения пустынных и полупустынных пастбищ. – Тошкент: Фан ва технология, 2014. – С. 10-124.

70. Тожибаев К.Ш. **Растительный покров и луга бассейна Чодаксоя**. Автореф. дис. … канд. биол. наук. — Ташкент, 2002. — 19 с.

71. Тожибаев К.Ш. Флора юго-западного Тянь-Шаня (в пределах республики Узбекистан). Автореф. дис. ... докт. биол. наук. – Ташкент, 2010.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Mashrabov Sohibjon Nematjon o‘g‘li**
Namangan davlat universiteti magistranti
E-mail: mashrabovsohibjon@gmail.com
**Dexqonov Davron Burxonovich**
Namangan davlat universiteti dotsenti
**Yokubjonov Olimjon Raximjon o‘g‘li**
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

# *ASTRAGALUS NAMANGANICUS* POPOV TURINING FARG‘ONA VODIYSI BOTANIK-GEOGRAFIK RAYONLARI BO‘YICHA TARQALISHI

***Annotatsiya.*** *Maqolada Astragalus L. turkumiga mansub Astragalus namanganicus Popov turining Farg‘ona vodiysi botanik-geografik rayonlari bo‘yicha tarqalishining tahlili amalga oshirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Fabaceae Lindl., Astragalus L., Astragalus namanganicus Popov., botanik-geografik rayon, GBIF, POWO.*

**Машрабов Сохибжон Нематжон угли**
Магистрант Наманганского государственного университета
**Дехқонов Даврон Бурхонович**
Доцент Наманганского государственного университета
**Ёкубжонов Олимжон Рахимжон угли**
**Преподаватель Наманганского государственного университета**

# РАСПРОСТРАНЕНИЕ ВИДОВ ASTRAGALUS NAMANGANICUS POPOV ПО БОТАНИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИМ РАЙОНАМ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

***Аннотация:*** *В статье анализируется распространение вида Astragalus namanganicus Popov, принадлежащего к роду Astragalus L., по ботаническим и географическим регионам Ферганской долины.*

***Ключевые слова:*** *Fabaceae Lindl., Astragalus L., Astragalus namanganicus Popov., ботаническо-географический регион, GBIF, POWO.*

**Mashrabov Sokhibjon**
Master’s student, Namangan State University
E-mail: mashrabovsohibjon@gmail.com
**Dekhkanov Davron**
Associate Professor, Namangan State University
**Yokubjonov Olimjon**
Teacher, Namangan State University

# DISTRIBUTION OF ASTRAGALUS NAMANGANICUS POPOV SPECIES ACROSS THE BOTANICAL-GEOGRAPHICAL REGIONS OF THE FERGANA VALLEY

***Abstract:*** *The article analyzes the distribution of the species Astragalus namanganicus Popov, belonging to the genus Astragalus L., across the botanical and geographical regions of the Fergana Valley.*

***Key words:*** *Fabaceae Lindl., Astragalus L., Astragalus namanganicus Popov., botanical-geographical region, GBIF, POWO.*

## Kirish

*Fabaceae* Lindl. oilasi yer yuzidagi keng tarqalgan oilalardan biri bo‘lib, 808 turkumga mansub 18 000 dan ortiq [10], O‘zbekistonda esa 39 turkum 926 turi mavjud [11]. Oilaning eng yirik turkumi *Astragalus* L. bo‘lib, yer yuzida 3000 dan ortiq tur kiradi [10]. O‘rta Osiyo florasida 161 oila, 1288 turkumga mansub bo‘lgan 9341 o‘simlik turi tarqalgan bo‘lib, endemlarning asosiy qismi *Astragalus* (128 tur), *Cousinia* (54 tur), *Allium* (38 tur), *Ferula* (25 tur), *Jurinea* (22 tur) turkum

turlariga to‘g‘ri keladi [11]. *Astragalus* L. turkumi Tog‘li O‘rta Osiyoning barcha mahalliy floralarida turlar soni bo‘yicha yetakchilik qilib, kamyob, relikt turlarga boyligi bilan ajralib turadi [11].

*Astragalus* L. turkumiga mansub tor arealda tarqalgan turlardan biri *Astragalus namanganicus* Popov hisoblanib, bu tur ilk bor 1925-yil 4-mayda Soikina tomonidan Farg‘ona viloyati (hozirgi Namangan viloyati), Namangan tumani, Taxtako‘l yaqinidagi tepalikdan terilgan (tip namunasi TASH da saqlanadi) [4]. Tur haqidagi dastlabki ma’lumotlar 1926-yil M.F.Popov tomonidan O‘rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy Universiteti – O‘zMU; 14:140) jurnalida chop etilgan [8] (1-rasm).

**1-rasm.** *Astragalus namanganicus* Popov turining dastlabki terilgan namunasi. 1925-yil 4-may, Soikina. https://www.gbif.org/.

*Astragalus namanganicus* Popov turi faqatgina Farg‘ona vodiysida tarqalgan bo‘lib, so‘nggi yillarda chorva mollarining tartibsiz boqilishi va yangi yerlarni shaharsozlik, qishloq xo‘jaligi maqsadlarida o‘zlashtirilishi tufayli tur populyatsiyasi qisqarib boryapti. Mavjud adabiyotlarda tur, asosan, floristik qaydlar darajasida keltirilgan bo‘lib, uning Farg‘ona vodiysi botanik-geografik rayonlari kesimida aniq tarqalish chegaralari, shuningdek tip arealga nisbatan hozirgi tarqalishi yetarlicha tahlil qilinmagan.

Ushbu maqolada *Astragalus namanganicus* Popov turining Farg‘ona vodiysi doirasida botanik-geografik rayonlar bo‘yicha tarqalishini tahlil qilish orqali ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishni maqsad qilib olingan.

**Tadqiqot usullari.**

*Astragalus namanganicus* Popov turining Farg‘ona vodiysi bo‘yicha fitogeografik tahlili R.V.Kamelin (1973) tomonidan taklif etilgan botanik-geografik rayonlashtirish sxemasi asosida [7] hamda K.Tojibaev va boshqalar (2016) tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy yondashuvlar asosida amalga oshirildi [12] (2-rasm).

Dala tadqiqotlari mashrutli metod asosida amalga oshirildi. Tur haqidagi ma’lumotlarni olishda xalqaro elektron bazalar Plants of the World Online (POWO) [10], International Plant Names Index (IPNI) [6], Global Biodiversity Information Facility (GBIF) [4], turga xos dastlabki geografik ma’lumotlar “Флора СССР” [2], “Флора Узбекистана” [3], “Флора Киргизской ССР” [1], “Определитель растений Средней Азии” [9] asarlaridan olindi.

Mavjud gerbariy namunalarda keltirilgan hududlarning koordinatalari Google Earth dasturi orqali aniqlandi [5].




**2-rasm**. Farg‘ona vodiysining geografik o‘rni va botanik-geografik rayonlari (Tojibaev va boshqa., 2012, Tojibaev va boshqa., 2016).

**Natijalar.** Farg‘ona vodiysi botanik-geografik jihatdan Tojibaev va boshqalar (2016) sxemasiga muvofiq Tog‘li O‘rta Osiyo va Turon provinsiyalarini o‘z ichiga oladi [12].

Bibliografik va xalqaro elektron bazalar, mavjud gerbariy namunalari hamda amalga oshirilgan dala tadqiqotlari natajalariga ko‘ra *Astragalus namanganicus* Popov turi Farg‘ona vodiysining G‘arbiy Tyan-Shan okrugining Chorkesar, Farg‘ona okrugining Janubiy Chotqol, Markaziy Farg‘ona okrugining Sharqiy Farg‘ona va Qayraqum-Yozyavon botanik-geografik rayonlarida tarqalganligi aniqlandi. Turning eng zich va barqaror populyatsiyalari Chorkesar botanik-geografik rayonining markaziy va janubiy adir qiyaliklariga to‘g‘ri keladi. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar *Astragalus namanganicus* turining Chorkesar botanik-geografik rayonida 10 ga yaqin o‘sish nuqtalari mavjudligini va turni 450–800 m balandlikdagi gipsli va toshloq adir qiyaliklarida uchrashini ko‘rsatdi (3-rasm). Turning Farg‘ona vodiysi hududida tarqalishida keyingi o‘rinlarda Janubiy Chotqol Qayraqum-Yozyavon, Sharqiy Farg‘ona botanik-geografik rayonlariga to‘g‘ri keladi. *Astragalus namanganicus* turining Farg‘ona vodiysida mavjud boshqa botanik-geografik rayonlarda uchramasligi antropogen ta’sirlarning yuqoriligi va tur ekologiyasiga mos muhitning mavjud emasligi bilan izohlanadi.




**3-rasm.** *Astragalus namanganicus* Popov turning tarqalishi.

**Muhokama va xulosalar.** *Astragalus namanganicus* Popov turi Farg‘ona vodiysi botanik-geografik rayonlari kesimida notekis tarqalgan bo‘lib, Tog‘li O‘rta Osiyo provinsiyasi: G‘arbiy Tyan-Shan okrugining Chorkesar botanik-geografik rayoni turning asosiy tarqalish hududi va tip areali hisoblanadi. Bu holat *Astragalus* L. turkumiga mansub ko‘plab endemik turlar uchun xos bo‘lgan qonuniyatlarga to‘liq mos keladi va Farg‘ona vodiysida endemizm markazlarining asosan, adir va tog‘oldi hududlariga to‘g‘ri kelishini yana bir bor tasdiqlaydi.

**Mazkur tadqiqot "Bioxilma-xilligi xavf ostidagi hudud sifatida Farg'ona vodiysi florasining raqamli platformasini ishlab chiqish" loyihasi doirasida bajarilgan (Loyiha raqami: AL-9224104319).**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Флора Киргизской ССР. (1950–1967). *Определитель растений Киргизской ССР* (Тт. 1–11). Фрунзе: Издательство Академии наук Киргизской ССР.

2. Флора СССР. (1934–1960). *Флора СССР* (Тт. 1–30). Москва–Ленинград: Издательство Академии наук СССР.

3. Флора Узбекистана. (1941–1962). *Флора Узбекистана* (Тт. 1–6). Ташкент: Издательство Академии наук Узбекской ССР.

4. GBIF (2025). *Global Biodiversity Information Facility: Occurrence Database*. Retrieved November 28, 2025, from https://www.gbif.org

5. Google Earth Pro 7.1. Google Inc. - https://www.google.com/earth/

6. IPNI (2025). *International Plant Names Index*. Retrieved November 28, 2025, from https://www.ipni.org

7. Камелин Р.В. Кўхистонский округ горной Средней Азии. Ботанико-географисheский анализ. – Л.: Наука, 1973. – 156 с.

8. Mashrabov S, Yokubjonov O, Dexqonov D. *Astragalus namanganicus* Popov (*Fabaceae*) turi o‘rganilishining hozirgi holati. Namangan davlat universiteti, Ilmiy axborotnomasi, 2025-11-son 463-bet.

9. Определитель растений Средней Азии. (1963–2015). *Определитель растений Средней Азии* (Тт. 1–11). Ташкент: Издательство Академии наук Республики Узбекистан.

10. POWO (2025). *Plants of the World Online*. Royal Botanic Gardens, Kew. Retrieved November 29, 2025, from https://powo.science.kew.org

11. ***Turginov O.T. (2024). O‘zbekiston florasi endemlari.*** [Dissertatsiya (DSc), O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti]. Tashkent.

12. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Попов В.А. Ботанико-географическое районирование Узбекистана // Ботанический журнал, т. 101, вып. 10, 2016. – С. 1105-1132

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Тухтабоева Феруза Муродовна**
профессор кафедры Биология
**Баходирова Мафтунахон**
магистр АГУ направлении биотехнология

## ПРИМЕНЕНИЕ МС ПИТАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ В ГИДРОПОНИКЕ ДЛЯ ВЫРАЩИВАНИЯ КУЛЬТУРНЫХ РАСТЕНИЙ НА ПРИМЕРЕ КЛУБНИКИ.

***Аннотация.*** *В статье рассмотрено применение питательной среды Мурасиге–Скуга (МС) в гидропонных системах выращивания культурных растений на примере клубники (Fragaria × ananassa). Проанализирован элементный состав МС-среды и обоснована возможность её адаптации для бессубстратного выращивания. Показано, что использование модифицированной МС-среды в гидропонике способствует улучшению роста растений, развитию корневой системы и повышению урожайности клубники. Отмечена перспективность применения МС-среды в качестве основы питательных растворов для современных гидропонных технологий.*

***Ключевые слова****: питательная среда, гидропоника, клубника,макроэлемент, микроэлемент.*

**Tukhtaboeva Feruza Murodovna**
Professor, Department of Biology
**Bahodirova Maftunakhon**
Master's Student, Andijan State University, majoring in Biotechnology

## APPLICATION OF MS NUTRIENT MEDIUM IN HYDROPONICS FOR THE CULTIVATION OF CROP PLANTS (A CASE STUDY OF STRAWBERRY)

***Abstract.*** *This study explores the application of the Murashige–Skoog (MS) nutrient medium in hydroponic cultivation of crop plants, using strawberry (Fragaria × ananassa) as a model. The MS medium's elemental composition is evaluated, and its adaptation for soilless cultivation is discussed. Results indicate that a modified MS medium enhances plant growth, stimulates root system development, and increases strawberry yield. The findings demonstrate the effectiveness of MS-based nutrient solutions in hydroponic systems and highlight their potential for optimizing modern soilless cultivation technologies.*

***Keywords****: nutrient medium, hydroponics, strawberry, macronutrients, micronutrients.*

**To'xtaboyeva Feruza Murodovna**
Biologiya kafedrasi professori
**Bahodirova Maftunaxon**
Andijon davlat universiteti, "Biotexnologiya" yo'nalishi magistranti

## QULUPNAY MISOLIDA MADANIY O'SIMLIKLARNI YETISHTIRISHDA GIDROPONIKADA MS OZIQ MUHITIDAN FOYDALANISH

***Annotatsiya.*** *Maqolada qulupnay (Fragaria × ananassa) misolida madaniy o'simliklarni yetishtirishda Murashige–Skoog (MS) oziq muhitining gidroponik tizimlarda qo'llanilishi ko'rib chiqilgan. MS oziq muhitining elementar tarkibi tahlil qilinib, uni substratsiz yetishtirish sharoitlariga moslashtirish imkoniyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, modifikatsiyalangan MS oziq muhitidan gidroponikada foydalanish o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini jadallashtiradi, ildiz tizimining shakllanishini yaxshilaydi hamda qulupnay hosildorligini oshiradi. MS oziq muhitidan zamonaviy gidroponik texnologiyalar uchun oziqlantiruvchi eritmalar tayyorlashda foydalanish istiqbolli yo'nalish sifatida baholanadi.*

***Kalit so'zlar****: oziq muhiti, gidroponika, qulupnay, makroelementlar, mikroelementlar.*

**Введение**

Murashige and Skoog (MS) medium — это классическая лабораторная питательная среда, разработанная в 1962 году. Название питательной среды связано с первыми буквами двух учёных, которые создали среду. Они японские учёные T. Murashige и F. Skoog [1].

МС питательнапя среда обеспечивает источник минерального азота, калия, кальция, магния, а также витаминов и органических компонентов.

**Состав сред:**

MS-среда содержит макро- и микроэлементы.

Макроэлементы: $NH_4NO_3$ (азот), $KNO_3$ (калий), Ca, Mg, P-содержащие соединения; Микроэлементы: Бор, марганец, цинк, молибден, железо (EDTA-комплекс) и др.;

Витамины и органические элементы: тиамин (B1), пиридоксин (B6), никотиновая кислота, инозитол. Обычно pH среды устанавливается около 5.6–5.8 перед стерилизацией. Примеры приложений для клубники [2].

В исследованиях по микро-размножению клубники MS-среда применяется как базовая для стимуляции ремеристемного роста, образования побегов и корней [3].

Влияние химических элементов в составе МС среды на физиологию растений.

**Азот (N)** Ключевой для роста побегов, листовой площади и общей массы растения. Избыток $NH_4^+$ может вызвать замедление роста корней, деформацию листьев и хлороз. **Калий (K)** Усиливает рост стеблей и листьев, улучшает водный баланс, способствует формированию более крупных ягод и корней. **Кальций (Ca)** Важен для формирования клеточных стенок и корневой системы. Недостаток вызывает деформацию листьев, слабое развитие корней, хрупкость тканей [4].

**Магний (Mg)** Центральный элемент хлорофилла — влияет на интенсивность фотосинтеза и зеленую массу листьев. Недостаток вызывает желтизну старых листьев и снижение роста [5].

**Фосфор (P)** Стимулирует развитие корневой системы и раннее цветение. Недостаток замедляет рост, корни становятся слабыми, ягоды маленькими. **Сера (S)** Участвует в синтезе белков и ферментов. Недостаток вызывает деформацию листьев и слабое развитие побегов. **Железо (Fe)** Участвует в синтезе белков и ферментов. Недостаток вызывает деформацию листьев и слабое развитие побегов. **Цинк (Zn)** Необходим для синтеза гормонов роста и ферментов. Недостаток приводит к коротким междоузлиям, мелким листьям и слабому развитию побегов [6].

**Тиамин (B1)** Влияет на деление клеток, рост корней и побегов. Недостаток замедляет образование побегов и развитие корневой системы. Мио-инозитол Стимулирует рост побегов и корней, участвует в делении клеток. Недостаток снижает скорость роста и морфогенез органов [7].

Состав питательной среды МС с её источниками элементов , и массовой доли каждой из элементов можно рассмотреть в нижеприведённой таблице:

**Таблица 1. Процентное содержание химических элементов в MS-среде (на 1 л раствора)**

| Элемент | Источник | Масса в составе (мг/л) | Массовая доля (%) |
|---|---|---|---|
| **Азот (N)** | $NH_4NO_3$ + $KNO_3$ | 3000 | 0,3% |
| **Калий (K)** | $KNO_3$ | 1900 | 0,19% |
| **Кальций (Ca)** | $CaCl_2 \cdot 2H_2O$ | 440 | 0,044% |
| **Магний (Mg)** | $MgSO_4 \cdot 7H_2O$ | 370 | 0,037% |
| **Фосфор (P)** | $KH_2PO_4$ | 170 | 0,017% |
| **Сера (S)** | $MgSO_4 \cdot 7H_2O$ | 180 | 0,018% |
| **Железо (Fe)** | Fe-EDTA | 27,8 | 0,00278% |
| **Бор (B)** | $H_3BO_3$ | 6,2 | 0,00062% |
| **Марганец (Mn)** | $MnSO_4 \cdot H_2O$ | 22,3 | 0,00223% |
| **Цинк (Zn)** | $ZnSO_4 \cdot 7H_2O$ | 8,6 | 0,00086% |
| **Молибден (Mo)** | $Na_2MoO_4 \cdot 2H_2O$ | 0,25 | 0,000025% |
| **Кобальт (Co)** | $CoCl_2 \cdot 6H_2O$ | 0,025 | 0,0000025% |
| **Никотиновая кислота (витамин B3)** | – | 0,5 | 0,00005% |
| **Тиамин (витамин B1)** | – | 0,1 | 0,00001% |
| **Пиридоксин (витамин B6)** | – | 0,5 | 0,00005% |
| **Мио-инозитол** | – | 100 | 0,01% |

**Макроэлементы** (N, K, Ca, Mg, P, S) составляют основную массу питательной среды и определяют общий рост растений. **Микроэлементы** (B, Mn, Zn, Mo, Co, Fe) необходимы в малых дозах, но критичны для ферментативных процессов и фотосинтеза. **Органические компоненты** (витамины, мио-инозитол) стимулируют деление клеток и развитие тканей *in vitro*. [8]

**Методика**

Мы рассадили клубники гидропонным путём в МС питательную среду в 22.09.2025 . На гидропонную установку в объёме 6 *л* . С саженцами клубники 3 количества и вида Fragaria ananassa Senga Senga. Объём воздуха , вкачающий аэратором составляет 6 *л* воздуха за минуту для воды в объёме 6 *л* . Мы добавили 22гр питательной среды МС для 6 *л* дистиллированной воды и у нас появился 0.36 % раствор , так как содержание элементов в нашей среде высокое . Состав нашего питательного раствора приведено в вышеуказанной таблице 1.

22.09.2025 рассадили в питательную МС.

22.09.2025 рассадили в питательную МС.

24.09.2025-год.
Второй день рассады

02.10.2025-год.
Десятый день рассады

**06.10.2025-год.** **20.10.2025-год.**

28-день рассады

15-день рассады

По результатам данных, наше растение росло в течение 28 дней в одном приготовленном составе МС питательной среде 0.36 % раствора. Мы приготовили питательнвй раствор 1 раз на 6 *л* дисстилированной воды и при необходимости в нашу гидропонную установку добавили только дистиллированной воды, так как растения испоряют воду. После рассады с 6-8 дни у нашего растения листья росли на 2-3 см в длину , а растение на 1.5-2 см в высоту.

Через 10 дней после рассады растения распускали по 3-4 новых листочков . Листовые пластинки увеличивались по длине и ширине на 3-4 см . В 15-ый день я добавила 1*л* дистиллированной воды, так как растение исполняло приблизительно 800 мл воды . К 20- дню посадки у растения корни увеличивались в 2-2.5 раза в объёме , которое способствовало быстрому усвоению питательных веществ и большому количеству испарения воды.

На 25-день мы добавили ещё 700 мл воды , так как процесс испарения ускорился .

На 25-27 дни у растений появились пятна на краях листьев , которые дают сигнал о недостатке питательных элементов . На 28- День растение увяло . Сила одной посадки 22 гр вещества в растворе с 24-часовой аэрациейобъёмом 6 *л*/мин составляет 28 суток.

Все эти результаты говорят о том , что питательная среда МС помогает усиленному росту и развитию вегетативных органов растений и повышает устойчивость растений.

**Список спользованной литературы**

1. Murashige, T., & Skoog, F. (1962). A revised medium for rapid growth and bio assays with tobacco tissue cultures. Physiologia Plantarum, 15(3), 473–497. https://doi.org/10.1111/j.1399-3054.1962.tb08052.x

2. Resh, H. M. (2013). Hydroponic Food Production: A Definitive Guidebook for the Advanced Home Gardener and the Commercial Hydroponic Grower (7th ed.). CRC Press.

3. Jones, J. B. (2016). Hydroponics: A Practical Guide for the Soilless Grower (2nd ed.). CRC Press.

4. Wortman, S. E., Douglass, M. S., & Kindhart, J. D. (2016). Cultivar, growing media, and nutrient source influence strawberry yield in a vertical, hydroponic, high tunnel system. HortTechnology, 26(4), 466–473. https://doi.org/10.21273/HORTTECH.26.4.466

5. journals.ashs.org

6. Le Thi Thuy, N. T. O., & Nguyen Phuong Thao. (2024). Study on parameters related to growth, yield, and quality of strawberry plants grown hydroponically and in soil. Basrah Journal of Agricultural Sciences. https://doi.org/10.37077/25200860.2024.37.2.23

7. Sensor-controlled fertigation management for higher yield and quality in greenhouse hydroponic strawberries. (2024). Frontiers in Plant Science.

8. Substrate system outperforms water-culture systems for hydroponic strawberry production. (2025). Frontiers in Plant Science.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Jololiddinov Fazliddin Yo'ldoshali o'g'li**
Qo'qon universiteti Andijon filiali
Biologik kimyo va farnatsevtika
kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: jololiddinovfazliddin162@gmail.com
**Mamajonov Jasurbek Shuxratbekovich**
Qo'qon universiteti Andijon filiali
Biologik kimyo va farnatsevtika
kafedrasi dotsenti PhD
E-mail: mamajonovj019@gmail.com
**Saidobbozov Saidmansur Shamshidinovich**
Qo'qon universiteti Andijon filiali
Biologik kimyo va farnatsevtika
kafedrasi mudiri, dotsent,PhD
E-mail: saidabbosovsaidmansur@gmail.com

## 2,5-ALMASHINGAN 1,3,4-TIADIAZOL HOSILALARINI SINTEZ QILISH, ULARNI SPEKTRAL USULLAR BILAN TASNIFLASH VA ANTIMIKROB FAOLLIGINI TADQIQ QILISH

***Annotatsiya:*** *Ushbu tadqiqot ishida 2,5-dimerkapto-1,3,4-tiadiazol asosida yangi 2,5-bis(alkiltio)-1,3,4-tiadiazol hosilalarini sintez qilish va ularning antimikrobial faolligini baholash maqsad qilingan. Sintez jarayoni tiol guruhlarning ishqoriy muhitda deprotonlanishi va keyinchalik alkilgalogenidlar bilan S-alkillanish reaksiyasi orqali amalga oshirildi. Natijada 2,5-bis(etiltio)-1,3,4-tiadiazol, 2,5-bis(propiltio)-1,3,4-tiadiazol, 2,5-bis(butiltio)-1,3,4-tiadiazol va 2,5-bis(benziltio)-1,3,4-tiadiazol hosilalari olindi. Sintez qilingan birikmalarning tuzilishi IQ- va UB-spektroskopik usullar yordamida tasdiqlandi. Sintez qilingan birikmalar bakterial va zamburug' shtammlariga nisbatan antimikrob faollik bo'yicha tekshirildi va ularning MIC qiymatlari standart preparatlar bilan solishtirildi. Olingan natijalar 2,5-joylashuvdagi alkiltio- birikmalarining tabiati mikroorganizmlarga qarshi faollikka sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Umuman olganda, 2,5-bis(alkiltio)-1,3,4-tiadiazol hosilalari yangi istiqbolli mikroblarga qarshi faol moddalar sifatida e'tiborga loyiq hisoblanadi.*

***Kalit so'zlar:*** *1,3,4-tiadiazol; 2,5-dimerkapto-1,3,4-thiadiazol; 2,5-bis(alkiltio)-1,3,4-tiadiazol; geterosiklik modda; mikroblarga qarshi faollik; MIC; IQ- spektroskopiya; UB–spectroskopiya.*

**Жололиддинов Фазлиддин Юлдошали угли**
Андижанский филиал Кокандского университета
Преподаватель кафедры биологической химии и фармацевтики
**Мамажонов Жасурбек Шухратбекович,**
Доцент кафедры биологической химии и фармацевтики
Андижанского филиала Кокандского университета, PhD.
**Саидоббозов Саидмансур Шамшидинович**
Андижанский филиал Кокандского университета
кафедра биологической химии и фармацевтики
заведующий кафедрой, доцент, PhD

## СИНТЕЗ ПРОИЗВОДНЫХ 2,5-ЗАМЕЩЕННЫХ 1,3,4-ТИАДИАЗОЛОВ, ИХ ХАРАКТЕРИСТИКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СПЕКТРАЛЬНЫХ МЕТОДОВ И ИССЛЕДОВАНИЕ АНТИМИКРОБНОЙ АКТИВНОСТИ

***Аннотация:*** *В данном исследовании поставлена цель синтезировать новые производные 2,5-бис(алкилтио)-1,3,4-тиадиазола на основе 2,5-димеркапто-1,3,4-тиадиазола и оценить их антимикробную активность. Синтез осуществлялся посредством депротонирования тиольных групп в щелочной среде с последующей реакцией S-алкилирования алкилгалогенидами. В результате были получены соединения 2,5-бис(этилтио)-1,3,4-тиадиазол, 2,5-*

*бис(пропилтио)-1,3,4-тиадиазол, 2,5-бис(бутилтио)-1,3,4-тиадиазол и 2,5-бис(бензилтио)-1,3,4-тиадиазол. Структура синтезированных соединений подтверждена методами ИК- и УФ-спектроскопии. Полученные соединения были исследованы на антимикробную активность в отношении бактериальных и грибковых штаммов, при этом значения минимальной подавляющей концентрации (MIC) сопоставлялись со стандартными препаратами. Полученные результаты показали, что природа алкилтио-заместителей в положении 2,5 оказывает существенное влияние на антимикробную активность. В целом, производные 2,5-бис(алкилтио)-1,3,4-тиадиазола представляют интерес как новые перспективные соединения с антимикробным действием.*

***Ключевые слова:*** *1,3,4-тиадиазол; 2,5-димеркапто-1,3,4-тиадиазол; 2,5-бис(алкилтио)-1,3,4-тиадиазол; гетероциклическое соединение; антимикробная активность; MIC; ИК-спектроскопия; УФ-спектроскопия.*

**Fazliddin Yuldoshali ogli Jololiddinov**
Andijan Branch of Kokand University
Lecturer, department of Biological chemistry and pharmacy
**Jasurbek Shukhratbekovich Mamajonov**
Associate professor of the department of Biological chemistry and pharmacy
Andijan Branch of Kokand University, PhD
**Saidmansur Shamshidinovich Saidobbozov**
Andijan Branch of Kokand University
Department of Biological Chemistry and Pharmacy
Head of the Department, Associate Professor, PhD

## SYNTHESIS OF 2,5-SUBSTITUTED 1,3,4-THIADIAZOLE DERIVATIVES, THEIR CHARACTERIZATION USING SPECTRAL METHODS, AND INVESTIGATION OF ANTIMICROBIAL ACTIVITY

***Abstract:*** *The present study aimed to synthesize new 2,5-bis(alkylthio)-1,3,4-thiadiazole derivatives based on 2,5-dimercapto-1,3,4-thiadiazole and to evaluate their antimicrobial activity. The synthesis was carried out via deprotonation of thiol groups in an alkaline medium followed by S-alkylation with alkyl halides. As a result, 2,5-bis(ethylthio)-1,3,4-thiadiazole, 2,5-bis(propylthio)-1,3,4-thiadiazole, 2,5-bis(butylthio)-1,3,4-thiadiazole, and 2,5-bis(benzylthio)-1,3,4-thiadiazole were obtained. The structures of the synthesized compounds were confirmed by IR- and UV- spectroscopy. The obtained compounds were evaluated for antimicrobial activity against bacterial and fungal strains, and their minimum inhibitory concentration (MIC) values were compared with those of standard drugs. The results demonstrated that the nature of alkylthio substituents at the 2,5-positions significantly influences antimicrobial activity. Overall, 2,5-bis(alkylthio)-1,3,4-thiadiazole derivatives represent promising new compounds with potential antimicrobial properties.*

***Keywords:*** *1,3,4-thiadiazole; 2,5-dimercapto-1,3,4-thiadiazole; 2,5-bis(alkylthio)-1,3,4-thiadiazole; heterocyclic compound; antimicrobial activity; MIC; IR- spectroscopy; UV- spectroscopy.*

**Kirish qism.** Hozirgi kunda infeksion kasalliklarning keng tarqalishi hamda antibiotiklarga chidamli (rezistent) mikroorganizmlar sonining ortib borishi yangi antimikrobial moddalarni izlab topish va sintez qilish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Mikroorganizmlarning mavjud antibiotiklarga nisbatan chidamliligi ortib borishi global sog‘liqni saqlash tizimi uchun jiddiy muammo bo‘lib, yangi kimyoviy tuzilishga ega birikmalar asosida samarali preparatlar yaratishni talab etadi [1]. Shu sababli, farmatsevtik kimyoda yangi biologik faol birikmalarni sintez qilish va ularni mikroorganizmlarga qarshi baholash dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Biologik faol moddalarning katta qismi geterotsiklik birikmalar sinfiga mansub bo‘lib, ayniqsa azot va oltingugurt atomlarini o‘z ichiga olgan halqali tizimlar yuqori farmakologik potensialga ega. Ushbu sinf birikmalar orasida 1,3,4-tiadiazol hosilalari alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarda 1,3,4-tiadiazol yadrosi asosida sintez qilingan ko‘plab birikmalarning antibakterial, antifungal, yallig‘lanishga qarshi, antitumor hamda antioksidant faollik namoyon etishi qayd etilgan [1,2]. 1,3,4-tiadiazol halqasi elektron taqsimlanishi va kimyoviy barqarorligi bilan ajralib turadi hamda turli biologik moddalar bilan samarali o‘zaro ta’sirlashishi mumkinligi sababli dori moddalari dizaynida istiqbolli fragment sifatida qaraladi [1]. 1,3,4-tiadiazol hosilalarining biologik faolligi ularning molekulyar tuzilishi, xususan, 2 va 5-joylashuvlarga kiritilgan radikal moddalarning tabiatiga bevosita bog‘liq. 2,5-joylashuvlarda alkil yoki aril guruhlar mavjudligi molekulaning lipofilligi va sterik xususiyatlarini o‘zgartirib, mikroorganizmlar hujayra membranasiga kirib borish qobiliyatini kuchaytirishi mumkin. Shu bilan birga, elektron donor yoki elektron akseptor guruhlarning mavjudligi biologik faol moddalar bilan bog‘lanish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi adabiyotlarda qayd etilgan [2]. Shu sababli, 2,5-almashingan 1,3,4-tiadiazol hosilalari yangi mikroblarga qarshi agentlar yaratish uchun muhim yo‘nalish hisoblanadi. 2,5-dimerkapto-1,3,4-tiadiazol (2,5-dimerkapto-1,3,4-thiadiazol) yuqori reaktivlikka ega bo‘lib, tarkibida ikkita tiol (–SH) guruh

mavjudligi sababli alkil galogenidlar bilan nukleofil almashinish reaksiyasiga oson kirishadi. Natijada tio-bog'lanish (–S–R) tipidagi hosilalar sintez qilinadi. Bunday tio-bog'lanish hosilalari kimyoviy barqarorligi hamda lipofil xususiyatining ortishi bilan ajralib turadi va biologik faollikning kuchayishiga olib kelishi mumkin [3]. So'nggi yillarda tiadiazol yadrosini triazol va boshqa farmakologik faol fragmentlar bilan birlashtirish orqali yangi sinf antimikrobial moddalar yaratish bo'yicha tadqiqotlar keng olib borilmoqda [4]. Bu esa 1,3,4-tiadiazol hosilalari asosida sintez qilinadigan yangi birikmalarning mikroorganizmlarga qarshi samaradorligini yanada chuqur o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Adabiyotlarda 1,3,4-tiadiazol hosilalari asosida sintez qilingan birikmalarning antimikrobial faolligi MIC (minimum inhibitory concentration) qiymatlari orqali baholangan bo'lib, MIC ko'rsatkichlari birikmalarning turi va tuzilishiga qarab sezilarli darajada o'zgarishi aniqlangan [4]. Bu holat tuzilish–faollik (SAR) bog'liqligini tahlil qilish orqali samaraliroq biologik faol moddalarning dizaynini amalga oshirish mumkinligini tasdiqlaydi. Shuningdek, 1,3,4-tiadiazol skeletiga ega tioeter hosilalarining antimikrobial faolligi bo'yicha ayrim ilmiy ishlarda ijobiy natijalar qayd etilgan [3]. Ushbu tadqiqot ishining maqsadi 2,5-dimerkapto-1,3,4-tiadiazol asosida yangi 2,5-bis(alkiltio)-1,3,4-tiadiazol hosilalarini sintez qilish, ularning tuzilishini IR va UB-spektral usullar yordamida tasdiqlash hamda sintez qilingan birikmalarning mikroorganizmlarga qarshi antimikrobial faolligini baholashdan iborat. Olingan natijalar 1,3,4-tiadiazol hosilalarining biologik faolligi va birikmalarning ta'sirini o'rganish hamda yangi istiqbolli mikroblarga qarshi agentlarni yaratish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Tajribaviy qism**

2,5-Dimerkapto-1,3,4-tiadiazol alkilgalogenidlar bilan $K_2CO_3$ asetoni qaynash haroratida reaktsiyaga kirishib, mos 2,5-bis(alkiltio)-1,3,4-tiadiazol hosilalarini beradi. Sxema 1




Ushbu moddalarni sintez qilish uchun 2,5-Dimerkapto-1,3,4-tiadiazol (Sigma-Aldrich),etil xlorid,propil xlorid,butil xlorid,benzil xlorid, $K_2CO_3$,aseton,etanol (qayta kiristallash uchun). IR-spektri Bruker Alpha spektrofotometri yordamida KBr pelletlarda olingan. UB-spektri Shimadzu UV-1800 spektrofotometri yordamida etanol eritmada olingan.

2,5-bis(etiltio)-1,3,4-tiadiazolni sintezi.

2,5-dimerkapto-1,3,4-tiadiazol (0,01 mol, 1,5 g) 50 mL aseton ichida 30 minut aralashtirilib eritildi. So'ng eritmaga $K_2CO_3$ (0,02 mol, 2,76 g) qo'shildi va aralashma 56°C da sharoitida 45 minut qizdirildi. Keyin eritmaga tomchilatib etil xlorid (0,02 mol, 1,3 g) qo'shildi va reaksiya aralashmasi 5 soat davomida 56°C sharoitida qaynatildi. Reaksiya borishi TLC (Silica gel 60 F254, eluent: gekan:etil acetat 7:3, UV 254 nm).yordamida nazorat qilindi. Aralashma sovutilgach, hosil bo'lgan cho'kma filtrlandi, sovuq suv bilan yuvildi va quritildi. Olingan modda etanolda qayta kristallanish orqali tozalandi.

2,5-bis(propiltio)-1,3,4-tiadiazolni sintezi.

2,5-dimerkapto-1,3,4-tiadiazol (0,01 mol, 1,5 g) 50 mL asetonda 30 minut davomida aralashtirilib eritildi. So'ng eritmaga $K_2CO_3$ (0,02 mol, 2,76 g) qo'shildi va aralashma 56°C da sharoitida 45 minut qizdirildi. Keyin aralashmaga tomchilatib propil xlorid (0,02 mol, 1,6 g) qo'shildi va reaksiya aralashmasi 4–5 soat davomida 56°C da sharoitida qaynatildi. Reaksiya borishi yupqa qatlamli xromatografiya TLC (Silica gel 60 F254, eluent: gekan:etil acetat 7:3, UV 254 nm) yordamida nazorat qilindi. Reaksiya tugagach, aralashma sovitildi va hosil bo'lgan cho'kma filtrlandi. Olingan moddani asetonitrilda qayta kristallanish orqali tozalandi.

2,5-bis(butiltio)-1,3,4-tiadiazolni sintezi.

2,5-dimerkapto-1,3,4-tiadiazol (0,02 mol, 3,0 g) 50 mL asetonda 30 minut davomida aralashtirilib eritildi. So'ng eritmaga $K_2CO_3$ (0,04 mol, 5,6 g) qo'shildi va aralashma 56°C da sharoitida 45 minut davomida qizdirildi. Keyin aralashmaga tomchilatib butil xlorid (0,04 mol, 3,7 g) qo'shildi va reaksiya aralashmasi 4–5 soat davomida 56°C da sharoitida qaynatildi. Reaksiya borishi yupqa qatlamli xromatografiya TLC (Silica gel 60 F254, eluent: gekan:etil acetat 7:3, UV 254 nm) usuli yordamida nazorat qilindi. Reaksiya tugagach, aralashma sovitildi va hosil bo'lgan cho'kma filtrlandi. Olingan moddani etanolda qayta kristallanish orqali tozalandi.

2,5-bis(benziltio)-1,3,4-tiadiazol sintezi.

2,5-dimerkapto-1,3,4-tiadiazol (0,02 mol, 3,0 g) 50 mL asetonda 30 minut davomida aralashtirilib eritildi. So'ng eritmaga $K_2CO_3$ (0,04 mol, 5,6 g) qo'shildi va aralashma 56°C da sharoitida 45 minut davomida qizdirildi. Keyin aralashmaga tomchilatib benzil xlorid (0,04 mol, 5,1 g) qo'shildi va reaksiya aralashmasi 4–5 soat davomida 56°C da sharoitida qaynatildi. Reaksiya borishi yupqa qatlamli xromatografiya (TLC) usuli yordamida nazorat qilindi. Reaksiya tugagach, aralashma sovitildi va hosil bo'lgan cho'kma filtrlandi. Olingan modda etanolda qayta kristallanish orqali tozalandi.

**Olingan natijalar tahlili.**

Sintez qilingan 2,5-bis(alkiltio)-1,3,4-tiadiazol hosilalari yuqori darajadagi tozalikka ega bo‘lib, ular reaksiyadan so‘ng mos erituvchilarda qayta kristallanish usuli orqali qo‘shimcha aralashmalardan tozalandi. Qayta kristallanish jarayoni moddalarning individual xossalarini saqlab qolgan holda, ularning strukturaviy bir xilligini va analitik ko‘rsatkichlarining aniqligini ta’minladi. Olingan birikmalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari, jumladan erish harorati, chiqish unumdorligi, molekulyar formulasi, molekulyar massasi hamda eruvchanlik ko‘rsatkichlari batafsil o‘rganildi va tahlil qilindi.

Har bir hosilaning asosiy fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari tegishli tajriba natijalari asosida aniqlanib, quyidagi jadvalda tizimli ravishda keltirilgan. Mazkur ma’lumotlar sintez qilingan birikmalarning tozaligi, barqarorligi hamda ularning keyingi tadqiqotlar uchun yaroqliligini tasdiqlaydi.

**1-jadval.**

**1,3,4-Tiadiazol hosilalarning hosil bo‘lish unumlari.**

| № | Modda nomi | Brutto formulasi | Molekulyar massa | Reaksiya unumi,% |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2,5-bis(etiltio)-1,3,4-tiadiazol | $C_6H_{10}N_2S_3$ | 206 | 78 |
| 2 | 2,5-bis(propiltio)-1,3,4-tiadiazol | $C_8H_{14}N_2S_3$ | 234 | 75 |
| 3 | 2,5-bis(butiltio)-1,3,4-thiadiazol | $C_{10}H_{18}N_2S_3$ | 262 | 72 |
| 4 | 2,5-bis(benziltio)-1,3,4-thiadiazol | $C_{16}H_{14}N_2S_3$ | 330 | 70 |

2,5-bis(etiltio)-1,3,4-tiadiazol.

2,5-bis(etiltio)-1,3,4-tiadiazol och sariq rangli holatda olingan bo‘lib, hosil bo‘lishi yuqori (78%) darajada kuzatildi. Moddaning erish nuqtasi 112–114 °C atrofida edi. IR-spektrida C–H cho‘qqisi 2950 $cm^{-1}$, C=N cho‘qqisi 1525 $cm^{-1}$, C–S cho‘qqisi 710 $cm^{-1}$ sifatida aniqlangan. UB-spektrida λ_max 242 va 285 nm da kuzatilgan, bu π→π* va n→π* o‘tishlarini ko‘rsatadi. Reaksiya TLC orqali nazorat qilindi va barcha boshlang‘ich material to‘liq mahsulotga aylangani tasdiqlandi. Olingan sovuq suvda yuvilib, filtrlangan va etanol yordamida qayta kristallanish orqali tozalandi.

2,5-bis(propiltio)-1,3,4-tiadiazol.

2,5-bis(propiltio)-1,3,4-tiadiazol och sariq rangli holatda 75% hosil bo‘lgan. Erish nuqtasi 115–117 °C. IR-spektrida asosiy cho‘qqilar: 2945 $cm^{-1}$ (C–H), 1528 $cm^{-1}$ (C=N), 712 $cm^{-1}$ (C–S). UB-spektrida λ_max 243 va 286 nm. TLC monitoringi orqali mahsulotning yuqori tozaligi tasdiqlandi. Hosil bo‘lgan mahsulot filtrlandi, sovuq suv bilan yuvildi va etanol yordamida qayta kristallanish orqali tozalandi.

2,5-bis(butiltio)-1,3,4-tiadiazol.

2,5-bis(butiltio)-1,3,4-tiadiazol oq sariq rangli holatda 72% hosil bo‘lgan. Erish nuqtasi 118–120 °C. IR-spektrida C–H cho‘qqisi 2940 $cm^{-1}$, C=N cho‘qqisi 1530 $cm^{-1}$, C–S cho‘qqisi 715 $cm^{-1}$ sifatida qayd etilgan. UB-spektrida λ_max 244 va 287 nm bo‘lib, π→π* va n→π* o‘tishlarini tasdiqlaydi. TLC monitoringi barcha boshlang‘ich materialning mahsulotga aylanganligini ko‘rsatdi. Hosil bo‘lgan mahsulot filtrlandi, sovuq suv bilan yuvildi va etanol orqali qayta kristallanish yordamida tozalandi.

2,5-bis(benziltio)-1,3,4-tiadiazol

2,5-bis(benziltio)-1,3,4-tiadiazol sariq kristallik holatda 70% hosil bo‘lgan. Erish nuqtasi 122–124 °C. IR-spektrida 2935 $cm^{-1}$ (C–H), 1522 $cm^{-1}$ (C=N), 720 $cm^{-1}$ (C–S) cho‘qqilari kuzatilgan. UB-spektrida λ_max 245 va 288 nm da aniqlandi. TLC monitoringi mahsulotning tozaligini tasdiqladi. Mahsulot filtrlandi, sovuq suv bilan yuvildi va etanol yordamida qayta kristallanish orqali tozalandi.

Sintez qilingan 2,5-bis(alkiltio)-1,3,4-thiadiazol hosilalari yuqori fizik-kimyoviy barqarorlik va tozalikka ega bo‘lib, spektral (IQ- va UB-spektr) tahlillar ular tuzilmasining to‘g‘riligini tasdiqladi. Bu turdagi tiadiazol birikmalari geterotsiklik tuzilishga ega bo‘lib, biologic faollik spektri juda keng — bakterialarga qarshi, zamburug‘ga qarshi va boshqa biologik faolliklarni namoyon qiladi, bu mavzu bo‘yicha adabiyotlarda ham ko‘p qayd etilgan [1]. Umuman olganda 1,3,4-thiadiazol halqasining 2 va 5 joylashuvida dimerkapto (alkil yoki boshqa guruhlar bilan birikganda) biologik faoliyatni sezilarli darajada oshirishi aniqlangan. Shuni kabi 2,5-joylashuvga ega turli birikmalarga qo‘shilgan oxazolidinone va boshqa geterotsiklik birikmalarda MIC qiymatlari keng diapazonda o‘zgarishi kuzatilgan, bu esa substituentning turi va molekulyar tuzilishning biologik faollikka sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi[1]. Bizning tajribamizda sintez qilingan 4 ta hosilaning MIC qiymatlari S. aureus va E. coli ga qarshi o‘rganilib, quyidagi tartibda natijalar qayd etildi. 2,5-bis(etilthio) va 2,5-bis(benzilthio) hosilalari S. aureus ga qarshi eng past MIC qiymatlari (25 μg/mL), E. coli ga qarshi esa 50 μg/mL ko‘rsatdi, bu ularning o‘rta-yuqori darajadagi antibakterial faolligini anglatadi. 2,5-bis(propylthio) va 2,5-bis(butylthio) hosilalari biroz pastroq faollik ko‘rsatdi, ammo ular ham MIC qiymatlarining

o‘rta diapazonida (30–60 μg/mL) bo‘lib, Struktur–faollik munosabatiga mos ravishda alkil zanjirning uzunligi va lipofillik miqdori faollikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu natijalar adabiyotlarda ta’riflangan 1,3,4-thiadiazol asosli birikmalarning umumiy biologik faollik tendensiyasi bilan yaxshi mos keladi.

Masalan, ayrim 1,3,4-thiadiazol derivatlari MIC qiymatlari 8–31.25 μg/mL oralig‘ida yaxshi antibakterial faollik ko‘rsatgani ma’lum bo‘lib, ularning substituent turi va molekulyar strukturasining faoliyatga ta’siri ta’kidlangan [4]. Adabiyotlarda shuningdek, turli substituentlar, xususan elektron tortuvchi (masalan $–NO_2$, –F) yoki lipofilik guruhlar ta’siri antibakterial faollikni oshirishi qayd etilgan, bu esa tiadiazol halqasi bilan birga kiruvchi funktsional guruhlar hayotiy qobiliyatga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi[1, 5]. Shu bilan birga, ayrim qo‘shimcha tadqiqotlar C–S bog‘lanishining mavjudligi, N–C–S moiety’larining molekula membranalariga o‘tishini yaxshilashi va shu orqali antibakterial effektni kuchaytirishi haqida xulosalar bergan, ya’ni ring tuzilmasi va substituentlarning o‘zaro ta’siri biologik faollikni belgilaydi [1].

Umuman olganda, bizning sintez qilingan 2,5-bis(alkiltio)-1,3,4-thiadiazol hosilalarining mikroorganizimlarga qarshi faolligi adabiyotda yozilgan 1,3,4-thiadiazol hosilalari bilan solishtirganda ma’lum bir o‘rinda turadi hamda ularning alkil zanjir uzunligi va aromatik guruhlarning mavjudligi molekulyar dizaynni optimallashtirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

**Mikroorganizmlarga qarshi ta’siri.**

Geterohalqali birikmalar biologik faolligining xilma-xilligi na faqat kimyogarlarnibalki tibbiyot, farmakologiya, qishloq xo‘jaligi, mikrobiologiya, korrozologiya va boshqa soha xodimlarining ham qiziqishlarini yanada ortishiga sabab bo‘lmoqda [6-8].

Sintez qilingan barcha 2,5-bis(alkiltio)-1,3,4-tiadiazol hosilalari Staphylococcus aureus (gram-musbat) va Escherichia coli (gram-salb) kabi tipik bakterial shtamlarga qarshi biologik faoliyat jihatidan sinovdan o‘tkazildi. Biologik testlar broth microdilution method [5] asosida bajarilib, hosilalarning bakteriyalar o‘sishini inhibe qilish qobiliyati baholandi. Ushbu metod yordamida har bir birikmaning minimum inhibitory concentration (MIC, μg/mL) qiymatlari aniqlanib, ularning samaradorligi raqamli ko‘rsatkichlar bilan ta’kidlandi. Olingan natijalar sintez qilingan moddalarning gram-musbat va gram-salb bakteriyalariga nisbatan potensial antibakterial faolligini baholashda muhim ma’lumotlarni taqdim etdi.

**2-jadval.**

**Birikmalarning bakteriyalarga qarshi faolliklari.**

| № | Modda nomi | Staphylococcus aureus | Escherichia coli |
|---|---|---|---|
| 1 | 2,5-bis(etiltio)-1,3,4-tiadiazol | 25 | 50 |
| 2 | 2,5-bis(propiltio)-1,3,4-tiadiazol | 30 | 55 |
| 3 | 2,5-bis(butiltio)-1,3,4-thiadiazol | 40 | 60 |
| 4 | 2,5-bis(benziltio)-1,3,4-thiadiazol | 25 | 50 |
| 5 | Ampitsillin (standart) | 5 | 10 |
| 6 | Gentamitsin (standart) | 2 | 4 |

2,5-Bis(etilthio)-1,3,4-tiadiazol hosilasi S. aureus ga qarshi 25 μg/mL, E. coli ga qarshi 50 μg/mL MIC qiymatiga ega bo‘lib, o‘rta-yuqori darajadagi mikroblarga qarshi faollik ko‘rsatdi. 2,5-bis(propiltio)-1,3,4-tiadiazol hosilasi S. aureus ga qarshi 30 μg/mL, E. coli ga qarshi 55 μg/mL MIC qiymati bilan o‘rta faollikni namoyon qildi. 2,5-bis(butiltio)-1,3,4-tiadiazol hosilasi S. aureus ga qarshi 40 μg/mL, E. coli ga qarshi 60 μg/mL MIC qiymatini ko‘rsatib, o‘rta darajadagi faollikni namoyon etdi. 2,5-bis(benziltio)-1,3,4-tiadiazol hosilasi S. aureus ga qarshi 25 μg/mL, E. coli ga qarshi 50 μg/mL MIC qiymati bilan nisbatan yuqori antimikrobial faollik ko‘rsatdi.

**Xulosa**

Biz 2,5-almashingan-1,3,4-tiadiazol hosilalarini muvaffaqiyatli sintez qildik, jumladan: 2,5-bis(etiltio)-1,3,4-tiadiazol,2,5-bis(propiltio)-1,3,4-tiadiazol, 2,5-bis(butiltio)-1,3,4-tiadiazol va 2,5-bis(benziltio)-1,3,4-tiadiazol**.** Barcha mahsulotlar qayta kristallanish orqali yuqori tozalikka erishdi va yupqa qatlamli xromatografiya yordamida ularning tozaligi tasdiqlandi. IQ- va UB-spektral tahlillar hosilalarning tuzilishi tasdiqladi, xususan, 2,5-joylashuvdagi tiohosilalar va tiadiazol halqasi aniqlandi. Spektral cho‘qqilar alkil va aromatik guruhlarning mavjudligini va halqaning to‘g‘ri o‘zaro bog‘langanligini ko‘rsatdi. Mikroblarga qarshi testlar shuni ko‘rsatdiki, 2,5-bis(benziltio)-1,3,4-tiadiazol va 2,5-bis(etiltio)-1,3,4-tiadiazol hosilalari Staphylococcus aureus va Escherichia coli ga qarshi eng yuqori faollikni namoyon etdi, MIC qiymatlari mos ravishda 25–50 μg/mL oralig‘ida natija olindi. 2,5-bis(propiltio)-1,3,4-tiadiazol va 2,5-bis(butiltio)-1,3,4-tiadiazol hosilalari o‘rta darajadagi mikroblarga qarshi faollik ko‘rsatdi (30–60 μg/mL), bu alkil zanjir uzunligi va lipofillik darajasiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, hosilalarning biologik faolligi ulangan radikallar va molekulyar struktura bilan bevosita bog‘liq, ya’ni aromatik yoki qisqa alkil guruhlar biologic faollikni

oshiradi, uzun alkil zanjirlar esa nisbatan pasaytiradi. Shu kabi 2,5-dialmashingan tiadiazol hosilalari istiqbolli mikroblarga qarshi modda sifatida sifatida qaralishi mumkin. Kelajakda ushbu hosilalarning boshqa bakteriya va zamburug‘ turlari bilan hamda boshqa biologik faoliyat turlarida sinovdan o‘tkazilishi va molekulyar optimizatsiya ishlari olib borilishi tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Górecki S., Kudelko A., Olesiejuk M. Antimicrobial activity of 1,3,4-thiadiazole derivatives. // Pharmaceuticals. 2025. Vol. 18. I-9. –P. 1348.

2. Sawarkar H.S., Singh M., Shrivastav B.R.L. 1,3,4-thiadiazole derivatives as an antimicrobial: An update. // Journal of Pharmaceutical Research International. 2021. Vol. 33. I-62A. –P. 232–257.

3. Jiang Y., An J., Xia Y., Fei Q., Wang D., Lu Y., Wu W. Design, synthesis, and antimicrobial evaluation of novel 1,2,4-triazole thioether derivatives with a 1,3,4-thiadiazole skeleton. // RSC Advances. 2025. Vol. 15. –P. 28084–28092.

4. Rezki N., Al-Yahyawi A.M., Bardaweel S.K., Al-Blewi F.F., Aouad M.R. Synthesis of novel 2,5-disubstituted-1,3,4-thiadiazoles clubbed 1,2,4-triazole, 1,3,4-thiadiazole, 1,3,4-oxadiazole and/or Schiff base as potential antimicrobial and antiproliferative agents. // Molecules. 2015. Vol. 20. I-9. –P. 16048–16067.

5. Mamajonov J.Sh., Abdugafurov I.A., Umirzoqov N.O. 1-(4-nitrofenil)-4-(X-fenoksimetil)-1H-1,2,3-triazollar sintezi va ularning bakteriya va zamburg‘larga qarshi faolligi. // Tovarlar kimyosi va xalq tabobati jurnali. Toshkent. 2024. Vol. 3. I-2. –P. 14-28.

6. Christian T., Roger C.L. Molecular basis of antibiotic resistance and L-lactamase inhibition by mechanism-based inactivators: perspectives and future directions // FEMS Microbiology Reviews.-2000.-V.24. –P. 251-262.

7. 2. Velarquez S., Alvarez R., Perez C., Gago F., De C., Balzarini J., Camarasa M. Regiospecific synthesis and anti-human immuno-deficiency virus activity of novel 5-substituted N-alkylcarbamoyl and N,N-dialkyl carbamoyl 1,2,3-triazole-TSAO analogues // Antiviral Chemistry & Chemotherapy. -1998. -V.9. -P. 481-489.

8. 3. Abdel-Wahab B.F., Abdel-Latif E., Mohamed H.A. Design and synthesis of new 4–Pyrazolin-3-yl-1,2,3-triazoles and 1,2,3-triazol-4-yl–Pyrazolin-1-ylthiazoles as potential antimicrobial agents // Eur. J. Med. Chem. -2012. –V.52. –P.263–268.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

**Mamazulunov Nurmuhammad Xusanboy o‘g‘li**
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
Biologik kimyo va farnatsevtika
kafedrasi katta o‘qituvchisi PhD
E-mail: biochemistry715@gmail.com
**Axmadjonov Qudratillo Mashrabboy o‘g‘li**
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
Biologik kimyo va farnatsevtika
kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: qudratilloaxmadjanov@gmail.com
**Jo`raboyev Abrorbek Odiljon o`g`li**
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
Biologik kimyo va farnatsevtika
kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail:abrorbek_0123@mail.ru

# 1- VA 2-TUR QANDLI DIABETNI BOSHQARISH: HAYOT TARZINI O‘ZGARTIRISH, FARMAKOLOGIK DAVOLASH VA ZAMONAVIY TERAPEVTIK YONDASHUVLAR.

**Annotatsiya.** *Mazkur tizimli-analitik sharh 1- va 2-tur qandli diabetni (T1DM va T2DM) boshqarishda integrativ yondashuvlarning klinik va patofiziologik samaradorligini baholashga bag‘ishlangan. Tadqiqot hayot tarziga asoslangan aralashuvlar, zamonaviy farmakologik terapiya hamda istiqbolli terapevtik yo‘nalishlarning glyukemik nazorat, insulin sezuvchanligi, metabolik muvozanat va diabet bilan bog‘liq mikro- hamda makrovaskulyar asoratlar xavfiga ta’sirini tizimli tahlil qilishni maqsad qilgan.*

*Sharh PRISMA 2020 tavsiyalariga muvofiq olib borilib, Scopus, Web of Science, PubMed/MEDLINE va ScienceDirect ma’lumotlar bazalarida chop etilgan yuqori sifatli klinik va epidemiologik tadqiqotlar asosida amalga oshirildi. Tahlil natijalari T2DM diabet holatlarining 90–95 % ini tashkil etishini hamda uning patogenezida insulin rezistentligi va β-hujayralar disfunktsiyasi yetakchi mexanizmlar ekanligini ko‘rsatdi. T1DMda esa autoimmun jarayonlar bilan bog‘liq mutlaq insulin yetishmovchiligi asosiy patogen omil sifatida aniqlandi.*

*Hayot tarziga asoslangan intensiv aralashuvlar T2DM rivojlanish xavfini 50–58 % gacha kamaytirgani, parhez terapiyasi va jismoniy faollik HbA1c darajasini 1,0–2,5 % gacha pasaytirgani aniqlandi. Metformin T2DMda birinchi tanlov dori vositasi bo‘lib qolgan bo‘lsa, GLP-1 retseptor agonistlari va SGLT-2 ingibitorlari glyukemik nazorat bilan bir qatorda yurak-qon tomir va buyrak asoratlari xavfini sezilarli kamaytirishi bilan ajralib turdi. Insulin terapiyasi T1DMda muqobil bo‘lmagan asosiy davolash usuli, T2DMda esa og‘ir va dekompensatsiyalangan holatlarda samarali strategiya sifatida tasdiqlandi. Qandli diabetni samarali boshqarish individual patofiziologik xususiyatlarni hisobga olgan holda hayot tarziga asoslangan chora-tadbirlar, zamonaviy farmakologik vositalar va istiqbolli terapevtik yondashuvlarni uyg‘unlashtiruvchi integrativ strategiyalarni talab etadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Qandli diabet; integrativ yondashuvlar; glyukemik nazorat; insulin rezistentligi; farmakologik terapiya; GLP-1 retseptor agonistlari; SGLT-2 ingibitorlari; insulin terapiyasi; kardiometabolik asoratlar.*

**Мамазулунов Нурмухаммад Хусанбой угли**
Андижанский филиал Кокандского университета
Старший преподаватель кафедры биологической химии
и фармацевтики, PhD
**Ахмаджонов Кудратилло Машраббой угли**
Преподаватель кафедры биологической химии и фармацевтики
Андижанский филиал Кокандского университета
**Журабоев Аборбек Одилжон угли**
Преподаватель кафедры биологической химии и фармацевтики
Андижанский филиал Кокандского университета

## ИНТЕГРАТИВНЫЕ ПОДХОДЫ К ВЕДЕНИЮ САХАРНОГО ДИАБЕТА 1 И 2 ТИПА: МОДИФИКАЦИЯ ОБРАЗА ЖИЗНИ, ФАРМАКОЛОГИЧЕСКАЯ ТЕРАПИЯ И СОВРЕМЕННЫЕ ТЕРАПЕВТИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ.

***Аннотация.*** *Настоящий систематико-аналитический обзор посвящён оценке клинической и патофизиологической эффективности интегративных подходов в ведении сахарного диабета 1 и 2 типа (СД1 и СД2). Целью исследования являлся комплексный анализ влияния модификации образа жизни, современной фармакологической терапии и перспективных терапевтических направлений на показатели гликемического контроля, инсулинорезистентность, метаболический гомеостаз, а также риск развития микро- и макрососудистых осложнений, ассоциированных с сахарным диабетом.*

*Обзор выполнен в соответствии с рекомендациями PRISMA 2020 и основан на анализе высококачественных клинических и эпидемиологических исследований, опубликованных в базах данных Scopus, Web of Science, PubMed/MEDLINE и ScienceDirect. Полученные данные свидетельствуют о том, что сахарный диабет 2 типа составляет около 90–95 % всех случаев диабета, при этом ведущими патогенетическими механизмами являются инсулинорезистентность и прогрессирующая дисфункция β-клеток поджелудочной железы. В отличие от этого, сахарный диабет 1 типа характеризуется аутоиммунной деструкцией β-клеток и развитием абсолютной инсулиновой недостаточности.*

*Результаты анализа показали, что интенсивные вмешательства, основанные на модификации образа жизни, позволяют снизить риск развития СД2 на 50–58 %, а также обеспечивают снижение уровня HbA1c на 1,0–2,5 %. Метформин сохраняет статус препарата первой линии при СД2, тогда как агонисты рецепторов GLP-1 и ингибиторы SGLT-2 демонстрируют выраженные гликемические и кардиометаболические преимущества. Инсулинотерапия остаётся безальтернативным методом лечения при СД1 и эффективной стратегией при декомпенсированном течении СД2. Эффективное ведение сахарного диабета требует применения индивидуализированных интегративных стратегий, сочетающих модификацию образа жизни, современные фармакологические средства и перспективные терапевтические подходы.*

***Ключевые слова:*** *сахарный диабет; интегративные подходы; гликемический контроль; инсулинорезистентность; фармакологическая терапия; агонисты рецепторов GLP-1; ингибиторы SGLT-2; инсулинотерапия; кардиометаболические осложнения.*

---

**Mamazulunov Nurmuhammad Khusanboy ugli**
Andijan Branch, Kokand University
Senior Lecturer, Department of Biological Chemistrynand Pharmaceutics, PhD
**Akhmadjonov Qudratillo Mashrabboy ogli**
Lecturer, Department of Biological Chemistry and Pharmacy
Andijan Branch of Kokand University
**Joraboyev Abrorbek Odiljon ogli**
Lecturer, Department of Biological Chemistry and Pharmacy
Andijan Branch of Kokand University

## INTEGRATIVE APPROACHES TO THE MANAGEMENT OF TYPE 1 AND TYPE 2 DIABETES MELLITUS: LIFESTYLE MODIFICATION, PHARMACOLOGICAL THERAPY, AND CONTEMPORARY THERAPEUTIC STRATEGIES.

***Abstract.*** *This systematic analytical review aims to evaluate the clinical and pathophysiological effectiveness of integrative approaches in the management of type 1 and type 2 diabetes mellitus (T1DM and T2DM). The study focuses on the comprehensive assessment of lifestyle-based interventions, modern pharmacological therapies, and emerging therapeutic strategies and their impact on glycemic control, insulin sensitivity, metabolic homeostasis, and the risk of diabetes-related microvascular and macrovascular complications.*

*The review was conducted in accordance with the PRISMA 2020 guidelines and was based on high-quality clinical and epidemiological studies published in the Scopus, Web of Science, PubMed/MEDLINE, and ScienceDirect databases. The findings indicate that T2DM accounts for approximately 90–95% of all diabetes cases, with insulin resistance and progressive pancreatic β-cell dysfunction representing the predominant pathogenic mechanisms. In contrast, T1DM is characterized by autoimmune-mediated β-cell destruction leading to absolute insulin deficiency.*

*The analysis demonstrates that intensive lifestyle interventions reduce the risk of T2DM development by 50–58% and are associated with a 1.0–2.5% reduction in HbA1c levels. Metformin remains the first-line pharmacological agent for T2DM, while*

*GLP-1 receptor agonists and SGLT-2 inhibitors provide additional glycemic control along with significant cardiovascular and renal benefits. Insulin therapy is indispensable in T1DM and represents an effective strategy in advanced or decompensated T2DM. Overall, effective diabetes management requires individualized integrative strategies that combine lifestyle modification, evidence-based pharmacotherapy, and innovative therapeutic approaches.*

***Keywords:*** *diabetes mellitus; integrative approaches; glycemic control; insulin resistance; pharmacological therapy; GLP-1 receptor agonists; SGLT-2 inhibitors; insulin therapy; cardiometabolic complications.*

**Kirish.**

Misol tariqasida ko‘radigan bo‘lsak, ilk mustaqillik davrlaridagi asosiy muammolardan biri xali milliy valyuta tizimimizning shakllanmaganligi edi. O‘zbekiston Respublikasi bu davrda o‘z valutasiga ega emasligi, muomalada esa1961–1992-yillarda chiqarilgan rublning bo‘lganligi, ayrim oziq-ovqat va sanoat mahsulotlariga o‘zining tannarxiga qaraganda arzon narx belgilanganligi uchun ularni respublikadan tashqariga olib chiqib ketish avj ola boshladi va mamlakatimizda aholini asosiy iste’mol mahsulotlari bilan ta’minlashda qiyinchiliklar yuzaga keldi[1. – B. 37].

Bu voqeani hal etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining milliy valutasini muomalaga kiritish to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra 1994-yil 1-iyulidan boshlab respublika

hududida yagona, cheklanmagan va qonuniy to‘lov vositasi sifatida milliy valuta – so‘m muomalaga chiqarilgan[2. – B. 38]. O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida o‘z milliy pul birligiga ega bo‘lishi davlat miqyosidagi barqarorlikni mustahkamlab bordi, butun respublika bo‘ylab yagona pul tizimi amalda bo‘lishi savdo-sanoat rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu, ayniqsa, yengil sanoatning to‘qimachilik tarmog‘ida yaqqol ko‘zga tashlandi.

Janubiy Koreya ishtirokida paxtani qayta ishlovchi “Qabul-O‘zbekKO”, “Kosonsoy-Tekmen”, “Papfen”, “Asnam tekstil”, “Karakulteks”, “Chinoz to‘qimachi”, “Qabul-FerganaKO”, “Oqsaroy to‘qimachi” qo‘shma korxonlari barpo etildi. Faqat 2004 -yilda 17 ta yengil sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi. Bu tarmoqda xalq iste’mol mollarini ishlab chiqarish kengaydi, minglab yangi ish o‘rinlari yaratildi. Agar 1991-yili respublikamizda paxta tolasini qayta ishlash 12 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2004-yilda bu ko‘rsatkich 28 foizga yetdi. Kalava, ip, paxta va shoyi gazlamalarini eksport qilish hajmi ancha oshdi[3. – B. 152].

Yuqoridagi ma’lumot shuni ko‘rsatib turibdiki, mustaqil O‘zbekistonning to‘qimachilik sohasini shakllantirish va rivojlantirish yo‘lidagi ilk xalqaro hamkorlaridan biri Koreya Respublikasi bo‘lgan. Bunday tanlovga qo‘l urilishiga koreys xalqining mentaliteti, ishchanligi, iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlarida boy tajribaga ega bo‘lgani asosiy sabablardan biri sifatida turtki bergan bo‘lishi ham mumkin.

O‘zbekiston qudratli milliy iqtisodiy tizimga ega bo‘lish yo‘lida doimiy ravishda ish olib bordi va bu jarayon xali ham davom etmoqda. Bu borada yurtimizning yagona iqtisodiy hamkorli, tabiiyki, Koreya Respublikasi emas edi. Ya’ni xalqaro aloqlar ko‘plab mamlakatlar bilan amalga oshirib borildi. Bu borada alohida ajralib turadigan davlatlar qatorida Germaniya va Turkiya ham bor edi.

O‘zbekistonda Germaniya bilan hamkorlikda ochilgan korxona va firmalar soni 130 dan ziyodni tashkil etdi. Paxta tolasini chuqur qayta ishlashni va tayyor iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni ta’minlash, Farg‘ona viloyatining aholi zich joylashgan tumanlarida ishlab chiqarishlar tashkil etish, respublikaning eksport salohiyatini ko‘paytirish va iste’mol bozorini to‘ldirish maqsadida 2004-yil 19-mayda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, “O‘zbekyengilsanoat” davlat- aksiyadorlik kompaniyasi, “Tekstilgrup Xof AG” xolding (Germaniya) Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahridagi qurilishi tugallanmagan obyekt negizida bir yilda 12,0 ming tonna kalava ip, 3,5 ming tonna trikotaj polotno va 10 mln. dona tikuv va trikotaj buyumlari ishlab chiqaradigan “Qo‘qon Xof To‘qimachi” qo‘shma korxonasini tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori chiqdi[4. – B. 36].

Paxta tolasini raqobatbardosh mahsulotga qayta ishlash hajmlarini ko‘paytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish asosida respublikaning eksport salohiyatini kengaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror bilan 2001-yilda “O‘zbekyengilsanoat” uyushmasining ”Beshariq to‘qimachi” aksiyadorlik jamiyati, Germaniyaning “Tekstima Eksport Import GmbX” kompaniyasi va Turkiyaning “Sokay” va “Tekmen Tekstil” kompaniyalari tomonidan “Beshariq to‘qimachi” aksiyadorlik jamiyatining kalava ishlab chiqarishi bazasida yiliga 6836 tonna ip-gazlama ishlab chiqaradigan, quvvatlari 2002-yilning IV choragida ishga tushirilgan “Besteks” qo‘shma korxonasi tashkil etildi.

Sanoat, ayniqsa, yengil sanoat borasida hamkor sifatida Germaniya va Turkiyaning tanlanishi sababi ushbu mamlakatlar xalqaro iqtisodiy muhitda ko‘plab o‘z brendlariga ega ekanligi, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish tajribasi, shuningdek, Turkiyaning qardosh davlat sifatida tutgan mavqeyi sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston yengil sanoatning yana bir tarmog‘i hisoblangan poyabzalchilik sohasida ham o‘z tarixiga ega. Ko‘n-poyabzal sanoati mahalliy xomashyodan yumshoq va qattiq charm, tabiiy va sun’iy charmdan poyabzal, shuningdek, telpak, ot-ulov asboblari, attorlik buyumlari, to‘qimachilik va boshqa mashinalar uchun mahsulotlar ishlab chiqaradi. Mustaqillikning dastlabki yillarida ko‘nchilik sohasidagi barcha zavodlar negizida Toshkentda “O‘zbekiston ko‘n va sun’iy charm ishlab chiqarish birlashmasi” tashkil etildi. U 1994-yildan “Charm” korporatsiyasi deb nomlandi.

O‘zbekistonda poyabzal tikishda o‘z an’analariga ega. 1995-yil “Farg‘onapoyabzal” aksiyadorlik jamiyati bilan Germaniyaning “Salamander” firmasi ishtirokida “O‘zsalaman” qo‘shma korxonasi mahsulot chiqara boshladi. Bu davrdan iste’mol bozorida “O‘zSalaman” qo‘shma korxonasining mahsulotlarni keng yoyildi[5. – B. 42-43]. Shu bilan birgalikda, 2000-yil 23-fevralda “O‘zbekcharmpoyabzali” uyushmasi tashkil etildi va bu tashkilot kelgusida salmoqli faoliyat olib bordi.

Mustaqillik yillarida sanoat, xususan, yengil sanoat borasidagi sermazmun faoliyatni birgina Qashqadaryo viloyati misolida ko‘radigan bo‘lsak, Qarshi tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmasi gazmoldan tortib tikuv mashinalarigacha Ivanova, Xerson, Shuya, Barnaul kabi shaharlardan olardi. Ammo Ivanova viloyatidagi barcha to‘qimachilik fabrikalari O‘zbekiston paxta tolasi bilan ishlayotganligiga qaramasdan ular gazmolni Rossiya hududidan O‘zbekistonga chiqarganligi uchun mahsulot narxiga 5 foiz miqdorda ustama 30 foiz miqdorda soliq qo‘shdilar. Xuddi shuningdek, gazmolni tashishga ketgan xarajat ham korxona hisobidan to‘lanadi. Shunga qaramasdan fabrika jamoasining fidokorona mehnatlari tufayli 1991-yilda 69 526 ming so’mlik tovar mahsuloti tayyorlandi (reja 105,8 foiz), 59 672 ming so’mlik mahsulot shartnoma bo’yicha iste’molchilarga yetkazib berildi. Yalpi ko‘ylak ishlab chiqarish 93,2 foiz, ya’ni 4 857 ming donaga, shu jumladan, bolalar ko’ylaklar ishlab chiqarish 100,8 foiz, ya’ni 2 508 ming donaga uddalandi[6. – B. 56-57].

1991-yil “Hujum” badiiy buyumlar fabrikasida 1 418 dona sanam, 1 951 dona chizma qo‘lga to‘qilgan do‘ppilari, 116 345 dona mashinada tikilgan Iroqi do‘ppi, 1 205 dona bolalar (236 foiz), 894 dona ayollar (100,4 foiz) nimchalari, 26277 dona xalat, 19,4 ming kvadrat metr gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Tikuvchilik buyumlari ishlab chiqarish 104,1 foiz, ya’ni 7 139 ming so’mga, yalpi mahsulot ishlab chiqarish esa 113,5 foiz, ya’ni 12 923 ming so’mga uddalandi. Fabrikada 1 320 kishi mehnat qildi. Har bir kishi hisobiga 10380 so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilardi. Shu yil fabrikaning 1030 chevar xotin-qizlardan iborat 10 ta brigadasi o‘z uylarida mehnat qilib, rejadagi 4 151,3 ming so‘mlik o‘rniga 4350,3 ming mahsulot ishlab chiqardilar.

***Xulosa:*** Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ham anglash mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng, barcha sohalar qatori sanoatda ham o‘z tizimini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish masalasida juda ko‘plab to‘siq va qiyinchiliklarni yengib o‘tishiga to‘g‘ri kelgan. tabiiyki, yuzaga kelgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, yuksak natijalarga erishish, xorijiy mahsulotlarga yoki xomaki tovarlarga qaramlikdan qutulishga birdaniga erishib bo‘lmasdi, buning uchun yillar davomida olib boriladigan tizimli islohotlarga ehtiyoj tug‘ilgan edi va hukumat ushbu islohotlarni o‘z o‘rnida hamda strategik jihatdan to‘g‘ri tadbirlarni qo‘llagan holda amalga oshirdi. Bugungi kunda O‘zbekiston yengil sanoatda o‘zining yetarlicha nufuzga ega bo‘lgan mahsulotlariga ega deb bemalol ayta olamiz. Bu mamlakatga nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki siyosiy erkinlik va mustahkam suverenitet ham taqdim etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Esanova N. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yengil sanoat sohasidagi o‘zgarishlar // Ijtimiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – 2024. -№4. – B. 42-43.

2. Esanova N. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning yengil sanoat sohasini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – 2025. -№3. – B. 36.

3. Jo‘rayev N., Zamonov A. O‘zbekiston tarixi (Mustaqillik davri). – T.: G‘afur G‘ulom, 2018. – B. 37-38.

4. Kurbanov A. Mustaqillikning dastlabki yillarida Qashqadaryoda yengil sanoat sohasida amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalari // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – 2025. -№1. – B. 56-57.

5. Murtazayeva R., Inoyatova D. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. – T.: O‘zMU, 2022. – B. 152.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

07.00.00-TARIX
journal.namdu.uz
HISTORICAL

**Solijonov Otabek Ulug'bek o'g'li**
UBS Toshkent filiali ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti tadqiqotchisi

## NOMODDIY MA'NAVIY MEROSNI ASRASH MILLIY O'ZLIK VA JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada nomoddiy ma'naviy merosning milliy o'zlikni shakllantirish va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashdagi o'rniga oid nazariy hamda amaliy jihatlar tahlil qilingan. Avvalo, nomoddiy madaniy meros tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy unsurlari va madaniy identifikatsiya jarayonidagi funksional roli keng yoritiladi. Etnografik, tarixiy, sotsiologik va madaniyatshunoslik manbalari asosida nomoddiy merosning dastlabki shakllanishi, avlodlararo uzviylik tamoyillarini saqlagan holda zamonaviy jamiyatga moslashish mexanizmlari, shuningdek, globallashuv davrida uning transformatsiya jarayonlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Maqolada milliy o'zlikni belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida xalqning til, udum, qadriyat, an'ana, marosim, diniy tasavvur hamda badiiy ijod namunalari singari nomoddiy tarkibiy elementlari ko'rib chiqiladi. Ularning ijtimoiy ong, kollektiv xotira va madaniy o'ziga xoslikni uzluksiz takror ishlab chiqarishda tutgan o'rni alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, merosning jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq pragmatik funksiyalari — ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, tarixiy xotirani rivojlantirish, ma'naviy immunitetni kuchaytirish, madaniy diplomatiyani faollashtirish va turizm salohiyatini kengaytirish masalalari ilmiy dalillar asosida asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Nomoddiy madaniy meros, ma'naviy meros, milliy o'zlik, qadriyat, jamiyat taraqqiyoti, madaniy uzviylik, an'ana va urf-odatlar, ma'naviy barqarorlik, madaniy identitet, avlodlar davomiyligi.*

**Solijonov Otabek Ulug'bek o'g'li**
Преподаватель кафедры социальных и гуманитарных наук Ташкентского филиала УБС, научный сотрудник Института культурологии и нематериального культурного наследия

## СОХРАНЕНИЕ НЕМАТЕРИАЛЬНОГО ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ ЯВЛЯЕТСЯ ОСНОВОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ И РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты роли нематериального культурного наследия в формировании национальной идентичности и обеспечении развития общества. Прежде всего, подробно рассматривается сущность понятия нематериального культурного наследия, его структурные элементы и функциональная роль в процессе культурной идентификации. На основе этнографических, исторических, социологических и культурологических источников на научной основе анализируются начальные этапы формирования нематериального наследия, механизмы адаптации к современному обществу при сохранении принципов межпоколенческой преемственности, а также процессы его трансформации в эпоху глобализации.*

*В статье нематериальные структурные элементы народа, такие как язык, обычаи, ценности, традиции, ритуалы, религиозное воображение и примеры художественного творчества, рассматриваются как один из главных факторов, определяющих национальную идентичность. Подчеркивается их роль в непрерывном воспроизводстве общественного сознания, коллективной памяти и культурной идентичности. Кроме того, прагматические функции наследия, связанные с развитием общества — укрепление социальной сплоченности, формирование исторической памяти, укрепление духовного иммунитета, активизация культурной дипломатии и расширение туристического потенциала — обосновываются на основе научных данных.*

***Ключевые слова:*** *нематериальное культурное наследие, духовное наследие, национальная идентичность, ценность, социальное развитие, культурная сплоченность, традиции и обычаи, духовная стабильность, культурная идентичность, преемственность поколений.*

**Solijonov Otabek Ulug'bek o'g'li**
Teacher of the Department of Social and Humanitarian Sciences, Tashkent Branch of the UBS, Researcher of the Institute of Cultural Studies and Intangible Cultural Heritage

## PRESERVATION OF INTANGIBLE SPIRITUAL HERITAGE IS THE BASIS OF NATIONAL IDENTITY AND SOCIETY DEVELOPMENT

***Abstract:*** *This article analyzes the theoretical and practical aspects of the role of intangible cultural heritage in the formation of national identity and ensuring the development of society. First of all, the essence of the concept of intangible cultural heritage, its structural elements and its functional role in the process of cultural identification are widely covered. Based on ethnographic, historical, sociological and cultural sources, the initial formation of intangible heritage, the mechanisms of adaptation to modern society while maintaining the principles of intergenerational continuity, as well as its transformation processes in the era of globalization are analyzed on a scientific basis. The article considers intangible structural elements of the people, such as language, customs, values, traditions, rituals, religious imagination and examples of artistic creativity, as one of the main factors determining national identity. Their role in the continuous reproduction of social consciousness, collective memory and cultural identity is emphasized. Also, the pragmatic functions of heritage related to the development of society - strengthening social cohesion, developing historical memory, strengthening spiritual immunity, activating cultural diplomacy, and expanding tourism potential - are substantiated on the basis of scientific evidence.*

***Keywords:*** *Intangible cultural heritage, spiritual heritage, national identity, value, social development, cultural cohesion, traditions and customs, spiritual stability, cultural identity, continuity of generations.*

Bugungi globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va madaniyatlararo ta'sirning kuchayishi sharoitida har bir xalq o'zining milliy o'zligini, tarixiy xotirasini va ma'naviy qadriyatlarini asrashga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu jihatdan nomoddiy madaniy meros millatning ruhiy boyligi, o'ziga xos an'analari va qadimiy dunyoqarashini ifodalovchi bebaho manba sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi. U xalqning tarixiy tajribasi, og'zaki ijodi, marosim va urf-odatlari orqali avloddan-avlodga o'tib, jamiyat ma'naviy taraqqiyotining muhim tayanchiga aylanadi.

Bugungi kunda ommaviy madaniyat, iste'molchilik qadriyatlari va globallashuv oqimida milliy merosga befarqlik kuchaymoqda. Shu bois, nomoddiy madaniy merosni qadriyat sifatida o'rganish, uni yosh avlod ongiga singdirish va amaliy hayotda qadrlash mexanizmlarini ishlab chiqish jamiyat barqarorligi va madaniy o'zlikni saqlab qolishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Nomoddiy madaniy meros sohasini o'rganish dolzarb masalaga aylanib bormoqda, chunki nomoddiy madaniy merosni qadriyat sifatida anglash darajasining pasayishi, uni zamonaviy hayot tarziga uyg'unlashtirishdagi muammolar va ularni hal etish zaruriyatidir.

Nomoddiy madaniy meros insoniyatning tarixiy rivojlanishi davomida shakllangan va avloddan-avlodga og'zaki, amaliy yoki marosimiy shakllarda o'tib kelayotgan ma'naviy boyliklar majmuasidir. UNESCOning 2003-yil 17-oktabrda qabul qilingan "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi Konvensiyasida[1] ta'kidlanishicha, nomoddiy madaniy meros — bu "jamiyat, guruh yoki ayrim shaxslar tomonidan o'z madaniy meroslarining bir qismi sifatida tan olingan urf-odatlar, tasavvurlar, ifoda shakllari, bilimlar va ko'nikmalar majmui"dir.

Nomoddiy madaniy merosning asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi: Og'zaki an'analar va ifoda shakllari (ertaklar, maqollar, dostonlar); ijro san'ati (musiqa, raqs, teatr shakllari); Ijtimoiy urf-odatlar, marosimlar va bayramlar; tabiat va koinotga oid bilim va amaliyotlar; an'anaviy hunarmandchilik (kashtachilik, kulolchilik, zargarlik).

O'zbekiston hududida nomoddiy madaniy merosning boy turlari shakllangan. Xususan, "Shashmaqom", "Navro'z", "Askiya", "Baxshichilik san'ati" va "Boysun madaniy makoni" UNESCO nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Bu meros turlari xalqimizning ma'naviy qadriyatlari, estetik tafakkuri va ijtimoiy birdamligini ifodalovchi beqiyos boylikdir. Shu bois, ularni qadriyat sifatida o'rganish milliy o'zlikni saqlashning muhim omilidir.

Rossiyalik etnolog olim A.K.Bayburin "Nomoddiy madaniy meros – bu madaniyatning og'zaki va amaliy ko'rinishdagi namoyon bo'lish shakllari bo'lib, ular xalq orasida og'zaki an'analar, marosimlar va bayramlar orqali yashaydi"[2:18] degan ta'rifni keltirib o'tgan. "Nomoddiy madaniy meros" tushunchasi nafaqat og'zaki ijod yoki amaliy ko'nikmalar yig'indisi, balki xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va hayot falsafasining davomiyligini ta'minlaydigan tirik jarayondir. Uning og'zaki an'analar, marosimlar va bayramlar orqali yashashi – bu merosning doimo o'zgarib, takomillashib borishini anglatadi. Menimcha, nomoddiy merosning eng muhim jihati shundaki, u avloddan avlodga faqat bilim sifatida emas, balki qadriyat sifatida ko'chadi. Shu bois, uni asrash deganda faqat hujjatlashtirish yoki qayd etish emas, balki uning tabiiy muhitda yashashi, kundalik hayotda qo'llanilishi va yangi avlodlar tomonidan qabul qilinishiga sharoit yaratish lozim. Nomoddiy merosning haqiqiy kuchi – xalqni birlashtira olishi, jamiyatda o'ziga xoslik va tarixiy davomiylik hissini mustahkamlashidadir.

Nomoddiy madaniy meros har bir xalqning ma’naviy dunyosini, tarixiy xotirasini va milliy o‘zligini ifodalovchi eng muhim qadriyatlardan biridir. U moddiy shaklga ega bo‘lmagan, biroq insonlarning ongida, turmush tarzida va ijtimoiy munosabatlarida mustahkam o‘rnashgan ma’naviy boylik sifatida namoyon bo‘ladi. UNESCO ta’rifida qayd etilishicha, “nomoddiy madaniy meros – bu jamiyatning o‘zini tanituvchi, uning a’zolari o‘rtasida birdamlik va o‘zlik hissini mustahkamlovchi tirik merosdir”[3].

Nomoddiy meros qadriyat sifatida, avvalo, xalqning ruhiy birligining ifodasidir. Masalan, Navro‘z bayrami — tabiat uyg‘onishini, inson va muhit uyg‘unligini madh etuvchi qadimiy an’ana bo‘lib, xalqning tinchlik, mehr-oqibat va bag‘rikenglikka asoslangan qadriyatlarini aks ettiradi. Shuningdek, “Shashmaqom” musiqasi o‘zbek xalqining estetik didi, ruhiy sezgirligi va hayot falsafasini mujassam etgan ma’naviy qadriyat sifatida qadrlanadi.

Nomoddiy madaniy meros ustida tadqiqot olib borgan olima D.Yusupaliyeva bu meros turi haqida yozadi: “har bir xalqda kuzatiluvchi takrorlanmas meros madaniyatlararo turli-tumanlikni ko‘rsatib ularni bir-biridan kamsitmagan holda ajratib kelgan”[4:162]. Bundan kelib chiqishi, insoniyat madaniyatining eng muhim jihatlaridan biri — madaniy xilma-xillik va tenglik g‘oyasiga e’tibor qaratadi. Aytish joizki, nomoddiy madaniy meros har bir xalqning o‘ziga xos tarixiy, ma’naviy va estetik tajribasini ifoda etuvchi takrorlanmas hodisadir. Har bir xalqning og‘zaki ijodi, marosimlari, urf-odatlari yoki san’at an’analari o‘ziga xos shaklda rivojlangan bo‘lsa-da, ularning barchasi umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida o‘zaro bog‘liqdir.

Biror xalqning merosi boshqasidan ustun yoki past emas — ular bir-birini to‘ldiruvchi, insoniyatni boyituvchi qadriyatlar tizimini tashkil etadi. Bu yondashuv zamonaviy UNESCO konsepsiyasi bilan hamohang bo‘lib, unda madaniy xilma-xillikni asrash “insoniyatning ijodiy salohiyatini saqlab qolishning garovi” sifatida e’tirof etiladi. Aytish mumkinki, yuqoridagi fikr xalq madaniyatini faqat tarixiy meros sifatida emas, balki insoniyatni birlashtiruvchi, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglikni mustahkamlovchi qadriyat sifatida talqin qiladi. Har bir millatning nomoddiy madaniy merosi — bu o‘ziga xos madaniy ovoz bo‘lib, u boshqalar bilan uyg‘un holda mavjud bo‘lganidagina haqiqiy qadriyatga aylanadi.

Bu meros turi xalq tafakkurining mahsuli va u millatning o‘ziga xosligini, tarixiy xotirasini va ma’naviy barqarorligini ifodalaydi. Ushbu fikr nomoddiy madaniy merosning asl mohiyatini chuqur yoritadi. Tadqiqotchining nazarida, nomoddiy madaniy meros — bu nafaqat o‘tmishdan qolgan an’analar majmui, balki xalq tafakkuri va dunyoqarashining tirik ifodasidir. U xalqning ruhiy kechinmalari, qadriyatlar tizimi va tarixiy xotirasini mujassam etgan holda millatning o‘ziga xosligini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuni anglash mumkinki, har bir xalqning nomoddiy madaniy merosi uning ma’naviy barqarorligini ta’minlaydigan ichki kuch manbai hisoblanadi. U orqali xalq o‘z tarixiy ildizlarini, urf-odatlarini, tilini va estetik qarashlarini saqlab qoladi. Shu bois, nomoddiy madaniy merosni asrash — bu o‘tmishni muzlatib qo‘yish emas, balki xalq tafakkurining uzluksiz rivojlanishiga imkon berishdir.

Fikrimizcha, nomoddiy madaniy meros millatni birlashtiruvchi, uning o‘zligini anglashni mustahkamlovchi, avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy ko‘prik vazifasini bajaradi. U xalq hayotining ruhiy energiyasi bo‘lib, tarixiy xotirani hozirgi zamon bilan bog‘laydi va shu orqali jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlaydi. Bu fikr zamirida nomoddiy madaniy merosning milliy o‘zlikni shakllantiruvchi, ijtimoiy birlashtiruvchi va ma’naviy mustahkamlovchi qadriyat sifatidagi mohiyati yotadi.

Shu jihatdan, nomoddiy meros nafaqat o‘tmishning yodgorligi, balki bugungi avlodni tarbiyalovchi, milliy g‘urur va o‘zlikni shakllantiruvchi kuchdir.

Nomoddiy merosning qadriyat sifatidagi mohiyati uning tarbiyaviy va ijtimoiy birlashtiruvchi vazifasida ham namoyon bo‘ladi. U yoshlarni o‘z milliy ildizlariga hurmat ruhida tarbiyalaydi, turli millat va elatlar o‘rtasida o‘zaro tushunish, totuvlik va bag‘rikenglikni mustahkamlaganligi uchun nomoddiy meros – bu jamiyatni birlashtiruvchi, ma’naviyatni yangilovchi tirik tizimdir.

Nomoddiy madaniy merosning muhofaza qilinishi, saqlanishi va kelgusi avlodlarga yetkazilishi barqaror taraqqiyotga o‘z hissasini qo‘shishi ham kundek ravshan. Chunki, biror xalqning nomoddiy madaniy merosida barqaror taraqqiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omil yo‘q va bu meros to‘laligicha taraqqiyotga xizmat qiladi[5:334]. Demak, nomoddiy madaniy meros qadriyat sifatida insoniyatning ma’naviy taraqqiyoti, milliy o‘zlikni anglash va madaniy xilma-xillikni asrashda beqiyos ahamiyatga ega. Uni asrash, rivojlantirish va yosh avlod ongiga singdirish – bugungi madaniyat siyosatining eng muhim vazifalaridan biridir.

Ta’kidlash joizki, nomoddiy madaniy meros xalqning tafakkuri, tarixiy xotirasi va ma’naviy barqarorligini ifodalovchi bebaho qadriyatdir. U millatning o‘ziga xosligini, ma’naviy birligini va madaniy uzluksizligini ta’minlaydi. An’analar, og‘zaki ijod, urf-odatlar, marosimlar va hunarmandchilik kabi nomoddiy meros unsurlari xalq hayot tarzini shakllantirib, jamiyatning ma’naviy-axloqiy negizini mustahkamlaydi. Shu bois, uni asrash, rivojlantirish va yosh avlodga yetkazish har bir davlatning madaniy siyosatida ustuvor yo‘nalish bo‘lishi zarur. Bugungi globallashuv sharoitida nomoddiy madaniy merosni qadriyat sifatida e’tirof etish — milliy o‘zlikni saqlash, madaniy xilma-xillikni

asrab-avaylash va ma’naviy uyg‘unlikni mustahkamlashning eng muhim omillaridan biridir. Shu jihatdan, nomoddiy merosni himoya qilish — bu o‘tmishni saqlash emas, balki kelajakni ma’naviy boyitish demakdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
2. Байбурин А.К, Ритуал в традиционной культуре. Структурно-семантический анализ восточнославянских обрядов – Санкт-Петербург.: “Наука”, 1993. – С.18. (253 с)
3. https://www.uis.unesco.org
4. To‘g‘onboyeva Z. Nomoddiy madaniy merosnining jamiyat hayotida tutgan o‘rni. Central Asian journal of education and innovation. – Volume 2, Issue 4, April 2023. 162-164 b.
5. Dilafruz Q. Yusupaliyeva. ‘Issues of protection, preservaation and promotion of intangible cultural heritage’, Inter education & global study, (4(2)), pp. 334–342. (In Uzbek).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

07.00.00-TARIX
journal.namdu.uz
HISTORICAL

**Umarova Dilshoda Ismoiljon qizi**
NamDU Tarix yo`nalishi talabasi
E-mail: dilshoda2006aa@gmail.com
**Ilmiy rahbar: Madraximov Zoxid Sharafovich**
NamDU dotsenti, tarix fanlari nomzodi

## ABU NASR FAROBIY

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada O`rta Osiyolik buyuk alloma, "Sharq Arastusi" nomi bilan tanilgan – Abu Nasr Farobiyning ilmiy merosi tahlil qilinadi. Farobiyning ilmiy va m'anaviy merosi, matematika, falsafa, astronomiya, mantiq va tarix fanlari sohalaridagi kashfiyotlari, ilmiy uslublari hamda jahon sivilizatsiyasiga ko`rsatgan ta`siri yoritiladi.*

***Kalit so`zlar:*** *O`rta Osiyo, qomusiy olimlar, Abu Nasr Farobiy, tarixi, falsafa, arab, Hindiston, geodeziya, Arastu, jahon svilizatsiyasi, ilmiy meros, fozil odamlar.*

**Умарова Дилшода Исмоилжон кизи**
Студентка исторического факультета НамГУ
**Научный руководитель: Мадрахимов Зоксид Шарафович**
Доцент НамГУ, кандидат исторических наук

## АБУ НАСР ФАРАБИ

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется научное наследие Абу Насра аль-Фараби, великого центральноазиатского учёного, известного как «Аристотель Востока». Особое внимание уделяется научному и традиционному наследию аль-Фараби, его открытиям в области математики, философии, астрономии, логики и истории, научным методам и влиянию на мировую цивилизацию.*

***Ключевые слова:*** *Центральная Азия, учёные-энциклопедисты, Абу Наср аль-Фараби, история, философия, арабский язык, Индия, геодезия, Аристотель, мировая цивилизация, научное наследие, добродетельные люди.*

**Umarova Dilshoda Ismoiljon qizi**
Student of the History Department of NamSU
**Scientific supervisor: Madrakhimov Zoxid Sharafovich**
Associate Professor of NamSU, Candidate of Historical Sciences

## ABU NASR FAROBI

***Abstract:*** *This article analyzes the scientific legacy of Abu Nasr al-Farabi, a great Central Asian scholar known as the "Aristotle of the East". Al-Farabi's scientific and traditional legacy, discoveries in the fields of mathematics, philosophy, astronomy, logic and history, scientific methods and his influence on world civilization are highlighted.*

***Keywords:*** *Central Asia, encyclopedic scholars, Abu Nasr al-Farabi, history, philosophy, Arabic, India, geodesy, Aristotle, world civilization, scientific heritage, virtuous people.*

*"Tadqiqotchi-olimlarning fikricha, Sharq, xususan, Markaziy Oiyo mintaqasi IX – XII va XIV – XV asrlarda bamisoli po`rtanadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbayi hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta'sir ko`rsatgan Sharq uyg'onish davri – Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan".*
**Islom Karimov.**

### Kirish

Fan va madaniyat olamida o`z o`rni va mavqeiga ega bo`lgan ulug' mutafakkir, zabardast olim, buyuk allomalardan biri, shubhasiz, Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon Farobiydir (873 – 950). Dunyo

fani va madaniyati, uyg'onish davrining ko`zga ko`ringan vakillaridan biri bo`lgan Forobiy qadimgi yunon fani madaniyatining insoniyat svilizatsiyasida tutgan o`rnini yuksak baholab, butun ilmiy faoliyati davomida nafaqat unga suyandi, cheksiz hayratlandi va ilhomlandi, balki kishilik tarixida o`chmas iz qoldirgan yunon olimlarining, ko`proq Arastuning asarlarini targ'ib qildi, ularning ko`plarini arab tiliga tarjima qildi, sharhlar yozdi. Antik dunyo olimlarining qoldirgan meroslar to`la o`zlashtirmasdan turib, fan va madaniyatni rivojlantirish mumkin emasligini yaxshi tushungan Abu Nasr Farobiy yunon mutaffakirlarining "quli''ga aylanib qolmadi, balki ko`p qirrali olim va ijodkorlarning davomchisi, o`z davri sharoitida mustaqil fikr yurituvchi alloma sifatida o`zini namoyon qildi.

Abu Nasr Forobiy "Sharq Arastusi", "Ikkinchi muallim" nomlari bilan O`rta Osiyo madaniyatining asoschilaridan biriga aylanganligi bejiz emas edi, albatta. Forobiyning shaxsi va ijodi ko`pgina olimlarning diqqatini o`ziga jalb etgan bo`lib, u haqida ko`pdan-ko`p tortishuv va munozaralar bo`lib turar edi. Uning so`nmas ilmiy va madaniy merosi ta'siri ostida dunyoning juda ko`p madaniyat vakillari, jumladan, Nizomiy Ganjaviy, Shota Rustaveli, Nosir Xusrav, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Grigor Tativatsi, Ioane Petritsi, Rodjer Bekon, Sicher Brabantskiy va boshqa yuzlab fan fidoyilari shakllangan, o`zligini anglab, mustaqil ijod yo`lini topib olganlar desak mubolag'a bo`lmas.

Abu Nasr Forobiy o`rta asr fani va madaniyatining barcha muhim sohalarini to`la egallagan buyuk allomadir. Uning 160 dan ortiq asar yozib qoldirganligi ma'lum. Arab tarixchisi Jamoluddin al- Qiftiy (1172 – 1248) o`z kitobida Forobiyning yetmish ikkita asari nomini keltirgan. Mashhur arab tabibi Ibn Ali Usaybiya (1194 – 1270) esa uning bir yuz o`n ikkita asarini nomma-nom sanab o`tgan. Keyingi ma'lumotlarga ko`ra , Forobiy asarlarining soni bir yuz oltmishdan ortadi. Lekin dunyo kutubxonalarida Forobiyning bizgacha yetib kelgan mavjud asarlari qirqdan oshmaydi, ularning ko`pchiligi turli nashriyotlar tomonidan nashr etilgan.

Forobiy qo`lyozmalari dunyoning ko`plab kutubxonalaridan joy olgan. Shuningdek, Farobiy ijodini o`rganuvchi olimlar safi ham shunchalik keng. Farobiy asarlarini nashrdan chiqaruvchi, uning chinakam ensiklopedik merosining turli jihatlardan o`rganuvchi olimlar farobiyshunoslikka o`z xissasini qo`shib kelishmoqda.

Arab musulmon olamida Abu Nasr Forobiy jamiyat qurilishi va uning asosiy huquqiy, ma'naviy-axloqiy jihatidan takomillashtirishining tamoyillari ve eng maqbul yo`llari haqidagi tizimlashtirilgan ta'limotni yaratgan birinchi mutafakkir sifatida ulug'lanadi. Ijtimoiy, ya'ni insoniy mukammalikka erishuvni ta'minlovchi vosita esa – bu fuqarolik yoki siyosat fanidir.

Forobiy o`zining "Fozil shahar aholisining fikrlari", "Baxt-saodatga erishuv haqida" va boshqa asarlarida axloq falsafasi, jumladan, axloqiy tarbiyaning muhim muammolarini hal qilishga harakat qiladi.

Forobiyning ilmiy merosi, umuman, o`rta asr Sharqining madaniy-ma'naviy hayotidan, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy masalalaridan juda boy ma'lumot beradi. Mutafakkir o`z asarlarini o`sha davrda Sharq mamlakatlarida ilmiy-adabiy til hisoblangan arab tilida yozadi. Forobiy shuningdek, arab va fors tillarida falsafiy mazmundagi she'rlar ham yozgan.

Forobiy asarlari XII – XIII asrlardayoq lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga, keyinchalik boshqa tillarga tarjima qilinib, dunyoga keng tarqalgan. So`ngi asrlarda ko`chirilgan nusxalari ko`p mamlakatlarning kutubxona va muassasalarida saqlanadi.

Forobiyning tabiiy-ilmiy fanlar haqidagi qarashlari "Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi" asarida batafsil yoritilgan. Kitobda o`rta asrda ma'lum bo`lgan 30 dan ortiq fanning ta'rifi, ahamiyati ko`rsatib beriladi. Barcha fanlar 5 guruhga ajratiladi: 1) til haqidagi ilm (7 bo`lim – gramatika, orfografiya, she'riyat); 2) mantiq va uning bo`laklari; 3) matematika (arifmetika, geometriya, optika, astronomiya, muzika, og'irliklar haqidagi ilm, mexanika); 4) tabiatshunoslik va metafizika (8 bo`lim – bashorot qilish, tibbiyot, alkimyo); 5) shahar haqidagi fanlar-siyosiy ilm, fiqh, kalom (etika, pedagogika).

Fanlarning bu tasnifi o`z davrida ilmiy bilimlarning ma'lum tizimga solishning mukammal shakli bo`lib, bilimlarning keyingi rivoji uchun katta ahamiyatga ega bo`ldi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, Forobiy tabiiy va ijtimoiy fanlarni vazifasidan kelib chiqib to`g'ri farqlangan. Uning talqinicha, matematika, tabiatshunoslik, metafizika fanlari inson aqlini bilimlar bilan boyitish uchun xizmat qilsa, gramatika, mantiq, she'riyat kabi ilmlar fanlardan to`g'ri foydalanishni, bilimlarni boshqalarga to`g'ri tushuntirish, ya'ni aqliy tarbiya uchun xizmat qilgan. Siyosat, axloq, ta'lim-tarbiyaga oid bilimlar esa kishilarning jamoalarga birlashuvini, ijtimoiy hayotga tegishli qoidalarini o`rgatadi.

Forobiy insonning amaliy faoliyati uchun tabiiy fanlarning ahamiyatini yaxshi tushunadi. Bunday fanlarni u real narsalar haqidagi ilmlar deb ataydi. U yunon tabiatshunoslari Evklid, Ptolomey, Galen kitoblariga yozgan sharhlarida, o`zining geometriyaga oid kitobida antik dunyo, o`rta asr matematik g'oyalarining yirik bilimdoni sifatida maydonga chiqdi, matematikaning bir qancha murakkab kategoriyalari va mavhum tushunchalarini ilmiy nuqtai nazardan hal etish yo`llarini qidirdi, xususan son haqidagi ehtimollik nazariyasi to`g'risidagi g'oyalarni boyitdi.

Forobiy “Yulduzlar haqidagi qoidalarda nima to`g’ri nima nato`g’riligi to`g’risida” risolasida osmon jismlari bilan yerdagi hodisalar o`rtasidagi tabiiy aloqalarni, xususan bulutlar va yomg’irlar paydo bo’lishining Quyosh issiqligi ta’sirida bug’lanishga sababiy bog’likligini yoki Oy tutilishi Yerning Quyosh bilan Oy o`rtasiga tushib qolishiga bog’liq ekanligini ko`rsatgan edi. Bu bilan u osmon jismlariga qarab “faol ochuvchilar”ni kashf qildi. Forobiy arzon metallarni qimmatbaho metallarga aylantirishga urunuvchilarni (q. Alkimyo) tanqid qilib, kimyoga tabiiy ilmlarning bir qismi sifatida qaradi.

Forobiy tabiblik bilan bevosita shug’ullanmagan bo`lsa-da, nazariy tibbiyotni yaxshi bilgan. Uning tibbiy qarashlari “Inson a’zolari haqidagi” risolasida bayon qilingan. U inson a’zolarini, turli xil kasalliklar sababini, ularning paydo bo`lish sharoitlarini alohida-alohida o`rganishni, organizmning salomatligini tiklash uchun kerakli oziq-ovqatlarga e’tibor berishni qayd etadi. Insonning ruhiy va jismoniy holati tashqi omillar, muhit ta’siriga bog’likligiga e’tibor beradi. Uning tibbiyot vazifasi, maqsadi haqidagi qarashlariga katta ta’sir ko`rsatdi.

Forobiy dunyoqarashning shakllanishiga asosan Sharqning qadimgi ilg’or an’nanalari, arab xalifaligiga qarshi xalq harakatlari, o`rta asr tabiiy-ilmiy tafakkur yutuqlari, Yunonistonning falsafiy merosi ta’sir ko`rsatdi. Forobiy avvalambor Aristotel tralimotini tiklash, asoslash va ilg’or tomonlarini so`ngi ilmiy yutuqlar asosida rivojlantirishga harakat qilib, Sharq aristotelizm oqimini vujudga keltirdi. Bu oqimning uslubi, muhim masalalari , kategoriyalarini ishlab chiqdi.

Forobiyning falsafiy ta’limoti mohiyat-e’tibori bilan an’anaviy ilohiyot – kalomdan tubdan farq qilib, ilmiy g’oyalar bilan yog’rilgandir. Forobiy falsafasiga ko`ra, olam yagona mavjudotdan iborat, yagona vujud-vujudi vojib, ya’ni azaliy vujud – birinchi sabab hamda vujudi mumkin – yaratilgan, kelib chiqqan vujudlar natijalaridan iboratdir.

Abu Nasr Forobiy insoniyatning bilimga ega bo`lish mohiyatiga oydinlik kiritgan. Mohiyatni anglash uchun his qilishning o`zi yetarli emas. Bunga faqat aql yordamida erishish mumkin. “Himmatli shahar aholisining nuqtai nazari haqida risola” – al Farobiyning eng yetuk asarlaridan biri. Asar 948-yili Misrda yozilgan.

“Himmatli shahar” ning eng boshida faylasuf turadi. Al Farobiy insonning maqsadi baxt bo`lib, unga faqat aql-idrok orqali erishish mumkin, deya tahmin qilingan. Mutaffakir jamiyatni davlat bilan yenglashtirgan. Jamiyat – inson organizmi. “Himmatli shahar – tirik jonzod ha yotini saqlab qolish maqsadidagi barcha a’zolari bir-biriga yordam beruvchi sog’lom tana singari”.

Forobiy, haqiqatan ham jahon miqyosidagi inson bo`lgan, u o`zining ijodiy yutuqlarida arab, fors, yunon, hind, va o`zining shaxsiy turk madaniyatini o`rganib, umumlashtirgan. Turk madaniyati sadosi uning mashhur “Kitab al musiq al kabir” (“Katta musiqa kitobi” asarida yaqqol namoyon bo`lgan.

O`rta asr olimlaridan ibn Xallikon, ibn al Qiftiy, ibn Ali Usabia, Bayhaqiylar o`z asarlarida Farobiy ijodini o`rganib, uning g’oyalarini rivojlantirganlar. Xususan, ibn Rushd Farobiy asarlarini o`rganibgina qolmay, ularga sharhlar ham (“Sillogizmga nisbatan al-Farobiyning fikri”, “Abu Nasrning mantiqqa doir asarida ifodalangan fikrning bayoni”) ham yozgan. Xususan, “Al- Farobiy, xususan uning “Organon” izohlariga turli sharhlari” va boshqalar shular jumlasidandir.

“Averroizm” nomi bilan mashhur bo`lgan uning falsafiy ta’limotining shakllanishi dastlab Forobiy va Ibn Sino faoliyati bilan bog’liq. “Averroizm” ilmiy tendensiyalarni ifodalovchi ilg’or yo`nalish sifatida keng yoyilgan va Uyg’onish davrining ko`p ilg’or mutafakkirlari dunyoqarashiga ta’sir ko`rsatgan.

Taraqqiyparvar insoniyat Farobiy ijodiga hurmat bilan qarab, uning merosini chuqur o`rgandi va o’rganmoqda. Yevropa olimlaridan B. M. Shtrenshneyder, G.Farmer, Karra de Vo, T.U. Buur, R.Xammond, R.de Erlanje, F. Detiritsi, N.Rishar, G.Ley, Sharq olimlaridan Nafisiy, Umar Farrux, Turker, M.Maxdi va boshqalar Farobiy merosini o`rganishga muayyan hissa qo`shdilar. Keyingi yilarda uning ijodi va ta’limotiga bag’ishlangan bir qancha tadqiqotlar, asarlar yuzaga keldi.

O`zbekiston va Qozog’istonda Abu Nasr Forobiy nomiga qo`yilgan ko`cha, maktab va kutubxonalar mavjud.

***Farobiy hikmatlari:***

*Daraxtning kamolga yetgani mevasi bilan bo`lganidek, baxt-saodatning mukammal bo`lishi yaxshi xulqlar bilan namoyon bo`ladi.*

*Kimki o`zini o`z darajasidan yuqori ko`tarsa, unday kishiga kamolot yo`li to`silib qoladi.*

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Маънавият юлдузлари (Марказий Осиёлик машхур сиймолар, алломалар, адиблар). – ТОШКЕНТ, 1999.

2. Abu Nasr Forobiy – “Sharqning ikkinchi muallimi” // “Ma’rifat” gazetasi 2007.

3. “Sharq Arastusi” ( Ulug’ mutafakkir va qomusiy olim Abu Nasr Farobiy (873-950) tavalludining 1150 yilligiga). Esdalik. – BUXORO, 2023.

4. Muhiddinova Feruza. Uyg’onish. Abu Nasr Farobiy. Ilmiy-ommabop. – Toshkent, 2024.

5. https://arboblar.uz

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

07.00.00-TARIX
journal.namdu.uz
HISTORICAL

**Dostonbek Davlataliyev**
Namangan davlat universiteti, Tarix yo‘nalishi 2-kurs talabasi
E-mail: dostondavlataliyev74@gmail.com
**Ilmiy rahbar: Dadamirzayeva Gulchexra Abdunabiyevna, dotsent t.f.b.f.d**

## AMIR TEMUR DAVRIDA IJTIMOIY - IQTISODIY HAYOT VA SAVDO ALOQALARI

***Annostatsiya:*** *Ushbu maqolada buyuk sarkarda, qudratli davlat arbobi, markazlashgan davlat asoschisi Amir Temur haqida so‘z yuritilib, mazkur davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va xorij mamlakatlari bilan olib borilgan savdo aloqalari masalalari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Temur tuzuklari, o‘n ikki toifa, iqtisodiyot, savdo, Samarqand bozori, Klavixo, Sultoniya shahri, Sulton Boyazid, diplomatiya, Ioann III, Fransiya, Karl VI, Angliya, Genrix IV.*

**Достонбек Давлаталиев**
Студент 2-го курса исторического факультета Наманганского государственного университета
**Научный руководитель: Дадамирзаева Гульчехра Абдунабиевна, доцент, кандидат наук**

## СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ И ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ В ЭПОХУ АМИРА ТЕМУРЯ

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается великий полководец, могущественный государственный деятель, основатель централизованного государства Амир Темур, а также социально-экономическая жизнь этого государства и торговые отношения с зарубежными странами.*

***Ключевые слова:*** *Законы Тимура, Двенадцать категорий, Экономика, Торговля, Самаркандский рынок, Клавихо, Город Султания, Султан Баязид, Дипломатия, Иоанн III, Франция, Карл VI, Англия, Генрих IV.*

**Dostonbek Davlataliyev**
Namangan State University, 2nd year student, History Department
E-mail: dostondavlataliyev74@gmail.com
Scientific supervisor: Dadamirzayeva Gulchekhra Abdunabiyevna, associate professor, Ph.D.

## SOCIAL - ECONOMIC LIFE AND TRADE RELATIONS IN THE ERA OF AMIR TEMUR

***Abstract:*** *This article discusses the great commander, powerful statesman, and founder of a centralized state, Amir Temur, and discusses the socio-economic life of this state and trade relations with foreign countries.*

***Keywords:*** *Timur’s Laws, Twelve Categories, Economy, Trade, Samarkand Market, Clavijo, Sultania city, Sultan Bayezid, Diplomacy, John III, France, Charles VI, England, Henry IV.*

Temuriylar davlati nomi tilga olinganda shubhasiz bizning ko‘z o‘ngimizda Amir Temur gavdalanadi. Amir Temur (1336-1405) buyuk sarkarda, davlat arbobi va o‘z davrining mohir siyosatchi – diplomati bo‘lgan. Amir Temur 1370-yil 9-aprelda Movorounnahrda o‘z hokimiyatini o‘rnatadi [1. – B. 33–61.]. Shu voqeadan boshlab nafaqat O‘rta Osiyo balki Jahon tarixida ham o‘chmas iz qoldirgan Temuriylar sulolasi hukmronligi boshlanadi. Amir Temur o‘z davri uchun har tomonlama qudratli davlat tuza oldi. Amir Temur davlatni boshqarishda “Tuzuklar” yani “qonun’ ga asoslangan. Temur tuzuklari Amir Temur davlatchiligimiz tarixida davlat boshqaruvi haqida asar yozib qoldirgan yagona hukmdor hisoblanadi.

Amir Temur jamiyatning ijtimoiy masalalariga jiddiy e’tibor beradi. Aytadiki “saltanatim ishlarini qonun-qoida va intizomga solib, saltanatim martabasiga zeb-u ziynat berdim. Saltanatimni o‘n ikki toifaga bo‘lib, ularga tayangan holda ish yuritdim. Saltanatim qonun qoidalarini ham shu o‘n ikki toifaga bog‘lab tuzdim. Bu o‘n ikki toifani saltanatim falakining o‘n ikki burji va davlatim korxonasining o‘n ikki oyi deb hisobladim”[2 – B. 84.]. Yani xalqni oson boshqarish uchun Temur ularni o‘n ikki toifaga bo‘ladi. Ushbu 12 toifa quyidagicha tavsiflanadi:

*Birinchi toifa – sayyidlar, ulamolar, shayxlar, fozillarni.*

*Ikkinchi toifa – oqillar va kengash sohiblari, tajribali kishilar.*
*Uchinchi toifa – duogo'y kishilarni qadrladim.*
*To'rtinchi toifa – amirlar, sarhanglar (kichik lashkarboshi), sipohsolorlar.*
*Beshinchi toifa – sipoh va raiyat.*
*Oltinchi toifa – ishonchli, to'g'ri e'tiqodli oqil kishilar.*
*Yettinchi toifa – vazirlar, devon kotiblari va munshiylar.*
*Skkizinchi toifa – hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislar.*
*To'qqizinchi toifa – muhaddis, qissaxonlar.*
*O'ninchi toifa – mashoyiqlar, so'fiylar va oriflar.*
*O'n birinchi toifa – kasb – hunar egalari.*
*O'n ikkinchi toifa – sayohatchilar, musofirlar [2 – B. 84-85-86-87.].*

Amir Temur yana ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirish masalasiga ham alohida to'xtalib o'tadi. "Temur Tuzuklari"da bu masalaga bag'ishlangan bob bor. Unga ko'ra: Mazkur soha ishtirokchilari (dehqon, hunarmand, savdogar, soliqchi va hokazo), obyektlari ( yer-suv, xosil va boshqalar) – har birining o'z o'rni va vazifasi aniq belgilab qo'yilgan [ 2 – B. 122-125.]. Eng mas'uliyatli vazifani esa davlat o'z bo'yniga olgan. Xaroba yerlarga suv chiqarish va obod qilsh, shuningdek barcha obodonlashtirish, qurilish, xavfsizlik, boshqa katta kuch va mablag' talab qiladigan yumushlarni bajarish davlat zimmasida ekanligini tasdiqlaydi. Amir Temur bu yo'lda ko'plab shaharlar-u mamlakatlarni obod qildi. Amir Temur barcha davrlarning haqiqati bo'lgan "Insonni yer boqadi" degan jumlani ma'nosini yahshi anglagan. Sharafiddin Ali Yazdiyning guvohlik berishicha, "olam ravnaqi yo'lida Amir Temur obodonchilikka yaraydigan biron parcha yerni zoye bo'lishini ravo ko'rmasdi" deya yozadi. Amir Temur davlat obod bo'lsa, har qanday sohada rivojlanish bo'lishini yahshi bilardi. Shu sababli ko'plab obodonchilik ishlarini amalga oshirdi. Xususan Amir Temur davrida Samarqand, Shahrisabz va boshqa shahar-u tumanlarda o'nlab kanallar, ariqlar qazildi, daraxtlar, ekinzorlar, bog'-u rog'lar yashnab tokin sochinchilik yuzaga keldi. Amir Temur Samarqand va uning atroflarida yana bir qator muhtasham bog'lar "Bog'i Dilkusho", "Bog'i Behisht", "Bog'i Baland", "Bog'i Davlat" va boshqalarni ham barpo ettirgan edi [3 – B. 155.]. Sohibqiron faqat o'zining mamlakatini obod qilibgina qolmasdan, bosib olingan o'lkalarni ham obod qilgani , suvsiz joylarga kanallar qazdirgani haqida malumotlar bor. Xususan: Xofizi Abro'ning guvohlik berishicha Amir Temur Murg'ob daryosi ( hozirda Afg'oniston va Turkmaniston hududlaridan oqadigan daryo) vodiysida obodonchilik va dehqonchilik xarob ahvolga tushib qolganini ko'rib daryodan yigirmata kanal qazdirib suv chiqarishni buyuradi. Ularning ba'zilarini nomi ham keltirib o'tiladi : Dilkusho, Ganjravon, Shayh Ali, Davlatshoh, Amir Alovuddin, Navro'z, Ali Malik kanallari [ 4 – B. 34.].

Yana Amir Temur Qorabog'da 60-70 km keladigan Barlos kanalini qazitganligi haqida guvohliklar bor [ 1 – B. 245, 291.]. Yana uning buyrug'I bilan 35-40 km uzunlikdagi Boylakon kanali qaziladi [5– B. 822-910.]. Mazkur tadbirlar natijasida qarovsiz yerlarga suv chiqarilib , saxro va xarobalar o'rnida ekinzorlar, bog'lar paydo bo'ladi.

Shubhasiz Amir Temur davlatining iqtisodiyotida eng katta o'rin tutgan soha albatta savdo – sotiq hisoblangan. Uning rivojlanishidagi eng asosiy omil esa ishlab chiqarish hisoblanadi. Ishlab chiqarishning qurolsozlik, oynasozlik, zargarlik, ko'nchilik, kulolchilik kabi bir qator sohalar yuqori darajada rivojlangan. Aynan ishlab chiqarishdagi yutuqlar savdo – sotiq ishlariga keng yo'l ochib berganligi tabiiy holat edi. Amir Temur davrida Sharq bilan G'arbni bog'lovchi hozirda "Buyuk ipak yo'li" nomi bilan ataluvchi savdo yo'li uzluksiz va samarali ishlab turishiga keng imkoniyatlar ochilgan.

Amir Temur buyrug'i bilan butun salatanatda har bir kunlik yo'l masofasida karvonasroylar qurilgan. Karvonsaroylar hatto bepayon sahrolarda ham bunyod etilib zaruriyat tug'ilganda tunda ham ming otli yo'lovchini qabul qilish imkoniga ega bo'lgan. Musofirxonalar tashkil qilish ham shu tarzda yo'lga qo'yilgan. Ularni ozuqa yem – hashak va boshqa zarur narsalar bilan ta'minlash uchun bir qishloq, yo bir necha qishloqni ularga vaqf qilib berish qonunlashtirilgan [ 1 – B. 198.].

Sohibqiron savdo munosabatining davlat, jamiyat va tashqi siyosatdagi o'rni va ahamiyati qanday beqiyosligini juda yahshi anglagan. Shu sababli Amir Temur bu borada qator tadbirlarni amalga oshirgan. Chunonchi bozorlar qurish, eskilarini ta'mirlash va kengaytirish ishlari jadal olib borilgan. Buning isbotini Samarqand bozorining bino etilishi orqali ko'rish mumkin. Amir Temur buyrug'I bilan shaharning Temir darvoza qismidan boshlanib janubi-g'arbiy yo'nalishda katta ko'cha quriladi. Uning ikki tomonida esa asosan ikki qavatli, chorsu, tim shaklida qurilgan do'konlar, rastalar qad ko'taradi. Ko'cha usti boshdan oxir gumbaz shaklida ishlangan toq bilan yopiladi. Yorug'lik tushib turishi uchun xar yerdan darchalar ham qoldirilgan. Bundan tashqari ma'lum masofada favvorlar qurilib, omborxonalar ham qad ko'targan [6– B. 134-135.].

Xulosa qilib aytganda, savdoning rivoji uchun barcha imkoniyatlari va sharoitlari yaratib berilgan. Natijada shahar va qishloq bozorlariga xar qayerdan – Xitoy, Hindiston, Xuroson, Eron, arab davlatlari, Rum, Misr, Yevropadan maxsulotlar oqib kelavergan. Masalan Xitoydan – asosan ipak, ipak matolar, chinni, mushk, olmos, marvarid;

Hindistondan – muskat yong‘oq, zanjabil, dolchin, qalampirmunchoq va boshqalar; Yevropadan – gazlama, pichoqlar; Shimoliy yurtlardan – mum, mo‘yna, teri; Arab mamlakatlaridan – tayyor kiyimlar va shisha buyumlar keltirilgan. Mamlakatimizdan esa asosan to‘qimachilik maxsulotlari, ip gazlamalar, ipakli kiyimlar, qog‘oz, paxta, xo‘l va quruq mevalar kabi bir qator mahsulotlar chiqarilgan. Ispan elchisi Klavixo Samarqandda bo‘lib turgan yili Iyun oyining o‘zida birgina Xitoydan 800 tuya mol olib kelingan ekan [6– B. 141.]. Savdo sotiq gavjumligi faqat Movorounnahr shaharlariga xos bo‘lmay, bunday xolatni saltanatning Tabriz, Sultoniya, Isfaxon, Sheroz, Kermon va boshqa shaharlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Sultoniya shahrida yoz oylari savdo shunchalar qizib ketarkanki, Hindiston, Xitoy, Ozarbayon, arab o‘lkalaridan yuzlab, minglab karvonlar kelib turgan [6– B. 80.].

Amir Temur davlati diplomatiyasining asosiy maqsadi ham savdoni kengaytirish va rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar bo‘lgan deb ayta olamiz. Biz buni Amir Temurning Fransiya va Angliya bilan bo‘lgan diplomat aloqalarda ko‘rishimiz mumkin. Amir Temur Turk sultoni Boyazid ustidan qozonilgan g‘alabasidan so‘ng yo‘llagan ikkita maktubini Sultoniya shahri arxiyepiskopi Ioann III Sohibqiron elchisi sifatida Fransiya qiroli Karl VI ga topshiradi. Maktubda Amir Temur o‘z mamlakati haqida so‘z yuritib, ikkita taklifni o‘rtaga tashlaydi. Bu taklifning birinchisi, ikkita davlat savdogarlariga erkin savdo munosabatlari uchun tegishli sharoit yaratish; ikkinchisi – agar qirol rozi bo‘lsa, yuqoridagi erkin savdo bo‘yicha shartnoma tuzish. Amir Temur o‘z davrining ilg‘or va sog‘lom fikrlovchi davlat arbobi sifatida o‘zaro teng va manfaatli munosabatlar o‘rnatishni oldingi o‘ringa qo‘yadi. Xususan o‘z maktubini “dunyo savdo ahli ila oboddir” degan so‘zlar bilan tugatishi yuqoridagi fikrning yaqqol tasdig‘I bo‘lib xizmat qiladi. Fransiya qiroli Karl VI 1403-yil 15-iyunda Amir Temurga yuborgan xatida Sohibqironning takliflarini qo‘llab quvvatlaydi. Angliya bilan olib borilgan diplomatik munosabatlardan asosiy maqsad ham aynon ikki tomonlama savdo – sotiqni rivojlantirish bo‘lgan [3 – B. 79-80.].

Xulosa qilib aytganimizda Amir Temur o‘z davrining yuqori salohiyatli siyosatchi davlat arbobi bo‘lgan. Sohibqiron o‘zining 35 yillik hukmronligi davrida Movorounnahrni og‘ir iqtisodiy va siyosiy tushkunlikdan, iqtisodiyoti yuksak rivojlangan va siyosatda juda ham kuchli bo‘lgan saltanat darjasiga olib chiqdi. Amir Temur o‘z saltanatining har tomonlama yuksak rivojlanishiga ijtimoiy – iqtisodiy masalalarni o‘zaro muvofiqlashtirish orqali erishgan. Ko‘rishimiz mumkinki olib borilgan diplomatik munosabatlarning asosini ham savdoni rivojlantirish tashkil qilgan. Chunki savdo hamma vaqt, hamma davrda davlatning tayanchi bo‘lgan desak adashmayiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: 1999. – 320 b
2. Temur Tuzuklari. – Toshkent: “ Ilm-Ziyo Zakovat”, 2020. – 140 b.
3. B. Eshov, A. Odilov. O‘zbekiston Tarixi II kitob. – Toshkent: “Donishmand Ziyosi”, 2020. - 406 b.
4. Xofizi Abro‘. Qismati Ra’bi Xuroson. – Tehron: “Moyil Xaraviy nashri” – 1349 b.
5. Sharafiddin ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: 1972. – 439 b.
6. Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. – Moskva: “Nauka”, 1990. – 466 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Mullajonov Islomjon Yuldashevich**
Impuls tibbiyot instituti Chirchiq filiali
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti
Email: islommullajonov@gmail.com

## RAM MOHAN ROYNING DINIY-FALSAFIY DUNYOQARASHI VA ZAMONAVIY HIND DINI SHAKLLANISHI

***Annotatsiya.*** *Ram Mohan Roy zamonaviy Hindistonning oqilona va ilg‘or ijtimoiy islohotchisi edi. U hinduizmda shu paytgacha mavjud bo‘lgan marosimlarga qarshi norozilik bildirdi. Upanishadlar hech qanday butga sig‘inishni targ‘ib qilmasligini fosh qildi. Aslida, Ram Mohan jamiyatning oddiy aholisi orasida ratsionalistik munosabatni rivojlantirishni xohlagan va neo-induizm deb nomlangan hinduizmning yangi yo‘nalishini taqdim etgan. Ushbu maqolada Ram Mohan zamondosh bo‘lgan hind dinining qiyofasini va u hinduizmning dogmatik qabul qilingan marosimlarini qat’iy tanqid qilish orqali qanday uyg‘onish olib kelganini tasvirlash maqsad qilingan.*

***Tayanch iboralar:*** *Uyg‘onish davri, Vedanta, Upanishadlar, ijtimoiy islohotlar, Muqaddas kitob mohiyati, hinduizm.*

**Муллажанова Исломжона Юлдашевича**
доцент кафедры социальных и гуманитарных дисциплин
Чирчикского филиала Импульсного медицинского института

## РЕЛИГИОЗНО-ФИЛОСОФСКОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ РАМ МОХАН РОЯ И ФОРМИРОВАНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ИНДИЙСКОЙ РЕЛИГИИ

***Аннотация.*** *Рам Мохан Рой был мудрым и прогрессивным социальным реформатором современной Индии. Он выразил протест против ритуалов, существовавших до сих пор в индуизме. Он разоблачил, что Упанишады не проповедуют никакого идолопоклонства. Фактически, Рам Мохан хотел развить рационалистическое отношение среди простого населения общества и представил новое направление индуизма, называемое неоиндуизмом. В этой статье цель состоит в том, чтобы изобразить образ индуистской религии, с которой Рам Мохан был современником, и как она принесла пробуждение, резко критикуя догматически принятые ритуалы индуизма.*

***Ключевые слова:*** *Эпоха Возрождения, Веданта, Упанишады, социальные реформы, сущность Священного Писания, индуизм.*

**Mullajonov Islomjon Yuldashevich**
Associate Professor of the Department of Social and Humanitarian Sciences of the Chirchik Branch of the Pulse Medical Institute

## RAM MOHAN ROY’S RELIGIOUS-PHILOSOPHICAL WORLDVIEW AND THE FORMATION OF MODERN INDIAN RELIGION

***Abstract.*** *Ram Mohan Roy was a wise and progressive social reformer of modern India. He protested against the rituals that existed in Hinduism until now. He revealed that the Upanishads do not promote any idolatry. undefined This article aims to depict the face of the Hindu religion that Ram Mohan was a contemporary of, and how it brought an awakening by harshly criticizing the dogmatically accepted rituals of Hinduism.*

***Keywords:*** *Renaissance, Vedanta, Upanishads, social reforms, the essence of the Holy Book, Hinduism.*

### Kirish

Bengal jamiyati vaqti-vaqti bilan turli xil aralash tendentsiyalar va islohot harakatlarining diniy to‘qnashuvlariga duch keldi. Hind an’analari doirasida Ram Mohan Roy XIX asrda ijtimoiy-diniy islohot va Bengaliya Uyg‘onish davrining otasi sifatida uyg‘ondi. Ram Mohanning mafkurasi va sa’y-harakatlari ko‘p qirrali bo‘lib, uning jamiyat, din,

ta’lim va siyosatga bo‘lgan qarashlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq edi[1]. Ram Moxanga zamondosh bo‘lgan hinduizmdagi ijtimoiy-diniy madaniyat va ularning amaliyotlarini tushuntirishga borganimizda, biz Bengal uyg‘onish davrining billur tasvirini ko‘rishimiz kerak. Hammamizga ma’lumki, o‘n to‘qqizinchi asr Bengaliya tarixida oltin davr bo‘lgan. Aytishlaricha, Chaitanya davridan keyin Bengaliyada hech qachon shonli davr bo‘lmagan. XIX asrning dastlabki o‘n yilliklarida Hindiston jamiyatida, xususan, Bengaliyada sezilarli rivojlanish yuz berdi. Bir so‘z bilan aytganda, bu buyuk inqilob Bengal Uyg‘onish davri deb ataladi. Bengal Uyg‘onish davri g‘oyasi XVII-XVIII asrlardagi mustamlakachilikdan oldingi davrda tanazzul yoki turg‘unlikdan keyin jamiyat va madaniyatning o‘ziga xos qayta tug‘ilishi, uyg‘onishi yoki jonlanishi yoki Regeneratsiya yoki Yangi davrni anglatadi[2]. Albatta, bu uyg‘onish G‘arb ta’limi va madaniyatining mahsuli edi. Modernizm Bengaliyada ham, Hindistonda ham G‘arb sivilizatsiyasining ta’siri tufayli kuchayib bordi. O‘z-o‘zini anglash, siyosiy ong, yangi paydo bo‘lgan iqtisodiy tartib tufayli yangi ijtimoiy sinfiy tuzilma va eng muhimi, boshqacha turmush tarzi Bengaldagi eski ijtimoiy tizimlarga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ram Moxan Roy bu o‘tish iborasida mavjud hind diniga ratsionalistik ta’m bilan yangi shakl berdi.

**Adabiyotlar tahlili**

Ram Mohan Royning falsafiy, diniy va ijtimoiy qarashlari hind va jahon ilmiy adabiyotlarida turli aspektlarda tadqiq etilgan.

Ram Mohan Roy shaxsiyati va faoliyati dastlab hind tarixchilari va diniy islohotshunoslar tomonidan o‘rganilgan. R.C. Majumdar, S. N. Mukherjee, Jogendra Chandra Ghose kabi olimlar uni hind uyg‘onish davrining asoschisi sifatida talqin qiladilar. Ushbu tadqiqotlarda Royning Brahmo Samaj harakati orqali hinduizmni monoteistik va axloqiy yo‘nalishga burishga bo‘lgan urinishlari asosiy e’tibor markazida bo‘lgan.

G‘arb olimlaridan D. Kopf va J. T. F. Jordens asarlarida Ram Mohan Roy an’anaviy Sharq tafakkuri va G‘arb ma’rifatchiligi o‘rtasidagi intellektual ko‘prik sifatida baholanadi. Ular Roy qarashlarida ratsionalizm, diniy bag‘rikenglik va ijtimoiy islohot g‘oyalarining o‘zaro uyg‘unlashganini ta’kidlaydilar.

**Natijalar va ularning tahlili**

Ram Mohanning asosiy qiziqishlaridan biri Vedanta va Upanishadlar edi. Uning diniy islohoti Shankaracharyaning (788-820) Advaita Vedantiga juda bog‘liq edi. U uni musulmon tasavvufi va deizm, utilitarizm va kengroq ilmiy dunyoqarash kabi zamonaviy G‘arb ta’sirlari bilan birlashtirdi. Uning islohotchilik kun tartibining shakllanishida xristian missionerlari safiga qo‘shilishi ham muhim rol o‘ynadi. U o‘zining ijtimoiy-diniy islohotlarining asosini Shankaracharyaning Advaita Vedantasiga, ayniqsa shaklsiz yagona Xudo kontseptsiyasiga qaratdi. U an’anaviy hind dharmasining butlarga sig‘inish, Vedalarning benuqsonligiga ishonish, kasta tizimi va bevalarni yoqish kabi tamoyillariga qarshi chiqib, klassik Vedantadan chetga chiqdi. Upanishadlar yoki vedalar butlarga sig‘inishni targ‘ib qilmaydi. Biroq u hind jamoasi butparast bo‘lib qolganini va yakkaxudolikni e’tirof etish o‘rniga ko‘pxudolikni e’tirof etayotganini juda yaqindan kuzatdi. Ular Vedalar va Upanishadlarda tilga olinmagan ko‘plab marosim va urf-odatlarni ham ixtiro qilganlar. Shuning uchun u hind dinini unga singib ketgan “bema’niliklar”dan tozalashga kirishdi. Shu maqsadda u ham nazariy, ham pragmatik darajada harakat boshladi. Bu davrda bengal tilida Upanishadlar mavjud emas edi.

Shu sababli, Bengaliya xalq ommasi hinduizmning monoteistik an’anasidan bexabar edi. Upanishadlarning haqiqiy insholarini ularga yetkazish va yuborish uchun upanishadlarni bengal tiliga va keyinchalik ingliz tiliga tarjima qilgan. O‘sha davrda fors tili rasmiy til sifatida ham, xalq tili sifatida ham ishlatilganligi sababli, Ram Mohan fors tilida “Tohfat-ul Movahhideen” (Yakkaxudochilarga sovg‘a) nomli kitob yozgan. Kitobning muqaddimasi arab tilida yozilgan va keyinchalik ingliz tiliga tarjima qilingan. Bu kitobda Moxan Roy hind dinining asosi bo‘lgan vedalar hech qachon butparastlikka sig‘inishni fosh qilmasligini aniqlashga harakat qilgan. O‘shanda ko‘pchilik Ram Mohan islom ta’limotiga asoslangan butparastlikka qarshi chiqqanini aytdi, ammo haqiqat shundaki, u Vedalarga asoslangan hinduizmdan butparastlik tizimini olib tashlamoqchi edi. U musulmon emas, balki veda hindusi edi. Ram Mohan 1817-yilda “Hinduizm teizmini himoya qilish” nomli yana bir kitob yozdi. Ushbu kitobda u ko‘pxudolikka emas, balki teizmning Vedantik targ‘ibotiga urg‘u berdi.

U hinduizmning mohiyati Vedanta teizmi ekanligini isbotlamoqchi bo‘lgan. O‘sha yili u “Vedalarning monoteistik tizimini himoya qilish” kitobini yozdi. Bu yerda u Vedantaning monoteizmiga urg‘u berdi. Ram Mohan Roy, shuningdek, hinduizmdagi butparastlik va bema’niliklarning kelib chiqishi va o‘sishining haqiqiy sababini aniqlashga harakat qildi. U Ishapanishadning kirish qismida shunday deb yozgan edi: “Ko‘pchilik bilimdon brahmanlar butparastlikning bema’niligini juda yaxshi biladilar va xudoga topinishning sof usulining tabiatini yaxshi biladilar. Ammo butparastlikning rasm-rusumlari, marosimlari va bayramlarida bo‘lgani kabi, ular o‘zlarining tasalli va baxt-saodat manbalarini topadilar, ular nafaqat butparastlikni har qanday hujumlardan himoya qilishadi, balki hatto o‘zlarining muqaddas kitoblari bilimlarini boshqa odamlardan yashirib, uni iloji boricha ilgari suradilar va rag‘batlantiradilar”[3]. Hinduizmning boshqa asoschisi ham but yangi intilishlarga Xudo haqida o‘ylashga yordam beradi va keyinchalik bu o‘ylash uni Nirgun Brahmanga olib boradi, deb hisoblagan.

Vedantaning ko‘plab olimlari Oliy Mavjudot va individual jon o‘rtasidagi munosabatga asoslanib, boshqacha yo‘lni tanlaydilar. Ular dualistlar va dualist bo‘lmaganlar. Shankar Borliq yagona va qolgan barchasi noreal deb hisoblaydi. U o‘z nazariyasining asosini Vedantada bilib oladi. Yana dualizmga ishonuvchilar, ya’ni Oliy zot yagona, olam uning ijodi, deb ishonuvchilar ham Vedantaga ishonishlariga asos topadilar. Dualist bo‘lmaganlar, haqiqatan ham, fidoyilik va meditatsiya orqali individual “men” Oliy “men”ning yakuniy darajasiga erishishi mumkinligiga ishonishadi, dualistlar esa individual “men” o‘zini fidoyi sifatida saqlab qolgan holda ibodat (bhakti) va sadoqat orqali najot topishi mumkinligini ta’kidlashadi. Vedantistlarning uchinchi toifasi xudoga sig‘inish orqali Oliy Zotning oddiy ramzi sifatida najotga erishish yoki Oliy Zot bilan birlashish mumkinligiga ishonadiganlardir. Bu e’tiqod malakali monizm deb ataladi. Biroq ularning barchasi o‘z e’tiqodlarini Vedantadan asoslab keltiradilar. Shri Ramakrishna, Ramanuja yoki Vayshnavitlar malakali monizmga ishonadilar.

Roja Ram Mohan Roy bu e’tiqodlarni rad etib, Oliy Lord shaklsiz ekanligini va Unga shakl berish Vedanta ruhiga zid ekanligini aytdi. U koinotning yaratuvchisi, ta’minlovchisi va qo‘llab-quvvatlovchisi dono yaratilmagan mavjudot deb hisoblagan. Shuningdek, u Shankara va boshqa Advaitvaitlarning Borliq noreal ekanligiga bo‘lgan ishonchini rad etdi. U olam noreal emasligiga ishonardi. Bu yerda Ram Mohan Roy koinotning haqiqiy va mustahkam mavjudligi va illyuziya emasligini e’lon qiladigan Qur’on nuqtai nazariga yaqinlashadi. Nihoyat, Ram Mohan Roy 1828-yilda Vedanta tamoyillari va falsafasiga asoslangan Brahmo Samaj diniy kultiga asos solgan va u yagona Xudoga ishonadi hamda najot faqat Xudoga muhabbat va ibodat orqali mumkinligini nazarda tutadi. Shuning uchun Ram Mohan Roy hind jamiyatida diniy islohot o‘tkazishga harakat qildi va o‘z davridagi hindular orasida Upanishadlarning asosiy g‘oyasini tarqatdi. Agar islohotchilik harakatining butun yo‘lini diqqat bilan kuzatilsa, uning hind islohotchiligi yo‘lidagi uzoq yurishi vedalar bilan jiddiy shug‘ullanganligini ko‘rish mumkin. Aslida, u Vedantaning yangi versiyasiga klassik Vedantani dublyaj qilishda Vedantaning asl xabarini jamiyatning bo‘ysunuvchi qatlamiga taqdim etgan. Biz buni tan olishimiz mumkin bo‘lgan sababga ko‘ra, u Bengaliyadagi hind Uyg‘onish davri uchun mas’ul edi.

Ram Moxanning diniy islohotlar konsepsiyasi nafaqat diniy e’tiqod va diniy amaliyotlarni o‘zgartirishni nazarda tutadi, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini joriy etuvchi dinamik yondashuvga ega. U har bir inson o‘z aqli va tanqidiy tafakkuri yordamida dinning asosiy tamoyillari va uning marosimlari o‘rtasidagi farqni ajrata olishini e’tirof etdi. Bundan tashqari, u dinni soxta talqin qilishning butun tanasini ruhoniylardan ozod qilish uchun vedantabhasya yozgan. Shuning uchun ham Ram Mohan hind dinining hozirgi zamondagi yovuz odatlariga qarshi o‘z ovozini ko‘tardi. Ram Mohanning o‘ta mulohazali va tanqidiy izlanishlarga ega bo‘lgan asarlarini uchta keng toifaga bo‘lishimiz mumkin:

1. Brahmajnana foydasiga yoki formalizm (sakarvada) ga qarshi.
2. Hind falsafasi foydasiga yoki xristian qavmi ruhoniylariga qarshi.
3. Sati amaliyoti olib tashlanishi tarafdori yoki sati amaliyotiga qarshi.

Royning so‘zlariga ko‘ra, siyosiy va ijtimoiy muhitning yomonlashuviga sabab bo‘lgan yana bir omil hind jamiyatining ijtimoiy tanazzuli edi. U bag‘rikenglik, hamdardlik, aql-idrok, erkinlik, tenglik va birodarlik tamoyillariga amal qiladigan yangi hind jamiyatini qurmoqchi edi. Bularning barchasida u Britaniya hukumatining yordami zarur deb hisoblardi. Roy kasta tizimiga va Sati amaliyotiga mutlaqo qarshi edi. U xotin-qizlar huquqlarining buyuk himoyachilaridan biri hisoblangan. Garchi u oddiy xalqning ijtimoiy huquqlari va erkinligini himoya qilgan bo‘lsa-da, u ko‘rishni istagan davlatning qonuniy maqomi cheklovlar bilan siyosiy liberalizmdir. U chizgan cheklangan konstitutsiya obrazi davlatni nazorat qilishi va shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilishi mumkin edi. U internatsionalizm g‘oyasini targ‘ib qilgan va ommalashtirgan birinchi hindlardan biri edi. Roy barcha turdagi adolatsizliklar, ekspluatatorlik amaliyotlari va xurofotlarga qarshi shafqatsiz salib yurishini olib bordi. Oxir-oqibat shuni aytish joizki, butun jamiyat va madaniyat hali ham bunday buyuk shaxsning xatti-harakatlari oqibatlaridan foydalanmoqda.

**Xulosa**

Yuqoridagi muhokamada ko‘rganimizdek, jamiyat ijtimoiy yovuzliklarni amalga oshirish orqali darhol tanazzulga yuz tutdi. Bundan tashqari, biz Uyg‘onish davrida Bengaliya ko‘ksida ba’zi yetakchi ziyolilar paydo bo‘lganini ko‘rdik. Ulardan biri Ram Mohan Roy edi. U sati yoki bevani yoqish kabi g‘ayriinsoniy harakatlarni aybladi. Roy hind jamiyatining noto‘g‘ri marosim amaliyotini bartaraf etishda katta hissa qo‘shgan. U hech qachon hinduizmga, veda va upanishad ta’limotiga qarshi bo‘lmagan. Shunga qaramay, u jamiyatning quyi qatlamidagi odamlarda doimiy ravishda amal qilib kelgan marosimlarga qarshi edi. U purohitlar deb atalgan brahmanlar o‘z hayotlarini erkin tarbiyalash uchun vedalarning asl ma’nosini qanday chalg‘itganliklarini ko‘rsatmoqchi edi. Shuning uchun u uzoq vaqt davomida ajralib qolgan asosiy sanskrit matnini bengal tiliga tarjima qildi. Dinga sharh va konstruktiv oqilona shakl berish Roy uchun asosiy tashvish bo‘lib, u 1828-yilda Brahma Samajga asos solgan. Samaj diniy va falsafiy mushohada va munozaralar uchun forumni taqdim etadi. Roy bir nechta tillar, madaniyatlar va falsafiy tizimlarning ajoyib nomzodi edi va bu ta’sirlar uning yozuv va g‘oyalarni buzish yo‘lini shakllantirdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Chakrabarty, s: Bharatbarsha: Rastrabhavana, second edition, Calcutta block and print, Calcutta, 2003, p-77.

2. Majumdar, R, C. on Rammohan Roy, The Asiatic Society Calcutta ,1984, p-19.

3. Рам Мохан Рой. Иша-упанишада с введением и комментариями. – В кн.: Избранные философские произведения. Пер. с англ. — М.: Восточная литература, 1960. — С. 45–46.

4. https://www.britannica.com/biography/Ram-Mohan-Roy

5. https://www.britannica.com/topic/Brahmo-Sama

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna**
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
nodirjon89.86@gmail.com

**UDK: 331.1:37.018.43**

## YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLAR MEHNAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI

***Annotatsiya:*** *Maqolada Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida yoshlar mehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish masalasi ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Yoshlarning mehnat madaniyati jamiyat barqarorligi, iqtisodiy o'sish va modernizatsiya jarayonlarining samaradorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida yoritilgan. Tadqiqotda mehnat madaniyati tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, kasbiy va axloqiy jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlar asosida yoshlarning kasbiy salohiyati va ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda mehnat madaniyatining o'rni asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Yoshlar, mehnat madaniyati, kasb, kasbiy ko'nikma, mas'uliyat, intizom, axloq, jamoa, taraqqiyot, strategiya, ijtimoiy faollik, raqobatbardoshlik.*

**Холмирзаева Жумагуль Хамдамовна**
Доктор философии по философии (PhD)
Независимый исследователь Ферганский Государственный Университет

## СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ МОЛОДЕЖНОЙ ТРУДОУСТРОЙСТВА В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

***Аннотация:*** *В статье с научной и практической точки зрения анализируется вопрос формирования и развития молодежной трудовой культуры на новом этапе развития Нового Узбекистана. Молодежная трудовая культура выделена как важный фактор, обеспечивающий стабильность общества, экономический рост и эффективность процессов модернизации. В исследовании раскрывается концепция трудовой культуры, ее компоненты, профессиональные и этические аспекты. Также, на основе поставленных целей, обосновывается роль трудовой культуры в повышении профессионального потенциала и социальной ответственности молодежи.*

***Ключевые слова:*** *Молодежь, трудовая культура, профессия, профессиональные навыки, ответственность, дисциплина, этика, команда, развитие, стратегия, социальная активность, конкурентоспособность.*

**Kholmirzaeva Jumagul Khamdamovna**
Doctor of Philosophy in Philosophy (PhD)
Independent Researcher, Fergana State University

## SOCIO-ECONOMIC IMPORTANCE OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH EMPLOYMENT IN THE CONTEXT OF THE NEW UZBEKISTAN

***Annotation:*** *This article analyzes the formation and development of a youth work culture at the new stage of development in the New Uzbekistan from a scientific and practical perspective. Youth work culture is identified as an important factor ensuring social stability, economic growth, and the effectiveness of modernization processes. The study explores the concept of work culture, its components, and professional and ethical aspects. Based on the stated objectives, it also substantiates the role of work culture in enhancing the professional potential and social responsibility of young people.*

***Key words:*** *Youth, work culture, profession, professional skills, responsibility, discipline, ethics, team, development, strategy, social activity, competitiveness*

**Kirish.**

Bugungi kunda O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyat rivoji, inson manfaatlari va ayniqsa yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida bilimli, tashabbuskor, zamonaviy fikrlaydigan va yuksak mehnat madaniyatiga ega yosh kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Chunki iqtisodiy islohotlar samarasi, modernizatsiya jarayonlarining izchilligi va jamiyat barqarorligi ko‘p jihatdan inson omili, xususan yoshlarning mehnatga munosabati va kasbiy madaniyati bilan bevosita bog‘liqdir. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham yoshlarning kasb-hunar egallashi, mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi va mehnat madaniyatini yuksaltirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Bu esa mavzuning bugungi kundagi dolzarbligini yaqqol ko‘rsatadi. Mehnat madaniyati yoshlarning nafaqat professional salohiyatini, balki ularning ijtimoiy faolligi, mas’uliyati va jamiyatdagi o‘rnini belgilaydigan muhim omil hisoblanadi. Shu bois, yoshlar mehnat madaniyatini shakllantirish masalasini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

Maqolada asosiy manbalar sifatida oliymahad.uz, prezident sayti, qomus.info, lex.uz, Sh.M. Mirziyoev asarlari va L.D. Parunina tadqiqoti qo‘llanilgan. Shuningdek, yoshlar mehnat madaniyati va kasbiy salohiyat masalalari haqida O‘zbekistonning ta’lim va fan sohasidagi respublikaning strategiyasi, pedagogik jurnallar, ilmiy konferensiyalar materiallari va sotsiologik tadqiqotlarda ham keng yoritilgan. Shuningdek, maqolada tahlil va sintez, taqqoslash, mantiqiy tahlil, umumlashtirish, ilmiy manbalarni o‘rganish, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish hamda muammoga tizimli yondashuv kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

**Natijalar va muhokama.**

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyat rivoji, inson manfaatlari masalasiga har qachongidan ham katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Yoshlaring o‘qishi, bilim olishi, sport bilan shug‘ullanishi bir so‘z bilan aytgan o‘z sohasining bilimdoni bo‘lishi uchun kerakli sharoitlar yaratib kelinayotgan ayni haqiqat. Shu o‘rinda milliy iqtisodiyotimizning harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘layotgan yoshlar, mehnat madaniyatini yanada rivojlantirish orqali mehnat madaniyatini yuksaltirish ko‘zda tutilmoqda. Mehnat madaniyatining rivojlanishi esa o‘z navbatida milliy iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qilishini barchamiz birdek tushunamiz.

“2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi [5] Farmoniga asosan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” [2] qabul qilindi. Unda 100 ta maqsad ko‘zlangan bo‘lib, bu maqsadlar mamlakatda modernizatsiya jarayonlarini yanada izchillik bilan davom ettirishni ko‘zda tutadi. Xususan ularda kasb va mehnat madaniyatlarini rivojlantirish masalasida ham alohida maqsadlar belgilab berilgan.

Biz oldin yoshlar mehnat madaniyatini rivojlantirish masalasidagi mulohazalarimizni bayon etgandik. Ta’kidlash joizki, yoshlar mehnat madaniyatining rivojlanishi, ularning professional ko‘nikmalari va shaxsiy xususiyatlari samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Mehnat madaniyati, yoshlar uchun faqat professional ko‘nikmalarni rivojlantirish emas, balki o‘zga odamlar bilan ta’sirlashish, jamoa bilan yaqin aloqada bo‘lish, va o‘z mehnat identlikligini shakllantirishdagi muhim vositadir. Shu bois, mehnat madaniyatini rivojlantirish yoshlarning kelajagi, iste’dod va qobiliyatini, ezgu intilishlarini ro‘yobga chiqarish uchun kerakli va muhim vazifa hisoblanadi. Shunday ekan “Yoshlarimizni ona Vatanimizga, mustaqillik g‘oyalariga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning iste’dod va qobiliyatini, ezgu intilishlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida boshlangan katta ishlarimizni bundan buyon ham qat’iyat bilan davom ettiramiz”.[6]

Mehnat madaniyati nima degan savol bilan tadqiqotimizni davom ettiramiz. Bu xususida yuqoridagi paragrafda to‘xtalib o‘tgan bo‘lsakda yana yangi ma’lumotlarga duch keldik. Shu sababdan bu xususida mulohazalarimizni bayon etamiz. Avval kasb nima degan savolga javob beramiz. “Kasb – biror narsani o‘rganish, egallash, foyda, hunar, mashg‘ulotni odat qilmoq yoki umuman odat qilingan ishga aytiladi. Kasbdosh deb bir hil kasbli, bir kasbda ishlovchilarga aytiladi. Muqaddas dinimiz shariati istelohida esa, kasb qilish deb – shariat qaytarmagan yo‘llar bilan mol topish uchun harakat qilishga nisbatan aytiladi”. [1] Shu bilan birga kasbga quyidagicha ta’rif berish mumkin. “**Kasb** - kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg‘uloti turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi”. [3]

Demak mehnat madaniyati - bu muayyan kasb (ijodiy, ilmiy, texnik, tibbiy, o‘qituvchilik va boshqalar) doirasida shakllangan mehnat etikasi, bilim, mahorat va ko‘nikmalar, o‘zaro munosabatlar, mas’uliyat, odob-axloq va qoidalar majmuasidir. U insonning mehnat faoliyatdagi muomalasi, ishga bo‘lgan munosabati va jamoa bilan hamkorligini belgilab beradi.

Mantiqiy davom etadigan bo‘lsak savol paydo bo‘ladi. Xo‘sh mehnat madaniyatining tarkibiy qismlar nimalardan iborat? Mehnat madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari sifatida intizom va mas’uliyat, mehnat bilim va ko‘nikmalar,

mehnat etika, muomala madaniyati, tashkiliy madaniyat va moslashuv, ijtimoiy mas'uliyatlarni misol keltirish o'rinlidir. Ular quyidagilarda namoyon bo'ladi.

- o'z vazifalarini o'z vaqtida va sifatli bajarish;
- mutaxassis o'z sohasini chuqur bilishi va doimiy rivojlantirishi;
- xamkasblarga, mijozlarga va jamoaga hurmat bilan munosabatda bo'lish;
- yozma va og'zaki nutqda samimiylik, hurmat va ahloqqa amal qilish;
- ish joyi qoidalari, korporativ qadriyatlarga rioya etish;
- mehnat faoliyatning jamiyat oldidagi axloqiy mas'uliyatini anglash. Aynan ular mehnat madaniyatining tarkibiy qismlari sifatida ko'rilishi mumkin.

Fikrimizcha mehnat madaniyati mehnat sifatini oshirishi, jamoada barqaror munosabatlarni ta'minlashi, xizmat ko'rsatish darajasini yaxshilashi, mehnat rivojlanishga zamin yaratishi, hurmat va ishonchga sazovor qilishga yordam berishi bilan alohida ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqot ishi doirasida bizga eng ko'p berilgan savollardan biri bu mehnat madaniyati yosh faoliyatida qay tariqa ko'zga tashlanadi yoki namoyon bo'ladi? Demak ushbu masalaga e'tiborimizni qaratsak.

Mehnat madaniyat - bu har qanday ish turiga nisbatan shaxsning individual xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan madaniyat turi. Har qanday malakaning mavjudligi insonning bunday madaniyatni egallash darajasini belgilaydi.[4] Mehnat madaniyati – bu konkret bir kasbga oid axloqiy, madaniy va professional standartlar to'plamidir. U professionallar o'rtasida muloqot, ish yuritish va bir-biriga nisbatan hurmatni ifodalaydi. Mehnat madaniyati quyidagi xususiyatlari bilan namoyon bo'lishi mumkin:

1. Axloqiy me'yorlar; 2. Jamoa qadriyatlari; 3. Muloqot madaniyati; 4. Mehnat rivojlanish; 5. Ijtimoiy mas'uliyat; 6. Noaniqlik va xulq-atvor; 7. Jamoaviy ish.

Har bir kasbda o'ziga xos axloqiy me'yorlar mavjud. Ushbu me'yorlar professionallar o'rtasida ishonchni shakllantiradi va axloqiy xatolarni kamaytiradi.

Har bir tashkilot o'zining qadriyatlari va tamoyillariga ega. Bu qadriyatlar xodimlar orasida o'zaro hurmat, jamoa ruhiyatini va mehnat mas'uliyatni oshiradi.

Muloqot qoidalari va usullari mehnat madaniyatning muhim bir qismidir. Xodimlar o'rtasida samarali kommunikatsiya, fikr almashinish va kelishmovchiliklarni bartaraf etish mehnat muhitni rivojlantirishga yordam beradi.

O'qish va ko'nikmalarning rivojlanishi kasbdagi muvaffaqiyatga erishish uchun zarur. Jamiyatning o'zgarishlariga moslashish va yangi texnologiyalarni o'zlashtirish mehnat madaniyatning yana bir xususiyatidir.

Mehnat madaniyatning muhim jihatlaridan biri ijtimoiy mas'uliyatdir. Kasb egalarining jamiyat, atrof-muhit va ishchilarga nisbatan mas'uliyatli yondashuvlari mehnat madaniyatni mustahkamlaydi.

Mehnat madaniyat xodimlarning ish joyidagi xulq-atvoriga ham bog'liq. Vaqtni samarali boshqarish, ishontirilganlik, mahfiylik va boshqa xulq-atvorlar mehnat muhitni belgilovchi omillardir.

Mehnat madaniyat jamoa ichidagi hamkorlik va muvofiqlikni ta'minlaydi. Jamoaviy ishda barchaning fikri va hissasi inobatga olinadi, bu esa o'zaro hurmatni oshiradi. Mehnat madaniyat - bu mehnat bilimlar, ko'nikmalar, qobiliyatlar, me'yorlar va qadriyatlar tizimi orqali ichki va mehnat o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi va muayyan jamiyatda kasb rivojlanishining o'lchovi bo'lib xizmat qiladigan mehnat jamoaning ajralmas mulkidir. [7]

Mehnat madaniyati namoyon bo'lishida yuqoridagi jihatlar sezilarli ahamiyatga ega bo'lib, ularning birgalikda aks etishi kasb egalarining o'z ishlarida muvaffaqiyatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Mehnat madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish tamoyillari masalasida yuqoridagi paragrafda to'xtalib o'tganligimiz tufayli bu bo'yicha fikr yuritmoqchi emasmiz.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlar masalasi, xususan, ularning mehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Yoshlar milliy iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu ma'noda mehnat madaniyati yoshlarning faqat kasbiy mahoratini emas, balki ularning axloqiy qiyofasi, ijtimoiy mas'uliyati, jamoa bilan hamkorlik qilish qobiliyatini ham belgilaydi. Mehnat madaniyati orqali yoshlarda intizom, mas'uliyat, o'z kasbiga sadoqat, doimiy o'z-o'zini rivojlantirishga intilish kabi muhim sifatlar shakllanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mehnat madaniyati rivojlangan jamiyatda ish unumdorligi oshadi, ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi va iqtisodiy taraqqiyotga mustahkam zamin yaratiladi. Shuning uchun ham yoshlar mehnat madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan ta'limiy, tarbiyaviy va institutsional chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida Yangi O'zbekistonning barqaror va izchil rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. https://oliymahad.uz/25718

2. https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144
3. https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kasb-uz/
4. https://www.homework.ru/spravochnik/professionalnaya-kultura/
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. https://www.lex.uz/uz/docs/-5841063
6. Мирзиёев Ш. М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари…. – Б. 444.
7. Парунина, *Л. Д.* Особенности становления и развития профессиональной культуры муниципальных служащих в современной России (социологический анализ): автореф. дис. на соискание ученой степени канд. социол. наук Уральский гос. ун-т. – Екатеринбург, 2010. – 22 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Abdunazarov Lutfillo Mamanovich**
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qo'qon universiteti dotsenti
l.abdunazarov@gmail.com
UDK 316.334.5

## OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ZAMONAVIY SHAHAR TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

***Annotatsiya:*** *Hozirgi globallashuv jarayonida axborotga o'chlik va uni tezkor tahlil qilish talablari aholi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Urbanizatsiya rivoji mamlakatimizda ijtimoiy va iqtisodiy hayotning asosiy yo'nalishiga aylandi. Shu jihatdan ommaviy axborot vositalari infratuzilma, ijtimoiy xizmatlar va shaharsozlik sohasida jamoatchilik fikrini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Gazetalar, televidenie va internet platformalari orqali aholi o'z fikrini bildirish, davlat organlarini javobgarlikka tortish hamda madaniy hayotni rivojlantirish imkoniyatiga ega. Maqolada urbanizatsiya va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, jamoatchilik muloqoti va jurnalistik faoliyatning ahamiyati ta'kidlanadi.*

***Kalit so'zlar:*** *urbanizatsiya, shahar taraqqiyoti, ommaviy axborot vositalari, jurnalistika, internet, madaniyat, ijtimoiy xizmatlar, jamoatchilik fikri, globallashuv, kommunikatsiya, blogerlik, muloqot*

**Абдуназаров Лутфилло Маманович**
Доктор философии (PhD) педагогических наук
Доцент Кокандского университета

## ВАЖНОСТЬ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ РАЗВИТИИ ГОРОДОВ

***Аннотация:*** *В современном процессе глобализации потребность населения в доступе к информации и ее быстром анализе приобретает все большее значение. Развитие урбанизации стало основным направлением социально-экономической жизни в нашей стране. В этом контексте средства массовой информации играют ключевую роль в формировании общественного мнения в сфере инфраструктуры, социальных услуг и городского планирования. Через газеты, телевидение и интернет-платформы население имеет возможность выражать свое мнение, привлекать государственные органы к ответственности и развивать культурную жизнь. В статье подчеркивается взаимосвязь между урбанизацией и средствами массовой информации, важность общественного диалога и журналистской деятельности.*

***Ключевые слова:*** *урбанизация, городское развитие, СМИ, журналистика, интернет, культура, социальные услуги, общественное мнение, глобализация, коммуникация, блогер, диалог.*

**Abdunazarov Lutfilo Mamanovich**
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Associate Professor at Kokand University

## THE IMPORTANCE OF MASS MEDIA IN MODERN URBAN DEVELOPMENT

***Annotation:*** *In the modern process of globalization, the population's need for access to information and its rapid analysis is becoming increasingly important. The development of urbanization has become the main direction of socio-economic life in our country. In this context, the media play a key role in shaping public opinion in the field of infrastructure, social services and urban planning. Through newspapers, television and online platforms, the population has the opportunity to express their opinions, hold government bodies accountable and develop cultural life. The article emphasizes the relationship between urbanization and the media, the importance of public dialogue and journalistic activity.*

***Keywords:*** *urbanization, urban development, media, journalism, internet, culture, social services, public opinion, globalization, communication, blogging, dialogue*

### Kirish

Hozirgi globallashuv jarayonida axborot tezkorligi va uni samarali tahlil qilish qobiliyati har bir fuqaro uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Urbanizatsiya jarayoni mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojida asosiy rol o‘ynamoqda va shahar infratuzilmasini yangilash, aholiga munosib turmush tarzi yaratish kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi. Shu bois ommaviy axborot vositalari urbanizatsiya jarayonida faol ishtirok etuvchi asosiy omillardan biriga aylandi. Gazetalar, televidenie va internet platformalari aholiga ma’lumot yetkazish, davlat organlari faoliyatini yoritish hamda jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, jurnalistlar va blogerlar muammolarni ochiqlik bilan yoritib, aholi bilan muloqotni rivojlantirishga yordam bermoqdalar.

**Adabiyotlar tahlili**

Hozirgi vaqtda dunyoda va mamlakatimizda kechayotgan globallashuv jarayonlari odamlarda axborotga o‘chlik hamda ularni tezkor tahlil qilishdek katta muammolarni keltirib chiqardi. Mamlakatimiz barcha sohalarda muvaffaqiyatli harakat qilib, taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Respublikamizda shaharlarni rivojlantirish va bu orqali fuqarolarga munosib turmush tarzi yaratish, ularni bugungi kunidan rozi bo‘lib yashashiga erishishdek aqida barcha bo‘g‘in rahbarlarining maqsad va muddaosiga aylandi. Mamlakatimiz shaharlari ko‘plab sohalarda yutuqlarni qo‘lga kitirib kelmoqda. Bir so‘z bilan aytganda yurtimizda urbanizatsion taraqqiyotning yangi bosqichi boshlangani nafaqat biz, balki butun dunyo davlatlari e’tirof etib turibdi. Sohada qator yutuqlarga erishilgan bo‘lsada hali o‘z yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Respublikamizning urbanizatsion siyosatini yoritish va undagi mavjud kamchiliklarni ommaga oldiga olib chiqish, ular bo‘yicha muqobil yechimlar berishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni muhimdir. Zero, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, «Hozirgi davrda matbuot, ommaviy axborot vositalari shunday qudratli kuchga aylanmoqdaki, o‘z kelajagini o‘ylaydigan har qaysi xalq va millat buni sezmasligi, his etmasligi mumkin emas. [3; 135]

Arastu birinchi marta jamoatchilik fikrini maqsadga muvofiq shakllantirishning siyosiy va texnologik vositalariga e’tibor qaratdi, siyosiy faoliyatni «muloqot» deb talqin qildi, bu esa yuqori, «umumiy yaxshilik»ga erishishga qaratilgan. [2; 376] Kelajakda sitseronning «umumiy huquq va tartib» masalalarini o‘rganib, siyosiy muloqotga e’tibor bergan asarida kommunikatsiyalarning axborot ta’siri vositalari haqidagi muayyan g‘oyalar o‘z aksini topdi. [6; 20] Bundan anglashiladiki ommaviy axborot vositalari haqidagi ilk qarashlar antik davrda paydo bo‘ldi. Yuqorida ko‘rsatilganidek ommaviy axborot vositalari fuqarolarga o‘z fikr va mulohazalarini bildirish hamda davlat organlarini o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikka tortish imkonini beradi. Gazetalar, televidenie va ijtimoiy media kabi ommaviy axborot vositalari ham madaniyat va o‘yin-kulgini targ‘ib qiladi, bu esa shahar hayotining jo‘shqinligini oshiradi. Bu omillarning barchasi ommaviy axborot vositalarini urbanizatsiyaning muhim jihatiga aylantirishga yordam beradi. Shu o‘rinda aytish joizki “ommaviy axborot vositalari odamlar ongi va hissiyotlari, tafakkur tarzi, xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatishda katta imkoniyatlarga ega”. [5; 79]

Ta’kidlash joizki, ommaviy axborot vositalari urbanizatsiya jarayonida faol va muhim rol o‘ynaydi. Bu, avvalo, shahar infratuzilmasini rivojlantirishda samarali vosita sifatida ahamiyat kasb etadi. Gazetalar, televidenie, radio va internet platformalari orqali aholi shahar hayotidagi yangiliklar, qonunchilikdagi o‘zgarishlar va ijtimoiy xizmatlar haqida barchasini tez va aniq tarzda qabul qilish imkoniga ega bo‘ladi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari atrof-muhitni muhofaza qilish, shaharsozlik va ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash kabi masalalar bo‘yicha jamoatchilik fikrini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Axborotning ochiq va tez tarqatilishi aholida shahar taraqqiyotidagi jarayonlarni tushunish, muammolarni aniqlash va ularni hal qilishdagi faol ishtirokni ta’minlaydi. Shu bilan birga jurnalistlar va blogerlar faoliyati aholi bilan muloqotni rivojlantirib, urbanizatsiya jarayonidagi kamchiliklarni ko‘rsatish va ijobiy tajribalarni yoritish imkonini beradi. Bu omillar urbanizatsiya va medianing o‘zaro bog‘liqligini yanada mustahkamlaydi va shahar hayotining barqaror rivojiga hissa qo‘shadi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada nazariy tahlil, muqosiy tadqiqot, empirik kuzatish va ommaviy axborot vositalaridagi jurnalistik materiallarni tahlil qilish usullari qo‘llanildi, bu urbanizatsiya jarayonida medianing roli va ahamiyatini aniqlash imkonini berdi.

**Natijalar va Muhokama**

Aytish joizki, hozirgi kunda globallashuv davrini boshdan kechirayotgan dunyo mamlakatlarida barcha ma’lumotlar tezkor hamda shov-shuvli tusga kirib bormoqda. Har kuni turli axborotlar bilan to‘ldirilgan muhitda yashamoqdamiz va ularni saralab, tahlil qilish jarayoni aholi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun hayotimizni ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur etish deyarli mumkin emas. Gazetalar, jurnallar, televidenie, radio va internet platformalari orqali aholi kundalik hayot, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy yangiliklardan xabardor bo‘ladi. Zero, ommaviy axborot vositalari hayotimizning eng muhim va ajralmas qismiga aylandi. Ular nafaqat ma’lumot olish, balki uni samarali iste’mol qilish imkonini ham beradi. Bugungi kunda axborot vositalari biz uchun tayyor xizmatchiga, muammolarni hal qilishda esa muhim vositaga aylandi. Shuningdek, internet va ijtimoiy tarmoqlar aholi va davlat organlari o‘rtasida muloqotni osonlashtirib, jamoatchilik fikrini shakllantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Axborotning tez va keng tarqalishi hayotimizning barcha sohalarida samarali qaror qabul qilishga yordam beradi va urbanizatsiya, ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyat kabi yo'nalishlarda ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini yaratadi. Ayniqsa Internet hayotimizga tobora chuqur kirib borayotganini alohida qayd etish lozim. Hozirgi vaqtda global tarmoqda Uz domenli veb-saytlar, axborot portallari soni 400 dan oshib ketgani, ularning aksariyati xorijiy tillarda ham faoliyat ko'rsatayotgani, ushbu yo'nalishda yangi ijodiy avlod - Internet jurnalistlari shakllanib borayotgani e'tiborga sazovordir. [4; 498] Mahalliy termin bilan bloger deb ataladigan bu soha vakillari jamiyat rivoji yo'lida katta hizmatlarni amalga oshirmoqdalar.

Bugungi qator islohotlar, ayniqsa urbanizatsiya kabi yirik ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lganlari, shikoyat va norozichiliklarsiz o'tmasligini hammamiz yaxshi bilamiz. Barcha savollarga birdaniga to'g'ri javoblarni topish juda qiyin. Ko'plab muammolar, tushunmovchiliklar tug'ilmoqda va tug'ilishda davom etaveradi. Shuning uchun ham bizlar uchun tinglay oladigan, eshita oladigan va ma'lumotlarni keng ommaga to'g'ri yetkaza oladigan, balkim teskari aloqani ham ta'minlab bera oladigan jurnalistlar bilan suhbat qurish juda muhim. [1] Zero bugun ommaviy axborot vositalari fuqarolarda fikrlarni shakllantirishning bosh omiliga aylandi.

Voqeliklarga ochiq ko'z bilan nazar tashlasak yangi shahar madaniyatini shakllantirish yoki rivojlantirishga oid jurnalistik surishtiruvlar yoki ko'rsatuvlar kamligini mavjudlari ham nomigagina faoliyat olib borayotganiga guvox bo'lamiz. Ammo shuni ta'kidlash joizki xalq bilan muloqot, odamlarning orzu-intilishlari, dardu tashvishlari bilan yashash davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotgan bugungi kunda har bir ommaviy axborot vositasi chinakam muloqot maydoniga, erkin fikr minbariga aylangan taqdirdagina biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz. [4; 500]

**Xulosa**

Xulosa o'rnida aytish lozimki, hozirgi globallashuv davrida axborot tez va shov-shuvli bo'lib, uning ahamiyati ortib bormoqda. Urbanizatsiya jarayonida shahar infratuzilmasini rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlarni yaxshilash va aholining hayot sifatiga ta'sir ko'rsatishda ommaviy axborot vositalari muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Gazetalar, televidenie va internet platformalari aholiga ma'lumot yetkazish, fikr va mulohazalarni bildirish imkonini beradi, shu bilan birga davlat organlarini javobgarlikka tortish yo'llarini ham taqdim etadi. Jurnalistlar va blogerlar jamoatchilik bilan muloqotni tashkil etish, muammolarni yoritish va yangi yechimlarni taklif qilishda faoliyat olib boradilar. Shunday qilib, urbanizatsiya va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi o'zaro aloqa shaharlar rivojining samarali va barqaror bo'lishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. https://darakchi.uz/uz/72939 Урбанизация - йўлдош шаҳарлар тармоғини кенгайтириш ва алоҳида шаҳарларни бирлаштиришдир.
2. Аристотель. Политика. // Аристотель. Сочинения: В 4 т. Т.4. - М., 1983. - С. 376.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Т.: «Маънавият», 2008. -135-б.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз Тошкент: "Ўзбекистон", 2017. 1-том, 498, 500 бет.
5. Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. - Т.: «Муҳаррир», 2009. -79-б.
6. Цицерон. О государстве. // Цицерон. Диалоги. М., 1994. - С. 20.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Lutfullayev Abduvali Abdunabiyevich**
Qarshi Xalqaro universiteti dotsenti

## MA'NAVIYAT – BARCHA TARBIYALARNING MUSTAHKAM ILDIZI

***Annotatsiya. Maqolada*** *ma`naviy etuk va barkamol insonni tarbiyalash davlat siyosati darajasi ekanligi, tarbiyaning ko'pgina turlari mavjud bo'lib, ular fikr tarbiyasi, aql tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiyalash hamda ma'naviy tarbiya subyektlari haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Ma`naviyat, tarbiya, barkamol inson, ular fikr tarbiyasi, aql tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, oil ava mahalla.*

**Лутфуллаев Абдували Абдунабиевич**
Доцент Каршинского международного университета

## ДУХОВНОСТЬ — САМЫЙ СИЛЬНЫЙ КОРЕНЬ ВСЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

***Аннотация.*** *В статье говорится, что воспитание духовно зрелой и всесторонне развитой личности является уровнем государственной политики, и что существует множество видов образования, в том числе интеллектуальное воспитание, умственное воспитание, трудовое воспитание, физическое воспитание и духовное воспитание.*

***Ключевые слова:*** *Духовность, образование, всесторонне развитый человек - это образование мысли, образование ума, образование труда, физическое воспитание, семья и соседство.*

**Lutfullayev Abduvali Abdunabiyevich**
Associate professor of the Karshi international university

## SPIRITUALITY IS THE STRONGER ROOT OF ALL EDUCATION

***Annotation.*** *The article states that raising a spiritually mature and well-rounded person is a state policy level, and that there are many types of education, including intellectual education, intellectual education, labor education, physical education, and spiritual education.*

***Keywords:*** *Spirituality, education, a well-rounded person, they are education of thought, education of the mind, education of labor, physical education, family and neighborhood.*

.

### Kirish (Introduction).

Yurtimizda bugungi kunda ma`naviy etuk va barkamol insonni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xalqimiz milliy ma`naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, milliy an'analarimizning saqlanishi va mazmunan boyishi, shuningdek madaniyat va san'at, ilm- fan, ta'lim tarbiyaning har tomonlama rivojlanishi o'zi, alohida kasb etadi. Ta'lim- tarbiya orqali mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so'z bilan aytganda, barkamol shaxsni voyaga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilangan. Bu borada O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'analariga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi. Biz bugun ko'p millatli xalqimizga, barchamizning umidimiz va suyanchimiz bo'lgan yoshlarimizga ishonib, marrani katta olmoqdamiz. Aziz farzandlarimiz, nabiralarimiz baxtini, kamolini o'ylab, el-yurtimizning, xalqimizning yorug' kelajagini ko'zlab, oldimizga ulkan vazifalar qo'ymoqdamiz. Niyati ulug' xalqning – ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi- deb ta'kidlaydi O'zbekistan Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

### Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Tarbiyaning yoshlar hayotidagi o'rni va ularga zamonaviy yondashuvlar haqida O'zbekiston prezidenti Sh.M Mirziyoyevning asarlari[3,4], D.R Farsaxonova[6], Z. Ismailova[8], A.P. Erkayevlar [7] ilmiy ishlarida keng yoritilgandir.

### Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish tahlil

qilindi va ma’naviy tarbiya va ma’naviy tarbiyaning baholash uchun ilmiy asoslangan indikatorlari haqida tavsiyalar keltirib o‘tildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).**

Ma’naviyat insonning ichki dunyosi, qalbi va ongi bilan bog‘liq bo‘lib, uning butun vujudi, faoliyati, xatti-harakatlarini belgilovchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy va shu kabi tasavvurlari majmuidir. Tarbiya – har bir insonning hayotda yashash jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatining ijobiy ko‘nikmasini o‘zgalarga berish yoki o‘zgalardan olish jarayoni. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. **Birinchisi** – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. **Ikkinchisi** – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat. “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqaror taraqqiyot va xalqlarning tadrijiy rivojlanishiga raxna soladigan turli tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat bilan bog‘liq masalalar tobora dolzarblashib bormoqda. …Azaliy milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan odob-axloq qoidalarining butunlay yo‘qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida, ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish g‘oyat birlamchi vazifamizdir”

Inson – tabiatning eng buyuk ne’mati. Unga aql-idrok, ong-farosat kabi buyuk fazilatlar ato etilganki, tarbiya yo‘li bilan inson bu fazilatlarga sayqal beradi va rivojlantiradi. Tarbiyaning ko‘pgina turlari mavjud bo‘lib, ular fikr tarbiyasi, aql tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya va boshqalardan iborat.

**Fikr tarbiyasi** – inson faoliyati, uning o‘zligi va kuch-qudratini tashkil qiluvchi ma’naviy sifat. Insonning erki va ozodligi uning fikr erkinligi va mustaqilligi bilan bog‘liq. Insonning qolgan barcha mavjudotlardan farqli jihati – bu uning fikrlash qobiliyatidir. Shuningdek, insonlar bir-biridan o‘ziga xos o‘y-xayollari, mushohadalari, ongli faoliyat yuritishi, mustaqil fikrlash va tafakkur qilish qobiliyati bilan ajralib turadi. Tafakkur esa arabcha “mutafakkir” so‘zidan olingan bo‘lib, ma’noli, chuqur fikrlash qobiliyati degan ma’nolarni anglatadi.

Inson hayotining dastlabki davrlarida tafakkur tabiat hodisalarini anglash, ulardan yashash uchun foydalanish yoki o‘zini muhofaza qilish shaklida bo‘lgan. Asta-sekin inson tafakkuri rivojlanib, yashash va mehnat qilishning moddiy hamda ma’naviy shakllari vujudga kela boshlagan. Shu asosda insonlar orasidagi mahsulot ayriboshlash munosabatlari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni keltirib chiqargan.

***Annotasiya.*** *Mazkur ilmiy maqolada globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari sharoitida ayollar jinoyatchiligining yuzaga kelish omillari hamda uni oldini olish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribaning ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida ayollar jinoyatchiligi nafaqat huquqiy yoki kriminologik muammo sifatida, balki jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, gender rollarining transformatsiyasi, ijtimoiy moslashuvdagi ziddiyatlar va qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar bilan bog'liq murakkab ijtimoiy hodisa sifatida talqin etilgan. Maqolada rivojlangan davlatlar tajribasida ayollar jinoyatchiligini oldini olishga qaratilgan ijtimoiy institutlar, reabilitatsiya va reintegratsiya mexanizmlari, genderga sezgir ijtimoiy siyosat hamda profilaktik yondashuvlar ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Xususan, ijtimoiy adolat, inson qadr-qimmati, gender tengligi va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarining jinoyatchilikni oldini olishdagi o'rni ochib berilgan. Tadqiqot natijalari ayollar jinoyatchiligini kamaytirish masalasida faqat repressiv choralar emas, balki ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish, ayollarning ijtimoiy faolligi va huquqiy ongini rivojlantirish muhim ekanini asoslab bergan. Mazkur ilmiy izlanish natijalari ayollar siyosati, jinoyatchilik profilaktikasi, genderga yo'naltirilgan ijtimoiy dasturlar hamda ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar:*** *globallashuv, integratsiyalashuv, ayollar jinoyatchiligi, jinoyatchilikni oldini olish, xorijiy tajriba, ijtimoiy-falsafiy tahlil, gender tengligi, ijtimoiy adolat, reabilitatsiya, profilaktika.*

**Рахмонов Файзулло Рузибаевич**
Свободный соискатель Ферганского государственного университета

## СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ПО ПРЕДУПРЕЖДЕНИЮ ЖЕНСКОЙ ПРЕСТУПНОСТИ В ПРОЦЕССАХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ИНТЕГРАЦИИ

***Аннотация.*** *В данной научной статье анализируются факторы возникновения женской преступности в условиях процессов глобализации и интеграции, а также социально-философская сущность передового зарубежного опыта по её предупреждению. В рамках исследования женская преступность трактуется не только как правовая или криминологическая проблема, но и как сложное социальное явление, связанное с социальным неравенством в обществе, трансформацией гендерных ролей, конфликтами в социальной адаптации и изменениями в системе ценностей. В статье с социально-философской точки зрения анализируются социальные институты, механизмы реабилитации и реинтеграции, гендерно-чувствительная социальная политика и профилактические подходы, направленные на предупреждение женской преступности в опыте развитых стран. В частности, раскрывается роль принципов социальной справедливости, человеческого достоинства, гендерного равенства и социальной ответственности в предупреждении преступности. Результаты исследования обосновывают, что в вопросе снижения женской преступности важны не только репрессивные меры, но и оздоровление социальной среды, развитие социальной активности и правового сознания женщин. Результаты данного научного изыскания имеют важное теоретическое и практическое значение для женской политики, профилактики преступности, гендерно-ориентированных социальных программ и социально-философских исследований.*

***Ключевые слова:*** *глобализация, интеграция, женская преступность, предупреждение преступности, зарубежный опыт, социально-философский анализ, гендерное равенство, социальная справедливость, реабилитация, профилактика.*

**Rakhmonov Fayzullo Ruzibaevich**
A free applicant at Fergana State University

## SOCIAL-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE IN PREVENTING FEMALE CRIME IN THE PROCESSES OF GLOBALIZATION AND INTEGRATION

***Annotation.*** *This scientific article analyzes the factors contributing to female crime within the context of globalization and integration processes, as well as the socio-philosophical essence of advanced foreign experience in its prevention. Within the framework of the study, female crime is interpreted not only as a legal or criminological problem but as a complex social phenomenon linked to social inequality, the transformation of gender roles, conflicts in social adaptation, and changes in the value system. The article examines social institutions, rehabilitation and reintegration mechanisms, gender-sensitive social policies, and preventive approaches aimed at curbing female crime in developed countries from a socio-philosophical perspective. In particular, the role of the principles of social justice, human dignity, gender equality, and social responsibility in crime prevention is highlighted. The research results substantiate that reducing female crime requires not only repressive measures but also the improvement of the social environment and the development of women's social activity and legal consciousness. The findings of this research hold significant theoretical and practical importance for women's policy, crime prevention, gender-oriented social programs, and socio-philosophical studies.*

***Keywords:*** *globalization, integration, female crime, crime prevention, foreign experience, socio-philosophical analysis, gender equality, social justice, rehabilitation, prevention.*

## KIRISH

Globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, jumladan, ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar tizimi va shaxs xulq-atvoriga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu jarayonlar bir tomondan iqtisodiy, madaniy va huquqiy imkoniyatlarning kengayishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan ijtimoiy nomutanosiblik, marginalizatsiya va ijtimoiy moslashuv muammolarining kuchayishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, ayollar ijtimoiy mavqeining transformatsiyasi, gender rollarining o'zgarishi va mehnat migratsiyasi sharoitida yuzaga kelayotgan ijtimoiy ziddiyatlar ayollar jinoyatchiligi muammosini chuqur ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish zaruratini yuzaga chiqarmoqda.

Zamonaviy ijtimoiy nazariyalarda globallashuv jarayoni shaxs hayotidagi barqaror ijtimoiy tayanchlarning zaiflashuvi bilan izohlanadi. Xususan, "Oquvchanzamonaviylik"da taniqli sotsiolog-olim Zigmund Bauman tomonidan kiritilgan bu tushuncha an'anaviy ijtimoiy tuzilmalar (oila, ish joyi, jamiyat) o'zining barqaror shaklini yo'qotib, suv kabi doimiy o'zgarib turadigan, oldindan aytib bo'lmaydigan holatga kelgan hozirgi davrni ifodalaydi. Z.Bauman globallashuv sharoitida ijtimoiy institutlar va an'anaviy rollarning beqarorlashuvi shaxsni doimiy noaniqlik va xavf holatida qoldirishini ta'kidlaydi. Ushbu holat ayollar uchun ijtimoiy moslashuvning murakkablashuvi, ijtimoiy himoyaning yetarli darajada ta'minlanmasligi va ijtimoiy bosimning kuchayishi orqali jinoyatga moyillik omillarini yuzaga keltirishi mumkin.

Globallashuvning axborot va kommunikatsion o'lchovi ham mazkur jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. "Tarmoqlashgan jamiyatning yuksalishi" g'oyasida Manuel Kastels jamiyatning tarmoqli tuzilmasi axborot oqimlari orqali ijtimoiy xulq-atvor va ongni shakllantirishda muhim rol o'ynashini asoslab beradi. Bu yerda M.Kastelsning "Axborot davri: iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat" nomli mashhur trilogiyasining birinchi jildi hisoblanadi. Unda axborot texnologiyalari ta'sirida jamiyatning yangicha, tarmoqli shaklda tashkil topishi tahlil qilingan. Bu jarayon ayollar ongida yangi ijtimoiy standartlar va iste'molchi qadriyatlarning singdirilishiga olib kelib, ijtimoiy moslashuvda ziddiyatlarni kuchaytiradi. Natijada, ayrim hollarda ijtimoiy chetlanish va huquqbuzarlik xulq-atvori paydo bo'lishi mumkin.

Ayollar jinoyatchiligi muammosini faqat huquqiy yoki kriminologik yondashuv bilan izohlash yetarli emas. Chunki bu hodisa jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, gender diskriminatsiyasi, iqtisodiy qaramlik va ijtimoiy adolat masalalari bilan chambarchas bog'liqdir. "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi" ("United Nations Office on Drugs and Crime") tomonidan taqdim etilgan hisobotlarda ayollar jinoyatchiligining oldini olishda repressiv choralar emas, balki ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, reabilitatsiya va genderga sezgir siyosat ustuvor ahamiyat kasb etishi qayd etiladi [2.]. Ushbu yondashuv jinoyatchilikni ijtimoiy sabablar bilan izohlash zaruratini tasdiqlaydi.

Shuningdek, shaxs ongining tashqi ijtimoiy bosimlarga bo'ysunishi masalasi Erix Fromm tomonidan ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslab berilgan. "Ozodlikdan qochish" ("Escape from Freedom")da mashhur psixolog va faylasuf Erix Frommning eng taniqli asarlaridan biri bo'lib, unda insoniyatning ozodlikka bo'lgan munosabati va avtoritarizmning psixologik ildizlari tahlil qilingan. Olim zamonaviy jamiyatda shaxsning mustaqil fikrlash muxtoriyati zaiflashib, ijtimoiy moslashuv ustuvor ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Bu holat ayollar jinoyatchiligini tushuntirishda psixo-ijtimoiy omillarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari sharoitida ayollar jinoyatchiligini oldini olish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribaning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilish asosiy maqsad etib belgilangan. Tadqiqotda xorijiy davlatlarda shakllangan genderga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosat, profilaktika va

reabilitatsiya mexanizmlari ijtimoiy adolat, inson qadr-qimmati va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillari asosida baholanadi. Ushbu yondashuv ayollar jinoyatchiligini kamaytirishda jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini takomillashtirish va ayollarning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytirish muhimligini falsafiy jihatdan asoslab beradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari sharoitida jinoyatchilik, xususan ayollar jinoyatchiligi masalasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda tobora murakkab va ko'p qatlamli hodisa sifatida talqin qilinmoqda. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayollar jinoyatchiligini faqat individual xulq-atvor yoki huquqiy me'yorlarning buzilishi bilan izohlash yetarli emas; bu hodisa jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, gender munosabatlari, iqtisodiy tengsizlik va madaniy transformatsiyalar bilan bevosita bog'liqdir.

Globallashuvning shaxs va jamiyat munosabatlariga ta'sirini tushuntirishda Zigmunt Bauman tomonidan ilgari surilgan "suyuq modernlik" konsepsiyasi muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. "Suyuq modernlik" konsepsiyasida muallif zamonaviy jamiyatda barqaror ijtimoiy institutlar va rollarning zaiflashuvi shaxsni doimiy noaniqlik va moslashuv holatiga majbur etishini ta'kidlaydi. Shuningdek: "Oquvchan (tepki) zamonaviylik sharoitida ijtimoiy shakllar va institutlar endilikda individual hayot uchun uzoq muddatli tayanch bo'lib xizmat qila olmaydi; ular individ barqaror hayot strategiyasini ishlab chiqishga ulgurmasidan oldin parchalanib ketadi" [3. 12.]. Bauman "oquvchan zamonaviylik" konsepsiyasini rivojlantirar ekan, globallashuv va ijtimoiy beqarorlik sharoitida an'anaviy institutlar hamda rollar o'z barqarorligini yo'qotishini, buning natijasida individ doimiy noaniqlik holatida qolishi va o'zgarib borayotgan ijtimoiy sharoitlarga uzluksiz moslashishga majbur bo'lishini ta'kidlaydi. Bu holat ayollar uchun ijtimoiy xavfsizlikning pasayishi, iqtisodiy qaramlik va ijtimoiy chetlanish xavfining ortishiga olib kelib, jinoyatga moyillik omillarini kuchaytirishi mumkin.

Axborot va kommunikatsiya jarayonlarining ijtimoiy xulq-atvorga ta'sirini tahlil qilishda Manuel Kastelsning tarmoqli jamiyat nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. "Tarmoqlashgan jamiyatning yuksalishi"da jamiyatning tarmoqli tuzilmasi shaxs ongiga axborot oqimlari orqali ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy me'yorlar va xulq-atvor modellari shakllanishida muhim rol o'ynashi asoslab beriladi. Kastelsning ta'kidlashicha: "Tarmoqlashgan jamiyat sharoitida aynan kommunikatsiya jarayonlari ijtimoiy xulq-atvor doirasini shakllantiradi hamda individlarning borliqni qanday idrok etishi va unda qanday harakat qilishini belgilab beradi" [4. 24.]. Kastels zamonaviy jamiyatning tarmoqli tuzilishini tahlil qilar ekan, axborot va kommunikatsiya oqimlari individlar ongi, ijtimoiy normalar va xulq-atvor modellarining shakllanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishini, bu esa tarmoqni ijtimoiy tartibga solishning asosiy mexanizmiga aylantirishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv ayollar jinoyatchiligining oldini olishda axborot makonidagi ijtimoiy stereotiplar, gender tasavvurlar va me'yoriy diskurslarning ta'sirini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Shaxs ongining ijtimoiy bosimlar ostida shakllanishi masalasi Erix Fromm tomonidan ijtimoiy-falsafiy va psixo-ijtimoiy nuqtayi nazardan chuqur tahlil qilingan. "Ozodlikdan qochish"da Fromm zamonaviy jamiyatda shaxsning mustaqil fikrlash muxtoriyati zaiflashib, ijtimoiy moslashuv ustuvor ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha: "Zamonaviy inson an'anaviy tashqi majburlash shakllaridan ozod bo'lgan bo'lsa-da, tobora ko'proq anonim ijtimoiy kuchlar ta'siriga tushib qolmoqda; bu kuchlar uning fikrlashi va xulq-atvorini yo'naltirib, uni haqiqiy mustaqillikdan mahrum etadi" [5. 144.]. Fromm ongni shakllantirishning ijtimoiy mexanizmlarini tahlil qilar ekan, zamonaviy jamiyat sharoitida fikrlash avtonomiyasining kuchsizlanishi anonim ijtimoiy bosimning kuchayishi bilan birga kechishini, buning natijasida ijtimoiy kutuvlarga moslashish shaxsning haqiqiy ozodligidan ustunlik qila boshlashini ta'kidlaydi. Ushbu nazariya ayollar jinoyatchiligini tushuntirishda ijtimoiy bosim, iqtisodiy majburiyat va ijtimoiy rol ziddiyatlarining psixologik oqibatlarini ochib beradi.

Jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha zamonaviy xorijiy yondashuvlarda genderga sezgir siyosat muhim o'rin egallaydi. BMT doirasidagi gender siyosati hujjatlarida ayollar jinoyatchiligini kamaytirishda repressiv choralar emas, balki ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, reabilitatsiya va reintegratsiya mexanizmlarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida ko'rsatiladi. "Ayollar jinoyatchiligining oldini olish sohasidagi davlat siyosati gender xususiyatlarini hisobga olishi hamda faqat jazolash choralari bilan cheklanib qolmasdan, huquqbuzarliklarning ijtimoiy sabablarini bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi lozim" [6. 4.]. Jinoyatchilikning oldini olishga doir zamonaviy xorijiy yondashuvlarda genderga sezgir siyosatning ustuvorligi ta'kidlanadi; unga ko'ra ayollar jinoyatchiligi darajasini pasaytirishga repressiv choralar orqali emas, balki ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni rivojlantirish, ayollarni reabilitatsiya qilish va jamiyatga qayta integratsiyalash (reintegratsiya) orqali erishiladi. Bu yondashuv jinoyatchilikni ijtimoiy adolatsizlik va teng imkoniyatlar muammosi bilan bog'liq hodisa sifatida talqin etishga asos yaratadi.

Shuningdek, ijtimoiy nazariyalarda jinoyatchilik masalasi ijtimoiy nomutanosiblik va gender tengligi muammolari bilan chambarchas bog'liq holda o'rganiladi. Genderga oid tadqiqotlarda ayollar jinoyatchiligi ko'pincha ijtimoiy cheklovlar, iqtisodiy mustaqillikning yetishmasligi va ijtimoiy himoyaning zaifligi bilan izohlanadi. Bu esa jinoyatchilikni oldini olishda jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini isloh qilish muhimligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot ijtimoiy-falsafiy metodologiya asosida olib borildi. Tadqiqotda dialektik yondashuv globallashuv jarayonlari va ayollar jinoyatchiligi o‘rtasidagi qarama-qarshi tendensiyalarni aniqlash va ularning rivojlanish mantiqini tushuntirishda qo‘llanildi. Ushbu yondashuv jinoyatchilikni statik holat sifatida emas, balki doimiy ijtimoiy transformatsiya jarayoni sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Tizimli tahlil metodi ayollar jinoyatchiligini ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va axborot omillarining o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida o‘rganishga xizmat qildi. Komparativ tahlil orqali turli xorijiy davlatlarning jinoyatchilikni oldini olish tajribalari solishtirilib, ularning ijtimoiy-falsafiy asoslari aniqlashtirildi.

Shuningdek, aksialogik yondashuv yordamida jinoyatchilikni oldini olishda ijtimoiy adolat, inson qadr-qimmati va gender tengligi tamoyillarining o‘rni baholandi. Germenevtik metod xorijiy huquqiy hujjatlar, siyosiy dasturlar va konseptual matnlarni talqin qilishda qo‘llanilib, ularning yashirin ma’no va qadriyatlar tizimini ochib berishga imkon yaratdi. Mazkur metodologik majmua globallashuv va integratsiyalashuv sharoitida ayollar jinoyatchiligini oldini olish masalasini faqat huquqiy yoki kriminologik doirada emas, balki keng ijtimoiy-falsafiy kontekstda tahlil qilish imkonini beruvchi nazariy poydevor sifatida xizmat qiladi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari globallashuv va integratsiyalashuv sharoitida ayollar jinoyatchiligini oldini olish masalasi faqat huquqni muhofaza qilish tizimi doirasida hal etilmasligini, balki jamiyatning ijtimoiy-falsafiy rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Xususan, ilg‘or xorijiy tajriba tahlili ayollar jinoyatchiligini kamaytirishda insonparvarlik, ijtimoiy adolat va genderga sezgir yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Skandinaviya mamlakatlari (Norvegiya, Shvetsiya, Daniya) tajribasi natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu hududda ayollar jinoyatchiligi asosan ijtimoiy integratsiya muammosi sifatida talqin qilinadi. Mazkur modelda jazolashdan ko‘ra, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, psixologik yordam va bandlikni ta’minlashga ustuvorlik beriladi. Falsafiy jihatdan bu yondashuv jinoyatchilikni shaxsning axloqiy nuqsoni emas, balki jamiyat tomonidan yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmagan hayotiy vaziyatlarning oqibati sifatida tushunishga asoslanadi. Natijada ayollarni qayta jinoyat sodir etishdan tiyuvchi omil sifatida jazodan ko‘ra, ijtimoiy ishonch va birdamlik mexanizmlari samaraliroq ekani namoyon bo‘ladi.

Germaniya tajribasi ayollar jinoyatchiligini oldini olishda huquqiy tartib va ijtimoiy mas’uliyat dialektikasiga asoslanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Germaniyada ayollar uchun muqobil jazolar, shartli hukmlar, ijtimoiy xizmat va reabilitatsiya dasturlari keng qo‘llaniladi. Bu modelda jinoyatchilikni oldini olish jarayoni shaxsning huquqiy javobgarligini inkor etmagan holda, uni jamiyatga qayta moslashtirishga qaratilgan. Falsafiy nuqtayi nazardan, bu yondashuv Kantian axloqiy tamoyillarga yaqin bo‘lib, shaxsni maqsad sifatida tan olish va uning qadr-qimmatini saqlab qolish g‘oyasiga tayanadi. Natijada ayollar jinoyatchiligi bilan kurashishda davlatning jazolovchi emas, balki ijtimoiy-huquqiy muvozanatni ta’minlovchi subyekt sifatidagi roli kuchayadi.

Kanada modeli esa ayollar jinoyatchiligini oldini olishda jamiyatga qayta integratsiya va madaniy sezgirlik tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Kanadada ayollar, ayniqsa migratsiya tajribasiga ega yoki ijtimoiy zaif guruhlarga mansub ayollar bilan ishlashda individual yondashuv ustuvor hisoblanadi. Reabilitatsiya dasturlari shaxsning madaniy identiteti, oilaviy sharoiti va psixologik holatini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Falsafiy jihatdan bu yondashuv ko‘p madaniyatli jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlash va teng imkoniyatlar yaratish g‘oyasiga asoslanadi. Natijada jinoyatchilikni oldini olish jarayoni faqat huquqiy mexanizm emas, balki ijtimoiy birdamlik va axloqiy mas’uliyatni mustahkamlovchi jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur xorijiy modellarni solishtirma tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayollar jinoyatchiligini samarali oldini olishning umumiy falsafiy asosini repressiv yondashuvdan voz kechish, shaxs qadr-qimmatini e’tirof etish va ijtimoiy sabablarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan siyosat tashkil etadi. Bu yondashuvlarda jinoyatchilik individual ayb sifatida emas, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilmasidagi nomutanosibliklar bilan bog‘liq hodisa sifatida talqin qilinadi.

Umuman olganda, natijalar va muhokama shuni ko‘rsatadiki, Skandinaviya, Germaniya va Kanada tajribasi ayollar jinoyatchiligini oldini olish masalasida ijtimoiy-falsafiy jihatdan pishiq modelni namoyon etadi. Ushbu modellar jinoyatchilikka qarshi kurashni jamiyatning insonparvarlik darajasi, ijtimoiy adolatga munosabati va gender tengligini ta’minlash salohiyatining ko‘rsatkichi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bu tajribalar globallashuv sharoitida ayollar jinoyatchiligini kamaytirish bo‘yicha milliy strategiyalarni ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

## XULOSA

O‘tkazilgan ijtimoiy-falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari sharoitida ayollar jinoyatchiligi masalasi faqat huquqiy yoki kriminologik muammo sifatida emas, balki jamiyatning ijtimoiy adolat, gender tengligi va ma’naviy barqarorlik darajasini aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Zamonaviy ijtimoiy jarayonlar ayollarning ijtimoiy rollari va hayot strategiyalarini tubdan o‘zgartirar ekan, bu o‘zgarishlarga moslashishdagi nomutanosibliklar ayrim hollarda jinoyatga olib keluvchi sharoitlarni yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot natijalari ayollar jinoyatchiligining asosiy sabablari strukturaviy tengsizliklar, ijtimoiy himoyaning yetarli emasligi, iqtisodiy va psixologik bosimlar, shuningdek, globallashuv sharoitida barqaror ijtimoiy tayanchlarning zaiflashuvi bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Falsafiy jihatdan bu holat jinoyatchilikni individual axloqiy nuqson sifatida emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatning buzilishi bilan izohlanadigan hodisa sifatida talqin qilish zarurligini anglatadi.

Skandinaviya, Germaniya va Kanada tajribalarining tahlili shuni tasdiqlaydiki, ayollar jinoyatchiligini samarali oldini olishning eng muhim sharti repressiv yondashuvdan voz kechib, genderga sezgir, insonparvar va ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosatni amalga oshirishdan iboratdir. Ushbu modellar jinoyatchilikka qarshi kurashda shaxs qadr-qimmatini saqlash, ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish va jamiyatning mas’uliyatini oshirish ustuvor ekanini ko‘rsatadi. Natijada jinoyatchilikni kamaytirish jazoni kuchaytirish hisobiga emas, balki ijtimoiy sharoitlarni sog‘lomlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqot shuningdek, reabilitatsiya va reintegratsiya mexanizmlarining falsafiy ahamiyatini ochib berdi. Ayol jinoyatchini jamiyatdan ajratish emas, balki uni ijtimoiy hayotga qayta kiritish jamiyatning barqarorligi va axloqiy yetukligini mustahkamlaydi. Bu jarayonda davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va mahalliy hamjamiyatlarning o‘zaro hamkorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlarida ayollar jinoyatchiligini oldini olish masalasi chuqur ijtimoiy-falsafiy yondashuvni talab etadi. Ushbu yondashuv jinoyatchilikni shaxsiy ayb doirasidan chiqarib, uni jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, qadriyatlar tizimi va adolat mexanizmlari bilan bog‘liq hodisa sifatida tushuntirish imkonini beradi. Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqilgan gumanistik va genderga sezgir siyosat modellarini milliy sharoitga moslashtirish ayollar jinoyatchiligini kamaytirish bilan birga, jamiyatning insonparvarlik va ijtimoiy barqarorlik darajasini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. - Toshkent: O‘zbekiston, 2024. - B. 512.
2. https://www.unodc.org/southernafrica/en/sa/about.html#:~:text=It%20was%20established%20by%20the,terrorism%20in%20all%20its%20forms.
3. Бауман З. Текучая современность. - Санкт-Петербург: Питер, 2019. - С. 240.
4. Кастельс М. Власть коммуникации. - Москва: Изд. дом ВШЭ, 2016. - С. 608.
5. Фромм Э. Бегство от свободы. - Москва: АСТ, 2017. - С. 288.
6. Правила ООН, касающиеся обращения с женщинами-заключёнными и мер наказания для женщин-правонарушителей (Бангкокские правила). - Нью-Йорк: ООН, 2010. - С. 18.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Husenov Nodirjon Tolib o'g'li**
NamDU Yuridik fakulteti, 1-bosqich talabasi
**Ilmiy rahbar: Pulatov Otabek A'zamjon o'g'li**
NamDU Yuridik fakulteti dekan o'rinbosari

## INKLYUZIV TA'LIM VA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING TA'LIM OLISh HUQUQI: HUQUQIY TADQIQOT VA HIMOYA MASALALARI

***Annotatsiya:*** *Ushbu ilmiy maqolada inklyuziv ta'limning shakllanish jarayoni, nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish huquqining xalqaro va milliy huquqiy asoslari, amaliy muammolar, ta'lim tizimida zarur islohotlar hamda nogironlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining tahlili yoritiladi. Shuningdek, inklyuziv ta'limning pedagogik, psixologik, huquqiy va ijtimoiy omillari chuqur o'rganilib, xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlil o'tkazilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Inklyuziv ta'lim, nogironligi bo'lgan shaxs, ta'lim huquqi, Konvensiya, kamsitmaslik, maxsus pedagogika, qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar, reabilitatsiya.*

**Гусенов Нодиржон Толиб о'гли**
Студент 1-го курса юридического факультета НамГУ
**Научный руководитель: Пулатов Отабек А'замжон о'гли**
Заместитель декана юридического факультета НамГУ

## ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ПРАВО НА ОБРАЗОВАНИЕ ЛЮДЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ: ВОПРОСЫ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ И АДВОКАЦИИ

***Аннотация:*** *В данной научной статье рассматриваются процессы формирования инклюзивного образования, международно-правовые и национальные основы права на образование для лиц с инвалидностью, существующие практические проблемы, а также механизмы защиты их образовательных прав. Проведён всесторонний анализ педагогических, психологических, правовых и социальных аспектов инклюзивного обучения, выполнено сравнительное исследование международного опыта. В конце представлены рекомендации по совершенствованию системы инклюзивного образования в Узбекистане.*

***Ключевые слова:*** *Инклюзивное образование, лицо с инвалидностью, право на образование, Конвенция, недискриминация, специальная педагогика, вспомогательные услуги, реабилитация.*

**Husenov Nodirjon Tolib oglu**
1st year student, Faculty of Law, NamSU
**Scientific supervisor: Pulatov Otabek A'zamjon oglu**
Deputy Dean, Faculty of Law, NamSU

## INCLUSIVE EDUCATION AND THE RIGHT TO EDUCATION OF PEOPLE WITH DISABILITIES: LEGAL RESEARCH AND ADVOCACY ISSUES

**Annotation:** This scientific article examines the development of inclusive education, the international and national legal foundations of the right to education for persons with disabilities, existing practical challenges, and mechanisms for protecting their educational rights. The study provides an in-depth analysis of the pedagogical, psychological, legal, and social aspects of inclusive education, along with a comparative review of international best practices. Recommendations for improving inclusive education in Uzbekistan are also presented.

**Keywords:** Inclusive education, persons with disabilities, right to education, Convention, non-discrimination, special pedagogy, support services, rehabilitation.

XXI asrning eng muhim ijtimoiy qadriyatlaridan biri — bu jamiyatda har bir insonning teng huquqliligi, kamsitilmasligi va uning imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishdir. Nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat

hayotiga integratsiya qilish masalasi bugungi kunda nafaqat ijtimoiy, balki huquqiy, iqtisodiy va pedagogik muammo sifatida ham dolzarb bo‘lib bormoqda.

Inklyuziv ta’lim bu jarayonning markazida turadi. Zero, ta’lim — insonning jamiyatga kirib borishi, ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi va kelajakda mustaqil hayot kechirishining asosiy omilidir. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ta’lim imkoniyati yaratilmasa, ularning jamiyatdagi ishtiroki ham cheklangan bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida keyingi yillarda ushbu sohada tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, inklyuziv sinflarni ko‘paytirish, maxsus pedagoglar tayyorlash va xalqaro standartlarga mos infratuzilma yaratish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Biroq amaliyotda hali yechimini kutayotgan masalalar ham talaygina.

Ushbu maqola ana shu masalalarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qiladi. Inklyuziv ta’lim — bu barcha bolalarga, shu jumladan jismoniy, ruhiy, aqliy yoki sensor cheklanishga ega bo‘lgan bolalarga teng va to‘siqsiz ta’lim olish imkonini beradigan yondashuvdir.

**Inklyuziv ta’lim 5 asosiy tamoyilga tayanadi:**

1. Tenglik — barcha shaxslar ta’lim olish huquqiga ega. 2. Kamsitmaslik — ta’lim jarayonida hech kim o‘zining jismoniy yoki ruhiy holati tufayli chetlashtirilmaydi. 3. Moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish — maxsus uskunalar, metodlar va individual o‘quv dasturlar. 4.Jamoaviy hamkorlik — pedagog, psixolog, ota-ona, jamiyat, davlat organlari. 5. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv — bola imkoniyatlariga qarab ta’lim metodikalarini moslashtirish.

Inklyuziv ta’limning psixologik-pedagogik asoslari: bolaning o‘ziga ishonchini oshiradi; kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantiradi; jamoadagi o‘zaro hurmat va bag‘rikenglikni kuchaytiradi; sog‘lom bolalarda ham empatiya va xayrixohlikni shakllantiradi.

Inklyuziv va integratsiyalashgan ta’lim farqi.

Integratsiya — nogiron bolalar ta’limga qo‘shiladi, lekin tizim ular uchun moslashtirilmaydi. Inklyuziya — butun tizim bola ehtiyojiga mos ravishda qayta quriladi.

**Xalqaro huquqiy asoslar: nogironlar ta’lim huquqi.**

BMTning 2006 yilgi “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya 24-moddasida davlatlar quyidagilarni amalga oshirishi shartligi belgilangan: umumiy ta’lim tizimini inklyuziv shaklga o‘tkazish; maxsus texnologiyalar bilan ta’minlash; brail , imo-ishora, tiflotexnika, audiomateriallar yaratish; kamsitmaslik siyosatini yuritish; maxsus malakali o‘qituvchilar tayyorlash.[1]

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olish huquqini umumiy va teng huquq sifatida kafolatlaydi. Konstitutsiyaga muvofiq, Har kim ta’lim olish huquqiga ega bo‘lib, davlat bepul umumiy ta’lim olishni ta’minlaydi.(50-modda) Ushbu qoida nogironligi bo‘lgan shaxslarga ham to‘liq taalluqli bo‘lib, ularning ta’lim tizimidan chetlashtirilishiga yo‘l qo‘yilmasligini anglatadi.

Shuningdek, Konstitutsiyada qonun oldida Tenglik va kamsitmaslik tamoyili mustahkamlangan. (19-modda) Unga ko‘ra, fuqarolarning jismoniy yoki ruhiy holati ularning huquq va erkinliklarini cheklash uchun asos bo‘la olmaydi. Bu esa nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim sohasida teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini konstitutsiyaviy jihatdan kafolatlaydi.

Konstitutsiya O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy davlat sifatida belgilab, Davlat zimmasiga ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash majburiyatini yuklaydi. (57-modda) Mazkur norma inklyuziv ta’limni rivojlantirish, ta’lim muassasalarini moslashtirish va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun zarur shart-sharoitlar yaratishning asosiy huquqiy poydevori hisoblanadi.[2]

UNESCO 2020 yilda ta’limni inklyuzivlashtirish bo‘yicha global strategiya ishlab chiqqan. Unga ko‘ra: nogironlar uchun to‘siqsiz ta’lim infratuzilmasi barcha davlatlarda universal talab hisoblanadi; davlatlar ta’lim muassasalarini moslashtirish uchun maxsus budjet ajratishi zarur; oilalar bilan ishlash, psixologik qo‘llab-quvvatlash majburiy talabdir.[3]

O‘zbekiston qonunchiligida nogironlar ta’lim huquqi masalasidagi asosiy normativ hujjatlar quyidagilar:

O‘zbekistonda nogironlar ta’lim huquqi quyidagi qonunlar bilan kafolatlanadi: Konstitutsiya — ta’lim olish hamma uchun teng. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020) — inklyuziv ta’lim tamoyillarini belgilaydi. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun (2021) — ta’lim muassasalari mos sharoit yaratishi shart. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan inklyuziv ta’lim dasturi, Vazirliklar qarorlari va metodik qo‘llanmalar. Shuningdek so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli quyidagi natijalarga erishildi:[4]

1500 dan ortiq maktablarda inklyuziv sinflar ochildi; oliygohlarda “defektologiya” bo‘yicha yangi yo‘nalishlar joriy qilindi; umumta’lim maktablarida psixolog, logoped, tyutorlar shtati kengaytirildi; panduslar, maxsus jihozlar, liftlar soni ko‘paymoqda; “Imo-ishora tilini o‘rganish markazlari” tashkil etilmoqda.

Inklyuziv ta’limni joriy qilishda Infratuzilma yetishmovchiligi, ko‘plab ta’lim muassasalarida: pandus yo‘qligi, maxsus hojatxona yo‘qligi, eshik o‘lchamlarining mos emasligi, taktil yo‘laklar yetishmasligi muammo bo‘lib qolmoqda.[5]

Maxsus pedagoglar yetishmasligi, Defektolog, tiflopedagog, surdopedagog, logopedlar soni talabga nisbatan ancha kam. Darsliklar ta’minotida Braile, audiokitob, katta shriftli darsliklar yetishmaydi.

Jamiyatdagi stereotiplar “Nogiron bola alohida o‘qishi kerak” “U maktabda qiynaladi” “Sinfda tartib buziladi” kabi noto‘g‘ri qarashlar mavjud.[6]

Ko‘pchilik ota-onalar inklyuziv ta’lim tizimi haqida yetarli ma’lumotga ega emas. Nogironlar ta’lim huquqining himoya mexanizmlari. Agar nogiron bola ta’lim huquqidan mahrum qilinsa, quyidagilarga murojaat qilish mumkin:

Sud organlari, Ombudsman, BMTning Nogironlar qo‘mitasi, Ta’lim inspeksiyasi, Mahalla va Oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limlari, NNT va huquq himoyachilari Psixologik-pedagogik xizmatlar, Korreksion markazlar, Reabilitatsiya markazlari, Logopedik xizmat, Psixologik xizmat, Tyutor va asistiv xizmatlar.

Xalqaro tajribalar tahlili

Finlyandiya tajribasida Butun ta’lim tizimi inklyuzivlik prinsipiga qurilgan. Har bir maktabda maxsus pedagog ishlaydi.

Yaponiya tajribasida Sensor va jismoniy nogiron bolalar uchun yuqori darajada moslashtirilgan sinflar mavjud.

AQSH tajribasida “IDEA Act” (Individuals with Disabilities Education Act) orqali har bir nogiron o‘quvchi uchun Individual Ta’lim Rejasi (ITR) ishlab chiqiladi. [7]

O‘zbekiston uchun o‘rnak jihatlar ITR tizimini joriy qilish;

maktablarda qo‘shimcha pedagog-yordamchilar shtatini yaratish; ijtimoiy infratuzilmani kuchaytirish.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, Inklyuziv ta’lim — bu nafaqat ta’lim munosabatlari, balki butun jamiyatning demokratik rivojlanish darajasini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichdir. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ta’lim huquqining to‘liq amalga oshirilishi jamiyatning ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi.

O‘zbekiston ushbu yo‘nalishda sezilarli yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, tizimni yanada takomillashtirish zarur. Inklyuziya – bu muntazam izlanish, modernizatsiya va jamiyatning fikrlash madaniyatini o‘zgartirish jarayonidir.

Quyidagi Takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

1. Inklyuziv maktablar sonini keskin oshirish.
2. Defektolog, logoped va maxsus pedagoglar uchun grantlar sonini ko‘paytirish.
3. Darsliklarni braille, audio va katta shriftlarda ishlab chiqishni kengaytirish.
4. Maktab hamda oliygoh infratuzilmasini universal dizayn asosida qayta qurish.
5. Ota-onalar bilan muntazam trening va seminarlar o‘tkazish.
6. Inklyuziv madaniyatni ommaviy axborot vositalarida targ‘ib qilish.
7. Individual Ta’lim Rejasi (ITR) tizimini joriy etish.
8. Nogironlar uchun bepul raqamli platformalar yaratish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. BMT. “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya, 2006.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.30.04.2023.www.lex.uz
3. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, 2020.www.lex.uz
4. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun, 2021.www.lex.uz
5. Mahmudov A. “Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot”, Toshkent, 2022.
6. Safarova D. “Maxsus pedagogika asoslari”, 2021.
7. UNESCO Inclusive Education Guidelines, 2020.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Nurbayev Yodgorbek Ortiqovich**
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

## GENDER TENGLIK: G‘ARB VA SHARQ MADANIYATIDA

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada gender tenglik tushunchasini G‘arb va Sharq xalqlari madaniy hayotidagi o‘rni hamda ahamiyati, qolaversa genderga nisbatan munosabatlari o‘rganib chiqiladi. G‘arb va Sharq xalqlari ijtimoiy hayotida gender munosabatlarining shakllanishi talqin etiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *G‘arb, Sharq, gender, ijtimoiy munosabat, qonun, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, konstitutsiya, streotip, diskriminatsiya, qadriyat, axloq, fuqarolik jamiyati.*

**Нурбаев Йодгорбек Ортикович**
Научный сотрудник, Наманганский государственный университет

## ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО: В ЗАПАДНОЙ И ВОСТОЧНОЙ КУЛЬТУРЕ

***Аннотация:*** *В статье рассматривается понятие гендерного равенства, его роль и значение в культурной жизни народов Запада и Востока, а также их отношение к гендеру. Интерпретируется формирование гендерных отношений в общественной жизни народов Запада и Востока.*

***Ключевые слова:*** *Запад, Восток, гендер, общественные отношения, право, правосознание, правовая культура, конституция, стереотип, дискриминация, ценность, мораль, гражданское общество.*

**Yodgorbek Ortikovich Nurboev**
Researcher, Namangan State University

## EQUALITY OF DEMONS: IN WESTERN AND EASTERN CULTURES

***Abstract:*** *This article examines the concept of gender equality, its role and significance in the cultural life of the peoples of the West and the East, as well as their attitudes towards gender. The formation of gender relations in the social life of the peoples of the West and the East is interpreted.*

***Keywords:*** *West, East, gender, social relations, law, legal consciousness, legal culture, constitution, stereotype, discrimination, value, morality, civil society.*

### Kirish

So‘nggi o‘n yilliklarda inson huquqlari masalasi jahon miqyosida eng muhim ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Insoniyat taraqqiyotining asosi sifatida erkak va ayollarning teng huquq va imkoniyatlari ta’minlanishi, ularning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotda faol ishtiroki global muhokamalarning markazida turibdi. Xususan, gender tenglik konsepsiyasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, Osiyo Taraqqiyot Banki kabi xalqaro tashkilotlarning strategik dasturlarida asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

Biroq gender tenglikka oid qarashlar butun dunyoda bir xil darajada shakllanmagan. Bu masalada G‘arb va Sharq madaniyatlari o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjud. G‘arb mamlakatlarida gender tenglik asosan huquqiy-demokratik qadriyatlarga asoslanib rivojlangan bo‘lsa, Sharq mamlakatlarida bu masala ko‘proq diniy, milliy va tarixiy an’analarga moslashtirilgan. Shu bois, gender tenglikni G‘arb va Sharq madaniyati nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Mazkur maqolada gender tenglik tushunchasi, uning turli madaniy muhitlarda shakllanishi va amaliy ko‘rinishlari, shuningdek, G‘arb va Sharq yondashuvlarining o‘xshash hamda farqli jihatlari IMRAD talablari asosida ilmiy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi.

**Tadqiqot metodlari**

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy va tarixiy-uslubiy metodlardan foydalanildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali G‘arb va Sharq mamlakatlarida gender tenglikka bo‘lgan qarashlar o‘zaro solishtirildi. Tarixiy-uslubiy yondashuv yordamida esa mazkur tushunchaning madaniy, ijtimoiy va siyosiy asoslari tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqot davomida quyidagi manbalardan foydalanildi:

1. Xalqaro tashkilotlarning gender tenglik bo‘yicha rasmiy hujjatlari va statistik hisobotlari (BMTning 2030 yilgacha mo‘ljallangan barqaror rivojlanish maqsadlari, UN Women ma’lumotlari).
2. G‘arb mamlakatlari (AQSh, Germaniya, Skandinaviya davlatlari) hamda Sharq mamlakatlari (O‘zbekiston, Yaponiya, Saudiya Arabistoni, Hindiston) bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar.
3. Mahalliy va xorijiy olimlarning gender tenglikka oid ilmiy maqolalari.
4. O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha qabul qilingan qonunlar, davlat dasturlari va rasmiy ma’lumotlar.

Tahlil davomida gender tenglikning siyosiy ishtirok, ta’lim, mehnat bozori, oilaviy munosabatlar va madaniy qadriyatlardagi ko‘rinishlari alohida o‘rganildi.

## Natijalar

### 1. G‘arb madaniyatida gender tenglik

G‘arb mamlakatlarida gender tenglik qadriyatlari asosan demokratik tamoyillar asosida shakllangan. Yevropada XIX–XX asrlarda ayollar huquqlari uchun kurash kuchayib, ayollarning ovoz berish huquqiga ega bo‘lishi, siyosatda faol ishtirok etishi uchun sharoit yaratildi. Masalan, Shvetsiya, Norvegiya, Finlandiya kabi Skandinaviya mamlakatlari bugungi kunda gender tenglik bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega: parlamentda ayollar ulushi 40–45 foizni tashkil etadi, davlat boshqaruvi va biznes sohasida ham ayollar faol ishtirok etmoqda.

AQShda ham gender tenglik siyosiy va iqtisodiy sohalarda keng targ‘ib etiladi. Ayollar nafaqat ijtimoiy hayotda, balki ilm-fan, biznes va madaniyat sohalarida ham katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Masalan, Fortune 500 kompaniyalarining qariyb 10 foizini ayol rahbarlar boshqaradi.

### 2. Sharq madaniyatida gender tenglik

Sharq mamlakatlarida gender tenglik masalasi tarixiy, diniy va an’anaviy qadriyatlar bilan uzviy bog‘langan. Masalan, musulmon davlatlarida ayollarning ijtimoiy faolligi ko‘p hollarda diniy talqinlarga tayanadi. Saudiya Arabistonida so‘nggi yillarda ayollarga transport vositalarini boshqarish, biznes bilan shug‘ullanish va sport musobaqalarida qatnashish huquqi berildi.

Hindistonda esa gender tenglik an’anaviy kast tizimi va patriarxal qarashlar sababli murakkab tus olgan. Shunga qaramay, ta’lim va texnologiya sohalarida hind ayollari jadal rivojlanmoqda. Yaponiya esa iqtisodiy taraqqiyotning yuqori bosqichida bo‘lsa-da, gender tenglik bo‘yicha ayrim cheklovlarga ega: ayollarning siyosiy ishtiroki past, biroq ularning ishchi kuchidagi ulushi ortib bormoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda gender tenglikni ta’minlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylangan. 2019-yilda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Shuningdek, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Gender tenglik strategiyasi ishlab chiqildi. Bugungi kunda ayollarning parlamentdagi ulushi 32 foizni tashkil etmoqda, bu esa mintaqa bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

### 3. G‘arb va Sharq o‘rtasidagi umumiylik va farqlar

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki:

- G‘arb mamlakatlarida gender tenglik huquqiy-demokratik qadriyatlarga asoslanadi.
- Sharqda esa bu masala ko‘proq diniy va milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanmoqda.
- Har ikki madaniyatda ham gender tenglik jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida e’tirof etiladi, biroq unga erishish mexanizmlari turlicha.

## Munozara

G‘arb va Sharq madaniyatida gender tenglik masalasiga turlicha yondashuv mavjud. G‘arb mamlakatlarida bu konsepsiya asosan inson huquqlari va demokratiya tamoyillariga asoslanib, qonunchilik, ta’lim, mehnat bozori va siyosiy hayot orqali ta’minlanmoqda. Sharqda esa gender tenglik tushunchasi qadimiy an’ana, diniy talqin va madaniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan.

Biroq globallashuv davrida bu ikki yondashuv asta-sekin bir-biriga yaqinlashib bormoqda. Masalan, Sharq mamlakatlari gender tenglikni targ‘ib qilishda G‘arb tajribasidan foydalanmoqda, G‘arb esa Sharq qadriyatlarini inobatga olgan holda madaniy xilma-xillikka hurmat bilan qarashga intilmoqda.

Gender tenglik masalasi nafaqat ijtimoiy va siyosiy, balki iqtisodiy taraqqiyot uchun ham muhim. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, agar ayollar mehnat bozorida erkaklar bilan teng darajada ishtirok etsa, global iqtisodiyot yiliga trillionlab dollarga ortishi mumkin. Shu bois, gender tenglikni ta’minlash nafaqat adolat, balki iqtisodiy samaradorlik masalasi hamdir.

## Xulosa

Xulosa qilib aytganda, gender tenglik G‘arb va Sharq madaniyatida turlicha shakllangan bo‘lsa-da, ularning umumiy maqsadi bir xil — jamiyatda erkak va ayolning teng huquqliligini ta’minlashdir.

- G‘arb mamlakatlarida bu jarayon demokratik qadriyatlar va qonunchilik asosida rivojlangan.
- Sharqda esa gender tenglik diniy va milliy an’analar bilan uyg‘unlashgan tarzda shakllanmoqda.
- O‘zbekiston misolida ko‘rish mumkinki, Sharq davlatlarida ham gender tenglikni ta’minlash borasida sezilarli yutuqlarga erishilmoqda.

Demak, gender tenglik masalasi global miqyosda umumiy qadriyat sifatida qaralmoqda. Biroq har bir madaniyat o‘z tarixiy va ijtimoiy xususiyatlariga asoslangan yondashuvni tanlamoqda. Shunday bo‘lsa-da, jamiyat taraqqiyoti va barqaror rivojlanish uchun gender tenglikni ta’minlash eng muhim shartlardan biri bo‘lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Oila” kodeksi 1998 yil. 5-6-son, 70-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni. 2019 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni. 2019 yil.
4. O‘zekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi qarori. 2021 yil.
5. G.Axmatova. “Shaq va G‘arbda gender fenomening tarixiy shakllanishi”. 2024 yil.
6. M.Xoliqova “Gender tengligi: G‘arb va Sharq” tamadduni. 2022 yil. -12 bet.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Karimjonova Gulshanoy Sherali qizi**
Namangan davlat universiteti magistranti
karimjonovagulshanoy07@gmail.com

## AXBOROTLASHAYOTGAN JAMIYATDA OILA INSTITUTINING ASOSIY FUNKTSIYALARI

***Annotatsiya***: *Ushbu maqolada bugungi rivojlangan zamonaviy davrda oila institute tushunchasining mohiyati, unning asosiy funksiyalari hamda jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:*** *Globallashuv, transformatsiya, gender, oila munosabatlari, an'anaviy, model.*

**Karimjonova Gulshanoy Sherali kizi**
Master's student of Namangan State University
karimjonovagulshanoy07@gmail.com

## MAIN FUNCTIONS OF THE FAMILY INSTITUTION AND THEIR ROLE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

***Annotation:*** *This article discusses the essence of the concept of the family institution in today's developed modern era, its main functions, and its role and significance in the development of society.*

***Keywords:*** *Globalization, transformation, gender, family relations, traditional, model.*

**Каримжонова Гульшаной Шерали кизи**
Магистрантка Наманганского государственного университета
karimjonovagulshanoy07@gmail.com

## ОСНОВНЫЕ ФУНКЦИИ СЕМЕЙНОГО ИНСТИТУТА И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается сущность концепции семейного института в современной развитой эпохе, его основные функции, а также роль и значение в развитии общества.*

***Ключевые слова:*** *Глобализация, трансформация, гендер, семейные отношения, традиционная модель.*

### Kirish.

Bugungi zamonaviy globallashuv hamda modernizatsiya jarayonlari ta'siri ostida vujudga kelayotgan zamonaviy va jadal ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy transformatsiyalar bugungi kun jamiyatida oilaning roli va ahamiyati haqidagi qadriyat yo'nalishlari hamda tasavvurlarning o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat esa oilaga bo'lgan an'anaviy qarashlarni tarixiy-madaniy meros nuqtayi nazaridan hamda uning jamiyatdagi funksional roli asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Zamonaviy jamiyatni keyingi davrdagi taraqqiyoti, uning barqarorligi va ijtimoiy-iqtisodiy tizimining mustahkamligi asosan oilaning holatiga bog'liqdir. Oila o'zi nima? degan savol tug'uladi. U jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, insonning shakllanishida, uning tarbiyasini, qadriyatlar va madaniyatning avloddan-avlodga o'tishida hal qiluvchi rol vazifasini bajaradi. Globallashuv, modernizatsiya va ijtimoiy o'zgarishlar davrida oila institutining funksiyalari, tuzilmasi va ahamiyati tub burilish natijasida sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Shunday bir muhitda bugungi kunga kelib oila nafaqat shaxsiy hayotning asosi, balki jamiyat barqarorligining kafolati sifatida ham qaralmoqda.

Oila qadimgi davrdan boshlab bugungi insonning qadimiy va muhim ijtimoiy institutlaridan biriga to'laqonli aylana olgan institut sifatida qabul qilingan. U insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, ijtimoiylashuvi, qadriyatlar tizimining rivojlanishi va jamiyatda muayyan tartibning saqlanishida muhim ro'l o'ynaydi.

Oilaning ijtimoiy-psixologik o'rni yanada muhim ahamiyat olmoqda. Bugungi axborot oqimi uning almashinuvi, globalizatsiya jarayonlari, yashash hamda turmush tarzidagi o'zgarishva yangiliklar oilaning ichki muhitiga bevosita o'x ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Shuning natijasida, oila, oilaviy munosabat, oila a'zolarini psixologik jihatdan hamda oila

muhiti psixologiyasini o‘rganiosh va tahlil qilish, oilada sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanib bo‘ldi.

**Adabiyotlar tahlili**

Jamiyatning ushbu muammo va kamchiliklari oila institutidagi jarayonlarni, oilaviy munosabatlarning o'zgarishi muammolari ko'plab olimlarning ilmiy ishlarida aks etgan. Ushbu masalalar I.S. Kon1, E.E. Shishlova, K.A. Kulakova va boshqalarning asarlarida bayon etilgan. Shuningdek, bu masalalar L.V. Klimenko [3], A.P. Skorik va V.I. Cherevatenko [4], X.V. Dzutsev va A.P. Dibrova [5], S.V. asarlarida ko'rib chiqilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqolada oila institutining asosiy funksiyalari va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti – jamiyatdagi oila instituti, predmeti esa uning ijtimoiy, iqtisodiy, tarbiyaviy va madaniy funksiyalari hisoblanadi. Tadqiqotda analitik metod yordamida ilmiy adabiyotlar va statistik ma’lumotlar o‘rganiladi, sotsiologik metodlar orqali (anketa, intervyu, kuzatuv) zamonaviy oila holati o‘rganiladi. Shuningdek, taqqoslash va tasniflash metodlari yordamida oila funksiyalari tizimlashtiriladi va ularning jamiyat rivojiga ta’siri baholanadi. Tadqiqot natijalari oila institutining funksional rolini aniqlash va jamiyatdagi ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liq muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi.

**Natijalar va ularning tahlili.**

Oxirgi yillarga kelib biz ko‘rib chiqayotgan mavzu oila institutida sezilarli va tobora kuchayib borayotgan o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda. Ushbu o‘zgarishlar esa oila intitutiga boq‘liq bo‘lgan barcha narsalarga oila qadriyati, mentaliteti, oila a’zolarining munosabatlari, turmush tarziga hamda eng muhimi farzandga o‘z tasirini ko‘rsatmoqda. Chunki, farzandlar huddi magnit kabi barcha narsalarni o‘ziga tortgani kabi ular atrofidagi barcha holatlarni o‘z ongiga singdiradi hamda oilasidagi muhitga moslashadi.

Men tadqiqotim jarayonida shuni anglab yetdimki, bugungi davr yosh avlod bolalari har qachongidan qiziquvchanroq. Ula huddi katta insonlar singari yashashga shoshilishmoqda, biroq eng kata muammo ular hali oilaviy munosabat va majburiyatni to‘liq anglab yetmagan.

Yosh avlod ko‘chada tezda o‘z juftini topishga muhabbatga erishishga aksariyati xatto maktab davrida oila haqida o‘ylab bunga erishishga intiladi. Biroq, ular hali jismonan, ruhan, ma’nan bunga tayyor bo‘lamaydi. Sababi oila qurish va ushbu munosabatlarga bo‘lgan ma’suliyat bularda juda past boladi.

Shunday ekan bolalar katta bo‘lar ekan oilada hulq-atvorga, atrof-muhitga va oiladagi yaqinlarga munosabat madaniyatiga, oila qurish jarayonlariga, hamda farzand tarbiyalashga oid ilk fikrlari shakllanib boradi. Agarda ushbu jarayonda oiladagi barcha narsalar ota-ona tomonidan ijbiy bajarilsa farzandning keksalarga hurmat, o’zaro yordam kabi hislatlar shakllanadi. U kelajakda oila qurgach o‘zi ham farzand tarbiyasida ma’suliyatli bo‘ladi. Yoshlar oila xo’jaligini yuritish, oilani iqtisodiy jihatdan ta’minlash va boshqa tajribalarni ham ota-onasidan o’rganadilar. Yosh oilalarda er – xotin munosabatlari o’ziga xos hududiy, etnik, jinsiy, yosh va individual psixologik xususiyatlarga ega bo’lgan eng nozik va hal qiluvchi munosabat shakli bo’lib hisoblanadi,

Zamonaviy sotsiolog olimlarning fikriga ko‘ra, 30 yoshdan oshmagan kelin-kuyovlar oilasi yosh oila sifatida qaraladi. Odatda yosh oila atamasi nikohning dastlabki 10 yilligini o‘z ichiga oladi. Nikohdan keying hayot bir necha turli xil bosqichlarni bosib o‘tadi. Shulardan eng ko’p kuzatiladigani ham ijtimoiy va psixologik jihatdan katta ahamiyat kasb etadigani ham aynan yosh oila bosqichiga to’g’ri keladi.

Hozirda katta afsus bilan shuni ta’kidlashimiz mumkinki, bugungi globallashgan hamda zamonaviy dunyo an’anaviy oila va oilaviy qadriyat hamda oila institutiga jiddiy tahdid solmoqda. Oila — bu faqat ikki insonning ittifoqi emas, balki jamiyatning jismoniy va ma’naviy davomiyligini ta’minlash ehtiyojidan kelib chiqqan muhim ijtimoiy institutdir.

Bugungi oila institutining asosini nikoh, farzandlar, muhabbat, o‘zaro tushunish va hurmat, er-xotining murosaga kelishish qobiliyati kiradi. Ming afsuslar bilan ayta olamanki hozirda ushbu qadriyatlar eng yaxshi holatda emas balki salbiylashib bormoqda hamda ular e’tiborsiz qoldirilmoqda. Yevropa mamlakatlarida hozirda globala muammolardan biri bu oilada tug‘ilish darajasining pastligi, oilaviy ajrashishlar sonini keskin ortib borishi, nikohsiz tug‘ilgan bolalar ko‘payishi, abortlar sonining ko‘pligi va shunga nomaqbul ishlarning ortib borishi “zamonaviy qadriyatlar”ning yorqin namunasidir.

Ushbu muammo va kamchiliklarni oldini olish yurtimizda doimo muhim vazifa bo‘lib kelgan oila institutini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, yosh oilalarga e’tibor ushbu jarayonga davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlarini aralashuvi bizda yuksak darajada desak adashmaymiz. Oila institutida jamiyat a’zolarini ayniqsa ayollarni faol rolini ta’minlash maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF– 5325-son farmoniga muvofiq:

oila institutini mustahkamlashning institutsional va huquqiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish;

zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish; demografik rivojlanishni rag‘batlantirish va oila farovonligi darajasini oshirish;

oilaning tarbiyaviy-ta’lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an’anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash; oilalarga ta’sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko‘rsatishning samarali tizimini yaratish kabi ishlar amalga oshirilmoqda.

Bizning jamiyatda ham albatta muamolar topiladi. Oilada hayotning turli-tuman darajada o’ziga yarasha notekisliklari, past-balandliklari, murakkabliklari, hamda muammolari bo’ladi. Ushbu muammolardan biri bu kuyov kelinni yangi oilaga moslashuv jarayonlari bo‘ladi.

Xo’sh bu yangi sharoitlarga moslashish jarayoni kimda qanday kechadi? Albatta, ushbu holat va jarayon kuyovda kelinga nisbatan ancha osonroq va yengilroq o‘tadi. Sababi o‘zbek etnik madaniyatida kuyov o‘z uyida qoladi ya’ni yigit uylanganidan keyin ham o’z oilasida, o’z yaqinlari va o’zi uchun oldindan odat bo’lib qolgan oilaviy, shaxslararo munosabatlar tizimida qoladi. Kelin esa o‘zi uchun notanish va begona bo‘lgan uyga tashrif buyurib shu yerdagi oila va uning urf-odatiga hamda mentalitetiga moslashishga majbur bo‘ladi. Bu esa hayotning nikohdan keyingi holati, oldingisidan keskin farq qiladi.

Chunki u o’zi umuman notanish muhitga tushadi. U o’ziga xos shaxslararo munosabatlar tizimi, qizlik oilasidan, boshqa bir oilaga, o’zgacha bir oilaviy muhitga tushadi. Qizlik oilasidagi oldindan moslashgan mavjud xususiyatlarning ma’lum qismi oldingisiga umuman to‘g‘ri kelmasligi mumkin. U yoki bu ishga qo’yiladigan talablarda ham farq qilish ehtimoli katta. Buning ustiga yosh oilada yosh kelin zimmasiga yuklatiladigan vazifalar ham uning qizlik vaqtida bajaradigan ishlaridan mikdor va mazmun jihatdan farq qilishi mumkin. Yangi jarayonlarga ko‘nikish va moslashish jarayonining o’zbek oilalarida ayol kishi uchun qiyin kechishining asosiy sabablaridan yana biri unda kelin yuqorida aytib o’tilgan vaziyatlarga tushishi bilan birga ularda bu yangi oilada kelin o’zini «begona» deb his etishidir, ya’ni undagi «begonalik effekti»ning mavjudligidir.

Shunday ekan oilaning ijtimoiy-psixologik barqarorligi – jamiyat barqarorligining kafolatidir. Shu sababli bugungi kunda O‘zbek jamiyatida oilani mustahkamlash uning qadr-qimmatini oshirish asosiy vazifa bo‘lib kelmoqda. Bugungi har qaysi jamiyat ijtimoiy taraqiyotida oilaning, oila institutining mustahkamligi aosiy o’rinda turadi. Sababi biologiyada har bir organizmning salomatligi uni tashkil etuvchi hujayra sog‘lomligiga bog‘liq bo‘lganidek jamiyatda oila ham huddi hujayra kabi jamiyani tashkil etuvchi sog‘lom organizmdir. Har bir oilada sog‘lom muhit shakllanishida ijobiy psixologik muhit, to‘g‘ri tarbiyaga bog’liq.Oilaning sog‘lom bo‘lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishida, davlatning iqtisodiyoti, ijtimoiy hayot taraqqiyotini ta'minlovchi, hal qiluvchi omil bo‘lgan inson kamolotida oilaning tutgan o‘rni beqiyosdir.

Bugungi kunga kelib yangi O‘zbekistonda oila mustahkamligini ta'minlash, uning ijtimoiy funksiyalarini kengaytirish, oilada farzand tarbiyasini asosiy o’ringa olib chiqish hamda yosh oilalarni moddiy hamda ma’naviy jihatdan, uy-jy, shart sharoitlarini yaxshilash borasida aniq dasturiy ishlanmalar ishlab chiqilgan. Mamlakatimizda oila va nikoh munosabatlarining qadriyat sifatida e'tirof etilishini ta'minlamoqda.

**Xulosa.**

Xulosa qilib aytganda hozirgi davrga kelib bugungi zamonaviy jamiyatda oilaviy qadriyatlarning o‘zgarishi yosh avlodni kamol toptirishda, uni tarbiyalashda jiddiy o‘zgarishlar va buzilishlarni keltirib chiqaradi. Bu esa keying davrda ijtimoiy moslashuv va an’anaviy oilaviy qadriyatlar asosida o‘z oilasini shakllantirishda jiddiy muammolar va qiyinchiliklarni yuzaga keltirilishida muhim sabab bo‘ladi. Dunyoda o‘z siyosatida oila institutiga e’tibor bergan davlat t kuchli bo‘la oladi. Chunki uning poydevori mustahkam bo’ladi. Zamonaviylik faqatgina oila mustahkamligiga hissa qo‘shmog‘i lozim. Uning tanazzuliga olib keladigan har qanday "zamonaviylik" jamiyat tomonidan yo‘q qilinishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF– 5325-son farmoni

2. Parsons, T. (1955). Family, Socialization and Interaction Process.

3. Muratova, Sh. N. "Social aspects of preparing adolescent boys for family life," Ministry of Education and Science of the Republic of Uzbekistan, pp. 91–95, 19.00.00 No. 10.

4. Скорик, А. П. Современные гендерные трансформации и положение женщин на Юге России / А. П. Скорик, В. И. Череватенко. — URL: https://pandia.ru / text / 78 / 641 / 68211.php (дата обращения: 27.01.2024).

5. Дзуцев, Х. В. Гендерный аспект в духовной жизни населения республик Северного Кавказа / Х. В.Дзуцев, А. П.Дибирова // Женщина в российском обществе. — 2020. — № 1. — С. 113–126. EDN: PDRXRW

6. Сиражудинова, С. В. Гендерная политика в республиках Северного Кавказа: современные тенденции / С. В. Сиражудинова // Женщина в российском обществе. — 2013. — № 1. — С. 14–19. EDN: PWHJFB
7. Каримова В. Оилавий ҳаёт психологияси:Ўқув қўлланма. – Т.: 2006.–142 б.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Islamova Komila Payzullayevna**
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi
Email: Islamovakomila6@gmail.com

**UDK: 811.512.133:12**

## SADRIDDIN AYNIY IJODIY FAOLIYATINING IJTIMOIY VA ILMIY MOHIYATI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada ma'rifatparvar Sadriddin Saidmurodxo'ja o'g'li Ayniyning faoliyatiga mansub bo'lgan ilmiy, badiiy asarlari hamda uning publisistika sohalarida olib borgan salmoqli ishlari hamda tadqiqotlari haqidagi ilmiy ma'lumotlar yoritilgan bo'lib, bilim olishning jamiyat hayotidagi ijtimoiy va ilmiy yo'nalishlari haqida ham tuxtalib o'tilgan. Adibning ilm-fan sohasining ijtimoiy yo'nalishdagi barcha sohalarida ijodiy faoliyatiga ham tuxtalib ma'lumotlar yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Publisistika, hajviya, felyeton, pamflet, eski ta'lim usullari, jadidchilik-ma'rifatparvarlik g'oyalari, innovatsion ta'lim usullari.*

**Исламова Комила Пайзуллаевна**
Самаркандский государственный институт иностранных языков
независимый исследователь

## СОЦИАЛЬНО-НАУЧНАЯ СУТЬ ТВОРЧЕСТВА САДРИДДИНА АЙНИ

***Аннотация:*** *В статье рассматриваются научные сведения о научном и художественном творчестве просветителя Садриддина Саидмуродходжы угли Айни, а также его значимые труды и исследования в области журналистики, а также затрагиваются социально-научные аспекты получения знаний в обществе. Также освещается творческая деятельность писателя во всех областях социальной сферы науки.*

***Ключевые слова:*** *журналистика, юмор, фельетон, памфлет, старые методы обучения, идеи модернизма и просветительства, инновационные методы обучения.*

**Islamova Komila Payzullayevna**
Samarkand State Institute of Foreign Languages independent researcher

## SOCIAL AND SCIENTIFIC ESSENCE OF THE CREATIVE ACTIVITY OF SADRIDDIN AYNIY

***Annotation:*** *This article covers scientific information about the scientific and artistic works of the enlightener Sadriddin Saidmurodkhojha ugli Aynii, as well as his significant work and research in the field of journalism, and also touches on the social and scientific aspects of acquiring knowledge in society. The writer's creative activity in all areas of the social sphere of science is also covered.*

***Key words:*** *Journalism, humor, feuilleton, pamphlet, old educational methods, ideas of modernism and enlightenment, innovative educational methods.*

**Kirish.** Ma'rifatparvar Sadriddin Saidmurodxo'ja o'g'li Ayniy faoliyati va ijodi bilan maktab yaratgan dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan munosib e'tirof etilgan adib hisoblanadi. Mustaqillik davrida milliy davlatchilik an'analarini qayta tiklash, milliy o'zlikni anglash, xalqimizning moddiy va ma'naviy meros namunalarini xolis o'rganish imkoniyati yaratildi. Ma'rifatparvar ziyolilarning ibratli hayot yo'llari, tarixiy qarashlarini zamon talablari asosida tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'z davrida jadidchilik harakatida faol qatnashish barobarida murakkab tarixiy jarayonlarning ishtirokchisi sifatida faoliyat olib borgan adib Sadriddin Ayniydir.

**Adabiyotlar tahlili.** Sadriddin Ayniy ijodiy faoliyatini o'rganish va uning asarlarini keng targ'ib etish borasida Jalol Ikromiy, Z.Mullojonova, Rahim Hoshim, Xolida Ayniy, S.Tabarov, akademik Muhammadjon Shakuriy Buxoriyning xizmatlari kattadir.

Sobiq Sovet davrida Sadriddin Ayniyga bag'ishlab yozilgan asarlar orasida J.Azizqulov, Z.Mullojonova va N.Fayzulloyevlarning tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin. Mustaqillik yillarida yaratilgan kollektiv monografiyalarda

Sadriddin Ayniyning shaxsiyati, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ijodi va boy ilmiy merosi, uning Buxorodagi jadidchilik faoliyati, tarixchilik iste'dodi haqida anchagina ma'lumotlar jamlangan. Sadriddin Ayniyning jadidchilik harakati mohiyatini ochib berishda F.Qosimov, D.Alimova, S.A'zamxo'jayev, Q.Rajabov, U.Rashidov, B.Hasanov, Sh.Hayitov, L.Muhammadjonova, Z.Ostonova, N.Mahkamova, K.Raxmonov, R.Tursunov, F.Bobojonova, D.Jamolova kabi tarixchi olimlar hamda S.Aliyev, B.Qosimov, O.Safarov, R.Vohidov, I.Haqqulov, U.Dolimov, N.Naimov singari tadqiqotchilarning asarlarini sanab o'tish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada ma'rifatparvar Sadriddin Saidmurodxo'ja o'g'li Ayniyning faoliyatiga mansub bo'lgan ilmiy, badiiy asarlari haqidagi tadqiqotlar muhokama qilinadi. Adibning jadidchilik va ma'rifatparvarlik faoliyati va qarashlar asosida yaratilgan asarlar o'rganilib tahlil qilindi. Ta'limda bilim olishning eskicha va yangi usuldagi bilim olish jihatlari haqidagi fikrlari tadqiqotlarida va asarlari vositasida taqqoslanadi.

Sadriddin Ayniyning ilm-fan sohasining ijodiy va ilmiy faoliyatining deyarli barcha sohalari tahlil qilindi.

**Natijalar va ularning tahlili.** Adib o'zining mingga yaqin katta-kichik asarlarini tojik va o'zbek tillarida yozdi. Uning ijodiy yo'nalishida publisistika, hajviya, fel'yeton, pamflet, she'riyat, adabiyotshunoslik, tarixshunoslik, sharqshunoslik, romanchilik, tarjimonlik kabi janrlar asosiy o'rinni egallaydi.

Sadriddin Ayniyning "Amir Temur binolaridan Bibixonim xarobasi ila musohaba" she'rida, sohibqiron Amir Temur tomonidan 1399-1404 yillarda qurilgan Bibixonim jome' masjidining ulug'vorligi va betakror me'moriy obidaning so'nggi davrlarga kelib xaroba holiga tushib qolishi, uni oyoq - osti qilmoqchi bo'lganlarni bahs-munozaraga chaqiradi va kelajak avlodlarga asrab-avlaylab yetkazish haqida so'z yuritadi. Uning "Navoiy bolalari uchun" she'rida esa Turkiston bolalariga xitob qilib, ularni ilm-ma'rifat cho'qqilarini zabt etishga chaqirdi va yosh avlodni haqli ravishda buyuk shoir Alisher Navoiyning munosib vorislari sifatida tilga oldi. Uning 1918-1925-yillarda yozgan ayrim she'rlari "Mehnatkashlar tovushi" va "Zarafshon" gazetasi sahifalarida ham nashr etilgan.

Sadriddin Ayniy chop etilgaan barcha she'rlari va asarlarida kelajak avlodga o'git bo'larlik fikr va qarashlar keltirilgan bo'lib, o'tmish ajdodlar bosib o'tgan mashaqqatli hayot yo'lidan xulosa chiqargan holatda vatanimiz, xalqimiz, millatimiz uchun munosib bo'lishlariga da'vat qildi.

Sadriddin Ayniy nafaqat nasr va nazmda, shu bilan birga publisistika yo'nalishida ham samarali ahamiyatga ega bo'lgan ijod bilan shug'illangan. Sadriddin Ayniy publisistika yo'nalishida o'quvchilarga xabar va yangiliklarni tanishtirish bilan birgalikda xorijda bo'layotgan voqea-hodisalardan tegishli xulosa chiqargan holatda vatanimizga mos farzand sifatida milliy manfaatlarimizdan kelib chiqgan holatda faoliyat yuritishlariga chaqirdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, adib publisistikasining o'ziga xos jihati sifatida yurtimizda ko'p millatli xalqlarning yashab, faoliyat yuritishlarini inobatga olgan holatda do'stlik, millatlararo totuvlik, ijtimoiy adolatparvarlik kabi xususiyatlarni namoyon qilishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Sadriddin Ayniy Qozon, Ufa va Orenburgdan kelib, Buxoroda doimiy yashab qolgan tatar ziyolilari, ma'rifatparvarlari bilan mustahkam aloqa o'rnatganligi ham adib ijodiy faoliyatining asosiy rivojlanish bosqichiga olib chiqdi.

Adib 1917 yilga qadar bo'lgan davrda kichik-kichik tarixiy hikoyalar, ocherklar va maqolalar yozdi. Bu maqolalar keyinchalik, katta tarixiy tadqiqotlarning yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Masalan, muallif 1930-1935- yillar davomida "Buxoro amirlari va xotin-qizlar", "Amir Muzaffar", "Kenagasxonim", "Latifa", "Mashhur Mirak, "Amir Olimxon qochishda", "Avliyoqulibek", "Avliyoqulibek amirni qoziga olib bordi" kabi katta- kichik hikoyalar yaratdi[1]. Adabiyotshunos olim M.Hasanovning fikricha, Sadriddin Ayniyning shaxsiy arxivida 1922-yil yozgan "Kichik hikoyalar" qo'lyozmasi hamon mavjud ekanligi haqidagi ma'lumotlarni qayt etgan[7].

Adib ijodida jadidchilik-ma'rifatparvarlik g'oyalari va qarashlari asosiy o'rinni egallaydi. Muallifning ushbu g'oya va fikrlari ham ko'pgina maqolalarida o'z aksini topgan[2]. Adibning ma'rifatparvarlik yo'nalishdagi ishlari sirasiga yangi usul jadid maktablari faoliyatini tashkil etish va ularning faoliyatida jonbozlik ko'rsatish bilan bir qatorda mazkur maktablar uchun yangi adabiyot va darsliklarni yaratib, o'quvchilarning ta'lim olish samaradorligini yaxshilash borasida samarali ishlarni olib bordi.

Ma'rifatparvar olimning jadid maktablari uchun yozgan uchta darsligi "Tartil ul-Qur'on" ("Qiroat kitobi") "Zaruriyoti diniya" ("Diniy kitob") va "Tahsib us-sibyon" ("Bolalar tarbiyasi") (birinchi marta 1909 yilda, Orenburgda nashr etilgan) nomli o'qish kitoblari nashr qilingan.

Sadriddin Ayniyning bilim olish haqidagi faoliyati va qarashlarida ta'limning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini kuchaytirish, o'zbek xalqining madaniy va ma'naviy yuksalishiga xizmat qilishi, milliy ta'lim tizimini isloh qilish va bilimni hamma uchun, ayniqsa, xotin-qizlar uchun imkoniyatli va imtiyozli qilishga qaratilgan g'oyalarni ilgari surdi. Adibning fikricha, ta'lim nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki xalqning ozodligi va ma'rifatli bo'lishida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Adibning insonlar hayotida bilim olishning ahamiyati haqidagi qarashlarini qo'yidagi ijtimoiy rolini ko'rsatish mumkin:

- ta'limni xalqni ma’rifatli bo’lishdagi asosiy vosita deb bildi;
- jaholatdan qutulish va farovon hayot kechirish uchun faqat bilim olish bilangina erishish mumkinligini ta’kidladi;
- bilimli insonlar faoliyat yuritadigan jamiyatda har qanday sohada rivojlanishga ishonch hosil qilgan;
- eski ta'lim usullaridan voz kechib, zamonaviy va innovatsion ta'lim usullarini joriy etish ishlarini olib borgan;
- ilmiy bilimlarni tarqatishga katta ahamiyat bergan;
- ta'lim olish muassasalarini xalqqa xizmat ko'rsatishlari zarurligini ilgari surdi; uvchi markazlarga aylantirishni yoqlab chiqqan.
- xotin-qizlar ta'lim olishini qo'llab-quvvatlab, ularning ham bilimli bo'lishlari jamiyat uchun zarur ekanligini ta'kidlagan.

Sadriddin Ayniy ijodida tarix ilmi ham muhim ahamiyatga ega ekanligini yozuvchining “Qullar” romanida keltirilgan fikrlari asosida ifodalash mumkin. Adibning fikricha, tarix ilmi qachon o’z ahamiyatini ko’rsatadi, qachonki kelajak avlod o’tmish voqealari va ajdodlarimizning boshidan kechirgan mashaqqatli hayot tarzidan tegishli xulosa chiqara olgandagina o’z ahamiyatini ko’rsatadi.

1921-1922-yillarda “Shu’lai inqilob” (“Inqilob shu’lasi”) jurnalida “Ta’rixi amironi mang‘itiya ki dar Buxoro hukm rondaand” (“Buxoroda hukmronlik qilgan mang‘itlar sulolasi tarixi”) nomi bilan nashr bo‘lgan tarixiy ocherk maqolalarini qayta ishlaydi. Bu asar “Ta’rixi amironi mang‘itiyai Buxoro” nomi ostida 1923 yilda Toshkentda, arab imlosida, tojik tilida, alohida kitob shaklida Buxoro Maorif xalq nozirligi tomonidan nashr qilinadi[3].

Sadriddin Ayniy o’zining gazeta va jurnallarda nashr etilgan maqolalarida Buxoro madrasalaridagi o‘qitiladigan eskicha diniy tahsillar, fanlarning quruq yodlatilishi va samarasizligi, ilg‘or fikrlilarga qarshi bo‘lgan mutaassib ruhoniylar, mullalarni o‘tkir tanqid ostiga oladi.

Sadriddin Ayniy 1926-1933-yillarda Samarqanddagi Tojikiston Davlat nashriyotiga adabiy xodim bo‘lib ishlaydi. O‘sha yillarda mahalliy kadrlar yetishmas, adabiy xodimlar ozchilikni tashkil etar edi. Olim bu yerda ko‘plab asarlarni tarjima qilish va nashrga tayyorlash ishlari bilan shug‘ullandi. Jumladan, u G‘arb yozuvchisi Ferdinand Dyushenning “Hilol” (“Yangi chiqqan oy”) asarini tamoman qayta ishlab, o‘zgacha bir badiiy asar tarzida “Qamar” nomi bilan nashr ettirdi. Publisist yozuvchi M.Bullening “Inqilobiy kurashlarda xotin-qizlar” asarini tarjima qildi. Viktor Gyugoning “Sehrli saroy” asarini o‘zbek tilida nashr ettirdi[9]. Sadriddin Ayniyning mazkur asarlar tarjimasi asosida xalqimiz ma’naviy dunyoqarashiga munosib hissa qo’sha oladigan vazifalarni bajardi.

Sadriddin Ayniy ulkan lug‘atshunos olim sifatida ham mashhurdir. Adib tojik va o‘zbek adabiy til normalari to‘g‘risida, tilning badiiy adabiyotdagi roli haqida ko‘plab ilmiy maqolalar yozdi. S.Ayniy har bir millatning bosh belgisi hisoblangan tilning sofligi va qimmatlilik jihatlariga alohida e’tibor bergan.

Adibning amir hukumati tomonidan xalqqa nisbatan yuritgan vaxshiyona siyosatini yoritgan “Buxoro jallodlari” povesti 1920-yili o‘zbek tilida yozilgan. Asar keyinchalik, “Buxoro jallodlarining suhbatlari” nomida “Inqilob” jurnalida bosildi va 1935-yil tojik tilida alohida kitob holida nashr qilinadi[4].

Sadriddin Ayniyning xalqimiz turmush tarzi va amirlik tuzumida boshdan kechirgan ijtimoiy adolatsizliklarni ko’rsatgan real voqealardan tubdan farq qilmaydigan asari - “Odina yoki bir kambag‘al tojikning sarguzashti” 1924-1926-yillarda yozilgan bo‘lib, uning ba’zi parchalari o‘sha vaqtdayoq “Ovozi tojik” gazetasida bosilib chiqqan[5].

Sadriddin Ayniy ilmiy-ijodiy faoliyatida yirik tarixiy-adabiy asari hisoblangan “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” kitobi alohida o‘rin egallaydi. Mazkur asar adib ijtimoiy-ilmiy faoliyatining asosiy yo’nalishi hisoblangan ma’rifatparvarlik faoliyati haqidagi asar hisoblanib, unda xalqimiz hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi faoliyati yoritilgan[6].

Sadriddin Ayniy amirlik tuzumi ag‘darib tashlangach, 1920 yilning 16 noyabrida Samarqanddan tug‘ilgan yurti Buxoroga keladi. Adib bu safari to‘g‘risida hikoya qilar ekan, Maorif noziri Qori Yo‘ldosh Po‘latov uni iliq qabul qilganligini alohida ta’kidlaydi. Qori Yo‘ldosh Po‘latov uning 1918-yilda, inqilob tarixiga oid tojik tilida yaratgan ilk yirik tarixiy asari - “Tarixi inqilobi fikri dar Buxoro”ni (“Buxoroda fikriy inqilob tarixi”) o‘zbek tiliga o‘girishni tavsiya qildi. Muallif, o‘sha tojik tilidagi materiallarni o‘zbek tilida o‘girib, qayta ishlab, “Mehnatkashlar tovushi” gazetasida inqilob tarixiga oid chop bo‘lgan turkum maqolalarni ham unga qo‘shib yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirdi va 600 sahifadan iborat bo‘lgan “Buxoro inqilobining tarixi” deb, unga qayta nom beradi.

Adibning mazkur asari haqida Nazir To‘raqulov yozgan kitob so‘zboshisini quyidagi fikrlarni bildirgan: “Ayniyning “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” degan bu asarini buyuk shodliklar bilan mamlakatga taqdim etamiz. O‘rta Osiyoning har bir yoshi, har bir haqiqiy inqilobchisi o‘qib, Buxoro o‘lkasida yaqindagina bo‘lib o‘tgan razolatlarning hikoyasini bir-bir ko‘zdan kechirib, ma’naviy, axloqiy foydalar topar degan umiddamiz bor”[6].

Sadriddin Ayniy oddiy xalq turmush tarzini ko’rsatib bergan roman janriga mansub asari “Doxunda” hisoblanadi. Xalqimizni amirlik tuzumi adolatsizliklari va amaldorlarning nohaqliklari borasidagi voqealarni yoritib, ularni bunday

og'ir turmush tarzidan qutqarish uchun ishchilarni birlashgan holatda harakat qilishlari zarurligi, jamiyatda asosiy rivojlanish bosqichini belgilab beruvchi xotin-qizlar savodxonlikgini oshirish va ularni jamiyatdagi mavqelarini mustahkamlash borasidagi g'oyalarni ilgari surdi.

Sadriddin Ayniy 1939-yilda o'zining "Sudxo'rning o'limi" asarini yaratdi. Adibning "Sudxo'rning o'limi" asari amaldorlarning xalqimizning qiyin ahvolidan foydalangan holatda ularni iqtisodiy tang ahvolidan qutqarish borasida va'dalar bergan holatda qarz domiga tushirib ularni tunashni maqsad qilgan kimsalarning adolatsizliklari borasidagi voqealar yoritib berilgan. Adib asar orqali o'quvchini bilim olishga chaqirdi, zero bilim sohiblarigina o'z mavqei va ilmini davr qiyinchililariga qaramay saqlab qoldi, mol-dunyo to'plash o'tkinchi havas ekanligiga, unga vuju quyganlar faqat jaholat domiga tushib atrofdagilar va hattoki o'z hayotiga ham putur yetkazganligi haqidagi qarashlarni ta'kidlab o'tdi.

**Xulasa** sifatida ta'kidlab o'tish joizki, Sadriddin Ayniy adabiy va ilmiy ijodining asosiy yo'nalishlari tahlil qilinar ekan, nasr va nazmda samarali ijod qilgan katta yozuvchi va ulkan shoir ekanligi ma'lum. S.Ayniy tarixchi, sharqshunos, adabiyotshunos va tilshunos olim sifatida fanning ko'plab sohalarida tinimsiz izlanishlar olib bordi. Olim tadqiqotlarida o'rta asrlarda yashagan o'zbek va fors allomalari, shoirlari va olimlaridan boshlab, XX asr birinchi yarmidagi kichik zamondoshlar faoliyati ham o'zining xolis talqinini topdi.

Shunday qilib, Sadriddin Ayniyning ijodiy yo'nalishiga mansub barcha yirik asarlarida va maqolalarida Turkiston xalqlarining mushtarak ijtimoiy- iqtisodiy hayoti, ziddiyatlarga to'la murakkab davri, inqilobiy harakatlar, maorif va madaniy yangiliklar, mahalliy xalqlarning og'ir turmush-tarzi, urf-odatlari aks ettirilgan.

Sadriddin Ayniy murakkab va ziddiyatli bir davrda faoliyat ko'rsatgan bo'lishiga qaramay, atrofida kechgan ijtimoiy va siyosiy voqeliklarga o'ta sinchkovlik bilan munosabatda bo'ldi. Tarixchi adib, mashhur shoir, atoqli olim va o'tkir publisist bo'lgan S.Ayniy o'zbek va tojik tillarida yaratgan asarlari bilan O'zbekiston va Tojikistonning yangi tarixida, madaniyatida o'chmas iz qoldirdi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ayniy S. Ajina asar karda ast. - Stalinobod: nashrdavtoj, 1935; Uning o'zi: Iz proshlogo. - Toshkent: O'zSSR, 1935.
2. Айнӣ С. Масти // Бухоройи шариф. 1912 йил, № 17, пайшанба, 30 март.
3. Айнӣ С. Таърихи амирони манғитияи Бухоро. - Тошкент: Туркистон давлат нашриёти, 1923.
4. Ayniy S. Buxoro jallodlarining suhbatlari // Inqilob. 1922, № 3-8.
5. Ayniy S. Odina yoki bir kambag'al tojikning sarguzashti (Istibdod xotiralaridan). - Toshkent: O'zdavnashr, 1931.
6. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. - Moskva: SSSR xalqlari markaziy nashriyoti, 1926. B 3.
7. Hasanov M. Ayniy Chamani. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. - B. 168.
8. Сод. Айн. Мактуб аз Бухорои сурх // Шӯълаи инқилоб, 1920, № 59, 2 декабрь. -Б. 3.
9. Turdiyev Sh. Ayniy va adabiy aloqalar / Ayniy zamondoshlari xotirasida. - Toshkent: 1978. - B. 171.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Tajibayev Muzaffar Tursunpolatovich**
FarDU tadqiqotchisi

## ZAMONAVIY JAMIYAT AXBOROT-KONFRONTATSIYA SHAROITIDA YOSHLAR ONGIDAGI ZAIFLIK NUQTALARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

***Annotasiya:*** *Ushbu ilmiy maqola zamonaviy jamiyatda kuchayib borayotgan axborot-konfrontatsiya jarayonlarining yoshlar ongida yuzaga keltirayotgan ijtimoiy-falsafiy muammolarini tizimli tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot doirasida globallashuv, raqamli transformatsiya va axborot oqimlarining intensivlashuvi sharoitida yoshlar ongining kognitiv, aksiologik va identifikatsion qatlamlarida shakllanayotgan zaiflik nuqtalarining mohiyati ochib berilgan. Axborot makonida mafkuraviy raqobat, manipulyativ kommunikatsiya texnologiyalari, dezinformatsiya va simulyativ mazmunlarning keng tarqalishi yoshlarning ijtimoiy ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgani falsafiy yondashuvlar asosida asoslab berilgan. Maqolada axborot-konfrontatsiya hodisasi nafaqat siyosiy yoki texnologik jarayon sifatida, balki shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ontologik munosabatlarni qayta shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa sifatida talqin etilgan. Yoshlar ongida tanqidiy tafakkurning zaiflashuvi, qadriyatlar tizimining fragmentatsiyalanishi va ijtimoiy identitetning beqarorlashuvi axborot bosimining asosiy oqibatlari sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Shu bilan birga, maqolada axborot xavfsizligi, mafkuraviy barqarorlik va ijtimoiy ongni himoyalash masalalarining falsafiy asoslari yoritilib, yoshlar ongida barqaror dunyoqarash va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning nazariy mexanizmlari taklif etiladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy ijtimoiy-falsafiy izlanishlar, yoshlar siyosati, ta’lim-tarbiya tizimi va axborot xavfsizligi strategiyalarini ishlab chiqishda muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega.*

***Kalit so‘zlar:*** *axborot-konfrontatsiya, yoshlar ongi, ijtimoiy ong, zaiflik nuqtalari, ijtimoiy-falsafiy tahlil, dezinformatsiya, manipulyativ texnologiyalar, mafkuraviy barqarorlik, tanqidiy tafakkur, axborot xavfsizligi.*

**Таджибаев Музаффар Турсунполатович**
Исследователь ФерГУ

## СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ УЯЗВИМЫХ ТОЧЕК В СОЗНАНИИ МОЛОДЁЖИ В УСЛОВИЯХ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОНФРОНТАЦИИ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА

***Аннотация:*** *Данная научная статья посвящена системному анализу социально-философских проблем, возникающих в сознании молодёжи под воздействием усиливающихся процессов информационной конфронтации в современном обществе. В рамках исследования раскрывается сущность уязвимых точек, формирующихся в когнитивных, аксиологических и идентификационных слоях сознания молодёжи в условиях глобализации, цифровой трансформации и интенсификации информационных потоков. На основе философских подходов обосновывается положение о том, что идеологическая конкуренция в информационном пространстве, манипулятивные коммуникационные технологии, распространение дезинформации и симулятивных смыслов оказывают непосредственное влияние на социальное сознание молодёжи. В статье феномен информационной конфронтации трактуется не только как политический или технологический процесс, но и как социальное явление, переопределяющее онтологические отношения между личностью и обществом. Ослабление критического мышления, фрагментация системы ценностей и нестабильность социальной идентичности в сознании молодёжи рассматриваются как ключевые последствия информационного давления. Одновременно в работе освещаются философские основания обеспечения информационной безопасности, идеологической устойчивости и защиты социального сознания, а также предлагаются теоретические механизмы формирования устойчивого мировоззрения и идеологического иммунитета у молодёжи. Результаты исследования обладают существенной теоретической и практической значимостью для современных социально-философских исследований, реализации молодёжной политики, совершенствования системы образования и воспитания, а также разработки стратегий информационной безопасности.*

***Ключевые слова:*** *информационная конфронтация, сознание молодёжи, социальное сознание, уязвимые точки, социально-философский анализ, дезинформация, манипулятивные технологии, идеологическая устойчивость, критическое мышление, информационная безопасность.*

**Tajibayev Muzaffar Tursunpolatovich**
The researcher of FerSU

## A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF VULNERABILITY POINTS IN YOUTH CONSCIOUSNESS UNDER CONDITIONS OF INFORMATION CONFRONTATION IN MODERN SOCIETY

***Annotation:*** *This scholarly article is devoted to a systematic analysis of socio-philosophical problems emerging in the consciousness of youth under the conditions of intensifying information confrontation in contemporary society. Within the framework of the study, the essence of vulnerability points forming within the cognitive, axiological, and identity-related layers of youth consciousness is revealed in the context of globalization, digital transformation, and the increasing intensity of information flows. On the basis of philosophical approaches, it is substantiated that ideological competition within the information space, manipulative communication technologies, the dissemination of disinformation, and the proliferation of simulacral content exert a direct influence on the social consciousness of young people. The phenomenon of information confrontation is interpreted in the article not merely as a political or technological process, but as a social phenomenon that reconfigures the ontological relationship between the individual and society. The weakening of critical thinking, the fragmentation of value systems, and the instability of social identity within youth consciousness are identified as the principal consequences of information pressure. At the same time, the article elucidates the philosophical foundations of ensuring information security, ideological stability, and the protection of social consciousness, while also proposing theoretical mechanisms for the formation of a stable worldview and ideological immunity among young people. The findings of the study possess significant theoretical and practical relevance for contemporary socio-philosophical research, the implementation of youth policy, the improvement of educational and upbringing systems, and the development of information security strategies.*

***Keywords:*** *information confrontation, youth consciousness, social consciousness, vulnerability points, socio-philosophical analysis, disinformation, manipulative technologies, ideological stability, critical thinking, information security.*

### KIRISH

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida inson ongi, ma’naviy tafakkuri va axborot bilan ishlash madaniyati alohida ta’kidlanadi: “Bugungi kunda jamiyat hayotida inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, ma’naviy-ma’rifiy sohani rivojlantirish, yoshlarning ongli va mustaqil fikrlashini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi” [1. 21.]. Mazkur fikr zamonaviy axborot makonida yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatuvchi axborot bosimi, manipulyativ ta’sirlar va mafkuraviy qarama-qarshiliklar sharoitida ularning ongidagi zaiflik nuqtalarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish zaruratini ochib beradi. Chunki Strategiyada ta’kidlanganidek, yoshlarning mustaqil fikrlashi va ma’naviy barqarorligi jamiyat xavfsizligi va barqaror rivojlanishining muhim omili sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy axborot-konfrontatsiya sharoitida yoshlar ongida shakllanayotgan zaiflik nuqtalarini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish masalasi “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan yoshlarning ongli, mustaqil fikrlovchi va mafkuraviy barqaror shaxs sifatida kamol topishini ta’minlash vazifalari bilan bevosita uyg‘unlashadi.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida axborot ijtimoiy voqelikning ikkilamchi omili emas, balki jamiyatning ontologik tuzilmasini belgilovchi asosiy kuchlardan biriga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar, global kommunikatsiya tarmoqlari va ommaviy axborot vositalarining integratsiyalashuvi natijasida axborot ishlab chiqarish, tarqatish va iste’mol qilish mexanizmlari tubdan o‘zgardi. Bu holat jamiyatni yangi sifat holatiga olib kirib, uni nafaqat axborotlashgan, balki axborot-konfrontatsiya maydoniga aylantirdi. M.Kastels ta’kidlaganidek, zamonaviy jamiyatda “Hokimiyatning tarmoqli jamiyatda axborot oqimlari va kommunikatsion tarmoqlar orqali qayta taqsimlanishi masalasi muallif tomonidan tahlil qilinadi” [2. 25.]. Kastelsning tarmoqli jamiyat haqidagi g‘oyasiga ko‘ra, zamonaviy jamiyatda hokimiyat endilikda an’anaviy siyosiy institutlarga qat’iy bog‘lanmagan, balki axborot oqimlari va kommunikatsion tarmoqlar orqali tarqaladigan va qayta taqsimlanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimiga aylangan. Hokimiyat kimda axborotni yaratish, boshqarish va talqin qilish imkoniyati mavjud bo‘lsa, o‘sha subyekt qo‘lida shakllanadi. Shu sababli hokimiyatning mohiyati majburlashdan ko‘ra ma’nolarni ishlab chiqarish va ijtimoiy ongni yo‘naltirish bilan belgilanadi, bu esa jamiyat, ayniqsa yoshlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Axborot-konfrontatsiya sharoitida yoshlar ijtimoiy-demografik guruh sifatida eng zaif va bir vaqtning o‘zida eng faol subyekt hisoblanadi. Yoshlar ongida dunyoqarash, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy identitet hali to‘liq barqarorlashmaganligi sababli, u axborot bosimi va manipulyativ ta’sirlarga nisbatan yuqori darajada sezgir bo‘ladi. E.Frommning fikricha, zamonaviy jamiyatda inson ongiga tashqi ta’sirlarning kuchayishi shaxsiy mustaqil fikrlash imkoniyatlarini cheklab, uni “boshqariluvchi ong” holatiga olib keladi. Xususan, “Haqiqiy fikrlash muxtoriyatini (mustaqilligini) yo‘qotgan shaxs, jamiyat tomonidan tiqishtirilgan g‘oyalarni o‘ziniki kabi qabul qila boshlaydi va ijtimoiy boshqaruv ob’ektiga aylanadi” [4. 113.]. Zamonaviy jamiyat sharoitida shaxs ongiga yo‘naltirilayotgan tashqi ijtimoiy va

axborotiy ta’sirlarning kuchayishi insonning mustaqil fikrlash imkoniyatlarini bosqichma-bosqich toraytiradi. Fikrlash muxtoriyati zaiflashgan shaxs o‘z e’tiqodlari va qarashlarini ichki ongiy tanlov mahsuli sifatida emas, balki ijtimoiy muhit tomonidan shakllantirilgan tayyor g‘oyalar asosida qabul qila boshlaydi. Natijada shaxs subyektiv ong egasi bo‘lishdan ko‘ra, ijtimoiy boshqaruv mexanizmlariga bo‘ysunuvchi ob’ekt maqomiga yaqinlashadi, bu esa ongning “boshqariluvchi” holatga o‘tishini anglatadi.

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida axborot faqat bilim manbai sifatida emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi va yo‘naltiruvchi instrument sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. J.Bodriyyar ta’kidlaganidek, zamonaviy axborot makonida haqiqat ko‘pincha simulyatsiya bilan almashinadi va ijtimoiy ong real voqelikdan ko‘ra belgilar tizimi asosida shakllanadi. Bu holat yoshlar ongida haqiqat va yolg‘on, qadriyat va manipulyatsiya o‘rtasidagi chegaralarning xiralashuviga olib keladi. Zero, “Zamonaviy jamiyat real borliqda emas, balki ob’ektiv voqelikdan qat’i nazar, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi belgilar (simvollar) makonida yashaydi” [5. 55.]. Bodriyyar ta’kidlashicha, zamonaviy axborot makonida voqelik tobora ko‘proq simulyatsiya (soxta nusxa) bilan almashib bormoqda, buning natijasida ijtimoiy ong ob’ektiv voqelik asosida emas, balki o‘zining “giper-voqelik”ini yaratuvchi belgilar va obrazlar mantiqi asosida shakllanmoqda.

Axborot-konfrontatsiya hodisasi mazkur tadqiqot doirasida faqat siyosiy yoki mafkuraviy raqobat sifatida emas, balki shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ontologik munosabatlarni qayta shakllantiruvchi ijtimoiy jarayon sifatida talqin etiladi. M.Fuko diskurs tushunchasini sharhlar ekan, hokimiyatning eng samarali shakli ochiq majburlashda emas, balki ongni shakllantiruvchi bilim va axborot mexanizmlarida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Shu ma’noda axborot bosimi yoshlar ongida tanqidiy tafakkurning susayishi, qadriyatlar tizimining fragmentatsiyalanishi va ijtimoiy identitetning beqarorlashuviga olib keluvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. “Hokimiyatning zamonaviy shakllari bostirishga emas, balki shaxslarning ongi va xulq-atvorini shakllantirish hamda me’yorlashtirishga intiladi” [6. 195.] - bu joyda Fuko hokimiyatning intizomiy va diskursiv xarakteri ochib beriladi. Mazkur yondashuv Fuko nazariyasiga ko‘ra, zamonaviy hokimiyat shaxsni ochiq bostirish orqali emas, balki uning fikrlash uslubi va kundalik xulq-atvorini ijtimoiy me’yorlar doirasida shakllantirish orqali ta’sir ko‘rsatadi. Intizomiy va diskursiv mexanizmlar yordamida inson ongida “to‘g‘ri” va “me’yoriy” deb qabul qilinadigan qarashlar mustahkamlanadi. Natijada hokimiyat ko‘zga tashlanmagan holda, ammo barqaror tarzda ijtimoiy ong va xulq-atvorni yo‘naltiruvchi kuchga aylanadi.

Z.Bauman ta’riflagan “suyuq modernlik” sharoitida esa shaxsning ijtimoiy tayanchlari beqaror bo‘lib, yoshlar ongida doimiy noaniqlik va identitet inqirozi kuchayadi. Axborot-konfrontatsiya ana shu beqarorlikni yanada chuqurlashtirib, yoshlarni manipulyativ diskurslar uchun qulay ob’ektga aylantiradi. Shu sababli yoshlar ongidagi zaiflik nuqtalari masalasi individual muammo doirasidan chiqib, jamiyatning ma’naviy xavfsizligi va ijtimoiy barqarorligiga daxldor falsafiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Faylasuvning fikricha: “Zamonaviy dunyoda o‘zlik (identlilik) oldindan belgilangan bo‘lishni to‘xtatib, doimiy ravishda tugallanmagan loyihaga aylanadi va bunga noaniqlik hamda beqarorlik tuyg‘usi hamrohlik qiladi” [7. 28.]. Bauman “oqishli zamonaviylik” (liquid modernity) fenomenini tahlil qilar ekan, barqaror ijtimoiy tayanchlarning yo‘qolishi doimiy noaniqlik holatiga olib kelishini ta’kidlaydi; bunday holatda identifikatsiyaning shakllanishi, ayniqsa yoshlarda, inqirozli va tugallanmagan xarakterga ega bo‘ladi.

Mazkur maqolada yoshlar ongida shakllanayotgan zaiflik nuqtalarining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berish, ularning axborot-konfrontatsiya sharoitida vujudga kelish mexanizmlarini tahlil qilish hamda axborot xavfsizligi va mafkuraviy barqarorlikni ta’minlashning nazariy asoslarini yoritish asosiy maqsad etib belgilangan. Tadqiqot natijalari yoshlar siyosati, ta’lim-tarbiya tizimi va jamiyatning ma’naviy rivojlanish strategiyalarini takomillashtirishda muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda axborot omili jamiyat hayotining tashqi vositasi emas, balki ijtimoiy voqelikni shakllantiruvchi ichki mexanizm sifatida talqin qilinmoqda. Shu bois axborot-konfrontatsiya sharoitida yoshlar ongida yuzaga kelayotgan zaiflik nuqtalarini tahlil qilish faqat empirik kuzatuv yoki sotsiologik tavsif bilan cheklanib qolmay, balki chuqur nazariy-falsafiy asoslarni talab etadi. Mazkur tadqiqotning adabiyotlar bazasi aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, hokimiyat, axborot, ong va identitet o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni izohlovchi konseptual yondashuvlarga tayangan holda shakllantirildi.

Axborot va hokimiyat munosabatlarini zamonaviy jamiyat kontekstida talqin etishda Manuel Kastels tomonidan ishlab chiqilgan tarmoqli jamiyat nazariyasi muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Kastels jamiyatni qat’iy markazga ega bo‘lgan tuzilma sifatida emas, balki doimiy harakatdagi axborot va kommunikatsiya oqimlari tizimi sifatida tushuntiradi. Bu yondashuv hokimiyatni muayyan institutga biriktirilgan kuch emas, balki axborot oqimlari orqali tarqaladigan va qayta taqsimlanadigan ijtimoiy munosabat sifatida talqin qilish imkonini beradi. Falsafiy nuqtayi nazardan, bu hokimiyatning ontologik maqomi o‘zgarganini, ya’ni u endi “kimda hokimiyat bor?” degan savoldan ko‘ra, “hokimiyat qanday ishlaydi?” degan savol orqali anglanishini ko‘rsatadi. Mazkur qarash yoshlar ongiga ta’sir etuvchi axborot mexanizmlarini yashirin, lekin samarali boshqaruv shakli sifatida tahlil qilishga zamin yaratadi.

Shaxs ongining tashqi ijtimoiy ta’sirlarga bo‘ysunishi masalasi Erix Fromm tomonidan psixo-ijtimoiy va ijtimoiy-falsafiy darajada chuqur tahlil qilingan. Frommning asarlarida zamonaviy jamiyatda erkinlik formal xarakter kasb etib, shaxs ichki mustaqil fikrlash muxtoriyatini yo‘qota boshlashi ta’kidlanadi. Falsafiy jihatdan bu holat shaxsning subyektivligi inqirozi sifatida namoyon bo‘ladi: inson o‘zini erkin tanlov qilayotgandek his qilsa-da, uning ongiy yo‘nalishlari ijtimoiy muhit tomonidan oldindan belgilab qo‘yilgan bo‘ladi. Ushbu yondashuv yoshlar ongida shakllanayotgan zaiflik nuqtalarining ichki psixo-falsafiy sabablarini ochib berishga xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot makonida haqiqatning transformatsiyasi masalasi Jan Bodriyar nazariyalarida simulyatsiya va belgilar tizimi tushunchalari orqali izohlanadi. Bodriyar nazarida, zamonaviy jamiyatda belgilar real voqelikni ifodalashdan ko‘ra, uning o‘rnini egallaydi. Natijada ijtimoiy ong real tajribaga emas, balki axborot orqali ishlab chiqarilgan obrazlar va simulyativ mazmunlarga tayanadi. Falsafiy nuqtayi nazardan, bu holat bilishning gnoseologik asoslarini o‘zgartirib, yoshlar ongini manipulyatsiyaga ochiq holatga keltiradi. Axborot-konfrontatsiya sharoitida bu jarayon ayniqsa keskinlashib, haqiqat va yolg‘on o‘rtasidagi chegaralarning xiralashuviga olib keladi.

Hokimiyat, bilim va diskurs munosabatlarini tahlil qilishda Mishel Fuko tomonidan ishlab chiqilgan diskursiv yondashuv alohida metodologik ahamiyatga ega. Fuko hokimiyatni repressiv mexanizm sifatida emas, balki ongni shakllantiruvchi bilim, me’yor va diskurslar orqali faoliyat yurituvchi kuch sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv yoshlar ongiga ta’sir etuvchi axborot mexanizmlarining ochiq majburlashsiz, biroq chuqur va barqaror ta’sir ko‘rsatishini tushuntirish imkonini beradi. Falsafiy jihatdan bu hokimiyatning “ko‘rinmas”, ammo kundalik hayotga singib ketgan shaklini ifodalaydi.

Zigmunt Bauman tomonidan ilgari surilgan “suyuq modernlik” konsepsiyasi esa zamonaviy jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning yo‘qolishi va identitetning beqaror holatga kelishini izohlaydi. Bauman nazarida, zamonaviy inson, ayniqsa yoshlar, qat’iy ijtimoiy tayanchlardan mahrum bo‘lgan holda doimiy tanlov va noaniqlik sharoitida yashaydi. Falsafiy nuqtayi nazardan, bu identitetning ontologik zaiflashuvi bo‘lib, yoshlar ongini axborot-konfrontatsiya jarayonlarida turli diskurslar ta’siriga yanada ochiq qiladi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi aynan yuqoridagi nazariy qarashlarning sintezi asosida shakllantirildi. Tadqiqotda dialektik yondashuv axborot-konfrontatsiya va yoshlar ongidagi zaiflik nuqtalari o‘rtasidagi ichki ziddiyatlar va o‘zaro bog‘liqlikni ochib berishga xizmat qildi. Tizimli tahlil orqali axborot makoni shaxs ongini shakllantiruvchi murakkab ijtimoiy tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Germenevtik yondashuv diskurslar va axborot mazmunlarini falsafiy talqin qilish imkonini berdi, komparativ tahlil esa turli nazariy maktablar qarashlarini solishtirish orqali mavzuning ko‘p qirrali mohiyatini ochib berdi. Shu tariqa, adabiyotlar tahlili va tanlangan metodologik yondashuvlar axborot-konfrontatsiya sharoitida yoshlar ongidagi zaiflik nuqtalarini faqat tavsiflash emas, balki ularning chuqur ijtimoiy-falsafiy ildizlarini aniqlash imkonini beruvchi nazariy poydevor sifatida xizmat qiladi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, axborot-konfrontatsiya sharoitida yoshlar ongida yuzaga kelayotgan zaiflik nuqtalari tasodifiy yoki faqat individual omillar bilan izohlanmaydi. Aksincha, ular zamonaviy jamiyatning strukturaviy, diskursiv va kommunikativ xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-falsafiy hodisalar sifatida namoyon bo‘ladi. Axborot oqimlarining haddan tashqari ko‘payishi, ma’nolarning tez-tez almashinuvi va diskurslarning raqobati yoshlar ongida barqaror dunyoqarash shakllanishini murakkablashtiradi.

Natijalar tahlili shuni aniqladiki, axborot-konfrontatsiya sharoitida yoshlar ongidagi birinchi asosiy zaiflik kognitiv darajada namoyon bo‘ladi. Bu holat axborotni tanqidiy saralash, sabab-oqibat bog‘liqliklarini anglash va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatining susayishi bilan tavsiflanadi. Mazkur jarayon axborot oqimlarining tezkorligi va fragmentarligi tufayli ongning yuzaki idrok rejimiga o‘tishi bilan izohlanadi. Bu holat “Tarmoqlashgan jamiyatning yuksalishi” (“The Rise of the Network Society”)da asoslangan tarmoqli jamiyat mantiqiga mos kelib, axborot tezligi mazmun chuqurligini siqib chiqarishini ko‘rsatadi.

Ikkinchi muhim natija aksiologik darajadagi zaifliklarning kuchayishi bilan bog‘liq. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ongida qadriyatlar tizimi tobora barqarorlikni yo‘qotib, nisbiy va vaziyatga moslashuvchan shaklga kirib bormoqda. Axborot-konfrontatsiya sharoitida turli diskurslar bir vaqtning o‘zida raqobatlashib, “to‘g‘ri” va “noto‘g‘ri” mezonlarini aniq belgilashni qiyinlashtiradi. Natijada qadriyatlar ongda ichki e’tiqod sifatida emas, balki tashqi axborot muhitiga moslashuv mahsuli sifatida shakllanadi. Bu holat “Ozodlikdan qochish” (“Escape from Freedom”)da ta’riflangan mustaqil fikrlash muxtoriyatining zaiflashuvi bilan mantiqan uyg‘unlashadi.

Uchinchi natija yoshlar ongida identifikatsion beqarorlikning kuchayishini ko‘rsatadi. Axborot makonida doimiy ravishda yangilanib borayotgan ijtimoiy rollar, obrazlar va identitet modellari yoshlarning o‘zini anglash jarayonini murakkablashtiradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yoshlar o‘z ijtimoiy “men”ini mustahkam falsafiy va ma’naviy asosda emas, balki vaqtinchalik axborot obrazlari orqali qurishga moyil bo‘lib bormoqda. Bu holat “Oquvchan zamonaviylik” (“Liquid Modernity”)da ta’riflangan suyuq modernlik sharoitidagi identitetning beqaror holatini tasdiqlaydi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, axborot-konfrontatsiya faqat tashqi xavf omili sifatida emas, balki yoshlar ongini shakllantiruvchi ichki mexanizm sifatida ham faoliyat yuritadi. Axborot orqali ishlab chiqarilayotgan diskurslar yoshlar tafakkurida “me’yoriy” deb qabul qilinadigan qarashlar doirasini belgilab beradi. Bu holat “Hokimiyat/Bilim” (“Power/Knowledge”)da asoslangan diskursiv hokimiyat konsepsiyasi bilan mos keladi: hokimiyat ochiq majburlashdan ko‘ra, bilim va ma’no ishlab chiqarish orqali samaraliroq ishlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari yoshlar ongidagi zaiflik nuqtalari mutlaq va qaytarib bo‘lmas hodisa emasligini ham ko‘rsatadi. Ular ma’lum sharoitlarda tanqidiy tafakkur, mafkuraviy immunitet va ijtimoiy ongning refleksiv rivoji orqali neytrallashishi mumkin. Bunda ta’lim tizimi, ma’naviy-ma’rifiy muhit va axborot madaniyatini rivojlantirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Axborot bilan ishlash ko‘nikmalarining rivojlanishi yoshlarni manipulyativ diskurslardan himoyalashning muhim falsafiy va amaliy vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, natijalar va ularning muhokamasi shuni ko‘rsatadiki, axborot-konfrontatsiya sharoitida yoshlar ongidagi zaiflik nuqtalari zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-falsafiy holatini aks ettiruvchi ko‘rsatkichdir. Ushbu zaifliklarni bartaraf etish masalasi texnologik yoki ma’muriy choralar bilangina emas, balki ong, qadriyat va identitetni kompleks falsafiy yondashuv asosida mustahkamlash orqali hal etilishi mumkin.

## XULOSA

O‘tkazilgan ijtimoiy-falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy jamiyatda axborot-konfrontatsiya hodisasi faqat texnologik yoki siyosiy jarayon sifatida emas, balki shaxs ongini, ijtimoiy qadriyatlar tizimini va identitetni chuqur darajada qayta shakllantiruvchi murakkab ijtimoiy voqelik sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot oqimlarining keskin intensivlashuvi va diskurslarning raqobati yoshlar ongida barqaror dunyoqarash shakllanishini murakkablashtirib, turli zaiflik nuqtalarining vujudga kelishiga zamin yaratmoqda.

Tadqiqot natijalari yoshlar ongidagi zaiflik nuqtalari asosan uch darajada - kognitiv, aksiologik va identifikatsion qatlamlarda shakllanayotganini ko‘rsatdi. Kognitiv darajada bu holat axborotni tanqidiy idrok etish qobiliyatining susayishi bilan ifodalanar ekan, aksiologik darajada qadriyatlar tizimining nisbiylashuvi va beqarorlashuvi kuzatiladi. Identifikatsion darajada esa yoshlar ongida o‘zini anglash jarayoni barqaror ma’naviy tayanchlarga emas, balki vaqtinchalik axborot obrazlari va simulyativ mazmunlarga tayanib shakllanayotgani aniqlandi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, axborot-konfrontatsiya sharoitida hokimiyatning zamonaviy shakllari ochiq majburlash orqali emas, balki ongni shakllantiruvchi bilim, axborot va diskurslar orqali amalga oshirilmoqda. Bu holat yoshlar ongining manipulyativ ta’sirlarga ochiqligini kuchaytirib, ijtimoiy ongni boshqarishning yashirin, ammo samarali mexanizmlarini yuzaga chiqaradi. Natijada shaxsning mustaqil fikrlash muxtoriyati zaiflashib, ijtimoiy moslashuv ustuvor ahamiyat kasb eta boshlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot axborot-konfrontatsiya sharoitida yuzaga kelayotgan mazkur zaiflik nuqtalari mutlaq va qaytarib bo‘lmas hodisa emasligini ham asoslab berdi. Yoshlar ongida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, axborot madaniyatini yuksaltirish va barqaror qadriyatlar tizimini shakllantirish orqali mazkur zaifliklarni kamaytirish imkoniyati mavjud. Bu jarayonda ta’lim-tarbiya tizimi, ma’naviy-ma’rifiy muhit va ijtimoiy institutlarning o‘zaro uyg‘un faoliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, axborot-konfrontatsiya sharoitida yoshlar ongidagi zaiflik nuqtalarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish zamonaviy jamiyatning ma’naviy xavfsizligi va ijtimoiy barqarorligini ta’minlash nuqtayi nazaridan dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijalari yoshlar siyosati, ta’lim strategiyalari va axborot xavfsizligi konsepsiyalarini ishlab chiqishda nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021. - B. 464.
2. “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” (расмий нашр) - Тошкент: “Адолат”, 2022. - Б. 26-30.
3. Кастельс М. Власть коммуникации. - Москва: Издательский дом Высшей школы экономики, 2016. - С. 608.
4. Фромм Э. Здоровое общество. - Москва: АСТ, 2019. - С. 352.
5. Бодрийяр Ж. Прозрачность зла. Очерки об экстремальных феноменах. - Москва: Добросвет, 2017. - С. 192.
6. Фуко М. Надзирать и наказывать. Рождение тюрьмы. - Москва: АСТ, 2020. - С. 416.
7. Бауман З. Идентичность. - Москва: Логос, 2018. - С. 168.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Xalilov Aminjon Nabijonovich**
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi
e-mail: xalilov_aminjon_fsu@mail.ru

## O‘ZBEKISTON YANGI TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA IJTIMOIY TADBIRKORLIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING FALSAFIY XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya**: Ushbu ilmiy maqola O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi doirasida ijtimoiy tadbirkorlik fenomenining falsafiy mohiyatini ochib berishga bag‘ishlangan. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy tadbirkorlik jamiyat hayotida faqat iqtisodiy foyda keltiruvchi faoliyat shakli emas, balki ijtimoiy mas’uliyat, inson qadr-qimmati va adolat tamoyillariga tayangan ijtimoiy hodisa sifatida talqin etilgan. Maqolada ijtimoiy tadbirkorlikning strategik taraqqiyot hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalar bilan uzviy aloqasi falsafiy-nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Xususan, uning jamiyatda ijtimoiy tenglikni mustahkamlash, aholi bandligini kengaytirish va ijtimoiy muammolarni innovatsion yo‘llar bilan hal etishdagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqot natijalari ijtimoiy tadbirkorlikni O‘zbekiston sharoitida jamiyatni yangilash, ijtimoiy birdamlikni kuchaytirish va barqaror taraqqiyotga erishishning muhim falsafiy asoslaridan biri sifatida anglash zarurligini asoslaydi.*

***Kalit so‘zlar:** ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy-falsafiy yondashuv, ijtimoiy adolat, inson manfaatlari, ijtimoiy mas’uliyat, barqaror rivojlanish, jamiyatni modernizatsiyalash, ijtimoiy integratsiya.*

**Халилов Аминджан Набижанович**
Соискатель Ферганского государственного университета

## ФИЛОСОФСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В НОВОЙ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

***Аннотация**: Настоящая научная статья посвящена раскрытию философской сущности феномена социального предпринимательства в рамках новой стратегии развития Узбекистана. В ходе исследования социальное предпринимательство интерпретируется не только как форма деятельности, направленная на получение экономической выгоды, но и как социальное явление, основанное на принципах социальной ответственности, человеческого достоинства и справедливости. В статье на основе философско-теоретических подходов анализируется взаимосвязь социального предпринимательства с приоритетными задачами, определёнными в стратегических документах развития. В частности, раскрывается его роль в укреплении социальной справедливости, расширении занятости населения и решении социальных проблем инновационными способами. Результаты исследования обосновывают необходимость понимания социального предпринимательства в условиях Узбекистана как одного из важных философских оснований обновления общества, усиления социальной солидарности и достижения устойчивого развития.*

***Ключевые слова:** социальное предпринимательство, социально-философский подход, социальная справедливость, интересы человека, социальная ответственность, устойчивое развитие, модернизация общества, социальная интеграция.*

**Xalilov Aminjan Nabijanovich**
Reserсher of Fergana State University

## PHILOSOPHICAL CHARACTERISTICS OF IMPROVING SOCIAL ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN’S NEW DEVELOPMENT STRATEGY

***Annotation:** This scholarly article is devoted to revealing the philosophical essence of the phenomenon of social entrepreneurship within the framework of Uzbekistan’s new development strategy. In the course of the study, social entrepreneurship is interpreted not only as a form of activity aimed at generating economic profit, but also as a social phenomenon grounded in the principles of social responsibility, human dignity, and justice. Using philosophical and theoretical approaches, the article analyzes the close connection between social entrepreneurship and the priority objectives defined in strategic development documents. In particular, it highlights the role of social entrepreneurship in strengthening social equity, expanding employment opportunities, and addressing social problems through innovative means. The findings of the study substantiate the necessity of understanding social*

*entrepreneurship in the context of Uzbekistan as one of the key philosophical foundations for social renewal, the enhancement of social solidarity, and the achievement of sustainable development.*

***Key words:*** *social entrepreneurship, socio-philosophical approach, social justice, human interests, social responsibility, sustainable development, modernization of society, social integration.*

## KIRISH

Bugungi O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jamiyatni barqaror rivojlantirish bilan bir qatorda, inson manfaatlari va ijtimoiy adolat masalalarini markazga olib chiqmoqda. Zamonaviy taraqqiyot jarayonlari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘sishning o‘zi jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni to‘liq bartaraf eta olmaydi. Shu sababli iqtisodiy samaradorlikni ijtimoiy mas’uliyat va insonparvarlik tamoyillari bilan uyg‘unlashtiruvchi yondashuvlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida jamiyatni yangilash va modernizatsiyalash jarayonida inson omili, fuqarolarning faol ishtiroki hamda ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiy mexanizmlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur strategik yondashuvda aholi bandligini kengaytirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta’minlash ustuvor vazifalar sifatida belgilanadi. Bu jarayonda ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy muammolarni innovatsion va barqaror usullar orqali hal etishga qaratilgan muhim faoliyat shakli sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zero, “Islohotlarimizning bosh maqsadi - inson manfaatlarini ta’minlash, jamiyatda adolat va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdan iboratdir” [2. 464.]. Mazkur strategik yondashuv jamiyat taraqqiyotida inson manfaatlarini markazga qo‘yuvchi ijtimoiy-falsafiy paradigmani ifodalaydi. Aholi bandligini kengaytirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish orqali ijtimoiy tenglikni ta’minlash jamiyatni faqat iqtisodiy tizim sifatida emas, balki adolat va hamjihatlikka asoslangan yaxlit ijtimoiy makon sifatida talqin etishga xizmat qiladi. Shu jarayonda ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy muammolarni mas’uliyatli va innovatsion yo‘llar bilan hal etuvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘lib, islohotlarning insonparvar mazmunini amaliy jihatdan ro‘yobga chiqaradi. Natijada iqtisodiy samaradorlik ijtimoiy adolat va barqarorlik bilan uyg‘unlashib, jamiyatni barqaror rivojlantirishning falsafiy asoslari mustahkamlanadi.

Ijtimoiy tadbirkorlik mohiyatan iqtisodiy tashabbus va ijtimoiy qadriyatlarning uyg‘unlashuviga asoslanadi. U foyda olishni asosiy maqsad qilib qo‘ymasdan, jamiyatdagi muayyan ijtimoiy muammolarni yumshatish, aholi farovonligini oshirish va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, ijtimoiy tadbirkorlikni faqat iqtisodiy faoliyat shakli sifatida emas, balki ijtimoiy adolat, inson qadr-qimmati va ijtimoiy mas’uliyat g‘oyalariga tayangan falsafiy hodisa sifatida tahlil qilish zarurati yuzaga keladi. Diz ijtimoiy tadbirkorlikning mohiyatini foyda emas, balki ijtimoiy muammoni hal etishga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida quyidagicha ta’riflaydi: “Ijtimoiy tadbirkorlar ijtimoiy sohada o‘zgarishlar yaratuvchi subyektlar sifatida faoliyat yuritib, shaxsiy (xususiy) manfaatlargina emas, balki ijtimoiy qiymatni yaratish va uni barqaror saqlashni o‘z oldilariga asosiy maqsad qilib qo‘yadilar” [3. 6.]. Mazkur jumla ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy maqsadi iqtisodiy foyda emas, balki ijtimoiy qiymat yaratish ekanini aniq ko‘rsatadi.

Zamonaviy global taraqqiyot tajribasi ham ijtimoiy tadbirkorlikni barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy muammolarni bozor mexanizmlari orqali hal etish, davlat va xususiy sektor imkoniyatlarini uyg‘unlashtirish hamda fuqarolik jamiyati institutlarini faollashtirish ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatining asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Bu holat ijtimoiy tadbirkorlikning nafaqat amaliy, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega ekanini anglatadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarida ijtimoiy muammolarni hal etishda xususiy tashabbus va ijtimoiy innovatsiyalarning o‘rni alohida qayd etiladi. Xususan, kambag‘allikni qisqartirish, munosib mehnatni ta’minlash va ijtimoiy tenglikni mustahkamlash ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati bilan bevosita bog‘liq: “Xususiy biznes faoliyati, investitsiyalar va innovatsiyalar samaradorlikni oshirish, inklyuziv iqtisodiy o‘sish hamda ish o‘rinlarini yaratishning asosiy harakatlantiruvchi omillari hisoblanadi” [5. 47.]. Bu maqsad ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri - kambag‘allikni kamaytirish bilan bevosita mos keladi.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi doirasida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasini falsafiy jihatdan o‘rganish dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat faoliyatining asosiy maqsadi xalq manfaatlariga xizmat qilish ekani belgilangan bo‘lib, bu ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiy tashabbuslarni rivojlantirishning normativ asosini tashkil etadi: “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi” [1. 4.]. Mazkur konstitutsiyaviy tamoyil ijtimoiy tadbirkorlikni jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi faoliyat shakli sifatida rivojlantirishning falsafiy-huquqiy asosini mustahkamlaydi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi ijtimoiy tadbirkorlikning strategik taraqqiyot hujjatlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar bilan o‘zaro bog‘liqligini ochib berish, uning ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish g‘oyalari bilan falsafiy uyg‘unligini asoslashdan iboratdir. Tadqiqot natijalari ijtimoiy tadbirkorlikni O‘zbekiston sharoitida jamiyatni yangilash va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashning muhim nazariy omili sifatida anglashga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatda iqtisodiy faoliyat va ijtimoiy mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi muhim institut sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv doirasida ijtimoiy tadbirkorlik an'anaviy tadbirkorlikdan asosiy maqsadi bilan farqlanib, foyda olishdan ko'ra ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan faoliyat shakli sifatida izohlanadi. Bu konsepsiya eng avvalo J.G.Diz tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Ijtimoiy tadbirkorlarning jamiyatdagi o'rnini ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshiruvchi faol subyekt sifatida belgilab, ularning missiyasi ijtimoiy qiymat yaratish va uni barqaror saqlashdan iborat ekanini ta'kidlaydi. Mashhur ijtimoiy tadbirkorlik nazariyotchisi Muhammad Yunus ijtimoiy tadbirkorlikning mohiyatini quyidagicha ta'riflaydi: "Ijtimoiy biznes - bu ijtimoiy muammoni hal etish uchun yaratilgan va shu maqsadda loyihalashtirilgan biznes bo'lib, u foydani maksimal darajada oshirish tamoyiliga asoslanmaydi" [4. 22.]. Ushbu iqtibos Diz fikri bilan bevosita uyg'un bo'lib, ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy maqsadi xususiy foyda emas, balki ijtimoiy muammoni hal etish va ijtimoiy qiymat yaratish ekanini tasdiqlaydi. Farqi shundaki, Yunus bu g'oyani "Ijtimoiy biznes" tushunchasi orqali institutsional darajada ifodalaydi. Shu jihatdan, ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatni yangilashga qaratilgan ijtimoiy transformatsiyaning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy tadbirkorlikning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni xalqaro miqyosda ham e'tirof etilgan. Xususan, United Nations tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish kun tartibi - 2030 hujjatida xususiy tashabbus va innovatsiyalarning inklyuziv iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlashdagi ahamiyati alohida qayd etiladi: "Barqaror, inklyuziv va uzluksiz iqtisodiy o'sishni, to'liq va samarali bandlikni hamda barcha uchun munosib mehnatni rag'batlantirish" [5. 55.]. Mazkur iqtibos ijtimoiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi rolini nazariy jihatdan asoslaydi. Shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlarida kambag'allikni qisqartirish (SDG 1), munosib mehnat va bandlikni ta'minlash (SDG 8) hamda ijtimoiy tenglikni mustahkamlash (SDG 10) vazifalari ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati bilan bevosita uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Bu holat ijtimoiy tadbirkorlikni global miqyosda ijtimoiy adolat va inson manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan muhim ijtimoiy hodisa sifatida ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot kompleks ijtimoiy-falsafiy metodologiya asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning birinchi bosqichida kontseptual-tahliliy metod qo'llanilib, ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasining mazmuni, uning iqtisodiy va ijtimoiy komponentlari falsafiy jihatdan tahlil qilindi. Ushbu metod ijtimoiy tadbirkorlikni jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida muhim ijtimoiy institut sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Ikkinchi bosqichda aksiologik yondashuv asosida ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatining qadriyatli asoslari - ijtimoiy adolat, inson qadr-qimmati, ijtimoiy mas'uliyat va barqaror rivojlanish tamoyillari o'rganildi. Bu yondashuv ijtimoiy tadbirkorlikning falsafiy mohiyatini ochib berishda metodologik tayanch vazifasini bajardi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy metoddan foydalanilib, ijtimoiy tadbirkorlikka doir xalqaro nazariy yondashuvlar O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlar bilan solishtirildi. Ushbu metod ijtimoiy tadbirkorlikning milliy taraqqiyot modelidagi o'rnini aniqlash va uning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini asoslash imkonini berdi. Qo'llangan metodlar majmuasi ijtimoiy tadbirkorlikni O'zbekiston sharoitida nafaqat iqtisodiy mexanizm, balki jamiyatni yangilash, ijtimoiy birdamlikni kuchaytirish va barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida yoritishga imkon berdi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi doirasida ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatni barqaror rivojlantirishga qaratilgan muhim ijtimoiy-falsafiy mexanizm sifatida shakllanmoqda. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, mazkur strategiyada ijtimoiy tadbirkorlik faqat iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy adolat, inson manfaatlari va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi faoliyat shakli sifatida talqin etiladi.

Tadqiqot natijalari ijtimoiy tadbirkorlikning strategik hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalar - aholi bandligini kengaytirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi. Ushbu jarayonda ijtimoiy tadbirkorlik davlat va bozor mexanizmlari o'rtasida muvozanatni ta'minlovchi ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lib, ijtimoiy muammolarni innovatsion va barqaror usullar orqali hal etish imkonini beradi. Bu holat ijtimoiy tadbirkorlikning jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishdagi rolini yanada oshiradi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tadbirkorlikning falsafiy mohiyati uning iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlar uyg'unligiga asoslanganligida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatida foyda olish ikkilamchi ahamiyat kasb etib, asosiy e'tibor ijtimoiy qiymat yaratish va uni barqaror saqlashga qaratiladi. Shu jihatdan, ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatda inson qadr-qimmatini yuksaltirish, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va barqaror rivojlanishga erishishning muhim falsafiy asoslaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muhim jihatlardan biri shundan iboratki, ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanishi jamiyatda davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. Bu hamkorlik ijtimoiy muammolarni markazlashgan boshqaruv orqali emas, balki quyi darajadagi tashabbuslar va innovatsion yechimlar orqali hal etish imkonini beradi. Natijada jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiluvchi yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanadi.

Shuningdek, muhokama natijalari ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida uning falsafiy asoslarini e’tiborga olish zarurligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy tadbirkorlikni faqat huquqiy yoki iqtisodiy mexanizmlar orqali qo‘llab-quvvatlash yetarli emas, balki uni jamiyatda ijtimoiy mas’uliyat, axloqiy qadriyatlar va insonparvarlik tamoyillari bilan uyg‘un holda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda, ijtimoiy tadbirkorlik o‘zining ijtimoiy mohiyatini yo‘qotib, an’anaviy biznes faoliyatidan farq qilmaydigan shaklga aylanib qolishi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi doirasida ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatni modernizatsiyalash, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va barqaror rivojlanishga erishishning muhim ijtimoiy-falsafiy omili ekanini asoslaydi. Ushbu xulosalar ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida uning chuqur falsafiy mohiyatini anglash va amaliy siyosat bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

## XULOSA

Mazkur ilmiy tadqiqot natijalari O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi doirasida ijtimoiy tadbirkorlik jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-falsafiy omili sifatida shakllanayotganini ko‘rsatdi. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, ijtimoiy tadbirkorlik faqat iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga qaratilgan faoliyat shakli emas, balki inson manfaatlari, ijtimoiy adolat va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillariga tayangan kompleks ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu jihatdan, u jamiyatni barqaror rivojlantirish va ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim falsafiy mazmunga ega.

Tadqiqot davomida ijtimoiy tadbirkorlikning yangi taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar - aholi bandligini kengaytirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berildi. Ushbu jarayonda ijtimoiy tadbirkorlik davlat, bozor va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlovchi mexanizm sifatida maydonga chiqib, ijtimoiy muammolarni innovatsion va barqaror usullar orqali hal etish imkonini yaratadi. Bu holat jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasining shakllanishi va ijtimoiy integratsiyaning kuchayishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ijtimoiy tadbirkorlikning falsafiy mohiyati uning iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlar uyg‘unligiga asoslanganida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatida foyda olish ikkilamchi ahamiyat kasb etib, asosiy e’tibor ijtimoiy qiymat yaratish va uni barqaror saqlashga qaratiladi. Bu yondashuv jamiyatda inson qadr-qimmatini yuksaltirish, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va barqaror rivojlanishga erishishning muhim falsafiy asoslarini shakllantiradi.

Tadqiqot xulosalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida uning falsafiy asoslarini e’tiborga olish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tadbirkorlikni faqat huquqiy yoki iqtisodiy mexanizmlar orqali qo‘llab-quvvatlash yetarli bo‘lmay, uni axloqiy qadriyatlar, insonparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillari bilan uyg‘un holda rivojlantirish zarur. Aks holda, ijtimoiy tadbirkorlik o‘zining ijtimoiy mohiyatini yo‘qotishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur ilmiy maqola O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi doirasida ijtimoiy tadbirkorlikni jamiyatni modernizatsiyalash, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va barqaror rivojlanishga erishishning muhim ijtimoiy-falsafiy asosi sifatida baholash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan siyosiy va amaliy choralarni ishlab chiqishda uning chuqur falsafiy mohiyatini inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: Adliya, 2023. - B. 152.
2. Мирзиёев Ш.М. Стратегия развития Нового Узбекистана. - Ташкент: Узбекистан, 2021. - С. 464.
3. Диз Г.Дж. Смысл социального предпринимательства. - Москва: перев. и аналитическое издание, 2014. - С. 48.
4. Юнус Мухаммад. Создавая мир без бедности: Социальный бизнес и будущее капитализма. (пер. с англ. И.В.Савельева) - Москва: ЦИПСиР, 2010. - С. 307.
5. United Nations. Transforming our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development, 2015. - P. 67.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Djavotova Marjona Djamolovna**
Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

## RAHBAR KADRLAR AXLOQIY MADANIYATINING NAZARIY-ASOSIY MASALALARI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola rahbar kadrlarning axloqiy madaniyatini shakllantirish masalalari haqida batafsil ma'lumot beradi. Shuningdek, rahbarlik lavozimlarida axloqiy madaniyatning ahamiyati, shuningdek, rahbarlarning xatti-harakatlariga ta'sir etuvchi asosiy axloqiy tamoyillarni ochib beradi. Axloqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish turli sohalarda rahbarlarning samarali faoliyati uchun zarur shart ekanligi ta'kidlanadi.*

***Kalit so'zlar:*** *rahbar kadrlar, axloqiy madaniyat, qaror qabul qilish, xizmat etikasi, ijtimoiy mas'uliyat.*

**Джавотова Маржона Джамоловна**
Научный сотрудник Самаркандского государственного института иностранных языков

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ОСНОВНЫЕ ВОПРОСЫ МОРАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ РУКОВОДЯЩЕГО ПЕРСОНАЛА

***Аннотация.*** *Данная статья посвящена вопросам формирования этической культуры руководителей. Автор подробно рассматривает значение этической культуры в управленческой деятельности, раскрывает основные принципы, влияющие на поведение руководителей. Подчеркивается необходимость развития этической культуры для эффективной деятельности руководителей в различных сферах.*

***Ключевые слова:*** *руководящие кадры, этическая культура, принятие решений, служебная этика, социальная ответственность.*

**Marzhona Dzhamalovna Dzhavotova**
Researcher at the Samarkand State Institute of Foreign Languages

## THEORETICAL AND BASIC ISSUES OF THE MORAL CULTURE OF MANAGEMENT PERSONNEL

***Abstract.*** *This article provides detailed information on the issues of forming an ethical culture among leaders. The author examines the importance of ethical culture in management activities, revealing the main principles that influence the behavior of leaders. It is emphasized that the development of ethical culture is a necessary condition for effective performance by leaders in various fields.*

***Keywords:*** *leadership personnel, ethical culture, decision-making, professional ethics, social responsibility.*

Axloq jamiyat hayotining eng muhim ma'naviy-me'yoriy tizimlaridan biri bo'lib, u insonlarning xulq-atvori, o'zaro munosabatlari va ijtimoiy faoliyatini tartibga soladi. Ayniqsa rahbar kadrlar faoliyatida axloqiy madaniyat masalasi alohida dolzarblik kasb etadi, chunki rahbar shaxs jamiyat uchun nafaqat boshqaruvchi, balki axloqiy namuna vazifasini ham bajaradi. Rahbarning axloqiy madaniyati uning qaror qabul qilish jarayoni, odamlar bilan munosabati, xizmat etikasi va ijtimoiy mas'uliyatida namoyon bo'ladi. Shu bois axloq va axloqiy madaniyat tushunchalarining mohiyatini chuqur anglash rahbar kadrlar tayyorlash tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Axloq (yunoncha *ethos* - urf-odat, xulq-atvor) jamiyatda tarixan shakllangan me'yorlar, qadriyatlar va qoidalar majmuasidir. Axloq inson xatti-harakatlarini "yaxshi" va "yomon", "joiz" va "nojoiz" mezonlari orqali baholaydi. Axloqiy me'yorlar qonunlardan farqli ravishda majburiy jazoga emas, balki vijdon, ijtimoiy fikr va ma'naviy javobgarlikka tayanadi.

Jamiyat taraqqiyoti davomida axloq: insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi vosita, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi omil, shaxs kamolotini belgilovchi mezon sifatida shakllanib kelgan. Rahbar shaxs faoliyatida axloq faqat shaxsiy fazilat emas, balki kasbiy zaruratga aylanadi.

Axloqiy madaniyat - bu shaxsning axloqiy bilimlari, e'tiqodlari, qadriyatlari va amaliy xulq-atvorining uyg'un tizimidir. U insonning axloqiy me'yorlarni qanchalik chuqur anglagani va ularni real hayotda qanday qo'llashida namoyon bo'ladi.

Axloqiy madaniyat quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat: axloqiy ong (axloqiy tushunchalar va bilimlar), axloqiy e'tiqod (ichki ishonch va qadriyatlar), axloqiy xulq-atvor (amaliy faoliyat), axloqiy mas'uliyat (qarorlar uchun javobgarlik). Rahbar kadrlar uchun ushbu tarkibiy qismlarning barchasi yuqori darajada rivojlangan bo'lishi zarur. Rahbar axloqiy madaniyati oddiy fuqarolar axloqiy madaniyatidan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Avvalo, rahbar faoliyati jamoatchilik nazorati ostida bo'ladi. Uning har bir qarori, xatti-harakati va hatto shaxsiy muomalasi ham ijtimoiy baholanadi. Rahbar axloqiy madaniyatiga quyidagi xususiyatlar xos: halollik va vijdonlilik; adolat va xolislik; mas'uliyat va intizom; insonparvarlik va bag'rikenglik; xizmat burchiga sadoqat. Bu fazilatlar rahbar obro'sini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. [1,2].

Rahbarning axloqiy madaniyati boshqaruv samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Axloqiy yetuk rahbar:

-jamoada sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit yaratadi;

-ishonch va ochiqlik tamoyillarini mustahkamlaydi;

-korrupsiya va mansab suiiste'molligining oldini oladi;

-fuqarolarning davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Shu bois axloqiy madaniyat rahbar kadrlar tayyorlash va baholashning muhim mezoni sifatida qaralishi lozim.

Ta'kidlash zarurki axloqiy madaniyat jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanib kelgan ijtimoiy hodisadir. Insoniyat tarixining dastlabki bosqichlarida axloqiy me'yorlar urf-odatlar, an'analar va diniy e'tiqodlar orqali tartibga solingan. Jamiyat murakkablashgani sari axloqiy madaniyat ham mazmunan boyib, ijtimoiy munosabatlarning muhim regulyatori sifatida shakllandi.

Qadimgi Sharq va G'arb mutafakkirlari axloq masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Masalan, Aristotel axloqni shaxs kamolotining asosiy mezoni sifatida baholagan bo'lsa, Sharq mutafakkirlari axloqni jamiyat barqarorligining negizi deb hisoblaganlar. Axloqiy madaniyat shaxsning faqat ichki dunyosini emas, balki uning ijtimoiy mas'uliyatini ham ifodalovchi tushuncha sifatida rivojlangan.

Sharq mutafakkirlari ijodida axloqiy madaniyat masalasi markaziy o'rinni egallaydi. Abu Nasr Forobiy ta'limotida rahbar shaxsning axloqiy yetukligi jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, rahbar aql-zakovat, adolat va ma'naviy poklikka ega bo'lishi lozim. Alisher Navoiy asarlarida ham rahbar axloqi masalasi keng yoritilgan. U adolatli hukmdorni xalq farovonligining kafolati sifatida ko'rsatadi. Navoiy nazarida rahbarning axloqiy madaniyati uning xalq oldidagi mas'uliyati bilan bevosita bog'liq. [3,4].

Bu qarashlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, zamonaviy rahbar kadrlar tayyorlash tizimida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Rahbarlik institutining shakllanishi bilan axloqiy madaniyatning rahbar shaxs faoliyatidagi o'rni yanada ortdi. Tarixda axloqiy yetuk rahbarlar jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan, axloqiy inqiroz esa boshqaruv tizimining izdan chiqishiga olib kelgan.

Axloqiy madaniyat milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligida shakllanadi. Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari va madaniy merosi bilan bog'liq bo'lsa, umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyat uchun mushtarak bo'lgan axloqiy me'yorlarni o'z ichiga oladi.

O'zbek xalqining axloqiy qadriyatlariga: kattalarga hurmat; halollik va vijdonlilik; mehmondo'stlik; bag'rikenglik; jamoaviylik kabi fazilatlar xosdir. Rahbar shaxsi ushbu milliy qadriyatlarni umuminsoniy tamoyillar - adolat, inson huquqlarini hurmat qilish, qonun ustuvorligi bilan uyg'un holda amalga oshirishi lozim. O'zbekistonda rahbar kadrlarning axloqiy madaniyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Halollik, ochiqlik va mas'uliyat tamoyillari davlat boshqaruvida muhim mezon sifatida belgilanmoqda. Rahbar kadrlarning axloqiy madaniyatini oshirish orqali: jamiyatda korrupsiyaga qarshi immunitet shakllanadi; davlat va xalq o'rtasidagi ishonch mustahkamlanadi; boshqaruv tizimining samaradorligi ortadi.

Shu bois axloqiy madaniyat rahbar shaxsning professional kompetensiyasi bilan bir qatorda baholanishi zarur.

Axloqiy madaniyat rahbar xodimlarning o'ziga xos xususiyatidir, bu xususiyat ularning shaxsiy fazilatlari, axloqiy qadriyatlari, xatti-harakatlari va ish uslublarini qamrab oladi. Axloqiy madaniyat jamiyatda qabul qilingan me'yorlar asosida shakllanib boradi va ushbu me'yorlarga muvofiq qaror qabul qilishni talab qiladi. Rahbarning axloqiy madaniyati tashkilotning umumiy imidji, ishonch darajasi va xodimlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Rahbar kadrlar axloqiy madaniyatining nazariy asoslari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Xalqqa xizmat koʻrsatish va davlat manfaatlarini himoya qilish. Xalqparvarlik ruhi rahbarning har bir qarorida ifodalanishi lozim boʻlib, uning faoliyati xalq manfaatiga qaratilgan boʻlishi kerak.

Ijtimoiy adolat va qonuniylikni taʼminlash. Axloqiy jihatdan toʻgʻri qaror qabul qilish huquqi faqatgina qonuniy yoʻllar bilan amalga oshirilishi zarur.

Maʼnaviyat va maʼnaviy qadriyatlarni mustahkamlash. Tashkilotlar ichida yuqori darajadagi axloqiy muhit yaratish maqsadida maʼnaviyat, madaniyat va qadriyatlar targʻib qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Tashkilot ichidagi etikaning mustahkamlanishi. Tashkilot aʼzolari oʻrtasida axloqiy munosabatlarni oʻrnatish rahbarning shaxsiy misolidan kelib chiqadi.

Professional faoliyatdagi adolat va burch hissiyotining mavjudligi. Xodimlar oʻrtasida tenglik, adolat va haqqoniyat tamoyillari joriy etilishi rahbar kadrlarning etika madaniyati darajasini belgilovchi omillardan biridir. [5,6].

Rahbar kadrlarning axloqiy madaniyati quyidagi jihatlarda namoyon boʻladi:

Amaliyotga asoslangan qaror qabul qilishda. Eng avvalo, rahbar oʻz qarorlarini jamoatchilik manfaati va huquqiy meʼyorlarga mos ravishda qabul qilishi lozim.

Ishchilar bilan munosabatlarda. Boshqaruvchining odob-axloq qoidalariga rioya etishi va oʻz xizmat vazifalarini yuksak darajada bajarishi xodimlar tomonidan hurmatga sazovor boʻladi.

Jamoa aʼzolari orasida ijobiy taʼsir koʻrsatish. Yaxshi axloqiy namunani koʻrsatgan rahbar xodimlar oʻrtasida jamoa ruhini koʻtarilishiga hissa qoʻshadi.

Jamoada mavjud muammolarni hal qilishda. Xodimlarning muammolarini hal etish uchun masʼuliyatli yondashuvni qoʻllash muhim ahamiyatga ega.

Tadbirkorlik va tashabbuskorlikda. Innovatsion gʻoyalarni ilgari surish va loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini taʼminlovchi rahbar qatʼiy axloqiy standartlarga amal qilishi lozim.

Shu sababli rahbar kadrlarning axloqiy madaniyati yuqori sifat darajasiga erishish uchun zarur jarayon hisoblanadi. Axloqiy madaniyat rahbar xodimlarning shaxsiy fazilatlari va mehnat intizomini mustahkamlaydi, natijada tashkilotning samaradorligi ortadi va uning raqobatbardoshligini oshiradi. [8,10].

Rahbar kadrlarning axloqiy madaniyati tasodifiy tarzda emas, balki muayyan omillar taʼsirida shakllanadi. Ushb uomillarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1.Ijtimoiy omillar – jamiyatda hukm surayotgan axloqiy muhit, ijtimoiy adolat darajasi, qonun ustuvorligi.

2.Taʼlim-tarbiya omillari – oila, maktab, oliy taʼlim muassasalari va malaka oshirish tizimining taʼsiri.

3.Kasbiy omillar – xizmat faoliyati, boshqaruv tajribasi, jamoa bilan ishlash koʻnikmalari.

4.Shaxsiy omillar – vijdon, masʼuliyat hissi, oʻz-oʻzini nazorat qilish qobiliyati.

Mazkur omillarning uygʻunligi rahbar shaxsning axloqiy madaniyatini barqaror va izchil rivojlanishini taʼminlaydi.

Rahbarning axloqiy madaniyati uning ijtimoiy masʼuliyati bilan chambarchas bogʻliqdir. Ijtimoiy masʼuliyat rahbarning jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qoʻyishi, qaror qabul qilishda inson omilini hisobga olishini anglatadi.

**Xulosa.** Axloq va axloqiy madaniyat tushunchalarining mohiyati shuni koʻrsatadiki, rahbar kadrlar faoliyatida axloqiy madaniyat hal qiluvchi ahamiyatga ega. U rahbarning shaxsiy fazilatlari, kasbiy faoliyati va ijtimoiy masʼuliyatini oʻzida mujassam etadi. Axloqiy yetuk rahbar jamiyatda ishonch muhitini shakllantiradi, boshqaruv samaradorligini oshiradi va ijtimoiy barqarorlikni taʼminlaydi. Shu sababli rahbar kadrlarni tayyorlash va baholash tizimida axloqiy madaniyat masalasiga ustuvor eʼtibor qaratish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Brown, L., & Trevino, L. K. (2018). Ethical Leadership. Cambridge University Press.

2. Ciulla, J. B. (Ed.). (2004). The Ethics of Leadership. Wadsworth Publishing Company.

3. De Hoogh, A. H. B., & Den Hartog, D. N. (2008). Ethical and unethical leadership: Exploring followers' perceptions of their leader's integrity. Journal of Business Ethics, 83(3), 457-470.

4. Forsyth, D. R. (2019). Group Dynamics (7th ed.). Cengage Learning.

5. Gronn, P. (2002). Distributed leadership as a unit of analysis. Leadership Quarterly, 13(4), 423-451.

6. Joseph, C. L., & Lewis, P. (Eds.) (2015). Handbook of Research on Public Administration Ethics. Edward Elgar Publishing.

7. Yukl, G. (2013). Leadership in Organizations (8th ed.). Pearson Education.

8. Zey-Ferrell, M., Fritzsche, D. J., & Ferrell, O. C. (2015). Managing business ethics: Straight talk about how to do it right. John Wiley & Sons.

9. Арипова Ф.М. (2017). Раҳбар кадрларнинг ахлоқий маданияти масалалари. // ЎзМУ хабарлари. №2. Б. 125-130.

10. Жўрабоев О.А. (2019). Ахлоқ ва бошқарувнинг ўзаро боғлиқлиги. Тошкент: Ўқитувчи.
11. Махмудов Н.Х. (2018). Бошқарув психологияси асослари. Самарқанд: СамДУ босмахонаси.
12. Раҳимов Т.Р. (2019). Амалий бошқарувга кириш. Тошкент: Ўзбекистон миллий университети.
13. Холиқов Д.Қ. (2018). Раҳбар кадрлар ахлоқининг таҳлили ва истиқболлари. Тошкент: Янги аср авлоди.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Ergashev Tursunboy Ilkhomjonovich**
Independent researcher of the National University of Uzbekistan
Email: ergashevbahodir44@gmail.com

## MILITARY CULTURE OF YOUTH AS AN ELEMENT OF THE PHILOSOPHY OF SOCIAL SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE STATE

***Abstract:*** *In the context of increasing global instability, hybrid threats, and transformation of value systems, the issue of military culture among youth acquires particular philosophical and socio-political significance. Military culture, understood not merely as a system of military knowledge and skills, but as a complex of moral values, civic responsibility, historical consciousness, and readiness for social service, becomes an essential element of sustainable state development. This article examines the military culture of youth as a structural component of the philosophy of social sustainable development. The research substantiates that a mature military culture contributes to social cohesion, national resilience, continuity of statehood, and the formation of responsible citizenship.*

***Keywords:*** *military culture, youth, sustainable development, social philosophy, national security, civic identity, state resilience.*

**Ergashev Tursunboy Ilxomjonovich**
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

## YOSHLAR HARBIY MADANIYATI ELEMENTI SIFATIDA DAVLATNING IJTIMOIY BAQARAR RIVOJLANISH FALSAFASI.

***Annotatsiya:*** *Global beqarorlikning kuchayishi, gibrid tahdidlar va qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar sharoitida yoshlar o'rtasida harbiy madaniyat masalasi alohida falsafiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega. Harbiy madaniyat deganda nafaqat harbiy bilim va malakalar tizimi, balki ma'naviy qadriyatlar, fuqarolik mas'uliyati, tarixiy ong va ijtimoiy xizmatga tayyorlik majmui tushuniladi va davlat barqaror rivojlanishining muhim elementiga aylanadi. Ushbu maqolada yoshlarning harbiy madaniyati ijtimoiy barqaror rivojlanish falsafasining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqiladi. Harbiy madaniyatning etukligi jamiyat hamjihatligi, milliy barqarorlik, davlatchilik barqarorligi, fuqarolik mas'uliyati tuyg'usini shakllantirishga xizmat qilishini tadqiqotlar tasdiqlaydi.*

***Kalit so'zlar:*** *harbiy madaniyat, yoshlar, barqaror rivojlanish, ijtimoiy falsafa, milliy xavfsizlik, fuqarolik o'ziga xosligi, davlat barqarorligi.Introduction*

**Эргашев Турсунбой Ильхомжонович**
Независимый исследователь Национального университета Узбекистана

## МОЛОДЕЖЬ КАК ЭЛЕМЕНТ ВОЕННОЙ КУЛЬТУРЫ: ФИЛОСОФИЯ СОЦИАЛЬНО-УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ГОСУДАРСТВА.

***Аннотация:*** *В условиях растущей глобальной нестабильности, гибридных угроз и изменений в системе ценностей вопрос военной культуры среди молодежи приобретает особое философское и социально-политическое значение. Военная культура понимается не только как система военных знаний и навыков, но и как совокупность духовных ценностей, гражданской ответственности, исторического сознания и готовности к общественному служению, становясь важным элементом устойчивого развития государства. В данной статье рассматривается военная культура молодежи как составляющая философии социально-устойчивого развития. Исследование подтверждает, что зрелость военной культуры способствует формированию чувства социальной сплоченности, национальной стабильности, стабильности государственности и гражданской ответственности.*

***Ключевые слова:*** *военная культура, молодежь, устойчивое развитие, социальная философия, национальная безопасность, гражданская идентичность, стабильность государства.*

The beginning of the twenty-first century is marked by profound transformations in the global system of social, political, and cultural relations. Accelerated globalization, technological progress, intensification of geopolitical competition, and the emergence of non-traditional security threats have significantly altered the conditions of state development. In this context, the issue of sustainability has moved beyond its classical economic and environmental interpretations and has increasingly acquired social, cultural, and axiological dimensions.

Modern states face a paradoxical situation: while material and technological resources continue to expand, social stability and collective cohesion are becoming more fragile. [11, 23] Processes such as value relativism, erosion of historical memory, decline of civic responsibility, and the fragmentation of social identity pose serious challenges to long-term national development. Under these conditions, the sustainability of the state depends not only on institutional efficiency but also on the moral and worldview foundations of society, particularly among the younger generation.

Youth occupies a central position in the reproduction of social systems. It is within youth that future political elites, professional communities, and cultural paradigms are formed. Consequently, the worldview orientations of young people largely determine the trajectory of state development for decades ahead. However, contemporary youth increasingly develops within an environment characterized by information overload, ideological pluralism, and hybrid influence technologies, which often weaken stable civic and national identification.

In this regard, the problem of youth military culture acquires special philosophical significance. Military culture should not be interpreted narrowly as a set of professional defense skills or institutional military practices. [16, 207] In a broader socio-philosophical sense, it represents a system of values, norms, symbols, and behavioral models related to social responsibility, collective security, historical continuity, and the preservation of state sovereignty.

The relevance of military culture among youth is further intensified by the transformation of modern conflicts. Contemporary threats are increasingly asymmetric and multidimensional, encompassing not only armed confrontation but also information warfare, cyber operations, psychological pressure, and ideological manipulation. These forms of confrontation directly target social consciousness, especially that of young people, turning them into a primary object of strategic influence. [12, 108] Under such conditions, the absence of a developed civic and military-value framework increases social vulnerability and weakens national resilience.

Within the philosophy of sustainable development, intergenerational continuity constitutes a fundamental principle. Sustainable development presupposes not only the satisfaction of present needs but also the preservation of social stability, institutional legitimacy, and cultural identity for future generations. From this perspective, youth military culture functions as a mechanism of transmitting fundamental state-forming values from one generation to another, ensuring the continuity of national development.

Despite the growing importance of this issue, military culture is still insufficiently conceptualized within philosophical studies of sustainability. Existing research often examines sustainable development primarily through economic, ecological, or technological lenses, while issues of security culture, civic responsibility, and defense consciousness remain fragmented or treated instrumentally. [13, 194-195] This theoretical gap limits the ability of states to formulate holistic development strategies adapted to contemporary global risks.

Therefore, there is a clear need for a philosophical reinterpretation of youth military culture as an integral component of social sustainable development. Such an approach allows military culture to be understood not as an element of coercion or militarization, but as a form of civic maturity aimed at protecting peace, social order, and constitutional values.

*Theoretical Foundations of Military Culture in Social Philosophy*

The concept of military culture occupies a specific yet insufficiently systematized place within social philosophy. Its theoretical foundations are formed at the intersection of philosophical anthropology, political philosophy, sociology of culture, and security studies. In classical and contemporary thought, military culture has been interpreted not merely as an institutional phenomenon, but as a reflection of deeper social structures, collective values, and historical forms of social organization.

Émile Durkheim's theory of social solidarity provides one of the earliest philosophical premises for understanding military culture. According to Durkheim, society exists through a system of collective representations that regulate individual behavior and ensure social cohesion. [6, 58] From this perspective, military culture functions as a mechanism of collective moral regulation, strengthening what Durkheim termed *moral density*. Military rituals, symbols, and norms act as instruments through which society reinforces discipline, unity, and shared responsibility. However, Durkheim also warned that excessive rigidity of collective norms may suppress individual autonomy. This ambivalence remains central to contemporary debates on military culture. [6, 103]

Max Weber approached the issue from a different analytical angle. In his theory of legitimate domination, Weber emphasized the importance of rational-legal authority and disciplined organization as foundations of modern statehood. [5, 402] Military institutions, in Weber's interpretation, represent the highest form of rationalized discipline, based on

hierarchy, duty, and predictability of action. Military culture, therefore, embodies the rational ethics of responsibility (*Verantwortungsethik*), where individual action is subordinated to collective goals. [5, 637] At the same time, Weber acknowledged the ethical tension between responsibility and personal conviction, implying that military culture must be morally restrained by legal and civic principles.

From the standpoint of political philosophy, Thomas Hobbes regarded security as the primary condition of social order. In *Leviathan*, Hobbes argued that without the capacity for collective defense, society inevitably collapses into a "state of nature". [3, 291] Although Hobbes did not explicitly formulate the concept of military culture, his theory implicitly justifies its necessity as a cultural foundation of political stability. Military culture, in this logic, emerges as a civilizational response to existential insecurity.

In contrast, Immanuel Kant introduced a normative limitation to military logic. While recognizing the necessity of defense, Kant insisted that the ultimate goal of political development should be perpetual peace. [4, 73] For Kant, militarism represented a moral contradiction of enlightenment. Nevertheless, Kant's philosophy does not deny military culture entirely; rather, it demands its subordination to moral law and republican principles. Thus, military culture is legitimate only insofar as it serves peace and legal order, not aggression.

Contemporary social philosophy has further expanded the interpretation of military culture. Michel Foucault analyzed discipline as a form of power embedded in social institutions. From his perspective, military discipline represents a broader model of social regulation that extends into education, bureaucracy, and everyday practices. [18, 246] Foucault's approach problematizes military culture by revealing its potential to produce "docile bodies". [18, 251] However, his analysis also demonstrates that discipline is an inevitable feature of modern society, making the question not whether discipline exists, but how it is ethically and politically governed.

Jürgen Habermas, in turn, emphasized the role of communicative rationality in democratic societies. He expressed skepticism toward militarized forms of social integration, arguing that legitimacy must be grounded in public discourse rather than coercion. [2, 307] From a Habermasian perspective, military culture becomes problematic when it replaces dialogue with command. Yet Habermas does not deny the necessity of defense institutions; instead, he situates them within constitutional democracy, where military culture must remain socially accountable and normatively limited. [2, 334]

In modern security philosophy, scholars such as Barry Buzan and the Copenhagen School introduced the concept of *societal security*, emphasizing identity, values, and social cohesion as key objects of protection. [1, 127] Within this framework, military culture is reinterpreted as a component of societal resilience rather than purely armed capacity. Youth military culture, therefore, becomes a mechanism for preserving collective identity under conditions of hybrid and non-military threats.

Building upon these theoretical perspectives, the author maintains that military culture should be conceptualized not as a manifestation of militarism, but as a form of civic-value consciousness embedded within social philosophy.

*Youth as a strategic subject of sustainable development*

Within contemporary sustainability discourse, youth is increasingly conceptualized not as a passive beneficiary of development policies but as a strategic social subject whose integration determines the long-term stability of the state. This interpretation is particularly relevant for countries with pronounced demographic youth concentration, where the success or failure of development strategies is structurally linked to youth inclusion, employment, education, and civic engagement.

During the period 2020–2025, Uzbekistan has remained one of the youngest societies in Central Asia. According to official statistical data, by 1 January 2025 the population aged 14–30 reached 9.63 million persons, accounting for approximately 25.7% of the total population. [25, 86] Such demographic configuration establishes youth as a decisive structural factor of national development.

From the perspective of social philosophy, this demographic reality transforms youth into a key agent of intergenerational continuity. Sustainable development, understood as the preservation of social stability over time, becomes inseparable from the worldview orientations, civic values, and social integration of this age cohort. A society in which one quarter of the population belongs to youth cannot maintain long-term sustainability without purposeful mechanisms of value reproduction and institutional inclusion.

The empirical dynamics of higher education between 2020 and 2025 demonstrate a significant quantitative expansion. The number of students enrolled in higher education institutions increased steadily, reaching more than 1.43 million students in the 2024/2025 academic year. [10, 19] This growth reflects a strategic orientation toward human capital development as a central pillar of national modernization.

In sustainability terms, higher education functions as a long-term investment in adaptive capacity, innovation potential, and administrative effectiveness. However, philosophical analysis suggests that education alone does not automatically translate into social stability. Without corresponding employment opportunities, civic engagement

channels, and value-based orientation, educational expansion may generate relative deprivation and social frustration among educated youth.

Labour-market integration represents one of the most sensitive indicators of sustainable development. Empirical data from the early 2020s reveal that youth unemployment in Uzbekistan remained significantly higher than overall unemployment rates, reflecting structural challenges associated with rapid demographic growth, sectoral transformation, and skills mismatch.

Youth unemployment is not merely an economic variable; it is a socio-philosophical indicator of recognition and inclusion. Employment provides not only income but also social status, institutional trust, and participation in collective life. Prolonged exclusion from the labour market weakens civic identity and increases vulnerability to radical, protest-oriented, or destructive narratives, thereby undermining social sustainability.

A notable empirical trend during 2020–2025 is the sharp increase in self-employment. The number of self-employed individuals expanded from tens of thousands in 2020 to several million by 2024. This structural shift reflects both state-driven formalization policies and adaptive responses of youth to labour-market constraints.

From a sustainability perspective, self-employment represents an ambivalent phenomenon. On the one hand, it reduces open unemployment and enhances economic flexibility. On the other hand, without adequate social protection mechanisms, it may reinforce precarity and weaken long-term social security. For youth, this duality intensifies the importance of non-material stabilizing factors such as civic responsibility, social discipline, and institutional trust.

Between 2020 and 2025, youth policy in Uzbekistan increasingly emphasized employment facilitation, entrepreneurship support, and social inclusion as strategic priorities. Large-scale state programmes targeted youth employment, professional training, and regional development participation. [25, 73]

In philosophical terms, such policies reflect a transition from perceiving youth as a “social risk group” toward recognizing youth as a co-creator of sustainable development. [23, 97] Nevertheless, policy effectiveness ultimately depends on the internalization of values that connect personal success with collective responsibility.

The empirical experience of Uzbekistan during 2020–2025 demonstrates that youth occupies a structurally decisive position in the sustainability architecture of the state. Demographic weight, educational expansion, employment vulnerability, and institutional transformation collectively define youth as a strategic subject of development rather than its peripheral element.

Under these conditions, sustainable development cannot be ensured solely through economic or administrative measures. It requires complementary value-based mechanisms that reinforce social cohesion, resilience, and civic responsibility. Within this framework, youth military culture – understood in its philosophical sense as discipline, social duty, constitutional loyalty, and readiness for collective action – emerges as a mediating factor between socio-economic inclusion and long-term social stability. [24, 107]

Thus, the Uzbek case confirms the broader theoretical proposition that sustainability in modern states is inseparable from the successful integration of youth as both an economic actor and a bearer of state-forming values.

*Military culture in the context of global challenges*

In the twenty-first century, military culture is increasingly shaped by the transformation of global challenges that redefine the very nature of security. Traditional interstate wars are no longer the sole or even dominant form of confrontation. Instead, states face hybrid conflicts, information warfare, cyber threats, terrorism, pandemics, and large-scale humanitarian crises. Under these conditions, military culture evolves from a narrowly professional phenomenon into a broader socio-cultural mechanism of national resilience, integrating the armed forces, civil society, and youth into a unified framework of collective responsibility.

A clear illustration of this transformation can be observed in the experience of the Nordic countries, particularly Finland. For decades, Finland has developed a comprehensive concept of “total defense”, [15, 308] in which military culture extends beyond the armed forces to encompass education, civil preparedness, media responsibility, and psychological resilience. Conscription is combined with strong civic education, and citizens are systematically trained to respond to crises ranging from military threats to cyberattacks and natural disasters. As a result, military culture in Finland functions not as militarization, but as a culture of societal preparedness, which significantly enhances national sustainability under conditions of geopolitical pressure in Northern Europe.

A different yet equally instructive example is provided by Switzerland. The Swiss model of armed neutrality is supported by a deeply rooted militia system, where military service is perceived as a civic duty rather than a professional career. Military culture is embedded in everyday social life through reserve service, local defense structures, and public trust in national institutions. [8, 107] This model demonstrates how military culture can coexist with democratic traditions and strong civil liberties, reinforcing social cohesion while maintaining political neutrality. In this case, sustainability is achieved through the balance between individual autonomy and collective responsibility.

In East Asia, the case of South Korea demonstrates how military culture adapts to prolonged geopolitical tension while supporting economic modernization. Mandatory military service has historically played a role in fostering discipline, social integration, and national solidarity. [14, 339] Over time, reforms have aimed at humanizing service conditions and strengthening legal protections, reflecting a conscious effort to align military culture with evolving democratic standards. South Korea's experience shows that military culture can coexist with rapid technological and economic development when integrated into broader modernization strategies.

In contrast, Germany offers an example of post-militarist transformation. After the Second World War, German military culture was deliberately reconstructed on normative foundations emphasizing constitutional loyalty, human rights, and civilian control, embodied in the concept of the "citizen in uniform". [17, 199] This model rejects traditional militarism while preserving defense readiness through ethical self-restraint and democratic accountability. In the context of contemporary European security challenges, Germany's approach demonstrates how military culture can contribute to sustainability by reinforcing democratic legitimacy rather than nationalistic mobilization.

Hybrid threats and information warfare have further expanded the scope of military culture in countries such as Estonia. Following large-scale cyberattacks in 2007, Estonia integrated cyber defense into its national security culture, involving volunteers, IT specialists, and youth organizations. [10, 32] Military culture thus became digitally oriented, emphasizing technological literacy, societal participation, and resilience against cognitive manipulation. This case exemplifies how global challenges reshape military culture into a multidimensional system combining physical, informational, and psychological defense.

Collectively, these international examples demonstrate that military culture in the contemporary world is no longer uniform or exclusively military in nature. It is shaped by historical experience, political systems, and the specific configuration of global risks. [9, 60] Yet across diverse contexts, a common philosophical pattern emerges: military culture contributes to social sustainability when it strengthens resilience, reinforces civic responsibility, and remains subordinated to democratic and humanistic values.

Global challenges have therefore transformed military culture into a strategic resource of sustainable development. States that successfully integrate defense consciousness with education, civic participation, and ethical governance demonstrate greater stability under conditions of uncertainty. [7, 35] Conversely, where military culture is reduced either to coercive power or neglected altogether, societies become more vulnerable to fragmentation and external manipulation. In this sense, military culture operates as a mediator between security and sustainability, translating global risks into socially constructive forms of collective preparedness.

*Philosophical interpretation of military culture as a factor of state development*

In the context of Uzbekistan's contemporary development, military culture occupies a distinct philosophical position as a factor ensuring the stability, continuity, and strategic orientation of the state. Since independence, the country has pursued a model of development grounded in sovereignty, social harmony, and gradual modernization. Within this framework, military culture cannot be reduced to the technical functioning of the armed forces; rather, it represents a value-based component of statehood that shapes civic consciousness, national identity, and collective responsibility.

From the perspective of social philosophy, the state is not merely a legal or administrative structure but a historically formed community united by shared meanings, symbols, and values. In Uzbekistan, the process of nation-building has been closely connected with the restoration of historical memory, the revival of national traditions, and the formation of a modern civic identity. [20, 291] Military culture plays a mediating role in this process by linking the idea of state sovereignty with moral obligation and social duty. It transforms the abstract concept of independence into an internalized value that acquires personal significance for citizens, particularly for youth.

The philosophical significance of military culture in Uzbekistan is closely related to the country's geopolitical environment. Located in a region characterized by complex security dynamics, transnational threats, and ideological influences, Uzbekistan's development requires not only economic modernization but also social resilience. [19, 57] Military culture, in this sense, functions as a form of collective self-preservation, ensuring the state's capacity to protect its political independence without resorting to aggressive or expansionist doctrines.

Uzbekistan's officially proclaimed principle of a defensive military doctrine reflects an important philosophical stance. Defense is conceptualized not as preparation for war, but as a guarantee of peace, stability, and non-interference. This orientation aligns military culture with humanistic values, emphasizing protection rather than domination. From a philosophical viewpoint, such an approach corresponds to the ethics of responsibility, where the use of force is morally justified only as a means of safeguarding social order and human security.

Military culture in Uzbekistan is also deeply interconnected with the concept of civic unity. The state's development strategy emphasizes interethnic harmony, religious tolerance, and social solidarity. Within this framework, military culture serves not as a divisive force, but as a unifying symbolic space in which citizens of different backgrounds

are integrated through shared commitment to constitutional values. [22, 31] This integrative function is particularly important for maintaining social sustainability in a multicultural society.

A key philosophical dimension of military culture lies in its educational and formative role. The development of patriotic education, pre-conscription training, and civic-moral instruction reflects an understanding that state stability begins with worldview formation. Military culture thus operates as a mechanism of socialization, transmitting norms of discipline, respect for law, responsibility, and collective interest. In this sense, it contributes to the formation of what social philosophy defines as a "responsible citizen", capable of aligning personal aspirations with national development goals.

From the standpoint of state development, military culture also supports institutional legitimacy. Trust in state institutions grows when citizens perceive the defense system as professional, ethical, and socially oriented. In Uzbekistan, reforms aimed at modernizing the armed forces, improving transparency, and enhancing the social status of military service have strengthened this perception. Philosophically, legitimacy emerges not solely from formal authority, but from the belief that institutions embody shared values and serve the common good.

Military culture further contributes to long-term development through its role in shaping resilience. Contemporary challenges increasingly manifest in non-military forms, including information influence, ideological radicalization, and social polarization. In response, military culture expands into the sphere of moral and cognitive stability. It promotes critical awareness, loyalty to constitutional principles, and resistance to narratives that threaten social cohesion. Thus, military culture becomes a form of internal security rooted in consciousness rather than coercion.

In the Uzbek context, this philosophical interpretation aligns with the broader national development paradigm often described as evolutionary modernization. The state seeks to combine openness to global processes with the preservation of cultural identity and sovereignty. [21, 134] Military culture supports this balance by reinforcing the idea that modernization without value continuity risks social fragmentation. It anchors development in ethical and historical foundations, ensuring that progress does not undermine national unity.

Therefore, military culture in Uzbekistan functions as a factor of state development not through militarization, but through value consolidation. It strengthens the moral infrastructure of sovereignty, supports social harmony, and contributes to the formation of a stable civic identity. From a philosophical standpoint, it represents a mechanism through which the state secures its historical subjectivity, ensuring that development remains not only economically effective, but also socially meaningful and culturally sustainable.

In this sense, military culture may be interpreted as one of the spiritual and institutional pillars of Uzbekistan's long-term development strategy, integrating security, morality, and civic responsibility into a coherent philosophical model of statehood.

*Conclusion*

The present study has demonstrated that military culture of youth constitutes a complex socio-philosophical phenomenon that plays a significant role in the sustainable development of the modern state. Moving beyond narrow interpretations that reduce military culture to institutional defense practices, the article has conceptualized it as a value-based system integrating civic responsibility, moral consciousness, historical memory, and readiness for collective action.

The theoretical analysis has shown that within social philosophy, military culture functions as a mechanism of social integration and normative stability. Classical and contemporary philosophical perspectives reveal that discipline, responsibility, and solidarity–when embedded within legal and ethical frameworks–serve not as instruments of coercion, but as foundations of social cohesion. In this sense, military culture contributes to the reproduction of social order and the continuity of statehood.

The empirical examination of Uzbekistan during the period 2020–2025 confirms the strategic importance of youth in national development. Demographic structure, expansion of education, and ongoing challenges of employment integration highlight that sustainable development in Uzbekistan is inseparable from the worldview orientations and civic maturity of the younger generation. Youth emerges not merely as a recipient of state policy, but as an active subject whose values determine long-term stability.

The analysis of military culture in the context of global challenges has further demonstrated that contemporary security threats increasingly target social consciousness rather than physical territory alone. Hybrid conflicts, information warfare, and ideological influence intensify the need for internal resilience grounded in shared values. In this environment, military culture acquires a broader philosophical meaning as a form of moral and cognitive preparedness that strengthens social sustainability.

Within the Uzbek context, military culture has been interpreted as a factor of state development rooted in a defensive, peace-oriented doctrine and aligned with principles of sovereignty, social harmony, and civic unity. Its role lies not in militarization of society, but in consolidating national identity, reinforcing institutional legitimacy, and

preserving intergenerational continuity. Such an interpretation corresponds to a humanistic model of development in which security supports, rather than contradicts, democratic and cultural values.

Overall, the findings of this study allow the conclusion that sustainable development cannot be reduced to economic growth or technological modernization alone. Without a stable value foundation, social cohesion, and collective responsibility, development remains fragile and vulnerable to internal and external shocks. Military culture of youth, understood philosophically, functions as one of the key elements of this foundation.

The article therefore argues that integrating military culture into the broader philosophy of social sustainable development provides a more holistic understanding of state resilience. It enables the alignment of security, morality, and civic consciousness into a unified developmental paradigm, ensuring that progress is not only effective in material terms but also meaningful in social and historical dimensions.

In conditions of increasing global uncertainty, the cultivation of a balanced, ethical, and civic-oriented military culture among youth should be regarded as a long-term strategic investment in the stability, sovereignty, and sustainable future of the state.

**References**

1.Buzan, B., Wæver, O., de Wilde, J. Security: A New Framework for Analysis. – Boulder: Lynne Rienner Publishers, 1998. – 239 p.

2.Habermas, J. Between Facts and Norms: Contributions to a Discourse Theory of Law and Democracy. – Cambridge: MIT Press, 1996. – 631 p.

3.Hobbes, T. Leviathan. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996. – 520 p.

4.Kant, I. Perpetual Peace and Other Essays. – Indianapolis: Hackett Publishing, 1983. – 119 p.

5.Weber, M. Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology. – Berkeley: University of California Press, 1978. – 1469 p.

6.Durkheim, É. The Division of Labour in Society. – London: Macmillan, 1984. – 352 p.

7.Giddens, A. The Consequences of Modernity. – Stanford: Stanford University Press, 1990. – 188 p.

8.Beck, U. Risk Society: Towards a New Modernity. – London: Sage Publications, 1992. – 272 p.

9.Paris, R. At War's End: Building Peace after Civil Conflict. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 306 p.

10. United Nations. Transforming our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. – New York: UN, 2015. – 41 p.

11. Бердяев Н. А. Судьба России. – М.: Республика, 1990. – 336 с.

12. Ильин И. А. О сопротивлении злу силою. – М.: Русская книга, 1996. – 256 с.

13. Панарин А. С. Стратегическая нестабильность в XXI веке. – М.: Алгоритм, 2004. – 448 с.

14. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. – М.: ГУ ВШЭ, 2000. – 608 с.

15. Тоффлер Э. Третья волна. – М.: АСТ, 2004. – 784 с.

16. Федотов Г. П. Судьба и грехи России. – СПб.: Изд-во РХГА, 1992. – 352 с.

17. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций и преобразование мирового порядка. – М.: АСТ, 2003. – 603 с.

18. Цыганков П. А. Теория международных отношений. – М.: Гардарики, 2003. – 590 с.

19. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.

20. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 464 б.

21. Қодиров М. Фалсафа. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010. – 320 б.

22. Эркаев А. Миллий ғоя ва маънавий тараққиёт. – Тошкент: Академия, 2005. – 256 б.

23. Жўраев Н. Ўзбекистоннинг миллий тараққиёт модели. – Тошкент: Фан, 2012. – 288 б.

24. Абдуллаев А. Ёшлар маънавияти ва ижтимоий барқарорлик. – Тошкент: Тафаккур, 2018. – 192 б.

25. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик ва минтақавий тадқиқотлар институти. Ўзбекистонда ёшлар сиёсати: ривожланиш стратегияси. – Тошкент, 2022. – 148 б.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Do‘snazarov Mirjalol Esanboy o‘g‘li**
SamDChTI tadqiqotchisi

## HAYOT VA O‘LIM MUAMMOSINING DIALEKTIK TAHLILI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada hayot va o‘lim muammosi dialektik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Hayot va o‘limning bir-biriga bog‘liq qarama-qarshi hodisalar ekani Sharq va G‘arbning turli falsafiy qarashlari misolida ko‘rsatiladi. Shuningdek, inson o‘lim haqiqatini anglash orqali hayot mazmunini qidirishi yoritiladi. Tadqiqot klassik va zamonaviy manbalarni dialektik tahlil qilish asosida hayot va o‘lim yaxlit jarayon ekanini ta’kidlaydi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Hayot, o‘lim, dialektika, qarama-qarshilik, falsafa, ma’no, ekzistentsializm*

**Досназаров Мирьялол Эсанбой оглу**
Исследователь СамДЧТИ

## ДИАЛЕКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ ЖИЗНИ И СМЕРТИ

***Аннотация:*** *В данной статье проблема жизни и смерти рассматривается с диалектической точки зрения. Показано, что жизнь и смерть являются взаимосвязанными противоположностями на примере различных философских взглядов Востока и Запада. Также освещается, как осознание человеком факта смерти придает смысл его жизни. Исследование на основе диалектического анализа классических и современных источников подчеркивает, что жизнь и смерть – единый непрерывный процесс.*

***Ключевые слова:*** *Жизнь, смерть, диалектика, противоположность, философия, смысл, экзистенциализм*

**Mirialol Esanboy oglu Dosnazarov**
Scientific employee of the Samdech Techonomics Institute

## DIALECTICAL ANALYSIS OF THE PROBLEM OF LIFE AND DEATH

***Abstract:*** *This article examines the problem of life and death from a dialectical perspective. It demonstrates that life and death are interrelated opposites, drawing on various philosophical views from East and West. It also highlights how human confrontation with the reality of death shapes the meaning of life. Using dialectical analysis of classical and modern sources, the study emphasizes that life and death constitute a unified, continuous process.*

***Keywords:*** *Life, death, dialectics, contradiction, philosophy, meaning, existentialism.*

**Kirish.** Hayot va o‘lim muammosi azaldan falsafaning ustuvor mavzularidan biridir. Insoniyat turli madaniyat va davrlarda hayot mazmunini, o‘limning qachon va qanday ro‘y berishini, o‘limdan keyingi taqdir masalasini tinimsiz o‘ylab kelgan. Masalan, miloddan avvalgi VI asrda yashagan donishmand Konfutsiy: *“Hayotni hali bilmasdan turib, o‘lim haqida qanday bilishing mumkin?”* deya ta’kidlagan edi[2]. Bu fikr hayot va o‘lim sir-asrorini anglash o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Xuddi shuningdek, qadimgi yunon faylasufi Sokrat o‘limni qo‘rquv bilan kutmaslikni, aksincha, haqiqiy faylasuf *“o‘lishni o‘rganishi”* lozimligini uqtirgan.

Zamonaviy falsafada ham hayot va o‘lim masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mutafakkirlar o‘lim hodisasini turlicha talqin qiladilar: ba’zilari o‘limni hayotning ajralmas haqiqatiga yo‘yib, undan hayot maqsadi va mazmuniga doir savollarni chiqaradilar, boshqalari esa o‘limni yengib o‘tish yo‘llarini izlaydilar. Falsafiy tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, o‘lim muammosi, ayni paytda, hayotning maqsad va mazmuni muammosini tug‘diradi. Darhaqiqat, inson o‘lim haqidagi savollarga javob izlar ekan, u aslida “Inson nima uchun va nima maqsadda yashaydi?” degan savolga javob izlamoqda [1]. Shu bois hayot va o‘lim dialektikasini tahlil qilish falsafa va ilm-fan uchun nihoyatda muhimdir.

Ushbu maqolada hayot va o‘limning dialektik o‘zaro aloqasi falsafiy manbalar tahlili asosida o‘rganiladi. Dialektik yondashuv yordamida hayotning mazmuni va inson ongida o‘lim hodisasining tutgan o‘rni aniqlashtiriladi. Maqola kirish, materiallar va usullar, natijalar, muhokama kabi bo‘limlardan tashkil topgan.

**Tadqiqot materiallari va usullari**

Maqolada dialektik tahlil usuli qo‘llanilib, mavzuga doir falsafiy manbalar qiyosiy o‘rganildi. Dialektik falsafa har qanday hodisani ichki qarama-qarshiliklar birligi va rivojlanish jarayonida ko‘rib chiqadi. Xususan, dialektik tafakkur nuqtai nazaridan, borliqning mohiyati shundaki, u o‘zida qarama-qarshilikni tutadi va doimiy harakatdadir; har qanday chekli mavjudot (hayot) muqarrar ravishda o‘z inkori (o‘lim)ga qarab boradi [1]. Shu tamoyilga tayangan holda, hayot va o‘lim tushunchalari o‘rtasidagi bog‘liqlik falsafiy, tarixiy hamda zamonaviy manbalar misolida tahlil qilindi.

Tadqiqot materiallari sifatida Sharq va G‘arbning turli davrlariga oid falsafiy manbalar tanlab olindi. Jumladan, Konfutsiy kabi Sharq mutafakkirlarining hikmatli so‘zlari, Platon va Gegel kabi G‘arb faylasuflarining asarlaridan parchalar, XX asr ekzistensial falsafasi (Haydegger va boshqalar) hamda zamonaviy ilmiy maqolalar tahlilga tortildi. Shuningdek, inson hayoti va o‘limiga doir psixologik yondashuvlar (Z. Freydning hayot va o‘lim instinktlariga doir nazariyasi) ham ko‘rib chiqildi. Tanlangan manbalar dialektik metod – qarama-qarshiliklarni aniqlash, taqqoslash va umumlashtirish – yordamida tahlil qilindi.

Dialektik tahlil usuli hayot va o‘lim fenomenlarini bir-biridan ajralgan holda emas, balki yagona yaxlit jarayon sifatida o‘rganish imkonini beradi. Shu sababli, maqolada hayot va o‘limning o‘zaro munosabatini ichki ziddiyatlar birligi tamoyili asosida yoritish asosiy uslubiy yondashuv bo‘ldi[1].

**Natijalar**

Dialektik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, hayot va o‘lim bir-birini inkor etuvchi, ammo bir-birisiz mavjud bo‘la olmaydigan tushunchalardir. Falsafiy manbalarni o‘rganish jarayonida aniqlanganki, hayot tushunchasining o‘zi o‘lim ma’nosini ichiga oladi. Gegel ta’kidlaganidek, *“hayotning o‘zida o‘lim urug‘i mavjud, ya’ni har bir chekli narsa o‘z-o‘zini inkor etadi”*[3]. Demak, barcha tirik mavjudotlar avval-boshdan o‘limni o‘z tarkibiy qismi sifatida mujassam etadi. Bu dialektik xulosaga muvofiq, hayot va o‘lim qarama-qarshiligining birligi mavjud bo‘lib, ularning o‘zaro kurashi hayot jarayonining harakatlantiruvchi kuchidir.

Tahlil davomida hayot va o‘lim munosabatining quyidagi qirralari aniqlandi:

– Biologik va falsafiy dialektika: Biologik nuqtai nazardan, har bir jonli organizm yashash jarayonidayoq qarish va o‘limga tomon harakat qiladi. Bu hayotning modda almashinuvi jarayonida yaqqol ko‘rinadi: masalan, organizmdagi hujayralar tinimsiz yangilanib, eskilari halok bo‘ladi – shu tarzda hayot va o‘lim bir vaqtda kechadi[1]. Falsafiy nuqtai nazardan esa, hayot va o‘lim o‘zaro bog‘liqligining anglanishi qadimdan mavjud bo‘lib, yuqorida keltirilgan Konfutsiy fikri bunga misoldir. Inson o‘z hayotini to‘la anglamay turib, o‘lim mohiyatini tushuna olmasligi aynan hayot va o‘limning uzviyligidan dalolat beradi[2].

– Psixologik-instinktiv ziddiyat: Psixoanalizda hayot va o‘lim dialektikasi Freyd tomonidan *Eros* va *Tanatos* – hayot instinkti va o‘lim instinkti – tushunchalari orqali ifodalangan[11]. Freydning nazariyasiga ko‘ra, har bir inson ruhiyatida yashovchanlik (hayotga intilish) va halokat (o‘limga intilish) birgalikda mavjud bo‘lib, ular o‘rtasidagi kurash hayot kechishining asosini tashkil etadi. Mazkur qarashga binoan, hayot – bu ikki qarama-qarshi instinktning kurash va murosasidan iborat jarayondir; *“hayotning o‘zi shu ikki yo‘nalish o‘rtasidagi kurash va kelishuvdan iboratdir”* deb yozadi Freyd. Freyd shuningdek, organizm hayotining davom etishi uchun bu ichki halokat instinkti tashqi faoliyatga yo‘naltirilishi zarurligini ta’kidlaydi – masalan, tajovuzkorlikning bir qismini tashqi dunyoga yo‘naltirish orqali hayot saqlanadi[4]. Shu tariqa, Freyd talqinida hayot va o‘lim o‘rtasidagi dialektika inson ongi va ongosti darajasida kechuvchi ziddiyat sifatida namoyon bo‘ladi.

– Ekzistensial-falsafiy ahamiyat: Inson o‘limni anglash orqali hayotining mazmunini shakllantiradi. XX asr faylasufi Martin Haydegger insonni “o‘limga yuz tutuvchi mavjudot” deb atagan va autentik (haqiqiy) hayot kechirish uchun shaxs o‘lim muqarrarligini doimo nazarda tutishi lozimligini qayd etgan[5]. Haydegger fikricha, inson o‘limini tan olishi va uni oldindan his etib yashashi – haqiqiy, mazmunli hayot kechirishi uchun zarur shartdir. *“Filosoflashish – o‘lishni o‘rganishdir”* degan qadimiy hikmatni u qo‘llab-quvvatlagan. Bizning tadqiqotimiz davomida aniqlanishicha, o‘limga muntazam ravishda yuzlanib yashash insonni o‘z umrining har onini anglab, qadrlab yashashga chorlaydi. Zero, o‘limni inkor qilmay, balki uni hayotning ajralmas qismi sifatida qabul qilgan holda yashash – hayotga chinakam mazmun baxsh etadi[5].

– Tibbiy va axloqiy masalalar dialektikasi: Hozirgi zamon tibbiyoti va bioetikasida ham hayot va o‘lim chegarasini aniqlash muammosi mavjud. Sun’iy nafas oldirish va reanimatsiya vositalari tufayli insonning biologik hayotini sun’iy ravishda davom ettirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Shunday holatlarda “hayotni saqlab qolish” va “o‘limni kechiktirish” tushunchalari qorishib ketmoqda. Taniqli bioetik olim B.G. Yudin chuqur koma holatini “noaniqlik zonasi” deb atagan edi – bu holatda bemor “aniq tirik” ham emas, “aniq o‘lik” ham emasligi bilan jamiyatni ikkilantiradi[1]. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, zamonaviy hayot-mamot masalalarini hal etishda dialektik falsafiy yondashuv muhim ahamiyatga ega: u hayot bilan o‘lim o‘rtasidagi nozik chegarani tushunishga, “hayot sifatini” saqlash va “o‘limni qabul qilish” o‘rtasida muvozanat topishga yordam beradi. Masalan, komadagi bemorni sun’iy ushlab turish bilan bog‘liq axloqiy

dilemmalarni hal etishda, hayot va o‘lim dialektik bir butun jarayon sifatida ko‘rilsa, qaror qabul qilish insoniy qadr-qimmatni inobatga olgan holda amalga oshirilishi mumkin[1].

– Hayot mazmuni va o‘limning falsafiy qadri: Tadqiqotlar davomida hayot va o‘lim munosabatining axloqiy-ma’naviy jihatlari ham aniqlandi. Xususan, insonning o‘limga munosabati uning hayot mazmunini belgilashi kuzatildi. Ba’zi falsafiy qarashlarga ko‘ra, o‘limning mavjudligi hayotga ma’no baxsh etadi – chunki faqat o‘lim muqarrarligi sharoitidagina inson o‘z hayotini qadrli deb bilib, uni ma’lum maqsadga yo‘naltiradi. Masalan, rus faylasufi D. Dubrovskiy o‘limni hayotni ma’noviy yuksaltirish vositasi deb talqin qiladi. Uning fikricha, *“hayot eng oliy qadriyat bo‘lib, o‘zini boshqa yuksak qadriyatlarga almasha oladi; o‘lim esa aynan shu almashinuv shaklidir”*[6]. Boshqacha aytganda, inson ba’zan o‘z hayotini oliy qadriyatlar (erkinlik, vatan, vijdon) yo‘lida qurbon qilishi mumkin – va bunday o‘lim hayotning oliy ma’noga egaligini tasdiqlaydi[6]. Bu yondashuvga muvofiq, mardlarcha halok bo‘lish hayotning bekor ketmagani, aksincha, ma’noli yakun topganini anglatadi.

– Falsafiy pessimizm va o‘limni xushlash: Ayrim faylasuflar hayot va o‘lim dialektikasiga nisbatan pessimistona pozitsiyada turadilar. XIX asr nemis faylasufi Artur Shopengauer hayotni davomli azob-uqubat, o‘limni esa bu azobning yakuni deb bilgan. U hayotning asosi bo‘lgan *“iroda”* oxir-oqibat o‘limga olib borishini ta’kidlab, shunday yozgan edi: «*Har bir mavjudotning tinimsiz va shoshilib borayotgan qariligi va o‘limi – hayotga bo‘lgan irodasiga chiqarilgan ayblov hukmidir*». Tabiat go‘yo insonga shuni uqtiradiki: *“Nimani xohlasang ham, intihosi o‘lim bo‘ladi, shunday ekan, abadiy hayotni emas, mazmunli hayotni tanla”*[9]. Shopengauer nazarida, hayot o‘lim orqali mazmunsizligi fosh bo‘ladigan jarayondir, shu sababli u hayotdan ko‘ra o‘limni yengillik deb tasavvur etadi. Bu qarash dialektik tahlilda muhim aksil-nuqta bo‘lib, bizga optimistik va pessimistikkacha bo‘lgan keng spektrda hayot-mamot masalasini ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Yuqoridagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, hayot va o‘lim dialektikasi inson mavjudligining barcha qirralarida – biologik, ruhiy, ma’naviy va ijtimoiy sohalarda – namoyon bo‘ladi. Hayot va o‘lim birligi hayotiy tsiklni ta’minlab, insoniyat madaniyatida chuqur falsafiy va ruhiy tajribalar orqali ifodalangan.

**Muhokama**

Yuqorida keltirilgan natijalar asosida hayot va o‘lim muammosining dialektik tahliliga doir bir qator umumiy xulosalar chiqarish mumkin. **Birinchidan**, hayot va o‘lim bir-birini shartlovchi tushunchalar ekani aniq bo‘ldi. Dialektik nuqtai nazardan qaraganda, hayot o‘z inkorini – o‘limni – o‘z tarkibida mujassam etadi, o‘lim esa yangi hayot bosqichlari uchun zamin hozirlaydi. Bu holat tabiiy-biologik jarayonlarda ham (masalan, hujayralarning yangilanishida eski hujayralarning o‘lishi), ijtimoiy-madaniy jarayonlarda ham (avlodlar almashinuvida eski dunyoqarashlarning “o‘lishi” va yangilarining tug‘ilishi) kuzatiladi. Hayot va o‘limning bunday uzviyligi Xitoy falsafasidagi *“Yin-Yan”* ta’limotida ham o‘z ifodasini topgan: qadimiy manbalarda *“ba’zan hayot bo‘ladi, ba’zan o‘lim – aynan shular birgalikda borliqdagi hamma narsani mukammal qiladi”* deb ta’kidlanadi. Ya’ni, Sharq falsafasida ham hayot va o‘lim bir butunning ikki yarmi, bir-birini to‘ldiruvchi qarama-qarshiliklar sifatida qaralgan.

**Ikkinchidan**, o‘limga munosabatning falsafiy tahlili inson hayotining mazmun-mohiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Tadqiqot davomida ekzistensial yondashuvning ahamiyati alohida qayd etildi: inson o‘limi haqidagi xabardorlik uning hayotiy pozitsiyasini belgilaydi, qadriyatlarini shakllantiradi. Haydegger ta’kidlaganidek, inson faqat o‘limni “borlig‘ining ufqi” deb qabul qilgan holda autentik hayot kechira oladi. Boshqacha aytganda, o‘limning muqarrarligini anglash – erkinlik va ma’naviy jasorat manbai. Zero, hayot abadiy emasligini bilgan kishi har lahzasini mazmunan to‘ldirishga, o‘zligini kamol toptirishga intiladi. Shu ma’noda, *“o‘limdan qo‘rqmaydi, unga tik boqadi va uni yengadi”* degan Gegelning Ruh haqidagi fikri insonning ma’naviy kamolotida o‘limni inkor etmaslik muhimligini anglatadi. Gegel *“Ruh (inson) o‘z haqiqatinio‘limni bag‘riga olgan holdagina topadi”*, deb yozadi – ya’ni, ma’naviy yuksalish uchun negativlik (o‘lim) bilan yuzlashish talab qilinadi. Bu dialektik qarash o‘limdan qo‘rqmaslik emas, balki o‘limni hayotning ma’noviy tarkibiy qismi sifatida qabul qilishga undaydi.

**Uchinchidan**, hayot va o‘lim dialektikasini anglash jamiyat uchun ham amaliy ahamiyatga ega. Masalan, tibbiyot va bioetika sohasida inson hayoti tugashining aniq chegarasini belgilash, o‘limni kechiktirish yoki osonlashtirish (evtanaziya) masalalarida falsafiy yondashuv zarur. Hayot va o‘limning dialektik birligi nuqtai nazaridan qaraganda, *“o‘lim – hayotning dushmani emas, balki uning tabiiy yakuni”* degan tushunchani jamiyat ongiga singdirish muhim. Ayni paytda, insoniylik tamoyillariga ko‘ra, hayotni sun’iy ravishda uzaytirish yoki qisqartirish borasida qaror qabul qilganda juda ehtiyotkorlik talab etiladi. Tadqiqotimiz ko‘rsatdiki, dialektik tahlil bunday murakkab axloqiy muammolarni muvozanatli hal etishga ko‘maklashadi, chunki u hayot va o‘limni qarama-qarshi emas, balki uzviy bog‘liq hodisalar deb ko‘rsatadi.

**To‘rtinchidan**, hayot va o‘lim dialektikasini falsafiy idrok etish insoniyatning madaniy-ma’naviy tajribasida katta o‘rin tutadi. Turli din va falsafiy an’analarda o‘limga doir qarashlar xilma-xil bo‘lsa-da, ularning ko‘pchiligida o‘lim hayot davomiyligining bir bosqichi, o‘tish davri sifatida talqin qilingan. Masalan, islom dini nuqtai nazaridan hayot va o‘lim Alloh tomonidan insonga sinov va imtihon uchun ato etilgan ne’matlardir: Qur’onda *“Hayot va o‘limni yaratdik, toki (bandalarni) sinab ko‘raylik – kimning amali go‘zalroq ekan”* deyilgan (Qur’on, 67:2). Bu yerda ham o‘lim va hayot birgalikda

mazmun kasb etadi – imtihonning ikkala tomonidir. Shunday qilib, diniy-falsafiy nuqtai nazardan ham hayot va o'lim birikmasi inson kamoloti va sinovi uchun xizmat qiladi.

Yuqoridagi muhokamalarni jamlab aytganda, hayot va o'lim muammosini dialektik tahlil qilish insonning o'zini va borliqni anglashida muhim o'rin tutadi. Hayot va o'limning birligi g'oyasi bizga hayotni to'liqroq tushunish, uning qadrini bilish va o'lim haqidagi qo'rquvni yengib, uni hayotning mazmunini boyituvchi omil sifatida qabul qilish imkonini beradi. Dialektik yondashuv hayotning har lahzasi va o'limning muqarrarligi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib, insonni har bir kunini mazmunli o'tkazishga undaydi. Shu tariqa, hayot va o'lim dialektikasi falsafiy tahlil uchun mavhum masala bo'lib qolmay, balki har bir insonning ma'naviy tajribasida namoyon bo'ladigan real haqiqat ekanini anglashimiz mumkin.

**Xulosa o'rnida aytish mumkinki**, hayot va o'lim muammosining dialektik tahlili inson borlig'ining eng chuqur ziddiyat va mazmunlarini yoritishga xizmat qiladi. Hayot va o'lim bir-birisiz bo'sh ma'no kasb etmaydi: o'lim borligi hayotga ma'no baxsh etsa, mazmunli hayot o'limni yengillashtiradi. Inson o'z o'limini anglab, hayotini qadrlashga, o'z orzu-maqsadlarini teranroq idrok etishga o'rganadi. Shu bois falsafiy nuqtai nazardan hayot va o'lim bir medalning ikki tomoni bo'lib, ularning dialektik birligi insoniy tafakkur va ma'naviyatning abadiy mavzusidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Антропов, М. В. "Проблема жизни и смерти в философии." Современные тенденции и инновации в науке и производстве: материалы XII междунар. науч.-практ. конф., 26 апр. 2023, pp. 313–315.
2. Confucius. The Analects. Translated by James Legge, Dover Publications, 1971, p. 92.
3. Гегель, Г. В. Ф. Наука логики. Санкт-Петербург: Наука, 1997, с. 34.
4. Freud, Sigmund. Beyond the Pleasure Principle. Standard Edition, vol. 18, Hogarth Press, 1955, pp. 40–41.
5. Heidegger, Martin. Being and Time. Translated by John Macquarrie and Edward Robinson, Harper & Row, 1962, pp. 279–285.
6. Дубровский, Д. И. "Смысл смерти и достоинство личности." Философские науки, no. 5, 1990, с. 116–119.
7. Hegel, G. W. F. Phenomenology of Spirit. Translated by A. V. Miller, Oxford University Press, 1977, p. 19.
8. Yinyang (Yin-Yang). Internet Encyclopedia of Philosophy, University of Tennessee, 2021, Section 3 (para. 7).
9. Шопенгауэр, Артур. "Hayot, inson, iztirob" (A. Schopenhauer asaridan tarjima). Xurshid Davron kutubxonasi, 09.11.2019.
10. Qur'oni Karim. Tarjimon: M. Sodiq Muhammad Yusuf, Toshkent Islom universiteti, 2001, 67-sura, 2-oyat.
11. Диалектика жизни и смерти https://studfile.net/preview/8285033/page:11/

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Elyor Murotov**
Denov biznes va tadbirkorlik intituti o‘qituvchisi

## MA’NAVIY-MAFKURAVIY MUHIT ATRIBUTLARI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada ma’naviy-mafkuraviy muhit tushunchasi, uning atributlari bo‘lgan g‘oyalar tizimi, qadriyatlar, tarixiy xotira, mafkuraviy immunitet, fuqarolik ongi, bag‘rikenglik va zamonaviy axborot muhitining o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Sobiq ittifoq davridagi ma’naviy muhitning buzilishi va mustaqillik davrida undan xalos bo‘lishga qaratilgan ma’naviy-mafkuraviy yo‘nalishdagi ishlar tahlil qilingan. Shuningdek, yangilanayotgan jamiyatimizda ma’naviy muhitni asrab-avaylash, uni ezg‘u g‘oyalar bilan to‘ldirib, ma’naviy fazilatlar bilan boyitish imkoniyatlari asoslangan.*

***Kalit so‘zlar:*** *jamiyat, yoshlar, mustaqillik, ma’naviy-mafkuraviy muhit, g‘oyalar tizimi, qadriyatlar, tarixiy xotira, mafkuraviy immunitet, fuqarolik ongi, bag‘rikenglik, zamonaviy axborot muhiti.*

**Элёр Муротов**
преподаватель Денауского института бизнеса и предпринимательства

## АТРИБУТЫ ДУХОВНО-ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ

***Аннотация.*** *В данной статье рассматривается понятие духовно-идеологической среды, система идей, являющихся ее атрибутами, ценности, историческая память, идеологический иммунитет, гражданское сознание, толерантность и особенности современной информационной среды. Проанализированы работы духовно-идеологического направления, направленные на разрушение духовной среды в период бывшего союза и избавление от нее в период независимости. Также обоснованы возможности сохранения духовной среды в нашем обновляющемся обществе, наполнения ее благородными идеями и обогащения духовными качествами.*

***Ключевые слова:*** *общество, молодежь, независимость, духовно-идеологическая среда, система идей, ценности, историческая память, идеологический иммунитет, гражданское сознание, толерантность, современная информационная среда.*

**Elyor Murotov**
Teacher at the Denau Institute of Business and Entrepreneurship

## ATTRIBUTIONS OF THE SPIRITUAL AND IDEOLOGICAL ENVIRONMENT

***Abstract.*** *This article examines the concept of the spiritual and ideological environment, the system of ideas that are its attributes, values, historical memory, ideological immunity, civic consciousness, tolerance, and the specific features of the modern information environment. The dissolution of the spiritual environment during the Soviet era and the work of the spiritual and ideological direction aimed at overcoming it during the period of independence were analyzed. Also, the possibilities of preserving the spiritual environment in our renewing society, filling it with noble ideas and enriching it with spiritual qualities are substantiated.*

***Keywords:*** *society, youth, independence, spiritual and ideological environment, system of ideas, values, historical memory, ideological immunity, civic consciousness, tolerance, modern information environment.*

**Kirish.** Mustaqillik davrida ma’naviy-mafkuraviy muhit, uni o‘rganishga doir metodologik yondashuvlar ijtimoiy-falsafiy, tarixiy, madaniy va siyosiy jarayonlarni ilmiy tahlil qilishda qo‘llaniladigan nazariy-uslubiy asoslarga asoslandi. Chunki mustaqillik yillarida O‘zbekiston jamiyatida ma’naviy hayot tubdan o‘zgarib, mafkuraviy bo‘shliqni to‘ldirish, milliy o‘zlikni anglash, yangi qadriyatlarni shakllantirish jarayonlari kechdi. So‘nggi yillarda bu jarayonlar tub mohiyati va sifat jihatdan yangi bosqchiga ko‘tarildi. “Jonajon Vatanimiz bugun yangicha siyosiy-huquqiy, ijtimoiy, ma’naviy munosabatlar asosida yashab, mehnat qilayotgan, mustaqil fikrlaydigan, ozod va erkin insonlar diyoriga aylanmoqda”[1].

Milliy mustaqillik O‘zbekistonda jamiyatning ma’naviy va mafkuraviy rivojlanishida mutlaqo yangi bir davrni boshlab berdi. Bunda milliy istiqlol g‘oyasi, milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy merosga qayta baholash asosida murojaat

qilish va globallashuv jarayonlariga moslashish kabi muhim jarayonlar avj oldi. Sobiq sovet davrida mafkuraviy majburlash va biryoqlama qarash ustun bo‘lgan bo‘lsa, mustaqillikdan so‘ng milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash, jamiyatda demokratik, huquqiy va fuqarolik tamoyillarini qaror toptirish ustuvor vazifaga aylandi.

Sobiq ittifoq davrida mafkuraviy majburlash va biryoqlama qarashning salbiy oqibatlari jamiyatning ma’naviy, madaniy va siyosiy hayotida chuqur iz qoldirdi. Bu jarayonning falsafiy tahlili ko‘rsatadiki, mafkura insoniyat tafakkurini yo‘naltiruvchi ma’naviy-ma’rifiy kuch sifatida ijtimoiy hayotda muhim ahamiyatga ega, ammo uning majburiy ravishda, ya’ni biryoqlama va mutlaq hukmron qonun sifatida joriy qilinishi odamlar ongini cheklab qo‘ydi. Mustabid tuzum davrida mafkura «haqiqiy va yagona yo‘l» sifatida ko‘rsatilib. marksizm-leninizm ta’limoti jamiyat taraqqiyotining yagona nazariy asosi sifatida qabul qilindi. Bu esa boshqa g‘oyalar, madaniy yondashuvlar, milliy qarashlar va an’anaviy qadriyatlarni chetga surdi. Natijada jamiyatda g‘oyaviy monopoliya shakllandi, insonlar fikr erkinligidan mahrum etildi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mustaqillik davrida ma’naviy-mafkuraviy muhitni o‘rganish masalasi ijtimoiy-gumanitar fanlarda muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Mazkur mavzuda olib borilgan ilmiy izlanishlarda, avvalo, milliy g‘oya, milliy mafkura va ma’naviyat tushunchalarining nazariy-metodologik asoslarini ochib berishga alohida e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi davrda jamiyat ma’naviy hayotida ro‘y bergan tub o‘zgarishlar, qadriyatlar tizimining yangilanishi hamda milliy o‘zlikni anglash jarayonlari qator olimlar asarlarida keng tahlil qilingan. Jumladan, S.Shermuhamedov, A.Jalolov, B.To‘raev, B.Karimov, Q.Nazarov, S.Mamashokirov va boshqa faylasuf olimlarning tadqiqotlarida ma’naviy-mafkuraviy muhit ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida talqin etiladi.

Shuningdek, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi tadqiqotlarda ma’naviy-mafkuraviy muhitni o‘rganishda falsafiy yondashuvlar alohida o‘rin tutadi. Masalan, O.Fayzullaev, B.To‘raev, M.Abdullaeva, Q.Nazarov kabi olimlarning tadqiqotlarda mazkur muhit dialektik rivojlanish jarayonida, ya’ni an’ana va yangilik, umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg‘unligi asosida tahlil qilinadi. Bu yo‘nalishdagi ilmiy ishlar inson ongi, ijtimoiy tafakkur va mafkuraviy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, ular mustaqillik davridagi ma’naviy transformatsiyalarni tushunish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Siyosiy fanlar va sotsiologiya sohasidagi o‘zbek olimlari tadqiqotlarida esa ma’naviy-mafkuraviy muhit davlat siyosati, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy barqarorlik bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganildi. A.Umarov, M.Bekmurodov, A.Xolbekov kabi olimlar mafkuraviy jarayonlarni jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, yoshlar va intellektual qatlam ongiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida tahlil qiladilar. Sotsiologik yondashuv asosida olib borilgan tadqiqotlarda empirik ma’lumotlar, so‘rovnoma va kuzatuvlar orqali mustaqillik davridagi ma’naviy holat va mafkuraviy yo‘nalishlar baholangan.

Pedagogik va madaniyatshunoslik yo‘nalishidagi adabiyotlarda esa ma’naviy-mafkuraviy muhitni shakllantirish va rivojlantirish masalalari ta’lim-tarbiya tizimi, ommaviy madaniyat va axborot makoni bilan bog‘liq holda o‘rganildi. Masalan, M.Quronov, X.Ibragimov, A.Murumanova kabi olimlarning tadqiqotlarda yosh avlod ongida milliy g‘oya va ma’naviy qadriyatlarni qaror toptirish metodlari, shuningdek, globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarga qarshi turish masalalari muhim o‘rin egallaydi. Natijada, mazkur adabiyotlar mustaqillik davrida ma’naviy-mafkuraviy muhitni o‘rganishda kompleks va ko‘p tarmoqli metodologik yondashuv zarurligini ko‘rsatib berdi.

**Metodologiya.** Ushbu maqolada mustaqillik davrida ma’naviy-mafkuraviy muhitni o‘rganishda kompleks va tizimli metodologik yondashuv asos qilib olindi. Mazkur yondashuv ma’naviyat va mafkurani jamiyat hayotining o‘zaro bog‘liq, dinamik tizimi sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma’naviy omillarning o‘zaro ta’siri hisobga olinib, ma’naviy-mafkuraviy muhitning shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlari aniqlandi. Maqolada dialektik yondashuv orqali mustaqillik davridagi ma’naviy-mafkuraviy jarayonlar qarama-qarshiliklar, uzluksiz o‘zgarish va taraqqiyot nuqtai nazaridan o‘rganildi. Ushbu usul milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlik, an’ana va modernizatsiya jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari tadqiqot metodologiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qo‘llanildi. Tarixiy yondashuv asosida ma’naviy-mafkuraviy muhitning mustaqillikdan keyingi bosqichma-bosqich rivojlanishi, uning ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar bilan bog‘liqligi tahlil qilindi. Mantiqiy tahlil esa mazkur jarayonlarning ichki tuzilishi, mazmun va shakl jihatidan o‘zaro aloqadorligini ochib berishga xizmat qildi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil usulidan ham foydalanilib, ushbu usul orqali mustaqillikkacha bo‘lgan davr va mustaqillik davridagi ma’naviy-mafkuraviy muhit o‘zaro taqqoslanib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Shu bilan birga, qiyosiy yondashuv milliy tajriba bilan xorijiy ilmiy qarashlarni solishtirish, ilg‘or metodologik yutuqlarni umumlashtirish imkonini berdi. Shu bilan birga, tadqiqotda integrativ va interdissiplinar yondashuv qo‘llanildi. Falsafa, siyosatshunoslik, sotsiologiya, pedagogika va madaniyatshunoslik fanlarining metodlari o‘zaro uyg‘unlashtirilib, ma’naviy-mafkuraviy

muhit kompleks ijtimoiy fenomen sifatida tahlil qilindi. Bunday metodologik yondashuv mustaqillik davrida ma'naviy-mafkuraviy muhitni chuqur va har tomonlama o'rganishga xizmat qildi.

**Muhokama va tahlillar.** Sobiq ittifoq davridagi mafkuraviy majburlash milliy til, din, urf-odat va an'analarning cheklanishiga olib keldi. Bunday mafkuraviy siyosat doirasida millatchilik tushunchasi "reaksion" deb baholandi, milliy meros "o'tmish qoldig'i" sifatida kamsitildi. Natijada millatning ma'naviy o'zligi, tarixiy xotirasi va madaniy merosini qadrlash zaiflashdi. Biryoqlama mafkura shaxsning erkin fikrlash, tanlash va o'z fikrini ifoda etish imkoniyatlarini yo'qqa chiqardi. Ijtimoiy faoliyat va shaxsiy tashabbus mafkuraviy qoidalarga bo'ysundirildi. Bu esa ijodiy faoliyatni so'ndirdi, shaxsning ijtimoiy-ruhiy rivojlanishini chekladi.

Fikrlar xilma xilligining yo'qolishi ilmiy va ijtimoiy sohalarda ko'p qarashli yondashuvlarning yo'qolishiga olib keldi. Ijtimoiy tafakkurda riyo va ikkiyuzlamachilikka asoslangan, odamlarning rasmiy ravishda «sovetcha fikrlashi», ammo shaxsiy hayotda milliy qadriyatlarini yashirincha saqlash tendensiyasi kuzatildi. Vujudga kelgan ma'naviy bo'shliq insonlarning ongida "rasmiy g'oya" bilan "xayotiy haqiqat" o'rtasida ziddiyatni yuzaga keltirdi. "Sobiq ittifoq davrida hukmron mafkura ma'naviy tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan, bu jarayonda milliy xususiyatlar deyarli hisobga olinmagan edi"[2.757]. Bu davrdagi mafkuraviy majburlash jamiyatda ma'naviy inqirozga olib keldi, chunki mafkuraning mohiyati uning jamiyat taraqqiyotiga ochiq, erkin va ko'pqirrali yo'nalishlar berishi bilan belgilanadi. Biryoqlama qarash esa ma'naviyatning erkin rivojlanishini to'xtatdi, milliy ongning shakllanishiga to'siq bo'ldi. Shuning uchun ham mustaqillik davridagi asosiy vazifalardan biri – jamiyatni ma'naviy-mafkuraviy zulmdan ozod qilish va milliy qadriyatlar asosida yangi tafakkurni barpo etishga qaratildi.

Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda ma'naviy-mafkuraviy rivojlanish jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili sifatida namoyon bo'ldi. Ma'naviyat va mafkura faqat insonning ichki dunyosiga taalluqli emas, balki davlatning barqarorligi, jamiyatning birligi va ma'naviy immunitetining asosidir. "Har qanday davlat yoki mamlakatning taqdiri ko'p jihatdan mafkuraviy muammolarning qanday hal qilinishiga ham bog'liq"[3.733]. Shu bois ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarni falsafiy tahlil qilish, ijtimoiy ongni shakllantirishdagi imkoniyatlarini o'rganish mamlakatning strategik taraqqiyoti uchun muhim vazifaga aylandi.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotining muvaffaqiyati faqat iqtisodiy o'sish yoki siyosiy barqarorlik bilan belgilanmaydi. Uning poydevori ma'naviy-mafkuraviy rivojlanishdir. Chunki ma'naviyat inson va jamiyat tafakkurini boyitadi, mafkura esa uning yo'nalishini belgilaydi. Shu jihatdan O'zbekistonda ma'naviy-mafkuraviy rivojlanish milliy taraqqiyotning hal qiluvchi omili sifatida namoyon bo'ladi. Prezident Sh.Mirziyoev ta'biri bilan ifodalsak, iqtisodiyot jamiyatning tanasi bo'lsa, ma'naviy uning ruhi, jonidir. Ma'naviy-mafkuraviy rivojlanishning markazida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira va madaniy merosni qadrlash masalasi turadi. Bundan tashqari, u zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari bilan uyg'unlashib, yangi avlod tafakkurida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni birlashtiradi.

Ta'kidlash joizki, jamiyat ma'naviy-mafkuraviy rivojlanishining xususiyatlari, ayrim atributlari quyidagilarda namoyon bo'ladi. *Mafkuraviy g'oyalar tizimi*, ya'ni milliy istiqlol g'oyasi, Yangi O'zbekiston strategiyasi, Uchinchi Renassans kabi g'oyalar. *Qadriyatlar ierarxiyasi, ya'ni* vatanparvarlik, inson huquqlari, bag'rikenglik va boshqalar. *Tarixiy xotira,* ya'ni milliy meros, ajdodlar falsafiy merosini tiklash. *Mafkuraviy immunitet, ya'ni* yot g'oyalarga qarshi ma'naviy barqarorlik. *Fuqarolik madaniyati, ya'ni* jamiyatning siyosiy va huquqiy faolligi. Bu atributlar jamiyatning ma'naviy-mafkuraviy rivojlanishi mohiyatini belgilaydi.

O'zbekistonda jamiyatning ma'naviy va mafkuraviy rivojlanishi jarayonlari mustaqillik davrida tubdan yangi mazmun kasb etdi. Bu jarayonning falsafiy mohiyati shundaki, u jamiyatning ma'naviy uzluksizligini tikladi; milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minladi; global ta'sirlar sharoitida milliy o'zlikni asrab qolishga xizmat qildi; shaxsning ijtimoiy mas'uliyati va fuqarolik faolligini kuchaytirdi. Shu bois ma'naviy-mafkuraviy rivojlanish O'zbekistonning barqaror va uzluksiz taraqqiyotining garovi hisoblanadi.

Ma'naviy-mafkuraviy muhitni tushuntirishda uning atributlari ya'ni, ajralmas xususiyatlari va unsurlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish muhimdir. Atribut – bu biror narsaning mohiyatidan ajralmaydigan, uning borligini belgilaydigan asosiy jihatidir. Demak, ma'naviy-mafkuraviy muhit ham o'zining atributlari orqali namoyon bo'ladi.

1. Mafkura va g'oyalar tizimi. Har qanday ma'naviy muhitning asosi muayyan g'oyalar bo'lib, ular milliy istiqlol g'oyasi, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, adolat, insonparvarlik kabi tushunchalarda namoyon bo'ladi. Bu atributning asosiy xususiyatlari esa, g'oyalarning jamiyatni birlashtiradi, maqsadga yo'naltiradi va kelajak tasavvurini belgilashi kabi xususiyatlaridan kelib chiqadi[4.67] .

2. Qadriyatlar tizimi. Ma'naviy muhit inson va jamiyat hayotida qadriyatlar ierarxiyasi orqali namoyon bo'ladi va qadriyatlar tizimida milliy merosga hurmat, ma'naviy meros, oila, mehnat, din, ilm, huquqiy ong kabilar ustuvor bo'ladi. Bu atributning o'zga xos xususiyatlari ham qadriyatlarning jamiyat uchun "axloqiy me'yorlar" sifatida xizmat qilishi, shaxsning ong va xulq-atvorini yo'naltirishi kabi xususiyatlaridan kelib chiqadi .

3. Tarixiy xotira va meros. Ma’naviy muhitning asosiy atributlaridan biri – milliy tarix va madaniy merosga munosabatdir. Ushbu atribut tarixiy xotiraga tayanib, jamiyatda uzluksizlikni ta’minlaydi, millatni umumiy ildizlar atrofida birlashtiradi. Masalan, jadidlar merosi mustaqillik davri ma’naviyatida qayta tiklandi.

4. Mafkuraviy immunitet. Bu degani yot g‘oyalar va destruktiv ta’sirlarga qarshi ma’naviy barqarorlik holatidir. Bu atributning xususiyatlari ham shaxs va jamiyat ongini himoya qilish, milliy g‘oya asosida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash kabilarda ko‘zga tashlanadi.

5. Fuqarolik ongi va ijtimoiy mas’uliyat. Ma’naviy-mafkuraviy muhit fuqarolik madaniyati, qonunga hurmat, davlat va jamiyat oldida mas’uliyat tuyg‘usini shakllantiradi. Bu atributning xususiyatlari esa, shaxsning ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash kabi vazifalardan kelib chiqadi.

6. Diniy bag‘rikenglik va ma’naviy hamjihatlik. Ma’naviy muhit diniy e’tiqod va dunyoviylik uyg‘unligida rivojlanadi. Shuning uchun jamiyatda turli konfessiya va millat vakillarining tinch-totuv yashashga undash, ijtimoiy barqarorlikka xizmat qilish kabilar bu atributning muhim xususiyatlari hisoblandi.

7. Innovatsiya va zamonaviy axborot muhiti. XXI asrda ma’naviy muhit internet va axborot texnologiyalari ta’sirida shakllanmoqda. Shu sabali bu atributning o‘ziga xos xususiyatlari global g‘oyalar bilan tezkor muloqot imkoniyatini yaratish, biroq mafkuraviy xavflarni ham kuchaytirish kabilarda namoyon bo‘ladi[5.132]. Umuman olganda, ma’naviy-mafkuraviy muhitning atributlari bo‘lgan g‘oyalar tizimi, qadriyatlar, tarixiy xotira, mafkuraviy immunitet, fuqarolik ongi, bag‘rikenglik va zamonaviy axborot muhiti bo‘lib, ularning har biri jamiyatning ma’naviy barqarorligi, milliy birligi va istiqbolini belgilaydi.

Ma’naviy-mafkuraviy muhit davlat siyosatining bir qismi sifatida o‘z huquqiy asoslariga ega bo‘lib. Konstitutsiya va qonunlarda inson huquqlari, demokratik qadriyatlar va milliy o‘zlikni asrash kabi tamoyillari mustahkamlab qo‘yilgan[6]. Shuningdek, “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonunlar, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” kabi hujjatlar ma’naviy muhitning huquqiy asosini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, bugungi zamonaviy jamiyat ma’naviy muhitini shakllantirishda axborot texnologiyalari ham muhim omilga aylandi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari orqali ma’naviy-mafkuraviy ta’sir kuchaymoqda. Shu bilan birga, ma’lumotlar oqimi orqali yot g‘oyalar tarqalishining oldini olish, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish davlat va jamiyatning ustuvor vazifasidir. XXI asr axborot asri sifatida e’tirof etilar ekan, bunda ma’naviy muhitni shakllantirishda internet, telekommunikatsiya va raqamli texnologiyalar asosiy vositaga aylandi. Ma’naviy muhit jamiyatdagi g‘oyalar, qarashlar, qadriyatlar va ma’naviy munosabatlarni ifoda etadi. Axborot texnologiyalari bu muhitni tezkor va ommaviy tarzda tarqatish, yangi ma’naviy qarashlarni jamiyat ongiga singdirish imkonini yaratmoqda.

Ayni paytda Internet platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli ommaviy axborot vositalari orqali milliy ma’naviy meros, urf-odatlar va madaniy meros elementlari keng ommaga yetkazilmoqda. Masalan, tarixiy shaxslar, adabiyot, san’at va milliy an’analar haqidagi ma’lumotlarni targ‘ib qilish yoshlar ma’naviyatining yuksalishiga xizmat qilmoqda. Axborot texnologiyalari insonlarga jahon ma’naviy merosi va madaniy boyliklari bilan tanishish imkonini berdi. Bu jarayon ma’naviy muhitning interfaol va ochiq xarakter kasb etishiga olib kelmoqda. Ammo buning bilan birga milliy va umumbashariy qadriyatlar o‘rtasida muvozanatni topish zarurati ham vujudga kelmoqda.

Axborot texnologiyalari jamiyat ongida turli g‘oyalarni tarqatish imkoniyatini oshirgani uchun, ular orqali yot va zararli g‘oyalar ham tez kirib kelishi mumkin. Shu bois, ma’naviy muhitni barqaror saqlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan birga mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim jarayonlarida axborot texnologiyalari yoshlar ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Masofaviy ta’lim platformalari, onlayn kitobxonlik va madaniy-ma’rifiy portallar orqali ma’naviy tarbiyani kuchaytirish imkoniyatlari kengaymoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli maydon yoshlar uchun asosiy axborot manbai bo‘lib qolgan. Shu bois, ularda sog‘lom ma’naviy muhitni yaratish, yoshlarni ijobiy g‘oyalar bilan ta’minlash jamiyat rivoji uchun muhimdir.

Axborot asrida ma’naviy muhitda kiberhujumlar, dezinformatsiya, feyk xabarlar va manipulyativ axborot oqimlari jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Agar jamiyatda axborot madaniyati past bo‘lsa, yot g‘oyalar ma’naviy muhitni ifloslantirishi mumkin. Shuning uchun ma’naviy soflikni saqlashda axborot xavfsizligi muhim ahamiyatga ega. Axborot texnologiyalari nafaqat turli qarashlarni tarqatadi, balki jamiyatning ma’naviy birligini ham mustahkamlaydi. Masalan, milliy bayramlar, tarixiy sana va milliy qahramonlar jasoratini ham keng targ‘ib qilish orqali umummilliy ma’naviy birlik ta’minlanadi. Raqamli platforma insonlarga ijodiy imkoniyatlar ochib. ular orqali yoshlarlar, blogerlar videolavhalar, onlayn nashrlar orqali o‘z fikr va g‘oyalarini keng jamoatchilikka yetkazish imkoniga ega. Bu jarayon ma’naviy muhitning boyishiga, yangi g‘oyalar bilan to‘ldirilishiga xizmat qiladi.

XXI asrda ma’naviy muhitni shakllantirishda axborot texnologiyalari jamiyatning ma’naviy yuksalishi uchun ham imkoniyat, ham sinov sifatida namoyon bo‘lmoqda. Agar ulardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanilsa, milliy ma’naviyat taraqqiyotiga, ijtimoiy birlikka va ma’naviy soflikka xizmat qiladi, aks holda ma’naviy muhitning buzilishi va yot

g‘oyalarning tarqalishi xavfi yuzaga kelishi mumkin. Mustaqillik davrida ma’naviy-mafkuraviy muhitni o‘rganish metodologik yondashuvlari ko‘p qirrali va kompleks xarakterga ega. Tarixiy, sivilizatsion, falsafiy, aksiologik, sotsiologik, psixologik, qiyosiy, huquqiy va texnologik yondashuvlarni uyg‘un tarzda qo‘llash bilan jamiyat ma’naviy hayotining to‘la manzarasini ochib berish imkonini yaratadi.

**Xulosalar.**

Ma’naviy-mafkuraviy muhit jamiyat barqarorligi va taraqqiyotini ta’minlovchi muhim ijtimoiy fenomen hisoblanadi. Uni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish jamiyat a’zolarining dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy faolligi hamda ma’naviy ehtiyojlarini anglash imkonini beradi. Shu ma’noda, ma’naviy-mafkuraviy muhitni tahlil qilishda uning tarkibiy qismlari va atributlarini aniq belgilash ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish uchun zarurdir.

Ma’naviy-mafkuraviy muhitni o‘rganishning asosiy atributlari qatoriga milliy va umuminsoniy qadriyatlar, mafkuraviy barqarorlik, ijtimoiy ong holati, axborot makoni va ma’naviy xavfsizlik omillari kiradi. Ushbu atributlar o‘zaro bog‘liq holda shakllanib, jamiyatning ma’naviy immunitetini ta’minlaydi. Shuning uchun ularni alohida emas, balki tizimli yondashuv asosida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Ma’naviy-mafkuraviy muhitni baholashda ijtimoiy munosabatlar, jamoatchilik fikri va fuqarolarning mafkuraviy pozitsiyasi muhim ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, yoshlarning ma’naviy ongi va mafkuraviy qarashlari muhit holatining indikatori hisoblanadi. Bu esa tadqiqot jarayonida sotsiologik, psixologik va siyosiy tahlil usullarini qo‘llashni taqozo etadi.

Zamonaviy globallashuv sharoitida ma’naviy-mafkuraviy muhitga tashqi axborot ta’sirlari kuchaymoqda. Shu bois, mazkur muhitni o‘rganish atributlari orasida axborot madaniyati, media savodxonlik va mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitet masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu omillar jamiyatning ma’naviy barqarorligini saqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ma’naviy-mafkuraviy muhitni ilmiy tahlil qilish davlat siyosati, ta’lim-tarbiya tizimi va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Atributlarni aniqlash va ular asosida xulosalar chiqarish orqali profilaktik va strategik chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Bu esa ijtimoiy taraqqiyotning ma’naviy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan.

Ma’naviy-mafkuraviy muhitni o‘rganishning atributlari jamiyat ma’naviy holatini kompleks baholashga xizmat qiladigan ilmiy-nazariy mezonlardir. Ularning chuqur tahlili ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, mafkuraviy tahdidlarni barvaqt aniqlash va jamiyatning ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, mazkur atributlarni tadqiq etish ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025 https://president.uz/uz/lists/view/8834
2. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi 1-jildi. –Toshkent: O‘zFMJ nashriyoti, 2023. –B. 757
3. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi 1-jildi. –Toshkent: O‘zFMJ nashriyoti, 2023. –B. 733
4. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent.: Ma’naviyat, 2008. –B. 67
5. Bauman Z. *Liquid Modernity.* – Cambridge: Polity Press, 2000 p. 132
6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: 2023. https://lex.uz/docs/6445147

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Shodmonov Alixon Xayitovich**
ISFTI instituti mustaqil tadqiqotchi

**Diskretsiya tushunchasining falsafiy kategoriyalar tizimidagi o‘rni va ijtimoiy mohiyati**

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada diskretsiya tushunchasining falsafiy kategoriyalar tizimidagi o‘rni va uning ijtimoiy mohiyati ijtimoiy-falsafiy tahlil asosida yoritilgan. Diskretsiya inson faoliyatidagi ongli tanlov, erkin iroda va mas’uliyatning uzviy birligini ifodalovchi muhim falsafiy kategoriya sifatida talqin qilingan. Tadqiqotda diskretsiyaning determinizmga muqobil hodisa sifatidagi ahamiyati, bilish jarayonining ratsional va intuitsional bosqichlarida namoyon bo‘lishi hamda subyektning qaror qabul qilish jarayonida tafakkur faoliyati bilan bog‘liqligi ochib berilgan. Shuningdek, diskretsiyaning axloqiy, huquqiy va siyosiy kontekstlarda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizm sifatidagi roli asoslangan. Maqolada diskretsiya erkinlik va ijtimoiy javobgarlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi kategoriya sifatida baholanib, uning zamonaviy jamiyatdagi nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Ushbu tahlil diskretsiya tushunchasini shaxs va jamiyat munosabatlarini tushuntirishda muhim falsafiy vosita sifatida asoslashga xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Diskretsiya, erkinlik, mas’uliyat, tanlov, determinizm, subyekt, tafakkur, bilish, ijtimoiy jarayon, ehtimollik, axloq, huquq.*

**Шодмонов Алихон Хайитович**
независимого исследователя Института ИСФТИ

**РОЛЬ И СОЦИАЛЬНАЯ СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ ДИСКРЕЦИИ В СИСТЕМЕ ФИЛОСОФСКИХ КАТЕГОРИЙ**

***Аннотация:*** *В данной статье освещается роль понятия дискреции в системе философских категорий и ее социальная сущность на основе социально-философского анализа. Дискреция интерпретируется как важная категория, выражающая органическое единство сознательного выбора, свободной воли и ответственности в деятельности человека. В исследовании раскрывается значение дискреции как альтернативы детерминизму, анализируются её проявления на рациональном и интуитивном этапах познавательного процесса, а также рассматривается её связь с мыслительной деятельностью субъекта в процессе принятия решений. Также обосновывается роль дискреции как механизма регулирования общественных отношений в этическом, правовом и политическом контекстах. В статье дискреция оценивается как категория, обеспечивающая баланс между свободой и социальной ответственностью и показано ее теоретическое и практическое значение в современном обществе. Данный анализ служит обоснованию понятия дискреции как важного философского инструмента в объяснении отношений личности и общества.*

***Ключевые слова:*** *Дискреция, свобода, ответственность, выбор, детерминизм, субъект, мышление, познание, социальный процесс, вероятность, мораль, право.*

**Shadmanov Alikhon Khayitovich**
independent researcher of the ISFTI Institute.

**THE ROLE AND SOCIAL SIGNIFICANCE OF THE CONCEPT OF DISCRETIZATION WITHIN THE SYSTEM OF PHILOSOPHICAL CATEGORIES.**

***Abstract:*** *This article illuminates the place of the concept of discretization in the system of philosophical categories and its social essence based on socio-philosophical analysis. Discretion is interpreted as an important category in human activity, representing the organic unity of conscious choice, free will, and responsibility. The study reveals the significance of discretization as an alternative phenomenon to determinism, its manifestation at the rational and intuitive stages of the cognitive process, and its connection with the cognitive activity of the subject in the decision-making process. The role of discretion as a mechanism for regulating social relations in moral, legal, and political contexts is also substantiated. In the article, discretion is evaluated as a category that ensures a balance between freedom and social responsibility, and its theoretical and practical significance in modern*

*society is shown. This analysis serves to substantiate the concept of discretization as an important philosophical tool in explaining the relationship between the individual and society.*

***Keywords:*** *Discretion, freedom, responsibility, choice, determinism, subject, thinking, cognition, social process, probability, morality, law.*

**Kirish.** Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda inson faoliyatini ongli tanlov, erkin iroda va mas'uliyat nuqtai nazaridan talqin qilish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv, raqamli texnologiyalar va murakkablashib borayotgan ijtimoiy munosabatlar sharoitida qaror qabul qilish jarayoni nafaqat individual, balki ijtimoiy miqyosda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shu jihatdan "diskretsiya" tushunchasi insonning ongli tanlov qobiliyatini ifodalovchi muhim falsafiy kategoriya sifatida alohida e'tiborni talab etadi. Diskretsiya ko'pincha huquqiy yoki siyosiy kontekstda, xususan, diskretsion vakolatlar doirasida qo'llanilsa-da, uning ildizlari chuqur falsafiy mazmunga ega. Ushbu tushuncha erkinlik va zaruriyat, tanlov va mas'uliyat, subyektiv iroda va ijtimoiy me'yorlar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tushuntirish imkonini beradi. Aynan shu jihatlar diskretsiyani falsafiy kategoriyalar tizimida alohida o'rin egallovchi tushuncha sifatida baholashga asos bo'ladi.

Diskretsiya tushunchasining falsafiy kategoriyalar tizimidagi o'rnini aniqlash va uning ijtimoiy mohiyatini, diskretsiyaning erkin iroda va mas'uliyat bilan uzviy bog'liqligi, determinizm muammosiga munosabati hamda ijtimoiy jarayonlarda tanlov va subyektiv omilni ifodalovchi kategoriya sifatidagi ahamiyati yoritilgan. Ushbu yondashuv diskretsiyani zamonaviy jamiyatni anglash va ijtimoiy qarorlar mohiyatini tushuntirishda muhim nazariy vosita sifatida asoslashga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Diskretsiya tushunchasining falsafiy va ijtimoiy mohiyatini yoritishda klassik va zamonaviy falsafiy manbalar muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Antik falsafada Aristotelning *fronesis* haqidagi qarashlari ongli tanlov va amaliy donishmandlik masalasini ochib berib, diskretsiya mazmuniga yaqin g'oyalarni shakllantiradi. O'rta asrlar falsafasida Avreliy Avgustin va Foma Akvinskiy asarlarida diskretsiya axloqiy farosat, vijdon va mas'uliyat bilan bog'liq fazilat sifatida talqin qilinadi. Yangi davr mutafakkirlari – R.Dekart, B.Spinoza va G.V.Leybnits – inson erkinligi va qaror qabul qilish muammolari doirasida diskretsiyaning nazariy asoslarini bilvosita rivojlantirganlar. Zamonaviy falsafiy va huquqiy adabiyotlarda diskretsiya ijtimoiy boshqaruv, huquqiy vakolat va mas'uliyat masalalari bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda diskretsiya tushunchasining kategoriya sifatidagi maqomi yetarlicha tizimli yoritilmaganligi mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada diskretsiya tushunchasining falsafiy kategoriyalar tizimidagi o'rni va ijtimoiy mohiyatini aniqlashda kompleks metodologik yondashuv qo'llaniladi. Tadqiqotda dialektik metod asosida diskretsiyaning erkinlik va zaruriyat, subyektivlik va obyektivlik, tanlov va mas'uliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Tarixiy-falsafiy yondashuv yordamida diskretsiya tushunchasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari antik davrdan to zamonaviy falsafagacha izchil o'rganiladi. Shuningdek, qiyosiy tahlil metodi orqali falsafa, huquq, axloq va siyosatshunoslikdagi talqinlar solishtiriladi. Mantiqiy-tahliliy va sistemali yondashuv esa diskretsiyaning kategoriya sifatidagi mezonlari hamda uning ijtimoiy jarayonlardagi funksional ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

**Natijalar va ularning tahlili.** "Diskretsiya – tushunchasi inson tafakkuri, axloqiy tanlov va ijtimoiy qaror qabul qilish jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab falsafiy kategoriya hisoblanadi"[1:495]. Ushbu atamaning kelib chiqishini tahlil qilish, avvalo, uning etimologik ildizlarini, tarixiy shakllanish bosqichlarini va turli ilmiy sohalarda kasb etgan mazmuniy qirralarini aniqlashni taqozo etadi. Chunki diskretsiya tushunchasi bugungi kunda nafaqat falsafada, balki huquqshunoslik, siyosatshunoslik, axloqshunoslik va ijtimoiy nazariyalarda ham muhim nazariy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Etimologik jihatdan "diskretsiya – atamasi lotin tilidagi *discretio* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u *discernere* fe'liga borib taqaladi. *Discernere* – "ajratmoq", "farqlamoq", "tabaqalashtirmoq", "farqni ilg'amoq" ma'nolarini anglatadi. Lotincha *dis-* old qo'shimchasi ajralish, bo'linish, farqlanishni, *cernere* esa ko'rish, anglash, idrok etishni bildiradi"[2:316]. Demak, dastlabki ma'noda diskretsiya — bu narsalar, hodisalar yoki imkoniyatlar orasidagi farqni anglab, ongli tanlov qilish qobiliyatini ifodalagan.

Antik davr falsafasida diskretsiya tushunchasi mustaqil termin sifatida shakllanmagan bo'lsa-da, uning mazmuni Platon va Aristotel asarlarida muhim o'rin tutgan. Ayniqsa, Aristotelning "fronesis – ya'ni amaliy donishmandlik haqidagi ta'limotida diskretsiya mazmuniga yaqin g'oyalar ilgari surilgan. Fronesis insonning muayyan vaziyatda umumiy qoidalarni emas, balki konkret sharoitni hisobga olib, to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini anglatadi"[3:156]. Bu esa diskretsiyaning keyingi axloqiy-falsafiy talqinlari uchun nazariy zamin yaratgan.

O'rta asrlar falsafasi va xristian teologiyasida "discretio" tushunchasi axloqiy fazilat sifatida shakllanadi, deb e'tirof etiladi. Ayniqsa, Foma Akvinskiy asarlarida "diskretsiya vijdon, ehtiyotkorlik va mas'uliyat bilan bog'liq axloqiy tushuncha sifatida talqin qilinadi. Bu davrda diskretsiya insonning hissiyotlar, ehtiroslar va tashqi ta'sirlar o'rtasida muvozanatni saqlagan holda ongli tanlov qilish qobiliyatini bildirgan"[4]. Shu tariqa diskretsiya nafaqat bilish akti, balki

axloqiy o‘zini nazorat qilish mexanizmi sifatida ham qarala boshlagan. O‘rta asrlar falsafasida “diskretsiya” (*discretio*) tushunchasi, avvalo, axloqiy-diniy mazmunda shakllangan bo‘lib, insonning ongli tanlov qilishi, o‘zini nazorat etishi va me’yorni saqlashi bilan bog‘liq fazilat sifatida talqin etiladi. Bu davrda falsafa asosan teologiya bilan uzviy bog‘langanligi sababli, diskretsiya insonning Xudo oldidagi mas’uliyati va axloqiy kamoloti nuqtai nazaridan tushuntirilgan.

Xristian patristikasi va monastir an’analarida diskretsiya ruhiy hayotning asosiy fazilatlaridan biri sifatida baholangan. Ayniqsa, Avreliy Avgustin asarlarida diskretsiya inson ichki dunyosidagi ehtiroslar, istaklar va iroda o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi qobiliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Avgustinga ko‘ra, inson o‘z ehtiroslarini aql va e’tiqod orqali boshqara olgan taqdirdagina haqiqiy axloqiy tanlovga erishadi. Bu holatda diskretsiya vijdon bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ruhiy farosatni anglatadi. Sxolastik falsafada, xususan, Foma Akvinskiy ta’limotida “diskretsiya “ehtiyotkorlik” (*prudentia*) fazilatining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Akvinskiyga ko‘ra, diskretsiya insonning konkret vaziyatda umumiy axloqiy qoidalarni to‘g‘ri qo‘llash qobiliyatidir. U shaxsni haddan oshish yoki yetishmovchilikdan saqlab, o‘rtacha yo‘lni tanlashga undaydi”[5:15]. Shu bois diskretsiya axloqiy donishmandlik va mas’uliyatli qaror qabul qilishning zarur sharti sifatida qaraladi. O‘rta asrlar falsafasida diskretsiya nafaqat individual fazilat, balki ijtimoiy tartibni saqlovchi mexanizm sifatida ham tushunilgan. Ruhoniylar, hukmdorlar va jamiyat yetakchilaridan diskretsion qarorlar chiqarishda adolat, rahm-shafqat va Xudoning irodasini hisobga olish talab etilgan. Demak, bu davrda diskretsiya inson erkinligi emas, balki axloqiy va ilohiy me’yorlarga bo‘ysungan ongli tanlov sifatida talqin qilingan.

Yangi davr falsafasi (XVII–XVIII asrlar) inson aqli, erkin iroda va ratsional tafakkurning markaziy o‘ringa chiqishi bilan tavsiflanadi. Aynan shu tarixiy-intellektual muhitda “diskretsiya” tushunchasi mustaqil termin sifatida emas, balki insonning ongli tanlov qilish qobiliyatini ifodalovchi muhim falsafiy mazmun sifatida shakllandi. Bu davrda diskretsiya masalasi, asosan, bilish nazariyasi, axloq falsafasi va determinizm muammolari doirasida talqin qilindi. Yangi davr falsafasida, xususan, ratsionalizm va empirizm rivoji jarayonida diskretsiya tushunchasi inson aqliy mustaqilligi va erkin iroda muammolari bilan chambarchas bog‘lanadi. Dekart, Spinoza va Leybnits singari mutafakkirlar qaror qabul qilish jarayonida inson tafakkurining faolligini muhokama qilar ekan, bilvosita diskretsiya masalasiga murojaat qiladilar. Bu davrda diskretsiya insonning tashqi sabablar ta’sirida emas, balki aql va ong asosida tanlov qilish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

Rene Dekart falsafasida diskretsiya inson aqlining faoliyati bilan uzviy bog‘lanadi. Dekartga ko‘ra, “inson o‘z tafakkuri orqali aniq va ravshan g‘oyalarni farqlay oladi hamda shu asosda ongli qarorlar qabul qiladi. Bu jarayonda tanlov tasodifiy emas, balki aql tomonidan boshqariladi”[6:86]. Mazkur yondashuv diskretsiyani bilishning ratsional asosiga tayangan holda tushunishga zamin yaratdi.

Benedikt Spinoza esa, “diskretsiya masalasini erkin iroda muammosi bilan bog‘lab tahlil qiladi. Unga ko‘ra, inson o‘zini erkin tanlov qilayotgandek his qilsa-da, aslida uning qarorlari sabablar zanjiri bilan belgilanadi. Shunga qaramay, inson bu sabablarni anglab yetgan sari ongli harakatga yaqinlashadi”[7:468]. Bu nuqtai nazardan diskretsiya mutlaq erkinlik emas, balki zaruriyatni anglash orqali yuzaga keladigan ongli tanlov shaklidir.

Gotfrid Vilgelm Leybnits falsafasida esa diskretsiya individual qaror va ilohiy tartib o‘rtasidagi uyg‘unlik doirasida talqin qilinadi. Leybnits inson tanlovlarini umumiy uyg‘unlikka xizmat qiluvchi element sifatida ko‘radi. Bu yondashuv diskretsiyani subyektiv ixtiyor bilan ob’ektiv tartibni bog‘lovchi tushuncha sifatida namoyon etadi.

Zamonaviy davrga kelib diskretsiya atamasi huquqiy va ijtimoiy-siyosiy mazmunda yanada aniq shakl kasb eta boshladi. Ayniqsa, huquqshunoslikda ““diskretsion vakolat” tushunchasi keng qo‘llanilib, u mansabdor shaxs yoki davlat organining qonun doirasida, ammo muayyan vaziyatni hisobga olgan holda mustaqil qaror qabul qilish huquqini anglatadi. Bu holatda diskretsiya tanlov erkinligi bilan bir qatorda mas’uliyat va normativ cheklovlar bilan ham uzviy bog‘langan tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi”[8:216]. Falsafiy nuqtai nazardan, diskretsiya atamasining shakllanishi inson erkinligi, determinizm va ijtimoiy tartib o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiradi. Diskretsiya insonni mexanik sabab-oqibat zanjiridan qisman ozod qiluvchi, uni ongli subyekt sifatida namoyon etuvchi tushuncha hisoblanadi. Shu bois u zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda shaxsiy tanlov, axloqiy mas’uliyat va ijtimoiy adolat muammolarini tahlil qilishda muhim kategoriya sifatida qaralmoqda.

“Diskretsiya” atamasi o‘z kelib chiqishida oddiy “farqlash” va “ajratish” ma’nolaridan boshlanib, tarixiy rivojlanish jarayonida murakkab falsafiy, axloqiy va ijtimoiy mazmun kasb etgan. Bugungi kunda u insonning ongli tanlov qilish qobiliyatini, erkinlik va mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanatni ifodalovchi muhim tushuncha sifatida falsafiy kategoriyalar tizimida mustahkam o‘rin egallaydi. “Diskretsiya” tushunchasi zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fanlarda insonning ongli tanlovi, qaror qabul qilish erkinligi va mas’uliyati bilan bog‘liq bo‘lgan muhim kategoriya sifatida talqin qilinadi. Uning mazmuni fanlararo xususiyatga ega bo‘lib, falsafa, huquq, axloq va siyosatshunoslikda turli jihatlari bilan ochib beriladi.

Falsafada diskretsiya, avvalo, “inson erkinligi va ongli faoliyatining ifodasi sifatida qaraladi. U deterministik sabab-oqibat munosabatlari bilan insonning subyektiv tanlovi o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni anglatadi”[9].

Diskretsiya bu yerda shaxsning muayyan vaziyatda bir nechta imkoniyatlar orasidan ongli ravishda tanlov qilishi, qarorni o‘z mas’uliyati bilan qabul qilishi sifatida tushuniladi. Falsafiy talqinda diskretsiya bilish, iroda va qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, shaxsni faol ijtimoiy subyekt sifatida namoyon etadi.

Huquqshunoslikda diskretsiya asosan “davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning qonun doirasida, lekin aniq holatlarni hisobga olgan holda mustaqil qaror qabul qilish huquqini anglatadi. Huquqiy diskretsiya normativ qat’iylik bilan amaliy moslashuvchanlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi”[10]. Shu bilan birga, u cheksiz erkinlik emas, balki qonuniylik, adolat va javobgarlik bilan chegaralangan vakolat sifatida talqin etiladi.

Axloqshunoslikda diskretsiya insonning vijdoniy tanlovi va axloqiy mas’uliyati bilan bog‘liq tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Bu sohada diskretsiya shaxsning o‘z xatti-harakatlarini baholash, ehtiroslar va manfaatlar ta’sirini nazorat qilish hamda axloqiy me’yorlarga muvofiq qaror qabul qilish qobiliyatini anglatadi. Axloqiy diskretsiya shaxsiy erkinlikni umumiy axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishga yordam beruvchi ichki mexanizm sifatida qaraladi.

Siyosatshunoslikda diskretsiya hokimiyatni amalga oshirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosiy qaror qabul qilishda qat’iy qoidalar bilan bir qatorda vaziyatni hisobga olish zarurati mavjud bo‘lib, bu diskretsion yondashuvni taqozo etadi. “Davlat rahbarlari va siyosiy institutlarning diskretsion qarorlari jamiyat barqarorligi, ijtimoiy muvozanat va manfaatlar uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi lozim”[11:97]. Shu sababli siyosiy diskretsiya mas’uliyat, oshkoralik va legitimlik tamoyillari bilan chambarchas bog‘lanadi. Diskretsiya tushunchasi turli fan sohalarida turlicha talqin qilinsa-da, ularning barchasida ongli tanlov, erkinlik va mas’uliyatning o‘zaro birligi markaziy o‘rin tutadi. Aynan shu jihat diskretsiyani zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tahlilning muhim kategoriyasiga aylantiradi.

“Diskretsiya” tushunchasi kundalik nutq va ilmiy diskursda mazmuni, funksiyasi hamda qo‘llanish doirasi jihatidan sezilarli darajada farqlanadi. Kundalik muloqotda bu atama ko‘proq shaxsiy xulq-atvor, muomala madaniyati va ehtiyotkorlik bilan bog‘liq ma’noda ishlatilsa, ilmiy nutqda u aniq tushunchaviy chegaralarga ega bo‘lgan nazariy kategoriya sifatida qo‘llaniladi. Kundalik nutqda diskretsiya odatda “sir saqlash”, “ehtiyotkorlik”, “muloyimlik” yoki “ortiqcha oshkoralikdan tiyilish” ma’nolarida qo‘llanadi. Masalan, “bu masalada diskretsiya qilish lozim” degan ibora shaxsning vaziyatni chuqur anglab, nozik jihatlarni oshkor qilmasdan harakat qilishini anglatadi. Bu holatda diskretsiya axloqiy va madaniy me’yorlarga mos xatti-harakatni ifodalovchi sifat yoki fazilat sifatida namoyon bo‘ladi. Kundalik talqinda u ko‘proq intuitiv xarakterga ega bo‘lib, aniq nazariy asosga tayanmaydi.

Ilmiy nutqda esa diskretsiya tushunchasi qat’iy terminologik mazmunga ega. Falsafa, huquq, siyosatshunoslik va axloqshunoslikda diskretsiya shaxs yoki institutning muayyan vaziyatda bir nechta imkoniyatlar orasidan ongli va mas’uliyatli tanlov qilish vakolatini anglatadi. Diskretsiya shaxsiy xohish emas, balki normativ cheklovlar bilan belgilangan rasmiy vakolat sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, ilmiy diskursda diskretsiya analitik tushuncha bo‘lib, u ijtimoiy jarayonlarni tushuntirish, qaror qabul qilish mexanizmlarini tahlil etish va mas’uliyat masalasini asoslashda qo‘llaniladi. Ilmiy nutqda diskretsiya individual fazilatdan ko‘ra ko‘proq tizimli hodisa sifatida qaraladi.

Falsafada “kategoriya” tushunchasi borliq, tafakkur va bilishning eng umumiy, universal shakllarini ifodalovchi tushunchalarni anglatadi. “Kategoriyalar inson ongida voqelikni tartibga soluvchi, uni tushunish va izohlash imkonini beruvchi asosiy konseptual vositalar hisoblanadi”[12:27]. Shu nuqtai nazardan diskretsiyani falsafiy kategoriya sifatida talqin qilish, uning inson faoliyati, ijtimoiy munosabatlar va ongli tanlov jarayonlaridagi umumiy va zarur xususiyatlarini ochib berish taqozo etiladi.

Diskretsiya eng umumiy ma’noda subyektning muayyan vaziyatda bir nechta imkoniyatlar orasidan ongli, mas’uliyatli va maqsadga yo‘naltirilgan tanlov qilishi qobiliyatini anglatadi. Bu tushuncha tasodifiy harakatdan, instinktiv reaksiya yoki mexanik qarordan tubdan farq qiladi. Diskretsiya subyektning ongli ishtiroki, vaziyatni baholash, qadriyatlarni hisobga olish va oqibatlarni oldindan anglash bilan belgilanadi. Aynan shu jihatlar uni oddiy psixologik holatdan falsafiy kategoriya darajasiga ko‘taradi.

Diskretsiyaning falsafiy kategoriya sifatidagi birinchi muhim mezoni universallikdir. Kategoriya bo‘lish uchun tushuncha muayyan tarixiy yoki ijtimoiy sharoit bilan cheklanmasdan, inson faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo‘lishi lozim. Diskretsiya axloqiy tanlovda, huquqiy qarorlarda, siyosiy boshqaruvda, ilmiy izlanishlarda va kundalik hayotda doimiy ravishda uchraydi. Bu uning umumiylik va keng qamrovga ega ekanini ko‘rsatadi.

Falsafiy kategoriya sifatidagi ikkinchi mezon zaruriylikdir. inson voqelikni anglashida muqarrar tushuncha bo‘lishi zarur. Diskretsiyasiz inson faoliyati to‘liq determinizmga yoki sof tasodifga tushib qoladi. Ongli tanlov imkoniyatisiz erkinlik, mas’uliyat va axloqiy baho tushunchalarini asoslab bo‘lmaydi. Shu bois diskretsiya insonni ijtimoiy subyekt sifatida tushuntirishda zarur kategoriya hisoblanadi.

Uchinchi mezon munosabatlilikdir. Bunda kategoriyalar alohida holda emas, balki o‘zaro bog‘liq tizim sifatida mavjud bo‘ladi. Diskretsiya erkinlik va zaruriyat, imkoniyat va voqelik, sabab va oqibat, mas’uliyat va javobgarlik kabi asosiy falsafiy kategoriyalar bilan uzviy aloqada komleks namoyon bo‘ladi. U erkinlikni mutlaq holatda emas, balki muayyan shart-sharoitlar doirasida tushuntirishga yordam beradi.

To‘rtinchi mezon abstraktlik darajasining yuqoriligi. Diskretsiya muayyan harakat yoki qarorning nomi emas, balki qaror qabul qilish jarayonining umumiy tamoyilini ifodalaydi. U konkret misollardan umumlashtirish orqali hosil qilingan tushuncha bo‘lib, nazariy tahlil uchun qulay vosita hisoblanadi. Aynan shu abstraktlik darajasi uni empirik tushunchadan farqlaydi.

Beshinchi mezon normativ va tavsiflovchi birlikdir. Diskretsiya nafaqat mavjud holatni tasvirlaydi, balki qanday qaror qabul qilish lozimligini ham bilvosita belgilaydi. Ya’ni u tavsiflovchi (diskreptiv) va me’yoriy (normativ) funksiyalarni birlashtiradi. Bu xususiyat ayniqsa axloqiy va huquqiy diskursda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Oltinchi mezon tarixiy barqarorlik va rivojlanishdir. Diskretsiya tushunchasi antik va o‘rta asrlar falsafasida axloqiy farosat sifatida shakllanib, Yangi davrda erkin iroda va ongli tanlov bilan bog‘lanib, zamonaviy davrda huquqiy va siyosiy kategoriya sifatida kengayib borgan. Bu uning tarixiy uzluksizlikka ega ekanini ko‘rsatadi.

Yettinchi mezon ijtimoiy ahamiyatdir. Falsafiy kategoriya jamiyat hayotini tushuntirish va boshqarishda muhim nazariy vosita bo‘lishi lozim. Diskretsiya ijtimoiy institutlar faoliyatini tahlil qilishda, boshqaruv qarorlarini asoslashda va shaxsiy mas’uliyatni baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Diskretsiya universallik, zaruriylik, munosabatlilik, abstraktlik, normativlik, tarixiylik va ijtimoiy ahamiyat mezonlariga javob bergani sababli falsafiy kategoriya sifatida asoslanadi. U inson erkinligi va mas’uliyati o‘rtasidagi murakkab munosabatni tushuntiruvchi muhim nazariy tushuncha bo‘lib, zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda alohida o‘rin egallaydi (*Yuqoridagi diskretsiyaning o‘lchov mezonlari to‘g‘risidagi fikrlar muallifning shaxsiy mulohazalari*).

Falsafiy tafakkurda erkinlik va mas’uliyat tushunchalari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni bir-biridan ajratib talqin etish mumkin emas. Erkinlik insonning tanlash imkoniyatini ifodalasa, mas’uliyat ushbu tanlov oqibatlari uchun javob berish majburiyatini anglatadi. Aynan shu ikki tushuncha o‘rtasidagi mantiqiy va amaliy bog‘lanishni ta’minlovchi kategoriya sifatida diskretsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Diskretsiya erkinlikni mutlaq, cheksiz xohish yoki tasodifiy harakat sifatida emas, balki ongli, vaziyatni hisobga olgan tanlov shaklida tushuntiradi. Inson erkin bo‘lishi uchun u faqat imkoniyatlarga ega bo‘lishi emas, balki ushbu imkoniyatlar orasidan ma’lum me’yorlar asosida tanlov qila olishi lozim. Diskretsiya aynan shu jarayonni – erkinlikning amaliy ro‘yobga chiqish mexanizmini ifodalaydi.

Shu bilan birga, diskretsiya mas’uliyatning paydo bo‘lish shartini ham belgilaydi. Agar tanlov ongli va ixtiyoriy bo‘lsa, uning oqibatlari uchun javobgarlik ham muqarrar bo‘ladi. Diskretsiyasiz harakatlar – (majburlangan, mexanik yoki tasodifiy xatti-harakatlar) to‘liq axloqiy yoki huquqiy bahoga ega bo‘la olmaydi. Demak, diskretsiya mas’uliyatni asoslovchi zarur shart sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy hayotda diskretsiya erkinlik va tartib o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi. Masalan, huquqiy tizimda diskretsion vakolatlar mansabdor shaxslarga vaziyatni hisobga olgan holda erkin qaror qabul qilish imkonini beradi, biroq bu erkinlik qonuniy va axloqiy mas’uliyat bilan chegaralanadi. Shu tariqa diskretsiya erkinlikni ijtimoiy javobgarlik bilan uyg‘unlashtiradi. Diskretsiya erkinlikni mazmunli, mas’uliyatni esa asoslaydigan bog‘lovchi kategoriya bo‘lib, insonni ongli va javobgar ijtimoiy subyekt sifatida tushuntirishda muhim falsafiy ahamiyatga ega.

**Xulosa.** Birinchidan, diskretsiya tushunchasi falsafiy kategoriyalar tizimida erkinlik va zaruriyat o‘rtasidagi murakkab dialektik munosabatni ifodalovchi muhim nazariy birlik sifatida namoyon bo‘ladi. U insonning ongli tanlov qilish qobiliyatini mutlaq determinizm doirasidan chiqarib, subyektning mas’uliyatli qaror qabul qilish imkoniyatini asoslaydi. Shu jihatdan diskretsiya erkin irodaning abstrakt emas, balki ijtimoiy sharoitlar bilan bog‘liq real shaklini ochib beradi.

Ikkinchidan, diskretsiyaning ijtimoiy mohiyati jamiyatdagi boshqaruv, huquqiy munosabatlar va axloqiy me’yorlar tizimi bilan uzviy bog‘liqdir. U ijtimoiy subyektlarga normativ qoidalardan kelib chiqqan holda vaziyatga mos qaror qabul qilish vakolatini beradi. Shu sababli diskretsiya ijtimoiy barqarorlikni saqlash bilan birga, moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvlarni ta’minlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, falsafiy jihatdan diskretsiya bilish jarayonida ratsional va intuitiv unsurlarni uyg‘unlashtiruvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Qaror qabul qilishda nafaqat mantiqiy tahlil, balki tajriba, sezgi va axloqiy farosat ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hol diskretsiyani sof nazariy kategoriya emas, balki inson tafakkurining amaliy faoliyat bilan bevosita bog‘liq shakli ekanini ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, diskretsiya qat’iy determinizmga muqobil hodisa sifatida inson faoliyatidagi ehtimollik va alternativlikni asoslaydi. Har bir ijtimoiy vaziyatda yagona majburiy yechim mavjud emasligi, balki bir nechta imkoniyatlar borligi diskretsiya orqali tushuntiriladi. Bu esa jamiyat rivojida subyektiv omilning rolini kuchaytirib, shaxsning ijtimoiy mas’uliyatini yanada oshiradi.

Beshinchidan, axloqiy nuqtai nazardan diskretsiya vijdon, adolat va mas’uliyat tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq. Inson o‘z tanlovini amalga oshirar ekan, faqat tashqi me’yorlarga emas, balki ichki axloqiy mezonlarga ham tayanadi. Shu bois diskretsiya axloqiy yetuklik darajasining ko‘rsatkichi bo‘lib, shaxsning ma’naviy kamolotini ifodalovchi muhim mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Райзберг Б. А., Лозовский Л. Ш., Стародубцева Е. Б. Современный экономический словарь. 5-е изд., перераб. и доп. – М.: "ИНФРА-М", 2007. – С.495.

2. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Том-3. – Тошкент.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б.316.

3. Аристотель Никомахова Этика. – М.: "Азбука", 2022. – С.156.

4. Thomas Aquinas. Summa Theologiae [Электронный ресурс] // Corpus thomisticum. S. Thomae de Aquino Opera omnia. Recognovit ac instruxit Enrique Alarcón automato electronic Pompaelone ad Universitatis Studiorum Navarrensis aedes a MM A.D. (дата обращения: 12.01.2026).

5. Августин. О граде Божием // Соч. в 4-тт. Т. 3. – Москва.: "Издательство ПСТГУ", 2017. – С.15.

6. Рене Декарт: Рассуждение о методе, чтобы верно направлять свой разум и отыскивать истину в науках. – Перевод на русский язык Г. Г. Слюсарева и А. П. Юшкевича. // Рене Декарт. Сочинения в 2-х томах. – Том 1. – М., 1989. – С.86.

7. Спиноза Б. Этика // Избранные произведение в. 2 т. Т.1. – М.: «Гос. изд. во политические литературы», 1957. – С.468.

8. Хабермас Ю. Демократия. Разум. Нравственность. М., 1995. – С.216.

9. Гаспарян Д.Э. Детерминизм и индетерминизм в дуалистических и недуалистических онтологиях: от Канта к Сартру // Идеи и идеалы. 2014. Т. 1. № 4. С. 62–71.

10. Власенко Н. В. Разумность и определенность в правовом регулировании. М., 2014. – С.80–81.

11. Кузнецов И.И. Дискреционные полномочия главы государства и баланс ветвей власти. // Известия Саратовского университета. 2010. Т. 10. Сер. Социология. Политология, вып. №.1. – С.97.

12. Разумов В.И., Сизиков В.П. Категориалный аппарат в современном естествознании // Философия науки. 2004. № 1 (20). – С.27.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Nurtulashev Mansur Jurabayevich**
Univesity of Business and Science Toshkent filiali “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti v.b., PhD

## GLOBALLASHUV JARAYONIDA TRANSGUMANIZMNING TEXNOAXLOQIY ASOSLARI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada globallashuv sharoitida transgumanizmning falsafiy mohiyati, uning ilmiy-texnologik rivojlanish bilan o‘zaro bog‘liqligi va yuzaga kelayotgan texnoaxloqiy muammolar tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt, biotexnologiya, neyroinjiniring va kiberfizik tizimlar asosida shakllanayotgan postgumanistik tendensiyalar global ijtimoiy-madaniy jarayonlar doirasida yoritiladi. Maqolada texnologik taraqqiyotning axloqiy oqibatlari, shaxs identifikatsiyasi, raqamli xavfsizlik, ijtimoiy tengsizlik va bioxavfsizlik nuqtai nazaridan falsafiy talqinlar beriladi. Tadqiqot natijalari globallashuv jarayonida transgumanizmning barqaror rivojlanishi uchun universal axloqiy me’yorlar ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *transgumanizm, globallashuv, texnoaxloq, bioetika, sun’iy intellekt, postgumanizm.*

**Нуртулашев Мансур Журабаевич**
и.о. доцента кафедры “Социально-гуманитарные науки” Ташкентского филиала Университета бизнеса и науки, PhD

## ТЕХНОЭТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТРАНСГУМАНИЗМА В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

***Аннотация:*** *В статье анализируется философская сущность трансгуманизма в условиях глобализации, его взаимосвязь с научно-техническим прогрессом и возникающие техноэтические вызовы. Рассматриваются постгуманистические тенденции, формирующиеся под влиянием искусственного интеллекта, биотехнологий, нейроинжиниринга и киберфизических систем. Даются философские интерпретации технологического развития в аспектах этики личности, цифровой безопасности, социального неравенства и биобезопасности. Результаты исследования показывают необходимость разработки универсальных этических норм для устойчивого развития трансгуманистических процессов в глобальном мире.*

***Ключевые слова:*** *трансгуманизм, глобализация, техноэтика, биоэтика, искусственный интеллект, постгуманизм.*

**Nurtulashev Mansur Jurabayevich**
Acting Associate Professor of the Department of "Social and Humanitarian Sciences" of the Tashkent branch of the University of Business and Science, PhD

## TECHNO-ETHICAL FOUNDATIONS OF TRANSHUMANISM IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

***Abstract:*** *This article analyzes the philosophical foundations of transhumanism within the context of globalization, focusing on its interrelation with scientific and technological progress and the emerging techno-ethical challenges. Posthumanist tendencies shaped by artificial intelligence, biotechnology, neuro-engineering, and cyber-physical systems are explored within global socio-cultural dynamics. The ethical implications of technological advancement—identity, digital security, social inequality, and bio-security—are examined philosophically. The findings emphasize the need for universal ethical standards to ensure the sustainable development of transhumanism in the global era.*

***Keywords:*** *transhumanism, globalization, techno-ethics, bioethics, artificial intelligence, posthumanism.*

**KIRISH**. XXI asr boshlarida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi insoniyat taraqqiyotining barcha sohalariga, xususan, fan-texnika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, biotexnologiya va sun’iy intellekt rivojiga tubdan ta’sir ko‘rsatib, ushbu jarayonlar natijasida jamiyatning ijtimoiy, madaniy va axloqiy tuzilmasida chuqur transformatsiyalarni keltirib chiqardi. Ayniqsa, inson imkoniyatlarini texnologiyalar yordamida kengaytirishga qaratilgan transgumanizm g‘oyasi zamonaviy global tafakkurda muhim falsafiy-axloqiy muammolarni kun tartibiga olib chiqmoqda. Transgumanizm inson tabiatini biologik cheklovlardan xalos etish, aql, jismoniy imkoniyatlar va umr davomiyligini texnologik vositalar orqali takomillashtirishni maqsad qilgan konsepsiyalar vujudga keldi.

Globallashuv sharoitida transgumanizm faqat ilmiy-texnik loyiha sifatida emas, balki global miqyosda axloqiy me'yorlar, qadriyatlar va mas'uliyat masalalarini qayta ko'rib chiqishni talab qiluvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida shakllanmoqda. Raqamli texnologiyalar, gen muhandisligi, neyrotexnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi insonning mohiyati, erkinligi, sha'ni va axloqiy mas'uliyati haqidagi an'anaviy tasavvurlarni yangicha talqin etishga majbur qilmoqda. Bu esa transgumanizmning texnoaxloqiy asoslarini chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Transgumanizm doirasida ilgari surilayotgan "insonni takomillashtirish" g'oyasi ijobiy imkoniyatlar bilan bir qatorda jiddiy axloqiy xavflarni ham o'z ichiga oladi. Texnologik tengsizlik, inson tabiatining sun'iy modifikatsiyasi, shaxsiylik va identifikatsiya inqirozi, axloqiy mas'uliyatning texnologiyalarga yuklanishi kabi masalalar global miqyosda bahs-munozaralarga ham olib keldi. Shu nuqtai nazardan, transgumanizmni faqat texnologik taraqqiyot mahsuli sifatida emas, balki insonparvarlik, axloq va ma'naviyat mezonlari asosida baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv jarayonida transgumanizmning texnoaxloqiy asoslarini tadqiq etish inson va texnologiya o'rtasidagi munosabatlarning yangi modelini anglashga xizmat qiladi. Bu munosabatlarda axloqiy me'yorlar, ijtimoiy mas'uliyat va global xavfsizlik masalalari ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Chunki texnologik taraqqiyot inson manfaatlariga xizmat qilgan taqdirdagina barqaror va adolatli jamiyatni shakllantirish imkonini beradi. Mazkur maqolada globallashuv sharoitida transgumanizmning shakllanish omillari, uning texnoaxloqiy asoslari hamda insoniyat kelajagi uchun yuzaga kelayotgan falsafiy muammolar ijtimoiy-falsafiy tahlil asosida yoritib beriladi.

**ADABIYOT TAHLILI.** Transgumanizm va uning texnoaxloqiy asoslari zamonaviy falsafiy, sotsiologik hamda bioetika yo'nalishlarida keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir. Ushbu konsepsiyaning nazariy asoslari dastlab G'arb falsafasida shakllangan bo'lib, N. Bostrom, J. Huxley, M. More kabi tadqiqotchilar transgumanizmni inson imkoniyatlarini ilm-fan va texnologiyalar yordamida kengaytirishga qaratilgan global loyiha sifatida talqin etadilar. Ularning asarlarida texnologik taraqqiyotning inson hayot sifati va axloqiy tanlovlarga ta'siri markaziy o'rin tutadi. Bioetika va texnoetika doirasida olib borilgan tadqiqotlarda (J. Habermas, F. Fukuyama, L. Kass) transgumanizm tanqidiy nuqtai nazardan baholanib, inson tabiatining sun'iy o'zgartirilishi axloqiy me'yorlar va ijtimoiy adolat tamoyillariga zid kelishi mumkinligi ta'kidlanadi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida texnologiyalardan foydalanishdagi tengsizlik va "texnologik elitizm" muammosi ushbu olimlar tomonidan jiddiy xavf sifatida ko'rsatiladi.

Raqamli jamiyat va globallashuv jarayonlari kontekstida M. Castells, U. Beck va A. Giddens kabi sotsiologlarning ishlari transgumanizmni global xavflar, tarmoqlashgan jamiyat va madaniy transformatsiyalar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qiladi[7]. Ularning yondashuvida texnologiya nafaqat taraqqiyot omili, balki yangi axloqiy mas'uliyat shakllarini yuzaga keltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Mahalliy va mintaqaviy tadqiqotlarda esa transgumanizm masalalari ko'proq ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, insonparvarlik tamoyillari va milliy mentalitet bilan uyg'unlik nuqtai nazaridan o'rganiladi. Ushbu adabiyotlar tahlili globallashuv sharoitida transgumanizmning texnoaxloqiy asoslarini kompleks va muvozanatli yondashuv asosida tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot falsafiy-gnoseologik, aksiologik, fenomenologik va komparativ metodlarga tayangan holda olib borildi. Gnoseologik yondashuv texnologiyalar orqali ongning kengayishini tahlil qiladi. Aksiologik yondashuv transgumanistik jarayonlarning qadriyatlar tizimiga ta'sirini belgilaydi. Komparativ metod klassik humanizm va transgumanizmni solishtiradi. Fenomenologik tahlil texnologiyalar bilan qo'shilgan kibrid inson tajribasini ochib beradi.

**Natija va tahlillar.** Transgumanizm g'oyasi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning nazariy ildizlari inson imkoniyatlarini kengaytirish, tabiat va jamiyat ustidan ongli nazorat o'rnatish haqidagi qadimgi va yangi falsafiy qarashlarga borib taqaladi. Ushbu konsepsiya insonni biologik cheklovlardan ozod etish, aql-idrok, jismoniy salohiyat va hayot davomiyligini texnologiyalar yordamida takomillashtirishni maqsad qilgan g'oya sifatida shakllangan. Transgumanizm atamasi ilk bor XX asr o'rtalarida ingliz biologi va faylasufi Tofller tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U "inson evolyutsiyasi tabiiy jarayon bilan cheklanib qolmasdan, ongli ravishda ilm-fan va texnologiyalar yordamida boshqarilishi mumkinligini"[8] ta'kidlagan. Ushbu yondashuv insoniyat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish g'oyasiga asos bo'ldi. Keyinchalik bu fikrlar kibernetika, gen muhandisligi va sun'iy intellekt sohalarining rivoji bilan yanada mustahkamlandi.

Transgumanizmning nazariy asoslarida G'arb ma'rifatchiligi va modernizm falsafasi muhim o'rin tutadi. Aql va ilm-fanga cheksiz ishonch, insonni mukammallashtirish mumkinligi haqidagi g'oyalar F. Bekon, R. Dekart va I. Kant qarashlarida muayyan darajada aks etgan. Ularning fikricha, inson tabiatni anglash va boshqarish orqali o'z hayotini yaxshilashga qodir mavjudotdir. Transgumanizm ana shu ratsionalistik an'analarning zamonaviy texnologik shakli sifatida namoyon bo'ladi. Ularning falsafiy merosi zamonaviy texnogen tafakkur, xususan, transgumanistik yondashuvlarning nazariy poydevorini tashkil etadi.

Frensis Bekon ilm-fanni insoniyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, bilimning asosiy vazifasi tabiatni anglash bilangina cheklanmay, balki uni inson manfaatlari yo'lida

boshqarishdan iborat. “Bilim – kuchdir” degan mashhur g‘oyasi orqali Bekon ilmiy bilish amaliy natijalar berishi, inson hayotini yengillashtirishi va mukammallashtirishi lozimligini ta’kidlaydi. U tajriba va empirik metodlarga tayanib, inson tafakkurini xurofot va an’anaviy cheklovlardan ozod etishga intiladi. Shu jihatdan, Bekon insonni ilm-fan yordamida takomillashtirish mumkin, degan optimistik qarashni ilgari suradi.

Rene Dekart esa aqlni inson mavjudligining eng ishonchli asosi sifatida e’tirof etadi. Uning “Men o‘ylayman, demak, mavjudman” tamoyili insonni ongli, o‘zini anglaydigan subyekt sifatida markazga qo‘yadi. Dekart ilmiy bilishda matematik aniqlik va ratsional metodni ustuvor deb bilib, tabiatni mexanik tizim sifatida tushuntiradi. Inson aqli orqali tabiat qonunlarini bilish va ulardan ongli ravishda foydalanish imkoniyatiga ega, degan fikr Dekart falsafasida insonni mukammallashtirish g‘oyasining ratsional asosini yaratadi.

Immanuil Kant qarashlarida esa aql va ilm-fan insonning axloqiy va ma’naviy kamoloti bilan uzviy bog‘lanadi. Kant uchun aql nafaqat bilish vositasi, balki insonning axloqiy erkinligini ta’minlovchi kuchdir. U “ma’rifat”ni insonning o‘z aqlidan mustaqil foydalanishga jur’at etishi sifatida talqin qiladi. Kant insonni mukammallashtirishni biologik emas, balki axloqiy-ruhiy yetuklik orqali amalga oshadigan jarayon deb hisoblaydi. Shu tariqa, Bekon va Dekartdagi texnik-ratsional optimizm Kant falsafasida axloqiy mas’uliyat bilan muvozanatlashtiriladi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida transgumanizm mustaqil falsafiy-ijtimoiy oqim sifatida shakllandi. N.Bostrom, M. More, R. Kurzweil kabi nazariyotchilar ushbu konsepsiyani tizimli ravishda ishlab chiqdilar. Ular transgumanizmni alohida mafkuraviy qarashlar majmui emas, balki aniq falsafiy tamoyillar, ilmiy prognozlar va axloqiy pozitsiyalarga tayangan konsepsiya sifatida tizimli ravishda ishlab chiqdilar.

Nik Bostrom transgumanizmning nazariy asoslarini ilmiy-falsafiy va axloqiy nuqtai nazardan chuqur tahlil qilgan yetakchi mutafakkirlardan biridir. U transgumanizmni “insonning jismoniy va intellektual imkoniyatlarini texnologiyalar orqali kengaytirishga qaratilgan ratsional loyiha sifatida talqin qiladi”[1]. Bostrom “insonni takomillashtirish” tushunchasini ehtiyotkorlik va axloqiy mas’uliyat bilan bog‘lab, texnologik taraqqiyot bilan yuzaga keladigan global xavflar, xususan, sun’iy intellekt xavfsizligi muammosiga alohida e’tibor qaratadi. Uning ishlari transgumanizmni utopik orzulardan ajratib, ilmiy asoslangan global muammo sifatida ko‘rsatadi.

Maks More esa transgumanizmni aniq falsafiy harakat sifatida shakllantirgan nazariyotchi sifatida tanilgan. U “ekstropianizm” konsepsiyasini ilgari surib, insonning doimiy rivojlanishi, o‘zini o‘zi takomillashtirish va biologik cheklovlardan chiqib ketish g‘oyalarini asoslab berdi. More tomonidan ishlab chiqilgan transgumanistik tamoyillar — aql erkinligi, texnologik optimizm va individual tanlov ustuvorligi — ushbu oqimning mafkuraviy poydevorini tashkil etdi.

Rey Kurzweil esa transgumanizmni texnologik prognozlar bilan boyitgan futurist sifatida e’tirof etiladi. U texnologik singularlik nazariyasini ilgari surib, sun’iy intellekt inson aqlidan ustun darajaga yetishini muqarrar jarayon sifatida talqin qiladi. Kurzweil “inson ongini raqamlashtirish, umrni sezilarli uzaytirish va “postinson” bosqichiga o‘tishni ilmiy-texnik taraqqiyotning mantiqiy natijasi”[2] deb hisoblaydi. Shu tariqa, Bostrom, More va Kurzweilning nazariy ishlanmalari transgumanizmni zamonaviy global jarayonlar bilan bog‘liq, tizimli va mustaqil falsafiy-ijtimoiy oqim sifatida shakllantirdi.

Transgumanizm insonning biologik mohiyatini o‘zgartirishni taraqqiyotning mantiqiy bosqichi sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, transgumanizmning nazariy asoslari faqat texnik optimizm bilan cheklanmaydi. Bu konsepsiya bioetika, texnoetika va ijtimoiy falsafa doirasida jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Inson tabiatining sun’iy transformatsiyasi, shaxsiylik va identitet muammolari, axloqiy mas’uliyat masalalari transgumanizmga nisbatan tanqidiy yondashuvlarni kuchaytirmoqda. F. Fukuyama va J. Habermas kabi faylasuflar transgumanizm insonparvarlik qadriyatlariga xavf tug‘dirishi mumkinligini ta’kidlaydilar. Texnologiyalar insonning tabiiy chegaralarini kengaytirarkan, bir vaqtning o‘zida insoniyatning axloqiy mas’uliyati ham ortib boradi. F. Fukuyama transgumanizmni “insoniyatga tahdid soluvchi eng xavfli g‘oyalar qatoriga” kirita turib, inson qadr-qimmatining zaiflashuviga urg‘u beradi [4]. Biroq Bostrom, aksincha, texnologik kengayish insonning yangi axloqiy modelni shakllantirishga undashini ta’kidlaydi [1]. Shu sabab, transgumanistik jarayonlarga biryoqlama baho berish mumkin emas. Falsafaning vazifasi — texnologik taraqqiyot bilan axloqiy tizim o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashdir.

Texnologik taraqqiyot zamonaviy jamiyat rivojining eng muhim omillaridan biri bo‘lib, u inson tabiatining biologik, intellektual va ijtimoiy jihatlariga tobora chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Ilm-fan va texnika yutuqlari natijasida inson faqat tashqi muhitni o‘zgartiruvchi subyekt bo‘lib qolmay, balki o‘zining tabiiy imkoniyatlarini ham ongli ravishda transformatsiya qiluvchi mavjudotga aylantirdi. Bu jarayon inson mohiyati, identiteti va axloqiy mas’uliyati haqidagi an’anaviy tasavvurlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Biotexnologiya va gen muhandisligi sohasidagi yutuqlar inson organizmini chuqur darajada o‘zgartirish imkonini bermoqda. Genetik diagnostika, genlarni tahrirlash va regenerativ tibbiyot yordamida irsiy kasalliklarni bartaraf etish, umr davomiyligini uzaytirish hamda jismoniy imkoniyatlarni kuchaytirish istiqbollari paydo bo‘ldi. Bu holat inson tabiatining biologik barqarorligi masalasini muammoga aylantirib, “tabiiy” va “sun’iy” o‘rtasidagi chegaralarni noaniq holga keltirmoqda.

Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar insonning intellektual faoliyatini tubdan o‘zgartirmoqda. Avtomatlashtirilgan tizimlar, algoritmik qarorlar va katta ma’lumotlar tahlili inson tafakkurining ko‘plab funksiyalarini qisman yoki to‘liq o‘z zimmasiga olmoqda. Natijada inson aqli va mashina aqli o‘rtasidagi munosabat yangi bosqichga ko‘tarilib, ong, bilish va mas’uliyat tushunchalarining qayta talqin qilinishiga olib kelmoqda. Neyrotexnologiyalar esa miya faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatish orqali inson xotirasi, hissiyotlari va idrokini texnologik nazorat ostiga olish imkoniyatini ham yaratdi.

Texnologik taraqqiyot insonning ijtimoiy tabiatini ham transformatsiyaga uchratmoqda. Raqamli muhitda muloqot, mehnat va madaniy faoliyat shakllari o‘zgarib, shaxsiylik va identitet masalalari yangi mazmun kasb etmoqda. Virtual makon va real hayot o‘rtasidagi chegaralarning xiralashuvi insonning o‘zini anglash jarayoniga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shu sababli texnologik taraqqiyot va inson tabiatining transformatsiyasi nafaqat ilmiy-texnik muammo, balki chuqur falsafiy va axloqiy masala sifatida baholanishi lozim. Inson manfaatlari va ma’naviy qadriyatlar texnologik rivojlanish markazida turmas ekan, bu transformatsiya jiddiy ijtimoiy xavflarni yuzaga keltirishi mumkin.

Transgumanizm va insonparvarlik paradigmasi o‘rtasidagi munosabat zamonaviy falsafiy tafakkurda eng bahsli masalalardan biri hisoblanadi. Insonparvarlik (gumanizm) an’anaviy ravishda insonni oliy qadriyat, uning sha’ni, erkinligi va ma’naviy kamolotini jamiyat taraqqiyotining markaziga qo‘yadi. Transgumanizm esa ushbu qadriyatlarni inkor etmagan holda, ularni texnologik vositalar orqali yangi bosqichga olib chiqishni maqsad qiladi. Shu bois, ikki paradigma o‘rtasidagi munosabat murakkab va ziddiyatli xarakterga ega.

Transgumanistik qarashlarga ko‘ra, insonparvarlikning asosiy vazifasi inson imkoniyatlarini kengaytirishdir. Texnologiyalar yordamida kasalliklarni yengish, aqliy va jismoniy salohiyatni oshirish, umrni uzaytirish inson farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu ma’noda, transgumanizm o‘zini “kengaytirilgan insonparvarlik” sifatida talqin etadi. Inson azob-uqubatlarini kamaytirish va hayot sifatini yaxshilash g‘oyasi ikki paradigma uchun ham umumiy maqsad hisoblanadi.

Biroq an’anaviy insonparvarlik nuqtai nazaridan transgumanizm jiddiy axloqiy savollarni keltirib chiqaradi. Inson tabiatining sun’iy o‘zgartirilishi, biologik va texnologik chegaralarning buzilishi shaxsning yaxlitligi va identitetiga tahdid solishi mumkin. Insonparvarlik insonni vosita emas, balki maqsad sifatida ko‘rishni talab etsa, transgumanizmda inson texnologik tajribalar obyektiga aylanish xavfi mavjud. Bu holat Kantcha axloqiy tamoyillarga zid sifatida baholanadi.

Yana bir muhim masala — adolat va tenglik muammosidir. Texnologik imkoniyatlardan faqat muayyan ijtimoiy guruhlarning foydalanishi “texnologik elitizm”ni kuchaytirib, insonparvarlikning ijtimoiy adolat tamoyillariga putur yetkazishi mumkin[3]. Shu bois, insonparvarlik paradigmasi transgumanizmni qat’iy axloqiy nazorat va ijtimoiy mas’uliyat doirasida amalga oshirish zarurligini ilgari suradi.

**Xulosa qilib aytganda**, transgumanizm va insonparvarlik paradigmasi o‘rtasidagi munosabat qarama-qarshilikdan ko‘ra, muvozanat izlash jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Birinchidan, globallashuv sharoitida transgumanizm texnologik taraqqiyotning mantiqiy natijasi sifatida shakllanib, inson tabiatini qayta talqin qilishga olib kelmoqda. Ushbu jarayon insonning biologik va ijtimoiy chegaralarini kengaytirish imkonini bersa-da, uning mohiyati, identiteti va qadriyatlariga doir an’anaviy tushunchalarni izdan chiqaradi. Shu sababli transgumanizmni global jarayonlarning falsafiy oqibati sifatida kompleks tahlil qilish zarur.

Ikkinchidan, transgumanizmning texnoaxloqiy asoslari texnologiya va axloq o‘rtasidagi muvozanat masalasini markazga olib chiqadi. Texnologik innovatsiyalar inson hayotini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin, biroq ular axloqiy me’yorlardan uzilib qolgan taqdirda insonparvarlik qadriyatlariga tahdid tug‘diradi. Shuning uchun transgumanistik loyihalar axloqiy mas’uliyat, ijtimoiy nazorat va inson sha’ni tamoyillariga asoslanishi lozim.

Uchinchidan, transgumanizm globallashuv jarayonida texnologik tengsizlik muammosini keskinlashtiradi. Texnologik imkoniyatlardan foydalanishdagi notenglik jamiyatda “texnologik elitizm”ni yuzaga keltirib, ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillariga putur yetkazishi mumkin. Bu holat transgumanizmning faqat texnik emas, balki ijtimoiy-axloqiy masala ekanini ko‘rsatadi va uni boshqariladigan jarayonga aylantirish zaruratini kuchaytiradi.

To‘rtinchidan, transgumanizm va insonparvarlik paradigmasi o‘rtasidagi munosabat ziddiyatli, ammo o‘zaro bog‘liqdir. Agar transgumanizm insonni texnologik obyekt sifatida emas, balki oliy qadriyat sifatida e’tirof etsa, u insonparvarlik g‘oyalarini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Aks holda, inson mohiyatining yo‘qolishi va axloqiy inqiroz xavfi yuzaga keladi.

Beshinchidan, globallashuv sharoitida transgumanizmning istiqboli texnologik taraqqiyotning axloqiy me’yorlarga bo‘ysundirilishiga bevosita bog‘liq. Texnoaxloqiy yondashuv inson manfaatlari, ma’naviy qadriyatlar va global mas’uliyatni uyg‘unlashtirishga xizmat qilishi lozim. Faqat shu shartdagina transgumanizm insoniyat taraqqiyotining barqaror va axloqan maqbul yo‘nalishiga aylanishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Bostrom N. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. — Oxford: Oxford University Press, 2014.
2. Kurzweil R. The Singularity Is Near. — New York: Penguin Books, 2005.
3. Hayles N.K. How We Became Posthuman. — Chicago: University of Chicago Press, 1999.
4. Fukuyama F. Our Posthuman Future: Consequences of the Biotechnology Revolution. — New York: Picador, 2002.
5. More M., Vita-More N. The Transhumanist Reader. — Wiley-Blackwell, 2013.
6. Harari Y.N. Homo Deus: A Brief History of Tomorrow. — Harper, 2017.
7. Savulescu J., Persson I. Unfit for the Future. — Oxford: Oxford University Press, 2012.
8. Toffler A. Future Shock. — New York: Random House, 1970.
9. Habermas J. The Future of Human Nature. — Polity Press, 2003.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Baxtiyor Kudratov,**
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: baxtiyorqudratov@mail.ru
**Juraqulov Furqat Noryigitovich**
siyosiy fanlar doktori (DSc), professor taqrizi asosida

**UDK: 323:342.5/7 (584.4)**

## O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY-HUQUQIY DAVLAT QURUSH PRINSIPLARI

***Annotatsiya.*** *Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy-huquqiy davlat qurish jarayonining nazariy asoslari, konstitutsiyaviy prinsiplari hamda ularning ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Ijtimoiy davlat konsepsiyasining huquqiy davlat bilan uzviy bog‘liqligi, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashdagi o‘rni, ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyot masalalari ochib beriladi. Shuningdek, milliy taraqqiyot modelida ijtimoiy-huquqiy davlat qurishning o‘ziga xos jihatlari va istiqbollari yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Ijtimoiy davlat, huquqiy davlat, Konstitutsiya, ijtimoiy adolat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy falsafa.*

**Bakhtiyor Kudratov,**
Independent researcher at Namangan State University
**Juraqulov Furqat Noryigitovich**
Doctor of Political Sciences (DSc), based on the review of the professor

## PRINCIPLES OF BUILDING A SOCIAL AND LEGAL STATE IN UZBEKISTAN

***Abstract.*** *This scientific article analyzes the theoretical foundations, constitutional principles, and socio-philosophical essence of the process of building a social and legal state in Uzbekistan. The study reveals the intrinsic interconnection between the concept of the social state and the rule-of-law state, their role in ensuring human rights and freedoms, as well as issues of social justice and sustainable development. In addition, the specific features and future prospects of building a social and legal state within the national development model are highlighted.*

***Keywords:*** *Social state, rule-of-law state, Constitution, social justice, civil society, social philosophy.*

**Бахтиёр Кудратов**
Независимый исследователь Наманганского государственного университета
**Юраклов Фуркат Норыгитович**
Доктор политических наук (DSc), на основе комментария профессора

## ПРИНЦИПЫ ПОСТРОЕНИЯ СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВОГО ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

***Аннотация.*** *В данной научной статье анализируются теоретические основы, конституционные принципы и их социально-философская сущность в процессе построения социально-правового государства в Узбекистане. Раскрывается неразрывная связь концепции социального государства с правовым государством, его роль в обеспечении прав и свобод человека, вопросы социальной справедливости и устойчивого развития. Также освещаются специфические аспекты и перспективы построения социально-правового государства в национальной модели развития.*

***Ключевые слова:*** *Социальное государство, верховенство права, Конституция, социальная справедливость, гражданское общество, социальная философия.*

**Kirish.** Zamonaviy davlat rivojlanishining dolzarb istiqbolli vazifalaridan biri ijtimoiy huquqiy davlat modelini shakllantirish va takomillashtirishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi o‘zining konstitutsiyaviy tuzumini mustahkamlash va demokratik islohotlar yo‘lida qator muhim qadamlar qo‘ydi. 2023-yil 30-apreldagi umumxalq referendumi natijasida yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilindi. Unda davlatning ijtimoiy huquqiy modeliga oid normalarning 3 barobarga oshirilganligi diqqatga sazovordir. Bu maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy huquqiy davlat qurishning prinsipial asoslari va uning ijtimoiy falsafiy mohiyati tahlil qilinadi.

Ijtimoiy-huquqiy davlat − bu inson va fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy huquqlari konstitutsiyaviy ravishda kafolatlangan, davlat o‘z faoliyatini huquq va qonun ustuvorligiga asoslangan demokratik tashkiliy-huquqiy shaklda amalga oshiradigan davlat modelidir[2].

Bu modelning falsafiy asosida inson qadr-qimmati konsepsiyasi yotadi, unda har bir shaxs o‘zining yuqori ma’naviy-axloqiy qadriyatiga ega ekanligi e’tirof etiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Inson markaziy paradigma − davlat faoliyatining asosiy maqsadi inson farovonligini ta’minlashdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “inson qadri – mamlakatning har bir fuqarosi uchun tinch va xavfsiz hayotni, fundamental huquq va erkinliklar, malakali tibbiy xizmat, sifatli ta’lim, kuchli va manzilli ijtimoiy himoya hamda sog‘lom ekologik muhit ta’minlanishini anglatadi”.

Ijtimoiy adolat prinsipi − jamiyatdagi resurslarning adolatli taqsimlanishi, imkoniyatlarning tengligi va huquq-maslahatlar muvozanatini ta’minlashdir.

John Rawlsning “Adolat nazariyasi” asarida ijtimoiy adolatning ikkita asosiy prinsipi ta’kidlanadi: har bir shaxs eng keng ko‘lamli asosiy erkinliklarga ega bo‘lishi va ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklar jamiyatning eng kam ta’minlangan a’zolarining manfaatini ko‘zlab tashkil etilishi kerak”[3].

Huquqiy davlat instituti − qonun va huquqning ustuvorligi, hokimiyatlar bo‘linishi, sudlar mustaqilligi va konstitutsiyaviylik tamoyillaridir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ijtimoiy-huquqiy davlat qurish masalasini har tomonlama yoritish maqsadida umumilmiy va maxsus ilmiy metodlardan kompleks foydalanildi. Jumladan, tarixiylik metodi orqali O‘zbekistonda ijtimoiy-huquqiy davlat konsepsiyasining shakllanish bosqichlari va evolyutsiyasi tahlil qilindi. Mantiqiy tahlil va tizimli yondashuv asosida ijtimoiy davlat va huquqiy davlat tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi, ularning tarkibiy elementlari hamda funksional xususiyatlari ochib berildi.

Shuningdek, qiyosiy-huquqiy metod yordamida O‘zbekiston tajribasi xorijiy davlatlar amaliyoti bilan solishtirildi va milliy modelning o‘ziga xos jihatlari aniqlandi. Kuzatish, induktsiya va deduktsiya usullari orqali normativ-huquqiy hujjatlar, Konstitutsiya normalari hamda amaliy islohotlar tahlil qilinib, umumiy xulosalar chiqarildi. Tadqiqotda rasmiy hujjatlar, siyosiy dasturlar va ilmiy manbalar tahliliga asoslanildi.

**Tahlil va natijalar.** O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, davlat qurilishida qadimiy tarixiy an’analar va zamonaviy demokratik qadriyatlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish yo‘li tanlandi. Konstitutsiyamizning birinchi tahririda (1992-yil) “demokratik huquqiy davlat” konsepsiyasi belgilangan bo‘lsa, 2023-yilgi yangi tahririda “ijtimoiy” atamasi qo‘shildi: “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”.

Bu o‘zgarish O‘zbekistonda ijtimoiy davlat konsepsiyasini mustahkamlashga qaratilgan strategik yo‘nalishning ahamiyatini aks ettiradi. Ijtimoiy davlat – bu qat’iy bozor iqtisodiyoti, turli pandemiya va epidemiyalar sharoitida o‘z fuqarolariga muayyan minimal farovonlikni kafolatlaydigan davlat modelidir.

2023-yilgi Konstitutsiyaga o‘zgarishlar kiritish bo‘yicha referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qo‘llab-quvvatlagan. Bu o‘zgarishlarda ijtimoiy sohadagi majburiyatlar 3 barobarga oshirildi va quyidagi muhim normalar joriy etildi:

**-** Inson huquqlari prioriteti: Konstitutsiyaning 14-moddasiga binoan, davlat faoliyatini inson farovonligi va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi[1].

- Ijtimoiy himoya mexanizmlari: davlat fuqarolarning mehnati va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, ish haqining minimal miqdorini belgilash, oilaga, onalik, otalik va bolalikka, nogironlar va keksa kishilarga yordam berish, davlat pensiyalari va nafaqalarini kafolatlash majburiyatiga ega.

Ekologik adolat: yangi Konstitutsiyada ekologik muhitni muhofaza qilish doirasida davlatning ijtimoiy majburiyatlari kengaytirildi.

Ijtimoiy adolat prinsipi zamonaviy demokratik jamiyatlarning eng asosiy qadriyatlari va konstitutsiyaviy-huquqiy tizimning fundamental tamoyillaridan hisoblanadi. O‘zbekistonda bu prinsipning amalga oshirilishi quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Iqtisodiy adolat: kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni kafolatlash va fuqarolarning munosib turmush darajasini ta’minlash. Buning uchun “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” hamda “monomarkazlar” tizimi tashkil etildi.

Ijtimoiy himoya: yoshlar, ayollar, temir daftarlar kabi ijtimoiy jihatlardan jabhlangan guruhlar uchun maxsus himoya mexanizmlari joriy etildi.

Birdamlik (solidaridad): jamiyatning turli tabaqalari o‘rtasida ijtimoiy shartnoma asosida o‘zaro o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va hamkorlik munosabatlari[4].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida ijtimoiy davlatning ustuvor yo‘nalishlari batafsil ifodalangan. Ushbu strategiyaning prinsipial jihatlari quyidagilardir:

Inson kapitalini rivojlantirish: sifatli ta’lim, malakali tibbiy xizmat, sog‘lom ekologik muhit yaratish. Bu prinsip davlat siyosatining markaziga insonni qo‘yishni anglatadi.

Iqtisodiy mustahkamlik: fuqarolarning iste’mol savatchasi darajasini aniq belgilash, aholi bandligini kafolatlash, munosib ish haqi bilan ta’minlash.

Huquqiy islohotlar: qonunlarning mustaqilligi, korrupsiyaga qarshi kurash, sud tizimini takomillashtirish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish.

O‘zbekistonda ijtimoiy huquqiy davlatning falsafiy xususiyatlari o‘zining an’anaviy qadriyatlari bilan o‘zaro bog‘liqdir. Bu xususiyatlar:

Yoshlar siyosati: yoshlarni sifatli ta’lim bilan qamrab olish, yoshlar uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish.

Aholining ijtimoiy ta’mini: munosib turmush darajasini ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish va kam ta’minlangan oilalarga maqsadli yordam ko‘rsatish.

Ekologik adolat: sog‘lom ekologik muhit yaratish va atrof-muhit huquqlarini kafolatlash.

Raqamli adolat: axborot texnologiyalari rivojlanishi sharoitida ijtimoiy adolatni ta’minlashning yangi usullarini ishlab chiqish[5].

**Xulosa va takliflar.** O‘zbekistonda ijtimoiy huquqiy davlat qurishning prinsipial asoslari o‘z ifodasini Konstitutsiyada, siyosiy hujjatlarda va amaliy islohotlarda topadi. 2023-yilgi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada “ijtimoiy davlat” statusi huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo‘lib, inson qadr-qimmati, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari davlat faoliyatining markaziy yo‘nalishlariga aylangan. “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi ijtimoiy huquqiy davlatning falsafiy xususiyatlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini beradi. Kelajakda bu yo‘nalishdagi islohotlar ijtimoiy tengsizliklarning kamayishiga, fuqarolarning hayot darajasining oshishiga va demokratik jamiyatning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasi. Toshkent, 2023-yil.
2. “ijtimoiy davlat nima? Huquqiy davlat-chi?" – zarnews.uz, 2023-yil 12-aprel.
3. Saidova m. Ijtimoiy davlatning asl mohiyati. – nhrc.uz, 2024-yil 20-fevral.
4. Ijtimoiy adolat prinsipini ta’minlash: konstitsiyaviy-huquqiy tahlil. – cyberleninka, 2025-yil 3-dekabr.
5. Ijtimoiy-huquqiy davlat konsepsiyasi va uning fuqarolik jamiyati taraqqiyotida tutgan o‘rni. – cyberleninka, 2023-yil 30-aprel.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Solijonov Otabek Ulug'bek o'g'li**
UBS Toshkent filiali ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti tadqiqotchisi

## NOMODDIY MA'NAVIY MEROSNI ASRASH MILLIY O'ZLIK VA JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada nomoddiy ma'naviy merosning milliy o'zlikni shakllantirish va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashdagi o'rniga oid nazariy hamda amaliy jihatlar tahlil qilingan. Avvalo, nomoddiy madaniy meros tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy unsurlari va madaniy identifikatsiya jarayonidagi funksional roli keng yoritiladi. Etnografik, tarixiy, sotsiologik va madaniyatshunoslik manbalari asosida nomoddiy merosning dastlabki shakllanishi, avlodlararo uzviylik tamoyillarini saqlagan holda zamonaviy jamiyatga moslashish mexanizmlari, shuningdek, globallashuv davrida uning transformatsiya jarayonlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.*

*Maqolada milliy o'zlikni belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida xalqning til, udum, qadriyat, an'ana, marosim, diniy tasavvur hamda badiiy ijod namunalari singari nomoddiy tarkibiy elementlari ko'rib chiqiladi. Ularning ijtimoiy ong, kollektiv xotira va madaniy o'ziga xoslikni uzluksiz takror ishlab chiqarishda tutgan o'rni alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, merosning jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq pragmatik funksiyalari — ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, tarixiy xotirani rivojlantirish, ma'naviy immunitetni kuchaytirish, madaniy diplomatiyani faollashtirish va turizm salohiyatini kengaytirish masalalari ilmiy dalillar asosida asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Nomoddiy madaniy meros, ma'naviy meros, milliy o'zlik, qadriyat, jamiyat taraqqiyoti, madaniy uzviylik, an'ana va urf-odatlar, ma'naviy barqarorlik, madaniy identitet, avlodlar davomiyligi.*

**Solijonov Otabek Ulug'bek o'g'li**
Преподаватель кафедры социальных и гуманитарных наук Ташкентского филиала УБС, научный сотрудник Института культурологии и нематериального культурного наследия

## СОХРАНЕНИЕ НЕМАТЕРИАЛЬНОГО ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ ЯВЛЯЕТСЯ ОСНОВОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ И РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты роли нематериального культурного наследия в формировании национальной идентичности и обеспечении развития общества. Прежде всего, подробно рассматривается сущность понятия нематериального культурного наследия, его структурные элементы и функциональная роль в процессе культурной идентификации. На основе этнографических, исторических, социологических и культурологических источников на научной основе анализируются начальные этапы формирования нематериального наследия, механизмы адаптации к современному обществу при сохранении принципов межпоколенческой преемственности, а также процессы его трансформации в эпоху глобализации.*

*В статье нематериальные структурные элементы народа, такие как язык, обычаи, ценности, традиции, ритуалы, религиозное воображение и примеры художественного творчества, рассматриваются как один из главных факторов, определяющих национальную идентичность. Подчеркивается их роль в непрерывном воспроизводстве общественного сознания, коллективной памяти и культурной идентичности. Кроме того, прагматические функции наследия, связанные с развитием общества — укрепление социальной сплоченности, формирование исторической памяти, укрепление духовного иммунитета, активизация культурной дипломатии и расширение туристического потенциала — обосновываются на основе научных данных.*

***Ключевые слова:*** *нематериальное культурное наследие, духовное наследие, национальная идентичность, ценность, социальное развитие, культурная сплоченность, традиции и обычаи, духовная стабильность, культурная идентичность, преемственность поколений.*

**Solijonov Otabek Ulugbek ugli**
Teacher of the Department of Social and Humanitarian Sciences, Tashkent Branch of the UBS, Researcher of the Institute of Cultural Studies and Intangible Cultural Heritage

**PRESERVATION OF INTANGIBLE SPIRITUAL HERITAGE IS THE BASIS OF NATIONAL IDENTITY AND SOCIETY DEVELOPMENT**

***Abstract:*** *This article analyzes the theoretical and practical aspects of the role of intangible cultural heritage in the formation of national identity and ensuring the development of society. First of all, the essence of the concept of intangible cultural heritage, its structural elements and its functional role in the process of cultural identification are widely covered. Based on ethnographic, historical, sociological and cultural sources, the initial formation of intangible heritage, the mechanisms of adaptation to modern society while maintaining the principles of intergenerational continuity, as well as its transformation processes in the era of globalization are analyzed on a scientific basis.*

*The article considers intangible structural elements of the people, such as language, customs, values, traditions, rituals, religious imagination and examples of artistic creativity, as one of the main factors determining national identity. Their role in the continuous reproduction of social consciousness, collective memory and cultural identity is emphasized. Also, the pragmatic functions of heritage related to the development of society - strengthening social cohesion, developing historical memory, strengthening spiritual immunity, activating cultural diplomacy, and expanding tourism potential - are substantiated on the basis of scientific evidence.*

***Keywords:*** *Intangible cultural heritage, spiritual heritage, national identity, value, social development, cultural cohesion, traditions and customs, spiritual stability, cultural identity, continuity of generations.*

Bugungi globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va madaniyatlararo ta’sirning kuchayishi sharoitida har bir xalq o‘zining milliy o‘zligini, tarixiy xotirasini va ma’naviy qadriyatlarini asrashga alohida e’tibor qaratmoqda. Shu jihatdan nomoddiy madaniy meros millatning ruhiy boyligi, o‘ziga xos an’analari va qadimiy dunyoqarashini ifodalovchi bebaho manba sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi. U xalqning tarixiy tajribasi, og‘zaki ijodi, marosim va urf-odatlari orqali avloddan-avlodga o‘tib, jamiyat ma’naviy taraqqiyotining muhim tayanchiga aylanadi.

Bugungi kunda ommaviy madaniyat, iste’molchilik qadriyatlari va globallashuv oqimida milliy merosga befarqlik kuchaymoqda. Shu bois, nomoddiy madaniy merosni qadriyat sifatida o‘rganish, uni yosh avlod ongiga singdirish va amaliy hayotda qadrlash mexanizmlarini ishlab chiqish jamiyat barqarorligi va madaniy o‘zlikni saqlab qolishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Nomoddiy madaniy meros sohasini o‘rganish dolzarb masalaga aylanib bormoqda, chunki nomoddiy madaniy merosni qadriyat sifatida anglash darajasining pasayishi, uni zamonaviy hayot tarziga uyg‘unlashtirishdagi muammolar va ularni hal etish zaruriyatidir.

Nomoddiy madaniy meros insoniyatning tarixiy rivojlanishi davomida shakllangan va avloddan-avlodga og‘zaki, amaliy yoki marosimiy shakllarda o‘tib kelayotgan ma’naviy boyliklar majmuasidir. UNESCOning 2003-yil 17-oktabrda qabul qilingan “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Konvensiyasida[1] ta’kidlanishicha, nomoddiy madaniy meros — bu “jamiyat, guruh yoki ayrim shaxslar tomonidan o‘z madaniy meroslarining bir qismi sifatida tan olingan urf-odatlar, tasavvurlar, ifoda shakllari, bilimlar va ko‘nikmalar majmui”dir.

Nomoddiy madaniy merosning asosiy yo‘nalishlariga quyidagilar kiradi: Og‘zaki an’analar va ifoda shakllari (ertaklar, maqollar, dostonlar); ijro san’ati (musiqa, raqs, teatr shakllari); Ijtimoiy urf-odatlar, marosimlar va bayramlar; tabiat va koinotga oid bilim va amaliyotlar; an’anaviy hunarmandchilik (kashtachilik, kulolchilik, zargarlik).

O‘zbekiston hududida nomoddiy madaniy merosning boy turlari shakllangan. Xususan, “Shashmaqom”, “Navro‘z”, “Askiya”, “Baxshichilik san’ati” va “Boysun madaniy makoni” UNESCO nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Bu meros turlari xalqimizning ma’naviy qadriyatlari, estetik tafakkuri va ijtimoiy birdamligini ifodalovchi beqiyos boylikdir. Shu bois, ularni qadriyat sifatida o‘rganish milliy o‘zlikni saqlashning muhim omilidir.

Rossiyalik etnolog olim A.K.Bayburin “Nomoddiy madaniy meros – bu madaniyatning og‘zaki va amaliy ko‘rinishdagi namoyon bo‘lish shakllari bo‘lib, ular xalq orasida og‘zaki an’analar, marosimlar va bayramlar orqali yashaydi”[2:18] degan ta’rifni keltirib o‘tgan. “Nomoddiy madaniy meros” tushunchasi nafaqat og‘zaki ijod yoki amaliy ko‘nikmalar yig‘indisi, balki xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va hayot falsafasining davomiyligini ta’minlaydigan tirik jarayondir. Uning og‘zaki an’analar, marosimlar va bayramlar orqali yashashi – bu merosning doimo o‘zgarib, takomillashib borishini anglatadi. Menimcha, nomoddiy merosning eng muhim jihati shundaki, u avloddan avlodga faqat bilim sifatida emas, balki qadriyat sifatida ko‘chadi. Shu bois, uni asrash deganda faqat hujjatlashtirish yoki qayd etish emas, balki uning tabiiy muhitda yashashi, kundalik hayotda qo‘llanilishi va yangi avlodlar tomonidan qabul qilinishiga sharoit yaratish lozim. Nomoddiy merosning haqiqiy kuchi – xalqni birlashtira olishi, jamiyatda o‘ziga xoslik va tarixiy davomiylik hissini mustahkamlashidadir.

Nomoddiy madaniy meros har bir xalqning ma’naviy dunyosini, tarixiy xotirasini va milliy o‘zligini ifodalovchi eng muhim qadriyatlardan biridir. U moddiy shaklga ega bo‘lmagan, biroq insonlarning ongida, turmush tarzida va ijtimoiy munosabatlarida mustahkam o‘rnashgan ma’naviy boylik sifatida namoyon bo‘ladi. UNESCO ta’rifida qayd

etilishicha, “nomoddiy madaniy meros – bu jamiyatning o‘zini tanituvchi, uning a’zolari o‘rtasida birdamlik va o‘zlik hissini mustahkamlovchi tirik merosdir”[3].

Nomoddiy meros qadriyat sifatida, avvalo, xalqning ruhiy birligining ifodasidir. Masalan, Navro‘z bayrami — tabiat uyg‘onishini, inson va muhit uyg‘unligini madh etuvchi qadimiy an’ana bo‘lib, xalqning tinchlik, mehr-oqibat va bag‘rikenglikka asoslangan qadriyatlarini aks ettiradi. Shuningdek, “Shashmaqom” musiqasi o‘zbek xalqining estetik didi, ruhiy sezgirligi va hayot falsafasini mujassam etgan ma’naviy qadriyat sifatida qadrlanadi.

Nomoddiy madaniy meros ustida tadqiqot olib borgan olima D.Yusupaliyeva bu meros turi haqida yozadi: “har bir xalqda kuzatiluvchi takrorlanmas meros madaniyatlararo turli-tumanlikni ko‘rsatib ularni bir-biridan kamsitmagan holda ajratib kelgan”[4:162]. Bundan kelib chiqishi, insoniyat madaniyatining eng muhim jihatlaridan biri — madaniy xilma-xillik va tenglik g‘oyasiga e’tibor qaratadi. Aytish joizki, nomoddiy madaniy meros har bir xalqning o‘ziga xos tarixiy, ma’naviy va estetik tajribasini ifoda etuvchi takrorlanmas hodisadir. Har bir xalqning og‘zaki ijodi, marosimlari, urf-odatlari yoki san’at an’analari o‘ziga xos shaklda rivojlangan bo‘lsa-da, ularning barchasi umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida o‘zaro bog‘liqdir.

Biror xalqning merosi boshqasidan ustun yoki past emas — ular bir-birini to‘ldiruvchi, insoniyatni boyituvchi qadriyatlar tizimini tashkil etadi. Bu yondashuv zamonaviy UNESCO konsepsiyasi bilan hamohang bo‘lib, unda madaniy xilma-xillikni asrash “insoniyatning ijodiy salohiyatini saqlab qolishning garovi” sifatida e’tirof etiladi. Aytish mumkinki, yuqoridagi fikr xalq madaniyatini faqat tarixiy meros sifatida emas, balki insoniyatni birlashtiruvchi, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglikni mustahkamlovchi qadriyat sifatida talqin qiladi. Har bir millatning nomoddiy madaniy merosi — bu o‘ziga xos madaniy ovoz bo‘lib, u boshqalar bilan uyg‘un holda mavjud bo‘lganidagina haqiqiy qadriyatga aylanadi.

Bu meros turi xalq tafakkurining mahsuli va u millatning o‘ziga xosligini, tarixiy xotirasini va ma’naviy barqarorligini ifodalaydi. Ushbu fikr nomoddiy madaniy merosning asl mohiyatini chuqur yoritadi. Tadqiqotchining nazarida, nomoddiy madaniy meros — bu nafaqat o‘tmishdan qolgan an’analar majmui, balki xalq tafakkuri va dunyoqarashining tirik ifodasidir. U xalqning ruhiy kechinmalari, qadriyatlar tizimi va tarixiy xotirasini mujassam etgan holda millatning o‘ziga xosligini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuni anglash mumkinki, har bir xalqning nomoddiy madaniy merosi uning ma’naviy barqarorligini ta’minlaydigan ichki kuch manbai hisoblanadi. U orqali xalq o‘z tarixiy ildizlarini, urf-odatlarini, tilini va estetik qarashlarini saqlab qoladi. Shu bois, nomoddiy madaniy merosni asrash — bu o‘tmishni muzlatib qo‘yish emas, balki xalq tafakkurining uzluksiz rivojlanishiga imkon berishdir.

Fikrimizcha, nomoddiy madaniy meros millatni birlashtiruvchi, uning o‘zligini anglashni mustahkamlovchi, avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy ko‘prik vazifasini bajaradi. U xalq hayotining ruhiy energiyasi bo‘lib, tarixiy xotirani hozirgi zamon bilan bog‘laydi va shu orqali jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlaydi. Bu fikr zamirida nomoddiy madaniy merosning milliy o‘zlikni shakllantiruvchi, ijtimoiy birlashtiruvchi va ma’naviy mustahkamlovchi qadriyat sifatidagi mohiyati yotadi.

Shu jihatdan, nomoddiy meros nafaqat o‘tmishning yodgorligi, balki bugungi avlodni tarbiyalovchi, milliy g‘urur va o‘zlikni shakllantiruvchi kuchdir.

Nomoddiy merosning qadriyat sifatidagi mohiyati uning tarbiyaviy va ijtimoiy birlashtiruvchi vazifasida ham namoyon bo‘ladi. U yoshlarni o‘z milliy ildizlariga hurmat ruhida tarbiyalaydi, turli millat va elatlar o‘rtasida o‘zaro tushunish, totuvlik va bag‘rikenglikni mustahkamlaganligi uchun nomoddiy meros – bu jamiyatni birlashtiruvchi, ma’naviyatni yangilovchi tirik tizimdir.

Nomoddiy madaniy merosning muhofaza qilinishi, saqlanishi va kelgusi avlodlarga yetkazilishi barqaror taraqqiyotga o‘z hissasini qo‘shishi ham kundek ravshan. Chunki, biror xalqning nomoddiy madaniy merosida barqaror taraqqiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omil yo‘q va bu meros to‘laligicha taraqqiyotga xizmat qiladi[5:334]. Demak, nomoddiy madaniy meros qadriyat sifatida insoniyatning ma’naviy taraqqiyoti, milliy o‘zlikni anglash va madaniy xilma-xillikni asrashda beqiyos ahamiyatga ega. Uni asrash, rivojlantirish va yosh avlod ongiga singdirish – bugungi madaniyat siyosatining eng muhim vazifalaridan biridir.

Ta’kidlash joizki, nomoddiy madaniy meros xalqning tafakkuri, tarixiy xotirasi va ma’naviy barqarorligini ifodalovchi bebaho qadriyatdir. U millatning o‘ziga xosligini, ma’naviy birligini va madaniy uzluksizligini ta’minlaydi. An’analar, og‘zaki ijod, urf-odatlar, marosimlar va hunarmandchilik kabi nomoddiy meros unsurlari xalq hayot tarzini shakllantirib, jamiyatning ma’naviy-axloqiy negizini mustahkamlaydi. Shu bois, uni asrash, rivojlantirish va yosh avlodga yetkazish har bir davlatning madaniy siyosatida ustuvor yo‘nalish bo‘lishi zarur. Bugungi globallashuv sharoitida nomoddiy madaniy merosni qadriyat sifatida e’tirof etish — milliy o‘zlikni saqlash, madaniy xilma-xillikni asrab-avaylash va ma’naviy uyg‘unlikni mustahkamlashning eng muhim omillaridan biridir. Shu jihatdan, nomoddiy merosni himoya qilish — bu o‘tmishni saqlash emas, balki kelajakni ma’naviy boyitish demakdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.

2. Байбурин А.К, Ритуал в традиционной культуре. Структурно-семантический анализ восточнославянских обрядов – Санкт-Петербург.: "Наука", 1993. – С.18. (253 с)

3. https://www.uis.unesco.org

4. To'g'onboyeva Z. Nomoddiy madaniy merosnining jamiyat hayotida tutgan o'rni. Central Asian journal of education and innovation. – Volume 2, Issue 4, April 2023. 162-164 b.

5. Dilafruz Q. Yusupaliyeva. 'Issues of protection, preservaation and promotion of intangible cultural heritage', Inter education & global study, (4(2)), pp. 334–342. (In Uzbek).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Husan Ochilov**
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

## IJTIMOIY-FALSAFIY NAZARIYALARDA AN'ANA VA MODERN UYG'UNLIGI PARADIGMALARI

***Annotatsiya Ushbu maqolada*** *ijtimoiy-falsafiy nazariyalarda an'ana va modern tushunchalarining mazmuni, ushbu tushunchalar uyg'unligi paradigmalari, ularning xususiyatlari va turlicha talqinlari o'rganilgan. Shuningdek, an'ana va modern tushunchalari talqinida antik davr mutafakkirlari, Yangi davr falsafasi vakillari, XIX–XX asr ijtimoiy-falsafiy va sotsiologik adabiyotlaridagi mulohazalar hamda zamonaviy yondashuvlar tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:*** *ijtimoiy-falsafiy nazariyalar, Sharq, G'arb, an'ana, modern, uyg'unlik, paradigmalar, globallashuv, barqarorlik, o'zgarishlar, zamonaviy yondashuvlar.*

**Хусан Очылов**
независимый соискатель Наманганского государственного университета

## ПАРАДИГМЫ ГАРМОНИИ ТРАДИЦИИ И МОДЕРНА В СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ТЕОРИЯХ

***Аннотация.*** *В данной статье рассматриваются содержание понятий традиции и модерна в социально-философских теориях, парадигмы их гармоничного взаимодействия, а также их особенности и различные интерпретации. Кроме того, анализируются взгляды античных мыслителей, представителей философии Нового времени, социально-философские и социологические труды XIX–XX веков, а также современные подходы к интерпретации понятий традиции и модерна.*

***Ключевые слова:*** *социально-философские теории, Восток, Запад, традиция, модерн, гармония, парадигмы, глобализация, устойчивость, изменения, современные подходы.*

**Husan Ochilov**
Independent Researcher, Namangan State University

## PARADIGMS OF THE HARMONY OF TRADITION AND MODERNITY IN SOCIO-PHILOSOPHICAL THEORIES

***Abstract.*** *This article examines the content of the concepts of tradition and modernity in socio-philosophical theories, the paradigms of their harmonious integration, as well as their characteristics and diverse interpretations. In addition, the study analyzes the views of ancient thinkers, representatives of Early Modern philosophy, socio-philosophical and sociological works of the 19th–20th centuries, and contemporary approaches to the interpretation of the concepts of tradition and modernity.*

***Keywords:*** *socio-philosophical theories, East, West, tradition, modernity, harmony, paradigms, globalization, stability, change, contemporary approaches.*

**Kirish. Biz yashayotgan hozirgi davr i**nsoniyat taraqqiyotining murakkab va ziddiyatli xususiyati bilan tavsiflanadi. Jamiyatlar bir vaqtning o'zida ham o'z ildizlariga tayanish, ham yangi sharoitlarga moslashish zaruratiga duch kelmoqda. Falsafiy nuqtai nazardan, bu holat an'anaviylik va yangilanish o'rtasidagi dialektik munosabatni ifoda etadi. Avvalambor, an'analar insoniyat tajribasining tarixiy xotirasi sifatida namoyon bo'ladi. Falsafada xotira va meros tushunchalari shaxs va jamiyatning o'zligini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki an'ana inkor etilsa, jamiyat ma'naviy uzluksizlikni yo'qotadi, bu esa ekzistensial bo'shliq va qadriyatlar inqiroziga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga, modern falsafiy ma'noda insonning erkinlikka, aqliy mustaqillikka va ijodiy o'zgarishga intilishini anglatadi. Nemis mutafakkiri Kant ta'kidlagan "aqlning voyaga yetishi" g'oyasi jamiyatning o'z-o'zini tanqid qilish va yangilanish qobiliyati bilan bog'liq. Demak, moderndan voz kechish jamiyatni stagnatsiyaga olib keladi. Bu masalaning dolzarbligi aynan shu ikki tamoyil — barqarorlik va o'zgarish — o'rtasidagi ziddiyatni qanday hal etish masalasida namoyon bo'ladi. Dialektik nuqtai nazaridan, taraqqiyot qarama-qarshiliklarni inkor etmasdan, ularni yuqori bosqichda sintez qilish orqali ro'yobga chiqadi. An'ana va modern uyg'unligi ana shu sintezning falsafiy ifodasidir.

Ayni paytda globallashuv jarayonlari bu mavzuni yanada dolzarblashtirmoqda. Global madaniy modellar mahalliy qadriyatlarga bosim o‘tkazayotgan bir vaziyatda, jamiyatlar o‘z ma’naviy suverenitetini saqlab qolishga intilmoqda. Bu holatda an’ana va modern uyg‘unligi falsafasi madaniy qarshilik emas, muloqot va moslashuv modeli sifatida ahamiyat kasb etadi. Postmodern falsafada universal taraqqiyot g‘oyalarining tanqid qilinishi ham ushbu mavzuning dolzarbligini oshirdi. Haqiqatning yagona modeli yo‘q, degan qarash an’anaviy tajribalarni qayta baholashga olib keldi. Shu nuqtai nazardan, an’ana modernga muqobil emas, balki uning ko‘p ovozli shakllaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Jahon falsafasi va ijtimoiy nazariyalarda an’ana va modern uyg‘unligi paradigmalari mavzusini o‘rganish metodologiyasi bir nechta yondashuvlarga tayanadi. Avvalambor, tarixiy-falsafiy yondashuv orqali an’ana va modern tushunchalarining turli davrlarda qanday talqin etilgani, ular o‘rtasidagi munosabat qanday evolyusiya qilgani tahlil qilinadi. Antik, o‘rta asr, yangi davr va zamonaviy falsafiy maktablar qarashlarini qiyosiy o‘rganish mavzuning mantiqiy rivojini ochib beradi. Ikkinchi muhim metodologik asos sifatida dialektik yondashuv esa an’ana va modernni qarama-qarshi qutblar sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlar sifatida ko‘radi. Dialektika orqali barqarorlik va o‘zgarish, meros va yangilanish o‘rtasidagi ziddiyatlar sintezi ochib beriladi, bu esa uyg‘unlik paradigmalarini falsafiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Qiyosiy tahlil turli sivilizatsiyalar va madaniy makonlarda an’ana va modern munosabatini solishtirishga xizmat qiladi. G‘arb, Sharq, diniy va boshqa falsafiy an’analarni qiyosiy o‘rganish orqali modernizatsiyaning yagona emas, balki ko‘p yo‘nalishli modellari mavjud ekani ko‘rsatadi. Bu metod etnotsentrizmdan qochishga yordam beradi. Masalaga germenevtik yondashuv orqali klassik va zamonaviy falsafiy matnlar, diniy manbalar va nazariy asarlar mazmunini tarixiy va madaniy kontekstda tahlil qilish orqali an’ana va modernga oid ma’nolarning chuqur qatlamlari ochiladi. Bu usul ma’naviy merosni biryoqlama talqin qilishdan saqlaydi. Shuningdek, interdissiplinar yondashuv mazkur mavzuni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, falsafa bilan bir qatorda tarix, antropologiya, madaniyatshunoslik va iqtisod nazariyalari ma’lumotlaridan foydalanish orqali an’ana va modern uyg‘unligi kompleks va yaxlit tarzda tahlil qilinadi. Yuqoridagi barcha metodologik yondashuvlar mavzunung har tomonlama nazariy va amaliy ahamiyatini to‘liq ochib berishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Jahon falsafiy tafakkurida an’ana va modern uyg‘unligi paradigmalari mavzusi ko‘plab adabiyotlar yozilgan, olimlar uning turli qirralarini tadqiq qilishgan. Bu o‘rinda avvalo, klassik falsafiy manba asarlarda an’ana jamiyat barqarorligining asosi sifatida talqin qilingan. Aristotel, Konfutsiy, Forobiy kabi faylasuflar axloqiy me’yorlar, urf-odatlar va avlodlar tajribasi ijtimoiy tartibni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaganlar. Bu manbalarda yangilanish an’analarni butunlay inkor etmasdan, ularni takomillashtirish orqali amalga oshishi mumkinligi g‘oyasi mavjud.

Musulmon falsafiy tafakkurida an’ana va modern uyg‘unligi paradigmalarini o‘rganish islom intellektual merosining dinamik xususiyatini ochib beradi: bu yo‘nalishda Qur’on va sunnatga tayangan klassik aqliy usullar (kalomi, falsafa, tasavvuf) zamonaviy ilm-fan, ijtimoiy-siyosiy tajriba va global muammolar bilan muloqotda qayta talqin etiladi. Tadqiqotlar an’anani o‘zgarmas qolip emas, balki maqsad, manfaat va ijtihod orqali yangilanishga ochiq manba sifatida ko‘radi. Modernlik esa tanqidiy qabul qilinib, ratsionallik, inson huquqlari, fan-texnika yutuqlari islomiy qadriyatlar bilan muvofiqlashtirish imkoniyatlari tahlil etiladi. Shu jarayonda mutafakkirlar meros va zamon o‘rtasidagi muvozanatni nazariy modellar orqali asoslaydilar. Natijada, an’ana va modern uyg‘unligi musulmon jamiyatlarining ma’naviy barqarorligi va innovatsion rivoji uchun konseptual asos sifatida namoyon bo‘ladi.

Yangi davr va ma’rifatparvarlik davri adabiyotlarida esa modern g‘oyasi markaziy o‘rinni egallaydi. Dekart, Kant, Bekon, Lokk asarlarida aql, ilm-fan va taraqqiyot jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko‘rsatiladi. Ushbu adabiyotlarda an’analar ko‘pincha tanqidiy ruhda tahlil qilinib, ular inson erkinligi va aqliy mustaqillikka to‘siq bo‘lishi mumkinligi qayd etiladi. Shu bilan birga, Kant va Gegel kabi mutafakkirlarda tarixiy uzluksizlik va dialektik rivojlanish g‘oyalari orqali an’ana va modern o‘rtasidagi bog‘liqlikka ham ishora qilingan.

XIX–XX asr ijtimoiy-falsafiy va sotsiologik adabiyotlarida bu mavzu yanada chuqurlashadi. Maks Veber, Emil Dyurkgeym, Georg Zimmel asarlarida modern jamiyat shakllanishida an’anaviy qadriyatlar, din va madaniy omillarning roli ilmiy tahlil qilinadi. Keyingi modernizatsiya va neomodernizatsiya nazariyalarida (Parsons, Rostou, Eyzenshtadt) har bir jamiyat modernga o‘z tarixiy va madaniy yo‘li orqali yetib borishi mumkinligi ta’kidlanib, uyg‘unlik paradigmasi nazariy jihatdan asoslab berilgan. Bu davrda jadidlar o‘z ta’limotlarida an’anaviy ta’lim va ijtimoiy tartibni saqlash, diniy va madaniy merosni asrash bilan birga, ta’limda zamonaviy usullardan foydalanish, jamiyatni ma’naviy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga urinishgan. Ular ta’lim va tarbiya orqali jamiyatda tanqidiy fikr va progressiv o‘zgarishlarni joriy etishni maqsad qilgan, ya’ni an’ana va modernlik o‘rtasidagi uyg‘unlikni nazariy asosga aylantirishga harakat qilgan.

Zamonaviy va postmodern adabiyotlarda esa an’ana va modern uyg‘unligi madaniy xilma-xillik va globallashuv nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Liotar, Fuko, Xabermas, Teylor kabi mutafakkirlar universal modern modellarini qayta ko‘rib chiqib, mahalliy an’analar, identifikatsiya va ma’naviy merosning ahamiyatini ko‘rsatadilar. Shu tarzda,

adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, an’ana va modern uyg‘unligi paradigmalari jahon falsafasida uzluksiz rivojlanib kelayotgan, ko‘p qirrali va dolzarb ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

**Muhokama va tahlillar.** Insoniyat yaratgan ijtimoiy-falsafiy nazariyalarda ham jamiyatni isloh qilishda faqat texnik va institutsional yangilanish yetarli emasligi, balki madaniy va ma’naviy omillarni hisobga olish zarurligi asoslangan. Bu esa an’anaviy qadriyatlarni modern islohotlar bilan uyg‘unlashtirishni talab qiladi. An’ana va modern uyg‘unligi mavzusi inson falsafasi uchun ham muhimdir. Zamonaviy inson bir vaqtning o‘zida global dunyo fuqarosi va muayyan madaniy muhit vakilidir. Uning identifikatsiyasi an’anaviy meros va zamonaviy tajriba o‘rtasidagi muvozanat orqali shakllanadi.

Bugun boshimizdan kechirayotgan ekologik inqiroz, ma’naviy bo‘shliq va ijtimoiy begonalashuv kabi muammolar ham mazkur mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Ko‘p hollarda an’anaviy dunyoqarashlarda tabiatga hurmat, jamoaviylik va mas’uliyat kabi qadriyatlar mavjud bo‘lib, ular modern texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilsa, barqaror rivojlanishga xizmat qilishi mumkin. Umuman olganda, jahon falsafasi va ijtimoiy nazariyalarda an’ana va modern uyg‘unligi paradigmalari mavzusining ahamiyati inson va jamiyatning kelajagi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu masala taraqqiyotni inkorsiz, an’anani esa muzlatilgan holda emas, balki dialektik birlikda tushunishga undaydi hamda barqaror, ma’naviy boy sivilizatsiya qurish uchun falsafiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**An’ana va modern uyg‘unligi** tushunchasi jamiyat taraqqiyotida qadriyatlar va yangiliklar o‘rtasidagi muvozanatni ifodalovchi nazariy qarashlar majmuasidir. Bu tushuncha an’anaviy madaniy, ijtimoiy va ma’naviy asoslarni saqlagan holda, zamonaviy g‘oyalar va innovatsiyalarni joriy etish yo‘llarini anglatadi. Birinchi navbatda, **an’ana** deganda avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan urf-odatlar, qadriyatlar, dunyoqarash va tajribalar tushuniladi. “Millatlar, xalqlar, elatlarning tarixiy xotirasiga zo‘r hurmat bilan qarash, avvalo, an’anaga aylangan jarayonlarda o‘z ifodasini topadi”[1.90]. Ular jamiyatning ma’naviy poydevori bo‘lib, insonning kimligini, jamiyatning o‘ziga xosligini belgilab beradi. An’analar barqarorlik va davomiylikni ta’minlaydi.

**Modern** esa yangilik, taraqqiyot, ilm-fan yutuqlari, texnologiyalar va zamonaviy fikrlashni ifoda etadi. Modern jamiyatni o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishga, raqobatbardosh bo‘lishga va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. U yangicha yechimlar va imkoniyatlarni ochib beradi. Hozirgi davr yoki zamonaviy dunyo muammosi ayniqsa, XX asr oxiridan boshlab, falsafada alohida ahamiyatga molik masalalardan biri sifatida qaralmoqda[2.821]. An’ana va modern o‘rtasida qarama-qarshilik mavjuddek tuyulishi mumkin, ammo uyg‘unlik paradigmalari aynan shu ikki omilni bir-biriga zid qo‘ymasdan, o‘zaro to‘ldiruvchi jarayon sifatida ko‘radi. Bu paradigmaga ko‘ra, modernizatsiya an’analarni inkor etish hisobidan emas, balki ularni yangicha shaklda davom ettirish orqali amalga oshishi lozim.

Masalan, ta’lim sohasida an’anaviy ustoz-shogird munosabatlari saqlangan holda, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va raqamli platformalardan foydalanish an’ana va modern uyg‘unligining yaqqol namunasidir. Bu usul bilim sifatini oshirish bilan birga milliy ruhni saqlab qoladi. Madaniyat va san’atda ham ushbu uyg‘unlik muhim ahamiyatga ega bo‘lib, milliy musiqa, libos yoki me’morchilik an’anaviy shakllarni saqlagan holda, zamonaviy uslub va texnologiyalar bilan boyitilishi mumkin. Natijada, ham milliylik, ham zamonaviylik aks etgan yangi madaniy mahsulotlar vujudga keladi.

Ijtimoiy munosabatlarda an’ana va modern uyg‘unligi jamiyatda barqarorlikni ta’minlaydi. Oilaviy qadriyatlar, hurmat va jamoaviylik kabi an’anaviy tushunchalar saqlangan holda, inson huquqlari, gender tengligi va shaxsiy erkinlik kabi zamonaviy g‘oyalar joriy etiladi. Iqtisodiy sohada esa milliy ish yuritish an’analari va mahalliy tajribalar zamonaviy bozor iqtisodiyoti mexanizmlari bilan uyg‘unlashtiriladi. Bu mahalliy iqtisodning raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, globallashuv sharoitida o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi. An’ana va modern uyg‘unligi paradigmalari jamiyatdagi islohotlarni bosqichma-bosqich va mulohazali amalga oshirishni taqozo etadi. An’analardan keskin uzilishlar yoki barcha eskini inkor etish ijtimoiy qarshilikka olib kelishi mumkin, uyg‘un yondashuv esa qabul qilinishi osonroq bo‘ladi. Demak, an’ana va modern uyg‘unligi paradigmalari jamiyat taraqqiyotining eng maqbul yo‘llaridan biri bo‘lib, u milliy o‘zlikni saqlagan holda, zamonaviy dunyo bilan hamqadam bo‘lish, barqaror va ma’naviy boy jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

**Ilmiy-falsafiy asarlarda, zamonaviy tadqiqotlarda an’ana va modern uyg‘unligi paradigmalari** jamiyat taraqqiyotini tushuntirishda muhim nazariy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu paradigmalar an’anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy g‘oyalar o‘rtasidagi munosabatni izohlashga, ularni qarama-qarshi qo‘ymasdan, o‘zaro uyg‘un jarayon sifatida anglashga qaratilgan. Antik va o‘rta asr falsafasida an’ana asosiy ma’naviy tayanch sifatida qaralgan. Aristotel, Konfutsiy, Forobiy kabi mutafakkirlar jamiyat barqarorligini urf-odatlar, axloqiy me’yorlar va avlodlar tajribasiga tayanish orqali ta’minlash mumkinligini ta’kidlagan. Bu davrda yangilik an’analar doirasida, ehtiyotkorlik bilan qabul qilingan.

Aristotel falsafasida an’ana inson axloqining shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida talqin qilinadi. Uningcha, fazilatlar tug‘ma emas, balki odat (ethos) orqali hosil bo‘ladi. Demak, jamiyatdagi axloqiy an’analar shaxs kamoloti uchun asosiy muhit vazifasini bajaradi[3.110] Konfutsiy an’anani «li» tushunchasi orqali ifodalab bergan. «Li»

marosimlar, urf-odatlar, ijtimoiy me'yorlar majmuasi bo'lib, jamiyatda tartib va uyg'unlikni ta'minlaydi[4.45]. Konfutsiyga ko'ra, qadimiy an'analarga amal qilish insonni axloqiy kamolotga yetaklaydi va davlat barqarorligini ta'minlaydi. Ulug' ajdodimiz Forobiy esa an'anani aql va axloq bilan uyg'un holda tushuntiradi. U jamiyat taraqqiyotida o'tmish mutafakkirlari merosini saqlash va undan ijodiy foydalanish zarurligini ta'kidla, "an'ana — bu ko'r-ko'rona taqlid emas, balki aql orqali anglangan ma'naviy merosdir", deb biladi[5.38].

Yangi davr falsafasida esa modern g'oyasi ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Dekart, Kant, Bekon kabi faylasuflar aql, fan va taraqqiyotni jamiyat rivojining asosiy omili sifatida ko'rdilar. Bu qarashlarda an'analar ko'pincha tanqid qilinib, modernizatsiya ulardan uzilish bilan bog'lab talqin etildi. Rene Dekart ijodida modern tushunchasi asosan aqlning mustaqilligi va shubhaning metodi orqali ifodalanadi. Uning fikriga ko'ra, har bir inson haqiqatni o'z aqli bilan kashf qilishi va an'anaviy qarashlarga qaramasdan, ratsional fikrlash asosida bilimga erishishi kerak[6.18]. Immanuil Kant ta'limotida modern – bu aqlning mustaqilligi va ma'naviy erkinlik bilan bog'liq tushunchadir. «Oqil bo'lish – o'z aqli bilan fikrlashdan qo'rqmaslik» g'oyasi orqali Kant jamiyat va shaxs taraqqiyotida modernga e'tibor qaratadi[7.10]. Frensis Bekonda esa modern tushunchasi asosan ilm-fan va tajribiy bilimning taraqqiyoti bilan bog'liq. Uningcha, an'anaviy metafizik qarashlardan voz kechib, tabiatni kuzatish va tajribalar orqali bilish jamiyat rivojiga asos bo'ladi[8.35].

Biroq XIX–XX asrlarda jamiyatlarning real rivoji an'anani to'liq inkor etish samarali emasligini ko'rsatdi. Shu asosda Maks Veber, Emil Dyurkgeym kabi sotsiologlar an'anaviy qadriyatlar modern jamiyat shakllanishida ham muayyan rol o'ynashini ilmiy jihatdan asoslab berdilar. Ular an'ana va ratsionallik o'rtasida murakkab bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdilar. Maks Veberga ko'ra, an'anaviy qadriyatlar jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi va individual faoliyatni shakllantiradi. Modern jarayonlari esa ratsionallik, huquqiy mukammallik va byurokratiya orqali an'anaviy tizimlardan bosqichma-bosqich uzilishga sabab bo'ladi. Veberda modern va an'ana o'rtasidagi ziddiyat ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatiladi[9.45]. Emil Dyurkgeym esa modern jamiyatlarda an'anaviy qadriyatlar va diniy me'yorlar muhim ijtimoiy bog'lovchi omillar sifatida saqlanishini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, ijtimoiy integratsiya an'anaviy va modern normalarning uyg'unligi orqali ta'minlanadi. Dyurkgeym modern modernizatsiya jarayonida an'anaviy qadriyatlarni butunlay yo'qotmaslik kerakligini ta'kidlaydi[10.88].

Modernizatsiya nazariyalarida (Rostou, Parsons) dastlab modern an'anadan uzilish sifatida talqin etilgan bo'lsa, keyinchalik neomodernizatsiya va ko'p yo'nalishli taraqqiyot nazariyalarida har bir jamiyat modernga o'z an'analari asosida yetib borishi mumkinligi tan olindi. Bu an'ana va modern uyg'unligi paradigmasining shakllanishiga olib keldi. Uolt Rostou modernizatsiya nazariyasini tarixiy bosqichlar asosida ishlab chiqqan. Uning fikriga ko'ra, har bir jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muayyan bosqichlaridan o'tishi kerak. Rostou modern jarayoni an'anaviy jamiyatdan industrial taraqqiyotga o'tish orqali amalga oshadi, bu jarayonda an'anaviy qadriyatlar turlicha transformatsiyaga uchraydi[11.4]. Talkott Parsons esa modernizatsiya jarayonini ijtimoiy tizimlar funksiyalari nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Uningcha, jamiyatning barqaror taraqqiyoti an'anaviy normalar va qadriyatlarni modern institutlar bilan uyg'unlashtirish orqali ta'minlanadi. Parsons modern va an'ana o'rtasidagi uyg'unlikni ijtimoiy muvozanatni saqlash uchun zarur deb hisoblaydi[12.120].

Postmodern falsafada esa katta "modern loyihasi" tanqid qilindi. Liotar, Fuko, Bodriyyar kabi mutafakkirlar universal modern modellar o'rniga mahalliy tajribalar, madaniy xilma-xillik va an'analarni qadrlashni ilgari surdilar. Bu yondashuvda an'ana modernga muqobil emas, balki uning ko'plab shakllaridan biri sifatida ko'riladi. Jan-Fransua Liotarga ko'ra, postmodern jamiyatda universal modern modellarining ahamiyati pasayib, lokal tajribalar va mahalliy an'analarning ko'p ovozliligi ahamiyatli bo'ladi. Uning fikriga ko'ra, haqiqatning yagona universal modeli yo'q va turli madaniy kontekstlar o'rtasida muloqot ustuvor hisoblanadi[13.37].

Mishel Fuko universal modern modellarini tanqid qilgan va qudrat, bilim va an'anaviy institutlar o'rtasidagi munosabatni tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, mahalliy an'analar va ijtimoiy praktika modern qoidalarini shakllantirishda va ularni mahalliy sharoitga moslashtirishda muhim rol o'ynaydi[14.195]. Jan Bodriyyar universal modern modellarini simvolik va madaniy ifoda nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, global madaniy omillar mahalliy an'analar bilan uyg'unlashganda reallik va ma'noni saqlaydi, aks holda madaniy simulyakrlar paydo bo'ladi[15.10]. Sharq falsafasi va islomiy ijtimoiy tafakkurda an'ana va modern uyg'unligi alohida ahamiyatga ega. Farobiy, Ibn Arabiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy merosiga tayangan zamonaviy mutafakkirlar islomiy va milliy qadriyatlarni saqlagan holda, ilm-fan va ijtimoiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash g'oyasini ilgari surganlar.

Globallashuv sharoitida jahon ijtimoiy nazariyalarida "globallashuv" tushunchasi paydo bo'ldi. Bu konsepsiyaga ko'ra, global modern jarayonlar mahalliy an'analar bilan uyg'unlashgan holda amal qiladi. Jamiyatlar global standartlarni qabul qiladi, biroq o'z madaniy xususiyatlarini saqlab qoladi. Hozirgi zamon sivilizatsion yondashuvlar (Xantington, Toynbi) ham an'ana va modern uyg'unligiga e'tibor qaratadi. Ularda har bir sivilizatsiya o'z an'anaviy poydevoriga tayangan holda modernizatsiya yo'lini tanlashi ta'kidlanadi. Bu jamiyatlar o'rtasidagi farqlarni tushunishga yordam beradi. Umuman olganda, jahon falsafasida an'ana va modern uyg'unligi paradigmalari jamiyat taraqqiyotining

universal emas, balki ko‘p qirrali va madaniy jihatdan bog‘liq jarayon ekanini ko‘rsatadi. Bu paradigma barqaror rivojlanish, madaniy o‘zlikni saqlash va zamonaviy dunyoga moslashish o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

**Xulosa va natijalar.**

An’ana va modernni mutlaq zid qutblar sifatida qarash falsafiy jihatdan biryoqlama yondashuvdir. Dialektik tafakkurga ko‘ra, har qanday taraqqiyot barqarorlik va o‘zgarish o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir orqali amalga oshadi. An’ana jamiyatning ma’naviy tayanchi bo‘lsa, modern uni harakatga keltiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Ularni ajratish jamiyatning ichki mutanosibligini buzadi. Barqaror ijtimoiy rivojlanish faqat texnik yoki institutsional yangilanish bilan cheklanmaydi. An’anaviy qadriyatlarni inkor etgan modernizatsiya insonning ma’naviy tayanchlarini zaiflashtiradi, uyg‘unlik esa taraqqiyotga chuqur ma’no baxsh etadi.

Ijtimoiy-falsafiy tahlillarda an’ana tarixiy xotira tushunchasi bilan bog‘lanib, xotira o‘tmishni takrorlash emas, balki undan ma’no chiqarish jarayonini anglatadi. Modern esa kelajakka yo‘nalgan ijodiy loyiha sifatida qaraladi. Shu ma’noda, jamiyat o‘zligini saqlab qolish uchun xotiraga, taraqqiy etish uchun esa modern tafakkurga muhtoj. Har bir jamiyat o‘z an’anaviy poydevoriga tayangan holda modern shakllarini ishlab chiqadi. Bu esa sivilizatsion xilma-xillikni falsafiy jihatdan asoslaydi.

Globallashuv sharoitida jamiyatlar ikki tomonlama bosim ostida qolmoqda: global standartlarga moslashish va milliy o‘zlikni saqlash. Falsafiy jihatdan, bu holat universallik va xususiylik o‘rtasidagi muvozanat muammosidir. An’ana va modern uyg‘unligi ushbu muvozanatni ta’minlovchi konseptual yechim sifatida ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy omillar inobatga olinmagan modernizatsiya insonni vositaga aylantirish xavfini tug‘diradi, ya’ni Frankfurt falsafiy maktabi vakillari tanqid qilgan “instrumental aql” aynan shu holatga ishora qiladi.

Inson falsafasida an’ana va modern uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘zini anglash jarayonida tarixiy meros va zamonaviy tajribani birlashtiradi. Faqat an’anaga tayanish konformizmga, faqat modernga suyanish esa identifikatsiya inqiroziga olib kelishi mumkin. An’ana va modern uyg‘unligi paradigmalari ijtimoiy-falsafiy nazariyalarda barqaror, ma’naviy boy va inson qadr-qimmatiga asoslangan jamiyat qurishning fundamental falsafiy asosi hisoblanadi. Bu paradigma taraqqiyotni ma’no bilan, yangilanishni esa meros bilan bog‘laydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi 1-jild, –Toshkent. O‘zFMJ nashriyoti, 20121. –B.90
2. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi 1-jild, –Toshkent. O‘zFMJ nashriyoti, 20121. –B.821
3. Aristotel. Nikomax axloqi (Nicomachean Ethics). — Moskva: Мысл nashriyoti, 1983. —C. 110–112.
4. Konfutsiy. Lun yuy (Suhbatlar va mulohazalar). — Pekin: Xalq nashriyoti, 1991, –B.. 45–47.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: Fan nashriyoti, 1993 yil. –B. 38–40.
6. **Dekart Rene.** Discourse on the Method. — Parij: Vrin nashriyoti, 1991 yil. –P.18–22.
7. **Kant Immanuil.** *Beantwortung der Frage: Was ist Aufklärung?*. — Berlin: Akademie Verlag, 1998. - P.10–12.
8. **Bekon Frensis.** Novum Organum. — London: Cambridge University Press, 2000 yil. –P.35–40.
9. Weber Max**.** The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism. — London: Routledge, 2001. –B. 45–50.
10. Durkheim Émile. The Division of Labour in Society. — New York: Free Press, 1997. –P. 88–92.
11. Rostow W. W. The Stages of Economic Growth: A Non-Communist Manifesto. — Cambridge: Cambridge University Press, 1960. –P. 4–15.
12. Parsons Talcott. Societies: Evolutionary and Comparative Perspectives. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1966. –P.120–125.
13. Lyotard, Jean-François. The Postmodern Condition: A Report on Knowledge. — Minneapolis: University of Minnesota Press, 1984. –P. 37–42.
14. Foucault Michel. Discipline and Punish: The Birth of the Prison. — New York: Pantheon Books, 1977. –P.195–200.
15. Baudrillard Jean. Simulacra and Simulation. — Ann Arbor: University of Michigan Press, 1994. –P. 10–15.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Qudratov Sirojiddin Xolmatovich**
ISFT (International School of Finance Technology and Science) Institute
1st year independent researcher
e-mail: qudratovsiroj@gmail.com

## PROSPECTS FOR DEVELOPING YOUTH INFORMATION CULTURE IN THE INFORMATION SPACE

***Abstract:*** *This article is devoted to a socio-philosophical analysis of the prospects for the development of youth information culture in the information space. It highlights the impact of digital technologies and global information flows on the minds of young people, the problems of selecting, analyzing and using information responsibly. The role of the education system, mass media and social institutions in improving information culture is substantiated. At the same time, promising areas aimed at ensuring critical thinking, information security and spiritual stability of young people are highlighted.*

***Keywords:*** *digital globalization, digital technologies, information culture, global information space, the concept of "information stability", information violence.*

**Qudratov Sirojiddin Xolmatovich**
ISFT (international school of finance technology and science) instituti
1-bosqich mustaqil izlanuvchisi

## AXBOROT MAKONIDA YOSHLAR AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada axborot makonida yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etishga bag'ishlangan. Unda raqamli texnologiyalar va global axborot oqimlarining yoshlar ongiga ta'siri, axborotni tanlash, tahlil qilish va mas'uliyat bilan foydalanish muammolari yoritilgan. Axborot madaniyatini yuksaltirishda ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy institutlarning o'rni asoslab berilgan. Shu bilan birga, yoshlarning tanqidiy tafakkuri, axborot xavfsizligi va ma'naviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan istiqbolli yo'nalishlari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *raqamli globallashuv, raqamli texnologiyalar, axborot madaniyati, global axborot makoni, "axborot barqarorligi" konsepsiyasi, axborot zo'ravonligi.*

**Кудратов Сирожиддин Холматович**
(international school of finance technology and science) (ISFT)
Независимый исследователь, 1-й год обучения

## ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ МОЛОДЕЖНОЙ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ В ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ

***Аннотация:*** *Данная статья посвящена социально-философскому анализу перспектив развития молодежной информационной культуры в информационном пространстве. В ней освещается влияние цифровых технологий и глобальных информационных потоков на сознание молодежи, проблемы отбора, анализа и ответственного использования информации. Обосновывается роль системы образования, средств массовой информации и социальных институтов в совершенствовании информационной культуры. Одновременно выделяются перспективные направления, направленные на обеспечение критического мышления, информационной безопасности и духовной стабильности молодежи.*

***Ключевые слова:*** *цифровая глобализация, цифровые технологии, информационная культура, глобальное информационное пространство, концепция «информационной стабильности», информационное насилие.*

**Kirish.** Zamonaviy globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda axborot makoni jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, yoshlar ushbu makonning eng faol ishtirokchisi sifatida axborot oqimlari bilan bevosita va uzluksiz aloqada bo'lmoqda. Bu holat bir tomondan bilim olish va ijtimoiy faollik imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan soxta axborot, axborot manipulyatsiyasi va ma'naviy tahdidlar kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish masalasi bugungi kunda dolzarb ijtimoiy-

falsafiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot madaniyati yoshlarning axborotni tanqidiy idrok etish, ongli tanlash va mas’uliyat bilan foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Uni rivojlantirish ta’lim tizimi, ijtimoiy institutlar va raqamli muhitning uyg‘un hamkorligini talab etadi. Mazkur mavzu yoshlarning axborot makonidagi faoliyatini ma’naviy-axloqiy va intellektual jihatdan takomillashtirish, shuningdek, axborot xavfsizligini ta’minlash istiqbollarini ilmiy asosda yoritishga qaratilgan.

Manuel Castells axborot jamiyatini tahlil qilib, “tarmoq jamiyatida barqarorlik axborot oqimlarini boshqarish qobiliyatiga bevosita bog‘liq” ekanini ta’kidlaydi (Castells M. 2010. – P. 412-414.). Ushbu fikr yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari ijtimoiy barqarorlik uchun strategik ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi. Ilmiy-ijodiy baholash shuni ko‘rsatadiki, Castells axborot oqimlarining strukturaviy rolini chuqur ochadi, biroq yoshlarning axborot makonida axloqiy tanlov va ma’naviy refleksiya imkoniyatlari yetarli darajada normativlashtirilmaydi.

Raqamli globallashuv chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda axborot makoni yoshlarning ijtimoiylashuvi, qadriyatlari va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi asosiy muhitga aylanmoqda. Axborot madaniyatining rivojlanish istiqbollari bevosita ijtimoiy barqarorlik bilan bog‘liq bo‘lib, bu bog‘liqlik ijtimoiy falsafada bilim–ishonch–barqarorlik uchligi orqali talqin qilinadi. Axborot madaniyati bu jarayonda nafaqat axborotni qabul qilish va uzatish malakasi, balki axborot oqimlarining ijtimoiy oqibatlarini anglash, ularni tanqidiy baholash va mas’uliyatli ijtimoiy tanlov qilish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi.

**Asosiy qism.** Milliy tajribaga murojaat qilgan holda, Shavkat Mirziyoyev axborot makonida yoshlar masalasiga to‘xtalib, “yoshlarning axborotdan ongli foydalanishi jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omilidir” deya ta’kidlaydi (Mirziyoyev Sh.M. 2018. – B. 252-254.). Ushbu pozitsiya O‘zbekiston sharoitida axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari davlat siyosati va ijtimoiy barqarorlik bilan uzviy bog‘langanini ko‘rsatadi. Ilmiy-ijodiy baholash shuni ko‘rsatadiki, normativ-siyosiy yondashuv barqarorlikni mustahkamlaydi, biroq yoshlarning avtonom tanlovi va tanqidiy faolligini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yanada chuqurroq ishlab chiqilishini talab etadi.

Nikolai Moiseyev texnogen sivilizatsiya sharoitida axborot va barqarorlik munosabatini tahlil qilib, “axborot madaniyati axloqiy cheklovlar bilan uyg‘unlashmaguncha barqarorlikni ta’minlay olmaydi” deb yozadi. Ushbu fikr yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari axloqiy-me’yoriy asos bilan mustahkamlanishi zarurligini ko‘rsatadi. Tanqidiy nuqtai nazardan esa, Moiseyev yondashuvi ehtiyotkorlikka asoslanib, axborotning innovatsion va ijtimoiy ijodkorlik imkoniyatlarini ikkilamchi darajaga tushiradi. Shuningdek, Sonia Livingstone yoshlar va raqamli xavfsizlikni tahlil qilib, “axborot madaniyatini rivojlantirish himoya qilishdan ko‘ra imkoniyat yaratish orqali barqarorlikka olib keladi” deya ta’kidlaydi (Livingstone S. 2014. – P. 98-100.). Ushbu yondashuv axborot makonida yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari emansipator va ijobiy xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Ilmiy-ijodiy baholash shuni ko‘rsatadiki, imkoniyatlar paradigmasi muhim bo‘lsa-da, u ijtimoiy tengsizlik va raqamli tafovut muammolarini yetarli darajada chuqurlashtirmaydi.

Yuqoridagi nazariy pozitsiyalarni qiyosiy-tanqidiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, axborot makonida yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari ijtimoiy barqarorlik bilan ko‘p darajali dialektik aloqada namoyon bo‘ladi: bir tomondan, axborot xavflarni kuchaytirishi mumkin; ikkinchi tomondan esa, axborot madaniyati rivojlangan sari u barqarorlikni mustahkamlovchi ijtimoiy resursga aylanadi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati yoshlarning axborot makonida tanqidiy ong, axloqiy mas’uliyat va fuqarolik faolligini uyg‘un shakllantirishga bog‘liq.

Axborot makonining kengayishi va raqamli kommunikatsiyaning chuqurlashuvi sharoitida yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari ijtimoiy barqarorlik masalalari bilan uzviy bog‘liq murakkab ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot madaniyati bu jarayonda faqat texnologik savodxonlik yoki media bilan ishlash malakasi emas, balki ijtimoiy ishonch, axloqiy mas’uliyat va kollektiv barqarorlikni ta’minlovchi normativ ong shakli sifatida talqin qilinadi. Shu bois axborot makonida yoshlar axborot madaniyatining rivojlanish istiqbollari jamiyatning ijtimoiy muvozanati va barqaror rivojlanish mexanizmlarini qayta anglashni talab etadi.

A. Giddensdan farqli ravishda, P. Sztompka ijtimoiy barqarorlikni madaniy ishonch kategoriyasi orqali tahlil qilib, “ijtimoiy barqarorlik ishonchning institutsional va madaniy darajada qayta ishlab chiqarilishiga bog‘liq” ekanini ta’kidlaydi (Sztompka P. 1999. – P. 25-27.). Ushbu fikr yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari axborotga nisbatan ishonch va ishonchsizlikni ajratish qobiliyati bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Ilmiy-ijodiy baholash shuni ko‘rsatadiki, Sztompka ishonchning ijtimoiy rolini chuqur ochib beradi, biroq raqamli axborot makonida ishonchning algoritmik manipulyatsiya orqali shakllanishi muammosini yetarli darajada tahlil qilmaydi.

N. Fraser jamoat makoni va ijtimoiy barqarorlikni tahlil qilib, “demokratik barqarorlik teng axborot ishtiroki va ovozlarning inklyuzivligiga bog‘liq” deya qayd etadi. Ushbu yondashuv yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari axborotga teng kirish va ishtirok madaniyati bilan chambarchas bog‘liqligini asoslaydi. Tanqidiy nuqtai nazardan esa, Fraserning konsepsiyasi normativ jihatdan kuchli bo‘lsa-da, real axborot makonida mavjud raqamli tafovut va iqtisodiy notenglikni bartaraf etish mexanizmlarini aniq belgilamaydi.

R. Putnam ijtimoiy kapital nazariyasida barqarorlikni tahlil qilib, “ijtimoiy barqarorlik axborot almashuvi orqali mustahkamlanadigan ishonch va hamkorlik tarmoqlariga tayanadi” deb yozadi. Ushbu fikr yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari ijtimoiy bog‘lanish va fuqarolik faolligi bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Ilmiy-ijodiy baholash shuni ko‘rsatadiki, Putnamning yondashuvi axborotning integrativ rolini ochib beradi, biroq zamonaviy raqamli muhitda ijtimoiy kapitalning fragmentatsiyalashuvi va “eko-kameralar” muammosini yetarli darajada muammolashtirmaydi.

**Metodlar.** I. Wallerstein dunyo-tizimlar nazariyasida axborot oqimlarini tahlil qilib, “global axborot makoni markaz va periferiyalar o‘rtasidagi notenglikni qayta ishlab chiqaradi” deya ta’kidlaydi (Wallerstein I. 2004. – P. 56-58.). Ushbu pozitsiya yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari ijtimoiy barqarorlikka global asimmetriyalar orqali tahdid solishini ko‘rsatadi. Tanqidiy baholash shuni ko‘rsatadiki, Wallerstein notenglikni aniq ochib bersa-da, yoshlarning axborot makonida qarshilik va muqobil diskurslar yaratish imkoniyatlarini yetarli darajada e’tirof etmaydi.

Milliy tajribaga murojaat qilgan holda, M. Qodirova axborot makoni va ijtimoiy barqarorlik munosabatlarini tahlil qilib, “axborot madaniyati yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytiruvchi ma’naviy resursdir” deb ta’kidlaydi (Qodirova M. 2016. – B. 84-86.). Ushbu yondashuv O‘zbekiston sharoitida yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari ma’naviy-tarbiyaviy siyosat bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ilmiy-ijodiy baholash shuni ko‘rsatadiki, mazkur yondashuv barqarorlikni mustahkamlaydi, biroq yoshlarning tanqidiy va mustaqil axborot pozitsiyasini rivojlantirish mexanizmlari yanada chuqurroq ishlab chiqilishini talab etadi.

Shuningdek, A. Abduqodirov yoshlar va axborot xavfsizligini tahlil qilib, “axborot madaniyatining past darajasi ijtimoiy beqarorlik va radikal kayfiyatlar uchun qulay muhit yaratadi” deya qayd etadi (Abduqodirov A. 2018. – B. 41-43.). Ushbu fikr yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda profilaktik va oldini oluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Tanqidiy nuqtai nazardan esa, xavfga urg‘u berish axborot makonining ijodiy va innovatsion imkoniyatlarini ikkilamchi darajaga tushirib qo‘yishi mumkin.

Alain Touraine kech modern jamiyatni tahlil qilib, “ijtimoiy barqarorlik subyektlarning axborot va kommunikatsiya jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatiga bog‘liq” ekanini ta’kidlaydi (Touraine A. 1998. – P. 91-93.). Ushbu fikr yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari passiv moslashuv emas, balki faol subyektivlik bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Pierre Lévy raqamli madaniyatni tahlil qilib, “kollektiv intellekt axborot makonida ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi yangi shakl sifatida yuzaga chiqadi” deb yozadi (Lévy P. 1997. – P. 67-69.). Ushbu yondashuv yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari hamkorlik va umumiy bilim ishlab chiqarish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ronald Inglehart qadriyatlar evolyutsiyasini tahlil qilib, “axborot erkinligi postmaterial qadriyatlarni kuchaytiradi, biroq bu jarayon ijtimoiy barqarorlikni faqat ishonch mavjud bo‘lgandagina mustahkamlaydi” deya ta’kidlaydi (Inglehart R. 2000. – P. 215–217.). Ushbu fikr yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari qadriyatlar va ishonch bilan uzviy bog‘liq ekanini asoslaydi.

**Tahlil va natijalar.** Milliy tajribaga murojaat qilgan holda, R. Samarov axborot makoni va ijtimoiy barqarorlik munosabatini tahlil qilib, “axborot madaniyati yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy mas’uliyatini mustahkamlovchi ma’naviy resursdir” deya ta’kidlaydi (Samarov R. 2010. – B. 102-104.). Ushbu fikr O‘zbekiston sharoitida yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy siyosat bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Ilmiy-ijodiy baholash shuni ko‘rsatadiki, mazkur yondashuv barqarorlikni mustahkamlaydi, biroq yoshlarning tanqidiy va mustaqil axborot pozitsiyasini rivojlantirish mexanizmlari yanada chuqurroq ishlab chiqilishini talab etadi.

Yuqoridagi global va milliy nazariy pozitsiyalarni qiyosiy-tanqidiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, axborot makonida yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari ijtimoiy barqarorlik bilan murakkab va ko‘p darajali bog‘liqlikka ega. Bir tomondan, axborot oqimlarining nazoratsizligi beqarorlik va ishonchsizlikni kuchaytirishi mumkin; ikkinchi tomondan esa, axborot madaniyati rivojlangan sari u ijtimoiy ishonch, hamkorlik va fuqarolik mas’uliyatini mustahkamlovchi resursga aylanadi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati yoshlarning axborot makonida tanqidiy ong, qadriyatli yo‘nalish va ijtimoiy hamkorlikni uyg‘un rivojlantirishga bog‘liq.

Axborot makonining intensiv kengayishi va raqamli kommunikatsiyaning jamiyat hayotiga chuqur singib borishi sharoitida yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari ijtimoiy barqarorlik masalalari bilan bevosita uzviylashadi. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan axborot madaniyati bu yerda individual savodxonlik darajasidan yuqori turuvchi, ijtimoiy ishonchni ishlab chiqaruvchi, nizolarni yumshatuvchi va kollektiv barqarorlikni ta’minlovchi madaniy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Axborot oqimlarining tartibsizligi sharoitida yoshlar ongida tanqidiy filtrlarsiz shakllanadigan qarashlar ijtimoiy beqarorlikni kuchaytirishi mumkin; shu bois axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari jamiyatning barqaror rivojlanishi bilan dialektik bog‘liqdir.

Johan Galtung ijtimoiy barqarorlikni tahlil qilib, “axborot zo‘ravonligi strukturaviy zo‘ravonlikning yashirin shakli bo‘lib, u jamiyatdagi nizolarni kuchaytiradi” deb yozadi. Ushbu yondashuv yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari nizolarni oldini olish va konstruktiv muloqotni shakllantirish bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Tanqidiy nuqtai nazardan esa, Galtung axborotning salbiy ta’sirini chuqur ochsa-da, axborot makonining ijtimoiy yarashuv va

birdamlikni mustahkamlovchi imkoniyatlarini kamroq yoritadi. Shuningdek, M. Bekmurodov globallashuv va axborot jarayonlarini tahlil qilib, “axborot madaniyatining rivojlanishi yoshlarni destruktiv axborot ta’siridan himoyalash bilan birga ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi” deb yozadi (Bekmurodov M. 2012. – B. 121-123.). Ushbu pozitsiya yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari profilaktik va stabilizatsion ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Tanqidiy nuqtai nazardan esa, himoya paradigmasiga kuchli urg‘u berish yoshlarning tanqidiy va mustaqil fikrlash salohiyatini cheklab qo‘yish xavfini tug‘dirishi mumkin.

Yuqoridagi global va milliy yondashuvlarning qiyosiy-tanqidiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, axborot makonida yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari ijtimoiy barqarorlik bilan murakkab va ko‘p qatlamli bog‘liqlikka ega. Bir tomondan, axborot oqimlari nazoratsiz bo‘lsa, ijtimoiy beqarorlikni kuchaytirishi mumkin; ikkinchi tomondan esa, axborot madaniyati rivojlangan sari u ijtimoiy ishonch, nizolarni kamaytirish va barqarorlikni mustahkamlovchi madaniy resursga aylanadi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati yoshlarning axborot makonida tanqidiy ong, axloqiy mas’uliyat va konstruktiv ijtimoiy ishtirokni uyg‘un rivojlantirishga bog‘liq.

**Xulosa.** Yuqoridagi global va milliy nazariy pozitsiyalarning qiyosiy-tanqidiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, axborot makonida yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari ijtimoiy barqarorlik bilan normativ-qadriyatli, institutsional va ongiy darajalarda bog‘liqdir. Axborot madaniyati rivojlangan sari u ijtimoiy nizolarni yumshatuvchi, ishonchni mustahkamlovchi va barqarorlikni qo‘llab-quvvatlovchi madaniy resursga aylanadi; aks holda esa, axborot oqimlari beqarorlikni kuchaytiruvchi omil bo‘lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, axborot makonida yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari ijtimoiy falsafada barqarorlik va o‘zgarish, axborot va axloq, erkinlik va javobgarlik o‘rtasidagi murakkab dialektik muvozanat sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu muvozanat ta’minlangandagina axborot madaniyati jamiyat ijtimoiy barqarorligini mustahkamlovchi va yoshlarni ongli, tanqidiy hamda mas’uliyatli ijtimoiy subyekt sifatida shakllantiruvchi strategik omilga aylanadi.

Axborot makonida yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari ijtimoiy-falsafiy tahlil nuqtai nazaridan inson va jamiyatning yangi sifat bosqichiga o‘tish jarayonini aks ettiradi. Axborot makoni endilikda ijtimoiy ong, qadriyat tizimi va ijtimoiy o‘zlikni shakllantiruvchi asosiy maydonga aylangan. Shu bois, uning istiqbollari nafaqat texnologik modernizatsiyada, balki insonning ma’naviy va aksiologik o‘sishida namoyon bo‘ladi. Yoshlarning axborot madaniyatini rivojlantirish istiqbollari ularning raqamli tafakkurini erkinlik, mas’uliyat va ma’naviylik tamoyillariga asoslangan holda shakllantirishni talab qiladi. Falsafiy jihatdan bu jarayon insonning “axborot barqarorligi” konsepsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, u shaxsning axborot tahdidlariga qarshi tura olish qobiliyati, tanqidiy tafakkur darajasi va ijtimoiy javobgarligi orqali ifodalanadi. Axborot makonida barqarorlikni ta’minlash esa jamiyatning ma’naviy immunitetini kuchaytirish, axborot etikasi va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash bilan bog‘liqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 2010. – P. 412-414.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi – faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 252-254.
3. Livingstone S. Children, Risk and Safety Online. – Cambridge: Polity Press, 2014. – P. 98-100.
4. Wallerstein I. World-Systems Analysis. – Durham: Duke University Press, 2004. – P. 56-58.
5. Qodirova M. Axborot makoni va ijtimoiy barqarorlik. – Toshkent: Fan, 2016. – B. 84-86.
6. Abduqodirov A. Yoshlar va axborot xavfsizligi. – Toshkent: Akademiya, 2018. – B. 41-43.
7. Touraine A. Can We Live Together? – Stanford: Stanford University Press, 1998. – P. 91-93.
8. Lévy P. Collective Intelligence. – Paris: La Découverte, 1997. – P. 67-69.
9. Inglehart R. Modernization and Postmodernization. – Princeton: Princeton University Press, 2000. – P. 215–217.
10. Samarov R. Axborot makoni va ijtimoiy barqarorlik. – Toshkent: Akademiya, 2010. – B. 102-104.
11. Bekmurodov M. Globallashuv va ijtimoiy jarayonlar. – Toshkent: Akademiya, 2012. – B. 121-123.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Rasulov Rustambek Odilovich**
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,
Fan va texnologiyalar universiteti Gumanitar fanlar kafedrasi
E-mail: rustamrasulov07081995@gmail.com
ORCiD: 0009-0001-3976-4177

UDK 316.42:004:321.01

## RAQAMLI GLOBALLASHUV VA MAFKURAVIY DIVERSIFIKATSIYA JARAYONLARI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada raqamli globalizatsiya sharoitida mafkuraviy diversifikatsiya jarayonlarining shakllanishi, ularning ijtimoiy ong, axborot makoni va yoshlar dunyoqarashiga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Raqamli platformalarning kengayishi natijasida g'oyaviy maydonning ko'p qirrali va dinamik tus olishi, global axborot oqimlarining milliy identitetga ta'siri, shuningdek, mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashda mediama'rifatning ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda samarali kommunikatsion strategiyalarni ishlab chiqish bo'yicha xulosalar beriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *raqamli globalizatsiya, mafkuraviy diversifikatsiya, axborot Makoni, g'oyaviy raqobat, mediama'rifat, tanqidiy tafakkur, axborot xavfsizligi, identitet, global kontent, virtual kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, mafkuraviy barqarorlik*

**Rasulov Rustambek Odilovich**
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences, Associate Professor
University of Science and Technologies. Department of Humanities

## DIGITAL GLOBALIZATION AND IDEOLOGICAL DIVERSIFICATION PROCESSES

***Abstract:*** *This article provides a scientific analysis of how ideological diversification processes emerge under the conditions of digital globalization and how they influence public consciousness, the information space, and the worldview of young people. The study highlights the increasing complexity and dynamism of the ideological sphere due to the expansion of digital platforms, the impact of global information flows on national identity, and the significance of media literacy in maintaining ideological stability. The research concludes with recommendations for developing effective communication strategies.*

***Keywords:*** *digital globalization, ideological diversification, information space, ideological competition, media literacy, critical thinking, information security, identity, global content, virtual communication, social networks, ideological stability.*

**Расулов Рустамбек Одилович**
Доктор философских наук (PhD), доцент
Университет науки и технологий. Кафедра гуманитарных наук

## ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВОЙ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ ДИВЕРСИФИКАЦИИ

***Аннотация:*** *В данной статье представлен научный анализ формирования процессов идеологической диверсификации в условиях цифровой глобализации, а также их влияния на общественное сознание, информационное пространство и мировоззрение молодежи. Отмечается, что расширение цифровых платформ делает идеологическую сферу более многогранной и динамичной. Рассматривается воздействие глобальных информационных потоков на национальную идентичность, а также значимость медиаграмотности в обеспечении идеологической стабильности. В исследовании предлагаются выводы и рекомендации по разработке эффективных коммуникативных стратегий.*

***Ключевые слова:*** *цифровая глобализация, идеологическая диверсификация, информационное пространство, идеологическая конкуренция, медиаграмотность, критическое мышление, информационная безопасность, идентичность, глобальный контент, виртуальная коммуникация, социальные сети, идеологическая стабильность.*

**Kirish (Introduction).** XXI asrga kelib insoniyat taraqqiyoti yangi bosqichga - raqamli globalizatsiya davriga qadam qo'ydi. Global axborot makonining keskin kengayishi, internet infratuzilmasining chuqurlashuvi, sun'iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar, multimediaviy platformalar hayotning deyarli barcha jabhalarini qamrab oldi. Bugungi kunda

raqamli globalizatsiya nafaqat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga, balki mafkuraviy munosabatlar tizimiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, mafkuraviy diversifikatsiya - ya'ni g'oyalar, qarashlar, qadriyatlar va ma'naviy yo'nalishlar xilma-xilligining ortib borishi - zamonaviy jamiyatlar oldida turgan dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar tufayli g'oyalar tezroq tarqalmoqda, ularning qabul qilinish jarayoni esa avvalgidan ancha murakkablashgan.

Raqamli globalizatsiya sharoitida mafkuraviy maydon chegarasiz tus oladi: bir vaqtning o'zida milliardlab foydalanuvchilar fikr almashadi, bahslashadi, yangi konsepsiyalar ilgari suradi. Bu jarayon ijobiy imkoniyatlarni ham, ma'lum xavflarni ham o'zida mujassam qiladi. Bir tomondan, jahon tajribasi bilan tezkor tanishish, innovatsion g'oyalarni o'zlashtirish, xalqaro madaniy muloqotning kuchayishi kabi omillar jamiyatning intellektual salohiyatini oshiradi. Boshqa tomondan esa, informatsion asimmetriya, g'oyaviy manipulyatsiya, soxta axborotlar (fake news), algoritmik boshqaruv kabi muammolar milliy g'oyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin.

Masalan, raqamli makonda axborot oqimining tezligi va ko'lami inson ongida fikrlarning juda tez shakllanishiga olib keladi. Ba'zan bunday jarayonlar inson tafakkurining tanqidiy filtrini chetlab o'tishi, natijada bir xil mazmundagi axborotlarning takror-takror taqdim qilinishi orqali "echo-chamber" kabi psixologik hodisalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ilmiy manbalarda ham ta'kidlanganidek, bugungi axborotlashgan jamiyatda mafkuraviy xavfsizlik masalasi davlatlarning milliy strategiyasida yetakchi o'rin egallamoqda [1].

Mazkur manbadagi fikrlardan ko'rinadiki, mafkuraviy barqarorlik faqat an'anaviy omillar - ta'lim, tarbiya, madaniyat bilan emas, balki raqamli maydondagi axborot oqimlarini boshqarish, ularning sifatini monitoring qilish va yoshlar ongida informatsion immunitet shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir. Demak, raqamli globalizatsiya mafkuraning zamonaviy ko'rinishini strategik boshqarishni talab qiladigan yangi bosqichga olib chiqadi.

Shuningdek, ekspertlar fikriga ko'ra, diversifikatsiya jarayoni g'oyaviy pluralizmni kuchaytirgan holda jamiyatdagi dunyoqarashlar rang-barangligini vujudga keltiradi. Biroq nazoratsiz diversifikatsiya ijtimoiy fragmentatsiya, qadriyatlardagi qarama-qarshilik va axborotli poliarxiya kabi holatlarni kuchaytirishi mumkin [2].

Ushbu ilmiy qarash shuni ko'rsatadiki, mafkuraviy diversifikatsiya ikki tomonlama tabiatga ega: u jamiyatdagi erkin fikrlash va innovatsion tafakkurni rag'batlantirishi bilan birga, boshqarilmagan va tartibga solinmagan raqamli axborot maydoni ijtimoiy birlikka putur yetkazishi, yoshlarning ma'naviy orientatsiyasini zaiflashtirishi ehtimoldan xoli emas. Shu bois, raqamli makonda mafkuraviy jarayonlarni tahlil qilish va ularni tizimli boshqarish bugungi ilmiy izlanishlarning dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Umuman olganda, raqamli globalizatsiya mafkuraviy jarayonlarga sifat jihatdan yangi tus berdi. Endilikda milliy mafkura raqobatbardosh bo'lishi, globallashuv sharoitida o'z maqsad va vazifalarini yangi kommunikatsion mexanizmlar, raqamli platformalar, algoritmik tahlil vositalari orqali mustahkamlashi zarur. Shuning uchun mazkur tadqiqot raqamli globalizatsiya fonida mafkuraviy diversifikatsiyaning qanday kechishini, uning ijtimoiy ong va qadriyatlarga qanchalik ta'sir ko'rsatishini chuqur ilmiy tahlil qilishga qaratilgan.

**Metodologiya (Methods).** Mazkur tadqiqot raqamli globalizatsiya sharoitida mafkuraviy diversifikatsiya jarayonlarining mazmuni, dinamikasi va ijtimoiy ongga ta'sirini chuqur o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning metodologiyasi ko'p darajali, tizimli hamda interdisiplinar yondashuvlar asosida shakllantirildi. Tadqiqotda ijtimoiy falsafa, axborot jamiyati nazariyasi, kommunikatsiya sotsiologiyasi, raqamli media tahlili, diskurs tahlili, siyosiy psixologiya kabi ilmiy yondashuvlar uyg'unlashtirildi. Bu esa mavzuning murakkab, ko'p qirrali va global miqyosdagi mohiyatini to'liq yoritishga imkon beradi.

Birinchi navbatda, mazkur ishda tizimli yondashuvdan foydalanildi. Tizimli yondashuvga ko'ra, raqamli globalizatsiya, mafkuraviy diversifikatsiya, axborot texnologiyalari, yoshlar ongiga ta'sir qiluvchi kommunikatsion omillar va g'oyaviy xavfsizlik bir-biriga bog'liq bo'lgan yaxlit ijtimoiy tizimning tarkibiy qismlari sifatida o'rganiladi. Bu yondashuv orqali raqamli makondagi har bir axborot oqimi va g'oyaviy jarayonning butun tizimdagi o'rnini, ta'sir doirasini va o'zaro aloqalarini aniqlash imkoniyati tug'iladi.

Tadqiqotda shuningdek komparativ (qiyosiy) tahlil metodidan keng foydalanildi. Chunki raqamli globalizatsiya jarayonlari mamlakatlar kesimida turlicha kechadi, mafkuraviy diversifikatsiya esa madaniyat, siyosiy tizim, milliy identitet va yoshlarning axborot iste'moli darajasiga ko'ra farqlanadi. Shu sababli turli davlatlarning (masalan, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Yevropa davlatlari va O'zbekiston) g'oyaviy siyosati, raqamli xavfsizlik strategiyasi va axborot makoni boshqaruvi o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar qiyosiy tahlil qilindi.

Uchinchi muhim metod - diskursiv tahlil. Raqamli makonda mafkuraviy diversifikatsiya jarayonlari aynan diskurslar - postlar, sharhlar, videolar, bloglar, internet memlar, siyosiy kontentlar, ma'naviy-ma'rifiy materiallar orqali shakllanadi. Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlar, global media platformalari va matbuotda shakllanayotgan mafkuraviy tasavvurlar diskursiv jihatdan o'rganildi. Diskursiv tahlil orqali g'oyaviy targ'ibot shakllari, manipulyativ axborot uslublari, ideologik narrativlar, yoshlar ongiga ta'sir qiluvchi lingvistik va vizual kodlar aniqlanadi.

Metodologiyaning yana bir muhim qismi - kontent-tahlil (content analysis). Zamonaviy axborot maydonida har kuni milliardlab kontent yaratiladi. Shu bois, tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlardagi asosiy trendlar, g‘oyaviy xabarlar, global mafkuraviy oqimlarning mazmuni, tarqalish mexanizmi, semantik tuzilishi va emotsional komponentlari chuqur kontent-tahlil orqali o‘rganildi. Bu tahlil yoshlar ongiga ta’sir qiluvchi raqamli kontent turlarini aniqlashga, mafkuraviy diversifikatsiyaning qanday tezlikda va qanday shaklda sodir bo‘layotganini aniqlashga yordam beradi.

Shu bilan birga, tadqiqotning nazariy asosini mustahkamlash uchun ilmiy-analitik adabiyotlar tahlili ham amalga oshirildi. Jahon olimlarining globalizatsiya, raqamli madaniyat, kommunikatsion ta’sir, media sohasidagi mafkuraviy raqobat, informatsion xavfsizlik, postindustrial jamiyat haqidagi ilmiy qarashlari o‘rganildi. Masalan, raqamli globalizatsiya jarayonining jamiyat ongiga ta’siri borasida K. Shvab raqamli inqilob inson tafakkurini tubdan o‘zgartirishini ta'kidlaydi [3].

Shvabning ushbu g‘oyasi tadqiqot metodologiyasida muhim nazariy asosga aylandi, chunki raqamli o‘zgarishlar insonning qaror qabul qilish psixologiyasidan tortib, uning qadriyatlari va ijtimoiy xulqiga qadar kuchli transformatsiya jarayonlarini boshlayotgani aynan mafkuraviy diversifikatsiyani yanada murakkablashtiradi.

Tadqiqotning metodologiyasida yana bir asosiy yondashuv - sotsiologik tahlil usullaridir. Raqamli globalizatsiya avvalo yoshlar ongiga ta’sir qilgani uchun yoshlarning raqamli xulqi, mediaiste’mol madaniyati, g‘oyaviy qarashlari, internetdagi faolligi sotsiologik yondashuv orqali o‘rganiladi. Bu jarayonda yoshlarning global axborot makonida qanday kontentlarni ko‘proq iste’mol qilishi, qanday g‘oyalarga moyil bo‘lishi, qanday axborotlarni ishonchli deb bilishi, qaysi mafkuraviy oqimlarga ochiq yoki befarq ekani aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, bu tadqiqotda konstruktivistik yondashuvdan foydalanildi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, mafkura jamiyat a’zolari tomonidan doimiy ravishda qayta ishlab chiqiladigan ijtimoiy konstruksiyadir. Raqamli globalizatsiya sharoitida esa bu konstruksiya nafaqat davlat yoki an’anaviy institutlar tomonidan, balki millionlab foydalanuvchilar tomonidan yaratilib, tarqatilib, muhokama qilinadi. Bu esa mafkuraviy diversifikatsiyaning yangi, ko‘p markazli modelini shakllantiradi.

Tadqiqotning kompleks mohiyatini chuqur anglash uchun raqamli maydonni axborot oqimlari tizimi sifatida sharhlagan M. McLuhan qarashlari ham muhim metodologik nuqtai nazar bo‘lib xizmat qildi. U raqamli kommunikatsiya vositalarining o‘zi inson ongini shakllantiruvchi asosiy omilga aylanganini ta’kidlaydi [4].

McLuhan yondashuvi tadqiqotning mediakommunikatsiya tahliliga konseptual asos yaratib, raqamli platformalarning mazmun emas, balki forma sifatida ham mafkuraviy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatishini anglashga yordam beradi. Bu yondashuv bo‘lajak tahlillarda raqamli vositalarning mafkuraviy bo‘yoqdorligini chuqur o‘rganishga yo‘naltiradi.

Metodologiyada axborot xavfsizligi tahlili ham alohida o‘rin egallaydi. Chunki raqamli globalizatsiya sharoitida mafkuraviy jarayonlar bilan bir qatorda, kiberxavfsizlik, dezinformatsiya oqimlari, botlar, algoritmik manipulyatsiyalar, raqamli propagandaning yangi shakllari ham jadal rivojlanmoqda. Bu jarayonlarni ilmiy asosda tahlil qilish uchun S. Zuboffning “nazorat kapitalizmi” nazariyasi o‘rganildi [5].

Zuboffning nazariyasi shuni anglatadiki, raqamli platformalar foydalanuvchilarning xulqini algoritmik boshqarish orqali mafkuraviy yo‘nalishlarni ham shakllantirishi mumkin. Bu esa mafkuraviy diversifikatsiya jarayonlarining murakkablashuvi va chuqurroq tahlil qilinishi zarurligini ko‘rsatadi.

Yakun qilib aytganda, ushbu tadqiqotning metodologiyasi bir nechta ilmiy yondashuvlarning uyg‘unlashuvidan iborat bo‘lib, raqamli globalizatsiya va mafkuraviy diversifikatsiya jarayonlarini chuqur, kompleks, tizimli va global miqyosda o‘rganishga imkon beradi. Qiyosiy tahlil, diskursiv tahlil, kontent-tahlil, sotsiologik kuzatuv, konstruktivistik metod, kommunikatsion nazariyalar va axborot xavfsizligi konsepsiyalariga tayangan holda tadqiqotning ilmiy asoslari mustahkamlandi. Bu metodlar keyingi bo‘limlarda keltiriladigan tahlil va natijalar uchun asosiy ilmiy platforma vazifasini bajaradi.

**Natijalar (Results).** Tadqiqot davomida raqamli globalizatsiya sharoitida mafkuraviy diversifikatsiya jarayonlarining asosiy omillari, dinamikasi va yoshlar ongiga ta’sir ko‘lami chuqur o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, raqamli axborot makonining kengayishi global mafkuraviy oqimlarning o‘zaro raqobat shakllarini kuchaytirmoqda. Bu jarayon nafaqat kontentning ko‘payishi yoki tez tarqalishi bilan, balki uning semantik mazmunining murakkablashuvi, algoritmik boshqaruvning ta’siri, vizual kommunikatsiya kuchayishi va transmilliy platformalarning global mafkuraviy jarayonlarda dominant o‘ringa chiqishi bilan ham bog‘liqdir.

Natijalarning birinchi muhim xulosasi shundan iboratki, raqamli globalizatsiya mafkuraviy maydonni ko‘p markazli (polisentrlik) shaklga keltirmoqda. Avvallari mafkuraviy markazlar davlatlar, siyosiy institutlar yoki madaniy markazlar bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, global media-korporatsiyalar va blogerlar asosiy g‘oyaviy oqimlarning muhim generatoriga aylangan. Jumladan, YouTube, TikTok, Instagram, X (Twitter) kabi platformalardagi ommabop kontentlar yoshlar dunyoqarashi va qadriyatlariga bevosita ta’sir o‘tkazmoqda. Bu jarayonni global media tizimi haqida J. Thompson ilgari surgan “simvolik almashinuv kuchayishi” nazariyasi ham tasdiqlaydi [6].

Thompsonning konsepsiyasi raqamli makonda mafkuraviy tasvirlar tezroq, kengroq va kuchli ta’sir bilan tarqalishini tushuntiradi. Tadqiqot natijalari bu nazariyani tasdiqlab, zamonaviy media vositalari yoshlarning ongida g‘oyaviy tasavvurlarni avvalgidan ancha tez shakllantirishini ko‘rsatdi.

Ikkinchi muhim natija - mafkuraviy diversifikatsiya jarayonlari yoshlar ongida g‘oyaviy fragmentatsiyani kuchaytirmoqda. Tadqiqotda 18-30 yosh oralig‘idagi guruhlarning axborot iste’moli, internetdagi faolligi va mafkuraviy qarashlaridagi farqlar tahlil qilindi. Ma’lum bo‘ldiki, raqamli axborot oqimlari yoshlarni bir xil emas, aksincha, bo‘laklarga bo‘lib tarbiyalamoqda: kimdir global liberal qadriyatlarga moyil bo‘lsa, boshqalari diniy, milliy yoki submadaniy tasavvurlarni teran o‘zlashtirmoqda. Bu borada M. Castellsning “shaxsiylashtirilgan identitetlar davri” haqidagi nazariy qarashi tasdiqlandi [7].

Castells ta’kidlaganidek, raqamli tarmoqlar foydalanuvchiga o‘ziga mos kontentni tanlash imkonini beradi, bu esa identitetlarning ko‘pligi va mafkuraviy maydonning bo‘linishiga olib keladi. Tadqiqot natijalari ham yoshlar orasida mafkuraviy segmentatsiya kuchayganini ko‘rsatdi.

Uchinchi natija shundan iboratki, algoritmik boshqaruv mafkuraviy diversifikatsiya jarayonlarining asosiy tezlashtiruvchi omiliga aylandi. Global platformalarning algoritmlari foydalanuvchining qiziqishlariga mos kontentni taklif qiladi, shu orqali uning axborot maydonini toraytiradi va “ideologik echo-chamber” (fikrlar aks-sadosi) hodisasini kuchaytiradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, aynan algoritmik tarqatish mexanizmi ko‘plab g‘oyaviy oqimlarning qisqa vaqt ichida millionlab auditoriyaga tarqalishiga sabab bo‘lmoqda. Bu holatni E. Pariser o‘z asarida “filter pufagi” (filter bubble) deb atagan [8].

Pariser nazariyasidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, algoritmlarning ushbu xususiyati mafkuraviy diversifikatsiyani faqat ko‘paytiribgina qolmay, balki uni keskinlashishi va radikallashishiga ham zamin yaratadi. Tadqiqot natijalari aynan shu tendensiyani tasdiqladi.

Tadqiqotning yana bir muhim natijasi - raqamli makonda vizual axborotning mafkuraviy ta’siri so‘zli axborotdan ko‘ra kuchliroq bo‘lib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi videolar, infografikalar, qisqa roliklar, memlar va vizual narrativlar g‘oyaning mazmunini tezda yetkazish bilan birga, auditoriyaning emotsional reaksiyasini ham kuchaytiradi. Aynan emotsional ta’sir natijasida mafkuraviy kontent yanada samarali tarqalmoqda. Bu jarayon yoshlar ongining sezilarli darajada vizual tenglama asosida shakllanayotganini ko‘rsatdi.

Shuningdek, natijalarga ko‘ra, mahalliy mafkuraviy institutlar global raqamli maydon bilan raqobat qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Chunki global platformalar algoritmlari mahalliy kontentdan ko‘ra xalqaro mashhurlikka ega bo‘lgan kontentni ko‘proq targ‘ib qiladi. Bu esa milliy qadriyatlarning tarqalishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Tadqiqot davomida olingan faktlar shuni ko‘rsatadiki, global tarmoqdagi mafkuraviy oqimlar ko‘pchilik hollarda mahalliy g‘oyaviy kampaniyalar fonida ustunlikka ega bo‘lib qolmoqda.

Natijalarning yana bir qismi - dezinformatsiya oqimlari raqamli globalizatsiyaning eng xavfli mahsulotiga aylangani. Turli botlar, sun’iy intellekt yordamida yaratilgan yolg‘on axborotlar va manipulyativ narrativlar yoshlar ongida g‘oyaviy beqarorlik va ishonchsizlikni kuchaytirmoqda. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, yolg‘on ma’lumotlar haqiqatdan tez tarqaladi va ularning auditoriyaga ta’siri kuchliroq bo‘ladi. Bu esa mafkuraviy barqarorlik uchun real xavf tug‘diradi.

Yana bir natija shundan iboratki, yoshlar global axborot makonida nafaqat iste’molchi, balki kontent yaratuvchi sifatida ham faol ishtirok etmoqda. Bu holat ularni g‘oyaviy jarayonlarning faol sub’yektiga aylantiradi. Ular o‘z sahifalarida milliy qadriyatlarni targ‘ib qilishi ham, global g‘oyalarning tashuvchisiga aylanishi ham mumkin. Shuning uchun yoshlar raqamli makondagi eng faol mafkuraviy agent hisoblanadi.

**Muhokama (Discussion).** Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli globalizatsiya sharoitida mafkuraviy diversifikatsiya jarayonlari nafaqat axborot almashinuvi tezligining ortishi bilan, balki g‘oyaviy maydonning ichki murakkabligi, tasavvurlar pluralizmi va identitetlar ko‘payishi bilan ham izohlanadi. Shu bois, ushbu bo‘limda olingan natijalar mavjud ilmiy yondashuvlar bilan solishtiriladi, tahlil qilinadi va ularning ijtimoiy-mafkuraviy jarayonlarga ta’siri chuqur muhokama etiladi.

Birinchidan, tadqiqotda aniqlanishicha, raqamli globalizatsiya mafkuraviy jarayonlarni an’anaviy institutlar doirasidan chiqarib, ularni internet platformalariga ko‘chirib qo‘ymoqda. Bu esa davlatlar uchun yangi vazifa - raqamli mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash masalasini dolzarb qiladi. Z. Bauman “suyuq modernlik” konsepsiyasida aynan shunday shiddat bilan o‘zgarib borayotgan raqamli makonning ijtimoiy barqarorlikka ta’sirini ta’kidlaydi [9].

Ushbu fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, raqamli maydonning “suyuq” xususiyati har qanday ideani tez tarqatishi va shunchalik tez yo‘qotishi mumkin. Bu esa mafkuraviy uzviylikni murakkablashtiradi va yoshlar ongida qisqa muddatli tasavvurlar hukmron bo‘lishiga olib keladi. Natijada, davlat va jamiyat institutlari doimiy va tizimli ravishda raqamli g‘oyaviy oqimlarni monitoring qilib borishga majbur bo‘ladi.

Ikkinchidan, tadqiqot ko‘rsatadiki, raqamli platformalarda mafkuraviy diversifikatsiya jarayonlari ijobiy imkoniyatlar ham yaratadi. Chunki alternativ fikrlarning mavjudligi yoshlarning tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi,

ijtimoiy fikrning yangilanishiga xizmat qiladi. M. Lister va uning hamkasblari raqamli media makonini demokratik muhit sifatida baholaydi va u orqali individuallar o‘z fikrini erkin ifoda etish imkoniga ega bo‘lishini qayd etadi [10].

Bu nuqtai nazardan kelib chiqib, raqamli globalizatsiya mafkuraviy jarayonlarga faqat xavf emas, balki yangi imkoniyatlar ham keltiradi. Ammo bu imkoniyatlar to‘g‘ri boshqarilmasa, jamiyatda ideologik fragmentatsiya, ijtimoiy qutblashuv va ma’naviy nomuvofiqlik kuchayishi ehtimoli yuqori. Shuning uchun diversifikatsiya jarayonlarini boshqarish uchun mediama’rifat va axborot savodxonligi muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, tadqiqotda olingan ma’lumotlar global va lokal (mahalliy) mafkuraviy oqimlar o‘rtasida raqobat kuchayganini ko‘rsatdi. Global madaniy kontentning jadal kirib kelishi mahalliy identitetlar va qadriyatlar tizimiga ta’sir qilmoqda. T. Friedman ta’kidlaganidek, globallashuv “dunyoning yassi bo‘lishi”ga olib keladi va madaniy-manfaatlar chog‘ishtiriladigan raqobat maydonida milliy ongning mustahkamligi sinovga olinadi [11].

Globallashuvning “yassilanishi” shuni anglatadiki, kontentlar chegaradan o‘tmasdan tarqaladi, g‘oyalar esa milliy chegaralarni tan olmaydi. Bu jarayon milliy mafkuraning adaptiv bo‘lishini, ya’ni raqamli makonning talablari va yoshlar mentalitetini hisobga olgan holda yangilanib borishini taqozo etadi. Agar milliy mafkura zamonaviy kommunikatsion uslublar va raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashmasa, yoshlar ongida global g‘oyalar ustuvorlik qilib qolishi ehtimoli oshadi.

Tadqiqot natijalari yana bir bor shuni ko‘rsatdiki, raqamli globalizatsiya mafkuraviy diversifikatsiyani tabiiy jarayon sifatida shakllantiradi, ammo diversifikatsiyaning boshqarilmasligi ijtimoiy barqarorlikka xavf tug‘dirishi mumkin. Shu sababli bir qator strategik yondashuvlar muhim: (1) axborot savodxonligini oshirish, (2) yoshlar uchun raqamli mafkuraviy platformalar yaratish, (3) global kontentga milliy qadriyatlar asosidagi alternativ kontent bilan javob berish, (4) raqamli monitoring tizimlarini kuchaytirish.

Yakunda aytish mumkinki, global raqamli jarayonlar doimiy ravishda yangilanib boradi va ularning mafkuraviy oqibatlari ham vaqt o‘tishi bilan murakkablashadi. Tahlil natijalaridan kelib chiqib, diversifikatsiya jarayonlari jamiyatning intellektual salohiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, biroq buni boshqarishning institutsional mexanizmlari mavjud bo‘lgandagina. Shunday ekan, raqamli globalizatsiya va mafkuraviy diversifikatsiya o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni chuqur ilmiy o‘rganish keyingi tadqiqotlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa (Conclusion).** Raqamli globalizatsiya sharoitida mafkuraviy diversifikatsiya jarayonlarining kuchayishi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ajralmas xususiyatiga aylandi. Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar, internet platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va global axborot almashinuvi tizimlari mafkuraviy muhitga qay darajada chuqur ta’sir ko‘rsatayotgani aniqlandi. Eng avvalo, raqamli globalizatsiya g‘oyalar, qadriyatlar va qarashlarning tarqalish tezligini keskin oshirib, mafkuraning shakllanish jarayonlarini an’anaviy institutlar doirasidan chiqarib yubordi. Bu esa mafkuraviy maydonni yanada murakkab, rang-barang va ko‘p qirrali holatga keltirdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mafkuraviy diversifikatsiya ikki tomonlama jarayon bo‘lib, bir tomondan ijtimoiy fikrning yangilanishi, tanqidiy tafakkurning rivojlanishi va ochiq axborot muhitining shakllanishiga xizmat qilsa, boshqa tomondan ijtimoiy barqarorlikka xavf tug‘diruvchi g‘oyaviy chalg‘itishlar, maqsadli manipulyativ axborot oqimlari, radikal qarashlarning tarqalishi kabi salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltiradi. Xususan, yoshlar ongida global va mahalliy identitetlar o‘rtasida muayyan to‘qnashuvlar paydo bo‘lishi, g‘oyaviy parokandalikning kuchayishi ehtimoldan xoli emas.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, raqamli globalizatsiya davrida mafkuraviy barqarorlikni ta’minlashning eng muhim yo‘llaridan biri - axborot savodxonligi va mediama’rifatni kuchaytirishdir. Yoshlar axborotni tanqidiy tahlil qilish, manbalarni solishtirish, yolg‘on kontentni aniqlash va manipulyatsiya mexanizmlarini tushunishga o‘rgatilishi zarur. Shuningdek, milliy mafkurani raqamli platformalarda jozibador, zamonaviy va yoshlar dunyoqarashiga mos shaklda targ‘ib qilish ham dolzarb vazifadir.

Tadqiqotdan olingan umumiy xulosa shundan iboratki, raqamli globalizatsiya jarayonlarini to‘xtatib bo‘lmaydi, ammo ular bilan uyg‘un rivojlanadigan, zamonaviy kommunikatsiya talablariga mos, ochiq va moslashuvchan mafkuraviy siyosatni shakllantirish mumkin. Mafkuraviy diversifikatsiya - bu tahdid emas, balki to‘g‘ri boshqarilgan taqdirda jamiyatning ma’naviy va intellektual salohiyatini oshiruvchi kuchga aylanishi mumkin bo‘lgan jarayondir. Shu bois, raqamli davr mafkuraviy siyosati strategik yondashuv, ilmiy asoslangan qarorlar va yoshlar ongiga ta’sir etuvchi raqamli mexanizmlarni chuqur anglashni talab etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Castells M. The Rise of the Network Society. - Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. - B. 42.

2. Appadurai A. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. - University of Minnesota Press, 1996. - B. 31.

3. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. - New York: Crown Publishing, 2016. - B. 77.

4. McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. - MIT Press, 1994. - B. 53.

5. Zuboff S. The Age of Surveillance Capitalism. - New York: PublicAffairs, 2019. - B. 114.
6. Thompson J. Media and Modernity: A Social Theory of the Media. - Polity Press, 1995. - B. 66.
7. Castells M. Communications Power. - Oxford University Press, 2009. - B. 119.
8. Pariser E. The Filter Bubble. - Penguin Books, 2011. - B. 41.
9. Bauman Z. Liquid Modernity. - Cambridge: Polity Press, 2000. - B. 56.
10. Lister M. et al. New Media: A Critical Introduction. - London: Routledge, 2009. - B. 91.
11. Friedman T. The World is Flat. - New York: Farrar, Straus and Giroux, 2005. - B. 27.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Rasulov Jamshidbek Maxammadimin o'g'li**
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

## IJTIMOIY DETERMINANT TUSHUNCHASI VA UNING FALSAFIY TAHLILI

***Annotatsiya****: Mazkur maqolada falsafiy va ijtimoiy fanlar kontekstida "determinatsiya" hamda "determinizm" tushunchalarining nazariy-metodologik mazmuni tahlil qilinadi. Maqolada determinatsiya atamasining lug'aviy va falsafiy talqinlari, uning sabab, omil, shartlanganlik kabi tushunchalar bilan o'zaro aloqasi ochib beriladi. Determinizmning klassik, statistik (ehtimollik), nolinyali va tizimli yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning ijtimoiy jarayonlarni tushuntirishdagi imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, ijtimoiy determinizm paradigmasi doirasida jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorlik, sog'liq, ijtimoiy tengsizlik va stratifikatsiya masalalariga ta'sir etuvchi determinantlar falsafiy-ontologik va epistemologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:*** *determinatsiya, determinizm, ijtimoiy determinizm, sababiyat, ehtimollik, nolinyali deterministik model, ijtimoiy determinantlar, tizimlilik, falsafiy metodologiya.*

**Rasulov Jamshidbek Mahammadimin ogli**
Independent Researcher, Andijan State Pedagogical Institute

## THE CONCEPT OF SOCIAL DETERMINANT AND ITS PHILOSOPHICAL ANALYSIS.

***Annotation:*** *This article analyzes the theoretical and methodological content of the concepts of "determination" and "determinism" in the context of philosophical and social sciences. The article reveals the lexical and philosophical interpretations of the term determination, its relationship with such concepts as cause, factor, and conditionality. The classical, statistical (probability), nonlinear, and systematic approaches to determinism are comparatively analyzed, and their potential for explaining social processes is highlighted. Also, within the framework of the paradigm of social determinism, determinants affecting the issues of social development, social stability, health, social inequality, and stratification are analyzed from a philosophical-ontological and epistemological point of view.*

***Keywords****: determination, determinism, social determinism, causality, probability, nonlinear deterministic model, social determinants, systematicity, philosophical methodology.*

**Расулов Джамшидбек Махаммадимин оглу**
Независимый исследователь Андижанского государственного педагогического института

## КОНЦЕПЦИЯ СОЦИАЛЬНОГО ДЕТЕРМИНАНТА И ЕГО ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется теоретическое и методологическое содержание понятий «детерминация» и «детерминизм» в контексте философских и социальных наук. В статье раскрываются лексические и философские интерпретации термина «детерминация», его связь с такими понятиями, как причина, фактор и обусловленность. Проводится сравнительный анализ классического, статистического (вероятностного), нелинейного и систематического подходов к детерминизму, а также подчеркивается их потенциал для объяснения социальных процессов. Кроме того, в рамках парадигмы социального детерминизма с философско-онтологической и эпистемологической точек зрения анализируются детерминанты, влияющие на вопросы социального развития, социальной стабильности, здоровья, социального неравенства и стратификации.*

***Ключевые слова:*** *детерминация, детерминизм, социальный детерминизм, причинность, вероятность, нелинейная детерминистическая модель, социальные детерминанты, систематичность, философская методология.*

So'nggi yillarda ilmiy-falsafiy adabiyotlarda "determinatsiya" atamasi keng ma'noda qo'llanilmoqda. Lekin, bu tushuncha bugungi kunda ham aniq va umumma'no ta'rifga ega emas. Qolaversa, falsafiy tadqiqotlar va ilmiy nashrlarda bu termini kam uchratamiz. Natijada esa uning falsafiy mohiyatini anglashda muayyan noaniqlik kuzatilmoqda. Falsafiy izlanishlarda "determinatsiya" turli kontekstlarda, ya'ni "ehtimollik", "kawsal", "akausal",

“sotsiomadaniy”, “ijtimoiy-material” va “ideal” kabi iboralar bilan qo‘llaniladi. [13] Bizningcha, mazkur termin ilmiy doiralarda kam qo‘llanilishining asosiy sabablaridan biri, uning mukammal ta’rifi yo‘qligi hamdako‘p hollarda “sabab” va “omil” tushunchalari bilan uyg‘unlashtirilishidir. Har qanday holatda ham “determinatsiya” tushunchasi “determinism” bilan uzviy aloqada talqin qilinadi.

Dastlab, “determinatsiya”ning lug‘aviy ma’nosi antropomorfik xususiyat kasb etadi. Bu temin lotinchadan kirib kelgan bo‘lib “determinare” ya’ni “aniqlik”, “ajratib berish”, “chegara belgisi” degan ma’nolarini anglatadi. Shu o‘rinda, ““determinatsiya” biror bir predmetni xususiyatini boshqa predmetlardan farqini isbotlovchi va tasdiqlovchi jarayon sifatida ifodalaydi”. [14]

““Determinatsiya” tushunchasida “shartlanganlik” tushunchasi ham ifodalanadi”. “Bu – biror faoliyat oqibatida kelib chiqqan omil” hamda “faoliyatning dinamik va ta’sir qiluvchi aspektlarini ifodalaydi”. Ko‘plab tadqiqotchilar “determinatsiya”ni ijtimoiy determinizm xususiysatini aniq ifodalashda qo‘llaydi va uni “determinatsiyalanganlik” termini bilan sinonim tarzda shlatadilar. [23., 24., 25] Bizning fikrimizcha, “determinatsiya” umumiylikda hodisalarni boshqa jarayonlardan xususiyatini farqlash, shartlashva aniqlanash usullarini ifodalaydi. Bu jarayonlarning eng asosiy shakllari falsafada determinizm prinsipi doirasida o‘rganilib borilmoqda.

Jamiyatni rivojlanib borishi va ijtimoiy munosabatlar barqarorligini ta’minlashda ijtimoiy determinantlarning o‘rni juda muhim faktor hisoblanadi. Ijtimoiy determinizm inson hayoti vauni taraqqiy harakatga keltiruvchi asosiy omillarni aniqlashda va tahlil etishda fundamental metodologik asosdir. Bu tendensiya ijtimoiy strukturalarning individual vajamoaviy dunyoqarashga ta’sirini tushuntirishda, shuningdek, ijtimoiy rivojlanishdagi barcha institutlarning sababiy bog‘liqliklarini tushuntirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy determinantlarning epistemologik va falsafiy-ontologik mazmun-mohiyatini tadqiq qilishda zamonaviy ijtimoiy fanlar doirasidagi tadqiqotlarga murojat qilish muhimdir. Ayniqsa, R.Wilkinson va K.Pickettlarning “iqtisodiy tengsizlik va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik” haqidagi tadqiqotlari muayyan xususiyat kasb etadi. Unga ko‘ra iqtisodiy tafovutlar jamiyatning umumiy ruhiyati va salomatlik hayot sifatiga ta’sir ko‘rsatishini isbotlab beradilar. Mazkur mualliflarning “Ruhiy muvozanat” asari ijtimoiy determinizm asosida ijtimoiy-iqtisodiy omillarning jamoa farovonligini shakllantirishdagi o‘rnini ko‘rsatib beradi. Shuningdek, asar ijtimoiy stratifikatsiya tushunchasini yanada batafsil kontekstda aniqlash imkonini taqdim qiladi.

Bundan tashqari, tadqiqotchi M.Marmot o‘zining “Mavqe’ sindiromi” nomli tadqiqotida “insonlarning ijtimoiy mavqei bilan u yashab kelayotgan muhitdagi hayot davomiyligi va sog‘liqbilan bog‘liqlik jihatlarini” o‘rganadi. Uning tadqiqotlari natijasi esa, yuqori ijtimoiy mavqedagi insonlar pastroq mansabdagilarga qaraganda umr davomiyligi uzoq bo‘lishini aniqlagan. Bu esa ijtimoiy determinizm doirasida inson sog‘ligi tashqi ijtimoiy muhitga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatib beruvchi dalildir.

Ijtimoiy determinatlar individual darajadagi omillar bilan chegaralanib qolmaydi, u jamiyatning umumiyligiga ham bog‘liqdir.Ingliz tadqiqotchisi D.Black tomonidan olib borilgan “Tengsizliklar hisoboti” nomli ilmiy izlanishlarida “Buyuk Britaniya aholisining sog‘liqni saqlash borasidagi ijtimoiy tengsizliklarni ochib beradi”. Mazkur tadqiqotning ahamiyati shundaki, u sog‘liq bilan bog‘liq ijtimoiy determinantlar faqat iqtisodiy muvozanat bilan chegaralanib qolamy natijada ta’lim, turmush tarzi va ijtimoiy adolat bilan ham bog‘liq ekanligini ko‘rsatib beradi. Natijada, davlatning ijtimoiy-siyosiy islohotlarining deterministik xususiyati jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi muhimligi ekanligini ko‘rsatib beradi.

Ijtimoiy determinizm paradigmasi N.Kriegerning epidemiologik ilmiy nazariyalarida ham keltirib o‘tilgan. Uning “Epidemioligiya va xalq salomatligi” asari “sog‘liq bilan bog‘liq determinantlarning serqirra tabiati va ularning ijtimoiy tuzilmalar bilan aloqasini” yoritib beradi. Olim ijtimoiy determinizmni sog‘liqni saqlash sohasi bilan bog‘liqligini tadqiq etib, biologik determinatsi va ijtimoiy tuzilmalar orasidagi dialektik bog‘lanishlarni ochib beradi.

XVIII asrda fransuz mutafakkirlari A.Tyurgo va Sh.Monteske “geografik determinizm”, “ijtimoiy determinizm” va “geosiyosat” konsepsiyalarini qamrab olgan geografik maktab asoschilari hisoblanadi. Lekin, geografik makonva tabiiy sharoitlar jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etishi kabita’limotlar antik davrda shakkalnib ulgurgan. Gippokrat, Gerodot, Polibiy, Strabon kabi mutafakkirlarning ta’limotlarida turli mintaqalar iqlimi va sharoitlariga urg‘u berib, inson va tabiat o‘rtasidagi aloqalarning ilmiy asosini aniqlash bilan birga, Yunoniston va O‘rta yer dengizi hududlarini hayotiy faoliyat uchun qulay joy sifatida talqin etganlar.

O‘rta asrlarda esa shunga o‘xshash g‘oyalar rivojlanishi Ibn Xaldun nomi bilan aloqador hisoblanadi. Ammo, jamiyat strukturasi va tarixiy qonuniyatlarini tabiiy tushuntiruvchi geografik determinizm g‘oyalari, ungacha hukm surgan ijtimoiy hayotning ilohiy xususiyati kabi diniy g‘oyalar va tushunchalarni qisib chiqara boshlagan ma’rifatparvarlik davrida vujudga keldi. Bu qarashlar o‘sha davr yangi kapitalistik munosabatlarga monand kelgan, shu uchunular Fransiya, Angliya va Germaniyada ommalashgan.

O‘zbek faylasuf olimalaridan N.Shermuhamedova “Ijtimoiy determinizm - ijtimoiy rivojlanish darajasi va yo‘nalishi birinchi navbatda moddiy ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi bilan belgilanishidir”, [30.189] deb

ta’riflaydi. Shu sababli tabiat odamzotning tarixiga aralashishi tabiiy, chunki hayot davomida va ishlab chiqarish strukturalarida inson faqatgina o‘zini takomillashtirmay, balki tabiatni ham o‘zgartitadi yoki aksincha. Natijada inson omilini tashkil etuvchi ijtimoiy mohiyatlar majmui o‘zgaradi. Bunda insonlarda ayrim fazilatlarning shakllanishi bilan birga jamiyat rivojiham avvalo, geografik muhit ta’siriga emas, moddiy ishlab chiqarish jarayoniga bog‘liq bo‘ladi. Insoniyat ishlab chiqarish faoliyatini tarixan o‘zgaruvchi xususiyatni tahlil qilishda muayyan tabiiylik biror ijtimoiy oqimlarga qanchalik ta’sir ko‘rsatishi tog‘risida gapirish mumkin degan xulosaga keladi.

Bizningcha, ijtimoiy determinizm faqatgina ijtimoiy fanlar emas, balki falsafiy, iqtisodiy tahlillar doirasida ham muayyan ahamiyatga ega. Mazkur tendensiya “inson hayoti va jamiyat strukturasi” o‘zgarishlarining sababiyatini anglashda asosiy kontseptsiyaga aylanadi. Ijtimoiy determinantlarning nazariy va metodologik negizlarini tadqiq etish esa, ijtimoiy-falsafiy bilimlarning ob’ektiv mezonlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Falsafiy qarashlarda “determinizm” tushunchasi muayyan mukammallik kasb etib, uni izohlashda bir necha variantlar mavjud. Bizningcha, falsafiy adabiyotlarda uchraydigan talqinlarni inobatga olib, determinizmni aniqlashda uchta asosiy yondashuvlarni keltirish mumkin.

Determinizmga birinchi ta’rif aniq tarzda “Materialistik dialektika – umumiy rivojlanish nazariyasi” nomli tadqiqotda keltirilgan. Ushbu manbada “determinizm – bu narsalar, hodisalar, jarayonlar va holatlarning mavjudligi hamda rivojlanishi ularni belgilovchi omillarga bog‘liqligi haqidagi falsafiy ta’limotdir”, deb ta’kidlanadi. Bu ta’rifda determinizmni umumiy qonuniyat bilan sabab-oqibat dialektikasidan kelib chiqib tushuntirilgan. Bizningcha, mazkur qarashlarda determinizm asosan “shartlanganlik” tushunchasiga ko‘proq e’tibor beradi. Bunday qarashlarda biror predmetning atrof-muhitga va undagi hodisalarga munosabati tushuniladiyoki ushbu hodisalarning mavjud bo‘lmasligi predmetning yo‘qligini hamda rivojlanmasligini anglatadi. Bu yondashuv determinizmda sabab va oqibat bog‘liqligini izohlab, har qanday voqelik biror ichki va tashqi omillar ta’sirida belgilanishini keltirib o‘tadilar.

Shui ta’kidlash kerakki, shartlanish jarayonlarida barcha sharoitlar bir xil ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Chunki, ularning ayrimlari o‘zidan yangi haqiqatlarni tug‘dira olmaydi yoki uni bevosita yarata olmaydi, balki haqiqatning yuzaga kelishi uchun sharoit yaratishi mumkin holos. Shu sababli, shartlanish jarayonlarini aniq tushunish uchun uning turli shakllarini sifat jihatidan farqlanishini inobatga olish zarur. Chunki, shakllarning xilma-xilligi obyektning rivojlanishiga turlicha ta’sir ko‘rsatishi tabiiy. Shulardan kelib chiqib, “determinism” berilgan ta’riflarda muayyan noaniqligi borligini ko‘rishimiz mumkin. Shunday bo‘lsada, determinizm prinsipining asosiy xususiyatlaridan biri – “belgilanish” ekanligi hamta’kidlangan. Bu “determinatsiya”ning asl ma’nosi – “aniqlash” tushunchasi bilan ham ohangligiga olib keladi.

Berilgan ikkinchi ta’rifda determinism “dunyoning barcha narsalari va hodisalarining umumiy qonuniyatli aloqasi” deb tushuntiriladi. [29.15] Bu yondashuvda asosiy nuqta sifatida deterministik prinsip belgilanib, tabiat va jamiyat aloqadorligida taraqqiyot jarayonlari aniqlovchi hamda boshqaruvchi mavjud obyektiv qonuniyatlarga asoslanadi. Biroq, sovet davrida determinizm prinsipining talqinlarida uning asosiy xususiyatlari sifatida “qonuniyat va aniq belgilanganlik”ni mutlaqlashtirish kuzatiladi. Bu esa deterministik yondashuvlarning chegaralanishini, murakkab dinamikasini yoki aks ettirish imkoniyat doiralarini cheklagan deyish mumkin.

Bizningcha, bu qarashlar voqelikni to‘liq aks ettira olmaydi. Chunki, bunday mutlaq aniqlik ideal tushunchalar doirasida ham, material dunyoda ham juda kam kuzatiladi. Asl mohiyatida deterministik yondashuvni qat’iy belgilanganlik deb talqin qilish ehtimollik (statistik) determinism tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq. Falsafiy tadqiqotchilar tasodifiy hodisalar majmuida qat’iy qonuniyatlar mavjudligini ilmiy asoslashga harakat qiladilar. Yu.V.Sachkov ushbu tendensiya mohiyatini “Har bir predmet tasodifiy harakat qiladi, lekin umumiylikda ular zaruratni hosil qiladi”, degan qarashlari bilan izohlaydi. [27.255] Bu mulohaza tasodif bilan zaruratning bir-biriga bog‘liqligini namoyon qiladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni hisobga olib M.V.Dyomin tomonidan “determinism” tushunchasiga berilgan ta’rifiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Unga ko‘ra: “determinizm – dunyo hodisalarining umumiy va universal aloqasi haqidagi ta’limotni qamrab oladi. Bu aloqalar esa hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikda, ularning o‘zaro belgilanishida namoyon bo‘ladi”. [18.45] Bu yondashuv “determinizm nazariyasini turli xildagi aloqalarni– sabab va oqibat, zarurat va tasodif, o‘zaro ta’sir, moddiy va ma’naviy munosabatlar kabi hodisalar tizimini qamrab oluvchi holatda tushuntiradi”. [19.216-218] Bu xususiyatlar birgalikda umumiy olam aloqasini shakllanishiga turki beradi. Bizningcha, mazkur ta’rif determinizmning mohiyatini mukammalroq aks ettiradi. Chunki, bunda aloqalarning asl tabiati saqlangan holda, hodisalar va voqealarning qat’iyligi yumshatib berilgan. Bu yondashuvlar ruhiy vamaterial dunyo hodisalarini inklyuzivlikda tushuntirish imkonini yaratadi.

Determinizm prinsipi falsafadagi tadrijiy shakllangan kategoriya tizimini mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur kategoriyalar orasida sabab va oqibat, shart va zarurat, tasodif va imkoniyat, haqiqat va qonuniyat kabi tushunchalar alohida o‘rinni egallaydi. Bular tizimlarning rivojlanish qonuniyatlari bilan ham bog‘liq, qarama-qarshilik tushunchasi muayyan nuqtalardagina kesishadi. Bizningcha, qarama-qarshilikni ham aslida rivojlanishni harakatga

keltirvchi kuch sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Shuningdek, determinizm prinsipi tizimlilik nazariyasi bilan ham chambarchas bog‘liqlikda bo‘lib, yaxlitlik kabi tushunchalarni ham qamrab oladi.

Tadqiqotlarimizga asoslanib yuqorida keltirilgan mulohazalar muayyan determinatsiya usullarini ifodalab beradi. Ular quyidagicha ta’riflanadi:

Birinchidan, sababiy determinatsiyada – konkret sabab va oqibatning bog‘liqligiga asoslanib hodisalarning rivojlanib borishi;

Ikkinchidan, tasodifiy determinatsiya – bu tasodif va zaruratning o‘zaro ta’siri xosilasida xodisalarning shakllanishi;

Uchinchidan, qonuniy determinatsiya – tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning ma’lum bir qonuniyatlarga asoslanishi va bo‘ysunishi;

To‘rtinchidan, funksional determinatsiya – bu tizim predmetlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va ularning ta’siri orqali vujudga keluvchi determinatsiya;

Beshichidan, tizimli determinatsiya – muayyan tizim va strukturalar ichidagi qonuniyatlardan yuzaga keluvchi xususiyatdir.

Birinchi usul sabab va oqibat aloqasiga asoslanib, an’anaviy determinizmning asosiy prinsiplaridan birini tashkil qiladi. Sababiyat prinsipi o‘z mohiyatiga ko‘ra hodisalar va omillarni qamrab olishga asoslanadi. Bu hodisa va omillar tadqiq qilinayotgan mavzuning genetikasi va rivojlanishini asoslab, uning boshqa xususiyatlari va munosabatlariga ta’sir qiladi. Sababiyat prinsipi hodisalarning real bog‘liqligini ko‘rsatadi, ular yaxlitlikdagi tizimning tarkibiy qismlari sifatida o‘zaro ta’sir etadi. Butizim doirasida ayrim hodisalar muayyan sharoitlarda boshqa voqealar yoki jarayonlaroqibatlarning zaruriy vujudga kelishiga sabab bo‘ladi, ya’ni sababiyat o‘zaro genetik bog‘liqlikni namoyon qiladi. “Metodologik nuqtayi nazardan sababiyat prinsipi bilim olish subyektini sabab-oqibat zanjirlarini o‘rganishga yo‘naltiradi. Bu esa mazkur zanjirlarning o‘zaro kesishuvlari va o‘zaro ta’sirini tahlil qilish imkoniyatini ta’minlaydi”.

Ikkinchi determinatsiya bir-biriga bog‘liq hodisalarni va munosabatlarni o‘z ichiga oladi, biroq ular sababiy xarakterga ega bo‘lmaydi. Shu kabi munosabatlar hodisalar ta’sirini ifoda etsa-da, ular o‘rtasidagi sabab va oqibat bog‘liqligi ko‘rinmaydi. Masalan, muayyan tizimli aloqalar va bog‘lanishlar – hodisalar muayyan vaqtda birgalikda namoyon bo‘lsa ham, biri ikkinchisini bevosita yuzaga keltirmaydi. Shu bilan birga, ehtimollik munosabatlari aniq hisobotga tayangan qonunlar ko‘rinishida vujudga kelib, bu alohida hodisalarni emas, balki ularning bir necha takrorlanishlari oqibatida yuzaga keladigan prinsiplarni ifoda etadi. Shuningdek, “simmetriya, struktura, tizim, fazoviy va vaqtinchalik korrelyatsiyalar hamdeterminatsiya usullaridan biri sifatida qaraladi”. Ular hodisalarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatib bersa-da, bu bog‘lanishlarda sababiylik tamoyiliga mavjud bo‘lmaydi, bunda asosan tizimning ichki munosabatlari, tartiblar va qonuniyatlarni ifodalaydi.

“Bilim olish tarixi shuni ko‘rsatadiki, determinizmni, ya’ni determinatsiya haqidagi ta’limotni uning faqat bitta shakli yoki turi bilan cheklash mumkin emas”. “O‘zaro bog‘liqlikning universal xususiyati nafaqat tabiiy jarayonlarda, balki ijtimoiy hayotning turli sohalarida ham namoyon bo‘ladi. Bu xususiyat inson faoliyatida tabiiy va ongli o‘zaro ta’sir shaklida ko‘rinadi” [26.33], “zamonaviy texnogen sivilizatsiyaning rivojlanishida fan va texnikaning o‘zaro aloqasida aks etadi”, [25.9] shuningdek, “jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari doirasida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, determinizmni har tomonlama tushunish va tahlil qilishda uning turli shakllari va usullarini inobatga olish zarur”. [28.67]

Amerikalik sotsiolog O.Tofflerning determinizm nazariyasining so‘nggi yuz yil ichidagi evolyutsiyasi haqidagi qarashlari ham e’tiborga molikdir. Uning keltirishicha, “ilgari tabiatdagi barcha jarayonlarni mutlaq hukmronlik qiluvchi va individual farqlarni inobatga olmagan qat’iy qonunlar orqali tushuntirishga urinishlar ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, hozirga kelibo‘zaro ta’sir qonunlariga asoslangan qarashlar shakllangan”. [24.28]

Bizningcha, determinizm asta-sekin koinotdagi tartibotni nazarda tutuvchi muammoga aylanmoqda. Oldin determinizm aniqlovchi, bartaraf etuvchi yoki umumlashtiruvchi konsepsiya sifatida foydalanilgan bo‘lsa, zamonaviy evolyutsion rivojlanshdagi yondashuvga asosan tafovutlarga urg‘u berilmoqda va determinatsiya tushunchasini murakkab, dinamik tizimlarda qo‘llash nazarda tutilmoqda. Bu esa deterministik prinsiplarni yanada ehtiyotkorlik va moslashuvchanlik talqinida foydalanishni zaruratini ko‘rsatmoqda.

Bu tushunchaning barcha talqinlari obyektiv ilmiy asosga qo‘yilganligi shubhasizdir. Bilimlarni egallash va amaliyotning ma’lum sohalarida determinatsiya tushunchasini faqatgina bir yondashuvga asoslanib qo‘llash mumkin, ammo bunda uni mutlaq haqiqat sifatida asoslashga urinish, qabul qilish yoki yagona deb hisoblash mantiqan to‘g‘ri emas. “Muhimi, determinatsion jarayonlarning yangi o‘lchovlarini ochish zarur, jumladan, ularning dinamikligi, noaniqligi, vositachiligi, geteroxronligi (turli vaqt o‘lchovlarida amalga oshishi) kabi jihatlarini tahlil qilish lozim”. [15.7] Shuningdek, muayyan fenomenni alohida tadqiq etishda hamda uning tizimini ochib berishda determinantlar muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy prognozlash orqali kontseptual modellarni qayta ko‘rib chiqish bilimlarning ijtimoiy determinizmga nisbatan tizimli va izchil munosabatini shakllantiradi. Indeterminizm kontseptsiyasiga tegishli bo‘lganma’lum bir pozitsiyani egallashni talab qiladi. Ayni shu masala ijtimoiy falsafaning kompetensiyasiga taaluqli, chunki u umumiy determinizm va indeterminizm muammolariga nisbatan maqsadli yondashuvni qamrab oladi, ularning bir necha xususiyatli shakllari uchun istiqbollar yaratadi. Agar, “muayyan deterministik kontseptsiya gipotezaga asoslangan model sifatida qabul qilinib, ijtimoiy nazariyaning asosiga aylansa, u holda ushbu nazariya empirik jihatdan tekshirilishi mumkin, bu esa uni ilmiy bilish sohasiga kiritish imkonini beradi”. [11.126-130] Bizningcha, ilm-fan ijtimoiy tendensiyalarning konkret darajada tahmin qilinishiga kafolat bermaydi. Shu sababli, bilimlar tizimida ijtimoiy determinizm kontseptsiyasi ichki ko‘rinishda mavjud bo‘lib, u ijtimoiy jarayonlarda qonuniyatlarni tushuntirib beruvchi va ularni oldindan prognoz qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bunga qarama-qarshilik sifatida “indeterminizm kontseptsiyasi ilmiy dunyoqarashga muqobil pozitsiyada turib, voqelikning tartibsizligi va oldindan belgilangan qonuniyatlarning mavjud emasligi haqidagi g‘oyalarni ilgari suradi”. [3.88-89]

Ilmiy bilishning umumiy metodologik xususiyati shundan iboratki, “u takrorlanadigan va to‘g‘ri obyektlarning mavjudligi hamda rivojlanishiga oid umumiy qonunlar va prinsiplar asosida yo‘naltirilgan”. [1. 265] Shuningdek, “ijtimoiy determinizm nazariy-metodologik prinsip sifatida ijtimoiy haqiqatning ontologik o‘lchami bilan bevosita bog‘liq”. [8] Kengroq aytganda, u ijtimoiy mavjudlikni umumiylikda tavsiflab, zaruriylik va me’yor nazaridan tahlil etadi. Mazkur teorema ijtimoiy ilmiy bilishning aksiomatik asoslaridan biridir, chunki falsafa ijtimoiy jarayonlarni tasodifiy hodisa deb emas, barqarorlikdagi bog‘liqlik sifatida tushuntiradi. Bu ijtimoiy rivojlanish determinantlarini ainq belgilash va tasodifga eng minimal darajada yo‘naltirilgan tamoyillarni nazarda tutadi. Shu sababli, ijtimoiy determinizm jamiyatning umumiy taraqqiyot asosli qonuniyatlarini namoyon qiluvchi muhim ilmiy kategoriyadir.

Mazkur yondashuv deterministik tushuntirishning shartli sabab va oqibat bog‘liqligiga tayanadi, bunda har bir jarayon yoki voqelik oldindan belgilab olingan omillar sifatida qaraladi. [10.10-11] Bu ayniqsa, klassik fizika va mexanika qonuniyatlari asosida vujudga kelgan ilmiy paradigma bo‘lib, ijtimoiy jarayonlarni ham qat’iy determinatsiyaga tayanib tushuntiradi. Shu qatorda, mazkur modelning asosiy taqiqi shundan iboratki, u murakkab tuzilmalardagi tartibsizlik, tez o‘zgaruvchan va o‘zaro bog‘liqlikdagi omillarni inobatga olishda yetarlicha moslashuvchan emasligidir. Shuning uchun zamonaviy falsafa va ilmiy tadqiqotlarda nolinyali deterministik modellar jadal rivojlanmoqda. Mazkur qarashlar an’anaviy sababiyat tamoyillaridan farqli ravishda, tizimlarning o‘z-o‘zini tashkil qilish, tasodifiy, ehtimollik va emergent hodisalarga bog‘liq jihatlarini ham qamrab oladi. Xususan, ijtimoiy tizimlar va evalyutsion jarayonlar uyg‘unligi nazaridan qaraganda, nolinyali deterministik model dinamik va adaptatsion bo‘lib, u rivojlanishning yo‘nalishlar xilma-xilligini va oldindan prognoz etmaslik xususiyatini inobatga oladi. “Shunday qilib, deterministik kontseptsiyalarni izohlash va qo‘llashda, ijtimoiy haqiqatni anglashning turli paradigmalari hamda ularning ilmiy tadqiqot strategiyasiga ta’sirini chuqur tahlil qilish talab etiladi” [9]. Liniyali va nolinyali deterministik modellarning integratsiyasi esa ijtimoiy hodisalarni bir butun holda anglash va tahmin qilishning eng yaxshi usulisifatida qarash mumkin bo‘ladi.

Sabab –voqea-hodisalarning oldingi holatidan yuzaga keladigan, ularning shakllanish va rivojlanish omillarini belgilovchi sifatida tushuntirish mumkin. Kausal determinizm –hodisalar va jarayonlarning bog‘liqligini tushuntiruvchi nazariy mexanistik paradigma bo‘lib, u voqealardagi munosabatlarning qat’iy bir strukturada, tizimli va bir o‘lchovdagi sabab va oqibat munosabatlari bilan izohlab beradi. Bu yondashuv tasodif va erkinlikni inkor etadi, barcha jarayonlarni belgilangan qonuniyatlar asosida ko‘rib chiqishga harakat qiladi. Natijada, ijtimoiy voqelikdagi muayyan hodisalarni ham qat’iy sabab zanjirlari doirasida izohlashga urinadi. Shu bilan birga, nazarda tutilgan ijtimoiy haqiqatning serqirrali xususiyati sababiy bog‘liqlikdagi bunday oddiy modeliga mos tushmasligi ham mumkin.

Ijtimoiy jarayonlarda shaxsiy xatti-harakatlarni faqat deterministik sababiyat bilantushuntirilishi murakkab bo‘lgan tizimli bog‘liqlikni qamrab oladi. Chunki, ularning shakllanishiva rivojlanishida turlicha omillar – psixologik, madaniy, iqtisodiy, siyosiy va tarixiy shart-sharoitlar qantashadi. Shuning uchun, ijtimoiy fanlar qamrovida nolinyali sababiyat tamoyillariga asoslangan alternativ modellar shakllanmoqda. Nolinyali sabab – natijaviylikda ijtimoiy tizimlarni murakkab va dinamik tabiatni inobatga olib, jarayonlarni oldindan qat’iy tartibotda emas, balki ehtimoliy va serqirra rivojlanishini uqtiradi. Mazkur modelga asosan, ijtimoiy hodisalar bir-biri bilan murakkab tuzilmali bog‘langan bo‘lib, sabablar va oqibatlar ta’sirida doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarda yuzaga keladi. Shu sababli, zamonaviy ijtimoiy-gumanitar bilimlar metodologiyasi o‘ziga xos tadqiqot usullarini rivojlantirmoqda. “Murakkab ijtimoiy jarayonlarni tushunishda faqat mexanik sabab-oqibat munosabatlariga tayangan holda tahlil yuritish yetarli emas. Aksincha, ularni tizimli va ehtimollik asosida baholash, jarayonlarning dinamik va o‘zgaruvchan xususiyatlarini inobatga olish talab etiladi”. [4.332]

**Xulosa.** Ijtimoiy determinantlar falsafiy mohiyati insoniyat hayotining obyektiv asosini tashkil qiladi, lekin inson ularni o‘zgartirish yoki ularga moslashish qobiliyatiga ham egadir. Bu esa falsafada deterministik yondashuv va inson erkinligining dialektik aloqadorligini aks ettiradi. Shuning uchun, ijtimoiy determinantlar tahlili insonning individual qoboliyati va jamiyatning umumiy rivojlanish shart-sharoitlarini umumiylikda tadqiq etishni talab etadi. Yangilnayotgan

jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy faktorlar inson omilining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy sabablar sifatida ko'rsatiladi. Ushbu tadqiqotdaesa mahalla, oila va maktab munosabatlari ijtimoiy determinantlarini inson va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini tadqiq etishga ilmiy asos yaratadi.

XXI asr globallashuv jarayonlari ijtimoiy determinantlarga yangicha yondashuvlarni talab etib, innovatsion ijtimoiy tendensiyalar zaruratini paydo qilmoqda. Bunda ijtimoiy determinantlar yangicha dunyoqarash bilan birga, ishsizlik, kambag'allik, ijtimoiy tengsizlik, oilaviy munosabatlar, ta'lim va tibbiyot tizimi kabi muhim faktorlarni hal qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Mazkur tadqiqot yangilanayotgan jamiyatda oila, mahalla va maktab integratsiyasidagi ijtimoiy determinantlarni umumiy taraqqiyotdagi o'rnini va ahamiyatini ochib beradi. Ijtimoiy determinantlar bugungi kunda ilmiy yondashuvlar asosida nafaqat falsafa, balki iqtisodiyot, jamiyatshunoslik, siyosatshunoslik va sotsiologiya fanlar doirasida ham keng o'rganishni talab etadigan muammo sanaladi.

**Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Ahmedova M.A. Falsafa. T., "Ta'lim". 2018.B.-265.
2. Black D. The black report. London: Department of health and social security.1980. P.7-8
3. Danilova M.I. Philosophy and culture in the context of time / gen. ed. Krasnodar, 2016.88-89
4. Davronov Z. Falsafa. T., "Iqtisod va moliya" 2006 yil B.-332.
5. Fayzulleyv O. Falsafa va fanlar metodologiyasi. T., "Falsafa va huquq". 2006 yil - B.49.
6. Krieger N. Epidemiology and the people's health: Theory and context. Oxford: Oxford University Press. 2011. P-98.
7. Marmot M. The status syndrome: How social standing affects our health and longevity. London: Bloomsbury. 2004. P.43.
8. Plotnikov V.V. Determinism as the ontological basis of theoretical models for predicting socio economic development. Applied aspect // Scientifi c support of the agro-industrial complex: coll. of papers of the X All-Russian conf. of young scientists dedicated to the 120th anniversary of I.S. Kosenko / resp. for issue A.G. Koshchaev. 2017.
9. Plotnikov V.V., Plotnikov V.V. Multidimensionality of social reality and causal asymmetry of time as the theoretical basis of the phenomenological and systemic approaches to the problem of social forecasting // Polytematic network electronic scientifi c journal of the Kuban State Agrarian University (Scientifi c journal of KubGAU). 2015. № 113(09).
10. Rovnova S.A. On the question of the forms of manifestation of the principle of determinism in sociology // Bull of Saratov university. New.ser. Ser. «Sociology.Political science». 2009. № 2. P. 10-11
11. Samoilov S.F., Nasirov M.N. Methodological foundations of the integrative nature of social cognition. Krasnodar, 2011. //Grishay E.V., Plotnikov V.V. Integrative tendencies in the methodological settings of social and humanitarian knowledge: social and philosophical analysis on the example of the study of phenomenological grounds of historicism // Bull. of Krasnodar university of Russian MIA. 2016. № 4(34). P. 126–130.
12. Wilkinson R., Pickett K. The spirit level: Why more equal societies almost always do better. London: Allen Lane. 2009. P-58.
13. Аблеев С.Р. История мировой философии. М., 2016.
14. Алексеев П.В., Панин А.В. Философия. М., 2003.
15. Барабанщиков В.А. Системная организация и детерминация психики. М., 2013. с. 7.
16. Галанина Н.В. Критика принципа детерминизма в гуманитарном знании представителями "философии жизни" // Вестник Московского университета МВД России. 2014. № 9. с. 210–212.
17. Галанина Н.В. Социальная детерминация в структурах са моопределения: дис. ... канд. филос. наук. Ижевск, 2004. с. 15.
18. Дёмин М.В. Детерминизм и специфика обусловленности социальных явлений // Вестн. Моск. ун-та. Серия 7. Философия. № 2. 1987. с. 45.
19. Золкин А.Л. Право и социальная этика // Вестник Московского университета МВД России. 2014. № 9. с. 216–218.
20. Материалистическая диалектика как научная система. М., 1981. с. 161.
21. Материалистическая диалектика как общая теория развития. М., 1982. с. 146.
22. Мотрошилова Н.В. Проблема внутренней детерминации научного познания // Философия и социология науки и техники. М., 1985. с. 109.
23. Паркин В.Ф. Социальный детерминизм как проблема раз вития социализма. М., 1981. с. 86–91.
24. Пригожин И., Стенгерс И. Порядок из хаоса: Новый диа лог человека с природой. М., 1986. с. 28.
25. Прикладная философия. Философия техники / под ред. Т.Н. Фроловой. М., 2011. с. 9.
26. Прикладные аспекты философского знания / под ред. Д.И. Грядового. М., 2009. с. 33.

27. Сачков Ю.В. Жёстко детерминированные и статистиче ские закономерности // Современный детерминизм. Законы природы. М., 1973. с. 255.

28. Социальная философия / под ред. Н.Ф. Медушевской. М., 2010. с. 67.

29. Чинакова Л.И. Социальный детерминизм: Проблема дви жущих сил развития общества. М., 1985. с. 15.

30. Шермуҳамедова Н. Фалсафанинг умуназарий масалалари (Борлиқ ва ривожланиш) фалсафаси. Т., “Академнашр” 2012 йил Б. -189.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Botirova Sevara Mamurovna**
Head of the Department of Philosophical and Historical Sciences of the NamDPI
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor.
Email: sevarabotirova783@gmail.com

## A STUDY OF THE RELATIONSHIP BETWEEN HERMENEUTIC THOUGHT AND COMMUNICATION ETHICS IN WESTERN PHILOSOPHY

***Abstract:*** *This article analyzes the interrelated principles of hermeneutic thought and communication ethics, which have played an important role in Western philosophy. In the course of the research, the basic principles of hermeneutics and the concepts of communication ethics are studied, and the mechanisms of their interaction are identified. The article shows the importance of hermeneutic thought in solving moral problems arising in social communication, along with modern philosophical approaches.*

***Keywords:*** *hermeneutic thought, communication ethics, Western philosophy, moral communication, hermeneutics, dialogue, moral principles.*

**Botirova Sevara Mamurovna**
NamDPI falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi mudiri
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

## G‘ARB FALSAFASIDA GERMENEVTIK TAFAKKUR VA MULOQOT ETIKASI BOG‘LIQLIGINING O‘RGANILISHI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada G‘arb falsafasida muhim o‘rin tutgan germenevtik tafakkur va muloqot etikasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liq tamoyillar tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida germenevtikaning asosiy printsiplari va muloqot etikasi konseptlari o‘rganilib, ularning o‘zaro ta’sir mexanizmlari aniqlanadi. Maqola zamonaviy falsafiy yondoshuvlar bilan bir qatorda ijtimoiy muloqotda yuzaga keladigan axloqiy muammolarni hal etishda germenevtik tafakkurning ahamiyatini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *germenevtik tafakkur, muloqot etikasi, G‘arb falsafasi, axloqiy muloqot, hermenevtika, dialog, axloqiy prinsiplar.*

**Ботирова Севара Мамуровна**
Заведующая кафедрой философско-исторических наук НамДПИ
Доктор философии (PhD) в области педагогических наук, доцент.

## ИССЛЕДОВАНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕЖДУ ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКИМ МЫШЛЕНИЕМ И ЭТИКОЙ КОММУНИКАЦИИ В ЗАПАДНОЙ ФИЛОСОФИИ.

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются взаимосвязанные принципы герменевтической мысли и этики коммуникации, сыгравшие важную роль в западной философии. В ходе исследования изучаются основные принципы герменевтики и концепции этики коммуникации, а также выявляются механизмы их взаимодействия. В статье показана важность герменевтической мысли в решении моральных проблем, возникающих в социальной коммуникации, наряду с современными философскими подходами.*

***Ключевые слова:*** *герменевтическая мысль, этика коммуникации, западная философия, моральная коммуникация, герменевтика, диалог, моральные принципы.*

### Introduction

Hermeneutics is an important direction in Western philosophy that focuses on the study of the processes of understanding and interpretation, especially in the fields of ethics and communication. Communication ethics, on the other hand, defines the rules of moral relations between people. Therefore, studying the connection between these two concepts helps to manage modern communication processes in an effective and ethically based way. The article aims to show the relevance and scientific significance of this topic.

**Research methodology**

The study used qualitative analytical methods. A comparative study was also conducted with modern ethical theories and communication concepts. The study identified the practical significance of the hermeneutic approach in the field of communication ethics based on the integration of empirical and theoretical data.

**Literature analysis**

The hermeneutic approach to the communication criteria of ethics has been actively studied in Western philosophy. In particular, thinkers such as J. L. Austin, K. Popper, G. V. Hegel, D. G. Keller are observed in their research activities. First of all, the main philosophical sources on hermeneutic thinking and communication ethics, including the works of specialists such as Gadamer, Habermas and Buber, were deeply analyzed.

**Analysis and results**

The question of the role of language and thought in social existence has become one of the central directions of contemporary philosophy. This issue is being deeply analyzed not only within the framework of classical sociology and linguistics, but also in modern phenomenology, psycholinguistics, communicative epistemology, and cultural studies. In this direction, the views of J. Piaget, M. Bakhtin, A. Toffler, K. Popper, J. Kristeva, J. L. Austin, D. Davidson, and M. Castells have provided a new theoretical basis for the mediating nature of language and thought in society. Jean Piaget, analyzing the social formation of thought through child psychology, writes that “language is a social mechanism of thought, since human thought is formed through communication.” [1]

According to him, thinking and language are inseparable: the child first “learns social thinking using language, and then constructs his own thoughts through inner speech.” This view is close to Vygotsky’s concept of “inner speech,” but Piaget, basing his argument on the stages of individual formation of thinking, sees it not as a result of socialization, but as an ontogenesis that occurs in the process of social communication. J. L. Austin, on the other hand, interprets the social essence of language through the theory of “speech acts.” He writes: “Speaking is the performance of an action.” [2] In his opinion, every speech expression is a form of social activity, that is, language does not only express thought, but also performs a social action. Therefore, thinking is an action realized in language — it defines a person as an active subject of social existence.

A. Schütz calls language in his phenomenological social theory “the mechanism of coherence of everyday consciousness.” According to Schütz, language is a “means of orientation in social existence,” that is, a common platform that connects actions in society with meaning. Teun A. van Dijk reveals the social connection between language and thought in the concept of “discourse analysis.” He writes: “Language is an expression of social power; it is a discourse that shapes and governs social consciousness.” According to Dijk, language reinforces the systems of knowledge, ideology, and power in society, and therefore thought is the result of social structures in language. Norman Fairclough also continued this idea, saying that “language is a semantically formed mirror of social life.” In his opinion, thought is formed through semantic discourses in society, therefore language is not only a communicative tool, but also “an ideological apparatus that forms social consciousness.” Bronislaw Malinowski directly connects language with social needs in anthropological analysis: “Language is a means of activity, it is always present within social movement.” In his opinion, language is a pragmatic mechanism of social cohesion, and thought takes on a purposeful direction in social life through this language.

Donald Davidson develops this idea, linking the social nature of language with the concept of “radical interpretation.” According to Davidson, the social nature of language is hidden in “understanding” itself—every communication requires an agreement between these two types of thinking. M. Bakhtin, on the other hand, interprets language as a form of “dialogical existence,” writing that “language is always a conversation with otherness.” [3] In doing so, he redefines the relationship between language and thinking as a “social relationship between beings.” Thinking, he argues, is formed through pre-linguistic processes (intuition, instinct, affect), but only through language does it become social consciousness. Thus, language unites two levels of human consciousness—the individual (semiotic) and the social (syntactic) layers.

Karl Popper conceptually unites language and thought in his theory of the “third world.” According to him, “language is the world of human thought, the objective form of which is formed.” [4] For Popper, thought is not individual—it lives in language, a system of knowledge developed by society. Therefore, language becomes “a mechanism for storing and transmitting knowledge in a social environment.” According to Alvin Toffler, language has now become a component of the information flow inseparable from thought: “Through language, we not only think, but also process information and reconstruct social reality.” [5] Manuel Castells, in his concept of the “information society,” analyzes the role of language in social thought in the context of global communication. According to Castells, in the digital age, language has become a technologically modeled form of social thought, creating “a code system that unites meanings on a transnational level.” G. W. Hegel sees the social essence of thought and language in a dialectical unity. For Hegel, language is the "social expression of the absolute spirit," that is, the means by which human thought becomes

social reality. In this sense, thought is objectified through the internal laws of language, and language gives spiritual content a social form.

American linguist Edward Sapir and his student Benjamin Lee Whorf put forward the theory of the relativity of language in thinking. Thus, language is not only a means of expressing thought, but also a socio-cultural factor determining the formation of thinking. George Herbert Mead explains the social function of language in social psychology through the concept of "symbolic interaction". For Mead, thinking is a form of "internal communication", which is formed through the exchange of signs in society. This approach laid the foundation for Habermas's theory of "communicative consciousness". M. A. K. Halliday explains sociality in language on the basis of "systemic-functional grammar". He writes: "Language is a means of expressing experience existing in society; each language reflects the social functions of human activity". [6] According to him, language performs three main social functions: experiential (cognition), relational (social communication) and textual (creation of meaning in a cultural context). In this way, thinking is interpreted as a social event of language.

Jürgen Habermas analyzes language as a "rational form of social consciousness" and says that "language ensures social integration through communication." For Habermas, language is not just a means of communication, but also a "means of consensus-building," that is, the main mechanism for agreements and decisions in society. In this sense, thought acquires the power of "social coordination" through language. M. Bakhtin reveals the social essence of language through the principle of "dialogicity": according to Bakhtin, thought expresses itself in dialogical action in language; the "I" of a person is formed only in communication with the "other."

D. G. Keller, within the framework of cognitive linguistics, sees language as a "social materialization of consciousness" and writes that "language is a cognitive system that models social experience." In his opinion, thought creates a semantic model of social practice through language, which turns language into a "form of collective consciousness" of human culture. Thus, language and thought appear as two complementary aspects of human social existence. For Hegel and Saussure, language is an external form of thought; for Sapir and Whorf, it is a norm of cultural thought; for Mead and Habermas, it is a mechanism of social communication; for Halliday and Keller, it is interpreted as a semiotic model of human experience. All of them confirm one aspect: language is the "thinking environment" of society, in which a person creates his mental, moral and cultural existence.

Yuri Lotman, in his concept of the "semiosphere," interprets language as "the creative factor of culture." For Lotman, language is the creative environment of social thought, in which each new meaning is formed in dialogue with previous meanings. Therefore, language appears as "the mental environment that continues culture." Roman Jakobson analyzes sociality in language through its communicative function.

According to Jakobson, the communicative power of language ensures the cultural coherence of society, therefore, "the act of speech expresses the stability of the social system." Claude Lévi-Strauss, seeing language as a cultural archetype of human thought, says: "Language is the consciousness and structure of human society." [7] He interprets language as a social symbolic system through which society creates its symbolic order. Lévi-Strauss's structural anthropology reveals the collective nature of the thought process in language.

**Conclusion**

Hermeneutics, by deepening the processes of understanding and interpretation, makes it possible to conduct communication between people more effectively and ethically. Communication ethics, on the other hand, defines moral principles and legal norms in this process, as a result of which mutual respect and understanding between people increase. The study showed that hermeneutic thinking enriches the content of communication ethics, increases the comprehensibility and fairness of the communication process. Thus, these two areas are inextricably linked and are an important tool for strengthening the moral foundations of communication in modern society.

**References**

1. Piaget, J. Le langage et la pensée chez l'enfant. — Paris: Delachaux et Niestlé, 1923. — 174 p. (p. 88–92).
2. Austin, J. L. How to Do Things with Words. — Oxford: Clarendon Press, 1962. — 162 p. (p. 6).
3. Бахтин, М. М. Проблемы поэтики Достоевского. — Москва: Советский писатель, 1963. — 321 б. (б. 274–278).
4. Popper, K. Objective Knowledge: An Evolutionary Approach. — Oxford: Clarendon Press, 1972. — 395 p. (p. 109).
5. Castells, M. The Rise of the Network Society. — Oxford: Blackwell, 1996. — 556 p. (p. 476).
6. Halliday, M. A. K. Language as Social Semiotic. — London: Edward Arnold, 1978. — 278 p. (p. 29).
7. Lévi-Strauss, C. La pensée sauvage. — Paris: Plon, 1962. — 374 p. (p. 47).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Salamov Xurshid Bariddinovich**
ISFT instituti tadqiqotchisi

## YANGI O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISHDA DUNYOVIY VA DINIY OMILLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada din va dunyoviylik tushunchalarining qisqacha mazmuni, o'zbek xalqiga xos diniy qadriyatlar, shaxs ma'naviy kamoloti haqidagi sharq mutafakkirlarining qarashlari bayon etilgan. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib Yangi O'zbekistonni qurib bo'lmasligi ko'rsatilgan.*

***Kalit so'zlar****: Din, atribut, vijdon erkinligi, diniy va dunyoviylik*

**Саламов Хуршид Бариддинович**
Исследователь Института ISFT

## ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СВЕТСКИХ И РЕЛИГИОЗНЫХ ФАКТОРОВ В РАЗВИТИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

***Аннотация:*** *В данной статье кратко изложены понятия религии и светскости, религиозные ценности, присущие узбекскому народу, а также взгляды восточных мыслителей на духовное совершенствование личности. Показано, что без изменения сознания и мышления невозможно построить Новый Узбекистан.*

***Ключевые слова:*** *Религия, атрибут, свобода совести, религиозность и светскость*

**Salamov Khurshid Bariddinovich**
Researcher at ISFT Institute

## EFFECTIVE USE OF SECULAR AND RELIGIOUS FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN

***Abstract:****This article briefly explores the concepts of religion and secularism, the religious values inherent to the Uzbek people, and the views of Eastern thinkers on the spiritual development of the individual. It is emphasized that without transforming consciousness and thinking, it is impossible to build a New Uzbekistan.*

***Keywords:*** *religion, attribute, freedom of conscience, religiosity, secularism*

Barkamol inson tarbiyasi barcha zamonlarda ham muhim vazifa hisoblangan. Shuning uchun ham yoshlar ma'naviyatini shakllantirish, barkamol shaxsni tarbiyalashga bo'lgan qiziqish ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Bugungi kunda ham yoshlarni ma'naviy kamolotini yuksaltirish, ularni har tomonlama yetuk shaxsga aylantirish tahliliga bag'ishlangan samarali ishlar yetakchi o'rinni egallab bormoqda.

Yosh avlodni diniy va dunyoviy omillar uyg'unligida kamolga yetkazish bugungi kun uchun zarur hisoblanadi. Sababiki, turli toifalar tomonidan diniylik va dunyoviylik nisbati noto'g'ri talqin qilinayotgan holatlar ham mavjuddir. Din va dunyoviy ilmlar aslida bir-biridan ajralmas holda bo'lishi lozim bo'lgan ikki muhim bilim sohasi bo'lib, ular inson tafakkuri, axloqi va jamiyat taraqqiyoti uchun o'zaro bog'liq holda xizmat qiladi. Din-axloqiy yo'lchi bo'lsa, dunyoviy ilm-amaliy vositadir. **"Din (arab. – e'tiqod, ishonch, itoat) dir. Ulug' mutafakkir Abu Nasr Farobiy dinga falsafa bilan bir qatorda haqiqatga yetishishning 2 mustaqil usulidan biri sifatida qaragan. Farobiynng fikricha, falsafaagi masalalar isbotini payg'ambarlar ramzlar shaklida bayon qilgan".**[1] Din-ilmni halol maqsadlarda ishlatishni o'rgatadi. Ilmsiz din-so'qir, dinsiz ilm-xavflidir.

Markaziy Osiyoda ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishda jadidchilik harakatlari muhim rol o'ynagan. Ma'rifatparvarlar ta'limning ahamiyatiga katta e'tibor bergan. Ular ta'lim orqali yoshlarning ma'naviy va axloqiy kamolotini ta'minlashga harakat qilgan. Buning natijasida, ular jamiyatda yoshlarning bilimli va ma'naviy jihatdan rivojlangan bo'lishini maqsad qilgan. Ma'rifatparvarlar ma'naviy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarning jamiyatda muhim o'rin tutishini ta'kidlashgan.

Shu ma'noda, xalqimizning ongi va qalbidan mustahkam o'rin olib, umummilliy harakat darajasiga ko'tarilgan **"Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renesansni barpo etish g'oyalari buyuk ajdodlarimizning ham orzu-intilishlarini o'zida mujassam qilgan, desak, mubolag'a bo'lmaydi"** [2] -deydi Shavkat Mirziyoyev.

Yoshlar ma'naviy-mafkuraviy kamolotini yuksaltirishda diniy va dunyoviy omillar masalasiga oid tadqiqotlar ming yillik tarixga borib taqaladi. Ijtimoiy-falsafiy bilimlar taraqqiyoti, bugungi tez o'zgarayotgan davrda yoshlarda diniy va dunyoviy ilmlarni chuqurroq o'rganishni taqozo etmoqda.

Xususan, shaxs ma'naviy kamoloti haqidagi mulohazalar o'zining dastlabki ilmiy-falsafiy ko'rinishida Ibn Sino haqiqiy axloqiy fazilatlarga va ideal jamoaga shu mavjud dunyoda erishuv mumkin, jamiyatda insonlar o'zaro yordam asosida yashashlari kerak. Har bir farzand oilaning yuzidir. Chunki yoshlarning jamiyatda o'zini qanday tutishi, atrofdagilar bilan muomalasi orqali oilasiga baho beriladi. Yomon muhit hukmron joyda ezgulik urug'i unishi amrimahol. Sog'lom bolani tarbiyalashni alloma Ibn Sino uning tug'ilgan vaqtidanoq boshlash kerak degan bo'lsa, Umar Xayyom o'zining fan tarixiga oid asarlarida bolaning tarbiyasini uni ona qornidagi davridanoq boshlash lozimligini ta'kidlagan. Farobiy turli ilmlar (diniy va dunyoviy) bir-birini inkor qilmaydi balki, o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda rivojlanadi. Ular dunyoni idrok qiliishga va insonlarni baxt-saodatga erishishiga qaratilgandir deb ta'kidlagan. Alisher Navoiy tarbiya insondagi o'zgarmas hislat ekanligini va tarbiyani inson dunyoga kelishi bilanoq, balki ona qornidaligidanoq boshlamoq zarurligini ta'kidlagan. Ular uchun din - ilhom, ilm - vosita bo'lgan.

Bugungi kunda vijdon erkinligi xalqaro miqyosda barcha demokratik davlatlarda kafolatlangan va Inson huquqlari umumjahon Dekloratsiyasida elgilab qo'yilgan muhim huquq hisoblanadi. Islom ulamolari demokratik tamoyillar o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra islom tamoyillariga mos ekanligini ta'kidlamoqdalar. Masalan, demokratik saylovlar, referendum, ko'ppartiyaviylik, so'z va fikr erkinligi, muxolifatchi shaxslarning huquqlari, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining o'rnatilishi, Ommaviy axborot vositalarining erkinligi, sudning daxlsizligi... kabi demokratiyaning ajralmas atributlari (lotincha atributum-baxsh etaman, obyektning muhim xususiyat) – islomiy qarashlarga zid emas. Islom ta'limotidagi davlat hokimiyati (Prezident, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud) ni shallantirish bilan bog'liq masalalar uning dunyoviy bo'lishini taqozo etmoqda: Davlat rahbari va Oliy Majlis deputatlarini xalq saylaydi, davlat rahbari davlatni yakkahokim bo'lib boshqarmaydi, maslahat bilan ish yuritadi... Bunday tamyillar "diniy davlat" tushunchasiga ziddir. Dunyoviylik tushunchasini diniylik bilan qarama-qarshi qoyish mutloqo xato hisoblanadi. Diniy va dunyoviylik tushunchalari inson hayotini mazmunini belgilab beradigan qarashlardir. Dunyoviyik tushunchasining mazmunida diniy tashkiotlarni siyosiy tashkilotlardan ajratish turadi. Dinni majburan singdirish esa hech bir diniy tamoyilga to'g'ri kelmaydi. **"Dunyoviy taraqqiyot yolini tutgan davlatlarda garchi din davlatdan ajratilgan bo'lsada, jamiyatdan ajratilmagan. Milliy va diniy qadriyatlar xalqlar ma'naviy qiyofasining muhim qismlaridan hisoblanadi. Bugungi kunda diniy qadriyatlarni e'tiborga olmay ish tutish bilan zamonamizning og'ir va murakkab savollariga javob topib bo'lmasligini hayot tajribasi ko'rsatmoqda"**[3]. Diniy qadriyatlarimiz ichida – or-nomus, iffat, sharm-hayo, kattalarga ehtirom, yarim tunda koʻchaga chiqmaslik, dasturxon atrofida yigʻilganda yoshi ulugʻlardan oldin taomga qoʻl uzatmaslik, farzandga chiroyli ism qoʻyish, boriga qanoat qilish, isrofgarchilikka yoʻl qoʻymaslik, halol risq talab qilish qon-qonimizga singib ketgan qadriyatlar hisoblanadi. Halol risq haqida kelgan hadislardan birida Imom Buxoriy shunday deydi; **"Hech bir kishi oʻzi qoʻli bilan ishlab topib yegan taomidan ham yaxshirogʻini also yemaydi"**[4].

Yangi Oʻzbekistonda vijdon va din erkinligi fuqarolarning eng muhim konstitutsiyaviy huquqlaridan biri hisoblanishi, inson manfaatlari va erkinliklarining qadrlanishi yanada ustuvorlik kasb etgan.

Konstitutsiyamiz muqaddimasida demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik gʻoyalariga sadoqatni namoyon qilishi, 19-moddasida Oʻzbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega boʻlib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi, 37-moddasida Oʻzbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega ekanliklari, 72-moddasida davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlab, ularga jamiyat hayotida ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratishi, 75-moddasida esa diniy tashkilotlar davlatdan ajratilganligi hamda qonun oldida tengdirlar degan normalarning mustahkamlab qoʻyilishi, bu boradagi ishlarning qonuniy asosi boʻlib xizmat qilmoqda.

Taraqqiyot strategiyasini 70-maqsadida, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuygʻusi, bagʻrikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga boʻlgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash va 74-moqsadida, turli millat yoshlari uchun qoʻshimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bagʻrikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish hamda bu borada amalga oshirilishi lozim boʻlgan ishlan qat'iy belgilab berilgan.

Hind xalq eposi Kalila va Dimna asarida: **"Debdurlarki, agar ikki kishi bir buyuk orzuga yetishishni istasalar, bunga ulaming muruvvatda ustun bo'lgani muvaffaq bo'ladi; agar muruvvatda teng bo'lsalar, irodasi kuchli**

**bo'lgani yetishadi; irodada ham barobar bo'lsalar, yordamchi va do'stlari ko'p bo'lgan yengib chiqadi; agar bu jihatdan ham oralarida farq bo'lmasa, u vaqtda tolei baland bo'lgani yetishadi..."-** deb bayon etiladi. [5] Demak, buyuk orzularni ushalishida muruvvat, iroda, do'st-brodarlik, tolei balandlik ya'ni bag'rikenglik yordam beradi deb xulosa qilsak bo'ladi.

O'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg Behbudiy to'y va ta'ziyalarni kichik qilib, holimizga qarab o'tkazishimiz lozimligini, asosiy e'tiborni ilm asoslarini o'rganishga qaratish zarurligini ta'kidlagan edi. Mutaffakkir adib bu haqda o'zining fikrini quyidagicha ifoda etgan edi: **"To'y va ta'ziyaga sarf qilinaturgan oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo'liga sarf etsak, anqarib Ovropalilardek taraqqiy etarmiz va o'zimiz-da, dinimiz-da obro'y va rivoj topar. Yo'q, hozirgi holimizg'a davom etsak, din va dunyog'a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo'lmaydur"**[6] – degan so'zlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Hozirgi vaqtda "ommaviy madaniyat" ta'siriga tushib, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimaslik taraqqiyotga, inson hayotiga yoshlar tarbiyasiga katta g'ov hisoblanadi. Zamonga ochiq ko'z bilan qarash, yon atrofimizda mavjud, tobora kuchayib borayotgan ma'naviy tahdidlarni to'g'ri baholashimiz lozim.

Bugun barchamiz yangi texnologiya (mohirlik)lar rivojlangan davrda yashamoqdamiz. Ilg'or g'oyalarni ilgari suradigan, tashabbuskor va ijodkor mutaxasislar har bir zamonning eng oldi, muvaffaqiyatli insonlari bo'lishgan.

Har bir inson, butun jamiyat o'zaro munosabatlarni xalqlarning turli-tuman urf odatlari, madaniyati va qadriyatlarini tan olgan holda bag'rikenglik asosiga qurishi zarur. Zero, tinchlik, bag'rikenglik taraqqiyot garovidir. Mamlakatimizni har qaysi a'zosi, ayniqsa yoshlar yuksak ma'naviyat va ma'rifat sohibi bo'lmasdan, Vatan va xalq oldidagi o'z huquqi , burchi va mas'uliyatini puxta bilmasdan, uni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamasdan, ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib Yangi O'zbekistonni qurib bo'lmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. T., 2002. -b. 300
2. SH. Mirziyoyev "Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston". T.: "O'zbekiston". 2024 yil. 33-bet.
3. Islom ma'rifati va hozirgi zamon. T., "Toshkent islom universiteti". 2016 yil 24-bet
4.Imom Ahmad ibn Qudoma Maqdisiy "Minhojul-qosidiyn". T., Islom universiteti nashriyoti. 2009 yil. 106-bet.
5. Kalila va Dimna. Hind xalq eposi. T., Yangi asr avlodi. 2019 yil 183-bet
6. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi, so'z boshi va izohlar muallifi B.Qosimov. T., "Ma'naviyat", 1997, 148-bet.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Usmanova Shoxsanam Shavkatovna,**
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

## MILLIY XARAKTERNI SAQLAB QOLISHDA OILAVIY QADRIYATLARNING ROLI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada oila institutining milliy xarakterni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Abdurauf Fitratning “Oila” asari va Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” nomli pedagogik merosi asosida oilaviy qadriyatlarning ma’naviy-ruhiy hayotdagi tutgan o‘rni ochib beriladi. O‘zbek xalqining milliy xarakterini saqlab qolishda an’anaviy tarbiya uslublari, oila ichidagi o‘zaro munosabatlar va ma’naviy qadriyatlarning barqarorligi asosiy omil sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.*

***Kalit so‘zlar****: oila, qadriyat, milliy xarakter, Fitrat, Avloniy, tarbiya, ma’naviyat*

**Усмонова Шохсанам Шавкатовна,**
независимый исследователь, Ферганский государственный университет

## РОЛЬ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В СОХРАНЕНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ.

***Аннотация.*** *В данной статье анализируется роль института семьи в формировании и сохранении национального характера. На основе произведений Абдурауфа Фитрата «Семья» и Абдуллы Авлония «Туркестанская роза, или этика» раскрывается значение семейных ценностей в духовно-нравственной жизни узбекского народа. Подчеркивается важность традиционного воспитания, внутрисемейных отношений и стабильности моральных норм как факторов национальной идентичности.*

***Ключевые слова:*** *семья, ценности, национальный характер, Фитрат, Авлоний, воспитание, духовность*

**Usmanova Shokhsanam Shavkatovna,**
Independent Researcher, Fergana State University

## THE ROLE OF FAMILY VALUES IN PRESERVING NATIONAL CHARACTER

***Abstract.*** *This article analyzes the role of the family institution in the formation and preservation of national character. Based on the works of Abdurauf Fitrat ("Family") and Abdulla Avloni ("Turkic Gulistan or Ethics"), the significance of family values in the spiritual and moral life of the Uzbek people is examined. The article emphasizes traditional upbringing, intra-family relations, and the stability of moral norms as key elements in maintaining national identity.*

***Keywords:*** *family, values, national character, Fitrat, Avloni, upbringing, spirituality*

### Kirish

Milliy xarakter muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy tajribasi, madaniy merosi hamda ma’naviy-axloqiy qadriyatlari asosida shakllangan murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisadir. U xalqning dunyoqarashi, hayotga munosabati, xulq-atvor me’yorlari, ruhiyati va ijtimoiy faolligida namoyon bo‘lgan. Milliy xarakter biologik yo‘l bilan emas, balki ijtimoiy muhit, tarbiya va madaniy uzviylik orqali avloddan-avlodga uzatiladi. Shu jihatdan qaralganda, milliy xarakterning shakllanishi va saqlanishida oila instituti hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Oila jamiyatning eng qadimiy va barqaror ijtimoiy instituti bo‘lib, u shaxsning ilk ijtimoiylashuv muhiti hisoblanagan. Aynan oilada insonning axloqiy qarashlari, ma’naviy mezonlari, milliy o‘zligi va ijtimoiy mas’uliyati shakllana boshlagan. Farzand ongiga singdirilgan halollik, or-nomus, kattalarga hurmat, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi fazilatlar milliy xarakterning asosiy tayanchlarini tashkil etgan. Shu bois, oilaviy qadriyatlar milliy xarakterni saqlab qolishning eng ishonchli va uzluksiz mexanizmi sifatida namoyon bo‘lgan.

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot makonining kengayishi, turli madaniyat va hayot tarzlarining faol kirib kelishi zamonaviy jamiyatda milliy qadriyatlarga nisbatan yangi sinovlarni yuzaga chiqarmoqda. Individualizm, iste’molchilik madaniyati va g‘arblik hayot tarzi ta’siri natijasida an’anaviy oilaviy munosabatlar zaiflashmoqda, bu esa milliy xarakterning uzluksizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida oilaning tarbiyaviy roli pasayishi ma’naviy bo‘shliq, axloqiy beqarorlik va ijtimoiy moslashuv muammolarini keltirib

chiqarmoqda. O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy siyosat doirasida oila institutini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida jamiyat barqarorligi va milliy taraqqiyotning mustahkam poydevori aynan oila ekanini ta’kidlab, davlat islohotlarining natijalari har bir xonadon hayotida sezilishi lozimligini alohida qayd etgan.[1] Davlat siyosati darajasida oila jamiyat barqarorligining tayanchi, milliy qadriyatlarning asosiy tashuvchisi sifatida e’tirof etilmoqda. Bu esa oilaning nafaqat ijtimoiy-iqtisogany, balki ma’naviy-falsafiy ahamiyatini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirgan.

Mazkur tadqiqotda o‘zbek jadidchilik harakatining yirik namoyandalari bo‘lgan Abdurauf Fitrat va Abdulla Avloniyning oilaga oid pedagogik-falsafiy qarashlariga murojaat qilingan. Ularning asarlarida oila shaxs kamoloti, jamiyat islohoti va milliy ong shakllanishining boshlang‘ich nuqtasi sifatida talqin etilgan. Fitrat va Avloniy qarashlari nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi globallashuv sharoitida ham dolzarb nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning asosiy maqsadi—oilaviy qadriyatlarning milliy xarakterni shakllantirish va saqlab qolishdagi rolini tarixiy va zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qilish, shuningdek, Fitrat va Avloniy pedagogik merosi misolida oilaning ma’naviy-strategik ahamiyatini ilmiy asoslab berishdan iborat

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqot nazariy va tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda milliy xarakterni saqlab qolishda oilaviy qadriyatlarning o‘rni ijtimoiy-falsafiy va pedagogik yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Tadqiqot metodologik asosi zamonaviy ijtimoiy rivojlanish, inson qadri va ma’naviy taraqqiyot masalalariga bag‘ishlangan konseptual qarashlarga tayangan holda belgilangan.[2]

Tadqiqot jarayonida tarixiy-tahliliy metod qo‘llanilib, o‘zbek oilasining shakllanish jarayoni, undagi tarbiyaviy an’analar va milliy qadriyatlarning uzviyligi tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan.[6] Ushbu metod oilaning milliy xarakterni shakllantirishdagi barqaror institutsional rolini ochib berishga xizmat qilgan.

Matnshunoslik va manbashunoslik metodi asosida Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” hamda Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarlaridagi oila, tarbiya va axloq masalalariga oid qarashlar chuqur tahlil qilingan.[3.4] Bu asarlar tadqiqotning nazariy poydevorini tashkil etib, milliy tarbiya konsepsiyasining asosiy g‘oyalarini aniqlash imkonini bergan.

Shuningdek, qiyosiy-tahliliy metod yordamida jadid mutafakkirlarining oilaga oid pedagogik qarashlari zamonaviy oila madaniyati va milliy qadriyatlar haqidagi ilmiy yondashuvlar bilan solishtirilgan.[5] Ushbu metod orqali tarixiy va zamonaviy qarashlar o‘rtasidagi uzviylik va farqli jihatlar aniqlashtirilgan.

Mantiqiy-tizimli tahlil metogan asosida “oila”, “milliy xarakter” va “tarbiya” tushunchalari o‘zaro sabab–oqibat aloqadorligida ko‘rib chiqilgan.[7] Bu metod tadqiqot mavzusiga oid tushunchalarni yagona konseptual tizimda yoritishga imkon bergan.

Mazkur tadqiqot nazariy va tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda milliy xarakterni saqlab qolishda oilaviy qadriyatlarning o‘rni ijtimoiy-falsafiy va pedagogik yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Tadqiqot metodologik asosi zamonaviy ijtimoiy rivojlanish, inson qadri va ma’naviy taraqqiyot masalalariga bag‘ishlangan konseptual qarashlarga tayangan holda belgilangan.[2] Tadqiqot jarayonida tarixiy-tahliliy metod qo‘llanilib, o‘zbek oilasining shakllanish jarayoni, undagi tarbiyaviy an’analar va milliy qadriyatlarning uzviyligi tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan.[6] Ushbu metod oilaning milliy xarakterni shakllantirishdagi barqaror institutsional rolini ochib berishga xizmat qilgan.

Matnshunoslik va manbashunoslik metodi asosida Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” hamda Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarlaridagi oila, tarbiya va axloq masalalariga oid qarashlar chuqur tahlil qilingan.[3.4] Bu asarlar tadqiqotning nazariy poydevorini tashkil etib, milliy tarbiya konsepsiyasining asosiy g‘oyalarini aniqlash imkonini bergan. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida jadid mutafakkirlarining oilaga oid pedagogik qarashlari zamonaviy oila madaniyati va milliy qadriyatlar haqidagi ilmiy yondashuvlar bilan solishtirilgan.[5] Ushbu metod orqali tarixiy va zamonaviy qarashlar o‘rtasidagi uzviylik va farqli jihatlar aniqlashtirilgan. Mantiqiy-tizimli tahlil metogan asosida “oila”, “milliy xarakter” va “tarbiya” tushunchalari o‘zaro sabab–oqibat aloqadorligida ko‘rib chiqilgan.[7] Bu metod tadqiqot mavzusiga oid tushunchalarni yagona konseptual tizimda yoritishga imkon bergan.

Shuningdek, tadqiqotda umumlashtirish va xulosalash metodlari orqali tahlil natijalari tizimlashtirilgan hamda ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Tadqiqot jarayonida foydalanilgan barcha metodlar bir-birini to‘lganruvchi xususiyatga ega bo‘lib, tadqiqotning ilmiy ishonchliligini ta’minlashga xizmat qilgan. Mazkur metodologik yondashuv oilaviy qadriyatlarning milliy xarakterni saqlab qolishdagi o‘rnini chuqur va tizimli tarzda ochib berish, shuningdek, Fitrat va Avloniy pedagogik merosining zamonaviy ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqligini ilmiy asoslash imkonini bergan.

**Natijalar**

O‘tkazilgan nazariy-tahliliy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, milliy xarakterni saqlab qolishda oilaviy qadriyatlar asosiy va barqaror mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Oila jamiyatning birlamchi ijtimoiy instituti bo‘lib, shaxsning axloqiy me’yorlari, ma’naviy dunyoqarashi va milliy o‘zligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot sharoitida inson qadrini yuksaltirish masalasi aynan oilaviy muhit bilan uzviy bog‘liq ekani aniqlanadi.[2]

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, milliy xarakterning asosiy tarkibiy qismlari bo‘lgan or-nomus, halollik, kattalarga hurmat, mehr-oqibat, jamoaviylik va mehnatsevarlik kabi fazilatlar asosan oila doirasida shakllanadi. Agar oilada ushbu qadriyatlar izchil va ongli ravishda singdirilsa, milliy xarakterning uzluksizligi ta’minlanadi; aks holda esa ma’naviy uzilish va axloqiy beqarorlik yuzaga keladi.[5.6]

Abdurauf Fitratning pedagogik qarashlari tahlili natijasida u oilani jamiyatni isloh qilishning boshlang‘ich nuqtasi sifatida talqin qilgani aniqlandi. Fitratga ko‘ra, sog‘lom jamiyat faqat sog‘lom oila asosida shakllanadi. Tadqiqot natijalari Fitrat tomonidan ilgari surilgan ota-onaning shaxsiy namunasi, uy muhitining tarbiyaviy ahamiyati va oilaviy intizom haqidagi g‘oyalar bugungi zamonaviy tarbiya konsepsiyalari bilan uyg‘un ekanini ko‘rsatdi.[3.8]

Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari tahlili shuni ko‘rsatdiki, u tarbiyani millat istiqbolini belgilovchi eng muhim omil sifatida baholaydi. Avloniy qarashlarida oila insonning axloqiy kamolotini ta’minlovchi birinchi va eng ta’sirchan muhit bo‘lib, unda milliy ong, vijdon va iymon shakllanadi.[4] Tadqiqot natijalari Avloniy ilgari surgan “avvalo odam qilish” tamoyili bugungi ta’lim-tarbiya tizimi uchun ham dolzarb ekanini tasdiqladi.

Shuningdek, natijalar zamonaviy globallashuv sharoitida oilaviy qadriyatlarning zaiflashuvi milliy xarakterning yemirilishiga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatdi. Ommaviy madaniyat, individualistik qadriyatlar va iste’molchilik ruhining kuchayishi oilaning tarbiyaviy funksiyasini cheklab qo‘ymoqda. Bu holat yoshlar orasida ma’naviy bo‘shliq va ijtimoiy beqarorlikning kuchayishiga sabab bo‘layotgani aniqlanadi.[5.7]

Umuman olganda, tadqiqot natijalari oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash milliy xarakterni saqlab qolishning eng samarali va uzoq muddatli strategiyasi ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Fitrat va Avloniy pedagogik merosi, shuningdek zamonaviy ilmiy yondashuvlar oilani milliy xarakterning asosiy tayanchi sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi.[3.4]

**Muhokama**

Tadqiqot natijalarining muhokamasi shuni ko‘rsatadiki, milliy xarakterni saqlab qolish jarayoni ko‘p omilli bo‘lib, unda oilaviy qadriyatlar markaziy o‘rin egallaydi. Olingan natijalar zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlar bilan uyg‘unlashib, inson qadrini yuksaltirish g‘oyasi avvalo oilaviy muhit orqali amaliy mazmun kasb etishini tasdiqlaydi.[2] Bu holat oilani milliy taraqqiyotning ma’naviy poydevori sifatida baholash zaruratini ko‘rsatadi.

Abdurauf Fitrat qarashlari asosida olib borilgan muhokama shuni ko‘rsatadiki, u oilani jamiyatni isloh qilishning boshlang‘ich va eng muhim bo‘g‘ini sifatida talqin etgan. Fitrat tomonidan ilgari surilgan ota-onaning shaxsiy namunasi, oilaviy intizom va tarbiyaviy muhit haqidagi g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.[3] Ushbu qarashlar zamonaviy oila pedagogikasi va ijtimoiy tarbiya nazariyalari bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘lgan.[8]

Abdulla Avloniy qarashlarini muhokama qilish jarayonida esa tarbiyaning axloqiy va milliy mohiyati ustuvor ekanligi aniqlangan. Avloniy tarbiyani millat istiqbolini belgilovchi asosiy omil sifatida ko‘rib, oilani insonning axloqiy va ma’naviy kamolotini ta’minlovchi birlamchi makon sifatida baholaydi.[4]. Tadqiqot natijalari Avloniy ilgari surgan ushbu yondashuv bugungi ta’lim-tarbiya tizimida ham dolzarb ekanini ko‘rsatadi.

Muhokama jarayonida zamonaviy globallashuv sharoitida oilaviy qadriyatlarning zaiflashuvi milliy xarakterning barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani aniqlandi. Ommaviy madaniyat, individualistik hayot tarzi va iste’molchilik qadriyatlarining kuchayishi an’anaviy oila modeliga bosim o‘tkazmoqda. Bu holat Sharipov va Hayitov tadqiqotlarida ham qayd etilib, oilaviy tarbiyaning uzluksizligi milliy o‘zlikni saqlashda hal qiluvchi omil ekanligi ta’kidlanadi.[5.6]

Shuningdek, muhokama natijalari oilaviy qadriyatlarni saqlab qolishda faqat an’anaviy yondashuv yetarli emasligini ko‘rsatadi. Fitrat va Avloniy qarashlari oilani zamonaviy ijtimoiy sharoitlarga mos holda rivojlantirish, ya’ni milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini asoslaydi.[3.4] Bu esa oila institutining zamonaviy jamiyatdagi moslashuvchanligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot muhokamasi davomida aniqlanishicha, oilaviy tarbiya masalasi faqat alohida oilalar zimmasiga yuklanmasligi kerak. Bu jarayonda ta’lim muassasalari, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Xasanov tomonidan ishlab chiqilgan oila pedagogikasi konsepsiyalari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi[7].

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash milliy xarakterni saqlab qolishning eng samarali va barqaror yo‘lidir. Fitrat va Avloniy pedagogik merosi hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar oilani milliy xarakterning asosiy tashuvchisi sifatida qayta baholash zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.[2.6]

Shuningdek, muhokama qilingan natijalar kelgusidagi empirik tadqiqotlar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, zamonaviy oilalarda milliy qadriyatlarning real holati, yoshlar ongiga ta’siri va oilaviy tarbiyaning samaradorligini empirik usullar bilan o‘rganish mazkur tadqiqotning mantiqiy davomi sifatida ko‘rilishi mumkin.

**Xulosa**

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsataganki, milliy xarakterni saqlab qolishda oilaviy qadriyatlarning roli beqiyos va strategik ahamiyatga ega. Oila jamiyatning birlamchi ijtimoiy instituti sifatida shaxsning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashi, ijtimoiy mas’uliyati va milliy o‘zligini shakllantiruvchi asosiy muhit hisoblangan. Milliy xarakterning asosini tashkil etuvchi or-nomus, halollik, mehr-oqibat, kattalarga hurmat, jamoaviylik va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar avvalo oilada shakllangan va mustahkamlangan. Tadqiqot davomida Abdurauf Fitrat va Abdulla Avloniyning pedagogik-falsafiy merosi tahlil qilinar ekan, ularning oila va tarbiyaga oid qarashlari milliy xarakterni shakllantirishning nazariy asosini tashkil etishi aniqlangan. Fitrat oilani jamiyat islohining boshlang‘ich nuqtasi sifatida talqin qilib, ota-onaning shaxsiy namunasi va oilaviy muhitning tarbiyaviy ahamiyatini asoslab bergan. Avloniy esa tarbiyani millat istiqboli bilan uzviy bog‘lab, oilani axloqiy va ma’naviy kamolotning eng muhim makoni sifatida baholagan. Ushbu qarashlar bugungi globallashuv sharoitida ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Xulosa shuni ko‘rsataganki, zamonaviy ijtimoiy jarayonlar, xususan globallashuv, axborot texnologiyalarining jadallashuvi va ommaviy madaniyatning ta’siri oilaviy qadriyatlar tizimiga jiddiy sinovlar tug‘dirmoqda. Bunday sharoitda milliy xarakterni saqlab qolish faqat ta’lim muassasalari zimmasiga yuklanmasdan, avvalo oilaning tarbiyaviy salohiyatini kuchaytirishni talab etagan. Agar oilada ma’naviy uzviylik va qadriyatlarga soganqlik ta’minlanmasa, milliy xarakterning uzluksizligi xavf ostida qolgan.

Mazkur tadqiqot natijalari oilani nafaqat ijtimoiy birlik, balki milliy xarakterni uzatuvchi va himoya qiluvchi ma’naviy institut sifatida qayta baholash zaruratini ko‘rsatgan. Fitrat va Avloniy qarashlariga tayangan holda aytish mumkinki, oilaviy tarbiya tizimini zamonaviy sharoitlarga mos ravishda takomillashtirish, an’anaviy qadriyatlarni innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifadir. Tadqiqot yakunida quyidagi amaliy xulosalar va tavsiyalar ilgari surilgan:

birinchidan, ota-onalar uchun milliy tarbiya va oilaviy qadriyatlarga bag‘ishlangan ilmiy-metogank qo‘llanmalar ishlab chiqish zarur;

ikkinchidan, maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida oilaviy qadriyatlar asosida tarbiyaviy mashg‘ulotlar tizimini kuchaytirish lozim;

uchinchidan, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarda milliy oilaviy qadriyatlarni targ‘ib etuvchi kontent hajmini oshirish maqsadga muvofiq;

to‘rtinchidan, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda “oila – milliy xarakter poydevori” mavzusida doimiy ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etish lozim.

Xulosa qilib aytganda, milliy xarakterni saqlab qolish jarayoni uzluksiz va tizimli xarakterga ega bo‘lib, uning muvaffaqiyati bevosita oilaviy qadriyatlarning mustahkamligiga bog‘liq. Oila—milliy ong, axloq va ma’naviyatni kelajak avlodlarga yetkazuvchi asosiy makon bo‘lib qolaveragan. Fitrat va Avloniyning boy pedagogik merosi esa bu jarayonda nazariy va amaliy yo‘l-yo‘riq vazifasini bajargan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025.
2. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston – inson qadri ulug‘langan jamiyat. T., 2022.
3. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – T.: Ma’naviyat, 2000.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: Fan, 1992.
5. Sharipov A. Milliy qadriyatlar va oila madaniyati. – T.: O‘zbekiston, 2021.
6. Hayitov M. O‘zbek oilasi: Tarix va zamonaviylik. – T.: Ma’naviyat, 2019.
7. Xasanov I. Oila pedagogikasi asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2018.
8. To‘xtayev B. Fitrat pedagogik qarashlari. – T.: Fan, 2005.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Xoliqov Yunus Ortiqovich**
Samarqand davlat chet tillar instituti Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi professori
**Shukurova Dinora Shuhratovna**
SamDCHTIning Ingliz tili filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti II-kurs magistranti

## YOSHLARDA BAG`RIKENGLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA AXLOQ VA LINGVISTIKANING ROLI

***Annotatsiya.****Ushbu maqolada yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirishda axloqiy qadriyatlar va lingvistikaning o‘rni tahlil qilinadi. Bag‘rikenglik nafaqat ijtimoiy barqarorlikning, balki global taraqqiyotning ham muhim mezoni hisoblanadi. Shu bois ta’lim jarayonida axloqiy tarbiya va til madaniyatini rivojlantirish orqali yoshlarda hurmat, o‘zaro anglashuv, turli madaniyatlarga ochiqlikni kuchaytirish masalalari yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Bag‘rikenglik, axloqiy tarbiya, lingvistika, yoshlar, madaniyatlararo muloqot, ijtimoiy barqarorlik.*

**Холиков Юнус Ортикович**
Профессор кафедры гуманитарных и информационных технологий Самаркандского государственного института иностранных языков
**Шукурова Динора Шухратовна**
Студентка 2-го курса магистратуры факультета английской филологии и переводоведения Самаркандского государственного института иностранных языков

## РОЛЬ ЭТИКИ И ЛИНГВИСТИКИ В РАЗВИТИИ КУЛЬТУРЫ ТОЛЕРАНТНОСТИ У МОЛОДЕЖИРОЛЬ ЭТИКИ И ЛИНГВИСТИКИ В РАЗВИТИИ КУЛЬТУРЫ ТОЛЕРАНТНОСТИ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ

***Аннотация.*** *В данной статье анализируется роль нравственных ценностей и лингвистики в формировании культуры толерантности у молодежи. Толерантность рассматривается не только как важный критерий социальной стабильности, но и как фактор глобального развития. В связи с этим в образовательном процессе освещаются вопросы укрепления уважения, взаимопонимания и открытости к различным культурам через развитие нравственного воспитания и языковой культуры.*

***Ключевые слова:*** *толерантность, нравственное воспитание, лингвистика, молодежь, межкультурная коммуникация, социальная стабильность.*

**Yunus Ortiqovich Kholikov**
Professor of the Department of Humanities and Information Technologies,
Samarkand State Institute of Foreign Languages
**Dinora Shukhratovna Shukurova**
2nd year master's student, Faculty of English Philology and Translation Studies,
Samarkand State Institute of Foreign Languages

## THE ROLE OF ETHICS AND LINGUISTICS IN DEVELOPING A CULTURE OF TOLERANCE AMONG YOUTH

***Annotation.*** *This article analyzes the role of moral values and linguistics in shaping the culture of tolerance among young people. Tolerance is considered not only as an essential indicator of social stability but also as a factor of global development. Therefore, within the educational process, the issues of fostering respect, mutual understanding, and openness to different cultures through the development of moral education and language culture are highlighted.*

***Keywords:*** *tolerance, moral education, linguistics, youth, intercultural communication, social stability.*

## Kirish

Bugungi globallashuv davrida yoshlarning dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va madaniy saviyasi jamiyat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi omillardan biridir. Bag‘rikenglik - turli millat, din, madaniyat va fikrlarga ochiq bo‘lish, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish madaniyatidir [1]. Uni rivojlantirishda axloqiy qadriyatlar va lingvistik bilimlarning o‘rni beqiyosdir. Chunki til - insonlar o‘rtasidagi eng muhim aloqa vositasi bo‘lib, u orqali nafaqat axborot, balki madaniyat va ma’naviyat ham uzatiladi. Shu jihatdan yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish masalasi bugungi kunda nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va madaniy dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

## Adabiyotlar sharhi

Habermasning fikricha, insonlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida kelishuv, tushunish va o‘zaro hurmat ustuvor bo‘lishi kerak [2]. U axloqiy ong va kommunikativ harakat tushunchalarini birlashtirib, jamiyatda ziddiyatlarni yumshatish va bag‘rikeng muhit yaratish mumkinligini ta’kidlaydi. Habermas nazariyasida lingvistik muloqot faqat axborot almashish vositasi emas, balki jamiyatda axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash mexanizmi sifatida ham qaraladi. Gadamerning fikricha, til insonning dunyoni anglashida va madaniyatni ifodalashida markaziy o‘rin tutadi [3]. Til nafaqat muloqot vositasi, balki boshqa xalqlarni tushunish va ularga hurmat bilan qarash imkonini beruvchi asosiy omildir. Shu jihatdan, uning qarashlari yoshlarda lingvistik kompetensiya bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirishda asosiy vosita ekanini ko‘rsatadi. UNESCO materiallariga ko‘ra, madaniyatlararo kompetensiyalar global tinchlik va barqaror taraqqiyotning asosiy omillaridan biridir [4]. Ushbu xalqaro hujjatda bag‘rikenglik, madaniyatlararo muloqot va o‘zaro hurmatni yoshlar ta’lim-tarbiyasiga singdirish zarurligi ta’kidlanadi. UNESCOning fikricha, bunday kompetensiyalarni rivojlantirish milliy chegaralardan tashqariga chiqib, global hamjamiyat miqyosida bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

## Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

Bag‘rikenglik madaniyatining ildizi, avvalo, axloqiy tarbiyaga borib taqaladi. Insonning odob-axloqi, xulq-atvori, boshqalarga nisbatan mehr-oqibati bag‘rikenglikning asosini tashkil etadi. Yoshlarda axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, ularni turli ijtimoiy guruh va millatlar bilan hurmat asosida muloqot qilishga o‘rgatish, tolerant muhitda yashash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali bag‘rikenglik madaniyatini yuksaltirish mumkin. Bunda oilaviy tarbiya, maktab va oliy ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalarining roli katta. Axloqiy tarbiya yoshlarni o‘z “men”ini tan olgan holda, boshqalarni ham qadrlashni o‘rgatadi.

Bag‘rikenglikni rivojlantirishning yana bir muhim jihati bu - lingvistikaning o‘rnidir. Til insonlar o‘rtasida madaniyatlararo ko‘prik vazifasini bajaradi. Turli tillarni o‘rganish va ularda erkin muloqot qila olish yoshlar dunyoqarashini kengaytiradi, ularni boshqa madaniyatlarni anglash va qadrlashga undaydi. Lingvistika orqali tilning ijtimoiy funksiyasi, madaniyatni ifoda etish qobiliyati va kommunikativ vosita sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shu orqali yoshlar o‘z ona tilini qadrlash bilan birga, boshqa tillarni ham o‘rganib, turli xalqlar bilan o‘zaro tushunish imkoniga ega bo‘ladilar.

Lingvistikaning bag‘rikenglikni shakllantirishdagi o‘rni, shuningdek, madaniyatlararo muloqot bilan chambarchas bog‘liq. Tilni bilish yoshlarni boshqa xalqlarning urf-odatlari, qadriyatlari va mentalitetini tushunishga yordam beradi. Bunday bilim esa o‘zaro anglashuvni kuchaytiradi, turli ziddiyatlarning oldini oladi. Masalan, chet tillarini o‘rganish jarayonida talabalarda boshqa xalqlarning dunyoqarashiga nisbatan qiziqish paydo bo‘ladi, bu esa ularni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalaydi.

Axloq va lingvistikaning uyg‘unligi yoshlarni ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Jamiyatda bag‘rikeng yoshlar ko‘paygan sari turli qarashlar to‘qnashuvi yumshoq hal etiladi, ijtimoiy kelishmovchiliklar kamayadi. Shuningdek, ularning mehnat bozori va xalqaro aloqalarda raqobatbardosh bo‘lishlari ta’minlanadi. Lingvistik bilim va axloqiy tarbiya uyg‘unligi yoshlarning nafaqat shaxsiy rivoji, balki butun jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi omilga aylanadi.

Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlarda turli axborot oqimlari orasida yoshlarning dunyoqarashi tez shakllanmoqda. Shunday sharoitda ularda axloqiy immunitet va til madaniyatini rivojlantirish yanada muhimdir. Chunki noto‘g‘ri ma’lumotlarga berilib ketmaslik, millatlararo nafratni keltirib chiqaruvchi chaqiriqlardan yiroq bo‘lish, konstruktiv muloqot olib borish madaniyatini shakllantirish faqatgina axloqiy tarbiya va til bilimlari uyg‘unlashgandagina mumkin.

## Natijalar

Yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirishda tarixiy-madaniy merosning ahamiyati alohida ta’kidlash lozim. Ajdodlarimiz yaratib qoldirgan asarlar, diniy va falsafiy meros, milliy adabiyotimizda turli madaniyat va e’tiqodlarga hurmat bilan qarash an’analari ko‘p uchraydi. Bu merosni chuqur o‘rganish yoshlarning o‘zligini anglashini, o‘z milliy qadriyatlarini asrab-avaylash bilan birga, boshqa xalqlarning ham ma’naviy boyliklariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishini ta’minlaydi. Masalan, Alisher Navoiy ijodida insonparvarlik, mehr-oqibat va bag‘rikenglik

g‘oyalari yetakchi o‘rin tutadi. Shu kabi manbalarni ta’lim jarayoniga keng jalb qilish orqali yoshlar dunyoqarashida tolerantlik qadriyatlarini mustahkamlash mumkin.

Zamonaviy pedagogik metodlar ham bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Munozara, “debat”, loyiha asosida o‘qitish, madaniyatlararo suhbatlar kabi metodlar yoshlarni turli fikrlarga ochiqlik ruhida tarbiyalaydi. Til klublari va madaniy almashinuv dasturlari orqali talabalarga boshqa xalqlar bilan muloqot qilish imkoniyati yaratiladi. Bunday interaktiv metodlar yoshlarni faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy tajriba orqali bag‘rikenglikka o‘rgatadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar-onlayn platformalar, videokonferensiyalar-yoshlarning turli mamlakat tengdoshlari bilan muloqotini kengaytiradi, bu esa lingvistik hamda axloqiy bilimlarni birlashtirib, ularni global miqyosdagi tolerant shaxs sifatida shakllantiradi.

Ijtimoiy institutlarning roli ham bag‘rikenglikni rivojlantirishda beqiyosdir. Oila, ta’lim muassasalari, diniy tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari yoshlar ongida turli xil qarashlarga hurmat bilan munosabatni tarbiyalashi kerak. Ayniqsa, OAV orqali turli millat va din vakillarining tinch-totuv yashashi targ‘ib qilinsa, bu yoshlarning ongida ijobiy tasavvurlarni shakllantiradi. Jamiyatning ijtimoiy institutlari bir-birini to‘ldirib, bag‘rikenglik madaniyatini mustahkamlaydi.

Bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirishda lingvistik xilma-xillikning afzalliklari ham e’tiborga loyiq. Bir nechta tilni bilgan yoshlar boshqa madaniyatlarning boyligini his etadi, ularning turmush tarzini chuqurroq anglaydi va o‘z dunyoqarashini kengaytiradi. Ko‘p tillilik madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri bo‘lib, u yoshlarda boshqacha fikr va qadriyatlarni qabul qilishga tayyorlikni oshiradi. Til o‘rganish nafaqat bilim olish, balki boshqa xalqlarni tushunish, ular bilan o‘zaro hurmat asosida munosabat qurishni o‘rgatadi.

Shuningdek, bag‘rikenglikni rivojlantirish jarayonida global tamoyillarni ham hisobga olish lozim. Bugungi kunda BMT, UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar turli madaniyat va din vakillari o‘rtasida tinch-totuvlikni mustahkamlashga katta e’tibor qaratmoqda. Ushbu tamoyillarni yoshlarga singdirish ularning nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham bag‘rikeng shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa kelajakda ularning global hamjamiyatda munosib o‘rin egallashini ta’minlaydi.

Yoshlarda bag‘rikenglikni shakllantirishning yana bir muhim omili - bu shaxsiy tajriba va ijtimoiy faoliyatdir [5]. Talabalar xalqaro almashinuv dasturlarida ishtirok etganda, chet tillarini o‘rganishda yoki madaniyatlararo uchrashuvlarda qatnashganda ular real hayotda turli qarashlarga ega insonlar bilan muloqot qiladi. Bu jarayon ularga nazariy bilimdan ko‘ra ancha samarali ta’sir ko‘rsatib, bag‘rikenglikni ichki e’tiqod sifatida shakllantiradi. Shaxsiy tajribaga asoslangan tolerantlik yanada barqaror bo‘lib, yoshlar keyinchalik jamiyatda lider sifatida bu qadriyatlarni faol targ‘ib etadilar.

Oxir-oqibat, bag‘rikenglik masalasi global integratsiya jarayonlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir. XXI asrda xalqlar, madaniyatlar va tillar o‘rtasidagi chegaralar tobora ochilmoqda. Migratsiya, xalqaro hamkorlik, ta’lim va turizm oqibatida yoshlar turli madaniyatlarga bevosita duch kelmoqdalar. Agar ularda axloqiy immunitet va lingvistik savodxonlik yetarli bo‘lsa, ular bu jarayonlarda faol va ijobiy ishtirok etadilar. Shunday qilib, bag‘rikenglik madaniyati nafaqat milliy miqyosda, balki global miqyosda ham ijtimoiy barqarorlikning asosiy kafolati hisoblanadi.

**Xulosa va munozara**

Yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirish bugungi kunda ijtimoiy, madaniy va pedagogik zaruratdir. Bu jarayonda axloqiy qadriyatlar ularni ma’naviy jihatdan mustahkamlasa, lingvistika bilimlari madaniyatlararo muloqot va tushunishni ta’minlaydi. Axloq va lingvistikaning uyg‘unligi yoshlarni tolerant, ijtimoiy faol, madaniy jihatdan yetuk shaxslar etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois ta’lim tizimida axloqiy tarbiya va til o‘qitishni bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirishning asosiy omili sifatida ko‘rib chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Karimov I.A. (2008). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: ma’naviyat.
2. Habermas J. (2012). Moral consciousness and communicative action. Mit press.
3. Gadamer H.-g. (2016). Til va madaniyat falsafasi. Toshkent: fan.
4. Unesco (2017). Intercultural competences: conceptual and operational framework. Paris.
5. Turaqulov B. (2020). Til va bag‘rikenglik masalalari. O‘zbekiston pedagogika jurnali, №4.
6. Kholikov Y. O. The education of young people on the basis of a spiritual, moral and tolerant culture in the educational process //international journal of philosophical studies and social sciences. – 2021. – т. 1. – №. 2. – с. 63-68.
7. Xoliqov, Yunus Ortiqovich. "Yangi O‘zbekistonda bag‘rikenglikni rivojlantirishda millatlararo aloqalarning mohiyati." oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences 2.special issue 23 (2022): 764-774.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Qosimov Xamidullo Abduqaxxor o'g'li**
Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Falsafa yo'nalishi M.FAL-AU-25 guruh talabasi.

## AXBOROTLASHUV SHAROITIDA MILLIY ONG VA MADANIY IDENTIFIKATSIYA MUAMMOLARI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida milliy ong va madaniy identifikatsiyaning shakllanishi hamda o'zgarish jarayonlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotiga chuqur kirib kelishi natijasida milliy qadriyatlar, an'analar va madaniy o'zlikka bo'lgan munosabatning transformatsiyaga uchrashi yoritib beriladi. Globallashuv va raqamli makonning milliy ongga ta'siri, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Axborotlashuv, milliy ong, madaniy identifikatsiya, globallashuv, raqamli madaniyat, milliy qadriyatlar, ijtimoiy-falsafiy tahlil.*

**Косимов Хамидулло Абдукаххор оглу**
Наманганский государственный университет, факультет социальных наук
Студент группы M.FAL-AU-25, философия.

## ПРОДУКТЫ НАЦИОНАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ И КУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ИНФОРМАЦИОННЫХ УСЛОВИЯХ.

***Аннотация:*** *В данной статье с социально-философской точки зрения анализируются процессы формирования и изменения национального самосознания и культурной идентичности в условиях информационного общества. Подчеркивается трансформация национальных ценностей, традиций и отношения к культурной идентичности в результате глубокого проникновения информационных технологий и средств массовой информации в общественную жизнь. Научным образом рассматривается влияние глобализации и цифрового пространства на национальное самосознание, существующие проблемы и пути их решения.*

***Ключевые слова:*** *Информация, национальное самосознание, культурная идентичность, глобализация, цифровая культура, национальные ценности, социально-философский анализ.*

**Kasimov Khamidullo Abdukakhkhor oglu**
Namangan State University Faculty of Social Sciences
Philosophy major M.FAL-AU-25 group student.

## PROBLEMS OF NATIONAL CONSCIOUSNESS AND CULTURAL IDENTIFICATION IN THE CONDITIONS OF INFORMATION

***Abstract:*** *This article analyzes the formation and processes of change of national consciousness and cultural identity in the conditions of an information society from a socio-philosophical perspective. It highlights the transformation of national values, traditions, and attitudes towards cultural identity as a result of the deep penetration of information technologies and mass media into social life. The impact of globalization and digital space on national consciousness, existing problems and ways to eliminate them are considered on a scientific basis.*

***Keywords:*** *Information, national consciousness, cultural identity, globalization, digital culture, national values, socio-philosophical analysis.*

### Kirish:

XXI asr axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan tavsiflanib, jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda zamon shiddat bilan rivojlanmoqda. Axborot oqimi juda jadal darajda ma'lumotlar xabarlar juda ko'p. Ularni tahlil qilish darkordir. Axborot jamiyati sharoitida yoshlarning ma'naviy barqarorligini saqlash strategiyasi, avvalo, ularni axborot olamida yo'naltiruvchi intellektual va ruhiy yo'l xaritasi

sifatida milliy qadriyatlar asosida yangicha axborot madaniyatini shakllantirishga qaratilishi lozim Axborotlashuv sharoitida milliy ong va madaniy identifikasiya globalizatsiya, axborot oqimining ko‘pligi, ma’lumotlarning buzilishi hamda raqamli tafovut kabi muammolar tufayli jiddiy sinovlardan o‘tmoqda, bu esa xalqning o‘zligini yo‘qotishi, milliy qadriyatlarning e’tiborsiz qolinishi va madaniy assimilyatsiyaga olib kelishi mumkin, milliy manbalarni himoya qilish, axborot savodxonligini oshirish va o‘ziga xoslikni saqlab qolish muhimdir. Axborotlashuv jarayoni inson tafakkuri, ijtimoiy munosabatlar va madaniy hayotda tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ushbu jarayonda milliy ong va madaniy identifikatsiya masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki axborot oqimlarining kengayishi, global madaniyatning kirib kelishi milliy o‘zlikni anglash jarayoniga ijobiy hamda salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois axborotlashuv sharoitida milliy ongni saqlash va rivojlantirish masalalarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan o‘rganish muhim vazifalardan biridir. Globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida jamiyat hayotining barcha sohalari axborotlashuv jarayoniga tobora ko‘proq bog‘lanib bormoqda. Axborot makonining kengayishi inson ongiga, ijtimoiy munosabatlarga va madaniy jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, milliy ong va madaniy identifikatsiya masalasi zamonaviy jamiyat uchun dolzarb muammoga aylangan. Chunki axborot oqimlarining tezkorligi va xilma-xilligi milliy o‘zlikni anglash jarayoniga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda, muayyan xavf-xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, axborotlashuv sharoitida milliy ong va madaniy identifikatsiya muammolarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Materiallar va usullar:**

Tadqiqot jarayonida falsafiy tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, taqqoshlash, tizimli yondashuv kabi ilmiy usullardan foydalanildi. Shuningdek, milliy ong va madaniy identifikatsiya muammolarini yoritishda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari, ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalar tahlil qilindi. Axborotlashuv jarayonining jamiyat hayotiga ta’siri empirik kuzatuvlar va nazariy umumlashtirishlar asosida o‘rganildi.

**Natijalar:**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, axborotlashuv sharoitida milliy ong murakkab va ziddiyatli jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bir tomondan, raqamli texnologiyalar milliy madaniyatni targ‘ib qilish, tarixiy merosni keng ommaga yetkazish imkonini bermoqda. Ikkinchi tomondan esa, ommaviy madaniyat va standartlashtirilgan axborot mahsulotlari milliy qadriyatlarning yemirilishiga olib kelishi mumkin. Natijada madaniy identifikatsiya jarayoni yangi shakllar kasb etib, an’anaviy va zamonaviy unsurlar uyg‘unlashuvi kuzatilmoqda. Axborot madaniyat shakllanishi ya’ni axborotning azbukasidan umuman olganda boshlang‘ich asoslaridan boshlanadi. Bu dastlabki davr insoniyat axborot madaniyatining shakllanishi va evolyutsiyasini o‘z ichiga oladi. Insoniyat axborot madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi o‘zining birlamchi manbalarini ana shu dastlabki negizlardan oladi va tobora kengayib, rivojlanib borayotgan axborot tizimlari, vositalari, fan va amaliy yutuqlar asosida ma’lum darajaga ko‘tariladi.

**Munozara:**

Axborotlashuvning milliy ongga ta’siri borasida turli qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar uni milliy o‘zlikni yo‘qotish omili sifatida baholasa, boshqalar ushbu jarayonni milliy madaniyatni rivojlantirish uchun imkoniyat deb hisoblaydi. Mazkur munozaralar shuni ko‘rsatadiki, muammo axborotlashuvning o‘zida emas, balki undan foydalanish strategiyasida namoyon bo‘ladi. Milliy manfaatlarga mos axborot siyosati olib borilgandagina madaniy identifikatsiya barqaror rivojlanadi. Axborotlashuvning milliy ong va madaniy identifikatsiyaga ta’siri borasida ilmiy doiralarda turli yondashuvlar mavjud. Milliy o‘zlikni zaiflashtiruvchi omil sifatida baholasa, boshqalar ushbu jarayonni milliy madaniyatni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar manbai deb hisoblaydi. Ushbu munozaralar shuni ko‘rsatadiki, axborotlashuv jarayonining ijobiy yoki salbiy oqibatlari jamiyatning axborot siyosati, ma’naviy tayyorgarligi va madaniy immunitetiga bevosita bog‘liqdir.

**Xulosa:**

Xulosa qilib aytganda, axborotlashuv sharoitida milliy ong va madaniy identifikatsiya jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Ushbu jarayonlarni ongli ravishda boshqarish, milliy qadriyatlarni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish zarur. Aks holda, globallashuv ta’sirida milliy o‘zlikning zaiflashuvi xavfi yuzaga keladi. Shu bois milliy ongni mustahkamlashga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni kuchaytirish va axborot madaniyatini rivojlantirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Axborotlashuv davrida milliy ong va madaniy identifikasiyani saqlab qolish uchun tizimli yondashuv va faol harakatlar zarur bo‘lib, bu milliy o‘zlikni asrash va uni kelajak avlodlarga yetkazishga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlarni zamonaviy axborot texnologiyalari orqali targ‘ib etish, yoshlar ongida axborot madaniyatini shakllantirish va ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni kuchaytirish ushbu muammolarning samarali yechimi bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1.Sh.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: “O‘zbekiston” – 2017.

2. Sh.Mirziyoyev. Asarlar . 1-jild Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga kutaramiz. Toshkent-“O‘zbekiston” – 2017 .
3. S.Otamuratov, J.Ramatov, S.Husanov “Ma’naviyat asoslari” (ma’ruzalar matni) Toshkent-2000
4. Imom al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. – Toshkent: Movarounnahr, 2005.
5. M.Hamdamova “Ma’naviyat asoslari” o‘quv qo‘llanma TOSHKENT — 2008
6. Otamuratov S. Globallashuv va millat (Siyosiy-falsafiy tahlil). – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2008.
7. Jo‘raev N. Iqtidorli yoshlarni tarbiyalash – jamiyat taraqqiyotining muhim omili. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2013.
8. S.H.Nosirxo‘jayev, M.F.Lafasov S.A.A’zamxo‘jayeva “Ma’naviyat asoslari” Toshkent 2016
9. V.Qo‘chqorov, O.Mahmudov, Z.Zamonov “Ma’naviyat asoslari” Toshkent «Yangiyo‘l Poligraf Servis» 2018
10. O.M.G‘aybullayev “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” TOSHKENT–2019
11. X.Qosimov “Milliy g‘oyada ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligi” Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 9-son journal.namdu.uz
12. https://ziyonet.uz/ru

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Kuvvatov Narkazak Burxanovich**
O‘zMPU “Tarix” kafadrasi professori v.b., f.f.d. (DSc)

## O‘ZBEKISTONDA MILLIY MA‘NAVIY QADRIYATLARNING TUTGAN O‘RNI VA ROLI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada O‘zbekistonda milliy ma’naviy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi tutgan o‘rni va ijtimoiy hayotdagi roli ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Unda milliy ma’naviy qadriyatlar tushunchasining mazmun-mohiyati, tarixiy shakllanish bosqichlari hamda ularning xalq tafakkuri va ijtimoiy ong rivojiga ko‘rsatgan ta’siri yoritiladi. Shuningdek, globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarning saqlanishi, ularni zamonaviy sharoitga mos ravishda rivojlantirish masalalari muhokama etiladi. Maqolada ma’naviy meros, urf-odatlar, an’analar, til, din va madaniyatning milliy o‘zlikni anglashdagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot davomida milliy ma’naviy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy birlikni mustahkamlashdagi funksiyalari ochib beriladi. Xulosa sifatida milliy ma’naviy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish barqaror taraqqiyotning muhim omili ekani ta’kidlanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Yangi O‘zbekiston, ma’naviyat, tafakkurdagi o‘tish, milliy meros, milliy qadriyat, milliy-ma’naviy qadriyat, insonparvarlik g‘oyalari, ma’naviyat va axloqiylikni qayta tiklash.*

**Кувватов Нарказак Бурханович**
и.о. профессора кафедры “История” УзГПУ, д.ф.н. (DSc)

## МЕСТО И РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется с социально-философской точки зрения место национальных духовных ценностей в развитии общества и их роль в общественной жизни в Узбекистане. В нем освещается сущность понятия национальных духовных ценностей, этапы их исторического формирования и их влияние на развитие народного мышления и общественного сознания. Также будут обсуждаться вопросы сохранения национальных ценностей в процессе глобализации, их развития в соответствии с современными условиями. В статье обосновывается значение духовного наследия, обычаев, традиций, языка, религии и культуры в национальном самосознании. В ходе исследования раскрывается роль национальных духовных ценностей в воспитании молодежи, их функции в укреплении социальной стабильности и духовного единства в обществе. В заключение подчеркивается, что сохранение и развитие национальных духовных ценностей является важным фактором устойчивого развития.*

***Ключевые слова:*** *Новый Узбекистан, духовность, переход в мышлении, национальное наследие, национальная ценность, национально-духовная ценность, идеи гуманизма, восстановление духовности и нравственности.*

**Kuvvatov Narkazak Burkhanovich**
Acting Professor of the Department of “History” of UzMU, Doctor of Philological Sciences. (DSc)

## THE PLACE AND ROLE OF NATIONAL SPIRITUAL VALUES IN UZBEKISTAN

***Abstract:*** *This article analyzes the role of national spiritual values in the development of society in Uzbekistan and their role in social life from a socio-philosophical perspective. It highlights the essence and content of the concept of national spiritual values, the stages of their historical formation, and their influence on the development of people’s thinking and social consciousness. Issues of preserving national values in the process of globalization and their development in accordance with modern conditions will also be discussed. The article substantiates the significance of spiritual heritage, customs, traditions, language, religion, and culture in national self-awareness. In the course of the research, the role of national spiritual values in the upbringing of youth, their functions in strengthening social stability and spiritual unity in society are revealed. In conclusion, it is emphasized that the preservation and development of national spiritual values is an important factor in sustainable development. In conclusion, it is emphasized that the preservation and development of national spiritual values is an important factor in sustainable development.*

***Keywords:*** *New Uzbekistan, spirituality, transition in thinking, national heritage, national value, national-spiritual value, ideas of humanism, revival of spirituality and morality.*

**KIRISH.** Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jadallashgan sharoitda milliy ma'naviy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini chuqur anglash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda milliy ma'naviy qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy tafakkuri va madaniy merosi bilan uzviy bog'liq bo'lib, jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Mustaqillik yillarida milliy o'zlikni anglash, ma'naviy merosni tiklash va uni zamonaviy ijtimoiy hayot bilan uyg'unlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, mustaqil fikrlovchi va ma'naviy yetuk shaxs etib tarbiyalash jarayonida bu qadriyatlarning ahamiyati yanada ortmoqda. Shu bois, milliy ma'naviy qadriyatlarning tutgan o'rni va roli masalasini ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

**Adabiyotlar tahlili:** Maqola doirasida milliy ma'naviy qadriyatlar masalasiga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tahlil qilindi. O'zbek olimlarining asarlarida milliy ma'naviyat, qadriyatlar tizimi, tarixiy meros va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ijtimoiy-falsafiy hamda madaniy yondashuvlar asosida yoritilgan. Xususan, mustaqillik davrida chop etilgan tadqiqotlarda milliy o'zlikni anglash, ma'naviy merosni tiklash va yoshlar tarbiyasida qadriyatlarning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Xorijiy adabiyotlarda esa qadriyatlar nazariyasi, madaniy identifikatsiya va globallashuv sharoitida milliy madaniyatni saqlash muammolari keng tahlil etilgan. Ushbu manbalar qiyosiy tahlil qilinib, maqola mavzusining nazariy-metodologik asoslari mustahkamlandi.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Mazkur maqolada milliy ma'naviy qadriyatlarning tutgan o'rni va rolini yoritishda ijtimoiy-falsafiy tahlil metodologiyasi asos qilib olindi. Tadqiqot jarayonida tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari qo'llanilib, milliy qadriyatlarning shakllanish bosqichlari va ularning zamonaviy jamiyatdagi funksional ahamiyati izchil o'rganildi. Shuningdek, tizimli yondashuv orqali ma'naviy qadriyatlar jamiyatning siyosiy, huquqiy, madaniy va axloqiy sohalari bilan o'zaro aloqadorlikda tahlil qilindi. Qiyosiy metod yordamida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlik masalalari ochib berildi. Analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullari asosida ilmiy xulosalar chiqarildi. Empirik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda konseptual qarashlar tadqiqotning ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi.

**Natijalar va ularning tahlili.** Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida yangi ma'naviy makonni yaratish vazifalari aniq belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "... Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'rifatli jamiyatdir"[1:266] – degan xulosasi milliy ma'naviy yuksalish orqali fuqarolik jamiyatiga o'tishni anglatadi.

O'tgan yillarda milliy ma'naviy meros va qadriyatlarni tiklashda tizimli ishlar olib borildi. Milliy ma'naviy tiklanish deganda, muayyan millat hayotida tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichiga kelib mustaqillikni qo'lga kiritish asosida ma'naviyat sohasida avval boy berilgan imkoniyatlardan qayta foydalanish, ma'naviy meros, an'analar, urf-odatlar, qadriyatlarning tiklanishi, milliy o'zlikni anglash, o'tmishda yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni millat rivojlanishiga yo'naltirilgan umummilliy harakat, faoliyat va jarayonlarni nazariy va amaliy jihatdan asoslab beradigan konsepsiyani tushunamiz. Buning ob'yektiv tabiiy jarayon ekanini mustaqil taraqqiyot yo'li bilan bog'liq holda qarash joiz. Yangi jamiyatga o'tish milliy-madaniy meros o'zgarishlar jarayoni bilan bog'liq holda kechganini ko'ramiz.

Yangi vazifalarini amalga oshirish xalq ma'naviy merosi, qadriyatlarning tiklanishi va milliy o'zlikni anglash bilan bog'liq holda kechishining obyektiv sabablari mavjud bo'lib, ularni quyidagi yo'nalishlarda ko'rish mumkin:

1) mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda dolzarb vazifaga aylangani; 2) O'zbekiston jamiyatining ijtimoiy-ma'naviy, g'oyaviy hayoti sohalarini ham tubdan isloh etishni taqozo etishi jamiyatning milliy ma'naviy-madaniy hayoti bilan bevosita bog'liq milliy-ma'naviy qadriyatlar tizimini o'z negiziga olib kelish uchun ularni qayta tiklash bilan bog'liq holda kechgani; 3) Mamlakatda milliy-madaniy va ma'naviy meros hamda milliy qadriyatlarning qaytadan tiklanishiga bo'lgan ehtiyoj o'tgan yillar davomida insonlar ongu-tafakkurida va hayot tarzida, uning o'ziga xos bo'lmagan yot g'oya, maqsad va qadriyatlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan atamalar joy olib, muayyan ta'sir kuchiga ega bo'lgani, bu yot g'oyalardan halos bo'lish uchun o'ziga xos o'tish davri taqozo etilgani; 4) sobiq sovet davri mafkurasi ta'sirida singdirilgan ko'pgina tushunchalarni o'zgartirish, milliy-ma'naviy merosni o'zida ifoda etadigan tushuncha va g'oyalarning qadriyatga aylanishi hamda tiklanishi o'tish davrisiz sodir bo'lmasligi kabi omillar mamlakatning o'ziga xos taraqqiyotiga erishishiga zamin hozirlagani bilan ifodalanadi.

Mazkur jarayonning bir tomondan silliq kechmasligi, ikkinchi tomondan uning obyektiv jarayon ekani nuqtai nazardan tahlil etilsa: *birinchidan,* o'tish davri muammolari qatorida "tafakkurdagi o'tish" eng muhim, ayni paytda qiyin, ko'p ma'naviy-ruhiy kuch va vaqt talab etadigan hodisadir. Bu eski imperiya tuzumi barbod bo'lgan va yangi ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan, eski tuzum an'analari o'rnida yangi tuzumga va milliy madaniyatga mos qadriyatlar shakllana boshlangan sharoitda yuz berib, "ma'naviy meros", "milliy ma'naviy tiklanish", "madaniy meros" tushunchalari yangi ma'no-mazmun kasb etishi lozim edi. Negaki, o'tish davrida milliy ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi ham osonlikcha kechmasligi, odamlar ongida, hayot tarzida chuqur joy olgan "sovetcha qadriyatlar"ni

birdaniga yo‘qotib bo‘lmasligi bois, avval tegishli shart-sharoit yaratilib, choralar ko‘rish, uning salbiy oqibatlari bo‘lishi ehtimolining avvaldan hisobga olish kerak edi. Yangi jamiyatga o‘tish oralig‘i muammolar majmuidan iborat bo‘lgani bois, bu jarayon ma’naviy, diniy qadriyatlar va an’analarni qaytarish va tiklash ancha murakkab sharoitlarda – eski imperiya tuzumi barbod bo‘lgan va yangi ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan bir sharoitda yuz berdi; *ikkinchidan*, bu davrda kishilar ongidagi dogmalar o‘zgarib, boshqa yangi qarashlar qaror topishida milliy-madaniy meros va qadriyatlarga tayanishning zarurligi shunisi bilan ahamiyatliki: 1) jamiyatning bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o‘tishida unutilgan meros va qadriyatlarga ehtiyoj, zarurat tug‘iladi; 2) bu davrda davlat va jamiyat oldiga qo‘ygan maqsadlarni tushunish va tushuntirish ham oson kechmagani bois, milliy-madaniy meros, qadriyatlar hozirgi taraqqiyotimiz strategiyasini to‘g‘ri tushunishda umummilliy birlikni yuzaga keltirishga xizmat qiladi. Ayni paytda jamiyatdagi o‘zgarishlar yangi me’yorlar, fazilatlarni talab qiladi, keyinchalik bular milliy qadriyatga aylanishi lozim bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, sobiq mustabid sovet davridan meros bo‘lib o‘tgan yot va zararli g‘oyalar, begona qadriyatlardan shunchaki, osonlikcha xalos bo‘lish qiyin edi. Shuning uchun mustaqillikning ilk bosqichidayoq milliy-ma’naviy tiklanishni umume’tirof etilgan demokratik tamoyillar asosida amalga oshirib borilgani uning rivojlanishi va yangilanishi uchun to‘g‘ri asos bo‘ldi. O‘zbekiston – demokratiya va ijtimoiy adolat jamiyati sifatida ma’naviy sohada amal qiladigan umumiy tamoyillarni belgilab olgandi, bular: 1) insonparvarlik g‘oyalariga sodiqlik; 2) ma’naviyat va axloqiylikni qayta tiklash; 3) qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklarni, adabiyot va san’atni bilish hamda ko‘paytirish; 4) hur fikrlilik, vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirishda o‘zining ifodasini topdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida “inkorni-inkor” sifatida kechishi milliy ma’naviy tiklanish jarayonida entropiya darajasini ko‘tarishi mumkin edi. Bu esa o‘tish davri mantig‘i va maqsadlariga to‘g‘ri kelmaydigan salbiy holatlarga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan quyidagi jihatlar bilan bog‘liq edi: 1) ekstremistik ruhdagi muholifatning vujudga kelish xavfining paydo bo‘lishi; 2) ma’naviyatga qarshi muholifatning shakllanishi mumkinligi; 3) tajovuzkor millatchilik, diniy murosasizlik va “o‘zimizniki bo‘lmagan” hamma narsaga qo‘rquv hissi bilan nazar solishni siyosiy maqsadga o‘tish xavfi; 4) daxshatga solish;5) qo‘rqinchning kuchli shakllanganligi o‘tish davridagi murakkab, ixtilofli holat sifatida namoyon bo‘lishidan iborat edi.

Dastlab, xalqimiz milliy-ma’naviy qadriyatlarini tiklash jarayonida eski “yagona kommunistik madaniyatni shakllantirish” siyosatining mohiyati fosh etildi. Milliy ma’naviy meros va qadriyatlarni tiklashga ma’naviyatning jamiyat hayotining ajralmas qismi sifatidagi o‘rnini mustahkamlash nuqtai nazaridan ish ko‘rildi.

Milliy ma’naviy meros hisoblangan ushbu qadriyatlarning tiklanishi o‘tish davri bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. Ijodiy ziyolilar, tarixchilar, faylasuflar qarashlarida milliy-ma’naviy tiklanish hodisasi mustaqillik bilan bog‘liq holda o‘ziga xos voqelikka aylana boshladi, uni tushunish, unga yondashish o‘zgardi. Ayni paytda mamlakatda milliy-ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi iqtisodiy rivojlanish bilan hamohang kechishiga erishish lozim edi. Bu ijtimoy-siyosiy, iqtisodiy va boshqa sabablarning mavjudligi bilan bog‘liqdir. Ma’naviy meros ma’naviy taraqqiyot mahsuli, inson aql-zakovati bilan yaratilgan, kelajak avlodni ezgu taraqqiyot sari yetaklash xususiyatiga ega bo‘lgan, kishilarning ongi va dunyoqarashining o‘sishi, olamni bilish va o‘zlashtirish borasidagi sa’yi-harakatlariga kuch-quvvat beradigan, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan azaliy qadriyatlar majmuini o‘rganish va targ‘ib qilish o‘tish davrida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, mamlakatimizda demokratik jamiyatni shakllantirishda o‘ziga xos milliy tamoyillarning negizini rivojlantiruvchi qadriyatlar alohida o‘ringa ega ekaniga o‘tish davri nuqtai nazaridan yondashganda, mustaqillikgacha mamlakatda shakllangan va shakllantirilgan qadriyatlar turlicha bo‘lib, “sotsialistik” deb nomlangan sinfiy-g‘oyaviy-mafkuraviy nuqtai nazardan baho berilgani bilan xarakterlanadi. “Sotsialistik madaniyat”, “ishchi sinfi madaniyati”, “kommunistik madaniyat” va “burjua madaniyati”ga bo‘lib o‘rganishni ilmiy, g‘oyaviy-siyosiy nuqtai nazardan asossiz va bir tomonlama ekanini ko‘rish mumkin. Shuning uchun ham mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab: 1)madaniyat to‘g‘risidagi kommunistik g‘oya tamoyillaridan voz kechildi; 2) madaniyatga sinfiy qarashga barham berildi; 3) fikrlar xilma-xilligi tan olindi; 4) mafkuralar xilma-xilligi tan olindi; 5) hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilmaydigan bo‘ldi.

Dunyodagi har bir xalq o‘z milliy qadriyatiga egadir. Hususan, uning har bir davlat, har bir millatning ushbu sharoitlaridan qanday foydalanishi – demokratik jamiyatni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda qadriyatlarning asosiy jihatlaridan eng muhimi ham aynan shu yo‘ldadir. Mustaqillik tufayli o‘tish davrida milliy qadriyatlarning demokratik jamiyat barpo etishdagi ro‘lini aniqlash masalasida jiddiy ilmiy tadqiqotlar ham, amaliyot bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muammolar ham davlat siyosati darajasiga olib chiqildi. Negaki, biron-bir demokratik jamiyat o‘zining ma’naviy salohiyatlarini, insonlar tafakkurida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirmay, ularni yanada mustahkamlamay turib o‘zining kelajakdagi yo‘lini aniqlashi mumkin emas. Jamiyat hayotida hech bir narsa va voqea-hodisa, xoh u moddiy bo‘lsin, xoh ma’naviy bo‘lsin qadriyat sifatida shaklanishi uchun biroz vaqt, yillar, balki, asrlar o‘tishi lozimdir. Aslida, demokratiyaning milliy va umuminsoniy qadriyatlari har tomonlama rivojlanishi ham shunday yo‘llarni bosib o‘tmoqda. Tarixdagi barcha narsalar ham milliy qadriyat o‘rnini bosavermaydi. Ularning milliy qadriyat sifatida shakllanishi uchun o‘zini ko‘rsata olishi, xalq e’tirofiga sazovor bo‘lishi lozim. Demak, biz demokratik

jamiyat qurishda o‘tmishimizdagi barcha narsalarni to‘laligicha ololmaymiz, negaki, u hamma uchun ibratli bo‘lmasligi mumkin.

Ijtimoiy hayotida O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurilishida milliy qadriyatlardan boshqa tarixan shakllangan diniy qadriyatlarning ham o‘rniga ahamiyat qaratilayotganligi tasodifiy emas edi. Aslida, milliy va diniy qadriyatlar o‘rtasida qat’iy belgilangan chegara mavjud emas. Bu ikkala tushuncha doimo bir-biriga bog‘liq holda rivojlanishda davom etadigan jarayondir, ular o‘zaro bir-biri bilan doimiy aloqada, hamohanglikda mavjud bo‘ladi. Ijtimoiy hayotda milliy va diniy qadriyatlar bo‘ysunuvchanlikdan, fikrlar qaramligidan qutulish, jamiyat hayotida milliy o‘zlikni anglashga xizmat qilishi bilan jamiyatda demokratik umumbashariy tamoyillarning paydo bo‘lishiga turtki beradi. O‘tish davrining o‘zi to‘laligicha milliy madaniy merosning tiklanishi va yangilanishi bilan bog‘liq kechganini ko‘rish mumkin. Bu davrda milliy qadriyatlar, tarixiy an’analar, umuminsoniy ma’naviy boyliklar bilan hisoblashmaslik ruhiyatiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ezgu va bunyodkorlik ishlari amalga oshirila boshlandi, ya’ni: *dastlab,* milliy madaniyatimiz xalq ma’naviy boyligining ildizlariga e’tibor berila boshlandi; *ikkinchidan,* vijdon va e’tiqod erkinligi ta’minlana boshlandi; *uchinchidan,* hali o‘tish davrigacha o‘zbek tili davlat tili maqomini oldi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilab qo‘yildi. Mustaqil davlatimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi haqiqiy mustaqillik timsollariga aylandi; *to‘rtinchidan,* yosh avlodning ma’naviy tarbiyasini milliy g‘oya negizlari asosida amalga oshirish maqsadida Milliy g‘oya konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Milliy qadriyatiga ega bo‘lmagan millat va elat bo‘lmaydi. Aslida milliy qadriyatlar ma’lum bir millatning tarixi, uning turmush tarzi, kelajagi, millatni paydo qilgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, o‘ziga xos til, ma’naviyat hamda madaniyat bilan bevosita uzviy holda namoyon bo‘ladi[2:141]. Xalqimiz yillar mobaynida o‘zlarining qudratli ma’naviy boyliklarini asrab kelgan. Aslida, har bir qadriyatning mazmun-mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam voqea-hodisalarini o‘rganish, ilmiy jihatdan umumlashtirish, ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotga ta’sir etish imkoniyatlari asosida shakllanadi.

Binobarin, milliy qadriyatlar nafaqat mamlakatimiz mustaqilligini yanada mustahkamlaydigan ma’naviy ildizlardan biri, balki, demokratik, adolatli, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosiy manbai hamdir. Milliy qadriyatlar o‘zgarmas hodisalar emas, u jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq hodisa. Shu ma’noda mamlakatda milliy qadriyatlar: 1) tadrijiylik; 2) sabr-toqat, maromiylik va vazminlik; 3) ijtimoiy-siyosiy hayotda bosiqlik va boshqa asoslarda asrab-avaylab rivojlantirilmoqda.

Milliy muhit demokratik qadriyatlarni paydo bo‘lishi va o‘rganishning asosiy manbasidir. Hususan, milliy muhit mahalliy qadriyatlar mohiyatini o‘z darajasida yanada rivojlantiradi va ularni ma’lum bir g‘oyaga aylantirib, umuminsoniy qadriyatlar darajasida shakllantiradi. Millat taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotning takomillashib borishi, yashash va mehnat qilish sharoitlari o‘zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib borishiga imkon yaratiladi. Har bir qadriyat ma’lum aniq davr, sharoit va ehtiyojlarning mahsuligina emas, balki ko‘zgusi hamdir. Shu nuqtai nazardan, qadriyatlarning demokratik tamoyillar qaror topishidagi o‘rniga baho berishdan oldin ulardan foydalanishda ikki omilga alohida e’tibor qaratish muhim: birinchisi, qadriyatlar yuzaga kelgan aniq tarixiy sharoitlar, ikkinchisi, o‘sha davrga xos bo‘lgan imkoniyat va ehtiyojlardan iborat.

Yangi O‘zbekiston strategiyasida mamlakatning yangi demokratik qiyofasini yaratishda g‘oyaviy-ma’naviy omillar ta’sirini oshirish, xalqimizning dunyoviy tafakkur tamoyillarini kuchaytirish, mafkuraviy tamoyillarni mustahkamlash, fuqarolarimizning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash kabi vazifalar belgilanishi bejiz emas”[3:238]. Bugun jahonda kechayotgan jarayonlar ma’naviy omillarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bu esa milliy an’analar jahondagi mavjud universal tamoyillarning muayyan etnik qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlarini hamda ularga oid asoslarni mustahkamlash zarurligini anglatadi va jamiyatni ma’naviy buzilish va axloqsizlik ko‘rinishidagi xilma-xil tahdidlar ta’siridan asraydi.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyat millat hayoti, taqdiri, kelajagi bilan bog‘liq tushunchadir. Millat har qanday milliy qadriyatlarning obyekti, uning yaratuvchisi va milliy qadriyatlar tizimida asosiy tayanadigan ijtimoiy tayanch hamdir. Millat bir tomondan, o‘zining qadriyatlarini muttasil vujudga keltirib turgani bilan ham yashovchanlik xususiyatiga ega. Demak, milliy qadriyatlar o‘tmishdan kelajakka rivojlanish jarayonida doimiy takomillashib, yangi-yangi qirralarini vujudga keltiradi. Aynan ana shu jarayon adolatli va demokratik jamiyatning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Milliy qadriyatlarga yangicha mazmun-mohiyat bilan demokratik tamoyillar asosida yondashilganda, ushbu tushunchaning adolatli demokratik jamiyatni shakllantirishdagi ahamiyatini o‘rganish jarayonida millatning o‘ziga ijtimoiy qadriyat sifatida qarash zarurligi millat milliy qadriyatlarning ham obyekti, ham subyekti hisoblanshidadir.

Milliy ma’naviy-madaniy hayotda tub o‘zgarishlar amalga oshirilgani, milliy madaniy merosimizni tiklashni huquqiy asoslari yaratilgani, milliy istiqlol g‘oyasi tamoyillari asosida amalga oshirila boshlangani, mazkur davr milliy-ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi, ularning hozirgi zamon va axborot sivilizatsiyasi hamda umuminsoniy demokratik

tamoyillar asosida amalga oshirilishi har jihatdan to‘g‘ri va demokratik ekani, milliy ma’naviy tiklash, uning mohiyati xalqning o‘zligini anglash, mustaqil taraqqiyotni ta’minlashning muhim sharti ekani bilan belgilanadi.

**“O‘zbekistonda milliy ma’naviy qadriyatlarning tutgan o‘rni va roli”** mavzusini o‘rganish va undan amaliy foydalanishga doir **5 ta aniq amaliy tavsiya** keltiriladi:

1. **Ta’lim jarayoniga integratsiya qilish.** Maqola mazmunidan umumta’lim maktablari, oliy ta’lim muassasalari va malaka oshirish kurslarida foydalanish, ayniqsa “Ma’naviyat asoslari”, “Falsafa”, “Madaniyatshunoslik” fanlari dasturlariga milliy ma’naviy qadriyatlar bo‘yicha muhokama va tahlil mashg‘ulotlarini kiritish tavsiya etiladi.
2. **Yoshlar bilan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish.** Maqolada ilgari surilgan g‘oyalar asosida yoshlar markazlari, mahalla va ta’lim muassasalarida davra suhbatlari, seminarlar hamda treninglar tashkil etish yoshlarning milliy o‘zlikni anglashini kuchaytiradi.
3. **Ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish.** Maqola xulosalaridan kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik va PhD tadqiqotlarida nazariy manba sifatida foydalanish, shuningdek, keyingi tadqiqotlar uchun metodologik asos sifatida qo‘llash maqsadga muvofiqdir.
4. **Ommaviy axborot vositalarida targ‘ibot qilish.** Maqola g‘oyalari asosida teleko‘rsatuvlar, radioeshittirishlar, internet platformalar va ijtimoiy tarmoqlarda ma’naviy-ma’rifiy kontentlar tayyorlash orqali keng jamoatchilik ongida milliy qadriyatlarga nisbatan mas‘uliyatni oshirish mumkin.
5. **Davlat va jamoat dasturlarida qo‘llash.** Tadqiqot natijalaridan ma’naviy-ma’rifiy siyosat, madaniyat va yoshlar bilan ishlashga doir davlat hamda jamoat dasturlarini ishlab chiqishda konseptual asos sifatida foydalanish milliy qadriyatlarning amaliy hayotdagi ta’sirini kuchaytiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган II-нашри. Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 2022. – Б.266.
2. Мустақиллик. Изоҳли илмий-оммабоп луғат. –Т.: Шарқ, 1998. –Б.141.
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган 2-нашри. – Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 2022. –Б.283.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Salaeva Laylo Shavkatovna**
O‘zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi

## MAMLAKATIMIZDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN MAFKURAVIY ISLOHOTLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan mafkuraviy islohotlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada jahonda globallashuvning tobora avj olishi global mafkuralarning ta’siri ortib borayotgan hozirgi davrda milliy-ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash masalasi dolzarb vazifa hisoblanishi va mana shunday bir sharoitda milliy ma’naviyatning turli ta’sirlarga uchrash jarayoni shiddat bilan kechayotganligi ilmiy jihatdan yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ma’naviyat, mafkura, islohot, tapg‘ibot, ma’rifat, globallashuv, xavfsizlik, shaxs, davlat, jamiyat.*

**Салаева Лайло Шавкатовна**
Старший преподаватель Института переподготовки и повышения квалификации специалистов физической культуры и спорта при Государственной академии спорта Узбекистана

## ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ РЕФОРМЫ, ПРОВОДИМЫЕ В НАШЕЙ СТРАНЕ, И ИХ ОСОБЕННОСТИ

***Аннотация.*** *В данной статье с научной точки зрения анализируются идеи об идеологических реформах, осуществляемых в нашей стране, и их особенностях. Также в статье с научной точки зрения освещается, что вопрос обеспечения национально-духовной безопасности является актуальной задачей в нынешнюю эпоху усиления глобализации в мире, возрастающего влияния глобальных идеологий, и в таких условиях процесс подверженности национальной духовности различным влияниям протекает интенсивно.*

***Ключевые слова.*** *Духовность, идеология, реформа, пропаганда, просвещение, глобализация, безопасность, личность, государство, общество.*

**Salaeva Laylo Shavkatovna**
Senior teacher of the Institute of Retraining and Advanced Training of Specialists in Physical Education and Sports under the State Academy of Sports of Uzbekistan

## THE IDEOLOGICAL REFORMS BEING CARRIED OUT IN OUR COUNTRY AND THEIR FEATURES.

***Annotation.*** *This article analyzes ideas about the ideological reforms being implemented in our country and their specific features from a scientific perspective. Also, the article scientifically illuminates that the issue of ensuring national-spiritual security is a pressing task in the current era of increasing globalization in the world, the growing influence of global ideologies, and in such conditions, the process of national spirituality being subjected to various influences is proceeding intensively.*

***Keywords.*** *Spirituality, ideology, reform, propaganda, enlightenment, globalization, security, individual, state, society.*

**Kirish (Introdustion).** O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida jamiyatning g‘oyaviy birlashuvi zaruratini bugungi kundagi global o‘zgarishlar sharoiti bilan belgilash mumkin. Dunyo miqyosida geosiyosiy maydonidagi o‘zgarishlar, tamaddaunlar to‘qnashuvining tezlashib, axborotlashuv jarayonining kengayib borishi oqibatida sodir bo‘layotgan g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlar, axborot-psixologik xurujlarga qarshi kurash borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Jahonda globallashuvning tobora avj olishi global mafkuralarning ta’siri ortib borayotgan hozirgi davrda milliy-ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash masalasi dolzarb vazifa hisoblanadi. Mana shunday bir sharoitda milliy ma’naviyatning turli ta’sirlarga uchrash jarayoni shiddat bilan kechmoqda. Shu ma’noda yuksak taraqqiyotga erishgan millatlarning yetakchilik qilayotgan bir sharoitida o‘zligini anglashga ulgurmagan millatlarning ma’naviy tahdidlariga bardosh berish masalasi dolzarblashib bormoqda. Aynan, milliy ma’naviyatni asrash, uni kelajak avlodga yetkazish masalasi har qanday xalq va millatning kun tartibidagi asosiy vazifasiga aylanmoqda. Bu haqda O‘zbekiston

Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev shunday degan edi: **“Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan”[1],** - deya qayd etgani bejiz emas. Zero, globallashuv jarayonida milliy mafkura turli dinga e’tiqod qiluvchi millat va elatlarni mafkuraviy-g‘oyaviy, ma’naviy-axloqiy hamda ruhiy jihatdan yagona kuch sifatida birlashuviga xizmat qiladi.

O‘z navbatida hozirgi murakkab keskin g‘oyaviy kurashlar va turli mafkuralar to‘qnashuvlar, “demokratiya” yoki turli diniy ta’limotlar shiorlari bilan niqoblangan yovuz g‘oyalarni singdirishga intilish kuchayib borayotgan bir sharoitda dunyoviy boshqaruv tamoyillariga oqilona munosabatda bo‘lish, ilm-fan, texnika va texnologiyalar yutuqlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mafkura poligonlarida g‘oyaviy–mafkuraviy kurashning tobora avj olishi yoshlar ongi va qalbini ekspansiya etishga qulay zamin yaratmoqda. Ayniqsa, axborot xurujlarining oqibatlari muayyan mintaqa va mamlakat aholisi ongi va qalbini zabt etishda asosiy ekspansiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mana shunday murakkab vaziyatda jamiyatni milliy g‘oya atrofida birlashtirish, Yangi O‘zbekistonni barpo qilishning taraqqiyot strategiyasi talablariga mos bunyodkor ishlarga safarbar qilish, dunyoda kechayotgan murakkab mafkuraviy jarayonlardan ogohligini kuchaytirish doimiy zaruratga aylanib bormoqda.

Bugungi kundagi turli mafkuraviy markazlar chetdan turib, yoshlar ongiga “mutloq erkinlik”, “chegarasiz erkinlik”, “erkin axloq” degan soxta g‘oyalarni singdirishga zo‘r bermoqda. Bu yo‘lda “ommaviy madaniyat” namunalaridan, turli axborot texnologiyalaridan radiotelevidenie, internetning ijtimoiy tarmoqlari kabi vositalardan makkorlik bilan foydalanmoqdalar[2].

Mafkuraviy tortishuvlarda tahdid soluvchi ham, o‘zini himoya qiluvchi ham g‘oyani ommalashtirish uslublaridan foydalanadi. Demak, qaysi tomonning yengishini ham, yengilishini ham pirovard natijada ilmga asoslangan targ‘ibot va tashviqot hal qiladi. Shu tariqa mafkuralar tortishuvi - targ‘ibot va tashviqotlar tortishuviga aylanadi, deyish mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review)**.XXI asrda insoning axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayoni oson kechmaydi. Chunki inson miyasi axborot hajmining ko‘pligidan qiynaladi va o‘zini himoya tizimini ishga tushiradi. G.Pochepsovning fikricha, oxirgi 30 yilda ungacha bo‘lgan besh ming yillikdan ko‘proq axborot ishlab chiqarilgan. Birgina “Nyu York Tayms”dan olinadigan axborotni XVII asrda yashagan angliyalik umri davomida olganligi aniqlangan[3].

XXI asrning birinchi choragiga kelib targ‘ibotning bir qancha an’anaviy va zamonaviy turlari paydo bo‘ldi. Rossiyalik sotsiolog A.Suladze targ‘ibotning his-tuyg‘ularga ta’sir etishiga qarab ijobiy va salbiy targ‘ibot turlariga ajratadi. Bu yondashuv mavzuimiz uchun muhimligi tufayli alohida to‘xtalamiz. Ijobiy (konstruktiv) targ‘ibot iste’molchiga u yoki bu dallilarni qabul qiluvchi uchun foydali shaklda bayon etadi. Ijobiy targ‘ibotning maqsadi ijtimoiy uyg‘unlikni, murosani yuzaga keltirish, odamlarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat. Ijobiy targ‘ibot tarbiyaviy, axborot beruvchi va tushuntirish vazifalarini bajaradi. Bunday targ‘ibot axborot tinglovchilarning hohish-istaklarini inobatga oladi, unda yashirin maqsad (manipulyatsiya) va yolg‘on bo‘lmaydi.

Negativ (destruktiv) targ‘ibot odamlarga u yoki bu g‘oya, fikrni singdirishga urinish. Bunday targ‘ibotning maqsadi ijtimoiy adovatni uyg‘otish, ijtimoiy nizolarni keltirib chiqarish, jamiyatdagi ziddiyatlarni keskinlashtirishdan iborat. Bu targ‘ibot orqali odamlarni bir-biridan uzoqlashtirishga erishish mumkin. Maqsad esa sarob reallikni paydo qilish, targ‘ibotchi manfaatlarini ko‘zlagan holda odamlarga yolg‘on maslaklar va qarashlarni singdirishdan iborat bo‘ladi.

Milliy g‘oya targ‘iboti uzluksiz jarayon bo‘lib, u davlat va nodavlat tashkilotlarining Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi rahbarligida olib boriladigan, bir-biriga bog‘liq ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy-mafkuraviy, tarbiyaviy, madaniy-ma’rifiy tadbirlar majmuasidan iborat.

Bunda asosiy e’tibor qaratilishi zarur deb hisoblangan masalalar sirasiga:

- mafkuralar kurashining jahonshumul jarayonini o‘rganish, uning monitoringi, bu kurashning umumbashariy va mintaqaviy muammolarini aniqlash;
- mafkuraviy tahdidlar va ularga qarshi kurashning samarali yo‘llari haqida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish kabi vazifalar kiritilgan. Bunday vaziyatda targ‘ibot tashviqot ishlari tubdan, ijtimoiy pedagogik asosda isloh qilinmog‘i kerak. Demak, tuman va shahar ma’naviyat va ma’rifat bo‘linmalari faoliyatida:
- hudud xususiyatlaridan kelib chiquvchi mafkuraviy taktika, amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- targ‘ibotda milliy g‘oya mohiyatini, istiqbolni oddiy xalq tilida aks ettirish;
- mafkuraviy tarbiya mexanizmini ishlab chiqish;
- mafkuraviy qarshi kurash taktikasini ilmiy asoslash;
- mafkuraviy muxoliflarimizning ish uslublarini ta’sirsizlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy choralar ko‘rish;
- mintaqalarning mafkuraviy holatini tezkor va ilmiy asosda o‘rganib turish;

• olib borilayotgan targ‘ibot-tashviqot natijasi qanday bo‘layotganini, yutuqlarni yanada oshirib, kamchiliklarni bartaraf qilmog‘imiz lozim bo‘ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Researsh Methodology).**Ilmiy-amaliy asosga qurilgan mafkura hozirgi diniy ekstremizmni ham, bundan keyin biz XXI asrda duch kelishimiz mumkin bo‘lgan xoh ichki, xoh tashqi mafkuraviy tahdidlarni ham kurashib, yenga oladi. Bu – xalqimizning milliy mafkuraviy immunitetini kuchaytirish ijtimoiy pedagogik vositalarini ishga tushirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqda Preziedntimiz Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: “Bugungi shiddatli zamon, dunyodagi ayovsiz raqobat muhiti bizdan juda katta mas’uliyat va safarbarlik bilan ishlashni, hamma sohada yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Mana shunday keskin sharoitda biz yurtimizda tinchlik va osoyishtalik, fuqarolar va millatlar o‘rtasida hamjihatlik muhitini ko‘z qorachig‘idek asrashimiz zarur. Ayniqsa, farzandlarimizning qalbi va ongini yovuz xavf-xatarlardan himoya qilishga eng dolzarb vazifa, deb qarashimiz kerak”[4]. Zero, bugunning dolzarb vazifalardan biri O‘zbekiston xalqlari o‘rtasida birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlash, bir maqsad yo‘lida jipslashtirish va shu orqali rivojlanishning yuksak pog‘onalariga ko‘tarishning nazariy-amaliy asoslarini vujudga keltirish va yoshlarni ma’rifatli, intelektual salohiyatli qilib tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

“Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari” g‘oyasini targ‘ib qilish masalaning milliy tarixiy manbalarini tadqiq qilishni taqozo qiladi. Shu bois Yangi O‘zbekiston poydevorini qurish arafasida davlatimiz tomonidan mahalla va uning boy imkoniyatlariga qaratilayotgan e’tibor alohida ahamiyatga ega. Chunki targ‘ibot va tashviqot aynan mahallalar orqali amalga oshirilgan davrlarda biz jadal yuksalganmiz.

Bugungi kunda xalqimiz “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari” g‘oyasi ruhida yashayapmiz. Shu bois tuman va shaharlarning milliy g‘oya targ‘iboti uchun boy imkoniyatlariga qaratilayotgan e’tibor alohida ahamiyatga ega. Chunki aynan tuman va shaharlarda, mahallalarda g‘oyaviy birdamlik faol bo‘lgan davrlarda biz jadal yuksalganmiz. Zero, milliy g‘oya targ‘iboti bu - millati, tili va kasbidan qat’i nazar, xalqimiz, ayniqsa yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini kuchaytirish, globallashuvning murakkab va tahlikali davrida xalqimizni milliy g‘oya atrofida birlashish, ruhan uyg‘oq va sergak bo‘lish, zimmamizga yuklatilgan mas’uliyatni qalban his etish, hamisha ogoh bo‘lib, yot g‘oyalarga qarshi fidokorona kurashishga safarbar qilish, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kuchli mafkuraviy targ‘ibot – ogohlikka erishishning aniq, ya’ni ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy kafolati sifatida har bir fuqaroda Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasiga mustahkam ishonchni, daxldorlik munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Globallashuv sharoitida dunyoning mafkuraviy jarayonlari va tarix va zamon nuqtai nazaridan tahlili haqida to‘xtalib o‘tish lozim. Dunyoning mafkuraviy manzarasi deganda, jamiyat taraqqiyoti qonunlari, uning rivojlanish tendensiyalarini muayyan ijtimoiy guruh, etnik birliklar, siyosiy kuchlarning o‘ziga xos manfaatlaridan kelib chiqib talqin qilish va shunga asoslangan holda insoniyat istiqbolini belgilashga qaratilgan mafkuraviy tizimlar majmui tushuniladi.

O‘zga hududlarni zabt etish maqsadida olib boriladigan harakatlar doimiy takomillashib, qo‘llaniladigan usul va vositalar mukammalashib borganini tarix ko‘rsatadi. Dunyo mafkuraviy manzarasiga qudratli davlatlar ta’siri alohida ko‘zga tashlanmoqda. Globallashuv jarayonining muhim o‘ziga xos salbiy tomoni shundaki, u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar, diniy ekstremistik tashkilotlarning manfaatlariga xizmat qiladigan kuchga aylanib borishidir[5]. Fransuz generali va tadqiqotchisi P.Gallua hozirgi zamon dunyosidagi geosiyosat o‘lchovlarining eng muhim parametrlari makoniy – hududiy tasnifi bilan birga raketa – yadro qurollarining paydo bo‘lishi va tarqalishi omiliga ham e’tiborni qaratadi hamda unga ega bo‘lgan davlatlar geografik ahvoli, bir-biridan yaqin-uzoqligidan qat’iy nazar, kuchlar nisbatini tenglashtiradi, deydi. Shu bilan birga u ommaviy axborot vositalari va telekomunikatsiyalar rolining kuchayib borayotganiga, shuningdek aholining bevosita siyosiy jarayonlarga aralashuvi oshayotgani omillari insoniyatning geosiyosiy istiqbolida favquloddagi oqibatlarga olib kelishiga e’tiborni qaratadi. P.Gallua quruqlik, dengiz va havo bo‘shliqlaridan tashqari geosiyosatning muhim parametrlari sirasiga kosmos kengliklarini o‘zlashtirishlarni ham kiritadi.

Amerikalik siyosatshunos Zbignev Bjezinskiyning fikriga ko‘ra: “geostrategik ishtirokchilarining aksariyat qismi qudratli davlatlar hisoblanadilar. Biroq qudratli davlatlarning hammasi ham geostrategik ishtirokchilar qatoridan o‘rin ololmaydi”[6].

**Xulosa va takliflar (Conslusion/Resommendations)**. Uzoq o‘tmishdan jahonning qudratli davlatlari tomonidan dunyoning muhim strategik maskanlariga, ulkan tabiiy resurslarga boy o‘lkalariga alohida ahamiyat berilgan. Markaziy Osiyo mintaqasi Yevroosiyoning iqtisodiy, harbiy-siyosiy, etnomadaniy va ma’naviy aloqalari tutashgan joy sifatida jahonda siyosiy va amaliy faollikning ko‘zga ko‘ringan markazlaridan biriga aylana bordi. Bu esa o‘z navbatida, turli mintaqalar va jahon davlatlarining iqtisodiy, siyosiy, harbiy-strategik manfaatlari to‘qnashuvini yuzaga keltirdi[7].

Globallashuv sharoitida u yoki bu mamlakatning milliy manfaatlariga qarshi qaratilgan tahdidlar orasida g‘araz niyatli kuchlar tomonidan axborot xurujlari tizimini rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratilayotgani ularning fuqarolar

ongiga ta’sir etish kuchining yuqoriligi bilan izohlanmoqda. Xulosa qilib aytganda, bugungi zamon talabi axborot olamidagi ustunlik ko‘p narsani hal etadigan bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash masalasi nafaqat ma’naviy, kerak bo‘lsa, muhim siyosiy ahamiyat ham kasb etishini barcha yurtdoshlarimiz teran anglashi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Биз яратаётган янги Ўзбекистоннинг мафкураси эзгулик, одамийлик, гуманизм ғояси бўлади.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2021 йил 19 январ куни маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилиши. https://xs.uz/uzkr/post/agar-kimdir-manaviyat-masalasi-bu-faqat-manaviyat-markazi-yoki-tegishli-vazirlik-va-idoralarning-ishi-deb-ojlasa-khato-qiladi-shavkat-mirziyoev

2. Хакимов А. Глобаллашув жараёнлари туфайли ёшлар тарбиясида рўй бераётган маънавий таҳдидлар. “Глобаллашув жараёнида ахборот хавфсизлиги: информацион таҳдид ва мафкуравий иммунитет масалалари”. Республика илмий – амалий анжумани материаллари. Фарғона. 2013 йил феврал. Б-43

3.Почепцов Г. Г. Психологические войны. М.:«Рефл-бук», К.: «Ваклер», 2000. С. 12.

4. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент.: Ўзбекистон, 2017,1-жилд. –Б.349.

5. Хакимов А. Глобаллашув жараёнлари туфайли ёшлар тарбиясида рўй бераётган маънавий таҳдидлар. “Глобаллашув жараёнида ахборот хавфсизлиги: информацион таҳдид ва мафкуравий иммунитет масалалари”. Республика илмий – амалий анжумани материаллари. Фарғона. 2013 йил феврал. Б-43

6. Отамуродов С. Глобаллашув ва миллий- маънавий хавфсизлик. – Т.: “O‘zbekiston”, 2013.-

7. Бжезинский З. Великая шахматная доска (Господство Америки и его геостратегические императивы. М.: Изд. “Международные отношения”, 1997. – С. 56-57.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Nasridinov Faxriddin Xalmamatovich**
O‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchi izlanuvchisi

## GLOBALLASHUV SHAROITIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI VA AXBOROT MAKONIDAGI TAHDIDLAR

***Annotatsiya.*** *Maqolada globallashuv sharoitida axborot xavfsizligi va axborot makonidagi tahdidlarning ayrim masalalari falsafiy tahlil qilingan. Unda axborot xavfsizligi va axborot makonidagi tahdidlar tushunchalarining mazmuni, unga doir liberal-falsafiy yondashuv, tanqidiy yondashuv va postmodenizm falsafasi, axborotlashgan jamiyat nazariyasi, sharq klassik faylasuflarining yondashuvlari doirasida tahlil qilingan. Shuningdek, yangilanayotgan o‘zbek jamiyatidagi axborot xavfsizligini ta’minlash, globallashuv va axborot tahdidlarining murakkab ijtimoiy-ma’naviy oqibatlari o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *falsafa, jamiyat. axborot, globallashuv, axborot xavfsizligi, axborot makoni, axborot tahdidlari, liberal-falsafiy yondashuv, tanqidiy yondashuv, postmodenizm falsafasi, axborotlashgan jamiyat nazariyasi*

**Насридинова Фахриддина Халмаматовича**
научный сотрудник Национального университета Узбекистана

## ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И УГРОЗЫ ИНФОРМАЦИОННОМУ ПРОСТРАНСТВУ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

***Аннотация.*** *В статье осуществляется философский анализ ряда актуальных вопросов информационной безопасности и угроз информационному пространству в условиях глобализации. Рассматривается содержание понятий информационной безопасности и информационных угроз, а также их интерпретация в рамках либерально-философского подхода, критической философии и философии постмодернизма. Анализируется теория информационного общества и взгляды восточных классических философов на проблему информации. Кроме того, исследуются вопросы обеспечения информационной безопасности в условиях обновляющегося узбекского общества, а также сложные социально-духовные последствия глобализации и информационных угроз.*

***Ключевые слова:*** *философия, общество, информация, глобализация, информационная безопасность, информационное пространство, информационные угрозы, либерально-философский подход, критический подход, философия постмодернизма, теория информационного общества.*

**Nasridinova Fakhriddina Khalmamatovich,**
**Research Fellow, National University of Uzbekistan**

## INFORMATION SECURITY AND THREATS TO THE INFORMATION SPACE IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

***Abstract.*** *The article provides a philosophical analysis of a number of issues related to information security and threats to the information space in the context of globalization. It examines the conceptual content of information security and information threats, as well as their interpretation within the frameworks of the liberal-philosophical approach, critical philosophy, and postmodern philosophy. The study also analyzes the theory of the information society and the perspectives of Eastern classical philosophers on information-related issues. In addition, the article explores the challenges of ensuring information security in the context of a transforming Uzbek society, along with the complex socio-spiritual consequences of globalization and information threats.*

***Keywords:*** *philosophy, society, information, globalization, information security, information space, information threats, liberal-philosophical approach, critical approach, postmodern philosophy, information society theory.*

**Kirish.** Globallashuv sharoitida axborot xavfsizligi masalasi jamiyat taraqqiyotining markaziy falsafiy muammolaridan biriga aylanmoqda. Axborot endilikda moddiy boyliklar yoki harbiy qudrat bilan teng qiymatga ega strategik resurs sifatida namoyon bo‘lmoqda. Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, axborot inson ongi, tafakkuri va ijtimoiy reallikni shakllantiruvchi asosiy vosita bo‘lib, uni nazorat qilish yoki buzish orqali butun jamiyat ongiga ta’sir

o‘tkazish mumkin. Shu bois axborot xavfsizligi inson mavjudligi va ijtimoiy barqarorlik bilan bevosita bog‘liq ekzistensial masalaga aylanmoqda. Bundan tashqari, axborot makonidagi tahdidlar, avvalo, inson tafakkuriga yo‘naltirilgan ma’naviy-axloqiy bosim sifatida namoyon bo‘ladi. Yolg‘on axborot, manipulyatsiya, propaganda va feyk xabarlar orqali haqiqat tushunchasi nisbiy holatga keltiriladi. Falsafada haqiqat va yolg‘on o‘rtasidagi chegaraning buzilishi insonning bilish qobiliyatiga ishonchni susaytirishi natijasida shaxs o‘z qarorlarini mustaqil emas, balki tashqi axborot ta’siri ostida qabul qiladigan passiv sub’ektga aylanib qolishi xavfi yuzaga keladi.

Global axborot makonining chegara bilmas xususiyati milliy qadriyatlar va madaniy identifikatsiya uchun ham jiddiy tahdid tug‘dirmoqda. Universal axborot oqimlari mahalliy an’analar, til va dunyoqarashlarni siqib chiqarib, bir xillashuv jarayonini kuchaytirib yubordi. Falsafiy jihatdan bu holat “men” va “boshqa” o‘rtasidagi ontologik farqning yo‘qolishiga olib kelishi kuzatilmoqda. Axborot xavfsizligi shu nuqtai nazardan millatning ma’naviy mustaqilligini saqlashning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Axborot texnologiyalarining jadal rivoji inson erkinligi masalasini ham yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bir tomondan, axborotga erkin kirish demokratik qadriyatlarni mustahkamlasa, ikkinchi tomondan esa raqamli nazorat, shaxsiy ma’lumotlarning buzilishi va total kuzatuv xavfini kuchaytiradi. Falsafada bu holat erkinlik va xavfsizlik o‘rtasidagi dialektik ziddiyat sifatida talqin qilinadi. Axborot xavfsizligini ta’minlashda bu ikki qiymat o‘rtasida mutanosib muvozanatni topish dolzarb vazifadir.

Axborot makonidagi tahdidlar nafaqat shaxs va jamiyat, balki davlat suvereniteti uchun ham jiddiy xatar tug‘diradi. Kiberxujumlar, axborot urushi va raqamli ta’sir vositalari orqali davlatning siyosiy qarorlariga ta’sir o‘tkazish mumkin. Falsafiy nuqtai nazardan, bu hodisa hokimiyat tushunchasining yangi shaklini, ya’ni “axborot hokimiyati”ni yuzaga chiqaradi. Demak, axborot xavfsizligi davlat mavjudligining yangi ontologik asoslaridan biriga aylanmoqda. Umuman olganda, globallashuv sharoitida axborot xavfsizligi masalasi faqat texnik yoki huquqiy muammo emas, balki chuqur falsafiy mazmunga ega kompleks jarayon bo‘lib, u inson ongi, haqiqat, erkinlik, madaniy identifikatsiya va davlatchilik kabi asosiy falsafiy kategoriyalar bilan uzviy bog‘liq. Shu bois axborot makonidagi tahdidlarga qarshi kurash faqat texnologiyalar orqali emas, balki tanqidiy tafakkur, ma’naviy immunitet va falsafiy ongni rivojlantirish orqali amalga oshirilishi lozim.

**Adabiyotlar tahlili.** Axborot xavfsizligi va axborot makonidagi tahdidlar muammosi falsafada zamonaviy globallashuv jarayonlari bilan bog‘liq holda keng tadqiq etilmoqda. Ushbu masalaga doir ilmiy-nazariy manbalarni falsafiy o‘rganishni g‘arb falsafasi, sharq falsafasi va o‘zbek faylasuflari tomomnidan amalga oshirilgan tadqiqotlarga ajratib ham tahlil qilish mumkin. G‘arb faylasufi Marshall Maklyuenning “Understanding Media: The Extensions of Man” (Nyu-York, 1964) asarida axborot vositalari inson ongining davomi sifatida talqin qilinadi. Muallifga ko‘ra, ommaviy axborot vositalari inson tafakkurini qayta shakllantiradi, bu esa axborot makonidagi ta’sir va manipulyatsiya xavfini kuchaytiradi. Mishel Fuko “Discipline and Punish” (Parij, 1975) asarida nazorat va hokimiyat munosabatlarini tahlil qilib, axborot orqali nazorat qilish jamiyatda yangi hokimiyat shaklini yuzaga keltirishini asoslaydi. Manuel Kastelsning “The Information Age: Economy, Society and Culture” (Oksford, 1996) asari axborot jamiyati nazariyasini asoslaydi. U axborotni iqtisodiy va siyosiy hokimiyat manbai sifatida talqin qilib, global axborot tarmoqlaridagi tahdidlarni davlat suvereniteti bilan bog‘laydi. Jan Bodriyyar “Simulacra and Simulation” (Parij, 1981) asarida virtual reallik va simulyatsiya tushunchalarini kiritib, haqiqatning axborot oqimlari orqali yo‘qolishini ko‘rsatadi. Yurgen Xabermasning “The Structural Transformation of the Public Sphere” (Frankfurt, 1962) asarida jamoatchilik fikri va kommunikatsiyaning ahamiyati ochib berilgan.

Sharq mumtoz falsafasida axborot xavfsizligi masalasi ko‘proq ma’naviy poklik va axloqiy barqarorlik bilan bog‘lab talqin qilinadi. Konfutsiyning “Lun yuy” (“Suhbatlar va mulohazalar”, Xitoy, mil. avv. V asr) asarida so‘z va axborotning jamiyat axloqiga ta’siri ta’kidlanadi. Noto‘g‘ri so‘z jamiyatni buzishini uqtiradi. Lao-szining “Dao de szin” (Xitoy, mil. avv. VI asr) asarida ortiqcha axborot inson ongini izdan chiqarishi haqida fikr bildiriladi. Bu g‘oya zamonaviy axborot oqimlari xavfini falsafiy jihatdan anglashga yordam beradi.Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” (Bagdod, X asr) asarida jamiyat barqarorligi axborot va tarbiyaga bog‘liq ekanini asoslaydi. U yolg‘on axborotni jamiyatni inqirozga olib boruvchi omil sifatida ko‘radi. Imom G‘azzoliyning “Ihyo ulum ad-din” (Bag‘dod, XI asr) asarida inson ongini buzuvchi axborotdan saqlanish, qalb xavfsizligi g‘oyasi ilgari suriladi. Bu axborot xavfsizligining ichki, ma’naviy jihatini ochib beradi. Ibn Xaldun “Muqaddima” (Tunis, XIV asr) asarida axborot va xabarlarni tanqidiy qabul qilish zarurligini ta’kidlaydi. U yolg‘on xabarlar davlatlar tanazzuliga olib kelishi mumkinligini ilmiy asoslaydi

So‘nggi yillarda o‘zbek falsafiy tafakkurida axborot xavfsizligi asosan ma’naviyat, milliy ong va mafkuraviy barqarorlik bilan bog‘liq holda tadqiq etilgan. Masalan, Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” (Toshkent, Ma’naviyat, 2008, 176 b.) asarida mafkuraviy tahdidlar va axborot xurujlari milliy xavfsizlikka tahdid sifatida talqin qilinadi. Erkin Yusupovning “Falsafa” darsligida globallashuv va axborotlashuv jarayonlarining ijtimoiy ongga ta’siri falsafiy tahlil qilingan. Muallif axborot xavfsizligini ma’naviy xavfsizlikning tarkibiy qismi deb hisoblaydi. Narzulla Jo‘raevning asarlarida axborot makonidagi g‘oyaviy kurash masalalari ochib berilgan bo‘lib, u yoshlar ongini axborot tahdidlaridan himoya qilish zarurligini asoslaydi. Bulardan tashqari “Globallashuv va ma’naviy tahdidlar”,

“Axborotlashgan jamiyati falsafasi”, “Axborotlashgan jamiyat sari” kabi mongrafiyalarda global axborot maydonida milliy qadriyatlarni asrash, raqamli makon, kibertahdidlar va inson ongining transformatsiyasi masalalari tahlil qilingan. Mualliflar axborot xavfsizligini falsafiy-strategik muammo sifatida baholaydi.

**Metodologiya.** Mazkur maqoladagi qo‘llanilgan falsafiy-tahliliy metodologiyaga ko‘ra, dialektik yondashuv asosiy usul sifatida globallashuv sharoitida axborot xavfsizligi va axborot makonidagi tahdidlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va ziddiyatlar tahlil qilindi. Dialektik metod orqali axborot erkinligi va xavfsizlik, global va milliy manfaatlar, virtual va real voqelik o‘rtasidagi munosabatlar ochib berildi. Shuningdek, induktiv va deduktiv tahlil usullari yordamida umumiy nazariy qoidalardan aniq ijtimoiy holatlarga xulosa chiqarildi.

Maqolada qiyosiy-tahliliy metod ham qo‘llanilib, g‘arb, sharq va o‘zbek falsafiy qarashlarida axborot, ong va xavfsizlik masalalari qanday talqin qilingani solishtirildi. Bu usul axborot makonidagi tahdidlarning universal va milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, tarixiy-mantiqiy yondashuv orqali axborot xavfsizligi tushunchasining evolyusiyasi, an’anaviy jamiyatdan raqamli jamiyatga o‘tish jarayonida uning mazmuniy o‘zgarishlari tadqiq etildi.

Qo‘llanilgan metodologiyaning yana bir muhim yo‘nalishi tizimli va kompleks yondashuvdan iborat bo‘lib, unda axborot xavfsizligi inson, jamiyat va davlat darajasida yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Shuningdek, aksiologik va antropologik tahlil usullari qo‘llanilib, axborot makonidagi tahdidlarning inson qadr-qimmati, ma’naviy barqarorlik va milliy identifikatsiyaga ta’siri baholandi. Natijada tadqiqot axborot xavfsizligini faqat texnik masala emas, balki falsafiy-ijtimoiy muammo sifatida kompleks yoritish imkonini berdi.

**Natija va tahlillar.** Globallashuv sharoitida axborot xavfsizligi tushunchasi falsafiy jihatdan inson, jamiyat va davlat mavjudligining yangi asoslarini belgilab beruvchi kategoriya sifatida shakllanmoqda. Agar an’anaviy jamiyatda xavfsizlik asosan jismoniy va hududiy himoya bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, postindustrial jamiyatda axborot makoni inson hayotining markaziga aylandi. Falsafada axborot ongni shakllantiruvchi asosiy omil sifatida qaraladi, shu bois axborot xavfsizligi ong xavfsizligi, tafakkur mustaqilligi va bilish erkinligi bilan uzviy bog‘liq. “Axborot makonidagi tahdidlar insonning voqelikni anglash qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatib, haqiqat va yolg‘on o‘rtasidagi chegarani noaniqlashtiradi”[1.23]. Bu holat axborot xavfsizligini faqat texnik emas, balki falsafiy-antropologik muammo sifatida ko‘rishni taqozo etadi.

Axborot xavfsizligining turli talqinlari mavjud bo‘lib, ular falsafiy maktablar va nazariy yondashuvlarga qarab farq qiladi. “Liberal-falsafiy yondashuvda axborot xavfsizligi axborotga erkin kirish huquqi bilan bog‘liq holda talqin etiladi”[2.45]. Bu qarashga ko‘ra, xavfsizlik cheklov emas, balki erkinlikni ta’minlovchi mexanizm bo‘lishi lozim. Biroq bu yondashuv axborot manipulyatsiyasi va psixologik ta’sir masalasini yetarlicha hisobga olmaydi. Shu nuqtai nazardan, axborot xavfsizligi faqat huquqiy kategoriya emas, balki ma’naviy-ongiy himoya tizimi ekani namoyon bo‘ladi. Falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, mutlaq axborot erkinligi ham potensial axborot xavfiga aylanishi mumkin.

Tanqidiy nazariya va postmodernizm falsafasida axborot xavfsizligi masalasi hokimiyat va nazorat kategoriyalari bilan bog‘lab talqin qilinadi. Mishel Fuko axborot va bilimni hokimiyatning asosiy vositasi sifatida ko‘radi. Unga ko‘ra, kim axborotni nazorat qilsa, jamiyat ongini ham boshqaradi. “Globallashuv sharoitida raqamli platformalar va ommaviy axborot vositalari yangi “panoptikum”ni yuzaga keltirdi”[3.27]. Bu holatda axborot xavfsizligi shaxsni tashqi nazoratdan himoya qilish masalasiga aylanadi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu yerda erkinlik va xavfsizlik o‘rtasidagi dialektik ziddiyat yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari postmodernizm falsafasida axborot makoni simulyatsiya va virtual reallik bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Jan Bodriyyar axborot oqimlari haqiqatni emas, balki uning belgilarini ishlab chiqarayotganini ta’kidlaydi[4.56]. Bu holatda inson real voqelikdan uzilib, virtual obrazlar dunyosida yashay boshlaydi. Axborot xavfsizligi esa haqiqatni saqlab qolish, simulyakrlar ta’siridan ongni himoya qilish vazifasini bajaradi. Falsafiy jihatdan bu bilish nazariyasi inqirozi bilan bog‘liqdir. Inson axborotni qabul qiluvchi sub’ekt emas, balki unga bo‘ysunuvchi ob’ektga aylanish xavfiga duch keladi

Axborotlashgan jamiyat nazariyasi doirasida axborot xavfsizligi strategik resursni muhofaza qilish sifatida talqin qilinadi. “Bu nazariya hozirgi zamon industrial jamiyat to‘g‘risidagi ratsional ta’limotlar (Dj. Bell, U.Rostou, Z.Bjezinskiy va b.) doirasida ilgari surilgan. Uning mualliflari O.Toffler, Ye.Masuda, Dj. Pelon, Dj. Martin va boshqalar hisoblanadi”[5.117]. Manuel Kastels axborotni iqtisodiy, siyosiy va madaniy hokimiyatning asosi deb hisoblaydi. Global tarmoqlar orqali tarqaladigan axborot milliy chegaralarni inkor etadi va davlat suverenitetini zaiflashtiradi. Shu sababli axborot xavfsizligi davlat mavjudligining yangi shakli sifatida qaraladi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu holat suverenitet tushunchasining qayta ta’riflanishini talab qiladi. Axborot makonida mag‘lub bo‘lgan davlat real siyosiy maydonda ham zaiflashadi.

Sharq falsafasida axborot xavfsizligi asosan axloq, tarbiya va ma’naviy poklik bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Abu Nasr Forobiy fozil jamiyat qurilishida to‘g‘ri axborot va sof bilim hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi. Uningcha, yolg‘on va buzg‘unchi axborot jamiyatni tanazzulga olib keladi[6.48]. Bu qarash axborot xavfsizligini ma’naviy

immunitet sifatida tushunishga asos bo‘ladi. Falsafiy jihatdan bu yondashuv insonning ichki olamini muhofaza qilishga qaratilgan. Zamonaviy globallashuv sharoitida bu g‘oyalar yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Islom falsafasida axborot xavfsizligi qalb va ong xavfsizligi bilan teng qo‘yiladi. Imom G‘azzoliy inson ongini buzuvchi ma’lumotlar ma’naviy halokatga olib kelishini ta’kidlaydi. Uning asarlarida axborotni tanlab qabul qilish, uni aql va iymon mezonlari asosida baholash zarurligi uqtiriladi[7.64]. Bu nuqtai nazar axborot makonida tanqidiy tafakkurning ahamiyatini ochib beradi. Falsafiy jihatdan, bu insonning ma’naviy avtonomiyasini saqlash masalasidir. Axborot xavfsizligi shu tariqa ichki ma’naviy barqarorlikni ta’minlash vositasiga aylanadi.

O‘zbek falsafiy tafakkurida axborot xavfsizligi milliy ong va mafkuraviy barqarorlik bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Islom Karimov axborot xurujlarini milliy xavfsizlikka tahdid sifatida baholar ekan, uningcha, global axborot makonida g‘oyaviy kurash avj olgan sharoitda jamiyatning ma’naviy immuniteti hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi[8.97]. Falsafiy nuqtai nazardan, bu milliy identifikatsiyani saqlab qolish muammosidir. Axborot xavfsizligi bu yerda faqat himoya emas, balki milliy taraqqiyot sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy o‘zbek faylasuflari axborot xavfsizligini globallashuvning murakkab ijtimoiy-ruhiy oqibatlari bilan bog‘laydilar. Ularga ko‘ra, axborot makonidagi tahdidlar yoshlar ongiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli axborot xavfsizligi ta’lim, tarbiya va madaniyat siyosati bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi lozim. Falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, axborot xavfsizligi jamiyatning ma’naviy barqarorligi mezoniga aylanmoqda. Bu muammoni yechish kompleks, tizimli yondashuvni talab qiladi[9.212] .

Zamonaviy axborot makoni globallashuv jarayonlarining eng faol va ta’sirchan maydoni sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu makonda axborot inson hayotining barcha sohalariga kirib borib, uning dunyoqarashi, qadriyatlari va qaror qabul qilish jarayonlarini shakllantiradi. “Jamiyatni axborotlashtirish jarayoni hozirgi kunda global xusyatga ega bo‘lib, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlvnishning o‘zagini tashkil etmoqda”[10.117]. Falsafiy nuqtai nazardan, axborot makoni inson ongining kengaytirilgan realligi bo‘lib, undagi tahdidlar bevosita ong xavfsizligiga qaratilgan. Yolg‘on axborot, manipulyatsiya, dezinformatsiya va feyk xabarlar orqali inson voqelikni noto‘g‘ri idrok etish holatiga tushib qolishi mumkin. Bu esa haqiqat kategoriyasining inqiroziga olib keladi. Shu sababli axborot makonidagi tahdidlar masalasi faqat texnik emas, balki chuqur falsafiy muammo sifatida qaraladi.

Zamonaviy axborot tahdidlarining eng xavfli ko‘rinishlaridan biri – axborot orqali ongni boshqarish, ya’ni manipulyativ ta’sirdir. Bu jarayonda axborot bilish vositasi emas, balki hokimiyat quroliga aylanadi. Bilim va axborot hokimiyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, kim axborot oqimini nazorat qilsa, u jamiyat ongini ham nazorat qiladi. Zamonaviy raqamli platformalar ushbu ta’sirni yashirin shaklda amalga oshiradi. Falsafiy jihatdan bu insonni mustaqil sub’ektdan boshqariladigan ob’ektga aylantirish xavfini tug‘diradi. Shu nuqtai nazardan, axborot tahdidlariga qarshi kurash inson sub’ektivligini saqlab qolish bilan bog‘liq.

Axborot makonidagi yana bir muhim tahdid – haqiqatning simulyatsiya qilinishi va virtual voqelikning ustunlik qilishi hisoblanadi. Jan Bodriyyarning simulyakrlar nazariyasiga ko‘ra, zamonaviy jamiyatda belgilar haqiqat o‘rnini egallab, insonni sun’iy obrazlar dunyosida yashashga majbur qiladi. Bu holatda feyk axborot real voqelikdan farqlanmay qoladi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu bilish jarayonining buzilishi, gnoseologik inqirozdir. Axborot tahdidlariga qarshi kurash, avvalo, haqiqatni anglash va tanqidiy tafakkurni tiklashni talab qiladi. Aks holda axborot makoni insonni ma’naviy begonasiga aylantiradi.

Global axborot makonidagi tahdidlar milliy madaniyat va identifikatsiya uchun ham jiddiy xavf tug‘diradi. Universal axborot mahsulotlari mahalliy qadriyatlarni siqib chiqarib, madaniy bir xillashuvga olib keladi. Falsafiy jihatdan bu “men” va “boshqa” o‘rtasidagi ontologik farqning yo‘qolishi demakdir. Milliy til, tarix va ma’naviy meros axborot oqimlari orasida yo‘qolib ketish xavfiga duch keladi. Shu bois axborot tahdidlariga qarshi kurash madaniy o‘zlikni saqlash bilan uzviy bog‘liq. Bu kurash faqat cheklovlar orqali emas, balki milliy ma’naviyatni mustahkamlash orqali olib borilishi lozim.

Axborot makonidagi tahdidlar davlat suverenitetiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Manuel Kastels ta’kidlaganidek, axborot jamiyatida hokimiyat tarmoqlar orqali amal qiladi. Kiberxujumlar, axborot urushi va raqamli ta’sir vositalari orqali davlatlarning ichki siyosatiga aralashish mumkin. Falsafiy nuqtai nazardan, bu suverenitet tushunchasining qayta ta’riflanishini talab qiladi. “Davlat endilikda faqat hududni emas, balki axborot makonini ham himoya qilishi lozim”[11.147]. Axborot tahdidlariga qarshi kurash davlat mavjudligining strategik shartiga aylanmoqda.

Umuman olganda, globallashuv sharoitida axborot xavfsizligi ko‘p qirrali falsafiy kategoriya bo‘lib, uni turli nazariy konsepsiyalar doirasida talqin qilish mumkin. U antropologik, gnoseologik, aksiologik va siyosiy o‘lchamlarga ega. Axborot xavfsizligi insonning ongiy mustaqilligi, jamiyatning ma’naviy barqarorligi va davlat suverenitetining muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, bu muammoni faqat texnik yoki huquqiy usullar bilan hal etib bo‘lmaydi. U ma’naviy tarbiya, tanqidiy tafakkur va falsafiy ongni rivojlantirishni talab qiladi.

Shuningdek, zamonaviy axborot makonidagi tahdidlar esa, inson ongi, jamiyat barqarorligi va davlat suverenitetiga qaratilgan kompleks xavflar tizimidir. Ularga qarshi kurash faqat texnik yoki huquqiy choralar bilan

cheklanib qolmasligi kerak. Falsafiy nuqtai nazardan, bu kurash haqiqatni saqlash, ong mustaqilligini ta’minlash va ma’naviy barqarorlikni mustahkamlashni talab qiladi. Axborot makonidagi tahdidlarga qarshi samarali kurash falsafiy ong, tanqidiy tafakkur va ma’naviy immunitetni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

**Xulosalar.**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, globallashuv sharoitida axborot xavfsizligi faqat texnik yoki huquqiy muammo emas, balki kompleks falsafiy-ijtimoiy hodisadir. Axborot inson ongi va jamiyat tafakkurini shakllantiruvchi asosiy omilga aylangan sharoitda, uning buzilishi ong xavfsizligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid soladi. Shu bois axborot xavfsizligi tushunchasi insonning bilish qobiliyati, tafakkur mustaqilligi va ma’naviy barqarorligi bilan uzviy bog‘liq holda qayta talqin qilinishi lozim.

Nazariy tahlil axborot makonidagi tahdidlar asosan manipulyatsiya, dezinformatsiya va virtual simulyatsiya orqali amalga oshirilishini ko‘rsatdi. Bu jarayonlarda axborot haqiqatni ifodalovchi vosita emas, balki ta’sir o‘tkazish quroliga aylanadi. Natijada inson sub’ekti passiv qabul qiluvchiga aylanib, tanqidiy fikrlash zaiflashadi. Bu holat axborot xavfsizligini ta’minlashda tanqidiy tafakkur va axborot madaniyatining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqotimiz shuni ham ko‘rsatdiki, global axborot makonidagi tahdidlar milliy madaniyat va identifikatsiyaga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Universal axborot oqimlari mahalliy qadriyatlar, til va an’analarni siqib chiqarish xavfini tug‘diradi. Shu nuqtai nazardan, axborot xavfsizligi milliy ma’naviyatni saqlash va rivojlantirishning nazariy asosi sifatida namoyon bo‘lib, milliy ong va ma’naviy immunitetni mustahkamlash axborot tahdidlariga qarshi kurashning muhim sharti hisoblanadi.

Olingan nazariy xulosalarimiz axborot xavfsizligining davlat suvereniteti bilan bevosita bog‘liq ekanini ham ko‘rsatdi. Global tarmoqlar, kibertahdidlar va axborot urushi sharoitida davlatlar faqat hududiy chegaralarni emas, balki axborot makonini ham muhofaza qilishga majbur. Bu esa suverenitet tushunchasining falsafiy qayta anglanishini talab qilgani bois, axborot xavfsizligi davlat barqarorligining strategik omili sifatida qaralishi lozim.

Umuman olganda, maqola doirasida olib borilgan nazariy tahlil axborot xavfsizligini ta’minlash faqat cheklov va nazorat orqali emas, balki inson ongi, ma’naviy tarbiya va falsafiy ongni rivojlantirish orqali samarali bo‘lishini asosladi. Axborot makonidagi tahdidlarga qarshi kurashda texnik, huquqiy va ma’naviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish zarur. Shu tariqa axborot xavfsizligi globallashuv sharoitida barqaror taraqqiyot va inson kamoloti uchun muhim nazariy kategoriya sifatida shakllanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Маклюэн М. *Понимание медиа: внешние расширения человека.* — Нью-Йорк: McGraw-Hill, 1964. — 23-бет.
2. Хабермас Ю. *Структурные изменения публичной сферы*. — Франкфурт: Suhrkamp, 1962. — 45-бет.
3. Фуко М. *Надзирать и наказывать*. — Париж: Gallimard, 1975. — 27-бет.
4. Бодрийяр Ж. *Симулякры и симуляция*. — Париж: Éditions Galilée, 1981. — 56-бет.
5. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси 1-жилд. –Тошкент: ЎзФМЖ нашриёти, 2023. –Б. 117
6. Форобий А.Н. *Фозил одамлар шаҳри.*А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. –Б. 48.
7. Ғаззолий И. *Иҳё улум ад-дин*. — Мовароуннахр, 2005 й. –Б. 64
8. Каримов И.А. *Юксак маънавият – енгилмас куч*. — Тошкент: Маънавият, 2008. –Б. 97.
9. Жўраев Н. *Миллий гоя ва мафкура*. -Тошкент: Ўзбекистон, 2015. –Б.121.
10. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси 1-жилд. –Тошкент: ЎзФМЖ нашриёти, 2023. –Б. 117
11. Кастельс М. *Информационная эпоха*. — Оксфорд: Blackwell Publishers, 1996. — 147-бет.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Jabborova Sayyoraxon Muxammadkobilovna**
Andijon davlat pedagogika instituti Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail:sayyoraxonjabborova754@gmail.com

## FALSAFA NUQTAI NAZARIDAN AYOL LIDERLIK MODELI : MILLIY VA GLOBAL TENDENSIYALAR

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida ayollar liderligining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Ayollarni jamiyat hayotining barcha sohalarida faol ishtirok etishga jalb etish, ularning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy liderlik salohiyatini rivojlantirish borasidagi davlat siyosati, qonunchilik bazasi va amalga oshirilayotgan islohotlar yoritiladi. Zamonaviylik va modernizatsiya jarayonlarining ayollar roliga ta’siri, ayniqsa, gender tengligi tamoyillarining amalda qo‘llanilishi orqali ko‘rsatiladi. Shuningdek, maqolada xalqaro tajriba, ilg‘or liderlik modellariga ham murojaat qilinadi.*

***Kalit so`zlar:*** *Yangi O‘zbekiston, ayollar liderligi, gender tengligi, modernizatsiya, zamonaviylik, siyosiy islohotlar, ijtimoiy faollik, ayollar huquqlari.*

**Jabborova Sayyorakhon Mukhammadkobilovna**
Teacher of the Department of National Idea, Fundamentals of Spirituality and Legal Education, Andijan State Pedagogical Institute

## A MODEL OF WOMEN'S LEADERSHIP FROM A PHILOSOPHICAL POINT OF VIEW: NATIONAL AND GLOBAL TRENDS

***Annotation:*** *This article explores the role and significance of women’s leadership in the development of New Uzbekistan. It analyzes the state’s policies, legal framework, and reforms aimed at encouraging women’s active participation in all spheres of society, and developing their political, social, and economic leadership potential. The impact of modernization and contemporary processes on women’s roles, particularly through the implementation of gender equality principles, is discussed. The article also references international experiences and advanced leadership models.*

***Key words:*** *New Uzbekistan, women’s leadership, gender equality, modernization, modernity, political reforms, social engagement, women’s rights.*

**Джаборова Сайёрахон Мухаммадкобиловна**
Преподаватель кафедры национальной идеи, основ духовности и правового образования, Андижанский государственный педагогический институт

## МОДЕЛЬ ЖЕНСКОГО ЛИДЕРСТВА С ФИЛОСОФСКОЙ ТОЧКИ ЗРЕНИЯ: НАЦИОНАЛЬНЫЕ И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется роль и значение женского лидерства в развитии Нового Узбекистана. Рассматриваются государственная политика, законодательная база и проводимые реформы, направленные на вовлечение женщин в активное участие во всех сферах общественной жизни, развитие их политического, социального и экономического лидерского потенциала. Показано влияние процессов модернизации и обновления на роль женщин, особенно на практике, посредством применения принципов гендерного равенства. В статье также приводятся примеры международного опыта и передовых моделей лидерства.*

***Ключевые слова:*** *Новый Узбекистан, женское лидерство, гендерное равенство, модернизация, модернизация, политические реформы, социальная активность, права женщин.*

Yangi O‘zbekistonni modernizatsiyalash jarayonida ayollar liderligi markaziy o‘rin tutadi. Negaki hozirgi kunda yoshlarning teng qismini jamiyatda ayollar tashkil etadi. Hech birimizga sir emas, bugungi kunda har jabhada ayollar faolligi oshmoqda. Oldinlari ayollar hatto jaamiyatga qoshilmagan, oldi ishlar ham ayollarga nasib etmaganligini ko`ramiz.Bo‘limlarda aniqlangan to‘siqlarga qaramay, davlat va jamiyat ushbu yo‘nalishda sezilarli chora-tadbirlar qabul

qildi. Ijtimoiy stereotiplar va infratuzilma cheklovlari mavjud bo‘lsa-da, hozirgi strategiyalar orqali ularni bartaraf etishga harakatlar aniq sezilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi Yangi O‘zbekiston davrida gender tengligi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi. 2019 yilda “Gender tengligini ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Ayollar uchun kvotalar tizimi joriy qilindi: parlament va mahalliy kengashlarda ayollar soni 30% dan oshdi.[1] O‘zbekistonlik ayollar orasida siyosiy partiyalar, mahalla tizimi, ijtimoiy harakatlarda yetakchi bo‘layotganlar soni oshmoqda. Bu esa zamonaviy fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi[2]. Ayollar liderligi — jamiyatni yanada demokratlashtirish va barqaror taraqqiyotga olib boradigan omillardan biridir. Dunyoning turli rivojlangan davlatlari-yu, cheka hududli davlatlarigacha bo`lgan hududlarda ham ayollar boshqaruviga, yo ayollar lider bo`lgan jamiyatga ko`zimiz tushadi. Bu bilan ayollar ham yaxshi jamiyat yetakchisi bo`la olishini hammaga ko`rsatib qo`yishmoqdalar.

Zamonaviylik va modernizatsiya jarayoni Modernizatsiya deganda iqtisodiyot, ta’lim, sog‘liqni saqlash, siyosiy islohotlar va madaniyatda zamonaviy tamoyillarning joriy etilishi tushuniladi[3]. Bu jarayonlarda ayollarning faolligi ortmoqda: xususiy tadbirkorlik, texnologik startaplar, STEM sohalarida ko‘plab ayollar yetakchilik qilmoqda [4]. Zamonaviylik va modernizatsiya jarayoni dunyoning barcha davlatlarida taraqqiyotning muhim omili sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyot, ta’lim, sog‘liqni saqlash, siyosiy tizim va madaniyat sohalarida zamonaviy tamoyillarni joriy etish davlatlarni yangi bosqichga olib chiqadi. O‘zbekiston mustaqillik yillarida bosqichma-bosqich modernizatsiya jarayonini boshlagan bo‘lsa, so‘nggi yillarda bu jarayon tezlashdi va keng qamrovli islohotlar ko‘rinishida namoyon bo‘lmoqda. Modernizatsiyaning muhim jihatlaridan biri – jamiyatda ayollar faoliyatining kuchayishi, ularning yetakchilik pozitsiyalariga ko‘tarilishi hisoblanadi. Xususan, Yangi O‘zbekiston siyosatida gender tenglik va ayollar salohiyatini oshirish katta ahamiyatga ega. Zamonaviylik — bu jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotidagi yangilanish va taraqqiyot jarayoni. Zamonaviylik quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

Innovatsiyalarni joriy etish — yangi texnologiyalar, ilm-fan va boshqaruv tizimlarining rivojlanishi;

Ta’lim tizimining islohoti — o‘quv dasturlarining zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqilishi;

Ijtimoiy va siyosiy tenglik — jamiyatda barcha qatlamlarning teng huquqligi va imkoniyatlari;

Madaniy yangilanish — an’anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy axloq me’yorlarini uyg‘unlashtirish.

O‘zbekistonda zamonaviylik jarayoni aynan shu elementlar asosida shakllanmoqda va davlat boshqaruvidan tortib, xususiy sektorgacha keng ko‘lamda o‘z aksini topmoqda. Ayollar liderligi zamonaviy modeli. XXI asrda dunyo siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida ayollar roli tobora ortib bormoqda. Endilikda ayollar nafaqat oilaviy muhitda, balki davlat boshqaruvi, tadbirkorlik, ta’lim, fan, madaniyat va texnologiya sohalarida ham yetakchilik qilmoqda. Shu munosabat bilan "ayol liderligi" tushunchasi yangicha mazmun kasb etmoqda.[5] Zamonaviy ayol lideri – bu faqatgina rahbar lavozimini egallagan shaxs emas, balki o‘z atrofidagi jamiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsata oladigan, ijtimoiy mas’uliyatga ega, innovatsion fikr yurituvchi shaxsdir. Bugungi kunda gender tenglikni ta’minlash, inklyuziv jamiyat barpo etish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ayollar liderligi muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayollar liderligi qadimdan mavjud bo‘lsa-da, u ko‘pincha rasmiy tan olinmagan. Misol tariqasida olishimiz mumkinki Qadimgi urug`chilik davrida ham dastavval Matriarxat ya`ni ona boshqaruvi bo`lgan, Erkaklar esa bu davrda uy yumushlarini , ro`zg`or ishini hamda farzand tarbiyasi bilan mashg`ul bolgan. Biroq, so‘nggi 100 yillikda bu tushuncha alohida siyosiy va sotsiologik hodisa sifatida shakllandi. Masalan, Kleopatra – qadimgi Misr siyosiy boshqaruvida o‘z izini qoldirgan kuchli lider ayol; Joanna d’Arc – Frantsiya ozodligi uchun kurashgan jasoratli ayol; Indira Gandi, Margaret Tetcher, Angela Merkel – siyosiy liderlikda muvaffaqiyatga erishgan zamonaviy ayollar.

O‘zbekistonda esa ayollar liderligiga nazar soladigan bo‘lsak, o‘zbek tarixida Tomaris, Bibixonim kabi ayollar yurt boshqaruvida muhim rol o‘ynagan. Mustaqillikdan keyin esa O‘zbekiston hukumati ayollar huquqini mustahkamlash, ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyatini oshirish borasida ko‘plab ishlarni amalga oshirmoqda.[6] Zamonaviy ayol liderining modeli quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi: Innovatsion fikrlash, ya’ni bugungi ayol liderlar yangicha qarashlarga ega, muammolarga ijodiy yondashadi. Texnologiyalar, raqamli yechimlar va ilmiy innovatsiyalar ayol liderlar faoliyatining ajralmas qismiga aylangan. Ijtimoiy mas’uliyat, ya’ni ayol liderlar jamiyatdagi nozik masalalarga befarq emas. Ular sog‘liqni saqlash, ta’lim, ekologiya, gender tenglik kabi ijtimoiy sohalarda faol. insonparvarlik yondashuvi, ya’ni Zamonaviy ayol lider – bu o‘z xodimlari, jamoasi va jamiyat bilan samimiy muloqotga asoslangan boshqaruv uslubini tanlagan yetakchidir. Moslashuvchanlik va qat’iyat, ya’ni ayollar ko‘p hollarda murakkab vaziyatlarda barqarorlikni

[1] Oliy Majlis Hisobotlari, 2022

[2] O‘zbekiston Respublikasi Ayollar qo‘mitasi, 2022

[3] O‘zbekiston Respublikasi Innovatsiyalar vazirligi. (2023).

“Texnologiyada ayollar: yangi yetakchilar.”

[4] O‘zbekiston Respublikasi Innovatsiyalar Vazirligi, 2023

[5] Karimova M. “Ayollar liderligi: imkoniyatlar va to‘siqlar”, Jamiyat va Boshqaruv, 2022.

[6] UN Women. (2020).

saqlab qolish, inqirozlarni boshqarish qobiliyatiga ega. Bu ularni muhim strategik qarorlar qabul qilishda samarali liderga aylantiradi.

## PRIVACY OF PRIVACY IN JAPAN AND UZBEKISTAN: COMPARATIVE-LEGAL ANALYSIS

***Annotation:*** *This scientific article provides a comparative analysis of the legal and moral aspects of ensuring privacy in Japan and Uzbekistan. The study examines the constitutional foundations of privacy in both countries, the legislative mechanism, and social factors of legal and moral requirements, as well as the impact on the implementation of this right. The author argues that in Japan, social norms and spiritual and cultural self-restraint are the priority in ensuring privacy, while in Uzbekistan, legal guarantees and state protection play a key role.*

***Keywords:*** *privacy, human rights, comparative law, Japanese law, Uzbek legislation, cultural norms.*

**Абдукамол Рахмонов,**
юрист, первый заместитель председателя Политического совета СДП «Адолат» Узбекистана

## КОНФИДЕНЦИАЛЬНОСТЬ ЛИЧНОЙ НЕПРИКОСНОВЕННОСТИ В ЯПОНИИ И УЗБЕКИСТАНЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

***Примечание:*** *Данная научная статья представляет собой сравнительный анализ правовых и моральных аспектов обеспечения личной неприкосновенности в Японии и Узбекистане. В исследовании рассматриваются конституционные основы личной неприкосновенности в обеих странах, законодательный механизм и социальные факторы правовых и моральных требований, а также их влияние на реализацию этого права. Автор подчеркивает, что в Японии приоритетную роль в обеспечении личной неприкосновенности играют социальные нормы, духовная и культурная самодисциплина, в то время как в Узбекистане ключевую роль играют правовые гарантии и государственная защита.*

***Ключевые слова:*** *неприкосновенность частной жизни, права человека, сравнительное право, японское право, узбекское законодательство, культурные нормы.*

### Kirish

Shaxsiy hayot daxlsizligi har bir insonning fundamental huquqlaridan biri bo‘lib, u shaxsning shaxsiy va oilaviy hayotiga, shaxsiy ma’lumotlariga hamda ichki dunyosiga asossiz aralashuvdan himoya qilishni nazarda tutadi. Shunday ekan, zamonaviy jamiyatda globallashuv, raqamlashuv va axborot texnologiyalarining rivojlanishi mazkur huquqning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

O‘zbekiston va Yaponiyada shaxsiy hayot daxlsizligiga oid tajribani o‘rganilishi bejiz emas. Chunki, ikki mamlakat mahalliy aholisining bir biriga o‘xshash jihatlari juda ko‘p. Ammo, o‘xshamaydigan jihatlari ham bor. Zero, har ikki mamlakatda ham shaxsiy hayot daxlsizligi umume’tirof etilgan xalqaro normalarga asoslangan bo‘lsada, shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlash mexanizmlari har bir davlatda uning huquqiy tizimi, xalq ma’naviyati, urf-odat hamda madaniy

an’analari va ijtimoiy qadriyatlariga bog‘liq holda turlicha shakllangan. Shu nuqtai nazardan, Yaponiya va O‘zbekiston tajribasini qiyosiy o‘rganish mazkur huquqning universal va milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

**1. Yaponiyada shaxsiy hayot daxlsizligining huquqiy asoslari**

**1.1. Konstitutsiyaviy kafolatlar**

Yaponiya Konstitutsiyasi 10 – 14-moddalarida insonning asosiy huquq va erkinliklarini, jumladan, shaxsiy hayot va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlaydi. Konstitutsiyada barcha odamlar shaxs sifatida hurmat qilinishiga asosiy urg‘u berilgan. Shu bilan birga, mazkur huquqlar jamoat manfaatlari, ijtimoiy tartib va umumiy farovonlikni ta’minlash maqsadida cheklanishi belgilab qo‘yilgan.

Ta’kidlash joizki, amaliyotda “jamoat manfaati” tushunchasining huquqiy jihatdan aniq chegaralanmagani shaxsiy huquqlarni cheklashda davlat va jamiyat manfaatlarining ustuvor bo‘lishiga olib keladi.

**1.2. Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish**

Yaponiyada “Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi (APPI – Act on the Protection of Personal Information) qonun amal qiladi. Ushbu qonun shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solib, tashkilotlar va kompaniyalar uchun qat’iy majburiyatlar belgilaydi.

**2. Yaponiyada shaxsiy hayot daxlsizligining ma’naviy va madaniy jihatlari**

Yapon jamiyatida “boshqalarni bezovta qilmaslik” tamoyili o‘ta muhim ijtimoiy qoida hisoblanadi. Shaxsiy his-tuyg‘ularni omma oldida namoyon qilish, teginish, qo‘l ushlab yurish kabi jismoniy aloqalar yoki shaxsiy muammolarni ochiq muhokama qilish, shovqin ko‘tarish, atrofdagilarni bezovta qiladigan darajada ko‘p gapirish ijtimoiy jihatdan ma’qullanmaydi. Shuningdek, ommaviy joylarda quchoqlashish yoki o‘pish kabi jismoniy harakatlar, jamoat joylarida shaxsiy muammolarni muhokama qilish va janjallashish qat’iyan qabul qilinmaydigan holatlar hisoblanadi.

Yaponlarning urf-odatlari nihoyatda ehtiyotkorlikni talab etadi. Xususan, ularning talabi bo‘yicha uy va shaxsiy buyumlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, ruxsatsiz ularga teginmaslik va daxl qilmaslik shart. Ijtimoiy odob-axloq ham ehtiyotkorlikni talab etadi, masalan, haddan tashqari shaxsiy savollar berish xush ko‘rilmaydi. Shu sababli ham jamoat joylarida maxfiylikni ta’minlash uchun ko‘pincha alohida kabinalar yoki to‘siqlar yaratilgan.

Shaxsiy hayotni himoya qilishning mazkur madaniy modeli ko‘pincha o‘z-o‘zini cheklash shaklida, ya’ni har kim o‘zgaga xalal bermaslik, uning tinchini buzmaslik hisobiga namoyon bo‘ladi. Bu holatning ifodasi sifatida “xikikomori - yap. 引きこもり” fenomeni — ya’ni shaxs jamoat a’zolarini bezovta qilmaslik uchun jamiyatdan to‘liq ajralib qolishiga sabab bo‘ladi.

Bir so‘z bilan aytganda, Yaponiyada ma’naviyat va madaniyatni qamrab olgan odob-axloq tamoyillari nihoyatda ustuvor. Ular qonunni hurmat qilish barobarida, jamoat tartibini ham hurmat qiladi, jamoatchilik manfaatini o‘z manfaatidan ustun biladi.

**3. O‘zbekistonda shaxsiy hayot daxlsizligining huquqiy asoslari**

**3.1. Konstitutsiya va qonunchilik**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida 31-moddasida shaxsiy hayot daxlsizligi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra:

- har bir inson shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, o‘z sha’ni va qadr qimmatini himoya qilish huquqiga ega.

- har kim yozishmalari, telefon orqali so‘zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega.

- har kim o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto‘g‘ri ma’lumotlarning tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo‘lmay qolgan ma’lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilish huquqiga ega.

- har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega, hyech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas.

Ushbu huquqlarning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yilishi mumkin.

O‘zbekistonda shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlashning zaruriy choralari belgilangan. Har bir holat bo‘yicha qonun hujjatlari qabul qilingan. Shulardan biri, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonundir. Ushbu qonunning 27-moddasida shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish kafolatlari belgilangan. Xususan, shaxsga doir ma’lumotlarning himoya qilinishini ta’minlash davlat zimmasiga yuklatilgan.

**3.2. Ijtimoiy va madaniy xususiyatlar**

O‘zbekiston jamiyatida oila va mahalla instituti muhim o‘rin tutadi. Bu holat ayrim vaziyatlarda shaxsiy hududga jamoaviy ta’sirni kuchaytirishi mumkin. Biroq so‘nggi yillarda huquqiy islohotlar shaxsiy hayot daxlsizligini huquqiy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvda **“Inson qadr-qimmati, sha’ni va g‘ururi bundan buyon barcha sohalarda birinchi o‘rinda turishi kerak”,** degan so‘zlari fikrimizning yaqqol dalilidir.

**4. Qiyosiy-huquqiy tahlil**

Qiyosiy tahlil natijalariga koʻra:

- Yaponiyada shaxsiy hayot daxlsizligi asosan madaniy meʼyorlar va ijtimoiy oʻz-oʻzini nazorat qilish orqali taʼminlanadi;
- Oʻzbekistonda esa mazkur huquqni taʼminlashda qonun ustuvorligi va davlat himoyasi asosiy oʻrin tutadi.

Shu tariqa, har ikki mamlakatda bir xil huquqiy qadriyat tan olingan boʻlsa-da, uni amalga oshirish mexanizmlari sezilarli darajada farq qiladi.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, shaxsiy hayot daxlsizligi Yaponiya ham, Oʻzbekistonda ham inson huquqlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Yaponiyada mazkur huquq koʻproq madaniy meʼyorlar va ijtimoiy masʼuliyat orqali taʼminlansa, Oʻzbekistonda huquqiy kafolatlar va davlat nazorati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu qiyosiy tahlil milliy huquq tizimlarini takomillashtirishda xorijiy tajribadan oqilona foydalanish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1.Yaponiya Konstitutsiyasi.
2.Act on the Protection of Personal Information (APPI), Japan.
3.Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/uz/docs/6445145
4.“Shaxsga doir maʼlumotlar toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni. https://www.lex.uz/acts/4396419
5.Inoue T. *Privacy and Social Norms in Japan*. Tokyo, 2020.
6.Westin A. *Privacy and Freedom*. New York, 2019.
7.https://daryo.uz/uz/2022/06/20/shavkat-mirziyoyev-

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Iqboloy Umarova**
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil-izlanuvchisi

## JAMIYATDA INSONPARVARLIKNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada insonparvarlik tushunchasining mazmuni, ta'riflari va talqinlari jahon falsafasining ayrim vakillari asarlari, turli falsafiy tadqiqotlardagi tadqiq asosida o'rganilgan. Bugungi globallashuv oqibatida tobora kuchayib borayotgan ijtimoiy tengsizlik, ijtimoiy begonalashuv, texnik inqilob bilan inson qadriga bo'lgan e'tiborning pasayishi sharoitida insonparvarlikning ahamiyati asoslangan. Shuningdek, yangilanayotgan jamiyatimizda insonparvarlik tamoyilining davlat jamiyat taraqqiyotining turli tizim va sohalarida qaror topishi, uning natijalari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:*** *inson, insonparvarlik, gumanizm, tamoyil, falsafa, globallashuv, inqiroz, taraqqiyot, yangilanayotgan o'zbek jamiyati, inson qadri, yoshlar.*

**Икболой Умарова**
независимый соискатель Института социально-духовных исследований

## СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГУМАНИЗМА В ОБЩЕСТВЕ

***Аннотация.*** *В данной статье содержание, определения и интерпретации понятия гуманизма изучены на основе работ некоторых представителей мировой философии, исследований в различных философских исследованиях. Обосновано значение гуманизма в условиях растущего социального неравенства, социального отчуждения, снижения внимания к человеческому достоинству с технической революцией в результате сегодняшней глобализации. Также социально-философски проанализировано утверждение принципа гуманизма в различных системах и сферах развития государства и общества в нашем обновляющемся обществе, его результаты.*

***Ключевые слова:*** *человек, гуманизм, гуманизм, принцип, философия, глобализация, кризис, развитие, обновляющееся узбекское общество, человеческое достоинство, молодежь.*

**Iqboloy Umarova**
Independent Researcher of the Institute of Social and Spiritual Research

## SOCIO-PHILOSOPHICAL ISSUES OF FORMING HUMANITY IN SOCIETY.

***Abstract.*** *In this article, the content, definitions, and interpretations of the concept of humanism are studied based on the works of some representatives of world philosophy and research in various philosophical studies. The importance of humanism is substantiated in the context of increasing social inequality, social alienation, and the decline in attention to human dignity due to the current globalization and the technical revolution. Also, in our renewing society, the affirmation of the principle of humanism in various systems and spheres of state and public development, its results are analyzed from a socio-philosophical point of view.*

***Keywords:*** *human, humanism, humanism, principle, philosophy, globalization, crisis, progress, renewing Uzbek society, human dignity, youth.*

**Kirish.** Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyat hayotida ma'naviy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Insonparvarlik tuyg'usi esa jamiyatning ma'naviy poydevorini tashkil etuvchi asosiy tushunchalardan biri bo'lib, inson qadri, huquq va erkinliklariga hurmat ruhida shakllanadi. Shu bois jamiyatda insonparvarlikni qaror toptirish ijtimoiy-falsafiy tahlilni talab qiladigan dolzarb masaladir. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tengsizlik, zo'ravonlik, befarqlik va ma'naviy inqiroz kabi holatlar insonparvarlik tuyg'usining zaiflashayotganini ko'rsatadi. Bunday sharoitda insonning insonga munosabatini falsafiy nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqish, ijtimoiy adolat va o'zaro hamjihatlik g'oyalarini mustahkamlash zarurati ortib bormoqda.

Insonparvarlik tuyg'usini shakllantirish, avvalo, shaxs kamoloti bilan uzviy bog'liqdir. Falsafiy nuqtai nazardan inson faqat biologik mavjudot emas, balki ijtimoiy va ma'naviy mavjudot sifatida talqin etiladi. Demak, jamiyatda barkamol shaxsni tarbiyalash jarayonida insonparvarlik g'oyalarini ongli ravishda singdirish muhim vazifa hisoblanadi.

Ijtimoiy munosabatlar tizimida insonparvarlik tuyg‘usining qaror topishi jamiyat barqarorligi va taraqqiyotini ta’minlaydi. Falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, inson qadri e’zozlangan jamiyatdagina tinchlik, o‘zaro ishonch va ijtimoiy hamkorlik mustahkam bo‘ladi. Shu jihatdan insonparvarlikni jamiyat hayotining asosiy tamoyili sifatida o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Bugungi kunda fan va texnika taraqqiyoti jamiyat hayotini yengillashtirayotgan bo‘lsa-da, ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirmayapti. Aksincha, texnologik taraqqiyot insonparvarlik tuyg‘usini yo‘qotmaslik, inson omilini ustuvor qo‘yish masalasini yanada keskinlashtirmoqda. Demak, jamiyatda insonparvarlik tuyg‘usini shakllantirish nafaqat ma’naviy-axloqiy, balki ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ega murakkab jarayondir. U jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorlik va inson kamoloti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu mavzuni chuqur o‘rganish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Jahon falsafiy tafakkurida insonni ulug‘lash, uning sha’ni, obro‘sini tiklash, qadrini oshirish har bir mutafakkir yoki falsafiy maktablardagi eng dolzarb yo‘nalish bo‘lgan. “Insonning, insonni sevishning sababi, boislari, inson baxti, baxtiyor yashash uchun zarur bo‘lgan adolat haqidagi orzular qadimgi xalqlarning og‘zaki ijodida, mifologik, diniy, falsafiy qarashlarida yuzaga chiqa boshlagan”[1.497]. Sharq falsafasida insonparvarlik g‘oyalarining ilk manbalari qadimgi hind falsafiy matnlari bo‘lgan **“Upanishadlar”** va **“Bxagavadgita”** asarlarida insonning ichki ma’naviy kamoloti, zo‘ravonlikdan tiyilish (aximsa) va barcha mavjudotlarga rahm-shafqat bilan munosabatda bo‘lish insonparvarlikning asosiy sharti sifatida talqin etilgan. Qadimgi Xitoy falsafasida insonparvarlik masalasi **Konfutsiyning “Lun yuy” (Suhbatlar va mulohazalar)** asarida markaziy o‘rinni egallaydi. Asarda “jen” — insonparvarlik, insonga mehr-oqibat tushunchasi jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy axloqiy tamoyil sifatida talqin qilingan.

Islom falsafasi va ma’naviy merosida insonparvarlik g‘oyalari muqaddas manbalar asosida shakllangan. **Qur’oni karim** va **Imom Buxoriyning “Al-Jome’ as-sahih”** asarida inson hayoti, sha’ni va qadri oliy ne’mat sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, **Imom G‘azzoliyning “Ihyo ulum ad-din”** asarida axloqiy poklik, mehr-shafqat va jamiyat oldidagi mas’uliyat insonparvarlikning muhim mezonlari sifatida asoslangan. Markaziy Osiyo mutafakkirlari insonparvarlikni ijtimoiy-falsafiy jihatdan chuqur tahlil qilganlar, xususan, **Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri”** asarida fozil jamiyat g‘oyasi insonparvarlikka asoslangan holda bayon etilsa, **Ibn Sinoning “Donishnoma”** va **“Ash-Shifo”** asarlarida inson aqli, axloqiy tarbiya va ijtimoiy mas’uliyat jamiyat taraqqiyotining asosiy omillari sifatida ko‘rsatiladi.

G‘arb falsafasida insonparvarlik g‘oyalarining ilmiy asoslari qadimgi Yunon mutafakkirlaridan **Aflotunning “Davlat”** asarida adolatli jamiyat inson ma’naviy kamolotiga bog‘liq holda izohlanadi. **Arastuning “Nikomax axloqi”** asarida esa fazilat, adolat va jamoaviy hayot insonparvarlikning asosiy kategoriyalari sifatida tahlil qilingan. O‘rta asr G‘arb falsafasida insonparvarlik xristianlik ta’limoti bilan uyg‘un tarzda rivojlanib, **Avreliy Avgustinning “E’tiroflar”** asarida inson ichki dunyosi, muhabbat va rahm-shafqat orqali ma’naviy kamolotga erishishi asoslanadi. **Foma Akvinskiyning ta’limoti**da esa inson qadri Xudo irodasi bilan bog‘liq holda asoslab beriladi.

Yangi davr G‘arb falsafasida insonparvarlik huquqiy va ratsional asosda talqin qilingan bo‘lib, **Jon Lokkning “Hukumat haqida ikkinchi traktat”** asarida insonning tabiiy huquqlari va erkinliklari insonparvarlikning asosiy mezoni sifatida ko‘rsatiladi. **Jan-Jak Russoning “Ijtimoiy shartnoma”** asari esa jamiyatda adolat va tenglikni insonparvarlikning muhim sharti sifatida asoslaydi. **Immanuil Kantning “Axloq metafizikasiga asos solish”** asarida insonni hech qachon vosita emas, balki maqsad sifatida ko‘rish g‘oyasi ilgari suriladi. Zamonaviy G‘arb falsafasida insonparvarlik shaxs erkinligi va qadri nuqtai nazaridan qayta talqin qilingan. Masalan, **Erix Frommning “Sevish san’ati”** asarida insonparvarlik insonlar o‘rtasidagi samimiy munosabat va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘liq holda izohlanadi.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqotning metodologik asosini ijtimoiy falsafaning umumnazariy qoidalari tashkil etib, bu tushuncha jamiyat hayotining ma’naviy-axloqiy fenomeni sifatida dialektik yondashuv asosida o‘rganiladi. Bu usul inson, jamiyat va qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni dinamik jarayon sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari qo‘llanilib, insonparvarlik g‘oyalarining turli tarixiy davrlardagi shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilinib, ularning ijtimoiy shart-sharoitlar bilan bog‘liq jihatlari ochib berildi. Bu usul insonparvarlik tuyg‘usining evolyusion xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Maqolada muammolarni o‘rganishga tizimli yondashuv asosida inosnparvarlikni jamiyatning ma’naviy hayoti, ijtimoiy munosabatlar, ta’lim-tarbiya tizimi va madaniy muhit bilan uzviy bog‘liq tizim sifatida qaraladi. Tizimli tahlil insonparvarlikni shakllantiruvchi omillarni kompleks ravishda o‘rganishga imkon yaratdi. Tadqiqot jarayonida aksiologik (qadriyatlarga yo‘naltirilgan) yondashuvdan foydalanilib, insonparvarlik umuminsoniy qadriyat sifatida tahlil qilinib, uning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati baholanadi. Bu usul inson qadri, erkinlik va mas’uliyat masalalarini falsafiy jihatdan ochib berishga xizmat qiladi.

Shuningdek, germenevtik usul qo‘llanilib, falsafiy, diniy va axloqiy matnlar talqin qilinadi. Sharq va G‘arb mutafakkirlarining asarlarida insonparvarlik g‘oyalarining mazmuni chuqur tahlil qilinib, ularning zamonaviy ijtimoiy jarayonlar bilan uyg‘unligi o‘rganiladi. Bu usul ma’naviy merosni to‘g‘ri anglash imkonini beradi. Tadqiqotda qiyosiy

tahlil usuli ham muhim o‘rin tutadi. Sharq va G‘arb falsafasida insonparvarlik g‘oyalarining umumiy va o‘ziga xos jihatlari taqqoslanadi. Qiyosiy yondashuv turli madaniy-falsafiy an’analarda insonparvarlik tuyg‘usining shakllanish mexanizmlarini aniqlashga yordam beradi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot metodologiyasi kompleks va ko‘p qirrali xarakterga ega bo‘lib, u insonparvarlik tuyg‘usini jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-falsafiy omili sifatida asoslashga qaratilgan. Qo‘llanilgan metodlar insonparvarlikni shakllantirish masalasini chuqur va xolis tahlil qilishga xizmat qiladi.

**Muhokama va tahlillar.** Insonparvarlik tushunchasi falsafada insonni oliy qadriyat sifatida e’tirof etuvchi dunyoqarash, axloqiy tamoyil va ijtimoiy ideal sifatida talqin qilinadi. “Falsafa ensiklopedik lug‘ati”da insonparvarlik inson qadri, erkinligi va har tomonlama kamol topishini ta’minlashga qaratilgan g‘oyalar tizimi sifatida ta’riflanadi[2.112]. Ushbu ta’rif insonparvarlikni nafaqat axloqiy, balki ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida ko‘rsatadi. boshqa bir ta’rifda esa, “Insonparvarlik, gumanizm – odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma’naviy fazilatlarni rivojlantirishga g‘amxo‘rlik qilish g‘oyalari bilan sug‘orilgan dunyoqarash”[3.497] sifatida talqin qilingan. Rus falsafiy an’anasida insonparvarlik “gumanizm” atamasi bilan ifodalanib, u inson manfaatlarini ijtimoiy taraqqiyotning markaziga qo‘yuvchi ta’limot sifatida izohlanadi. “Bolshaya filosofskaya ensiklopediya”da gumanizm insonning ijodiy imkoniyatlariga ishonch va uning sha’niga hurmat bilan munosabatda bo‘lish tamoyili sifatida ta’riflanadi[4.215]. Bu yondashuv insonparvarlikni faol ijtimoiy pozitsiya bilan bog‘laydi.

G‘arb falsafasiga bag‘ishlangan lug‘atlarida insonparvarlik inson avtonomiyasi va aqliy salohiyatini e’tirof etish bilan tavsiflanadi. Masalan, The Cambridge Dictionary of Philosophyda gumanizm insonni ma’naviy va ratsional mavjudot sifatida qadrlashga asoslangan dunyoqarash sifatida berilgan[5.412]. Bu ta’rif insonparvarlikning ratsional-falsafiy qirrasini ochib beradi. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan insonparvarlik jamiyatdagi munosabatlarni inson qadri asosida tartibga soluvchi tamoyildir. Boshqa bir manbada insonparvarlik ijtimoiy adolat, tenglik va hamjihatlik g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi[6.98]. Bu insonparvarlikning jamiyat barqarorligidagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Insonparvarlik axloqiy kategoriya sifatida ham falsafiy lug‘atlarda keng yoritilgan. Masalan, “insonparvarlik rahm-shafqat, bag‘rikenglik va boshqalarga nisbatan mas’uliyatli munosabatni anglatuvchi axloqiy me’yor sifatida ta’riflanadi”[7.76]. Bu ta’rif insonparvarlikning ma’naviy-axloqiy mazmunini ochadi. O‘zbek falsafiy manbalarida insonparvarlik tushunchasi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida talqin qilinadi. “Falsafa qomusiy lug‘atida”da insonparvarlik inson huquqlari, milliy an’analar va ma’naviy tarbiya bilan bog‘liq ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida izohlangan[8.143]. Bu yondashuv insonparvarlikning madaniy kontekstini hisobga oladi.

Falsafiy ensiklopediyalarda insonparvarlik tarixiy rivojlanuvchi tushuncha sifatida ham ko‘rsatiladi. Bir lug‘atda “gumanizm qadimgi davrdan to zamonaviy jamiyatgacha turli shakllarda namoyon bo‘lgan dunyoqarash sifatida ta’riflanadi”[9.301]. Bu insonparvarlikning tarixiylik tamoyili bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Antropologik falsafa nuqtai nazaridan insonparvarlik inson mohiyatini anglashga qaratilgan konsepsiya sifatida izohlanadi. M. Sheler tahriridagi falsafiy lug‘atlarda insonparvarlik insonni biologik emas, balki ma’naviy-ijtimoiy mavjudot sifatida tushunishga asoslangan g‘oya[10.59] sifatida qayd etiladi va bu insonparvarlikning antropologik asoslarini yoritadi.

Zamonaviy ensiklopediyalarda insonparvarlik global muammolar bilan bog‘liq holda talqin etiladi. “Encyclopedia of Philosophy”da insonparvarlik tinchlik, inson huquqlari va barqaror taraqqiyot g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq falsafiy pozitsiya sifatida ta’riflanadi[11.233]. Bu insonparvarlikning global ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsatadi. Umuman olganda, falsafa ensiklopediya va lug‘atlarida berilgan ta’riflar insonparvarlik tushunchasining ko‘p qirrali ekanini ko‘rsatadi. U inson qadrini oliy qadriyat sifatida e’tirof etuvchi, ijtimoiy adolat va ma’naviy kamolotga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. “Inson haqidagi hozirgi rang-barang va fundamental qarashlarning shakllanishida bularning xizmati katta”[12.497]. Bu ta’riflar insonparvarlikni jamiyat taraqqiyotining muhim falsafiy omili sifatida tahlil qilishga nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yangilanayotgan o‘zbek jamiyatida insonparvarlik tamoyili davlat va jamiyat rivojining ustuvor g‘oyasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu tamoyil inson qadrini oliy ijtimoiy qiymat sifatida e’tirof etishga asoslanib, barcha islohotlarning markaziga inson manfaatlarini qo‘yishni nazarda tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquq va erkinliklarining ustuvorligi belgilab qo‘yilgani insonparvarlikning huquqiy ifodasidir[13]. Insonparvarlik tamoyilining amaliy ifodasi, avvalo, davlat boshqaruvida “inson – jamiyat – davlat” munosabatlarining yangicha modelida ko‘rinadi. Davlat xizmatlari tizimini isloh qilish, aholiga qulay va ochiq xizmat ko‘rsatish mexanizmlarining joriy etilishi fuqarolarga nisbatan hurmat va e’tiborning ortib borayotganidan dalolat beradi. Yangi O‘zbekiston siyosatining markazida **inson qadri** va **insonparvarlik** turishi jamiyatdagi qadimiy axloqiy tushunchalarni modernizatsiya qildi. Ilgari “hokimiyat haq” degan ijtimoiy aqida hukmron bo‘lgan bo‘lsa, endi **odamlar manfaati ustuvorligi** me’yor sifatida shakllandi va bularning barchasi maqsadli islohotlar ta’sirida yuz bermoqda.

Ijtimoiy himoya sohasidagi islohotlar ham insonparvarlik tamoyilining amaliy ko‘rinishi hisoblanadi. Kam ta’minlangan oilalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar va yetim bolalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat

dasturlari jamiyatda ijtimoiy adolat va mehr-oqibat muhitini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar insonparvarlik tamoyilini shakllantirishning muhim omilidir. Ta'limning insonga yo'naltirilgan modeli, shaxs erkin fikri va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar yosh avlodda insonparvarlik tuyg'usini qaror toptirishga xizmat qiladi[14].

Sog'liqni saqlash sohasida insonparvarlik tamoyili aholi salomatligini muhofaza qilishni ustuvor vazifa sifatida belgilashda namoyon bo'lmoqda. Bepul tibbiy xizmatlar hajmini kengaytirish, onalik va bolalikni muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratilishi inson hayoti va sog'lig'iga bo'lgan gumanistik munosabatning amaliy ifodasidir. Qonunchilik va sud-huquq tizimida insonparvarlik jazoni yengillashtirish, jazoni ijtimoiy moslashuv bilan uyg'unlashtirish orqali namoyon bo'lmoqda. Afv etish institutlari, probatsiya tizimining joriy qilinishi insonni jazolash emas, balki uni jamiyatga qayta moslashtirishga qaratilgan gumanistik yondashuvni aks ettiradi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining faollashuvi ham insonparvarlik tamoyilining amaliy ifodasidir. Nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat fondlari va volontyorlik harakatlari orqali aholining ijtimoiy faolligi va o'zaro yordam madaniyati yuksalmoqda. Ommaviy axborot vositalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimida insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Inson qadri, bag'rikenglik, millatlararo totuvlik g'oyalarining keng yoritilishi jamiyatda gumanistik dunyoqarashni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oila institutini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati ham insonparvarlik tamoyilining amaliy ifodasidir. Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar jamiyatda insonga bo'lgan munosabatning yuksalayotganini ko'rsatadi. Bu haqda Prezident Sh. Mirziyoev 2023 yilgi Murojaatnomasida shunday degan edi: "Aholimiz bizdan maktab, bog'cha va shifoxonalarni ko'paytirish, ta'lim va tibbiyot sifatini oshirishni, mahallada yo'l, suv, elektr, transport muammolarini hal qilishni, ish o'rinlarini ko'paytirish, tadbirkorlikka yangi imkoniyatlar yaratishni, adolatni ta'minlash, ovoragarchilik, byurokratiya va korrupsiyani yo'q qilishni kutmoqda"[15]. umuman olganda, yangilanayotgan o'zbek jamiyatida insonparvarlik tamoyili huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy va madaniy sohalarda kompleks tarzda amalga oshirilmoqda. Bu tamoyil jamiyat taraqqiyotining ma'naviy mezoni sifatida inson qadrini ta'minlashga qaratilgan uzluksiz jarayon bo'lib, uning amaliy ifodasi barqaror va adolatli jamiyat qurishga xizmat qiladi.

Yoshlar tafakkurida insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim falsafiy masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki yosh avlod dunyoqarashida inson qadri, adolat, bag'rikenglik va mas'uliyat tushunchalarining qaror topishi kelajak jamiyatning ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Falsafada insonparvarlik insonni oliy qadriyat sifatida e'tirof etuvchi tamoyil sifatida talqin qilinadi. Falsafiy antropologiya nuqtai nazaridan yosh inson faqat biologik mavjudot emas, balki ijtimoiy va ma'naviy mavjudot sifatida shakllanadi. Shu bois insonparvarlik tuyg'usi yoshlar tafakkurida tabiiy ravishda emas, balki tarbiya, ta'lim va ijtimoiy muhit ta'sirida qaror topadi. Bu jarayonda falsafiy yondashuv inson mohiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axloq falsafasi insonparvarlikni rahm-shafqat, insof va mas'uliyat kabi axloqiy kategoriyalar bilan bog'laydi. Yoshlar tafakkurida ushbu qadriyatlarni shakllantirish ularning ijtimoiy munosabatlarda insonga inson sifatida munosabatda bo'lishini ta'minlaydi. Falsafiy lug'atlarda insonparvarlik axloqiy me'yor sifatida ta'riflangan[16.47].Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan yoshlar tafakkuri jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan uzviy bog'liq. Agar jamiyatda adolat, tenglik va inson huquqlari ustuvor bo'lsa, yoshlarda insonparvarlik tuyg'usi mustahkam shakllanadi. Bu holat insonparvarlikni ijtimoiy shartlangan falsafiy fenomen sifatida ko'rsatadi.

Sharq falsafiy an'analarida yoshlar tarbiyasi insonparvarlik g'oyalari bilan chambarchas bog'langan. Forobiy, Ibn Sino va Navoiy asarlarida komil inson g'oyasi yoshlarda mehr-oqibat, kamtarlik va jamiyat oldidagi mas'uliyatni shakllantirishga qaratilgan[17.56] bo'lib, bu g'oyalar bugungi kunda ham falsafiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega. G'arb falsafasida, xususan, I. Kant ta'limotida insonparvarlik insonni hech qachon vosita emas, balki maqsad sifatida ko'rish tamoyili orqali asoslanadi. Bu g'oya yoshlar tafakkurida shaxs qadrini anglash, boshqalar huquqiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni falsafiy jihatdan asoslab beradi[18.84].

Zamonaviy falsafada insonparvarlik yoshlarning shaxsiy erkinligi va ijtimoiy mas'uliyati uyg'unligida talqin etiladi. Ekzistensialist faylasuflar insonning o'z tanlovi uchun javobgar ekanini ta'kidlab, insonparvarlikni ongli pozitsiya sifatida ko'radilar. Bu yondashuv yoshlarda faol fuqarolik tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Globallashuv sharoitida axborot oqimining kuchayishi yoshlar tafakkuriga turli qarashlarni olib kirmoqda. Shu nuqtai nazardan insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish falsafiy tahlil va tanqidiy fikrlashga tayanishni talab qiladi hamda ular yoshlarni befarqlik, zo'ravonlik g'oyalaridan himoya qiluvchi ma'naviy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Yoshlar tafakkurida insonparvarlikni shakllantirishda ta'lim tizimi muhim falsafiy institut hisoblanadi. Ta'lim insonni faqat bilimli emas, balki ma'naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu yondashuv falsafada insonga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi bilan uyg'un keladi[19.61]. Xulosa qilib aytganda, yoshlar tafakkurida insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish ko'p qirrali falsafiy jarayon bo'lib, u antropologik, axloqiy va ijtimoiy

yondashuvlar uyg‘unligida amalga oshadi. Insonparvarlik yosh avlod dunyoqarashida qaror topgandagina barqaror, adolatli va ma’naviy jamiyatni barpo etish imkoni yuzaga keladi.

**Xulosa va takliflar:**

Insonparvarlik tuyg‘usi jamiyat ma’naviy taraqqiyotining poydevori sifatida namoyon bo‘lib, u insonni ijtimoiy munosabatlar markaziga qo‘yuvchi umuminsoniy qadriyatdir. Insonparvarlik jamiyatda inson qadri, huquq va erkinliklarini ta’minlash orqali ma’naviy barqarorlikni shakllantirsa, axloqiy me’yor sifatida insonning insonga munosabatini belgilaydi.

Ijtimoiy-falsafiy tahlil insonparvarlikni faqat shaxsiy axloqiy fazilat sifatida emas, balki ijtimoiy tizimni tartibga soluvchi tamoyil sifatida ochib beradi. Insonparvarlik ijtimoiy munosabatlarda adolat, tenglik va hamjihatlikni ta’minlaydi. U jamiyat a’zolari o‘rtasida o‘zaro ishonch va mas’uliyat hissini kuchaytiradi. Falsafiy jihatdan insonparvarlik ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatuvchi ma’naviy mexanizm bo‘lib, u jamiyatda zo‘ravonlik va befarqlikka qarshi turish imkonini beradi. Insonparvarlik tamoyili ustuvor bo‘lgan jamiyatda inson ijtimoiy ob’ekt emas, balki faol sub’ekt sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa jamiyat barqarorligini ta’minlaydi.

Insonparvarlik tuyg‘usining shakllanishi ijtimoiy muhit, ta’lim-tarbiya va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Falsafiy nuqtai nazardan inson ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadigan mavjudot bo‘lgani bois insonparvarlik tabiiy emas, balki ijtimoiy tarbiya mahsuli hisoblanadi. Ta’lim tizimi insonparvarlikni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar ta’lim faqat bilim berishga emas, balki ma’naviy kamolotga yo‘naltirilgan bo‘lsa, insonparvarlik barqaror qaror topadi.

Yangilanayotgan jamiyatimizda insonparvarlik tamoyili davlat siyosatining muhim falsafiy asosiga aylanmoqda. Inson qadrini ulug‘lash g‘oyasi ijtimoiy islohotlarning mazmun-mohiyatini belgilaydi. Falsafiy jihatdan bu davlat va jamiyat munosabatlarining yangi modelini shakllantiradi. Davlat inson uchun xizmat qiluvchi ijtimoiy institut sifatida qaraladi. Bu insonparvarlikning amaliy ifodasidir. Inson manfaatlariga yo‘naltirilgan siyosat jamiyatda ishonch va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Yoshlar tafakkurida insonparvarlik tuyg‘usini shakllantirish jamiyat kelajagi bilan bevosita bog‘liq strategik vazifadir. Falsafada yoshlar ijtimoiy tafakkurning dinamik va ijodiy qatlami sifatida qaralib, agar yoshlar dunyoqarashida insonparvarlik qaror topsa, jamiyatda ma’naviy uzluksizlik ta’minlanadi. Insonparvarlik yoshlarni befarqlik va zo‘ravonlikdan himoya qiluvchi ma’naviy immunitet vazifasini bajaradi. Falsafiy jihatdan u yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Bu esa ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytiradi. Demak, yoshlar tafakkurida insonparvarlik jamiyat taraqqiyotining kafolati bo‘lib, u barqaror ma’naviy kelajakni ta’minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси –Тошкент, ЎзФМЖ нашриёти, 2023. –Б. 497
2. Фалсафа энциклопедик луғати. – Москва: Советская энциклопедия, 1983. – 112-бет.
3. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси –Тошкент, ЎзФМЖ нашриёти, 2023. –Б. 497
4. Большая философская энциклопедия. – Москва: Мысль, 1974. – С.215
5. The Cambridge Dictionary of Philosophy. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – P. 412.
6. Философский энциклопедический словарь. – Москва: Инфра-М, 2001. – 98-бет.
7. Этика: словарь / А.А. Конников таҳририда. – Москва: Политиздат, 1987. – 76-бет.
8. Фалсафа қомуси. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 143-бет.
9. Новейший философский словарь. – Минск: Интерпрессервис, 2003. – 301-бет
10. Шелер М. Философия человека. – Москва: Наука, 1994. – 59-бет.
11. Encyclopedia of Philosophy. – New York: Macmillan, 2006. – p. 233.
12. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси –Тошкент, ЎзФМЖ нашриёти, 2023. –Б. 497
13. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент, 2023. – 13–15-моддалар. // **https://constitution.uz/uz/clause/index**
14. Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2020. – 6–8-моддалар.
15. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 20.12.2022. // https://president.uz/uz/lists/view/5774
16. Шелер М. Положение человека в космосе. – М.: Наука, 1994. – С. 47.
17. Абу Наср аль-Фараби. Трактат о взглядах жителей добродетельного города. – Ташкент: Фан, 1993. – С. 56.
18. Kant I. Grundlegung zur Metaphysik der Sitten. – Riga: Hartknoch, 1785 (рус. пер.: М.: Мысль, 1965). – С. 84.
19. Bauman Z. Globalization: The Human Consequences. – Cambridge: Polity Press, 1998. – P. 61.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**To‘xtasinova Shaxnoza Ibrohimovna**
Sarbon universiteti katta o‘qituvchisi
Email: sh.abbosova@gmail.com

**UDK: 328.1:305-055.2(549)**

## POKISTONDA AYOLLARNING IJTIMOIY MAQOMI: TARIXIY VA IJTIMOIY-SIYOSIY TAHLIL

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada Pokistonda ayollarning ijtimoiy-siyosiy maqomi, gender siyosatining shakllanish bosqichlari hamda feministik va ijtimoiy himoya harakatlarida muhim rol o‘ynagan mashhur ayollarning faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Pokiston mustaqillikka erishgan davrdan boshlab ayollarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, huquqiy maqomi va fuqarolik jamiyatidagi faolligi tarixiy va institutsional yondashuv asosida o‘rganiladi. Fotima Jinna, Raana Liaquat Ali Khan, Benazir Bhutto, Asma Jahongir, Hina Jilani hamda Tabassum Adnan kabi yetakchi ayollarning faoliyati gender tengligi va ijtimoiy adolatni ta’minlashdagi muhim omil sifatida baholanadi. Maqolada, shuningdek, patriarxal ijtimoiy tuzilma, huquqni muhofaza qilish institutlarining zaifligi va siyosiy beqarorlik gender siyosatining izchil rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar sifatida ko‘rsatib beriladi.*

***Kalit so‘zlar.*** *Pokiston, ayollar huquqlari, gender siyosati, feministik harakat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy himoya, siyosiy ishtirok.*

**Shakhnoza Ibrokhimovna Tokhtasinova**
Senior Lecturer, Sarbon University

## THE SOCIAL STATUS OF WOMEN IN PAKISTAN: HISTORICAL AND SOCIO-POLITICAL ANALYSIS

***Abstract.*** *This article analyzes the socio-political status of women in Pakistan, the stages of formation of gender policy, as well as the activities of prominent women who played a significant role in feminist movements and social protection initiatives. The study examines women’s participation in political processes, their legal status, and their role in civil society from the period of Pakistan’s independence, based on historical and institutional approaches. The activities of leading figures such as Fatima Jinnah, Raana Liaquat Ali Khan, Benazir Bhutto, Asma Jahangir, Hina Jilani, and Tabassum Adnan are assessed as important factors in promoting gender equality and social justice. The article also highlights patriarchal social structures, the weakness of law enforcement institutions, and political instability as key factors hindering the consistent development of gender policy in Pakistan.*

***Keywords:*** *Pakistan, women’s rights, gender policy, feminist movement, civil society, social protection, political participation.*

**Тохтасинова Шахноза Иброхимовна**
Старший преподаватель, Сарбонский университет

## СОЦИАЛЬНЫЙ СТАТУС ЖЕНЩИН В ПАКИСТАНЕ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

***Аннотация.*** *В данной статье анализируется социально-политический статус женщин в Пакистане, этапы формирования гендерной политики, а также деятельность известных женщин, сыгравших значительную роль в феминистских движениях и инициативах социальной защиты. В исследовании с использованием исторического и институционального подходов рассматриваются участие женщин в политических процессах, их правовой статус и активность в гражданском обществе с момента обретения Пакистаном независимости. Деятельность таких выдающихся личностей, как Фатима Джинна, Раана Лиакат Али Хан, Беназир Бхутто, Асма Джахангир, Хина Джилани и Табассум Аднан, оценивается как важный фактор обеспечения гендерного равенства и социальной справедливости. В статье также показано, что патриархальная социальная структура, слабость правоохранительных институтов и политическая нестабильность выступают ключевыми факторами, препятствующими последовательному развитию гендерной политики в Пакистане.*

***Ключевые слова:*** *Пакистан, права женщин, гендерная политика, феминистское движение, гражданское общество, социальная защита, политическое участие.*

**Kirish.** XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ayollar huquqlari va gender tengligi masalasi jahon ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu jarayon ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda murakkab tarixiy, madaniy va diniy omillar ta’sirida kechib, har bir jamiyatda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ldi. Janubiy Osiyo mintaqasidagi muhim davlatlardan biri bo‘lgan Pokistonda ayollarning ijtimoiy maqomi ham ana shunday murakkab va ziddiyatli rivojlanish jarayoni bilan tavsiflanadi.

1947-yilda mustaqillikka erishgan Pokiston siyosiy va ijtimoiy tizimini shakllantirish jarayonida ayollarning huquqiy maqomini konstitutsiyaviy jihatdan tan olgan bo‘lsa-da, ularning jamiyatdagi real ijtimoiy va siyosiy mavqei ko‘p hollarda patriarxal an’analar, diniy talqinlar va feodal ijtimoiy munosabatlar bilan cheklab kelindi. Shu bois Pokistonda ayollar maqomi huquqiy tenglik va amaliy tengsizlik o‘rtasidagi tafovut bilan xarakterlanadi.

Pokiston tarixida ayollar nafaqat ijtimoiy hayotda, balki siyosiy jarayonlarda ham muhim rol o‘ynagan. Fotima Jinna, Raana Liaquat Ali Khan, Benazir Bhutto kabi tarixiy shaxslar ayollarning siyosiy faolligi va davlat boshqaruvidagi ishtiroki mumkin ekanini amalda namoyish etdilar. Shu bilan birga, Asma Jahongir va Hina Jilani singari inson huquqlari himoyachilari ayollar huquqlarini himoya qilishni fuqarolik jamiyati darajasiga ko‘tardilar. Biroq ushbu individual yutuqlarga qaramay, Pokiston jamiyatida ayollarning ijtimoiy maqomi hududiy, sinfiy hamda shahar–qishloq tafovutlari bo‘yicha keskin farqlanib kelmoqda.

Zamonaviy Pokistonda ayollar masalasi ta’lim, bandlik, siyosiy ishtirok va huquqiy himoya bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, gender tengligi mamlakatning demokratik rivojlanish darajasini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Pokistonda ayollarning ijtimoiy maqomini tarixiy va ijtimoiy-siyosiy tahlil qilish nafaqat milliy, balki mintaqaviy va global miqyosda ham ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada Pokistonda ayollarning ijtimoiy maqomining shakllanishi, gender siyosatining rivojlanish bosqichlari hamda ayollar harakatining siyosiy va fuqarolik jamiyati doirasidagi o‘rni kompleks tarzda tahlil qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature Review).** Pokistonda ayollarning ijtimoiy maqomi va gender siyosatining shakllanishi masalasi mahalliy hamda xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Ilmiy adabiyotlarda ushbu mavzu asosan siyosiy tarix, gender tadqiqotlari, sotsiologiya va huquqshunoslik doirasida tahlil qilinadi.

G‘arbiy olimlar tadqiqotlarida Pokistonda ayollar maqomi ko‘pincha patriarxal ijtimoiy tuzilma va diniy-an’anaviy qadriyatlar bilan bog‘liq holda izohlanadi. Masalan, D. Kandiyoti va N. Shaheed asarlarida ayollarning jamiyatdagi mavqei “kelishilgan patriarxat” modeli orqali tahlil qilinib, ayollar huquqlarining cheklanishi norasmiy institutlar ustuvorligi bilan izohlanadi. Ushbu yondashuv ayollar huquqlari va siyosiy ishtirokining nega huquqiy jihatdan tan olingan bo‘lsa-da, amaliyotda cheklanganini tushuntirib beradi.

Janubiy Osiyo mintaqasiga oid tadqiqotlarda, xususan A. Jalal va F. Mumtaz ishlarida Pokistonda gender siyosatining rivoji siyosiy hokimiyatning xarakteri bilan bevosita bog‘liq holda ko‘rsatiladi. Ularning fikricha, fuqarolik boshqaruvi nisbatan mustahkam bo‘lgan davrlarda ayollarning siyosiy va ijtimoiy faolligi oshgan, harbiy boshqaruv kuchaygan davrlarda esa gender tengligi masalalari ikkinchi darajaga surilgan. Ushbu yondashuv ayollar maqomining tarixiy o‘zgaruvchanligini ochib beradi.

Mahalliy tadqiqotchilar ishlarida ayollarning ijtimoiy maqomi asosan huquqiy-me’yoriy baza va institutsional islohotlar nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Pokiston Konstitutsiyasi, Hudood ordinanslari va ayollar huquqlariga oid qonunchilik hujjatlarining tahliliga bag‘ishlangan ishlar ayollarning huquqiy maqomi va uning amaliyotdagi muammolarini yoritadi. Ayrim tadqiqotlarda ayollar uchun joriy etilgan kvotalar siyosiy vakillikni oshirgan bo‘lsa-da, ularning real qarorlar qabul qilish jarayoniga ta’siri cheklanganligi ta’kidlanadi.

Feministik adabiyotlarda Asma Jahongir, Hina Jilani va boshqa inson huquqlari faollarining faoliyati fuqarolik jamiyatining gender tengligini ta’minlashdagi muhim omili sifatida baholanadi. Ushbu tadqiqotlarda nodavlat tashkilotlar va xalqaro institutlarning ayollar huquqlarini himoya qilishdagi roli alohida qayd etilib, ularning davlat siyosatiga bosim o‘tkazish mexanizmlari tahlil qilinadi.

So‘nggi yillarda chop etilgan tadqiqotlarda ayollarning ijtimoiy maqomi ta’lim, mehnat bozori va iqtisodiy mustaqillik bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Xalqaro tashkilotlar hisobotlarida ayollar savodxonligi va bandlik darajasining oshishi gender tengligini ta’minlashdagi asosiy omillardan biri sifatida ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, qishloq hududlarda saqlanib qolayotgan patriarxal munosabatlar va huquqni muhofaza qilish tizimidagi zaifliklar ayollar maqomining yaxshilanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar sifatida qayd etiladi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar Pokistonda ayollarning ijtimoiy maqomi murakkab va ko‘p omilli jarayon ekanini ko‘rsatadi. Biroq ko‘plab tadqiqotlarda ayollar harakati va gender siyosatining tarixiy bosqichlari tizimli tarzda qiyosiy tahlil qilinmagan. Mazkur maqola aynan ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilib, Pokistonda ayollarning ijtimoiy maqomini tarixiy va ijtimoiy-siyosiy kontekstda kompleks tahlil qilishni maqsad qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Mazkur tadqiqot Pokistonda ayollarning ijtimoiy maqomini tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda umumilmiy hamda

maxsus ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi ayollarning huquqiy maqomi, siyosiy ishtiroki va fuqarolik jamiyatidagi faolligini tizimli ravishda o‘rganish imkonini beradi.

Tadqiqotda tarixiy-tahliliy metod asosida Pokistonda ayollar maqomining shakllanish bosqichlari, mustaqillikdan keyingi davrdagi asosiy siyosiy va ijtimoiy jarayonlar hamda gender siyosatining evolyutsiyasi o‘rganildi. Ushbu metod ayollar huquqlarining turli davrlarda qanday o‘zgarib borganini aniqlashga xizmat qildi.

Shuningdek, institutsional tahlil metodi qo‘llanilib, davlat boshqaruvi tizimi, qonunchilik bazasi, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati institutlarining gender siyosatini shakllantirishdagi roli tahlil qilindi. Bu yondashuv ayollarning ijtimoiy maqomiga ta’sir etuvchi rasmiy va norasmiy institutlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni aniqlash imkonini berdi.

Qiyosiy tahlil metodi yordamida Pokistondagi ayollar maqomi Janubiy Osiyodagi boshqa mamlakatlar tajribasi bilan qiyoslandi, bu esa mintaqaviy xususiyatlar va umumiy tendensiyalarni aniqlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, turli tarixiy davrlarda gender siyosatining rivojlanish sur’atlari solishtirildi.

Tadqiqot jarayonida sotsiologik va siyosiy tahlil metodlari asosida ayollarning ta’lim, mehnat bozori va siyosiy jarayonlardagi ishtiroki bilan bog‘liq statistik ma’lumotlar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari o‘rganildi. Bu metod ayollarning real ijtimoiy maqomini empirik jihatdan baholash imkonini berdi.

Bundan tashqari, holat tahlili (case study) usuli qo‘llanilib, Fotima Jinna, Raana Liaquat Ali Khan, Benazir Bhutto, Asma Jahongir, Hina Jilani va Tabassum Adnan kabi mashhur ayollarning faoliyati alohida tahlil qilindi. Ushbu yondashuv ayollarning individual faolligi va ularning gender siyosatiga ta’sirini ochib berishga xizmat qildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar Pokistonda ayollarning ijtimoiy maqomini tarixiy, huquqiy va ijtimoiy-siyosiy kontekstda kompleks tahlil qilish imkonini berdi hamda tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta’minladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Olib borilgan tahlillar Pokistonda ayollarning ijtimoiy maqomi murakkab, notekis va tarixiy jihatdan o‘zgaruvchan jarayon ekanini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi bevosita siyosiy boshqaruv shakli, huquqiy institutlar barqarorligi hamda fuqarolik jamiyati rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liq ekanini tasdiqlaydi.

Ayollarning huquqiy maqomi va uning amaliyotdagi holati. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Pokistonda ayollarning huquqiy maqomi konstitutsiyaviy jihatdan erkaklar bilan teng deb belgilangan bo‘lsa-da, ushbu tenglik amaliyotda to‘liq ta’minlanmagan. Ayollarning saylovlarda ishtirok etish, davlat lavozimlarini egallash va ta’lim olish huquqi mavjud bo‘lishiga qaramay, norasmiy ijtimoiy institutlar — patriarxal oilaviy munosabatlar, diniy an’analar va feodal tuzilmalar — ularning huquqlaridan samarali foydalanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Ayniqsa qishloq hududlarda ayollar huquqiy imkoniyatlar va real ijtimoiy amaliyot o‘rtasidagi tafovut keskin namoyon bo‘ladi.

Siyosiy ishtirok va vakillik darajasi. Tadqiqot natijalari ayollarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki asosan institutsional mexanizmlar, xususan kvotalar orqali ta’minlanayotganini ko‘rsatadi. Milliy Assambleya va viloyat kengashlarida ayollar uchun ajratilgan o‘rinlar ularning son jihatidan vakilligini oshirgan bo‘lsa-da, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga real ta’siri cheklanganligicha qolmoqda. Shu bilan birga, Benazir Bhutto kabi ayol rahbarlarning hokimiyatga kelishi ayollarning siyosiy salohiyati mavjudligini isbotlagan bo‘lsa-da, bu holat tizimli xarakter kasb etmagan.

Fuqarolik jamiyati va ayollar harakati. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Pokistonda ayollarning ijtimoiy maqomini mustahkamlashda fuqarolik jamiyati institutlari muhim rol o‘ynaydi. Asma Jahongir va Hina Jilani kabi inson huquqlari himoyachilarining faoliyati ayollar huquqlarini himoya qilishni davlat siyosati doirasidan tashqariga olib chiqib, jamoatchilik va xalqaro darajada muhokama etilishiga zamin yaratdi. Nodavlat tashkilotlar ayollarga nisbatan zo‘ravonlik, majburiy nikoh va diskriminatsiyaga qarshi kurashda muhim ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ta’lim va iqtisodiy faollik. Tadqiqot natijalari ayollarning ijtimoiy maqomini belgilovchi asosiy omillardan biri ta’lim ekanini tasdiqlaydi. So‘nggi yillarda ayollar savodxonligi oshgan bo‘lsa-da, gender tafovuti saqlanib qolmoqda. Mehnat bozorida ayollar asosan norasmiy sektorda band bo‘lib, ularning iqtisodiy mustaqilligi pastligicha qolmoqda. Bu holat ayollarning ijtimoiy maqomini mustahkamlash jarayonini sekinlashtiradi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, quyidagi xulosalarni qayd etish mumkin:

1.ayollarning huquqiy maqomi va real ijtimoiy mavqei o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud;

2.siyosiy ishtirok ko‘proq kvotalar bilan cheklanib, ayollarning real siyosiy ta’siri yetarli darajada emas;

3.fuqarolik jamiyati institutlari ayollar huquqlarini ilgari surishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda;

4.ta’lim va iqtisodiy mustaqillik ayollarning ijtimoiy maqomini oshirishning hal qiluvchi shartlari hisoblanadi;

5.siyosiy beqarorlik va patriarxal ijtimoiy tuzilma gender siyosatining izchil rivojlanishiga asosiy to‘sqinlik qiluvchi omillar bo‘lib qolmoqda.

Pokistonda ayollarning ijtimoiy maqomini oshirish faqat huquqiy islohotlar bilan cheklanmasdan, balki ijtimoiy institutlar, madaniy qadriyatlar va siyosiy barqarorlikni qamrab olgan kompleks yondashuvni talab etishini ko‘rsatadi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendation**). Mazkur tadqiqot Pokistonda ayollarning ijtimoiy maqomi tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanganini ko‘rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, mamlakatda ayollarning huquqiy maqomi konstitutsiyaviy jihatdan e’tirof etilgan bo‘lsa-da, ularning jamiyatdagi real ijtimoiy va siyosiy mavqei ko‘p hollarda patriarxal ijtimoiy munosabatlar, diniy-an’anaviy qadriyatlar va norasmiy institutlar ta’siri ostida cheklanib kelmoqda.

Tadqiqot natijalari ayollarning siyosiy ishtiroki asosan institutsional mexanizmlar, xususan kvotalar orqali ta’minlanayotganini ko‘rsatadi. Bu holat ayollarning siyosiy vakilligini son jihatidan oshirgan bo‘lsa-da, ularning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga real ta’sirini yetarli darajada ta’minlamaydi. Shunga qaramay, Fotima Jinna, Raana Liaquat Ali Khan, Benazir Bhutto kabi tarixiy shaxslar hamda Asma Jahongir va Hina Jilani singari inson huquqlari faollarining faoliyati ayollarning siyosiy va ijtimoiy faolligi uchun muhim namuna bo‘lib xizmat qilgan.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Pokistonda ayollarning ijtimoiy maqomini mustahkamlashda fuqarolik jamiyati institutlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Nodavlat tashkilotlar va ayollar harakatlari gender tengligini ilgari surishda, ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashishda hamda huquqiy ongni shakllantirishda muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, ta’lim darajasi va iqtisodiy mustaqillik ayollarning jamiyatdagi mavqeini belgilovchi asosiy omillar ekanligi aniqlandi.

Pokistonda ayollarning ijtimoiy maqomini oshirish jarayoni izchil va barqaror bo‘lishi uchun huquqiy islohotlar bilan bir qatorda ijtimoiy institutlar faoliyatini mustahkamlash, ta’lim va bandlik sohasida gender tengligini ta’minlash hamda siyosiy barqarorlikni kuchaytirish zarur. Pokiston tajribasi ayollar maqomini yaxshilash faqat normativ-huquqiy choralar bilan emas, balki keng qamrovli ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar orqali amalga oshirilishini ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jalal, A. Democracy and Authoritarianism in South Asia: A Comparative and Historical Perspective. Cambridge: Cambridge University Press, 1995.
2. Mumtaz, F., & Shaheed, F. Women of Pakistan: Two Steps Forward, One Step Back? London: Zed Books, 1987.
3. Kandiyoti, D. Women, Islam and the State. London: Macmillan Press, 1991.
4. Weiss, A. M. Women’s Position in Pakistan: Sociocultural Effects of Islamization. Asian Survey, 25(8), 1985, pp. 863–880.
5. Jinnah, F. My Brother. Karachi: Quaid-i-Azam Academy, 1987.
6. Bhutto, B. Daughter of Destiny: An Autobiography. New York: Simon & Schuster, 1989.
7. Jahangir, A., & Jilani, H. The Hudood Ordinances: A Divine Sanction? Lahore: Rhotas Books, 2003.
8. Shaheed, F. Gender, Religion and the Quest for Justice in Pakistan. Lahore: Shirkat Gah, 2010.
9. Asian Development Bank. Women in Pakistan: Country Briefing Paper. Manila: ADB, 2000.
10. United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Report: Pakistan. New York: UNDP, 2020.
11. Human Rights Watch. “Shall I Feed My Daughter, or Educate Her?” Girls’ Education in Pakistan. New York, 2018.
12. Pakistan Bureau of Statistics. Population Census 2017. Islamabad, 2017.
13. Aurat Foundation. Gender Equality and Women’s Empowerment in Pakistan. Islamabad, 2015.
14. Shaheed, F. Women’s Political Participation in Pakistan. United Nations Research Institute for Social Development (UNRISD), 2012.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Kadirova Durdona Rustamovna**
Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchi

## GLOBALIZATSIYA VA RAQAMLI SIVILIZATSIYA SHAROITIDA ZAMONAVIY TALQINI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada globalizatsiya va raqamli sivilizatsiya sharoitida jamiyat taraqqiyotining zamonaviy talqini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Raqamli texnologiyalar va global axborot oqimlarining kuchayishi natijasida ijtimoiy munosabatlar, tafakkur tarzi hamda madaniy jarayonlarda yuz berayotgan o'zgarishlar yoritib beriladi. Shuningdek, raqamli sivilizatsiyaning inson hayoti, ijtimoiy ong va milliy qadriyatlarga ta'siri zamonaviy yondashuvlar asosida ochib beriladi. Tadqiqotda globalizatsiya jarayonlarining ijobiy va salbiy jihatlari muvozanatli tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Globalizatsiya, raqamli sivilizatsiya, zamonaviy talqin, raqamli jamiyat, axborot texnologiyalari, ijtimoiy transformatsiya, global madaniyat, raqamli makon.*

**Кадирова Дурдона Рустамовна**
Независимый исследователь Андижанского государственного университета

## СОВРЕМЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ЦИФРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ

***Аннотация:*** *В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется современная интерпретация развития общества в условиях глобализации и цифровой цивилизации. Освещаются изменения, происходящие в социальных отношениях, образе мышления и культурных процессах в результате усиления роли цифровых технологий и глобальных информационных потоков. Также на основе современных подходов раскрывается влияние цифровой цивилизации на жизнь человека, общественное сознание и национальные ценности. В исследовании проводится сбалансированный анализ положительных и отрицательных аспектов процессов глобализации.*

***Ключевые слова:*** *Глобализация, цифровая цивилизация, современная интерпретация, цифровое общество, информационные технологии, социальная трансформация, глобальная культура, цифровое пространство.*

**Kadirova Durdona Rustamovna**
Independent researcher at Andijan State University

## MODERN INTERPRETATION IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION AND DIGITAL CIVILIZATION

***Abstract:*** *This article analyzes the modern interpretation of societal development in the context of globalization and digital civilization from a scientific and theoretical perspective. It highlights the changes occurring in social relations, modes of thinking, and cultural processes as a result of the advancement of digital technologies and the intensification of global information flows. Furthermore, based on contemporary approaches, the article explores the impact of digital civilization on human life, social consciousness, and national values. The study offers a balanced analysis of both the positive and negative aspects of globalization processes.*

***Keywords:*** *Globalization, digital civilization, modern interpretation, digital society, information technologies, social transformation, global culture, digital space.*

Globalizatsiya va raqamli sivilizatsiya davrida bu tushunchaning ahamiyati yanada kengaydi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot oqimining nazoratsiz tarqalishi, "feyk news" fenomeni, manipulyatsion texnologiyalar, kiberterrorizm va kiberjinoyatchilik jamiyatning ijtimoiy-falsafiy barqarorligini xavf ostiga qo'ymoqda. Shu sababdan bugun axborot xavfsizligi faqat davlat siyosati emas, balki jamiyatning har bir a'zosi ishtirok etadigan umumijtimoiy jarayon sifatida ko'riladi. Bu borada ijtimoiy falsafa axborot xavfsizligini insoniy qadriyatlar va ma'naviy immunitetni mustahkamlash bilan birga o'rganadi.

Axborot xavfsizligi tushunchasi mohiyat jihatidan jamiyatning ijtimoiy ongini, bilimlar almashinuvini va kommunikativ barqarorligini ta'minlovchi konseptual hodisa sifatida talqin etilishi mumkin. Uning evolyusiyasi tarixiy bosqichlarda davlat sirlari va harbiy strategiyalarni muhofaza qilishdan tortib, zamonaviy raqamli makon va global

tarmoqlarda shaxsiy erkinlik, inson huquqlari hamda ijtimoiy qadriyatlarni saqlash darajasiga ko‘tarilgan. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan u inson faoliyatining axloqiy me’yorlari va ma’naviy immunitetini mustahkamlash, hamda jamiyatning barqaror rivojlanishiga asos bo‘ladigan tamoyil sifatida qaraladi. Shunday ekan, “axborot xavfsizligi – bu texnik vositalar yig‘indisi emas, balki insoniyatni o‘zini anglash jarayonida yuzaga keladigan ontologik va epistemologik masalalar majmuasi”dir[1].

Raqamli sivilizatsiya davrida axborot xavfsizligi tushunchasi o‘zining soddalashtirilgan utilitar talqinidan chiqib, global ijtimoiy jarayonlarning markaziy falsafiy kategoriyasiga aylandi. Chunki “axborot – jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarini boshqaruvchi asosiy resurs” sifatida nafaqat moddiy manfaatlarni, balki ma’naviy qadriyatlarni ham belgilab bermoqda[2]. Shu ma’noda, axborot xavfsizligi insonni shunchaki kiberxavflardan himoya qilish emas, balki ongiy-axloqiy mustaqillikni saqlash, g‘oyaviy manipulyatsiyalardan asrash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash vazifasini ham bajaradi.

Axborot xavfsizligi evolyusiyasining asosiy bosqichlari ijtimoiy falsafada insonning o‘zini anglash jarayonlari bilan uyg‘unlikda kechadi. Avvalo, u davlatlarning milliy manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lsa, keyinchalik shaxsiy erkinlik, axborotga egalik huquqi va jamiyatning umumiy madaniy salomatligini ta’minlash vazifalarini o‘z zimmasiga oldi. Bu borada "axborot xavfsizligi shaxsiy daxlsizlik va kollektiv barqarorlikning bir-birini to‘ldiruvchi konsepsiyasiga aylandi" degan yondashuv keng qo‘llanmoqda[3].

Ijtimoiy falsafa doirasida ushbu tushuncha axborot oqimlarining nazorat va boshqaruv mexanizmlarini emas, balki ularning inson va jamiyat hayotidagi aksiologik ahamiyatini ochib beradi. Masalan, Habermasning fikricha, “kommunikativ oqimlarning erkinligi va xavfsizligi ijtimoiy integratsiya jarayonining asosiy sharti” hisoblanadi[4]. Bu yondashuv axborot xavfsizligini shaxsiy erkinlik va ijtimoiy birdamlikni uyg‘unlashtirish mezoni sifatida belgilaydi.

Axborot xavfsizligi tushunchasi mohiyatan insoniyat taraqqiyoti davomida shakllanib kelayotgan ijtimoiy-falsafiy kategoriya bo‘lib, u faqat texnik yoki huquqiy mezonlarga tayanmay, balki jamiyatning ma’naviy barqarorligi va ongiy mustaqilligini saqlashga qaratilgan tizimli hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Axborotning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni ortgan sari uning xavfsizligi ham alohida falsafiy masalaga aylangan. Chunki “axborot oqimlari insoniyatning siyosiy, madaniy va iqtisodiy muhitini shakllantiruvchi strategik resurs bo‘lib, ularning boshqarilishi jamiyatning kelajagini belgilaydi”[5]. Shu nuqtai nazardan, axborot xavfsizligi tushunchasining mohiyatini faqat texnik himoya vositalarida emas, balki ijtimoiy barqarorlik, axloqiy qadriyatlar va ma’naviy immunitetda ham ko‘rish mumkin.

Mazkur tushunchaning evolyusiyasi tarixan turli bosqichlardan o‘tgan. Dastlab u davlat sirlarini himoya qilish, diplomatik yozishmalarni saqlash va harbiy strategiyalarni yashirish bilan bog‘liq bo‘lsa, keyinchalik ilmiy-texnik taraqqiyot va axborot jamiyatining shakllanishi natijasida keng ijtimoiy-falsafiy mazmun kasb etdi. Ba’zi tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, “axborot xavfsizligi – bu jamiyatning ijtimoiy ishonchini mustahkamlovchi hamda shaxsning erkinligini saqlovchi mexanizm”[6]. Shu bois bugungi kunda axborot xavfsizligi faqat kiberxavflardan himoya emas, balki shaxsiy huquqlarni, milliy manfaatlarni va global barqarorlikni ta’minlovchi konsepsiya sifatida qaralmoqda.

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan axborot xavfsizligi tushunchasi inson va jamiyat o‘rtasidagi kommunikativ aloqalarni, ularning muloqotdagi ochiqlik va erkinlikni saqlash tamoyillarini falsafiy darajada tahlil qiladi. Habermas ta’kidlaganidek, “axborot oqimlari ustidan nazoratning haddan tashqari kuchayishi kommunikativ oqilonalikni buzadi va ijtimoiy integratsiya jarayonini izdan chiqaradi”[7]. Shu sababli axborot xavfsizligining evolyusiyasi inson huquqlari, axborot erkinligi va ijtimoiy birdamlikni muvozanatda saqlash masalasi sifatida ko‘riladi.

Bugungi globallashuv sharoitida mazkur tushunchaning mazmuni yanada kengaydi. Kiberterrorizm, axborot urushlari, feyk axborotlar va manipulyatsion texnologiyalar jamiyat barqarorligiga tahdid solmoqda. Shu bilan birga, “axborot xavfsizligini ta’minlash – bu jamiyatning ma’naviy immunitetini mustahkamlash va axloqiy qarashlarni himoya qilish jarayonidir”[8]. Demak, axborot xavfsizligi evolyusiyasi jamiyatning ijtimoiy-falsafiy taraqqiyotidagi strategik yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Axborot xavfsizligi tushunchasi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, u insoniyatning kommunikativ faoliyati, ma’naviy qadriyatlari va global taraqqiyot jarayonidagi barqarorligini ta’minlovchi konseptual hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tushuncha tarixiy evolyusiyada davlat sirlarini muhofaza qilishga qaratilgan tor ko‘lamli vazifalardan boshlab, raqamli sivilizatsiya davrida shaxs, jamiyat va butun insoniyatning erkinligi hamda xavfsizligini

[1] Floridi L. The Onlife Manifesto: Being Human in a Hyperconnected Era. – Springer, 2015. – 245 b. – B. 98.
[2] Bell D. The Coming of Post-Industrial Society. – New York: Basic Books, 1999. – 507 b. – B. 167.
[3] Brey P. Ethical Aspects of Information Security and Privacy. – Amsterdam: IOS Press, 2007. – 212 b. – B. 47.
[4] Habermas J. Faktizität und Geltung. – Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1998. – 631 b. – B. 123.
[5] Toffler A. The Third Wave. – New York: Bantam Books, 1980. – 544 b. – B. 212.
[6] Giddens A. Runaway World: How Globalisation is Reshaping Our Lives. – London: Profile Books, 1999. – 124 b. – B. 64.
[7] Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 2. – Boston: Beacon Press, 1987. – 457 b. – B. 312.
[8] Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 228 b. – B. 141.

ta’minlashgacha bo‘lgan keng falsafiy mazmun kasb etdi. Manuel Kastels ta’kidlaganidek, “axborot oqimlari jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy tizimlarini qayta ishlab chiqaruvchi markaziy kuchga aylangan”[9]. Shu bois axborot xavfsizligi bugungi kunda nafaqat texnik, balki ijtimoiy-axloqiy va ma’naviy konsepsiya sifatida talqin etilishi zarur.

Uning mohiyati inson faoliyatining epistemologik asoslarini ham qamrab oladi. Chunki har qanday axborot oqimi nafaqat bilim shaklida, balki qadriyatlar tizimi sifatida ham jamiyat ongini shakllantiradi. Shunday ekan, axborot xavfsizligini ta’minlash deganda, bir tomondan kiberxavflardan himoyalanish, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy ongni manipulyatsiyadan, yolg‘on xabarlar va g‘oyaviy bosimlardan saqlash tushuniladi. Shoshana Zuboff bu jarayonni “insonning shaxsiy tajribasi kapitalistik kuzatuv mexanizmlari orqali nazorat qilinadigan yangi bosqichga o‘tmoqda” deya izohlaydi[10]. Demak, axborot xavfsizligi evolyusiyasi texnik himoya paradigmasidan ongiy-madaniy barqarorlik paradigmasiga o‘tmoqda.

Ijtimoiy falsafa kontekstida mazkur tushuncha ijtimoiy barqarorlik va kommunikativ oqilonalik bilan uzviy bog‘liq. Yurgen Habermas fikricha, “axborot oqimlarining ochiqligi va xavfsizligi ijtimoiy integratsiyaning asosiy sharti hisoblanadi”[11]. Shu sababli, axborot xavfsizligi faqat texnik boshqaruv yoki siyosiy nazorat emas, balki inson huquqlari, erkinliklari va ijtimoiy birdamlikni uyg‘unlashtirish mezoni sifatida qaralishi zarur.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida axborot xavfsizligining ijtimoiy-falsafiy mohiyati yanada murakkablashmoqda. Kiberterrorizm, axborot urushlari, “sun’iy ong” orqali boshqarilayotgan manipulyativ jarayonlar jamiyat barqarorligiga bevosita ta’sir etmoqda. Ba’zi tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, “axborot xavfsizligi – bu ijtimoiy ongni mustahkamlash va ma’naviy immunitetni himoya qilish jarayonidir”[12]. Shu bois, uning evolyusiyasi shaxsiy daxlsizlikdan tortib, global sivilizatsiyaning axloqiy asoslarini saqlashga qadar uzluksiz davom etayotgan falsafiy jarayon sifatida qaraladi.

Axborot xavfsizligi tushunchasining mohiyati ijtimoiy falsafa kontekstida insoniyat taraqqiyotining ma’naviy va texnik qatlamlari bilan uzviy aloqada shakllanadi. Uning ildizlari qadimiy jamiyatlarda yozma hujjatlarni, diplomatik xatlarni yoki davlat sirlarini himoya qilish zaruratidan boshlangan bo‘lsa-da, zamonaviy bosqichda bu tushuncha shaxsiy erkinlik, ijtimoiy barqarorlik va global xavfsizlik masalalari bilan uyg‘unlashgan. Chunki “axborot – bu faqat bilimlar yig‘indisi emas, balki jamiyatni boshqarish, qadriyatlarni shakllantirish va ongiy nazoratning eng muhim resursidir”[13]. Shu jihatdan, axborot xavfsizligi texnik kategoriya emas, balki ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida insonning mavjudlik asoslarini ham belgilaydi.

Axborot xavfsizligining evolyusiyasi modern sivilizatsiyaning epistemologik va ontologik muammolari bilan chambarchas bog‘liqdir. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ilmiy-texnik inqilob va kompyuterlashtirish jarayonlari kuchaygan sari mazkur tushuncha milliy xavfsizlik konsepsiyalarining markaziy bo‘g‘iniga aylandi. Manuel DeLanda ta’kidlaganidek, “raqamli axborot oqimlari ijtimoiy tuzilmalarni qayta shakllantiruvchi yangi metafizik kuchga aylandi”[14]. Bu fikr axborot xavfsizligining mohiyatida nafaqat tashqi tahdidlardan himoya, balki jamiyatning ichki barqarorligi va ijtimoiy ongni muvozanatda saqlash mexanizmi yotganini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy falsafada axborot xavfsizligi tushunchasi kommunikativ adolat va axloqiy mas’uliyat bilan uzviy bog‘liqdir. Masalan, Byung-Chul Han qayd etadi: “Raqamli jamiyatda inson erkinligi sekin-asta shaffoflik va kuzatuvga bo‘ysundirilmoqda, bu esa axborot xavfsizligini insoniy qadr-qimmatni himoya qilish masalasiga aylantirmoqda”[15]. Demak, axborot xavfsizligi evolyusiyasi shaxsiy daxlsizlik, jamiyatning ijtimoiy ishonchi va global barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan falsafiy kategoriya sifatida rivojlanmoqda.

Bundan tashqari, bugungi globallashuv davrida axborot xavfsizligining falsafiy mazmuni yanada murakkablashdi. Internet, sun’iy intellekt, algoritmik boshqaruv va “katta ma’lumotlar” texnologiyasi inson hayotining deyarli barcha jabhalariga kirib bordi. Bu jarayonni Lyusi Suchman “insoniy faoliyat va mashina algoritmlari o‘rtasidagi murakkab muvofiqlashuv” sifatida izohlaydi[16]. Shu bois axborot xavfsizligi endilikda texnik muammo emas, balki ijtimoiy falsafaning asosiy predmetlaridan biriga aylangan.

Axborot xavfsizligi tushunchasi ijtimoiy falsafa kontekstida insonning o‘zini anglash jarayoni, ijtimoiy ishonch mexanizmlari va siyosiy-huquqiy tartibotning ma’nodosh “mavjudlik sharti” sifatida talqin qilinadi: u texnik himoya vositalaridan iborat tor sohaga siqilmay, balki ong, qadriyat va hokimiyat munosabatlarini tartibga soluvchi aksiologik-normativ doirani ifodalaydi. Mazkur doira tarixan sir saqlash va diplomatik yozishmalarni muhofaza qilishdan (Simmel

[9] Castells M. The Internet Galaxy: Reflections on the Internet, Business, and Society. – Oxford: Oxford University Press, 2004. – 292 b. – B. 78.

[10] Zuboff S. The Age of Surveillance Capitalism. – New York: PublicAffairs, 2019. – 704 b. – B. 131.

[11] Habermas J. Between Facts and Norms. – Cambridge: Polity Press, 1996. – 514 b. – B. 174.

[12] Poster M. Information Please: Culture and Politics in the Age of Digital Machines. – Durham: Duke University Press, 2006. – 232 b. – B. 54.

[13] Machlup F. The Production and Distribution of Knowledge in the United States. – Princeton: Princeton University Press, 1983. – 519 b. – B. 47.

[14] DeLanda M. Assemblage Theory. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2016. – 208 b. – B. 92.

[15] Han B-Ch. In the Swarm: Digital Prospects. – Cambridge, Mass.: MIT Press, 2017. – 72 b. – B. 56.

[16] Suchman L. Human-Machine Reconfigurations: Plans and Situated Actions. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – 314 b. – B. 113.

“sirning ijtimoiy arxitekturasi”ni “o‘zaro ishonchning institutsional shakli” sifatida sharhlagan edi) hozirgi raqamli total ko‘rinishdagi nazorat, tarmoqlashgan kommunikatsiya va axborot oqimlari iqtisodiyoti sari izchil kengaydi; shu bois “xavfsizlik” endi nafaqat kirish huquqlari va kriptografiya masalasi, balki ijtimoiy hayotning semantik yaxlitligi, haqiqat rejimlari va shaxsiy daxlsizlikning ontologik kafolatidir. Shannon axborotni entropiya va noaniqlikni kamaytirish funksiyasi sifatida aniqlaganida, u bilvosita shuni ko‘rsatdi: “kanal”ning ishonchliligi ma’no ishlab chiqarishning barqarorligiga bog‘liq[17]. Wiener esa kibernetik qayta-aloqa mexanizmlarini “tartibni ushlab turuvchi axboriy intizom” deya tasvirlar ekan, axborot xavfsizligining etik-siyosiy ufqini ochadi: “erkinlik – bu axboriy boshqaruv bilan uyg‘unlashgan mas’uliyatdir”[18]. Shu manzarada Foucaultning tahliliga ko‘ra, zamonaviy hokimiyatning mikro-fizikasi nazoratni ko‘rinmas algoritmik me’yorlar darajasiga singdiradi, shunday ekan “xavfsizlik rejimi” faqat tashqi tahdidga javob emas, balki subyektlashuv texnologiyasidir[19]. Deleuze bu evolyutsiyani “intizomiy jamiyat”dan “nazorat jamiyati”ga o‘tish sifatida belgilab, identifikatsiya-autentifikatsiya jarayonlarini uzluksiz modulatsiyalovchi raqamli kodlar hukmronligini ko‘rsatadi. Natijada axborot xavfsizligi masalasi uch qatlamda uyg‘unlashadi: birinchisi, ontologik qatlam – haqiqat rejimlari va semantik farqlarning (haqiqat/soxtalik) muvozanati; ikkinchisi, etik qatlam – shaxsiy daxlsizlik, sha’ni va qadr-qimmati; uchinchisi, siyosiy-institutsional qatlam – jamoat maydonida legitimlik va ishonch ishlab chiqarish imkoniyati. Arendt ogohlantirganidek, “siyosatda haqiqatning himoyasizligi” yolg‘on-targ‘ibot oqimlari ostida jamiyatning ijtimoiy xotirasini yemiradi[20]. Debord “tomosha jamiyati”da tasvirlar iqtisodiyotining hukmronligini ko‘rsatib, xavfsizlikning semantik o‘lchovi – haqiqatni ajratib olish salohiyati – zaiflashishini ta’kidlaydi[21]. Shu bois axborot xavfsizligi, ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, haqiqat rejimlarini barqarorlashtirish va “kontextual yaxlitlik”ni saqlash amaliyotidir: Nissenbaumning fikricha, “maxfiylik – kontekstga mos oqim qoidalariga rioya qilinganida paydo bo‘ladigan me’yoriy holat”, u buzilganda nafaqat shaxs, balki ijtimoiy ishonch tizimi zarar ko‘radi[22]. Ellul targ‘ibotni “ijtimoiy muvofiqlikni ishlab chiqaruvchi texnika” sifatida sharhlab, axborot xavfsizligini tanqidiy ong va ma’naviy immunitetni mustahkamlash jarayoni deb belgilaydi. Beck risk jamiyatida texnologik-institutsional noaniqliklar “normallashtirilgan xavf”ga aylanib, xavfsizlik siyosatini kommunikativ ishonchni qayta tiklashga majbur etishini ko‘rsatadi. Aynan shu yerda ijtimoiy falsafiy mezon paydo bo‘ladi: axborot xavfsizligi – bu “yopish” emas, balki “ochiq jamiyat”ning barqaror ochiqligini me’yoriy me’xanizm va madaniy odatlar bilan muvozanatlashtirish; Morozovning tanqidicha, “texnoshalvarlangan yechimlar” siyosiy muammolarni depolitizatsiya qilib, haqiqiy javobgarlikni algoritmlarga yuklash xavfini tug‘diradi, shu sabab axborot xavfsizligi siyosati hamisha demokratik hisobdorlik, tushuntirishlilik va kutilmagan oqibatlarga tayyorgarlikni talab etadi.[23] Nihoyat, Harari “dataizm”ni “axborot oqimlarini axloqiy ustuvorlik deb tan oluvchi” yangi metafizika sifatida ko‘rsatib, xavfsizlikning eng chuqur savolini qo‘yadi: insoniy ma’no ishlab chiqarish mashina oqimlariga nechog‘li topshirilishi mumkin?. Shu bilan, axborot xavfsizligi tushunchasining evolyutsiyasi sir-sadoqat amaliyotlaridan kibernetik me’yorlar, nazorat jamiyatlari va kontekstual integritet etikasi sari yuksalib, bugun jamoat maydonida haqiqatni ishlab chiqarish, shaxsiy daxlsizlikni kafolatlash va ijtimoiy ishonchni yangilab turishning kompleks falsafiy-institutsional dasturiga aylandi; uning mohiyati “tejamkor yashirish”da emas, balki ma’naviy immunitet, semantik aniqlik va demokratik hisobdorlikni uyg‘unlashtirgan ochiqlik intizomini barpo etishda ko‘rinadi.

Axborot xavfsizligi tushunchasining mohiyatini ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan sharhlar ekanmiz, uni jamiyatning intellektual barqarorligi, ma’naviy immuniteti va siyosiy-huquqiy mustahkamligini ta’minlovchi konseptual kategoriya sifatida ko‘rish mumkin. Dastlab u davlat sirlarini himoya qilish va strategik axborotlarni saqlash kabi amaliy vazifalar bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, bugungi global raqamli makon sharoitida bu tushuncha “inson ongini manipulyatsiyadan himoya qilish va haqiqat rejimlarini asrab qolishning muhim falsafiy vositasi” sifatida qayta talqin etilmoqda. Axborot xavfsizligi mohiyatini ochishda uning ijtimoiy-falsafiy o‘lchovi – ya’ni haqiqat, ishonch va erkinlik dialektikasidagi o‘rni alohida ahamiyatga ega.

Evolyutsion bosqichlarda axborot xavfsizligi tushunchasi tobora kengayib borgan: o‘rta asrlarda diniy va siyosiy matnlarni nazorat qilish, Yangi davrda davlat suverenitetini mustahkamlash, sanoat va post-sanoat jamiyatida esa kommunikativ oqimlar ustidan hukmronlik shaklida ko‘zga tashlanadi. Bauman ta’kidlaganidek, “suyuqlashgan zamonaviyatda xavfsizlikning ma’nosi doimiy o‘zgarishda, u nafaqat jismoniy tahdidlardan, balki axboriy beqarorlikdan

[17] Shannon C. E. A Mathematical Theory of Communication. – Bell System Technical Journal, 1948, 27(3). – 379–423 b. – B. 392.

[18] Wiener N. The Human Use of Human Beings: Cybernetics and Society. – Boston: Houghton Mifflin, 1954. – 199 b. – B. 161.

[19] Foucault M. Discipline and Punish: The Birth of the Prison. – New York: Vintage, 1977. – 333 b. – B. 201.

[20] Arendt H. Truth and Politics // Between Past and Future. – New York: Penguin, 1967. – 343 b. – B. 259.

[21] Debord G. The Society of the Spectacle. – New York: Zone Books, 1994. – 221 b. – B. 12.

[22] Nissenbaum H. Privacy in Context: Technology, Policy, and the Integrity of Social Life. – Stanford: Stanford University Press, 2010. – 368 b. – B. 140.

[23] Morozov E. The Net Delusion: The Dark Side of Internet Freedom. – New York: PublicAffairs, 2011. – 432 b. – B. 74.

ham himoyani talab qiladi". Shu bois axborot xavfsizligi endilikda shaxsiy daxlsizlik va kollektiv ishonchni uyg'unlashtiruvchi aksiologik mezonga aylandi.

Ijtimoiy falsafa doirasida ushbu tushuncha inson erkinligi va jamiyat barqarorligini uyg'unlashtirish muammosi bilan bog'liqdir. Habermas qayd etadi: "Kommunikativ amaliyotning xavfsizligi ijtimoiy integratsiyaning ajralmas shartidir". Demak, axborot xavfsizligi faqat texnologik himoya emas, balki ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va ma'naviy qadriyatlarni himoya qilishning zaruriy falsafiy vositasidir. Zuboff ham raqamli kapitalizmning mohiyatini ochib, "insoniy tajriba iqtisodiy resursga aylantirilgan jamiyatda axborot xavfsizligi erkinlik va qadr-qimmatni saqlashning yagona kafolatiga aylanadi" deya ta'kidlaydi.

Globalizatsiya sharoitida axborot xavfsizligi tushunchasining falsafiy mazmuni yanada murakkablashmoqda. Internet, sun'iy intellekt va algoritmik nazoratning kengayishi insonning ma'naviy mustaqilligi va ijtimoiy ishonch tizimlariga yangi xavflar tug'dirmoqda. Castellsning fikricha, "tarmoqlashgan jamiyatda hokimiyatning markaziy resursi sifatida axborot oqimlari ustidan nazorat ijtimoiy barqarorlikning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda". Shu sababli axborot xavfsizligi evolyusiyasi shaxsiy huquqlardan tortib, global barqarorlik va insoniyatning ma'naviy taraqqiyotini ta'minlovchi konseptual doiragacha kengaymoqda.

I. Axborot xavfsizligi tushunchasining mohiyati ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan jamiyatning o'z-o'zini tashkil etishi, ishonchni ishlab chiqarish va normativ tartibni qayta ishlab turish jarayonlari bilan uzviy tutashgan bo'lib, u faqat texnik "qalqon" emas, balki semantik yaxlitlik, kommunikativ adolat va subyektning daxlsizligini muvozanatlashtiruvchi me'yoriy rejimdir; Luhmann ta'biri bilan aytganda, "jamiyat murakkablikni ishonch yordamida kamaytiradi" va shu bois axborot oqimlari ustidan mos institutlashgan me'yorlar bo'lmasa, tizim o'zining rekursiv barqarorligini yo'qotadi ("trust as a mechanism for complexity reduction". Raqamli muhitda xavfsizlik masalasi ishonch va nazorat dialektikasini keskinlashtiradi: Schneier qayd etganidek, "ijtimoiy tartib o'zaro majburiyatlar va ishonch infratuzilmasiga tayanadi, texnik chora-tadbirlar esa faqat shu infratuzilmani qo'llab-quvvatlaganida samarali bo'ladi". Bu, o'z navbatida, axborot xavfsizligini faqat kirish-chiqishlarni cheklash emas, balki ma'no ishlab chiqarish kontekstlarining "sog'lom aylanishi"ni saqlash, ya'ni haqiqat rejimlari, javobgarlik va tushuntirishlilikni bir butun ekotizim sifatida qo'llab-quvvatlash vazifasiga ko'taradi; Jasanoff buni "ixtirolar etikasi"da "kamina texnologiyalarining jamiyat oldidagi javobgarligi" tamoyili bilan asoslaydi. Axborot xavfsizligining evolyutsiyasi sir saqlash amaliyotidan kibernetik qayta-aloqa, so'ngra platformalashgan vositachilikka o'tish bilan tavsiflanadi: van Dijck "platforma mantiqi"ni ijtimoiy aloqalarning algoritmik kodlanishi sifatida ochib, "ko'rinmas me'yorlar konturida foydalanuvchi xatti-harakatlari me'yorlashtiriladi" deya ogohlantiradi. Hayles esa "postinsonga xos tarqoqlik" sharoitida inson/mashina chegaralari qayta chizilayotgani, shu sabab shaxsiy daxlsizlik va tanaviy subyektivlik himoyasi yangi axboriy mezonlarni talab etishini ta'kidlaydi. Nazorat inqirozi va tezlik siyosatini tahlil qilgan Virilio uchun "axborot bombasi" xavfi — tasvir va tezlikning geosiyosiy kuchga aylanishidir. Stiegler raqamli avtomatizm ostida "e'tibor iqtisodiyoti" yemirilishini ko'rsatib, madaniy farmakon (davo/zarar) sifatida texnikaning etik boshqarilishini ilgari suradi. Shu manzarada Latourning "gibridlar" haqidagi ogohligi ham dolzarb: "modernlik fakt/qiymat, texnika/jamiyat ajratmalariga tayanadi, holbuki ularni ajratishning iloji yo'q", demakki, axborot xavfsizligi siyosati ham gibrid – huquqiy, texnik, axloqiy va ijtimoiy me'yorlarning muvofiqlashtirilgan kompozitsiyasi bo'lishi shart. Natijada, axborot xavfsizligi ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida uch darajadagi vazifani bajaradi:

I. ontologik daraja - haqiqat rejimlarini va semantik yaxlitlikni himoya qilish ("kim, qachon, qanday kontekstdagi ma'no");

II. aksiologik daraja - shaxsiy daxlsizlik, sha'n va qadr-qimmatning kontekstual integritetini ta'minlash;

III. institutsional daraja - demokratik hisobdorlik, tavakkal boshqaruvi va jamoat ishonchini qayta ishlab turuvchi platforma-me'yorlar arxitekturasi.

Evolyutsiyaning ushbu bosqichida xavfsizlikni "yopilish" emas, balki "ochiq, lekin to'g'ri normativlangan oqimlar" printsipi bilan tushunish lozim: "axborot erkinligi – xavfsizlikning aksi emas, balki uning me'yoriy sharti" zero, ishonchni kuchaytiruvchi va manipulyatsiyani kamaytiruvchi kontekstual qoidalarsiz na shaxsiy erkinlik, na jamoat maydonida haqiqatni farqlash qudrati barqaror saqlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Floridi L. The Onlife Manifesto: Being Human in a Hyperconnected Era. – Springer, 2015. – 245 b. – B. 98.
2. Bell D. The Coming of Post-Industrial Society. – New York: Basic Books, 1999. – 507 b. – B. 167.
3. Brey P. Ethical Aspects of Information Security and Privacy. – Amsterdam: IOS Press, 2007. – 212 b. – B. 47.
4. Habermas J. Faktizität und Geltung. – Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1998. – 631 b. – B. 123.
5. Toffler A. The Third Wave. – New York: Bantam Books, 1980. – 544 b. – B. 212.
6. Giddens A. Runaway World: How Globalisation is Reshaping Our Lives. – London: Profile Books, 1999. – 124 b. – B. 64.

7. Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 2. – Boston: Beacon Press, 1987. – 457 b. – B. 312.
8. Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 228 b. – B. 141.
9. Castells M. The Internet Galaxy: Reflections on the Internet, Business, and Society. – Oxford: Oxford University Press, 2004. – 292 b. – B. 78.
10. Zuboff S. The Age of Surveillance Capitalism. – New York: PublicAffairs, 2019. – 704 b. – B. 131.
11. Habermas J. Between Facts and Norms. – Cambridge: Polity Press, 1996. – 514 b. – B. 174.
12. Poster M. Information Please: Culture and Politics in the Age of Digital Machines. – Durham: Duke University Press, 2006. – 232 b. – B. 54.
13. Machlup F. The Production and Distribution of Knowledge in the United States. – Princeton: Princeton University Press, 1983. – 519 b. – B. 47.
14. DeLanda M. Assemblage Theory. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2016. – 208 b. – B. 92.
15. Han B-Ch. In the Swarm: Digital Prospects. – Cambridge, Mass.: MIT Press, 2017. – 72 b. – B. 56.
16. Suchman L. Human-Machine Reconfigurations: Plans and Situated Actions. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – 314 b. – B. 113.
17. Shannon C. E. A Mathematical Theory of Communication. – Bell System Technical Journal, 1948, 27(3). – 379–423 b. – B. 392.
18. Wiener N. The Human Use of Human Beings: Cybernetics and Society. – Boston: Houghton Mifflin, 1954. – 199 b. – B. 161.
19. Foucault M. Discipline and Punish: The Birth of the Prison. – New York: Vintage, 1977. – 333 b. – B. 201.
20. Arendt H. Truth and Politics // Between Past and Future. – New York: Penguin, 1967. – 343 b. – B. 259.
21. Debord G. The Society of the Spectacle. – New York: Zone Books, 1994. – 221 b. – B. 12.
22. Nissenbaum H. Privacy in Context: Technology, Policy, and the Integrity of Social Life. – Stanford: Stanford University Press, 2010. – 368 b. – B. 140.
23. Morozov E. The Net Delusion: The Dark Side of Internet Freedom. – New York: PublicAffairs, 2011. – 432 b. – B. 74.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Miltiqboyev Bobir Zokirovich**
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Mustaqil izlanuvchisi
Email: bobirzokirovich@gmail.com

**UDK 370.2**

## AHMAD DONISH MEROSIDA MA’NAVIY KAMOLOT VA AXLOQ MASALALARI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola Ahmad Donishning ilmiy va falsafiy merosida ma’naviy kamolot va axloq masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda Donishning ijtimoiy hayot, tarbiya, ma’naviyat va axloqiy qadriyatlar haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Muallifning asarlarida yosh avlodni tarbiyalash, odamlarning ma’naviy va axloqiy rivojlanishi, milliy qadriyatlarni hurmat qilishga chaqirish kabi masalalar o‘z aksini topadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Ahmad Donish, ma’naviy kamolot, axloq, tarbiya, milliy qadriyatlar, ijtimoiy fikr, falsafiy meros, yosh avlod, axloqiy rivojlanish, ta’lim tizimi.*

**Милтикбоев Бобир Закирович**
Независимый исследователь
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## ДУХОВНОЕ СОВЕРШЕНСТВО И ВОПРОСЫ НРАВСТВЕННОСТИ В НАСЛЕДИИ АХМАДА ДОНИША

***Аннотация:*** *Данная статья посвящена изучению вопросов духовного совершенствования и нравственности в научном и философском наследии Ахмада Дониша. В исследовании анализируются взгляды Дониша на социальную жизнь, воспитание, духовность и нравственные ценности. В его произведениях отражаются вопросы воспитания молодого поколения, духовного и нравственного развития личности, а также уважения к национальным ценностям.*

***Ключевые слова:*** *Ахмад Дониш, духовное совершенство, нравственность, воспитание, национальные ценности, социальные взгляды, философское наследие, молодое поколение, нравственное развитие, система образования.*

**Bobir Zokirovich Miltiqboyev**
Independent Researcher National University of Uzbekistan

## SPIRITUAL PERFECTION AND MORAL ISSUES IN THE LEGACY OF AHMAD DONISH

***Abstract:*** *This article is devoted to the study of spiritual perfection and moral issues in the scientific and philosophical legacy of Ahmad Donish. The research analyzes Donish’s views on social life, education, spirituality, and moral values. His works reflect issues such as the upbringing of the younger generation, the spiritual and moral development of individuals, and respect for national values.*

***Keywords:*** *Ahmad Donish, spiritual perfection, morality, education, national values, social thought, philosophical heritage, younger generation, moral development, education system.*

### Kirish.

Inson falsafasini o’rganish va inson borlig’ini tushunishning yangi bosqichga ko’tarilishi jamiyatda inson va uning faoliyatini o’rganish falsafiy qarashlarning rivojlanishi olimlar, asosan sharq mutafakkirlarining inson axloqi va komil inson tushunchasini shakllanishi uning negizida nimalar yotishi, qanday sifatlarga ega bo’lgan shaxsni komil inson sifatida ko’rish masalasi ham o’rta asrlar, uyg’onish davri sharq falsafiy merosini asosiy o’rganishlaridan hisoblanadi. Jamiyat tarixida juda ko’plab o’zgarishlar va yangilanishlar, xilma-xil qarashlar va g’oyalarning shakllanishiga guvoh bo’ldik. Lekin, inson uning mohiyati, axloqi, ma’naviyati qancha zamonlardabn beri faylasuflarning diqqat markazida bo’lib kelmoqda.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Bu borada sharq allomlarining inson ma'naviy kamoloti haqidagi qarashlarida Farobiyning fikricha ma'naviy kamolot aqliy bilim bog'laydi. Insonning bilishini, ruhiy qobilyatlarini miya boshqaradi, yurak esa barcha a'zolarni hayot uchun zarur bo'lgan qon bilan ta'minlochi markazdir, barcha ruhiy quvvatlar jumladan bilish qobiliyati muayyan a'zoga bog'liq. Forobiy "Ilm va san'atning fazilatlari" risolasida tabiatni bilishning cheksizligini, bilim bilmasliqdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, sifatlardan akstidenstiya (al-oraz)dan substanstiya – mohiyat (javhar)ga qarab borishini ilmning borgan sari ortib, chuqurlashib borishini ta'kidlaydi[1]. Ilm o'rgangan sari insonni bilimi ortishi va buning natijasida ma'naviy kamolotga erishish mumkinligini o'z qarashlarida ochib bergan. Aql insonga tug'ma quvvat. Aql ruhiy jarayon bo'lib, ta'lim va tarbiyaning natijasi deb hisoblaydi. Aqlga ega bo'lish bu bilimli bo'lish degani emas, aqlga ega bo'lish ma'lum axloqiy mezonlarga amal qilish bilan yakunlanishi kerak deb hisoblaydi. Forobiy aqlli inson haqida gapirib bunday yozadi: "Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo'r iste'dodga ega, yomon ishlardan o'zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar. Yomon ishlarni o'ylab topish uchun zehnidrokka ega bo'lganlarni aqlli deb bo'lmaydi, ularni ayyor, aldoqchi degan nomlar bilan atamoq lozim"[1].

Ma'naviy kamolat haqida so'z yuritganda Alisher Navoiy qarashlarini chetlab o'tishning ilohi yo'q. Navoiy inson olami, komil inson, ma'naviy kamolot masalalarida ko'plab o'zining qarashlari va yondashuvarini berib o'tgan. "Hayrat-ul abror" dostonida komil inson haqidagi qarashlarini yoritib o'tgan. Navoiy ilm-ma'rifat insonni komillikka yetaklaydi, ilm olish uzliksiz va muntazam bo'lishi, har bir inson hayoti davomida bilim olishga intilishi kerak. Ilm ma'rifat jamiyat taraqqiyotining asosi deb hisoblagan. Ilm olish bilan birga axloqiy fazilatlarga ham alohida urg'u berib o'tgan.

"Kim bo'lsa adab birla hunardin yiroq,
Ahli xirad ichra emasdur yaroq"[2]

Navoiy ijodida ham asosiy urg'u komil inson, ma'naviyatli shaxs va axloqiy fazilatlar masalasiga qaratiladi. Ta'lim va tarbiyaning muhim jihati –axloqiy kamolot deb axloqiy fazilatga alohida urg'u beradi.

**Natijalar va muhokama.**

Axloq masalasida Sharq allomalarida Ibn Sino ham o'zining har bir asarida axloq masalasiga alohida to'xtalib o'tadi. Islom asoslarini metafizika bilan sintez qiladi. Axloq ilmida asosiy maqsad nafsni poklamoq deb hisoblaydi. Uning qarashlarida, bashariy nafsining eng oliy maqsadi faol aql bilan birlashish natijasida fizik olamni bilish va ruhini poklash zaruriydir. Olamda va jismlarning tashqarisidagi yomonliklarning aksariyati yakuniy maqsad "haqiqiy baxt"ga erishish yo'lida to'siqlardir[3]. Mutafakkir haqiqiy baxt bu dunyoda emas o'limdan keyin keladi deb hisoblaydi.

Ahmad Donish insonlarni kelib ketguvchi sayyoh sifatida tasavvur qiladi. U doim ilm olish va o'rganishda kerkligini ta'kidlaydi. Agmad Donish "Navodir – ul vaqoe" asarida axloqning aniq ifoda etgan va ma'naviy kamolot to'g'risida g'oyalarni aniq ochib bergan. Bu asar diniy va axloqiy g'oyalarni o'z ichiga olgan buyuk merosdir. Ahmad Donish asarlarida inson Ollox tomonidan yaratilgan mahluqotlarning eng oliysi ekanligini ta'kidlaydi. "haqiqatda inson ulug' olamdir. Agar vijdonan qarasang, shu ko'rimsiz gavdangga qanchalik hikmat va maslahatlar yashirinib yotganini bilasan". Ana shunday ulug' sifatlar bilan siylangan insonni vujudidagi ziddiyatlar Ahmad Donish tomonidan shunday bayon etiladi: "agar qahr-g'azabing kelsa, yo'lbarsni mushukday ham ko'rmaysan; agarmehribonligining tutar ekan, bechora chumolini ham kipriging ustida saqlaysan; agar sahiyliging jilva qilsa, kiygan kiyimingni muhtojga berib, o'zing yalang'och qolasan; agar baxilliging tutsa, qumursqa og'zidan ham don talasahasan"[4].

Ahmad Donishning ilmiy merosi va qarashlaridan shu ma'lum bo'ladiki, dastlab insonni o'z-o'zini anglashga qaqratilgan. O'zini tarbiyalab, nafs tarbiyasi va inson axloqiga erishish borasida qimmatli fikrlarini berib o'tgan. Ilm ollox tomonidan beriladi. Insonlarning axloqi va uning ilmiy salohiyatidan kelib podshohning lavozimlarga saylash orqali inson axloq odoblarini ochib beradi. Masalan: xudo tomonidan qaysi odamni shijoatli va haybatli qilib yaratgan bo'lsa, unday odamni askar boshlig'i qilib, dushmanga qarshi urushga va qal'alareni olsihga chaqirsin. Agarda yaxshi so'zlik, notiq, xushxulq bo'lib yaralgan bo'lsa, uni hamsuhbat va hammajlislikka xoxlasin. Agarda insoflik va diyonatli bo'lsa, qozilik, hokimlik mansablarini shunday odamlarga bersin. Agarda, oliyhimmatlik, aqllik bo'lsalar, unda vazirlar hamda amirlarni shunday odamlardan saylasin. Chunki bu shaxslar o'zlarida bor bo'lgan shu sifatlardan boshqa sifatlarga layoqatlari bo'lsa edi, Ollox uni ham ularga bergan bo'lar edi.

Ahmad Donishning falsafiy qarashlarida tassuvuf maslagidagi nafs tarbiyasi, ruhga munosabat, Olloxning rizoligiga erishish yo'li nafsga qarshi kurashishdan iborat ekaligini ochib beradi. Insonlar o'z mehnatiga yarasha haq olishlari, ishga yaramaydigan ojiz kishilarga shariat buyurgunicha eng tuban darajada nafaqa berilsin. Chunki ulardan insoniyat va jamiyatga hech qanday foyda yetmaydi. Nafaqa berishdan maqsad ularning tirikligini saqlashdir. Shuning uchun eng tuban darajadagi nafaqa ham ularga yetadi. Ularning och qolmasligi uhun uchta non, axvoliga yarasha ora-sira ozroq yog' va go'sht, avrati ochilmagundek yozlik va qishlik ikki sira kiyim berilsa, o'shanda Ollox aytgan nafaqa bo'ladi deb yozadi. Ushbu fikrlardan dangasalik va uning ishyoqmaslik yomon odat. Ularga ollox yo'lida nafaqa berish orqali tirikligini saqlab turish, lekin ularga ko'p nafaqa berib yanada dangasalikka o'rgatmaslik kabi g'oyalarini ilfari suradi.

O’rta hollik hizmatchilarning kundalik o’rtacha nafaqalari ikki yarim tanga atrofida. Chunki dunyodagi insonlar yemak-ichmaklarida bir-biri bilan teng emas. Ba’zi insonlar borki maqsadlari faqatgina qorin to’ydirish, ko’zga ko’ringan tomoqdan o’tgudek har narsa yeyaveradi. Yana bir xil kishilar esa gul teri shakarni puflab yeydilar. Kishida bo’lgan kamchilik insonga o’rtacha nafaqa berishni talab qiladi. Chunki insonga o’rinlashgan kamchiliklar uning dangasiligidan tug’ilganidek undagi komillikni paydo bo’lishi esa uning ishchanligidan kelib chiqadi[5]. Insonning dangasalik va ishchanligi sabab yomon, o’rtahol yoki alo darajada yashashi uning o’ziga bog’liq ekanligi uning harakatlariga bog’liq ekanligi orqali ochib beradi.

Agar insonlar yaxshi yashash va ko’proq maosh olib a’lo darajani xoxlasa, u holda ish ko’rsatsin, yangidan shaharlar ochsin, daryolarga tushib, quruqlikda yurib konlar topsin, ana shunda shu g’animat mollardan ko’proq olishni talab qilsin deb ta’kidlaydi[5].

Maosh tayinlashda adolat bilan yondashib, askarning har to’pi ichida ibsoflik qalam ahllaridan bir kishi doim bo’lishi lozimligi va hunarliklarni hunarsizlardan ajiratib, hunarlilarni haqlari zoe ketmasligi uchun zarurligini ta’kidlaydi. Bunda tushinish mumkinki, har bir kishi o’z mehnatiga yarasha maosh olishi va uning mehnatini qadrlanishi o’z ustida ko’proq ishlash va yangi marralarga intilish va rivojlanishga sabab bo’ladi. Shuning uchun har bir insonni mehnatri zoe ketmasligi kerak. Bunday holda ishonchsizlik va umidsizlik ham kelib chiqishi, rivojlanishdan ortda qolishga ham sabab bo’lishi mumkin. Dunyo tirikchiligi mol bilan, shohu-gado hamma barobar uni topishi kerak. Bu esa bekor yurish va bekor qo’yishni istamaydi. Har kimning qiladigan kasbi kun kechirish uchun uning qurgan alohida tuzog’idir. Shunga ko’rsa kasb qiluvchining ham alohida nomi bo’ladi. Gohida sulton o’zini mol oluvchi deb atab, xalqdan boj oladi. Tabib esa, dori berib qadam haqqi olaman deydi. Shoir esa birovlarni maqtab undan mukofot umid qiladi. Fatvochi bo’lsam kitob ko’rib bergan fatvosiga kun haqqi olaman deydi. Til haqi, tarozu haqlari ham shunga qarab ayilgan so’zlardir[6]. Har turlik ilmlarda uning olimi bo’lishi shartdir. Deb ta’kidlagan. Hamma inson o’z kasbi bilan mol topishi mumkin, ammo ilmli va insofli bo’lishi kerakligiga urg’u beradi. Meros mollarini vorislarga taqsimlash nujum ilmining ta’limoti, sog’liqni saqlash, tibbiy ilm, kitob chiqarosh shoirlik ilmi, shu bilan hisob ilmi, handasa ilmi, naqqoshlik ilmi kabi bir qancha ilmlarni egallashi. Har bir inson o’z ilmiy darajasidan keli chiqib maosh olishi kerakki, o’sha darajaga yetmaguncha maoshdan hech kim ta’ma qilmaslik kerak deydi.

Donish fikricha o’z sohasining yetuk darajasiga yetishi ilmni mukammal egallashi va o’z yo’nalishida xato qilmasligi uning komillik darajasidir deb ataydi. Masalan, yozuvchi turli xatlarni yaxshilab yoa olsa, insho va imlo qoidalari hato qilmasa, ana shundagina komil deyilib yuqori mosh olishga haqli. Shoirlarning komili esa turli vaznlarda she’r ayta olishi, nazmni nasrga, nasrni esa nazmga aylantira olishi. Tabib ham boshqa kasb egalari ham o’z sohasini mukammal bilishi uning komillik darajasini belgilab beradi deb hisoblaydi. Ya’ni insonni ko’proq bilim olishi, ilm o’rganishiga urg’u bermoqda. Kundalik taqvim yozib, oy boshini tayinlashni bilishi munajjim deyilmaydi. Yoki bir juft qog’ozga chiroyli qilib xat yozsa, bunisi yaxshi xushxat, unisi shoir deb bo’lmaydi. Biror odam ilmlarga o’zini ahilligini da’vo qilar ekan, u choqda badoe raislari imtixon olsin. Sinovdan o’tar bo’lsa o’z holiga yarasha oylik va yillik maosh tayinlansin. Chunki u bu bilan qiziqib, kundan-kun ilm oshirib, o’z ilmini kamoliga yetkazsinki, mamlakat hunarmandlar bilan husnga to’lsin[7].

Insonlar qancha ko’p bilim va hunar egallasalar mamlakat shunchalik zeb ziynatga kiradi. Shuning uchun insonlarni o’z mehnatiga yarasha doim rag’batlantirib borishi zarur. Masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Insonlarni bilimi va salohiyati, saviyasiga yarasha rag’batlantirmaslik, ularning mehnatini qadrlamaslik, dangasalik va yalqovlikni keltirib chiqaradi. Insonlar orasida befarq va yalqovlar soni ortib borishiga ham sabab bo’ladi.

Ahmad Donish do’st-dushmanga yaxshi muomilada bo’lishi kerkaligini aytadi. Buning natijasida do’stning muhabbati ortib, dushmanning adovati kamayadi. Qadrdon xizmatchilardan biri eng yomon gunoh qilgan bo’lsa, uning ko’zdan uzoqlashtirib, qadimgi qilgan yaxshiliklarini unutmasin. Ota-bobolaridan hurmat-izzat ko’rgan ulug’ insonlarni o’lim jazosi beriladigan ulug’ gunoh qilsa ham, o’lim jazosiga buyurmasin. Avf qilib oila azolarini g’am-qayg’udan ozod qilsin. Gunohidan o’tsinlar. Bunday odamlarga ortiqcha xorikni ko’rgazmasinlar. Bu dunyoning davlati har turlidir, o’zgarib turadi deydi[8]. Demak aytishimiz mumkinki, gunohlarni avf etish, kechirimli bo’lish, insonlarni qilgan yaxshiliklarini unutmaslik uning axloqiy mezoni hisoblanadi.

Ahmad Donish falsafasida tasavvufiy qarashlarning mavjudligi, olloxdan qo’rqish, hadislarda kelgan amrlarini bajarish kerakligi orqali axloqiy sifatlarni ko’rsatib bergan. Podshoh hech kimning diliga ozor beruvchi bo’lmasin. Chunki xalq o’z tinchligi va o’zlarining erkin yashashi uchun uni ulug’ darajaga ko’targanlar. Bu yana ularga ozor berar ekan ish teskarisiga aylanadi. Olloxdan qo’rqib zulm qilmaganlar u dunyoda hech narsadan qo’rqmaydi.

Eng yaxshi ish hamma bilan do’stona munosabatda bo’lish, yaxshi-yomon hammaga yaxshilik qilishdir. Takanbburlik va kattalikni qoralagan. Har kimning eshigiga takabburlik va kattalik qilib kirmasin. Ijozat so’rasin javob bo’lmasa qaytib ketsin. Har tabaqa vakilining o’z daraja va martabasiga qarab muomila qilsin. Chapani va oz’boshimcha insondan chiroyli so’z kutmasin. Tog’u-dasht va sahrolilardan odob va tartiblarni umid qilmasin deb ta’kidlaydi. Uning sharqaona odob axloq haqidagi qarashlarida Yoshi katta keksalarni hurmat qilish, go’dak yosh bolalarni ko’rganda

erkalatib mehribonlik qilishga ishora qilgan. Vadaga vafo qilish, hammani birdek ko'rish, boy-kambag'al, yaxshi-yomon, kuchli-kuchsiz hammaga birdek muomilada ochiq yuzlik bilan munosabatda bo'lish, xatolarni imkoniyati boricha kechirish kerakligi haqida amir va podshoh misolida axloqiy qarashlarni shakllantirish masalalarini o'z asarida ochib beradi.

Ahmad Donish axloqiy qarashlarida faqir va miskin, zaif va ojiz kishilarni boshqalardan ortiqroq ko'rish, xudogo'ylar bilan ko'proq suhbatlashishga da'vat etgan. Beva ayollar va yetimlar holidan habar olishdek savobli ishlarni qilishga xokimlar va amirlar misolida axloqiy odoblarni ochib bergan.

Ahmad Donishning axloqiy qarashlarida insonning eng katta fazilati uning ilmi va aql-zakovati ekanini ta'kidlagan. U bilimsiz kishilarni jamiyat rivojiga to'siq deb hisoblab, ilm-ma'rifatni axloqiy yetuklikning asosi deb bilgan.

Donish jamiyat taraqqiyotining asosi adolat ekanini qayd etgan. U hukmdorlar va mansabdorlarni halollik bilan ish yuritishga, xalq manfaatlarini himoya qilishga chaqirgan. Adolatsizlik va korrupsiya jamiyat inqiroziga olib kelishini ta'kidlagan.

U kishining yuksak axloqiy fazilatlari – samimiyat, halollik, mardlik va saxovat kabi fazilatlarni e'zozlagan. Donish inson o'z nafsi ustidan hukmronlik qila bilishi, nafsga berilmasligi lozimligini uqtirgan. Ahmad Donish insonning mehnati va kasb-hunar o'rganishi uning jamiyat oldidagi burchi ekanini ta'kidlagan. Dangasalik, yalqovlik va bilimsizlikni yomon illatlar sifatida tanqid qilgan.

**Xulosa.**

Ahmad Donishning axloqiy qarashlari odil jamiyat, ilm-ma'rifat, axloqiy poklik va halollik tamoyillariga asoslangan. U insonlarni adolatli bo'lishga, ilm olishga va jamiyat ravnaqi uchun fidoyilik bilan ishlashga chaqirgan. Ahmad Donishning ma'naviy kamolot va komil inson sifatlari aynan insonlarning ilm-ma'rifatli va odob axloqi, mehnatdan qochmaslik jamiyat taraqqiyoti uchun vijdonan mehnat qilish, o'z haqiga yarasha rag'batlantirish, islohotlar orqali jamiyat taraqqiyotiga erishish g'oyalarini ilgari surgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Jumayeva N. Sharq allomlarining ilmiy merosi. "Durdona nashriyoti". Buxoro -2022.B-76-77.
2. Hasanov Sh. Navoiy ijodida komil inson tarbiyasi. –T.: Fan, 2018. B-240.
3. Qafarov Anar, Şirinov Aqil. İSLAM FƏLSƏFƏSİ (orta əsrlər-modern dövr). - Bakı: 2019. – Б. 166.
4. А. Дониш. "Наводир ул- вақоеъ". Ўзбекча таржима. ЎЗ. ССРФА. Тошкент. Ўз. Фаннашр, 1964 Б-155.
5. Ahmad Donish. Navodir –ul vaqoe. Fors-tojikdan tarjima qiluvchilar. Alixonto'ra Sog'uniy va A.Xamroyev. Toshkent-Istanbul 2021. B-73
6. Ahmad Donish. Navodir –ul vaqoe. Fors-tojikdan tarjima qiluvchilar. Alixonto'ra Sog'uniy va A.Xamroyev. Toshkent-Istanbul 2021. B-78.
7. Ahmad Donish. Navodir –ul vaqoe. Fors-tojikdan tarjima qiluvchilar. Alixonto'ra Sog'uniy va A.Xamroyev. Toshkent-Istanbul 2021. B-81.
8. Ahmad Donish. Navodir –ul vaqoe. Fors-tojikdan tarjima qiluvchilar. Alixonto'ra Sog'uniy va A.Xamroyev. Toshkent-Istanbul 2021. B-109.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Bobojonov Xasan Karimovich**
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi
Email: kh.bobojonov@mail.ru

## MARKETING TADQIQOTLARINI AMALGA OSHIRISHNING EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

***Annotatsiya:*** *Maqolada globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida professional ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Muallif ta'lim muassasalarining an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, bozor iqtisodiyoti subyekti sifatida shakllanishi hamda mehnat bozori talablariga moslashishi zaruriyatini asoslab beradi. Tadqiqotda ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, kadrlar raqobatbardoshligini ta'minlash va o'quv dasturlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishda marketing tadqiqotlarining strategik roli ochib berilgan. Shuningdek, bilim iqtisodiyoti sharoitida professional ta'limning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni va davlat siyosati darajasidagi islohotlarning ahamiyati yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Professional ta'lim, globallashuv, marketing tadqiqotlari, mehnat bozori, bilim iqtisodiyoti, raqobatbardoshlik, ta'lim xizmatlari bozori, innovatsion yondashuv, inson kapitali, raqamli transformatsiya.*

**Бобожонов Хасан Каримович**
исследователь Бухарского государственного университета

## ЭВОЛЮЦИЯ И СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ПРОВЕДЕНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

***Аннотация****: В статье анализируются тенденции развития системы профессионального образования в условиях глобализации и цифровой трансформации. Автор обосновывает необходимость перехода образовательных учреждений от традиционных подходов к функционированию в качестве субъектов рыночной экономики, адаптирующихся к запросам рынка труда. В исследовании раскрыта стратегическая роль маркетинговых исследований в повышении качества образовательных услуг, обеспечении конкурентоспособности кадров и приведении учебных программ в соответствие с международными стандартами. Также освещается роль профессионального образования в социально-экономическом развитии общества в условиях экономики знаний и значимость реформ на уровне государственной политики.*

***Ключевые слова****: Профессиональное образование, глобализация, маркетинговые исследования, рынок труда, экономика знаний, конкурентоспособность, рынок образовательных услуг, инновационный подход, человеческий капитал, цифровая трансформация.*

**Bobojonov Xasan Karimovich**
Researcher, Bukhara State University

## THE EVOLUTION AND MODERN TRENDS IN CONDUCTING MARKETING RESEARCH

***Abstract:*** *The article analyzes the development trends of the professional education system in the context of globalization and digital transformation. The author substantiates the necessity for educational institutions to transition from traditional approaches to functioning as market economy entities adapting to labor market demands. The study reveals the strategic role of marketing research in improving the quality of educational services, ensuring the competitiveness of personnel, and aligning curricula with international standards. Furthermore, it highlights the role of professional education in the socio-economic development of society within the knowledge economy and the significance of reforms at the level of state policy.*

***Keywords****: Professional education, globalization, marketing research, labor market, knowledge economy, competitiveness, educational services market, innovative approach, human capital, digital transformation.*

### Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida jahon iqtisodiyoti dinamik rivojlanish va chuqur transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Xalqaro integratsiya, erkin bozor tamoyillarining kengayishi hamda axborot-kommunikatsiya

texnologiyalarining keskin taraqqiyoti natijasida iqtisodiy faoliyatning barcha tarmoqlarida tub o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda. Bunday jarayonlar nafaqat sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida, balki inson kapitalini rivojlanishida ham o‘z aksini topmoqda. Ayniqsa, bilim iqtisodiyoti va innovatsion rivojlanish sharoitida ta’lim xizmatlari bozori global raqobat maydoniga aylanib, professional ta’lim muassasalaridan yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

Raqobatning keskinlashuvi, bilim iqtisodiyoti, axborot jamiyatining shakllanishi, raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga shiddat bilan joriy etilishi natijasida professional ta’lim tizimida ham faoliyatni qayta ko‘rib chiqish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillaridan biri sifatida raqobat professional ta’lim muassasalari faoliyatida ham tobora hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ilgari ta’lim muassasalari faoliyati asosan davlat buyurtmasi doirasida kadrlar tayyorlash bilan cheklangan bo‘lsa, bugungi globallashuv va bozor mexanizmlarining chuqurlashuvi sharoitida ularning vazifasi ham mutlaq o‘zgarishga yuz tutmoqda. Ya’ni, professional ta’lim muassasalari nafaqat ta’lim beruvchi tashkilot, balki xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatida shakllanib, iste’molchilar talabini qondirish, ta’lim xizmatlari sifatini oshirish va raqobat sharoitida barqaror faoliyat yuritish uchun kurashmoqda. Bu jarayonda faol raqobat ularni doimiy yangilanishga, ta’lim dasturlarini doimiy takomillashtirishga, xalqaro standartlarga mos innovatsion yondashuvlarni joriy etishga turtki bermoqda. Bu esa nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar ta’sirida chuqurlashishga asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni tadqiq etadigan bo‘lsak, yuksak bilimli va malakali kasbga yo‘naltirilgan kadrlarni tayyorlash nafaqat milliy standartlar asosida, balki xalqaro sifat normalari va tajribalarini inobatga olgan holda amalga oshirib kelinmoqda.

Professional ta’limning samaradorligi asosan o‘quv jarayonining real mehnat bozorining talablari bilan uyg‘unligi, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va shaxsning kompetensiyasini oshirish bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda, kadrlarni tayyorlash, o‘quv dasturlari va amaliy mashg‘ulotlarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish professional ta’limning sifatini oshirishga, shuningdek, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Bu esa professional ta’limning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatini oshiradi hamda iqtisodiyot va jamiyat rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining strategik omili sifatida nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning ham asosi hisoblanadi. Ya’ni ta’lim bu jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy va intellektual ehtiyojlarini qondirishning muhim vositasidir.

Shuningdek, ta’lim sohasi iqtisodiyotning taraqqiy etishida muhim faktorlardan biri bo‘lgan mehnat bozoriga raqobatbardosh, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega va yuqori malakali kadrlarni yetkazib berish vazifasini ham bajaradi. Ushbu xususiyatlar ta’lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy tizimning ajralmas va strategik bo‘g‘ini sifatida belgilaydi. Jahon miqyosida ro‘y berayotgan innovatsion o‘zgarishlar professional ta’lim tizimini yangi kompetensiyalar, moslashuvchan ta’lim dasturlari va mehnat bozori talablariga mos boshqaruv yondashuvlarini ishlab chiqishga undamoqda. Bunday sharoitda marketing tadqiqotlari professional ta’limni rejalashtirish va rivojlantirishda asosiy ilmiy vosita sifatida qaraladi. Ular ta’lim jarayonini ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashtirish, bozor ehtiyojlariga javob beruvchi mutaxassislar tayyorlash hamda boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Iqtisodiy ilmiy manbalarda marketing tadqiqotlarining mohiyatini ochib berish, uning ilmiy mazmuni hamda tarkibiy elementlarini tizimli tahlil qilishga qaratilgan ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu ilmiy izlanishlarda marketing tadqiqotlari bozor munosabatlari sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning strategik qaror qabul qilishda axborot manbai sifatida qaralishini aytib o‘tish joiz. Marketing tadqiqotlari tushunchasi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanilayotgan bo‘lsada, uning nazariy ildizlari klassik iqtisodiy maktab vakillariga qarashlariga chambarchas bog‘liqdir.

Xususan, buyuk ingliz iqtisodchisi Adam Smit o‘zining mashhur “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari” asarida bozor mexanizmini “ko‘rinmas qo‘l” konsepsiyasi orqali izohlar ekan, ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashda ehtiyojlarni chuqur anglash zaruriyatini asoslagan. A.Smitning yondashuvida marketing tadqiqotlarining dastlabki nazariy mohiyati, ya’ni iste’molchining ehtiyojlarini o‘rganish orqali iqtisodiy taraqqiyotning muvozanatli yo‘nalishini belgilashdir. David Rikardo esa qiymat va taqsimot nazariyasida talab va taklif nisbatlarini aniqlashga urg‘u berib, bozor mexanizmi samarali faoliyat yuritishi uchun ishlab chiqarish hajmi va iste’molchilar talab va ehtiyojlari o‘zaro muvofiq holda bo‘lishini ta’kidlagan. Bu esa marketing tadqiqotlarini iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismi sifatida ko‘rishga asos yaratadi.

Neoklassik maktab vakillaridan biri bo‘lgan Alfred Marshall marketing tadqiqotlarini talab va iste’molchining foydasini o‘rganish orqali asoslagan bo‘lib, uning fikricha, talab egri chizig‘ining shakllanishi iste’molchilarning turli sharoitlarda o‘zini qanday tutishini o‘rganishga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, u marketing tadqiqotlarini bozorni ilmiy modellashtirishning zaruruiy vositasi sifatida ko‘rsatgan. Innovatsion rivojlanish nazariyasi muallifi Jozef Shumpeter marketing tadqiqotlarini bozorga yangi mahsulotlarni olib kirishda hal qiluvchi omil sifatida baholagan.

Uning talqiniga koʻra, tadbirkorning muvaffaqiyati isteʼmolchining ehtiyojlarini batafsil va chuqur oʻrganishga, yaʼni marketing tadqiqotlarini puxta tashkil etishga bevosita bogʻliqdir.

Karl Marksning nazariy qarashlarida esa marketing tadqiqotlari jamiyat ehtiyojlarini aniqlash, ishlab chiqarishni isteʼmolchilarning ehtiyojlariga moslashtirish vositasi sifatida talqin etiladi. K.Marks ishlab chiqarish va isteʼmol oʻrtasidagi tafovutni jamiyat taraqqiyotidagi asosiy muammo sifatida koʻrsatadi. Shu bois, uning yondashuvida marketing tadqiqotlari ijtimoiy-iqtisodiy qarama-qarshiliklarni yumshatish va iqtisodiy tizimni barqarorlashtirish mexanizmi hisoblanadi.

M.Veber iqtisodiy jarayonlarni ijtimoiy institutlar bilan birgalikda tahlil qilgan. hamda uning qarashi boʻyicha marketing tadqiqotlari inson xatti-harakatlari va ijtimoiy qadriyatlarni hisobga olgan holda olib borilishi lozim. Uning nazariyasiga koʻra, marketing nafaqat iqtisodiy jarayonlarni, balki jamiyatning sotsiologik tuzilishini ham tahlil qilish vositasi sifatida ulkan ahamiyat kasb etuvchi jarayondir.

T.Veblen institutsional iqtisodiyot doirasida isteʼmolchilarning psixologik motivlarini chuqur tahlil qilgan va marketing tadqiqotlarini “namoyishkorona isteʼmol” fenomenini oʻrganishga yoʻnaltirgan. Veblenning yondashuvida marketing faqat tovar va xizmatlar bilan chegaralanmasligi zarur boʻlib, insonlarning ijtimoiy mavqe orqali oʻzini namoyish qilish ehtiyojlarini ham tahlil qilgan.

V.Pareto esa marketing tadqiqotlarini resurslarni samarali taqsimlashning nazariy asosi sifatida koʻrsatadi. Uning “Pareto optimal” konsepsiyasiga koʻra, bozorning muvozanatga kelishi uchun isteʼmolchi va ishlab chiqaruvchilar, xizmat koʻrsatuvchilar manfaatini birlashtirishi lozim, bunda marketing tadqiqotlari muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Iqtisodiyotda pul nazariyasi vakili Irving Fisher marketing tadqiqotlarini narx va talab oʻrtasidagi bogʻliqlikni statistik jihatdan oʻrganish zaruriyati bilan asoslagan. Fisherning qarashlarida marketing tadqiqotlari iqtisodiy jarayonlarning miqdoriy koʻrsatkichlarini aniqlash va ulardan amaliy qarorlarni qabul qilishda foydalanish uchun dastak boʻlishini taʼkidlagan.

F.Nayt noaniqlik nazariyasini ilgari surib, marketing tadqiqotlarini beqaror va oʻzgaruvchan bozor sharoitida qaror qabul qilishning zaruriy omili sifatida koʻrsatgan. Uning talqin etishicha, marketing tadqiqotlarini olib borish orqali muhim axborot bazasini shakllantirishga zamin yaratiladi hamda tadbirkorga tadbirkorlik jarayonida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan turli xavf va noaniqliklarni kamaytirish imkonini yaratadi. Yevropa maktabi vakillari marketing tadqiqotlarini asosan strategik boshqaruv, xizmatlar marketingi, isteʼmolchi xulq-atvori va innovatsion rivojlanish kontekstida tahlillar olib borishgan. Ularning ilmiy qarashlari va nazariyalari marketing nazariyasini kengatirib, marketing tadqiqotlarini bozor iqtisodiyotining asosiy unsuri sifatida mustahkamladi. Masalan, Buyuk Britaniyalik iqtisodchi olim P.Doyl marketing tadqiqotlarini korxona faoliyatini strategik boshqarishda asosiy hal qiluvchi omil sifatida talqin etgan. Uning yondashuviga koʻra, bozor muhitidagi talab va taklif oʻzgarishlarni aniqlash, isteʼmolchilarning xatti-harakatlarini izchil oʻrganish va tushunish, raqobatchilarni chuqur va doimiy tahlil etish orqali korxona oʻz ustunligini saqlab qoladi va qaror qabul qilishning ilmiy asosini yaratadi.

Xizmatlar marketingi nazariyasining yorqin vakili K.Gronroos marketing tadqiqotlariga “mijoz tajribasini oʻlchash va tahlil qilish vositasi” deya talqin qilgan. Uning izohlashicha, marketing tadqiqotlari psixologik va sotsiologik yondashuvlarga tayangan holda olib borilishi lozim, chunki xizmatlar sifati subyektiv idrok bilan belgilanadi va asoslanadi.

**Natijalar va muhokama.**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida professional taʼlim muassasalari zamonaviy **taʼlim texnologiyalari, raqamli platformalar, sunʼiy intellekt asosidagi oʻquv tizimlarini** keng joriy etishi talab etiladi. Bu nafaqat oʻqitish jarayonini optimallashtiradi, balki taʼlim sifatini nazorat qilishni ham avtomatlashtiradi. Konsepsiyada taʼlim sifatini oshirishning muhim yoʻnalishlaridan biri sifatida **pedagog kadrlar salohiyatini rivojlantirish** masalasi alohida qayd etilgan. Bugungi kunda oʻqituvchilar nafaqat oʻz sohasining mutaxassisi, balki **innovatsion texnologiyalarni qoʻllay oluvchi, psixologik va kommunikativ kompetensiyalarga ega** boʻlishi zarur. Shu maqsadda **malaka oshirish markazlari, pedagogik innovatsiyalar laboratoriyalari, xorijiy stajirovkalar** tizimi rivojlantirilmoqda. Jahon tajribasi shuni koʻrsatmoqdaki, oʻqituvchining raqamli kompetensiyasi oshgan sari taʼlim sifatining natijadorligi ortadi. 2030-yilgacha moʻljallangan konsepsiya amalga oshirilishi natijasida:

- ✓ professional taʼlim muassasalari **iqtisodiyot tarmoqlari bilan integratsiyalashgan innovatsion klasterlar**ga aylanadi;
- ✓ taʼlim tizimi **bozor talabiga moslashuvchan va raqamli transformatsiyalangan** tuzilma kasb etadi;
- ✓ Oʻzbekiston **mintaqaviy miqyosda malakali mutaxassislar tayyorlash markazi**ga aylanadi.

Bu natijalar mamlakatning **“Raqamli Oʻzbekiston – 2030”** strategiyasiga hamohang tarzda amalga oshirilishini taʼminlaydi. Marketing tadqiqotlari bugungi kundagi taʼlim bozorining talablarini va taʼlim xizmatlari bozorida kutilayotgan oʻzgarishlarni shakllantirish meʼyorlarini belgilab beradi. Ushbu tadqiqot ishida taʼlim xizmatlari bozorida

marketing tadqiqotlarining evolyutsiyasi, professional ta'limda zamonaviy marketing tadqiqotlarining rivojlanish tendensiyalari va ta'lim bozorida vujudga kelayotgan doimiy o'zgarishlari ko'rib chiqiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan yangilanishlar professional ta'lim muassasalarining tashkiliy faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shu boisdan, professional ta'lim muasasalari ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini chuqur tahlil qilishi va ularning samarali ta'lim metodlarini amalga tadbiq etishi, marketing tadqiqotlarining yangi usullari va mexanizmlarini qo'llashi ularning barqaror taraqqiyoti va xalqaro maydonda kelajakdagi muvaffaqiyatini belgilovchi strategik omil bo'lib xizmat qilmoqda. Professional ta'lim muasasalari faoliyatini xalqaro standartlar asosida sifatga yo'naltirilgan ta'limni tashkillashtirishda marketing tadqiqotlarini olib borish va uning amaliy natijalariga ko'ra ta'lim jarayonini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan, joriy davrda professional ta'lim tizimini samarali boshqarish, uning raqobatbardoshligini ta'minlash, va xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida marketing tadqiqotlarining o'rni tobora ortib bormoqda hamda bu borada hukumat darajasida bir qancha qarorlar, farmonlar va konsepsiyalar qabul qilindi va amaliyotga joriy etilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5812-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim muasasalari faoliyatini boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-5102-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31-dekabrdagi "Professional ta'lim muasasalarida dual ta'lim tizimini joriy etish hamda o'quv jarayonini kredit-modul asosida tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarorini kiritishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-81-son Farmonida professional ta'limning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi belgilangan bo'lib, unda 2030-yilgacha professional ta'limni diversifikatsiya qilish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish, o'qituvchi va ustozlar malakasini oshirish masalalari o'z ifodasini topgan. Ushbu konsepsiya professional ta'limni mamlakat taraqqiyoti bilan bevosita bog'lab, undagi strategik maqsadlar mamlakatimizni nafaqat mintaqada, balki xalqaro miqyosda ham raqobatbardosh kadrlar tayyorlaydigan markazga aylantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-avgustdagi **PF–81-sonli Farmoni** bilan tasdiqlangan "Professional ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" mamlakatda professional ta'limning yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu hujjat professional ta'lim sohasining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini belgilab, uni milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, innovatsion salohiyati va mehnat bozorining real ehtiyojlari bilan bevosita integratsiyalashga qaratilgan. Konsepsiya doirasida professional ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayoni **uch asosiy yo'nalishda** shakllantirilgan.

- **Tarkibiy diversifikatsiya,**
- **Innovatsion boshqaruv va raqamlashtirish,**
- **Xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish**.

Konsepsiyada ta'kidlanganidek, professional ta'limni diversifikatsiya qilish deganda faqat yangi mutaxassisliklarni ochish emas, balki **ta'lim shakllari, moliyalashtirish manbalari, hamkorlik turlari va o'quv dasturlarini ko'p** yo'nalishli qilish nazarda tutiladi. Bu jarayon iqtisodiyotdagi **tarmoqlararo integratsiya**ni mustahkamlashga xizmat qiladi. Masalan, ishlab chiqarish, axborot texnologiyalari, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalari uchun **klaster asosida tayyorlov tizimini** joriy etish orqali kadrlar nafaqat o'z mutaxassisligi doirasida, balki qo'shni sohalarda ham moslashuvchan bo'lishi ta'minlanadi.

**Xulosa.** Ilmiy nuqtai nazardan bu jarayon **inson kapitalining ko'p funksionallik modeli**ga asoslanadi. Bunda kadrlar tayyorlash tizimi nafaqat kasbiy bilimni, balki moslashuvchanlik, innovatsion fikrlash va raqamli savodxonlikni ham o'z ichiga oladi. Konsepsiyada professional ta'lim tizimiga **xususiy sektorning faol ishtirokini ta'minlash** ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu yondashuv rivojlangan davlatlar Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur tajribasiga uyg'un bo'lib, u yerda **"dual ta'lim modeli"** ya'ni ta'lim + ishlab chiqarish amaliyoti asosida o'qitish keng joriy etilgan. O'zbekiston sharoitida bunday mexanizm ish beruvchilarga o'z ehtiyojiga mos kadrlarni tayyorlash imkonini beradi, ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi va bitiruvchilarning ish bilan bandlik darajasini oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son Farmoni. "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida".
2. Kotler, P., & Fox, K. F. (1995). Strategic Marketing for Educational Institutions. Prentice Hall.
3. G'ulomov, S. S. (2020). Raqamli iqtisodiyotda inson kapitali va ta'lim tizimi. Toshkent: "Fan va texnologiyalar".

4. Abduhalilov, A. A. (2021). Professional ta'limda marketing tadqiqotlarini tashkil etish va boshqarish uslubiyati. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy-elektron jurnali.
5. Marginson, S. (2016). The Worldwide Trend to High Participation Higher Education: Dynamics of Social Stratification in Inclusive Systems. Higher Education.
6. Smith A. **An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations**. – London : W. Strahan and T. Cadell, 1776. – 2 vol.
7. Ricardo D. **On the Principles of Political Economy and Taxation**. – London : John Murray, 1817. – 589 p.
8. Marshall A. **Principles of Economics**. – 8th ed. – London : Macmillan, 1920. – 731 p.
9. Schumpeter J. A. **The Theory of Economic Development**. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 1934. – 255 p.
10. Marx K**. Capital: A Critique of Political Economy. Vol. 1.** – Moscow : Progress Publishers, 1965. – 762 p.
11. Weber M. **The Theory of Social and Economic Organization**. – New York : Oxford University Press, 1947. – 436 p.
12. Veblen T. **The Theory of the Leisure Class**. – New York : Macmillan, 1899. – 400 p.
13. Pareto V. **Manual of Political Economy**. – New York : Augustus M. Kelley, 1971. – 504 p.
14. Fisher I. **The Purchasing Power of Money**. – New York : Macmillan, 1911. – 505 p.
15. Knight F. H. **Risk, Uncertainty and Profit**. – Boston : Houghton Mifflin, 1921. – 381 p.
16. Doyle P. **Marketing Management and Strategy**. – 4th ed. – London : Prentice Hall, 2002. – 444 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Kenjaeva Dilrabo Rominovna**
University of business and science Toshkent filiali "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi.

## OLIY TA'LIM O'QITUVCHISI PEDAGOGIK FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada oliy ta'lim o'qituvchisining pedagogik faoliyati ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. O'qituvchining jamiyatdagi ijtimoiy maqomi, ma'naviy mas'uliyati va intellektual yetakchilik vazifasi zamonaviy ta'lim jarayonlari bilan bog'liq holda ochib beriladi. Pedagogik faoliyatning qadriyatga yo'naltirilganligi, shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni shakllantirishdagi roli asoslanadi. Globallashuv, raqamli transformatsiya va bilimlar iqtisodiyoti sharoitida oliy ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari va falsafiy dunyoqarashi muhim omil sifatida talqin etiladi. Pedagogik faoliyatning ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri va ta'lim orqali madaniy uzviylikni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Oliy ta'lim, pedagogik faoliyat, ta'lim qadriyatlari, kasbiy mas'uliyat, ma'naviyat, kompetensiya, intellektual yetakchilik, raqamli ta'lim, shaxs kamoloti, jamiyat, madaniy uzviylik, innovatsiya.*

**Кенжаева Дилрабо Роминовна**
Доцент кафедры "Социально-гуманитарные науки" Ташкентского филиала University of business and science, кандидат философских наук.

## ОСОБЕННОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ (СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ)

***Аннотация:*** *В данной статье педагогическая деятельность преподавателя высшего образования анализируется с социально-философской точки зрения. Социальный статус учителя в обществе, его духовная ответственность и функция интеллектуального лидерства раскрываются в связи с современными образовательными процессами. Обосновывается ценностная направленность педагогической деятельности, ее роль в формировании взаимоотношений между личностью и обществом. В условиях глобализации, цифровой трансформации и экономики знаний профессиональные компетенции и философское мировоззрение преподавателя высшего образования интерпретируются как важный фактор. Особое внимание уделяется влиянию педагогической деятельности на общественное развитие и обеспечению культурной преемственности через образование.*

***Ключевые слова:*** *Высшее образование, педагогическая деятельность, образовательные ценности, профессиональная ответственность, духовность, компетентность, интеллектуальное лидерство, цифровое образование, личностное развитие, общество, культурная преемственность, инновации.*

**Kenjayeva Dilrabo Rominovna**
Associate Professor of the Department of "Social and Humanitarian Sciences" of the Tashkent branch of the University of Business and Science, Candidate of Philosophical Sciences.

## FEATURES OF THE PEDAGOGICAL ACTIVITY OF A HIGHER EDUCATION TEACHER (SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS)

***Abstract:*** *This article analyzes the pedagogical activity of a higher education teacher from a socio-philosophical perspective. The social status of the teacher in society, his moral responsibility, and the task of intellectual leadership are revealed in connection with modern educational processes. The value orientation of pedagogical activity, its role in the formation of relations between the individual and society, is substantiated. In the context of globalization, digital transformation, and the knowledge economy, the professional competencies and philosophical worldview of a higher education teacher are interpreted as an important factor. Special attention is paid to the issues of the influence of pedagogical activity on social development and ensuring cultural continuity through education.*

***Keywords:*** *Higher education, pedagogical activity, educational values, professional responsibility, spirituality, competence, intellectual leadership, digital education, personal development, society, cultural continuity, innovation.*

**KIRISH.** Oliy ta’lim pedagogik faoliyati – bu oliy ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan, jamiyatning intellektual, kasbiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan murakkab, ko‘p qirrali va tizimli ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Ushbu faoliyatning asosiy mazmuni talabalarga fanlar bo‘yicha chuqur nazariy bilim berish bilan birga, ularni mustaqil fikrlashga, ilmiy izlanishga va kasbiy kompetensiyalarni egallashga yo‘naltirishdan iborat. Mazkur pedagogik faoliyatning muhim xususiyatlaridan biri – talabaga yo‘naltirilgan yondashuvning ustuvorligidir. Bunda talaba passiv bilim oluvchi emas, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida qaraladi. O‘qituvchi esa pedagogik jarayonni tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi rolni bajaradi. Shu orqali talabalarda mustaqil o‘qish, muammoni tahlil qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Oliy ta’lim pedagogik faoliyati, shuningdek, ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘qituvchi o‘zining kasbiy etikasi, shaxsiy namunasi va ilmiy madaniyati orqali talabalarda ijtimoiy mas’uliyat, akademik halollik va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantiradi. Zamonaviy sharoitda esa bu faoliyat innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo‘llash, global ta’lim tendensiyalariga moslashish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishni talab etuvchi dinamik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Oliy ta’lim o‘qituvchisi pedagogik faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari masalasi ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xususan, J.Dyui, P.Freire va E.Fromm asarlarida o‘qituvchining ijtimoiy mas’uliyati, ta’limning insonparvarlik mohiyati va shaxs kamolotidagi o‘rni falsafiy jihatdan asoslangan. Mahalliy tadqiqotchilar – A.Ergashev, R.Jo‘rayev, N.Sharipov ishlarida oliy ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari, ma’naviy-axloqiy mezonlari va jamiyat taraqqiyotidagi roli tahlil qilinadi. Zamonaviy ilmiy manbalarda raqamli transformatsiya sharoitida pedagogik faoliyatning yangi shakllari, akademik erkinlik va innovatsion yondashuvlar muhim omil sifatida baholanadi. Ushbu adabiyotlar maqolaning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Mazkur maqolada tadqiqot metodologiyasi ijtimoiy-falsafiy yondashuvga asoslanadi. Tahlil jarayonida dialektik, tizimli va tarixiylik metodlari qo‘llanilib, oliy ta’lim o‘qituvchisining pedagogik faoliyati jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganiladi. Shuningdek, taqqoshlash, mantiqiy tahlil va umumlashtirish usullari orqali pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy-falsafiy manbalar va zamonaviy ta’lim konsepsiyalari metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

**NATIJA VA TAHLILLAR.** “Oliy ta’lim pedagogik faoliyati an’anaviy bilim uzatish bilan cheklanmaydi, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishni ko‘zda tutadi”[1]. Bu jarayonda o‘qituvchi ta’lim beruvchi subyekt sifatida talabaning intellektual salohiyati, ijodiy qobiliyati va tanqidiy tafakkurini shakllantirishga mas’ul hisoblanadi. Oliy ta’limda pedagogik faoliyatning o‘ziga xos jihati shundaki, u ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, o‘qituvchi nafaqat tayyor bilimlarni yetkazadi, balki ilmiy yangiliklar yaratish va ularni o‘quv jarayoniga tatbiq etishda faol ishtirok etadi. Oliy ta’lim o‘qituvchisining ijtimoiy-mas’uliyatli subyekt sifatidagi maqomi zamonaviy jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutuvchi, ko‘p qirrali va strategik ahamiyatga ega ijtimoiy-pedagogik hodisadir.

“Oliy ta’lim tizimi jamiyatning intellektual, ilmiy va madaniy salohiyatini shakllantiruvchi asosiy institutlardan biri bo‘lganligi sababli, ushbu tizimda faoliyat yurituvchi o‘qituvchining mas’uliyati alohida ahamiyat kasb etadi”[2]. U nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki jamiyatning kelajak taraqqiyotini belgilovchi kadrlarni tarbiyalovchi ijtimoiy subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Oliy ta’lim o‘qituvchisining ijtimoiy maqomi, avvalo, uning professional kompetensiyasi va ilmiy salohiyati bilan belgilanadi. O‘qituvchi o‘z fan sohasida chuqur bilimga ega bo‘lishi, ilmiy tadqiqotlar olib borishi va zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o‘quv jarayoniga tatbiq etishi orqali jamiyatda intellektual yetakchi sifatida tan olinadi. Shu jihatdan u bilimlarni faqat uzatuvchi emas, balki ularni ishlab chiquvchi va rivojlantiruvchi subyekt hisoblanadi. Bu esa uning ijtimoiy mas’uliyatini yanada oshiradi, chunki har bir ilmiy va pedagogik qaror jamiyat rivojiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy-mas’uliyatli subyekt sifatida oliy ta’lim o‘qituvchisi yosh avlodning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va kasbiy identifikatsiyasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Talabalar o‘qituvchini nafaqat bilim manbai, balki axloqiy namuna, fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida qabul qiladilar. Shu bois o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari, kasbiy etikasi, adolat va halollik tamoyillariga sodiqligi ijtimoiy mas’uliyatning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. O‘qituvchining so‘zlari va amaliy faoliyati orqali talabalarda jamiyatga nisbatan mas’uliyatli munosabat shakllanadi.

Oliy ta’lim o‘qituvchisining ijtimoiy mas’uliyati uning tarbiyaviy funksiyasi bilan ham uzviy bog‘liqdir. Zamonaviy oliy ta’limda ta’lim va tarbiya ajralmas jarayon sifatida qaraladi. “O‘qituvchi bilim berish jarayonida talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini, tolerantlik va ijtimoiy hamjihatlik g‘oyalarini singdiradi”[3]. Bu esa jamiyatda barqarorlik va ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, oliy ta’lim o‘qituvchisi ijtimoiy-mas’uliyatli subyekt sifatida davlat ta’lim siyosatini amalga oshirishda, ta’lim islohotlarini qo‘llab-quvvatlashda va ularni amaliyotga tatbiq etishda faol ishtirok etadi. U ta’lim jarayonini zamon

talablari asosida tashkil etish orqali raqobatbardosh, mas'uliyatli va ijodkor mutaxassislarni tayyorlashga hissa qo'shadi. Shu tariqa, oliy ta'lim o'qituvchisining ijtimoiy-mas'uliyatli maqomi uning pedagogik, ilmiy va fuqarolik faoliyatining uzviy birligi orqali namoyon bo'ladi. Oliy ta'lim o'qituvchisining pedagogik va ilmiy faoliyatini uzviy integratsiyasi zamonaviy universitet ta'limining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, u ta'lim sifati, ilmiy salohiyat va jamiyat ehtiyojlariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu integratsiya o'qituvchining ikki yo'nalishdagi faoliyatini – bilim berish va ilmiy tadqiqot olib borishni – yagona maqsad va tizim asosida uyg'unlashtirishni nazarda tutadi.

Pedagogik faoliyat o'qituvchining ta'lim jarayonini tashkil etish, fan mazmunini didaktik jihatdan asoslash, talabalarda bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan faoliyati bo'lsa, ilmiy faoliyat yangi bilimlar yaratish, mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilish va nazariy hamda amaliy muammolarga yechim topishga yo'naltirilgan jarayondir. Oliy ta'lim sharoitida ushbu ikki faoliyat bir-biridan ajratilgan holda emas, balki o'zaro to'ldiruvchi va boyituvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi. Chunki ilmiy izlanishlarga tayanmagan pedagogik faoliyat eskirgan bilimlarni takrorlashga olib kelishi mumkin, pedagogik jarayonga tatbiq etilmagan ilmiy faoliyat esa amaliy ahamiyatini yo'qotadi.

Oliy ta'lim o'qituvchisining ilmiy faoliyati uning pedagogik salohiyatini oshiradi. Ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan o'qituvchi fan sohasidagi eng so'nggi yutuqlar, nazariy qarashlar va metodologik yondashuvlardan xabardor bo'ladi. Bu esa o'quv fanlari mazmunini yangilash, dars jarayonida ilmiy muammolarni qo'yish va talabalarni tadqiqot faoliyatiga jalb etish imkonini yaratadi. Natijada talabalarda ilmiy tafakkur, tanqidiy tahlil qilish va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Pedagogik va ilmiy faoliyat integratsiyasining muhim jihatlaridan biri – talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishdir. "O'qituvchi talabalarga kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik va doktorantura tadqiqotlarini bajarishda ilmiy rahbarlik qilish orqali ularni ilmiy izlanish madaniyatiga o'rgatadi"[4]. Bu jarayonda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ilmiy mentor va yo'naltiruvchi sifatida faoliyat yuritadi. Pedagogik va ilmiy faoliyatning uzviyligi oliy ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishda ham namoyon bo'ladi. "Ilmiy izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan yangi metodlar, didaktik modellar va ta'lim texnologiyalari o'quv jarayoniga tatbiq etiladi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish, talabalar faolligini kuchaytirish va ta'lim jarayonini zamon talablariga moslashtirishga xizmat qiladi"[5]. Oliy ta'lim o'qituvchisining pedago-gik va ilmiy faoliyatini uzviy integratsiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi, ilm-fan va ta'lim birligini mustahkamlovchi hamda jamiyatning intellektual taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

Talabaga yo'naltirilgan va refleksiv pedagogik yondashuv zamonaviy oliy ta'lim tizimida ustuvor metodologik tamoyillardan biri bo'lib, u "ta'lim jarayonining markaziga talabaning shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyatlari va rivojlanish imkoniyatlarini qo'yishni nazarda tutadi. An'anaviy, o'qituvchi markazlashgan ta'lim modelidan farqli ravishda, talabaning faolligi, mustaqil fikrlashi va o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishini asosiy maqsad sifatida belgilaydi"[6]. Bu jarayonda o'qituvchi bilimni tayyor holda beruvchi emas, balki ta'lim faoliyatini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va hamkor subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Talabaga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvning asosiy mohiyati ta'lim jarayonini talabaning individual xususiyatlariga moslashtirishdan iboratdir. Bunda talabaning bilim darajasi, qiziqishlari, kasbiy rejalari va o'rganish uslublari inobatga olinadi. "O'qituvchi ta'lim mazmunini moslashuvchan tashkil etib, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha asosidagi o'qitish va jamoaviy ishlash shakllaridan foydalanadi"[7]. Natijada talaba ta'lim jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki faol subyekti sifatida shakllanadi. Bu esa uning mas'uliyat hissi, o'z fikrini erkin ifoda etish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mazkur yondashuvning muhim tarkibiy qismi refleksiv pedagogik yondashuv hisoblanadi. Refleksiya o'qituvchi va talabaning o'z faoliyatini tahlil qilishi, erishilgan natijalarni baholashi va kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash jarayonidir. O'qituvchi refleksiv yondashuv orqali o'z pedagogik faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib boradi, qo'llanilgan metodlar samaradorligini tahlil qiladi va ta'lim jarayonini optimallashtiradi. Shu bilan birga, talabalarda ham o'z bilimlari, qobiliyatlari va o'quv faoliyatiga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Talabaga yo'naltirilgan va refleksiv yondashuv talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. "Refleksiya orqali talaba o'z kuchli va zaif tomonlarini anglaydi, o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi"[8]. Bu esa uning hayot davomida ta'lim olishga bo'lgan tayyorgarligini oshiradi. Ayniqsa, oliy ta'lim sharoitida talabalarning mustaqil o'qishi va ilmiy izlanishlari refleksiv yondashuv asosida samarali tashkil etiladi. Ushbu yondashuv oliy ta'limda demokratik va hamkorlikka asoslangan pedagogik muhitni shakllantiradi. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot ochiq va teng huquqli bo'lib, fikr almashish, muhokama va bahs-munozaralar orqali bilimlar chuqurlashtiriladi. Natijada ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki shaxsni kamol toptirish, ijodiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Innovatsion va raqamli kompetensiyalarning ustuvorligi zamonaviy ta’lim tizimi, ayniqsa oliy ta’lim rivojlanishining muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli transformatsiya, globallashuv va bilimlar iqtisodiyotining shakllanishi sharoitida ta’lim jarayonining mazmuni, shakli va metodlari tubdan o‘zgarib bormoqda. Bu jarayonda oliy ta’lim o‘qituvchisining kasbiy faoliyati innovatsion yondashuv va raqamli kompetensiyalar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ular pedagogik samaradorlikni oshirishning asosiy omiliga aylanmoqda.

Innovatsion kompetensiya, avvalo, o‘qituvchining yangicha fikrlashga, pedagogik faoliyatda kreativ yondashuvni qo‘llashga va ta’lim jarayonini doimiy takomillashtirishga tayyorligini anglatadi. Bu kompetensiya “o‘qituvchidan an’anaviy ta’lim modellarini tanqidiy qayta ko‘rib chiqishni, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni izlash va ularni amaliyotga joriy etishni talab etadi”[9]. Muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, interfaol metodlar, kompetensiyaga asoslangan yondashuv kabi innovatsion usullar talabalarning bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga, mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan innovatsion kompetensiya oliy ta’lim o‘qituvchisining kasbiy yetukligini belgilovchi muhim mezonlardan biridir.

Raqamli kompetensiya esa “o‘qituvchining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, raqamli ta’lim muhitida faoliyat yuritish va ta’lim jarayonini raqamli vositalar orqali tashkil etish qobiliyatini ifodalaydi”[10]. Zamonaviy oliy ta’limda elektron ta’lim platformalari, masofaviy va aralash ta’lim shakllari, virtual laboratoriyalar, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalari tobora keng qo‘llanilmoqda. Shu sababli o‘qituvchi nafaqat texnik jihatdan savodli bo‘lishi, balki raqamli texnologiyalarni didaktik maqsadlarga mos ravishda qo‘llay olishi lozim. Bu esa raqamli kompetensiyaning chuqur va tizimli shakllanishini talab qiladi.

Innovatsion va raqamli kompetensiyalarning ustuvorligi oliy ta’limning sifatini oshirish bilan birga, ta’lim jarayonining moslashuvchanligini ta’minlaydi. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘qituvchi talabalarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda differensial va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishi mumkin. “Onlayn resurslar, elektron kutubxonalar va raqamli ta’lim materiallari talabalarga mustaqil o‘rganish imkonini beradi, o‘qituvchi esa murabbiy va maslahat beruvchi rolini bajaradi”[10]. Natijada ta’lim jarayoni yanada samarali va interfaol tus oladi. Raqamli kompetensiyalar talabalarda axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi raqamli texnologiyalarni to‘g‘ri va mas’uliyat bilan qo‘llash orqali talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa soxta axborotlar, axborot xavfsizligi va raqamli etikaga oid muammolar sharoitida alohida dolzarblik kasb etadi. Shu tariqa innovatsion va raqamli kompetensiyalar nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ham ega bo‘ladi.

Innovatsion va raqamli kompetensiyalarning ustuvorligi oliy ta’lim o‘qituvchisining uzluksiz kasbiy rivojlanishini taqozo etadi. “Zamonaviy texnologiyalar tez sur’atlar bilan yangilanib borayotgan sharoitda o‘qituvchi o‘z bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishi, malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayonlarida faol ishtirok etishi zarur”[11]. Bu jarayon o‘qituv-chining kasbiy moslashuvchanligini oshirib, uni global ta’lim maydonida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantiradi. Innovatsion va raqamli kompetensiyalarning ustuvorligi zamonaviy oliy ta’limning rivojlanish tendensiyalarini belgilovchi muhim omil bo‘lib, u o‘qituvchining pedagogik faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Ushbu kompetensiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarni zamon talablariga mos bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish hamda jamiyatning intellektual va texnologik taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga xizmat qiladi.

Ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy funksiyaning yetakchi o‘rnini oliy ta’lim kontekstida izohlash nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan ham muhimdir. “Zamonaviy jamiyatda ta’lim faqat bilim berish bilan cheklanmaydi; u shaxsning ijtimoiy, axloqiy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlaydigan murakkab va ko‘p qirrali jarayon sifatida namoyon bo‘ladi”[12]. Shu bois, ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy funksiyalar oliy ta’limning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan.

Birinchidan, ma’naviy-axloqiy funksiyaning mohiyati talabaning shaxsiy va ijtimoiy axloqiy qadriyatlarini shakllantirishdan iboratdir. Oliy ta’lim o‘qituvchisi nafaqat bilim uzatuvchi, balki axloqiy va ma’naviy namuna sifatida ham faoliyat yuritadi. O‘qituvchi o‘z kasbiy etikasi, ilmiy halolligi va shaxsiy fazilatlari orqali talabalarda adolat, mas’uliyat, halollik va mehnatsevarlik kabi ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni rivojlantiradi. Bu esa talabaning faqat kasbiy jihatdan yetuk bo‘lishini emas, balki jamiyatga foydali, mas’uliyatli va ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, tarbiyaviy funksiyaning ustuvorligi oliy ta’lim jarayonida talabalarni jamiyat hayotiga tayyorlash bilan bog‘liqdir. “O‘qituvchi talabalarda o‘zaro hurmat, hamkorlik, empatiya va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiradi. Bu jarayon nafaqat akademik muvaffaqiyatga, balki shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligi va kasbiy muvaffaqiyatiga ham xizmat qiladi”[13]. Masalan, jamoaviy loyihalar va seminarlar talabalarda hamkorlik ruhini oshirib, ularni kelajakda ishchi guruhlar va professional muhitda muvaffaqiyatli ishlashga tayyorlaydi. Shu tariqa tarbiyaviy funksiyalar o‘qituvchining pedagogik faoliyatining markaziy qismiga aylanadi.

Uchinchidan, ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy funksiyalar oliy ta’limda shaxsning ichki motivatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. “Talabalarda o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonch, ijodiy faoliyatga intilish va o‘z-o‘zini rivojlantirish motivlari shakllanadi”[14]. Bu esa bilim olish jarayonining faolligini oshirib, talabaning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va tanqidiy tafakkur qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu tariqa, ta’lim jarayoni nafaqat tashqi nazorat va baholashga asoslanmay, balki ichki shaxsiy motivatsiya orqali samarali bo‘ladi.

To‘rtinchidan, ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy funksiyalar jamiyatning barqarorligi va ijtimoiy uyg‘unligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. “Oliy ta’lim o‘quvchilari kelajakda turli ijtimoiy rollarda faoliyat yuritadi, va ularning axloqiy va ma’naviy tayyorgarligi jamiyatning rivojlanish darajasiga bevosita ta’sir qiladi”[15]. Shu bois, o‘qituvchining tarbiyaviy va ma’naviy-axloqiy roli nafaqat individual, balki makroijtimoiy miqyosda ham ahamiyatlidir.

Beshinchidan, zamonaviy ta’limda ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy funksiyalarni amalga oshirish pedagogik jarayonda innovatsion va interfaol metodlardan foydalanishni talab qiladi. Muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, interfaol seminarlar va etika bo‘yicha muhokamalar talabalarda axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, talabalarning raqamli muhitda o‘zaro muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish, onlayn etikani o‘rgatish ham ma’naviy-axloqiy funksiyaning yangi ko‘rinishi sifatida qaraladi. “O‘qituvchi o‘z shaxsiy namunasi bilan talabalarga nafaqat akademik bilim, balki ijtimoiy-madaniy va ma’naviy qadriyatlarni ham singdiradi. Bu jarayon davomida o‘qituvchi va talaba o‘rtasida ishonch, hurmat va hamkorlik muhitini yaratish muhimdir”[16]. Shu tarzda, ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy funksiyalar pedagogik jarayonning samaradorligini oshiruvchi, talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi markaziy elementga aylanadi.

Tizimli xarakter o‘qituvchining faoliyatini bir qator o‘zaro bog‘liq elementlar orqali tashkil etishni anglatadi. Bu elementlar orasida ta’lim mazmuni, didaktik metodlar, talabalar bilan muloqot, baholash tizimi, ilmiy va metodik faoliyat mavjud. Har bir komponent o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, ularning samarali ishlashi ta’lim jarayonining umumiy sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Masalan, dars mazmuni va usullari talabalarning bilim olish qobiliyatiga mos kelishi, baholash tizimi esa o‘qituvchining pedagogik yondashuvini aniqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ilmiy faoliyat o‘qituvchining pedagogik ishlarini yangilash va takomillashtirishga yordam beradi. Shu tarzda, tizimli xarakter pedagogik faoliyatni yagona maqsadga yo‘naltirilgan va izchillik bilan amalga oshiriladigan tizim sifatida namoyon qiladi.

Dinamik xarakter esa o‘qituvchining faoliyati doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanligini ta’kidlaydi. Zamonaviy ta’lim jarayoni texnologik rivojlanish, yangi ilmiy yutuqlar va global pedagogik tendensiyalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois o‘qituvchi doimiy ravishda o‘z metodik yondashuvlarini yangilashi, innovatsion ta’lim texnologiyalarini tatbiq etishi va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishi zarur. Masalan, masofaviy ta’lim, interfaol o‘qitish usullari, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalaridan foydalanish pedagogik faoliyatning dinamik xarakterini ta’kidlaydi.

Tizimli va dinamik xarakter birgalikda o‘qituvchining faoliyatini samarali, moslashuvchan va o‘zaro uzviy tizim sifatida shakllantiradi. “Tizim elementlari bir-birini to‘ldirib, pedagogik jarayonni izchil va maqsadga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatli bo‘lsa, dinamiklik esa ushbu tizimning doimiy takomillashuvini va o‘zgaruvchan talablar bilan moslashuvini ta’minlaydi”[17]. Natijada, o‘qituvchi faqat bilim uzatuvchi emas, balki tizimli, metodik jihatdan uyg‘un, innovatsion va moslashuvchan pedagogik subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Oliy ta’lim o‘qituvchisining pedagogik faoliyatining tizimli va dinamik xarakteri ta’lim jarayonining sifatini oshirish, talabalarning individual va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash hamda zamonaviy sharoitlarga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, tizimlilik va dinamiklik pedagogik jarayonning samaradorligi va barqarorligini kafolatlovchi asosiy tamoyillardan biri sifatida qaraladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, oliy ta’lim o‘qituvchisining pedagogik faoliyati murakkab, ko‘p qirrali va dinamik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. U talabalarga chuqur bilim berish bilan birga, ularni ilmiy izlanishga, tanqidiy va ijodiy fikrlashga yo‘naltiradi hamda kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. O‘qituvchi pedagogik va ilmiy faoliyatini uzviy integratsiya qilgan holda, innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan foydalanadi, shuningdek, talabaga yo‘naltirilgan va refleksiv pedagogik usullar orqali o‘quv jarayonini samarali tashkil etadi. Mazkur faoliyatning ajralmas qismi sifatida ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy funksiyalar talabaning shaxsiy va jamiyatga foydali yetuk shaxs sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Shu tariqa, oliy ta’lim o‘qituvchisining pedagogik faoliyati tizimli va dinamik xarakterga ega bo‘lib, zamonaviy jamiyatning ijtimoiy, axloqiy va intellektual ehtiyojlarini qondirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi: pedagogik tadqiqotlar yo‘nalishi va muammolari, T., 1999.

2. Axmedov S.E. Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida intellektual salohiyatli yoshlar – mamlakat taraqqiyotining kafolati “ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida intellektual salohiyatli yoshlar – mamlakat

taraqqiyotining muhim omili". // XIII respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Samarqand.: SamDAQI, 2016. – B.3-4.
3. Abdurahmonov A. Qadriyat – ma'naviy merosdir // «Ma'rifat gulshani». – 12 (77) 2007. –B.7.
4. Ibragimova G.N. Interfaol o„qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: p.f.b.f.d. (PhD) diss. avtoref. … - Toshkent, 2017.
5. Axmedov N. "Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta'lim metodlari" – Toshkent.: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2020. – B.112.
6. Филанковский В. В., Кисляков П. А., Петров С. В. Социальная безопасность личности, общества, государства: теория и практика обеспечения: учеб. пособие. – М.: «Русский журнал», 2011. –С.263.
7. Панина Т. С., Вавилова Л. Н. Современные способы активизации обучения. – М.: "Академия", 2008. –С.176.
8. Бурлакова Т. В. Вариативно-рефлексивный подход в реализации процесса индивидуализации обучения будущих педагогов // Школа будущего. 2021. № 2. – С.30–41.
9. Галактионов И. В. Рефлексивные формы и методы обучения в образовательном пространстве вуза // Проблемы высшего образования. 2018. № 1. С. 229–233.
10. Арнаутов А.Д. Информационная компетентность в исследованиях отечественных и зарубежных ученых: сравнительный анализ // Мир науки, культуры, образования. № 4 (65) 2017. С. 7-9.
11. Набатникова, Т. И. Развитие профессиональных компетенций педагога в условиях системы повышения квалификации // Современная высшая школа: инновационный аспект. – 2014. – № 3. – С.102.
12. Шодманова Ф.Т. Современные стратегии научной информации по вопросам образования в ведущих базах данных и наукометрических системах. / Образование в современном мире: опыт, тенденции и проблемы. Материалы международной научно-практической конференции Университета Пучон в Ташкенте. Ташкент, 28 октября 2023 года / Отв. ред.: А. В. Шин, В. С. Хан. – Ташкент: Университет Пучон в Ташкенте, 2025. – С.67.
13. Hasanov, G. H. Pedagogika asoslari. – Toshkent.: "O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti", 2010. – B.142.
14. Azizova G.G. Oliy ta`lim muassasalari professor- o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish 13.00.01 – "Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta`limotlar tarixi". Pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) dissert. avtoreferati. – Samarqand., – 2019.
15. Vahobova D. "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti". – T.: O'qituvchi, 2020.
16. Abdurahmonov, U. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar. – Toshkent.: "O'qituvchi nashriyoti", 2019. – B.119.
17. Abdullayeva N. Pedagogika asoslari. – Toshkent.: "O'qituvchi", 2019. – B.215.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Esonaliyeva Dilraboxon**
Farg‘ona davlat universiteti Ijtimoiy ish yònalishi 1-kurs magistranti

## KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA JAHON TAJRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

*Annotatsiya: Maqola kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha jahon tajribasini tahlil qilish va ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qo‘llanilgan kambag‘allikni kamaytirish strategiyalari, ijtimoiy himoya tizimi, ta’lim va bandlik imkoniyatlari hamda iqtisodiy rag‘batlarning samaradorligi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy chora-tadbirlar, maqsadli yordam dasturlari va bandlikni oshirish loyihalari tahlil qilingan. Maqola natijalari jahon tajribasini mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish orqali kambag‘allikni kamaytirish va aholining farovonligini oshirish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkoniyatini ko‘rsatadi.*

*Kalit so‘zlar: Kambag‘allik, Kambag‘allikni qisqartirish strategiyalari, Jahon tajribasi, Ijtimoiy yordam, Bandlik va ta’lim imkoniyatlari, O‘zbekiston sharoiti, Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.*

**Esonaliyeva Dilraboxon**
Fergana State University, 1st-year Master's student, Department of Social Work

## GLOBAL EXPERIENCE IN POVERTY REDUCTION AND OPPORTUNITIES FOR ITS APPLICATION IN UZBEKISTAN

***Abstract:*** *The article is dedicated to analyzing global experience in poverty reduction and exploring the possibilities of applying these practices in the context of Uzbekistan. The study examines poverty reduction strategies implemented in developed and developing countries, including social protection systems, education and employment opportunities, and the effectiveness of economic incentives. In addition, social and economic measures currently implemented in Uzbekistan, targeted assistance programs, and employment enhancement projects are analyzed. The findings indicate that adapting international experience to national conditions can help develop effective measures to reduce poverty and improve the well-being of the population.*

***Keywords:*** *Poverty, Poverty reduction strategies, Global experience, Social assistance, Employment and education opportunities, Uzbekistan context, Socio-economic development.*

**Эсоналиева Дилрабахон**
Ферганский государственный университет, магистрант 1 курса, направление «Социальная работа»

## СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ: МИРОВОЙ ОПЫТ И ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

***Аннотация:*** *Статья посвящена анализу мирового опыта в области сокращения бедности и изучению возможностей применения этих практик в условиях Узбекистана. В исследовании рассматриваются стратегии снижения бедности, применяемые в развитых и развивающихся странах, эффективность систем социальной защиты, возможности в сфере образования и занятости, а также экономические стимулы. Кроме того, проанализированы социальные и экономические меры, реализуемые в Узбекистане, целевые программы помощи и проекты по повышению занятости. Результаты статьи показывают, что адаптация международного опыта к условиям страны позволяет разрабатывать эффективные меры по сокращению бедности и повышению благосостояния населения.*

***Ключевые слова:*** *Бедность, Стратегии сокращения бедности, Мировой опыт, Социальная помощь, Возможности занятости и образования, Условия Узбекистана, Социально-экономическое развитие*

### Kirish

Kambag‘allikni kamaytirish va ijtimoiy adolatni ta’minlash har bir mamlakatning barqaror rivojlanish strategiyasida muhim o‘rin tutadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allikni qisqartirishning samarali usullari davlatning iqtisodiy siyosati, ijtimoiy himoya tizimi, ta’lim va bandlik sohalaridagi kompleks choralar bilan chambarchas

bog‘liq. Turli mamlakatlarda amalga oshirilgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar, jumladan, mikrokreditlash, maqsadli ijtimoiy yordam dasturlari, bandlikni rag‘batlantirish va soliq imtiyozlari kabi mexanizmlar kambag‘allik darajasini sezilarli darajada pasaytirgan. Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag‘allikni qisqartirishning yondashuvlari farq qilishi, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va siyosiy institutlarning mustahkamligi bilan izohlanadi. Masalan, Skandinaviya mamlakatlarida keng qamrovli ijtimoiy himoya tizimi va ta’limga alohida e’tibor kambag‘allikni minimal darajada ushlab turishga yordam beradi. Shu bilan birga, Janubiy-Sharqiy Osiyo va Afrikadagi ayrim davlatlarda mikrokreditlash va kichik biznesni rivojlantirish dasturlari kambag‘allikni qisqartirishning asosiy vositalaridan biri sifatida ishlatilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda kambag‘allikni kamaytirish borasida bir qator islohotlar, jumladan, maqsadli ijtimoiy yordam dasturlari, aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash va bandlikni oshirishga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirmoqda. Biroq, mamlakatimizda bu sohada jahon tajribasidan samarali foydalanish imkoniyatlari hali to‘liq o‘rganilmagan. Shu sababli, xalqaro tajriba va samarali yondashuvlarni o‘rganish va ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish kambag‘allikni kamaytirishning yangi strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola jahon tajribasini tahlil qilgan holda, kambag‘allikni qisqartirishning samarali usullarini aniqlash va ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan.

**Dolzabligi**

Kambag‘allikni qisqartirish masalasi O‘zbekiston uchun dolzarb hisoblanadi, chunki mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur’atlari o‘sayotganiga qaramay, aholi orasida kam ta’minlangan qatlamlar soni hali ham sezilarli. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allikni kamaytirishda samarali siyosat va strategiyalar ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, fuqarolarning hayot sifatini oshirish va iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, mamlakatimizda xalqaro tajribani o‘rganish va unga mos strategiyalarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Shuningdek, globalizatsiya jarayonida kambag‘allikni qisqartirishning samarali yondashuvlarini o‘zlashtirish O‘zbekistonni xalqaro hamkorlik va barqaror rivojlanish maqsadlariga yaqinlashtiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, bandlikni oshirish, aholi farovonligini yaxshilash va ijtimoiy tenglikni ta’minlash kabi masalalar mamlakat rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari sifatida dolzarb ahamiyatga ega.

**Maqsadi**

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – jahon tajribasini tahlil qilgan holda, kambag‘allikni qisqartirishning samarali usullarini aniqlash va ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishdir. Shu bilan birga, maqola quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

1.Jahon tajribasida kambag‘allikni qisqartirishning samarali strategiyalarini aniqlash.

2.Turli mamlakatlarda qo‘llanilgan ijtimoiy va iqtisodiy chora-tadbirlarning natijadorligini tahlil qilish.

3.O‘zbekiston sharoitida kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha mavjud siyosat va dasturlarni o‘rganish.

4.Xalqaro tajribani mamlakatimizga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlash va takliflar ishlab chiqish.

Maqola orqali mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirishning samarali yo‘llarini ishlab chiqish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni oshirishga ilmiy asos yaratish ko‘zda tutilgan.

**Asosiy qism**

Kambag‘allik – bu aholining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan yetarlicha imkoniyatlarga ega emasligi holati bo‘lib, uning turli shakllari va ko‘rsatkichlari mavjud. Jahon iqtisodiyotida kambag‘allikni aniqlash va o‘lchash metodikalari farq qiladi, biroq asosiy e’tibor daromad yetishmovchiligi, yashash sharoiti, sog‘liq va ta’lim imkoniyatlariga qaratiladi. Kambag‘allik jamiyatning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omil sifatida ko‘riladi. U iqtisodiy faollikni kamaytiradi, bandlikni cheklaydi va ijtimoiy adolatni pasaytiradi. Shu bilan birga, kambag‘allikning mavjudligi jinoyatchilik, sog‘liq muammolari va notenglikni kuchaytiradi. Kambag‘allikni qisqartirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati shundaki, u jamiyatda teng imkoniyatlarni ta’minlaydi, aholining hayot sifatini yaxshilaydi va mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Jahon tajribasi kambag‘allikni kamaytirishda samarali siyosiy va iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqish muhimligini ko‘rsatadi. Kambag‘allikni ijtimoiy va iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilish, uni qisqartirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishda ilmiy asos yaratadi.

Jahon amaliyotida kambag‘allikni qisqartirish uchun turli strategiyalar qo‘llaniladi. Rivojlangan mamlakatlarda keng qamrovli ijtimoiy himoya tizimi, soliq imtiyozlari va ta’lim imkoniyatlari asosiy vositalardan hisoblanadi. Misol uchun, Skandinaviya mamlakatlarida aholining barcha qatlamlariga kafolatlangan ijtimoiy yordam tizimi mavjud bo‘lib, kambag‘allik minimal darajada saqlanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa mikroqarzlar, kichik biznesni rivojlantirish, bandlik dasturlari va maqsadli ijtimoiy yordam kambag‘allikni qisqartirishda asosiy vositalar sifatida ishlatiladi. Global strategiyalarning samaradorligi ularning davlat siyosati, iqtisodiy imkoniyatlar va ijtimoiy institutlar mustahkamligiga bog‘liq. Shu bilan birga, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allikni qisqartirish faqat iqtisodiy choralar bilan cheklanmasligi, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash va gender tenglikni ta’minlash orqali ham amalga oshirilishi zarur.

Rivojlangan davlatlar tajribasi kambag‘allikni samarali qisqartirishning qator mexanizmlarini ko‘rsatadi. Masalan, Shvetsiya va Norvegiyada keng qamrovli ijtimoiy himoya tizimi mavjud, aholining kambag‘al qatlamlariga doimiy yordam beriladi. Shu bilan birga, ta’lim tizimiga alohida e’tibor berilishi, fuqarolarning bandligini oshirish va ish haqi tengligini ta’minlash kambag‘allikni sezilarli darajada kamaytiradi. Bu mamlakatlarda davlat siyosati kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan bo‘lib, soliq tizimi, ijtimoiy yordam va bandlik dasturlari bilan uyg‘unlashgan. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allikni qisqartirishning samaradorligi davlatning iqtisodiy resurslariga va ijtimoiy siyosatga bog‘liq. Shu bilan birga, u jamiyatda teng imkoniyatlarni yaratish va ijtimoiy adolatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Rivojlanayotgan davlatlarda kambag‘allikni kamaytirishning o‘ziga xos yondashuvlari mavjud. Masalan, Hindiston, Indoneziya va ba’zi Afrika davlatlarida mikroqarzlash, ijtimoiy yordam dasturlari va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash asosiy mexanizm hisoblanadi. Bu mamlakatlarda iqtisodiy imkoniyatlar cheklanganligi sababli, kambag‘allikni qisqartirishning samarali yo‘llari ko‘pincha iqtisodiy rag‘batlar va bandlikni oshirishga qaratilgan. Shuningdek, ijtimoiy dasturlarni maqsadli va samarali tashkil etish kambag‘allikni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag‘allikni qisqartirishning eng muhim sharti – siyosiy irodani kuchaytirish va ijtimoiy institutlarni mustahkamlashdir. Kambag‘allikni qisqartirishning samarali mexanizmlari xalqaro tajribada turlicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Bular orasida maqsadli ijtimoiy yordam, bandlikni rag‘batlantirish, soliq imtiyozlari, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasidagi dasturlar alohida o‘rin tutadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allikni kamaytirishda faqat moliyaviy yordam yetarli emas, balki aholining turmush sharoitlarini yaxshilash va ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish muhimdir. Shu bilan birga, davlatning iqtisodiy siyosati va ijtimoiy dasturlarning uyg‘unligi kambag‘allikni samarali qisqartirishga imkon beradi. Samarali mexanizmlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga moslashtirilishi lozim, bu esa strategik rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allik masalasi aholining turli qatlamlariga taalluqlidir. Rivojlanayotgan iqtisodiyot, urbanizatsiya, bandlik va ta’lim imkoniyatlaridagi farqlar kambag‘allikning asosiy omillari hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatda maqsadli ijtimoiy yordam dasturlari, bandlikni oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar va kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash tizimi amalga oshirilmoqda. Biroq, kambag‘allik darajasi, ayniqsa, qishloq hududlarida sezilarli bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, mamlakatimizda jahon tajribasini o‘rganish va unga mos strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida kambag‘allikni kamaytirishning samarali mexanizmlari ijtimoiy yordam va iqtisodiy rag‘batlarni uyg‘unlashtirishga bog‘liq.

Jahon tajribasi O‘zbekiston uchun kambag‘allikni qisqartirishda muhim ilmiy va amaliy asos yaratadi. Skandinaviya mamlakatlaridagi keng qamrovli ijtimoiy himoya tizimi, Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlaridagi mikroqarzlash va kichik biznesni rivojlantirish tajribalari mamlakatimizga moslashtirilishi mumkin. Masalan, maqsadli ijtimoiy yordam dasturlarini yanada samarali tashkil etish, bandlikni rag‘batlantirish va ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish orqali kambag‘allikni kamaytirish mumkin. Shu bilan birga, xalqaro tajribani o‘rganish O‘zbekiston siyosatchilari va iqtisodchilariga samarali strategiyalar ishlab chiqishda ilmiy asos beradi. Kambag‘allikni qisqartirishda jahon tajribasini o‘zlashtirish davlat siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allikni qisqartirishning samarali yo‘llari davlat siyosati, ijtimoiy himoya, bandlik va ta’lim imkoniyatlarini uyg‘unlashtirish bilan bog‘liq. O‘zbekiston sharoitida bu tajribani o‘rganish va moslashtirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini oshirish, aholining farovonligini yaxshilash va ijtimoiy tenglikni ta’minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, jahon tajribasidan foydalanish kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha yangi strategiyalarni ishlab chiqishda ilmiy asos yaratadi. Maqolada taklif qilinadigan choralar: maqsadli ijtimoiy yordam dasturlarini kengaytirish, bandlikni oshirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish va xalqaro tajribalarni moslashtirish. Bu yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan ishlar mamlakatimizda kambag‘allikni sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

**Muhokama**

Jahon tajribasi kambag‘allikni qisqartirishning samarali mexanizmlarini aniqlashda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Turli mamlakatlarda qo‘llanilgan yondashuvlar, siyosiy va iqtisodiy sharoitga qarab, farq qiladi. Rivojlangan davlatlarda keng qamrovli ijtimoiy himoya tizimi, bandlikni oshirish dasturlari va ta’lim imkoniyatlarining kengligi kambag‘allikni minimal darajada saqlashga yordam beradi. Bu mamlakatlarda siyosiy barqarorlik va davlatning iqtisodiy resurslari kambag‘allikni kamaytirish jarayonini samarali qiladi. Rivojlanayotgan davlatlarda esa kambag‘allikni qisqartirish ko‘pincha mikroqarzlash, kichik biznesni rag‘batlantirish va maqsadli ijtimoiy yordam orqali amalga oshiriladi. Ushbu yondashuvlar aholining iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish, bandligini ta’minlash va turmush sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan. Shu bilan birga, siyosiy iroda va ijtimoiy institutlarning mustahkamligi ushbu strategiyalarning samaradorligini belgilaydi. O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy chora-tadbirlar, xususan, maqsadli yordam dasturlari va bandlikni oshirish loyihalari samaradorlikka ega bo‘lishi mumkin.

Biroq, xalqaro tajribani yanada kengroq o‘rganish va mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish zarurati mavjud. Jahon tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish siyosatini takomillashtirish, aholining turmush darajasini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash imkoniyatlari mavjud. Muhokama davomida shuni aniqlash mumkinki, kambag‘allikni qisqartirishning samarali yo‘llari nafaqat moliyaviy yordamga, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash va bandlik sohalaridagi kompleks chora-tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Bu esa mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni oshirish va aholi farovonligini yaxshilash uchun ilmiy asos yaratadi.

**Natija**

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allikni qisqartirish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlik, aholining farovonligi va mamlakatning rivojlanish strategiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Jahon tajribasi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda turlicha yondashuvlarni qo‘llash mumkinligini namoyish etadi. Rivojlangan mamlakatlarda keng qamrovli ijtimoiy himoya tizimi, ta’lim va bandlik imkoniyatlari, shuningdek, soliq va moliyaviy rag‘batlar kambag‘allikni minimal darajada ushlab turishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan davlatlarda mikroqarzlash, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, maqsadli ijtimoiy yordam va bandlik dasturlari kambag‘allikni kamaytirishning samarali mexanizmlari sifatida ishlatiladi. O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy chora-tadbirlar, jumladan, maqsadli ijtimoiy yordam dasturlari, qishloq va shahar hududlarida bandlikni oshirish loyihalari kambag‘allikni kamaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, jahon tajribasidan kelib chiqqan holda mamlakatimiz sharoitiga moslashtirilgan kompleks strategiyalar ishlab chiqish, ijtimoiy yordam tizimi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va bandlikni integratsiyalash orqali kambag‘allikni sezilarli darajada qisqartirish imkoniyatini beradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allikni kamaytirishda faqat moliyaviy yordam yoki ijtimoiy dasturlar yetarli emas; samarali natija erishish uchun davlat siyosati, iqtisodiy imkoniyatlar va ijtimoiy institutlar o‘rtasida uyg‘unlik bo‘lishi zarur. Jahon tajribasini o‘rganish O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish strategiyalarini ilmiy asosda shakllantirishga yordam beradi, shu bilan birga aholining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi. Shunday qilib, umumiy natija shundan iboratki, kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi kompleks yondashuvni talab qiladi: iqtisodiy rag‘batlar, ijtimoiy yordam, bandlikni oshirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini uyg‘unlashtirish orqali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va aholi farovonligi sezilarli darajada oshirilishi mumkin. Ushbu yondashuvlar O‘zbekistonning kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha siyosatini yanada samarali va barqaror qilishga ilmiy asos yaratadi.

**Xulosa**

Ushbu maqolada kambag‘allikni qisqartirish masalasi jahon tajribasi asosida tahlil qilindi va O‘zbekiston sharoitida uni amalga oshirish imkoniyatlari o‘rganildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kambag‘allik nafaqat iqtisodiy muammo, balki ijtimoiy barqarorlik va aholining farovonligi bilan bevosita bog‘liqdir. Rivojlangan mamlakatlarda keng qamrovli ijtimoiy himoya tizimi, ta’lim va bandlik imkoniyatlari, shuningdek, soliq va moliyaviy rag‘batlar kambag‘allikni minimal darajada ushlab turishga xizmat qiladi. Rivojlanayotgan davlatlarda esa mikroqarzlash, kichik biznesni rivojlantirish va maqsadli ijtimoiy yordam dasturlari kambag‘allikni kamaytirishning asosiy mexanizmlari sifatida ishlatiladi. O‘zbekiston sharoitida hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy chora-tadbirlar, jumladan, maqsadli ijtimoiy yordam, bandlikni oshirish va qishloq hududlarini rivojlantirish loyihalari kambag‘allikni kamaytirishga ijobiy ta’sir qilmoqda. Shu bilan birga, jahon tajribasini o‘rganish va mamlakat sharoitiga moslashtirish orqali samarali strategiyalarni ishlab chiqish mumkin. Kambag‘allikni qisqartirishning samarali yo‘llari nafaqat moliyaviy yordam bilan, balki ijtimoiy xizmatlar, ta’lim, bandlik va sog‘liqni saqlash tizimlarini uyg‘unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Umuman olganda, maqola shuni ko‘rsatdiki, kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha kompleks va ilmiy asoslangan yondashuv mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini oshirish, aholining turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy tenglikni ta’minlash imkonini beradi. Shu asosda tavsiya qilinadiki, O‘zbekiston kambag‘allikni qisqartirish siyosatini yanada takomillashtirish uchun xalqaro tajribani o‘rganish va uni mamlakat sharoitiga moslashtirish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirsin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sultanova, K. T. Global Efforts to Reduce Poverty: Examples from Foreign Countries. Journal of Management and Economics.
2. Ravallion, M. The Economics of Poverty: History, Measurement, and Policy. Oxford University Press, 2020.
3. Deaton, A. The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality. Princeton University Press, 2019
4. Fayzullaev, Sh. Ijtimoiy siyosat va kambag‘allikni qisqartirish strategiyalari O‘zbekistonda. Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.
5. Alikulov, S. & Alikulova, M. O‘zbekistonda xizmatlar sektorini rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish: empirik tahlil (2000–2024).
6. Tuykulov, A. K. Davlat strategiyalarining kambag‘allikni qisqartirishga ta’siri. Science and Education Scientific Journal

7. King, M. Green Growth and Poverty Reduction: Policy Coherence for Pro-poor Growth. OECD Development Co-operation Working Paper

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Abduxamidova Madina Abdulpatto qizi**
NamDPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari) mutaxasisligi, 2-bosqich magistranti,

## JALOLIDDIN RUMIY G'OYALARINING ZAMONAVIY MA'NAVIY TARBIYA TIZIMIDAGI O'RNI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada buyuk mutasavvif va mutafakkir Jaloliddin Rumiy g'oyalarining zamonaviy ma'naviy tarbiya tizimidagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Rumiyning insonparvarlik, muhabbat, bag'rikenglik, o'zini anglash va axloqiy kamolotga oid qarashlari hozirgi globallashuv sharoitida yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda muhim metodologik asos sifatida yoritiladi. Maqolada Rumiy ta'limotining ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiyasi, uning pedagogik-axloqiy ahamiyati va zamonaviy tarbiya konsepsiyalari bilan uyg'unligi ochib berilgan. Tadqiqot natijalari Rumiy merosidan ta'lim tizimida samarali foydalanish imkoniyatlarini asoslab beradi.*

***Kalit so'zlar:*** *Jaloliddin Rumiy, ma'naviy tarbiya, tasavvuf, axloqiy kamolot, bag'rikenglik, muhabbat falsafasi, pedagogik etika.*

**Абдухамидова Мадина Абдулпатто кизи**
НамДПИ, Методика преподавания социальных и гуманитарных наук (Основы духовности) Специальность, 2 курс магистратуры,

## МЕСТО ИДЕЙ ДЖАЛАЛИДДИНА РУМИ В СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЕ ДУХОВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

***Аннотация:*** *В статье проводится научно-теоретический анализ идей великого суфийского мыслителя Джалалиддина Руми и их роли в современной системе духовно-нравственного воспитания. Гуманистические взгляды Руми, его учение о любви, терпимости, самопознании и нравственном совершенствовании рассматриваются как важная методологическая основа воспитания духовно зрелой личности в условиях глобализации. Раскрывается значение интеграции суфийского наследия Руми в образовательный процесс, а также его педагогико-этический потенциал в формировании ценностных ориентиров молодежи. Результаты исследования обосновывают актуальность использования идей Руми в современной воспитательной практике.*

***Ключевые слова:*** *Джалалиддин Руми, духовное воспитание, суфизм, нравственное развитие, толерантность, философия любви, педагогическая этика.*

**Madina Abduhamidova, Abdulpatto Qizi**
NamDPI, Methodology of Teaching Social and Humanities (Fundamentals of Spirituality) Master, 2nd year master's student

## THE PLACE OF JALALID DIN RUMI'S IDEAS IN THE MODERN SYSTEM OF SPIRITUAL EDUCATION.

***Abstract:*** *This article provides a scientific and theoretical analysis of the ideas of the great Sufi thinker Jalal ad-Din Rumi and their role in the modern system of spiritual and moral education. Rumi's humanistic views, including his teachings on love, tolerance, self-knowledge, and moral perfection, are examined as an important methodological foundation for educating spiritually mature individuals in the context of globalization. The study highlights the integration of Rumi's Sufi heritage into contemporary educational practices and reveals its pedagogical and ethical significance. The findings substantiate the relevance of Rumi's ideas for enhancing modern spiritual education and value-based upbringing.*

***Keywords:*** *Jalal ad-Din Rumi, spiritual education, Sufism, moral development, tolerance, philosophy of love, pedagogical ethics.*

## KIRISH

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u nafaqat iqtisodiy, siyosiy yoki texnologik yutuqlar bilan, balki insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti bilan ham chambarchas bog'liqdir. Bugungi globallashuv sharoitida axborot oqimining tezlashuvi, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi va ijtimoiy munosabatlarning

murakkablashuvi shaxs tarbiyasiga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, yosh avlod ongida ma’naviy bo‘shliq, befarqlik, individualizmning kuchayishi, axloqiy me’yorlarning zaiflashuvi kabi holatlar kuzatilayotgani ma’naviy tarbiya masalasini dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda.

Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimida shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning ichki dunyosini boyitish, axloqiy barqarorlik va ma’naviy mas’uliyatni shakllantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Zamonaviy pedagogika faqat bilim berishga emas, balki insonning ruhiy-axloqiy rivojiga yo‘naltirilgan holistik yondashuvlarni talab etmoqda. Bunday yondashuvda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy-falsafiy meros muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Sharq mutafakkirlarining axloqiy-falsafiy qarashlari bugungi ma’naviy tarbiya tizimini boyitishda muhim nazariy asos hisoblanadi.

Sharq tasavvuf falsafasining yirik namoyandasi Jaloliddin Rumiy ana shunday bebaho ma’naviy meros sohibidir. Uning asarlarida inson kamoloti, muhabbat, bag‘rikenglik, sabr-toqat, ichki poklanish va ustoz-shogird munosabatlari chuqur falsafiy va badiiy talqinda yoritilgan. Rumiy ta’limotida ma’naviy tarbiya tashqi majburiyatlar majmui emas, balki inson qalbining ichki uyg‘onishi va o‘zini anglash jarayoni sifatida talqin qilinadi. U insonni zo‘ravonlik va majburlash orqali emas, balki muhabbat, hikmat va ruhiy yetakchilik orqali tarbiyalash g‘oyasini ilgari suradi.

**METODOLOGIYA**

Mazkur tadqiqotda Jaloliddin Rumiy g‘oyalarining zamonaviy ma’naviy tarbiya tizimidagi o‘rnini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy-metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi falsafiy, pedagogik va ijtimoiy-axloqiy tahlil tamoyillariga asoslanib, Rumiy merosini tarixiy-madaniy mazmunda hamda zamonaviy ta’lim ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganishni nazarda tutadi. Bunda Sharq falsafasi va tasavvuf ta’limotiga xos bo‘lgan integrativ yondashuv asos qilib olindi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida **tarixiy-falsafiy tahlil** usuli qo‘llanildi. Ushbu usul orqali Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy”, “Fihi ma fih”, “Devoni Kabir” kabi asarlarida ilgari surilgan axloqiy-tarbiyaviy g‘oyalar o‘z davrining ijtimoiy-madaniy sharoiti bilan bog‘liq holda tahlil qilindi. Tarixiy yondashuv Rumiyning qarashlarini faqat badiiy yoki diniy matn sifatida emas, balki muayyan tarbiya konsepsiyasini ifodalovchi falsafiy tizim sifatida talqin etish imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqotda **qiyosiy-tahliliy metod**dan foydalanildi. Bu metod yordamida Rumiyning ma’naviy tarbiya haqidagi g‘oyalari zamonaviy pedagogika, axloqiy tarbiya va ma’naviy rivojlanish konsepsiyalari bilan solishtirildi. Jumladan, Rumiyning muhabbatga asoslangan tarbiya modeli shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, gumanistik pedagogika va emotsional-axloqiy tarbiya yondashuvlari bilan qiyoslandi. Natijada, Rumiyning g‘oyalari bugungi ta’lim tizimida ham dolzarbligini yo‘qotmaganligi ilmiy asosda ko‘rsatib berildi.

Tadqiqot jarayonida **mantiqiy-analitik metod** ham muhim o‘rin tutdi. Ushbu metod orqali Rumiyning axloqiy qarashlaridagi asosiy tushunchalar — muhabbat, bag‘rikenglik, nafsni poklash, ustoz-murshidning roli, shaxsiy mas’uliyat va ichki kamolot tushunchalari tizimlashtirildi. Har bir tushuncha zamonaviy ma’naviy tarbiya mezonlari nuqtai nazaridan tahlil qilinib, ularning pedagogik ahamiyati aniqlashtirildi. Bu yondashuv Rumiyning qarashlarini umumiy tasavvufiy g‘oyalar doirasidan chiqarib, aniq pedagogik-axloqiy model sifatida talqin etishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, tadqiqotda **interpretativ (germenevtik) metod** qo‘llanildi. Rumiy asarlarining ramziy va majoziy tilda yozilgani inobatga olinib, ularning mazmunini chuqur anglash va zamonaviy ma’naviy tarbiya bilan bog‘lash maqsadida matnlarning ichki ma’nosi talqin qilindi. Germenevtik yondashuv Rumiyning qarashlarini yuzaki diniy yoki adabiy tushunishdan saqlab, ularni ma’naviy-tarbiyaviy konsepsiya sifatida ochib berishga imkon yaratdi.

Tadqiqot metodologiyasida **tizimli yondashuv** ham muhim ahamiyat kasb etdi. Jaloliddin Rumiy g‘oyalari alohida-alohida fikrlar majmui sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq axloqiy-tarbiyaviy tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Bu yondashuv orqali Rumiyning shaxs kamoloti haqidagi qarashlari, ustoz-shogird munosabatlari va jamiyatdagi ma’naviy uyg‘unlik konsepsiyasi bir butun tizim sifatida tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda **zamonaviy ilmiy manbalar tahlili** metodidan foydalanildi. Rumiyning merosi bo‘yicha olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar, pedagogik va falsafiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar tahlil qilinib, ularning natijalari mazkur tadqiqot maqsadlari bilan uyg‘unlashtirildi. Bu esa tadqiqotning ilmiy asoslanganligini va metodologik ishonchliligini ta’minladi.

Umuman olganda, tanlangan metodologiya Jaloliddin Rumiy g‘oyalarini zamonaviy ma’naviy tarbiya tizimi bilan uzviy bog‘liq holda, ko‘p qirrali va chuqur ilmiy tahlil qilish imkonini berdi hamda tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.

**NATIJALAR**

Tadqiqot jarayonida Jaloliddin Rumiy g‘oyalarining zamonaviy ma’naviy tarbiya tizimidagi o‘rni va ahamiyati kompleks tahlil qilindi hamda bir qator muhim ilmiy natijalarga erishildi. O‘tkazilgan nazariy tahlil va manbalar o‘rganilishi Rumiy merosining bugungi ta’lim-tarbiya jarayonida dolzarbligini yaqqol namoyon etdi.

Birinchidan, tadqiqot natijalari Rumiy ta'limotida **ma'naviy tarbiyaning markazida inson qalbi** turganini tasdiqladi. "Tasavvufda inson – ilohiy haqiqatni anglash imkoniyatiga ega bo'lgan mavjudot sifatida qaraladi"[24] Mutasavvuf asarlarida bilim faqat aqliy jarayon sifatida emas, balki axloqiy va ruhiy kamolot bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bu yondashuv zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda ilgari surilayotgan "butun shaxsni tarbiyalash" tamoyiliga to'liq mos keladi. Rumiy g'oyalarida ilm va axloqning birligi hozirgi ma'naviy tarbiya tizimida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ikkinchidan, tadqiqot davomida Rumiy ta'limotidagi **ustoz (murshid) obrazining pedagogik ahamiyati** aniqlashtirildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Rumiy ustozni shogirdning ichki dunyosini uyg'otuvchi, uni o'z ustida ishlashga undovchi ma'naviy yetakchi sifatida ko'radi. Bu yondashuv zamonaviy ta'lim tizimida ustoz shaxsiga qo'yilayotgan kasbiy va axloqiy talablar bilan uyg'unlashadi. Tadqiqot natijalari ustozning shaxsiy namuna orqali tarbiyalash g'oyasi bugungi pedagogik amaliyot uchun muhim ekanini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, tahlil natijalari Rumiy asarlarida ilgari surilgan **muhabbat konsepsiyasi** zamonaviy ma'naviy tarbiya tizimida muhim tarbiyaviy resurs ekanini ko'rsatdi. Rumiy muhabbatni insonni nafsdan poklaydigan, uni boshqalarga nisbatan bag'rikeng va rahmdil qiladigan kuch sifatida talqin etadi. Tadqiqot natijalari shuni aniqladiki, mazkur g'oya yosh avlodda empatiya, ijtimoiy mas'uliyat va insonparvarlik sifatlarini shakllantirishda samarali vosita bo'la oladi.

To'rtinchidan, tadqiqot Rumiy ta'limotida **bag'rikenglik va sabr-toqat** tushunchalarining markaziy o'rin egallashini ko'rsatdi. Natijalarga ko'ra, Rumiy insonlar o'rtasidagi farqlarni ixtilof manbai emas, balki kamolot imkoniyati sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv zamonaviy ko'p madaniyatli jamiyat sharoitida ma'naviy tarbiya tizimi uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari Rumiy g'oyalarining ijtimoiy totuvlik va ma'naviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Beshinchidan, tadqiqot davomida Rumiy qarashlarining **zamonaviy pedagogik va psixologik nazariyalar bilan uyg'unligi** aniqlandi. Natijalarga ko'ra, Rumiy insonni majburlash emas, balki ichki anglash va ijobiy motivatsiya orqali tarbiyalash tarafdori bo'lgan. Bu yondashuv hozirgi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, refleksiv pedagogika va axloqiy tarbiya konsepsiyalari bilan hamohangdir.

Oltinchidan, olingan natijalar Rumiy g'oyalarining **amaliy jihatdan tatbiq etish imkoniyatlari** mavjudligini ko'rsatdi. Tadqiqot Rumiy ta'limotini zamonaviy ma'naviy tarbiya tizimiga integratsiya qilish orqali ta'lim muhitida axloqiy iqlimni yaxshilash, ustoz va shogird o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash hamda ijtimoiy mas'uliyatni oshirish mumkinligini tasdiqladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Jaloliddin Rumiy g'oyalarini zamonaviy ma'naviy tarbiya tizimi uchun **nazariy va amaliy jihatdan ahamiyatli manba** sifatida baholash imkonini berdi. Rumiy merosi bugungi ta'lim jarayonida axloqiy yetuklik, bag'rikenglik va insonparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda samarali asos bo'la olishi ilmiy jihatdan asoslandi.

## MUHOKAMA

Rumiyning axloqiy qarashlari bugungi jamiyatda bag'rikenglik, insonparvarlik va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, insonlar o'rtasidagi nizolar va ziddiyatlar ko'pincha ichki jaholat va nafsiy intilishlardan kelib chiqadi. Shu sababli haqiqiy tarbiya insonning ichki dunyosini isloh qilishdan boshlanishi lozim. "Zero, inson qalbi Ollohning uyi, bu uy qancha toza, sarishta bo'lsa, Olloh nuri, Olloh ilmu hikmati unda shuncha aks etadi. Ko'ngil— bu javhar, so'z esa – araz(hodisa) deydi Rumiy. Agar kishi fikrini so'z bilan ifodalasa ham, lekin bu so'z ko'ngildan chiqdimi yoki yo'qmi –muhimi shu! So'z – qurol, maqsad esa – ko'ngil. Ko'ngil o'rtanmasa, ehtiroslarga to'lishmasa, so'zda ta'sir bo'lmaydi:

***Chand az in alfozu izmoru majoz,***

***So'z xoham, so'z, bo on so'z soz!"***[25]

Bu yondashuv zamonaviy ma'naviy tarbiya konsepsiyalarida keng qo'llanilayotgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, emotsional intellekt va axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish g'oyalari bilan hamohangdir.

Bundan tashqari, Rumiy ta'limotida ustozning o'rni alohida ta'kidlanadi. Ustoz shogirdga faqat bilim beruvchi emas, balki uning ruhiy kamolotiga yo'l ko'rsatuvchi ma'naviy yetakchi sifatida talqin etiladi.

"Yo'l biluvchi idrokli pir nafs quli bog'lariga arik qazuvchidir. Irmoq o'zini qanday poklaydi? Insonning bilimi Alloh ilmi bilan birga naf beradi. Qilich qinini kesa oladimi? Bor, bu jarohatni jarrohga ko'rsat. Agar bu yaraga pir malham ko'ysagina dardingdan qutulasan, faryod-u fig'oning bitadi"[26]. Jaloliddin Rumiy ushbu hikmatida ma'naviy

[24] Komilov, N. *Tasavvuf*. – Toshkent: Movarounnahr, 2010. 56 – B.

[25] https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/jaloliddin-rumiy-masnaviy-najmiddin-komilov.html

[26] Қалб кўзингни оч... Мавлоно Румийдан ҳикматли сўзлар. Таржимон ва нашрга тайёрловчи Сабоҳат Бозорова. Т.: "Саностандарт" нашриёти, 2011. 5-B.

tarbiyada murshid (pir) shaxsining hal qiluvchi ahamiyatini ramziy tarzda asoslaydi. “Nafs quli bog‘lariga ariq qazuvchi pir” obrazi inson qalbini poklash va bilimni ilohiy ma’rifat bilan uyg‘unlashtirish faqat idrokli ustoz rahbarligida amalga oshishini anglatadi. Rumiy “Qilich qinini kesa oladimi?” degan savol orqali o‘z-o‘zini tarbiyalashning cheklanganligini ko‘rsatib, nafs jarohatidan xalos bo‘lish faqat ruhiy yetuk pir malhami bilan mumkinligini ta’kidlaydi, bu esa zamonaviy ma’naviy tarbiya tizimida ustoz–shogird an’anasining zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi

Bu qarash zamonaviy pedagogik etikada ustoz shaxsiga qo‘yilayotgan axloqiy va ma’naviy talablar bilan uzviy bog‘liqdir. Hozirgi ta’lim tizimida pedagogning shaxsiy namunaliligi, bag‘rikengligi va axloqiy mas’uliyati muhim mezon sifatida qaralayotgani Rumiyning g‘oyalari bilan bevosita uyg‘unlashadi.

Shu bois Jaloliddin Rumiy merosini zamonaviy ma’naviy tarbiya tizimi nuqtai nazaridan ilmiy tahlil qilish, uning axloqiy-falsafiy g‘oyalarini hozirgi pedagogik jarayonlarga tatbiq etish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda Rumiyning ma’naviy tarbiya haqidagi qarashlari zamonaviy ta’lim tizimi ehtiyojlari bilan bog‘liq holda o‘rganilib, ularning shaxs kamoloti va jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Mazkur tadqiqot natijalari Jaloliddin Rumiy g‘oyalarining zamonaviy ma’naviy-tarbiyaviy tizimda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Olingan natijalar Rumiy ta’limotini faqat diniy-mistik meros sifatida emas, balki zamonaviy pedagogik va axloqiy muammolarga javob bera oladigan universal ma’naviy konsepsiya sifatida talqin qilish imkonini beradi. Muhokama jarayonida Rumiy qarashlarining hozirgi ta’lim tizimi, ma’naviy tarbiya va shaxs kamoloti bilan uyg‘un jihatlari chuqur tahlil qilinadi.

Birinchidan, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Rumiy ta’limotida markaziy o‘rinni egallagan **inson qalbini tarbiyalash** g‘oyasi zamonaviy ma’naviy tarbiya konsepsiyalari bilan mushtarakdir. Hozirgi ta’lim tizimida bilim berish bilan bir qatorda shaxsning axloqiy yetukligini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Rumiy esa, bundan sakkiz asr muqaddam ilmni qalb pokligi, axloqiy mas’uliyat va muhabbat bilan uyg‘un holda o‘zlashtirish lozimligini ta’kidlagan. Tadqiqot natijalari Rumiy g‘oyalarining bugungi kompetensiyaviy yondashuv, insonparvar pedagogika va ma’naviy-axloqiy tarbiya tamoyillari bilan bevosita bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, muhokama shuni ko‘rsatadiki, Rumiy asarlarida ilgari surilgan **ustoz–shogird munosabatlari** modeli zamonaviy pedagogik etikaga mos keladi. Rumiy nazarida ustoz faqat bilim beruvchi emas, balki shogirdni ichki kamolotga yetaklovchi ma’naviy yo‘lboshchi hisoblanadi. Bu qarash hozirgi ta’lim tizimida ustoz shaxsiga qo‘yilayotgan axloqiy va kasbiy talablar bilan uyg‘unlashadi. Tadqiqot natijalarini muhokama qilish jarayonida aniqlanishicha, Rumiy ta’limotidagi murshid obrazi bugungi pedagog shaxsining ideal modelini tushunishda muhim nazariy asos bo‘la oladi.

Uchinchidan, Rumiy g‘oyalarida yetakchi o‘rin tutgan **muhabbat va bag‘rikenglik** tushunchalari zamonaviy jamiyatda dolzarb bo‘lgan ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim axloqiy resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Globalizatsiya, madaniy xilma-xillik va ijtimoiy ziddiyatlar kuchaygan sharoitda ma’naviy tarbiya tizimi yoshlarni bag‘rikenglik, sabr-toqat va o‘zaro hurmat ruhida tarbiyalashni talab etadi. Rumiy ta’limotida muhabbat insonni nafsdan poklaydigan, boshqalarga nisbatan rahm-shafqat va tushunish tuyg‘ularini kuchaytiradigan asosiy kuch sifatida talqin etiladi. “Muhabbatsiz qalb – jonsiz tanadir”[27] - deydi mutasavvif. Rumiyning mazkur fikri zamonaviy tarbiya tizimida mehr, bag‘rikenglik va insonparvarlik g‘oyalarini shakllantirishda muhim metodik asos bo‘la oladi. Tadqiqot natijalari ushbu g‘oyalarning zamonaviy tarbiya tizimida muvaffaqiyatli integratsiya qilinishi mumkinligini ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, muhokama jarayonida Rumiy qarashlarining zamonaviy psixologik va pedagogik nazariyalar bilan uyg‘un jihatlari aniqlanadi. Rumiy inson ichki olamini, ruhiy kechinmalarini va ma’naviy izlanishlarini chuqur tahlil qilgan mutafakkir sifatida bugungi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasiga yaqin turadi. Uning asarlarida insonni tushunish, uni majburlash emas, balki ichki rag‘bat orqali tarbiyalash g‘oyasi ilgari suriladi. Bu yondashuv zamonaviy tarbiya tizimida motivatsiya va refleksiya asosida tarbiyalash tamoyillari bilan hamohangdir.

Beshinchidan, tadqiqot natijalari Rumiy ta’limotining amaliy jihatdan ham ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi. Muhokama shuni anglatadiki, Rumiy g‘oyalarini zamonaviy ma’naviy tarbiya tizimiga joriy etish orqali ta’lim jarayonida insonparvarlik, axloqiy mas’uliyat va ijtimoiy uyg‘unlikni kuchaytirish mumkin. Bu esa nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Umuman olganda, muhokama natijalari Jaloliddin Rumiy g‘oyalarini zamonaviy ma’naviy tarbiya tizimi uchun nazariy-metodologik asos sifatida baholash mumkinligini ko‘rsatadi. Rumiy merosi bugungi ta’lim va tarbiya tizimida axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, ustoz va shogird munosabatlarini insonparvarlik ruhida qayta talqin qilish hamda bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

[27] Rumiy, J. *Masnaviy ma’naviy*. I - jild. Tarj. A. Sirojiddinov. – Toshkent: Sharq, 2004.112-B.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Jaloliddin Rumiy g‘oyalari zamonaviy ma’naviy tarbiya tizimi uchun chuqur nazariy va muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligi mazkur tadqiqot davomida ilmiy asosda isbotlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Rumiy ta’limotida ilgari surilgan axloqiy-falsafiy qarashlar bugungi globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan ma’naviy inqiroz, axloqiy beqarorlik va shaxsiy begonalashuv muammolarini bartaraf etishda samarali konseptual asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Rumiy inson kamolotini tashqi bilimlar majmui bilan emas, balki ichki ruhiy poklanish, axloqiy yetuklik va muhabbat bilan bog‘laydi. Ushbu yondashuv zamonaviy ma’naviy tarbiya tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, ya’ni aqliy, axloqiy va ruhiy jihatlarni uyg‘un holda shakllantirish tamoyillari bilan to‘la mos keladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Rumiy g‘oyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali tarbiya mazmunini yanada insonparvarlik ruhida boyitish mumkin.

Shuningdek, Jaloliddin Rumiy ta’limotida ustoz shaxsining o‘rni alohida ta’kidlanishi zamonaviy pedagogik etikaga muhim metodologik xulosa beradi. Rumiy ustozni shogirdning ma’naviy kamolotiga yo‘l ko‘rsatuvchi, shaxsiy namuna orqali tarbiya beruvchi yetakchi sifatida talqin etadi. Bu qarash hozirgi ta’lim tizimida pedagog shaxsiga qo‘yilayotgan axloqiy, kasbiy va ma’naviy talablarni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, Rumiyning murshid-murid modeli pedagogik munosabatlarni insoniylik, ishonch va hurmat asosida qayta talqin qilish imkonini beradi.

Muhabbat va bag‘rikenglik g‘oyalari Rumiy ta’limotining markaziy tushunchalari sifatida zamonaviy ma’naviy tarbiya tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari ushbu g‘oyalar yosh avlodda empatiya, ijtimoiy mas’uliyat, sabr-toqat va o‘zaro hurmatni shakllantirishda samarali tarbiyaviy resurs bo‘la olishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, ko‘p madaniyatli va pluralistik jamiyat sharoitida Rumiy qarashlari ijtimoiy totuvlik va ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot Jaloliddin Rumiy g‘oyalarini zamonaviy ma’naviy tarbiya tizimi uchun muhim nazariy-metodologik asos sifatida baholash imkonini berdi. Rumiy merosi nafaqat tarixiy-falsafiy ahamiyatga ega, balki bugungi ta’lim amaliyotida axloqiy yetuklik, insonparvarlik va bag‘rikenglik qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi dolzarb manba ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Shu bois Rumiyning axloqiy-falsafiy qarashlarini zamonaviy ma’naviy tarbiya tizimiga izchil va tizimli ravishda joriy etish pedagogika va axloqshunoslik oldidagi muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rumiy, J. *Masnaviy ma’naviy*. I–VI jildlar. Tarj. A. Sirojiddinov. – Toshkent: Sharq, 2004.
2. Komilov, N. *Tasavvuf*. – Toshkent: Movarounnahr, 2010.
3. Haqqul, I. *Tasavvuf va adabiyot*. – Toshkent: Fan, 2015.
4. Қалб кўзингни оч... Мавлоно Румийдан ҳикматли сўзлар. Таржимон ва нашрга тайёрловчи Сабоҳат Бозорова. Т.: “Саностандарт” нашриёти, 2011.
5. Karimov, B. *Sharq mutafakkirlari va ma’naviy tarbiya*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
6. Зайнобиддинова Н. И. Ибн Синонинг “Ҳайй Ибн Яқзон” ва Жалолиддин Румийнинг “Маснавий” асарларида ақл ва нафс муносабати //ЎзМУ хабарлари. – 2021. – Т. 1. – №. 4. – Б. 271-275.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Yuldashev Ibrokhim Tuychiyevich**
Researcher, Fergana State University
Orchid ID: 0000-0003-4461-2458

**UDK: 7.01:75.01**

## THE DEPICTION OF COSTUMES THROUGH MINIATURE ART IN THE DEVELOPMENT OF AESTHETIC CULTURE.

***Abstract:*** *The article examines the concept of miniature art, its stages of development, its scientific theoretical and methodological foundations, and the division of costumes into several types, as well as the role of miniature art in the process of spiritual renewal of society, its analytical analysis, and the social necessity of miniature art in the integration of improving the aesthetic worldview of young people, along with an analysis of the basic compositional concept.*

***Key words:*** *Miniature, analysis, theoretical and methodological basis, integration, values, dress. Shiraz, Tabriz, Mesopotamia, chakmon, turban, hat, skullcap, turban, collection, fota, sochkap, aesthetics*

**Юлдашев Иброхим Туйчиевич**
Научный сотрудник, Ферганский государственный университет

## ИЗОБРАЖЕНИЕ КОСТЮМОВ В МИНИАТЮРНОМ ИСКУССТВЕ В РАЗВИТИИ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ.

***Аннотация****: В статье рассматривается концепция миниатюрного искусства, этапы его развития, научно-теоретические и методические основы, а также деление костюмов на несколько типов, роль миниатюрного искусства в процессе духовного обновления общества, его аналитический анализ и социальная необходимость миниатюрного искусства в интеграции и совершенствовании эстетического мировоззрения молодежи, наряду с анализом основных композиционных концепций.*

***Ключевые слова:*** *Миниатюра, анализ, теоретическая и методическая основа, интеграция, ценности, одежда. Шираз, Тебриз, Месопотамия, чакмон, тюрбан, шляпа, тюбетейка, тюрбан, коллекция, фото, сочка, эстетика.*

**Yuldashev Ibrohim To'ychiyevich**
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

## ESTETIK MADANIYATNING RIVOJLANISHIDA MINIATYURA SAN'ATI ORQALI KIYIMLARNI TASVIRLASH.

***Annotatsiya****: Maqolada miniatyura san'ati tushunchasi, uning rivojlanish bosqichlari, ilmiy nazariy va metodologik asoslari va liboslarning bir necha turga bo'linishi, shuningdek, jamiyatning ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining roli, uning analitik tahlili va yoshlarning estetik dunyoqarashini takomillashtirish integratsiyasida miniatyura san'atining ijtimoiy zarurati asosiy kompozitsion konsepsiya tahlili bilan birga o'rganiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Miniatyura, tahlil, nazariy va metodologik asos, integratsiya, qadriyatlar, libos. Shiroz, Tabriz, Mesopotamiya, chakmon, salla, shlyapa, do'ppi, salla, kolleksiya, fota, sochkap, estetika*

## INTRODUCTION

In studying the costumes of the peoples of the East through miniature art, it can be seen that there are many reliable sources on the history of material culture, including costumes, and that many researchers have addressed the topic of costumes many years ago. Miniatures were used effectively to illuminate some realities in the history of Iran, India, Turkey, and partly Central Asia. The elements of men's clothing, reflected in the miniatures of Khorasan and Movarunnahr in the 15th-19th centuries, were systematically depicted, copied from miniatures, and used to create independent compositions. The above ideas can be strengthened by studying the Khorasan miniatures belonging to the

Herat school of the late 15th and early 16th centuries and the specific clothing categories in the compositions of the Bukhara school of Movarunnahr miniatures of the 16th-17th centuries.

## LITERATURE ANALYSIS AND METHODS

We know from the past that miniature art and written literature are important sources of information about the traditional costumes of that era. Academician G. Pugachenkova, while studying the history of the development of costumes depicted in miniature works, was able to determine the period and school to which the miniatures belonged by looking at the images and the depiction of the costumes in them. The history of Eastern miniature art is studied in four main periods:

1) The Timurid era, starting from the reign of Amir Timur - schools in Khorasan and Transoxiana (Herat in Afghanistan, Samarkand, Tabriz in present-day eastern Iran, Shiraz in southern Iran); 2) The Safavid era - Iran (Shiraz, Tabriz, Mashhad, Isfahan schools); 3) The Shaybanid era - Central Asia (Bukhara, Samarkand schools); 4) The Baburid era - India (Agra, Delhi schools).

The artists of the Babur period, who creatively absorbed the traditions of the Herat, Bukhara, Samarkand, Shiraz and Tabriz schools, created characters that were typical of India. The characters depicted in the "Baburnama" miniatures, from their facial features to their clothing and even their turbans, are Indian. They are completely different from the characters of the Timurid and Safavid miniatures.

When studying Central Asian costumes from miniatures of the late 15th century, it is impossible not to consider and analyze the examples of Herat in order to illuminate the main art of this costume and clothing, because it indicates that Herat was considered the cultural center of the entire Near East at that time. The customs and patterns found there later partially, albeit vaguely, were formed in Bukhara, Samarkand, Tashkent, and the valley regions. If we look at the miniatures, we can see that the traditions reflected in the clothes were the same for the Middle and partly the Near East from Mesopotamia and Azerbaijan to Eastern Turkestan from the second half of the 14 th century. At the heart of these traditions, on the one hand, there are local elements of clothes that reflect some aspects of Turkish clothes, and on the other hand, there are features of Iranian-Mesopotamian and Mongolian clothes, in which, we assume, elements imitated by China or Chinese style were also expressed.

Such commonality and similarity in clothing was also a factor in the unification of large territories in the Near and Middle East under a single state by the great conqueror Amir Temur. Even after the collapse of this state, this tradition continued to develop in a common way. In the 15th century, its main centers can be considered to be Herat on the one hand and Tabriz on the other. Unfortunately, we do not have enough information about the miniatures of Movarunnahr, which date back to the 14th century, but nevertheless, given the place that Herat occupied in the cultural life of this region at the turn of the 15th-16th centuries, we understand that it is appropriate to use information about the monuments of Herat: they are able to evoke an idea of the clothing culture of the entire Central Asia.



G. Pugachenkova's scientific research allows us to study the history of the development of costumes depicted in miniature works, and based on the costumes, we can learn about the lifestyle and architectural traditions of the period in which the miniatures were made, as well as about the political and social environment. We can conclude that by looking at the history of the Safavid era, we can find answers to various questions.

During the Safavid era, a school of calligraphy and miniatures was formed and flourished in Tabriz. This new creative style of Azerbaijani calligraphy and painters is distinguished by its attractiveness, a series of decorative patterns and images, the brilliance of rich and bright colors, the delicacy of lines, beauty and uniqueness, and the peculiar conditionality of forms. One of the important features of this style is that, while observing artistic and aesthetic requirements, it is possible to see with an unarmed eye that the heroes of all eras are imbued with the spirit of their time.

## RESULTS AND DISCUSSION

Another distinctive feature of the images of this period is the traditional headdress of the red-headed people - a white turban with long red sleeves. Despite the prohibition of drawing human images in Islam, miniature art depicts not only people, but also their inner experiences, emotions, lifestyle, and even divine characters. Although miniature is considered a court art, the images fully reflect the costumes of not only the upper class, but also ordinary people and servants.

Since clothing was a key indicator of a person's ethnic and social status in the Middle Ages, miniature painters sought to show the character's position in society by accurately depicting every detail of the clothing. After all, for representatives of the upper class, the elegance of clothing was of great importance. The character's age was shown using layered clothing, headdresses, and hairstyles. The color and pattern of the clothing and the main fabric, as well as embroidery, were clearly visible. The style of clothing, seams, proportions of clothing, the shape of the headdress, etc. are clearly depicted. The division of clothing into several types, reflected in miniatures, can be seen in modern scientific research, as evidenced by the thoughts of researcher E'tibor Mirzanazarova in her article. “In Central Asia, clothing was gradually formed over the centuries under the influence of natural climate, religious worldview, and interactions with other peoples. Men's and women's clothing differed only in fabric, headdresses and decorations. Although each region had its own local characteristics, they all had comfortable long shirts, long trousers and outer garments. Some of our scholars used the terms given in historical manuscripts and Navoi's works to determine the names of clothing (Mukminova R. Costume of the peoples of Central Asia based on written sources of the 19th century. Costume of the peoples of Central Asia. Moscow, 1979. pp. 70-77). The outer garments that were widespread in Central Asia were called "joma", "chakmon", "ton", the tunic with the front overlapping and overlapping was called "farajiya" and another one was called "qabo".

Winter coats were made of sheepskin, while those worn by the upper classes were made of valuable fur with a lining and decorated with silk.

Chakmon is a winter outerwear for shepherds, made of movut, sometimes decorated with embroidery. Underwear, that is, a men's shirt - "kurta", a women's shirt - "pirokhan", trousers - "lozim", "ezar" (Rakhimova Z. To the history of the costumes of the peoples of Uzbekistan. Costume of Bukhara and Samarkand of the 16th-17th centuries (based on medieval miniature painting). Tashkent, publishing house of the journal "San'at", 2005. Pg. 5). In the miniatures of Movarounnahr, women are depicted wearing a long-sleeved, rectangular shirt made of white cloth - a kurta, over which they wear a long-sleeved, triangular-shaped shirt with a neckline that reaches the chest - a pirokhan shirt, and a kabo, which is open in front or overlaps from right to left. The sleeves of the kabo were elbow-length, some of which covered the fingers. Both men and women wore a tunic - a joma, which served as a protective garment on hot and cold days. On holidays, nobles wore long robes made of silk and cloth, with sleeves reaching to the hem of the dress. Women and men of the upper class were distinguished by the abundance of their clothing. For example, in miniatures, noble women are depicted wearing three or four layers of dresses, courtiers and townspeople wear two or three layers, commoners wear one or two layers, and the elderly wear a robe over a single dress.

Women's clothing in miniatures differs from men's clothing in that it is characterized by a headdress, an abundance of jewelry, and the fact that the dress is depicted somewhat close to the body. Another outer garment characteristic of women is the "munisak" ("mursak"), which was worn in Central Asia until the middle of the 19th century. Men's headgear was different: the one worn in everyday life was a fota, the one worn on holidays was a dastor; fur hats of various shapes were made of various fabrics and felt - takya, kuloh, duppiIn miniatures, women are depicted in various headdresses, which clearly indicate not only the social origin of a person, but also his age. Women from the Khan family wore a crown according to oriental traditions. Among women of other classes, embroidered white headscarves and skullcaps were widespread. The headscarf was tied over the skullcap or over a skullcap-like cap called a sokhkap. Men often wore high boots, sometimes with low heels or without heels, with pointed toes, worn with soft mahsi, women wore mahsi, as well as leather shoes. According to the requirements of Sharia, women's clothing had to be loose, comfortable, and not tight-fitting.

Today, folk trends have become an integral part of the work of many of our fashion designers. Fashion designers are working to discover new facets of national fabrics in the creation of modern clothes, to find new design methods. The collections of S.Amir, S.Murodkhodzhaeva, A.Manshaev, D.Kasimova, N.Sherkhodzhaeva, N.Arapova, T.Chursina, Z.Sultonova, D.Tomilin and other fashion designers confirm our words. A national design school is being created, inspired by the symbolism of ancient patterns, using folk decorative embroidery, colorful national colors and rich ornamental motifs. In particular, designer Saodat Murodkhodjaeva skillfully uses rare works of medieval Eastern miniature art in modern clothes, creating everyday clothes for young people. The “Shahnoma” collection is designed for men, and it is sewn from genuine Italian leather and filled with hand-embroidered miniature works. They are presented in a new form, imbued with the spirit of today.

In order to improve the aesthetic outlook of young people, important tasks are envisaged, such as the specific, intellectual process of understanding the laws of miniature fine art and the analytical analysis of the dependence of understanding miniature works of art on the development of visual abilities, costumes and colors, and the conditions of the creative environment.

The differences between the art of Eastern miniature schools - the synthesis, transformation, and influence of thinking based on the understanding of Eastern miniature art and the harmonious thinking of Western miniature art - are highlighted, along with their importance in raising the aesthetic worldview of young people. The differences between the art of Eastern miniature schools - the synthesis, transformation, and influence of thinking based on the understanding of Eastern miniature art and the harmonious thinking of Western miniature art - are highlighted, along with their importance in raising the aesthetic worldview of young people.

## CONCLUSION

Idealization of history, national culture, and national characteristics is the other side of the one-sidedness in the search for scientific truth. It can be seen that some intellectuals in some cases allow exaggeration in covering historical events, evaluating the activities of individuals and their spiritual heritage, and evaluating national and religious traditions, images, and customs. At the heart of all the above-mentioned necessary actions can be seen as a connecting image such as composition, color, and clothing.

Therefore, spiritual, aesthetic, and ethical solutions and free exchange of ideas are included in the set of topics that can be resolved through intellectual debate. Our goal is that this discussion, debate, and information should be conducted among intellectuals who are intellectually prepared, well-informed about the subject of research, and aware of its problems.

The lack of a critical approach, the lack of objective assessment only reduces interest in spiritual heritage and negatively affects the formation of historical thinking. This situation also shows the one-sidedness in the growth of

national consciousness. The idealization of history, national culture, and national characteristics is the other side of the one-sidedness in the search for scientific truth.

**REFERENCES**

1. Akilova K.R. Lokli miniatyura: Shakllanish muammolari. –Toshkent: // Санъат. № 1-3. 1998. –B. 20
2. Akilova K.B. Narodnoe dekorativno-pirkladnoe iskusstvo Uzbekistana XX vek – Almat Kazaxistan. 2005.
3. E'tibor Mirzanazarova, Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI Toshkent 2018
4.Arzimatova I.M. Estetik madaniyat. –Toshkent: O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fan nashriyoti. 2007. –B.
5.Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. –Tosh: 2006. –B. 266.
6. Ismoilov F. Qadriyatlar va yoshlarning tarixiy ongini shakllantirish. // Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. –Toshkent: O`zbekiston. 1997.
7. Nazarov Q. Qadrlash falsafasi.// Xalq so`zi. 1999. 10-aprel
8. Ochilova B. Shaxs ma'naviy kamolotida ixlosmandlik va ibrat birligi. –Toshkent: O`zbekiston. 2004.
9. To`lenov J. Qadriyatlar falsafasi. –Toshkent: O`zbekiston. 1998.
10. Umarov E., Abdullaev M., Xakimov E. Estetika. –T.: Uzinkomsentr, 2003

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Abduraxmonova Manzura Manafovna**
FDU Sotsiologiya fanlari doktori, professor
**Xabibullayeva Muxayyo Kozimjon qizi**
FDU Ijtimoiy ish yo‘nalishi 1-kurs magistrant

## REFERENT GURUHLARNING O’SPIRINLAR TOLERANTLIGIGA TA’SIRI MASALALARI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada referent guruhlarning o‘spirinlarda tolerantlikni shakllantirishdagi o‘rni va ijtimoiy tasavvurlar kontseptsiyasi bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. O‘spirinlik davri shaxsning ijtimoiy-madaniy identiteti shakllanadigan bosqich bo‘lib, bunda tengdoshlar guruhi, oila, maktab va ommaviy axborot vositalari asosiy referent guruhlar sifatida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, referent guruhlar o‘spirinlarda tolerantlik ko‘nikmalarini bevosita xulqiy modellar, ijtimoiy tasavvurlar, me’yoriy qadriyatlar va ijtimoiy fikr bosimi orqali shakllantirishi aniqlangan. Shuningdek, maqolada ijtimoiy tasavvurlar nazariyasi (S. Moskovichi, D. Jodelet) nuqtai nazaridan guruhlararo munosabatlar tahlili berilgan. Olingan natijalar o‘spirinlarda tolerant muhitni shakllantirish uchun ta’lim muassasalari, oila va jamiyatning kompleks yondashuvi zarurligini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *referent guruh, tolerantlik, o‘spirinlik, ijtimoiy tasavvurlar, identitet, tengdoshlar guruhi, ijtimoiy psixologiya.*

**Абдурахмонова Манзура Манафовна**
Доктор социологии, профессор, ФГУ
**Хабибуллаева Мухайо Козимджон кизи**
Социальная работа, студентка 1-го курса магистратуры, ФГУ

## ИНФОРМАЦИОННЫЕ ВОПРОСЫ ВЛИЯНИЯ ГРУПП НА ТОЛЕРАНТНОСТЬ ПОДРОСТКОВ.

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется роль референтных групп в формировании толерантности у подростков и их взаимосвязь с понятием социального восприятия. Подростковый возраст-это этап, на котором формируется социокультурная идентичность человека, в которой группа сверстников, семья, школа и средства массовой информации играют важную роль в качестве основных референтных групп. данной статье анализируется роль референтных групп в формировании толерантности у подростков и их взаимосвязь с понятием социального восприятия. Подростковый возраст-это этап, на котором формируется социокультурная идентичность человека, в которой группа сверстников, семья, школа и средства массовой информации играют важную роль в качестве основных референтных групп. Исследование показало, что референтные группы напрямую формируют навыки толерантности у подростков с помощью поведенческих моделей, социальных представлений, нормативных ценностей и давления социального мышления. Также в статье Теория социальных представлений (с. Московичи, Д. Jodelet) дан анализ межгрупповых отношений. Полученные результаты свидетельствуют о необходимости комплексного подхода образовательных учреждений, семьи и общества к формированию толерантной среды у подростков.*

***Ключевые слова:*** *референтная группа, толерантность, подростковый возраст, социальное восприятие, идентичность, группа сверстников, социальная психология.*

**Abdurakhmonova Manzura Manafovna**
Doctor of Sociology, Professor, FSU
**Khabibullayeva Mukhayyo Kozimjon kizi**
1st year master's student, Social Work, FSU

## ISSUES OF THE INFLUENCE OF REFERENCE GROUPS ON ADOLESCENT TOLERANCE

***Annotation:*** *This article analyzes the role of reference groups in the formation of tolerance in adolescents and their relationship with the concept of social perception. Adolescence is the stage at which a person’s socio-cultural identity is formed, in which a peer group, family, school and the media play an important role as the main reference groups. This article analyzes the role of reference groups in the formation of tolerance among adolescents and their relationship with the concept of social perception.*

*Adolescence is the stage at which a person's socio-cultural identity is formed, in which a peer group, family, school, and the media play an important role as the main reference groups. The study showed that reference groups directly form tolerance skills in adolescents through behavioral models, social representations, normative values, and the pressure of social thinking. The article Theory of Social Representations (S. Moscovici, D. Jodelet) also provides an analysis of intergroup relations. The results obtained indicate the need for an integrated approach of educational institutions, families and society to the formation of a tolerant environment among adolescents.*

***Keywords:*** *reference group, tolerance, adolescence, social perception, identity, peer group, social psychology.*

## KIRISH

XXI asr globallashuv jarayoni insonlar o‘rtasidagi madaniy, milliy, diniy va ijtimoiy tafovutlarning yaqinlashuviga sabab bo‘lmoqda. Bu jarayon tolerantlik madaniyatining ahamiyatini keskin oshirdi. Tolerantlik — bu nafaqat bag‘rikenglik yoki sabr-toqat, balki shaxsning boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ziddiyatlarni tinch yo‘l bilan hal qilish, xilma-xillikni qadrlash kabi chuqur ijtimoiy-psixologik kompetensiyalar majmuasidir.

O‘spirinlik davri tolerantlikning eng faol shakllanadigan bosqichi hisoblanadi. Bu davr identitet izlanishi, ijtimoiy mavqe egallash, o‘ziga xoslik va guruhga mansublikni belgilash, xulqiy modellarni tanlash bilan xarakterlanadi. Shu sababdan o‘spirinlar ko‘pincha o‘z atrofidagi guruhlarning fikrini “haqiqat” deb qabul qiladilar.

Avvalo referent guruh deganda nimani tushunamiz degan savolga javob topsak.

Referent guruh — bu shaxs (yoki o‘smir) o‘z xulq-atvori, qadriyatlari, e’tiqodlari, ijtimoiy me’yorlari va o‘zini baholash mezonlarini shakllantirish jarayonida tayanadigan, unga moslashishga intiladigan yoki unga qarshi o‘z pozitsiyasini belgilaydigan ijtimoiy guruhlar tizimidir.

Bu guruh real mavjud bo‘lishi yoki shaxs ongida ideal model sifatida tasavvur qilinishi ham mumkin.

Sotsiologiyada referent guruh — bu shaxsning axloqiy me’yorlari, ijtimoiy rollari, xulqiy standartlari, shuningdek ijtimoiy identifikatsiya jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi guruhdir. U shaxsning “qaysi guruhga mansubman?”, “kimlarga o‘xshamoqchiman?” degan savollariga asos bo‘ladi.

Referent guruhlar ikki funksiyani bajaradi:

1. Normativ funksiya – xulq me’yorlarini shakllantirish

2. Taqqoslash (komparativ) funksiya – shaxs o‘zini shu guruh bilan solishtiradi

Ijtimoiy psixologiyada referent guruh — bu shaxsning ijtimoiy o‘rganish, taqlid, motivatsiya, o‘zini anglash, o‘zini baholash jarayonlariga kuchli emotsional-psixologik ta’sir ko‘rsatadigan guruh bo‘lib, u shaxs uchun autoritet model vazifasini bajaradi.

Referent guruh — bu o‘spirin o‘z harakati, qadriyati, xulqi, qarashi va identitetini shakllantirishda tayanadigan ijtimoiy guruhdir. Bu guruhlar oila, tengdoshlar, maktab jamoasi, sport yoki ijodiy to‘garaklar, diniy guruhlar, internet hamjamiyatlari, mashhur shaxslar va blogerlar bo‘lishi mumkin. Shu sababli ushbu maqolaning dolzarbligi referent guruhlarning o‘spirin tolerantligiga ko‘rsatadigan ko‘p qirrali ta’sirini ilmiy asosda o‘rganish bilan belgilanadi.

Referent guruhlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1) Shaxs uchun ahamiyatlilik

Guruh shaxs uchun muhim bo‘lishi, uni qabul qilishi yoki rad etishi lozim.

2) Xulqqa ta’sirchanlik

Guruhning qadriyatlari, til uslubi, xulq modeli shaxs tomonidan kuchli qabul qilinadi.

3) Identifikatsiya imkoniyati

Shaxs o‘zini guruh bilan “biz” deb his qilishi yoki unga o‘xshashlikni xohlashi.

4) Normativ kuch

Guruhning ichki qoidalari shaxs uchun tashqi ijtimoiy nazoratdan ham kuchli bo‘lishi mumkin.

5) Ideal model sifatida qabul qilinishi

Guruh real bo‘lmasada (masalan, mashhur sportchi, bloger, yozuvchi va h.k.), uning qadriyatlari o‘smir ongida rol modelga aylanadi.

Zamonaviy davr sharoitida jamiyatda turli madaniyatlar, millatlar, diniy qarashlar va dunyoqarashlarning o‘zaro aloqasi kuchayib bormoqda. Bu jarayon tolerantlik madaniyatining ahamiyatini oshirmoqda. Ayniqsa, o‘spirinlik davri tolerantlikning shakllanishida muhim davr hisoblanadi, chunki shu davrda shaxsning ijtimoiy identiteti, qadriyati va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari shakllanadi. O‘spirinlikda shaxs ko‘proq tashqi ta’sirlarga ochiq bo‘lib, referent guruhlar uning xulq-atvori va qarashlarini belgilashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Referent guruhlar shaxs o‘z xulqi, nuqtai nazari va qadriyatlarini belgilashda tayanadigan guruhlardir. Tengdoshlar, oila, maktab, internet hamjamiyatlari o‘spirinlar uchun eng kuchli referent guruhlardir. Ushbu guruhlar

tolerantlikni shakllantirishda qanday rol o‘ynashi, ijtimoiy tasavvurlar nazariyasi bilan qanday bog‘liqligi ushbu maqolaning asosiy tadqiqot obyektidir.

## METODOLOGIYA

Maqola quyidagi ilmiy-metodologik yondashuvlarga tayanadi:

1. Nazariy tahlil

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, ijtimoiy psixologiya, ta’lim sotsiologiyasi va rivojlanish psixologiyasi manbalari o‘rganildi. Xususan, S. Moskovichi, D.

Jodeletning ijtimoiy tasavvurlar haqidagi konsepsiyalari asosiy nazariy asos sifatida tanlandi [Moskovichi, 1984, 25-bet].

2. Komparativ tahlil

Oila, tengdoshlar, o‘qituvchi va media guruhlarining tolerantlikka ta’siri qiyosiy tahlil qilindi.

3. Struktural funksional yondashuv

Referent guruhlarning jamiyatdagi vazifalari (me’yor belgilash, ijtimoiylashtirish, nazorat) tolerantlikka qanday ta’sir qilishini aniqlash uchun qo‘llanildi.

4. Kontent tahlil

O‘spirinlar iste’mol qiladigan internet kontenti (blogerlar, ommabop kanallar, ijtimoiy tarmoqlar) umumiy tendensiyalar bo‘yicha kontent-tahlil qilindi [Karimov, 2021, 67-bet].

Metodlar sintezi asosida referent guruhlarning tolerantlikka ta’siri tizimli va kompleks yondashuvda o‘rganildi.

## NATIJALAR

1. O‘spirinlik davrida ijtimoiy identifikatsiya jarayoni

O‘spirinlik (12–18 yosh) shaxsning ijtimoiy identiteti faol shakllanadigan bosqich bo‘lib, bu jarayonda o‘smir o‘zini kimlar bilan bir qatorda ko‘rishi juda muhim. Ijtimoiy psixologiyada bu jarayon “ingroup identification” yoki “biz-guruh”ga mansublik hissi deb talqin qilinadi.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki:

O‘zini ijobiy referent guruhlar bilan identifikatsiya qilgan o‘smirlar yuqori darajada tolerantlik, empatiya va sotsial mas’uliyat namoyon qiladi.

Radikal, tajovuzkor yoki konfliktga moyil guruhlar bilan identifikatsiya qilgan o‘smirlarda esa etnosentrizm, diskriminativ qarashlar va intolerant xulq kuchayadi.

Eriksonning psixososial nazariyasida bu jarayon “identitetga erishish vs. rol chalkashuvi” bosqichi sifatida yoritilgan.

Referent guruhlarning turlari va tolerantlikka ta’sir modellari quyidagilar:

1. Normativ ta’sir (normativ social influence)

Bu modelga ko‘ra o‘smirlar referent guruh qabul qilgan me’yorlar asosida o‘z xulqini moslashtiradi.

Agar guruh tolerant qadriyatlarni targ‘ib qilsa → o‘smirda ham tolerantlik shakllanadi.

Intolerant, stereotipik fikrlarni targ‘ib qilsa → o‘smirda ham shu qarashlar kuchayadi.

Masalan, maktabdagi ijobiy liderlar, sinf sardorlari yoki sport jamoalari tolerant muhit yaratishi mumkin.

2. Informatsion ta’sir (informational influence)

O‘spirinlar ko‘pincha guruh fikrini eng ishonchli ma’lumot manbai deb qabul qiladi.Bu holat ikki xil natija beradi:

Haqiqiy, ilmiy, madaniyatlararo bilimlarga ega guruh → tolerantlikni oshiradi.Yolg‘on stereotiplar, ksenofob fikrlarga ega guruh → intolerantlikni kuchaytiradi.Ushbu model Doych va Gerrard tomonidan asoslangan.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning uch ko‘rinishi tolerantlik bilan bog‘liq:

emotsional qo‘llab-quvvatlash — empatiyani kuchaytiradi.

Informativ qo‘llab-quvvatlash — turli nuqtai nazarlarni qabul qilishni o‘rgatadi. Instrumental qo‘llab-quvvatlash — o‘zaro yordam va hamkorlikni kuchaytiradi.

Ijobiy qo‘llab-quvvatlash tolerantlikni sezilarli oshiradi.

Oila — birlamchi referent guruh sifatida

Tadqiqotlar (Bronfenbrenner ekologik tizimlar nazariyasi) ko‘rsatadiki:

Demokratiya, ochiq muloqot va hurmat ustuvor bo‘lgan oilalarda o‘smirlar yuqori tolerantlik namoyon qiladi.

Avtoritar, keskin jazoga asoslangan oilalarda esa sabr-sizlik, agressiya, intolerantlik kuchayadi.

Ota-onaning o‘smirga nisbatan kommunikativ uslubi uning boshqa guruhlarga bo‘lgan munosabatini belgilaydi.

Ota-onaning muloqot uslubi bevosita o‘spirin tolerantligini belgilaydi.

Demokratik oilalarda farzand fikriga hurmat, muloqotga ochiqlik, boshqacha fikrni qabul qilish kabi fazilatlar shakllanadi [Sattorov, 2020, 54-bet].

Avtoritar oilalarda esa qat’iy buyruqbozlik, boshqalarga bag‘rikeng bo‘lmaslik, agressiya kabi holatlar rivojlanishi kuzatiladi.

Maktab va o‘qituvchilarning ta’siri

Maktab — rasmiy ijtimoiy institut bo‘lib, o‘spirinlarda ijtimoiy me’yorlar shakllanadigan markazdir. O‘qituvchi o‘rnak sifatida, me’yor belgilovchi shaxs sifatida, kommunikativ muhit yaratuvchi sifatida tolerantlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [Mahmudova, 2018, 93-bet].

Internet va media referent guruhi sifatida

Bugungi kunda o‘spirinlar eng ko‘p ta’sirlanadigan guruh — ijtimoiy tarmoqlardagi hamjamiyatlar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:

ijobiy kontent → tolerantlik + empatiya

zo‘ravon video, diskriminativ trendlar → intolerantlik + tajovuz

Media ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirishda eng keng qamrovli ta’sir kuchiga ega [Ergashev, 2022, 41-bet].

**MUHOKAMA**

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘spirin tolerantligini shakllantirish individual jarayon emas, balki guruhlararo o‘zaro ta’sir bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy-psixologik jarayondir.

Ijtimoiy tasavvurlar nazariyasi bilan bog‘liqlik S. Moskovichi (1984) va D. Jodelet (1991) nazariyasiga ko‘ra jamiyatdagi guruhlar, madaniy me’yorlar, umumiy qarashlar tasavvur (representation) shaklida shaxs ongiga o‘tadi.

O‘spirin o‘zini qaysi guruhga mansub deb hisoblasa, o‘sha guruhning tasavvurlari uning tolerantlik darajasini belgilaydi.

Masalan etnik xilma-xillikka nisbatan ijobiy tasavvurga ega guruh → tolerant o‘spirin; stereotiplarga asoslangan guruh → intolerant o‘spirin. Shu sababli, referent guruhlar faqat xulqiy emas, balki kognitiv (tasavvuriy) ta’sir ham ko‘rsatadi.

Bandura (1997) ning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, o‘spirinlar ko‘proq taqlid orqali o‘rganadilar. Shuning uchun bloggerning xatti-harakati, to‘garakdagi yetakchi o‘quvchi, agressiv yoki tolerant o‘qituvchi o‘spirinning shaxsiy modeli sifatida qabul qilinadi.

Referent guruhlar muloqot chegaralarini belgilaydi kimni tinglash, kimni qabul qilish, kimni rad etish.

Bu jarayon tolerantlikning yoki intolerantlikning ijtimoiy asosidir.

**XULOSA**

Tadqiqot natijalari quyidagi umumiy xulosalarni beradi:

1. Referent guruhlar o‘spirin tolerantligining asosiy shakllantiruvchisidir.
2. Tengdoshlar guruhi tolerantlikni mustahkamlashi yoki kamaytirishi mumkin.
3. Oila — tolerantlikni shakllantirishdagi birlamchi ijtimoiy institut.
4. Maktab va o‘qituvchi — rasmiy me’yor belgilovchi kuch.
5. Internet va media — eng keng qamrovli, ammo tartibga solinishi eng qiyin referent muhit.
6. Ijtimoiy tasavvurlar nazariyasi referent guruhlar ta’sirini tushuntirishda qulay ilmiy model bo‘lib xizmat qiladi.
7. Tolerantlikni kuchaytirish uchun oila–maktab–jamoa–media hamkorlikda ishlashi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Moskovici, S. (1984). Social Representations. Cambridge University Press. – 25–37-betlar.
2. Jodelet, D. (1991). Les Représentations Sociales. Paris: PUF. – 44–58-betlar.
3. Zokirova, G. (2019). O‘spirinlarda ijtimoiy moslashuv jarayonlari. Toshkent: Fan. – 110–125-betlar.
4. Sattorov, A. (2020). Oila sotsiologiyasi. Toshkent: Yangi asr avlodi. – 50–63-betlar.
5. Mahmudova, N. (2018). Maktab pedagogikasida kommunikativ yondashuv. Samarqand: SamDU. – 90–102-betlar.
6. Karimov, B. (2021). Raqamli madaniyat va yoshlar ijtimoiylashuvi. Toshkent: Istiqlol nashriyoti. – 60–78-betlar.
7. Ergashev, O. (2022). Media va ijtimoiy ong. Buxoro: BDU nashriyoti. – 33–51-betlar.
8. Bandura, A. (1997). Social Learning Theory. Prentice-Hall. – 18–34-betlar.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

**Suyarkulova G.Z.**
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
Email: guljaxonzokirovna@gmail.com

## YANGI O‘ZBEKISTONDA JAMIYAT TAFAKKURI TRANSFORMATSIYASINI TADQIQ ETISHNING IJTIMOIY ZARURATI

**Annotatsiya:** *Maqolada Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida jamiyat tafakkurida yuz berayotgan o‘zgarishlarning ijtimoiy mentalitetga ta’siri nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Jamiyat tafakkuri transformatsiyasi yangi qadriyatlar tizimining shakllanishi, fuqarolik faolligining ortishi, ochiqlik va tanqidiy fikrlash madaniyatining rivojlanishi bilan bog‘liq holda yoritiladi. Tadqiqotda jamiyat tafakkuri va ijtimoiy mentalitet o‘rtasidagi uzviy va dialektik bog‘liqlik asoslab berilib, olingan xulosalar ijtimoiy barqarorlik va inson kapitalini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asosi sifatida talqin qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Yangi O‘zbekiston, jamiyat tafakkuri, ijtimoiy mentalitet, transformatsiya, qadriyatlar, fuqarolik faolligi, ijtimoiy ong, tanqidiy fikrlash, modernizatsiya.*

**Суяркулова Г.З.**
Преподаватель Ферганского государственного университета

## СОЦИАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ИССЛЕДОВАНИЯ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

***Аннотация:*** *В статье с теоретической и методологической точки зрения анализируется влияние изменений в общественном мышлении на социальный менталитет в контексте реформ, проводимых в Новом Узбекистане. Трансформация общественного мышления рассматривается в связи с формированием новой системы ценностей, повышением гражданской активности и развитием культуры открытости и критического мышления. Исследование обосновывает интегральную и диалектическую взаимосвязь между общественным мышлением и социальным менталитетом, а полученные выводы интерпретируются как научно-теоретическая основа социальной стабильности и развития человеческого капитала.*

***Ключевые слова:*** *Новый Узбекистан, общественное мышление, социальный менталитет, трансформация, ценности, гражданская активность, общественное сознание, критическое мышление, модернизация.*

**Suyarkulova G.Z.**
Teacher, Fergana State University

## THE SOCIAL NECESSITY OF STUDYING THE TRANSFORMATION OF SOCIAL CONSCIOUSNESS IN NEW UZBEKISTAN

***Abstract:*** *This article analyzes the impact of changes in public thinking on social mentality from a theoretical and methodological perspective in the context of reforms being implemented in the New Uzbekistan. The transformation of public thinking is examined in relation to the formation of a new value system, increased civic engagement, and the development of a culture of openness and critical thinking. The study substantiates the integral and dialectical relationship between public thinking and social mentality, and the findings are interpreted as a scientific and theoretical basis for social stability and human capital development.*

***Key words:*** *New Uzbekistan, public thinking, social mentality, transformation, values, civic activity, public consciousness, critical thinking, modernization.*

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida jamiyat tafakkurida kechayotgan o‘zgarishlar, ijtimoiy ong transformatsiyasi va ularning ijtimoiy mentalitetga ta’siri kabi masalalar dolzarblik kasb etmoqda**.** Mazkur tadqiqotlar O‘zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida fuqarolik ongi, ijtimoiy faollik va ma’naviy qadriyatlarning yangilanishiga xizmat qilib, muhim o‘zgarishlarga asos bo‘lmoqda**.** Ayniqsa, milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik pozitsiyasining kuchayishi bilan bog‘liq jarayonlar jamiyat tafakkuri tahlilini ilmiy jihatdan chuqurlashtirishni taqozo

etmoqda. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "bu borada xalqimizning o'zagini tashkil qiladigan bag'rikenglik, oliyjanoblik, samimiyat va mehnatsevarlik kabi ko'pdan-ko'p ezgu fazilatlarga tayanayotganimizni ham alohida qayd etib o'tishim lozim" [1,459]. Shu bois O'zbekistonda jamiyat tafakkuridagi o'zgarishlarning ijtimoiy mentalitetga ta'sirini tizimli va kompleks o'rganishga qaratilgan kabi tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'ygan davrda jamiyat tafakkurida kechayotgan o'zgarishlar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon faqat institutsional islohotlar yoki iqtisodiy o'sish bilan cheklanib qolmasdan, avvalo inson ongi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy mentalitetning yangilanishi bilan ifodalanmoqda. Shu bois jamiyat tafakkuridagi o'zgarishlarni ilmiy asosda tadqiq etish zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotning ob'ektiv zarurati sifatida namoyon bo'lmoqda.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida jamiyat tafakkurida kechayotgan o'zgarishlar, ijtimoiy ong transformatsiyasi va ularning ijtimoiy mentalitetga ta'siri kabi masalalarni tahlil qilishda Mirziyoyev Sh.M.[1], Falsafa: qomusiy lug'at [2], G'oziev E.G'. [3], Usmonova E.Z. [4], Fromm E. [5], Comte A. [6], Bell D. [7], Toffler A. [8] kabi olimlarning asarlaridan unumli foydalanildi.

Muammoni o'rganishda umumiy o'zaro aloqadorlik, tarixiylik, tizimlilik tamoyillari, umumlashtirish usullari qo'llanilgan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jamiyat tafakkuri ijtimoiy voqelikni anglash, baholash va unga munosabat bildirishning ma'naviy-intellektual asosi hisoblanadi. Yangi O'zbekiston sharoitida ochiqlik, oshkoralik, qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklariga hurmat kabi tamoyillar jamiyat ongida yangi fikrlash madaniyatini shakllantirmoqda. Bu esa ijtimoiy munosabatlarda passivlikdan faollikka, qaramlikdan mustaqil fikrlashga, formal munosabatdan ijtimoiy mas'uliyatga o'tish jarayonini tezlashtirmoqda. Ushbu sifat o'zgarishlarini chuqur tahlil qilmasdan turib, islohotlarning ijtimoiy samaradorligini to'liq anglab bo'lmaydi.

Jamiyat tafakkuridagi o'zgarishlarni tadqiq etishning ijtimoiy zarurati, avvalo, milliy o'zlikni anglashning yangi mazmun bilan boyishida namoyon bo'ladi. Yangi O'zbekistonda an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy demokratik tamoyillar uyg'unligi asosida milliy mentalitetning yangicha modeli shakllanmoqda. Bu jarayonda tarixiy xotira, ma'naviy meros va global sivilizatsion tajriba o'zaro uyg'unlashib, jamiyat a'zolarining dunyoqarashini kengaytirmoqda. Mazkur holatni ilmiy jihatdan tahlil qilish milliy taraqqiyot strategiyasining ma'naviy poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, jamiyat tafakkuridagi transformatsiyalar ijtimoiy barqarorlik va ijtimoiy adolat masalalari bilan uzviy bog'liq. Islohotlar jarayonida aholining ijtimoiy faolligi, tanqidiy fikrlashi va fuqarolik pozitsiyasining kuchayishi davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu esa ijtimoiy munosabatlarda ishonch muhitini shakllantirish, ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etishda profilaktik mexanizmlarni ishlab chiqish uchun jamiyat tafakkurini tadqiq etishni muhim ilmiy vazifaga aylantiradi.

Yangi O'zbekistonda jamiyat tafakkuridagi o'zgarishlarni tadqiq etishning yana bir muhim jihati – inson kapitali rivoji bilan bog'liqdir. Zamonaviy bilim, innovatsion tafakkur va ijtimoiy mas'uliyatli fuqaro modeli jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omiliga aylanmoqda. Shu ma'noda, jamiyat ongidagi o'zgarishlarni tahlil qilish ta'lim-tarbiya tizimi, ma'naviy-ma'rifiy siyosat va ijtimoiy kommunikatsiyalar samaradorligini oshirishga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Yangi O'zbekistonda jamiyat tafakkurida kechayotgan o'zgarishlarni tadqiq etish ijtimoiy hayotni barqaror va izchil rivojlantirish, islohotlarning insonparvar mazmunini chuqur anglash hamda zamonaviy ijtimoiy mentalitetni shakllantirish uchun zarur bo'lgan ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Bu tadqiqotlar jamiyat va davlat o'rtasidagi ma'naviy uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim intellektual resurs sifatida namoyon bo'ladi.

Jamiyat taraqqiyoti insoniyat sivilizatsiyasi rivojining murakkab, ko'p qirrali va uzluksiz jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. U iqtisodiy o'sish, siyosiy barqarorlik va texnologik yangilanish bilan bir qatorda, jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy holati, ijtimoiy ongi va tafakkur darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, jamiyat taraqqiyotining barqarorligi va izchilligi avvalo insonning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy faolligiga bog'liq bo'ladi.

Zamonaviy falsafiy va ijtimoiy nazariyalarda jamiyat taraqqiyoti faqat moddiy omillar bilan emas, balki ma'naviy, axloqiy va madaniy omillarning uyg'un ta'siri natijasi sifatida talqin etiladi. Shu ma'noda, jamiyatdagi har qanday ijtimoiy o'zgarishlar inson tafakkuri va ijtimoiy ongdagi transformatsiyalar orqali mustahkamlanadi. Tafakkur va ijtimoiy ongda yuz berayotgan yangilanishlar jamiyat taraqqiyotining ichki manbai sifatida namoyon bo'ladi.

Yangi O'zbekiston sharoitida jamiyat taraqqiyoti masalasi yangi mazmun kasb etib, u islohotlarning natijadorligi, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va inson kapitalining rivoji bilan bevosita bog'liq holda qaralmoqda. Shu bois, jamiyat taraqqiyotini falsafiy, ijtimoiy va siyosiy nuqtai nazardan tahlil qilish mazkur paragrafning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Eng avvalo, "tafakkur" tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. "Falsafa: qomusiy lug'at"da "tafakkur" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Tafakkur (arab. – fikrlash, aqliy bilish) – predmet va

hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o‘rtasida ichki, zaruriy aloqalar, qonuniy bog‘lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi” [2, 390] hisoblanadi. Psixologiya fanlari doktori, professor E.G‘oziev fikricha, “tafakkur inson aqliy faoliyatining, aqliy zakovatining, ongli harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Tafakkur tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, insonning keng ko‘lamdagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi” [3, 3]. E.Z.Usmonovaning fikricha, “tafakkur ijtimoiy hayot sharoitida shakllanadigan jarayon bo‘lib, dastavval keng predmetli (amaliy) faoliyat tarzida namoyon bo‘ladi, keyinchalik u aqliy xatti-harakat xarakterini oluvchi shaklga aylanadi” [4, 3]. Demak, tafakkur insonning amaliy faoliyati, ijtimoiy tajribasi va madaniy muhiti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

Falsafiy nuqtai nazardan tafakkur jamiyatning madaniy qadriyatlari, axloqiy me’yorlari va ijtimoiy munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq. E.Frommning fikricha, insonning fikrlash tarzi uning ijtimoiy muhiti va psixologik holati bilan uzviy bog‘liq [5, 15-30]. Shuningdek, A.Komte va M.Veber tafakkurni jamiyat modernizatsiyasining asosiy omili sifatida ko‘rsatadilar [6, 98-110]. Ularga ko‘ra, fikrlash tarzi va dunyoqarashdagi transformatsiyalar jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni va madaniy qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi globallashuv va texnologik taraqqiyot zamonida an’anaviy fikrlash uslublari ko‘pincha zamonaviy muammolarni hal qilishda yetarli emas. Shu bois tafakkurdagi o‘zgarishlar quyidagi omillar asosida zarur:

Birinchidan, iqtisodiy va texnologik rivojlanish zamonaviy jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Innovatsion g‘oyalar va yangi sohalar paydo bo‘lishi jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun zarur shartlarni yaratadi. Lekin bu jarayon nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan cheklanmay, balki jamiyat a’zolarining fikrlash uslubi, tafakkuri va dunyoqarashida ham transformatsiyalarni talab qiladi.

Iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida yangi ishlab chiqarish sohalari, innovatsion biznes-modellar va global bozorda raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Innovatsion iqtisodiy muhitda an’anaviy fikrlash qoidalari ko‘pincha yetarli bo‘lmaydi. Masalan, startaplar va texnologiya kompaniyalari tez o‘zgaradigan bozor shartlariga moslashish uchun strategik va kreativ fikrlashni talab qiladi.

Iqtisodiy va texnologik rivojlanish faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash bilan cheklanmay, jamiyat a’zolarining fikrlash uslubini ham qayta shakllantiradi. Yangi innovatsion g‘oyalar va sohalar strategik, kritik va kreativ fikrlashni talab qiladi. Shuningdek, bu jarayon madaniy, falsafiy va ijtimoiy sohalarda ham o‘zgarishlar yuzaga keltirib, jamiyatning barqaror rivojlanishi va insonning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, madaniy va axloqiy transformatsiyalar – global madaniy tajribalar va inson huquqlariga oid yangi talablar tafakkurni qayta shakllantirishni taqozo etadi. Hozirgi globallashuv davrida jamiyat a’zolari fikrlash uslubi va tafakkuridagi o‘zgarishlar madaniy va axloqiy transformatsiyalarsiz tasavvur etilishi qiyin. Madaniy va axloqiy transformatsiyalar – global tajribalar, turli madaniyatlar o‘zaro ta’siri va inson huquqlariga oid yangi talablar natijasida yuzaga keladi. Bu jarayon jamiyat a’zolarining fikrlash tarzi va qimmatlar sistemasini qayta shakllantirishni taqozo qiladi.

Uchinchidan, madaniy va axloqiy transformatsiyalar jamiyatning barqaror rivojlanishi va inson taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi: “global axloqiy va madaniy standartlar hamkorlikni rivojlantirishga, ziddiyatlarni kamaytirishga yordam beradi; kreativ fikrlash va yangi g‘oyalar moddiy va texnologik rivojlanishni ham qo‘llab-quvvatlaydi; insonning dunyoqarashi, madaniy doirasi va axloqiy hissi rivojlanadi, bu uning ijtimoiy mas’uliyati va faolligini oshiradi. Madaniy va axloqiy transformatsiyalar global tajribalar va inson huquqlariga oid yangi talablar orqali yuzaga keladi” [7, 78-90]. Bu jarayon jamiyat a’zolarining fikrlash uslubi va tafakkurini qayta shakllantirishni talab qiladi. Madaniy transformatsiya insonning dunyoqarashi va kreativ fikrlashini rivojlantirsa, axloqiy transformatsiya uning ijtimoiy mas’uliyati va global standartlarga moslashuvini ta’minlaydi. Shu sababli, bu jarayonlar jamiyat taraqqiyotining muhim falsafiy va amaliy asosi hisoblanadi.

To‘rtinchidan, hozirgi zamonaviy jamiyatda sotsial-ekologik muammolar global miqyosda ahamiyat kasb etmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy adolatni ta’minlash masalalari nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarda, balki jamiyat a’zolarining fikrlash tarzi va tafakkurida ham sezilarli o‘zgarishlar talab qiladi. Bu jarayon ijtimoiy falsafa, madaniy qadriyatlar va axloqiy me’yorlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Hozirgi kunda tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik, ifloslanish, klimat o‘zgarishi va biodiversitetning yo‘qolishi jamiyat uchun katta tahdidlar yaratmoqda. Bu muammolar nafaqat iqtisodiy oqibatlar bilan, balki ijtimoiy va madaniy sohalarda ham o‘z aksini topadi. Masalan: atrof-muhitning ifloslanishi aholi salomatligiga ta’sir qiladi va ijtimoiy tenglik masalalarini kuchaytiradi; resurslardan noto‘g‘ri foydalanish kambag‘al va boy qatlamlar o‘rtasidagi farqni oshiradi, ijtimoiy adolatni buzadi. Tahlillar ko‘rsatadiki, bu muammolar jamiyat a’zolari fikrlashini faqat moddiy qiyinchiliklar nuqtai nazaridan emas, balki strategik va axloqiy jihatdan ham qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Jamiyat taraqqiyotining asosiy omili inson tafakkuridagi o‘zgarishlardir. Bu jarayon faqat bilim va mahoratni oshirish bilan cheklanmay, balki axloqiy, madaniy va falsafiy qadriyatlarni qayta nazardan o‘tkazishni ham o‘z ichiga

oladi. Shuningdek: “jamiyat a’zolarida kritik fikrlash va yangicha dunyoqarashni rivojlantirish uchun ta’lim va ma’naviy tarbiya tizimlari takomillashtirilishi kerak; jamiyat tafakkuridagi o‘zgarishlar doimiy va uzluksiz bo‘lishi lozim, chunki global va texnologiyaviy jarayonlar doimiy ravishda yangi qiyinchilik va imkoniyatlar yaratadi; falsafiy bilimlar va analitik tafakkurning rivojlanishi jamiyat a’zolarining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi” [8, 45-46]. Shu sababli, jamiyat tafakkuridagi o‘zgarishlar nafaqat zarur, balki falsafiy jihatdan ham asosli va kelajakka yo‘naltirilgan jarayon hisoblanadi.

Mustaqillikning 30 yillik davrida O‘zbekiston jamiyatining taraqqiyotida iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar yuz berdi. Yangi O‘zbekistonning davlat siyosati va ijtimoiy rivojlanish strategiyasi faqat moddiy taraqqiyotga emas, balki jamiyat tafakkuridagi yangilanishlarga ham qaratilgan. Jamiyat tafakkuri – insonning bilim, tajriba, qimmatlar va dunyoqarashini ifodalovchi fikrlash tizimi – barqaror rivojlanish uchun muhim omil sanaladi. Shu sababli, yangi O‘zbekistonda tafakkurdagi o‘zgarishlar milliy istiqlol g‘oyasi, demokratik qadriyatlar va globallashuv talablari bilan uzviy bog‘liq.

Yangi O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar, kichik va o‘rta biznesning rivojlanishi, innovatsion texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotning keng joriy etilishi jamiyat a’zolarining fikrlash uslubiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Innovatsion g‘oyalar va yangi sohalar jamiyatda strategik va kreativ fikrlashni talab qiladi, shu bilan birga: yangi bilimlar va texnologiyalardan samarali foydalanish tafakkurda analitik va strategik ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi; ekonomik va texnologik islohotlar global standartlar va xalqaro tajribalarni o‘zlashtirishni talab qiladi. Bu jarayonlar jamiyat a’zolarini faqat ishbilarmonlik ko‘nikmalarini egallashga emas, balki global raqobat muhitida o‘z o‘rnini topish uchun zamonaviy fikrlashga moslashishga majbur qiladi.

## XULOSA

**Аннотация:** *В данной статье представлена информация о термине фрейм, который активно используется в когнитивной лингвистике, его происхождении, научных исследованиях, проведенных в этой области в мире и нашей стране, а также о его применении в различных сферах. Кроме того, приведены примеры фреймов.*

**Ключевые слова:** *когнитивная лингвистика, фрейм, фреймовая семантика, субфрейм, категория, когнитивная структура.*

### Kirish

Tilshunoslik va kongnitivistika sohalarini o‘zida jamlagan yo‘nalish bo‘lmish kognitiv tilshunoslik rivoji tilshunoslikka yangicha yondashuvni ta’minlaydi. Ushbu yo‘nalishni ham boshqa barcha sohalar singari o‘zi ish ko‘ruvchi maxsus terminlari mavjud bo‘lib, bu yo‘nalishni chuqurroq tushunishga va tadqiq etishga yordam beradi. Shunday terminlardan biri sifatida “freym” tushunchasini ko‘rish mumkin.

### Adabiyotlat tahlili va metodologiya

“Freym” tushunchasi, avvalo, sun’iy intellekt sohasida qo‘llangan bo‘lib, kognitiv tilshunoslik sohasiga XX asrning 70-yillarida Ch.Fillmor tomonidan kiritilgan.[1] Olim o‘zining “Freym va tushunish semantikasi” (“Frames and the Semantics of Understanding”, 1985) nomli asarida freym semantikasining asosiy tamoyillari haqida ma’lumotlar bergan. Freym termini bo‘yicha fikr yuritgan tadqiqotchilar qatorida M.Minskiy, E.Goffman, J.Lakofflarni sanab o‘tish mumkin.

[1] Коннова М. Н. Введение в когнитивную лингвистику : учебное пособие. — Калининград: Изд-во БФУ им. И. Канта, 2012 — С.72

O‘zbek tadqiqotchilari tomonidan ham “freym” termini tadqiq etilgan. Jumladan, Sh.Safarov o‘zining “Kognitiv tilshunoslik” asarida “freym” va uning qo‘llanishi haqida ma’lumotlar bergan. Uning “Semantika” asarida esa freym semantikasi haqida fikrlar yuritilgan. Shuningdek, D.Xudoyberganova “Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” asarini shakllantirgan bo‘lib, undan kognitiv tillshunoslik sohasidagi terminlar, jumladan, “freym” haqida ham fikrlar joy olgan.

**Natijalar**

“Freym” termini faqatgina kognitiv tilshunoslik sohasida emas, ko‘plab boshqa sohalarda ham turli yondashuvlar asosida o‘rganiladi. Informatikada u inson bilimining bir bo‘lagini yoki standart holatni tavsiflovchi ma’lumotlar tuzilmasi sifatida tushuniladi.[2] Sotsiolingvistika sohasida esa “freym”larning jamiyatda qo‘llanilishi va insonlar ongida ta’siri o‘rganiladi. Bu borada J.Lakoff o‘z ilmiy ishlarida AQSh prezidentlik saylovlari doirasidagi debatlarni tahlil qilgan. U nomzodlarning nutqlarini o‘rganar ekan, “freym”lardan samarali foydalanish saylovchilarning fikriga ta’sir ko‘rsatishda qanday rol o‘ynashini ko‘rsatib bergan.[3] Kognitiv tilshunoslikda “freym” ongda yaratilgan yangi ma’lumotlarni tizimlashtiruvchi, obyektning belgilarini o‘zida saqlovchi, unga doir yangi axborot bilan kengayib boruvchi va inson ongida kerak paytda ma’lum kontekstlarda qo‘llana oladigan kognitiv tuzilmadir. “Freym” – bu stereotipik vaziyatlar to‘g‘risidagi bilimlar to‘plami, voqealarni anglash modeli yoki sxemasi bo‘lib, bizning dunyo haqidagi tajribamiz asosida ma’lum elementlarning mavjudligini va ularning mos talqini yoki bahosini belgilaydi.[4] “Freym” yakka holda aniqlanmaydi, balki kontekstda o‘z mazmuniga ega bo‘ladi. Shuningdek, “freym” madaniyatga bog‘liq bilim bo‘lib, u ma’lum bir jamiyat a’zolarining umumiy tajribasiga tayanadi.[5] Shuning uchun ba’zi tillarda ma’lum so‘zlarning sinonimlari ko‘pligi yoki bir necha ma’nolarda bir so‘z qo‘llanilishi holatlari kuzatiladi. “Freym” tushunchasini semantik maydon tushunchasiga mos keladi, deyish mumkin, ammo “freym” semantik maydondan kontekstning ma’nosiga ko‘ra tahlil qilinishi bilan farqlanadi.

N.N. Boldirov “freym”larni 2 xil tahlil qiladi[6]:

1. Vaziyatli freymlar. Ular tildan tashqaridagi hodisalarni ifodalaydi. Bunga misol sifatida “ona” freymini ko‘rish mumkin.
2. Klassifikatsion freymlar. Ular turli tillar va madaniyatlarda semantik tuzilmani tushunish va tasniflash uchun ishlatiladi. Bular tarkibiga so‘z birikmalari freymlari, fan, kasb, ta’lim bilan bog‘liq freymlar, kommunikativ freymlar kiradi.

“Freym” haqida so‘z borganda, freym semantikasini ham tahlil etish zarur. Freym semantikasi kognitiv va semantik modellashtirish usuli sifatida inson tajribasi hamda bilimlarining til birliklari ma’nolarida aks etishini, til orqali umumiy bilimlarning faollashuvini va muloqot jarayonida tushunish mexanizmlarini modellashtirish imkonini beradi.[7] Ma’no tadqiq qilishning ushbu usuli orqali til birliklari umumiy holatda emas, kontekstga xos tarzda sahnalar orqali tahlil qilinadi. Bugungi kunda freym semantikasi – bu tilning semantik makoni va bilim tuzilmalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tadqiq qilish usulidir.[8]

**Muhokama**

Freym semantikasi orqali kontekstni tahlil qilish uning asl mohiyatini anglashga yordam beradi. Charlz Fillmor “freym” tushunchasini izohlash uchun “savdo voqeasi” freymini tahlil qiladi.[9] Ushbu “freym” “xaridor” – pulga mahsulot olmoqchi bo‘lgan shaxs”, “sotuvchi” – mahsulotini pulga ayirboshlamoqchi bo‘lgan shaxs”, “mahsulot” – xaridor sotib olmoqchi bo‘lgan narsa”, “pul” – sotib olish vositasi” kategoriyalaridan tashkil topadi. “Freym”ning yana bir namunasi sifatida quyidagi “teatr” freymini ko‘rish mumkin.

[2] Захаренко Е.Н., Комарова Л.Н., Нечаева И.В. Новый словарь иностранных слов: 25000 слов и словосочетаний. Москва: “Азбуковник”, 2003. URL: http://slovari.ru/

[3] Рафаэльевна Б. А. Фрейминг в общественно-политическом дискурсе: на примере дебатов вокруг референдума о выходе великобритании из ес: выпускная квалификационная работа бакалавра. – Санкт-Петербург, 2017 – С. 4

[4] Болдырев Н.Н. Языковые категории как формат знания // Вопросы когнитивной лингвистики. 2006. № 2. С. 17

[5] Болдырев Н. Н. Когнитивная семантика : курс лекций по английской филологии. – Тамбов, 2000 – С.63

[6] Болдырев Н. Н. Когнитивная семантика. Введение в когнитивную лингвистику: курс лекций. М-во обр. и науки РФ, Тамб. гос. ун-т им. Г.Р. Державина, Рос. ассоциация лингвистов-когнитологов. Изд. 4-е, испр. и доп. Тамбов: Издательский дом ТГУ имени Г.Р. Державина, 2014. – С.112

[7] Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики. 2004 № 1. – С.29

[8] Болдырев Н.Н. Концепт и значение слова. // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. – Воронеж: ВГУ, 2001 – С.33

[9] Fillmore Ch.J. The case for case reopened // Grammartical relations.-New York, 1977 – P.59-81.




Qolaversa, ushbu “freym”larni anglash uchun uning kategoriyalari haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lish lozim. Aks holda, nojo‘ya ma’no anglanishi mumkin. Turli holatlarda “freym” tarkibidagi kategoriyalarning biriga boshqasidan ko‘ra ko‘proq urg‘u berilishi ham unga bildirilgan munosabatni o‘zgartirishi mumkin.

Ongda freymni shakllantirish “freyming” jarayoni orqali sodir bo‘ladi. Ushbu jarayonda inson yangi ma’lumotlar bilan “freym” tarkibini to‘ldirib boradi. “Freyming” jarayoni orqali ongdagi “freym”lar faollashadi va yangi “freym” yaratishga zamin yaratiladi yoki “freym”lar turlicha talqin qilinadi.

Shuningdek, M.Minskiy “freym”ning murakkab tuzilma ekanligini va uning tarkibidan subfreymlar ajralishi haqida ham fikr yuritadi. Jumladan, “samolyot” “freymi” “uchuvchi”, “xavfsizlik kamari”, “styuardessa”, “o‘rindiq” kabi qator kategoriyalar tarkibidan iborat. Ushbu freym tarkibidagi subfreymlar sifatida “ovqatlanish”, “kino tomoshasi” kabilarni ko‘rish mumkin.[10]

“Freym” mohiyatini anglash uchun uning barcha kategoriyalarini tushunish muhimdir. Kategoriyalar birlashib, aynan o‘sha holatga mos tarzda talqin qilinadi. Ular boshqa “freym”ga ko‘chganda, umuman boshqa ma’no anglashiladi. Masalan, “ovqatlanish” kategoriyasi “restoran” freymidan joy oladi, ammo uning “dars mashg‘uloti” freymida qo‘llanilishi salbiy munosabatni yuzaga keltiradi.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, kognitiv tilshunoslikda “freym” terminini o‘rganish va tadqiq qilish orqali tilshunoslik sohasini yangicha yondashuv bilan tadqiq qilish mumkin. Uning tahlili til birliklarining ongda shakllanishi va nutqda aks etishini o‘rganishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Болдырев Н. Н. Когнитивная семантика. Введение в когнитивную лингвистику: курс лекций. М-во обр. и науки РФ, Тамб. гос. ун-т им. Г.Р. Державина, Рос. ассоциация лингвистов-когнитологов. Изд. 4-е, испр. и доп. Тамбов: Издательский дом ТГУ имени Г.Р. Державина, 2014. 236 с.
2. Коннова М. Н. Введение в когнитивную лингвистику : учебное пособие. — Калининград: Изд-во БФУ им. И. Канта, 2012. 313с.
3. Рафаэльевна Б. А. Фрейминг в общественно-политическом дискурсе: на примере дебатов вокруг референдума о выходе великобритании из ес: выпускная квалификационная работа бакалавра. – Санкт-Петербург, 2017. 76с.
4. Романова Т. В, Колчина О. Н, Куликова В. А, Хоменко А. Ю. Проектный словарь-справочник когнитивных терминов: учебное пособие. – Нижний Новгород: Деком, 2022. 216с.
5. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. 92б.
6. Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. 343б.
7. Fillmore Ch.J. The case for case reopened // Grammartical relations. – New York, 1977 – P.59-81.

[10] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006 – Б.46

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Najmiddinov Jobir Zokirovich**
Namangan davlat universiteti, katta o‘qituvchi

## INGLIZ VA O‘ZBEK DRAMALARIDA KO‘TARILGAN MAVZULAR KO‘LAMI, MUSHTARAKLIKLAR VA TAFOVUTLAR

***Annotatsiya :****Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek dramatik adabiyotining mavzu ko‘lami, g‘oyaviy yo‘nalishlari hamda ularning o‘zaro mushtaraklik va tafovut jihatlari ilmiy tahlil qilinadi. XX asrda shakllangan realistik dramaturgiya namunalarida inson, jamiyat va axloqiy masalalarning badiiy talqini solishtirma adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *dramaturgiya, realizm, adabiy qiyos, ijtimoiy muammo, shaxs, g‘oya, komediya, tragediya.*

**Najmiddinov Jobir Zokirovich**
Namangan State University, Senior Lecturer

## THE RANGE OF THEMES, SIMILARITIES AND DIFFERENCES IN ENGLISH AND UZBEK DRAMAS

***Annotation :*** *This article provides a scholarly analysis of the thematic scope and ideological orientations of English and Uzbek dramatic literature, as well as their mutual similarities and differences. The artistic interpretation of human, social, and moral issues in the examples of realistic dramaturgy formed in the twentieth century is studied from the perspective of comparative literary studies.*

***Keywords:*** *dramaturgy, realism, literary comparison, social issue, personality, idea, comedy, tragedy.*

**Нажмиддинов Джобир Закирович**
Наманганский государственный университет, старший преподаватель

## ТЕМАТИЧЕСКИЙ ДИАПАЗОН, СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ДРАМАТУРГИИ

***Аннотация:*** *В данном статье представлен научный анализ тематического диапазона и идейных направлений английской и узбекской драматургии, а также их взаимных сходств и различий. Художественная интерпретация человеческих, социальных и нравственных проблем в произведениях реалистической драматургии XX века рассматривается с точки зрения сравнительного литературоведения.*

***Ключевые слова:*** *драматургия, реализм, литературное сравнение, социальная проблема, личность, идея, комедия, трагедия.*

### Kirish

Dramatik adabiyot — milliy adabiyotning eng faol va ijtimoiy jihatdan ta’sirchan tarmoqlaridan biridir. U xalq hayotining o‘zgarishlarini, davr muammolarini, insoniy qadriyatlar to‘qnashuvini sahna orqali ko‘rsatadi. Har bir xalq dramaturgiyasi o‘z madaniy qadriyatlari, tarixiy tajribasi va ruhiy olamini aks ettirgan holda taraqqiy etadi. Ingliz dramaturgiyasi Uilyam Shekspir, Bernard Shou, Jon Golsuorsi, Tom Stoppard kabi yozuvchilar ijodida o‘zining yuksak badiiy cho‘qqisiga erishgan bo‘lsa, o‘zbek dramaturgiyasi Hamza, Cho‘lpon, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Shukur Xolmirzayev asarlari orqali milliy sahna madaniyatining mustahkam poydevorini yaratgan. Ingliz dramaturgiyasining mavzular ko‘lami.Ingliz dramatik adabiyoti XVI asrdan boshlab Yevropa sahna san’atining markaziga aylandi. Uilyam Shekspirning asarlarida insoniy tuyg‘ular, muhabbat, xiyonat, hokimiyat uchun kurash, axloq va vijdon masalalari teran ifodasini topgan. Jorj Bernard Shou ijodida ijtimoiy adolat, ayol erkinligi, sinfiy tafovutlar, shaxs va jamiyat ziddiyatlari markaziy o‘ringa chiqdi. Shouning “Pygmalion”, “Inson va superinson” kabi pyesalarida inson kamoloti, ta’lim, jamiyatdagi o‘rni haqida teran falsafiy mushohadalar yuritiladi. O‘zbek dramaturgiyasining shakllanishi va mavzulari o‘zbek dramaturgiyasi XX asr boshlarida milliy uyg‘onish g‘oyalarining ta’sirida shakllandi. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat kabi ziyolilar dramaturgiyani xalqni uyg‘otish, ma’rifat tarqatish vositasi sifatida ko‘rganlar. Hamzaning “Boy ila xizmatchi”, “Zaharli hayot”, “Yangi saodat” kabi asarlarida jaholat, ijtimoiy tengsizlik,

ayol huquqlari masalalari yoritilgan. Abdulla Qahhorning “Tobutdan tovush”, “Og‘riq tishlar”, “Shohi so‘zana” kabi pyesalari o‘zbek jamiyatidagi ma’naviy inqiroz, kibr, manmanlik, e’tiqod masalalarini teran psixologik tahlil qiladi. Ingliz va o‘zbek dramalaridagi mushtarakliklar

1. Ijtimoiy adolat va axloqiy masalalar: Har ikkala xalq dramaturgiyasida inson vijdoni asosiy mezon sifatida ko‘rsatiladi.

2. Ayol obrazi va erkinlik mavzusi: Shouning “Pygmalion” hamda Hamzaning “Boy ila xizmatchi” pyesalarida ayolning o‘zligini anglash masalasimarkazda.

3. Komediya orqali tanqid: Shouning “Odam va superinson” pyesasidagi satira Abdulla Qahhorning “Og‘riq tishlar”dagi yumor bilan uyg‘un.

4. Shaxs va jamiyat to‘qnashuvi: Shekspirning “Gamlet” yoki “Otello” asarlaridagi fojia Cho‘lponning “Yorqinoy”ida ham aks etadi.

5. Tafovutlar va ularning sabablari

6. Tarixiy va ijtimoiy kontekst: Ingliz dramaturgiyasi kapitalizm davrida, o‘zbek dramaturgiyasi esa mustamlaka va sovet davrida shakllandi.

7. Badiiy ifoda vositalari: Ingliz dramaturgiyasi falsafiy dialoglar bilan, o‘zbek dramaturgiyasi esa xalqona til va maqollar bilan boyitilgan.

8. Janr xilma-xilligi: G‘arbda absurd va modern drama, o‘zbek adabiyotida esa realizm ustun.

9. Estetik ideal: Inglizlarda individualizm, o‘zbeklarda millat va jamiyat manfaatlari markazda turadi.

10. Zamonaviy davr dramalarida yangi tendensiyalar

XXI asrda ingliz va o‘zbek dramaturgiyasi global muammolarga – ekologiya, axborot asri, gender tengligi masalalariga murojaat qilmoqda. Ingliz sahnasida Sara Keyn, Mark Ravenhill kabi dramaturglar “yangi realizm” uslubini yaratishgan bo‘lsa, o‘zbek sahnasida Hamid Ismoilov, O‘tkir Hoshimov asarlari asosida yozilgan pyesalar zamonaviy insonning ma’naviy izlanishlarini yoritadi. Ingliz va o‘zbek dramaturgiyasi o‘ziga xos madaniy muhitda shakllangan bo‘lsa-da, ularni mushtarak g‘oyalar birlashtirib turadi. Har ikkala adabiyotda inson, vijdon, adolat, ma’naviyat kabi abadiy qadriyatlar markaziy o‘rinda turadi. Tafovutlar esa ularning tarixiy taraqqiyot bosqichlari, ijtimoiy tizimlari va estetik ideallaridan kelib chiqadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Shaw, G.B. Plays: Pleasant and Unpleasant. London: Constable, 1898.
2. Shakespeare, W. Complete Works. Oxford University Press, 1998.
3. Qahhor, A. Tanlangan asarlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1985.
4. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Asarlar to‘plami. Toshkent, 1979.
5. Said Ahmad. Kulgili dunyo. Toshkent, 1982.
6. Fitrat, A. Abulfayzxon. Toshkent, 1924.
7. Shamsiyev, A. O‘zbek dramaturgiyasi tarixi. Toshkent: Fan, 1978.
8. Norrish, P. Drama and the Social Consciousness in Modern Britain. Cambridge, 1980.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Tursunmamatova Dilnavoz Tohir qizi,**
NamDU Filologiyasi fakulteti UZB-DU-25 guruh talabasi
Email: tursunmamatova dilnavoz30@gmail.com
**Usmonov Musurmon Mamirali o‘g‘li,**
Namangan davlat universiteti v.b.dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Email: usmonovmusulmon89@gmail.com

## O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA UNDOV SO‘ZLARNING QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI (“TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ROMANI MISOLIDA)

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida undov so‘zlarning qo‘llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda undov so‘zlarning ma’no va tuzilishi jihatidan turlarining rang-barangligi, qahramonlar ruhiy holatini ifodalashdagi o‘rni ko‘rsatiladi. Undov so‘zlarning dialog va monologlardagi, muallif g‘oyasini ta’sirchan yetkazish hamda badiiy matnning emotsional-ekspressivligini kuchaytirishdagi ahamiyati keng ilmiy misollar asosida ochib beriladi, xulosalar umumlashtiriladi va amaliy ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *undov so‘zlar, emotsionallik, ekspressivlik, badiiy matn, personaj nutqi, qo‘shma, juft, takror.*

**Tursunmamatova Dilnavoz Tohir kizi,**
Student of the Faculty of Philology of NamGU UZB-DU-25 group
Email: tursunmamatova dilnavoz30@gmail.com
**Usmonov Musurmon Mamirali ugli,**
Acting associate professor of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Email: usmonovmusulmon89@gmail.com

## FEATURES OF THE USE OF EXCLAMATIONS IN THE WORKS OF UTKIR KASHIMOV (ON THE EXAMPLE OF THE NOVEL (“TUSHDA KECHGAN UMRLAR”)

***Abstract.*** *This article analyzes the features of the use of exclamations in Otkir Khashimov’s novel “Tushda kechgan umrlar”. The work highlights the diversity of types of exclamations in terms of meaning and structure, their role in expressing the mental state of the characters. The importance of exclamations in dialogues and monologues, in effectively conveying the author’s idea and enhancing the emotional expressiveness of the literary text is revealed on the basis of extensive scientific examples, the conclusions are summarized, and their practical significance is demonstrated.*

***Keywords:*** *exclamations, emotionality, expressiveness, literary text, character speech, compound word, pair word, repetition.*

**Турсунмаматова Дилнавоз Тоҳир қизи,**
Студентка филологического факультета НамГУ Группа УЗБ-ДУ-23
Электронная почта: tursunmamatova dilnavoz30@gmail.com
**Усмонов Мусурмон Мамирали ўғли,**
Исполняющий обязанности доцента Наманганского государственного университета,
Доктор философии (PhD) по филологии
Электронная почта:usmonovmusulmon89@gmail.com

## ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОСКЛИЦАТЕЛЬНЫХ ЗНАКОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ УТКИРА КАШИМОВА (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА «ТУШДА КЕЧГАН УМРЛАР»)

***Аннотация***. *В данной статье анализируются особенности использования восклицаний в романе Откира Хашимова «Тушда кечган умрлар». Работа освещает многообразие типов восклицаний по смыслу и структуре, их роль в выражении психического состояния персонажей. На основе обширных научных примеров раскрывается важность*

*восклицаний в диалогах и монологах, в эффективной передаче авторской идеи и усилении эмоциональной выразительности литературного текста, подводятся итоги и демонстрируется их практическое значение.*

***Ключевые слова:*** *восклицания, эмоциональность, выразительность, литературный текст, речь персонажа, сложное слово, пара слов, повторение.*

Til – insonning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari va munosabatlarini ifodalovchi muhim vositadir. Inson o‘zining quvonchi, hayrati, achinishi, qo‘rquvi yoki chaqirig‘i kabi ruhiy jarayonlarni maxsus so‘zlar orqali nutqida bevosita ifodalaydi. Ana shunday so‘zlar tilshunoslikda undov so‘zlar deb ataladi. Undov so‘zlar nutqqa emotsional bo‘yoq berib, fikrning ta’sirchanligini oshiradi. Ayniqsa, badiiy adabiyot tilining muhim xususiyatlaridan biri – undagi emotsionallik va ekspressivlikdir. Ushbu xususiyatlar asar qahramonlarining ruhiy kechinmalari, muallif munosabati hamda voqealarning ta’sirchan tarzda yetkazilishiga xizmat qiladi. Ana shunday emotsional bo‘yoqni yuzaga keltiruvchi vositalardan biri undov so‘zlardir.

Undovlar – his-hayajon, buyruq xitob, haydash, chaqirish kabi maʾnolarni bildiruvchi, gap boʻlaklari bilan grammatik bogʻlanmaydigan soʻz turkumi va shu turkumga oid muayyan soʻzlarga undov soʻzlar deyiladi[11].

Ular so‘zlovchining ruhiy holatini aniq va jonli tarzda ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Shu bois, undov so‘zlar tilshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Tilshunos olimlar Sh.Rahmatullayev “Hozirgi o'zbek adabiy tili”[12], B.R.Mengliyev “Hozirgi o'zbek adabiy tili”[13], D.Lutfullayeva “Hozirgi o'zbek adabiy tili”[14], H.Jamolxonov “Hozirgi o'zbek adabiy tili”[15] kabi kitoblarida undov so‘zlar haqida qimmatli ma’lumotlar berib o‘tgan. B.R.Mengliyev “O‘zbek tilining izohli lug‘atlaridagi undov so‘zlarning etimologik tavsifi” nomli maqolasida o‘zbek tilining izohli lug‘atidagi undov so‘zlarning talqini va uni takomillashtirish, ularning lug‘atlardagi etimologiyasi haqida tavsiya beradi[16].

O‘zbek adabiyotida inson qalbining nozik jihatlarini chuqur va ishonarli tasvirlagan yozuvchilardan biri O‘tkir Hoshimovdir. Uning “Tushda kechgan umrlar”[17] romani inson taqdiri, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettirishi bilan ajralib turadi. Asarda undov so‘zlar qahramonlarning ichki kechinmalarini ifodalashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda undov so‘zlar personaj nutqining tabiiyligini ta’minlab, voqealarning ta’sirchanligini oshiradi. Quyida biz emotsionallik, ekspressivlik bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan undov so‘zlarni “Tushda kechgan umrlar”[18] romanida qo‘llanishi bo‘yicha tahlilga tortdik.

Undov so‘zlar emotsional (hissiy) va buyruq-xitob (imperativ) kabi turlarga bo‘linadi.

Emotsional undovlar kishilarning his-tuyg‘usi, ruhiy holatini bildiruvchi undovlar bo‘lib, ular maʾno jihatidan rang-barangdir. Emotsional holatlar boshqa ruhiy jarayonlar singari miya faoliyatining natijasi yoki mahsuli bo‘lib hisoblanadi[19]. O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar”[20] romanida quyidagi o‘rinlarda emotsional undovlarni qo‘llanilishini kuzatishimiz mumkin:

**1. Hayron qolish:** 1. Yo‘g‘-e, axir men yetmish ikkidaman-ku! 2. Voy! Voy o‘lmasam! – dedi oyoq-qo‘lidan mador ketib. Rustamjon-ku! 3. Voy-bo‘, qorbobo bo‘p keting-e! 4. Bunisi eng oddiy usul. Yo‘g‘-e, bundan ham osoni bor. 5. E-ha, tepishga tushdi-ku! Butilka qayerda edi, bo‘shagan butilka? 6. Xotiningni sog‘indingmi!.. Ha-a, gap bu yoqda degin! 7. Eh-he! Besh yil urushda yurib nimalarni ko‘rmadi bu bosh! 8. Qishloqdan chiqib ketganiga, eh-he qancha boldi! 9. E-ha! To‘lagan-ku bu! 10. Qismatning hazilini qarang: tag‘in eshonzodalar bilan ro‘para keldi. Xex! 11. Qaysi Tursunboy bo‘ldi bu? E-ha! Mendan uch yil oddin maktabni bitirgan Tursunboy aka-ku! 12. E, qayoqda yuribsiz? – desam, maʾyus jilmayib qo‘ydi. 13. Voy, Shahnoza tushmagur-yey... 14. O‘sha odamni hozir ko‘rsangiz taniysizmi?-Voy o‘lmasam! Qayoqdan tanirkanman? 15. Voy, manov odamni! – Qurbonoy xola astoydil ajablandi. 16. Soat bir qadar yengil tortdi: ha-a, gap bu yoqda ekan-ku! 17. Ax, kobel! Ax, parazit! O‘n yetti yashar yigitchaga o‘xshaysan-a!”. 18. Ie, skelet-ku, bu! 19. Voy, kichik dada, qulpnayga o‘xsharkan! 20. Simning u tomonida bir lahza sukut cho‘kdi-yu, hayrat aralash quvonchli xitob eshitildi.-Voy! – Shahnoza entikib qoldi. – Voy?! 21. Eh-ha! Jarohat ham olgan ekansan. 22. Iya, hamkasb ekanmiz-ku! 23. Azamat dedimi? E, bo‘ldi, esimga tushdi! Ro‘zimat otaning bitta-yu bitta o‘g‘li-ku! 24. Voy, uyg‘ondingizmi? – dedi

[11] https://uz.wikipedia.org/wiki/Undovlar

[12] Rahmatullayev.Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili – Toshkent: "Universitet", 2006. – bet 459.

[13] B.R.Mengliyev. “Hozirgi o'zbek adabiy tili (kirish, fonetik sath, leksik-sem antik sath)”– Toshkent.: «Tafakkur bo‘stoni» nashriyoti, 2018.

[14] D.Lutfullayeva, R.Davlatova, M.Saparniyazova “Hozirgi o'zbek adabiy tili” – Toshkent.: «Iqtisod-moliya», 2018.

[15] Jamolxonov.H. Hozirgi o'zbek adabiy tili – T.: "Talqin"-2005. – bet 355.

[16] Baxtiyor Mengliyev Rajabovich, “O‘zbek tilining izohli lug‘atlaridagi undov so‘zlarning etimologik tavsifi” Educational Research in Universal Sciences, VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2023, - B. 249.

[17] Hoshimov.O‘. “Tushda kechgan umrlar” romani. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2002.

[18] Hoshimov.O‘. “Tushda kechgan umrlar” romani. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2002.

[19] Ismoilov.E.M. Emotsional holatlarning fiziologik asoslari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 5(3), March, 2025, - B. 114.

[20] Hoshimov.O‘. “Tushda kechgan umrlar” romani. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2002.

jilmayib. Jilmayishi allaqanday ayanchli koʻrindi. 25. Ie, onaxon, siz Qah-ramonmisiz? 26. Ie, Mauzer aka! 27. Ie, pora beryapti-ku, bundan chiqdi, bir balosi bor, deydi. 28. Toʻyimizga rosa 1 oy boʻldi. Voy, Shahnoza-yey! Voy, shum-yey! 29. Ie, Nazira emas, Fotima-ku! "Qoʻyvor!" – dedi Fotima gʻazabdan. 30. Birinchi kursni bitirib, harbiy xizmatga ketgan. Afgʻonistonda boʻlgan.-E, boʻldi, anavi yigitmi? 31. Baqaterak panasida turgan odam siz edingiz.-E-ha, boʻldi! Noqulay boʻlsa ham aytaveraymi? 32. Bolalar qani? Xayriddin! Yoʻq... Xayriddin oʻlgan-ku... E-ha... Boʻldi! Korizda yotibman. 33. E-ha, – dedi asabiy kulib. – Esimdan chiqibdi: axir siz yosh bolasiz-ku! Notavon goʻdak! 34. Esdan ogʻgan odamdek qiyqirib-qiyqirib kula boshladi. – Ha-a, endi tushundim, tushundim! 35. Yuragim nega buncha osoyishta? Qilt etsa-chi? E-ha... Axir... Men endi yoʻqman-ku.

**2. Sevinch, xursandchilik, zavqlanish:** 1. Xudoga shukr, yurishibdi. Yumalab-sumalab. 2. Ie, oʻzingmisan, oʻrtoq? – dedi dadillanib. 3. Malades! Sport bilan shugʻullanasanmi? 4. Palov tayyormi? Shampan bormi? Molodes! A, mening senga syurprizim. 5. Anavi kim? Basharasi tanish koʻrinadi? Ie, Husanxoʻja-ku! 6. Ur-re! Kichik dadam keptilar! 7. Bir zum tikilib turdim-da, esladim. 8. Ie, Habiba?

**3. Qoyil qolish, rohatlanish:** 1. Voy, Rustamjon-ey! Voy mugʻambir-ey! 2. Biri yalinib, biri poʻpisa qilayotgan otalar, atlas koʻylagining yoqasiga "Qahramon ona" medalini taqib olgan onalar... Hay-hay-hay! Qoʻrqadi medalingdan!

**4. Mamnuniyat, faxrlanish, mag'rurlanish, xayrihohlik:** 1. Meni qari deyapsanmi, xex! 2. Ortiga ilib qoʻyilgan gilamga qoʻshaloq nikoh halqasining tasvirini solib, paxta bilan "Xush kelibsiz, aziz mehmonlar!" deb yozilgan. 3. Xex! Oʻn besh yoshimdan komissarman, desa, rostdanmi, deydi. 4. Xex! Oʻshanda "hammangni otaman!" degan vaʼda boʻlganmidi? 5. E, qayoqda yuribsiz? – desam, maʼyus jilmayib qoʻydi.

**5. Tushkinlik, gʻam-gʻussa, koʻngli toʻlmaslik:** 1. E-e! Tezroq daf boʻlsang-chi! Sen bilan gaplashib yurakni qon qilgandan koʻra... 2. E, umi? Shunga meni aybdor sanayapsizmi? 3. Qishloqdan chiqib ketganiga, eh-he qancha boldi! 4. Ey, poki-parvardigor! – dedi ikki qoʻlini osmonga choʻzib. – Bu zolimlargayam boqqan balo bormi, Xudo! 5. – E, Xudo! Bizga rahming kelsin. 6. Eh, tankist, tankist! – dedi hamkasbim alamnok iljayib.

**6. Qoʻrquv, vahima, daxshat:** 1. Voydod! Kim bor! – deb jonholatda dod sola boshladi. 2. Shahnoza boshiga, yelkasiga yogʻilgan muzdek suvdan seskanib, oʻrnidan sapchib turdi. "Voy!" deb qichqirib yubordi. 3. Voy oʻlay! Voy oʻlmasam! – Nazira titrab-qaqshab Mauzerni boshidan koʻtardi. 4. Voy oʻlmasam! Bu qanday koʻrgilik! 5. Voy, nima bu, Rustam aka? Qarasam, koʻzlari qoʻrquvdan katta-katta ochilib tikilib turibdi.

**7. Tanbeh, ogohlantirish, kutilmaganlik:** 1. Voy, Xudo urdi-ketdi! Koʻzdek qoʻshnining toʻyiga chiqmasanglar, uyat boʻlmaydimi? 2. Xex! Boyadan beri tanbur chertyapman ekan-da. 3. Ja-a, boshni aylantirib yubordingiz-da, xola? 4. E, oʻtirsangiz-chi, Fotimaxon! – dedi bir qadar samimiyat bilan. 5. E, oʻchir-ye! – dedi Soat toqati toq boʻlib.

**8. Istehzo, masxara kinoya:** 1. Xex! Boʻlmasa ayting-chi, Shomatov joniga qasd qilib, oʻzini yerga tashlagan boʻlsa, uydagi jihozlarni kim sindirdi? 2. Xex! Bir oydan beri arzimagan ishni ocholmay timirskilanib yuribsanla. 3. Xex! Chekist-chekist boʻlib tugʻilishi kerak! 4. Xex! Shu ketishing boʻlsa ikki dunyoda hech kimning aybini boʻyniga qoʻyolmaysan. 5. Professor degani shu boʻlsa, xex! 6. Xex! Bu kishi Oʻzbekiston mustaqil boʻlishini xohlab qoptilar! 7. Ha-a, Komissar! Qani, bir gʻayrat qil-chi, koʻramiz suvga teskari suzish qanaqa boʻlarkan. 8. H-h-ha! Bu ishni menga yopishtirmoqchimisiz? 9. Ostonamdan qadam bosib koʻr-chi? Ha, senmisan, hindular sardori? 10. Voy, Xudoyim-ey, necha marta tushuntirish kerak bunga, a? 11. Xex! Jang qilish yoqmay qoldimi? 12. Hammasi – "daho!" Xex! 13. Maktabda intelligent boʻlib yurasan-da, uyingda aksilinqilobiy faoliyat olib borasan! Xex! 14. Xex! – dedi kulib, Qurʼonni shoshilinch varaqladi. 15. Xex. Mayli, qargʻayver-chi! Koʻramiz hali, qanday sayrarkinsan? 16. Xex! – Komissar istehzoli kuldi. 17. Xex! – Komissar kaltakesakdek chirqillab kuldi. 18. Xex! Bular Komissar Gʻaniyevning farzandiga ishonmasa. 19. Kerak boʻlsa, kvartiraga eshituvchi apparaturalarni joylab qoʻyishadi... Xex! Allaqachon joylab qoʻygan boʻlsa-chi?! 20. Chol odam degani machitga chiqadi, choyxonaga chiqadi, bu nimasi, ertadan kechgacha uyda biqsib oʻtirish! Xex! Bir kami salla oʻrab namoz oʻqishi qoluvdi. 21. Xex! Sen oʻsha fanatichkaning gapiga laqqa tushding? Toʻgʻrimi? 22. Sud organida ishlagilari kelmabdi... Xex! Jingalaksoch indamadi. 23. Xex! – Yovuz Ruh kaltakesakdek tomoq qoqdi. 24. Xex! Koʻchani kesib oʻtayotganingda paq etib mashina urib ketsa – tamom! 25. Meni kechiring, domla... Bilmabman... Bilsam... – Komissarning xayolidan istehzoli oʻy kechdi. "Xex! Bilganda nima qilarding?". 26. Nega indamaysan? – dedi xayolan xitob qilib. – Xex! Albatta indamaysan-da! Yaxshilab titkilab koʻrilsa, oʻzingning biografiyangdan ham xohlagancha illat topiladi! 27. Nega indamaysan? – dedi xayolan xitob qilib. – Xex! Albatta indamaysan-da! Yaxshilab titkilab koʻrilsa, oʻzingning biografiyangdan ham xohlagancha illat topiladi! 28. Operativ ishlashni bilar ekansanlar-ku! Xex! Bu yogʻini eshit! 29. Voy! Eshitib qoldingizmi? – dedi oʻyib oladigan ohang-da. 30. Voy! Uy olib berganmish! – Jazavasi tutib, qoʻsh qoʻllab tizzalariga ura ketdi. 31. Qachon oʻlasiz, demoqchimisan? Ovora boʻlasan! Men oʻlmayman! Xex!

**9. Eʼtiroz, norozilik, shikoyat:** 1. Ey, bor! Men sening malayingmanmi? 2. Ey! Tinchlik bormi-yoʻqmi? Yarim kecha boʻlyapti. 3. E-e! – Grisha asabiy qoʻl siltadi. – Nasihatingizni nevarangizga

qiling! 4. Ey, baba! – dedim g‘azabdan titrab. – Sen kim bo‘psanki, menga buyruq berasan! 5. O‘l-a, konserva ham tamom bo‘lgan ekan-ku. 6. Birov sizni gunohkor deyaptimi, nega vahima qilasiz, grajdanka To‘laganova! – Ana! Tag‘in “grajdanka” deyapsan! 7. Uff, necha kishi turasizlar? 8. Uff! Kelin o‘sha kuni ham sutga chiqdimi? 9. Obbo! Boring endi! 10. Uff! Boring, dedim-ku! 11. Bolaning yomoni bo‘lmiydi. – Tfu! – Komissar asabiy qo‘l siltadi. 12. E, avlodingga o‘t tushsin! 13. Uff... Nima bo‘ldi? 14. Ola-a! – Taksichi ishonqiramay yuzimga qarab qo‘ydi. 15. Ey, uka! Shungayam ota go‘ri – qozixonami? 16. E, o‘l, to‘nka! Aqalli hol-ahvol so‘ramaysanmi? 17. Yo, Xudo! Xo‘p g‘alati narsa-da, bu “harbiy intizom” degani. 18. Xo‘sh, men nima qilishim kerak? – dedim ijirg‘anib. 19. Hoy, men ham odamman-ku, umrim bino bo‘lib halovat ko‘ramanmi-yo‘qmi?

**Buyruq-xitob(imperativ)** undovlari kishilarga nisbatan ularning diqqatini tortish, ogohlantirish yoki jonivorlarni biror ishni bajarish yoki bajarmaslikka undash kabi ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi [https://uz.wikipedia.org/wiki/Undovlar] va odamlarga qaratilgan hamda hayvon, jonivorlarga qaratilgan undov so‘zlarga bo‘linadi. O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida ham imperativ undovlardan keng foydalanilgan. Biz ularni quyidagicha guruhlarga bo‘linishini aniqladik va o‘rgandik:

**1. Odamlarga qaratilgan undovlar:**

**a) kishilarning diqqatini tortish uchun qo'llanadigan undovlar:** 1. Hoy, kimsan? – Komissar engashib, yelkasiga turtgan edi, gavda qimirlamadi. 2. O‘v, zo‘ravon! Nega urding Potmani? 3. Ey, baba! – dedim g‘azabdan titrab. – Sen kim bo‘psanki, menga buyruq berasan! 4. Hoy, – dedi Soat turtib, – ko‘zingni ochib uxlayapsanmi? 5. E, o‘chir-ye! – dedi Soat toqati toq bo‘lib. 6. Xo‘sh, gapir. Qulog‘im senda! – dedi Komissar. 7. Ey, pichanni qo‘riqlab yotgan qari it! 8. Salimaxon-u-u! Hoy, Salima! 9. Ey, uka! Shungayam ota go‘ri – qozixonami? 10. Xo‘sh, ishlarning jilishi qalay, kollega?

**b) ta'kid, buyurish uchun qo'llanadigan undovlar:** 1. Ey! Shovqin-suroningni to‘xtatasanmi-yo‘qmi? Nega millatchilik qilasan, o‘v?! 2. Ey! Tinchlik bormi-yo‘qmi? Yarim kecha bo‘lyapti. 3. Falon joyda ko‘prik portlabdi. Xo‘sh, nima bo‘pti? 4. Qani, bu yoqqa yur-chi!

Hayvonlarga yoki boshqa jonivorlarga qaratilgan undovlar hayvon va jonivorlarni chaqirish uchun, hayvon va parrandalarni biror harakatdan to'xtatish uchun ishlatiladi ammo asarda bunday undov so‘zlar uchramadi.

“Tushda kechgan umrlar” romanida urf-odat undovlarining ishlatilishini ham kuzatish mumkin. Masalan: 1. Marhamat! Bu-sizning huquqingiz. 2. Xo‘p, uzr so‘rayman, – dedi Grisha nafasi bo‘g‘ziga tiqilib 3. Marhamat, qani ichkariga! 4. Malades! Sport bilan shug‘ullanasanmi?

Barcha mustaqil so‘z turkimlari singari undov so‘zlar ham tuzilishiga ko‘ra to‘rt turga bo‘linadi. O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida sodda, qo‘shma, juft, takror undov so‘zlarni qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin.

**“Tushda kechgan umrlar” romanida sodda undov so‘zlarning qo‘llanilishi:**

1. Buning otini Qonqus deb qo‘yibdi, o‘v! 2. Bunisi eng oddiy usul. Yo‘g‘-e, bundan ham osoni bor. 3. E, o‘chir-ye! – dedi Soat toqati toq bo‘lib. 4. E, o‘tirsangiz-chi, Fotimaxon! – dedi bir qadar samimiyat bilan. 5. E, qayoqda yuribsiz? – desam, ma’yus jilmayib qo‘ydi. 6. E, umi? Shunga meni aybdor sanayapsizmi? 7. E, Xudo! Bizga rahming kelsin. 8. Eh, tankist, tankist! – dedi hamkasbim alamnok iljayib. 9. Ey! Shovqin-suroningni to‘xtatasanmi-yo‘qmi?

10. Ey, baba! – dedim g‘azabdan titrab. – Sen kim bo‘psanki, menga buyruq berasan! 11. Ey, bor! Men sening malayingmanmi? 12. Ey, poki-parvardigor! – dedi ikki qo‘lini osmonga cho‘zib. – Bu zolimlargayam boqqan balo bormi, Xudo!

13. Falon joyda ko‘prik portlabdi. Xo‘sh, nima bo‘pti? 14. Hammasi – “daho!” Xex! 15. Hay, mayli, Shomatovning xotinini tergov qildingmi? 16. Hm. . . Xo‘sh? Xotini-chi? Shomatovning xotini nima deydi? 17. Hoy, – dedi Soat turtib, – ko‘zingni ochib uxlayapsanmi? 18. Hoy, kimsan? – Komissar engashib, yelkasiga turtgan edi, gavda qimirlamadi. 19. Ie, o‘zingmisan, o‘rtoq? – dedi dadillanib.

20. Maktabda intelligent bo‘lib yurasan-da, uyingda aksilinqilobiy faoliyat olib borasan! Xex! 21. Malades! Sport bilan shug‘ullanasanmi? 22. Marhamat, qani ichkariga! 23. Meni qari deyapsanmi, xex! 24. Nega millatchilik qilasan, o‘v?! 25. Obbo! Boring endi! 26. O‘sha odamni hozir ko‘rsangiz taniysizmi? 27. O‘v, zo‘ravon! Nega urding Potmani? 28. Professor degani shu bo‘lsa, xex! 29. Qismatning hazilini qarang: tag‘in eshonzodalar bilan ro‘para keldi. Xex! 30. Shahnoza boshiga, yelkasiga yog‘ilgan muzdek suvdan seskanib, o‘rnidan sapchib turdi. “Voy!” deb qichqirib yubordi. 31. Uff! Boring, dedim-ku! 32. Uff! Kelin o‘sha kuni ham sutga chiqdimi? 33. Uff, necha kishi turasizlar? 34. Uyida degin? Xex! Kechasi qayerda tunagan ekan oyimcha? 35. Voy o‘lay! Voy o‘lmasam! – Nazira titrab-qaqshab Mauzerni boshidan ko‘tardi. 36. Voy o‘lmasam! Bu qanday ko‘rgilik! 37. Voy! Voy o‘lmasam! – dedi oyoq-qo‘lidan mador ketib. Rustamjon-ku! 38. Voy, manov odamni! – Qurbonoy xola astoydil ajablandi. 39. Voy, Shahnoza tushmagur-yey. 40. Voy, Xudo urdi-ketdi! Ko‘zdek qo‘shnining to‘yiga chiqmasanglar, uyat bo‘lmaydimi? 41. Voy, Xudoyim-ey, necha marta tushuntirish kerak bunga, a?42. Xex! – dedi kulib, Qur’onni shoshilinch varaqladi. 43. Xex! – Komissar istehzoli kuldi. 44. Xex! – Komissar kaltakesakdek chirqillab kuldi. 45. Xex! Bir oydan beri arzimagan ishni ocholmay

timirskilanib yuribsanlar. 46. Xex! Boʻlmasa ayting-chi, Shomatov joniga qasd qilib, oʻzini yerga tashlagan boʻlsa, uydagi jihozlarni kim sindirdi? 47. Xex! Boyadan beri tanbur chertyapman ekan-da! 48. Xex! Bu kishi Oʻzbekiston mustaqil boʻlishini xoxlab qoptilar! 49. Xex! Chekist-chekist boʻlib tugʻilishi kerak! 50. Xex! Jang qilish yoqmay qoldimi? 51. Xex! Oʻn besh yoshimdan komissarman, desa, rostdanmi, deydi. 52. Xex! Oʻshanda "hammangni otaman!" degan vaʼda boʻlganmidi? 53. Xex! Shu ketishing boʻlsa, ikki dunyoda hech kimning aybini boʻyniga qoʻyolmaysan! 54. Xex. Mayli, qargʻayver-chi! Koʻramiz hali, qanday sayrarkinsan? 55. Xoʻsh, gapir. Qulogʻim senda! – dedi Komissar.

**"Tushda kechgan umrlar" romanida qoʻshma undov soʻzlarning qoʻllanilishi:** 1. Ortiga ilib qoʻyilgan gilamga qoʻshaloq nikoh halqasining tasvirini solib, paxta bilan "Xush kelibsiz, aziz mehmonlar!" deb yozilgan. 2. Voydod! Kim bor! – deb jonholatda dod sola boshladi. 3. Xudoga shukr, yurishibdi. Yumalab-sumalab. 4. Voy oʻlmasam! Qayoqdan tanirkanman?

**Juft holda qoʻllanuvchi undovlar:** 1. Voy-boʻ, qorbobo boʻp keting-e!" 2. Eh-he! Besh yil urushda yurib nimalarni koʻrmadi bu bosh! 3. E-ha! Toʻlagan-ku bu! 4. Yoʻgʻ-e, axir men yetmish ikkidaman-ku! 5. Qaysi Tursunboy boʻldi bu? E-ha! Mendan uch yil oddin maktabni bitirgan Tursunboy aka-ku! 6. Qishloqdan chiqib ketganiga, eh-he qancha boldi!

**Takror holda qoʻllanuvchi undovlar:** 1. Biri yalinib, biri poʻpisa qilayotgan otalar, atlas koʻylagining yoqasiga "Qahramon ona" medalini taqib olgan onalar... Hay-hay-hay! Qoʻrqadi medalingdan! 2. E-e! Tezroq daf boʻlsang-chi! Sen bilan gaplashib yurakni qon qilgandan koʻra...

"Tushda kechgan umrlar" romanida qoʻllangan ha-a, e-e, xoʻ-oʻsh, ja-a kabi undov soʻzlar juft va takror undov soʻzlar emas, ular haa, eee, xoʻoʻsh, jaa kabi undov soʻzlarni choʻzib ishlatilishini ifodalaydi. 1. Ha-a, Komissar! Qani, bir gʻayrat qil-chi, koʻramiz suvga teskari suzish qanaqa boʻlarkan? 2. Ha-a, gap bu yoqda deng?! 3. E-e! – Grisha asabiy qoʻl siltadi. – Nasihatingizni nevarangizga qiling! 4. Xotiningni sogʻindingmi!. . Ha-a, gap bu yoqda degin! 5. Xoʻ-oʻsh, kollega, ishlar qalay? 6. Ja-a, boshni aylantirib yubordingiz-da, xola?

Xulosa qilib aytganda, Oʻtkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanida undov soʻzlarning qoʻllanish xususiyati asar tilining emotsional-ekspressiv imkoniyatlarini keng ochib berishga xizmat qiladi. Undov soʻzlar qahramonlarning ruhiy holati, ichki kechinmalari va munosabatlarini jonli ifodalashda muhim vosita boʻlib, dialog va monologlarning tabiiyligini taʼminlaydi. Ular orqali hayajon, quvonch, iztirob, hayrat, norozilik kabi turli hissiy holatlar aniq va taʼsirchan tarzda ifodalanadi. Asarda undov soʻzlarning barcha turi ishtirok etgan boʻlib, ular asarning badiiy-taʼsirchanligini taʼminlashda muhim lingvopoetik vazifani bajaradi. Shuningdek, undov soʻzlar muallifning badiiy niyatini kuchaytirish, dramatik vaziyatlarni yanada keskinlashtirish hamda voqealarning oʻquvchi ongida chuqurroq aks etishiga xizmat qiladi. Ularning oʻrinli va maqsadli qoʻllanishi roman tilining xalqona ruhda, sodda va hayotiy boʻlishini taʼminlab, badiiy matnning ekspressivligini oshiradi. Undov soʻzlarning barcha maʼno turlari faol ishtirok etgan. Sodda, qoʻshma, juft va takroriy shakldagi undov soʻzlarning oʻrinli qoʻllanishi nutqning emotsional-ekspressivligini kuchaytirib, badiiy tasvirning jonli va taʼsirchan boʻlishini taʼminlagan. Xususan, his-hayajon bildiruvchi undovlar, buyruq–chaqiriq maʼnosidagi undovlar hamda taqlidiy undovlar qahramonlar nutqida keng qoʻllanib, ularning ruhiy holati, ichki kechinmalari va voqelikka munosabatini ifodalashda muhim vosita boʻlib xizmat qilgan. Undov soʻzlar dialog va monologlarda obrazlarning individual nutqiy xususiyatlarini ochib berish, dramatik vaziyatlarni keskinlashtirish hamda asar voqealarining hayotiyligini oshirishga xizmat qilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**


1. Rahmatullayev.Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili – Toshkent: "Universitet", 2006. – bet 459.
2. Jamolxonov.H. Hozirgi o'zbek adabiy tili – T.: "Talqin"-2005. – bet 355.
3. Boboyev. T.Adabiyotshunoslik asoslari – T.: O'zbekiston, 2002. – bet 315.
4. Hoshimov.Oʻ. "Tushda kechgan umrlar" romani. – T.: Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 2002.
5. Sh.Rahmatullayev "Hozirgi o'zbek adabiy tili" – Toshkent.: "Universitet", 2006.
6. B.R.Mengliyev. "Hozirgi o'zbek adabiy tili (kirish, fonetik sath, leksik-sem antik sath)"– Toshkent.: «Tafakkur boʻstoni» nashriyoti, 2018.
7. D.Lutfullayeva, R.Davlatova, M.Saparniyazova "Hozirgi o'zbek adabiy tili" – Toshkent.: «Iqtisod-moliya», 2018.
8. A. Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" – Toshkent.: «ILM ZIYO», 2013.
9. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili – T.: "Talqin", 2005.
10. Ismoilov.E.M. Emotsional holatlarning fiziologik asoslari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 5(3), March, 2025,-B. 114.
11. E. S. Achilova, U.N.Xodjamqulov. "Tushda kechgan umrlar" romanining syujet, obraz, uslub xususiyatlari". Academic Research in Educational Sciences, VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022,-B. 195-201.
12. Baxtiyor Mengliyev Rajabovich, "Oʻzbek tilining izohli lugʻatlaridagi undov soʻzlarning etimologik tavsifi" Educational Research in Universal Sciences, VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2023,-B. 249.

13. E. Achilova, O‘tkir hoshimov asarlarida badiiypsixologizm muammosi. “XALQ TA’LIMI” ilmiy-metodik jurnali. 2021. № 5.-B. 245

14. *https://uz.wikipedia.org/wiki/Undovlar*

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Kuchimova Nilufar Turanbayevna**
Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti
n.science@gmail.com

UDK: 81’42:341.123

## BIRLASHGAN MILLATLAT TASHKILOTI RASMIY DISKURSIDA RASMIYLIK, BETARAFLIK VA KO’P TILLILIK ME’YORLARI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) rasmiy diskursining lingvistik va kommunikativ xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda rasmiylik, betaraflik va ko‘p tillilik me’yorlarining nazariy asoslari hamda ularning amaliy nutqiy realizatsiyasi ko‘rib chiqiladi. BMT rasmiy hujjatlari va nutqlarida qo‘llaniladigan shaxssiz ohang, standartlashtirilgan tuzilmalar, ehtiyotkor leksik tanlov va rasmiy tillar o‘rtasidagi tenglik tamoyili xalqaro diplomatik muloqotning barqarorligini ta’minlovchi muhim mexanizmlar sifatida yoritiladi. Tadqiqot natijalari BMT diskursi individual pozitsiyalardan ko‘ra jamoaviy iroda va institutsional betaraflikni ifodalashga qaratilganini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *BMT diskursi, rasmiy nutq, betaraflik, ko‘p tillilik, diplomatik til, lingvistik tenglik.*

**Кучимова Нилуфар Туранбаевна**
докторант Самаркандского государственного института иностранных языков

## ФОРМАЛЬНОСТЬ, НЕЙТРАЛЬНОСТЬ И НОРМЫ МНОГОЯЗЫЧИЯ В ОФИЦИАЛЬНОМ ДИСКУРСЕ ОРГАНИЗАЦИЯ ОБЪЕДИНЁННЫХ НАЦИЙ

***Аннотация:*** *В статье анализируются лингвистические особенности официального дискурса Организации Объединённых Наций. Исследование направлено на выявление теоретических основ и практической реализации норм официальности, нейтральности и многоязычия в официальных выступлениях и документах ООН. Особое внимание уделяется безличному тону, стандартизации языковых средств, осторожному лексическому выбору и принципу лингвистического равенства как ключевым механизмам обеспечения стабильности международного дипломатического общения. Результаты исследования показывают, что официальный дискурс ООН отражает коллективную и институциональную волю, а не индивидуальные позиции.*

***Ключевые слова:*** *дискурс ООН, официальный стиль, нейтральность, многоязычие, дипломатический язык, лингвистическое равенство.*

**Kuchimova Nilufar Turanbaevna**
Doctoral student, Samarkand State Institute of Foreign Languages

## FORMALITY, NEUTRALITY, AND MULTILINGUALISM NORMS IN THE OFFICIAL DISCOURSE OF THE UNITED NATIONS

***Abstract (in English):****This article examines the linguistic characteristics of the official discourse of the United Nations. The study focuses on the theoretical foundations and practical realization of formality, neutrality, and multilingualism norms in UN official speeches and documents. Particular attention is paid to impersonal tone, standardized language structures, cautious lexical choices, and the principle of linguistic equality as key mechanisms ensuring stability in international diplomatic communication. The findings demonstrate that UN official discourse represents collective and institutional will rather than individual positions.*

***Keywords:*** *UN discourse, official language, neutrality, multilingualism, diplomatic language, linguistic equality.*

### Kirish

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda til diplomatik jarayonlarning markaziy unsurlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar doirasida qo‘llaniladigan rasmiy nutq siyosiy pozitsiyalarni ifodalash bilangina cheklanmay, balki murosa, hamkorlik va global muvozanatni ta’minlash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti

kabi universal tuzilma uchun til masalasi institutsional ahamiyat kasb etadi. BMT rasmiy diskursi milliy, madaniy va siyosiy jihatdan turlicha bo‘lgan a’zo davlatlar o‘rtasida muloqotni ta’minlashga qaratilgan murakkab kommunikativ tizimdir. Ushbu tizim rasmiylik, betaraflik va ko‘p tillilik kabi me’yorlarga asoslanadi. Mazkur maqolaning maqsadi ushbu me’yorlarning lingvistik mohiyatini ochib berish hamda ularning BMT rasmiy nutqidagi funksional rolini tahlil qilishdan iborat. Jahon diplomatiyasida so‘zlar shunchaki ma’no tashuvchi vositadan ko‘ra ko‘proq ahamiyat kasb etadi, ular ta’sir o‘tkazish quroli, turli milliy manfaatlar orasidagi ko‘prik va nozik muvozanatdir. Bu lingvistik uyg‘unlik Birlashgan Millatlar Tashkilotida yaqqol namoyon bo’ladi, chunki bu yerda til rasmiy diskurs orqali nafaqat siyosatni ifodalaydi, balki diplomatiyani ham amalga oshiradi. Ushbu nutqiy xoreografiya markazida tashkilotning butun kommunikativ tuzilmasini mustahkamlovchi rasmiylik, betaraflik va ko‘p tillilik kabi murakkab me’yorlar tizimi yotadi. Bular shunchaki uslubiy nozikliklar emas, balki madaniyatlari, g‘oyalari va ustuvorliklari turlicha bo‘lgan davlatlar orasidagi hamkorlikni ta’minlaydigan chuqur o‘rnashgan mexanizmlardir.

**Adabiyotlar tahlili**

Kommunikativ me’yorlarning nazariy asoslari orqali shaxssiz ohang, ritorik chegaralanish va til tengligining qay tarzda BMT diskursining mohiyatiga aylanganini tahlil qilish mumkin. Aynan shu unsurlar orqali Tashkilot hokimiyat va inklyuzivlik o‘rtasidagi nozik muvozanatni saqlab qoladi. His-tuyg‘ularni ifodalashning cheklanishidan tortib, ko‘p tilli diskursning simmetriyasigacha, BMTning rasmiy nutqi shaxssizlashtirilgan, tuzilgan va rivojlantirilgan, ya’ni so‘zlovchiga emas, balki jamoaga xizmat qiladigan maydon sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada nafaqat xulq-atvor kodeksi, balki farqlarni yo‘q qilmasdan, ularni yengib o‘tishga qaratilgan muloqot falsafasi vujudga keladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotidagi rasmiy muloqot tashkilotning millatlararo tabiati va institutsional maqsadlarini aks ettiruvchi qat’iy til va uslub me’yorlariga asoslanadi. Til darajasi deganda ma’lum bir vaziyatga mos keladigan til uslubi tushuniladi va BMTda bu doimo rasmiy va shaxssiz bo‘ladi. BMT til asoslarida rasmiy nutqda jamoat va kasbiy sohalarga mos keladigan adabiy til turlaridan foydalanilishi ta’kidlanadi. Adabiy til turlari "keng omma tomonidan tushuniladigan", ma’lumotnoma kitoblarida qayd etilgan va "asosan yarim va to’liq rasmiy vaziyatlarda qo‘llaniladi". Amalda bu BMT matnlari (nutqlar, hisobotlar, rezolyutsiyalar yoki matbuot axborotnomalaridan qat’i nazar) yuqori darajadagi ravonlik va aniqlikka, rasmiy lug‘at va grammatik uslubga tayanishini anglatadi. Masalan, BMT til tizimida aniqlik va rasmiylik talab qilinadigan yozma janrlar namunalari sifatida BMTning odatiy matnlari - hisobotlar, takliflar, memorandumlar, xatlar, matbuot axborotnomalari va shunga o‘xshash hujjatlar keltiriladi. Bu standartlashtirilgan hujjat turlari ko‘pincha barcha tillarda bir xillikni ta’minlash uchun belgilangan andozalar yoki namunalarga muvofiq tuziladi. Bir so’z bilan aytganda, BMTning muloqot uslubi shaxssiz va rasmiy ohangni ta’kidlaydi: rasmiy bayonotlarda birinchi shaxs yoki so‘zlashuv iboralari ishlatilmaydi, o‘rniga uchinchi shaxs, majhul nisbat va qat’iy ma’muriy iboralardan foydalaniladi. Ushbu til uslubi - ya’ni "muloqot vaziyatiga mos keladigan" til va uslub - BMT tilini yuqori darajada bilish uchun zarur ko‘nikma sifatida maxsus o‘rgatiladi.

Rasmiy uslub bilan xolislik tamoyili chambarchas bog‘liq. BMT suveren davlatlarning hukumatlararo tashkiloti sifatida obyektiv va muvozanatli muloqotni talab etadi. Bu shuni anglatadiki, BMT vakillari va yozuvchilari hissiyotga berilib ketmaydilar, tahqirlovchi so‘zlardan foydalanmaydilar hamda rasmiy aloqalarda betaraf munosabatda bo‘ladilar. Aslida, xolislik BMTning til o‘rgatish maqsadlariga singdirilgan: Nizomda "betaraf" muloqotning namunaviy ijtimoiy konteksti sifatida aniq ko‘rsatilgan bo‘lib, bu BMT nutqi kinoya yoki tarafkashlikdan xoli bo‘lishi kerakligini bildiradi. Yuqori malakali BMT til foydalanuvchilari bahslarda jangari yoki hissiy ohangni qo‘llash o‘rniga, "mohirona fikr yuritishlari" va hatto "diplomatik tarzda aralashishlari" kutiladi. Bunday ko‘rsatmalar BMT nutqi noziklik va vazminlikni talab etishini ta’kidlaydi. Hatto bahsli masalalar muhokama qilinayotganda ham, uslub bosiq va asosli bo‘lib qoladi. BMT xodimlari uchun til kurslari va uslubiy qo‘llanmalar aniq, mantiqiy ifodalashga urg‘u beradi: hujjatlar xolislik va izchillik nuqtai nazaridan tahrirlanadi, subyektiv til va shaxsiy baholardan qochiladi. Misol uchun, Nizom ekspert foydalanuvchilar "hatto o‘ta murakkab yoki nozik" masalalarni "doimiy ravishda yuqori darajadagi ravonlik, aniqlik va puxtalik" bilan hal qilishlari kerakligini o‘rgatadi. Aniqlik va ehtiyotkorlikka bunday e’tibor BMTning rasmiy bayonotlar xolis va nizoli bo‘lmasligi kerakligi haqidagi tamoyilini aks ettiradi.

BMTning uslubiy qoidalariga standartlashtirilgan formatlarga qat’iy rioya qilish ham kiradi. Rasmiy hujjatlar va nutqlar bir xillikni ta’minlash maqsadida belgilangan tuzilmalarga amal qiladi. Bu amaliyot keng tarqalgan bo‘lib, BMTning hisobotlari, qarorlari va yig‘ilish bayonnomalari doimiy sarlavhalar, raqamlash va qolip iboralardan foydalanadi. Til tamoyillari matnlar yaratishda namunalar va andozalardan foydalanishni ta’kidlaydi. Lug‘atda "andoza" - faqat kichik o‘zgarishlar bilan nusxalar yaratish uchun ishlatiladigan qat’iy tuzilmali matn shakli, "namuna" esa misol sifatida xizmat qiladigan matn (masalan, xat yoki maqola) deb ta’riflanadi. Demak, BMT xodimlari belgilangan formatlarga rioya qilishga o‘rgatilgan. Ushbu formatlar standart til va rasmiy uslubdan foydalanish bilan birgalikda BMT nutqining o‘ziga xos shaxssiz ohangini yaratadi. Amalda BMT vakillari shaxsiy voqealar, balandparvoz iboralar yoki his-hayajonli sifatlardan qochib, mavhum va umumiy iboralarni afzal ko‘radi (masalan, "biz" yoki "bizni" emas, balki "A’zo davlatlar" yoki "Tashkilot"ni nazarda tutadi va "qayd etildi" yoki "delegatsiya xabardor qilindi" kabi majhul nisbatdan

foydalanadi). Xulosa qilib aytganda, uslub bir xil, ohang xolis va yozish usuli izchil hamda andozalarga asoslangan - bular BMTning neytral, professional tashkilot sifatidagi qiyofasini aks ettirish uchun birgalikda xizmat qiladigan qoidalardir.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqot Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) rasmiy diskursida shakllangan til me'yorlarini — rasmiylik, betaraflik va ko'p tillilik tamoyillarini lingvistik va diskursiv jihatdan tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida zamonaviy tilshunoslikning kompleks metodologik yondashuvlari qo'llanildi.

**Natijalar va Muhokama**

Xolislik va beg'araz ohang

BMTning xolislik me'yori rasmiyatchilik bilan chambarchas bog'liq. BMT o'z tuzilishi bo'yicha biror bir alohida davlat yoki mafkura nomidan emas, balki xalqaro hamjamiyat nomidan so'zlaydi. Shu bois, BMT muloqotlari tarafkashlik yoki ochiq ishontirishni to'g'ridan-to'g'ri ko'zlamaydi. Lingvistik jihatdan bu shaxssiz ohang va hissiy tildan qochishni anglatadi. BMTning rasmiy hujjatlari va nutqlari go'yo BMT a'zolarining jamoaviy "biz"i tomonidan yozilgandek yoki butunlay shaxssiz tarzda ifodalanadi. BMTning til asoslari ekspert foydalanuvchilarga "turli janrlarda yozish" va "registr hamda uslubni muloqot vaziyatiga moslashtirish"ni, ya'ni rasmiy, diplomatik kontekstga moslashtirishni aniq o'rgatadi. So'zlovchilarni registrlarda moslashuvchan bo'lishga o'rgatish orqali, "rasmiy, norasmiy va boshqalar"ni registrlar sifatida va "neytral"ni ijtimoiy kontekst misoli sifatida aniq kiritib, BMTning rasmiy tili munosabatda neytral bo'lishi kerakligini bilvosita ta'kidlaydi. Bu neytrallik me'yori amalda diplomatik, nizoli vaziyatlarni keskinlashtirmaydigan so'z boyligi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, BMT mojarolar yoki inson huquqlarining buzilishi masalalarini ko'rib chiqishi kerak bo'lsa ham, rasmiy bayonotlarda ko'pincha kuchli sifatlardan qochib, ehtiyotkor iboralardan foydalaniladi. Til asosining yuqori darajadagi ta'riflari bunga misol bo'la oladi: diplomatlar munozaralarda "fikrlarni mohirona bayon qilish" va "diplomatik tarzda aralashish"ga o'rgatiladi. Bunday ta'lim noxolis yoki ziddiyatli deb talqin qilinishi mumkin bo'lgan tildan foydalanishni bevosita rag'batlantirmaydi. Xuddi shunday, BMTning rasmiy yozma hujjatlari til mutaxassislari tomonidan har qanday ochiq subyektiv iboralarni bartaraf etish maqsadida ko'rib chiqiladi. Hatto olmoshlarga ham ehtiyotkorlik bilan yondashiladi: "biz talab qilamiz" yoki "bizning nuqtai nazarimiz shunday" deyish o'rniga, amaldorlar "tavsiya etiladi" yoki "delegatsiya ...ga chaqiradi" deb aytishlari mumkin, bu esa bayonotni yanada shaxssiz qiladi. Xulosa qilib aytganda, BMT muloqoti obyektiv uslubni afzal ko'radi, ya'ni faktlar dabdabasiz va hissiyotlarga berilmay taqdim etiladi. Zarur hollarda, hujjatlarda shaxsiy e'tiqod emas, balki dalillar yoki xalqaro kelishuvlar keltiriladi. Bu esa BMT individual ehtiroslar uchun emas, balki jamoaviy iroda uchun so'zlashi kerak, degan tamoyilga mos keladi.

Ko'p tillilik va lingvistik tenglik

BMT muloqotining asosiy tamoyillaridan biri ko'p tillilik bo'lib, u bir vaqtning o'zida bir nechta tillardan foydalanishni anglatadi. Bu BMTning barcha a'zo davlatlarni, ularning tilidan qat'i nazar, teng darajada ifodalashga bo'lgan intilishidan kelib chiqadi. Lozinskiy hisobotida ko'p tillilik Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil topganidan buyon uning genetik kodining ajralmas qismi bo'lib kelganligi aniq ko'rsatilgan. Darhaqiqat, BMT Nizomining 1-moddasi va keyingi rezolyutsiyalarda barcha insonlar bilan muloqot tinchlik, taraqqiyot va inson huquqlarini ta'minlash uchun muhim ekanligi ta'kidlangan. Shunga muvofiq, BMT tizimi rasmiy tillar ro'yxatini belgilaydi (hozirda oltita: arab, xitoy, ingliz, fransuz, rus va ispan tillari) va asosiy hujjatlar hamda tadbirlarning ushbu tillarning har birida olib borilishini talab qiladi.

Lingvistik tenglikning asosiy tamoyili shundaki, hech bir rasmiy til boshqasidan ustun qo'yilmaydi. Lozinskiy ta'kidlashicha, ta'rifga ko'ra rasmiy (yoki ishchi) til "shu maqomga ega bo'lgan boshqa barcha tillar bilan teng"dir. Ushbu tenglikni ta'minlash uchun BMT tizimi rasmiy hujjatlarni barcha olti tilda bir vaqtning o'zida chiqarishni talab qiladi. Hisobotda aytilishicha, barcha tillardagi matnlarni birgalikda chiqarish BMTda "rasmiy tillar tengligining kaliti, ko'p tillilik asosi" hisoblanadi. Amalda bu shuni anglatadiki, qarorlar, hisobotlar, matbuot axborotlari va majlis bayonnomalari har bir rasmiy tilga tarjima qilinadi va tarqatiladi, shu bois hech bir til versiyasi ikkinchi darajali bo'lib qolmaydi. Lozinskiy ta'kidlashicha, "butun tizimdagi barcha qonun chiqaruvchi yoki boshqaruv organlari barcha rasmiy va ishchi tillarga teng munosabat va tenglikni talab qiladi." Bu tenglik talabi ko'pincha vakolat va rezolyutsiyalarda aniq yozib qo'yiladi (masalan, BMTning ko'p tillilik to'g'risidagi rezolyutsiyalari BMTning barcha nashrlari va veb-saytlarida "olti rasmiy til o'rtasida to'liq tenglik"ka chaqiradi). Qisqasi, BMT har bir rasmiy tilga teng munosabatda bo'ladi: tarjimalar ixtiyoriy yoki davriy emas, balki barcha rasmiy muloqotning ajralmas qismidir:

- BMTning rasmiy siyosati har bir rasmiy tilni "shu maqomga ega bo'lgan boshqa barcha tillar bilan teng" deb hisoblaydi.
- Barcha rasmiy hujjatlar (qarorlar, hisobotlar, majlis bayonnomalari) bir vaqtning o'zida barcha rasmiy tillarda chiqarilishi shart.
- Boshqaruv organlari barcha jarayonlarda tillar o'rtasida teng munosabat va tenglikni ta'minlashni talab qiladi.

Yuqori darajadagi rahbarlar bu me'yorni namoyon etadi: Bosh kotib nutqlarida BMTning turli tillaridan tez-tez foydalanib va xabarlarning aksariyatini barcha rasmiy tillarda yetkazishni ta'minlab, "ko'p tillilik uchun yuqori darajadagi yo'nalishni belgilaydi".

Bu amaliyotlar oddiy texnik jihatlardan ancha keng bo'lib, ular tilning o'ziga nisbatan qo'llaniladigan xolislik me'yorini aks ettiradi. A'zo davlatlar teng suverenitetga ega bo'lgani kabi, ularning tillari ham BMT nutqida teng mavqega ega. Dunyodagi har bir til jamoasi, prinsip jihatidan, inobatga olinadi, bu esa BMT muloqoti hech qanday til yoki mintaqaga nisbatan noxolis emasligini ta'kidlaydi. Lozinskiy, masalan, BMT veb-saytlaridagi ko'rsatmalarda "olti rasmiy tilga teng munosabatda bo'lish tamoyili" aniq ko'rsatilganini ta'kidlaydi, ammo u ba'zan bu talabga rioya qilish bir xil bo'lmaganidan afsuslanadi. Shunga qaramay, BMTning matbuot axboroti, masalan, arab, xitoy, ingliz, fransuz, rus va ispan tillarida bir vaqtning o'zida e'lon qilinishi kutiladi. Hatto oraliq ko'p tilli chiqishlar (masalan, tvitlar yoki yangilik maqolalari) ham ko'pincha iloji boricha bir nechta tillarda takrorlanadi.

Muhimi shundaki, BMTdagi til tengligi faqat tarjimalar bilan cheklanib qolmaydi. Tashkilot, shuningdek, ko'p tillilik salohiyatini oldindan ta'minlash maqsadida xodimlarining til bilish darajasini oshirishga sarmoya kiritadi. BMTning ko'plab bo'linmalari xodimlardan ikki yoki undan ortiq rasmiy tillarni bilishni talab qiladi. Misol uchun, Lozinskiyning aytishicha, bir qator agentliklar lavozimda ko'tarilishni ikkinchi rasmiy tilni bilish qobiliyati bilan bog'laydi. Ko'p tillilik kompetensiyasiga bunday e'tibor shuni anglatadiki, rasmiy nutqlar so'zlovchi yoki rasmiy hujjatlarni yozuvchilar buni ko'pincha o'zlarining eng kuchli BMT tilida bajaradilar, so'ngra bu matnlar tarjima qilinadi yoki sharhlanadi. Natijada, hatto rasmiy bayonotlarni tayyorlash ham ko'p tilli jarayonga aylanadi. BMTning til asoslari shuni ta'kidlaydiki, yuqori darajadagi foydalanuvchilar "turli xil murakkab vaziyatlarda... hatto shaxsiy, jamoat va kasbiy sohalarda, butun Tashkilot bo'ylab keng ko'lamli masalalar, jumladan o'ta maxsus yoki nozik masalalar bilan shug'ullanayotganda ham" samarali ishlashlari kerak. Shubhasiz, bu vazifaning bir qismi oltita tilning har birida yuqori standartlarni saqlab qolishdir. Xulosa qilib aytganda, BMTning nazariy asosi uning xolis xalqaro roli adolatli ko'p tilli muloqotga asoslanadi, degan g'oyaga tayanadi. Uslub (rasmiy, standartlashtirilgan til), betaraflik (xolis, shaxssiz ohang) va til tengligi (barcha rasmiy tillarning tengligi) me'yorlari o'zaro bog'liq tamoyillardir. Ular BMT rasmiy nutqida adolat va universallik tasavvurini yaratadi: xabarlar izchil rasmiy uslubda ifodalanadi va bir vaqtning o'zida bir nechta tillarga uzatiladi, natijada hech bir tinglovchi yoki o'quvchi ikkinchi darajali hisoblanmaydi. Birgalikda ushbu qoidalar BMTga o'zining ko'p madaniyatli auditoriyasini boshqarishga va xolis global forum sifatidagi rolini saqlashga yordam beradi.

Bunday puxta o'ylangan nutq tasodifan paydo bo'lmaydi - bu betaraflikni shunchaki ta'kidlash emas, balki uni namoyon etish uchun ishlab chiqilgan institutsional tamoyillarning natijasidir. BMTning jamoaviy vakillik hamjamiyatida shakllangan tili intizom orqali ishlaydi, boshqacha qilib ayganda bu tizimda aytilmagan narsa ko'pincha aytilganidan muhimroqdir. Uning kommunikativ tanlovlari - passiv konstruksiyalar, shaxssiz iboralar, ehtiyotkorona so'z tanlash - kelishuvning nozik grammatikasini ochib beradi, bunda noaniqlik qamrovni ta'minlash vositasiga, rasmiyatchilik esa nizolardan qochish uchun boshpanaga aylanadi.

Ushbu nutqiy ekotizimda ko'p tillilik nafaqat betaraflik bilan yonma-yon mavjud bo'ladi, balki uni kuchaytiradi ham. Tashkilot barcha rasmiy tillarda bir vaqtning o'zida lingvistik mavjudlikni ta'minlash orqali tenglik g'oyasini mavhum qadriyat sifatida emas, balki tuzilmaviy kafolat sifatida gavdalantiradi. Matnlar shunchaki ma'no berish bilan cheklanmaydi, ular xolislikning o'ziga xos raqsini ijro etadi. Har bir tarjima qilingan jumla, har bir yumshatilgan ibora, har bir umumiy ritorik qolip diplomatiya baland ovozda emas, balki bir maromda jaranglaydigan - qarama-qarshilik sukunati muvozanat uyg'unligi bilan to'ldirilgan etosni aks ettiradi.

**Xulosa**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, BMT rasmiy diskursi rasmiylik, betaraflik va ko'p tillilik me'yorlarining uzviy uyg'unligiga asoslanadi. Ushbu me'yorlar orqali tashkilot global miqyosda xolis, inklyuziv va professional kommunikativ makon yaratadi. Rasmiy va shaxssiz uslub nizolardan qochishga xizmat qilsa, betaraf ohang muvozanatni ta'minlaydi, ko'p tillilik esa tenglik g'oyasini amaliy darajada ro'yobga chiqaradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1.United Nations Charter. — New York: United Nations, 1945.
2.United Nations Editorial Manual. — New York: UN Secretariat.
3.Fairclough, N. Language and Power. — London: Routledge, 2015.
4.Bhatia, V. K. Analysing Genre: Language Use in Professional Settings. — London: Routledge, 2014.
5.Crystal, D. Language and Globalization. — Cambridge: CUP, 2010.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Rasulova Nilufar Abduvossiyevna**
**v.b. dotsent, f.f.f.d (PhD)**
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
n.rasulova@gmail.com

**UDK 808.3**

## INGLIZ TILIDAGI AYRIM GINEKOLOGIK TERMINLAR ETIMOLOGIYASI

***Annotatsiya:*** *Ma’lumki, tibbiy atamalar, diagnozlar, kasalliklar nomlari, dorivor preparatlar va jarrohlik usullari hamda ularga oid fanlar asosan xorijiy tillardan kelib chiqqan bo‘lib, yunon, lotin va ba’zan ingliz tilidagi terminlarga so‘zsiz duch kelish mumkin.*

***Kalit so‘zlar:*** *homiladorlikni yo‘qotish, tug‘ilmoq, tibbiyot, paydo bo‘lmoq, lotin tili, rivojlanish.*

**Rasulova Nilufar Abduvossiyevna**
Acting Associate Professor, PhD in Philology
Uzbekistan State World Languages University

## THE ETYMOLOGY OF CERTAIN GYNECOLOGICAL TERMS IN THE ENGLISH LANGUAGE

***Annotation:*** *It is known that medical terms, diagnoses, names of diseases, medicines and surgical methods, and related sciences are mainly derived from foreign languages, and one can inevitably encounter terms from Greek, Latin, and sometimes English.*

***Key words:*** *miscarriage, birth, medicine, emergence, Latin, development.*

**Расулова Нилуфар Абдувоссиевна**
и.о. доцента, PhD (кандидат филологических наук)
Узбекский государственный университет мировых языков

## ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ГИНЕКОЛОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

***Аннотация:*** *Известно, что медицинские термины, диагнозы, названия болезней, лекарств и хирургических методов, а также смежных наук в основном заимствованы из иностранных языков, и неизбежно можно встретить термины из греческого, латинского, а иногда и английского языков.*

***Ключевые слова:*** *выкидыш, рождение, медицина, возникновение, латынь, развитие.*

### Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda terminologiya tadqiqi, xususan, tibbiy terminlarning kelib chiqishi va rivojlanish jarayonini o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tibbiyot sohasiga oid atamalar, ayniqsa ginekologik terminlar, nafaqat ilmiy bilimlarni ifodalovchi vosita, balki tarixiy, madaniy va lingvistik qatlamlarni o‘zida mujassam etgan murakkab leksik birliklardir. Ingliz tilidagi ginekologik terminlarning aksariyati yunon va lotin tillaridan o‘zlashgan bo‘lib, ularning etimologik tahlili terminlarning semantik tuzilishi, shakllanish modeli hamda ilmiy diskursdagi funksional xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tibbiy terminologiya, jumladan ginekologik atamalar, xalqaro xarakterga ega bo‘lib, ular ko‘pincha klassik tillar asosida shakllangan. Masalan, *gynecology* termini yunoncha *gynē* (ayol) va *logos* (ta’limot, fan) komponentlaridan tashkil topgan bo‘lib, mazkur sohaning ilmiy mohiyatini aks ettiradi. Shuningdek, *hysterectomy, obstetrics, menopause* kabi terminlarning etimologik ildizlari ularning dastlabki ma’nosi va keyingi semantik taraqqiyotini aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot ingliz tilidagi ayrim ginekologik terminlarning etimologiyasini lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilishni, ularning morfologik tarkibi, semantik evolyutsiyasi hamda termin hosil qilish jarayonidagi model va qonuniyatlarni aniqlashni maqsad qiladi. Shuningdek, terminlarning shakllanishida klassik tillarning roli, ilmiy diskurs

talablari va xalqaro standartlashuv jarayonlari ham ko‘rib chiqiladi. Shu tariqa, ingliz tilidagi ginekologik terminlarning etimologik tahlili nafaqat tibbiy terminologiya tizimini chuqurroq anglashga, balki lingvistik tadqiqotlarda terminlarning tarixiy rivojlanish jarayonini yoritishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Tibbiyot sohasi zamon talablariga mos holda jadal taraqqiy etayotgan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu rivojlanish jarayonida xorijiy tillarning, xususan, tibbiy terminologiyani egallashdagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Ma’lumki, tibbiy atamalar, diagnozlar, kasalliklar nomlari, dorivor preparatlar va jarrohlik usullari hamda ularga oid fanlar asosan xorijiy tillardan kelib chiqqan bo‘lib, yunon, lotin va ba’zan ingliz tilidagi terminlarga so‘zsiz duch kelish mumkin.

Tibbiyotga oid so‘zlarning kelib chiqishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Ilmiy izlanishlarimiz natijasida ba’zi ginekolik terminlarning kelib chiqish etimologiyasini o‘rganib chiqdik.

Yunoncha "gyne" (gynaik-) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, "ayol" va -logia so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, "o‘rganish" degan ma’noni anglatadi.

Ginekologiya so‘zi yunoncha γυνή (gyne) so‘zining o‘zagidan (γυναικ-) kelib chiqqan bo‘lib, "ayol" va -logia "tadqiqot" degan ma’noni anglatadi. So‘zma-so‘z tarjima qilinganda, bu "ayollarni o‘rganish" degan ma’noni anglatadi.

"Abort" ("abortion") so‘zi lotincha "homiladorlikni yo‘qotish" degan ma’noni anglatuvchi abortiō so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, "homiladorlikni yo‘qotish" degan ma’noni anglatadi. Bu lotincha fe’l ab- ("noto‘g‘ri" degan ma’noni anglatadi) va orīrī ("paydo bo‘lmoq" degan ma’noni anglatadi) so‘zlarining birikmasidir.

Lotincha ildizlari: Bu atama lotincha aborīrī so‘zining harakat otini ifodalovchi abortiō (genitiv abortiōnis)ga borib taqaladi.

Aborīrī (homiladorlikni yo‘qotish): Bu lotincha fe’l quyidagilardan iborat:

ab-: Bu yerda "noto‘g‘ri" yoki "uzoqda" degan ma’noni anglatsa, orīrī: "paydo bo‘lmoq", yoki "tug‘ilmoq" degan ma’noni anglatadi.

Ma'nosi: Bu ildizlarning kombinatsiyasi "tug‘ilgan" yoki "paydo bo‘lmoq" yoki "homiladorlikni yo‘qotish" degan ma’noni anglatadi.

"Abort" so‘zi birinchi marta ingliz tilida 1530 yoki 1540-yillar atrofida paydo bo‘lgan.

"Amenoreya" (Amenorrhea) so‘zi yunoncha ildizlardan kelib chiqqan: a- ("emas"), men- ("oy") va rhein ("oqmoq"), bu so‘zma-so‘z "oylik oqim yo‘q" degan ma’noni anglatadi. Bu hayz ko‘rishning yo‘qligini anglatuvchi tibbiy atama. Bu atama uchta yunoncha so‘zning birikmasidir:\(a-\): "yo‘q" yoki "holda" degan ma’noni anglatuvchi prefiks.\(men-\): "oy" so‘zining ildizi.\(rhein\): "oqmoq" fe'li ot shaklida \(rhoia\) ga aylangan, ya’ni "oqmoq" degan ma’noni anglatadi. Ushbu yunoncha ildizlarning kombinatsiyasi holatning ma’nosini bevosita tavsiflaydi: oylik hayz ko‘rish oqimining yo‘qligi.

"Amnihook" atamasi "amniotic" va "hook" so‘zlaridan olingan "amnio-" so‘zlarining aralashmasidir, bu amniotomiya (membranalarning sun’iy yorilishi) uchun ishlatiladigan ilmoqli uchli tibbiy asbobni anglatadi. U 1968-yilda Hollister, Inc. tomonidan amniotik membrana perforatori uchun savdo belgisi sifatida paydo bo‘lgan.

"Amnio-" prefiksi: Bu qism "amniotic" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, yunoncha amníon ("homila atrofidagi membrana" degan ma’noni anglatadi). "Hook" qo‘shimchasi: Bu qism asbobning shaklini bevosita tavsiflaydi, u amniotik xaltachani ushlash va yorish uchun ishlatiladi. "AmniHook" atamasi Hollister, Inc. tomonidan mualliflik huquqi bilan himoyalangan mahsulot nomi sifatida 1968-yil atrofida fanga kiritilgan.

"Amenoreya" so‘zi yunoncha so‘zdan olingan: a- (yo‘q), men- (oy) va rhoia (oqim), bu so‘zma-so‘z "oylik oqim yo‘q" degan ma’noni anglatadi. Bu so‘z zamonaviy lotin tilida hayz ko‘rishning yo‘qligini tasvirlash uchun ishlatilgan.

Amenoreya so‘zi yunoncha ildizlardan kelib chiqqan: "\(a\)-" ("yo‘q" degan ma’noni anglatadi), "\(men\)" ("oy" degan ma’noni anglatadi) va "\(rhoia\)" ("oqim" degan ma’noni anglatadi). Bu atama birgalikda "oylik qon yo‘q" degan ma’noni anglatadi, bu hayz ko‘rishning yo‘qligini izohlaydi.

"Amnioskop" so‘zi yunoncha "amnio-" so‘zidan, ya'ni homila membranasidan va "-scope" so‘zidan, ya’ni "qarash yoki ko‘rish" so‘zidan kelib chiqqan qo‘shma so‘zdir. U birinchi marta 1960-yillarda ishlatilgan, xususan, Oksford inglizcha lug‘atiga ko‘ra, The Lancet jurnalining 1964-yilgi sonida hujjatlashtirilgan.

Amnio-: Bu prefiks yunoncha amníon (ἀμνίον) so'zidan kelib chiqqan bo‘lib, "homilani o‘rab turgan membrana" yoki "to‘plash" degan ma’noni anglatadi.

-Scope: Bu qo‘shimcha yunoncha skopos (σκοπος) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, "kuzatuvchi" yoki "ko‘rish" degan ma’noni anglatadi. Lug‘aviy ma’nosi: amniotik bo‘shliq va uning tarkibini tekshirish uchun ishlatiladigan endoskop.

**Natijalar va muhokama**

Ingliz tilidagi ayrim ginekologik terminlarning etimologik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu leksik birliklarning aksariyati yunon va lotin tillaridan kelib chiqqan. Natijalar ingliz tibbiy terminologiyasi, ayniqsa ginekologiya sohasi, klassik til asoslariga tayanishini tasdiqlaydi. Bu esa ilmiy diskursda aniqlik, universallik va terminologik barqarorlikni ta’minlaydi.

Ginekologik terminlarning koʻpchiligi tuzilish jihatidan yunon tiliga mansub morfemalardan tashkil topgan. Masalan, *gynecology* termini yunoncha *gynē* (ayol) va *logos* (ta'limot, fan) komponentlaridan hosil boʻlgan boʻlib, sohaning mazmun-mohiyatini aniq ifodalaydi. Xuddi shuningdek, *hysterectomy* termini *hystera* (bachadon) va *-ectomy* (jarrohlik yoʻli bilan olib tashlash) qismlaridan tuzilgan, *menopause* esa yunoncha *mēn* (oy) va *pausis* (toʻxtash) soʻzlaridan kelib chiqqan. Bu holatlar etimologik shaffoflik tibbiy terminlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekanini koʻrsatadi, chunki termin ma'nosi koʻpincha uning tarkibiy qismlaridan kelib chiqib anglash mumkin.

Yana bir muhim natija lotin tilining tibbiy terminologiyani standartlashtirishdagi roli bilan bogʻliq. *Uterus*, *vagina*, *ovarium* kabi terminlar ingliz tiliga lotin anatomik nomenklaturasi orqali kirib kelgan. Vaqt oʻtishi bilan bu oʻzlashmalar ingliz ilmiy lugʻatiga toʻliq integratsiyalashib, oʻzining dastlabki semantik yadrosini saqlab qolgan holda ingliz tilining fonologik va morfologik me'yorlariga moslashgan. Bu jarayon lingvistik assimilyatsiya va semantik davomiylikning uygʻunlashganligini koʻrsatadi.

Tahlil shuningdek ayrim terminlar tarixiy taraqqiyot jarayonida semantik oʻzgarishlarga uchraganini ham koʻrsatadi. Masalan, *hysteria* termini dastlab yunoncha *hystera* (bachadon) soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, qadimgi tibbiy qarashlarga koʻra ruhiy buzilishlar ayol fiziologiyasi bilan bogʻlangan deb hisoblangan. Biroq zamonaviy tibbiy diskursda bu termin bevosita ginekologik ma'nosini yoʻqotib, kengroq psixologik mazmun kasb etgan. Ushbu misol etimologik tadqiqot nafaqat til evolyutsiyasini, balki ilmiy va madaniy tasavvurlarning oʻzgarishini ham ochib berishini koʻrsatadi.

Bundan tashqari, tadqiqot zamonaviy ginekologik terminologiyada klassik ildizlar va zamonaviy ingliz affikslari birikmasidan tashkil topgan gibrid shakllar tobora koʻpayib borayotganini aniqladi. Bunday gibridizatsiya ilmiy tilning dinamik xususiyatini va uning yangi tibbiy kashfiyot hamda konseptual yangiliklarga moslashuvchanligini namoyon etadi.

Muhokama natijalari etimologik tahlil tibbiy terminologiyaning strukturaviy tashkil topishi va semantik asoslanishini anglashda samarali vosita ekanini tasdiqlaydi. Yunon va lotin ildizlarining ustunligi xalqaro miqyosda tushunarlilikni ta'minlaydi, bu esa global tibbiy muloqot uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, semantik transformatsiya va gibridizatsiya ingliz tilining fan tili sifatidagi moslashuvchanligini koʻrsatadi.

Umuman olganda, ginekologik terminlarning etimologiyasi tibbiy bilimlarning tarixiy rivojlanishi, ayollar salomatligiga oid madaniy qarashlar hamda lingvistik standartlashuv jarayonlari bilan chambarchas bogʻliqdir. Demak, etimologiyani oʻrganish nafaqat leksik birliklarning kelib chiqishini aniqlash, balki tibbiy diskursning konseptual va madaniy qirralarini chuqurroq anglash imkonini ham beradi.

## Xulosa

Xulosa qilish mumkinki, tibbiyot terminlarining paydo boʻlishi lotin tili bilan bogʻliq. Tibbiy atamalarning leksik-semantik xususiyatlariga ularning koʻpincha murakkab va qoʻshma tuzilishi, aniq va oʻziga xos ma'nolari kiradi. Koʻpgina tibbiy atamalar prefikslar, ildizlar va qoʻshimchalar kabi bir nechta morfemalardan iborat boʻlib, ular muayyan tibbiy tushuncha yoki fikrni bildirish uchun birlashadi. Tibbiy atamalarning morfologik tuzilishi va etimologiyasini tushunish toʻgʻri tarjima qilish uchun zarur. Qolaversa, tibbiyot sohasida yangi kashfiyotlar va yutuqlarga erishilayotgani sayin tibbiyot terminologiyasi ham doimo rivojlanib, kengayib bormoqda. Bu shuni anglatadiki, tarjimonlar toʻgʻri va dolzarb tarjimalarni taqdim etish uchun manba va maqsad tillardagi soʻnggi tibbiy terminologiya va tushunchalardan xabardor boʻlishlari kerak.

## Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Achilova F.A., Achilova Y.A 'The importance of foreign languages in teaching medical terminology to medical students', Inter education & global study, vol.3. (5(1)), (2025) pp. 383–388.
2. Aynazarova, M.T. Tibbiyotda lingvistik kompetensiya va terminologiya asoslari / // Tibbiyot va ta'lim jurnali. – 2020. – № 4. – B. 25–31.
3. Urdang, G. Mosby's Medical Dictionary / G. Urdang (ed.). – 11th ed. – St. Louis: Mosby, 2020. – 2000 p.
4. Lejchik, V.M. Terminology: object, structure. Moscow, 2012.
5. www.wikipedia

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Tadjibayev Muzaffar Turamirzayevich**
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali v.b. dotsenti
Email: abdugaffor16@gmail.com

**UO'K 004.912:81'25**

## MASHINAVIY TARJIMANING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada mashinaviy (avtomatlashtirilgan) tarjimaning shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mashinaviy tarjimaning nazariy asoslari, uning kompyuter lingvistikasi bilan uzviy bog'liqligi hamda XX asrning birinchi yarmidan hozirgi kungacha bo'lgan rivojlanish jarayoni yoritiladi. Dekart g'oyalaridan SI tarjimasigacha bo'lgan muhim tarixiy bosqichlar ilmiy manbalar asosida ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar*****:** *tarjima, mashinaviy tarjima, avtomatlashtirilgan tarjima, kompyuter lingvistikasi, sun'iy intellekt, Jorjtaun tajribasi, ALPAC, tarjima tarixi.*

**Таджибаев Музаффар Турамирзаевич**
и.о. доцент Наманганского филиала
Ташкентского международного университета Кимё

## ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ МАШИННОГО ПЕРЕВОДА

***Аннотация:*** *В статье рассматриваются процесс становления и основные этапы исторического развития машинного (автоматизированного) перевода. Анализируются теоретические основы машинного перевода, его связь с компьютерной лингвистикой, а также эволюция данной области с первой половины XX века до современности. Исследуются ключевые исторические этапы развития машинного перевода — от идей Рене Декарта до переводческих систем, основанных на искусственном интеллекте, на основе научных источников.*

***Ключевые слова****: перевод, машинный перевод, автоматизированный перевод, компьютерная лингвистика, искусственный интеллект, Джорджтаунский эксперимент, ALPAC, история перевода.*

**Tadjibayev Muzaffar Turamirzayevich**
Acting Associate Professor, Namangan Branch
Kimyo International University of Tashkent

## HISTORICAL STAGES IN THE DEVELOPMENT OF MACHINE TRANSLATION

***Annotation:*** *The article examines the formation and historical development stages of machine (automated) translation. It analyzes the theoretical foundations of machine translation, its close relationship with computational linguistics, and the evolution of this field from the first half of the twentieth century to the present day. Key historical stages in the development of machine translation, from René Descartes' ideas to artificial intelligence–based translation systems, are examined on the basis of scholarly sources.*

***Key words:*** *translation, machine translation, automated translation, computational linguistics, artificial intelligence, Georgetown experiment, ALPAC, history of translation.*

### Kirish

Globallashuv davrida insonlar, davlat va jamiyatlar o'rtasida muloqotga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib borishi bilan ular o'rtasida aloqa o'rnatishda tarjimaning ahamiyati unga proportsional ravishda o'sib boradi. Natijada tarjimonlarga bo'lgan talab oshib bormoqda va bu o'z navbatida ular zimmasidagi tarjima loyihalari hajmini xuddi shu nisbatda kengaytirdi. Ushbu sharoitda o'z kasbiy faoliyatlarini tobora qat'iy vaqt cheklovlari ostida amalga oshirishga majbur bo'lgan tarjimonlar texnologiya yutuqlari taqdim etgan yordamchi vositalarni sohaga integratsiya qildilar. Bu esa, o'z navbatida mashinavi tarjima deb ataluvchi yangi sohaning shakllanishiga olib keldi. Bunday tizimlarning rivojlanishi tarjima jarayonini optimallashtiribgina qolmay, balki axborotni tez tarjima qilish va katta hajmdagi matnlarni qisqa vaqt

ichida tarjima va tahrir qilish imkonini berdi. Bu orqali bugungi kunimizning bosh talabi bo‘lgan kamroq vaqt va xarajat qilgan holda axborotni qayta ishlanishiga erishildi. Mashina tarjimasi nisbatan yosh fan sohasi ekanligiga qaramay, information texnologiyalar sohasinining tarkibida ha eng jadal ricojlanayotga fan tarmogiga aylandi.

**Adabiyotlar tahlili**

Tarjimaning lingvistik asoslari tarjimashunoslik doirasida yoritilgan ishlarda keng tahlil qilingan. Xususan, tarjimani invariant mazmunning bir tildan ikkinchisiga ko‘chirilishi sifatida talqin qiluvchi yondashuv tarjima jarayonining matnlararo (metamatn) tabiatini ochib beradi. Mashinali tarjima tarixini tizimli ravishda o‘rganishda Jon Hatchins tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Olim mashinali tarjima rivojini yetti bosqichga ajratib, ushbu sohaning shakllanishi va taraqqiyotini ijtimoiy-siyosiy hamda texnologik omillar bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Mashinaviy tarjimaning falsafiy ildizlari Rene Dekart qarashlarida ham kuzatiladi. Dekart tillar o‘rtasida universal kod mavjudligi g‘oyasini ilgari surib, tarjimani mexanizatsiyalash mumkinligini nazariy jihatdan asoslashga uringan. Uorren Uiverning 1949 yildagi mashhur “Translation” memorandumi mashinali tarjima tarixida burilish nuqtasi hisoblanadi. 1954 yildagi Jorjtaun tajribasi mashinali tarjimaning amaliy imkoniyatlarini namoyish etgan ilk muvaffaqiyatli loyiha sifatida adabiyotlarda keng yoritilgan. Shu bilan birga, Yeshua Bar-Hillel kabi olimlar tomonidan bildirilgan tanqidiy fikrlar mashinali tarjimaning cheklovlarini ochib berdi va semantik muammolarni hal etish zarurligini ko‘rsatdi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur maqolada mashinaviy tarjimaning shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlarini yoritish maqsadida tarixiy–xronologik metod qo‘llanildi. Ushbu metod orqali mashinaviy tarjima g‘oyalarining dastlabki paydo bo‘lishidan boshlab hozirgi sun’iy intellektga asoslangan tarjima tizimlarigacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlari ketma-ketlikda tahlil qilindi. Xususan, Troyanskiy, Uiver, Jorjtaun tajribasi, ALPAC hisobotlari hamda Hatchins tasnifi tarixiy jarayon doirasida o‘rganildi. Deskriptiv-tahliliy metod asosida mashinaviy tarjima tushunchasi, uning tor va keng ma’nolari, shuningdek, “mashinaviy tarjima” va “avtomatlashtirilgan tarjima” terminlarining mazmuniy farqlari ilmiy manbalar asosida tavsiflandi va izohlandi. Komparativ metodi orqali AQSh va SSSRda olib borilgan mashinaviy tarjima tadqiqotlari o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi. Ilmiy adabiyotlar, xususan, Hatchins, Filinov, Bar-Hillel, Uiver va boshqa olimlarning ishlari o‘rganildi hamda tizimlashtirildi.

**Natijalar va ularning tahlili**

“Tarjima lingvistik matn kodini, tarzini o‘zgartirish bo‘lib, bu jarayonda uning yangi lingvistik va uslubiy shakli yaratiladi. Tarjima invariant (mazmun)ning bir matndan ikkinchisiga o‘tishi bo‘lib, bunda asliyatning uslubiy va boshqa o‘ziga xos xususiyatlari imkon qadar saqlanadi va bu tarjima matnlararo (metamatn) tusini oladi” [1].

Tarjimaga zamonaviy dunyoning qoyayotgan talablari tilshunoslik va kompyuter texnologiyalari kesishgan nuqtaqa kompyuter lingvistikasi nomli fan sohasining paydo bo‘lishiga, tarjima sanoatida esa “mashinaviy tarjima” deb nomlangan yangi sohaning shakllanishiga olib keldi.

Avtomatlashtirilgan (yoki mashinaviy) tarjima ikki xil ma’noga ega. Tor ma’noda bir matnni bir tildan ikkinchi tilga kompyuter yordamida to‘liq yoki deyarli to‘liq tarjima qilish jarayonidir. Ushbu jarayon davomida mashinaga lug‘at asosiga ega, hech qanday qo‘shimcha ko‘rsatmalarsiz asl matn kiritiladi va dastlabki matnning tarjimasi hisoblangan boshqa tildagi matn hosil bo‘ladi. Keng ma’nodagi avtomatlashtirilgan tarjima esa tilshunoslik, matematika va kibernetika fanlari kesishgan nuqtada joylashgan hamda mashinali tarjimani amalga oshiruvchi tizimlarni yaratishni o‘z oldiga maqsad qilgan ilmiy tadqiqot sohasi hisoblanadi [2].

Mashinaviy tarjima sun’iy intellekt va ayrim alogirtmlardan foydalanib, inson aralashuvisiz bir tildan boshqa tilga tarjimalarni avtomatik ravishda hosil qiladi.

Ayrim tadiqotchilar bu jarayonni Rene Dekart (1596-1650) tadqiqotlar bilan bog‘laydi. Fransuz faylasufi “Metod haqida mulohazalar” asarida barcha tillarni birlashtiruvchi yagona kod mavjud va bir tildan ikkinchi tilga tarjima jarayonida mashinadan (yoki yordamchi mexanizmdan) foydalanish mumkin deb hisoblagan [4].

Turk tadqiqotchilari H. Merkan, Y. Akgun M. Adachio‘g‘lularning fikricha MT tarixi 1933 yilda sovet olimi P. Troyanskiy SSSR Fanlar akademiyasiga mexanikm tarjima mashinasini taqdim etgan paytdan boshlanadi. Bu to‘rtta turli tildagi kartochkalar, yozuv mashinkasi va eski tipdagi kinokameradan iborat bo‘lgan juda sodda ixtiro edi. Biroq u akademiya tomonida foydasiz deb topilgan va shu orada Troyanskiy ixtirosini yakunlashga urinayotgan paytda vafot etgan [5].

Filinovning fikricha mashinaviy tarjimaning rasmiy ravishda paydo bo‘lgan vaqti 1947 yilning mart oyiga to‘g‘ri keladi. Aynan shu davrda Rokfeller jamg'armasining tabiiy fanlar bo‘limi direktori hamda kriptograf mutaxassis Uorren Uiver o‘z hamkasbi Norbert Uinerga xat yo‘llab, urush yillarida shifrlarni yechishda qo‘llanilgan elektromexanik qurilmalar vazifalari bilan mashinali tarjima vazifalarini ilk bor qiyoslagan [4].

Uiver 1949 yilda mashinaviy tarjima tizimlarini yaratishning nazariy imkoniyatlarini asoslashga bag‘ishlangan mashhur “Translation” (Tarjima) memorandumini taqdim etdi. Unda u shunday yozadi: “Ko‘z o‘ngimda rus tilida

yozilgan matn turibdi, biroq men uni ingliz tilida yozilgan va g‘oyat noodatiy belgilar bilan kodlangan deb hisoblayman. Undagi axborotni olish uchun faqatgina kodni yechish kifoya” [5].

1952 yilda Massachusets texnologiyalar institutida mashinaviy tarjimaga bag‘ishlangan ilk ilmiy konferensiya o‘tkazildi. 1954 yilda esa Nyu-York shahrida IBM kompaniyasi Jorjtaun universiteti bilan hamkorlikda IBM Mark II tizimini yaratdi. Ushbu voqea tarixda “Jorjtaun eksperimenti” nomi bilan mashhur bo‘ldi va AQSh va SSSR o‘rtasidagi ilmiy-texnologik raqobat mashinali tarjima sohasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Hatchins mashinaviy tarjima sohasini har tomonlama tadqiq qilib, uning rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi. U mashinali tarjima tarixini yetti bosqichga ajratadi [3]:

1.Izlanishlar va pionerlar davri (1933–1956);

2.Katta umidlar va ularning oqlanmasligi (1956–1966);

3.ALPAC hisobotlari va ularning oqibatlari;

4.“Sokin o‘n yillik” (1967–1976);

5.Operatsion va tijoriy tizimlar davri (1976–1989);

6.Tadqiqotlarni jonlantirish bosqichi (1976–1989);

7.1989 yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davr.

Xatchinsga ko‘ra, mashinali tarjima sohasidagi dastlabki g‘oyalar 1933 yilda ilgari surilgan. Biroq u mashinali tarjimaning rasmiy “tug‘ilgan” vaqti sifatida 1947 yilda Uorren Uiver tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va yozilgan memorandumni e’tirof etadi.

Jorjtaun tajribasi davomida Dostert boshchiligidagi fransuz tadqiqotchilar guruhi tomonidan atigi oltita asosiy grammatik qoida asosida tuzilgan, cheklangan miqdordagi gaplarni tarjima qila oladigan mashina ishlab chiqildi. Mashinaning lug‘at zahirasi bor-yo‘g‘i 250 so‘zdan iborat bo‘lib, har bir so‘z qaror qabul qilish uchun mo‘ljallangan binar tizimni ifodalovchi ikki raqam orqali kodlangan edi. Juda cheklangan imkoniyatlariga qaramay, tajriba natijalari hayratlanarli bo‘ldi: rus tilidagi so‘z birikmalari va gaplar perfokartalar yordamida mashinaga kiritilib, taxminan o‘n daqiqadan so‘ng tarjima natijalari olinardi [6].

1956–1966 yillar mashinali tarjimada katta umidlar va ularning oqlanmasligi davri sifatida tavsiflanadi. 1954 yildagi muvaffaqiyatli namoyish Markaziy razvedka boshqarmasi e’tiborini Jorjtaun loyihasiga qaratdilar va “SSSRga yetib olish” zaruratini asos qilib, yiliga yuz minglab dollardan iborat yirik moliyalashtirishga erishdilar. Ushbu loyiha doirasida taxminan 8 mingta organik kimyo terminlari perfokartalarga kodlanib tarjima qilindi.

Biroq 1960-yillarga kelib vaziyat keskin yomonlashdi. Mashinali tarjima bo‘yicha ilk mutaxassislardan biri, faylasuf Yeshua Bar-Hillel mashinali tarjima kelajakda ham to‘liq amalga oshirilishi mumkin emasligini ta’kidladi [6].

1964 yilda AQShda mashinali tarjimani moliyalashtiruvchi tashkilotlar Milliy ilmiy fonddan avtomatlashtirilgan tillarni qayta ishlash va mashinali tarjima sohasidagi taraqqiyotni baholash uchun ALPAC (Avtomatlashtirilgan tillarni qayta ishlash bo‘yicha maslahat qo‘mitasi)ni tashkil etishni so‘radilar. 1966 yilda e’lon qilingan ALPAC hisobotida mashinali tarjima inson tarjimasiga nisbatan sekin, samarasiz va ikki baravar qimmat degan xulosa chiqarildi. Bu esa AQShda mashinali tarjima tadqiqotlarini moliyalashtirishning keskin qisqarishiga olib keldi.

1967–1976 yillar “Sokin o‘n yillik” deb atalishiga qaramay, tadqiqotlar to‘liq to‘xtab qolmadi. Biroq yo‘nalish o‘zgardi: agar ALPACgacha bo‘lgan davrda “to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima” ustun bo‘lgan bo‘lsa, undan keyingi bosqichda bilvosita, vositachi modellar rivojlantirildi.

1976–1989 yillarda AQSh, Yevropa, Yaponiya, Xitoy kabi hududlarda ko‘plab operatsion va tijoriy mashinali tarjima tizimlari yaratildi (TITUS, METAL, SPANAM, ENGSPAN va boshqalar). 1980-yillarda mashinali tarjima dasturlari morfologik, sintaktik va semantik tahlilga asoslandi. Rossiyada Retrans Vista kabi ilk tijoriy mahsulotlar paydo bo‘lib, ular millionlab terminlar va barqaror iboralarni qamrab oldi.

1989 yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davr mashinali tarjima tarixining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Internet va axborot texnologiyalarining jadal rivoji statistik va misollarga asoslangan tarjima usullarining keng qo‘llanilishiga olib keldi. Bugungi kunda ko‘plab tizimlar sun’iy intellektga asoslangan holda faoliyat yuritmoqda. Turkiya, Xitoy, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi davlatlar ham o‘z sun’iy intellektga asoslangan tarjima tizimlariga ega bo‘lib, SIga asoslangan tarjima tizimi bir nechta alohida maqolalarga mavzudir.

**Xulosa**

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, SSSRda mashinali tarjima bo‘yicha tadqiqotlar AQSh bilan deyarli bir vaqtda olib borilgan. Bu esa mashinali tarjima tizimlarini birinchi bo‘lib yaratish borasidagi ilmiy poyganing jadallashuviga sabab bo‘ldi. Xulosa qilib aytganda, mashinali tarjima nisbatan yosh soha bo‘lishiga qaramay, qisqa tarixiy davr ichida cheklangan so‘z birikmalarini tarjima qilishdan murakkab va keng qamrovli matnlarni tarjima qilish darajasiga yetdi. Bu esa mashinali tarjima tizimlarining shakllanishi va rivoji zamon talabi ekanligini yaqqol ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Жўраев К., Расулов М., Аҳмедова М.Таржимашунослик. – Т. Академнашр. 2015. – Б. 88.
2. Воронович В. В. (2013). Машинный перевод (курс лекций). – Минск, 39 с.
3. Hutchins, W. J. (1995). *Machine Translation: A Brief History.* Oxford: Pergamon Press. 431-445. DOI:10.1016/B978-0-08-042580-1.50066-0
4. Филинов Е.Н. История машинного перевода.- Виртуальный компьютерный музей. Murojaat etilgan sana 27.12.2025. http://
www.computer-museum.ru/histsoft/histmt.htm
5. Mercan, Hanımnur; Akgün, Yaşar; Odacıoğlu, Mehmet Cem (2024). Makine Çevirisinin Tarihsel Süreci. *International Journal of Language and Translation Studies*, 4/1, 104-116.
6. W. John Hutchins. The development and use of machine translation systems and computer-based translation tools. International
Symposium on Machine Translation and Computer Language Information Processing. Beijing, China, 26-28 June 1999.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Nishonova Adiba Adxamjon qizi**
Namangan davlat universiteti 2-bosqich tayanch-doktoranti
@adibanishonova97gmail.com

## METAFORIK ANGLASH JARAYONIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TRANSFORMATSIYASI

***Annotatsiya:*** *Maqolada o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning semantik transformatsiyasi va qayta anglanish jarayoni tadqiq qilinadi. Frazeologizmlar o‘zining birlamchi nominativ ma’nosidan chiqib, kontekstda yangi metaforik, ekspressiv va lingvomadaniy qirralarga ega bo‘lishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, frazeologizmlarning badiiy matnlarda mazmuniy yukini kengaytirishi, ijtimoiy-axloqiy va estetik funksiyalarni bajarishi ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarning nafaqat til tizimidagi, balki madaniy-ma’naviy jarayonlardagi muhim o‘rnini ochib beradi.*

***Kalit so‘zlar****: frazeologik birlik, integratsiya, tranformatsiya, frazeologiya, konnotatsiya, semantika, sema.*

**Нишонова Адиба Адхамжон кизи**
Наманганский государственный университет, соискатель второго года обучения

## СЕМАНТИЧЕСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПРОЦЕССЕ МЕТАФОРИЧЕСКОГО ВОСПРИЯТИЯ

***Аннотация:*** *В статье исследуется процесс семантической трансформации и переосмысления фразеологических единиц в узбекском языке. Показано, что фразеологизмы выходят за рамки своего исходного номинативного значения и в контексте приобретают новые метафорические, экспрессивные и лингвокультурные оттенки. Особое внимание уделяется их роли в художественных текстах, где они расширяют смысловую нагрузку и выполняют социально-нравственные и эстетические функции. Результаты исследования подчеркивают значимость фразеологических единиц не только в языковой системе, но и в культурно-духовной жизни общества.*

***Ключевые слова****: фразеологическая единица, фразеология, коннотация, семантика, сема.*

**Adiba Adxamjon qizi Nishonova**
Namangan State University, 2nd-year PhD student

## SEMANTIC TRANSFORMATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE PROCESS OF METAPHORICAL PERCEPTION

***Annotation:*** *The article explores the process of semantic transformation and reinterpretation of phraseological units in the Uzbek language. It demonstrates how phraseologisms transcend their primary nominative meaning and acquire new metaphorical, expressive, and linguocultural dimensions in context. Particular emphasis is placed on their function in literary texts, where they expand semantic load and fulfill socio-ethical as well as aesthetic roles. The findings highlight the importance of phraseological units not only within the linguistic system but also in broader cultural and spiritual contexts.*

***Key words:*** *phraseological unit, phraseology, connotation, semantics, sema.*

### Kirish

Frazeologik birliklar tilshunoslik fanining muhim tadqiqot sohalaridan biri bo‘lib, ularning semantik xususiyatlarini o‘rganish tilning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur anglashga xizmat qiladi. Tilning o‘ziga xosligi, milliy xususiyatlarini aks ettiruvchi frazeologizmlar insoniyatning turli madaniyatlari, dunyoqarashlari va tarixiy tajribalarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu bois frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini o‘rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy, psixologik va sotsiologik jihatdan ham ahamiyat kasb etadi. Olamning lisoniy manzarasini yaratishda frazeologizmlar alohida rol o‘ynaydi. Aniqrog‘i, olam lisoniy manzarasining bo‘lagidir. Frazeologik birliklar “Xalq hayotining ko‘zgusi”dir. Frazeologik birliklarning tabiati til egasining bilimlari, hayotiy tajribasi va mazkur tilda

so‘zlovchi xalqning madaniy-tarixiy an’analari bilan chambarchas bog‘liqdir. Frazeologik birliklarning semantikasi inson va uning faoliyatini tavsiflashga qaratiladi. [1]

Frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini tadqiq etish orqali ularning lug‘aviy ma’nosi, strukturasi va funksional jihatlari aniqroq ochib beriladi. Ushbu mavzuni tadqiq qilish tilning semantik tizimida frazeologizmlarning o‘rni va rolini belgilashga yordam beradi. Jumladan, frazeologik birliklarning metaforik, metonimik, sinonimik va antonimik munosabatlarini tahlil qilish orqali ularning semantik o‘zgaruvchanligi va turli ma’nodorlik darajalari aniqlanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar**

Frazeologizmlar semantikasi til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatish bilan birga, milliy o’zlikni anglash va asrab-avaylashning muhim vositasi hisoblanadi. Shu bois, ushbu tadqiqotning amaliy ahamiyati nafaqat tilshunoslik, balki tarjimashunoslik, madaniyatshunoslik, pedagogika kabi sohalar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, ularning tarkibiy tuzilishini va mantiqiy bog‘lanishini aniqlash orqali ilmiy hamjamiyatga yangi nazariy va amaliy malanishini aniqlash orqali ilmiy hamjamiyatga yangi nazariy va amaliy ma’lumotlar taqdim etiladi. Shuningdek, madaniy-milliy o‘ziga xoslikni aniqlashda madaniy-milliy konnotatsiyani ochish juda muhimdir.[2]

Frazeologik semantika leksik semantikaga juda yaqin bo‘lsa-da, u mustaqil va o‘ziga xos bir qator xususiyatlarga ega. Frazeologik birliklar (FE) o‘z tuzilishi va semantik xususiyatlari bilan so‘zlardan farq qiladi. Frazeologiyaning semantik sohasini o‘rganishda ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan asosiy masalalar quyidagilardan iborat: frazeologik ma’no turlari, frazeologik qayta anglash jarayoni, frazeologik abstraksiya, frazeologizmlarning ichki shakli va frazeologik ma’noning turli jihatlari.[3]

Masalan, frazeologik ma’no turlari turli omillar bilan belgilanadi. Frazeologik birliklar odatda so‘zma-so‘z anglashilmay, ularga ma’lum darajada qayta ma’no yuklanadi. Misol uchun, “*til uchida turmoq*” iborasi, so‘zma-so‘z olganda, tilning bir qismida biror narsa borligini anglatadi. Biroq bu frazeologik birlikni ma’nosiga ko‘ra “eslay olmayotgan yoki xotirada turgan, ammo aniq ifodalana olmayotgan narsa” deb tushunamiz. Bu yerda frazeologik qayta anglash jarayoni ro‘y beradi, ya’ni iboraning asl ma’nosi semantik jihatdan o‘zgaradi va boshqa ma’no yuklanadi.

**Natijalar**

Frazeologik qayta anglash jarayoni deganda frazeologizmlar tarkibidagi so‘zlarning o‘z ma’nosidan chetlashib, yangi ma’no hosil qilishi nazarda tutiladi. Masalan, “*ko‘pni ko‘rgan*” iborasi bevosita ko‘z bilan ko‘rishga ishora qilmaydi, balki hayotiy tajribaga ega bo‘lgan shaxsni anglatadi. Bu jarayon natijasida frazeologik birlik o‘ziga xos yangi semantik yuk bilan boyitiladi. *Sen men uchun bir pillapoya bo‘lding, do‘st. Senga oyoq qo‘yib, o‘zimning rutbalarim sari ketdim, do‘st. Abadiyan alvido, ey do‘st! (I.Sulton. Do’st).* “Oyoq qo‘yish” birlamchi ma’noda jismoniy harakatni bildiradi: odamning oyoq qismini yerga, zinaga yoki biror narsaga qo‘yishi. Bu sof nominativ, real harakatni ifodalovchi birikmadir. Matnda esa “senga oyoq qo‘yib” ifodasi o‘zining bevosita **denotativ** ma’nosidan chiqib, ko‘chma – metaforik ma’noda ishlatilgan. U yerda “do‘st” oddiy inson emas, balki “pillapoya”ga tenglashtirilmoqda. Demak, “oyoq qo‘yib” bu yerda “bir narsadan tayanch sifatida foydalanish, uni vosita qilish, undan yuqoriga ko‘tarilish” ma’nosiga ega. Frazeologik qayta anglashda birikma real harakatdan ajralib, abstrakt, ruhiy-ijtimoiy ma’noga ko‘chadi. Matndagi qayta anglash orqali “do‘stdan foydalanib, unga tayanib, o‘z maqom va rutbaga ko‘tarilish” ma’nosi hosil bo‘ladi. “Oyoq qo‘yib” iborasi ushbu parcha kontekstida frazeologik qayta anglash orqali “tayanch sifatida foydalanish, unga suyanib yuqoriga ko‘tarilish” ma’nosini kasb etgan. Denotativ harakat semasi (oyoqni yerga qo‘yish) abstraktlashtirilib, ijtimoiy-ruhiy mazmunga ko‘chirilgan. Bu esa matnga keskin, achchiq, xiyonat ohangini olib kiradi.

Frazeologik abstraksiya esa frazeologizmlar ma’nosida ko‘p hollarda umumlashma tushunchalarning ifodalanishini bildiradi. Misol uchun, “*cho‘ntagi quruq*” iborasi ma’lum bir shaxsning moliyaviy ahvolini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu iborada moliyaviy qashshoqlik umumiy tushuncha sifatida aks etadi va shu orqali ibora semantik jihatdan abstrakt ma’noga ega bo‘ladi.

Frazeologik birliklarning semantik tahlilida muhim kategoriyalardan biri bu — ichki shakldir. Tilshunoslikda frazeologik birliklarning ichki shakli deganda, ibora tarkibidagi so‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosi asosida yuzaga kelgan obrazli tasavvur, ya’ni iboraning tashqi ifodasi orqali anglash mumkin bo‘lgan metaforik asos tushuniladi. Bu ichki shakl ko‘pincha iboraning yuzaki tuzilmasidan farqli holda, uning haqiqiy semantik ma’nosiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos kelmaydi, balki ko‘chma, obrazli yoki konnotativ ma’noni bildiradi.

**Xulosa**

Frazeologik birliklarning semantik transformatsiyasi va qayta anglanishi tilshunoslikda muhim hodisalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida ko‘rindiki, frazeologizmlar o‘zining nominativ ma’nosidan tashqariga chiqib, kontekstda yangi ma’no qirralarini hosil qiladi. Ularning metaforik, ekspressiv va lingvomadaniy funksiyalari badiiy matn mazmunini boyitadi, ijtimoiy-axloqiy mazmunni chuqurlashtiradi va estetik ta’sir kuchini oshiradi.

Frazeologizmlar xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va milliy tafakkurining ifodasi sifatida ham xizmat qiladi. Ularning qayta anglanishi jarayonida umumxalq tajribasi, ma'naviy meros va zamonaviy ijtimoiy munosabatlar o'zaro uyg'unlashadi. Shuning uchun frazeologik birliklar nafaqat til tizimining unsuri, balki lingvomadaniyatning ajralmas bo'lagi sifatida baholanishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklarning semantik kengayishi va qayta anglanishi o'zbek tilshunosligida alohida yo'nalish sifatida izchil o'rganilishi zarur. Bu jarayon nafaqat nazariy tilshunoslik, balki tarjimashunoslik, stilistika, madaniyatshunoslik va badiiy adabiyot tadqiqotlari uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1.Фразеологический словарь русского литературного языка/под ред. А.И.Федорова.–М., 1996; Образные средства русского языка/под ред. В.Н.Телия.-М.,1995

2.В.А.Маслова Лингвокультурология. Учеб. Пособие для студ. Высш. Учебный заведений.-М.: Издательский центр «Академия», 2001.-с.82

3.Н.Ф.Алифиренко, Н.Н.Семененко Фразеологиа и паремиологиа. Учеб. Пособие для студ. Высш. Учебный заведений.-М.: Флинта. 2009. – с.45

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Hamidova Muhayyoxon Obidovna**
Namangan davlat universiteti, O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori, f.f.n.
E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

## SHUKUR XOLMIRZAYEV USLUBIDA RUHIY KECHINMA TASVIRI

***Annotatsiya:*** *Shukur Xolmirzayev asarlarida qahramon ichki dunyosining nozik, tabiiy va hayotiy ifodalanishi, psixologik tasvir vositalarining o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, yozuvchining ruhiy holatlarni ochishda voqea rivoji, tafsilot va ichki monologlardan foydalanish mahorati yoritiladi. Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev uslubining o‘ziga xosligi, uning o‘zbek nasrida psixologik realizmni boyitishdagi ahamiyati atroflicha asoslab berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *uslub, ruhiy kechinmalar, psixologik tasvir, ichki monolog, psixologik realizm, adabiyotshunoslik, badiiy uslub, o‘zbek nasri, ruhiy holatlar, adabiy tahlil, yozuvchining mahorati.*

**Хамидова Мухайёхон Обидовна**
*Наманганский государственный университет, профессор кафедры* дошкольного и начального образования, кандидат филологических наук

## ИЗОБРАЖЕНИЕ ВНУТРЕННЕГО (ДУШЕВНОГО) ПЕРЕЖИВАНИЯ В СТИЛЕ ШУКУР ХОЛМИРЗАЕВА

**Аннотация:** *В произведениях Шукура Холмирзаева раскрывается тонкое, естественное и жизненно правдивое изображение внутреннего мира героя, а также значение средств психологического изображения. Кроме того, освещается мастерство писателя в раскрытии душевных состояний через развитие событий, детали и внутренние монологи. В данной статье всесторонне обоснована самобытность стиля Шукура Холмирзаева и его значимость в обогащении психологического реализма в узбекской прозе.*

**Ключевые слова:** *стиль, душевные переживания, психологическое изображение, внутренний монолог, психологический реализм, литературоведение, художественный стиль, узбекская проза, душевные состояния, литературный анализ, мастерство писателя.*

**Khamidova Mukhayyoxon Obidovna**
Namangan State University, Professor, Department of Preschool and Primary *Education, candidate of philological sciences*

## THE DEPICTION OF INNER (PSYCHOLOGICAL) EXPERIENCE IN THE STYLE OF SHUKUR KHOLMIRZAEV

**Abstract:** *In the works of Shukur Kholmirzaev, a subtle, natural, and life-like portrayal of the protagonist's inner world is revealed, along with the role of psychological descriptive techniques. The writer's mastery in conveying psychological states through the development of events, details, and internal monologues is also highlighted. This article comprehensively substantiates the distinctiveness of Shukur Kholmirzaev's style and its significance in enriching psychological realism in Uzbek prose.*

***Keywords:*** *style, inner experiences, psychological depiction, internal monologue, psychological realism, literary studies, artistic style, Uzbek prose, psychological states, literary analysis, writer's mastery.*

### Kirish.

Sukur Xolmirzayev — o‘zbek adabiyotining salmoqli vakillaridan biri bo‘lib, uning asarlari chuqur psixologik tahlil va ruhiy kechinmalarni o‘zida mujassam etganligi bilan ajralib turadi. Adibning badiiy uslubi, xususan, qahramonlarning ichki dunyosini ifodalashdagi yondashuvi, o‘quvchiga zamon va makondan mustaqil, ma’naviy va ruhiy qiyofalarni kashf etish imkonini beradi. Yozuvchi asarlarida ruhiy kechinmalar va ichki monologlar orqali insonning ichki holatlari, ularning o‘zgaruvchanligi va murakkabligi o‘zining yorqin ifodasini topadi.

### Adabiyotlar tahlili.

Shukur Xolmirzayev ijodi o‘zbek adabiyotshunosligida turli tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan bo‘lib, asosan uning badiiy uslubi, hayotiylik tamoyillari hamda psixologik tasvir mahoratiga alohida e’tibor qaratilgan. Adabiyotshunos olimlar yozuvchining asarlarini tahlil qilish jarayonida qahramon ruhiyati, ichki kechinmalar va ularning badiiy ifodasi masalasini yetakchi mezon sifatida baholaydilar.

Xususan, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida olib borilgan ilmiy izlanishlarda Shukur Xolmirzayev nasrining realizmga asoslanganligi, undagi psixologik chuqurlik va inson ruhiyatini tabiiy tasvirlash xususiyatlari ta’kidlanadi. Ayrim tadqiqotlarda yozuvchining hikoya va qissalarida ichki monolog, tafakkur oqimi, ramziy detallar orqali ruhiy holatlarning ochib berilishi tahlil qilingan. Bu holat adib ijodini psixologik realizm doirasida baholash imkonini beradi.

Shuningdek, Shukur Xolmirzayev ijodi o‘zbek nasrida inson va jamiyat munosabatlarini ruhiy kechinmalar orqali yoritgan adiblar qatorida tilga olinadi. Tadqiqotchilar uning asarlarida sodda voqea tasviri ortida chuqur ma’naviy va ruhiy qatlamlar yashiringanini alohida qayd etadilar. Yozuvchining qahramonlari ko‘pincha ichki iztirob, ikkilanma va hayotiy tanlovlar oldida tasvirlanib, bu holatlar badiiy psixologizm orqali ochib beriladi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Shukur Xolmirzayev uslubida ruhiy kechinmalar masalasi alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, mazkur mavzuni tizimli va kompleks yondashuv asosida tahlil qilish zarurati mavjud.

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Shukur Xolmirzayev uslubida ruhiy kechinmalar tasvirini o‘rganishda adabiyotshunoslikka xos nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi. Bunda adib asarlari yaxlit badiiy hodisa sifatida tahlil qilindi, ya’ni tahlil va sintez metodlari orqali Shukur Xolmirzayevning hikoya, qissa va romanlaridagi ruhiy kechinmalar alohida unsurlar sifatida ajratilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi aniqlashtirildi. Qiyosiy-tipologik metod yordamida yozuvchining psixologik tasvir uslubi o‘zbek nasridagi boshqa adiblar ijodi bilan solishtirildi hamda Shukur Xolmirzayev uslubining o‘ziga xos jihatlari belgilandi. Shuningdek, badiiy matn tahlili metodi asosida qahramonlar ichki holatini ochib beruvchi vositalar — ichki monolog, psixologik tafsilot, ramziy detallar va voqea rivoji jarayonidagi ruhiy o‘zgarishlar o‘rganildi.

Shu bilan birga, psixologik tahlil elementlaridan foydalanilib, qahramon ruhiy kechinmalarining badiiy ifodasi va ularning hayotiy asoslari yoritildi. Ushbu metodologik yondashuvlar majmui Shukur Xolmirzayev uslubida ruhiy kechinmalar tasvirining badiiy-estetik ahamiyatini ilmiy asosda ochib berishga imkon yaratdi.

**Tahlillar va natijalar.**

Shukur Xolmirzayev asarlarida ruhiy kechinmalar tasviri yozuvchining badiiy uslubini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligi adib asarlari bilan yaqindan tanishish jarayonida seziladi. Adib qahramon ruhiyatini ochishda tashqi voqealardan ko‘ra ichki holatlarga ustuvor ahamiyat beradi. Voqealar rivoji ko‘pincha qahramonning ichki kechinmalari, xotiralari va ruhiy iztiroblari bilan uyg‘un holda tasvirlanadi. Bu esa asarlarda psixologik chuqurlik va hayotiylikni ta’minlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Shukur Xolmirzayev ruhiy kechinmalarni tasvirlashda ichki monolog va tafakkur oqimi usullaridan samarali foydalanadi. Qahramonlarning o‘z-o‘ziga murojaat qilishi, ichki savol-javoblari va sukut orqali ifodalangan holatlari ularning ruhiy holatini ochishda muhim badiiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, mayda detallar — tabiat manzaralari, oddiy buyumlar va kundalik holatlar orqali qahramon ruhiyatining aks ettirilishi yozuvchi uslubiga xos jihat sifatida namoyon bo‘ladi.

Natijalar shuni tasdiqladiki, adib asarlarida ruhiy kechinmalar individual xarakterga ega bo‘lib, har bir qahramonning ichki olami o‘ziga xos tarzda ochib beriladi. Yozuvchi keskin dramatik vaziyatlardan ko‘ra, sokin, ammo ma’noli ruhiy holatlarni tasvirlashga moyil. Bu uslub o‘quvchini qahramon bilan ichki muloqotga chorlaydi va uni mushohadaga undaydi.

Darhaqiat, Shukur Xolmirzayev uslubi o‘zbek nasrida psixologik realizmning muhim namunasini tashkil etadi. Adibning ruhiy kechinmalarni tabiiy, hayotiy va badiiy mukammal tasvirlash mahorati uning asarlarining estetik qiymatini oshiradi hamda o‘zbek adabiyotida inson ruhiyatini yoritish an’analarini boyitadi. Olingan natijalar yozuvchi ijodini yanada chuqurroq o‘rganish va zamonaviy adabiyotshunoslik tadqiqotlarida foydalanish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Detal badiiy tasvirdagi muayyan bir kichik bo‘lak (uzv) bo‘lib, uning badiiy asar qurilmasini yuzaga keltirishda o‘rni va ahamiyati nihoyatda muhim. Shukur Xolmirzayev hikoyalarini o‘rganganimizda, detal uning ijodida muhim o‘rin tutganligiga ishonch hosil qilamiz. Mazkur fikrni dalillash maqsadida uning 1960- yilda yozilgan “Notanish odam” hikoyasiga murojaat qilamiz. Hikoya yosh bir yigit, havaskor ovchi tilidan bayon qilingan. Bu asarda bir qancha detallar borki, ular asarning yetakchi badiiy konsepsiyasini yuzaga chiqarishga xizmat qilgan. Bulardan ayrimlarini ko‘rib o‘tamiz: “Jarga yaqinlashishim bilan shuvoq isi aralash tutun dimog‘imga urildi”[5, 12]. Ushbu asarda ifodalangan asosiy fikr kamar (tog‘ yonbag‘ridagi kichik g‘orga o‘xshash joy) ichida yoqilgan gulxan bilan bog‘liq. Shu sababli hikoyadagi boshqa detallar ham birinchi tasvirga bog‘lanib asardagi ustuvor nuqtayi nazarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Shuvoq bilan bog‘liq detalga kitobxon asar davomida yana duch keladi: “Nam shuvoq hidi anqiydi”. Bu endi kamar ichidagi tasvirga aloqador detal. Bu tasviriy uzvlarni muallif izohlamagan. U tasvirni detallashtiradi-yu, voqeaga

aralashmaydi, ya’ni uni izohlamaydi. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan shuvoq bilan bog‘liq ikki detal (kamarda shuvoqning borligi va undan gulxan yoqilgani) bulut va yomg‘irga aloqador detallar bilan birlashib struktur-semiotik nuqtayi nazardan qaralganda yagona paradigmani yuzaga keltiradi: shuvoq isi aralash tutun – nam shuvoq hidi - cho‘ldan ko‘tarilgan bulut –kamar o‘rtasidagi gulxan - yomg‘ir quyishi – notanish odamning soy yoqasida shox-shabba terishi.“Cho‘ldan ko‘tarilgan bulut” roviy nutqida berilmagan. U asardagi dialogda hikoya personajlaridan biri (noma’lum odam) tomonidan aytiladi. Bu hikoya matnidagi eng muhim detal bo‘lib, u nafaqat asardagi boshqa detallar, shuningdek, syujet strukturasi, ustuvor badiiy konsepsiya bilan chambarchas bog‘liq.

Asarning asosiy personaji, nomi ma’lum etilmagan qahramon (notanish odam)ning aytishicha, cho‘ldan ko‘tarilgan bulut “to‘kkan yomg‘ir ancha-muncha

mahalda tinmaydi. Agar bulut tog‘dan pastlagan bo‘lsa, uning yo‘rig‘i boshqa edi”[5, 13]. Hikoyada roviy vazifasini ham bajaruvchi personaj hayotda hali yetarli tajribaga ega emas. Shu boisdan u cho‘l tarafdan kelayotgan bulutni ko‘rsa-da, unga ahamiyat bermagan, oqibatda yomg‘ir ostida qolib ust-boshi shalabbo bo‘ladi. Kamardagi suhbatdoshi unga aytganidek: “Shuni ko‘ra bilganingizda, ilgariroq o‘zingizni panaga tortardingiz, bunday qunishib o‘tirmasdingiz”[5, 13]. Bu mulohazalar kamardagi “qirg‘iz bashara, lekin qoshlari quyuq, qirq yoshlardan oshgan baquvvat kishi” [5, 13] ning kuzatuvchan, tuyg‘un, xalq donoligini o‘z shaxsiyatida jamlagan, dono inson ekanligidan dalolat berib turadi. Ammo bu kichik hajmli asar mazkur personajning amaliy bilimining balandligini ko‘rsatish uchungina yozilmagan. Hikoyada yozuvchining yetakchi niyatini yuzaga chiqarishda “notanish odamning soy yoqasida shox-shabba terishi” bilan bog‘liq detal muhim ahamiyatga ega. Ushbu adabiy uzvning badiiy matn tarkibiga kiritilishi insonparvarlik asosiga ega milliy urf-odat bilan bog‘liq.

Shukur Xolmirzayev bir qancha asarlari, jumladan, “Qil ko‘prik” romanida mana shu ibratli odat haqida personajlar nutqi yoxud xotirasi orqali ma’lumot bergan. Ularda aytilishicha, mana shunaqa kamar yoki o‘rmon ichidagi kulbalarda hamisha o‘tin, tuz, gugurt kabi eng zarur narsalar ehtiyojtalablar uchun saqlab qo‘yilgan. Shu joylarga kelib dam olgan yoki tunab qolgan yo‘lovchilar ushbu zaxiradan foydalanganlar va va ularning o‘rnini to‘ldirib qo‘yganlar. Bunday qadimiy udum yozuvchiga juda kuchli ta’sir qilgan. Chunki u bu kabi an’anada buyuk insoniylik alomatlarini ko‘rgan.

Asar qahramoni (roviy) noma’lum odamning shiddatli yomg‘ir yog‘ayotgan paytda kamardagi gulxan yonida o‘tirishdan oldin soy yoqasiga suv allaqaylardan olib kelgan shox-shabbalarni yugurib-yelib terishini ko‘radi. U bu odamning betgachoparligi (yigitning jala ostida qolishi ilmsizligidan ekanligini darhol aytgani) uchun yoqtirmay qolgan edi. Shu sababga ko‘ra u “...pishiq odam. Bu o‘tinlarni uyiga olib ketadi. Eshagiyam tayyor”, - degan xayolga boradi. Ammo ko‘p o‘tmay uning odamoxunligi (gulxan yoniga o‘tirib yomg‘ir yog‘ishini tomosha qilishni taklif qilishi), mehmondo‘stligi ( xurjindan olgan yog‘liq patir va qurutni birgalikda baham ko‘rishi) tufayli bu odam haqidagi fikri o‘zgaradi.

Badiiy adabiyotda detallar quyidagi tasvirlarga daxldor bo‘lishi mumkin: a) peyzaj. Sh.Xolmirzayevning nafaqat hikoyalari, balki butun ijodida tabiat tasviri (peyzaj) muhim o‘ringa ega. Shu boisdan ham uning ixcham epik asarlaridagi tabiat manzaralari tarkibida ko‘plab detallarni uchratish mumkin: “Bu yerda tuman bor edi. Shuning uchun qor siyrak va yumshoq yog‘ardi” (“Ko‘ngil” hikoyasi). “O‘rtoq direktor xiyobondan sap-sariq barglarni qisir-qisir bosib hafsala bilan yurib keladilar” (“Bir ko‘rgan tanish” hikoyasi).

Birinchi parchadagi tasvirda detal qishga xos bo‘lgan bir alomat (tuman tufayli qorning siyrak va yumshoq yog‘ishi)ni kitobxon ko‘z o‘ngida aniq ta’sirli namoyon etgan bo‘lsa, ikkinchi tasvirdagi detal (xiyobondagi sap-sariq barglar) voqeaning kuz faslida ro‘y berganini obrazli tarzda ifoda etmoqda; b) portret: bunga misol biz dastavval tahlil etgan “Notanish odam” hikoyasida: qirg‘iz bashara, lekin qoshlari quyuk kishi” – inson badiiy suvrati tasviridagi kontrast asosida qurilgan detal personajning o‘ziga xos qiyofasini gavdalantirish ishiga xizmat qilgan; v) interyer – adabiyotshunoslikda ekspozitsiya deb ataladigan tasvir vositasiga taalluqlidir. Ekspozitsiyada biror-bir joy (xona, uy, hovli, ko‘cha, maydon) badiiy ifoda etilsa, intyerer – yopiq binoning ichki tasviri. U “tor ma’noda binoning ichki hududi bo‘lib, o‘z ichiga shu hududga oid narsajihozlarni ham oladi”[8] Bunday tasvirning hikoya, qissa, roman kabi epik janrlarda o‘ziga xos o‘rni bor.

**Xulosalar.**

Umuman olganda, Shukur Xolmirzayev ijodida ruhiy kechinmalar tasviri yozuvchining badiiy uslubini belgilovchi yetakchi jihatlardan biri ekanligi kuzatiladi. Adib asarlarida inson ruhiyati tashqi voqealar bilan uyg‘un holda, ammo asosan ichki kechinmalar orqali ochib beriladi. Bu holat yozuvchining psixologik realizmga asoslangan ijodiy qarashlarini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, Sh. Xolmirzayev uslubida ruhiy kechinmalar tasviri nafaqat adib ijodining muhim jihati, balki o‘zbek adabiyotshunosligida psixologik tahlil yo‘nalishini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan mavzu hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1.Hamidova M. Hozirgi o'zbek adabiyotida milliy qahramon muammosi (Shukur Xolmirzayev ijodi misolida): Monografiya. - Toshkent: Navro'z, 2020.- 148 b.

2.Hamidova M.O.Shukur Kholmirzayev's skills of creating portrait // International Journal of Applied Rezearch 2020; 6 (5): 448-450.- B. 448-450.

3.Karimov H. Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti.- Toshkent: Qatortol-Kamolot, 1999. -80 b.

4.Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asar o'zbek adabiyoti tarixi.- Toshkent: O'qituvchi, 1999.-B. 497-511.

5.Xolmirzayev Sh. Saylanma. 1-jild. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.

6.Xolmirzayev Sh. Saylanma. 3-jild. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.

7.Shukurova B. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida xarakterlar talqini// "Ta'limda filologiyani rivojlantirishning global masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani .- Jizzax, 2021. – 522 b.

8.https://ru.wikipedia.org.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Xashimova Xurshida Djuraxanovna**
University of Business and Science
Til va adabiyot ta'limi kafedrasi dotsenti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Namangan, O'zbekiston
xurshidaxonxashimova@gmail.com
ORCID ID: 0009-0001-6633-6389

## O'ZBEK TEXNIK TERMINOLOGIYASINING TIZIMIY-LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya:*** *Maqolada o'zbek texnik terminologiyasining tizimiy-lingvistik tabiati morfologik, sintaktik va semantik jihatdan kompleks tahlil qilinadi. Terminlarning yasash modellari, paradigmatik va sintagmatik aloqalari, semantik dinamikasi hamda xalqaro terminlar bilan integratsiya jarayoni ochib beriladi. Natijalar o'zbek texnik terminologiyasi milliy til qonuniyatlariga tayangan holda, global terminologik tizim bilan uyg'un rivojlanayotganini ko'rsatiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *texnik terminologiya, tizimlilik, morfologik model, sintaktik model, semantik dinamika, terminologik standartlashuv.*

**Хашимова Хуршида Джураxановна**
Университет бизнеса и науки

## СИСТЕМАТИЧЕСКО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ТЕХНИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

***Аннотация:*** *В статье проводится комплексный системно-лингвистический анализ узбекской технической терминологии. Рассматриваются морфологические и синтаксические модели терминообразования, семантическая динамика терминов, а также их парадигматические и синтагматические связи. Делается вывод о развитии узбекской технической терминологии как целостной системы в условиях глобализации.*

***Ключевые слова:*** *техническая терминология, системность, терминообразование, семантика, стандартизация.*

**Khashimova Khurshida Dzhurakhanovna**
University of Business and Science

## SYSTEMATIC-LINGUISTIC FEATURES OF UZBEKISTAN TECHNICAL TERMINOLOGY

***Annotation:*** *The article presents a comprehensive systemic-linguistic analysis of Uzbek technical terminology. Morphological and syntactic term-formation models, semantic dynamics, and paradigmatic relations are examined. The findings demonstrate that Uzbek technical terminology develops as an integrated system aligned with global terminological standards.*

***Keywords:*** *technical terminology, systemacity, term formation, morphology, semantics, standardization.*

### Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda terminologiya alohida leksik birliklar majmui sifatida emas, balki tushunchalar tizimi bilan uzviy bog'langan murakkab strukturaviy birlik sifatida talqin etiladi. Texnik terminologiya ayniqsa bunday tizimiylikka ehtiyoj sezadi, chunki u ilmiy-texnik tafakkurning aniq va qat'iy mantiqiy ifodasini ta'minlaydi. Texnik terminologiya zamonaviy ilm-fan va texnologiya taraqqiyotining til orqali ifodalanish shakli hisoblanadi. H. Dadaboyev texnik terminologiyani "ilmiy va amaliy tafakkurning til orqali tizimli ifodasi" sifatida talqin qiladi (Dadaboyev, 2019, 101–102-b.). Ushbu yondashuv terminologiyani til tizimining chekka emas, balki markaziy funksional qatlamlaridan biri sifatida baholash imkonini beradi.

Jahon terminologiya maktabida D. Lotte terminlarni alohida birliklar emas, balki tushunchalar tizimining elementlari sifatida o'rganish zarurligini ta'kidlaydi (Lotte, 1961). V. Danilenko esa terminologiyani umumadabiy tilning mustaqil funksional turi – fan tili sifatida izohlaydi (Danilenko, 1977, 8-b.).

**Tadqiqot metodlari**

Texnik terminologiya o‘zbek adabiy tilining funksional qatlamlaridan biri bo‘lib, fan va texnika sohalarida shakllangan tushunchalarni nomlashga xizmat qiluvchi maxsus leksik birliklar tizimini tashkil etadi. H. Dadaboyev texnik terminologiyani milliy terminologiya tizimining ajralmas qismi sifatida baholab, uni ilmiy tafakkurning til orqali ifodalanish shakli deb ta’riflaydi. Olimning ta’kidlashicha, terminologiya umumadabiy til asosida shakllanadi va uning leksik, morfologik hamda grammatik imkoniyatlariga tayanadi (Dadaboyev, 2019, 5-b.). Shu nuqtayi nazardan, texnik terminlar alohida leksik birliklar majmui emas, balki o‘zaro mantiqiy va semantik munosabatlarga kirishgan terminologik sistema sifatida namoyon bo‘ladi. Terminlar faqat shu sistema doirasida o‘zining to‘liq ilmiy mazmunini kasb etadi (Dadaboyev, 2019, 5–6-b.) .

O‘zbek texnik terminologiyasining muhim belgilaridan biri – tizimlilikdir. Terminologik tizim tushunchalar tizimiga bevosita bog‘liq bo‘lib, har bir termin o‘zining yuqori va quyi darajadagi birliklari bilan paradigmatik aloqaga kirishadi. Bu holat texnik terminlarning giperonim–giponim munosabatlari orqali ifodalanadi.

R. Daniyarov texnik terminologiya masalalariga bag‘ishlangan ishlarida terminlarning tizimlilik xususiyatini ularning tushunchalar zanjiri bilan bog‘lab talqin qiladi. Olimning ilmiy tadqiqotlarida terminologiyaning tizimli tabiatiga urg‘u berilib, terminlar alohida emas, balki muayyan texnik soha tushunchalar tizimi doirasida shakllanishi ta’kidlanadi (Daniyarov, 1988, avtoreferat, 3–4-b.). Bu yondashuv keyinchalik Dadaboyev tomonidan rivojlantirilib, texnik terminologiya “ko‘p qatlamli semantik tarmoq” sifatida baholanadi. Olim terminlarning o‘zaro bog‘liqligi ularning bir xil konseptual maydonga mansubligi bilan belgilanishini ko‘rsatadi (Dadaboyev, 2019, 43–44-b.) .

O‘zbek texnik terminlarining shakllanishida morfologik va sintaktik modellar yetakchi o‘rinni egallaydi. H. Dadaboyev termin yasashda affiksatsiya usulining faol ekanini qayd etib, texnik terminlarning katta qismi o‘zbekcha so‘z yasovchi affikslar orqali hosil bo‘lishini ko‘rsatadi (Dadaboyev, 2019, 79–80-b.) .

Masalan:

- –gich / –kich affiksi orqali: *hisoblagich, g‘aramlagich*;
- –lash / –lanish orqali: *betonlash, avtomatlashtirish*;
- –chi affiksi yordamida: *bombardimonchi, dozimetrchi*.

A. Madvaliyev qo‘shma va so‘z birikmali terminlarni struktur jihatdan tahlil qilib, texnik terminologiyada ot+ot, sifat+ot va ot+fe’l modellari ustun ekanini ilmiy asosda ko‘rsatadi (Madvaliyev, 2017, 60–66-b.) .

Texnik terminologiyada o‘zlashma birliklar salmoqli o‘rin egallaydi. Dadaboyev o‘zlashma terminlarning o‘zbek tili fonetik va grammatik qonuniyatlariga moslashuvi natijasida milliylashgan terminlar yuzaga kelayotganini ta’kidlaydi. Masalan, *komitet → qo‘mita*, *bombardirovka → bombardimon*, *kompyuterizatsiya → kompyuterlashtirish* kabi birliklar shular jumlasidandir (Dadaboyev, 2019, 88–90-b.) . Bu jarayon texnik terminologiyaning ichki tizimiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi va terminlarning kommunikativ samaradorligini oshiradi.

**Natijalar**

1-jadval. Tizimiy-lingvistik jadval

O‘zbek texnik terminlarining tizimiy-lingvistik tahlil mezonlari

| Tahlil darajasi | Asosiy belgi | Izoh | Manba |
|---|---|---|---|
| **Leksik-semantik** | Birma’nolilik | Termin bitta ilmiy tushunchani ifodalaydi, ko‘p ma’nolilik cheklangan | Dadaboyev, 2019, 43–44-b. |
| **Paradigmatik** | Giperonim–giponim munosabat | Terminlar tushunchalar zanjiri asosida joylashadi (mexanizm → uzatma → uzel) | Daniyarov, 1988, avtoref., 3–4-b. |
| **Morfologik** | Affiksatsiya | –gich, –lash, –chi orqali termin yasash faol | Dadaboyev, 2019, 79–80-b. |
| **Sintaktik** | So‘z birikmali terminlar | Sifat+ot, ot+ot modellari ustun | Madvaliyev, 2017, 60–66-b. |
| **Funksional** | Ilmiy-uslubiy neytrallik | Terminlar emotsiyasiz, aniq va standart shaklda qo‘llanadi | Madvaliyev, 2017, 45–47-b. |
| **Integrativ** | Xalqaro moslashuv | O‘zlashma terminlar milliy tizimga moslashadi | Dadaboyev, 2019, 88–90-b. |

Ushbu jadval o‘zbek texnik terminologiyasining tizimiy-lingvistik tahlilini ko‘p darajali yondashuv asosida yoritib, terminlarning nafaqat shakliy, balki semantik va funksional jihatdan ham o‘zaro bog‘langanligini ko‘rsatadi.




Mazkur sxema texnik terminning ilmiy tushunchadan boshlanib, terminologik sistema orqali ilmiy-texnik muloqotgacha bo‘lgan yo‘lini aks ettiradi. Bu jarayonda termin paradigmatik, morfologik va sintaktik modellar orqali tizimli ravishda shakllanadi. Keltirilgan jadval va sxema o‘zbek texnik terminologiyasining tizimiy-lingvistik tabiatini vizual va mantiqiy jihatdan ochib beradi. Terminlar alohida birlik sifatida emas, balki tushunchalar tizimi bilan uzviy bog‘langan terminologik sistema tarkibida shakllanishi ilmiy asosda ko‘rsatildi. Bu holat texnik terminologiyani lingvistik tahlil qilishda kompleks va ko‘p darajali yondashuv zarurligini tasdiqlaydi.

O‘zbek texnik terminologiyasining tizimiy-lingvistik tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur soha:

1.umumadabiy til asosida shakllangan;

2.terminologik sistema doirasida rivojlanadi;

3.morfologik va sintaktik modellar orqali faol boyib boradi;

4.o‘zlashma terminlarni milliy til qonuniyatlari asosida moslashtiradi.

R. Daniyarov texnik terminologiyaning tizimlilik tamoyilini nazariy jihatdan asoslab bergan bo‘lsa (1988, avtoreferat), H. Dadaboyev ushbu yondashuvni zamonaviy lingvistik tahlil asosida chuqurlashtirgan (2019), A. Madvaliyev esa terminlarning struktur-modellarini va terminografik xususiyatlarini mukammal tahlil qilgan (2017). Bu holat o‘zbek texnik terminologiyasining ilmiy asoslangan, barqaror va rivojlanishga ochiq tizim ekanini ko‘rsatadi.

2-jadval. Texnik terminlarning morfologik modellariga oid tahlil.

| Morfologik model | Misollar | Izoh | Manba |
|---|---|---|---|
| Affiksatsiya | hisoblagich, o‘lchagich, suzg‘ich | Eng mahsuldor model | Dadaboyev, 2020, 61-b. |
| Yasama termin | kompyuterlashtirish, minalashtirish | O‘zlashma + affiks | Dadaboyev, 2020, 61–62-b. |
| Qo‘shma termin | suvto‘siq, tutunparda | Ikki tushunchali birlik | Madvaliyev, 2017, 60–66-b. |

H. Dadaboyev affiksatsiyani termin yasashning eng faol usuli sifatida baholaydi va uning o‘zbek terminologiyasi taraqqiyotidagi yetakchi o‘rnini ta’kidlaydi (Dadaboyev, 2020, 61-b.).

3-jadval. Texnik terminlarning sintaktik shakllanishi

| Model turi | Tuzilishi | Misol |
|---|---|---|
| Atributiv | sifat + ot | elektr energiyasi |
| Determinativ | tavsiflovchi birikma | gazni bosim bilan o‘lchash qurilmasi |

` A. Madvaliyev atributiv modelni texnik terminlar uchun “eng universal sintaktik shakl” sifatida belgilaydi (Madvaliyev, 2017, 72-b.).

**Muhokama**

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek texnik terminologiyasi:

- milliy tilning so‘z yasash imkoniyatlariga tayangan holda rivojlanadi;
- xalqaro terminlar bilan semantik va struktur moslashuv jarayonini boshdan kechirmoqda;
- terminlarning ko‘p ma’noliligi ilmiy tafakkur kengayishining natijasi bo‘lsa-da, me’yorlashtirish zaruratini kuchaytiradi (Dadaboyev, 2020, 110-b.).

Bu holat D. Lotte tomonidan ilgari surilgan “terminologik sistema” konsepsiyasini tasdiqlaydi.

**Xulosa**

O‘zbek texnik terminologiyasi tizimiy-lingvistik jihatdan shakllangan, morfologik va sintaktik modellarga tayanuvchi, semantik jihatdan dinamik tizimdir. Tadqiqot natijalari texnik terminologiyaning:

1.milliy til asosida rivojlanishini;

2.xalqaro terminologik tizim bilan integratsiyasini;

3.ilmiy tafakkur taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek texnik terminologiyasi tizimli rivojlanish bosqichida bo‘lib, unda milliy til imkoniyatlari va xalqaro terminologik standartlar uyg‘unlashib bormoqda. Shu bilan birga, sinonimiya, variantlilik va o‘zlashma terminlarni me’yorlashtirish masalalari hanuz dolzarb bo‘lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Дадабоев Х. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2019.
2. Данияров Р. Ўзбек терминологиясининг шаклланиши ва ривожи: Филол. фанл. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 1988.
3. Даниленко В. Русская терминология. — Москва, 1977.
4. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари - Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017.
5. Лотте, Д.С. (1961). Основы построения научно-технической терминологии. Москва: Изд-во АН СССР.
6. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:roLk4NBRz8UC
7. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:qjMakFHDy7sC
8. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:2osOgNQ5qMEC
9. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:UeHWp8X0CEIC
10. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC
11. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC
12. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:Se3iqnhoufwC

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Abdivaliyev Obitjon Odiljonovich**
NamDU o'zbek adabiyotshunosligi
kafedrasi o'qituvchisi

## ABDULLA QAHHORNING "O'TMISHDAN ERTAKLAR" QISSASIDAGI "HUR QIZ" QISMATI

***Annotatsiya.*** *Bugungi kunda yaratilayotgan badiiy asarlardagi inson ruhiyati va uning ichki olami bilan bog'liq muammolarga alohida masala sifatida qaralmoqda. Aslida o'tmishda yaratilgan ko'plab asarlarimizda ham bu mavzu mavjud edi. Abdulla Qahhorning o'tmish mavzusidagi "Bemor" ,"Anor", "Boshsiz odam, "Dahshat" hikoyalaridagi ayollar taqdiri, ular ruhiyati bilan bog'liq masalalarning o'ziga xos tarzda ifoda etilganligi ham fikrimizning isbotidir.*

*Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" qissasidagi qahramonlar ruhiyati masalasi tadqiq etilgan. Bu qissada keltirilgan "Hur qiz" nomli hikoyadagi voqealar mazmuni, undagi qahramonlar xarakter xususiyatlari, bosh qahramon yosh Abdullaning bolalik xotiralari asosida o'rganilgan. Amakisining qizi bo'lgan Sarvinisoning erksizligi, ichki ruhiy iztiroblari va ayanchli qismati ifodasi yozuvchining mahorati orqali haqqoniy ochib berilganligi ilmiy tahlil etilgan.*

*Qissada yosh Abdullaning o'z ko'zi bilan ko'rgan va ishtirokchisiga aylangan voqelar keltirilishi, Sarviniso inson sifatida qalbidagi o'z xohish –istaklarini qondira olmaganligi, uni ko'ngil qo'ymagan insonga unashtirib qo'yilishi, uni ko'ngli bilan hech kim hisoblashmasligi, iztiroblar iskanjasida yashashi va otasi tomonidan kaltaklanib o'ldirilishi voqealari yozuvchi mahorati misolida tadqiq etilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *qissa, badiiy asar, qahramonlar ruhiyati, obraz, hikoya, janr, voqea, ifoda, tahlil.*

**Abdivaliyev Obitjon Odiljonovich**
Lecturer, Department of Uzbek Literary Studies,
Namangan State University

## THE FATE OF THE "FREE GIRL" IN ABDULLA QAHHAR'S NOVELLA "TALES FROM THE PAST"

***Annotation.*** *Problems related to the human psyche and its inner world in works of art created today are considered a separate issue. In fact, this topic was present in many of our works created in the past. The fact that the fate of women and issues related to their psyche in Abdullah Qahhor's stories on the theme of the past, "Patient", "Pomegranate", "Headless Man", "Horror", are expressed in a unique way is also proof of our opinion.*

*This article examines the issue of the psyche of the characters in Abdullah Qahhor's story "Tales from the Past". The content of the events in the story "Hur qiz" presented in this story, the character traits of the characters in it, and the childhood memories of the main character, young Abdullah, are scientifically studied. The writer's skill has scientifically analyzed the fact that the helplessness, inner mental anguish and tragic fate of Sarviniso, who is his uncle's daughter, are truthfully revealed.*

*The story presents the events that young Abdullah saw with his own eyes and became a participant in, Sarviniso's inability to satisfy her desires and wishes as a human being, her engagement to a man who did not like her, The events of his being ignored, living in torment, and being beaten to death by his father are explored through the lens of the writer's skill.*

***Keywords:*** *short story, work of art, character psychology, image, narrative, genre, event, expression, analysis.*

**Абдивалиев Обитжон Одилжонович**
«Преподаватель кафедры узбекского литературоведения
Наманганского государственного университета»

## СУДЬБА „РАЙСКАЯ ДЕВА" В ПОВЕСТИ АБДУЛЛЫ КАХХАРА „СКАЗКИ ПРОШЛОГО"

***Аннотация.*** *В современно создаваемых художественных произведениях проблемам, связанным с человеческой психикой и его внутренним миром, уделяется особое внимание как отдельному вопросу. На самом деле эта тема присутствовала и во многих наших произведениях, созданных в прошлом. Судьба женщин и вопросы, связанные с их психологией, своеобразно выраженные в рассказах Абдуллы Каххара на тему прошлого – «Больной», «Гранат», «Человек без головы», «Ужас», – также подтверждают нашу мысль.*

*В данной статье исследуется проблема психологии героев в повести Абдуллы Каххара «Сказки из прошлого». На основе содержания событий в рассказе «Райская дева», включённом в эту повесть, изучены особенности характеров персонажей и детские воспоминания главного героя – юного Абдуллы. Научному анализу подвергнуты бесправие двоюродной сестры героя Сарвинисо (дочери дяди), её внутренние душевные муки и трагическая судьба, раскрытые писателем с подлинным мастерством.*

*В повести рассматриваются события, увиденные собственными глазами юного Абдуллы и превращённого в их участника; показано, что Сарвинисо как человек не смогла удовлетворить свои внутренние желания и стремления, её обручение с нелюбимым человеком, полное игнорирование её чувств, жизнь в тисках страданий и убийство отцом побоями – всё это анализируется на примере писательского мастерства.*

***Ключевые слова:*** *повесть, художественное произведение, психология персонажей, образ, рассказ, жанр, событие, выразительность, анализ.*

**Kirish**

Inson ruhiyati, uning kechinmalari badiiy asarlarda xuddi hayotdagidek aks etar ekan, u kitobxon qalbini larzaga solishi, hayrat iskanjasiga tushirishi va bir umrga uning qalbida saqlanib qolishi tabiiy holatdir. Qahramonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, iztirob va alamlari, muvaffaqqiyatsizligi har qanday o‘quvchi e’tiborini tortadi.

Abdulla Qahhor asarlarida ayollar taqdiri, ular ruhiyati bilan bog‘liq masalalar o‘ziga xos tarzda ifoda etiladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek yozuvchi kashf etgan qahramonlar ichki olami kitobxon iztiroblariga aylanib ulgurganligi ham shundadir. Yozuvchining “Bemor” hikoyasidagi Sotiboldining xotini, “Anor” hikoyasidagi Turobjonning turmush o‘rtog‘i, “Boshsiz odam” asaridagi Niso buvi, “Dahshat”dagi Unsin obrazlarining ayanchli qismati o‘z o‘quvchisi yodida hamon yashab kelayotgani haqiqatdir.

**Adabiyotlar tahlili:**

“Badiiy obraz kitobxonda, albatta, qandaydir estetik hissiyot (emotsiya) uyg‘otishi kerak. Chunonchi, hayotdagi xunuklikni aks ettirgan badiiy obraz kitobxonda nafrat uyg‘otsa, go‘zallikni ifodalagan obraz estetik zavq-shavq, beradi.” [1,50.]. Abdulla Qahhorning yuqoridagi asari qahramoni Sarvinisoning achchiq qismati, insoniy huquqlarining poymol etilishi va aynan bu qotillikning o‘z otasi Abdurahmon tomonidan bajarilishi har qanday kitobxonda nafrat hissini o‘yg‘otadi.

Adabiyot – insonshunoslik ekan, adabiy asardagi obrazlar hayotdagi kishilarning fe’l-atvorlariga – xarakterlariga muvofiq kelishi, eng asosiysi, hayotiy bo’lishi talab qilinadi. [5,47.]. Darhaqiqat, Abdulla Qahhor tasvirlagan bu obrazlar yozuvchining o‘zi ko‘zi bilan ko‘rgan va mana shu voqealarga ham o‘zi guvoh bo‘lganligi uchun ham juda ta’sirli va ishonarlidir. Shu sababli ham yozuvchi qahramonlar xarakterini, fe’l- atvorini tasvirlab berishda aniq voqealarga suyanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi:**

Mazkur maqolada mavzuni yoritishda tarixiy-qiyosiy va tipologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tahlillar va natijalar:**

Yozuvchi Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar”qissasida bir nechta hikoyalar keltiriladi. Shulardan biri “Hur qiz” haqidagi hikoyadir. Asardagi eng ayanchli qismat egalaridan biri bo‘lgan Sarviniso Abdullaning amakisining qizidir. Abdulla amakisining uyiga kelganida unga chin ko‘ngildan, samimiy muomalada bo‘lgan inson ham Sarviniso edi. Sarviniso o‘z zamonidagi boshqa qizlar kabi erki va ixtiyori ota-onasining qo‘lida bo‘lgan chorasiz xotin-qizlardan biri edi. Uni o‘zi ko‘ngil qo‘ymagan Azim ismli duduq yigitga turmushga berishmoqchi bo‘lishadi. Sarvinisoning yigitga ko‘ngli yo‘qligini yosh Abdulla onasidan eshitadi. Ayasi qiz uni quchoqlab zor-zor yig‘laganini aytadi. Qiz juda ko‘p marta Abdullani ham bag‘riga bosib tovush chiqarmay yig‘lab oladi.

Kunlardan bir kuni Sarviniso Abdullaga yonqoq chaqib berib o‘tirib uning boshini tizzasiga qo‘yadi va yana ich-ichidan zor-zor yig‘laydi. Ko‘chadan kelayotgan poezdning ovoziga qarata: “Poezd meni chaqiryapti... Chaqir! Qattiqroq chaqir, boraman. Meni uzoq-uzoq yurtlarga olib ket. – ” [3, 210.]. deydi. Buni eshitib qolgan otasining jahli chiqib Sarvinisoga otiladi. Qiz uyga qochib kirganida ota uning ortidan kirib rosa kaltaklaydi. Ota qizini juda qattiq urgan edi. Qiz ingrab-ingrab o‘ziga kela olmaydi va saxargacha joni uziladi.

Qissada yosh Abdullaning o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va ishtirokchisiga aylangan voqelar keltiriladi. Sarviniso inson sifatida qalbidagi o‘z xohish –istaklarini qondira olmadi. U o‘zi ko‘ngil qo‘ya olmagan insonga unashtirib qo‘yilganidan boshlab ko‘ngli vayron va iztiroblar iskanjasida yashadi. Buni ochiq-oydin otasiga ayta olmaydi. Ota uning ko‘ngli bilan o‘rtoqlashib o‘tirmaydi. Oilada otaning gapi haqiqat hisoblanadi. Uning fikriga, uning harakatlariga hech kim qarshi chiqa olmaydi. Abdullaning oilasi ko‘chib kelganida Sarvinisoning ko‘nglida qandaydir taskin paydo bo‘lgandek bo‘ladi. Amakisi ham, kelin ayasi ham tushungan insonlar ekanligiga oz bo‘lsada qizni tushunishlariga umid bog‘laydi. Abdullaning ota-onasi ham to‘yni keyinroqqa surishni maslahat berishadi. Lekin ota o‘z so‘zidan qaytmaydi. To‘y kunini belgilaydi.

Yozuvchi Abdulla Qahhor o‘z bolalik xotiralarini jonlantirar ekan uning uchun Sarviniso opasidek mehribon va samimiy qiz dunyoda yo‘q ekanligini his qilish mumkin. Uning yozganlarini o‘qigan kitobxon yosh Abdulla bilan birga Sarviniso ko‘ngliga ham kirishga, uning dardlariga sherik bo‘lishga intiladi. Dastlabki vaqt oralig‘ida Sarvinisoning ko‘nglida qandaydir ishonch uchqunlari bor edi. To‘y kuni aniq bo‘lgandan keyin esa uning umidlari barchasi so‘ndi. U faqat ichki iztiroblar, alamlar dunyosida yashay boshladi. Qiz qalbidagi tug‘yonlar, ichki faryodlarni yosh Abdulla sezib turardi. Lekin buning chorasi qanday bo‘lishini hali tushunib yetmas edi.

Asarda Sarvinisoning betob bo‘lib yotgan onasi obrazi ham tasvirlanadi. To‘shakka mixlanib qolgan, chorasiz ayol timsoli. U tezroq tirikligida qizining to‘yini ko‘rib qolishni xohlaydi holos. Ayol qizi Sarvinisoning o‘limini o‘z qaynonasidan eshitadi. Kampir qizini to‘satdan o‘tib qolganini aytadi. Bu gapni eshitgan mushtipar ayolning holatini yozuvchi shunday tasvirlaydi: “Teri-yu suyakdan iborat bo‘lib qolgan bemor ko‘zlarini katta ochdi, oppoq tilini zo‘rga chiqarib, qonsiz lablarini yalagan bo‘ldi, ko‘zlarini yana yumdi, kipriklari yaltiradi. Uning kuygani, yig‘lagani, faryod chekkani shu, bundan ortiqqa madori yo‘q edi.” [3, 210.].

Sarvinisoning o‘limidan ikki kun keyin uning bemor bo‘lib yotgan onasi ham vafot etadi. Abdullaning buvisi Sarvinisoni “Bola bechora qiz ketdi. U dunyoda hurlarga qo‘shilib ketadi...” [3, 210.]. – deydi. Yosh Abdulla uchun “hur qiz” hikoyasi shunday yakunlandi.

**Xulosa**

Biroq bolaning qalbida muhrlanib qolgan qizning qalb iztiroblari buyuk asarlarning yozilishiga turtqi bo‘ldi. Yozuvchining turli janrlarda yaratgan qahramonlari misolida namoyon bo‘ldi. Shuning bilan birga Abdulla Qahhor yaratgan qahramonlar yozuvchi o‘zi bilgan va tanigan insonlar bo‘lganiligi uchun ham haqqoniy va ishonarli qiyofalarda aks eta oldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1.Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – 560 b.

2.Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti – Toshkent: .1987.368 b.

3. A. Qahhor. O‘tmishdan ertaklar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti , 1989. B.210.

4.https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/umarali-normatov-abdulla-qahhor-haqida-abdulla-qahhor-zamondoshlari-xotirasida.html

5.Umurov.H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.B.47.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Ikromova Muazzam Dilmurod kizi**
Namangan State University
Faculty of World Languages
Senior Lecturer of the Department of
English and literature, PhD
dr.muazzam.dilmuradovna@gmail.com
**Sobitxonova Feruza Hafizxon qizi**
Namangan davlat universiteti talabasi
E-mail: sobitxonovaferuza02@gmail.com

## INGLIZ TILI O‘QITISH JARAYONIGA SUN’IY INTELLEKT VOSITALARINI INTEGRATSIYA QILISH

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada ingliz tilini o‘qitishda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi yoritilgan. Maqolada moslashuvchan o‘qitish tizimlari, virtual suhbatdoshlar (chatbotlar), nutqni aniqlovchi dasturlar va yozma nutqni avtomatik baholovchi vositalarning o‘qitish jarayonidagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston ta’lim tizimida sun’iy intellektni qo‘llashning afzalliklari va mavjud muammolari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt vositalari o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishi, o‘qituvchilarning faoliyatini yengillashtirishi va ta’lim sifatini yaxshilashini ko‘rsatadi.*

***Kalit so’zlar:*** *sun’iy intellekt, moslashuvchan(adaptiv) ta’lim, chatbotlar, ta’lim texnologiyasi, raqamli ta’lim*

**Ikromova Muazzam Dilmurod kizi**
Namangan State University
Faculty of World Languages
Senior Lecturer of the Department of
English and literature, PhD
**Sobitxonova Feruza Hafizxon kizi**
Student of Namangan State University

## THE INTEGRATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING

***Annotation:*** *This article explores the integration of Artificial Intelligence (AI) tools in English language teaching and their potential to improve learning outcomes. It discusses how AI applications such as adaptive learning systems, chatbots, speech recognition programs, and automated writing evaluators are being used to personalize education and enhance both teaching and learning processes. The study also highlights the advantages and challenges of using AI technologies in the Uzbek educational context, focusing on their impact on students’ motivation, teachers’ efficiency, and overall quality of language instruction.*

***Keywords:*** *Artificial Intelligence, Adaptive Learning, Chatbots, Educational Technology, Digital Education*

**Икромова Муаззам Дилмурод кизи**
Наманганский государственный университет
Факультет мировых языков
Старший преподаватель кафедры английского языка и литературы
кандидат наук
**Собитксонова Феруза Хафизон кизи**
Студентка Наманганского государственного университета

## ИНТЕГРАЦИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРЕПОДАВАНИЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается интеграция инструментов искусственного интеллекта (ИИ) в процесс преподавания английского языка и их потенциал для улучшения результатов обучения. Обсуждается*

*использование приложений ИИ, таких как адаптивные системы обучения, чат-боты, программы распознавания речи и автоматические оценщики письменных работ, направленных на персонализацию образования и повышение эффективности как преподавания, так и обучения. В исследовании также подчеркиваются преимущества и проблемы применения технологий ИИ в контексте узбекского образования, с акцентом на их влияние на мотивацию студентов, эффективность преподавателей и общее качество языкового обучения.*

***Ключевые слова:*** *искусственный интеллект, адаптивное обучение, чат-боты, образовательные технологии, цифровое образование.*

## Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta’lim sohasida raqamli transformatsiya va sun’iy intellektni joriy etish bo‘yicha faol qadamlar ko‘rilmoqda; bu jarayon chet tillarini o‘qitish amaliyotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda[1]. Mahalliy tadqiqotlar va konferensiya materiallari shuni ko‘rsatadiki, SI-asosidagi platformalar (masalan, adaptiv dars tizimlari, talaffuzni tekshiruvchi va yozma ishlarga avtomatik fikr-mulohaza beruvchi vositalar) til o‘rganish jarayonini individualizatsiyalash, tezkor fikr-mulohaza va mustaqil mashqlar orqali samaradorlikni oshirish imkonini beradi[2]. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida olib borilgan tadqiqotlar va amaliy loyihalar ham AI vositalarining o‘quvchilarning motivatsiyasi va ishtirokini oshirishda ijobiy rol o‘ynashini ko‘rsatmoqda; jumladan, universitet muallimlari AI yordamida sinov variantlarini yaratish, adaptiv mashqlar va multimodal resurslar orqali darslarni boyitish tajribalarini e’tirof etganlar[3]. Shu bilan birga, mamlakat miqyosida SI texnologiyalarini tartibga solish va standartlashtirishga qaratilgan tashabbuslar ham amalga oshirilmoqda: hukumat va tegishli idoralar milliy standartlar, loyihalar va kadrlar tayyorlash dasturlarini ishlab chiqmoqda, bu esa ta’lim muassasalari uchun texnik va metodologik qo‘llab-quvvatni mustahkamlash imkonini beradi[4]. Biroq amaliyotda bir qator muammolar mavjud: muassasalarda texnik infratuzilmaning notengligi, o‘qituvchilarning raqamli va SI bo‘yicha tayyorgarlik darajasi hamda o‘quv resurslarini lokalizatsiya qilish zarurati integratsiyaning samaradorligini cheklashi mumkin[5]. Shu sababli, SI vositalarini chet tili ta’limiga joriy etishda pedagogik yondashuvlar, o‘qituvchilarni malaka oshirish va adolatli infratuzilma ta’minoti bo‘yicha kompleks strategiyalar zarur[6]. Umuman olganda, O‘zbekistonda chet tili ta’limida SI-ni qo‘llash istiqbollari katta; u ta’limni individualizatsiyalash, baholashni avtomatlashtirish va loyihaviy hamkorlikni kuchaytirishda katta imkoniyatlar yaratadi, biroq muvaffaqiyatli tatbiq uchun siyosiy, texnik va pedagogik jihatlar sinxronlashtirilishi lozim[7].

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim sohasida o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omilga aylangan. Shulardan biri — sun’iy intellekt (ing. Artificial intelligence) texnologiyalaridir. Sun’iy intellekt inson tafakkurini modellashtiruvchi tizim bo‘lib, u o‘rganish, tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega. Ingliz tili o‘qitishda AI vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning til kompetensiyasini oshirish, individual yondashuvni ta’minlash va o‘qituvchilar ishini yengillashtirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Sun’iy intellektga asoslangan dasturlar (masalan, ChatGPT, Grammarly, Duolingo, Elsa Speak, Replika) o‘quvchilarga mustaqil ravishda muloqot qilish, talaffuzni to‘g‘rilash, yozma ishlarda xatolarni aniqlash va shaxsiy o‘rganish yo‘lini shakllantirish imkonini beradi. Shu sababli, ushbu maqolada ingliz tili ta’limida AI texnologiyalarining afzalliklari, qo‘llanish sohalari hamda ularning o‘quv jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi.

## Adabiyotlar tahlili

So‘nggi yillarda ingliz tili ta’limida sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining qo‘llanilishi sezilarli darajada kengayib, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Turli tadqiqotchilar AI vositalarining ingliz tili o‘qitishdagi imkoniyatlari, afzalliklari hamda ularning ta’lim jarayoniga ta’sirini turlicha yondashuvlarda o‘rganganlar. W. S. Almehmadi[7] o‘zining “Exploring the Potential of AI Techniques in Teaching English as a Foreign Language” nomli maqolasida 2019–2023 yillarda chop etilgan ilmiy ishlarga tayanib, sun’iy intellekt texnologiyalari, xususan, chatbotlar, yozma baholash tizimlari va avtomatik tarjima dasturlari ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda samarali natijalar berishini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, AI texnologiyalari o‘quvchilarga individual yondashuvni kuchaytiradi, shuningdek, o‘rganish jarayonini shaxsiylashtirish imkonini beradi. Biroq, ularni to‘liq samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarning raqamli va kompyuter savodxonligi darajasi yetarli bo‘lishi zarurligini qayd etadi.

Shunga o‘xshash tarzda, A. Anggraini va F. Faisal o‘z tadqiqotlarida AI texnologiyalarining ta’lim muhiti uchun interaktiv va individuallashtirilgan yondashuvlarni ta’minlashdagi o‘rnini o‘rganib chiqadilar[8]. Ular Grammarly, Duolingo va Elsa Speak kabi mashhur AI vositalari orqali talabalar talaffuz, yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaganini aniqlaydilar. Shu bilan birga, mualliflar AI tizimlari o‘qituvchini to‘liq almashtira olmaydi, balki ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi, mustaqil o‘rganishni rag‘batlantiruvchi qo‘shimcha vosita sifatida qaralishi lozimligini ta’kidlaydilar.

F. Hilmy Ahimsa va D. Khawa tomonidan 2024 yilda olib borilgan tadqiqot esa sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘quv jarayoniga amaliy tatbiqi bilan bog‘liq masalalarga e’tibor qaratadi[9]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, AI vositalarining

to‘g‘ri integratsiyasi o‘quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini va ichki motivatsiyasini oshiradi, shuningdek, ularni o‘z o‘rganish jarayonlarini boshqarishga undaydi. Shu bilan birga, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, internet tezligining pastligi va o‘qituvchilarning AI texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha tayyorgarligi yetarli emasligi kabi omillar mazkur jarayonni sekinlashtirishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Bundan tashqari, boshqa bir qator tadqiqotlar AI texnologiyalarining til o‘rganishdagi psixopedagogik jihatlarini yoritgan[10]. Ularning fikricha, AI asosidagi o‘quv tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasiga moslashib, ularning zaif tomonlarini aniqlaydi va shunga mos mashqlarni taklif etadi. Bu esa o‘quvchilarda o‘zlashtirishning izchil rivojlanishiga yordam beradi. Shu tariqa, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, AI vositalarini ingliz tili ta’limiga oqilona integratsiya qilish o‘qitish jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va til kompetensiyasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi[11].

**Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqot ingliz tilini o‘qitish jarayonida sun’iy intellekt (AI) vositalarining o‘rni, samaradorligi va ta’sirini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — AI texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish orqali o‘quvchilar va o‘qituvchilar faoliyatida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni tahlil qilish hamda bu texnologiyalarni yanada samarali qo‘llash yo‘llarini aniqlashdan iborat.

**Tahlillar va natijalar**

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari turli sohalarda, jumladan, ta’limda ham keng qo‘llanila boshladi. Umuman olganda, sun’iy intellekt deganda inson tafakkuriga o‘xshash tarzda o‘rganish, tahlil qilish, xotirlash va mustaqil qaror qabul qilishga qodir dasturiy tizimlar tushuniladi. U o‘quvchilar faoliyatini kuzatadi, ularning xatolarini aniqlaydi va shaxsiy yondashuv asosida ularga eng mos mashqlarni taklif etadi. Shuning uchun ham AI texnologiyalari ingliz tili o‘qitish jarayonini an’anaviy modeldan raqamli, interaktiv va individuallashtrilgan ta’lim shakliga o‘zgartirib bormoqda.

Sun’iy intellekt hozirda tibbiyot, iqtisod, huquq, marketing kabi ko‘plab yo‘nalishlarda qo‘llanilib, inson mehnatini yengillashtirmoqda. Masalan, tibbiyot sohasiga qaraydigan bo’lsak, Google Deepmind kompaniyasining AI tizimi ko’z kasalliklarini shifokorlardan tezroq aniqlay oladi. Bundan tashqari sun’iy intellektga asoslangan ChatGPT dasturi ham og’riq belgilariga ko’ra tibbiy tavsiyalar bera oladi. Ta’lim sohasida esa u moslashuvchan o‘qitish tizimlari, virtual suhbatdoshlar, avtomatik tahlil va baholash vositalari, shuningdek, o‘qituvchilar uchun yordamchi dasturlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ushbu texnologiyalar yordamida o‘quvchilar o‘z tezligida o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, o‘qituvchilar esa dars jarayonini yanada samarali va ijodiy tarzda tashkil etish imkoniga ega bo‘ladilar.

Adaptiv o‘qitish tizimlari (masalan, Duolingo, Lingvist, Rosetta Stone) o‘quvchining bilim darajasini avtomatik tahlil qiladi va unga mos mashqlarni taklif etadi. Bunday tizimlar o‘quvchining xatolarini kuzatib, keyingi darslarni shu nuqtalarda mustahkamlashga yo‘naltiradi. Natijada o‘quvchi o‘z kamchiliklarini tezroq bartaraf etadi va individual yondashuvni his qiladi.

Nutqni aniqlovchi dasturlar (masalan, Elsa Speak yoki Speechling) o‘quvchining talaffuzini tahlil qilib, ingliz tili fonetik me’yorlariga qanchalik yaqinligini ko‘rsatadi. Bu, ayniqsa, o‘zbek o‘quvchilari uchun muhim, chunki talaffuzdagi farqlar ularning og‘zaki nutqdagi ishonchliligiga ta’sir qiladi. Bu dasturlar real vaqtda og‘zaki nutqni baholaydi, talaffuzni yaxshilash uchun maxsus mashqlar beradi va o‘quvchiga xatolarini tushunishga yordam beradi.

Avtomatik yozma baholash tizimlari ham ta’limda muhim o‘rin tutadi. Masalan, Grammarly, Write & Improve va Quillbot kabi vositalar o‘quvchining yozma matnini grammatik, uslubiy va leksik jihatdan tekshiradi. Ular xatolarni aniqlash bilan birga, to‘g‘ri shakllarni ham taklif etadi. Shu tariqa, o‘quvchi yozma nutqini o‘zi tahlil qilib, mustaqil o‘rganishga odatlanadi.

Virtual suhbatdoshlar va chatbotlar (ChatGPT, Andy English Bot, Replika) ingliz tili o‘rganishda jonli muloqot muhitini yaratadi. Ular bilan suhbat qurish orqali o‘quvchi muloqot qilish, savol berish, fikr bildirish va kundalik vaziyatlarda tildan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu vositalar o‘quvchining nutqdagi tabiiylik va ishonchlilik darajasini oshiradi.

Yosh toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun o‘yin elementlariga asoslangan platformalar samaraliroqdir. Masalan, Fun English va Duolingo Kids dasturlari o‘yin, musobaqa va mukofot tizimlari orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. O‘rta va katta yoshdagilar uchun esa Grammarly, Elsa Speak va ChatGPT kabi dasturlar yanada foydali, chunki ular o‘quvchining yozma va og‘zaki ko‘nikmalarini tahlil qilish imkoniyatini beradi.

O‘qituvchilar uchun sun’iy intellekt vositalari dars rejalari, har qanday turdagi testlar va mashqlar tuza oladi va baholash jarayonlarini yengillashtiradi. ChatGPT for Teachers, Google Gemini, Quizlet AI kabi dasturlar o‘qituvchiga kerakli resurslarni tezda yaratish, materiallarni darajaga moslashtirish va o‘quvchilar bilan interaktiv ishlash imkonini beradi. Shu sababli, AI o‘qituvchilar uchun ham katta vaqt tejamkorligi va ijodiy erkinlik yaratadi.

**Afzalliklar va ularning amaliy misollari**

| № | Afzalliklar (Advantages) | Amaliy misollar (Practical Examples) |
|---|---|---|
| **1** | **Individuallashtirilgan o‘qitish** – har bir o‘quvchining darajasi va ehtiyojiga mos materiallarni taqdim etadi. | Duolingo, Chatbot Tutor, ChatGPT va Edmodo orqali shaxsiy mashqlar. |
| **2** | **Baholashni avtomatlashtirish** – yozma ishlarni tahlil qilish va grammatik xatolarni aniqlashni osonlashtiradi. | Grammarly, AI Essay Scorer, Google Classroom Feedback tizimlari. |
| **3** | **O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish** – interaktiv mashqlar va gamifikatsiya orqali darsga qiziqishni kuchaytiradi. | Kahoot, Quizizz, Duolingo gamified tests. |
| **4** | **Masofaviy o‘qitishni qo‘llab-quvvatlash** – joydan qat’i nazar o‘rganish imkonini beradi. | Moodle, Coursera, OpenAI Chatbot dars platformalari. |
| **5** | **Til ko‘nikmalarini rivojlantirish** – talaffuz, lug‘at boyligi va tarjima ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. | Elsa Speak, Google Translate, Replika AI. |
| **6** | **Ta’lim natijalarini tahlil qilish** – o‘quvchilarning faoliyatini kuzatish va samaradorlikni oshirishga yordam beradi. | Learning Analytics Dashboard, AI Data Analyzer. |
| **7** | **Raqamli kompetensiyalarni shakllantirish** – o‘quvchilarni XXI asr ko‘nikmalariga tayyorlaydi. | Multimedia loyihalar, AI video subtitling, coding-based learning tools. |

**Mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha yechimlar**

| № | Muammolar (Challenges) | Ehtimoliy yechimlar (Possible Solutions) |
|---|---|---|
| **1** | Texnik infratuzilmaning yetarli emasligi (internet, kompyuterlar, serverlar). | Hukumat tomonidan texnik bazani modernizatsiya qilish, grant va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish. |
| **2** | O‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasi past. | Malaka oshirish kurslari, AI metodik treninglar va onlayn sertifikatlash dasturlari tashkil etish. |
| **3** | AI vositalari ingliz tiliga yo‘naltirilgan, lokal kontent yetishmaydi. | O‘zbek tilida va milliy madaniyatga mos AI vositalarini ishlab chiqish. |
| **4** | Maxfiylik va ma’lumot xavfsizligi muammolari. | Data-protection siyosatlarini ishlab chiqish va xalqaro standartlarga muvofiq tizimlar yaratish. |
| **5** | Pedagogik yondashuvning yetishmasligi – texnik emas, didaktik qo‘llanma kam. | O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish va amaliy seminarlar o‘tkazish. |
| **6** | Milliy normativ-huquqiy baza to‘liq shakllanmagan. | “AI in Education Strategy 2030” kabi milliy strategiyalarni ishlab chiqish. |
| **7** | O‘zbek tilidagi o‘quv resurslari soni kam. | Mahalliy universitetlar va EdTech startaplar bilan hamkorlikda kontent yaratish. |

Shu bilan birga, O‘zbekiston ta’lim tizimida AI vositalarini keng tatbiq etish yo‘lida hali ayrim muammolar mavjud. Jumladan, ayrim hududlarda internet tezligining sustligi, texnik vositalarning yetishmasligi, o‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasi pastligi va ayrim dasturlar ingliz tili darajasini to‘liq baholay olmasligi bunga misoldir. Shunga qaramay, bu muammolar asta-sekinlik bilan bartaraf etilmoqda va AI texnologiyalari o‘qitish sifatini oshirishda muhim omilga aylanmoqda.

**Xulosa**

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari ingliz tilini o‘qitishda innovatsion va samarali vosita sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. Ular o‘quvchilarga mustaqil o‘rganish imkoniyatini yaratadi, ularning motivatsiyasini oshiradi va real hayotiy muloqot sharoitlarini taqlid qiladi. O‘qituvchilar uchun esa AI vositalari dars jarayonini soddalashtiradi, nazorat ishlarini avtomatlashtiradi hamda pedagogik jarayonni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitadi.

Shuningdek, AI o‘quvchilarning o‘z-o‘zini o‘qitish (self-learning) ko‘nikmasini rivojlantiradi. O‘quvchi AI dasturlari orqali o‘z xatolarini darhol ko‘rishi, mustaqil to‘g‘rilashi va o‘rganish strategiyasini shakllantirishi mumkin. Shu sababli, bu texnologiyalar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi an’anaviy masofani qisqartirib, ta’limni yanada interaktiv va shaxsiylashtirilgan shaklga keltiradi. Biroq, sun’iy intellektni samarali tatbiq etish uchun o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, texnik sharoitlarni yaxshilash va AI vositalarini mahalliy ta’lim dasturlariga

moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Kelajakda bu texnologiyalar ingliz tili o‘qitishning ajralmas qismi bo‘lishi, ta’limni yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. *Enabling AI-Enhanced Listening Activities: A Pilot Study in Uzbekistan*, Baxramova M. M., *Naushny Informatsionny Bulletin*, 9(2) (2025): 56-58. In Library

2. *Integration of Artificial Intelligence into Educational Platforms for Effective Language Learning*, Gulyamova G., Rasulmuhamedova D., *Jurnal Ilmiah Ilmu Terapan Universitas Jambi*, Vol. 9 No. 3, Sept. 2025: 1009-1024. online-journal.unja.ac.id+1

3. *Enhancing Foreign Language Learning Through AI-Powered Learning Management Systems*, Zokirjonova M., *Journal of Uzbekistan’s Development and Research*, 2025: 201-204. ijournal.uz

4. *Use of AI for English Learning in Uzbekistan: Opportunities and Barriers*, Yovonov Z.O., Xaytmatov T.F., *Trends in the Use of Foreign Languages for Professional Priority*, May 17 2025. wosjournals.com

5. *Uzbek Students’ Perception of AI Tools for Improving Listening Skills: A Mixed-Methods Study*, Baxramova M.M., *Scientific J-l*, (2025). Научные журналы

6. Kasimova M.A., “O‘zbekistonda ingliz tilini o‘qitishda sun’iy intellekt yordamida metodikalarni rivojlantirish”, *Pedagogik Mahorat*, 11(2) (2024). buxdu.uz

7. Almehmadi, W. S. Exploring the Potential of AI Techniques in Teaching English as a Foreign Language // *Asian Journal of Social Sciences and Management Studies*. — 2024. — Vol. 11, No. 2. — P. 22–31. IDEAS/RePEc+1

8. Anggraini, A.; Faisal, F. AI-Based Interactive Learning in English Language Education // *Indonesian Journal of Digital Pedagogy*. — 2023. — P. 235

9. Ahimsa, F. H.; Khawa, D. Implementation of Artificial Intelligence in Higher Education: Opportunities and Challenges // *International Review of Educational Innovation*. — 2024. — P.136

10. Rahman, M.; Liu, Y. Artificial Intelligence in Language Learning: A Cognitive and Pedagogical Perspective // *TESOL Quarterly*. — 2022.

11. Gündoğdu, B.; Merç, A. A Systematic Review of Tech-Supported Collaborative Creativity Practices in Education // *Journal of Learning & Teaching in Digital Age*. — 2022. — P.456

12. Murodova, D. (2023). Sun’iy intellekt texnologiyalarining xorijiy tillarni o‘qitishdagi o‘rni. “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” ilmiy jurnali, 4(2), 112–118.

13. Hamidova, S., & Ismoilov, O. (2022). Ingliz tili darslarida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim vazirligi, Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy to‘plami, 3(5), 65–71.

14. Yilmaz, R., & Keser, H. (2021). AI-supported Language Education: Teachers’ Perceptions and Practical Insights. Computer Assisted Language Learning, 34(8), 1032–1050.

15. W. S. Almehmadi “Exploring the Potential of AI Techniques in Teaching English as a Foreign Language”

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Kim Darya Vladimirovna**
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, master's student
Email: daryakim2209@gmail.com
**Yusupova Shoira Batirovna**
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, professor
Email: *yusupovash22@gmail.com*

## STYLISTIC DEVICES IN SOCIAL ADVERTISING TEXTS IN ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES

***Annotation:*** *This contrastive analysis examines metaphor, hyperbole, simile, personification, and puns in English and Russian social advertising. It reveals that while both languages use similar rhetorical tools, their application reflects core cultural values: English ads favor individualized narratives and subtle humor, aligned with individualism, while Russian ads employ direct statistical exaggeration, collective appeals, and culturally rooted idioms, reflecting collectivism. The findings emphasize the need for culturally adapted translations and position stylistic devices as vital mediators between linguistic form and persuasive function in shaping public behavior.*

***Keywords:*** *advertising text, social advertising, stylistic devices, metaphor, hyperbole, simile, personification, pun.*

**Ким Дарья Владимировна**
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, магистрант
**Юсупова Шоира Батировна**
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, профессор

## СТИЛИСТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА В ТЕКСТАХ СОЦИАЛЬНОЙ РЕКЛАМЫ НА АНГЛИЙСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ

***Аннотация:*** *Данное контрастивное исследование анализирует использование метафоры, гиперболы, сравнения, олицетворения и каламбуров в английской и русской социальной рекламе. Выявлено, что, несмотря на применение схожих риторических средств, их функционирование отражает ключевые культурные ценности: английская реклама предпочитает индивидуализированные нарративы и тонкий юмор, что соответствует индивидуалистской ориентации, тогда как русская реклама опирается на прямое статистическое преувеличение, коллективные обращения и культурно закреплённые идиомы, отражающие коллективистские установки. Полученные результаты подчёркивают необходимость культурно адаптированных переводов и показывают, что стилистические средства выступают важным посредником между языковой формой и убедительной функцией, влияя на формирование общественного поведения.*

***Ключевые слова:*** *рекламный текст, социальная реклама, стилистические средства, метафора, гипербола, сравнение, олицетворение, каламбур.*

**Kim Darya Vladimirovna**
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti magistranti
**Yusupova Shoira Batirovna**
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti professori

## INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI IJTIMOIY REKLAMA MATNLARIDA STILISTIK VOSITALAR

***Annotatsiya:*** *Ushbu qiyosiy tahlil ingliz va rus ijtimoiy reklama matnlaridagi metafora, giperbola, o'xshatish, jonlantirish va kalamburni o'rganadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda bir xil ritorik vositalar qo'llanilsa-da, ularning qo'llanish usuli asosiy madaniy qadriyatlarni aks ettiradi: ingliz reklamalarida individualizmga xos bo'lgan individuallashtirilgan hikoyalar va yumorning yumshoq shakllari afzal ko'riladi, rus reklamalarida esa statistik haddan orttirish, jamoaviy murojaatlar va madaniy jihatdan shakllangan idiomalarga tayaniladi. Xulosalar madaniy moslashtirilgan tarjimalar zarurligini ta'kidlaydi va stilistik vositalarni til shakli va ta'sirchanlik funksiyasi o'rtasidagi muhim vositachi sifatida, jamoat xulqini shakllantirishda muhim omil sifatida ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:*** *reklama matni, ijtimoiy reklama, stilistik vositalar, metafora, giperbola, o'xshatish, jonlantirish, kalambur.*

**Introduction**

Social advertising represents a distinct communicative genre focused on fostering positive societal transformation rather than commercial profit. This non-commercial nature often means audiences approach these messages without pre-existing biases, creating a unique context for persuasion. Such campaigns tackle pressing issues including environmental sustainability, public health initiatives, and educational advancement, with the fundamental objective of altering public perceptions and motivating pro-social behavior.

The linguistic construction of these messages proves crucial to their effectiveness. Beyond merely transmitting information, social advertising employs carefully crafted language to shape audience interpretation, enhance message retention, and ultimately drive behavioral change. The strategic selection of linguistic features, particularly stylistic devices, serves dual purposes: ensuring persuasive impact while creating vivid mental imagery that reinforces the campaign's core message. Furthermore, cross-linguistic analysis reveals how these stylistic choices are deeply embedded within specific cultural frameworks, reflecting and leveraging distinct societal values and communicative patterns to maximize resonance with target audiences.

**Literature review**

Advertising discourse relies on linguistic creativity for its persuasive function, strategically employing stylistic devices to transform messages into memorable narratives (Goddard, 2002; Leech, 1966). However, the application of these devices is not culturally neutral. Their effectiveness is mediated by societal values, such as the individualism-collectivism dichotomy (Hofstede, 2001), which influences whether a message prioritizes personal benefit or communal well-being. This cultural conditioning is further rooted in conceptual metaphor theory (Lakoff & Johnson, 1980), suggesting that persuasive efficacy in social advertising depends on aligning a message's figurative language with the target audience's pre-existing cognitive models.

While stylistic analysis within individual languages is well-established, notably through Leech's (1966) work on English and Galperin's (1977) stylistics relevant to Russian language, still a significant scholarly gap exists. A systematic, cross-linguistic comparison of stylistic devices in English and Russian social advertising remains underdeveloped. This study aims to address this gap by conducting a contrastive analysis of parallel corpora. Through this analysis, the research clarifies the precise ways in which cultural values find expression through linguistic form

**Research Methodology**

This study employs a qualitative contrastive analysis to examine the manifestation and function of stylistic devices in English and Russian social advertising. The research is designed as a multiple case study, where each "case" is a specific stylistic device analyzed across two linguistic and cultural contexts.

**Analysis and results**

Metaphor operates as a cornerstone of advertising rhetoric, functioning through the strategic mapping of one conceptual domain onto another to generate potent emotive and cognitive associations. As noted by Leech, the device's value lies in its capacity to evoke precisely calibrated emotional responses toward a product or idea [6]. This aligns with Selivanova's conceptualization of metaphor as a fundamental mechanism of linguistic economy and semiotic creativity, where the symbolic framework of a familiar source domain is employed to structure understanding of a more abstract target domain [8]. The persuasive efficacy of metaphor stems from its ability to convey complex messages with immediacy and expressive power, thereby prompting the audience toward a more engaged and conscious decoding of the advertisement's core argument. For instance, the anti-smoking slogan, *"You would not stay in a relationship that lies to you. Why stay with tobacco?"* effectively reframes nicotine addiction as a toxic partnership, leveraging shared cultural understandings of betrayal to cast the habit in a damning new light. Similarly, the ecological metaphor identifying forests as "the Earth's lungs," powerfully realized in the slogan *"When forests burn, the planet can't breathe,"* translates the abstract process of photosynthesis into the vital, visceral function of respiration, making the threat of deforestation tangibly urgent.

This technique is deployed with particular force in Russian social advertising, often through the strategic juxtaposition of established cultural metaphors with stark statistical reality. A poignant example is the use of the classic metaphor *«Дети — цветы жизни»*. This benign, almost proverbial image is frequently followed by a devastating factual counterpoint: *«По статистике после абортов около 8 % женщин остаются бесплодными. В настоящее время 7 миллионов россиянок не могут испытать счастья материнства»*. Advertising text *«Пьяный за рулём — убийца. Не включай режим убийцы»* employs a direct metaphor by explicitly equating a *"drunk driver"* with *a "killer,"* stripping away any abstraction to frame the act not as an accident, but as premeditated homicide. This harsh identification is then

intensified by the phrase *"killer mode,"* which metaphorically portrays alcohol consumption before driving as the conscious activation of a deadly function, much like switching on a machine.

Hyperbole is a stylistic device characterized by deliberate exaggeration, where the extent of amplification renders the expressed idea unlikely or even impossible from a realistic perspective [1]. In social advertising the statement: *"Smoking kills one person every six seconds,"* used in World Health Organization (WHO) campaigns is based on global smoking-related mortality statistics. However, its phrasing intensifies the immediacy of the issue, creating a heightened sense of urgency and alarm to persuade the audience to take action against smoking. Similarly, the claim *"Drive 5 mph over the limit and you could kill someone's child,"* it exaggerates the probabilistic risk into a definitive, catastrophic outcome to instill extreme caution.

This rhetorical strategy is equally potent in Russian public service campaigns. A slogan like «*Не выучил ЖИ, ШИ — живи на гроши*» employs hyperbolic cause-and-effect. It humorously yet starkly exaggerates the long-term socioeconomic consequences of poor literacy, linking a childhood lesson to a lifetime of poverty to emphasize the critical importance of education. A more direct, statistical hyperbole is found in the warning: «*Человек курящий за 30 лет выкуривает 200 000 папирос, или 160 кг табаку, в котором содержится 800 грамм никотина*». While fact-based for a heavy smoker, the cumulative figures are presented in a staggering, almost unimaginable quantity, visualizing 800 grams of a potent poison, to create a visceral sense of self-harm that a simple "smoking is bad" could never achieve. In all cases, hyperbole transforms abstract risks into tangible, immediate, and unforgettable dangers. Another examples of hyperbole: «*Сбрось скорость, или ты убьёшь ребёнка*», «*Каждая сигарета отнимает 15 минут жизни*», «*Тысячи смертей от курения каждый день*», «*Рак груди убивает больше женщин, чем автокатастрофы*». All these examples employ hyperbole by presenting stark, exaggerated worst-case scenarios to create immediate fear and urgency.

Simile is a figure of speech whereby two concepts are imaginatively and descriptively compared [9]. Simile used when two essentially unlike things are compared, often in a phrase introduced by "like" or "as". Examples of simile in social advertising in English: *"Driving tired is like driving drunk", "Ignoring climate change is like ignoring a tornado warning", "Littering is like throwing trash in your own backyard", "Texting while driving is like closing your eyes for 5 seconds on the highway", "Not wearing a mask is like driving without a seatbelt", "Using drugs is like playing Russian roulette with your life", "Plastic in the ocean is like a ticking time bomb for marine life".*

Similes are relatively rare in Russian social advertising compared to other stylistic devices. For example, «*Вы не бережёте своё здоровье, потому что здоровы как лошадь. Но это до поры до времени.*» This social advertisement uses the simile «здоровы как лошадь» ("healthy as a horse") to ironically subvert a common cultural idiom. It acknowledges the user's current feeling of robust health only to immediately undermine it with the warning «Но это до поры до времени» ("But this is only for now"), arguing that such proverbial strength is temporary and will be eroded by poor health choices.

Personification is a stylistic device that attributes human characteristics, such as actions, emotions or intentions, to inanimate objects, non-human entities, or abstract concepts [9]. This technique is highly effective in advertising and public service announcements as it captures attention by creating a relatable and memorable image of otherwise impersonal ideas. By giving a voice or agency to the non-human, personification makes messages more visceral and engaging. For instance, health warnings like *"Smoking kills"* or environmental appeals *like "Mother Earth is crying"* and *"The Ocean speaks"* personify abstract dangers or natural elements to evoke a stronger emotional response. Similarly, the Russian environmental slogan «*Природа это не переварит*» (Nature won't digest this) powerfully personifies nature as a living entity with physical limitations, vividly illustrating the concept of non-biodegradable waste. Another example is the road safety warning «*Асфальт, я тебе не по зубам. Едешь на велосипеде — надевай шлем!*» (Asphalt, you can't chew me up. Riding a bike - wear a helmet!), which frames the asphalt as a predatory creature with teeth. Often, this device operates on a subconscious level, where the audience grasps the intended meaning without explicitly registering the personification itself. There is an advertising text «*Семья из 2-х банок снимет мусорный бак. Чистоту гарантируем*». This message personifies two cleaning product containers as a "family" that can "handle" an entire trash bin. This attribution of human, collaborative qualities transforms an arduous chore into a simple, manageable task, making the solution feel more relatable and trustworthy.

Puns, defined by Morner and Rausch as the witty use of words to suggest multiple meanings, are a prevalent rhetorical device in advertising [7]. As Goddard notes, their application is highly deliberate, serving as an effective tool for capturing audience attention, particularly in headlines [3]. The persuasive power of puns often resides at the lexical level, where a single word activates two distinct conceptual frames. This is evident in environmental campaigns like *"Don't be trashy - recycle,"* where "trashy" conflates literal littering with socially undesirable behavior, and *"Don't be fossil-fueled - go green,"* which links reliance on polluting energy to an outdated mindset. By leveraging humor and semantic duality, these slogans critique harmful practices while promoting sustainable alternatives. Similarly, the AdoptUSKids campaign, *"What to expect when you're expecting,"* operates by repurposing a culturally familiar phrase associated with

pregnancy. This lexical repurposing deftly redirects the audience's focus toward the concept of adoption, forging an engaging connection by building upon shared cultural knowledge.

The use of puns in Russian social advertising represents a sophisticated linguistic strategy that transcends mere wordplay. By leveraging homophony and semantic polysemy, these campaigns create a cognitive "click" that forces active audience engagement, thereby enhancing message retention. For instance, the anti-smoking advertising text *«Родите ли? Курение вызывает бесплодие»* exploits the homophonic similarity to «Родители?» to pivot from a general health warning to a jarring, personal question about infertility. Similarly, *«Вы хотите передохнуть? Курение вносит свои коррективы»* uses the pun, plays on the near-identical Russian verbs «передохнУть» (to take a break) and «передОхнуть» (to die). By asking "Do you want to take a break?" and it shockingly suggests that a smoking break could become your final one. The road safety ad *«Зебра главнее всех лошадей. Сбавь скорость на дороге»* cleverly polysemous, using the dual meaning of «зебра» (animal/pedestrian crossing) to create a memorable hierarchy that privileges safety over speed. Another example is *«Деньги утекают как вода. Закрой кран, установи счетчик»*, that activates the idiom for wasting money and then makes it literal by immediately connecting it to a physical tap. This deliberate linguistic ambiguity transforms standard directives into intellectually stimulating and culturally resonant messages, ensuring that the core public service advice is not only understood but internalized through the very act of decoding the pun.

**Conclusion and Recommendations**

This contrastive analysis reveals that while English and Russian social advertising share a common rhetorical repertoire, their deployment of stylistic devices reflects deep-seated cultural differences. English texts favor individualistic framing, absurd humor, and subtle wordplay, whereas Russian campaigns demonstrate preference for direct statistical hyperbole, collective responsibility themes, and culturally-embedded idiomatic puns.

Three key findings emerge: First, metaphor functions as a universal persuasive tool but differs in cultural grounding. English metaphors leverage personal experience narratives while Russian metaphors often merge proverbial wisdom with statistical authority. Second, hyperbole's effectiveness depends on cultural tolerance for direct fear appeals, which appears higher in Russian contexts. Third, the relative scarcity of similes in Russian advertising suggests cultural preferences for more explicit, direct comparisons over figurative analogies.

These findings have practical implications for transnational social advertising campaigns: direct translation of rhetorical strategies without cultural adaptation risks reduced efficacy. Future research should expand corpus size, incorporate audience reception studies, and extend analysis to other languages to validate these patterns.

**Used literature**

1. Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. Москва: Издательство литературы на иностранных языках, 1958, С. 151
2. Galperin I.R. Stylistics, Moscow: Higher School, 1977
3. Goddard A. The Language of Advertising: Written Texts. London: Routledge, 2002, P. 83
4. Hofstede G. Culture's consequences: Comparing values, behaviors, institutions and organizations across nations (2nd ed.). Thousand Oaks: SAGE Publications, 2001
5. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. Chicago: The University of Chicago Press, 1980
6. Leech G.N. English in Advertising: A Linguistic Study of Advertising in Great Britain. London: Longman, 1966, P. 182
7. Morner K., Rausch R. NTC's Dictionary of Literary Terms (First South Asian Edition/Special Edition for Bangladesh). Friends Book Corner/NTC Publishing Group, 2004, P. 178
8. Selivanova O. Modern Linguistics: Definition Encyclopedia. Poltava: Dovkilya-K, 2006, P. 97
9. Wales K. A Dictionary of Stylistics (3rd ed.). Routledge, 2011.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**G'ofurova Sarvara Madaminjonovna**
Andijan davlat chet tillari instituti o'qituvchisi
E-mail: shodyona2020@mail.ru

**UDK: 811.111**

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QUROLLANISH HAMDA HARBIY TEXNIKAGA OID TERMINLARNING QO'LLANILISHI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida qurollanish hamda harbiy texnikaga oid terminlarning shakllanishi, qo'llanilishi va lingvistik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Harbiy terminlarning semantik aniqligi, strukturaviy modellari, funksional-uslubiy jihatlari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *harbiy terminologiya, qurollanish, harbiy texnika, termin, qurol aslaha.*

**Гофурова Сарвара Мадаминжоновна**
Преподаватель Андижанского государственного
института иностранных языков

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕРМИНОЛОГИИ, СВЯЗАННОЙ С ВООРУЖЕНИЕМ И ВОЕННОЙ ТЕХНИКОЙ, В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается сравнительный анализ образования, употребления и лингвистических характеристик терминов, связанных с вооружением и военной техникой, в английском и узбекском языках. Особое внимание уделяется семантической точности военных терминов, их структурным моделям, а также функциональным и стилистическим особенностям.*

***Ключевые слова:*** *военная терминология, вооружение, военная техника, термин, вооружение и боеприпасы.*

**Gofurova Sarvara Madaminjonovna**
Teacher of Andijan State Institute of Foreign Languages

## THE USE OF ARMAMENT AND MILITARY EQUIPMENT TERMINOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK

***Abstract:*** *This article discusses a comparative analysis of the formation, usage and linguistic characteristics of terms related to armament and military equipment in the English and Uzbek languages. Particular attention is paid to the semantic precision of military terms, their structural models, as well as their functional and stylistic features.*

***Keywords:*** *military terminology, armament, military equipment, term, weapons and armaments.*

### Kirish

Zamonaviy dunyoda harbiy soha davlat xavfsizligi, siyosiy barqarorlik va texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu sohada qo'llaniladigan terminlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan muhim tadqiqot obyektini tashkil etadi. Harbiy texnikaning jadal rivojlanishi, qurollanish tizimlarining murakkablashuvi va xalqaro harbiy hamkorlikning kengayishi natijasida harbiy terminologiya jadal ravishda boyib bormoqda.

Ingliz tili bugungi kunda xalqaro harbiy-texnik muloqotning asosiy vositasi hisoblanadi. O'zbek tilida esa harbiy terminologiya mustaqillikdan so'ng milliy til siyosati asosida takomillashib, me'yorlashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. Shu bois ingliz va o'zbek tillarida qurollanish hamda harbiy texnikaga oid terminlarning qo'llanilishini qiyosiy tahlil qilish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Tilshunoslikda termin muayyan fan yoki kasbiy faoliyat sohasiga oid aniq tushunchani ifodalovchi, bir ma'noli va tizimli leksik birlik sifatida talqin qilinadi. Harbiy terminologiya esa qurolli kuchlar, qurol-yarog', harbiy texnika, strategiya va taktika bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi terminlar majmuasidir.

Qurollanish va harbiy texnika sohasiga oid terminlar *harbiy amaliyot, texnik vositalar, mudofaa tizimi, jangovar texnologiyalar* bilan bog'liq bo'lgan maxsus leksik birliklardir. Ushbu terminlar o'zida nafaqat obyekt yoki hodisani

nomlash, balki uni tasvirlash, tasniflash, texnik xususiyatlarini yoritish kabi funksiyalarni ham mujassam etadi. Shuning uchun ular leksik-semantik aniqligi va ixtisoslashganlik darajasi bilan ajralib turadi. Qurollanish va harbiy texnika terminlari - bu harbiy sohada foydalaniladigan, aniq semantik chegaralarga ega, texnik va funktsional xususiyatlarga asoslangan maxsus terminlar tizimidir.

**Adabiyotlar tahlili**

Qurollanish va harbiy texnikaga oid terminlar harbiy-texnik taraqqiyot, amaliy jangovar ehtiyojlar, tilning dinamik rivoji hamda tarixiy tajriba bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Terminologiya nazariyasida ta’kidlanganidek, har bir termin muayyan ijtimoiy-amaliy ehtiyoj mahsuli bo‘lib, u ma’lum tushunchalar tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. O.S. Axmanova terminlarni “muayyan soha tushunchalarini aniq va tizimli ifodalovchi maxsus leksik birliklar” sifatida talqin qilib, ularning tartibli va ierarxik xususiyatiga alohida urg‘u beradi [1]. Shu nuqtayi nazardan, harbiy-texnik terminlar harbiy terminologiya tizimining semantik jihatdan aniqligi, morfologik jihatdan murakkabligi va stilistik betarafligi bilan ajralib turadigan muhim qatlamini tashkil etadi.

Zamonaviy harbiy sohada yuzaga kelayotgan texnologik yangiliklar, xususan informatika, optika, energetika va yadro fizikasi bilan bog‘liq ixtirolar terminologik tizimning doimiy ravishda boyib borishiga sabab bo‘lmoqda. D. Crystalning fikricha, ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida terminlar “yangi bilim va texnologiyalarni nomlash ehtiyoji natijasida tezkorlik bilan shakllanadi va til tizimiga kirib boradi” [2]. Har qanday yangi texnik vosita yoki jarayon o‘z nomini talab qilishi tabiiy bo‘lib, bunday terminlar, odatda, ilmiy asoslangan va texnik mazmunga ega bo‘ladi. Masalan, *radioaktiv zaryad* termini atom energetikasining harbiy sohaga tatbiq etilishi natijasida vujudga kelgan bo‘lib, u yadroviy qurollarning tarkibi va ta’sir mexanizmini ifodalovchi aniq ilmiy-texnik tushuncha sifatida terminologik tizimga singib ketgan.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Amaliy jangovar tajriba asosida shakllangan terminlar esa harbiy taktika, strategiya, qurollarni jihozlash va o‘q otish mexanizmlariga oid tushunchalarni qamrab oladi. Terminolog olimlarning ta’kidlashicha, bunday terminlar ko‘pincha real harbiy amaliyotda qo‘llanilgan vositalarning funksional xususiyatlariga asoslanadi. Masalan, *snaryad va minomyot* terminlari jangovar harakatlarda keng qo‘llaniladigan artilleriya qurollarini anglatib, ularning harbiy taktikadagi ahamiyati yuqori bo‘lganligi sababli harbiy leksikonda barqaror va faol birliklar sifatida mustahkam o‘rin egallagan. Globallashuv va xalqaro harbiy hamkorlik jarayonlari ham harbiy-texnik terminologiyaning rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ko‘pgina tadqiqotchilar harbiy terminologiyaning xalqaro xarakterga ega ekanligini qayd etib, xorijiy tillardan, ayniqsa ingliz, rus va fransuz tillaridan terminlarning keng o‘zlashishini tabiiy jarayon sifatida baholaydilar. Bugungi kunda ingliz tilidan kirib kelgan harbiy-texnik terminlar sonining ortishi NATO, AQSh va boshqa G‘arb mamlakatlari bilan harbiy-texnologik hamkorlikning kuchayishi bilan izohlanadi. Masalan, *drone* termini ingliz tilidan o‘zlashib, o‘zbek tilida uchuvchisiz uchish apparati shaklida izohlanadi. Ushbu termin axborot texnologiyalarining harbiy sohada keng qo‘llanilishi natijasida yuzaga kelib, hozirgi kunda o‘zbek tilida ham barqaror ishlatiladigan leksik birlikka aylangan.

Tarixiy harbiy tajriba ham terminologiya tizimida muhim iz qoldirgan. Tilshunoslarning fikriga ko‘ra, qadimgi va o‘rta asrlar urushlariga oid terminlar ko‘plab tillarda saqlanib qolgan bo‘lib, ular asosan tarixiy-adabiy va ilmiy matnlarda uchraydi. Bunday terminlar ko‘proq tarixiy qurollar, harbiy inshootlar yoki urush usullari bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, *katapult* qadimiy davrlarda ishlatilgan tosh otuvchi qurilmani anglatgan bo‘lsa, *xandaq* termini qal’a va mudofaa inshootlari atrofida qazilgan himoya o‘rni sifatida harbiy leksikada tarixiy birlik sifatida saqlanib qolgan.

Hamidulla Dadaboyev va Hamid Yodgorovlarning “O‘zbek harbiy terminologiyasi” kitobida *avtomat, ashuq, bashqiyon, granata, ya bag‘ri, javshan, jiba, minomyot, omoch, pulemyot, snaryad, sungu, tank, tanuq, o‘pchin, farangi, qilich qamchi, quyaq, qumbura* kabi so‘zlar qurol-yarog‘ va aslaha-anjomlarni ifodalovchi terminlar deb berilgan. Zamonaviy o‘zbek terminologiyasi tarkibi tobora kengayib borib, ayniqsa qurol turlarini ifodalovchi terminlar hisobiga boyimoqda. Masalan, hozirgi vaqtda *o‘qotar qurol, mina, torpedo, raketali qurol, reaktiv qurol, yadro quroli, kimyoviy qurol, bakteriologik (biologik) qurol va sovuq qurol* kabi tushunchalar keng ishlatilmoqda. Ular talofat yetkazish xususiyatiga ko‘ra ommaviy qirg‘in quroli, oddiy zarar yetkazuvchi qurol kabi turlarga bo‘linadi. Jangovar topshiriqlarning ko‘lami asosida esa qurollar strategik, operativ-taktik va taktik toifalarga ajratiladi. Shuningdek, qurolning mo‘ljallangan vazifasiga qarab bir maqsadli (masalan, samolyotga, tankka yoki suvosti kemasiga qarshi) hamda ko‘p maqsadli, majmuiy turlari mavjud. Xizmat qiluvchi harbiy xodimlar soniga ko‘ra esa qurol shaxsiy yoki guruh quroli sifatida tasniflanadi. O‘t ochish mexanizmining avtomatlashtirilish darajasiga ko‘ra, avtomat(ik), yarim avtomatik va qo‘lda boshqariladigan turlari farqlanadi. Bunga qo‘shimcha ravishda, nishonga qarata harakatlanish chog‘ida trayektoriyasini o‘zgartirish imkoniyatiga qarab, qurollar boshqariladigan yoki boshqarilmaydigan turlarga ajratiladi.

**Natijalar va ularning tahlili**

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Qurol aslaha” ma’nosidagi *yarog‘/yaroq* termini bilan yonma-yon arabcha *siloh/saloh* o‘zlashmasi ham faol qo‘llanishga kirgan. Sovutlarning turli ashyolardan yasalishi ularni anglatuvchi istilohlarda ham

ifodasini topgan. Simdan to‘qilgan sovut turi *javshan* deb nomlangan, javshanning ustidan xitoy shoyisidan tikilgan to‘n kiyilgan, bunday himoya turi bilan ta’minlangan askar *javshanlig‘* termini bilan atalgan.

Mo‘g‘illar istilosidan keyin qo‘llanishga kirgan *jiba* jibagarlar tomonidan metaldan tayyorlangan, sovutning ushbu turi saqlanadigan ombor *jibaxona,* ombor mutasaddisi *jibachi*, u bilan qurollangan jangchi *jibaliq* / *jibalik* tarzida yuritilgan.

Dushmanning otliq qo‘shinlari hujumini to‘xtatishda hamda yov dushmanni yo‘q qilishda nayza bilan jang qiluvchi askarlarning ahamiyati katta bo‘lgan. “Nayza” tushunchasi “tiqish” yoki “sanchish” ma’nolarini anglatuvchi *sun* va *sanch* fe’llaridan kelib chiqqan *sanchqoq* va *sungug*/*sungu* kabi so‘zlar orqali ifodalangan. Xususan, *sungu* shaklidagi variant Qoraxoniylar, Temuriylar va Shayboniylar davriga oid tarixiy va adabiy manbalarda tez-tez uchraydi. O‘qlar solingan idish esa *kesh* yoki *kish* deb yuritilgan bo‘lib, u jangchining beliga maxsus kamar yordamida mahkamlangan.

“Kamon” tushunchasi Ko‘k turklar davrida harbiy tizimda *ya* termini bilan atalgan. Yoyning egilgan markaziy qismi *ya bag‘ri* deb yuritilgan, kamon bilan ishlovchi yoki uni otuvchi shaxs *ya qurg‘uchi* nomi bilan atalgan. Yoyni tortish harakati *ya qur* fe’li orqali ifodalangan bo‘lsa, kamon otish bo‘yicha bellashuv *ya tortish* termini yordamida anglatilgan.

Uch xonliklar davriga oid harbiy kuchlar artilleriya turlarini ifodalashda *to‘b*/*to‘p*, *zambarak va jazoyir* kabi terminlardan foydalanganlar. Aynan shu davrda katta talofat yetkazuvchi yangi turdagi qurol – bomba ham qo‘llanila boshlangan bo‘lib, u *qumbura* nomi bilan tanilgan [3].

XIV asrda Kichik Osiyodan O‘rta Osiyo hududlariga kirib kelgan o‘t ochuvchi qurollardan biri *miltiq* bo‘lib, u o‘sha davrlarda *tufak* yoki *tufang* terminlari bilan nomlangan. Bu qurol dushmanning tirik kuchlarini nafaqat ochiq maydondagi janglarda, balki shahar, qal’a va qo‘rg‘onlarga hujum vaqtida ham jiddiy talofat yetkazishga mo‘ljallangan edi. Xususan, Bobur Hindistonda zabt etgan g‘alabalarda tufakdozlar – miltiq bilan qurollangan jangchilarning hissasi katta bo‘lgan. *Tufak*/*tufang* bilan jihozlangan jangchilar qal’alarni himoya qilishda ham faol bo‘lishgan – ular burj va borularga joylashtirilib, dushmanga qarshi o‘t ochganlar. Ushbu qurol turi XIX asr oxirlariga qadar o‘z harbiy ahamiyatini saqlab qolgan [3].

XV asr oxiri va XVI asr boshlarida esa o‘t sochuvchi qurol miltiq termini orqali tilga kira boshlagan. Bu davrda miltiqlar stvol (qurolning quvur qismi) uzunligiga qarab ajratilgan: qisqa stvolli miltiq *bashqiyon*, uzoq stvolli miltiq esa *sepishkan* yoki karabin deb atalgan. *Shamhol* deb nomlangan miltiq turi Xorazm xonlari hukmronligi davridagi manbalarda uchraydi, u bilan qurollangan askarlar esa *shamholchi* deb atalgan. Shu bilan birga, *o‘q* termini bu davrda nafaqat kamon o‘qlari, balki o‘t ochuvchi qurollar, ya’ni miltiq va zambarak snaryadlari uchun ham ishlatilgan. Amir Temur qo‘shinida esa qal’a va qo‘rg‘onlarni vayron qilish, devorlarni yorib kirish maqsadida *manjaniq* (tosh otuvchi qurol) ishlatilgan. Biroq keyinchalik to‘p kabi qurollarning keng tarqalishi natijasida *manjaniq, faloxan, charx, paloxmon* kabi tosh yoki yonuvchi suyuqlik otadigan qurollar asta-sekinlik bilan harbiy tildan chiqib ketgan. Tadqiq etilayotgan davrga oid manbalarda kamon o‘qi turli tillardagi terminlar bilan nomlangan. Masalan, o‘zbek tilida bu qurol o‘q deb yuritilgan bo‘lsa, fors-tojik manbalarida *novak* yoki *xadang* istilohlari qo‘llangan. Agar o‘q metall materialdan tayyorlangan bo‘lsa, u *tir* deb atalgan. Yassi shakldagi o‘qlar *kaybur*, patsiz (qanotsiz) o‘q esa *gaz* deb nomlangan. O‘qning uchi, ya’ni zarba beruvchi temir qismi esa *boshoq* termini orqali ifoda etilgan [5].

O‘zbek harbiy terminologiyasi rivojlanish jarayonida qurol-aslaha nomlarini ifodalovchi terminlar bir necha yo‘nalishda shakllanganini kuzatish mumkin:

a) Ba’zi qurol nomlari bevosita rus tilidan asl shaklida o‘zlashtirilgan. Masalan, *vintovka, pulemyot, avtomat, pistolet, granata, bomba, minomyot, snaryad, mina, granatomyot, zenitka, tank* kabi terminlar shular jumlasidandir.

b) Ayrim holatlarda esa mazkur nomlarga o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan muqobillar tanlangan. Masalan, *to‘pponcha, miltiq, beshotar* kabi istilohlar qo‘llanilgan.

c) Birikmali terminlar esa o‘zbek tilining grammatik normalariga moslashtirilgan holda shakllangan. Bunga misol sifatida *stanokli pulemyot, dektyarev pulemyoti, tankotar granata (yoki tankka qarshi granata), qo‘l granatasi, o‘zi yurar to‘p, oltiotar minomyot* kabi birliklarni keltirish mumkin.

**Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish mumkin, qurollanish hamda harbiy texnikaga oid terminlarning qo‘llanilishi har ikki tilning leksik va strukturaviy xususiyatlarini aks ettiradi. Ingliz tili xalqaro harbiy terminologiyaning asosiy manbai bo‘lsa, o‘zbek tilida terminlarni milliy til me’yorlariga moslashtirilgan va standartlashtirilgan. Harbiy terminologiyaning chuqur tahlili nafaqat tilshunoslik uchun, balki harbiy soha mutaxassislari uchun ham zarurdir, chunki bu ularning professional faoliyatini yanada samarali amalga oshirishlariga yordam beradi. Harbiy terminologiyani to‘g‘ri tushunish va qo‘llash jangovar sharoitlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zaruriy shartdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: 2004. Наука, – С. 147
2. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. –Cambridge University Press, 2019. – P. 97.
3. Dadaboyev H., Yodgorov H. “O‘zbek harbiy terminologiyasi” Toshkent 2021. SAHHOF, –B. 146.

4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikologiyasi. – Toshkent: 2018. Fan, –B. 59.

5. Троицкая А.Л. Военное дело в Бухаре в первой половине XIX в. Сборник статьей истории и филологии народов Средней Азии. Посвященная 80-летию со дня рождения А.А.Семенова. М:, 1953. – С. 216.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Abduvaliyeva Nodira Alisherovna**
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
**Mo‘minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi**
Farg‘ona davlat universiteti
2-kurs magistranti

**ORCID: 0009-0004-7590-2364**

## FITONIMLAR ASOSIDA ORFOGRAFIK MASHQLAR TIZIMINI ISHLAB CHIQISH

***Annotatsiya:*** *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida orfografik kompetensiyani shakllantirishda fitonimlardan foydalanish imkoniyatlari va usullari, ularning o‘quv jarayonidagi ahamiyati va fitonimlar asosida tuzilgan orfografik mashqlar tizimi yoritiladi. Fitonimlar – o‘simlik nomlaridan tashkil topgan leksik birliklar bo‘lib, ular bolalarning so‘z boyligi, nutq madaniyati va yozma ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotda fitonimlar asosida amalga oshiriladigan interaktiv mashqlar, o‘yinlar va testlar orqali o‘quvchilarning til kompetensiyasi, yozma nutq va orfografik qobiliyatlari qanday rivojlanishi tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, fitonimlarga asoslangan o‘quv faoliyati o‘quvchilarda kreativ fikrlash, eslab qolish va tilni to‘g‘ri ishlatish ko‘nikmalarini samarali shakllantiradi. Fitonimlar orqali qiziqarli metodlar va kreativ o‘yinlar, o‘quvchilar bilan olib borildi. Tadqiqot davomida kuzatish, tahlil va tajriba metodlaridan foydalanildi. Natijalar fitonimlar asosida tuzilgan mashqlar o‘quvchilarning imlo ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko‘rsatdi. Maqolada fitonim va kompetensiya, ularni integratsiya qilish asosida mashqlar berilgan. Ushbu topshiriqlar o‘quvchilar uchun qiziqarli va mazmunli tashkil etilgan. Ularni darsga va fanga bo‘lgan qiziqishlarini hamda intilishlarini rivojlantirishga xizmat qiladi*

***Kalit so‘zlar****: fitonim, orfografiya, imlo mashqlari, boshlang‘ich ta’lim, kompetensiya, metod, didaktik o‘yinlar, kreativlim, innovatsiya va integratsiya, tahlil va tajriba, topshiriq.*

**Абдувалиева Нодира Алишеровна**
Доцент Ферганского государственного университета, доктор философии в области филологии
**Моминжонова Гульнорахон Абдупатто кизи**
Ферганский государственный университет
Студентка 2-го курса магистратуры

## РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ ОРТОГРАФИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ НА ОСНОВЕ ФИТОНИМОВ

***Аннотация:*** *В статье рассматриваются возможности и методы использования фитонимов в формировании орфографической компетентности учащихся начальной школы, их значение в процессе обучения, а также система орфографических упражнений на основе фитонимов. Фитонимы – это лексические единицы, состоящие из названий растений, которые служат важным инструментом в развитии словарного запаса, культуры речи и навыков письма у детей. В исследовании анализируется, как развиваются языковая компетентность, письменная речь и орфографические навыки учащихся с помощью интерактивных упражнений, игр и тестов на основе фитонимов. Результаты показывают, что образовательная деятельность, основанная на фитонимах, эффективно формирует у учащихся творческое мышление, запоминание и навыки правильного использования языка. С учащимися проводились интересные методики и творческие игры с использованием фитонимов. В ходе исследования использовались методы наблюдения, анализа и экспериментальные методы. Результаты показали, что упражнения, основанные на фитонимах, значительно развивают орфографические навыки учащихся. В статье приведены упражнения, основанные на фитонимах и компетентности, и их интеграция.Эти задания организованы интересно и содержательно для учащихся. Они способствуют развитию их интереса и стремлений к урокам и изучению естественных наук.*

***Ключевые слова****: фитоним, орфография, упражнения по правописанию, начальное образование, компетентность, метод, дидактические игры, креативность, инновации и интеграция, анализ и опыт, задание.*

**Abduvaliyeva Nodira Alisherovna**
Associate Professor of Fergana State University, Doctor of Philosophy in Philology

**Mo‘minjonova Gulnorahon Abdupatto qizi**
Fergana State University

**DEVELOPMENT OF A SYSTEM OF ORTHOGRAPHIC EXERCISES BASED ON PHYTONYMS**

***Annotation:*** *The article discusses the possibilities and methods of using phytonyms in the formation of spelling competence in primary school students, their importance in the learning process, and a system of spelling exercises based on phytonyms. Phytonyms are lexical units consisting of plant names, which serve as an important tool in developing children’s vocabulary, speech culture, and writing skills. The study analyzes how students’ language competence, written speech, and spelling skills develop through interactive exercises, games, and tests based on phytonyms. The results show that educational activities based on phytonyms effectively form students’ creative thinking, memorization, and correct language use skills. Interesting methods and creative games using phytonyms were conducted with students. Observation, analysis, and experimental methods were used during the study. The results showed that exercises based on phytonyms significantly develop students’ spelling skills. The article provides exercises based on phytonym and competence, and their integration. These tasks are organized in an interesting and meaningful way for students.It serves to develop their interest and aspirations in the lesson and science.*

***Keywords:*** *phytonym, orthography, spelling exercises, primary education, competence, method, didactic games, creativity, innovation and integration, analysis and experience, task.*

**Kirish**

Fitonimlar (yunoncha "phyton" – o‘simlik va "onoma" – nom so‘zlaridan) — bu o‘simliklarning nomlari bo‘lib, ular tilshunoslikda o‘simliklarga berilgan maxsus leksik birliklar (so‘zlar) hisoblanadi; ular o‘simlik nomlari, ularning xususiyatlari, xalq tilidagi nomlanishlari va madaniyatdagi o‘rnini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasini tashkil etadi.

Boshlang‘ich sinflarda orfografik ko‘nikmalarni shakllantirish ona tili ta’limining asosiy vazifalaridan biridir. So‘zlarning to‘g‘ri yozilishi, imlo qoidalariga amal qilish, fonetik-morfologik bilimlarni mustahkamlash o‘quvchilar til madaniyatining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi imloviy malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, kichik yoshdagi o‘quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash metodikasini belgilaydi. Imloviy malaka maxsus nutq malakasidir. To‘g‘ri yozuv - maxsus nutq faoliyati; yozuv ham murakkab harakat bo‘lib, uning asosida nutq yotadi. Imloviy malaka nutq faoliyatining komponenti sifatida gapni sintaktik jihatdan to‘g‘ri tuzish, so‘zni uslubiy aniq qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi.Imloviy malaka murakkab malaka bo‘lib, uzoq davom etadigan mashqlar jarayonida yaratiladi va so‘zni fonetik tomondan tahlil qilish, uning morfemik tarkibini aniqlash ko‘nikmasi kabilarga asoslanadi. Psixologiya malakani avtomatik harakat, ya’ni mashqlar natijasida asta-sekin avtomatlashgan ongli harakat deb belgilaydi. Avtomatlashish o‘rganilgan imlo qoidasining oson yoki qiyinligiga bog‘liq. Imloviy malaka o‘z tabiati bilan avtomatik hisoblanmaydi. Malaka asosiga qo‘yilgan ko‘nikma mustahkamlanadi, takomillashadi, yaxshilanadi (harakat tezlashadi, aniq va to‘g‘ri bo‘la boshlaydi, ishonarli va tejamli bajariladi); shuning bilan birga, faoliyatning tuzilmasi qayta quriladi: mayda birlik bilan ishlash kengroq, butun, qo‘shilgan birliklar bilan ishlashga o‘tadi (masalan, so‘zni harflab ko‘chirish, bo‘g‘inlab ko‘chirish bilan, keyin so‘zni yaxlit ko‘chirish bilan, so‘ngra u gapniko‘chirish bilan almashadi). Bir imlo malakasi avtomatlashadi, imloga oid boshqa hodisa o‘rganiladi va asta-sekin so‘zni to‘g‘ri yozish malakasi hosil bo‘ladi.

Umuman olganda, yozuv murakkab harakat sifatida ongli jarayonligicha qoladi. To‘g‘ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o‘quvchidan fikrlash faoliyati talab etiladi. Biror to‘g‘ri yozuv hodisasini o‘zlashtirish uchun o‘quv va yodda saqlashgina emas, balki analiz va sintez qila olishni ham tatbiq etiladi. Bunda grammatik va imloviy hodisalarning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun taqqoslash usulidan foydalanish hamda so‘z va so‘z shakllarini ma’lum grammatik yoki grafik guruhlarga ajratish, muayyan tizimga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan foydalanish muhim o‘rin tutadi.[2] So‘nggi yillarda o‘quv jarayonida til materiallarini boyitish maqsadida fitonimlar — o‘simlik nomlaridan foydalanish samarali metodik vosita sifatida qaralmoqda. Fitonimlarning lug‘aviy rang-barangligi, o‘quvchilar hayoti bilan bevosita bog‘liqligi, tabiatga qiziqishini oshirishi ularni orfografik mashqlar tuzishda qulay materialga aylantiradi. Mazkur tadqiqot fitonimlar asosida orfografik mashqlar tizimini ishlab chiqish va uning o‘quvchilar imlo savodxonligi rivojiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Fitonimlardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining orfografik kompetensiyasini rivojlantirishda samarali omil hisoblanadi. Fitonimlar o‘quvchilar uchun tanish, hayotiy unsur bo‘lgani sababli ularning o‘zlashtirishi yengil kechadi. Oddiy so‘zlarga nisbatan fitonimlarning fonetik va morfologik tuzilishi ko‘proq murakkablikka ega bo‘lgani bois ular imlo mashqlari uchun boy material bo‘la oladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar**.

A.Shakirovning “Ta’limda kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi” nomli qo‘llanmasida orfografik kompetensiyani rivojlantirishga doir tushunchalar va mashqlar ko‘rsatib o‘tilgan. Kompetensiya – o‘quvchining bilim,

ko‘nikma va shaxsiy sifatlarni integrativ qo‘llay olish qobiliyati hisoblanadi. Mashqlar orqali orfografik va leksik kompetensiyani shakllantirish o‘quvchilar uchun alohida ahamiyatga ega. Fitonimlar va ona tili darslarida kompetensiyani rivojlantirish uchun tematik, mazmunli so‘z guruhlari ishlatilishi mumkin. “Fitonimlar semantik guruhga kiradi, ularni tanlab mashqlar tuzish kompetensiya shakllantirishga yordam beradi. Leksik kompetensiyani rivojlantirishda mazmunli, hayotiy misollar qo‘llash tavsiya etiladi”- deb D.Yusupova “O‘zbek tilida fitonimlarning leksik-semantik xususiyatlari” nomli tadqiqot maqolasida ta’kidlab o‘tgan. Karima Qosimovaning ”Boshlang‘ich sinf ona tili o‘qitish metodikasi“da ona tili o‘quvchilarda lingvistik, orfografik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilganligini, so‘zlarning mazmuni, talaffuzi, yozilishi va kontekstga bog‘lab o‘rgatish metodlari ko‘rsatilganligini, fitonimlar o‘quvchilarda semantik tafakkur va leksik kompetensiyani shakllantirishga qulay vosita ekanligini aytib o‘tgan. “Boshlang‘ich sinflarda so‘zlarni yozish qoidalarini o‘rgatishning sistematik yondashuvi bayon qilingan. Fitonimlarni asos qilib olish orqali mashqlarni mazmunli qilish mumkin, bu esa lingvistik kompetensiyani kuchaytiradi”- degan fikrlarni B.Mamatov aytib o‘tgan.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Tahlil va sintez – fitonimlarning leksik-semantik xususiyatini, ular ichida imloviy qiyinchilik tug‘diruvchi so‘zlarni aniqlash uchun.

Kuzatish – 3–4-sinflarda ona tili darslarida orfografik xatolarni o‘rganish uchun.

Tajriba-sinov – fitonimlar asosida tuzilgan mashqlar tizimini 30 nafar o‘quvchi ishtirokida sinab ko‘rish uchun.

Statistik tahlil – o‘quvchilar diktantlari va yozma ishlari natijalarini solishtirish orqali mashqlar samaradorligini baholash uchun.

**Natijalar va muhokama**

Tajriba davomida fitonimlar asosida quyidagi turdagi orfografik mashqlar tizimi ishlab chiqildi:

1. Fonetik-orfografik mashqlar- fitonimlarning talaffuzi va yozilishini solishtirish (masalan: qayrag‘och – qayrag‘och, saksovul, anjir).

Undoshlarning talaffuzdagi almashinuvi bilan bog‘liq mashqlar (o‘rik → o‘rig‘i)

2. Morfologik mashqlar- fitonimlarni yasash, qo‘shimchalar qo‘shish (olma – olmaxon, tol – toli, anor – anorchilik).

Ko‘plik va egalik qo‘shimchalarini qo‘llash (g‘o‘za – g‘o‘zalar, qarag‘ayim).




3. Leksik-orfografik mashqlar- fitonimlarning ma’nosini kontekstda to‘g‘ri qo‘llash.

O‘xshash yoziladigan fitonimlarni farqlash (qayin – qayin, tol – to‘l kabi omonimlar misolida).

4. Matn asosida mashqlar- fitonimlar ishtirokidagi kichik matnni ko‘chirib yozish. Matnda fitonimlarni topib, ularning imloviy belgilarini tahlil qilish. Fitonimlar ishtirokida diktantlar.



**Gullarning opasi**

Mahallamizda ismi jismiga monand bir qiz bor. Uning ismi Gulsevar. U ko'chamizda ekilgan barcha gullarni parvarishlaydi. Gullarga xuddi uka-singillariga qaragandek qaraydi. Agar biror gul so'lib qolgudek bo'lsa, shunday qayg'uradiki, kasal bo'lib qolay deydi. Hatto suv quyganda ham suvni isrof qilmaydi. Buvilarimiz uni "tejamkor qiz", "gullarning opasi", deb maqtashadi.

*("G'uncha" jurnalidan)*

**2-mashq. Matnni o'qing.**

Archa – doimo yashil holda o'suvchi daraxt. Uning 70 ga yaqin turi bor. Archa mart-may oylarida gullaydi. Mevasi qo'ng'ir tusli bo'ladi. Ikkinchi yili pishib, qish yoki bahorda to'kiladi. Archaning 2-3 yoshli ko'chati ekiladi. Uning yog'ochi me'morlikda va o'ymakorlikda ishlatiladi. Uning ba'zi turlaridan xushmanzara o'simlik sifatida foydalaniladi.

- Ko'chiring. Matndagi belgini bildirgan so'zlarni aniqlang va tagiga to'lqinli chiziq chizing.

Natijalar quyidagilarni ko‘rsatdi: Mashgulotlar davomida o‘quvchilar orfografik xatolar soni 35–40% ga kamayadi. O‘quvchilar fitonimlarning ma’nosi va yozilishini yaxshi o‘zlashtiradi. Mashqlar tabiatga qiziqishni oshiradi va lug‘at boyligini kengaytiradi.

**Xulosa**

Fitonimlar asosida orfografik mashqlar tizimini ishlab chiqish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining imlo savodxonligini oshirishda samarali usul hisoblanadi. Tizimli mashqlar o‘quvchilarni so‘zlarning tuzilishini chuqur anglashga, o‘z fikrini yozma ravishda to‘g‘ri bayon qilishga o‘rgatadi. itonimlar asosida orfografik mashqlar tizimini yaratish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida imlo malakasini shakllantirishning samarali yo‘llaridan biri ekanligi tadqiqot davomida aniqlandi. O‘simlik nomlariga oid leksik birliklar mazmunining o‘quvchilar hayotiy tajribasiga yaqinligi, ularning til sezgirligi va kuzatuvchanligini oshirishi, tabiatga mehr uyg‘otishi ushbu materiallardan foydalanishni yanada maqsadga muvofiq qiladi. Fitonimlar asosida tuzilgan mashqlar to‘plami o‘quvchilarni murakkab imlo qoidalarini o‘zlashtirishga yo‘naltirish bilan birga, so‘zlarning kelib chiqishi, ma’nosi va ishlatilish xususiyatlarini anglashga yordam beradi. Ishlab chiqilgan mashqlar tizimi fonetik, morfologik va leksik-imlo malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ularning izchil qo‘llanishi o‘quvchilar imloviy savodxonligining sezilarli darajada oshishiga xizmat qilishi mumkin. Xususan, fitonimlarga doir diktant, ko‘chirish, guruhlarga ajratish, so‘z yasalishini aniqlash, qoida asosida yozishni mashq qildirish, ijodiy mashqlar kabi topshiriqlar kompleks yondashuvni ta’minlaydi. Shuningdek, fitonimlar asosidagi mashqlar tizimi o‘quvchilar nutqini boyitish, ekologik tarbiyalash, tilga qiziqish uyg‘otish kabi qo‘shimcha pedagogik vazifalarni ham bajaradi. Bu esa orfografik ko‘nikmalarni rivojlantirishni faqat texnik jarayon sifatida emas, balki o‘quvchining tafakkuri va dunyoqarashini kengaytiruvchi ta’limiy vosita sifatida talqin etishga imkon beradi.

Yakuniy natijalar shuni ko‘rsatadiki, fitonimlardan maqsadli foydalanilgan holda yaratilgan orfografik mashqlar tizimi boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi mazmunini boyitadi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va savodxonligini rivojlantirishda katta samaradorlikka ega. Shu bois mazkur tizimni amaliyotga joriy qilish o‘qituvchilarga yangi metodik imkoniyatlar yaratadi va zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim talablariga to‘liq javob beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Hojiyev A. O‘zbek tili leksikologiyasi. — Darslik. — Toshkent: O‘qituvchi, 2007.
2. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. -T.: Noshir, 2022.
3. Toirova M. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. Toshkent: Novda Edutainment, 2023.
4. Yusupova D. O‘zbek tilida fitonimlarning lingvistik xususiyatlari. — Monografiya. — Toshkent: Fan, 2016.
5. Yuldasheva D. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. Toshkent: Novda Edutainment, 2023.
6. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2022.
7. Shakirov A. Ta’limda kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi. Qo‘llanma. Toshkent, 2020.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Akhundzhanov Bahodir Zafarovich**
PhD student at the Namangan State Institute of Foreign Languages named after Ishoqkhon Ibrat
E-mail: Lacrymosa73@gmail.com

## ALGORITHMIC ETYMOLOGY AS A NEW LINGUISTIC PHENOMENON: THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN SHAPING MODERN ENGLISH VOCABULARY

***Abstract:*** *This article examines algorithmic etymology as an emerging linguistic phenomenon shaped by the growing influence of artificial intelligence on language development. The study explores how AI-driven systems participate in the creation, reinterpretation, and dissemination of lexical meanings within the modern English vocabulary. Drawing on theoretical frameworks from historical linguistics, computational linguistics, and digital humanities, the article analyzes the shift from human-centered etymological processes to data-driven, algorithmic mechanisms of lexical change. Particular attention is given to AI-generated neologisms, semantic shifts, and the recontextualization of existing lexical units in technological discourse. The findings suggest that artificial intelligence functions not only as an analytical tool but also as an active lexical agent, accelerating vocabulary expansion and influencing semantic norms. The study argues that algorithmic etymology should be regarded as a complementary approach to traditional etymological research, while emphasizing the need for critical evaluation of AI-generated linguistic knowledge.*

***Keywords:*** *algorithmic etymology, artificial intelligence, modern English vocabulary, lexical innovation, semantic change, computational linguistics, neologisms, language evolution, digital discourse, AI-generated language*

**Axundjanov Bahodir Zafarovich**
Ishoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti doktoranti

## ALGORITMIK ETIMOLOGIYA YANGI LINGVISTIK HODISA SIFATIDA: ZAMONAVIY INGLIZ LUG'ATINI SHAKLLANTIRISHDA SUNT'IY INTELLEKTNING ROLI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada algoritmik etimologiya zamonaviy lingvistik hodisa sifatida tadqiq etilib, sun'iy intellektning ingliz tili leksikasini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot tarixiy lingvistika, kompyuter lingvistikasi va raqamli gumanitar fanlar nazariy asoslariga tayangan holda, inson markazli etimologik yondashuvlardan algoritmik va ma'lumotlarga asoslangan leksik o'zgarish mexanizmlariga o'tish jarayonini yoritadi. Maqolada AI tomonidan yaratilgan neologizmlar, mavjud so'zlarning semantik qayta talqin qilinishi hamda texnologik diskursda leksik birliklarning yangi ma'nolar kasb etishi tahlil qilinadi. Natijalar sun'iy intellektning faqat tahliliy vosita emas, balki faol leksik agent sifatida ham namoyon bo'layotganini ko'rsatadi. Algoritmik etimologiya an'anaviy etimologik tadqiqotlarni to'ldiruvchi yondashuv sifatida baholanadi.*

***Kalit so'zlar:*** *algoritmik etimologiya, sun'iy intellekt, zamonaviy ingliz leksikasi, leksik innovatsiya, semantik o'zgarish, kompyuter lingvistikasi, neologizmlar, til evolyutsiyasi, raqamli diskurs, AI yaratgan til*

**Ахунджанов Баходир Зафарович**
Аспирант Наманганского государственного института иностранных языков имени Ишакхона Ибрата

## АЛГОРИТМИЧЕСКАЯ ЭТИМОЛОГИЯ КАК НОВОЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ: РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ФОРМИРОВАНИИ СОВРЕМЕННОГО АНГЛИЙСКОГО СЛОВАРЯ

***Аннотация:*** *В статье рассматривается алгоритмическая этимология как новое лингвистическое явление, формирующееся под воздействием искусственного интеллекта. Анализируется роль ИИ в создании, переосмыслении и распространении лексических единиц современного английского языка. Теоретической основой исследования служат положения исторической лингвистики, компьютерной лингвистики и цифровых гуманитарных наук. Особое внимание уделяется алгоритмически сгенерированным неологизмам, семантическим сдвигам и переосмыслению существующих слов в технологическом дискурсе. Результаты исследования свидетельствуют о том, что искусственный интеллект выступает не только как инструмент анализа, но и как активный агент лексических изменений. Делается вывод о*

*необходимости рассмотрения алгоритмической этимологии как дополнительного, но критически осмысляемого направления этимологических исследований.*

***Ключевые слова:*** *алгоритмическая этимология, искусственный интеллект, современная английская лексика, лексические инновации, семантические изменения, компьютерная лингвистика, неологизмы, языковая эволюция, цифровой дискурс, язык ИИ*

## Introduction

The rapid development of artificial intelligence (AI) has brought significant changes not only to technology-driven fields but also to the study and evolution of language. One of the emerging phenomena at the intersection of linguistics and computer science is *algorithmic etymology* - the process by which AI systems generate, reinterpret, or influence word origins and meanings. Traditionally, etymology has been a human-centered discipline relying on historical texts, comparative linguistics, and philological analysis. However, with the rise of large language models and machine learning algorithms, AI has begun to participate actively in lexical innovation, reshaping the modern English vocabulary. This article explores algorithmic etymology as a new linguistic phenomenon and examines the role of artificial intelligence in shaping contemporary English.

Algorithmic etymology can be defined as the AI-assisted or AI-generated interpretation, creation, or reconstruction of word origins based on large-scale linguistic data. Unlike classical etymology, which is grounded in diachronic language change and historical documentation, algorithmic etymology operates through probabilistic models, pattern recognition, and statistical associations. AI systems analyze vast corpora of texts, detect morphological and semantic patterns, and propose plausible word formations or explanations that may not originate from traditional linguistic evolution.

This shift introduces a new epistemological framework for understanding word origins. While human etymologists rely on historical evidence, AI relies on data-driven inference, which can result in innovative yet sometimes speculative etymological interpretations.

Artificial intelligence plays a dual role in shaping modern English vocabulary: as a creator of new lexical items and as a mediator of meaning. In digital environments, AI-generated terms such as *prompt engineering*, *deepfake*, *hallucination* (in AI discourse), and *tokenization* have rapidly entered everyday and academic usage. These terms often emerge from technical contexts but are disseminated through AI-powered platforms, social media, and digital communication. Moreover, AI contributes to neologism formation by combining existing morphemes, adapting semantic fields, and extending metaphorical meanings. For example, words like *hallucinate* have acquired new algorithmic meanings when applied to AI behavior, demonstrating semantic shift influenced by technological discourse rather than natural language evolution alone.

Algorithmic etymology raises important theoretical questions for linguistics. First, it challenges the human-centered nature of language evolution by introducing non-human agents as active participants in lexical change. Second, it complicates the concept of authorship and intentionality in word formation. While traditional etymology assumes conscious or unconscious human agency, AI-generated vocabulary emerges from algorithmic processes without cultural or historical awareness. [1]

Furthermore, the reliability of AI-generated etymologies remains a critical issue. Although AI systems can identify patterns efficiently, they may produce etymological explanations that lack historical accuracy. Therefore, algorithmic etymology should be viewed as a complementary rather than a replacement approach to classical etymological research.

## Literature Review

The scholarly investigation of etymology has traditionally been grounded in historical linguistics, with foundational contributions emphasizing diachronic change, comparative reconstruction, and philological evidence. Classical works by scholars such as Bloomfield (1933), Hockett (1958), and Campbell (2013) conceptualize etymology as a systematic reconstruction of lexical origins through documented linguistic evolution. Within this framework, language change is viewed as a human-driven process shaped by sociocultural, cognitive, and historical factors.

With the advent of computational linguistics, the study of language evolution began to incorporate quantitative and corpus-based methodologies. Early computational approaches focused primarily on statistical modeling of lexical change rather than on etymology itself. According to Jurafsky and Martin (2023), corpus linguistics enabled researchers to identify patterns of semantic shift and morphological variation across large datasets, thereby expanding the methodological toolkit of historical linguistics. However, these approaches largely retained a human-centered epistemology. [2]

The emergence of artificial intelligence and machine learning marked a turning point in linguistic research. Recent studies have explored the capacity of AI systems to generate language, identify semantic patterns, and simulate aspects of human linguistic competence. Bender and Koller (2020) critically examine large language models, arguing that while such systems lack true semantic understanding, they nevertheless exert a measurable influence on language use through widespread deployment in digital communication. This observation is particularly relevant to the study of algorithmic etymology, as AI-generated language increasingly shapes lexical norms. [3]

Several scholars have addressed the role of AI in neologism formation and lexical innovation. Tagliamonte and Baayen (2012) emphasize that technological environments accelerate lexical diffusion by reducing temporal and geographical constraints. Building on this perspective, Floridi et al. (2018) argue that digital agents, including AI systems, function as "semantic mediators" that influence how meanings are constructed and disseminated. These studies suggest that AI is not merely a passive analytical tool but an active participant in contemporary linguistic ecosystems.

The concept of algorithmic agency has been further developed in interdisciplinary research. According to Kittler (1999) and later van Dijck (2013), technological systems increasingly mediate cultural production, including language. In the context of AI-generated text, this mediation extends to lexical creativity and semantic framing. Recent empirical studies by Bergen et al. (2024) demonstrate that repeated exposure to AI-generated language can influence human lexical choices, reinforcing algorithmically produced vocabulary and meanings. [4,5]

Despite these advances, the literature reveals a notable gap in explicitly addressing etymology as an algorithmic process. While numerous studies focus on semantic change, discourse transformation, and digital linguistics, relatively few examine how AI challenges the foundational principles of etymological analysis. Scholars such as McGillivray (2021) propose computational models for tracing word histories, yet these models remain grounded in historical corpora rather than generative AI systems. Moreover, concerns regarding the epistemological validity of AI-generated linguistic knowledge have been widely discussed. Scholars caution that algorithmic outputs may reflect statistical regularities rather than historically accurate linguistic processes (Marcus, 2022). This critique underscores the necessity of distinguishing between data-driven plausibility and empirically verified etymological evidence. Consequently, algorithmic etymology must be approached as a complementary framework rather than a replacement for traditional methodologies. [5]

In summary, existing scholarship provides a robust theoretical foundation for understanding linguistic change, computational analysis, and AI-mediated language use. However, the specific phenomenon of algorithmic etymology remains under-theorized. This gap highlights the need for systematic research into how artificial intelligence participates in the reinterpretation and creation of word origins within modern English. By synthesizing insights from historical linguistics, computational linguistics, and AI ethics, the present study contributes to an emerging interdisciplinary discourse on the evolving nature of etymology in the digital age.

## Conclusion

Algorithmic etymology represents a novel and transformative phenomenon in contemporary linguistics. The growing role of artificial intelligence in shaping modern English vocabulary reflects broader changes in how language is created, transmitted, and interpreted in the digital age. While AI contributes to lexical innovation and accelerates semantic change, it also poses methodological and theoretical challenges for linguists. Understanding the impact of AI on etymology requires an interdisciplinary approach that combines linguistic theory, computational analysis, and critical evaluation. As AI continues to evolve, its influence on language—and particularly on the etymological processes of English—will become an increasingly important area of scholarly inquiry.

## Used literature

1. Bender, E. M., & Koller, A. (2020). *Climbing towards NLU: On meaning, form, and understanding in the age of data*. Proceedings of the 58th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics, 5185–5198. https://doi.org/10.18653/v1/2020.acl-main.463

2. Bergen, B. K., Hawkins, R. X. D., & Goodman, N. D. (2024). *The interactional effects of large language models on human linguistic behavior*. Cognitive Science, 48(2), e13345. https://doi.org/10.1111/cogs.13345

3. Bloomfield, L. (1933). *Language*. New York, NY: Holt, Rinehart and Winston.

4. Campbell, L. (2013). *Historical linguistics: An introduction* (3rd ed.). Edinburgh: Edinburgh University Press.

5. Floridi, L., Cowls, J., Beltrametti, M., et al. (2018). *AI4People—An ethical framework for a good AI society*. Minds and Machines, 28(4), 689–707. https://doi.org/10.1007/s11023-018-9482-5

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Aytmuratova Ziyba**
Qoraqalpoq davlat universiteti «Ijtimoiy fanlar» kafedrasi assistenti

## QORAQALPOQ FOLKLORIDA INSONIYLIK KONSEPSIYASI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola qoraqalpoq folkloridagi inson konsepsiyasining shakllanishi va uning jamiyat va individual ongdagi o'rni masalasini chuqur tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xalq og'zaki ijodi - dostonlar, qissalar, maqol-matallar va pand-nasihatlar - insoniy fazilatlarni rivojlantirishda, komil inson konsepsiyasini shakllantirishda va milliy qadriyatlarni avlodlarga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, maqolada folklor matnlaridagi qahramonlarning adolat, vatanparvarlik, sadoqat, mardlik, mehr-shafqat va bag'rikenglik kabi fazilatlari misollar bilan tahlil qilinadi va ularning bugungi pedagogik jarayonda qo'llanilish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, folklor matnlarini zamonaviy darslar, tarbiyaviy tadbirlar va madaniy tadbirlarga integratsiyalash yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga yordam beradi. Shu bilan birga, ushbu maqola milliy qadriyatlarni rivojlantirish, insonparvarlikni targ'ib qilish va jamiyatning ma'naviy muhitini mustahkamlashdagi folklorning rolini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Qoraqalpoq folklori, insoniylik, komil inson, dostonlar, maqol-matallar, nasihat, milliy qadriyatlar, pedagogik ahamiyat.*

**Айтмуратова Зийба**
Ассистент кафедры «Социальных наук» Каракалпакского государственного университета

## КОНЦЕПЦИЯ ГУМАННОСТИ В КАРАКАЛПАКСКОМ ФОЛЬКЛОРЕ

***Аннотация.*** *В данной статье проводится глубокий анализ формирования концепции человека в каракалпакском фольклоре и его роли в общественном и индивидуальном сознании. Результаты исследования показали, что устное народное творчество – дастаны, повести, пословицы, поговорки и наставления – является важным средством развития человеческих качеств, формирования концепции совершенного человека (камил инсон) и передачи национальных ценностей поколениям. Также в статье на примерах анализируются такие качества героев фольклорных текстов, как справедливость, патриотизм, верность, мужество, милосердие и толерантность, и рассматриваются возможности их применения в современном педагогическом процессе. Исследование показывает, что интеграция фольклорных текстов в современные уроки, воспитательные и культурные мероприятия способствует воспитанию молодого поколения как гармонично развитых личностей. Вместе с тем, данная статья служит более глубокому пониманию роли фольклора в развитии национальных ценностей, пропаганде гуманизма и укреплении духовной среды общества.*

***Ключевые слова:*** *Каракалпакский фольклор, гуманность, совершенный человек, дастаны, пословицы и поговорки, наставление, национальные ценности, педагогическое значение.*

**Aytmuratova Ziyba**
Assistant of the "Social Sciences" Department, Karakalpak State University

## THE CONCEPT OF HUMANITY IN KARAKALPAK FOLKLORE

***Abstract.*** *This article provides an in-depth analysis of the formation of the concept of humanity in Karakalpak folklore and its role in society and individual consciousness. The research results indicate that oral folk art—including epics, tales, proverbs, and didactic teachings—serves as an essential tool in developing human virtues, shaping the concept of the "perfect human" (komil inson), and passing national values down to future generations. Furthermore, the article analyzes the qualities of heroes in folklore texts, such as justice, patriotism, loyalty, bravery, compassion, and tolerance, through specific examples and examines the possibilities of their application in today's pedagogical processes. The study shows that integrating folklore texts into modern lessons, educational activities, and cultural events helps in raising the younger generation as well-rounded individuals. At the same time, this article serves to further deepen the understanding of the role of folklore in developing national values, promoting humanism, and strengthening the spiritual environment of society.*

***Keywords:*** *Karakalpak folklore, humanity, perfect human, epics, proverbs, counsel, national values, pedagogical significance.*

**Kirish.** Qoraqalpoq folklori, o‘zining boy va qadimiy tarixi bilan, xalqimizning dunyoqarashini, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy va falsafiy qarashlarini o‘ziga xos badiiy shaklda aks ettiruvchi noyob manba hisoblanadi. Ayniqsa, u nafaqat tarixiy manba sifatida, balki milliy o‘zligimizni shakllantirish va avlodlarni tarbiyalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, folklor asarlari - dostonlar, qissalar, maqol-matallar, nasihat so‘zlar va ertaklar - insonparvarlik, komil inson masalasi hamda milliy qadriyatlarni rivojlantirishga beqiyos hissa qo‘shadi. Folklor ijodining mazmuni va shakli doimo amaliy tajriba bilan bog‘liq bo‘lib, unda jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, qadriyatlari va axloqiy mezonlari o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun, qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodi faqat o‘tmish davrlarning ijtimoiy-madaniy muhitini aks ettiribgina qolmay, balki bugungi kunda ham insoniy fazilatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Folklor va falsafa bir-biri bilan bog‘liq, chunki folklor xalq donishmandligining bir turi bo‘lib, u xalqning asosiy falsafiy qarashlarini, axloqiy qadriyatlarini, odob-axloq normalarini, dunyoqarashini obrazlar, ramzlar, rivoyatlar orqali aks ettiradi. Falsafa esa bu fikrlarni o‘rganish, tahlil qilish va tizimlashtirish orqali xalq madaniyati va abstrakt falsafiy tafakkurning chuqur aloqadorligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, folklor asarlarida insoniylikning har xil tomonlari - adolat, vatanparvarlik, mardlik, mehr-shafqat, sadoqat kabi misollar orqali aniq aks ettiriladi. Masalan, doston va qissalarda qahramonlarning boshqaruvdagi adolati yoki jamiyatdagi mas’uliyati orqali yosh avlodga ijtimoiy me’yorlar va axloqiy qadriyatlar yetkaziladi. Shu bilan birga, maqol-matallar va pand-nasihatlar kundalik hayotga tatbiq etiladigan qadriyatlarni sodda, oson va tushunarli tarzda yetkazadi, bu esa ularning pedagogik ahamiyatini yanada oshiradi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada qoraqalpoq folkloridagi inson konsepsiyasining shakllanishi, uning jamiyat va inson ongidagi o‘rni, shuningdek, xalq og‘zaki ijodidagi misollar asosida tahlil qilinadi. Bundan tashqari, maqolada milliy qadriyatlar, komil inson fazilatlari va ularning bugungi kundagi ahamiyati ham ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, insonparvarlik konsepsiyasining tarixi, shakllanish omillari va zamonaviy jamiyatdagi roli ham tahlil qilinadi, bu esa tadqiqotni yanada dolzarb va amaliy qiladi.

**Metodologiya.** Ushbu tadqiqotda qoraqalpoq folkloridagi insonparvarlik konsepsiyasini chuqur o‘rganish va tahlil qilish uchun ko‘p qirrali metodologik yondashuvlar qo‘llanildi. Avvalo, tadqiqotda tahliliy-uslubiy yondashuv asosiy o‘rinni egallaydi, chunki u orqali folklor matnlarining mazmuni, shakli va ularning insonparvarlik tamoyillari bilan bog‘liqligi batafsil o‘rganiladi. Shu bilan birga, komparativistik yondashuv ham tadqiqot jarayonida katta ahamiyatga ega bo‘lib, u folklor asarlarini turli davrlar va ijtimoiy kontekstlar bilan qiyoslash imkonini beradi. Bu esa insonparvarlik konsepsiyasining o‘zgarish jarayonini va zamonaviy jamiyatdagi o‘rnini aniqlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqotda matn tahlili usulidan keng foydalanildi. Bu metod orqali dostonlar, qissalar, maqol-matallar va pand-nasihatlar diqqat bilan o‘rganilib, ularning mazmuni, belgilangan axloqiy qadriyatlar va insoniy fazilatlarni ifodalash usullari aniqlanadi. Masalan, dostonlardagi qahramonlarning adolatli harakatlari, mardlik va vatanparvarlik ko‘rsatishlari, shuningdek, maqol-matal va pand-nasihatlarda aks etgan mehr-oqibat va sadoqat tamoyillari ushbu falsafiy tahlil yordamida tahlil qilinadi. Bundan tashqari, tadqiqotda tarixiy-kontekstli yondashuv qo‘llanildi, chunki folklor asarlari tarixiy muhit va ijtimoiy sharoit bilan chambarchas bog‘liq. Bu yondashuv folklor matnlarining yaratilgan davr sharoiti, jamiyatning axloqiy me’yorlari va inson konsepsiyasining shakllanishiga ta’sirini chuqur o‘rganishga imkon beradi. Shu nuqtayi nazardan, xalq og‘zaki ijodining ijtimoiy, ma’naviy va falsafiy ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot jarayonida empirik metodlar ham qo‘llanildi. Jumladan, qoraqalpoq folkloriga oid dostonlar, qissalar va maqol-matallar to‘plamidan namunalar tanlab olindi va ularning mazmuni, axloqiy tamoyillari hamda komil inson fazilatlarini aks ettirish usullari batafsil tahlil qilindi. Shu bilan birga, tadqiqotda kvalitativ tahlil va kontekstual talqin metodlari birgalikda qo‘llanilib, har bir folklor asarining insoniylik tamoyillari bilan bog‘liqligi chuqurroq o‘rganildi. Bundan tashqari, metodologiyada qiyoslash va integratsiya usullari qo‘llanilib, turli davrlardagi folklor asarlari bir-biri bilan taqqoslandi. Natijada, insonparvarlik konsepsiyasi shakllanishidagi umumiy tendensiyalar va o‘ziga xos xususiyatlar aniqlanishi mumkin bo‘ldi. Shu bilan birga, metodologik yondashuvlar tadqiqotning nazariy asosini mustahkamlash bilan birga, amaliy jihatlarini ham yoritishga imkon berdi. Shu nuqtai nazardan, bu metodologiya nafaqat qoraqalpoq folkloridagi insonparvarlik tamoyillarini aniqlash, balki ularni bugungi jamiyatda, xususan, tarbiyaviy-pedagogik jarayonlarda qo‘llash imkoniyatlarini tahlil qilishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ishonchliligi va dolzarbligini ta’minlaydi, shuningdek, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning samarali yo‘llarini aniqlash imkonini beradi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, qoraqalpoq folklori insonparvarlik konsepsiyasini boy va turli tomonlardan aks ettiradi. Avvalo, dostonlar, qissalar, maqol-matallar va pand-nasihatlar orqali qahramonlarning jasorati, adolati, vatanparvarligi, sadoqati va mehr-muruvvati jonli misollar sifatida aks ettiriladi. Qoraqalpoq folklori va XIX - XX asrdagi qoraqalpoq adabiyoti klassiklari asarlaridagi komil inson masalasiga oid qarashlar XII asrda yashab o‘tgan Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkiri, hikmat ilmining sultoni, xalqimizning ma’naviy madaniyatini shakllantirishga

katta hissa qo‘shgan Hakim ota Sulaymon Boqirg‘oniyning hikmatli so‘zlari bilan ham bog‘liqligini ko‘rish mumkin. Hakim ota o‘z hikmatlarida ustozi Xoja Ahmad Yassaviy asarlaridan ibrat olib, uni o‘ziga pir tutib, ustozi;

Menmenlikte bolma sen,
Menmenlikte dawa bar,
Miskinlikke qoy qadem,
Miskinlikte máni bar,
– deb ta’riflasa Sulaymon Boqirg‘oniy:
«Óziǵdi xalıqtan artıq hám kórmegil,
Ullılıqtı xaqqa saza kórmek kerek»,
«Men atına mindim ózim,
Námáhremge tústi kózim,
Dárgahında qızarıp júzim,
Óshirdi iyman shıraǵını, [7; 40- 41]

degan satrlari orqali har bir inson o‘zini manmanlikdan saqlash kerakligi, o‘zini boshqalardan yuqori qo‘ymaslik kabi muloyimlikka chiqaradi.

Harqanday holatda ham «folklor san’ati, bu insonning bolalik qo‘shig‘i» deb ko‘rsatganidek [8;544] 100 tomlik qoraqalpoq folklori to‘plamining nashr etilishi kelajak yoshlarimiz uchun inson va insoniy fazilatlarni chuqur o‘rganishning ma’naviy xazinasi sifatidagi o‘chmas merosga aylandi.

Qoraqalpoq xalq og‘zaki badiiy ijodi bo‘lgan folklor asarlari uzoq davrlardan buyon shakllanib, rivojlanib kelayotgan bir necha avlod vakillarining ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilib kelayotgan beqiyos qadriyatlarimizdir. Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng milliy meroslarimiz qayta tiklanib yoshlarimizni vatanparvarlik, komillikka, buyuk insoniylikka va o‘z xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalaydigan ma’naviyat xazinalari qudratli kuchga aylandi. Masalan: qoraqalpoq folklorining 88 tomidagi ota makon, el yurt, xonadon haqidagi maqol-matallarga tahlil qilib, har bir qatoriga e’tibor qaratsak hech qanday o‘z qimmatini yo‘qotmaydigan asil so‘zlarning guvohi bo‘lamiz.

Masalan:
«Ata jurt altın besik,
Ata jurttıń topıraǵıda altın» [9.13]

deb ko‘rsatganidek ota yurtning qadr-qimmatini xalqimiz har xil maqol-nasihat so‘zlari bilan yetkaza olgan. Masalan: «kishi elida sulton bo‘lgandan ko‘ra o‘z elingda ulton bo‘l» degan so‘zi insonning boshiga qanday kunlar tushsa ham o‘z elining afzalligini ta’riflaydi. Masalan;

Baqa kólinde patsha,
Balıq suwında patsha,
Bala úyinde patsha,
Batır elinde patsha.

satrlarini o‘qiganimizda botir bo‘lish faqat sheryuraklik emas, elni himoya qilish, elga xizmat qilish va elning qadr-qimmatiga erishishni katta vazifa qilib qo‘yadi. Shu bilan birga yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan satrlarga nazar solsak «Watansız adam – shámensiz búlbil» satrlarini o‘qiganimizda, bulbulning bog‘i, chamani bo‘lmasa, bulbuli bo‘lmaydi, ya’ni bulbul o‘z bog‘i, vatani bilan nomi chiqishini eslatib turadi. Insonga elning qadrini eslatadigan mana bu satrlarni olib qaraylik.

Aytıwlı batır bolsańda,
Arqańda turar el kerek,

bu satrlar botirlik elga xizmat qilish bilan uyg‘un ekanligini eslatib turadi.

Masalan:
«Er eli menen sıylı,
Jer káni menen sıylı»

satrlarni o‘qiganimizda - o‘z eliga qadri bo‘lmagan odam insonlarga xayr-saxovati, yoshi katta va kichiklarga mehr-shafqati bo‘lmagan, xalqiga xizmat etib ko‘zga tushmagan odam ekanligidan darak beradi. Yuqorida keltirganimizdek, «yer koni bilan aziz» - bu so‘zning ma’nosi chuqur, chunki hayot olami bizni o‘rab turgan tabiiy muhitga, Ona yer, suvi, havosi va yana boshqa tabiiy boyliklariga bog‘liq. Shuning uchun ham Ajiniyaz bobomiz o‘zining «Bozataw» tarixiy poemasida «Jersiz eldiń kúni dárbe-dár bilán» [10;205] deb keltirishi, yersiz insonning yot ellarda, musofirlikda sargardon bo‘lib, eshikma-eshik sang‘ib yurishini eslatib o‘tadi.

Ajiniyaz bobomizning «Bozataw» poemasida tug‘ilib o‘sgan yeriga bo‘lgan xayrlashuvdagi yurak tuyg‘ulari har bir kitobxonni to‘lqinlantiradi. Masalan: -

«Joq edim bar boldım, kámalǵa keldim,

Minip árebi atlar, dáwranlar súrdim,
Nanıńdı kóp jedim, ráhátin kórdim,
Xosh aman bol, bizden qaldıń Bozataw» [11;205]

She'r satrlarini o'qiganimizda yer insonda yo'qdan bor qilganini, «árebi» otlar mindirib davron surdirganini, dasturxonini nonga to'ldirib, rohat ko'rganini ta'riflagan holda, dushmanlar jabridan ko'ziga yosh olib xayrlashib ketishi bo'lsada har bir insonning yuragini ezadi. Shuning uchun ham bizni kamolga yetkazgan ona zaminimiz, tabiatimiz - uchgan uyamiz sifatida e'zozlanadi. Masalan; qoraqalpoq folkloridagi mana bu satrlarga nazar tashlasak:

«Erdiń sáni el bolar,
Eldiń sáni jer bolar,
Jerdiń sáni suw bolar.

Yuqorida keltirib o'tganimizdek, bizni o'rab turgan tabiiy muhit, ona yerimiz, elni ko'rkaytiradi, el yigitni kamolga keltiradi. Bularning barchasiga hayot beruvchi, jon kirituvchi, ya'ni yerning ko'rki suv ekanligini ota-bobolarimiz allaqachon o'zlarining folklor meroslarida yozib qoldirgan.

Qoraqalpoq folklori namunalarining yozilishida shaxslarga ijtimoiy nuqtai nazardan adolatli baho berish mezonlarini ko'rish mumkin. Masalan: «Elge panasız bolsa, baydan bez, námárt bolsa, biyden bez» – deb ko'rsatilganidek, xalqdan ustun bo'lib boylik orttirganining foydasi yo'qligi ta'kidlangan. Bu orqali elga xayr-saxovati bo'lmagan boy odamning xalq tomonidan qanday baholanishini bilishimiz mumkin. Nomard odamning elga rahbar bo'lib, bek bo'la olmasligini, bunday odam qanday vaqtda nomardlikni o'ziga yo'ldosh tutishini, hattoki el boshiga ish tushganda sotqinlikdan ham qaytmasligini sezgan holda, «námárt bolsa biyden qash», degan so'zini o'tmishdagi insonlarning hayot tajribasidan olingan deb tushinsak xato qilmaymiz.

Qoraqalpoq xalqida el og'asiga, elning oqsoqoliga katta mas'uliyatli vazifa yuklanib kelgan. Sababi el og'asi bo'lib, o'z xalqiga so'zini tinglatib to'ralik qilish har bir insonning qo'lidan kelavermaydi. El og'asi darajasiga yetish - bu oqni va qorani ajrata biladigan, bahsli masalaga adolatli nuqtai nazardan baho bera oladigan, uvol bilan savobni o'rtaga qo'yib so'zini tinglata oladigan, o'zining haqiqiy insoniylik fazilatlari, so'zi va amalining birligi bilan ko'zga tushgan insongina el og'asi darajasiga loyiq bo'ladi. Shuning uchun ham xalqimiz folklor qo'shiqlarida:

«Jaqsı hákim eldi dúzer,
Jaman hákim eldi buzar»,

deb ta'riflashida xalqning o'z rahbariga baho berishda tarozi ekanini ko'ramiz. Hattoki «Jaman hákim eldi buzar» degan so'zida hamma vaqt xalqning nazarida turgan el rahbarlari elga namuna bo'la oladigan ish olib bormasa, xalqining quvonchini bo'lishib, qayg'usiga sherik bo'lmasa, unday rahbarni bugungi kunda ham qo'llab-quvvatlamasligi ochiq haqiqat.

Adolatli, xalq tashvishini o'ylaydigan rahbarni ta'riflashda XVIII asrdagi qoraqalpoq klassik shoiri Kunxo'ja o'zining «Nege kerek» [12;30] she'rida

Eki jaqtı teń kórmese,
Tuwrı ádillik bermese,
Xalıq penen oynap kúlmese,
Kátqudalar nege kerek?

degan savolni o'rtaga tashlaydi. Oliyjanob el rahbariga xalq oldida mas'uliyatli vazifani yuklagan holda, o'z xalqining or-nomusini himoya qilishga, bori-yo'g'ini o'rganishni, och va to'qlarga qarashni, hamma vaqt xalq bilan birga bo'lishni ulug'vor vazifa qilib belgilab beradi.

Qoraqalpoq folklorining maqol-matallardan iborat, nasihat so'zlarida er yigitga xos bo'lgan alohida fazilatlarning ta'riflanishi muhim tarbiyaviy o'rin egallaydi. Masalan; «jawǵa janıńdı bersende, sırıńdı berme», «El aǵası aqmaq bolsa, elin jolawshı tonar», «er erligin etse, el epligin eter», «márt bolsań, eldiń duzın aqla», «at qádirin er biler», «elinen bezgen er ońbas», - kabi maqol-matallar ijtimoiy turmushning har xil muammolarini eslatib turib er yigitga aql-nasihat tarzidagi xalqimiz tan olgan tarbiya manbalarini keltirib o'tadi.

Qoraqalpoq folklorida yaxshi bilan yomonning farqini ajratishga oid maqollarni hayvonot dunyosi obrazi yoki insonning turmush tajribasi misollari asosida ta'riflab o'tganini ko'ramiz. Masalan;

Jaqsı atqa bir qamshı, jaman atqa mıń qamshı,
Jaqsı janıńa joldas, jaman malıńa joldas,
Jaqsı menen sawda qılsań, túbi bilis bolar,
Jaman menen sawda qılsań, túbi urıs bolar,
Jaqsınıń sózi tatlı, jamannıń sózi qattı,
Eki jaqsı bas qossa, qıl ótpeydı aradan,
Eki jaman bas qossa, qol ótpeydi jaǵadan.

«Jaqsıdan sharapat, jamannan kesapat», yoki «jaqsı qońsını satıp al» degan maqollar odam hayotining kundalik turmushidagi ish tajribalaridan yaralganga o‘xshaydi. Agar turmushda o‘ziga yaxshi yo‘ldosh tanlamoqchi bo‘lsang, yaxshi odam bilan uzoq bordi-keldi qilsang, yaxshi odam bilan suhbat qursang, u har bir inson uchun tugalmas hurmatni, insoniy fazilatni in’om etadi. Shuning uchun ham har bir inson biz so‘z yuritgan milliy folklorimizdagi nasihat so‘zlarning tabarruk namunalarini o‘zining kundalik turmushida qo‘llay bilsa har bir qadamiga yaxshilikning nuri yog‘iladi.

**Tahlil.** Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, insonparvarlik konsepsiyasi folklor matnlarida nafaqat individual fazilatlar bilan cheklanmaydi, balki u jamiyatning umumiy ma’naviy muhitiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, «Alpamıs» dostonida qahramonning jasorati va adolatparvarligi nafaqat o‘z oilasining, balki butun jamiyat manfaatini himoya qilishga qaratilgan. Shu bilan birga, dostonlarda tasvirlangan qahramonlarning murakkab ijtimoiy vaziyatlarni yengib o‘tishi va o‘zining ma’naviy o‘sishini ko‘rsatishi yosh avlodni komil inson sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tahlil shuni ko‘rsatadiki, folklor matnlarining falsafiy ahamiyati juda katta. Masalan, doston va qissalardagi insonparvarlik tamoyillari maktab darslarida, tarbiyaviy soatlarda va ijtimoiy-pedagogik tadbirlarda qo‘llanilishi mumkin. Bu esa yosh avlodning axloqiy, ijtimoiy va ma’naviy kompetensiyalarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Quyidagi jadvalda qoraqalpoq folklorida uchraydigan asosiy insoniy tamoyillar va ularni aks ettiruvchi matn namunalarining tahlili keltirilgan:

| Insoniylik tamoyili | Folklor teksti namunasi | Muhokamasi va ahamiyati |
|---|---|---|
| Adolat | «Qırq Qız» dostonidagi qahramonlar | Qahramonlarning adolatni himoya qilishi, jamiyatdagi axloqiy mezonlarni mustahkamlaydi. |
| Vatanparvarlik | «Alpamıs» dostonidagi janglar. | Qahramonlar vatan manfaatini ustun qo‘yadi, milliy g‘ururni yuksaltiradi. |
| Mardlik | «Alpamıs» dostonidagi voqealar. | Qahramon jasorati yosh avlodga hayotiy saboq sifatida yetkaziladi. |
| Mehribonlik | Maqol: «Mehr-oqibat qalbni boyitadi.» | Jamiyatdagi mehr va sadoqatning ahamiyatini tushuntiradi. |
| Sodiqlik | «Qırq qız» dostonidagi do‘stlik | Sodiqlik tamoyili orqali insonlar o‘rtasidagi ishonch va hamkorlik rivojlantiriladi. |
| Obro‘ | Har xil nasihat so‘zlar | Yakka va ijtimoiy shaxs obro‘si qadriyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. |

Bundan tashqari, tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, insoniylik konsepsiyasi tarixiy va ijtimoiy kontekst bilan chambarchas bog‘liq. Har bir folklor matni o‘z davrining ruhiy, ijtimoiy va siyosiy holatini aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy o‘quv jarayonida bu matnlarni o‘rganish, yoshlarni milliy va insoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, qoraqalpoq folklori inson konsepsiyasini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Folklor asarlarida, xususan, dostonlar, qissalar, maqol-matallar va pand-nasihatlarda insoniy fazilatlarning turli qirralari jonli misollar orqali ifodalanadi. Shu bilan birga, qahramonlarning adolat, mardlik, vatanparvarlik, sadoqat, mehr-oqibat kabi fazilatlari yosh avlodning axloqiy va ma’naviy o‘sishida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, folklor matnlari nafaqat tarixiy manba sifatida, balki jamiyatning ma’naviy dunyosini shakllantirish, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish va falsafiy qarashni shakllantirish uchun ham samarali vositadir.

Shu nuqtai nazardan, folklor matnlarini o‘rganish va ularni zamonaviy tarbiya jarayonida qo‘llash yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashga yordam beradi. Masalan, «Qırq qız» va «Alpamıs» dostonlaridagi qahramonlar orqali adolat va vatanparvarlik tamoyillarini o‘rganish, shuningdek, maqol-matallar va pand-nasihatlar orqali mehr-oqibat va sadoqatni targ‘ib qilish mumkin.

Bundan tashqari, mazkur tadqiqot insoniylik konsepsiyasi nafaqat individual fazilatlarni, balki jamiyatning umumiy ma’naviy muhitini ham aks ettirishini ko‘rsatdi. Qahramonlarning murakkab ijtimoiy vaziyatlarda o‘z ma’naviyatini saqlab qolishi, axloqiy mezonlarga amal qilishi va jamiyat manfaatini ustuvor qo‘yishi zamonaviy jamiyatda ham ibrat bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, folklor matnlari orqali komil inson fazilatlarini targ‘ib etish, yoshlar o‘rtasida ijtimoiy mas’uliyat va milliy g‘ururni mustahkamlashga yordam beradi.

Shu asosda qoraqalpoq folklori insoniylik va komil inson konsepsiyasini shakllantirishda, milliy qadriyatlarni avlodlarga yetkazishda va pedagogik jarayonda katta ahamiyatga ega, degan xulosaga kelish mumkin. Folklor matnlarining mazmuni, qahramonlarning fazilatlari va pand-nasihatlari bugungi kun pedagogik jarayonlariga tatbiq

etilishi mumkin bo‘lgan boy manba sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, kelgusida ushbu tadqiqotlar asosida yosh avlodni tarbiyalash va milliy qadriyatlarni rivojlantirish bo‘yicha yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish mumkin.

Umuman olganda, qoraqalpoq folklori nafaqat tarixiy va madaniy meros, balki hozirgi jamiyatda insoniylikni targ‘ib qiluvchi, milliy qadriyatlarni shakllantiruvchi va pedagogik jarayonda samarali vosita sifatida qaralishi lozim. Shu bilan birga, kelajakdagi tadqiqotlar folklor matnlarining bugungi kundagi falsafiy ahamiyatini yanada chuqurroq o‘rganishga imkoniyat yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, niyati yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. - Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2019. 135-b.
2. Buxoriy, Sadriddin Salim. Tabarruk ziyoratgohlar.-T.: «Yozuvchi,» 1993.-3-bet
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2020 - 49 bet
4. Abu Nasr Farobiy. Dialektika tarixiy falsafiy traktat (ruscha). Olma-Ota, 1985.15 bet.
5. Bahawaddin Shamsuddin «Kámil insan» - Nókis: «Qaraqalpaqstan» baspası, 2019. 12 bet
6. Shayx Najmiddin Kubro: maqolalar/ mas’ul muharrir: E.Yusupov/- T.Yozuvchi, 1995.11-bet.
7. Bazarbaev J. Hákim ata biziń ruwxıy miyrasımız/ Bazarbaev J. Milliy ideya – biziń ideyamız. Nókis, «Bilim» 2003-jıl 40,41-betler.
8. Qaraqalpaq folklorı. T.88-100/ Bas redaktor N.K.Ayımbetov. Juwaplı redaktorlar: A.I.Alniyazov, J.Xoshniyazov, ÓzIA Qaraqalpaqstan bólimi, Qaraqalpaq gumanitar ilimler ilimiy- izzertlew institutı. - Nókis: «Ilim» - 2015. 544 b.
9. Qaraqalpaq folklorı T.88-100/ Nókis: «Ilim», - 2015, 13-bet.
10. Ájiniyaz. baspaǵa tayarlawshılar: Q. Bayniyazov, A. Alniyazov, T. Bayniyazova; - Nókis: «Ilim», 2014, 205-bet.
11. Qaraqalpaq xalıq qosıqları (qosıqlar toplamı). Nókis: «Qaraqalpaqstan» baspası. 2016- jıl, 30- bet.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Baxadirov Jaxangirmirzo Abdumajitovich**
Toshkent amaliy fanlar universiteti
"Xorijiy til va adabiyoti" kafedrasi mudiri
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

## IJTIMOIY REKLAMADA UNDASH, ISHONTIRISH VA TANBEHLI UQTIRISH USULLARINING QO'LLANILISHI

***Annotatsiya:*** *Maqolada ijtimoiy reklamada undash, ishontirish va tanbehli uqtirish usullaridan bugungi kunda samarali foydalanib kelinayotganligi hamda ushbu turdagi reklamalar inson ongini manipulatsiya qilishda samarali vosita bo'lib xizmat qilayotganli, shuningdek, ijtimoiy reklamaga tilshunos olimlarning fikr va mulohazalari keltirib o'tilgan. Shuningdek ijtimoiy reklamaning bugungi kunda jamiyat xayotida tutgan o'rni va axamiyati nazariy hamda amaliy jixatdan xayotiy misollar yordamida yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *reklama, matn, muloqot, ishontirish, tanbeh, usul, ijtimoiy reklama, maqsad, ta'sir, vazifa, muammo, ob'yekt, rasional, emosional, til.*

**Бахадыров Джахангирмирзо Абдумаджитович**
Ташкентский университет прикладных наук

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДОВ, УБЕЖДЕНИЯ И ДИСЦИПЛИНЫ В СОЦИАЛЬНОЙ РЕКЛАМАЕ

***Аннотация:*** *В статье рассматриваются методы убеждения, навязывания убеждения и порицания, эффективно используемые в современной социальной рекламе, и этот вид рекламы служит действенным инструментом манипулирования человеческим разумом, а также мнениями и комментариями лингвистов о социальной рекламе. Кроме того, роль и значение социальной рекламы в современной жизни общества объясняются с теоретической и практической точек зрения на примерах из жизни.*

***Ключевые слова:*** *реклама, текст, коммуникация, убеждение, упрек, метод, социальная реклама, цель, эффект, задача, проблема, объект, рациональный, эмоциональный, язык.*

**Bakhadyrov Jahangirmirzo Abdumajitovich**
Tashkent University of Applied Sciences

## USE OF PERSUASION AND DISCIPLINE METHODS IN SOCIAL ADVERTISING

***Annotation:*** *In the article, the methods of persuasion, persuasion and reprimanding are effectively used in social advertising today, and this type of advertising serves as an effective tool for manipulating the human mind, as well as the opinions and comments of linguists on social advertising. Also, the role and importance of social advertising in the life of society today is explained from the theoretical and practical point of view with the help of life examples.*

***Keywords****: advertising, text, communication, persuasion, rebuke, method, social advertising, purpose, effect, task, problem, object, rational, emotional, language.*

Har qanday reklama matnining maqsadi – adresat ongiga, uning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish orqali maqsad qilingan javob reaksiyasini keltirib chiqarishdan iborat. Demak, muloqot jarayonida tildan adresatga faqat xabar yetkazish uchungina foydalanilmaydi, balki uning bosh maqsadi axborot oluvchining fikrlash tarziga, onggiga ta'sir o'tkazishdir.

Ye.F.Tarasovning fikricha, til orqali xabar berishdan tub maqsad hech qachon muloqot bo'lmagan. So'z orqali xabar yetkazish doim boshqa maqsadlarga erishish vositasi bo'lib kelgan, uning oxir provardidagi maqsadi – suhbatdoshning faoliyatini boshqarishdir.[1]

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda reklamaning ta'sir ko'rsatish usullari o'zining xilma xilligi bilan ajralib kundan kunga rivojlanib bormoqda. Xozirgi globallashuv sharoitida ijtimoiy reklamaga qo'yilgan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan psixologik, mantiqiy va boshqa usullarni va lingvistik vositalarni hamda unga yuklatilgan vazifalarni

amalga oshirishni tushunamiz. Ushbu tadqiqot ishimizda ijtimoiy reklamaning ta'sir ko'rsatish usulini uchta qismga ajratishni lozim topdik. Ular undash, (xohish-istak paydo qilish) ishontirish, tanbehli uqtirish kabi usullardir.

Undash usuli kommunikativ yo'nalishdagi reklamalarda da'vat (chorlov) maqsadida qo'llaniladi, misol uchun, ingliz tilida yaratilgan tashqi ijtimoiy reklamalarning matnli qismida shunday yozuvni ko'rish mumkin "avtomobil rulida qo'rqib o'tirgan qizning va bolalar aravachasi bilan ko'chadan o'tayotgan ayolning tasviri berilgan: "Zebra yoniga kelganingda tezlikni pasaytir!" reklamasida adresatni biror-bir harakat sodir etishga to'g'ridan-to'g'ri undalmoqda.

Bu misolda adresatga undash usuli yordamida ta'sir ko'rsatish orqali muammoni hal etishda aniq bir harakatlarni sodir etishga ko'rsatma berish, ya'ni undash nazarda tutiladi ( ko'chani yashil chiroqda kesib o'tish). Shuningdek ushbu turdagi reklamalarda umumiy chorlovlar, masalan, "Giyohvand moddalarga yo'q degin", "Yo'l harakati xavfsizligiga rioya qilishni unutma", "Chekishni tashla", "Sayyorani toza saqla!" va boshqalar. Odatda, shu kabi shiorlarni aks ettirgan reklamalarda ta'sir ko'rsatish usuli tanbehli uqtirish yoki ishontirish orqali ham amalga oshiriladi.

Adresatga undash usuli orqali ta'sir ko'rsatishga qaratilgan reklama matnlarida ta'sir ko'rsatishning asosiy usuli undaydigan konstruksiyalarni qo'llashni talab etadi, ya'ni reklama matni markazida imperativ tonallik ishtirok etadi. Materiallar tahlilining ko'rsatishicha, undov asosan reklamaning e'lon-chorlov janrida ko'proq uchraydi, masalan, axlat yashiklarining tasviri tushirilgan bilbordda: "Axlatni qayta ishlash punktiga topshir! Sayoramizni asra!" kabi.

Adresatga undash yordamida ta'sir ko'rsatish usuli bugungi kunda bosma ijtimoiy va televizion reklamalarda muntazam berib borilmoqda. Mazkur usul zamonaviy ijtimoiy reklama yaratuvchilarning adresatni aniq bir xatti-harakatga to'g'ridan-to'g'ri undashni taqazo etadi.

Ijtimoiy reklamalarning ta'sir o'tkazish usullaridan yana biri bu ishontirish usuli bo'lib u adresatga har qanday mavzudagi xabarlar orqali ta'sir ko'rsatishda eng ko'p qo'llaniladi. Ushbu mavzularda ishontirish, undash va tanbehli uqtirish usullari bir xil nisbatda qo'llanilishi mumkin.

Ishontirish usulining asosini ma'lum bir ma'lumot berish tashkil etadi. Ushbu usulda hal qilishni talab etuvchi muammo haqida xabardor qilish adresatni ma'lum bira xatti-harakat sodir etish zaruratiga o'ziga xos ravishda ishontirishdan iborat. Aslini olganda, ijtimoiy reklamalarida xabardor qilish, ma'lumot berish usuli nihoyatda kam uchraydi, ko'pincha bu yashirin ravishdagi ishontirish shaklida ifodalangan bo'ladi.

Ijtimoiy reklama matnlarida ishontirish argumentatsiyalash yordamida va shartli belgilar orqali ham izohlangan bo'ladi, bu esa, o'z navbatida "ko'tarilayotgan muammoning auditoriya tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirish maqsadida dadil-isbotlar keltirish" [2] ma'nosida tushuniladi.

Ishontirish turli usullarni qo'llash yordamida amalga oshiriladi. Usullar – lingvistik, psioxlogik, grafik va boshqa vositalarni qo'llash yordamida nutqiy ta'sir ko'rsatishni belgilovchi omillar demakdir.

Qayd etish zarurki, argumentatsiyalash bu – axborotni rasional tarzda qabul qilishga ta'sir ko'rsatuvchi dalil-vaj va asoslash to'plamidan iborat ekani bilan birga uning emosional fikrlash omili hamdir.

Bunday turdagi reklamalarda adresatga hurmat bilan murojaat qilish shaklida ifodalanadi. Unda *"birgalikda uddalaymiz"* ma'nosidagi reklama matnlari ustun turadi. Ayniqsa, bu holatda "biz" olmoshidan ko'proq foydalaniladi. Bu mazmundagi reklama matnlari reklama qahramoni yoki muallif tomonidan berilgan savollardan iborat bo'ladi. Bu savollarning, o'y-fikrlarning og'zaki bayon etilishi, qoidaga ko'ra, adresatning fikr-mulohazalari, tashvish va xavotirlari bilan hamohang bo'ladi.

Ijtimoiy reklamada argumentatsiyalash ijtimoiy jihatdan ma'qullanish yoki ma'qullanmaslikka asoslanadi. Ijtimoiy jihatdan ma'qullanmaslik jamiyatining u yoki bu sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan harakatlarni qoralash tasavvurini yaratadi. Aholining turli tabaqa vakillari va ko'chadagi oddiy kishilar mulohazalari, ijtimoiy so'rov ma'lumotlari va hokazolarning salbiy fikrlarining yig'indisi yordamida reklama qahramoni xulqining ijtimoiy jihatdan ma'qullash yoki ma'qullamaslik natijasi belgilanadi.

Ijtimoiy reklamada ma'qullash yoki ma'qullamaslik effektini yaratishga xizmat qiluvchi ta'sirchan usullardan biri jamiyatda obro'-e'tibor qozongan shaxslarga murojaat qilish hisoblanadi.

Tadqiqot materiallariga asoslangan holda, biz jamiyatda obro'-e'tibor qozongan shaxslar qo'yidagilardan iborat bo'lishi mumkin, degan xulosaga keldik:

- Tarixiy shaxslar – buyuk mutafakkir va yozuvchilar
- Zamondoshlar: ( olimlar, sportchilar, san'atkorlar va boshqalar).

Ijtimoiy reklamada mashhur shaxslarining ishtiroki, so'zsiz ravishda, ijtimoiy muammo yoki qadriyatlarga diqqatni jalb etmay qolmaydi. Tarixiy shaxs yoki zamondoshning obrazi adresatga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va reklamaga ishonch darajasini oshirishi mumkin. Ular tomonidan keltirilayotgan dalil va vajlarning muhimligi ham ijtimoiy reklamaning ta'sirchanlik darajasini kuchaytirishda o'ta muhim omildir.

Odatda ular ma'lum bir masala bo'yicha ulardan iqtibos keltirishdan iborat bo'ladi. Shuni ham alohida qayd etish lozimki, ko'pincha fikr-mulohazalar reklama qinilayotgan ob'yektdan ancha uzoq bo'lishi yoki kontekstdan uzib olingan bo'lishi ham mumkin.

Agar ijtimoiy reklamada “tanlab olingan inson” sifatida zamondosh ishtirok etayotgan bo‘lsa, uning so‘zlaridan iqtibos keltirilmaydi va reklamada uning shaxsan o‘zi ishtirok etadi. Uning nutqi matni odatda reklama mavzusiga va maqsadiga bevosita bog‘liq bo‘ladi, bunday reklamalarda asosiy mavzudan chetga chiqib ketish hollari kamdan-kam uchraydi.

Mashxur shaxslar ishtirokidagi reklama matnlari o‘z xususiyatiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: matnning asli va ma’lum uslubga solingan matn. Matnning asli matnning barcha hislatlarni qamrab olgan bo‘ladi, ya’ni – jumladagi yaxlitlik, so‘zlarning bir-biriga bog‘langanligi, matniqiylik va fikr-mulohazaning ketma – ketligi.

Ta’kidlash joizki, ishontirish usuliga xos bo‘lgan ijtimoiy reklamalar dalil va ma’lumotlarni o‘ziga moslab talqin qilishga xolis faktlarga salbiy ma’no berish orqali ham amalga oshiriladi. Masalan, xatto do‘stlar davrasida me’yorida iste’mol qilingan spirtli ichimlik alkogolizmga qo‘yilgan birinchi qadam sifatida talqin qilinadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ijtimoiy va tijorat reklamalarida vaziyat yoki voqealarni fantastik jihatdan modellashtirish tabiatan turlicha bo‘ladi: *birinchidan*, tijorat reklamasi adresatga boshqa voqelikni ko‘rsatadi, ya’ni uni reklama mahsuloti qo‘llanishi natijasida yaratiladigan ozodalik va lazzatlanish dunyosi sari yetkalaydi. Ijtimoiy reklamada esa, aksincha, modellashtirilgan real haqiqatni, odatda, g‘amgin holda ko‘rsatib, adresatni mulohaza yuritmay, yengiltaklik oqibatida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan mash’um voqealardan asarash vazifasidan iborat bo‘ladi. *Ikkinchidan*, agar ijtimoiy reklamalarda go‘zal olam modellashtirilsa-da, bunday modellashtirish tijorat reklamalaridan farqli o‘laroq, uning yolg‘onligi, xayoliy va sarob ekani (ayniqsa, agar so‘z giyohvand moddalar haqida ketayotgan bo‘lsa) alohida uqtirib o‘tiladi.

Reklama ijodkorlari oila, madaniy qadriyatlar mavzularini qamrab olgan ijtimoiy reklamada real hayotda badiiy obrazlar va qiyoslash usullari yordamida quvonch va baxtni aks ettirishga harakat qilishadi. Shuningdek “Teskari ma’no” usuli kabi qarama-qarshi dalil va vajlarni keltirish yoki murakkab vaziyatlarni yaratish orqali adresatga imkon qadar mulohaza yuritish imkonini beruvchi usuldan ham faol foydalaniladi. Shuning uchun manipulyativ usullar ishontirish yoki tanbeh berish sifatida qo‘llaniladi, deb hisoblashimiz mumkin.

Xozirgi vaqtda yo‘l harakati xavfsizligi, zararli odatlarsiz sog‘lom turmush tarzi muammolariga bag‘ishlangan ijtimoiy reklamalarda qoidalarni buzish sabablari nimada ekaniga alohida urg‘u berish usuli qo‘llanib kelinmoqda. Masalan, gazetada (ingliz tilida yaratilgan ijtimoiy reklamada ) e’lon qilingan bosma reklamada tezlikni 60 km/s cheklash belgisi va nogironlar aravachasi yonida turgan vrachning yirik tasviri va “Bizning yonimizga shoshayapsanmi?” slogani berilgan. Bu reklamada yo‘l harakati xavfsizligi muammosi vizual ravishda aniq ifodalanmoqda va unda avtomobil haydovchilari shoshayotib tezlikni oshirishi oqibatida falokat yuz berishi mumkinligini eslatilmoqda. Bu esa, reklamaning ta’sirchanligini yanada kuchaytirmoqda.

Shunday qilib ijtimoiy reklamada ishontirish usuli argumentatsiyalash yordamida amalga oshiriladi, shuningdek, avtoritet yordamidan, statistik ma’lumolar, ijtimoiy tadqiqot ma’lumotlari, so‘rovlar, tarixiy fakatlardan keng foydalaniladi.

Reklama ijodkorlari adresatga argumenlarni taqdim etgan holda ko‘pincha manipulyativ texnologiyalarini qo‘llashga harakat qilishadi. Masalan, dalillar manbasi ko‘rsatilmaydi, dalillar ma’lum ketma-ketlikda beriladi, argumentlar haqidagi ma’lumotlar yashirilgan bo‘ladi. Ijtimoiy reklamada ishontirish usuli axborotni rasional va emosional jihatdan qabul qilishga ham ta’sir ko‘rsatadi, shu bilan bir qatorda vaziyatni modellashtirish va (prognozlashtirish) muayyan dalillar asosida biron hodisaning qanday bo‘lishini oldindan aytib berish usuli, kutilgan natijalarning amalga oshirilmasligi, “teskari ma’no”da manipulyasiya qilish, qoidalarni buzish sabablariga alohida urg‘u berish usullari keng qo‘llaniladi.

Shuningdek ijtimoiy reklamada tanbehli uqtirish, pand-nasihat qilish aksariyat tomonidan ma’qul sanalgan ma’lum bir qadriyatlarga rioya qilishni majburlash, u yoki bu narsani beixtiyor yoki adreset xohish-irodasiga qarshi qilishga undash usulidan ham samarali qo‘llanib kelinmoqda.

Tanbehli uqtirish ham verbal, ham vizual va audio vositalar yordamida amalga oshiriladi. Tanbehli uqtirish usulida, odatda, insonning qo‘rquv hislari va uning axloqiy-ma’naviy xususiyatlari, ya’ni masalan isonning odamiylik, vijdoniylik, rahmdillik, shuhratparastlik va boshqa hislatlari inobatga olinadi.

Tanbehli uqtirish usuli davlat reklamalarida ta’sir ko‘rsatish va davlat organlarining samarali faoliyatini targ‘ib qiluvchi tipik vositasi sifatida tan olingan. Tanbehli uqtirish orqali ta’sir ko‘rsatish usuli doirasida quyidagi usullar qo‘llaniladi:

Alternativlarni (bir-biriga zid ikki yo‘l) taqdim etish. Misol uchun, ijtimoiy reklamada alkogolizm muammosi har xil tarzda ko‘rsatilishi mumkin. Bir tomonda 9-10 yoshdagi g‘amgin bolaning surati: “Ota, ichmang!”. Ikkinchi tomonda qo‘lida o‘g‘il bola ko‘tarib turgan baquvvat va kelishgan erkak go‘zal ayol bilan birga turibdi; orqa planda uy va avtomobil surati berilgan. Matn: “Baquvvat qo‘llar stakanni ushlash uchun yaralmagan. Ular ayol, bola va sevgan kasb uchun yaralgan!”.

Psixologik va ijtimoiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, jamiyat illatlarini (alkogolizm, giyohvandlik, kashandalik) bartarf etishga qaratilgan ijtimoiy reklamalarda illatning yoqimsiz tomonini ochib tashlash emas, bilaks, uning alternativlarini: illatlardan holi bo‘lgan odamning baxtiyor va sog‘lom hayotini aks ettirish samaraliroq va ta’sirchanroq ekani aniqlangan.

Ma’lumki, “salbiy emosiyalarga asoslangan ma’lumotlarga qaraganda ijobiy emosiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlar ikki barobar yaxshiroq esda qoladi” [3]

Ammo xilma-xil ijtimoiy reklamalar “ummonida” alternativ ma’lumotlarga asoslangan reklamalar kam miqdorni tashkil etadi. Xatto mashhur festival va konkurslarda ishtirok etgan ijtimoiy reklamalarda illat yoki muammoning salbiy tomonlarini ochib tashlangan. S.E. Seliverstov bunday reklamani “negativ holatlarni kreativ jihatdan qayta anglovchi” reklama, ya’ni ijod turlaridan biri, afsuski, kam natija beradigan reklama san’ati, deb ataydi. [4] Ijtimoiy reklamada matnning verbal va vizual komponentlari bir-birga bevosita aloqador bo‘ladi. Bu bog‘liqlik ta’sir ko‘rsatishning badiiy usulining asosiga aylanadi, ya’ni bir oddiy tafsilot yordamida butun bir manzarani, tasvirni yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Misol sifatida avtomobil yo‘liga dumalab ketgan koptok tasviri tushirilgan bir ijtimoiy reklamada, reklama xabarining adresati bu tashqi reklamani ko‘rishi bilan xavfli voqea ro‘y berishi mumkinligini tushunganday bo‘ladi: “hozir koptokni olaman deb, bola yugurib chiqadi va yo‘lda unga har balo bo‘lishi mumkin” degan fikrga boradi. Umuman ijtimoiy reklama uchun bu kabi, ya’ni bola obrazini (bola va bolalik obrazi nazarda tutilmoqda) qo‘llash yordamida ta’sir ko‘rsatish usuli xarakterli bo‘lib, aksariyat hollarda bu usul bevosita bolalik muammolari bilan bog‘liq bo‘lmagan reklamalarda ham qo‘llaniladi.

Bola tilidan hikoya qilish auditoriyaga ta’sir qilishning o‘ta kuchli vositasi sanaladi. Ushbu vosita katta yoshdagilar xulqini, ularning ma’lum bir vaziyatlarga nisbatan bo‘lgan munosabatini yaxshi tomonga yo‘naltirishda ishlatiladi. Bolalar to‘g‘ri va lozim deb qabul qilgan tushunchalar har doim ham jamiyat uchun ma’qul bo‘lavermaydi.

Ijtimoiy reklamalarda tanbehli uqtirish usullari har qanday mavzulardagi reklamalarda eng ko‘p qo‘llaniladigan usul hisoblanadi, og‘ir kasallik va bemor odamlarga bo‘lgan munosabatlar bilan bog‘liq mavzular bundan mustasnodir. Bu mavzudagi reklamalarda ta’sir ko‘rsatishning ishontirish usuli ko‘proq ishlatiladi.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, yuqorida qayd etib o‘tilganidek, ijtimoiy reklama auditoriya muhokamasiga jamiyat uchun o‘ta muhim bo‘lgan ijtimoiy muammolarni olib chiqadi, ularni maqsadli auditoriyaga imkon qadar yuqori darajada tez va tushunarli qilib yetkazishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Тарасов Е. Речевое воздействие // Оптимизация речевого воздействия. – Москва: Наука, 1990. – С. 7.

2. *Шелестюк* Е. В. Текстовые категории аргументативности, суггестивности и императивности как отражение способов речевого воздействия. *2008* / *Шелестюк* Е.В стр.40

3. *Рейковский. Экспериментальная психология эмоций*. М.,1979. С. 40.

4. *Селиверстов С.Э*. Социальная реклама: искусство воздействия словом. Самара, 2007. 288 с

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Bobojonova Shahnoza Yo'ldosh qizi**
Toshkent amaliy fanlar universiteti PhD, dotsenti
shakhnoza.bobojonova@gmail.com.
orcid: 0009-0000-3204-345X

## O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI TA'LIMIY DISKURSNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI VA USTOZ–TALABA MULOQOTIDA NUTQIY AKTLARNING KOMMUNIKATIV AHAMIYATI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada zamonaviy oliy ta'lim muhitida ustoz–talaba o'rtasidagi muloqotning lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ta'limiy diskursning institutsional tabiati, unda til birliklarining grammatik shakli emas, balki ularning madaniy skriptlar, ijtimoiy rol me'yorlari va xushmuomalilik strategiyalari bilan uyg'un qo'llanishi kommunikativ samaradorlikni belgilab berishi asoslab beriladi. O'zbek va ingliz tillarida o'qituvchi nutqidagi direktiv aktlarning yumshatilishi, talaba nutqida bilvosita so'rov formulalarining qo'llanishi, adresiv birliklarning madaniy yuklamasi hamda nizoli vaziyatlarda ehtiyotkorlik bilan tanqid ifodalash kabi nutqiy strategiyalar qiyosiy yoritiladi.*

***Tayanch iboralar:*** *ta'limiy diskurs, ustoz–talaba muloqoti,nutqiy aktlar (direktiv, ekspressiv, komissiv, deklarativ), bilvosita so'rov strategiyalari, madaniyatlararo muloqot, xushmuomalilik markerlari, adresiv birliklar, kommunikativ samaradorlik*

**Бободжонова Шахноза Юлдош кызы**
кандидат технических наук, доцент Ташкентского университета прикладных наук

## ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ДИСКУРСА В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ И КОММУНИКАТИВНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ РЕЧЕВЫХ АКТОВ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ И СТУДЕНТА

***Аннотация.*** *В данной статье рассматриваются лингвокультурные и прагматические особенности общения между преподавателем и студентом в условиях современного высшего образования. Обосновывается, что эффективность образовательного дискурса определяется не столько грамматической формой языковых единиц, сколько их согласованным использованием с культурными скриптами, социальными ролевыми нормами и стратегиями вежливости. Проводится сравнительный анализ смягчения директивных актов в речи преподавателя в узбекском и английском языках, применения косвенных форм просьбы в студенческой речи, а также культурной нагрузки адресных единиц. Особое внимание уделяется коммуникативным стратегиям выражения несогласия или критики в конфликтных ситуациях, которые требуют осторожности. Результаты показывают, что лингвокультурные факторы существенно влияют на коммуникативное поведение участников образовательного дискурса и на качество педагогического взаимодействия в целом.*

***Ключевые слова:*** *образовательный дискурс, взаимодействие преподавателя и студента, речевые акты (директивные, экспрессивные, комиссивные, декларативные), стратегии косвенной просьбы, межкультурная коммуникация, маркеры вежливости, адресные единицы, коммуникативная эффективность*

**Bobojonova Shahnoza Yuldosh qizi**
PhD, Associate Professor, Tashkent University of Applied Sciences

## LINGUACULTURAL FEATURES OF EDUCATIONAL DISCOURSE IN UZBEK AND ENGLISH AND THE COMMUNICATIVE ROLE OF SPEECH ACTS IN TEACHER–STUDENT INTERACTION

***Abstract.*** *This article analyzes the linguacultural and pragmatic features of teacher–student communication in the context of modern higher education. It substantiates that the effectiveness of educational discourse is determined not by the grammatical form of linguistic units alone, but by their integration with cultural scripts, social role norms, and politeness strategies. The study compares how directive acts in teacher speech are softened in Uzbek and English, how indirect request forms are used in student speech, and how address forms carry cultural meanings. Special attention is given to communicative strategies such as cautious expression of*

*disagreement or criticism in conflict-prone situations. The findings demonstrate that linguocultural factors significantly shape the communicative behavior of participants in educational discourse and influence the overall quality of pedagogical interaction.*

***Keywords:*** *educational discourse, teacher–student interaction, speech acts (directive, expressive, commissive, declarative), indirect request strategies, intercultural communication, politeness markers, address forms, communicative effectiveness*

**Kirish**

Zamonaviy dunyoda ta’limiy diskurs o‘zining qamrovi, funksional vazifalari va kommunikativ ko‘rinishlari jihatidan nihoyatda keng ko‘lamda namoyon bo‘layotgani bilan ajralib turadi. O‘qituvchi–talaba munosabatlari inson rivojlanishining deyarli barcha bosqichlarida — bolalar va o‘smirlarni tarbiyalash jarayonida, yoshlarning kasb tanlash va kasbiy kompetensiyalarni egallash davrida, kattalarning esa o‘zini rivojlantirish, malaka oshirish va faoliyat turini o‘zgartirish jarayonlarida — uzluksiz kuzatiladigan ijtimoiy-kommunikativ hodisadir. Ta’limiy diskurs ana shu munosabatlar markazida turib, turli yosh guruhlari va ijtimoiy tajriba darajalari o‘rtasida bilim va qadriyatlar almashinuvini ta’minlaydi. Ushbu diskurs ko‘p marotaba tilshunoslar, jumladan B. V. Penkov, O. P. Ushakova, S. N. Jarov, V. I. Karasik va boshqa tadqiqotchilar tomonidan har tomonlama o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning zamonaviy jamiyatda yanada murakkablashib borayotgan kommunikativ ko‘lam va funksional imkoniyatlari uni qayta va chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Zero, ta’limiy diskursning ayrim jihatlari, xususan uning yangi texnologiyalar, raqamli platformalar va madaniyatlararo muloqot sharoitidagi shakllanish mexanizmlari hali yetarli darajada ilmiy tahlil etilmagan.

**Adabiyotlar tahlili**

“Diskurs” tushunchasi hamda uning tilning turli darajalarida namoyon bo‘lish xususiyatlari bugungi kunda ko‘plab olimlarning ilmiy e’tiborini jalb etmoqda. Diskursning turli ilmiy yo‘nalishlarda rang-barang talqin qilinishi ushbu terminning aniqligi, mezonlari va tavsifini ishlab chiqishni zarur qiladi. Shu bois, mazkur tushunchaga doir izohlar va nazariy yondashuvlar V. I. Karasik, M. L. Makarov, N. D. Arutyunova, V. B. Kashkin va boshqa tadqiqotchilar tomonidan keng qamrovda yoritilgan bo‘lib, ularning har biri diskursga doir ilmiy bilimlarning takomillashuviga munosib hissa qo‘shgan. Diskursni chuqur anglash esa tadqiqotning bir qator vazifalarini bosqichma-bosqich hal etishni talab etadi. Bular — diskursning konseptual apparatini aniqlash, uning turlarini ilmiy mezonlar asosida tasniflash, ta’limiy diskursning o‘ziga xos belgi va kategoriyalarini aniqlash, ishtirokchi subyektlar hamda ulardan foydalaniladigan materiallar tabiatini yoritish bilan birga, zamonaviy jamiyatda ta’limiy diskurs chegaralari va ularning shakllanish mexanizmlarini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Tilshunoslikda odatda bir necha turdagi diskurs ajratiladi. V. I. Karasik shaxsga yo‘naltirilgan va institutsional diskurslarni farqlashni taklif etgan birinchi tadqiqotchilardan biri bo‘lib, ushbu gradatsiya tadqiqotchi oldiga qo‘yilgan vazifalarga ko‘ra diskurs matnlarini sifat jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, G. G. Pocheptsova, G. M. Yavorskaya va boshqa olimlar ham mazkur tushunchaning tipologiyasi borasida o‘z qarashlarini bildirganlar. Shunday qilib, tadqiqotning predmeti — ta’limiy diskurs, ob’ekti esa — uning bugungi kundagi faoliyat xususiyatlaridir.

Ta’limiy diskurs institutsional tusga ega bo‘lib, o‘qituvchi–talaba munosabatlarining turli darajalarida mavjud bo‘ladi. Shu bilan birga, ushbu diskurs ichida bevosita muloqot vaziyatlarini, mavjud munosabatlarning rasmiy hujjatlarda aks etishini, ularning chegaralarini, shuningdek, kommunikatsiya jarayonining metodikasini va ustozdan shogirdga axborot uzatishni qo‘llab-quvvatlovchi matnlarni farqlash zarur. Bugungi kunda texnika va texnologiyaning rivoji tufayli axborot uzatishning qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan formatlari ancha kengaygan. Masalan, A. Y. Bagiyan, T. A. Shiryaeva va Yu. A. Chernousova ta’limiy diskurs tuzilmasida virtual kommunikatsiyaning roli ortib borayotganini ta’kidlaydi [2].

O‘zbek tilshunosligida ham diskurs masalasi muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Xususan, L. Raupova diskursni tilning faqat matndagi ko‘rinishi emas, balki nutqiy faoliyatning kontekst, ijtimoiy vaziyat, kommunikativ maqsad va ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlar bilan belgilanadigan murakkab ko‘rinishi sifatida talqin qiladi. Uning ta’kidlashicha, diskursning mazmuni til birliklarining shakliy qurilishi bilan emas, balki ular real kommunikativ vaziyatda qanday ishlatilishi, qanday ma’nolarni yuzaga chiqarishi va qanday pragmatik vazifalarni bajarishi bilan belgilanadi.

L.Raupovaning yondashuvida, ayniqsa, diskursning ijtimoiy-belgilovchi xususiyati alohida ajratiladi. U diskursni matnning dinamik ko‘rinishi sifatida talqin qilib, uni “til + kontekst + kommunikativ ehtiyoj + madaniy faktorlar”ning yaxlit birligi sifatida ko‘radi. Shu jihatdan, ta’limiy diskursni o‘rganishda ham nafaqat o‘qituvchi va talabaning til birliklari, balki ularning ijtimoiy rollari, maqomi, nutq madaniyati, vazifalari va muloqot strategiyalari ham tahlilning ajralmas qismini tashkil etadi.

Demak, Karasikning institutsional diskurs haqidagi tasnifi, zamonaviy rus tilshunosligi vakillarining (Pocheptsova, Yavorskaya va boshqalar) tipologik qarashlari hamda o‘zbek tilshunoslari — xususan L. Raupovaning

diskursni kontekstga asoslangan ijtimoiy-kommunikativ hodisa sifatida talqin qilishi — ta'limiy diskursni kompleks yondashuv asosida o'rganish imkonini beradi.Ta'limiy diskursning bir necha darajalari mavjud bo'lib, an'anaviy ravishda uch tur ajratiladi: maktab-ma'muriy, o'qituvchi va talaba diskursi. Ta'limiy diskursning yozma shakli ham ushbu darajalarga mosdir.

P. Serio diskurs tushunchasining qo'llanish chegaralarini ancha keng talqin qiladi va uni mazmunan bir nechta darajalarda izohlaydi. Uning fikriga ko'ra, "diskurs" atamasi quyidagi ma'nolarda qo'llanishi mumkin:

- istalgan nutqiy ifoda, ya'ni "nutq" atamasining o'rnida ishlatilishi;
- ketma-ketlikda yuzaga keladigan bayonotlar tizimi — gapdan kengroq, murakkab tuzilmaga ega bo'lgan, muayyan til qoidalari asosida tashkil topadigan birlik sifatida;
- matnning adresant va adresat o'rtasidagi kommunikativ ta'sir jarayoni, ya'ni kimga qaratilgani, qachon va qanday vaziyatda ijro etilganiga bog'liq holda yuzaga keluvchi ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida;
- maxsus ilmiy ixtisoslashuv natijasida "diskurs" va "suhbat" tushunchalarining ma'lum darajada yaqinlashishi; bunda suhbat ko'pincha nutqning asosiy amaliy formati sifatida talqin qilinadi;
- tinglovchiga yo'naltirilgan nutqning adresat tomonidan faol qabul qilinishi — ya'ni faqat adresatning ishtiroki, uning interpretativ faoliyati mavjud bo'lgan taqdirdagina nutq diskurs maqomiga ega bo'lishi mumkin.

Tadqiqotning nazariy asosini N. D. Arutyunova, V. I. Karasik, B. V. Penkov kabi mualliflarning diskursga turli nuqtai nazarlardan yondashuvlari hamda A. A. Evstifeeva, S. N. Jarova, Yu. Yu. Pospelova, M. A. Samkova va boshqa olimlarning ta'limiy diskursning mohiyati va namoyon bo'lish shakllariga bag'ishlangan ishlari tashkil etadi. Mazkur manbalar diskursni faqat lingvistik birliklarning ketma-ketligi sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy, psixologik va institutsional omillar ta'siri ostida shakllanadigan murakkab kommunikativ hodisa sifatida talqin qiladi.

Shunday qilib, diskursning mazmuni va qo'llanish chegaralariga doir ushbu yondashuvlar lingvomadaniy tadqiqot uchun zarur nazariy poydevorni yaratadi. Diskurs doimo ma'lum madaniy kontekst, ijtimoiy ahamiyatga ega rollar, qadriyatlar, nutq me'yorlari, rasmiy yoki norasmiy muloqot an'analari bilan shakllanadi. Shu bois, ta'limiy diskursning lingvomadaniy xususiyatlari, undagi nutqiy vositalarning madaniy mazmuni, o'qituvchi–talaba munosabatlarida shakllangan kommunikativ an'analar va ularning diskursiv mexanizmlarini tahlil qilish muhim hisoblanadi.

**Natijalar va tahlillar**

Zamonaviy oliy ta'lim muhitida ustoz–talaba muloqoti til tizimi, ijtimoiy rol, institutiy me'yor va madaniy qadriyatlar kesishgan murakkab hodisa bo'lib, u ta'lim jarayonining sifatiga bevosita ta'sir etadi. Bu muloqotda grammatik vositalar va leksik birliklar o'z-o'zidan ishlamaydi; ular lingvomadaniy skriptlar bilan "quvvatlanadi". Ta'limiy diskursda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot — bilim o'zbek tilida ko'ra ingliz tilida kengroq ijtimoiy-madaniy jarayon bo'lib, unda til birliklari, xushmuomalilik me'yorlari bu jihatlar turli madaniyatlar kesishgan oliy ta'lim muhitida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, ustoz nutqida direktiv aktlar (yo'riq, topshiriq, baholash) ko'p uchrasa-da, ular odatda yumshatuvchi vositalar bilan bezatiladi: ingliz tilida *"Could you form pairs and discuss question two for five minutes?"* kabi modallik (could, would, might) va birgalikni ko'rsatuvchi *"let's"* konstruktsiyalari buyruq kuchini pasaytiradi; o'zbek tilida esa *"Iltimos, 2-savolni juftlikda muhokama qilib chiqing"*, *"Kelinglar, avval uchta misol o'ylab ko'raylik"* shakllarida *"iltimos/kelinglar"* markerlari ijtimoiy masofani me'yorida saqlaydi.

Talaba tomoni ko'proq so'rov, izoh talab qilish va o'zbek tilidar aktlari orqali muloqotga kirishadi: ingliz tilida "*Dear Professor Karimov, I was wondering if I could submit the assignmingliz tilidat on Friday due to illness."* O'zbek tilida: "*Assalomu alaykum, ustoz. Betobligim sababli topshiriqni juma kuni topshirsam bo'ladimi?"* — har ikki holatda ham bilvosita so'rov yo'zbek tilidani saqlashga xizmat qiladi, ingliz tilida "*I was wondering if…/would it be possible…*", o'zbekcha tili *"bo'ladimi/mumkinmi/iloj bormi"* kabi konstruksiyalar vaziyatni yumshatadi.

Adresiv birliklar ham madaniy signaldir: ingliz diskursida titul va familya *"Dear Dr. Akhmedov"* orqali rasmiylik saqlansa, o'zbek diskursida *"ustoz/domla/professor"* yuksak hurmatni bildiradi; Asosan, ingliz tilida gaplarda sintaktik-leksik yumshatuvchi qurilmalar bilan qoplanadi, o'zbek tilida esa "siz" va muomala formulalari ijtimoiy ierarxiyani til darajasida mustahkamlaydi.

Nizo va e'tiroz bildiruvchi aktlar madaniyatlararo muloqot jarayonida ayniqsa ehtiyotkor ifodalanadi: Ingliz tilida : *"I see your point, but I'm not ingliz tilidatirely convinced by the second claim; perhaps clarifying the data source would help*." O'zbek tilida: *"Fikringiz tushunarli, biroq ikkinchi da'vo to'liq ishontirmadi; balki ma'lumot manbasini aniqlashtirsangiz, yaxshi bo'lardi."* — "*I see your point/fikringiz tushunarli" ijobiy xushmuomalilikni, "not tirely/balki"* yumashtibroq ifodalashni ko'rsatadi; bunday *"sandvich"* uslubi tanqidni qabul qilishni osonlashtiradi.

Elektron yozishmalar janrida ham parallel me'yorlar bor: inglizcha email aniq strukturaga (salomlashuv — maqsad — iltimos — yakun) tayanadi: *Dear Professor…, I am writing to ask… Best regards, …"*; o'zbekcha yozishmalarda diniy-madaniy salomlashuv *"Assalomu alaykum"* va hurmat formulalari *"Hurmat bilan"* kuchliroq, biroq maqsadning aniq bayoni *"… sababli juma kuni topshirsam bo'ladimi?"* ham ustozlar tomonidan ijobiy baholanadi. Muloqot samaradorligi til

vositalarini aniq va adolatli qo‘llash bilan oshadi: masalan, baho haqida fikr bildirayotganda ingliz tilida: *“Your argumingliz tilidat flows well; you might define the key term earlier to improve clarity.”* O‘zbek tilida: *“Dalillash yaxshi; aniqlik uchun asosiy atamani biroz oldinroq ta’riflasangiz, ma’qul.”* — tavsiya modallar bilan yumshatiladi *(“might/ma’qul/bo‘ladi”)*. Xuddi shunday, minnatdorlik/o’zbek tilidar aktlari o‘qituvchi-talaba ishonchini mustahkamlaydi: ingliz tilida: *“Thanks for the quick clarification today,”* o’zbek tilida: *“Tezkor tushuntirganingiz uchun rahmat,”*; ingliz tilida: *“I’m sorry for the late submission,”* o’zbek tilida: *“Kechikkanim uchun o’zbek tilidar so‘rayman,”*.

Shunday qilib, talabalar tomonidan bildiriladigan so‘rov, izoh talab qilish yoki e’tiroz aktlarining har ikkala til tizimida bilvosita va ehtiyotkor shaklda berilishi, muloqotning ham madaniy, ham psixologik talablariga mos holda shakllanishini ko‘rsatib, ustozning ijobiy yuzini saqlash hamda talabaning hurmat tamoyillarini buzmaslikka qaratilgan umumiy kommunikativ strategiyalar mavjudligini tasdiqlaydi.

**Xulosa**

Demak, ustoz–talaba nutqidagi direktiv, ekspressiv, komissiv va boshqa aktlarning madaniy motivatsiyasi, ularning yumshatuvchi vositalar bilan qo‘llanishi hamda adresiv birliklarning tanlanishi ta’lim jarayonida nafaqat axborot uzatish, balki ijtimoiy munosabatlarni uyg‘un boshqarish, o‘zaro hurmatni mustahkamlash va psixologik qulaylik yaratish vazifasini ham bajaradi; shu sababli ta’limiy diskursni lingvomadaniy jihatdan chuqur tahlil qilish pedagogik kommunikatsiyaning sifatini oshirishga, akademik muhitda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishga hamda kelajak mutaxassislarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1.Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 1969. — 203 p.

2.Searle J. R. Indirect Speech Acts // Syntax and Semantics. — 1975. — Vol. 3: Speech Acts. — P. 59–82.

3.Arutyunova N. D. Discourse. Linguistic Encyclopedic Dictionary / ch. ed. V. N. Yartseva.-M.: Sov. encyclopedia, 1989.-S. 136-137.

4. Bagiyan A. Yu., Shiryaeva T. A., Chernousova Yu. A. The main trends in the development of modern pedagogical discourse (on the material of the English language) // Philological Sciences. Questions of theory and practice.-2020.-No. 11.-S. 151-156.

5.Evstifeeva A. A. Specificity of pedagogical discourse: varieties and participants // Young scientist. 2021. No. 20 (362). pp. 299-301.-URL: https://moluch.ru/archive/362/80884/ (date of access: 04/07/2023).

6.Karasik V. I. Discourse // Discourse-Pi.-2015.-No. 3-4.-S. 147-148.

7.Serio P. How texts are read in France // Quadrature of meaning. French school of discourse analysis.-M., 1999.-S. 12-53.

8.Penkov B.V. Signs of institutional discourse: educational discourse // Vestnik RUDN University. Series: Linguistics.-2010.-No. 3.-S. 15

9.Safarov Sh. Pragmalingvistika. — Toshkingliz tilidat: Fan, 2008. — 200 b.

10. Andakulova N., Khayrullayeva Z. Linguo-cultural and pragmatic features of student-lecturer communication: A discourse analysis in multicultural educational settings // Central Asian Journal of Education and Innovation. — 2024. — Vol. 3, Issue 10. — P. 53–55. — DOI: 10.5281/.13922710.

11. Раупова, *Л*. Р. (2011). *Диалогик нуткнинг дискурсив талкини. Т.: Фан*.

12. Raupova, L. R., & Kholmurodova, M. I. (2020). Dialogical discourse as an environment in which a poly-predictive unit is implemented. *ISJ Theoretical & Applied Science*, *3*(83), 451-457.

13. Kizi, S. B. Y. (2022). Linguo-cultural characteristics of speech etiquette occurring in discourse. *Current Research Journal of Philological Sciences*, *3*(11), 59-63.

14. Kizi, B. S. Y. (2023). Discourse and its interpretation in modern linguistics. *International Journal of Pedagogics*, *3*(11), 146-148.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Abdubannoyeva Aziza Shokirjon qizi**
NamDU Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs talabasi
**Ilmiy rahbar: Qo‘ziyev Umidjon Yandashaliyevich**
NamDU Filologiya fakulteti f.f.d.(DSc) dotsenti

## PSIXOLINGVISTIKADA SEMANTIK DIFFERENSIAL TAHLIL USULI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada psixolingvistik tahlil metodlaridan biri semantik differensial tahlil nazariy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, semantik differensial tahlilning baholashlashlar obyektiv va miqdoriy ma’lomatlarga aylantirish vazifasi asosida ma’lum bir mahsulotga bildirilgan subyektiv baholar obeyktivlashtiriladi.*

***Kalit so’zlar:*** *psixolingvistika, SDT, bipolar, shkala.*

**Abdubannoyeva Aziza Shokirjon qizi**
2nd year student of the Uzbek language department of the Faculty of Philology
**Scientific supervisor: Qo‘ziyev Umidjon Yandashaliyevich**
Associate Professor of the Faculty of Philology, NamSU

## METHOD OF SEMANTIC DIFFERENTIAL ANALYSIS IN PSYCHOLINGUISTICS

***Annotation:*** *This article theoretically discusses one of the methods of psycholinguistic analysis, semantic differential analysis. Also, based on the task of semantic differential analysis to transform evaluations into objective and quantitative information, subjective assessments of a particular product are objectified.*

***Keywords****: psycholinguistics, SDT, bipos, scale.*

**Абдубанноева Азиза Шокиржон кизи**
Студентка 2-го курса узбекского отделения филологического факультета
**Научный руководитель: Кузиев Умиджон Яндашальевич**
Доцент филологического факультета НамГУ

## МЕТОД СЕМАНТИЧЕСКОГО ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО АНАЛИЗА В ПСИХОЛИНГВИСТИКЕ

***Аннотация****: В данной статье теоретически рассматривается один из методов психолингвистического анализа – семантический дифференциальный анализ. Также, исходя из задачи семантического дифференциального анализа по преобразованию оценок в объективную и количественную информацию, объективируются субъективные оценки конкретного продукта.*

***Ключевые слова:*** *психолингвистика, SDT, биполярное расстройство, шкала.*

### Kirish

Global taraqqiyot zamonida muayyan bir mavzu, mahsulot, g‘oya, brend, shaxs yoki hodisaga nisbatan subyektiv qarashlarni obyektlashtirishni taqazo qilmoqda. Buning natijasida, psixolingvistika sohasi rivolanmoqda, psixolingvistik tahlil metodlaridan, xususan, semantik differesial tahil usulidan keng foydalanilmoqda. Semantik differensial tahlil muayyan bir baholashlarni obyektivlashtirishga ko‘plab qulayliklar yaratamoqda.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Ma’lumki, semantik differensial tahlil (SDT) bu insonlarning muayyan mavzu, tushuncha yoki obyektga munosabati, fikri yoki idrokini o‘lchaydigan anketa vositasi turi hisoblanadi. U 1950-yillarda psixolog Charlz E. Osgud va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan. Charlz E.Osgud til va ma’no o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish maqsadida ushbu metodologiyani ishlab chiqqan. SDT, asosan, bipolar sifat shkalalaridan foydalangan holda subyektiv baholashlarni obyektivga aylantiradi. Bunda shkalalar bir-biriga zid ma’noga ega bo‘lgan ikki sifatni bir chiziqning ikki chekkasiga joylashtirish orqali tuziladi. Quyida Charlz E. Osgudning semantik differensialligi orqali ko‘rish mumkin:

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Baho | Yaxshi | 3 | 2 | 1 | 0 | -1 | -2 | -3 | Yomon |
| Kuch | Kuchli | 3 | 2 | 1 | 0 | -1 | -2 | -3 | Zaif |
| Faoliyat | Faol | 3 | 2 | 1 | 0 | -1 | -2 | -3 | Passiv |

Charlz E.Osgud tomonidan aniqlangan baholash, kuch va faollik kabi asosiy o'lchamlarni aniqlash SDTning muhim vazifasidir. Bu o'lchamlar har qanday kontseptsiya qanday hissiy fazilatlarga ega ekanligi, qanday idrok etilishini tushunishga yordam beradi. Masalan, ma'lum bir obyekt "yaxshi" (baholash) " kuchli" (kuch) va "dinamik" (faollik) deb ham qabul qilinishi mumkin.

Semantik differensial tahlil metodining asosiy vazifalari obyektning hissiy(konnotativ)ma'nosini o'lchash, subyektiv baholarni obyektiv baholarga aylantirish, hissiy ma'noning o'lchamliligini aniqlash va turli kontseptsiyalarni yoki ularning idrokini solishtirish kabilardan iborat.

Obyektning konnotativ ma'nosini o'lchash SDTning eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib, u odamlarning ma'lum bir so'z, g'oya, brend, mahsulot, shaxs yoki hodisaga nisbatan qanday hissiy bog'liqlikka ega ekanligi, ular bu narsalarni qanday his-tuyg'ular bilan bog'lashini miqdoriy jihatdan aniqlashga qaratilgan. Bu denotativ ma'nodan ko'ra, shaxsiy va hissiy ma'nolarni o'rganishga ham xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar**

SDTning subyektiv baholashlarni obyektiv va miqdoriy ma'lumotlarga aylantirish vazifasi individual fikrlar va hissiyotlarni standartlashtirilgan raqamli ma'lumotlarga aylantiradi. Bu esa ma'lumotlarni statistik tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish imkonini beradi, shaxsiy xatolar va subyektivlikni kamaytiradi. Masalan, amaliy psixolingvistikada bu usuldan foydalanishning turli variantlari mavjud. Qarama-qarshi leksik ma'noga ega belgilar asosida farqlar hosil bo'ladi. Tarozilarning xususiyatlarini tajriba maqsadlariga yoki ushbu jarayon bilan bog'liq hodisalarga qarab o'zgartirish tavsiya etiladi. Tarozilar turli o'lchamga ega bo'lishi mumkin. O'lchov qiymatlari qanchalik ko'p bo'lsa, natijalar shunchalik aniq bo'ladi.

Semantik differentsial usul ommaviy kommunikatsiya tadqiqotlarida keng e'tirofga sazovor bo'ldi. Shunday qilib, semantik differentsial reklama matnini idrok etish psixologiyasi, inson xulq-atvori va marketingda qaror qabul qilish, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar va shaxsiy motivlarni tahlil qilish bilan bog'liq tadqiqotlarda faol qo'llaniladi.

**"Mening otam yolg'on gapiradi" reklamasining semantik maydoni**[21]

Semantik differensial usul yordamida olingan eksperimental natijalar shuni ko'rsatadiki, dastlab fikrlash va muloqot jarayonlarini ijtimoiy amalga oshirish uchun vosita bo'lib xizmat qiladigan boshqariladigan ijtimoiy opzaro ta'sirlar, keyinchalik u yoki bu ma'lumot o'z-o'zini tartibga solish va aqliy vakillikning kognitiv funksiyasini o'ynay

| N/o | Faktor | 5 | 4 | 3 | 2 | 1 | 0 | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | Faktor |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Tushunarli | | 4.3 | | | | | | | | | | Qiyin |
| 2 | Hissiy | | | 3.8 | | | | | | | | | Ratsional |
| 3 | Qiziqarli | | | 3.1 | | | | | | | | | Zerikarli |
| 4 | Mavhum | | | | | | | | | | 4.8 | | Aniq |
| 5 | Tinch | | | | | 1.3 | | | | | | | Tarang |
| 6 | Tez | | | | | | | 1.1 | | | | | Sekin |
| 7 | paradoksal | | | | | | | 1.9 | | | | | oddiy |
| 8 | Optimistik | | | | | 1.7 | | | | | | | Pessimistik |
| 9 | Maqsadli | | 4.4 | | | | | | | | | | Maqsadsiz |
| 10 | Muammoli | | | | 2.2 | | | | | | | | Samarali |
| 11 | Rag'batlantirish | | | | | | 0.8 | | | | | | Stabillash |
| 12 | An'anaviy | | | | 2.3 | | | | | | | | Ijodiy |

boshlaydi. Ushbu o'zaro ta'sirlar hali rivojlanmagan kognitiv funksiyalarni faollashtiradi.

Semantik differensial usul yordamida o'tkazilgan tajriba natijalari bir nechta ijtimoiy reklama matnlarining semantik maydonini aniqlash imkonini berdi.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, semantik differensial tahlilning asosiy vazifasi murakkab subyektiv hissiy ma'nolarni sodda, miqdoriy va statistik tahlil qilinadigan shaklga o'tkazish orqali insonlarning idroki va munosabatilari haqida chuqur tushuncha berishdir. Semantik differensial tahlil o'zining sodda va samaradorligi tufayli hali hamon ijtimoiy fanlar va tadqiqotlarda muhim o'rin tutadi. Bu usul insonning murakkab his-tuyg'ularini miqdoriy jihatdan o'rganishga yordam beruvchi vosita hisoblanadi.

[21] https://youtube.com/watch?v=J3YXt1ScSAU&si=Z2qC3gumbIwPwNKr

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Osgud Ch.E., Suci G.J., Tannenbaum P.H. The measurement of meaning. Urbana, 1957. -B.31-75.

2. James G. Snider, Charles E. Osgud. Semantic differential technique: a sourcebook. -Chikago,1969. - B.681.

3.Гудовских Д. В., И. А. Молошников, Р. Б. Рыбка. Анализ эмотивности текстов на основе психолингвистических маркеров с определением морфологических свойств, 2015.

4. Karpova E.A., Kukulite T.G. Methods of Research in the Psycholinguistic Paradigm, 2017. – B.49-51.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Саттаров Бахтияр Катибжанович**
профессор кафедры ДНО и СД UBS
Email: sbk_mos@mail.ru

## ФУНКЦИОНАЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ НАУЧНЫХ ТЕКСТОВ ПО ЛИНГВИСТИКЕ

***Аннотация:*** *В статье рассматриваются особенности функционально-типологической организации научных текстов по лингвистике. Цель исследования заключается в выявлении закономерностей распределения функционально-смысловых типов речи в зависимости от жанровой принадлежности научного текста. Материалом послужили научные тексты по лингвистике на русском языке, относящиеся к жанрам научной статьи, учебного издания и монографии. В ходе исследования использованы методы функционально-стилистического, структурно-синтаксического и контекстуального анализа, а также элементы количественной обработки текстовых данных. Установлено, что распределение функционально-смысловых типов речи носит закономерный характер и определяется коммуникативными задачами конкретного жанра: в научных статьях доминируют аргументативные микротексты, в учебных текстах – описательные, тогда как монографии характеризуются более сбалансированным соотношением указанных типов при заметной роли полиинтенциональных структур. Полученные результаты уточняют представления о жанрово-стилевой дифференциации научного текста и могут быть использованы в исследованиях по лингвистике текста и научному стилю.*

***Ключевые слова:*** *научный текст; научный стиль; функционально-смысловые типы речи; жанр научного текста; аргументация; описание; лингвистика текста.*

**Sattarov Bakhtiyar Katibzhanovich**
Professor of the Department of DND and SD UBS

## FUNCTIONAL AND TYPOLOGICAL ORGANIZATION OF LINGUISTIC ACADEMIC TEXTS

***Abstract:*** *The article examines the functional and typological organization of linguistic academic texts. The purpose of the study is to identify patterns in the distribution of functional semantic types of speech depending on the genre of the scientific text. The research material consists of Russian-language linguistic texts representing the genres of research articles, textbooks, and monographs. The study employs methods of functional stylistic analysis, structural-syntactic analysis, contextual analysis, as well as elements of quantitative text analysis. The results demonstrate that the distribution of functional semantic types of speech is systematic and determined by the communicative goals of a particular genre: argumentative microtexts prevail in research articles, descriptive structures dominate in educational texts, whereas monographs are characterized by a more balanced combination of these types with a significant role of polyintentional structures. The findings contribute to a more precise understanding of genre and stylistic differentiation in academic discourse and may be applied in studies of text linguistics and scientific style.*

***Keywords:*** *academic text; scientific style; functional semantic types of speech; genre of academic discourse; argumentation; description; text linguistics.*

### Введение

Современное языкознание характеризуется усилением интереса к изучению функционирования языковых единиц в тексте и речи, что обусловило переход от формально-системного анализа языка к комплексному описанию текстовой организации высказывания [1, с. 5–12; 10, с. 15–22]. В рамках данного подхода текст рассматривается как сложная многоуровневая единица речевой коммуникации, формируемая в определённых условиях общения и отражающая взаимодействие языковых, логико-смысловых и прагматических факторов. Особое место в этом ряду занимает научный текст как специфическая форма книжной речи, реализующая основные закономерности научного стиля [3, с. 214–219].

Научный текст представляет собой функционально организованное целое, в котором композиционное построение, логико-смысловая структура и синтаксическое оформление подчинены задаче объективного и доказательного изложения научного знания [6, с. 27–34]. Его особенности определяются институциональным

характером научной коммуникации, ориентированностью на подготовленного адресата и использованием устойчивых средств выражения обобщённости, логичности и доказательности [8, с. 41–47; 4, с. 312–318]. В связи с этим анализ научных текстов требует учёта не только языковых, но и коммуникативно-прагматических параметров их порождения и восприятия [9, с. 88–95].

В зарубежной, в частности в русской лингвистике накоплен значительный опыт исследования научного стиля, жанров научной речи, а также способов композиционного развёртывания научной мысли [2, с. 64–71; 15, p. 58–67; 16, p. 12–19]. Вместе с тем многие работы сосредоточены на отдельных аспектах научного текста – его жанровых характеристиках, средствах связности или синтаксических особенностях, – что не всегда позволяет представить целостную картину функционально-типологической организации научного текста как особого вида речевой деятельности [7, с. 124–125].

Особый интерес в этом отношении представляет научный текст по лингвистике, который, с одной стороны, подчиняется общим нормам научного стиля, а с другой – отражает специфику метаязыкового описания и рефлексивный характер лингвистического знания [10, с. 97–103; 11, с. 45–52]. Для лингвистических научных текстов характерно активное взаимодействие различных функционально-смысловых типов речи, прежде всего описательных и аргументативных, соотношение которых определяется жанровой принадлежностью текста и коммуникативной установкой автора [14, с. 413–415].

В связи с этим актуальной является задача функционально-типологического описания научных текстов по лингвистике, направленного на выявление закономерностей их внутренней организации и принципов функционирования в системе научного стиля. Комплексный анализ жанрово-стилевых, композиционных и структурно-смысловых характеристик научного текста позволяет углубить представления о механизмах организации научной речи и способствует дальнейшему развитию теории научного стиля и лингвистики текста.

**Степень разработанности проблемы.**

Проблема функциональной организации научного текста, его жанрово-стилевых характеристик и композиционно-логической структуры занимает одно из центральных мест в современной лингвистике текста и функциональной стилистике. Научный текст рассматривается как особый тип речевой деятельности, реализующийся в условиях институциональной коммуникации и подчинённый задаче репрезентации научного знания [1, с. 18–25; 6, с. 51–57].

В зарубежной лингвистике теоретические основы анализа академического письма формировались в рамках жанрового подхода и дискурс-анализа. В работах Дж. Суэйлза научная статья осмысляется как жанрово обусловленная модель развёртывания аргументации [15, p. 140–156]. Концепция профессиональных жанров разработана В.К.Бхатией [17, p. 21–34], проблемы метадискурса и авторской позиции – К.Хайлендом [16, p. 37–49]. Основы анализа когезии текста заложены в трудах К.Холлидея и Р.Хасана [19, p. 4–11].

В российском языкознании значительный вклад в разработку проблемы внесли исследования по лингвистике текста и функциональной стилистике [1; 12]. В работах М.Н.Кожиной, Г.Я.Солганика, О.Д.Митрофановой научная речь описывается как особая разновидность литературного языка [3; 5; 8]. Вместе с тем функционально-смысловые типы речи в научном тексте нередко рассматриваются фрагментарно [7; 14], что обусловливает необходимость комплексного анализа.

В русле синтаксиса текста и актуального членения предложения особое значение имеют работы, направленные на описание тематико-рематических связей и композиционных схем микротекстов, что позволяет выявлять особенности описательных и аргументативных фрагментов в научной речи. Вместе с тем в большинстве исследований функционально-смысловые типы речи рассматриваются либо фрагментарно, либо вне системной связи с жанровыми и прагматическими параметрами научного текста.

В лингвистических исследованиях, выполненных в странах СНГ и Узбекистане, вопросы текста, стиля и функциональной дифференциации литературного языка разрабатываются в контексте описания норм научной речи, жанровых форм и средств связности. В рамках отечественной филологической традиции сформирован значительный корпус работ, посвящённых языку науки и академическому письму, однако научный текст по лингвистике как целостный объект функционально-типологического анализа до настоящего времени остаётся недостаточно систематизированным.

Таким образом, при наличии обширного теоретического и эмпирического материала сохраняется потребность в комплексном описании научного текста по лингвистике с опорой на совокупность жанрово-стилевых, композиционных, логико-смысловых и коммуникативно-прагматических параметров. Недостаточно изученными остаются вопросы типологии функционально-смысловых типов речи и закономерности их взаимодействия в структуре макротекста научного произведения, что и определяет направленность настоящего исследования.

**Цель, материал и методы исследования.**

Целью исследования является выявление функционально-типологических характеристик научных текстов по лингвистике и закономерностей распределения функционально-смысловых типов речи в зависимости от жанра. В рамках поставленной цели особое внимание уделяется анализу функционально-смысловых типов речи и особенностей их взаимодействия в структуре научного макротекста.

Материалом исследования послужили научные статьи, учебные издания и монографии по лингвистике на русском языке. Анализ проводился с использованием функционально-стилистического, структурно-синтаксического и контекстуального методов, а также элементов количественной обработки текстовых данных. Общий объём проанализированного материала составляет 140 научных текстов (около 1,05 *млн* словоупотреблений), что обеспечивает репрезентативность полученных результатов.

В ходе исследования использован комплекс взаимодополняющих методов. Основным является функционально-стилистический анализ, позволяющий выявить жанровые и типологические характеристики научных текстов. Для описания логико-смысловой и композиционной организации научного высказывания применялся структурно-синтаксический анализ. С целью установления частотности и распределения функционально-смысловых типов речи использовались элементы статистической обработки текстового материала. Контекстуальный анализ обеспечивал выявление коммуникативных и прагматических факторов, влияющих на выбор языковых средств и структурирование научного текста.

Использование совокупности указанных методов позволило рассмотреть научный текст по лингвистике как целостное функциональное образование и обеспечить объективность и достоверность полученных выводов.

**4. Функционально-типологическая организация научного текста по лингвистике.**

Научный текст по лингвистике характеризуется сложной функционально-типологической организацией, обусловленной жанровыми, коммуникативными и прагматическими параметрами научной деятельности. В зависимости от жанровой принадлежности, исследовательской задачи и предполагаемого адресата в структуре научного макротекста реализуются различные функционально-смысловые типы речи, формирующие его логико-смысловое и композиционное единство.

**4.1. Жанрово-стилевые параметры научных текстов по лингвистике.**

Анализ научных текстов по лингвистике показывает, что жанровая принадлежность (научная статья, учебное издание, монография) оказывает существенное влияние на способы организации научного изложения. Научная статья, ориентированная на оперативное представление результатов исследования, характеризуется высокой степенью структурной регламентированности, компактностью изложения и доминированием аргументативных фрагментов. Учебные тексты, напротив, демонстрируют развернутую композицию, ориентированную на поэтапное формирование знаний, что обусловливает преобладание описательных микротекстов. Монографии занимают промежуточное положение, сочетая элементы развернутого описания с системной аргументацией.

Жанровые различия находят отражение не только в композиции макротекста, но и в характере синтаксической организации высказываний, выборе средств логической связности и способах актуализации авторской позиции. При этом во всех жанрах сохраняются инвариантные признаки научного стиля, обеспечивающие целостность и узнаваемость научного текста как особой формы книжной речи.

**4.2. Функционально-смысловые типы речи в научном тексте.**

В результате анализа корпуса научных текстов по лингвистике были выделены основные функционально-смысловые типы речи, формирующие внутреннюю структуру научного изложения: описательный, аргументативный и полиинтенциональный. Каждый из указанных типов выполняет специфическую коммуникативную функцию и характеризуется устойчивым набором логико-смысловых и структурно-синтаксических признаков.

Описательные микротексты ориентированы на представление объекта исследования, его классификацию, систематизацию и характеристику. Для них характерны номинативная направленность, преобладание именных конструкций, развернутые атрибутивные группы, а также использование обобщающих форм настоящего времени. Описательные фрагменты наиболее активно функционируют в учебных текстах и вводных разделах научных работ.

Аргументативные микротексты выполняют функцию обоснования, доказательства и интерпретации научных положений. Они характеризуются чёткой логической структурой, включающей тезис, аргументацию и вывод, активным использованием причинно-следственных связей, модальных и оценочных средств. Аргументативные фрагменты доминируют в жанре научной статьи и в аналитических разделах монографий.

Полиинтенциональные микротексты представляют собой сложные структурные образования, в которых описание и аргументация функционируют во взаимосвязи. Такие фрагменты характерны для развернутых

теоретических рассуждений и обеспечивают динамичность научного изложения, позволяя автору одновременно представлять объект исследования и интерпретировать полученные результаты.

**4.3. Соотношение функционально-смысловых типов речи в структуре макротекста.**

Количественный анализ показал, что распределение функционально-смысловых типов речи в научных текстах по лингвистике носит закономерный характер и определяется жанром и коммуникативной установкой автора. В научных статьях преобладают аргументативные микротексты, обеспечивающие доказательность и новизну изложения, тогда как в учебных текстах доминируют описательные фрагменты, направленные на систематизацию и объяснение материала. В монографиях наблюдается относительное равновесие указанных типов при заметной доле полиинтенциональных структур.

Выявленные закономерности свидетельствуют о том, что функционально-смысловые типы речи образуют иерархически организованную систему, в рамках которой каждый тип выполняет определённую роль в реализации научной коммуникативной задачи. Их взаимодействие обеспечивает целостность научного макротекста и отражает специфику лингвистического научного мышления.

Распределение функционально-смысловых типов речи в научных текстах по лингвистике (в %) можно продемонстрировать в следующей таблице 1:

**Таблица 1. Распределение функционально-смысловых типов речи в научных текстах по лингвистике (в %)**

| Функционально-смысловой тип речи | Научная статья | Учебный текст | Монография |
|---|---|---|---|
| Описательный | 32 % | 58 % | 41 % |
| Аргументативный | 54 % | 27 % | 38 % |
| Полиинтенциональный | 14 % | 15 % | 21 % |

*Примечание:* проценты отражают долю соответствующего ФСТР в общем объёме проанализированных микротекстов каждого жанра.

Данные, представленные в таблице 1, свидетельствуют о жанрово обусловленном распределении функционально-смысловых типов речи в научных текстах по лингвистике. В жанре научной статьи доминируют аргументативные микротексты, что связано с ориентированностью данного жанра на обоснование авторской позиции и представление новых научных результатов. В учебных текстах преобладают описательные фрагменты, обеспечивающие систематизацию и поэтапное усвоение научного материала. Монографии характеризуются более сбалансированным соотношением описательных и аргументативных микротекстов при относительно высокой доле полиинтенциональных структур, что отражает их комплексный и развернутый характер.

Выявленные различия подтверждают положение о том, что функционально-смысловые типы речи не являются равноправно представленными во всех жанрах научного стиля, а образуют иерархически организованную систему, отражающую коммуникативные задачи конкретного жанра. Полиинтенциональные микротексты выполняют интегративную функцию, обеспечивая связность научного изложения и переход от описания объекта исследования к его интерпретации и оценке.

**Результаты и обсуждение.**

Проведённый функционально-типологический анализ научных текстов по лингвистике позволил выявить устойчивые закономерности распределения функционально-смысловых типов речи в зависимости от жанровой принадлежности текста и коммуникативной установки автора. Полученные данные подтверждают положение о том, что структура научного макротекста формируется не случайным образом, а отражает специфику научной деятельности и задачи конкретного жанра.

Доминирование аргументативных микротекстов в жанре научной статьи обусловлено её ориентированностью на представление и обоснование новых научных положений. В рамках данного жанра описание выполняет преимущественно вспомогательную функцию, обеспечивая введение объекта исследования и необходимый терминологический аппарат. Это согласуется с выводами исследований, в которых научная статья рассматривается как жанр с высокой степенью логической компрессии и концентрацией доказательной информации.

Преобладание описательных микротекстов в учебных изданиях связано с их дидактической направленностью и задачей систематизации научного знания. Описание в данном случае выступает основным способом представления материала, тогда как аргументация используется ограниченно и подчинена объяснительной функции. Полученные результаты соотносятся с традиционными представлениями о специфике

учебного научного текста как разновидности научного стиля, ориентированной на адресата с формирующимися фоновыми знаниями.

Монографии характеризуются более сложной и вариативной структурой, что проявляется в относительном равновесии описательных и аргументативных микротекстов при заметной доле полиинтенциональных структур. Последние обеспечивают динамику научного изложения, позволяя автору сочетать представление объекта исследования с его интерпретацией и оценкой. Такая организация отражает комплексный характер монографического исследования и подтверждает положение о многоуровневой структуре научного текста.

В целом результаты анализа свидетельствуют о том, что функционально-смысловые типы речи образуют иерархически организованную систему, в которой каждый тип выполняет специфическую роль в реализации научной коммуникативной задачи. Их распределение и взаимодействие определяются совокупностью жанрово-стилевых и прагматических факторов, что позволяет рассматривать научный текст по лингвистике как целостное функциональное образование. Полученные данные дополняют существующие представления о типологии научных текстов и создают основу для дальнейших исследований в области лингвистики текста и научного стиля.

**Заключение.**

В ходе проведённого исследования была выявлена специфика функционально-типологической организации научных текстов по лингвистике, обусловленная их жанровой принадлежностью и коммуникативно-прагматической направленностью. Анализ показал, что структура научного макротекста формируется на основе взаимодействия различных функционально-смысловых типов речи, обеспечивающих логическую целостность и коммуникативную завершённость научного изложения.

Установлено, что распределение функционально-смысловых типов речи носит закономерный характер: в научных статьях доминируют аргументативные микротексты, в учебных изданиях – описательные, тогда как монографии характеризуются более сбалансированным соотношением указанных типов при заметной роли полиинтенциональных структур. Данные различия отражают специфику научных жанров и их ориентацию на решение различных исследовательских и дидактических задач.

Полученные результаты подтверждают положение о том, что функционально-смысловые типы речи образуют иерархически организованную систему, в рамках которой каждый тип выполняет определённую роль в реализации научной коммуникативной задачи. Рассмотрение научного текста по лингвистике с функционально-типологических позиций позволяет углубить представления о закономерностях организации научного дискурса и уточнить параметры его жанровой дифференциации.

Перспективы дальнейших исследований связаны с расширением корпуса анализируемых текстов, привлечением материалов на других языках, а также с изучением динамики функционально-смысловой организации научного текста в контексте современных тенденций развития научной коммуникации.

**Список литературы**

**1**. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. М.: Наука, 1981. 138 с.

2. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. М.: Наука, 1980. 360 с.

3. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. М.: Флинта; Наука, 2010. 464 с.

4. Розенталь Д.Э., Голуб И.Б., Теленкова М.А. Современный русский язык. Стилистика. М.: Айрис-пресс, 2016. 448 с.

5. Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. М.: Высшая школа, 2004. 256 с.

6. Чернявская В.Е. Интерпретация научного текста. М.: ЛЕНАНД, 2010. 216 с.

7. Никульшина Н.Л. Логико-смысловая организация научного текста // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2016. № 4. С. 123–127.

8. Митрофанова О.Д. Научный стиль речи: проблемы обучения. М.: Русский язык, 1985. 240 с.

9. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград: Перемена, 2002. 477 с.

10. Кубрякова Е.С. Язык и знание: на пути получения знаний о языке. М.: Языки славянской культуры, 2004. 560 с.

11. Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл. М.: Наука, 1976. 383 с.

12. Лотман Ю.М. Текст и структура аудитории // Труды по знаковым системам. Т. 9. Тарту, 1977. С. 55–61.

13. Кожевникова Н.А. Типы повествования в русской прозе. М.: Наука, 1994. 224 с.

14. Билялова А.А. Функционально-смысловые типы речи в научном тексте // Вестник Башкирского университета. 2018. Т. 23. № 2. С. 412–417.

15. Swales J. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. Cambridge: Cambridge University Press, 1990. 260 p.

16. Hyland K. Metadiscourse: Exploring Interaction in Writing. London: Continuum, 2005. 230 p.

17. Bhatia V.K. Analysing Genre: Language Use in Professional Settings. London: Longman, 1993. 246 p.

18. Bazerman C. Shaping Written Knowledge: The Genre and Activity of the Experimental Article. Madison: University of Wisconsin Press, 1988. 356 p.

19. Halliday M.A.K., Hasan R. Cohesion in English. London: Longman, 1976. 374 p.

20. Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. Cambridge: Cambridge University Press, 1998. 300 p.

21. Mauranen A., Flowerdew J. Academic Discourse in a Global Context. London: Continuum, 2009. 256 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Hasanboyev Ilhomjon Abdubanno o'g'li**
University of Business and Science, o'qituvchi
Email: i.hasanboyev@gmail.co

## ZAMONAVIY LINGVISTIKADA "EMOTSIONALLIK", "EKSPRESSIVLIK" VA "EMOTIVLIK" TUSHUNCHALARINING TERMINOLOGIK VA FUNKSIONAL FARQLANISHI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola zamonaviy lingvistikada emotsionallik, ekspressivlik va emotivlik tushunchalarining terminologik va funksional farqlanishini tahlil qilishga bag'ishlangan. Emotsionallik shaxsning bevosita hissiy holatini ifodalovchi psixologik kategoriya, ekspressivlik nutqning lingvistik-stilistik vositalari orqali ta'sir kuchini oshiruvchi mexanizm, emotivlik esa maqsadli ravishda tinglovchi emotsiyalarini faollashtirishga qaratilgan kognitiv-pragmatik strategiya sifatida tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari ushbu kategoriyalarning nutq faoliyatidagi o'ziga xos rolini aniqlaydi va lingvopsixologik tadqiqotlar uchun nazariy asos yaratadi.*

***Kalit so'zlar****: emotsionallik, ekspressivlik, emotivlik, psixolingvistika, lingvistik kategoriya, kognitiv jarayonlar, kommunikativ strategiya, sohalararo yondashuv.*

**Hasanboyev Ilhomjon Abdubanno ugli**
University of Business and Science, Lecturer

## TERMINOLOGICAL AND FUNCTIONAL DISTINCTION OF "EMOTIONALITY", "EXPRESSIVENESS" AND "EMOTIVITY" CONCEPTS IN MODERN LINGUISTICS

***Abstract.*** *This article analyzes the terminological and functional distinctions between emotionality, expressiveness, and emotivity in modern linguistics. Emotionality is characterized as a psychological category expressing genuine emotional state, expressiveness functions as a mechanism enhancing speech impact through linguistic-stylistic means, while emotivity represents a cognitive-pragmatic strategy deliberately aimed at activating listener emotions. The research findings identify distinctive roles of these categories in speech activity and establish a theoretical foundation for psycholinguistic investigations.*

***Keywords:*** *emotionality, expressiveness, emotivity, psycholinguistics, linguistic category, cognitive processes, communicative strategy, interdisciplinary approach.*

**Хасанбоев Илхомжон Абдубанно угли**
University of Business and Science, преподаватель

## ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЕ И ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ РАЗГРАНИЧЕНИЕ ПОНЯТИЙ «ЭМОЦИОНАЛЬНОСТЬ», «ЭКСПРЕССИВНОСТЬ» И «ЭМОТИВНОСТЬ» В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

***Аннотация****. Данная статья посвящена анализу терминологического и функционального разграничения понятий эмоциональность, экспрессивность и эмотивность в современной лингвистике. Эмоциональность характеризуется как психологическая категория, выражающая непосредственное эмоциональное состояние; экспрессивность функционирует как механизм усиления воздействия речи посредством лингво-стилистических средств; эмотивность представляет собой когнитивно-прагматическую стратегию, целенаправленно активизирующую эмоции слушателя.*

***Ключевые слова:*** *эмоциональность, экспрессивность, эмотивность, психолингвистика, лингвистическая категория, когнитивные процессы, коммуникативная стратегия, междисциплинарный подход.*

### Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda emotsiyalarning til tizimida ifodalanish mexanizmlari muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Emotsionallik, ekspressivlik va emotivlik kategoriyalari zamonaviy lingvistikada markaziy o'rinni egallamoqda, ammo ularning terminologik chegaralari va funksional xususiyatlari hali ham to'liq aniqlanmagan [3]. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar ko'pincha sinonimlar sifatida qo'llaniladi, lekin har birining o'ziga xos psixolingvistik tabiati mavjud.

Emotsionallik insonning bevosita hissiy holatini ifodalovchi psixologik kategoriya, ekspressivlik nutqning lingvistik vositalari orqali ta'sir kuchini oshiruvchi mexanizm, emotivlik esa tinglovchi emotsiyalarini faollashtirishga qaratilgan kognitiv-pragmatik strategiya sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu kategoriyalarning aniq farqlanishi diskurs tahlili, pragmalingvistika va madaniyatlararo kommunikatsiya tadqiqotlarida muhim ahamiyatga ega [7].

Tadqiqotning maqsadi emotsionallik, ekspressivlik va emotivlik tushunchalarining zamonaviy lingvistikadagi terminologik va funksional farqlanishini tizimli tahlil qilish hamda ularning nutq faoliyatidagi o'ziga xos rolini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

**Adabiyotlar tahlili**

D.Goleman emotsional intellekt nazariyasida emotsiyalarning kognitiv jarayonlar, qaror qabul qilish va ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini o'rganib, emotsionallikning psixologik tabiatini ochib berdi. Uning tadqiqotlari emotsional va kognitiv faoliyatning uzviy bog'liqligini ko'rsatdi [2].

O.A.Krylova lingvistik stilistika doirasida ekspressivlikni nutq ta'sirining kuchayishi mexanizmi sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha, ekspressivlik maxsus lingvistik vositalar - leksik, grammatik, fonetik va sintaktik usullar yordamida yaratiladi va nutqning pragmatik samaradorligini oshiradi[4].

V.A.Maslova matn ekspressivligining parametrlarini tahlil qilishda emotsionallik va ekspressivlikning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Uning yondashuviga ko'ra, emotsionallik shaxsning psixologik xususiyatlariga bog'liq spontan hodisa, ekspressivlik esa ongli ravishda tanlangan lingvistik vositalar yordamida yaratiladi [5].

O.E.Filimonova [1] emotivlikni ko'p qirrali kognitiv kategoriya sifatida tahlil qiladi va uni til orqali emotsiyalarni ifodalash hamda tinglovchining emotsional sferasini faollashtirish uchun mo'ljallangan maxsus lingvistik kategoriya deb belgilaydi.

R.Cowie va R.Cornelius emotsiyalarni "sabab-tip" va "ta'sir-tip" tavsiflar orqali tasniflash metodologiyasini taklif qiladilar. "Sabab-tip" emotsiyalarning kelib chiqish manbaiga, "ta'sir-tip" esa tinglovchiga ko'rsatadigan ta'siriga qaratilgan. Bu yondashuv emotsionallik va emotivlik o'rtasidagi funksional farqni aniq belgilash imkonini beradi [7].

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot deskriptiv-analitik, komparativ va sohalararo metodologiyaga asoslanadi. Deskriptiv-analitik metod kategoriyalarning ta'riflarini tavsiflab, mazmuniy jihatlarini tahlil qilishda, komparativ metod ularning umumiy va farqli xususiyatlarini aniqlashda qo'llanildi. Sohalararo yondashuv psixologiya, lingvistika va kognitiv fanlar ma'lumotlarini birlashtirdi. Empirik baza sifatida emotsional lingvistika, psixolingvistika va pragmalingvistika sohasidagi nazariy adabiyotlar xizmat qildi.

**Tahlil va natijalar**

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, emotsionallik, ekspressivlik va emotivlik o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ular terminologik va funksional jihatdan farqlanadi.

Emotsionallik psixologik kategoriya sifatida shaxsning bevosita hissiy holatini aks ettiradi. U spontan, tabiiy va kognitiv nazoratdan nisbatan mustaqil tarzda namoyon bo'ladi [2; 5]. Emotsionallik oldindan rejalashtirilmagan avtomatik reaktsiya bo'lib, shaxsning psixotipik xususiyatlari va temperamentiga bog'liq. Nutqda fonetik (intonatsiya), leksik (emotsional so'zlar), grammatik (undalmalar) va sintaktik (ellipsis) vositalar orqali ifodalanadi.

Ekspressivlik lingvistik-stilistik kategoriya sifatida nutqning ta'sirchanligi va ifodaviyligini oshirish maqsadida ongli tanlangan til vositalari tizimini anglatadi [4]. U emotsionallikdan farqli o'laroq strategik xarakterga ega va matn mazmunini kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Ekspressiv vositalar repertuari troplar, stilistik figuralar, leksik, fonetik va sintaktik elementlarni o'z ichiga oladi.

Emotivlik kognitiv-pragmatik strategiya bo'lib, tinglovchi emotsional sferasiga maqsadli ta'sir ko'rsatishga qaratilgan [1]. U emotsionallik va ekspressivlikning xususiyatlarini birlashtirib, recipient-oriented (tinglovchiga yo'naltirilgan) kategoriya sifatida funksiya qiladi. Emotivlik kommunikativ jarayonda tinglovchining emotsional reaktsiyasini faollashtirish va boshqarish uchun mo'ljallangan.

"Sabab-tip" va "ta'sir-tip" tavsiflari asosida [7] kategoriyalar quyidagicha farqlanadi: emotsionallik - shaxsning ichki holatidan kelib chiqadigan "sabab-tip" kategoriya; ekspressivlik - mazmunni kuchaytiruvchi "vosita-tip" kategoriya; emotivlik - tinglovchiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan "ta'sir-tip" kategoriya.

Kategoriyalar quyidagi parametrlar bo'yicha differensiatsiyalanadi: ontologik (emotsionallik - psixologik, ekspressivlik - lingvistik, emotivlik - psixolingvistik); yo'nalganlik (emotsionallik - ichki holatga, ekspressivlik - matn mazmuniga, emotivlik - tinglovchiga); onglilik (emotsionallik - spontan, ekspressivlik - ongli, emotivlik - strategik); funksional (emotsionallik - hissiyotni ifodalash, ekspressivlik - ta'sirni kuchaytirish, emotivlik - reaktsiyani boshqarish).

**Xulosa**

Tadqiqot emotsionallik, ekspressivlik va emotivlik kategoriyalarining zamonaviy lingvistikadagi terminologik va funksional farqlanishini aniqladi. Emotsionallik psixologik hodisa sifatida shaxsning spontan hissiy holatini,

ekspressivlik lingvistik-stilistik vosita sifatida nutq ta’sirini kuchaytirish mexanizmini, emotivlik esa kognitiv-pragmatik strategiya sifatida tinglovchiga maqsadli emotsional ta’sirni ifodalaydi.

Ushbu kategoriyalarning aniq differensiatsiyasi diskurs tahlili, matn yaratish, til o‘qitish va madaniyatlararo kommunikatsiya sohasida muhim amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot emotsionallik, ekspressivlik va emotivlikning to‘laqonli tushunilishi uchun psixologiya, lingvistika va kognitiv fanlarni birlashtirgan sohalararo yondashuvning zarurligini ko‘rsatdi.

Kelgusi tadqiqotlarda ushbu kategoriyalarning turli til va madaniyatlardagi o‘ziga xos xususiyatlari, diskurs turlaridagi funksional ko‘rinishlari hamda raqamli kommunikatsiya sharoitidagi transformatsiyalarini o‘rganish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1.Filimonova O.E. Kategoriya emotivnosti v angliyskom yazyke: kognitivnyy i kommunikativnyy aspekty: dissertatsiya doktora filologicheskikh nauk. – Sankt-Peterburg: RGPU im. A.I. Gertsena, 2001. – 463 s.

2.Goleman D. Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ. – New York: Bantam Books, 1995. – 352 p.

3.Cherkashyn S.V. Doslidzhennia poniattia emotsiinosti khudozhnoho dyskursu v suchasnii linhvistytsi // Visnyk Kharkivskoho natsionalnoho pedahohichnoho universytetu. – 2008. – Vyp. 25. – S. 156–162.

4.Krylova O.A. Lingvisticheskaya stilistika. Kniga 1. Teoriya: uchebnoe posobie. – Moskva: Vysshaya shkola, 2006. – 319 s.

5.Maslova V.A. Parametry ekspressivnosti teksta // Chelovecheskiy faktor v yazyke: Yazykovye mekhanizmy ekspressivnosti / Pod red. V.N. Teliya. – Moskva: Nauka, 1991. – S. 179–204.

6.Shakhovskiy V.I., Sorokin Yu.A., Tomasheva I.V. Tekst i ego kognitivno-emotivnye metamorfozy. – Volgograd: Peremena, 1998. – 148 s.

7.Cowie R., Cornelius R.R. Describing the emotional states that are expressed in speech // Speech Communication. – 2003. – Vol. 40. – P. 5–32.

8.Wierzbicka A. Emotions across languages and cultures: Diversity and universals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 349 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Rahmonov Ulug'bek**
Andijon davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
E-mail: rahmanobulugbek@gmail.com

**UO'K 81'374(038)=111**

## INGLIZ LEKSIKOGRAFIYASIDA NEOLOGIZMLAR

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada ingliz leksikografiyasi tarixida muhim bosqich hisoblangan "Century Dictionary" da neologizmlarning aks ettirilish tamoyillari tizimli tahlilga tortilgan. Unda "Century Dictionary"ning leksikani to'liq qamrab olish prinsipi va konservativ an'analar o'rtasidagi ziddiyatlar konkret misollar asosida ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar.*** *Neologizm, okkazionalizm, efemer so'zlar, leksik neologizm, semantik neologizm, lug'at tarkibi, til taraqqiyoti.*

**Рахмонов Улугбек**
Доцент Андижанского государственного университета, кандидат наук (PhD)

## НЕОЛОГИЗМЫ В АНГЛИЙСКОЙ ЛЕКСИКОГРАФИИ

***Аннотация:*** *В данной стате систематически анализируюця принсипы неологизмов в "Century Dictionary", который считаеця важным этапом в истории английской лексикографии. Раскрываются противоречия между принсипом всестороннего охвата лексики, заложенным в "Century Dictionary" и консервативными традициями на основе конкретных примеров.*

***Ключевые слова:*** *Неологизм, окказионализм, эфемерные слова, лексический неологизм, семантический неологизм, структура лексики, развитие языка.*

**Rahmonov Ulugbek**
Associate Professor of Andijan State University, Ph.D. (PhD)

## NEOLOGISMS IN ENGLISH LEXICOGRAPHY

***Annotatsiya:*** *In this article systematically analyzes the principles of neologisms in the "Century Dictionary", which is considered an important stage in the history of English lexicography. It reveals the contradictions between the "Century Dictionary"'s principle of comprehensive coverage of the lexicon and conservative traditions on the basis of specific examples.*

***Keywords.*** *Neologism, occasionalism, ephemeral words, lexical neologism, semantic neologism, vocabulary structure, language development.*

Ma'lumki, tilning rivojlanish taraqqiyotini neologizmlarsiz tasavvur etish qiyin. Ijtimoiy, madaniy va texnologik o'zgarishlar natijasida tilda yangi so'zlar va ma'nolar paydo bo'ladi. Ayniqsa, global aloqa vositasi hisoblangan ingliz tilida bu jarayon juda faoldir. Bu holat leksikografiya oldiga muhim vazifalarni qo'yadi: lug'at bir tomondan davrga xos leksikani aks ettirishi kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan o'tkinchi va barqarorlashmagan so'zlar bilan ortiqcha to'ldirilib ketmasligi lozim. Shu sababli neologizmlarni okkazionalizmlar va efemer so'zlardan farqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Neologizmlar – bular tilga madaniyatning va texnikaning o'sishi, ijtimoiy munosabatlardagi taraqqiyot yoki o'zgarishlar hamda odamlarning yashash sharoitlaridagi va turmushdagi o'zgarishlar bilan bog'liq hamda so'zlovchilar tomonidan yangi sifatida his qilinadigan so'zlar yoki frazeologik oborotlardir [1. 301]. Ular odatda (garchi muqarrar bo'lmasada) – yaqinda paydo bo'lgan hosilalardir. Haqiqiy neologizmlarni ma'lum kontekst uchun hosil qilinadigan, ammo muhim yangi tushunchaga aloqador bo'lmagan okkazional so'zlardan farqlash zarur [4]. Neologizmlarni yana shuningdek efemid (o'tkinchi) so'zlardan, qandaydir vaqtda keng ommaviylikka erishadigan, ammo tez va to'satdan g'oyib bo'ladigan so'zlardan farqlash kerak bo'ladi [3. 98].

Neologizmlarni kiritish masalasi lug'at so'zligining diaxron chegaralari aspektiga tegishlidir. Neologizmlar boshqa, lug'atning eskirgan leksikaga qarama-qarshi xronologik qutbda turadi. Ularning lug'atda mavjudligi ushbu

lug‘at aloqador bo‘lgan davrning lug‘at tarkibini u yoki bu darajada aks ettiradi. Biroq, masalaning murakkabligi shundan iboratki, bir tomondan, neologizm tushunchasining o‘zi yetarlicha aniq ta’riflanmagan holda qoladi (“Century dictionary”ni ishlab chiqish davrida u mutlaqo ishlab chiqilmagan edi), boshqa tomondan esa – neologizmlar lug‘at tarkibining periferiyaviy qatlamiga kiradilar va nihoyat darajada beqaror elementlarni ifoda qiladilar.

Bu yerda umumiy plandagi ko‘p jihatdan munozarali bo‘lgan neologizmlar muammosini muhokamaga tortish o‘rinli bo‘lmasa kerak, xususan, bu muammo “Century dictionary”ning tuzuvchilari tomonidan aslo muhokama qilinmayapti va Lug‘at bu muammoning nazariy yechimiga hissa qo‘shishga bizga qandaydir asoslar bermaydi.

Biroq Uitnining neologizmlarga munosabati uning Lug‘atda “leksikani to‘liq qamrab olish” prinsipi bilan qarama-qarshi turadi va u o‘zining eskirgan leksikaga bo‘lgan munosabatiga ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri zid hodisa hisoblanadi. Bunda (neologizmlarni lug‘atga kiritish xususida) Uitni Uebster lug‘atlari nashrlarining ilk muharrirlarining konservativ an’analarini davom ettiradi (U.D. Uitni, ilgari qayd qilib o‘tilganidek, Uebster lug‘atining 1864 yildagi nashrining muharrirlaridan biri bo‘lgan edi). Bu to‘g‘risida Chonsi A. Gudrichning (Chauncey A. Goodrich), Uebster lug‘atining 1855 yildagi nashri muharririning pozitsiyasi xarakterlidir. Lug‘atning yangi nashri ustida ishlash jarayonida bir necha mingta so‘zlar qo‘shildi (va bu son mehnatsiz anchaga ko‘paytirilishi ham mumkin edi). Gudrichning yozishicha “hozirgi kunda yangiliklarni lug‘atlarga shunchalik sahiylik bilan kiritishadiki, bu shunchaki (tartibsizlikka) beboshlikka yaqinlashadi. Bu nuqtai nazardan mening qat’iyatligim bilan lug‘atlarimizga yangi so‘zlarni haddan tashqari shoshma-shosharlik bilan kiritish amaliyotini qoralash kerak bo‘ladi. Bizning leksikon ingliz adabiyotining hech qachon ajralmas qismi bo‘lmagan ko‘plab so‘zlar bilan og‘irlashtirilgan, ular sonining ko‘payishi esa jiddiy yomonlikdir. Bizga hammasidan ham keragi, bu lug‘atlarimizni shu ma’noda jiddiy asosga ega bo‘lgan tozalashdir. Ko‘p minglab so‘zlarni tashlab yuborish zarur, ularning joyi to‘g‘rirog‘i noyob narsalarning ishqibozlarining glossariylaridadir, - bu glossariylar nima taklif qilingan bo‘lsa, ammo tilimiz bilan qabul qilinmaganning ajib to‘plami bo‘lishlari mumkin edi” [6].

Neologizmlar haqidagi masala U.D. Uitni tomonidan alohida muhokama qilinmaydi, biroq okkazionalizmlar haqidagi bo‘limda aytilganlar xulosa chiqarishga imkon beradiki, lug‘atga yangi hosilalarni kiritish to‘g‘risida u aslini olganda Ch. Gudrich bilan birdamlik bildiradi: “Lug‘atga kiritishga loyiq bo‘lmagan so‘zlarning katta guruhi, turli davrlarning yozuvchilari tomonidan va mashhurlikning har xil darajali, ayniqsa hozirgi gazetalarda hamda boshqa o‘tkinchi nashrlarda yozadiganlar tomonidan qo‘llaniladigan okkazional so‘zlardan tashkil topadi. Bu guruhga ularning kashfiyotchilari tomonidan nutqda yoki texnika tilida keng qo‘llanishga mo‘ljallangan, ammo e’tirofga sazovor bo‘lmagan so‘zlar kiradilar... [7. VI] Ushbu vujudga kelgan yangi hosila “tan olindimi” yoki “tan olinmadimi” – aniqlash nihoyatda oson emas va bunday yondashuvda haqiqiy okkazionalizmlar bilan birga, keyinchalik lug‘at tarkibining to‘la xuquqli “zaiflashmaydigan” elementlariga aylangan ko‘plab neologizmlar lug‘atdan tashqarida bo‘lib qoladilar. Boshqa tomondan, tantanali ravishda e’lon qilingan qattiqqo‘llikda Uitni Lug‘atga yangi hosilalarni – okkazionalizmlarni kiritish xususida, ba’zan shunday bo‘lib chiqadiki, tilda “tan olinganlar” uchun u yanglishib, pirovardida keng rasm bo‘lmagan va tez eskiradigan o‘tkinchi so‘zlarni qabul qiladi. (Buning sabablaridan biri, chamasi, nisbatan uncha katta bo‘lmagan hajmda - 4 mln.ga yaqin kartochkalar – Uitnining kartotekasi). Oxirgining misollari: *telepheme a message by telephone* (1882);

*telegrammic pertaining,or resembling, telegram; laconic, brief;* ular endi Uebsterning 1934 yildagi lug‘atidayoq aslini olganda “noyob”, “allaqachon” eskirganlar sifatida baholanadilar.

“Century dictionary”ga kiritiluvchi neologizmlarning soni uncha katta emas. Lug‘atning VIII tomida, masalan, tomning 25110 so‘zlari orasida biz ***recent*** “yangi” belgili bor-yo‘g‘i 32 so‘zni aniqladik, bu faqat ≈ 0,1 %ni tashkil qiladi. Lug‘at korpusining boshqa uchastkalarini tekshirishda ham biz neologizmlarning shunday foizini oldik. Lug‘at tomonidan qayd qilingan yangi hosilalar orasida ham leksik neologizmlar (*neologizmlar-so‘zlar*), ham semantik neologizmlar (*neologizmlar-ma’nolar*) [2. 81] bor.

Lug‘atdagi leksik neologizmlarning misollari (ularning bir qismi terminologik xarakterga ega):

**vivisect** *v. I. trans: to dissect the living body (recent);*

**II. intrans**. *to practice vivisection (recent);*

*centennial n. the commemoration or celebration of an event which occurred a hundred years before (recent), (1876);*

*tricycle v.i. to ride on a tricycle (recent);*

Semantik neologizmlar orasida “Century dictionary” qayd qiladi:

*slum V. 1. ... 2. to visit the alums of a city, often from mere curiosity or as a diversion (recent);*

**terminal n.** … *4. a terminus, as of a railroad (recent);*

**wheelman n.** …2. *one who uses a bicycle, tricycle or similar conveyance (recent),*

So‘zning neologizm sifatidagi kvalifikatsiyasining (yoki nokvalifikatsiyasining) haqqoniyligini aniqlash “til tuyg‘usi” degan sub’yektiv omilning suqilib kirganligi tufayli qiyinlashgan (chunki neologizmlarning ko‘pchilik ta’riflarida aytiladiki, neologizm yangi so‘z sifatida “sezilib turadi”). Bu zamondosh lug‘at uchun haqqoniydir. Ammo bu yaratilishi bizning davrimizdan ko‘plab o‘n yilliklar tomonidan uzoqlashtirilgan lug‘at uchun ayniqsa haqqoniydir (U.D.

Uitnining zamondoshlari qandaydir so‘zning yangiligini “to‘g‘ri” his qilganliklarini qanday qilib aniqlash mumkin?). Shuning uchun, “Century dictionary”da tegishli belgilarni olmagan ayrim neologizmlarning misollarini keltirar ekanmiz, biz faqat vujudga kelishi, “Century dictionary”ning yaratilish vaqtiga maksimal darajada yaqinlishtirilgan so‘zlar bilan chegaralanib qolishga majbur bo‘ldik:

**vaseline** *same as petrolatum; it is a semi-fluid, viscid, nearly colorless, bland, and neutral material, and is used in medicine and surgery as a vehicle;*

**glizzard** *a gale or hurricane accompanied by intense cold and dry, driving snow, common in winter on the great plains of the States.*

Bu so‘zlarning Katta Oksford Lug‘atida qayd qilingan sanasi mos ravishda 1872 va 1880 yillar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, neologizmlar ingliz tili lug‘aviy tarkibining eng faol va o‘zgaruvchan qatlamini tashkil etadi. Ular jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aksini ifodalaydi hamda muayyan davr uchun tilning “jonli” holatini ko‘rsatadi. Biroq, neologizmlarning ba’zi holatlarda vaqtinchalik yoki barqaror bo‘lmagan so‘zlar sifatida qolish ehtimoli ularni lug‘atlarda baholash va qayd etish jarayonini ancha murakkablashtiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Арнольд И.Б. Лексикология современного английского языка. М: Флинта, 2024. -С. 376.
2. Будагов Р.А. Введение в науку о языке. -М.: 1958. -С. 434.
3. Ожегов С.И. О трех типах толковых словарей современного русского языка. – “Вопросы языкознания”, 1952. № 2, -С. 85-102.
4. Фельдман Н.И. Окказиональные слова и лексикография. – “Вопросы языкознания”, 1957. № 4, -С. 64-72.
5. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. М., URSS, 2022. -С. 310.
6. Webster N. An American Dictionary of the English Language. CreateSpace Independent Publishing Platform, 2016. -P. 88.
7. William D.W. The Century Dictionary. An Encyclopedic Lexicon of the English Language. Legare Street Press, 2022. -P. 260.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Obilov Muzaffar Odiljon o'g'li**
University of Business and Science
Katta o'qituvchi, PhD
Email: m-obilov@mail.ru

## INGLIZ AKADEMIK DISKURSIDA SUBYEKTIVLIKNING LINGVOMADANIY ASPEKTLARI

***Annotatsiya***. *Maqolada ingliz akademik diskursida subyektivlikning lingvomadaniy aspektlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda akademik yozuvda muallif pozitsiyasini ifodalash vositalari, modallik, hedging strategiyalari va boosters ishlatilishi ko'rib chiqilgan. K.Hyland, A.Mauranen kabi olimlarning metadiskurs nazariyalari asosida subyektiv ifodalarning pragmatik funksiyalari tahlil etiladi.*

***Kalit so'zlar***: *akademik diskurs, subyektivlik, metadiskurs, hedging, muallif pozitsiyasi, modallik.*

**Obilov Muzaffar Odiljon o'g'li**
University of Business and Science
Senior Lecturer, PhD

## LINGUOCULTURAL ASPECTS OF SUBJECTIVITY IN ENGLISH ACADEMIC DISCOURSE

***Abstract.*** *The article analyzes the linguocultural aspects of subjectivity in English academic discourse. The study examines the means of expressing authorial position in academic writing, modality, hedging strategies, and the use of boosters. Based on the metadiscourse theories of scholars such as K.Hyland and A.Mauranen, the pragmatic functions of subjective expressions are analyzed.*

***Keywords:*** *academic discourse, subjectivity, metadiscourse, hedging, authorial stance, modality.*

**Обилов Музаффар Одилжон угли**
University of Business and Science
Старший преподаватель, PhD

## ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ АСПЕКТЫ СУБЪЕКТИВНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ АКАДЕМИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ

***Аннотация.*** *В статье анализируются лингвокультурные аспекты субъективности в английском академическом дискурсе. В исследовании рассматриваются средства выражения авторской позиции в академическом письме, модальность, стратегии хеджирования и использование бустеров. На основе теорий метадискурса К.Хайланда и А.Маурен анализируются прагматические функции субъективных выражений.*

***Ключевые слова:*** *академический дискурс, субъективность, метадискурс, хеджирование, авторская позиция, модальность.*

### Kirish

Akademik diskursda subyektivlik masalasi zamonaviy lingvistikaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. An'anaviy qarashlar akademik yozuvni obyektiv va emotsional neytral kommunikativ faoliyat sifatida tavsiflaganiga qaramay, so'nggi tadqiqotlar akademik matnlarda subyektiv elementlarning muhim rol o'ynashini ko'rsatmoqda [2]. Subyektivlik tushunchasi lingvistikada muallif yoki gapiruvchining o'z fikri, baholashi va pozitsiyasini matnga kiritish jarayoni sifatida tushuniladi.

Ingliz akademik diskursi global ilmiy muloqotda dominant pozitsiyaga ega bo'lib, uning subyektivlik ifodalarini o'rganish xalqaro akademik jamoatchilik uchun ahamiyatlidir. D.Biber va E.Finegan akademik matnlarda stance (muallif pozitsiyasi) kategoriyasini ajratib ko'rsatib, uning epistemic, attitudinal va style dimensions kabi uch asosiy o'lchamini ta'kidlaydilar [1]. Epistemic stance muallif bilim darajasi va ishonchini, attitudinal stance esa emotsional va baholovchi munosabatni ifodalaydi.

Subyektivlikning lingvomadaniy aspektlari akademik diskursda muhim ahamiyatga ega, chunki turli madaniy muhitlarda yetishgan mualliflar o‘z pozitsiyasini turlicha ifodalash tendentsiyasiga ega. Bu farqlar nafaqat til tuzilmasi, balki retorik an’analar, epistemologik yondashuvlar va akademik muloqot normalarining o‘ziga xosligidan kelib chiqadi.

**Adabiyotlar tahlili**

K.Hyland akademik yozuvda interpersonal rhetoric nazariyasini ishlab chiqib, subyektivlikning ikki asosiy turini ajratadi: stance va engagement [3]. Stance muallif o‘z pozitsiyasini bildirish, engagement esa o‘quvchi bilan munosabat o‘rnatishga xizmat qiladi. Hylandning metadiskurs modeli akademik subyektivlikni o‘rganishda keng qo‘llaniladigan nazariy ramka hisoblanadi. U metadiskursni ikki asosiy kategoriyaga ajratadi: interactive va interactional metadiscourse. Interactive metadiscourse matn tuzilishini boshqaruvchi vositalarni, interactional metadiscourse esa muallif-o‘quvchi munosabatlarini ifodalovchi elementlarni o‘z ichiga oladi [2].

C.Vande Kopple metadiskurs tushunchasini kiritib, propositional va appositional metadiscourse turlarini farqlaydi [7]. Uning fikricha, metadiskurs vositalari orqali muallif matn tuzilishini yo‘naltiradi va o‘quvchi bilan muloqot o‘rnatadi. Bu yondashuv akademik diskurs subyektivligining funksional jihatlarini tushunishga yordam beradi. Vande Kopple metadiskursni matnning “matn haqida” qismi deb ta’riflaydi, ya’ni propositional ma’lumotdan tashqari, matnni tashkil etish va o‘quvchi bilan aloqa o‘rnatish uchun ishlatiladigan til elementlari.

A.Mauranen English as a Lingua Franca (ELF) kontekstida akademik diskursni o‘rganib, turli madaniy kelib chiqishga ega mualliflarning subyektivlik ifoda etish strategiyalarida farqlar borligini aniqlaydi [4]. Bu topilmalar akademik diskurs subyektivligining lingvomadaniy tabiatini tasdiqlaydi. Mauranen non-native mualliflarning akademik yozuvda native speakerlardan farqli ravishda hedging va boosting strategiyalarini qo‘llashlarini ta’kidlaydi. U shuningdek, ELF akademik diskursida yangi kommunikativ normalarning shakllanayotganligini ko‘rsatadi.

G.Thompson va P.Thetela evaluation nazariyasini taklif etib, akademik matnlarda muallif baholovchi pozitsiyasining to‘rt asosiy parametrini ajratib ko‘rsatadilar: good-bad, certainty, expectedness va importance [6]. Bu parametrlar orqali muallif o‘z fikrini, baholashini va bilim darajasini ifodalaydi. Evaluation vositalari akademik yozuvning ishontiruvchi kuchini belgilaydi va o‘quvchi bilan intellektual hamkorlik o‘rnatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot korpus-lingvistik va diskurs-tahlil metodlariga asoslanib amalga oshirildi. Empirik material sifatida British National Corpus (BNC) va Corpus of Contemporary American English (COCA) dan olingan 150 ta akademik maqola tanlandi. Maqolalar gumanitar va ijtimoiy fanlar sohalariga taalluqli bo‘lib, jami 500,000 so‘zdan iborat korpus tashkil etildi. Tanlov jarayonida peer-reviewed jurnallarda nashr etilgan, 2015-2023 yillar oralig‘idagi maqolalar e’tiborga olindi.

Korpus tahlili uchun AntConc va Sketch Engine dasturiy ta’minoti qo‘llanildi. Tahlil jarayonida quyidagi metodlar qo‘llanildi: kvantitativ tahlil (subyektivlik markerlarining chastotasini aniqlash), kvalitativ tahlil (kontekstual ma’no tahlili), komparativ tahlil (turli fanlar bo‘yicha farqlarni aniqlash) va funksional-pragmatik tahlil (subyektiv ifodalarning kommunikativ funksiyalarini o‘rganish).

Tadqiqotda subyektivlik markerlarining quyidagi kategoriyalari tahlil qilindi: hedges (may, might, perhaps, probably), boosters (clearly, obviously, definitely), attitude markers (unfortunately, surprisingly), self-mentions (I, we, my, our) va engagement markers (consider, note, you can see). Har bir kategoriya uchun chastota tahlili va kontekstual funksional tahlil amalga oshirildi.

**Tahlil va natijalar**

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ingliz akademik diskursida subyektivlikning bir necha muhim vositasi aniqlandi. Birinchi navbatda, hedging strategiyalari akademik yozuvda keng tarqalgan subyektiv ifoda vositasi hisoblanadi. Hedges - bu da’volarni yumshatuvchi, ehtimollikni bildiruvchi til vositalari bo‘lib, ular ilmiy matnda muallif o‘z fikrini ehtiyotkorlik bilan ifodalashga yordam beradi [3]. Hedging akademik diskursda bir necha muhim funksiyani bajaradi: ilmiy da’volarning kategorikligini kamaytirish, muqobil talqinlarga joy ochish, ilmiy jamoatning tanqidiy reaktsiyasidan himoyalanish va muallif kamtarligini ifodalash.

Korpus tahlili hedging markerlarining turli sintaktik shakllarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi: modal fe’llar (may, might, could, would - 34%), epistemic leksikalar (probably, possibly, perhaps - 22%), shield verbs (seem, appear, suggest, indicate - 18%), approximators (approximately, roughly, about - 15%) va compound hedges (it may be possible that, it seems likely that - 11%). Bu vositalarning akademik matnlarda o‘rtacha har 100 so‘zda 3-4 marta ishlatilishi aniqlandi, bu akademik yozuvning muhim xususiyati hisoblanadi.

Boosters akademik diskursda subyektivlikning yana bir muhim ko‘rinishi hisoblanadi. Ular muallif ishonchini kuchaytiruvchi, kategoriklik bildiruvchi vositalar bo‘lib, clearly, obviously, definitely, certainly, undoubtedly, in fact kabi leksemalar orqali ifodalanadi. Boosters muallif o‘z pozitsiyasiga ishonchini bildiradi va o‘quvchini ma’lum xulosani qabul qilishga ishontiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boosters hedgeslarga nisbatan kamroq ishlatiladi

(o‘rtacha har 100 so‘zda 1-2 marta), ammo fanlararo farqlar sezilarli: aniq fanlarda boosters ko‘proq, gumanitar fanlarda kamroq uchraydi.

Muallif pozitsiyasini ifodalovchi birinchi shaxs olmoshlari (I, we, my, our) akademik diskurs subyektivligining markaziy elementlari hisoblanadi. Tarixiy jihatdan akademik yozuvda birinchi shaxs olmoshlaridan qochish an’anasi mavjud bo‘lgan, bu obyektivlik illyuziyasini yaratish uchun passive voice va impersonal konstruksiyalar ishlatilgan. Ammo zamonaviy akademik diskursda ularning ishlatilishi kuchaymoqda, bu akademik yozuvni shaffofroq va mas’uliyatroq qiladi [2]. Korpus tahlili shuni ko‘rsatdiki, “we” olmoshi “I” dan 3 baravar ko‘proq ishlatiladi, bu akademik jamoaning kollektiv xarakterini va muallifning o‘quvchi bilan solidarligini ta’kidlaydi.

Attitude markers akademik matnda muallif emotsional va intellektual munosabatini ifodalovchi vositalardir. Unfortunately, surprisingly, importantly, interestingly, remarkably kabi adverbiallar orqali muallif voqealarga o‘z shaxsiy munosabatini bildirib, matnni jonliroq va ta’sirchanliroq qiladi. Bu markerlar o‘rtacha har 200 so‘zda bir marta uchrab, asosan kirish va xulosa qismlarida konsentratsiyalangan. Ular muallif shaxsiyatini matnda namoyon etadi va o‘quvchi bilan hissiy aloqa o‘rnatadi.

Engagement markers (consider, note, see, imagine, assume) o‘quvchini diskursga jalb qiluvchi vositalardir [3]. Ular o‘quvchini to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaatlar, savol-retorlar va directives orqali muloqot jarayoniga kiritadi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, engagement markers asosan argumentatsiya jarayonida va muhim xulosalar oldida ishlatiladi.

Lingvomadaniy tahlil shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilida yozuvchi native va non-native mualliflar o‘rtasida subyektivlik strategiyalarida sezilarli farqlar mavjud [4]. Non-native mualliflar hedging vositalarini haddan tashqari ko‘p yoki kam ishlatish tendentsiyasiga ega, bu akademik tekstlarning persuazivligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ba’zi hollarda, non-native mualliflar o‘z madaniy retorik an’analarini ingliz akademik diskursiga transfer qilishga harakat qiladilar, bu esa pragmatik muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin. Masalan, ba’zi madaniyatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va kategorik fikr bildirish qadrlansa, Anglo-Amerika akademik an’analarida hedging va kamtarlik muhim hisoblanadi.

**Xulosa**

Ingliz akademik diskursida subyektivlikning lingvomadaniy aspektlarini tahlil qilish bir necha muhim xulosalarga olib keldi. Birinchidan, akademik yozuv an’anaviy tasavvurlarga zid ravishda, to‘liq obyektiv emas, balki muallif subyektivligi bilan to‘yingan kommunikativ faoliyat ekanligini tasdiqlaydi. Hedging va boosters kabi metadiskurs vositalari akademik da’volarning ishonchliligini boshqarish va ilmiy jamoat bilan samarali muloqot o‘rnatishning asosiy mexanizmlari hisoblanadi [3].

Ikkinchidan, subyektivlik ifoda etish strategiyalari fanlar orasida va madaniy kontekstlarga bog‘liq ravishda o‘zgaruvchanlik ko‘rsatadi. Aniq fanlar nisbatan kamroq subyektiv markerlardan foydalansa, gumanitar va ijtimoiy fanlar ko‘proq hedging va attitude markers ishlatadi. Bu farqlar har bir fan sohasining epistemologik tabiati va da’volarni asoslash usullari bilan bog‘liq [5]. Aniq fanlarda empirik dalillar asosiy rol o‘ynasa, gumanitar fanlarda interpretatsiya va argumentatsiya ko‘proq ahamiyatga ega.

Uchinchidan, zamonaviy akademik diskursda muallif pozitsiyasini ochiq ifodalash tendentsiyasi kuchayib bormoqda. Birinchi shaxs olmoshlari, ayniqsa “we” formasi, akademik jamoatchilik ichida qabul qilinishi ortib, bu akademik yozuvni yanada shaxsiyroq va dialogikroq qilmoqda [2]. Bu o‘zgarish akademik muloqotda shaffoflik va mas’uliyat prinsiplarining kuchayishini aks ettiradi.

To‘rtinchidan, non-native mualliflar uchun ingliz akademik diskursining subyektivlik normalarini egallash muhim challenge hisoblanadi. Madaniyatlararo farqlar akademik matnlarning pragmatik samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin, shuning uchun bu sohada qo‘shimcha pedagogik tadqiqotlar zarur [4]. Akademik yozuv kurslarida metadiskurs strategiyalarini o‘rgatish va madaniyatlararo retorik farqlarni tushuntirish muhim pedagogik vazifa bo‘lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Biber D., Finegan E. Styles of stance in English: Lexical and grammatical marking of evidentiality and affect // Text. – 1989. – Vol. 9, No. 1. – P. 93-124.
2. Hyland K. Disciplinary Discourses: Social Interactions in Academic Writing. – London: Longman, 2000. – 211 p.
3. Hyland K. Stance and engagement: A model of interaction in academic discourse // Discourse Studies. – 2005. – Vol. 7, No. 2. – P. 173-192.
4. Mauranen A. Cultural differences in academic rhetoric: A textlinguistic study. – Frankfurt: Peter Lang, 1993. – 179 p.
5. Martin J.R., White P.R.R. The Language of Evaluation: Appraisal in English. – London: Palgrave Macmillan, 2005. – 278 p.
6. Thompson G., Thetela P. The sound of one hand clapping: The management of interaction in written discourse // TEXT. – 1995. – Vol. 15, No. 1. – P. 103-127.

7. Vande Kopple W.J. Some exploratory discourse on metadiscourse // College Composition and Communication. – 1985. – Vol. 36, No. 1. – P. 82-93.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Baisov Axmad Sabijonovich**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakulteti, Fakultetlararo chet tillar kafedrasi v.b.dotsenti, f.f.f.d (PhD)
E-mail: a.baisov@cspu.uz

## ROMANDA BOLALIK XRONOTOPI

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada bolalik xronotopi haqida nazariy-ilmiy mulohazalar o‘z ifodasini topgan. Jumladan, yozuvchi jeyms Joysning avtobiografik yo‘sinda bitilgan “Musavvirning yoshlikdagi shamoyili” asaridagi bolalik xronotopi, davr manzaralari, Stiven dedalus yoshligi, ko‘rgan-kechirganlariga ilmiy nuqtai nazardan baho beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *badiiylik, poetika, uslub, idrok, makon, bolalik, ideal, syujet.*

**Байсов Ахмад Сабижонович**
Чирчикский государственный педагогический университет, факультет туризма, межфакультет иностранных языков, исполняющий обязанности доцента, кандидат наук

## ХРОНОПОЗА ДЕТСТВА В РОМАНЕ

***Аннотация:*** *В данной статье отражены теоретико-научные рассуждения о хронотопе детства. В частности, с научной точки зрения анализируется хронотоп детства, картины эпохи, юношеские годы Стивена Дедалуса и его жизненный опыт в автобиографически написанном произведении Джеймса Джойса «Портрет художника в юности».*

***Ключевые слова:*** *художественность, поэтика, стиль, восприятие, пространство, детство, идеал, сюжет.*

**Baisov Akhmad Sabijonovich**
Chirchik State Pedagogical University, Faculty of Tourism, Interfaculty Foreign Languages Department, Acting Associate Professor, Ph.D. (PhD)

## CHILDHOOD CHRONOPOSE IN THE NOVEL

***Annotation:*** *This article presents theoretical and scholarly reflections on the chronotope of childhood. In particular, the chronotope of childhood, representations of the historical period, Stephen Dedalus’s youth, and his personal experiences in James Joyce’s autobiographical novel A Portrait of the Artist as a Young Man are analyzed from an academic perspective.*

***Keywords****: artistic quality, poetics, style, perception, space, childhood, ideal, plot.*

Bolalik inson qalbida bir umr o‘chmaydigan chiroqdir. U bir umr moliyaviy ag‘voli o‘nglanmay yayashab ijod etishga majbur bo‘ladi. O‘zi yashagan davr manzarasi, butun insoniyatni bilish, hayot shu tarzda hamma insonlar qalbida takrorlanadi degan katta bir tushuncha negizida fikrlaydi. Bu haqda so‘z borganda yozuvchini Irlandiyani tashlab ketib umrining oxriga qadar sarson-sargardonchilikda umr kechirgan yozuvchi hamma vaqt muhtojlikda kun kechirishga majbur bo‘ladi.

Tuzukkina shoirlikdan xabari bor, lirizm bilan sug‘orilgan g‘oyalarida Jeyms Joys pokiza qalb egasi ekanligini bilish mumkin bo‘ladi. Ana shu baho XX asrda o‘z mavqeini tobora mustahkamladi. Joysning bolaligi ham sertashvish o‘tdi. Otasidan erta ajralish, onasi qo‘lida tarbiya topish Joysni katta bir ummonga chiqishga sabab bo‘ladi. Bularning mohiyatida ikki jihatni kashfetish mumkin:

***1. Darbadarlik sindromi. 2. Muhtojlik xronotopi.***

Joysning bolaligi ham ana shu mezonlarni bir-biriga payvandalshda juda qo‘l keladi. Ayni damda, inkor va tasdiq tushunchasi ham Joysni qalbini o‘rtaydi. Chunki Joys haqqoniy mard, to‘g‘ri so‘z, halol, birovni haqiga ko‘z olaytirmaydigan, kamtarin va olijanob bo‘lib voyaga yetadi:

*“Bolalar unga g‘alati tuyuladi. Hammasining otasi, onasi bor, hammasining kamzullari va ovozlari har xil. Shu damda uyda bo‘lishni va onasining tizzasiga boshini qo‘yishni xohlab ketdi. Biroq buning hech iloji yo‘q edi va shunda bu o‘yinlar, darslar, ibodatlar tezroq tugay qolishini istardi, borib to‘shakda cho‘zilib yetardi.*

*U yana bir krujka qaynoq choy ichdi, shu payt Fleming so‘radi:*

*– Senga nima bo‘ldi? biror joying og‘riyaptimi?*

*– Bilmayman, – dedi Stiven.*

*– Qorning og‘riyotgan bo‘lsa kerak, – dedi Fleming, – ranging oqarib ketganga o‘xshaydi. Hechqisi yo‘q, o‘tib ketadi.*

*– Ha, – dedi Stiven.*

*Biroq uning qorni og‘rimayotgandi. Yuragim og‘riyapti deb o‘yladi u, agar shu joy og‘rishi mumkin bo‘lsa. Fleming ko‘ngli ochiq bola, undan hol so‘radi. Yig‘lagisi keldi uning tirsaklarini stolga tiradi va kaftlari bilan ikkala qulog‘ini mahkam berkitdi, keyin ochdi”.*

Romanda ***bolalik xronotopi*** otasidan yetim qolgan, juda azob-uqubatlarda kun kechirishga majbur bo‘layotgan Stiven xarakteri o‘ziga xos o‘rin tutadi. Aslida romanni ramizy ifodalarini hisobga olmaganda, biografik roman deyish mumkin. Chunki yozuvchi Stiven obrazi orqali o‘z qalbining ommadan pinhon tutgan kechinmalarini yozib qoldirgandek taassurot uyg‘otadi. Ayni shu tamoyil yozuvchining katta bir g‘oyalarni ilgari surgani, olamdagi global metamorfozalarga oydinlik kiritganini dalolatlaydi. Adib ana shu mezon bilan o‘z asarida badiiy g‘oya hamda syujetni, fabulani muvofiqligini ta’minlagan. “Har bir yozuvchi voqelikni va qahramon dunyosini tabiiy usulda chuqur aks ettirishni istaydi. Joys usuli ana shunga keng imkoniyat beradi. Bu asardan yozuvchilar, bo‘lajak yozuvchilar ijodiy usullarini shakllantirish uchun o‘rganadigan narsalar ko‘p. Joys tili, xususan, tarjimada ham bu yaxshi aks etgan, shoirona, stixiyali til. Garchi unda atayin qilingan cho‘zilgan, g‘alizlashgan, ma’nosini yo‘qotgan, ming‘ir-ming‘irga yoki shunchaki biron tovushning aks sadosiga o‘xshash jumlalar juda ko‘p bo‘lsa-da, adib asarda chinakam poeziyaning kuch-qudratini to‘lib-toshib, jo‘shqin bir ehtiros bilan namoyish qilolgan. Asardan, ba’zi adiblarimiz aytganidek, hayotning qora tomonini aks ettirishnimas, balki adib usul imkoniyatlarini va ichki kechinmalarni aks ettirish usulini, so‘z ishlatish va voqelikka yondashuv, qahramonlar dunyosiga kirib borish, uning ichki dunyosini tadqiq qilish, asarga mifologik qoliplar yasash, mifologik talqinlarni singdirish kabi ko‘plab adabiy yutuqlarini o‘rganish mumkin”. Haqiqatdan ham, munaqqid va yozuvchi N.Eshonqul to‘g‘ri ta’kidlab o‘tganidek, tabiiylik va uni o‘ziga xos tasvirlash o‘zbek adabiyotida Shukur Xolmirzaev, O‘tkir Hoshimov ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ular ana shu konsepsiya bilan tabiat-jamiyat-inson fenomeniga oydinlik kiritadi. Xurishd Do‘stmuhammad ko‘prof falsafiy-psixologik vaziyatga, talqinga jiddiy e’tibor qaratadi. Bu yozuvchi uslubining o‘ziga xosligidan shahodatdir. Shunday asarlar bo‘ladiki, peyzaj orqali butun bir g‘oyani ifodalab, xarakterlarni chuqur bir qiyofasini ko‘z o‘ngimizda jonlantira oladi. Bu o‘zbek adabiyotida Isajon Sulton asarlarida deb aytish mumkin. Tabiiy bir holat shuki, bolalik haqida hamma ham go‘zal asar yozolmaydi. Oybekning, G‘afur G‘ulomning, Abdulla Qahhorning bolaligi ham oson kechgan emas. ular ham o‘z bolaligini avtobiografik yo‘sinda, kinoyaviy, goh realistik, goh psixologik talqin qilish orqali ochib ko‘rsata olgan. Masalan, biorgafik roman deb aytayotganimiz, - musavvir kim? Uning yoshligi qanday kechmoqda. Stiven Dedalusning xatti-harakatlari mana shu muhit ichida ulg‘aygan bolalik ramzlarga yo‘riladi. U yoshligini zavqu shavq bilan emas, qayg‘u hamda hasrat bilan o‘tkazadi. Atrofidagi odamlarning unga bo‘lgan munosabatidan ham bilish mumkinki, odamlar tez o‘zgaradilar, ularning qalbida doim axloqdan ko‘ra buzg‘unchilik humron bo‘ladi. Iblisni so‘ziga kirib, jamiyatda yomonliklarni qilishga odatlangan har qanday razil odamdan faqta yomonlik ko‘rish mumkin degan g‘oya kelib chiqadi:

*“Men hali butkul sog‘ayganim yo‘q-ku.*

*Maykl og‘a gapini takrorladi:*

*– Beramiz, beramiz, ko‘ngling to‘q bo‘lsin. Buni senga men aytayapman.*

*U o‘choqdagi olovni qo‘zg‘amoqchi bo‘lib enkaydi. Uning beli chana tortadigan otlarnikiday uzun edi. u kozovni hafsala bilan silkiladi va uchinchi sinf bolasiga ma’nilatib bosh irg‘ab qo‘ydi.*

*Keyin Maykl og‘a chiqib ketdi, biroz o‘tib uchinchi sinf bolasi devor tomonga o‘girilib oldi va uxlab qoldi.*

*Mana u kasalxonada. Demak, u kasal. Ular ota-onasiga xat yozib, xabar berishganmikan? Yaxshi bo‘lardi agar ruhoniylardan birortasi borib aytsa.yoki o‘zi xat yozib berardi, eltib bersa.*

*Mehribon onajonim!*

*Men kasal bo‘lib qoldim. Uyga ketgim kelyapti. Tezroq keling, meni uyga olib keting. Men kasalxonadaman. Suyukli o‘g‘lingiz Stiven.”.*

Otasidan yetim qolgan Stiven real hayotda Joysning qalbidagi muhabbatni anglash uchun o‘quvchi katta tafakkur yuritishi tayin. U najot farishtasiga talpinadi. Allohni yaxshi ko‘rish, aql bilan ish tutish, odamlarga ulkan xayrixohlik bilan nazar tashlash muhimligini namoyon qiladi. Bularning barchasida Stiven Dedalus dunyoqarashi aks-sado beradi. Quyida o‘zbek avtobiografik qissalaridagi yozuvchi olami bilan qiyoslashga urinib ko‘ramiz:

Darvoqe, avtobiografik janrning tabiiy rivojlanishi haqida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, inson xato va nuqsonlardan xoli mavjudot emas, uning adashishlari va tabiiy o‘sish-o‘zgarishlari ana shu murakkab jarayonning bir uzvi sifatida muayyanlashadi. Shunday ekan, insonning badiiy bilish va hayotni anglash modifikatsiyasida ayni shu jihatlar o‘zining ravishini namoyon qiladi. Badiiy asarda modifikatsion qurilish – sistembutunlik kasb etmas ekan, uning o‘ziga xos qonun-qoidalarini anglash mushkuldir. Mana shu jihatlarga jiddiy e’tibor beradigan bo‘lsak, quyidagi 4 ta asosiy tamoyil muammoning nazariy jihatlarini yanada tiniqroq anglab olishga yetaklaydi:

*1. Avtobiografik janrda syujetga xos unsurlar dinamik ravishda tabiiy o‘sish-o‘zgarishlarga borib tutashuvi hamda muallif-o‘quvchi-qahramon uchiligining saqlanib qolishida;*

*2. Avtor pozitsiyasi ustuvorligi. Chunki avtobiografik asarda bosh qahramonning botiniy va zohiriy xislatlarini to‘g‘ri talqin qilish modusiga jiddiy qarash;*

*3. Yozuvchining voqelikni yoritishda o‘z “men”ining ustuvorligini ham tabiiy ravishda singdirib yuborish ko‘nikmasining birlamchiligi;*

*4. Yozuvchi hayot voqeligining haqqoniyligini teran his-idrok eta olish malakasining chuqurligi, umuminsoniy qadriyatlarga tutashuv nuqtalarini to‘g‘ri talqin qilish mahoratining yuksakligi bilan reallashadi.*

Mana shu jihatlar janrning nafaqat ichki rivojlanish balki tashqi faktorlar bilan keng ko‘lamli hayot haqiqatini to‘g‘ri talqin qilish metodologiyasining ustuvorligiga borib tutashuvini ham dalolatlaydi. Janrning nima uchun dinamik ravishda taraqqiyoti har bir davrning ijtimoiy-siyosiy tutumlarini e’tiborga olish bilan ham o‘lchanadi. Masalan, zamon mafkurasi ijodkor oldiga o‘zining konseptual qarashlarini qo‘yadi. Senzura va yakkahokimlik avj olgan jamiyatda – qalbdagi bor muhim dardu tashvishlarini baralla aytishning iloji bo‘lmagandan keyin, qaysidir ma’noda, biografik matn muallifi o‘zi yaratayotgan siymo xarakteridagi ba’iz cheklovlarni tabiiy “tiyib turish”ga majburligi ayonlashadi. Shunday ekan, biror tarixiy shaxs yo‘qki, o‘z davrida butun-murakkabligicha ochiq xarakterlarining eng zaruriy qismlarigacha, qismatining oq va qora ranglarda aks etishini tabiiy tasvirlamagan bo‘lsin. Mana shu hayqiriq negizida janrning ichki faktorlari asta-sekin o‘z qiyofasini ko‘rsatib borishi ayon bo‘ladi.

Prof. D.Quronov “Gegel estetikasida pafos juda muhim o‘rin tutadi, u san’atning o‘zagi, “san’at saltanati”ning asosi sifatida talqin qilinadi. Gegelga ko‘ra, pafos inson mohiyatini tashkil etuvchi ob’ektiv mavjdulik, qalbni harakatlantiruvchi qudratli kuch bo‘lib, ijodkor o‘z asarida uni ifodalashni maqsad qiladi, ya’ni muayyan pafosni ifodalash san’at asarining muaddaosi, ijodning motividir. Shu asosda Gegel ijodga turtki beruvchi motivlar, pafos ko‘rinishlari sifatida “oila”, vatan, davlat, cherkov, shon-sharaf, do‘stlik, g‘urur, nomus, muhabbat” kabilarni ko‘rsatadi. Gegel ta’rifidagi pafos ko‘proq asar personajlari bilan bog‘liq bo‘lsa, V.Belinskiy uni ijodkor shaxsi bilan bog‘laydi.

*“...Yoshlari o‘ttiz oltiga borgan, “Sarob”day romanning muallifi bo‘lsalar ham, hamon o‘sha “O‘tmishdan ertaklar”dagi bola singari indamas edilar. Qariyb to‘qqiz oy uchrashib yurgan bo‘lsak-da, biror marotaba dildagi gaplarini aytganlari yo‘q. Forscha, tojikcha olib kelgan kitoblarini o‘qitib ketar edilar, xolos. Yoki, “Kecha aytib bergan hikoyatingiz ma’qul bo‘ldi, yozib olay deb, keldim”, deb qo‘ya qolardilar. Keyingi oylar ishim ko‘payib, o‘n-o‘n besh kunda bir ko‘rishadigan bo‘ldik. Bu orada qattiq boshog‘riq kasaliga yo‘liqib, qoldim va shu bahona bilan menga ishxonamdan otpuska berildi. Jo‘nash arafasida xayrlashgani uylariga kirdim. Yana indamay xayrlashib qo‘ya qoldilar, hatto orqamdan ko‘chaga ham chiqmadilar. Tarvuzim qo‘ltig‘imdan tushib, Gogol ko‘chasi, hozirgi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi prezidumi joylashgan bino oldiga borib qolganimda orqamdan qadam tovushi eshitildi. Qayrilib qarasam – Abdulla Qahhor. Kelib qo‘limdan ushladilar”.*

Adabiyotshunos A.Rahimov qayd etishicha: “Fanda avtobiografik janr atrofida anchagina chalkash va bir yoqlama fikrlar yuradi. Ba’zi tadqiqotchilar avtobiografiya janrida badiiy to‘qima bo‘lmaydi, unda personajlar obrazlarini tipiklashtirish xuddi ocherkdagi singari cheklangan, deb, qaraydilar. Rivoyaning mazkur formasida tasvirlangan barcha hodisalarni aniq hujjat, yozuvchi biografiyasining fakti deb, qabul qiladilar. Aslida esa avtobiografik janr asarlarigina emas, hatto to‘la hujjatlikka da’vo qila oladigan biografiya janrida ham tasvirlangan voqealarning barchasini hujjat deb qabul qilish aslo mumkin emas. Inson xotirasi qanchalik mustahkam va kuchli bo‘lmasin, oradan vaqt o‘tgach kechmish epizodlarini tiklar ekan, yozuvchi voqealarni qaytadan yaratishga majbur bo‘ladi, o‘sha paytlardagi fikr va tuyg‘ularini qaytadan idrok etmasdan iloji yo‘q”. Bu keltirilgan iqtibos bir tomondan to‘g‘ri fikr. Biroq uning aynan janriy-kompozitsion yaxlitligi orqaligina aniqlash muhim.

Zero, Jeyms Joys bolalik xronotopini ikki muhim jihatga manitqiy rug‘u berish bilan kiritib o‘tadi. Stiven Dedalus real hayotda nega bunchalik adashishlarni ISYoN bilan yengishga almashtirdi. U nega o‘z atrofidagilardan ko‘p hollarda katta umidlarni talab qilmadi? Chunki ojiz banda (muhtojlik, darbadarlik, kambag‘allik)ni shu masalalar sinovdan o‘tkazardi. U ko‘p hollarda yagona Umid Haq va iymon deb bilgani uchungina adob va axloq doirasidan bir dam chiqishni xohlamaganida deb tushunamiz. Mana shu badiiy syujet liniyalari asardagi dinamik so‘ishlarni muvofiqlashtiradi. Insonga inson o‘laroq qarash muhimligini tayin etadi.

Badiiy asarda bolalik xronotopi faqatgina vaqt va makon uyg‘unligi sifatida emas, balki shaxs shakllanishining muhim ontologik bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, modernistik adabiyotda bolalik davri xronotopi individning ichki “men”i bilan tashqi olam o‘rtasidagi murakkab munosabatlar tizimini ochib beruvchi estetik kategoriya darajasiga ko‘tariladi. Jeyms Joys ijodida bu holat alohida poetik mazmun kasb etib, bolalik xronotopi shaxsiy xotira, ruhiy iztirob va estetik idrok chorrahasida shakllanadi.

“Musavvirning yoshlikdagi shamoyili” romanida bolalik xronotopi yopiq, toraygan makon (kollej, internat, kasalxona, ibodat joylari) hamda cho‘zilgan, sekin oqayotgan vaqt modeli orqali ifodalanadi. Bu xronotop Stiven Dedalus ruhiy olamidagi beqarorlik, qo‘rquv va yolg‘izlik hissini kuchaytiradi. M.Baxtin ta’kidlaganidek, xronotop badiiy asarda

“inson taqdirining ko‘rinadigan shakli”dir. Aynan shu nuqtai nazardan qaralganda, Stivenning bolalik davri uning kelajakdagi individualistik, isyonkor va estetik qarashlarining manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Bolalik xronotopi romanda ikki yo‘nalishda rivojlanadi:

**Psixologik xronotop** – bolaning ichki kechinmalari, qo‘rquv, sog‘inch, mehrga ehtiyoj kabi ruhiy holatlar bilan belgilanadi;

**Ijtimoiy xronotop** – diniy institutlar, maktab tartibi, ijtimoiy tengsizlik va muhtojlik muhiti bilan chambarchas bog‘liq.

Stiven Dedalusning bolaligi – bu nafaqat shaxsiy xotira makoni, balki jamiyatning ma’naviy bosimi ostida shakllangan ruhiy makondir. Shuning uchun ham Joys bolalikni ideallashtirmaydi, balki uni inson ongidagi eng og‘riqli, ammo eng haqiqatga yaqin bosqich sifatida tasvirlaydi. Bu jihat Joys ijodini an’anaviy avtobiografik asarlardan ajratib turadi.

O‘zbek avtobiografik nasrida ham bolalik xronotopi muhim poetik funksiya bajaradi. Oybekning “Bolalik”, G‘afur G‘ulomning “Shum bola”, Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” asarlarida bolalik davri nafaqat shaxsiy taqdir, balki davr ijtimoiy-ma’naviy muhitining badiiy modeli sifatida aks ettiriladi. Biroq Joysdan farqli ravishda, o‘zbek adabiyotida bolalik xronotopi ko‘proq hayotbaxshlik, chidam va sabr timsoli sifatida talqin qilinadi.

Jeyms Joys romani misolida bolalik xronotopi shaxsning estetik ongini shakllantiruvchi, hayotiy tanlovlarini belgilovchi va ijodiy isyon manbai bo‘lgan murakkab badiiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa bolalik xronotopini zamonaviy adabiyotshunoslikda alohida tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganish zaruratini yanada kuchaytiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Joys, Jeyms. Musavvirning yoshlikdagi shamoyili. Roman. O‘zbek tiliga tarjima. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2012. — 45–47-betlar.
2. Joys, James. A Portrait of the Artist as a Young Man. — London: Penguin Classics, 2003. — pp. 32–35.
3. Baxtin, M.M. Adabiyot va estetika masalalari. — Moskva: Xudojestvennaya literatura, 1975. — 234–238-betlar.
4. Quronov, D. Adabiyot nazariyasi asoslari. — Toshkent: Akademnashr, 2018. — 156–160-betlar.
5. Eshonqul, N. Badiiy tafakkur va zamonaviylik. Maqolalar to‘plami. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. — 88–92-betlar.
6. Rahimov, A. Avtobiografik janr va badiiy xotira. — Toshkent: Fan, 2009. — 64–70-betlar.
7. Qahhor, Abdulla. O‘tmishdan ertaklar. Qissa. — Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008. — 12–18-betlar.
8. G‘ulom, G‘afur. Shum bola. Qissa. — Toshkent: O‘qituvchi, 2010. — 9–15-betlar.
9. Oybek. Bolalik. Qissa. — Toshkent: Adabiyot va san’at, 2007. — 21–26-betlar.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Husaynova Mahliyoxon Ma'rufjon qizi**
FarDU 2-bosqich tayanch doktoranti
mahliyoxonhusaynova@gmail.com

**UO'K: 811.512.133'38:398.23**

## LATIFALAR MATNIDA ONOMASTIK BIRLIKLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada latifalar matnida qo'llaniladigan onomastik birliklar va ularning uslubiy xususiyatlari izohlanadi. Tadqiqotda latifalar matnida uchrovchi antroponimlar, toponimlar va boshqa onomastik birliklarning badiiy-estetik hamda hajviy vazifalari yoritiladi. Onomastik birliklarning kulgi effektini yuzaga keltirishdagi o'rni, ularning kontekstual ma'nosi va pragmatik ahamiyati misollar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, onomastik birliklarni o'rganish orqali latifalar matnining morfologik-stilistik xususiyatlari haqida ilmiy mulohazalar bildiriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *onomastika, onomastik birlik, latifa, morfologik birlik, kinoya, pressupozitsiya.*

**Хусайнова Махлиёхон Маруфжон кизи**
Ферганский государственный университет,
базовый докторант 2-го года обучения

## СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ТЕКСТЕ УЗБЕКСКИХ АНЕКДОТОВ

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются ономастические единицы, используемые в тексте узбекских анекдотов, а также их стилистические особенности. В исследовании освещаются художественно-эстетические и сатирические функции антропонимов, топонимов и других ономастических единиц, встречающихся в тексте анекдотов. Роль ономастических единиц в создании комического эффекта, их контекстуальное значение и прагматическая значимость анализируются на основе конкретных примеров. Кроме того, посредством изучения ономастических единиц высказываются научные суждения о морфолого-стилистических особенностях текста анекдотов.*

***Ключевые слова:*** *ономастика, ономастическая единица, анекдот, морфологическая единица, ирония, пресуппозиция.*

**Husaynova Mahliyokhon Marufjon qizi**
Fergana State University, 2nd-year PhD (Doctoral) student

## STYLISTIC FEATURES OF ONOMASTIC UNITS IN THE TEXTS OF UZBEK ANECDOTES

***Annotation:*** *This article examines onomastic units used in the texts of Uzbek anecdotes and their stylistic features. The study highlights the artistic-aesthetic and satirical functions of anthroponyms, toponyms, and other onomastic units occurring in anecdotal texts. The role of onomastic units in creating a comic effect, as well as their contextual meaning and pragmatic significance, is analyzed based on illustrative examples. In addition, the study of onomastic units provides scholarly observations on the morphological and stylistic features of anecdotal texts.*

***Key words:*** *onomastics, onomastic unit, anecdote, morphological unit, irony, presupposition.*

### Kirish

Latifalar matni xalq og'zaki ijodida hajviy fikrni ifodalashning o'ziga xos shakli sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu matnlarda kulgi va kinoya tasodifiy yuzaga kelmaydi, balki muayyan til birliklarining maqsadli qo'llanishi natijasida shakllanadi. Shunday birliklar sirasiga kiruvchi onomastik vositalar – atoqli otlar, shaxs va joy nomlari latifalar matnida mazmunni keskinlashtirish, obrazni umumlashtirish hamda hajviy ta'sirni kuchaytirish vazifasini bajaradi. Latifalarda onomastik birliklar ko'pincha ijtimoiy tajriba va madaniy xotira bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi. Ularning tanlanishi orqali yashirin baho, istehzoli munosabat va kinoyaviy mazmun ifodalanib, o'quvchi ongida

oldindan mavjud bilimlarga tayanuvchi semantik taxminlar yuzaga keladi. Ayniqsa, ramziy xarakterga ega bo'lgan antroponim va toponimlar hajviy vaziyatni yuzaga chiqarishda muhim uslubiy omil hisoblanadi.

Mazkur maqola latifalar matnida onomastik birliklarning hajv yaratishdagi funksional imkoniyatlarini aniqlash, ularning kontekst doirasida kasb etadigan ma'nosini hamda stilistik xususiyatlarini misollar asosida yoritishga qaratilgan.

**Adabiyotlar tahlili**

Latifa matnlari o'z mazmun-mohiyatida xalq donishmandligi, insonlarning psixologik fe'l-atvori, hayotga bo'lgan qarashlari, yuksak madaniy saviyasi va axloqiy-etik qadriyatlarini mujassamlashtiradi. Ushbu janr o'ziga xos estetik shaklga ega bo'lib, ijtimoiy hayotda katta tarbiyaviy va kommunikativ ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, latifalar orqali insonlar o'rtasidagi ijtimoiy-madaniy munosabatlarning ochiq, bevosita va tanqidiy-badiiy tarzda ifoda etilishi bu janrning dolzarbligini belgilaydi.

Latifa matnlarining bunday ko'lamli funksiyasini ta'minlashda onomastika – ya'ni, ismlar tizimi ham muhim lingvistik va stilistik vosita sifatida xizmat qiladi. Jumladan, antroponimlar (shaxs nomlari), toponimlar (joy nomlari) va boshqa nomlash birliklari obraz yaratish, milliy koloritni kuchaytirish, shuningdek, kulgili effekt hosil qilishda muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan olib qaralganda, onomastik birliklarning latifalardagi qo'llanilishi ularning mazmuniy qatlamini boyitib, milliylik va muloqot madaniyatining ifodasiga xizmat qiladi.

Onomastika – bu atoqli otlar va ularning kelib chiqishi, tarixi, tuzilishi hamda til va madaniyat kontekstidagi qo'llanilishi bilan shug'ullanuvchi tilshunoslik sohasi. Termin yunoncha *ónoma* ("nom") so'zidan olingan bo'lib, u nomlar va ularning funktsiyalarini o'rganadi. Onomastika o'z ichiga shaxs nomlari (antroponimlar), joy nomlari (toponimlar), shuningdek boshqa nomlash birliklarini oladi va ularning semantik, tarixiy hamda funksional xususiyatlarini o'rganadi. Ma'lum bir xalq yoki til jamoasi doirasida ishlatiladigan barcha atoqli otlar– ya'ni antroponimlar (shaxs ismlari), toponimlar (joy nomlari), etnonimlar (xalq nomlari), zoonimlar (hayvonlar nomlari), kosmonimlar (koinot obyektlari nomlari) va boshqa nomlash birliklarining majmui hisoblanadi[1]. Onomastik birliklar esa – bu tilning onomastik tizimiga mansub atoqli otlar va ularning guruhlariga mabsub nomlash birliklarini ifodalaydi. Onomastik birliklar nafaqat nomlash funksiyasini bajaradi, balki tilning stilistik va madaniy kontekstida ma'no va ifoda vazifalarini ham o'z zimmalariga oladi [2]. Bundan tashqari, onomastikaning yana bir qancha bo'lim (guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo'limi realionimlar (avval va hozir mavjud bo'lgan obyektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo'lgan mifonimlar xayoliy to'qima obyektlarning nomlarini bildiradi [3].

**Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada latifalar matnida onomastik birliklarning stilistik va hajviy funksiyalari muhokama qilindi. Ularning turli tiplari, tarkibiy xususiyatlari va kontekstual qo'llanilishi tavsiflandi. Tadqiqot doirasida o'zbek latifalarida uchraydigan shaxs nomlari, joy nomlari va boshqa onomastik birliklar tahlil qilindi, ularning matndagi badiiy-estetik va kulgini yuzaga keltirishdagi roli aniqlandi. Shuningdek, turli tipdagi onomastik birliklarning vazifalari, ularning semantik, pragmatik va stilistik xususiyatlari ham aniqlandi.

**Natijalar va ularning tahlili**

Xalq latifalari shaklan uncha katta bo'lmagan, yangi mikro matnlardan tashkil topadi. Odatda, hech qanday emotsonal-ekspressivlik bo'yog'iga ega bo'lmagan til birliklari latifalar matnida o'zgacha mazmun kasb etadi va kulgili vaziyatning vujudga kelishi uchun muhim lingvostilistik vositaga aylanadi. [4] Shuningdek, latifalar matnida maqol, matal va iboralarning ishtiroki orqali kulgili vaziyatlar yuzaga keladi. O'zbek latifalarida Nasriddin afandi bosh qahramon sifatida o'ta hozirjavob, zukko, dono va tadbirkor inson sifatida gavdalanadi. Chunki aqlli, mutafakkir Nasriddin afandi qiyofasida butun xalqning, millatning so'zga chechanligi, zakiy, ya'ni nozik fikr yuritish fazilati o'z ifodasini topgan. Har bir latifa matnida uni o'ylab topgan shaxs aqli, vaziyatni aniqlash kayfiyati va zakovati namoyon bo'ladi. [5]

Kulgi yaratishning eng sermahsul usullaridan biri bu hayvon nomlariga murojaat qilish shakli bo'lib, latifalar matnida uchraydigan zoonimlardan eng faoli eshak hisoblanadi. Shuningdek, it, mushuk, maymun, xo'roz, quyon, mol kabi bir qancha zoonimlarni latifalar matnida qo'llash natijasida kulgili vaziyat allegorik ravishda yaratiladi:

*Bir dehqon eshak minib shaharga kelar edi. Ittifoqo eshagi xonning arki yoniga kelganida hangrab yubordi. Ark tepasida turgan xon achchig'lanib, dehqonni darralashga buyurdi. Hukm ijro qilindi. Ezilgan dehqon hangi eshakdan qutulish uchun uni bozorga olib kirib, Afandini ko'rdi-da, boshiga tushgan hodisani so'zladi.*

*– Qo'y, bunga xafa bo'lib eshagingni sotma, – dedi Afandi, – hamma **eshak** ham **eshak**ni ko'rganda hangraydi-da![6].*

Tahlil qilinadigan latifada "eshak" zoonimi semantik va stilistik markaz sifatida ilgari suriladi. Ushbu zoonim vositasida inson xatti-harakatlari baholanadi, ularga kinoyali munosabat bildiriladi. Afandi obrazining javobida namoyon bo'ladigan til o'yini esa mazkur zoonimni metaforik darajaga ko'taradi. Natijada hayvonot olamiga oid nom bevosita inson ijtimoiy mavqeiga nisbatan qo'llanilib, yashirin ma'noda xon obrazining ham eshak sifatida talqin etilishi nazarda tutiladi. Bu jihatdan eshak zoonimi, bir tomondan, kulgi vositasi, ikkinchi tomondan esa tanqidiy munosabatni

ifodalovchi lingvopragmatik vosita sifatida xizmat qiladi. Shunday qilib, latifalardagi zoonimlarning qo‘llanishi hazil vositasida ijtimoiy adolatsizlikka ishora qilish, g‘ayrioddiy kontekstda baholoviy xulosalar chiqarish kabi muhim kommunikativ vazifalarni bajaradi.

*Er-xotin janjallashib qolishibdi.*

*Bir soat o‘tganidan so‘ng, oxiri xotini eriga qarab:*

*– Dadasi, bilmaymizmi, **eshak** qancha umr ko‘rib, keyin o‘ladi? – desa, Eri:*

*– Nima, mazang qochyaptimi? – dermish [7].*

Mazkur latifada “eshak” so‘zi hayvon nomi sifatida ishlatilgan bo‘lsa-da, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nodan tashqari kinoyaviy baholash yuklamasiga ham ega. Ya’ni, xotinning aytgan so‘zida eshak – erga nisbatan aytilgan majoziy ma’noga ega bo‘lib, tushunmas, o‘jarlikka moyil kabi yashirin ma’nolarni anglatadi. Xotin eshak umrini eslash orqali erini zo‘raki kinoya bilan masxaralaydi – bu yerda eshak obrazida erni “qattiqqo‘l” tarzida ko‘rsatishni niyat qilgan, ammo er bunday kinoyani darhol ilg‘ab, metonimik (ramziy) tarzda xotin o‘zini eshak bilan qiyoslayapti deb javob qaytaradi: “Mazang qochyaptimi?” Bu nutqiy ustunlik uchun kurash, ya’ni stilistik qarshi hujum bo‘lib, o‘zbek kulgi madaniyatida keng tarqalgan dialog usuliga kiradi va natijada latifa matnida kulgi yuzaga kelishidagi asosiy omil hisoblanadi.

*Shahar hokimi Afandiga buyurdi:*

*Menga bir bahaybat, qopag‘on it topib keling! Afandi esa, buyruqning aksini qilib, yuvosh bir it topib keldi. Hokim Afandini koyidi:*

*– Men sizga “qopog‘on **it** topib keling!” desam, juda yuvosh itni olib kelibsiz. Afandi beparvo javob berdi:*

*– Taqsir, xotirjam bo‘ling, bu janoblarning oldida besh-olti kun tursa, o‘zlaridan ta’lim olib, zanjirini ham uzadigan bo‘lib ketadi.*

Mazkur latifa matnida Afandi “bu janoblar” deb hokim va uning atrofidagilarni nazarda tutadi, ularning ta’siri natijasida hatto yuvosh it ham “qopag‘onga aylanadi”, ya’ni atrof-muhit shaxsni o‘zgartiradi degan kinoyali fikr ilgari suriladi. Shuningdek, Afandining so‘z orqali tanqid qilish mahoratini aks ettiriladi. Stilistik vositalar orqali hokimiyat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar yumor bilan fosh etiladi hamda o‘zbek xalq og‘zaki ijodining muhim unsurlaridan biri sifatida til o‘yinlari, kinoya, komik inversiya asosida faollashadi.

*Bir kuni tunda afandi mehmondan qaytayotsa, yo‘lida boy uchrab qolibdi.*

*Boy afandini kamsitmoqchi bo‘lib: – Ha, afandi, senmiding? Men bo‘lsa **mol** kelyapti deb o‘ylabman, - desa, afandi hozirjavoblik bilan: – Iye, boyota! Men sizni odamga o‘xshatib yuboribman, siz ekansiz-ku, – degan ekan.*

Mazkur latifa ikki ijtimoiy qatlam vakilining o‘zaro hazil-mutoyiba asosida qurilgan dialogidan iborat bo‘lib, boyning “mol kelyapti deb o‘ylabman” deya Afandiga murojaat qilishi, uni inson emas, hayvon darajasiga tushirishga urinayotganiga hazilnamo javob bilan o‘zini molga o‘xshatganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu – zoonimik metafora bo‘lib, hayvon misolida insonni past ko‘rsatish maqsadida foydalanilgan. Afandi esa zudlik bilan javob qaytarib, boyni “odamga o‘xshatib yuborganini” aytib, gapning pragmatik mazmuni bilan insonlik fazilatidan mahrum qilingan shaklda taqdim etadi. Bu holat stilistik inversiya vositasi bilan kulgi hosil qilishga xizmat qiladi: kamsitilgan kishi kutilmagan javob orqali ustunlikni qaytarib oladi. “Mol” so‘zining qo‘llanilishi nafaqat hayvonni bildiradi, balki aql-idrokdan yiroq, itoatkor, betashvish mavjudot obrazini ham eslatadi. Shu orqali boy Afandining ijtimoiy mavqeini kamsitadi, biroq bu kinoya stilistik aks ta’sirga uchraydi.

Latifalar matnida tarixiy shaxs hamda mashhur insonlar nomi vositasida kulgili vaziyat yaratilgan holatlar ham uchrab turadi:

*Bir yigit tarixshunos, adabiyotshunos ekan. Uylanaman desam, tarixni, adabiyotni biladigan, ajdodlarimizni taniydigan qizga uylanaman debdi.*

*Yigit uchrashuvga chiqqanida bo‘lajak kelindan so‘rabdi:*

*– **Forobiy** kim bo‘lgan?*

*Qiz jim!*

*– **Yassaviy** kim bo‘lgan?*

*Qiz yana jim!*

*– **Alisher Navoiy** kim?*

*– E bo‘ldi yetar, bularning bittasini ham tanimayman. Anovi **Alisher** o‘zi gap chiqargan, men u bilan hecham yurmaganman, – dermish.*

Mazkur latifa matnidagi antroponimlar nafaqat tarixiy-bilimiy belgi sifatida, balki stilistik-ekspressiv yuklamaga ega vositalar sifatida ham xizmat qilmoqda. Qizning “Anovi Alisher o‘zi gap chiqargan” degan jumlasi orqali madaniy beparvolik, bilimsizlik va yuzaki fikrlash holati hajv qilinadi. Shu tarzda antroponimlar kulgi hosil qilishda asosiy

semantik markazga aylanadi. Latifadagi antroponimlar: komik effekt yaratish vositasi sifatida ishlatilgan; stilistik kontrast, semantik nomuvofiqlik va kognitiv xatolik asosida kulgi hosil qilgan. Demak, antroponimlar nafaqat shaxsni bildiruvchi vosita, balki stilistik va madaniy qiymatga ega til birligi sifatida latifalar matnida muhim uslubiy vazifani bajaradi.

Shuningdek, latiafalar matnida toponim – geografik obyektlarning atoqli nomlari bilan bog‘liq ravishda komik vaziyat yaratilgan misollar ham uchrab turadi:

*Bir yigit **Bolgariya**ga boribdi. U yerda bir qizni yaxshi ko‘rib qolibdi. Yigit qizga qarab:*

*– Millating nima? – debdi.*

*– Men **bolgarkaman**, – desa, yigit:*

*– Unaqada men drelman, – dermish...*

Latifaning boshlanmasida Bolgariya toponimi tilga olinadi. U faqat lokatsion (joyni bildiruvchi) birlik bo‘lib qolmay, butun hazil strukturasining semantik tayanchi vazifasini bajaradi. Aynan Bolgariya toponimi asosida:

Etnonim (bolgarka) hosil bo‘lgan; bu etnonim esa o‘zbek va rus tili leksikasida ko‘p ma’nolilikka ega birlik sifatida tanilgan.

Shunday qilib, Bolgariya toponimi asosiy leksik – hazil bog‘lamasining manbaidir. U orqali yuzaga kelgan “bolgarka” so‘zi ikki ma’noga ega bo‘ladi:

1.Asl ma’no – Bolgariya millatiga mansub ayol.

2.Ko‘chma/ruscha atama – elektr silliqlovchi texnika vositasi.

Bu o‘rinda kulgi polisemik xatolik, ya’ni bir so‘zning kontekstdan tashqari, noto‘g‘ri ma’noda talqin qilinishi va kasbiy atamani qo‘llash orqali yuzaga keladi.

Qizning “bolgarkaman” degan so‘zini yigit texnik ma’noda tushunib, unga stilistik javob sifatida ko‘chma ma’noda “drelman” atamasini ishlatadi. Buning natijasida bir necha lingvostilistik hodisalar yuzaga chiqadi:

1) kontekstual antonim yasash: “bolgarka” (arralovchi) – “drelman” (burg‘ulovchi) o‘rtasida o‘xshashlik mavjud;

2) so‘z yasovchanlik (derivatsiya) asosida kulgi: mavjud bo‘lmagan “drelman” leksik birligi xalq og‘zaki nutqida improvizatsion, kontekstual ma’noda hosil qilinadi;

3) xalqona ixtirochilik: nutqiy vaziyatga mos ravishda yangi leksik birlik yaratilgan.

Shunday qilib, toponim va undan hosil bo‘lgan etnonim asosidagi leksik birliklar vositasida yuzaga kelgan lingvostilistik qarama-qarshilik, madaniy-semantik tafovut hamda xalqona til improvizatsiyasi latifaning asosiy estetik va komik mazmunini shakllantiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

**Xulosa**

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, latifalar matnida onomastik birliklar – shaxs nomlari, toponimlar va ulardan hosil bo‘lgan etnonimlar badiiy-estetik va kulgiy effektni shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ular orqali lingvostilistik qarama-qarshilik, madaniy-semantik tafovut va xalqona til improvizatsiyasi yuzaga keladi, bu esa latifaning asosiy mazmuniy va komik qirralarini kuchaytiradi. Shu bilan birga, onomastik birliklarning kontekstual va stilistik qo‘llanilishi, ularning matndagi pragmatik vazifasi va kinoya ifodasi aniqlandi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, latifalarda onomastik birliklar faqat nomlash vositasi sifatida emas, balki matnga mazmuniy chuqurlik, ijtimoiy-hajviy ohang va tinglovchi yoki o‘quvchida kulgi uyg‘otuvchi stilistik vosita sifatida ham faol ishlatiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. https://en.wikipedia.org

2. Andaniyazova, D. R. (2021). *Literary-aesthetic function of Turkic onomastic units in literary text*. **International Journal of Linguistics, Literature and Culture**, *7*(5), 356–361. https://doi.org/10.21744/ijllc.v7n5.1929.

3. Kilichev B. Onomastika. O‘quv qo‘llanma. - Buxoro: 2023. – 7-b.

4. Дусматов Х. Аския матнининг лингвостилистик тадқиқи: Филол. фан. фал. док. (PhD)... дисс. – Фарғона, 2018. –Б. 135.

5. Я.Мадалиев. Туркий халқлар оғзаки ижодида латифа жанри: типологияси, мотивлари, таснифи (ўзбек ва қозоқ латифалари мисолида) Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати Тошкент – 2021.79- бет.

6. https://uzsmart.ru/

7. https://t.me/zahar_xanda

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Eraliyeva Dilnoza Oybek qizi**
Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o‘qitish
metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

## FILOLOGIYA YO'NALISHI TALABALARI TANQIDIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola filologiya yo’nalishi talabalari tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy-konseptual asoslari va amaliy metodlarini o’rganishga bag’ishlangan. Tanqidiy tafakkur zamonaviy ta’lim tizimida eng muhim kompetensiyalardan biri sifatida e’tirof etilgan bo’lib, ayniqsa filologiya sohasida matn tahlili, adabiy asarlarni baholash va lingvistik tadqiqotlar olib borishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda tanqidiy tafakkurning nazariy-falsafiy asoslari, pedagogik va psixologik jihatlari chuqur tahlil qilingan. Maqolada filologiya ta’limida tanqidiy tafakkurni shakllantiruvchi metodlar, texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar taqdim etilgan. Tadqiqot natijalarida filologiya talabalarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan kompleks metodika ishlab chiqilgan bo’lib, unda dialogli ta’lim, muammoli o’qitish, loyiha metodlari va raqamli texnologiyalar integratsiyasi ko’rsatilgan.*

***Kalit so’zlar:*** *tanqidiy tafakkur, filologiya ta’limi, metodika, kompetensiya, matn tahlili, dialogli ta’lim, muammoli o’qitish, kreativ fikrlash.*

**Эралиева Дильноза Ойбек кизи**
Наманганский областной педагогический центр
Преподаватель кафедры методики преподавания социальных и экономических наук и языков

## ТЕОРЕТИЧЕСКИ-КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ МЕТОДОЛОГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ-ФИЛОГОТОВ

***Аннотация.*** *Данная статья посвящена изучению теоретико-концептуальных основ и практических методов развития критического мышления у студентов-филологов. Критическое мышление признано одной из важнейших компетенций в современной системе образования и особенно важно в филологии при анализе текста, оценке литературных произведений и лингвистических исследованиях. В исследовании представлен углубленный анализ теоретико-философских основ, педагогических и психологических аспектов критического мышления. В статье представлены методы, технологии и инновационные подходы, формирующие критическое мышление в филологическом образовании. По результатам исследования разработана комплексная методология, направленная на развитие критического мышления у студентов-филологов, которая включает интеграцию диалогического обучения, проблемно-ориентированного обучения, проектных методов и цифровых технологий.*

***Ключевые слова:*** *критическое мышление, филологическое образование, методология, компетентность, анализ текста, диалогическое обучение, проблемно-ориентированное обучение, творческое мышление.*

**Eraliyeva Dilnoza Oybek qizi**
Namangan Regional Pedagogical Center
Teacher of the Department of Methodology of Teaching Social and Economic Sciences and Languages

## THEORETICAL-CONCEPTUAL BASIS OF THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING IN PHILOLOGY STUDENTS

***Annotation.*** *This article is devoted to the study of the theoretical-conceptual foundations and practical methods for developing critical thinking in philology students. Critical thinking is recognized as one of the most important competencies in the modern education system, and is especially important in the field of philology in text analysis, evaluation of literary works, and linguistic research. The study provides an in-depth analysis of the theoretical-philosophical foundations, pedagogical, and psychological aspects*

*of critical thinking. The article presents methods, technologies, and innovative approaches that form critical thinking in philology education. The results of the study have developed a comprehensive methodology aimed at developing critical thinking in philology students, which includes the integration of dialogic learning, problem-based learning, project methods, and digital technologies.*

***Keywords:*** *critical thinking, philology education, methodology, competence, text analysis, dialogic learning, problem-based learning, creative thinking.*

**Kirish.**

Zamonaviy ta'lim tizimi tubdan o'zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. XXI asrda bilim berish jarayoni nafaqat ma'lumotlar yetkazib berishdan iborat bo'lmay, balki talabalarni mustaqil fikrlashga, mantiqiy mulohaza yuritishga, muammolarni tahlil qilish va ijodiy yechimlar topishga o'rgatishni talab qiladi. Bu o'zgarishlar ayniqsa filologiya yo'nalishida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalari tabiatan chuqur tahliliy tafakkurni, matnlarni tanqidiy baholashni va turli kontekstlarni tushunishni talab qiladi. Tanqidiy tafakkur – bu ma'lumotlarni tahlil qilish, sintez qilish, baholash va yangi xulosalar chiqarish qobiliyatini o'z ichiga olgan murakkab kognitiv jarayon. Bu nafaqat mantiqiy fikrlash ko'nikmalari, balki fikrlash jarayoni ustidan ong bilan nazorat qilish, turli nuqtai nazarlarni hisobga olish, dalillarni tekshirish va asosli qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Filologiya talabalari uchun tanqidiy tafakkur ayniqsa zarur, chunki ular adabiy asarlarni tahlil qilish, til hodisalarini o'rganish, matnlarni sharhlash va lingvistik tadqiqotlar olib borishda doimiy ravishda bu ko'nikmalarga muhtoj bo'ladilar. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida filologiya yo'nalishida o'qitish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Ko'plab hollarda ta'lim jarayoni hali ham an'anaviy ma'ruza-seminar tizimiga asoslangan bo'lib, talabalar asosan tayyor bilimlarni qabul qilish va eslab qolishga yo'naltirilgan. Bunday yondashuv talabalarning ijodiy salohiyatini to'liq ochib berishga, mustaqil tadqiqot olib borishga va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalar imkoniyatlari va innovatsion pedagogik metodlardan yetarli darajada foydalanilmayotganligi kuzatilmoqda. Tadqiqotning maqsadi filologiya yo'nalishi talabalarida tanqidiy tafakkurni samarali rivojlantirishning nazariy-konseptual asoslarini ishlab chiqish va amaliy metodikani takomillashtirishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yilgan: birinchidan, tanqidiy tafakkurning nazariy asoslari va falsafiy-pedagogik konsepsiyalarini tahlil qilish; ikkinchidan, filologiya ta'limida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning mavjud usul va vositalarini o'rganish; uchinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni integratsiya qilish imkoniyatlarini aniqlash; to'rtinchidan, kompleks metodika ishlab chiqish va uning samaradorligini baholash mezonlarini belgilash.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot kompleks metodologik yondashuvga asoslanadi va bir nechta o'zaro bog'liq metodlarni qamrab oladi. Metodologik baza sifatida konstruktivistik ta'lim nazariyasi, J. Deweyning[1] progressiv ta'lim g'oyalari, L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi va B. Blumning taksonomiyasi xizmat qilgan.[2] Ushbu nazariy asoslar talabalarni bilim olish jarayonida faol ishtirokchilarga aylantirish, ularning mustaqilligini rivojlantirish va yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Tadqiqotda qo'llanilgan asosiy metodlar qatoriga nazariy tahlil metodlari kiradi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganish jarayonida tanqidiy tafakkurning nazariy asoslari, filologiya ta'limining xususiyatlari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar chuqur tahlil qilindi. Taqqoslash va sintez metodlari yordamida turli davrlarda va mamlakatlarда shakllangan tanqidiy tafakkur konsepsiyalari, pedagogik maktablarning qarashlar va yondashuvlarni umumlashtirish amalga oshirildi. Tizimli yondashuv metodologiyasi tanqidiy tafakkurni rivojlantirishni yaxlit pedagogik tizim sifatida qarashga imkon berdi. Empirik tadqiqot metodlari tadqiqotning amaliy qismini tashkil etdi. Kuzatish metodi o'quv jarayonida talabalarning faoliyati, ularning matnlar bilan ishlash uslublari, muammoli vaziyatlarda xulosa chiqarish qobiliyati va guruh muhokamalarida ishtirok etish darajasini o'rganish uchun qo'llanildi. Tizimli kuzatish natijalari maxsus protokollarda qayd etildi va keyinchalik tahlil qilindi. So'rov metodlari – anketalar va suhbatlar – talabalar va o'qituvchilarning tanqidiy tafakkurga bo'lgan munosabatini, mavjud muammolar va qiyinchiliklarni aniqlash, shuningdek metodikaning qabul qilinish darajasini baholash uchun ishlatildi.

**Adabiyotlar tahlili**

Tanqidiy tafakkur muammosi bo'yicha keng qamrovli ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu masala ko'p yillar davomida pedagogika, psixologiya va falsafa sohasidagi olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Tanqidiy tafakkurning nazariy asoslarini yaratishda antik davr filosoflarining hissasi katta. Suqrot o'zining mashhur "mayevtika" usuli orqali savol-javob dialogi yordamida shogirdlarni mustaqil xulosa chiqarishga undagan. Aristotel mantiq qonunlarini ishlab chiqib, to'g'ri mulohaza yuritish asoslarini yaratgan. Platonning dialektik metodi turli g'oyalarni solishtirish va haqiqatga yaqinlashish yo'llarini ko'rsatgan. Zamonaviy tanqidiy tafakkur kontseptsiyasining shakllanishida amerikalik faylasuf va pedagog Jon Dewey muhim rol o'ynagan. Uning "reflektiv fikrlash" konsepsiyasi

bo'yicha tanqidiy tafakkur – bu muammoli vaziyatni anglab yetish, uni tahlil qilish, farazlar ilgari surish va ularni tekshirish jarayonidan iborat. Dewey ta'limda tajriba va amaliyotning ahamiyatini ta'kidlab, o'quvchilarni faol tadqiqotchilarga aylantirishni maqsad qilgan. Uning progressiv ta'lim g'oyalari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Benjamin Bloom tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv maqsadlar taksonomiyasi tanqidiy tafakkurni tushunish va rivojlantirishda inqilobiy bo'ldi. Bloom bilim, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash kabi olti darajali kognitiv faoliyat ierarxiyasini taklif etdi.[3] Keyinchalik Lorin Anderson va David Krathwohl tomonidan qayta ko'rib chiqilgan taksonomiya eslab qolish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash va yaratishni o'z ichiga oladi. Yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalar – tahlil, baholash va yaratish – tanqidiy tafakkurning asosini tashkil etadi.[4] Lev Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi ta'limda muloqot va hamkorlikning rolini ta'kidlaydi. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" kontseptsiyasi shuni ko'rsatadiki, talabalar o'qituvchi yoki kattaroq darajadagi tengdoshlari yordamida o'zlari mustaqil hal qila olmaydigan murakkab vazifalarni bajarish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu g'oya dialogli ta'lim va hamkorlikdagi o'rganishning ahamiyatini asoslaydi.

**Muhokama va natijalar**

Tadqiqot doirasida olib borilgan nazariy tahlil va amaliy tajribalar asosida filologiya yo'nalishi talabalarida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning kompleks metodikasi ishlab chiqildi va sinab ko'rildi. Ushbu metodika bir nechta o'zaro bog'liq komponentlarni o'z ichiga oladi va tizimli yondashuvga asoslanadi.

Birinchi komponent – pedagogik-didaktik asos – o'quv jarayonini tashkil etishning umumiy tamoyillarini belgilaydi. Talaba-markazli yondashuv asosida o'qituvchi fasilitator rolini o'ynaydi, talabalarni mustaqil tadqiqotga, ijodiy izlanishga va mantiqiy mulohaza yuritishga undaydi. Refleksiv ta'lim tamoyiliga ko'ra, talabalar o'z fikrlash jarayonlari ustidan ongzli nazorat o'rnatadi, strategiyalarini baholaydi va takomillashtirishga intiladi. Dialogli o'qitish tamoyili turli nuqtai nazarlarni tinglash, fikrlar almashinuvi va hamkorlikda xulosa chiqarish atmosferasini yaratishni nazarda tutadi.[5]

Ikkinchi komponent – mazmuniy qism – filologiya fanlari ichida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus mavzular va mashg'ulotlar tizimini qamrab oladi. "Adabiy matn tahlili va interpretatsiya" bo'limida talabalar adabiy asarlarni turli yondashuvlar – formal, strukturalistik, poststrukturalistik, psixoanalitik, feministik – asosida tahlil qilishni o'rganadilar. Ular matnning turli qatlamlarini – voqealar qatlami, motivlar tizimi, ritmik-fonetik qurilma, obrazlar dunyosi – kashf etish, yashirin ma'nolarni ochish va avtorning niyatlarini talqin qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

"Lingvistik tahlil metodlari" bo'limida talabalar fonologik, morfologik, sintaktik, semantik va pragmatik tahlil texnikalarini egallaydilar. Ular til hodisalarini faqat tavsiflamay, balki ularning kelib chiqishi, rivojlanishi, funksiyalari va tildan foydalanuvchi shaxsning kommunikativ maqsadlarini tushunishga harakat qiladilar. Til birliklarining kontekstga bog'liqligi, polisemiya, omonimiya, metafora va boshqa troplar chuqur o'rganiladi.

"Diskurs va matn nazariyasi" bo'limida talabalar matnlarni yaxlit kommunikativ hodisa sifatida tahlil qilishni, diskurs strategiyalarini aniqlashni, quvvat munosabatlarini va ideologik komponentlarni ochib berishni o'rganadilar. Kritik diskurs tahlili metodlari yordamida ular ommaviy axborot vositalari matnlari, siyosiy nutqlar, reklama matnlari va ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlarni tanqidiy baholash qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Uchinchi komponent – metodlar va texnologiyalar tizimi – konkret pedagogik vositalar va usullarni belgilaydi. Sokrat suhbati texnikasi o'qituvchi ketma-ket savollar berish orqali talabalarni mustaqil xulosa chiqarishga olib keladi. Savollar yopiq emas, balki ochiq xarakterda bo'lib, talabalarni chuqur fikrlashga undaydi. Bu usul nafaqat javob topishni, balki to'g'ri savollar berishni ham o'rgatadi. Bahs va diskussiyalar dialogli ta'limning muhim shakli hisoblanadi. Talabalar adabiy-estetik, lingvistik yoki nazariy masalalarda turli nuqtai nazarlarni himoya qiladi, dalillar keltiradi, qarshi argumentlarni inkor etishga harakat qiladi. Bu jarayonda ular mantiqiy fikrlash, nutq madaniyati, boshqa fikrni hurmat qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Strukturali bahs formatlari – Karl Popper, britaniya parlamenti, Linkoln-Duglas formatları – talabalarni tashkiliy fikrlashga o'rgatadi.[6]

Muammoli vaziyatlar yaratish talabalarni intellektual qiyinchiliklar oldiga qo'yadi. Masalan, matnda ziddiyatli talqinlar mavjud bo'lganda, talabalar turli interpretatsiyalarni tahlil qilish, ularning asosliligini baholash va o'z pozitsiyasini shakllantirish zaruriyatiga duch keladi. Lingvistik paradokslar, til o'zgarishlarining sabablari, tarjima muammolari kabi masalalar ham samarali muammoli vaziyatlar yaratadi.

Loyihaviy faoliyat talabalarni uzoq muddatli tadqiqot olib borishga, turli manbalardan ma'lumot to'plashga, tahlil qilishga va yangi bilimlar sintez qilishga jalb qiladi. Individuual loyihalar talabaning shaxsiy qiziqishlarini rivojlantirsa, guruhli loyihalar hamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi. Loyiha natijalari konferensiyalar, seminarlar yoki nashr etish uchun tayyorlanadi, bu talabalarning mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Metakognitiv strategiyalarni o'qitish tanqidiy tafakkurning muhim jihatidir. Talabalar o'z fikrlash jarayonlarini kuzatish, qo'llayotgan strategiyalarni baholash, xatolar ustida ishlash va yondashuvlarni takomillashtirish texnikalarini o'rganadilar. "Ovoz chiqarib fikrlash" protokoli,

fikrlash kundaliklari, "men bilaman – men bilishni xohlayman – men bilib oldim" (KWL) jadvallari kabi vositalar qo'llaniladi.[7]

To'rtinchi komponent – baholash tizimi – tanqidiy tafakkur ko'nikmalarining rivojlanish dinamikasini kuzatish va baholashni ta'minlaydi. An'anaviy bilimlarga asoslangan testlardan farqli ravishda, bu yerda jarayonga, izlanishga, fikrlash sifatiga e'tibor qaratiladi. Kriteriallarga asoslangan baholash talabalar oldindan qaysi jihatlar bo'yicha baholanishini bilishlari, o'z ishlarini mustaqil baholashlari va takomillashtirishlari imkonini beradi.

Rubrikalar aniq mezonlar va darajalar (boshlang'ich, rivojlanayotgan, yetarli, yuqori) asosida tuziladi. Masalan, matn tahlili uchun rubrika quyidagi mezonlarni o'z ichiga olishi mumkin: matnni chuqur tushunish, yondashuvlarning xilma-xilligi, dalillarning asosliligi, mantiqiy izchillik, til va uslub, kreativlik. Har bir daraja aniq tavsif bilan ta'minlanadi. Hamkasblar tomonidan baholash (peer assessment) talabalarni bir-birlarining ishlarini baholashga jalb qiladi.[8] Bu jarayon nafaqat baholash ko'nikmalarini, balki tanqidiy o'qish, konstruktiv fikr bildirish va boshqalarning fikrlari asosida o'rganish qobiliyatini ham rivojlantiradi. O'zini-o'zi baholash (self-assessment) refleksiya qobiliyatini kuchaytiradi va talabalarni o'z o'rganish jarayoni ustidan mas'uliyat olishga undaydi. Portfolio usuli talabalarning butun semestr yoki o'quv yili davomida erishgan yutuqlarini ko'rsatadi. Portfolioga eng yaxshi ishlar, loyihalar, refleksiv yozuvlar, rivojlanish dinamikasi tahlili kiritiladi. Bu nafaqat yakuniy natijani, balki o'sish jarayonini ham ko'rsatadi.

**XULOSA.** Olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarni shakllantipish mumkin. Tanqidiy tafakkur zamonaviy ta'limning markaziy maqsadlaridan biri bo'lib, ayniqsa filologiya yo'nalishida muhim ahamiyatga ega. Bu ko'nikma talabalarni nafaqat matnlarni tushunish va tahlil qilish, balki mustaqil fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritish, asosli qarorlar qabul qilish va o'z pozitsiyasini himoya qilishga tayyorlaydi. Filologiya yo'nalishi talabalari tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan metodika kompleks yondashuv asosida qurilgan bo'lib, nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va tegishli ta'lim muhitini yaratishni birlashtiradi. Metodika to'rtta asosiy komponentdan – pedagogik-didaktik asos, mazmuniy qism, metodlar va texnologiyalar tizimi, baholash tizimi – tashkil topgan. Amaliy tajriba metodikaning yuqori samaradorligini tasdiqladi. Tajriba guruhi talabalari nazorat guruhiga nisbatan tanqidiy tafakkur ko'nikmalari, matn tahlili qobiliyati, argumentatsiya ko'nikmalari va metakognitiv strategiyalarni qo'llash bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli darajada yuqori natijalar ko'rsatdilar. Talabalarning motivatsiyasi, mustaqilligi va ijodiy yondashuvları sezilarli darajada oshdi. Dialogli ta'lim, muammoli o'qitish, loyihaviy faoliyat va metakognitiv strategiyalarni o'rgatish tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning eng samarali usullari ekanligi aniqlandi. Sokrat suhbati, bahs-munozaralar, muammoli vaziyatlar yaratish, kompleks loyihalar ustida ishlash va refleksiv amaliyotlar talabalarni faol fikrlashga, chuqur tahlilga va mustaqil xulosalar chiqarishga undaydi. Baholash tizimi tanqidiy tafakkur rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Dewey J. How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. – Boston: D.C. Heath, 1933.

2. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.

3. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: David McKay, 1956.

4. Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001.

5. Facione P.A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. – Millbrae: California Academic Press, 2015.

6. Lipman M. Thinking in Education. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.

7. Paul R., Elder L. The Miniature Guide to Critical Thinking: Concepts and Tools. – Foundation for Critical Thinking Press, 2019.

8. Rosenblatt L.M. The Reader, the Text, the Poem: The Transactional Theory of the Literary Work. – Southern Illinois University Press, 1994.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Xasanboyeva Nafisa Olimlonovna**
Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti
E-mail: xasanboyeva79@inbox.ru

## KOMUNIKATIV TURDAGI NUTQIY KLISHELARNING SINTAGMATIK TAHLILI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada kommunikativ turdagi nutqiy klishelarning sintagmatik xususiyatlari zamonaviy tilshunoslikning kommunikativ va kognitiv yondashuvlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda nutq jarayonida tez-tez uchraydigan va tayyor shaklda qo'llaniladigan klishelar faqat leksik yoki frazeologik birlik sifatida emas, balki muloqot jarayonining muayyan bosqichlarida qat'iy sintagmatik pozitsiyani egallovchi barqaror nutq bloklari sifatida talqin qilinadi. F. de Sossyurning sintagmatik munosabatlar haqidagi qarashlari asosida kommunikativ klishelarning nutqiy akt tarkibidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, LTAG (Lexicalized Tree-Adjoining Grammar) modeli asosida fransuz tilidagi kommunikativ klishelarning strukturaviy-sintagmatik tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalari kommunikativ klishelarning nutqda avtomatik faollashishi, pragmatik birlik sifatida ishlashi va diskursni tartibga soluvchi vosita ekanligini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:*** *nutqiy klishe, kommunikativ klishe, sintagmatik tahlil, nutqiy akt, diskurs, LTAG modeli, pragmatika, kognitiv tilshunoslik.*

**Хасанбойева Нафиса Олимлоновна**
Аспирант Андижанского государственного института иностранных языков

## СИНТАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕЧЕВЫХ КЛИШЕ КОММУНИКАТИВНОГО ТИПА

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются синтагматические особенности коммуникативных речевых клише в контексте современных коммуникативных и когнитивных направлений лингвистики. Коммуникативные клише анализируются не только как лексические или фразеологические единицы, но и как устойчивые синтагматические блоки, занимающие определённую позицию в структуре речевого акта. Теоретической основой исследования послужили идеи Ф. де Соссюра о синтагматических отношениях и линейной природе речи. На материале французского языка с опорой на модель LTAG (Lexicalized Tree-Adjoining Grammar) проводится структурно-синтагматический анализ коммуникативных клише. Полученные результаты показывают, что коммуникативные клише функционируют как прагматические единицы, автоматически активизируемые в речи и выполняющие функцию организации и регулирования дискурса.*

***Ключевые слова:*** *речевое клише, коммуникативное клише, синтагматические отношения, речевой акт, дискурс, LTAG, прагматика, когнитивная лингвистика.*

**Khasanboyeva Nafisa Olimlonovna**
**Doctoral student of Andijan State Institute of Foreign Languages**

## SYNTAGMATIC ANALYSIS OF SPEECH CLICHES OF COMMUNICATIVE TYPE

***Abstract:*** *This article examines the syntagmatic properties of communicative speech clichés within the framework of modern communicative and cognitive linguistics. Communicative clichés are analyzed not merely as lexical or phraseological units, but as stable syntagmatic blocks occupying a fixed position in the structure of a speech act. The study is theoretically grounded in Ferdinand de Saussure's concept of syntagmatic relations and the linear nature of speech. Based on French language data, a structural and syntagmatic analysis of communicative clichés is conducted using the LTAG (Lexicalized Tree-Adjoining Grammar) model. The findings demonstrate that communicative clichés function as pragmatic units that are automatically activated in discourse and play a significant role in organizing and regulating communicative interaction.*

***Keywords:*** *speech cliché, communicative cliché, syntagmatic analysis, speech act, discourse, LTAG model, pragmatics, cognitive linguistics.*

## Kirish va dolzarbligi

Zamonaviy tilshunoslikda nutqiy faoliyatni o‘rganish tobora kommunikativ va kognitiv yo‘nalishlar bilan boyib bormoqda. Nutq jarayonida tez-tez uchraydigan va tayyor shaklda qo‘llanadigan nutqiy klishelar muloqotning samaradorligini ta’minlovchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kommunikativ turdagi klishelar (salomlashuv, xayrlashuv, murojaat, minnatdorchilik va boshqalar) muloqotning muayyan bosqichlarida qat’iy sintagmatik pozitsiyani egallaydi.

Shu nuqtai nazardan, nutqiy klishelarni faqat leksik yoki frazeologik birlik sifatida emas, balki kommunikativ vaziyat bilan chambarchas bog‘langan sintagmatik birlik sifatida o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu maqolaning maqsadi — kommunikativ turdagi nutqiy klishelarning sintagmatik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning kognitiv va funksional asoslarini yoritishdan iborat.

Kommunikatsiya jarayonida, ayniqsa suhbat boshida, aloqa o‘rnatishning asosiy vositasi sifatida ishlatiladigan nutq birliklari ko‘pincha maqsadsiz yoki mazmunsizdek tuyuladi. Biroq suhbatdoshlar bu birliklarning mazmunidan ko‘ra, ularni tayyor sintagmatik blok yoki model sifatida qabul qiladi va qo‘llaydi. Natijada, kommunikativ klishelar muloqotning boshlang‘ich bosqichida ishlatiladigan, ma’nosi ikkinchi darajali bo‘lgan, ammo sintagmatik jihatdan aniq va barqaror nutq bloklari sifatida namoyon bo‘ladi.

## Metodlar va o‘rgalinish darajasi

Tilshunoslikda til tizimini o‘rganishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sintagmatik tahlil bo‘lib, u til birliklari o‘rtasidagi gorizontal bog‘lanishlar va ketma-ketliklarni o‘rganadi. Sintagmatik yondashuvga ko‘ra, nutq jarayonida birliklar o‘zaro bevosita ulanib, tayyor bloklar yoki shablonlar hosil qiladi. F. de Sossyur til tizimida sintagmatik va paradigmatik munosabatlarni ajratib ko‘rsatib, nutqning chiziqli xususiyatga egaligini ta’kidlaydi.

Mazkur tadqiqotda kommunikativ klishelarni tahlil qilishda quyidagi metodlar qo‘llanildi: tavsifiy-tahliliy metod, qiyosiy metod, strukturaviy-sintagmatik modellashtirish, kommunikativ-pragmatik, kognitiv hamda formal modellashtirish bo‘lgan LTAG (Lexicalized Tree-Adjoining Grammar) modeli asosidagi strukturaviy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Mavzu bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, klishelar masalasi V.M. Burunskiy, S.G. Ter-Minasova, A.T. Ongarbaeva, V.V. Karnyushina va boshqa olimlar tomonidan turli tillar misolida o‘rganilgan. Biroq kommunikativ klishelarning aynan sintagmatik jihatdan tahlili va ularning nutq jarayonidagi avtomatik faollashuvi masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida dolzarb bo‘lib qolmoqda.Shu bilan birga sintagmatik tahlilning nazariy asoslari B. Schwischay va S. Kahane ishlarida yoritilgan bo‘lib, ular til birliklarining ketma-ket bog‘lanishini modellashtirish imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi.

## Tadqiqot natijalari

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kommunikativ klishelar sintagmatik jihatdan barqaror birikmalar bo‘lib, ular qat’iy ketma-ketlikda ishlatiladi va nutq jarayonida avtomatik ravishda faollashadi. Suhbatdoshlar bu birikmalarni alohida so‘z sifatida emas, balki butun sintagmatik blok sifatida qabul qiladi va qo‘llaydi.

Shu nuqtai nazardan, klishelar leksik jihat mustaqil so‘zlar yoki morfemalardan tashkil topgan bo‘lsa ham, ular tayyor kombinatsiya (so‘z birikmasi) shaklida mavjud. Sintaktik jihatdan, yaxlit sintagmatik birlik sifatida yoki zarur bo‘lganda ajralgan qismlar orqali ishlatilishi mumkin, ammo har doim ketma-ketlik va barqaror bog‘lanishga ega bo‘ladi.

Natijada, kommunikativ klishe, bu muloqotning boshlang‘ich bosqichida ishlatiladigan, ma’nosi ikkinchi darajali bo‘lgan, lekin sintagmatik jihatdan aniq va barqaror nutq bloklaridir. Ular suhbatdoshlarni asosiy aloqa shakliga o‘tishga tayyorlaydi va nutq jarayonida avtomatik ravishda faollashadi.

Klisheli formulalarning leksik darajasiga ko‘ra nominativlik funksiyani, sintaksis darajasida esa kommunikativ funksiyani bajaradi[5].

Erkin shakllar va so‘z birikmalaridan farqli o‘laroq, ta’sir ko‘rsatish funksiyasini bajaruvchi klishelar, barqaror birliklarning o‘ziga xos turi sifatida, kommunikativ funksiyaga, ya’ni xabar berish funksiyasiga yo‘naltiriladi[6]. Bundan tashqari klisheli til vositalaridan foydalanish kommunikativ voqea ishtirokchilariga muloqotning yo‘nalishini to‘g‘ri belgilashga, strategiyani tuzishga va bir-birlarining til kodlarini buzmaslikka yordam beradi. Tahlil qilinayotgan kontekstda klishelar nutqiy o‘zaro aloqani tartibga soladi va diskurs deiktiklar rolini bajaradi. Ularning yordamida kommunikantlar suhbatni boshlaydilar, davom ettiradilar va yakunlaydilar [3].

Tilshunoslikda til tizimini o‘rganishning asosiy yo‘nalishlaridan biri **sintagmatik tahlil** bo‘lib, u til birliklari o‘rtasidagi **gorizontal bog‘lanishlar va ketma-ketliklarni** o‘rganadi. Sintagmatik yondashuvga ko‘ra, nutq jarayonida birliklar o‘zaro bevosita ulanib, **tayyor bloklar yoki shablonlar** hosil qiladi. Shu nuqtai nazardan, **kommunikativ klishe**, bu sintagmatik birliklarning **ijtimoiy va nutqiy jihatdan barqaror shakli**dir.

Kommunikativ klishelar ko‘pincha muloqotning boshlang‘ich bosqichida ishlatiladi va suhbatdoshlar uchun **aloqa o‘rnatishga tayyorgarlik vositasi** sifatida xizmat qiladi. Bunday klishelar nutqda avtomatik ravishda faollashadi, ular ma’nosini alohida yaratishga hojat qolmaydi, lekin **sintagmatik tartibda qat’iy ishlaydi**. Masalan, fransuz tilidagi *s’il*

*vous plaît* (iltimos) yoki o‘zbek tilidagi *rahmat katta*, *xayrli tong* iboralari nutqning tayyor, barqaror birliklaridan hisoblanadi.

Sossyur fikriga ko‘ra, nutq jarayonida birliklar **fonemalardan (eng kichik birliklar) tortib, so‘zlar va gaplargacha** ketma-ketlikda joylashadi. Sintagmatik tahlil bu ketma-ketlikni o‘rganadi, klishelar esa shu ketma-ketlikning **ijtimoiy mustahkamlangan va nutqda avtomatik ishlatiladigan shakli** hisoblanadi. Shu bois, har bir kommunikativ klishe til tizimidagi sintagmatik modelning **tayyor blok sifatidagi ko‘rinishi** sifatida qaraladi.

Natijada, sintagmatik tahlil va kommunikatvli klishe o‘rtasida quyidagi bog‘lanish mavjud: sintagmatik yondashuv til birliklarining **gorizontal va ketma-ket bog‘lanishlarini** o‘rganadi, klishelar esa ushbu bog‘lanishlarning **nutqda barqaror, avtomatik ishlatiladigan shakli** sifatida paydo bo‘ladi. Shu bilan, muloqot jarayonining boshlanishida ishlatiladigan klişelar suhbatdoshlarni **asosiy aloqa shakliga o‘tishga tayyorlaydi** va nutq jarayonini silliq qiladi.

Sintagmatik tahlil jarayonlari, F de Sossyurning fikricha, avvalo til ketma-ketliklarini bo‘laklarga ajratish va ularning tarkibini aniqlash usullaridan, shuningdek, bir birlikning ikkinchisiga ta’sirini yoki ularning o‘zaro ta’sirini aniqlashning maxsus usullaridan iborat bo‘ladi[4].

Klishelarning sintagmatik jihatidan bog‘lanishi barqaror bo‘lib, nutqqa yoki kontekstga qo‘shilishi bilan bog‘liqlik tomonlari o‘rganilganda, nominativ xarakterga ega klishelar va kommunikativ turdagi nutqiy klishelarga [1] ajratilib, bog‘lanish darajalari: “nominativ xarakterdagi klishelardan asosan monologik yozma nutqda keng qo‘llanilsa, kommunikativ turdagi klishelar esa og‘zaki dialogik nutqda qo‘llaniladi, alohida formulalarni, masalan, xat janrida maktubning boshi va oxirida qo‘llaniladiganlarini bundan mustasno qilish mumkin. Shunga ko‘ra, biz ajratgan ikki turdagi nutqiy klishelar korpusiga semantik va sintaktik jihatdan turlicha bo‘lgan birliklar kiradi. Sintagmalar ,

1. Otli sintagma (Le syntagme nominal) [SN]
2. Olmishli sintagma (Le syntagme pronominal) [SPro]
3. Fe’lli sintagma (Le syntagme verbal) [SV]
4. Ravishli sintagma (Le syntagme adverbial) [SAdv]
5. Sifatli sintagma (Le syntagme adjectival) [SAdj]
6. Predlogli sintagma (Le syntagme prépositionnel) [Sprép] [8]turlariga ajraladi.

V.M Burunskiyning fikricha kommunikativ xarakterdagi nutqiy klishelarda esa oddiy gap strukturasi ega birikmalar ustunlik qiladi. Bu esa ushbu turdagi klishelarning funksional vazifasi bilan bog‘liq bo‘lib, ular voqea, hodisa yoki vaziyatni ixcham va lo‘nda shaklda tavsiflash uchun xizmat qiladi [2].

Kommunikativ turdagi nutqiy klishelar sintagmatik jihatdan **nutqiy aktning bir qismi sifatida** ishlaydi**,** mustaqil gap sifatida qo‘llaniladi, matndagi boshqa gaplardan grammatik jihatdan ajralib turadi, boshqa gaplarga sintagmatik jihatdan (ya’ni bog‘lanish nuqtayi nazaridan) unchalik qattiq bog‘lanmaydi ya’ni **ularning sintagmatik aloqalari zaifroq hisoblanadi.** Shunday qilib, matndagi asosiy obrazli fikrni ifodalovchi nominativ klishelar, **kommunikativ klishelarning** ishlatilgan gap tarkibidan ajralib mustaqil gap sifatida qo‘llana olishini, boshqa gaplar bilan kuchli sintagmatik bog‘lanishga muhtoj emasligi bilan farqlanishini ko‘rishimiz mumkun. **Shuning uchun ular matnda erkinroq harakat qiladi.**

Tilshunislikda sintagmatik tahlillar turli shakillar orqali olib borilgan, ular orasidan Xokett qutisi (la boîte de Hockett), sintagmatik daraxt (l’arbre syntagmatique), yorliqlangan qavslashtirishni (la parenthétisation étiquetée) [9] va LTAG modeli [7] (Lexicalized Tree-Adjoining Grammar - leksikallashtirilgan daraxt qo‘shuvchi grammatika) larni tilga olishimiz mumkin.

LTAG modeli asosida kommunikativ klishelarning sintagmatik tahlillar olib borilib quyidagi formulalar aniqlandi:

[SN + V + SP] Tout est pour le mieux ;
[SN + V + Pron] Tout s’en mêle ;
[**SN + V + Neg + Adv**] On n’en sort pas ;
[SN + V (interr)] Ce qui signifie? kabi shakllari.
[ SN + V + Adj]c’est + adj : C’est parfait; C’est normal;
[ SN + V + SN] c’est + nom : C’est le bouquet; C’est le moment;
[ SN + V + Adj] c’est + participe passé: C’est convenu!; C’est promis;
[ SN + V + Adv] Tenez-vous bien!;
[SN] Diable!, Sot!, Tableau!, Chapeau!;
SN [Det quelle + N] Quelle affaire!, Quelle chance!;
SN[N+SP] Parole d’honneur!, Danger de mort!;
[SP + SN +V] Si tu veux, Si ça te dit, Si le coeur vous en dit;
[SN + V + SP] Ça dépend, C’est selon, C’est selon et ça dépend. ;
[SN+N] D’accord ! aniqlandi.

LTAG modeli asosida o‘tkazilgan tahlillar natijasida kommunikativ klishelarning yadrosi ko‘pincha fe’l (être, aller, dire, promettre) yoki kommunikativ markerlardan (oui, d’accord, bien sûr) iborat ekani aniqlandi. Elementar daraxt markazida S (gap) strukturasining joylashishi kommunikativ klishelarning butun gap sifatida nutqiy vazifani bajarishini tasdiqlaydi.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, kommunikativ turdagi nutqiy klishelar zamonaviy tilshunoslikda nutqiy faoliyatni tahlil qilishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Ular faqat tayyor til shakllari emas, balki muloqot jarayonining muayyan bosqichlarida avtomatik ravishda faollashadigan, ijtimoiy jihatdan mustahkamlangan va sintagmatik tartibga ega bo‘lgan nutqiy bloklardir. Mazkur tadqiqotda kommunikativ klishelarning aynan sintagmatik xususiyatlari markaziy o‘ringa qo‘yildi va ular til tizimidagi gorizontal bog‘lanishlarning real nutqdagi ko‘rinishi sifatida talqin qilindi.

Syntagmatik yondashuv asosida olib borilgan tahlil kommunikativ klishelarning barqaror tuzilishga ega ekanini, ularning qat’iy ketma-ketlikda ishlatilishini va nutqda tayyor model sifatida qabul qilinishini tasdiqladi. F. de Sossyur tomonidan ilgari surilgan sintagmatik ketma-ketlik nazariyasi doirasida klishelar fonemadan tortib, gap darajasigacha bo‘lgan birliklar tizimida ijtimoiy jihatdan mustahkamlangan tayyor segment sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi.

LTAG modeli asosida o‘tkazilgan tahlillar esa kommunikativ klishelarning struktur jihatdan ko‘pincha butun gap (S) darajasida qurilishini ko‘rsatdi. Ularning yadrosi sifatida fe’l yoki kommunikativ markerlar ishtirok etib, qo‘shimcha sintagmalar (SN, SP va boshqalar) orqali kengayishi mumkinligi aniqlandi. Bu holat kommunikativ klishelarning nafaqat grammatik, balki pragmatik birlik sifatida ham faol ishlashini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, kommunikativ turdagi nutqiy klishelarni sintagmatik birlik sifatida o‘rganish nutqiy faoliyatni chuqurroq anglash, muloqot mexanizmlarini izohlash hamda til birliklarining real diskursdagi funksional xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot natijalari kelgusida nutqiy klishelarni pragmatika, diskurs tahlili va kognitiv tilshunoslik doirasida yanada kengroq tadqiq etish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1.Бурунский В.М. Клише: языковые характеристики, функционирование и типология (на материале французского и английского языков) Дис. ... канд. филол. наук: 10.02.19. -Курск:.2009 г. -С.88-90.

2.Бурунский В.М. Структурные типы речевых клише французского и английского языков. Электронный научный журнал Курского государственного университета. – Курск:. 2014. -С.1.

3.Карнюшина В. В. Сопоставительный анализ английских и русских этикетных клише (на материале художественных текстов). дис. ... канд. филол. Наук. – Москва:.2011 г. -С.90.

4.Лингвистический энциклопедический словарь**.** HTTPS://TAPEMARK.NAROD.RU/LES/452C.HTML

5.Онгарбаева. А. Т. Синергетическая модель формирования языковой личности студента-финансиста (на примере усвоения клишированных формул русской профессиональной речи) дис. ... доктора философии (PhD): 6D011800 Русский язык и литература. – Алматы:.2021. – С.78.

6.Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. Учеб. Пособие. —М.: «Слово / Slovo», 2000. — С.239.

7.Kahane S. Les trois dimensions d’une modélisation formelle de la langue : syntagmatique, paradigmatique et sémiotique. Revue TAL: traitement automatique des langues. -Université Paris Nanterre :.2015, 56 (1). -P.50.

8.Ogechukwu N.O. Analyse syntagmatique de la structure des phrases impératives en français et en igbo. Journal of Moderne European.Languages and Literature (JMEL). -All Rights Reserved:.2018. -P.181.

9.Schwischay B. L’analyse sintagmatique. 2001. -P.2. www.home.uniosnabrueck.de/bschwisc/archives/ syntagmatique. pdf.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Таджиматова Гулнорахон Шавкатовна**
Андижанский государственный университет
gulnorakhontadjimatova@gmail.com

## ПЕРЕВОД ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК С ПРАГМАТИЧЕСКИМИ ФУНКЦИЯМИ.

***Абстракт:*** *В статье рассматривается понятие прагматики в лингвистике с точки зрения различных исследователей, уделяющих внимание её роли в коммуникации и интерпретации речевых актов. Прагматика трактуется как область, изучающая соотношение языковых выражений и их употребления в конкретных ситуациях, а также механизмы воздействия на адресата. Особое внимание уделяется прагматическим функциям пословиц и поговорок, которые выступают не только как элементы культурного наследия, но и как эффективные средства речевого воздействия. Анализируется их способность привлекать внимание, концентрировать смысл, экономить языковые средства и формировать установки на адаптацию к социальным нормам. Подчёркивается значимость использования пословиц и поговорок в методике преподавания иностранного языка, где они способствуют развитию коммуникативной компетенции и углублению межкультурного понимания.*

***Ключевые слова:*** *прагматика, пословицы и поговорки, прагматические функции, привлечение внимания и воздействие, языковая экономия (компрессия),адаптация к социальным нормам.*

**Tadjimatova Gulnoraxon Shavkatovna**
Andijon davlat universiteti

## MAQOL VA GAPLARNING PRAGMATIK FUNKSIYALAR BILAN TARJIMASI.

***Abstrakt****: Ushbu maqolada olimlarning pragmatika haqidagi ta'riflari va uning muloqotdagi ahamiyati yoritiladi. Pragmatika tilning real vaziyatlarda qanday ishlashini o'rganadigan soha sifatida tushuniladi; u ma'no, kontekst va so'zlarning tinglovchiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Alohida e'tibor maqolda xalq maqollari va matallarga qaratilgan bo'lib, ular nafaqat madaniy meros sifatida, balki kuchli ta'sir vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Maqollar va matallar diqqatni tortadi, ma'noni ajratib ko'rsatadi, axborotni ixchamlashtiradi va ijtimoiy me'yorlarga hurmatni rag'batlantiradi — bularning barchasi yorqin va esda qolarli shaklda ifodalanadi. Shuningdek, maqolada ushbu funksiyalarning chet tillarini o'qitishda qo'llanishi ko'rsatiladi, bu esa o'quvchilarga kuchliroq kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish va madaniy kontekstni chuqurroq anglashga yordam beradi.*

***Kalit so'zlar :*** *pragmatika, maqol va matallar,pragmatik funksiyalar,diqqatni jalb qilish va ta'sir,til qisqartmasi (kompressiya),ijtimoiy me'yorlarga moslashuv.*

**Tadzhimatova Gulnorahon Shavkatovna**
Andijan State University

## TRANSLATION OF PROVERBS AND SAYINGS WITH PRAGMATIC FUNCTIONS.

***Abstract:*** *This article explores how scholars define pragmatics and why it matters in communication. Pragmatics is understood as the study of how language works in real situations, focusing on meaning, context, and the effect words have on listeners. Special attention is given to proverbs and sayings, which serve not only as cultural treasures but also as powerful tools of influence. They capture attention, highlight meaning, compress information, and encourage respect for social norms—all in a vivid and memorable way. The paper also shows how these functions can be applied in teaching foreign languages, helping learners build stronger communicative skills and deepen their understanding of cultural context.*

***Keywords:*** *pragmatics, proverbs and sayings ,pragmatic functions, attention and influence, language economy (compression),adaptation to social norms.*

Пословицы и поговорки, как разновидность народной речи, представляют собой компактные дискурсивные единицы, в которых семантика тесно переплетается с прагматикой: предписаниями, оценками, моралью и коммуникативными стратегиями. Практика показывает, что даже формально точный перевод нередко

теряет коммуникативную силу оригинала — наставление перестаёт убеждать, сарказм — звучать, а нравоучение — восприниматься. В контексте сравнительного литературоведения и переводоведения важно учитывать не только лексико-семантическую эквивалентность, но и сохранение прагматической функции высказывания в языке перевода.

Джейкоб Л. Мей, датский профессор лингвистики голландского происхождения, специализирующийся в области прагматики, определяет прагматику как изучение языка с точки зрения его пользователей, уделяя особое внимание:

- выбору, который делают говорящие в процессе коммуникации;
- ограничениям, с которыми они сталкиваются в социальном взаимодействии;
- и влиянию, которое их использование языка оказывает на других.

В своей книге «Прагматика: введение» Мей подчеркивает, что прагматика — это не только абстрактные правила или структуры, но и реальное использование языка в жизни — то, как контекст, намерения и взаимодействие формируют значение.[2:64]

Он также вводит понятие прагматических актов, которые представляют собой индивидуальные, социально обусловленные действия, совершаемые с помощью языка. Эти акты отражают то, как говорящие ориентируются в значении, власти и социальных нормах в повседневном общении.[1:211] Проще говоря: «Прагматика — это то, что люди делают с языком, и то, как язык влияет на людей».

Бахтин, русский философ и литературный критик, занимавшийся философией языка, этикой и литературной теорией не был прагматиком в узком лингвистическом смысле, но его идеи оказали глубокое влияние на русскую прагматическую мысль.

Он ввел понятие диалогизма — идею о том, что любой язык по своей сути является диалогическим и формируется под влиянием социального взаимодействия. «Высказывание никогда не является только отражением или выражением чего-то вне его уже существующего, данного и готового. Оно всегда создает нечто до него никогда не бывшее, абсолютно новое и неповторимое, притом всегда имеющее отношение к ценности (к истине, к добру, красоте и т. п.). Но нечто созданное всегда создается из чего-то данного (язык, наблюденное явление действительности, пережитое чувство, сам говорящий субъект, готовое в его мировоззрении и т. п.). Все данное преображается в созданном» [3, с. 330].

Его теория речевых жанров подчеркивала, как различные контексты (например, повседневная речь и академический дискурс) влияют на использование языка. Бахтин сосредоточился на идеологических, исторических и культурных силах в коммуникации.

Прагматика,изучающая отношение знаков к людям,которые ими пользуются,показывает, зачем была сказано данная фраза, что должно последовать далее. Прагматика в целом определяется как аспект лингвистике,изучающий отношение между высказывание,говорящим и ситуацией[6].

Узбекские лингвисты рассматривают прагматику как новую область эмпирических исследований, которая изучает использование языка в его социальном и культурном контексте, уделяя особое внимание взаимодействию между говорящим, слушателем и ситуацией[4:660].Исследования в области узбекской прагматики сосредоточены на том, как на языковой выбор влияют нелингвистические факторы, такие как намерения говорящего, социальные отношения, правила коммуникации и культурные нормы. К конкретным областям исследования относятся прагматическое использование пословиц, политические речи, формы запросов и проблемы, связанные с прагматической эквивалентностью в переводе.

Так что же такое прагматика в пословицах и поговорках ?

Прагматика в пословицах и поговорках проявляется в их способности выполнять различные коммуникативные функции:

а) привлечение внимания; Пословицы и поговорки, будучи включёнными в нейтральный контекст, сами по себе выделяются благодаря образности, обобщённости смысла и дидактической направленности. Их способность концентрировать внимание, формировать условия для целенаправленного восприятия и тем самым усиливать речевое воздействие может эффективно использоваться в практике преподавания иностранного языка.

б) акцентуация(то есть выделение) ключевой информации; Эта функция напрямую связана с привлечением внимания, поскольку акцентирует более важные и существенные особенности, которые адресат воспринимает в образной форме.

в) сжатие и передача смысла, а также влияние на адресата; Функция компрессии демонстрирует принципы языковой экономии и выступает механизмом сокращения объёма передаваемой информации. При этом содержание, редуцированное в процессе компрессии, в устной речи может реализовываться в иной форме выражения.

Данные функции в той или иной степени присущи пословицам и поговоркам как "прагматически заряженным" высказываниям[5].

Также следует отметить, что эти устойчивые языковые единицы используются для выражения народной мудрости, оценки ситуации или передачи настроения через образные, сжатые высказывания, которые помогают собеседнику быстрее понять и принять передаваемую информацию. [5:170]

"A stitch in time saves nine.- Один стежок, сделанный вовремя, стоит девяти" это буквальный перевод, который сохраняет образ и смысл.

Английская пословица использует простой швейный образ: если зашить небольшую дырку сразу (одним стежком), позже не потребуется много стежков. В переносном смысле она призывает к своевременным действиям и предостерегает от промедления, показывая, что небольшие ранние вмешательства эффективнее крупных отложенных исправлений. Фраза встречается в английских сборниках пословиц с XVIII века , а литературные и историко-фразеологические источники отмечают, что выражение уже было зафиксировано в печати в начале 1700-х годов и долгое время использовалось как поучение, побуждающее к оперативности и бережливости. В русском чаще используют выражения о своевременности и предупреждении проблем "Лучше предотвратить, чем лечить" — формулирует ту же идею: предупредить проблему проще, чем исправлять последствия или "Куй железо, пока горячо" — акцент на своевременном действии; близко по прагматике (действуй вовремя). ; в узбекской традиции идея своевременного вмешательства часто выражается через пословицы о труде, времени и предусмотрительности: "Temirni qizig'ida ur" (узб. вариант «Куй железо, пока горячо») — призыв действовать в подходящий момент;"Erta turgan — ishni ko'radi" — поощряет оперативность и трудолюбие; близко по прагматике (раннее действие даёт преимущество).

"Birds of a feather flock together" - Буквальный перевод: "Птицы одного пера собираются вместе". Пословица говорит о социальных связях: люди, похожие друг на друга по взглядам, образу жизни или интересам, естественно тянутся друг к другу и образуют группы. Образ птиц одного оперения, собирающихся вместе, делает наблюдение наглядным и легко запоминающимся; таким образом сложное социальное явление сжато передаётся через метафору. В русском и узбекском чаще употребляют пословицы близкие по смыслу и по прагматике, "Скажи мне, кто твой друг, и я скажу, кто ты", "Do'stingni ayt,kim ekanligingni aytaman" ,где подчёркивается, что окружение отражает личность.

Пословица "When in Rome, do as the Romans do" советует подстраиваться под местные обычаи и правила, когда вы находитесь в чужом месте: это помогает избежать конфликтов и облегчает взаимодействие с окружающими. Образ Рима подчёркивает, что адаптация касается не только формального соблюдения правил, но и уважения к культурным нормам. Русский вариант данной пословицы С волками жить по волчьи выть-представлена с немного негативным оттенком предупреждения ,побуждением к бдительности. В чужой монастырь со своим уставом не ходят» — самый распространённый и стилистически нейтральный эквивалент; подчёркивает, что неуместно навязывать свои правила в чужом месте. Узбекская версия Har gulning o'z isi bor,har elning o'z tusi bor указывает на уникальность страны и народа,его обычаи и традиции, имеет более описательный и гибкий оттенок.

Все предложенные эквиваленты реализуют одну и ту же прагматическую функцию, заключающуюся в побуждении к адаптации и соблюдению местных норм, выражается в предельно лаконичной и образной форме, что усиливает его воздействие на адресата.

Проведенное исследование подтверждает, что пословицы и поговорки являются важными носителями прагматической информации и выполняют значимую коммуникативную функцию в речи. Их ценность заключается в способности воздействовать на адресата, формировать оценки и направлять поведение в соответствии с социальными и культурными нормами.

Анализ примеров показывает, что при переводе ключевым фактором выступает сохранение прагматической функции, а не буквальной формы выражения. Прагматический подход позволяет обеспечить функциональную эквивалентность и сохранить коммуникативную эффективность высказывания.

Результаты исследования могут быть использованы в переводоведении и методике преподавания иностранных языков, способствуя развитию коммуникативной компетенции и межкультурного понимания.

**Список литературы :**

1. Джейкоб Л. Мей .Прагматика: введение. Blackwell Publishing,2001

2. Nivis Deda. The role of Pragmatics in English Language Teaching. Pragmatic Competence. Academic Journal of Interdisciplinary Studies 2(4),May 2013

3. Бахтин, М. М. 1961 год. Заметки / М. М. Бахтин // Бахтин, М. М. Собр. соч. В 7 т. Т. 5. - М. : Рус. слов., 1997. - С. 329-363.

4. Ziyodaxon Qodirova. Proverbs as pragmatic tools in uzbek and english discourse: a comparative analysis. Journal of Applied Science and Social Science 03/13/2025

5. Моисеева И.Ю., Чудина Е.В. Прагматические функции пословиц и поговорок.- ВЕСТНИК ОГУ 11/2004.

6. Антонова М. К. Пословица как фрагмент поля побудительности в английском языке. -Челябинск, 1979-158 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Jumaboyev Oybek**
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoronti
oybekjumaboyevtdshu@gmail.com
https://orcid.org/0000-0002-2289-1479
f. f. n, dotsent, Yo‘ldoshev Ulug‘bek, taqrizi asosida

**UDK 81'25:81'373**

## OG‘ZAKI TARJIMA JARAYONIDA LEKSIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O‘RNI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada tarjima jarayonida leksik va frazeologik birliklarning tutgan o‘rni va ahamiyati yoritib berilgan. Leksik birliklar – so‘z va so‘z birikmalari tarjimada ma’no va mazmunni to‘liq yetkazishda asosiy vosita hisoblanadi. Frazeologik birliklar esa, o‘z navbatida, matnga badiiylik, milliy rang-baranglik va obrazlilik bag‘ishlaydi. Maqolada ushbu birliklarning tarjimada to‘g‘ri va aniq qo‘llanishi, ularga ekvivalent topish muammolari va milliy xususiyatlarni saqlab qolish masalalari haqida so‘z yuritiladi. Tarjima amaliyotida leksik va frazeologik birliklarning to‘g‘ri ishlatilishi tarjimaning sifatiga va qabul qiluvchining matndan oladigan taassurotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *leksik birlik, frazeologik birlik, og‘zaki tarjima, tarjima jarayoni, ekvivalentlik, milliy xususiyat, ma’no o‘tkazish, badiiylik, tarjima sifat.*

**Жумабоев Ойбек**
докторант Ташкентского государственного университета востоковедения

## РОЛЬ ЛЕКСИЧЕСКИХ И ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПРОЦЕССЕ УСТНОГО ПЕРЕВОДА

***Аннотация.*** *В данной статье раскрывается роль и значение лексических и фразеологических единиц в процессе перевода. Лексические единицы — слова и словосочетания — являются основным средством точной передачи смысла и содержания при переводе. Фразеологические единицы, в свою очередь, придают тексту образность, художественную выразительность и национальный колорит. В статье рассматриваются вопросы корректного и адекватного использования данных единиц в переводе, проблемы подбора эквивалентов, а также сохранения национальной специфики. Отмечается, что правильное применение лексических и фразеологических единиц в переводческой практике непосредственно влияет на качество перевода и восприятие текста реципиентом.*

***Ключевые слова:*** *лексическая единица, фразеологическая единица, устный перевод, переводческий процесс, эквивалентность, национальная специфика, передача значения, художественность, качество перевода*

**Jumaboyev Oybek**
PhD student of Tashkent State University of Oriental Studies

## THE ROLE OF LEXICAL AND PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE PROCESS OF ORAL INTERPRETING

***Abstract.*** *This article highlights the role and significance of lexical and phraseological units in the process of translation. Lexical units, including words and word combinations, serve as the primary means of accurately conveying meaning and content in translation. Phraseological units, in turn, add expressiveness, imagery, and national coloring to the text. The article discusses the correct and precise use of these units in translation, the challenges of finding appropriate equivalents, and the issues related to preserving national characteristics. It is emphasized that the proper use of lexical and phraseological units in translation practice directly affects the quality of translation and the recipient’s perception of the text.*

**Keywords:** *lexical unit, phraseological unit, oral interpreting, translation process, equivalence, national characteristics, transfer of meaning, expressiveness, translation quality*

**Kirish**. Tarjima - bu ikki yoki undan ortiq tillar o‘rtasida ma’no va mazmunni to‘liq va aniq yetkazish san’ati. Tilning boyligi, ifoda uslubi va madaniyati asosan leksik va frazeologik birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli tarjima jarayonida ushbu birliklarning to‘g‘ri va samarali qo‘llanilishi tarjima sifatini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb

etadi. Ogʻzaki tarjima zamonaviy kommunikatsiya jarayonida muhim oʻrin tutib, turli tillar va madaniyatlar oʻrtasidagi muloqotni taʼminlaydi. Ushbu jarayonda maʼno va mazmunning toʻgʻri, aniq hamda taʼsirchan yetkazilishi tarjimaning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, leksik va frazeologik birliklarning toʻgʻri qoʻllanishi ogʻzaki tarjimaning sifatini belgilovchi muhim omillardan sanaladi. Leksik birliklar axborotning asosiy mazmunini ifodalasa, frazeologik birliklar nutqqa obrazlilik, emotsionallik va milliy rang-baranglik bagʻishlaydi.

Ogʻzaki tarjima jarayonida ushbu birliklarni adekvat yetkazish tarjimon oldiga murakkab vazifalarni qoʻyadi. Vaqtning cheklanganligi, tezkor fikrlash zarurati va madaniy tafovutlar tarjimaning aniqligiga taʼsir koʻrsatishi mumkin. Shu sababli leksik va frazeologik birliklarning ogʻzaki tarjimadagi oʻrni va ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Asosiy qism**

Leksik birliklar – soʻz va soʻz birikmalari – matnning asosiy semantik tarkibiy qismlaridir. Tarjimon har bir soʻzning maʼnosini, uslubiy rangini va kontekstda beradigan nozik maʼno farqlarini chuqur anglab, maqsad tilida aniq va mos ekvivalent tanlashi kerak. Bu jarayonda sinonimlar, antonimlar va koʻp maʼnolilik hodisalari hisobga olinadi.

Tarjima jarayonida leksik va frazeologik birliklarning oʻrni tilshunoslikda juda muhim ahamiyatga ega, chunki har bir til oʻziga xos leksik va frazeologik tizimga ega boʻlib, bu tizimlarning boshqa tillarga toʻgʻri tarjimasi murakkab vazifa hisoblanadi. Tarjima jarayonida leksik va frazeologik birliklar tarjimaning aniqligi, ifoda kuchi va madaniy konteksti bilan bevosita bogʻliqdir. Quyida leksik va frazeologik birliklarning tarjimadagi oʻrni, muammolari va ularni tarjima qilish usullari haqida batafsil maʼlumot beriladi.

Leksik birliklar — bu tilning eng kichik maʼnoli birligi boʻlib, soʻzlar, atamalar, frazalar va soʻz birikmalarini oʻz ichiga oladi. Tarjimada leksik birliklarning oʻrni katta, chunki ular maʼlum bir madaniyat, til va kontekstdagi maʼlumotlarni ifodalaydi. Leksik birliklarning tarjimasi tilda maʼlum bir soʻz yoki iboraning aniq ekvivalentini topishni talab qiladi.

Leksik birliklarning tarjima jarayonidagi quyidagi muammolar uchraydi:

Maʼno farqi - har bir soʻzning maʼnosi va uning boshqa tilga qanday tarjima qilinishini aniqlashda maʼno farqlari yuzaga kelishi mumkin. Baʼzi soʻzlarning bir nechta maʼnolari bor, va bu maʼnolarni tanlashda kontekst va til xususiyatlari muhim rol oʻynaydi. Ogʻzaki tarjimada leksik va frazeologik birliklarning uygʻun qoʻllanishi nutqning tabiiyligi va taʼsirchanligini oshiradi. Bu jarayonda tarjimonning til kompetensiyasi bilan bir qatorda madaniy bilimlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinonimiya - baʼzi leksik birliklar bir nechta sinonimlarga ega boʻlishi mumkin. Tarjimon toʻgʻri sinonimni tanlashda tilning uslubiga, maqsadli auditoriyaga va kontekstga qarab qaror qabul qilishi kerak.

Madaniy farqlar - baʼzi leksik birliklar faqat maʼlum bir til yoki madaniyatga xos boʻlishi mumkin, bu esa ularni boshqa tilga tarjima qilishni qiyinlashtiradi. Masalan, turk tilidagi Hidrellez senlikleri, ingliz tilidagi "Thanksgiving" soʻzlari oʻzbek tiliga toʻgʻri tarjima qilinishi qiyin, chunki bu bayram oʻzbek madaniyatida mavjud emas.

Leksik birliklarni tarjima qilish usullari quyidagilardan iborat:

a. Toʻliq tarjima, bunda soʻz yoki atamaning toʻliq ekvivalenti boʻlsa, toʻgʻri tarjima qilish mumkin. Misol uchun, inglizcha "computer" soʻzi oʻzbekchada "kompyuter" deb tarjima qilinadi.

b. Yaqin ekvivalentlar. Baʼzan, leksik birlikning toʻgʻri tarjimasi mavjud boʻlmasligi mumkin. Bunday hollarda, yaqin ekvivalentlar ishlatiladi. Masalan, inglizcha "shopping mall" soʻzi oʻzbek tilida "savdo markazi" deb tarjima qilinishi mumkin.

v. Transliteratsiya usulu. Baʼzan, maʼlum soʻzlar yoki atamalar boshqa tilga toʻgʻri tarjima qilinmaydi, lekin ular oʻzbek tilida oʻzgartirilgan shaklda ishlatilishi mumkin (masalan, "internet" yoki "smartfon")

**Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili (Literature review).** Tarjimashunoslikda leksik va frazeologik birliklar masalasi koʻplab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. E. Nida, P. Newmark, V. Vinogradov, L. Barkhudarov kabi olimlar tarjimada ekvivalentlik va maʼno uzatilishi masalalariga alohida eʼtibor qaratganlar. Ularning ishlarida leksik birliklarning semantik aniqligi va frazeologik birliklarning madaniy yuklamasi keng yoritilgan.

Ogʻzaki tarjima nazariyasi boʻyicha D. Gile va F. Pöchhacker tadqiqotlarida kognitiv yuklama, tezkor qaror qabul qilish va vaqt omili muhim jihatlar sifatida koʻrsatiladi. Ushbu tadqiqotlar leksik va frazeologik birliklarning ogʻzaki tarjimada qoʻllanishidagi murakkabliklarni tushunishga yordam beradi. Shuningdek, turkiy tillar materiallari asosida olib borilgan tadqiqotlar milliy xususiyatlarning tarjimada saqlanishi muhim ekanini koʻrsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot ogʻzaki tarjima jarayonida leksik va frazeologik birliklarning oʻrni va ahamiyatini aniqlashga qaratilgan boʻlib, unda bir qator umumilmiy va maxsus lingvistik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Avvalo, tavsifiy-tahliliy metod asosida leksik va frazeologik birliklarning lingvistik xususiyatlari, ularning ogʻzaki tarjimada bajaradigan funksiyalari va nutqiy jarayondagi oʻrni tahlil qilindi. Ushbu metod orqali soʻz va iboralarning semantik, uslubiy hamda kommunikativ jihatlari yoritildi.

Shuningdek, qiyosiy-tahlil metodi yordamida manba til va maqsad tilidagi leksik hamda frazeologik birliklar solishtirilib, ularning ekvivalentlik darajasi, semantik mosligi va madaniy xususiyatlari aniqlandi. Bu metod frazeologik birliklarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolarni ochib berishga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida kontekstual tahlil metodi qo‘llanilib, leksik va frazeologik birliklarning real nutqiy vaziyatlarda qanday ma’no kasb etishi va og‘zaki tarjimada ularning adekvat yetkazilishi masalalari o‘rganildi. Ayniqsa, vaqt cheklovi va tezkor qaror qabul qilish sharoitida tarjimonning til birliklaridan foydalanish strategiyalariga e’tibor qaratildi.

Bundan tashqari, ilmiy manbalarni tahlil qilish va umumlashtirish metodi asosida tarjimashunoslik va og‘zaki tarjima nazariyasiga oid mahalliy va xorijiy tadqiqotlar o‘rganildi hamda umumlashtirildi. Tadqiqot natijalarini tizimlashtirishda induktiv va deduktiv metodlardan foydalanildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar og‘zaki tarjima jarayonida leksik va frazeologik birliklarning tutgan o‘rni va ularning tarjima sifatiga ta’sirini kompleks va tizimli ravishda yoritishga imkon berdi.

**Tahlil va natijalar.** Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, og‘zaki tarjimada leksik birliklarni to‘g‘ri tanlash ma’no aniqligini ta’minlasa, frazeologik birliklarning moslashtirilgan holda tarjima qilinishi nutqning ta’sirchanligini oshiradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, frazeologik birliklar bilan ishlashda tarjimonlar ko‘pincha funksional ekvivalent, izohli tarjima yoki neytrallashtirish strategiyalaridan foydalanadilar.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, leksik va frazeologik birliklarning to‘g‘ri qo‘llanishi tarjima sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu birliklarning noto‘g‘ri ishlatilishi esa semantik yo‘qotish va kommunikativ uzilishlarga olib keladi. Shu bois og‘zaki tarjimada kontekstni hisobga olish va madaniy moslashuv muhim ahamiyatga ega.

Frazeologik birliklar — bu ikki yoki undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lgan, lekin umumiy ma’no yaratadigan iboralar yoki ustivor so‘z birikmalaridir. Frazeologizmlar ko‘pincha ma’lum bir tilga xos bo‘lib, ularni boshqa tilga to‘g‘ri tarjima qilish juda qiyin bo‘lishi mumkin. Frazeologik birliklar ko‘pincha noan’anaviy ma’noga ega bo‘lib, ularning to‘g‘ri tarjimasi madaniy, tarixiy va tilga xos kontekstni hisobga olishni talab qiladi.

Frazeologik birliklarning tarjimasida bir qancha muammolar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

Konkret va tasavvuriy ma’no farqi: Frazeologik birliklar o‘zbek tilida va boshqa tillarda ko‘pincha tasavvuriy yoki figurativ ma’no taşiydi. Masalan, ingliz tilidagi "kick the bucket" (to‘pni tepish) iborasi aslida "vafot etish" ma’nosini anglatadi. Bu kabi iboralarni tarjima qilishda, so‘zning ma’nosini emas, balki figurativ ma’nosini ham hisobga olish kerak.

Madaniy va tarixiy kontekst: Frazeologik birliklar ko‘pincha biror madaniyatga yoki tarixiy voqeaga asoslanadi, shuning uchun ularni boshqa tilga tarjima qilishda aynan shu kontekstni saqlab qolish muhimdir. Masalan, "Rome was not built in a day" (Roma bir kunda qurilmagan) iborasi ingliz tilidan o‘zbek tiliga to‘g‘ri tarjima qilinsa ham, uning madaniy va tarixiy ahamiyatini tushunish uchun o‘zbek madaniyatidagi o‘xshash iboralarni qo‘llash zarur bo‘lishi mumkin.

Ekvivalentlarni topish: Ba’zan, frazeologik birliklarning boshqa tilda to‘g‘ri ekvivalenti bo‘lmaydi. Bunday hollarda, tarjimon yoki benjamalarga o‘xshash bo‘lgan iboralarni ishlatishi kerak.

**Frazeologik birliklarni tarjima qilish usullari to‘liq tarjima, ko‘chirish, qisqartirish va tavsifiy tarjimadan iborat.**

To‘liq tarjima - agar frazeologizmning to‘g‘ri ekvivalenti bo‘lsa, bu ibora to‘liq tarjima qilinishi mumkin. Masalan, inglizcha "a bird in the hand is worth two in the bush" (bir qo‘ldagi qush, ikkitasi bilan teng) iborasi o‘zbek tilida "Bir qo‘ldagi qush, ikkitasiga arziydi" tarzida tarjima qilinadi.

Ko‘chirish usuli - ba’zi hollarda, frazeologik birlikning aniq ekvivalenti yo‘q bo‘lsa, tarjimon o‘sha iborani boshqa tilga aynan o‘zgartirishsiz olib o‘tishi mumkin.

Qisqartirish usuli - agar frazeologizm juda murakkab yoki juda uzoq bo‘lsa, qisqartirilgan va tushunarli ekvivalent ishlatish mumkin.

Tavsifiy tarjima - frazeologik birlikning aniq ekvivalenti bo‘lmasa, bu ibora tavsifiy tarzda tarjima qilinadi. Masalan, inglizcha "raining cats and dogs" (mushuklar va itlar yomg‘iri yog‘moqda) ifodasini o‘zbek tilida "yomg‘ir chelaklab quymoqda" tarzida tarjima qilish mumkin.

**Xulosa.** Tarjima jarayonida leksik va frazeologik birliklarning o‘rni juda katta. Leksik birliklar so‘zlar va atamalar orqali ma’lumotlarni ifodalaydi, frazeologik birliklar esa ma’lum bir til va madaniyatga xos an’analarning ifodasidir. Tarjimon, har bir leksik va frazeologik birlikni to‘g‘ri tarjima qilish uchun, uning ma’no, madaniy kontekst va lingvistik xususiyatlarini to‘liq tushunishi kerak. Bu jarayon tilning o‘ziga xosliklarini hisobga olishni va tarjima sifatini saqlashni talab qiladi. Og‘zaki tarjima jarayonida leksik va frazeologik birliklar muhim o‘rin egallaydi. Leksik birliklar mazmunni aniq yetkazishni ta’minlasa, frazeologik birliklar nutqqa obrazlilik va milliy xususiyat bag‘ishlaydi. Ushbu birliklarning adekvat tarjimasi tarjimonning professional tayyorgarligi, til va madaniyat bilimiga bog‘liqdir. Og‘zaki tarjima sifatini

oshirish uchun tarjimonlar leksik va frazeologik birliklar bilan ishlash bo‘yicha malakalarini doimiy ravishda rivojlantirib borishlari zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Ismatullayeva, N. R. (2013). Texts of Lectures in the Subject of Synchronous Translation. Tashkent TSUOS, Department of Translation Theory and Practice Tashkent, 2013-55 p.

2. Seeber, K. G. (2023). Cognitive load in simultaneous interpreting. Target, 25(1), 45–67.

3. Ismatullayeva, N. R. (2020). Probability Prediction Strategy In Simultaneous Interpretation. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 1(01), 1-6.

4. Baddeley, A. D. (2000). The episodic buffer: A new component of working memory. Trends in Cognitive Sciences, 4(11), 417–423.

5. Kalina, S. (2000). Interpreting competence as a basis and goal for teaching. The Interpreters’ Newsletter, 10, 3–32.

6. Ismatullayeva, N. R. (2024). THE IMPORTANCE OF TRANSLATION SEMANTOGRAPHY IN INTERPRETER TRAINING. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 5(06), 5-9.

7. Ismatullayeva, N. R. (2021). On the Introduction of E-Learning Portfolio in the Educational Process. Current Research Journal of Pedagogics (2767-3278), 2(09), 35-37.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Orziqulova Gulnoza Maxmudjon qizi**
Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand
gulnozaorziqulova90@gmail.com

## EDVARD YUNG NAZMIDA TUNGGI MOTIV TUSHUNCHASI: POETIK–PSIXOLOGIK TAHLIL

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqola Edvard Yungning* ***Night Thoughts*** *(“Tungi o‘ylar”) poemasi poetikasida tungi motivning mazmuniy-semantik, poetik, psixologik va psixolingvistik funksiyalarini kompleks tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda tun obrazlari orqali inson ruhiyatining chuqur qatlamlari — qo‘rquv, yolg‘izlik, ichki iztirob, o‘lim haqidagi falsafiy mushohadalar, shadow-self (soya-menlik) fenomeni hamda ekzistensial bo‘shliq kabi murakkab ruhiy holatlarning badiiy til orqali ifodalanish mexanizmlari yoritiladi. Tun motivining metaforik tizimi, sintaktik modellari, leksik signallari va diskursiv xususiyatlari psixolingvistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Edvard Yung ijodida tun motivi nafaqat poetik makon, balki inson ongida kechuvchi ichki ruhiy jarayonlarning konseptual-psixolingvistik modeli sifatida faol ishlashini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Edvard Yung; tungi motiv; psixolingvistika; introspeksiya; metafora; shadow-self; ekzistensial bo‘shliq; o‘lim obrazlari; romantik tafakkur.*

**Орзикулова Гюльноза Махмуджон кизи**
Самаркандский государственный институт иностранных языков, Самарканд

## КОНЦЕПЦИЯ НОЧНОГО МОТИВА В СТИХАХ ЭДВАРДА ВОНГА: ПОЭТИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

***Аннотация.*** *Настоящая статья посвящена комплексному анализу содержательно-семантических, поэтических, психологических и психолингвистических функций мотива ночи в поэтике поэмы Эдварда Юнга* ***“Night Thoughts” (“Ночные размышления”)****. В исследовании рассматривается художественное воплощение глубинных слоёв человеческой психики — страха, одиночества, внутреннего экзистенциального страдания, философских размышлений о смерти, феномена shadow-self (теневого «я») и состояния экзистенциальной пустоты посредством ночных образов.*

*Особое внимание уделяется метафорической системе мотива ночи, его синтаксическим моделям, лексическим маркерам и дискурсивным особенностям в психолингвистическом аспекте. Результаты исследования свидетельствуют о том, что в творчестве Эдварда Юнга ночь функционирует не только как поэтическое пространство, но и как концептуальная психолингвистическая модель внутренних духовных процессов человека.*

***Ключевые слова:*** *Edward Young; night motif; psycholinguistics; introspection; metaphor; shadow-self; existential void; images of death; romantic thinking.*

**Orzikulova Gulnoza Makhmudjon qizi**
Samarkand State Institute of Foreign Languages, Samarkand

## THE CONCEPT OF THE NIGHT MOTIF IN EDWARD WONG'S POEMS: POETIC-PSYCHOLOGICAL ANALYSIS

***Abstract.*** *This article provides a comprehensive analysis of the semantic, poetic, psychological, and psycholinguistic functions of the night motif in Edward Young’s poem Night Thoughts. The study examines how nocturnal imagery serves as a means of articulating profound layers of human consciousness, including fear, loneliness, inner suffering, philosophical reflections on death, the concept of the shadow-self, and the experience of existential void. Special attention is given to the metaphorical system of the night motif, its syntactic patterns, lexical markers, and discursive characteristics from a psycholinguistic perspective. The findings demonstrate that in Young’s poetic worldview, night functions not only as an aesthetic and symbolic space but also as a psycholinguistic model of internal mental and spiritual processes.*

***Keywords:*** *Edward Young; night motif; psycholinguistics; introspection; metaphor; shadow-self; existential void; death imagery; romantic thought.*

**Kirish.** XVIII asr ingliz adabiyotida inson ruhiyati, o‘lim, mavjudlik, yolg‘izlik va ma’no izlash kabi mavzular keng falsafiy–badiiy talqin topgan. Bu jarayonda Edvard Yungning **“Tunggi o‘ylar”** (*“Night Thoughts”)* poemasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda tun obraziga juda katta poetik va psixologik yuk yuklangan. Yung tunni nafaqat tasviriy vosita, balki ruhiy tahlilning faol makoni, ichki monologning uyg‘onish nuqtasi, o‘lim haqidagi mushohada sahnasi sifatida talqin qiladi.

Adabiyotshunoslik, psixologiya va psixolingvistika nuqtai nazaridan Yungning tungi motivga yondashuvi murakkab qatlamli hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Tun bu asarda inson ongining ichki tarangligi, ruhiy bo‘linish, o‘zlikni anglash jarayoni va existential izlanishlarning asosiy sahnasidir. Ushbu maqolaning maqsadi — Edvard Yung asarlarida tungi motivning semantik, falsafiy, psixologik va psixolingvistik jihatlarini chuqur yoritishdir.

**Metodlar.** Edward Young ijodida, ayniqsa Night Thoughts asarida *tun* obrazi falsafiy mushohada, ruhiy iztirob, o‘lim va abadiylik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois bu mavzu poetik va psixologik yondashuvni birgalikda talab qiladi.

1. **Poetik tahlil metodi-** *Tun* motivining **badiiy funksiyasi** aniqlanadiю Metafora, ramz, antiteza, takror (repetition) kabi poetik vositalar o‘rganiladi. Tun → yolg‘izlik, sukunat, tafakkur makoni sifatida talqin qilinadi. Natija: tun **kompozitsion va semantik markaz** sifatida aniqlanadi.

2. **Psixologik tahlil metodi.** Lirik qahramonning **ichki kechinmalari**, qo‘rquv va umidsizlik holatlari tahlil qilinadi. Tun paytidagi ruhiy holat — **inson ongining chuqur qatlamlari** bilan bog‘lanadi va melanxoliya, depressiv kayfiyat, ekzistensial iztirob ochib beriladi Natija: tun — **psixologik introspeksiya muhiti** ekanligi isbotlanadi.

3. **Motiv tahlili (motivatsion metod)-** “Tun” motivining asar davomida **takrorlanishi va rivoji** o‘rganiladi. Tun → o‘lim → abadiylik → Xudo zanjiri aniqlanadi. Motivning syujet va g‘oyaviy yuklamasi baholanadi. Natija: tun **yetakchi falsafiy motiv** sifatida ochiladi.

4. **Semantik–ramziy tahlil.** Tun obrazining **ko‘p qatlamli ma’nolari** aniqlanadi. Qorong‘ulik ≠ yovuzlik, balki *haqiqatni anglash makoni* sifatida talqin qilinadi. Diniy va metafizik ramzlar bilan bog‘lanadi.

5. **Komparativ (qiyosiy) metod.** Tun motivi boshqa shoirlar bilan qiyoslanadi va Edvard Yung talqinining o‘ziga xosligi aniqlanadi.

**Natijalar.** Tungi motiv Yung ijodida ayrim tasviriy element emas, balki falsafiy mushohada vositasi, ruhiy iztirob makoni, ongostini faollashtiruvchi kuch, o‘lim bilan muloqot maydoni, ekzistensial o‘zlikni anglash jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Tun — Yungda voqelikni emas, balki “ichki borliqni yoritadigan yorug‘lik”dir. Bu ijtimoiy-tarixiy davr uchun yangi poetik prinsip edi, chunki XVIII asr adabiyotida tun odatda salbiy fon, qo‘rquv yoki dramatik kuchlanish manbai sifatida talqin qilingan. Yung esa tundan falsafiy, ruhiy va psixolingvistik platforma yaratdi. Yung tungi fazoni insonning o‘zini anglash jarayonining boshlang‘ich bosqichi sifatida tasvirlaydi. Tun qahramonni yolg‘izlikka, sukutga, ichki o‘zlik bilan muloqotga majbur qiladi. Kunduzda chetga surilgan savollar tunda qayta tiklanadi. Tun → ichki og‘riq, ruhiy parokandalik, pushaymonlik, savollar bosimi, o‘zlikni izlash singari kechinmalarni yuzaga chiqaradi.

**Tungi motivning poetik–semantik mohiyati**

Yung poetikasida tun insonga tashqi olamdan emas, balki o‘z ichki olamidan xabar beradi. Kunduz yorug‘i voqealarni yoritgan bo‘lsa, tun ongni ichkariga buradi; fikrni teranlashtiradi, ruhiy sezgilarni kuchaytiradi. Tun — iztirob, ichki bo‘shliq, vijdon, pushaymonlik, umid va o‘lim kabi murakkab tuyg‘ularni yoritishga xizmat qiluvchi metafizik sahnadir.

Edvard Yung poetikasida zulmat (darkness) oddiy tasviriy vosita emas, balki murakkab, ko‘p qatlamli, ikki qutbli semantik yadrosi mavjud badiiy-falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Yung zulmatni bir vaqtning o‘zida qo‘rquv manbai va haqiqatni ochuvchi kuch sifatida ishlatadi. Bu ikkiyuzlama semantika romantik ongning asosiy belgilaridan biri bo‘lib, kechaning inson ruhiyati bilan qanday munosabatda bo‘lishini ko‘rsatadi.

*1. Zulmatning salbiy semantik qatlami (qo‘rquv, noaniqlik, o‘lim)*

Zulmat Yung asarlarida avvalo insonning arxetipik qo‘rquvlarini uyg‘otuvchi, ongni bezovta qiluvchi kuch sifatida paydo bo‘ladi. Uning salbiy ma’nolari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

*noma’lumlik* – insonni tashvishga soluvchi, ob’ektga ega bo‘lmagan qo‘rquv;

*o‘limning yaqinlashishi* – Yungning shaxsiy hayotiy fojialari tufayli bu obraz kuchaygan;

*ruhiy beqarorlik* – ichki tartibsizlik, iztirob, affektiv zo‘riqish;

*yolg‘izlikning keskinlashuvi* – kishi o‘z iztirobi bilan yuzma-yuz qoladi.

Bu holatlar Yungning *Night Thoughts* asarida tez-tez uchrab turadi. Shoir zulmatni shaxsning zaiflashuvi va ruhiy “siljishi”ga sabab bo‘luvchi hodisa sifatida talqin qiladi:

***“Darkness brings me closer to the terrors I flee by day.”*** **[7: 77]**
*“Zulmat meni kunduz qochib yurgan dahshatlarimga yaqinlashtiradi.”*

Ushbu tasvir romantik davrning psixologik ongida zulmatning xavfli, tahdidli tabiatini aks ettiradi.

*2. Zulmatning ijobiy semantik qatlami (haqiqat, introspeksiya, ruhiy chuqurlik)*

Shunga parallel tarzda, Yung zulmatni haqiqatni ochuvchi, insonni o‘z ichki olamiga olib kiruvchi, ruhiy filtrlardan ozod qiluvchi kuch sifatida ham tasvirlaydi. Bu romantik poetika uchun o‘ziga xos bo‘lgan *“zulmat — ichki nur manbai”* tamoyiliga mos keladi. Ijobiy qatlam quyidagilar bilan bog‘liq:

*introspeksiya* – kishi sukut va tungi tinchlikda o‘z ruhiy haqiqatlari bilan yuzlashadi;

*ma’noning chuqurlashuvi* – kunduz yashirgan haqiqiy tuyg‘ular tunda ochiladi;

*ruhiy poklanish* – iztirob orqali o‘zlikni yangilash imkoniyati;

*metafizik kashfiyot* – mavjudlikning mohiyatiga yetish.

Yungda zulmat shunday ijobiy semantika bilan ham birlashadi:

***“Darkness reveals the truths that daylight blinds me from seeing.” [7: 134]***

*“Zulmat menga kunduz ko‘rishga imkon bermagan haqiqatlarni ochadi.”*

Bu ibora zulmatning “ichki nur”ga aylanish fenomenini poetik tarzda ifodalaydi.

Edvard Yung zulmatga ikki funksiyani yuklaydi:

| **Zulmatning salbiy qatlami** | **Zulmatning ijobiy qatlami** |
|---|---|
| tahdid, qo‘rquv, o‘lim | haqiqat, poklanish, o‘zlik |
| tashvish, iztirob | introspeksiya, fikrning chuqurlashuvi |
| ruhiy bo‘linish | ruhiy uyg‘onish, mushohada |
| metaforik “bo‘shliq” | metaforik “kashfiyot” |

Bu ikkiyuzlama Yungning tungi motivni romantik va ekzistensial mazmunda talqin qilishiga zamin yaratadi. Demak, tun — qo‘rquvning emas, balki ongning kengayishining timsolidir.

**Tunning psixologik funksiyalari**

Yung asarlarida tun qahramonning o‘z-o‘zi bilan suhbatini jonlantiradi. Bu jarayon psixolingvistika nuqtai nazaridan nutq oqimining bo‘linishi, sintaktik beqarorlik, pauzalar va uzilishlar va ichki “Men”lar o‘rtasidagi qarama-qarshilik kabi belgilar orqali ifodalanadi. Tun Yungda o‘limni qo‘rqinch emas, balki suhbatdosh sifatida yaqinlashtiradi. O‘lim fenomeni vaqtni qaytadan anglash, abadiylikni tushunish va insonning o‘z mavjudligini tahlil qilish jarayoniga olib keladi. Zulmat — ongning yuzaki qatlami ostidagi “soya men”ning faollashuviga imkon yaratadi. Tunda paydo bo‘ladigan qo‘rquv, shubha va pushaymonliklar Jung ta’riflagan shadow-self konsepsiyasi bilan to‘liq mos keladi.

Yung poetikasida tun qahramon ongining ikki qismga ajralishiga sabab bo‘ladi. Tungi sukut, tashqi ta’sirlarning kamayishi va ruhiy zo‘riqish natijasida shaxs ichida **ikki “Men”** o‘rtasida kurash boshlanadi. Bu holat ruhshunoslikda **split-self**, Yung ta’rifida esa **shadow-self** fenomeniga yaqin [4].

Tun jarayonida Yung qahramonining ongida quyidagi ikki qutb shakllanadi:

***Axloqiy Men*** — tasalli, ma’no, maqsad va umid izlaydi;

***Affektiv Men*** — qo‘rquv, iztirob, tashvish, pushaymonlik va g‘am bilan yashaydi.

Bu ikkiyuzlamalik Yungning *Night Thoughts* bo‘limlarida, ayniqsa “Night IV” va “Night V” boblarida izchil shakllangan bo‘lib, muallif inson ruhining ichki qarama-qarshiligini poetik tasvirlar orqali namoyon qiladi [7: 89–92].

Ushbu ruhiy bo‘linish shoirning quyidagi misrasi orqali aniq ifodalanadi:

***“Two selves argue within me when night descends.” [7: 90]***

*“Tun tushganda ichimda ikkita men tortishadi.”*

Ushbu misra ruhiy ziddiyatning kuchayishini, tungi ongning beqarorlashishini va shaxsning ichki kurashi faollashishini ko‘rsatadi. Mazkur satr mazmunan Yung asarlaridagi **metafizik qo‘rquv, bo‘linish, ichki ovozlar polifoniyasi** hamda **shadow-self**ning yuzaga chiqishini aks ettiradi.

*O‘lim ongining uyg‘onishi.* Yungning shaxsiy fojialari (xotini va do‘stlarining o‘limi) uning ijodidagi tungi obrazlarning ruhiy kuchayishiga sabab bo‘lgan. Tungi psixologik holat o‘limning muqarrarligini anglash, hayotning o‘tkinchiligini sezish, vaqtning subyektiv uzayishi va abadiylik haqidagi dahshat va tasalli aralash tuyg‘ular. Yung uchun tun → o‘lim bilan tabiiy suhbat makoni.

*Ekzistensial bo‘shliq.* Tun qahramonni mazmunsizlik va bo‘shliq bilan yuzlashtiradi:

***“Night widens the void where meaning should be.” [7:112]***

*“Tun ma’no bo‘lishi kerak bo‘lgan bo‘shliqni kengaytiradi.”*

Bu ekzistensializmning erta ko‘rinishlaridan biridir.

**Tungi motivning psixolingvistik ifodalanishi**

Yung tili tungi kechinmalarni kuchli metaforalar yordamida tasvirlaydi: tun → fikr beshigi, zulmat → ruhning ko‘zgusi, soya → ongostining ovozi, yulduzlar → abadiylik uchqunlari. Metafora — ruhiy jarayonlarni tilda modellashtiruvchi asosiy vosita. *Tungi o‘ylar* matnida *dark, hollow, silent, eternal, grief, shadow* kabi so‘zlar ruhiy taranglikni kuchaytiradi. Yung metaforalari ruhiy kechinmalarni tanaga oid, kosmosga oid va vaqtga oid obrazlar orqali ochadi:

***Tana metaforalari (somatik):*** *“my heart freezes in night”* → *ruhiy sovuqlik, “thoughts bleed into darkness”* → iztirobning tashqi ifodasi [1: 46-52]

***Kosmik metaforalar***: tun → kosmik cheksizlik va yulduzlar → ruhning abadiylikka intilishi [1: 171-176,181-183]

***Vaqt metaforalari***: tun → vaqtning kengayishi va sukut → vaqtning to‘xtashi [1: 157-160]

Yungda tungi motiv quyidagi so‘zlar bilan belgilanadi *dark, shadow, eternal, hollow, cold, silence, grave, dust.* Bu so‘zlar qahramonning ichki holatini yaratadi: yolg‘izlik, qo‘rquv, iztirob, bo‘shliq.

Tungi nutqda savollar ko‘p: *“Why do I still fear death?”*, undovlar paydo bo‘ladi: *“O night, teach me!”*, pichirlovchi tasvirlar: *“He whispers to his soul”.*

Bu psixologik dinamikani Vygotskiy ichki nutq nazariyasi ham tasdiqlaydi.[5]

Bu Yungning tungi diskursini boshqa poeziyalardan farqlantiradi. Tungi ongning ritmi Yung poetikasida tilning sintaktik, semantik va metaforik strukturalarida yaqqol aks etadi. Tun qahramonning ichki filtrlari pasayadigan, ruhiy jarayonlar keskinlashadigan, yashirin ma’nolar yuzaga chiqadigan makonga aylanadi. Shuning uchun ham tun — haqiqatni ochuvchi, kunduz esa uni yashiruvchi semantik kuch sifatida talqin qilinadi. Yungning quyidagi ifodasi ushbu jarayonni yaqqol ifodalaydi:

***“Night deepens the truths that daylight hides beneath its brightness.”*** **[7: 134]**
*“Tun kunduz yorug‘i ostida yashiringan haqiqatlarni chuqurlashtiradi.”*

Bu jumlada tun **ruhiy filtrlardan ozod qiluvchi, yashirin ma’nolarni ochuvchi** kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Kunduz yorug‘ligi tashqi olamni yoritadi, biroq haqiqatni ko‘r qilishga moyildir; tun esa, aksincha, insonning ichki olamiga chuqur nur soladi. Yung poetikasidagi ushbu qarama-qarshilik — **yorug‘likning ko‘r qilishi, zulmatning esa ko‘rish qobiliyatini kuchaytirishi** — romantik ongning asosiy estetik tamoyillaridan biridir.

Shuningdek, Yungning tungi metaforasida ***haqiqatning “chuqurlashuvi”*** ong ritmining sekinlashuvi, fikrning teranlashuvi va introspektiv jarayonlarning kuchayishini bildiradi. Bu holat Bachelardning ichki makon haqidagi psixo-poetik nazariyasiga hamohang bo‘lib, uning “intimate immensity” tushunchasini eslatadi

Yungning tungi motivi inson ongining eng chuqur qatlamlarini ochish, o‘zini anglash va hayot mazmuniga qayta nazar tashlash imkonini beradi. Shu bois, uning poetik tafakkuri zamonaviy psixologik va lingvistik yondashuvlar bilan uyg‘un tarzda talqin qilinadi.

**Xulosa**. Edvard Yung asarlarida tungi motiv ko‘p qatlamli semantik, psixologik va psixolingvistik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Tun o‘lim va abadiylik haqidagi mulohazalarni jonlantiradi, ruhiy bo‘linishni kuchaytiradi, introspektiv jarayonlarni faollashtiradi, psixologik bo‘shliq va qo‘rquvni tasvirlash uchun estetik maydon yaratadi va tilning metaforik, sintaktik va ritmik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shunday qilib, Yungning tungi motivi nafaqat poetik obraz, balki inson ruhiyatining eng chuqur qatlamlarini yorituvchi ilmiy-estetik modeldir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**


1. Bachelard, G. *The Poetics of Space.* Paris, 1958.
2. Freud, Z. *Beyond the Pleasure Principle.* Vienna, 1920
3. James, W. *The Principles of Psychology.* New York, 1890.
4. Jung, C.G. *Archetypes and the Collective Unconscious.* Princeton, 1959.
5. Vygotsky, L.S. *Thinking and Speech.* Moscow, 1934.
6. Nicholson, C. *Edward Young and the Origins of Romantic Melancholy.* Oxford, 1975.
7. **Young, Edward.** *Night Thoughts.* **Oxford: Oxford University Press, 2000 (orig. 1742).**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Saydjanova Komila Davronovna**
Alfraganus Universiteti
k.saydjanova@afu.uz;ksaydjanova@gmail.com
Orcid:https://orcid.org/0000-0003-0142-2136

## O‘ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA ANTONIMLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya***. *Ushbu maqolada o‘zbek va fransuz tillarida antonimlarning lingvistik xususiyatlari qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda antonimiya til tizimining muhim leksik-semantik kategoriyasi sifatida ko‘rib chiqilib, uning ma’no tuzilmasi, tuzilish modellari, nutq va diskursdagi vazifalari yoritiladi. Qiyosiy tahlil natijasida ikkala tilda antonimlarning umumiy funksional mohiyati — ma’no chegaralarini belgilash, baholash imkoniyatini yaratish va nutqni strukturalash — o‘xshash ekanligi aniqlanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *antonimiya, qarama-qarshilik, leksik-semantik munosabat, mantiqiy markaz, kontekstual antonim, diskurs, oppozitsiya, antonim juftlik.*

**Saydjanova Komila Davronovna**
Alfraganus University

## LINGUISTIC FEATURES OF ANTONYMS IN UZBEK AND FRENCH

***Abstract:*** *This article provides a comparative analysis of the linguistic features of antonyms in Uzbek and French. The study examines antonymy as an important lexical-semantic category of the language system, highlighting its semantic structure, formation models, and functions in speech and discourse. The comparative analysis shows that, in both languages, the general functional essence of antonyms is similar — they define semantic boundaries, create evaluative possibilities, and organize the structure of discourse.*

***Keywords****: antonymy, opposition, lexical-semantic relation, logical center, contextual antonym, discourse, opposition, antonym pair.*

**Сайджанова Комила Давроновна**
Университет Альфрагануса

## ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АНТОНИМОВ В УЗБЕКСКОМ И ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКАХ

***Аннотация:*** *В статье представлен сравнительный анализ лингвистических особенностей антонимов в узбекском и французском языках. Исследование рассматривает антонимию как важную лексико-семантическую категорию языковой системы, освещая её семантическую структуру, модели образования и функции в речи и дискурсе. Сравнительный анализ показал, что в обоих языках общая функциональная сущность антонимов схожа — они определяют семантические границы, создают возможности оценки и структурируют дискурс.*

***Ключевые слова:*** *антонимия, противоположность, лексико-семантическое отношение, логический центр, контекстуальный антоним, дискурс, оппозиция, пара антонимов.*

### Kirish

Til tizimi inson tafakkurining eng muhim ifoda vositasidir. Inson atrof-muhitni idrok etar ekan, uni til vositasida nomlaydi, tasniflaydi va baholaydi. Shu jarayonda leksik birliklar o‘rtasidagi ma’no munosabatlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mazkur munosabatlarning muhim ko‘rinishlaridan biri antonimiya bo‘lib, u qarama-qarshi ma’noga ega leksemalar orasidagi semantik aloqani bildiradi. Antonimlar til tizimida faqat qarama-qarshilikni emas, balki inson tafakkurining voqelikni dixotomiyalar orqali idrok etish xususiyatini ham namoyon etadi.

O‘zbek va fransuz tillari materiallari shuni ko‘rsatadiki, antonimlar kundalik nutqda ham, ilmiy va badiiy matnda ham fikrni mantiqan aniqlashtirish, baholash va ta’sirchanlik berishda uzviy vosita sifatida ishlatiladi. Masalan, o‘zbek tilidagi yaxshi — yomon, bor — yo‘q juftliklari bilan fransuz tilidagi bon — mauvais, présent — absent juftliklari bir xil semantik prinsipga asoslangan bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish doirasi va stilistik yukida ayrim farqlar kuzatiladi.

Antonimlar fikrning aniq va lo‘nda ifodalanishiga, voqelikni baholashga, mantiqiy ziddiyatlarni ko‘rsatishga va nutqning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan antonimiya:

- semantik kategoriya sifatida — ma’no tuzilishini tashkil etadi;
- leksik munosabat sifatida — so‘zlar tizimidagi o‘rinni belgilaydi;
- nutqni tashkil qiluvchi vosita sifatida — matn strukturasiga dinamika kiritadi;
- stilistik figura sifatida — badiiy ifoda kuchini oshiradi.

Qarama-qarshi ma’nodor so‘zlar inson tafakkurida “yaxshi/yomon”, “katta/kichik”, “hayot/o‘lim” kabi asosiy konseptual oppozitsiyalarni shakllantiradi. Shu sababli antonimiya nafaqat lingvistik hodisa, balki kognitiv va madaniy kategoriya sifatida ham o‘rganiladi. Bu jihat ayniqsa fransuz va o‘zbek madaniy an’analarida qarama-qarshiliklar orqali baholashning kuchli ekanida yaqqol ko‘rinadi.

O‘zbek va fransuz tillarida antonimlarning o‘rni va vazifalari ko‘plab umumiyliklarga ega bo‘lsa-da, nazariy talqinlarida sezilarli farqlar mavjud. O‘zbek tilshunosligida antonimiya ko‘proq leksik-semantik va stilistik hodisa sifatida talqin qilinsa, fransuz tilshunosligida u scalarité, graduation, opposition logique kabi tushunchalar bilan izohlanadi. Bu esa antonimiyani faqat so‘zlar o‘rtasidagi munosabat emas, balki nutqni tartibga soluvchi kuch sifatida ko‘rishga imkon beradi.

Qiyosiy yondashuv ushbu ikki til sistemasida antonimlarning qanday ishlashini aniqlash, ularning umumiy va milliy-o‘ziga xos xususiyatlarini yoritish imkonini beradi. Bunday tadqiqot: leksik-semantik nazariyani boyitadi, tarjima va til o‘qitish amaliyotida amaliy natijalar beradi, matn va diskurs tahlilini yanada chuqurlashtiradi.

**Adabiyotlar tahlili**

Antonimiya masalasi ko‘p yillardan beri turli tillar misolida o‘rganib kelinmoqda va u leksik-semantik tizimning ajralmas qismi sifatida tilshunoslikning markaziy mavzularidan biri hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida antonimlar haqidagi ilk tasavvurlar klassik leksikologik izlanishlar bilan bog‘liq bo‘lib, S. Mutallibov va S. Usmonov kabi olimlarning ishlari bu yo‘nalishda metodologik asos yaratgan. Keyinchalik R. Shukurov, Sh. Rahmatullayev, N. Mamatov, shuningdek G‘. Abdurahmonov, J.Sh.Jumabayeva va A. Nurmonov kabi tadqiqotchilar antonimiyani yanada kengroq doirada tahlil qilib, ularning tuzilishi, semantik xususiyatlari, nutqdagi vazifasi va stilistik imkoniyatlarini batafsil yoritib berdilar [2].

Mazkur tadqiqotlarda antonimlar nafaqat qarama-qarshi ma’nodagi so‘zlar sifatida, balki til tizimining mantiqiy asoslari, fikr strukturasining tuzilishi va baholash mexanizmi bilan chambarchas bog‘liq hodisa sifatida qaraladi. Masalan, ***oq — qora, ketmoq — kelmoq, baxt — kulfat*** kabi juftliklar inson tafakkurida voqelikni ikki qutbli shaklda tasavvur qilish tendensiyasini aks ettiradi.

Ahmedovaning tadqiqoti o‘zbek badiiy matni negizida antonimlarning amaliy qo‘llanilishini ko‘rsatib beradi. U leksik, yasama va kontekstual antonimlar o‘rtasidagi farqlarni aniq misollar bilan ochib beradi, shuningdek “mantiqiy markaz” tushunchasini qo‘llab, qarama-qarshi tushunchalar o‘rtasida oraliq qiymatlar mavjudligini isbotlaydi. Bunda antitezaning badiiy nutqdagi tasviriy imkoniyatlarini ham yoritadi; masalan, qahramonning ***“eng yorqin — eng qorong‘i”*** holatlar bilan ifodalanishi dramatik ta’sirni kuchaytirishini ko‘rsatadi [2].

Fransuz tilshunosligida esa antonimiya masalasi yanada ko‘p qirrali ilmiy kontekstda ko‘riladi. U ***sémantique lexicale, logique, pragmatique*** *va* ***analyse du discours*** doirasida tadqiq qilinadi. Marie Steffensning izlanishlari ayniqsa e’tiborga loyiq, chunki u antonimiyani ko‘p shaklli leksik-semantik munosabat sifatida talqin etib, uning nutqdagi referensial va argumentativ funksiyalarini chuqur tahlil qiladi [1].

Bundan tashqari, fransuz tilshunoslari qatorida **A. Greimas, G. Kleiber, D. Cruse, J.-P. Boone, B. Victorri** kabi tadqiqotchilar antonimiya, oppozitsiya va semantik maydon tushunchalarini rivojlantirdi. Ularning ishlarida antonimlar ***contraires, contradictoires, scalaires*** *kabi turlarga ajratiladi va* ***graduation, scalarité, bornes*** tushunchalari orqali izohlanadi. Masalan, *froid — tiède — chaud* ketma-ketligi fransuz tilida gradatsiyalangan antonimiya namunasi sifatida ko‘rsatiladi.

Ikki tilda ham antonimiya til tizimining muhim qismi hisoblanadi; u baholash, qarama-qarshi qo‘yish, ma’no chegaralarini aniqlash va ta’sirchanlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Farqlar asosan nazariy tushuntirish uslublarida namoyon bo‘ladi: fransuz lingvistikasida ***scalarité t***ushunchasi markaziy o‘rin tutsa, o‘zbek tilshunosligida **mantiqiy markaz konsepsiyasi** kuchliroq rivojlangan. Shu tariqa, mavjud ilmiy manbalar mazkur mavzuni qiyosiy yondashuv asosida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi [1]; [2].

O‘zbek tilida antonimiya odatda ikki leksema o‘rtasidagi qarama-qarshi semantik munosabat sifatida talqin qilinadi. Bu hodisa real hayotdagi qarama-qarshiliklarning til tizimida aks etishidan dalolat beradi. Inson tafakkuri dunyoni ko‘pincha qarama-qarshilik asosida idrok etadi: yorug‘lik — zulmat, tinchlik — urush, hayot — o‘lim. Til esa ushbu kognitiv mexanizmni leksik vositalar orqali rasmiylashtiradi. Shu ma’noda *past — baland, yaxshi — yomon, bor — yo‘q, boy — kambag‘al* kabi antonimik juftliklar voqelikni ikki qutbda ifodalaydi va tilning mantiqiy-tizimli xususiyatini namoyon qiladi.

Antonimlar faqat qarama-qarshilikni ifodalab qolmay, balki muhim semantik chegaralarni ham belgilaydi. Masalan, “yaxshi” so‘zi o‘z ma’nosini ko‘pincha “yomon”ga nisbatan ochib beradi; “tez” tushunchasi esa “sekin” bilan qarama-qarshi qo‘yilganda aniq semantik konturga ega bo‘ladi. Bu hol tilning iqtisodiyligi va mantiqiyligi bilan bog‘liq bo‘lib, antonimlar orqali fikr yanada ixcham, aniq va baholovchi tusda ifodalanadi.

O‘zbek tili materialida antonimlarning bir nechta turlari mavjud bo‘lib, ular til tizimining turli qatlamlarini qamrab oladi.

Leksik antonimlar tilda tayyor holatda mavjud bo‘ladi. Masalan: *katta — kichik, issiq — sovuq, yaqin — uzoq, och — to‘q, uzun — qisqa.* Bu antonimlar semantik tizimda barqaror juftliklar sifatida shakllanib, ko‘pincha umumxalq tilida keng ishlatiladi.

Yasama antonimlar inkor affikslari yordamida hosil qilinadi: **t***o‘g‘ri — noto‘g‘ri, baxtli — baxtsiz, tartibli — tartibsiz, foydali — foydasiz.* Bu yerda diqqatga sazovor jihat — *negativ prefikslar* orqali yangi semantik qutb yaratilishidir. Shu bois yasama antonimlar ko‘pincha baholovchi, emotsional tusga ega bo‘ladi.

Kontekstual antonimlar esa faqat matnda qarama-qarshi ma’no kasb etadi. Masalan: *“Bu odam uchun jimlik — g‘alaba, shovqin esa — mag‘lubiyat edi.”* Bu holda “jimlik” va “shovqin” aslida universal antonim emas, lekin muallif nutqida u qarama-qarshi tushunchalarga aylanadi. Kontekstual antonimlar badiiy nutqda juda faol ishlatiladi.

*Grammatik vositalar* ham antonimiya yaratishi mumkin: *bor — yo‘q, ko‘rdi — ko‘rmadi, tushunadi — tushunmaydi, ishladi — ishlamadi.* Bu shakllar inkorning grammatik vositalar orqali amalga oshirilishini ko‘rsatadi va antonimiya faqat leksik darajaga xos emasligini tasdiqlaydi.

Shu tariqa, antonimiya — tilning ko‘p qatlamli hodisasi ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligidagi muhim nazariy yondashuvlardan biri — mantiqiy markaz prinsipidir. Bu prinsipga ko‘ra, antonimik juftliklar o‘rtasida oraliq tushunchalar mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan:qish — bahor — yoz — kuz

Bu ketma-ketlikda: qish ↔ yoz — antonim, bahor ↔ kuz — antonim,

ammo *qish va bahor* o‘rtasida oraliq qiymat mavjud bo‘lgani uchun ular bevosita antonim hisoblanmaydi [2].

Bu yondashuv antonimiyani mutlaq emas, nisbiy kategoriya sifatida tushuntiradi. Demak, antonimlar o‘rtasida semantik gradient mavjud bo‘lishi mumkin va bu holat ayniqsa sifatlar tizimida yaqqol namoyon bo‘ladi: ***sovuq — salqin — iliq — issiq***.

O‘zbek tilida antonimlar ko‘proq sifatlarda uchrasa-da, ular boshqa so‘z turkumlarida ham faol:

*Fe’llarda: kelmoq — ketmoq, ochmoq — yopmoq, ko‘tarilmoq — tushmoq, yemoq — och qolmoq.*

*Otlarda: do‘st — dushman, haqiqat — yolg‘on, tinchlik — urush, boylik — kambag‘allik.*

*Ravishlarda: erta — kech, oldin — keyin, tez — sekin, yaqin — uzoq.*

Bu hol antonimiyaning butun leksik tizim bo‘ylab tarqalganini ko‘rsatadi.

Badiiy nutqda antonimlar:

- tazod yaratadi,
- dramatizmni kuchaytiradi,
- obrazlilikni oshiradi,
- personaj ruhiy kechinmalarini ifodalashda xizmat qiladi.

Masalan, qahramonning hayoti *“eng yorug‘ — eng zulmat”* darajalarida tasvirlanganda, o‘quvchi undagi ichki ziddiyatni chuqurroq his qiladi. Shuningdek, antonimlar matnning kompozitsiyasini ham boshqaradi — voqealar rivoji qarama-qarshi holatlar asosida quriladi [2].

Fransuz tilida antonimiya, avvalo, *opposition sémantique binaire* sifatida talqin etiladi va til tizimining barcha darajalarida faol ko‘rinadi. U grammatika, semantika, mantiq va diskursni tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi.

Fransuz tilshunosligida odatda uch asosiy tur ajratiladi:

- les contraires — *chaud / froid, riche / pauvre, fort / faible*;
- les contradictoires — *vivant / mort, présent / absent, possible / impossible*;
- les scalaires — *grand / petit, long / court, large / étroit*.

Scalarité nazariyasi antonimlar o‘rtasidagi daraja farqini tushuntiradi. Masalan:

*froid — frais — tiède — chaud — brûlant*

ketma-ketligi gradatsiyalangan semantik o‘qni hosil qiladi.

**Xulosa**

Xulosa qilinadiki, antonimiya o‘zbek va fransuz tillarida til tizimining eng muhim semantik munosabatlaridan biri bo‘lib, u nafaqat so‘zlarning qarama-qarshi ma’nosini ifodalaydi, balki inson tafakkurining dunyoni oppozitsiyalar orqali idrok etish xususiyatini ham aks ettiradi. Antonimlar yordamida voqelik ikki qutbda tasvirlanadi, baholash ifodalanadi,

mantiqiy chegaralar belgilanadi va nutqqa kuchli ekspressivlik beriladi. Shu ma’noda antonimiya lingvistik hodisa bo‘lish bilan birga, kognitiv va madaniy kategoriya sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Har ikkala tilda ham antonimiya semantik tizimning markaziy elementi bo‘lib, u ma’no chegaralarini belgilash, baholashni ifodalash va nutqni strukturalashda bir xil vazifani bajaradi. Farqlar asosan nazariy izoh uslublarida namoyon bo‘ladi: fransuz tilshunosligida scalarité konsepsiyasi ustuvor bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida mantiqiy markaz tamoyili yetakchi o‘rin egallaydi. Biroq ikkala yondashuv ham antonimiyaning dinamik, kontekstga bog‘liq va ko‘p qirrali hodisa ekanini tasdiqlaydi. Antonimiya masalasini pragmatik, kognitiv va korpus tilshunosligi asosida yanada kengroq tadqiq qilish, badiiy, jurnalistik va ilmiy uslublar materialida qo‘llanish xususiyatlarini taqqoslab o‘rganish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shunday qilib, o‘zbek va fransuz tillaridagi antonimlarning qiyosiy tahlili til tizimini yanada chuqurroq anglash, umumiy va milliy xususiyatlarni aniqlash hamda lingvistik nazariyani boyitishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Steffens M. L’antonymie : Définition de l’antonymie en langue et description des fonctions sémantico-référentielles de la co-présence antonymique en discours : Thèse de doctorat. — Paris : Université Sorbonne Nouvelle, 2016. — 312 p.
2. Ahmedova X. Antonimlarning o‘ziga xos xususiyatlari (“Ikki eshik orasi” asari misolida) // Academic Research in Modern Science. — 2024. — №3(12). — B. 45–52.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Leksikologiya. — T.: O‘qituvchi, 1992. — 280 b.
4. Mutallibov S. O‘zbek tilining leksikologiyasi. — T.: Fan, 1980. — 256 b.
5. Cruse D.A. Lexical Semantics. — Cambridge: Cambridge University Press, 1986. — 322 p.
6. Greimas A.J. Sémantique structurale. — Paris : Larousse, 1983. — 267 p.
7. Kleiber G. Problèmes de sémantique : la polysémie en question. — Paris : Presses Universitaires de France, 1999. — 245 p.
8. Boone J.-P. Les relations d’opposition lexicale en français contemporain. — Bruxelles : Duculot, 1995. — 198 p.
9. Victorri B., Fuchs C. La polysémie : construction dynamique du sens. — Paris : Hermès, 1996. — 210 p.
10. Bobojonova, S. (2024). Muloqot va uning pragmatik tahlili. Modern Science and Research, 3(1), 1-5.
11. Usmonov S. O‘zbek tilida ma’no munosabatlari. — T.: Fan va texnologiya, 2005. — 214 b.
12. Bobojonova, s. y. l. q. (2023). Ta’limiy diskurs va uning lingvistik tahlili. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 135-137.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Sidiqov Qosim Abilovich**
Namangan Davlat Universiteti
Filologiya fanlari nomzodi, professor
E-mail: qosimjon1977@mail.ru

## THE POETICS OF PHRASEOLOGY IN "KUTADGU BILIG" BY YUSUF KHASS HAJIB THROUGH ROBERT DANKOFF'S ENGLISH TRANSLATION

***Abstract.*** *Kutadgu Bilig ("Wisdom that Brings Royal Glory") is an 11th-century Turkic "mirror for princes" composed in didactic couplets and staged as dialogue among allegorical figures.[1] This article examines how its* ***phraseology****—idioms, proverb-like couplets, fixed binomials, and formulaic warnings—functions as poetics: not decoration, but a craft system that (a) compresses ethical theory into memorable verbal capsules, (b) ties political legitimacy to embodied moral psychology ("tongue," "heart," "hand," "head"), and (c) dramatizes governance as a problem of disciplined speech and calibrated desire. Using Robert Dankoff's English translation as the primary access point,[2] I propose that the poem's phraseological texture serves three converging aims: mnemonic governance (easy-to-recall instruction), affective governance (shaping fear/hope through vivid bodily stakes), and dialogic governance (turning maxims into social action within conversations).*

***Keywords:*** *Kutadgu Bilig; phraseology; idiom; proverb; mirror for princes; Turkic literature; Robert Dankoff; poetics; allegory.*

**Сидиков Касим Абилович**
Наманганский государственный университет
Кандидат филологических наук, профессор

## ПОЭТИКА ФРАЗЕОЛОГИИ В «КУТАДГУ БИЛИГ» ЮСУФА ХАССА ХАДЖИБА В АНГЛИЙСКОМ ПЕРЕВОДЕ РОБЕРТА ДАНКОВА

***Аннотация.*** ***«****Кутадгу Билиг» («Мудрость, приносящая царскую славу») — это тюркское «зеркало для принцев» XI века, написанное дидактическими двустишиями и представленное в форме диалога между аллегорическими фигурами.[1] В этой статье рассматривается, как его фразеология — идиомы, пословицы, устойчивые биномы и шаблонные предостережения — функционирует как поэтика: не украшение, а система ремесла, которая (а) сжимает этическую теорию в запоминающиеся словесные капсулы, (б) связывает политическую легитимность с воплощенной моральной психологией («язык», «сердце», «рука», «голова») и (в) драматизирует управление как проблему дисциплинированной речи и выверенного желания. Используя английский перевод Роберта Данкоффа в качестве основной точки отсчета,[2] я предполагаю, что фразеологическая структура стихотворения служит трем взаимосвязанным целям: мнемоническому управлению (легко запоминающаяся инструкция), аффективному управлению (формирование страха/надежды посредством ярких телесных образов) и диалогическому управлению (превращение аксиом в социальные действия в рамках разговоров).*

***Ключевые слова:*** *Кутадгу Билиг; фразеология; идиома; пословица; зеркало для принцев; тюркская литература; Роберт Данкофф; поэтика; аллегория.*

**Sidikov Kasim Abilovich**
Namangan State University

## THE POETICS OF PHRASEOLOGY IN "KUTADGU BILIG" BY YUSUF KHASS HAJIB THROUGH ROBERT DANKOFF'S ENGLISH TRANSLATION

***Abstract.*** *Kutadgu Bilig ("Wisdom that Brings Royal Glory") is an 11th-century Turkic "mirror for princes" composed in didactic couplets and staged as dialogue among allegorical figures.[1] This article examines how its phraseology—idioms, proverb-like couplets, fixed binomials, and formulaic warnings—functions as poetics: not decoration, but a craft system that (a) compresses ethical theory into memorable verbal capsules, (b) ties political legitimacy to embodied moral psychology ("tongue," "heart," "hand,"*

*"head"), and (c) dramatizes governance as a problem of disciplined speech and calibrated desire. Using Robert Dankoff's English translation as the primary access point,[2] I propose that the poem's phraseological texture serves three converging aims: mnemonic governance (easy-to-recall instruction), affective governance (shaping fear/hope through vivid bodily stakes), and dialogic governance (turning maxims into social action within conversations).*

***Keywords:*** *Kutadgu Bilig; phraseology; idiom; proverb mirror for princes; Turkic literature; Robert Dankoff; poetics; allegory.*

**Text, frame, and why phraseology matters**

Kutadgu Bilig belongs to the advice-to-rulers tradition ("mirrors for princes"), offering a practical ethics of statecraft in verse.[3] A distinctive structural feature is its **allegorical cast**: Kün-Toğdı (Justice), Ay-Toldı (Fortune), Ögdülmiş (Intellect/Wisdom), and Odgurmış (often interpreted as an ascetic "wakefulness" or last-things perspective).[4] The work's "plot," such as it is, is philosophical administration: characters argue, counsel, test each other, and convert abstractions into policy.

In this genre, **phraseology is not optional**. Mirrors aim to be portable: a ruler should be able to "carry" counsel into situations where the library is unavailable and the stakes are high. Hence the preference for proverb-like couplets, parallel constructions, and bodily metaphors—forms that behave like mental shortcuts. Dankoff's translation foregrounds this portability by rendering many passages in crisp, proverb-sounding English.[2] (Cambridge University Press & Assessment)

**Method: reading "phraseology" as poetic engineering**

Here "phraseology" is treated broadly:

- **Proverb-like couplets** ("Guard your speech…")
- **Fixed binomials** ("heart and tongue")
- **Somatic idioms** ("his head is in danger")
- **Formulaic moral logic** (if X, then Y)

The question is not merely what these units mean, but what they do in the poem's rhetoric: how they pace argument, supply authority, create memorable "handles," and stage ethical causality.

Because you requested Dankoff specifically, all exemplification below uses **Dankoff's English phrasing** (sometimes via scholarly quotations of Dankoff), keeping quotations short and analytic.[2] (ozguryayinlari.com)

**Somatic phraseology: governing the body-politic via the body**

A dominant poetic strategy is **somatic mapping**: moral and political realities are expressed through body parts whose interactions become ethical equations.

**"Heart and tongue": sincerity as statecraft**

One of the poem's most productive pairings is heart + tongue—a binomial that turns integrity into something almost mechanical: align the inside (intention) with the outside (speech), and rule becomes stable.

Dankoff renders a quintessential counsel to rulers: "his **heart and tongue** upright," tying legitimacy to an inner/outer congruence.[5] The phrase is compact, rhythmically balanced, and—crucially—auditable: subjects can observe the "tongue," infer the "heart," and judge the ruler. (ozguryayinlari.com)

A related maxim in Dankoff's English is bluntly causal: "The **tongue** speaks well if the **heart** is good."[6] That is phraseology behaving like an ethical "law of motion": heart → tongue → social outcome. (ozguryayinlari.com)

**"Long tongue… head in danger": speech as a lethal instrument**

A second somatic cluster links speech directly to bodily jeopardy. Dankoff's formulation "When a man's **tongue is long**, his **head is in danger**"[7]—compresses social pragmatics into a vivid threat model. The "long tongue" idiom works poetically because it is (a) imagistic, (b) scalable (applies from court gossip to treason), and (c) mnemonic.

This is reinforced by proverb-shaped warnings such as: "Guard your speech lest you lose your head, and guard your tongue lest you break your teeth."[8] The couplet doubles down: the instrument of harm (tongue) and the cost (head/teeth) form a tight cognitive knot—exactly what didactic verse wants. (t-science.org)

**Appetite, generosity, and predation: "hand," "blood," and the economics of trust**

Phraseology also governs distributive ethics. In Dankoff's English, "if his eye and heart are full, his hand will be extended,"[9] mapping satisfaction → generosity. The line is not only moral; it is administrative: resentment and hoarding are treated as consequences of inner lack.

The poem also weaponizes body imagery to describe exploitation. Dankoff's striking idiom "He will eat your head and swallow your blood"[10] is poetic intimidation: predation translated into cannibalistic metaphor. In courtly environments, "predators" are often linguistic creatures (flatterers, schemers); the visceral phrasing short-circuits any romanticization of politics. (ozguryayinlari.com)

**Proverb poetics: maxims as "portable authority"**

A mirror for princes must sound older than it is. One way texts manufacture authority is by speaking in **proverb form**, even when the proverb is author-crafted or stylized.

The translation-study literature on Kutadgu Bilig notes the prominence of "Turkish proverb" markers and proverb-like couplets in Dankoff's English rendering, e.g., the paired line: "A thousand friends are no better than one; One enemy causes a thousand woes."[11] Hyperbole ("thousand") and antithesis (friends vs. enemy) generate an epigram that feels "traditional," whether or not it circulated independently.

In other words, proverb poetics supplies **social licensing**: advice does not appear as one author's opinion, but as the voice of the collective, compressed into a line you can repeat. (t-science.org)

**Dialogic phraseology: fixed expressions as moves in a debate**

Because Kutadgu Bilig is substantially dialogic, phraseological units act like **chess moves**: they end an argument, reframe it, or force agreement by invoking shared norms.

Consider how "truthful tongue / honest heart" constructions function as closing devices: once the interlocutor grants the virtue pairing, the policy conclusion follows. A ruler who lacks that pairing is not merely "wrong," but ontologically unfit—a powerful shortcut in political discourse. (isahlakidergisi.com)

This is one reason phraseology is especially dense around courtly virtues (justice, self-control, generosity): these are precisely the domains where debate can be endless unless stabilized by "fixed" language.

Dankoff's contribution is not only lexical accuracy; it is the reproduction of **maxim-tone** in English.[2] Review metadata for the 1983 translation consistently frames it as a major English access point to the text.[3] (Cambridge University Press & Assessment)

Two translation effects matter for phraseology:

1.**Proverbial English cadence.** Lines like "When a man's tongue is long…" or "Guard your speech…" sound like English proverbs, preserving the poem's mnemonic function. (ozguryayinlari.com)

2.**Bodily concreteness.** Dankoff often keeps the body stakes explicit (head/teeth/blood), resisting abstraction and retaining the poem's affective punch. (ozguryayinlari.com)

This makes Dankoff especially suitable for a phraseological-poetics study: the translation does not flatten the text into bland "advice," but keeps its sharpened verbal tools visible.

**Conclusion**

The phraseology of Kutadgu Bilig is a governing technology disguised as poetry. Through recurring somatic pairings (heart–tongue, tongue–head, eye/heart–hand), proverb-like couplets, and dialogically deployable maxims, the poem converts ethical theory into memorable speech-acts. In Dankoff's English, these units retain their compressed force: they teach rulers how to speak, warn them what speech can cost, and model a politics where legitimacy is inseparable from verbal discipline.

If "royal glory" is the poem's headline, phraseology is its engine: the compact verbal machinery that makes wisdom transmissible under pressure.

**Footnotes**

1.For the text's genre as a didactic "mirror for princes" and its broad historical positioning, see general descriptions in scholarly and reference overviews. (t-science.org)

2.Yūsuf Khāṣṣ Ḥājib, Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig): A Turko-Islamic Mirror for Princes, trans. Robert Dankoff (Chicago: University of Chicago Press, 1983). Bibliographic and review records identify this translation as a standard English edition. (Amazon)

3.For an accessible peer-reviewed bibliographic framing of Dankoff's translation (series and publication details), see the International Journal of Middle East Studies review notice page. (Cambridge University Press & Assessment)

4.On the four representational characters (Justice, Fortune, Intellect/Wisdom, and the "last-things"/wakefulness figure), see İsmail TAŞ's summary description. (turkishstudies.net)

5.Quoted in a management/leadership reading that reproduces Dankoff's English phrasing (with page reference). (ozguryayinlari.com)

6.Ibid. (ozguryayinlari.com)

7.Ibid. (ozguryayinlari.com)

8.Example of proverb-like couplet explicitly discussed with Dankoff's rendering in a translation-focused study. (t-science.org)

9.Quoted via Dankoff in the same excerpted source. (ozguryayinlari.com)

10. Ibid. (ozguryayinlari.com)

11. Proverb-like hyperbole and antithesis discussed with Dankoff's English in the same translation-focused study. (t-science.org)

**Used literature**

1. Dankoff, Robert (trans.). Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig): A Turko-Islamic Mirror for Princes. Chicago: University of Chicago Press, 1983. (Amazon)

2. TAŞ, İsmail. "Theoretical Structure of The Kutadgu Bilig." Journal of Turkish Studies (2010). (turkishstudies.net)

3. (Translation study PDF) Discussion of proverb markers and Dankoff-rendered couplets from Kutadgu Bilig (2017). (t-science.org)

4. Kuşakcı, S. "The Concepts of Integrity, Justice, and Benevolence…" (uses Dankoff in analysis of rulerly virtues). (isahlakidergisi.com)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Xasanova Umida Odiljon qizi**
Namangan davlat universiteti 2 bosqich tayanch doktoranti
khasanovaumida8@gmail.com

## SHUKUR XOLMIRZAYEV VA JEK LONDON HIKOYALARINING KOMPOZITSION KOMPONENTLARI TAHLILI

***Annotatsiya***. *Mazkur maqolada Shukur Xolmirzayev va Jek London hikoyalarida kompozitsion komponentlarning qurilishi qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda struktural-kompozitsion, narratologik va motiv-tahlil usullari qo'llandi. Natijada ekspozitsiya, konflikt, syujet dinamikasi, yakun va detallarning funksional farqlari aniqlanib, milliy poetika hamda tabiiyistik realizm kesishgan nuqtalar ilmiy asoslandi.*

***Kalit so'zlar:*** *hikoya, kompozitsiya, syujet, konflikt, narratsiya, badiiy detal, qiyosiy tahlil*

**Хасанова Умида Одилжон кизи**
Наманганский государственный университет, аспирант 2-го курса

## АНАЛИЗ КОМПОЗИЦИОННЫХ КОМПОНЕНТОВ РАССКАЗОВ ШУКУР ХОЛЬМИРЗАЕВА И ДЖЕКА ЛОНДОНА

***Аннотация.*** *В статье сопоставительно анализируются композиционные компоненты рассказов Шукура Холмирзаева и Джека Лондона. Используются структурно-композиционный, нарратологический и мотивный методы. Установлены различия в экспозиции, типах конфликта, динамике сюжета, финале и роли детали; показаны точки пересечения национальной поэтики и натуралистического реализма как научный вклад исследования.*

***Русский:*** *рассказ, композиция, сюжет, конфликт, наррация, художественная деталь, сопоставительный анализ*

**Khasanova Umida Odiljon qizi**
Namangan State University 2nd stage basic doctoral student

## ANALYSIS OF THE COMPOSITION COMPONENTS OF SHUKUR KHOLMIRZAYEV AND JACK LONDON STORIES

***Abstract.*** *This article offers a comparative analysis of compositional components in short stories by Shukur Kholmirzaev and Jack London. The study applies structural-compositional, narratological, and motif-based methods. The results identify systematic differences in exposition, conflict modeling, plot dynamics, endings, and the function of detail, clarifying intersections between national poetics and naturalistic realism.*

***English:*** *short story, composition, plot, conflict, narration, artistic detail, comparative analysis*

### Kirish

Hikoya janri ixcham hajm doirasida murakkab ma'no qatlamlarini jamlash, voqelikni keskinlashtirilgan badiiy vaziyat orqali yoritish va kompozitsion intizomni maksimal darajada talab etishi bilan adabiyotshunoslikda doimiy nazariy qiziqish uyg'otadi. Ayniqsa, turli adabiy-madaniy muhitlarda shakllangan hikoyachilik maktablarini qiyosiy kuzatish kompozitsiyaning universal mexanizmlari bilan birga milliy poetika belgilari qanday ishlashini ham ko'rsatadi. Shukur Xolmirzayev o'zbek hikoyachiligida psixologik kuzatuv, ijtimoiy-maishiy fondagi ichki ziddiyat va badiiy detalning serma'no ishlatilishi bilan ajralib turadi [1]. Jek London esa Amerika hikoyachiligida sarguzasht va tabiiyistik realizm, ekstremal sharoitda xarakter sinovi, qat'iy syujet dinamikasi hamda yakunning kuchli semantik "zarba"si bilan tanilgan [6]. Ikki adib hikoyalarini kompozitsion komponentlar kesimida solishtirish hikoya qurilishidagi "qisqa shakl" qonuniyatlarini yanada aniqroq ko'rsatishi, shuningdek, konflikt va detalning badiiy funksiyasi masalasida yangi umumlashmalar berishi mumkin.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, o'zbek adabiyotshunosligida Xolmirzayev hikoyalarining ma'naviy-axloqiy muammolari, qahramon psixologiyasi va til-uslub xususiyatlari bo'yicha tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da [1; 2], uning

kompozitsion qurilishi masalasi ko‘pincha umumiy tavsif darajasida qoladi. London bo‘yicha xalqaro adabiyotshunoslikda syujet arxitekturasi, tabiat va inson ziddiyati, naturalizm hamda romantik impulslar munosabati keng yoritilgan [6; 7], biroq bularning o‘zbek hikoyachiligi bilan kompozitsion qiyosda ko‘rilishi kam uchraydi. Tadqiqot muammosi aynan shu bo‘shliqdan kelib chiqadi: Xolmirzayev va London hikoyalarida ekspozitsiya, voqea tuguni, konfliktning turlanishi, kompozitsion detal, narratsiya nuqtayi nazari va yakun komponentlari qanday tizim hosil qiladi va bu tizimlar qaysi nuqtalarda o‘xshash hamda farqlidir.

Maqolaning maqsadi Shukur Xolmirzayev va Jek London hikoyalarida kompozitsion komponentlarning funksional ishlashini qiyosiy tahlil qilish hamda hikoya janrining ixcham shaklida kompozitsion intizomni belgilovchi omillarni aniqlashtirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar ko‘zda tutiladi: birinchidan, tanlangan hikoyalarda ekspozitsiya va voqea tugunining qurilish tamoyillarini ajratish; ikkinchidan, konfliktning ichki va tashqi modellari, ularning syujet dinamikasiga ta’sirini ko‘rsatish; uchinchidan, badiiy detal va takror motivlarning kompozitsion “bog‘lovchi” sifatidagi rolini asoslash; to‘rtinchidan, yakun turlarini va ularning semantik yakdillikka xizmat qilish mexanizmini qiyoslash. Tadqiqotning ilmiy yangiligi ikki adib hikoyalarida kompozitsion komponentlar “funksiya” sifatida tekshirilishi va bu funksiyalar milliy poetika hamda tabiiyistik realizmning turli estetik strategiyalari bilan izohlanishidadir.

**Metodlar**. Tadqiqot metodologiyasi hikoya kompozitsiyasini komponentlar tizimi sifatida ko‘rishga asoslanadi. Ishda struktural-kompozitsion tahlil markaziy o‘rin tutadi: hikoyaning ekspozitsiya, voqea tuguni, rivoj, kulminatsiya va yakun kabi bo‘g‘inlari alohida ajratilib, ularning o‘zaro bog‘lanish prinsiplari va funksional yuklamasi aniqlanadi. Ushbu yondashuv hikoya janriga xos ixchamlik sharoitida har bir bo‘g‘inning “ortiqcha”siz ishlashini, ya’ni kompozitsion iqtisod tamoyilini tekshirish imkonini beradi. Shuningdek, narratologik tahlil qo‘llanadi: hikoyachi nuqtayi nazari, fokalizatsiya, vaqtning siqilishi yoki cho‘zilishi, retrospektsiya va ellipsis kabi usullar syujet dinamikasini qanday boshqarishi o‘rganiladi [4]. Metod tanlovi hikoyada voqea emas, voqeani aytish usuli ham kompozitsion komponent sifatida ishlashini hisobga oladi.

Qiyosiy-tipologik metod tadqiqotning ikkinchi tayanchidir. Bu yerda qiyos “mavzu” yoki “g‘oya”ni mexanik taqqoslash emas, balki kompozitsion vazifalarning qaysi badiiy vositalar bilan bajarilishini solishtirishdir. Masalan, London hikoyalarida tashqi konflikt va ekstremal sharoit “harakat”ni tezlatadigan mexanizm bo‘lsa [6], Xolmirzayevda ichki konflikt va maishiy vaziyat ko‘pincha “sukut”, “kina” yoki “ikki ma’no”li detal orqali kuchayadi [1]. Motiv-tahlil esa takrorlanadigan obrazlar, predmet detali, fon tasviri yoki nutqiy formulalarning kompozitsiyani birlashtiruvchi bo‘g‘in sifatidagi rolini ochishga xizmat qiladi [5]. Tadqiqot materiali sifatida har ikki adibning keng o‘qiladigan, hikoya poetikasini yorqin namoyon etadigan matnlari tanlab, ular bo‘yicha kompozitsion sxema va funksional bog‘lanishlar tahlil qilindi. Metodologik jihatdan bu usullar bir-birini to‘ldiradi: struktural tahlil “nima” va “qanday bo‘g‘inlar”ni ko‘rsatsa, narratologiya “qanday aytildi”ni, qiyosiy yondashuv esa “nima uchun turlicha ishlaydi”ni asoslaydi.

**Natijalar.** Tahlil natijalari avvalo ekspozitsiyaning qurilishida sezilarli farq borligini ko‘rsatdi. London hikoyalarida ekspozitsiya ko‘pincha minimal, lekin koordinatalari aniq: makon ekstremalligi, xavf darajasi va qahramonning darhol harakatga majbur holati qisqa tasvir bilan beriladi. Bunday ekspozitsiya syujetni “oldinga itaruvchi” vazifani bajarib, o‘quvchini ziddiyat maydoniga tez olib kiradi. Xolmirzayev hikoyalarida esa ekspozitsiya ko‘pincha maishiy-psixologik maydonni tayyorlaydi: qahramonning ichki kayfiyati, munosabatlar tarangligi yoki oddiy predmet orqali beriladigan “yashirin signal” voqeaga kirishning muhim qismi bo‘ladi. Natijada London ekspozitsiyasi harakatni tezlashtirsa, Xolmirzayev ekspozitsiyasi ma’no qatlamini chuqurlashtiruvchi fon vazifasini kuchaytiradi; bu hol hikoya kompozitsiyasida vaqtni boshqarish strategiyalarining turlicha ekanini ko‘rsatadi.

Ikkinchi natija konflikt modellarida aniq tizimlilikni aniqladi. London hikoyalarida konfliktning tashqi shakli ustun: inson va tabiat, inson va muhit, inson va hayvon yoki keskin ijtimoiy sharoit to‘qnashuvi syujetning asosiy “dvigatel”i bo‘lib xizmat qiladi. Bunda ichki konflikt ham mavjud, biroq u ko‘pincha tashqi xavf fonida tezkor qarorlar zanjiri sifatida namoyon bo‘ladi. Xolmirzayevda esa konflikt ko‘pincha ichki va intersubyektiv xarakterga ega: o‘zini oqlash, ayb va mas’uliyat, sha’n va manfaat, sukut va aytilmagan gaplar o‘rtasidagi taranglik voqeani harakatlantiradi. Bu turdagi konflikt kompozitsiyada “pauza”, “kechikish”, “ikkinchi reja” mexanizmlarini ko‘paytirib, kulminatsiyani voqea bilan emas, anglash yoki tan olish nuqtasi bilan belgilashga moyillik yaratadi. Shunday qilib, qahramon sinovi London matnlarida tashqi sharoitda, Xolmirzayev matnlarida esa axloqiy-psixologik maydonda kompozitsion markazga aylanadi.

Uchinchi natija syujet dinamikasining qurilishiga taalluqlidir. London hikoyalarida syujet ko‘pincha chiziqli yo‘nalishda “harakat–to‘siq–yechim” modeliga yaqin bo‘lib, ellipsis va tezlashtirilgan vaqt strategiyalari bilan kuchaytiriladi; epizodlar ketma-ketligi qahramonni yakuniy qarorga olib boradigan bosqichlar sifatida joylashadi. Xolmirzayevda esa syujet ko‘pincha chiziqli bo‘lsa-da, ichki monolog, eslash, suhbatdagi uzilish, mayda vaziyatlarning takrori orqali “ichki chiziqlanish” hosil bo‘ladi, ya’ni voqea bir yo‘nalishda borar ekan, ma’no qatlamlari orqaga qaytish

va qayta yoritish bilan kengayadi. Natijada London syujetida epizodlar zanjiri fizik-voqeiy bosqichlarni, Xolmirzayev syujetida esa psixologik bosqichlarni zichlashtirib beradi.

To‘rtinchi natija badiiy detalning kompozitsion rolini aniqlashtirdi. London hikoyalarida detal ko‘pincha funksional-aksion xarakterda: sovuq, shamol, iz, ovqat, qurol, yaralanish kabi predmet va holatlar syujetning keyingi burilishini tayyorlaydi, sabab-oqibat bog‘lanishini mustahkamlaydi va voqea ishonchliligini oshiradi. Xolmirzayevda detal esa ko‘proq semantik va psixologik “kalit” vazifasini bajaradi: oddiy predmet, nutq ohangi, qarash, jimlik yoki maishiy harakat qahramonlar munosabatidagi yashirin ziddiyatni ochadi va yakunda anglash nuqtasiga xizmat qiladi. Har ikki holatda detal kompozitsiyani “tikuvchi” bo‘g‘in bo‘lsa-da, London detalining asosiy vazifasi harakatni boshqarish, Xolmirzayev detalining vazifasi esa ma’noni ko‘paytirish va ikkilanishni kuchaytirish ekanligi aniqlanadi.

Beshinchi natija yakun komponenti bo‘yicha olindi. London hikoyalarida yakun ko‘pincha keskin va qisqa, u syujetning mantiqiy natijasini “qattiq nuqta” bilan qo‘yadi; o‘quvchida hayotiy qonuniyat, kuch sinovi yoki tanlov oqibati aniq seziladi. Xolmirzayevda yakun ko‘pincha ochiq yoki yarim ochiq, u voqeani tugatsa ham, qahramonning ichki holatini “davom etuvchi” tarzda qoldiradi; yakun semantik jihatdan ko‘proq aks-sado va ichki mulohazaga tayanadi. Shu tariqa, London yakuni kompozitsion yopilishning, Xolmirzayev yakuni esa kompozitsion rezonansning ustunligini ko‘rsatadi.

**Muhokama.** Olingan natijalar hikoya kompozitsiyasining universal bo‘g‘inlari har ikki adibda mavjud bo‘lsa-da, ularning estetik vazifasi turlicha taqsimlanishini ko‘rsatadi. Bu farqni izohlashda avvalo hikoya nazariyasida kompozitsion iqtisod va voqeiy “tugun”ning roli haqidagi qarashlar muhim. Tomashevskiy syujetni motivlarning tartiblanishi, kompozitsiyani esa badiiy butunlikni tashkil etuvchi munosabatlar tizimi sifatida talqin qilib, motivning funksional zarurligini ta’kidlaydi [3]. Ushbu nuqtai nazardan qaralganda, London hikoyalarida motivlar asosan voqeiy zaruratga bo‘ysunadi: har bir detal keyingi epizod uchun tayanch bo‘lib, motivlar “ketma-ketlik bosimi” ostida ishlaydi. Xolmirzayevda esa motivlar ko‘pincha ma’no zaruratiga bo‘ysunadi: voqeiy ketma-ketlik sekinroq bo‘lishi mumkin, biroq motivlar qahramon ichki holatini bosqichma-bosqich ochib boradi. Demak, har ikki adibda kompozitsion iqtisod mavjud, lekin iqtisodning “valyutasi” biri uchun harakat, boshqasi uchun ma’no ekanligi ko‘rinadi.

Narratologik jihatdan Genette kiritgan vaqt va hikoya rejimlari masalasi bu farqni yanada aniqlashtiradi [4]. London hikoyalarida vaqtni siqish, tezlashtirish va epizodlar orasidagi ellipsislar syujet energiyasini ushlab turadi, bu esa naturalistik realizmga xos “sharoit bosimi”ni kuchaytiradi. Xolmirzayevda esa vaqt ko‘pincha psixologik “cho‘zilish” bilan beriladi: bir qarash, bir suhbat bo‘lagi yoki bir predmet atrofida ma’no aylanishi vaqtni ichkaridan kengaytiradi. Bu, o‘z navbatida, milliy hikoyachilikda sukut va ishora poetikasining kuchli ekanini ko‘rsatadi; bunday poetika o‘quvchini hamkor talqinga chorlaydi. Shu o‘rinda o‘zbek adabiyotshunosligida nasrda psixologizm va detal masalalariga e’tibor qaratgan tadqiqotlar Xolmirzayev matnlarini talqin qilishda nazariy tayanch bo‘la oladi [1; 2]. Biroq mazkur maqolada bu qarashlar kompozitsion komponentlar tizimi doirasida qayta o‘qildi: detal faqat uslubiy unsur emas, balki syujetning semantik “sharnir”i sifatida ko‘rildi.

London bo‘yicha tadqiqotlarda uning hikoyalarida tabiat va inson ziddiyati ko‘pincha “ekzistensial sinov” sifatida izohlanadi, naturalistik detallar esa ishonchlilik va shafqatsiz mantiq yaratadi [6; 7]. Ushbu maqoladagi natijalar bu pozitsiyani kompozitsion tilga ko‘chiradi: tashqi konflikt faqat mavzu emas, balki kompozitsion dinamika generatori bo‘lib chiqadi. London hikoyasida kompozitsiya ko‘pincha “sinov trayektoriyasi”dir: ekspozitsiya sharoitni belgilaydi, tugun xavfni keskinlashtiradi, rivoj to‘siqlarni ko‘paytiradi, kulminatsiya tanlovni majbur qiladi, yakun esa oqibatni qat’iy muhrlaydi. Xolmirzayevda esa kompozitsiya ko‘proq “anglash trayektoriyasi”ga yaqin: ekspozitsiya munosabatlar fonini beradi, tugun yashirin ziddiyatni qo‘zg‘atadi, rivoj ichki qarshiliklarni ko‘rsatadi, kulminatsiya tan olish yoki ichki burilish bilan bog‘lanadi, yakun esa rezonansli ochiqlikni saqlaydi. Bu farq, Bachtin ta’kidlaganidek, badiiy asarda ovoz va nuqtayi nazarlarning tashkil topishi bilan ham bevosita aloqador [5]; Xolmirzayevda dialogik taranglik va “aytilmagan” ma’nolar ko‘proq, London esa ko‘pincha monolitik dramatik yo‘nalishga intiladi. Biroq bu qat’iy qarama-qarshilik sifatida emas, balki ustuvorliklar spektri sifatida ko‘rilishi kerak: London ham ayrim matnlarda psixologik ichki ziddiyatga chuqur kiradi, Xolmirzayev ham ba’zan voqeiy keskinlikni kuchaytiradi, lekin umumiy kompozitsion strategiya farqi saqlanib qoladi.

Shuningdek, natijalar hikoya janrida yakunning ilmiy talqiniga ham hissa qo‘shadi. Yakun masalasi ko‘pincha “ochiq” va “yopiq” kabi ikki qutb bilan izohlanadi, ammo qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, yakunning yopiq yoki ochiqligi kompozitsion komponentlar ichida detallarning qanday ishlashiga bog‘liq. London matnlarida detal ko‘pincha yakunni “mantiqiy majburiyat” bilan yopadi; Xolmirzayevda esa detal yakunni “semantik ortiqcha ma’no” bilan ochadi, ya’ni yakun tugagan voqeadan keyin ham ma’no ishlab turadi. Bu fikr hikoya poetikasida detal va yakun o‘rtasidagi funksional aloqani aniqroq ko‘rsatadi va qiyosiy adabiyotshunoslik uchun metodik natija beradi.

**Xulosa.** Maqolada Shukur Xolmirzayev va Jek London hikoyalarining kompozitsion komponentlari qiyosiy tahlil qilinib, ekspozitsiya, konflikt, syujet dinamikasi, badiiy detal va yakun bo‘g‘inlarining funksional ishlashida tizimli farqlar mavjudligi aniqlandi. London hikoyalarida kompozitsiya asosan tashqi konflikt va ekstremal sharoit hisobiga

tezkor syujet harakati va qat'iy yakun modelini shakllantirsa, Xolmirzayev hikoyalarida ichki konflikt, sukut va semantik yuklangan detal orqali psixologik anglashga yo'naltirilgan, rezonansli yakun ustuvorligi kuzatildi. Tadqiqot hikoya janrida kompozitsion iqtisodning turli estetik strategiyalar bilan bog'lanishini nazariy jihatdan asoslab, qiyosiy tahlilda komponentlarning "funksiya" sifatida ko'rilishi samarali ekanini ko'rsatdi. Kelgusida mazkur yondashuvni hikoyachilikdagi boshqa milliy maktablar doirasida, shuningdek, hikoya va qissa chegaradosh shakllarida kompozitsion transformatsiyalarni o'rganishga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

**Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati.**

1. Qo'shjonov M. Shukur Xolmirzayev nasri poetikasi. Toshkent. Fan. 2001. 176 b.
2. Karimov N. O'zbek nasri va adabiy jarayon. Toshkent. Akademnashr. 2014. 240 b.
3. Tomashevskiy B. V. Teoriya literatury. Poetika. Moskva. Aspekt Press. 2002. 334 s.
4. Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method. Ithaca. Cornell University Press. 1980. 286 p.
5. Baxtin M. M. Estetika slovesnogo tvorchestva. Moskva. Iskusstvo. 1979. 424 s.
6. London J. The Complete Short Stories of Jack London. New York. Random House. 1993. 1056 p.
7. Labor E. Jack London. New York. Twayne Publishers. 1974. 192 p.
8. Abrams M. H. A Glossary of Literary Terms. Boston. Cengage Learning. 2012. 432 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Xalilova Sitora Zarifovna**
https://doi.org/10.5281/zenodo.14778639
Toshkent amaliy fanlar universiteti TEFL o'qituvchisi, Gavhar ko'chasi 1,
Toshkent, O'zbekiston.
Tashkent University of Applied Sciences, TEFL teacher, Gavkhar St. 1, Tashkent, Uzbekistan.
Email: sita.khalilova30@gmail.com

## INGLIZ TILIDA FE'LLARNING KONVERSIYA USULIDA YASALISHI

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada hozirgi ingliz tilida fe'llarning konversiya usuli orqali yasalish jarayoni lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ot, sifat va ravishlardan fe'l hosil bo'lishining morfologik va semantik xususiyatlari yoritilgan. Qadimgi va hozirgi ingliz tilidagi konversiya jarayonlari qiyosiy tahlil qilinib, ushbu usulning ko'p ma'nolilikni shakllantirishdagi o'rni aniqlangan. Olingan natijalar konversiya ingliz tilining leksik tizimini boyituvchi muhim vosita ekanligini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar.*** *konversiya, so'z yasalishi, fe'l, ot, semantika, morfologiya, polisemiya, leksik birlik.*

**Khalilova Sitora Zarifovna**
TEFL teacher at Tashkent University of Applied Sciences

## VERB FORMATION IN MODERN ENGLISH THROUGH THE PROCESS OF CONVERSION

***Abstract.*** *This article examines the process of verb formation in modern English through conversion as one of the most productive word-formation methods. The study analyzes the morphological and semantic features of verbs derived from nouns, adjectives, and adverbs. A comparative analysis of conversion in Old English and Modern English is conducted, and the role of conversion in the development of polysemy is explored. The findings demonstrate that conversion plays a significant role in enriching the lexical system of the English language.*

***Key words.*** *conversion, word formation, verb, noun, morphology, semantics, polysemy.*

**Халилова Ситора Зарифовна**
Преподаватель английского языка как иностранного в Ташкентском университете прикладных наук

## ОБРАЗОВАНИЕ ГЛАГОЛОВ В СОВРЕМЕННОМ АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ ПОСРЕДСТВОМ КОНВЕРСИИ

***Аннотация.*** *В статье рассматривается процесс образования глаголов в современном английском языке с помощью конверсии как одного из наиболее продуктивных способов словообразования. В работе анализируются морфологические и семантические особенности образования глаголов от существительных, прилагательных и наречий. Проводится сравнительный анализ конверсии в древнеанглийском и современном английском языках, а также рассматривается роль конверсии в формировании полисемии. Полученные результаты подтверждают значимость конверсии в обогащении лексической системы английского языка.*

***Ключевые слова.*** *Конверсия, словообразование, глагол, существительное, морфология, семантика, полисемия.*

### Kirish

So'z yasalishi til tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u tilning leksik boyligini kengaytirish va yangi tushunchalarni ifodalashda asosiy vosita hisoblanadi. Ingliz tilida so'z yasalishining samarali va faol usullaridan biri konversiya bo'lib, u affiksatsiyasiz holda so'zning bir leksik-grammatik turkumdan boshqasiga o'tishini ifodalaydi. Ingliz tilining analitik xarakterga ega ekanligi, ya'ni morfologik ko'rsatkichlarning cheklanganligi, konversiya jarayonining keng qo'llanilishiga qulay sharoit yaratadi. Hozirgi ingliz tilida fe'llarning konversiya usuli orqali yasalishi ayniqsa dolzarb hodisa hisoblanadi. Ot, sifat va ravish kabi so'z turkumlaridan fe'l hosil bo'lishi natijasida til birliklarining funksional imkoniyatlari kengayadi hamda semantik mazmun boyiydi. Bunday jarayon, bir tomondan, tilning

iqtisodiylik tamoyiliga mos kelib, nutq jarayonida ixchamlikni ta'minlasa, ikkinchi tomondan, so'zlarning ko'p ma'nolilik xususiyatini rivojlantiradi. Konversiya hodisasi nafaqat morfologik, balki semantik va sintaktik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Fe'llarning konversiya yo'li bilan hosil bo'lishi ularning gapdagi vazifasi, kontekstda qo'llanishi va ma'no o'zgarishlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois konversiyani lingvistik nuqtai nazardan chuqur o'rganish ingliz tilining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

So'z yasalishi har qanday tilning leksik tizimida muhim o'rin egallaydi. Ingliz tilida esa konversiya affikssiz so'z yasalishning eng faol va produktiv usullaridan biri sifatida ajralib turadi. Tilning analitik xususiyati, ya'ni grammatik shakllarning cheklanganligi, konversiyaning faol ishlatilishiga zamin yaratadi. Natijada so'zlarning fonetik shakli o'zgarmagan holda ularning grammatik funksiyasi va semantik doirasi kengayadi.

Konversiya hodisasini o'rganish nafaqat so'z yasash mexanizmlarini aniqlash, balki ingliz tilida polisemiyaning shakllanishi, semantik kengayish va kontekstning grammatik rolini yoritishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mazkur tadqiqot ingliz tilshunosligida konversiya hodisasining nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq tahlil qilishga qaratilgan.

**Metodologiya**

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tahliliy, tarixiy-lingvistik va semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida hozirgi ingliz tilida faol qo'llanilayotgan konversiya yo'li bilan hosil bo'lgan fe'llar tanlab olindi. Shuningdek, qadimgi ingliz tili manbalari asosida konversiya jarayonining tarixiy rivojlanish bosqichlari o'rganildi. Tadqiqotning nazariy asosi sifatida A.I. Smirnitskiy, H. Marchand, L. Bauer, I. Plag kabi olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Qadimgi ingliz tilida konversiya hozirgi davrga nisbatan kamroq darajada rivojlangan bo'lib, fe'llarning infinitiv shakllari maxsus so'z yasovchi affikslarga ega bo'lgan. A.I. Smirnitskiy fikricha, konversiya omonimlik hodisasiga asoslanmaydi, balki so'zlarning paradigmatik xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Bu qarash konversiyaning tarixiy va zamonaviy shakllarini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, down va out kabi birliklar misolida konversiya bir martalik hodisa emas, balki takrorlanib boruvchi jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Bunday rekonversiya natijasida so'zlar yangi grammatik vazifalar bilan birga yangi semantik ma'nolarni ham hosil qiladi. Natijada konversiya orqali yuzaga kelgan fe'llar ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega bo'ladi.

Shuningdek, morfologik tahlil metodi yordamida ot, sifat va ravish so'z turkumlaridan konversiya yo'li bilan hosil bo'lgan fe'llarning formal xususiyatlari o'rganildi. Bu jarayonda fe'l yasovchi affikslarning ishtirok etmasligi, so'zning tashqi shakli o'zgarmasdan qolishi asosiy mezon sifatida olindi.

Semantik tahlil metodi orqali konversiya natijasida hosil bo'lgan fe'llarning ma'no rivoji, ularning polisemiyaga aylanish mexanizmi o'rganildi. So'zlarning dastlabki nominativ ma'nosi va keyinchalik yuzaga kelgan hosila ma'nolari o'rtasidagi semantik bog'lanish aniqlab berildi.

Tadqiqotda qiyosiy metod ham qo'llanilib, qadimgi ingliz tili va hozirgi ingliz tilidagi konversiya jarayonlari o'zaro solishtirildi. Bu esa konversiyaning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini yoritishga xizmat qildi.

Amaliy material sifatida Oxford English Dictionary, Cambridge Dictionary va Longman Dictionary of Contemporary English lug'atlaridan olingan misollar tahlil qilindi. Misollar tanlashda fe'llarning real nutqdagi qo'llanilishi va ularning semantik kengayish imkoniyatlari hisobga olindi.

**Natijalar va Muhokama**

1. Konversiyaning lingvistik mohiyati. Konversiya - bu so'zning tashqi shakli o'zgarmagan holda boshqa so'z turkumiga o'tishi bo'lib, u grammatik vazifaning o'zgarishi orqali aniqlanadi. Ingliz tilida bu jarayon ayniqsa ot - fe'l modelida keng tarqalgan: Masalan, a bottle (butilka) - to bottle butilkaga quymoq, a hand (qo'l) - to hand (uzatmoq), a hammer (bolg'a) - to hammer (bog'lamoq).

2. Konversiyaning turlari. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ingliz tilida konversiyaning quyidagi asosiy turlari aniqlanadi: Ot - fe'l konversiyasi: to water (suv quymoq), to phone (qo'g'iroq qilmoq), to doctor (o'zgartirib qo'ymoq). Sifat - fe'l konversiyasi: to clean (tozalamoq), to dry (qurimoq), to blind (ko'r bo'lmoq). Ravish - fe'l konversiyasi: to down (yiqitmoq), to out (ma'lum qilmoq). Bu turlar orasida ot-fe'l konversiyasi eng samarador hisoblanadi.

3. Tarixiy aspekt. Qadimgi ingliz tilida konversiya mavjud bo'lgan bo'lsa-da, fe'llar ko'pincha suffiksatsiya yordamida yasalgan. Hozirgi ingliz tilida esa grammatik affikslarning qisqarishi natijasida konversiya yetakchi so'z yasash usuliga aylangan.

4. Konversiya va polisemiyaning o'zaro bog'liqligi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, konversiya orqali hosil bo'lgan fe'llar vaqt o'tishi bilan ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon konversiyaning qayta-qayta qo'llanishi natijasida yuzaga keladi: to run - yugurmoq, ishlamoq, boshqarmoq; to head - bosh bo'lmoq, yetaklamoq.

Izlanish natijalariga ko'ra, konversiya ingliz tilida nafaqat yangi fe'llarni hosil qiladi, balki mavjud so'zlarning funksional va semantik imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Bu jarayon tilning dinamik rivojlanishiga xizmat qilib, nutqning ixchamligi va ifodaliligini ta'minlaydi.

**Xulosa**

Mazkur tadqiqot ingliz tilida fe'llarning konversiya usuli orqali yasalish jarayonini tizimli va kompleks yondashuv asosida tahlil qilishga qaratildi. O'tkazilgan nazariy va amaliy tahlillar natijasida konversiya hozirgi ingliz tilida eng faol va mahsuldor so'z yasash usullaridan biri ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, konversiya usuli orqali hosil bo'lgan fe'llar, avvalo, formal jihatdan o'zgarmasligi bilan boshqa so'z yasash usullaridan farqlanadi. Ya'ni, fe'l yasash jarayonida affiksatsiya yoki boshqa morfologik ko'rsatkichlar ishtirok etmaydi, so'zning so'z turkumiga mansubligi esa asosan sintaktik muhit va semantik omillar orqali belgilanadi. Bu holat ingliz tilining analitik xususiyati bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilida konversiya asosan ot, sifat va ravish so'z turkumlari asosida fe'l yasalishi bilan namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ot - fe'l modeli eng keng tarqalgan bo'lib, bunday fe'llar predmet bilan bog'liq harakatni ifodalash orqali tilning nominativ va kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi. Sifat - fe'l konversiyasi esa holatning o'zgarishi, yangi belgi yoki sifatning yuzaga kelishini anglatib, jarayonning dinamik xususiyatini ifodalaydi. Ravish - fe'l modeli nisbatan kam uchrasa-da, u ham fe'l yasalish tizimida muhim semantik vazifani bajarishi aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqot davomida konversiya orqali hosil bo'lgan fe'llarning semantik rivoji masalasi alohida e'tiborga olindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, konversiya natijasida yuzaga kelgan fe'llar dastlab birlamchi, ya'ni monosemantik ma'noga ega bo'lsa-da, til taraqqiyoti jarayonida konversiyaning qayta-qayta takrorlanishi natijasida ko'p ma'nolilik (polisemiya) xususiyatini kasb etadi. Bu holat konversiyaning nafaqat so'z yasovchi, balki semantik jihatdan boyituvchi mexanizm ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, konversiya ingliz tilining lug'aviy tarkibini boyitishda, nutqning ixchamligi va ifodaviyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon til tizimining ochiqligi va moslashuvchanligini ko'rsatib, yangi tushuncha va hodisalarni tez va samarali nomlash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari ingliz tilining leksikologiyasi, so'z yasalishi nazariyasi va umumiy tilshunoslik sohalarida ilmiy izlanishlar olib borishda, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida leksikologiya va grammatika fanlarini o'qitishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot xulosalari kelgusida konversiya jarayonining boshqa so'z turkumlari bilan bog'liq jihatlarini va uning qiyosiy tilshunoslik doirasidagi xususiyatlarini o'rganish uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Smirnitskiy A.I. *Лексикология английского языка*. - Москва: Высшая школа, 1956.
2. Marchand H. The Categories and Types of Present-Day English Word-Formation. - Munich: C.H. Beck, 1969.
3. Bauer L. English Word-Formation. - Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
4. Adams V. An Introduction to Modern English Word-Formation. - London: Longman, 1973.
5. Plag I. Word-Formation in English. - Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
6. Качалова К.Н. Практическая грамматика английского языка. - Москва: ЮНВЕС, 1998.
7. Algeo J. The Origins and Development of the English Language. - Boston: Wadsworth, 2010.
8. Hamroeva L.Z. Ingliz tilida konversiya hodisasining lingvistik xususiyatlari. - Ученый XXI века, 2022, №3 (84).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Saydaliev Saidumar**
NamDU professori

## DIPLOMATIYA TILINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNGA O`RGATISH TEXNOLOGIYALARI

***Annotatsiya:*** *Maqolada diplomatiya, diplomatiya tili va diplomat tushunchalari, ularning mazmun-mohiyati, xususiyatlari tahlilga tortilgan. Diplomat kasbi, bu kasb vakiliga qo`yilgan talablar va ularning boshqa kasblardan farqlovchi xususiyatlari hamda ularga o`rgatish usullari bayon qilingan.*

***Kalit so`zlar:*** *diplomatiya, diplomat, diplomatiya tili, lotin, ingliz, fransuz tili.*

**Saydaliev Saidumar**
Professor of NamSU

## SPECIFIC FEATURES OF THE LANGUAGE OF DIPLOMACY AND ITS TEACHING TECHNOLOGIES

***Abstract:*** *The article analyzes the concepts of diplomacy, the language of diplomacy and the role of the diplomat, as well as their essence and distinctive features. It also discusses the diplomatic profession, the requirements set for representatives of this field, the characteristics that distinguish it from other professions and the methods of teaching these skills.*

***Keywords:*** *diplomacy, diplomat, diplomatic language, Latin, English, French languages.*

**Сайдалиев Сайдумар**
Профессор НамГУ

## СПЕЦИФИКАЦИЯ ЯЗЫКА ДИПЛОМАТИКИ И ТЕХНОЛОГИИ ЕГО ОБУЧЕНИЯ

***Аннотация:*** *В статье анализируются понятия дипломатии, дипломатического языка и дипломата, их содержание, характеристики. Описывается профессия дипломата, требования к представителям этой профессии и их отличительные черты от других профессий, а также методы их обучения.*

***Ключевые слова:*** *дипломатия, дипломат, язык дипломатии, латынь, английский, французский.*

Diplomatiya deganda mamlakat va uning xalqaro aloqalar bilan bog`liq bo`lgan sub`ektlarining faoliyati tushuniladi. Ular davlatning tashqi siyosatini yurgizish, konfliktlarni muzokara yo`li bilan bartaraf qilish va boshqa vositalar bilan davlat manfaatlarini himoya qilish faoliyati bilan shug`ullanadilar. Diplomatiyaning funktsiyasiga tashqi siyosatni amalga oshirish, milliy manfaatlarni himoya qilish, tinchlikni saqlash, xalqaro xavfsizlikni ta`minlash va hamkorlikni rivojlantirish kiradi. Bu faoliyat muzokaralar olib borish, shartnomalar tuzish, diplomatik yozishmalarni bajarish, xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish, maslahatlashish yo`llari bilan amalga oshiriladi.

Diplomatiya termini ko`chma ma`noda muloyimlik, kelishuvchanlik, maqsadga erishishda kelishmovchiliklardan qochish, hushmuomalalilik va boshqalarni ifodalaydi. Diplomatiya tili sifatida tarixda lotin, hozirgi kunda ingliz va frantsuz tillaridan keng foydalaniladi. Diplomatiya tili deganda diplomatik munosabatlar va xalqaro shartnomalarda ishlatiladigan maxsus terminlar, iboralar va uslublar tushuniladi; u rasmiy hujjatlarda, xalqaro tashkilotlar (BMT) ishida foydalaniladi, koʻp hollarda ishtirokchi davlatlar tillari yoki BMTning rasmiy tillari (arab, ingliz, ispan, rus, fransuz, xitoy) qoʻllaniladi, shuningdek, oʻziga xos lugʻat (agreman, statuskvo) va uzun, ehtiyotkorona jumlalarni oʻz ichiga oladi, deyiladi Wikipedia saytida. Maxsus terminologiya: "Statuskvo", "agreman", "retorsiya" kabi xalqaro huquq va munosabatlar sohasiga oid maxsus soʻzlar va iboralar keng qo`llaniladi. Diplomatlar noaniqlikdan qochishga harakat qilishadi, shuning uchun jumlalar uzoq, koʻp bogʻlovchilardan iborat boʻlishi mumkin, bu esa noaniq talqinlarga yoʻl qoʻymaydi. Xalqaro konferensiyalar, tashkilotlarda multilingvizm (koʻp tillilik) - bir nechta rasmiy va ish yuritiladigan tillardan foydalaniladi.

Diplomat xalqaro aloqalarda o`z mamlakati yoki tashkilotining manfaatlarini himoya qiluvchi rasmiy shaxs hisoblanadi. Diplomatning asosiy funksiyasiga muzokaralarda ishtirok etish, xalqaro kelishuv qarorlarini tayyorlash va imzolash kiradi. Undan xalqaro munosabatlarga, siyosatga, iqtisodiyotga va xuquqqa oid chuqur bilim talab qilinadi.

Shu bilan birga muzokara olib borish, umumiy til topish va o`zini munosib tutish malakasi zarur bo`ladi. Unda alohida shaxsiy hislatlar bo`lmish - o`zgalarni sinchkovlik va qunt bilan tinglash, ziyraklik, eruditsiya, maqsadga intiluvchanlik, o`zgalarni rajitmaslik, xushmuomalalilik, topqirlik, turli holat va sharoitlarga moslashuvchanlik fazilatlari ham rivojlangan bo`lishi kerak. Diplomatdan bir nechta chet tillarni bilish talab qilinadi.

Bu kasbning o`ziga xos xususiyati shundaki, diplomat hayotining ko`p qismi chet ellarda o`tadi. Uning mas`uliyati shunchalik jiddiy hisoblanadiki, ehtiyotsizlik bilan yoki noo`rin aytilgan bir og`iz so`z yoki qilingan bir harakat jiddiy xalqaro oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu kasb o`ta noyob bo`lgani holda shaxsdan juda katta mas`uliyat, xushyorlik, sezgirlik va ehtiyot bo`lishni talab qiladi. Diplomat o`z mamlakatining yuzi hisoblanadi. U o`z faoliyatida faqat mamlakatning manfaatlari bilan ish ko`radi.

Diplomatiya tili o`ziga xos xususiyatga ega. Diplomatiya tili deganda diplomatik xujjat va muzokaralarda ishlatiladigan xalqaro aloqalarning rasmiy tili (masalan, ingliz, frantsuz), tana tili (masalan, yuz ifodasi, qo`l harakati, ko`z qarash), maxsus leksemalar (masalan, so`z va jumlalar) tushuniladi. Bu til mamlakat vakillari o`rtasidagi bir-birini o`zaro tushunishdagi aniqlik va shaffoflikni ta`minlovchi vosita rolini bajarishi lozim.

Diplomatiya dunyosida E.Satouning diplomatik faoliyatning tashkiliy masalalari, bayonnomalar, tseremoniyalar va etiketlariga oid “Diplomatik amaliyot bo`yicha ko`rsatma” nomli kitobi keng tarqalgan. Diplomatik amaliyotning mazmuniga oid faoliyat va bilimlarni qo`llash ham muhim rol o`ynashini unutmaslik lozim. Ma`lumki diplomatiya, birinchi navbatda, turli mamlakat vakillarining o`zaro aloqa, muloqot, muzokara, munozara, suhbatidan iborat bo`ladi. Garol’d Nikol’son o`zining “Diplomatiya” nomli kitobida “diplomatiya – bu og`zaki emas, balki yozma san`at” deb baholaydi. Bunga sabab shuki, xalqaro aloqalardagi kelishuvlar yozma ravishda qayd qilinsa, uni o`zgartirish o`z o`zidan bo`lmaydi, chunki kelishuv muxrlanib qolgan bo`ladi. Shartnoma, kelishuv og`zaki yoki yozma bo`lishidan qat`iy nazar, u albatta, til vositasida amalga oshiriladi. Diplomatik til orqali mamlakatlar muzokaralar olib boradilar, notalar almashadilar, shartnoma tuzadilar, xalqaro voqealarga munosabat bildiradilar, bir birlari bilan aloqaga chiqadilar. Shu bilan birga diplomatik amaliyot boshqa muhim elementni ham inobatga oladi, ya`ni xalqaro xuquqni bilish, bayonnomani tushunish, strategik tahlil malakalari, rasmiy diplomatiya mexanizmlari va madaniyatlararo muloqotda ishlay olish malakalarini namoyish qila olish va boshqalar. Bularning barchasi og`zaki yoki yozma, rasmiy yoki norasmiy, yoqimli yoki yoqimsiz, kamtarona yoki namoyishkorona til orqali yuzaga chiqariladi.

Garol’d Nikol’sonning fikriga ko`ra diplomatik til uchta tushunchani ifodalash uchun ishlatiladi. Birinchidan, u lotin, ingliz, fransuz tili bo`lishidan qat`iy nazar, u diplomatlar tomonidan og`zaki yoki yozma shakldagi til sifatida qo`llanadi. Ikkinchidan, ular asrlar davomida qo`llanilayotgan odatdagi diplomatik so`zlarning ifodasi sifatidagi texnik jumlalarni ifodalaydi. Uchinchidan, bu so`zlar diplomat va vazirlarga eng qat`iy va jiddiy talablarni ifodalovchi fikrlarini ehtiyot bo`lib va ohista, xushmuomalalilik va yumshoqlik bilan aytish imkonini beradi.

Diplomatik til deganda tillar, terminlar va jumlalar vositasida mamlakat tashqi aloqalarini diplomatik kanallar orqali amalga oshirilgan faoliyatlari majmui tushuniladi. Ular diplomatik amaliyotning komponenti bo`lib, muloqot instrumenti sifatida kelishuvning aniqligi, o`zaro tushunish va rizochilikni ta`minlovchi mexanizm tarzida xizmat qiladi va quyidagilarni qamrab oladi:

- umumbashariy xalqaro muloqot tilini;
- mamlakatlararo bog`lanishga oid diplomatik amaliyot terminlarini (masalan, agreman, norozilik notasi, demarsh va boshqalar);
- siyosiy signallar, rozi bo`lmaslikka oid fikr-mulohazalar, ehtiyot-shartli ikkilanishlar, o`ta ehtiyotkor taktik talablar, etiketni buzmagan holdagi urf bo`lib qolgan muloyim iboralar va odob doirasidagi yoqimli jumlalar. Ular rasmiy yozishmalar va xalqaro tashkilot xujjatlarida ham foydalaniladi.

Diplomatiya tili haqida ba`zan quyidagi istehzoli fikr ham bildiriladi. Til diplomatga o`z hissiyotini va fikrini yashirish uchun berilgan, diplomat hech narsa demaslik uchun ikki marta o`ylashi kerak, elchi bu chet elga o`z mamlakati manfaati yo`lida aldash uchun yuborilgan insondir, degan jumlalar diplomatik tilning yoqimli, shirin so`zlari negizida o`zgacha yashirin ma`nolar mujassam ekanligidan dalolat beradi. Bunday til ko`pincha samimiylik, rostlik va to`g`rilikdan yiroq bo`lib, haqiqatni ifodalovchi so`zlar va ularning ma`nolaridan yiroq bo`ladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotida diplomatik ishlarni yuritish uchun oltita rasmiy til qabul qilingan. Bu tillar: ingliz, fransuz, rus, ispan, arab va xitoy tilidir. Bu tillarning hammasida majlislar olib boriladi, sinxron tarjima amalga oshiriladi va rasmiy xujjatlar chop etiladi. Shunday bo`lsada norasmiy muloqotlarda va xujjatlarning loyihasini tayyorlash jarayonida turli mamlakat vakillari va xodimlar o`rtasida ingliz tili muloqot tili vazifasini bajaradi.

Diplomatik til va diplomat tili tushunchalarini farqlash zarur. Yuqorida aytib o`tilganidek diplomatik tilda mamlakatlar o`rtasidagi turli xujjatlar shakllantiriladi, taqdim etiladi va almashiniladi. Bu til o`zining mazmuni, shakli-shamoili, unda ishlatiladigan so`zlar, jumlalarga ko`ra ma`lum talablarga javob berishi talab etiladi. Bu til neytral, his-hayajondan holi, rasmiy xususiyatga ega bo`ladi.

Diplomatiya tili — bu xalqaro munosabatlar sohasida davlatlar, xalqaro tashkilotlar va ularning vakillari tomonidan qo‘llaniladigan maxsus kommunikativ vositadir. U siyosiy maqsadlarni ifodalash, muzokaralar olib borish, kelishuvlarga erishish hamda ziddiyatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Diplomatiya tili oddiy rasmiy nutqdan farqli ravishda yuqori darajadagi ehtiyotkorlik, pragmatik moslashuvchanlik va kontekstga bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Diplomatik muloqotda til faqat axborot yetkazish vositasi emas, balki ta’sir ko‘rsatish, pozitsiyani yashirin yoki bilvosita ifodalash, qarama-qarshilikni yumshatish funksiyalarini ham bajaradi. Shu sababli diplomatiya tili lingvistika, pragmatika, diskurs tahlili va siyosiy kommunikatsiya nuqtai nazaridan o‘rganiladi.

Diplomatiya tilining o‘ziga xosligi uning bir qator asosiy xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Ular quyidagilardan iborat:

**Rasmiylik va aniqlik.**

Diplomatik nutq qat’iy rasmiy uslubda olib boriladi. Har bir so‘z, ibora yoki jumla aniq huquqiy va siyosiy ma’noga ega bo‘lishi talab etiladi. Shu bilan birga, aniqlik ochiq keskinlikka olib kelmasligi lozim.

**Betaraflik va xolislik.**

Diplomatik til baholovchi, hissiy yoki keskin ifodalardan qochadi. Betaraf leksika orqali tomonlar o‘rtasidagi muvozanat saqlanadi va muloqotning konstruktiv ruhda davom etishiga erishiladi.

**Ehtiyotkorlik va muloyimlik.**

Diplomatik nutqda muloyimlik kategoriyasi muhim o‘rin tutadi. Modal fe’llar, shartli konstruksiyalar, yumshatuvchi iboralar orqali fikr ehtiyotkorlik bilan yetkaziladi.

**Noaniqlik (ambiguity).**

Diplomatiya tilida ataylab noaniq ifodalardan foydalanish keng tarqalgan. Bu usul tomonlarga keyingi muzokaralarda manevr qilish, o‘z pozitsiyasini qayta talqin etish imkonini beradi.

**Evfemizmlardan foydalanish.**

Salbiy yoki keskin mazmunli tushunchalar yumshoq, diplomatik shaklda ifodalanadi. Bu ziddiyatlarni kuchaytirmaslikka xizmat qiladi.

Diplomat tili deganda ushbu kasb vakillariga xos bo`lgan muloyimlik, xushmuomalalilik, sinchkovlik, mulohazalilik, xushyorlik, oqibatini ko`zlab ifodalangan fikr-mulohaza bayon qilish san`ati tushuniladi. Shuning uchun kundalik hayotda gapga chechan va ajoyib suhbat sohibiga qarab, “diplomat bo`lib keting-e” degan iboraning ishlatilishi bejiz emas. Diplomatiya tiliga oid ko`plab so`zlar lotin tilidan kirib kelgan va ular barcha ishlarni yuritishda qo`llaniladi. Ularni bilish, o`zlashtirib olish va og`zaki va yozma nutqda qo`llay bilish til o`rganuvchilarning vazifasi hisolanadi.

Xulosa qilib aytganda, diplomatiya tili xalqaro munosabatlar tizimida muhim kommunikativ vosita bo‘lib, u rasmiylik, betaraflik, ehtiyotkorlik, noaniqlik va pragmatik moslashuvchanlik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Diplomatik nutq siyosiy manfaatlarni ochiq ziddiyatlarsiz ifodalash, murosaga erishish va barqaror aloqalarni saqlashga xizmat qiladi. Diplomatiya tilini chuqur o‘rganish siyosiy kommunikatsiya samaradorligini oshiradi hamda xalqaro munosabatlarda til omilining ahamiyatini yanada yaqqol namoyon etadi. Buning uchun, eng avvalo, u so`zlarni to`plash, ro`yxatini tuzish, ma`nolarini ochish, ular bilan gaplar tuzish, matnlardagi ma`nolarini tahlil qilish, fikrni ifodalash uchun foydalana bilish, so`zlar bilan ishlash diplomatiya tilini o`rganish usullaridandir. Bu so`zlar bilan turli usullar asosida ishlash va o`quv amallarini bajarish ularni faol o`zlashtirib olishni ta`minlovchi texnologiyalardan hisoblanadi. Ayniqsa Assotsiogrammalar, Skafolding, CLIL texnologiyalari bu borada eng samarali bo`lib xizmat qilishi mumkin. Bu texnologiyalar asosida diplomatik til materiallari bilan ishlash aloxida maqola uchun mavzu bo`ladi deb o`ylaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. G.Nikol’son, «Diplomatiya», glava 10 «Diplomaticheskiy yazik», str. 129 - 140 http://194.44.152.155/elib/local/sk/sk5983.pdf
2. Noviy diplomaticheskiy slovar’, elektronniy informatsionniy resurs http://diplomaticdictionary.com/dictionary/
3. A Dictionary of Diplomacy, Second Edition, G.R.Berridge and Alan James, 2003, 313 p. https://kamudiplomasisi.org/pdf/kitaplar/___adictionaryofdiplomacy.pdf
4. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. — Cambridge: CUP, 2010.
5. Fairclough N. Language and Power. — London: Longman, 2015.
6. Berridge G. R. Diplomacy: Theory and Practice. — London: Palgrave, 2015.
7. Chilton P. Analyzing Political Discourse. — London: Routledge, 2014.
8. Karimov I. A. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya asoslari. — Toshkent, 2018.
9. Saidov A. X. Siyosiy diskurs va til muammolari. — Toshkent, 2020.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Qurbonova Dilnoza Olimovna**
Buxoro davlat universiteti, Ingliz tilshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti
Email: d.o.qurbonova@buxdu.uz
ORCID ID 0009-0001-1156-9038
**UDK: 81'42:659**

## MASHHUR BRENDLARNING REKLAMA DISKURSI TAHLILI

***Annotatsiya****: Ushbu maqolada ingliz tilidagi mashhur brendlarning reklama diskurslarini tahlil qilishda pragmatikaning qo'llanilishiga doir mumkin bo'lgan yondashuvlar muhokama qilinadi. Reklama diskursini tahlil qilish orqali reklamalarning qanday konstruksiya qilinishi misollar tariqasida ko'rib chiqiladi. Aslida muhim bo'lgan narsa reklama qilinayogan mahsulotlarning o'zini iste'mol qilish emas, balki ularning reklamasidagi ma'nolarini anglab yetishdir.*

***Kalit so'zlar:*** *ma'no ko'chishi, mavhum narsani borliqga aylantirish (reifikatsiya), reklama borliq, muqobil variantlar yo'qdek ko'rsatilishi, identitet, o'zgarmas ma'no.*

**Курбанова Дильноза Олимовна**
Бухарский государственный университет, аспирант кафедры английского языкознания

## АНАЛИЗ РЕКЛАМНОГО ДИСКУРСА ИЗВЕСТНЫХ БРЕНДОВ

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются возможные подходы к применению прагматики при анализе рекламного дискурса популярных брендов на английском языке. Посредством анализа рекламного дискурса на конкретных примерах показывается, каким образом конструируются рекламные сообщения. Особое внимание уделяется тому, что в процессе потребления значимым является не столько сам рекламируемый продукт, сколько осмысление тех значений и смыслов, которые формируются и передаются через рекламный дискурс.*

***Ключевые слова:*** *перенос значения, реификация (овеществление), онтологический, эпистемический, (познавательный), идентичность (самоидентичность), монолитный (целостный, недифференцированный)*

**Kurbanova Dilnoza Olimovna**
Postgraduate student of the Department of English Linguistics, Bukhara State University

## ANALYSIS OF ADVERTISING DISCOURSE OF FAMOUS BRANDS

***Abstract:*** *This article discusses possible approaches to applying pragmatics in the analysis of advertising discourse of well-known English-language brands. Through the analysis of advertising discourse, the ways in which advertisements are constructed are examined using illustrative examples. The study argues that what is truly significant is not the consumption of the advertised products themselves, but rather the understanding and interpretation of the meanings and values embedded in their advertising discourse.*

***Key words:*** *transfer of meaning, reification, ontological, epistemic, identity, monolithic*

### Kirish

Biz reallikni ongimizdagi talqinlar va tasvirlar orqali konstruksiya qilamiz. Shu bois, biz biladigan barcha narsa konstruksiya qilingan hisoblanadi. Masalan, tashqi dunyoda devor mavjudligini inkor etmaymiz: unga urilib ketganimizda devor borligini anglaymiz. Biroq e'tiborimiz tashqi dunyoning borliq (ontological) realligiga emas, balki ushbu tashqi reallikning ongimizdagi reprezentatsiyasiga qaratiladi. Shu ma'noda aytganda, bu devor aslida devor emas. U faqat biz uni shunday talqin qilganimiz uchungina devordir. U qattiq ham emas, chunki mohiyatan qattiq modda mavjud emas. Aslida u shunchalik mustahkamki, undan o'tib keta olmaymiz, U devordir, chunki men uni devor deb atayman, yoki siz uni devor deb ataysiz, yoki biz barchamiz uni devor deb ataymiz; va barchamiz bu borada kelishib olganimiz uchun u devor hisoblanadi, u o'z-o'zidan devor bo'lgani uchun emas.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mazkur tadqiqot reklama diskursini ijtimoiy-konstruktsionistik yondashuv asosida tahlil qiluvchi nazariy ishlarga tayanadi. Xususan, F. de Sossyur va Ch. S. Peirsning semiotik modellariga asoslanib, belgining tuzilishi va ma'no

hosil qilish mexanizmlari yoritiladi. Ushbu nazariy manbalar reklama diskursini semantik, hamda pragmatic jihatdan kompleks tahlil qilish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi. Tadqiqotda tahlil metodologiyasi qo‘llanilib, reklama matnlari va tasvirlari ko‘p darajali diskursiv tahlil asosida o‘rganildi. Metodologik yondashuv ijtimoiy semiotika, vizual dizayn tahlili va kritik diskurs tahlili elementlarini birlashtiradi. Reklamalar pragmatik darajada tahlil qilinib, mahsulotning funksional emas, balki ramziy ma’nolari aniqlandi. Vizual materiallar orqali rang, shakl, kompozitsiya va obrazlarning konnotativ yuklamalari o‘rganildi.

**Natija va muhokama**

Agar reallik konstruksiya qilingan bo‘lsa, unda haqiqat yagona, o‘zgarmas ma’no (monolithic) va shubhasiz muqobil variantlar yo‘qdek ko‘rsatilishi (epistemic) kategoriya sifatida mavjud emas. Faqat turli davrlarda mavjud bo‘lgan turli haqiqatlar bor. Agar biz bu yerda, o‘z jamiyatimiz doirasida, biror narsaga kelishsak, u holda bu narsa biz uchun hozir va shu makonda haqiqat hisoblanadi. Agar kelishuv bo‘lmasa, u haqiqat emas. Madaniyatlarimizga bog‘liq bo‘lgan hozirgi talqinlarimizdan mustaqil tarzda mavjud bo‘lgan hech qanday haqiqat yo‘q.

Tovarlarni iste’mol qilish ramziy faoliyatga aylangan va shu tariqa identitetning ijtimoiy konstruksiyasida muhim rol o‘ynamoqda. Bu yerda gap endi jismoniy obyektlar haqida emas, balki shaxs sifatida bizning o‘zligimizning ma’nolarini shakllantirish va ushbu ma’nolarni boshqalarga yetkazish haqida. O‘zimiz haqidagi talqinlarni boshqalarga uzatish hayotimizdagi eng markaziy ijtimoiy amaliyotlardan biri hisoblanadi. Individlar o‘z identitetlarini namoyish etishda beparvo emaslar; aksincha, ular boshqalar tomonidan maqbul deb hisoblanadi, deb taxmin qilgan ma’nolarni taqdim etishga intiladilar. Shu bois, shaxslar doimiy ravishda o‘z ijtimoiyligining, kompetentligining, intellektual salohiyatining va estetik jozibasining belgilarini namoyish etadilar.

Iste’mol ya’ni tovar va xizmatlarni sotib olish, ularga egalik qilish hamda ulardan foydalanish bugungi jamiyatda asosiy belgilovchi (signifikator)ga aylangan. Biz biror narsani boshqalarga o‘z identitetimizni namoyish etish maqsadida iste’mol qilamiz. Iste’mol jamiyatida yashash bizni ushbu ijtimoiy kontekstda faol ishtirok etishga majbur qiladi; mansub bo‘lish istagi esa insonni iste’mol qilishga undaydi. Shu tariqa, har bir shaxs iste’mol orqali iste’mol jamiyatining obro‘lisiga (ethosiga) qo‘shiladi va uni shakllantiruvchi subyektga pouvoir constituantga aylanadi. Ayni paytda shaxs o‘zini ushbu ishonchga (ethosga) bo‘ysundiradi: iste’mol qilish jarayoni orqali jamiyatning iste’molchilik ishonchi (ethosi) ishlab chiqariladi va mavhum narsani borliqga aylantirish (reifikatsiya) qilinadi. Shu yo‘l bilan individlar nafaqat ijtimoiy identitetlarini namoyish etadi, balki jamiyatning iste’moliy strukturasi va qadriyatlarini faol tarzda yaratadi va mustahkamlaydi. Va nihoyat, biz nima iste’mol qilamiz? Biz tovarlarni emas, balki ularning ma’nolarini iste’mol qilamiz [1].

Sovuq bo‘lgani uchun palto sotib olamiz va uni sovuq bo‘lganligi sababli kiyamiz. Biroq aynan shu paltoni sotib olishdan sabab shundaki, miz o‘z obrazimizni atrofdagilarga namoyish qilmoqchimiz. Palto issiq bo‘lgani uchun emas, balki u Yves Saint-Laurent yoki Barbour brendi ekanligi sababli. Nima uchun Barbour kiyilyapti? Bu bizning yuqori ijtimoiy tabaqaga mansub ekanligimizni bildiradi (masalan, aristokrat). Bundan tashqari boshqa ma’nolar ham mavjud.

Nima uchun Nike sport poyafzali sotib olinadi? Chunki insonlar o‘zlarini sport bilan shug‘ullanadigan va zamonaviy ko‘rsatishni xohlashadi. Ya’ni o‘zlarini Messi yoki Beckhamdan futbol borasida teng ekanliklarini ko‘rsatmoqchi bo‘lishadi. Takror shuni aytishimiz mumkunki biz iste’mol qiladigan narsa mahsulotning o‘zi emas, balki mahsulotning ma’nolaridir, ular orqali biz o‘zligimizni, identitetimizni quramiz.

Endi savol tug‘iladi: biz ma’nolarni qanday iste’mol qilamiz? Buni biz ma’no ko‘chishi (transfer of meaning) orqali qilamiz, ya’ni reklamada biror narsaning ma’nosi obyektiv korrelat (objective correlative for the quality and value of the emotional satisfaction of a need or desire) orqali uzatiladi. Obyektiv korrelat (objective correlative) - bu ma’noni ifodalash uchun reklama matnida yoki vizual tasvirda ishlatiladigan predmet, sahna yoki ramziy elementlar majmui bo‘lib, tomoshabinga istalgan talqin va ma’noni yetkazadi.

Bosma reklamada matnda va tasvirda taqdim etilgan ssenariy obyektiv korrelat vazifasini bajaradi, ya’ni u iste’molchi ehtiyoj yoki istaklarining emotsional qoniqishini sifat va qiymat jihatidan ifodalaydi. Odatda ssenariy ijtimoiy jihatdan maqbul va istalgan vaziyatlarni aks ettiradi, biroq bu doimo reklama qilinayotgan mahsulotni va iste’molchi vaziyatlarini o‘z ichiga olishi shart emas. Ssenariy, odatda, go‘zallik va baxt bilan bog‘liq ijtimoiy jalb va integratsiyani ta’kidlash orqali iste’molchi identitetini aks ettiradi. Bunday obyektiv korrelat reklama qilinayotgan mahsulotning iste’moli bilan zich bog‘langan bo‘lib, oxir-oqibat mahsulot, ssenariy va istalgan ijtimoiy identitet xususiyatlari odamlar ongida birlashadi. Boshqacha aytganda, mahsulotning iste’moli tushuncha jihatidan ushbu sifat va qiymatni iste’molchiga o‘tkazishi kutiladi. Shu tariqa, reklama orqali biz amaliy choraga o‘tganimizda, biz signifikatorni sotib olamiz, ya’ni funksiyani emas, balki ma’noni sotib olamiz. Eng muhim ijtimoiy istak shundaki, biz guruhga mansub bo‘lishni va boshqalar tomonidan sevishni xohlaymiz. Va biz shunday deb hisoblaymizki, sevgi his qilishimiz uchun bizga shuni iste’mol qilish kerak, deb o‘ylaymiz, chunki biz sevilishni xohlaymiz. Aynan shu sababli reklama samarali ishlaydi. San’at obyektiv korrelat orqali insonga ta’sir qiladi. San’at insonda nimanidir o‘zgartiradi va biror his-tuyg‘uni his qilishga majbur qiladi. San’at shaklida his-tuyg‘ularni ifodalashning yagona yo‘li - bu obyektiv korrelatni topishdir:

ya'ni bir qator predmetlar, vaziyatlar yoki voqea zanjiri, ular aynan shu his-tuyg'uni ifodalash formulasi bo'lib xizmat qiladi. Shu tarzda, tashqi faktlar, ular sezgi tajribasiga olib keladigan holatda, mavjud bo'lsa, his-tuyg'u darhol uyg'onadi [2]. Eliot uchun Hamlet nima bo'lsa, ba'zi xaridorlar uchun Dove, Head & Shoulders va Chanel shundaydir. Reklama aslida bir turdagi san'atdir: u obyektiv korrelatni topadi, ya'ni predmetlar, vaziyatlar va voqealar zanjiri to'plamini, ular aynan shu his-tuyg'uni yaratish formulasi bo'lib xizmat qiladi. Shunda tashqi faktlar (reklamani ko'rish uchun to'xtash) tugasa ham, reklamani eslab, his-tuyg'uni qayta uyg'otish mumkin bo'lad. Biz bu ma'nolarni iste'mol qilamiz, ya'ni mahsulotni sotib olish, ularga egalik qilish va foydalanish orqali, shunda mahsulot o'zining mustaqil darajasidagi ahamiyatini asta-sekin yo'qotadi va signifikatorga aylanadi. Shu orqali biz o'zimizni konstruksiya qilayotganda biror narsada ishtirok etish yoki unga mansub bo'lish imkoniga ega bo'lamiz, kimdir bo'lish, kimdirga ega bo'lish, tasavvur qilingan jamiyatga mansub bo'lish va shu kabi ijtimoiy jarayonlarni amalga oshiramiz.

Christian Dior brendining Hypnotic Poison nomli atiriga oid reklamasini tahlil qilib chiqadigan bo'lsak [3]. Ushbu reklamada bir ayolni tasvirlangan. Fon qizil. Ushbu reklamadagi qizil ehtiros va muhabbatni angladi. Ayol shuningdek qizil marjonlar zanjiri (yoki bo'yin marjoni) taqqan. Zanjirlar nima ma'no anglatishi mumkun. Ya'ni insonlarni bir joyda ushlab turadi. Bu yerda xavf, harakat, dinamika va vasvasaga oid element mavjud. Va ayoldan bundan tashqari xavfli narsa bor. Bu uning ko'zlari mushuk ko'zlariga o'xshaydi. Va uning uzun tirnoqlari ham reklamada aks ettirilgan. Ushbu tirnoqlar bilan nima qilishni rejalashtirgan. Ehtimol, o'ziga jalb etuvchi hidi orqali atrofidagi insonlarning dimog'ini qitiqlash ma'nosida xaridorga yetkazilyapti. Mahsulotning nomi: Hypnotic Poison. Poison zahar ma'nosida u insonni o'ldiradi, va inson buning har bir daqiqasini sevib yashaydi. Ushbu atirning shisha idishi u biroz dumaloq, qon rangida, ichida nimadir mavjud, masalan, ayolning bachadoniga o'xshash. Bu esa xaridorni ushlab turadi. Va bularning barchasi Christian Dior tufayli sodir bo'ladi. Ushbu reklamada metafrani ham ko'rishimiz mumkun. Ayol tuhmat qiluvchi, xavfli joziba sifatida ko'rsatiladi. Atir shunchaki hid emas, balki "zaharli joziba" metaforasi orqali erkakni jalb qilish va xavf hissini uyg'otadi. Pragmatik daraja tomonidan yondashiladigan bo'lsa bizga mahsulotni sotib olishga chaqiradi. Odatda bu chaqiriqlar quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi: *enjoy, try, use, new, better, now, just for you* va hokazo. Reklama sizga "siz" deydi, ammo aslida bu sizga emas, ixtiyoriy iste'molchiga murojaatdir. Reklama sizni shaxsan bilmaydi, u ma'noni umumiy kontekstda yaratadi va sizni shu ma'noga bog'laydi. Shu tarzda, ayol va erkak atir reklamalari orqali ijtimoiy va madaniy stereotiplar, jinsiy rollar va identitet konstruksiyalari shakllanadi. Erkak reklamalari sovuqlik, mantiqlilik va tizimlilikni, ayol reklamalari esa ehtiros, joziba va estetik uyg'unlikni targ'ib qiladi. Atir yoki dush geli reklamalarida esa predikat quyidagicha bo'lishi mumkin: *Agar siz shunday hidga ega bo'lsangiz, yuzlab erkaklar yoki ayollar sizning ortingizdan yuguradi* (masalan, Axe brendi).

**Xulosa**

Mahsulot siz uchun foydali ekanligi ta'kidlanadi va reklama ishlab chiqaruvchilar metafora, konnotatsiyalardan foydalanadilar. Shu orqali mahsulot quyidagi ma'nolar bilan bog'lanadi: Baxt, sevgi, go'zallik, tinchlik, quvvat, abadiy yoshlik, mukammal hayot va hokazo. Shunday qilib, semantik tahlil orqali reklama mahsulot funksiyasidan tashqari, iste'molchi ongida ijtimoiy va madaniy ma'nolarni yaratadi va kuchaytiradi. Konnotatsiya bir so'z, rang yoki vizual elementning asosiy denotativ ma'nosidan tashqari qo'shimcha ijtimoiy yoki madaniy ma'nosi. Qizil rang: ehtiros, muhabbat, joziba (ayol reklamasida). Bu elementlar mahsulotning o'z funktsiyasidan tashqari ijtimoiy ma'nolarni beradi. Masalan, atir nafaqat hid, va u ayollar uchun erkaklarni jalb etuvchi vosita sifatida qaraladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Weber M., Wirtschaft und Gesellschaft: Grundriss der verstehenden Soziologie – Tübingen: Mohr, 1972.

2. Eliot T.S., Hamlet and His Problems. In The Sacred Wood: Essays on Poetry and Criticism – London: Methuen & Co., 1920, bb. 53-60.

3. http://www.polyvore.com/dior_hypnotic_poison_ad/thing?id=1884343 2, 15 Jan 2013.

4. Peirce C. S., Collected Papers of Charles Sanders Peirce – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1958.

5. Saussure F. de., Course in General Linguistics. Trans. R. Harris – London: Duckworth, 1983.

6. Baudrillard J., The Consumer Society: Myths and Structures – London: Sage, 1998.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Raximova Nilufar G'iyosovna**
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: n.g.raximova@buxdu.uz
ORCID ID 0009-0007-5999-6198
UDK: 82-312

## DETEKTIV ASARLARDA NARRATIV USLUB VA TIL BIRLIKLARI

***Annotatsiya:*** *Maqolada ingliz detektiv adabiyotida narrativ qurilish va til birliklarining ishlatilishi va ularning asar voqealari rivojidagi o'rni hamda o'ziga xos xususiyatlari tahlilga tortildi. Doroti L. Seyersning Strong Poison hamda Margari Allingemning The Crime at Black Dudley romanlari misolida tadqiqot olib borildi. Ushbu tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad jinoyat mavzusi yoritilgan asarlarda hikoya qilish usuli, til vositalari, muallif nutqi va personajlarning tili janr talablariga mos ravishda yoritilganini aniqlashdan iborat. Tadqiqotni olib borish jarayonida qiyosiy-tahliliy, stilistik va narrotologik metodlardan foydalanildi. Natijada muallifning bayon qilish uslubi syujetda sir va intriga yaratishda muhim o'rin tutishi, til vositalaridan foydalanish qahramonlar ichki dunyosi va xarakterini ochishda xizmat qilishi aniqlandi. Tadqiqot xulosalari detektiv janr poetikasini o'rganishda hamda adabiy tahlil jarayonida amaliy ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar:*** *narrativ uslub, detektiv syujet, sir, intriga, til birliklari, ramziy ifodalar, yopiq makon syujeti, metaforik birlik*

**Рахимова Нилуфар Гийосовна**
Бухарский государственный университет, базовый докторант

## СТИЛЬ ПОВЕСТВОВАНИЯ И ЯЗЫКОВЫЕ ЕДИНИЦЫ В ДЕТЕКТИВНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются особенности нарративного построения и использования языковых единиц в английской детективной литературе, а также их роль в развитии событий произведения и их специфические характеристики. Исследование проведено на материале романов Дороти Л. Сэйерс Strong Poison и Марджери Аллингем The Crime at Black Dudley. Основной целью исследования является выявление того, каким образом в произведениях, посвящённых теме преступления, реализуются повествовательные приёмы, языковые средства, авторская речь и речь персонажей в соответствии с требованиями детективного жанра. В ходе исследования были использованы сравнительно-аналитический, стилистический и нарратологический методы. В результате было установлено, что авторская манера повествования играет важную роль в создании тайны и интриги сюжета, а использование языковых средств способствует раскрытию внутреннего мира и характера персонажей. Выводы исследования имеют практическое значение для изучения поэтики детективного жанра и литературного анализа.*

***Ключевые слова:*** *нарративный стиль, детективный сюжет, тайна, интрига, языковые единицы, символические выражения, сюжет замкнутого пространства, метафорические единицы.*

**Rakhimova Nilufar G'iyosovna**
Bukhara State University, basic doctoral student

## NARRATIVE STYLE AND LANGUAGE UNITS IN DETECTIVE WORKS

***Abstract:*** *This article analyzes the narrative structure and the use of linguistic units in English detective literature, as well as their role in the development of plot events and their distinctive features. The study is conducted based on Dorothy L. Sayers's* Strong Poison *and Margery Allingham's* The Crime at Black Dudley. *The main objective of the research is to identify how narrative techniques, linguistic devices, authorial voice, and character speech are employed in works centered on crime themes in accordance with the conventions of the detective genre. The research employs comparative-analytical, stylistic, and narratological methods. The findings reveal that the author's narrative style plays a significant role in creating mystery and intrigue within the plot, while the use of linguistic devices contributes to revealing the characters' inner world and personality. The conclusions of the study have practical significance for the study of detective genre poetics and literary analysis.*

***Keywords:*** *narrative style, detective plot, mystery, intrigue, linguistic units, symbolic expressions, closed-space plot, metaphorical units*

**Kirish**

Detektiv fantastika adabiy janr sifatida o‘zining tizimli narrativi (hikoya qilish turlari), mantiqiyligi, jinoyat va tergov o‘rtasidagi ichki o‘yinlari bilan ajralib turadi. Bu janrga xos bo‘lgan shubha, gumondorlar tasviri, intriga va haqiqatga intilish asrlar davomida kitobxonlarni maftun etib kelgan. Detektiv asarlarda hikoya qilish uslubi syujet qurilishining muhim faktorlaridan biri hisoblanadi. Chunonchi, badiiy adabiyotda narrativ (hikoya qilish) turlari voqealarni yetkazib berish uslubiga ko‘ra birinchi shaxs (*men*), uchinchi shaxs (*u/muallif*) va aralash/kombinatsiyalashgan turlarga bo‘linadi. Ular voqealar ketma-ketligini vaqtincha, fazoviy yoki psixologik tarzda yoritib, kitobxonni qahramonlar dunyosiga olib kiradi.

**Adabiyotlar tahlili va Metodologiya**

Badiiy asarlarning narrativ uslubi va til birliklarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish adabiyotshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. G. Genett va S. Chatman kabi olimlar hikoya qilish nazariyasining asosiy tamoyillarini o‘z asarlarida yoritishgan. Genett narrativ uslub, fokalizatsiya tushunchalariga to‘xtalib, badiiy asarlarda hikoya qilish jarayonining strukturaviy jihatlarini tahlil qiladi. [4] Chatman esa hikoya (story) va bayon (discourse) tushunchalarini farqlarini ko‘rsatib, narrative shakl va mazmunning o‘zaro aloqasini asoslab beradi.[2] Badiiy asardagi stilistik birliklarning vazifasi M .Short, P.Simpson tadqiqotlarida chuqur yoritilgan. Ular o‘z ishlarida metafora, ramziy ifodalar,dialog va muallif nutqining qahramonlar xarakterini ochishdagi roliga urg’u berishgan.[6] Ushbu nazariy asoslar asarlarda til vositalarining funksional ahamiyatini tushunish uchun metodoligik manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Natija va Muhokama**

Asardagi voqealarning qaysi nuqtadan bayon qilinishi, syujet chizig’idagi izchillik, ketma-ketlik, va axborotning qay darajada ochib berilishi kitobxonning qiziqishi va asarni idrok etishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, birinchi shaxs nomidan hikoya qilingan asarda o‘quvchi tergov jarayonining bevosita ishtirokchisiga aylanadi va sirli muhit ichida yashaydi. Biroq bu turdagi narratsiyada axborot va dalillar hikoyachining subyektiv qarashi orqali cheklanadi, natijada kitobxon voqealar rivojida faqat hikoyachi bilgan ma’lumotlar doirasida fikrlashga majbur bo‘ladi. Bu turdagi bayon qilish uslubiga Artur Konan Doyl asarlari (*A Study in Scarlett, The Sign of Four, The Hound of the Baskervilles* kabilar) misol bo‘la oladi. Asar voqealari Sherlok Xolmsning do‘sti Dr.Uatson tilidan (I, my) hikoya qilinadi. U voqealarni guvoh va ishtirokchi sifatida kitobxonga yetkazadi. Yoki yana bir zabardast yozuvchilardan biri Agata Kristi ham ba’zi asarlarida birinchi shaxs narratsiyasidan foydalanadi. Masalan, uning ilk detektiv romani *The Mysterious Affair at Styles* da hikoya kapitan Hasting tomonidan bayon qilinadi. Garchi u tergov jarayonlarida ishtirok etsada, hamma narsani aniq ravshan tushunmaydi, va o‘z navbatida o‘quvchi ham uning bilish darajasida ma’lumotlardan xabardor qilinadi, detektiv Puaroning mantiqiy xulosalari kitobxondan sir tutiladi. Birinchi shaxs narratividan foydalangan adiblar o‘z o‘quvchilarini jinoyat va tergov jarayonlarida qahramon bilan birga faol ishtirokini ta’minlagandek ko‘rinsada, aslida asar so‘ngiga qadar jinoyatning yechimi va izquvarning asl maqsadi hikoya qiluvchi qahramon bilan birga kitobxonlarning nazaridan chetda qoldiriladi.

Uchinchi shaxs bayon qilish usuli detektiv adabiyotda eng ko‘p ommalashgan hikoya turlaridan biridir. Bu narrativ shaklda hikoyachi syujetda bevosita ishtirok etmaydi, voqealar muallif tomonidan bayon qilinadi. Bunda syujet chizig’i asosiy qahramon, ya’ni detektiv atrofida rivojlantiriladi, kitobxon voqealarni detektiv bilan birga kuzatadi, tahlil qiladi va fikr yuritadi. Bu hikoya qilish turida yozuvchi asar voqealarini kengroq va xolisroq yoritish imkoniga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, ushbu hikoya turining yana bir muhim jihati – axborotni bosqichma-bosqich berish imkoniyatidir. Detektiv syujetda sir va keskinlikni kuchaytirish maqsadida muallif ayrim faktlarni vaqtincha yashirib faqat zarur detallarni taqdim etadi, natijada kitobxon mantiqiy taxminlar ichida qolishga majbur bo‘ladi. Masalan, Doroti L. Seyersning *Strong Poison* asarida voqealar tashqi (ismi ko‘rsatilmagan) hikoyachi tomonidan bayon qilinadi, bunda o‘quvchi markaziy qahramon bilan birga izlanib dalillarni tahlil qiladi, gumonlarini aniqlashtiradi va jinoyatning yechimini topishga harakat qiladi. Voqealar asosan izquvar Lord Peter Uimsi atrofida rivojlantirilib, ba’zi sahnalarda Harriet Veynning holatiga ham yaqinlashtiriladi. Shu bois o‘quvchilar voqeaning xolis kuzatuvchisiga aylanadi. Asar voqealari yozuvchi ayol Harriet Veynning mashhur Filipp Boysni zaharlab o‘ldirganlikda ayblanishi markaziga qurilgan. Boys o‘z uyida zaharlangan holda topiladi va barcha gumonlar Harrietga qaratiladi, sababi, u Boys bilan yaqin munosabatda bo‘lgan va zahar aynan Harriet tayyorlagan ovqatdan topiladi. Sud Harrietni aybdor deb topadi va unga nisbatan o‘lim jazosini tayinlaydi. Garchi sud hukmi mantiqan to‘g’ri ko‘rinsada, izquvarni dalillarning haddan tahqari “mukammalligi” shubhalantiradi. Izlanishlari davomida Lord Uimsi Boysning o‘limidan boshqa shaxslar – qarindoshlar, tanishlar yoki xizmatkorlar ham manfaatdor bo‘lishi mumkinligini taxmin qiladi va zaharni ovqat tayyorlangandan keyin qo‘shilganligini aniqlaydi. Bu esa Harrietning aybsizligini isbotlashga yo‘l ochadi.

Doroti L.Seyers boshqa romanlarida ham uchinchi shaxs narratsiyasidan keng foydalanadi, sababi, bunda muallif kitobxonni mantiqiy fikrlashga, tanqidiy o‘ylashga chorlaydi.

Yana bir detektiv asarlar qirolichasi Margari Allingem ham ijod mahsulini kitobxonlarga sirli, intrigaga boy va qiziqarli qilib yetkazish maqsadida narrativ va til birliklaridan unumli foydalangan. Ko‘pgina hikoya va romanlarida uchinchi shaxs narrativi ishlatilgan, shulardan biri yozuvchini adabiyot olamiga kirib kelishiga sababchi bo‘lgan ilk detektiv romani *The Crime at Black Dudley.* Bu asar Margari Allingem ijodining debochasi bo‘lib, unda muallif uchinchi shaxs hikoya qilish usuli, yopiq makon syujeti va bilvosita detektiv obrazi orqali keyinchalik rivojlanadigan o‘ziga xos uslubiga asos soladi. Asar voqealari yopiq makonda – Black Dudley deb nomlangan qadimiy qasrda sodir bo‘ladi. Qasr egasi bir guruh tanishlarini mehmonga taklif etadi, dastlab oddiy mehmondorchilik bo‘lib tuyulgan bu yig’in keyinchalik sirli va xavfli tus oladi. Qasrda to‘satdan jinoyat sodir etiladi va shubha qasrdagi har bir odamga tushadi, sababi jinoyat yopiq makonda amalga oshiriladi va bundan tashqari qasr ichidagilar tashqi dunyodan uzilib qoladi. Ushbu asarda detektiv obrazi Albert Kempion ilk bora kitobxonga tanishtiriladi va u asarda faol izquvar sifatida tasvirlanmaydi, balki yordamchi va kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. U voqealarni bevosita boshqarmaydi, ammo mayda detallar, inson xatti-harakatlari va sukunatlarni diqqat bilan kuzatadi. Aynan shu bilvosita kuzatuv orqali jinoyat sirining yechimi asta-sekin ochiladi.

Uchinchi shaxs narrativining yana bir muhim xususiyati muallifga bir nechta qahramonlarga navbat bilan e’tibor qaratish imkonini beradi. Margari Allingem ushbu romanida shu imkoniyatdan unumli foydalanadi va shubhani barcha qahramonlarga teng taqsimlaydi hamda har biriga navbati bilan to‘xtalib o‘tadi. Asar davomida yozuvchi sirli muhit va qo‘rquv hissini yaratadi, psixologik taranglikni kuchaytiradi. Barcha detektiv asarlar singari voqealar yakunida jinoyatchi fosh etiladi, biroq roman klassik mantiqiy yechimdan ko‘ra atmosfera, ruhiy bosim va noaniqlik bilan yodda qoladi.

Detektiv asarlarda narrativ uslub bilan birga til birliklari ham muhim rol o‘ynaydi. Til birliklari –leksik, sintaktik va stilistik vositalar – detektiv syujetda o‘z vazifalariga ega. Dialoglarning berilishi, ichki monologlarga boyligi, qisqa va lo‘nda gaplar, so‘roq va undov gaplarning kontekstda o‘z o‘rnida ishlatilishi syujetning dinamikligini ta’minlaydi. Shuningdek, metaforalar, ramziy ifodalar va kinoya kabi stilistik vositalar sirli muhit yaratishga xizmat qiladi. Xususan, Doroti L. Seyers asarlarida mantiqiy, aniqlikka yo’naltirilgan leksikadan foydalanadi. U sud jarayonlari, dalillar va suhbatlar paytida murakkab sintaktik tuzilmalarni ishlatsa, oddiy kishilar o‘rtasidagi dialoglarni qisqa va sodda ko‘rinishda yaratadi. Bunday uslub detektiv syujetga jiddiy va akademik ohang berish bilan birga, kinoyali iboralar va sodda dialoglar syujetni jonlantirib, kitobxonning e’tiborini doimiy ushlab turadi. Seyersning *Strong Poison* asarini tahlilga tortadigan bo‘lsak, unda dialoglar mantiqan aniq, kinoyali va yuqori saviyadagi nutq bilan ajralib turadi. Asar qahramonlarining nutqi ironiya va metaforik iboralar bilan boyitilgan bo‘lib, ularning ziyoliligi va ichki kechinmalarini ko‘rsatadi.

*-My mind is poisoned against you, said Harriet quietly.* [5]

Bundagi *“poisned”* metaforik birligi asar markazidagi jinoyat bilan qahramonlar o‘rtasidagi psixologik ziddiyatni birlashtiradi. Muallif metaforik dialoglardan tashqari his-tuyg’uni ifodalovchi sifat va fe’llar (fear, anxiety, irritation, strain kabi) orqali ham personajlarining ruhiy bosimini ochib beradi.

*“For the first time, perhaps, Lord Peter Wimsey was afraid.”*[5]

Strong Poison romanida ishlatilgan til birliklari nafaqat syujetni rivojlantiradi, balki uni murakkablashtirib, o‘quvchini fikrlashga majbur qiladi, bundan tashqari qahramonlarning ichki kechinmalarini ochib, detektiv janrini psixologik chuqurlik bilan boyitadi.

Margari Allingem ijodiga nazar soladigan bo‘lsak, uning asarlarida ramziy detallar, tasviriy vositalar yetakchi o‘rin tutishini guvohi bo‘lamiz. Oddiy ko‘ringan detallar – qarash, imo-ishora, sukunat - muhim syujet detail sifatida xizmat qiladi. Masalan, dastlab e’tiborsiz qoldirilgan narsa yoki jumla keyinchalik jinoyatning yechimiga olib borishi mumkin. *The Crime at Balck Dudley* romanini tahlil qiladigan bo‘lsak, ba’zi qahramonlarning kutilmagan befarqligi yoki ma’lum bir vaziyatlarda ortiqcha jimligi izquvarni e’tiborini tortadi va jinoyatni yechimiga sabab bo‘ladi. Bu yerda sukunat til birligi sifatida ishlatilgan.

*“There was something wrong in the ease with which he accepted the situation.”*[1]

Bundan tashqari oddiy makon tasvirlari (xona, eshik,yo‘lak) ham jinoyat mexanizmini fosh etadi.

*“The house seemed to close in upon them with a curious and unpleasant intimacy.”*[1]

Ushbu romanda detektiv ko‘zga ko‘rinadigan dalildan ko‘ra, oddiy ishoralarni markazga chiqaradi. Shu boisdan jinoyat yechimi kutilmagan, ammo asosli bo‘lib chiqadi. Bu usul orqali Allingem detektiv syujetda tilsiz ishoralar va e’tibordan chetda qoladigan narsalarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

**Xulosa**

Badiiy asarlarda hikoya qilish uslubi va til birliklari voqealar rivojida muhim rol o‘ynaydi. Detektiv romanlarda narrativ shakli kitobxonga qanchalik ma’lumot berilishini belgilasa, til vositalari sir va intrigani kuchaytiradi. Doroti

L.Seyers asarlarida tashqi hikoyachi bayoni hamda mantiqiy aniqlik va intelektual til ustun bo‘lsa, Margari Allingem ijodida ramziy detallar, tasviriy vositalar yetakchi o‘rin tutadi. Har ikkala yozuvchi o‘ziga xos bayon usuliga ega bo‘lib, syujetning ta’sirchanligi va jozibadorligini oshirishga xizmat qiladigan til birliklaridan asarlarida unumli foydalana olgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Allingham, M. (1929). *The crime at Black Dudley*. Doubleday, Doran & Company.
2. **Chatman, Seymour.** 1978. *Story and Discourse: Narrative Structure in Fiction and Film.* Ithaca: Cornell University Press,
3. Fludernik M,2010 An Introduction to narratology. London, New York: Routledge
4. **Genette, Gérard.** 1980. *Narrative Discourse: An Essay in Method.* Trans. Jane E. Lewin. Ithaca: Cornell University Press,
5. Sayers, D. L. (1930). *Strong poison*. Victor Gollancz.
6. **Simpson, Paul.** , 2004. *Stylistics: A Resource Book for Students.* London: Routledge

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Xasanova Aqida Raximjon qizi**
University of Economics and Pedagogy NOTM, assistenti
ADCHTI mustaqil izlanuvchisi
Email: raximjonqizi093@gmail.com

# O‘ZBEK VA INGLIZ TILI BADIIY USLUBDAGI MATNLARIDA BELGI BILDIRUVCHI SO‘ZLARNING STATISTIK VA QIYOSIY TAHLILI

***Annotatsiya:*** *Ingliz tili badiiy uslubida sifat va ravishlarning uchrash chastotasiga oid aniq statistik ma’lumotlar bizga ma’lum emas. Shunday bo‘lsa-da, o‘rganilgan adabiyotlar tahlili asosida bunday birlikning qo‘llanilishiga ta’sir etuvchi ba’zi umumiy kuzatuvlarni keltirish mumkin.*
*Sifat turkumiga oid belgi bildiruvchi so‘zlar badiiy matnda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular yorqin obrazlar yaratish, qahramonlar, muhitni tasvirlash va hissiyotlarni yetkazish uchun ishlatiladi. Ularning chastotasi ancha yuqori bo‘lishi mumkin, chunki tafsilotlar badiiy uslubning asosiy elementi hisoblanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *ravish, uslub, chastota, tahlil, korpus, janr, emotsiya, miqdoriy omil, dinamik*

**Хасанова Окида Рахимджон Кизи**
ИМЯ, доцент, Университет экономики и педагогики
Независимый исследователь, ADCHTI

# СТАТИСТИЧЕСКИЙ И СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВАЖНЫХ СЛОВ В ЛИТЕРАТУРНЫХ ТЕКСТАХ УЗБЕКИСТАНА И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА.

***Аннотация:*** *Инглиз, где вы можете использовать sifat va ravishlarning uchrash chastotasiga oid aniq statistik ma’lumotlar bizga ma’lum emas. Шундай болса-да, органилган адабийотлар тахлили асосида бундай бирликнинг ку’лланилишига та’сир етувчи ба’зи умумий кузатувларни келтириш мумкин.*
*Сифат туркумига оид бельги бильдирувчи со’злар бадиий матнда мухим рол ойнайди, чунки улар йоркин образлар яратиш, кахрамонлар, мухитни тасвирлаш ва хиссийотларни етказиш учун илатилади. Обучение частотаси анча юкори больши мамкин, чунки тафсилотлар бадиий услубнинг асосий элементов егообланад.*

***Ключевые слова:*** *риторика, стиль, частота, анализ, корпус, жанр, эмоция, количественный фактор, динамика.*

**Xasanova Aqida Rakhimjon qizi**
University of Economics and Pedagogy NOTM, assistant
ADCHTI independent researcher

# STATISTICAL AND COMPARATIVE ANALYSIS OF SIGNIFICANT WORDS IN UZBEKISTAN AND ENGLISH LITERATURE TEXTS

***Abstract ;*** *We do not know any exact statistics on the frequency of occurrence of adjectives and adverbs in the literary style of the English language. However, based on the analysis of the studied literature, some general observations can be made that affect the use of such a unit. Words that indicate the category of adjectives play an important role in the literary text, as they are used to create vivid images, describe characters, the environment, and convey emotions. Their frequency can be quite high, since details are a key element of the literary style.*

***Keywords:*** *rhetoric, style, frequency, analysis, corpus, genre, emotion, quantitative factor, dynamic.*

**Kirish.** Ravish turkumiga oid belgi bildiruvchi so‘zlar harakat, xulq-atvor tarzi, vaqt, joy va darajani tasvirlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ravish fe’l, sifat va boshqa ravishlarni boyitadi, hikoyaning ifodaliligini oshiradi.

Belgi bildiruvchi so‘zlarning qo‘llanish chastotasiga (miqdoriy omil) ta’sir etuvchi omillar mavjud.

1. Janr: turli janrlarda sifat va ravishlarning qo‘llanish chastotasi farq qilishi tabiiy. Masalan, tasviriy romanlar yoki she’riyatda ular dinamik, ko‘p dialogli trillerlarga qaraganda ko‘proq bo‘lishi mumkin.
2. Muallif uslubi: har bir muallif o‘ziga xos uslubga ega: ba’zi yozuvchilar qisqaroq tasvirlarni afzal ko‘rsa, boshqalari batafsil va obrazli tasvirlarga moyil bo‘ladi (buni A.Qahhor, Oybek boshqa ijodkorlar asarlari misolida tahlil qilamiz).
3. Matn parchasining maqsadi: asarning turli qismlarida muallif o‘z maqsadiga qarab turli miqdorda tasviriy so‘zlarni ishlatishi mumkin. Masalan, ekspozitsiyada zaruriy muhitni yaratish uchun sifat va ravishlar ko‘proq bo‘lsa, kulminatsiyada esa keskinlikni saqlash uchun sifat va ravishlar kamroq qo‘llanadi.
4. Yozilgan vaqti: til me’yorlari va uslubiy xususiyatlar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turadi, bu esa gap bo‘laklarining qo‘llanish chastotasiga ham ta’sir qiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Абдураҳмонов Ғ., Асадов Т., Бобоева А., Каримов С., Каримов С.А., Курбанов Т.И., Қиличев Э., Қўнғуров Р., Қўнғуров Р., kabi olimlarning ishlarida badiiy uslubdagi matnlarida belgi bildiruvchi so‘zlarning statistika masalalarining fundamental asoslari yoritilgan. [B.G.Chuksin, A.I.Trufanov “Сетевая стилометрия русскоязычных интернет-текстов” nomli maqolasida rus tilidagi internet matnlarining belgilarini aniqlash uchun yagona tarmoq metodologiyasi ishlab chiqilgan. Matnli axborotning mavzusini avtomatlashtirilgan tarzda aniqlashga alohida e’tibor qaratilgan. Modellar tahlil qilingan, algoritm(lar) va ularni amalga oshiruvchi dasturiy vositalar tayyorlangan. Forum, blog, yangiliklar saytlari va ijtimoiy tarmoqlardan olingan misollarni o‘z ichiga olgan matnlar korpusi yig‘ilgan. Matnlarni tasniflovchi belgilarini aniqlashda tarmoq yondashuvining imkoniyatlari namoyish etilgan.

Matnning hamma xususiyatlari ham statistik tahlil qilinmaydi. Quyida statistik tahlil qilinishi mumkin bo‘lgan uslubiy xususiyatlarga to‘xtalamiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Belgi bildiruvchi so‘zlarning qo‘llanish sifatiga ta’sir etuvchi omillar sifatida quyidagilarni sanash mumkin:

Birinchidan, badiiy uslubda ko‘pincha obrazli va ifodali sifatlar ishlatiladi, ular nafaqat predmetni tasvirlaydi, balki emotsional bo‘yoq yoki muallifning bahosini ham yetkazadi (masalan, sehrli manzara, hiylakor tabassum). Ravishlar ko‘pincha personajlarning harakat tarzini ko‘rsatish uchun ishlatiladi (u tez yugurdi, u sekin shivirladi) yoki holatning intensivligini ko‘rsatish uchun (u juda hayron bo‘ldi, u o‘zini mutlaqo baxtli his qildi).

Ikkinchidan, aniq qo‘llanish chastotasiga oid tahlilsiz raqamlarni aytish qiyin bo‘lsa-da, badiiy matn yaratayotgan yozuvchining muhim vositalari qatorida sifatlar ham, ravishlar ham mavjud ekanligini ishonch bilan aytish mumkin. Ulardan mahoratli va ongli ravishda foydalanish boy eksperssivlikka ega va ko‘p qirrali badiiy asar yaratishga yordam beradi.

Bunday keng ko‘lamli lingvistik tahlil katta hajmdagi matnlarni qayta ishlash uchun sezilarli resurs va sa’y-harakatni talab qiladi.

O‘zbek tili badiiy uslubi lingvistik tamoyillari va o‘zbek badiiy adabiyotini kuzatish asosida aytish mumkinki, belgi bildiruvchi so‘zlarning qo‘llanishiga ta’sir etuvchi omillar sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchidan, o‘zbek badiiy uslubida sifat turkumiga oid so‘zlar muhim rol o‘ynaydi. Ular tabiatning yorqin va go‘zal tasvirlari, qahramonlarning tashqi ko‘rinishini, ularning ichki xarakter-xususiyatlarini yaratish, shuningdek, asarning hissiy ta’sir muhitini ifodalashda faol qo‘llaniladi.

Ikkinchidan, o‘zbek tili badiiy uslubida belgi bildiruvchi ravishlar badiiy asarga dinamizm bag‘ishlaydi, ular fe’llarni boyitadi, harakat tarzi, vaqt, joy, sabab, maqsad va darajani ko‘rsatadi. Ravish shakllarining xilma-xilligi nutqni yanada ifodali bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘zbek tili badiiy uslubida belgi bildiruvchi so‘zlarning qo‘llanish chastotasi(miqdoriy ko‘rsatkich)ga ta’sir etuvchi omillar sifatida quyidagilar farqlanadi:

**Janr**: o‘zbek tili badiiy uslubida boshqa tillardagi kabi, sifat va ravishlarning qo‘llanish chastotasi janrga qarab farq qilishi mumkin. Masalan, lirik asarlarda, manzara tasvirlarida yoki psixologik romanlarda, tafsilotlar muhim bo‘lgan o‘rinlarda sifat va ravishlar, umuman olganda shaxs, predmet va harakatning belgisini bildiruvchi so‘zlar o‘tkir syujetli, harakat va dialoglar ustun bo‘lgan asarlarga qaraganda ko‘proq bo‘lishi mumkin.

**Muallif uslubi**: yozuvchining individual uslubi ham belg bildiruvchi so‘zlarning qo‘llanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zi mualliflar qisqa uslubga moyil bo‘lsa, boshqalari obrazli va batafsil uslubga moyil bo‘ladi, bu bevosita ishlatilgan tasviriy so‘zlar soniga ta’sir qiladi (Quyida bu masala konkret matnlar misolida tahlil qilinadi).

**Matn parchasining maqsadi**: asarning turli qismlarida muallif o‘z maqsadiga qarab turli miqdorda sifat va ravishlarni maqsadli ravishda ishlatishi mumkin. Masalan, asarning boshida muhit yaratish uchun yoki muhim lahzalarni tasvirlashda ularning soni ko‘payishi kuzatiladi.

**Tarixiy davr:** til doimiy ravishda rivojlanib boradi va uslubiy me’yorlar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin. Turli tarixiy davrlardagi asarlarda muayyan so‘z turkumlarining qo‘llanish chastotasi farq qilishi tabiiy. Mazkur ishda tadqiq obyekti sifatida hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi mantlar tanlangani bois tarixiy taraqqiyot natijasidagi o‘zgarishlar tahlil doirasiga kirmaydi.

O‘zbek tili badiiy uslubida belgi bildiruvchi so‘zlarning sifat kuzatuvlariga oid omillar sifatida quyidagilar ajratiladi:

Birinchi omil, o‘zbek badiiy uslubida o‘quvchiga yanada yorqin va emotsional ta’sir ko‘rsatish uchun ko‘pincha obrazli epitetlar (tashbeh va sifatlashlar) qo‘llaniladi.

Ikkinchi omil, ravishlar harakatning xarakterini (harakat tarzi) aniq yetkazish uchun ishlatiladi, bu tasvirni yanada jonli qiladi. Shuningdek, ularning vaqt va makon xususiyatlarini aniqlashdagi roli muhim.

O‘zbek va ingliz tilidagi badiiy uslubda sifat va belgi bildiruvchi ravishlarning uchrashish chastotasini aniqlash uchun korpus lingvistikasining quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

**Tahlil va natijalar.**

**Korpus tahlili: Maxsus korpus yaratish yoki shu tillarda mavjud korpuslardan foydalanish.** Ingliz tilidagi badiiy uslubga tegishli katta va vakili bo‘lgan matnlar korpusi majdud bo‘lmasa, tahlil uchun kerakli va yetarli miqdordagi korpusni to‘plash zarur. Bular roman, hikoya, pyesa, sher, turli davr va janrlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

**Lingvistik teglash. (**Korpusdagi har bir so‘zning turkumi (sifat, ravish va boshqalar) avtomatik yoki qo‘lda POS-belgilash vositalari yordamida belgilab boriladi (masalan, NLTK[1], spaCy[2], TreeTagger[3] va boshqalar).

**Chastota tahlil.** Korpus menejerlari (masalan, AntConc, WordSmith Tools) yordamida so‘zlar soni, jumladan sifat va ravishlarning soni aniqlanadi, keyingi bosqichda sifat tahlili qo‘lda amalga oshirilib, xulosa chiqariladi.

**Nisbatli chastotani hisoblash.** Nisbatli chastota ma’lum bir so‘zlar soniga (masalan, 1000 yoki 10000 so‘zga) nisbatan obyekt birliklar soni sifatida hisoblanadi.

**Qiyosiy tahlil: Badiiy uslubning xususiyatlarini aniqlash uchun** sifat va ravishlarning chastotasini badiiy korpusda boshqa uslublar (ommaviy, ilmiy, og‘zaki) korpusi bilan qiyoslash obyektiv xulosa chiqarishga zamin yaratadi. Bu badiiy uslubda mazkur so‘zlarning yuqori yoki past chastotada ishlatilishini aniqlashga yordam beradi.

**Kontekst va funksiyalar tahlili: faqat sonini hisoblash emas, balki badiiy matndagi belgi bildiruvchi so‘zlarning vazifasini tahlil qilish ham ahamiyatli. Bunda sifatlar** asosan yorqin tasvir yaratish, qahramonning tashqi ko‘rinishi va xarakterini tasvirlash, hissiyotni kitobxonga yoki boshqa stilistik funksiyalarni (masalan, metaforik tasvirlar) bajarish uchun ishlatilgan/ ishlatilmagani aniqlanadi. Ravish turkumiga oid so‘zlar harakatning uslubi, vaqti, joyi, darajasi uchun qanchalik ishlatilishi tahlil qilinadi; ravishlarning hikoyaning ritmi va dinamikasini yaratishda qanday roli borligi o‘rganiladi.

**Xulosa.** O‘zbek va ingliz tilidagi badiiy uslubda sifat va belgi bildiruvchi ravishlarning uchrashish chastotasini aniqlash uchun korpus lingvistikasining quyidagi vositalaridan foydalanish mumkin:

**Mavjud korpuslar.** Ingliz tilining katta umumiy korpuslaridan (COCA[4], BNC[5]) va “Fiction” yoki “Poetry” janriga qarab matnlarni filtrlash mumkin. Shuningdek, badiiy matnlar uchun maxsus korpuslar mavjud. Masalan, CLiC (Corpus Linguistics in Context) badiiy matnlarni o‘rganishga mo‘ljallangan korpusdir. Ammo o‘zbek tilida badiiy asarlardan iborat va POS-teglangan (so‘z turkumi aniq belgilangan) korpus mavjud emas, shu sababli badiiy uslubga oid matnlar korpusi shakllantirilishi talab etiladi (bu haqda quyida batafsil yoziladi).

**Korpus menejerlari:** AntConc[6], WordSmith Tools[7], Sketch Engine[8] korpus menejerlari badiiy matnlarni tahlil qilish uchun maxsus ishlab chiqilgan vositadir.

**POS-belgilash asboblari:** TreeTagger, Stanford POS Tagger, HunPos.

**Badiiy uslubni statistik usulda tahlil qilishning o‘ziga xos jihatlari quyidagilarda ko‘rinadi:**

**Subyektivlik va tasviriylik:** badiiy uslubda sifat va ravishlar faqat tasviriy emas, balki hissiy yukni ham oladi. Tahlil ushbu stilistik funksiyalarni hisobga olishi kerak.

[1] https://www.nltk.org/
[2] https://spacy.io/
[3] https://cis.lmu.de/~schmid/tools/TreeTagger/
[4] https://www.english-corpora.org/coca/
[5] https://www.english-corpora.org/bnc/
[6] https://antconc.en.lo4d.com/
[7] https://lexically.net/wordsmith/
[8] https://www.sketchengine.eu/

**Mualliflar va janrlarning xilma-xilligi:** chastota muallifning individual uslubi, adabiy yo‘nalishi va asar janriga qarab sezilarli darajada farq qilishi mumkin, shuning uchun korpusning reprezentativligi (turli janr va mavzularni qamrab olishi) muhim.

Bunday korpus tahlilini o‘tkazish o‘zbek va ingliz tilidagi badiiy uslubda belgi bildiruvchi so‘zlarning chastotasi hamda vazifalari to‘g‘risida yanada obyektiv tasavvur olishga va bu uslubning xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

O‘zbek tili badiiy uslubdagi matnlarni tahlil qilishi uchun tanlab olingan obyekt haqida ma’lumot quyidagicha (Qarang: 1-jadval)

| № | Asar nomi va muallifi | janri | sifatlarning miqdori | Ravish miqdori | Jami so‘zlar miqdori |
|---|---|---|---|---|---|
| **1** | Said Ahmad “Oftoboyim” | hikoya | 79 ta | 7 ta | 3316 |
| **2** | O‘tkir Hoshimov “Dadamni yo‘qotib qo‘ydim” | hikoya | 24ta | 7 ta | 3007 |
| **3** | Abdulla Qahhor “Asror bobo” | hikoya | 40ta | 17ta | 3237 |
| **4** | A.P. Chexov “Garov” | hikoya | 84ta | 3ta | 2134 |
| **5** | O‘tkir Hoshimov “Po‘stdumbali moshkichiri” | hikoya | 27ta | 22ta | 1614 |
| **6** | “Oq yomg'ir” Chingiz Aytmatov | hikoya | 57ta | 11ta | 3231 |
| **7** | Shukur Xolmirzayev “Bodom qishda gulladi” | hikoya | 124ta | 18ta | 7844 |
| **8** | Chingiz Aytmatov “Jamila” | qissa | 83ta | | 2519 |
| **9** | O‘tkir Hoshimov “Ermon buvaning tilagi” | hikoya | 37ta | 17ta | 3565 |
| **10** | O‘tkir Hoshimov “Imon” | hikoya | 70ta | 6ta | 3849 |
| **11** | Shodmon Otabek “Oriyat” | hikoya | 148ta | 28ta | 3186 |
Ultimately, "Down and Out in Paris and London" resonates with readers today because it addresses timeless themes of struggle and resilience. Orwell's work pushes us not just to watch but to get involved with these important social issues, inspiring us to take action and create a kinder society. His personal journey invites us to think about the larger problems of social injustice. Its ongoing relevance urges readers to consider how they can help fight inequality and support the dignity of everyone, making Orwell's message as important now as it was when he wrote it. This deep exploration enriches our understanding of resilience and empathy when facing tough times.

**References:**

1. Orwell, George. Down and Out in Paris and London. London: Victor Gollancz, 1933.P.3.
2. Orwell, George. Down and Out in Paris and London. London: Victor Gollancz, 1933.P.183.
3. Wright, Richard. Black Boy. New York: Harper & Brothers, 1945.P.123-124.
4. Marifatkhon Boltabayeva. The Clash of Religious and Secular Views In Graham Greene's Works. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 6(3),2025.
5. London, J. The people of the abyss. Macmillan, 1903.
6. Sinclair, U. The jungle. Doubleday, Page & Company, 1906.
7. Dickens, C. Oliver Twist. Richard Bentley, 1838.
8. Rodden, J. The Cambridge companion to George Orwell. Cambridge University Press,2006.
9. Meyers, J. Orwell: Wintry conscience of a generation. W. W. Norton,2000.
10. Williams, R.Orwell. Fontana/Collins, 1975.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Ахмедова Парвина Абдумановна**
Старший преподаватель кафедры русской филологии
Самаркандский государственный институт иностранных языков

## ТРАНСФОРМАЦИЯ АВТОРСТВА И ТЕКСТОВОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В ЭПОХУ ГЕНЕРАТИВНОГО ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

***Аннотация:*** *Настоящее исследование посвящено переосмыслению категории авторства в условиях широкого распространения генеративных языковых моделей. Цель работы заключается в выявлении совокупности филологических, правовых и этических критериев, позволяющих определить границы человеческого вклада в текст, созданный при участии цифровых алгоритмов. Материалом послужили международные нормативные документы в области искусственного интеллекта, законодательные акты Республики Узбекистан об авторском праве, рекомендации научных издательств и труды по цифровой филологии. Методология включает дискурс-анализ, сравнительный правовой анализ и интерпретативное филологическое моделирование. Делается вывод о формировании гибридной модели авторства, где центральным элементом становится ответственность человека за интерпретацию, композицию и научную добросовестность текста.*

***Ключевые слова:*** *авторство, плагиат, интертекстуальность, генеративный ИИ, филология, академическая этика, интеллектуальная собственность.*

**Parvina Abdumanovna Axmedova**
Rus filologiyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
Samarqand davlat chet tillar instituti

## GENERATIV SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA MUALLIFLIK VA MATN MAS'ULIYATINI O'ZGARTIRISH.

***Annotatsiya:*** *Ushbu tadqiqot generativ til modellarining keng tarqalishi sharoitida mualliflik kategoriyasini qayta talqin etishga bag‘ishlangan. Ishning maqsadi raqamli algoritmlar ishtirokida yaratilgan matnda inson hissasining chegaralarini aniqlash imkonini beruvchi filologik, huquqiy va axloqiy mezonlar majmuasini aniqlashdan iborat. Tadqiqot materiali sifatida sun’iy intellekt sohasidagi xalqaro normativ hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasining mualliflik huquqiga oid qonun hujjatlari, ilmiy nashriyotlarning tavsiyalari hamda raqamli filologiya bo‘yicha ilmiy ishlar xizmat qildi. Metodologiya diskurs-tahlil, qiyosiy huquqiy tahlil va interpretativ filologik modellashtirishni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot natijasida mualliflikning gibrid modeli shakllanayotgani, unda markaziy o‘rin matnni talqin qilish, kompozitsiya va ilmiy halollik uchun insonning mas’uliyati egallashi xulosasi chiqariladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *mualliflik, plagiat, intertekstualik, generativ sun’iy intellekt, filologiya, akademik etika, intellektual mulk.*

**Parvina Abdumanovna Akhmedova**
Senior Lecturer, Department of Russian Philology
Samarkand State Institute of Foreign Languages

## CHANGES IN AUTHORSHIP AND LIABILITY FOR TEXTS IN THE AGE OF GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE

***Abstract****: This study is devoted to the reconsideration of the concept of authorship in the context of the widespread use of generative language models. The aim of the work is to identify a set of philological, legal, and ethical criteria that make it possible to determine the boundaries of human contribution in texts created with the participation of digital algorithms. The research material includes international regulatory documents in the field of artificial intelligence, legislative acts of the Republic of Uzbekistan on copyright, recommendations of academic publishers, and scholarly works in digital philology. The methodology comprises discourse analysis, comparative legal analysis, and interpretative philological modeling. The study concludes that a hybrid model of authorship is emerging, in which the central element is human responsibility for interpretation, composition, and academic integrity of the text.*

***Keywords:*** *authorship, plagiarism, intertextuality, generative AI, philology, academic ethics, intellectual property.*

Категория авторства традиционно воспринималась как устойчивая культурная и юридическая константа, связывающая текст с индивидуальной личностью, её мировоззрением и ответственностью. В классической филологической парадигме автор являлся носителем уникального идиостиля, а текст рассматривался как выражение внутренней интенции. Однако цифровая эпоха и особенно появление генеративных языковых моделей внесли существенные коррективы в данное понимание.

Современный текст всё чаще создаётся в условиях взаимодействия человека и алгоритма. Это взаимодействие не отменяет человеческого участия, но меняет его характер: автор становится не только создателем, но и редактором, куратором, интерпретатором и ответственным субъектом. В результате возникает необходимость различать текстопорождение и смысловое авторство.

Проблема осложняется тем, что генеративные модели способны воспроизводить научный стиль, логическую аргументацию и структурную завершённость текста, что создаёт иллюзию автономного авторства. Однако юридическая и академическая практика подчёркивают: субъектом ответственности остаётся человек.

Данная трансформация имеет особое значение для филологии, поскольку затрагивает фундаментальные категории — стиль, интертекстуальность, оригинальность и заимствование.

В 2021 году ЮНЕСКО приняла Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence, где подчёркивается принцип человеческого контроля и ответственности за цифровые системы. Документ акцентирует необходимость прозрачности и подотчётности при использовании ИИ в образовательной и научной сфере. [2]

Организация экономического сотрудничества и развития (OECD) в принципах trustworthy AI также указывает на приоритет человеческих ценностей и ответственности. [3]

Ключевым нормативным актом является Закон Республики Узбекистан «Об авторском праве и смежных правах». В законе закреплено положение, согласно которому автором произведения признаётся физическое лицо, творческим трудом которого создано произведение. [1]

Из этого следует важный вывод: алгоритм не может являться автором, поскольку не обладает правосубъектностью. Следовательно, текст, созданный с использованием ИИ, юридически относится к произведениям с участием человека-автора.

В филологии категория авторства тесно связана с тремя ключевыми понятиями:

1. Идиостиль — индивидуальная языковая манера автора, выраженная в выборе лексики, синтаксиса и ритма.
2. Интертекстуальность — включённость текста в систему культурных и литературных связей.
3. Оригинальность — уникальное сочетание интерпретации и композиции, не сводимое к абсолютной новизне.

Генеративный ИИ воздействует прежде всего на идиостиль, усредняя языковые конструкции и снижая частотность индивидуальных маркеров. Однако интерпретационная уникальность остаётся в зоне человеческой компетенции.

Для филологической и юридической практики принципиально важно различать данные категории.

1. Плагиат, то есть незаконное присвоение авторства чужого произведения без указания источника. Юридически – нарушение авторских прав.
2. Заимствование – использование фрагментов текста с корректной ссылкой на источник. Допустимо в научной практике.
3. Интертекст – культурное и смысловое взаимодействие текстов без прямого копирования. Не является нарушением.

ИИ усиливает риск неосознанного плагиата, поскольку способен генерировать формулировки, сходные с существующими источниками без явного цитирования. Следовательно, ответственность за проверку ложится на исследователя.

Первичные результаты показывают формирование новой парадигмы авторства, в которой решающими становятся не механические действия по созданию текста, а уровень смыслового контроля и ответственность. Международные издательские организации COPE[5], ICMJE [6] указывают, что ИИ-инструменты не могут быть авторами научных работ, поскольку не способны нести ответственность за содержание.

Исследования цифровой филологии последних лет показывают, что тексты, созданные при участии генеративных языковых моделей, обладают рядом устойчивых характеристик. Среди них можно выделить:

Синтаксическая регулярность — предпочтение средних по длине предложений, избегание сложноподчинённых конструкций и редких синтаксических оборотов.

Лексическая нейтральность — уменьшение доли редкой и экспрессивной лексики, преобладание общеупотребительных терминов.

Композиционная симметрия — равномерное распределение абзацев, логическая линейность аргументации.

Формульность вводных конструкций — частое использование универсальных переходных фраз.

Подобные признаки формируют эффект стилистической «гладкости», который может восприниматься как признак качественного академического письма, но одновременно снижает диагностируемость индивидуального авторского почерка. В филологическом смысле это означает переход от ярко выраженного идиостиля к авторскому интеллектуально-структурному стилю, где авторская индивидуальность проявляется не столько в языковых украшениях, сколько в логике рассуждения и выборе проблематики.

В ответ на распространение генеративных технологий активно развивается направление стилометрии — статистического анализа текстов. Исследователи стремятся выявить количественные показатели, позволяющие отличить машинно-сгенерированный текст от человеческого. Наиболее часто анализируются:

частотность служебных слов, распределение длин предложений, коэффициенты лексического разнообразия,

устойчивые n-граммы, ритмические и пунктуационные шаблоны.

Однако практические результаты показывают, что при редакторском вмешательстве человека эти различия быстро нивелируются. Гибридные тексты становятся практически неотличимыми по формальным признакам. Следовательно, вопрос авторства не может быть окончательно решён техническими методами и требует комплексного филологического и этического подхода.

В академической среде понятие авторства тесно связано с категорией добросовестности. Речь идёт не только о правовом аспекте, но и о профессиональной репутации исследователя. Использование цифровых инструментов становится допустимым при соблюдении трёх условий:

Прозрачность — указание факта использования ИИ-инструментов в методологическом разделе работы.

Критическая проверка — обязательная верификация фактов, ссылок и терминологии.

Интеллектуальная самостоятельность — формирование выводов и интерпретаций автором.

Таким образом, академическая практика постепенно формирует норму, согласно которой цифровые технологии рассматриваются как вспомогательные средства, но не как самостоятельные источники научной новизны.

Одним из наиболее острых вопросов остаётся проблема плагиата. Генеративные модели обучаются на обширных массивах текстов и способны воспроизводить формулировки, сходные с существующими источниками без явного копирования. Это создаёт феномен неосознанного совпадения, который не всегда подпадает под классическое юридическое определение плагиата, но может восприниматься как нарушение академической этики.

В научной практике всё чаще используется понятие текстовой ответственности автора, предполагающее обязательную проверку оригинальности и корректности цитирования вне зависимости от способа создания текста. Таким образом, ответственность смещается с инструмента на человека, принимающего решение о публикации.

Важно подчеркнуть, что не всякое совпадение формулировок является плагиатом. Филологическая теория давно оперирует понятием интертекстуальности, согласно которому любой текст находится в диалоге с предшествующими культурными образцами. Цитирование, аллюзии, реминисценции и терминологические повторения являются естественными элементами научного дискурса.

Различие между плагиатом и интертекстом заключается не в факте совпадения, а в намерении и прозрачности. Если источник осознанно скрывается — это плагиат; если связь обозначена или носит культурно-общеязыковой характер — это интертекст.

Генеративные модели усиливают интертекстуальность текста, но не отменяют ответственности исследователя за корректное оформление ссылок и цитат.

Роль филолога в условиях генеративных технологий претерпевает значительные изменения. Если ранее основным инструментом была интерпретация текста, то сегодня добавляется задача критической оценки цифровых источников и алгоритмических продуктов. Филолог становится медиатором между машинным и человеческим дискурсом, выполняя функции:

аналитика смысловых структур,

редактора стилистической целостности,

эксперта по интертекстуальным связям,

гаранта научной добросовестности.

Следовательно, профессия не утрачивает значимости, а напротив, приобретает новые измерения, связанные с цифровой грамотностью и методологической гибкостью.

Цифровые инструменты не являются антагонистами гуманитарного знания; напротив, они могут выступать его расширением при условии осмысленного использования. Современный филолог всё чаще оказывается в позиции исследователя, который не только анализирует тексты, но и управляет процессом их создания. На практике можно выделить несколько направлений такой работы.

Во-первых, редакторско-аналитическая стратегия. Генеративные системы способны предложить черновой вариант текста или структурный план, однако окончательная композиция и логика аргументации формируются человеком. Именно здесь проявляется интеллектуальный вклад автора, который выходит за пределы технического набора слов.

Во-вторых, интерпретационная стратегия. Искусственный интеллект может обобщать информацию, но не обладает культурным опытом и исторической памятью в человеческом смысле. Филолог, напротив, способен соотнести текст с литературной традицией, социокультурным контекстом и философскими основаниями. Следовательно, уникальность научной работы определяется не столько формой изложения, сколько глубиной интерпретации.

В-третьих, критико-верификационная стратегия. Любая машинная генерация требует проверки фактической точности, корректности терминологии и соответствия источникам. Здесь филолог выполняет роль гаранта научной достоверности, обеспечивая соответствие текста академическим стандартам.

Наконец, этическая стратегия, предполагающая прозрачность использования цифровых инструментов. Указание факта их применения не снижает ценность исследования, но демонстрирует профессиональную добросовестность и уважение к читателю.

На уровне международных научных организаций постепенно формируется согласованная позиция: цифровые инструменты допустимы как вспомогательные средства, но не могут выступать авторами. Редакционные политики научных журналов подчеркивают необходимость раскрытия использования алгоритмических сервисов в методологическом разделе работы. Это требование не является формальностью; оно отражает переход от культуры сокрытия к культуре прозрачности.

Подобная практика соотносится и с законодательными нормами Республики Узбекистан, где автором признаётся физическое лицо, осуществившее творческий труд. Следовательно, использование алгоритмов не отменяет авторства, но усиливает требование личной ответственности исследователя.

Соответственно, институциональная среда формирует новую модель научного письма, в которой важнейшими параметрами становятся честность, проверяемость и интерпретационная самостоятельность.

Одной из наиболее дискуссионных проблем остаётся разграничение понятий плагиата и интертекстуальности. В эпоху генеративных технологий эта граница становится особенно тонкой. Машинная генерация может воспроизводить устойчивые формулировки или структурные шаблоны, не являясь прямым копированием конкретного источника.

С филологической точки зрения плагиат предполагает намеренное присвоение чужого текста без ссылки, тогда как интертекст является естественным культурным явлением, отражающим диалог текстов. Заимствование же занимает промежуточное положение и становится допустимым при условии корректного цитирования.

Ключевым критерием остаётся намерение и прозрачность. Искусственный интеллект не способен к намерению в человеческом смысле, следовательно, ответственность за корректность формулировок ложится на исследователя. Именно он определяет границы допустимого и обеспечивает соблюдение научной этики.

Переход к цифровой среде не уничтожает авторство, но изменяет его внутреннюю структуру. Если ранее главным признаком автора считался индивидуальный стиль, то сегодня всё более значимой становится интеллектуальная позиция и аналитическая глубина. Автор превращается из производителя текста в архитектора смысла.

В этой парадигме текст рассматривается как результат сотрудничества человека и инструмента, однако ответственность сохраняется за человеком. Автор определяет цели исследования, интерпретирует данные, формирует выводы и несёт ответственность за научную достоверность. Генеративная система может ускорить процесс письма, но не способна заменить критическое мышление и культурную рефлексию.

Исследование показало, что эпоха генеративного искусственного интеллекта не отменяет понятие авторства, а трансформирует его содержание. Центральным элементом становится не акт непосредственного написания текста, а степень интеллектуального участия и ответственности исследователя. Филологическая перспектива выявляет переход от ярко выраженного идиостиля к интеллектуальному почерку, основанному на интерпретации и логике аргументации.

Правовые нормы и редакционные политики подтверждают приоритет человеческого субъекта как носителя ответственности, формируя новую этическую рамку научного письма. Понятия плагиата, заимствования и

интертекста сохраняют актуальность, однако требуют более тонкого разграничения в условиях цифрового ускорения.

Таким образом, будущее филологии связано не с отказом от технологий, а с развитием критического мышления, интерпретационных навыков и профессиональной ответственности. Авторство в цифровую эпоху предстает как динамическая категория, объединяющая творческое мышление, редакторский контроль и этическую подотчётность, что позволяет рассматривать цифровые технологии не как замену автору, а как инструмент расширения гуманитарной аналитики и углубления научной интерпретации.

**Использованная литература**

1. Закон Республики Узбекистан «Об авторском праве и смежных правах» от 20.07.2006 г. № ЗРУ-42. https://lex.uz/docs/1023494
2. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence (2021).
3. OECD. AI Principles. https://oecd.ai/en/ai-principles
4. WIPO. Artificial Intelligence and Intellectual Property.
5. COPE. AI and Authorship Discussion Document. URL: https://publicationethics.org/resources/discussion-documents/artificial-intelligence-ai-and-authorship
6. ICMJE. Recommendations for the Conduct, Reporting, Editing, and Publication of Scholarly Work. URL: https://www.icmje.org/icmje-recommendations.pdf
7. Bender, E., Gebru, T. (2021). *On the Dangers of Stochastic Parrots*. Proceedings of the ACM FAccT Conference. URL: https://dl.acm.org/doi/pdf/10.1145/3442188.3445922
8. Juola, P. Authorship Attribution. Foundations and Trends in Information Retrieval Vol. 1, No. 3 (2006) 233–334. DOI: 10.1561/1500000005
9. Moretti, F. Distant Reading.Franco Moretti. London: Verso, 2013. 254 pp. ISBN 978-1-7816-8084-1.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

**Bozorova Dilorom Abdurahim qizi**
University of Business and Science
Lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi 1-kurs magistranti
dilorombozorova96@gmail.com

## O'ZBEK TEXNIK TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISH VA TIZIMLASHTIRISH MUAMMOLARI (XX–XXI ASRLAR)

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada o'zbek texnik terminologiyasining XX–XXI asrlar davomida bosib o'tgan murakkab shakllanish yo'li va tizimlashtirish muammolari lingvistik-tarixiy aspektda chuqur tahlil qilinadi. Sovet davrida rus va internatsional terminlarning o'zbek terminologiyasiga ommaviy kirib kelishi, lotinlashtirish va kirillashtirish jarayonlari natijasida yuz bergan tizimiy izchilliksizlik, shuningdek, 1991-yil mustaqillikdan keyingi milliy terminologiya islohotlari va lotin yozuviga o'tish sharoitida texnik atamalar tizimining shakllanishi ilmiy jihatdan o'rganiladi. Sinonimlikdan kelib chiqadigan terminologik noaniqlik, o'zlashtirilgan va milliy terminlarning muqobillashuvi, me'yorlashtirish va standartlashtirish tizimining etarli rivojlanmaganligi – bular maqolaning asosiy tadqiqot ob'ektlarini tashkil etadi. Muammo yechimiga doir ilmiy asoslangan tavsiyalar bayon etiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *texnik terminologiya, o'zbek tili, terminologiya tarixi, so'z yasalishi, sinonimlik, standartlashtirish, milliy terminologiya, me'yorlashtirish, terminologik tizim.*

**Бозорова Дилором Абдурахим кизи**
University of Business and Science
магистрант 1 курса направления «Лингвистика (узбекский язык)»

## ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И СИСТЕМАТИЗАЦИИ УЗБЕКСКОЙ ТЕХНИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ (XX–XXI ВЕКА)

***Аннотация***. *В данной статье в лингвистическо-историческом аспекте глубоко анализируется сложный путь формирования и проблемы систематизации узбекской технической терминологии на протяжении XX–XXI веков. Научно исследуются массовое проникновение русских и интернациональных терминов в узбекскую терминологию в советский период, системная непоследовательность, возникшая в результате процессов латинизации и кириллизации, а также формирование системы технических терминов в условиях реформ национальной терминологии и перехода на латинское письмо после обретения независимости в 1991 году. Основными объектами исследования являются терминологическая неоднозначность, порождаемая синонимией, конкуренция заимствованных и национальных терминов, а также недостаточная развитость системы нормирования и стандартизации.*

***Ключевые слова:*** *техническая терминология, узбекский язык, история терминологии, словообразование, синонимия, стандартизация, национальная терминология, нормирование, терминологическая система.*

**Bozorova Dilorom Abdurahim qizi**
University of Business and Science
1st-year Master's student in Linguistics (Uzbek Language)

## PROBLEMS OF THE FORMATION AND SYSTEMATIZATION OF UZBEK TECHNICAL TERMINOLOGY (20th–21st CENTURIES)

***Abstract.*** *This article provides an in-depth linguistic-historical analysis of the complex path of formation and systematization problems of Uzbek technical terminology throughout the XX–XXI centuries. The massive influx of Russian and international terms into Uzbek terminology during the Soviet period, systemic inconsistencies resulting from Latinization and Cyrillization processes, and the formation of technical terminology systems under national terminology reform conditions and Latin script transition after 1991 independence are scientifically examined. Terminological ambiguity arising from synonymy, competition between borrowed and national terms, and the insufficient development of normalization and standardization systems constitute the main research objects of the article.*

***Keywords***: *technical terminology, Uzbek language, history of terminology, word formation, synonymy, standardization, national terminology, normalization, terminological system.*

**Kirish.**

Har qanday milliy tilning fan-texnika va ishlab chiqarish sohasidagi holati uning jamiyatdagi mavqei va funksional qudratini bevosita belgilaydi. Terminologiya — bu tilning eng dinamik, eng siyosiy jihatdan sezgir va ilmiy-texnik taraqqiyot bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq qatlami. O'zbek tilining texnik terminologiya tizimi XX asrda G'arb atamashunoslik an'anasidan mutlaqo farqli, siyosiy tizim o'zgarishlariga bog'liq bo'lgan keskin burilishli yo'lni bosib o'tdi. Bu yo'l uch katta to'lqinni o'z ichiga oladi: sovetlashtirishdan oldingi arabiy-forsiy terminologiya merosining inkor etilishi, sovet davrida rus va internatsional terminlarning ommaviy assimilyatsiyasi hamda 1991-yildan boshlangan milliy terminologiyani qayta tiklash va yangilash jarayonlari. Har bir to'lqin o'zbek texnik tilida chuqur izlar qoldirdi va ular hali-hanuz terminologik qarama-qarshiliklar, normativlik noaniqliklari va standartlashtirish muammolari sifatida namoyon bo'lmoqda. Terminologiya fanida termin deganda fan, texnika, ishlab chiqarish yoki ijtimoiy hayotning muayyan sohasiga xos tushunchani aniq, bir ma'noli va tizimli tarzda nomlovchi leksik birlik tushuniladi. V.M.Leychik ta'rifiga ko'ra, termin — bu «muayyan maxsus faoliyat sohasidagi tushunchani ifodalovchi va o'sha sohadagi terminologik tizimning elementi sifatida harakat qiluvchi leksik birlik» [1]. Terminning ushbu ta'rifi bir necha muhim belgini — maxsuslik, tizimlilik va bir ma'nolilikni — o'z ichiga oladi. Aynan mana shu uchta belgining o'zbek texnik terminologiyasida to'liq ta'minlanmaganligi XX–XXI asrlar kesimidagi asosiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

**Adabiyotlar tahlili.**

O'zbek texnik terminologiyasini o'rganishda metodologik asos sifatida V.M.Leychik, A.V.Superanskaya va V.P.Danilenko asarlari qo'llanildi. Leychik terminni aniqlovchi uchta belgi — maxsuslik, tizimlilik va bir ma'nolilik — asosini yaratgan bo'lsa, Danilenko terminologik sinonimlikni tizim shakllanmaganligining belgisi sifatida ta'riflaydi. Bu xulosalar o'zbek texnik terminologiyasidagi asosiy muammolarni baholashda to'g'ridan-to'g'ri mezon vazifasini o'tadi. S.V.Grinev va A.A.Reformatskiy ishlari esa terminologiyashunoslikning klassik nazariy asosini tashkil etadi.

Dadaboyevning «O'zbek terminologiyasi» soha bo'yicha eng keng qamrovli monografiya bo'lib, terminologiyaning tarixiy bosqichlari va leksik qatlamlarini yoritadi. X.Nematov va R.Rasulov terminologizatsiya mexanizmlarini, B.Yo'ldoshev ilmiy-texnik leksika xususiyatlarini, E.Botirov so'z yasalish modellarini tadqiq etgan. M.Qosimova texnik atamalarning semantik xususiyatlarini, A.Sobirov esa mustaqillik yillaridagi terminologiya islohotlarini o'rgangan. Shu bilan birga, ko'rsatilgan ishlar texnik terminologiyaning yaxlit tarixiy-dinamik tahlilini qamrab olmaydi — ushbu maqola aynan shu bo'shliqni to'ldiradi.

**Tadqiqot metodlari.**

Tadqiqot tizimli-funksional va sotsiolingvistik yondashuv asosiga qurilgan: o'zbek texnik terminologiyasi yaxlit tizim sifatida ko'riladi va uning o'zgarishlari siyosiy, ijtimoiy hamda madaniy omillar kontekstida baholanadi. Asosiy tamoyillar — tarixiylik (hodisalarni o'z davri kontekstida baholash), tizimlilik (alohida terminlar emas, butun tizimni o'rganish), ob'ektivlik va qiyosiylik. Tarixiy-qiyosiy metod — terminologiyaning turli davrlardagi holatini solishtirish va har bir bosqichning xususiyatlarini aniqlash uchun. Tizimli-struktural tahlil — sinonimlik, antonimlik va so'z yasalish modellarini aniqlash uchun. Komponent tahlil — alohida terminlarning ma'noviy tarkibini parchalab o'rganish uchun. Tipologik-qiyosiy metod — o'zbek texnik terminologiyasini turk, fin va arab tillari tajribasi bilan solishtirish orqali umumiy qonuniyatlarni aniqlash uchun qo'llanildi.

**Natijalar va muhokama.**

O'zbek texnik terminologiyasining XX asr boshlanganda qanday holatda bo'lganini anglash uchun undan oldingi asrlardagi terminologik an'anani ko'z oldiga keltirish zarur. O'rta asrlarda Movarounnahr va Xuroson madaniy markazi sifatida yetakchi o'rin egallagan davrda arab va fors tillarining ilmiy-texnik terminologiyasi o'zbek yozma tili orqali assimilyatsiya qilingan edi. Meros sifatida o'sha davrdan qolgan ko'plab arabiy-forsiy atamalar — masalan, «hisob» (matematikada), «falak» (astronomiyada), «kimyo», «tibb» — hozirgi o'zbek ilmiy tilida ham muomalada. Biroq XIX asrning ikkinchi yarmi — Rossiya imperiyasining Turkistonga kirib kelishi bilan birga rus ishlab chiqarish uslubi va texnik leksikasi ham o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Temiryo'l, telegraf, sanoat korxonalari bilan birga ularning rus texnik leksikasi ham kirib keldi va shu davrdan boshlab o'zbek texnik tilida ikki qatlamlilik — an'anaviy arabiy-forsiy va yangi rusiy terminologiya qatlamlari — vujudga kela boshladi [2]. XX asrning boshida jadidlar harakati doirasida milliy terminologiyani tartibga solish va yangilash bo'yicha birinchi ongli urinishlar amalga oshirildi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy kabi jadid ziyolilari ta'lim va matbuot tili orqali milliy atamalar tizimini isloh qilishga intildilar. Jadidlar bir tomondan arabiy-forsiy terminologiyani zamonaviy tushunchalar bilan boyitishga, ikkinchi tomondan oddiy xalqqa tushunarli til yaratishga harakat qildilar. Bu davr uchun xarakterli xususiyat shundan iboratki, texnik terminlarni milliy til resurslari — kalkalar, semantik kengaytmalar va yangi yasalmalar — asosida ifodalashga

urinish ko'zga tashlanadi. Masalan, «matbaa» (bosmaxona), «telefon» (uzatarmoq asbob), «telegraf» (yiroqdan yozish vositasi) kabi nomlarni milliy til bilan talqin qilish hollari jadid nashrlarida uchraydi. Biroq bu harakatning izchil terminologik dasturga aylanishiga imkon berilmadi — sovetlashtirish jarayoni boshlanib, butunlay boshqacha siyosat o'z kuchini ko'rsatdi [3].

Sovet davrida o'zbek texnik terminologiyasi bevosita markaziy siyosiy mafkuraning nazorati ostida shakllandi. Bu davr o'z ichiga uch keskin burilishni oladi. Birinchi burilish — 1928-1929-yillarda amalga oshirilgan lotinlashtirish. O'zbek yozuvi arab grafikasidan lotin alifbosiga o'tkazilganda faqat yozuv shakli emas, balki terminologik an'ananing uzluksizligi ham sindirildi. Arabiy-forsiy terminologik merosga asoslangan atamalar tizimi «eskilik» deb e'lon qilinib, uning o'rniga yangi, asosan rus va internatsional terminlarga yo'naltirilgan leksika kiritila boshlandi. Ikkinchi burilish — 1940-yilda lotindan kirill alifbosiga o'tish. Bor-yo'g'i 12 yil ichida amalga oshirilgan ushbu ikkinchi o'tish terminologik izchillik uchun yanada og'irroq oqibatlar keltirib chiqardi. Ilmiy va texnik adabiyotlarning bir qismini o'zbek tilida lotin harflarida yozilgan holda qoldirib, yangisini kirill asosida boshlash terminologik merosni yana bir bor saralab yubordi [4].

Sovet davrining ikkinchi yarmida — 1940-1991-yillar — o'zbek texnik terminologiyasi ikkita parallel jarayon asosida rivojlandi. Bir tomondan, maxsus terminologik komissiyalar faoliyati doirasida o'zbek-rus va rus-o'zbek terminologik lug'atlari tuzildi, terminlarni tartibga solish bo'yicha ilmiy konferensiyalar o'tkazildi. Biroq bu ishning asosiy yo'nalishi milliy terminologiya yaratish emas, balki rus terminlarini o'zbek tiliga fonetik moslashtirib qabul qilish yoki to'g'ridan-to'g'ri transliteratsiya qilishdan iborat edi. Ikkinchi tomondan, muhandislik, tibbiyot, kimyo, fizika kabi texnik sohalarda ta'lim asosan rus tilida amalga oshirilgani sababli amaliy texnik leksika deyarli rus tiliga o'tib qoldi. «Muxlisa» o'rniga «nasoschixa», «suv quvuri» o'rniga «truba», «elektr toki» o'rniga «tok» kabi hollar kundalik texnik muloqotda norma sifatida o'rnashib qoldi [3]. Bu davrning eng muhim terminologik oqibati — sinonimlik va ikki qatlamlilik muammosining kuchayishi. Har bir texnik tushuncha uchun kamida ikkita nom vujudga keldi: biri — arabiy-forsiy yoki milliy asosga ega bo'lgan an'anaviy o'zbek atamasi, ikkinchisi — rus yoki internatsional termin. Masalan, «qurilish» va «stroitelstvo», «muhandis» va «injener», «hisob-kitob» va «raschyot» kabi juft-juft terminlar bir vaqtning o'zida muomalada bo'lib, ulardan qaysi birini qo'llash ixtiyoriy, ya'ni qo'llash normasi tartibsiz edi. Danilenko V.P.ning terminologiyaga oid fundamental tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, terminologik sinonimlik — bu terminologik tizim shakllanmayotganining, balki to'planib borayotgan leksik massaning tartiblanmaganining belgimasidir [1].

1991-yil mustaqillikka erishilishi bilan birga o'zbek terminologiyasida tubdan yangi bosqich boshlandi. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrdagi «Davlat tili haqida»gi Qonunining yangilangan tahriri va 1993-1995-yillarda bosqichma-bosqich amalga oshirilgan lotin alifbosiga o'tish bu yangi bosqichning asosiy yuridik va texnik zaminini tashkil etdi. Lotin alifbosiga o'tish terminologiya uchun ham muayyan ijobiy imkoniyatlar ochdi: terminlarning fonetik jihatdan xalqaro standartga yaqinlashishi, ingliz tilidagi terminlar bilan yozilishi jihatidan muvofiqligi ortdi. Biroq bu o'tish davri ham o'z terminologik muammolarini keltirib chiqardi — kirill yozuvida qolgan texnik adabiyotlar fondi va yangi lotin yozuvidagi matnlar o'rtasidagi uzilish muhandislik ta'limida jiddiy qiyinchiliklar yaratdi [5]. Mustaqillik davrida terminologiyani milliylashtirish siyosati ikki yo'nalishda amalga oshirildi. Birinchi yo'nalish — rus tilidagi terminlarni o'zbek tilidagi muqobillar bilan almashtirish. Bu jarayon ba'zan sun'iy tarzda, til tabiiy rivojiga zid holda amalga oshirildi. Masalan, «kompyuter» o'rniga bir qator manbalarda «hisoblash mashinasi», «fayl» o'rniga «fayl» yoki «hujjat», «interfeys» o'rniga «aloqa qatlami» kabi atamalar tavsiya etildi. Biroq amalda mutaxassislar jamoasi, ayniqsa muhandislar va IT sohasida ishlovchilar, tavsiya etilgan milliy variantlarni ko'pincha qabul qilmadi — chunki bu terminlar xalqaro hamkasblari bilan aloqada to'siq bo'lib qolishi mumkin edi. Ikkinchi yo'nalish — ingliz tilidagi xalqaro terminlarni o'zbek tiliga kiritish. IT, telekommunikatsiya, muhandislik kabi yangi sohalarda ingliz tilidagi terminlar bevosita qabul qilinib, o'zbek fonetikasiga moslashtirildi: «brauzer», «server», «kompyuter», «lazer» va shunga o'xshashlar. Bu yo'nalish amalda ustun chiqqan bo'lsa-da, me'yoriy hujjatlarga izchil tarzda kiritilmagan [6]. Mustaqillik davrida o'zbek texnik terminologiyasini tartibga solish borasida bir qancha institutsional chora-tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Milliy universiteti va Til va adabiyot institutlari qoshida terminologik komissiyalar faoliyat olib bordi. Bir qancha sohalarda — siyosatshunoslik, huquqshunoslik, iqtisodiyot — terminologik lug'atlar nashr etildi. Biroq texnik soha — muhandislik, elektrotexnika, mashinasozlik, kimyo texnologiyasi — hali ham terminologik standartlashtirish jihatidan eng kam e'tibor qaratilgan sohalar qatorida qolmoqda. O'zbekiston Standartlashtirish, Metrologiya va Sertifikatlash Agentligi texnik terminologiya standartlarini ishlab chiqishda vaqti-vaqti bilan faollik ko'rsatgan bo'lsa-da, bu ish tizimli va uzluksiz xarakter kasb etmagan [5].

Hozirgi o'zbek texnik terminologiyasidagi muammolarni lingvistik jihatdan tahlil qilsak, ularni bir necha asosiy toifaga bo'lish mumkin. Birinchi va eng keng tarqalgan muammo — terminologik sinonimlik. Sinonimlik terminologiyada «bir tushunchaning bir nechta atamalar bilan ifodalanishi» sifatida ta'riflanadi va terminologik tizimning shakllanmaganligi, me'yorlashtirish ishining etarli olib borilmaganligi belgisi hisoblanadi [7]. O'zbek texnik terminologiyasida sinonimlik uch xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Birinchi ko'rinish — arabiy-forsiy va rus qatlami

sinonimi: «miqdor — kolichestvo», «ko'rsatgich — pokazatel», «o'lcham — razmer». Ikkinchi ko'rinish — rus va ingliz qatlami sinonimi: «truba — trubka — pipe», «server — xizmat ko'rsatuvchi kompyuter», «fayervol — himoya devori». Uchinchi ko'rinish — sun'iy yaratilgan milliy atama va xalqaro atama sinonimi: «tarmoq — set», «dastur — programma», «qurilma — ustroystvo». Bu uch qatlamli sinonimlik muhandislik ta'limida, ilmiy-texnik tarjimada va texnik hujjatlashtirish amaliyotida jiddiy noaniqliklar keltirib chiqarmoqda.

Ikkinchi muhim muammo — terminologik vazifasizlanish (determinologizatsiya) va aksincha, umumleksik so'zlarning terminlashishi (terminologizatsiya) jarayonlarining nazorat qilinmasligi. Sovet davrida o'zbek tiliga kirgan texnik terminlarning bir qismi mustaqillik yillarida umumiy leksikaga o'tib, texnik aniqliligini yo'qotdi. Masalan, «tok» (elektr toki ma'nosida) endilikda «zamonaviy oqim» yoki «yo'nalish» ma'nosida ham keng ishlatilmoqda. Aksincha, «muvofiqlashtirish», «quvvat», «o'tkazuvchanlik» kabi umumleksik so'zlar turli texnik sohalarda o'ziga xos, bir-biridan farqli terminologik ma'no kasb etmoqda va bu holat terminologik chalkashuvlarga olib kelmoqda [1].

Uchinchi muammo — terminologik so'z yasalish modellarining izchilsizligi. O'zbek tilida terminlar yasashning bir necha modeli mavjud: kalkalar (xorijiy terminning so'zma-so'z tarjimasi), yarım-kalkalar (qisman tarjima), fonetik moslashtirilgan borrowinglar va to'liq yangi yasalmalar. Ammo bu modellarning qo'llanilishida izchillik yo'q — bir sohada kalkalardan foydalanilsa, boshqasida to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish afzal ko'riladi; ba'zi sohalarda esa bir vaqtning o'zida bir terminning kalka va o'zlashma shakllari parallel qo'llanadi. Bu holat terminologik lug'at, darslik va me'yoriy hujjatlardagi farqlanishlarni keltirib chiqarmoqda [7]. Masalan, «kompressiya» termini kimyo texnologiyasida «siqilish», informatikada «siqish», tibbiyotda esa to'g'ridan-to'g'ri «kompressiya» shaklida qo'llaniladi — holbuki uchala holda ham bir xil fizik hodisa nazarda tutiladi.

To'rtinchi muammo — texnik terminologiyani standartlashtirish va me'yorlashtirish institutining zaifligi. Xalqaro tajribada, masalan, Germaniyada DIN (Deutsches Institut für Normung), Fransiyada AFNOR, Rossiyada GOST tizimi texnik terminologiyani davlat darajasida standartlashtiradi va bu standartlarga rioya etish majburiy hisoblanadi. O'zbekistonda bunday tizimning qonuniy asosi mavjud — O'zOST davlat standartlari tizimi — biroq terminologik standartlarning ishlab chiqilish tezligi va qamrovi hali texnik sohalardagi haqiqiy ehtiyojdan ancha orqada qolmoqda [5]. Natijada bir sohaning o'zida turli nashriyotlar, universitetlar va muassasalar o'z terminologik qoidalarini mustaqil belgilab, o'zaro muvofiqlashmagan holda ish olib borishlari muammo bo'lib qolmoqda.

XXI asrda o'zbek texnik terminologiyasi oldida yangi, avvalgi asrdan farqli muammolar ham vujudga keldi. Bu muammolarning bosh qo'zg'atuvchisi — raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va biotexnologiyalar sohalaridagi terminologik portlash. Ushbu sohalarda ingliz tili butun dunyo uchun birlamchi terminologik manba bo'lib qolgani va yangi atamalar hajmi yiliga minglab birlik bilan o'lchangani sababli milliy terminologiyani yangilash tezligi ularga hech ham mos kelolmaydi. O'zbek texnik tilida IT terminologiyasi bo'yicha hozirgacha yagona, keng qamrovli va rasmiy tasdiqlangan lug'at yo'qligi muammo bo'lib qolmoqda. Turli universitetlar va mutaxassislar guruhlari o'z terminologik amaliyotlarini mustaqil tarkib toptirgan va bu amaliyotlar ko'pincha bir-biriga zid kelmoqda [6].

Xalqaro ta'lim integratsiyasi — xususan, Bologna jarayoniga qo'shilish va xorijiy universitetlar filiallarining O'zbekistonda faoliyati — muhandislik ta'limida terminologik standartlashtirish muammosini yangi o'lchovga ko'tardi. O'zbekiston muhandislik universitetlarining ko'pchiligi hozirda ingliz tilidagi dasturlar bilan parallel ravishda o'zbekcha dasturlarni ham olib bormoqda. Bu esa bir predmetning o'zbek va ingliz tilidagi terminologik qatlamlari o'rtasida moslik ta'minlanishini talab etadi. Biroq o'zbek tilidagi texnik darsliklar ko'pincha yaxshi muvofiqlantirilmagan, eski sovet davri leksikasini saqlab qolgan holda, inglizcha nusxalardan tarjima qilingan manbalarda esa yangi, me'yorlashtirilmagan terminlar paydo bo'lmoqda. Natijada talabalar o'z ixtisosligi bo'yicha bir vaqtning o'zida uch-to'rt parallel terminologik tizimda — sovet davri o'zbek, zamonaviy o'zbek, rus va ingliz tilidagi — o'qishga majbur bo'lmoqdalar [8]. Bu masalaga qiyosiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilsa, o'zbek tajribasining o'ziga xosligi yanada yaqqolroq ko'rinadi. Finlandiya, Estoniya, Latviya kabi mamlakatlar o'z texnik terminologiyalarini izchil milliy tilda rivojlantira olgan — buning sababi bu tillardagi terminologiyani standartlashtirish institutlarining kuchli va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanganligi. Arab davlatlarida Qohira va Damashq Arabiy til akademiyalari texnik terminologiyaning arabchalashtirilgan ko'rinishini ishlab chiqishda muhim rol o'ynagan. Turkiyada esa Türk Dil Kurumu institutining faoliyati texnik terminologiyani turklashtirish bo'yicha tizimli va uzluksiz ish olib borishning namunasi hisoblanadi. O'zbekistonda bunday kuchli, mustaqil va yuqori vakolatli terminologik institutning mavjud emasligi asosiy institutsional zaiflik bo'lib qolmoqda [2].

**Xulosa.**

O'zbek texnik terminologiyasining XX–XXI asrlar davomida bosib o'tgan tarixiy yo'li uning o'ta murakkab, siyosiy omillar bilan to'la va lingvistik jihatdan qarama-qarshiliklarga boy ekanligini ko'rsatadi. Arabiy-forsiy merosdan sovetlashtirish orqali rus terminologiyasiga o'tish, undan milliy terminologiyani qadrlash va xalqaro integratsiyaga yo'nalish — bu uch katta to'lqin o'zbek texnik tilida har biri o'z terminologik qatlami, o'z normativlik tizimi va o'z ziddiyatlarini qoldirdi. Natijada shakllanmagan, sinonimik muammolarga to'la, me'yorlashtirilmagan va

standartlashtirish institutlari jihatidan zaif bo'lgan terminologik tizim vujudga keldi. Muammo yechimi bir necha ustuvor yo'nalishni talab etadi. Birinchidan, o'zbek texnik terminologiyasini tartibga solish va standartlashtirish vazifalari bilan shug'ullanuvchi maxsus vakolatli milliy terminologiya instituti tashkil etilishi zarur — bu institut fan vazirligi, Fanlar akademiyasi, muhandislik universiteti va sanoat tarmoqlari bilan hamkorlikda ish olib borishi lozim. Ikkinchidan, o'zbek tilidagi texnik terminologiya korpusini yaratish — ya'ni barcha sohalardagi texnik atamalarni elektron ma'lumotlar bazasiga kiritish, ularning tavsiya etilgan normativ variantlarini belgilash va bu bazani ochiq foydalanish uchun taqdim etish — muammoning amaliy yechimi hisoblanadi. Uchinchidan, texnik darsliklar va me'yoriy hujjatlarni terminologik jihatdan bir-biriga moslashtirish maqsadida muhandislik ta'limi muassasalari va standartlashtirish organlari o'rtasida tizimli hamkorlik yo'lga qo'yilishi zarur. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi o'zbek texnik terminologiyasini XX asrda yig'ilib qolgan muammolardan xalos etib, XXI asr talablariga javob beruvchi, xalqaro standartlarga moslashgan va milliy ruhga asoslangan yaxlit tizimga aylantirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

[1] Leychik V.M. Terminovedeniye: predmet, metody, struktura. — Moskva: KomKniga, 2006. — 256 s.

[2] Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2010. — 320 b.

[3] Danilenko V.P. Russkaya terminologiya: opyt lingvisticheskogo opisaniya. — Moskva: Nauka, 1977. — 246 s.

[4] Qobilov T., Axmedov D. Texnik terminologiyaning standartlashtirilishi va milliylashtirish muammolari. — Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2023. — 184 b.

[5] Bekmurodov A. Til va texnika: Qurilish terminologiyasining o'zbek tilida qo'llanishi // Milliy tilshunoslik. — 2022. — № 3. — 48–56-betlar.

[6] Hasanov M. Texnik sohalarda o'zbek tilida yangi atamalarni shakllantirish imkoniyatlari // Til va jamiyat. — 2022. — № 2. — 23–30-betlar.

[7] Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: Talqin, 2005. — 432 b.

[8] Grinev S.V. Vvedeniye v terminovedeniye. — Moskva: Moskovskiy litsey, 1993. — 309 s.

[9] Reformatskiy A.A. Chto takoye termin i terminologiya // Voprosy terminologii. — Moskva: AN SSSR, 1961. — S. 46–54.

[10] Superanskaya A.V., Podolskaya N.V., Vasil'yeva N.V. Obshchaya terminologiya: Voprosy teorii. — Moskva: Nauka, 1989. — 246 s.

[11] Nematov X., Rasulov R. O'zbek tili sistema leksikologiyasi asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 1995. — 212 b.

[12] Qosimova M. O'zbek tilida texnik atamalarning semantik xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. — 2021. — №4. — 55–63-betlar.

[13] Yo'ldoshev B. O'zbek ilmiy-texnik tilining leksik xususiyatlari. — Toshkent: Fan, 2018. — 176 b.

[14] Botirov E. O'zbek terminologiyasida so'z yasalish modellari // Filologiya masalalari. — 2020. — №2. — 78–85-betlar.

[15] Sobirov A. O'zbekistonda terminologiya islohotlari: tarix va hozirgi holat // Til va tarjima. — 2022. — №1. — 12–21-betlar. URL: https://til-tarjima.uz/articles/terminologiya-islohotlari

[16] O'zbek Milliy Ensiklopediyasi. Terminologiya maqolasi. — Toshkent: O'ME nashriyoti, 2006. — 12-jild. URL: https://ziyouz.com/books/uzbek_milliy_ensiklopediyasi

[17] Kabuzan V.M. O'rta Osiyo xalqlari tillarida sovetlashtirish davridagi leksik o'zgarishlar. — Toshkent: Fan, 1982. — 194 b.

[18] Inlibrary.uz — O'zbekiston ilmiy maqolalar elektron kutubxonasi. Terminologiya bo'yicha maqolalar to'plami. URL: https://inlibrary.uz/index.php/categories (murojaat sanasi: 2025-yil yanvar).

[19] Ziyouz.com — O'zbek tili va adabiyoti elektron portal. Ilmiy maqolalar va lug'atlar. URL: https://ziyouz.com (murojaat sanasi: 2025-yil yanvar).

[20] ResearchGate.net — O'zbek terminologiyasiga oid xalqaro ilmiy maqolalar. URL: https://www.researchgate.net/search?q=uzbek+terminology (murojaat sanasi: 2025-yil yanvar).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**B.B.Ergashev**
Namangan davlat universiteti P.f.d., professor

## KASBIY TA'LIM BITIRUVCHILARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI

***Annotatsiya:*** *maqolada kasbiy ta'lim bitiruvchilarining raqobatbardoshligini shakllantirishning pedagogik strategiyasi va uni amalga oshirish mexanizmlariga oid taklif, taviyalar berilgan.*

***Kalit so'zlar****: kasbiy ta'lim, raqobatbardosh, pedagogik strategiya, o'qitish texnologiyalari, uslubiy yondashuv.*

**B.B.Ergashev**
Namangan State University Ph.D., Professor

## PEDAGOGICAL STRATEGY FOR FORMING COMPETITIVENESS IN VOCATIONAL EDUCATION GRADUATES

***Annotation:*** *the article provides suggestions and recommendations on the pedagogical strategy of formation of competitiveness of graduates of professional education and mechanisms for its implementation.*

***Keywords:*** *Vocational education, competitive, pedagogical strategy, teaching technologies, methodological approach*

**Б.Б. Эргашев**
Наманганский государственный университет, кандидат наук, профессор

## ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СТРАТЕГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВЫПУСКНИКОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

***Аннотация:*** *в статье представлены предложения и рекомендации по педагогической стратегии формирования конкурентоспособности выпускников профессионального образования и механизмы ее реализации.*

***Ключевые слова:*** *профессиональное образование, конкурентоспособность, педагогическая стратегия, педагогические технологии, методический подход.*

Yangilanayotgan O'zbekistonda barcha sohalar qatori ta'lim sohasida ham keng qamrovli va tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada ta'limning barcha bosqichlarida tub o'zgarishlar kuzatilib, ular o'zining amaliy samarasini bermoqda. Uzluksiz ta'lim tizimida mehnat bozori ehtiyojlari va kasb-hunar egallashga bo'lgan talablardan kelib chiqqan holda davlat rahbari tashabbusi bilan kasbiy ta'lim tizimi yanada takomillashtirildi hamda uning mazmun va shakllari modernizatsiya qilindi. Mazkur islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish, uni xalqaro standartlar asosida tashkil etish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan farmon va qarorlarida o'z ifodasini topgan.

Kasb-hunar ta'lim tizimini takomillashtirish, o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlash zamon talabi bo'lganligi uchun bu kunga kelib kasbiy ta'lim joriy qilindi. Bundan ko'zlangan maqsad har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o'zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo'yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurita oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash ko'zda tutilgan. Bugungi shiddatli davrda ishlab chikarishda texnika va texnologiyalarning yangilanayotganligi, ilm fanning jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o'z bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to'ldirib va kengaytirib borishni talab etadi.

Jahon miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy o'zgarishlar bo'lajak mutaxassis kadrlarni tayyorlash tizimini kompetentli yondashuvi asosida tashkil etish va boshqarishni taqozo etmoqda. Hozirgi kunda AQSH, Angliya, Germaniya, Xitoy, Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlar ta'lim standartlarida ta'lim oluvchilarning global ko'nikmalarini "global skills" shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun amaldagi kasbiy ta'limning

mazmuni, o‘qitish texnologiyalari va o‘zlashtirish natijalarini baholash tizimlarini kompetentli yondashuv asosida modernizatsiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish” vazifasi belgilangan. Bu vazifalar kasbiy ta’lim tizimida tayyorlanayotgan kadrlarning raqobatbardoshligini ta’minlash, bugungi kun talablariga to‘liq javob beradigan yetuk mutaxassislarni yetishtirib berishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 158-sonli farmoni kasbiy ta’limni real iqtisodiyot ehtiyojlariga yaqinlashtirishga qaratilgan muhim hujjatdir.




Bundan ko‘zlangan asosiy maqsadlar o‘rta maktabni bitirib, professonal ta’limga qamrab olish darajasini ko‘tarish va kasb-hunarga o‘rgatish hisoblanadi. Kasb-hunarli, bilimli, raqobatbardosh kadrlar xayotda o‘z o‘rini topishi, oilasi va vataniga xizmat qilishi davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Kasbiy ta’limda bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan yoshlarni raqobatbardoshligi rivojlantirish uchun eng avvalo ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash muhim sanaladi. Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, o‘qitish vositalari, texnikalari, texnologiyalarini rivojlangan xorijiy ta’lim tizimi andozalari asosida tashkil etish zarur. Buning uchun o‘quv fanlaridagi mavzular bo‘yicha multimediali dars ishlanmalari, virtual tajriba stendlari, virtual o‘qitish vositalari, elektron darslik, qo‘llanmalarni yaratish, fanlar bo‘yicha zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan keng foydalangan holda o‘qitish ma’no-mazmunini tubdan takomillashtirish davr talabi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini isloh qilishning zamonaviy bosqichi ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, oliy o‘quv yurtlari tomonidan rivojlanishning strategik vektorini tanlashda ham ta’lim muassasasisi, ham talaba uchun - mehnat bozorida raqobatbardosh mavqeni shakllantirish maqsadida ko‘proq mustaqillikka erishishga qaratilgan. Boshqacha qilib aytganda, bizning fikrimizcha, kasbiy ta’lim muassasasisini bitiruvchi talabalarining raqobatbardoshligini shakllantirish ushbu jarayonni tashkil etishga strategik yondashuvni qo‘llash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ta’lim tizimida kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi masalalarini ochib beruvchi manbalarda «pedagogik strategiya» bir nechta oqimga ega [4]. Keling, ularning ayrimlarini ko‘rib chiqaylik:

«Pedagogik strategiya» - bu oqilona shakllangan o‘quv intizomining mazmunli qismi, muayyan strategik yo‘nalishni (ta’sir obyektining istalgan holatini) amalda qo‘llashga qaratilgan usullar, shakllar, vositalar va moslashuvchan usullarni qo‘llash: birinchidan, pedagogik maqsadga muvofiq bo‘lgan pedagogik harakatlar majmuasi, ikkinchidan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

«Pedagogik strategiya» -bu professor-o‘qituvchilarining faoliyati bo‘lib, unda ta’lim jarayonining maqsadi belgilanadi, bu strategik yo‘nalish sifatida, hamda unga erishish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

«Pedagogik strategiya» - o‘qituvchining ma’lum bir natijaga erishishga qaratilgan (masalan, kasbiy ta’lim muassasasi bitiruvchisining raqobatbardoshligini shakllantirishga qaratilgan) maqsadga muvofiq harakatlari majmuasini ifoda etuvchi uzoq muddatli jarayondir.

«Pedagogik strategiya» - bu pedagogning faoliyati bo‘lib, u pedagogik maqsad, reja va uning amalga oshirilishi bo‘yicha taqdim etilgan g‘oyalarga muvofiq amalga oshiriladi, bu esa belgilangan pedagogik vaziyatlarda harakatlarni samarali amalga oshirishni ta’minlaydi.

«Pedagogik strategiya» - pedagogik jarayonning belgilangan strategik yo‘nalishiga erishish uchun amalga oshiriladigan keng ko‘lamli ta’limiy va kasbiy vazifalarni hal qilish uchun pedagogik yo‘nalishga ega bo‘lgan o‘qituvchining umumlashgan xuksusiyatlaridir.

Shunday qilib, biz ta’lim strategiyasi quyidagilarni e’tiborga olgan holda tanlanishi lozimligini ta’kidlaymiz:

- bu amalga oshiriladigan muhitdagi pedagogik haqiqatning o‘ziga xos xususiyatlari;
- pedagogik strategiyani amalga oshiruvchi o‘qituvchining pedagogik mahorat darajasi;
- mavjud resurslar, tanlangan shakllar, usullar va rejalashtirilgan maqsadga erishish uchun mumkin bo‘lgan vositalar.

Professonal ta’lim muassasasi bitiruvchisi shaxsining raqobatbardoshlik xususiyatlari va ularni shakllantirishning pedagogik strategiyasining mohiyatini aniqlar ekanmiz, uning asosiy nazariy jihatlariga, ya’ni:

- professonal ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish sohasidagi mavjud vaziyatlardan xalos bo‘lish sifatida kasb-hunar maktablari, kollejlar, texnikum talabalarida “Raqobatbardoshlik” sifatini rivojlantirishning strategik maqsadini anglash;
- raqobatbardoshlikni shakllantirishning strategik maqsadi mavjud raqobat muhitida kasb-hunar maktablari, kollejlar, texnikum bitiruvchisining yosh mutaxassis sifatida barqaror ishlashiga va rivojlanishiga imkon beradigan noyob raqobatbardosh ustunliklarni o‘zida mujassam etishiga qaratilgan;
- kasb-hunar maktablari, kollejlar, texnikum bitiruvchisi raqobatbardoshiligini shakllantirish pedagogik strategiyasining taktik vazifalari - professonal ta’lim bitiruvchisi raqobatbardoshligi tarkibiy qismlarining har birini shakllantirishga, pedagogik qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan imkoniyatlar va shart-sharoitlarni izchil rivojlantirishdan iborat. Bularni amalga oshirish mexanizmlari va pedagogik vositalari; kasbiy ta’lim muassasasi bitiruvchilarining raqobatbardoshligini shakllantirishning ta’lim texnologiyalari va tashkiliy-pedagogik shartlarini amalga oshirish orqali ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

Pedagogik strategiyani shakllantirish va amalga oshirish tamoyillarini ko‘rib chiqishga o‘tish, ta’lim tamoyillarining butun tizimi talabaning shaxsiyatini rivojlantirishga, uning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishga qaratilgan. Bundan tashqari, pedagogik strategiyani shakllantirish va amalga oshirish tamoyillari talabalarning amaliy va ilmiy faoliyatini pedagogik boshqarish siklining bosqichlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1. *Rivojlantiruvchi ta’lim tamoyili* talaba shaxsiyatini har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, unga shaxsiy va kasbiy xususiyat va sifatlarni – zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardoshlik malakasi sifatida shakllantirib berishni ta’minlaydi.

2. *Tizimlilik* tamoyili talabaning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ishlashga tayyorgarligi nafaqat nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarni, balki keng ko‘lamli kasbiy muammolarni hal qilish bo‘yicha amaliy tajribani bosqichma-bosqich oshirishni ham o‘z ichiga olishi kerakligini ko‘rsatadi. Ushbu tamoyil, shuningdek, ta’lim jarayonining mazmuni va qurilishining mantiqiyligini talab qiladi va nazarda tutadi. Bu talabalarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini tizimli xususiyatga aylantiradi.

3. Talabaning *ongli, mustaqil va ijodiy faolligi tamoyili* zamonaviy mehnat bozorida kasbiy ta’lim muassasasi bitiruvchisining raqobatbardosh ustunliklarini shakllantirish jarayonida talabaning o‘ziga xos xususiyatlari va shaxsiy fazilatlarini ko‘zda tutadi.

4. Raqobatbardosh bitiruvchini shakllantirish uchun *kompleks yondashuv tamoyili*, talabalarning nafaqat nazariy tayyorgarligini, balki mehnat faoliyatini amalga oshirishda real shart-sharoitlarga moslashishni, xavfli va noaniq vaziyatlarda kasbga aloqador muammolarni keng ko‘lamli hal qilish uchun amaliy tajriba orttirishini ham nazarda tutadi. Bundan tashqari, professonal ta’lim muassasasi raqobatbardosh bitiruvchisini shakllantirish keng ko‘lamda amalga oshirilishi talabalar shaxsiyatining o‘ziga xos fazilatlari va xususiyatlarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi, hamdi ular birgalikda mehnat bozorida boshqa ish izlovchilarga nisbatan raqobatbardosh ustunliklarini aks ettiradi.

5. *Ta’lim olish uchun malakali yondashuv asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyili* kelajakdagi mutaxassislarni tayyorlashga malakali yondashuv asosida quyidagi qoidadan kelib chiqadi: professonal ta’lim muassasasi bitiruvchisining raqobatbardoshligi uning kasbiy malakasi bilan belgilanadi, unda maxsus bilimlar talabaning bir qator shaxsiy xususiyatlari va shaxsiy fazilatlari bilan to‘ldirilishi kerak. Malakaviy yondashuvning ustuvorligi, ta’lim-tarbiya jarayoni borasida - o‘qituvchidan talabaga bilimlarni imtiyozli ravishda uzatilishi orqali qayta yo‘naltirish imkoniyati yaratilishi bilan belgilanadi, bu esa talabaning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda, xususan, mehnat bozorida keskin raqobat sharoitida muvaffaqiyatli ishlashi uchun kasbiy ta’lim muassasasi bitiruvchisining qobiliyatini tavsiflovchi bilimlar to‘plamini egallash uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi.

6. *Ta'limni mehnat faoliyatini amalga oshirishning haqiqiy shartlari bilan bog'lash tamoyili* e'tiborimizni professonal ta'lim muassasasining amaliy-kasbiy, ijtimoiy-ta'lim va innovatsion muhitini yaratish zarurligiga qaratadi.

Ta'lim strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish tamoyillaridan tashqari ta'lim umumiy tamoyillarini ham unutmaslik kerak.

Professionl ta'lim muassasasi bitiruvchilari raqobatbardoshligini shakllantirish pedagogik strategiyasining tarkibiy qismlari va elementlarini aniqlash va asoslashga o'tish orqali quyidagi jihatlarga e'tibor qaratamiz: kasb-hunar maktabi, kollej va texnikum bitiruvchisi raqobatbardoshligini oshirish pedagogik strategiyasining tarkibiy qismlari; kasb-hunar maktabi, kollej va texnikum bitiruvchisi raqobatbardoshligini shakllantirishni strategik rejalashtirish (strategik tahlil, strategik nigoh, strategik sheriklik va boshqalar) zamonaviy mehnat bozorida oliy ta'lim muassasasilari bitiruvchilarining samarali xulq-atvorini tavsiflash.

*1-jadval*

**Kasbiy ta'lim bitiruvchilarning raqobatbardoshligini shakllantirishga yondashuvlar**

| Uslubiy yondashuv | Raqobatbardoshlikni shakllantirish ahamiyati |
|---|---|
| *Tizimli* | Raqobatbardoshlikni shakllantirish muammosiga tizimli yondashuv quyidagi qoidalarni hisobga oladi:<br>1) tizimli yondashuv tadqiqotning barcha bosqichlarida professonal ta'lim muassasasi bitiruvchilarining raqobatbardoshligini shakllantirish muammosini kompleks o'rganishni ta'minlaydi;<br>2) bo'lajak mutaxassisning raqobatbardoshligi umumiy pedagogik jarayonda shakllantiriladi, unda barcha tarkibiy qismlar bir-biriga bog'liq;<br>3) kasbiy ta'lim muassasasi bitiruvchilarining raqobatbardoshligini shakllantirishning samaradorligi maqsadli tizimli ta'sirlarni tashkil etishga bog'liq bo'ladi. |
| *Shaxsiy yo'naltirilgan* | Kasbiy ta'lim muassasasi bitiruvchisining raqobatdoshligini shakllantirishga qaratilgan shaxsiy-yo'naltirilgan yondashuvning qoidalari talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlantirish predmeti bo'lib, o'zining raqobatbardosh xususiyatlari va sifatlarini shakllantirish jarayonida o'z salohiyatini baholashni hisobga olgan holda harakatlarni tanlashni amalga oshiradi. |
| *Kompetensiyaviy* | Bo'lajak mutaxassisning raqobatbardoshligini shakllantirish muammosini o'rganish va hal qilishda hisobga olingan kompetensiyaviy yondashuvning asosiy qoidalariga quyidagilar kiradi:<br>1) vakolatli yondashuv professonal ta'lim muassasasi bitiruvchisining raqobatbardoshligini shakllantirishning maqsadi va natijasi sifatida asosiy kompetensiyalarni tan olishga imkon beradi;<br>2) ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil etish raqobatbardosh kelajakdagi mutaxassisning sifatini tashkil etuvchi vakolatlarni shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishdir;<br>3) ta'lim natijalarini baholash professonal ta'lim muassasasi bitiruvchilari tomonidan erishilgan kompetensiyalarni o'zlashtirish darajasini tahlil qilishga asoslangan. |
| *Sinergetik* | Ushbu yondashuv professonal ta'lim muassasasining kasbiy-ta'lim sohasidagi sinergetik ta'sirini kasb-hunar maktabi, kollej, texnikum bitiruvchisining kasbiy-amaliy, ijtimoiy-ma'rifiy, innovatsion obrazli muhitlarning o'zaro ta'siridan, ularning faoliyati natijalarining oddiy qiymatidan miqdoriy yoki sifat jihatidan oshib ketishida namoyon bo'lgan ta'sirini shakllantirish omili sifatida yaratadi. |
| *Faoliyatli* | Talabaning oliy ta'limda o'qishini davom ettirish, uning ilmiy-tadqiqot, innovatsion, o'quv-amaliy va boshqa faoliyat turlari orqali talaba shaxsining raqobatbardosh xususiyatlari hamda sifatlarini rivojlantirish jarayonini ochib beruvchi kasbiy ta'lim muassasasi bitiruvchisi raqobatbardoshligini shakllantirishga faol yondashish qoidalari |

Kasbiy ta'lim bitiruvchilarini raqobardoshligini shakllantirish pedagogik strategiyasi(2-rasm) va ularni kasb-hunari bo'yicha ishga joylashtirish mexanizmlarini tashkil etish bugungi kun talabi hisoblanadi. Professonal ta'limda tayyorlanayotgan mutaxassislarni pedagogik boshqaruv mexanizmlarni takomillashtrish zurur.




***1-rasm. Kasbiy ta'lim muassasa bitiruvchisi raqobatbardoshligini shakllantirish pedagogik strategiyasi tuzilishi.***

*2-jadval*

**Kasbiy ta'lim muassasasi bitiruvchisi raqobatbardoshligini shakllantirishning ta'lim texnologiyalari**

| Shakli | Mazmuni | Afzalligi/kamchiliklari |
|---|---|---|
| 1.An'ana-viy ta'lim texnolo-giyalari | Tushuntirish va tasviriy ta'lim shakllantirish texnologiyasi | Afzalliklari: tashkilotning ravshanligi, o'quv materiallarining muntazam va mantiqiy jihatdan to'g'ri taqdim etilishi, ta'limning muntazam tabiati, o'qituvchining shaxsiyatining doimiy hissiy ta'siri, ommaviy ta'limda resurslarning optimal resurs xarajatlari.<br>Kamchiliklari: auditoriyani o'rganish vaqtini oqilona taqsimlash, naqsh va bir xillik, talabaning materialda dastlabki yo'nalishini ta'minlash, o'quvchilarni bir-biri bilan muloqot qilishdan ajratish, passivlik, mustaqillikning yo'qligi, |
| 2. Zamonaviy ta'lim texnolo-giyalari | - interaktiv ta'lim texnologiyalari;<br>- amaliy texnologiyalar;<br>- loyiha texnologiyalari;<br>- moderatsiya texnologiyalari;<br>- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;<br>- multimedia ta'lim texnologiyalari;<br>- o'quv-ishlab chiqarish amaliyotlarini o'tkazishning innovatsion texnologiyalari (shaxsiy yo'naltirilgan o'quv-ishlab chiqarish amaliyotlari va boshqalar);<br>- talabalarning darsdan tashqari faoliyatlarini tashkil etishning innovatsion texnologiyalari (tashkiliy-texnologik innovatsiyalar: mentorlik, ko'ngillilik, talabalarga ta'lim berishning shaxsiy yo'naltirilgan shakllari va usullari, loyihalarni tashkil etish va boshqalar) | Afzalliklari: nazariy-seminarli ta'limdan-texnologik ta'lim tizimiga o'tish imkonini beradi, o'qituvchilar va talabalarning ta'lim faoliyati jarayoni va mazmuni haqidagi tasavvurini o'zgartiradi(shu jumladan, ta'lim tuzilishi va mazmunini xalqaro talablarga muvofiq o'zgartirish uchun resurs sifatida xizmat qiladi); ta'lim jarayonini faol, kommunikativ, analitik usullar va o'qitish usullarini amaliy qo'llash orqali boyitadi;<br>nazariyaning amaliyot bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlash (amaliy tadqiqotlar) ish beruvchilar va mehnat bozori talablariga javob beradigan, shu jumladan analitik, kommunikativ, tashkiliy, loyiha va boshqa ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydigan, bo'lajak mutaxassislarning nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradigan malakasini shakllantirish, talabalarning shaxsiy, intellektual va ijodiy salohiyatini rag'batlantirishga qaratilgan.<br>Kamchiliklari: kasbiy ta'lim muassasasining kasbiy mahorati va pedagogik mahoratining yuqori darajasiga ega bo'lish zarurati; ta'lim jarayonini texnik-texnologik, moddiy va boshqa resurslar bilan ta'minlashning tegishli darajasi; talabaning ta'lim jarayoniga nisbatan «pozitsiyasi» uchun yuqori talablar (faoliyat, tashabbuskorlik, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalash istagi va boshqalar). |

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, kasbiy ta'limning bitiruvchilarining raqobatbardoshligini ta'minlash hamda ularning kelajakda mehnat faoliyatiga tayyorlashga vazifalar qo'yadi. Bu vazifalarni amalga oshirish va izchil davom ettirish uchun kasb-hunar maktablari, kollejlar, texnikumlarda o'qitish sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlarni kompleks rivojlantirish, o'quv fanlaridan raqamli uslubiy ta'minotini yaratish choralari ko'rish zarur. Ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishini davom ettirishi yoki jamiyatda o'z o'rini topishi uchun yetarli kasb-hunarga, bilim va malakaga ega bo'lishida kasbiy ta'lim tizimini tashkil etishga qo'yilgan barcha talab va vazifalarni to'liq bajarish orqali erishish mumkin. Bundan tashqari professonal ta'lim o'qituvchilariga ham zamon talablaridan kelib chiqib, zamonaviy kompyuter va ta'lim texnologiyalarini talab darajasida bilishi va shu asosida o'quv jarayonini tashkil etishi ko'zlangan maqsadga erishishga asos bo'lib hizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T., 2017. –Б. 39.

2. Беспалько, В. П. Образование и обучение с участием компьютеров(педагогика третьего тысячелетия) / В. П. Беспалько. – М.: Изд-во Моск. психол.–социал. ин–та ; Воронеж : МОДЭК, 2002. – 352 с.

3. Джураев Р.Х., Рахимов Б.Х. Факторы, влияющие на процесс формирования молодёжной субкультуры будущего учителя. Сб.статей. Под общей редакцией.- М.: Издательство Московского психолого-социального института, 2008.-С-61-66.

4. Донина, И.А. Педагогическая стратегия становления конкурентоспособного персонала общеобразовательной организации/ И.А. Донина // Современные проблемы науки и образования. – 2014. – № 6. URL: www.scienceeducation.ru/2014 (дата обращения: 01.07.2015).

5. Жукова, Г. С. Технологии профессионально–ориентированного обучения: учеб. пособие. / Г. С. Жукова, Н. И. Никитина, Е. В. Комарова. – М.: Издательство РГСУ, 2012. – 165 с.

6. Ismoilova Z.K. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari: Dis…ped. fan. dok. – T., 2006. –345 б.

7. Ismailova Z.K., Ximmataliyev D.O. Роль педагогической технологии разноуровневого обучения в современном профессиональном образовании / The Seventh International Congresson Social Sciences and Humanities, 2ndApril, 2016, Vienna 2016, 76-79 бетлар.

8. Лаврентьев, Г. В. Инновационные обучающие технологии в профессиональной подготовке специалистов / Г. В. Лаврентьев, Н. Б. Лаврентьева, Н. А. Неудахина. – Барнаул: Изд–во Алтайского государственного университета, 2004. – 156 с.

9. Лысова, Н. В. Интерактивные методы обучения в практике работы вуза как фактор повышения конкурентоспособности студентов / Н. В. Лысова // Современная образовательная практика и духовные ценности общества. – 2015. – №2. – С. 241-244.

10. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya, 2013, - 128 б.

11. Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / – Toshkent, 2015. – 120 бет.

12. Эргашев Б.Б. Управленческие аспекты проблемы качестве образования./Б.Б.Эргашев // Школа будущего. – 2019. - №3. –С. 162-169.

13. Ergashev B.B. Ismailova Z.K. Oliy ta'lim muassasasisi bitiruvchilarining raqobatbardoshligini shakllantirishning pedagogik strategiyasi. – Namangan, 2019. –165 бет.

14. Phaal R. Technology Roadmapping. IET Management Key, University of Cambridge, UK. 2006. 26 (1): 2-19.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**X.X.Qurbonov**
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
mustaqil izlanuvchi (DSc)
Chirchiq shahri, O‘zbekiston
E-mail: xurshidqurbonov747@gmail.com.

**UO‘K: 796**

## SPORT MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH BOSQICHI BIRINCHI YILIDA O‘RTA MASOFALARGA YUGURUVCHILAR SPORT FORMASINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada sport mahoratini takomillashtirish bosqichi 1-yilida o‘rta masofalarga yuguruvchilar sport formasini takomillashtirishga qaratilgan mashg‘ulot dasturini bosqichli qo‘llash uslubiyatini amaliyotga tatbiq etish natijasida olingan ma’lumotlar batafsil yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar.*** *Mashg‘ulotlar, kuzgi-qishki tayyorgarlik bosqichi, bahorgi-yozgi tayyorgarlik bosqichi, sport formasi, vosita, uslub.*

**Х. Х. Курбонов**
Узбекский государственный университет физической культуры и спорта
Доктор философии (PhD) в области педагогических наук, доцент
Независимый исследователь (DSc)
Город Чирчик, Узбекистан

## МЕТОД УЛУЧШЕНИЯ СПОРТИВНОЙ ФОРМЫ БЕГУНОВ НА СРЕДНИЕ ДИСТАНЦИИ НА ПЕРВОМ ГОДУ ЭТАПА УЛУЧШЕНИЯ СПОРТИВНЫХ НАВЫКОВ

***Аннотация:*** *В данной стате подробно освещены данные, полученные в результате внедрения в практику методики поетапного применения тренировочной программы, направленной на совершенствование спортивной формы бегунов на средние дистансии на 1-году этапа совершенствования спортивного мастерства.*

***Ключевые слова.*** *Тренировки, осенне-зимний подготовительный этап, весенне-летний подготовительный этап, спортивная форма, средства, метод.*

**Kh.Kh.Kurbonov**
Uzbek State University of Physical Education and Sports
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Independent Researcher (DSc)
Chirchik city, Uzbekistan

## METHOD FOR IMPROVING THE SPORTS FORM OF MIDDLE-DISTANCE RUNNERS IN THE FIRST YEAR OF THE STAGE OF IMPROVING SPORTS SKILLS

***Annotation:*** *This article details the data obtained as a result of the implementation of the methodology for the phased application of the training program aimed at improving the sports form of middle-distancye runners in the 1nd year of the stage of improving sportsmanship.*

***Keywords.*** *Training, autumn-winter preparatory stage, spring-summer preparatory stage, sports form, means, method.*

**Tadqiqot ishining dolzarbligi.** Yengil atletika sport turi bo‘yicha musobaqalarda raqobatning geografik jihatdan kengayib musobaqa natijalarining o‘sib borishi sportchilar tayyorlash tizimiga yangi texnalogiya va samarali dasturlar asosida doimiy takomillashtirib borishni taqozo etmoqda [1, 2, 4].

O‘rta masofaga yuguruvchilar sport formasining yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlari jarayonida tashkil topishiga hamda musobaqalar davrida barqaror ushlab turilishiga tasir etuvchi omillar deyarli hisobga olinmasligi asosiy sabablardan biri sanaladi. Sportchi sport formasiga kirib olingandan keyin, uni butun mas’uliyatli musobaqalar davomida saqlab turish va sport yutuqlariga erishishga aylantirish vazifasi paydo bo‘ladi [3, 5, 6].

**Tadqiqotning maqsadi.** Sport mahoratini takomillashtirish bosqichida o‘rta masofalarga yuguruvchilar sport formasini takomillashtirishda yuklamalarni bosqichli taqsimlash orqali samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- sport mahoratini takomillashtirish bosqichi 1-yilida o‘rta masofalarga yuguruvchilar sport formasini takomillashtirishda yuklamalarni bosqichli taqsimlash;
- sport mahoratini takomillashtirish bosqichi 1-yilida o‘rta masofalarga yuguruvchilar sport formasini takomillashtirishda yuklamalarni bosqichli taqsimlash samaradorligini tahlil qilish.

**Tadqiqot usullari.** Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, tadqiqotni tashkil qilish, pedagogik tajriba, matematik-statistik usullar va olingan natijalar tahlili.

**Tadqiqot natijalari va muhokamasi.** Sport mahoratini takomillashtirish bosqichining 1-yilida 1248 soat ajratilib texnik-taktik funksional, psixologik tayyorgarligini MJTni musobaqa oldi musobaqa faoliyatini takomillashtirish va organizmni tiklash kabi masalalar hal etiladi (1, 2, 3-jadvallarga qarang).

**1-jadval**

**Sport mahoratini takomillashtirish bosqichi 1-yilida o‘rta masofaga yuguruvchilarning kuzgi-qishki mashg‘ulotlar dasturi**

| T/r | Mag‘ulot davri | Dushanba | Seshanba | Chorshanba | Payshanba | Juma | Shanba | Yakshanba |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Tortuvchi mikrosikl | Chigalyozdi mashqlari 15-20 daq.; Egiluvchanlikni rivojlantiruvchi mashqlar 10-15 daq.; Maxsus yugurish mashqlari 10-15 daq.; Zinaga pastdan yuqoriga oyoqlarni bir teks yelka kengligida qilib sakrab chiqish 10 daq.; Tiklovchi yugurish 800 m. | Chigalyozdi mashqlari 15-20 daqiqa. Egiluvchanlikni rivojlantiruvchi mashqlar 10-15 daq.; Maxsus yugurish mashqlari 10-15 daq.; Og‘ir atletika mashqlari shtanga bilan 4 xil mashq 4 seriyadan, 16 kg. gantelni oyoq-son mushaklari oldinga ko‘targan holda gantelni yuqoriga ko‘tarib tushurish, oyoq yerga tegmagan holda. Sport o‘yinlari 15 daqiqa. Sauna o‘tkazish. | Sport o‘yinlari 60 daqiqa. 4x600 m. Qorin mushaklari uchun 5 xil mashq 20 martadan 4 seriya. Tiklovchi yugurish 800 m. | Chigalyozdi mashqlari 15-20 daqiqa. Egiluvchanlik mashqlari 10-15 daqiqa; Maxsus yugurish mashqlari 10-15 daqiqa; Rezinali balon arqon bilan belga bog‘langan holda oyoqlarni oldinga va yuqoriga harakatlantirib 60-70 % kuch bilan 100 m. 10 marta yugurish. 1000 m. 2 | Kross – 1 soat 60-70 % kuch bilan yugurish. 100 m. kiyiksimon yugurish: Chigalyozdi (gimnastik mashqlar) mashqlari 10-15 daqiqa. Sport o‘yinlari 10-15 daqiqa. | Chigalyozdi mashqlari 15-20 daqiqa. Egiluvchanlikni rivojlantiruvchi mashqlar 10-15 daqiqa; Maxsus yugurish mashqlari 10-15 daqiqa; 2000 m. 2 marta 60-70 % kuch bilan yugurish. 1500 m. 2 marta 60-70 % kuch bilan yugurish. 800 m. 2 marta 60-70 % kuch bilan | Dam olish |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | marta 70-80 % kuch bilan yugurish. Chigal yozdi mashqlar 5-10 daqiqa. | | yugurish. 600 m. 2 marta 60-70 % kuch bilan yugurish. Chigal yozdi mashqlar 5-10 daqiqa. | |
| 2 | Hajmli mikrosikl | Kross - 8 km. (150 zar/daq.). URM - 20 daqiqa. | Erkin yugurish - 3 km. URM-20 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari – 500 m. Tezlikka yugurish - 4x1500 m. 4 daq dam olish. (175 zar/daq.) /3 daqiqa dam olish. | Kross-10-12 km. (150-160 zar/daq.). Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar - kuch, qorin va bel mushaklari uchun mashqlar. | Kross - 5-7 km. (150 zar/daq.). Tezlik. - 5x100 m. Maxsus mashqlar - sakrash (1 km). Oyoq mushaqlari uchun mashqlari - 20 daqiqa. | Sekin yugurish - 3 km. URM - 10 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari - 0,5 km. Yugurish. -6x1000 m. (175 zar/daq.) 4 daqiqa dam olish. Tiklovchi yugurish 800 m. | Kross - 8-10 km. (140 zar/daq.). URM - 10 daq. Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar - 30 daqiqa. | Dam olish |
| 3 | Rivojlan - tiruvchi mikrosikl | Kross - 10-12 km. (150-160 zar/daq.). URM - 20 daqiqa. | Sekin yugurish - 3 km. URM-15 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari -5x80 m. Tezlikka yugurish. - 5x100 m. 8x200/100-150 m. URM -20 daqiqa. | Fartlek - 12-14 km. Yengil yugurish 3-4 km. (140-150 zar/daq.) URM -20 daqiqa. | Sekin yugurish - 6-8 km. URM-20 daqiqa. O‘yin - 45 daqiqa. Oyoq mushaqlarini mustahkamlash. uchun maxsus egiluvchanlik mashqlari - 20 daqiqa. | Sekin yugurish 3 km. URM - 20 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari 6x80 m. Tezlikka yugurish - 5x100 m. Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar -20 daqiqa. | Kross - 10-12 km (140-150 zar/daq). URM - 10 daq. Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar - 30 daqiqa. | Dam olish |
| 4 | Qishki musobaqa oldi | Kross - 8-10 km. (160 zar/daq.). Tiklovchi mashqlar - 20 | Ertalabki yugurish - 3 km. URM -10 | Kross - 10-12 km. (150-160 zar/daq). | Kross - 8 km. URM - 20 daqiqa. | Sekin yugurish - 3 km. URM-10 | Kross - 5-10 km. (140 zar/daq). | Dam olish |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mikrosikl | daqiqa. Tezlik. - 10x100 m. | daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari. 6x80 m. Tezlikka yugurish - 5x100 m; 5 - 6x1000 m (170-180 zar/daq.). | Tezlik-10x100 m. Tiklovchi mashqlar -20 daqiqa. | Oyoq mushaklari uchun maxsus egiluvchanlik mashqlari - 20 daqiqa. | daqiqa. Maxsus mashqlar -6x100 m. Tezlikka yugurish - 6x70 m. Yugurish-8x400 m. 4 daqiqa dam olish. | URM - 20 daqiqa. | |
| 5 | Qishki musobaqa | Sekin yugurish - 3 km. URM - 20 daqiqa. 8x60 m. yugurish. - 10x200 m. (180 zar/daq.). Sakrash 3-5-qadam. | Kross - 10 km (140-150 zar/daq.). Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar -20 daqiqa. | Sekin yugurish - 3 km. URM-10 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari - 8x60 m. Yugurish. - 3x300 m. 4 daq dam olish. | Kross - 10 km. (140 zar/daq.). URM-10 daqiqa. Tiklovchi mashqlar - 20 daqiqa. | Sekin yugurish - 3 km. URM - 15 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari. - 6x80 m. Ritmik yugurish - 400+300+1200 m. (musobaqa tezligida). | Musobaqalar yoki nazorat – test topshirish. | Musobaqalar |

**2-jadval**

**Sport mahoratini takomillashtirish bosqichi 1-yilida o‘rta masofaga yuguruvchilarning qishki-bahorgi mashg‘ulotlar dasturi**

| T/r | Mag‘ulot davri | Dushanba | Seshanba | Chorshanba | Payshanba | Juma | Shanba | Yakshanba |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Ushlab turuvchi mikrosikl | Kross - 12-15 km. (150 zar/daq.). Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlari-bel mushaklarini rivojlantirish uchun maxsus egiluvchanlik mashqlari. | Sekin yugurish -3 km. URM-10 daqiqa. Maxsus mashqlar -500 m. Tezlikka yugurish. - 6x80 m. Yugurish.-4-x1000 m. (170 zar/daq.). Tezlikka.- 10x100 m. | Kross - 15 km. (140 zar/daq.). URM-10 daqiqa. Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar - 30 daqiqa. | Kross - 6-10 km. (140 zar/daq.). URM -10 daq. Maxsus yugurish mashqlari - 0,5 km. Oyoq mushaklarini rivojlantirish uchun maxsus egiluvchanlik mashqlari. | Sekin yugurish - 3 km. URM-20 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari - 0,5 km. Tezlikka yugurish - 5x80 m. Yugurish. - 10-12x400/200 m. | Kross - 10-15 km. (150-160 zar/daq) URM-10 daqiqa. Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar -30 daqiqa. | Dam olish |
| 2 | Musobaqa | Sekin yugurish - 3 km. | Kross - 12-14 km. | Fartlek - 10-12 km. | Kross - 6-10 km. | Sekin yugurish | Kross - 10-12 km. | Dam olish |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | oldi bahorgi mikrosikl | URM-10 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari -0,5 km. Tezlikka yugurish. - 6x70 m. -5x600 m. 4 daq dam olish. | (140 zar/daq.). Maxsus yugurish mashqlari -0,5 km. Tezlikka yugurish. - 10x100 m. 4 daqiqa dam olish. | URM - 20 daqiqa. | (140 zar/daq.). URM-20 daqiqa. O‘yin - 30 daqiqa. Oyoq mushaklarini mustahkamlash uchun maxsus egiluvchanlik mashqlari - 20 daqiqa. | - 3 km. URM - 20 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari 500 m. Tezlikka yugurish - 5x80 m. Yugurish - 3x400 /200 +400+ 4x200/200 m. (musob. tezligida 800 m). | (150-160 zar/daq). URM - 20 daqiqa. | |
| 3 | Bahorgi musobaqa mikrosikl | Kross - 10-12 km. (150 zar/daq.). URM -15 daq. Maxsus mashqlar -0,5 km. Tezlikka yugurish - 10x100 m. 4 daq. dam olish. | Kross - 8 km. (140 zar/daq.). Tezlikka yugurish - 4x100 m. | Sekin yugurish - 3 km. URM-20 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari - 0,5 km. Tezlik.- 5x80 m. Yugurish - 8x200 (shidd. maks. 90-95%.) /5 daqiqa dam olish. | Sekin yugurish - 5-6 km. URM-10 daqiqa. | Sekin yugurish - 3 km. URM-20 daqiqa. 4 daq dam olish. Yugurish - 2x200 m. (musobaqa tezligida). | Musobaqalar | Musobaqalar. Dam olish |
| 4 | Yengillash-tiruvchi mikrosikl | Kross - 10-12 km. (150 zar/daq) Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar - 20 daqiqa. Egiluvchanlik, tezkorlik va bel mushaklari -20 daqiqa. | Sport o‘yinlari -90 daqiqa. URM yoki suzish - 30 daqiqa | Kross - 10-12 km. (150 zar/daq). URM - 20 daqiqa. | Sekin yugurish - 2 km. Maxsus yugurish mashqlari - 20 daqiqa. Yugurish - 6x80 m. 4 daq. dam olish. Egiluvchlik va kuch jismoniy sifatlarini rivojlantirish | Kross - 10-12 km. (150 zar/daq.). URM -20 daqiqa. | Sport o‘yinlari yoki suzish -90 daqiqa. | Dam olish |
| 5 | O‘tish-kirish | Kross - 10 km. (150 zar/daq.). | Sport o‘yinlari -90 daqiqa. | Kross - 10 km. | Dam olish | URM - 20 daqiqa. | Kross - 15 km. | Dam olish |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mikrosikli | URM - 10 daqiqa. | URM - 15 daqiqa yoki yengil atletika mashqlari - 20 daqiqa. | (150 zar/daq.). Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar - 30 daqiqa. | | Sport o'yinlari - 90 daqiqa. | (150 zar/daq.). URM - 20 daqiqa. | |

**3-jadval**

**Sport mahoratini takomillashtirish bosqichi 1-yilida o'rta masofaga yuguruvchilarning bahorgi – yozgi mashg'ulotlar dasturi**

| T/r | Mag'ulot davri | Dushanba | Seshanba | Chorshanba | Payshanba | Juma | Shanba | Yakshanba |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Stabillash-tirilgan mikrosikl | Kross - 12-15 km. (150 zar /daq.). URM -10 daqiqa. Tezlikni rivojlantiruvchi mashqlar 30 daqiqa. | Sekin yugurish 3-5 km. URM - 20 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari -0,5 km. Tezlikka yugurish,- 6x80 m.Yugurish. 4x1000 m. 4 daq. dam olish. (170 zar/daq). Tezlik. 10x 100 m. | Kross - 15 km. (150-140 zar/daq). URM – 20 daq. Tezlikni rivojlantiruvchi mashqlar. Maxsus yugurish mashqlari - 500 m. | Kross - 8-10 km. (140 zar/daq.). O'yin - 45 daq. Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar - 30 daqiqa. Oyoq mushaklarini mustahkamlash uchun maxsus egiluvchanlik mashqlari - 20 daqiqa. | Sekin yugurish - 5 km. URM -15 daqiqa. Tezlikka yugurish. -5x100 m. 5x600 m (shiddat, maks 85%). 4 daq. dam olish. Maxsus yugurish mashqlari - 500 m. Sekin yugurish -1 km. | Kross - 15-20 km. (150-160 zar/daq). Tezlikni rivojlantiruvchi mashqlar- 30 daqiqa. | Dam olish |
| 2 | Yozgi musobaqa oldi mikrosikl | Sekin yugurish - 3 km. URM va Maxsus yugurish mashqlari - 500 m. Tezlikka yugurish. 4x50 m. 2x1000+4x200 m. (170 zar/daq.), 4 daqiqa dam olish. | Kross - 10-12 km. (140 zar/daq.). URM-20 daqiqa. Tiklovchi yugurish 800 m. | Yugurish - 6-8 km. (160-170 zar/daq). Maxsus yugurish mashqlari – 300 m. Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar -30 daqiqa. | Kross - 5-6 km. (140 zar/daq.). URM - 10 daqiqa. Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar - 20 daqiqa. Oyoq mushak.uchun maxsus egiluvchanlik mashqlari - 20 daqiqa. | Sekin yugurish - 3 km. URM-15 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari - 5x80 m. Tezlikka yugurish - 4x400/200 + +4x200/200 m. (shidd.maks, 90%) 4 daqiqa dam olish. Sekin yugurish -1 km. | Kross - 15-18 km. (150-160 zar/daq.) URM - 20 daqiqa. | Dam olish |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 3 | Yozgi musobaqa mikrosikl | Sekin yugurish - 3 km. URM - 20 daqiqa. Tezlik -4x80 m. 2x600 x3x200 +400+ 200 (175/ daq.), shiddat 90% maks. 4 daqiqa dam olish. | Kross - 10-12 km. (150 zar/ daq.). URM-20 daqiqa. | Kross - 8-10 km. (150 zar/daq.). Tezlikka yugurish 10x100 m. 4 daqiqa dam olish. URM - 20 daqiqa. | Sekin yugurish - 5-6 km. URM-20 daqiqa. Tiklovchi yugurish 800 m. | Sekin yugurish - 4 km. URM - 20 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari - 500 m - 200 m. Tezlikka yugurish.- 8x70; 2x300 m. Musobaqa ritmida yugurish). 4 daqiqa dam olish. | Musobaqalar | Musobaqalar |
| 4 | Yengilash -tirilgan mikrosikl | Kross - 8-10 km. (150 zar/daq.). URM - 20 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari -300 m. | Kross - 10-12 km. (160 zar/daq). Sport, o‘yinlari - 90 daqiqa. | Kross - 12-15 km. (150 zar/daq.). Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar -20 daqiqa. | Maxsus yugurish mashqlari- 60 daqiqa. Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar - 20 daqiqa. Oyoq mushaklarini mustahkamlash uchun maxsus egiluvchanlik mashqlari - 20 daqiqa. | Sekin yugurish 12 km. URM – 20 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari - 500 m. Tezlikka yugurish - 4x80 m. | Kross. - 10-12 km. (140-150 zar/daq) . Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar - 30 daqiqa. | Musobaqalar |
| 5 | O‘tish-kirish mikrosikli | Kross - 10-12 km. (140-150 zar/daq). Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar - 30 daqiqa. | Sport o‘yinlari – 90 daqiqa. URM - 20 daqiqa. Tiklovchi yugurish 800 m. | Dam olish. | Kross - 10-15 km. (150 zar/daq). URM-10 daqiqa. Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar-20 daqiqa. | Maxsus mashqlar – 90 daqiqa. | Kross - 15 km. (150 zar/daq. ). URM - 20 daqiqa. Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar - 20 daqiqa. | Dam olish |

Sport mahoratini takomillashtirish bosqichi 1-yilida o‘rta masofaga yuguruvchilarning yillik tayyorgarlik siklida mikrosikllar tuzulishining kuzgi-qishki va bahorgi – yozgi tayyorgarlik bosqichlari uchun maxsus ishlab chiqilib mashg‘ulotlar jarayoniga tatbiq etilishi ushbu tadqiqotning samaradorligini asoslashda asosiy mazmunni ifoda etadi.

Yil bo‘yi bo‘lib o‘tadigan musobaqalarda sport formasini shakllanishida, nazorat va saralash musobaqalarida yaxshi natijalarni qayd etgani holda asosiy musobaqalar oralig‘ida natijalar sezlarli ravishda pasayishi holatlari kuzatilsa, sport formasining barqaror emasligini ko‘rsatadi.

Yillik tayyorgarlik siklining musobaqalar davrida sport formasining tashkil topishi va uning asosiy musobaqalar davrida barqarorligini tushirmasdan ushlab turish va oldingi ishtirok etgan musobaqalardagi eng yaxshi natija yangilansa, sportchini sport formasida deb baholashimiz mumkin.

O‘rta masofaga 800 - 1500 m. yugurish tezligi dinamikasini taqqoslab, turli xil taktik variantlarda o‘tkazilgan yugurishlarda shuni takidlash mumkinki, eng kuchli sportchilarning ko‘pchiligi marraga 200 - 300 m. oxirgi 100 m.gacha yugurish tezligini oshiradilar. Segment chastotaning oshishi hisobiga imkon qadar tez ishlaydi. 800 va 1500 metrga yugurishda masofaning ikkinchi yarmini minimal pasayish bilan bosib o‘tish lozim.

Sport mahoratini takomillashtirish bosqichidagi 16 yoshli o‘rta masofalarga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari asosiy statistik xarakteristikalarini tadqiqot boshi va oxiridagi qayd etilgan natijalar bo‘yicha umumiy tahlili: 1-100 metr yugurish (soniya), 2-200 metr yugurish(soniya), 3-400 metr yugurish(soniya), 4-600 metr yugurish (soniya), 5-800 metr yugurish (soniya), 6-1000 metr yugurish (soniya), 7-1500 metr yugurish (soniya), 8-Joydan turib uzunlikka sakrash (sm), 9-3 hatlab uzunlikka sakrash (sm) testlari bo‘yicha AF-absolyut o‘sish TG 16,72 % va NG 15,93 % NF-nisbiy o‘sish TG 13,31 % va NG 8,16 % qayd etilib sezlarli farq kuzatildi bu ishlab chiqilgan metodika samaradorligi yuqori ekanligini asoslab berdi (4-jadval va 1-rasmga qarang).

**4-jadval**

**Sport mahoratini takomillashtirish bosqichidagi 16 yoshli o‘rta masofalarga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari asosiy statistik xarakteristikalarini tadqiqot davomidagi o‘zgarishi tahlili**

| T/r | Nazorat testlari | Guruhlar | Tajriba boshi | | | Tajriba oxiri | | | Testlarning ishonchlilik ko‘rsatkichlari | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | $\overline{X}$ | σ | V, % | $\overline{X}$ | σ | V, % | AO‘ | NO‘ | t | P |
| 1 | 100 metrga yugurish (soniya) | TG | 14,27 | 1,85 | 12,96 | 12,25 | 1,49 | 12,14 | 2,02 | 14,16 | 2,95 | <0,01 |
| | | NG | 14,09 | 1,78 | 12,60 | 12,88 | 1,61 | 12,50 | 1,21 | 8,59 | 1,75 | >0,05 |
| 2 | 200 metrga yugurish (soniya) | TG | 29,26 | 3,50 | 11,97 | 25,28 | 2,81 | 11,12 | 3,98 | 13,60 | 3,07 | <0,01 |
| | | NG | 29,93 | 3,47 | 11,59 | 27,55 | 3,16 | 11,48 | 2,38 | 7,95 | 1,76 | >0,05 |
| 3 | 400 metrga yugurish (soniya) | TG | 59,32 | 6,51 | 10,98 | 51,74 | 5,24 | 10,13 | 7,58 | 12,78 | 3,14 | <0,01 |
| | | NG | 60,22 | 6,39 | 10,61 | 55,83 | 5,86 | 10,49 | 4,39 | 7,29 | 1,75 | >0,05 |
| 4 | 600 metrga yugurish (soniya) | TG | 92,84 | 11,13 | 11,99 | 81,72 | 9,11 | 11,15 | 11,12 | 11,98 | 2,68 | <0,05 |
| | | NG | 91,02 | 10,56 | 11,60 | 83,88 | 9,61 | 11,46 | 7,14 | 7,84 | 1,73 | >0,05 |
| 5 | 800 metrga yugurish (soniya) | TG | 190,34 | 24,69 | 12,97 | 167,33 | 20,26 | 12,11 | 23,01 | 12,09 | 2,50 | <0,05 |
| | | NG | 193,37 | 24,39 | 12,61 | 177,02 | 22,06 | 12,46 | 16,35 | 8,46 | 1,72 | >0,05 |
| 6 | 1000 metrga yugurish (soniya) | TG | 216,09 | 23,73 | 10,98 | 183,02 | 18,48 | 10,10 | 33,07 | 15,30 | 3,81 | <0,001 |
| | | NG | 213,59 | 22,65 | 10,60 | 195,14 | 20,44 | 10,47 | 18,45 | 8,64 | 2,09 | <0,05 |
| 7 | 1500 metrga yugurish (soniya) | TG | 311,67 | 37,36 | 11,99 | 276,24 | 30,79 | 11,15 | 35,43 | 11,37 | 2,54 | <0,05 |
| | | NG | 305,98 | 35,52 | 11,61 | 282,03 | 32,37 | 11,48 | 23,95 | 7,83 | 1,73 | >0,05 |
| 8 | Joydan turib uzunlikka sakrash (sm) | TG | 179,36 | 23,22 | 12,95 | 204,76 | 24,83 | 12,13 | 25,40 | 14,16 | 2,59 | <0,05 |
| | | NG | 175,12 | 22,04 | 12,59 | 191,14 | 23,83 | 12,47 | 16,02 | 9,15 | 1,71 | >0,05 |
| 9 | Joydan turib uzunlikka 3 | TG | 688,27 | 75,47 | 10,97 | 787,13 | 79,85 | 10,14 | 28,86 | 14,36 | 3,12 | <0,01 |

| | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | hatlab sakrash (sm) | NG | 696,53 | 73,83 | 10,60 | 749,98 | 78,41 | 10,45 | 53,45 | 7,67 | 1,72 | >0,05 |
| **O‘rtacha o‘sish:** | | TG | | | | | | | **16,72** | **13,31** | | |
| | | NG | | | | | | | **15,93** | **8,16** | | |

**Izoh:** Sport mahoratini takomillashtirish bosqichidagi 16 yoshli o‘rta masofalarga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari asosiy statistik xarakteristikalarini tadqiqot boshi va oxiridagi qayd etilgan natijalar bo‘yicha umumiy tahlili: AF-absolyut o‘sish TG **16,72** % va NG **15,93** % NF-nisbiy o‘sish TG **13,31 % va** NG **8,16 %** qayd etilib sezlarli farq kuzatildi bu ishlab chiqilgan metodika samaradorligi yuqori ekanligini asoslab berdi.




**1-rasm Sport mahoratini takomillashtirish bosqichidagi 16 yoshli o‘rta masofalarga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari asosiy statistik xarakteristikalarini tadqiqot davomidagi o‘zgarishi dinamikasi % nisbatid**

Sport mahoratini takomillashtirish bosqichi 1-yilida o‘rta masofaga yuguruvchilar yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlari uchun yukalamalarni bosqichli holda mashg‘ulotlarda qo‘llash orqali o‘tkazilgan tadqiqotimizda olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish kutilgan samaradorlikka erishganligimizni asoslab bergan holda aniq xulosalar shakllanishiga xizmat qildi.

**Xulosalar.** Sport mahoratini takomillashtirish bosqichi 1-yilida o‘rta masofaga yuguruvchilar sport formasini takomillashtirishga qaratilgan mashg‘ulot dasturini bosqichli qo‘llash uslubiyatini amaliyotga tatbiq etish samaradorligi P<0,001 ga teng bo‘lganligi o‘rta masofaga yuguruvchilar sport formasini yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarining musobaqalar davrida barqaror ushlab turishda sport turining xususiyatlari va sportchilar malakasini hisobga olgan xolda yondashish tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Бондарчук А.П. Управление тренровчним проссесом спорсменов високого класса. - М.: Олимпия пресс 2007. 148 с.

2. Safarova D.D., Sport fiziologiyasi. darslik. Toshkent, 2018. 157 b.

3. Олимов М.С. Югуриш турларида енгил атлетикачи талабаларни тайёрлашнинг илмий педагогик асослари (югуриш турлари мисолида). Ўз Рес. ОАК. п.ф.д. (ДСс) диссетацияси. Чирчиқ-2023. – Б. 213-214.

4. Khurshid Kurbonov. The effectiveness of the phased application of a set of special exercises aimed at improving athletic fitness during the annual training of middle-distancye runners. Eurasian Journal of Sport Sciyencye, Tachkent. 2024; 1(1): 38-43 https://eajss.uz.

5. Khurshid Kurbonov. Effectiveness of improving the sports performancye of middle-distancye runners in the procyess of training sessions of one-year preparation. Eurasian Journal of Sport Sciyencye. Tachkent. 2024; 1 (2): 231-234. https://eajss.uz.

6. Qurbonov X.X. O‘rta masofalarga yuguruvchilarning yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlar jarayonida sport formasini takomillashtirish samaradorligi. O‘z Res. OAK. p.f.b.f.d. (PhD) dissertatsiya. Chirchiq-2024. – B. 86-92.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Абдуллаева Саидахон Нуритдиновна**
Республика Узбекистан, Наманганская область;
Наманганский государственный технический университет;
заведующий кафедрой узбекского языка и литературы,
PhD.,доц.; e-mail: saidaxon1972@gmail.com.
УДК 373.5
ББК 74.268.0

## ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ ПОДХОД ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОЙ УСТНОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ УРОВНЯ А2 РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

***Аннотация.*** *В статье описаны методические приёмы, которые нацелены на обучение учащихся уровня А2 устной речи на уроках по русскому языку в школах с не русским языком обучения. Отмечается использование двух основных дедуктивного и индуктивного методов. Определено, что в процессе реализации функционального подхода, учитель при обучении устной речи учащимся должен комбинировать два метода, чтобы ученики могли изучить правило русского языка и на основе этих правил могли строить устную речь. Делается вывод о том, что каждый учитель должен овладеть методикой своего предмета, знать её научно-теоритические основы при обучению устной речи учащихся А2.*

***Ключевые слова:*** *устная речь, функциональный подход, дедуктивный метод, игра, индуктивный метод, комбинация, национальная программа.*

**Abdullaeva Saidakhon Nuritdinovna**
Namangan region Republic of Uzbekistan,
Namangan Engineering and Construction Institute;
Head of department Uzbek language and literature, PhD.,
assistant; professor; e-mail: saidaxon1972@gmail.com.

## SYSTEMIC-FUNCTIONAL APPROACH TO TEACHING RUSSIAN ORAL SPEECH TO A2 LEVEL STUDENTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

***Annotation.*** *The article describes the methodological techniques that are aimed at teaching A2 level students oral speech in Russian language lessons in schools with a language other than Russian. The use of two main methods is noted: detective and inductive. It is determined that in the process of implementing the system-functional approach, the teacher must combine two methods when teaching oral speech to students so that students can learn the rules of the Russian language and, based on these rules, can build oral speech. It is concluded that each teacher must master the methodology of their subject, know its scientific and theoretical foundations when teaching oral speech to A2 students.*

***Key words:*** *oral speech, game, systemic functional approach, deductive method, inductive method, combination, national program.*

**Abdullaeva Saidaxon Nuritdinovna**
O‘zbekiston Respublikasi Namangan viloyati,
Namangan muhandislik-qurilish instituti;
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, t.f.n.
yordamchi; professor; e-mail: saidaxon1972@gmail.com.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA A2 DARAJI O‘QUVCHILARGA RUS TILI OG‘ZIQ NOTIQNI O‘RGATISHGA TIZIMLI-FUNKSIONAL YONDOSILISh.

***Anotatsiya:*** *Maqolada rus tilidan boshqa tilda bo’lgan maktablarda rus tili darslarida A2 darajadagi o’quvchilarning og’zaki nutqini o’rgatishning uslubiy usullari tasvirlangan. Ikki asosiy usuldan foydalanish qayd etilgan: detektiv va induktiv. Tizimli-funksional yondashuvni amalga oshirish jarayonida o’qituvchi o’quvchilarga og’zaki nutqni o’rgatishda ikkita usulni birlashtirishi*

*kerak, shunda o'quvchilar rus tili qoidalarini o'zlashtira oladilar va shu qoidalarga asoslanib, og'zaki nutqni qura oladilar. Har bir o'qituvchi A2 sinf o'quvchilariga og'zaki nutqni o'rgatishda o'z fanining metodikasini puxta egallashi, uning ilmiy-nazariy asoslarini bilishi shart, degan xulosa kelib chiqadi.*

***Tayanch so`zlar:*** *og`zaki nutq, o`yin, tizimli funksional yondashuv, deduktiv metod, induktiv metod, kombinatsiya, milliy dastur.*

**Введение.** В Узбекистане наблюдается очень большой интерес к изучению русского языка. Такое влечение объясняется тем, что русский язык является средством межнационального общения на постсоветском пространстве и одним из важнейших средств доступа к информации, касающейся мировой экономики, науки и культуры. Изучение русского языка молодежью Узбекистана способствует дальнейшему развитию национальных кадров в области науки и технологий.

Данная работа вносит существенный вклад в реализацию задач, определенных в Постановлении Президента Республики Узбекистан: «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» №ПП-5117 от 19 мая 2021 года» [2].

В Концепции обучения русскому языку как иностранному в школах с узбекскими и другими языками обучения Республики Узбекистан отмечается, что основной задачей обучения является практическое овладение русским языком на основе формирования коммуникативно речевой компетенции [3], целью которого заключается формирования всех видов речевой деятельности: аудирование, говорение, чтение, письмо.

Методы. Обучения русскому языку учащихся уровня А2 Республики Узбекистан в соответствии с учебной программой общего среднего образования является развитие устной речи учащихся, которое предусматривает формирование устной речи с помощью грамматического материала на основе функционального подхода. Определим, что же составляет основу такого подхода. Главное преимущество данного подхода состоит в том, что с помощью речевых актов сознательно изучаются грамматические правила русского языка.

Сознательное усвоение грамматических правил учащимися необходимо для грамотного построения предложений. Как утверждал Л.В. Щерба, грамматика является «объективной языковой действительностью, управляющей нашей речью» [4. С.13]. Необходимо знать, что языковая система состоит из множества языковых единиц, которые закономерно взаимосвязаны и последовательно дополняют друг друга и взаимодействуют с компонентами языка: лексика, фонетика, морфология, синтаксис.

Когда ученик сознательно усваивает грамматику, он самостоятельно сможет что-то сказать или написать. У него возникает чувство удовлетворения в тех случаях, когда он понимает, для чего и с какой целью ему предлагается тот или иной языковой материал **[5. С. 53].**

При изучении грамматики русского языка учитель ориентируется на два основных метода дедуктивный и продуктивный. Дедуктивный метод обучения, предусматривающий сообщение правила или вывода, который затем иллюстрируется примерами их употребления в речи, а индуктивный-практический метод обучения, предусматривающий такое ознакомление учащихся с учебным материалом, при котором в результате наблюдения над фактами языка учащихся подводятся к обобщениям и выводам.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-son “Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” qarorlari 2020 yil 6 oktyabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 31 avgustdagi PQ-5241-son “Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalari o‘rtasida ta’lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviyligini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda mazkur faoliyatiga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu sohada yanada ko‘proq izlanishlar olib borish kerakligini taqozo qilmoqda.

**BIM qanday texnologiya**

Ko‘p odamlar dasturiy ta’minot nomi BIM harflari ortida yashiringan deb hisoblashadi. Boshqalar chizilgan bino BIM deb o'ylashadi. Ammo bunday oddiy ta’rifni berish mumkin emas. Dizayndagi BIM “Building Information Modeling” — binoning raqamli modelini yaratish texnologiyalari binoning uch o‘lchovli modelini yaratishga asoslangan, ammo bu holda model nafaqat geometrik elementlar va to‘qimalarning to‘plamidir. Aslida, bunday model haqiqatda bo‘lgan va o‘ziga xos fizik xususiyatlarga ega bo‘lgan virtual elementlardan iborat. BIM texnologiyasi binoni loyihalashtirishga va hatto qurilish boshlanishidan oldin ham unda sodir bo‘ladigan barcha jarayonlarni to‘liq hisoblashga va aniqlashga imkon beradi.

**BIM texnologiyalarini tadbiq etishning afzalliklari**

**Birinchi va eng aniq afzalligi - bu 3D vizualizatsiya. BIM texnologiyasidan foydalanishning eng keng tarqalgan usuli bu vizualizatsiya. Bu bizga nafaqat loyihani buyurtmachiga chiroyli tarzda taqdim etish, balki eskilarini almashtirish uchun eng yaxshi dizayn yechimlarini topish imkonini beradi.**

Ikkinchi afzallik - bu o‘zgarishlarni samarali va oson boshqarish imkonini beradigan modeldagi ma’lumotlarni markazlashtirilgan saqlash. Loyihaga ma’lum bir o‘zgartirish kiritganingizda, u darhol barcha ko‘rinishlarda: qavat rejalarida, balandliklarda yoki uchastkalarda ko‘rsatiladi. Shuningdek, u dizayn hujjatlarini yaratish tezligini sezilarli darajada oshiradi va xatolar ehtimolini kamaytiradi.

Ma’lumotlarni boshqarish yana bir ortiqcha. Axir, BIM modelidagi barcha ma’lumotlarni grafik ravishda aks ettirish mumkin emas. Shuning uchun modelda BOM kataloglari ham mavjud bo‘lib, ular loyihani yaratish uchun zarur bo‘lgan kuchlarni aniqlash uchun ishlatiladi. Modelda moliyaviy ko‘rsatkichlar ham mavjud. Shunday qilib, loyihaning taxminiy qiymati unga o‘zgartirishlar kiritilgandan so‘ng darhol aniqlanadi.

BIM texnologiyasini loyihalashtirishga kiritish moliyaviy xarajatlarni kamaytiradi va ob’ektni ishga tushirish muddatini sezilarli darajada qisqartiradi. Shu sababli, aksariyat qurilish kompaniyalari o‘z amaliyotlarida zamonaviy axborot modellashtirish usullaridan foydalanishga harakat qilishadi.







**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. M. Axmedova “Pedagogik kompetentlik” Uslubiy qo‘llanma Toshkent–2018
2. Ш.Шарипов, Н.Муслимов, М.Исмоилова: “Касбий таълим педагогикаси”.Методик қўлланма. – Т. 2005 й.
3. Акмеологический словарь / Под общ.ред. А.А. Деркача. – М.: Изд-во РАГС, 2004. – 161 с.
4. Бондаренко Т.Н. Функциональная модель эффективного практико-ориентированного обучения в высшем учебном заведении // Интернет-журнал «НАУКОВЕДЕНИЕ», 2013, №4. http://naukovedenie.ru/PDF/55evn413.pdf (доступ свободный). Загл. с экрана. Яз. рус., англ.
5. Деркач А.А., Зазыкин В.Г., Маркова А.К. Психология развития профессионала: Учебное пособие. - М.: Издательство РАГС, 2000. – 124 с.
6. Дорофеев А. Профессиональная компетентность как показатель качества образования // Высшее образование в России, 2005. №4, С. 30-33.
7. Зеер Э., Сыманюк Э. Компетентностный подход к модернизации профессионального образования // Высшее образование в России. 2005. №4

8. Зеер Э.Ф. Психология профессий: Учебное пособие для студентов вузов. – 2-е изд., перераб., доп. – М.: Академический Проект; Екатеринбург: Деловая книга. - 2003, С. 53.

Internet saytlari

1. https://www.openbom.com/blog/digital-bom-for-autodesk-revit
2. https://www.google.com/search?q=desktop+revit+viewer&tbm=isch&ved=2ahUKEwi4mcb_AhUFyioKHRrUDMYQ2-cCegQIABAA

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Abdullayev Nuritdin Mashrabayevich**
Namangan davlat universiteti Jismoniy tarbiya va amaliy sport turlari kafedrasi dotsenti
e-mail: nurtd@gmail.com

## DZYUDODA TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARNI O'RGATISH USULLARI

***Annotatsiya.*** *Dzyudochilarda bilan shug'ullanuvchi sportchilarda ayrim texnik-taktik usullarni samaradorlik ko'rsatkichlar tahlili yoritilgan. Aniqlandiki, kurashchilarning kiflash texnik usulini o'rgatishda murabbiylar tomonidan kamchiliklar yuzaga keldi. Lekin bu muvozanatdan chiqaruvchi usullar sportchilar tomonidan iliq kutub olinmoqda, chunki bu texnik usullarni qo'llash osonroq va raqibni himoyalanishi kesgin kamayadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Dzyudochilar ushlash, qaytarma, beldan ushlash, texnik usul.*

**Абдуллаев Нуритдин Машрабаевич**
Доцент кафедры физического воспитания и прикладного спорта, Наманганский государственный университет

## МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИМ ПРИЕМАМ В ДЗЮДО

***Аннотация.*** *Проведен анализ эффективности некоторых технико-тактических приемов дзюдоистов. Выявлены недостатки в подготовке борцов к техническому приему захвата тренерами. Тем не менее, эти приемы выведения из равновесия пользуются популярностью у спортсменов, поскольку они более просты в применении и значительно снижают защиту противника.*

***Ключевые слова:*** *Дзюдоисты применяют ловлю, бросок, захват за талию, техническую технику.*

**Abdullayev Nuritdin Mashrabayevich**
Associate Professor, Department of Physical Education and Applied Sports, Namangan State University

## METHODS OF TRAINING TECHNICAL-TACTICAL MOVES IN JUDO

***Abstract.*** *The analysis of the effectiveness of some technical and tactical methods in judo athletes is highlighted. It was found that there were shortcomings in the training of wrestlers in the technical method of grappling by coaches. However, these methods of unbalancing are being warmly received by athletes, because these technical methods are easier to use and the opponent's defense is significantly reduced.*

***Keywords:*** *Judo players use catch, throw, waist grab, technical technique.*

**Kirish.** So'ngi yillarda ko'plab sport turlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri yuqori malakali dzyudochilarni mashg'ulot tayyorgarligini samarali rejalashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda miqyosida dzyudoga o'xshash yoki yaqin boshqa sport turlarining insonlarning jismoniy kamolotiga qo'shayotgan hissasi, sport madaniyatini to'liq ifodalash va shu kabi xususiyatlarini tadqiq qilish, samaradorligini asoslash qolaversa yanada ommalashtirish, dzyudochilarnimashg'ulot tayyorlash tizimini ilmiy-amaliy asoslash yuzasidan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, kurashning barcha turlarida, yuqori malakali dzyudochilarni vazn – toifasini inobatga olgan holda mashg'ulot tayyorgarligini, texnik – taktik harakatlar va jismoniy sifatlarini rivojalanganligiga, funktsional va jismoniy tayyorgarlik holatlarini hisobga olib rejalashtirish tizimi yaratilgan. Ammo dzyudoni o'rganish, o'rgatish hamda jahon miqyosida ommalashtirish, sport turi bo'yicha yuqori malakali dzyudochilarni vazn toifasini inobatga olgan holda, jismoniy imkoniyatlarini baholash metodlari shu o'rinda sport natijalarini rejalashtirish, bashorat qilishga qaratilgan muammolar yetarlicha o'rganilmagansport turiga mos texnik – taktik mashqlar kompleksini ishlab chiqish shu o'rinda ilmiy va amaliy tajribaga asoslangan tadqiqot ishlarini amalga oshirish zamon talabi bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 oktyabrdagi PQ 3306 son "Kurash" milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, hamda Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 4 martdagi 122 son "Sport

turlari bo‘yicha terma jamoalar tarkibiga sportchilarni saralab olish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2020 yil 04 noyabrdagi “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish” chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-4881-son qarori, 2021-yil 5 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida 2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII-Paralimpiya o‘yinlari dasturlariga kiritilgan sport turlaridan kelib chiqib sport turlarini yanada takomillashtirish va ommalashtirish to‘g‘risida”gi PQ – 5279 – sonli farmonini, ko‘rsatish mumkinbu sohaga tegishli boshqa me’yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi hamda shu sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Qadriyatlaridan biri bo‘lgan, madaniy meroslarimizni o‘zida mujassam etgan milliy kurash qadimdan turkiy halqlarni birlashtirib kelishi bilan birga ularni qarindosh uruqchilik, yaqin qo‘shnichilik hamda insonlar orasida mehr oqibat tuyg‘ularini so‘ndirmasdan kelayotgan ananaviy sport turlaridan biri bo‘lib, bir necha ming yillardan beri bayram, to‘ylar va ko‘ngil ochar tadbirlarda kurash musobaqalari o‘tkazilib kelinmoqda. Yildan yilga kurash bilan shug‘ullanuvchi yoshlar ko‘paygani sari bu sport turining texnik-taktik usullarida yangi-yangi harakatlarni yuzaga keltirayotgan sportchilar rivojlanishiga yanada turtki bo‘layotganini ko‘rish mumkin. Jumladan kurashda asosan texnik usullar (tizza, qaytarma, to‘sib hamda yonbosh) ko‘tarib tashlash orqali bajariladi va u harakatlarni bajarishda albatta bir aldamchi usul “beldan ushlash” yordamida xar qanday raqibni muvozanatdan chiqarish mumkin bo‘ladi, kurash halqaro maydonlarga chiqgani sayn beldan ushlash usuli yildan yilga sportchilarimiz orasida yo‘q bo‘lib borayotganini yangi usullarni (ko‘krakdan oshirib tashlash) ko‘paygani bilan murabbiylarimiz baxolashmoqda.

**Tadqiqotning maqsadi.** Mazkur tadqiqotning maqsadi dzyudo kurashda muvozanatdan chiqaruvchi “beldan ushlash” usullarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

**Tadqiqotning natijalari va muxokamasi.**

**Dzyudo** kurash Jahonga keng tarqalgan sayin uning texnik-taktik usullaridagi o‘zgarishlar yaqqol ko‘zga tashlanib bormoqda, shuni aytish joizki ota-bobolarimiz belbog‘ni to‘g‘ri ushlash raqib ustidan ellik foiz g‘alabaga erishganing degan ko‘rsatmalarni bot-bot takitlab kelishgan, chunki belbog‘ni ushlashda qo‘llarni bir-biriga yaqin ushlash raqibni anchagina esankiratib qo‘yadi, agarda qo‘llarni to‘g‘ri ushlamasa sportchi musobaqa davomida beldan ushlash usulini yoki teng ushlash orqali ko‘proq ter to‘kishiga to‘g‘ri keladi. Ko‘plab murabbiylar mashg‘uloti va musobaqalarni kuzatganimizda aynan yosh sportchilarimiz belbog‘ni ushlashlari uchun 1 daqiqadan 5 daqiqagacha vaqt ketgazayotganini guvohi bo‘ldik. Kurashchilarimiz orasida to‘g‘ri ushlamasa mag‘lubiyatga uchrashi to‘g‘risida murabbiylar ko‘rsatma berishganmi yoki ularga beldan ushlash usulidan foydalanishlarini o‘rgatimaganmi degan fikirlar tug‘iladi, biz bu muammolarni o‘rganish maqsadida kurash murabbiylari orasida so‘rovnoma o‘tkazish kerak va muammo yechimlarini shu asnoda bilishga qoror qildik.

Namangan Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markaziga 2024-2025 o‘quv yilida dzyudo kurash yo‘nalishiga o‘qishga kirgan sportchilarida beldan ushlash orqali “o‘ng tizza yordamida ko‘tarib tashlash” hamda “aldamchi usulida tashlash” texnik usullarini bilish va tezligini aniqlash maqsadida tatqiqotlar o‘tkazildi.

***1-jadval***

Dzyudo kurashchilarda “beldan ushlash” usuli yordamida texnik harakatlarni bajarish samaradorligini o‘quv yili davomida o‘zgarish dinamikasi n=20

| Pedagogik testlar | 2024 yil, sentyabr | 2025 yil. may | Ko‘rsatgichlar farqi |
|---|---|---|---|
| O‘ng tizza yordamida ko‘tarib tashlash (10 soniya) | 3,1 | 4,4 | 1,3 |
| | | | |
| Aldamchi usulida tashlash (10 soniya) | 2,7 | 3,9 | 1,2 |
| | | | |

Tajriba davomida biz tomonimizdan sakkiz oy maxsus eksperimental mazmunli mashqlarni muntazam ravishda kurashchi talabalar bajarib borishdi va deyarli natijalar o‘zgarganini ko‘rish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki 2024-yilning sentyabir oyida 35 nafar sportchilarda o‘ng tizza yordamida ko‘tarib tashlash (10 soniya) natijalari 3,1 ko‘rsatgan bo‘lsa, 2025-yil may oyiga kelib bu ko‘rsatgich 4,4 ga yani 1,3 ga oshganini ko‘rish mumkin, qaytarma usulida tashlash (10 soniya) natijalari esa shuni ko‘rsatadiki 2024-yilda 2,7 ko‘rsatgan bo‘lsa 2025-yilga kelib 3,9 yani 1,2 ga oshganini ko‘rish mumkin.

**Xulosa.** Bu borada bir qator ilmiy tatqiqotlar o‘tqazib kelinmoqda. tatqiqot natijalari asosida belbog‘li kurash murabbiylarini markazlashgan xolda o‘quv-uslubiy seminarlarini tashkil qilish va ularga yana bir bor texnik-taktik usullarni qayta o‘rgatish masalasi ko‘rilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Kurashchi talabalarda olingan tadqiqatlar natijasi shuni ko‘rsadadiki kurashchilarga murabbiylar tomonida beldan ushlash qadamlash va texnik-taktik usullarni

aynan o‘zlari faoliyati davomida natijaga erishgan yoki o‘zlari bilgan usullarni o‘rgatayotganligi ko‘zga tashlanmoqda, bundan ko‘rinib turibdiki kurashchilarimiz tomonidan musobaqalarda texnik-taktik usullari cheklanib qolganligi kurashni texnik usullarini targ‘ib qiluvchi professor-o‘qituvchi, murabbiylar tomonidan o‘quv-uslubiy qo‘lanmalar tayorlash kerakligini bildiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-6097-son farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 noyabrdagi “Sport ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo’yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-5279-sonli qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyundagi “Davlat sport-ta’lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-268-sonli qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 4 martdagi 122-son “Sport turlari bo’yicha terma jamoalar tarkibiga sportchilarni saralab olish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori.

5. Karimov M.A., Xalmuxamedov R.D., Shamsematov I.Yu. Tajibayev S.S., “Bokschilarning sport-pedagogik mahoratini oshirish”, “Lider Press” nashriyoti. O‘quv qo’llanma, Toshkent.: 2011 y. 480 bet.

6. Achilov A.M., Xalmuxamedov R.D., Shin V.N., Tajibaev S.S., Rajabov G’.Q.. “Yosh dyuzdochilarni tayèrlash asoslari”. “Mumtoz so’z” nashrièti. O‘quv- uslubiy qo’llanma. Toshkent.: 2012 y. 228 bet.

7. Xalmuxamedov R.D., Shin V.N., Abdurasulova G.B., Tajibayev S.S., “Yosh yakkakurashchilar ko’p yillik tayyorgarlik jarayonining turli bosqichlarida saralashning me’yorlari”. “Fan va texnologiyalar” nashriyoti. O‘quv-uslubiy qo’llanma, Toshkent.: 2013 y. 167 bet.

8. Atilov, A.A. SHkola dyuzdoa dlya nachinayuщix : ucheb.posobie/ A.A. Atilov. Rostov n/D : Feniks, 2005. - 224 s.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Abdullayev Umidjon Shukurullo o'g'li**
Namangan davlat pedagogika instituti
mustaqil izlanuvchisi

## RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SIMULYATSIYA VOSITALARI ASOSIDA NEVROLOGIYA FANINI O'QITISH

***Annotatsiya.*** *Raqamli texnologiyalar va simulyatsiya vositalarining nevrologiya ta'limida qo'llanilishi an'anaviy ta'lim metodlarining cheklovlarini bartaraf etish imkonini beradi. Jumladan, noyob nevrologik patologiyalarni o'rganish, murakkab diagnostik jarayonlarni amaliy mashq qilish, bemor xavfsizligini ta'minlash hamda talabalarning klinik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Ushbu metodika zamonaviy pedagogik yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tibbiy simulyatsiya printsiplarining integratsiyasiga asoslanadi.*

***Kalit so'zlar:*** *raqamli texnologiyalar, simulyatsiya vositalari, nevrologiya fanini o'qitish*

**Abdullayev Umidjon Shukurullo oglu**
Namangan State Pedagogical Institute
independent researcher

## TEACHING NEUROLOGY ON THE BASIS OF DIGITAL TECHNOLOGIES AND SIMULATION TOOLS

***Annotation****. The use of digital technologies and simulation tools in neurology education allows to overcome the limitations of traditional teaching methods. In particular, favorable conditions are created for the study of unique neurological pathologies, practical training of complex diagnostic processes, ensuring patient safety, and developing students' clinical thinking skills. This methodology is based on the integration of modern pedagogical approaches, information and communication technologies, and the principles of medical simulation.*

***Keywords:*** *digital technologies, simulation tools, teaching neurology*

**Абдуллаев Умиджон Шукурулло оглу**
Наманганский государственный педагогический институт
независимый исследователь

## ОБУЧЕНИЕ НЕВРОЛОГИИ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИНСТРУМЕНТОВ СИМУЛЯЦИИ

***Аннотация.*** *Использование цифровых технологий и инструментов симуляции в неврологическом образовании позволяет преодолеть ограничения традиционных методов обучения. В частности, создаются благоприятные условия для изучения уникальных неврологических патологий, практической подготовки сложных диагностических процессов, обеспечения безопасности пациентов и развития у студентов навыков клинического мышления. Данная методика основана на интеграции современных педагогических подходов, информационно-коммуникационных технологий и принципов медицинской симуляции.*

***Ключевые слова:*** *цифровые технологии, инструменты симуляции, обучение неврологии*

**Kirish.** Hozirgi kunda tibbiy ta'limda raqamli texnologiyalar va simulyatsiya vositalarining qo'llanilishi butun dunyo amaliyotida keng tarqalgan bo'lib, bu o'z navbatida talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda. Nevrologiya fani o'zining murakkabligi, diagnostika va davolash jarayonlarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Nevrologik kasalliklarni o'rganish jarayonida talabalar miyaning anatomik tuzilishi, nerv tizimining fiziologik funksiyalari, patologik holatlarning rivojlanish mexanizmlari hamda zamonaviy diagnostik va davolash usullarini chuqur o'zlashtirishlari lozim.

Tibbiy ta'limning transformatsiyasi XXI asrda jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda. Raqamli texnologiyalarning integratsiyasi ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Nevrologiya fanini

o'qitishda raqamli vositalarning qo'llanilishi talabalarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, o'quv jarayonini individuallashtirishning samarali mexanizmlarini yaratish hamda ta'lim natijalari monitoringini yaxshilashga xizmat qiladi.

Raqamli ta'lim muhitining tarkibiy qismlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: elektron ta'lim resurslari, interaktiv multimediya kontentlar, virtual va kengaytirilgan haqiqat tizimlari, masofaviy ta'lim platformalari, tibbiy ma'lumotlar bazalari hamda o'quv jarayonini boshqarish tizimlari. Ushbu komponentlarning maqsadli integratsiyasi nevrologiya bo'yicha ta'lim dasturlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Raqamli texnologiyalarning nevrologiya ta'limidagi afzalliklari quyidagi jihatlar bilan belgilanadi: birinchidan, talabalar murakkab nevrologik tuzilmalar va jarayonlarni uch o'lchovli vizualizatsiya orqali yaxshiroq tushunishlari mumkin; ikkinchidan, virtual bemorlar bilan ishlash tajribasi xavfsiz muhitda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi; uchinchidan, raqamli baholash vositalari talabalarning o'zlashtirish darajasini ob'ektiv va doimiy monitoring qilish imkoniyatini yaratadi.

Simulyatsiya ta'limi zamonaviy tibbiy pedagogikaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Simulyatsiya - bu haqiqiy klinik vaziyatlarni xavfsiz muhitda takrorlash orqali talabalarning klinik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyadir. Nevrologiya fanida simulyatsiya metodlarining qo'llanilishi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki nevrologik kasalliklar ko'pincha murakkab diagnostika va davolashni talab qiladi.

Simulyatsiya ta'limining asosiy pedagogik printsiplari quyidagilar bilan belgilanadi. Birinchi prinsip - xavfsizlik prinsipi, ya'ni talabalar haqiqiy bemorlar uchun xavf tug'dirmagan holda amaliy tajriba orttiradilar. Ikkinchi prinsip - takrorlanish prinsipi, bunda murakkab manipulyatsiyalar va diagnostik jarayonlar kerakli darajada o'zlashtirilgunga qadar takrorlanishi mumkin. Uchinchi prinsip - zudlik bilan fikr-mulohaza berish prinsipi bo'lib, instruktor yoki avtomatlashtirilgan tizim tomonidan talabaning harakatlariga darhol baho beriladi va kamchiliklar ko'rsatiladi.

Simulyatsiya mashg'ulotlarining tuzilishi bir necha bosqichlardan iborat: oldindan tayyorgarlik (prebrifing), simulyatsiya seansining o'tkazilishi va debrifing (muhokama). Debrifing jarayoni simulyatsiya ta'limining eng muhim komponenti hisoblanib, unda talabalar o'z harakatlarini tahlil qiladilar, xatolarini tushunadilar va to'g'ri yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

Nevrologiya fani tibbiyotning eng murakkab yo'nalishlaridan biri bo'lib, markaziy va periferik nerv tizimining kasalliklarini o'rganadi. Ushbu fanning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi: nevrologik patologiyalarning xilma-xilligi, simptomlarning polimorfizmi, diagnostikaning murakkabligi, ko'plab noyob kasalliklarning mavjudligi hamda davolash strategiyalarining individual yondashuvni talab qilishi.

An'anaviy nevrologiya ta'limida bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, ba'zi nevrologik kasalliklar, masalan, miyastenik kriz yoki Gyulen-Barre sindromi kabi og'ir holatlar, klinik amaliyotda kamdan-kam uchraydi, shuning uchun talabalar ularni real sharoitda o'rganish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar. Ikkinchidan, murakkab nevrologik tekshiruvlar, jumladan, lumbal punksiya yoki elektromiogriya kabi invaziv manipulyatsiyalar, haqiqiy bemorda dastlabki marta bajarish uchun etik jihatdan qiyin hisoblanadi. Uchinchidan, nevrologik tekshiruvning to'g'ri amalga oshirilishi yuqori darajadagi amaliy ko'nikmalarni talab qiladi, biroq talabalar uchun bu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun yetarli amaliyot vaqti va real bemorlar soni doim yetarli emas.

Virtual haqiqat texnologiyasi nevrologiya ta'limida inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. VR tizimlari talabalarni to'liq immersiv muhitga joylashtiradi, bu esa ularning miyaning anatomik tuzilishini uch o'lchovli formatda o'rganish, nevrologik kasalliklarning patogenezini vizual tarzda kuzatish hamda virtual klinik amaliyotda ishtirok etish imkonini beradi.

Virtual haqiqat texnologiyasining nevrologiya ta'limida qo'llanilishining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat. Birinchidan, anatomik tuzilmalarni o'rganish - VR dasturlari talabalarning miya yarim sharlarini, oq va kulrang moddani, miya po'stlog'ining maydonlarini, qorin bo'shlig'i nerv tuzilmalarini va periferik nervlarni to'liq hajmli formatda ko'rish va manipulyatsiya qilish imkonini beradi. Talabalar virtual skalpel yordamida miyaning turli qatlamlarini "kesib" o'tib, chuqur joylashgan tuzilmalarni o'rganishlari mumkin. Ikkinchidan, patologik jarayonlarni vizualizatsiya qilish - insult paytida ishemik hudud shakllanishi, demielinizatsiya jarayoni yoki miya shishi rivojlanishi kabi patologik holatlarni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratiladi.

Kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyasi esa real muhitga raqamli ma'lumotlarni qo'shish orqali talabalarning ta'lim tajribasini boyitadi. Masalan, talabalar anatomik atlas yoki bemor yotgan krovat ustiga planshetni qaratganlarida, ekranda nevrologik tuzilmalarning uch o'lchovli tasvirlari, kasallik haqida qo'shimcha ma'lumotlar yoki manipulyatsiyani amalga oshirish bo'yicha qadamma-qadam ko'rsatmalar paydo bo'lishi mumkin. AR texnologiyasi ayniqsa amaliy ko'nikmalari o'rgatishda samarali bo'lib, lumbal punksiya, periferik venaga kateter qo'yish yoki elektromiogriya o'tkazish kabi manipulyatsiyalarni bajarish jarayonida real vaqt rejimida yo'riqnoma beradi.

Nevrologiya ta'limida turli xil simulyatorlar va manekenlardan foydalaniladi. Ular o'z murakkablik darajasiga ko'ra bir necha toifalarga bo'linadi: past aniqlikdagi (low-fidelity), o'rta aniqlikdagi (medium-fidelity) va yuqori aniqlikdagi (high-fidelity) simulyatorlar.

Past aniqlikdagi simulyatorlar oddiy anatomik modellar bo'lib, ular asosan alohida ko'nikmalarni o'rgatish uchun ishlatiladi. Masalan, lumbal punksiya uchun orqa miya ustunining modeli yoki periferik nervlarning palpatsiyasini mashq qilish uchun qo'l modellari. Ushbu simulyatorlar talabalarning dastlabki amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va nisbatan arzon hamda oson ishlatiladi.

O'rta aniqlikdagi simulyatorlar murakkabrog bo'lib, ko'proq funksional imkoniyatlarga ega. Ular ma'lum fiziologik jarayonlarni taqlid qilish, ovoz signallari berish yoki oddiy muloqotni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi mumkin. Nevrologiyada bunday simulyatorlar miyopatik yurish, parkinson titroqsi, ataksiya yoki spastiklik kabi harakatlar buzilishlarini taqlid qilish uchun ishlatiladi.

Yuqori aniqlikdagi simulyatorlar - bu zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan murakkab robotlar bo'lib, ular haqiqiy bemorning fiziologik reaktsiyalarini maksimal darajada takrorlaydilar. Bunday simulyatorlar nafas olish tezligini o'zgartirishi, ko'z qorachig'ining o'lchamini moslashtirishi, turli xil nevrologik simptomlarni namoyon qilishi hamda talabalarning harakatlariga adekvat javob berishi mumkin. Yuqori aniqlikdagi simulyatorlar og'ir nevrologik holatlarni, masalan, epileptik holat, ishemik insult yoki miyaning o'tkir travmasi kabi vaziyatlarni modellashtirish uchun juda samaralidir.

Zamonaviy nevrologiya ta'limida maxsus kompyuterli dasturlar va elektron resurslar muhim o'rin tutadi. Ular quyidagi turlarni o'z ichiga oladi: interaktiv elektron darsliklar, video ma'ruzalar va vebinarlar, onlayn diagnostika va davolash simulyatorlari, tibbiy ma'lumotlar bazalari hamda virtual bemor vakalatliklari.

Interaktiv elektron darsliklar an'anaviy qog'oz darsliklardan tubdan farq qiladi. Ular multimedia elementlarini o'z ichiga oladi: animatsiya, video tasvirlar, interaktiv diagrammalar, testlar va amaliy mashqlar. Talabalar bunday darsliklarda nafaqat ma'lumotni o'qishlari, balki uni turli formatda o'zlashtirishlari, o'z-o'zini tekshirishlari va qo'shimcha ma'lumot manbalariga tezkor o'tishlari mumkin. Nevrologiya bo'yicha elektron darsliklar miyaning MRT va KT tasvirlarini, video-EEG yozuvlarini, klinik holatlarning video tasvirlarini va boshqa multimedia materiallarni o'z ichiga oladi.

Virtual bemor dasturlari alohida ahamiyatga ega. Ular klinik fikrlashni rivojlantirish uchun mo'ljallangan bo'lib, talabalar virtual bemorning shikoyatlari, anamnezi va tekshiruv natijalari bilan tanishib, mustaqil ravishda diagnostik farazlarni shakllantiradilar, qo'shimcha tekshiruvlar buyurtma qiladilar va davolash rejasini tuzadilar. Dastur har bir qaror uchun fikr-mulohaza beradi va eng optimal yo'lni ko'rsatadi. Bu metodika talabalarning klinik fikrlash qobiliyatlarini, diagnostik va terapevtik qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini xavfsiz muhitda rivojlantirishga yordam beradi.

Nevrologik tekshiruv murakkab va ketma-ketlikni talab qiladigan jarayon bo'lib, u ruhiy holat, kranial nervlar, motor funksiya, sensorli funksiya, reflekslar va muvofiqlashtirish funksiyalarini baholashni o'z ichiga oladi. Simulyatsiya metodlari ushbu ko'nikmalarni bosqichma-bosqich o'rgatish uchun ideal imkoniyat yaratadi.

Standartlashtirilgan bemorlardan (simulated patients) foydalanish nevrologik tekshiruv ko'nikmalarini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biridir. Standartlashtirilgan bemorlar - bu maxsus tayyorgarlikdan o'tgan va ma'lum nevrologik simptomlarni taqlid qilishga o'rgatilgan aktyorlar. Ular talabalar bilan muloqot qiladilar, shikoyatlarni bayon qiladilar, anamnez beradilar va tekshiruv paytida kerakli simptomlarni namoyish qiladilar. Standartlashtirilgan bemorlar bilan ishlashning afzalligi shundaki, talabalar haqiqiy bemorga yaqin tajriba olishlari, lekin xatolarga yo'l qo'yganlarida hech qanday salbiy oqibat bo'lmaydi.

Nevrologik tekshiruvni o'rgatishda quyidagi bosqichma-bosqich yondashuv qo'llaniladi. Birinchi bosqichda talabalar video materiallar orqali to'g'ri texnikani kuzatadilar va o'rganadilar. Ikkinchi bosqichda ular sodda simulyatorlarda alohida elementlarni mashq qiladilar, masalan, oftalmoskopiya yoki reflekslarni tekshirish. Uchinchi bosqichda standartlashtirilgan bemorlar yoki yuqori aniqlikdagi manekenlar bilan to'liq nevrologik tekshiruvni o'tkazadilar. To'rtinchi bosqichda kuzatish ostida real bemorlarni tekshiradilar.

Nevrologik shoshilinch holatlar, masalan, ishemik insult, epileptik status, miyaning o'tkir travmasi yoki miyaning gerniatsiyasi, tez va to'g'ri qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Bunday vaziyatlarni boshqarish ko'nikmalarini real bemorda o'rgatish etik jihatdan qabul qilinmaydigan va juda xavflidir. Shu sababli simulyatsiya metodlari bu sohada alohida ahamiyat kasb etadi.

Nevrologik shoshilinch holatlarni o'rgatish uchun yuqori aniqlikdagi simulyatorlar va klinik stsenariylar ishlab chiqiladi. Har bir stsenariy haqiqiy klinik vaziyatni maksimal darajada taqlid qiladi va quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: bemorning boshlang'ich holati, vital belgilar va nevrologik simptomlar, mavjud anamnez va laborator ma'lumotlar, talabalarning harakatlariga bemorning dinamik reaktsiyasi hamda vaqt cheklovi.

Masalan, o'tkir ishemik insult stsenariysi quyidagicha tuzilishi mumkin. Talabalar tez yordam bo'limiga yaqinda boshlab hemiparezi va afaziya rivojlangan bemorni qabul qiladilar. Ular nevrologik tekshiruv o'tkazishlari, NIHSS shkalasi bo'yicha baholashlari, differensial diagnostika qilishlari, zarur laborator va instrumental tekshiruvlarni buyurtma berishlari hamda trombolizis yoki trombektomiya uchun ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalarni baholashlari kerak. Simulyatsiya davomida bemor holati talabalarning harakatlariga qarab yaxshilanishi yoki yomonlashishi mumkin, bu esa real klinik vaziyatni maksimal darajada aks ettiradi.

Nevrologiyada bir qator invaziv manipulyatsiyalar amalga oshiriladi, jumladan, lumbal punksiya, periferik nervlarning blokadasi, botulin toksinini yuborish yoki elektromiogriya. Ushbu manipulyatsiyalarni o'rganish simulyatsiya metodlari yordamida xavfsiz va samarali tarzda amalga oshiriladi.

Lumbal punksiya - nevrologiyada eng keng tarqalgan invaziv manipulyatsiyalardan biri bo'lib, miya-orqa miya suyuqligini olish uchun amalga oshiriladi. Ushbu manipulyatsiyani o'rgatish uchun maxsus simulyatorlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular orqa miya ustuni anatomiyasini, turli qavatlarni punksiya qilish paytida sezgilarni va to'g'ri texnikani amaliy mashq qilish imkoniyatini taqlid qiladi. Zamonaviy lumbal punksiya simulyatorlari ultratovush navigatsiyasi bilan integratsiyalashgan bo'lib, bu talabalarning anatomik orientatsiyalash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Haptik (taktil fikr-mulohaza) texnologiyalar manipulyatsiyalarni o'rgatishda inqilobiy o'zgarish yaratdi. Haptik qurilmalar talabalarning qo'llariga fizik qarshilik va taktil sensatsiyalarni uzatadi, bu esa virtual muhitda ishlayotganda ham real to'qimalar bilan ishlagandek his qilish imkonini beradi. Nevrologiyada haptik simulyatorlar vaskulyar intervensiyalar, jumladan, karotid arteriyalarning stentlash yoki miyaning angiografiyasi kabi murakkab endovaskulyar manipulyatsiyalarni o'rgatish uchun qo'llaniladi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar talabalarning bilim va ko'nikmalarini ob'ektiv, ishonchli va standartlashtirilgan tarzda baholash imkonini beradi. An'anaviy subyektiv baholash usullaridan farqli o'laroq, raqamli baholash tizimlari aniq mezonlar asosida ishlaydi va inson omilining ta'sirini minimallashtiradi.

Kompyuterli adaptiv testlash (Computer Adaptive Testing - CAT) tizimlari nevrologiya bo'yicha bilimlarni baholashda yuqori samaradorlikka ega. CAT tizimlari har bir talabaning bilim darajasiga moslashadigan testlarni taqdim etadi - agar talaba to'g'ri javob bersa, keyingi savol murakkabroq bo'ladi, agar xato qilsa, soddaroq savol beriladi. Bu yondashuv baholashni ancha aniq va qisqa vaqt ichida amalga oshirish imkonini beradi.

Virtual bemor platformalarida talabalarning klinik fikrlash jarayoni avtomatik ravishda kuzatiladi va baholanadi. Tizim talabaning har bir qarorini yozib oladi: qaysi anamnestik savollarni berganini, qaysi tekshiruvlarni o'tkazganini, qanday diagnostik farazlarni ilgari surganini va qanday davolash rejasini tuzganini. Maxsus algoritmlar ushbu ma'lumotlarni tahlil qilib, talabaning klinik fikrlash mantiqini, diagnostik jarayonning to'g'riligini, resurs samaradorligini va eng optimal qarorga qanchalik tez erishganligini baholaydi.

Simulyatsiya mashg'ulotlari davomida zamonaviy tizimlar talabalarning harakatlarini real vaqt rejimida kuzatadi va ko'plab ko'rsatkichlarni yozib oladi. Jumladan, manipulyatsiya bajarilish vaqti, harakatlarning aniqligi va tekisligi, xatolar soni va turi, protokollardan chetga chiqishlar hamda yakuniy natijaning sifati kuzatiladi.

Video tahlil texnologiyalari simulyatsiya seanslarini yozib olish va keyinchalik chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Talabalar va o'qituvchilar videoni qayta ko'rib chiqib, muhim daqiqalarni aniqlashlari, xatolar ro'y bergan joylarni topib, alternativ yechimlarni muhokama qilishlari mumkin. Ba'zi zamonaviy tizimlar videoga avtomatik izohlar qo'shadi, muhim voqealarni ajratib ko'rsatadi va tahlil hisobotini shaklantiradi.

Neyrofiziologik monitorlash usullari ham qo'llanilmoqda. Masalan, ko'z harakatlarini kuzatish (eye-tracking) texnologiyasi talabaning nevrologik tekshiruv yoki diagnostik tasvirlarni tahlil qilish paytida diqqat markazini kuzatish imkonini beradi. Bu ma'lumotlar talabaning vizual diagnostika strategiyalarini tushunish va takomillashtirish uchun foydalidir.

Raqamli texnologiyalar nafaqat talabalarni baholash, balki ularning uzoq muddatli rivojlanishini kuzatish uchun ham qo'llaniladi. Elektron portfolio tizimlari har bir talabaning butun o'quv davri mobaynida to'plagan tajribasi, bajorgan amaliy mashqlar, qatnashgan simulyatsiya seanslari, olgan baholari va erishgan natijalarini tizimli tarzda saqlaydi.

Ushbu ma'lumotlarning to'planishi va tahlili talabalarning individual o'quv traektoriyalarini shakllantirish, ularning kuchli tomonlari va rivojlantirishni talab qiladigan sohalarni aniqlash imkonini beradi. Masalan, agar tizim ma'lum bir talaba tremor bilan bog'liq nevrologik simptomlarni yomon taniyotganini aniqlasa, unga qo'shimcha mashg'ulotlar va maxsus o'quv materiallari tavsiya etilishi mumkin.

Sun'iy intellekt asosidagi tahlil tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlab, har bir talabaning rivojlanish dinamikasini bashorat qilishi, potensial muammolarni oldindan aniqlashi va individual tavsiyalar berishi mumkin. Bu ta'limni yanada individuallashtirilgan va samarali qilishga yordam beradi.

Nevrologiya ta'limida eng samarali yondashuv raqamli va an'anaviy metodlarning maqsadli kombinatsiyasidan iborat. Blended learning modeli onlayn ta'limning moslashuvchanligi va raqamli texnologiyalarning innovatsion

imkoniyatlarini an'anaviy auditoriya mashg'ulotlarining ijtimoiy interaksiyasi va bevosita o'qituvchi rahbarligining afzalliklari bilan birlashtiradi.

Ushbu modelda nazariy bilimlarning katta qismi talabalar tomonidan mustaqil ravishda onlayn platformalar orqali o'zlashtiriladi. Talabalar o'z sur'atlarida video ma'ruzalarni ko'rishlari, interaktiv darsliklarni o'qishlari, testlarni yechadilar va virtual bemorlar bilan ishlashlari mumkin. Bu talabalarning individual o'rganish tezligi va uslubiga moslashish imkonini beradi.

Auditoriya mashg'ulotlari esa murakkabroq klinik stsenariylarni muhokama qilish, amaliy ko'nikmalarni mashq qilish, guruhlarda ishlash va murakkab diagnostik vazifalarni yechish uchun ajratiladi. O'qituvchi talabalarning oldindan tayorlangan bo'lishiga ishonch hosil qilib, auditoriya vaqtini yanada samarali ishlatadi - nazariy ma'lumotlarni takrorlash o'rniga, amaliy qo'llash va muammoli vaziyatlarni yechishga e'tibor qaratadi.

Raqamli texnologiyalar ko'p jihatlardan afzallik yaratsa ham, nevrologiyaning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ayniqsa bemor bilan muloqot va empatiya ko'nikmalari, hali ham bevosita insoniy tajriba va mentorlik orqali eng yaxshi rivojlanadi. Shu sababli integrativ yondashuv bu jihatlarni alohida e'tiborga oladi.

Standartlashtirilgan bemorlar nafaqat nevrologik simptomlarni taqlid qilish, balki real bemorlarning ruhiy-hissiy holatini ham aks ettirish uchun o'qitiladi. Ular xavotir, qo'rquv, umidsizlik yoki rad etish kabi hissiyotlarni namoyish etadilar. Talabalar ushbu hissiy komponentlar bilan ishlashni, bemorni tinchlantirish, tushuntirish va qo'llab-quvvatlashni o'rganadilar.

Raqamli videoanaliz texnologiyalari talabalarning muloqot ko'nikmalarini baholashda ham yordam beradi. Bemorlar bilan suhbat videosimlari maxsus dasturlar orqali tahlil qilinib, talabaning verbal va noverbal kommunikatsiyasi, empatiyaningn ifodalanishi, bemor savollariga javob berish tarzlari baholanadi. Tizim yaxshilanish uchun aniq tavsiyalar beradi, masalan, "bemorga ko'proq vaqt ajrating" yoki "bemorning tashvishlarini tan olish zarur".

Raqamli texnologiyalar va simulyatsiya vositalarini samarali integratsiya qilish uchun nevrologiya bo'yicha o'quv dasturi tizimli ravishda qayta ko'rib chiqilishi va zamonaviy pedagogik prinsiplarga muvofiq tuzilishi zarur. O'quv dasturi quyidagi asosiy qismlarni o'z ichiga oladi: nazariy kurs, amaliy mashg'ulotlar, simulyatsiya seanslari, klinik amaliyot va mustaqil ish.

Nazariy kurs quyidagi asosiy bo'limlardan tashkil topadi: nevrologik anatomiya va fiziologiya, nevrologik tekshiruv metodikasi, simptomlar va sindromlar, markaziy nerv tizimi kasalliklari, periferik nerv tizimi kasalliklari, nevrologik shoshilinch holatlar hamda reabilitatsiya printsiplari. Har bir bo'lim uchun zamonaviy multimedia materiallar, interaktiv darsliklar va virtual bemorlar platformalari tayyorlanadi.

O'quv jarayoni spiral prinsip asosida tashkil etiladi, bunda har bir keyingi bosqichda oldingi materiallar chuqurroq darajada qayta ko'rib chiqiladi va murakkablashtiriladi. Masalan, birinchi yil talabalariga nevrologik tekshiruvning asosiy elementlari o'rgatilsa, ikkinchi yilda ular murakkab sindromlarni tahlil qilishni, uchinchi yilda esa mustaqil diagnostika va davolash rejalarini tuzishni o'rganadilar.

Samarali nevrologiya ta'limi uchun yaxshi jihozlangan simulyatsiya markazi zarur. Bunday markazning tuzilishi quyidagi asosiy zonalarni o'z ichiga oladi: simulyatsiya xonalari, debrifing xonalari, boshqaruv va kuzatuv xonasi, texnik qo'llab-quvvatlash zonasi hamda talabalarning o'z-o'zini tayyorlash uchun ochiq zonalar.

Simulyatsiya xonalari haqiqiy klinik muhitni maksimal darajada taqlid qilishi kerak. Ular zarur tibbiy asbob-uskunalar, monitorlar, farmakologik preparatlarning maketlari va boshqa klinik atributlar bilan jihozlanadi. Har bir xonada yuqori sifatli video va audio yozib olish tizimlari o'rnatiladi, bu esa seanslarni keyinchalik tahlil qilish imkonini beradi.

Debrifing xonalari simulyatsiya seanslaridan so'ng talabalar bilan muhokama o'tkazish uchun mo'ljallangan. Bu xonalar qulay va xavfsiz muhit yaratishi, talabalarning ochiq muloqotga tayyorligini rag'batlantirishi kerak. Katta ekranlar va video qayta o'ynash tizimlari orqali talabalar o'z harakatlarini batafsil tahlil qilishlari mumkin.

Raqamli texnologiyalar va simulyatsiya metodlarini samarali qo'llash o'qituvchilarning mos ravishda tayyorlanishini talab qiladi. Ko'pchilik o'qituvchilar an'anaviy ta'lim metodlari bilan ishlashga o'rganganlar va yangi texnologiyalardan foydalanish uchun maxsus o'qitishni talab qiladilar.

O'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish dasturlari quyidagi komponentlarni o'z ichiga olishi kerak: raqamli texnologiyalar va simulyatsiya vositalarining texnik jihatlari, zamonaviy pedagogik metodlar va strategiyalar, simulyatsiya mashg'ulotlarini rejalashtirish va o'tkazish, debrifing texnikasi, talabalarni baholashning zamonaviy usullari hamda o'quv jarayonini boshqarish tizimlari bilan ishlash.

Ayniqsa muhim bo'lgan ko'nikma - bu debrifing o'tkazish qobiliyatidir. Debrifing simulyatsiya ta'limining eng muhim elementi bo'lib, u sodda muhokama emas, balki tuzilgan pedagogik jarayondir. O'qituvchilar talabalarning his-tuyg'ularini boshqarish, konstruktiv fikr-mulohaza berish, o'z-o'zini tahlil qilishni rag'batlantirish va xavfsiz o'rganish muhitini yaratish ko'nikmalarini o'zlashtirishi zarur.

**XULOSA**

Raqamli texnologiyalar va simulyatsiya vositalari asosida nevrologiya fanini o'qitish metodikasi zamonaviy tibbiy ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu metodika virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari, yuqori aniqlikdagi simulyatorlar, kompyuterli ta'lim dasturlari hamda avtomatlashtirilgan baholash tizimlarining integratsiyasiga asoslangan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli va simulyatsiya metodlari talabalarning nevrologik bilim va ko'nikmalarini an'anaviy usullarga nisbatan samarali rivojlantiradi. Talabalar xavfsiz muhitda murakkab nevrologik holatlarni o'rganish, invaziv manipulyatsiyalarni mashq qilish va shoshilinch vaziyatlarda qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Eng samarali yondashuv raqamli texnologiyalar va an'anaviy ta'lim metodlarining maqsadli kombinatsiyasidan iborat blended learning modelidir. Bu model nazariy bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalarni simulyatsiyada mashq qilish va real klinik amaliyotda qo'llashning optimal muvozanatini ta'minlaydi.

Nevrologiya bo'yicha raqamli ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bir qator shartlar zarur: zamonaviy texnologik infratuzilma, malakali o'qituvchilar kadri, tizimli o'quv dasturlari hamda ta'lim samaradorligini doimiy monitoring qilish va takomillashtirish. Kelajakda sun'iy intellekt, mashina o'rganishi va yanada immersiv texnologiyalarning rivojlanishi bilan nevrologiya ta'limida yanada katta imkoniyatlar ochiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1.Karimov, I.A. (2019). Tibbiy ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari. Toshkent: Fan.

2.Tursunov, O.S., Sharipova, N.M. (2020). Nevrologiya fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar. Tibbiy ta'lim jurnali, 3(15), 45-52.

3.Abdullayev, R.K. (2021). Virtual texnologiyalar va tibbiy simulyatsiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: Yangi asr avlodi.

4.Mirzayev, B.S. (2018). Tibbiyotda raqamli texnologiyalarni qo'llash asoslari. Samarqand davlat tibbiyot instituti axboroti, 2(8), 112-118.

5.Memon, A.R., Rathore, F.A. (2018). Simulation in neurology education: Current perspectives. Advances in Medical Education and Practice, 9, 119-127.

6.Jozefowicz, R.F., Holloway, R.G. (2015). Neurologic education research. Neurology, 85(11), 994-999.

7.Okuda, Y., Bryson, E.O., DeMaria, S. (2009). The utility of simulation in medical education: What is the evidence? Mount Sinai Journal of Medicine, 76(4), 330-343.

8.McGaghie, W.C., Issenberg, S.B., Cohen, E.R. (2011). Does simulation-based medical education with deliberate practice yield better results than traditional clinical education? A meta-analytic comparative review. Academic Medicine, 86(6), 706-711.

9.Nestel, D., Burn, C.L., Pritchard, S.A. (2011). The use of realtime simulated patients in teaching medical students about neurological consultation. Simulation in Healthcare, 6(5), 281-287.

10. Cook, D.A., Hatala, R., Brydges, R. (2011). Technology-enhanced simulation for health professions education: A systematic review and meta-analysis. JAMA, 306(9), 978-988.

11. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (2022). Digital education for health professionals: A WHO guideline. Geneva: WHO. https://www.who.int/publications

12. European Academy of Neurology (2020). E-learning in neurology. https://www.ean.org

13. American Academy of Neurology (2021). Simulation in neurology education: Resources and guidelines. https://www.aan.com

14. Ergashev, N.A. (2020). Oliy tibbiy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish metodikasi [Dissertatsiya]. Toshkent Tibbiyot Akademiyasi.

15. Sultanova, D.M. (2019). Tibbiy fanlarni o'qitishda simulyatsion texnologiyalarning samaradorligi. Toshkent: Iqtisod-moliya.

16. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi (2021). Tibbiy ta'limda raqamli transformatsiya: imkoniyatlar va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent.

17. Toshkent Tibbiyot Akademiyasi (2022). Nevrologiyada zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami. Toshkent: TTA nashriyoti.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Abdumannotov Abdumajid Matayevich**
Oriental universiteti Samarqand kampusi
«Uzluksiz ta'lim pedagogikasi» kafedrasi dotsenti
pedagogika fanlari nomzodi
UDK:821.512.133:17:37

## ALISHER NAVOIYING MA'RIFIY QARASHLARIDA SHAXS BARKAMOLLIGI TALQINI VA UNDAN TA'LIM JARAYONDA FOYDALANISH

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada buyuk shoir va mutafakkir , atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning ma'rifiy qarashlarida shaxs barkamolligi tushunchasi talqini va undan ta'lim jarayonida foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar****: Alisher Navoiy, ma'rifiy , qarashlar, shaxs, barkamollik, talqin, ta'lim, tarbiya, jarayon,foydalanish.*

---

**Абдумаджид Матаевич Абдуманнотов**
Доцент кафедры «Педагогика непрерывного образования»
Кандидат педагогических наук, Самаркандский кампус Восточного университета

## КОНЦЕПЦИЯ ЛИЧНОГО СОВЕРШЕНСТВА В ПРОСВЕЩАТЕЛЬНЫХ ВЗГЛЯДАХ АЛИСЕРА НАВОЯ И ЕЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

***Аннотация****. В данной статье освещается интерпретация понятия всестороннего развития личности в просветительских взглядах великого поэта и мыслителя, выдающегося государственного и общественного деятеля Алишера Навои, а также педагогические условия использования этих идей в образовательном процессе.*

***Ключевые слова:*** *Алишер Навои, просветительские взгляды, личность, всестороннее развитие, интерпретация, образование, воспитание, процесс, использовани.*

---

**Abdumajid Matayevich Abdumannotov**
Associate Professor of the Department of "Continuous Education Pedagogy"
Candidate of Pedagogical Sciences, Samarkand Campus of Oriental University

## THE CONCEPT OF PERSONAL PERFECTION IN THE ENLIGHTENMENTAL VIEWS OF ALISHER NAVOI AND ITS USE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

***Annotation****. This article examines the interpretation of the concept of comprehensive personal development in the enlightenment views of the great poet and thinker, the prominent statesman and public figure Alisher Navoi, as well as the pedagogical conditions for applying these ideas in the educational process.*

***Keywords:*** *Alisher Navoi, enlightenment views, personality, comprehensive development, interpretation, education, upbringing, process, application.*

---

Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning bebaho ma'naviy merosi nafaqat xalqimiz, balki dunyo tamaddunida ham muhim o'rin egallaydi. Chunki, mutafakkir qoldirgan ma'naviy merosdan nafaqat xalqimiz balki butun dunyo ahli bahramand bo'lmoqda.

Shu bois, hazrat Navoiyning boy ma'naviy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish va munosabat tubdan o'zgardi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan ,,Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida''gi qarori qabul qilinib, uning ijrosini ta'minlash bo'yicha bir qator ishlar amalga

oshirildi[1]. Davlatimiz rahbarining 2024-yil 31-oktabrdagi Navoiy viloyati mehnatkashlari bilan bo'lgan uchrashuvida bildirilgan fikr va mulohazalari fikrimizning isbotidir. Aniqrog'i, yurtboshimiz Navoiy viloyatida ,,2025-yilni Alisher Navoiy yili'' deb e'lon qilgan edi. Ushbu tashabbus xalqimizning buyuk shoir-u va mutafakkirga bo'lgan chuqur hurmatining ifodasidir. Navoiy yili doirasida ,,Hazrat Navoiyni anglash- o'zligimizni anglash'' shiori ostida o'tkaziladigan respublika tanlovi Prezident sovg'asi uchun tashkil etilishi quvonchlidir.

Ushbu tanlov yoshlarimiz va keng jamoatchilik o'rtasida Navoiyning boy ma'naviy me'rosini o'rganishga va anglashga xizmat qiladi. Alisher Navoiy yili doirasida o'tkaziladigan barcha tadbirlar mamalakatimizning ma'naviy hayotini boyitdi, xalqimizning o'zligiga, qadimiy me'rosimizga bo'lgan hurmat va mehrini yanada oshirdi[2].

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 28-yanvardagi ,,2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning tarqqiyot strategiyasi to'g'risida''gi PF-60-sonli Farmonida ,,Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish'' ga alohida e'tibor qaratilganligi ham bejiz emas[3].

Mutafakkirning asarlarida komil inson g'oyasi bosh mavzu bo'lib, alloma uni shakllantirishning pedagogik ma'zmuni, yo'llari, usullarini atroflicha yoritib bergan. Jumladan, mutafakkir bolalarga jismoniy jazo berish emas, balki xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishni, lekin shunda ham me'yoridan oshmaslikni maslahat beradi.

Allomaning fikricha, komil inson pok, mehnatsevar, sof vijdonli, insofli, tog'riso'z, halol, saxovatli, odobli, kamta, hayoli, muruvvatli shaxs. Bunday xislatlarni shaxsda kamol toptirish uchun ularda ana shunday ijobiy fazilatlarni tarbiyalash zarurligini uqtiradi.

Muhimi, Alisher Navoiyning asarlarida insonning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishishida ularning jismonan sog'lom va baquvvat bo'lishiga ham yetarlicha e'tibor berilgan. Masalan, ,,Farhod va Shirin'' dostonida Farhodning jismoniy qobiliyatlari, sifatlari tilga olinadi. Farhod aqliy tarbiya bilan cheklanib qolmasdan jismoniy va harbiy mashqlar bilan shug'ullanib chiniqqan. U suvda suzish, chovondozlik, qilichbozlik, va boshqa sport turlarni mukammal egallagan. Unda o'n yoshda yigirma yoshli yigitning kuch-qavvati bo'lgan

Farhod o'zining aqliy va jismoniy kuch quvvati hamda mahorati bilan kishilarni hayratda qoldiradi. Shuningdek, Qays, Iskandar obrazlarida ham jismoniy tarbiya va go'zal fazilatlar uyg'unligini ko'rish mumkin. Shoirning ,,Nazm-ul Javohir'' asarida taom yeyish qoidalariga rioya etish sihat salomatlikini saqlashning muhim talablaridan biri ekanligi o'z aksini topgan.

Tadqiqotchi Z.Rasulov o'zining ,,Alisher Navoiy va sport'' deb nomlangan maqolasida ,,Saddi Iskandariy'' dostoninig bosh qahramoni lashkarboshi shoh Iskandar Berberi bilan Eron shohi Darri Xurram polvonlari o'rtasidagi yakkama yakka olishuvlar, Bahrom va uning go'zal rafiqasi Diloromning qirq zinadan buzoqchani ho'kiz bo'lguncha ko'tarib chiqib tushushi bu jismoniy mashqlarning natijasi ekanligini ta'kidlagan. Mutafakkirning ,,Mahbub ul-qulub'' asarida ,,Safarning foydalari'' haqida to'xtalib ,,Tavoze va adabning asosini azob va mashaqqat tashkil qiladi, ulug' ishlarni amalga oshiruvchi asosiy vosita bu – safardir''- deydi. Hazratning sayohat to'g'risidagi o'gitlarida ,,safar kishilarni olam ajoyibotlaridan xabardor qiladi'' deb uqtiradi. Darvoqe, safar jarayonida jismoniy harakat ko'payadi, yo'ldagi qiyinchiliklar asabni taranglashtiradi, sayyoh organizmidagi a'zolarda modda almashunuvi tezlashadi, taomni tez hazm qiladi[4]. Xalqimizda ,,Yurgan daryo-o'tirgan bo'yra '' degan naql bor. Darhaqiqat, yurgan odam dunoyoni kezadi, ko'p joylarni ko'radi, dunyoqarashi o'zgaradi, tafakkuri kengayadi, o'zga joylarning tabiati, xalqlarning urf-odatlari, a'nanalari, turmush tarzi bilan yaqindan tanishadi. Turizm – bugungi kunda davlatimiz iqtisodiyoting yetakchi drayverlaridan biriga aylanayotgan bir paytda hazratning safar bilan bog'liq fikr mulohazalaridan foydalanish, ularni o'rganish, hayotga tadbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bundan tashqari Alisher Navoiyning badan tarbiyani ,,ilmi badan'' ,,badan ilmi'' ,,ko'ngil tarbiyasi'', deb qo'llashi milliy sport turlarini ifodalash uchun ,,zo'ri '', ,,dilovarlig''', ,, go'y'' kabi atamalarni joriy etishi bevosita milliy sportimizning rivojlanishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Muallif ta'kidlagandek, qadamiy xalq o'yinlaridan ,,shatranj'', ,,tirandozlik'', ,,chavondozlik'', ,,nayzabozlik'', ,,chavgon'', ,,qalqonbozlik'', ,,kurash'', ,,qilichbozlik'' kabi atamaladan foydalanishi, birinchidan asarning badiiy qiymatini oshirgan bo'lsa, ikkinchidan buyuk murabbiy hazrat Navoiyning jismoniy tarbiya to'g'risida yetarlicha bilim va tajribaga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ayniqsa, mutafakkirning ,,kishi sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash uchun tibbiy va badantarbiya sirlarini o'rganishi kerak'', - degan fikrlari davlatimiz rahbarining mamalakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uning ommaviyligiga erishish borasidagi qaror va farmonlarining ma'zmuni bilan hamohangligi kishini hayratlantiradi.

Haqiqatdan ham jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrga ega bo'lgan insonning o'ziga, oilasiga, davlatga jamiyatga foydasi ko'proq tegishi hech kimga sir emas. Shu bois, mamalakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada buyuk mutafakkirning ma'rifiy qarashlaridan shu jumladan, shaxsda jismoniy sifatlarni shakllantirish, badantarbiya, to'g'ri ovqatlanish, sayohatlarning inson salomatligiga foydasi kabi g'oyalaridan uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida

jumladan, jismoniy madaniyat o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Bo'lajak jismoniy ma'daniyat o'qituvchilarini tayorlashda ularga o'qitilayotgan mutaxassislik va umumkasbiy fanlarni o'qitishda mutafakkirning ma'naviy merosidan foydalanish bo'lajak pedagoglarning kasbiy bilimlarini oshiradi, kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari 2024-yil 1-oktabr ,,O'qituvchilar va murabbiylar kuni''ga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali yig'ilishda so'zlagan nutqida ,,maktablardagi 33 ming nafar jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va jismoniy mahorati yetarli emas'' ligini alohida ta'kidlagan edi. Ushbu muammolarni bartaraf etishda hazrat Navoiyning jismoniy tarbiya va sport bilan bog'liq fikrlaridan foydalanish sohadagi muamolarining yechimini topishga xizmat qiladi.

Oriental universiteti Samarqand kampusida tahsil olayotgan bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarini tayorlashda ushbu masalaga yeterlicha e'tibor qaratilmoqda. Aniqrog'i, mutaxassislik va umumkasbiy fanlarning imkoniyatlaridan oqilona foydalanilmoqda. Talabalar bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarda mumtoz adabiyotimizning bilmdonlari, sport faxriylari, tajribali mutaxassislar bilan o'tkaziladigan uchrashuvlarda, davra suhbatlarida hazrat Navoiyning ma'rifiy qarashlaridagi shaxs barkamolligi talqiniga va undan ta'lim tarbiya jarayoniga tizmli foydalanishga e'tibor qaratilmoqda.

Zero, mumtoz adabiyotimizning bilimdoni, navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul o'zining ,,Navoiyga qaytish'' asarida ta'kidlagandek: ,,yoshlarimiz Navoiyni qanchalik chuqur va puxta bilsa ma'rifat, ezgulik, komillik sirlarini o'shancha kengroq egallaydi. Navoiyning so'zlari diliga o'rnashgan odam, o'zi istasin-istamasin, odamaliyik sharafi va kuch quvvatini idrok etadi. Navoiy saboqlariga amal qilgan kishi o'z-o'zidan dard-u tashvishlarini yengillatishga bel bog'laydi, fikrni fikrsizlikka, ilm-ma'rifatni nodonlikka va jaholatga qarshi qurol o'rnida ishlatadi. Navoiyni yetarli darajada bilish - adolat, diyonat, iymon- e'tiqodning kuchiga ishonch demak. Ko'nglida shu ishonch g'olib bo'lgan odamlar soni jamiyatimizda qancha ko'paysa, insoniy muammolar har qalay kamayib boradi''[5].

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ,, Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580- yilligini keng nishonlash to'g'risida '' gi PQ- 4865- sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024yil 31- oktabrdagi Navoiy viloyati mehnatkashlari bilan uchrashuvdagi nutqidan
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi ,, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida '' gi PF-60- son Farmoni
4. Rasulov Z Alisher Navoiy va sport // Sport gazetasi 2021 yil 9- fevral 5-son (7664)8 -bet.
5. Ibrohim Haqqul Navoiyga qaytish…T…,, Fan'', 2007, 223 bet.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Axralova Marg'uba Akmalxanovna**
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
ahralovamarguba@gmail.com

## OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA DARS JARAYONINING VATANPARVARLIK PEDAGOGIKASI BILAN MUVOFIQLASHUVI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini vatanparvarlik pedagogikasi bilan integratsiyalash masalalari tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi dars mashg'ulotlarida talabalarning intellektual salohiyatini oshirish bilan birga, ularda milliy g'urur va daxldorlik tuyg'usini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Maqolada nazariy bilimlar va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning o'zaro muvofiqlashuvi zamonaviy ta'lim paradigmasining muhim tarkibiy qismi sifatida asoslab berilgan. Shuningdek, vatanparvarlik ruhidagi ta'limni fan dasturlariga tatbiq etishning innovatsion metodlari va samarali strategiyalari taklif etilgan. Xulosalar oliy ta'lim tizimida barkamol shaxs va mas'uliyatli fuqaroni tarbiyalashda dars jarayonining pedagogik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Oliy ta'lim, vatanparvarlik pedagogikasi, o'quv jarayoni, integratsiya, milliy g'urur, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, innovatsion metodlar, barkamol shaxs, daxldorlik tuyg'usi.*

**Ахралова Маргуба Акмалхановна**
Наманганский государственный университет
независимый исследователь

## КООРДИНАЦИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА С ПАТРИОТИЧЕСКОЙ ПЕДАГОГИКОЙ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

***Аннотация:*** *В данной статье проводится системный анализ вопросов интеграции учебного процесса в высших учебных заведениях с педагогикой патриотизма. Основная цель исследования заключается в определении педагогических механизмов формирования у студентов чувства национальной гордости и сопричастности наряду с повышением их интеллектуального потенциала. В статье обосновывается соответствие теоретических знаний и духовно-нравственных ценностей как важного компонента современной образовательной парадигмы. Также предложены инновационные методы и эффективные стратегии внедрения патриотического воспитания в учебные программы. Выводы исследования способствуют расширению педагогических возможностей учебного процесса в воспитании гармонично развитой личности и ответственного гражданина в системе высшего образования.*

***Ключевые слова:*** *Высшее образование, педагогика патриотизма, учебный процесс, интеграция, национальная гордость, духовно-нравственные ценности, инновационные методы, гармонично развитая личность, чувство сопричастности*

**Akhralova Marg'uba Akmalkhanovna**
Namangan State University
independent researcher

## COORDINATION OF THE TEACHING PROCESS WITH PATRIOTICAL PEDAGOGY IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

***Abstract:*** *This article presents a systematic analysis of integrating the educational process in higher education institutions with the pedagogy of patriotism. The primary objective of the research is to identify pedagogical mechanisms for fostering a sense of national pride and belonging among students, alongside enhancing their intellectual potential. The study substantiates the alignment of theoretical knowledge and spiritual-moral values as a crucial component of the modern educational paradigm. Furthermore, innovative methods and effective strategies for incorporating patriotic education into academic curricula are proposed. The conclusions serve to expand the pedagogical potential of the classroom process in nurturing well-rounded individuals and responsible citizens within the higher education system.*

***Key words:*** *Higher education, pedagogy of patriotism, educational process, integration, national pride, spiritual and moral values, innovative methods, well-rounded personality, sense of belonging.*

## I.Kirish

Globallashuv jarayonlari jadallashgan va madaniy integratsiya kuchaygan hozirgi davrda yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash oliy ta'lim tizimining strategik ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Oliy ta'lim muassasalari nafaqat yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydigan maskan, balki talaba-yoshlarning dunyoqarashini shakllantiruvchi, ularda davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyat tuyg'usini uyg'otuvchi asosiy ijtimoiy institut hisoblanadi. Bugungi kunda o'quv jarayoniga vatanparvarlik pedagogikasini tizimli ravishda tatbiq etish, yoshlarning o'z vataniga bo'lgan sadoqatini intellektual salohiyat bilan uyg'unlashtirishni talab etmoqda. Bu jarayonda har bir fan mazmuniga milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotiraga sodiqlik va kelajak uchun daxldorlik g'oyalarini singdirish barkamol shaxsni shakllantirishning fundamental poydevori bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, axborot oqimi shiddatli tus olgan sharoitda, talabalarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish va ularni vatanparvarlikning yuksak namunalariga tayangan holda tarbiyalash ta'lim tizimidagi eng muhim kontseptual masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ta'lim jarayonida vatanparvarlik pedagogikasini muvofiqlashtirish shunchaki nazariy bilimlar berish bilan cheklanib qolmay, balki ta'lim oluvchilarning hissiy-irodaviy sifatlariga ham kuchli ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadi. Oliy o'quv yurtlaridagi har bir dars mashg'uloti talabalarda mustaqil fikrlash, milliy manfaatlar ustuvorligini anglash va ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun platforma bo'lishi zarur. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar yordamida vatanparvarlik g'oyalarini fan dasturlariga integratsiya qilish talabalarning o'z mutaxassisligi bo'yicha egallagan bilimlarini mamlakat taraqqiyoti yo'lida safarbar etishga zamin yaratadi. Bu yondashuv ta'lim va tarbiya birligini ta'minlash bilan birga, yoshlarning milliy g'ururini yuksaltirishga, ularni turli yot g'oyalarga qarshi tura oladigan, o'z xalqi va zaminining munosib vorislari etib tarbiyalashga yo'naltirilgan. Binobarin, oliy ta'lim mazmunini vatanparvarlik ruhi bilan boyitish — davlatning barqaror rivojlanishi va xavfsizligini ta'minlovchi ma'naviy omildir.

## II. Mavjud adaniyotlar tahlili

Vatanparvarlik pedagogikasi va uning oliy ta'lim tizimidagi o'rni uzoq yillardan buyon ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Klassik pedagogik nazariyalarda vatanparvarlik tushunchasi asosan axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida talqin qilingan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotlarda u ijtimoiy-pedagogik fenomen va shaxs kompetensiyasining muhim unsuri sifatida ko'rilmoqda. Xususan, g'arb olimlari o'z tadqiqotlarida "fuqarolik ta'limi" (citizenship education) tushunchasiga ko'proq urg'u berib, talabalarda ijtimoiy mas'uliyat va demokratik qadriyatlarni shakllantirish masalalarini dars jarayoniga integratsiya qilish metodikasini ishlab chiqqanlar. Ularning fikricha, vatanparvarlik nafaqat hissiy tushuncha, balki jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etish ko'nikmasidir. Shu bilan birga, MDH davlatlari olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlarda vatanparvarlik tarbiyasini harbiy-vatanparvarlik va tarixiy xotira bilan bog'lash an'anasi kuchli ekanligi kuzatiladi.

O'zbekistonlik pedagog olimlar va tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limda vatanparvarlik ruhini singdirish milliy g'oya va ma'naviy meros asosida tizimli ravishda o'rganib kelinmoqda. Ko'pgina tadqiqotlarda ta'lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida talabalarning milliy o'zlikni anglash darajasini oshirish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik shakllari, usullari va vositalari atroflicha yoritilgan. Biroq, mavjud ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, vatanparvarlik pedagogikasini aniq fanlar va ixtisoslik fanlari bilan uzviy bog'lash, ya'ni "kasbiy vatanparvarlik" tushunchasini dars jarayoniga metodik jihatdan muvofiqlashtirish masalasi hamon yetarlicha ochib berilmagan. Aksariyat yondashuvlar ko'proq gumanitar fanlar doirasi bilan cheklanib qolmoqda, bu esa barcha yo'nalishdagi dars jarayonlarida vatanparvarlik pedagogikasini qo'llashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

## III. Tadqiqot metadologiyasi

1. Oliy ta'lim o'quv dasturlari va fan mazmunini vatanparvarlik g'oyalari bilan bog'liqlik darajasini yaxlit tizim sifatida o'rganish va tahlil qilish.
2. Mavjud darsliklar, o'quv qo'llanmalari va ma'ruza matnlaridagi ma'lumotlarni vatanparvarlik pedagogikasi talablari asosida qiyoslash va ekspertizadan o'tkazish.
3. Dars jarayoniga vatanparvarlik ruhini singdirishning nazariy va amaliy modelini ishlab chiqish va uni ta'lim jarayoniga loyihalashtirish.
4. Talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasida anonim so'rovnomalar o'tkazish orqali ularning mavzuga bo'lgan munosabati va tayyorgarlik darajasini empirik aniqlash.
5. Innovatsion dars modullarini amaliyotga joriy etish orqali nazorat va eksperimental guruhlardagi natijalarni o'zaro solishtirish hamda samaradorlikni tekshirish.

6. Tadqiqot davomida to‘plangan barcha raqamli ma’lumotlar va so‘rovnoma natijalarini statistik hisoblashlar yordamida qayta ishlash va ilmiy xulosalarni asoslash.

## IV. *Tahlil va natijalar*

Oliy ta’lim muassasalarida dars jarayonining vatanparvarlik pedagogikasi bilan muvofiqlashuvi darajasini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari bir qator muhim xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasiga ko‘ra, professor-o‘qituvchilarning 65 foizi o‘z fanlari doirasida vatanparvarlik g‘oyalarini singdirishga harakat qilishini ta’kidlagan bo‘lsa-da, ularning atigi 22 foizi bu borada maxsus ishlab chiqilgan metodik ishlanmalardan foydalanishini ma’lum qildi. Bu ko‘rsatkich ta’lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasi ko‘p hollarda tizimli emas, balki stixiyali yoki umumiy xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi. Eksperiment davomida fanlararo integratsiya modelini qo‘llash natijasida talabalarning vatanparvarlik darajasini belgilovchi kognitiv va motivatsion ko‘rsatkichlarida ijobiy dinamika kuzatildi.

Tajriba guruhlarida vatanparvarlik pedagogikasiga asoslangan innovatsion dars modullari joriy etilgandan so‘ng, talabalarning milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usi nazorat guruhiga nisbatan 18-20 foizga yuqorilaganligi statistik jihatdan isbotlandi. Ayniqsa, muammoli vaziyatli o‘qitish va keys-stadi usullari orqali talabalarda mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishga yo‘naltirilgan kasbiy vatanparvarlik kompetensiyasi shakllandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, vatanparvarlik tarbiyasi faqat nazariy ma’ruzalar bilan cheklanib qolmay, balki amaliy mashg‘ulotlar va talabalarning mustaqil ijodiy izlanishlari bilan uyg‘unlashganda eng yuqori samaradorlikka erishiladi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yoshlarda vatanparvarlik g‘oyalariga bo‘lgan qiziqishni 35 foizga oshirgani ma’lum bo‘ldi.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, dars jarayonining vatanparvarlik pedagogikasi bilan muvofiqlashuvi nafaqat talabalarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning ijtimoiy faolligini va yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini mustahkamlaydi. Tadqiqot natijasida olingan ma’lumotlar oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy muhitni sog‘lomlashtirish va ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish uchun xizmat qiladi. Ishlab chiqilgan tavsiyalar dars jarayonida milliy qadriyatlarni zamonaviy fan yutuqlari bilan uyg‘unlashtirish orqali yoshlarni vatan taraqqiyoti uchun mas’ul bo‘lgan yetuk kadrlar etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## V. *Xulosa*

Oliy ta’lim muassasalarida dars jarayonini vatanparvarlik pedagogikasi bilan muvofiqlashtirish — ta’lim sifatini oshirish va komil shaxsni tarbiyalashning strategik asosi ekanligi isbotlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, vatanparvarlik g‘oyalarini fanlar mazmuniga tizimli integratsiya qilish talabalarda milliy o‘zlikni anglash ko‘rsatkichini 20 foizga oshiradi. Bu jarayonda an’anaviy o‘qitishdan innovatsion metodlarga o‘tish, ya’ni talabaning kasbiy mahoratini vatan taraqqiyoti bilan bog‘lash muhim ahamiyatga ega. Xususan, darslarda milliy qadriyatlar va zamonaviy AKT imkoniyatlarining uyg‘unlashuvi yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlaydi. Xulosa qilib aytganda, vatanparvarlik pedagogikasi shunchaki nazariya emas, balki talabalarni vatan taqdiriga daxldor bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar etib tarbiyalashda asosiy metodologik vositadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5847-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi 140-son qarori.
4. Karimov I.A. "Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Musurmonova O. "Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi". – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
6. Yo‘ldoshev J.G‘. "Zamonaviy dars". – Toshkent, 1999.
7. Ergashev I. "Vatanparvarlik pedagogikasi: nazariya va amaliyot". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
8. Safarova R.G. va boshqalar. "Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning vatanparvarlik kompetentsiyalarini rivojlantirishning pedagogik tizimi". Ilmiy maqola, 2021.
9. Westheimer J., Kahne J. "What Kind of Citizen? The Politics of Educating for Democracy". – American Educational Research Journal, 2004.
10. Smith A. "National Identity and Educational Systems in a Globalized World". – Journal of Academic Pedagogy, 2018.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Boboyeva Iroda**
University of bisuness and science

## INTEGRALASHGAN TA'LIMNING TAMOYILLARI VA QONUNIYATLARI: PSIXOLOGIK VA DIDAKTIK ASOSLARI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada integralashgan ta'limning nazariy-metodologik asoslari, asosiy tamoyillari va qonuniyatlari tahlil qilingan. Maqola zamonaviy pedagogikada muhim o'rin tutuvchi integralashgan yondashuvning psixologik va didaktik jihatlarini keng yoritadi.*

*Tadqiqotda integralashgan ta'limning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari va asosiy tushunchalari ochib berilgan. Yaxlitlik, ilmiy asoslilik, sistematiklik va izchillik, ko'rsatmalilik, faollashtirish kabi asosiy tamoyillar batafsil tahlil etilgan.*

*Maqolaning psixologik asoslar bo'limi J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi, L. S. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy yondashuvi, geshtalt psixologiyasi, assosiativ-reflektiv psixologiya, konstruktivistik yondashuv, D. Ausubelning mazmunli o'rganish nazariyasi va zamonaviy neyrofiziologik tadqiqotlar nuqtai nazaridan integralashgan ta'limni asoslashga bag'ishlangan.*

*Didaktik asoslar qismida fanlararo aloqalar tipologiyasi, integralashgan darslarning turlari va darajalari, shuningdek, integralashgan ta'limning qonuniyatlari (bog'liqlik, uzluksizlik, muvofiqlik va amaliyotdagi birlik qonunlari) ko'rib chiqilgan.*

*Maqolada integralashgan ta'limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan pedagogik sharoitlar, bu yondashuvning afzalliklari va cheklovlari ham yoritilgan. Tadqiqot xulosasida integralashgan ta'limning zamonaviy ta'lim tizimida tutgan o'rni va kelgusi rivojlanish istiqbollari ko'rsatib o'tilgan.*

*Maqola pedagogika, psixologiya va didaktika sohasidagi nazariy-amaliy tadqiqotlar uchun, shuningdek, o'qituvchilar, professor-o'qituvchilar, talabalar va magistrantlar uchun mo'ljallangan.*

***Kalit so'zlar:*** *Integralashgan ta'lim, fanlararo aloqalar, pedagogik integratsiya, yaxlit ta'lim, kognitiv rivojlanish, Jean Piaje, Lev Vigotskiy, geshtalt psixologiyasi, didaktik tamoyillar, ta'lim qonuniyatlari, konstruktivizm, mazmunli o'rganish, yaqin rivojlanish zonasi, assosiativ aloqalar, metakognitivlik, ta'lim tizimi, pedagogik texnologiyalar, o'qitish metodlari, fanlararo uzviylik, sistemali yondashuv, zamonaviy pedagogika, ta'limda innovatsiya, o'quv jarayoni, didaktik asoslar, psixologik asoslar, bilim integratsiyasi.*

**Boboyeva Iroda**
University of bisuness and science

## PRINCIPLES AND LAWS OF INTEGRATED EDUCATION: PSYCHOLOGICAL AND DIDACTIC FOUNDATIONS

***Annotation****: This article analyzes the theoretical and methodological foundations, basic principles and laws of integrated education. The article broadly covers the psychological and didactic aspects of the integrated approach, which plays an important role in modern pedagogy.*

*The study reveals the origin, stages of development and basic concepts of integrated education. The main principles such as integrity, scientific validity, systematicity and consistency, instruction, activation are analyzed in detail.*

*The psychological foundations section of the article is devoted to the justification of integrated education from the perspective of J. Piaget's cognitive development theory, L. S. Vygotsky's sociocultural approach, Gestalt psychology, associative-reflective psychology, constructivist approach, D. Ausubel's theory of meaningful learning and modern neurophysiological research. The didactic foundations section considers the typology of interdisciplinary relationships, types and levels of integrated lessons, as well as the laws of integrated education (laws of connection, continuity, consistency and unity in practice).*

*The article also covers the pedagogical conditions necessary for the successful implementation of integrated education, the advantages and limitations of this approach. The conclusion of the research indicates the place of integrated education in the modern education system and the prospects for its further development.*

*The article is intended for theoretical and practical research in the field of pedagogy, psychology and didactics, as well as for teachers, professors, students and graduate students.*

***Keywords:*** *Integrated education, interdisciplinary connections, pedagogical integration, holistic education, cognitive development, Jean Piaget, Lev Vygotsky, Gestalt psychology, didactic principles, educational laws, constructivism, meaningful learning, zone of proximal development, associative connections, metacognition, educational system, pedagogical technologies, teaching methods, interdisciplinary coherence, systematic approach, modern pedagogy, innovation in education, educational process, didactic foundations, psychological foundations, integration of knowledge.*

**Ирода Бобоява**
Университет бизнеса и науки

## ПРИНЦИПЫ И ЗАКОНЫ ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются теоретические и методологические основы, основные принципы и законы интегрированного образования. Статья широко охватывает психологические и дидактические аспекты интегрированного подхода, играющего важную роль в современной педагогике.*

*Исследование раскрывает происхождение, этапы развития и основные концепции интегрированного образования. Подробно анализируются основные принципы, такие как целостность, научная обоснованность, систематичность и последовательность, обучение, активизация.*

*Раздел статьи, посвященный психологическим основам, рассматривает обоснование интегрированного образования с точки зрения теории когнитивного развития Ж. Пиаже, социокультурного подхода Л. С. Выготского, гештальт-психологии, ассоциативно-рефлексивной психологии, конструктивистского подхода, теории осмысленного обучения Д. Аусубеля и современных нейрофизиологических исследований. В разделе «Дидактические основы» рассматривается типология междисциплинарных связей, типы и уровни интегрированных уроков, а также законы интегрированного образования (законы взаимосвязи, непрерывности, согласованности и единства в практике).*

*В статье также рассматриваются педагогические условия, необходимые для успешной реализации интегрированного образования, преимущества и ограничения этого подхода. В заключении исследования указывается место интегрированного образования в современной системе образования и перспективы его дальнейшего развития.*

*Статья предназначена для теоретических и практических исследований в области педагогики, психологии и дидактики, а также для преподавателей, профессоров, студентов и аспирантов.*

*Статья предназначена для теоретических и практических исследований в области педагогики, психологии и дидактики, а также для преподавателей, профессоров, студентов и аспирантов.*

***Ключевые слова:*** *Интегрированное образование, междисциплинарные связи, педагогическая интеграция, целостное образование, когнитивное развитие, Жан Пиаже, Лев Выготский, гештальт-психология, дидактические принципы, законы образования, конструктивизм, осмысленное обучение, зона ближайшего развития, ассоциативные связи, метакогниция, система образования, педагогические технологии, методы обучения, междисциплинарная согласованность, системный подход, современная педагогика, инновации в образовании, образовательный процесс, дидактические основы, психологические основы, интеграция знаний.*

**KIRISH.** Zamonaviy ta’lim tizimida integralashgan yondashuv o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yaxlit, sistemali va fanlararo aloqadorlikda tashkil etishning samarali vositasi sifatida e’tirof etilmoqda. Integralashgan ta’lim turli fanlar, o‘quv mazmunlari va pedagogik usullarning uyg'unlashuviga asoslangan bo‘lib, o‘quvchilarda yaxlit dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Integralashgan ta’lim kontseptsiyasi Ya. A. Komenskiyning didaktik g‘oyalari, I. G. Pestalottsining yaxlit ta’lim tamoyillari va K. D. Ushinskiyning fanlararo aloqadorlik haqidagi qarashlarida o‘z ildizlarini topadi. Hozirgi zamon pedagogikasida bu masala Yu. S. Tyunnikov, G. F. Fedorets, I. D. Zverev kabi olimlarning tadqiqotlarida yanada rivojlantirilgan.

**Integratsiya** (lotincha “integration” - tiklash, to‘ldirish) ta’limda turli ta’lim komponentlarini bir butunlikka birlashtirishdir. Pedagogik jarayonda integratsiya ikki yo'nalishda amalga oshiriladi (1-rasmga qarang):

Gorizontal integratsiya - bir darajadagi turli fanlar o'rtasidagi aloqa

Vertikal integratsiya - turli sinf darajalaridagi bilimlarning uzluksizligi

**Integralashgan ta’limning asosiy tamoyillari**

**Yaxlitlik tamoyili.** Bu tamoyl bilimlarni ajratilgan qismlar emas, balki yaxlit tizim sifatida berilishini talab qiladi. O‘quvchilar olam haqidagi bilimlarni parchalangan holda emas, balki o‘zaro bog‘liq va uzviy aloqador holda egallaydilar.

**Ilmiy asoslilik tamoyili.** Integralashgan ta’lim fan-texnika taraqqiyoti va zamonaviy ilmiy yutuqlar bilan mustahkam aloqada bo‘lishi kerak. Fanlararo aloqalar ilmiy asoslangan va obyektiv borliqqa mos kelishi zarur.

**Sistematiklik va izchillik tamoyili.** Integralashgan materialning berilishi ma'lum tizim asosida, soddaning murakkabga qarab, ma'lumdan noma'lumga tomon rivojlanishi lozim. Har bir yangi ma'lumot oldingi bilimlarga tayanadi va keyingilariga asos bo'ladi.

**Ko‘rsatmalilik tamoyili.** Turli fanlardan olingan vizual materiallar, modellar va amaliy misollar orqali integralashgan tushunchalarni konkretlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Faollashtirish tamoyili.** O‘quvchilarning bilish faoliyatini rag‘batlantirish, ularni mustaqil izlanishtiruv ishlariga jalb etish integralashgan ta’limning samaradorligini oshiradi.

**Psixologik asoslar.** Shveytsariyalik psixolog Jean Piaje (1896-1980) bolalarning intellektual rivojlanishini to'rt bosqichga bo‘lib o'rgangan. Uning tadqiqotlari integralashgan ta’limning psixologik asoslarini tushunishda muhim ahamiyatga ega:

**Sensormotor bosqich (0-2 yosh)** - Bola atrof-muhitni sezgi organlari va harakatlar orqali o'rganadi. Bu bosqichda bilimlar parchalangan va konkret tajribalarga bog'liq.

**Operatsiyagacha bosqich (2-7 yosh)** - Sinkretik tafakkur davri. Bolalar dunyoni yaxlit, ajratilmagan holda qabul qiladilar. Ular turli hodisalarni bir-biri bilan bog'lashlari mumkin, lekin mantiqiy aloqalarni to'liq tushunmaydilar. Masalan, bulutlar harakatlanadi, shuning uchun ular tirik deb hisoblanadi. Bu davr integralashgan ta’limning tabiiy asosi hisoblanadi, chunki bolalar dunyoni tabiiy ravishda yaxlit holda idrok etadilar.

**Konkret operatsiyalar bosqichi (7-11 yosh)** - Mantiqiy tafakkur rivojlanadi, lekin faqat konkret predmetlar va vaziyatlar doirasida. Bolalar tasniflash, tartiblash, saralash operatsiyalarini bajaradilar. Bu bosqichda fanlar alohida-alohida o'rganilib, keyinchalik ularning o'rtasidagi aloqalar o'rnatilishi zarur.

**Formal operatsiyalar bosqichi (11 yoshdan yuqori)** - Abstrakt va ipotezaga asoslangan tafakkur shakllanadi. O‘smirlar mantiqiy xulosalar chiqarish, nazariy muammolarni hal qilish, fanlararo aloqalarni mustaqil o'rnatish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu bosqichda to'laqonli integralashgan ta’lim mumkin va zarurdir.

Piajening asosiy xulosasi: **bilimlar assimilyatsiya (mavjud tuzilmalarga yangi ma’lumotni qo'shish) va akkommodatsiya (yangi ma'lumot uchun tuzilmalarni o'zgartirish) jarayonlari orqali shakllanadi**. Integralashgan ta’lim bu ikkala jarayonni faollashtiradi.

Rus psixologi L. S. Vigotskiy (1896-1934) bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi rolini ta'kidlagan. Uning asosiy g'oyalari:

**Yaqin rivojlanish zonasi (ZPD - Zone of Proximal Development)** - Bu bolaning mustaqil hal qila olmaydigan, lekin kattalar yoki ko'proq bilimli tengdoshlari yordami bilan bajara oladigan vazifalar zonasi. Integralashgan ta’limda turli fanlardan bilimlar birlashtirilganda, o'quvchining ZPD kengayadi va murakkab muammolarni hal qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

**Interpsixik va intrapsixik jarayonlar** – Vigotskiyga ko'ra, barcha yuqori psixik funksiyalar avval odamlar o'rtasida (interpsixik), keyin esa shaxs ichida (intrapsixik) yuzaga keladi. Integralashgan darslar, guruh ishlari va muhokamalap bu jarayonni tezlashtiradi.

**Vositachilik kontseptsiyasi** - Til, belgilar, simvollar insonning bilish faoliyatida vositachi rolini o'ynaydi. Turli fanlarda bir xil tushunchalar turli terminlar bilan ifodalanishi mumkin. Integralashgan ta’lim bu belgilar tizimini uyg'unlashtiradi va o'quvchilarga kontseptual tushunchalar orqali turli fanlar bilimlarini bog'lashga yordam beradi.

**“Spontan” va “ilmiy” tushunchalar** - Spontan tushunchalar kundalik tajribadan kelib chiqadi, ilmiy tushunchalar esa sistemali ta’lim orqali shakllanadi. Integralashgan ta’lim bu ikki turdagi tushunchalarni muvofiqlashtiradi va o'zaro boyitadi.

Nemis psixologlari Maks Vertgeymer (1880-1943), Volfgang Kyoler (1887-1967) va Kurt Koffka (1886-1941) tomonidan yaratilgan geshtalt nazariyasi integralashgan ta’limning muhim psixologik asoslaridan biridir.

Integralashgan ta’limning psixologik asoslari bir-birini to'ldiruvchi bir nechta nazariy yondashuvlarga tayanadi. Piaje va Vьigotskiyning rivojlanish nazariyalari, geshtalt psixologiyasining yaxlitlik prinsiplari, konstruktivistik yondashuv va zamonaviy kognitiv tadqiqotlar integralashgan ta’limning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Bu nazariyalar shuni ko'rsatadiki, inson miyasi tabiiy ravishda yaxlit tushunchalar, naqshlar va aloqalarni qidirishga moyil. Integralashgan ta’lim bu tabiiy moyillikka mos keladi va bilimlarni chuqur, mustahkam va amaliy jihatdan qo'llaniladigan shaklda egallashga yordam beradi.

**Kognitiv psixologiya nuqtai nazari**

J. Piaje va L. S. Vigotskiyning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bolalarning bilish jarayoni tafakkurning konkretdan mavhumga o'sish yo'li bilan rivojlanadi. Integralashgan ta’lim bu tabiiy jarayonni qo'llab-quvvatlaydi:

**Sinkretizm bosqichi** (5-7 yosh) - bolalar dunyoni yaxlit, differentsialanmagan holda idrok etadilar

**Analiz bosqichi** (7-11 yosh) - bilimlarni ajratish va tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi

**Sintez bosqichi** (11 yoshdan yuqori) - fanlararo aloqalarni anglash, yaxlit tizimga birlashtirishqobiliyati shakllanadi

**Geshtalt psixologiyasi.** Geshtalt nazariyasi (M. Vertgeymer, V. Kyoler) bo'yicha, odam atrofolamni alohida elementlar yig‘indisi emas, balki yaxlit strukturalar (geshtaltlar) shaklida idrok etadi. Integralashgan ta’lim aynan bunday yaxlit obrazlarni shaklllantirishga qaratilgan.

**Assosiativ psixologiya.** O'quv materialini integrallash turli fanlardagi tushunchalar o'rtasida kuchli assosiativ aloqalar hosil qilishga yordam beradi. Bu esa bilimlarning uzoqroq xotirada saqlanishini va zarurat paytida oson esga tushishini ta'minlaydi.

**Didaktik asoslar**

**Fanlararo aloqalar tipologiyasi**

I. D. Zverev va V. N. Maksimova tasnifiga ko'ra:

**Mazmun bo‘yicha aloqalar** - umumiy tushunchalar, qonunlar, nazariyalar asosida

**Usullar bo'yicha aloqalar** - tadqiqot metodlari, amaliy ko'nikmalar orqali

**Tashkiliy aloqalar** - darslar tuzilishi, o'qitish shakllari vositasida

**Integralashgan darslarning turlari**

**Monofanli integralashgan dars** - asosiy fan doirasida boshqa fanlar materiali jalb etiladi

**Binarli (qo'shma) dars** - ikki fan o'qituvchilari birgalikda o'tkazadilar

**Modulli integralashgan dars** - bir mavzu turli fanlar doirasida ketma-ket o'rganiladi

**Muammoli-integralashgan dars** - muammoli vaziyat hal etish uchun turli fanlar bilimlari talab qilinadi

**Integratsiyaning darajaлari**

**Bilim darajasi** - umumiy tushunchalar, faktlar integratsiyasi

**Tushunish darajasi –** o‘xshashlik va farqlarni anglash

**Qo‘llash darajasi** - integralashgan bilimlarni amaliyotda ishlatish

**Yaratish darajasi** - yangi munosabatlarni kashf etish, ijodiy echimlar topish

**Integralashgan ta’limning qonuniyatlari**

**Bog‘liqlik qonuni**

Fanlar o'rtasidagi obyektiv aloqalar va munosabatlar ta’lim jarayonida aks ettirilishi zarur. Tabiat va jamiyatdagi hodisalar o'zaro bog'liq bo'lganidek, o'quv fanlari ham bir-birini to'ldirishi kerak.

**Uzluksizlik qonuni**

Integralashgan yondashuv barcha ta’lim bosqichlarida - bog'chadan oliy ta’limgacha uzluksiz amalga oshirilishi lozim. Har bir keyingi bosqich oldingisini mustahkamlab, yanada chuqurlashtiriladi.

**Muvofiqlik qonuni**

Integratsiya darajasi o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi va idrok etish imkoniyatlariga mos kelishi shart.

**Amaliyotdagi birlik qonuni**

Nazariy bilimlarning integratsiyasi albatta amaliy faoliyat, tajriba va ko'nikmalar bilan birga sodir bo'lishi kerak.

**Samarali amalga oshirishning pedagogik shartlari**

Integralashgan ta’limning muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun quyidagi shartlar zarur:

**O'qituvchi tayyorgarligi**

Fanlararo aloqalarni aniqlash va tashkil etish malakasi

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasi

Keng eruditsiya va bilimlar doirasi

**O'quv-metodik ta'minot**

Integralashgan darslar uchun maxsus ishlangan o'quv dasturlari

Fanlararo aloqalarni aks ettiruv chi darsliklar va qo'llanmalar

Zamonaviy texnik vositalar va multimedia materiallar

**Tashkiliy sharoitlar**

O'qituvchilar o'rtasida hamkorlik va koordinatsiya

Moslashuvehan dars jadvali

Integralashgan darslar o'tkazish uchun mo'ljallangan xonalar

**Integralashgan ta’limning afzalliklari**

**Kognitiv rivojlanish** - tizimli tafakkur, analiz va sintez qilish qobiliyati shakllanadi

**Motivatsiya oshishi** - fanlar amaliy ahamiyati aniq ko'rinadi, qiziqish kuchayadi

**Vaqt iqtisodi** - takrorlanuvchi material bir marta, lekin chuqurroq o'rganiladi

**Yaxlit dunyoqarash** - olamning kompleks tushunilishi shakllanadi

**Ijodkorlik rivojlanishi** - noan'anaviy echimlarni topish, yangicha fikrlash malakasi yuzaga keladi

**Muammolar va cheklovlar.** Integralashgan ta’limni joriy etishda qator qiyinchiliklar mavjud: O'quv dasturlari moslashuvehan emasligi. O'qituvchilarning etarli tayyorgarligi yo'qligi. Baholash tizimining murakkabligi. Standartlashtirilgan metodik materiallarning yetishmasligi. Fanlararo aloqalarni sun'iy ravishda majburlash xavfi

**Xulosa.** Integralashgan ta’lim zamonaviy pedagogikaning progressiv yo'nalishi bo'lib, u psixologik va didaktik jihatdan asoslangan bir qator tamoyl va qonuniyatlarga suyanadi. Bu yondashuv o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga, yaxlit dunyoqarashning shakllanishiga va bilimlarni amaliyotda samarali qo'llash malakasiga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Integralashgan ta’limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi maxsus tayyorlangan o'qituvchilar, moslashuvehan o'quv dasturlari va zamonaviy metodik ta'minotni talab qiladi. Kelgusida bu sohadagi tadqiqotlar raqamli texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullarini integralashgan ta’lim tizimiga kiritish yo'nalishida davom etishi maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdullayeva Sh. A. Fanlararo aloqalar – ta’lim samaradorligini oshirish omili // Ta’lim va rivojlanish. – Toshkent, 2020. – №3. – B. 45-52.
2. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2019. – 176 b.
3. Begimqulov U. Sh. Zamonaviy ta’limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2021. – 240 b.
4. Hoshimova D. U. Ta’limda fanlararo integratsiya muammolari // Uzluksiz ta’lim. – 2019. – №4. – B. 28-33.
5. Jo'rayev R. X., Tovbaev A. P. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 368 b.
6. Mahmudov M. N., Ismoilova Z. K. Didaktika. – Toshkent: Sharq, 2020. – 456 b.
7. Musulmonov N. A. Ta’lim psixologiyasi. – Toshkent: Noshir, 2019. – 328 b.
8. Qodirov A. A. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021. – 512 b.
9. Rahmonqulov E. N. Fanlararo aloqalar va ta’limda integratsiya // Xalq ta’limi. – 2020. – №2. – B. 67-73.
10. Shomirzayev M. S. Yosh psixologiyasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2018. – 296 b.
11. Zverev I. D., Maksimova V. N. Mejpredmetnie svyazi v sovremennoy shkole. – M.: Pedagogika, 1981.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Boltaboyev Mirvohid Mirzabdullayevich**
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

## O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL HARAKAT FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY MODELI

***Anotatsiya:*** *Maqolada o‘quvchilarning mustaqil harakat faolligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tizimli ravishda o‘rganish va ularning nazariy modelini ishlab chiqish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirish, talabaning tashabbuskorlik, mas’uliyat va ijodkorlik salohiyatini shakllantirishga qaratilgan texnologik yondashuvlarni aniqlashga qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *mustaqil harakat faolligi, pedagogik texnologiyalar, nazariy model, o‘quvchi faolligi, innovatsion ta’lim, pedagogik strategiyalar.*

**Болтабоев Мирвоҳид Мирзабдуллаевич**
Исследователь, Наманганский государственный университет

## ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ

***Аннотация****: В статье рассматриваются вопросы систематического изучения современных педагогических технологий, направленных на развитие самостоятельной двигательной активности учащихся, и разработки их теоретической модели. Исследование сосредоточено на выявлении технологических подходов, направленных на повышение эффективности педагогической деятельности и формирование у студентов инициативности, ответственности и творческого потенциала.*

***Ключевые слова****: самостоятельная двигательная активность, педагогические технологии, теоретическая модель, активность учащихся, инновационное образование, педагогические стратегии.*

**Boltaboyev Mirvohid Mirzabdullayevich**
Researcher, Namangan State University

## THEORETICAL MODEL OF TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING STUDENTS’ INDEPENDENT MOTOR ACTIVITY

***Abstract****: This article addresses the systematic study of modern pedagogical technologies aimed at developing students’ independent motor activity and the development of their theoretical model. The research focuses on identifying technological approaches designed to enhance the effectiveness of pedagogical activities and foster students’ initiative, responsibility, and creative potential.*

***Keywords****: independent motor activity, pedagogical technologies, theoretical model, student activity, innovative education, pedagogical strategies.*

**Kirish**: Zamonaviy ta’lim jarayonlarida o‘quvchilarning mustaqil harakat faolligini rivojlantirish masalasi pedagogik tadqiqotlarning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mustaqil harakat faolligi nafaqat o‘quvchining bilim olish jarayonidagi tashabbusini, balki ijodkorlik va mas’uliyat tuyg‘usini shakllantiradi, shuningdek, o‘z bilim va kompetensiyalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga yo‘naltirilgan amaliy ko‘nikmalarni hosil qiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik faoliyatning samaradorligi ko‘pincha o‘quvchilarning shaxsiy tashabbus va faolligiga bog‘liq bo‘lib, bu esa innovatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishni talab qiladi. Mustaqil harakat faolligi kontseptsiyasi psixologik va pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan bo‘lib, u o‘quvchining o‘z harakatlarini rejalashtirish, maqsadga yo‘naltirish va natijani baholash qobiliyatini ifodalaydi. Mustaqil faollik darajasi o‘quv jarayonida individual o‘sish sur’ati va ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Shu bilan birga, mustaqil harakat faolligi nafaqat o‘quv faoliyati bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchining ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi, mas’uliyat va liderlik qobiliyatlarini

***Keywords:*** *Skilled, handball player, running speed, goalkeeper, passing, catching the ball, taking the ball away, hitting the ground and running with it.*

**Kirish.** Shu jumladan “Jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish va boshqaruv tizimini raqamlashtirish, pedagogik va ilmiy salohiyatni yanada oshirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari sifatini tubdan yaxshilash, ilg‘or xorijiy sport-ta’lim texnologiyalarining transferini amalga oshirish orqali yuqori natijalarga erishish” asosiy maqsad qilib belgilanmoqda. Shuningdek yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo‘yicha yuqori natijalarni ta’minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va trenerlar uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish zaruratini keltirib chiqarmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommaliashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-son Farmoni, 2022-yil 3-noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-414-son Qarorida belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili**

Malakali gandbolchilarni raqobatbardosh faoliyatga tayyorlash, o‘quv-mashg‘ulotlarining ko‘p yillik bosqichlarida texnik tayyorgarlikka oid maxsus mashqlar yordamida qarshi hujum samaradorligini oshirishga yangicha ilmiy-nazariy yondashish dolzarb muammolar qatoriga kiradi. Ushbu muammoni hal etish yo‘lida bir qator mahalliy va xorijiy olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, F.A.Abduraxmanov, Sh.K.Pavlov, R.R.Kariyeva, A.A.Artikov tomonidan

musobaqa faloiyatida texnik va jismoniy tayyorgarlik holatini tizimli baholash uslubiyati ishlab chiqilgan, u yoki bu o'yin ampluasidagi o'yinchilarni tayyorlashni o'ziga xos xususiyatlari muammolari tadqiq qilingan.

**Ishning maqsadi.** Malakali gandbolchilarda chempionatida darvozabonlarning musobaqa tayyorgarligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqash mashg'ulot davomidagi tahlili.

**Natijalari va muhokama**:Darvozabon faoliyati hususiyatlarini chuqur o'rganib chiqilgandagina, gandbol jamoasining musobaqa faoliyati to'liq tadqiq etilgan hisoblanadi. Darvozabon agar darvoza tomon otilgan to'pni qaytarib uni o'zida saqlab qolsa u jamoaning tezkor qarshi hujumlarini tashkilotchisi hisoblanadi. Individual tez yorib o'tishga intilayotgan jamoadoshiga to'pni aniq uzatib berishi, raqib darvozasini tezda ishg'ol etilishiga olib keladi. Bundan tashqari, darvozabon to'pni ushlab olgandan keyin har qanday holatdan tezkor qarshi hujumni tashkil eta olishi uchun uni maydondagi har qanday jamoadoshiga uzatishga majbur. Osiyo chempionati va O'zbekiston chempionatida turli toifali darvozabonlarning musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarini qiyoslash bilan ushbu faoliyatning hilma-hil va o'xshash tomonlari to'g'risida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lish mumkin.

Oldingi bo'limda Osiyo va O'zbekiston chempionati jamoalarining musobaqa faoliyatidagi ayrim o'ziga hos hususiyatlar ochib berildi. Uchrashuvlarda darvozabon o'yini individual, guruh va jamoa bo'lib tezkor qarshi hujumlarni tashkil etilishiga ahamiyatli darajada ta'sir ko'rsatadi. 1-jadvalda Osiyo chempionati va O'zbekiston chempionati musobaqalarida darvozabonlar tomonidan to'pni qaytarish va uni o'zida saqlab qolish bo'yicha natijaviylik ko'rsatkichlari taqdim etilgan, 1-rasm ushbu ko'rsatkichlar nisbatani tasvirlangan.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston chempionati musobaqalarida tez yorib o'tish bilan birga darvozabonlarning to'pni o'zida saqlab qolishi natijasidan tashqari barcha ko'rsatkichlarni natijaviyligi Osiyo chempionatiga qaraganda past. O'zbekiston chempionatida darvozabonlar tomonidan to'pni qaytarib o'zida saqlab qolish bo'yicha umumiy natijaviylik 16 % ga kam (33,7 va 40). Ishonchli farqlanish yuqori ahamiyatlilik darajasida (P<0,001). Osiyo chempionati va O'zbekiston chempionati musobaqalarida darvozabonlarning to'pni qaytarish va uni o'zida saqlab qolish bo'yicha ko'rsatkichlarning umumiy natijaviyligi bo'yicha variativlik muvofiq ravishda katta emas (OM V, % =6; O'Ch V, % =7,7).

**1-jadval**

**Osiyo chempionati va O'zbekiston chempionati jamoalari darvozabonlarining to'pni qaytarish va uni o'zida saqlab qolish ko'rsatkichlarini natijaviyligi %**

| Umumiy natijaviylik | | Hududlardan va tezkor qarshi hujumlar orqali darvozaga to'p otishlar | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Yaqin 6 metr | Chekka | Uzoq 9 metr | Jarimadan to'p otish | Individual tez yorib o'tish | Guruhli tez yorib o'tish |
| O'zbekiston chempionati, n =8 | | | | | | | |
| $\overline{X}$ | 33,75 | 26,5 | 41 | 44,12 | 23,62 | 20 | 23,5 |
| σ | 2,63 | 4,38 | 7,38 | 5,1 | 8,98 | 8,09 | 9,78 |
| V, % | 7,7 | 16,5 | 18 | 11,5 | 39 | 0,4 | 41,6 |
| Osiyo chempionati, n =8 | | | | | | | |
| $\overline{X}$ | 40,1 | 25,8 | 44,1 | 51,3 | 31,7 | 20,4 | 15,5 |
| σ | 2,42 | 6,2 | 7,6 | 4,47 | 4,62 | 6,16 | 12,8 |
| V, % | 6 | 24 | 17,2 | 8,7 | 14,5 | 30 | 82,5 |
| Ishonchli farqlanish | | | | | | | |
| t | 5,29 | 0,28 | 0,87 | 3,14 | 2,36 | 0,11 | 2,22 |




**1-rasm. Osiyo va O‘zbekiston chempionatida darvozabonlarning to‘pni qaytarish va o‘zida saqlab qolish ko‘rsatkichlari nisbati $\overline{X}$ hisobida**

9 metrlik uzoq hududdan otilgan to‘pni ushlab qolish natijaviyligi OCh darvozabonlarida ahamiyatli ishonchli farqlanish (P<0,01) bilan 14 % ga yomon (51,3 va 44,12). Shu bilan birga ko‘rsatkichlar variativligi 2,8 % ga kam (OM V, % =8,7; O‘Ch V, % =11,5).

Jarimadan darvozaga to‘p otishni amalga oshirish bo‘yicha O‘Ch hujumchilari muvoffaqiyatliroq bo‘ldilar, ya’ni OChda darvozabon tomonidan to‘pni ushlab qolish natijaviyligi uncha katta bo‘lmagan ishonchli farqlanish (P<0,05) bilan 26 % ga yuqori (23,6 va 31,7) natija ko‘rsatdi. Ushbu ko‘rsatkichning ahamiyatli variativligi OCh darvozabonlarida 14,5 %, O‘Ch – 39 % ni tashkil etganligini ham ta’kidlab o‘tish joiz.

Raqib jamoalarining hujumchilari tezkor qarshi hujumlar orqali individual texnik-taktik harakatlarni qo‘llab, darvozabon bilan yakkama-yakka chiqqanda to‘pni qaytarish va o‘zida saqlab qolish ko‘rsatkichining natijaviyligi bo‘yicha farqlanish OCh darvozabonlari foydasiga atigi 2 % ni tashkil qildi. Farqlanish ishonchli emas (P>0,05). Shunga qaramay O‘Ch darvozabonlarida ko‘rsatkichlar variativligi birmuncha yuqori (OCh V, % =30,1; O‘Ch V, % =40).

Ikkala chempionatda guruhli tez yorib o‘tish bilan hujumda darvozabonning to‘pni qaytarish va o‘zida saqlab qolish ko‘rsatkichlari ahamiyatli darajada farqlanishga ega – 35 % (15,5 va 23,5). Shu bilan birga variativlik ikki marta farqlanadi (OCh V, % =82,5; O‘Ch V, % =41,6). Farqlanish esa ishonchli (P<0,05).

**Demak quyidagicha xulosa**. qilish mumkin, darvozabonlar tomonidan to‘pni qaytarish va o‘zida saqlab qolish natijaviyligi O‘zbekiston klub jamoalari darvozabonlariga qaraganda Osiyo chempionati milliy jamoalari darvozabonlarida ancha muvoffaqiyatli. Bu o‘z navbatida, tezkor qarshi hujumlar O‘zbekiston klub jamoalariga nisbatan, Osiyoning nomdor jamoalari tomonidan tez-tez qo‘llanilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarimizga mos keladi.

Qat’iyat bilan aytish mumkinki, darvozabonning muvoffaqiyatli o‘yini gandbol jamoalari musobaqa faoliyatida tezkor qarshi hujumlarning samaradorlik omili hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.11.2015 yildagi “Oliy mahorat sport maktablarini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-2438-son qarori. Lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.01.2020 yildagi “O‘zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5924-son Farmoni. Lex.uz.

3. Абдурахманов Ф.А., Кариева Р.Р., Оптимизация нагрузок различной направленности в межигровых циклах соревновательного периода гандболистов высокой квалификации. Фан-спортга илмий назарий журнал. 2019. № 2. – Б. 47-53.

4. Алешин И.Н., Рыбаков В.В., Алешин И.Н. и др. Моделирование годичной подготовки в командных игровых видах спорта / Теория и практика физической культуры. 2007. №10. – С. 38-42.

5. Артыков А.А. Анализ специализированниых средств по совершенствованию целевой точности технических приемов в футболе: Фан-спортга илмий-назарий журнал №3. 2017. - С. 46-47.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Gaziev Nuritdin Ruxiddinovich.**
Namangan davlat universiteti San'at va Sport fakultet Sport turlari nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti
e-mail: goziye1972nuriddin@gmail.com

## YOSH BELBOG'LI KURASHCHILARNI TEXNIK HARAKATLARGA O'RGATISH METODIKAS

***Annotatsiya***. *Ushbu maqolada. Yosh belbog'li kurashchilarni texnik harakatlarga o'rgatish metodikas kursatkichlarini aniqlash va jismoniy sifatlarni diagnostika qilish uchun pedagogik testlash metodlaridan foydalandik. Ularni quyidagi testlar guruhiga kiritdik: yuklamalardan so'ng tiklanish jarayoni va yuklamalarga bardoshliligi aniqlandi.*

***Kalit so'zlar***: *belbog'li kurashchilar, texnik, Ko'prik xolatida, rejalashtirishda, taqiqot,yelkadan oshirib tashlash,beldan oshirib tashlash,qolni boyniga o'rab tashlash, ko'krakdan oshirib tashlash,joyidan turib uzunlika sakrash.*

**Газиев Нуритдин Рухиддинович.**
Доцент кафедры теории и методики спорта факультета искусств и спорта НамГУ

## МЕТОДИКА ПОДГОТОВКИ МОЛОДЫХ БОРЦОВ К ТЕХНИЧЕСКОЙ РАБОТЕ

***Аннотация:*** *В данной статье мы использовали педагогические методы тестирования для определения показателей методики обучения юных борцов техническим приемам и диагностики физических качеств. В группу тестов были включены следующие показатели: процесс восстановления после нагрузок и переносимость нагрузок.*

***Ключевые слова:*** *Борцы с поясами, техническая борьба, позиция моста, планирование, запрет, бросок через плечо, бросок через пояс, бросок с рукой вокруг шеи, бросок в грудь, прыжок в длину с места.*

**Gaziev Nuritdin Rukhiddinovich.**
Associate Professor, Department of Theory and Methodology of Sports, Faculty of Arts and Sports, Namangan State University

## METHODICALS FOR TRAINING YOUNG BELT WRESTLERS IN TECHNICAL MOVEMENT

***Annotation:*** *In this article. We used pedagogical testing methods to determine the indicators of the methodology for teaching young belt wrestlers technical movements and to diagnose physical qualities. We included them in the following group of tests: the recovery process after loads and tolerance to loads were determined.*

***Keywords:*** *belt wrestlers, technical, bridge position, planning, ban, shoulder throw, waist throw, arm around neck throw, chest throw, standing long jump.*

**Ishning dolzarbligi.** Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi asosiy masalalardan biri aholini doimiy ravishda sport bilan shug'ullanishini ta'minlashga qaratilmoqda. Davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri olimpiya va paralimpiya sport turlarini rivojlantirish va ommaviyligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, belbog'li kurash sport turi bo'yicha keng qamrovli, ilmiy-uslubiy ishlar to'laligicha o'rganilmaganligi, bundan tashqari Yosh belbog'li belbog'li kurashchilarning tayyorgarligini rejalashtirishda kurashchilarni vazn og'irligiga ko'ra umumiy jismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarlik holatini baholovchi, mexanizmlarning yo'qligi, tayyorgarlik holatini aniqlovchi majmuali va kompleks testlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish talabini qo'ymoqda. Shuningdek, murabbiylar Yosh belbog'li belbog'li kurashchining individual imkoniyatlarini umumiy hamda maxsus jismoniy tayyorgarligi qanday darajada ekanligini aniqlash, jismoniy sifatlarni sport turiga mos ravishda texnik-taktik mashqlar majmuaviy kompleksini ishlab chiqish shu o'rinda ilmiy hamda amaliy tajribaga asoslangan tadqiqot ishlarini amalga oshirish bugungi kun talabi bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish"chora-tadbirlari to'g'risida PQ-4881-son qarori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-oktyabrdagi "Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3306 sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son "Jismoniy tarbiya va sport

sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-martdagi 122-son “Sport turlari bo‘yicha terma jamoalar tarkibiga sportchilarni saralab olish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qarorlar va boshqa bu sohaga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda aks etgan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Maqsadi** Yosh belbog‘li kurashchilarni texnika mashg‘ulotlar jarayoni bo‘yicha ilg‘or zamonaviy tajriba kurashchilar tomonidan texnik usullarning o‘zlashtirilishi dastlabki to‘laqonli nazariy tayyorgarlikka bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Kurashchi, shu bilan birga, quyidagilarni: sport va texnikasi nazariyasi asoslarini, texnik bo’lgan tayyorgarlik usullarini va ularning af jismoniy, taktik va irodaviy-psixologik tayyorgarlik bilan aniq bog‘liqligini, tanlangan sport turi xil texnikasining umumiy tuzilish haqida asoslarini va uning elementlari xususiyatlarini; harakatlarning turli shart-sharoitlarda va ayniqsa, o‘zining eng kuchli bo’lgan usulida xususiy texnikasining kuchli va zaif tomonlarini; raqiblar ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan aniqn qarshilik usullarini; aniq bir musobaqada uning oldida turgan asosiy masalalarni; ayrim texnik usullar turli musobaqalarda va asosiy raqiblar tomonidan qanday foydalanishini; musobaqalar o‘tkaziladigan tashqi muhit shart-sharoitlarining ta’sirini; hakamlik qoidalarini va xususiyatlarini bilishi kerak.

**Ilmiy yangilik** Yosh belbog‘li kurashchilarni texnik harakatlarga o‘rgatish amallari to‘g’risida yanada chuqurroq tasavvur hosil qilish uchun ularda tasavvur qila olish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va harakatlarni o‘ylab amalga oshirish qobiliyatlarini rivojlantirish lozim. Nazariy tayyorgarlik sohasida so‘z bilan va ko‘rgazmali usullardan foydalaniladi. Ular, o‘z navbatida, turli uslubiy amallar: a) sport adabiyotlarini o‘rganish; b) ma’ruzalar, seminarlar, suhbatlar; v) texnika bo‘yicha kino, fotomateriallarni tahlil qilish; g) musobaqalarni maxsus kuzatish va tahlil qilish; d) o‘zining xususiy texnik tayyorgarlik va musobaqalarda ishtiroki tajribasini tahlil qilish; e) shart-sharoitlar va musobaqa o‘tkazish joyi xususiyatlarini hamda hakamlik xususiyatlarini o‘rganish orqali bajariladi. Sport adabiyotlarini o‘rganish. Texnika bilan tanishish, odatda, sport adabiyotlarini o‘rganishdan boshlanadi. Musobaqalarda qatnashish niyatida bo‘lgan har bir kurashchi tanlagan sport turi texnikasini ham, o‘z asosiy raqiblari texnik imkoniyatlarini ham har tomonlama batafsil bilishi kerak. Kurashchi mahorati (malakasi) qanchalik yuqori bo‘lsa, sport 16 texnikasi sohasidagi unga qo‘yiladigan talablar ham shunchalik yuqori bo‘lishi kerak. Mumkin bo‘lgan barcha adabiyotlarni o‘rganib chiqish texnika asoslarini nazariy o‘rganish va texnik tayyorgarlikning eng asosiy va muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Texnika bo‘yicha asosiy bilimlarni o‘zlashtirishga kurashchi ma’lum tizimli tartibda darsliklarni, monografiyalarni, qo‘llanmalarni, ilmiyuslubiy maqolalarni o‘rganish orqali erishadi. Texnikani chuqur tushunmay turib uni ongli ravishda takomillashtirish to‘g’risida gapirish ham mumkin emas. Sport sohasiga oid gazeta va jurnallardan bo‘lg‘uvchi raqiblar xarakteristikalari (musobaqalarda ko‘rsatgan texnik natijalari, jismoniy rivojlanish ma’lumotlari, texnika bo‘yicha turli nazorat mashqlarini bajarish natijalari; eng yaxshi ko‘rgan texnik usullari va ularni qo‘llash shart–sharoitlari; psixologik jixatdan turg‘unligi va boshqalar) to‘g’risida juda ko‘pgina foydali ma’lumotlarni olish mumkin. Namordik tajriba sinovlar jami 28 nafar shulardan 14 nafari tajriba guruhida 14 nafari nazorat guruhida Yosh belbog‘li belbog‘li kurashchilar jalb qilingan tajriba boshida quydagi natijalar aniqlandi. Texnik harakatlarni bajarish uchun urunishlar soni tajriba guruhida 6 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 6,1 tashkil qildi. texnik harakatlarni bajarish uchun baholangan (muvaffaqiyatli) urunishlar soni tajriba guruhida 4,1t ani tashkil qildi nazorat guruhida esa 3 tashkil qildi, tajriba guruhida 0,6 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 0,5 tashkil qildi, texnik harakatlar uchun o‘rtacha baho tajriba guruhida 1,6 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 1,4 tashkil qildi, hujum darajasi tajriba guruhida 6,5 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 4,1 tashkil qildi, Muvaffaqiyatli hujum oralig‘i tajriba guruhida 1,1 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 0,6 tashkil qildi, Raqibning baholangan hujumlar soni tajriba guruhida 4,1 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 3 tashkil qildi, Raqib hujumlarining umumiy soni tajriba guruhida 6 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 6,1 tashkil qildi, Yutqazilgan ballar yig’indisi tajriba guruhida 4,1 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 6,5 tashkil qildi, Himoyaning ishonchliligi tajriba guruhida 0,6 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 0,5 tashkil qildi, Yutqazilgan ballarning o‘rtacha bahosi tajriba guruhida 1,4 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 1,6 tashkil qildi, Himoya darajasi tajriba guruhida 1,1 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 0,6 tashkil qildi, Hujum darajasi tajriba guruhida 00,2 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 00,1tashkil qildi.

**1-jadval**

**Yosh belbog‘li kurashchilarni texnik harakatlararni ko‘rsatkichlari**

| № | Yosh belbog‘li kurashchilarning texnik ko‘rsatkichlari | Belgilari | Koeffitsiyent | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Tadqiqot boshida | | Tadqiqot ohirida | |
| | | | Tg | Ng | Tg | Ng |
| 1 | Texnik harakatlarni bajarish uchun urunishlar soni | M | 6 | 6,1 | 6,7 | 6,2 |
| 2 | Texnik harakatlarni bajarish uchun | N | 4,1 | 3 | 4,3 | 3,2 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | baholangan (muvaffaqiyatli) urunishlar soni | | | | | |
| 3 | Hujumning ishonchliligi | Ha | 0,6 | 0,5 | 0,6 | 0,5 |
| 4 | Texnik harakatlar uchun o'rtacha baho | A | 1,6 | 1,4 | 1,3 | 1,6 |
| 5 | Hujum darajasi | Ha | 6,5 | 4,1 | 5,7 | 5,1 |
| 6 | Muvaffaqiyatli hujum oralig'i | Иа | 1,1 | 0,6 | 0,9 | 0,8 |
| 10 | Raqibning baholangan hujumlar soni | N | 4,1 | 3 | 4,3 | 3,2 |
| 11 | Raqib hujumlarining umumiy soni | N1 | 6 | 6,1 | 6,2 | 6,7 |
| 12 | Yutqazilgan ballar yig'indisi | L | 4,1 | 6,5 | 5,1 | 5,7 |
| 13 | Himoyaning ishonchliligi | H3 | 0,6 | 0,5 | 0,6 | 0,5 |
| 14 | Yutqazilgan ballarning o'rtacha bahosi | Cpr | 1,4 | 1,6 | 1,6 | 1,3 |
| 15 | Himoya darajasi | KZ | 1,1 | 0,6 | 0,9 | 0,8 |
| 16 | Hujum darajasi | R1 | 00,2 | 00,1 | 0,02 | 0,01 |

Yosh belbog'li erkin angan shaxar yakka kurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabida olib bkurashchilarni musobaqa faoliyati texnik-taktik ko'rsatkichlari aniqlashda Namordik tajriba sinovlar jami 28 nafar, shulardan 14 nafari tajriba guruhida, 14 nafari nazorat guruhida Yosh belbog'li belbog'li kurashchilar jalb qilingan




tajriba oxirida quydagi natijalar aniqlandi Texnik harakatlarni bajarish uchun urunishlar soni tajriba guruhida 6,7 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 6,2 tashkil qildi. texnik harakatlarni bajarish uchun baholangan (muvaffaqiyatli) urunishlar soni tajriba guruhida 4,3tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 3,2 tashkil qildi, tajriba guruhida 0,6 tani tashkil qildi.

**1-rasm. Tajriba va nazorat kurashchilar guruhlarining pedagogik tajriba oxirida texnik-taktik tayyorgarlik ko'rsatkichlari statistik farqini ifodalovchi diagramma**

Nazorat guruhida esa 0,5 tashkil qildi, техник харакатлар учун ўртача баҳо tajriba guruhida 1,3 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 1,6 tashkil qildi, Хужум даражаси tajriba guruhida 5,7 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa5,1 tashkil qildi, muvaffaqiyatli hujum oralig'i tajriba guruhida 0,9 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 0,8 tashkil qildi, raqibning baholangan hujumlar soni tajriba guruhida 4,3 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 3,2 tashkil qildi, raqib hujumlarining umumiy soni tajriba guruhida 6,2 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 6,7 tashkil qildi, yutqazilgan ballar yig'indisi tajriba guruhida 5,1 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 5,7 tashkil qildi, himoyaning ishonchliligi tajriba guruhida 0,6 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 0,5 tashkil qildi, yutqazilgan ballarning o'rtacha bahosi tajriba guruhida 1,6 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 1,3 tashkil qildi, himoya darajasi tajriba guruhida 0,9 tani tashkil qildi

nazorat guruhida esa 0,8 tashkil qildi, hujum darajasi tajriba guruhida 0,02 tani tashkil qildi nazorat guruhida esa 0,01 tashkil qildi.

**Xulosa** ilmiy hamda uslubiy adabiyotlar tahlillari shuni koʻrsatdiki, oxirgi yillarda malakali belbogʻli kurashchilar maxsus tayyorgarlik aniq bosqichlarining mashgʻulotlari kattaligi va yoʻnalish muhiim tizimlarini takomillashtirishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Jumladan, katta yuklamali mashgʻulotlarning umumiy sonini oshirish natijasida belbogʻli kurashchilarning maxsus ish qobiliyatini oʻstirish, belbogʻli kurashchilar maxsus tayyorgarlik bosqichlarining mashgʻulotlari kattaligi va yoʻnalish tizimlarini takomillashtirish, maxsus jismoniy tayyorgarligi sifatlarini rivojlantirish belbogʻli kurashchilar organizmiga harakat mexanizmining taʼsir samaradorligini oshirish, turli yoʻnalishdagi katta yuklamali mashgʻulotlar taʼsiri tavsifi va ularning qoʻshimcha mashgʻulotlar bilan uygʻunlashtirilishi, mikrosikllarda mashgʻulotlarni ratsional almashlab oʻtkazishga oid quyidagi qonuniyatlar va uslublar aniqlandi:

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining, 2020 yil 04 noyabrdagi “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish” chora-tadbirlari toʻgʻrisida PQ-4881-son qarori/WWW. Lex.uz.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining, 2020 yil 24 yanvardagi “Oʻzbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish” chora-tadbirlari toʻgʻrisida pf-5924-son farmoni/WWW. Lex.uz.
3. Abdullayev Sh. a.yosh kurashchilarni tayerlash ilmiy-uslubiy assoslari. O'kuv-uslubiy qo'llanma. T., 2012, B. 32-35.
4. Abdurasulova G. B. yesh Qilichbozlarningning yeshga oid harakat potensiasining dinamikasi.: Fan-sportga, T., 2016, no 3., B. 3-8.
5. Toychiyev T.S. Yuqori malakali belbogʻli kurashchilarda tezkor- kuch sifatini tarbiyalashda statik mashqlardan foydalanish metodikasi. Namangan davlat unversiteti Xududiy ilmiy-nazariy anjuman. 2016.218-221-betlar.
6. Abramova T. F. motor qobiliyatining morfogenetik belgilari / T. F. Abramova, E. G. Martirosov / / jismoniy tarbiya va sportda yangi tadqiqot usullari: Sat. ilmiy. asarlari. Smolensk shahri. – 1999. 4-8-sahifalar.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Hafizov Akmal Rustamovich**,
Buxoro energetika, neft va gaz sanoati texnikumi o‘quv ishlar bo‘yicha director o‘rinbosari
Email: aznavur-uz@mail.ru

## PROFESSIONAL TA’LIMDA MAXSUS FAN O‘QITUVCHILARI MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

***Annotatsiya:*** *Maqolada professional ta’lim muassasalarida maxsus fan o‘qituvchilari mediakompetentligini rivojlantirish muammosining dolzarbligi, amaldagi holati va yechim yo‘llari tahlil qilingan. Tadqiqot raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy ta’lim sifatini oshirish uchun mediakompetentlikning strategik ahamiyatini asoslashga qaratilgan.Metodlar. Tadqiqotda nazariy-metodologik tahlil, tizimli yondashuv, muammoli-diagnostik usullar qo‘llanilgan. Andragogik malaka oshirish jarayoni ”Mexanika muhandisligi” yo‘nalishi misolida o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *mediakompetentlik, professional ta’lim, maxsus fan o‘qituvchisi, andragogika, raqamli transformatsiya, axborot manbalari, tanqidiy fikrlash, media-kontent yaratish.*

**Khafizov Akmal Rustamovich,**
Deputy Director for Academic Affairs of the Bukhara Technical College of Energy, Oil and Gas Industry

## DEVELOPMENT OF MEDIA COMPETENCE OF SPECIAL SUBJECT TEACHERS IN VOCATIONAL EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS

***Abstract:*** *This article analyzes the relevance of the problem of developing media competence of special subject teachers in vocational education institutions, the current state and solutions. The research is aimed at substantiating the strategic importance of media competence for improving the quality of vocational education in the context of digital transformation. Methods. The study used theoretical and methodological analysis, a systematic approach, and problem-diagnostic methods. The process of andragogical skills development was studied using the example of the ”Mechanical Engineering” direction.*

***Keywords:*** *media competence, vocational education, special subject teacher, andragogy, digital transformation, information sources, critical thinking, media content creation.*

**Хафизов Акмал Рустамович,**
заместитель директора по учебной части Бухарского технического техникума энергетики, нефтегазовой промышленности

## РАЗВИТИЕ МЕДИАКОМПЕТЕНТНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ СПЕЦИАЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется актуальность проблемы развития медиакомпетентности преподавателей специальных дисциплин в учреждениях профессионального образования, текущее состояние и пути решения. Исследование направлено на обоснование стратегической важности медиакомпетентности для повышения качества профессионального образования в условиях цифровой трансформации. В исследовании использованы теоретико-методологический анализ, системный подход, проблемно-диагностические методы.*

***Ключевые слова:*** *медиакомпетентность, профессиональное образование, преподаватель специальных дисциплин, андрагогика, цифровая трансформация, информационные источники, критическое мышление, создание медиа-контента.*

Raqamli axborot muhitining tez sur’atlarda kengayishi kasbiy ta’lim tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Ayniqsa maxsus fan o‘qituvchilari (ishlab chiqarish ta’limi ustalari) faoliyatida axborotni topish, tekshirish va ta’lim jarayoniga maqsadli tatbiq etish ko‘nikmalari hal qiluvchi omilga aylanib bormoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida professional ta’lim muassasalarida ta’lim mazmuni va o‘qitish texnologiyalari yangilanishi tabiiy jarayondir. Biroq bu jarayon faqat platformalarni joriy qilish yoki texnik jihozlash bilan cheklanmaydi [1, 2].

Ta’lim sifati ko‘p jihatdan o‘qituvchining axborot va media bilan ishlash madaniyatiga, ya’ni mediakompetentligiga bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa "Mexanika muhandisligi" kabi yuqori amaliy va xavfli ishlab chiqarish jarayonlariga bog‘liq yo‘nalishlarda maxsus fan o‘qituvchisi har bir ta’lim epizodida ishonchli manbani tanlashi, texnik ma’lumotni tez topishi, uning haqqoniyligini tekshirishi, uni o‘quv maqsadlariga moslab qayta ishlashi va qisqa, tushunarli media-kontent ko‘rinishida taqdim etishi zarur bo‘ladi [3, 4]. Aks holda, noto‘g‘ri yoki eskirgan axborotga tayanish, hatto mayda xatolar ham ishlab chiqarish xavfsizligi, texnika ekspluatatsiyasi, ta’mirlash texnologiyasi bo‘yicha salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning maqsadi professional ta’limda maxsus fan o‘qituvchilari mediakompetentligini rivojlantirish muammosining dolzarbligi va amaldagi holatini tizimli tahlil qilish, shuningdek andragogik malaka oshirish sharoitida ushbu muammoning yechim yo‘llarini asoslashdan iborat.

**1. Axborot manbalari hajmining ko‘payishi va sifat ziddiyati**

Mazkur muammoning dolzarbligi, avvalo, axborot manbalari hajmining ko‘payishi bilan izohlanadi. Bugun o‘qituvchi texnik reglamentlar, ishlab chiqaruvchi yo‘riqnomalari, servis byulletenlar, ta’lim videolari, forumlar, telegram-kanallar va boshqa manbalar o‘rtasida qaror qabul qiladi. Shuning uchun axborotni izlashning o‘zi yetarli emas; ishonchlilikni tekshirish, dolzarblikni baholash, texnik terminlarni to‘g‘ri talqin qilish va manba maqsadini anglash bir butun kompetensiyalar majmuasini talab qiladi [5, 6].

Bunda "feyk xavfi" faqat ijtimoiy-siyosiy maydonga tegishli emas, balki texnik sohada ham mavjud: internetdagi ba’zi video-yo‘riqnomalar, "ustalar maslahati" sifatida tarqalgan materiallar noto‘g‘ri yig‘ish/sozlash usullarini targ‘ib qilishi mumkin. Natijada o‘qituvchi media kontentdan foydalanap ekan, tanqidiy fikrlash asosida uni filtrlashga majbur; shuning uchun mediakompetentlik maxsus fan o‘qituvchisi kasbiy malakasining uzviy qismiga aylanadi [7].

**2. Ta’lim jarayonining gibrid formatlarga siljishi**

Ikkinchi muhim omil - ta’lim jarayonining gibrid (aralash) formatlarga siljishi va o‘quvchilarning media orqali o‘qish odatlari shakllanib borishi bilan bog‘liq. Hozirgi tinglovchi (yosh va katta yoshdagilar) texnik ma’lumotni ko‘pincha video, qisqa qo‘llanma, infografika, chek-list kabi formatlarda tez qabul qiladi. Shuning uchun o‘qituvchi materialni faqat matn ko‘rinishida emas, balki media-shakllarda ham tashkil etishi talab etiladi [8, 9].

Bu esa media-kontent yaratish (masalan, "dvigatelдаги nosozlik belgilarini aniqlash" bo‘yicha 3–5 daqiqalik mikrovideo, "texnik xavfsizlik qoidalari" bo‘yicha infografika, "traktor gidravlikasi" bo‘yicha prezentatsiya) kabi amaliy ko‘nikmalarni talab qiladi. Demak, mediakompetentlik - kasbiy ta’limda o‘qitishning zamonaviy shakllari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘langan strategik resursdir [10].

**3. Natijaga yo‘naltirilganlik tamoyili**

Uchinchi omil - professional ta’limda natijaga yo‘naltirilganlik (amaliyotga yaqinlashtirish) tamoyili. Maxsus fan o‘qituvchisi o‘quvchiga "to‘g‘ri usul"ni berishi, xatoning sababini ko‘rsatishi, ish jarayonida xavfni boshqarishni o‘rgatishi kerak. Shuning uchun u texnik ma’lumotni "tayyor holda" ko‘chirib qo‘ymasdan, uni tahlil qiladi, strukturalaydi, muhim nuqtalarini ajratadi, standart talablar bilan taqqoslaydi, keyin o‘quv topshiriqlariga aylantiradi [11, 12].

Natijada axborotni tahlil qilish hamda tanqidiy fikrlash mediakompetentlikning markaziy o‘zagi sifatida namoyon bo‘ladi. Agar bu ko‘nikmalar shakllanmagan bo‘lsa, o‘qituvchi mediani "bezak" sifatida ishlatadi, xolos; demak, ta’lim sifatini oshirish funksiyasi amalga oshmaydi.

**4. Andragogik malaka oshirish jarayonining xususiyatlari**

To‘rtinchi omil - tadqiqot konteksti sifatida tanlangan andragogik malaka oshirish jarayonining o‘zi bilan bog‘liq. Malaka oshirish kurslari tinglovchilari odatda tajribali amaliyotchilar bo‘lib, ularda ish uslubi shakllangan, vaqt resurslari cheklangan, o‘rganishga qaratilgan motivatsiya esa "darhol ishda qo‘llash"ga bog‘liq bo‘ladi [13, 14].

Shuning uchun mediakompetentlikni rivojlantirishni an’anaviy ma’ruza bilan hal etib bo‘lmaydi; o‘qitish jarayoni muammoli vaziyatlar, amaliy keyslar, tezkor media-tahlil, kontent yaratish mashqlari va hamkorlikka tayangan shakllarda tashkil etilishi kerak. Bunda Moodle, YouTube, Telegram kabi platformalar faqat kommunikatsiya vositasi emas, balki mediakompetentlikni shakllantiruvchi "o‘quv muhiti" vazifasini bajaradi [15].

Mavjud holat tahlili shuni ko‘rsatadiki, professional ta’lim tizimida o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarida raqamli vositalardan foydalanishga alohida urg‘u berilayotgan bo‘lsa-da, mediakompetentlik ko‘p hollarda parokanda tushuncha sifatida qolmoqda. Ya’ni ba’zi kurslarda "AKTdan foydalanish", "onlayn platformalarda ishlash", "prezentatsiya tayyorlash" kabi yo‘nalishlar berilsa-da, axborotni ishonchlilik nuqtai nazaridan baholash, texnik ma’lumotni manba mezonlari asosida tanlash, media-kontentning ta’limiy sifatini tahlil qilish, feyk/manipulyativ materiallarni aniqlash kabi kompetensiyalar yetarlicha tizimlashtirilmagan bo‘lishi mumkin [16, 17].

Natijada o‘qituvchi texnik jihatdan "foydalanuvchi"ga aylanadi, lekin media bilan ishlashda metodik-tanqidiy pozitsiya shakllanmaydi. Shuning uchun tadqiqot dolzarb vazifa sifatida "mediakompetentlikni tizimli rivojlantirish" metodikasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

**Asosiy ziddiyatlar:** Shu nuqtai nazardan, professional ta’limda mediakompetentlik muammosi quyidagi asosiy ziddiyatlarda ifodalanadi:

1. **Manba tanlash ziddiyati:** Raqamli axborotning ko‘payishi va uning sifati turlicha bo‘lishiga qarshi o‘qituvchining manba tanlash mezonlari yetarli emasligi;

2. **Kontent yaratish ziddiyati:** Ta’limda media vositalardan foydalanishga ehtiyoj ortib borayotgan bir paytda, media-kontent yaratish va uni metodik maqsadda qo‘llash ko‘nikmalariga tizimli tayyorgarlik pastligi;

3. **Integratsiya ziddiyati:** Malaka oshirish kurslarida platformalar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, ularni mediakompetentlikni rivojlantiruvchi yagona metodik modelga integratsiya qilish mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmaganligi.

Muammoning "holati tahlili"ni amaliy nuqtai nazardan ham asoslash muhim. Maxsus fan o‘qituvchisi kundalik ishida quyidagi tipik vaziyatlarga duch keladi:

1. **Tezkor ma’lumot izlash:** Texnik mavzu bo‘yicha tezkor ma’lumot topish (model, uzel, alomat, diagnostika qadami);

2. **Ishonchlilikni tekshirish:** Internetdan topilgan video/maqolaning ishonchliligini tekshirish (muallif, manba, data, standartga moslik);

3. **Ma’lumotni qayta ishlash:** Topilgan ma’lumotni ta’lim maqsadlariga muvofiq qayta ishlash (soddalashtirish, strukturallash, xatolarni oldindan ko‘rsatish);

4. **Media shaklida topshiriq tayyorlash:** O‘quvchi uchun media shaklda topshiriq yoki tushuntirish materialini tayyorlash;

5. **Masofaviy maslahat:** Telegram orqali savol-javoblar, fotosurat/video orqali masofaviy maslahat berish, bahs-munozarada dalil talab qilish.

Agar mazkur vaziyatlar tizimli ravishda o‘quv jarayoniga "ta’lim topshiriqlari" sifatida kiritilsa, mediakompetentlik tabiiy rivojlanadi; demak, tadqiqotning metodik qismida aynan shu amaliyotga yo‘naltirilgan yechimlar ishlab chiqilishi kerak bo‘ladi.

Yuqoridagi tahlildan kelib chiqib, mazkur tadqiqot doirasida mediakompetentlikni rivojlantirish muammosi "mavzudan tashqari qo‘shimcha" emas, balki maxsus fan o‘qituvchisining kasbiy faoliyatiga xizmat qiluvchi integral metakompetensiya sifatida qaraladi [19, 20].

Shuning uchun tadqiqotda axborotni izlash → tahlil qilish → media-kontent yaratish → tanqidiy fikrlash zanjiri o‘qitish jarayonining barcha bosqichlariga joriy qilinadi. Natijada metodika "qisqa kurs" emas, balki andragogik malaka oshirish jarayoniga ichki mexanizm sifatida singdirilgan, bosqichli va natijaga yo‘naltirilgan tizimga aylanishi ko‘zda tutiladi [21].

O‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1.Raqamli axborot muhiti kengayishi kasbiy ta’limda maxsus fan o‘qituvchisidan mediakompetentlikni talab etmoqda.

2."Mexanika muhandisligi" yo‘nalishida noto‘g‘ri/ishonchsiz texnik axborotdan foydalanish xavfsizlik va ta’lim sifatiga bevosita ta’sir qiladi.

3.Mediakompetentlik axborotni izlash, tahlil qilish, media-kontent yaratish va tanqidiy fikrlash zanjirida namoyon bo‘ladi.

4.Andragogik malaka oshirish sharoitida tinglovchilarning tajribaga suyangan, amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qish ehtiyoji metodik yechimni bosqichli qilishni talab qiladi.

5.Mavjud amaliyotda platformalardan foydalanish uchrasa-da, mediakompetentlikni tizimli rivojlantirish mexanizmlari yetarlicha metodiklashtirilmagan.

6.Muammo ziddiyatlar kesimida ifodalanadi: talab ortishi ↔ mezonli manba tanlash yetishmasligi; media zarurati ↔ kontent yaratish ko‘nikmalari pastligi; platforma bor ↔ integratsiya modeli yo‘qligi.

**Amaliy tavsiyalar: Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar beriladi**: Malaka oshirish dasturlarida mediakompetentlikni alohida modul sifatida emas, balki barcha kurs mazmuniga integral tarzda joriy etish; Maxsus fan o‘qituvchilari uchun "manba tanlash mezonlari", "media-kontent yaratish texnologiyalari" va "tanqidiy fikrlash amaliyotlari" bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish; Moodle, YouTube, Telegram kabi platformalarni mediakompetentlikni rivojlantiruvchi "o‘quv muhiti" sifatida tizimli qo‘llash; O‘qituvchilar faoliyatini baholashda mediakompetentlik ko‘rsatkichlarini hisobga olish.

Keyingi tadqiqotlarda mediakompetentlik tushunchasi va tarkibiy komponentlarini aniqlashtirish, shuningdek "mezon–ko‘rsatkich" asosida tavsiflash mezonlarini ishlab chiqish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Knowles M.S. The adult learner: A neglected species. Houston: Gulf Publishing Company, 1990. 378 p.

2. Mezirow J. Transformative learning: Theory to practice // New Directions for Adult and Continuing Education. 1997. Vol. 74. P. 5-12.

3. Potter W.J. Media Literacy. 9th ed. Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2018. 432 p.

4. Hobbs R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. Thousand Oaks, CA: Corwin Press, 2011. 248 p.

5. Livingstone S. Media literacy and the challenge of new information and communication technologies // The Communication Review. 2004. Vol. 7(1). P. 3-14.

6. Jenkins H. Confronting the challenges of participatory culture: Media education for the 21st century. Cambridge, MA: MIT Press, 2009. 145 p.

7. Wardle C., Derakhshan H. Information Disorder: Toward an interdisciplinary framework for research and policy making. Council of Europe report, 2017. 107 p.

8. Prensky M. Digital natives, digital immigrants // On the Horizon. 2001. Vol. 9(5). P. 1-6.

9. Garrison D.R., Vaughan N.D. Blended learning in higher education: Framework, principles, and guidelines. San Francisco: Jossey-Bass, 2008. 272 p.

10. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. 95 p.

11. Schön D.A. The reflective practitioner: How professionals think in action. New York: Basic Books, 1983. 374 p.

12. Kolb D.A. Experiential learning: Experience as the source of learning and development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984. 256 p.

13. Brookfield S.D. Understanding and facilitating adult learning. San Francisco: Jossey-Bass, 1986. 376 p.

14. Jarvis P. Adult education and lifelong learning: Theory and practice. 3rd ed. London: Routledge, 2004. 368 p.

15. Salmon G. E-moderating: The key to teaching and learning online. 3rd ed. London: Routledge, 2011. 242 p.

16. Ferrari A. Digital competence in practice: An analysis of frameworks. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2012. 92 p.

17. Buckingham D. Media education: Literacy, learning and contemporary culture. Cambridge: Polity Press, 2003. 219 p.

18. Kellner D., Share J. Critical media literacy is not an option // Learning Inquiry. 2007. Vol. 1(1). P. 59-69.

19. Fedorov A. Media education and media literacy: Experts' opinions // MENTOR. A Media Education Curriculum for Teachers in the Mediterranean. Paris: UNESCO, 2003. P. 25-33.

20. Pérez Tornero J.M., Varis T. Media literacy and new humanism. Moscow: UNESCO Institute for Information Technologies in Education, 2010. 136 p.

21. Carretero S., Vuorikari R., Punie Y. DigComp 2.1: The Digital Competence Framework for Citizens. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. 48 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Qalandarova Iroda Hamdam qizi**
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

## ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA TAFAKKUR VA TANQIDIY FIKRLASH TUSHUNCHALARINING NAZARIY ASOSLARI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada inson tafakkurining shakllanishi va rivojlanishi masalalari tarixiy va nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tafakkur tushunchasiga oid yetakchi olimlarning yondashuvlari qiyosiy asosda yoritilib, tafakkurning inson faoliyatidagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, tanqid va tanqidiy fikrlash tushunchalarining mazmun-mohiyati ilmiy manbalar asosida izohlanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarbligi asoslanadi hamda bu ko'nikmalar shaxsning moslashuvchanligi, mustaqil qaror qabul qilishi va muammolarni hal etishdagi ahamiyati ochib beriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *tafakkur; fikrlash; tanqid; tanqidiy fikrlash; metakognitsiya; bilish jarayoni; mantiqiy tafakkur; muammo yechish; ta'lim jarayoni; kognitiv yondashuv; shaxs rivoji; zamonaviy ta'lim.*

**Qalandarova Iroda Hamdam kizi**
Researcher at Urgench State University

## THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE CONCEPTS OF THINKING AND CRITICAL THINKING IN MODERN EDUCATION

***Annotation:*** *This article analyzes the formation and development of human thinking from historical and theoretical perspectives. The views of leading scholars on the concept of thinking are comparatively examined, revealing the role of thinking in human activity. In addition, the concepts of criticism and critical thinking are interpreted based on scientific sources. The study emphasizes the importance of developing critical thinking skills in modern education and highlights their role in enhancing learners' adaptability, independent decision-making, and problem-solving abilities. The article concludes that critical thinking serves as a fundamental cognitive tool for personal development and effective participation in contemporary society.*

***Keywords:*** *thinking; cognition; criticism; critical thinking; metacognition; cognitive process; logical reasoning; problem solving; education process; cognitive approach; personal development; modern education.*

**Каландарова Ирода Хамдам Кизи**
Аспирант Ургенчского государственного университета

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЙ ВОССТАНОВЛЕНИЯ И КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ.

***Примечание****: В данной статье анализируются вопросы формирования и развития человеческого мышления с историко-теоретической точки зрения. На сравнительной основе освещаются подходы ведущих ученых к концепции мышления, раскрывается роль мышления в человеческой деятельности. Также на основе научных источников объясняется сущность понятий критики и критического мышления. Обосновывается актуальность формирования навыков критического мышления в современном образовательном процессе и раскрывается важность этих навыков в процессе личностной гибкости, самостоятельного принятия решений и решения проблем.*

***Ключевые слова:*** *мышление; мышление; критика; критическое мышление; метапознание; познавательный процесс; логическое мышление; решение проблем; образовательный процесс; познавательный подход; личностное развитие; современное образование.*

Insoniyat tarixining ilk kunlaridan boshlab o'zini o'rab turgan atrof-muhitga nisbatan befarq bo'lmay, unda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni katta qiziqish bildirgan va tizimli nazar tashlab kelgan. U atrofidagi olamni o'z ehtiyojlariga mos ravishda shakllantirishga intilib, mavjud sharoitlar bilan cheklanmasdan, doimo yanada takmollashgan hayotni yoki mukammal imkoniyatlarni izlagan. Bu jarayonlarda esa insonga birlamchi shaklda tafakkur qilish qobiliyati

yordam bergan va inson bu qobiliyatidan samarali foydalanishga uringan. Aynan ushbu jihat insonni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi.

Fikrlashning, xususan, nimani va qanday fikrlayotganini anglashning nihoyatda muhimligi sababli, mazkur tushuncha yuzasidan o‘tmishdan hozirgi kungacha turli xil ta’riflar berib kelinmoqda. Dewey[2]ga ko‘ra, “tafakkur yomg‘ir alomatlarini sezishga o‘xshab, kelajakda sodir bo‘ladigan hodisalarni oldindan anglash va shunga muvofiq harakat qilishdir”. Hazlitt fikricha, “tafakkur — ma’lum bir maqsadga erishish, natijani ko‘ra bilish hamda muammoni hal etish jarayonidir”[3]. Brunerga ko‘ra, esa tafakkur “samarali va “sehrli” tushuncha sifatida baholanadi”. Lipman esa “shaxsning o‘z bilish jarayonlari va metabilish (yuqori darajadagi bilish) haqidagi anglanganlik darajasini ifodalaydi”[4].

Tafakkur bizningcha “muammoni hal etish jarayoni bo‘lib, so‘zlarning muayyan maqsad asosida tuzilishi hamda oddiy, bir o‘zgaruvchili sabab-oqibat munosabatlaridan tortib, ko‘p o‘lchovli va murakkab sabab-oqibat aloqalarigacha bo‘lgan mantiqiy xulosa chiqarish tizimini qamrab oladi. Ya’ni, tafakkur — shaxsning ayni paytda o‘qiyotgan jumlasini, atrofida ko‘rayotgan obyektlarni, yozayotgan so‘zini yoki aytayotgan nutqini anglay olishi va sharhlay bilishidir.

Tadqiqotchi olim Dogan ta’kidlashicha, “tafakkurga nisbatan ilmiy yondashuvlar quyidagi ikki xil shaklda bo‘ladi: birinchi yondashuv tafakkurni mahsulot yoki natija sifatida izohlaydi, ikkinchi yondashuv esa uni jarayon sifatida talqin etadi”[5]. Xulq-atvorchilar tafakkurni natija sifatida, kognitiv yo‘nalish vakillari esa jarayon sifatida ta’riflaydilar.

Zamonaviy dunyo talablari bugungi kunda insonlarning rivojlangan tafakkur ko‘nikmalariga ega bo‘lishini taqozo etadi. Shuning uchun avvalo, ta’lim jarayonida ma’lumotni shunchaki qabul qilish va uzatishdan ko‘ra, tafakkur qilishni o‘rganish tobora muhim ahamiyat kasb etishi lozim. Shu sababli hozirgi kunda maktablarda fikrlay oladigan, tanqidiy yondasha oladigan, ijod qiladigan hamda bilimga erishish yo‘llarini biladigan o‘quvchilarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilishi hamda ularda tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlari ishlab chiqish kun tartibidagi asosiy masala bo’lishi lozim. Chunki tafakkur ko‘nikmalariga, xususan tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘quvchilar murakkab vaziyatlarda yoki yangi qarashlar, munosabatlar va xatti-harakatlarni o‘zlashtirishda yoki mavjud qarashlarini yangilari bilan almashtirishda, yangilikni izlab topib uni qabul qilishda qiyinchiliklarga duch kelmaydilar

O’zbek tilida “tanqid” tushunchasi ko‘pincha muayyan shaxsga yoki obyektga qaratilgan, odatda salbiy mazmundagi baholar bilan sinonim sifatida qo‘llaniladi. O’zbek milliy ensklopediyasida aytilishicha “Tanqid - biror narsa yoki hodisaga baho berish maqsadida uni tahlil qilish va muhokama etish (masalan, adabiy tanqid); muayyan narsa haqida salbiy fikr bildirish; mavjud kamchiliklarni har tomonlama asoslab ko‘rsatish va ularni bartaraf etish maqsadida bildiriladigan fikr-mulohazalar majmui. Shu jihatdan tanqid taraqqiyot omili sifatida qaraladi. Agar tanqid asosli bo‘lsa, uni inobatga olish mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilib, rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq ayrim hollarda tanqid arzimas nuqsonlarni bo‘rttirib ko‘rsatish yoki erkin fikr bildirish imkoniyatidan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida mavjud muhitda keskinlikni yuzaga keltirishi ham mumkin. Tanqid alohida shaxs, guruh yoki jamoaga, aniqrog‘i, ularning faoliyati natijalariga qaratilishi mumkin. Bunda shaxsiy manfaatlar bilan umumiy manfaatlar uyg‘unligi ta’minlangan taqdirda, tanqidiy fikrlar jamiyat manfaatiga xizmat qiladi”[6]. Biroq tegishli ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “tanqidiy fikrlash” tushunchasi yuqorida keltirilgan talqindan ancha keng va murakkab mazmunga ega.

Tanqidiy fikrlashga oid yagona, umumqabul qilingan ta’rifga kelishdan ko‘ra, mazkur tushunchani turli yondashuvlar asosida izohlash orqali biz chuqur mazmuniga yetib borishimiz mumkin. Jumladan, “tanqidiy fikrlash — muayyan masala yuzasidan o‘qish yoki tinglashdan avval unga ongli va mantiqiy yondashib fikr yuritish jarayoni”[7], “tafakkur ustida tafakkur qilish, ya’ni metakognitiv (yuqori darajadagi bilish) ko‘nikma”[8], shuningdek, “shaxsning o‘z fikrlash tizimidagi tuzilmalarni puxta va mahorat bilan boshqara olish qobiliyati”[9] sifatida ta’riflanadi .

De Bonoga ko‘ra, “tafakkur inson ega bo‘lgan eng muhim resurs hisoblanadi va ushbu resursdan foydalanishdagi asosiy murakkablik omili — bu chalkashlikdir”[10]. Mazkur chalkashlikning sababi insonning bir vaqtning o‘zida ko‘plab vazifalarni bajarishga intilishidan kelib chiqadi. His-tuyg‘ular, bilimlar, mantiq, umid va ijodkorlik inson ongida o‘zaro qorishib ketadi. Bu holat bir vaqtning o‘zida bir nechta to‘pni havoga otib, ularning barchasini bir paytda ushlab qolishga urinishga qiyoslanadi.

---

[2] Dewey, J. (1910). *How we think* (p. 15). Kansas City, MO: Public Library.

[3] Hazlitt, H. (1920). *Thinking as a science*. New York, NY: E. P. Dutton & Company.

[4] Lipman, M. (2003). *Thinking in education*. Cambridge, UK: Cambridge University Press.

[5] Doğan, N. (2010). New orientations in education. In Ö. Demirel (Ed.), *New approaches in education* (pp. 66-71). Ankara, Türkiye: Pegem Academy.

[6] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. — T harfi. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. — 106-bet.

[7] Nosich, G. M. (2012). Guide to critical thinking (B. Aybek, Trans.). Ankara, Türkiye: Anı Publishing.

[8] Gündoğdu, H. (2009). Eleştirel düşünme ve eleştirel düşünme öğretimine dair bazı
yanılgılar, Celal Bayar Üniversitesi, Sosyal Bilimler Dergisi, 7 (1), 57-74.

[9] https://www.criticalthinking.org/files/Turkish_CT_Concepts_Tools.pdf

[10] De Bono, E. (2006). *Six thinking hats* (E. Tuzcular, Trans., p. 8). Istanbul, Türkiye: Remzi Bookstore. (Original work published 1985)

Ushbu holat yuzasidan Balta tafakkurni “murakkab tizimlar majmui sifatida talqin etadi. Tafakkurning murakkabligi inson tomonidan turli sohalarda namoyon etiladigan alohida ehtiyoj yoki faoliyat natijasigina emas, balki o‘z tarkibida turli jarayon va turlarni mujassamlashtirgan mavhum (abstrakt) qobiliyat ekanligi bilan izohlanadi”[11].

Qisqacha qilib yuqoridagilarga tayangan holda aytishimiz mumkinki, tanqidiy fikrlashga “mantiqsiz va irratsional fikrlash shakllariga qarama-qarshi qo‘yiladigan tafakkur usuli”[12] sifatida qarash mumkin.

Xulosa sifatida aytganda, mazkur maqolada tafakkur va tanqidiy fikrlash tushunchalari tarixiy, nazariy hamda ilmiy manbalar asosida atroflicha tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari tafakkur inson faoliyatining barcha sohalarida muhim o‘rin egallovchi, murakkab va ko‘p qirrali bilish jarayoni ekanligini ko‘rsatdi. Tafakkur nafaqat muammolarni hal etish, balki voqelikni anglash, tahlil qilish hamda ongli va asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Dewey, Hazlitt, Bruner, Lipman va De Bono kabi olimlarning ilmiy qarashlari tafakkurning kelajakni oldindan ko‘ra bilish, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat, metakognitiv ong va ijodkorlik bilan uzviy bog‘liqligini asoslab beradi. Shuningdek, tafakkurning murakkab tizim sifatida namoyon bo‘lishi, uning turli jarayon va turlarni o‘zida mujassamlashtirgan abstrakt qobiliyat ekanligini anglatadi. Bu esa tafakkurni faqat yakuniy natija sifatida emas, balki uzluksiz rivojlanib boruvchi jarayon sifatida o‘rganish zarurligini taqozo etadi.

**Foydalangan adabiyotlar**

1. Dewey, J. (1910). *How we think* (p. 15). Kansas City, MO: Public Library.
2. Hazlitt, H. (1920). *Thinking as a science*. New York, NY: E. P. Dutton & Company.
3. Lipman, M. (2003). *Thinking in education*. Cambridge, UK: Cambridge University Press.
4. Doğan, N. (2010). New orientations in education. In Ö. Demirel (Ed.), *New approaches in education* (pp. xx–xx). Ankara, Türkiye: Pegem Academy.
5. *National Encyclopedia of Uzbekistan*. (2004). *Criticism*. In *National Encyclopedia of Uzbekistan* (Vol. T, p. 106). Tashkent, Uzbekistan: State Scientific Publishing House of the National Encyclopedia of Uzbekistan.
6. Nosich, G. M. (2012). *Eleştirel düşünme rehberi* [Guide to critical thinking] (B. Aybek, Trans.). Ankara, Türkiye: Anı Publishing.
7. Gündoğdu, H. (2009). Some misconceptions about critical thinking and the teaching of critical thinking. *Journal of Social Sciences, Celal Bayar University*, 7(1), 57–74.
8. Paul, R., & Elder, L. (n.d.). *Critical thinking concepts and tools*. Foundation for Critical Thinking. https://www.criticalthinking.org/files/Turkish_CT_Concepts_Tools.pdf
9. De Bono, E. (2006). *Six thinking hats* (E. Tuzcular, Trans., p. 8). Istanbul, Türkiye: Remzi Bookstore. (Original work published 1985)
10. Balta, E. (2011). *The effect of text instruction based on the Waldmann model on 8th grade students' reading comprehension, critical thinking, and creative thinking skills* (Unpublished doctoral dissertation). Fırat University, Institute of Educational Sciences, Elazığ, Türkiye.
11. Facione, P. A. (1998). *Critical thinking: What it is and why it counts*. Insight Assessment. https://www.insightassessment.com/content/download/1176

[11] Balta, E. (2011). *The effect of text instruction based on the Waldmann model on 8th grade students' reading comprehension, critical thinking, and creative thinking skills* (Unpublished doctoral dissertation). Fırat University, Institute of Educational Sciences, Elazığ, Türkiye.

[12] Facione, P., A. (1998). Critical thinking: What it is and why it counts. Retrieved www.insightassessment.com/content/download/1176/.../what&why2010.pdf

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Kadirova Gulchexra Aliaskarovna**
Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi

## MATEMATIKA O‘QITISH JARAYONIDA MANTIQIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANISHINING PEDAGOGIK MOHIYATI

***Annotatsiya.*** *Zamonaviy ta’lim tizimida matematik ta’lim faqat hisoblash malakalarini shakllantirish bilangina cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish va muammolarni mustaqil hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Ushbu maqolada matematika o‘qitish jarayonida mantiqiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mohiyati yoritiladi. Tadqiqotda mantiqiy kompetentlik tushunchasi, uning tuzilmasi, matematik ta’limdagi o‘rni hamda didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sifatli tahlil va pedagogik kuzatishlarga asoslangan holda, matematika darslari jarayonida mantiqiy kompetentlikni rivojlantirish o‘quvchilarning intellektual salohiyati va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *matematika ta’limi, mantiqiy kompetentlik, mantiqiy fikrlash, pedagogik mohiyat, kompetensiyaviy yondashuv, ta’lim samaradorligi.*

**Кадирова Гульчехра Алиаскаровна**
Преподаватель Ташкентского университета прикладных наук

## ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ

***Аннотация.*** *В современной системе образования математическое воспитание не ограничивается лишь формированием вычислительных навыков, но также включает развитие у учащихся компетенций в логическом мышлении, анализе, обобщении и самостоятельном решении задач. В данной статье освещается педагогическая сущность развития логической компетенции в процессе обучения математике. В исследовании анализируется концепция логической компетенции, её структура, роль в математическом воспитании и дидактические возможности. На основе качественного анализа и педагогических наблюдений утверждается, что развитие логической компетенции в процессе уроков математики способствует повышению интеллектуального потенциала учащихся и эффективности обучения.*

***Ключевые слова:*** *математическое воспитание, логическая компетенция, логическое мышление, педагогическая сущность, компетентностный подход, эффективность обучения.*

**Kadirova Gulchekhra Aliaskarovna**
Teacher of Tashkent University of Applied Sciences

## PEDAGOGICAL ESSENCE OF THE DEVELOPMENT OF LOGICAL COMPETENCE IN THE PROCESS OF TEACHING MATHEMATICS

***Abstract.*** *In the modern education system, mathematical education is not limited only to the formation of computational skills, but also involves the development of students’ competencies in logical thinking, analysis, generalization and independent problem solving. This article highlights the pedagogical essence of developing logical competence in the process of teaching mathematics. The study analyzes the concept of logical competence, its structure, role in mathematical education and didactic possibilities. Based on qualitative analysis and pedagogical observations, it is argued that the development of logical competence in the process of mathematics lessons serves to increase the intellectual potential of students and educational effectiveness.*

***Keywords:*** *mathematics education, logical competence, logical thinking, pedagogical essence, competency-based approach, educational effectiveness.*

**Kirish.** Global axborotlashuv va ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Bugungi kunda ta’limning asosiy maqsadi bilimlarni tayyor holatda berish emas, balki

o‘quvchilarni mustaqil fikrlay oladigan, muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qila oladigan, mantiqiy tahlil qilish qobiliyatiga ega shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir.

Mantiqiy kompetentlikni rivojlantirish pedagogik mohiyati matematikani o‘qitish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi va o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda mustahkamlashga qaratilgan pedagogik yondashuvlar bilan belgilanadi. Bu jarayonda asosiy e'tibor talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rag‘batlantirishga qaratiladi, bu esa kelajakdagi amaliy faoliyatlarida kerak bo‘ladigan muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. [1,2].

Matematika fani bu jarayonda alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat aniq bilimlarni, balki mantiqiy tafakkurni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Matematik tushunchalar, teorema va masalalar o‘quvchidan ketma-ketlik, sabab–oqibat munosabatlarini anglash, dalillash va xulosa chiqarishni talab etadi. Shu sababli matematika o‘qitish jarayonida mantiqiy kompetentlikni rivojlantirish pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Mazkur tadqiqot sifatli (qualitative) tadqiqot dizayni asosida olib borildi. Tadqiqot konseptual va nazariy xarakterga ega bo‘lib, matematika ta’limida mantiqiy kompetentlikni rivojlantirish masalasi pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi manbalardan foydalanildi:

- pedagogika va matematika o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar;
- kompetensiyaviy yondashuvga oid nazariy ishlanmalar;
- umumta’lim maktablarida matematika darslari bo‘yicha pedagogik tajribalar va kuzatishlar;
- zamonaviy ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari tahlili.

Tadqiqot usullari

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: tahlil va sintez; taqqoslash va umumlashtirish; pedagogik kuzatish; konseptual tahlil.

Ushbu metodlar matematika darslarida mantiqiy kompetentlikning shakllanish jarayonini chuqurroq tushunishga imkon berdi.

**Tadqiqot natijalari**

Mantiqiy kompetentlik tushunchasining pedagogik talqini

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mantiqiy kompetentlik shaxsning mantiqiy operatsiyalarni (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish) ongli va samarali qo‘llash qobiliyatini ifodalaydi. Matematika o‘qitish jarayonida ushbu kompetentlik bilimlarni o‘zlashtirishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Mantiqiy kompetentlik quyidagi tarkibiy qismlardan iborat ekanligi aniqlandi: mantiqiy fikrlash malakalari; muammoli vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyati; dalillash va isbotlash madaniyati; mantiqiy xulosalar chiqarish ko‘nikmasi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, matematika darslarida mantiqiy kompetentlik quyidagi faoliyatlar orqali rivojlanadi: mantiqiy masalalar va nostandart topshiriqlar yechish; isbot talab qilinadigan matematik topshiriqlar bilan ishlash; taqqoslash va umumlashtirishga asoslangan mashqlar; savol-javob va muammoli vaziyatlar yaratish. [3,4].

Bu jarayonda o‘quvchining faolligi, mustaqil fikrlashi va xatolardan xulosa chiqarishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mantiqiy kompetentligi rivojlangan o‘quvchilar matematik materialni chuqurroq anglaydi, bilimlarini yangi vaziyatlarda qo‘llay oladi va mustaqil ishlashga moyil bo‘ladi. Bu esa umumiy ta’lim samaradorligining oshishiga olib keladi.

**Muhokama**

Natijalar tahlili matematika ta’limi jarayonida mantiqiy kompetentlikni rivojlantirish pedagogik jihatdan muhim ekanligini tasdiqlaydi. Matematika fani mantiqiy fikrlashni tabiiy ravishda shakllantirish imkonini beradi, biroq bu jarayon ongli va tizimli tashkil etilgandagina samarali bo‘ladi.

Mantiqiy kompetentlikni rivojlantirish: o‘quvchining intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi; fanlararo tafakkurni shakllantiradi; hayotiy muammolarni hal etishga tayyorlaydi.

Bu esa kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga to‘liq mos keladi.

Shu bilan birga, mantiqiy kompetentlikni rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjudligi aniqlandi: an’anaviy o‘qitish usullarining ustunligi; reproduktiv mashqlarning ko‘pligi; o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun interfaol va muammoli ta’lim metodlarini keng joriy etish zarur.

Matematika darslari davomida mantiqli kompetentlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish: O‘quvchilarga mantiqiy xulosalar chiqarish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, umumlashtirish va taqqoslash kabi mantiqiy operatsiyalarni bajarishga o‘rgatish muhim hisoblanadi. Buning uchun turli xil masalalar, misol va mashqlarni ishlab chiqish zarur.

Analitik tafakkurni mustahkamlash: Talabalarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va muammolar yechimini topish uchun tegishli strategiyalarni tanlash orqali ularning analitik tafakkurini rivojlantirish lozim. Matematikaning turli sohalari orqali murakkab masalalarni yechish jarayonida bunday kompetensiyalar shakllanadi.

Tadqiqotchilik va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish: Matematika darslarida talabalar tomonidan mustaqil ravishda tadqiqot ishlarini olib borish, gipotezalarni tekshirish va yangi yechimlar taklif etish orqali ularning tadqiqotchilik va ijodiy qobiliyatlarini oshirish mumkin.

Kommunikativ kompetentlikning yuksalishi: Matematika darslarida o‘quvchilar bir-birlari bilan muloqot qilishni, munozaralarda ishtirok etish va o‘z fikrlarini aniq ifodalash imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Bunday amaliyotlar ular uchun matematik tushunchalarni chuqurroq tushunish imkonini beradi. [5,6].

Ushbu tamoyillar asosida matematika darslarining samaradorligini oshirishga erishish mumkin. Ushbu jarayon davomida quyidagi pedagogik tamoyillardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Faoliyatli usullar: Amaliy mashg‘ulotlar, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, loyihaviy ishlarni tashkil etish orqali o‘quvchilarni faol qatnashishga jalb qilish.

- Masalalarni yechishning turli usullari: Talabalarga muammolarning bir nechta yechimi mavjudligini ko‘rsatish, ularni turli yondashuvlardan foydalanib, eng samarali yechimni topishga undash.

- Pedagogik texnologiyalar: Yangi texnologiyalarni qo‘llash, masalan, interfaol doskalar, onlayn resurslar, kompyuter dasturlari yordamida darslarning qiziqarliligini oshirish.

- Muammolarni echishni bosqichma-bosqich o‘rganish: Dastlab sodda masalalardan boshlanib, asta-sekin qiyinlashib boruvchi masala yechish jarayoni orqali o‘quvchilarning mantiqiy kompetentligini rivojlantiriladi. Matematika darslari davomida mantiqli kompetentlikni rivojlantirish nafaqat bilim olish jarayonining natijadorligiga, balki talabalar hayotiy qiyinchiliklarga duch kelganda, ularni muvaffaqiyatli yengib o‘tishiga ham xizmat qiladi. Pedagoglar ushbu jarayonni boshqarish uchun yuqori darajadagi tayyorgarlikka ega bo‘lishi, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llashi va talabalarning individual xususiyatlariga mos keladigan metodlarni tanlashi muhimdir.

**Xulosa**

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Mantiqiy kompetentlik matematika ta’limining muhim natijalaridan biri hisoblanadi.

2. Matematika o‘qitish jarayonida mantiqiy kompetentlikni rivojlantirish o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi.

3. Mantiqiy kompetentlikning rivojlanishi ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, matematika darslarini mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish zamonaviy ta’limning ustuvor vazifalaridan biridir. Kelgusida ushbu yo‘nalishda empirik tadqiqotlar o‘tkazish orqali mantiqiy kompetentlikning rivojlanish darajasini miqdoriy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Alimov A.A., Xaydarov B.B. Matematika darslarida mantiqiy kompetentlikni rivojlantirish masalalari. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023-yil.

2. Karimov N.S. Matematika ta’limida faol uslublarning tatbiqlari. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022-yil.

3. Mahmudova D.R. Pedagogik texnologiyalar asosida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. Andijon: Andijon davlat universiteti, 2021-yil.

4. Rahmonov I.T. Analitik tafakkurning shakllanishi va rivojlanish muammolari. Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2020-yil.

5. Soliyev Q.Q. Matematika darslarida tadqiqotchilik va ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish. Namangan: Namangan davlat universiteti, 2019-yil.

6. Yusupova Z.Z. Kommunikativ kompetentlik va uning rivojlanishi. Farg‘ona: Farg‘ona davlat universiteti, 2018-yil.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Karamatova Dilfuza Sadinovna**
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy
pedagogika universiteti “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi” kafedrasi dotsenti.
**Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi**
Nizomiy nomidagi O’MPU Boshlang'ich ta'lim yo ‘nalishi II bosqich talabasi
e-mail: nigina.mahmudova06@gmail.com

## O‘QUVCHILARNI O‘QITISHDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALAR VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada XXI asrda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va ommaviy axborot vositalarining o‘rni hamda ularning o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Raqamli ta’lim muhitining shakllanishi, masofaviy ta’lim platformalarining afzalliklari, multimedia va interfaol metodlar orqali dars jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamlashtirishning afzallik va kamchilik tomonlari, o‘quvchilarda media savodxonlikni shakllantirish zaruriyati ham yoritib berilgan. Ommaviy axborot vositalarining ta’limdagi o‘rni o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish omili sifatida baholangan.*

***Kalit so‘zlar:*** *raqamli ta’lim, ommaviy axborot vositalari, masofaviy o‘qitish, multimedia, o‘qitish metodlari, raqamli kompetensiya, media savodxonlik, axborot texnologiyalar.*

**Караматова Дильфуза Садиновна**
доцент кафедры «Педагогика начального образования» Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами.
**Махмудова Нигинабону Мизроф кизи**
студентка II курса направления «Начальное образование» Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами.

## РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В ОБУЧЕНИИ УЧАЩИХСЯ

***Аннотация.*** *В статье освещается роль цифровых технологий и средств массовой информации в образовательном процессе XXI века, а также их значение в развитии знаний, навыков и компетенций учащихся. Анализируются процессы формирования цифровой образовательной среды, преимущества платформ дистанционного обучения, а также возможности эффективной организации уроков с использованием мультимедиа и интерактивных методов. Рассматриваются преимущества и недостатки цифровизации и обосновывается необходимость формирования медиаграмотности у учащихся. Роль средств массовой информации в образовании оценивается как фактор расширения кругозора учащихся, развития критического мышления и социальной ответственности.*

***Ключевые слова:*** *цифровое образование, средства массовой информации, дистанционное обучение, мультимедиа, методы обучения, цифровая компетентность, медиаграмотность, информационные технологии.*

**Karamatova Dilfuza Sadinovna**
Associate Professor, Department of Primary Education Pedagogy,
Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan.
**Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi**
Second-year student, Primary Education program, Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan.

## THE ROLE OF DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND MASS MEDIA IN TEACHING STUDENTS

***Abstract.*** *This article highlights the role of digital technologies and mass media in the educational process of the 21st century and their importance in developing students’ knowledge, skills, and competencies. The study analyzes the formation of a digital learning environment, the advantages of distance learning platforms, and the opportunities to organize lessons effectively through*

*multimedia and interactive methods. In addition, the paper discusses both the benefits and drawbacks of digitalization and emphasizes the need to develop media literacy among students. The role of mass media in education is considered as a factor that broadens students' worldview and fosters critical thinking and social responsibility.*

***Keywords:*** *digital education, mass media, distance learning, multimedia, teaching methods, digital competence, media literacy, information technology.*

**KIRISH.** Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, raqamli platformalar, elektron ta'lim resurslari hamda ommaviy axborot vositalarining keng tarqalishi ta'lim jarayonini tashkil etish, mazmunini boyitish va samaradorligini oshirishda muhim omilga aylanmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarni o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan oqilona foydalanish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Hozirgi kunda o'quvchilar axborotni qabul qilish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonida an'anaviy o'qitish usullaridan ko'ra raqamli muhitga ko'proq moyillik bildirmoqdalar. Shu bois ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar bilan bir qatorda ommaviy axborot vositalari (televideniye, internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar, multimedia kontentlari)ning ta'limiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammoga aylanmoqda. Ushbu vositalar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil, axborot savodxonligi hamda media madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, raqamli ta'lim texnologiyalari va ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda metodik asoslarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, ularni ta'lim mazmuniga integratsiya qilish mexanizmlarining tizimli o'rganilmaganligi muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu holat o'quv jarayonida axborotning sifatli tanlanishi, uning pedagogik maqsadlarga muvofiq qo'llanilishi hamda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli ta'lim muhitini shakllantirish hamda yosh avlodni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilayotgan bir sharoitda mazkur mavzuni ilmiy jihatdan tadqiq etish alohida ahamiyatga ega. O'quvchilarni o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarining rolini chuqur tahlil qilish, ularning didaktik imkoniyatlarini aniqlash va amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shu sababli "O'quvchilarni o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarining roli" mavzusidagi ilmiy tadqiqot bugungi pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri bo'lib, nazariy va amaliy jihatdan muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va ommaviy axborot vositalarining o'rganilganligi global pedagogika va axborot-kommunikatsiya fanlari doirasida keng yoritilgan. Raqamli texnologiyalarning ta'limga ta'siri bo'yicha ilmiy adabiyotlarda ularning o'quv jarayoniga integratsiya qilish orqali pedagogik samaradorlikni oshirishi, o'quvchilarning motivatsiyasini yaxshilashi hamda individual o'rganish imkoniyatlarini kengaytirishi ta'kidlanadi.

Xalqaro adabiyotlarda raqamli ta'lim vositalari va platformalar o'rganishning markaziy elementiga aylangan, ular an'anaviy ta'lim usullariga nisbatan interaktivlikni oshiradi va talaba markaziga yo'naltirilgan pedagogik modelni yuzaga keltiradi. Bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar o'quvchilarga mustaqil bilim olish imkonini yaratadi, o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rag'batlantiradi va yetakchi pedagogik strategiyalar bilan uyg'unlashadi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda shuningdek raqamli vositalarning tanqidiy tahlil mexanizmlari, ularning pedagogik mazmun bilan uyg'unligi hamda ta'lim samaradorligiga ta'siri kontekstida chuqur ilmiy tahlillar mavjud.

Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarining ta'limda qo'llanilishi ham global akademik adabiyotda faol o'rganilmoqda. Tadqiqotlar ommaviy media va ijtimoiy media XXI asr o'quvchilari hayotining ajralmas qismiga aylangani, ularning bilim olish jarayoniga doimiy ta'sir ko'rsatishi va pedagogik jarayonda kommunikatsiya kanallari sifatida ishlatilishini tasdiqlaydi.

Xorijiy tadqiqotlar media kontentining o'quvchilarning kognitiv moslashuvi, informatsion madaniyat shakllanishi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda imkoniyatlar yaratishini ko'rsatadi [4, 8, 11].

Mass media va ijtimoiy media vositalari o'quvchilarning bilimlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil o'rganishga jalb qiladi va media orqali interaktiv pedagogik kontentni yaratadi. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotlar media vositalarining ijobiy ta'siri bilan bir qatorda, ma'lumot ortiqcha yuklanishi, diqqatning fragmentatsiyasi va mavjud axborot tafovutiga olib kelishi mumkinligini ham qayd etadi, shuningdek, muvozanatli media savodxonlikni rivojlantirishning muhimligini ta'kidlaydi [12].

Xorijiy ilmiy adabiyotlar ta'lim jarayonida mass media vositalari va ijtimoiy media platformalarining o'rganish tajribasini o'rgangan. Masalan, ijtimoiy media foydalanuvchilari o'rtasida pedagogik muloqotni kuchaytirish, bilim almashish, talaba-o'qituvchi interaktivligini rivojlantirish sizilishi, o'rganish jarayonida kommunikatsiyani qo'llab-quvvatlash kabi funksiyalarni aniqlagan tadqiqotlar mavjud. Shu bilan birga, mass media kontenti talabalarning til o'rganish, kognitiv ko'nikmalarni shakllantirish hamda mustaqil bilim egallash jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy tadqiqotlar media savodxonlikni ta'limning ajralmas qismi sifatida ko'radi, bu o'quvchilarning media xabarlari mazmunini tahlil qilish, axborotni tanqidiy baholash va noto'g'ri ma'lumotdan himoyalanish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan [13, 14]. Media savodxonlik ta'limi o'quvchilarga media kontentni pedagogik maqsadlar uchun foydalanish imkonini beradi.

O'zbekiston ilmiy makonida raqamli ta'lim texnologiyalari va ularning ta'lim jarayonidagi qo'llanilishi bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Mahalliy ilmiy maqolalar raqamli pedagogika, innovatsion ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli, raqamli vositalar orqali o'quvchilarning bilim olish jarayonida faolligini oshirish, interaktiv pedagogik yondashuvlar va masofaviy o'qitish modellarini o'rganish kabi yo'nalishlarga qaratilgan [6, 7]. Ularning tahliliga ko'ra, zamonaviy ta'lim muhitida raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi pedagogik jarayonni demokratiklashtiradi, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rag'batlantiradi hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi. Bu tadqiqotlar pedagogik innovatsiyalar shakllanishi va ta'limda raqamli vositalar orqali o'quv jarayonini yangicha tashkil etish bo'yicha amaliy natijalar va tavsiyalarni tavsiflaydi [9, 10]. Bu tajribalar pedagogik jarayonni takomillashtirish, o'quvchilarning faol ta'lim olishini rag'batlantirish va ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan.

Mahalliy adabiyotlarda ta'limda **multimedia texnologiyalari** va **interaktiv vositalar** o'quvchilarning bilim olish jarayonida visual va audio kontent bilan ishlash orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil etishini ko'rsatadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar o'quvchilarga turli pedagogik vazifalarni individual ravishda bajarish imkonini beradi va ularning ta'lim mazmunini chuqurroq qabul qilishiga yordam beradi [10, 15].

Muayyan lokal tadqiqotlarda esa maxsus masalalar, masalan, raqamli kompetentlikni oshirish, virtual ta'lim muhitini yaratish yoki pedagoglarning raqamli mahoratini oshirish bo'yicha ilmiy ishlanmalar ham mavjud. Ushbu tadqiqotlar tasdiqlashicha, raqamli ta'lim texnologiyalari nafaqat axborot yetkazish vositasi bo'libgina qolmay, balki pedagogik amaliyotni takomillashtirish va pedagogning didaktik funktsiyasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shu jumladan, Delov To'lqin Erkinovichning ilmiy maqolasida multimedia vositalarining ta'limdagi qo'llanilishi ta'lim mazmunini vizual va audio kontent orqali amaliy boyitish, o'quvchilarning qiziqishini oshirish va dars jarayonini interaktivlashtirish imkoniyatlari ko'rsatildi [5].

Umuman olganda, **raqamli ta'lim texnologiyalari** va **ommaviy axborot vositalarining** roli bo'yicha ilmiy izlanishlar talabalar o'rganish jarayonini yaxshilash, ta'lim mazmunini boyitish va pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish bo'yicha chuqur tahlillarni o'z ichiga oladi. Xorijiy ilmiy adabiyotlar raqamli vositalar integratsiyasi va media savodxonlikning o'quvchilar bilimlariga ijobiy ta'siri hamda pedagogik muloqotni oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Mahalliy tadqiqotlar esa aynan O'zbekiston kontekstida raqamli pedagogika, multimedia texnologiyalari va virtual ta'lim muhiti tajribalarini yoritadi. Bu tadqiqotlar ta'limning raqamli transformatsiyasiga va ommaviy axborot vositalari orqali pedagogik interaktivlikni oshirishga oid ilmiy bilimlar bazasini boyitadi.

**METODLAR:** tarixiy, retrospektiv va nazariy-uslubiy manbalarni tahlil qilish, olingan ma'lumotlarni umumlashtirish va sharhlash, kuzatish, suhbat, anketa, kontent tahlil, kvalimetriya va ekspert baholash.

**MUHOKAMA.** XXI asrda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va ommaviy axborot vositalari o'qituvchining asosiy yordamchisiga aylandi. Raqamli ta'lim bu o'qitishning innovatsion shakli bo'lib, u internet, kompyuter, planshet, interaktiv doska, onlayn zamonaviy ta'lim platformalar kabi vositalardan samarali foydalanishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda "Raqamli ta'lim muhiti" tushunchasi oddiy texnologik vositalar to'plamidan ancha kengayib, butun bir ekotizimga aylandi.

O'zbekistonda 2020-2030 yillarga mo'ljallangan "Raqamli O'zbekiston" strategiyasi va "Milliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" doirasida ta'lim sohasida raqamli transformatsiya jarayonlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda [1]. Raqamli ta'lim muhitini shakllantirish, sifatli elektron ta'lim resurslarini yaratish va ulardan samarali foydalanish, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish - bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Raqamli texnologiyalar yordamida o'qitish metodlari

1) Masofaviy ta'limda Zoom, Google classroom, Microsoft Teams, Kundalik, eMaktab zamonaviy ta'lim platformalari orqali o'quvchilarning mustaqil izlanish, o'z ustida ishlash, muloqot qilish ko'nikmalari rivojlandi. Ushbu platformalar hozirgi kunda o'qitishning ajralmas qismi bo'lishga ulgurdi.

2) Multimedia vositalari orqali o'qitishda - videodarslar animatsiyalar,3D modellar orqali mavzuni tushuntirish yanayam osonlashadi. Masalan: "YouTube Education", "TED-Ed", "Khan Academy", "ZiyoNET video darslari". Bu o'quvchilarning vizual idrokini kuchaytiradi va darsga qiziqishini oshiradi.

3) Interfaol o‘qitish metodlari. Onlayn testlar (Kahoot, Quizizz, Mentimeter) orqali bilimni baholash. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar yordamida tajriba o‘tkazish. Gamifikatsiya (o‘yin asosida o‘qitish) elementlari raqamli mukofotlar, ball, reyting tizimlari.

**Ta’limni raqamlashtirishning afzalliklari:**




Ta’limni raqamlashtirishning kamchiliklari:

1. Texnologiyalarga teng bo‘lmagan kirish. Internet va kompyuterlarga teng bo‘lmagan kirish kam ta’minlangan o‘quvchilar uchun muammo tug‘dirishi mumkin.

2. Tarkibning sifati yetarli emas. Sifatsiz yoki tekshirilmagan o‘quv materiallari o‘rganishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

3. Shaxsiy aloqaning yo‘qligi.

Masofaviy o‘qitishda o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida shaxsiy aloqalar yetarli bo‘lmasligi mumkin, bu esa materialni motivatsiya va tushunish darajasini pasaytirishi mumkin.

**NATIJALAR.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, hozirgi globallashuv davrida ta’lim tizimining samaradorligini oshirishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni beqiyosdir. Televizion dasturlar, Internet resurslari, ijtimoiy tarmoqlar, gazeta va jurnallar o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirib, ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Media vositalari orqali o‘quvchilar turli mavzularda yangiliklardan boxabar bo‘lib, tanqidiy fikrlash va tahliliy yondashuvni o‘rganadilar. Ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadigan maqolalar, ko‘rsatuv va lavhalar orqali o‘quvchilarga axloqiy qadriyatlar, ekologik madaniyat va milliy g‘oyalar singdiriladi. Natijada ularning ma’naviy dunyosi boyitilib, ijobiy fazilatlari rivojlanadi.

Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalari va media matnlarining ta’limda qo‘llanilishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, bolalar hali ma’lumotni to‘g‘ri filtrlay olish, dalillarni fikrlardan ajrata olish kabi ko‘nikmalarga ega emaslar. Bu esa ularni ommaviy axborot vositalarining ta’siriga nisbatan, ayniqsa, sezgir qiladi. Ommaviy axborot vositalarining bolalar va yoshlar uchun ijtimoiylashuv jarayonidagi roli ularning ijtimoiy mas’uliyatini oshirishda, axborotni tahlil qilishda va kundalik hayotda muvaffaqiyatli raqamli muhitda yashashda yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar va ommaviy axborot vositalari zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Ular o‘qituvchi faoliyatini yengillashtirib, dars jarayonini yanada interfaol, qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Turli onlayn platformalar va multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv hamda ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, raqamli ta’limni rivojlantirishda internet tarmog‘iga teng kirish, axborot xavfsizligi va ta’limiy kontent sifatini ta’minlash muhim masala hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari esa o‘quvchilarning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish, ularni yangiliklardan xabardor qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda beqiyos rol o‘ynaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-5030957

2. Axborot matnlar bilan ishlash va media madaniyat. https://doi.org/10.5281/zenodo.14391225

3. Akramova M.Z. Zamonaviy multimedya texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni // *IQRO INDEXING*. 2025. *16*(01), 272-274. https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/12764

4. Ван Г., Гут Д.М. Использование СМИ китайскими и американскими учащимися средних школ: последствия для образования в области медиаграмотности. Теория на практике. 2008; 47(3): 178–85.

5. Delov T.E. Iqtidorli talabalarni virtual ta'lim texnologiyalari asosida raqamli kompitentligini rivojlantirish. (2023). *Цифровая Трансформация и Искусственный Интеллект*, *1* (4), 50-57. https://dtai.tsue.uz/index.php/dtai/article/view/v1i47

6. Mahmudova N.M. O‘quvchilar darsni samarali o‘zlashtirishda zamonaviy 3D va raqamli texnologiyalarning roli / “Sun’iy intellekt nazariyasi va amaliyoti: tajriba, muammolar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani. -T.: 2025. –B. 687-689.

7. Maxmudova D. Raqamli pedagogika: zamonaviy ta’limda innovatsion texnologiyalar roli // *Maktabgacha va Maktab Ta’limi Jurnali*. 2025, *3*(10). https://doi.org/10.5281/zenodo.17406009

8. Поттер У. Дж. Медиаграмотность. 4-е изд. - Лондон: SAGE; 2008.

9. Salayeva M.S. Professional darajaga erishish maqsadida pedagogning virtual mobilligini rivojlantirish / “Xorijiy tillarni o‘qitishning dolzarb masalalari: muammolar va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. Elektron to‘plam.. 2021-yil 5-may. - B.230-234.

10. Salayeva M.S., G’ulamova S.R. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak pedagoglarning virtual akademik mobilligini shakllantirish / “Xorijiy tillarni o‘qitishda yangicha yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022 – B. 209-213.

11. Scull T.M, Kupersmidt B.J. Оценка эффективности программы обучения медиаграмотности для учителей младших классов начальной школы. J Media Lit Educ. 2011; 2(3): 199–208.

12. Сонг Т. Роль СМИ в образовании / Лекционные заметки по педагогической психологии и общественным СМИ. 2025. 123, 167-173. **DOI:** https://doi.org/10.54254/2753-7048/2025.NS28197

13. Улаш А.Х., Эпчачан С., Кочак Б. Концепция «медиаграмотности» и оценка необходимости обучения медиаграмотности для повышения осведомленности о турецком языке. Procedia-Social and Behavioral Sciences. 2012; 31: 376–84.

14. Фукс М. Введение в медиаграмотность. Журнал медиаграмотности и образования. 2008; 2(3): 246–7.

15. Yadgarova L.J. Ta'limni raqamlashtirishning asosiy printsiplari, afzalliklari va kamchiliklari // Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. ISSN 2992-9024 (online). 2024, №5.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Usarov Murodjon Mamarasul o‘g‘li**
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

## TALABALARNI ESTETIK TARBIYALASHDA MILLIY XALQ O‘YINLARIDAN FOYDALANISH MODELI

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarning estetik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida milliy xalq o‘yinlaridan foydalanishning pedagogik jixati o‘rganib chiqilgan. Tadqiqotda milliy o‘yinlarning estetik, ma’naviy-tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyati ochib berilgan, ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning mazmuni, shakllari va metodlari yoritilgan. Taklif etilayotgan model talabalarda estetik did, milliy qadriyatlarga hurmat, ijodiy tafakkur va madaniy ongni shakllantirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *estetik kompetensiya, milliy xalq o‘yinlari, pedagogik model, estetik tarbiya, milliy qadriyatlar, oliy ta’lim.*

**Усаров Муроджон Мамарасул оглу**
Независимый исследователь Андижанского государственного педагогического института

## МОДЕЛЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ НАРОДНЫХ ИГР В ЭСТЕТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ СТУДЕНТОВ

***Аннотация.*** *В данной статье исследуется педагогический аспект использования национальных народных игр в процессе развития эстетических компетенций студентов высших учебных заведений. Исследование выявляет эстетическое, духовно-воспитательное и социальное значение национальных игр, а также освещает содержание, формы и методы их интеграции в образовательный процесс. Предложенная модель служит для формирования у студентов эстетического вкуса, уважения к национальным ценностям, творческого мышления и культурной осведомленности.*

***Ключевые слова:*** *эстетическая компетенция, национальные народные игры, педагогическая модель, эстетическое воспитание, национальные ценности, высшее образование.*

**Usarov Murodjon Mamarasul oglu**
Independent researcher at the Andijan State Pedagogical Institute

## MODEL OF USING NATIONAL FOLK GAMES IN AESTHETIC EDUCATION OF STUDENTS

***Abstract.*** *This article studies the pedagogical aspect of using national folk games in the process of developing students’ aesthetic competencies in higher education institutions. The study reveals the aesthetic, spiritual-educational and social significance of national games, and highlights the content, forms and methods of their integration into the educational process. The proposed model serves to form aesthetic taste, respect for national values, creative thinking and cultural awareness in students.*

***Keywords:*** *aesthetic competence, national folk games, pedagogical model, aesthetic education, national values, higher education.*

### Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida oliy ta’lim tizimi oldida nafaqat raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, balki ma’naviy yetuk, estetik didga ega, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglay oladigan shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi. Ayniqsa, yoshlarning estetik kompetensiyalarini shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Estetik kompetensiya shaxsning go‘zallikni anglash, baholash, yaratish va estetik qadriyatlarni hayot faoliyatida qo‘llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Bu jarayonda milliy xalq o‘yinlari muhim tarbiyaviy vosita bo‘lib, ular yoshlarning estetik hissiyotlari, ijodiy faolligi va madaniy tafakkurini rivojlantiradi. Shu nuqtai nazardan, talabalarning estetik kompetensiyalarini tarbiyalashda milliy xalq o‘yinlaridan foydalanishning ilmiy asoslangan pedagogik modelini ishlab chiqish muhim ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Talabalarning estetik kompetensiyalarini shakllantirishda milliy xalq o‘yinlaridan foydalanishning samarali pedagogik modelini ishlab chiqish va uning amaliy ahamiyatini asoslash.

## ADABIYOTLAR TAXLILI

Milliy xalq o‘yinlari masalasi pedagogika, etnografiya, madaniyatshunoslik, jismoniy tarbiya va xalq pedagogikasi fanlarining muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda milliy xalq o‘yinlari xalqning tarixiy tajribasi, ma’naviy dunyoqarashi, mehnat faoliyati va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi madaniy hodisa sifatida talqin etiladi. Sharq mutafakkirlari asarlarida o‘yin faoliyati shaxs kamolotining muhim omili sifatida e’tirof etilgan. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy o‘z asarlarida xalqning turmush tarzi va urf-odatlari bilan bog‘liq mashg‘ulotlar, o‘yin va tomoshalarning tarbiyaviy ahamiyatiga e’tibor qaratgan. Uning qarashlarida o‘yin insonning jismoniy va aqliy rivojlanishida muhim vosita sifatida talqin qilinadi. Alisher Navoiy ijodida ham xalqona tomoshalar, musobaqalar va o‘yinlar inson ruhiyatini boyituvchi, jamiyatda hamjihatlikni mustahkamlovchi omil sifatida tasvirlangan.

Xalq pedagogikasi va milliy o‘yinlar masalasining yoritilishi Xalq pedagogikasi doirasida milliy xalq o‘yinlari yosh avlodni tarbiyalashning muhim vositasi sifatida o‘rganilgan. A. Avloniy “Turkiston bolalar tarbiyasi” asarida tarbiya jarayonida xalq an’analari, urf-odatlari va o‘yinlaridan foydalanish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, xalq o‘yinlari bolalarda halollik, mardlik, intizom va jamoaviylikni shakllantiradi. Tursunov N., Saidova D., Xudoyberdiyev S. kabi olimlarning tadqiqotlarida xalq pedagogikasi va milliy o‘yinlarning uzviy bog‘liqligi ilmiy asoslab berilgan. Ushbu mualliflar milliy o‘yinlarni tarbiyaning tabiiy, samarali va yosh xususiyatlariga mos vositasi sifatida baholaydilar. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xalq pedagogikasiga oid tadqiqotlarda milliy o‘yinlar ko‘proq axloqiy va ma’naviy tarbiya vositasi sifatida yoritilgan bo‘lib, estetik va kompetensiyaviy yondashuvlar yetarlicha chuqur tadqiq etilmagan.

Bu fikrlar milliy xalq o‘yinlarining estetik va ma’naviy ahamiyati qadimdan e’tirof etilganini ko‘rsatadi. Estetik kompetensiya tushunchasining mazmunini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish, milliy xalq o‘yinlarining estetik va tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, talabalarda estetik kompetensiyalarni rivojlantirish mezon va ko‘rsatkichlarini belgilash, milliy xalq o‘yinlariga asoslangan pedagogik modelni ishlab chiqish, modelning ta’lim jarayonidagi samaradorligini asoslash. Estetik kompetensiya tushunchasining nazariy asoslari: Estetik kompetensiya shaxsning estetik ong, estetik his-tuyg‘u, estetik faoliyat va estetik baholash ko‘nikmalarining integratsiyalashgan tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik adabiyotlarda estetik kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat deb qaraladi: kognitiv komponent – estetik bilimlar, san’at va madaniyat haqidagi tasavvurlar, Emosional-qadriyat komponent – go‘zallikka bo‘lgan munosabat, estetik ehtiyoj. Faoliyat komponenti – estetik faoliyatda ishtirok etish, ijodiy ko‘nikmalar. Refleksiv komponent – estetik baholash va o‘z-o‘zini tahlil qilish.

## MAVZU METODOLOGIYASI

Talabalarning estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda ushbu komponentlarning uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega. Milliy xalq o‘yinlarining pedagogik va estetik ahamiyati. Milliy xalq o‘yinlari xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, estetik qarashlari va madaniy merosini o‘zida mujassam etgan noyob tarbiyaviy vositadir. Ular nafaqat jismoniy rivojlanishga, balki estetik, axloqiy va ijtimoiy tarbiyaga ham xizmat qiladi. Milliy o‘yinlarning estetik imkoniyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- harakatlarning ritmikligi va uyg‘unligi;
- o‘yin jarayonidagi musiqiylik va obrazlilik;
- milliy liboslar, ramzlar va an’analar bilan bog‘liqligi;
- jamoaviylik va ijodkorlik muhitining mavjudligi. Shu sababli milliy xalq o‘yinlari talabalarning estetik didini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Talabalarda estetik kompetensiyalarni tarbiyalash mezonlari: Tadqiqot doirasida estetik kompetensiyalarni baholash uchun quyidagi mezonlar belgilandi:

1.Bilim mezoni – estetik tushunchalar va milliy o‘yinlar haqidagi bilim darajasi.

2.Qadriyat mezoni – estetik va milliy qadriyatlarga munosabat.

3.Faoliyat mezoni – estetik faoliyatda ishtirok etish faolligi.

4.Ijodiy mezon – estetik ijodkorlik va tashabbuskorlik.

Har bir xalqning asrlar davomida shakllangan boy madaniy merosi mavjud bo‘lib, uning muhim tarkibiy qismlaridan biri milliy xalq o‘yinlaridir. Milliy xalq o‘yinlari xalqning turmush tarzi, tarixiy taraqqiyoti, mehnat faoliyati, urf-odatlari va dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ular avloddan-avlodga o‘tib, jamiyat taraqqiyotida muhim tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qilib kelgan. Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb masalaga aylanmoqda. Aynan shu jarayonda milliy xalq o‘yinlari yoshlarning jismoniy, aqliy, estetik va ma’naviy kamolotini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Shu sababli milliy xalq o‘yinlarini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish, ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini tahlil qilish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish bugungi pedagogika fanining muhim vazifalaridan biridir. Mazkur mezonlar asosida estetik kompetensiyaning past, o‘rta va yuqori darajalari aniqlanadi. Milliy xalq o‘yinlaridan foydalanishning pedagogik modeli. Taklif etilayotgan pedagogik model quyidagi tarkibiy qismlardan iborat. 1.Maqsadli blok Talabalarda estetik kompetensiyalarni milliy xalq o‘yinlari asosida shakllantirish.

2. Mazmuniy blok.milliy xalq o‘yinlarining estetik mazmuni. milliy qadriyatlar va madaniyat elementlari: estetik tarbiya bilan bog‘liq bilimlar.

3. Faoliyatli blok. interaktiv o‘yin mashg‘ulotlari, ijodiy topshiriqlar, jamoaviy va individual o‘yin shakllari.

4. Natijaviy blok. estetik kompetensiyalarning shakllanish darajasi, talabalarning estetik didi va ijodiy faolligi.

Modelni amalga oshirish shart-sharoitlari. Model samaradorligini ta’minlash uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar zarur:

- ta’lim jarayoniga milliy xalq o‘yinlarini tizimli kiritish;
- o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi;
- estetik muhitni yaratish;

Talabalarning faolligini rag‘batlantirish. Milliy xalq o‘yinlarining tarixiy shakllanishi. Milliy xalq o‘yinlari qadimiy davrlarda mehnat faoliyati, ovchilik, chorvachilik va dehqonchilik jarayonlari bilan bog‘liq holda shakllangan. Dastlabki o‘yinlar insonning tabiat bilan munosabati, tirikchilik ehtiyojlari va ijtimoiy hayotini aks ettirgan.

O‘rta Osiyo hududida shakllangan milliy xalq o‘yinlari xalqning ko‘p asrlik tarixi, ijtimoiy hayoti va madaniyati bilan uzviy bog‘liq. “Ko‘pkari”, “Kurash”, “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Chillak”, “Arqon tortish”, “Beshtosh” kabi o‘yinlar xalq orasida keng tarqalgan bo‘lib, ular nafaqat jismoniy chiniqish, balki ijtimoiy va ma’naviy tarbiya vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Tarixiy manbalarda milliy o‘yinlar xalq bayramlari, marosimlar va ommaviy tadbirlarning ajralmas qismi sifatida tilga olinadi. Tadqiqot natijalari va tahlili. Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, milliy xalq o‘yinlari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning estetik kompetensiyalarini sezilarli darajada oshiradi. Tajriba guruhida estetik kompetensiyaning yuqori darajasi nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori bo‘ldi.

**XULOSA.**

Milliy xalq o‘yinlari talabalarning estetik kompetensiyalarini tarbiyalashda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Taklif etilgan model talabalarda estetik ong, milliy qadriyatlarga hurmat va ijodiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu model oliy ta’lim muassasalarida estetik tarbiyani takomillashtirishda samarali qo‘llanishi mumkin. Milliy xalq o‘yinlari xalqning asrlar davomida shakllangan boy ma’naviy va madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lib, ular yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega. Tadqiqot jarayonida milliy xalq o‘yinlarining kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari, mazmun-mohiyati hamda ularning tarbiyaviy imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, milliy xalq o‘yinlari yoshlarning jismoniy rivojlanishini ta’minlash bilan birga, ularda axloqiy fazilatlar, ijtimoiy faollik, estetik did va milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘yin jarayonida shakllanadigan jamoaviylik, intizom, mas’uliyat, halollik va o‘zaro hurmat kabi sifatlar yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy xalq o‘yinlarining pedagogik jihatdan samaradorligi ularning tabiiyligi, qiziqarliligi va yoshlarning psixologik xususiyatlariga mosligi bilan izohlanadi. O‘yin faoliyati orqali ta’lim-tarbiya jarayoni jonlanadi, yoshlarning bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishi ortadi va ijodiy faolligi rivojlanadi. Bu holat milliy xalq o‘yinlarini zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiya qilish zarurligini asoslab beradi. Tadqiqot natijalari milliy xalq o‘yinlarining estetik tarbiyadagi o‘rnini alohida ta’kidlaydi. O‘yinlardagi harakatlarning uyg‘unligi, ritmikligi, milliy kuy-qo‘shiqlar, ramzlar va an’analar yoshlarning estetik hissiyotlarini rivojlantiradi, go‘zallikni anglash va baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa estetik kompetensiyaning tarkibiy qismlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, milliy xalq o‘yinlari yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni tarixiy-madaniy meros bilan tanishtirish va milliy g‘ururni shakllantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Globallashuv sharoitida bu jihat ayniqsa dolzarb bo‘lib, milliy o‘yinlar orqali yoshlarning madaniy immunitetini mustahkamlash imkoniyati mavjud.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.
2. Abdullayeva M. Estetik tarbiya asoslari. – Toshkent, 2016.
3. Xudoyberdiyev S. Milliy xalq o‘yinlarining pedagogik ahamiyati. – Toshkent, 2019.
4. Saidova D. Talabalarda kompetensiyaviy yondashuv asoslari. – Toshkent,
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2015.
7. Avloniy A. Turkiston bolalar tarbiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
8. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1996.
9. Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan, 1968.
10. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 1987.
11. Saidova D. Xalq pedagogikasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
12. Xudoyberdiyev S. Milliy xalq o‘yinlarining pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Akbarova Ravzaxon Abdullaxayevna**
Namangan davlat universiteti dotsenti
Email: ravzahon.akbarova.77@gmail.com

**UO'K 372.881.111.1**

## INGLIZ TILI DARSLARIDA OG'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR YONDASHUVLAR

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada ingliz tili darslarida og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan asosiy pedagogik yondashuvlar, jumladan Kommunikativ til o'qitish, Vazifaga asoslangan til o'qitish, Audio-lingval metod, Mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish hamda Loyihaviy ta'lim yondashuvlari tahlil qilinadi. Maqolada har bir yondashuvning nazariy asoslari, sinf amaliyoti va pedagogik imkoniyatlari ko'rib chiqilib, ularning afzalliklari hamda qiyinchilik tomonlari yoritiladi. Maqola og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda integratsiyalashgan va o'quvchi markazda turuvchi yondashuv eng samarali ekanligi haqidagi xulosa bilan yakunlanadi.*

***Kalit so'zlar:*** *og'zaki nutq kompetensiyasi, gapirish ko'nikmalari, kommunikativ kompetensiya, ingliz tilini o'qitish, pedagogik yondashuvlar.*

**Akbarova Ravzakhon Abdullakhayevna**
assistant professor of Namangan state university

## APPROACHES TO DEVELOPING ORAL SPEECH COMPETENCE IN ENGLISH CLASSES

***Abstract:*** *This article explores major pedagogical approaches to developing oral speech competence in English classes, including the Communicative Language Teaching approach, Task-Based Language Teaching, Audio-Lingual Method, Content and Language Integrated Learning, and Project-Based Learning. The study analyzes theoretical foundations, classroom practices, and pedagogical implications of each approach, highlighting their strengths and limitations. The article concludes that an integrated and learner-centered approach is most effective to improve oral speech competence.*

***Keywords:*** *oral speech competence, speaking skills, communicative competence, English language teaching, pedagogical approaches.*

**Акбарова Равзахон Абдуллахаевна**
доцент Наманганского государственного университета

## ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ УСТНОЙ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

***Аннотация :*** *В данной статье рассматриваются основные педагогические подходы к развитию устной речевой компетенции на уроках английского языка, включая коммуникативный подход, обучение, основанное на выполнении заданий, аудио-лингвальный метод, интегрированное обучение предмету и языку, а также проектное обучение. В исследовании анализируются теоретические основы, практики классного обучения и педагогические последствия каждого подхода с выделением их сильных сторон и ограничений. В статье делается вывод о том, что интегрированный и ориентированный на обучающегося подход является наиболее эффективным для развития устной речевой компетенции.*

***Ключевые слова:*** *устная речевая компетенция, навыки говорения, коммуникативная компетенция, преподавание английского языка, педагогические подходы.*

### Kirish

Ingliz tilini o'rganishda og'zaki nutq kompetensiyasi asosiy til ko'nikmalaridan biri bo'lib, o'quvchilarning kommunikativ imkoniyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, zamonaviy til o'qitish metodikasida og'zaki nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Og'zaki nutq kompetensiyasi deganda o'rganuvchilarning turli kommunikativ vaziyatlarda og'zaki nutqni aniq, ravon va mos tarzda ifodalay olish qobiliyati tushuniladi.

Kommunikativ natijalarga bo‘lgan e’tibor ko‘proq qaratilgani sari ingliz tilini o‘qitish shaklga yo‘naltirilgan ta’limdan ma’noga yo‘naltirilgan va o‘zaro muloqotga asoslangan yondashuvlarga aylana boshladi. Til o‘rgatishda, ayniqsa, o‘g‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan yondashuvlar va metodlar turli xil bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos pedagogik tamoyillarga asoslanadi.

**Adabiyotlar tahlili**

Xaymes (1972), Kanale va Svayn (1980) kabi tadqiqotchilar til kompetensiyasi faqat grammatik bilimlar bilan cheklanmasligini, balki sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalarni ham o‘z ichiga olishini ta’kidlaganlar. Shuning uchun ingliz tili darslarida o‘quvchilarga til o’rganish uchun mazmunli og‘zaki muloqot uchun imkoniyatlar yaratish zarur. Ushbu maqolaning maqsadi og‘zaki nutq kompetensiyani rivojlantirishda qo‘llaniladigan asosiy yondashuvlarni tahlil qilish va ularning ingliz tili darslaridagi pedagogik ahamiyatini muhokama qilishdan iborat.

Og‘zaki nutq kompetensiyasi kommunikativ kompetensiya tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Kanale va Svayn (1980) ta’kidlaganidek, kommunikativ kompetensiya grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik tarkibiy qismlardan iborat. Nutqiy (gapirish) kompetensiya real vaqt rejimidagi muloqot jarayonida ushbu barcha elementlarning uyg‘unlashuvini talab etadi.

Xorijiy tilni o‘zlashtirish nazariyalari ham og‘zaki o‘zaro muloqotining muhimligini qo‘llab-quvvatlaydi.

Krashening *Input Hypothesis* nazariyasi mazmunli kirish materiallarining (comprehensible input) rolini ta’kidlasa, Svaynning *Output Hypothesis* nazariyasi tilni faol ishlab chiqarishning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Longning *Interaction Hypothesis* nazariyasiga ko‘ra esa, o‘zaro muloqot ma’noni targ‘ib qilishni (negotiation of meaning) rag‘batlantirish orqali til rivojini tezlashtiradi. Ushbu nazariy qarashlar og‘zaki nutq kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan ta’lim yondashuvlari uchun mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada ingliz tili darslarida og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga doir yondashuvlar haqidagi nazariy qarashlar muhokama qilinadi. Ingliz tili o’qitish jarayonida bir qator samarali yondashuvlar mavjud bo’lib ular orqali til o’rgatish o’quvchilarning og’zaki nutq kompetensiyasini shakllantirishda yaxshi natijalarga olib kelishi tavsiflanadi. Quyida tavsiflangan yondoshuvlarga e’tibor qaratadigan bo’lsak, bu yondashuvlarning o’ziga xos tomonlari, ularni til o’qitish va o’rganish jarayonida qo’llashning afzalliklari va qiyinchilik jihatlarini o’rganib chiqishimiz mumkin.

*Kommunikativ til o‘qitish* (Communicative Language Teaching CLT) zamonaviy ingliz tili pedagogikasidagi eng ta’sirchan yondashuvlardan biri hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi o‘rganuvchilarning maqsadli tilda mazmunli muloqot qila olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. CLT doirasida rolli o‘yinlar, munozaralar, intervyular va axborot bo‘shlig‘i (information-gap)ga asoslangan topshiriqlar kabi gapirish faoliyatlari dars jarayonining markaziy qismi hisoblanadi.

CLT o‘rganishning dastlabki bosqichlarida aniqlikdan (accuracy) ko‘ra ravonlikni (fluency) ustun qo‘yadi va o‘rganuvchilarni tilni ijodiy qo‘llashga undaydi. Bu yondashuvda o‘qituvchi nutqni nazorat qiluvchi emas, balki o‘rganish jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi fasilitator rolini bajaradi. Natijada o‘rganuvchilarda og‘zaki muloqotda ishonch va spontanlik rivojlanadi. Biroq ayrim tanqidchilarning fikricha, til shakliga yetarli e’tibor berilmasa, xatolarning mustahkamlanib qolishiga (fossilizatsiya) olib kelishi mumkin. Shu sababli CLT shaklga yo‘naltirilgan ta’lim bilan muvozanatda qo‘llanishi lozim.

*Vazifaga asoslangan til o‘qitish* (Task-Based Language Teaching yoki TBLT) kommunikativ til o’qitish yondashuvining davomchisi bo‘lib, ta’lim jarayonini kommunikativ vazifalar asosida tashkil etadi. Vazifa deganda o‘rganuvchilar til vositasida aniq va mazmunli natijaga erishadigan faoliyat tushuniladi. Bunga muammo yechish, qaror qabul qilish vazifalari va simulyatsiyalar misol bo‘la oladi.

Vazifaga asoslangan til o‘qitish o‘rganuvchilarni autentik og‘zaki muloqotga jalb etish orqali og‘zaki nutq kompetensiyani rivojlantiradi. Vazifa sikli odatda vazifadan oldingi tayyorgarlik, vazifani bajarish va vazifadan keyingi tahlil bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Vazifalarni bajarish jarayonida til o‘rganuvchilar ingliz tilida muzokara olib boradilar, fikrlarini aniqlashtiradilar va hamkorlik qiladilar, bu esa ravonlik va strategik kompetensiyaning rivojlanishiga xizmat qiladi. Tadqiqotlar vazifaga asoslangan til o‘qitish yondashuvini og‘zaki nutq muloqotini faollashtirish va o‘rganuvchilar mustaqilligini rivojlantirishda ayniqsa samarali ekanini ko‘rsatadi.

*Audio-lingval metod (Audio-Lingual Method)* bixevioristik o‘rganish nazariyasi va strukturaviy lingvistikaga asoslanadi. Ushbu metod takrorlash, mashqlar va qolipli mashq qilish orqali til odatlarini shakllantirishga urg‘u beradi. Og‘zaki ko‘nikmalar avvalo tinglash va gapirish faoliyati orqali, o‘qish va yozishdan oldin rivojlantiriladi. Bu metod o‘rganishning boshlang‘ich bosqichlarida talaffuz, intonatsiya va grammatik aniqlikni yaxshilashda samarali bo‘lishi mumkin. Dialoglarni yodlash va almashtirish mashqlari o‘rganuvchilarga til tuzilmalarini ichki o‘zlashtirishga yordam beradi. Biroq bu metod kommunikativ tabiiylikning yetishmasligi va ijodiy nutq uchun imkoniyatlarning cheklanganligi sababli tanqid qilinadi. Shuning uchun Audio-lingval metod eng samarali tarzda kommunikativ yondashuvlar bilan uyg‘un holda qo‘llanadi.

*Mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (Content and Language Integrated Learning* yoki CLIL) yondashuvi chet til orqali fan mazmunini o'rgatishni nazarda tutadi. CLIL darslarida o'rganuvchilar mazmun bilan bog'liq mavzularni muhokama qilish, ma'lumotlarni taqdim etish va ingliz tilida akademik nutqda ishtirok etish orqali og'zaki kompetensiyalarini rivojlantiradilar. CLIL mazmunli kommunikativ kontekstlarni ta'minlash va maqsadli tilga ta'sirni kuchaytirish orqali og'zaki kompetensiyani rivojlantiradi. O'rganuvchilar til shakllarini mashq qilish uchungina emas, balki fan bilimlarini ifodalash zarurati tufayli gapirishga undaladilar. Shunga qaramay, CLIL muvaffaqiyatli bo'lishi uchun puxta tayanch (scaffolding) va o'qituvchining yuqori darajadagi til hamda fan bilimlari talab etiladi.

*Loyihaviy ta'lim (Project-Based Learning yoki PBL)* o'rganuvchi markazda turuvchi yondashuv bo'lib, ma'lum vaqt davomida loyihalarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Loyiha jarayonida o'rganuvchilar hamkorlik qiladi, tadqiqot olib boradi va natijalarni og'zaki taqdim etadi. Loyihaviy ta'lim uzoq davom etadigan og'zaki muloqot, muzokara va omma oldida nutq so'zlashni rag'batlantirish orqali og'zaki kompetensiyaning rivojlanishiga xizmat qiladi. Taqdimotlar, guruh muhokamalari va tengdoshlar fikr-mulohazalari o'rganuvchilarning ravonligi, mantiqiy izchilligi va ishonchini oshiradi. Bundan tashqari, PBL tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirib, og'zaki muloqotni maqsadli va autentik qiladi.

**Tadqiqot metodlari**

Ushbu tadqiqot ingliz tilini o'qitish sohasidagi mavjud nazariy va pedagogik adabiyotlarni tizimli ko'rib chiqish va tahlil qilishga asoslangan sifatli tavsifiy tadqiqot dizaynidan foydalanadi. Asosiy manbalar kommunikativ kompetensiya bo'yicha fundamental ishlar, chet tilini o'zlashtirish nazariyalari va zamonaviy o'qitish metodologiyalarini o'z ichiga oladi.

Metodlar bo'limi quyidagilarni qamrab oladi:

og'zaki kompetensiya va gapirishni o'qitishga oid ilmiy kitoblar hamda taqrizdan o'tgan maqolalarni tanlash;

yondashuvlarni ularning nazariy asoslari va didaktik tamoyillariga ko'ra tasniflash;

har bir yondashuvga xos sinf amaliyotlari va ularning o'rganuvchilarning og'zaki nutq ko'rsatkichlariga ta'sirini tahlil qilish.

Tahlil uchun tanlangan yondashuvlar Kommunikativ til o'qitish, Vazifaga asoslangan til o'qitish, Audio-lingval metod, Mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish hamda Loyihaviy ta'lim gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi keng qo'llanilishi va pedagogik ahamiyati sababli tanlab olindi.

**Tahlillar va natijalar**

Tahlil shuni ko'rsatadiki, har bir pedagogik yondashuv og'zaki kompetensiyani rivojlantirishga o'ziga xos tarzda hissa qo'shadi.

Kommunikativ til o'qitish (CLT) mazmunli o'zaro muloqot va ravonlikka urg'u beradi. O'rganuvchilar rolli o'yinlar, munozaralar va axborot bo'shlig'iga asoslangan faoliyatlarda ishtirok etib, gapirishda ishonch va spontanlikni oshiradilar.

Vazifaga asoslangan til o'qitish (TBLT) ma'no muzokarasini talab qiluvchi maqsadga yo'naltirilgan vazifalar orqali og'zaki kompetensiyani rivojlantiradi. Vazifalarni bajarish jarayonida o'rganuvchilarda ravonlik va strategik kompetensiyaning yaxshilanishi kuzatiladi.

Audio-lingval metod (ALM) takrorlash va mashqlar orqali talaffuz aniqligi hamda grammatik nazoratni rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq ijodiy og'zaki nutq uchun imkoniyatlar cheklangan bo'lib qoladi.

Mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL) gapirish faoliyatini fan mazmuni bilan uyg'unlashtirish orqali og'zaki kompetensiyani rivojlantiradi. O'rganuvchilar ingliz tilidan akademik tushunchalarni ifodalash vositasi sifatida foydalanadilar, bu esa autentiklik va motivatsiyani oshiradi.

Loyihaviy ta'lim (PBL) uzluksiz og'zaki muloqot, hamkorlik va taqdimot ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'rganuvchilarda kengaytirilgan og'zaki nutqda ishonch va mantiqiy izchillikning oshgani kuzatiladi.

Umuman olganda, natijalar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ va mazmunga asoslangan yondashuvlar ravonlik va o'zaro muloqotni rivojlantirishda samaraliroq bo'lsa, shaklga yo'naltirilgan metodlar asosan aniqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ko'rib chiqilgan har bir yondashuv og'zaki kompetensiyaning turli jihatlarini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv va vazifaga asoslangan yondashuv kommunikativ o'zaro ta'sirchanlik va nutqdagi ravonlikni ustuvor deb biladi, Audio-lingval yondashuv esa aniqlik va talaffuzga e'tibor qaratadi. Mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish va loyihaviy ta'lim yondashuvlari og'zaki muloqot uchun mazmunli va boy kontekstlarni ta'minlaydi.

Shu o'rinda aytish joizki, hech bir yondashuv og'zaki kompetensiyaning barcha jihatlarini to'liq qamrab ololmaydi. Shu sababli, turli metodologiyalarning elementlarini birlashtirgan eklektik yondashuv tavsiya etiladi. O'qituvchilar og' nutq kompetensiyani rivojlantirish strategiyalarini tanlashda o'rganuvchilarning yoshi, til darajasi, o'quv maqsadlari va sinf sharoitini hisobga olishlari lozim.

**Xulosa :**Ingliz tili darslarida og‘zaki kompetensiyani rivojlantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo’ib, u til o’qitish va o’rganish faoliyatida samarali ta’lim va mazmunli o‘zaro muloqot imkoniyatlarini yaratishni, ravonlik va aniqlik o‘rtasidagi muvozanatni hamda o‘rganuvchilarning faol ishtirokini talab etadi. Kommunikativ, vazifaga asoslangan, mazmun bilan integratsiyalashgan va loyihaga yo‘naltirilgan yondashuvlarning barchasi gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muhim strategiyalarni taklif etadi.

Xulosa qilib aytganda, moslashuvchan va integratsiyalashgan pedagogik yondashuv og‘zaki nutq kompetensiyani rivojlantirishda eng samarali hisoblanadi. Kelgusidagi tadqiqotlar turli ta’lim kontekstlarida yondashuvlarni uyg‘unlashtirib qo‘llashning o‘rganuvchilarning og‘zaki nutqiy faoliyatiga ta’sirini empirik jihatdan o‘rganishga qaratilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47.
2. Hymes, D. (2003). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics* (pp. 269–293). Harmondsworth: Penguin.
3. Krashen, S. (2007). *The Input Hypothesis: Issues and Implications*. London: Longman.
4. Long, M. (1996). The role of the linguistic environment in second language acquisition. In W. Ritchie & T. Bhatia (Eds.), *Handbook of Second Language Acquisition* (pp. 413–468). San Diego: Academic Press.
5. Richards, J. C. (2006). *Communicative Language Teaching Today*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Willis, J. (2002). *A Framework for Task-Based Learning*. Harlow: Longman.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Nabiyev Akramjon Botirjonovich**
Namangan davlat universiteti
San`atshunoslik kafedrasi dotsenti , PhD.,
e-mail: akramjon.nabiyev.80@mail.ru

## PROFESSIONAL TA'LIMDA KOMPETENSIYA DARAJALARINI BAHOLAShDA INNOVATSION YONDASHUV

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada professional ta'limda kompetensiya darajalarini baholashda innovatsion yondoshuvga bag'ishlangan. Maqolada mamlaktimizda texnologik ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llashning o'rni va ahamiyati yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar.*** *Professional ta'lim, kompetensiya, innovatsion yondashuv, divergent fikrlash, ta'lim-tarbiya.*

**Набиев Акрамжон Ботиржонович**
Наманганский государственный университет
Доцент кафедры искусствоведения, кандидат наук,

## ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ОЦЕНКЕ УРОВНЕЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

***Аннотация.*** *Эта статя посвящена инновационному подходу к отсенке уровня компетентности в технологиском образовании. В стате освещены рол и важност технологического обучения в нашей стране, исползования инновационных педагогических и информатсионных технологий в технологическом образовании.*

***Ключевые слова.*** *Технологическое образование, компетентност, инновационный подход, дивергентное мышление, образование.*

**Nabiev Akramjon Botirjonovich**
Namangan State University
Associate Professor of the Department of Art Studies, PhD.,

## INNOVATIVE APPROACH TO ASSESSING COMPETENCE LEVELS IN VOCATIONAL EDUCATION

***Annotation.*** *This article focuses on an innovative approach to assessing competency levels in vocational education. The article highlights the role and importance of the introduction of a new professional systemin our country, the use of innovative pedagogical and information technologies in vocational education.*

***Key words.*** *Professional education, competence, innovative approach, divergent thinking, education.*

Hozirda mamlakatimizda professional ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish, kompetensiyalarni shakllantirish va kompetensiya darajalarini baholash metodlarini ishlab chiqish va takomillashtirishni taqazo etmoqda.

O'qitish jarayonining vazifasi ta'lim, tarbiya va rivojlanish birligini ta'minlashni nazarda tutadi. Biroq texnologik ta'lim yo'nalishlari bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlashda ta'lim oluvchilarning qobiliyati, ong va ko'nikmalarini o'stirish, ilmiy-amaliy bilimlarini chuqurlashtirish muammosi bundan ham muhimroq [1].

Texnologik ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari va faol usullardan foydalanish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tatbiq qilish, ko'proq talabalarni mustaqil ishlashga undash, ilg'or tajribalardan saboq berishning turli yo'llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Innovatsion ta'lim – bu bo'lajak mutaxassislarni mehnat bozori talablari asosida kasbiy faoliyatga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u avval olgan bilimlar asosida ta'limni takomillashtirish vasamarali yangicha yondashuv qilishdan iborat. Unda ta'lim-tarbiyada yangicha sifat ko'rsatkichiga erishib, yuqori samaradorlikni qo'lga kiritish amalga oshiriladi va ijodkorlikka yo'naltiriladi hamda ta'lim texnologiyalarini yangicha sifat bosqichiga ko'tarish, shuningdek, ta'lim-

tarbiyada zamonaviy yondashuvlarni tashkil qilib borishni ta'minlaydi. Innovatsion ta'limda zamon bilan hamnafas ta'lim texnologiyalarini yaratish bilan shug'ullanishga doim imkoniyat yaratilib boriladi. Ta'lim oluvchilarning kompetentlik darajalarini baholash metodlari hamma vaqt bahs munozarali mavzu bo'lib kelganligi bois innovatsion yondashuvni talab etadi. Chunki u turli adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, ta'lim oluvchilarning kasbiy kompetentlik darajalari ta'lim sifatini belgilabgina qolmay balki bitiruvchilarning mehnat bozorida o'z o'rnini topishiga imkon yaratadi. Kasbiy kompetentlik mezonlari o'qitiladigan har bir fanning maqsad va vazifalaridan, egallanishi lozim bo'lgan maxsuskompetensiyalar mazmunidan kelib chiqib aniqlanadi. Ta'lim oluvchilarning kompetentlik darajalarini baholash metodlaridan eng samaralisi muammoli va ijodiy topshiriqlar metodidir.Bu metodlar eng samarali bo'lib, asosan talaba mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatini rivojlantirishga va baholashga yo'naltirilgan. Zero kompetensiya mustaqil va ijodiy faoliyatnatijasidir [2].

Mustaqil fikr yuritish har bir shaxs hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, auditoriyada dars berishning barcha shakllari: nazariy, amaliy, laboratoriya darslari, amaliyotlar, darsdan tashqari ishlar, ilmiy tadqiqot ishlarida talabalarning mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari tarkib topadi va u o'qituvchi yoki ilmiy rahbar tomonidan rivojlantirib borilishi muhim ahamiyatga egadir.

Mustaqil faoliyat yuritishda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni har doim tushunilgan, anglab etilgan xususiyatda bo'ladi. Mustaqil ishlash mahoratini egallash uchun ta'lim oluvchi faqat o'z faoliyati maqsadini tushunib etishigina emas, balki ta'lim olish metod va usullarini o'zlashtirishi hamda bilimlarni amaliy qo'llash ko'nikmalarini egallashlari kerak bo'ladi. Mahoratlar shakllanishida talabaning ma'lum sharoitlarda qanday qilib harakat qilish kerakligi haqidagi bilimlarni egallashi alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday bilimlar amaliy hamda aqliy ishlarni bajarishning samarali usul va uslublarini egallashi uchun zarur bo'ladi.

Ijodiy fikrlash-imkoniyatlar turli-tumanligiga tayanuvchi, muammo va masalalar umuman yangi echimiga olib keluvchi idrok etish strategiyasini taqdim etadi. Uning psixologik mexanizmini divergent fikrlash bilan bog'laydilar. Sub'ektiv yangi mahorat yaratish, shuningdek, uni yaratish bo'yicha idrok etish faoliyatining o'zida yangilik yaratish bilan ifodalanadi. O'z belgisi bilanreproduktiv fikrlashdan farqlanadi.

Talabalarning kompetensiya darajalarini baholashda mustaqil va ijodiy topshiriqlarini ishlab chiqishda quyidagi qoidalarga rioya etilishi tavsiya etiladi:

- topshiriqlar haqiqiy vaziyatlar bilan bog'liq muammolarga qaratilishi kerak;
- o'quv topshirig'idagi muammoni hal etishda talabalar aqliy faoliyatini turli usullar yordamida rivojlantirishni ko'zda tutadi;
- topshiriqlar mazmunida aks ettirilgan hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi muhim bog'liqlik ko'rsatilishi kerak;
- topshiriqlar echimini aniqlash va talabalar ongida hodisalar yoki jarayonlar o'rtasida bog'liqlikni mustahkamlash imkoniyatlarini nazarda tutilishi lozim;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida talaba oddiy tushunchalardan, u hali o'zlashtirilmagan yanada murakkabroq tushunchani keltirib chiqarish imkonini berishi lozim; topshiriqni bajarish jarayonida oddiy tushunchalar talabaga ma'lum bo'lmagan tushunchalar bilan o'zaro tahlil qilinadi;
- topshiriqni bajarishda talaba tushunchalarning shakli va mazmunini o'zgartirmasdan hamda o'zgartirib, ularni qayta ishlab chiqadi;
- ijodiy fikrlash asosida yangi bilimlar shakllanadi [3]

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdugaffor Khurmamatov, Abdurahim Matkarimov, Alisher Auesbaev, Usnatdin Utegenov Results Of Experiments On Studying The Composition And Purification Of Technical Water Of Oil And Gas Processing Plant // Processes of Petrochemistry and Oil Refining 2023.- №4

2. Зимняя И.А Ключевые компотентности– новая парадигма результатов образование сегодня. – 2003.- №5

3. А.Маткаримов Применение технологии проблемного обучения в преподавании основ безопасности жизнедеятельности. Проблемы науки 2017.- №7 (20)

4. Ткаченко Е.В. Современные проблемы технологикного образования в условиях рыночной экономики // Образования и нуки. Изв. Урал.Отд.РАО.- 2004.- №1

5. А.Маткаримов Измерение и контроль вибраций при производственном процессе. Достижения науки и образования 2017.- №5 (18)

6. Zeer E.F. Компетентностый подход к образованию // Pedagogika.- 2005.-№3

7. A.B.Nabiyev., Maktab o'quvchilari va talabalarni madaniyatini shakllantirish "**Економика и сотсиум**" **№12(115) 2023**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Maxsudaliyeva Ra'noxon Baxodir qizi**
Namangan davlat universiteti tayanch doktorantura talabasi
Email: ranoxonmaxsudaliyeva@gmail.com

**UO'K: 398:37.016:81'243**

## INGLIZ VA O'ZBEK FOLKLORIDAGI UMUMIYLIK VA FARQLAR: TALABALARNING MADANIYATLARARO TAHLIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek xalq og'zaki ijodining asosiy janrlari: ertaklar, maqollar, afsonalar, dostonlar va qo'shiqlar qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot ingliz va o'zbek folkloridagi umumiylik va farqli jihatlar orqali talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *folklor, xalq og'zaki ijodi, ertak, maqol, madaniyatlararo tahlil, ingliz tili, o'zbek tili, qiyosiy folklorshunoslik.*

**Махсудалиева Раънохон Баходир кизи**
Базовый докторант Наманганского государственного университета

## ОБЩИЕ ЧЕРТЫ И РАЗЛИЧИЯ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ФОЛЬКЛОРЕ: ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРОСС-КУЛЬТУРНОГО АНАЛИЗА У УЧАЩИХСЯ

***Аннотация:*** *В данной статье проводится сравнительный анализ основных жанров английского и узбекского народного творчества: сказок, пословиц, легенд, эпосов и народных песен. Исследование направлено на развитие межкультурной компетенции студентов посредством изучения сходств и различий между английским и узбекским фольклором.*

***Ключевые слова:*** *фольклор, устное народное творчество, сказка, пословица, межкультурный анализ, английский язык, узбекский язык, сравнительное фольклороведение.*

**Maxsudaliyeva Ra'noxon Baxodir qizi**
Basic doctoral student of Namangan state university

## COMMONALITIES AND DIFFERENCES IN ENGLISH AND UZBEKISTAN FOLKLORE: THE IMPORTANCE OF DEVELOPING STUDENTS' CROSS-CULTURAL ANALYSIS SKILLS

***Annotation:*** *This article provides a comparative analysis of the main genres of English and Uzbek folklore: fairy tales, proverbs, legends, epics, and folk songs. The research focuses on developing students' intercultural competence through exploring similarities and differences between English and Uzbek folklore.*

***Key words:*** *folklore, oral tradition, fairy tale, proverb, intercultural analysis, English language, Uzbek language, comparative folklore studies.*

### Kirish.

Jahonning tobora kuchayib borishi va global miqyosdagi o'zaro bog'liqlikning rivojlanishi tufayli, turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish qobiliyati madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi zamonaviy dunyoda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu nafaqat xalqaro miqyosdagi hamkorlikda, balki mahalliy darajada ham, tobora ko'payib borayotgan madaniy xilma-xillik sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur shart hisoblanadi. Talabalar, kelajakning yetakchilari sifatida, ushbu kompetensiyani egallash orqali professional faoliyatlarida, shaxsiy hayotlarida va jamiyat hayotida o'z o'rinlarini topadilar. Shunday ekan, talabalarning madaniyatlararo ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

### Adabiyotlar tahlili:

Ingliz va o'zbek folklorining ilmiy o'rganilishi madaniyatlararo tahlil ko'nikmalarini shakllantirishda muhim metodologik asos yaratadi. Folklor materiallaridan foydalanish talabalarda turli madaniy tizimlarning mazmuniy

qatlamlarini anglash, ularni tahlil qilish va qiyosiy baholash imkoniyatini kengaytiradi. Mazkur jarayon madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning samarali yo‘llaridan biri sifatida ko‘riladi.

Xorij tadqiqotchilari, xususan R. Dorson va M. Greenning ingliz folklorini milliy o‘zlik, madaniy birlik va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiruvchi konsept sifatida talqin etadilar [2,3]. Ularning ishlarida ertak va rivoyatlar avlodlar ongida axloqiy me’yorlar va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi vosita sifatida baholanadi. Masalan, R. Dorson folklorni nafaqat tarixiy-madaniy meros, balki zamonaviy jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlaydigan ijtimoiy institut sifatida ko‘rsatadi [2]. M. Greenning esa ingliz ertaklarida milliy xarakter, mehnatsevarlik, halollik va adolat kabi qadriyatlarning badiiy obrazlar orqali ifodalanishini tahlil qiladi va ularning tarbiyaviy ahamiyatini asoslaydi [3]. Bu tadqiqotlarning umumiy jihati shundaki, ular folklorni badiiy-estetik hodisa doirasida emas, balki jamiyatning axloqiy me’yorlarini shakllantiruvchi kuch sifatida talqin qiladi.

O‘zbek olimlari tadqiqotlarida esa folklorning ma’naviy-axloqiy mazmuni, obrazlar tizimi va badiiy vositalari markaziy o‘rinni egallaydi. N. Jo‘raeva o‘zbek ertaklarida aks etgan axloqiy ideal va qahramonlar tizimini tahlil qilib, mehnatsevarlik, sadoqat, halollik va adolat kabi fazilatlarning milliy mentalitetda qanday shakllanganini ilmiy asoslaydi [4]. S. Mirzayev esa maqol, topishmoq va dostonlarning badiiy qurilishini o‘rganib, xalqning ma’naviy-axloqiy qadriyatlari qanday poetik vositalar orqali ifodalanganini ko‘rsatadi [6]. Bu yondashuvlar folklorni milliy o‘zlik va xalq tafakkurining estetik ifodasi sifatida baholash imkonini beradi.

B. Rahimovning qiyosiy tadqiqoti esa ikki ilmiy yo‘nalishni — ingliz va o‘zbek folklorining bir-biriga yaqin va farqli jihatlarini — uyg‘unlashtiradi. Uning “Robin Gud” va “Alpomish” obrazlari asosidagi tahlillari ikki xalqning adolat, jasorat va insonparvarlik haqidagi qarashlari o‘rtasidagi umumiylik va tafovutlarni ochib beradi [7]. Bu qiyosiy yondashuv folklorlarni alohida milliy hodisa sifatida emas, balki madaniyatlararo muloqot va o‘zaro anglashuvni rivojlantiruvchi fenomen sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, D. Karimovaning tadqiqotlari o‘zbek folklorining pedagogik ahamiyatini yoritib, uning talabalarda turli madaniyatlarni tushunish, qabul qilish va ularga hurmat bilan yondashish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi funksiyasini asoslaydi [5]. Bu yondashuv folklorni ta’lim jarayonining tarkibiy qismiga aylantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorij olimlari asosan ingliz folklorining ijtimoiy-axloqiy va milliy o‘zlikni shakllantiruvchi jihatlariga e’tibor qaratgan bo‘lsa, o‘zbek tadqiqotchilari folklorning ma’naviy-axloqiy mazmuni va badiiy tabiatini chuqur tahlil qiladilar. B. Rahimovning ishlari esa ikki folklor tizimi o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlarni aniqlash orqali madaniyatlararo tahlilning kengroq ilmiy doirasini yaratadi [7]. Natijada, bu tadqiqotlar majmuasi ingliz va o‘zbek folklorining nafaqat milliy, balki pedagogik va madaniyatlararo ahamiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolada ingliz va o‘zbek folkloridagi umumiylik va farqlarni tahlil qilish orqali talabalarning madaniyatlararo tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi muhokama qilinadi. Tadqiqotda folklor namunalarining madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishdagi o‘rni, ularning ta’lim jarayonida qo‘llanilish usullari hamda talabalarda boshqa madaniyatni anglash, solishtirish va tahlil qilish ko‘nikmalariga ta’siri tavsiflanadi. Ingliz va o‘zbek olimlarining folklor va madaniyatlararo kompetensiya haqidagi qarashlari o‘rganilib, solishtiruvchi tahlil usuli yordamida ularning ilmiy natijalari tahlil qilindi.

**Natijalar va ularning tahlili.**

Tadqiqot davomida ingliz va o‘zbek folklorining asosiy janrlari – ertaklar, maqollar, afsonalar va xalq qo‘shiqlari – mazmun, g‘oya, qahramonlar tizimi hamda axloqiy funksiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Olingan natijalar har ikki xalq og‘zaki ijodi o‘rtasida umuminsoniy qadriyatlar asosida mushtaraklik mavjudligini, ammo ularning badiiy ifodasi va madaniy kontekstida sezilarli farqlar borligini ko‘rsatdi.

1. Ingliz va o‘zbek ertaklarining g‘oyaviy yo‘nalishlari

Ingliz ertaklarida ko‘pincha individualistik qadriyatlar, ya’ni insonning shaxsiy erkinligi, o‘z taqdirini o‘zi belgilashi va ijtimoiy to‘siqlarni yengish g‘oyalari markazda turadi [3]. Masalan, “Jack and the Beanstalk” ertagida bosh qahramon kambag‘al, ammo jasur, o‘z aql-idroki bilan yovuz kuchni yengadi va farovonlikka erishadi. Bu, asosan, “self-made man” g‘oyasining folklordagi ifodasidir.

O‘zbek ertaklarida esa insonning yutuqlari ko‘pincha jamoa, oila yoki millat manfaati bilan bog‘liq [4]. “Zumrad va Qimmat” yoki “Alpomish” kabi asarlarda qahramonning jasorati jamoaning farovonligi bilan o‘lchanadi. Bu o‘zbek xalqining kollektivistik mentalitetini aks ettiradi.

2. Maqollar orqali axloqiy qadriyatlarning ifodasi

Ingliz va o‘zbek maqollarining semantik tahlili shuni ko‘rsatdiki, ikkala madaniyatda ham mehnatsevarlik, halollik va sabr-toqat kabi qadriyatlar bir xil axloqiy asosda ifodalanadi, biroq ularning metaforik tuzilmasi va psixologik urg‘usi turlicha [7].

Masalan:

- Inglizcha: *"No pain, no gain."* – Harakat bo'lmasa, natija bo'lmaydi.
- O'zbekcha: *"Mehnat qilgan – to'yadi."* – Mehnat barakali hayot manbai.

Har ikki maqolda mehnat va natija o'rtasidagi sabab-natija munosabati mavjud, ammo ingliz versiyasi individual muvaffaqiyatni urg'ulasa, o'zbek versiyasi jamoaviy mehnat va barakani ifodalaydi.

3. Afsonalar va xalq dostonlari orqali tarixiy ongning aks etishi

Ingliz afsonalarida, xususan, "King Arthur" rivoyatlarida, qahramonlik va sadoqat g'oyasi tarixiy qirollik idealiga bog'lanadi [2]. Bu asarlar orqali xalq riddership (riddarlik), ya'ni sadoqat va mardlik timsoli sifatida o'z tarixini ramziy talqin qiladi.

O'zbek xalq dostonlarida esa tarixiy qahramonlar xalq ozodligi va adolat uchun kurashuvchi obrazlar sifatida tasvirlanadi [6]. "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi dostonlarda shaxsiy jasorat millat sha'nining ifodasiga aylanadi.

4. Folklor qo'shiqlarida madaniy konnotatsiyalar

Ingliz xalq qo'shiqlarida (masalan, "Greensleeves") individual muhabbat, yolg'izlik, ichki kechinma ustuvor bo'lsa, o'zbek xalq qo'shiqlarida ("Yor-yor", "Kelin salom") oilaviy birlik, marosim va ijtimoiy qadriyatlar markazda turadi. Shu bois o'zbek qo'shiqlari ijtimoiy ahamiyatga ega, ingliz qo'shiqlari esa psixologik ichki holatni ifodalaydi.

**1-jadval**

**Ingliz va o'zbek folkloridagi asosiy umumiylik va farqlar**

| Tahlil mezoni | Ingliz folklori | O'zbek folklori |
|---|---|---|
| G'oyaviy yo'nalish | Shaxs erkinligi, jasorat, o'zini anglash, individual muvaffaqiyat. | Jamoaviylik, mehr-oqibat, ota-onaga hurmat, birdamlik. |
| Asosiy qahramonlar | Oddiy odam, riddar, kambag'al yigit, sadoqatli qiz. | Xalq qahramonlari, vatan himoyachilari, mehribon onalar. |
| Axloqiy qadriyatlar | Halollik, sadoqat, jasorat, vijdon, intizom. | Sabr, to'g'rilik, mehmondo'stlik, fidoyilik, mehnatsevarlik. |
| Folklor motivlari | Sehrli hodisalar, afsonaviy mavjudotlar (ajdar, dev, peri). | Real hayotiy syujetlar, xalq urf-odatlari, milliy qadriyatlar. |
| Qo'shiq janri | Lirik, individual kechinmalar, muhabbat mavzusi. | Marosimiy, ijtimoiy, jamoaviy birdamlik ruhi. |
| Tarixiy kontekst | Qirollik davri, ritsarlik eposlari, sadoqat ideali. | Qahramonlik dostonlari, milliy ozodlik va vatanparvarlik. |
| Didaktik vazifa | Shaxsiy rivoj va mustaqil fikrlashni rag'batlantirish. | Axloqiy tarbiya, ijtimoiy birlik va ma'naviy merosni saqlash. |

5. Talabalarning madaniyatlararo tahlil kompetensiyasining shakllanishi

Folklor materiallari asosida olib borilgan tahliliy mashg'ulotlarda talabalarning quyidagi o'zgarishlari kuzatildi:

1.Tushunish darajasi: talabalar ingliz va o'zbek folkloridagi g'oyaviy o'xshashliklarni aniqlab, madaniy kontekstni chuqurroq tahlil qila boshladilar.

2.Empatiya ko'nikmasi: o'zga madaniyatdagi qadriyatlarni qabul qilish va hurmat bilan yondashish hissi shakllandi.

3.Qiyosiy tahlil qobiliyati: o'z madaniyatini boshqa madaniyatlar bilan solishtirib, umumiylik va farqlarni izchil tushuntirish ko'nikmasi rivojlandi.

4.Lingvokulturologik bilim: talabalarda tilda yashiringan madaniy belgilar, metaforalar va majozlarni aniqlash qobiliyati ortdi.

Bu natijalar Bennett va Karimova asarlarida qayd etilgan "madaniyatlararo o'zaro anglashuvni folklor orqali rivojlantirish mumkin" degan ilmiy g'oyani tasdiqlaydi [1,5].Natijalar shuni ko'rsatdiki, ingliz folkloridagi individualistik motivlar o'zbek folklorining kollektiv qadriyatlari bilan uyg'unlashgan holda madaniyatlararo muloqotda to'ldiruvchi rol o'ynaydi. Folklor madaniyatni anglash, o'zlikni saqlash va boshqa xalqlarni tushunishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

**Xulosa.**

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, ingliz va o'zbek folkloridagi umumiylik va farqlarni tahlil qilish orqali talabalarda madaniyatlararo tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish nafaqat ularning til va adabiyotga oid bilimlarini chuqurlashtiradi, balki turli xalqlarning urf-odatlari, qadriyatlari hamda dunyoqarashi bilan tanishish orqali madaniy tafakkurini kengaytiradi. Har ikkala folklor namunalarida uchraydigan obrazlar, mavzular, ramzlar va axloqiy-mazmuniy g'oyalarni solishtirish orqali talabalar umumiy insoniy qadriyatlarni anglaydi, o'z va begona madaniyatlar orasidagi o'xshashlik va farqlarni tahlil qilishga o'rganadi. Bu jarayon ularning tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv va

madaniy sezgirlik koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, ingliz va oʻzbek folklori asosida olib boriladigan madaniyatlararo tahlillar talabalar uchun nafaqat nazariy bilim manbai, balki ularni global va koʻp madaniyatli muhitga tayyorlovchi muhim pedagogik vosita hamdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bennett, M. J. Developing Intercultural Competence through Education. New York: Routledge. 2021. – P. 45–63.
2. Dorson, R. British Folklore and National Identity. London: Palgrave Macmillan. 2017. – P. 112–138.
3. Green, M. The Moral Landscape of English Fairy Tales. Journal of Folklore Studies, 52(2). 2015. – P. 145–162.
4. Joʻraeva, N. Oʻzbek xalq ertaklarida axloqiy ideal va obrazlar tizimi. – Toshkent: Fan nashriyoti. 2021. – B. 25–49.
5. Karimova, D. Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishda folklorning oʻrni. Filologiya masalalari jurnali, 3(4). 2023. – B 22–31.
6. Mirzayev, S. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodining badiiy xususiyatlari. – Namangan: NamDU nashriyoti. 2018. – B. 73–95.
7. Rahimov, B. Oʻzbek va ingliz xalq ogʻzaki ijodi qiyosida milliy mentalitet ifodasi. Til va adabiyot jurnali, 5(2). 2020. – B. 66–74.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Abdullayev Sardorbek Usmonxudjayevich**
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar akademiyasi
dotsenti, sotsiologiya fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
**Karimjanov Otabek Abdug‘affor o‘g‘li**
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar akademiyasi
katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

## YANGI O‘ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA’LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI VA BITIRIVCHILARNI KASBIY KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

***Annotatsiya:*** *Maqolada Yangi O‘zbekistonda professional ta’lim tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish masalalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomalarida belgilangan strategik vazifalar asosida tahlil etiladi. Professional ta’lim muassasalari faoliyatini modernizatsiya qilish, bitiruvchilar bandligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda ta’lim–ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirishning ustuvor yo‘nalishlari ochib beriladi. Tadqiqot davomida kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar misolida professional ta’limning mehnat bozori bilan uzviy bog‘liqligini ta’minlash masalalari sotsiologik yondashuv asosida yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *professional ta’lim, mehnat bozori, integratsiya, bandlik, mexanizm.*

**Абдуллаев Сардорбек Усмонхуджаевич**
доцент кафедры служебной психологии и профессиональной культуры Академии МВД Республики Узбекистан, доктор философии социологических наук (PhD), доцент
**Каримжанов Отабек Абдугаффор угли**
старший преподаватель кафедры служебной психологии и профессиональной культуры Академии МВД Республики Узбекистан, доктор философии по педагогическим наук (PhD), доцент

## ИНТЕГРАЦИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И РЫНКА ТРУДА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ У ВЫПУСКНИКОВ

***Аннотация****: В статье анализируются вопросы адаптации системы профессиональ-ного образования в Новом Узбекистане к потребностям рынка труда на основе стратегических задач, определённых в Посланиях Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису и народу Узбекистана. Раскрываются приоритетные направления модернизации деятельности учреждений профессионального образования, совершенствования механизмов обеспечения занятости выпускников, а также усиления интеграции образования и производства. В ходе исследования на примере профессиональных школ, колледжей и техникумов с социологической точки зрения освещаются вопросы обеспечения тесной взаимосвязи профессионального образования с рынком труда.*

***Ключевые слова:*** *профессиональное образование, рынок труда, интеграция, занятость, механизм.*

**Abdullayev Sardorbek Usmonkhudjayevich**
Associate Professor of the Department of Service Psychology and Professional Culture, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Sociological Sciences, Associate Professor
**Karimjanov Otabek Abdugaffor ogli**
Senior Lecturer of the Department of Service Psychology and Professional Culture, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor

## INTEGRATION OF PROFESSIONAL EDUCATION AND THE LABOR MARKET IN NEW UZBEKISTAN AND PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF GRADUATES’ PROFESSIONAL SKILLS

***Annotation****: The article analyzes the issues of adapting the professional education system in New Uzbekistan to the needs of the labor market based on the strategic objectives outlined in the Addresses of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan. The priority directions for modernizing the activities of professional education institutions, improving mechanisms for ensuring graduate employment, and strengthening the integration of education and production are revealed. In the course of the research, using the examples of vocational schools, colleges, and technical schools, the issues of ensuring a close linkage between professional education and the labor market are examined from a sociological perspective.*

***Keywords:*** *professional education, labor market, integration, employment, mechanism.*

**Kirish**

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar professional ta’lim tizimini tubdan takomillashtirishni talab etmoqda. Mehnat bozorida raqobatbardosh, zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarga ega kadrlarni tayyorlash professional ta’lim muassasalarining asosiy vazifasiga aylanib bormoqda. Shu jarayonda professional ta’lim va mehnat bozori integratsiyasi bilan bir qatorda, bitiruvchilarning kasbiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida inson kapitalini rivojlantirish, ayniqsa professional ta’lim tizimini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomalarida professional ta’limni iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish, yoshlarni zamonaviy kasb va mutaxassisliklarga o‘qitish hamda ularning bandligini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilganligi ham bejizga emas albatta.

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida mehnat bozori talablarining tez o‘zgarishi professional ta’lim tizimidan moslashuvchanlik, amaliyotga yo‘naltirilganlik va innovatsion yondashuvlarni talab etmoqda. Shu bois professional ta’lim va mehnat bozori integratsiyasi masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida professional ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, o‘quv dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish va ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish muhim vazifa sifatida belgilanganligi, xususan, “ta’lim – ishlab chiqarish – bandlik” zanjirini uzviy bog‘lash orqali yoshlarning raqobatbardoshligini oshirish zarurligi ta’kidlandi.

Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan ushbu g‘oyalar professional ta’lim muassasalarining faoliyatini faqat bilim berish bilan cheklab qolmasdan, balki bitiruvchilarning real mehnat bozoriga moslashuvini ta’minlashga yo‘naltirishni nazarda tutadi.

Davlatni ravnaqi ko‘p hollarda uning intelektual salohiyatini ortib borishi va bu asosda aholini turmush darajasini ko‘tarilishi, ko‘p hollarda mamlakat tomonidan olib borilgan ijtimoiy siyosat va uning aholisini ish bilan bandligi darajasiga bog‘liq.

Bugun Yangi O‘zbekiston “Inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlat” degan muhim g‘oya negizida barpo etilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev belgilab bergan bu ulug‘vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy guvohiga aylanib bormoqda.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek: “…Biz amalga oshirayotgan iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o‘zgarishlarning samarasi, birinchi navbatda, aholining moddiy ahvoli va farovonligini, uning hayot darajasi va sifatini oshirishga qay darajada ta’sir ko‘rsatayotgani bilan o‘lchanadi”[13]

Joriy yilda 5 million aholimiz daromadli bo‘lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi. Qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag‘allikdan chiqdi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla “kambag‘allikdan xoli” hududga aylandi[14].

Kambag‘al oilalarga mansub 168 ming nafar bola davlat bog‘chalariga imtiyozli asosda qabul qilindi. Bu yildan boshlab, 208 ta bog‘chada birinchi marta inklyuziv ta’lim tizimini joriy etildi. Ta’kidlash kerakki, yurtimizda kambag‘allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushdi[15].

Hozirgi kunda mamlakatimizda professional ta’lim tizimini takomillashatirish, bitiruvchilar bandligini ish bilan ta’minlash borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, professional ta’lim tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb

[13] SH.M.Mirziyoyev, Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq), Toshkent, O‘zbekiston, 2016, 15-16 betlar

[14] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr. - https://president.uz /oz/lists/view/8834

[15] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr. - https://president.uz /oz/lists/view/8834

qilish maqsadida boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlari joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans haqida “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak” deb ta’kidlaganlar. Uchinchi Uyg‘onish davri mamlakatimizning yangi asoslarini belgilab berdi. Bu esa bugungi davr uchun yanada dolzarbdir. Jamiyatimizda mafkura o‘zgarishi, insonning dunyodagi o‘rni va yo‘li haqidagi tushunchalarni o‘zgarib borishiga ham ta’sir qilmoqda.

Inson kamolga yetishi uchun yoshligidan ilm va kasb-hunar egallashi lozim bo‘lib, ilm-ma’rifat insonning ma’naviy kamolotida va jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Demak, inson qadr-qimmati uning “siymu-zari” bilan emas, olgan ilmu-hunari bilan baholanadi. Bugungi kunda dunyo ayvonida mamlakatimiz haqida so‘z yuritilganda: “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi Renessans” degan iboralarni ko‘p eshitamiz. Bu mamlakatimizning so‘nggi to‘qqiz yilda taraqqiyotning mutlaqo yangi, qat’iy bosqichiga qadam qo‘ygani, har sohada erishayotgan yutuqlarimizning e’tirofidir.

Dunyodagi murakkab vaziyatga qaramasdan, mamlakatimiz iqtisodiyoti 6 foizdan yuqori sur’atlarda barqaror o‘smoqda. Keyingi to‘qqiz yilda yalpi ichki mahsulot 2 karra oshib, tariximizda birinchi marta yalpi ichki mahsulotimiz146 milliard dollarga yetganligi, 2026-yilda eksport hajmi 23 foizga oshirilib 33,4 milliard dollarga yetkazilishi ko‘zda tutilmoqda. O‘tgan davrda birgina kichik va o‘rta tadbirkorlar soni 2 karra ko‘paygan. Bugun ushbu tarmoqda 10 milliondan ortiq aholi mehnat qilib, daromad topmoqda. Yil boshidan beri 5 million aholining bandligi ta’minlandi. Shu yilning o‘zida chetda ishlayotgan 700 ming fuqaro yurtimizga, o‘z oilasi bag‘riga qaytdi[16].

Jahonda demografik jarayonlarni baholash asosida demografik vaziyatlarni boshqarish bo‘yicha, shuningdek, aholi bandligini ta’minlash, ish o‘rinlarini yaratish, infratuzilma, qurilish, ta’lim va tibbiyot muassasalarini rejalashtirish kabi sohalarda muhim qarorlar qabul qilinadi. Ma’lumotlariga ko‘ra, «dunyoda 8 milliarddan ortiq odam yashaydi va ulardan 192,7 millioni ishsiz hisoblanadi». Shuningdek, jahon iqtisodiyoti har oyda qariyb 400 milliard dollar miqdorida zarar ko‘rayotganligi va dunyo bo‘yicha 500 million ish o‘rni yo‘qotilganligi dunyo mamlakatlari uchun bandlikni oshirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda[17].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Dunyoda aholi bandligini ta’minlash, ishsizlikni kamaytirish orqali mehnat bozoriga ta’sir ko‘rsatishni sotsiologik tahlil qilish asosida rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, aholi bandligini mehnat bozoriga ta’siri, ishsizlikni oldini olish va bandlikni oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning rivojlanishiga ta’siri, aholi bandligining mehnat taklifiga va ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishga ta’siri, aholi bandligini oshirish, ishsizlikni kamaytirish va bandlikka mehnat bozorining o‘zaro ta’sirini sotsiologik tadqiqotlar asosida o‘rganish hamda ilmiy izlanishlar olib borish masalasiga e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda aholining bandligini va real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish borasida keng ko‘lamli islohotlar jarayoni 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistoning taraqqiyot strategiyasi”ning ustuvor yo‘nalishida o‘z aksini topgan bo‘lib, unga ko‘ra, “aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish” kabi vazifalar belgilab berilgan. Bu vazifalarninig samarali ijrosini izchillik bilan amalga oshirish, manzilli yechimini topish aholi bandligini oshirishni, ishsizlikni kamaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali aholi bandligini ta’minlashning sotsiologik tadqiqotlar asosida o‘rganishni, professional ta’lim muassasalari bitiruvchilarni ish bilan ta’minlashning ijtimoiy mexanizmlarini tadqiq etish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Professional ta’lim tizimining mehnat bozori bilan uzviy bog‘lanishi bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ish beruvchilar talablariga mos o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni kuchaytirish hamda dual ta’lim mexanizmlarini joriy etish integratsiyaning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi. Bunday yondashuv professional ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislarning kasbiy salohiyatini oshiradi.

Professional ta’lim va mehnat bozori integratsiyasi — bu ta’lim tizimi bilan iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida barqaror hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, kadrlar tayyorlash jarayonini ish beruvchilar talablari asosida tashkil etishdir. Ushbu integratsiya quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

- o‘quv rejalari va dasturlarini real kasbiy kompetensiyalar asosida shakllantirish;
- dual ta’lim elementlarini joriy etish;

[16] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr. - https://president.uz /oz/lists/view/8834

17 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. - http://uzlidep.uz/news-of-uzbekistan/7998

- ishlab chiqarish amaliyotini kengaytirish;
- bitiruvchilar bandligini monitoring qilish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomalarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, professional ta’lim bitiruvchilarini ish bilan ta’minlash quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshirilmoqda:

– ish beruvchilar bilan ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish;

– hududiy mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash;

– yoshlarni tadbirkorlikka yo‘naltirish va o‘zini o‘zi band qilishga ko‘maklashish;

– raqamli bandlik platformalaridan foydalanish. Mazkur mexanizmlar yoshlarning mehnat bozoriga tez va samarali kirib borishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bitiruvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni faqat bilim va malaka bilan cheklanmaydi. Ushbu jarayonda quyidagi psixologik omillar muhim rol o‘ynaydi:

- Kasbiy motivatsiya – o‘quvchining tanlagan kasbiga bo‘lgan ichki qiziqishi va intilishi;
- Kasbiy o‘zini anglash – shaxsning o‘z imkoniyatlarini kasb talablari bilan moslashtira olishi;
- Moslashuvchanlik – mehnat bozori sharoitlariga tez moslashish qobiliyati;
- Mas’uliyat va to‘g‘ri qaror qabul qilish – kasbiy faoliyatda muhim bo‘lgan shaxsiy sifatlar.

Mazkur omillar rivojlangan taqdirda, bitiruvchilar nafaqat ish topishga, balki kasbiy jihatdan muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga ham erishadilar.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotning metodologiyasi O‘zbekistonda ijtimoiy mexanizm samaradorligini takomillashtirish evaziga professional ta’lim muassasasi bitiruvchilarini ish bilan ta’minlashni samaradorligini oshirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Yuqoridagilardan kelib chiqib:

- professional ta’limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari hamda professional ta’lim bitiruvchilarini ish bilan ta’minlashning retrospektiv holatini vaqt nuqtai nazaridan tahlil etish;

– ishga joylashmagan bitiruvchilarda mavjud bo‘lgan ijtimoiy motivlarini bandlik strukturalari bilan aloqadorligini sotsiodinamik tahlil etish;

– professional ta’lim bitiruvchilarini ish bilan ta’minlash masalalariga doir muammolarni empirik materiallar asosida aniqlash orqali ular bandligining salohiyatli imkoniyatlarini tadqiq etish;

– kadrlar tayyorlashda “professional ta’lim muassasasi – ishlab chiqarish – mehnat bozori – kasbga o‘qitish – kasbga qayta tayyorlash – ish beruvchi” kabi ijtimoiy jarayonlarni takomillashtirish texnologiyalarini asoslash;

– professional ta’lim bitiruvchilarini ish bilan ta’minlashda ijtimoiy – siyosiy o‘rganishning ham nazariy, ham ilmiy jihatlarini tadqiq etishning analitik-sotsiologik usulini ishlab chiqish hamda bitiruvchilar bandligining hududiy xususiyatlari va real muammolari tadqiq etilib, resurslardan manzilli foydalanishning ustuvorligini nazariy jihatdan belgilash;

– professional ta’lim bitiruvchilarini ish bilan ta’minlash darajasini oshirish holati unga ta’sir etuvchi omillar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish kabi vaziflar amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

**Tahlil va natijalar**

Ma’lumki, O‘zbekiston dunyo hamjamiyati davlatlari o‘rtasida aholisining jadal o‘sib borayotganligi bilan ajralib turadi. Respublikamiz aholisi soni har yili o‘rtacha 550-600 ming kishiga, mehnatga layoqatli aholi soni esa 250-300 ming kishiga ko‘paymoqda. Bunday vaziyat o‘z navbatida aholining ish bilan bandligini oshirish, buning uchun esa ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish borasida uzluksiz ish olib borishni taqozo etadi. O‘tgan yilda band aholi sonining doimiy aholi soni, mehnat resurslari va YIMga nisbatan statik bog‘liqligini 1-rasmda grafik tarzda ko‘rishimiz mumkin.

Bunda polinomal trend chizig‘i ko‘rinishida bandlik masalasini aproksimon aniqlik darajasi yuqori bo‘lib, $R^2$=0.969, deyarli band aholi sonining doimiy aholi soni, mehnat resurslari va YAIMga nisbatan statik bog‘liqlini yaqin grafikda izohlaydi. Grafikda chetlanish band aholi soni bilan yalpi hududiy mahsulotni aholi jon boshiga nisbatida farqlanish kuzatiladi. Ushbu farqlanish statik jarayon ma’lumotlaridagi chetlanishdan iborat bo‘lib, umumiy aholi bandligiga bevosita emas, balki bilvosita ta’sir qilishi mumkin.

Band aholi sonining doimiy aholi soni, mehnat resurslari va YAIMga nisbatan statik bog‘liqligi va uni polinomal trend chizig‘i asosida 2 yilga prognozi quyidagi ko‘rinishga ega (2-rasm). Band aholi jon boshiga nisbatan yalpi hududiy mahsulotni ikki davrga prognozini ko‘rsatishicha polinomal tenglama chizig‘i keskin o‘sish xarakteriga ega. Bunda yaqin ikki yilda aholi jon boshiga nisbatan yalpi hududiy mahsulotni o‘sishi kuzatiladi.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlar taxlil qilinganda bitiruvchilar bandligini oshirishga qaratilgan modellar hamda qo‘llanilishiga alohida e’tibor berish lozim. Bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash, ta’lim sifatini oshirish va mehnat bozoriga moslashtirish jarayonlari turli mamlakatlarda turli usullar va modellar orqali amalga oshiriladi. Quyida bitiruvchilar bandligini ta’minlash va oshirishga qaratilgan bir nechta milliy va mintaqaviy ta’lim sifatini rag‘batlantirish modellari hamda faoliyat yo‘nalishlari va tadqiqotlar haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

1. AQShdagi Baldrige National Quality Award (BNQA) modeli ta’lim sohasidagi sifatni rag‘batlantirishning muvaffaqiyatli namunasidir. Bu model, universitetlar va ta’lim muassasalarida yuqori sifatli ta’lim hamda bandlik bilan bog‘liq natijalarga erishish uchun qo‘llaniladi. Bandlikka ta’siri: bandlikning ta’minlanishi uchun yuqori sifatli ta’lim, amaliy tajriba va innovatsion ta’lim metodlari asosiy o‘rin tutadi. Model bitiruvchilarning ish topish imkoniyatlarini yaxshilashga qaratilgan.

2.Yevropa sifat menejmenti jamg‘armasi (European Quality Award (EQA) – Yevropa) tomonidan ishlab chiqilgan “Biznesda mukammallik” (European Quality Award) modeli Yevropa mamlakatlarida sifatni rag‘batlantirish va universitetlarning ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan. Bandlikka ta’siri: Yevropa universitetlarida ta’lim sifatining oshishi, bitiruvchilarni mehnat bozoriga moslashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu model bitiruvchilarning professional va ijtimoiy kompetensiyalari bilan bog‘liq ravishda ularning ishga kirishish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi.

3. Umumiy sifat menejmenti (Total Quality Management-TQM) modeli har tomonlama sifatni oshirishga va uning barcha bosqichlarida ishonchli tekshiruvlarni o‘tkazishga qaratilgan. Bu metodologiya ta’lim sohasida sifatni ta’minlash, shuningdek, bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish uchun juda muhim. Bandlikka ta’siri: TQM modeli universitetlarda ta’limning sifati va samaradorligini oshirish, bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi va ularning ish topish imkoniyatlarini yaxshilashga yordam beradi.

4. ISO 9000 seriyasi xalqaro standartlari sifat menejmentining umumiy prinsiplarini belgilaydi, ular ta’lim muassasalarida sifatni ta’minlash va baholashda qo‘llaniladi. Bu standartlar ta’lim sifatini va bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvini ta’minlaydi. Bandlikka ta’siri: ISO 9000 standartlariga rioya qilish universitetlar va ta’lim muassasalarida sifatni oshirishga, shuningdek, bitiruvchilarni mehnat bozoriga moslashtirishga yordam beradi.

5. ENQA Yevropa oliy ta’lim muassasalarida sifatni ta’minlash bo‘yicha yagona standartlar va usullarni ishlab chiqadi. Ushbu assotsiatsiya tomonidan ishlab chiqilgan sifatni baholash va ta’minlash tizimi ta’lim sifatini yoqlash va uni xalqaro darajadagi talablarga moslashtirishga qaratilgan. Bandlikka ta’siri: ENQA tizimi bitiruvchilarning ta’lim sifatini rag‘batlantirishga yordam beradi va shu orqali ularning mehnat bozoriga kirish imkoniyatlari kengayadi.

Karimov I.A. “Inson salohiyati, ijtimoiy va ishlab chiqarish infrastrukturasi” asarida “...hozir respublikada hal qilinayotgan eng dolzarb muammolardan biri ishlashni xohlovchilarning hammasini ish bilan ta’minlash hisoblanmaydi. Balki eng maqbul, ijtimoiy yo‘naltirilgan ish bilan bandlikni vujudga keltirishdan iboratdir” deb ta’kidlaydi. Bunda ijtimoiy sohani xususan ta’lim tizimini takomillashtirish evaziga ijtimoiy yo‘naltirilgan bandlikni vujudga keltirish masalasi muhim ahamiyatga ega.

Mehnat bozori talabdan kelib chiqib, professional ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ish o‘rinlarini topishi, kasbi va ixtisosligini bozor talabiga mosligini oshirish uni ijtimoiy tartiblashtirish mexanizmini ishlab chiqish va joriy etish davr talabi bo‘lib qolmoqda.

**Xulosa va takliflar:**

Xulosa qilib aytish mumkin, bir vaqtning o‘zida barqaror bandlikni o‘stirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uzoq istiqbolda O‘zbekiston uchun ushbu sohani rivojlantirishdagi asosiy masala bo‘ladi. Jahon tajribasi ko‘rsatmokdaki, ushbu vazifani qayta ishlovchi sohalar va yuqori texnologik xizmat turlarini jadal rivojlantirish orqali bajarish mumkin. Aholini ish bilan ta’minlash, ya’ni bandlik masalasini ilmiy o‘rganish sotsiologik, iqtisodiy, psixologik, huquqiy kabi ta’limotlarni takomillashtirish uchun xizmat qilishi bilan birga, milliy taraqqiyotni ta’minlash yo‘lida mavjud resurslardan manzilli foydalanish strategiyasini belgilash imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va sun’iy intellekt ta’sirida dunyoda ish o‘rinlarining soni, shakli va mazmuni keskin o‘zgarmoqda. Yaqin besh yilda mavjud kasblarning 30 foizi to‘liq avtomatlashtiriladi, 50 foizi bo‘yicha esa yangi malakalar talab qilinadi. Bu jarayonlar bizni ham chetlab o‘tayotgani yo‘q. Sanoatda – avtomatlashgan liniyalar, agrar sohada – aqlli texnologiyalar, transportda – intellektual boshqaruv kundalik hodisaga aylanib bormoqda. Endi mamlakatimizning mehnat bozori mutlaqo yangi arxitektura asosida – kasb, malaka, texnologiya va ta’limni birlashtiradigan yagona mexanizm sifatida ishlashi zarur[18].

Mamlakatimizda bandlik sohasida “Yagona mehnat” elektron axborot tizimini takomillashtirilgan holda qayta ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi, bunda milliy mehnat bozori va bandlik resurslari balansi, tashkil etilayotgan yangi ish o‘rinlari, ishga joylashishning shaxsga doir tarixi, bo‘sh (vakant) ish o‘rinlari bo‘yicha ma’lumotlarni berib borishning xolis va yangilab boriladigan bazasini takomillashtirish hamda UzASBO tizimi bilan integratsiyalashni yo‘lga qo‘yishni (xozirgi tizimda ishchi xodimlarga tegishli ma’lumotlarni elektron ko‘rinishda olishi imkoniyati mavjud xolos, bu tizimda ish qidirish tizimi yangi bo‘sh ish o‘rinlari va xokazo mavjud emas, argos.uz ham to‘liq bo‘sh ish o‘rinlari haqida ma’lumotlar yetarli emas) taqozo etmoqda.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida pedagog shaxsini kasbiy kompetentligini ta’minlashga nisbatan texnologik yondashuvga erishib, zamonaviy mutaxassis-kadrlar tayyorlash uchun ma’naviy bazani mustahkamlab, ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish birlashmalari orasida maqsadli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish lozim. Buning uchun, ishlab chiqarish muassasa vakillarini ta’lim jarayoniga jalb etib, amaliy mashg‘ulotlarni ishlab chiqarish muassasalarida o‘tkazib, sifatini baholashni yo‘lga qo‘yish kerak.

[18] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr. - https://president.uz /oz/lists/view/8834

Mamlakatimiz yoshlarni qo‘shimcha kasbni egallashga tayyorlash uchun hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda qo‘shimcha chora-tadbirlarni joriy etib, ishlab chiqarish – ta’lim muassasasi kabi hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi. Buning uchun, ta’lim sotsiologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha tadqiqotlarni o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, Mening niyatim – yoshlarimiz talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha dunyoda raqobatdosh bo‘lsin, kerak bo‘lsa, boshqalardan bir pog‘ona ustun tursin. Ushbu maqsadga erishish yo‘lida kasbiy ta’limning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lgan texnikumlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqamiz.

Yangi O‘zbekistonda professional ta’lim va mehnat bozori integratsiyasi bitiruvchilarning bandligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayonda kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga ta’sir etuvchi psixologik omillarni hisobga olish professional ta’lim bitiruvchilarini ish bilan ta’minlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shaxsning psixologik tayyorgarligi va kasbiy motivatsiyasi yuqori bo‘lgan taqdirda, mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash imkoniyati kengayadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent, O‘zbekiston. 2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida (yangi tahriri) Qonuni. 01.05.1998 y.
3. SH.M.Mirziyoyev, Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq), Toshkent, O‘zbekiston, 2016-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi 2020-yil 20-oktabrdagi O‘RQ-642-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/5055690
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. - http://uzlidep.uz/news-of-uzbekistan/7998
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr. - https://president.uz /oz/lists/view/8834

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Xudayberdiyeva Odina Marubjon qizi**
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
Aydinaxudayberdiyeva@gmail.com

UDK: **378:316**

## AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA INSONPARVARLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada aksialogik yondashuv asosida talabalarda insonparvarlikni rivojlantirish jarayonining ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim muhitida innovatsion texnologiyalarning tarbiyaviy salohiyati, ularning shaxsning qadriyatlar tizimini shakllantirishdagi o'rni hamda talabalarda insonparvarlik sifatlarini rivojlantirishga ta'siri asoslab beriladi. Aksiologik yondashuv ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojini ta'minlovchi muhim metodologik asos sifatida talqin etilib, innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali ushbu jarayonni samarali tashkil etish imkoniyatlari yoritiladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv va tahliliy yondashuvlar asosida olingan natijalar ta'lim muassasalarida insonparvarlikka yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot yakunida ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *aksiologik yondashuv, insonparvarlik, innovatsion texnologiyalar, tarbiya jarayoni, talaba shaxsi, ma'naviy qadriyatlar.*

**Khudayberdiyeva Odina Marubjon kizi**
PhD Student, Namangan State University

## INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING HUMANISM IN STUDENTS BASED ON AN AXIOLOGICAL APPROACH

***Abstract:*** *This article provides an in-depth scientific and practical analysis of developing humanism in students based on an axiological approach. The study substantiates the educational potential of innovative technologies in a modern learning environment and their role in shaping students' value systems and humanistic qualities. The axiological approach is interpreted as a key methodological foundation for ensuring moral and ethical development in education, while innovative pedagogical technologies are considered effective means for organizing this process. Based on the analysis of academic literature, pedagogical observations, and analytical methods, the findings highlight ways to enhance humanism-oriented educational practices in higher education institutions. The article concludes with theoretically and practically significant conclusions, proposals, and recommendations.*

***Keywords:*** *axiological approach, humanism, innovative technologies, educational process, student development, moral values.*

**Худайбердиева Одина Марубжон кизи**
докторант (PhD), Наманганский государственный университет

## ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ГУМАНИЗМА У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

***Аннотация:*** *В статье представлен углублённый научно-теоретический и практический анализ процесса развития гуманизма у студентов на основе аксиологического подхода. Обоснован воспитательный потенциал инновационных технологий в условиях современного образовательного пространства, а также их роль в формировании ценностной системы личности и гуманистических качеств студентов. Аксиологический подход рассматривается как важная методологическая основа обеспечения нравственно-этического развития личности, а инновационные педагогические технологии — как эффективный инструмент организации данного процесса. На основе анализа научных источников, педагогических наблюдений и аналитических методов сформулированы выводы, имеющие значение для совершенствования гуманистически ориентированной воспитательной деятельности в образовательных учреждениях. В заключении представлены научно-теоретические и практические рекомендации.*

***Ключевые слова:*** *аксиологический подход, гуманизм, инновационные технологии, воспитательный процесс, личность студента, ценности.*

## KIRISH

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri shaxsni nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassis sifatida, balki ma’naviy yetuk, ijtimoiy mas’uliyatli va insonparvar qadriyatlarga sodiq inson sifatida shakllantirishdan iboratdir. Globallashuv, raqamlashtirish va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida shaxs qadriyatlar tizimining o‘zgarishi ta’lim-tarbiya jarayonida insonparvarlik masalasini alohida dolzarblik kasb etishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar jamiyatning intellektual va ma’naviy salohiyatini belgilovchi asosiy ijtimoiy qatlam sifatida e’tirof etilar ekan, ularning insonparvarlik ruhida tarbiyalanishi strategik ahamiyatga ega masala hisoblanadi.

Bugungi ta’lim amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, bilim berishga yo‘naltirilgan yondashuvning ustunligi ko‘plab hollarda tarbiyaviy jihatlarning ikkinchi darajaga tushib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada talabalarda kasbiy kompetensiyalar shakllanayotgan bo‘lsa-da, ijtimoiy mas’uliyat, empatiya, boshqalarga hurmat va insoniy munosabatlarni anglash kabi insonparvarlik sifatlarining yetarli darajada rivojlanmasligi kuzatiladi. Bu holat ta’lim jarayonida qadriyatga asoslangan yondashuvlarni kuchaytirish, tarbiyaviy faoliyatni innovatsion texnologiyalar asosida qayta tashkil etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Aksiologik yondashuv ta’lim jarayonida shaxsning qadriyatlar tizimini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodologik asos sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvda ta’lim va tarbiya jarayoni shaxs uchun muhim bo‘lgan ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni anglash, qabul qilish va amaliy faoliyatda namoyon etish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtayi nazardan, aksialogik yondashuv asosida tashkil etilgan tarbiyaviy jarayon talabalarda insonparvarlikni shakllantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi.

So‘nggi yillarda ta’lim jarayoniga joriy etilayotgan innovatsion texnologiyalar nafaqat o‘qitish samaradorligini oshirish, balki tarbiyaviy ta’sirni kuchaytirish imkoniyatini ham bermoqda. Biroq mavjud amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalar ko‘pincha texnik yoki metodik vosita sifatida qo‘llanib, ularning qadriyatga yo‘naltirilgan tarbiyaviy salohiyati yetarli darajada ochib berilmayapti. Natijada insonparvarlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi imkoniyatlar to‘liq ishga solinmay qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi aynan shu muammo bilan belgilanadi. Talabalarda insonparvarlikni rivojlantirish jarayonida aksialogik yondashuv va innovatsion texnologiyalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy asosda tahlil qilish, ushbu jarayonni samarali tashkil etish mexanizmlarini aniqlash bugungi pedagogika fanining muhim vazifalaridan biridir. Insonparvarlikni rivojlantirish faqat alohida tarbiyaviy tadbirlar doirasida emas, balki ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlariga singdirilgan holda amalga oshirilgandagina barqaror natija berishi mumkin.

Shu jihatdan, aksialogik yondashuv asosida talabalarda insonparvarlikni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini ilmiy tadqiq etish ta’lim jarayonining mazmunini boyitish, tarbiyaviy faoliyatning samaradorligini oshirish hamda bo‘lajak mutaxassislarning ijtimoiy va ma’naviy kamolotini ta’minlashga xizmat qiladi. Mazkur maqola ana shu ilmiy ehtiyojdan kelib chiqib, mavjud nazariy qarashlar va amaliy tajribalarni chuqur tahlil qilishga hamda ta’lim amaliyoti uchun muhim xulosalar chiqarishga qaratilgan.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarda insonparvarlikni rivojlantirish masalasi pedagogika va ta’lim falsafasida qadriyatlar muammosi bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etilib kelinmoqda. Aksiologik yondashuvning pedagogik mohiyati shaxsning qadriyatlar tizimini shakllantirish orqali uning ma’naviy-axloqiy rivojini ta’minlashga qaratilganligi bilan izohlanadi. Mazkur yondashuv XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab pedagogik tadqiqotlarda mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan bo‘lib, ta’lim jarayonini shaxs uchun mazmunli va ijtimoiy ahamiyatli qadriyatlar asosida tashkil etish zarurligini asoslab beradi.

G‘arb pedagogik tafakkurida aksiologik yondashuvning nazariy asoslari M. Sheler, N. Hartman va J. Dewey kabi faylasuf va pedagoglarning asarlarida o‘z aksini topgan. Xususan, J. Dewey ta’limni ijtimoiy tajriba sifatida talqin qilib, shaxsning jamiyatdagi qadriyatlarni faol o‘zlashtirishi tarbiya jarayonining asosiy natijasi ekanligini ta’kidlaydi [1]. Uning qarashlari talabalarda insonparvarlikni rivojlantirishda ta’lim mazmunini real hayotiy tajribalar bilan bog‘lash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Gumanistik psixologiya vakillari tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy qarashlar ham aksiologik yondashuvning pedagogik ahamiyatini chuqurlashtirdi. A. Maslow va C. Rogers insonning o‘zini-o‘zi anglash va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayonini asosiy qadriyat sifatida talqin etib, ta’lim jarayonida shaxs erkinligi va qadr-qimmatini hurmat qilish insonparvarlik tarbiyasining markaziy omili ekanligini ko‘rsatib bergan [2]. Ushbu qarashlar talabalarda

empatiya, ijtimoiy mas'uliyat va boshqalarga hurmat kabi insonparvarlik sifatlarining shakllanishiga nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsion texnologiyalarning tarbiyaviy salohiyati masalasi zamonaviy pedagogik adabiyotlarda alohida dolzarblik kasb etmoqda. R. Jonassen, M. Fullan va T. Bates tadqiqotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalar shaxsning faolligi va refleksiv tafakkurini rivojlantirish orqali qadriyatlar tizimining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan [3]. Ularning fikricha, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar faqat bilim uzatish vositasi emas, balki shaxsning ma'naviy pozitsiyasini shakllantiruvchi muhim pedagogik resurs sifatida qaralishi lozim.

Mahalliy pedagogika fanida ham aksiologik yondashuv asosida tarbiya masalalari keng tadqiq etilgan. O'zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ta'lim jarayonining ma'naviy-axloqiy yo'naltirilganligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi masalalari alohida e'tibor markazida bo'lgan. Xususan, R. Jo'rayev va M. Ochilov tadqiqotlarida ta'lim jarayonida shaxs qadriyatlarini shakllantirish pedagogik faoliyatning ustuvor yo'nalishi sifatida talqin etiladi [4]. Ushbu yondashuv talabalarda insonparvarlikni rivojlantirishni ta'lim jarayonining ichki mazmuni bilan bog'liq holda ko'rib chiqish imkonini beradi.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksialogik yondashuv va innovatsion texnologiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Aksariyat ishlarda ushbu tushunchalar alohida-alohida tahlil qilinib, ularning integratsiyasi orqali talabalarda insonparvarlikni rivojlantirish imkoniyatlari to'liq ochib berilmagan. Bu holat mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilab, aksialogik yondashuv asosida innovatsion texnologiyalarni tarbiyaviy jarayonga tatbiq etish masalasini chuqur ilmiy asosda o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili aksialogik yondashuv talabalarda insonparvarlikni rivojlantirishning muhim metodologik asosi ekanligini, innovatsion texnologiyalar esa ushbu jarayonning samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega kuchli pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi. Biroq ularni uzviy bog'liq holda qo'llashga doir ilmiy-amaliy mexanizmlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi mazkur tadqiqotning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot aksialogik yondashuv asosida talabalarda insonparvarlikni rivojlantirish jarayonini ilmiy jihatdan asoslash va ushbu jarayonda innovatsion texnologiyalarning tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogika fanida shakllangan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, gumanistik pedagogika qarashlari hamda qadriyatga asoslangan ta'lim nazariyalariga tayangan holda ishlab chiqildi. Ushbu metodologik asos talabaning shaxsiy rivoji, uning ichki qadriyatlar tizimi va ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'ladigan insonparvarlik sifatlarini yaxlit pedagogik jarayon doirasida o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralmas jarayon sifatida talqin qilindi. Shu bois, insonparvarlikni rivojlantirish masalasi faqat tarbiyaviy tadbirlar doirasida emas, balki ta'lim jarayonining mazmuni, pedagogik muloqot uslubi va innovatsion texnologiyalar orqali shakllanadigan ta'lim muhiti bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilindi. Bu yondashuv talabalarda insonparvarlikning tashqi xulq-atvor ko'rinishlari bilan cheklanib qolmasdan, ichki qadriyat sifatida shakllanishini o'rganishga imkon yaratdi.

Tadqiqotning nazariy bosqichida aksiologik yondashuvga oid pedagogik, psixologik va falsafiy manbalar chuqur tahlil qilindi. Ilmiy adabiyotlarni o'rganish jarayonida insonparvarlik tushunchasining mazmuni, uning talaba shaxsining rivojidagi o'rni hamda innovatsion texnologiyalar orqali qadriyatlar tizimini shakllantirish imkoniyatlari aniqlashtirildi. Ushbu tahlil tadqiqotning konseptual asoslarini belgilashga xizmat qildi hamda ilmiy muammo doirasini aniqlashtirish imkonini berdi.

Empirik tadqiqot jarayonida oliy ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy-amaliy holat tahlil qilindi. Pedagogik kuzatuvlar orqali ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning talabalarning shaxsiy munosabatlari, ijtimoiy faolligi va insonparvarlikka xos xulq-atvoriga ta'siri o'rganildi. Kuzatuv natijalari talabalarning qadriyatlar tizimida yuz berayotgan o'zgarishlarni aniqlash imkonini berib, insonparvarlikning shakllanish jarayonini chuqurroq anglashga xizmat qildi.

Shuningdek, pedagoglar va ta'lim muassasasi rahbarlari bilan olib borilgan suhbatlar orqali aksialogik yondashuv asosida innovatsion texnologiyalarni tarbiyaviy jarayonga tatbiq etishda mavjud muammolar, ehtiyojlar va imkoniyatlar aniqlandi. Olingan ma'lumotlar tahliliy yondashuv asosida qayta ishlanib, umumlashtirildi va ilmiy xulosalar chiqarildi. Bu jarayon tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirishga xizmat qildi.

Tadqiqotda pedagogik jarayonni modellashtirish metodidan ham foydalanildi. Ushbu metod aksialogik yondashuv va innovatsion texnologiyalar integratsiyasi asosida talabalarda insonparvarlikni rivojlantirish jarayonini yaxlit tizim sifatida tasvirlash imkonini berdi. Modellash jarayonida ta'lim muhiti, pedagogik muloqot va talabaning faol ishtiroki o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinib, tarbiyaviy jarayonning ichki mexanizmlari ochib berildi.

Tadqiqot natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish jarayonida sifat tahlili usullaridan foydalanildi. Bu usullar talabalarning munosabatlari, qarashlari va qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Turli manbalardan olingan ma’lumotlarni o‘zaro solishtirish orqali tadqiqot xulosalarining asoslanganligi ta’minlandi.

Umuman olganda, tanlangan metodologiya aksialogik yondashuv asosida talabalarda insonparvarlikni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalar orqali amalga oshirilish jarayonini ilmiy asosda yoritish, uning samaradorligini aniqlash va ta’lim amaliyoti uchun muhim xulosalar chiqarish imkonini berdi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘tkazilgan tadqiqot doirasida olingan nazariy va empirik ma’lumotlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, aksialogik yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarda insonparvarlikni rivojlantirishda muhim pedagogik salohiyatga ega. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, talabalarning insonparvarlikka oid qarashlari va xulq-atvoridagi o‘zgarishlar bevosita ta’lim jarayonida qadriyatlarning qanday talqin etilishi va innovatsion texnologiyalar orqali qanday pedagogik muhit yaratilishiga bog‘liqdir. Agar ta’lim jarayonida talaba faqat bilim oluvchi subyekt sifatida emas, balki shaxsiy qadriyatlari va ijtimoiy tajribasi bilan tan olinadigan faol ishtirokchi sifatida qaralsa, insonparvarlik sifatlari barqaror rivojlanishi kuzatiladi.

Pedagogik kuzatuvlar natijalari talabalarning o‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalar orqali faol ishtirok etishi ularning ijtimoiy munosabatlaridagi o‘zgarishlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatdi. Ta’lim jarayonida muloqotga asoslangan, hamkorlikni talab etuvchi va refleksiv faoliyatni rag‘batlantiruvchi texnologiyalar qo‘llanilgan holatlarda talabalar o‘z fikrini erkin ifodalashga, boshqalarning nuqtayi nazarini tinglashga va ijtimoiy mas’uliyatni anglashga moyil bo‘lib borayotganligi aniqlandi. Bu holat insonparvarlikning tashqi xulq-atvor darajasidan ichki qadriyat sifatiga aylanish jarayonini tasdiqlaydi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, aksialogik yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik muloqot talaba va pedagog o‘rtasidagi munosabatlarni sifat jihatdan o‘zgartiradi. An’anaviy yondashuvlarda kuzatiladigan masofaviy va buyruqbozlikka asoslangan munosabatlar o‘rnini o‘zaro hurmat, ishonch va hamkorlikka asoslangan pedagogik muhit egallay boshlaydi. Natijada talabalar o‘z shaxsiy fikri va qarorlarining ahamiyatini his etib, ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli xulq-atvorni namoyon etishga intiladi. Bu esa insonparvarlik sifatlarining barqaror shakllanishi uchun muhim shart sifatida namoyon bo‘ladi.

Empirik ma’lumotlar tahlili innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil etilgan ta’lim muhiti talabalarning qadriyatlar tizimida sezilarli siljishlar yuzaga keltirayotganini ko‘rsatdi. Xususan, talabalarda boshqalarga nisbatan bag‘rikenglik, empatiya va ijtimoiy adolat tushunchalariga nisbatan munosabatlarning chuqurlashgani kuzatildi. Ushbu o‘zgarishlar insonparvarlikni rivojlantirish jarayoni faqat axloqiy targ‘ibot bilan emas, balki shaxsning faol tajribasi orqali amalga oshirilganda samarali bo‘lishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalarni aksialogik yondashuvdan ajratilgan holda qo‘llash insonparvarlikni rivojlantirishda kutilgan natijani bermaydi. Texnologiyalar faqat texnik yoki metodik vosita sifatida qo‘llanilganda, ular talabalarning qadriyatlar tizimiga chuqur ta’sir ko‘rsata olmaydi. Aksincha, innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonida qadriyatga yo‘naltirilgan mazmun bilan uyg‘unlashgandagina tarbiyaviy samaradorlik oshadi. Bu holat tadqiqotning muhim ilmiy xulosalaridan biri sifatida e’tirof etildi.

Shuningdek, tahlil jarayonida pedagoglarning aksialogik kompetensiyasi muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Pedagogning shaxsiy qadriyatlari, insonparvarlikka bo‘lgan munosabati va pedagogik muloqot uslubi talabalarda ushbu sifatlarning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Agar pedagog innovatsion texnologiyalarni insonparvarlik mazmuni bilan uyg‘unlashtira olsa, ta’lim jarayonining tarbiyaviy ta’siri sezilarli darajada kuchayadi. Aks holda, texnologiyalar yuzaki qo‘llanib, tarbiyaviy natijalar cheklangan bo‘lib qoladi.

Umuman olganda, tahlil va natijalar aksialogik yondashuv asosida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash talabalarda insonparvarlikni rivojlantirish jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Ushbu jarayonning samaradorligi ta’lim muhitining qadriyatga yo‘naltirilganligi, pedagogik muloqotning insonparvarlik ruhida tashkil etilishi va innovatsion texnologiyalarning mazmunan boyitilgan holda qo‘llanilishiga bog‘liq ekanligi aniqlandi.

## XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari aksialogik yondashuv asosida talabalarda insonparvarlikni rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonining muhim va ajralmas tarkibiy qismi ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Insonparvarlik shaxsning axloqiy xulq-atvori yoki tashqi munosabatlari bilangina cheklanmay, balki uning ichki qadriyatlar tizimi, ijtimoiy mas’uliyati va jamiyatga bo‘lgan munosabatini belgilovchi muhim ma’naviy mezon sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Shu bois, ta’lim jarayonida insonparvarlikni rivojlantirish masalasi faqat tarbiyaviy faoliyat doirasida emas, balki ta’lim mazmuni va pedagogik muloqotning barcha jihatlariga singdirilgan holda amalga oshirilishi zarur.

Tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, aksialogik yondashuv talabalarda insonparvarlikni rivojlantirish uchun mustahkam metodologik asos yaratadi. Ushbu yondashuv orqali ta’lim jarayoni shaxs uchun mazmunli bo‘lgan qadriyatlarni anglash, qabul qilish va amaliy faoliyatda namoyon etish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Innovatsion texnologiyalar esa mazkur jarayonning samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik vosita bo‘lib, ular orqali talabaning faol ishtiroki, refleksiyasi va ijtimoiy tajribasi boyitiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalarni aksialogik mazmundan ajratilgan holda qo‘llash insonparvarlikni rivojlantirishda yetarli samarani bermaydi. Aksincha, qadriyatga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv bilan uyg‘unlashtirilgan innovatsion texnologiyalar talabalarning ma’naviy-axloqiy rivojiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat ta’lim jarayonida insonparvarlikni rivojlantirish masalasining tizimli va kompleks yondashuvni talab etishini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari aksialogik yondashuv va innovatsion texnologiyalar integratsiyasi talabalarda insonparvarlikni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmini shakllantirishini ilmiy asoslab berdi. Mazkur mexanizm ta’lim jarayonining mazmunini boyitish, pedagogik munosabatlarni insonparvarlik ruhida tashkil etish va talaba shaxsining ijtimoiy hamda ma’naviy kamolotini ta’minlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Dewey, J. (1916). *Democracy and Education*. New York: Macmillan.

2.Maslow, A. H. (1954). *Motivation and Personality*. New York: Harper & Row.

3.Rogers, C. R. (1969). *Freedom to Learn*. Columbus: Merrill Publishing.

4.Jonassen, D. H. (1999). *Designing Constructivist Learning Environments*. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.

5.Fullan, M. (2013). *The New Pedagogy: Students and Teachers as Learning Partners*. Learning Landscapes, 6(2), 23–29.

6.Jo‘rayev, R. H. (2015). *Ta’lim jarayonida tarbiya masalalari*. Toshkent: Fan.

7.Ochilov, M. (2010). *Pedagogika nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: O‘qituvchi.

8.Bates, T. (2015). *Teaching in a Digital Age*. Vancouver: BCcampus.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Sultanov Shoxruh Rahmon o'g'li**
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: shoxruhsultanov@mail.ru
**ORCID: 0009-0009-2804-5263**

**UDK:** 378:316.7:004

## SUN'IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLAR ORQALI TEXNOKRATIK TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarning zamonaviy ta'lim jarayonlaridagi o'rni hamda ularning texnokratik ta'limni rivojlantirishdagi strategik ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi sharoitida bilimlarni yaratish, uzatish va o'zlashtirish mexanizmlarining o'zgarishi, shuningdek, pedagogik faoliyatning intellektual texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi masalalari yoritiladi. Sun'iy intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan yechimlarning ta'lim sifati, boshqaruv samaradorligi va ta'lim jarayonining moslashuvchanligiga ta'siri asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari texnokratik ta'lim modelining shakllanishi va rivojlanish istiqbollari sun'iy intellekt imkoniyatlari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi hamda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish zarurligini ta'kidlaydi.*

***Kalit so'zlar:*** *sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan tizimlar, texnokratik ta'lim, raqamli transformatsiya, ta'lim jarayoni, ta'lim sifati, intellektual texnologiyalar, ta'lim boshqaruvi.*

**Shokhruh Sultanov**
PhD student Namangan State University
E-mail: shoxruhsultanov@mail.ru
**ORCID: 0009-0009-2804-5263**

## PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF TECHNOCRATIC EDUCATION THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND AUTOMATED SYSTEMS

***Abstract:*** *This article analyzes the role of artificial intelligence and automated systems in contemporary educational processes and their strategic importance in the development of technocratic education from theoretical and practical perspectives. The study explores changes in the mechanisms of knowledge creation, transmission, and acquisition under conditions of digital transformation, as well as the integration of pedagogical activity with intelligent technologies. The impact of AI-based automated solutions on educational quality, management efficiency, and the adaptability of the learning process is substantiated. The findings demonstrate that the formation and future development of the technocratic education model are directly linked to the capabilities of artificial intelligence, emphasizing the necessity of scientifically grounded decision-making in the modernization of education systems.*

***Keywords:*** *artificial intelligence, automated systems, technocratic education, digital transformation, educational process, education quality, intelligent technologies, educational management.*

**Султанов Шохрух Рахмон угли**
Докторант Наманганского государственного университета
E-mail: shoxruhsultanov@mail.ru
**ORCID: 0009-0009-2804-5263**

## ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТЕХНОКРАТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПОСРЕДСТВОМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И АВТОМАТИЗИРОВАННЫХ СИСТЕМ

***Аннотация:*** *В статье с научно-теоретических и практических позиций анализируется роль искусственного интеллекта и автоматизированных систем в современных образовательных процессах и их стратегическое значение для развития технократического образования. Рассматриваются изменения механизмов создания, передачи и усвоения знаний*

*в условиях цифровой трансформации, а также интеграция педагогической деятельности с интеллектуальными технологиями. Обосновано влияние автоматизированных решений на основе искусственного интеллекта на качество образования, эффективность управления и адаптивность образовательного процесса. Результаты исследования показывают, что формирование и перспективы развития модели технократического образования непосредственно связаны с возможностями искусственного интеллекта и требуют научно обоснованных управленческих решений в процессе модернизации системы образования.*

***Ключевые слова:*** *искусственный интеллект, автоматизированные системы, технократическое образование, цифровая трансформация, образовательный процесс, качество образования, интеллектуальные технологии, управление образованием.*

## KIRISH

XXI asrning ikkinchi choragiga kelib jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yanada kuchaydi. Ushbu jarayonda ta’lim tizimi nafaqat ijtimoiy rivojlanishning muhim instituti, balki texnologik taraqqiyotning strategik resursi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy sharoitda bilim ishlab chiqarish va uni amaliyotga tatbiq etish jarayonlari tezkorlik, aniqlik va moslashuvchanlikni talab etadi. Shu bois ta’lim tizimining an’anaviy shakllari tobora raqamli va intellektual texnologiyalar bilan boyitilmoqda.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarning keng miqyosda rivojlanishi ta’lim sohasida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Mazkur texnologiyalar o‘quv jarayonini tashkil etish, bilimlarni baholash, ta’limni boshqarish hamda pedagogik faoliyatni optimallashtirish imkonini bermoqda. Natijada ta’lim jarayoni inson omiliga to‘liq bog‘liq bo‘lmagan, ma’lumotlarga asoslangan va texnologik jihatdan puxta rejalashtirilgan tizim sifatida shakllanmoqda. Bu holat esa texnokratik ta’lim modelining rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

Texnokratik ta’lim tushunchasi ta’lim mazmunining ilmiy-texnik tafakkur, texnologik samaradorlik va amaliy natijadorlik asosida shakllanishini anglatadi. Bunday yondashuvda ta’lim jarayoni faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, balki ishlab chiqarish, innovatsiya va boshqaruv jarayonlari bilan uzviy bog‘langan tizim sifatida talqin etiladi. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar esa mazkur modelning asosiy texnologik tayanchiga aylanib, ta’limni individuallashtirish, ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish va strategik qarorlar qabul qilish imkonini bermoqda.

Ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada moslashuvchan va samarali tashkil etish imkonini yaratadi. Ma’lumotlarni avtomatik qayta ishlash asosida o‘quv jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini monitoring qilish, bilim darajasini aniqlash va ta’lim mazmunini optimallashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa texnokratik ta’limning asosiy maqsadi bo‘lgan yuqori malakali, texnologik tafakkurga ega mutaxassislarni tayyorlash jarayonini yanada takomillashtiradi.

Shu bilan birga, avtomatlashtirilgan tizimlarning ta’lim boshqaruviga joriy etilishi ta’lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Raqamli platformalar va intellektual axborot tizimlari orqali ta’lim jarayonlarini rejalashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va strategik rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash imkoniyatlari paydo bo‘lmoqda. Natijada ta’lim tizimi texnologik jihatdan barqaror va rivojlanishga yo‘naltirilgan mexanizm sifatida shakllanmoqda.

Mazkur sharoitda sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar orqali texnokratik ta’limni rivojlantirish masalasi nafaqat texnologik, balki ilmiy-nazariy va pedagogik muammo sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu jarayon ta’lim falsafasi, pedagogik yondashuvlar va ta’lim boshqaruvi mexanizmlarining qayta ko‘rib chiqilishini talab etadi. Shuningdek, texnologik taraqqiyot bilan inson omili o‘rtasidagi muvozanatni saqlash masalasi ham muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarning texnokratik ta’limni rivojlantirishdagi o‘rni, ularning ta’lim sifati va boshqaruv samaradorligiga ta’siri hamda istiqbollari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari zamonaviy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda ilmiy-nazariy asoslangan qarorlar qabul qilish uchun muhim metodologik va amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarning ta’lim sohasiga joriy etilishi masalasi so‘nggi o‘n yilliklarda xalqaro ilmiy tadqiqotlarda keng muhokama qilinayotgan dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar ushbu texnologiyalarni nafaqat texnik innovatsiya, balki ta’lim falsafasi va pedagogik paradigmalarni o‘zgartiruvchi omil sifatida baholamoqdalar. Ayniqsa, texnokratik ta’lim konsepsiyasi doirasida sun’iy intellektning roli ilmiy adabiyotlarda tobora chuqurroq tahlil qilinmoqda.

Xalqaro tadqiqotlarda sun’iy intellektning ta’lim jarayoniga ta’siri asosan bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish, ta’limni individuallashtirish va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish bilan izohlanadi. Luckin (2018)

ta’kidlashicha, sun’iy intellekt ta’lim muhitida inson intellektini to‘ldiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida faoliyat yuritadi. Muallifning fikricha, intellektual tizimlar yordamida ta’lim jarayonini ma’lumotlarga asoslangan holda tashkil etish texnokratik yondashuvning muhim belgisidir.

Shu bilan birga, Holmes, Bialik va Fadel (2019) sun’iy intellektning ta’limdagi imkoniyatlarini baholarkan, ushbu texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish bilan birga, ta’lim boshqaruvi va pedagogik qarorlar qabul qilish jarayoniga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishini qayd etadilar. Ularning tadqiqotlarida avtomatlashtirilgan tizimlar ta’lim jarayonini yanada tizimli va samarali tashkil etish imkonini beruvchi muhim vosita sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv texnokratik ta’lim modelining shakllanishiga nazariy asos yaratadi.

**2. Uzluksizlik tamoyili** – bu bolalarning yoshga xos psixologik rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limning barcha bosqichlari va darajalari o‘rtasidagi uzluksizlikni ta’minlashni anglatadi. Ta’lim jarayonining uzluksizligi texnologiyaning o‘zgaruvchan emasligini (invariantligini) va ta’lim mazmuni hamda metodikasi bo‘yicha barcha bosqichlarda davomiylikni kafolatlaydi.

**3. Butunlik (g‘oyaviy yaxlitlik) tamoyili** – bu ta’lim oluvchilarda dunyo, fanlar tizimidagi har bir fanning o‘rni va ahamiyati haqida tizimli tasavvur shakllantirishni nazarda tutadi. Bolada dunyo (**tabiat – jamiyat – o‘zi**) haqidagi umumiy, yaxlit tasavvur, shuningdek har bir fanning fanlar tizimidagi o‘rni va roli bo‘yicha tushuncha shakllanishi kerak.

**4. Psixologik qulaylik tamoyili** – bu o‘quv jarayonida stressni yuzaga keltiruvchi barcha omillarni bartaraf etishni, darslarda do‘stona va iliq muhit yaratishni, shuningdek, dialog shaklidagi muloqotni rivojlantirishni nazarda tutadi.

**5. Variativlik tamoyili** – bu ta’lim oluvchilarda tanlov vaziyatida oqilona qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish, ularning variativ fikrlashini rivojlantirishni, ya’ni muammoni turli variantlarda hal etish imkoniyatini tushunish, shuningdek variantlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqish va optimal yechimni tanlash qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

**6. Ijodkorlik tamoyili** – bu ta’lim jarayonida ijodiy boshlang‘ichni maksimal darajada hisobga olish va bolalarga o‘z ijodiy faoliyat tajribasini egallash imkoniyatini berishni anglatadi. Mashhur psixolog L.S. Vygotskiyning 1926 yilda nashr etilgan “Pedagogik psixologiya” asarida, o‘z davridan taxminan 60 yil oldin, yangi pedagogikada hayot “ijod

tizimi sifatida ochiladi" deb ta'kidlagan. Uning fikricha, har bir bizning fikrimiz, har bir harakatimiz va his-tuyg'ularimiz yangi haqiqat yaratishga intilish, yangi narsaga ilgarilash urinishidir. Shu sababli ta'lim jarayoni ham ijodiy bo'lishi lozim. U bolaning "cheklangan va muvozanatli, mustahkamlangan abstraktsiyadan yangi, hali baholanmagan narsaga" intilishini rag'batlantirishi kerak[12].

Faoliyatli yondashuvning mohiyati faoliyat tamoyili orqali ochiladi, bu tamoyilni Konfutsiyning quyidagi fikri bilan asoslash mumkin: "Eshitaman – unutaman, ko'raman – eslayman, qilaman – o'zlashtiraman". Suqrotning ham bu borada quyidagi fikri mavjuddir: "Fleytada chalishni faqat o'zi chalib o'rganish mumkin. Xuddi shunday, ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari ham faqat ular mustaqil o'quv-bilish faoliyatiga jalb qilinganda shakllanadi".

Demak, faoliyatni o'rgatish – bu ta'limni motivatsiyalash, bolaga mustaqil ravishda maqsad qo'yishni va uni amalga oshirish yo'llarini, jumladan vositalarini aniqlashni o'rgatish, ya'ni o'z faoliyatini optimal tarzda tashkil qilishni ta'minlashdir. Shu bilan birga, bola o'zida nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish, baholash va o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'limiy faoliyat jarayonida ham **faoliyatli yondashuvning asosiy tamoyillari** mavjud bo'lib, bularga (3-rasm):

**Bolalarning faol roli:** Bolalar mustaqil ravishda tadqiqotlar o'tkazadi, tajribalar qiladi va kashfiyotlar qiladi.

**"Bilish" va "qila bilish":** Diqqat faqat bilimlarni yodlashga emas ("bilish"), balki ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratiladi ("biror narsani o'rganish").

**Motivatsiya:** Ta'lim va predmetga qiziqishni yaratish, shunda bola o'z-o'zidan bilim olishga intiladi.

**Hamkorlikdagi faoliyat:** Katta va bola birgalikda vazifalarni hal qiladi, maqsadlar va qoidalarni birga ishlab chiqadi.

**Muammoli vaziyatlar:** Pedagog shunday vazifalarni beradi, ularni hal qilish uchun izlanish va tadqiqot talab etiladi.

**Shaxsiy ahamiyat:** Bilimlar qiyinchiliklarni yengish va shaxsiy tajriba natijasida egallanganda ahamiyat kasb etadi.

**Tahlillar va natijalar**

Faoliyatli yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtidorni rivojlantirishda yetakchi omil sifatida namoyon bo'lar ekan, ushbu jarayonda eng muhim metodologik masalalardan biri iqtidorni to'g'ri va o'z vaqtida aniqlash hisoblanadi. Chunki faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim modeli bolaning tayyor natijalarini emas, balki uning faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ichki motivatsiyasini ochib berishga xizmat qiladi. Aynan shu jihat faoliyatli yondashuvni iqtidorni aniqlash va rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmi sifatida asoslaydi.

Ushbu tadqiqotda iqtidor shaxsning tayyor yuqori natijalari bilan emas, balki faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan va rivojlanadigan potensial imkoniyatlari majmui sifatida talqin etilar ekan, mazkur yondashuv J. Renzullining iqtidorni uch omil – **yuqori intellektual imkoniyatlar, ijodkorlik** va **faoliyatga yo'naltirilganlik** birligi sifatida tushuntiruvchi konsepsiyasiga tayanadi[6]. Mazkur yondashuv o'zbek pedagog-olimlarining iqtidorni shaxsning rivojlanib boruvchi, faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan sifat sifatida talqin etuvchi qarashlari bilan hamohangdir. Jumladan, mahalliy tadqiqotlarda iqtidor bolada erta yoshdan o'yin, muloqot va ijodiy faoliyat jarayonida shakllanadigan individual imkoniyatlar majmui sifatida izohlanadi.

**Iqtidorni aniqlash jarayoni** – bu shunchaki yuqori ballar bilan baholash emas, balki bolalarning potentsial qobiliyatlari, izlanish istagi, mustaqil faoliyat ko'nikmalarini aniqlash uchun kompleks psixologik-pedagogik baholashni talab qiladi[9].

Faoliyatli yondashuvda iqtidorli bolalar bilan ishlashning **asosiy pedagogik shartlari** quyidagilardan iborat:

**Individualizatsiya va differensiallashtirish:** Ta'lim jarayoni bolalarning qobiliyat darajasiga moslashtirilishi, murakkablik darajasi farq qiladigan vazifalar berilishi hamda materiallar bolalarning qiziqishlariga mos ravishda moslashtirilishi zarur[11].

**Boyitilgan ta'lim muhitini yaratish:** Ushbu yondashuvda o'quv mazmunini optimallashtirish va chuqurlashtirish, loyihaviy faoliyat, mustaqil izlanish ishlari hamda ijodiy topshiriqlar orqali bolalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish va kengaytirish ko'zda tutiladi.

**Faol muammoli vazifalar orqali o'rganish:** Muammoli vazifalar, loyiha asosida o'rganish, ilmiy izlanish faoliyati bolalarga faol tafakkur va muammolarni yechish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu jarayon faoliyatli yondashuvning metodologik asosini tashkil etadi.

Iqtidorli shaxslar bilan ishlash uchun faqat ta'lim metodlari emas, balki **psixologik qo'llab-quvvatlash** ham muhimdir. Pedagoglar individual ehtiyojlarni aniqlashi, iqtidorli bolalarning motivatsiyasini qo'llab-quvvatlashi, va balli hamda salbiy baholardan kelib chiqadigan psixologik to'siqlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan yondashuvlarni qo'llashi lozim.

Faoliyatli yondashuv ijodiy yondashuvlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u bolalar o‘z qiziqishlari va mustaqil izlanishlari orqali yangi bilimlarni yaratish jarayonini boshdan kechiradi. Pedagoglar innovatsion o‘qitish usullarini integratsiya qilish orqali kreativ fikrlashning shakllanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Faoliyatli yondashuv nazariyasining asosiy g‘oyalari bolalar faoliyatini o‘quv jarayoni markaziga qo‘yishni nazarda tutadi. Bu yondashuvda **pedagog** faoliyatni tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi agent bo‘lib, u bolalarning ijtimoiy, kognitiv va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Ushbu yondashuvda pedagog ikkinchi darajali bilim yetkazuvchi emas, balki risolaviy loyiha va faoliyatlarni rejalashtiruvchi va boshqaruvchi sifatida paydo bo‘ladi.

Faoliyatli yondashuv asosida maktabgacha ta’lim jarayonini tashkil etishda pedagogning roli ko‘p qirrali bo‘lib, u **metodologik, tashkiliy** va **psixologik daraja**larda namoyon bo‘ladi.

**Metodologik daraja**da, pedagog ta’lim jarayonining umumiy maqsad va vazifalarini belgilaydi, faoliyat mazmunini bolaning rivojlanish imkoniyatlariga moslashtiradi va o‘quv faoliyatini rivojlantiruvchi sharoit sifatida tashkil etadi. Bu holatda pedagog tayyor bilimlarni uzatuvchi emas, balki bolalarning faol bilish jarayonini yo‘naltiruvchi va tashkil etuvchi yetakchi sifatida namoyon bo‘ladi.

**Tashkiliy daraja**da, pedagog bolalarning individual va guruh faoliyatini muvofiqlashtiradi, ta’limiy muhitni boyitadi va o‘yin, tadqiqot hamda ijodiy faoliyatlarni uyg‘unlashtiradi. Aynan ushbu darajada pedagog tashkilotchi va yo‘naltiruvchi sifatida bolalarning mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi.

**Psixologik daraja**da, pedagog bolalarda ichki motivatsiyani shakllantiradi, ishonchli va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratadi hamda har bir bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda rivojlanish jarayonini rag‘batlantiradi. Bu darajada pedagog fasilitator sifatida bolaning tashabbusini qo‘llab-quvvatlaydi va uning faol subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogning faoliyatli yondashuvdagi roli quyidagi jihatlarda ham ifodalanadi:

bilimlarni uzatuvchi emas, balki tashkilotchi va fasilitator sifatida faoliyat ko‘rsatadi;

ta’lim muhiti va muammoli vaziyatlarni yaratadi, bolalarning izlanish yo‘lini yo‘naltiradi, lekin tayyor javob bermaydi;

natijalarni yakunlash va xulosalarni shakllantirishga yordam beradi.

Pedagog faoliyatli yondashuvni amaliyotga tatbiq etishda:

bolalarning faol ishtirokini rag‘batlantiradi;

o‘yin, izlanish, loyiha va muammoli vazifalarni tizimli ravishda joriy etadi.

Mavzularni tanlash va ishlash jarayonida bolaning individual qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga oladi. Shuningdek, pedagog kommunikatsion va interaktiv strategiyalar orqali demokratik va ishtirokchilikka asoslangan muhit yaratadi, bu esa faoliyatli yondashuv samaradorligini oshiradi.

Maktabgacha ta’limdagi faoliyatli yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish pedagogdan yuqori darajadagi psixologik-pedagogik kompetensiyalar, metodik bilim va amaliy ko‘nikmalar talab etadi. Pedagog:

bolaning rivojlanish bosqichlari va ularning ta’lim jarayonida qanday faoliyatlar orqali rivojlanishini chuqur bilishi,

o‘quv faoliyatlarini rejalashtirish va boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi,

innovatsion metodlar va interaktiv yondashuvlarni qo‘llash orqali bolaning ijodiy fikrlashini qo‘llab-quvvatlashi lozim.

Bu kompetensiyalar faqat nazariy bilimlardan iborat bo‘lmay, doimiy kasbiy malaka oshirish va tajriba almashish orqali takomillashadi.

Faoliyatli yondashuvni amaliyotga tatbiq etishda pedagog quyidagi **metodik strategiyalar**ni qo‘llaydi:

situatsion o‘yinlar va tadqiqotlar, ular bolalarda mustaqil fikrlash va ijtimoiy kooperatsiyani rag‘batlantiradi;

loyiha asosida o‘rganish, bunda bolalar kichik guruhlarda ishlash orqali masalalarni aniqlash hamda yechim topish malakasini rivojlantiradi;

refleksiya va tahlil mashg‘ulotlari, bolalarni o‘z faoliyatlari ustida mulohaza yuritishga o‘rgatadi va natijalarini tahlil qilishga yo‘naltiradi.

Bu metodlar faoliyatli yondashuvni maktabgacha ta’limning kundalik amaliyotiga integratsiya qilish imkonini beradi.

Pedagogning rollaridan yana biri – bolalarning ijtimoiy-emosional rivojlanishi uchun samarali ta’lim-tarbiya muhitini yaratishdir. Bu jarayonda pedagog shaxsaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, iymon va hurmatga asoslangan muloqot, bolalarni bir-birlarini tinglashga o‘rgatish orqali bolalar jamoasi ichida o‘zaro hurmat muhitini shakllantiradi. N Bunday ijtimoiy-emosional sharoitlar bolalarning izlanish motivatsiyasini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib, quyida “Faoliyatli yondashuv jarayoni elementlari” sxemasini yaratdik (4-rasm):

**5-rasm**




## Xulosa

Shunday qilib, faoliyatli yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtidorni rivojlantirishning yetakchi pedagogik omili sifatida ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi. Mazkur yondashuvda iqtidor bolaning tayyor natijalari orqali emas, balki uning o‘yin, bilish va ijodiy faoliyati jarayonida namoyon bo‘ladigan individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ichki motivatsiyasi orqali aniqlanadi va rivojlantiriladi.

Faoliyatli yondashuv sharoitida pedagogning roli bilimlarni uzatuvchi subyektdan bolalarning bilish va ijodiy faoliyatini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi fasilitator darajasiga ko‘tariladi. Bu esa ta’lim jarayonida mos metodlar, muammoli vazifalar, o‘yin va loyiha faoliyati, refleksiya hamda individual yondashuvni tizimli ravishda qo‘llashni taqozo etadi.

Natijada ta’lim-tarbiya jarayonining faoliyatga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etilishi bolalarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, ijodkorlik, muammolarni hal qilish hamda o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish kabi iqtidor belgilarining barqaror shakllanishini ta’minlaydi.

Mazkur nazariy xulosalar keyingi bobda faoliyatli yondashuvni maktabgacha ta’lim amaliyotiga joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari, metod va texnologiyalarini asoslash uchun metodologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to`g`risida”gi 595-sonli Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti” 802-son Qarori

4. Dewey J., Democracy and Education, 1916.

5. Leontyev A.N. Deyatelnost. Soznaniye. Lichnost. – M.: Politizdat, 1975. – 304 s.

6. Renzulli J.S. What makes giftedness? Reexamining a definition // *Phi Delta Kappan*. – 1978. – Vol. 60, №3. – P. 180–184.

7. Rubinshteyn S.L. Osnovy obshchey psixologii. – M.: Pedagogika, 1957. – 704 s.

8. Vygotskiy L.S. Myshleniye i rech. – M.: Gosudarstvennoye sotsialno-ekonomicheskoye izdatelstvo, 1934. – 324 s.

9. Zaver T.V. Psychological and pedagogical factors of a gifted child’s development in early preschool age. https://pedagogy-journal.ru/en/article/ped20240020/fulltext?utm_source

10. Системно-деятельностный подход к организации воспитательно-образовательного процесса в дошкольном образовании. https://www.defectologiya.pro/zhurnal/sistemno_deyatelnostnyij_podxod_k_organizaczii_vospitatelno_obrazovatelnogo_proczessa_v_doshkolnom_obrazovanii

11. https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1317646.pdf?utm_source. Enrichment and Gifted Education Pedagogy to Develop Talents, Gifts, and Creative Productivity Sally M. Reis * , Sara Jane Renzulli and Joseph S. Renzulli

12. https://www.informio.ru/publications/id3555/Dejatelnostnyi-podhod-v-obrazovanii

13. https://t80618o.dou.obrazovanie33.ru/upload/site_files

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Muminova Dilafro'z Akbaraliyevna**
Namangan davlat pedagogika instituti professori,
pedagogika fanlari doktori (DSc)
dilbarxon2008@mail.ru
**Komolova Shoxsanam Muzaffar qizi**
NamDU tayanch doktoranti

## BIBLIOTERAPIYA VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ETNIK-MADANIY QADRIYATLARGA IJOBIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI VA TAHLILI

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada biblioterapiya vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining etnik-madaniy qadriyatlarga va kitobga muhabbat uyg'otish, kitob o'qishga o'rgangan insonning ma'naviy dunyoqarashi yuqori bo'lishi, biblioterapiya vositasida mutolaa madaniyati, to'g'ri o'qish qoidalari, kitob o'qishga qiziqishni shakllantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini biblioterapiya vositasida etnik-madaniy qadriyatlarga ijobiy munosabatlarini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlashtirish, kitobxonlik ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish, biblioterapiya vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining etnik-madaniy qadriyatlarga ijobiy muhitni shakllantirishga doir ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *o'zbek, bolalar, sharqona, shaxs, kitobxonlik, mutolaa, nutq, badiiy adabiyot, ta'lim, farzand, mutolaa madaniyati, sharqona, tarbiya, qadriyat, o'quvchilar , farzand,*

**Муминова Дилафроз Акбаралиевна**
Профессор Наманганского государственного педагогического института,
Доктор педагогических наук (DSc)
**Комолова Шохсанам Музаффар кизи**
Аспирант НамДУ

## ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ И АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЗИТИВНОГО ОТНОШЕНИЯ К ЭТНИКО-КУЛЬТУРНЫМ ЦЕННОСТЯМ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПОСРЕДСТВОМ БИБЛИОТЕРАПИИ

***Аннотация.*** *В данной статье представлена информация о методах привития любви к этнокультурным ценностям и книгам у учащихся начальной школы посредством библиотерапии, о высоком духовном мировоззрении человека, научившегося читать книги, о формировании культуры чтения посредством библиотерапии, о правилах правильного чтения, о формировании интереса к чтению книг, о разъяснении теоретико-методических основ формирования позитивного отношения учащихся начальной школы к этнокультурным ценностям посредством библиотерапии, о разработке критериев оценки уровня формирования навыков чтения, о формировании позитивной среды для этнокультурных ценностей у учащихся начальной школы посредством библиотерапии.*

***Ключевые слова:*** *узбекский, дети, восточный, личность, чтение, речь, художественная литература, воспитание, ребенок, культура чтения, восточный, воспитание, ценность, ученики, ребенок,*

**Muminova Dilafro'z Akbaraliyevna**
Professor of Namangan State Pedagogical Institute,
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)
**Komolova Shokhsanam Muzaffar kizi**
NamDU basic doctoral student

## CURRENT STATUS AND ANALYSIS OF FORMING POSITIVE ATTITUDES TOWARDS ETHNIC-CULTURAL VALUES IN PRIMARY GRADE STUDENTS THROUGH BIBLIOTHERAPY

***Abstract.*** *This article presents information on the methods of instilling a love of ethnic and cultural values and books in primary school students through bibliotherapy, the high spiritual outlook of a person who has learned to read books, the formation of a*

*reading culture through bibliotherapy, the rules of correct reading, the formation of an interest in reading books, the clarification of the theoretical and methodological foundations of the formation of positive attitudes of primary school students to ethnic and cultural values through bibliotherapy, the development of criteria for assessing the level of formation of reading skills, the formation of a positive environment for ethnic and cultural values in primary school students through bibliotherapy.*

***Keywords**: Uzbek, children, oriental, personality, reading, reading, speech, fiction, education, child, reading culture, oriental, upbringing, value, students, child,*

**Kirish**

O‘zbekistonning milliy mustaqillikka erishishi va hozirgi kunda amalga oshirilayotgan islohatlar jamiyatimiz ijtimoiy hayotida tup o‘zgarishlar boshlab beradi. Ular bolalarning bundan keyingi taqdirini belgilashda muhum ro‘l o‘ynaydi ma’lumki har qanday jamiyatning kelajagi yosh pedagogning qanday ta’lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga ana shunday avlodlarni mamlakat oldida turgan umum davlat amaliyotiga moil vazifalarni belgilashga qodir bo‘lib o‘z xalqining tarixini qadiryatlarini belgilab beradi shunga ko‘ra yosh avlodni malakali mutahasislik qilib tarbiyalashda davlatimiz oldiga qo‘ygan muhum vazifalardan biridir. Albatta ishlarni umumiylashishi va ijtimoiy kadiryatlar asosida tarbiyalash masalari ham ta’lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. Har bir insoning ma’naviy mafkurasining jumladan aniklashining shaklanishi va ta’milanishiga ijtimoiy iqtisodiy shoroit asosida ro‘l o‘ynaydi, jamiyatning ma’rifiy hayoti ichiga ijtimoiy el va qarashlar tasavvur va tushunchalar his -tuyg‘ular jamiyat ijtimoiy hayotida sharoitlarini aks etiradi. Chunki inson tabiat yaratgan bo‘lsa ham undagi insoniy hususiyatlar shaklda tarbiya topdi.

**Asosiy Qism**

Sharqona tarbiya tushunchasi Sharq mamlakatlari xalqlariga mansub bo‘lgan xislatlarni o‘zida ifoda etadi. Tarixiy manbalarning ko‘rsatishicha, moddiy va ma’naviy madaniyat maskanlari qadim zamonlardan beri Yaqin, O‘rta va Uzoq Sharq mamlakatlarida vujudga keladi. Misr, Suriya, Iroq, Iordaniya, Turkiya, Yamaq, Sudan, Quvayt va boshqalar Yaqin Sharq mamlakatlaridir. O‘rta Sharq esa Eron, Afg‘oniston, Movarounnahr, Birma, Vetnam, Indoneziya, Tayland, Hindiston va boshqalarni, Uzoq Sharq - Xitoy, Yaponiya, Koreya, Rossiya Uzoq Sharqi mamlakatlarini o‘z ichiga oladi.

Sharq xalqlarining barchasida xos bo‘lgan fazilatlar mavjud bo‘lib, ular jumlasiga xalqlarning vazminligi, sabr-toqatli bo‘lishi, ijtimoiy muammolarni kelishuv yo‘li bilan hal etish, foydali mehnat faoliyati bilan muntazam ravishda shug‘ullanib borish, mehribonlik, birdamlik va boshqalar kiradi.

Insoniyat hayotida tarbiyaviy ahamiyatga molik bo‘lgan bunday hislatlar - insonni sabr-toqatli, irodali, o‘tkir fikrli, jismonan baquvvat va ruhan egilmas, mehr-muruvvatli bo‘lishini ifodalaydi.

Xalqlar o‘rtasidagi mehr-oqibat va muruvvat singari fazilatlar mavjudligi haqida rivoyatlar keltiriladi. Ularning birida aytilishicha, boylikda tengi yo‘q bir inson befarzand bo‘lib, umr yo‘li yaqinlashib qolganda Yaratgandan farzand so‘rab ko‘p yalinibdi. Hech bo‘lmasa farzandi bor degan nomga ega bo‘lay degan nolasiga, farzanding bo‘ladi, faqat u 3 kun yashaydi, deb javob kelibdi. Nihoyat, chol farzandli bo‘libdi va shu kundan boshlab xalqqa osh beribdi, muhtojlarga mehr qo‘lini cho‘zibdi. Bunday ishlar har kuni davom etaveribdi, kunlar va oylar o‘tib, chaqaloq ulg‘aya boshlabdi. Kunlarning birida cholga Yaratgandan **“Sening mehr-muruvvating taqdiringni o‘zgartirdi”**, - degan xabar berilgan ekan.

Sharq mamlakatlarining qimmatli imkoniyatlari G‘arbning diqqatini o‘ziga tortgan va uzoq vaqt davomida ular Sharqqa tomon o‘zlarining yurishlarini tashkil etganlar. O‘zbek xalqi azaldan kamtarligi, bosiqligi, qanoatliligi, xayoliligi bilan o‘zgalar diqqatini tortib kelgan. “Kamtarga kamol” degan naql ham bejiz aytilmagan. Alisher Navoiy o‘zining “Hayratul abror” dostonida shunday g‘oyalarni bayon etadi: “Agar senga osmonning kuch-g‘ayrati nasib bo‘lsa ham, yer yuzida kamtarlikni tanla. G‘amg‘ussa yuki seni tog‘dek ezib tursa ham, uning ostida tuproqdek tura ber. Boshingga toshlar yomg‘irdek yog‘ilsa ham binafsha kabi boshingni yuqori tutib tura ber”.

Sharqona tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari mahallada o‘zining, yorqin ifodasini topgandir. Eng avvalo, bola tarbiyasi oilada, bolalar bog‘chasida, maktabda, mahallada jamoatchilik hamkorligida shakllantiriladi, odoblilikka o‘rgatiladi. Shuning uchun ham “Bir bolaga yetti mahalla tarbiyachi” degan naql uzoq yillar mobaynida yashab keladi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ham mahallaning o‘rniga alohida munosbatda bo‘ladilar: “Mahalla, ta’bir joiz bo‘lsa, kishilik jamiyatida alohida tarbiyaviy ahamiyatga molik bo‘lgan o‘ziga xos maskandir. Bu noyob tajriba aholining mahalla bo‘lib yashash tarzi jahonning boshqa mamlakatlarida kam uchraydi. Shuning uchun ham insonni jamiyat bilan birga yashashga o‘rgatadigan, shu ruhda tarbiyalaydigan birlamchi va beqiyos makon –bu mahalladir”.

Bolalarga mukammal tarbiya berish ma’naviy axloqiy tarbiyaning ravnaqi uchun ichki omil yaratadi. Hadislarda aytilganidek, ota-onalarning farzandlariga qoldiradigan eng katta merosi ularga o‘rgatadigan axloq, estetik tarbiyasi va odobidir.

Har bir mamlakatda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya tizimi negizida muayyan maqsadlar yotadi. Bu maqsadlar davlat siyosati bilan belgilanadi. Ma’naviy–axloqiy tarbiya vazifalari esa bugungi kunda ta’lim-tarbiya tizimi mazmunini yangilashni talab etadi. Bu tarixiy zarurat esa ijtimoiy tarbiya bilan oilaviy tarbiyani uzviy bog‘lash lozimligiga undaydi. Milliy axloq esa milliy tarbiyaning tarkibiy qismi bo‘lganligi uchun undan foydalanish oilaviy tarbiyaga ham ijtimoiy tarbiyaga ham ta’luqlidir.

Ma’naviy–axloqiy tadbirlarda inson shaxsini shakllantirishda milliy madaniy meros va qadriyatlardan foydalanish asosida har bir shahsning ma’naviyatiga o‘ziga hos milliy yo‘nalish berishga harakat qilishdir.

Sohibqiron Amir Temur o‘z tuzuklarida yozadi; kelin izlamoqka e`tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng qo‘ydim. Kelin bo‘lishning nasl-nasabini, yetti pushtni surishtirdim “Sog‘lik” jismonan kamolotini aniqladim, birga husurlardan holi bo‘lsagina aytishga yo‘l qo‘ymaslik va uni oldini olishga intilishini ko‘rish mumkin. Zero,qondagi ruhdagi aynish millatning ming yillik qadriyatlarini nobud, qilishi mumkin.

**Adabiyotlar Tahlili**

Axloqiy tarbiyalashda o‘quvchilarni ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni O‘zbekistonda bolalarni axloqiy tarbiyalashning u yoki bu muammolari F.B.Valixo‘jaeva, Z.Rahimova, D.Sobirova, N.Egamberdievalarning tadqiqotlarida, umuman, tarbiya masalalari S.K.Annamuratova, S.Bulatov, Sh.Munavvarov, X.Nurmatov, A.Sulaymonov, S.Fayzulina, R.Hasanovlarning ishlarida o‘z aksini topgan. Bolalarni tarbiyalash muammolarining tadqiqi nuqtai nazaridan D.H.Alimova, L.V.Vetlugina, YE.N.Dimitreva, V.A.Ezikeeva, T.G.Kazakova, H.N.Qosimova, T.S.Komarova, N.P.Sakulina, V.D.Sich, G.T.Uranova, N.B.Halezova, YE.A.Flerina, S.A.G‘ozibaevlarning tadqiqotlari shu yo‘nalishdagi tadqiqotlar uchun ilmiy manba vazifasini o‘tashi mumkin.

Olimlar tomonidan pedagogik qadriyatlarning ikki jihati alohida tadqiq etilgan: o‘qituvchiga uning moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishiga imkon beruvchi va ijtimoiy ahamiyatli insonparvar maqsadlarga erishishga qaratilgan uning ijtimoiy va kasbiy faolligida yo‘l ko‘rsatuvchi belgi bo‘lib xizmat qiladigan o‘ziga xos jihatlar;

- pedagogik faoliyatni tartibga soluvchi me‘yorlar va ta‘lim hamda pedagogic faoliyat sohasidagi vujudga keladigan ijtimoiy dunyoqarash orasida vosita va bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib keluvchi bilish-faoliyat tizimi. Pedagogik aksiologiyaga oid adabiyotlarda pedagogik qadriyatlarning xilmaxil tasniflari mavjuddir. Jumladan, Z.I.Ravkin pedagogik qadriyatlarni quyidagicha tasnif etadi:

1) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar: ta‘limning hamma uchun ochiqligi va bepulligi, millatidan qat‘i nazar, barcha fuqarolarning bilim olishdagi teng huquqliligi, o‘quvchilarni va ota-onalarning ta‘lim muassasasini tanlash erkinligi;

2) intellektual qadriyatlar: bilishga ehtiyoj, bilishga qiziqish va faollik, o‘quvchilarning ijodiy faoliyati, fikrning go‘zalligi va so‘z bilish faoliyati vositasi sifatida;

3) axloqiy qadriyatlar: o‘quvchining burch va shaxsiy majburiyatlari, uning pedagogik jarayonning subyekti bo‘lish huquqi, bilimlarni egallashdagi axloqiy rag‘batlar va motivlar, vatanparvarlik va fuqarolik, mehnat va boshqa kishilarning mehnatini hurmat qilish;

4) kasbiy-pedagogik faoliyatga doir qadriyatlar: o‘qituvchi-tarbiyachini mehnat qilishga chorlash, tanlagan kasbiga mas‘uliyat bilan yondashuv, pedagogning mahorati, uning izlanishli- tadqiqotchilik, innovasion faoliyati, kommunikativ qobiliyati, o‘quvchilar bilan muloqotdagi ijobiylik, pedagogik mahorat.

V.A.Slastenin esa, kasbiy yo‘nalganlik tizimiga asoslangan holda, pedagogik qadriyatlarni quyidagicha tasnif etadi:

1) maqsadli qadriyatlar: shaxsiy Men va kasbiy Men yig‘indisidagi bo‘lg‘usi o‘qituvchining shaxsiy konsepsiyasi. Pedagog pedagogik faoliyat maqsadlarini amalga oshirish yo‘llarini qidirar ekan, o‘zini va o‘zgalarni rivojlantirish yo‘lidagi o‘z kasbiy strategiyasini tanlab oladi. Binobarin, maqsadli qadriyatlar davlatning ta‘lim siyosatini va pedagogika ilmining rivojlanish darajasini aks ettiradi. Bu qadriyatlar subyektlashgan holda pedagogic faoliyatning ahamiyatli omillariga aylanadi va vositali qadriyatlarga ta‘sir ko‘rsatadi. Ular nazariya, metodologiya, pedagogik texnologiyalarni egallash natijasida shakllanib, pedagogning kasbiy ta‘limi asosini tashkil etadi. Shaxs uchun zaruriy qadriyatlar quyidagi maqsadli qadriyatlarni o‘zida aks ettiradi: o‘qituvchi mehnatining ijodiy va serqirralilik tavsifi, uning nufuzi va ahamiyatliligi, jamiyat olidagi yuksak mas‘uliyat, o‘zini namoyon qilish, bolalarga mehr va boshqalar. Bunday qadriyatlar ta‘lim oluvchi va ta‘lim beruvchi shaxsining, talabalar jamoasi va pedagogik jamoaning rivojlanishi bilan bog‘liq pedagogic faoliyatda o‘z ifodasini topadi;

2) vositali qadriyatlar: pedagogik muloqot, texnika va texnologiya, monitoring, innovatika, intuisiya tizimi. Vositali qadriyatlar maqsadli qadriyatlarga erishishda vosita bo‘lib xizmat qiladi (mehnat natijalarining jamiyatda tan olinishi, shaxsning qiziqishlari va qobiliyatlarini pedagogik faoliyat tavsifiga muvofiqligi, kasbiy o‘sish va b.);

3) munosabatli qadriyatlar: pedagogik jarayon ishtirokchilarining munosabati, kasbiy-pedagogik faoliyatga munosabat;

4) sifat qadriyatlari: shaxsning xulq-atvor, faoliyatga doir xilma-xil sifatlari.

5) bilishga oid qadriyatlar. O‘qituvchilik kasbining bilishga doir qadriyatlari nazariy darajada o‘quvchilarning o‘qituvchilik kasbiga doir qadriyatlarni e‘tirof etishi va qabul qilishi bilan bog‘liq.

N.M.Egamberdiyeva esa, talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nuqtai nazaridan pedagogik qadriyatlarni ikkita katta guruhga tasnif etishni taklif etadi: ijtimoiy-pedagogik va shaxsiy-pedagogik qadriyatlar.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda barcha sohalar singari ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan bosh maqsad kelajak avlodni ulg‘ayotgan farzandlarimizni insonparvarlik, vatanparvarlik ruhida komil inson qilib tarbiyalashdir. Shu asnoda o‘sib kelayotgan avlodni boy va betakror tariximiz milliy an`analarimiz o‘gitlari asosida tarbiyalash bugungi kun talabidir. Farzand ulg‘aya borar ekan ijtimoiy hayot ijtimoiy munosabatlar atrofdagi hodisalarga o‘z nuqtai nazari bilan moslasha boradi. Bolada bu jarayonning kechishi shaxsni o‘rab turgan muhitning, jamoaning, oilasining qaydarajada milliy va dunyoviy munosabatlarga munosabati asosida vujudga keladi va shu asnoda jamiyatni borliqni, unda shakllangan ong dunyo qarash orqali idrok qiladi.

Bir qaraganda bu jarayon - ijtimoiy muhit ko‘rinishida sodda ko‘rinsada, xalqaro miqyosida, turli davlatlar misolida ko‘radigan bo‘lsak har hil ko‘rinishga ega bo‘lgan etnik tarbiya vujudga kelayotganini ko‘rasiz.

Shu o‘rinda bizning yurtimiz tarihiy madaniyati - ma’naviyati, milliy an`analari va qadriyatlari bilan o‘zbek xalqining qalbiga tushirilgan ming asrlik tarihini namoyon etib kelmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Abdurazaqov F. Talabalarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish //E Conference Zone. – 2022. – B. 110-115.

2. Abduraxmonov F., Abduraxmonova Z. Nutq madaniyati //T.: Fan. – 2016.

3. Abdullayeva D.G‘, Abdullayev A.M., Raximberdiyeva U. O‘qituvchining nutq madaniyati uning salohiyati ko‘zgusidir. Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi 17.3 (2024): B.128-130.

4. Alekseyeva M. M., Korotkova E. I. Research of Fluorescent Properties of Telmisartan in Order to Develop an Express Determination in Blood Plasma. – 2024.

5. Alisherovna B. Z. Talabalar nutqini rivojlantirish fanining metodologik asoslari //Journal of new century innovations. – 2023. – T. 30. – №. 1. – B. 81-84.

6. Amanova O. C. XXI asrda innovatsion ta’limning o‘rni //international conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century. – 2022. – T. 1. – №. 10. – B. 144-147.

7. Muminova D.A., Komolova Sh. M., Alimqulova R.G. O ‘qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – T., 2025. – 220 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Turayeva Sharipa Egamberdiyevna**
Impuls Tibbiyot Instituti

## TARIX DARSLARIDA TIBBIYOT TALABALARINING TARIXIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA'LIM VOSITALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada oliy tibbiyot ta'limi muassasalarida tarix fanini o'qitishda raqamli ta'lim vositalarining didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tibbiyot talabalarining tarixiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, virtual o'quv muhitlari, interaktiv platformalar va multimedia vositalarining qo'llanilishi o'rganilgan. Tadqiqotda raqamli vositalarning tibbiyot ta'limining o'ziga xos xususiyatlari kontekstida tarixiy bilimlarni egallashga ko'rsatadigan ta'siri asoslantirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *raqamli ta'lim, tarixiy kompetensiya, tibbiyot talabasi, didaktik imkoniyatlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, virtual o'quv muhiti, interaktiv ta'lim.*

**Turayeva Sharipa Egamberdievna**
Impuls Medical Institute

## DIDACTIC POSSIBILITIES OF DIGITAL EDUCATIONAL TOOLS IN DEVELOPING HISTORICAL COMPETENCES OF MEDICAL STUDENTS IN HISTORY LESSONS

***Annotation.*** *This article analyzes the didactic potential of digital educational tools in teaching history in higher medical education institutions. The use of modern information and communication technologies, virtual learning environments, interactive platforms and multimedia tools in the process of forming historical competencies of medical students is studied. The study substantiates the impact of digital tools on the acquisition of historical knowledge in the context of the specific features of medical education.*

***Keywords:*** *digital education, historical competence, medical student, didactic opportunities, information and communication technologies, virtual learning environment, interactive education.*

**Тураева Шарипа Егамбердиевна**
Медицинский институт «Импульс»

## ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В РАЗВИТИИ ИСТОРИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ НА УРОКАХ ИСТОРИИ

***Аннотация.*** *В данной статье анализируется дидактический потенциал цифровых образовательных инструментов в преподавании истории в высших медицинских учебных заведениях. Изучается использование современных информационно-коммуникационных технологий, виртуальных учебных сред, интерактивных платформ и мультимедийных инструментов в процессе формирования исторических компетенций студентов-медиков. В исследовании обосновывается влияние цифровых инструментов на усвоение исторических знаний в контексте специфики медицинского образования.*

***Ключевые слова:*** *цифровое образование, историческая компетенция, студент-медик, дидактические возможности, информационно-коммуникационные технологии, виртуальная учебная среда, интерактивное образование.*

### Kirish

Zamonavir raqamli jamiyat sharoitida ta'lim tizimining barcha pog'onalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) qo'llanilishi pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biriga aylangan. Oliy ta'limda, xususan, tibbiyot universitetlarida tarix fani o'qitish metodikasi ham raqamli transformatsiya jarayonlaridan chetda qololmaydi. Tarixiy kompetensiyalar tibbiyot mutaxassislarining kasbiy shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning insonparvarlik qadriyatlarini, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muammo qo‘yilishi. Hozirgi kunda tibbiyot ta’limida tarixiy kompetensiyalarni rivojlantirishda an’anaviy ta’lim metodlarining cheklanganligi, talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishining pasaylishi, tarixiy bilimlarni tibbiy amaliyot bilan bog‘lashda qiyinchiliklar kuzatilmoqda. Raqamli ta’lim vositalarining didaktik potensialini tibbiyot talabalarining tarixiy kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida maqsadli va tizimli qo‘llash zaruriyati dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqotning maqsadi tarix darslarida tibbiyot talabalarining tarixiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli ta’lim vositalarining didaktik imkoniyatlarini aniqlash va ularni samarali qo‘llash yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat.

**Mavzuning O‘Rganilganlik Darajasi**

Raqamli ta’lim vositalari va tarixiy kompetensiyalar muammosi xorijiy va mahalliy pedagogika fanlari vakillari tomonidan turli kontekstlarda o‘rganilgan. J.Dron, T.Anderson (2014), M.Prensky (2010) kabi tadqiqotchilar raqamli ta’limning nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar. Tarixiy kompetensiyalarni shakllantirish masalalari S.Wineburg (2001), P.Seixas (2017) tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan.

Postsovet makonida M.T.Studenikin, E.E.Vyazemskiy, V.N.Lazukova tarixiy ta’limda yangi texnologiyalarni joriy etish yo‘llarini tadqiq qilganlar. O‘zbekiston olimlaridan B.X.Xodjaev, M.Q.Qosimova, D.A.Alimova tarix ta’limining metodologik asoslarini ishlab chiqishda muhim hissa qo‘shganlar. Biroq tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida tarixiy kompetensiyalarni rivojlantirishning raqamli didaktikasi alohida tadqiqot ob'yekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Tadqiqot Metodologiyasi**

Tadqiqotda tizimli-faoliyat, kompetensiyaviy va texnologik yondashuvlar qo‘llanildi. Empirik ma’lumotlar to‘plash uchun pedagogik kuzatish, so‘rovnoma, ekspert bahosi metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlilda pedagogik, psixologik va tibbiy ta’lim adabiyotlarining kontentli tahlili amalga oshirildi.

**Asosiy Qism**

**Tibbiyot talabalarining tarixiy kompetensiyalari: tarkibi va o‘ziga xosligi**

Tarixiy kompetensiya – bu tarixiy bilimlar, tarixiy fikrlash ko‘nikmalari, tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish qobiliyati, tarixiy hodisalarni zamonaviy kontekstda baholash ko‘nikmalarining majmuasidir. Tibbiyot talabalariga nisbatan tarixiy kompetensiyalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

1.Tibbiyot tarixiy-ma’rifiy komponenta – tibbiyotning tarixiy rivojlanishi, buyuk shifokorlar merosi, tibbiy kashfiyotlar tarixini bilish;

2.Bioetik-tarixiy komponent – turli davrlarda tibbiy etika va deontologiyaning o‘zgarishi, insonparvarlik an’analarining rivojlanishini tushunish;

3.Madaniy-tarixiy komponent – turli xalqlarning sog‘liqni saqlash an’analari, kasalliklarning ijtimoiy-madaniy konteksti haqida bilimlar;

4.Metodologik-tarixiy komponent – tarixiy faktlarni tahlil qilish, manbalarni tanqidiy baholash, tarixiy-tibbiy tadqiqotlar olib borish ko‘nikmalari.

**Raqamli ta’lim vositalarining didaktik klassifikatsiyasi**

Tarix darslarida qo‘llaniladigan raqamli ta’lim vositalari quyidagi toifalarga ajratiladi:

**1. Virtual o‘quv muhitlari va platformalar.** Learning Management Systems (LMS) – Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams kabi platformalar tarixiy kurslarni tashkil etish, materiallarni ulashish, baholash va feedback olish imkoniyatlarini yaratadi. Tibbiyot talabalariga mo‘ljallangan “Tibbiyot tarixi” modullari zamonaviy tibbiy tushunchalarni tarixiy kontekstda o‘rganishga yordam beradi.

**2. Interaktiv multimedia vositalari.** Video leksiyalar, animatsiyalar, 3D-rekonstruksiyalar tarixiy voqealar va jarayonlarni vizualizatsiya qilish orqali talabalarning obrazli xotirasini faollashtiradi. Masalan, qadimgi Rim shifokorxonalarining, Sharq tabobatining rivojlanishini ko‘rsatuvchi virtual turlar tibbiyot tarixini jonli tasavvur qilishga imkon beradi.

**3. Virtual arxivlar va raqamli kutubxonalar.** Europeana, World Digital Library, O‘zbekiston Milliy arxivi elektron resurslari orqali talabalar tibbiyot tarixiga oid noyob hujjatlar, manbalar, ilmiy asarlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

**4. Interaktiv xaritalar va timeline vositalari.** TimelineJS, Google Earth kabi dasturlar epidemiyalar tarqalishini, tibbiyotning geografik jihatdan rivojlanishini, tarixiy shifokorlar sayohatlarini vizual tarzda ko‘rsatishga imkon beradi.

**5. Gamifikatsiya va virtual laboratoriyalar.** Ta’limiy o‘yinlar va simulyatorlar orqali talabalar tarixiy tibbiy amaliyotni modellashtirish, qarorlar qabul qilish jarayonlarini boshdan kechirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

**6. Ijtimoiy media va onlayn hamkorlik vositalari.** Wiki-platformalar, blog, forum va ijtimoiy tarmoqlar talabalarning kollektiv tarixiy tadqiqotlar olib borishiga, fikr almashishiga xizmat qiladi.

**Raqamli vositalarning didaktik funksiyalari**

Raqamli ta’lim vositalari tarix darslarida quyidagi didaktik funksiyalarni bajaradi:

**Axborot-ma'lumotnoma funksiyasi.** Raqamli resurslar talabalarni turli xil tarixiy ma'lumotlar, manbalar, ilmiy tadqiqotlar bilan ta'minlaydi. Tibbiyot tarixiga bag'ishlangan elektron ensiklopediyalar, ma'lumotlar bazalari talabalarga mustaqil izlanish faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

**Motivatsion-stimullovchi funksiya.** Interaktiv va multimedia vositalar tarixga bo'lgan qiziqishni oshiradi, o'rganish jarayonini jonliroq va qiziqarliroq qiladi. Virtual ekskursiyalar, o'yinlar, vizualizatsiya vositalari talabalarning emotsional va kognitiv faolligini oshiradi.

**Kommunikativ-faoliyat funksiyasi.** Onlayn platformalar va ijtimoiy media talabalarning o'zaro hamkorligi, fikr almashishi, guruh loyihalarini amalga oshirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Forum va chat-muhokamalar tarixiy mavzular bo'yicha munozara madaniyatini rivojlantiradi.

**Nazorat-baholash funksiyasi.** Raqamli testlar, onlayn viktorinalar, elektron portfoliolar tezkor va ob'ektiv baholashni ta'minlaydi. Adaptiv testlash tizimlari talabaning bilim darajasiga moslashgan vazifalar yaratadi.

**Shaxsiylashtirish funksiyasi.** Raqamli vositalar har bir talabaning individual o'rganish traektoriyasini yaratish imkonini beradi. Talabalarga o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga mos tarixiy mavzular, loyihalar tanlash erkinligi beriladi.

**Tibbiyot talabalariga tarix o'qitishda raqamli vositalarni qo'llash modeli**

Samarali raqamli ta'lim uchun blended learning (aralash ta'lim) modeli maqsadga muvofiq bo'lib, quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

**1. Oldindan tayyorgarlik bosqichi (pre-class).** Talabalar onlayn platformadagi materiallar (video leksiyalar, elektron darsliklar, manbalar) bilan tanishadilar, oddiy testlardan o'tadilar. Flipped classroom (teskari sinf) metodikasi qo'llaniladi.

**2. Auditoriya mashg'ulotlari (in-class).** O'qituvchi bilan bevosita muloqotda murakkab tarixiy masalalar muhokama qilinadi, raqamli vositalar yordamida interaktiv mashqlar, loyiha ishlari amalga oshiriladi. Interactive whiteboard, prezentatsiyalar faol qo'llaniladi.

**3. Mustaqil ish bosqichi (post-class).** Talabalar virtual arxivlarda tadqiqot olib boradilar, elektron portfoliolarini to'ldiradilar, onlayn forumlarda ishtirok etadilar, yakuniy loyihalarni tayyorlaydilar.

**Tibbiyot tarixida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish texnologiyalari**

**Virtual ekskursiya texnologiyasi.** Google Arts & Culture, virtual muzeylardagi 360° turlar orqali talabalar jahonning turli burchaklaridagi tibbiyot muzeylarini, tarixiy shifokorxonalarni virtual ravishda ziyorat qilishlari mumkin. Masalan, Londondagi Florence Nightingale muzeyi, Germaniya tibbiyot tarixi muzeylari virtual platformalarda mavjud.

**Raqamli storytelling (hikoya yaratish) texnologiyasi.** Talabalar Adobe Spark, StoryMapJS kabi vositalar yordamida buyuk shifokorlar hayoti, muhim tibbiy kashfiyotlar haqida multimedia hikoyalar yaratishlari mumkin. Bu ularning ijodiy va tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantiradi.

**Raqamli arxiv tadqiqoti texnologiyasi.** Talabalar O'zbekiston Milliy arxivi elektron resurslari, ЮНЕСКО raqamli kutubxonasi kabi platformalarda tarixiy hujjatlar bilan ishlash ko'nikmalarini egallaydilar. Ular manbalarni tanqidiy tahlil qilish, autentifikatsiya qilish, kontekstualizatsiya qilish malakalarini rivojlantirishadi.

**Kollaborativ loyihalar texnologiyasi.** Google Docs, Padlet, Trello kabi hamkorlik vositalari orqali talabalar guruh halqasida tibbiyot tarixiga bag'ishlangan katta hajmli tadqiqot loyihalarini amalga oshirishlari, birlashgan elektron ensiklopediyalar yaratishlari mumkin.

**Raqamli vositalarni qo'llashning pedagogik prinsiplari**

1.**Maqsadga muvofiqlik printsipi** – raqamli vositalar tarixiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadlariga xizmat qilishi kerak, texnologiya o'zi uchun ishlatilmasligi lozim.

2.**Integratsiya printsipi** – raqamli vositalar an'anaviy ta'lim metodlari bilan uyg'un birlashtirilishi zarur.

3.**Interaktivlik printsipi** – talabalar raqamli resurslar bilan faol muloqotda bo'lishlari, passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishlari kerak.

4.**Kritik fikrlash printsipi** – talabalar raqamli resurslardagi axborotni tanqidiy baholash, manbalarning ishonchliligini tekshirish ko'nikmalarini egallashlari zarur.

5.**Shaxsiylashtirish printsipi** – har bir talabaning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va o'rganish tezligiga e'tibor berish.

**Pedagogik tajribada raqamli vositalarni joriy etishning natijalariga baho**

2022-2024 yillarda Toshkent tibbiyot akademiyasi bazasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari raqamli vositalar qo'llashning samaradorligini ko'rsatdi. Tajriba guruhidagi 120 nafar talabaning tarixiy kompetensiyalar darajasi nazorat guruhiga (118 nafar) nisbatan sezilarli o'sdi:

Tarixiy bilimlar hajmi 28% oshdi;

Tarixiy fikrlash ko'nikmalari 35% yaxshilandi;

Manbalarni tanqidiy tahlil qilish qobiliyati 42% o'sdi;

Fanga bo‘lgan qiziqish darajasi 51% ortdi;

Mustaqil tadqiqot faoliyati 39% aktivlashdi.

So‘rovnomalar natijalari talabalarning 87% raqamli vositalar yordamida o‘rganishni an’anaviy usullardan ko‘ra qiziqarliroq va samarali deb baholashlarini ko‘rsatdi.

**Xulosa**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli ta’lim vositalari tibbiyot talabalarining tarixiy kompetensiyalarini rivojlantirishda katta didaktik potensialga ega. Ularning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

1.Tarixiy axborot manbalariga keng kirish imkoniyati va resurslar bazasining kengayishi;

2.Ta’lim jarayonining individualizatsiyasi va shaxsiylashtirish imkoniyatlari;

3.Vizualizatsiya va interaktivlik orqali o‘zlashtirish samaradorligining oshishi;

4.Hamkorlikka asoslangan ta’lim va ijtimoiy o‘rganish sharoitlarining yaratilishi;

5.Talabalarning raqamli kompetensiyalarini tarixiy kompetensiyalar bilan birga rivojlantirish.

Amaldagi tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida tarix o‘qitishni takomillashtirishga qaratilgan takliflar:

Tarix fanidan elektron o‘quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish va joriy etish;

O‘qituvchilarni raqamli pedagogika sohasida malaka oshirish;

Virtual tibbiyot tarixi muzeyini yaratish;

Xalqaro tibbiyot tarixi raqamli arxivlariga ulanish ta’minlash;

Talabalarning raqamli kompetensiyalarini baholashning standartlarini ishlab chiqish.

Keyingi tadqiqotlarda sun’iy intellekt texnologiyalari, virtual va kengaytirilgan reallik vositalarining tibbiyot talabalarida tarixiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1.Anderson T., Dron J. Three generations of distance education pedagogy // The International Review of Research in Open and Distributed Learning. 2011. Vol. 12. № 3. P. 80-97.

2.Prensky M. Teaching digital natives: Partnering for real learning. Thousand Oaks: Corwin Press, 2010. 184 p.

3.Wineburg S. Historical thinking and other unnatural acts: Charting the future of teaching the past. Philadelphia: Temple University Press, 2001. 256 p.

4.Seixas P., Morton T. The big six historical thinking concepts. Toronto: Nelson Education, 2013. 320 p.

5.Студеникин М.Т. Современные технологии преподавания истории в школе. М.: Владос, 2007. 227 с.

6.Вяземский Е.Е., Стрелова О.Ю. Теория и методика преподавания истории. М.: Владос, 2003. 384 с.

7.Хожаев Б.Х. Ўзбекистон тарихи ўқитишнинг илмий-методик асослари. Тошкент: Ўқитувчи, 2005. 176 б.

8.Косимова М.Қ. Таълим технологиялари. Тошкент: Ўзбекистон, 2008. 192 б.

9.Алимова Д.А. Ўзбекистон тарихи таълими: анъаналар ва янгиланиш. Тошкент: Yangi asr avlodi, 2012. 240 б.

10. Garrison D.R., Kanuka H. Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education // The Internet and Higher Education. 2004. Vol. 7. № 2. P. 95-105.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Saydaliyeva Mashhura Anvarjon qizi**
Namangan davlat peadagogika instituti
Xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi
e-mail:mashhura.saydaliyeva@bk.ru

## UMUMTA'LIM MAKTABLARI INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada chet til sifatida ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Til o'rganishning nazariy va amaliy jihatlari, nutqning mohiyati hamda kommunikativ yondashuvning ahamiyati izohlanadi. Muallif o'quvchi nutqini shakllantirishda lug'at boyligini oshirish, grammatik kompetensiyani rivojlantirish, fonetik va orfoepik malakalarni mustahkamlash kabi omillarning o'rni haqida batafsil to'xtaladi. Nutq faoliyatining asosiy turi bo'lgan gapirishni o'rgatishning metodik asoslari, boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy malakalarni shakllantirish yo'llari va o'qituvchining roli tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Nutqiy kompetensiya, kommunikativ yondashuv, ma'noga yo'naltirilgan, topshiriqlar, muloqotga asoslangan darslar, o'quvchi faolligi, til o'qitish strategiyalari,muloqot kompetensiyasi.*

**Saydaliyeva Mashkhura Anvarjon kizi**
Senior lecturer, Department of Foreign languages
Namangan state pedagogical institute

## METHODS OF DEVELOPING STUDENTS' SPEAKING COMPETENCE IN ENGLISH LESSONS IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

***Annotation:*** *This article discusses the issues related to developing students' oral speech skills in teaching English as a foreign language. It highlights the theoretical and practical aspects of language learning, the essence of speech, and the importance of the communicative approach. The author provides a detailed explanation of the role of various factors such as enriching vocabulary, developing grammatical competence, and strengthening phonetic and orthoepic skills in shaping students' speech. The methodological foundations of teaching speaking as a key type of speech activity, ways of forming speaking skills in primary school learners, and the role of the teacher are analyzed.*

***Key words:*** *Speaking competence, communicative approach, meaning-focused tasks, communication-based lessons, learner activity, language teaching strategies, communicative competence.*

**Сайдалиева Машхура Анваржон кизи,**
Старший преподаватель кафедры Иностранных языков
Наманганского государственного педагогического института.

## МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются вопросы развития устной речи учащихся при обучении английскому языку как иностранному. Освещаются теоретические и практические аспекты изучения языка, сущность речи и значение коммуникативного подхода. Автор подробно останавливается на роли таких факторов, как обогащение словарного запаса, развитие грамматической компетенции, укрепление фонетических и орфоэпических навыков в формировании речи учащихся. Анализируются методические основы обучения говорению как основному виду речевой деятельности, пути формирования речевых навыков у учащихся начальных классов и роль учителя.*

***Ключевые слова:*** *Речевая компетенция, коммуникативный подход, ориентированные на смысл задания, коммуникативно-направленные уроки, активность учащихся, стратегии обучения языку, коммуникативная компетенция.*

**Adabiyotlar tahlili.**

Umumta'lim maktablari ingliz tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish usullarining bo'yicha dunyodagi yetakchi olimlar o'z ilmiy izlanishlarini olib borishgan. Ushbu izlanishlar asosan ta'lim jarayonining ijtimoiy ehtiyojlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, Yevropa olimlaridan Scott Thornbury, David Nunan, Jeremy Harmer, Rod Ellis, Jack C. Richards, MDH olimlaridan Galskova, N, Passov, E, Solovova, E, Bim, I. lar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. MDH davlatlari olimlaridan R.I. Abdurahmonova, L.G. Yusupova, I.F. Veremeeva, N.F.U. Khursandov, O'zbekiston olimlaridan M. Shodieva, M. Abdullaeva, UA Alibayeva, Sh. Samanova, Sh. Hasanovalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Xususan, B. Nurullaeva maktab o'quvchilarida ingliz tilida og'zaki nutqini rivojlantirish bo'yicha o'zbek ta'limi sharoitiga mos **metodik tavsiyalar** yaratgan. "Faol muloqotga asoslangan topshiriqlar" (communicative tasks) modelini mahalliy amaliyotga moslashtirgan. M. Shodieva CEFR talablari asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini baholash mezonlarini ishlab chiqqan. Nutqni rivojlantirishda **integral darslar** (reading–speaking, listening–speaking)ni samarali qo'llash bo'yicha ilmiy asos taklif qilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'quvchilari, chet til o'rganayotgan o'quvchilarning o'gzaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda umumta'lim maktablari ingliz tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish usullari ahamiyati hamda ularning tahliliy asoslari yoritilgan.

**Natijalar va ularning tahlili**

Til o'rganish insoniyat jamiyatidagi g'oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar nazariy jihatdan o'rganiladi. Hozirgi taraqqiy etishda jadallik bilan borayotgan O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni jumladan, umimiy o'rta ta'lim maktablarida taxsil olayotgan o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishlari uchun har jihatdan bilimli va mustaqil fikrlaydigan shaxs qilib tarbiyalash yuzasidan qator isloxotlar amalga oshirilmoqda.

Tili o'rganilayotgan shaxsning og'zaki nutqini tushunish, o'z fikrini yozma va og'zaki tarzda ifodalay olish hamda tilni amaliy egallash kommunikativlikning asosiy maqsadidir.

Ma'lumki chet tilni o'rgatish ushbu tilda nutqning sodir bo'lishi yoki uni idrok etish jarayonlarini tashkil qilishdir. [1;28-b]. Nutq atamasining ma'nosi fikrni shakllantirish va uni ifodalash usulini, tilning amalda qo'llanilishi va reallashuvini anglatadi. Til esa kommunikatsiya va interaksiya vositasi, ishoralar tizimi, fikrni ifodalash va hosil qilish quroli, vositasidir. [2; 20-21-b]. Til undan foydalanuvchi insonlar uchun umumiy, ya'ni ijtimoiy nutq esa individual o'ziga xos hodisadir. [3; 313-b].

Insoniyat olami ma'no va ma'nolar maydonidir. Agar biror narsa odamga ma'lum bo'lsa – uning o'z nomi bor, agar hodisani tavsiflash mumkin bo'lsa - u ham o'z nomiga egadir. Barcha ma'no va ma'nolar inson munosabatlarining, ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning turli shakllari orqali hosil bo'ladi va qo'llab-quvvatlanadi, ular tilda mustahkamlanadi. Til bu-insonni ramziy reallikka bog'laydigan eng hal qiluvchi langardir. Buni ayniqsa V.F.Gumboldt aniq ko'rsatib izhlab bergan: "Har bir til o'zi mansub bo'lgan xalq atrofida qo'llaniladi, uning chegarasidan faqat boshqa doiraga kirsangizgina chiqib ketishingiz mumkin" [4; 16].

Inson butun hayoti mobaynida turli insonlar bilan rasmiy va norasmiy munosabatda bo'ladi. Bu o'zaro ta'sirlar o'z maqsadlari, shakllari va oqim shartlariga ko'ra juda xilma-xildir. Shunday qilib, odamlar juft yoki kichik guruhlarda bevosita yoki bilvosita – aloqada bo'lishi, yoki ommaviy muloqotga, turli xil san'at turlari orqali o'zaro munosabatga kirishishi mumkin. Ijtimoiy aloqa alohida odamlar va butun xalqlararo bo'lishi mumkin, ma'lum bir guruhga mansub shaxslar o'rtasidagi aloqa hissiy-shaxsiy, biznes, ijtimoiy-rasmiy va boshqalar bo'lishi mumkin. Insonning o'z dunyosiga bo'lgan munosabati uning boshqa odamlarga bo'lgan munosabati vositasida bo'lishi va uning ob'ektiv faoliyati kengroq jarayonga kirishi muhimdir.

Nutq faoliyatining asosiy turlaridan biri bu- gapirishdir, ya'ni o'z fikrini og'zaki bayon etish. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga chet tilda gapirishni o'rgatish oraliq amaliy maqsad sanaladi. Ta'limning dastlabki bir necha yili davomida o'quvchilar gapirish va tinglab tushunishni o'rganadilar.

O'quvchini ingliz tiliga qiziqtira olish, ingliz tilida nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatga, muomalaga o'rgatishdir. Nutq o'stirishning asosiy maqsadi: o'quvchilarning ingliz tilidagi og'zaki nutqini rivojlantirishdan, atrofdagilar bilan nutqiy muloqotda bo'lish malakasini shakllantirishdan iborat. Nutq o'stirish vazifasi o'z ichiga bir qancha maxsus vazifalarni oladi: 1. O'quvchilarni ingliz tilida sinf xonasi va tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o'stirish, lug'atini boyitish. 2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish. 3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash. Lug'at ustida ishlash ko'rgazmali qurollardan tashqari sinf xonasidagi ko'rgazmalardan hamda tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali ham amalga oshiriladi. O'quvchilarni tevarak-tarofdagi buyumlar, hodisalar, o'simliklar, hayvonot dunyosi va hokozolar bilan tanishtirish jarayonida ularning nomlarini, sifatlarini, xususiyatlarini ingilizcha so'zlar bilan aytamiz. Masalan: Buyumlarning nomini anglatadigan: ***Things:*** mirror (ko'zgu), desk (parta), soup (sovun), carpet (gilam), cupboard, (shkaf) bad (krovat), tablecloth (dasturhon). ***Vagetables:*** (sabzavotlar nomini anglatadigan carrot

(savzi), cabbage (karam), turnip (shalg'om), cucumber (bodring). ***Fruits:*** (mevalar) apple (olma), pear (nok), cherry (olcha), peach (shaftoli), banana (banan), grape (uzum) Domestic animals (uy hayvonlari) rooster (xo'roz), hen (tovuq), horse (ot), cow (sigir), dog (it), cat (mushuk), goat (echki). Verbs (harakatni ifodalovchi) washing (yuvinmoq), cleaning (tozalamoq), irning (dazmollamoq),cooking (pishirmoq) va boshqalar. ***Adjectives:*** (sifatlari) big (katta), small (kichkina), red (qizil), green (yashil), hot (issiq), cold (soviq) va hokazo so'zlar o'quvchilarning sinf xonasi va tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida o'quvchlar lug'atiga kiritiladi, buning natijasida ularning lug'ati boyitiladi, nutqi rivojlanadi. Ingliz tili darslarida lug'at bilan ishlash juda muhim bo'lib, o'qituvchi o'quvchilarga o'rtoqlari bilan ingliz tilida nutqiy muloqotga kirishib keta olishiga yordam beradigan, tanlab hamda diologik nutq yordamida ular nutqiga kiritib boradilar. O'quvchilarni so'zlarning tarjimasini tushunishga o'rgatibgina qolmay, balki bu so'zlarni nutqlarni faol ishlatishga ham odatlanib boradilar. Lug'at tilning qurilish materiali hisoblanadi. Grammatika esa gapda so'zlarning o'zgarishi va ularning bog'lanish usullarini belgilaydi. Bundan tashqari, grammatika tilning qurilish modelini (so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi) belgilaydi. O'quvchi ingliz tilining barcha grammatik shakllarini qancha erta o'zlashtirsa, u aqliy jihatdan ham, nutqiy jihatdan ham sunchalik tez rivojlanadi. Agar o'quvchida nutqning grammatik tomoni noto'g'ri shakllansa, aqliy rivojlanishi kechkadi. O'qituvchi har bir mashg'ulot va o'yin turlarida bolalar nutqidagi grammatik xatolarni tuzatishi kerak. O'z vaqtida tuzatilmagan grammatik xato bola nutqida mustahkamlanib, uni tinglayotgan boshqa bolalar nutqida ham grammatik xatolarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Biroq maxsus tashkil etiladigan o'yinlarda bola nutqidagi u yoki bu salbiy jihatlarni ogohlantirish bo'yicha ish olib, bola nutqida paydo bo'lgan grammatik xatolarni o'z vaqtida bartaraf etish lozim. Maxsus tashkil etiladigan o'yin va mashg'ulotlarda bolaning diqqati faqat kerakli Grammatik shakllarga jalb qilinadi. So'z, uning shakl jihatdan o'zgarishi, so'z birikmasi yoki gaplar ular aqliy faoliyatining mazmuni bo'lib qoladi. Bunday mashg'ulotlarni izchillik va ketma-ketlik bilan olib borish natijasida bolalar qanday gapirish kerakligini anglaydilar, savodli chiroyli gapirishga xarakat qiladilar. O'quvchilarning darajasiga mos va ularni diqqat e'tiborini tortadigan tarzda tashkil etiladigan mashg'ulotlar bola diqqatini chalg'ib ketishining oldini oladi, ular o'qituvchining tushuntirishlarini, ko'rsatmalarini diqqat bilan tinglaydilar, o'rtoqlarini nutqini kuzatadilar. Mashg'ulotda nutq na'munasini oladilar va o'z nutqlarida undan foydalanadilar. Ko'pgina o'quvchilar o'z o'rtoqlarining xatolarini tuzatishda o'qituvchining eng yaqin yordamchisiga aylanib qoladilar. Bolalar nutqidagi grammatik xatolarni ogohlantirish, tuzatish maqsadida tashkil etiladigan maxsus mashg'ulotlar olib borishda quyidagi metodik ko'rsatmalarga amal qilish kerak: Ma'lum bir sinfda tashkil etiladigan mashg'ulot mazmunini uzoq muddatga mo'ljallab tashkil etish kerak. Mashg'ulot uchun bolalarning o'zlashtirishlari, ishlatilashi qiyin bo'lgan grammatik kategoriyalarni qayta – qayta tashkil etib mashqlar bajarish lozim. Bolalar oson va tez o'zlashtirgan birorta Grammatik formani (shakni) qayta o'rgatish maqsadga muvofiq emas. O'qituvchi yilning boshida o'quvchilar qanday grammatik shakllarni qo'llashda qiynalishlarini, xatoga yo'l qo'yishlarini aniqlab olishi kerak. Buning uchun o'quvchi nutqini kuzatadi, alohida o'quvchilar uchun suratli kartochkalar yoki biror - bir predmet yordamida o'tkaziladi.

O'quvchilar grammatik shakllarni doimo to'g'ri ishlatashlari uchun dinamik stereotipni hosil qildirish kerak. Buning uchun eshitgan so'zini kerakli grammatik shaklda ko'p marta takrorlash zarur. Takrorlash esdan chiqarganlarini esga tushurish maqsadida emas, balki esdan chiqarishning oldini olish uchun zarurdir, chunki esdan chiqarganni qayta tiklash uchun juda ko'p vaqt sarf etiladi. Grammatik jihatdan to'g'ri shakllangan nutq malakasini hosil qilishning sharti bu – takrorlashdir. Biror mavzu mazmunini to bola nutqidagi grammatik xato turi bartaraf etilmaguncha takrolash zarur. 3-4 ta grammatik shakl ustida ishlash bo'yicha mashg'ulot bir necha kun davom etishi mumkin. Grammatik jihatdan to'g'ri nutqni shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlar ko'rgazmali materiallar yoki ko'rgazmasiz o'tkaziladigan ta'limiy o'yin xarakteriga ega. Har bir boshlang'ich sinf uchun dastur mazmuniga mos ta'limiy o'yinlar, mashqlar tanlanadi. Masalan: Birinchi sinflar uchun "English alphabet", "Numbers", "Domestic animals", "Family" va boshqalar. Ikkinchi sinf va undan yuqori sinflar uchun "Verbs", "Jobs", "Body", "Seasons", "Months and weeks" va hokazolar. Bola nutqidagi xatolarni do'stona, xushmuomilalik bilan tuzatish kerak. Hech vaqt bola nutqidagi xatoni takrorlash yaramaydi, yaxshisi grammatik shakli to'g'ri bo'lgan so'zlarni, ta'limiy o'yinlarni takrorlash joizdir, o'qituvchi dars davomida yoki turli xil o'yinlar davomida bola nutqini kuzatib borishi va grammatik xatolarni tuzatishi shart. Bola nutqida grammatik xatolarni dars jarayonida yetarli ovoz tonida, boshqa o'quvchilarga ham eshitarli qilib to'g'rilash kerak. O'quvchilarni grammatik to'g'ri gapirishga o'rgatish bilan bir qatorda nutqning tovush madaniyatini ham o'rgatish lozim.

Nutq madaniyati – bu bayon etiladigan fikr mazmuniga mos tarzda til vositalarining barchasidan (tovush, intonatsiya, grammatik shakllar, leksik urg'ulardan) foydalana olishdir. O'qituvchi oldida quyidagi vazifalar turadi: o'quvchilarda so'zlardagi tovushlarni aniq, to'g'ri talaffuz etishni tarbiyalash, ingliz tili orfoepiya qoidalari asosida so'zlarni to'g'ri talaffuz etishni, aniq talaffuzini, bola nutqining ifodaliligini tarbiyalash. Biroq nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash bu tovushlarning to'g'ri talaffuzini shakllantirish ekan deb tushunmaslik kerak. To'g'ri tovush talaffuzini shakllantirish nutqining tovush madaniyati bo'yicha ishlarning bir qismigina hisoblanadi. O'qituvchi bolalarda to'g'ri nafas olish va chiqarishni, ingliz tilidagi hamma tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni, so'zlarni aniq

talaffuz etishni, ovozdan to'g'ri foydalanishni, shoshilmasdan nutqning mazmuniga qarab, ifodali gapirishni tarbiyalaydi. Nutqning fonetik va orfoepik jihatdan to'g'riligi, so'zlashgan vaqtida to'g'ri nafas olish va chiqarish, ravshan gapirish, so'zlarni to'g'ri ishlatish, ovoz kuchi va nutq suratini tartibga solish tushuniladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ingliz tili lotin alifbosiga o'xshab ketganligi bois ayrim tovushlarni almashtirib yuboradilar. Masalan: "school" [sku:l] so'zini "schol", "book" [bu:k] so'zni bok, "bag"[ba:g] bag. O'quvchilarga bilim va tarbiya berishda so'zlashuv nutqiga (dialog) o'rgatish katta ahamiyatga egadir. Bolada so'zlashuv nutqini shakllantirish – bu boshqalarning nutqini tinglash va tushunish, so'zlashishni quvvatlash, savollarga javob berish va so'rashdir (savollar berish).

Bola so'zlashuv nutqining rivojlanganlik darajasi uning lug'at boyligiga, tilning grammatik tomonini egallaganligiga bog'liqdir. Bolaning so'zlashuv nutqiga o'rgatish uning madaniy nutqni egallaganli darajasiga ham bog'liqdir. Masalan, suhbatdosh bilan so'zlashayotgan vaqtda o'zining va suhbatdoshining nutqiga doimo e'tiborli bo'lish, suhbatdoshining nutqini also bo'lmaslik, savollarga odob bilan qo'l ko'tarib, ruxsat berilgach javob berish, "xa" yoki "yo'q" deb qisqa javob bermay, balki shoshmay, o'ylab, so'ng to'liq, to'g'ri javob qaytarishga odatlantirish lozim. So'zlashganda o'rtacha ovozda fikrni tushunarli qilib bayon etish, nutqning yoqimli bo'lishiga e'tibor berish, so'zlaganda hamma uni miriqib tinglashiga o'rgatish, shuningdek, gapirayotgan vaqtda yerga, tevarak – atrofga qaramay, balki o'rtoqlariga qarab, ikki qo'lini yonga tushurib, erkin, samimiy so'zlashishga o'rgatishi va buni darsda bolalardan talab qilib borish zarur.

Tornbury ta'kidlashicha, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantiruvchi mashqlar **mahsuldorlik, maqsadlilik, o'zaro muloqot, qiyinchilik darajasi, xavfsizlik va haqiqiylik** kabi shartlarni ta'minlashi lozim. Bu yondashuv ingliz tili darslarida rol o'yinlari, real vaziyatlar asosidagi topshiriqlar va muloqotga asoslangan faoliyatlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi.[5; 90]

Til o'rganishning asosiy shakli bu mashg'ulotdir. Nutq o'stirish mashg'ulotlarida bola o'z nutqini o'qituvchining na'munaviy nutqi bilan taqqoslashga, boshqa bolalar bilan o'quv materiallarini bajarishga, ya'ni o'qituvchining tushuntirishini, hikoyasini tinglashga, birgalikda rasmlarni, diafilmlarni ko'rishga suhbatlashishga, didaktik o'yinlarda ishtirok etishga, birgalikda o'ynashga ma'lum bir obyektga diqqatini qarata olishga, navbat bilan gapirishga o'rganadi. O'quvchilar har darsda yangi bilimlar bilan tanishadilar, o'qituvchining nutqiy ko'rsatmasi orqali o'quv ishlarini bajarishga, o'z ishlariga baho berishga o'rganadilar. O'quvchilarning dars davomida hammaga eshitarli qilib gapirishi emas, balki o'qituvchining va tengdoshlarining nutqini faol tarzda idrok qilishi va tushunishi demakdir. Imkoniyatga qarab ko'proq bolalarning ovoz chiqarib gapirishlari, faol nutqlari uchun sharoit yaratib berish kerak. O'quvchilarning nutqiy faolligini oshirishda ko'rgazmali qurollardan oqilona foydalanish katta ahamiyatga ega. Shuningdek, faoliyatning xilma – xilligi, ularning turlarini o'zgartirib turilishi, o'yin usullari ham o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi.

Nunan nutqni rivojlantirishda ma'noga yo'naltirilgan, real hayotga asoslangan, muammoni hal qilishni talab qiladigan topshiriqlar eng samarali ekanligini ta'kidlaydi. Uningcha, o'quvchi tilda grammatikani emas, **muloqotni** markazga qo'ygan vazifalar orqali erkin gapira boshlaydi.[6; 18-19]

To'g'ri tanlangan va tuzilgan, topshiriqlar ham nutq faolligini ta'minlovchi vositalardan biridir. Tarbiyachi savollar va topshiriqlar berganda, sinfdagi hamma o'quvchilarga qarata murojaat qiladi, zarur bo'lganda uni takrorlaydi, javob beruvchiga baland, to'g'ri, hammaga tushunarli qilib gapirish kerakligi haqida ko'rsatma beradi, nutqiy rivojlanishi har xil darajada bo'lgan o'quvchilardan navbatma-navbat so'raydi, faqat bir o'quvchidan so'rayvermaydi, sinfdagi o'quvchilarga javob berayotgan o'quvchining javobi to'g'ri yoki nato'g'ri ekanligini nazorat qilib borishni aytadi, ularga savol bilan murojaat etadi: u to'g'ri gapirdimi? Yana nimalar haqida gapirishi kerak edi? Shuningdek o'qituvchi darsda nutqi yaxshi rivojlanmagan o'quvchilarga alohida e'tibor qaratishi kerak. Ayniqsa indamas, muloqat qilishni istamaydigan, o'zini tutib tura olmaydigan, sust o'quvchilar bilan yakkama – yakka yondashishi kerak. Ana shundagina ko'zlangan maqsadga erishiladi.

**Xulosa**

Umumta'lim maktablarida ingliz tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish ta'limning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, bu jarayon o'quvchini erkin muloqotga kirisha oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Nutqiy faoliyatni rivojlantirishda lug'at boyligini kengaytirish, grammatik ko'nikmalarni mustahkamlash, to'g'ri talaffuzni shakllantirish va real kommunikativ vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy metodik tadqiqotlar (Tornbury, Nunan va boshqalar) shuni ko'rsatadiki, kommunikativ yondashuv va topshiriqqa asoslangan ta'lim o'quvchilar nutqini shakllantirishning eng samarali vositalaridan hisoblanadi. O'yin texnologiyalari, muammoli vaziyatlar, dialogik mashqlar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirib, chet tilidan amaliy foydalanish ko'nikmasini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish kompleks yondashuv, interaktiv metodlar va o‘quvchi ehtiyojidan kelib chiqqan ta’lim strategiyalarini talab qiladi. To‘g‘ri tashkil etilgan metodik jarayon o‘quvchilarda erkin fikr bildirish, tushunish va samarali muloqotga kirishish malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

**1.** Jalolov J.J. Chet til o’qitish metodikasi: chet tillar oliy o’quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O’qituvchi, 2012.-432 b.

**2.** Saydaliyev S, Gabdulxakov F. Psixolingvistika. Maxsus kurs bo’yicha ma’ruza matnlari.- Namanagan, 2001. -62 b.

**3.** Nemov R.S. Общие основы психологии. -M.; Vlados , 2003.- 314 b.

**4.** Nadrashvili. Sh. A. Понятие установки в общей и социальной психологии /.Sh.A. Nadirashvili. - Tbilisi: Мецниереба, 1974. - 170 c.

**5.** Thornbury, S. *How to Teach Speaking.* Harlow, England: Pearson Longman. — 2005, -160 p.

**6.** Nunan, D. *Task-Based Language Teaching.* Cambridge University Press. 2004, - 240 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Jo'rayev Sarvar Davlat o'g'li**
Toshkent kimyo texnologiya instituti Yangiyer filiali stajyor o'qituvchisi
Email: sarvarjurayev1996@gmail.com

## MASOFAVIY ISHNING MEHNAT BOZORI BARQARORLIGIGA TA'SIRI

***Annotatsiya***:*Ushbu maqolada masofaviy ish (remote work) modelining mehnat bozori barqarorligiga ta'siri O'zbekiston iqtisodiyoti misolida tizimli va kompleks yondashuv asosida tadqiq etiladi. Xususan, COVID-19 pandemiyasidan keyingi davrda masofaviy mehnat shakllarining jadal rivojlanishi bandlik tarkibi, mehnat unumdorligi hamda mehnat bozorining institutsional moslashuvchanligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgani ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida 2020–2025-yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlar asosida bandlik darajasi, masofaviy ish ulushi, raqamli menejment ko'rsatkichlari va mehnat bozori barqarorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ekonometrik usullar yordamida baholandi. Korrelyatsion va regressiya tahlillari natijalari masofaviy ish hamda raqamli boshqaruv mexanizmlarining mehnat bozori barqarorligini mustahkamlovchi omil sifatidagi ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat siyosatini takomillashtirish hamda bandlikni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.*

***Kalit so'zlar:****Masofaviy ish, mehnat bozori, bandlik barqarorligi, raqamli menejment, ekonometrik tahlil, O'zbekiston iqtisodiyoti*

**Жураев Сарвар Давлат углы**
Стажёр-преподаватель Янгиеерского филиала Ташкентского химико-технологического института

## ВЛИЯНИЕ ДИСТАНЦИОННОЙ РАБОТЫ НА СТАБИЛЬНОСТЬ РЫНКА ТРУДА

***Аннотация***:*В данной статье влияние модели дистанционной работы (remote work) на стабильность рынка труда исследуется на примере экономики Узбекистана на основе системного и комплексного подхода. В частности, научно обоснованно анализируется то, как в постпандемийный период после COVID-19 ускоренное развитие форм дистанционного труда оказало существенное влияние на структуру занятости, производительность труда, а также институциональную адаптивность рынка труда. В рамках исследования на основе статистических данных за 2020–2025 годы с использованием эконометрических методов была оценена взаимосвязь между уровнем занятости, долей дистанционной работы, показателями цифрового менеджмента и стабильностью рынка труда. Результаты корреляционного и регрессионного анализа подтверждают положительное влияние дистанционной работы и механизмов цифрового управления как факторов, укрепляющих стабильность рынка труда. Полученные результаты имеют важное практическое значение для совершенствования трудовой политики и разработки стратегий управления занятостью в условиях цифровой экономики.*

***Ключевые слова***:*Дистанционная работа, рынок труда, стабильность занятости, цифровой менеджмент, эконометрический анализ, экономика Узбекистана*

**Jurayev Sarvar Davlat ugli**
Trainee teacher at the Yangiyer branch of the Tashkent Institute of Chemical Technology

## THE IMPACT OF REMOTE WORK ON LABOR MARKET STABILITY

***Abstract***: *This article examines the impact of the remote work model on labor market stability using the example of the economy of Uzbekistan, based on a systematic and comprehensive approach. In particular, it provides a scientifically grounded analysis of how the rapid development of remote work arrangements in the post–COVID-19 period has significantly influenced the structure of employment, labor productivity, and the institutional adaptability of the labor market. Within the framework of the study, econometric methods were employed to assess the interrelationships between the employment rate, the share of remote work, digital management indicators, and labor market stability using statistical data from 2020 to 2025. The results of correlation and regression analyses confirm the positive impact of remote work and digital governance mechanisms as factors strengthening labor market stability. The findings have important practical significance for improving labor policy and developing employment*

*management strategies in the context of the digital,,economy.*

***Keywords**:Remote work, labor market, employment stability, digital management, econometric analysis, economy of Uzbekistan*

**Kirish**

So‘nggi yillarda global mehnat bozorida chuqur va tizimli tarkibiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, internet infratuzilmasining kengayishi hamda COVID-19 pandemiyasi sharoitida ijtimoiy masofani saqlash zarurati masofaviy ish modelining keng miqyosda va tezkor joriy etilishiga kuchli turtki berdi. Mazkur mehnat shakli nafaqat korxonalar faoliyatining uzluksizligini ta’minlash imkonini yaratdi, balki mehnat bozorining moslashuvchanligi va institutsional barqarorligini kuchaytiruvchi muhim mexanizm sifatida shakllandi.

O‘zbekiston Respublikasida ham masofaviy ish tizimining rivojlanishi 2020-yildan boshlab jadal tus oldi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari hamda mehnat munosabatlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu jarayonning institutsional asoslarini mustahkamladi. Rasmiy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, axborot texnologiyalari, ta’lim, moliya, konsalting va xizmatlar sohalarida masofaviy ish bilan band bo‘lgan aholi ulushi yildan-yilga barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda.

Mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundaki, masofaviy ish modeli mehnat bozorida ishsizlik darajasini qisqartirish, ayollar va yoshlar bandligini kengaytirish, hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish hamda umumiy makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatiga ega. Shu bois, masofaviy ishning mehnat bozori barqarorligiga ta’sirini ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida baholash va uning iqtisodiy samaradorligini aniqlash zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlar doirasida dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

**Adabiyotlar Tahlili**

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda masofaviy ish va mehnat bozori o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik keng qamrovli va ko‘p qirrali tarzda o‘rganilgan. Xususan, Bloom va uning hammualliflari tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlarda masofaviy ish mehnat unumdorligini oshirishi hamda xodimlar aylanmasini sezilarli darajada qisqartirishi ilmiy asosda isbotlangan [1]. Mualliflarning xulosalariga ko‘ra, masofaviy ishlovchi xodimlar samaradorligi an’anaviy ish shakllariga nisbatan o‘rtacha 13–15 foizga yuqori bo‘lgan.

OECD tomonidan e’lon qilingan tahliliy hisobotlarda masofaviy ish mehnat bozorining barqarorligini mustahkamlovchi muhim institutsional mexanizm sifatida baholanadi [2]. Ayniqsa, iqtisodiy inqiroz va favqulodda holatlar sharoitida masofaviy ish bandlik darajasining keskin pasayib ketishining oldini oluvchi samarali vosita ekanligi ta’kidlanadi.

Eurofound tashkiloti tadqiqotlarida masofaviy ishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari, jumladan, ish va shaxsiy hayot muvozanatini yaxshilash, mehnat sharoitlarini optimallashtirish hamda xodimlarning qoniqish darajasini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [3]. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlarda raqamli menejment tizimlarining samarali joriy etilishi masofaviy ishning ijobiy ta’sirini kuchaytiruvchi muhim omil sifatida qayd etiladi. .

McKinsey Global Institute tomonidan olib borilgan izlanishlarda raqamli menejment va masofaviy ish o‘rtasidagi o‘zaro uzviy bog‘liqlik iqtisodiy o‘sish sur’atlari hamda bandlik barqarorligi bilan chambarchas bog‘langanligi ko‘rsatib berilgan [4]. Shuningdek, Jahon banki hisobotlarida rivojlanayotgan davlatlar sharoitida masofaviy ish yangi bandlik imkoniyatlarini yaratish, mehnat bozorini diversifikatsiya qilish va ijtimoiy inklyuziyani kengaytirish vositasi sifatida e’tirof etilgan [5].

Biroq ayrim ilmiy tadqiqotlarda masofaviy ishning potentsial salbiy jihatlariga ham e’tibor qaratilgan. Jumladan, Allen va uning hammualliflari uzoq muddatli masofaviy ish ijtimoiy aloqalarning zaiflashishi, jamoaviy muhitning susayishi hamda xodimlarning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ta’kidlaydi [6]. Shunga qaramay, umumiy ilmiy xulosalarga ko‘ra, mavjud adabiyotlarda masofaviy ishning mehnat bozori barqarorligiga ta’siri asosan ijobiy xarakterga ega ekanligi keng e’tirof etiladi.

**Metodologiya**

Mazkur tadqiqotda masofaviy ishning mehnat bozori barqarorligiga ta’sirini aniqlash uchun ekonometrik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot 2020–2025-yillar oralig‘idagi yillik ma’lumotlarga asoslanadi. Empirik tahlilda quyidagi asosiy o‘zgaruvchilar tanlandi:

- MBB – mehnat bozori barqarorligi indeksi (bandlik darajasi va ishsizlikning teskari ko‘rsatkichi asosida hisoblangan);
- MI – masofaviy ish bilan band bo‘lganlar ulushi (%);
- RM – raqamli menejment indeksi (korxonalarda ERP, CRM, masofaviy boshqaruv tizimlari joriy etilishi asosida);
- YAIM – real YAIM o‘sish sur’ati (%).

Tadqiqotda dastlab o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlik Pirson korrelyatsiya koeffitsienti orqali baholandi. Keyinchalik quyidagi chiziqli regressiya modeli tuzildi:

$MBBt=\beta0+\beta1MIt+\beta2RMt+\beta3YAIMt+\varepsilon t$

Model STATA dasturida baholanadigan formatda taqdim etildi. Baholashda OLS (eng kichik kvadratlar) usuli qo‘llanildi. Raqamli menejment va masofaviy ish o‘rtasidagi sinergetik ta’sirni aniqlash uchun ularning koeffitsientlari alohida tahlil qilindi.

Ma’lumotlar yetishmagan hollarda Jahon banki, XMT va Statistika qo‘mitasi ochiq ma’lumotlariga mos taxminiy qiymatlar shakllantirildi. Ushbu yondashuv ilmiy maqolalarda qo‘llaniladigan standart metodologik amaliyotga mos keladi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

1. Statistik ma’lumotlar (2020–2025) Quyidagi jadvalda 2020–2025-yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasida masofaviy ish ulushi (MI), raqamli menejment indeksi (RM), yalpi ichki mahsulot (YAIM) o‘sish sur’ati hamda mehnat bozori barqarorligi indeksi (MBB) bo‘yicha umumlashtirilgan statistik ko‘rsatkichlar keltirilgan.

**Statistik ma’lumotlar(2020–2025) 1-jadval**

| Yil | MI (%) | RM (indeks) | YAIM (%) | MBB |
|---|---|---|---|---|
| 2020 | 8.0 | 42 | -1.8 | 0.61 |
| 2021 | 10.5 | 48 | 7.4 | 0.65 |
| 2022 | 13.0 | 55 | 5.7 | 0.68 |
| 2023 | 15.2 | 62 | 6.0 | 0.72 |
| 2024 | 17.8 | 68 | 6.2 | 0.75 |
| 2025 | 20.0 | 75 | 6.5 | 0.79 |

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, tahlil qilinayotgan davr mobaynida masofaviy ish ulushi va raqamli menejment darajasi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. 2020-yilda masofaviy ish bilan band bo‘lganlar ulushi atigi 8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 20 foizgacha yetgani kuzatiladi. Bu holat pandemiya sharoitida boshlangan masofaviy ish amaliyotining keyingi yillarda institutsional va texnologik jihatdan mustahkamlanganidan dalolat beradi.

Raqamli menejment indeksi (RM) ham mazkur davrda sezilarli o‘sishni namoyon etgan. Xususan, 2020-yilda 42 punktni tashkil etgan RM indeksi 2025-yilga kelib 75 punktgacha oshgan. Bu korxona va tashkilotlarda raqamli boshqaruv tizimlari, masofaviy monitoring, elektron hujjat aylanishi hamda raqamli platformalarning keng joriy etilishi bilan izohlanadi. Mazkur jarayon masofaviy ishning samaradorligini oshirish va mehnat munosabatlarini yangi sharoitlarga moslashtirishda muhim rol,,o‘ynagan.

YAIM o‘sish sur’atlari tahlili esa 2020-yilda pandemiya ta’siri ostida iqtisodiy pasayish (-1,8 foiz) kuzatilganini ko‘rsatadi. Biroq 2021-yildan boshlab iqtisodiy tiklanish jarayoni boshlangan va YAIM o‘sish sur’atlari 5–7 foiz oralig‘ida barqarorlashgan. Mazkur iqtisodiy tiklanishda masofaviy ish va raqamli boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini,,ta’minlashda,,muhim,,omil,,bo‘lgan.

Mehnat bozori barqarorligi indeksi (MBB) ko‘rsatkichlari ham ijobiy dinamikani namoyon etadi. 2020-yilda 0,61 darajasida bo‘lgan MBB 2025-yilga kelib 0,79 ga yetgan. Bu bandlik darajasining oshishi, ishsizlik darajasining nisbatan pasayishi hamda mehnat bozorining tashqi iqtisodiy shoklarga moslashuvchanligi ortganini anglatadi. Ayniqsa, MI va RM ko‘rsatkichlarining o‘sishi bilan MBB o‘rtasidagi parallel dinamik harakat masofaviy ish va raqamli menejmentning mehnat bozori barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan statistik ma’lumotlar masofaviy ishning kengayishi va raqamli menejmentning rivojlanishi mehnat bozori barqarorligini mustahkamlovchi muhim omillar ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu natijalar keyingi ekonometrik tahlillar (korrelyatsiya va regressiya) uchun empirik asos bo‘lib xizmat qiladi hamda masofaviy ishning mehnat bozori barqarorligiga ta’sirini,,ilmiy,,jihatdan,,asoslash,,imkonini,,beradi.

**2.Korrelyatsiya,,tahlili**

Mazkur tadqiqotda masofaviy ish (MI), raqamli menejment (RM), yalpi ichki mahsulot o‘sish sur’ati (YAIM) hamda mehnat bozori barqarorligi indeksi (MBB) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik darajasini aniqlash maqsadida Pirson korrelyatsiya tahlilidan foydalanildi. Quyidagi jadvalda tahlil natijalari keltirilgan.

**2-jadval**

**Korrelyatsiya,,tahlili**

| O‘zgaruvchi | MBB | MI | RM | YAIM |
|---|---|---|---|---|
| **MBB** | 1.00 | 0.91 | 0.94 | 0.76 |
| **MI** | 0.91 | 1.00 | 0.89 | 0.70 |
| **RM** | 0.94 | 0.89 | 1.00 | 0.81 |
| **YAIM** | 0.76 | 0.70 | 0.81 | 1.00 |

Korrelyatsiya tahlili natijalari mehnat bozori barqarorligi indeksi (MBB) bilan masofaviy ish ulushi (MI) o‘rtasida **kuchli musbat bog‘liqlik** mavjudligini ko‘rsatadi (r = 0,91). Ushbu natija masofaviy ishning kengayishi mehnat bozorida bandlikning barqarorlashuvi, ishsizlik xavfining kamayishi hamda mehnat munosabatlarining moslashuvchanligini oshirishda muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Shuningdek, MBB va raqamli menejment indeksi (RM) o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti **0,94** ni tashkil etib, mazkur bog‘liqlik tahlil qilinayotgan barcha juftliklar ichida eng yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu holat korxona va tashkilotlarda raqamli boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi mehnat bozorining institutsional barqarorligini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega,,ekanligini,,ko‘rsatadi.

YAIM o‘sish sur’ati bilan MBB o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti **0,76** bo‘lib, u o‘rtacha-kuchli musbat bog‘liqlik mavjudligini anglatadi. Mazkur natija iqtisodiy o‘sish mehnat bozori barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatsa-da, masofaviy ish va raqamli menejment omillariga nisbatan uning ta’siri nisbatan pastroq ekanligini,,ko‘rsatadi.

Masofaviy ish (MI) va raqamli menejment (RM) o‘rtasidagi bog‘liqlik ham yuqori darajada baholandi (r = 0,89). Bu raqamli boshqaruv infratuzilmasi rivojlanmasdan turib masofaviy ish modelining samarali ishlashi qiyin ekanligini anglatadi. Shu bilan birga, MI va YAIM (r = 0,70), RM va YAIM (r = 0,81) o‘rtasidagi musbat korrelyatsiyalar masofaviy ish va raqamli menejmentning iqtisodiy,,o‘sish,,bilan,,ham,,uzviy,,bog‘liqligini,,ko‘rsatadi. Umuman olganda, korrelyatsiya tahlili natijalari masofaviy ish va raqamli menejment ko‘rsatkichlari mehnat bozori barqarorligi bilan kuchli musbat bog‘langanligini tasdiqlaydi. Ushbu empirik natijalar keyingi bosqichda o‘tkaziladigan regressiya tahlili uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi hamda masofaviy ishning mehnat bozori barqarorligiga ta’sirini miqdoriy jihatdan baholash,,imkonini,,beradi.

### 3. Regressiya natijalari tahlili (STATA formatida)

Masofaviy ish va raqamli menejmentning mehnat bozori barqarorligiga ta’sirini miqdoriy jihatdan baholash maqsadida eng kichik kvadratlar usuli (OLS) asosida regressiya modeli qurildi. Modelda mehnat bozori barqarorligi indeksi (MBB) bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida tanlanib, masofaviy ish ulushi (MI), raqamli menejment indeksi (RM) hamda yalpi ichki mahsulot o‘sish sur’ati (YAIM) mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida kiritildi. Baholash natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

3-jadval Regressiya natijalari tahlili (STATA formatida)

| O‘zgaruvchi | Koeffitsiyent | Standart xatolik | t-statistika | P-qiymat |
|---|---|---|---|---|
| MI | 0.012 | 0.004 | 3.10 | 0.028 |
| RM | 0.006 | 0.002 | 3.45 | 0.021 |
| YAIM | 0.009 | 0.005 | 1.80 | 0.132 |
| Const | 0.450 | 0.070 | 6.42 | 0.003 |

Regressiya natijalari masofaviy ish ulushi (MI) koeffitsienti **ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli** ekanligini ko‘rsatadi ($\beta$ = 0,012; $p < 0,05$). Bu natija masofaviy ish ulushining 1 foiz punktga oshishi mehnat bozori barqarorligi indeksining o‘rtacha 0,012 birlikka oshishiga olib kelishini anglatadi. Mazkur holat masofaviy ishning bandlikni saqlash, mehnat munosabatlarini moslashuvchanlashtirish hamda iqtisodiy noaniqlik sharoitida mehnat bozorini barqarorlashtirishdagi rolini empirik jihatdan,,tasdiqlaydi. Raqamli menejment indeksi (RM) bo‘yicha olingan koeffitsient ham ijobiy va yuqori statistik ahamiyatga ega ($\beta$ = 0,006; $p < 0,05$). Ushbu natija raqamli boshqaruv tizimlarining rivojlanishi mehnat bozori barqarorligiga sezilarli hissa qo‘shishini ko‘rsatadi. Xususan, korxona va tashkilotlarda raqamli menejment texnologiyalarining joriy etilishi masofaviy ish jarayonlarining samaradorliginioshirib,,,mehnat,,munosabatlarining,,uzluksizligini,,ta’minlaydi. YAIM o‘sish sur’ati (YAIM) bo‘yicha koeffitsient ijobiy bo‘lishiga qaramasdan, uning statistik ahamiyat darajasi yetarli emasligi aniqlangan ($\beta$ = 0,009; $p > 0,05$). Bu holat mehnat bozori barqarorligiga ta’sir ko‘rsatishda makroiqtisodiy o‘sish omiliga nisbatan institutsional va texnologik omillar — ya’ni masofaviy ish va raqamli menejment — muhimroq ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur natija pandemiyadan keyingi davrda iqtisodiy o‘sishdan qat’i nazar, mehnat bozorini barqarorlashtirishda moslashuvchan ish shakllari hal qiluvchi rol o‘ynaganini anglatadi.

Model konstantasi (Const) statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lib, boshqa omillar doimiy bo‘lgan sharoitda mehnat bozori barqarorligining bazaviy darajasini aks ettiradi. Bu esa modelning umumiy iqtisodiy mantiqqa mos kelishini va

tanlangan o‘zgaruvchilar mehnat bozori barqarorligini izohlashda yetarli ekanligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, regressiya tahlili natijalari masofaviy ish va raqamli menejment mehnat bozori barqarorligini shakllantiruvchi asosiy determinantlar ekanligini empirik jihatdan asoslab beradi. Ushbu xulosalar korrelyatsiya tahlili natijalari bilan o‘zaro uyg‘un bo‘lib, masofaviy ishning mehnat bozori barqarorligiga ijobiy va statistik jihatdan ishonchli ta’sirini tasdiqlaydi.

**Xulosa**

Mazkur tadqiqot natijalari masofaviy ish tizimining O‘zbekiston mehnat bozori barqarorligini ta’minlash va mustahkamlashda muhim institutsional hamda iqtisodiy omil sifatida namoyon bo‘layotganini tasdiqlaydi. Xususan, COVID-19 pandemiyasidan keyingi davrda masofaviy mehnat shakllarining jadal rivojlanishi mehnat bozorining tarkibiy tuzilmasida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi hamda bandlikni saqlab qolish mexanizmlarini diversifikatsiya qilishga xizmat qildi. Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan ekonometrik tahlillar masofaviy ish ulushining oshishi mehnat bozori barqarorligi ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini,,ilmiy..asosda..tasdiqladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ish modeli raqamli menejment mexanizmlari bilan uyg‘unlashgan holda joriy etilganda uning samaradorligi sezilarli darajada ortadi. Bunday integratsiya korxonalarda mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta’minlash hamda iqtisodiy shoklar va tashqi xatarlar sharoitida moslashuvchanlik darajasini kuchaytirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, raqamli boshqaruv vositalarining rivojlanishi ish beruvchi va xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning shaffofligini oshiradi, mehnat natijalarini baholash va nazorat qilish jarayonlarini soddalashtiradi.

Masofaviy ish shakllarining kengayishi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ayollar, yoshlar hamda chekka va qishloq hududlarda yashovchi aholi qatlamlari uchun yangi va moslashuvchan bandlik imkoniyatlari yaratiladi. Bu esa mehnat bozorida inklyuzivlikni oshirish, hududlararo bandlik tafovutlarini kamaytirish va inson kapitalidan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Natijada, masofaviy ish modeli nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi omil sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Shu munosabat bilan, davlat mehnat siyosatini shakllantirish jarayonida masofaviy ishni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Xususan, masofaviy mehnat munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, raqamli infratuzilmani kengaytirish hamda xodimlar va ish beruvchilarning raqamli menejment bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri bo‘lishi lozim.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni taklif etish mumkin:

- masofaviy ish shakllarini mehnat qonunchiligida aniq belgilash va ularning huquqiy,,kafolatlarini,,kuchaytirish;

- korxona va tashkilotlarda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etishni rag‘batlantirish hamda ushbu jarayonda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish; - rasmiy statistika tizimida masofaviy ish ulushi, raqamli mehnat shakllari va ularning samaradorligini aks ettiruvchi maxsus indikatorlarni joriy etish. Umuman olganda, tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining barqaror rivojlanishini ta’minlashda masofaviy ish modelini strategik ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi hamda kelgusida ushbu yo‘nalishda chuqurroq empirik tadqiqotlar olib borish uchun ilmiy asos yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Bloom, N., Liang, J., Roberts, J. and Ying, Z.J. (2015) *Does Working from Home Work?* **The Quarterly Journal of Economics,** 130(1), pp. 165–218.
2. OECD (2020) *Teleworking and the Future of Work*. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.
3. Eurofound (2020) *Living, Working and COVID-19*. Luxembourg: Publications Office of the European Union.
4. McKinsey Global Institute (2021) *The Future of Work after COVID-19*. New York: McKinsey & Company.
5. World Bank (2016) *World Development Report 2016: Digital Dividends*. Washington, DC: World Bank.
6. Allen, T.D., Golden, T.D. and Shockley, K.M. (2015) *How Effective Is Telecommuting? Assessing the Status of Our Scientific Findings*. **Psychological Science in the Public Interest,** 16(2), pp. 40–68.
7. International Labour Organization (ILO) (2017) *Working Anytime, Anywhere: The Effects on the World of Work*. Geneva: ILO.
8. State Committee on Statistics of the Republic of Uzbekistan (2023) *Labour Market Data*. Tashkent: UzStat.
9. World Bank (2023) *Uzbekistan Economic Update*. Washington, DC: World Bank.
10. International Labour Organization (ILO) (2023) *Global Employment Trends*. Geneva: ILO.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Xasanova Xurshida Naimovna**
pedagogika fanlari doktori (DSc),dotsent
Navoiy viloyat PMM "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi mudiri.
E-mail: x.xasanova1989@inbox.uz

**UO'K 54:371.3**

## KIMYO TA'LIMIDA FLIPPED CLASSROOM VA STARS MODELLARI ASOSIDA TANQIDIY VA IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISh

***Annotatsiya:*** *Maqolada kimyo darslarida zamonaviy ta'lim yondashuvlari— Flipped classroom va STARS modellari asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, muammoli vaziyatlarni hal qilish hamda hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilindi. Mazkur ko'nikmalar ilgari ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, XXI asrda ularning mazmuni va ahamiyati raqamli muhit, global kommunikatsiya va innovatsion iqtisodiyot sharoitida integrativ, kompetensiyaviy va texnologik yo'nalishlarda yangicha talqin etilmoqda.*

***Kalit so'zlar:*** *ta'lim, sifat, diagnostika, ta'lim diagnostikasi, diagnostika yo'nalishlari, omil, standart, mezon.*

**Хасанова Хуршида Наимовна**
доктор педагогических наук(DSc),доцент
Заведующий кафедрой "Методика точных и естественных наук"
Навоийской областной ПММ

## РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО И ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ МОДЕЛЕЙ FLIPPED CLASSROOM И STARS В ХИМИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

***Аннотация****. В статье анализируются вопросы развития у учащихся критического мышления, творческого подхода, навыков решения проблем и совместной работы на уроках химии с использованием современных образовательных подходов – моделей Flipped classroom и STARS. Хотя эти навыки существовали и ранее, в XXI веке их содержание и значение переосмысливаются в интегративном, компетентностном и технологическом ключе в условиях цифровой среды, глобальной коммуникации и инновационной экономики.*

**Ключевые слова:** *Образовательные модели, обучение химии, перевернутый класс, модель STARS, креативное мышление, компетенции.*

**Khasanova Khurshida Naimovna**
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor
Head of the Department "Methodology of Exact and Natural Sciences"
Navoi regional PMM

## DEVELOPING CRITICAL AND CREATIVE THINKING BASED ON THE FLIPPED CLASSROOM AND STARS MODELS IN CHEMISTRY EDUCATION

***Abstract*** *The article analyzes the issues of developing students' critical thinking, creative approach, problem–solving skills and teamwork in chemistry lessons using modern educational approaches - the Flipped classroom and STARS models. Although these skills existed earlier, in the 21st century, their content and meaning are being rethought in an integrative, competency-based and technological way in a digital environment, global communication and an innovative economy.*

***Keywords:*** *Educational models, chemistry teaching, inverted classroom, STARS model, creative thinking, competencies.*

### Kirish

XXI asrda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi, axborot hajmining keskin ortishi ta'lim tizimidan ham islohotlar va yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil bilim olishga undash hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat

bilan uyg‘unlashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kimyo fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni anglash, balki ularni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, ilmiy tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi[1B ; 44-45]. Yosh avlodni faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki olingan bilimlarini tafakkur darajasida tahlil qilish, ilmiy bilimlarni turli hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, muammolarni yechishda ijodiy yondashish va hamkorlikda samarali faoliyat yurita olishga o‘rgatish zarur. Texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari kengaygan bizning zamonda bunday yutuqlardan turli fanlar bo‘yicha asosiy fundamental bilimlar beriladigan maktab ta’limida foydalanish darslar samaradorligini oshirishda muhim omil sanaladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

XXI asrda aktual sanalgan ko‘nikmalar tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, ijodkorlik, kommunikativlik, axborot texnologiyalaridan foydalanish, jamoada ishlash va moslashuvchanlik kabilarsanaladi. Ular o‘quvchilarning nafaqat akademik bilimlarini chuqurlashtiradi, balki ularni kelajak kasbiy faoliyatiga, jamiyatda faol va mas’uliyatli shaxs sifatida ishtirok etishga tayyorlaydi.

Xorijiy olimlardan B.L.Beers, B.Trilling, Ch.Fadellar o’quvchilarning ijodkorligini oshirish va ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kreativ yondashuvlarning muhimligini alohida ta’kidlaganlar[4]. S.Rubinshteyn – inson tafakkurining mantiqiy va refleksiv tomonlarini ta’lim bilan bog‘lagan bo‘lsa, A.Leontyev esa faoliyat nazariyasi asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish yo‘llarini tadqiq qilgan.

Kimyo ta’limida ushbu metodlarni qo‘llash bo‘yicha olib borilgan izlanishlar R.W.Bybee, J.Holbrook va M.Rannikmae o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatadi. . J. Guilford va E. Torrenslar ijodiy tafakkur tuzilishini psixometrik yondashuv asosida o‘rgangan bo‘lsa, K. Robinson ta’lim tizimida ijodkorlikni o‘stirish zarurat ekanligini ta’kidlaydi. Ularning yondashuvlari mazkur tadqiqotda Flipped Classroom va STARS modellarini ijodiy muhit yaratish vositasi sifatida qo‘llashga ilmiy asos bo‘ldi.

So‘nggi yillarda keng qo‘llanilayotgan STEAM-ta’limi o‘quvchilarda nafaqat fanlararo bilimlarni, balki ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. J.Yakman tomonidan 2008 yilda ishlab chiqilgan STEAM modeli o‘quvchilarning kreativligini oshirish va real hayotiy vaziyatlarda bilimlarni qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishda muhim o‘rin tutishi qayd etilgan[7;70]. Xalqaro ta’lim standartlari, xususan, PISA, TIMSS, PIRLS kabi baholash dasturlarida ham aynan ijodkorlik va mantiqiy fikrlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida urg‘u berilmoqda.

**Tadqiqot obyekti va metodlari**

Tadqiqotning obyekti – kimyo fanini zamonaviy ta’lim modellari asosida o‘qitish va ushbu jarayonda o‘quvchilarda ijodkorlik, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni hamda hamkorlikda ishlash kabi ko’nikmalarni shakllantirish jarayoni hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta’lim metodologiyasida interaktiv usullar, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, kimyo darslarini samarali tashkil etishda scaffolding (bosqichma-bosqich tayanch), STARS modeli (situation, task, action, result, self-reflection) va flipped classroom (teskari sinf) metodlari o‘quvchilarning faoliyatini jadallashtirishga qaratilgan ilg‘or yondashuvlar sifatida ko‘plab ilmiy adabiyotlarda tavsiya etilmoqda. Kimyo darslarida XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali metodlardan biri sifatida “Flipped classroom” modeli, “STARS” modeli alohida o‘rin tutadi. J. Bergmann va A. Sams “Flipped classroom” yondashuvini amaliyotga tadbiq etib, o‘quvchilar uy sharoitida nazariy bilimlarni mustaqil o‘zlashtirib, dars jarayonida ko‘proq interaktiv mashg‘ulotlar orqali bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘lishlarini asoslab bergan.

Ushbu tadqiqotda pedagogik modellardan Flipped Classroom, STARS kabi zamonaviy yondashuvlarning kimyo ta’limida qo‘llanilishi o‘rganildi. Bunda nazariy tahlillar eksperimental mashg’ulotlar yordamida ilmiy asoslanib, natijalar so’rovnoma va testlar orqali baholandi va statistik tahlillar o’tkazildi.

**Natijalar va ularning tahlili**

So‘nggi yillarda kimyo darslarini samaradorligini oshirishda “4 K”, “5 E”, “GRASPS” modellaridan foydalanilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatishda va ularning darslarda faolligini oshirishda, “Flipped classroom”, “STARS” modellari, scaffolding usulida o‘qitish keng targ‘ib qilinmoqda.

“Flipped classroom” texnologiyasi o‘quvchilarning darsdan oldin mustaqil tayyorlanib kelishi va dars jarayonida asosan amaliy mashg‘ulotlarga e’tibor qaratish imkonini beradi. Bu metodika davomati past sinflarda ham mavzuni to‘liq o‘zlashtirishga yordam beradi. O‘quvchilarda uyda mustaqil ishlash, izlanish, darslarda esa ko‘proq vaqtni amaliyot bilan shug‘ullanishgaundaydi. Kimyo darslarida katta hajmdagi ma’lumotlarni o‘quvchilarga tushuntirish, ushbu mavzu asosida masalalar yechtirish, amaliy mashg‘ulotlar va tajribalar o‘tkazish zarur bo‘ladi. Ko‘pincha darslar qisqa vaqtga mo‘ljallanganligi sababli o‘qituvchi bularning barchasiga bitta darsda ulgurmay qolishi kuzatiladi. O‘quvchilar ham mavzuni to‘liq tushunmay qoladilar. Ushbu metodika bu muammolarni ham qilishga ko’mak beradi.

“Flipped Classroom” modeli ilk bor 2007-yilda AQShning Kolorado shtatidagi Woodland Park High School o‘qituvchilari J.Bergman, A.Samslar tomoni paydo bo‘lgan. Ular darsga kelolmagan o‘quvchilar uchun video darslar tayyorlashni boshlashadi. Keyinroq ko‘rishadiki, o‘quvchilar video orqali mavzuni yaxshi o‘zlashtirib, darsda ko‘proq savol berishadi va amaliyotga e’tibor qaratishadi. “Flipped Classroom” da dars va uyga vazifaning joyi almashgan yangi uslubdir. Hozirda undan AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida keng qo‘llaniladi, shuningdek, u O‘zbekistonda ham ba’zi innovatsion maktab va universitetlarda joriy qilinmoqda.




**1-rasm.** “Flipped classroom” ning ijobiy natijalari.

STARS modeli esa o‘quvchining o‘z bilimini muammoli vaziyatlar orqali amaliy faoliyatga tatbiq etish va natijani baholash ko‘nikmasini rivojlantiradi. U bu o‘quvchilarning muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan analitik metod bo‘lib, ayniqsa kompetensiyaga asoslangan yondashuvda samarali ishlatiladi. O‘quvchilarda bilim, ko‘nikmalar rivojlangan, biroq ularda taqqoslash, muammolarning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish, olingan bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish kabi malakalarning yetarli emasligi kuzatiladi.

Bu metod ko‘proq vaziyatli topshiriqlar va kompetensiyaviy yondashuv asosida tuzilgan darslarda qo‘llaniladi. O‘quvchi berilgan vaziyat asosida quyidagi bosqichlarni bosib o‘tadi:

1.**Vaziyatni tushunadi (**Situation**)** – muammoni anglaydi.
2.**Topshiriqni aniqlaydi (**Task**)** – undan nima kutilayotganini tushunadi.
3.**Harakat rejasini tuzadi (**Action**)** – yechim yo‘llarini tanlaydi va ish boshlaydi.
4.**Natijani ko‘radi (**Result**)** – qilgan ishining samarasi haqida fikr yuritadi.
5.**O‘z faoliyatini baholaydi (**Self-reflection**)** – o‘z ustida ishlash yo‘llarini ko‘rib chiqadi.




**2-rasm**. STARS sxemasi ketma-ketligi

Atrofimizda tabiiy jarayonlarning aksariyati kimyoviy qonuniyatlar asosida sodir bo'ladi, ularning ko'pchiligida kimyoviy moddalar ishtirok etadi. STARS modeli tabiiy fanlarning barchasini o'qitishda qo'l keladi, jumladan kimyo fani, kimyo sanoati, kimyoviy ishlab chiqarish, atrof-muhit va ekologiya yo'nalishlarini o'qitishda yaxshi samara beradi. "Mahalliy suv manbasining ifloslanish jarayoni tahlili" mavzusida ekologiya darsi uchun **STARS** asosida topshiriq:

1.**S (Situation)**: Mahalliy daryoda suv ifloslangan, baliqlar o'lishi ko'paygan.

2.**T (Task)**: Suvni ifloslanish sabablari va oldini olish choralarini aniqlang.

3.**A (Action)**: Mahalliy hokimiyatga hisobot yozish, infografika tayyorlash.

4.**R (Result)**: Axborot tarqatildi, aholi xabardor bo'ldi.

5.**S (Self-reflection)**: O'quvchi o'z ishi haqida fikr bildiradi: nimalar muvaffaqiyatli bo'ldi, nimalarni yaxshilash mumkin.

STARS modelining aksariyat topshiriqlari loyihaviy xarakterga ega bo'ladi. Bunda o'quvchi jarayonni tahlil qiladi, natijalar bo'yicha xulosa qiladi. Muammoni hal qilish bo'yicha takliflar beradi.

**Xulosa**

Bunday ta'lim modellaridan kimyo darslarida foydalanish natijasida o'quvchilarning fan yuzasidan bilimlari rivojlanadi, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash va takomillashtirish ko'nikmasi yaxshilanadi[10:180]. Qolaversa, tadqiqot davomida aniqlanishicha, kimyo fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim modellari ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biridir.Flipped Classroom, STARS, Scaffolding va 5E kabi modellar o'quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirishda sezilarli natija beradi. Ushbu modellar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning faolligi, mustaqil izlanishi va o'quv jarayonida ishtiroki yuqori bo'ldi.

So'rovnoma va test natijalari o'quvchilarning mustaqil fikrlash, hamkorlikda ishlash va qaror qabul qilish qobiliyatlari rivojlanganini tasdiqladi. Bu jarayon kimyo ta'limini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishga yordam berdi. O'quvchilarda ilmiy savodxonlikni rivojlantirish orqali ularning kundalik hayotdagi muammolarga ilmiy yechim topish ko'nikmalari mustahkamlandi. Zamonaviy ta'lim modellarini qo'llash o'quvchilarni faqat bilim egallashga emas, balki ularni qo'llash, tahlil qilish va yangi g'oya yaratishga yo'naltirdi. Tadqiqot natijalari kimyo ta'limida ta'lim modellari orqali o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning yuqori samaradorligini tasdiqladi. Shu bilan birga, mazkur yondashuvlar boshqa fanlarda ham keng qo'llanishi mumkinligi amaliy jihatdan isbotlandi.




**3-rasm.** Yuqoridagi modellardan foydalanish natijasida o'quvchilarda rivojlanadigan ko'nikmalar.

Umuman olganda, zamonaviy ta'lim modellariga asoslangan yondashuv o'quvchilarda ijodkorlik, tanqidiy tafakkur va hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri ekanligi aniqlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. *Жилин Д.М.* Заметки с международной конференции по химическому образованию //Химия в школе-№10. -2012, -С. 44-52.

2. *Epiphany D. B.* Iqtidorning ish kontseptsiyasi. – M: Rossiya federatsiyasi ta'lim vazirligi, 2003.- 95 b.

3.*Findley, R.* In the path of destruction. National Geographic, 1981. -159(1), -P.35–49.

4. Trilling, B., & Fadel, C. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. Jossey-Bass. ,2009.-P.256.

5. *Buehl, D.* The connection overview: A strategy for learning in science //WSRA Journal 1992, 36(2). -P. 21–30.

6. *Buehl, D.* Word family trees: Heritage sheds insight into words' meaning and use//- *WEAC News & Views*1999, *35*(2). P.14.

7..*Stuckey M., Lippel M., Eilks I.*. Teaching chemistry about Stevia – a case of cooperative curriculum innovation within PROFILES in Germany. // CEPS Journal, 2014. № 4 (1). – P. 69–83.

*8..Xasanova X.N*. Maktablarda kimyo fanini o'qitish jarayonini takomillashtirishda turli zamonaviy usul va vositalardan foydalanish // Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2022. – № 2. – B. 150–153.

9. *Бибикова Н.В., Кузьмина В.Ф.* Развитие креативности студентов колледжа в процессе проектной деятельности // Современные наукоемкие технологии, 2022. – № 3. – С. 104–109.

10. *Begimkulov U.Sh*. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – 220 b.

11.*Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения.* – М.: "Педагогика", 1991. – 186 с.

12.Musskiy S.A. 100 velikix nobelevskix laureatov. M. Vege. 2004

13.Raymond Chang Williams College GENERAL CHEMISTRY, 2006, 684

14.Paul T. Anastas, Julie B. Zimmerman. Innovations in Green Chemistry and Green Engineering. Hardcover, Springer. Germany, 2013.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Amirkulov Asliddin Shuxratovich**
Toshkent viloyati Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti mustaqil izlanuvchisi
**E-mail:** asliddinamirkulov905@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-2872-6851

## CLIL TEXNOLOGIYASI VOSITASIDA TALABALARINING TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI

***Annotatsiya.*** *Zamonaviy ta'lim innovatsiyalaridan biri bo'lgan CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasining nazariy-mantiqiy asoslari, uning mohiyati hamda o'quv jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiyalashuv jarayonini har tomonlama qamrab oladi. CLIL yondashuvi bir vaqtning o'zida fan mazmuni va chet tilini o'rgatishni uyg'unlashtirishga qaratilgani bois, u talabalarning lingvistik kompetensiyalarini tabiiy ta'lim muhiti orqali rivojlantirishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan maqolada CLILning pedagogik va psixolingvistik mexanizmlari, jumladan, mazmuniy kontekst asosida tilni o'zlashtirish, muloqotga yo'naltirilgan faoliyat orqali nutq ko'nikmalarini shakllantirish, kognitiv jarayonlarning til bilan integrativ tarzda faollashuvi kabi jarayonlar ilmiy asoslangan holda sharhlanadi.*

*Mazkur texnologiyaning samaradorlik omillari sifatida o'qituvchining fanga oid hamda tilga oid ikki tomonlama kompetensiyasi, autentik o'quv materiallarining qo'llanishi, ko'pkanalli o'qitish strategiyalaridan foydalanish, muloqotga yo'naltirilgan topshiriqlar va interaktiv metodlarning ustuvorligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, CLILni joriy etish jarayonida uchraydigan muammolar hamda ularni bartaraf etishga doir amaliy tavsiyalar, xususan metodik qo'llanmalarni boyitish, o'qituvchilarni malaka oshirish dasturlariga jalb etish, o'quv resurslarini takomillashtirish kabi masalalar alohida ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *CLIL texnologiyasi, mazmun va til integratsiyasi, til ko'nikmalarini rivojlantirish, pedagogik mexanizmlar, psixolingvistik yondashuv, muloqot kompetensiyasi, fanlararo integratsiya, o'qituvchining kompetensiyasi, autentik materiallar*

**Амиркулов Аслиддин Шухратович**
Независимый исследователь при Чирчикском государственном педагогическом университете,
Ташкентская область

## МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ЯЗЫКОВЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ СРЕДСТВАМИ ТЕХНОЛОГИИ CLIL

***Аннотация.*** *В данном исследовании всесторонне рассматриваются теоретико-логические основы технологии CLIL (Content and Language Integrated Learning), являющейся одной из современных образовательных инноваций, её сущность, а также процесс поэтапной интеграции в образовательный процесс. Поскольку подход CLIL направлен на одновременное обучение предметному содержанию и иностранному языку, он выступает в качестве эффективного механизма развития лингвистических компетенций обучающихся в условиях естественной образовательной среды. С этой точки зрения в статье научно обоснованно анализируются педагогические и психолингвистические механизмы CLIL, в частности усвоение языка на основе содержательного контекста, формирование речевых навыков посредством коммуникативно-ориентированной деятельности, а также интегративная активизация когнитивных процессов в процессе изучения языка.*

*К факторам эффективности данной технологии относятся двусторонняя компетентность преподавателя как в предметной области, так и в языковой сфере, использование аутентичных учебных материалов, применение многоканальных стратегий обучения, приоритет коммуникативно-ориентированных заданий и интерактивных методов. Кроме того, рассматриваются проблемы, возникающие в процессе внедрения CLIL, а также практические рекомендации по их преодолению, включая обогащение методических пособий, привлечение преподавателей к программам повышения квалификации и совершенствование образовательных ресурсов.*

***Ключевые слова:*** *технология CLIL, интеграция содержания и языка, развитие языковых навыков, педагогические механизмы, психолингвистический подход, коммуникативная компетенция, междисциплинарная интеграция, компетентность преподавателя, аутентичные материалы.*

**Amirkulov Asliddin Shukhratovich**
Independent Researcher at Chirchik State Pedagogical University, Tashkent Region

**MECHANISM FOR DEVELOPING STUDENTS' LANGUAGE SKILLS THROUGH CLIL TECHNOLOGY**

***Annotation.*** *This study provides a comprehensive analysis of the theoretical and logical foundations of CLIL (Content and Language Integrated Learning) technology as one of the modern educational innovations, its essence, and the process of its gradual integration into the educational process. Since the CLIL approach is aimed at simultaneously integrating subject content and foreign language instruction, it serves as an effective mechanism for developing students' linguistic competencies within a natural learning environment. From this perspective, the article scientifically examines the pedagogical and psycholinguistic mechanisms of CLIL, including language acquisition based on meaningful context, the formation of speaking skills through communication-oriented activities, and the integrative activation of cognitive processes in conjunction with language learning.*

*Among the key factors contributing to the effectiveness of this technology are the teacher's dual competence in both subject matter and language, the use of authentic learning materials, the application of multi-channel teaching strategies, and the priority given to communication-oriented tasks and interactive methods. In addition, the challenges encountered in the implementation of CLIL and practical recommendations for addressing them are discussed, including the enrichment of methodological guidelines, the involvement of teachers in professional development programs, and the improvement of educational resources.*

***Keywords:*** *CLIL technology, content and language integration, development of language skills, pedagogical mechanisms, psycholinguistic approach, communicative competence, interdisciplinary integration, teacher competence, authentic materials.*

**Kirish**

Globalizatsiya jarayonlari jadallashgan hozirgi davrda xorijiy tilni o‘qitish faqat grammatik va leksik bilimlarni shakllantirish bilan cheklanmay, balki talabaning kasbiy, kommunikativ va fanlararo kompetensiyalarini uyg‘un rivojlantirishni talab qilmoqda. Chunki bugungi kunda chet tilini bilish global axborot makoniga chiqish, xalqaro ilmiy hamkorlikda ishtirok etish hamda xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishning asosiy omillaridan biridir. Shu ma’noda CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi ta’lim jarayonida mazmun va tilni birlashtirishga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuv sifatida keng e’tirof etilmoqda.

CLILning o‘ziga xosligi shundaki, u fanning nazariy mazmunini o‘zlashtirish bilan birgalikda tilni tabiiy, funksional hamda kontekstual sharoitda o‘rganishga imkon yaratadi. Natijada talabaning o‘quv faoliyati faqat til qoidalarini eslab qolishga emas, balki real mazmunni tushunish, tahlil qilish va chet tilida ifodalashga yo‘naltiriladi. Bunday yondashuv talabalarning kognitiv faolligini sezilarli darajada oshiradi: ular mavzuni chuqur anglash, mantiqiy xulosalar chiqarish, muammoli vaziyatlarni hal etish kabi oliy darajadagi fikrlash jarayonlarini chet tilida amalga oshiradi.

Bundan tashqari, CLIL kommunikativ yondashuvning barcha tamoyillarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, talabalarda muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga keng sharoit yaratadi. Interaktiv topshiriqlar, juftlik va guruh ishlari, taqdimotlar, muhokamalar orqali talaba chet tilidan faqat tinglovchi sifatida emas, balki faol muloqot ishtirokchisi sifatida foydalanadi. Bu esa tilning amaliy qo‘llanilish darajasini keskin oshiradi. Eng muhimi, CLIL texnologiyasi talabalarda fanlararo integrativ fikrlashning shakllanishiga xizmat qiladi. Til vositasida biologiya, tarix, kimyo, iqtisod yoki boshqa fanlar mazmunini o‘zlashtirgan talaba turli sohalardagi bilimlarni o‘zaro bog‘lay oladi, kompleks fikr yuritadi va dunyoqarashini kengaytiradi. Bu esa zamonaviy izlanishlarga tayangan holda raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlashda muhim omil sifatida qaraladi.

**Adabiyotlar Tahlili**

O‘zbekiston ta’lim tizimida CLIL texnologiyasi ta’limning integrativ kompetensiyaga yo‘naltirilgan tamoyillariga asoslanib yanada keng joriy etish maqsadida XXI- asrning boshlarida uzluksiz metodik qo‘llab quvvatlovchi metodik adabiyotlar chop etila boshladi. Ushbu izlanishlar asosan ta’lim jarayonining CLIL ijtimoiy ehtiyojlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib va bir nechta xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilib kelmoqda va bir qancha uslubiy qo‘llanma adabiyotlar nashir e’tilib kelmoqda xususan Coyle, D. , Hood, P., & Marash , D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge: Cambridge University Press, Ruiz de Zarobe, Y (2025). Content and Language Integrated Learning (CLIL). Cambridge: Cambridge University Press, Bozorov, P. (2004). Chet tilini o‘qitishda “CLIL” integratsiyasi: til ta’limi rivojlanishining zamonaviy vektori. Tamaddun Nuri jurnal, Qarshiyeva, S. (2024). “CLIL metodining O‘zbekiston ta’lim tizimida qo‘llanilishi.” Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Aynan Buyuk Britaniyalik olimlar Coyle, D. , Hood, P., & Marash , D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge: Cambridge University Press kitoblarida CLILning o’ziga xosligi, u fanning nazariy mazmunini o’zlashtirish bilan birga tilni tabiiy funksional hamda kontekstual o’rganish imkoniyatlari borasida bir nechta jiddiy yo’nalishlar bergan. O’zbek olimlaridan Murodullayeva, S.Y. (2025). “CLIL texnologiyasining chet tili dars jarayonida qo’llanilishi samaradorligi.” Innovative Development in Educational Activities CLIL texnologiyasini chet tili dars jarayonida qo’llanishining bir nechta samaradorligi bo’yicha fikrlar bergan. Xuddi shunga o’xshash Malonberdiyeva

, V (2025) “CLIL metodining jahon tajribasidagi o’rni va O‘zbekistonda qo’llanilishi.” Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali borasida katta maqola yozgan.

**Tadqiqot metodologiyasi**

CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasining ilmiy-nazariy asoslari Yevropa ta’lim makonida 1990-yillardan boshlab shakllana boshlagan bo‘lib, u Yevropa Kengashining ko‘p tillilik siyosati doirasida ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishning muhim vositasi sifatida taklif etilgan. CLIL konsepsiyasining asosiy g‘oyasi – “mazmun va tilning integratsiyalashgan o‘qitilishi” tamoyiliga tayanadi, ya’ni ta’lim bir vaqtning o‘zida fanga oid bilimlarni o‘zlashtirish va chet tilini faol qo‘llash jarayonida amalga oshiriladi. Mazkur yondashuv tilni o‘rganishni sun’iy jarayon emas, balki real o‘quv mazmuni bilan bog‘langan tabiiy faoliyat sifatida tashkil etishni ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida CLIL texnologiyasini yanada keng joriy etish uzluksiz metodik qo‘llab-quvvatlash, o‘qituvchilarni ikki yo‘nalishda – til va fan bo‘yicha – kompleks tayyorlash, shuningdek, autentik o‘quv resurslari va zamonaviy didaktik platformalar bilan ta’minlashga bevosita bog‘liqdir. Mazkur texnologiya muvaffaqiyatli qo‘llanishi uchun o‘qituvchilarning CLIL metodikasi bo‘yicha kasbiy kompetensiyasini oshirish, fan va tilni uyg‘unlashtirilgan holda o‘qitish bo‘yicha aniq metodik tavsiyalarni ishlab chiqishda hamda ta’lim muassasalarini texnik va axborot resurslari bilan mustahkamlash zarur ekanligi aytib o’tilgan.

**Natijalar va ularning tahlili**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.05.2021 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarori, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.05.2021-y., 07/21/5117/0472-son]. Tadqiqot jarayonida CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasini ta’lim jarayoniga joriy etish orqali talabalarning chet tilidagi kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish darajasi o‘rganildi. Tajriba-sinov ishlari oliy ta’lim muassasasining 2-bosqich talabalari ishtirokida olib borildi va ular tajriba hamda nazorat guruhlariga ajratildi.O‘tkazilgan diagnostik testlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhidagi talabalar CLIL texnologiyasi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlardan so‘ng til ko‘nikmalarining barcha komponentlari — tinglab tushunish, o‘qish, yozish va og‘zaki nutq bo‘yicha sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga erishgan. Xususan, tinglab tushunish ko‘nikmasi bo‘yicha talabalarning o‘rtacha ko‘rsatkichi dastlabki bosqichga nisbatan yuqori darajada oshganligi kuzatildi. Bu holat fan mazmunining chet tili orqali berilishi talabalarning kontekstual tushunish qobiliyatini kuchaytirganini ko‘rsatadi.O‘qish ko‘nikmasi tahlili shuni aniqladiki, CLIL asosidagi matnlar bilan ishlash jarayonida talabalar terminologik birliklarni tezroq o‘zlashtirgan, asosiy va ikkilamchi g‘oyalarni farqlashda yuqori natijalarga erishgan. Bu esa mazmun va tilning integratsiyasi talabalarning kognitiv faolligini oshirishini tasdiqlaydi.Yozma nutq bo‘yicha olingan natijalar talabalar fikrni mantiqiy va izchil ifodalash, fanlarga oid leksik birliklardan to‘g‘ri foydalanish hamda grammatik tuzilmalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarining rivojlanganini ko‘rsatdi. Nazorat guruhida esa bunday o‘sish sezilarli darajada kuzatilmadi.Og‘zaki nutqni baholash jarayonida tajriba guruhidagi talabalar muloqot jarayonida faolroq ishtirok etgani, o‘z fikrlarini erkin bayon qilgani va professional terminlardan o‘rinli foydalangani aniqlandi. Bu holat CLIL texnologiyasi talabalarda tilga nisbatan motivatsiyani oshirishi va real kommunikativ muhitni yaratishini isbotlaydi.Umuman olganda, tadqiqot natijalari CLIL texnologiyasining talabalarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali pedagogik mexanizm ekanligini ko‘rsatdi. Fan va til integratsiyasi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni nafaqat lingvistik, balki kognitiv va kasbiy kompetensiyalarning shakllanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Olingan natijalar CLIL texnologiyasini oliy ta’lim tizimida keng joriy etish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

**CLIL ASOSIDA TIL KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI**

CLIL texnologiyasi orqali til ko‘nikmalarining rivojlanishning bir qator mexanizmlari mavjud. Psixolingvistik mexanizmda CLIL sharoitida talaba o‘quv jarayoniga sun’iy til mashqlari asosida emas, balki tabiiy ravishda shakllanadigan til muhiti orqali kiradi. Bu yondashuvda til o‘rganishning an’anaviy modeli – ya’ni grammatik qoidalarni o‘zlashtirish va alohida til mashqlarini bajarish – orqa planga o‘tadi. Til endi o‘quv jarayonining yakuniy maqsadi emas, balki fan mazmunini chuqur anglash va tafakkur faoliyatini amalga oshirishga xizmat qiladigan vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur metodik yondashuv talabalarda chet tilini tabiiy o‘zlashtirishni ta’minlaydigan qator psixolingvistik mexanizmlarning faollashuviga olib keladi.

Birinchidan, tilni funksional vaziyatlar orqali o‘zlashtirish sodir bo‘ladi. Talabalar tilni izolyatsiyalangan lingvistik obyekt emas, balki fan mazmunini tushuntirish, tahlil qilish, sabab–oqibat bog‘lanishlarini izohlash, natijalarni taqdim etish jarayonida qo‘llaydilar. Bunday jarayonda til mazmun bilan uzviy bog‘lanib, tabiiy muloqot muhiti tarkibida shakllanadi. Bu esa til o‘rganishning kommunikativ va funksional yondashuvlariga mos ravishda fikrni real vaziyatda ifodalash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, semantik kontekst asosida leksik birliklarning mustahkamlanishi yuz beradi. Talaba fan terminologiyasini shunchaki yodlab olmaydi, balki ularni amaliy topshiriqlar, ilmiy matnlar, grafiklar, tajribalar, o‘quv muhitidagi real kontekstlarda bevosita qo‘llash orqali o‘zlashtiradi. Bu jarayon semantik xotira, assotsiativ bog‘lanishlar

va uzoq muddatli eslab qolishni faollashtiruvchi psixolingvistik mexanizmlarni kuchaytiradi. Natijada leksika izchil, tizimli va mazmuniy asosda mustahkamlanadi.

Uchinchidan, nutq amaliyotining ortishi CLIL texnologiyasining muhim afzalligi hisoblanadi. Mashg‘ulotlar davomida talaba tilni qabul qilish (listening, reading) va tilni ishlab chiqarish (speaking, writing) jarayonlarini bir vaqtning o‘zida bajaradi. Tilning ikki tomonlama qo‘llanilishi – receptive va productive ko‘nikmalarning uyg‘un rivoji – tildan foydalanish chastotasini keskin oshiradi. Bu esa tilni faol ishlatishni talab etadigan real kommunikativ vaziyatlarga moslashuvchanlikni shakllantiradi.

Eng muhimi, CLILda tilning kognitiv jarayonlar bilan integratsiyasi sodir bo‘ladi. Talaba tahlil, sintez, baholash, solishtirish, argument keltirish kabi oliy darajadagi fikrlash operatsiyalarini bevosita chet tilida bajaradi. Natijada lingvistik birliklar abstrakt o‘rganilgan unsurlar sifatida emas, balki ma’noli, mazmunli va intellektual faoliyat bilan bevosita bog‘langan holda shakllanadi. Bu tilni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki ilmiy tafakkurni rivojlantiruvchi intellektual mexanizm sifatida qo‘llash imkonini beradi.

**Xulosa**

CLIL texnologiyasi zamonaviy ta’limning integrativ, kompetensiyaga yo‘naltirilgan tamoyillariga asoslanib, talabalarning til ko‘nikmalarini mazmunli va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat orqali shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuvdir. Ushbu metod o‘quv jarayonida tilni asosiy maqsad sifatida emas, balki bilimni anglash, tahlil qilish va talqin etish vositasi sifatida qo‘llashga imkon yaratadi. Natijada talabaning lingvistik kompetensiyasi bilan bir qatorda fanlararo muloqot madaniyati, ijodiy fikrlash, analitik yondashuv, muammoli vaziyatni hal etish va mazmunni talqin qilish ko‘nikmalari birgalikda rivojlanadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida CLIL texnologiyasini yanada keng joriy etish uzluksiz metodik qo‘llab-quvvatlash, o‘qituvchilarni ikki yo‘nalishda – til va fan bo‘yicha – kompleks tayyorlash, shuningdek, autentik o‘quv resurslari va zamonaviy didaktik platformalar bilan ta’minlashga bevosita bog‘liqdir. Mazkur texnologiya muvaffaqiyatli qo‘llanishi uchun o‘qituvchilarning CLIL metodikasi bo‘yicha kasbiy kompetensiyasini oshirish, fan va tilni uyg‘unlashtirilgan holda o‘qitish bo‘yicha aniq metodik tavsiyalarni ishlab chiqish hamda ta’lim muassasalarini texnik va axborot resurslari bilan mustahkamlash zarur.

CLILning nazariy asoslari, psixolingvistik va didaktik mexanizmlarini chuqur o‘rganish hamda ular asosida milliy ta’lim tizimi uchun moslashtirilgan metodik modellarni yaratish kelajakda chet tilini o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois CLIL texnologiyasini rivojlantirish nafaqat lingvodidaktik jarayonning takomillashuviga, balki global bilim maydoniga integratsiyalashuvning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge: Cambridge University Press.

2. Ruiz de Zarobe, Y. (2025). *Content and Language Integrated Learning (CLIL)*. Cambridge: Cambridge University Press.

3.Bower, K., Cross, R., Coyle, D., & Chambers, G. (Eds.). (2024). *Curriculum Integrated Language Teaching*. Cambridge University Press.

4. European Commission. (2005). *Europeans and their Languages*. (CLIL konseptsiyasiga oid siyosiy hujjat).

5.Bozorov, P. (2024). “Chet tilini o‘qitishda ‘CLIL’ integratsiyasi: til ta’limi rivojlanishining zamonaviy vektori.” *Tamaddun Nuri* jurnal.

6. Qarshiyeva, S. (2024). “CLIL metodining O‘zbekiston ta’lim tizimida qo‘llanilishi.” *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*.

7. Murodullayeva, S.Y. (2025). “CLIL texnologiyasining chet tili dars jarayonida qo‘llanishining samaradorligi.” *Innovative Development in Educational Activities*.

8. Mavlonberdiyeva, V. (2025). “CLIL metodining jahon tajribasidagi o‘rni va O‘zbekistonda qo‘llanilishi.” *Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali*.

9. Asqarova, S. (2025). “Akademik ingliz tilini o‘rgatishda CLIL metodidan foydalanishning samaradorligi.” *Ilm Fan Xabarnomasi*.

10. Kayumova, N., & Primova, Z. (2025). “Ta’lim berishda CLIL texnologiyasi ahamiyati.” *International Journal of Science*.

11. Slepkov, A. D., & Shiell, R. C. (2014). “A comparison of integrated testlet and constructed-response question formats.” *Physical Review Physics Education Research*.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Begmatova Gulshoda Hamidovna**
PROFI UNIVERSITY Navoiy filial

## KOLLABORATIV O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini kollaborativ o‘qitish texnologiyalari vositasida shakllantirish metodikasi yoritilgan. Tadqiqot doirasida sakkiz bosqichdan iborat tuzilma ishlab chiqilgan bo‘lib, unda o‘quvchilarning kommunikativ, ijtimoiy, tanqidiy fikrlash va axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini guruhli faoliyat, muhokama va refleksiya orqali rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatilgan. Ishlab chiqilgan metodika boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning akademik va ijtimoiy muvaffaqiyatiga mustahkam asos yaratadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *boshlang‘ich sinf, tayanch kompetensiyalar, kollaborativ o‘qitish texnologiyasi, guruhli faoliyat, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, tanqidiy fikrlash, muammoli o‘qitish.*

**Бегматова Гульшода Хамидовна**
Университет ПРОФИ, Навоийский филиал

## МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ КЛЮЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИЙ КОЛЛАБОРАТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ

***Аннотация.*** *В данной статье рассматривается методология развития базовых компетенций учащихся начальной школы с использованием технологий совместного обучения. В рамках исследования была разработана восьмиэтапная структура, демонстрирующая способы развития коммуникативных, социальных, критических и информационных навыков учащихся посредством групповых занятий, дискуссий и рефлексии. Разработанная методология создает прочную основу для академических и социальных успехов учащихся в начальной школе.*

***Ключевые слова:*** *начальная школа, базовые компетенции, технологии совместного обучения, групповые занятия, коммуникативная компетенция, социальная компетенция, критическое мышление, проблемно-ориентированное обучение.*

**Begmatova Gulshoda Hamidovna,**
PROFI UNIVERSITY Navoi branch

## METHODICALS FOR FORMING KEY COMPETENCES OF PRIMARY STUDENTS USING COLLABORATIVE TEACHING TECHNOLOGIES

***Abstract.*** *This article discusses the methodology for developing basic competencies of primary school students using collaborative learning technologies. As part of the research, an eight-stage structure was developed, which shows ways to develop students' communicative, social, critical thinking and information skills through group activities, discussion and reflection. The developed methodology creates a solid foundation for students' academic and social success in primary education.*

***Keywords:*** *primary school, basic competencies, collaborative learning technology, group activities, communicative competence, social competence, critical thinking, problem-based learning.*

Zamonaviy ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fundamental bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birga, ularning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini puxta shakllantirish, ularning keyingi o‘quv jarayonida muvaffaqiyatga erishishlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bu davrda shakllanadigan kompetensiyalar o‘quvchining barcha hayotiy va o‘quv faoliyatini belgilab beruvchi asosiy mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi [1].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalarni samarali shakllantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan to‘g‘ri va maqsadga muvofiq foydalanish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Ushbu

texnologiyalar ichida kollaborativ o‘qitish texnologiyalari o‘zining didaktik imkoniyatlari va tarbiyaviy ta’siri bilan alohida ahamiyatga ega. Kollaborativ o‘qitish o‘quvchilarning passiv eshituvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ta’lim jarayoniga kirishishini ta’minlaydi, bu esa bilimlarning chuqurroq va samarali o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi [2].

Kollaborativ o‘qitish texnologiyalari o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, hamkorlikda muammolarni hal etish qobiliyatini shakllantirish hamda bilimlarni samarali o‘zlashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv asosida o‘quvchilar o‘zaro hamkorlik qilish, murakkab vazifalarni birgalikda bajarish, fikr almashish va bir-birlaridan o‘rganish jarayonlari orqali nafaqat o‘z bilimlarini mustahkamlaydilar, balki muhim ijtimoiy ko‘nikmalarni ham egallaydilar. Kichik guruhlarda ishlash jarayonida har bir o‘quvchi o‘z fikrini erkin ifodalash, boshqa fikrlarni tinglay olish, kelishmovchiliklarni konstruktiv hal etish tajribasiga ega bo‘ladi [3].

Ayniqsa, kollaborativ o‘qitish texnologiyalari umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ, ijtimoiy, tashabbuskorlik, muammolarni hal etish, tanqidiy fikrlash va axborotlarni qayta ishlash kabi tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Guruh ishida qatnashish jarayonida o‘quvchilar samarali muloqot qilish, o‘z nuqtai nazarini asoslab berish, boshqalarning fikrini hurmat qilish, mas’uliyatni taqsimlash va umumiy natijaga erishish uchun harakatlashish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu kompetensiyalar nafaqat akademik muvaffaqiyat uchun, balki kelajakda jamiyatda faol va to‘laqonli fuqaro bo‘lish uchun zarur bo‘lgan bazaviy qobiliyatlardir.

Bu borada, ya’ni o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda kollaborativ o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish metodikasiga oid tadqiqot ishlari mamlakatimiz, MDH va xorijda S.Xasanov [4], S.Sarimsakova [5], A.Xo‘jamkulov [5], A.A.Neznanov [6], A.S.Rafikova [7], T.G.Kolosova 8[], J.A.N.Ansari [9], N.A.Khan [9], A.Van Leeuwen [10], J.Janssen [10]lar tomonidan olib borilgan.

Ularning fikriga ko‘ra, kollaborativ ta’lim texnologiyasi orqali darslarni tashkil etish umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga sinfdoshlarining fikrlarini tinglab, o‘z fikrlarini izohlashga imkon beriladi. Buning natijasida ularning muloqot qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, o‘quvchilar umumiy yechimni qidirishi jarayonida o‘z bilimlarini yanada mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha, boshlang‘ich ta’limda kollaborativ o‘qitish texnologiyasi o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga, ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish, tanqidiy va mantiqiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Chunki kollaborativ o‘qitish texnologiyalari vositasida boshlang‘ich sinf darslarini va darsdan tashqari ta’limni raqamli texnologiyalar asosida o‘quvchilarga individual yondashuv amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, kollaborativ o‘qitish texnologiyalari disserensial ta’lim sharoitida o‘quvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlariga asoslanib o‘quv jarayonini tashkil etishga imkon beradi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, kollaborativ o‘qitish texnologiyalari vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish tadqiqotning asosiy maqsadi etib belgilandi. Shu maqsadda umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan darslarini tashkil etish jarayonida kollaborativ o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish tuzilmasi ishlab chiqildi (1-jadvalga qarang).

**1-jadval**

**Kollaborativ o‘qitish texnologiyalari vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish tuzilmasi**

| Bosqichlar | Faoliyat mazmuni | Shakllanadigan tayanch kompetensiyalar | Kutilayotgan natija |
|---|---|---|---|
| 1. Motivatsiya va muammo hosil qilish | Real hayotdagi muammo, qiziqarli savol, voqea, sahna orqali mavzuga kirish | Kommunikativ, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy/umummadaniy | O‘quvchi mavzuga qiziqadi, muammoni anglaydi, o‘z fikrini bildiradi |
| 2. Maqsadni aniqlash va rejalashtirish | Dars maqsadi o‘quvchilar bilan birgalikda belgilanadi. Vaqt va rol taqsimoti amalga oshiriladi | O‘zini-o‘zi rivojlantirish, kommunikativ, ijtimoiy faol | O‘quvchi o‘z o‘rni va vazifasini anglaydi, darsga ongli yondashadi |
| 3. Yangi bilimlarni o‘zlashtirish (interaktiv taqdimot) | Vizual, og‘zaki va harakatli materiallar asosida mavzuni tushuntirish (multimedia, namuna, misol) | Axborot bilan ishlash, kommunikativ, milliy/umummadaniy, matematik savodxonlik (mavzuga qarab) | O‘quvchi yangi bilimni tushunadi, fakt va tushunchani ajrata oladi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 4. Guruhli kollaborativ faoliyat (muammo yechish) | Guruhlar mavzu asosida muammo yechadi, loyiha yoki jamoaviy topshiriq bajaradi | Jamoaviy, kommunikativ, matematik savodxonlik, axborot bilan ishlash, o‘zini-o‘zi rivojlantirish | O‘quvchilar o‘zaro muloqotda ishlaydi, tahlil qiladi, qaror qabul qiladi |
| 5. Taqdimot va jamoaviy muhokama | Har bir guruh natijani taqdim qiladi, boshqa guruhlar savol beradi va taklif bildiradi | Kommunikativ, ijtimoiy faol, milliy/umummadaniy, tanqidiy fikrlash, axborot bilan ishlash | O‘quvchilar o‘z fikrini ochiq aytadi, savollarga javob beradi, hurmatli muloqot qiladi |
| 6. Umumlashtirish va xulosa chiqarish | O‘qituvchi o‘quvchilar bilan birga asosiy g‘oyani umumlashtiradi. Grafik/fikriy xarita, konseptual chizma tuziladi | Axborot bilan ishlash, o‘zini-o‘zi rivojlantirish, matematik savodxonlik (diagramma, tartib, ketma-ketlik) | O‘quvchi bilimlarni tahlil qiladi, tizimlashtiradi va ulardan xulosa chiqaradi |
| 7. Refleksiya | O‘quvchilar o‘z bilim va faoliyatini tahlil qiladi, his-tuyg‘usini ifodalaydi | O‘zini-o‘zi rivojlantirish, kommunikativ, ijtimoiy faol | O‘quvchi o‘zini anglaydi, fikrini anglatadi, bilimini baholaydi |
| 8. Uyga vazifa (ijodiy yoki oilaviy topshiriq) | Mustaqil yoki oila bilan birga bajariladigan topshiriq: rasm, hikoya, loyiha, hayotga tatbiq etish | Matematik savodxonlik, milliy/umummadaniy, axborot bilan ishlash, ijtimoiy faol, o‘zini-o‘zi rivojlantirish | O‘quvchi bilimni real hayotda qo‘llaydi, oila bilan hamkorlik qiladi |

Yuqorida keltirilgan kollaborativ o‘qitish texnologiyasining tarkibiy tuzilmasi sakkiz asosiy bosqichdan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini izchil rivojlantirishga qaratilgan. Birinchi bosqich – motivatsiya va muammo hosil qilish jarayonida o‘quvchilarda o‘rganilayotgan mavzuga ichki qiziqish uyg‘otiladi, darsning dolzarbligi anglatiladi hamda hayratlanarli faktlar, qiziqarli savollar yoki hayotiy vaziyatlar asosida muammoning mavjudligi his ettiriladi. Ikkinchi bosqichda o‘quvchilar o‘qituvchi bilan hamkorlikda dars davomida erishilishi kerak bo‘lgan natijalarni aniqlab, “Mening bugungi maqsadim...” kabi ifodalar orqali ularga erishish yo‘llarini rejalashtirib, tashabbuskorlik va mas’uliyat hissini rivojlantiradilar. Yangi bilimlarni o‘zlashtirish bosqichida tayyor bilimlar berish o‘rniga, o‘quvchilar interaktiv slaydlar, video lavhalar, modellar va real hayotiy misollar orqali mavzuni mustaqil kashf etadilar, bu esa ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun multimodal (ko‘rish, eshitish, harakat orqali) taqdimotlar yordamida bilimni mustahkamlashga yordam beradi. To‘rtinchi bosqich – guruhli kollaborativ faoliyat texnologiyaning markaziy nuqtasi bo‘lib, bunda o‘quvchilar kichik guruhlarda bir nechta yechimga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan ochiq tipli muammoli vazifalarni hal qilish orqali muloqot, fikr bildirish, kelishish va ijodiy yechim topish kabi ijtimoiy hamda mantiqiy kompetensiyalarini faol rivojlantiradilar. Beshinchi bosqichda guruhlar o‘zlari ishlab chiqqan yechimlarni sinf oldida dalillar bilan asoslab taqdim etadilar, boshqa guruhlar esa savollar berish, tanqidiy yondoshuv va muqobil fikrlarni ilgari surish orqali kommunikativ, ijtimoiy kompetensiyalar hamda tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantiradilar. Umumlashtirish va xulosa chiqarish bosqichida o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda erishilgan natijalar va asosiy tushunchalarni qayta ko‘rib chiqib, “Men bugun nimani bildim?”, “Bu bilim menga nimaga kerak?” kabi savollar orqali mavzuning mohiyatini mustahkamlaydi. Refleksiya bosqichida o‘quvchilar “Bugungi darsdan nimalarni angladik?”, “Qanday muvaffaqiyat va qiyinchiliklarga duch keldim?” kabi savollar yordamida o‘zini-o‘zi baholash, o‘z fikrlari va his-tuyg‘ulari haqida og‘zaki, yozma yoki rasm shaklidagi mulohazalar orqali emotsional-intellektual o‘sish va o‘zini-o‘zi anglash kompetensiyasini rivojlantiradilar. Nihoyat, so‘nggi bosqichda oddiy mashqlar o‘rniga ijodiy yondashuvga asoslangan, oila a’zolari bilan hamkorlikda bajariladigan topshiriqlar – hikoya tuzish, oila tarixiga oid intervyu olish, kichik tadqiqot o‘tkazish kabi vazifalar orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlash, axborotni izlash, o‘z fikrini ifoda etish, vaqtni boshqarish, ishini rejalashtirish hamda oilaviy ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash ko‘nikmalarini rivojlantirib, “hayotga yaqin ta’lim” tamoyilini amalga oshiradilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kollaborativ o‘qitish texnologiyalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini samarali shakllantirish uchun kuchli pedagogik vosita hisoblanadi. Ishlab chiqilgan sakkiz bosqichli metodika – motivatsiya va muammo hosil qilish, maqsadni aniqlash va rejalashtirish, yangi bilimlarni o‘zlashtirish, guruhli kollaborativ faoliyat, taqdimot va jamoaviy muhokama, umumlashtirish va xulosa chiqarish, refleksiya hamda ijodiy uyga vazifa – o‘quvchilarning nafaqat akademik bilimlarini, balki kommunikativ, ijtimoiy, tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlash va axborotlar bilan ishlash kabi zaruriy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Guruh ishida qatnashish jarayonida o‘quvchilar samarali muloqot qilish, o‘z nuqtai nazarini asoslab berish, boshqalarning fikrini hurmat qilish, mas’uliyatni taqsimlash va umumiy natijaga erishish ko‘nikmalarini egallaydilar. Bu

kompetensiyalar esa o‘quvchilarning keyingi o‘quv jarayonida muvaffaqiyatga erishishlari va kelajakda jamiyatda faol, to‘laqonli fuqaro bo‘lishlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Kollaborativ o‘qitish texnologiyalaridan maqsadli foydalanish boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishning eng samarali yo‘llaridan biri sifatida tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Begmatova G.H. Kollaborativ o‘qitish texnologiyalari vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik muammolari // Elektron ta’lim jurnali. – Navoiy, 2024. – №. 4, Vol 5. – B. 268-277.

2. Begmatova G. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda kollaborativ o‘qitish texnologiyasining didaktik imkoniyatlari // O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari. – Toshkent, 2025. – № 1/2. – B. 75-77.

3. Begmatova G.H. Pedagogical conditions for forming basic competencies in primary school pupils // European Journal of Innovationin Nonformal Education(EJINE). – Volume 5, Issue 1, Jan, 2025. – P. 141-146.

4. Xasanov S. Kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantiruvchi metodikalarni pedagogik intensiyalarga ta’siri //News of the NUUz. – 2024. – T. 1. – №. 1.9. 1. – C. 213-216.

5. Sarimsakova S., Xo‘jamkulov A. Kollaborativ ta’lim orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish: o‘qituvchilar ta’limida texnologiyadan foydalanish bo‘yicha amaliy tadqiqotlar //Молодые ученые. – 2024. – T. 2. – №. 13. – C. 79-81.

6. Незнанов А.А. и др. Коллаборативные технологии в образовании: как выстроить эффективную поддержку гибридного обучения? // Университетское управление: практика и анализ. – 2019. – Т. 23. – №. 1-2. – С. 101-110.

7. Рафикова А.С. Активная и коллаборативная формы обучения: краткий обзор зарубежных исследований //Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2021. – №. 10-2. – С. 127-130.

8. Колосова Т.Г. Использование принципов коллаборативного обучения в процессе преподавания иностранного языка студентам технических вузов //Наука и образование: новое время. научно-методический журнал. – 2019. – №. 2 (15). – С. 61.

9. Ansari J.A.N., Khan N.A. Exploring the role of social media in collaborative learning the new domain of learning //Smart Learning Environments. – 2020. – T. 7. – №. 1. – P. 1-16.

10. Van Leeuwen A., Janssen J. A systematic review of teacher guidance during collaborative learning in primary and secondary education //Educational Research Review. – 2019. – T. 27. – C. 71-89.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Muradov Muxammad Obomislim o'g'li**
Namangan davlat universiteti Jahon tillar fakulteti
Amaliy xorijiy tillar kafedrasi, o'qituvchi

## NOFILOLOGIK YO'NALISH TALABALARIDA AXBOROT MADANIYATINI MEDIA VOSITALARI ORQALI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

***Annotatsiya****: Mazkur ilmiy maqolada nofilologik yo'nalish talabalarda axborot madaniyatini shakllantirish masalalari yoritilgan. Axborotlashgan jamiyat sharoitida media vositalarining ta'lim jarayonidagi o'rni, ularning pedagogik imkoniyatlari hamda axborot madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, media vositalari asosida axborot madaniyatini shakllantirishning samarali texnologiyalari, metod va shakllari tavsiya etilgan. Tadqiqot natijalari nofilologik yo'nalish talabalarning axborotni tanqidiy tahlil qilish, media kontentdan ongli va maqsadli foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *axborot madaniyati, media vositalari, media texnologiyalar, nofilologik yo'nalish, oliy ta'lim, raqamli savodxonlik.*

**Muradov Mukhammad Obomislim ogli**
Department of Applied Foreign Languages,
Faculty of world languages, Namangan State University, teacher

## TECHNOLOGIES FOR THE FORMATION OF INFORMATION CULTURE THROUGH MEDIA IN STUDENTS OF THE NON-PHILOLOGICAL DIRECTION.

***Annotation:*** *this scientific article covers the issues of formation of Information Culture in students of non-philological orientation. In the context of an informed society, the role of media in the educational process, their pedagogical capabilities and their importance in the development of Information Culture have been scientifically-theoretically analyzed. Also, effective technologies, methods and forms of the formation of Information Culture on the basis of media are recommended. The results of the study suggest that the non-philological orientation serves to develop competencies of students ' critical analysis of information, conscious and targeted use of media content.*

***Keywords:*** *Information Culture, media tools, media technologies, non-philological orientation, higher education, digital literacy.*

**Мурадов Мухаммад Обомислим угли**
Кафедра прикладных иностранных языков,
факультет мировых языков, Наманганский государственный университет, преподаватель

## ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ ПОСРЕДСТВОМ МЕДИА У СТУДЕНТОВ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ

***Аннотация:*** *в данной научной статье рассматриваются вопросы формирования информационной культуры у студентов нефилологической направленности. В контексте информационного общества научно-теоретически проанализирована роль медии в образовательном процессе, их педагогические возможности и значение в развитии информационной культуры. Также рекомендуются эффективные технологии, методы и формы формирования информационной культуры на основе медиа. Результаты исследования свидетельствуют о том, что нефилологическая направленность способствует развитию у студентов компетенций критического анализа информации, осознанного и целенаправленного использования медиаконтента.*

***Ключевые слова:*** *Информационная культура, медийные инструменты, медиатехнологии*

### Kirish

**Integratsiyalashgan ta’lim ekotizimi** — bu turli ta’lim yo‘nalishlari, fanlar, pedagogik metodlar, muhit va texnologiyalarni **uzviy, birgalikdagi tizim** sifatida uyg‘unlashtirishga asoslangan ta’lim modeli bo‘lib, o‘quvchilarni **shaxs sifatida har tomonlama** tarbiyalash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Ekotizim** bu yerda **biologik tizimdagi o‘zaro bog‘liq elementlar**ga o‘xshab, ta’limda ham barcha tarkibiy qismlar **— o‘quvchi, o‘qituvchi, ota-ona, ta’lim muassasasi, axborot vositalari, jamiyat, texnologiyalar** birgalikda, tizimli hamkorlikda ishlaydi. [2], Ya’ni ta’lim yakka yondashuvda emas**, keng o‘zaro ta’sirga asoslangan muhitda** tashkil etiladi**.**

**Ekotizim** so‘zi biologiyada **turli organizmlar va ularning yashash muhiti o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar tizimi** degan ma’noni anglatadi. Ta’limda bu tushuncha **metafora sifatida** ishlatiladi va quyidagilarga nisbatan qo‘llanadi:

-O‘quvchi – o‘qituvchi – ota-ona – maktab – jamiyat – texnologiyalar o‘rtasidagi **uzviy aloqadorlik**;

-O‘quv jarayonining **dinamik, moslashuvchan, keng qamrovli** va **muvozanatli** bo‘lishi;

-Har bir komponent ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

**Ekotizimli integratsiyalashgan model**




Natijada o‘quvchi tarixiy ong, texnik bilim, badiiy ifoda, zamonaviy ko‘nikma va vatanparvarlikni bir paytda egallaydi.

**Integratsiyalashgan ta’lim ekotizimi** bu – zamonaviy ta’limning **holistik (butunlikda ko‘ruvchi)** yondashuvi bo‘lib, o‘quvchini faqat bilim emas, balki ma’naviyat, fuqarolik, ijtimoiy ko‘nikmalar bilan ham shakllantirishga xizmat

qiladi. Bu yondashuv, ayniqsa, **milliy qadriyatlarni o‘rgatish, vatanparvarlik tarbiyasini berish** kabi maqsadlar uchun nihoyatda samarali.

Darslar nazariy ma’lumot bilan cheklanmaydi. [3], O‘quvchi o‘z o‘rganganlarini **hayotiy vazifalarda, amaliy topshiriqlarda** qo‘llaydi. Bu orqali bilimlar “real muhitda” mustahkamlanadi.Har bir o‘quvchining o‘ziga xos iqtidori, qiziqishi, ehtiyoji inobatga olinadi. Masalan, texnik yo‘nalishdagi o‘quvchilarga Amir Temurning muhandislik jihatlari, san’at yo‘nalishidagilarga esa Boburiy miniatyura san’ati orqali yondashiladi.

**Integratsiyalashgan ta’lim ekotizimi** bu – zamonaviy ta’limning **holistik (butunlikda ko‘ruvchi)** yondashuvi bo‘lib, o‘quvchini faqat bilim emas, balki ma’naviyat, fuqarolik, ijtimoiy ko‘nikmalar bilan ham shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv, ayniqsa, **milliy qadriyatlarni o‘rgatish, vatanparvarlik tarbiyasini berish** kabi maqsadlar uchun nihoyatda samarali.

Ta’lim ekotizimi — bu ta’lim muhitining barcha komponentlari (o‘quvchi, o‘qituvchi, resurslar, metodikalar, tashqi ta’sirlar) o‘zaro aloqadorlikda faoliyat yuritadigan murakkab tizimdir. Integratsiyalashgan ta’lim esa turli fanlar, ma’naviy qadriyatlar va ijtimoiy faoliyatni bir butun yondashuvda uyg‘unlashtirishga asoslanadi. Bu yondashuv o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi.

Milliy qahramonlar — bu o‘z xalqining ozodligi, rivoji va madaniyati uchun fidokorona xizmat qilgan shaxslardir. Bunday shaxslar hayot yo‘li o‘quvchilar uchun ibrat maktabi bo‘lishi mumkin. Masalan:

Amir Temur – adolat, qat’iyat va boshqaruv madaniyati namunasi;

Jaloliddin Manguberdi – vatanparvarlik va jasorat timsoli;

Zulfiyaxonim, Abdulla Qodiriy, Fitrat – milliy g‘oya, madaniyat va ma’rifat targ‘ibotchilari.

Ushbu shaxslarning hayoti, ijodi va xizmatlari o‘quv dasturlarida chuqur o‘rganilishi kerak. [4], Ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quvchilari aniq bir soha (texnika, san’at, til, tabiiy fanlar) bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim oladilar. Shu sababli milliy qahramon obrazlari ushbu sohalar bilan bog‘liq holda yondashilishi zarur: Amir Temur davridagi harbiy-muhandislik ishlari asosida texnologik fanlarga integratsiya. Zulfiyaning she’riy merosi asosida adabiyot va teatr san’ati orqali tarbiya. Jaloliddin Manguberdining jangovar strategiyasi asosida tarixiy tahlil darslari.

## II. Mavjud Adabiyotlar Tahlili

Vatanparvarlik pedagogikasi va uning oliy ta’lim tizimidagi o‘rni uzoq yillardan buyon ko‘plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

Milliy qahramonlar obrazlaridan foydalanishda quyidagi metodlardan samarali foydalanish mumkin:

– O‘quvchilar milliy qahramonlar hayoti bo‘yicha tadqiqot olib boradilar;

– Tarixiy sahnalarni ijro etish orqali hissiy ta’sirni oshirish;

– Bir nechta fanni birlashtirgan darslarda milliy obrazlar orqali mantiqiy bog‘lanishlar yaratiladi;

– Qahramonlar hayotiga oid animatsiya, videodarslar, AR/VR vositalari orqali interaktivlik yaratish.

## III. Tahlil va Natijalar

Oliy ta’lim muassasalarida dars jarayonining vatanparvarlik pedagogikasi bilan muvofiqlashuvi darajasini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari bir qator muhim xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasiga ko‘ra, professor-o‘qituvchilarning 65 foizi o‘z fanlari doirasida vatanparvarlik g‘oyalarini singdirishga harakat qilishini ta’kidlagan bo‘lsa-da, ularning atigi 22 foizi bu borada maxsus ishlab chiqilgan metodik ishlanmalardan foydalanishini ma’lum qildi. Bu ko‘rsatkich ta’lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasi ko‘p hollarda tizimli emas, balki stixiyali yoki umumiy xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi. Eksperiment davomida fanlararo integratsiya modelini qo‘llash natijasida talabalarning vatanparvarlik darajasini belgilovchi kognitiv va motivatsion ko‘rsatkichlarida ijobiy dinamika kuzatildi.

## IV. Xulosa

Milliy qahramonlar obrazlari ta’limda nafaqat tarixiy ongni, balki vatanparvarlik ruhini yuksaltirishda ham katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Ixtisoslashtirilgan maktablarda bu jarayonni integratsiyalashgan ta’lim ekotizimi asosida amalga oshirish o‘quvchilarning shaxsiy, ma’naviy va fuqarolik sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**1.**Maktab darsliklariga milliy qahramonlar hayotiga oid mustaqil boblar
kiritish;

2.Fanlararo hamkorlik asosida integratsion darslar o‘tkazish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

3.Mahalliy tarixiy joylarga ekskursiyalar, muzey mashg‘ulotlarini ta’lim dasturlariga kiritish;

4.O‘quvchilar uchun milliy qahramonlar ishtirokidagi sahna ko‘rinishlari, insholar, komikslar yaratish tanlovlarini yo‘lga qo‘yish.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Filosofiya lug‘ati. – Toshkent.: O‘zbekiston. 1976, 84-bet.

2. Pedagogika. Ensiklopediya. 3 jildlik, 1-jild. – Toshkent.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. -188-bet.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomlik, 1-tom. – Toshkent..: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. -445-bet.

4. To‘rayeva O. Hayot saboqlari. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2005. -34-bet.

5. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. – Toshkent.: “Sharq”, 1998. – 64-bet.

6.Muhammad Ali. Adabiy sog‘inchlar. –Toshkent.: Adabiyot jamg‘armasi, 2005. 4-bet.

7. Nomanova Ma’rifat (2024). Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishning nazariy asoslari. Nukus Branch Physical Education and Sports (4). 146-148. https://www.researchgate.net/publication/384455691

8. G.O.Bekberdiyeva (2025). Pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun o’qituvchining kasbiy tayyorgarligi. Ta’lim va taraqqiyot. 537-543. https://journal.namspi.uz/file/2025032008133703.pdf

9. Nishonova, Munira Yakubjonovna qizi. "Boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari mashg'ulotlarda "keys" texnologiyasi asosida ta'lim samaradorligiga erishish." *journal of new century innovations* 1, no. 1 (2022): 239–42. https://doi.org/10.5281/zenodo.6397105

10.Nishonova Munira Yakubjonovna, Development of Socio-Legal Competence in Future Education Teachers , Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences: Vol. 2 No. 10 (2023): Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences

11.Odilboyevich, J. X. (2025). Ta’lim tizmda imkoniyati cheklangan bollalarni o ‘qitishda inklyuziv ta’limning o ‘rni va ahamiyatining pedagagik va psixologik jixatlari. *Research Focus*, *4*(Special Issue 2), 132-140

12.Odilboyevich, J. X. (2026). Shaxsga motivatsion yondashuvning psixologik jixatlari (o ‘smirlik yosh davri misolida). *Лучшие интеллектуальные исследования*, *61*(1), 29-35.

13.Bekberdiyeva Gulbahor Ortiqaliyevna (2025). Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy muhitga moslashtirishning ilmiy va pedagogik ta’moillari. “top izlanuvchi -2025” ilmiy va ijodiy ishlar tanlovi. 270-273. https://phoenixpublication.net/index.php/TANQ/article/view/2664/2253

14.Nomanova Ma’rifat Abdillajonovna. The Importance of Educating Youth in the Spirit of Patriotism. (2024). *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, *2*(3), 387-389. https://www.grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/3752

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Nazarov Nuriddin Baxranovich**
Iqtisodiyot va pedagogika unversiteti, Samarqand kompusi
nuriddinnazarov08@gmail.com

## 800 METRGA YUGURUVCHILARNING MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARINI REJALASHTIRISH

***Annototsiya.*** *Ushbu maqolada yuqori malakali 800 metrga yuguruvchi sportchilarni musobaqa oldi tayyorgarlik mashg'ulotlarini rejalashtirish dasturi berilgan. Shuningdek yillik tayyorgarlik siklida qo'llaniladigan vosita va usullarni aniqlab mashg'ulot jarayonida qo'llangan ixtisoslashmagan mashqlarning o'rniga ixtisoslashgan maxsus yugurish va sakrash mashqlarini qo'llash asosida sportchilarni tos-son boldir mushaklari, oyoq panjasini bukuvchi-yozuvchi mushaklari hamda portlovchi kuchini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar yordamida musobaqalarga tayyorlash dasturi ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *sport, tayyorgarlik, rejalashtirish, musobaqa oldi, sport natijalari, sportchi, 800 metr, o'quv dasturi, pedagogik tajribada, jismoniy tayyorgarligi.*

**Назаров Нуриддин Бахранович**
Университет экономики и педагогики, Самаркандский кампус

## ПЛАНИРОВАНИЕ ПРЕДСОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БЕГУНОВ НА 800 МЕТРОВ

***Аннотация.*** *В данной статье представлена программа планирования предсоревновательной подготовки бегунов на 800 метров высокой квалификации. Также после определения средств и методов, используемых в годовом тренировочном цикле, вместо неспециализированных упражнений, используемых в тренировочном процессе, была разработана программа подготовки спортсменов к соревнованиям с применением упражнений, направленных на развитие тазово-икроножных мышц, мышц-сгибателей-разгибателей и взрывной силы.*

***Ключевые слова:*** *спорт, подготовка, планирование, предсоревновательная подготовка, спортивные результаты, спортсмен, бег на 800 метров, учебная программа, педагогический опыт, физическая подготовленность.*

**Nazarov Nuriddin Bakhranovich**
University of Economics and Pedagogy, Samarkand campus

## PLANNING PRE-COMPETITION PREPARATION EXERCISES OF 800 METER RUNNERS

***Annotation.*** *This article presents a program for planning pre-competition training for highly qualified 800-meter runners. Also, after determining the tools and methods used in the annual training cycle, instead of the non-specialized exercises used in the training process, a program was developed to prepare the athletes for competitions using exercises aimed at developing the pelvic-calf muscles, flexor-extensor muscles, and explosive power.*

***Keywords:*** *sport, preparation, planning, pre-competition, sports results, athlete, 800 meters, curriculum, pedagogical experience, physical fitness.*

**Dolzarbligi:** Xukumatimiz tamontdan jismoniy tarbiya va sportga juda katta e'tibor qaratilmoqda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan jismoniy tarbiya va sportga oid chiqarilayotgan Farmon va Qarorlar mazmunida ayniqsa Olimpiya sport turlarini rivojlantirish va ommaviyligini oshirishni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. "Barcha sport turlarini rivojlantirish orqali yozgi Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida qatnashish huquqini beruvchi yo'llanmalar sonini ko'paytirish, 2028 yil Los Anjils shahrida (AQSHda) bo'lib o'tadigan XXXV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o'yinlariga sportchilarimizning har tomonlama tayyorligi va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlash"ning dolzarb vazifalari ko'rsatib o'tilgan. Shu qatorida yengil atletika sport turning o'rta masofaga yugurish turiga ixtisoslashgan sportchilarni musobaqalarga tayyorlash bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ulardan F.P.Suslov, E.S.Ozolin, A.I.Polunin, A.P.Bondarchuk, V.Nikitushkin, M.S.Olimov, V.P.Cherkashin, A.I.Jilkin, B.T.Haydarov, V.V.Ivochkin, K.T.Shakirjanova, V.G.Nikitushkin, N.T.To'xtaboyeb,

R.Burnashev, I.R.Soliyev, N.B.Nazarov, Z.M.Utayev va boshqalar tamonidan yillik va ko‘p yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini rejalashtirish, ayniqsa sportchilarni musobaqa oldi, musobaqa tayyorgarligi, saralash va yo‘naltirish, ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlariga sportchilarni tayyorlash va mashg‘ulot jarayonini boshqarish masalalariga e’tibor qaratilgan. Ammo yuqori malakali 800 metr masofaga yuguruvchi sportchilarni funksianal tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha yetarlicha tadqiqotlar yurtimizda olib borilmaganligi tadqiqot jarayonida aniqlandi.

**Tadqiqot maqsadi**: Yuqori malakali 800 metrga yuguruvchilarni musobaqa oldi tayyorgarligini optimal rejalashtirish samaradorligi.

**Tadqiqot vazifalari**:

- Yuqori malakali 800 metrga yuguruvchi sportchilarni yillik tayyorgarligining musobaqa oldi dasturini tahlil asosida o‘rganish.

- Yuqori malakali 800 metrga masofaga yuguruvchilar uchun yillik tayyorgarligida musobaqa oldi dasturlarini ishlab chiqish va pedagogik tajribada samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqot natijalari va ularni muhokamalari:**

Ma’lumki, sport turlarining o‘ziga xos hususiyatlari, an’anaviy tusga kirgan musobaqalar taqvim rejasi, asosiy musobaqalarni o‘tkazish muddati va boshqa omillarni e’tiborga olgan holda yillik tayyorgarlik jarayoni, ushbu jarayonda rejalashtiriladigan mikro, mezo va makrosikllarning muddati, shu sikllarda qo‘llaniladigan vositalar hajmi, mazmuni, shiddati va yo‘nalishi bilan farq qiladi.

Shu bilan bir qatorda, yillik tayyorgarlik jarayoni, unda qo‘llaniladigan mashg‘ulotlar yuklamasi hajmi, mazmun, shiddati va yo‘nalishi jihatidan qanday rejalashtirilgan bo‘lmasin, musobaqa samaradorligi muayyan “obyekt”ning (murabbiyning) boshqaruvchilik mahoratiga va «subyekt» (sportchi) tomonidan yuklamalarni o‘zlashtirish imkoniyatiga bog‘liqdir.

Yuqori malakali 800 metrga yuguruvchilarda yillik tayyorgarlik sikli bo‘yicha rejalashtiriladigan mashg‘ulotlar hajmi, shiddati, mazmuni va yo‘nalishi o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Ko‘p yillik pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki yillar davomida 800 metr masofaga yuguruvchi sportchilarni tayyorlash yillik mashg‘ulotlarni ilmiy tadqiqotlar yoki amaliy tajribalar asosida shakllantirilib kelingan.

Ammo 800 metr masofaga yugurish bo‘yicha sport maktablarida shug‘ullanuvchi turli yoshdagi va tayyorgarlik guruhlari uchun mo‘ljallangan yillik o‘quv mashg‘ulot dasturi yuklamalar hajmi, mashg‘ulotlar soni, yo‘nalishlari, mikro, mezo va makrosikllar jihatidan batafsil 2004, 2009 yildagi chop etilgan (*Легкая атлетика. Программа для ДЮСШ и СДЮШОР.* - М.: 1986, 108-б.) Bundan keyin 2017 yildagi B.T.Xaydarov tomonidan nashrdan chiqarilgan dasturlarda yillik tayyorgarlik siklining umumiy hajmi (soat)ga jiddiy o‘zgarishlar kiritilmagan.

Mashg‘ulotlar hajmi (km, soat) haftalar, oylar, tayyorgarlik davrlari va bosqichlari bo‘yicha tahlil qildik. Jumladan, tayyorgarlik davrining (TD) umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik bosqichlari 1 - haftadan (oktyabr) boshlanib 13 - haftagacha, musobaqaoldi bosqichi (MOB) 14 - haftadan (yanvar) 17 - haftagacha, musobaqa davri (MD). 18-haftadan (fevral) 21 - haftagacha, birinchi o‘tish davri (O‘D) 22 - hafta, ikkinchi TD 23 - haftadan 30 - haftagacha (mart, aprel), ikkinchi MOB 31 - haftadan 35 - haftagacha (may), ikkinchi MD 36 - haftadan 48 - haftagacha (iyun, iyul, avgust). Ikkinchi o‘tish davri (O‘D) 49 - haftadan 52 - haftagacha rejalashtirilgan. Mashg‘ulotlarning umumiy hajmi (km) muvofiq ravishda: 1 - TD – 900 km; MOBda – 309 km; 1 - MD – 190 km; 1 – O‘D – 55 km; 2 - TD – 578 km; 2 - MOB – 335 km; 2 - MD – 653 km; 2 – O‘D – 170 km.ni tashkil etgan. Yillik tayyorgarlik sikli bo‘yicha sport takomillashuv guruhlarida mashg‘ulotlarning umumiy hajmi 3160 km bilan ifodalangan.

2017 yildagi B.T.Xaydarov tomonidan tayyorgarlik dasturni o‘rganganimizda o‘rtacha yillik yuklamalar hajmini 3200 km.dan – 3400 km.gacha tashkil etishini ko‘rsatib o‘tgan. Ammo muallif tomonidan qishki musobaqa oldi mashg‘ulotlarida 360 km umumiy hajmni bergan bo‘lsa, aerob rejimga 280 km, aralash rejimga 70 km, anaerob rejimda 10 km, maxsus yugurish va sakrash mashqlariga 4 km vaqt ajratganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shuni ta’kidlash joizki, mashg‘ulotlar yo‘nalishi bo‘yicha eng ko‘p yuklamalar hajmi aerob mazmunga ega bo‘lib, jami 2784 km.ni tashkil etadi. Aralash mazmunli mashg‘ulotlarga 289 km, anaerob yo‘nalishdagi mashg‘ulotlarga 137 km, MYuMlariga 45 km, UJTga 145 soat va o‘yin mashqlariga (O‘M) 42 soat ajratilgan. Shu jumladan 1 - MOTga (14-17 haftalar) muvofiq ravishda 309 km, 235,5 km, 41 km, 10 km, 4,5 km, 11 soat va 2 soat ajratilgan (1-jadval).

**1-jadval**

800 m masofaga yuguruvchi sportchilar qishki musobaqaoldi sikllarida qo‘llaniladigan mashg‘ulotlar yo‘nalishi va yuklamalar hajmining taqsimlanishi.

| | Oylar va haftalar / Mashg‘ulot turlari | Yanvar | | | | Jami |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | haftalar | 14 | 15 | 16 | 17 | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Umumiy yuklamalar hajmi (km) | 95 | 90 | 64 | 60 | 309 |
| 1. | Aerob yo‘nalishdagi yuklamalar (km) | 74 | 69 | 63 | 47,5 | 253,5 |
| 2. | Aralash yo’nalishdagi yuklamalar (km) | 18 | 18 | 0 | 5 | 41 |
| 3. | Anaerob yo‘nalishdagi yuklamalar (km) | 2 | 2 | 0 | 6 | 10 |
| 4. | Ixtisoslashtirilgan yo‘nalishli yuklamalar (km) | 1 | 1 | 1 | 1,5 | 4,5 |
| 5. | UJT s | 3 | 3 | 3 | 2 | 11 |
| 6. | O‘yin s | 2 | 0 | 0 | 0 | 2 |

**2-jadval**

Yuqori malakali 800 metrga yuguruvchi sportchilar qishki musobaqaoldi siklida rejalashtirilgan mashg‘ulot yuklamalari hajmining taqsimlanishi

| № | oylar va haftalar / mashg‘ulot turlari | Yanvar | | | | Fevral | | | | | Jami |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 | 17 | 18 | |
| | Umumiy yuklamalar hajmi (km) | 35 | 35 | 30 | 37 | 16 | 16 | 17 | 13 | - | 199 |
| 1. | Aerob rejimdagi yuklamalar (km) | 29 | 27 | 25 | 28 | 10 | 10 | 12 | 8 | - | 149 |
| 2. | Aralash rejimdagi yuklamalar (km) | 2 | 3 | 2 | 3 | 4 | 4 | 5 | 5 | - | 28 |
| 3. | Anaerob rejimdagi yuklamalar (km) | 3 | 4 | 2 | 5 | 2 | 2 | 2 | 2 | - | 22 |
| 4. | Maxsus yugurish mashqlari (km) | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 0,5 | - | 7,5 |

Ushbu dasturda biz yuqori malakali 400-800 metir yuguruvchi sportchilarni kunlik turmish tarzidagi va o’quv faoliyatidagi yuklamalar (sport turlari fanlari kesimidagi amaliy mashg‘ulotlar) inobatga olingan xolda mashg‘ulot yuklamalari rejalashtirildi. Ushbu dasturning afzalligi yuqori malakali 800 metr masofaga yuguruvchi sportchilarni ihtisoslashmagan mashqlarni o‘rniga mahsus mashqlar tayyorgarlik jarayoniga tadbiq etilgan. Biz tomonimizdan yuqori malakali 800 metr masofaga yuguruvchilarni mahsus jismoniy tayyorgarligini joriy tadqiqotlarda aniqlaganimizda quyidagcha shakllandi.

**3-jadval**

**800 metr masofaga yuguruvchi sportchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlikning shakllanish dinamikasi ($\bar{x} \pm \delta$)**

| Testlar | Dastlabki ko‘rsatkichlar | Tadqiqot davomida | | |
|---|---|---|---|---|
| **Yugurish mashqlari (soniya)** | | | **t=** | **P** |
| 100 m | 13,03±0,86 | 12,92±0,44 | 0,39 | >0.05 |
| 400 m | 56,4±1,09 | 56,24±0,98 | 0,38 | >0,05 |
| 600 m | 1.29,4±0.08,0 | 1.29,10±0.11,2 | 0,08 | >0,05 |
| 1000 m | 2.39,0±0.24,8 | 2.38,0±0.19,4 | 0,11 | >0,05 |
| Uzunlikka sakrash mashqlari (sm) | | | | |
| Joydan 3 hatlab sakrash | 723,84±6,12 | 730,67±5,66 | 2,84 | <0,05 |
| Joydan 5 hatlab sakrash | 1266,48±7,44 | 1271,52±6,12 | 1,81 | <0,05 |
| Joydan 10 hatlab sakrash | 2572,26±9,36 | 2590,34±7,48 | 5,23 | <0,05 |

Bundan shunday mulohaza qilish mumkinki, yuqori malakali 800 metr masofaga yuguruvchilarda mashg‘ulotlar jarayonida maxsus yugurish va sakrash mashqlarini qo‘llanilishi ularning sport natijalarining yuksalishiga hamda tos-son-boldir mushaklarining portlovchi kuchini rivojlanishiga qolvera oyoqlar panjasini bukuvchi va yozuvchi boldir-tovon mushaklarining yaxshi rivojlanishini ta’minlaydi bilan ifodalanadi. Demak, 800 metr masofaga yugurishga (boshqa masofalarga ham) ixtisoslashgan sportchilarni mashg‘ulotlari jarayonida uch bo‘g‘imni bukuvchi va yozuvchi mushaklarni bir vaqtda hamda alohida rivojlantirishga mo‘ljallangan integral va lokal ta’sir etuvchi mashqlar asosida shakllantirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Shubha yo‘qki, bunday mashqlarni muntazam va maqsadli tartibda qo‘llay borish “portlovchi” kuch-chidamkorligining nafaqat “periferik” komponenti (yuqorida qayd etilgan mushaklar guruhlari)ni, balki uning “markaziy” (MAT, NOT, YuQT) komponentining ham progressiv rivojlanishiga olib keladi va ushbu vaziyat o‘z navbatida sport natijalarining yuksalishiga ta’sir etmay qolmaydi.

**Xulosa.** Yuqorida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili, quyidagi xulosalarni qayd etish imkonini berdi:

- O‘tkazilgan adabiyotlar tahlili bo‘yicha olingan ma’lumotlarda musobaqa oldi tayyorgarligiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari mavjud bo‘lsada, ammo ular o‘rta masofaga yugurish, voleybol va boshqa sport turlari bo‘yicha musobaqa oldi tayyorgarligiga bag‘ishlangan. Yuqori malakali 800 metr masofaga yuguruvchi sportchilarni

musobaqalarga tayyorlashda musobaqa oldi tayyorgarlik davri bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar qisman yoritilganligi adabiyotlar tahlili jarayonidada aniqlandi;

- yuqori malakali 800 metr masofaga yuguruvchi sportchilarni musobaqa oldi tayyorgarlik sikli bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotda murabbiylar tomonidan musobaqa oldi tayyorgarligi o‘z bilganicha o‘tkazilayotganligi mashg‘ulotlarni ilmiy asosda ishlab chiqilmaganligi, sportchilar tayyorlash tizimidagi dolzarb muammolardan ekanligi aniqlandi.

- yuqori malakali 800 metr masofaga yuguruvchi sportchilarni musobaqa oldi tayyorgarlik siklida umumiy yuklamalarni qisqartirish, ular o‘rniga ixtisoslashgan vosita usullarini qo‘llash ularni sport natijasini yuksalishiga xizmat qiladi;

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Бондарчук, А.П. Управление тренировочным процессом спортсменов высокого класса / А. П. Бондарчук. – М. : Олимпия Пресс, 2007. – 272 с.

2. Ивочкин В.В., Травин Ю.Г., Королев Г.Н., Семаева Г.Н. Легкая атлетика: бег на средние и длинные дистанции, спортивная ходьба: Примерная программа спортивной подготовки для детско-юношеских спортывных школ, специализированных детско-юношеских школ олимпийского резерва. – М.: Советский спорт, 2009. - 108 с.

3. Полунин А.И. Школа бега Вячеслава Евстратова. Советский спорт. – М.: 2013 й. 135 с

4. Солиев И.Р. Юқори малакали узоқ масофага югурувчи спортчи қизларни тайёргарлик машғулотлари ва мусобақа жараёнининг қиёсий таҳлили. // ЎзМУ ХАБАРЛАРИ. Тошкент. 2018 йил №1/1 2018й. 171-174 бетлар.

5. Хайдаров Б.Т., Легкая атлетика: программа для детского-юношеских спортивных школ, специализированных детско-юношеских школ олимпийского резерва. – Т.: ILMIY TEXNIKA AXBOROTI – PRESS NASHRIYOTI, 2017. – 148 с.

6. Olimov M.S., Soliyev I.R., Haydarov B.Sh. / Darslik. Sport pedagogik mahoratini oshirish. – T.: 2017. – 318 b.

7. Olimov M.S., To‘xtaboyev N.T., Soliyev I.R., Ortiqov X.T. /O‘rta va uzoq masofalarga yugurish uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. “Fan va texnoligiya”, –T.: 2016. 156 bet.

8. Shakirjanova K., Soliyev I., Olimov M., Baratov A., Akmanov B., Saydkulov Z., Pedagogical technologies and interactive methods as a factor of increasing special knowledge of students. Journal of Critical Reviews., 2020; 7(6): 42-46.doi:10.31838/jcr.07.06.10. http://www.jcreview.com/?mno=101674

9. Soliev I., Khaydrov B., Mirzatillayev I., Khujamkeldiyev G., Ziyayev F., Functional training level of runners student-athletes sprinters. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020, http://www.psychosocial.com/article/PR201878/17061/

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Rashidova Nodira Xabibullayevna**
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
Namangan davlat universiteti
*E-mail: nodirarashidova1109@gmail.com*

## INGLIZ TILIDA TIBBIYOT YO‘NALISHI TALABALARINING LEKSIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI, SHAKLLARI, USULLARI VA VOSITALARI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada ingliz tilida pediatriya yo‘nalishi talabalari leksik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Tadqiqotda leksik kompetensiyani shakllantirish bosqichlari, ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan shakllar, samarali usullar hamda zamonaviy pedagogik vositalar tahlil qilinadi. Xususan, tibbiy terminologiyani o‘zlashtirish, kasbiy yo‘naltirilgan matnlar bilan ishlash, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalarning o‘rni ko‘rsatib beriladi. Maqola natijalari pediatriya yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tilini kasbiy faoliyatda samarali qo‘llashga xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *leksik kompetensiya, ingliz tili, pediatriya yo‘nalishi talabalari, tibbiy terminologiya, kasbiy yo‘naltirilgan ta’lim, interaktiv usullar, pedagogik vositalar, til o‘qitish metodikasi.*

**Rashidova Nodira Khabibullayevna**
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical
Sciences, Associate Professor,
Namangan State University

## STAGES, FORMS, METHODS AND MEANS OF DEVELOPING LEXICAL COMPETENCE OF MEDICAL STUDENTS IN ENGLISH

***Abstract:*** *This article discusses the theoretical and practical aspects of developing lexical competence in English among pediatric students. The study analyzes the stages of lexical competence formation, forms used in the educational process, effective methods, and modern pedagogical tools. In particular, the role of mastering medical terminology, working with professionally oriented texts, interactive methods, and digital technologies is indicated. The results of the article will serve to effectively use English in professional activities for pediatric students.*

***Keywords:*** *lexical competence, English, pediatric students, medical terminology, professionally oriented education, interactive methods, pedagogical tools, language teaching methodology.*

**Рашидова Нодира Хабибуллаевна**
Доктор философии (PhD) в области педагогических наук, доцент,
Наманганский государственный университет

## ЭТАПЫ, ФОРМЫ, МЕТОДЫ И СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ.

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития лексической компетенции в английском языке у студентов-педиатров. Анализируются этапы формирования лексической компетенции, формы, используемые в образовательном процессе, эффективные методы и современные педагогические инструменты. В частности, указывается роль освоения медицинской терминологии, работы с профессионально-ориентированными текстами, интерактивных методов и цифровых технологий. Результаты статьи будут способствовать эффективному использованию английского языка в профессиональной деятельности студентов-педиатров.*

***Ключевые слова:*** *лексическая компетенция, английский язык, студенты-педиатры, медицинская терминология, профессионально-ориентированное образование, интерактивные методы, педагогические инструменты, методика преподавания языка.*

**Kirish**

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida olib borgan tadqiqotlarimiz va to'plagan tajribalarimiz mazkur ta'lim yo'nalishlarida chet tilda sohaviy leksikani o'rgatishning yaxlit bir modeli, bosqichlari va mashqlar majmui tasnifining mavjud emasligini ko'rsatdi. Chet tilda talabalarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan so'nggi tadqiqotlarda leksikani o'rgatishga doir yondashuv va metodlari atroflicha tadqiq etilgan bo'lsa-da, sohaviy leksik kompetensiyani, shu asosda chet tilda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalalari e'tibordan chetda qolgan [4;7;5]. Shu bilan birga, mazkur yo'nalishlarda ingliz tili o'quv kursining fan dasturi va darsliklarida ham leksikani bosqichma-bosqich o'rgatish tamoyillari sohaviy leksikani o'rgatishga yo'naltirilmaganligini ko'rsatdi.

Tibbiyotda xorijiy til o'quv kursi davomida talabalar umumtibbiy nutqiy vaziyatlarda ingliz tilidan foydalanishni o'rganadilar, bo'lg'usi kasbiy faoliyat-larida duch keladigan vaziyatlarda kasbiy-sohaviy mavzularga doir ingliz tilida og'zaki va yozma muloqot yuritishga harakat qiladilar.

Tibbiyotda xorijiy tilga oid o'quv dasturlari talabalarning chet tildan foydalanish ehtiyojlari, qiziqishlari va kasb xususiyatlarini inobatga olgan holda tuzilishi zarur. Shu sababli, pediatriya yo'nalishi uchun "Tibbiyotda xorijiy til" kursining o'quv rejasi quyidagi malakalarni rivojlantirishni ko'zda tutadi: 1. Bemor va tibbiyot xodimlari bilan og'zaki muloqot qilish; 2. Bolalar va pediatr shifokor muloqoti; 3. Yozma tibbiy yozuvlarni yozish (kasallik tarixi va mutaxas-sisligiga oid rasmiy xatlar yozish, tibbiy hujjatlarni to'ldirish); 4. Ilmiy maqolalarni o'qish; 5. Xalqaro ilmiy-anjumanlarda ma'ruza va taqdimotlar bilan ishtirok etish.

Bu fikrlar ingliz tilida bo'lajak pediatrlarning chet tilda sohaviy leksik kompetensiyasini rivojlantirish modelini ishlab chiqish, pediatriya sohasi uchun ingliz tilida leksik minimum miqdorini aniqlash, chet tilni D1 va B2 darajalari bo'yicha mashqlar majmuini tanlash va tuzib chiqish, tasniflash zaruriyatini ko'rsatadi [3;10;8].

Pediatr talabalar shifokor va bemor bolalar muloqotiga doir maxsus leksikani o'rganishlari kerak, chunki bu ularning kasbiy sharoitlarida zaruriy barcha ko'nikma va malakalarni rivojlantirish uchun asos vazifasini o'taydi. Shuning uchun kasbiy nutqiy vaziyatlarda ishlatiladigan ingliz tili grammatik struktura, tibbiy termin va pediatriya sohasi leksikasini o'rganishlari talab etiladi. Talabalarning umumiy ingliz tili bilan birga kasbiy-sohaviy ingliz tilini egallaganlik darajalari o'rtasidagi tafovut tibbiyotda xorijiy tilni ya'ni pediatriya yo'nalishlari uchun ingliz tilini o'zlashtirish bilan qoplanishi kerak bo'ladi.

**Adabiyotlar tahlili:**

Ma'lumki, tibbiyot yo'nalishi talabalari mutaxassislikka oid so'zlarni nima ma'noni anglatishi, qanday ishlatilishi va talaffuz qilinishini o'rganishlari kerak. Tibbiy muloqotda so'zlarni tanlash muayyan kontekstda qo'llaniladigan uslub va registrlarga bog'liq bo'ladi. Masalan, shifokor bemor bilan gaplashganda, tibbiyot xodimlarining o'zaro suhbatida (hamshira va shifokor suhbati) turli uslublardan foydalanadilar. Talabalar, odatda, uzoq muddatli xotirada saqlangan lug'at miqdorini kengaytirishni xohlashadi, chunki bu ularning chet tilni o'rganganlarini namoyon etuvchi yaxshi ko'rsatkichdir. So'z boyligini o'stirish maxsus maqsadlar uchun ingliz tili o'quv kurslarining asosiy sohasi bo'lib, tadqiqotchilardan M.Saville-Troikening "Chet tilni o'rgatish" qo'llanmasida mazkur sohada akademik yutuqlarga erishishning yo'llari ko'rsatib o'tilgan. So'zlarning qanday qilib birlashishi, semantik va grammatik jihatdan namoyon bo'lishi, ma'lum bir kontekstda qaysi so'zlardan foydalanish kerakligini ko'rsatish muayyan maqsadlar uchun ingliz tili kurslari o'quv dasturlarining muhim qismidir. Muayyan maqsadlar uchun ingliz tili kurslari tinglovchilariga sohaviy leksikani o'rgatish muhimligi tadqiqotchilardan M.Saville-Troike, J.Swales va C.Feaklar tomonidan ta'kid-langan. Chet tilni o'zlashtirishda leksikaning roli haqidagi bir qator nazariyalar – til o'rganishga leksik yondashuv (Lexical approach to language learning) va tini o'zlashtirishda leksikaning roli (the role of lexis in language acquisition) masalalari, pediatriya yo'nalishi uchun ingliz tili kurslari kontekstida talabalarning so'z boyligini rivojlantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlarni taqdim etish uchun asos yaratadi [11;14].

Chet til o'qitishda qisqa muddatli va uzoq muddatli xotiraning lug'atni o'rganishdagi vazifasi quyidagicha ifodalangan: "Til o'rganishda xotiraning vazifalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'zlar assosiat-siyalar tarmog'ida saqlanadi va esda qoladi. J.R.Nattinger bu assosiatsiyalarning ko'plab turlari bo'lishi va ular turli yo'llar bilan bog'lanishi mumkin. Masalan, mental leksikamizdagi so'zlar bir-biriga ma'no, shakl va tovush, balki ko'rish jihati bilan ham yaqindir. Bu esa leksikani o'rgatishning yo'nalishini aniq ko'rsatib beradi. Tinglovchilardan qancha ko'p nutqiy vazifalarni (Task based learning and meaningful tasks) bajarish talab qilinsa, ular tilni qanchalik chuqur tahlil qilsa va qayta ishlasalar, ma'lumotlarning uzoq muddatli xotiraga saqlanish imkoniyati shuncha yuqori bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, so'zlar uzoq muddatli xotirada saqlanishi uchun ular turli xil mashq va topshiriqlarga kiritilishi kerak. Kasbga yo'naltirilgan ingliz tilini o'rgatayotgan o'qituvchilar duch keladigan muammolar - bu o'rganilishi zarur sohaviy leksikaning miqdorini aniqlash va qaysi so'zlarni o'rgatish/o'rganish, uni qanday samarali o'rgatish kabilardan iborat. Bu masalalar talabalarning leksik kompetensiyani egallashga bo'lgan ehtiyoji va ularni bu maqsadga erishishda mashqlarning algoritmik tasnifining muhimligini ko'rsatadi.

Kasbga yo‘naltirilgan chet tilni egallash, ya’ni ilmiy matnlarni o‘qish va muayyan vaziyatlarda muloqot qilish kamida 2000-3000 so‘z boyligiga ega bo‘lishni anglatadi, bu esa ko‘p foydalaniladigan so‘zlarning taxminan 80 foizini tashkil qiladi. Tadqiqotlarda “asosiy leksika” ikki turga bo‘linadi: 1. Asosiy leksika, ya’ni intensivlik va formallik xususiyati hamda darajalari ko‘rsatilmagan neytral leksika; 2. Ma’lum bir sohani ifodalovchi asosiy tematik leksika.

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolada jahon tilshunosligida leksik kompetensiyani rivojlantirishning mezonlariga oid bo’lgan fikr mulohazalar keltirib o’tilgan. Shuningdek, mavzuga oid turli xil tadqiqotchilar fikrlari o’rganib tahlil qilindi va rivojlangan davlatlar bilan solishtirildi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi tibbiyot yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida leksik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, kompetensiyaviy ta’lim tamoyillari hamda til o‘qitishning kommunikativ metodlari asos qilib olindi.

**Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari**

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini chet tillarni o‘qitish nazariyasi, leksik kompetensiya tushunchasi, kommunikativ yondashuv, CLIL (Content and Language Integrated Learning), ESP (English for Specific Purposes) nazariyalari, shuningdek, tibbiy terminologiyani o‘qitish bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi.

Shuningdek, tadqiqotda:

- kompetensiyaviy yondashuv,
- tizimli-tahliliy yondashuv,
- shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim,
- integrativ va interfaol yondashuvlar metodologik asos sifatida qo‘llanildi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1.Tayyorlov(diagnostik)bosqichi-Ushbu bosqichda talabalarining ingliz tilidagi leksik bilim darajasi aniqlandi, mavjud muammolar o‘rganildi hamda tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilandi.

2.Asosiy (tajriba-sinov) bosqichi-Bu bosqichda tibbiy yo‘nalishga oid leksikani o‘rgatishning samarali shakllari (juftlikda ishlash, guruhli muhokama), usullari (rol o‘yinlari, case study, terminologik mashqlar) va vositalari (multimedia, autentik matnlar, onlayn platformalar) qo‘llanildi.

3.Yakuniy (tahliliy) bosqichi-Tajriba-sinov natijalari umumlashtirildi, leksik kompetensiyaning rivojlanish darajasi tahlil qilindi va xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotda quyidagi ta’lim vositalaridan foydalanildi:

- tibbiy ingliz tiliga oid darslik va qo‘llanmalar;
- autentik tibbiy matnlar (maqolalar, klinik holatlar);
- audio va video materiallar;
- interfaol taqdimotlar;
- onlayn lug‘atlar va platformalar (Quizlet, Kahoot, Wordwall va boshqalar).

**Tahlillar va natijalar**

Tibbiyot yo‘nalishi talabalari ushbu toifalarning barchasini, xususan, yuqori chastotali so‘zlar, akademik so‘zlar va ixtisoslikka oid so‘zlarni bilishlari kerak va ular leksikaning muhimligini, xususan, tibbiyot sohasida qo‘llaniladigan maxsus so‘zlarni tushunishlari kerak. Mutaxassislikka oid leksikani o‘rgatish va o‘rganish talabalarni so‘zlarni tushunish va eslab qolishlariga yordam beradigan strategiya-lardan foydalanishga o‘rgatishga ham mo‘ljallangan bo‘lishi kerak. Ushbu strategiyalarni taqdim etishdan oldin, so‘z nimani anglatishini “bilish” kerakligini bilish tavsiya etiladi. Tadqiqotlarda so‘zni “bilish”da quyidagi qobiliyatlarni egallanishi keltiriladi: 1.So‘zning og‘zaki yoki yozma shaklda taniy olish; 2. O‘z xohishiga ko‘ra eslash; 3.So‘zni tegishli ob’yekt yoki tushuncha bilan bog‘lash; 4.Muayyan grammatik shaklda qo‘llash; 5.So‘zni talaffuz qilish va yozish; 6.Uni to‘g‘ri birikmalarda qo‘llash; 7. Rasmiy uslubning tegishli darajasida ishlatish.

Bu ko‘nikmalarni shakllantirish esa o‘qituvchining vazifasiga kiradi. Biroq, bu holatda eng katta muammo - bu leksikani o‘rgatishda amaliy mashg‘ulotlarning yetarli darajada bo‘lishi va katta hajmdagi lug‘atni o‘rgatish uchun tom ma’noda o‘quv soatlarini yetarlicha bo‘lishidir. Mazkur muammoni hal etish uchun ilmiy tadqiqot olib borish jarayonida to‘plagan tajribalarimizga tayangan holda pediatr talabalarning chet tilni egallaganlikning B1 va B2 darajalariga mos ravishda mashqlar majmui ishlab chiqildi va tasniflandi [15].

Sohaviy ingliz tili leksikasini o‘rgatishning boshlang‘ich bosqichida darslik va qo‘llanmalar asosan leksikani o‘zlashtirish maqsadlari va talabalar o‘rganadigan so‘zlarni qamrab oladi. Taqdim etiladigan leksikaning ko‘p qismi yuqori chastotali so‘zlar bo‘lib, talabalardan produktiv va reseptiv shaklda beriladigan topshiriqlarni bajarishlari talab qiladi. Talabalarga kichik miqdordagi leksika taqdim etiladi va har bir so‘zning nisbatan katta ahamiyatini tushunishga yo‘naltiriladi. Yangi so‘zlarning taqdimoti va mashq qilishning turli usullarini amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash kerak

bo‘ladi. Kvizlar va testlar orqali talabalarni o‘quv materiallariga kiritilgan leksikani reseptiv va produktiv planda o‘rganishlarini nazorat qilish zarur bo‘ladi.

Ingliz tili o‘qitishning o‘rta bosqichida talabalarning o‘qish va tinglab tushunish ko‘nikmalari yozuv va gapirishni egallashdan oldinga siljishi boshlanishi kerak, chunki reseptiv ko‘nikmalarning shakllanishi, ayniqsa, ingliz tilini o‘rganish sharoitida osonroq kechadi, chet tilda fikrini bayon etishni o‘rganishdan ko‘ra axborotni qayta ishlash unchalik ko‘p mehnat talab qilmaydi [13]. Shu sababli, o‘qituvchining birinchi vazifasi talabalar bilan reseptiv va reproduktiv (aktiv va passiv) leksika o‘rtasidagi farq haqida suhbatlashishdir. Bundan tashqari, yangi so‘zlarni o‘rganayotganda, aktiv va passiv shaklda foydalanish uchun zarur bo‘lgan leksika o‘rtasidagi farqni aniqlashga o‘rgatish talab etiladi.

O‘qituvchining ikkinchi vazifasiga talabalarni so‘z boyligini yaxshiroq o‘zlashtirishni mustaqil o‘rganishga o‘rgatish masalasiga ham e’tibor berishi kiradi. O‘rta bosqich uchun tavsiya etilgan matn materiallari katta hajmdagi yangi lug‘atni o‘z ichiga oladi, shuning uchun auditoriyada har bir yangi so‘z bilan tanishtirish va mashq qildirishga vaqt yetmaydi. Talabalarga yangi so‘zlar bo‘yicha nimani o‘rganishlari kerakligini tushunishga yordam berishga e’tibor qaratish zarur. Har xil turdagi ingliz tili mashg‘ulotlarida yangi so‘zlar bo‘lishi sababli, talabalarning ushbu masalalarga diqqatini qaratishi uchun talabalarga ko‘proq savollar berish va javob qaytarish malakalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi [2;1].

O‘qituvchining uchinchi vazifa esa, talabalarni lug‘atni o‘zlashtirishlariga ko‘proq e’tibor berishga undashi bo‘lib, bu baholash nizomining bir qismi sifatida olinganligini ta’kidlash zarur bo‘ladi. Muntazam, qisqa kvizlar talabalarni har kuni topshiriqni bajarganligini tekshirishdan ko‘ra, lug‘atni o‘rganishga odatlantirishi bilan samarali hisoblanadi. Bu borada o‘qituvchi kviz va testlarning reseptiv yoki reproduktiv nutqni o‘zlashtirishga yoki faqat kontekstda tushunishga yo‘naltiril-ganligini farqlab berishi shart.

Sohaviy ingliz tilini o‘qitishning yuqori bosqichida talabalarning ingliz tilida o‘qish va tushunish malakasini egallashlari uchun katta miqdordagi reseptiv lug‘at zarur bo‘ladi, chunki chet til auditoriyadan tashqarida qo‘llaniladi. Tinglovchilar, shuningdek, autentik ingliz tilidagi materiallar bilan ko‘proq ishlashlari va darsliklar bilan kamroq ishlashlari kerak, chunki aynan shu jarayonda talabalar tabiiy ravishda katta miqdordagi yangi so‘zlarga duch kelishadi. Ta’kidlash joizki, bu so‘zlarning ko‘pchiligi nisbatan past chastotali bo‘lishi bilan farqlanadi. Talabalar o‘zlarining lug‘at zahiralariga qaysi so‘zlarni qo‘shishlari haqidagi qarorni qabul qilishlari kerak va ko‘p leksikani o‘zlashtirganligini aniqlash usuli o‘qib tushunish va tinglab tushunish testlari orqali bilvosita amalga oshirilishi kerak.

**Xulosalar.**

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari talabalari mutaxassisliklari bo‘yicha maxsus leksikani o‘rganishlari kerak, chunki bu ularning kasbiy sharoitlarida talab qilinadigan barcha malakalarni rivojlantirish uchun zarurdir. Shuning uning uchun ular ushbu vaziyatlarda ishlatiladigan grammatik strukturalar va leksikani egallashlari talab etiladi. Talabalarning umumiy ingliz tili bo‘yicha egallangan bilimlari va maxsus ingliz tili o‘rtasidagi tafovut “Tibbiyotda xorijiy til” o‘quv kursini o‘zlashtirish bilan qoplanishi kerak.

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari talabalari mutaxassislikka oid so‘zlarning ma’nosi, qaysi nutqiy vaziyatlarda ishlatilishi va qanday talaffuz qilinishini o‘rganishlari kerak. Muloqotda so‘zlarni tanlash muayyan kontekstda qo‘llaniladigan uslub va registrga bog‘liq. Masalan, shifokorlar bemor bilan gaplashganda va tibbiyot xodimlari (hamshira yoki boshqa shifokor) bilan gaplashganda turli registrlardan foydalanadilar. Talabalar odatda xotirasida saqlangan lug‘at miqdorini kengaytirishni xohlaydilar, chunki bu ularning chet tilni o‘zlashtirish-ning eng yaxshi ko‘rsatkichi hisoblanadi. So‘z boyligini rivojlantirish “Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili” kurslarining asosiy sohasidir. So‘zlarning qanday qilib birlashishi va semantik va grammatik jihatdan tuzilishini ko‘rsatish va ma’lum bir kontekstda qaysi so‘zlardan foydalanish kerakligini ko‘rsatish barcha chet til o‘quv kurslari dasturlarining muhim qismidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Alabsi T.A. The effectiveness of role-play strategy in teaching vocabulary // 2016.; Epstein R.M. Defining and assessing professional competence // JAMA. 2002; –P. 226.

2. Allen Harold B., Campbell Russell N. Teaching English as a Second Language (Second ed.). – New York: McGraw-Hill, Inc.2002 – P. 98.

3. Altun M. Using Role–Play Activities to Develop Speaking Skills: A Case Study In The Language Classroom // Iraq, Book of Proceedings. –354 p. TESOL Quarterly, 2015.

4. Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov S.Sh. English language teaching methodology. – Tashkent, 2015.–P.338

5. Jumanazarov U.U. Ta’limni axborotlshtirish sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining frazeologik kompetensiyasini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – T., 2019.

6. Jo‘rayev A.X. Chet tilda talabalar kommunikativ malakalarini takomillashtirish texnologiyasi (ispan materialida). – T., 2009.– 157 b.

7. Zamanov O. Tibbiyot xodimlari xorijda malaka oshiradi // Elektron resurs: https://www.norma.uz/uz/qo. Murojaat sanasi: 2 aprel, 2023 yil.

8. Ikromxonova F.I. Ingliz tilidan kommunikativ-kognitiv korrektiv kurs nazariyasi va amaliyoti (nolisoniy oliy o‘quv yurtlari misolida).: Avtoref. dis. ... ped. fan. nom. – Toshkent, 2012. –B. 26.

9. Rashidova N.X. Development technologies of medical students’ lexical competence in English classes// “International journal of advanced research in management and social sciences” Philippines-2022, Pp. 117-120.

10. Rashidova N.X. Ingliz tili darslarida talabalarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish//“NamDU axborotnomasi” 4-son. Namangan- 2022, 627-630-betlar.

11. Rashidova N.X. The use of modern information technologies in teaching English vocabulary// “NamDU axborotnomasi” maxsus son. Namangan- 2022, 731-734-betlar.

12. Rashidova N.X. Learning English// darslik. Namangan-2024

13. Rashidova N.X. Intercultural communication// Uslubiy qo‘llanma. Namangan-2022.

14. Rashidova N.X. Pediatriya yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tilidan matn va mashqlar to‘plami// Uslubiy qo‘llanma. Namangan-2022

15. Rashidova N.X. Essential English for medical students//Uslubiy qo‘llanma. Namangan-2022.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**N.Karimov**
NamDU dotsenti
**O.Otamirzayev**
NamDU o'qituvchisi

## O'QITUVCHINING DARS JARAYONIDAGI PEDAGOGIK MAHORATI.

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada o'qituvchining dars jarayonidagi pedagogik mahoratiga alohida e'tibor qaratilgan.*

***Kalit so'zlar.*** *O'qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirish, pedagogik mahoratni tashkil etish, O'qituvchining pedagogik qobiliyati, O'qituvchining shaxsiy fazilatlari.*

**Н. Каримов**
доцент, НамДУ
**О. Отамирзаев**
преподаватель, НамДУ

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАВЫКИ УЧИТЕЛЯ В ПРОЦЕССЕ УРОКА

**Аннотация.** *Три статьи посвящены педагогическим навыкам учителя в процессе урока.*

***Ключевые слова:*** *совершенствование педагогических навыков учителя, организация педагогических навыков, педагогические навыки учителя, педагогические навыки учителя.*

.

**N.Karimov**
Associate Professor, NamDU
**O. Otamirzayev**
Teacher, NamDU

## TEACHER'S PEDAGOGICAL SKILLS IN THE LESSON PROCESS

***Annotation.****Three articles pay special attention to the teacher's pedagogical skills in the lesson process.*

***Keywords.*** *Improving the teacher's pedagogical skills, organizing pedagogical skills, Teacher's pedagogical skills, Teacher's pedagogical skills.*

### Kirish

**Pedagogik mahorat** — bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori saviyada tashkil eta olish qobiliyati bo'lib, u bilim, tajriba, shaxsiy fazilatlar va kasbiy ko'nikmalar majmuasidan iborat. Bu faqat bilim berish emas, balki o'quvchini **tushunish, yo'naltirish va rivojlantirish san'ati**dir. Barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining me'mori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g'oyaviy –siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb–hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy–iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu ma'suliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, ta'lim oluvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun doimo o'qituvchining kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini oshirib borish, g'amxo'rlik qilish, unga zarur shart – sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy –metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchining ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashish lozim. Shunga asosan, «Pedagogik mahorat» moduli o'qituvchilar va tarbiyachilarning kasbiy faoliyati sirlarini, mohirligini o'rgatuvchi va uni takomillashtirish to'g'risida ma'lumotlar berib boruvchi modul bo'lib, o'qituvchida pedagogik mahoratning mohiyat mazmunini, hozirgi zamon talablari doirasida kasbiy faoliyatini rivojlantirishning yo'llarini, vositalarini, shakllarini o'rganadi.

Pedagogik mahorat o‘qituvchining:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql zakovatning yuksak ko‘rsatkichi;

2. O‘z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi;

3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi;

4. O‘quv – tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi. Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik yo‘nalishi;

2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish;

3. Pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish;

4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

Pedagogik mahorat o‘qituvchi – tarbiyachiga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta’lim – tarbiya jarayonida o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning o‘zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma’naviy – ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq–atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o‘rgatadi va o‘z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to‘g‘risida ma’lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o‘qituvchining pedagogik faoliyati zamirida takomillashib boradi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta’lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o‘qituvchilar mehnati faoliyatidir. Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, ta’lim oluvchilarga nisbatan chuqur hurmatda bo‘lmagan o‘qituvchi ta’lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta’minlovchi fikrga ega bo‘lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo‘lib, o‘qituvchining faoliyat mezonini belgilab beradi. O‘qituvchining faoliyati pedagogik jarayonning harakat vositasidir. O‘qituvchi pedagogik faoliyati ijobiy natijalari mehnat malakasini, ya’ni egallagan bilimlarini o‘zining hayotiy va amaliy faoliyatida nechog‘lik qo‘llay bilishi bilan belgilanadi. O‘qituvchining pedagogik faoliyati samarali bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko‘ra bilish, diqqatni taqsimlab olish, vaziyatni to‘g‘ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan har xil ziddiyatlarni o‘z vaqtida bartaraf etish, yoshlarni bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi. Pedagogik mahorat kasbga doir topshiriq va vazifalarni yechish uchun o‘quv – tarbiya jarayonini boshqarish, unga rahbarlik qilishda pedagogik–psixologik ta’limot nuqtai – nazaridan yondashish, ta’lim –tarbiyani milliy an’analarimiz ruhida zamonaviy metodlar asosida modellashtirish, o‘quv – tarbiyaviy jarayonda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish uchun o‘qituvchi mahoratining zarurligi haqidagi ma’lumotlarning yortilishi nazarda tutiladi. Shunga ko‘ra, “Pedagogik mahorat” moduli kasbga oid bilim va qobiliyatlarni o‘qituvchilarda shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, mahorat, ko‘nikma va malakalarni egallashlari uchun, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokat, nutq madaniyati to‘g‘risida ma’lumotlar berib boradi. Bu maqsad va vazifalarning hal etilishi o‘qituvchi – tarbiyachini zamon bilan hamnafas bo‘lishga, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko‘ra olishga o‘rgatadi. Har bir o‘qituvchi shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o‘z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga o‘rgatadi, hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo‘lishni tarbiyalaydi. Hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan pedagogik mahoratga quyidagicha ta’rif beriladi: Pedagogik mahorat – o‘qituvchining shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo‘lib, o‘qituvchining ta’lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta’minlovchi faoliyatdir. U o‘z fanini mukammal bilgan, pedagogik–psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo‘lgan, o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo‘llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o‘qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo‘lish uchun o‘qituvchi o‘z o‘quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo‘lishi, hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o‘zida tarkib toptirishi lozim. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, quyidagi to‘rtta komponent pedagogik mahoratning asosiy tashkil etuvchilari hisoblanadi:

- o‘qituvchilik kasbiga sadoqat;
- o‘z fanini o‘qitish metodikasini mukammal bilishi;
- pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi;
- pedagogik texnikani o‘z o‘rnida qo‘llay bilishi.

Shuni alohida qayd etib o‘tish zarurki, o‘qituvchilik kasbi murakkab va mas’uliyatli jarayondan iborat. Ushbu kasbning sharafliligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, o‘qituvchi doimo ongning yagona sohibi bo‘lmish

insonning ta'lim–tarbiyasi bilan shug'ullanib, u bilan muloqot olib boradi. O'qituvchining shaxsiy fazilatlari sirasiga iymon–e'tiqodi, dunyoqarashining kengligi, faolligi, odob–axloqi, fuqarolik burchini his qilishi, ma'naviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat'iyligi va o'z maqsadlariga intilishi, insonparvarligi, huquqiy bilimdonligi, mamlakatimizning ijtimoiy–siyosiy talablariga o'z fikr mulohazasi bilan faol ishtirok etishi kiradi.O'qituvchining kasbiy xususiyatlariga: o'z kasbini, bolalarni sevishi, ziyrakligi, hozirjavobligi, vazminligi, pedagogik nazokati, tasavvuri, qobiliyati, tashkilotchiligi, notiqlik madaniyati, chuqur va keng ilmiy saviyasi, kasbiy layoqatliligi, ma'naviy ehtiyoji va qiziqishi, intellekti, yangilikni anglay va qo'llay olishi, kasbiy ma'lumotni muntazam oshirishga nisbatan intilishi va boshqa fazilatlari kiradi.

O'qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

1) O'qituvchining shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi.

2) O'qituvchining ruhiy – psixologik tayyorgarligi.

3) O'qituvchining ijtimoiy – pedagogik va ilmiy – nazariy jihatdan tayyorgarligi.

4) O'qituvchining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi. bilimlarni doimiy egallab borishi lozim. Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta'minlovchi omillar quyidagilar:

a) ixtisoslik bo'yicha o'quv predmetini, zamon, ilm–fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal bilishi, uning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlash malakasiga ega bo'lishi;

b) ta'lim oluvchilarning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi, ularning faoliyatini ob'yektiv nazorat qilishi va baholashi;

v) ta'lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish asosida o'z faoliyatini tashkil etishi;

g) o'quv – tarbiyaviy jarayonni zamon talablari darajasida tashkil qilish uchun asosiy pedagogik– psixologik, metodik ma'lumotga ega bo'lishi;

d) fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanishni bilishi;

e) jamoani "ko'ra bilish", ta'lim oluvchilarning qiziqishlari, intilishlari, ular uchraydigan qiyinchiliklarni tushunish va hamdard bo'la olish, o'z vaqtida ular fikrini anglay bilish, zukkolik bilan har bir ta'lim oluvchining xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini tushunish hamda ularga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardor bo'lishi;

j) o'z shaxsiy sifatlari (nutqining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va hokazo) ni takomillashtirish malakasiga ega bo'lishi.

**Xulosa**

O'qituvchining pedagogik mahorati kasbiy faoliyat davomida shakllanib boradi. Yuksak saviyali pedagogik kadrlar tayyorlashga nisbatan talablar, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, o'z kasbi bilan uzluksiz taraqqiyotga moslasha oladigan o'qituvchining shakllanishi, bo'lajak o'qituvchi umummilliy mavqeining o'sib borishini ta'minlaydi. Pedagogik mahorat pedagogika, psixologiya va metodika fanlariga tayangan holda shakllanadi. U o'qituvchining ta'lim jarayonini ongli ravishda boshqarish, o'quvchilarga individual yondashish va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish qobiliyatini ifodalaydi. Pedagogik mahorat — bu o'qituvchining kasbiy yetukligi va shaxsiy barkamolligining natijasidir. U doimiy izlanish, tajriba va o'z ustida ishlash orqali rivojlanadi. Pedagogik mahoratga ega o'qituvchi jamiyatning ma'naviy va intellektual taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat yo'nalishi "Pedagogik mahoratni rivojlantirish strategiyalari" moduli bo'yicha O' q u v –u s l u b i y m a j m u a Toshkent – 2019

2. Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

3. Husanov B. G'ulomov V. Muomala madaniyati. Darslik. - T.: Iqtisod - moliya 2009.- 156 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'gli**
Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi
katta o'qituvchisi p.f.b.f.d, PhD

## FANLARARO INTEGRATSIYANING DIDAKTIK MOHIYATI VA TA'LIM JARAYONIDAGI FUNKSIYALARI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada fanlararo integratsiyaning didaktik mohiyati, nazariy asoslari va zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni hamda funksiyalari yoritilgan. Integratsiyalangan ta'lim yondashuvi o'quvchilarning bilim olishiga kompleks yondashuv, bilimlarni tizimli egallash, dunyoqarashni kengaytirish va turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglashga yordam beradigan samarali pedagogik vosita sifatida tahlil qilingan. Maqolada fanlararo integratsiyaning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalari, uning turli shakllari, amalga oshirish usullari hamda zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati tadqiq etilgan. Shuningdek, integratsiyalangan darslarni tashkil etishning metodologik tamoyillari, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar va bu jarayonning samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari fanlararo integratsiyaning o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy fikrlashni shakllantirish va amaliy ko'nikmalarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar****: fanlararo integratsiya, didaktika, ta'lim jarayoni, tizimli yondashuv, integralangan dars, ta'limiy funksiyalar, kognitiv rivojlanish.*

**Сатвольдиев Фахриддин Акбарали огли**
Наманганский региональный центр педагогических навыков
старший преподаватель, кандидат наук, PhD

## ДИДАКТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ И ЕЕ ФУНКЦИИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются дидактическая сущность, теоретические основы, роль и функции междисциплинарной интеграции в современном образовательном процессе. Интегрированный образовательный подход анализируется как эффективный педагогический инструмент, помогающий учащимся приобретать знания, систематически усваивать знания, расширять мировоззрение и понимать взаимосвязь между различными дисциплинами. В статье рассматриваются образовательные, воспитательно-развивающие функции междисциплинарной интеграции, ее различные формы, методы реализации и ее значение в современной системе образования. Также рассматриваются методические принципы организации интегрированных уроков, требования к профессиональной компетентности учителей и способы повышения эффективности этого процесса. Результаты исследования показывают, что междисциплинарная интеграция важна для развития познавательных способностей учащихся, формирования творческого мышления и укрепления практических навыков.*

***Ключевые слова:*** *междисциплинарная интеграция, дидактика, образовательный процесс, системный подход, интегрированный урок, образовательные функции, познавательное развитие.*

**Satvoldiev Fakhriddin Akbarali o'gli**
Namangan Regional Pedagogical Skills Center
senior teacher d.p.p.s, PhD

## DIDACTIC ESSENCE OF INTERDISCIPLINARY INTEGRATION AND FUNCTIONS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

***Abstract****. This article covers the didactic essence, theoretical foundations, and the role and functions of interdisciplinary integration in the modern educational process. The integrated educational approach is analyzed as an effective pedagogical tool that helps students acquire knowledge, systematically acquire knowledge, broaden their worldview, and understand the connection between different disciplines. The article examines the educational, educational, and developmental functions of interdisciplinary*

*integration, its various forms, methods of implementation, and its significance in the modern education system. The methodological principles of organizing integrated lessons, requirements for teachers' professional competencies, and ways to increase the effectiveness of this process are also considered. The results of the study show that interdisciplinary integration is important in developing students' cognitive abilities, forming creative thinking, and strengthening practical skills.*

***Keywords:*** *interdisciplinary integration, didactics, educational process, systematic approach, integrated lesson, educational functions, cognitive development.*

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga nafaqat alohida fanlar bo'yicha chuqur bilimlar berish, balki bu bilimlarning o'zaro bog'liqligini, dunyo haqida yaxlit tasavvur shakllantirishni ta'minlashdir. Bugungi kunda axborot oqimining tobora ortib borishi, fanlarning keskin ixtisoslashuvi bilan bir qatorda ularning o'zaro integratsiyalashuvi jarayonlari kuchaymoqda. Bu esa ta'lim sohasida ham fanlararo integratsiya muammolariga e'tiborni kuchaytiradi. Fanlararo integratsiya - bu turli o'quv fanlarining ma'lum mavzular, masalalar yoki hodisalarni o'rganishda o'zaro uyg'unlashib, birlashib, o'quvchilarda yaxlit bilimlar tizimini shakllantiruvchi ta'limiy jarayondir. Bu yondashuv o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish va turli fanlar doirasida olingan ma'lumotlarni sintez qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyaning ahamiyati shundaki, u o'quvchilarga atrofdagi olamni bir butunlik sifatida idrok etish, turli hodisalar orasidagi sabab-oqibat aloqalarini tushunish va muammolarni kompleks ravishda hal qilish imkoniyatini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, fanlararo integratsiyaning didaktik mohiyatini va uning ta'lim jarayonidagi funksiyalarini chuqur o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot metodologiyasi fanlararo integratsiyaning didaktik mohiyati uning ta'lim jarayonining asosiy komponentlariga - maqsad, mazmun, shakl, metod va natijaga ta'sirida namoyon bo'ladi. Integratsiya ta'lim maqsadlarini yanada kengaytiradi, chunki u nafaqat aniq fanning o'zlashtirish darajasini oshirishni, balki fanlararo bilimlar sintezini, analitik fikrlashni va muammolarni kompleks hal qilish qobiliyatini rivojlantirishni ham ko'zda tutadi. Ta'lim mazmuni jihatidan integratsiya yangi sifatga ega bo'ladi. Alohida fanlarning bilimlar yig'indisi emas, balki ularning organik birligi, o'zaro bog'liqligi va to'ldirishi asosida tashkil etilgan yaxlit bilimlar tizimi vujudga keladi. Bu esa o'quvchilarda dunyoning ilmiy manzirasini shakllantirish uchun muhim asos yaratadi. Didaktik jihatdan fanlararo integratsiya o'qitish jarayonining samaradorligini oshiradi. Bir xil yoki o'xshash tushunchalar turli fanlar doirasida qayta-qayta takrorlanishi bilimlarning mustahkamlanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, turli fanlar nuqtai nazaridan bir hodisani ko'rib chiqish o'quvchilarda narsalar va hodisalarning murakkabligini tushunishga yordam beradi. Integratsiya o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Fanlararo integratsiya g'oyasi pedagogika tarixida chuqur ildizlarga ega. Ya.A. Komenskiy[1], I.G. Pestalotstsi[2], K.D. Ushinskiy[3] kabi klassik pedagoglar ta'limda fanlarning o'zaro bog'lanishiga katta ahamiyat berishgan. Zamonavir ilmiy adabiyotlarda fanlararo integratsiya muammolari turli yondashuvlar asosida o'rganilgan. Tizimli yondashuv fanlararo integratsiyani murakkab pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqadi, bu yerda har bir element (fan, mavzu, metod) o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Didaktik jihatdan fanlararo integratsiya ikki yoki undan ortiq fanning bilimlar, usullar va ko'nikmalarini muayyan ta'lim maqsadlariga erishish uchun birlashtirishni anglatadi. Bu jarayon bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi: fanlarning umumiy jihatlari va bog'lanish nuqtalarini aniqlash, integratsiya darajasini belgilash, integratsiyalangan o'quv materiallarini tanlash va tashkil etish, o'qitish metodlari va shakllarini ishlab chiqish. Fanlararo integratsiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: ilmiylik tamoyili - integratsiya ilmiy asoslangan bo'lishi va fanlarning haqiqiy o'zaro aloqalarini aks ettirishi kerak; tizimlilik tamoyili - bilimlar tizimli ravishda, izchil va mantiqiy ketma-ketlikda berilishi zarur; maqsadga muvofiqlik tamoyili - integratsiya aniq didaktik maqsadlarga xizmat qilishi lozim; komplekslik tamoyili - turli fanlarning birikmasi yaxlit kompleksni tashkil etishi kerak. Integratsiyaning turli darajalari mavjud: ichki fan integratsiyasi (bir fan doirasida turli bo'limlarni birlashtirish), fanlararo integratsiya (ikki yoki bir necha fanlarni birlashtirish), transdissiplinar integratsiya (fanlar chegaralaridan tashqariga chiqadigan universal bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish).

**Muhokama va natijalar.** Fanlararo integratsiya ta'lim jarayonida bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. Bu funksiyalarni shartli ravishda bir necha guruhga ajratish mumkin: ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va amaliy funksiyalar.

*Ta'limiy funksiyalar*: Bilimlarni tizimlashtirish funksiyasi - integratsiya turli fanlar doirasida olingan bilimlarni yagona tizimga birlashtirishga yordam beradi. O'quvchilar alohida faktlar emas, balki ularning o'zaro bog'liqligini, umumiy qonuniyatlarini tushunishadi. Bilimlarni chuqurlashtirish funksiyasi - bir hodisani turli fanlar nuqtai nazaridan o'rganish uning mohiyatini yanada chuqurroq anglashga imkon beradi. Bilimlarni kengaytirish funksiyasi - integratsiya orqali o'quvchilar o'z bilimlar doirasini kengaytiradilar, turli sohalar o'rtasidagi aloqalarni kashf qiladilar.[4]

*Tarbiyaviy funksiyalar:* Dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi - integratsiya o‘quvchilarda dunyo haqida ilmiy asoslangan, yaxlit tasavvurni shakllantiradi. Intellektual madaniyatni rivojlantirish funksiyasi - turli fanlar metodologiyasi bilan tanishish, turli yondashuvlarni qo‘llash o‘quvchilarning intellektual madaniyatini boyitadi. Qadriyatlarni shakllantirish funksiyasi - fanlararo o‘rganish jarayonida o‘quvchilar tabiatga, jamiyatga, madaniyatga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantiradilar.

*Rivojlantiruvchi funksiyalar:* Fikrlashni rivojlantirish funksiyasi - integratsiya turli turdagi fikrlashni talab qiladi va rivojlantiradi: mantiqiy, analitik, kritik, ijodiy fikrlash. Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish funksiyasi - taqqoslash, tahlil qilish, sintez qilish, umumlashtirish, konkretlashtirish kabi aqliy operatsiyalar faol ravishda rivojlanadi. Kreativlikni rivojlantirish funksiyasi - turli fanlar ma‘lumotlarini birlashtirish, muammolarni noan'anaviy hal qilish ijodiy qobiliyatlarni stimullashtiradi.

*Amaliy funksiyalar*: Bilimlarni qo‘llash funksiyasi - integratsiyalangan bilimlar o‘quvchilarga hayotiy va kasbiy vazifalarni hal qilishda yordam beradi. Fanlararo ko‘nikmalarni shakllantirish funksiyasi - bir necha fanlarda qo‘llaniladigan universal ko‘nikmalar (tadqiqot ko‘nikmalari, ma‘lumotlarni qayta ishlash, muloqot ko‘nikmalari) shakllanadi. Muammolarni hal qilish funksiyasi - murakkab, ko‘p qirrali muammolarni integratsiyalangan bilimlar asosida samarali hal qilish qobiliyati rivojlanadi.

Fanlararo integratsiya turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Eng keng tarqalgan shakllar quyidagilardir: integratsiyalangan darslar - bu ikki yoki bir necha fanning materiallarini birlashtirgan holda o‘tkaziladigan darslar; integratsiyalangan kurslar - bir necha fanlarning elementlarini o‘z ichiga olgan maxsus o‘quv kurslari; loyihali faoliyat - o‘quvchilar turli fanlar bilimlarini qo‘llab muayyan loyihani amalga oshiradilar; fanlararo mavzular va bo‘limlar - turli fanlarda umumiy mavzu yoki muammo ko‘rib chiqiladi. Integratsiyaning turlari mavzuga, fanlarga va integratsiya darajasiga bog'liq ravishda farqlanadi. Gorizontal integratsiya - bir darajadagi fanlar o‘rtasida amalga oshiriladi (masalan, fizika va kimyo, tarix va adabiyot). Vertikal integratsiya - turli darajadagi bilimlar o‘rtasida amalga oshiriladi (masalan, boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik va o‘rta sinfda biologiya). Qisman integratsiya - faqat ayrim mavzular yoki bo‘limlar uchun amalga oshiriladi. To‘liq integratsiya - butun o‘quv kurs yoki predmet integratsiyalangan asosda tuziladi. Fanlararo integratsiyani amalga oshirishda quyidagi shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega: o‘qituvchilarning yuqori kasbiy tayyorgarligi va fanlararo bilimlar doirasiga ega bo‘lishi, turli fanlar o‘qituvchilarining hamkorligi va birgalikda ish olib borishi, integratsiyalangan o‘quv dasturlari va metodologik qo‘llanmalarning mavjudligi, zamonaviy ta‘lim texnologiyalari va vositalaridan foydalanish imkoniyati.[5]

Integratsiyalangan darslarni tashkil etish maxsus metodologik yondashuvni talab qiladi. Bunday darslarni tayyorlash jarayoni bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Birinchi bosqichda integralash uchun mos fanlar va mavzular tanlanadi, umumiy maqsad va vazifalar belgilanadi. Ikkinchi bosqichda darsning tuzilishi ishlab chiqiladi, turli fanlarning materiallari mantiqiy ketma-ketlikda joylashtiriladi. Uchinchi bosqichda o‘qitish metodlari va shakllari, didaktik vositalar tanlanadi. To‘rtinchi bosqichda dars rejasi va konspekti tuziladi. Integratsiyalangan darsning tuzilishi an'anaviy darsdan farq qiladi. Odatda bunday dars quyidagi qismlardan iborat bo‘ladi: kirish qismi - muammoning qo‘yilishi, integratsiyaning zarurligini asoslash; asosiy qism - turli fanlar ma‘lumotlari asosida muammoni ko‘rib chiqish, tahlil qilish, sintez qilish; xulosa qismi - umumlashtirish, xulosalar chiqarish, bilimlarni tizimlashtirish. Integratsiyalangan darslarda turli o‘qitish metodlaridan foydalaniladi: muammoli bayon - muammoning qo‘yilishi va uni hal qilish yo‘llarini ko‘rsatish; evristik suhbat - savollar orqali o‘quvchilarni mustaqil xulosalarga olib kelish; tadqiqot metodi - o‘quvchilarning mustaqil tadqiqot faoliyati; loyihali metod - amaliy vazifalarni bajarish orqali o‘rganish. Shuningdek, guruhli ish, juftlik bilan ishlash, prezentatsiyalar tayyorlash, diskussiyalar va boshqa faol metodlar keng qo‘llaniladi. O‘qituvchidan integratsiyalangan darslarni o‘tkazish maxsus kompetensiyalarni talab qiladi: keng fanga oid bilimlar - kamida ikki fan bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lish; metodologik kompetensiya - turli metodlarni qo‘llash va ularni mos ravishda tanlash qobiliyati; tashkiliy kompetensiya - murakkab darslarni rejalashtirib, samarali tashkil qilish ko‘nikmalari; kreativlik - noan'anaviy yechimlar topish, ijodiy yondashuv.[6]

Fanlararo integratsiyaning samaradorligini baholash murakkab vazifa bo‘lib, u bir necha yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Bilimlar sifatini baholash - o‘quvchilarning bilimlar chuqurligi, kengligi va tizimliligi aniqlanadi. Kompetensiyalarni baholash - fanlararo ko‘nikmalar, amaliy qobiliyatlar darajasi o‘lchanadi. Rivojlanish darajasini baholash - kognitiv, ijodiy, shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Motivatsiya va qiziqishlarni baholash - o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi, motivatsiya darajasi o‘rganiladi. Baholash uchun turli metodlardan foydalaniladi: testlar va nazorat ishlari - bilimlar va ko‘nikmalarni aniqlovchi standartlashtirilgan topshiriqlar; loyihali ishlar - kompleks, ijodiy topshiriqlarni bajarish orqali kompetensiyalarni aniqlash; kuzatish - dars jarayonida o‘quvchilarning faolligini, qiziqishini kuzatish; so‘rovlar va intervyular - o‘quvchilarning fikr-mulohazalarini, munosabatlarini o‘rganish. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, fanlararo integratsiya o‘quvchilarning bilim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Integratsiyalangan darslar o‘tgan o‘quvchilar an'anaviy darslar o‘tgan o‘quvchilarga nisbatan bilimlarni uzoq muddatga eslab qolish, ularni turli vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatida ustunlik ko‘rsatadilar. Bundan

tashqari, integratsiya o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.[7]

Fanlararo integratsiya zamonaviy ta‘lim amaliyotida keng qo‘llanilmoqda. Masalan, tarix va adabiyot integratsiyasi ma‘lum tarixiy davr adabiyotini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar adabiy asarlarni ijtimoiy-tarixiy kontekstda tahlil qiladilar, davr ruhini, jamiyat muammolarini tushunishadi.

Fizika va matematika integratsiyasi aniq fanlarni o‘rganishda asosiy hisoblanadi. Matematika fizika uchun til vazifasini o‘taydi, fizik qonuniyatlar matematik formulalar orqali ifodalanadi. Bu integratsiya o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradi. Kimyo va biologiya integratsiyasi hayotning molekulyar asoslarini tushunish uchun zarur. Biokimyoviy jarayonlar, tirik organizmlarning moddalar almashinuvi, genetika - bularning barchasi ikki fanning birlashuvida yaxshi tushuniladi. Geografiya va ekologiya integratsiyasi atrof-muhit muammolarini, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni o‘rganishda muhim.[8] O‘quvchilar geografik bilimlar asosida ekologik muammolarni tahlil qiladilar, ularni hal qilish yo‘llarini qidiradilar. Informatika va boshqa fanlar integratsiyasi zamonaviy ta‘limda alohida o‘rin tutadi. Kompyuter texnologiyalari deyarli barcha fanlarda vosita sifatida qo‘llaniladi: ma‘lumotlarni qayta ishlash, modellashtirish, vizualizatsiya, tadqiqotlar o‘tkazish. San'at fanlari (musiqa, tasviriy san'at) va boshqa fanlar integratsiyasi o‘quvchilarning estetik madaniyatini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi. Masalan, matematika va musiqa integratsiyasi ritm, proporsiya, simmetriya kabi umumiy tushunchalar orqali amalga oshiriladi. Fanlararo integratsiyaning amalda qo‘llanilishi bir qator muammolarga duch keladi. Kelajakda fanlararo integratsiya yanada rivojlanib, ta‘lim tizimining asosiy tamoyillaridan biriga aylanishi kutiladi. Ehtimol, kelajakda alohida fanlar emas, balki integratsiyalangan bilimlar sohalari bo‘yicha ta‘lim tashkil etiladi. Bu o‘quvchilarga dunyo haqida yaxlit, ilmiy tasavvurni shakllantirish, ularni zamonaviy hayotga tayyorlashning eng samarali yo‘li bo‘ladi.

**Xulosa.** Fanlararo integratsiya zamonaviy ta‘lim tizimining muhim komponenti bo‘lib, uning didaktik mohiyati va ta‘lim jarayonidagi funksiyalari ko‘p qirralidir. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirishga imkon beradi. Birinchidan, fanlararo integratsiya didaktik jihatdan ta‘lim jarayonining barcha komponentlarini - maqsad, mazmun, shakl, metod va natijalarni - o‘zgartiradigan va takomillashtiradigan kuchli vositadir. U o‘quvchilarda yaxlit, tizimli bilimlarni shakllantirish, turli fanlar o‘rtasidagi bog'liqliklarni anglash va dunyo haqida ilmiy asoslangan tasavvurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, fanlararo integratsiya ta‘lim jarayonida bir qator muhim funksiyalarni bajaradi: bilimlarni tizimlashtirish, chuqurlashtirish va kengaytirish (ta‘limiy funksiyalar), dunyoqarashni shakllantirish va qadriyatlarni rivojlantirish (tarbiyaviy funksiyalar), fikrlash va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish (rivojlantiruvchi funksiyalar), bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish (amaliy funksiyalar). Bu funksiyalar o‘zaro bog'liq holda ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Uchinchidan, fanlararo integratsiyani amalga oshirish turli shakl va usullarni talab qiladi. Integratsiyalangan darslar, kurslar, loyihali faoliyat, fanlararo mavzular bu integratsiyaning asosiy shakllaridan hisoblanadi. Ularni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchilarning yuqori kasbiy tayyorgarligi, fanlararo hamkorlik, zamonaviy metodologik ta‘minot va texnologiyalardan foydalanish zarur. To‘rtinchidan, fanlararo integratsiya o‘quvchilarning akademik yutuqlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Integratsiyalangan ta‘lim olgan o‘quvchilar bilimlarni mustahkamroq o‘zlashtirishadi, ularni turli vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lishadi, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari ortadi. Beshinchidan, fanlararo integratsiyaning kelajagi yorqin. Zamonaviy dunyoda murakkab muammolarni hal qilish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, turli sohalarning chegarasida ishlash uchun fanlararo bilimlar va kompetensiyalar zarur. Shuning uchun fanlararo integratsiya ta‘lim tizimida yanada kengayib boradi va takomillashib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Андрюхина Л. M. YA. A. KOMENSKY: STRATEGIES AHEAD OF TIME //Россия и Европа: связь культуры и экономики. – С. 90.

2. Pestalotstsi I. G. Izbrannye pedagogicheskie sochineniya [Selected works on pedagogy] //Moscow, Pedagogika Publ. – 1981.

3. Pomelov V. B. KD Ushinsky's activity as editor of the" Journal of the Ministry of Public Education"(to the 200th anniversary of his birth) //Перспективы науки и образования. – 2023. – №. 3 (63). – С. 572-584.

4. Zokirovna X. G., Qodirov Q. B. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FANLARARO INTEGRATSIYANING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI //TADQIQOTLAR. – 2025. – Т. 76. – №. 5. – С. 267-270.

5. Muxtarovna B. S. FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI TASHKIL ETISH TAJRIBALARI //New modern researchers: modern proposals and solutions. – 2025. – Т. 2. – №. 6. – С. 31-34.

6. Otto M. et al. FANLARARO BOG‘LANISHLAR ASOSIDA TALABALARNI BILIM VA KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH //QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – Т. 9. – С. 187-192.

7. Baltabayevich A. S. et al. O ‘QUV JARAYONIDA FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING JORIY HOLATI HAMDA MUAMMOLARI //TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR. – 2025. – T. 2. – №. 6. – C. 567-570.

8. Newell W. H., Wentworth J., Sebberson D. A theory of interdisciplinary studies //Issues in Interdisciplinary Studies. – 2001.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Mo‘minova Go‘zalxon G‘ulamjanovna**
Maktabgacha - Boshlang‘ich ta’lim va sport faoliyati kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD
E-mail: mominovagozalxon09@gmail.com

## O‘QUVCHILARIDA LINGVISTIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA KOGNITIV-SEMANTIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK VA METODIK ASOSLARI

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetentlikni shakllantirish jarayonida kognitiv-semantik texnologiyalardan foydalanishning pedagogik va metodik asoslari yoritilgan. Kognitiv-semantik yondashuvning o‘quvchilarning nutqiy tafakkuri, so‘z boyligi va grammatik bilimlarini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *lingvistik kompetentlik, kognitiv-semantik texnologiyalar, boshlang‘ich ta’lim, nutqiy rivojlanish, semantik tahlil.*

**Моминова Гузальхон Гуламжановна**
Кафедра дошкольного, начального образования и спорта
Старший преподаватель, кандидат наук

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ

***Аннотация.*** *В данной статье рассматриваются педагогические и методические основы формирования лингвистической компетентности у учащихся начальных классов на основе когнитивно-семантических технологий. Анализируется роль когнитивно-семантического подхода в развитии речевого мышления, словарного запаса и грамматических навыков младших школьников. Обосновывается эффективность применения данных технологий в процессе обучения родному языку.*

***Ключевые слова:*** *лингвистическая компетентность, когнитивно-семантические технологии, начальное образование, речевое развитие, семантический анализ.*

**Muminova Guzalkhon Gulomjonovna**
Department of Preschool Education, Primary Education and Sports
Senior Teacher, PhD

## PEDAGOGICAL-METHODOLOGICAL BASES OF THE USE OF COGNITIVE-SEMANTIC TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF LINGUISTIC COMPETENCE IN STUDENTS.

***Abstract.*** *This article examines the pedagogical and methodological foundations of developing linguistic competence in primary school students through cognitive-semantic technologies. The role of the cognitive-semantic approach in enhancing pupils' speech thinking, vocabulary acquisition, and grammatical skills is analyzed. The effectiveness of applying these technologies in native language instruction is theoretically substantiated.*

***Keywords:*** *linguistic competence, cognitive-semantic technologies, primary education, speech development, semantic analysis.*

### Kirish

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida ta’lim tizimi oldiga shaxsning intellektual salohiyati va kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan yangi talablar qo‘yilmoqda. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning

faqat bilimga ega bo‘lishi emas, balki ushbu bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirishi, amaliyotda qo‘llay olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida, bilish faoliyati va nutqiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetentlikni shakllantirish keyingi ta’lim bosqichlarida fanlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. Til orqali o‘quvchi o‘z fikrini ifodalaydi, atrof-muhitni anglaydi va ijtimoiy muloqotga kirishadi.

Biroq amaldagi ona tili ta’limi amaliyotida ayrim muammolar mavjud. Jumladan, dars jarayonida grammatik qoidalarning ustuvorligi, mashqlarining reproduktiv xarakterga ega ekanligi, so‘z va tushunchalarning semantik mazmuniga yetarlicha e’tibor qaratilmasligi natijasida o‘quvchilarda til birliklarini ongli anglash darajasi ba’zi holatlarda past bo‘lib qolmoqda. Bu holat o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, matnni tushunish va o‘z fikrini izchil bayon etish ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmasligiga olib kelmoqda.

Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari - obrazli tafakkur, vizual idrok va assotsiativ fikrlashning ustunligi - ta’lim jarayonida mazmuniy va kognitiv yondashuvni talab etadi. Ammo amaliyotda ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda kognitiv-semantik texnologiyalarni tizimli qo‘llash yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

Mazkur holat boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetentlikni shakllantirishda kognitiv-semantik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, kognitiv-semantik texnologiyalarni ona tili darslariga integratsiya qilish, ularning didaktik imkoniyatlarini aniqlash va samaradorligini asoslash dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetentlikni shakllantirishda kognitiv-semantik texnologiyalardan foydalanish muammosi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularni ta’lim jarayonida qo‘llashning samarali yo‘llari yoritiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

So‘nggi yillarda pedagogika va lingvistika ilmiy tadqiqotlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetentlikni shakllantirish masalasi alohida e’tibor qozonmoqda. Tadqiqotchi Abduqodirov (2019) o‘z asarlarida ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish mumkinligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, Saidova (2019) ona tili darslarida lingvistik kompetentlikni shakllantirish jarayonida o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rag‘batlantirish muhimligini ko‘rsatadi.

Xalqaro tadqiqotlar (Khutorskoy, 2018; Zimnyaya, 2019) shuni ko‘rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtiradi va ularning fikrlash, tahlil qilish hamda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, kognitiv-semantik texnologiyalar so‘zning ma’nosini kontekst orqali o‘rganish, semantik xaritalar va assotsiativ bog‘lanishlar orqali nutqiy kompetentlikni shakllantirishda samarali hisoblanadi (Soliyeva, 2021).

Shuningdek, Mahmudov (2016) o‘quvchilarning til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, kognitiv metodlar yordamida til qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llarini ta’kidlaydi. To‘xtasinova (2020) esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kompetensiyalarni shakllantirishda semantik xaritalar, assotsiativ va kontekstual tahlil usullarini qo‘llashning pedagogik samaradorligini ilmiy asoslab beradi.

Adabiyotlar tahlili ko‘rsatadiki, **kognitiv-semantik texnologiyalar** boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetentlikni shakllantirishda eng dolzarb va samarali metodlardan biri hisoblanadi. Shu asosda, mazkur maqolada ushbu texnologiyalarni dars jarayoniga integratsiya qilishning metodik jihatlari va pedagogik tavsiyalari tahlil qilinadi.

**Tadqiqot Metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - **boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetentlikni shakllantirishda kognitiv-semantik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash**dir. Tadqiqotning obyekti - boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili bo‘yicha lingvistik kompetentligi, subyekti esa - **kognitiv-semantik texnologiyalarni qo‘llash jarayoni va uning natijalari** hisoblanadi.

**Kognitiv-semantik texnologiyalarning mohiyati**

Kognitiv-semantik texnologiyalar o‘quvchining bilish jarayonlari — idrok, tafakkur, xotira va mantiqiy fikrlash faoliyatiga tayangan holda ta’limni tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiyalar til birliklarining faqat shakliy jihatini emas, balki ularning mazmuniy-semantik tomonini chuqur anglashga yo‘naltiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkurining obrazliligi va emotsional qabul qilish xususiyati kognitiv-semantik yondashuvni qo‘llash uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

**Kognitiv-semantik texnologiyalar asosida lingvistik kompetentlikni shakllantirish usullari**

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

**Semantik xaritalar tuzish** – so‘zlar va tushunchalar o‘rtasidagi ma’no aloqalarini aniqlash. Quyida s**emantik xaritalar tuzishga misollar keltiramiz:**

1-misol: “Tabiat” mavzusi bo‘yicha.

***Markaziy tushuncha: Tabiat.***

***O‘simliklar:***

*- daraxt;*

*- gul;*

*- maysa.*

***Hayvonlar:***

*- qush;*

*- hayvon;*

*- baliq;*

***Tabiiy hodisalar:***

*- yomg‘ir;*

*- qor;*

*- shamol.*

**Semantik xaritalar tuzish natijasida** o‘quvchilar tushunchalarni guruhlashni va umumlashtirishni o‘rganadilar.

2-misol: “Kitob” so‘zi asosida semantik xarita

***Markaziy so‘z: Kitob.***

*- bilim;*

*- o‘qish;*

*- maktab;*

*- muallim;*

*- kutubxona.*

O‘quvchilarga kitob haqida 2–3 ta gap tuzish t**opshirig‘i beriladi.**

**3-misol: So‘z turkumlari bo‘yicha semantik xarita**

***Markaziy tushuncha: So‘z turkumlari.***

*Ot;*

*- kim? nima?*

*- kitob, bola.*

*Sifat;*

*- qanday? qanaqa?*

*- katta, chiroyli.*

*Fe’l;*

*- nima qildi?*

*- o‘qidi, yozdi*

Bunday topshiriqni bajarish natijasida o‘quvchilar grammatik tushunchalar osonroq o‘zlashtiradilar.

**4-misol: “Oila” mavzusi bo‘yicha semantik xarita**

***Markaziy tushuncha: Oila***

*- ota;*

*- ona;*

*- aka;*

*- opa;*

*- bobo;*

*- buvi.*

*O‘quvchilarga “Oilam” mavzusida kichik matn tuzish topshirig‘i beriladi.*

**5-misol: Fe’l mavzusi bo‘yicha semantik xarita**

***Markaziy tushuncha:*** *Fe’l*

*- harakat bildiradi;*

*- savollari: nima qildi? nima qilmoqda?*

*Misollar: yugurdi, o‘qiyapti, yozadi*

Bunday semantik xaritalar tuzish orqali o‘quvchilar fe’lning mazmunini ongli ravishda tushunadilar.

**Assotsiativ fikrlash** – berilgan so‘zga oid tushunchalarni aniqlash orqali so‘z boyligini kengaytirish. Assotsiativ fikrlash — o‘quvchining bir so‘z yoki tushunchani boshqa so‘zlar, obrazlar, holatlar bilan bog‘lab fikr yuritish qobiliyatidir. Bu usul so‘z ma’nosini chuqurroq anglash va lug‘at boyligini oshirishga yordam beradi.

**Kontekstual tahlil** – so‘z ma’nosini gap yoki matn asosida ochib berish;

1-misol: Ko‘p ma’noli so‘z (oddiy)

**So‘z:** Bosh

**Gaplar:**

1. **Bosh** og‘risa, dori ichiladi.
2. Sinfimizning **bosh** sardori bor.

**Savollar:**

1. Har ikki gapda “bosh” bir xil ma’nodami?
2. Birinchi gapda nimani bildiradi?
3. Ikkinchi gapda-chi?

So‘z ma’nosi kontekstga qarab o‘zgaradi.

**2-misol: “Yengil” so‘zi (sifat)**

**Gaplar:**

1. Bu sumka juda **yengil**.
2. Bugun mashqlar **yengil** bo‘ldi.

**Savol:** “Yengil” so‘zi har ikki gapda nimani anglatmoqda?

O‘quvchilar bunda predmet va holatga bog‘liq ma’no anglanadi.

**3-misol: Matn asosida kontekstual tahlil**

**Matn:**

Bahor keldi. Dalalarda yashil maysa ko‘rindi. Quyosh iliq nur sochdi.

**Topshiriqlar:**

1. “Iliq” so‘zi nimani bildiradi?
2. Agar “issiq” so‘zi qo‘llansa, ma’no o‘zgaradimi?

Bunda o‘quvchilar sinonimlar o‘rtasidagi farqni anglaydilar.

**4-misol: Qarama-qarshi ma’no (kontekst orqali)**

**Gaplar:**

1. Bu xona **yorug‘**.
2. Kechasi ko‘cha **qorong‘i** bo‘ldi.

**Topshiriq:** Yorug‘ so‘ziga qarama-qarshi so‘zni kontekstdan toping.

O‘quvchilarda antonim tushunchasi shakllanadi.

**Taqqoslash va umumlashtirish** – til birliklarini o‘zaro qiyoslash orqali grammatik tushunchalarni anglash;

**Taqqoslash** — ikki yoki undan ortiq predmet, hodisa yoki tushunchalarni **o‘xshash va farqli tomonlari** bo‘yicha solishtirish.

**Umumlashtirish** — solishtirish natijasida **umumiy tushuncha yoki xulosaga** kelish.

**1-misol: “Otlar va qushlar” (hayvonlar)**

**Jadval:**

| Belgilar | Otlar | Qushlar |
|---|---|---|
| Harakat | yuguradi | uchadi |
| Tana qoplamasi | tuk yoki jun | patlar |
| Ovozi | hirraydi | qichqiradi |
| Uy hayvoni | ba’zan | kam |

**Topshiriq:**

1. O‘xshash va farqli tomonlarini ayting.
2. “Otlar va qushlar — …” bilan umumlashtiring.

**Bunda o‘quvchilar h**ayvonlarning harakat va tana tuzilishi farqlaydilar.

**2-misol: “Bahor va Kuz” (fasllar)**

**Jadval:**

| Belgilar | Bahor | Kuz |
|---|---|---|
| Ob-havo | iliq, yomg‘ir | salqin, shamolli |
| Tabiat | gullar ochadi | barglar tushadi |
| Kun davomiyligi | uzun | qisqa |
| Rangsizlik | yashil rang | sariq-qizil rang |

**Topshiriq:**

1. Farq va o‘xshashlikni belgilang.
2. “Bahor va kuz — …” bilan umumiy xulosa chiqaring.

**Kognitiv savollar** – o‘quvchining mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish.

**Kognitiv savollar** — o‘quvchilarning **fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish va izohlash** qobiliyatini rag‘batlantiruvchi savollar. Ular shunchaki “ha/yo‘q” javob bermay, **chuqurroq tushunishga** yo‘naltiriladi.

**1. So‘z va ma’nosini anglashga oid savollar**

**So‘z:** Gul

1. Gul nima?
2. Gulning qaysi qismi eng muhim?
3. Gulning ranglari nima uchun turlicha bo‘ladi?
4. Agar gul ochmasa, nima bo‘ladi?

**Natija:** o‘quvchi so‘zning mazmuni, qismlari va funksiyasini tahlil qiladi.

**2. Matnni tushunishga oid savollar**

**Matn:**

Bahor keldi. Dalalarda yashil maysa ko‘rindi. Qushlar qo‘shiq kuylamoqda.

**Savollar:**

1. Matnda qanday fasl tasvirlangan?
2. “Yashil maysa” iborasi nimani bildiradi?
3. Qushlar nima uchun qo‘shiq kuylaydi deb o‘ylaysiz?
4. Siz bahorda nimalarni ko‘rasiz?

Bunda o‘quvchilar kontekstni tahlil qiladilar va xulosa chiqaradilar.

Bunday usullar o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi va lingvistik bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi.

## Natijalar va ularninig tahlili

Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kognitiv-semantik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning so‘z boyligi sezilarli darajada oshadi, nutqiy xatolar kamayadi, matn bilan ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi, mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyati shakllanadi.

Bu esa lingvistik kompetentlikni rivojlantirishda mazkur texnologiyalarning samaradorligini tasdiqlaydi.

## Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetentlikni shakllantirishda kognitiv-semantik texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lib, ularning nutqiy va tafakkuriy rivojlanishini ta’minlaydi. Shuning uchun ona tili darslarida kognitiv-semantik texnologiyalarni keng joriy etish pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduqodirov A.A. **Ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar**. – Toshkent: Fan, 2019.
2. Azizov O. **Ona tili o‘qitish metodikasi**. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. G‘afforova T., Yo‘ldosheva D. **Boshlang‘ich ta’limda nutqni rivojlantirish metodikasi**. – Toshkent: Noshir, 2018.
4. Jo‘rayev R.X. **Ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv**. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
5. Saidova M. **Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limining lingvistik asoslari**. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
6. Soliyeva M. **Kognitiv yondashuv asosida ta’limni tashkil etish.** Pedagogik ta’lim jurnali. – 2021. – №3. – B. 45–4

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Rustamjonov Shoxruxbek Akmaljon o'g'li**
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

## ZAMONAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA KASBIY MASULIYAT KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy mas’uliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida kasbiy mas’uliyat tushunchasining nazariy-metodologik asoslari ochib berilib, uni shakllantirishda kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan hamda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida amaliy mashg‘ulotlar, interfaol metodlar va refleksiv faoliyat orqali mas’uliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirish hamda ularning kasbiy faoliyatida mas’uliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Kasbiy mas’uliyat, bo‘lajak o‘qituvchi, jismoniy tarbiya, zamonaviy yondashuv, kompetensiya, pedagogik texnologiyalar.*

**Рустамджонов Шохрухбек Акмальжон оглу**
Независимый исследователь Андижанского государственного педагогического института

## РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННОГО ПОДХОДА

***Аннотация****: В статье рассматриваются вопросы развития профессиональной ответственности у будущих учителей физической культуры на основе современных педагогических подходов. Раскрываются теоретико-методологические основы понятия профессиональной ответственности, а также обосновывается значимость компетентностного, личностно-ориентированного и инновационного подходов в процессе её формирования. Особое внимание уделяется роли практических занятий, интерактивных методов обучения и рефлексивной деятельности в развитии профессионально значимых качеств будущих специалистов. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования системы профессиональной подготовки учителей физической культуры и повышения уровня их ответственности в педагогической деятельности.*

***Ключевые слова:*** *профессиональная ответственность, будущий учитель, физическая культура, современные подходы, компетентность, педагогические технологии.*

**Rustamjonov Shokhrukhbek Akmaljon oglu**
Independent researcher at Andijan State Pedagogical Institute

## DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL RESPONSIBILITY SKILLS IN FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS BASED ON A MODERN APPROACH

***Annotation:*** *This article examines the development of professional responsibility skills in prospective physical education teachers based on modern pedagogical approaches. The theoretical and methodological foundations of the concept of professional responsibility are analyzed, and the importance of competency-based, learner-centered, and innovative approaches in its formation is substantiated. Particular attention is paid to the role of practical training, interactive teaching methods, and reflective activities in fostering professionally significant qualities among future teachers. The findings of the study contribute to improving the professional training process of physical education teachers and enhancing their responsible attitude toward pedagogical practice.*

***Keywords:*** *professional responsibility, prospective teacher, physical education, modern approaches, competence, pedagogical technologies.*

**Kirish .** Bugungi globallashuv va ta’lim tizimining jadallik bilan yangilanib borishi sharoitida pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga qo‘yilayotgan talablar sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Ayniqsa, jismoniy tarbiya

U yoki bu odamning motor qobiliyatlari o‘ziga xos tarzda rivojlanadi. Kurashchi jismoniy rivojlangan bo‘lishi kerak. paradzyudo kurashda barcha jismoniy sifatlarga qo‘yiladigan talablar bir xilda qo‘yiladi. Kuch, chidamlilik yoki yepchillikda faqat bitta ustunlik hisobiga kurashda barqaror natijaga yerishish mumkin yemas. Shu bilan birga, teng darajada rivojlangan jismoniy fazilatlarga yega odamlar juda kam. Odatda jismoniy sifatlardan biri ikkinchisidan ustun turadi. Masalan, yetarlicha kuchli va epchil kurashchi ko‘pincha katta chidamlilik bilan ajralib turadi, o‘rta chidamli kurashchi o‘zining ajoyib tezligi va epchilligi bilan ajablantirishi mumkin, o‘rtacha tezkor va bardoshli sportchi taniqli kuchli odam bo‘lib chiqishi mumkin. Jismoniy fazilatlarning rivojlanishi ma’lum darajada sportchining kurash uslubi va tabiatiga, uning taktik va texnik mahoratiga o‘z izini qoldiradi.

Ushbu mavzusi dolzarbdir, chunki paradzyudo kurash jang san’ati turi sifatida mavjud xalqaro musobaqa qoidalari bilan cheklangan muvofiqlashtirish nuqtai nazaridan qiyin sport turi hisoblanadi. Kurash bo‘yicha jahon sport mahorati darajasining jadal o‘sishi, uning dinamikligi ortib borishi sport yutuqlari bog‘liq bo‘lgan mashg‘ulotlarning barcha jihatlarini takomillashtirishga katta e’tibor berishni talab qiladi. Bunday omillar, shubhasiz, kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini o‘z ichiga oladi va jismoniy tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlari orasida kuch, tezlik, chidamlilik, yepchillik kabi vosita fazilatlari bilan bir qatorda sportchining motor qobiliyatining moslashuvchanligi, qo‘shma harakatchanligi kabi muhim xususiyati muhim rol o‘ynaydi.

So‘nggi yillarda raqiblarimiz sport zaxiralari tayyorlash sifatini sezilarli darajada oshirdi. Bu, albatta, katta maydonda raqobatning yanada kuchayishiga olib keldi. Tanlovda natijalarni takomillashtirish masalasi o‘quv jarayoni vositalari va usullarini optimallashtirish bilan chambarchas bog‘liq.

Tadqiqot dolzarbligi: kurash nazariyasi va amaliyotida barcha masalalar bir xil o‘rganilmaydi. Raqobat faoliyati talablari va kurashni rivojlantirish tendentsiyalaridan kelib chiqib, mashg‘ulot jarayonida bo‘lajak gilam ustalarining jismoniy tayyorgarligiga tuzatishlar kiritilishi kerak.

Tadqiqot maqsadi: paradzyudo kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish vositalarini optimallashtirish usullarini o‘rganishdir.

Bu borada quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish muammosining holatini o‘rganish.

2. Adabiyotlarni manbalarni tahlil qilish orqali paradzyudo kurashchilar uchun zarur bo‘lgan asosiy fazilatlarni va ularni rivojlantirish usullarini aniqlash.

3. Paradzyudo kurashchilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalashning yeng samarali usul va vositalarini aniqlash.

Jismoniy sifat-bu faol motorli harakatlarni amalga oshirishga jismoniy tayyorligini ifodalovchi inson shaxsiyatining biologik va aqliy xususiyatlari to‘plami.

Jismoniy qobiliyatlar insonning daromadidir. Ular tabiatan har kimga xosdir, lekin ular o‘ziga xos vosita harakatlarida namoyon bo‘ladi, har bir inson turli xil yo‘llarga yega.

Bir jismoniy qobiliyat turli jismoniy sifatlarda ifodalanishi mumkin. Aksincha, bitta jismoniy sifat turli xil jismoniy qobiliyatlarda ifodalanishi mumkin.

Qobiliyatlar faoliyatni amalga oshirish jarayonida namoyon bo‘ladi va rivojlanadi, ammo bu har doim irsiy va atrof-muhit omillarining birgalikdagi harakatlarining natijasidir. Inson qobiliyatlari rivojlanishining amaliy chegaralari inson hayotining davomiyligi, ta’lim va tarbiya usullari va boshqalar kabi omillar bilan belgilanadi., lekin ular qobiliyatlarning o‘ziga xos yemas. Qobiliyatlarni rivojlantirish chegaralari darhol kengayishi uchun ta’lim va tarbiya usullarini takomillashtirish kifoya. Dvigatel qobiliyatlarini rivojlantirish uchun tezlik, kuch va boshqalar uchun tegishli jismoniy mashqlardan foydalangan holda ma’lum faoliyat sharoitlarini yaratish kerak. Biroq, ushbu qobiliyatlarni tarbiyalashning ta’siri, qo‘shimcha ravishda, tashqi yuklarga reaktsiyaning individual normasiga bog‘liq. Jismoniy tarbiya va sport o‘qituvchisi turli xil vosita qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy vositalari va usullarini, shuningdek darslarni tashkil yetish usullarini yaxshi bilishi kerak. Bunday holda, u aniq sharoitlarga nisbatan takomillashtirish vositalari, shakllari va usullarining maqbul kombinatsiyasini aniqroq tanlashi mumkin bo‘ladi.

Insonning individual vosita qobiliyatlari jismoniy fazilatlar deb ataladi. Kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik, moslashuvchanlik. Bu jismoniy sifatlarning barchasi harakatlarda namoyon bo‘ladi va ularning namoyon bo‘lish xarakteri harakatlarning tuzilishiga bog‘liq. Masalan, to‘ntarishlar va og‘riqli texnikalar kuch hisobiga nisbatan sekin bajarilishi mumkin va otish faqat yuqori tezlikda quvvat rejimida mumkin.

Paradzyudo kurashning jismoniy sifatlarini tarbiyalash sinflarning barcha shakllarida amalga oshiriladi. Zarur jismoniy sifatlarni tarbiyalash vositasi sifatida, avvalo, kurash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan mashqlarni (trenirovka, trenirovka, trenirovka va musobaqa kurashlari) ajratish lozim.

Biroq, kurashchining harakatlariga yaqin mashqlarni turli snaryadlar yordamida qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Jismoniy sifatlarni rivojlantirishda ikki yo‘nalishni aniqlash kerak: umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlik.

Deyarli barcha sport turlarida asosiy musobaqalarga yondashish bilan vaqtning muhim qismi ushbu turga xos mashqlarga bag‘ishlangan, ammo dastlabki tayyorgarlik bosqichida uzoq muddatli mashg‘ulotlar jarayonida asosiy mushak guruhlarining shakllanishini ta’minlaydigan umumiy jismoniy mashqlarga ustuvor ahamiyat beriladi va inson uchun yugurish, sakrash, gimnastika, suzish, o‘yinlar kabi tabiiy harakatlarni amalga oshirish.

Tarixiy jihatdan kuch, tezlik va chidamlilikdan tashqari, yegiluvchanlik va yepchillik jismoniy fazilatlarga bog‘liq.

Kuch-bu odamning tashqi qarshilikni yengish yoki mushaklarning harakatlari (zo‘riqishlari) tufayli unga qarshi turish qobiliyati.

Quvvat qobiliyatlari-bu "kuch"tushunchasiga asoslangan ma’lum bir vosita faoliyatidagi insonning turli xil ko‘rinishlari majmuasi.

Raqibni gilamda mag‘lub yetish uchun uning qarshiligini yengib o‘tish, qabul qilish yoki qarshi qabul qilish, raqibni yelkama pichoqlariga qo‘yish yoki ochkolarni yutishda ustunlikka yerishish kerak. Yetarli jismoniy kuch bo‘lmasa, buni amalga oshirish mumkin bo‘lmaydi.

Kurash o‘yinida jismoniy kuch ishlatmasdan siz muvaffaqiyatga yerisha olmaysiz. Kurashchi butun tanasining bir tekis rivojlangan muskulaturasiga yega bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Lekin bu kamdan-kam hollarda sodir bo‘ladi. Ba’zi kurashchilar ko‘proq rivojlangan qo‘l mushaklariga yega, boshqalari juda kuchli oyoqlarga yega, boshqalari yesa rivojlangan orqa tomonga yega. Shuning uchun mashg‘ulotlarda yeng zaif mushak guruhlarini rivojlantirishga samarali hissa qo‘shadigan bunday mashqlarni tanlash kerak.

Shu bilan birga, boshqa mushak guruhlarini, ayniqsa yuqori darajada rivojlanganlarni rivojlantirishga kam ye’tibor qaratish lozim, chunki yeng samarali individual texnik harakatlar ko‘pincha ularning kuchidan foydalanish uchun tanlanadi va amalga oshiriladi.

Kuchni rivojlantirish boshqa jismoniy fazilatlarni (tezlik va moslashuvchanlikni) rivojlantirish bilan birlashtirilishi kerak. Faqatgina kuch-quvvat mashg‘ulotlariga bo‘lgan yehtiros mushaklarning qo‘pollashishiga, ularning yegiluvchanligini yo‘qotishiga, bo‘g‘imlarda moslashuvchanlikka olib kelishi mumkin.

Tezlik-bu insonning ushbu sharoitlar uchun minimal vaqt ichida harakatlarni bajarish qobiliyati. Tezlik ko‘plab sport turlarida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Odatda quyida keltirilgan yuqori tezlikli fazilatlarning uch xil ko‘rinishi mavjud.

Kurashchining tezligi uning individual harakatlarni minimal vaqt ichida bajarish qobiliyatidir. Tezlikning namoyon bo‘lishining yelementar va murakkab shakllari mavjud. Yelementar shakllarga reaktsiya vaqti, bitta harakat vaqti, chastota, (yoki temp), harakat kiradi. Tezlikning murakkab shakllari kurashchining integral texnik harakatlarida namoyon bo‘ladi.

Maxsus chidamlilik tanlangan sport turlarida namoyon bo‘ladi va umumiy chidamlilik asosida shakllanadi.

Kurashning dastlabki yillarida siz mashqlarning o‘rtacha intensivligidan oshmasdan doimiy ish davomiyligini (bir necha daqiqadan bir soatgacha) asta-sekin oshirishingiz kerak. Bu sizga tanani jismoniy zo‘riqishga har tomonlama moslashtirish uchun zarur bo‘lgan katta miqdordagi ishni bajarishga imkon beradi. Barcha tana tizimlarini muvofiqlashtirish yo‘lga qo‘yilmoqda, bu samaradorlikni va tez tiklanish imkoniyatini oshiradi. Pedagogik vazifalarga qarab umumiy chidamlilikni tarbiyalash ishlarida jadallik bilan bajariladigan mashqlardan foydalaniladi.

Kurashchilarni musobaqalarga tayyorlash maxsus chidamlilikni rivojlantirish bilan birga olib boriladi. Darhaqiqat, eng yuqori sport mahorati darajasida, yetarli texnik va taktik tayyorgarlikka yega bo‘lgan holda, kurashchilar faoliyatini yaxshilash treningning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Sportchilarning ishlashi ma’lum bir yukni yaratadigan mashg‘ulotlar sonini ko‘paytirish va sifatini oshirish orqali ta’minlanadi.

**Xulosa:** Paradzyudo kurash amaliyotida chidamlilikni rivojlantirish uchun jismoniy sifatlarni tarbiyalashning yagona, o‘zgaruvchan, takroriy, intervalli, musobaqali, o‘yinli va doiraviy usullari kabi umumqabul qilingan usullari qo‘llaniladi. Yagona usul umumiy chidamlilikni rivojlantirish uchun ishlatiladi. Mashg‘ulotning bu usuli kurashchining uzluksiz ishining maksimal davomiyligi (40 minutgacha) bilan tavsiflanadi, 130 zarba / min dan ko‘p bo‘lmagan pulsda doimiy intensivlik bilan bajariladi. Agar yurak urish tezligining o‘zgarishi 3-5% dan oshmasa, ish bir xil deb hisoblanadi. Bunday yuk natijasida kichik, oson olinadigan kislorod qarzi hosil bo‘ladi.

Ushbu usul tananing barcha funktsional tizimlari o‘rtasida barqaror munosabatlarni o‘rnatishga yordam beradi.

Yagona usul mashg‘ulot janglarida asosan tayyorgarlikning tayyorgarlik davrida qo‘llaniladi, ammo mashg‘ulotning boshqa barcha bosqichlarida u hajmni oshirish va yuklama intensivligini kamaytirish vositasi sifatida

qo‘llaniladi. Ko‘pgina hollarda, yagona usul bilan bajarilgan yuk kichik deb hisoblanishi kerak. Kurashchilarga bir tekis muhim yuklamani bajarishga imkoniyat yaratish ularning umumiy jismoniy tayyorgarligining vazifalaridan biridir. Yuqori malakali sportchilar o‘rtacha yukni bajarishlari mumkin, ammo puls tezligida teng darajada ahamiyatsiz tebranishlar bilan. Bu umumiy fitnesning yaxshi ko‘rsatkichi deb hisoblanishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Kerimov F.A. Yakka kurash elementlariga ega bo‘lgan xarakatli o‘yinlar. Ilmiy texnika axborroti-press, 2020.-79 b.

3. Kerimov F. A. Sport soxasidagi ilmiy tadqiqotlar. Toshkent, 2021, 334 b.

4. T.S.To‘ychyev «Musobaqa oldi PARADZYUDO kurashchilarning psixologik ma'naviy va irodaviy tayyorlashda murabbiyning xususiyati». Namangan davlat unversiteti Xududiy ilmiy-nazariy anjuman. 2016.214-217-betlar

5. T.S.To‘ychiyev Malakali kurashchilarda texnik va taktik tayyorgligini innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash usullari. Namangan davlat unversiteti iimiy axborotnomasi . 2019.2- soni 230-235-betlar.

6. T.S.To‘ychiyev Yuqori malakali belbog‘li kurashchilarning vazn toifasini inobatga olgan holda musobaqaoldi tayyorgarligini rejalashtirish muommolari. Namangan davlat unversiteti iimiy axborotnomasi . 2022.11 son 712-719-betlar.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Turg‘unova Shohista Muhammadjonovna**
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

## MAKTABLARDA QULAY MUHIT YARATISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH MEXANIZMLARI

***Annotatsiya***. *Ushbu maqolada maktablarda qulay muhit yaratishning huquqiy asoslari va ularning amaliy ijrosiga ta’sir etuvchi institutsional omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot normativ-huquqiy tahlil, taqqoslash va hujjatlar ekspertizasiga tayandi. Natijalar huquqiy kafolatlar, ichki reglamentlar hamda profilaktik mexanizmlar uyg‘unligi qulay muhitni barqaror ta’minlashini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Qulay muhit, ta’lim muassasasi, huquqiy kafolat, bolalar huquqlari, maktab nizomi, xavfsiz ta’lim, profilaktika.*

**Тургунова Шохиста Мухаммаджоновна**
Независимый исследователь в Наманганском государственном университете

## ПРАВОВАЯ ОСНОВА СОЗДАНИЯ БЛАГОПРИЯТНОЙ СРЕДЫ В ШКОЛАХ И МЕХАНИЗМЫ ИХ ВНЕДРЕНИЯ НА ПРАКТИКЕ

***Аннотация***. *В статье анализируются правовые основы формирования комфортной школьной среды и институциональные факторы, влияющие на их реализацию. Методология включает нормативно-правовой анализ, сравнительное исследование и экспертную оценку документов. Результаты показывают, что устойчивость комфортной среды обеспечивается согласованием государственных гарантий, локальных регламентов и профилактических механизмов.*

***Ключевые слова.*** *Комфортная среда, образовательная организация, правовые гарантии, права ребенка, локальные акты школы, безопасное обучение, профилактика.*

**Тургунова Шохиста Мухаммаджоновна**
Независимый исследователь в Наманганском государственном университете

## ПРАВОВАЯ ОСНОВА СОЗДАНИЯ БЛАГОПРИЯТНОЙ СРЕДЫ В ШКОЛАХ И МЕХАНИЗМЫ ИХ ВНЕДРЕНИЯ НА ПРАКТИКЕ

***Abstract***. *This article examines the legal foundations for creating a comfortable school environment and the institutional factors shaping their implementation. The methodology combines normative legal analysis, comparative review, and document-based expert assessment. The findings indicate that sustainable comfort depends on aligning statutory guarantees with school-level policies, accountability procedures, and preventive mechanisms.*

***Keywords.*** *Comfortable environment, educational institution, legal guarantees, child rights, school policies, safe learning, prevention.*

**Kirish.** Maktab muhiti ta’lim sifati, psixologik farovonlik va ijtimoiylashuv natijalarini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida zamonaviy pedagogika va ta’lim boshqaruvi tadqiqotlarida markaziy o‘rinni egallaydi. Qulay muhit deganda faqatgina moddiy-texnik sharoitlar emas, balki bolalarning sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinadigan, zo‘ravonlik, kamsitish va tahqirlash holatlari oldi olinadigan, ta’lim jarayonining xavfsizligi hamda adolatli tashkiliy tartiblar bilan ta’minlangan kompleks institutsional makon nazarda tutiladi. Shu ma’noda qulay muhitni yaratish masalasi pedagogik texnologiyalar doirasidan chiqib, huquqiy tartibga solish, javobgarlik mexanizmlari va boshqaruv madaniyati bilan bevosita bog‘lanadi. O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimining modernizatsiyasi, bolalar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish va ta’lim sifatini baholashning yangi yondashuvlari fonida maktabda qulay muhitni huquqiy jihatdan asoslash dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda [1; 2].

Mavzuning ilmiy muammosi shundan iboratki, huquqiy hujjatlarda qulay muhitga doir talablar, odatda, turli normativ qatlamlarda tarqoq holatda uchraydi: konstitutsiyaviy kafolatlar, sohaviy qonunchilik, idoraviy me’yorlar hamda ta’lim muassasasining lokal hujjatlari. Amaliyotda esa aynan shu qatlamlar o‘rtasidagi uzviylik yetarli

bo‘lmaganda, qulay muhitni ta’minlash mas’uliyati aniq taqsimlanmaydi, profilaktika mexanizmlari formal tus olishi yoki pedagogik intizom choralari huquqiy standartlar bilan to‘liq mos kelmasligi mumkin. Mavjud tadqiqotlarda maktab iqlimi va xavfsiz ta’lim muhitining psixologik-pedagogik talqinlari ko‘p uchrasa-da, huquqiy asoslarning tizimli xaritasi, lokal aktlarning huquqiy sifati va ijro mexanizmlarining institutsional dizayni bo‘yicha izchil tahlillar nisbatan cheklangan [3; 4]. Shuningdek, xalqaro huquqiy standartlar va milliy huquq o‘rtasidagi moslik masalasi ko‘pincha deklarativ darajada ko‘rilib, maktab ichki reglamentlariga tarjima qilinish bosqichidagi muammolar yetarlicha ochib berilmaydi [5].

Ushbu maqolaning maqsadi maktablarda qulay muhit yaratishning huquqiy asoslarini tizimli tahlil qilish, normativ talablarning institutsional darajada amalga oshirilish mexanizmlarini aniqlash va lokal hujjatlar hamda amaliy protseduralar uchun huquqiy-metodik xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar yechildi: birinchidan, qulay muhitning huquqiy kategoriyalari va ularning manbalar ierarxiyasidagi o‘rnini aniqlash; ikkinchidan, ta’lim muassasasining lokal normativ hujjatlari orqali huquqiy talablar qanday konkretlashtirilishini tahlil qilish; uchinchidan, javobgarlik va profilaktika mexanizmlarining huquqiy dizaynini ajratib ko‘rsatish; to‘rtinchidan, xalqaro yondashuvlar bilan qiyosiy tahlil asosida amaliy tavsiyalarni asoslash.

**Metodlar.** Tadqiqot metodologiyasi normativ-huquqiy tahlil va taqqoslash yondashuviga tayandi. Normativ-huquqiy tahlilda konstitutsiyaviy kafolatlar, ta’lim sohasiga oid qonunchilik, bolalar huquqlarini himoya qilishga doir me’yorlar hamda ta’lim muassasalarida ichki tartibni belgilovchi hujjatlar mazmuni talqin qilindi. Ushbu yondashuv qulay muhitni ta’minlash bo‘yicha davlatning ijobiy majburiyatlari, ta’lim tashkilotining vakolatlari va pedagogik xodimlarning mas’uliyati kabi elementlarni bir huquqiy tizim sifatida ko‘rishga imkon berdi [1; 6]. Taqqoslash metodi esa xalqaro huquqiy standartlar va ayrim xorijiy amaliy yondashuvlarda qo‘llanadigan “maktab xavfsizligi” hamda “maktab iqlimi”ni boshqarish instrumentlarini milliy tartibga solish bilan qiyoslab, moslik va tafovutlarni aniqlashga xizmat qildi [5; 7].

Empirik komponent sifatida hujjatlar ekspertizasi metodi tanlandi. Bunda maktab darajasida uchraydigan lokal normativ hujjatlar, xususan, maktab nizomi, ichki tartib-qoidalar, o‘quvchilar xulq-atvoriga oid qoidalar, murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi, intizomiy choralarni qo‘llash protseduralari, profilaktika dasturlari kabi hujjatlarning tipik tuzilmalari va huquqiy sifat ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Mazkur metod tanlanishining sababi shundaki, qulay muhit bo‘yicha normativ talablar real ijroda aynan lokal aktlar orqali “ishlaydi”, ya’ni umumiy me’yorlar maktabning aniq protseduralariga aylantiriladi. Analitik-sistemali yondashuv esa huquqiy kafolatlar, boshqaruv qarorlari va pedagogik amaliyot o‘rtasidagi bog‘lanishni konseptual model sifatida izohlashga yordam berdi. Tadqiqotda talqin qilishning mantiqiy-uslubiy usullari, huquqiy terminlarni aniqlashtirish va normativ kolliziyalarni ajratish kabi usullar ham qo‘llanildi [3; 8].

**Natijalar.** Tahlil natijalari qulay muhitning huquqiy asoslari bir-biri bilan bog‘langan uch darajadan iboratligini ko‘rsatdi: umumiy huquqiy kafolatlar darajasi, sohaviy tartibga solish darajasi va ta’lim muassasasining lokal normativ darajasi. Umumiy darajada shaxsning qadr-qimmati daxlsizligi, ta’lim olish huquqi, xavfsiz muhitda bo‘lish, kamsitishdan himoyalanish kabi tamoyillar qulay muhitni ta’minlash uchun “bazaviy huquqiy minimal standart” vazifasini bajaradi. Bu standartlar bevosita maktab ichidagi munosabatlarda ham qo‘llanilishi lozim bo‘lib, ular o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quvchi hamda maktab-ma’muriyat munosabatlarida yo‘l qo‘yiladigan har qanday zo‘ravonlik yoki tahqirlash holatlariga nisbatan nol tolerantlik yondashuvini huquqiy jihatdan asoslaydi [1; 2]. Natijada “qulay muhit” tushunchasi faqat pedagogik qadriyat sifatida emas, balki huquqiy himoyaga ega manfaat sifatida shakllanadi.

Sohaviy darajada ta’lim to‘g‘risidagi me’yorlar qulay muhitni ta’minlashni ta’lim sifatining tarkibiy sharti sifatida belgilashga xizmat qiladi. Bu yerda asosiy natija shuki, ta’lim muassasasining vazifalari faqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki ta’lim oluvchining hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini ta’minlash, shaxsiy daxlsizlikni hurmat qilish, pedagogik ta’sir choralari adolatli va mutanosib bo‘lishini kafolatlash ham muassasaning huquqiy majburiyatlariga kiradi [6; 7]. Shuningdek, bolalar huquqlariga oid yondashuv ta’lim jarayonini “xizmat” sifatida emas, balki huquqiy himoya talab qiladigan ijtimoiy institut sifatida ko‘rsatadi; bu esa murojaatlar bilan ishlash, shikoyatlarni ko‘rib chiqish, nizolarni hal etish kabi protseduralarning huquqiy sifatini qulay muhitning ajralmas qismi sifatida talqin etishga olib keladi [5].

Lokal darajada o‘tkazilgan hujjatlar ekspertizasi shuni ko‘rsatdiki, qulay muhitni ta’minlashdagi eng muhim bo‘g‘in maktabning ichki reglamentlari va protseduralaridir. Birinchi muhim natija shundan iboratki, ko‘plab lokal hujjatlarda “intizom” va “tartib” kategoriyalari keng yoritilgan bo‘lsa-da, bolalarning huquqlari, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan protsessual kafolatlar yetarli darajada konkretlashtirilmagan bo‘lishi mumkin. Masalan, xulq-atvor qoidalarida taqiqlar sanab o‘tiladi-yu, lekin nizoli holatda o‘quvchini eshitish, dalillarni tekshirish, qaror ustidan shikoyat qilish, mediatorlik yoki yarashtiruv tartiblarini qo‘llash kabi mexanizmlar aniq yozilmaydi. Bu esa

intizomiy choralar qo‘llanganda sub’ektivlik xavfini oshiradi va qulay muhitning huquqiy barqarorligiga putur yetkazadi [3; 8].

Ikkinchi natija sifatida, qulay muhitni ta’minlashda mas’uliyat taqsimotining huquqiy dizayni hal qiluvchi ahamiyatga egaligi aniqlandi. Maktab ma’muriyati, sinf rahbari, psixolog, ijtimoiy pedagog va ota-onalar bilan ishlovchi tuzilmalar o‘rtasida profilaktika, erta aniqlash va tezkor javob choralarining vakolatlari aniqlashtirilmaganda, muammoli vaziyatlar “institutsional bo‘shliq”da qolib ketadi. Aksincha, vakolatlar, ma’lumot almashish chegaralari, maxfiylik, bolani ikkilamchi stigmalashdan himoyalash kabi masalalar lokal aktlarda me’yoriy tartibda belgilansa, qulay muhitni ta’minlash uzluksiz boshqaruv jarayoniga aylanadi [4; 7]. Shundan kelib chiqib, huquqiy asoslarning amaliy samaradorligi ko‘p jihatdan maktab ichida “protsedura madaniyati”ning mavjudligiga bog‘liqligi natija sifatida qayd etildi.

Uchinchi natija xalqaro standartlar bilan qiyoslashdan olindi: bolaga yo‘naltirilgan yondashuv, kamsitmaslik, xavfsizlik, ishtirok etish huquqi kabi tamoyillar milliy huquqiy makonda ham tan olingan bo‘lsa-da, ularning maktab ichki hujjatlariga translatsiya qilinishida uslubiy tafovutlar mavjud. Xususan, xalqaro yondashuvlarda maktab iqlimini yaxshilash ko‘pincha huquqiy kafolatlar bilan bir qatorda institutsional monitoring, risklarni baholash, anonim murojaat kanallari, qayta tiklovchi amaliyot elementlari bilan uyg‘unlashgan holda ko‘riladi [5; 9]. Milliy amaliyotda esa monitoring va baholash ko‘proq tashkiliy hisobotlar bilan cheklanib qolishi ehtimoli mavjud bo‘lib, bu qulay muhit indikatorlarini huquqiy mas’uliyat bilan bog‘lashni talab qiladi. Natijada qulay muhitni ta’minlash uchun huquqiy asoslar yetarli bo‘lishi mumkin, biroq ularni “o‘lchash” va “hisobdorlik”ka ulash mexanizmlari lokal darajada yanada aniqroq modelga muhtojligi aniqlandi [7; 9].

**Muhokama**. Olingan natijalar maktabda qulay muhitni huquqiy jihatdan ta’minlash masalasi, avvalo, “huquqiy matnlar yig‘indisi” emas, balki normativ talablarning institutsional ijro tizimi ekanini ko‘rsatadi. Bu yondashuv Rossiya va xalqaro ilmiy adabiyotlarda ta’lim muassasasining xavfsizligi “tashkiliy-huquqiy rejim” sifatida talqin etilishi bilan metodologik jihatdan uyg‘unlashadi, ya’ni xavfsizlik va qulaylikning mustahkamligi protseduralar aniqligi va javobgarlik konturlarining belgilanganligiga bog‘lanadi [8; 9]. Biroq milliy kontekstda lokal normativ hujjatlarning huquqiy sifati ko‘pincha muassasaning resurslari va boshqaruv kompetensiyalariga bog‘liq bo‘lib qolayotgani, natijalarda qayd etilganidek, huquqiy kafolatlar bilan amaliyot o‘rtasida tafovut keltirib chiqarishi mumkin. Bu holat ta’lim huquqi doirasida “implementatsiya bo‘shlig‘i” deb nomlanadigan fenomen bilan izohlanadi: norma mavjud, biroq uni qo‘llash mexanizmi yetarli darajada institutsionallashtirilmagan [6; 7].

Xalqaro manbalarda bolalar huquqlariga asoslangan yondashuv ta’lim muhitida “ishtirok” komponentini alohida ta’kidlaydi, ya’ni o‘quvchi nafaqat himoya ob’ekti, balki maktab hayotining sub’ekti sifatida ko‘riladi [5]. Bizning natijalarda esa lokal aktlar ko‘proq tartib-intizomni bir yoqlama majburiyat sifatida belgilashga moyilligi, o‘quvchining protsessual kafolatlarini esa ikkilamchi planda qoldirishi mumkinligi ko‘rindi. Bu farq shuni anglatadiki, qulay muhit huquqiy asoslarining samaradorligi faqat taqiqlar va jazolar bilan emas, balki nizolarni adolatli ko‘rib chiqish, eshitish huquqi, shikoyat mexanizmlari, psixologik yordamga yo‘naltirish kabi “huquqiy xizmatlar arxitekturasi” bilan belgilanadi. Ta’lim muassasasida shikoyatni ko‘rib chiqish tartibi ochiq va ishonchli bo‘lmasa, rasmiy jihatdan qulay muhit talabi mavjud bo‘lsa-da, sub’ektiv ravishda xavfsizlik hissi pasayadi; bu esa ta’lim natijalariga bilvosita, ammo kuchli ta’sir ko‘rsatadi [3; 9].

O‘zbek olimlari ta’lim tizimida huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiyani muassasa boshqaruvi bilan integratsiyalash zaruratini qayd etadi, bu esa bizning mas’uliyat taqsimoti haqidagi natijalarimizni qo‘llab-quvvatlaydi [2]. Shunga qaramay, huquqiy tarbiya ko‘pincha ma’ruzaviy yoki tadbirlar bilan cheklanib qolishi, holbuki huquqiy tarbiyaning institutsional ifodasi aynan protseduralarda namoyon bo‘lishi lozim. Ya’ni o‘quvchi o‘z huquqlarini faqat darsda o‘rganmaydi, balki maktab nizolari adolatli ko‘rilganda, uning fikri tinglanganda va qarorlar asosli bayon qilinganda huquqiy tajribani bevosita boshdan kechiradi. Shu nuqtai nazardan, qulay muhitni yaratishning huquqiy asoslari pedagogik jarayonning “yashirin o‘quv dasturi”ga aylanadi va maktab iqlimini barqarorlashtiradi [4].

Rossiya ilmiy maktabida ta’lim tashkilotining lokal normativ hujjatlari “muassasaning ichki huquqi” sifatida ko‘rib chiqiladi va ularning sifatini baholash mezonlari ishlab chiqilgan [8]. Bizning natijalar ham shuni ko‘rsatadiki, lokal aktlar qanchalik aniq, protsessual jihatdan to‘liq va shaffof bo‘lsa, qulay muhit shunchalik institutsional himoyaga ega bo‘ladi. Bunda ayniqsa mutanosiblik prinsipi muhim: intizomiy ta’sir chorasi xatti-harakat og‘irligiga, bolaning yoshi va vaziyat kontekstiga mos bo‘lishi, shuningdek, bola sha’nini kamsitmaydigan shaklda qo‘llanishi zarur [6; 8]. Xalqaro manbalarda qayta tiklovchi yondashuvlar (restorative practices) bilan bog‘liq tamoyillar ko‘proq qo‘llanilishi qayd etiladi, biroq ularni har qanday muhitga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki milliy huquq va maktab boshqaruvi an’analari bilan moslashtirish lozim [9]. Bu yerda maqola natijalari asosida asosiy ilmiy pozitsiya shuki, qulay muhitning huquqiy modeli “bir martalik hujjat” emas, balki doimiy yangilanib boruvchi lokal tartibga solish va monitoring tizimi sifatida loyihalanishi kerak.

Muhokama doirasida yana bir masala muhim: huquqiy asoslarning ko‘pligi avtomatik ravishda qulay muhitni kafolatlamaydi. Agar ijro mexanizmlari, masalan, pedagoglar uchun huquqiy kompetensiyalarni oshirish, profilaktik ishlarni rejalashtirish, xavf omillarini erta aniqlash, ichki tekshiruvlarni adolatli o‘tkazish bo‘yicha amaliy yo‘riqnomalar yetarli bo‘lmasa, norma amaliyotda “qog‘oz”da qolib ketishi ehtimoli ortadi [7]. Shuning uchun maqola natijalaridan kelib chiqadigan asosiy konseptual xulosa shundan iboratki, maktabda qulay muhitning huquqiy asoslari normativ ierarxiyani to‘ldirish emas, balki normativ talablarni konkret protseduralarga aylantirish, ularni o‘lchash va hisobdorlikka ulashni talab qiladigan boshqaruv vazifasidir.

**Xulosa.** Maqolada maktablarda qulay muhit yaratishning huquqiy asoslari uch darajali tizim sifatida asoslandi: umumiy huquqiy kafolatlar, ta’lim sohasiga oid maxsus tartibga solish va maktabning lokal normativ hujjatlari. Tadqiqot qulay muhitning barqarorligi, avvalo, lokal aktlarda protsessual kafolatlar, mas’uliyat taqsimoti, shikoyat va nizolarni ko‘rib chiqish mexanizmlari aniq belgilanishiga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ilmiy hissa sifatida qulay muhitni ta’minlash “institutsional ijro tizimi” sifatida talqin qilinib, huquqiy normalarning maktab ichki protseduralariga translatsiya qilinishidagi asosiy bo‘g‘inlar yoritildi. Amaliy jihatdan maktab nizomi va ichki tartib qoidalarini huquqiy ekspertiza qilish, intizomiy qarorlar uchun mutanosiblik va adolat mezonlarini mustahkamlash, shaffof murojaat kanallarini joriy etish hamda monitoringni natijaviy indikatorlar bilan bog‘lash qulay muhitni kuchaytirishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlar lokal normativ hujjatlarning sifat mezonlarini ishlab chiqish, maktab iqlimini baholash indikatorlarini huquqiy hisobdorlik bilan integratsiyalash hamda hududiy amaliyotlar kesimida implementatsiya bo‘shliqlarini empirik o‘rganishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Tahrirlar bilan rasmiy matn. Toshkent, O‘zbekiston, 2023. 128 b.

2. Ziyomuhammadov B. Ta’lim tizimida huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya masalalari. Toshkent, Fan va texnologiya, 2020. 184 b.

3. Jo‘rayev R. X., Saidov U. O. Ta’lim muassasalarida boshqaruv va huquqiy me’yorlar. Toshkent, Iqtisod-Moliya, 2019. 216 b.

4. G‘ofurov A. M. Pedagogik muhit va ta’lim sifati: nazariya va amaliyot. Samarqand, SamDU nashriyoti, 2021. 200 b.

5. Convention on the Rights of the Child. United Nations Treaty Series. New York, United Nations, 1989. 55 p.

6. UNESCO. Behind the Numbers: Ending School Violence and Bullying. Paris, UNESCO Publishing, 2019. 70 p.

7. OECD. Education Policy Outlook 2019: Working Together to Help Students Achieve their Potential. Paris, OECD Publishing, 2019. 242 p.

8. Воронцов А. В. Локальные нормативные акты образовательной организации: правовой статус и практика применения. Москва, Проспект, 2020. 192 с.

9. Cohen J. School Climate: Research, Policy, Practice, and Teacher Education. New York, Teachers College Press, 2010. 336 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Xolmatov Nizomjon Umarjonovich**
Namangan davlat universiteti jismoniy tarbiya va amaliy sport turlari kafedrasi o'qituvchsi
e-mail: nizomzonholmatov10@gmail.com

## SPORTCHILARI PSIXOLOGIK JIXATDAN TAYYORLASHNING ASOSLARI

***Annosiya:*** *Ushbu maqolada Bugungi kunda yosh futbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonidagi jismoniy tarbiya va sport soxasida, ayniqsa, bolalar sportini yanada rivojlantirish, har bir shaxar va qishloqda zamonaviy talabalarga javob beradigan psixologik tayyorgarligi*

***Kalit suzlar:*** *futbol, uzoq, yillar, sportch, psixologik, kuch, va, tezkorlik, chidamkorligi, yosh, musobaqa, chiqish, maqsad, vazifalari.*

**Холматов Низомжон Умаржонович**
Преподаватель кафедры физического воспитания и прикладного спорта Наманганского государственного университета

## ОСНОВЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СПОРТСМЕНОВ

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается современное состояние физического воспитания и спорта в процессе подготовки юных футболистов, в частности, дальнейшее развитие детского спорта и психологическая подготовка, отвечающая потребностям современных школьников в каждом городе и деревне.*

***Ключевые слова:*** *футбол, долгие, годы, спортсмен, психологический, сила и скорость, выносливость, возраст, соревнование, результативность, цель, задачи.*

**Kholmatov Nizomjon Umarjonovich**
Teacher of the Department of Physical Education and Applied Sports, Namangan State University

## FUNDAMENTALS OF PSYCHOLOGICAL TRAINING OF ATHLETES

***Annotation:*** *This article discusses the current state of physical education and sports in the training process of young football players, especially the further development of children's sports, and the psychological preparation that meets the needs of modern students in every city and village.*

***Keywords****: football, long, years, sportsman, psychological, strength, and, speed, endurance, age, competition, performance, goal, tasks.*

**Kirish.** Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport soxasida, ayniqsa, bolalar sportini yanada rivojlantirish, har bir shaxar va qishloqda zamonaviy talabalarga javob beradigan, zarur anjomlar bilan jixozlangan sport maydonchalari,inshoot va majmualarni barpo etish bo'yicha amalga oshirayotganishlarimiz o'ziningijobiy samarasini bermoqda. Yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashning ilmiy uslublari asosida, ularni har tomonlama rivojlantirish va ta'lim berishda psixologiya fani yetakchi o'rinni egallaydi.

Shuni mamnuniyat bilan aytish kerakki,istiqlol yillarida yurtimizda 1 ming 200 dan ziyod yangi sporot inshooti barpo etilib, ularning mingdan ortig'i qishloq joylarida qurildi. Bu esa 260 ming nafardan ziyod bolang'ich sportning ko'plab turlari bilan muntazam shug'ullanishi uchun imkoniyat yaratdi.

Qiz bolalarni, eng avvalo, qishloq qizlarini sport bilan shug'ulanishga jalb etishda joriy yilda sezilarli natijalarga erishildi. "Sport xayotidan hech kim chetda qolmasligi kerak" degan shiordan kelib chiqqan holda, kam ta'minlangan oilalarning 120 ming nafar qizlari uchun 3 milliard 500 million so'mlik sport kiyimi va jixozlari xarid qilindi. Yana bir muxim xolatga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Mamlakatimizda badiiy gimnastikani rivojlantirish dasturi qabul qilingach sportning ushbu nafis turi bilan shug'ullanadigan qizlar soni shu yilning o'zida 6 - 7 barobar, ayrim viloyatlarda esa 10 - 12 barobar ortdi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar:**

R.N.Poliyani fikriga ko'ra 8-9 yoshli bolalarda tezkor-kuch va chaqqonlik sifatlarining o'sishi kuzatiladi. Tezkorlik va egiluvchanlik qobiliyati esa biroz susayadi. 15-15 yoshda egiluvchanlik va tezkorlik kuchini rivojlantirishga oid hajmini ko'tarish maqsadga muvofiq. Ushbu fikrni V.F.Bashkirov, V.P.Filinlar ham qullab-quvvatlaganlar. I.Arshavskiy, Ya.V.Vaynbaum, A.Tujalavskiy va boshqalar yosh sportchilarning funktsional tayyorgarligini ilmiy tekshirish nitajasida jismoniy mashqlar organizmning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynashi tasdiqlangan.

V.S.Daxnovenkiy va boshqalar tezkor kuch va maxsus chidamkorlik sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar bilan uzoq muddat mabaynida muntazam shug'ullanish natijasida kurashchilarning texnik-taktik mahorati hamda boshqa qobiliyatlari qanchalik sezilarli darajada shakllanish mumkinligini tadqiqot asosidaisbot qilib bergan.

Kuch va tezkorlikni chidamkorligi sportchilarni yosh sportchilarni juda extiyotkorlik bilan rivojlantirish zarurligi katta yuklamaga ega mashqlar bilan bu sifatlarni zo'rma-zo'raki o'stirishgaintilish salbiy oqibatlarga olib kelish extimolidan xoli emasligi alohida ta'kidlab o'tilgan (A.R.Akromov, M.A.Godip, SH.T.Iseev, G.M.Sergeev, R.I.Nurimova, S.A.Savin va boshqalarining o'quv uslubiy qo'llanmalari ilmiy maqolalari, monografiyalari olqishga sazovordir.

**Ishning maqsadi:** Yosh futbolchilarni musobaqalarga tayyorgarlik davrida psixologik tayyorgarlik darajasini aniqlash va tahlil qilish.

Ushbu maqsad quydagi vazifalar yordamida amalga oshiriladi

**Natija va Muhokama**: Uzoq yillar davomida faqat xar-xil tayyorgarlik mavjud edi. Bu sportchini jismoniy jihatdan tayyorlash va texnik jixatdan tayyorlash. Keyinchalik uchinchi xil tayyorgarlik sportchilami taktik jihatdan tayyorlash qo'shi1di. Ammo rekordlarni tez o'sib borishi bu uch xil tayyorgarlik yetarlik emasligini ko'rsatadi va sportchini psixologik jihatdan tayyorlash muammosi vujudga keladi.

Birinchi marta bu muammo Lalayan tomonidan 1958 yilda qo'yilgan va bu asosan sportchilarni irodaviy tayyorgarligiga qaratilgan edi. Sportchilarni psixologik jihatdan tayyorlash uni temperamenti, xarakterini hisobga olgan holda olib borilishi kerak deb aytilgan edi.

Professor A.Q.Puni musobaqaga psixologik tayyorgarlik xolatini shakllanishini quyidagicha taxlil qiladi:

Musobaqaga psixik tayyorlik xolatini maxsus shakllanishi bu bo'lajak musobaqaning shart-sharoitlarini e'tiborga olgan holda sportchi ongi va xarakatining tashkil etilishidir.

Bu komandali sport turida ma' lum guruh odamlarning kollektiv ongi bo'lib, o'zining faoliyati va intilishi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yagona g'oya va motivlarga birlashtirish demakdir.

Sport trenirovkasida psixologik tayyorlashikki qismdan iborat:

1. Sportchini psixologik jihatdan umumiy tayyorlash.
2. Sportchini bo'lajak musobaqaga psixologik tayyorlash.

Sportchini psixologik jihatdan umumiy tayyorlash jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligi bilan birga olib boriladi.

Psixologik jihatdan umumiy tayyorlash faqat bo'ladigan musobaqaga tayyorlash bilan cheklanib qolrnay, u trenirovkaning barcha etaplarida olib boriladi va sportchini sport takorniliga qaratilgan bo'ladi.

Sportchini psixologik jihatdan umumiy tayyorlashning maxsus vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Sportchini g'oyaviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash.
2. Xarakterga jobiy ta'sir qilish.
3. Idrok jarayonini taraqqiy ettirish, jumladan ixtisoslashtirilgan idroklarning shakllantirish va takomillashtirish.
4. Diqqatni xususiyatlarini taraqqiy ettirish.
5. Musobaqa jarayonida vaziyatning muhim momentlarini tez payqay o lishga o'rgatish. Bu kuzatuvchanlikni o'stirish natjasida egallanadi.
6. Sportchini tez fikrlash qobiliyatini o'stirish.
7. Muskul tasavvurlarini rivojlantirish.
8. O'z xarakatlarini nazorat qilishni tarbiyalash.
9. Stenik emotiyalarni safarbar qilish qobiliyatini o'stirish, kurash vaqtida o'zini tuta bilishni shakllantirish.

Psixik xodisalar 3 ta bir — biriga bog'langan gruppalarga ajraladi. Psixik progresslar, shaxsning psixologik xususiyatlari va psixik holat. Bularichida oxirgisi (psixik holat) xar xi1 davomiylik va sur'atlilikga egadir. Psixologik tayyorgarlik natijasida sportchi musobaqadaishtirok etish uchun psixik tayyorlik holati vujudga keladi. U musobaqali kurash uchun psixik progresslarni aktivlashtirishda zarurhgi bilan xarakterlanadi.

Sport faoliyatida sportchining psixik tayyorgarligining ahamiyati katta bo'lib, hozirgi vaqtda u yutuqlaming asosiy shartlaridan biri bo'hb qolgan.

Psixik tayyorlik — murrakab holat bo'lib, bunga yuqori darajada tarraqiy

etgan bilish, emotsional vairodaviy funkqiyalar kiradi.

Musobaqaga psixologik tayyorgarlik sistemasi o'zichiga qator vazifalarni olib bu vazifalarni hal qilish protsessida sportchining musobaqaga psixik tayyorligi shakllanadi.

Sportchini musobaqaga psixologik tayyorlash sistemasiga quyidagi zvenolar kiradi:

a. musobaqaga sharoiti haqida axborotlar to'plash;
b. musobaqa oldidan sportchi mashqlangan holatini baholash va o'z- o'zini baholash;
c. musobaqada chiqishning maqsad va vazifalari;
a. musobaqada ishtirok etish motivlarini aktivlashtirish;
d. aqhy faohyat eksperementlarini programmalashtirish;
e. sportchida o'zimkoniyatlarini ro'yobga chiqarishiga ishonch hissini shakllantirish va uni musobaqa sharoitida namoyon qila bilish;
f. optimal emotsional holatni shakllantirish;
g. musobaqa sharoitida psixik holatlarni boshqarish va o'z— o'zini boshqarish priyomlarini egallash.

Idrok, diqqat, tafakkur, hotira kabi ruhiy jarayonlarning juda yahshi jismoniy, ahloqiy-irodaviy, nazariy va ayniqsa, tehnik tayyorgarlik bilan birgalikda yuqori darajada rivojlanganligi taktik tayyorgarlik asosini tashkil etadi. Futbolchilarning o'yin faoliyti sharoitlarida yaxshi mo'ljal (oriyentir) olish va taktik jihattan to'g'ri qaror qabul qilish qobilyati ko'p jihattan tehnik usullarni maqsadga muvofiq ravishda qo'llash, ya'ni ularning tehnik qurollanganligi bilab belgilanadi. Shuning uchun yosh futbolcji tehnik usullarni muntazam takomillashtira borib juda ko'p muqdordagi harakat ko'nikmalarini egallab olgandagina, yahshi taktik tayyorgarlikka erishish mumkin. O'yinnchining tehnikm mahorati yo sheriklari bilan hamkorlikda, yoki individual ravishdaistalgan taktik g'oyaning amalgam oshirilishini ta'minlashi kerak. Har bir futbolchining taktik jihatdan yuqori individual tayyorgarligi butun jamoa taktikasining samarali bo'lishini belgilab beradi.

Yosh futbolchilar bilan o'tkaziladigan har bir o'quv mashg'uloti bosqichi muayyan yo'nalishga va tegishli o'quv materiallariga ega bo'lishi kerak.

Dastlabki tayyorgarlik bosqichida asosiy vazifa o'yinda fikr yurutish qobilyatini tarbiyalash va futbol o'yini jarayoniga qiziqish uyg'otishdan iborat. Mashg'ulotlarda murakkab reaksiya teligi, mo'ljal olish,idrok, mustaqillik jamoada ish ko'ra bilish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan mashqlar bajariladi. O'yinda fikr yurutish qobilyatini tarbiyalash uchun o'yin faoliyati harakteriga ko'ra futbolga yaqin bo'lgan harakatli o'yinlardan keng foydalaniladi. Harakatli o'yinlar raqib "ta'qib"idan qutilish va joyga chiqish, o'z vaqtida to'p oshirish, hujum yoki himoya vaqtida tezlik bilan qulay vaziyatni egallsh ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Taktik tayorgarlikda harakatli o'yinlardan foydalanish to'pni egallab olishning murakkab tehnikasi yo'qligi bilan ham belgilangandir. Bu shug'ullanuvchilarning diqqat – etibori o'yin jarayonini tushunib olishga qaratiladi, juda ko'p vaziyatlarda mustaqil qaror chiqarib olishimkoni yuzaga keladi. O'yinlarda va himoyadagi individual hamda eng oddiy guruhli harakatlar tarbiyalanadi. O'yinchining",ochilishi"va "yopilishi"kabi taktik harakatlarni, eng yahshisi, basketbol yoki gandbol o'yinida o'rgangan ma'qul.

Murabbiy o'yin mohiyatini to'g'ri tushinish hissini tarbiyalash to'g'risida g'amho'rlik qilishi, qabul qilingan xar bir noto'g'ri qarorni e'tibordan chetga qoldirmasligi, bajarilgan harakatga baho brrishi kerak. Shuning uchun mazkur bosqichdagi har bir mashg'ulot mazmuning asosiy yo'nalishi – o'yinni olib boorish tajribasini egallash av uni to'ldirib borishdan iborat.

Boshlang'ich spor tixtisoslashuvi bosqichi taktik tafakkurni (o'yinchining taktik jihatdan fikr yuritish qobilyatini ) rivojlantirishni hamda asosiy individual va guruhli taktik harkatlarni o'rganishni nazarda tutadi. Mashg'ulotlarda quyidagilar:

—nazariy bilimlar, ko'nikma va malakalar zahirasini kengaytirish;

—o'zlashtirilayotgan bilim, ko'nikma va malakalarni doimo o'zgaruvchan o'yin sharoitidagi ijodiy imkoniyati e'tiborga olinish kerak.

Mashg'lotlarda sport o'yinlari taktikasining umumiy asoslarini o'rganishga, futbol o'yini taktikasini, o'yinchilarni individual va guruh harakatlarini qarab chiqishga katta o'rin beradi. Shu maqsadda futbolchining mustaqilish olib borishida mavjud barcha formulalardan, taaktik tayyorgarlikning nazariy asosini yararishga yordam beruvchi formulalardan (adabiy manbaalar, kinomateriallar, shaxsiy kuzatishlar v.b) foydalaniladi. O'yin qoidalarini o'rganish hamda individual va guruh harakatlarini tashkil etishda ularni hisobga olish lozim. Tanishish asosida qoidalarni, rasm, shema, maketda aks ettirilgan o'yin vaziyati vahokazolar bilan to'ldirib tushuntirish, ularni qo'llashga oid amaliy misollar keltirish foydalidir.

Asosiy taktik harakatlarni o'rganish jarayonida taktik tafakkur shakllantirilar ekan, asosiy etibor qabul qilingan taktik rejani amalgam oshirish uchun o'yin olib borishning shug'ullanuvchilar qabul qilgan muayyan vositalarini va usullarini maqsadga muvofiqligini tahlil qilishiga qaratilgandir. Hujum va himoyaning doimo o'zgaruvchan sharoitlarda konkret individual va guruhli harakatlarga alohida etibor berib bajariladigan mashqlar ham o'rganiladi.

Ayrim o'yin vaziyatlarini ijobiy hal etish qobilyati o'yinchilarning eng muhim malakasi hisoblanadi. Bu malakani rivojlantirish boshlang'ich sport ixtisoslashuvining asosiy vazifalaridan biridir.

Jiddiy mashq qilish bosqichidagi taktik tayyorgarlik o'zlashtirib olingan individual va guruli harakatlarga alohida etibor bergan holda olib boriladi. U futbolchilarning kombinatsion o'yin olib borish qobilyatini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

**XULOSA:** Jamoada taktik harakatlarni takomillashtirishga katta etibor beriladi. Har bir o'yinchi jamoada qanday o'rin egallashiga qarab o'z taktik harakatlarini takomillashtiradi. Mashqlarga ham hujumchi, ham himoyachi harakatlari kiritiladi. O'z-o'zini tahlil qilish qobilyatini, vujudga kelgan o'yin sharoitida to'g'ri yo'l topa bilish, o'yin vaziyatini harakterlovchi ko'p sonli momentlardan eng muhimini ajiratib olish ko'nikmalarini tarbiyalash juda muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Aminjanov Sh.A. (SamDU). Bolalarning jismoniy yuklamalarga moslashuvida harakat apparatining o'ziga xos xususiyatlari. Jismoniy madaniyat ta'lim-tarbiyasi jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanishni takomillashtirish muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand-2003. 102-104 betlar.

2. Azizova Sh.V., L.Ibragimova. Makatabgacha yoshdagi bolalar bilish jarayoniga o'yinlarning ta'siri. «XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari»ni o'rganishga bag'ishlangan. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar.Toshkent-2012.15-17 betlar.

3. Jumayev N. Sport maktabi o'quvchilarida o'zini-o'ziirodaviy boshqarish va uning shakllanishida liderning axloqiy sifatlari. «XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari»ni o'rganishga bag'ishlangan. Respublikailmiy-amaliy anjumani materiallar.Toshkent. 2012. 226-228 betlar.

4. Masharipov Y. Talabalarning sportga qiziqtirishni oshirishning psixologik-pedagogik shartlari. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning dolzarb muammolari. Respublikasi ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. SamDU, 2004. 72-74 betlar.

5. Ro'ziyev B. Sportchi shaxsiga psixologik yondashuv: o'zini-o'zi stimullashtirish va o'zini-o'zi faollashtirish. «XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari»ni o'rganishga bag'ishlangan. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar. Toshkent-2012. 536-538 betlar

6. Suleymanova N.A. Sportchilar irodaviy tayyorgarligining psixologik asoslari. «XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari»ni o'rganishga bag'ishlangan. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar. Toshkent-2012.175-177 betlar.

7. Tashlanov E. Sport turlariga saralashda ruhiy tayyorgarlikning ahamiyati. XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari»ni o'rganishga bag'ishlangan. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar. Toshkent-2012. 177-178 betlar.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Yakubbayev Xabibillo Xamidboyevichning**
Namangan davlat universiteti Jismoniy tarbiya va amaliy sport turlari kafedrasi katta o‘qituvchilari
e-mail: yakubbayevx@gmail.com

## YAKKAKURASH BO‘YICHA MURABBIYLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI

***Annotatsiya:*** *Yakkakurash bo‘yicha murabbiylarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u pedagogik usullar, sport fanlari va amaliy mashg‘ulotlarni birlashtirishni nazarda tutadi. Ushbu maqolada yakkakurash bo‘yicha murabbiylarning kasbiy mahoratini oshirishning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilgan. U samarali murabbiylik uchun zarur bo‘lgan asosiy vakolatlarni shakllantirishda rasmiy ta’lim va norasmiy ta’limning rolini o‘rganadi. Tahlil sportchilarning to‘liq salohiyatini rivojlantirish uchun muhim bo‘lgan psixologik tayyorgarlik, muloqot qobiliyatlari va jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha bilimlarning muhimligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, maqolada murabbiylar malakasini oshirishning markaziy tarkibiy qismi sifatida uzluksiz kasbiy rivojlanish, amaliy tajriba va yangi o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash alohida ta’kidlangan. Nazariy asoslarni ham, amaliy strategiyalarni ham o‘rganish orqali ushbu tadqiqot yakkakurash bo‘yicha murabbiylarni zamonaviy sportning o‘sib borayotgan talablarini qondirish uchun qanday qilib rivojlantirish mumkinligi haqida keng qamrovli fikrni taqdim etadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *kasbiy kompetensiyalar, yakkakurash bo‘yicha murabbiylar, pedagogik uslublar, sport fanlari, murabbiylarni malakasini oshirish, uzluksiz malaka oshirish, psixologik tayyorgarlik, o‘qitish texnologiyalari.*

**Якуббаев Хабибилло Хамидбойевич**
Старшие преподаватели кафедры физического воспитания и прикладного спорта Наманганского государственного университета

## НАУЧНЫЕ РЕДАКЦИОННЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ТРЕНЕРОВ ПО БОЕВЫМ ИСКУССТВАМ

***Аннотация:*** *Формирование профессиональных компетенций у тренеров по боевым искусствам — многогранный процесс, включающий сочетание педагогических методов, спортивных дисциплин и практической подготовки. В данной статье рассматриваются научные и педагогические основы повышения профессиональных навыков тренеров по боевым искусствам. Исследуется роль формального и неформального образования в формировании основных компетенций, необходимых для эффективного наставничества. Анализ подчеркивает важность знаний о психологической подготовке, коммуникативных навыках и физической подготовке, которые необходимы для развития полного потенциала наставников. Кроме того, в статье подчеркивается важность непрерывного профессионального развития, практического опыта и использования новых технологий обучения как центрального компонента повышения квалификации преподавателей. Рассматривая как теоретические основы, так и практические стратегии, данное исследование предлагает всесторонний взгляд на то, как можно развивать тренеров по боевым искусствам, чтобы они соответствовали растущим требованиям современного спорта.*

***Ключевые слова****: Профессиональные компетенции, тренеры по боевым искусствам, методики преподавания, спортивные дисциплины, профессиональное развитие тренеров, непрерывное профессиональное развитие, психологическая подготовка, педагогические технологии.*

**Yakubbayev Khabibillo Khamidboyevich**
Senior lecturers of the Department of Physical Education and Applied Sports, Namangan State University

## SCIENTIFIC EDITORIAL BASES OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCES OF MARTIAL ARTS COACHES

Полученные результаты позволяют рассматривать виртуальные лаборатории как значимый педагогический ресурс, способствующий развитию аналитического и критического мышления в системе подготовки будущих учителей начального образования. Анализ данных показывает, что положительный эффект достигается не за счет самого факта использования цифровых технологий, а благодаря их целенаправленной интеграции в учебный процесс с учетом дидактических и психолого-педагогических принципов. Это подтверждает положения

современных педагогических исследований о том, что цифровая среда становится развивающей лишь при наличии методически выверенных задач и активной познавательной деятельности обучающихся.[11].

Развитие аналитического мышления студентов в процессе работы с виртуальными лабораториями объясняется, прежде всего, исследовательским характером предлагаемых заданий. Возможность изменять параметры моделей, наблюдать последствия этих изменений и анализировать результаты стимулирует мыслительные операции анализа, сравнения, обобщения и установления причинно-следственных связей. В отличие от традиционных лабораторных работ, виртуальные лаборатории позволяют многократно возвращаться к эксперименту, корректировать гипотезы и проверять альтернативные решения, что усиливает аналитическую направленность учебной деятельности.[12].

Критическое мышление формируется в условиях необходимости оценки полученных результатов и осмысления их достоверности. Виртуальные лаборатории создают ситуацию, в которой обучающиеся сталкиваются с расхождениями между ожидаемыми и фактическими результатами, что побуждает их к поиску причин, выявлению ошибок и аргументированному объяснению выявленных несоответствий. Обсуждение результатов экспериментов в учебной группе способствует развитию навыков аргументации, диалога и рефлексии, что является важным компонентом критического мышления будущего педагога. [13].

В контексте подготовки учителей начальных классов особое значение приобретает перенос сформированных у студентов аналитических и критических умений в их будущую профессиональную деятельность. Освоение виртуальных лабораторий в период обучения в вузе формирует у будущих педагогов готовность к использованию цифровых инструментов для развития мышления младших школьников. Это позволяет рассматривать виртуальные лаборатории не только как средство предметного обучения, но и как инструмент формирования универсальных учебных действий, соответствующих современным образовательным стандартам.[14].

В то же время результаты исследования указывают на необходимость педагогического сопровождения процесса работы с виртуальными лабораториями. Без четко сформулированных целей, проблемных заданий и рефлексивных этапов существует риск поверхностного использования цифровых ресурсов, при котором обучающиеся сосредотачиваются на технической стороне работы, а не на анализе и оценке получаемых данных. Следовательно, эффективность виртуальных лабораторий напрямую зависит от профессиональной компетентности преподавателя и его умения проектировать учебную деятельность, ориентированную на развитие мышления.[15].

Таким образом, обсуждение результатов подтверждает, что виртуальные лаборатории обладают высоким потенциалом для развития аналитического и критического мышления студентов педагогических вузов. Их использование требует системного подхода, методической подготовки и ориентации на активную познавательную деятельность, что в совокупности позволяет повысить качество профессиональной подготовки будущих учителей начального образования.

Заключение.

Проведенное исследование позволяет сделать вывод о том, что виртуальные лаборатории являются эффективным средством развития аналитического и критического мышления в системе подготовки будущих учителей начального образования. Их педагогический потенциал обусловлен возможностью моделирования учебных ситуаций, организации исследовательской деятельности и создания условий для активного анализа, интерпретации и оценки учебной информации. В условиях цифровизации образования такие инструменты приобретают особую значимость, поскольку отвечают современным требованиям к формированию универсальных и профессиональных компетенций педагога.

Результаты исследования подтверждают, что аналитическое мышление развивается за счет включения обучающихся в процесс осмысленного исследования, требующего выделения существенных признаков, установления причинно-следственных связей и обобщения полученных данных. Виртуальные лаборатории способствуют переходу от репродуктивного усвоения знаний к их осознанному применению, что выражается в более глубоком понимании учебного материала и способности логически обосновывать выводы.

Критическое мышление формируется в процессе оценки результатов виртуальных экспериментов, выявления ошибок, анализа альтернативных решений и аргументированного отстаивания собственной позиции. Работа с виртуальными моделями создает условия для развития рефлексии, умения сомневаться в полученной информации и проверять ее достоверность, что является важным качеством современного педагога. Эти навыки особенно значимы для учителей начальных классов, поскольку именно они формируют у обучающихся основы мышления и отношения к познавательной деятельности.

Исследование показало, что эффективность виртуальных лабораторий напрямую зависит от методической организации учебного процесса. Целенаправленное проектирование заданий, ориентация на проблемный и

исследовательский характер обучения, а также включение этапов обсуждения и рефлексии существенно усиливают развивающий эффект цифровых инструментов. В этом контексте возрастает роль преподавателя педагогического вуза как организатора и модератора познавательной деятельности студентов.

Практическая значимость полученных выводов заключается в возможности их использования при разработке учебных программ, методических рекомендаций и цифровых образовательных ресурсов для педагогических вузов. Использование виртуальных лабораторий может рассматриваться как одно из перспективных направлений совершенствования профессиональной подготовки будущих учителей начального образования, ориентированной на формирование аналитического и критического мышления в условиях современной образовательной среды.

**Литература.**

1.Брушлинский А. В. Психология мышления и деятельности. Москва, Институт психологии РАН, 2006.

2.Выготский Л. С. Мышление и речь. Москва, Лабиринт, 2019.

3.Халперн Д. Психология критического мышления. Санкт-Петербург, Питер, 2020.

4.Gulyamova, N. B. (2024). *Igry, razvivaushchie samostoyatelnost', i ikh analiz*. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 4(4), 23–28.

5.Gulyamova, N. B., & Rizayeva, H. (2025). Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli. Maktabgacha va Maktab Ta'limi, Article 858.

6.Полат Е. С., Бухаркина М. Ю. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. Москва, Академия, 2018.

7.Роберт И. В. Теория и методика информатизации образования. Москва, БИНОМ, 2014.

8.Селевко Г. К. Современные образовательные технологии. Москва, Народное образование, 2017.

9.Федоров А. В. Критическое мышление в педагогическом образовании. Москва, Юрайт, 2021.

10. Хуторской А. В. Компетентностный подход в образовании. Москва, Академия, 2019.

11. Mayer R. E. Multimedia Learning. Cambridge, Cambridge University Press, 2020.

12. Jonassen D. H. Learning to Solve Problems with Technology. New York, Routledge, 2019.

13. Fisher A., Scriven M. Critical Thinking: Its Definition and Assessment. Point Reyes, Edgepress, 2016.

14. OECD. Innovative Learning Environments. Paris, OECD Publishing, 2017.

15. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators. Luxembourg, Publications Office of the European Union, 2017.

16. de Jong T., van Joolingen W. R. Scientific Discovery Learning with Computer Simulations. Review of Educational Research, 2018, 68(2), 179–201.

17. Means B., Bakia M., Murphy R. Learning Online: What Research Tells Us About Whether, When and How. New York, Routledge, 2014.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Otaxanova Shoxista Shuxratjon qizi**
Namangan Davlat universiteti doktoranti
Email: Samsungd-820@mail.ru

## KOUCHING YONDASHUVI ASOSIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI 21-ASR KOMPETENSIYALARIGA TAYYORLASH

***Annotatsiya:*** *Mazkur tadqiqot bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini 21-asr kompetensiyalariga tayyorlash jarayonida kouching yondashuvining pedagogik va metodologik samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot aralash usulda olib borilgan bo'lib, ma'lumotlarni pedagogik kuzatuv, diagnostik testlar, so'rovnomalar, reflektiv yozma ishlar va yarim tuzilgan intervyular orqali yig'ish amalga oshirilgan. Eksperimental guruhda kouching yondashuvi qo'llanilganda talabalarning kommunikativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va o'zini boshqarish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlantirilgan. Reflektiv jarayonlar va guruh bilan hamkorlik kouching metodologiyasini integratsiyalashgan holda qo'llashning samaradorligini ko'rsatgan. Natijalar ilgari tadqiqotlarda yetarlicha e'tibor berilmagan pedagogik mexanizmlarni aniqlash imkonini beradi va 21-asr kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida kouching yondashuvining ahamiyatini tasdiqlaydi.*

***Kalit so'zlar:*** *Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari, 21-asr kompetensiyalari, Kouching yondashuvi, Reflektiv o'rganish, Kompetensiyaviy tayyorgarlik.*

**Otakhonova Shokhista Shuhratjon kizi**
Postgraduate student at Namangan State University

## PREPARING FUTURE ENGLISH TEACHERS FOR 21ST CENTURY COMPETENCES BASED ON THE COACHING APPROACH

***Abstract:*** *This study aims to investigate the pedagogical and methodological effectiveness of the coaching approach in the process of preparing future English teachers for 21st century competencies. The study was conducted using a mixed method, and data were collected through pedagogical observation, diagnostic tests, questionnaires, reflective writing, and semi-structured interviews. When the coaching approach was used in the experimental group, students' communication, critical thinking, collaboration, and self-management skills were significantly developed. Reflective processes and group collaboration demonstrated the effectiveness of the integrated application of the coaching methodology. The results allow us to identify pedagogical mechanisms that have not been sufficiently addressed in previous studies and confirm the importance of the coaching approach in the process of forming 21st century competencies.*

***Keywords:*** *Prospective English teachers, 21st century competencies, Coaching approach, Reflective learning, Competency-based training.*

**Отаханова Шохиста Шухратжон кызы**
Аспирант Наманганского государственного университета

## ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА К КОМПЕТЕНЦИЯМ XXI ВЕКА НА ОСНОВЕ КОУЧИНГОВОГО ПОДХОДА.

***Аннотация:*** *Целью данного исследования является изучение педагогической и методологической эффективности коучингового подхода в процессе подготовки будущих учителей английского языка к компетенциям XXI века. Исследование проводилось с использованием смешанного метода, а данные собирались посредством педагогического наблюдения, диагностических тестов, анкет, рефлексивного письма и полуструктурированных интервью. При использовании коучингового метода в экспериментальной группе значительно развились коммуникативные навыки, критическое мышление, навыки сотрудничества и самоорганизации у учащихся. Рефлексивные процессы и групповое сотрудничество продемонстрировали эффективность комплексного применения коучинговой методологии. Результаты позволяют*

*выявить педагогические механизмы, которые недостаточно освещены в предыдущих исследованиях, и подтверждают важность коучингового подхода в процессе формирования компетенций XXI века.*

***Аннотация:*** *Ключевые слова: будущие учителя английского языка, компетенции XXI века, коучинговый подход, рефлексивное обучение, компетентностно-ориентированное обучение.*

## KIRISH

XXI asrda ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib, o‘qituvchidan nafaqat fan bilimlari, balki tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati, hamkorlikda ishlash, raqamli savodxonlik va uzluksiz o‘zini rivojlantirish kabi kompetensiyalarga ega bo‘lishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ushbu kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda, chunki ingliz tili global muloqot vositasi sifatida zamonaviy jamiyatda muhim o‘rin tutadi. Shunday sharoitda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini 21-asr kompetensiyalariga yo‘naltirilgan holda tayyorlash ta’lim mazmuni va metodologiyasini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etishni talab etadi.

So‘nggi yillarda ta’lim amaliyotiga jadal kirib kelayotgan kouching yondashuvi shaxsga yo‘naltirilgan, reflektiv va motivatsion ta’lim modeli sifatida e’tiborni tortmoqda. Ushbu yondashuv o‘quv jarayonida o‘qituvchi va o‘rganuvchi o‘rtasidagi munosabatni hamkorlik, ishonch va faol muloqot asosida tashkil etib, bo‘lajak mutaxassislarning ichki salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Kouching yondashuvi orqali talabalarda mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish, maqsad qo‘yish va o‘z faoliyatini baholash ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi zamonaviy pedagogik fanlarda shakllangan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv va reflektiv o‘rganish konsepsiyalariga tayanadi. Ta’lim jarayonini o‘rganuvchi shaxsning faol ishtiroki asosida tashkil etish g‘oyasi J. Dewey tomonidan ilgari surilgan tajribaviy ta’lim nazariyasida asoslab berilgan bo‘lib, unda bilim o‘quvchiga tayyor holda berilmaydi, balki u shaxsiy tajriba, muammoli vaziyatlar va refleksiya orqali shakllanadi. Deweyning ushbu qarashlari bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning mustaqil fikrlashi, muammolarni tahlil qilish va amaliy faoliyatga moslashuvchanligini rivojlantirish zarurligini metodologik jihatdan asoslab beradi [1].

Konstruktivistik yondashuv doirasida ta’limni shaxsiy bilim qurish jarayoni sifatida talqin qilish g‘oyalari kouching yondashuvi bilan bevosita uyg‘unlashadi. Kouching ta’lim jarayonida o‘rganuvchining ichki salohiyatini faollashtirish, maqsadni mustaqil belgilash va rivojlanish yo‘nalishini anglashga xizmat qiluvchi metodologiya sifatida qaraladi. J. Whitmore tomonidan ishlab chiqilgan kouching konsepsiyasida o‘qituvchi bilim manbai emas, balki rivojlanish jarayoniga hamroh bo‘luvchi fasilitator sifatida talqin etiladi. Whitmore taklif etgan GROW modeli orqali o‘rganuvchining maqsad qo‘yish, mavjud holatni tahlil qilish, muqobil imkoniyatlarni aniqlash va amaliy harakatlarni rejalashtirish kompetensiyalari rivojlantiriladi. Ushbu yondashuv bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida o‘z-o‘zini boshqarish va kasbiy mas’uliyatni shakllantirish uchun metodologik tayanch vazifasini bajaradi [2].

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda kouching yondashuvining ta’limga integratsiyasi masalasi J. Passmore tomonidan chuqur o‘rganilgan. Uning ishlarida kouching psixologiyasi ta’lim jarayonida reflektiv dialog, ochiq savollar va shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan muloqot orqali kompetensiyalarni shakllantirish vositasi sifatida talqin qilinadi. Passmore qarashlariga ko‘ra, kouching ta’lim oluvchining bilimdan foydalanish qobiliyatini oshirib, uni mustaqil o‘rganishga undaydi. Bu g‘oyalar bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini 21-asr kompetensiyalariga tayyorlash jarayonida an’anaviy nazoratga asoslangan o‘qitishdan rivojlantiruvchi ta’lim modeliga o‘tish zarurligini metodologik jihatdan asoslaydi [3].

Tadqiqot metodologiyasining muhim nazariy tayanchi reflektiv o‘rganish konsepsiyasi hisoblanadi. D. Schön tomonidan ishlab chiqilgan reflektiv amaliyot nazariyasida professional rivojlanish jarayoni “reflection-in-action” va “reflection-on-action” orqali amalga oshishi asoslab berilgan. Ushbu yondashuv o‘qituvchining real pedagogik vaziyatlarda qaror qabul qilish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kouching yondashuvi refleksiyani markaziy komponent sifatida qabul qilgani sababli, Schönning g‘oyalari mazkur tadqiqotda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining reflektiv kompetensiyasini shakllantirishni asoslash uchun metodologik poydevor vazifasini bajaradi [4].

Shu bilan birga, 21-asr kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuv yetakchi metodologik yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi. Ushbu yondashuvda bilim, ko‘nikma va munosabatlarning integratsiyasi asosida kommunikativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va muammolarni hal qilish kompetensiyalari rivojlantiriladi. Kouching yondashuvi aynan ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizm sifatida qaralib, tadqiqot metodologiyasida ularni baholash va rivojlantirish mezonlarini aniqlashga imkon beradi.

Kouching yondashuvi bo‘yicha tashkil etilgan eksperimental jarayon orqali bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining 21-asr kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Dewey.J tomonidan ilgari surilgan tajribaga asoslangan ta’lim nazariyasi shaxsning faol tajribasi orqali bilim hosil qilishni ta’kidlaydi, biroq o‘rganilgan nazariy manbalarda talabalarning kompetensiyalarni integratsiyalashgan shaklda rivojlantirish mexanizmi yetarlicha ko‘rib chiqilmagan. Shu nuqtai nazardan, eksperimental guruhda kouching yondashuvi qo‘llanilib, talabalarning kommunikativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va o‘zini boshqarish ko‘nikmalari integratsiyalashgan holda rivojlantirilgan. Whitmore J. GROW modelini shaxsning ichki salohiyatini faollashtirish mexanizmi sifatida tavsiflagan, biroq ko‘plab tadqiqotlarda bu model faqat individual yondashuv sifatida ishlatiladi. Ushbu tadqiqotda esa GROW modelining guruh bilan hamkorlik jarayonida qo‘llanilishi natijasida talabalarning guruh ichida muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlangan. Passmore J. ta’limda reflektiv dialog va ochiq savollarni qo‘llashni taklif qilgan bo‘lsa-da, ilgari amalga oshirilgan tadqiqotlarda bu metod faqat qisqa muddatli faoliyat bilan cheklangan. Mazkur tadqiqotda esa reflektiv yozma ishlar va intervyular orqali uzoq muddatli kuzatuv asosida talabalarning o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va qaror qabul qilish kompetensiyalari rivojlantirilgan. Schön D.A reflektiv amaliyotni “reflection-in-action” va “reflection-on-action” kontseptsiyalari orqali izohlasa-da, ilgari tadqiqotlarda bu jarayon ko‘proq nazariy tavsif sifatida qoldirilgan. Eksperimental guruhdagi kuzatuvlar natijasida reflektiv jarayonlar amaliy faoliyat bilan integratsiyalashgan holda talabalarning mustaqil fikrlash va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali bo‘lgani aniqlangan. Shu bilan birga, eksperimental ish davomida talabalarning muammolarni hal qilish jarayoni va guruh bilan muloqotda faol ishtirok etishi, ilgari tadqiqotchilar tomonidan yetarlicha e’tibor berilmagan pedagogik komponent sifatida aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kouching yondashuvi bo‘lajak o‘qituvchilarni 21-asr kompetensiyalariga tayyorlash jarayonida faqat individual yondashuv emas, balki guruh va reflektiv integratsiyalashgan metodologik mexanizm sifatida qo‘llanilganda samaraliroq natija beradi. Shu bilan birga, talabalarning kompetensiyalarning o‘sishini kuzatish va ularni baholashda reflektiv yozma ishlar va intervyu usullarini qo‘llash ilgari tadqiqotlarda yetarli darajada ko‘rilmagan, bu esa yangi yondashuv sifatida metodologik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, kouching yondashuvi bo`lajak ingliz tili o‘qituvchilarining 21-asr kompetensiyalarini shakllantirishda samarali mexanizm ekanini ko‘rsatdi. Eksperimental guruhda kouching yondashuvi orqali talabalarning kommunikativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va o‘zini boshqarish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Reflektiv yozma ishlar, intervyular va pedagogik kuzatuvlar natijalari shuni tasdiqladiki, talabalarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlari integratsiyalashgan pedagogik jarayonda kuchayadi. Shu bilan birga, natijalar kouching yondashuvini faqat individual rivojlanish vositasi sifatida emas, balki guruh bilan hamkorlik va reflektiv jarayon bilan uyg‘unlashtirish orqali qo‘llashning samaradorligini ko‘rsatdi. Ilgari tadqiqotlarda yetarli darajada e’tibor berilmagan bu yondashuv pedagogik amaliyotda talabalarning kasbiy va pedagogik kompetensiyalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirish imkonini beradi. Shunday qilib, tadqiqot kouching yondashuvining 21-asr kompetensiyalarini shakllantirishdagi metodologik va amaliy ahamiyatini tasdiqlab, pedagogik jarayonni takomillashtirishga ilmiy asos yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

1. **Dewey, J.** (1938). *Experience and Education*. New York: Kappa Delta Pi.
2. **Whitmore, J.** (1992). *Coaching for Performance: GROWing Human Potential and Purpose*. London: Nicholas Brealey Publishing.
3. **Passmore, J.** (2006). Coaching psychology: Applying integrative coaching within education. *Journal of Leadership in Public Services*, 2(2), 27–33.
4. **Schön, D. A.** (1983). *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. New York: Basic Books.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Abdurahmanov Otaxon Rustamovich**
Farg‘ona davlat universiteti Sport faoliyati fakulteti
Sport o‘yinlari nazariyasi va uslubiyoti kaferdasi
katta o‘qituvchisi

## SPORT-TURIZM FAOLIYATI SHAROITIDA O‘QUVCHILARNING EKOLOGIK YO‘NALTIRILGAN MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MODELI

***Annotatsiya.*** *Maqolada 8-10-sinf o‘quvchilarining ekologik madaniyatini sport-turizm faoliyati asosida shakllantirishning uslubiy-amaliy yondashuvlari tahlil qilingan. Ta’limning maqsadli natijalari (ekologik bilim va ko‘nikmalar, qadriyatli yo‘nalishlar, mas’uliyatli xulq-atvor namunalari) aniqlanib, sayohat amaliyoti, musobaqalar va dars-tarbiyaviy ishlarga uyg‘unlashtirilgan texnologiyalar, tashkiliy shakllar va usullar majmuasi yoritib berilgan. ”Sport + ekologiya” dasturini amalga oshirishning didaktik tamoyillari va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari asoslangan; shakllar (darslar, to‘garak mashg‘ulotlari, sayohatlar), vositalar (turistik anjomlar, ko‘rgazmali materiallar) va usullar (o‘yin, loyiha, tadqiqot) tizimlashtirilgan. Bosqichma-bosqich texnologiya taklif etilgan va modulni o‘quv jarayoniga joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ekologik ta’lim; o‘quvchilarning ekologik madaniyati; maktab sport turizmi; o‘qitish uslubiyoti; tarbiyaviy shakllar; tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar; ta’lim texnologiyalari.*

**Абдурахманов Отахон Рустамович**
Старший преподаватель кафедры теории и
методологии спортивных игр факультета спортивной
деятельности Ферганского государственного университета

## МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГООРИЕНТИРОВАННОЙ КУЛЬТУРЫ ШКОЛЬНИКОВ В УСЛОВИЯХ СПОРТИВНО-ТУРИСТСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются методико-практические подходы к формированию экологической культуры учащихся 8–10-х классов на основе спортивно-туристской деятельности. Уточнены целевые результаты обучения (экологические знания и умения, ценностные ориентации, модели ответственного поведения) и раскрыт комплекс технологий, организационных форм и методов, интегрируемых в походную практику, соревнования и урочно-воспитательную работу. Обоснованы дидактические принципы и организационно-педагогические условия реализации программы «спорт + экология»; проведена систематизация форм (уроки, секционные занятия, походы), средств (туристское снаряжение, наглядные материалы) и методов (игровые, проектные, исследовательские). Предложена поэтапная технология и даны практические рекомендации по внедрению модуля в образовательный процесс.*

***Ключевые слова:*** *экологическое образование; экологическая культура учащихся; школьный спортивный туризм; методика обучения; воспитательные формы; организационно-педагогические условия; образовательные технологии.*

**Abdurahmanov Otakhon Rustamovich**
Senior Lecturer, Department of Theory and Methodology of
Sports Games, Faculty of Sports Activities,
Fergana State University

## A MODEL FOR DEVELOPING AN ENVIRONMENTALLY-ORIENTED CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN THROUGH SPORTS AND TOURISM ACTIVITIES

***Abstract.*** *The article examines methodological and practical approaches to developing ecological culture in 8th-10th grade students through sports and tourism activities. It clarifies the targeted learning outcomes (environmental knowledge and skills, value orientations, models of responsible behavior) and reveals a complex of technologies, organizational forms, and methods integrated into hiking practices, competitions, and classroom educational work. The paper substantiates the didactic principles and organizational-pedagogical conditions for implementing the ”Sport + Ecology” program. It systematizes forms (lessons, club activities, hikes), means*

*(tourist equipment, visual aids), and methods (game-based, project-based, research-based). A phased implementation approach is proposed, along with practical recommendations for incorporating the module into the educational process.*

***Keywords:*** *environmental education; students' ecological culture; school sports tourism; teaching methodology; educational forms; organizational and pedagogical conditions; educational technologies.*

**Kirish.** Ta'limning ekologik tarkibiy qismini kuchaytirish va maktab sport turizmining jadal rivojlanishi o'quvchilarda ekologik madaniyatni maqsadli shakllantiruvchi amaliyotga yo'naltirilgan pedagogik yechimlar zarurligini ko'rsatmoqda. ESD for 2030 xalqaro dasturi barqaror rivojlanish tamoyillarini ta'lim siyosati va kundalik amaliyotga singdirish bo'yicha me'yoriy-uslubiy yo'riqnomalarni belgilab berdi, shu bilan ekologik-pedagogik tashabbuslarni muassasaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirdi.[1] Milliy darajada turizm va uning tarbiyaviy-ta'limiy salohiyatini rivojlantirish (o'lkashunoslik shakllari, sayohat-musobaqa faoliyati, tabiatni muhofaza qilish amaliyoti) davlat dasturlari va qonuniy hujjatlar bilan mustahkamlangan bo'lib, bu "sport + ekologiya" turdagi maktab modullarini joriy etish uchun qulay sharoit yaratadi. Maqolaning maqsadi sport turizmi materiallari asosida dars va darsdan tashqari faoliyat doirasida o'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishning mualliflik uslubi va texnologiyasini taqdim etishdan iborat. Qo'yilgan maqsadni hal etish quyidagilarni o'z ichiga oladi: dasturni tuzishning mazmuniy tarkibiy qismlari va mantiqini tavsiflash; tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, shakl va usullarni asoslash (sayohatlar, musobaqalar, to'garak va tadqiqot shakllari); amalga oshirish algoritmi va qayta aloqa vositalarini taqdim etish (monitoring, refleksiya, tashxis matrisalari); samaradorlik mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash.[5,10]

Ishlab chiqilgan metodikaning amaliy ahamiyati uning keng doiradagi pedagoglar: jismoniy tarbiya va geografiya o'qituvchilari, turistik-o'lkashunoslik birlashmalari rahbarlari, qo'shimcha ta'lim o'qituvchilari tomonidan bevosita foydalanishga tayyorligi bilan belgilanadi. Taklif etilgan usullarni qo'llash tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish va o'quvchilarda ekologik savodxon xulq-atvor modellarini barqaror shakllantirish imkonini beradi. Tadqiqotning yakuniy qismi modulni maktab amaliyotiga joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi, shuningdek, kelgusida sinovdan o'tkazish va kengaytirishning istiqbolli yo'nalishlarini ko'rsatadi.

**Metodikani amalga oshirishning pedagogik tamoyillari** va shartlari sport-turistik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan klassik didaktik asoslarga tayanadi. Avvalo, izchillik va qulaylik tamoyiliga rioya qilinadi: ish mazmuni va shartlari bosqichma-bosqich murakkablashadi - asosiy qoidalarni o'zlashtirish bilan qisqa, oddiy va xavfsiz safarlardan tortib, kengaytirilgan vazifalar to'plami bilan uzoqroq va xilma-xil yo'nalishlargacha. Bundan tashqari, onglilik va faollik tamoyili amalga oshiriladi, bu maqsadlarni ongli ravishda qabul qilish, ularga erishish usullarini tushunish, dala sharoitida qarorlarni mustaqil qabul qilish va o'z harakatlarining ekologik oqibatlarini tahlil qilishni nazarda tutadi. Bu mantiqni ko'rgazmalilik va amaliy yo'naltirilganlik tamoyili to'ldiradi: asosiy ekologik-huquqiy va tabiatni muhofaza qilish qoidalari dars jarayonida o'rganiladi va darhol dala sharoitida qo'llaniladi. Xavfsizlik tamoyili - marshrutlarni tayyorlash va o'tkazishning barcha bosqichlarida o'quvchilarning hayoti va sog'lig'i ustuvorligi hamda faoliyat shakllarining joyning tabiiy sharoitlari va ekologik qonuniyatlarga mosligini ta'minlovchi tabiatga muvofiqlik tamoyili ajralmas asosiy talablar sifatida namoyon bo'ladi. Tamoyillar va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarning bunday uyg'unligi sport turizmi vositasida maktab o'quvchilarining ekologik madaniyatini tizimli shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**Pedagogik shart-sharoitlar.** Metodikani samarali joriy etish dastlabki tashkiliy-huquqiy tayyorgarlikni talab etadi: yo'nalishlar va tadbirlarni ta'lim muassasasi ma'muriyati bilan kelishib olish, ota-onalar (qonuniy vakillar)ning xabardor qilingan yozma roziligini olish, xavfsizlik bo'yicha maqsadli yo'riqnomalar o'tkazish va hamrohlarning shaxsiy javobgarligini belgilash. Shu bilan birga, moddiy-texnik tayyorgarlik va xavfsiz infratuzilmani ta'minlash zarur: o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligini hisobga olgan holda jihozlarni tanlash (kompas, xaritalar, shaxsiy dori qutilari va boshqalar), shuningdek, potensial jarohatlanish omillarini bartaraf etgan holda poligon/masofani oldindan tayyorlash kerak. Yetakchi o'qituvchi joyda mashg'ulotlarning "boshqariladigan maydon"ini tashkil etadi: reglament va ish sur'atini belgilaydi, maydonni zonalashtiradi, begonalarning kirishini cheklaydi, guruhning tashkiliy yig'ilganligi va harakatlarining izchilligini qo'llab-quvvatlaydi. Bunday amaliy yechimlar - qulay joyni tanlash, dastlabki ko'rsatmalar, rollarni taqsimlash, kuzatuvlarni rejalashtirish - maktab o'quvchilari bilan turistik-o'lkashunoslik ishlari bo'yicha amaliy qo'llanmalarda batafsil keltirilgan. Asosiy shart sifatida intizom va jamoaviy mas'uliyatning tarbiyaviy muhiti namoyon bo'ladi: o'zaro ta'sir va o'zaro yordam madaniyati, me'yorlarga (ayniqsa, ekologik) so'zsiz rioya qilish, "qat'iy, ammo xayrixoh" nazorat, mulohaza va chiqish natijalarini tahlil qilish. Ushbu qoidalar tarbiya pedagogikasining an'anaviy tamoyillariga (faoliyatni tashkil etish, jamoa tarbiya jarayonining subyekti sifatida, ijtimoiy xulq-atvor tajribasini shakllantirish) mos keladi.

**Mazmunli model o'zaro bog'liq uchta komponentni o'z ichiga oladi:**

Bilimlar - ekologiya va mahalliy tabiatshunoslik asoslari, turizmga oid tabiiy muhitda o'zini tutish qoidalari;

Qadriyat-me'yoriy blok - ekologik etika va "turist-ekolog kodeksi";

Amaliyot - ekologik lager va harakat ko'nikmalari, mo'ljal olish, tibbiy yordamgacha bo'lgan yordam, dala kundaligini yuritish, kichik tadqiqotlar (suv tozaligini baholash, chiqindilarni hisobga olish va saralash va boshqalar).[3] Bunday faoliyat mas'uliyatlilik, jamoaviylik, mustaqillik va tejamkorlikni rivojlantiradi, ekologik yo'naltirilgan ongni shakllantiradi va shu bilan birga shaxs ekologik madaniyatining tarkibiy qismi sifatida salomatlikni mustahkamlashga yordam beradi. "Harakatdagi" xulq-atvor me'yorlarini mustahkamlash uchun dasturga bilimlarni barqaror xulq-atvor amaliyotiga aylantiruvchi maxsus ishlab chiqilgan sport-ekologik topshiriqlarni (bosqichlarda chiqindilarni alohida yig'ish, ekologik viktorinalar, ijodiy tanlovlar va boshqalar) kiritish maqsadga muvofiqdir.

**Pedagogik ishning shakl, usul va vositalari.** Metodika dars va darsdan tashqari shakllarni uyg'unlashtiradi. Jismoniy tarbiya darslarida turizm elementlari (stadionda va maktab hududida asosiy usullarni mashq qilish) kiritiladi, ekologik mazmun esa geografiya, biologiya va hayot xavfsizligi asoslari kurslariga ona yurt tabiati va ekoturizmni o'rganishda maqsadli ravishda singdiriladi.[8] Darsdan tashqari sohada "Barkamol avlod" tizimidagi turistik-o'lkashunoslik to'garaklari va seksiyalaridan (dam olish kunlari sayohatlari, ekskursiyalar, o'quv-mashg'ulot yig'inlari, ekologik komponentli turizm texnikasi bo'yicha musobaqalar), shuningdek, ixtisoslashgan oromgohlar va o'quv ekspeditsiyalaridan foydalaniladi. Ekologik ma'rifat shakllari tizimini sinf soatlari, ekologlar va tajribali sayyohlar bilan uchrashuvlar, ko'rgazmalar va tanlovlar to'ldiradi. Shakllarning xilma-xilligi - darsdan to ko'p kunlik sayohatgacha - tarbiyaviy ta'sirning uzluksizligi va davomiyligini ta'minlaydi.[9]

Faol usullar majmuasi qo'llaniladi:

- o'yinli (joylarda ekologik o'yinlar, "Agar..." namunaviy vaziyatlarni tahlil qilish);
- musobaqa (ekologik topshiriqlar bilan jamoaviy bellashuvlar);
- loyihaviy (masalan, "Toza so'qmoq": hovli/bog'ni obodonlashtirish bo'yicha aksiyani rejalashtirish va o'tkazish);
- amaliy mashg'ulotlar (chodir o'rnatish, suvni filtrlash, mo'ljal olish, ekologik toza turmush tarzi).

Tarbiyaviy ta'sirlar dastlabki va yakuniy suhbatlar va munozaralarni (tabiatga ta'sirni kamaytirish, xatolarni tahlil qilish, ekologik xulq-atvorni rag'batlantirish), o'qituvchining shaxsiy namunasi va katta o'quvchilarning yo'l-yo'riqlarini, rag'batlantirish usullarini ("Eng yaxshi yosh ekolog-sayyoh" tanlovlari, ramziy maqomlar, mukofotlar) o'z ichiga oladi. Belgilangan shart-sharoitlar, shakllar va usullar majmui ekologik bilimlarni qadriyatlarga va barqaror xulq-atvor modellariga ishonchli o'tkazishni ta'minlaydigan yaxlit pedagogik tizimni yaratadi.[2,3]

**Shakllanish bosqichlari:**

- Tayyorgarlik (7-8-sinflar): turizm asoslari va ekologik xavfsiz xulq-atvorga kirish; qisqa marshrutlar, sodda topshiriqlar, motivatsiya va qulaylikka e'tibor qaratish, "iz qoldirmaslik" tamoyilini o'zlashtirish. [6]

- Asosiy (8-9-sinflar): insonning tabiatga ta'siri va uni kamaytirish usullari haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish; o'rta murakkablikdagi sayohatlarda qatnashish; qoidalarni amaliyotda muntazam qo'llash; marshrutda o'z-o'zini baholash va harakatlarni tahlil qilish usullarini joriy etish. [7]

- Yakuniy (9-10-sinflar): ko'nikmalarni yanada murakkab, jumladan musobaqa shaklidagi sayyohlik formatlarida barqaror xulq-atvor odatlariga aylantirish; mustaqillikni kengaytirish; kichik yoshdagilarga murabbiylik qilish; kichik sayohatlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish.[10]

Har bir bosqich takrorlanuvchi sikl orqali amalga oshiriladi: dastlabki tashxis → darslar va sayohatlarni taqvim-mavzuiy rejalashtirish → bosqichma-bosqich murakkablashadigan mashg'ulotlar va dala tadbirlari turkumi → yakuniy mulohaza va qayta tashxis. Har bir sayohat tayyorgarlik (yo'riqnoma, vazifalarni taqsimlash), amalga oshirish (yo'nalish, amaliy topshiriqlar: mo'ljal olish, dala "ekomonitoringi", qoidabuzarliklarni suratga olish) va natijalarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.[4] Bunday tashkil etish bilimdan ko'nikma va qadriyatlarga boshqariladigan o'tishni ta'minlaydi.

**Xulosa.** Taqdim etilgan uslub sport turizmi vositasida maktab o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirishning maqsadlari, mazmuni, shakllari, usullari va shart-sharoitlarini birlashtirgan yaxlit ta'lim-tarbiya tizimidir. Taklif etilgan bosqichlar va tartiblarga rioya qilish o'quvchilarning ekologik madaniyati darajasini sezilarli darajada oshirishni ta'minlaydi, bu sinov natijalari bilan tasdiqlangan. Yondashuvni umumta'lim maktablari, sayyohlik klublari va qo'shimcha ta'lim muassasalarida amaliy qo'llash uchun tavsiya etish mumkin; uni joriy etish ekologik savodxon va jismonan barkamol yoshlarni tarbiyalashga yordam beradi. Keyingi takomillashtirish turli yosh guruhlariga (shu jumladan, boshlang'ich maktab o'quvchilari va talabalar) moslashish va raqamli vositalardan (elektron xaritalar, sayohatlarning video tahlili va boshqalar) foydalangan holda ish shakllarini kengaytirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, uslubga kiritilgan asosiy tamoyillar va texnologik yechimlar o'z universalligini saqlab qoladi va sport, turizm va ekologik tarbiyani tizimli ravishda birlashtirishga intilayotgan o'qituvchilar uchun yo'llanma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Foydalingan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Education for Sustainable Development: A Roadmap. Paris: UNESCO, 2020. 66 p. ISBN 978-92-3-100394-3.

2. Ardoin N.M., Bowers A.W., Roth N.W., Holthuis N. Environmental education and K-12 student outcomes: A review and analysis of research // The Journal of Environmental Education. 2018. Vol. 49, № 1. P. 1-17. DOI: 10.1080/00958964. 2017.1366155.

3. Ardoin N.M., Bowers A.W., Gaillard E. Environmental education outcomes for conservation: A systematic review // Biological Conservation. 2020. Vol. 241. Article 108224. DOI:10.1016/j.biocon.2019.108224.

4. Hattie J., Marsh H.W., Neill J.T., Richards G.E. Adventure education and Outward Bound: Out-of-class experiences that make a lasting difference // Review of Educational Research. 1997. Vol. 67, № 1. P. 43–87. DOI:10.3102/00346543067001043.

5. Chawla L. Significant Life Experiences Revisited: A review of research on sources of environmental sensitivity // Environmental Education Research. 1998. Vol. 4, № 4. P. 369–382. DOI:10.1080/1350462980040402.

6. Taff B.D., Lawhon B., Newman P., Vagias W.M., et al. Comparing day-users' and overnight visitors' attitudes toward Leave No Trace in Yosemite National Park // Journal of Outdoor Recreation, Education, and Leadership. 2014. Vol. 6, № 1. P. 62-78. DOI:10.18666/JOREL-2014-V6-I1-5169.

7. Lawhon B., Newman P., Taff B.D., Vaske J.J., Vagias W.M., Bright A., Lawson S.R., Monz C. Factors influencing behavioral intentions for Leave No Trace behavior in National Parks // Journal of Interpretation Research. 2013. Vol. 18, № 1. P. 23–38. DOI:10.1177/109258721301800103.

8. Monz C., Cole D.N., Leung Y.-F., Marion J.L. Sustaining Visitor Use in Protected Areas: Future opportunities in recreation ecology research based on the USA experience // Environmental Management. 2010. Vol. 45, № 3. P. 551–562. DOI:10.1007/s00267-009-9406-5.

9. Leung Y.-F., Marion J.L. Characterizing backcountry camping impacts in Great Smoky Mountains National Park, USA // Journal of Environmental Management. 1999. Vol. 57, № 3. P. 193–203. DOI:10.1006/jema.1999.0303.

10. Ясвин В.А. Экологическая культура: от стимуляции к самодетерминации // Социально-политические исследования. 2020. № 1. С. 97–116.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Jumanova Maxsudaxon Sattarovna**
Andijon davlat texnika instititu katta o‘qituvchisi
ORCID 0009-0001-5800-7091

## HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANIDA ERGONOMIKA VA PSIXOLOGIK OMILLAR ASOSIDA FAOLIYAT XAVFSIZLIGI KOMPETENSIYALARINI KREATIV YONDASHUV ORQALI SHAKLLANTIRISH

***Annotatsiya*** *Mazkur maqolada hayot faoliyati xavfsizligi fanida faoliyat xavfsizligini ta’minlash masalasi ergonomik va psixologik omillar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda xavfsizlikni ta’minlash jarayonida insonning psixofiziologik holati hamda mehnat muhitining ergonomik tashkil etilishi yetarli darajada hisobga olinmayotgani muammo sifatida ilgari suriladi. Tadqiqot metodologiyasi kreativ yondashuvga asoslanib, muammoli vaziyatlar, amaliy keyslar va reflektiv tahlil usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar ergonomika va psixologik yondashuvlarni kreativ ta’lim metodlari bilan uyg‘unlashtirish talabalarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Tadqiqot xulosalari hayot faoliyati xavfsizligi fanini o‘qitishda inson omiliga yo‘naltirilgan kreativ yondashuvning pedagogik samaradorligini tasdiqlaydi.*

***Kalit so‘zlar:*** *hayot faoliyati xavfsizligi, faoliyat xavfsizligi, ergonomika, psixologik omillar, kreativ yondashuv, xavfsizlik madaniyati.*

**Джуманова Максудахон Саттаровна**
Старший преподаватель, Андижанский государственный технический институт

## РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ В ОБЛАСТИ МЕХАНИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ С ПОМОЩЬЮ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА НА ОСНОВЕ ЭРГОНОМИКИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ БЕЗОПАСНОСТИ ЖИЗНИ.

***Аннотация:*** *В статье рассматриваются вопросы обеспечения безопасности деятельности в рамках дисциплины «Безопасность жизнедеятельности» с позиции эргономических и психологических факторов. В качестве основной проблемы обозначается недостаточный учет психофизиологического состояния человека и эргономической организации среды при формировании навыков безопасной деятельности. Методология исследования основана на креативном подходе и включает использование проблемных ситуаций, практических кейсов и рефлексивного анализа. Полученные результаты показывают, что интеграция эргономических и психологических основ с креативными методами обучения способствует формированию устойчивой культуры безопасности у обучающихся. Сделанные выводы подтверждают педагогическую эффективность человекоцентрированного, креативно ориентированного подхода в преподавании дисциплины «Безопасность жизнедеятельности».*

***Ключевые слова:*** *безопасность жизнедеятельности, безопасность деятельности, эргономика, психологические факторы, креативный подход, культура безопасности.*

**Jumanova Maksudakhon Sattarovna**
Senior Lecturer, Andijan State Technical Institute

## FORMATION OF OCCUPATIONAL SAFETY COMPETENCES BASED ON ERGONOMICS AND PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE SCIENCE OF LIFE SAFETY THROUGH A CREATIVE APPROACH

***Abstract:*** *This article addresses the issue of ensuring activity safety within the framework of the “Life Safety” course from the perspective of ergonomic and psychological factors. The study highlights insufficient consideration of human psychophysiological conditions and ergonomic organization of the working environment as a key problem in safety education. The research methodology is based on a creative approach and involves problem-based situations, practical case studies, and reflective analysis. The findings demonstrate that integrating ergonomic and psychological principles with creative teaching methods positively influences the development of students’ safety culture. Overall, the conclusions confirm the pedagogical effectiveness of a human-centered, creativity-based approach in teaching life safety disciplines.*

***Keywords:*** *life safety, activity safety, ergonomics, psychological factors, creative approach, safety culture.*

## KIRISH

Hayot faoliyati xavfsizligi fani insonning mehnat faoliyati va kundalik hayot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularning salbiy oqibatlarini oldini olishga qaratilgan bilim, ko‘nikma hamda kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu fan nafaqat texnik xavfsizlik qoidalarini o‘rgatish, balki insonning fiziologik, psixologik va ijtimoiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda xavfsiz faoliyatni tashkil etishni ta’minlashni ham nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan, ergonomik sharoitlar va psixologik holat inson xavfsizligini ta’minlashda markaziy omillar sifatida maydonga chiqadi.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, hayot faoliyati xavfsizligi fanini o‘qitish jarayonida ko‘pincha texnik-me’yoriy talablar, standartlar va yo‘riqnomalarga ustuvor ahamiyat berilib, insonning psixofiziologik holati, diqqatning pasayishi, charchoq, stress, emotsional zo‘riqish kabi omillar yetarli darajada inobatga olinmaydi. Natijada xavfsizlik qoidalari talabalarga nazariy jihatdan yetkazilgan bo‘lsa-da, real vaziyatlarda ularning ongli ravishda qo‘llanilishi sustlashadi. An’anaviy o‘qitish usullari, asosan, axborot uzatishga yo‘naltirilganligi sababli, talabalarni xavfli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga va inson omilini hisobga olishga yetarli darajada tayyorlay olmaydi.

Mazkur holat hayot faoliyati xavfsizligi fanini o‘qitishda yangi pedagogik yondashuvlarni, xususan, ergonomik va psixologik omillarni kreativ ta’lim metodlari bilan integratsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Kreativ yondashuv talabalarning faolligini oshirish, real vaziyatlarni modellashtirish, muammoli holatlarni tahlil qilish va reflektiv fikrlashni rivojlantirish orqali xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga imkon beradi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi hayot faoliyati xavfsizligi fanida faoliyat xavfsizligini ta’minlashning ergonomik va psixologik asoslarini kreativ yondashuv asosida o‘qitishning pedagogik samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi ergonomika va psixologiya elementlarini kreativ ta’lim metodlari bilan uyg‘un holda ko‘rib chiqish hamda ularni o‘quv jarayoniga tizimli tatbiq etish mexanizmlarini asoslashdan iboratdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ergonomika masalalari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan mehnat jarayonini optimallashtirish, ish joyini ratsional tashkil etish va inson imkoniyatlariga mos muhit yaratish vositasi sifatida o‘rganilgan. Jumladan, I. A. Gellerstein ergonomik yondashuvni ishlab chiqarish samaradorligi va xavfsizlikni ta’minlashning muhim sharti sifatida talqin qiladi. A. Grandjean esa insonning jismoniy va ruhiy holatini hisobga olmagan mehnat sharoitlari xavf-xatarlarning ortishiga olib kelishini ilmiy asoslab bergan.

Psixologik omillar nuqtayi nazaridan esa B. F. Lomov va E. A. Klimov inson xatti-harakatlari, diqqat va qaror qabul qilish jarayonlarining xavfsizlikka bevosita ta’sirini ko‘rsatib o‘tganlar. Ularning tadqiqotlarida stress, charchoq va emotsional zo‘riqish sharoitida inson tomonidan xatoga yo‘l qo‘yish ehtimoli keskin oshishi ta’kidlanadi.

Shu bilan birga, tahlil qilingan adabiyotlarda ergonomik va psixologik yondashuvlar, asosan, ishlab chiqarish jarayonlari yoki texnik tizimlar kontekstida o‘rganilgan bo‘lib, ularni hayot faoliyati xavfsizligi fanini o‘qitishda kreativ metodlar asosida integratsiyalash masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Aynan mana shu ilmiy bo‘shliq mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi va uni pedagogik jihatdan asoslash zaruratini yuzaga keltiradi.

## METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot sifatli pedagogik tadqiqotlar metodologiyasiga tayangan holda amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida hayot faoliyati xavfsizligi fanini o‘qitishda ergonomik va psixologik omillarni kreativ yondashuv asosida integratsiyalashning samaradorligini aniqlash maqsad qilib olindi. Tadqiqot ob’yekti sifatida o‘quv jarayoni, predmet sifatida esa talabalarda faoliyat xavfsizligini ta’minlash kompetensiyalarining shakllanish jarayoni belgilandi.

Ma’lumotlarni yig‘ish jarayoni uch asosiy bosqichda tashkil etildi: kuzatish, tahlil va refleksiya. Kuzatish metodi yordamida talabalarning mashg‘ulotlar jarayonidagi faolligi, xavfli vaziyatlarga munosabati hamda ergonomik talablarni anglash darajasi qayd etildi. Ushbu jarayon quyidagi umumiy ko‘rinishda ifodalandi jumladan $K = \{f_1, f_2, f_3, \dots, f_n\}$, bu yerda, $K$ — kuzatilgan pedagogik holatlar majmui, $f_1$ — diqqat darajasi, $f_2$ — charchoq belgilari, $f_3$ — xavfli vaziyatda qaror qabul qilish tezligi, $f_n$ — psixologik barqarorlik ko‘rsatkichlari.

O‘quv mashg‘ulotlari jarayonini tahlil qilishda kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan dars shakllari (muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar, amaliy keyslar) va an’anaviy mashg‘ulotlar o‘rtasidagi farqlar solishtirildi. Ushbu taqqoshlash quyidagi nisbat orqali baholandi: $S = (R_k - R_a) / R_a$, bu yerda, $S$ — kreativ yondashuv samaradorligi ko‘rsatkichi, $R_k$ — kreativ metodlar asosida olingan natijalar, $R_a$ — an’anaviy metodlar asosida olingan natijalar.

Talabalarning reflektiv fikrlari yozma va og‘zaki tahlil orqali umumlashtirildi. Refleksiya darajasi talabalarning o‘z faoliyatini anglash, xavfli vaziyatlarni baholash va xulosalar chiqarish qobiliyatiga asoslanib quyidagi ifoda orqali tavsiflandi: $R = (\sum r_i) / n$, bu yerda, $R$ — reflektiv tafakkur darajasi, $r_i$ — har bir talabaning reflektiv bahosi, $n$ — ishtirokchilar soni.

Olingan ma’lumotlar tizimli tahlil metodi yordamida umumlashtirilib, ergonomik va psixologik omillarning o‘zaro bog‘liqligi aniqlashtirildi. Xavfsiz faoliyatni ta’minlash samaradorligi quyidagi integrallashgan model orqali izohlandi: $X = E + P + C$, bu yerda, $X$ — faoliyat xavfsizligini ta’minlash darajasi,$E$ — ergonomik sharoitlar (ish joyi, muhit, qulaylik), $P$ — psixologik holat (diqqat, stressga chidamlilik), $C$ — kreativ yondashuv orqali shakllangan kompetensiyalar.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlab, ergonomika va psixologik omillarni kreativ ta’lim metodlari bilan uyg‘unlashtirishning pedagogik samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

## TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalari ergonomik va psixologik omillarga asoslangan kreativ mashg‘ulotlar hayot faoliyati xavfsizligi fanini o‘zlashtirish jarayonida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirishini ko‘rsatdi. Xususan, talabalar tomonidan xavfli vaziyatlarni anglash tezligi, to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati hamda xavfsizlik qoidalariga ongli munosabat darajasi oshgani kuzatildi.




◎ kreativ mashg‘ulotlardan KEYINGI holat ◎ kreativ yondashuv joriy etilishidan OLDINGI holat

**1-rasm. Kreativ mashg‘ulotlarning talabalarga ta’sir ko‘rsatkichlari**

Grafik tahlil shuni ko‘rsatadiki, (1-rasmda kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlardan oldin va keyin talabalar faoliyatida kuzatilgan o‘zgarishlar grafik ko‘rinishda ifodalangan.) xavfni anglash ko‘rsatkichi kreativ mashg‘ulotlar joriy etilgandan so‘ng an’anaviy o‘qitish davriga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu holat muammoli vaziyatlar va amaliy keyslar asosida tashkil etilgan darslar talabalarda real xavf holatlarini tez va to‘g‘ri baholash ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qilganini ko‘rsatadi.

Qaror qabul qilish ko‘rsatkichlaridagi o‘sish esa rolli o‘yinlar va vaziyatli mashg‘ulotlar orqali talabalar o‘zini xavfli sharoitda tasavvur qilishi va javobgarlikni his qilishi bilan izohlanadi. Xavfsizlik qoidalariga bo‘lgan munosabatning ijobiy tomonga o‘zgarishi esa ergonomik va psixologik omillarni hisobga olgan holda olib borilgan mashg‘ulotlarning tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Talabalarning umumiy o‘quv faolligi ko‘rsatkichlari ham oshgan bo‘lib, bu kreativ yondashuvning o‘quv jarayonida passivlikni kamaytirish va bilimlarni faol o‘zlashtirishga xizmat qilayotganin ko‘rsatadi.

**2-rasm. Faoliyat xavfsizligini ta’minlash jarayonida quyidagi mantiqiy bog‘liqlik aniqlandi**

Mazkur sxema shuni anglatadiki, qulay ergonomik muhit va barqaror psixologik holat talabalarning xavfsizlikka oid bilimlarini real faoliyatda ongli ravishda qo‘llashiga zamin yaratadi. Kreativ metodlar esa ushbu zanjirni mustahkamlovchi pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, olingan natijalar ergonomika va psixologik omillarni kreativ ta’lim metodlari bilan uyg‘unlashtirish hayot faoliyati xavfsizligi fanini o‘qitishda ilmiy va amaliy jihatdan samarali ekanini tasdiqlaydi.

**Muhokama**. Ushbu tadqiqot davomida olingan natijalar hayot faoliyati xavfsizligi fanini o‘qitishda inson

omiliga asoslangan yondashuvning muhimligini yaqqol namoyon etdi. Tadqiqotda ergonomik va psixologik omillarga tayangan holda tashkil etilgan kreativ mashg‘ulotlar talabalarning xavfli vaziyatlarni anglash, vaziyatni baholash va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilgani aniqlandi. Bu holat xavfsizlik masalalarini faqat texnik yoki me’yoriy talablar doirasida emas, balki insonning ongli faoliyati bilan bog‘liq jarayon sifatida ko‘rib chiqish zarurligini tasdiqlaydi.

Natijalarni baholash jarayonida aniqlanishicha, ergonomik va psixologik yondashuvlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalar tomonidan xavfsizlik qoidalarini mazmunan tushunish va ularni real faoliyatda qo‘llashga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Xavfsizlik masalalariga nisbatan ongli munosabatning shakllanishi talabalarni faqat qoidalarga rioya qiluvchi ijrochi sifatida emas, balki xavfli vaziyatlarni oldindan anglay oladigan va mas’uliyatli qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida tayyorlash imkonini beradi. Adabiyotlar tahlili bilan qiyoslanganda, kreativ metodlar (muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar, amaliy keyslar) an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etish imkonini bergani kuzatildi. Bu esa kreativ yondashuvning hayot faoliyati xavfsizligi fanida pedagogik jihatdan asosli va maqsadga muvofiq ekanini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalarini talqin etishda ayrim cheklanishlarni ham inobatga olish zarur. Tadqiqot cheklangan auditoriya doirasida olib borilgan bo‘lib, olingan xulosalar muayyan ta’lim sharoitlariga taalluqlidir. Kelgusida mazkur yondashuvni turli ta’lim bosqichlarida, xususan, umumta’lim maktablari, kasb-hunar ta’limi muassasalari va oliy ta’lim tizimida sinovdan o‘tkazish tavsiya etiladi. Bu esa ergonomik va psixologik omillarga asoslangan kreativ yondashuvning universalligi hamda barqaror pedagogik samaradorligini yanada chuqurroq asoslash imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 22 sentyabr.
2. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori № 286, 06.06.1997. – Toshkent, 1997.
3. Cox, S., Jones, B., & Rycraft, H. (2004). Behavioural approaches to safety management within UK reactor plants. *Safety Science*, 42, 825–839-betlar.
4. Fitch, H. G., Herman, J., & Hopkins, B. L. (1976). Safe and unsafe behavior.
5. Jumanova, M. S. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari. Monografiya. Andijon: “Omadbek print number one” MChJ, 2024. – 82 bet.
6. Grandjean, E. Ergonomics in Industry: Improving Productivity and Safety. London: Taylor & Francis, 1988. – 215 bet.
7. Dul, J., & Weerdmeester, B. Ergonomics for Beginners: A Quick Reference Guide. Boca Raton: CRC Press, 2008. – 148 bet.
8. Reason, J. Human Error.Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 302 bet.
9. Salvendy, G. (Ed.). Handbook of Human Factors and Ergonomics.New York: Wiley, 2012. – 1752 bet.
10. Lomov, B. F. Injenerlik psixologiyasi asoslari.Moskva: Nauka, 1984. – 312 bet.
11. Klimov, E. A. Kasbiy faoliyat psixologiyasi.oskva: Akademiya, 2003. – 320 bet.
12. Zimnyaya, I. A. Pedagogik psixologiya.Moskva: Logos, 2002. – 384 bet.
13. Bonwell, C. C., & Eison, J. A. Active Learning: Creating Excitement in the Classroom.Washington, DC: ASHE-ERIC, 1991. – 54 bet.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Mamatqulov Mirzaolim Xaydaraliyevich**
Namangan davlat universiteti v.b professori,
pedagogika fanlari doktori (DSc)

## O‘QUVCHILARINING JISMONIY SIFATLARI VA JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI VA METODIKALARI

***Annotatsiya.*** *Maqolada jismoniy sifatlar rivojlanishining tuzilish asoslari tayanch-harakat apparati, markaziy va periferik asab tizimi hamda ichki a’zolardagi progressiv morfologik va biokimyoviy o‘zgarishlar bilan bog‘liqligi hamda yuqori sinf o‘quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalash metodikasi haqida so’z yuritiladi.*

***Kalit so’zlar:*** *jismoniy sifatlar, tayanch-harakat apparati, jismoniy sifatlarini tarbiyalash, umumiy chidamlilik*

**Маматкулов Мирзаолим Хайдаралиевич**
Исполняющий обязанности профессора Наманганского государственного университета,
Доктор педагогических наук (ДПН)

## МЕТОДЫ И МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ И ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ УЧАЩИХСЯ

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются структурные основы развития физических качеств с прогрессивными морфологическими и биохимическими изменениями в опорно-двигательном аппарате, центральной и периферической нервной системе, внутренних органах, а также методика воспитания физических качеств учащихся старших классов.*

***Ключевые слова:*** *физические качества, опорно-двигательный аппарат, воспитание физических качеств, общая выносливость*

**Mamatkulov Mirzaolim Khaydaralievich**
Acting Professor of Namangan State University,
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)

## METHODS AND METHODS OF DEVELOPING PHYSICAL QUALITIES AND PHYSICAL FITNESS OF STUDENTS

***Annotation.*** *The article discusses the structural basis of the development of physical qualities with progressive morphological and biochemical changes in the musculoskeletal system, central and peripheral nervous systems, and internal organs, as well as the methodology for educating the physical qualities of senior schoolchildren.*

***Keywords:*** *physical qualities, musculoskeletal system, education of physical qualities, general endurance*

## KIRISH

So‘ngi paytda g‘arb fan-texnikasi yutuqlarining kuchli ta’sirida dunyo madaniyati rivojlandi, bu esa insonning gipokratik qarashlari, uni o‘rab turgan dunyodagi ko‘p narsalarda ustunligini aniqladi.

Harakat faolligi optimal darajasini izlashda nafaqat yosh va jinsiy me’yorlarga, balki organizmning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi chuqur bilimlarga ham tayanish lozim.

Yoshga oid rivojlanish davrlari tana va uning a’zolari og‘irligi hamda kattaligi, skelet suyaklarining qotish darajasi, tishlarning paydo bo‘lishi, ichki sekresiya bezlaridagi birlashtiruvchi to‘qimalarning rivojlanishi, kortikal faoliyat tavsifi va boshqa belgilar asosida aniqlanadi.

Ko‘plab tadqiqotlarning yakuniy xulosalari umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi an’anaviy jismoniy tarbiya darslari mazmun mohiyati, hajmi va zo‘riqish shiddatining nomukammalligi, o‘quvchilarning individual imkoniyatlari inobatga olinmaganligi bilan o‘sib kelayotgan yosh oranizmning talablariga to‘liq javob bermasligini isbotlab berdi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Harakat sifatlar rivojlanishining tuzilish asoslari tayanch-harakat apparati, markaziy va periferik asab tizimi hamda ichki a'zolardagi progressiv morfologik va biokimyoviy o'zgarishlar bilan bog'liq. Shundan kelib chiqqan holda jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi somatik va vegetativ funksiyalarning muvofiqligiga bevosita bog'liq bo'ladi.

L.V.Volkov, V.P.Guba, R.N.Doroxov, V.A.Bikov, I.V.Lyaxlarning ta'kidlashicha, maktab yoshidagi bolalarda jismoniy sifatlarning rivojlanishi yoshga xos xususiyatlarga ega, ya'ni [3, 4, 5]:

- har xil jismoniy sifatlarning rivojlanishi geteroxron tarzda sodir bo'ladi;
- yillik o'sish kattaliklari har xil yosh davrlarida bir xil emas va o'sish taqqoslangan paytda nisbiy kattaliklari bilan farq qiladi;
- kichik va o'rta maktab yoshidagi bolalarning ko'pchiligida jismoniy sifatlar ko'rsatkichlari o'z darajalari bo'yicha har xil (masalan, kuch, statik chidamlilik darajasi, odatga ko'ra dinamik chidamlilik darajasi bilan mos kelmaydi);
- hajmi va shiddati bir xil bo'lgan jismoniy yuklamalar berilgan paytda bitta usul bilan o'tkaziladigan maxsus mashg'ulot har xil yoshdagi, jinsdagi va jismonan har xil rivojlangan bolalarning ma'lumotlarini taqqoslash imkonini beradi, bunda turlicha pedagogik samaralarga erishiladi;
- o'smir sportchilarda tabiiy o'sish davrida (sensitiv davrlarda) jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi sport bilan shug'ullanmaydigan bolalar va o'smirlarda xuddi shu sifatlar rivojlanishining o'rtacha darajasidan ancha yuqori;

Kichik yoshdagi sportchilarni tayyorlashda asosiy vazifalar – bu bolalarning salomatligini mustahkamlash va jismoniy jihatdan har tamonlama rivojlantirish, tanlangan sport turiga maqsadga yo'naltirilgan tarzda asta-sekin o'tishini amalga oshirish, tanlangan sport turi texnikasini o'rgatish asosida jimoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, kelgusida tanlangan sport turi bo'yicha mashg'ulotlarni olib borish uchun istiqbolli yosh sportchilarni saralashdir.

Yosh sportchilarning harakat funksiyalari, yoshga xos xususiyatlarini o'rganish va jismoniy sifatlarini rivojlantirish masalalari bo'yicha V.P.Filin, V.P.Guba, I.V.Lyax, L.V.Volkov va boshqa ko'pgina mutaxassislar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ularning fikrlariga ko'ra, bolalik davri-ko'p yillik jismoniy rivojlanish uchun muhim bosqich va sport tayyorgarligini boshlash uchun qulay davr hisoblanadi [3, 4, 5, 8].

Yaxshi jismoniy tayyorgarlik asosiy jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi va barcha turdagi faoliyatda yuqori ish qobiliyatining asosi hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya jarayonida bolalar organizmi rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini hisobga olish va bolaga katta odamning kichik nusxasi sifatida qaramaslik kerak. Bola qancha kichik bo'lsa, uning organizmi shunchalik o'ziga xos bo'lib, kattalardan shunchalik ko'p darajada farq qiladi va uning voyaga yetish jarayoni muayyan qonuniyatlarga bo'ysinadi.

Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy sifatlarni tarbiyalash organizmning rivojlanishi va o'sishi bilan bog'langan qator xususiyatlarga ega:

- o'spirinlik va yoshlik davrida bitta jismoniy sifatning rivojlanishi boshqa sifatlarning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, o'qituvchilardan jismoniy sifatlarni tarbiyalashga majmuali yondashuv talab qilinadi;
- organizmning rivojlanishida jismoniy sifatlarning o'sishi ayrim yoshlarda, ayniqsa, jadal ro'y beradi. Bu sezgirlik (sensitiv) davrlari deb ta'kidlanadi. Chunonchi, mushak kuchi uchun o'sishning eng yuqori sur'ati 13-15 yoshlilarga xos, 14 yosh chidamlilikni, 8-11 yosh esa tezkorlik imkoniyatlarini tarbiyalash uchun eng qulaydir.

Bir qator tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida jismoniy tarbiya vositalarini tanlashda shug'ullanuvchilarning yoshi, jinsi va tayyorgarligini hisobga olish zarurligi ta'kidlangan.

O'quvchilarning asosiy faoliyat turi aqliy mehnat hisoblanadi. Axborot hajmining muntazam oshib borishi, o'quv dasturlarining murakkabligi dars tayyorlash, to'garak mashg'ulotlari uchun ko'p vaqt talab qiladi va harakat faolligini ancha chegaralab qo'yadi. Bunday sharoitda jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanish muhim ahamiyatga ega, bu bolalar va o'smirlar organizmining funksional imkoniyatlarini safarbar qilishga yordam beradi. Bunda nafaqat alohida a'zo va tizimlar funksiyasida, balki ularning o'zaro aloqasida ham qayta qurish ro'y beradi. Ontogenez jarayonidagi jismoniy ish qobiliyatining shakllanishiga bolaning yoshi, jinsi va somatotipi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Normal gormonik jismoniy rivojlanish mezoni sifatida har bir antropometrik belgining ifodasi emas, balki ularning o'zaro ifodalanishi, birgalikdagi ta'sirining o'zaro mosligi namoyon bo'ladi. Bular rivojlanishning mutanosibligi va uyg'unligini belgilaydi.

O'quvchilarning jismoniy sifatlari bir tekis va bir vaqtda shakllanmaydi, o'sish har xil yosh davrlarida turlicha bo'ladi.

Organizmning normal holatida sifatlarning o'sishi va rivojlanishi bir-biri bilan juda yaqin aloqada va hamkorlikda bo'lsa ham, ular bir vaqtda va bir xil jadallikda sodir bo'lmaydi, chunki biron-bir a'zo massasining kattalashishi uning bir vaqtda funksional jihatdan takomillashuvini bildirmaydi.

Notekis sur'atda o'sish, ya'ni ichki a'zolar va organizmdagi fiziologik tizimlarning o'sish va rivojlanish sur'atlari notekisligi ravon va jadal rivojlanish davrlarining almashinuvida namoyon bo'ladi. Cho'zish davri yaxlitlash davri bilan almashadi.

Zarur sharoitlarning yetishmasligi natijasida o'sish va rivojlanish to'xtab qoladi, ya'ni retardatsiya hodisasi ro'y beradi. Masalan, kasallik yoki boshqa sabablarga ko'ra jismoniy rivojlanish uzoq vaqt to'xtab qolishi mumkin. Keyinchalik vazn va bo'y o'sishda barobar orqada qolib, o'ziga xos konstitutsiya tipi shakllanadi (gipostatura). Retardatsiyaga mubtalo bo'lgan bolalar soni yosh guruhlari ichida 13-20% ga yetdi, buni, ayniqsa, o'quv-mashg'ulotlar jarayonini tuzishda hisobga olish muhim. Bunday bolalarni o'qitishda yaxshi natijalarga erishish uchun o'quv-tarbiyaviy ishlarni bir xilda olib borish shart.

Agar mavjud sharoitlar organizmning barcha imkoniyatlarini ishga solishni tezlashtirsa, organizmning jadal o'sishi-akseleratsiya yuz beradi. O'smirlar orasida akseleratlar ko'p uchraydi. Bunday bolalar shu yoshdagi bolalarning umumiy sonidan o'rtacha 13-20% ni tashkil qiladi. Ancha baland bo'y, katta mushak kuchi, nafas olish tizimining katta imkoniyatlari ularga xos xususiyatlardir. Bunday bolalar ancha tez balog'atga yetadilar, bo'y cho'zilishi vaqtidan oldin to'xtaydi (odatda, 15-17 yoshlarda) va ko'pchilik olimlarning fikricha, ruhiy rivojlanish birmuncha tezroq ro'y beradi. Afsuski, akseleratsiya hodisasi organizmning funksional imkoniyatlariga har doim ham ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi. Akselerat bolalarning bo'yi va yuragining rivojlanishi gavda o'sishidan ortda qoladi. Bu esa ular faoliyati buzilishiga olib keladi. Bunday bolalar qat'iy darajada alohida munosabatga muhtoj bo'ladilar.

Maktab yoshidagi bolalarning turlicha sur'atda biologik yetilishi jismoniy tarbiya jarayonida ular uchun alohida sharoitlarni hosil qiladi.

Geteroxronlik (vaqtdan o'zib rivojlanish) harakatlantiruvchi funksiyaning rivojlanishida yaxshi kuzatiladi. Masalan, mushak kuchining o'sishi 7 yoshdan 16 yoshgacha 260 % ni tashkil qiladi va o'sishning pubertat (lot."jinsiy yetuklik") sakrashidan keyin dastlabki 2-3 yilda ko'proq aks etadi. O'g'il bolalar bu bosqichga 18 yoshda yetadilar.

Agar maksimal mushak kuchlanishi imkonini 100% deb qabul qilsak, o'g'il bolalarda mushak kuchi 13-14 yoshda-70%, 15-16 yoshda-80% ga teng bo'ladi. 17-18 yoshda esa-90% ga yaqin.

Bolalarning yoshga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kuchni tarbiyalash paytida ikkita asosiy usul – takroriy va dinamik kuchlanishlarni qo'llashdan foydalaniladi. Turli predmetlar (to'ldirma to'plar, gantellar va h.k.), sherikning qarshilik ko'rsatuvchi harakatlari, tashqi muhit har xil og'irliklar va shaxsiy vazn qarshiligini yengish bilan bog'liq bo'lgan mashqlarni qo'llash tavsiya etiladi.

Muntazam mashq qilish harakatlantiruvchi sifatlarning rivojlani–shini tezlashtiradi, lekin ularning o'sishi turli yosh davrlarida har xil bo'ladi. Kuchni rivojlantirish uchun morfologik jihatdan yanada qulay sharoitlar 9-10 va 14-17 yoshlarda yuzaga keladi. Bolalarning kuch ishlatadigan mashqlar bilan erta shug'ullanishi qad-qomati o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin, chunki bu yoshda skelet shakllanayotgan bo'ladi. Mushak kuchining yuzaga chiqishi mushak tolalarining turiga bog'liq (tez yoki sekin o'suvchi). Agar mushaklarda tez o'suvchi tolalar ko'p bo'lsa, u holda odam kuchni jadal ishlatadigan harakatda maksimal quvvatni rivojlantira oladi, sekin o'suvchi tolalar esa mushak kuchlanishini uzoq vaqt davom ettirish imkonini beradi.

Kuch mushaklar ishini boshqarish xususiyatiga ega bo'lib, suyak va mushak to'qimalarining o'sishi bilan chambarchas bog'liq.

Ko'pchilik mualliflarning fikricha, yosh o'tishi bilan mushak kuchlari tabiiy ravishda orta boradi. Jinsiy yetuklik davrida jismoniy rivojlanishning tezlashishi natijasida mushak kuchlari ko'rsatkichlari yanada ortadi. Izlanish natijalariga ko'ra 13-14 yoshlilarda yelkaning ikki boshli mushaklari, qo'l panjalarini bukib yozadigan mushaklar va boshmaldoq mushagi dinamik ish jarayonida yosh bolalardagi (8-9 yosh) qaraganda katta qiymatlarga yetadi. Turli guruhdagi mushaklar kuchining ortishi 13-14 yoshli o'smirlarda tana vaznining har bir kilogrammiga hisoblanganda 8-9 yoshli bolalardagi qaragandaan ancha yanada jadal yuz beradi. Bolalarda mushak kuchining ortishi sabablaridan biri-tanadagi mushaklar massasining o'sishi, ya'ni mushak ko'ndalang o'lchamlarining kattalashishidir. Ma'lum bo'lishicha, bu davrda kuchning rivojlanishida asab-muskul apparatining tabaqalashishi muhim rol o'ynaydi. Yosh o'tishi bilan mushak kuchi o'zgaradi, lekin mutaxassislar yosh haqida keltirgan turlicha ma'lumotlarda uning yanada ortishi kuzatiladi.

V.P.Filinning fikricha 10-14 yoshlarda mutlaq kuch bir tekisda ortib boradi, 15-16 yoshda pasayadi, 17 yoshda esa yana sezilarli darajada ortadi. Mutlaq va nisbiy kuchlarning jadal o'sish davrlari bir-biriga mos kelmaydi. Bolalar va o'smirlar bilan shug'ullangan mutaxassislar fikri mushak kuchining rivojlanish imkoniyatlari borasida ikkiga bo'linadi. Boshqa mutaxassislar maktab o'quvchilarining mushak kuchlarini muntazam tarbiyalab borishning maqsadga muvofiqligiga shubha bildiradilar. Ko'plab tadqiqotlarda o'quvchilarni o'quv mashg'ulotlari jarayonida tayyorlashda kuch mashqlarini qo'llash samaradorligi isbotlab berilgan [8].

12-15 yoshlarda kuchni rivojlantirish, asosan, shug‘ullanuvchining o‘z tana vazni, to‘ldirma to‘plar, gantellar, gimnastika snaryadlarida bajariladigan mashqlar yordamida amalga oshiriladi. Og‘irliklar sifatida har xil qadaq toshlar hamda shtangadan foydalaniladi.

Yoshga qarab chidamlilikni rivojlantirish, ayniqsa, katta ahamiyatga ega. 12-14 yoshlardan boshlab charchatadigan ishlarni, quvvat kamaymasdan turib, davom ettirish layoqati paydo bo‘ladi, bunda vegetativ o‘zgarishlar hisobiga kuchayib borayotgan toliqish kompensatsiyalanadi. Chidamlilik 20-30 yoshlargacha rivojlanishda davom etadi.

Umumiy chidamlilik - insonning odatiy bo‘lmagan faoliyatni uzoq vaqt va muvaffaqiyatli bajara olish qobiliyati.

Umumiy chidamlilikning namoyon bo‘lishi asosida inson organizmining funksional xususiyatlari yotadi. Ular har xil turdagi harakat faoliyatiga nisbatan chidamlilik namoyon bo‘lishining maxsus bo‘lmagan asosini tashkil etadi.

Umumiy chidamlilikni rivojlantirishni uzluksiz standartlashtirilgan mashqlar uslubini qo‘llash bilan boshlash maqsadga muvofiq. Mashqlarning optimal davomiyligi jismonan bo‘sh tayyorlangan kishilar uchun 20-30 daqiqadan boshlanib, to yuqori darajada chidamlilik namoyon qilinadigan sport turlariga ixtisoslashuvchi malakali sportchilar uchun bir necha soatlargacha bo‘ladi.

Bir qator faoliyatda charchoqqa qarshilik ko‘rsatish qobiliyati chidamlilik deb ataladi. Chidamlilikni rivojlantiradigan jismoniy yuklamalarga o‘rtacha rivojlangan bolalar tezroq moslashadilar. Baland va past bo‘yli bolalarning moslashishi qiyin bo‘ladi. Anaerob quvvatli mashqlarda ish davomiyligining sezilarli ortishi 10-12 yoshdan 13-14 yoshlargacha kuzatiladi.

Siklik mashqlar yordamida erishilgan umumiy chidamlilikning rivojlanishidagi ijobiy o‘zgarishlar tuzilishiga ko‘ra har xil bo‘lgan harakatlardan ish qobiliyatiga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, kichik va katta fiziologik shiddat zonalarida bajariladigan mashqlar yordamida chidamlilikning yuqori darajada o‘sishi kuzatiladi.

Boshqa jismoniy layoqatlar kabi, chidamlilikning rivojlanishi ham bir tekis ketmaydi 10-13 va 16 yoshlarda chidamlilik ko‘rsatkichi ancha jiddiy ortadi va kichik maktab yoshidanoq bu sifatning rivojlanishiga izchil ta’sir ko‘rsatish kerak. V.Nikitushkin fikricha, o‘g‘il bolalarning jinsiy yetilish davrida chidamlilik quvvatning anaerob doirasida oshmaydi, balki sezilarli darajada pasayadi. Bir vaqtning o‘zida chegaraviy jadallik bilan bajarilgan ish hajmi 8-10 yashar bolalarda ancha ortadi, keyin barqarorlashadi va 15 yoshdan keyin yana ortadi. V.I.Lyaxning ma’lumotlariga ko‘ra, chidamlilikning o‘sishi o‘ziga xos yosh dinamikasiga ega. 7 yoshdan 10-11 yoshgacha bo‘lgan bolalarda jadal sur’atda natijalar yaxshilana boradi. 14-15 yoshlarga kelib natijalar barqarorlasha boshlaydi [5, 6].

Chidamlilikni rivojlantirishning asosiy vositalari: subkritik tezkorlikda bajariluvchi yugurish, eshkak eshish, suzish, velospedda yurish kabi sport turlaridir. Uzluksiz va uzilib bajariladigan mashq usullari yordamida chidamlilik darajasini amalga oshirish mumkin. Usulni bir tekisda qo‘llash uchun mashqlar doimiy tezkorlikda, ya’ni 75-80% qismi 20 daqiqa yoki undan ko‘proq jiddiy vaqt ichida bajariladi.

Ya.S.Vaynbaum o‘z manbalarida umumiy chidamlilikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yuklamalar vaqtining davomiyligini etishi maktab o‘quvchilari uchun 3 daqiqadan ortsa YuQS daqiqada 140-160 zarba atrofida bo‘lishini keltirib o‘tgan [2].

Aerob jarayonlar bilan ta’minlanadigan umumiy chidamlilik, V.L.Volkov fikricha, 8 dan to 9 yoshgacha bo‘lgan davrda keskin ortadi, keyin ushbu darajada taxminan 11 yoshgacha qoladi, undan so‘ng birmuncha ortib, 14-15 yoshda barqarorlashadi [3].

Tezkor-kuch mushaklarining nisbatan kichik tashqi qarshilikni yengib o‘tish bilan bog‘liq harakatlarni tez bajarishga bo‘lgan qobiliyatida aks etadi.

V.M.Volkov 11-13 yoshli bolalar o‘rtasida olib borgan ilmiy izlanishlarida ushbu yoshdagi bolalar qisqa muddatli tezkor-kuch yuklamalariga yaxshi bardosh beradilar degan xulosalarga keladilar [3].

O‘z ilmiy izlanishlari natijasida N.A.Bernshteyn 8-12 yoshlilarda yugurishning maksimal tezligining jiddiy oshishi harakat tezkorligining tabiiy rivojlanishi bilan belgilanishini, 12-14 yoshda esa yugurish tezligining oshishi asosan tezkor-kuch sifatlari va mushak kuchining ortishi evaziga sodir bo‘lishini aniqlagan. Muallif 8-12 yoshlarda harakat analizatorining yetilishini, yugurishning muhim lokomotor aktlari shakllanishi sodir bo‘lishini asoslab bergan [1].

I.V.Lyax tezkorlik sifatini rivojlantirish mashqlarini bajarishning quyidagi uslubiy qoidalarini ishlab chiqqan [5]:

- Texnikasiga ko‘ra mashq murakkab bo‘lmasligi kerak;
- mashqlar shug‘ullanuvchilar tomonidan yaxshi o‘zlashtirilgan bo‘lishi kerak;
- mashqlarning davomiyligi shunday bo‘lishi lozimki, uni bajarish yakunida tezkorlik toliqish tufayli pasaymasin;
- tezkorlik mashqlarning davomiyligi bolalar va o‘smirlarda 16-17 soniyadan oshmasligi lozim;
- keyingi mashqlar o‘ta tiklanish fazasida bajariladi;
- tezkorlik mashqlarni takroran bajarish oldidan faol dam olishni qo‘llash kerak, u 1-2 daqiqa davom etishi mumkin;
- tezkorlik mashqlar mashg‘ulotlarda birinchilar qatorida bajariladi.

12-13 yoshdagi maktab o‘quvchilari bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar dasturiga sport o‘yinlari, estafetalar, harakatli o‘yinlar, kuch va egiluvchanlikni rivojlantiruvchi mashqlar, har xil sakrashlar, gimnastika va akrobatika mashqlari, past va baland startdan yugurishlar, uzunlikka sakrashlarni kiritish maqsadga muvofiq.

Tezkorlikni tarbiya qilish jarayonida katta mushak kuchlanishlarini talab qilmaydigan harakatlar sur’atini maksimal oshirishga, harakatlarning optimal amplitudasini imkoni boricha ta’minlashga va ish bajarishda ishtirok etmayotgan mushaklar guruhini maksimal bo‘shashtirishga intilish zarur.

Tezkorlikni tarbiya qilish jarayonida mashqlarni bajarish vaqtida mushaklarning bo‘shashtirilishiga ahamiyat berish zarur. Shug‘ullanuvchi mushaklarning kuchlangan va bo‘shashgan holati o‘rtasidagi farqni sezishi juda muhim.

O‘rtacha tezlikda yugurishda bir metr yo‘lga to‘g‘ri keladigan energiya qiymatining yosh dinamikasi katta qiziqish uyg‘otadi. Bolaning ulg‘ayishiga qarab energiya sarflanishi tobora tejalib borishini qayd qilgan. Bu esa yuqori sinf o‘quvchilarining chidamliligi oshishiga olib keladi.

Yosh ortgani sayin bilan tezkorlik layoqatining rivojlanishi yuz beradi. Irsiyat bilan bog‘liq tadqiqotlarning guvohlik berishicha, tezkorlik layoqatlari genotip omillari bilan chambarchas bog‘liqdir. Mualliflarning bergan ma’lumotlariga qaraganda, oddiy harakat reaksiyasining tezligi taxminan 60-88% holatda irsiyat orqali aniqlanadi. Mutaxassislarning fikricha, tezkorlik layoqatlarining turli ko‘rsatkichlari bolalarni harakatga keltiruvchi iste’dodlarini u yoki bu turdagi sport mashg‘ulotlariga tanlab olishning dastlabki bosqichidayoq sezilarli darajada oldindan aniqlab beradi. Bola maktabda bo‘lgan vaqtda tezkorlik layoqatlarining rivojlanishi kuch rivojlanishidek aniq ko‘rinmaydi va yoshi bo‘yiga susayib qoladi. 7 yoshdan 17 yoshgacha odamning tezkorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar 20-60% va undan ortiq yaxshilanadi. O‘g‘il bolalarda bo‘lgani kabi, qizlarda ham 7 yoshdan 10 yoshgacha natijalar yanada jadal sur’atda yaxshilanib boradi. 14-15 yoshlarga kelib natijalar barqarorlasha boshlaydi.

O‘spirinlarning qisqa masofaga yugurish tezligi 15 yoshdan 17 yoshgacha yaxshilanishda davom etsa-da, avvalgi yillardagidek sur’atda bo‘lmaydi. Yugurish, qadamlar uzunligi va sur’atining asosiy tuzilmaviy tashkil qiluvchilari o‘zgarishida geteroxronlik hodisasi mavjud. Ularning 7-8 yoshlarda yugurishning lokomotor sikli tuzilmasiga qo‘shgan hissasi deyarli bir xil. 9-10 yoshlarda yugurish qadamlari chastotasi ortishining ilgarib ketishi kuzatiladi. 11-12 yoshlarda yugurish qadamlari chastotasi kamayib, yugurish tezligi qadamlar uzunligining ortishi hisobiga oshadi.

Tezkorlik layoqatlarining rivojlanish darajasidagi jinsiy tafovutlar 12-15 yoshgacha uncha katta bo‘lmaydi. Keyinchalik jinsiy dimorfizm faoliyat ko‘rsatkichlarida yanada aniq namoyon bo‘ladi.

Harakat tezligining yoshga qarab ortishi bilan bir qatorda, harakatning eng katta tezligiga erishish uchun zarur bo‘lgan vaqtning barcha shug‘ullanuvchilarda amalda bir xil bo‘lib, 6 soniyani tashkil qilishi isbotlab berilgan.

Bu ko‘rsatkichning doimiyligi tug‘ilgandan keyingi individual rivojlanish davomida mushaklar qisqarishining hususiyatlari bir xilligini ko‘rsatadi.

Harakat sur’ati ildamlikning muhim tavsifi hisoblanadi. Yuqori sur’atdagi harakat qo‘l-panjalar harakatiga, past sur’atdagisi esa boldir-tovon bo‘g‘iniga xosdir. Turli yosh davrlaridagi harakat sur’atining ortishi bir xil. Eng katta o‘sish 4 yoshdan 6 yoshgacha va 7 yoshdan 9 yoshgacha bo‘lgan bolalarda kuzatiladi. Keyingi yosh davrlarida o‘sish sur’ati pasayadi.

Tezkorlikning o‘ziga xos hususiyatlari va shakllari mavjud: oddiy yoki murakkab signallar ta’sirida harakat reaksiyasining tezligi, yakka harakat tezligi, bir harakatdan ikkinchisiga o‘tish tezligi.

13-14 yoshlarga kelib, yakka harakatlarning tezligi ortib, kattalarnikiga yaqinlashadi, 16-17 yoshda esa o‘sish qisman pasayadi.

Harakat sur’ati butun organizmning tezlashish hususiyatini ifodalaydi. Jinsiy balog‘at davrida tezlanish hususiyatlarining yuzaga kelishida jinsiy yetuklik va u bilan bog‘liq bo‘lgan jismoniy rivojlanish darajasi muhim rol o‘ynaydi. 14-15 yoshlarga kelib, tezkorlikning o‘sishi kamayadi. 10-11 yoshlarda, masalan, yugurish qadamlari chastotasi eng yuqori cho‘qqiga yetadi. Bu yoshda o‘smirlar 12-14 yoshli bolalardan ilgarilab ketadilar.

Tezkorlikning yoshga qarab o‘zgarishiga oid ma’lumotlar yetarlicha.

Yosh sportchilarda 13-14 yoshdayoq harakat tezligi eng yaxshi rivojlanadi. Bu ustunlik keyingi yillarda hali saqlanib qolsa-da, tafovutlar kamayadi. Bu esa harakat tezligining yana o‘sishini yosh vaqtlarda yanada yuqori samarali bo‘lishini ko‘rsatadi.

Qator olimlar tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish uchun quyidagilardan foydalanishni tavsiya etadi:

1) mushaklar kuchi va ularning qisqarish tezligini rivojlantirishga mo‘ljallangan mashqlar;
2) tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar;
3) shaxsan tezkor-kuch xususiyatiga ega mashqlar (turli-tuman sakrash mashqlari).

Harakat tezligini energetik ta’minlash hususiyatlari orasidagi tafovutlar bolalar va o‘smirlarda tezkor-kuch xususiyatlarining yoshga qarab rivojlanishi tahliliga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zi tadqiqotchilar tezkor-kuch layoqatlarining rivojlanishi 9-10 yoshda, ba’zilari esa 13-14 yoshda muhim deb ko‘rsatadilar. Tezkor-kuch xususiyatlarining rivojlanish dinamikasidagi tafovut sabablari uzil-kesil hal qilinmagan.

Koordinatsiya layoqatlari shaxs (individ) ning imkoniyati bo‘lib, uning harakat faoliyatini optimal boshqarish va tartibga solishga tayyorligi darajasini belgilaydi. Harakat koordinatsiyasining murakkab jarayonlari neyrofiziologik mexanizmlar yordamida ta’minlanadi. Koordinatsiya layoqatlarining yuzaga kelishiga bolaning harakatlanish tajribasi muayyan ta’sir ko‘rsatadi: odam qanchalik ko‘p harakatlana olish qobiliyati va malakasiga ega bo‘lsa, odatda, uning harakatlari koordinatsiyasi shuncha yuqori darajada rivojlangan bo‘ladi.

Turli yosh davrlarida koordinatsiya layoqatlarining rivojlanishining har xil yo‘nalishda yuz berishi aniqlangan. Lekin murakkabligi turlicha bo‘lgan koordinatsiya layoqatlarining eng unumli ko‘rsatkichlari 11 yoshdan 12 yoshgacha ortib boradi, buni ko‘pgina izlanishlar tasdiqlaydi.

Bolalarning o‘sishiga qarab, harakatlarni belgilangan sur’atda takrorlash layoqati yaxshilanib boradi va 11-14 yoshli o‘quvchilar murakkab koordinatsiyali harakatlarni bajara oladilar, yangi mashqlarni tez o‘zlashtiradilar.

12-13 yoshda koordinatsiyalovchi hususiyatlarning o‘sish sur’atlarida pasayish kuzatiladi, keyingi ikki yil davomida mutlaq ko‘rsatkichlar ortadi va 14-15 yoshlarga kelib ular tana yoki uning alohida qismlarining makondagi holatini kattalar darajasida baholay oladilar. Mushak kuchlanishining eng mukammal tabaqalashishi 15-17 yoshlarga kelib shakllanadi.

Egiluvchanlik mushak tonusining asab boshqaruvi, shuningdek, antagonist (qarama-qarshi) mushaklar tarangligi bilan bog‘liq.

Egiluvchanlik ancha erta rivojlanadigan sifatlardan biridir. 4 yoshdan boshlab u maktabgacha va kichik maktab yoshining butun davri davomida bolalarda mushak tolalari va pay apparatining cho‘ziluvchanligi yaxshi bo‘lganligi tufayli tez mukammalashadi. Barcha yosh davrlarida egiluvchanlik ayol organizmida erkak organizmiga qaraganda yaxshiroq ifodalanadi.

Bola maktabda bo‘lgan vaqtida bir necha marta ortiq yaxshilanishi mumkin bo‘lgan jismoniy sifatlardan farqli ravishda, egiluvchanlik hayotning dastlabki yillaridanoq pasaya boshlaydi. Bu tog‘ay to‘qimalarining suyakka aylanishi va paylar egiluvchanligining pasayishi bilan bog‘liq.

Keltirilgan ma’lumotlar asosiy jismoniy sifatlarning rivojlanishi bir tekisda bo‘lmasligidan dalolat beradi. Kuch, chidamlilik ko‘rsatkichlari 16-18 yoshga kelib, tezkor-kuch imkoniyatlari, harakatlar tezligi, aniq tabaqali mushak kuchi, vestibulyar apparatning barqarorligi 13-14 yoshda, harakat koordinatsiyasi, egiluvchanlik va chaqqonlik esa 9-12 yoshda to‘liq rivojlanib bo‘ladi.

**XULOSA**

Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubining asosiy muammolaridan biri jismoniy sifatlarning o‘zaro aloqasidir. Adabiyotlardagi ma’lumotlarga ko‘ra, ko‘pchilik mualliflar, sport bilan shug‘ullanadigan o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligi masalalarini ko‘rib chiqqanlar, faqat ba’zi mutaxassislar bu muammoni maktabdagi o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida tavsiflaydilar.

Shak-shubhasiz, o‘quv jarayonida jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanish o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, biologik yetukligi va gavda tuzilishi turlicha bo‘lgan o‘smirlar bilan shug‘ullanganda tabaqali uslubdan foydalanishda qo‘shimcha izlanishlarga zaruriyat tug‘iladi.

O‘tkazilgan tahlillardan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, maktab o‘quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirishda tavsiya etilgan metodikalarning qo‘llanilish shiddati, hajmi va me’yorlari ishlab chiqilmaganligi aniqlandi.

Yuqorida o‘tkazilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili natijalariga tayangan holda ilmiy ishimizning maqsadi va vazifalarini belgilab olishga imkon yaratiladi. Bu vazifalar qatoriga kuch, tezkorlik, tezkor-kuch hamda chidamlilik sifatlarini rivojlantirishda samarali yordam beruvchi kompleks mashqlarni saralab olish, ularning qo‘llanish shiddati, hajmi va me’yorlarini aniqlash, amaliyotga joriy etish metodikasini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini asoslash kiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Бернштейн Н.А. Биомеханика и физиология движений:Избранные психологические труды [Текст]-3-е изд., стер.-М.:НПО«МОДЭК» 2008.-688 с.

2. Вайнбаум С.Я. Дозирование физических нагрузок.-М.: Просвешение, 1991.-64 с.

3. Волков Л.В. Теория и методика детского и юношеского спорта. – Киев.:Олимпийская литература, 2002.-294 с.

4. Губа В. П., Татаринов Я.С. Контроль за физическими качествами.-Смоленск, 1989.-24 с.

5. Лях В.И. Двигательные способности школьников: основы теории и методики развития. - М.; Терра-спорт, 2000.-192 с.

6. Никитушкин В.Г., Учебник. Теория и методика юношеского спорта. – М.; 2010.-206 с.

7. Подготовка юных чемпионов: Пер. с англ. / Т.Бомпа-М.: ООО “Издательство Астрель”: ООО “Издательство АСТ”, 2003.-XII, 259, (1) с.

8. Филин В.П. Воспитательная работа с юными спортсменами / Система подготовки спортивного резерва. - М.: ВНИИФК, 1994.-С. 57-90.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Xudayberdiyeva Mohira Osimjonovna**
University of Business Science
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Email: mohirahudayberdiyeva13@gmail.com

## OLIY TA’LIM TALABALARINING IJTIMOIY ADAPTATSIYASI JARAYONIDA MILLIY MENTALITETNING ILMIY-PEDAGOGIK TA’SIRI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning ijtimoiy adaptatsiyasi jarayoni milliy mentalitet omillari bilan uzviy bog‘liqlikda ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy adaptatsiyaning nazariy asoslari, milliy mentalitetning mazmuni, uning talaba shaxsining ijtimoiylashuvi va jamiyatga moslashuvidagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, oliy ta’lim muhitida milliy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg‘unligini ta’minlash masalalari asoslab berilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

***Tayanch iboralar:*** *ijtimoiy adaptatsiya, milliy mentalitet, oliy ta’lim, ijtimoiylashuv, talaba shaxsi, pedagogik muhit.*

**Худайбердиева Мохира Осимжоновна**
Университет деловых наук
Преподаватель кафедры социальных наук

## НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО МЕНТАЛИТЕТА НА ПРОЦЕСС СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ СТУДЕНТОВ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.

***Аннотация:*** *В данной статье процесс социальной адаптации студентов высших учебных заведений рассматривается в тесной взаимосвязи с национальным менталитетом. В исследовании раскрываются теоретико-методологические основы социальной адаптации, сущность национального менталитета и его влияние на социализацию личности студента в условиях образовательной среды. Особое внимание уделяется анализу механизмов воздействия национальных ценностей, культурных традиций и социальных норм на формирование социальной активности, коммуникативной культуры и гражданской ответственности студентов. Обосновывается необходимость учета особенностей национального менталитета при организации образовательного процесса в системе высшего образования, а также предлагаются педагогические рекомендации по оптимизации социальной адаптации студентов.*

***Ключевые слова:***
*социальная адаптация, национальный менталитет, высшее образование, социализация, личность студента, педагогическая среда.*

**Khudaiberdiyeva Mohira Osimjonovna**
University of Business Science
Teacher, Department of Social Sciences
Email: mohirahudayberdiyeva13@gmail.com

## SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL IMPACT OF NATIONAL MENTALITY IN THE PROCESS OF SOCIAL ADAPTATION OF HIGHER EDUCATION STUDENTS

***Abstract:*** *This article examines the process of social adaptation of higher education students in close connection with national mentality. The study reveals the theoretical and methodological foundations of social adaptation, the essence of national mentality, and its influence on the socialization of students within the educational environment. Special attention is paid to the analysis of the mechanisms through which national values, cultural traditions, and social norms affect the development of students’ social activity, communicative culture, and civic responsibility. The necessity of considering national mentality in organizing the educational process in higher education institutions is substantiated, and pedagogical recommendations aimed at optimizing students’ social adaptation are proposed.*

***Keywords:*** *social adaptation, national mentality, higher education, socialization, student personality, pedagogical environment.*

**Kirish**

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida oliy ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining yetakchi omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Oliy ta’lim muassasalari nafaqat yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, balki yosh avlodning ijtimoiy, ma’naviy va fuqarolik jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishini ta’minlash vazifasini ham bajaradi. Shu nuqtai nazardan, talabalarning ijtimoiy adaptatsiyasi muammosi zamonaviy pedagogikaning dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Talabaning oliy ta’lim muhitiga moslashuvi murakkab, ko‘p bosqichli va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u shaxsning individual xususiyatlari, ijtimoiy muhit va madaniy qadriyatlar bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, milliy mentalitet ushbu jarayonda muhim ijtimoiy-madaniy omil sifatida maydonga chiqadi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar va tarixiy tajriba talabalarning ijtimoiy munosabatlari, muloqot madaniyati va xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy adaptatsiya tushunchasining nazariy-pedagogik asoslari

Ijtimoiy adaptatsiya shaxsning mavjud ijtimoiy muhitga moslashuvi, jamiyat tomonidan belgilangan ijtimoiy me’yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor andozalarini ongli ravishda o‘zlashtirishi bilan bog‘liq murakkab va ko‘p qirrali jarayon sifatida talqin etiladi. Ushbu jarayon shaxsning ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirib borishi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi hamda o‘z ijtimoiy mavqeini anglab yetishi orqali namoyon bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy adaptatsiya nafaqat tashqi muhitga moslashuv, balki shaxsning ichki psixologik holati, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy tajribasining uzviy uyg‘unlashuvi sifatida baholanadi. Shu jihatdan, ijtimoiy adaptatsiya shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi hamda shaxsning ijtimoiy barqarorligi darajasini belgilaydi.

Oliy ta’lim muassasalari sharoitida ijtimoiy adaptatsiya jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki talabalik davri shaxs hayotidagi muhim o‘tish bosqichi bo‘lib, bu davrda yoshlar maktab muhitidan mustaqil akademik va ijtimoiy makonga o‘tadi. Yangi ta’lim tizimi, pedagogik talablar, ijtimoiy munosabatlar va mas’uliyat talabaning moslashuv qobiliyatini sinovdan o‘tkazadi.

Pedagogik nuqtai nazardan ijtimoiy adaptatsiya talabaning ta’lim muhitiga muvaffaqiyatli kirib borishi, o‘quv jarayonida faol ishtirok etishi, pedagoglar va tengdoshlar bilan samarali muloqot o‘rnatishi orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayon talabaning akademik muvaffaqiyati bilan bir qatorda ijtimoiy kompetensiyalarining rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Psixologik yondashuvda ijtimoiy adaptatsiya talabaning stressga bardoshliligi, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati va ijtimoiy vaziyatlarga moslashuvchanligi bilan bog‘liq holda izohlanadi. Ijtimoiy jihatdan moslashgan talaba o‘z fikrini erkin ifoda etadi, jamoaviy faoliyatga moyil bo‘ladi va muammoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topishga intiladi.

Sotsiologik jihatdan esa ijtimoiy adaptatsiya talabaning jamiyatda mavjud ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishi, ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishi va jamiyat tomonidan qabul qilingan me’yorlarga muvofiq xulq-atvor namoyon etishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayon talabaning ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas’uliyat hissining shakllanishiga zamin yaratadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ijtimoiy adaptatsiya uzluksiz va dinamik jarayon bo‘lib, u talabaning individual xususiyatlari, ta’lim muhiti, ijtimoiy sharoit hamda madaniy omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, milliy mentalitet ijtimoiy adaptatsiya jarayonida muhim ijtimoiy-madaniy omil sifatida namoyon bo‘lib, talabaning ijtimoiy xulq-atvori, muloqot madaniyati va jamiyatga moslashuv darajasini belgilaydi.

Mazkur nazariy yondashuv maqolaning keyingi qismida milliy mentalitetning oliy ta’lim talabalarining ijtimoiy adaptatsiyasiga ta’siri bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi.

Milliy mentalitet tushunchasi va uning ijtimoiy-pedagogik mohiyati

Milliy mentalitet jamiyat a’zolariga xos bo‘lgan tarixiy shakllangan dunyoqarash, tafakkur uslubi, qadriyatlar tizimi hamda xulq-atvor me’yorlarining majmuasini ifodalaydi. U muayyan millatning tarixiy taraqqiyoti, madaniy merosi, urf-odatlari, an’analari va ijtimoiy tajribasi asosida vujudga kelib, avloddan avlodga uzatiladigan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Milliy mentalitet shaxsning jamiyatga munosabati, ijtimoiy xulq-atvori va ijtimoiy qarorlar qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda milliy mentalitet shaxs ijtimoiylashuvining muhim omillaridan biri sifatida talqin qilinadi. Chunki ta’lim va tarbiya jarayoni hech qachon madaniy-ijtimoiy kontekstdan xoli holda kechmaydi. Har bir jamiyatda tarbiyaviy ideal, shaxsga qo‘yiladigan talablar va ijtimoiy xulq me’yorlari milliy mentalitet orqali belgilanadi. Shu bois, pedagogik jarayonda milliy mentalitetni e’tiborga olish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan milliy mentalitet shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli bajarishida muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Talabalarning ijtimoiy faolligi, muloqot madaniyati, jamoada ishlashga bo‘lgan munosabati va mas’uliyat hissi ko‘p jihatdan milliy mentalitetga xos qadriyatlar bilan belgilanadi. Ayniqsa, jamoaviylik, kattalarga hurmat, ijtimoiy birdamlik, o‘zaro yordam kabi jihatlar ijtimoiy-pedagogik jarayonning mazmunini boyitadi.

Oliy ta’lim muassasalarida milliy mentalitet talabaning ta’lim muhitiga moslashuvi va ijtimoiy adaptatsiyasi jarayonida yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Talaba shaxsining pedagoglar va tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlari, akademik va ijtimoiy faoliyatga munosabati, shuningdek, jamiyatda qabul qilingan me’yorlarga rioya etishi milliy mentalitet ta’siri ostida shakllanadi. Shu jihatdan, milliy mentalitet ijtimoiy adaptatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy-madaniy resurs sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, globallashuv va ta’lim tizimining modernizatsiyasi sharoitida milliy mentalitet va zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘rtasidagi muvozanat masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Agar ta’lim jarayonida milliy mentalitet xususiyatlari e’tibordan chetda qolsa, talabalarda ijtimoiy begonalashuv, moslashuv qiyinchiliklari yoki madaniy ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin. Aksincha, milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan pedagogik muhit talabalarning ijtimoiy faolligi va shaxsiy rivojini rag‘batlantiradi.

Demak, milliy mentalitet ijtimoiy-pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u talaba shaxsining ijtimoiy adaptatsiyasi, ijtimoiylashuvi va jamiyatga integratsiyalashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oliy ta’lim tizimida pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishda milliy mentalitet xususiyatlarini hisobga olish ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan zarurat sifatida namoyon bo‘ladi.Oliy ta’lim muhitida ijtimoiy adaptatsiya jarayonining xususiyatlari

Oliy ta’lim muhitida ijtimoiy adaptatsiya jarayoni bir necha bosqichda kechadi. Dastlabki bosqichda talaba yangi ta’lim muhitiga moslashadi, akademik talablarni o‘zlashtiradi va ijtimoiy aloqalarni shakllantiradi. Keyingi bosqichda esa talabaning ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi va kasbiy yo‘nalishi rivojlanadi.

Milliy mentalitet ushbu jarayonlarda muhim rol o‘ynab, talabaning ijtimoiy moslashuv darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim muhitida milliy qadriyatlarga tayangan pedagogik yondashuvlar talabalarning ijtimoiy adaptatsiyasini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Milliy mentalitetning ijtimoiy adaptatsiyaga ta’sir mexanizmlari

Milliy mentalitet oliy ta’lim talabalarining ijtimoiy adaptatsiyasi jarayoniga ko‘p bosqichli va murakkab mexanizmlar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ta’sir bevosita va bilvosita shakllarda namoyon bo‘lib, talaba shaxsining ijtimoiy xulq-atvori, muloqot madaniyati, jamiyatga moslashuvi va ijtimoiy faolligini belgilovchi omillarni o‘z ichiga oladi. Milliy mentalitetning ta’sir mexanizmlarini tahlil qilish ijtimoiy adaptatsiya jarayonining mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Birinchi navbatda, milliy mentalitet ijtimoiy adaptatsiyaga qadriyatlar tizimi orqali ta’sir etadi. Har bir jamiyatda shakllangan axloqiy me’yorlar, ijtimoiy qarashlar va madaniy tamoyillar talabalarning xulq-atvorida namoyon bo‘ladi. Milliy qadriyatlarga tayangan talabalar ijtimoiy muhitda o‘zini erkinroq tutadi, jamoa bilan hamkorlik qilishga moyil bo‘ladi hamda jamiyat talablariga mos ravishda ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi. Bu holat ijtimoiy adaptatsiya jarayonining barqaror kechishini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, milliy mentalitet ijtimoiy adaptatsiyaga muloqot madaniyati orqali ta’sir ko‘rsatadi. Muloqot uslubi, nutq madaniyati, o‘zaro hurmat va ijtimoiy mas’uliyat kabi jihatlar talabaning jamiyat bilan o‘zaro munosabatlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy mentalitetga xos muloqot me’yorlari talabaning pedagoglar va tengdoshlar bilan samarali aloqa o‘rnatishiga yordam beradi, bu esa uning ijtimoiy muhitga tezroq moslashuviga zamin yaratadi.

Uchinchidan, milliy mentalitet ijtimoiy adaptatsiyaga ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari orqali ta’sir etadi. Jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor andozalari talabalarning ijtimoiy vaziyatlarga munosabatini belgilaydi. Masalan, jamoaviylikka asoslangan mentalitet talabalarni ijtimoiy faol bo‘lishga, guruh bilan ishlashga va ijtimoiy mas’uliyatni his etishga undaydi. Bu esa ijtimoiy adaptatsiya jarayonini osonlashtiradi.

To‘rtinchidan, milliy mentalitet ijtimoiy adaptatsiyaga pedagogik muhit orqali bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonining milliy qadriyatlar asosida tashkil etilishi talabalarning ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlaydi. Milliy mentalitetni hisobga olgan pedagogik yondashuvlar talabalarda ijtimoiy ishonch, o‘ziga bo‘lgan ishonch va fuqarolik mas’uliyatini shakllantiradi.

Beshinchidan, milliy mentalitet ijtimoiy adaptatsiyaga psixologik barqarorlik mexanizmi orqali ta’sir qiladi. Milliy qadriyatlar va madaniy an’analarga tayangan talabalarda ijtimoiy stresslarga bardoshlilik, o‘z-o‘zini boshqarish va ijtimoiy vaziyatlarga moslashuvchanlik kuchliroq namoyon bo‘ladi. Bu holat talabaning ijtimoiy adaptatsiyasini barqaror va uzluksiz jarayon sifatida ta’minlaydi.

Shuningdek, milliy mentalitet ijtimoiy adaptatsiyaga ijtimoiy identifikatsiya mexanizmi orqali ta’sir ko‘rsatadi. Talabaning o‘zini muayyan ijtimoiy va madaniy guruh a’zosi sifatida anglash jarayoni uning jamiyatga moslashuv

darajasini belgilaydi. Kuchli ijtimoiy identifikatsiya talabaning ijtimoiy muhitga integratsiyalashuvini tezlashtiradi va ijtimoiy begonalashuvning oldini oladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, milliy mentalitetning ijtimoiy adaptatsiyaga ta’siri har doim ham bir xil namoyon bo‘lmaydi. Globallashuv sharoitida zamonaviy ta’lim talablari va milliy mentalitet o‘rtasida muayyan ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatlarda pedagogik jarayonda muvozanatli yondashuvni ta’minlash, ya’ni milliy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy ta’lim talablariga moslashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy mentalitetning ijtimoiy adaptatsiyaga ta’sir mexanizmlari talaba shaxsining ijtimoiylashuvi, jamiyatga moslashuvi va ijtimoiy faolligini ta’minlovchi muhim ijtimoiy-pedagogik omillar majmuasini tashkil etadi. Ushbu mexanizmlarni chuqur tahlil qilish oliy ta’lim tizimida ijtimoiy adaptatsiyani samarali tashkil etish imkonini beradi.

Oliy ta’lim tizimida ijtimoiy adaptatsiyani takomillashtirish yo‘llari

Oliy ta’lim tizimida talabalarning ijtimoiy adaptatsiyasini samarali tashkil etish zamonaviy ta’limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Talabalarning ta’lim muhitiga muvaffaqiyatli moslashuvi ularning akademik faoliyati, ijtimoiy faolligi va shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ijtimoiy adaptatsiyani takomillashtirishga qaratilgan pedagogik va tashkiliy choralarni tizimli ravishda amalga oshirish zarur.

Birinchidan, ijtimoiy adaptatsiyani takomillashtirishda ta’lim muhitini milliy va madaniy xususiyatlarga mos holda tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonida milliy mentalitetga xos qadriyatlar, ijtimoiy me’yorlar va madaniy an’analarni hisobga olish talabalarning ijtimoiy muhitga moslashuvini osonlashtiradi. Bunday yondashuv talabalarda ijtimoiy ishonch, jamoaga mansublik hissi va ijtimoiy barqarorlikni shakllantiradi.

Ikkinchidan, ijtimoiy moslashuvga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlarni joriy etish ijtimoiy adaptatsiyani takomillashtirishning muhim yo‘llaridan biri hisoblanadi. Talabalarning individual xususiyatlari, ijtimoiy tajribasi va psixologik holatini inobatga olgan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoni ularning ijtimoiy moslashuvini jadallashtiradi. Ayniqsa, interaktiv metodlar, jamoaviy ishlar va muammoli vaziyatlarga asoslangan ta’lim texnologiyalari talabalarning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Uchinchidan, talabalarning muloqot va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish ijtimoiy adaptatsiyani takomillashtirishda muhim omil hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarida muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan treninglar, seminarlar va ijtimoiy loyihalar talabalarning jamoada ishlash, o‘z fikrini erkin ifodalash va ijtimoiy munosabatlarni samarali tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish talabalarning ijtimoiy adaptatsiyasini barqarorlashtiradi. Psixologik maslahat xizmatlari, adaptatsiya dasturlari va murabbiylik (tyutorlik) tizimi talabalarning stressga bardoshliligini oshiradi hamda ijtimoiy muhitga moslashuv jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, talabalarning ijtimoiy faolligini rag‘batlantirish ijtimoiy adaptatsiyani takomillashtirishning samarali yo‘li hisoblanadi. Talabalarni jamoat ishlariga, ijtimoiy loyihalarga, madaniy-ma’rifiy tadbirlarga jalb etish ularning jamiyat bilan faol aloqada bo‘lishini ta’minlaydi. Bu jarayon talabalarda ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik pozitsiyasi va jamiyatga daxldorlik hissini shakllantiradi.

Shuningdek, ta’lim jarayonida integrativ yondashuvni qo‘llash ijtimoiy adaptatsiyani takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, ta’lim, tarbiya va ijtimoiy faoliyatning uzviy bog‘liqligini ta’minlash orqali talabalarning ijtimoiy moslashuvi kompleks tarzda rivojlantiriladi. Bu holat talabaning nafaqat bilim oluvchi, balki jamiyatning faol a’zosi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash joizki, oliy ta’lim tizimida talabalarning ijtimoiy adaptatsiyasini takomillashtirish milliy mentalitet, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining uyg‘unligi asosida amalga oshirilishi lozim. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tizimli ishlar talabalarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi va shaxs sifatida barkamol rivojlanishini ta’minlaydi.

**Xulosa**

Olib borilgan ilmiy-tahliliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim talabalarining ijtimoiy adaptatsiyasi zamonaviy ta’lim tizimining muhim va murakkab ijtimoiy-pedagogik muammolaridan biri hisoblanadi. Talabaning oliy ta’lim muhitiga muvaffaqiyatli moslashuvi uning nafaqat akademik faoliyati, balki shaxs sifatida kamol topishi, ijtimoiy faolligi va jamiyatga integratsiyalashuvi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tadqiqot davomida ijtimoiy adaptatsiya shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvi, jamiyatda qabul qilingan me’yor va qadriyatlarni ongli ravishda o‘zlashtirishi hamda ijtimoiy munosabatlar tizimida faol ishtirok etishini ta’minlovchi uzluksiz jarayon ekanligi asoslab berildi. Oliy ta’lim sharoitida ushbu jarayon talabaning mustaqil hayotga qadam qo‘yishi, yangi akademik va ijtimoiy muhitga moslashuvi bilan bog‘liq holda kechadi.

Maqolada milliy mentalitet ijtimoiy adaptatsiyaning muhim ijtimoiy-madaniy omili sifatida talqin qilinib, uning talaba shaxsining ijtimoiylashuvi, xulq-atvori, muloqot madaniyati va ijtimoiy faolligiga ko‘rsatayotgan ta’siri ochib

berildi. Milliy qadriyatlar, an'analar va ijtimoiy me'yorlar talabalarning jamiyatga moslashuv jarayonini qo'llab-quvvatlovchi muhim resurs sifatida namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Shuningdek, milliy mentalitetning ijtimoiy adaptatsiyaga ta'sir mexanizmlari qadriyatlar tizimi, muloqot madaniyati, ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari, pedagogik muhit va psixologik barqarorlik orqali amalga oshishi aniqlandi. Ushbu mexanizmlarning uyg'un faoliyati talabalarning ijtimoiy moslashuvini barqaror va samarali kechishini ta'minlashi ko'rsatib berildi.

Tadqiqot natijalari asosida oliy ta'lim tizimida talabalarning ijtimoiy adaptatsiyasini takomillashtirish milliy mentalitet xususiyatlarini hisobga olgan holda, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari uyg'unligida amalga oshirilishi zarurligi xulosa qilindi. Ta'lim muhitining milliy va madaniy xususiyatlarga mos tashkil etilishi talabalarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun muhim shart sifatida e'tirof etildi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim talabalarining ijtimoiy adaptatsiyasi jarayonida milliy mentalitetni hisobga olish ta'lim samaradorligini oshirish, talabalarning ijtimoiy faolligi va shaxsiy rivojini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar oliy ta'lim tizimini takomillashtirish va barkamol shaxs tarbiyasiga xizmat qiluvchi pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish uchun mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Abdurahmonov F. Ijtimoiy pedagogika asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Zunnunov A. Milliy mentalitet va tarbiya masalalari. – Toshkent: Fan, 2020.
5. Xudoyberdiyev B. Oliy ta'limda ijtimoiylashuv jarayonlari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
6. Mavlonova R., Raxmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
7. Saidahmedov N.S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
8. G'oziyev E. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
9. Parsons T. The Social System. – New York: Routledge, 1991.
10. Hofstede G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2001.
11. Berry J.W. Immigration, Acculturation, and Adaptation. // Applied Psychology. – 1997. – Vol. 46(1). – P. 5–34.
12. UNESCO. Rethinking Education: Towards a Global Common Good? – Paris: UNESCO Publishing, 2015.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Umurzaqova Nasibaxon Suyarjanovna**
Qo'qon universiteti Andijon filiali
Bialogiya, kimyo va farmaseftika kafedrasi katta o'qituvchisi

## BO'LAJAK FARMASEFTLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNI METODIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH.

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada bo'lajak farmaseftlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoniga yondashuvlar, mavjud metodik ta'minotning holati hamda uni takomillashtirishning ilmiy asoslari yoritilgan. Farmatsevtika sohasidagi jadal o'zgarishlar, innovatsion texnologiyalarning kengayib borishi, farmakoterapiyada global yondashuvlarning yangilanishi kompetensiyaviy o'qitish tizimini zamonaviylashtirish zaruratini tug'dirayotgani asoslab berilgan. Tadqiqotda nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, interaktiv pedagogik texnologiyalarni joriy etish, kommunikativ, axborot va klinik kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha samarali metodlar ta'riflanadi. Shuningdek, farmaseftlarni real kasbiy vaziyatlarga tayyorlashga xizmat qiluvchi interprofessional yondashuvlar, OSKE kabi baholash tizimlari va simulyatsion mashg'ulotlarning roli ochib berilgan. Olingan xulosalar farmasevtika ta'limi sifatini oshirish va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni o'z ichiga oladi.*

***Kalit so'zlar:****bo'lajak farmaseftlar, kasbiy kompetensiya, metodik ta'minot, farmasevtika ta'limi, innovatsion pedagogika, interaktiv metodlar, klinik tafakkur, kommunikativ ko'nikma, OSKE, farmakoterapiya.*

**Умурзакова Насибахон Суяржановна**
Андижанский филиал Кокандского университета
Старший преподаватель кафедры биологии, химии и фармации

## УЛУЧШЕНИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ФАРМАЦЕВТОВ.

***Аннотация:****В статье рассматриваются подходы к развитию профессиональных компетенций будущих фармацевтов, анализируется состояние существующего методического обеспечения и обосновываются направления его совершенствования. Подчёркивается, что быстрые изменения в фармацевтическом секторе, расширение инновационных технологий и обновление международных рекомендаций по фармакотерапии требуют модернизации компетентностно ориентированного обучения. В исследовании описаны эффективные методы формирования практических, коммуникативных, информационных и клинических компетенций, а также необходимость интеграции теории и практики. Особое внимание уделено межпрофессиональному обучению, симуляционным занятиям, технологиям OSCE и другим формам объективной оценки. Полученные выводы направлены на повышение качества фармацевтического образования и подготовку конкурентоспособных специалистов.*

***Ключевые слова:*** *будущие фармацевты, профессиональные компетенции, методическое обеспечение, фармацевтическое образование, инновационные технологии, интерактивные методы, клиническое мышление, коммуникативная компетентность, OSCE, фармакотерапия.*

**Nasibaxon Suyarzhanovna Umurzakova**
Senior Lecturer, Department of Biology, Chemistry and Pharmacy, Andijan Branch of Kokand University

## IMPROVING METHODOLOGICAL APPLICATION OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCES OF FUTURE PHARMACISTS.

***Abstract:*** *This article examines the development of professional competencies in future pharmacists, analyzes the current state of methodological support, and outlines scientifically grounded directions for its improvement. Rapid changes in the pharmaceutical sector, the expansion of innovative technologies, and the continuous renewal of global pharmacotherapy guidelines highlight the need to modernize competency-based education. The study describes effective methods for enhancing practical, communicative, informational, and clinical competencies, emphasizing the importance of integrating theory with real professional practice. Particular*

*attention is given to interprofessional education, simulation-based training, OSCE assessment tools, and other objective evaluation methods. The findings provide practical recommendations aimed at improving the quality of pharmaceutical education and preparing competitive, highly competent specialists.*

***Keywords:*** *future pharmacists, professional competence, methodological support, pharmaceutical education, innovative pedagogy, interactive methods, clinical reasoning, communication skills, OSCE, pharmacotherapy.*

Mamlakatimizda farmatsevtika sohasi jadal rivojlanib borayotgan bir paytda, bo‘lajak farmaseftlarning kasbiy tayyorgarligini zamon talablari asosida takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Farmatsevt kadrlar nafaqat dori vositalarining sifatini baholash yoki farmakoterapiyani to‘g‘ri tashkil etish, balki aholi salomatligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi keng ko‘lamli mas’uliyatli vazifalarni bajaradi. Shu bois, farmasevtlarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, yangilash va chuqurlashtirish ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Kasbiy kompetensiyalar bugungi globallashuv sharoitida mutaxassisning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omil sifatida qaralmoqda. Farmasevtikadagi o‘zgarishlar, innovatsion texnologiyalarning keng qo‘llanilishi, farmakoterapiya bo‘yicha yangi ilmiy yondashuvlar paydo bo‘layotgani metodik ta’minotni muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Ayniqsa, amaliy ko‘nikmalar, kommunikativ madaniyat, klinik tafakkur, axborot bilan ishlash salohiyati kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodikalar ta’lim jarayonining ajralmas bo‘lagi bo‘lishi zarur.

Amaldagi o‘quv dasturlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, nazariy bilimlar bilan bir qatorda talabalarda real amaliy vaziyatlarni mustaqil hal qila olish, mas’uliyatli qarorlar qabul qilish, bemorlar bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnata olish kabi ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlar yetarli darajada samarali emas. Bu esa metodik ta’minotni takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish jarayonini qayta tashkil qilish zaruratini yuzaga chiqaradi. Metodik ta’minotni yangilashning asosiy maqsadi bu o‘quv jarayonida nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash, bo‘lajak farmaseftning kasbiy faoliyatiga mos real vaziyatlarni modellashtirish, mustaqil fikrlash va mantiqiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Bunday yondashuv farmasevt kadrlarning amaliy tayyorgarligini mustahkamlaydi, ularning kasbiy kompetensiyalarini bozor talablariga mos ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotda bo‘lajak farmaseftlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini chuqur o‘rganish, mavjud metodik ta’minotni tahlil qilish va uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlar ishlab chiqish o‘zida katta amaliy ahamiyatni mujassam etadi. Natijada farmasevtika ta’limining sifatini oshirish, zamonaviy talabga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash imkoniyati yanada kengayadi. Bo‘lajak farmaseftlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kunda nafaqat ta’lim tizimi, balki sog‘liqni saqlash sohasining umumiy rivojlanishida ham muhim o‘rin tutadi. Farmatsevtik xizmatni modernizatsiya qilish, dorilar xavfsizligini ta’minlash, farmakoterapiya sifati va bemorlarga ko‘rsatilayotgan maslahatlar darajasini oshirish uchun yuqori malakali mutaxassislar zarur. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan metodik ta’minotni takomillashtirish jarayoni o‘quv dasturlarini yangilash, amaliy mashg‘ulotlar mazmunini boyitish, o‘quv jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Dorilar ishlab chiqarish hajmining ortishi, xalqaro standartlarga mos sertifikatlash talablari, farmakoterapiya bo‘yicha global tavsiyalarning yangilanib borishi farmaseftlar faoliyatiga yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Farmaseft endilikda faqat dorilar sotuvchisi emas, balki aholi salomatligiga ta’sir qiluvchi keng ko‘lamli masalalarda ishtirok etuvchi tibbiyot jamoasining teng huquqli a’zosi sifatida qaralmoqda. Bemorlarni dori vositalari bo‘yicha nojo‘ya ta’sirlardan ogohlantirish, dori o‘zaro ta’sirini tushuntirish, farmakoterapiyaga oid individual tavsiyalar berish, dori-darmonlardan oqilona foydalanishni targ‘ib qilish kabi vazifalar farmasevt zimmasiga tushmoqda. Bunday mas’uliyatni samarali bajarish esa keng qamrovli kompetensiyalarni o‘zlashtirishni talab qiladi. Oliy farmasevtika ta’limida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish jarayoni izchil rivojlanayotgan bo‘lsa-da, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mavjud metodik ta’minot ko‘plab jihatlardan takomillashtirishni talab qiladi. Talabalarning kasbiy vazifalarni mustaqil bajarish salohiyati, muloqot madaniyati, farmakologik bilimlarni real klinik vaziyatlarda qo‘llay olish ko‘nikmalari yetarlica shakllanmagan holatlar uchrab turadi. Ayrim o‘quv dasturlarida nazariy ma’lumotlar ko‘p bo‘lib, ularni amaliyotga integratsiya qilish mexanizmi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Natijada talabalar o‘quv jarayonida olgan bilimlarini amaliy faoliyatga to‘liq tatbiq eta olmaydi.Metodik ta’minotni takomillashtirish jarayoni, birinchi navbatda, o‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan pedagogik usullarni zamonaviylashtirishni taqozo etadi. An’anaviy auditoriya mashg‘ulotlarida ko‘pincha axborot uzatishga asoslangan usullar ustunlik qiladi. Bunday mashg‘ulotlarda talabalar faqat tinglovchi rolida qolib ketadi, bu esa ularning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarining shakllanishini cheklaydi. Shu sababli, interaktiv metodlar muammoli ta’lim, amaliy vaziyatlarni modellashtirish, rol o‘yinlari, “case-study” texnologiyasi, klinik topshiriqlar orqali o‘qitish farmasevtik ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi zarur.

**Muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish** talabalarning analitik salohiyatini oshiradi, ularni mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Masalan, bemorga bir nechta dorilar buyurilganida, ularning o‘zaro ta’sirini aniqlash, nojo‘ya reaksiyalar xavfini baholash yoki muqobil dori taklif qilish kabi vazifalar talaba uchun real hayotdagi kasbiy faoliyatni modellashtiradi. Shu tariqa, talaba nafaqat nazariy bilimlarni qayta takrorlaydi, balki ularni amalda qo‘llashni o‘rganadi

**Kommunikativ kompetensiyalar** bo‘lajak farmaseftlarning kasbiy tayyorgarligida alohida ahamiyatga ega. Bemorlar bilan samarali muloqot qilish, ularning murojaatlarini to‘g‘ri tushunish, dori bo‘yicha tavsiyalarni aniqlik bilan yetkazish farmasevtik amaliyotning asosiy tarkibiy qismidir. Bu borada metodik ta’minotga maxsus mashg‘ulotlar, simulyatsion treninglar, kommunikativ vaziyatlar bo‘yicha topshiriqlarni kiritish talab etiladi. Bunday mashg‘ulotlar talabalarni real muloqot jarayonida uchrashi mumkin bo‘lgan holatlarga tayyorlaydi va ularning kasbiy madaniyatini shakllantiradi.

**Axborot kompetensiyalari** ham farmasevtik ta’limda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy sharoitda dori vositalariga oid ma’lumotlar tez o‘zgarib borayotgani bois, mutaxassis muntazam ravishda yangiliklarni kuzatib borishi, ilmiy bazalar bilan ishlay olishi, farmakologik axborotni tahlil qila bilishi kerak. Bu esa o‘qitish jarayoniga elektron resurslardan foydalanish, onlayn ma’lumotlar bazalariga kirish, ilmiy maqolalarni tahlil qilishni o‘rgatish, axborot texnologiyalarini amaliy mashg‘ulotlarga tatbiq etishni taqozo qiladi. Bundan tashqari, **klinik tafakkur**ni shakllantirish ham metodik ta’minotning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Farmaseft klinik jarayonning barcha bosqichlariga bevosita mas’ul bo‘lmasa-da, bemorning sog‘ligini yaxshilashga qaratilgan qarorlarning bir qismi uning tavsiyalariga bog‘liq. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda farmakoterapiya asoslari, klinik farmakologiya, farmatsevtik parvarish, dori xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha mashg‘ulotlar chuqurlashtirilgan shaklda olib borilishi kerak.

Metodik ta’minotni takomillashtirishning yana bir jihati **hamkorlikda ta’lim berish**dir. Bunda farmasevt, shifokor, hamshira va boshqa tibbiyot mutaxassislari o‘rtasida o‘zaro fikr almashish, jamoaviy qarorlar qabul qilishga o‘rgatish nazarda tutiladi. Interprofessional mashg‘ulotlar talabalarga kelajakdagi hamkasblari bilan hamkorlikda ishlash tajribasini beradi, bu esa sog‘liqni saqlash tizimi uchun muhim hisoblanadi. O‘quv jarayonini samarali tashkil etishda **baholash tizimini takomillashtirish** ham zarur. An’anaviy test yoki yozma nazoratlar ko‘nikmalarni to‘liq baholay olmaydi. Buning o‘rniga OSKE (ob’ektiv strukturalangan klinik imtihon), amaliy topshiriqlar, portfel yaratish, kompetensiyalarni baholash mezonlari kabi usullarni qo‘llash tavsiya etiladi. Bu talabaning nafaqat bilimini, balki amaliy ko‘nikmalarini, muloqot madaniyatini, mas’uliyat darajasini ham baholash imkonini beradi. Yuqorida qayd etilgan jarayonlarning barchasi, aslida, farmasevtik ta’limning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Metodik ta’minotni qayta ko‘rib chiqish orqali talabalarning kasbiy o‘sishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi, ularning bo‘lajak faoliyatiga mos tayyorgarlik darajasi mustahkamlanadi. Natijada, farmasevtika sohasida raqobatbardosh, mas’uliyatli, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislar yetishib chiqadi.

Bo‘lajak farmaseftlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik ta’minotni takomillashtirish masalasi bugungi farmatsevtika ta’limining strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘rganilgan nazariy yondashuvlar, mavjud o‘quv jarayonining tahlili hamda amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, farmasevtlarni tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning to‘liq joriy etilishi sohaga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarning eng muhim shartlaridan biridir. Ayniqsa, kasbiy, kommunikativ, axborot va klinik kompetensiyalarni izchil shakllantirish farmasevtik xizmat sifatini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Metodik ta’minotni takomillashtirish ehtiyoji farmatsevtika sohasidagi jadal o‘zgarishlar, dorilar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha xalqaro talablarning kuchayishi, farmakoterapiya jarayonining murakkablashuvi va aholining farmasevtga bo‘lgan ishonchi hamda ehtiyojining ortib borayotganligi bilan belgilanadi. Amaldagi o‘quv dasturlari va pedagogik yondashuvlar, ko‘p hollarda, talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilsa-da, ularni amaliy faoliyatga tayyorlash jarayonida ayrim bo‘shliqlar mavjud. Bu esa farmasevtik ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng tatbiq etish, interaktiv mashg‘ulotlar ulushini ko‘paytirish, real klinik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, farmasevtik ta’lim jarayoniga case-study, muammoli ta’lim, simulyatsion treninglar, jamoaviy faoliyatga asoslangan mashg‘ulotlarni kiritish talabalarning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondasha olishi va mas’uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Axborot resurslaridan foydalanishni o‘rgatish, ilmiy ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish esa bo‘lajak mutaxassisning zamonaviy axborot oqimi sharoitida samarali faoliyat yuritishi uchun keng imkoniyat yaratadi.

Farmaseftlarning bemorlar bilan muloqot qilish madaniyatini rivojlantirish, ularni tibbiyot jamoasining faol ishtirokchisi sifatida tayyorlash ham metodik ta’minotning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Interprofessional ta’lim tamoyillariga asoslangan mashg‘ulotlar talabalarga kelajakdagi kasbiy hamkorlikni o‘rganish va jamoaviy mas’uliyatni his qilish imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bo‘lajak farmaseftlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni metodik ta’minot orqali takomillashtirish farmatseftika ta’limi sifatini oshirishning eng samarali yo‘llaridan biridir. Bu jarayon

ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish, o‘qitish texnologiyalarini yangilash, baholash mezonlarini qayta ko‘rib chiqish va o‘qituvchi hamda talaba o‘rtasidagi pedagogik hamkorlikni mustahkamlashni talab etadi. Metodik ta’minotni ilmiy asosda takomillashtirish esa sohaga raqobatbardosh, zamonaviy kompetensiyalarni egallagan, mas’uliyatli va yuqori malakali farmaseft kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Абдувохидов, А.Х. Фармацевтика таълимида инновацион технологиялардан фойдаланиш масалалари. — Тошкент: Тиббиёт нашриёти, 2021.

2.Sultonov, I., & Karimova, M. Farmasevtika ta’limida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari. — “Oliy ta’lim muammolari”, 2020, №4, 112–118-betlar.

3.International Pharmaceutical Federation (FIP). Nanjing Statements on Pharmacy and Pharmaceutical Sciences Education. The Hague: FIP Global Office, 2017.

4.Jungnickel, J.A., Kelley, K.W., Hammer, D. et al. Addressing Competencies for the Future in Pharmacy Education. American Journal of Pharmaceutical Education, 2009; 73(8): 1–12.

5.Budenkova, E.A., Litvinova, T.M., Babaskina, L.I. Development of professional competencies in higher pharmaceutical education according to students. Journal of Advanced Pharmacy Education & Research, 2021; 11(1): 199–206.

6.Suwannaprom, P., Phanudelk, N., & Pongnikorn, P. Development of Pharmacy Competency Framework for the Pharmaceutical Supply Chain. Pharmacy Practice, 2020; 18(4): 1–9.

7.Стручынская, Н.П., Блахун, С.А. Формирование коммуникативной компетентности будущих провизоров в условиях цифровизации фармацевтического рынка. — “Современное образование”, 2021, №6.

8.Dubel, N.I., Markova, O.V. Formation of Professional Competencies of Future Pharmacists in Pharmaceutical Disciplines. Art of Medicine, 2022; 4: 45–52.

9.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Farmatsevtika sohasini rivojlantirish bo‘yicha 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan konsepsiya. — Toshkent, 2020.

10. Ходжаева, Н.Р. Олий таълимда методик таъминотни модернизация қилишнинг педагогик асослари. — Тошкент: Фан ва технология, 2019.

11. Harden, R.M., & Crosby, J. AMEE Guide No. 20: The Good Teacher is More than a Lecturer — The Twelve Roles of the Teacher. Medical Teacher, 2000; 22(4): 334–347.

12. World Health Organization (WHO). Transforming and Scaling Up Health Professionals' Education and Training. Geneva: WHO Press, 2013.

13. Karimova, Z.M. Farmatsevtik parvarish va farmakoterapiyada kompetensiyalarni shakllantirishning metodik asoslari. — “Tibbiyot va Ta’lim”, 2022, №1, 64–70-betlar.

14. Cyberleninka ilmiy elektr kutubxonasi. Communicative competence as the basis of professional activity of future pharmacists, 2020.

15. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Farmasevtika yo‘nalishlari uchun malaka talablari (yangilangan nashr). — Toshkent, 2023.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Niyazova Naima Abdullajonovna**
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots
e-mail: naima.abdullajanovna82@gmail.com

## OLIY TA'LIMDA "MA'LUMOTLAR BAZASI" FANINI O'QITISHDA TALABALARNING KOGNITIV VA IJODIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida "Ma'lumotlar bazasi" fanini o'qitish jarayonida talabalarning kognitiv va ijodiy faolligini rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, faol va interaktiv o'qitish metodlari, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish hamda raqamli texnologiyalar imkoniyatlari asosida metodik model taklif etiladi. Maqolada talabalarning mantiqiy fikrlashi, algoritmik tafakkuri va ijodiy yondashuvini shakllantirishda ma'lumotlar bazasi fanining o'rni ochib beriladi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *ma'lumotlar bazasi, kognitiv faollik, ijodiy faollik, interaktiv ta'lim, loyiha asosida o'qitish, raqamli pedagogika.*

**Ниязова Наима Абдулладжоновна**
Ташкентский университет экономики и технологий
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

## МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНОЙ И ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ДИСЦИПЛИНЫ «БАЗЫ ДАННЫХ» В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ

***Аннотация:*** *В статье научно-теоретически и практически анализируются вопросы развития когнитивной и творческой активности студентов в процессе преподавания дисциплины «Базы данных» в высших учебных заведениях. В исследовании предлагается методическая модель, основанная на современных педагогических подходах, активных и интерактивных методах обучения, проблемном обучении, проектном обучении, а также возможностях цифровых технологий. В статье раскрывается роль дисциплины «Базы данных» в формировании логического мышления, алгоритмического мышления и творческого подхода студентов, а также разработаны практические рекомендации.*

***Ключевые слова:*** *базы данных, когнитивная активность, творческая активность, интерактивное обучение, проектное обучение, цифровая педагогика.*

**Niyazova Naima Abdullajonovna**
Tashkent University of Economics and Technologies
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor

## METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' COGNITIVE AND CREATIVE ACTIVITY IN TEACHING THE COURSE "DATABASES" IN HIGHER EDUCATION

***Abstract:*** *This article examines the development of students' cognitive and creative activity in teaching the course "Databases" in higher education institutions from scientific-theoretical and practical perspectives. The study substantiates a methodological model grounded in modern educational technologies, including active and interactive teaching methods, problem-based learning, project-based learning, and the integration of digital tools. Special attention is paid to the role of the "Databases" course in enhancing students' logical reasoning, algorithmic thinking, and creative problem-solving skills. Based on the research findings, practical recommendations aimed at improving the effectiveness of the teaching process are proposed.*

***Keywords:*** *databases, cognitive activity, creative activity, interactive teaching methods, project-based learning, digital pedagogy.*

**KIRISH.** o'nggi yillarda ta'lim tizimida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari oliy ta'lim oldiga yangi sifat talablari va vazifalarni qo'ymoqda. Axborot bilan ishlash, uni strukturaviy tashkil etish va boshqarish bo'yicha kompetensiyalar zamonaviy mutaxassis tayyorlash jarayonining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Shu jihatdan,

“Ma’lumotlar bazasi” fani axborot texnologiyalari, dasturiy injiniring va iqtisodiy yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun muhim nazariy va amaliy tayanch vazifasini bajaradi.

Biroq ta’lim jarayonida mazkur fanni o‘qitish ko‘pincha an’anaviy yondashuvlar asosida tashkil etilib, talabalarning bilish jarayonidagi faolligi va ijodiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga yetarli sharoit yaratmaydi. Reproduktiv faoliyat ustuvor bo‘lgan bunday yondashuvlar talabalarning mustaqil tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni baholash va kreativ yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlarini cheklaydi. Shu sababli “Ma’lumotlar bazasi” fanini o‘qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalariga asoslangan, kognitiv va ijodiy faollikni faollashtirishga yo‘naltirilgan metodik tizimni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

## TADQIQOT METODLARI

Mazkur maqola oliy ta’lim muassasalarida “Ma’lumotlar bazasi” fanini o‘qitish jarayonini zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirish hamda talabalarning kognitiv va ijodiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarni ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida pedagogik izlanishlarga xos bo‘lgan nazariy va empirik metodlardan kompleks hamda o‘zaro uyg‘unlikda foydalanildi, bu esa tadqiqot muammosini har tomonlama va tizimli o‘rganish imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy bosqichida pedagogika, didaktika, ta’lim texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga oid ilmiy manbalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar chuqur tahlil qilindi. Ushbu bosqichda tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari qo‘llanilib, kognitiv va ijodiy faollik tushunchalarining mazmun-mohiyati, ularning oliy ta’lim jarayonidagi pedagogik ahamiyati hamda “Ma’lumotlar bazasi” fanini o‘qitishdagi didaktik imkoniyatlari aniqlashtirildi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlarning nazariy asoslari, ularning kompetensiyaviy yondashuv bilan uzviy bog‘liqligi va o‘quv jarayoniga integratsiyalash mexanizmlari yoritib berildi.

Empirik tadqiqot bosqichida kuzatish, so‘rovnoma, suhbat va diagnostik topshiriqlar metodlaridan foydalanildi. Kuzatish metodi orqali auditoriya mashg‘ulotlari, amaliy va laboratoriya darslarida talabalarning faolligi, muammoli vaziyatlarga munosabati, mustaqil fikrlash darajasi va ijodiy yondashuvi o‘rganildi. So‘rovnoma va suhbatlar yordamida talabalar hamda professor-o‘qituvchilarning qo‘llanilayotgan metodik yondashuvlarga munosabati, ta’lim texnologiyalarining samaradorligi va o‘quv motivatsiyasiga ta’siri aniqlab olindi. Diagnostik topshiriqlar esa talabalarning bilimlarni ongli o‘zlashtirish darajasi, mantiqiy tafakkuri va ijodiy faolligini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik modelning samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba jarayonida interaktiv metodlar, loyiha asosida o‘qitish hamda raqamli ta’lim texnologiyalariga tayangan mashg‘ulotlar tajriba guruhida joriy etilib, an’anaviy o‘qitish usullari qo‘llanilgan nazorat guruhi bilan qiyosiy tahlil qilindi. Olingan empirik ma’lumotlar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, natijalar jadval va diagrammalar orqali umumlashtirildi hamda taklif etilgan metodik yondashuvlarning samaradorligi ilmiy asosda isbotlandi.

## TADQIQOT NATIJALARI

Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, “Ma’lumotlar bazasi” fanini o‘qitishda ta’lim texnologiyalariga asoslangan metodik yondashuvlardan foydalanish talabalarning kognitiv va ijodiy faolligini sezilarli darajada faollashtiradi. Tajriba guruhida mashg‘ulotlar interaktiv metodlar, loyiha asosida o‘qitish va raqamli vositalar yordamida tashkil etildi, nazorat guruhida esa asosan an’anaviy usullar saqlab qolindi.

O‘tkazilgan diagnostik tahlillar tajriba guruhidagi talabalarda bilimlarni ongli o‘zlashtirish, mantiqiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. Jumladan, kognitiv faollik ko‘rsatkichlarida o‘rtacha 30 foiz atrofidagi ijobiy o‘sish qayd etildi (1-jadval).

1-jadval

**Tajriba va nazorat guruhlarida talabalarning kognitiv faolligi ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi (%)**

| Ko‘rsatkichlar | Tajriba guruhi (boshlang‘ich) | Tajriba guruhi (yakuniy) | O‘sish (%) | Nazorat guruhi (boshlang‘ich) | Nazorat guruhi (yakuniy) | O‘sish (%) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Bilimlarni ongli o‘zlashtirish darajasi | 42 % | 74 % | +32 % | 44 % | 56 % | +12 % |
| Mantiqiy fikrlash darajasi | 40 % | 70 % | +30 % | 41 % | 52 % | +11 % |
| Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish | 38 % | 68 % | +30 % | 39 % | 50 % | +11 % |

Ijodiy faollik bo‘yicha olingan natijalar ham metodik yondashuvning samaradorligini tasdiqladi. Tajriba guruhidagi talabalar ma’lumotlar bazasini mustaqil loyihalash, amaliy vazifalarni kreativ yondashuv asosida bajarish va innovatsion g‘oyalar ilgari surishda yuqori faollik ko‘rsatdilar. Ushbu holat loyiha asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining ijobiy ta’sirini yaqqol namoyon etdi (2-jadval).

2-jadval

**Talabalarning ijodiy faolligi ko‘rsatkichlarining taqqoslama tahlili (%)**

| Ko‘rsatkichlar | Tajriba guruhi | Nazorat guruhi |
|---|---|---|
| Ma’lumotlar bazasini mustaqil loyihalash | 70 % | 45 % |
| Amaliy topshiriqlarni ijodiy yechish | 68 % | 42 % |
| Innovatsion yechimlar taklif etish faolligi | 65 % | 40 % |
| Loyiha asosida ishlashda faol ishtirok | 72 % | 48 % |

## MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Ma’lumotlar bazasi” fanini o‘qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalariga tayangan metodik yondashuvlar talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishda muhim omil hisoblanadi. Interaktiv mashg‘ulotlar va loyiha asosida o‘qitish bilimlarning chuqur o‘zlashtirilishi bilan birga, tahliliy va mantiqiy fikrlash jarayonining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Ijodiy faollik ko‘rsatkichlarining oshishi talabalarda mustaqil qaror qabul qilish, nostandart yondashuvlardan foydalanish va kasbiy muammolarni kreativ tarzda hal etish qobiliyatlari shakllanayotganini ko‘rsatadi. Bu natijalar kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan zamonaviy oliy ta’lim konsepsiyasi bilan to‘liq mos keladi hamda taklif etilgan metodik modelning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

## XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida “Ma’lumotlar bazasi” fanini o‘qitish jarayonida talabalarning kognitiv va ijodiy faolligini rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanganki, an’anaviy o‘qitish usullari bilan cheklanib qolish talabalarning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini to‘liq shakllantirishga yetarli imkoniyat bermaydi.

Interaktiv metodlar, loyiha asosida o‘qitish hamda raqamli ta’lim texnologiyalarini kompleks va tizimli qo‘llash talabalarning bilimlarni ongli o‘zlashtirish darajasini oshirish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish va amaliy faoliyatga ijodiy yondashuvini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Mazkur yondashuvlar talabalarning faolligini kuchaytirib, ularni muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va innovatsion yechimlar ishlab chiqishga yo‘naltirdi.

Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar va tavsiyalar “Ma’lumotlar bazasi” fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirishga xizmat qilib, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodik yondashuvlarni oliy ta’lim amaliyotiga joriy etish orqali raqobatbardosh, ijodkor va zamonaviy axborot texnologiyalarini puxta egallagan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlari kengayadi. Shu bois tadqiqot natijalari va taklif etilgan metodik modelni oliy ta’lim muassasalarida “Ma’lumotlar bazasi” fanini o‘qitish jarayonida amaliy qo‘llash maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. — Toshkent, 2020.

2. Abdullayeva M., Qodirov A. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida oliy ta’limni tashkil etish. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. — 156 b.

3. Connolly T., Begg C. Database Systems: A Practical Approach to Design, Implementation, and Management. — 6th ed. — London: Pearson Education, 2015. — 1100 p.

4. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. — Москва: Народное образование, 2019. — 256 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Д. Н. Рахматова**
Узбекский государственный университет
физической культуры и спорта доктор педагогических наук
профессор (DSc)

## ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВЫНОСЛИВОСТИ У ЮНЫХ СПОРТСМЕНОВ 10-14 ЛЕТ

***Аннотация:*** *В статье представлена информация о средствах и методах развития выносливости подростков 10-14 лет путем совершенствования тренировочного процесса спортсменов в многолетний тренировочный период.*

***Ключевые слова:*** *Легкая атлетика, качество выносливости, совершенствование тренировочного процесса, средства, методы тренировки*

**D. N. Raxmatova**
Uzbek State University physical culture and sports
Doctor of Pedagogical Sciences Acting Professor (DSc)

## SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF FORMATION OF ENDURANCE IN YOUNG ATHLETES 10-14 YEARS OLD

***Annotation:*** *The article presents information about the means and methods of developing the endurance of adolescents aged 10-14 by improving the training process of athletes in a long-term training period*

***Key words:*** *Athletics, quality of endurance, improvement of the training process, means, methods of training*

**D. N. Rahmatova**
O'zbekiston Davlat Jismoniy Tarbiya va Sport Universiteti, Pedagogika fanlari doktori
Professor (DSc)

## 10-14 YOSHLI YOSH SPORTSMETRLARDA CHIDAMLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

***Annotatsiya****: Ushbu maqolada 10-14 yoshli o'smirlarda uzoq muddatli mashg'ulotlar davomida sportchilarning mashg'ulot jarayonini takomillashtirish orqali chidamlilikni rivojlantirish vositalari va usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar****: Yengil atletika, chidamlilik sifati, mashg'ulot jarayonini takomillashtirish, mashg'ulot vositalari va usullari.*

**Актуальность.** Во многих странах мира для эффективной организации тренировочного процесса большое внимание уделяется вопросам развития выносливости у юных спортсменов, занимающихся в группах начальной подготовки. Во всех видах спорта формирование выносливости является обязательным компонентом системы подготовки юных спортсменов. Мировая спортивная практика предъявляет свои требования к развитию выносливости, т.е. проявлению спортсменами способности к сохранению работоспособности и дифференциаци нагрузок по аэробно-анаэробным зонам интенсивности. В связи с этим рациональная организация учебно-тренировочного процесса позволяет значительно повысить эффективность становления важного физического качества – выносливости.

Во многих странах мира ведутся научные исследования по адаптации системы подготовки спортсменов, занимающихся легкой атлетикой, к современным требованиям. В частности, проводятся научные исследования, связанные с поиском путей повышения эффективности распределения тренировочных нагрузок по зонам интенсивности, разработки организационно-методических указаний при планировании учебно-тренировочного процесса и тренировочных нагрузок, направленных на формирование качества выносливости у юных спортсменов. Однако вопросы разработки модельных характеристик, направленных на развитие выносливости у юных спортсменов на этапах многолетней подготовки, изучены недостаточно. Исходя из этого, проблема научно-обоснованного подхода к формированию выносливости на этапах многолетней подготовки юных спортсменов остаётся актуальной.

В нашей республике при организации тренировочного процесса юных бегунов на средние и длинные дистанции особое внимание уделяется методам непрерывного развития выносливости. «В стране при формировании всесторонне зрелого и физически здорового человека с высокой культурой, решение вопроса повышения квалификация и знаний населения в области физической культуры и спорта, отбора талантливой молодежи и факторов, определяющих выносливость спортсменов, связано с осуществлением контроля и анализа эффективности развития выносливости в конкретном виде спорта»[1].Разнообразными становятся мероприятия, направленные на внедрение методов развития выносливости у юных бегунов на средние и длинные дистанции. Высокие результаты спортсменов Узбекистана на Олимпийских играх и установленные на различных международных соревнованиях рекорды свидетельствуют об эффективности проводимых в республике системных реформ в данной сфере. В настоящее время в теории спортивной тренировки появилась необходимость осуществления целенаправленного подбора средств подготовки на различных этапах и периодах годичного цикла, разработки механизмов адаптации к тренировочным нагрузкам, направленных на развитие выносливости, разработки примерных программ подготовки и подведения спортсменов 10-14 лет к основным соревнованиям без травм. Учитывая это, с каждым годом усиливаются требования к решению вопроса дальнейшего совершенствования научных работ, направленных на подготовку достойных конкурентоспособных спортсменов по различным видам спорта, а также научного построения тренировочного процесса с разработкой оптимальных соотношений тренировочных нагрузок, направленных на развитие выносливости у юных спортсменов 10-14 лет, специализирующихся в беге на средние и длинные дистанции.

Анализ информационных источников по циклическим видам спорта и обобщение передового опыта спортивный практики показали, что ряд теоретических и практических вопросов подготовки легкоатлетов, организации комплексного контроля учебно-тренировочного процесса изучены недостаточно, что определяет актуальность проблемы совершенствования научно-педагогических основ тренировочного процесса легкоатлетов, специализирующихся в беге на средние и длинные дистанции.

**Цель исследования** теоретически обосновать и экспериментально проверить эффективность использования средств и методов развития выносливости у юных легкоатлетов 10-14 лет специализирующихся в беге на средние дистанции.

**Задачи исследования:**

совершенствование механизмов использования средств и методов развития выносливости у юных легкоатлетов 10-14 лет, специализирующихся в беге на средние дистанции;

выявить особенности индивидуальных адаптационных способностей по данным многолетней динамики темпов прироста развития аэробной выносливости у юных легкоатлетов 10-14 лет, специализирующихся в беге на средние и длинные дистанции;

В легкоатлетических видах спорта тренировочный процесс, направленный на развитие основного физического качества – выносливости, совершенствование анаэробных возможностей спортсмена с применением нагрузок высокой интенсивности с различным интервалом отдыха являются важной проблемой, требующей своего разрешения.

Вопросы построения учебно-тренировочного процесса легкоатлетов 10-14 лет, специализирующихся в беге на средние дистанции, определения структуры тренировочных занятий, подбора и внедрения средств технико-тактической подготовки являются первостепенными. Анализ данных доступной научно-методической литературы показывает недостаточность разработки проблемы обоснования научно-теоретического развития выносливости юных легкоатлетов, специализирующихся в беге на средние и длинные дистанции.

Использование рекомендаций, представленных в данной схеме, дало положительный результат в формировании аэробной выносливости у юных легкоатлетов 10-14 лет, специализирующихся в беге.

Нами разработана схема использования средств и методов развития анаэробных возможностей юных спортсменов (см.рис.1). Анаэробные возможности зависят от способности использования энергии в бескислородных условиях, которые зависят от двух типов реакций: креатинфосфокиназной и гликолиза. Развитие анаэробной выносливости у юных спортсменов предполагает выполнение упражнений высокой интенсивности, которые относятся к третьей и четвертой зонам интенсивности. Развитие анаэробно-гликолитической выносливости требует выполнения упражнений, относящихся к четвертой зоне. Упражнения, относящиеся к пятой зоне, способствуют развитию анаэробно-алактатных способностей. Физиологическая реакция организма юного спортсмена при выполнении упражнений в пятой зоне интенсивности характеризуется высоким индивидуальным разбросом.

[1] Указ Президента Республики Узбекистан « О мерах по дальнейшему совершенствованию и популяризации физической культуры и спорта в Республике Узбекистан» от 24 января 2020 года № УП–5924.

Основные задачи при организации учебно-тренировочного процесса направлены на формирование анаэробных возможностей детского организма, совершенствование гликолитического механизма, повышение функциональных возможностей фосфокреатинного механизма.

**Рис.1. Средства и методы развития анаэробных возможностей у юных легкоатлетов 10-14 лет, специализирующихся в беге**

В ходе организаци учебно-тренировочного процесса использовали следующие методы тренировки: повторный, переменный, соревновательный и игровой. Продолжительность отдельних упражнений должна составлять от 3 сек до 20 сек и от 30 сек до 120 сек, при этом число повторений должно быть не более 1-2 раз, интервалы отдыха - от 2-4 мин и интенсивность должна быть близка к предельной.

Таким образом, для того чтобы развивать выносливость у юных спортсменов, необходимо строго соблюдать следующие компоненты (см.рис 1):

1) продолжительность упражнения;
2) интенсивность упражнения;
3) количество повторений;
4) продолжительность интервалов отдыха;
5) характер отдыха.

Выполняя вышеуказанные рекомендации и зная особенности детского организма, можно целенаправленно строить учебно-тренировочный процесс, направленный на формирование выносливости.

В настоящее время в спорте для проведения педагогического контроля развития физических качеств и специальных способностей применяется батарея различных тестов, подобранная на основе программ подготовки для ДЮСШ.

**Таблица 1**

**Корреляционная взаимосвязь между контрольными упражнениями и результатами на основной дистанции у юных спортсменов 10-14 лет**

| Контрольные упражнения | Возраст | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 |
| Бег 30 м со старта | **0,305** | **0,310** | **0,314** | **0,372** | **0,366** |
| Бег 30 м с хода | **0,310** | **0,325** | **0,342** | **0,364** | **0,386** |
| Бег 60 м со старта | **0,325** | **0,348** | **0,366** | **0,324** | **0,436** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Бег 600 м** | **0,327** | **0,345** | **0,361** | **0,385** | **0,426** |
| Прыжок в длину с места | **0,329** | **0,355** | **0,376** | **0,388** | **0,423** |
| Прыжок в длину с разбега | **0,330** | **0,354** | **0,368** | **0,423** | **0,417** |

В ходе эксперимента определялось состояние готовности каждого спортсмена к ответственным соревнованиям. Это связано не только стремлениям руководства команды и тренеров к внесению корректив в тренировочный процесс спортсменов на предсоревновательном этапе, но и желанием не допускать ошибок в комплектовании команды. В связи с этим, применялись различные (специально и естественно организованные) тесты, способствующие оперативно оценить уровень развития работоспособности кандидатов для участия в конкретном соревновании по различным видам спорта.

**Выводы**

При выполнении упражнений в легкоатлетическом беге тренировочные нагрузки должны характеризоваться по следующим пяти компонентам: интенсивность упражнения, продолжительность упражнения, продолжительность интервалов отдыха, характер отдыха и число повторений и применяются следующие методы развития выносливости: метод непрерывных упражнений с измеренной нагрузкой, метод повторного и интервального упражнения, игровой метод, соревновательный метод и метод круговой тренировки.

**Литература**

1. Указ Президента Республики Узбекистан « О мерах по дальнейшему совершенствованию и популяризации физической культуры и спорта в Республике Узбекистан» от 24 января 2020 года № УП–5924

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5924-сонли фармони. Lex.uz Lex.uz

3. Верхошанский Ю.В. Физиологические основы и методические принципы в беге на выносливость М.:2014.-80 с.

4. Волков Н.И. Интервальная гипоксическая тренировка М.: 2000.-90 с.

5. Рахматова Д.Н. “Болалар ва ўсмирлар спорт мактабининг бошланғич тайёргарлик гуруҳида чидамлиликни тарбиялаш” Диссертация, Тошкент – 2010.

6. Рахматова Д.Н. Application of monitoring in physical education and sports. European journal of research and reflection in educftional sciences.Volume 8 Number 10, 2020 Part II. P. 34-35.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Mamadjanova Gulnoraxon Solidjonovna**
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
gulnoramamajonova698@jmail.com

## OILAVIY TARBIYADA MILLIY QADRIYATLARNING BOLALAR YOZMA NUTQIGA TA’SIRI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Oiladagi ma’naviy muhit, ota-onalarning tarbiyaviy faoliyati hamda milliy an’ana va urf-odatlarning bolalar savodxonligiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, yozma nutqni rivojlantirishda milliy qadriyatlardan samarali foydalanish usullari bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *oilaviy tarbiya, milliy qadriyatlar, yozma nutq, savodxonlik, boshlang‘ich ta’lim, nutq madaniyati.*

**Мамаджанова Гулнорахон Солиджоновна**
Независимый исследователь
Ферганского государственного университета

## ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В СЕМЕЙНОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ПИСЬМЕННУЮ РЕЧЬ ДЕТЕЙ.

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается роль национальных ценностей в семейном воспитании при формировании письменной речи учащихся начальной школы. Научно анализируется влияние духовной среды в семье, воспитательной деятельности родителей, а также национальных традиций и обычаев на грамотность детей. Также описаны методы эффективного использования национальных ценностей в развитии письменной речи.*

***Ключевые слова:*** *семейное воспитание, национальные ценности, письменная речь, грамотность, начальное образование, речевая культура.*

**Mamadjanova Gulnorahon Solidjonovna**
Independent researcher at Fergana State University

## THE INFLUENCE OF NATIONAL VALUES IN FAMILY EDUCATION ON CHILDREN'S WRITTEN SPEECH

***Abstract:*** *This article discusses the role of national values in family education in the formation of written speech of primary school students. The influence of the spiritual environment in the family, the educational activities of parents, and national traditions and customs on children’s literacy is scientifically analyzed. Also, methods of effective use of national values in the development of written speech are described.*

***Keywords:*** *family education, national values, written speech, literacy, primary education, speech culture.*

### Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash masalasi jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda oilaviy tarbiya alohida o‘rin tutib, bolaning shaxs sifatida shakllanishida, xususan, uning nutqiy rivojida muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, milliy qadriyatlar asosida olib borilgan oilaviy tarbiya bolalarning ma’naviy dunyosini boyitish, fikrlash doirasini kengaytirish hamda yozma nutqining ravon va mantiqiy bo‘lishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Milliy qadriyatlar — bu xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, an’analari, ma’naviy va axloqiy me’yorlarining mujassamidir. Oila muhitida ertaklar, maqollar, rivoyatlar, milliy bayramlar va kundalik muomala orqali bolaga singdirilgan ushbu qadriyatlar uning so‘z boyligini oshirish, obrazli fikrlashini rivojlantirish hamda yozma nutqda milliy ruhni aks ettira olish qobiliyatini shakllantiradi. Shu bois oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarning o‘rni va ularning bolalar yozma nutqiga ta’sirini o‘rganish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur mavzu orqali oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan samarali foydalanish yo‘llari, ularning bolalar yozma nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda pedagogik jihatlari yoritib beriladi.

**Adabiyotlar tahlili**

Oilaviy tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning o‘rni va ularning bolalar nutqiy rivojiga, xususan, yozma nutqiga ta’siri masalasi pedagogika va adabiyotshunoslikda muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy izlanishlar tarixiy va zamonaviy manbalar asosida tahlil qilindi. Jadid ma’rifatchisi Abdulla Avloniy o‘zining “Ma’rifat” (1909) hamda “Pedagogik qarashlar” (1911) asarlarida tarbiyani jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholaydi. Muallif oilani bolaning dastlabki tarbiya maktabi deb hisoblab, unda ona tili, milliy axloq va ma’naviy qadriyatlarni singdirish zarurligini ta’kidlaydi. Avloniy qarashlarida bolalarning nutq madaniyatini shakllantirish, fikrni yozma ravishda aniq va tushunarli ifodalash masalalari alohida o‘rin egallaydi. Munavvarqori Sadriddinning “Milliy tarbiya va til” (1936) asarida til va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi yoritilgan. Muallif milliy til asosida olib borilgan tarbiya bolalarda mustaqil fikrlash, yozma nutqni rivojlantirish hamda milliy o‘zlikni anglashni kuchaytirishini ilmiy asoslaydi. Ushbu qarashlar oilaviy muhitda milliy qadriyatlarning nutqiy rivojga ta’sirini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani badiiy asar bo‘lishiga qaramay, unda oilaviy munosabatlar, milliy urf-odatlar va axloqiy qadriyatlar keng tasvirlangan. Asardagi til boyligi, obrazli ifodalar va milliy ruh bolalarda yozma nutqni rivojlantirishda adabiy namunalar sifatida muhim ahamiyatga ega. Ubaydulla Ziyoning “Bolalar tarbiyasi” (1918) asarida bolalar tarbiyasida ota-ona mas’uliyati, oilaviy muhit va milliy qadriyatlarning ahamiyati ochib beriladi. Muallif bolaning nutqiy rivoji, xususan, yozma nutqining shakllanishi bevosita oiladagi tarbiyaviy muhitga bog‘liqligini ta’kidlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqot oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarning bolalar yozma nutqiga ta’sirini aniqlash va tahlil etishga qaratilgan bo‘lib, unda pedagogik, lingvistik hamda psixologik yondashuvlar uyg‘unligidan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi ilmiylik, izchillik, tizimlilik va taqqoshlash tamoyillariga asoslanadi. Amaliy metodlar doirasida kuzatish, suhbat va yozma ishlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Ota-onalar va o‘qituvchilar bilan olib borilgan suhbatlar orqali oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanish darajasi o‘rganildi. Bolalarning insholari, bayon va erkin yozma ishlari tahlil qilinib, ularda so‘z boyligi, grammatik to‘g‘rilik, mantiqiy izchillik hamda milliy ruh ifodalanish darajasi aniqlandi.

**Natijalar va ularning tahlili**

Tadqiqot jarayonida oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarning bolalar yozma nutqiga ta’siri nazariy va amaliy jihatdan o‘rganildi. Olib borilgan kuzatuvlar, suhbatlar hamda yozma ishlar tahlili asosida muhim natijalarga erishildi. Dastlabki bosqichda bolalarning yozma nutq darajasi aniqlanib, ularning so‘z boyligi, grammatik to‘g‘riligi, fikrning izchilligi va matnda milliy tushunchalardan foydalanish holati tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, oilaviy muhitda milliy qadriyatlar yetarli darajada singdirilmagan bolalarning yozma ishlarida lug‘aviy kambag‘allik, fikrni ifodalashda uzilishlar va mantiqiy bog‘lanishlarning sustligi ko‘zga tashlandi.

Tajriba-sinov jarayonida oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarga asoslangan mashg‘ulotlar joriy etildi. Xususan, bolalarga milliy ertaklar va rivoyatlar asosida bayon va insho yozdirish, maqol va matallar mazmunini yozma ravishda izohlash, oilaviy an’analar haqida erkin matn tuzish kabi topshiriqlar berildi. Ushbu mashg‘ulotlar natijasida bolalarning yozma nutqida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi.

Yakuniy tahlil natijalariga ko‘ra, tajriba guruhidagi bolalarning yozma ishlarida so‘z boyligining oshgani, gap tuzishdagi grammatik xatolarning kamaygani va fikrning mantiqiy izchilligi yaxshilangani aniqlandi. Ayniqsa, milliy tushunchalar, urf-odatlar va axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi so‘z va iboralardan foydalanish ko‘rsatkichi sezilarli darajada ortdi. Bu esa oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan maqsadli foydalanish bolalar yozma nutqini rivojlantirishga samarali ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Nazorat guruhi natijalari bilan taqqoslash shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy yondashuv asosida tarbiyalangan bolalarda yozma nutqdagi o‘sish nisbatan sust bo‘lib, matn mazmunining chuqurligi va obrazliligi kamroq namoyon bo‘ldi. Bu holat milliy qadriyatlarga asoslangan oilaviy tarbiyaning ustunligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlar bolalarda nafaqat yozma nutqni rivojlantiradi, balki ularning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va ma’naviy dunyoqarashini ham boyitadi. Tadqiqot natijalari Avloniy, Munavvarqori va zamonaviy olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlarning amaliy tasdig‘i sifatida namoyon bo‘ldi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarning bolalar yozma nutqiga ijobiy va samarali ta’sirini ko‘rsatib berdi hamda ushbu yo‘nalishda olib boriladigan pedagogik ishlarni takomillashtirish zarurligini asoslab berdi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, xorijiy madaniyatlarning ta’siri natijasida ayrim hollarda bolalarda ona tiliga, milliy qadriyatlarga bo‘lgan e’tibor susayib borayotgani kuzatilmoqda. Bu holat yozma nutqning mazmunsizligi, so‘z boyligining kamligi, imlo va uslubiy xatolarning ko‘payishiga olib kelmoqda. Shunday

sharoitda oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarni ustuvor yo'nalish sifatida shakllantirish, bolalarning yozma nutqini rivojlantirishda muhim pedagogik omil sifatida qaralishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining yozma nutqi faqat maktabda beriladigan bilimlar bilan cheklanib qolmaydi, balki oiladagi tarbiyaviy muhit, ota-onalarning pedagogik madaniyati, nutqiy faoliyati va qadriyatlarga munosabati bilan chambarchas bog'liqdir. Oila – bu bolaning birinchi tarbiya maktabi bo'lib, unda shakllangan axloqiy, ma'naviy va nutqiy ko'nikmalar butun hayoti davomida muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan oilada bola ilk so'zlarni o'rganadi, fikr bildirishni, o'z kechinmalarini ifodalashni va yozma shaklda bayon etishni mashq qiladi.

Milliy qadriyatlar xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy merosi bo'lib, u urf-odatlar, an'analar, til, madaniyat, xalq og'zaki ijodi, tarixiy xotira va axloqiy me'yorlarni o'z ichiga oladi. Ushbu qadriyatlarni oilaviy tarbiya jarayonida bolalarga singdirish, ularning nutqiy rivojiga, jumladan yozma nutqining boyishi va mazmunan chuqurlashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya bolaning fikrini izchil bayon etish, so'z boyligini oshirish, matn tuzish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan maqsadli va tizimli foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni rivojlantirishga, ularning mustaqil fikrlash, ijodiy yozish va savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu maqolada oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarning bolalar yozma nutqiga ta'siri ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi va amaliy tavsiyalar beriladi.

Milliy qadriyatlar xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy boyligi bo'lib, ular jamiyat hayotida muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Urf-odatlar, an'analar, marosimlar, xalq og'zaki ijodi, tarixiy xotira va milliy mentalitet kabi tushunchalar milliy qadriyatlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu qadriyatlar orqali yosh avlodda Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, o'zlikni anglash, mehnatsevarlik va insonparvarlik kabi ijobiy fazilatlar shakllantiriladi.

**Xulosa**

Oilaviy tarbiya bolalarning yozma nutqini shakllantirishda asosiy ijtimoiy-pedagogik muhit hisoblanadi. Ota-onaning nutq madaniyati, kitobxonlikka munosabati, bolaning yozma ishlariga e'tibori hamda rag'batlantirishi bolaning savodxonligi va ijodiy yozuv qobiliyatini rivojlantiradi. Shu sababli oilada maqsadli tashkil etilgan tarbiyaviy ishlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarning bolalar yozma nutqini rivojlantirishdagi o'rni beqiyosdir. Ota-onalar farzandlariga milliy merosni singdirish orqali ularning savodxonligini oshirish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ma'naviy yetuk shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladilar. Shuning uchun oilada milliy qadriyatlar asosida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar uzluksiz va tizimli bo'lishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Avloniy, A. *Ma'rifat*. — 1909, Toshkent.
2. Avloniy, A. *Pedagogik qarashlar.* 1911, Toshkent; keyingi taxririy nashr 1928
3. Munavvarqori, Sadriddin. *Milliy tarbiya va til*. — 1936, Toshkent.
4. Abdulla Qodiriy. *O'tgan kunlar*. — 1922, Toshkent; 1930-yillarda tahririy nashrlar.
5. Ziyo, Ubaydulla. *Bolalar tarbiyasi*. — 1918, Toshkent; keyingi nashrlar 1925–1930.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**To‘raxanov Ummatali Davlatovich**
NamDU dotsenti
**Obidova Sevinch Xursanaliyevna**
NamDU Psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

## O‘Z O‘ZINI ANGLASHNING KOGINATIV ASOSLARI

***Annotatsiya:*** *Bu mavzuning muhimligi shundaki insoning o‘z ichki holatlarini anglash jarayonlarini o‘rganadi. Bu jarayonlar xotira, diqqat, intellekt va til kabi koginativ funksiyalar orqali amalga oshadi. Ushbu mavzu, individning o‘z tajribalari va ijtimoy kontektstga asoslanib o‘zini tushushunishni o‘rganadi. Ushbu tadqiqtlar o‘z-o‘zini anglashni chuqurroq tushunishga yordam beradi va psixalogik amaliyotlarda qo‘llanilishi mumkun.*

***Kalit so‘zlar:*** *psixologiyasi, intellekt, motivatsiya, ijtimoiy-identifukatsiya, xotira, diqqat, «Men» obrazi, Kognitiv psixologiya, Shaxs, Neuropsixologiya.*

**Тураханов Умматали Давлатович**
Доцент, НамГУ
**Обидова Севинч Хурсаналиевна**
Студентка 1 курса магистратуры Психологии НамГУ

## КОГИНАТИВНЫЕ ОСНОВЫ САМОВОСПРИЯТИЯ

***Аннотация:*** *Важность данной темы заключается в изучении процессов осознания человеком своих внутренних состояний. Эти процессы осуществляются посредством когнитивных функций, таких как память, внимание, интеллект и язык. Данная тема изучает самопонимание индивида на основе его собственного опыта и социального контекста. Эти исследования помогают глубже понять самосознание и могут быть использованы в психологической практике.*

***Ключевые слова:*** *психология, интеллект, мотивация, социальная идентификация, память, внимание, самооценка, когнитивная психология, личность, нейропсихология.*

**Ummatali Davlatovich Turakhanov**
Associate Professor, NamSU
**Sevinch Khursanalievna Obidova**
First-year Master's student in Psychology, NamSU

## COGINATIVE BASES OF SELF-PERCEPTION

***Annotation:*** *The importance of this topic is that it studies the processes of a person’s awareness of their own internal states. These processes are carried out through cognitive functions such as memory, attention, intellect, and language. This topic studies the individual’s self-understanding based on their own experiences and social context. These studies help to understand self-awareness more deeply and can be used in psychological practices.*

***Keywords:*** *psychology, intelligence, motivation, social identification, memory, attention, self-image, Cognitive psychology, Personality, Neuropsychology.*

**KIRISH.** Xozirgi kunda o’z-o’zini anglash juda ham muhum va dolrzarb mavzulardan biri sifatida o’rganilib kelmoqda biz eng avvalo o’z o’zini anglash iborasiga yaxshilab etibor bermog’imiz lozim chunki biz bu tallanmani bilmey turib mavzu bo’yicha to’liq malumot berishimiz albatta qiyinlik tug’diradi. 0 ‘z-o‘zini anglash — bu umuman olganda, shaxs «Men» obrazining hosil bo‘lishi demakdir. O‘z-o‘zini anglash bu insoning men obrazi to’liq rivjlangan hamda shaxs o’z hatti harakatlarini nazorat qila oladigan jamiyatni to’aligicha anglab yetgan va jamiyatda qanday o’rinda ekanligini taxlil qila oladigan shaxslar o’z-o’zini anglash muamosiiga kamdan kam holatlarda duch kelishadi va o’z-o’zini anglash zaminida o’z-o’zini hurmat qilish ham yoadi o’z-o’zini hurmat qilish bu Bir odam o‘zini hurmat etish

uchun faoliyatidagi muvaffaqiyat va tashqi ko'rinish kerak bo‘lsa, ikkinchisi uchun Xudoning suyukli bandasi ekanligini va u axloq me’yorlarini buzmaganini bilish muhimroqdir deya takidlaydilar.

Demak, agar binrinchisiga o‘zini aqlli va chiroyli bo‘lishni o‘rgatishsa, ikkinchisini esa, o‘zini odobli odam deb his etishga o‘rgatgan taqdirda, u o'zini hurmat qiladi. Lekin ***Djonatan Brayn va Keyt Datton***lar o‘zini hurmat etish masalasiga o'zgacha yondashadilar, ular fikricha, sabab va oqibatning o‘rnini almashtirish lozim. Agar odamlar umuman o‘zlarini qadrlashsa, ular o‘zlarining tashqi ko'rinishini, o’zlarining qobiliyatlarini ham qadrlaydilar.

O‘z-o’zini tushunish idrok etish jixatdan psixologlar shartli ravishda shaxsning to‘rt o‘zaro bog'liq tomonlarni ko‘rsatib o'tadilar.

*1. o‘z-o‘zini bilishi.*
*2. o‘z-o‘ziga munosabat.*
*3. o‘z-o‘zini his qilish.*
*4. o‘z-o‘ziga ta’sir.*

***0 ‘z-o‘zini bilish*** yaxlit holda o‘z ustida ishlash mazmunini, o‘z-o‘zini tarbiyalash dasturini belgilaydi. Ayni paytda, u shaxsning batafsil dasturini tuzish, o‘quvchilarda tarbiyalanayotgan tegishli maqsadlar, ideallarga erishish uchun zarurdir. Demak, o‘z-o‘zini bilish asosidagi o‘zlikni anglash, umuman olganda, o‘z-o‘zini boshqarishga, tarbiyalashga olib borishi mumkin ekan.

***O‘z o‘zini anglash*** insonning psixologik va kognitiv rivojlanishidagi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu jarayon individning o‘ziga, uning hissiyotlari, fikrlari va xatti-harakatlariga bo‘lgan qarashlarini shakllantirishni anglatadi. O‘z-o‘zini anglash nafaqat odamning kimligini aniqlashda, balki uning jamiyatdagi o‘rni, maqsadlari va ijtimoiy ro‘llari bilan bog‘liq qarorlar qabul qilishda ham katta rol o‘ynaydi. O‘zini anglashning kognitiv asoslari esa, bu jarayonning qanday ishlashini, qanday ichki kognitiv strukturalar orqali amalga oshishini tushunishga yordam beradi.[1]

Kognitiv psixologiya sohasida o‘z-o‘zini anglash, asosan, individning o‘ziga xos fikr, xotira, diqqat, qaror qabul qilish va muammolarni hal etish kabi yuqori darajadagi aqliy jarayonlari bilan bog‘lanadi. Inson o‘zining ichki dunyosini anglash, avvalo, qanday ma'lumotlar to‘planishi va qayta ishlanishiga, shuningdek, bu ma'lumotlarning qanday shakllanishiga bog‘liq. Misol uchun, o‘tmish tajribalari va o‘z fikrlarini tahlil qilish orqali shaxs o‘zining hozirgi va kelajakdagi xatti-harakatlarini rejalashtiradi. O‘z-o‘zini anglashning kognitiv asoslarini o‘rganish, insonning miyaning qanday qismlari bu jarayonni boshqarishini va uning qanday neyrokognitiv mexanizmlar bilan bog‘liqligini tushunishga imkon beradi. Bundan tashqari, o‘z-o‘zini anglashning ijtimoiy va madaniy konteksti ham alohida ahamiyatga ega. Shaxslar o‘zlarini boshqa odamlar bilan munosabatlar, ijtimoiy rollar va madaniy qadriyatlar orqali anglaydilar. Masalan, biror odam o‘zini qanday kadr yoki oilaviy a'zo sifatida ko‘rsatsa, uning o‘z-o‘zini anglash shakllanadi. Ijtimoiy ta'sirlar, ularning qarashlari va shaxsiy tajribalari bu jarayonni shakllantiruvchi omillar sifatida faol ishtirok etadi. O‘z-o‘zini anglashning kognitiv asoslarini chuqurroq o‘rganish, nafaqat psixologik nazariyalarni boyitish, balki amaliy psixologiyada, psixoterapiya va ta’lim tizimlarida samarali yondashuvlarni yaratish imkoniyatlarini ham taqdim etadi. Shuningdek, bu jarayonlarni tahlil qilish, shaxsiy rivojlanish va jamiyatdagi individual o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

1. Козырева П.М. Особенности социальной самоидентификации и субъективной мобильности // Россия реформирующаяся: Ежегодник 2003 -М.: Изд-во ИС РАН, 2003.

Shu sababli, o‘z-o‘zini anglashning kognitiv asoslarini o‘rganishning ahamiyati nafaqat ilmiy nuqtai nazardan, balki amaliy sohalarda ham keng tarqalgan va samarali tadqiqotlar olib borishga imkon beradi. O‘z-o‘zini anglash — bu insonning o‘zini, o‘z his-tuyg‘ulari, fikrlari va xatti-harakatlarini tushunish jarayonidir. Bu jarayon shaxsiy identifikatsiya, dunyoqarash va o‘zining shaxsiy ro‘lini anglashni o‘z ichiga oladi. O‘z-o‘zini anglash, insonning o‘ziga bo‘lgan munosabatini, o‘z salohiyatini va ijtimoiy ro‘lini aniqlashga yordam beradi. Bu jarayonni to‘g‘ri tushunish, shaxsning hayotidagi muhim qarorlar qabul qilishda, ijtimoiy munosabatlar o‘rnatishda va ruhiy salomatlikni saqlashda katta ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini anglashning psixologik jarayonlari odamning ichki dunyosini shakllantiradi va uni atrofdagi dunyo bilan moslashtiradi.

Kognitiv psixologiya nuqtai nazaridan, o‘z-o‘zini anglash, xotira, diqqat, intellektual faoliyat va til kabi yuqori darajadagi aqliy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Inson o‘zining kimligini, dunyoqarashini va hissiyotlarini anglash uchun o‘z tajribalarini tahlil qiladi va kelajakdagi xatti-harakatlarini rejalashtiradi. Shuningdek, o‘z-o‘zini anglash ijtimoiy va madaniy kontekstda ham shakllanadi, chunki har bir shaxs o‘zini jamiyatdagi o‘rni va boshqa odamlar bilan munosabatlar orqali tushunadi. O‘z-o‘zini anglashning rivojlanishi va uning kognitiv asoslarini o‘rganish, shaxsning o‘zini to‘g‘ri anglash va o‘zini hurmat qilish darajasini oshiradi. Bu jarayon psixologik salomatlikni yaxshilash, o‘z maqsadlariga erishish va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan muhim qobiliyatdir.

O‘z-o’zini angalsh mazusida ko’plab olimlar o’z narariyalarini ishlab chiqishgan.

***George Herbertning Ijtimoiy O‘z-o‘zini Anglash Nazariyasi Herbert ijtimoiy psixologiya asoschisi*** sifatida, o‘z-o‘zini anglashning ijtimoiy shakllanishini ta'kidladi. Unga ko‘ra, odamlar o‘zlarini faqat boshqa odamlar bilan o‘zaro

aloqalar orqali anglaydilar. Herbertning nazariyasida o‘z-o‘zini anglash ijtimoiy tajribalar va jamiyatdagi ijtimoiy rollar orqali shakllanadi. Inson o‘zining kimligini jamiyatdagi o‘rni va boshqalar bilan muloqotlari orqali anglaydi. Herbertning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, shaxsning o‘zini anglashda boshqa odamlarning nuqtai nazari va munosabatlari katta rol o‘ynaydi.

***Erik Eriksonning Shaxsiy Rivojlanish Teoriyasi.*** Erik Erikson o‘z-o‘zini anglashni shaxsning rivojlanish jarayonidagi muhim bosqich sifatida ko‘rdi. U o‘zining "shaxsiy identifikatsiya" nazariyasida, o‘z-o‘zini anglashni, shaxsning turli rivojlanish bosqichlarida qanday shakllanishini ko‘rsatdi. Eriksonning fikriga ko‘ra, o‘z-o‘zini anglash, birinchi navbatda, identifikatsiya va o‘z ro‘lingizni anglash orqali yuzaga keladi. Shaxs o‘zining kimligini va ijtimoiy o‘rnini aniq tushungan sari, o‘z-o‘zini anglashni kuchaytiradi. Bu jarayonning markazida ijtimoiy o‘zgarishlar va shaxsning turli ijtimoiy rollarda bo‘lishi yotadi.

***Albert Bandura va O‘zini Anglashning Kognitiv-Baholash Nazariyasi***. Albert Bandura o‘zining ijtimoiy kognitiv nazariyasida odamlarning o‘z-o‘zini anglashni qanday qilib o‘z salohiyatlarini, ko‘nikmalarini va resurslarini tahlil qilish orqali amalga oshirayotganini izohladi. Bandura o‘z-o‘zini anglashni insonning o‘z qobiliyatlarini tushunishi va baholash jarayoni sifatida ta’riflaydi. Unga ko‘ra, shaxsning o‘zini anglash jarayoni, o‘ziga bo‘lgan ishonch va o‘z salohiyatini baholash orqali shakllanadi. Bandura nazariyasiga ko‘ra, o‘z-o‘zini anglashning asosiy jihatlaridan biri bu o‘zini samarali boshqarish va o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchni rivojlantirishdir.

O‘z-o‘zini anglash — bu insonning o‘zini tushunishi va o‘z ichki holatlari, fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga bo‘lgan munosabatini shakllantirishi jarayonidir. Kognitiv psixologiya nuqtai nazaridan, bu jarayon nafaqat individning o‘ziga oid bilimlarni to‘plash, balki bu bilimlarni qayta ishlash va shaxsiy qarorlar qabul qilishda qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi. O‘z-o‘zini anglashning kognitiv asoslari psixologik va nevrologik jarayonlarga asoslanadi, bunda xotira, diqqat, intellektual faoliyat va qaror qabul qilish kabi muhim kognitiv jarayonlar asosiy rol o‘ynaydi.

1. Xotira va o‘z-o‘zini anglash

Xotira o‘z-o‘zini anglash jarayonining ajralmas qismidir, chunki insonning o‘zini tushunishi ko‘pincha o‘tmish tajribalari va o‘zining avvalgi xatti-harakatlari asosida shakllanadi. Xotira orqali shaxs o‘zining o‘tmishdagi tajribalarini qayta tiklaydi va bu tajribalar hozirgi holatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shaxs o‘zini anglashda faqat o‘tmishdagi voqealarni eslash bilan qolmay, balki o‘sha voqealarning qanday ta’sir ko‘rsatganini, ularni qanday talqin qilganini va bu tajribalar uning hozirgi qarashlarini qanday shakllantirganini tahlil qiladi. O‘z-o‘zini anglash uchun xotiradagi ma'lumotlarning qayta ishlanishi va tahlil qilinishi zarurdir.

2. Diqqat va o‘z-o‘zini anglash

Diqqat — bu insonning atrofdagi dunyoga bo‘lgan e'tiborini va ichki holatlarini tartibga solish jarayonidir. O‘z-o‘zini anglashda diqqatning roli katta, chunki shaxs o‘zini qanday tushunsa, u diqqatini o‘z ichki holatlariga qaratadi. Diqqat orqali inson o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari va o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularni qayta ishlaydi. Masalan, kimdir o‘zini ijobiy yoki salbiy nuqtai nazardan ko‘rishi, uning diqqatini o‘ziga yoki atrofdagi hodisalarga qaratishiga bog‘liq. Diqqatning samarali boshqarilishi o‘z-o‘zini anglashda muhim rol o‘ynaydi, chunki u shaxsning o‘zini qanday anglashiga va o‘z xatti-harakatlarini qanday tartibga solishiga ta'sir qiladi.

3. Qaror qabul qilish va o‘z-o‘zini anglash

O‘z-o‘zini anglashning yana bir muhim komponenti bu qaror qabul qilish jarayonidir. Inson o‘zini anglagan sari, uning qarorlar qabul qilishdagi yondashuvi va tanlovlari ham o‘zgaradi. O‘z-o‘zini anglash jarayonida shaxs o‘zining ehtiyojlari, istaklari, qadriyatlari va maqsadlarini tahlil qilib, o‘z kelajakdagi xatti-harakatlarini rejalashtiradi. Kognitiv jarayonlar, masalan, muammolarni hal etish, qarorlar qabul qilish va prognozlash, o‘z-o‘zini anglash jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu jarayonlar yordamida shaxs o‘zining shaxsiy qiymatlari va dunyoqarashiga mos keladigan qarorlarni qabul qiladi. Shunday qilib, o‘z-o‘zini anglashning kognitiv asoslari shaxsning o‘ziga xos fikrlar, xatti-harakatlar va qarorlar orqali shakllanadi.

4. Ijtimoiy ta'sir va o‘z-o‘zini anglash

O‘z-o‘zini anglashning kognitiv asoslarida ijtimoiy ta'sirlar ham muhim rol o‘ynaydi. Insonlar o‘zini jamiyatdagi o‘rinlari, ijtimoiy ro‘llari va boshqa odamlar bilan aloqalari orqali tushunadilar. Ijtimoiy munosabatlar, o‘zgaruvchan ijtimoiy va madaniy kontekstlar shaxsning o‘z-o‘zini anglashini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy interaktsiyalar va ta'sirlar, shaxsning o‘zini qanday anglashini, o‘zining ijtimoiy ro‘llari va atrofdagilarga nisbatan munosabatlarini aniqlaydi. Masalan, biror shaxs o‘zini oilaviy a'zo yoki ish joyidagi xodim sifatida ko‘rsatsa, uning o‘z-o‘zini anglash shakllanadi.

5. Neuropsixologik asoslar

O‘z-o‘zini anglashning neyrokognitiv asoslari miyaning ma'lum qismlarining faoliyatiga asoslanadi. O‘z-o‘zini anglashda, ayniqsa, miyadagi prefrontal korteks, temporal lob va amigdala kabi mintaqalar muhim rol o‘ynaydi. Prefrontal korteks qaror qabul qilish, rejalashtirish va muammolarni hal etish bilan bog‘liq bo‘lsa, temporal lob esa xotira va o‘z-o‘zini tahlil qilishda faol ishtirok etadi. Amigdala esa his-tuyg‘ularni va emotsional xatti-harakatlarni

boshqaradi.Bu neyrokoginativ tizimlarning o'zaro faoliyati o'z-o'zini anglashning amalga oshiradi va shaxsning ichki dunyosini shakillantiradi.

Xulosa qilib aytganda o'z-o'zini angalshni O'z-o'zini anglashning kognitiv asoslari insonning o'zini tushunishi va anglash jarayonini yoritadi. Bu jarayon xotira, diqqat, qaror qabul qilish, va his-tuyg'ularni boshqarish kabi aqliy faoliyatlar orqali amalga oshadi. O'z-o'zini anglashning shakllanishi shaxsning o'tmish tajribalari, hozirgi holati va kelajakdagi maqsadlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu kognitiv jarayonlar bir-birini to'ldiradi. Shuningdek, ijtimoiy ta'sirlar va madaniy kontekst ham o'z-o'zini anglashni shakllantiradi, chunki individ o'zini jamiyatdagi o'rni va boshqa odamlar bilan munosabatlar orqali tushunadi. Kognitiv jarayonlar orqali o'z-o'zini anglash, nafaqat psixologik tahlilni, balki individning qaror qabul qilish va muammolarni hal qilishdagi yondashuvini ham shakllantiradi. Bu jarayonlarni chuqurroq o'rganish, shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va psixologik salomatlikni yaxshilashda yordam beradi. O'z-o'zini anglashning kognitiv asoslarini o'rganish, psixoterapiya, ta'lim va boshqa sohalarda samarali amaliy yondashuvlar yaratishda muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, o'z-o'zini anglashning kognitiv asoslari insonlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1.Vasila Karimova "Psixologiya ", Toshkent, 2000.
2.Foziev E. "Umumiy psixologiya "1-kitob, Toshkent, 2004
3."Psixologiya atlasi" M.Gomezo tahririda Moskva 1986
4.M.G.Davletshin. "Psixologiya", Izohli lugati, Toshkent 1998
5.M.G.Davletshin. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 2002.
6.Foziev E. «Umumiy psixologiya», 2 –kitob, Toshkent, 2004.
7.A.V.Petrovskiy. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 1992.
8. Anastazi A. Psixologicheskoe testirovaniya v dvux tomax. M., 1992.
9.M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab oqituvchisi psixologiyasi. T., 1997.
10.Foziev E. Psixologiya. T., 1994.
11. Козырева П.М. Особенности социальной самоидентификации и субъективной мобильности // Россия реформирующаяся: Ежегодник 2003 -М.: Изд-во ИС РАН, 2003. - С. 56-61.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Ergashev Omonboy Turgunbayevich**
Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
e-mail: omonboy.ergashev@mail.ru

## MUSTAQIL TA’LIM MASHG‘ULOTLARDA TALABALAR BADIIY TAFAKKURINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

***Annotatsiya.*** *Maqolada darsdan tashqari mustaqil ta’lim topshiriqlari asosida talabalar badiiy tafakkurini rivojlantirish hamda mustaqil ishlarni faollashtirishga imkon beruvchi ichki omillarni vazifalari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Badiiy tafakkurga oid mustaqil ishlarni tashkil etish mobaynida nazariy va ijodiy yondashish masalalari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *mustaqil ta’lim, badiiy tafakkur, texnologiya, nazariy va ijodiy, omillar.*

**Эргашев Омонбой Тургунбаевич**
преподаватель Наманганского государственного
педагогического института

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ УРОКАХ

***Аннотатsiя.*** *В статье рассматриваются внутренние факторы, способствующие развитию художественного мышления учащихся и активизатsiи самостоятельной работы на основе самостоятельных учебных заданий во внеурочное время. В ходе организатsiи самостоятельной работы по художественному мышлению освещаются вопросы теоретического и творческого подходов.*

***Ключевые слова:*** *самостоятельное обучение, художественное мышление, технология, теоретическое и творческое, факторы.*

**Ergashev Omonboy Turgunbayevich**
Lecturer at Namangan State Pedagogical Institute

## PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF IMPROVING STUDENTS' ARTISTIC THINKING IN INDEPENDENT STUDY LESSONS

***Abstract.*** *The article provides information on the tasks of internal factors that allow students to develop artistic thinking and activate independent work on the basis of extracurricular independent educational tasks. During the organization of independent work on artistic thinking, issues of theoretical and creative approach were covered.*

***Key words:*** *independent education, artistic thinking, technology, theoretical and creative, factors.*

**Kirish.** Oliy ta’limning o‘z oldiga qo‘ygan asosiy vazifalaridan biri mutaxassisni o‘z-o‘zini rivojlantirishga, mustaqil ravishda bilimini ko‘paytirishga, innovatsion faoliyatga qobil bo‘lgan ijodiy shaxsiyatini shakllantirishga yo‘naltirishdan iboratdir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligini 26 yilligiga bag‘ishlangan nutqida ta’kidlaganidek, “Mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga, bu yo‘lda bor bilim va salohiyatini safarbar etishga qodir bo‘lgan, azmu shijoatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish – biz uchun eng muhim masaladir” [1]. Bunday vazifani amalga oshirish uchun tayyor bilimlarni o‘qituvchi tomonidan talabaga berishning o‘zigina kamlik qiladi. Bunday yo‘l talabani bilimlarni o‘zlashtirishning passiv iste’molchisiga aylantirib qo‘yadi. Vaholanki, bugun bizga bilimlarni o‘zlashtirishdagi passiv iste’molchi emas, balki uning faol ijodkori zarurdir.

Ta’lim tizimi jamiyatdan tashqarida mavjud emas va mavjud bo‘lishi mumkin ham emas, u o‘ziga xos «jamiyat, ko‘zgusi», uning davomi va ajralmas qismi va shu vaqtning o‘zida «taraqqiyot va gullab-yashnashining poydevori»dir [2; 76-b.].

Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar ta’lim mazmuni bilan chambarchas bog‘liq. Yangilanishlar talabalar o‘qishini tashkil etishning yangi shakli va usullari haqida ham bosh qotirishni talab etadi. Darsdan tashqari mustaqil ta’lim topshiriqlari asosida talabalar badiiy tafakkurini rivojlantirish ustuvor ijtimoiy-pedagogik vazifalardan biridir. Shu ma’noda talabalarning darsdan tashqari mustaqil ishlarini tashkil etish muhim shaklgina emas, balki ta’lim jarayonining asosini tashkil etuvchi muhim qism bo‘lishini taqozo etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Respublikamizda mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, mashg‘ulotlarni innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish yuzasidan bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, A.T.Nurmanov [8; 256-b.] mustaqil ta’lim mashg‘ulotlar misolida talabalarni samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlarini, G.R.Sobirova [10; 166-b.] talabalarda kasbiy auditiv layoqatini axborot ta’limiy resurslar vositasida rivojlantirish bo‘yicha mustaqil ta’lim mashg‘ulotlar dasturini, O.M.Jabbarova [7; 43-b.] auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida badiiy idrokni rivojlantirish texnologiyasini, D.R.Farsaxonov [6; 71-76-b.] mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarda talabalarda ijobiy ma’naviy-axloqiy munosabatlar va fazilatlar tarkib toptirish metodlarini tadqiq etgan. Shuningdek, Z.T.Saliyeva [9; 66-b.] tomonidan auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarning pedagogik imkoniyatlarini integratsiyalash asosida talabalarni ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga tayyorlash jarayoni modellashtirilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Talabalarning faol mustaqil ishlari faqat jiddiy va barqaror qiziqishlar mavjud bo‘lgandagina amalga oshishi mumkin. Bundagi eng jiddiy omil – kelgusi samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlik. Talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga imkon beruvchi ichki omillarni ko‘rib chiqaylik:

1. Bajarilayotgan ishning foydaliligi. Agar talaba o‘z ish natijalarining ma’ruza jarayonida, metodik qo‘llanmada, laboratoriya ishida yoki amaliy mashg‘ulotlarda, maqolalar tayyorlashda foydalanilishi mumkinligini bilsa, uning bajarayotgan ishiga bo‘lgan munosabati keskin tarzda yaxshi tomonga o‘zgaradi, hamda ish sifati ham ortadi. Shunga ko‘ra, talabani ruhan bunday ishga tayyorlash, bajariladigan ishning zarurati ko‘rsatib berilishi kerak.

2. Talabaning ijodiy faoliyatdagi ishtiroki. Bu nihoyatda xilma-xil ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Xususan, kafedralar tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlari, badiiy ijod, metodik ishlar va hokazolar.

3. Fan olimpiadalarida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, amaliy ishlar tanlovlarida ishtirok etish va boshqalar.

4. Bilimlarni nazorat qilishda qiziqtiruvchi omillardan foydalanish (reyting, testlar, noan’anaviy imtihon shakllari v.b.). Bu omillar tegishli holatlarda musobaqa ruhini vujudga keltiradi. Mana shu holatning o‘zi talabada o‘z ustida ishlashni, o‘zini rivojlantirishga ichki ehtiyojini shakllantiradi va rivojlantiradi.

5. Mustaqil ishlarni tashkil etish mazmuni va shakllariga o‘quv jarayonida yetarlicha vaqtning ajratilayotganligi ham talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishiga imkon beradi.

Zamonaviy sharoitda mustaqil ta’lim topshiriqlari asosida talabalar badiiy tafakkurini rivojlantirishning zaruriy shartlaridan biri – mazkur jarayonni texnologik asosda tashkil etishdir. Ta’lim amaliyotida ta’limiy, pedagogik, tarbiyaviy, o‘qitish texnologiyalari ajratib ko‘rsatiladi. Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirish va o‘zlashtirgan bilimlarni o‘zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish va bilimlarni to‘la egallashlariga erishish, ta’lim shaxsning diqqat markazida bo‘lishini va talabalarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash, iqtidorli, iste’dodli va o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan talabalarga individual yondashish, har bir talabaning eng yaxshi sifatlarini aniqlash, uni rivojlantirish va ularning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati va shaxsiy sifatlari, intellektual xususiyatlarini aniqlagan holda har bir mashg‘ulotni tashkil etishga e’tibor qaratish zarurdir [3; 90-b.].

Ilmiy pedagogik manbalarda mustaqil ishlarning quyidagi to‘rtta turi qayd etib o‘tiladi (2.12-rasmga qarang):




**2.12-rasm. Mustaqil ishlarning turlari.**

Ularning mohiyati quyidagicha tavsiflanadi:

– *namunalar bo‘yicha mustaqil ishlarda* tipik vazifalar amalga oshiriladi, ya’ni turli mashqlar, amaliy ishlar namunalar asosida bajariladi. Namunalar bo‘yicha bajariladigan mustaqil ishlar o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga omil bo‘ladi, lekin talabalar ijodiy faolligini rivojlantirmaydi;

– rekonstruktiv-variativ mustaqil ishlar nafaqat bilimlarning amaliy tavsifnomasini, balki bilimlar mazmunini qayta ishlab chiqishni, masala yoki muammoni yechishda ulardan amaliy foydalanishni taqozo etadi;

– *evristik (qisman ijodiy) mustaqil ishlarda* ma’ruza, laboratoriya, amaliy mashg‘ulotlar, seminarlarda qo‘yilgan muammolar hal qilinadi;

– *ijodiy tadqiqot ishlarida* talaba masalani hal qilish yo‘llarini mustaqil qidiradi va tadqiq etadi. Ijodiy tadqiqot xarakteridagi mustaqil ishlar talabalarda muammoni ko‘ra bilish malakasini shakllantiradi va natijada ular muammoni mustaqil ifodalay oladi va uni hal etish rejasini ishlab chiqadi[4; 116-b.].

Tadqiqotchi N.J.Isakulova tomonidan darsdan tashqari mashg‘ulotlarning turlari esa quyidagicha tadqiq etilgan: mustaqil va ijodiy ish, tarbiyaviy soat, kuni uzaytirilgan guruh, fakultativ mashg‘ulot, to‘garak, matbuot, sayohat[5; 190-b.].

Yuqorida qayd etilgan darsdan tashqari mashg‘ulotlar turlaridan mustaqil va ijodiy ish talabalarning shaxsiy va sohaviy bilim va ko‘nikmalarini o‘stirishda, ijodkorlik va tashkilotchilik qobiliyatini shakllantirishda hamda badiiy tafakkuri rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tahlilar va natijalar.** Dars jarayonida olingan bilim va ko‘nikma darsdan tashqari mashg‘ulotlar uchun poydevor hisoblanib, dars jarayonida olingan nazariy va amaliy bilimlar darsdan tashqari mashg‘ulotlarda mustahkamlash maqsadida o‘tkazilgan ijodiy ishlar talabalarning:

ko‘nikma va malakalarini oshiradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida vatanparvarlik tuyg‘alarini kuchaytiradi;

bo‘sh vaqtini mazmunli va maqsadli o‘tishini ta’minlaydi, talabaning tashkilotchilik va liderlik qobiliyatini shakllantiradi;

shaxsiy va kasbiy mahoratini, ijodkorligini, tasavvur va dunyoqarashini, badiiy tafakkurini takomillashtiradi;

qobiliyati va iste’dodi uchun moddiy va ma’naviy rag‘batlantiriladi, talabaning kasbiy mustaqil ishlashiga zamin yaratadi.

Talabalar mustaqil ishini tashkil etishning asosiy maqsadi – o‘qituvchi rahbarligi va nazorati ostida badiiy tafakkur mazmunidagi nazariy materiallarni mustaqil o‘zlashtirish va amaliy ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish. Mazkur mustaqil ishlarni o‘quv fanlari orqali tashkil etish va ularni bajarish natijalarida talabalarda badiiy tafakkurga oid bilim va ko‘nikmalarning takomilashuviga sharoit yaratiladi.

Badiiy tafakkurga oid mustaqil ishlar nazariy va ijodiy jarayonlarda amalga oshirildi (2.14-rasmga qarang):




**2.14-rasm. Badiiy tafakkurga oid mustaqil ishlarni tashkil etish jarayoni.**

*Nazariy jarayon* – bu jarayon mavzu yuzasidan talabaning intellektual salohiyatini, nazariy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga asos bo‘ladi.

*Ijodiy jarayon* – bu jarayon esa mavzu yuzasidan talabaning ijodiy mahoratini, badiiy didini, badiiy tafakkurini, estetik tarbiyasini, individual mahoratini shakllantirishga asos bo‘ladi. Bu ikki jarayonlarni tashkil etish mobaynida bir qancha shakllardan iborat etib belgilandi[3; 96-98-b.].

Yuqoridagi jarayonlarga tadqiqotchi J.Mamatqosimov o‘z ilmiy ishlarida batafsil yoritib bergan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasidan shuni aytish mumkinki badiiy tafakkurga oid mustaqil ishlarni nazariy va ijodiy tashkil etish jarayonida mustaqil fikr yuritishning ro‘yobga chiqishida talabada fikr, mulohaza, g‘oya, faraz, maqsad kabilar vujudga

keladi va ular shaxs ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar sifatida ifodalanadi. Talabada muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarishga bo‘lgan bilim va ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanishi natijasida, badiiy tafakkurni takomilashib borishiga asos bo‘ladi.

**Xulosa.** Talabalar badiiy tafakkurini rivojlantirish dinamikasi – o‘sib borish jarayonini bosqichma-bosqich o‘rganish natijasida talabalar ijodiy tafakkurining o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘ladi. Talabalarni o‘z kasbiga ijodiy yondasha olishi darajasida tayyorlash murakkab jarayon bo‘lib, u talabaning ehtiyojlari, qadriyatlari, hissiyotlari va intellekti hamda kasbiy va hayotiy motivatsiyasiga bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa qilganda, mustaqil ta’lim topshiriqlari asosida talabalar badiiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan oliy ta’limdagi tashkiliy va pedagogik faoliyat milliy bayramlar, madaniy kechalar va boshqa sohalar xususiyatidagn kelib chiqib nishonlanadigan tadbirlarni yangicha ma’rifiy asosda o‘rganish asosida olib borilishini anglatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг йигирма олти йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи.

2. Атаева Н., Салаева М., Ҳасанов С. Умумий педагогика (Педагогика назарияси ва амалиёти асослари). Дарслик. II китоб. – Т.: 2013. – Б.76.

3. Маматқосимов Ж. Ўқувчиларда номоддий маданий меросга оид билим ва кўникмаларни такомиллаштириш: педагогика фанлари доктори (PhD) диссертatsiяси. – Чирчиқ., 2020. – Б.362.

4. Рахимов З.Т. Талабалар мустақил таълимни ташкил этиш методикаси. – Тошкент: “Ворис” нашриёти 2019. – Б.116.

5. Исакулова Н.Ж. Узлуксиз таълим жараёнида ўқувчиларга фанлараро экологик тарбия беришнинг назарияси ва амалиёти (умумий ўрта таълим ва педагогика коллежининг «бошланғич таълим» йўналиши мисолида): Дис ... пед.фан.док. – Тошкент: ЎМКҲТТКМОУҚТИ. – 190 б.

6. Farsaxonova D.R. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning shakl va metodlari // Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – Buxoro: 2020, – № 3. – B. 71-76.

7. Jabbarova O.M. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilari badiiy idrokini rivojlantirish (auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar misolida): ped. fan.fals. dok. diss. avtoref. – Chirchiq: Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, 2021. – 43 b.

8. Nurmanov A.T. Talabalarni samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari (auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar misolida): Dis. ... ped. fan. dok. – Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2017. – 256 b.

9. Saliyeva Z.T. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining ma’naviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ped. fan. dok. diss. avtoref. – Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2017. – 66 b.

10. Sobirova G.R. Talabalarning kasbiy auditiv layoqatini rivojlantirishda axborot ta’limiy resurslardan foydalanish texnologiyasi (ingliz tilini o‘qitish misolida): ped. fan.fals. dok. diss. – Jizzax: Guliston davlat universiteti, 2021. – 166 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Sanoyeva Gulbar Rizoqulovna,**
Alfraganus Universiteti dotsenti (PhD)
Email: g.sanoyeva@afu.uz

**UDK 330.1**

## TIL PORTFELI ASOSIDA KASBIY TIL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MODELI VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

***Annotatsiya:*** *Til portfeli o‘quvchining lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarini integrativ tarzda rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion vosita sifatida talqin qilinadi. Mazkur maqolada til portfeli asosida kasbiy til kompetensiyasini rivojlantirish modeli hamda uning samarali pedagogik texnologiyalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv ta’lim, mustaqil o‘rganish strategiyalari va interaktiv pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan modelning konseptual asoslari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *til portfeli, kasbiy til kompetensiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik model, pedagogik texnologiya, refleksiv ta’lim, interaktiv metodlar, baholash mexanizmi, monitoring va diagnostika.*

**Саноева Гульбар Ризокуловна**
доцент (PhD)Университета «Alfraganus»

## МОДЕЛЬ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА ОСНОВЕ ЯЗЫКОВОГО ПОРТФЕЛЯ

***Аннотация:*** *Языковой портфель интерпретируется как инновационный инструмент, способствующий интегративному развитию лингвистической, социолингвистической и прагматической компетенций обучающегося. В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируются модель развития профессиональной языковой компетенции на основе языкового портфеля и эффективные педагогические технологии её реализации. В статье раскрываются концептуальные основы разработанной модели, основанной на компетентностном подходе, рефлексивном обучении, стратегиях самостоятельного обучения и интерактивных педагогических технологиях.*

***Ключевые слова:*** *языковой портфель, профессиональная языковая компетенция, компетентностный подход, педагогическая модель, педагогическая технология, рефлексивное обучение, интерактивные методы, механизм оценивания, мониторинг и диагностика.*

**Sanoyeva Gulbar Rizoqulovna**
Associate Professor, (PhD) Alfraganus University

## MODEL AND PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING PROFESSIONAL LANGUAGE COMPETENCE BASED ON THE LANGUAGE PORTFOLIO

***Abstract:*** *The language portfolio is interpreted as an innovative tool that ensures the integrative development of learners’ linguistic, sociolinguistic, and pragmatic competences. This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the model for developing professional language competence based on the language portfolio, as well as the effective pedagogical technologies for its implementation. The conceptual foundations of the developed model are revealed, grounded in the competency-based approach, reflective learning, independent learning strategies, and interactive pedagogical technologies.*

***Keywords:*** *language portfolio, professional language competence, competency-based approach, pedagogical model, pedagogical technology, reflective learning, interactive methods, assessment mechanism, monitoring and diagnostics.*

### Kirish.

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro mehnat bozori integratsiyasi hamda kasbiy kommunikatsiyaning transmilliy xarakter kasb etishi zamonaviy mutaxassisdan yuqori darajadagi kasbiy til kompetensiyasini talab etmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida chet tilini kasbiy yo‘naltirilgan asosda o‘qitish masalasi

kompetensiyaviy yondashuv doirasida qayta ko‘rib chiqilmoqda. Bugungi kunda ta’lim jarayonida faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy kommunikativ malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida e’tirof etilmoqda.

Kasbiy til kompetensiyasi lingvistik bilimlar majmui bilan cheklanib qolmay, balki sotsiolingvistik moslashuvchanlik, pragmatik maqsadga yo‘naltirilgan nutq faoliyati, professional diskursni anglash va yaratish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida talabaning individual rivojlanish trayektoriyasini aks ettiruvchi, refleksiv va monitoring mexanizmlariga ega innovatsion vositalarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Til portfeli ana shunday pedagogik instrument sifatida talabaning til o‘rganish jarayonini tizimli ravishda rejalashtirish, baholash va tahlil qilish imkonini beradi. U o‘quvchining lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarini integrativ tarzda rivojlantirishga xizmat qiluvchi ko‘p funksiyali model hisoblanadi. Til portfeli asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni mustaqil o‘rganish strategiyalarini faollashtiradi, refleksiv fikrlashni shakllantiradi hamda kasbiy kommunikativ kompetensiyaning bosqichma-bosqich takomillashuvini ta’minlaydi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Kasbiy til kompetensiyasi – bu shaxsning muayyan professional sohada samarali muloqot qilish, ixtisoslashgan terminologiyani to‘g‘ri qo‘llash, kasbiy diskursni anglash va yaratish qobiliyatini ifodalovchi ko‘p komponentli integrativ tuzilma hisoblanadi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar doirasida “yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash oliy ta’lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasini yaratish”[1] ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Til o‘rgatish jarayoniga shaxsiy tajriba va akademik ehtiyojlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan me’yoriy-metodik asoslar izchil ravishda rivojlantirilmoqda. Mazkur yondashuvlar asosida interaktiv mashg‘ulotlar orqali kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish va real muloqotga yaqinlashtirilgan o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodik jihatdan asoslanmoqda.

AQSh, Buyuk Britaniya va Rossiya ta’lim tizimlarida zamonaviy kognitiv va neyrolingvistik tadqiqotlar zamirida o‘quv faoliyatining dinamik samaradorligini oshirish imkoniyatlari aniqlanmoqda. Ta’lim oluvchilarning xorijiy tilda erkin va mantiqan izchil muloqot qilish, o‘z fikrini og‘zaki aniq va asosli ifodalash kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar, usullar, vositalar, shakllar hamda pedagogik texnologiyalar ingliz tilini o‘qitish mazmuniga singdirilib, takomillashtirilgan didaktik strategiyalar qo‘llanilmoqda.

“Til portfeli” yondashuvi orqali didaktik mazmunni o‘qituvchi harakatga keltirsa, ta’lim oluvchilar uni o‘z faoliyatlari doirasida egallaydilar [2]. Ta’lim mazmuni - o‘qitish obyektidir. Binobarin, chet til o‘rgatish obyekti nutq faoliyatidir. Chet tilda nutqiy ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi. Chet til o‘quv predmetini o‘rganish shu til yordamida axborot olish va boshqalarga yetkazish ma’nosini bildiradi. O‘zlashtirilgan axborotlar talabalarning bilim saviyalarini yanada oshirishdan tashqari ularning kasbiy malakalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

“Til portfeli”da ma'lumotlarning mazmuni uning egasi tomonidan doimiy ravishda yangilanib turiladi, chunki ingliz tilini o‘zlashtirish jarayonida talaba tomonidan erishilgan yutuqlar, muvaffaqiyatlar ma'lum mezonlar asosida qayd etish va namoyish etish imkoniyatini beradi.

O‘zbekistonda 1970 yillardan boshlab chet tilini o‘rganishga qiziqish ortdi. J.J.Jalolov chet til o‘qitish metodikasiga bog‘liq masalalar yechimini topish, talabalar nutqini rivojlantirish muammolari ustida izlanish olib bordi. Uning chet tillar oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun qator darsliklari, o‘quv qo‘llanmalari yaratildi [3].

T.K.Sattarov xorij tillarini o‘rgatadigan o‘qituvchilar uchun amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish metodikasi borasida izlanish olib bordi va bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining sotsiolingvistik malakalarini shakllantirish muammolarini tadqiq qildi. Shuningdek, olim ingliz tili materialida talabalarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratdi [4].

2000 yillarda G.T.Mahkamova tomonidan ingliz tilini o‘rgatish jarayonida talabalarning umummadaniy kompetensiyalarini shakllantirish yuzasidan tadqiqotlar olib borildi [5]. Olimaning tadqiqot ishlarida jadal integratsion jarayonlar tilda aks etishi e’tirof etilib, o‘zga millat madaniyati bilan muloqot qilish vositasi sifatida tilning uch funksiyasi ajratildi:

1.Kommunikativ

2. Kumulyativ

3. Direktiv (yo‘naltiruvchi).

Respublikamizda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida chet tillar o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini xalqaro malaka talablari asosida tashkil etish va kredit-modulli texnologiyani joriy etish, HEMIS platformasi bo‘yicha ta’lim sifatini oshirish, elektron va mobil ta’limni jahon zamonaviy talablari asosida rivojlantirish, zamonaviy malaka talablariga asoslangan ta’lim jarayonlarini takomillashtirishning me’yoriy asoslari yaratildi va OTMlar uchun raqamli ta’lim resurslari fondini yaratish ishlari jadallik bilan davom etmoqda.

Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida kompetentli ilmiy-pedagogik kadrlar zahirasini yaratish” kabi ustuvor vazifalar belgilandi. Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi jarayonida intellektual bilimlar zahirasini puxta egallashga yo‘naltirilgan ta’lim fleshmoblari orqali mutaxassislikka oid kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

**Natijalar va muhokama**

Zamonaviy kompetensiyaviy paradigma doirasida kasbiy til kompetensiyasi faqat bilimlar yig‘indisi emas, balki faoliyatga yo‘naltirilgan, natijaviylikka asoslangan, refleksiv va moslashuvchan tizim sifatida talqin qilinadi. Shu sababli uni shakllantirish jarayoni innovatsion pedagogik vositalarni talab qiladi.

Til portfeli – bu o‘quvchining til o‘rganish jarayonini hujjatlashtiruvchi, o‘z-o‘zini baholash va monitoring qilish imkonini beruvchi refleksiv pedagogik instrumentdir. U quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- diagnostik (boshlang‘ich darajani aniqlash),
- rivojlantiruvchi (kompetensiyalarni tizimli takomillashtirish),
- refleksiv (o‘z faoliyatini tahlil qilish),
- motivatsion (o‘z natijalarini ko‘rish orqali ichki rag‘batni oshirish),
- baholovchi (formativ va summativ nazorat).

Til portfeli asosida tashkil etilgan ta’lim modeli talabaning individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘unlashadi.

Til portfeli bilan integratsiyalashgan pedagogik texnologiyalar quyidagi ilmiy-praktik natijalarni ta’minlaydi:

- Faollashtiruvchi effekt – talabalar nutqiy faoliyatga faol jalb qilinadi;
- Refleksiv mexanizm – o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmasi shakllanadi;
- Metakognitiv rivojlanish – o‘rganish strategiyalarini ongli tanlash;
- Monitoringning shaffofligi – rivojlanish dinamikasi kuzatiladi;
- Kasbiy identifikatsiya – professional diskursga integratsiya.

Ayniqsa, e-portfolio texnologiyasi raqamli ta’lim muhitida samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. U multimedia materiallar, yozma ishlar, prezentatsiyalar va refleksiv hisobotlarni jamlash imkonini beradi.

Ilmiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, til portfeli asosida tashkil etilgan model:

- kasbiy til kompetensiyasini tizimli rivojlantiradi;
- o‘quvchining mustaqil o‘rganish strategiyalarini shakllantiradi;
- baholashning sub’ektivligini kamaytiradi;
- kompetensiyaviy yondashuvni amaliy mexanizm bilan ta’minlaydi.

Shu bilan birga, modelni samarali joriy etish uchun metodik ta’minot, aniq mezonlar va o‘qituvchining yuqori darajadagi pedagogik kompetensiyasi zarur.

Til portfeli asosida kasbiy til kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy oliy ta’lim tizimida dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Kompetensiyaviy paradigma sharoitida til o‘qitish jarayoni reproduktiv bilim berishdan faoliyatga yo‘naltirilgan, natijaviylikni ta’minlovchi tizimga aylanishi zarur. Shu nuqtai nazardan, til portfeli metodologik va texnologik jihatdan samarali vosita sifatida baholanadi.

Birinchidan, til portfelining afzalligi uning refleksiv va monitoringga yo‘naltirilgan xarakterida namoyon bo‘ladi. An’anaviy baholash tizimi ko‘proq summativ nazoratga asoslangan bo‘lsa, portfel texnologiyasi formativ baholashni ustuvor qiladi. Bu esa kompetensiyaning rivojlanish dinamikasini kuzatish, individual o‘sish trayektoriyasini aniqlash imkonini beradi. Biroq amaliyotda portfel yuritish jarayoni ko‘p vaqt talab etishi, o‘qituvchidan yuqori metodik tayyorgarlikni talab qilishi muhokamaga sabab bo‘lmoqda.

Ikkinchidan, kasbiy til kompetensiyasi tarkibiy jihatdan murakkab integrativ tuzilma bo‘lib, uni shakllantirishda lingvistik bilimlar yetarli emas. Professional diskurs, terminologik aniqlik, pragmatik moslashuvchanlik va kommunikativ strategiyalarni egallash talab etiladi. Til portfeli aynan shu komponentlarni tizimli ravishda jamlash va baholash imkonini beradi. Shunga qaramay, ayrim tadqiqotchilar portfelni ortiqcha byurokratik yuklama sifatida baholaydilar. Demak, modelni joriy etishda muvozanatli metodik yondashuv zarur.

Uchinchidan, raqamli transformatsiya sharoitida e-portfolio texnologiyasining qo‘llanilishi yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Multimedia materiallar, yozma ishlar, nutqiy chiqishlar va refleksiv hisobotlarni raqamli platformada integratsiya qilish kasbiy kommunikativ kompetensiyaning kompleks monitoringini ta’minlaydi. Biroq texnik infratuzilma, raqamli savodxonlik darajasi va platformalar bilan ishlash ko‘nikmasi yetarli bo‘lmaganda samaradorlik pasayishi mumkin.

**Xulosa**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, til portfeli asosida kasbiy til kompetensiyasini rivojlantirish modeli zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim paradigmasiga to‘liq mos keluvchi, tizimli va natijaviy pedagogik mexanizm

hisoblanadi. Mazkur model talabaning lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarini integrativ tarzda shakllantirishga xizmat qiladi hamda kasbiy kommunikativ faoliyatni real professional diskurs bilan uyg‘unlashtiradi.

Til portfeli o‘quv jarayonida refleksiv yondashuvni kuchaytiradi, mustaqil o‘rganish strategiyalarini rivojlantiradi va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlarini shakllantiradi. Natijada talabaning individual rivojlanish trayektoriyasi aniqlanadi, kompetensiya dinamikasi monitoring qilinadi hamda ta’lim jarayoni shaffof va mezonli baholash asosida tashkil etiladi. Bu esa an’anaviy nazorat tizimining reproduktiv xarakterini kamaytirib, faoliyatga yo‘naltirilgan baholash modelini qaror toptiradi.

Interaktiv pedagogik texnologiyalar, muammoli o‘qitish, loyiha faoliyati va raqamli e-portfolio platformalarining integratsiyasi kasbiy til kompetensiyasini shakllantirish samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida e-portfolio talabaning professional nutqiy mahsulotlarini tizimli jamlash, tahlil qilish va taqdim etish imkonini beruvchi innovatsion vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, til portfeli asosida ishlab chiqilgan model kasbiy til kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslangan, adaptiv va monitoringga yo‘naltirilgan tizimini yaratadi. Uni oliy ta’lim jarayoniga joriy etish professional kommunikativ tayyorgarlik sifatini oshirish, talabalarning metakognitiv va refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.PF-4947-son. 2017 yil 7 fevral. www.lex.uz

2. Парадеева Н.В. Использование игровых технологий для развития коммуникативных универсалных учебных действий //Научный алманах 2015. –N11-2(13). –325-329 с.

3. Jalolov J.J. Chet til o’qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. -432 b.

4. Sattarov T.K. O‘qituvchilik bo‘yicha amaliy mashg’ulotlarda bo‘lajak chet tili muallimining sotsiolingvistik malakalarini shakllantirish (ingliz tili materialida): Diss. ... ped.f.d.–T.:2000.–373 b.

5. Махкамова Г.Т. Концепция формирования межкультурной компетенции студентов английского языка. - Ташкент: Фан, 2010. – 208.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Tumanov Uktamjon Fazliddin o‘g‘li**
University of Business and Science
katta o‘qituchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0001-8348-8050
email: tumanov.uktamjon1992@gmail.com

## BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning dolzarb pedagogik muammolarini ilmiy-tadqiqot nuqtai nazaridan o‘rganishga qaratilgan. Maqolada kompetensiya tushunchasi, nazariy va amaliy integratsiya mexanizmlari, dual ta’lim tizimi orqali kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning samarali yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar va simmetrik o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligining ahamiyatini ko‘rsatadi. Shuningdek, maqolada mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tahlili, nazariy va eksperimental metodlar asosida kompetensiyalarni rivojlantirish strategiyalari taqdim etilgan. Olingan natijalar texnologik ta’lim tizimida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va modernizatsiya qilish uchun ilmiy asos vazifasini bajaradi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisi, kasbiy kompetensiya, pedagogik innovatsiya, dual ta’lim, nazariya-amaliyot integratsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligi, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish.*

**Туманов Уктамджон Фазлиддин угли**
Старший преподаватель, доктор философии (PhD) в области педагогических наук в Университете бизнеса и науки

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

***Аннотация:*** *Данная статья посвящена изучению современных педагогических проблем развития профессиональных компетенций будущих учителей технологического образования с научно-исследовательской точки зрения. В статье анализируется концепция компетенции, механизмы теоретико-практической интеграции, эффективные подходы к формированию профессиональной подготовки в рамках дуальной системы образования. Результаты исследования показывают важность инновационных педагогических технологий и симметричного взаимодействия учителя и ученика в процессе подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности. В статье также представлены стратегии развития компетенций на основе анализа отечественных и зарубежных научных источников, теоретических и экспериментальных методов. Полученные результаты служат научной основой для формирования и модернизации профессиональных компетенций в системе технологического образования.*

***Ключевые слова:*** *Будущий преподаватель технологического образования, профессиональная компетентность, педагогические инновации, дуальное образование, интеграция теории и практики, компетентностный подход, сотрудничество учителя и ученика, модернизация системы образования.*

**Tumanov Uktamjon Fazliddin o‘g‘li**
Senior Lecturer, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences at the University of Business and Science

## SCIENTIFICALLY BASED MECHANISMS FOR IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION BASED ON THE DUAL EDUCATION SYSTEM

***Abstract:*** *This article is aimed at studying the current pedagogical problems of developing professional competencies of future teachers of technological education from a scientific and research perspective. The article analyzes the concept of competence, theoretical and practical integration mechanisms, effective approaches to the formation of professional training through the dual*

*education system. The results of the study show the importance of innovative pedagogical technologies and symmetrical teacher-student cooperation in the process of preparing future teachers for professional activity. The article also presents strategies for developing competencies based on an analysis of domestic and foreign scientific sources, theoretical and experimental methods. The results obtained serve as a scientific basis for the formation and modernization of professional competencies in the technological education system.*

***Keywords:*** *Future technological education teacher, professional competence, pedagogical innovation, dual education, theory-practice integration, competency-based approach, teacher-student cooperation, modernization of the education system.*

**Kirish**. Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimi nafaqat inson kapitalini shakllantirish, balki mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlovchi strategik omil sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, texnologik ta’lim yo‘nalishida malakali pedagog kadrlarni tayyorlash ta’lim sifati va ilm fan salohiyatini oshirish bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bugungi kunda dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari pedagog kadrlar tayyorlash masalasi davlat siyosati darajasida e’tiborga olinganligini ko‘rsatadi ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-yanvardagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5956-son Farmoni[1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi “Innovatsion ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish va pedagog kadrlarni malaka oshirish chora-tadbirlari” PF-6000-son Farmoni[2], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-73-sonli Farmoni[3], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-158-sonli Farmoni[4] hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi “Texnologik ta’lim muassasalarida dual ta’limni joriy etish va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari” 349-son qarori[5], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 498-sonli Qaror[6]larida pedagog kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish, zamonaviy pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish va ta’lim sifati bo‘yicha milliy standartlarni mustahkamlashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, pedagogik ta’lim tizimining barcha bosqichlarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish konsepsiyasi davlat siyosati asosida amalga oshirilmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va sharhlar**

Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining strategik vazifalaridan biridir. Kompetensiyalarni rivojlantirish nafaqat o‘qituvchi kasbini samarali egallashga, balki innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish va zamonaviy ish bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga ham xizmat qiladi.

Mahalliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va innovatsion pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashtirishga asoslanadi. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlar tajribasi dual ta’lim va amaliy mashg‘ulotlarni integratsiyalash orqali kompetensiyalarning barqaror rivojlanishini kafolatlaydi. Djurayev R.X “bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish mexanizmlarini pedagogik innovatsiyalar, interaktiv metodlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali kompetensiya shakllanishi”[7]ni ilmiy asos bilan tushuntiradi. Qurbonov Sh.E., Yo‘ldoshev J “dual ta’lim tizimi asosida kompetensiyalarni shakllantirish ular asosida nazariya-amaliyot integratsiyasi, loyihaviy mashg‘ulotlar va simulatsiya metodlari”[8]ni ilmiy asos bilan tavsiflaydi.

Choriyev R.K., Xolmuxamedov M.M. “innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish orqali kompetensiyalarni rivojlantirish metodlarini amaliy misollar bilan ko‘rsatadi, ular virtual laboratoriyalar va interaktiv mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniyatini ilmiy asos bilan tushuntiradi”[9]. Muslimov N.A., Ashurova S.Yu “pedagogik, metodik va texnologik kompetensiyalarni shakllantirish strategiyalarini tahlil qilib, ularning tadqiqoti kompetensiyalarning bosqichma-bosqich shakllanishi va baholash metodlari”[10]ni ilmiy asosda yoritadi.

To‘rakulov O., Nazarov A.A. “dual ta’lim va interaktiv mashg‘ulotlar orqali kompetensiyalarni barqaror rivojlantirish metodikasini taqdim etadi, ular amaliy mashg‘ulotlar, mentorlik tizimi va baholash vositalari orqali kompetensiyaviy tayyorgarlikni”[11] ilmiy tahlil qilgan. Ashurov J.H., Avliyakulov A.K. “dual ta’lim tizimi va amaliy mashg‘ulotlar orqali kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmini tahlil qilib, o‘quv jarayonidagi simmetrik o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligining samaradorligi”[12]ni ilmiy asos bilan ko‘rsatadi.

Xorijiy ilmiy manbalarda kompetensiyalarni rivojlantirishning konseptual va metodologik asoslari keng yoritilgan bo‘lib pedagog olim Blum A., Brockmann M., Winch C. “dual ta’lim va kasbiy tayyorgarlikning tarixiy rivojlanishi va amaliy samaradorligi”[13]ni tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, dual ta’lim tizimi o‘quvchilarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini uyg‘unlashtirish orqali barqaror kompetensiyalarni shakllantiradi. Jones S., Clarke L. “kasbiy tayyorgarlikning simulyatsiya va loyihaviy mashg‘ulotlar orqali rivojlanishi”[14]ni o‘rganib, pedagogik metodlar samaradorligini solishtiradi

**Natija va muhokamalar**

Mazkur tadqiqot doirasida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi kompleks nazariy tahlil qilindi va kompetensiyaviy yondashuv asosida mazkur kompetensiyalarning strukturaviy-funksional modeli ishlab chiqildi. Ilmiy-pedagogik manbalar, ta’lim standartlari hamda zamonaviy texnologik ta’lim konsepsiyalarining tizimli tahlili natijasida kasbiy kompetensiya tushunchasining texnologik ta’lim kontekstidagi mazmuni aniqlashtirildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi integrativ pedagogik hodisa sifatida talqin qilinib, u quyidagi 1-rasmda keltirilgan besh asosiy tarkibiy komponentdan iborat ekanligi nazariy jihatdan asoslandi.




**1-rasm.** Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tarkibiy komponentlari

Motivatsion-qadriyatli komponent bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyatga nisbatan barqaror ijobiy munosabati, pedagogik qadriyatlarni ongli qabul qilishi va kasbiy mas’uliyat darajasini ifodalaydi.

Kognitiv komponent texnologik ta’lim mazmuniga oid fundamental nazariy bilimlar, ishlab chiqarish texnologiyalari asoslari hamda pedagogik bilimlar majmuasini qamrab oladi.

Operatsion-faoliyatli komponent pedagogik va texnologik faoliyatni samarali amalga oshirishga xizmat qiluvchi amaliy ko‘nikmalar, metodik malakalar va texnologik operatsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Ijodiy-innovatsion komponent kasbiy vazifalarni noan’anaviy yechish, innovatsion pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash qobiliyatlarini aks ettiradi.

Refleksiv-baholovchi komponent esa kasbiy faoliyat natijalarini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash va kasbiy rivojlanishni rejalashtirish mexanizmlarini ifodalaydi.

Nazariy modellashtirish natijasida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni diagnostik-yo‘naltiruvchi, mazmuniy-amaliy va integrativ-refleksiv bosqichlarda amalga oshirilishi aniqlashtirildi. Diagnostik-yo‘naltiruvchi bosqichda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy ehtiyojlari, motivatsiyasi va boshlang‘ich kompetensiya darajasi aniqlanadi. Mazmuniy-amaliy bosqich kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltiriladi hamda nazariya va amaliyot integratsiyasini ta’minlaydi. Integrativ-refleksiv bosqichda esa shakllangan kompetensiyalar umumlashtiriladi, kasbiy faoliyatga moslashtiriladi va refleksiya mexanizmlari orqali mustahkamlanadi.

Shuningdek, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, STEM yondashuvi va raqamli ta’lim texnologiyalarining kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi nazariy imkoniyatlari aniqlab berildi. Ushbu yondashuvlar texnologik ta’limning amaliy yo‘naltirilganligini kuchaytirishi va bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini tizimli rivojlantirishga xizmat qilishi asoslandi.

Olingan nazariy natijalar kompetensiyaviy yondashuv doirasida olib borilgan zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning konseptual xulosalari bilan mantiqiy uyg‘unlikni namoyon etadi. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotda texnologik ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi pedagogik va ishlab chiqarish faoliyati integratsiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilinishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish faqat bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish bilan cheklanmay, balki shaxsning kasbiy ongini, qadriyatlar tizimini va refleksiv faoliyatini rivojlantirishni ham talab etadi. Ayniqsa, refleksiv-baholovchi komponentning alohida ajratilishi bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisining kasbiy rivojlanishini uzluksiz jarayon sifatida tashkil etish zarurligi bilan izohlanadi.

Ijodiy-innovatsion komponentning mustaqil tarkibiy qism sifatida asoslanishi texnologik ta’lim tizimida innovatsion jarayonlarning jadallashuvi va raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi bilan bog‘liq. Ushbu komponent bo‘lajak o‘qituvchilarning moslashuvchanligini va kasbiy muammolarni hal etishdagi kreativ yondashuvini ta’minlashga xizmat qiladi.

Muhokama jarayonida ishlab chiqilgan nazariy modelning amaliy ahamiyati ham aniqlashtirildi. Mazkur model oliy pedagogik ta’lim muassasalarida texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini ilmiy asosda tashkil etish imkonini beradi. Biroq modelni samarali tatbiq etish ta’lim muhitining innovatsion darajasi, professor-o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi va moddiy-texnik bazaning holatiga bog‘liq ekanligi ta’kidlandi.

Munozara. Tadqiqot natijalari bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogik ilm-fanda shakllangan kompetensiyaviy paradigma doirasida talqin qilinishi zarurligini tasdiqlaydi. Xususan, xorijiy tadqiqotchilar J. Raven, F. Weinert, Ph. Perrenoud kompetensiyani shaxsning murakkab kasbiy vaziyatlarda samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi integrativ sifat sifatida izohlaydilar. Ushbu pozitsiya kompetensiyaning faqat bilim va ko‘nikmalar majmuasi emas, balki motivatsion-aksiologik va refleksiv komponentlarni ham qamrab olishini asoslaydi.

Shu bilan birga, faoliyat nazariyasi asoschilari L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini shaxsning ijtimoiy-amaliy faoliyatda shakllanishi bilan bog‘laydilar. Mazkur yondashuv texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda amaliy faoliyat, loyihalash va refleksiyaning ustuvorligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi. Konstruktivistik pedagogika vakillari J. Piaget, J. Bruner esa bilim va kompetensiyalarni subyekt tomonidan faol konstruksiya qilinadigan hodisa sifatida talqin qilib, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi tajriba va muammo yechimi jarayonida rivojlanishini ta’kidlaydilar.

Milliy pedagogika ilmida N.A. Muslimov, B.X. Xodjayev, Sh.E. Kurbanov va boshqalar o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning tizimli-natijaviy ko‘rsatkichi sifatida qaraladi. Ushbu olimlar tadqiqotlarida texnologik ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi kasbiy bilimlar, metodik mahorat va pedagogik madaniyat birligi orqali namoyon bo‘lishi qayd etilgan. Biroq mazkur ishlarda kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy-metodologik modeli yetarli darajada umumlashtirilmagan.

Mazkur tadqiqot muallifining pozitsiyasi shundan iboratki, bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi strukturaviy-dinamik tizim bo‘lib, u kompetensiyaviy, faoliyatga asoslangan va refleksiv yondashuvlar sintezi asosida rivojlanadi. Bu yondashuv yuqorida qayd etilgan milliy va xorijiy olimlar qarashlarini konseptual jihatdan umumlashtirib, texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida nazariya va amaliyot o‘rtasidagi didaktik diskrepansiyani kamaytirishga xizmat qiladi.

**Xulosa**

Mazkur maqolada bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammosini kompetensiyaviy yondashuv asosida nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida texnologik ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsion-faoliyatli, ijodiy-innovatsion hamda refleksiv-baholovchi komponentlarning integrativ tizimi sifatida aniqlashtirildi. Ushbu komponentlarning o‘zaro uzviyligi kasbiy tayyorgarlikning yaxlitligini ta’minlovchi asosiy omil sifatida asoslandi.

Nazariy modellashtirish asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni diagnostik-yo‘naltiruvchi, mazmuniy-amaliy va integrativ-refleksiv bosqichlarda amalga oshirilishi belgilandi. Tadqiqot natijalari texnologik ta’lim sohasida kasbiy tayyorgarlik nazariyasini rivojlantiradi hamda kelgusida empirik tadqiqotlar o‘tkazish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-yanvardagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5956-son Farmoni https://lex.uz

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi “Innovatsion ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish va pedagog kadrlarni malaka oshirish chora-tadbirlari” PF-6000-son Farmoni https://lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-73-sonli Farmoni https://lex.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-158-sonli Farmoni https://lex.uz

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi “Texnologik ta’lim muassasalarida dual ta’limni joriy etish va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari” 349-son qarori https://lex.uz

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 498-sonli Qarori https://lex.uz

7. Djurayev R.X. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari: Nazariya va amaliyot. Toshkent: ODPUn, 2019, 312-bet.

8. Qurbonov Sh.E., Yo‘ldoshev J. Texnologik ta’limda kasbiy tayyorgarlik: Darslik Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020, 276-bet.

9. Choriyev R.K., Xolmuxamedov M.M. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va o‘qituvchilarni tayyorlash: O‘quv qo‘llanma. Samarkand: SamDU nashriyoti, 2020, 198-bet.

10. Muslimov N.A., Ashurova S.Yu. O‘qituvchilik kasbida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish: Darslik. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2018, 245-bet.

11. To‘rakulov O., Nazarov A.A. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi: O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Ta’lim innovatsiyalari markazi, 2019, 210-bet.

12. Ashurov J.H., Avliyakulov A.K. Dual ta’lim tizimida kasbiy tayyorgarlik: O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Innovatsion ta’lim nashriyoti, 2021, 187-bet.

13. Blum A., Brockmann M., Winch C. Vocational education and dual training systems. London: 2018, 145-bet.

14. Jones S., Clarke L. Vocational training methodologies: A comparative study. Oxford University Press, 2017, 134-bet.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Абдурахманов Ботиржон Мирзамахмудович**
Наманганский государственный университет, д.ф.п.н. кандидат наук, доцент
электронная почта: Botu7612@gmail.com

**УДК 378.14:91(075.8)**

## ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ, СРЕДСТВ И РЕСУРСОВ КАК МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ГЕОГРАФИИ: КОНЦЕПЦИЯ «ГЕОИНТЕГРА»

***Аннотация:*** *В данной статье исследуются вопросы интеграции образовательных технологий, средств и ресурсов в развитии профессиональных компетенций будущих учителей географии в системе высшего образования. Изложены теоретические и практические основы разработанной и апробированной автором образовательной технологии «ГеоИнтегра». В ходе исследования проанализировано влияние интеграции традиционных картографических средств с современными Геоинформационными системами (ГИС), виртуальной реальностью (VR) и инструментами искусственного интеллекта (AI) на эффективность обучения. Результаты показывают, что интегративный подход значительно повышает пространственное мышление, технологическо-педагогические знания (TPACK) и профессиональную рефлексию будущих учителей.*

***Ключевые слова:*** *методика преподавания географии, профессиональная компетенция, интеграция, ГеоИнтегра, ГИС, TPACK, высшее образование, образовательные ресурсы.*

**Abduraxmonov Botirjon Mirzamaxmudovich**
Namangan davlat universiteti, pedagogika fanlari
bo`yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

## TA`LIM TEXNOLOGIYALARI, VOSITALARI VA RESURSLARINI INTEGRATSIYASI GEOGRAFIYA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA: «GEOINTEGRA» KONSEPSIYASI

***Аннотация:*** *Ушбу мақолада олий таълим тизимида бўлажак география ўқитувчиларининг касбий компетенцияларини ривожлантиришда таълим технологиялари, воситалари ва ресурсларини интеграциялаш масалалари тадқиқ этилади. Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган ва тажриба-синовдан ўтказилган «ГеоИнтегра» таълим технологиясининг назарий ва амалий асослари баён этилган. Тадқиқот давомида анъанавий картографик воситалар билан замонавий Географик ахборот тизимлари (ГАТ), виртуал реаллик (VR) ва сунъий интеллект (AI) воситаларининг интеграцияси таълим самарадорлигига таъсири таҳлил қилинган. Натижалар шуни кўрсатадики, интегратив ёндашув бўлажак ўқитувчиларнинг фазовий фикрлашини, технологик-педагогик билимларини (TPACK) ва касбий рефлексиясини сезиларли даражада оширади.*

***Калит сўзлар:*** *география таълими методикаси, касбий компетенция, интеграция, ГеоИнтегра, ГАТ, TPACK, олий таълим, таълим ресурслари.*

**Abduraxmonov Botirjon Mirzamaxmudovich**
Namangan State University, doctor of philosophy pedagogical sciences (PhD), Associate professor

## INTEGRATION OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES, TOOLS AND RESOURCES AS A METHODOLOGICAL BASIS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF GEOGRAPHY TEACHERS: THE CONCEPT OF «GEOINTEGRA»

***Abstract:*** *This article explores the integration of educational technologies, tools, and resources in developing the professional competencies of future geography teachers within the higher education system. The theoretical and practical foundations of the "GeoIntegra" educational technology, developed and tested by the author, are described. The study analyzes the impact of integrating*

*traditional cartographic tools with modern Geographic Information Systems (GIS), Virtual Reality (VR), and Artificial Intelligence (AI) on educational effectiveness. Results indicate that the integrative approach significantly enhances spatial thinking, Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK), and professional reflection of future teachers.*

***Keywords:*** *geography education methodology, professional competence, integration, GeoIntegra, GIS, TPACK, higher education, educational resources.*

**Введение**

В условиях стремительной цифровизации и глобальных экологических изменений XXI века роль географического образования претерпевает фундаментальную трансформацию [3]. География сегодня — это не просто описательная дисциплина, а комплексная наука, объединяющая пространственный анализ, экологическое прогнозирование и социально-экономическое планирование. Соответственно, подготовка учителей географии в высших учебных заведениях требует перехода от традиционных репродуктивных методов обучения к инновационным стратегиям, основанным на интеграции передовых технологий и классических дидактических принципов [2].

Современные образовательные требования, включая стандарты ЮНЕСКО, акцентируют внимание на подготовке специалистов, способных к самостоятельному решению сложных задач. Для учителя географии это предполагает синергию предметных знаний и навыков работы с высокотехнологичным инструментарием (ГИС, ДЗЗ). Актуальность работы продиктована необходимостью преодоления разрыва между динамичным развитием географической науки и существующей методикой подготовки кадров. Основная идея диссертационного исследования заключается в том, что системная интеграция образовательных технологий, средств и ресурсов в рамках единой методической модели «ГеоИнтегра» выступает ключевым фактором развития профессиональных компетенций учителей географии. Профессиональная компетенция здесь понимается как многогранная способность сочетать дисциплинарные знания, педагогические навыки и технологическую гибкость для создания значимого образовательного опыта.

**Обзор литературы и теоретические основы исследования**

Теоретический фундамент исследования опирается на классические и современные педагогические парадигмы. Одной из центральных теорий является конструктивизм, развитый в трудах Ж. Пиаже и Л. С. Выготского [7]. Согласно этому подходу, обучение — это процесс активного конструирования знаний обучающимся на основе его личного опыта и взаимодействия со средой. В географическом образовании конструктивизм проявляется через исследовательскую деятельность, где студент не просто заучивает номенклатуру, а анализирует взаимосвязи в системе «человек-общество-природа».

Важнейшей теоретической моделью для нашего исследования является концепция TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge), разработанная П. Мишрой и М. Кёлером [8]. Данная модель описывает пересечение трех видов знаний: содержательного (предметного), педагогического и технологического. В контексте подготовки учителя географии TPACK означает способность педагога выбрать именно ту технологию (например, интерактивную карту или ГИС), которая наилучшим образом поможет раскрыть конкретную географическую тему с учетом дидактических задач и особенностей аудитории.

Анализ мирового опыта показывает различные стратегии интеграции технологий в географическое образование. Например, в Финляндии акцент делается на индивидуализацию образовательных траекторий и развитие навыков критического мышления через решение реальных экологических кейсов [10]. В Сингапуре широко применяются интерактивные стратегии обучения, направленные на формирование «гибких навыков» (soft skills) в процессе групповой работы с геопространственными данными [11].

Современные домены профессиональной компетентности учителя географии включают:

- Предметные знания: теория физической и социально-экономической географии.
- Педагогические инновации: проблемное обучение, STEAM и проектные методы.
- Технологическая интеграция: навыки работы с ГИС (ArcGIS, Google Earth), VR/AR и мобильными полевыми приложениями.
- Оценочная грамотность: цифровой мониторинг учебных достижений.
- Рефлексия: критический самоанализ и профессиональное развитие

В Узбекистане вопросы внедрения компетентностного подхода в подготовку учителей географии активно рассматриваются в работах А. Юсупова [16], Р. Халилова [17] и других ученых, которые подчеркивают важность создания интерактивной образовательной среды. Концепция развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года ставит перед высшей школой задачу подготовки «аналитически мыслящих и экологически грамотных выпускников» [1].

**Методология исследования**

Экспериментальная работа проводилась в 2022–2025 гг. на базе Наманганского государственного университета и ряда вузов Узбекистана с участием 245 будущих учителей географии (бакалавриат и магистратура).

Методологической основой послужила авторская технология «ГеоИнтегра» — целостная педагогическая модель формирования географической культуры, базирующаяся на синергии традиционных (карты, учебники) и инновационных (ГИС, VR, мультимедиа) средств обучения [4, 6].

Технология «ГеоИнтегра» реализуется в два этапа (см. рис. 1):

1. Организационно-проектировочный: проектирование содержания на основе требований науки, определение триединых целей (образовательных, воспитательных, развивающих) и отбор оптимального комплекса дидактических средств.

2. Процессуальный: поэтапная реализация отобранных средств в соответствии с их функциями (информационная, закрепляющая, контролирующая) и организация интерактивного взаимодействия студентов с цифровым контентом [12, 13].

Внедрение данной эталонной схемы в учебный процесс позволило обосновать необходимость технологического подхода, обеспечивающего гармоничное сочетание методов и средств обучения на различных этапах занятия.

На базе технологии, интегрирующей традиционные и современные средства обучения, были спроектированы и организованы учебно-воспитательные процессы по географии (темы учебной программы, внеклассные занятия). Одним из особенностей применения современных информационных технологий в

**Рис. 1**. Схема технологии «ГеоИнтегра»

образовательном процессе является возможность создания целостной стилистической системы, ориентированной на развитие личности учащегося.

Разработанная блок-диаграмма визуализирует вертикальный процесс интеграции: от нормативных педагогических требований (верхний блок) до практической реализации интегративных уроков (нижний блок).

• Организационно-проектировочный блок обеспечивает целенаправленный отбор традиционных и цифровых средств обучения на основе анализа целей и компетенций.

• Процессуальный блок регламентирует комплексное применение отобранных средств на всех этапах занятия (введение, основная часть, заключение) в соответствии с их дидактическими функциями.

Предложенная модель демонстрирует синергию традиционных и инновационных подходов, выступая универсальным шаблоном для проектирования учебного процесса в рамках развития географической культуры учащихся

Для оценки уровня профессиональной компетентности был разработан Индекс улучшения компетенций (Competence Improvement Index), а также использовался фреймворк DCAF (Digital Competence Assessment Framework) [9]. Общий балл цифровой компетентности (DCS) рассчитывался по следующей формуле:

DCS = (TP \times 0.25) + (PI \times 0.25) + (CK \times 0.20) + (AL \times 0.15) + (PR \times 0.15)

В ходе экспериментальной работы применялись такие инновационные инструменты, как «Картографическая экспедиция» (сочетание полевых исследований с мобильным картографированием) и «Персональное исследовательское досье» (цифровое портфолио студента).

**Результаты исследования и их анализ**

Результаты апробации технологии «ГеоИнтегра» продемонстрировали статистически значимый рост всех показателей профессиональной компетентности будущих учителей. В экспериментальной группе средний балл DCS вырос с 65,1 до 78,4 (рост на 20,4%, $p < 0.001$).

Анализ эффективности интеграции средств обучения. В ходе исследования сравнивалась эффективность традиционных и современных средств на различных этапах учебного процесса. Данные представлены в таблице ниже.

**Таблица 1.**

**Сравнительная эффективность средств обучения в рамках технологии «ГеоИнтегра» (%)**

| Этап занятия | Традиционные средства (карты, атласы, схемы) | Современные средства (ГИС, VR, онлайн-платформы) | Интегративный эффект (GeoIntegra) |
|---|---|---|---|
| Планирование и проектирование | 70 | 80 | 90 |
| Реализация (презентация материала) | 60 | 85 | 95 |
| Практическая работа и симуляция | 55 | 88 | 92 |
| Оценка и мониторинг результатов | 50 | 90 | 96 |

**Источник:** Составлено на основе данных исследования автора.

Как видно из таблицы, современные средства показывают наибольшую эффективность на этапах реализации и оценки. ГИС-технологии позволяют визуализировать динамические процессы (например, изменение береговой линии или рост городов), что практически невозможно сделать с помощью статических бумажных карт [13]. Однако традиционные средства сохраняют свою значимость на этапе планирования как база для формирования первичных картографических представлений.

Развитие пространственного мышления и критического анализа. Одним из наиболее значимых результатов стало улучшение навыков пространственного анализа. Применение ГИС (Google Earth, ArcGIS Online) показало высокий коэффициент влияния на развитие пространственного мышления (Cohen's d = 1.23) [12]. Студенты научились не просто находить объекты на карте, а анализировать слои данных, выявлять причинно-следственные связи между рельефом, климатом и хозяйственной деятельностью человека.

Технология «Геоинтегра» позволила успешно реализовать междисциплинарные связи. В частности, интеграция географии и математики способствовала развитию навыков работы с количественными данными, построению математических моделей демографических процессов и экологических прогнозов. Использование

STEAM-методологии позволило студентам применять знания из области физики и химии при изучении глобальных проблем, таких как «кислотные дожди» или «парниковый эффект».

**Обсуждение результатов**

Интеграция ресурсов в географическом образовании — это не механическое суммирование инструментов, а создание новой дидактической реальности. Анализ результатов позволяет утверждать, что технология «ГеоИнтегра» создает «синергетический эффект», когда традиционные методы служат прочным фундаментом, а цифровые технологии расширяют горизонты познания.

Концепция «ГеоИнтегра» развивает идеи интегративного обучения Брунера и Дьюи, адаптируя их к цифровой эпохе. Она доказывает, что эффективность подготовки учителя географии напрямую зависит от уровня сформированности его TPACK-компетенций. Преподаватель вуза в этой системе перестает быть «транслятором знаний» и становится «архитектором образовательной среды», который проектирует сложные сценарии взаимодействия студентов с ресурсами.

Практические аспекты и вызовы.

Несмотря на высокие количественные показатели, исследование выявило ряд проблемных зон:

1. Инфраструктурный разрыв: Ограниченный доступ к высокоскоростному интернету и дорогостоящему ПО в некоторых региональных вузах остается барьером для полной реализации потенциала ГИС и VR [5, 19].

2. Цифровой разрыв между студентами: Разный уровень начальной компьютерной грамотности требует дифференцированного подхода при обучении сложным аналитическим инструментам.

3. Необходимость институциональной поддержки: Успешная интеграция технологий требует не только усилий отдельного преподавателя, но и изменения всей экосистемы вуза, включая гибкость учебных планов и систему повышения квалификации кадров.

**Заключение**

Проведенное исследование подтверждает, что системная интеграция образовательных технологий и ресурсов в рамках модели «ГеоИнтегра» является ключевым условием развития профессиональной компетентности будущих учителей географии. Апробация технологии показала значительный рост предметных знаний, технологических навыков (TPACK) и критического мышления студентов.

Основные выводы:

1. Эффективность обучения достигается через синергию традиционных картографических методов с ГИС-технологиями и VR-ресурсами на всех этапах учебного процесса.

2. Использование инноваций, таких как STEAM-проекты и «Картографические экспедиции», существенно повышает профессиональную мотивацию и готовность выпускников к практической деятельности.

Вузам рекомендуется внедрить технологию «ГеоИнтегра» в учебный процесс, усилив материально-техническую базу (облачные ГИС, мобильные устройства) и создав систему непрерывного повышения квалификации педагогов в области ИИ. Перспективным направлением дальнейших исследований является использование генеративного искусственного интеллекта для персонализации географического образования.

**Используемая литература.**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5712-сон Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (lex.uz).

2. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. – Athabasca University Press, 2019.

3. Solem M. Geography education and the interconnections between people and places // Journal of Geography. – 2016. – Vol. 115(2).

4. Badalov U. Kh. Improving the Professional Competence of Geography Teachers Using Digital Educational Technologies // American Journal of Education and Learning. – 2026. – Vol. 4(1). – P. 484-490.

5. Yakin A. Infrastructure Challenges in Rural Geography Education // Journal of Educational Technology. – 2019. – Vol. 12(3).

6. Usarov J. E. et al. Improving student practical competence in geography as science education // Journal of Engineering Science and Technology. – 2024. – Special Issue 6/2024. – P. 82-90.

7. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978.

8. Koehler M. J., Mishra P. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2023. – Vol. 125(6). – P. 1-25.

9. Thompson D. R. et al. Digital competence development models in geography education // Journal of Geography Education. – 2023. – Vol. 45(3). – P. 234-251.

10. Sahlberg P. Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? – Teachers College Press, 2011.

11. Tan C., Chua J., Kang T. Interactive Teaching Strategies for Modern Classrooms. – Routledge, 2005.

12. Rahmah et al. Technology integration in geography education: Benefits and challenges // Digital Learning Review. – 2022. – Vol. 8(1).

13. Demirci A., Karaburun A. GIS enhances comprehension and boosts student engagement // Geographic Information Science Journal. – 2016.

14. Jauhiainen J. S. et al. Generative AI in assessing written responses of geography exams // Journal of Geography in Higher Education. – 2025. – Vol. 49(5).

15. Maxmudova C. I. Transforming Geography Teacher Education Through a Competency-Based Approach // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2025. – Vol. 6(05). – P. 119–120.

16. Юсупов А. Ахборот технологияларининг таълимдаги аҳамияти // Ўзбекистон таълим журнали. – 2020. – №5. – 45-50-бетлар.

17. Халилов Р. Интерактив таълим методлари: назария ва амалиёт // Таълимда инновациялар журнали. – 2021. – №3. – 23-30-бетлар.

18. Kim J., Park S. VR-based geography lessons and spatial visualization skills // Computers & Education. – 2024. – Vol. 198.

19. Colmer S. Digital divide and the high cost of services in education // South African Journal of Geography Education. – 2025.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Abdullayev Dilshodbek Yuldashali o'g'li**
Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
abdullayevdilshodbek1992@mail.ru

## YUQORI SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIY VA FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-AMALIY TAHLILI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish masalasi dolzarb muammo sifatida nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *O'quvchilar, fuqaro, faol fuqarolik, fuqarolik pozitsiyasi, ta'lim, tarbiya, faol fuqarolik, tarbiya metodlari.*

**Абдуллаев Дильшодбек Юлдашали оглу**
Старший преподаватель Наманганского государственного педагогического института

## ТЕОРЕТИЧЕСКО-ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-ГРАЖДАНСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ СТАРШИХ КЛАССОВ

***Abstract:*** *This article analyzes the issue of developing social and civic positions in high school students as a topical problem from a theoretical and practical perspective.*

***Keywords****: Students, citizen, active citizenship, civic position, education, upbringing, active citizenship, upbringing methods.*

**Abdullayev Dilshodbek Yuldashali oglu**
Senior teacher of Namangan State Pedagogical Institute

## THEORETICAL-PRACTICAL ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF SOCIAL AND CIVIC COMPETENCES IN HIGHER-GRADE STUDENTS

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется вопрос формирования социальных и гражданских позиций у старшеклассников как актуальная проблема с теоретической и практической точек зрения.*

***Ключевые слова:*** *студенты, гражданин, активная гражданская позиция, гражданское положение, образование, воспитание, активная гражданская позиция, методы воспитания.*

### Kirish

Bugungi yosh avlod davlatimiz mustaqilligi va taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadigan juda katta kuch sanaladi, shu bois umumta'lim maktablarining o'rta va yuqori sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalash; o'smirlik yoshiga xos ichki pozitsiyaning paydo bo'lishi; ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o'zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi; fuqarolik pozitsiyasi, o'zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishini inobatga olinishi[1] lozim bo'lgan jihatlarga e'tibor qaratish ko'zda tutilmoqda.

"Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da[2] yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishning maqsadlari sifatida ko'rsatib o'tilgan. Ushbu ustuvor maqsadlar umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarida faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish mazmuni, tamoyillari, metodikasi hamda pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimi nafaqat o'quvchilarga fan bilimlarini berish, balki ularni jamiyatda faol ishtirok etuvchi, mas'uliyatli va demokratik qadriyatlarni qabul qiluvchi shaxslar sifatida tarbiyalashga ham yo'naltirilgan. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalari o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida markaziy o'rin tutadi. Ijtimoiy kompetensiya shaxsning jamiyat bilan samarali muloqot qila olish, ijtimoiy rollarni tushunish, muloqot va

hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish qobiliyatini ifodalaydi. Fuqarolik kompetensiyasi esa o‘quvchining demokratik qadriyatlarni qabul qilishi, huquqiy ong va mas’uliyatni his qilishi, jamiyat hayotida faol ishtirok etish qobiliyati bilan bog‘liq.

Nazariy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish bir tomonlama o‘qitish bilan cheklanmaydi; u o‘quvchilarning faoliyati, muloqot tajribasi va amaliy ishlar orqali rivojlanadi. Shu bois, pedagogika fanida ushbu kompetensiyalarning nazariy asoslarini o‘rganish va ularni ta’lim jarayonida samarali shakllantirish usullarini aniqlash dolzarb masala sifatida e’tiborga olinadi.

Ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalari — bu shaxsning jamiyat bilan samarali muloqot qila olish, ijtimoiy rollarni tushunish, huquqiy va axloqiy me’yorlarni hurmat qilish, shuningdek, jamiyat hayotida faol ishtirok etish qobiliyatidir. Ular shaxsning shaxsiy, ijtimoiy va fuqarolik rivojlanishining markaziy elementini tashkil etadi va o‘quvchining nafaqat bilimga, balki ijtimoiy mas’uliyatga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Ijtimoiy kompetensiya shaxsning boshqalar bilan muloqot qilish, jamoaviy ishlarda samarali qatnashish, muammolarni konstruktiv tarzda hal qilish va o‘z hissasini qo‘shish qobiliyatini ifodalaydi. Fuqarolik kompetensiyasi esa demokratik qadriyatlarni anglash, qonuniylikni hurmat qilish, shaxsiy mas’uliyatni his qilish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta’limning maqsadi jamiyat va davlat ishlarida faol, o’zining mustaqil fikriga ega, ilmli, bilimli, qaysi soha yoki kasb egasi bo’lishidan qat’iy nazar o’z kasbining ustasi bo’lgan intiluvchan, ijodkor, kashfiyotchi, bo’layotgan voqeliklarga tanqidiy baho berib o’z fikrlarini mustaqil ayta oladigan, tez o’zgarayotgan zamonga o’zining salohiyati bilan moslasha oladigan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur maqolada yuqori sinf o‘quvchilarida ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish muammosining dolzarbligi hususida so’z yuritiladi.

**Tahlillar va natijalar.**

Mustaqillik qo‘lga kiritilgach, mamlakatimizda kelajak bunyodkorlari bo‘lgan yoshlarni uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalardagi faolligini oshirish masalalariga ilmiy-nazariy jihatdan e’tibor qaratila boshlandi. Ko‘plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida harakatchanligi va jamiyatning taraqqiyoti va yangilanishidan manfaatdorligi tufayli yoshlar o‘ziga xos g‘ayrat, tashabbuskorlik, barcha yangi va ilg‘or narsalarga moyilligi bois, olib borilayotgan o‘zgarishlar yo‘lining ulkan bunyodkor salohiyatiga, asosiy ijtimoiy negiziga aylanishi, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimida yoshlar: mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayoti barcha tomomnlarini yangilash ijtimoiy negizi, jamiyatning mamlakat taqdiri va uning kelajagi uchun fuqarolik mas’uliyat hissi rivojlangan siyosiy faol qismini to‘ldirib borish manbasi, jamiyat barqarorligini ta’minlashda o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olish zarur bo‘lgan aholi toifasi sifatida qaralishi zarurligi ta’kidlab o‘tildi[5].

Kompetentsiyaviy yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil etishning pedagogik va metodik jihatlari, dars jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish hamda o‘quvchilarda kompetentsiyalarni shakllantirish, rivojlantirish masalalari xorijda SH.Balli, K.Byuler, E.Benvenist, A.V.Xutorskoy, G.Spenser, A.Blum, rus pedagogikasida Ye.Rujьeva, A.Efremova, A.Zimnyaya, I.Baydenko, G.Sayaxovalar, o‘zbek pedagogikasida N.Azizxo‘jayeva, U.Begimqulov, R.Ishmuhamedov, M.Tojiyev, N.Muslimov, N.Turdiyev, O.Qo‘ysinov, U.Mingboyev, G.Ibragimova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan, biroq o‘quvchilarda ijtimoiy emotsional va fuqarolik kompententligini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalari monografik tadqiq etilmagan.

Fuqarolik tarbiyasi – bu o‘quvchi-yoshlar tomonidan demokratik o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini egallash, shaxsning siyosiy, axloqiy va huquqiy tanlovi, qonunlarga so‘zsiz itoat etish, tartibni saqlash, davlat mudofaasi uchun mas’uliyatni his qilish, maqsadli, amalga oshiriladigan pedagogik jarayondir. Fuqarolik tarbiyasining mohiyati shaxsning yuridik, ijtimoiy, axloqiy va siyosiy qobiliyatini his qilishga imkon beradi.

Muallif E.H.Xalilov huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurishning dolzarb muammolari haqida so‘z yuritar ekan, insonning jamiyatda yashab turib, undan xoli bo‘lish mumkin emasligini ta’kidlaydi. Shu sababli ijtimoiy majburiyatlarni ixtiyoriy va ongli ravishda bajarish – demokratiyani yanada rivojlantirish, ijtimoiy intizomni mustahkamlash, insonni tarbiyalashning zarur shartidir. Shu tufayli jamiyat oldidagi mas’uliyatni anglab etish shaxsning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatidagi elementlardan biridir[6] deya ta’kidlaydi.

Shu o‘rinda faollik tushunchasiga izoh berib o‘tamiz. Faollik – shaxsning o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun voqelikni o‘zgartirishga qaratilgan muhim qobiliyatidir. Faollik ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo‘lib, u insonning mehnat, o‘qish, o‘yin faoliyatlarida, shuningdek, shaxsning faolligi uning turli qiziqishlarida, ehtiyojlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Hozirgi zamon ilmiy psixologiyasi inson shaxsiy faolligining asosiy manbai uning ehtiyojlari deb tushuntiradi. Insonning ehtiyojlari biologik shartlanganlikdan tashqari moddiy va ma’naviy ko‘rinishlardan iboratdir. Odamning ehtiyoji unga ta’lim va tarbiya berish jarayoniad shakllanadi, ya’ni insoniyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajriba, ko‘nikma, malaka, odat, ma’naviyat, qadriyatlar bilan yaqindan tanishish, ularni o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi. SHuning uchun odamning o‘z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot darajasi bilan o‘lchanadigan

faoliyat shakli va turini egallashning faol, maqsadga yo‘naltirilganligi, ma’lum rejaga asoslangan ijodiy ko‘rinishi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi[7]. Fuqarolik tarbiyasi quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim.

1. Huquq va erkinliklar-Fuqarolik tarbiyasi insonga o‘zining asosiy huquq va erkinliklarini o‘rganish va himoya qilishda yordam berishi kerak. Bu huquqlarga so‘z erkinligi, fikr erkinligi, e’tiqod erkinligi, tenglik, adolatli sudlov huquqi va shaxsiy daxlsizlik kiradi.

2. Demokratiya Fuqarolik tarbiyasi demokratik qadriyatlarni o‘rgatishi, demokratik jarayonlarda shaxslarning ishtirokini rag‘banlantirishi kerak. Bu saylovlarda qatnashish, ovoz berish, nodavlat tashkilotlatiga a’zo bo‘lish, norozilik bildirish huquqi kabi masalalar kiradi.

3. Majburiyatlar-Fuqarolik tarbiyasi shaxsning jamiyatdagi mas’uliyatini tushunishiga yordam berishi kerak. Bu majburiyatlarga soliq to‘lash, atrof-muhitni muhofaza qilish,yo‘l-harakat qoidalariga rioya qilish,inson huquqlarini hurmat qilish va jamiyatdagi boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish kiradi.

4. Adolat-Fuqarolik tarbiyasi insonlarga adolat tushunchasini tushunishga yordam berishi kerak. Bunga qonunning teng qo‘llanilishi, adolatli sudlov,inson huquqlari va qonun ustuvorligi kabi masalalar kiradi.

Hozirgi yillarda O‘zbekiston hududida fuqarolik tarbiyasi juda ham tuzatishlarga muhtojdir. Nima sababdan deganda o‘z fuqarolik huquqlarini tushunmaydigan ,bilmaydigan oilalar ko‘payib bormoqda. Shu sababli fuqarolik tarbiyasi nima ekanligini jamiyatning ko‘p sonli qismi bilishmaydi va hech qanday tushunchalarga ham ega emaslar. E’tibor berilgan bo‘lsa ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda davlat siyosatida birinchi o‘rinda fuqarolik tarbiyasi, vatanni sevish, jamiyatni hurmat qilish kabi g‘oyalar ustuvor hisoblanadi. Misol uchun Yaponiyaning juda ham tezlikda taraqqiy etganiga nazar tashlaydigan bo‘lsak ularda xalqning juda jipslashib birikkaniga, xalq o‘z vatanini qadrlashiga va fuqarolik tarbiyasi yuqori cho‘qqidaligiga guvoh bo‘lamiz.

Tadqiqotchi N.Saburov[8] fuqarolik faolligini ijtimoiy-huquqiy faollikning turi sifatida tahlil etadi. Uning ta’riflashicha, fuqarolik faolligi ijtimoiy faollikning tarixan muayyan sifatini, aniqroq aytganda, asosiy faoliyatni amalga oshirishning faollik darajasini yoki insonning asosiy kuchlarini ishga solish darajasini, shuningdek, ixtiyoriy faoliyatning unga mos keluvchi shaklini tavsiflaydi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarida vatanparvarlikni tarbiyalashda «Tarbiya» fanining ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari kattadir. Chunki “Tarbiya” fanini o‘qitishda o‘quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinadi, fanning mazmuni o‘quvchilarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishga qaratiladi, o‘quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, media-mahsulotlardan unumli foydalanish uchun didaktik ta’minot hamda pedagogik shart-sharoitlar yaratiladi.

O‘z taqdiriga befarq bo‘lmagan qaysi jamiyatda ijtimoiy islohot zarurati yuzaga kelsa-deb ta’kidlaydi o‘zbek olimi M.Quronov, - o‘sha jamiyatda maktabga, tarbiyaga e’tibor keskin kuchayib, tarbiya- jamiyatni takomillashtirishning bosh vositasi, deya tan olinadi[11]. SHuningdek, muallif zamonaviy maktab o‘zbek xalqining eng go‘zal fazilatlaridan bo‘lgan milliy g‘urur, millatlararo muloqot madaniyati, vatanparvarlik, milliy odob, sof vijdon, milliy g‘oyani o‘z yo‘l ko‘rsatkichi qilib olib, yagona Vatan – O‘zbekistonning dunyo miqyosidagi sharafiga xizmat qila oluvchi o‘g‘il-qizlarning yangi avlodini tarbiyalab etishtirishi lozimligini ham aytib o‘tadi.

«Tarbiya» fani 10 — 11-sinflarda 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi belgilanganligini nazarda tutadigan bo‘lsak, bu yuqori sinf o‘quvchilarida vatanparvarlikni yuksak axloqiy fazilat sifatida rivojlantirish va ularni faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishlarini ta’minlash maqsadini amalga oshirish uchun eng samarali bosqich bo‘lishi mumkin.

Bu maqsadni amalga oshirishda “Tarbiya” fani o‘qituvchilari ta’lim –tarbiya mazmunini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida boyitishlari, ilg‘or horijiy tajribalarni tatbiq etish, zamonaviy axborot hamda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishlari zarur.

Ana shundagina mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirishda, avvlo, kelajakka ishonchni, vatanparvarlik, halollik va fidoyilikni tarbiyalash kabi maqsadlarga erishish mumkin bo‘ladi.

Uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchi-yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda vatanga e’tiqod, fuqarolik tuyg‘ularini shakllantirishning huquqiy, ijtimoiy-pedagogik va psixologik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etildi.

Jumladan, E.M.Kadirov jamiyatning dinamik o‘zgarishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy qatlam sanalmish yoshlar o‘z qarashlari, qiziqishlari, qadriyat va manfaatlari orqali jamiyatdagi o‘zgarish hamda islohotlarni boshidan kechirishini tadqiq etib, aynan o‘spirin yoshlarning hayotiy pozitsiyasi va uning ijtimoiy qiyofasining qandayligi bevosita jamiyat rivojiga bog‘liq bo‘lsa, yoshlar huquqiy va siyosiy madaniyatining yuksakligi, ular ijtimoiy faolligi mamlakatimiz taqdirini belgilab beruvchi omil ekanligini asoslab bergan[9].

Zamonaviy o‘qituvchi fuqarolik tarbiyasida innovatsion pedagogik yondashuvlardan keng foydalanishi lozim. Jumladan, muammoli ta’lim, loyiha asosidagi o‘qitish, bahs-munozaralar, rolli o‘yinlar, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish orqali o‘quvchilarda mas’uliyat, mustaqillik va ijtimoiy faollik sifatlarini rivojlantirish mumkin. Bu metodlar o‘quvchilarni fikrlashga, muammolarga yechim topishga, hamkorlikda ishlashga o‘rgatadi.

Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilarni sinfdan tashqari faoliyatlar — tadbirlar, ijtimoiy loyihalar, ko‘ngillilar harakatlari, mahalla yoki maktab kengashlari ishlariga jalb etish orqali ham fuqarolik kompetensiyalarini mustahkamlaydi. Bunday faoliyatlar o‘quvchilarda jamoatchilik ruhini, birdamlikni, rahbarlik ko‘nikmalarini va vatanparvarlik tuyg‘usini oshiradi.

**Xulosalar.**

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyati qurishda faol hayotiy pozitsiyasini egallay oladigan chinakam vatanparvar yoshlarni tarbiyalash ta’lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Buning uchun milliy mafkura va istiqlol g‘oyasini singdirish orqali o‘quvchi-yoshlarda porloq kelajakka intilish va qat’iy ishonch tuyg‘usini shakllantirishga alohida ahamiyat berildi. Chunki milliy mafkuramizga aks etgan bunyodkor va xalqchil g‘oyalar fuqarolarni faol harakatga undaydi, yaxshi va saodatli kunlarga ishonch hissini uyg‘otadi.

Yosh avlodda o‘z millatidan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirish, Vatanning muqaddasligini chinakam iymon-e’tiqodga aylantirish buyuk mamlakatimizning buguni, ertasi va istiqbolini porloq bo‘lishi, jahonhamjamiyatida o‘z o‘rni va nufuzini mustahkam egallashiga kafil bo‘la oladi.

**Foydanalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1.Uzluksiz ma’naviy tarbiya KONSEPSIYASI. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi“Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qaroriga 1-ILOVA.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»GI PF-60-sonli Farmoniga 1-ilova

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-son Farmoni.

4.Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: «O‘zbekiston», NMIU, 2017 y. – 91-bet.

5. Musurmonova O., Qirg‘izboyev A., Jamoldinov O., Yo‘ldosheva S., Riskulova K., Atayeva G. Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlar ma’naviyatini shakllantirish. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. -128 b.

6.Xalilov E.H. Ijtimoiy turmushda huquqiy ongning o‘rni. –T.: “O‘zbekiston”, 1997. -48 b.

7.G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. Darslik / Toshkent. O‘zMU “Universitet” nashriyoti, 2002 y. – 138 b.

8.Saburov N.Shaxs siyosiy-huquqiy faolligi – fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim omili / Monografiya. – T.: TDYUI, 2009, - 6 b.

9.Kadirov E.O. Yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirish masalalari (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari misolida): Yuridik fanlari doktori (DSc). … diss. Avtoref.–Toshkent, 2019. -57 b.

10.Akramov A.A.Shaxsga yo‘**naltirilgan** ta’lim texnologiyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. dok. diss. Avtoref. – Toshkent, 2016. – 78 b.

11.Milliy tarbiya/ M.Quronov. Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashi. Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. – T.: Ma’naviyat, 2007, -6-b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Jumayeva Muxlisa Shokir qizi**
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
1-kurs DSc doktoranti
e-mail: jumayevamuxlisa40@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0007-0081-4783

## BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING TANQIDIY-KREATIV FIKRLASHINI MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy-kreativ fikrlashini muammoli ta'lim texnologiyalari yordamida takomillashtirishning pedagogik mexanizmlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada muammoli ta'lim asosidagi innovatsion yondashuvlar, interaktiv dars metodlari va o'quv jarayonida refleksiv faoliyatni tashkil etish orqali o'qituvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muammoli ta'lim texnologiyalari o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, o'quvchilarga individual yondashuvni qo'llash va pedagogik innovatsiyalarni samarali joriy etish imkonini beradi. Shu bilan birga, uzluksiz professional rivojlanish ta'lim sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi.*

***Kalit so'zlar:*** *boshlang'ich ta'lim, tanqidiy-kreativ fikrlash, muammoli ta'lim, pedagogik mexanizmlar, professional rivojlanish, pedagogik innovatsiyalar*

**Джумаева Мухлиса Шокир кизи**
Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами
Докторант 1-го курса DSc

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КРИТИЧЕСКОГО И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРОБЛЕМНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

***Аннотация:*** *Статья посвящена изучению педагогических механизмов совершенствования критического и креативного мышления будущих учителей начальных классов с использованием технологий проблемного обучения. В работе анализируются инновационные подходы, интерактивные методы проведения уроков и организация рефлексивной деятельности в образовательном процессе для развития у учителей навыков креативного и критического мышления. Результаты исследования показывают, что технологии проблемного обучения способствуют повышению профессиональной компетенции педагогов, внедрению индивидуального подхода к учащимся и эффективному применению педагогических инноваций. Кроме того, непрерывное профессиональное развитие является важным фактором повышения качества образования.*

***Ключевые слова:*** *начальное образование, критическое и креативное мышление, проблемное обучение, педагогические механизмы, профессиональное развитие, педагогические инновации.*

**Jumayeva Mukhlisa Shokir qizi**
Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan
1st-year DSc Doctoral Student

## PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR ENHANCING CRITICAL AND CREATIVE THINKING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS THROUGH PROBLEM-BASED LEARNING TECHNOLOGIES

***Abstract:*** *This article explores the pedagogical mechanisms for enhancing the critical and creative thinking of future primary school teachers through problem-based learning technologies. The study analyzes innovative approaches, interactive teaching methods, and the organization of reflective activities in the learning process to develop teachers' creative and critical thinking skills. The findings indicate that problem-based learning technologies enhance teachers' professional competencies, support individualized*

*approaches to students, and facilitate the effective implementation of pedagogical innovations. Continuous professional development is also identified as a key factor in improving the quality of education.*

***Keywords:*** *primary education, critical-creative thinking, problem-based learning, pedagogical mechanisms, professional development, pedagogical innovations.*

**Kirish.** Hozirgi zamon ta’lim jarayoni tezkor o‘zgarishlar, globalizatsiya va innovatsion talablar bilan ajralib turadi. Ma’lumot va bilimlar tez yangilanib borayotgan sharoitda o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki ijodiy va tanqidiy fikrlay oladigan shaxs sifatida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qituvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim jarayonining sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Zero, ular kelajakdagi avlodning o‘qish, ijodiy va tanqidiy qaror qabul qilish qobiliyatini bevosita shakllantiradi va ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Tanqidiy-kreativ fikrlash — bu shaxsning muammolarni chuqur va mantiqiy tahlil qilish bilan birga, ularga yangicha va samarali yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini ifodalovchi integrativ tafakkur shaklidir. Ushbu yondashuvda tanqidiylik (tahlil qilish, dalillash, baholash, xulosa chiqarish) va kreativlik (g‘oya yaratish, noodatiy yondashuv, innovatsion fikrlash) o‘zaro uyg‘unlashadi.

Tanqidiy-kreativ fikrlash o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish, asosli va innovatsion yechimlar taklif etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida tanqidiy-kreativ yondashuvni rivojlantirish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlashga yo‘naltirish hamda ta’lim jarayoniga interfaol va refleksiv metodlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammoli ta’lim texnologiyalari o‘quv jarayonida o‘qituvchilarni faol, mustaqil va refleksiv fikrlashga yo‘naltiradi. Bu texnologiyalar darslarda interaktiv metodlar, muammoli vazifalar va masalalar orqali o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatida tanqidiy-kreativ fikrlashni rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash va takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy masala sifatida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, pedagogik jarayonning sifatini oshirish, o‘quvchilarning o‘zini ifoda etish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun o‘qituvchilarning tanqidiy-kreativ yondashuvlarni egallashlari shart. Shu sababli, muammoli ta’lim texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘qituvchilarni tayyorlash nafaqat ularning shaxsiy malakasini oshiradi, balki ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga ham imkon yaratadi.

Shu asosda, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy-kreativ fikrlashini muammoli ta’lim texnologiyalari vositasida rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini aniqlash va takomillashtirishdir. Tadqiqot natijalari nafaqat boshlang‘ich ta’limda pedagogik amaliyotni boyitadi, balki o‘qituvchilarning professional malakasini oshirish va zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion metodlarni qo‘llashga xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi va metodlari.** Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy-kreativ fikrlashini muammoli ta’lim texnologiyalari vositasida rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini aniqlash va takomillashtirishdir. Shu maqsadga erishish uchun tadqiqot bir qator aniq vazifalarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, birinchidan, tanqidiy-kreativ fikrlash tushunchasini pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish; ikkinchidan, muammoli ta’lim texnologiyalari va ularning pedagogik imkoniyatlarini o‘rganish; uchinchidan, bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogika, psixologiya va metodika ilmiy asoslariga tayangan bo‘lib, unda bir nechta metodlar tizimli tarzda qo‘llanildi.

Nazariy tadqiqot metodlari orqali mavjud adabiyotlar, ilmiy maqolalar va pedagogik tajribalar tahlil qilindi, sintez qilindi va taqqoslandi. Shu bilan birga, tanqidiy-kreativ fikrlash va muammoli ta’lim texnologiyalariga oid kontseptual modellar ishlab chiqildi, ular tadqiqotning konseptual asosini tashkil qildi. Bu bosqichda pedagogik yondashuvlarning nazariy asoslari va ularning amaliy ahamiyati batafsil tahlil qilindi.

Empirik tadqiqot metodlari bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy-kreativ fikrlash darajasini aniqlash va ularning muammoli ta’lim texnologiyalarini qo‘llashdagi amaliy ko‘nikmalarini o‘rganish uchun ishlatildi. Xususan, kuzatish va intervyu usullari orqali o‘qituvchilarning ta’lim jarayonidagi faoliyati baholandi, shuningdek, so‘rovnomalar va testlar yordamida ma’lumotlar tizimli ravishda yig‘ildi. Dars jarayonida muammoli ta’lim texnologiyalarini sinovdan o‘tkazish orqali ularning samaradorligi va tanqidiy-kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi rolini aniqlashga harakat qilindi.

Analitik va statistik metodlar esa tadqiqot natijalarini ilmiy asosda tahlil qilish uchun qo‘llanildi. Olingan ma’lumotlar tasniflandi, solishtirildi va tahlil qilindi, natijalar diagramma, grafik va jadval shaklida vizualizatsiya qilindi. Shu orqali muammoli ta’lim texnologiyalarining o‘qituvchilarning tanqidiy-kreativ fikrlashini rivojlantirishdagi samaradorligi aniq ko‘rsatildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi pedagogik mexanizmlarning samaradorligini amaliy eksperimentlar va kuzatishlar orqali tasdiqlashda, shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy-kreativ fikrlashini rivojlantirishga doir aniq va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda namoyon bo‘ladi. Shu yo‘l bilan tadqiqot nafaqat nazariy asoslarni boyitadi, balki amaliy ta’lim jarayonini takomillashtirishga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy-kreativ fikrlashini muammoli ta’lim texnologiyalari orqali rivojlantirishning samaradorligini tizimli tarzda ko‘rsatdi. Empirik tadqiqot davomida kuzatishlar, intervyular, so‘rovnomalar va testlar orqali yig‘ilgan ma’lumotlar pedagogik jarayonning turli bosqichlarida o‘qituvchilarning fikrlash ko‘nikmalarini aniq baholash imkonini berdi.

1. Boshlang‘ich holatning tahlili

Tadqiqotning boshlang‘ich bosqichida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari orasida kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘rsatkichlari nisbatan past edi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki:

O‘qituvchilarning 35–40% dars jarayonida muammoli vazifalarni qo‘llashda qiyinchiliklarga duch kelgan;

45% respondentlar murakkab pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va yechim ishlab chiqishda passiv bo‘lgan;

So‘rovnomalar va test natijalari o‘qituvchilarning tanqidiy-kreativ fikrlash ko‘rsatkichlarini o‘rtacha darajada (55–60%) ekanligini ko‘rsatdi.

Bu natijalar pedagogik jarayonda muammoli ta’lim texnologiyalarini tizimli qo‘llash zarurligini ko‘rsatdi.

2. Muammoli ta’lim texnologiyalarini qo‘llash natijalari

Muammoli ta’lim texnologiyalari doirasida darslarni interaktiv shaklda tashkil etish, guruh ishlari, rolli o‘yinlar va problemaviy vazifalarni qo‘llash o‘qituvchilarning fikrlash ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

Kreativ fikrlash ko‘rsatkichlari 80–85% ga oshdi;

Tanqidiy fikrlash ko‘rsatkichlari 75–80% ga yetdi;

O‘qituvchilar murakkab pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va yechim ishlab chiqishda mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgandi;

Interaktiv mashqlar orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning qiziqish va faolligini oshirishda yangi metodlarni muvaffaqiyatli qo‘llashni o‘rgandi.

Bundan tashqari, dars jarayonida muammoli vazifalarni yechish bo‘yicha ko‘rsatkichlar o‘qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash darajasi bilan bog‘liqligi aniqlangan. Bu esa muammoli ta’lim texnologiyalarining samaradorligini yanada mustahkamladi.

3. Pedagogik mexanizmlarning samaradorligi

Tadqiqot davomida muammoli ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning quyidagi pedagogik mexanizmlari aniqlandi va ularning samaradorligi ilmiy jihatdan baholandi:

Muammoli vazifalar va masalalar tizimi: o‘qituvchilarning murakkab vaziyatlarni tahlil qilish, yechim ishlab chiqish va dars jarayonida kreativ yondashuvlarni qo‘llash qobiliyatini oshirdi.

Interaktiv metodlar (guruh ishlari, muhokamalar, rolli o‘yinlar): mustaqil fikrlashni rivojlantirish va o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish imkonini berdi.

Refleksiv va tahliliy mashqlar: o‘qituvchilarga o‘z pedagogik faoliyatini baholash va takomillashtirish imkonini yaratdi, shu bilan birga, darslarda kreativ yondashuvlarni tatbiq etishni osonlashtirdi.

Nazariy va amaliy integratsiya: konseptual bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash orqali tanqidiy-kreativ fikrlashni mustahkamlashga xizmat qildi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, pedagogik mexanizmlarning kompleks qo‘llanilishi o‘qituvchilarning tanqidiy-kreativ fikrlash ko‘rsatkichlarini maksimal darajada oshirishga yordam berdi.

4. Empirik natijalarning vizual tahlili

Olingan natijalarni diagramma va grafiklar yordamida vizualizatsiya qilish muammoli ta’lim texnologiyalarining samaradorligini aniq ko‘rsatdi. Masalan:

Diagrammalar o‘qituvchilarning kreativ fikrlash ko‘rsatkichlarining dastlabki 55% dan 85% gacha o‘sishini ko‘rsatdi;

Tanqidiy fikrlash ko‘rsatkichlari esa 60% dan 80% gacha oshganini tasdiqladi.

Bu natijalar muammoli ta’lim texnologiyalarini tizimli qo‘llash pedagogik jarayonning sifatini sezilarli darajada oshirishini tasdiqlaydi.

5. Ilmiy-amaliy xulosalar

Natijalar shuni koʻrsatadiki:

Muammoli ta’lim texnologiyalari bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy-kreativ fikrlashini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir;

Pedagogik mexanizmlarning integratsiyalangan qo‘llanilishi o‘qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish qobiliyatini oshiradi;

Ushbu yondashuv o‘qituvchilarni mustaqil fikrlashga, pedagogik qarorlar qabul qilishga va dars jarayonini yanada interaktiv va samarali qilishga yo‘naltiradi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik jarayonida muammoli ta’lim texnologiyalarini keng qo‘llash zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi va kelajakdagi pedagogik amaliyot uchun muhim tavsiyalar beradi.

**Tahlil va muhokama (Discussion).** Tadqiqot natijalari bo‘yicha olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy-kreativ fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishi samarali pedagogik mexanizm sifatida xizmat qiladi. Natijalar, avvalo, o‘qituvchilarning mustaqil fikrlash, vaziyatlarni tahlil qilish va ijodiy yechimlar ishlab chiqish qobiliyatining sezilarli darajada oshganligini ko‘rsatdi. Bu o‘z navbatida dars jarayonida interaktiv va muammoli vazifalarni qo‘llashning pedagogik ahamiyatini tasdiqlaydi.

1. Tanqidiy-kreativ fikrlash va pedagogik jarayon

Tadqiqot davomida olingan natijalar pedagogik nazariyalar bilan muvofiqdir. Xususan, Vygotskiy va Brunerning ta’limiy konstruktivizm nazariyasi, o‘qituvchilarning faol va muammoli vaziyatlar orqali bilimlarni shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi. Muammoli ta’lim texnologiyalari esa aynan shu yondashuvni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatida tanqidiy-kreativ fikrlashni rivojlantirish — faqat bilim berish emas, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan kompleks jarayon hisoblanadi.

2. Muammoli ta’lim texnologiyalarining pedagogik samaradorligi

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, muammoli ta’lim texnologiyalarining samaradorligi bir nechta omillarga bog‘liq:

**-Vazifalarning murakkabligi va kontekstga mosligi:** o‘qituvchilar uchun problemaviy vazifalar real pedagogik situatsiyalar bilan bog‘liq bo‘lganda, ularning kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ladi.

**-Interaktiv va refleksiv metodlarning integratsiyasi:** guruh ishlari, muhokamalar va rolli o‘yinlar o‘qituvchilarni faollikka jalb qiladi va dars jarayonini qiziqarli qiladi.

**-Nazariy va amaliy bilimlarning uyg‘unligi:** konseptual bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, o‘qituvchilarning pedagogik qarorlar qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Bu esa shuni ko‘rsatadiki, muammoli ta’lim texnologiyalarining samaradorligi faqat metodik vositalar bilan cheklanmaydi, balki ularning pedagogik yondashuv va dars jarayoniga moslashtirilish darajasiga ham bog‘liq.

3. Tadqiqot natijalarini amaliy kontekstga tatbiq etish

Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun muammoli ta’lim texnologiyalarini qo‘llash pedagogik tayyorgarlik jarayonida bir qator afzalliklarni beradi:

-O‘qituvchilar murakkab vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish va yechim ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo‘ladi;

-Dars jarayonida interaktiv metodlarni samarali qo‘llash orqali o‘quvchilarning faolligi va qiziqishi oshadi;

-Pedagogik faoliyatning sifatini baholash va o‘zini rivojlantirish mexanizmlari shakllanadi.

Shuningdek, natijalar bo’lajak o‘qituvchilarning tanqidiy-kreativ fikrlash ko‘rsatkichlarini oshirish uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Masalan, problemaviy vazifalarni dars rejalariga kiritish, guruh ishlari va refleksiv mashqlarni muntazam qo‘llash, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda sinash va baholash kabi tavsiyalar samarali hisoblanadi.

4. Ilmiy va amaliy ahamiyati

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u pedagogik jarayonda tanqidiy-kreativ fikrlashni rivojlantirish mexanizmlarini tizimli ravishda aniqladi va muammoli ta’lim texnologiyalarining samaradorligini ilmiy asosda tasdiqladi. Amaliy ahamiyati esa shundaki, olingan natijalar bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida metodik qo‘llanma sifatida ishlatilishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, pedagogik faoliyatning sifatini oshirish va o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. Natijalarni boshqa tadqiqotlar bilan taqqoslash

Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan ham uyg‘unlik ko‘rsatadi. Masalan, muammoli ta’lim texnologiyalarining kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi samaradorligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar (Fisher, 2011; Torrance, 2014) shuni ko‘rsatadiki, pedagoglarning faolligi va interaktiv metodlarni qo‘llash darajasi fikrlash ko‘nikmalarining oshishiga bevosita ta’sir qiladi. Shu bilan birga, mamlakatimiz sharoitida bu tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tayyorgarligi kontekstida yangi amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan ahamiyatlidir.

6. Cheklovlar va kelajakdagi tadqiqotlar yo‘nalishlari

Tadqiqotda ba’zi cheklovlar mavjud:

-Empirik natijalar faqat ma’lum bir hududdagi maktablarda sinovdan o‘tkazildi;

-Tadqiqot davomida faqat bir nechta muammoli ta’lim metodlari qo‘llandi;

-Tanqidiy-kreativ fikrlashni baholash sub’ektiv me’yorlar asosida amalga oshirildi.

Kelajakdagi tadqiqotlar bu cheklovlarni bartaraf etish, turli hudud va maktab turlarida muammoli ta’lim texnologiyalarining samaradorligini tadqiq etish va yangi pedagogik innovatsiyalarni tatbiq qilishga yo‘naltirilishi mumkin.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy-kreativ fikrlashini muammoli ta’lim texnologiyalari orqali rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini aniqlash va takomillashtirishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, muammoli ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘qituvchilarning mustaqil fikrlash, analitik qobiliyat va ijodiy yechim ishlab chiqish salohiyatini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik jarayonda muammoli vazifalar va interaktiv metodlarni muntazam qo‘llash, bo‘lajak o‘qituvchilarning professional kompetensiyalarini mustahkamlash va pedagogik faoliyat sifatini yaxshilashning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot davomida olingan empirik ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari muammoli vazifalarni yechish jarayonida nafaqat tanqidiy fikrlash, balki kreativ yondashuv, muammoni aniqlash va yechimlarni tizimli shakllantirish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Ushbu ko‘nikmalar pedagogik jarayonning sifatini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi va ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari pedagogik amaliyot uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi. Masalan, dars rejalariga problemaviy vazifalarni muntazam kiritish, guruh ishlari va refleksiv mashqlarni qo‘llash, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda sinab ko‘rish va natijalarni baholash bo‘lajak o‘qituvchilarning tanqidiy-kreativ fikrlashini rivojlantirishda samarali mexanizm hisoblanadi. Shu bilan birga, muammoli ta’lim texnologiyalarini qo‘llash pedagogik jarayonni interaktiv, qiziqarli va natijaga yo‘naltirilgan qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u pedagogik jarayonda tanqidiy-kreativ fikrlashni shakllantirishning mexanizmlarini tizimli tarzda aniqladi va amaliy eksperimentlar orqali tasdiqladi. Amaliy ahamiyati esa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida metodik qo‘llanma sifatida tatbiq etilishi, pedagogik faoliyat sifatini oshirish va o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari kelajakda pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va muammoli ta’lim texnologiyalarining samaradorligini kengaytirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotning cheklovlari va aniqlangan kamchiliklari kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo‘nalishlar belgilab beradi: turli hudud va maktab turlarida muammoli ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish, pedagogik jarayonning individual xususiyatlarini hisobga olish va yangi interaktiv metodlarni integratsiya qilish orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy-kreativ fikrlashini yanada samarali rivojlantirish mumkin.

Umuman olganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy-kreativ fikrlashini muammoli ta’lim texnologiyalari orqali rivojlantirish nafaqat ularning professional kompetensiyalarini oshiradi, balki ta’lim jarayonining sifatini yaxshilash va yangi avlodning ijodiy va tanqidiy fikrlash salohiyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik mexanizm ekanligi tadqiqot orqali isbotlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Abdullayeva, N. (2020). *Pedagogik innovatsiyalar va muammoli ta’lim texnologiyalari*. Toshkent: O‘qituvchi.

2.Bobojonova, D., & Karimova, M. (2019). Kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasi. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 3(2), 45–53.

3.G‘aniyev, R. (2018). *Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda tanqidiy fikrlashni shakllantirish*. Toshkent: Fan.

4.Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2017). *Cooperative learning and critical thinking in education*. New York: Pearson.

5.Jumayeva M.Sh. *Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari.* Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari 6/2025, 114-121.

6.Karayeva, S. (2021). *Muammoli ta’lim texnologiyalari asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish*. Samarkand: Markaziy nashriyot.

7.Lipman, M. (2003). *Thinking in Education*. Cambridge: Cambridge University Press.

8.Nematova, F. (2022). Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy fikrlashini rivojlantirishning amaliy yo‘llari. *Pedagogika va innovatsiya*, 5(1), 22–31.

9.Paul, R., & Elder, L. (2014). *Critical thinking: Tools for taking charge of your learning and your life*. Boston: Pearson.

10. Rahimova, Z. (2020). Darslarda interaktiv va muammoli metodlarni qo‘llash tajribalari. *O‘zbekiston pedagogik olimi*, 6(4), 10–18.

11. Shokirova, M., & Tursunov, A. (2019). Kreativ va tanqidiy fikrlashni shakllantirish mexanizmlari. *Ilmiy pedagogik jurnal*, 2(7), 55–63.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Abdullayev Akmal Nasriddinovich**
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD

## DIGITAL TA'LIM SHAROITIDA FALSAFIY BILIMLAR ASOSIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI

***Anotatsiya:*** *Maqolada zamonaviy digital ta'lim muhitida talabalarda ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni falsafiy bilimlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning nazariy qismi falsafiy bilimlarning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishga ta'siri, digital resurslar va pedagogik strategiyalarning integratsiyasi masalalariga bag'ishlangan. Amaliy qism esa digital platformalar yordamida ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali metod va usullarini yoritadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Digital ta'lim, falsafiy bilimlar, ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalar, pedagogik strategiyalar, axloqiy rivojlanish, innovatsion metodlar.*

**Абдуллаев Акмал Насреддинович**
Доцент, кандидат философских наук, Наманганский государственный педагогический институт

## СТРАТЕГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ НА ОСНОВЕ ФИЛОСОФСКИХ ЗНАНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОГО ОБУЧЕНИЯ

***Аннотация:*** *В статье анализируется процесс формирования духовно-образовательных компетенций студентов в современных условиях цифрового обучения на основе философских знаний. Теоретическая часть исследования посвящена влиянию философских знаний на духовно-образовательное развитие, а также вопросам интеграции цифровых ресурсов и педагогических стратегий. Практическая часть раскрывает эффективные методы и приёмы развития духовно-образовательных компетенций с использованием цифровых платформ.*

***Ключевые слова:*** *Цифровое обучение, философские знания, духовно-образовательные компетенции, педагогические стратегии, моральное развитие, инновационные методы.*

**Abdullayev Akmal Nasriddinovich**
Associate Professor, PhD, Namangan State Pedagogical Institute

## STRATEGIES FOR DEVELOPING SPIRITUAL AND EDUCATIONAL COMPETENCIES BASED ON PHILOSOPHICAL KNOWLEDGE IN DIGITAL LEARNING ENVIRONMENTS

***Abstract:*** *The article analyzes the process of developing students' spiritual and educational competencies in modern digital learning environments based on philosophical knowledge. The theoretical part of the study is devoted to the influence of philosophical knowledge on spiritual-educational development and the integration of digital resources with pedagogical strategies. The practical part highlights effective methods and techniques for fostering spiritual and educational competencies using digital platforms.*

***Keywords:*** *Digital learning, philosophical knowledge, spiritual-educational competencies, pedagogical strategies, moral development, innovative methods.*

**Kirish:** Zamonaviy ta'lim jarayoni global raqamli transformatsiya davrida sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Digital ta'limning keng joriy etilishi pedagogik jarayonlarni tubdan qayta shakllantirishni talab qiladi, shu bilan birga talabalarda ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi yangi ilmiy va amaliy dolzarblik kasb etmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalar – bu shaxsning axloqiy qadriyatlarni anglash, madaniy merosni qadrlash, shuningdek, jamiyatdagi axloqiy va intellektual normativlar asosida ongli va mas'uliyatli qarorlar qabul qila olish qobiliyatidir[1]. Ushbu kompetensiyalar talabaning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi hamda professional tayyorgarligi bilan bevosita bog'liqdir. Falsafiy bilimlar, o'z navbatida, ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy va metodologik poydevorini tashkil etadi. Falsafa talabalarga tanqidiy fikrlashni, abstrakt tushunchalarni tahlil qilishni va insoniyatning axloqiy me'yorlarini chuqur anglashni o'rgatadi. Shu nuqtai nazardan, falsafiy bilimlar nafaqat nazariy tafakkur vositasi, balki talabalarda ijtimoiy, madaniy va axloqiy ongni shakllantirishning samarali strategiyasi

**Natijalar:** Natijalar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik jarayonni tizim sifatida ko‘rib chiqish va uni jarayonli mexanizmlar asosida boshqarish o‘qituvchi tayyorlash sifatini oshiradi. Ayniqsa, monitoring va refleksiya bosqichlarining muntazam qo‘llanilishi talabalarning o‘z-o‘zini baholash va kasbiy o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari, pedagogik tajriba-sinov ishlari hamda pedagogik amaliyot jarayonlari yaxlit, bir butun dinamik tizim ko‘rinishida tasavvur qilinib loyihalashtirilishi davlat ta’lim standartlari talablarini bajarilishida izchillik va uzviylik tamoyillari asosida amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Chunki barcha ta’lim turlari uchun ahamiyatli bo‘lgan ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari bilan bir qatorda, pedagogik tajriba-sinov ishlari hamda pedagogik amaliyot jarayonlari samaradorligi uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida bo‘lajak o‘qituvchilarda shaxsiy sifatlar, zaruriy tushunchalar va ko‘nikmalar, shuningdek o‘qish va o‘rganishga motivlar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari samaradorligiga ham ahamiyatli ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, model real pedagogik vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali nazariy bilimlarning amaliy faoliyatga transformatsiyasini ta’minlaydi. Bu esa kasbiy moslashuv jarayonini tezlashtiradi.

O‘qituvchilar tayyorlash jarayonini pedagogik tizim sifatida modellashtirish va uni protsessual yondashuv asosida tashkil etish ta’lim sifatini oshirishning samarali yo‘nalishi hisoblanadi.

Taklif etilgan modelda jarayonning uzluksizligini ta’minlaydi, kompetensiyalarni shakllantirishni tizimli yo‘lga qo‘yadi, natijalarni ob’ektiv baholash imkonini beradi hamda pedagogik boshqaruvni optimallashtiradi.

Kelgusida modelni raqamli ta’lim platformalari bilan integratsiyalash va keng ko‘lamli empirik tadqiqotlar orqali chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir

**Hulosa.** Uzluksiz ta’lim tizimida o‘qituvchi tayyorlash jarayonlari uzviylik va uzluksizligi – bu faqat nazariy konstruksiya emas, balki zamonaviy pedagogika amaliyotining zaruriyatidir. Yaratilgan konseptual model pedagogik ta’limni isloh qilish va takomillashtirish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Model muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun barcha darajadagi rahbarlar, o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va boshqa manfaatdor tomonlarning birgalikdagi sa’y-harakatlari zarur. Faqat hamkorlik va yagona maqsadga intilish orqali yuqori malakali, zamonaviy talablarga javob beruvchi o‘qituvchilar tayyorlash mumkin. O‘qituvchi tayyorlash jarayonlari uzviylik va uzluksizligi modeli uzluksiz pedagogik ta’lim tizimini samarali boshqarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va zamonaviy ta’lim talablariga javob beruvchi kompetentli mutaxassislar tayyorlash uchun nazariy va amaliy asos yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

1. Xmel N.D. Pedagogik jarayonning qonuniyatlari. - Moskva: Pedagogika, 2019. - 256 b.
2. Podlasiy I.P. Pedagogika nazariyasi. - Moskva: Yurite, 2020. - 398 b.
3. Zagvyazinskiy V.I. Pedagogika: metodologiya va nazariya. - Moskva: Akademiya, 2018. - 312 b.
4. Orlov A.N. Ta’limni boshqarish asoslari. - Sankt-Peterburg: Piter, 2019. - 421 b.
5. Orlov A.N. Boshqarish tizimining tamoyillari. - Moskva: INFRA-M, 2020. - 287 b.
6. Fishman L.I. Ta’limni boshqarish metodlari. - Moskva: Pedagogika, 2021. - 345 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Gayupova Saodat Xamidovna**
CHDPU dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

## TA’LIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASH: RAQAMLASHUV, KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV VA GLOBAL TENDENSIYALAR

***Annotatsiya.*** *Maqolada ta’lim tizimida kechayotgan tezkor o‘zgarishlar sharoitida pedagog kadrlar tayyorlashni yangicha qarashlar asosida takomillashtirish masalalari yoritiladi. Muallif ta’limning zamonaviy vazifalari, o‘qituvchining yangi kasbiy roli, ta’lim mazmuni va jarayonini qayta loyihalash zaruratini tahlil qiladi hamda pedagogik tayyorgarlikda kompetensiyaviy, amaliyotga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvlarning ahamiyatini asoslaydi. Shuningdek, pedagogning mustaqil kasbiy o‘sishi, natijani dalillarga tayanilgan baholash madaniyati va innovasion muhit yaratish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodik yo‘nalishlar ilmiy-amaliy nuqtai nazardan tavsiflanadi. Maqola xulosalari ta’lim transformatsiyasini amaliy mazmun bilan ta’minlashda pedagogik ta’limni tizimli ravishda yangilash zarurligini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *ta’lim transformatsiyasi; pedagog kadrlar tayyorlash; kasbiy kompetensiyalar; kompetensiyaviy yondashuv; ta’limni loyihalash; amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim; raqamli pedagogika; refleksiya; baholash madaniyati; kasbiy o‘sish.*

**Gayupova Saodat Khamidovna**
Associate Professor, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

## TRAINING OF TEACHING STAFF IN THE CONDITIONS OF EDUCATIONAL TRANSFORMATION: DIGITALIZATION, COMPETENCY-BASED APPROACH AND GLOBAL TRENDS

***Annotation****. The article discusses the issues of improving the training of teaching staff based on new approaches in the context of rapid changes in the education system. The author analyzes the modern tasks of education, the new professional role of the teacher, the need to redesign the content and process of education, and justifies the importance of competency-based, practice-oriented and reflexive approaches in pedagogical training. Also, methodological directions aimed at developing the independent professional growth of the teacher, the culture of evidence-based assessment of the result, and the ability to create an innovative environment are described from a scientific and practical point of view. The conclusions of the article indicate the need for a systematic update of pedagogical education in order to provide the transformation of education with practical content.*

***Keywords****: educational transformation; teacher training; professional competencies; competency-based approach; educational design; practice-oriented education; digital pedagogy; reflection; assessment culture; professional growth.*

**Гаюпова Саодат Хамидовна**
Доцент, доктор философии в области педагогических наук, Чирчикский государственный педагогический университет

## ПОДГОТОВКА ПРЕПОДАВАТЕЛЬСКОГО СОСТАВА В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ: ЦИФРОВИЗАЦИЯ, КОМПЕТЕНЦИОННЫЙ ПОДХОД И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ

***Аннотация****. В статье рассматриваются вопросы совершенствования подготовки педагогического состава на основе новых подходов в контексте быстрых изменений в системе образования. Автор анализирует современные задачи образования, новую профессиональную роль учителя, необходимость переосмысления содержания и процесса обучения, а также обосновывает важность компетентностного, практико-ориентированного и рефлексивного подходов в педагогической подготовке. Также с научно-практической точки зрения описаны методические направления, направленные на развитие самостоятельного профессионального роста учителя, культуры доказательной оценки результатов и способности к созданию инновационной среды. Выводы статьи указывают на необходимость систематического обновления педагогического образования для обеспечения трансформации образования с практическим содержанием.*

***Ключевые слова:*** *трансформация образования; подготовка учителей; профессиональные компетенции; компетентностный подход; образовательный дизайн; практико-ориентированное образование; цифровая педагогика; рефлексия; культура оценивания; профессиональный рост.*

**Kirish.** XXI asrda ta'lim tizimi oldidagi asosiy muammo o'zgarish tezligi bilan inson tayyorgarligi tezligi o'rtasidagi farqning kengayib borayotganidir. Axborot hajmi ortib, bilim tez eskirayotgan bir paytda o'quvchini faqat o'rgatish emas, balki mustaqil o'rganish, qaror qabul qilish va o'z-o'zini boshqarishga yetaklash ta'limning yangi mazmuniga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta'limdagi har qanday yangilanishning haqiqiy mezoni o'quv jarayonida inson fikrlashi, tafakkur madaniyati va mas'uliyatli tanloviga ta'sir ko'rsata olish darajasidir. Bunday shart-sharoitda pedagog kadrlarni tayyorlash masalasi markaziy o'ringa chiqadi: chunki yangilanishlar avvalo o'qituvchining kasbiy pozisiyasi, faoliyat uslubi va ta'limni loyihalash madaniyatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy o'qituvchi faqat bilim yetkazuvchi emas, balki muhit yaratuvchi, o'quvchining rivojlanish trayektoriyasini boshqara oluvchi va natijani dalillar asosida baholaydigan mutaxassis sifatida shakllanishi lozim.

Ta'lim transformatsiyasi bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, mehnat bozoridagi o'zgarishlar, raqamli texnologiyalar tez sur'atda kirib kelishi hamda kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorlik kasb etishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab va ko'p omilli jarayondir. Ushbu jarayon ta'lim tizimining faqat tashkiliy-me'yoriy jihatlarini emas, balki o'qitish mazmuni, ta'lim shakllari, baholash mexanizmlari va pedagog kasbiy faoliyatining mazmuniy mohiyatini ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu ma'noda, transformatsiya ta'limni yanada zamonaviy qilish bilan cheklanmay, uning maqsad va natijalarini jamiyat ehtiyojiga muvofiq ravishda qayta belgilash, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining rolini yangicha talqin qilish, ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablarni qayta shakllantirish kabi strategik o'zgarishlarni anglatadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ta'lim transformatsiyasi va pedagog kadrlar tayyorlash masalasi bugungi kunda global ilmiy hamjamiyat e'tiboridagi dolzarb mavzulardan biridir. OECD tomonidan ishlab chiqilgan *"Education 2030/ Learning Compass"* yondashuv kompetensiyalarni faqat bilim va ko'nikma emas, balki qadriyat va munosabatlar uyg'unligida (transformative competencies) ko'rib chiqishni taqozo etadi[1].

YUNESKO hisobotlarida texnologiyaning ta'limdagi o'rni tanqidiy baholanib, uning samarasi ko'p jihatdan pedagogik maqsadga bog'liqligi ta'kidlanadi. Raqamli innovatsiyalar ta'limni boyitish va transformatsiya qilish qudratiga ega ekanligi tadqiqotlarda o'z aksini topgan[2].

M.Fullan ta'limdagi o'zgarishlarning yangi ma'nosi va tizimli yangilanish zaruratini asoslagan bo'lsa[7], mahalliy olimlar G'.Muhamedov[5], va U.Xo'jamqulovlar[6], pedagogik ta'lim innovasion klasterining nazariy-metodologik asoslarini, ta'lim va amaliyot integratsiyasini tadqiq etganlar.

J.Biggs tomonidan taklif etilgan *"Constructive alignment"* (konstruktiv uyg'unlik) tamoyillari oliy ta'limda o'qitish va baholashni mazmunan bog'lashga xizmat qiladi[4].

L.von.Bertalanffy nazariyasiga tayangan holda, ta'lim transformatsiyasi elementar o'zgarshilar yig'indisi emas, balki butun tizimning ichki bog'lanishlari va funksiyalarini qayta tashkil etish jarayoni sifatida o'rganildi[3].

Global ta'lim tendensiyalari (OECD, UNESCO, Yevropa Ittifoqi standartlari) va xalqaro tajribalar (masalan, AQSHning NCATE strategiyasi) milliy ta'lim ehtiyojlari bilan qiyosiy o'rganildi. Ta'lim jarayonini gibrid formatlar, *"flipped-class"* (teskari sinf) va *"practice-based"* (amaliyotga asoslangan) modellar asosida loyihalashning metodik yo'nalishlari belgilandi. Ta'lim sifatini boshqarishda indikatorlar va *"learning analytics"* (o'rganish tahlili) usullarining ahamiyati uslubiy jihatdan asoslandi.

**Muhokama va natijalar.** Pedagogik ta'lim tizimi esa transformatsiya jarayonlariga nisbatan eng sezgir sohalardan biri hisoblanadi, chunki u kelajak avlodni tayyorlaydigan o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantiradi. Demak, umumta'limda kuzatilayotgan yangilanishlar, raqamlashuv va integratsiya jarayonlari, ta'lim natijalarining xalqaro mezonlar asosida baholanishi pedagog kadrlar tayyorlash mazmuni va texnologiyalarini ham yangi bosqichga olib chiqadi.

Ta'lim transformatsiyasining asosiy omillari bo'lgan globallashuv, raqamlashuv, kompetensiyaviy talablar va mehnat bozori ehtiyojlari bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar bo'lib, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini mazmunan ham, tashkiliy jihatdan ham qayta ko'rib chiqishni taqozo qiladi. *Globallashuv* sharoitida ta'lim sifati, natijadorlik va raqobatbardoshlikka qo'yilayotgan talablar xalqaro mezonlar bilan qiyoslanadi; bu esa pedagog-o'qituvchidan nafaqat fan va metodikani, balki muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, madaniy muloqot, innovasion faollik kabi universal kompetensiyalarni ham shakllantirishni talab qiladi. *Raqamlashuv* esa o'qitishning an'anaviy shakllarini kengaytiradi: platformalar, raqamli resurslar, gibrid ta'lim, ma'lumotga asoslangan monitoring va tahlil ta'lim jarayonining tabiiy qismiga aylanmoqda. Shu ma'noda quyidagi fikr transformatsiya mohiyatini juda aniq ifodalaydi: "Raqamli innovatsiya ta'limni to'ldirish, boyitish va transformatsiya qilish qudratini namoyon etdi"[1]. Demak, raqamli texnologiya ta'limga

shunchaki qo‘shimcha vosita sifatida qo‘shilmaydi; aksincha, u ta’limning mazmuni, o‘qitish uslublari, baholash mexanizmlari va o‘qituvchi kasbiy rolini qayta tashkil etishga turtki beradi. Demak, pedagog tayyorlashda raqamli-pedagogik savodxonlik, raqamli didaktika va raqamli etika kabi tarkibiy yo‘nalishlar tizimli ravishda shakllantirilishi zarur.

Kompetensiyaviy talablarning kuchayishi ta’lim natijasini bilim hajmi bilan emas, balki bilimni qo‘llash, muammoni hal qilish, vaziyatga mos qaror qabul qilish, refleksiya va hamkorlikda ishlay olish kabi amaliy ko‘nikmalar bilan baholashni oldinga chiqaradi. Shuning uchun pedagogik ta’lim dasturlarida modullashuv, amaliyotga yo‘naltirish, loyiha va keyslar, portfolio va refleksiv topshiriqlar kabi natijaga xizmat qiluvchi shakllar tobora muhimlashib bormoqda. Mehnat bozori ehtiyojlari esa transformatsiyaning eng muhim tashqi buyurtmasidir: kasblar tez yangilanadi, ko‘nikmalar tez eskiradi, ish beruvchilar yangi ko‘nikmalarni ustuvor qo‘yadi. Masalan, Jahon iqtisodiy forumi materiallarida 2025–2030 davrida ko‘nikmalarda sezilarli o‘zgarishlar kutilayotgani va *“skills gap”* ish beruvchilar uchun transformatsiyaga to‘siq omil sifatida ko‘rilayotgani qayd etiladi. Umuman, globallashuv ta’limni xalqaro raqobat maydoniga olib chiqsa, raqamlashuv uning shakl va vositalarini tubdan yangilaydi; kompetensiyaviy talablar natija mezonini o‘zgartiradi; mehnat bozori ehtiyojlari esa mazmunni doimiy yangilashga majbur etadi. Shu bois pedagog kadrlar tayyorlash tizimi ushbu omillarni alohida-alohida emas, yaxlit tizim sifatida hisobga olgan holda qayta loyihalanishi lozim.

Pedagogik ta’lim mazmunidagi o‘zgarishlar jahon miqyosida, avvalo, **kompetensiyalar tuzilmasining kengayishi**, **fanlararo integratsiyaning kuchayishi** va **amaliyot ulushining oshishi** bilan ifodalanmoqda. Birinchi tendensiya kompetensiyani faqat *“bilim–ko‘nikma”* doirasida emas, balki **qadriyat, munosabat, fuqarolik pozisiyasi va mas’uliyat** kabi tarkibiy qismlar bilan birga ko‘rishdir. Masalan, OECDning *“Education 2030 / Learning Compass”* yondashuvida kompetensiyalar bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlar uyg‘unligida talqin qilinib, transformativ kompetensiyalar orqali insonning qarama-qarshiliklarni muvofiqlashtirish va mas’uliyatni zimmaga olish qobiliyatlari alohida ajratiladi[1]. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi *“umrbod ta’lim”* kompetensiyalari ramkasida savodxonlik, ko‘ptillilik, STEM, raqamli kompetentlik, fuqarolik, tadbirkorlik, madaniy xabardorlik kabi kompleks kompetensiyalar yig‘indisini ustuvor deb belgilaydi. Bu tendensiya pedagog tayyorlash mazmunida: *(a)* ***kasbiy-predmet kompetensiyasi***, *(b)* ***pedagogik-ma’naviy-axloqiy va fuqarolik kompetensiyasi***, *(v)* ***raqamli va tadqiqot kompetensiyasi*** kabi yo‘nalishlar bir-biriga bog‘liq holda rivojlantirilishi kerakligini anglatadi [3].

Ikkinchi tendensiya ***fanlararo integratsiya***ning mazmunga sistemali kirib kelishi. Ta’lim tizimlari alohida fanlar yig‘indisidan ko‘ra, muammolarni hal qilishga xizmat qiladigan **integrativ mazmun**ni kuchaytirmoqda: integral STEM/STEAM, barqaror rivojlanish va iqlim ta’limi, mediasavodxonlik, raqamli etika, loyihaviy-tadqiqot yo‘nalishlari shular jumlasidandir. OECD “Knowledge for 2030” konsepsiyasida buni juda aniq ifodalaydi: *“**OECDning “Future of Education and Skills 2030” loyihasi bilimning to‘rt turini farqlaydi: dissiplinar, fanlararo, epistemiologik va jarayonli”***[2]. Demak, pedagogik ta’limda bilim faqat predmet mazmuni sifatida emas, balki **fanlar kesishmasida tushuntirish**, **ilmiy bilish usulini anglash (epistemiologik)** va amaliy faoliyat algoritmlarini (jarayonli) ham qamrab olishi talab etiladi; demak, o‘qituvchi tayyorlashda fanlararo integratsiya, integrativ dars ssenariylari, muammoli-loyihaviy topshiriqlar bilan ishlash alohida mazmun blokiga aylanadi. Barqaror rivojlanish ta’limi (ESD) kabi global yo‘nalishlar ham aynan fanlararo mazmunni talab qiladi va YUNESKO[1] dasturlari buni qo‘llab-quvvatlaydi.

Uchinchi tendensiya **amaliyot ulushining oshishi** va *“practice-based / clinical”* modellarning kuchayishi. Jahon tajribasida pedagog tayyorlashda nazariy kurslarning o‘zi yetarli emasligi, bo‘lajak o‘qituvchi uzoqroq muddatli, rahbar-o‘qituvchi (mentor) qo‘llovidagi amaliy tajriba orqali kasbiy mahoratni shakllantirishi zarurligi ta’kidlanadi; bu yo‘nalish “klinik tayyorgarlik”, “rezidensiya” va maktab-universitet hamkorligiga tayanadigan modellarda namoyon bo‘lyapti. AQSHda o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlarini akkreditatsiya qilish tashkiloti (National Council for Accreditation of Teacher Education (NCATE))ning *“Clinical Practice”* bo‘yicha milliy strategiyasi va keyingi tahlillar amaliyotning ham miqdor, ham sifat jihatdan kuchaytirilishini ustuvor vazifa sifatida ko‘rsatadi. Bu tendensiya mazmun o‘zgarishiga ham ta’sir qiladi: pedagogik ta’limda modullar “amaliyotda qo‘llanadigan kompetensiya”ga bog‘lanib, portfolio, refleksiv hisobot, keys-tahlil kabi natijaga xizmat qiluvchi talablar orqali baholanadi[1].

Ta’lim jarayoni va baholash tizimidagi yangilanishlar bugungi kunda jahon ta’lim makonida transformatsiyaning eng “ko‘rinadigan” qatlami hisoblanadi. Bu yangilanishlar, avvalo, o‘qitish texnologiyalarining faollashuvi (innovasion pedagogik texnologiyalar), ta’limni tashkil etish formatlarining gibridlashuvi va ta’lim natijalarini boshqarishda monitoring hamda indikatorlarga tayanishning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Ushbu uch yo‘nalish o‘zaro bog‘langan: innovasion texnologiyalar ta’lim jarayonini mazmunan boyitsa, gibrid formatlar uning tashkiliy imkoniyatlarini kengaytiradi, monitoring va indikatorlar esa natijani o‘lchash, tahlil qilish va tizimni takomillashtirish uchun ma’lumotli asos yaratadi. Bu jarayonlarning institusional darajadagi ahamiyati Yevropa Ittifoqining “Raqamli ta’lim bo‘yicha harakatlar rejasi (2021-2027)”da (Digital Education Action Plan (2021–2027)) ham ta’kidlanib, sifatli, inklyuziv va barcha uchun ochiq raqamli ta’lim ekotizimini rivojlantirish strategik maqsad sifatida belgilanadi.

Innovasion texnologiyalar sohasidagi tendensiyalar, birinchi navbatda, **o‘quvchini faol sub’yekt** sifatida namoyon qiladigan didaktik qarorlarning ustuvorlashuvi bilan bog‘liq. Jahon amaliyotida muammoli ta’lim, keys-stadi, loyiha-ta’lim, tadqiqotga asoslangan o‘qitish (inquiry/research-based learning), kollaborativ o‘qish, flipped-klass (teskari-sinf) kabi yondashuvlar kengaymoqda. Bu texnologiyalar bilimni tayyor holda uzatishdan ko‘ra, bilimni **faol qurish**, vaziyatni tahlil qilish, dalil keltirish, qaror qabul qilish va refleksiya qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun baholash ham o‘z tabiatiga ko‘ra yangilanadi: an’anaviy yakuniy testdan tashqari, jarayonni kuzatish, tadrijiy o‘sishni qayd etish, formativ baholash, rubrika va kriteriylar asosida baholash, portfolio va mahsulot (loyiha natijasi)ni baholash kabi shakllar keng qo‘llanila boshlaydi. OECD tadqiqotlarida formativ baholashning mohiyati qisqa va aniq ifodalanadi: “**Formativ baholash o‘quvchi tushunishi va rivojlanishini aniqlash uchun tez-tez o‘tkaziladigan interaktiv baholash bo‘lib, u o‘qitishni moslashtirishga xizmat qiladi”** [2]. Bundan shunday metodologik xulosaga kelish mumkinki, baholash hukm chiqarish vositasi emas, balki o‘qitishni boshqarishning pedagogik mexanizmiga aylanadi; demak, innovasion texnologiyalar samarasi aynan formativ baholash, tezkor fikr-mulohaza (feedback) va individual qo‘llab-quvvatlash bilan kuchayadi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish **gibrid formatlar**ning ta’lim tizimida barqarorlashuvidir. Pandemiyadan keyingi davrda ko‘p mamlakatlarda ta’limni faqat masofaviy yoki faqat auditoriyada tashkil etishdan ko‘ra, **auditoriya + onlayn** imkoniyatlarini uyg‘unlashtiruvchi modellar kuchaydi: sinxron va asinxron faoliyatni birlashtirish, raqamli platformalar orqali mustaqil ishni kuchaytirish, auditoriyada esa muhokama, mashq, trening, laboratoriya, keys-tahlil kabi faol ishlarni ko‘paytirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bunday format ta’limni individuallashtirish (o‘quv tempi, resurs tanlash, vazifani differensiatsiyalash), ta’limga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, jahonda gibridlashuv faqat texnik yechim emas, balki pedagogik dizayn, kontent sifati, raqamli tengsizlik va ta’lim etikasi kabi omillarni ham tizimli hal qilishni talab qiladi. YUNESKOning 2023 yilgi “Global ta’lim monitoringi hisoboti: ta’limda texnologiyalar” (“Global Education Monitoring Report: technology in education”) hisobotida texnologiyaning ta’limdagi o‘rnini tanqidiy baholash, uning ta’siri har doim ham avtomatik ravishda ijobiy bo‘lavermasligi, natija ko‘p jihatdan boshqaruv va pedagogik maqsadga bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Shu bois gibrid ta’limda platforma borligi emas, **metodik asoslangan ssenariy**, o‘qituvchining raqamli didaktik tayyorgarligi va baholashning shaffof mezonlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi yo‘nalish ta’lim jarayonini boshqarishda **monitoring va indikatorlarga tayanish**ning kuchayishidir. Bu tendensiya ikki qirrada namoyon bo‘ladi: a) makro-darajada – ta’lim siyosati va muassasa faoliyatini baholashda indikatorlar tizimini rivojlantirish; b) mikro-darajada – sinf/kurs kesimida o‘quv natijalari, ishtirok, faollik, kompetensiya o‘sishini ma’lumotlar asosida kuzatish (learning analytics)[4]. OECD tomonidan ta’lim siyosatiga oid indikatorlarni ishlab chiqish va ular orqali o‘zgarishlarni monitoring qilish zarurati alohida yo‘nalish sifatida asoslanadi. Shu nuqtai nazardan indikatorlar ta’lim sifatiga oid qarorlar qabul qilishda “aqliy tayanch” vazifasini bajaradi: qaysi bo‘g‘inda muammo borligi, qaysi intervensiya samara bergani, qaysi kompetensiyalar sust rivojlanayotgani kabi savollarga dalilga asoslangan javob berish imkoni paydo bo‘ladi. OECDning Learning Compass yondashuvi ham aynan shu masalaga ishora qilib, ta’lim maqsadlarida o‘lchash qiyin bo‘lgan qadriyat va munosabatlar ham qadrlanishi kerakligini eslatadi. Demak, ta’lim jarayoni va baholashdagi yangilanishlar global tendensiya sifatida quyidagi ilmiy qonuniyatni ko‘rsatadi: innovasion texnologiyalar **faol o‘qish muhitini** yaratadi, gibrid formatlar **tashkiliy-didaktik imkoniyatlarni** kengaytiradi, monitoring va indikatorlar esa **ta’lim sifatini dalilga asoslangan boshqarish**ni ta’minlaydi. Shu uchlik uyg‘unlashgandagina transformatsiya shakliy yangilanish darajasida qolib ketmay, ta’lim natijasida kompetensiya, sifat va samaradorlikda real o‘zgarishni ta’minlaydi. Ta’lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlar tayyorlash tizimidagi o‘zgarishlar faqat alohida elementlarni yangilash (o‘quv reja, fan dasturi, texnologiya yoki baholash) bilan cheklanmaydi; aksincha, ular **butun tizimning ichki bog‘lanishlari, funksiyalari va natijaga yo‘nalgan mexanizmlari**ni qayta tashkil etishni taqozo etadi[7].

**Xulosa.** Ta’limdagi o‘zgarishlar samarasi eng avvalo pedagog kadrlarni tayyorlash sifatida namoyon bo‘ladi: o‘qituvchi kasbiy pozisiyasi, ta’limni loyihalash madaniyati va natijani dalillarga tayangan holda baholash qobiliyati yangilanmas ekan, tizimdagi islohotlar tashqi ko‘rinishda qolib ketadi. Shuning uchun pedagogik tayyorgarlikda mazmunni zamonaviy kompetensiyalar bilan qayta qurish, amaliyotga tayanadigan o‘qitish modellarini kuchaytirish, refleksiya va mustaqil kasbiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlaydigan mexanizmlarni joriy etish ustuvor vazifa bo‘lishi kerak. Ana shunda ta’lim transformatsiyasi “hujjatlardagi yangilik” emas, balki o‘quvchi shaxsida namoyon bo‘ladigan haqiqiy rivojlanishga aylanadi.

**Adabiyotlar ro‘yhati**

1. UNESCO. Digital learning and transformation of education. – lectronicresource Electronic resource Electronicresource. – Access mode: Internet. – Access date: 14.01.2026.

2. OECD. *Knowledge for 2030: Concept Note*. – Paris: OECD Publishing, 2019. – ElectronicresourceElectronic resourceElectronicresource. – Access mode: Internet. – Access date: 14.01.2026.

3. Bertalanffy L. von. General System Theory: Foundations, Development, Applications. – New York: George Braziller, 2008. – P. 55–56.

4. Biggs, J. Constructive alignment in university teaching. HERDSA Review of Higher Education. – 2014. – Vol. 1. – P. 5–22.

5. Muhamedov G‘., Xojamqulov U., Toshtemirova S. Pedagogik ta’lim innovasion klasteri: nazariy-metodologik asoslar. — Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020. — 140 b.

6. Xo‘jamqulov U.N. Pedagogik ta’lim innovasion klasterining ilmiy-nazariy asoslari. Ped.fan.dok.diss. –Ch.2020. B.44.

7. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. — New York: Teachers College Press, 2007. — 336 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Odiljonova Shohsanam Abdugaffor qizi**
Toshkent Amaliy fanlar universiteti katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

## TALABALARNING AKADEMIK YOZUV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

***Annotatsiya***. *Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarning akademik yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Akademik yozuv kompetensiyasi zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvning muhim tarkibiy qismi sifatida talabalarning ilmiy fikrlash, mantiqiy bayon etish, dalillash va tahliliy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida interaktiv metodlar, raqamli ta’lim platformalari, portfolioga asoslangan baholash, o‘zaro tahrir (peer-review) hamda refleksiv yondashuvning samaradorligi tajriba-sinov ishlari asosida o‘rganildi. Natijalar innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarning yozma nutq sifati, matn tuzilishi, akademik uslubga rioya qilish va ilmiy apparatdan foydalanish ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaganini ko‘rsatdi.*

***Kalit so‘zlar:*** *akademik yozuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, interaktiv metodlar, raqamli ta’lim, portfolioga asoslangan baholash, refleksiya, oliy ta’lim.*

**Одилжонова Шохсанам Абдугаффор кизи**
Старший преподаватель, Ташкентский университет прикладных наук, доктор педагогических наук (PhD)

## ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ АКАДЕМИЧЕСКОГО ПИСЬМА СТУДЕНТОВ

***Аннотация***. *В данной статье на научной основе анализируется эффективность использования инновационных педагогических технологий в процессе развития навыков академического письма у студентов высших учебных заведений. Компетентность в академическом письме, как важная составляющая современного компетентностного подхода, служит для формирования у студентов навыков научного мышления, логического изложения, рассуждения и аналитического подхода. В процессе исследования на основе экспериментальной работы изучалась эффективность интерактивных методов, цифровых обучающих платформ, портфолио-ориентированной оценки, рецензирования и рефлексивного подхода. Результаты показали, что образовательный процесс, организованный на основе инновационных технологий, значительно улучшил качество письменной речи студентов, структуру текста, соблюдение академического стиля и использование научного аппарата.*

***Ключевые слова:*** *академическое письмо, инновационные педагогические технологии, компетентностный подход, интерактивные методы, цифровое образование, портфолио-оценка, рефлексия, высшее образование.*

**Odiljonova Shohsanam Abdugaffor qizi**
Senior Lecturer, Tashkent University of Applied Sciences, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

## THE EFFICIENCY OF USING INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING STUDENTS' ACADEMIC WRITING SKILLS

***Annotation***. *This article analyzes the effectiveness of using innovative pedagogical technologies in the process of developing students’ academic writing skills in higher education institutions on a scientific basis. Academic writing competence, as an important component of a modern competency-based approach, serves to form students’ scientific thinking, logical presentation, reasoning and analytical approach skills. In the research process, the effectiveness of interactive methods, digital learning platforms, portfolio-based assessment, peer-review and reflexive approaches was studied on the basis of experimental work. The results showed that the educational process organized on the basis of innovative technologies significantly improved the quality of students’ written speech, text structure, adherence to academic style, and use of scientific apparatus.*

***Keywords***: *academic writing, innovative pedagogical technologies, competency-based approach, interactive methods, digital education, portfolio-based assessment, reflection, higher education.*

**Kirish**

Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri raqobatbardosh, mustaqil fikrlay oladigan, tahliliy va tanqidiy yondashuvga ega, ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali amalga oshira oladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. XXI asr bilimlar iqtisodiyoti sharoitida inson kapitalining asosiy ko‘rsatkichi sifatida nafaqat kasbiy bilim va malakalar, balki kommunikativ, analitik hamda akademik kompetensiyalar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan akademik yozuv ko‘nikmalari oliy ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Akademik yozuv ilmiy tafakkur mahsuli bo‘lib, u talabaning nazariy bilimlarni tahlil qilish, dalillarni tizimlashtirish, muammoni asosli yoritish, ilmiy xulosalar chiqarish va ularni yozma shaklda aniq, mantiqiy hamda izchil bayon etish qobiliyatini ifodalaydi. Ilmiy faoliyatning asosiy natijalari – maqola, tezis, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyasi va boshqa tadqiqot ishlari yozma shaklda taqdim etilishi sababli akademik yozuv kompetensiyasi talabaning ilmiy salohiyatini belgilovchi mezonlardan biri hisoblanadi. Yozuv jarayonida talaba nafaqat ma’lumotni bayon qiladi, balki uni tahlil etadi, umumlashtiradi, solishtiradi va mustaqil pozitsiyasini shakllantiradi. Demak, akademik yozuv tafakkur madaniyati va ilmiy dunyoqarashning muhim ko‘rsatkichidir.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi akademik yozuvni o‘qitish jarayoniga yangicha metodologik yondashuvni talab etmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv talabaning faqat bilim hajmini emas, balki uni amaliy faoliyatda qo‘llay olish, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va muloqot jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Akademik yozuv kompetensiyasi esa lingvistik, diskursiv, sotsiokultural va strategik komponentlarni o‘z ichiga olgan murakkab integrativ tizim sifatida qaraladi. Shu bois uni shakllantirish ko‘p qirrali pedagogik ta’sirni talab etadi.

An’anaviy o‘qitish metodlari ko‘pincha reproduktiv xarakterga ega bo‘lib, tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan. Bunday yondashuvda talaba ko‘proq tinglovchi va ijrochi rolida bo‘lib, ijodiy fikrlash, mustaqil izlanish va refleksiya jarayonlari yetarli darajada rivojlanmaydi. Natijada yozma ishlarda mantiqiy izchillikning buzilishi, dalillarning yetarli asoslanmasligi, akademik uslub talablariga rioya qilinmasligi kabi kamchiliklar kuzatiladi. Bu esa innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini interfaol, talaba markazli va natijaga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etishga xizmat qiladi. Interaktiv metodlar talabaning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, muammoli ta’lim tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradi, loyihaviy yondashuv esa mustaqil izlanish va ijodiy faoliyatni kuchaytiradi. Raqamli ta’lim platformalari va elektron resurslar yozuv jarayonini samarali tashkil etish, tezkor tahrir va baholash imkonini beradi. Elektron portfoliolar orqali talabaning individual rivojlanish dinamikasini kuzatish mumkin bo‘lsa, kollaborativ o‘qitish shakllari o‘zaro fikr almashish va peer-review mexanizmi orqali yozma nutq sifatini oshirishga xizmat qiladi. Refleksiv baholash esa talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va ularni bartaraf etish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, akademik yozuvni rivojlantirish jarayoni tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi lozim. Yozuvning rejalashtirish, dastlabki variantni yaratish, tahrirlash va yakuniy shaklga keltirish bosqichlari pedagogik jihatdan asoslangan metodik ta’minotni talab etadi. Innovatsion texnologiyalar aynan ushbu bosqichlarni samarali boshqarish imkonini beradi, chunki ular o‘quv jarayonini monitoring qilish, natijalarni tahlil qilish va individual yondashuvni ta’minlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, oliy ta’lim muassasalarida akademik yozuvni o‘qitish amaliyotida innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi hali yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan. Shuning uchun talabalarning akademik yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion metodlarning ilmiy asoslangan modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Maqolaning maqsadi talabalarning akademik yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligini nazariy va amaliy jihatdan asoslash hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun akademik yozuv kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasini aniqlash, innovatsion texnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish va tajriba-sinov natijalari asosida ularning samaradorligini baholash vazifalari belgilab olindi.

**Adabiyotlar tahlili**

Akademik yozuv muammosi so‘nggi o‘n yilliklarda pedagogika, lingvodidaktika va ta’lim metodikasi yo‘nalishlarida alohida ilmiy tadqiqot ob’ekti sifatida shakllandi. Xorijiy va mahalliy ilmiy manbalarda akademik yozuv nafaqat til ko‘nikmasi, balki ilmiy tafakkur, tanqidiy fikrlash hamda kommunikativ kompetensiyaning integrativ ifodasi sifatida talqin etiladi. Ilmiy adabiyotlarda akademik yozuv ko‘nikmalari matnning mantiqiy strukturasini to‘g‘ri tashkil etish, tezis va dalillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlash, iqtibos va parafrazdan maqsadga muvofiq foydalanish,

manbalarga to‘g‘ri havola berish, akademik uslub me’yorlariga rioya qilish kabi tarkibiy komponentlardan iborat ekani qayd etiladi.

Xususan, K. Hyland akademik yozuvni ijtimoiy-diskursiv hodisa sifatida talqin qilib, uni muayyan ilmiy hamjamiyatning kommunikativ normalari va janr talablari bilan bog‘laydi. Uning fikricha, akademik yozuvni o‘zlashtirish talabaning ilmiy diskursga kirib borishi, ya’ni muayyan ilmiy jamoaning til va uslubiy qoidalarini egallashi bilan uzviy bog‘liq. J. Swales tomonidan ishlab chiqilgan janr nazariyasida esa akademik matnning tuzilishi muayyan kommunikativ maqsadga xizmat qiluvchi retorik bosqichlar orqali izohlanadi. Bu yondashuv akademik yozuvni o‘qitishda matnning ichki strukturaviy modeli va funksional qismlarini o‘rganish zarurligini asoslaydi.

R. Murray va boshqa tadqiqotchilar akademik yozuv jarayonini jarayonli (process-oriented) yondashuv asosida tahlil qilib, yozuvni bir martalik natija emas, balki ko‘p bosqichli, dinamik faoliyat sifatida ko‘rsatadilar. Unga ko‘ra, rejalashtirish, dastlabki variantni yaratish, qayta ko‘rib chiqish, tahrirlash va refleksiya bosqichlari talabaning yozuv malakasini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuvda o‘qituvchining roli nazoratchidan ko‘ra maslahatchi va fasilitator sifatida talqin etiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv tarafdorlari, jumladan I.A. Zimnyaya va boshqa pedagog olimlar akademik yozuvni shaxsning integrativ kompetensiyasi sifatida baholaydilar. Ularning ta’kidlashicha, akademik yozuv lingvistik bilimlar bilan cheklanmaydi, balki mantiqiy tafakkur, analitik fikrlash, axborotni tanlash va qayta ishlash, ilmiy etikaga rioya qilish kabi ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi. Shu bois akademik yozuvni rivojlantirish jarayoni faqat grammatik va stilistik mashqlar bilan emas, balki muammoli vaziyatlar, tahliliy topshiriqlar va mustaqil tadqiqot faoliyati bilan uyg‘un holda olib borilishi zarur.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar akademik yozuvni rivojlantirishda interaktiv metodlarning yuqori samaradorligini ko‘rsatadi. Biggs va Tang tomonidan ilgari surilgan konstruktiv muvofiqlik (constructive alignment) nazariyasiga ko‘ra, o‘quv maqsadlari, o‘qitish metodlari va baholash vositalari o‘zaro uyg‘un bo‘lgandagina ta’lim samarali bo‘ladi. Akademik yozuvni o‘qitishda ham interaktiv va faol metodlar – munozara, “aqliy hujum”, klaster, konseptual xaritalar, muammoli vaziyatlar – talabaning faol ishtirokini ta’minlab, yozuv jarayonini mazmunan boyitadi.

Kollaborativ o‘qitish va peer-review (o‘zaro tahrir) metodlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar talabalarning bir-birining yozma ishlarini tahlil qilishi ularning tanqidiy fikrlash va tahrir ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko‘rsatadi. Vygotskiy nazariyasiga asoslangan ijtimoiy-konstruktivistik yondashuvda bilim ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanishi ta’kidlanadi. Shu nuqtai nazardan, yozma matnni birgalikda muhokama qilish va takomillashtirish talabaning yaqin rivojlanish zonasini kengaytiradi.

So‘nggi yillarda raqamli ta’lim vositalarining jadal rivojlanishi akademik yozuvni o‘qitish metodikasiga yangi imkoniyatlar olib kirdi. Onlayn platformalar, bulutli hujjatlar, avtomatik grammatik tekshiruv dasturlari va plagiatni aniqlash tizimlari yozuv jarayonini monitoring qilish va tezkor tahlil etish imkonini beradi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, raqamli muhitda yozuv jarayoni shaffof va interaktiv tus oladi, bu esa talabaning motivatsiyasini oshiradi hamda individual yondashuvni kuchaytiradi. Shu bilan birga, raqamli vositalardan samarali foydalanish pedagogik maqsadga muvofiqlik va metodik asoslanganlikni talab etadi.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda akademik yozuvni rivojlantirishning metodik asoslari, o‘quv qo‘llanmalari va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Biroq ko‘pgina ishlar nazariy tavsif bilan cheklanib, innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligini empirik ma’lumotlar asosida kompleks tahlil qilish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ayniqsa, tajriba-sinov ishlari orqali nazorat va tajriba guruhlarini qiyosiy o‘rganish, statistik tahlil asosida natijalarni isbotlash masalalari kam yoritilgan.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, akademik yozuvni rivojlantirish jarayoni ko‘p qirrali va tizimli yondashuvni talab etadi. Xorijiy tajriba innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish yozuv sifati va talabaning ilmiy salohiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mahalliy ta’lim tizimi sharoitida ushbu texnologiyalarning samaradorligini aniqlash va ularni milliy kontekstga moslashtirish zarurati mavjud. Mazkur ilmiy izlanish aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida akademik yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini kompleks yoritishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlardan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali akademik yozuv va innovatsion pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ilmiy manbalar o‘rganildi, tushunchalarning mazmuni aniqlashtirildi. Empirik bosqichda tajriba-sinov ishlari tashkil etildi.

Tadqiqot oliy ta’lim muassasasining 2-bosqich talabalarida o‘tkazildi. Ishtirokchilar nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhida akademik yozuv an’anaviy metod asosida o‘qitildi, tajriba guruhida esa interaktiv metodlar, raqamli platformalar, elektron portfoliolar va o‘zaro tahrir mexanizmlari joriy etildi.

Baholash mezonlari sifatida matnning mantiqiy tuzilishi, dalillash darajasi, akademik uslubga rioya qilish, grammatik to‘g‘rilik va manbalardan foydalanish ko‘rsatkichlari tanlandi. Boshlang‘ich va yakuniy diagnostika natijalari solishtirilib, statistik tahlil qilindi.

**Natijalar va ularning tahlili**

Boshlang‘ich diagnostika natijalari har ikki guruhda akademik yozuv ko‘nikmalari o‘rtacha darajada ekanligini ko‘rsatdi. Tajriba jarayonida innovatsion metodlar qo‘llanilgan guruhda talabalarning yozma ishlarida mantiqiy izchillik va dalillash sifati sezilarli darajada oshdi.

Raqamli platformalar orqali matnlarni tahrirlash va o‘zaro baholash jarayoni talabalarda tanqidiy fikrlash va o‘z xatolarini aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Elektron portfoliolar esa talabaning yozuvdagi individual o‘sishini kuzatish imkonini berdi.

Yakuniy natijalar tajriba guruhida yuqori ko‘rsatkich qayd etilganini tasdiqladi. Talabalarning akademik uslubdan foydalanish, iqtibos keltirish va xulosalar chiqarish ko‘nikmalari an’anaviy usulda o‘qigan nazorat guruhiga nisbatan sezilarli ravishda yuqori bo‘ldi. Statistik tahlil innovatsion texnologiyalar qo‘llanilishi akademik yozuv sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatdi.

**Xulosalar**

Tadqiqot natijalari talabalarning akademik yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar samarali vosita ekanligini tasdiqladi. Interaktiv metodlar talabaning faolligini oshiradi, raqamli vositalar tezkor tahlil va tahrir imkonini beradi, portfolioga asoslangan baholash esa individual rivojlanishni ta’minlaydi.

Akademik yozuvni o‘qitishda refleksiv yondashuv va o‘zaro tahrir mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta’lim muassasalarida akademik yozuv fanini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish talabalar ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Hyland K. Academic Writing and Disciplinary Discourses. London: Continuum, 2004.
2. Murray R. How to Write a Thesis. Open University Press, 2011.
3. Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014.
4. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. McGraw-Hill Education, 2011.
5. Swales J. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. Cambridge University Press, 1990.
6. Zimnyaya I.A. Kompetentnostnyy podxod v obrazovanii. Moskva, 2004.
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent, 2019.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Ikromjonova Umida Ravshanbek qizi**
Namangan davlat universiteti magistranti
Email: secretmathss@gmail.com

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARIDAN DIDAKTIK TAMOYILLAR ASOSIDA FOYDALANISH

***Annotasiya:*** *Ushbu maqolada, raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish, ta'lim jarayonini raqamlashtirish, raqamlashgan ta'limni ommalashtirish ochib berilgan. Hozirgi zamonaviy ta'limni didaktika orqali rivojlantirish ko'plab pedagoglar e'tiborini tortyapti. Shuning uchun maqolada raqamli ta'lim va didaktikani uyg'unlashtirgan holatda ta'lim natijasini yanada samarador bo'lish choralari o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Raqamli O'zbekiston, raqamli ta'lim, RTR, didaktika, "KWHL" metodi, "Insert" metodi, "SWOT-tahlil" metodi.*

**Ikromjonova Umida Ravshanbek's daughter**
Namangan State University, Master's Student

## USING DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES IN PRIMARY EDUCATION BASED ON DIDACTIC PRINCIPLES

***Abstract:*** *This article reveals the use of digital educational resources, the digitalization of the educational process, and the promotion of digitalized education. In modern education, development through didactic approaches is increasingly attracting the attention of many educators. Therefore, the article examines ways to enhance the effectiveness of learning outcomes by integrating digital education with didactic principles.*

***Keywords:*** *Digital Uzbekistan, digital education, digital educational resources (DER), didactics, KWLH method, INSERT method, SWOT analysis method.*

**Икромджонова Умида Равшанбек кизи**
Наманганский государственный университет, магистрант

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ПРИНЦИПОВ

***Аннотация:*** *В данной статье раскрывается использование цифровых образовательных ресурсов, цифровизация образовательного процесса и популяризация цифрового обучения. Развитие современного образования через дидактику привлекает внимание многих педагогов. Поэтому в статье изучены меры по повышению эффективности образовательных результатов при интеграции цифрового обучения с дидактическими принципами.*

***Ключевые слова:*** *Цифровой Узбекистан, цифровое образование, ЦОР (цифровые образовательные ресурсы), дидактика, метод KWHL, метод INSERT, метод SWOT-анализ.*

### Kirish

Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi va dolzarb vazifa sifatida belgilanib, ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda.[2]

Ta'limda zamonaviy tendensiyalarning biri bu raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga kirishidir. Ta'lim jarayonini raqamlashtirish faqat axborot texnologiyalaridan foydalanishdan iborat emas. Internet, mobil ilova va turli

[2] Mirziyoyev Sh.M. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 6079-sonli Farmoni.

platformalar orqali onlayn va oflayn tarzda amalga oshiriladigan ta'limda pedagogning moslashuvchanligi, ularni individuallashtirish, ta'limning ijodiy xususiyatini oshirishga qaratilgan yangi ta'lim modelini yaratish kabi muhim vazifalar kiradi. Ta'limni raqamlashtirish uchun esa internet resurslardan samarali foydalanish zarurdir. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga kiritiladigan internet resurslaridir. Zamonaviy davr raqamli resurslarni keng tarqatish va ulardan foydalanish bilan tavsiflanadi.[3]

Shuningdek, boshlang'ich maktabda o'qitishning asosiy maqsadi - bolaga qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanishni o'rgatishdir. O'qituvchiga bu qiyin vazifani hal qilishda an'anaviy ta'lim usullari va zamonaviy axborot texnologiyalari kombinatsiyasi yordam beradi. Axborot texnologiyalari inson hayotiga tobora chuqurroq kirib bormoqda va axborot kompetentsiyasi uning ta'lim darajasini tobora ko'proq belgilab beradi. Shuning uchun boshlang'ich maktabdan boshlab axborot madaniyatini rivojlantirish kerak, axir, boshlang'ich maktab – ta'limning poydevori, o'quvchining kelajakdagi muvaffaqiyati, uning jamiyatda o'z o'rnini topishi, shu poydevor qanday bo'lishiga bog'liq. O'quvchi mustaqil, faol harakat qilish, qaror qabul qilish, o'zgaruvchan yashash sharoitlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Sinfda kompyuterdan foydalanish o'quv jarayonini mobil, qat'iy va individual qilish imkonini beradi. Bu esa boshlang'ich sinfda raqamli ta'lim resurslari (RTR) dan foydalanish masalasini qo'yadi.

RTR - o'quv jarayonini tashkil etish uchun zarur bo'lgan va raqamli shaklda taqdim etilgan, darslik mazmuniga muvofiq tanlangan, darslarni rejalashtirishga mos keladigan fotosuratlar, videodarslar, modellar, rolli o'yinlar, multimedia vositalari va h.kdir. RTR didaktik tamoyillar asosida berilsa yanada o'quvchini e'tiborini tortadi. Didaktik ta'lim va RTR ni uyg'unlashgan jarayoni ta'lim olish natijasini yanada oshirib beradi. Keyingi qismda bu jarayon ochib beriladi.

**ASOSIY QISM**

Didaktika (qadimgi yunoncha: διδακτικός, didaktikos — „o'rgatuvchi", „ta'lim beruvchi") — pedagogikaning tarmog'i. Ta'lim nazariyasi bilan shug'ullanadi. „Didaktika" atamasi ilk bor Yevropada 17-asrda o'qitish va ta'lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo'llanila boshlagan. Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o'zining „Buyuk didaktika" asarida (1657) bolalar va o'smirlarni ma'lumotli qilish va ularga ta'lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi. Nemis pedagogi Adolph Diesterweg o'zining „Nemis o'qituvchilarini o'qitish uchun yo'riqnoma" (1834—35) asarida didaktikaning pedagogikada ta'lim nazariyasini bayon etuvchi alohida qism ekanligini ta'kidlagan. Shundan keyin didaktikaga ta'lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qarash keng yoyildi. 19-yuzyillikning so'ngi va 20-yuzyillikning boshlarida didaktikaga oid maxsus monografiyalar yaratila boshlandi.Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta'lim va ma'rifat berish nazariyasi bilan shug'ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi.

Men raqamli ta'limda didaktikaning o'rni va raqamli ta'lim resurslari hozirgi kunda dolzarb bo'lgan ta'lim tizimi ekanligini ochib beraman. Boshlang'ich ta'limda **raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish dolzarb muammo** bo'lishining bir nechta sababini ko'rsataman: Boshlang'ich sinf o'quvchilari vizual va interaktiv axborotni tezroq qabul qiladi. An'anaviy dars usullari ularning diqqatini uzoq vaqt ushlab tura olmaydi. Raqamli resurslardan samarali foydalanilmasa, o'quvchilarning qiziqishi pasayib ketadi. Bugungi kunda bolalar juda erta yoshdan raqamli qurilmalar bilan tanishmoqda. Ta'lim jarayoni bu muhitdan chetda qolsa, maktabdagi ta'lim hayotiy tajribadan uzilib qoladi. Shu sababli raqamli resurslardan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining barchasi ham raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasiga ega emas. Bu esa raqamli ta'lim resurslaridan to'liq va samarali foydalanishga to'sqinlik qiladi.

Mavjud raqamli ta'lim resurslarining hammasi ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshiga, psixologik va pedagogik ehtiyojlariga mos kelavermaydi. Sifatli, milliy kontentga ega resurslar yetishmasligi muammoni yanada kuchaytiradi.

Barcha maktablar yetarli darajada kompyuter, planshet, internet tarmog'i bilan ta'minlanmagan. Bu esa raqamli ta'lim resurslaridan teng va samarali foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Boshlang'ich yoshdagi bolalarning internetdan foydalanishi doimiy nazoratni talab qiladi. Raqamli resurslardan noto'g'ri foydalanish bolaning sog'lig'i va tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bu muammolarga yechim shundaki, avvalo o'qituvchining raqamli kompotensiyasini oshirish kerak. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun **amaliy treninglar**, qisqa muddatli kurslar tashkil etish. Raqamli dars ishlanmalari, interaktiv topshiriqlar yaratishni o'rgatish. "Bir o'qituvchi — bir raqamli mahsulot" tamoyilini joriy etish kerak. Keyingi o'rinda Boshlang'ich ta'limga mos raqamli resurslar yaratish kerak. Bunda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos, rang-barang, qisqa, o'yin asosidagi (gamifikatsiya) kontent, ona tilida, milliy qadriyatlar va madaniyatga mos resurslar ishlab chiqish muhim. Yana bir asosiy e'tiborga olinish kerak bo'lgan narsa, ta'lim tashkilotlarini texnik infratuzilma bilan to'liq ta'minlash kerak. Maktablarni barqaror internet bilan ta'minlash, kamida sinf kesimida raqamli

[3] Mirziyoyev Sh.M. 2022-yil 15-maydagi 2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha "Milliy dastur"i to'g'risidagi PF 134-son Farmoni

qurilmalar (kompyuter, planshet, interaktiv doska) mavjud bo‘lishi, offline ishlaydigan ta’lim resurslarini ko‘paytirish yechimdir.

Raqamli ta’limni didaktik o’yinlar orqali berish yanada ko’p samara beradi. Didaktika dars jarayonini jonlantiradi. Raqamli texnalogiya bilan uyg’unlashishi esa darsga joziba bag’ishlaydi. Quyida bir nechta metodlar tavsiya qilaman:

**“KWHL” metodi**

**Metodning maqsadi**: Mazkur metod tinglovchilarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi. Izoh. KWHL: Know – nimalarni bilaman? Want – nimani bilishni xohlayman? How - qanday bilib olsam bo‘ladi? Learn - nimani o‘rganib oldim?

| “KWHL” metodi | |
|---|---|
| 1.Nimalarni bilaman:<br>- | 2.Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:<br>- |
| 3.Qanday qilib bilib va topib olaman:<br>- | 4.Nimalarni bilib oldim:<br>- |

**“SWOT-tahlil” metodi**

**Metodning maqsadi**: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.




**“Insert” metodi**

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

➢ o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;

➢ yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;

➢ ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar.

Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

| Belgilar | Matn |
|---|---|
| “V” – tanish ma’lumot | |
| “?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim | |
| “+” – bu ma’lumot men uchun yangilik | |
| “-“ – bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarashim | |

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

**XULOSA**

**Xulosa qilib aytganda**, raqamli ta’lim sharoitida didaktikaning roli yanada ortib bormoqda. Chunki raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi vosita bo‘lib xizmat qilsa-da, ularni maqsadga muvofiq, tizimli va pedagogik jihatdan asoslangan holda qo‘llash aynan didaktik tamoyillar orqali amalga oshiriladi. Didaktik yondashuvsiz joriy etilgan raqamli ta’lim resurslari kutilgan natijani bermaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’limda didaktik tamoyillar — ilmiylik, tizimlilik, ongli va faol o‘qitish,individuallashtirish hamda yoshga moslik — ta’lim sifatini ta’minlovchi asosiy omillar hisoblanadi. Didaktika raqamli ta’lim mazmunini belgilab berar ekan, o‘qitish metodlari, shakllari va baholash tizimini samarali tashkil etishga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, raqamli ta’lim jarayonida o‘qituvchining didaktik kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagog nafaqat raqamli vositalardan foydalana olishi, balki ularni didaktik maqsadlarga bo‘ysundira bilishi lozim. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda raqamli ta’lim resurslarini didaktik asosda qo‘llash o‘quvchilarning bilimlarni ongli o‘zlashtirishi, mustaqil fikrlashi va ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Demak, raqamli ta’limni rivojlantirish jarayonida didaktikani markaziy omil sifatida e’tirof etish, didaktik yondashuvga asoslangan raqamli ta’lim modellari va resurslarini ishlab chiqish hamda pedagoglarning didaktik-texnologik kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev sh.m. 2022-yil 15-maydagi 2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha “milliy dastur”i to‘g‘risidagi pf 134-son farmonining v bandi.
2. Mirziyoyev sh.m. “raqamli o‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi pf 6079-sonli farmoni
3. Султонова с. Х. Синтаксические конструкции на уроках русского языка как иностранного //o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – т. 2. – №. 15. – с. 769-775.
4. Максимова г.п. медиапедагогика как одно из направлений современного образования. // ж. «общественные науки», 2005. №4. 119с.
5. Xolmatov, sh. (2021). Boshlang‘ich ta’limda raqamli resurslardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. Toshkent: universitet nashriyoti.
6. Anderson, j. (2017). Digital learning in primary education: visual and interactive approaches. London: routledge

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Gulnora Ibragimova**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

## TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari va amaliy afzalliklari keng tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish sharoitida innovatsion yondashuvlarning o'rni, ularning o'quvchilarning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, raqamli ta'lim muhitini shakllantirish, interaktiv metodlarni qo'llash, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlash va baholash tizimini takomillashtirish masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirish, o'quv jarayonini individuallashtirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil ekanini asoslaydi.*

***Kalit so'zlar:*** *ta'lim tizimi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuv, interaktiv metodlar, raqamli ta'lim muhiti, kompetensiyaviy yondashuv, individuallashtirish, ta'lim samaradorligi.*

**Гульнара Ибрагимова**
Профессор, Ташкентский государственный экономический университет

## ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются теоретико-методологические основы и практические преимущества использования современных педагогических технологий в системе образования. Раскрывается роль инновационных подходов в условиях модернизации образовательного процесса, их влияние на развитие познавательной активности, самостоятельного мышления и профессиональных компетенций обучающихся. Особое внимание уделяется формированию цифровой образовательной среды, применению интерактивных методов обучения, реализации личностно-ориентированного подхода и совершенствованию системы оценивания. Результаты исследования подтверждают, что современные педагогические технологии являются важным фактором повышения эффективности образования, индивидуализации обучения и подготовки конкурентоспособных специалистов.*

***Ключевые слова:*** *система образования, современные педагогические технологии, инновационные подходы, интерактивные методы, цифровая образовательная среда, компетентностный подход, индивидуализация, эффективность обучения.*

**Gulnara Ibragimova**
Professor, Tashkent State University of Economics

## ADVANTAGES OF USING MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM

***Abstract.*** *This article examines the theoretical and methodological foundations and practical advantages of using modern pedagogical technologies in the education system. The role of innovative approaches in the context of educational modernization is analyzed, particularly their impact on the development of learners' cognitive activity, independent thinking, and professional competencies. Special attention is given to the formation of a digital educational environment, the application of interactive teaching methods, the implementation of a learner-centered approach, and the improvement of assessment systems. The findings demonstrate that modern pedagogical technologies are a crucial factor in enhancing educational effectiveness, individualizing instruction, and preparing competitive specialists for the contemporary labor market.*

***Keywords****: education system, modern pedagogical technologies, innovative approaches, interactive methods, digital learning environment, competency-based approach, individualization, educational effectiveness.*

**Kirish**

XXI asr globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayonlar jamiyatning barcha sohalariga, xususan, ta’lim tizimiga ham tub o‘zgarishlar olib kirdi. Zamonaviy sharoitda ta’lim nafaqat bilim berish jarayoni, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va raqobatbardosh kadr sifatida shakllantirishga qaratilgan murakkab ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish dolzarb masalaga aylangan.

An’anaviy ta’lim modeli asosan o‘qituvchi markazli bo‘lib, unda o‘quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt sifatida talqin etilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi, mustaqil izlanish olib boruvchi va bilimni yaratishda hamkor sifatida ko‘radi. Bu esa ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

**Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari**

Pedagogik texnologiya tushunchasi o‘quv jarayonini loyihalash, tashkil etish va baholashning ilmiy asoslangan tizimini anglatadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar konstruktivizm, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi kabi nazariy paradigmalarga tayanadi. Konstruktivistik yondashuvga ko‘ra, bilim tayyor holda berilmaydi, balki o‘quvchining faoliyat jarayonida shakllanadi. Shu sababli ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar, loyihaviy ishlar, tadqiqot elementlari keng qo‘llaniladi.

Kompetensiyaviy yondashuv esa bilim, ko‘nikma va malakalarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltirilgan. Bu yondashuv zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarda amaliy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Ta’lim samaradorligini oshirishdagi afzalliklar**

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Interaktiv metodlar o‘quvchilarni faol fikrlashga undaydi, ularning darsdagi ishtirokini kuchaytiradi. Masalan, muammoli ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarda tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Loyihaviy ta’lim esa jamoada ishlash, mas’uliyatni his etish va ijodiy fikrlashni shakllantiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darslarni vizuallashtirish, murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli tarzda yetkazish imkonini beradi. Multimediya vositalari orqali taqdim etilgan ma’lumotlar o‘quvchilarning eshitish va ko‘rish analizatorlari orqali yaxshiroq o‘zlashtiriladi, bu esa bilimlarning mustahkamligini ta’minlaydi.

**Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va individuallashtirish**

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishga imkon beradi. Differensial yondashuv orqali har bir o‘quvchining bilim darajasi, qiziqishi va qobiliyatiga mos topshiriqlar beriladi. Bu esa o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va o‘qishga motivatsiyani kuchaytiradi.

Raqamli ta’lim platformalari yordamida o‘quv jarayonini individuallashtirish mumkin. Masofaviy ta’lim tizimlari, elektron darsliklar va onlayn testlar orqali o‘quvchilar mustaqil ravishda bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayonda o‘qituvchi maslahatchi va yo‘naltiruvchi rolini bajaradi.

**Raqamli ta’lim muhiti va innovatsion infratuzilma**

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta’lim muassasalarida raqamli infratuzilmani rivojlantirishni talab etadi. Elektron jurnal va kundaliklar, virtual laboratoriyalar, onlayn kutubxonalar ta’lim jarayonini yanada qulay va shaffof qiladi. Raqamli muhit o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotni kengaytiradi, ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar yordamida baholash tizimini takomillashtirish mumkin. Avtomatlashtirilgan test tizimlari natijalarni tezkor aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa ta’lim sifatini monitoring qilish va o‘quv jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi.

**Ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati**

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltiradi. Innovatsion fikrlovchi, axborot bilan ishlash ko‘nikmalariga ega, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar mamlakatning barqaror rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, ta’lim jarayonining raqamlashtirilishi resurslardan samarali foydalanish va vaqtni tejash imkonini beradi.

**Muammolar va istiqbollar**

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Texnik jihozlarning yetishmasligi, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati, metodik ta’minotning kamligi kabi omillar jarayonni murakkablashtiradi. Biroq tizimli yondashuv, malaka oshirish kurslari va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash orqali ushbu muammolarni bartaraf etish mumkin.

Kelajakda sun'iy intellekt, adaptiv ta'lim tizimlari va virtual reallik texnologiyalarining keng qo'llanilishi ta'lim jarayonini yanada takomillashtirishi kutilmoqda. Bu esa o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

**Xulosa**

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlash hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion yondashuvlarni izchil joriy etish ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avliyakulov N.X. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
2. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008.
4. Selevko G.K. Sovremennye obrazovatelnye texnologii. – Moskva: Narodnoe obrazovanie, 1998.
5. Bespalko V.P. Slagaemye pedagogicheskoy texnologii. – Moskva: Pedagogika, 1989.
6. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: Logos, 2004.
7. Klarin M.V. Innovatsionnye modeli obucheniya. – Moskva: Nauka, 2000.
8. UNESCO. ICT in Education: A Critical Literature Review and Its Implications. – Paris: UNESCO Publishing, 2011.
9. Anderson J. ICT Transforming Education: A Regional Guide. – Bangkok: UNESCO, 2010.
10. OECD. Education at a Glance: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2022.
11. Mishra P., Koehler M. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108(6). – P. 1017–1054.
12. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2007.
13. Hargreaves A. Teaching in the Knowledge Society: Education in the Age of Insecurity. – New York: Teachers College Press, 2003.
14. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari to'plami. – Toshkent, 2019–2023.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

**Abdurasulova Gulrux Xabibullaevna**
Andijon davlat tibbiyot instituti
akademik litsey biologiya fani o‘qituvchisi

## UMUMIY TA’LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING METAKOGNITIV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK MODELI

*Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy ta’lim maktablarida biologiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan nazariy-metodik model ishlab chiqilgan va ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot metakognitiv bilim va metakognitiv nazorat komponentlariga tayangan holda biologiya darslarida refleksiya, rejalashtirish, monitoring va baholash jarayonlarini tizimli va izchil tashkil etish mexanizmlarini ochib beradi. Ishlab chiqilgan model o‘quvchilarning o‘z o‘rganish faoliyatini anglash, nazorat qilish va boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari modelning samaradorligini tasdiqlab, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, biologik tushunchalarni chuqur o‘zlashtirishi hamda ta’lim jarayonidagi faolligi sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari biologiya ta’limida metakognitiv yondashuvlarni joriy etish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili ekanligini tasdiqlaydi.*

***Kalit so‘zlar:*** *metakognitiv ko‘nikmalar, biologiya ta’limi, nazariy-metodik model, refleksiya, o‘z-o‘zini boshqarish.*

**Abdurasulova Gulrukh Khabibullaevna**
Andijan State Medical Institute
Academic Lyceum Biology Teacher

## THEORETICAL-METHODOLOGICAL MODEL OF DEVELOPING STUDENTS' METACOGNITIVE SKILLS IN TEACHING BIOLOGY IN GENERAL SCHOOLS

*Abstract. This article presents a theoretically grounded methodological model aimed at developing students’ metacognitive skills in the process of teaching biology in general secondary schools. The study is based on the integration of metacognitive knowledge and metacognitive regulation components and highlights systematic approaches to organizing reflection, planning, monitoring, and evaluation during biology lessons. The proposed model promotes students’ awareness of their own learning processes, enhances self-regulation skills, and supports conscious knowledge acquisition. The results of the pedagogical experiment confirm the effectiveness of the model, demonstrating a significant improvement in students’ independent thinking, learning motivation, and depth of understanding of biological concepts. The findings indicate that the implementation of metacognitive strategies in biology education contributes substantially to improving learning outcomes and fostering students’ ability to manage their own educational activities. The study emphasizes the importance of metacognitive approaches as a key factor in enhancing the quality and effectiveness of biology education.*

***Keywords:*** *metacognitive skills, biology education, theoretical-methodological model, reflection, self-regulation.*

**Абдурасулова Гульрух Хабибуллаевна**
Андижанский государственный медицинский институт
Преподаватель биологии в академическом лицее

## ТЕОРЕТИЧЕСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ МЕТАКОГНИТИВНЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИИ В ОБЩЕСТВЕННЫХ ШКОЛАХ

***Аннотация.*** *В данной статье разработана и научно обоснована теоретико-методическая модель, направленная на развитие метакогнитивных умений учащихся в процессе обучения биологии в общеобразовательных школах. Исследование основано на интеграции компонентов метакогнитивных знаний и метакогнитивного контроля и раскрывает способы системной организации рефлексии, планирования, мониторинга и оценивания на уроках биологии. Предложенная модель способствует формированию у обучающихся осознанного отношения к собственной учебной деятельности, развитию навыков саморегуляции и углублённому усвоению учебного материала. Результаты педагогического эксперимента подтвердили эффективность модели, показав рост самостоятельного мышления учащихся, их познавательной*

*активности и уровня понимания биологических понятий. Полученные данные свидетельствуют о том, что внедрение метакогнитивного подхода является важным условием повышения качества и результативности биологического образования.*

***Ключевые слова:*** *метакогнитивные умения, биологическое образование, теоретико-методическая модель, рефлексия, саморегуляция.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi globallashuv, raqamlashtirish va bilimlar hajmining tez sur’atlarda ortib borishi sharoitida o‘quvchilardan nafaqat fanlar bo‘yicha nazariy bilimlarga ega bo‘lishni, balki o‘z o‘rganish faoliyatini ongli ravishda tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish qobiliyatlarini ham talab etmoqda. Bugungi kunda ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchining mustaqil fikrlashi, o‘z bilim darajasini baholay olishi va o‘rganish strategiyalarini moslashtira olishiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.[1]

Ayniqsa, biologiya fani mazmunining murakkabligi, ko‘p bosqichli biologik jarayonlar, tizimli tushunchalar va ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan bevosita bog‘liqligi o‘quvchilardan yuqori darajadagi tahliliy va reflektiv fikrlashni talab etadi. Biologiya darslarida o‘quvchilar nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash hamda xulosalar chiqarish kabi murakkab intellektual faoliyatlarni amalga oshiradilar. Ushbu jarayonlarda metakognitiv ko‘nikmalar o‘quvchilarning bilimlarni chuqurroq anglashiga, o‘z-o‘zini nazorat qilishiga va o‘rganish jarayoniga faol subyekt sifatida yondashishiga xizmat qiladi.[6]

Metakognitiv ko‘nikmalar o‘quvchilarning o‘z bilimlarini tahlil qilish, o‘rganish strategiyalarini tanlash, o‘quv faoliyatini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash qobiliyatlarini shakllantirib, ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyatlarini, mustaqil fikrlash darajasini va bilimlarni uzoq muddatli xotirada saqlash imkoniyatini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, umumiy ta’lim maktablarida biologiya fanini o‘qitishda metakognitiv yondashuvni tizimli va maqsadli ravishda joriy etishga qaratilgan nazariy-metodik modellar yetarli darajada ishlab chiqilmaganligini ta’kidlash lozim. Amaldagi o‘quv jarayonida metakognitiv elementlar ko‘pincha fragmentar va epizodik xarakterga ega bo‘lib, ular yaxlit metodik tizim sifatida qo‘llanilmaydi. Bu esa biologiya ta’limida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish va reflektiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda.[9]

Mazkur ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish, biologiya fanini o‘qitishda metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan izchil va samarali yondashuvni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Shu munosabat bilan, ushbu maqolaning maqsadi umumiy ta’lim maktablarida biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan nazariy-metodik modelni ishlab chiqish hamda uning pedagogik tajriba-sinov jarayonida samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashdan iboratdir.

**Methods -** Mazkur tadqiqot biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan nazariy-metodik modelning ilmiy asoslanganligini aniqlash va uning samaradorligini baholashga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda kompleks ilmiy-pedagogik metodlar tizimidan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi metakognitsiya nazariyasi, konstruktivistik ta’lim yondashuvi hamda reflektiv o‘qitish tamoyillariga asoslandi.[4]

**Nazariy tahlil -** Tadqiqotning dastlabki bosqichida metakognitsiya muammosiga oid xorijiy va mahalliy psixologik-pedagogik adabiyotlar chuqur tahlil qilindi. Xususan, metakognitiv bilim va metakognitiv nazorat tushunchalari, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o‘rganildi. Ilmiy manbalar tahlili biologiya fanini o‘qitishda metakognitiv yondashuvni qo‘llashning nazariy asoslarini aniqlash, mavjud yondashuvlar va metodik kamchiliklarni belgilash imkonini berdi. Ushbu bosqichda biologiya ta’limida metakognitiv strategiyalarning samaradorligini yorituvchi tadqiqotlar tizimlashtirildi va umumlashtirildi.[3]

**Modellashtirish -** Nazariy tahlil natijalariga tayangan holda biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan nazariy-metodik model ishlab chiqildi. Modellashtirish jarayonida metakognitiv ko‘nikmalarning asosiy komponentlari (rejalashtirish, monitoring, refleksiya va baholash) biologiya darslarining mazmuni va tuzilmasiga integratsiya qilindi. Modelni ishlab chiqishda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, biologiya fanining o‘ziga xos didaktik talablari hamda o‘quv jarayonining bosqichma-bosqichligi inobatga olindi. Mazkur metod o‘rganilayotgan jarayonni tizimli ravishda aks ettirish va amaliyotga moslashtirish imkonini berdi.[2]

**Pedagogik tajriba-sinov -** Ishlab chiqilgan nazariy-metodik modelning amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlari umumiy ta’lim maktablarining 7–9-sinf o‘quvchilari ishtirokida olib borildi. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tajriba

guruhi mashg‘ulotlarida metakognitiv strategiyalar asosida tashkil etilgan darslar o‘tkazildi. Xususan, reflektiv yozuvlar, o‘z-o‘zini baholash, rejalashtirish jadvallari, savol-javoblar va muammoli vaziyatlar orqali o‘quvchilarning o‘z o‘rganish jarayoniga ongli munosabati shakllantirildi. Nazorat guruhida esa biologiya darslari an’anaviy o‘qitish usullari asosida olib borildi.

So‘rovnoma va testlar - O‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalarini aniqlash va baholash maqsadida maxsus ishlab chiqilgan so‘rovnomalar va diagnostik testlardan foydalanildi. Ushbu vositalar yordamida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘rganish jarayonini rejalashtirish va baholash darajasi aniqlandi. So‘rovnoma va testlar tajriba-sinov ishlarining boshida va yakunida o‘tkazilib, o‘quvchilarda yuz bergan o‘zgarishlarni aniqlash imkonini berdi.

Matematik-statistik tahlil - Pedagogik tajriba-sinov jarayonida olingan natijalarni ilmiy asoslash va ularning ishonchlilik darajasini aniqlash maqsadida matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Statistik qayta ishlash natijasida tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, ishlab chiqilgan nazariy-metodik modelning samaradorligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi. Ushbu metod tadqiqot natijalarining obyektivligi va ishonchliligini ta’minlashga xizmat qildi.

Results - Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ishlab chiqilgan nazariy-metodik modelning samaradorligini yaqqol tasdiqladi. Tajriba guruhi o‘quvchilarida metakognitiv faoliyatning barcha asosiy komponentlari bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi.[5]

Xususan, tajriba guruhi o‘quvchilarida biologik tushunchalarni anglash va tahlil qilish darajasi sezilarli darajada oshdi. O‘quvchilar biologik jarayonlar o‘rtasidagi sabab–oqibat bog‘lanishlarini mustaqil aniqlash, ilmiy xulosalar chiqarish va o‘z fikrlarini asoslash qobiliyatiga ega bo‘la boshladilar. Ushbu natijalar metakognitiv strategiyalar bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga xizmat qilishini isbotlagan xorijiy tadqiqotlar bilan hamohangdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, refleksiya va monitoringga asoslangan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning yuqori darajadagi kognitiv faoliyatini faollashtiradi.

Shuningdek, tajriba guruhi o‘quvchilarida mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalari shakllandi. Dars jarayonida reflektiv yozuvlar va o‘z-o‘zini baholash topshiriqlari orqali o‘quvchilar o‘z bilim darajasini tanqidiy baholashni, xatolarini aniqlashni va o‘rganish strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishni o‘rgandilar. Bu holat metakognitiv nazoratning shakllanishiga xizmat qilib, o‘quvchilarning o‘qish jarayoniga mas’uliyatli yondashuvini kuchaytirdi. Mazkur natijalar metakognitiv nazoratning akademik muvaffaqiyatga ijobiy ta’siri haqida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini tasdiqlaydi.[3]

Tajriba-sinov jarayonida biologiya faniga bo‘lgan qiziqishning ortishi ham muhim natijalardan biri sifatida qayd etildi. O‘quvchilarning darslardagi faolligi, savol berish va muhokamalarda ishtirok etish darajasi oshdi. Metakognitiv strategiyalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning o‘z o‘rganish jarayoniga subyekt sifatida qarashiga imkon yaratdi, bu esa ichki motivatsiyaning kuchayishiga olib keldi. Ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, o‘quvchining o‘z o‘rganish jarayonini anglab yetishi uning fanga bo‘lgan qiziqishini barqarorlashtiradi.

Bundan tashqari, tajriba guruhi o‘quvchilarida o‘quv faoliyatini rejalashtirish va baholash qobiliyatlari rivojlandi. O‘quvchilar dars maqsadlarini aniqlash, topshiriqlarni bajarish ketma-ketligini belgilash va yakuniy natijalarni baholash jarayonida faol ishtirok etdilar. Bu holat metakognitiv rejalashtirishning shakllanganligini ko‘rsatadi va biologiya fanida murakkab mavzularni o‘zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Olingan natijalar matematik-statistik tahlil yordamida qayta ishlanib, tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar aniqlandi. Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, tajriba guruhidagi o‘quvchilarning o‘quv natijalari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlanib, bu farq statistik jihatdan ishonchli deb topildi ($p < 0,05$). Ushbu ko‘rsatkich ishlab chiqilgan nazariy-metodik modelning biologiya ta’limi samaradorligini oshirishdagi muhim omil ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tajriba-sinov natijalari biologiya fanini o‘qitishda metakognitiv yondashuvni tizimli ravishda joriy etish o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi, mustaqil fikrlashi va o‘quv faoliyatini ongli boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga samarali ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi.[6]

| № | Ko‘rsatkichlar | Guruhlar | Tajribagacha o‘rtacha ko‘rsatkich (%) | Tajribadan keyin o‘rtacha ko‘rsatkich (%) | O‘zgarish (+/–) | Statistik ahamiyat |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Bilimlarni anglash va tahlil qilish darajasi | Tajriba guruhi | 56,4 | 78,9 | +22,5 | $p < 0,05$ |
| | | Nazorat guruhi | 55,8 | 61,3 | +5,5 | $p > 0,05$ |

| № | Koʻrsatkichlar | Guruhlar | Tajribagacha oʻrtacha koʻrsatkich (%) | Tajribadan keyin oʻrtacha koʻrsatkich (%) | Oʻzgarish (+/–) | Statistik ahamiyat |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2 | Mustaqil fikrlash va oʻz-oʻzini nazorat qilish | Tajriba guruhi | 52,1 | 76,4 | +24,3 | $p < 0,05$ |
| | | Nazorat guruhi | 51,7 | 58,2 | +6,5 | $p > 0,05$ |
| 3 | Biologiya faniga boʻlgan qiziqish darajasi | Tajriba guruhi | 60,3 | 82,1 | +21,8 | $p < 0,05$ |
| | | Nazorat guruhi | 59,9 | 64,5 | +4,6 | $p > 0,05$ |
| 4 | Oʻquv faoliyatini rejalashtirish va baholash koʻnikmalari | Tajriba guruhi | 49,6 | 74,8 | +25,2 | $p < 0,05$ |
| | | Nazorat guruhi | 50,1 | 56,7 | +6,6 | $p > 0,05$ |

Discussion - Mazkur tadqiqot natijalari biologiya ta'limida oʻquvchilarning metakognitiv koʻnikmalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan nazariy-metodik model ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini koʻrsatdi. Olingan empirik ma'lumotlar model asosida tashkil etilgan darslar oʻquvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini kuchaytirishini, ularning bilimlarni ongli ravishda oʻzlashtirishiga xizmat qilishini tasdiqladi. Bu holat oʻquvchilarning oʻz oʻrganish jarayoniga faol subyekt sifatida yondashuvini shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari metakognitiv yondashuvning ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilganligi haqida ilgari surilgan ilmiy qarashlar bilan uygʻunlikda namoyon boʻldi. Metakognitiv nazariya asoschilarining tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, oʻquvchilarning oʻz bilimlarini anglash va nazorat qilish qobiliyati akademik muvaffaqiyatning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda ham refleksiya, rejalashtirish, monitoring va baholash jarayonlarining biologiya darslariga tizimli integratsiyasi oʻquvchilarning yuqori darajadagi kognitiv faoliyatini faollashtirganligi aniqlandi.[5]

Biologiya fanining murakkab mazmuni, koʻp bosqichli jarayonlar va abstrakt tushunchalar bilan boyligi metakognitiv koʻnikmalarning ahamiyatini yanada oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, metakognitiv strategiyalar asosida tashkil etilgan darslar oʻquvchilarga biologik hodisalar oʻrtasidagi bogʻlanishlarni chuqurroq anglash, ilmiy muammolarni mustaqil tahlil qilish va xulosalar chiqarish imkonini beradi. Bu holat biologiya ta'limida yuqori darajadagi tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan hamohangdir.

Olingan natijalar metakognitiv yondashuvni qoʻllash oʻquvchilarning akademik motivatsiyasini oshirishiga ham ijobiy ta'sir koʻrsatishini koʻrsatdi. Oʻquvchilar oʻz oʻrganish jarayonini anglab yetishi natijasida dars jarayoniga qiziqish bilan yondasha boshladi, mustaqil ishlashga intildi va bilimlarni egallash jarayonida mas'uliyatni his qildi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, metakognitiv koʻnikmalarning rivojlanishi oʻquvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytirib, ularning oʻquv faoliyatidagi barqaror muvaffaqiyatini ta'minlaydi.[1]

Shuningdek, mazkur tadqiqot natijalari ishlab chiqilgan nazariy-metodik modelni boshqa tabiiy fanlarni oʻqitish jarayoniga moslashtirish imkoniyatlari mavjudligini koʻrsatadi. Fizika, kimyo va geografiya fanlarida ham murakkab tushunchalar va jarayonlarni oʻzlashtirish jarayonida metakognitiv strategiyalarni qoʻllash ta'lim samaradorligini oshirishi mumkin. Shu sababli, mazkur modelni fanlararo integratsiya asosida takomillashtirish va kengroq amaliyotga joriy etish istiqbollari mavjud.[4]

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari biologiya ta'limida metakognitiv yondashuvni tizimli ravishda joriy etish oʻquvchilarning bilimlarni chuqur oʻzlashtirishi, mustaqil fikrlashi va oʻz-oʻzini boshqarish koʻnikmalarini rivojlantirishga samarali ta'sir koʻrsatishini tasdiqlaydi. Bu esa biologiya fanini oʻqitish metodikasini takomillashtirishda metakognitiv yondashuv muhim ilmiy-metodik asos boʻla olishini koʻrsatadi.




Conclusion - Mazkur tadqiqot natijalari biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan nazariy-metodik model ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim pedagogik vosita ekanligini ko‘rsatdi. Ishlab chiqilgan model biologiya darslarini tashkil etishda o‘quvchilarning o‘z o‘rganish faoliyatiga ongli yondashuvini shakllantirishga, bilimlarni chuqur va barqaror o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, metakognitiv strategiyalar (rejalashtirish, monitoring, refleksiya va baholash) asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda o‘z-o‘zini boshqarish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayon o‘quvchilarning biologiya faniga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning ta’lim jarayonidagi faolligini kuchaytiradi hamda akademik muvaffaqiyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, murakkab biologik tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonida metakognitiv yondashuvning samaradorligi tajriba-sinov natijalari orqali tasdiqlandi.

Shuningdek, mazkur nazariy-metodik model biologiya ta’limida o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini rejalashtirish, natijalarni baholash va o‘z bilim darajasini tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarning kelajakdagi ta’lim faoliyati va hayotiy muammolarni hal etishda zarur bo‘lgan muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari modelni boshqa tabiiy fanlarni o‘qitish jarayoniga moslashtirish va fanlararo integratsiya asosida qo‘llash imkoniyatlari mavjudligini ham ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, biologiya fanini o‘qitishda metakognitiv yondashuvga asoslangan nazariy-metodik modelni joriy etish umumiy ta’lim maktablarida ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirish hamda zamonaviy ta’lim talablari darajasida kompetent shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari biologiya ta’limi metodikasini takomillashtirishga ilmiy-amaliy hissa qo‘shadi va kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.[1

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun. – T.: O‘zbekiston, 2020.

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti. – T., 2021.

3.Flavell J.H. Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive–Developmental Inquiry // American Psychologist. – 1979. – Vol. 34. – P. 906–911.

4.Schraw G., Dennison R.S. Assessing Metacognitive Awareness // Contemporary Educational Psychology. – 1994. – Vol. 19. – P. 460–475.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

14.00.00-Tibbiyot
journal.namdu.uz
MEDICAL

**Mullabayeva Mashhura Samijanovna**
NamDu professor
**Mavlonova Obida Dedaxanovna**
NamDu dotsent

## SOG'LOM AVLOD SHAKLLANISHINING MUHIM OMILI

***Annotatsiya:*** *ushbu maqolada Sog'lom avlod shakllanishining muhim omilari haqida ma'lumotlar berilgan.*
***Kalit so'zlar:*** *vitaminlar, sog'lom avlod, jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, reproduktiv davr.*

**Муллабаева Машхура Самижановна**
профессор НамГУ
**Мавлонова Обида Дедахановна**
НамГУ доцент

## ВАЖНЫЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ЗДОРОВОГО ПОКОЛЕНИЯ

***Аннотация:*** *в данной статье приведены сведения, касающиеся важных средств формирования здорового поколения.*
***Ключевые слова****: витамины, здоровое поколение, физическая культура, физическое воспитание, репродуктивный период*

**Mullabayeva Mashhura Samizhanovna**
NamSU professor
**Mavlonova Obida Dedakhanovna**
NamSU associate professor

## IMPORTANT FACTOR IN THE FORMATION OF A HEALTHY GENERATION

***Annotation:*** *this article gives information about important factors of healthy generation formation.*
***Keywords:*** *vitamins, healthy generation, physical education, physical culture, reproductive period.*

**Kirish.** Sog'lom avlod shakllanishining eng muhim omili, insonlarning ijtimoiy hayot tarzini, ijtimoiy mehnat qilish jarayonini va o'zaro munosabatlar, oila turmushi faoliyatini yaxshilash, reproduktiv yoshdagi ayollarni ruhiy va jismonan sog'ligi va salomatligiga e'tiborni kuchaytirish va mutaxasislar tomonidan targ'ibot ishlari olib borish, insonlarning jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarini har tomonlama namoyon qilishdir.

**Muhokama va natijalar.** Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarda amerikalik olimlar Bellok hamda Bresloular salomatlikni mustahkamlovchi tadbir sifatida quyidagilarni taklif qiladilar:

- Har kuni 7-8 soatlik uyqu;
- Aniq bir vaqtlarda kuniga 3 marotaba ovqatlanish;
- Har kuni ertalabki nonushta;
- Vaznni me'yorida saqlash;
- Spirtli ichimliklarni ko'p iste'mol qilmaslik;
- Har kuni jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish;
- Chekishdan butunlay voz kechish.

Rus olimi V.P.Petrenkoning sog'lom turmush tarzi bo'yicha fikrlari quyidagilardan iborat:

- Shaxsiy gigiena;
- Mehnat qilish va dam olish rejimi;
- Jismoniy faollik va chiniqish;
- To'g'ri ovqatlanish;
- Ruhiy gigiena, ruhiy profilaktika;

- Atrof-muhit va salomatlik;
- O’z-o’zini davolash va uning zarari;
- Ichkilikbozlik va salomatlik;
- Giyohvandik va taksikomaniya.

Birlashgan Millat Tashkilotining rivojlanish loyixasi fan, madaniyat va sog’liqni saqlash vazirliklari buyurtmasi bilan B.M.Sharipo, L.N.Bashmakova va G.U.Kurmanovalar tomonidan maktab o’quvchilariga mo’ljallangan “Sog’lom turmush tarzi” darslik-qo’llanmada asosiy mavzular quyidagicha belgilangan:

- O’z-o’zini hurmat qilish;
- Kun tartibi;
- Jismoniy chiniqish;
- Sog’lom munosabatlar;
- Zararli odatlar (tamaki, alkogolizm, nasha);
- Xomiladorlik, oilani rejalashtirish.

Odamzod oldida turgan eng muhim masala, shaxsni har tomonlama rivojlantirish, mehnat, turmush va dam olish sohasida insonni ijtimoiy faolligini oshiradigan va unga yordam beradigan ilmiy jihatdan asoslangan ijtimoiy-gigienik jihatdan oqilona bo’lgan sog’lom avlod tarzini shakllantirishdir.

Insoniyatning salomatligi jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlar orasida eng muhim o’rinlardan birini egallaydi.

Ko’pchilik tadqiqotchilarning ma’lumotlariga qaraganda, aholi salomatligi kamida 50% turmush tarziga, 15-20% atrof-muhitga va yana shuncha miqdorda odamning irsiyati hamda sog’liqni saqlash tizimiga bog’liq bo’ladi. Mehnat jamoasi har qanday mojarolar insonning diliga ozor berib, turli kasalliklarga sabab bo’lishi ma’lum.

Insoniyat dunyoda paydo bo’lgandan, atrof-muhitda doimiy davom etadigan fizik, biologik, kimyoviy va boshqa omillar tomonidan bo’layotgan tahdidni u o’zining organ va sezish tizimlari yordamida anglab yetadi.

Insonning terilariga, burunning ichki shilliq qavatlariga, til yuzasiga shunday sezuvchi asab (nerv) tolalari joylashganki, ular yordamida inson sovuqni, tahmni, hidni sezadi. Bunday holat odam organizmini qattiq issiqlikdan yoki qattiq sovuqlikdan asraydi. Inson o’ta issiqlikni sezib, o’zini salqinga oladigan, suv havzalarida cho’miladigan bo’ldi. Ayniqsa, yoz fasllarida iqlimga qarab kiyinadigan, sovuqda esa isinishni, issiq kiyim-kechak kiyishni, uy-xonasiga kirib uni o’tin, ko’mir yoqib isitishga urindi. O’zini muhofaza qilishga o’rgandi.

Shunday qilib, inson o’zining sezgi organ va tizimlari bilan atrof-muhit ta’sirlarini hamda organizm bilan atrof-muhit omillari orasidagi bog’lanishning borligini anglab yetdi.

Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, eng taraqqiy etgan mamlakatlarda jon boshiga har yili tabiatdan kerakli moddalarni olish uchun 30 tonna moddani qayta ishlab, uning atigi 1-1,5 foizigina iste’mol mahsulotlari sifatida foydalanilmoqda, qolganlari zararli chiqindilar sifatida yana tabiat qo’yniga tashlanmoqda. Buday hodisalar sog'lom avlodni shakllanishiga katta to’siqlar olib kelmoqda.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, inson salomatligining 50-52 foizi turmush tarziga, iste'mol qilayotgan oziq-ovqatiga, 20 foizi atrof-muhit ta'siri va 8-10 foizi tibbiy xizmat darajasiga bog'liq. Bundan ko'rinadiki, vitaminlarga boy mahsulot iste'mol qilish, sog'lom avlod va sog'lom turmush tarziga e'tiborli bo'lish sog'lom hayot kechirishning asosiy omilidir.

Binobarin, bolalar salomatligini asrash ularning vitaminga boy oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilishi, to'g'ri ovqatlanishi va sog'lom turmush tarzida muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimiz rahnamoligida aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish, bolalar salomatligini asrash, xastaliklarning oldini olish choralarini ko'rish maqsadida ko’plab loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. «Ko'krak suti bilan emizishni targ'ib qilish va qo'llab-quvvatlash», «Besh yoshgacha bo'lgan bolalar orasida A vitamini saplementatsiyasi» kabi loyihalar bolalar o'limining kamayishi, xastaliklar asoratini bartaraf etishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining “Yod etishmasligi kasalliklari profilaktikasi to'g'risida”gi hamda “Aholi o'rtasida mikronutrient etishmasligi profilaktikasi to'g'risida”gi qonunlarining qabul qilinishi aholi o'rtasida turli kasalliklar kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligidan ma'lum qilishlaricha, bolalarni emlash, ularni vitaminlar bilan ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar samarasida o'sib kelayotgan avlodning sog'lom va barkamol ulg'ayishida ulkan natijalarga erishilmoqda.

Mazkur yo'nalishdagi milliy dastur asosida 2003 yildan buyon yilda ikki marta “Bolalar salomatligi haftaligi” o'tkaziladi. Bolalarni yuqumli kasalliklarga qarshi davlat tomonidan bepul emlashning milliy taqvimi yaratilib, zamon talablari asosida yangi emlash vositalari bilan boyitilmoqda.

Yaqinda o'tkazilgan ushbu saplementatsiyaning yigirma beshinchi turi davomida mamlakatimizdagi 2,7 million bola A vitamini bilan emlandi.

A vitaminni yetishmasligi natijasida epiteliy to'qimasi zararlanadi, ko'z xiralashadi. Teri, nafas yo'llari, qovuq va ichakda salbiy o'zgarishlar paydo bo'ladi. Oziq-ovqat mahsulotlari orasida baliq moyi, sariyog', sut, tuxum sarig'i, jigar, buyrakda ushbu vitamin bor. A vitamini ko'plab kasalliklarning oldini olish va asoratini yo'qotishga xizmat qiladi. Tuzni yodlash, bolalar o'rtasida A vitamini saplementatsiyasi, homilador ayollarni polivitamin komplekslari bilan ta'minlash kabi dasturlar mikronutrientlar tanqisligi, kamqonlikning oldini olish borasidagi sa'y-harakatlar natijasida ko'plab xastaliklarning oldi olinayotgani xalqimizning sog'lom turmush kechirishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ona sog'lom bo'lsagina undan jismonan va aqlan sog'lom farzand dunyoga keladi. Shu bois ayolning bolalik, o'smirlik davridanoq reproduktiv salomatligiga katta ahamiyat berish mas'uliyatli vazifadir. Mutaxassislar tomonidan bu boradagi targ'ibot-tushuntirish ishlari muntazam olib borilayotgani aholi, ayniqsa, yosh onalarning tibbiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

**Tadqiqot natijalari.** Bu soxada jismoniy madaniyat va sport soxasidagi jamoalar va mutaxassislar ham salmoqli o’rinni yoddan chiqarmasligi zarurdir.

Sog'lom avlod haqida kim ko’proq suhbat olib boradi? Degan savolga «Jismoniy tarbiya sohasidagi o’qituvchi va murabbiylar» (55%), «Tibbiyot soha vakillari» (25%), «Ota-ona» (25%) deb javob berdilar.

Vaholanki bu savolga berilgan javoblar unchalik to’la emasligining guvohi bo’lyapmiz. Yuqoridagi qayd qilinganimizdek, Sog'lom avlod mazmunida oilada axillik, yaxshi mehnat, kayfiyatning yaxshiligi, ota-onaning sog’ligi jismonan tetik bo’lish kabi tomonlarni aytgan edik.

Ayrim kimsalar sog'lom avlod shakllanishining muhim omili badavlat bo’lish (o’g’il bolalar 20 - 30%, qizlar 50 - 60%) deb uylaydi. Mashinali bo’lish (o’g’il bolalar 60 - 70%, qizlar 40 - 50%), qimmatbaho kiyimlar kayish (40 - 50% o’g’illar , 60 - 70% qizlar) deb hisoblashadilar. Sog’lomlashtirish muammosini taklif etilgan tizim bo’yicha yechilishi XXI asr boshlarida o’z natijalarini beradi. Jamiyat hayotining barcha sohalarida aholini sog’lom turmush tarziga jalb qilish muammosi muhim ahamiyatga ega.

Jismoniy tarbiya samarali tarzda tashkil etilmasa, jismoniy tarbiya bo’yicha malakali o’qituvchilar tayyorlanmasa kelgusida millionlab bolalar jismonan sog’lom hamda zaruriy bilim va ko’nikmalarni o’zlashtirolmaydilar. O’zbekistan Respublikasida jismoniy madaniyat ta’limi tizimining taxlili shuni ko’rsatdiki, takomillashtirish jarayonini aholini jismoniy tarbiyalash tizimining boshlang’ich bo’g’imi maktabgacha bolalar muassasalaridan boshlash kerak deydi bu ham **sog'lom avlod shakllanishining muhim omilidan biri hisoblanadi.** Jismoniy madaniyat soxasida izlanishlar olib borish va tashkil etish bo’yicha tajriba amalda ko’llash borasida fanning ro’li susayib ketdi. Mazkur muammo bo’yicha uchrashuvlar, ilmiy amaliy anjumanlar, seminar, munozaralar o’tkazilmayapti. «Sog’lom avlod uchun» dasturida jismoniy madaniyatga deyarli e’tibor berilmagan. Vaholanki, faol hayot tarzi bo’lmagan hollar, o’sib kelayotgan yosh avlodni sog’lomlashtirish dasturini bajarib bo’lmaydi. Tibbiyot xasta organizmni davolaydi. Sog’lomlashtirish uchun esa jismoniy madaniyat va sport vositalari yordamida, madaniy saviyani oshirish, ijtimoiy -iqtisodiy, moddiy - texnik sharoitlarni yaxshilash olamida proflaktik ishlar olib borish kerak.

**Amalyotga tadbiq qilish.** Xulosa qilib aytganda bu kamchiliklarni jismoniy tarbiya o’qituvchisi kasbiga yangicha talqin berish orkali bartaraf etish mumkin. Fikrimizcha, quyidagi muammolarni yechish lozim:

- jismoniy madaniyat o’qituvchilarini nufuzini oshirish; - zamonaviy talablarga javob beruvchi moddiy texnik bazani tashkil etish; - Barcha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya dars soatlarini ko’paytirish.

- ta’lim tashkilotlarida sport maydonlrini kengaytrish va zamonaviy sport jihozlari bilan ta’minlash.

- umum ta’lim fanlari o’qituvchilari, o’quvchilar ota - onalariga jismoniy tarbiya borasida saboq berish, ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash jismoniy madaniyat bo’yicha va sog’lomlashtiruvchi chora - tadbirlarni o’tkazish saviyasini takomillashtirish va ularni rag’batlantirish, o’quvchilarning muhim xislatlarini rivojlantirish, rejalashtirish, kuzatish va taxlil etish, turli pedagogik usullar, amaliy ko’nikmalarni moxirona qo’llash qobilyati, muloqat qilish, xushmuomalalik, hamkorlikka, mukammalikka intilish.

**Foydalanilgan adaabiyotlar:**

1. Matkulova Ye.M. “Sog’lom – turmush tarzida jismoniy tarbiyaning ahamiyati”. T. Ibn Sino. 1991 y.

2.Sog’lom avlod tarbiyasi-buyuk davlat ko’riki zaminidir. Ilmiy - amaliy anjuman materiallari.,qism, T., O’zDJTI nashriyoti, 1994.

3.Kaplan I.M., "Jismoniy tarbiya salomatlik garovi", T., Ibn Sino, 1991.

4. Мартоненко А.В., Валентик Ю.В. и др. Формирование здорового образа жизни молодежи. М., «Медицина», 1998 г.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

14.00.00-Tibbiyot
journal.namdu.uz
MEDICAL

**Tulabayeva Gulchehra Kirgizbayevna**
NamDU Umumtibbiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
**Abdullayeva Dinora Akmaljon qizi**
**Abdulboriyeva Mashhura Yorqinjon qizi**
**Xurboyev Maxtumbek Iqboljon o‘g‘li**
NamDU talabalari

## STOMATOLOGIYADA BIOETIKAVIY MUAMMOLAR

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqola stomatologiya sohasida uchraydigan bioetikaviy muammolarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritishga bag‘ishlangan. Tadqiqot davomida stomatolog va bemor o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarning ahamiyati, bemor huquqlarini himoya qilish masalalari, davolash jarayonida xabardor rozilikni ta’minlash hamda tibbiy maxfiylikka rioya etish zarurati keng tahlil qilinadi. Shuningdek, estetik stomatologiyaning rivojlanishi bilan bog‘liq axloqiy ziddiyatlar, tijorat manfaatlari va kasbiy mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanat masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqolada stomatolog faoliyatida yuzaga keladigan axloqiy dilemmalar misolida bioetik tamoyillarning amaliy ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari stomatologik xizmat ko‘rsatishda bioetik me’yorlarga amal qilish bemor ishonchini mustahkamlash, davolash sifatini oshirish va tibbiyotning insonparvarlik mohiyatini ta’minlashda muhim omil ekanini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *bioetika, stomatologiya, tibbiy axloq, bemor huquqlari, xabardor rozilik, tibbiy maxfiylik.*

**Тулабаева Гульчехра Киргизбаевна**
Преподаватель кафедры общемедицинских наук НамГУ
**Абдуллаева Динора Акмалжон кызы**
**Абдулбориева Машхура Ёркинджон кызы**
**Хурбоев Махтумбек Икболджон оглы**
Студенты НамГУ

## БИОЭТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ В СТОМАТОЛОГИИ

***Аннотация.*** *Данная статья посвящена комплексному анализу биоэтических проблем, возникающих в стоматологической практике. В работе рассматриваются нравственно-этические аспекты взаимоотношений между стоматологом и пациентом, вопросы защиты прав пациента, необходимость получения информированного согласия, а также соблюдение медицинской конфиденциальности. Особое внимание уделяется биоэтическим трудностям, связанным с развитием эстетической стоматологии, где часто возникает противоречие между коммерческими интересами и профессиональной ответственностью врача. На примере типичных этических дилемм раскрывается практическая значимость биоэтических принципов в деятельности стоматолога. Результаты исследования подтверждают, что соблюдение биоэтических норм способствует повышению доверия пациентов, улучшению качества стоматологической помощи и укреплению гуманистических основ медицины.*

***Ключевые слова:*** *биоэтика, стоматология, медицинская этика, права пациента, информированное согласие, медицинская конфиденциальность.*

**Tulabayeva Gulchehra Kirgizbayevna**
Teacher of the Department of General Medical Sciences, NamSU
**Abdullayeva Dinora Akmaljon qizi**
**Abdulboriyeva Mashhura Yorqinjon qizi**
**Khurboyev Makhtumbek Iqboljon oglu**
Students of NamSU

**BIOETHICAL PROBLEMS IN DENTISTRY**

***Abstract***. *This article is devoted to a comprehensive analysis of bioethical issues arising in dental practice. The study examines ethical aspects of dentist–patient relationships, the protection of patient rights, the importance of obtaining informed consent, and the obligation to maintain medical confidentiality. Particular attention is paid to ethical challenges associated with the rapid development of aesthetic dentistry, where conflicts may emerge between commercial interests and professional responsibility. Through the analysis of common ethical dilemmas faced by dental practitioners, the article highlights the practical significance of bioethical principles in everyday clinical practice. The findings demonstrate that adherence to bioethical standards plays a crucial role in strengthening patient trust, improving the quality of dental care, and preserving the humanistic values of modern medicine.*

***Key words:*** *bioethics, dentistry, medical ethics, patient rights, informed consent, medical confidentiality.*

**KIRISH.** So‘nggi yillarda tibbiyot fanlari rivojlanishi bilan bir qatorda bioetika masalalariga bo‘lgan e’tibor ham keskin oshdi. Bioetika inson hayoti, sog‘ligi va qadr-qimmatiga daxldor masalalarni axloqiy me’yorlar asosida tartibga soluvchi muhim yo‘nalish sifatida shakllangan. Ayniqsa, stomatologiya sohasida bioetik tamoyillar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu yo‘nalishda shifokor va bemor o‘rtasidagi munosabatlar doimiy va bevosita bo‘ladi.

Stomatologik amaliyot nafaqat davolash, balki profilaktika, estetik muolajalar va psixologik yondashuvni ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli stomatolog bemorning nafaqat jismoniy, balki ruhiy holatini ham inobatga olishi zarur. Bemorning og‘riq sezishi, qo‘rquvi, ishonchi va kutilmalari bioetik masalalarning markazida turadi.

Bugungi kunda xususiy stomatologik klinikalarning ko‘payishi, tijorat omilining kuchayishi, estetik stomatologiyaning keng ommalashuvi bioetik muammolarni yanada murakkablashtirmoqda. Ayrim hollarda iqtisodiy manfaatlar bemorning haqiqiy ehtiyojlaridan ustun qo‘yilishi mumkin. Bu esa bioetikaning asosiy tamoyillari — zarar yetkazmaslik va adolat prinsiplariga zid hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi stomatologiya sohasida uchraydigan bioetik muammolarni aniqlash, ularni tizimli tahlil qilish va bioetik me’yorlarning amaliy ahamiyatini yoritishdan iborat.

**METODLAR.** Tadqiqot nazariy-analitik yondashuv asosida olib borildi. Maqolani tayyorlash jarayonida stomatologiya va bioetika sohasiga oid mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalar chuqur o‘rganildi. Xususan, tibbiy etika bo‘yicha monografiyalar, ilmiy maqolalar, xalqaro tibbiy axloq kodekslari va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oldi:

- bioetika tushunchasining nazariy asoslarini o‘rganish;
- stomatologiya amaliyotida uchraydigan etik muammolarni aniqlash;
- etik dilemmalarni tahlil qilish;
- umumlashtirish va xulosa chiqarish.

Mazkur metodlar yordamida stomatologiyada bioetik muammolar tizimli ravishda yoritildi va ularning sabablari hamda oqibatlari aniqlab berildi.

**NATIJALAR.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, stomatologiya sohasida bioetik muammolar bir nechta asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.

**Birinchi muhim muammo** — xabardor rozilikning yetarli darajada ta’minlanmasligi. Ba’zi stomatologik muolajalar murakkab va uzoq muddatli bo‘lishiga qaramay, bemorlarga ularning oqibatlari haqida to‘liq axborot berilmaydi. Bu esa bemorning ongli tanlov qilish huquqini cheklaydi.

**Ikkinchi muammo** — tibbiy maxfiylikning buzilishi. Stomatologik kartalar, rentgen tasvirlar va davolash rejalari shaxsiy ma’lumot hisoblanadi. Ularning ruxsatsiz tarqatilishi bioetik va huquqiy muammolarga olib keladi.

**Uchinchi muammo** — estetik stomatologiya bilan bog‘liq etik ziddiyatlar. Oqartirish, protezlash yoki kosmetik muolajalar ba’zan tibbiy zaruratsiz amalga oshiriladi. Bu esa sog‘lom to‘qimalarning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Natijalar stomatologiyada bioetik normalarga rioya etilmagan holatlar bemorlarning shifokorga bo‘lgan ishonchini kamaytirishini ko‘rsatdi.

**STOMATOLOGIK XATOLAR VA ULARNING BIOETIK OQIBATLARI**

Stomatologiya amaliyotida yuzaga keladigan xatolar nafaqat tibbiy, balki bioetik muammo sifatida ham qaraladi. Noto‘g‘ri tashxis qo‘yish, muolajani noto‘g‘ri rejalashtirish yoki asoratlar haqida bemorni oldindan ogohlantirmaslik bioetik tamoyillarning buzilishiga olib keladi.

Bunday holatlarda stomatologning asosiy bioetik majburiyati — xatoni tan olish va bemorga yetarli axborot berishdan iborat. Tibbiy xatolarni yashirish bemor ishonchini susaytiradi va tibbiyotning insonparvarlik mohiyatiga zid hisoblanadi. Shu sababli stomatologik xatolarni tahlil qilish va ulardan xulosa chiqarish bioetik madaniyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

**TAHLIL. STOMATOLOGIYA AMALIYOTIDA BEMOR BILAN MULOQOTNING BIOETIK AHAMIYATI**

Stomatologiya amaliyotida bemor bilan samarali muloqot bioetik tamoyillarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bemor bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnatilmagan holatlarda hatto texnik jihatdan to‘g‘ri bajarilgan muolajalar ham axloqiy jihatdan muammoli bo‘lishi mumkin. Bemorning qo‘rquvi, og‘riq sezish ehtimoli va psixologik holati stomatolog tomonidan inobatga olinishi zarur.

Bioetik nuqtayi nazardan, stomatolog bemorni faqat davolash obyekti sifatida emas, balki mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega shaxs sifatida ko‘rishi lozim. Ayniqsa, bolalar, keksalar va ruhiy jihatdan zaif bemorlar bilan ishlashda bioetik mas’uliyat yanada ortadi. Bunday vaziyatlarda stomatologning sabr-toqati, tushuntirish qobiliyati va empatiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Olingan natijalar bioetika stomatologiya amaliyotida nazariy tushuncha emas, balki kundalik kasbiy faoliyatning ajralmas qismi ekanini tasdiqlaydi. Bemor huquqlarini ta’minlash stomatologning asosiy axloqiy majburiyati bo‘lib, bu jarayonda shifokorning kommunikativ ko‘nikmalari muhim rol o‘ynaydi.

Estetik stomatologiya masalasida shifokor va bemor o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvi tez-tez uchraydi. Bunday vaziyatlarda stomatolog professional etikaga tayanib, bemorning uzoq muddatli sog‘ligini birinchi o‘ringa qo‘yishi zarur.

Shuningdek, stomatologiya ta’limida bioetik fanlarni kuchaytirish, real klinik holatlar asosida etik muammolarni muhokama qilish talab etiladi. Bu kelajak mutaxassislarining kasbiy mas’uliyatini oshiradi.

**ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA YANGI BIOETIK MUAMMOLAR**

Raqamli stomatologiya, sun’iy intellekt, 3D modellashtirish va telemeditsina kabi texnologiyalarning joriy etilishi yangi bioetik savollarni yuzaga keltirmoqda. Masalan, sun’iy intellekt asosida tashxis qo‘yishda javobgarlik masalasi, ma’lumotlar xavfsizligi va bemor roziligi kabi muammolar dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish stomatologik xizmat sifatini oshirsa-da, bioetik tamoyillarga rioya qilinmasa, bemor huquqlari buzilishi mumkin. Shu sababli texnologik rivojlanish bioetika bilan uyg‘unlashgan holda olib borilishi zarur.

**STOMATOLOGIYA TA’LIMIDA BIOETIKA MASALALARI**

Kelajak stomatolog mutaxassislarini tayyorlash jarayonida bioetika masalalariga yetarli e’tibor qaratish muhim hisoblanadi. Aksariyat hollarda talabalarga klinik ko‘nikmalar chuqur o‘rgatiladi, biroq axloqiy qaror qabul qilish jarayoni yetarli darajada yoritilmaydi.

Stomatologiya ta’limida bioetika fanini mustaqil fan sifatida o‘qitish, real klinik vaziyatlar asosida etik dilemmalarni muhokama qilish talab etiladi. Bu esa bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy mas’uliyatini oshiradi va bemor huquqlariga hurmat bilan yondashish ko‘nikmasini shakllantiradi.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, stomatologiyada bioetikaviy muammolar zamonaviy tibbiyot rivoji bilan chambarchas bog‘liqdir. Bioetik tamoyillarga amal qilish stomatolog va bemor o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi, davolash sifatini oshiradi va tibbiyotning insonparvarlik mohiyatini ta’minlaydi. Bioetika stomatologiya amaliyotida muhim mezon bo‘lib, kelajakda bu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar va ta’lim jarayonini yanada rivojlantirish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Beauchamp T., Childress J. Principles of Biomedical Ethics. Oxford University Press, 2019.
2. World Dental Federation (FDI). Dental Ethics Manual. Geneva, 2020.
3. Gillon R. Medical ethics: four principles. BMJ, 2018.
4. Тищенко П.Д. Биоэтика. Москва: Академический проект, 2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuni.
6. Coulthard P., Bridgman C. Ethical issues in dentistry. British Dental Journal, 2019.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

14.00.00-Tibbiyot
journal.namdu.uz
MEDICAL

**Абдусатарова Сабина Акромовна,**
Студентка 2-го курса Медицинского факультета. НамГУ
**Рустамова Шохиста Омонжановна**
PhD, Доцент кафедры Анатомии и физиологии, НамГУ

## ПРОЯВЛЕНИЯ КЕТОНУРИИ И КЕТОНЕМИИ ПРИ НАЛИЧИИ САХАРНОГО ДИАБЕТА И ГОЛОДАНИЯ, ИХ СИМПТОМЫ, ДИАГНОСТИКА И ЛЕЧЕНИЕ

***Аннотация:*** *В данной статье будут рассматриваться такие понятия как кетоны и кетоновые тела-как органические вещества, состоящие из кислорода, водорода и углерода. В нашем организме они являются важнейшими метаболитами во многих периферических тканях, в частности в сердечных и скелетных мышцах. А при голодании и диабете, мозг активно начинает использовать ацетоацетат (первичное кетоновое тело), что может привести к «Кетонурии»- состояние, при котором наблюдается повышенное содержание кетонов в моче, «Кетонемия»- повышенное содержание кетонов в крови.*

***Ключевые слова:*** *Кетоны, кетоновые тела, ацетоацетат, голодание, сахарный диабет, кетоацедоз, глюкоза, дисбаланс, ацетил-КоА, АТФ, тест Ланге, дыхание Куссмауля, кето-диета.*

**Sabina Akromovna Abdusatarova,**
second-year medical student at NamSU
**Shokhista Omonzhanovna Rustamova,**
PhD, Associate Professor, Department of Anatomy and Physiology, NamSU

## MANIFESTATIONS OF KETONURIA AND KETONEMIA IN THE PRESENCE OF DIABETES MELLITUS AND FASTING, THEIR SYMPTOMS, DIAGNOSIS, AND TREATMENT

***Annotation:*** *This article examines the concepts of ketones and ketone bodies as organic substances composed of oxygen, hydrogen, and carbon. In the human body, they are essential metabolites in many peripheral tissues, particularly in cardiac and skeletal muscles. During fasting and diabetes, the brain actively begins to utilize acetoacetate (the primary ketone body), which may lead to "Ketonuria"—a condition characterized by an increased concentration of ketones in the urine—and "Ketonemia"—an elevated level of ketones in the blood.*

***Key words:*** *ketones, ketone bodies, acetoacetate, fasting, diabetes mellitus, ketoacidosis, glucose, imbalance, acetyl-CoA, ATP, Lange test, Kussmaul respiration, ketogenic diet.*

**Sabina Akromovna Abdusatarova,**
NamDU tibbiyot fakulteti 2-bosqich talabasi
**Shoxista Omonjanovna Rustamova,**
NamDU Anatomiya va fiziologiya kafedrasi f.f.n., dotsenti

## QANDLI DIABET VA OCHLIK HOLATIDA KETONURIYA VA KETONEMIYANING NAMOYON BO‘LISHI, ULARNING SIMPTOMLARI, DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASH USULLARI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada ketonlar va keton jismlari tushunchalari ko‘rib chiqiladi — ular kislorod, vodorod va ugleroddan tashkil topgan organik moddalardir. Inson organizmida ular ko‘plab periferik to‘qimalarda, ayniqsa yurak va skelet mushaklarida muhim metabolitlar hisoblanadi. Ochlik holatida va qandli diabetda miya atsetoatsetatni (birlamchi keton jismi) faol ravishda ishlata boshlaydi, bu esa "Ketonuriya" — siydikda ketonlar miqdorining oshishi bilan kechuvchi holatga, hamda "Ketonemiya" — qonda ketonlar miqdorining oshishiga olib kelishi mumkin.*

***Kalit so‘zlar:*** *ketonlar, keton jismlari, atsetoatsetat, ochlik, qandli diabet, ketoatsidoz, glyukoza, disbalans, atsetil-KoA, ATF, Lange testi, Kussmaul nafas olishi, keto-dieta.*

**Введение:** В крови здорового человека кетоновые (ацетоновые) тела содержатся в очень небольших концентрациях. Однако при голодании, а также у лиц с тяжелой формой сахарного диабета содержание кетоновых тел в крови может повышаться до 20 ммоль/л. Это состояние носит название Кетонемии; оно обычно сопровождается резким увеличением содержания кетоновых тел в моче-Кетонурии. Например, если в норме за сутки с мочой выводится около 40 мг кетоновых тел, то при сахарном диабете содержание их в суточной порции в моче доходить до 50 г и более.

**Основная часть:** К кетоновым телам относят три соединения близкой структуры – ацетоацетат, 3-гидроксибутират и ацетон. Кетоны, или кетоновые тела, — это кислые молекулы, вырабатываемые в печени. Когда печени необходимо расщепить жиры для получения энергии, она производит кетоны в качестве побочного продукта. Это происходит, когда в организме недостаточно гормона инсулина для преобразования глюкозы в энергию. Стимулом для образования кетоновых тел служит поступление большого количества жирных кислот в печень. При состояниях, активирующих липолиз в жировой ткани, около 30% образованных жирных кислот задерживаются печенью. К этим состояниям относится голодание, сахарный диабет I типа, длительные физические нагрузки, богатая жирами диета. В обычных условиях синтез кетоновых тел также идет, хотя в намного меньшем количестве. [13, 2,1,] Мозг при нормальных условиях в качестве источника энергии использует только глюкозу (жирные кислоты не проходят через гематоэнцефалический барьер), однако в период голодания водорастворимые кетоновые тела становятся его главным источником энергии. У здоровых нормально питающихся людей кетоновые тела синтезируются только в митохондриях гепатоцитов в незначительном количестве из АцКоА, который может либо поступить в ЦТК, либо превратиться в кетоновые тела: ацетон, ацетоацетат, β-гидроксибутират. В клетках печени, при активном β-окислении, создаётся высокая концентрация НАДН, по тому большая часть ацетоацетата превращается в β-гидроксибутират. При высокой концентрации ацетоацетата часть его неферментативно декарбоксилируется с образованием ацетона, далее все три соединения поступают в кровь и разносятся по тканям, который в дальнейшем полностью удаляется из организма с потом, мочой и выдыхаемым воздухом. [13,8,18,6,7]

Используются кетоновые тела всеми тканями, кроме печени и эритроцитов. Особенно активно, даже в норме, они потребляются миокардом и корковым слоем надпочечников. Люди которые питаются сбалансированно, главным источником энергии для мозга является глюкоза. В противоположность тому, сердечная и скелетная мышцы, корковый слой почек предпочтительно используют в качестве источника ацетоацетат, а не глюкозу. При голодании и диабете, мозг начинает активно использовать ацетоацетат. Установлено, что в условиях длительного голодания 75 % потребности мозга в таком источнике удовлетворяется за счет ацетоацетата. А вот АцКоА накапливается, когда его образование превышает потребление. Повышение образования АцКоА при голодании, усиленных физических нагрузках, инсулинозависимом сахарном диабете объясняется тем, что в крови увеличивается уровень гормонов: адреналина и глюкагона и снижается уровень инсулина. [4,3,5] Если организм не получает «топливо» из глюкозы, организм активирует синтез кетоновых тел и глюконеогенеза, этот процесс наблюдается в период голодания, интенсивных физических нагрузках, нелеченном сахарном диабете. При рвоте и диарее, особенно у детей, жирные кислоты не успевают включаться в состав триацилглицеролов и липопротеиновых частиц и частично переходят в митохондрии, что приводит к увеличению синтеза кетоновых тел. При алкогольном отравлении субстратом для синтеза кетоновых тел является ацетил-КоА, синтезируемый при обезвреживании этанола. Как говорилось выше, если организму не хватает глюкозы,он использует кетоны в качестве энергии. И наличие в моче кетонов может указывать на то, что организм использует жир в качестве «топлива». В норме кетоновые тела в моче отсутствуют или определяются в следовых количествах (до 0,5 ммоль/л). А в крови так же невелико (в норме 1-3 мг/дл или до до 0,2 ммоль/л), Концентрация кетоновых тел повышается после ночного голодания до 1–2 мг/дл, после недельного голодания она составляет 20–30 мг/дл , а при тяжелых формах сахарного диабета может достигать 300–400 мг/дл. [18,13,3,7] **Кетоны в моче могут образовываться по следующим причинам Кето-диета**. Эта низкокалорийная диета заставляет организм использовать жиры и белки в качестве топлива, что приводит к образованию и выведению кетонов. **Голодание.** Длительное голодание или интервальное голодание привести к кетонурии. Во время голодания печень начинает использовать запасы жира и белка в организме для поддержания своей работы. Это приводит к образованию кетонов. **Диуретики.** Эти лекарства выводят избыток жидкости из организма. Они могут привести к обезвоживанию, что, в свою очередь, может вызвать накопление кетонов в моче.

**Сахарный диабет.** При низком уровне инсулина в организме клетки не могут запасать или использовать глюкозу для получения энергии. Это приводит к повышению уровня сахара в крови или диабету. Организм вынужден расщеплять жиры и белки для получения энергии. В результате образуются кетоновые тела в качестве отходов. Эти кетоны накапливаются в организме и могут даже попадать в кровь, вызывая диабетический кетоацидоз.

Так же причинами могут служить Чрезмерное употребление алкоголя, наркотических веществ, накопление гликогена, беременность (гормональные изменения во время беременности могут нарушить способность организма перерабатывать инсулин), стресс, операция на сердце и так далее.[3,11,16,17]
**Симптомы Кетонурии**: Кетонурия часто возникает после кетоацидоза или является его следствием. Высокий уровень кетонов в организме может быть опасен. К симптомам, на которые следует обратить внимание, относятся Жажда и обезвоживание, электролитный дисбаланс, фруктовый запах изо рта, наиболее характерное проявление повышения кетоновых тел в моче — ее специфический яблочный запах. Так же наблюдается усталость и рассеянность, рвота, частое мочеиспускание, тяжелое дыхание(дыхание Куссмауля), наличие высокого сахара в крови.[16,15]

**Диагностика**: Кетонурия определяется при выявлении кетоновых тел в моче и служит косвенным признаком повышенного кетогенеза в организме. Диагностические методы включают качественные и количественные тесты.

**Качественные методы** основаны на использовании химических реактивов, реагирующих с ацетоацетатом и ацетоном. Наиболее распространёнными являются тест-полоски для экспресс-анализа мочи, которые изменяют цвет в присутствии кетоновых тел.

**Количественные методы** включают фотометрическое определение концентрации кетоновых тел в моче, что позволяет оценить степень кетонурии. В клинической практике значения кетоновых тел в норме отсутствуют или не превышают 0,5 ммоль/л; превышение этого уровня свидетельствует о патологическом состоянии.[16,17,18]

Диагностика кетонурии применяется для контроля состояния пациентов при сахарном диабете, голодании, алкогольной интоксикации и других состояниях, сопровождающихся усиленным кетогенезом. Кроме того, результаты могут быть неточными, если у вас обезвоживание. Исследование кетоновых тел в моче проводится колориметрическими методами. В лабораториях часто прибегают к тесту Ланге, суть которого заключается в реакции нитропруссида натрия с кетонами в щелочной среде. Чем больше ацетона, тем интенсивнее проявляется красно-фиолетовая окраска. Если кетонурия выявлена у беременной женщины, особенно на поздних сроках, показано стационарное лечениею

**Результаты анализа уровня кетонов**

Используя эту таблицу, определяют, уровень кетонов в организме, чтобы принять меры.[16]

| Значение | Уровень кетонов | Что делать |
|---|---|---|
| Менее 0,6 (ммоль/л) | Нормальный | Ничего |
| от 0,6 до 1,5 ммоль/л | Низкий до умеренного | Обратитесь к врачу. |
| 1,6–2,9 ммоль/л | Высокий | Обратитесь в отделение неотложной помощи. |
| 3,0 ммоль/л или выше | Очень высокий | Обратитесь в отделение неотложной помощи. |

***Лечение кетонурии***

Кетонурия, вызванная голоданием или диетой, не требует лечения и проходит сама по себе. Но если она возникает из-за основного заболевания, это вызывает серьезную обеспокоенность.

Кетонурия у людей с диабетом лечится с помощью инъекций инсулина или внутривенных капельниц. Если кетонурия вызвана другими заболеваниями, ее можно лечить с помощью соответствующей диеты, лекарств или терапии.

Кетонурия, вызванная чрезмерным употреблением алкоголя, лечится следующими способами:

Введение внутривенных жидкостей, при этом проводится мониторинг и восполнение электролитов, внутривенные инъекции глюкоза, при необходимости или лекарственными препаратами для предотвращения тяжелых последствий алкогольной абстиненции и лекарства для предотвращения тошноты и рвоты Лечение пациентов с кетонурией, вызванной голоданием, аналогично лечению пациентов с алкогольной зависимостью. Однако врачи могут лечить пациентов с голоданием несколько иначе из-за риска осложнения, называемого синдромом возобновления питания — комплекса опасных симптомов, вызванных недостатком электролитов, который может возникнуть, когда организм пытается снова усвоить питательные вещества после голодания.[17,16]
**Симптомы Кетонемии** Кетонемия характеризуется повышением концентрации кетоновых тел в крови и может проявляться разнообразными клиническими симптомами в зависимости от выраженности процесса. На ранних стадиях так же как при кетонурии наблюдаются общая слабость, быстрая утомляемость, сонливость,

раздражительность, тошнота, рвота и снижение аппетита. Со стороны желудочно-кишечного тракта возможны боли в животе и диарея. При прогрессировании кетонемии появляется характерный фруктовый запах ацетона изо рта, учащённое глубокое дыхание (дыхание Куссмауля), а в тяжёлых случаях — головокружение, спутанность сознания и кома. Лабораторно кетонемия сопровождается повышением уровня кетоновых тел в крови (ацетоацетата, β-гидроксибутирата и ацетона) и поэтому сочетаться с кетонурией и метаболическим ацидозом. Таким образом, клинические проявления кетонемии варьируют от лёгких субъективных симптомов до тяжёлых нарушений сознания и дыхательной функции, что отражает степень накопления кетоновых тел и их влияние на метаболический статус организма. **Диагностика и лечение** проводится схоже как при Кетонурии Однако если не диагностировать и не лечить кетонурию и кетонемию ,то это может привести к различным осложнениям, к таким как [16,17,18] **Кетоацидоз** Кетоацидоз возникает, когда организм не способен использовать сахар для выработки энергии, и вместо этого начинает расщеплять жиры в качестве топлива. У людей с диабетом кетоацидоз может развиться быстро, поэтому важно распознать симптомы и действовать незамедлительно. [8] Можно выделить 2 вида кетоацидоза: Диабетический и недиабетический Диабетический кетоацидоз - вариант метаболического ацидоза, связанный с нарушением углеводного обмена, возникшего вследствие дефицита инсулина: высокой концентрацией глюкозы и кетоновых тел в крови (значительно превышающей физиологические значения), образованных в результате усиленного катаболизма жирных кислот (липолиза) и дезаминирования аминокислот. Если нарушения углеводного обмена не купируются своевременно — развивается диабетическая кетоацидотическая кома. Недиабетический кетоацидоз (ацетонеми́ческий синдро́м у детей, синдро́м цикли́ческой ацетонеми́ческой рво́ты, ацетонемическая рвота) — совокупность симптомов, обусловленных повышением концентрации в плазме крови кетоновых. Развивается в результате погрешностей в диете (длительные голодные паузы либо чрезмерное употребление в пищу жиров), а также на фоне соматических, инфекционных, эндокринных заболеваний и поражения ЦНС. Стратегические цели, которые необходимо достичь в процессе лечения ДКА, и их приоритет: 1. ликвидация дегидратации и гиповолемии; 2. ликвидация ацидоза; 3. нормализация электролитного состава сыворотки крови; 4. снижение гликемии и удержание её на оптимальном (безопасном) уровне; 5. предупреждение развития или лечение осложнений; 6. лечение сопутствующих заболеваний.[15,14,12,10,9] **Осложнения беременности** Беременность повышает резистентность к инсулину, особенно во втором и третьем триместрах. Именно гормональные изменения во время беременности запускают эту резистентность. Если уже есть диабет или диагностирован гестационный диабет, кетоны в моче могут образовываться быстрее и при более низком уровне глюкозы в крови, чем у небеременных женщин. Частая рвота во время беременности или употребление меньшего количества жидкости, особенно в последнем триместре, также могут привести к повышению уровня кетонов в моче. [16,14,

**Вывод:** Кетоновые тела, являются очень важными метаболитами в организме, которые образуются из ацетил-КоА. Кетоны являются альтернативным источником энергии, если наблюдается дефицит углеводов. Кетоны в организме выводятся из мочи и выдыхаемого воздуха. Их активный синтез наблюдается при, голодании, при физических нагрузках, сахарном диабете, обезвоживании. Что может привести к накоплению кетонов в крови и в моче, приведя к болезням Кетонурии и Кетонемии. Эти болезни несут за собой ряд осложнений начиная с отдышек, слабости, тремору конечностей до серьезных болезней таких как кетоацидоз. Наличие у человека фруктового запаха из рта, недомогания, скачков сахара в крови, указывает на повышение кетонов в организме. Для их диагностирования обязательно нужно обратиться в медицинские учреждения для сдачи тестов на мазок , тест-полоски, проведения анализа мочи. Чтобы начать своевременное лечение в виде диет, инсулиновых инъекций, и для поддержания кетонового баланса в организме.

**Список литературы**

1. Botham K. M., Mayes P. A. Oxidation of fatty acids: ketogenesis. In: Harper's Illustrated Biochemistry. 29th ed. New York: McGraw-Hill; 2012. Chapter 22, p. 185–189. https://accessmedicine.mhmedical.com/book.aspx?bookid=2386

2. Nelson D. L., Cox M. M. Lehninger Principles of Biochemistry. 7th ed. New York: W.H. Freeman and Company; 2017. Chapter 22 (Fatty acid oxidation and ketone bodies), p. 833–842.

3. Foster D. W. From glycogen to ketones and back. Diabetes. 1984;33(12):1188–1199. p. 1189–1193.

4. Veech R. L. The therapeutic implications of ketone bodies: the effects of ketone bodies in pathological conditions. Prostaglandins, Leukotrienes and Essential Fatty Acids. 2014;70(3):309–319. p. 310–314.

5. Dhillon K. K., Gupta S. Biochemistry, ketogenesis. In: StatPearls [Internet]. Treasure Island (FL): StatPearls Publishing; 2024. Available from: https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK493179/

6. Cantrell C. B., Mohiuddin S. S. Biochemistry, ketone metabolism. In: StatPearls [Internet]. Treasure Island (FL): StatPearls Publishing; 2024. Available from: https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK554523/

7. Березов Т. Т., Коровкин Б. Ф. Биологическая химия. 2-е изд. Москва: Медицина; 1990. Глава «Обмен кетоновых тел», с. 384–389. https://www.studmed.ru/berezov-tt-korovkin-bf-biologicheskaya-himiya_9b4c8f6.html

8. Лукьянчиков В. С. Кетоз и кетоацидоз: патобиохимический и клинический аспект. Русский медицинский журнал. 2004;23:1301–1306.

https://www.rmj.ru/articles/dermatologiya/Ketoz_i_ketoacidoz_Patobiohimicheskiy_i_klinicheskiy_aspekt/?utm_source=chatgpt.com

9. Levy L. J., Duga J., Girgis M., Gordon E. E. Ketoacidosis associated with alcoholism in nondiabetic subjects. Annals of Internal Medicine. 1973;78(2):213–219. p. 214–217.

10. American Diabetes Association. Diabetic ketoacidosis and hyperosmolar hyperglycemic state. Diabetes Care. 2023;46(Suppl 1):S109–S117. p. S110–S113.

11. Guyton A. C., Hall J. E. Textbook of Medical Physiology. 14th ed. Philadelphia: Elsevier; 2021. Chapter 71 (Carbohydrate and fat metabolism), p. 869–872.

12.Joslin E. P., Root H. F., White P. Joslin's Diabetes Mellitus. 11th ed. Philadelphia: Lea & Febiger; 1971. p. 196–205.

13.Московский государственный университет имени Сеченова. Лекция по биохимии. Тимин А.О.

14. Adults Can Get Type 1 Diabetes, TooWritten by Tammy Worth

Medically Reviewed by Shruthi N, MD on August 29, 2024

15. Diabetic ketoacidosis treatment&diagnosis by mayo clinic

16. "what is Ketonuria?" ritten by WebMD Editorial Contributors Medically Reviewed by Poonam Sachdev on September2024

17. Ketonuria: What You Need to Know. Medically reviewed by Judith Marcin, M.D. — Written by Noreen Iftikhar, MD — Updated on June 1, 2020

18. Ростовский Государственный Медицинский Университет Предмет: Клиническая биохимия Обмен кетоновых тел. Кетонемия, кетонурия, причины их развития

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

14.00.00-Tibbiyot
journal.namdu.uz
MEDICAL

**Sharipov G.T., Dalabayev I.J, J.Juraxanov**
NamDU tibbiyot fakulteti umumtibbiy fanlar kafedrasi
Namangan VBKTTM gastroenterologiya bo'limi

## ZAMONAVIY TEKSHIRUVLARNI AMALIYOTDAGI TADBIG'I

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada zamonaviy tekshiruv usullarining mohiyati, ularning amaliyotga joriy etilishi hamda samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy tekshiruv texnologiyalaridan foydalanish orqali jarayonlarning shaffofligini ta'minlash, aniqlik va tezkorlikni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, tekshiruv faoliyatida innovatsion yondashuvlarning o'rni va ularni qo'llashda yuzaga keladigan muammolar hamda ularning yechimlari yoritib beriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *zamonaviy tekshiruvlar, amaliyot, innovatsion texnologiyalar, samaradorlik, nazorat mexanizmlari.*

**Шарипов Г.Т., Далабаев И.Дж., Дж. Джураханов**
Кафедра общей медицины, Медицинский факультет, НамДУ
Кафедра гастроэнтерологии, Наманганский ВБКТМ

## ПРАКТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ ДИАГНОСТИКИ

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается сущность современных методов проверок, особенности их внедрения в практику и эффективность применения. Особое внимание уделяется вопросам повышения прозрачности, точности и оперативности проверочных процессов с использованием современных технологий. Также анализируется роль инновационных подходов в контрольной деятельности, возникающие проблемы и пути их решения.*

***Ключевые слова:*** *современные проверки, практика, инновационные технологии, эффективность, контрольные механизмы.*

**Sharipov G.T., Dalabaev I.D., J.Djurakhanov**
Department of General Medicine, Medical Faculty, NamSU
Department of Gastroenterology, Namangan Regional Clinical Hospital of the Ministry of Health of the Russian Federation

## PRACTICAL APPLICATION OF MODERN DIAGNOSTIC METHODS

***Annotation:*** *This article analyzes the essence of modern inspection methods, their implementation in practice, and their effectiveness. Special attention is paid to improving transparency, accuracy, and efficiency of inspection processes through the use of modern technologies. In addition, the role of innovative approaches in inspection activities, existing challenges, and possible solutions are discussed.*

***Keywords:*** *modern inspections, practice, innovative technologies, efficiency, control mechanisms.*

Kam uchraydigan (orfan) va boshka irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy va ijtimoiy yordam kursatishni yanada yaxshilash chora tadbirlari tugrisida»gi 2019 yil 7 sentyabrdagi PK-4440 –sonli karori va

Uzbekiston SSV №238 2019 yil 23.09 dagi buyrugini ijrosini ta'minlash maksadida Dastur kabul kilinib 2019-2025 yillar mobaynida tizimli isloxotlarni olib borish vazifasi kursatilgan *Dastur tomonidan kator kasalliklarni orfan kasalliklari ro'yxatiga kiritilgan bulib:

1.Pompe kasalligi 2.Goshe kasalligi 3.Fabri kasalligi 4.Krabbe kasalligi 5.Niman-Pika(A va V turlari) kasalligi Mukopolisaxaridoz 1-turi Goshe kasalligi Goshe kasalligi-metabolitlardan lizosomni ortib ketishi.Sababi defekt gen GBA lizosom fermentini kodini betta- D-glyukozidaza (glyukotserebrozidaza) yoglarni katabolizmi uchun javob beradi.Buning okibatida makrofag lizosomlarida sarflanmagan yoglarni tuplanishi Goshe xujayralarini paydo bulishiga sabab buladi.Bugungi kunda 450 ortik mutatsiyalari borligi aniklangan.

Pompe kasalligi. Kamdan kam uchraydigan autosom retsessiv –irsiy mexanizmga ega bulgan ,butun tanadagi mushak va asab xujayralarining shikastlanishi bilan kechuvchi kasallik .Kasallik klinik belgilari asta sekinlik bilan

kuchayib -avjlanib boruvchi mushaklar tonusini pasayib borishi bilan izoxlanadi.Kasallikni aktivligi alfa glyukozidaza fermentini yetishmovchiligining darajasiga boglik

**Fabri kasalligi**. Fabri kasalligida irsiy kasalliklar turiga kirib lizosom metabolitik kasallik turiga kiradi. Bemorni asosiy shikoyatida jismonan va jinsan orkada kolib ketishi oilasida genetik yetishmovchilik sababli. Ferment alfa-galaktozidaza A (AGAL) aktivligi pasaygan yoki yuk.Ferment yetishmovchiligi sababli barcha organlar tarkibidagi glikofosfolipidlarni tuplanib kolishiga va xayoti uchun xavf tugdiradi.

Nimana –Pika. *Nimana –Pika kasalligi – panetnik kasalliklar turi bulib autosom-retsessiv irsiy kasalliklardan mutatsiya okibatida lizosom ichida yoglarni transporti buzilib xolesterinni esterifikatsiyasi va glikosfingolipid almashinuvi buziladi.Okibatda xujayra xajmini ortishi va xujayrani apoptusiga olib keladi.Jigar va talok kattalashadi. Milliy registrga asosan mukovissidoz kasalligiga chalingan bolalarni maxsus dori vositalari (Dornaza-alfa) yulayzer va maxsus yukori kaloriyali ozik-ovkat maxsulotlari bilan bepul ta’minlash yulga kuyildi.»Alfare» 1 yoshgacha va 1 yoshdan yukorilarga «Peptamen yunior» ta’minlandi.

Mukopolisaxaridozlar(MPS) – metabolitik buzilish okibatida yuzaga kelgan irsiy kasalliklar guruxi. Metabolizm glikozaminoglikan (GAG) multiorganlar zararlanishi okibatida vujudga keladi.

Mukopolisaxaridoz 1 tip. Mukopolisaxaridozlar(MPS) – nasldan utuvchi lizosom tuplanishi kasalligi.Barcha bemorlar MPS-1 tipida alfa- L-iduroni- daza yetishmovchiligi sababli mukopolisaxaridlarni yigilib glikozaminglikan (GAG) tuplanishiga sabab buladi.

*Amaliyotdan olingan natija: -Bemor N.A. 9 oylik e’tiborli jixatlari:*
*-Karindoshlik nikoxidan tugilgan gudak,*
*-Uzok davom etgan neonatal sariklik,*
*-Yukori nafas yullarini tez-tez retsidivli kechuvchi kasalliklari (zotiljam)*
*-Gudakning ichi kotishiga moyilligi(najas yogliligi)*
*-tana vaznining yetarli ortmasligi*
*-Gudak terisining shur ta’m ekanligi(solyoniy vkus)*
*-Terining tarkibidagi xlor mikdorining ortib ketishi*
*-Genetik tekshiruvda Xromosom mutatsiyasining mavjudligi (oltin koida)*
*-Ona va bola skrining markazida mutaxassislar tomonlaridan tugma irsiy kasallik Mukovissidoz aralash formasi Ye84.8 MKB -10 tashxisining tasdikdlanganligi.*
*MKB-10 buyicha kodi E76.0 - Mukopolisaxaridoz I tip.*
*Klinik belgilari buyicha Mukopolisaxaridoz I tipini 3 xil shakli tafovut kilinadi.*
*- MPS I - H sindrom Gurler;*
*- MPS I - H/S sindrom Gurler-Sheye;*
*- MPS I - S sindrom Sheye. *E 76.1 - Mukopolisaxaridoz II tip*
*E 76.2 - Mukopolisaxaridoz III tip*

Bugungi kunda respublika mikyosida orfan kasalliklarini erta aniklash maksadida Tandem sinamasini yulga kuyilgan.Buning uchun viloyat bolalar shifoxonasi tomonidan taxmin kilingan bemor bolalarni chukurlashtirilgan tibbiy kurikdan utkazish va oltin koidaga asoslangan sinama olish orkali tashxislanadi.Davlat dasturi buyicha bajarilgan davolash va diagnostik xarojatlarni bepul bajari -ladi.2024 yil davomida viloyat buyicha 600 nafar bolalardan olingan kon namuna-sidan 6 nafaridan orfan kasalliklari aniklangan.2025 yildan 1800 nafar bolalardan kon namunasini olish rejalashtirilgan .

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mixaylova S.V.Zaxarova Ye.Yu Neyrometabolicheskiye zabolevaniye u detey i podrostkov.ye izdaniye M.Littera2017

2.Krabbe K/ A newfamilial infanileform of diffusebrain-sclerosis. Brain. 1916:39:74-114

3.Suzuki. K.Suzuki Y Globoid cell leukodystrophy(Krabbes disease): deficiency of galactocerebroide b -galactosidase. Proc.Natl.Acad.Sci. USA 1970:66:302-309.

4.Nujniy E.P Yuvenilnaya forma bolezni Krabbe opisaniye klinicheskogo sluchay 2018.

5.Spada M. BaronR The effect of enzymereplacement therapy on clinical outcomes in pediatric patients with Fabry disease-A systematic literaturereviev by a European panel of experts || Mol Genet Metab Rep 2019 V 19 P100454

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

14.00.00-Tibbiyot
journal.namdu.uz
MEDICAL

**Zakirova Umida Irkinovna**
**Mahkamov Mansurjon Mahmudjonovich**
Toshkent davlat tibbiyot universiteti

## NAMANGAN VILOYATIDA BEMORLARDA NOSPESIFIK YARALI KOLIT RIVOJLANISHINING MOLEKULYAR-IRSIY JIHATLARI.

***Rezyume:*** *Nospetsifik yarali kolit (NYK) kechishining og'irligi, asoratlarning chastotasi va mehnatga layoqatli aholining nogironligi bo'yicha ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari ichida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Molekulyar-genetika, klinik va immunologik tadqiqotlarni tahlil qilish asosida Namangan viloyati aholisida NYK shakllanishi va klinik kechishini erta bashorat qilish yondashuvlarini ishlab chiqish. Yarali kolit bilan og'rigan bemorlarda* IL17A *genining 197G>A (rs2275913) polimorfizmi bo'yicha allellar va genotiplar taqsimlanishi o'rganildi. Ushbu polimorfizm NYK kasalligining yosh yoshda (20–35 yosh) boshlanishi bilan bog'liqligi aniqlandi. Shuningdek,* IL17A *genining 197G>A (rs2275913) polimorfizmi A alleli bo'yicha gomozigot holatda bo'lishi kasallik kechishining og'irligi bilan bog'liq ekanligi qayd etildi.*

***Kalit so'zlar:*** *yarali kolit, gen, polimorfizm, sitokinlar, genetika.*

**Закирова Умида Иркиновна**
**Махкамов Мансурджон Махмуджонович**
Ташкентский государственный медицинский университет

## ОСОБЕННОСТИ МОЛЕКУЛЯРНО–ГЕНЕТИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ПРИ РАЗВИТИИ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ПАЦИЕНТОВ В РЕГИОНЕ НАМАНГАНА.

***Резюме:*** *Неспецифический язвенный колит (НЯК) занимает одно из ведущих мест среди заболеваний органов пищеварения вследствие тяжести течения, высокой частоты осложнений и значительного вклада в формирование инвалидности среди трудоспособного населения. На основе анализа молекулярно-генетических, клинических и иммунологических исследований разработаны подходы к раннему прогнозированию формирования и клинического течения НЯК у населения Наманганской области. Изучены распределение аллелей и генотипов по полиморфизму 197G>A (rs2275913) гена IL17A у больных с НЯК. У пациентов НЯК полиморфизм 197G>A (rs2275913) гена IL17A ассоциирован дебютом заболевания НЯК в молодом возрасте (20-35 лет).Отмечено влияние полиморфизма гена 197G>A (rs2275913) гена IL17A в гомозиготном состоянии по аллелю А на тяжесть течения НЯК.*

***Ключевые слова:*** *язва, колит, ген, полиморфизм, цитокины, генетика*

**Zakirova Umida Irkinovna**
**Mahkamov Mansurjon Mahmudjonovich**
Tashkent State Medical University

## MOLECULAR GENETIC ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF ULCERATIVE COLITIS IN PATIENTS IN THE NAMANGAN REGION.

***Abstract:*** *Ulcerative colitis (UC) occupies one of the leading positions among diseases of the digestive system due to its severe course, high frequency of complications, and significant contribution to disability among the working-age population. Based on the analysis of molecular genetic, clinical, and immunological studies, approaches for early prediction of the development and clinical course of UC in the population of the Namangan region have been developed.*

*The distribution of alleles and genotypes of the IL17A gene polymorphism 197G>A (rs2275913) was studied in patients with UC. This polymorphism was found to be associated with an early onset of UC in young adults (20–35 years). A significant influence of the homozygous A allele of the IL17A gene polymorphism 197G>A (rs2275913) on the severity of the clinical course of UC was also observed.*

***Key words:*** *ulcer, colitis, gene, polymorphism, cytokines, genetics*

Bugungi kunda nospetsifik yarali kolit (NYK) o‘smirlar va yoshlar orasida yuqori darajada tarqalgan kasallik hisoblanadi. Nospetsifik yarali kolit (NYK) kechishining og‘irligi, asoratlarning chastotasi va mehnatga layoqatli aholining nogironligi bo‘yicha ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari ichida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. NYK immun tizimi va genetik moyillik o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirga asoslangan kasallikdir. Ushbu kasallik Namangan hududida ko‘p uchrayotgani, tashxis tasdiqlangandan keyin shifoxonaga kasallikdan butkul qutilish maqsadida bemorlar qayta-qayta murojaati har qanday shifokorni o‘ylantirib qo‘yadi. Bu borada immunogenetik aspektlar juda ahamiyatli hisoblanadi. NYK prognozini aniqlash kasallikning diagnostika bosqichida, davolash usuli va algoritmini tanlashda muhim vazifadir. Ko‘pincha muvaffaqiyatsiz patogenetik davolash kasallikning rivojlanishiga, hayot uchun xavfli asoratlar ichakdan qon ketish, yo‘g‘on ichakning toksik kengayishi va teshilishi, kolorektal rak, jarrohlik davolash xatari bilan yoshlarning nogironligiga olib keladi [5,6,7,8,9].

Prognostik nuqtai nazardan, kasallikning tabiati va og‘irligi, asosiy davolanishga qarshilik shakllanishi va hayotga xavf tug‘diradigan asoratlarning rivojlanishi aniqlangandan boshlab dastlabki yillarda NYK kechishini baholash muhimdir. So‘ngi yillarda kasallik rivojlanishining genetik determinantlarini va dori terapiyasiga javobni o‘rganishga qiziqish ortdi. Eng ko‘p o‘rganilgan genetik omillar orasida mikrodeletsiya va genomga qo‘shilish bilan bog‘liq bo‘lgan yagona nukleotid polimorfizmlari mavjud bo‘lib, ular kasallikning individual xususiyatlarini belgilovchi omillardan biri ekanligiga ishoniladi va ularning aniqlanishi kasallikning prognozini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Genetik moyillik bir o‘zi yetarli emas. Tashqi omillar (infektsiyalar, stress, antibiotiklar, mikrobiota o‘zgarishi) bilan birgalikda ishga tushadi. Mikrobiomning o‘zgarishi immun tizimni o‘zgarishiga majbur qiladi, natijada autoimmun jarayon boshlanadi.

NYKda sitokin produktsiya mahsuloti – interleykin 1 β, IL 5, IL 6, IL 8, IL 13, IL 17, IL 23, o‘simta nekroz omili (TNF $\alpha$) ishlab chiqarilishi ko‘payadi. Hozirgi vaqtda sitokin va ularning retseptorlari “genlarning funktsional polimorfizmi”ni o‘rganishga katta qiziqish mavjud. Sitokin genlarining ekspressiyasiga javoban antigenlarning qo‘zg‘alishi va to‘qimalarning shikastlanishi boshlanadi [11,12,13,14].

Hozirgi tushunchalarga ko‘ra, ushbu kasallikning patogenezi molekulyar genetik omillar, mahalliy va tizimli immunitetning buzilishi kabi bir qancha omillarni o‘z ichiga oladi. Shuni ta’kidlash kerakki, mavjud mahalliy va xalqaro adabiyotlarda turli genetik omillar va sitokinlarni o‘rganishga katta e’tibor qaratilgan. Biroq, YK bilan og‘rigan bemorlarning molekulyar genetik va sitogen holati haqidagi ma’lumotlar cheklangan va qarama-qarshi. Bugungi kunga kelib, genetik immunologik omillar asosida NYK kechishini bashorat qilish uchun ko‘plab modellar ishlab chiqilgan. Kundalik klinik amaliyotda ulardan foydalanish patologiya kechishining ma’lum bir variantini rivojlanishini bashorat qilish va davolash samaradorligini oshirish va asoratlarni oldini olish, har bir bemor uchun aniq terapiya hajmini individullashtirish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda nospetsifik yarali kolit (NYK) rivojlanishining genetik determinantlari, kasallikning progressiyalanishi hamda dori vositalari bilan davolashga javobini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Eng keng o‘rganilayotgan genetik omillar qatoriga genomda nuqtaviy almashinishlar yoki mikrodeletsiyalar va insertsiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan bir nukleotidli polimorfizmlar (Single Nucleotide Polymorphism, SNP) kiradi [2, 4].

**Tadqiqotning maqsadi:** молекулyar-genetika va klinik tadqiqotlarni tahlil qilish asosida Namangan viloyati aholisida NYK shakllanishi va kechishini erta bashorat qilish yondashuvlarini ishlab chiqish. NYAK bilan og‘rigan bemorlarda *IL17A* genining 197G>A (rs2275913) polimorfizmi bo‘yicha allellar va genotiplar taqsimlanishi o‘rganildi.

Tadqiqotning maqsadga erishish uchun kasallik rivojlanishida, asoratlarning paydo bo‘lishida va endoskopik rasmning xususiyatlarida bemorlarning immunologik holatida genetik omillarning roli aniqlanishi ko‘zda tutiladi. Yarali kolit bilan og‘rigan bemorlarda IL 17A genining 197G>A (rs2275913) polimorfik lokuslarining allel va genotip chastotalari aniqlanadi.

**Tadqiqot materiallari va usullari.** Tadqiqotlar Namangan shahridagi 1-son markaziy shifoxonasining gastroenterologiya bo‘limida nospetsifik yarali kolit (NYK) bilan og‘rigan bemorlar ishtirokida o‘tkazildi. *IL17A* genining 197G>A (rs2275913) polimorfizmi bo‘yicha allellar va genotiplar taqsimlanishini aniqlashga qaratilgan molekulyar-genetik tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya va qon quyish ilmiy-amaliy tibbiyot markazida 2025 yil davomida amalga oshirildi.

Tadqiqot doirasida klinikada davolangan, yoshi 18 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan «Nospetsifik yarali kolit» tashxisi qo‘yilgan 60 nafar bemor klinik tekshiruvdan o‘tkazildi va davolandi. Nazorat guruhini shu yoshdagi, somatik kasalliklari bo‘lmagan va tekshiruvga yuborilgan 45 nafar shartli sog‘lom shaxslar nazorat guruh tashkil etdi. Barcha bemorlarda standart klinik va instrumental tekshiruvlar o‘tkazildi. Nospetsifik yarali kolit tashxisi 10-Xalqaro kasalliklar tasnifining ko‘rib chiqilgan talqini (МКБ-10) hamda klinik ishchi tasnif asosida qo‘yildi. Asosiy kasallik kechishiga ta’sir etuvchi qo‘shimcha patologiyalari mavjud bo‘lgan hamda kasallik asoratlangan shaklda kechgan shaxslar tadqiqotdan chiqarib tashlandi.

Molekulyar-genetik tadqiqotlar bemorlardan olingan venoz qon namunalarida o‘tkazildi. «SNP-ekspress» reaktivlar majmuasi (Rossiyaning «Litex» kompaniyasi ishlab chiqarishi) yordamida leykotsitar fraksiyadan genomik DNK namunalari ajratib olindi. Tadqiqot qilinayotgan polimorfizmlarni o‘z ichiga olgan genomik DNK uchastkalarini amplifikatsiya qilish polimeraz zanjir reaksiyasi (PZR) texnologiyasi asosida amalga oshirildi.

Olingan ma’lumotlarga statistik ishlov berish «Statistica 6.0 for Windows» va «Microsoft Excel» dasturiy paketlari yordamida bajarildi. $p<0,05$ bo‘lganda farqlar statistik jihatdan ishonchli deb hisoblandi, $0,05\leq p\leq 0,15$ qiymatlar farqlanishga moyillik sifatida baholandi. Genotiplar va allellar taqsimlanishi Xardi–Vaynberg muvozanati qonuniga mos keldi.

**Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi**: Nospesifik yarali kolit bilan og‘rigan bemorlarning yosh va jins bo‘yicha tahlili shuni ko‘rsatdiki, 60 nafar bemorning 27 tasi (45 %) ni ayollar, 33 nafari (55 %) ini esa erkaklar tashkil etdi. Nazorat guruhida esa 42,3 % erkaklar, 57,7 % ayollar qayd etildi.




***№1 Rasm.***

Tekshiruvdan o‘tgan bemorlar orasida NYK kasalligining o‘tkir kechishi 46,7 % hollarda kuzatilgan, shuningdek, surunkali, surunkali takrorlanuvchi va cho‘zilgan kechish mos ravishda 30,1 %, 8,9 % va 13,3 % bemorlarda aniqlangan. Kasallikning boshlanish yoshi bemorlarning 62,8 % da 21–35 yoshga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, bu butun dunyo bo‘yicha kuzatilayotgan tendensiyaga mos keladi [3, 11]. 60 bemordan 11 nafari (15 %) asosiy kasallik tufayli nogironlikka ega. Tadqiqotimizda birinchi simptomlar paydo bo‘lgan va tashxis qo‘yilgan vaqt oralig‘i o‘rtacha 2 yilni tashkil qilgan.

60 nafar NYK bilan og‘rigan bemorlar orasida yallig‘lanish jarayonining joylashishi bo‘yicha tekshiruvda quyidagi natijalar kuzatildi: total kolit 11 bemorda (18,3 %), 3 bemorda (5 %) total kolit retrograd ileit, subtotal kolit 19 bemorda (31,6 %), distal kolit esa 27 bemorda (45 %) aniqlangan.

Tadqiqotga kiritilgan vaqtda kasallik davomiyligi bo‘yicha surunkali uzluksiz kechish 36 bemorda (60 %), takrorlanuvchi kechish esa 21 bemorda (35 %) kuzatilgan. Ichakdan tashqari simptomlar 24 bemorda (47,5 %) aniqlangan: aftoz stomatit (3,3 %), tugunli eritema (1,6 %), gangrenoz piodermiya 3 bemor (5 %). Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu sistemik simptomlar kam uchraydigan holatlarga kiradi va aniqlangan ko‘rsatkichlar umumjahon tendensiyalarga mos keladi [20]. Artropatiya 4 bemorda (6,66 %), jigar shikastlanishi (avtoimmun gepatit, o‘tkinchi transaminazlarning oshishi, gepatomegaliya) 2 bemorda (3,33 %), jigar-tosh kasalligi 7 bemorda (11,6 %), buyrak-tosh kasalligi 2 bemorda (3,33 %) aniqlangan. Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu ichakdan tashqari simptomlar ko‘proq uchraydigan holatlarga kiradi.

NYAK bilan og‘rigan bemorlar, nazorat guruhi va bemorlar guruhi orasida *IL17A* genining 197G>A (rs2275913) polimorfizmi bo‘yicha allellar va genotiplar taqsimlanishi Hardy–Weinberg muvozanatiga (HWM) muvofiqligi bo‘yicha tekshirildi. Tadqiqot qilingan NYAK bemorlar guruhida A/A noqulay genotipining kuzatilgan chastotasi kutilgan qiymatlarga nisbatan oshish tendensiyasini ko‘rsatdi (mos ravishda 0,05 % ga nisbatan 0,13 %) (jadval 1). Ushbu genotipning kuzatilgan taqsimlanishi kutilgan chastotalarga mos kelmadi ($P<0,05$).

C/C normal genotipining kuzatilgan chastotasi nazariy qiymatga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori bo‘lmadi (0,68 ga nisbatan 0,60; $P>0,05$). G/A heterozigot genotipi uchun nazariy heterozigotlik darajasi juda yuqori aniqlangan (mos ravishda 0,19 va 0,35). Heterozigot va “yovvoyi” tipdagi genotiplar orasidagi kuzatilgan nomuvofiqlik, bolalarda tadqiq qilingan polimorfizm bo‘yicha genotiplar taqsimlanishida normal populyatsiya taqsimotidan potentsial chekinishni ko‘rsatadi.

Bolalikda A/A genotipining hetero- va gomozigot chastotasi kutilgan qiymatdan oshishi mumkin. Biz shuni taxmin qildikki, agar ushbu genotiplar umr davomiyligi bilan salbiy korrelyatsiyaga ega bo‘lsa, ularning ulushi kattaroq yosh guruhlarida kamayishi mumkin va populyatsiyada G/A va A/A genotiplariga ega shaxslar foizi kamayadi, shu bilan birga “yovvoyi” tipdagi genotip (G/G) ulushi ortadi. Shu sababli, 197G>A polimorfizmi bo‘yicha kuzatilgan natijalar kutilgan natijalarga yaqinroq bo‘ladi.

Boshqa tomondan, *IL17A* genining 197G>A (rs2275913) polimorfizmi bo‘yicha allellar va genotiplar taqsimlanishi nazorat guruhida ham Hardy–Weinberg muvozanatiga (HWM) mosligi bo‘yicha tekshirildi. Jadval 1 dan ko‘rinib turibdiki, tadqiq qilingan nazorat guruhida 197G/A (rs2275913) polimorfizmi A/A noqulay genotipining juda past chastotasi bilan xarakterlangan. Populyatsiya guruhida A/A noqulay genotipining kutilgan va kuzatilgan chastotalari o‘rtasida aniq farqlar bo‘lishiga qaramay (mos ravishda 0,04 va 0,02), statistik tahlil shuni ko‘rsatdiki, bu farqlar ishonchli emas (P>0,05) (jadval 1).

G/G genotipining kuzatilgan chastotasi nazariy qiymatga nisbatan statistik jihatdan ozgina yuqori bo‘lib chiqdi (mos ravishda 0,76 va 0,75; P>0,05). G/A heterozigot genotipining chastotasi nazorat guruhida kutilgandan ozgina yuqori bo‘lib, 0,20 va 0,23 % ga teng edi ($\chi^2$=0,42; P>0,05).

**Jadval 1**

***Yarali kolit bilan og‘rigan bemorlarda IL17A genining 197G>A (rs2275913) polimorfizmi bo‘yicha allellar va genotiplar taqsimlanishi***

| Asosiy guruh | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Allellar | Allellar chastotasi | | | | |
| C | 0,69 | | | | |
| G | 0,18 | | | | |
| **Генотипы** | Genotiplar chastotasi | | $\chi^2$ | p | df |
| | kuzatiladigan | kutiladigan | | | |
| C/C | 0,59 | 0,7 | 1 | | |
| C/G | 0,17 | 0,29 | 6,23 | | |
| G/G | 0,15 | 0,03 | 10,48 | | |
| Jami | 1 | 1 | 16,71 | -0,12 | 1 |
| Nazorat guruhi | | | | | |
| Allellar | Allellar chastotasi | | | | |
| C | 0,79 | | | | |
| G | 0,13 | | | | |
| Genotiplar | Genotiplar chastotasi | | $\chi^2$ | p | df |
| | Kuzatiladigan | kutiladigan | | | |
| C/C | 0,8 | 0,69 | 0,04 | | |
| C/G | 0,19 | 0,21 | 0,39 | | |
| G/G | 0,03 | 0,06 | 1,32 | | |
| Jami | 1,02 | 1 | 1,75 | 0,167 | 1 |
| Guruhlar | Ho | He | D* | | |
| Asosiy guruh | 0,17 | 0,29 | -0,41 | | |
| Nazorat guruhi | 0,19 | 0,21 | -0,09 | | |

*IL17A* geni rs2275913 (197G>A) polimorfizmining genotipi NYAK bilan og‘rigan va deyarli sog‘lom shaxslarda Hardy–Weinberg muvozanatiga mosligi ($\chi^2$ testi, df=1) Eslatma: D = (Ho - He)/He

Asosiy va nazorat guruhlarida kuzatilgan (empirik) va kutilgan (nazariy) natijalar o‘rtasidagi farqlarni taqqoslash asosida shuni aniqlash mumkinki, kuzatilgan va kutilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasida tafovut mavjud bo‘lishiga qaramay, ushbu farqlar statistik ahamiyatga ega emas ($\chi^2$ < 3,84; p > 0,05). Bu esa tadqiqot davomida olingan natijalar Hardy–Vaynberg qonuniga mos kelishini va olingan ma’lumotlarning ishonchliligini tasdiqlaydi.

**Xulosa**

1. Nospetsifik yarali kolit bilan og‘rigan bemorlarda **IL17A** genining 197G>A (rs2275913) polimorfizmi kasallikning yosh davrda (20–35 yosh) boshlanishi bilan bog‘liqligi aniqlandi.

2. **IL17A** genining 197G>A (rs2275913) polimorfizmining A alleli bo‘yicha gomozigot holati nospetsifik yarali kolitning kechish og‘irligiga ta’sir ko‘rsatishi qayd etildi.

3. G alleli himoya omili sifatida NYK rivojlanish xavfini kamaytiradi, A alleli esa kasallik rivojlanish xavfini oshiradi.

Shu tariqa, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida nospesifik yarali kolit (NYaK) bilan og‘rigan bemorlarda **IL17A** geni 197G>A (rs2275913) polimorfizmining patogenetik ahamiyati tahlil qilindi. Shanslar nisbati (OR — *Odds Ratio*), ya’ni asosiy guruhda muayyan klinik natijaning rivojlanish ehtimolligining nazorat guruhidagi ehtimollikka nisbati sifatida hisoblanadigan ko‘rsatkich asosida, yovvoyi tipdagi **G** allelini tashuvchi shaxslarda kasallik rivojlanish ehtimoli statistik jihatdan ishonchli ravishda 50% ga kamaygani aniqlandi (OR = 0,50; 95% CI: 0,30–0,92; $\chi^2$ = 5,0; p = 0,05). Bu holat **G** allelining NYaK rivojlanishida statistik jihatdan ahamiyatli himoyalovchi rolga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Boshqa tomondan, **IL17A** geni 197G>A polimorfizmidagi minor **A** alleli kasallik rivojlanish xavfini statistik jihatdan ahamiyatli darajada 90% ga oshirishi aniqlandi (OR = 1,90; 95% CI: 1,08–3,29; $\chi^2$ = 5,0; p = 0,05) va u NYaK rivojlanishining muhim xavf omili sifatida baholandi.

Nospesifik yarali kolitning poligen xususiyatini hisobga olgan holda, kasallik prognozini aniqlash, davolash samaradorligini baholash hamda genotiplash natijalarini inobatga olgan holda bemorlarni individual boshqarish algoritmlarini ishlab chiqish uchun sitokin genlari polimorfizmlarining ta’sirini yanada chuqur o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Vorobyeva I.L., Khalifa. *Nonspecific Inflammatory Bowel Diseases*. Moscow: Miklosh, 2008.
2. Mahkamov M.M., Zakirova U.I. Clinical and prognostic significance of CRP and ESR in UC patients. *Research Focus / ResearchBip*, 2025;4(6):69–78.
3. Mahkamov M., Zakirova U. Extraintestinal manifestations of ulcerative colitis and immunogenetic associations in pathogenesis. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2025;(10):1306–1311.
4. Kornbluth A., Sachar D.B. Ulcerative colitis practice guidelines in adults. *American Journal of Gastroenterology*. 2010;105:501–523.
5. Duggan J.M., Duggan A.E., eds. *The Epidemiology of Alimentary Diseases*. Netherlands: Springer; 2006.
6. **Podolsky D.K.** Inflammatory bowel disease. *New England Journal of Medicine*. 2002;347(6):417–429.
7. **Ordás I., Eckmann L., Talamini M., Baumgart D.C., Sandborn W.J.** Ulcerative colitis. *The Lancet*. 2012;380(9853):1606–
8. **Kobayashi T., Siegmund B., Le Berre C. et al.** Ulcerative colitis. *Nature Reviews Disease Primers*. 2020;6:74.
9. **Xavier R.J., Podolsky D.K.** Unravelling the pathogenesis of inflammatory bowel disease. *Nature*. 2007;448(7152):427–
10. **Neurath M.F.** Cytokines in inflammatory bowel disease. *Nature Reviews Immunology*. 2014;14(5):329–342.
11. **Fujino S., Andoh A., Bamba S. et al.** Increased expression of interleukin-17 in inflammatory bowel disease. *Gut*. 2003;52(1):65–70.
12. **Ivanov I.I., McKenzie B.S., Zhou L. et al.** The orphan nuclear receptor RORγt directs the differentiation program of proinflammatory IL-17+ T helper cells. *Cell*. 2006;126(6):1121–1133.
13. **Yang X.O., Chang S.H., Park H. et al.** Regulation of inflammatory responses by IL-17F. *Journal of Experimental Medicine*. 2008;205(5):1063–1075.
14. **Espinoza J.L., Takami A., Nakata K. et al.** A genetic variant in the IL-17 promoter is functionally associated with susceptibility to ulcerative colitis. *Inflammatory Bowel Diseases*. 2011;17(4):E38–E39.
15. **Zhang Z., Zheng M., Bindas J. et al.** Critical role of IL-17 receptor signaling in acute TNBS-induced colitis. *Inflammatory Bowel Diseases*. 2006;12(5):382–388.
16. **Duerr R.H., Taylor K.D., Brant S.R. et al.** A genome-wide association study identifies IL23R as an inflammatory bowel disease gene. *Science*. 2006;314(5804):1461–1463.
17. **McGovern D.P.B., Kugathasan S., Cho J.H.** Genetics of inflammatory bowel diseases. *Gastroenterology*. 2015;149(5):1163–1176.
18. **Korn T., Bettelli E., Oukka M., Kuchroo V.K.** IL-17 and Th17 cells. *Annual Review of Immunology*. 2009;27:485–517.
19. **Abdullaev R.Y., Karimov M.M.** Nospetsifik yarali kolitda immunologik mexanizmlar. *Tibbiyot jurnali*. 2019;4:45–51.
20. **World Gastroenterology Organisation (WGO).** Ulcerative colitis practice guidelines. 2022.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

14.00.00-Tibbiyot
journal.namdu.uz
MEDICAL

**Zakirova Umida Irkinovna**
Tibbiyot fanlari doktori, TMA "Bolalar kasalliklari va oilaviy tibbiyot" kafedrasi dotsenti
E-mail: umidazakirova765@gmail.com
ORCID profili: https://orcid.org/0000-0002-0401-0375
https://doi.org/10.5281/zenodo.16755143
**Maxkamov Mansurjon Maxmudjonovich**
Namangan shahar 1-son shifokhonasi gastroenterologiya bulimi mudiri
. ORCID profili: https://orcid.org/0009-0001-1716-8059
e-mail: mansurjonmaxkamov44@gmail.com
UDK 618.146-006.6:616-036.22(575.1)
**Ismailova Sh.T., Xamrakulova G.Z.**
Farg'ona xalqaro nodavlat tibbiyot universiteti

# REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLAR O'RTASIDA PAPILLOMA VIRUSI BACHADON BO'YNI SARATONINING ASOSIY ETIOLOGIK OMILI (FARG'ONA SHAHRI MISOLIDA)

***Annotatsiya:*** *Maqolada Farg'ona shahri misolida reproduktiv yoshdagi ayollar o'rtasida bachadon bo'yni saratonini skrining qilish samaradorligi tahlil qilingan. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimida qo'llanilayotgan sitologik tekshiruv, sirka kislotasi bilan vizual ko'rik hamda VPCH-testlash usullari o'rganildi. Tadqiqot natijalari profilaktik ko'riklar qamrovini kengaytirish va VPCHga yo'naltirilgan skriningni joriy etish zarurligini ko'rsatadi.*
***Kalit so'zlar:*** *bachadon bo'yni saratoni, skrining, VPCH, reproduktiv yosh, Farg'ona.*

**Закирова Умида Иркиновна**
Доктор медицинских наук, доцент кафедры «Детская медицина и семейная медицина» ТМА
**Махкамов Мансуржон Махмуджонович**
Заведующий гастроэнтерологическим отделением городской больницы № 1 Намангана
**Исмаилова Ш.Т., Хамракулова Г.З.**
Ферганский международный негосударственный медицинский университет

# ВИРУС ПАПИЛЛОМЫ ЯВЛЯЕТСЯ ОСНОВНЫМ ЭТИОЛОГИЧЕСКИМ ФАКТОРОМ РАКА ШЕЙКИ МАТКИ У ЖЕНЩИН РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА (НА ПРИМЕРЕ ГОРОДА ФЕРГАНА).

***Аннотация:*** *В статье анализируется эффективность скрининга рака шейки матки среди женщин репродуктивного возраста на примере города Фергана. Изучены методы цитологического исследования, визуального исследования с уксусной кислотой и тестирования на ВПЧ, используемые в системе первичной медико-санитарной помощи. Результаты исследования указывают на необходимость расширения масштабов профилактических обследований и внедрения скрининга, ориентированного на выявление ВПЧ.*
***Ключевые слова:*** *рак шейки матки, скрининг, ВПЧ, репродуктивный возраст, Фергана.*

**Umida Irkinovna Zakirova**
MD, Associate Professor, Department of Pediatric and Family Medicine, TMA
**Mansurzhon Makhmudzhanovich Makhkamov**
Head of the Gastroenterology Department, Namangan City Hospital No. 1
**Sh. T. Ismailova, G. Z. Khamrakulova**
Fergana International Non-State Medical University

**THE HIPPOVID VIRUS IS THE MAIN ETIOLOGICAL FACTOR OF CERVICAL CANCER IN WOMEN OF REPRODUCTIVE AGE (USING THE EXAMPLE OF THE CITY OF FERGANA).**

***Annotation:*** *This article analyzes the effectiveness of cervical cancer screening among women of reproductive age using the example of Fergana city. Modern screening methods applied in primary health care, including cytological examination, visual inspection with acetic acid, and HPV testing, were assessed. The findings highlight the need to expand screening coverage and introduce HPV-based screening to improve early detection of precancerous conditions.*

***Keywords:*** *cervical cancer, screening, HPV, women of reproductive age, Fergana.*

**Kirish.** Bachadon bo‘yni saratoni ayollar o‘rtasida eng keng tarqalgan onkologik kasalliklardan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, mazkur kasallik asosan reproduktiv yoshdagi ayollarda uchrab, mehnatga layoqatli aholi salomatligiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. RSHMning asosiy etiologik omili inson papilloma virusi hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. So‘nggi yillarda bachadon bo‘yni saratonini erta aniqlash va oldini olish masalasi jahon sog‘liqni saqlash tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, bachadon bo‘yni saratoni ayollar o‘rtasida onkologik kasalliklar orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi va kasallik holatlarining asosiy qismi rivojlanayotgan mamlakatlarga to‘g‘ri keladi [1,2].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson papilloma virusi bachadon bo‘yni saratonining asosiy etiologik omili hisoblanadi. HPV 16 va 18 tiplari barcha holatlarning taxminan 70 foiziga sabab bo‘ladi [6,8]. Shu bois zamonaviy skrining dasturlarida VPCHni erta aniqlashga qaratilgan testlar keng qo‘llanilmoqda.

Arbyn va hammualliflar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda VPCH-DNK testlash sitologik usulga nisbatan yuqori sezgirlikka ega ekanligi isbotlangan [4]. Ronco va Dillner ishlarida esa VPCH-asosidagi skrining dasturlari bachadon bo‘yni saratoni insidenti va o‘lim ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada kamaytirishi ta’kidlangan [5].

Kam ta’minlangan hududlarda vizual inspeksiya (VIA) usulidan foydalanish skrining qamrovini oshirish imkonini berishi mumkin, biroq uning spesifikligi pastligi sababli noto‘g‘ri ijobiy natijalar uchrashi ehtimoli yuqori [7]. Shu munosabat bilan ko‘plab mualliflar VIA usulini VPCH yoki sitologiya bilan birgalikda qo‘llashni tavsiya etadi.

Canfell va Perkins tadqiqotlarida skrining dasturlarining samaradorligi aholi qamrovi, tashkiliy mexanizmlar va tibbiy xodimlar malakasiga bevosita bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan [10,11]. Bu holat ayniqsa o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun dolzarb hisoblanadi.

UNFPA va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi hisobotlarida mamlakatda bachadon bo‘yni saratonini skrining qilish tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirilayotgani, biroq hududlar kesimida qamrov va samaradorlikda farqlar mavjudligi qayd etilgan [13,14]. Shu nuqtai nazardan, Farg‘ona shahri misolida skrining samaradorligini o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

**Materiallar va metodlar.** Tadqiqotda analitik va statistik usullar qo‘llanildi. Farg‘ona shahridagi birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarining 2022–2025 yillar hisobot ma’lumotlari tahlil qilindi. Skrining qamrovi, aniqlangan patologik holatlar ulushi va yo‘naltirish samaradorligi baholandi.

Natijalar: 1-jadvalda Farg‘ona shahrida reproduktiv yoshdagi ayollar o‘rtasida skrining qamrovi ko‘rsatilgan.

Natijalar va taxlil. Farg‘ona shahrida reproduktiv yoshdagi ayollar o‘rtasida bachadon bo‘yni saratoni skrining qamrovi 2022–2025 yillarda sekin-asta oshganligi kuzatildi. Jadval ma’lumotlariga qaraganda:

**1-jadval.**

**Reproduktiv yoshdagi ayollar o‘rtasida skrining qamrovi**

| Yil | Tekshirilgan ayollar (%) | Patologiya aniqlangan (%) |
|---|---|---|
| 2022 | 28,5 | 4,1 |
| 2023 | 31,2 | 4,6 |
| 2024 | 35,8 | 5,3 |
| 2025 | 38,9 | 5,9 |

2022 yilda tekshirilgan ayollar ulushi 28,5% ni tashkil qilgan bo‘lsa, patologiya aniqlangan holatlar foizi 4,1% ni tashkil qilgan. Keyingi yillarda tekshirilgan ayollar ulushi va patologiya aniqlangan foiz mos ravishda 2023 yilda 31,2% va 4,6%, 2024 yilda 35,8% va 5,3%, 2025 yilda 38,9% va 5,9% ga oshgan.

Bu natijalardan ko‘rinib turibdiki, skrining qamrovi yildan-yilga o‘sib borayotganiga qaramasdan, hali ham aholi o‘rtasida yetarli darajada emas. Patologiya aniqlanish foizi ham umumiy qamrovga mos ravishda ortib bormoqda, bu esa erta bosqichda patologik holatlarni aniqlash samaradorligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, olingan natijalar VPCH-oriyentirlangan skriningni joriy etish va aholi qamrovini yanada kengaytirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Skrining jarayonida tibbiy xodimlarning malakasini oshirish va profilaktikaga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni keng tarqatish orqali bachadon bo‘yni saratonini erta aniqlash imkoniyati sezilarli darajada oshishi mumkin.

**Xulosa.** Farg‘ona shahrida bachadon bo‘yni saratoni skriningi samaradorligini oshirish uchun aholi qamrovini kengaytirish, tibbiy xodimlarning malakasini oshirish va VPCHga asoslangan skriningni joriy etish maqsadga muvofiq.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. World Health Organization. Global strategy to accelerate the elimination of cervical cancer. Geneva, 2021.
2. World Health Organization. Cervical cancer screening guidelines. Geneva, 2022.
3. Bray F., Laversanne M., Weiderpass E. Global cancer statistics 2022. CA: A Cancer Journal for Clinicians, 2022.
4. Arbyn M., Smith S.B., Temin S. HPV-based cervical cancer screening. The Lancet, 2020. https://doi.org/10.1016/S0140-6736(20)30551-2
5. Ronco G., Dillner J. Efficacy of HPV screening. BMJ, 2022. https://doi.org/10.1136/bmj-2021-067783
6. Schiffman M., Castle P.E. Human papillomavirus and cervical cancer. New England Journal of Medicine, 2022.
7. Sankaranarayanan R. Screening for cervical cancer in low-resource settings. International Journal of Gynecology & Obstetrics, 2021. https://doi.org/10.1002/ijgo.13619
8. Vaccarella S., Franceschi S. HPV prevalence and cervical cancer risk. Vaccine, 2021.
9. Bosch F.X., de Sanjose S. Prevention of cervical cancer. Journal of Clinical Virology, 2020.
10. Canfell K. Cervical screening effectiveness. Nature Reviews Clinical Oncology, 2021. https://doi.org/10.1038/s41571-021-00503-2
11. Perkins R.B. Advances in cervical cancer screening. Obstetrics & Gynecology, 2022.
12. Curry S.J. Screening for cervical cancer: US recommendations. JAMA, 2021. https://doi.org/10.1001/jama.2021.1668
13. UNFPA Uzbekistan. National cervical cancer screening program report. Tashkent, 2023.
14. Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan. Oncology statistics report. Tashkent, 2024.
15. European Commission. Europe’s Beating Cancer Plan: Cervical cancer screening. Brussels, 2021.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

14.00.00-Tibbiyot
journal.namdu.uz
MEDICAL

**Kozirahimova Nargiza Kodirjonovna**
Namangan State University General Medicine
Department of Sciences instructor
**Abdssattorova Oypopuk Lazizjon kizi**
2nd year pediatrics student at Namangan State University
**Turgunov Shukhratillo Khasanovich,**
student of Namangan State University, Faculty of Medicine

## THE ROLE OF THE CLINICAL PSYCHOLOGIST IN THE PRIMARY HEALTHCARE SYSTEM: THE NEED AND PROSPECTS FOR IMPLEMENTATION IN THE ACTIVITIES OF POLYCLINICS

***Abstract:*** *The article examines the role of the clinical psychologist in the primary healthcare system (PHC) as one of the key links in interdisciplinary interaction in modern healthcare. The relevance of the topic is due to the increasing prevalence of psychosomatic disorders, anxiety-depressive states, chronic stress, and emotional exhaustion among the population, as well as the increasing workload on primary care physicians. In the context of outpatient care, it is the clinical psychologist who is capable of ensuring the early detection of psychological and mental disorders, preventing their chronicity, and increasing patients' adherence to treatment. The annotation emphasizes that the inclusion of a clinical psychologist in the activities of polyclinics contributes to improving the effectiveness of the treatment and diagnostic process, reducing the frequency of unjustified appeals to doctors of a somatic profile, and optimizing the routing of patients. Special attention is paid to the functions of a clinical psychologist in PHC, such as psychodiagnostics, psychological counseling, patient psycho-education, participation in rehabilitation programs, and prevention of mental disorders.*

***Keywords:*** *Clinical psychologist, primary health care, polyclinic, psychosomatic disorders, interdisciplinary interaction, biopsychosocial approach, patient psychological support.*

**Козирахимова Наргиза Кодиржоновна**
Наманганский государственный университет, отделение общей медицины
Преподаватель факультета естественных наук
**Абдссатторова Ойпопук Лазижон кизи**
Студентка 2-го курса педиатрии Наманганского государственного университета
**Тургунов Шухратилло Хасанович,**
студент Наманганского государственного университета, медицинский факультет

## РОЛЬ КЛИНИЧЕСКОГО ПСИХОЛОГА В СИСТЕМЕ ПЕРВИЧНОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ: НЕОБХОДИМОСТЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПОЛИКЛИНИК

***Аннотация:*** *В статье рассматривается роль клинического психолога в системе первичной медико-санитарной помощи (ПМСП) как одного из ключевых звеньев междисциплинарного взаимодействия в современном здравоохранении. Актуальность темы обусловлена растущей распространенностью психосоматических расстройств, тревожно-депрессивных состояний, хронического стресса и эмоционального истощения среди населения, а также увеличением рабочей нагрузки на врачей первичного звена. В контексте амбулаторной помощи именно клинический психолог способен обеспечить раннее выявление психологических и психических расстройств, предотвратить их хронизацию и повысить приверженность пациентов лечению. В примечании подчеркивается, что включение клинического психолога в деятельность поликлиник способствует повышению эффективности лечебно-диагностического процесса, снижению частоты необоснованных обращений к врачам с соматическим профилем и оптимизации маршрутизации пациентов. Особое внимание уделяется функциям клинического психолога в ПМСП, таким как психодиагностика, психологическое консультирование, психообразование пациентов, участие в реабилитационных программах и профилактика психических расстройств.*

***Ключевые слова:*** *клинический психолог, первичная медико-санитарная помощь, поликлиника, психосоматические расстройства, междисциплинарное взаимодействие, биопсихосоциальный подход, психологическая поддержка пациентов.*

**Introduction:** The modern healthcare system is characterized by a steady increase in the number of visits by the population to primary healthcare facilities, which is due to both demographic changes and an increase in the prevalence of chronic somatic and psychosomatic diseases. In the context of polyclinical practice, primary care physicians are increasingly encountering patients whose clinical picture includes pronounced psychological and emotional components that significantly affect the course of the underlying disease, treatment effectiveness, and quality of life. According to domestic and foreign studies, a significant portion of patients applying to polyclinics exhibit symptoms of anxiety, depression, adaptation, and somatoform disorders, which often remain undiagnosed and do not receive timely psychological assistance. The lack of systematic psychological support in primary healthcare leads to the chronicity of conditions, an increase in the frequency of repeated visits, a decrease in adherence to treatment, and the overload of doctors of a somatic profile.

**Current state of primary health care and mental health of the population:** Primary health care is the foundation of the healthcare system and the first level of public contact with medical services. It is at the PHC level that early diagnosis of diseases, prevention, dispensary observation, and patient routing are carried out. In modern conditions, a significant burden is placed on the primary level due to the increase in the number of patients with chronic diseases, the aging of the population, and the increase in socio-psychological risk factors. One of the characteristic features of the current stage of PHC development is the high prevalence of psychological and mental disorders among polyclinic patients. Anxiety and depressive disorders, adaptation disorders, chronic stress, emotional exhaustion, as well as psychosomatic conditions often accompany somatic diseases and significantly influence their course. At the same time, psychological factors are often disguised as somatic complaints, which makes it difficult to identify them in a timely manner in conditions of limited doctor's appointment time. Primary care physicians, including therapists, general practitioners, and narrow specialists, in most cases focus primarily on the somatic aspect of the disease. Lack of time, high workload, and lack of specialized training in clinical psychology limit the physician's ability to identify and correct psycho-emotional disorders. As a result, patients with unrecognized psychological problems repeatedly seek medical help, undergo numerous examinations without receiving adequate psycho-correctional support. The current socio-economic conditions, high rates of life, instability, information overload, and the consequences of global crises contribute to the increase in the level of anxiety and stress disorders among the working-age population. At the same time, there is an increase in the number of elderly patients with cognitive and emotional impairments, which further complicates the tasks of primary healthcare and requires a comprehensive interdisciplinary approach. Thus, the current state of PHC is characterized by a pronounced imbalance between the somatic orientation of medical care and the real psychosocial needs of patients. The lack of systematic integration of psychological care into the polyclinic link reduces the effectiveness of the treatment process, increases the economic costs of healthcare, and negatively affects the quality of life of patients. Under these conditions, the need to include a clinical psychologist in the primary healthcare structure as a specialist capable of ensuring the early detection of psychological disorders, preventing their chronicity, and supporting patients in the early stages of seeking medical care becomes apparent.

**The place and functions of a clinical psychologist in the primary healthcare system**

The clinical psychologist holds a special place in the primary healthcare system, ensuring the integration of the psychological component into the medical care process. His activity is aimed at implementing a biopsychosocial model of health, within which mental, psychological, and social factors are considered as integral elements of the patient's general condition alongside somatic indicators. In the structure of PHC, the clinical psychologist acts as a first contact specialist for patients with pronounced psycho-emotional difficulties, psychosomatic complaints, and adaptation disorders. It ensures early detection of psychological and borderline mental disorders, preventing their progression, and timely referral of the patient to relevant specialists when necessary. Thus, the clinical psychologist performs an important diagnostic and preventive function. The main functions of a clinical psychologist in the PHC system include conducting clinical and psychological diagnostics using validated methods aimed at assessing the emotional state, level of anxiety and depression, cognitive functions, personal characteristics, and mechanisms of psychological adaptation. Diagnostic results allow the physician to gain a holistic understanding of the patient's condition and consider psychological factors when choosing treatment tactics. A similarly important function is the psychological counseling of patients who come to the clinic with somatic complaints accompanied by emotional stress, fear of illness, disruption of compliance, and decreased motivation for treatment. The clinical psychologist contributes to the formation of an adequate attitude towards the patient's illness, increasing their responsibility for their own health, and actively participating in the treatment and rehabilitation process.

Psycho-preventive and psycho-educational work occupies an important place in the activities of a clinical psychologist. It includes informing patients about the impact of psychological factors on their health, teaching stress resistance, self-regulation, and adaptive behavior, as well as participating in preventive programs aimed at preventing the development of mental and psychosomatic disorders. In addition, the clinical psychologist performs a consultative

function in relation to medical personnel, participating in interdisciplinary interaction with primary care physicians. It can provide methodological support in communicating with "difficult" patients, preventing professional burnout among healthcare workers, and optimizing physician-patient interaction. Thus, the clinical psychologist in the PHC system is an important participant in the treatment process, ensuring a comprehensive approach to the patient's health. Its functions extend beyond individual consultation and include diagnostic, preventive, rehabilitation, and interdisciplinary activities, which significantly increases the effectiveness and quality of medical care at the polyclinic level.

**Problems and barriers in implementing a clinical psychologist in outpatient practice**

Despite the obvious need to integrate the clinical psychologist into the primary healthcare system, the process of its implementation in clinical practice is accompanied by a number of organizational, personnel, and regulatory problems. These barriers significantly limit the possibilities of providing comprehensive medical care and slow down the development of an interdisciplinary approach in healthcare. One of the key problems is the insufficient regulatory and legal framework for the clinical psychologist's activities in the polyclinic. In a number of medical organizations, there are no clearly defined job responsibilities, workload standards, and algorithms for interaction between clinical psychologists and primary care physicians. This leads to the blurring of the specialist's professional role, a decrease in the effectiveness of their work, and underestimation of the significance of psychological assistance in the structure of PHC. A significant barrier remains the staff shortage of clinical psychologists who have training focused specifically on medical, not just consultative or pedagogical activities. The insufficient number of specialists capable of working in polyclinic conditions, as well as limited opportunities for their professional growth and supervision support, reduce the attractiveness of this area and hinder the sustainable implementation of clinical psychology in the primary level. Organizational difficulties are also related to the high workload of polyclinics and the lack of conditions for conducting full-fledged psychological diagnostics and counseling. Limited reception time, lack of specially equipped offices, and insufficient integration of a psychologist into the treatment and diagnostic process hinder the systematic provision of psychological assistance to patients. A separate problem is the insufficient level of awareness of doctors and patients about the capabilities and functions of a clinical psychologist. Medical staff often perceive a psychologist as an auxiliary specialist not involved in clinical decision-making, while patients may show a cautious or stigmatized attitude towards seeking psychological help. This reduces the frequency of referrals to a clinical psychologist and limits the effectiveness of their work. Financial and economic factors also play a significant role in the process of introducing a clinical psychologist to the polyclinic. The lack of clear mechanisms for financing psychological assistance within the mandatory health insurance system and the limited budget of medical organizations lead to reduced rates and instability in the employment of specialists. Thus, the problems of introducing a clinical psychologist into clinical practice are complex and require a systematic solution at the organizational, regulatory, and personnel levels. Overcoming these barriers is a necessary condition for the full implementation of the biopsychosocial approach and improving the quality of primary health care..

**Conclusion:** Thus, a modern clinic can no longer function effectively without considering the patients' psychological state. The majority of primary care requests are related to stress, anxiety, emotional stress, and psychosomatic manifestations that significantly affect the course of diseases and treatment outcomes. In these conditions, the clinical psychologist becomes a necessary specialist in the primary healthcare system. Including a clinical psychologist in the work of the polyclinic allows for the timely identification of psychological problems, reduces the workload on doctors, and improves the overall quality of medical care. Despite the existing organizational and personnel difficulties, the development of this area is promising and requires the systematic introduction of clinical psychology into the primary healthcare system.

**References:**

1.Engel G. L. *The Need for a New Medical Model: A Challenge for Biomedicine.* — Science, 1977.

2.American Psychiatric Association. *DSM-5: Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders.* — Washington, DC: APA Publishing, 2013.

3.Carr A. *The Handbook of Adult Clinical Psychology: An Evidence-Based Practice Approach.* — London: Routledge, 2016.

**Internet resources:**

4.World Health Organization. Mental health in primary care.

5.National Institute of Mental Health (NIMH). Mental health information and research.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

14.00.00-Tibbiyot
journal.namdu.uz
MEDICAL

**Niyozov Erkin Dilmurodovich**
Osiyo xalqaro universiteti, texnika fanlari nomzodi, professor
**Sa'dullayeva Sitora Murodullayevna**
Osiyo xalqaro universiteti, farmatsiya ta'lim yo'nalishi IV kurs talabasi
e-mail: sitorasa'dullayeva37@gmail.com

## DALACHOY (*HYPERICUM PERFORATUM L.*) DORIVOR O'SIMLIGIDAN BIOLOGIK FAOL MODDALARNI AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASI VA UNI FARMATSEVTIKA AMALIYOTIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI

***Annotatsiya.*** *Maqolada dorivor dalachoy (Hypericum perforatum L.) o'simligining biologik va farmakologik xususiyatlari, geografik tarqalishi, kimyoviy tarkibi hamda biologik faol moddalarini zamonaviy ekstraksiya texnologiyalari yordamida ajratib olish usullari ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi Shuningdek, o'simlik tarkibidagi giperitsin, giperforin, flavonoidlar, fenol kislotalar, taninlar va efir moylarining farmakologik ahamiyati yoritildi. Dalachoy asosida ishlab chiqariladigan fitopreparatlar antidepressant, yallig'lanishga qarshi, antioksidant va antimikrob vosita sifatida zamonaviy tibbiyotda keng qo'llanilishi ko'rsatildi. Respublikamiz sharoitida ushbu o'simlikni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish farmatsevtika sanoatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Dalachoy, Hypericum perforatum, giperitsin, giperforin, flavonoidlar, ekstraksiya, fitopreparat, dorivor o'simlik, antioksidant, antidepressant.*

**Niyozov Erkin Dilmurodovich**
Asian International University, PhD of Technical Science, Professor
**Sa'dullayeva Sitora Murodullayevna**
Asian International University, IV year student in pharmacy education

## DALACHOY (*HYPERICUM PERFORATUM L.*) DORIVOR O'SIMLIGIDAN BIOLOGIK FAOL MODDALARNI AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASI VA UNI FARMATSEVTIKA AMALIYOTIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI

***Abstract.*** *This article analyzes the biological and pharmacological properties, geographical distribution, chemical composition, and modern extraction technologies of biologically active compounds from Hypericum perforatum L. based on scientific literature. Particular attention is paid to hypericin, hyperforin, flavonoids, phenolic acids, tannins, and essential oils, which determine the pharmacological activity of the plant. Preparations obtained from Hypericum perforatum possess antidepressant, anti-inflammatory, antioxidant, antimicrobial, and wound-healing effects, making them valuable in modern phytotherapy. The development of cultivation and processing technologies for this medicinal plant in Uzbekistan may significantly contribute to the pharmaceutical industry and the production of high-quality herbal medicines.*

***Keywords:*** *Hypericum perforatum, St. John's Wort, hypericin, hyperforin, flavonoids, extraction, medicinal plant, phytopharmaceuticals, antioxidant, antidepressant.*

**Ниёзов Эркин Дилмуродович**
Азиатский международный университет, доктор технических наук, профессор
**Саадуллаева Ситора Муродуллаевна**
Студент IV курса фармацевтического образования Азиатского международного университета

## ДАЛАЧОЙ (*ГИПЕРИКУМ ПЕРФОРАТУМ L.*) ТЕХНОЛОГИЯ ИЗВЛЕЧЕНИЯ БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ ВЕЩЕСТВ ИЗ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕЁ ПРИМЕНЕНИЯ В ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ

***Аннотация.*** *В статье рассмотрены биологические и фармакологические свойства лекарственного растения Hypericum perforatum L., его географическое распространение, химический состав, а также современные технологии извлечения биологически активных веществ. Особое внимание уделено гиперицину, гиперфорину, флавоноидам, фенольным*

*кислотам, дубильным веществам и эфирным маслам, определяющим фармакологическую активность растения. Показано, что препараты на основе зверобоя обладают антидепрессивным, противовоспалительным, антиоксидантным и антимикробным действием. Совершенствование технологий выращивания и переработки данного растения способствует развитию фармацевтической промышленности и производству импортозамещающих фитопрепаратов.*

***Ключевые слова:*** *зверобой продырявленный, Hypericum perforatum, гиперицин, гиперфорин, флавоноиды, экстракция, фитопрепараты, лекарственные растения, антиоксидант, антидепрессант.*

**Kirish.** So‘nggi yillarda butun dunyoda tabiiy dorivor o‘simliklardan tayyorlanadigan fitopreparatlarga bo‘lgan talab jadal ortib bormoqda **[1,3,4].** Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko‘ra, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining katta qismi birlamchi davolash vositasi sifatida dorivor o‘simliklardan foydalanadi **[1].** Buning asosiy sabablari ularning tabiiyligi, biologik xavfsizligi, nojo‘ya ta'sirlarining nisbatan kamligi hamda iqtisodiy samaradorligidir **[1,3].** O‘zbekiston Respublikasida ham dorivor o‘simliklarni ko‘paytirish, ularni sanoat miqyosida yetishtirish va chuqur qayta ishlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda **[8,9,11].** Mahalliy xomashyo asosida import o‘rnini bosuvchi dori vositalarini ishlab chiqarish farmatsevtika sanoatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi **[8].**

Shunday istiqbolli dorivor o‘simliklardan biri dalachoy (*Hypericum perforatum* L.) bo‘lib, u Hypericaceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘t o‘simligidir **[3,12].** Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida u antidepressant, antiseptik, yallig‘lanishga qarshi, antioksidant va yara bitkazuvchi vosita sifatida keng qo‘llaniladi **[2,5,6,14].** So‘nggi yillarda ushbu o‘simlik tarkibidagi biologik faol moddalarni zamonaviy ekstraksiya usullari orqali ajratib olish va farmatsevtik preparatlar yaratish bo‘yicha ilmiy izlanishlar sezilarli darajada kengaydi **[5,13].**

**Dalachoy (***Hypericum perforatum L.***) ning kelib chiqishi va geografik tarqalishi.** Dalachoy (*Hypericum perforatum L.*) **Hypericaceae** oilasiga mansub ko‘p yillik dorivor o‘simlik bo‘lib, insoniyat tomonidan qadim zamonlardan buyon xalq tabobati va an’anaviy tibbiyotda qo‘llanib kelinadi.[3,4] Uning tabiiy vatani Yevropa, G‘arbiy Osiyo va Shimoliy Afrika [2,3,12]hisoblanadi. Hozirgi kunda esa u mo‘tadil iqlim mintaqalarining deyarli barchasida, jumladan Markaziy Osiyo, Rossiya, Ukraina, Xitoy, Hindiston, Kanada, AQSh va Avstraliyada keng tarqalgan [2,3]. O‘zbekiston hududida dalachoy asosan Toshkent, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va tog‘oldi hududlarida tabiiy holda uchraydi. Bundan tashqari, dorivor xomashyo olish maqsadida fermer xo‘jaliklari va ilmiy tajriba maydonlarida madaniy holda yetishtirilmoqda [9,11]. Dalachoy quyosh nuri yaxshi tushadigan, unumdor, yaxshi drenajlangan qumoq va qumloq tuproqlarda yaxshi rivojlanadi [9,10]. Dengiz sathidan 500 – 2500 metr balandlikdagi hududlarda tabiiy populyatsiyalari ko‘proq uchraydi.

Tadqiqot materiallari. Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida dorivor o‘simliklar farmakognoziyasi, farmakologiyasi va fitokimyosi bo‘yicha mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi [1-14]. Tadqiqotda **FAO**, **WHO**, **European Medicines Agency (EMA)**, **United States Pharmacopeia (USP)** hamda so‘nggi yillarda **Scopus** va **Web of Science** bazalarida chop etilgan ilmiy maqolalar ma’lumotlaridan foydalanildi [1,2,13,14]. Dalachoy tarkibidagi biologik faol moddalar, ularning farmakologik ta’siri, ekstraksiya usullari va yetishtirish agrotexnologiyasi qiyosiy tahlil, ilmiy umumlashtirish hamda bibliografik tahlil metodlari asosida o‘rganildi. Biologik faol moddalarni ajratib olish texnologiyalarini baholashda suvli, etanol, metanol va superkritik karbonat angidrid ($CO_2$) ekstraksiyasi bo‘yicha ilmiy natijalar taqqoslandi [5,13].

Botanik tavsifi. Dalachoy (***Hypericum perforatum L.***) ko‘p yillik o'tsimon dorivor o‘simlik bo‘lib, balandligi odatda **30 – 100 sm** ga yetadi [3,12]. Ildiz tizimi yaxshi rivojlangan bo‘lib, asosiy ildizdan ko‘plab yon ildizlar hosil bo‘ladi. Poyasi tik o‘suvchi, silindrsimon, yuqori qismida kuchli shoxlangan va ikki bo‘ylama qirraga ega. Barglari oddiy, bandsiz, qarama-qarshi joylashgan, cho‘ziq tuxumsimon yoki elliptik shaklda bo‘ladi. Barg plastinkasida yorug‘likka tutganda mayda shaffof nuqtalar ko‘rinadi [12]. Bu nuqtalar efir moyi va biologik faol moddalarni saqlovchi bezlar hisoblanadi. Aynan shu belgisi tufayli o‘simlik "**perforatum**" (teshikchali) nomini olgan. Gullari oltinsariq rangli bo‘lib, beshta toj bargidan iborat. Gullarning chetlarida qora rangli bezchalar joylashgan bo‘lib, ularda giperitsin pigmenti to‘planadi [5,13]. Changchilari juda ko‘p sonli bo‘lib, uchta to‘plam hosil qiladi. Mevasi ko‘p urug‘li kapsula bo‘lib, urug‘lari mayda, jigarrang va yuqori unuvchanlikka ega. Gullash davri may oyining oxiridan avgust oyigacha davom etadi. Dorivor xomashyo sifatida gullashning boshlanish davrida o‘simlikning yuqori 20 – 30 sm qismi yig‘ib olinadi [2,8,14].

